ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI

ILMIY AXBOROTNOMA 2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY

4

journal.namdu.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

Bosh muharrir
Turg‘unov Sobitxon Toshpo‘latovich
Pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir
Rasulov A’zamjon Avazjonovich
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mas’ul muharrir o‘rinbosari
Imomov Otabek Normirzayevich
Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Texnik muharrir
Xoshimov Sardorbek Nozimjon o‘g‘li

“NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ” 2019-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan quyidagi fan sohalari bo‘yicha OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

01.00.00-Fizika-matematika fanlari (14)
02.00.00-Kimyo fanlari (18)
03.00.00-Biologiya fanlari (17)
09.00.00-Falsafa fanlari (24)
10.00.00-Filologiya fanlari (26)
13.00.00-Pedagogika fanlari (30)

Tahrir hay’ati a’zolari

Fizika-matematika fanlari:

Xatamov Nosirjon Muydinovich, fizika-matemetika fanlari doktori, dotsent
Abdulazizov Baxromjon Toshmirza o‘g‘li, fizika-matemetika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Iskandar Abu-aliyevich, fizika-matemetika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Dexqonov Farrux Nuriddin o‘g‘li, fizika-matemetika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Boytillayev Dilmurod Axmataliyevich, fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Baymatov Paziljon Jamoldinovich, fizika-matemetika fanlari nomzodi, dotsent
Davlatov Abror Borijon o‘g‘li, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dotsent
Inoyatov Shukurillo Turg‘unboyevich, fizika-matemetika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Jalolov Ravshan Maxmudjonovich, fizika-matemetika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Xolboyev Azamat G‘anisherjon o‘g‘li, fizika-matemetika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Maxammadaliyev Muxtor Tursunmuxammad o‘g‘li, fizika-matemetika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Kimyo fanlari:

Abdullayev Shavkat Vaxidovich, kimyo fanlari doktori, professor
Sultonov Boxodir Elbekovich, kimyo fanlari doktori, professor
Karimov Abdurashid Musaxonovich, kimyo fanlari doktori, professor
Xolmatov Dilshod Sottorjonovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Tulqinjon Abdusattor o‘g‘li, texnika fanlari nomzodi, dotsent
Muradov Murod Toxirjonovich, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Biologiya fanlari

Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, biologiya fanlari doktori, professor, akademik
Dexqonov Davron Burxanovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Batoshov Avazbek Risqulovich, biologiya fanlari doktori, professor
Turginov Orzimat Turdimatovich, biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Komilov Doniyor Jo‘rayevich, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Egamberdiyev Mehmonjon Xudoyberdiyevich, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o‘g‘li, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Texnika fanlari

Ataxanov Shuhrat Nuriddinovich, texnika fanlari doktori, professor
Abdullayev Olim Gulamjanovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Dadaxanov Musoxon Xoshimxonovich, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Jo‘rayev Sherali Umarjonovich, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Qishloq xo‘jaligi fanlari

Sulaymonov Inomjon Jamoldinovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent
Turg‘unov Muzaffar Mirzaraxmatovich, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Tarix fanlari

Rasulov Abdullajon Nuritdinovich, tarix fanlari doktori, professor
Dexkanov Narimon Burxonjonovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Haydaraliyev Shuhrat Abdulazizovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Madraximov Zoxid Sharofovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xalmuratov Baxtiyor Rejavaliyevich, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Erqo‘ziyev Anvarjon Ashurovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
To‘xtabayev A’zamjon Sharipxo‘jayevich, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega.

Ilmiy axborotnomaning 2025-4-soni NamDU Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2025-yil 30-apreldagi 5-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga tavsiya etilgan (Bayonnoma № 5).

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Jurnal har oyda o'zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.

Maqolalar quyidagi rasmiy web sahifa orqali qabul qilinadi:
journal.namdu.uz

Tahririyat manzili:
Namangan shahar, Bobur shox ko'chasi, 161-uy
e-mail: science@namdu.uz

Iqtisodiyot fanlari

Mahmudov Bahriddin Jo'rayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Baymirzayev Dilmurod Nematovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yoqubjonova Xulkaroy Yoqubovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Falsafa fanlari

Talapov Baxriddin Alijanovich, falsafa fanlari doktori, professor
Jo'rayev Ro'zimat To'xtasinov, siyosiy fanlari doktori, professor
Gaffarova Gulchehra Gulamjanovna, falsafa fanlari doktori, professor
G'apparov Elyorjon Otabekovich, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Sodirjonov Muxriddin Maxamadaminovich, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Muydinova Moxira Mukumjanovna, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Filologiya fanlari

Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich, filologiya fanlari doktori, professor
Jafarov Botir Sattarovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sadikov Zoxid Yaqubjanovich, filologiya fanlari doktori, professor
Dosbayeva Nargiza Turg'unpo'latovna, filologiya fanlari doktori, professor
Tojiboyev Ilxomjon Usmonovich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Karimova Farida Isakovna, filologiya fanlari doktori, dotsent
Siddiqov Qosimjon Abilovich, filologiya fanlari nomzodi, professor
Darvishov Ibroxim O'rmanovich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yuldashev Otabek Toshpulat o'g'li, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Geografiya fanlari

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich, geografiya fanlari doktori, dotsent
Nazarov Abdug'affor Abdujabborovich, geografiya fanlari doktori, dotsent
Mirzaaxmedov Xamidullo Saydamatovich, geografiya fanlari nomzodi, dotsent
Soliyev Iqboljon Raxmonberdiyevich, geologiya-minerologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Pedagogika fanlari

Asqarova O'g'iloy Mamashakirovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Xujamberdiyeva Shaxnoza Kupaysinovana, pedagogika fanlari doktori, professor
Muminova Dilafro'z Akbaraliyevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent
Ismoilov Turobjon Umirzaqovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Hamidova Muxayyoxon Obidovna, filologiya fanlari nomzodi, professor
Shodmanov Qodirjon Odilxanovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Toshibekova Munojat Xoshimovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Inamov Dilmirza Dedamirzayevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Madaminov Baxodir Sharifjonovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Urinov Bahrom Jamoliddinovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Sarimsakova Dilafruz Muhamadjonovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Axmedov Bexzod Madaminjonovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Rashidova Nodira Habibullayevna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tibbiyot fanlari

Abdullayev G'ofurjon Rahimjanovich, biologiya fanlari doktori, professor
Nurmatov Yodgormirza Xatammirzayevich, tibbiyot fanlari doktori
Abdullayev Ulug'bek Ubaydullayevich, tibbiyot fanlari nomzodi
Mirzaolimov Mirzohid Mirzavaliyevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Хожиев Шерали
Ташкентская Медицинская Академия, профессор
Email: Khozhiev@bk.ru
Мамарахимов Азимжон
Институт биоорганической химии имени О.С. Садыкова, Академии Наук Республики Узбекистан
старший научный сотрудник
Email: kimyogar@yahoo.com
Кучканов Шерзод
Ташкентский государственный технический университет доцент
Email: sher.kurbonov@inbox.ru
Гафуров Дониёр
«SOLAR NATURE TRADE HOUSE» OOO
Email:gafurovdoniyor8484@gmail.com
Жамолов Тўлқин
Ташкентский государственный технический университет ассистент
Email: jamolovtolqinrustamovich1990@gmail.com
Махмудов Сирожиддин
Ташкентский государственный технический университет доцент
Email: : sirojiddin62shavkatov@mail.ru
Бегдуллаев Азизбек Рустембаевич
Ташкентский государственный технический университет магистранти
Email:azizbekbegdullaev6812@gmail.com

АНАЛИЗ ОРГАНИЧЕСКИХ ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ВЕЩЕСТВ, ПОЛУЧЕННЫХ НА ОСНОВЕ ХИМИЧЕСКОГО СИНТЕЗА

Аннотация: *В данной работе рассмотрен анализ органического полупроводникового материала, полученного на основе химического синтеза из хелатного комплекса Cu^{2+}. Для получения хелатного комплекса Cu^{2+} использован раствор щелочного гидролизованного полимера полиакрилонитрила. В раствор полимера добавили воду соотношением 1:1 и тщательно перемешивали. В полученный однородный раствор добавили медный купорос соотношением раствора к полимеру 10:1. При интенсивном перемещении получено однородный хелатный комплекс меда. Полученное вещество анализировали с использованием методов рентгенофазового анализа и ультрафиалетовой спектроскопии. Результаты показали, что кристалличность вещества высокая, это может привести к уменьшению запрещенной зоны органического полупроводникового вещества. После этого были сняты вольтамперные характеристики данного органического полупроводника. Результаты показали линейную зависимость. Линейное увеличение напряжения приводит к соответствующему увеличению тока. Относительная погрешность составляет около 5%, что свидетельствует о корректности проведения эксперимента и достоверности результатов.*

Ключевые слова: *Органический полупроводник (ОПП), синтез, хелатный комплекс.*

Khojiev Sherali
Tashkent Medical Academy, professor
Mamarakhimov Azimjon
Institut bioorganicheskoy khimii named after O.S. Sadykova, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, senior researcher
Kuchkanov Sherzod
Docent of Tashkent State Technical University
Gafurov Daniyor
«SOLAR NATURE TRADE HOUSE» LLC

Jamalov Tulqin
Assistant at Tashkent State Technical University
Maxmudov Sirojiddin
Docent of Tashkent State Technical University
Begdullayev Azizbek Rustambayevich
Master's degree at Tashkent State Technical University

ANALYSIS OF ORGANIC SEMICONDUCTOR SUBSTANCES OBTAINED BY CHEMICAL SYNTHESIS

Annotation:*This work examines the analysis of an organic semiconductor material obtained on the basis of chemical synthesis. The resulting substance was analyzed using X-ray phase analysis and ultraviolet spectroscopy. The results showed that the crystallinity of the substance is high, this can lead to a decrease in the band gap of the organic semiconductor substance.*

Key words: *Organic semiconductor (OSc), synthesis, chelate complex.*

Xoziev Sherali
Toshkent tibbiyot akademiyasi, professor
Mamarahimov Azimjon
O.S nomidagi Bioorganik kimyo instituti. Sodiqov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Katta ilmiy xodim
Quchkanov Sherzod
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti
G'ofurov Doniyor
"SOLAR NATURE SAVDO HOUSE" MChJ
Jamolov To'lqin
Toshkent davlat texnika universiteti assistenti
Mahmudov Sirojiddin
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti
Begdullaev Azizbek Rustembaevich
Toshkent davlat texnika universiteti magistraturasi

KIMYOVIY SINTEZ ASOSIDA OLGAN ORGANIK YARIMIYOTGIRGICI MADDALARNING TAHLILI.

Annotatsiya*: Ushbu maqolada Cu2+ xelat kompleksidan kimyoviy sintez natijasida olingan organik yarimo'tkazgich materialining tahlili keltirilgan. Cu2+ xelat kompleksini olish uchun ishqoriy gidrolizlangan poliakrilonitril polimer eritmasidan foydalanilgan. Polimer eritmasiga 1: 1 nisbatda suv qo'shildi va yaxshilab aralashtiriladi. Olingan bir hil eritmaga 10:1 polimer nisbatidagi eritmada mis sulfat qo'shildi. Intensiv harakat bilan asalning bir hil xelat kompleksi olindi. Olingan modda rentgen fazali tahlil va ultrabinafsha spektroskopiya usullari yordamida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, moddaning kristalliligi yuqori bo'lib, bu organik yarim o'tkazgich moddaning tarmoqli bo'shlig'ining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shundan so'ng, ushbu organik yarimo'tkazgichning volt-amper xarakteristikalari qayd etildi. Natijalar chiziqli munosabatni ko'rsatdi. Voltajning chiziqli o'sishi oqimning mos keladigan o'sishiga olib keladi. Nisbiy xatolik taxminan 5% ni tashkil etadi, bu tajribaning to'g'riligini va natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.*

Tayanch so'zlar: *Organik yarimo'tkazgich (OSC), sintez, xelat kompleksi.*

Введение

В стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 г. особое место уделяется к альтернативному методу получения энергии. В этом отношении особое место принадлежит органическим полупроводникам. Ещё в 1906 и 1950 годах соответственно, и с тех пор были широко изучены фотопроводящие и полупроводниковые свойства органических полупроводников [1-2]. А также фундаментальные исследования неуклонно развивались. В 1980 году были созданы молекулярно-дисперсные полимеры [3-5], в которых молекулы-переносчики дырок были диспергированы в изолирующих полимерах, а также коммерциализированный в качестве фоторецепторов для электрофотографии [6-7]. Процесс производства этого органического фоторецептора был процесс нанесения покрытия, что способствовало низкой стоимости фоторецептора [8]. Об органических светодиодах (OLED) и органических солнечных элементах сообщалось в 1987 и 1989 годах, соответственно [9-10]. Эти устройства были весьма эффективными и в то время показали потенциальные возможности органических полупроводниковых устройств. OLED были коммерциализированы в качестве автомобильных дисплеев в 1997 году [11-12] и в настоящее время используются в OLED-телевизорах

высокой четкости и OLED-освещении [13-15]. В будущем ожидается, что органические полупроводники будут успешно применяться в гибких дисплеях, биосенсорах и в других устройствах, которые невозможно реализовать с помощью обычных неорганических полупроводников [16]. Разработка будущих органических устройств не может быть достигнуто без должного понимания оптоэлектронных свойств органических полупроводников и как эти свойства влияют на общую производительность устройства. Органические полупроводники (OSC, ОПП) как один из типов материалов вызывают широкий исследовательский интерес благодаря своим привлекательным свойствам такие [17-18], как дешевизна изготовления, легкий вес, механическая гибкость, простота обработки, настройка функций по молекулярному дизайну и богатая доступность по сравнению с неорганическими полупроводниковыми материалами. Фактически, ОПП становятся ключевыми элементами в подготовки гибкой, печатаемой и масштабируемой электроники, такой как светодиоды, солнечные элементы, транзисторы, термоэлектрики, датчики, в биоэлектронике и биомиметике [17-18]. Поскольку разнообразные технологии их синтеза обработки могут обеспечить универсальные платформы для получения различных функциональных материалов [17-18]. Кроме того, всплеск органических полупроводниковых материалов обеспечат в понимании и обнаружении их новых неизвестных физических свойств. В настоящее время ОПП стали одной из основных тем исследований, в междисциплинарных областях химии, физики, в материаловедении, медицине и биологии от фундаментальных исследований до потенциального применения [18]. В целом, органические полупроводники, синтезированные в лабораторных условиях, представляют собой важный класс материалов, который имеет большой потенциал в различных областях науки и технологий. При правильной оптимизации и разработке, они могут изменить ландшафт электроники, фотоэлектрики, биомедицины и других отраслей, позволяя создавать более эффективные, гибкие и доступные устройства и технологии. Однако, необходимо продолжать исследования и развитие, чтобы преодолеть текущие ограничения и решить проблемы, связанные с их применением в коммерческой сфере [17-18].

Результаты и их обсуждение

В настоящей работе приведены данные по исследованию органического полупроводника, полученного из хелатного комплекса Cu^{2+}. Для получения хелатного комплекса Cu^{2+} использован раствор щелочного гидролизованного полимера полиакрилонитрила. В раствор полимера добавили воду соотношением 1:1 и тщательно перемешивали. В полученный однородный раствор добавили медный купорос соотношением раствора к полимеру 10:1. При интенсивной перемещении получено однородный хелатный комплекс меда.

Органические полупроводниковые вещества, полученные на основе химического синтеза, представляют собой класс материалов, которые обладают способностью проводить электрический заряд при определенных условиях. Данные вещества состоят из органических молекул, содержащих элементы, такие как углерод, водород, кислород и азот. Химический синтез органических полупроводниковых веществ происходит путем соединения элементарных органических субстанций или молекул друг с другом под воздействием различных химических реакций [16]. Существует множество различных методов синтеза, которые могут быть использованы для получения таких веществ, включая химическую взаимодействие, ферментативные процессы или использование специальных реагентов [17-18].

Анализ органических полупроводниковых веществ, полученных на основе химического синтеза, включает в себя изучение их физических и химических свойств, а также определение их требуемых параметров проводимости. Одним из основных параметров, который анализируется, является электропроводность вещества. Он может быть измерен с помощью различных методов, таких как электрическое сопротивление или зондирование [1].

Также важным аспектом анализа органических полупроводниковых веществ является их спектроскопическое исследование. В настоящей работе методом рентгенофазового анализа XRD-6100 были получены рентгенограммы синтезированного в лаборатории комплексных соединений института биоорганической химии им. академика А.С. Садыкова АН РУз органического полупроводника. Кроме того, были сняты спектры поглощении данного материала в спектральном диапазоне от 180 до 1100 нм, соответствующие спектрограммы приведены на рисунок-1. На основе полученного УФ спектра была определена ширина запрещенной зона данного образца. Численная значения E_g-ширина запрещенной зоны для данного образца приблизительно равно Eg= 1,29 эВ. Это свидетельствует о том, что синтезированная нами вещество является очень хорошим полупроводниковым материалом.

Кроме того, анализ органических полупроводниковых веществ включает исследование их электронной структуры и уровней энергии. Это позволяет определить, как электроны вещества перемещаются и взаимодействуют друг с другом, что важно при разработке электронных устройств на основе этих материалов.




Рисунок-1. XRD-6100 анализ синтезированного органического полупроводника.




Рисунок-2. УФ-спектр синтезированного органического полупроводника.

После этого были сняты вольтамперные характеристики данного органического полупроводника, результаты которого приведены на рисунок-3. Как известно из литературы [1] прямая ветвь реальной вольтамперной характеристика p-n-перехода в начале описывается экспоненциальной функцией, а затем полностью определяется омическим сопротивлением полупроводника.




Рисунок-3. a) Вольтамперная характеристика органического полупроводника, b) электросхема процесса ВАХ.

На рисунке 3b) ниже показана принципиальная схема основной платы. Здесь использован органический полупроводник в жидком состоянии, полученного из хелатного комплекса Cu^{2+}, он имеет n-p-n-переход. К его базе подключен резистор сопротивлением 200 Ом, который, в свою очередь, через свои контакты соединен с источником питания. Реле имеет 4 контакта и рассчитано на работу при токе 5 ампер и 12 вольт. Его основная функция — подключение и отключение образца для проверки. А конденсатор использовался как фильтр. А на рисунке 3a) ниже представлена вольт-амперная характеристика результата, полученного на основе разработанной выше сборки устройства. Как видите, результаты показали линейную зависимость. Линейное увеличение напряжения приводит к соответствующему увеличению тока. Относительная погрешность составляет около 5%, что свидетельствует о корректности проведения эксперимента и достоверности результатов.

Выводы

Таким образом, анализ органических полупроводниковых веществ, полученных на основе химического синтеза, является важной частью исследования этих материалов. Он не только помогает понять их физические и химические свойства, но и открывает новые возможности для создания более эффективных электронных устройств и технологий. Синтезированная нами вещество является очень хорошим полупроводниковым материалом.

Литература

1. Глазачев А. В., Петрович В. П. Физические основы электроники. Конспект лекций — Томск: Томский политехнический университет, 2015г.

2. Heng Zhang, Xin Yu, Mengjia Li, Zuolin Zhang, Zonglong Song, Dr. Xueping Zong, Gongtao Duan, Prof. Wenfeng Zhang, Prof. Cong Chen, Prof. Wen-Hua Zhang … See all authors (2023). Benzothieno thiophene-Based Noncovalent Conformational Lock Achieves Perovskite Solar Cells with Efficiency over 24%. Angewandte Chemie, 135(52), e202314270.

3. Mullen K, Scherf U (2006). Organic light emitting devices: synthesis, properties and applications.ISBN: 978-3-527-60723-5. 426 pages

4. Monkman A.P, Burrows HD, Hamblett I, Navaratnam S, Scherf U, Schmitt C (2000). The triplet state of the ladder-type methyl-poly(p-phenylene) as seen by pulse radiolysisenergy transfer. Chem Phys Lett 327:111

5. Kadashchuk A, Arkhipov V.I, Chang-Hwan Kim and Joseph Shinar, D.-W. Lee, Y.-R. Hong, and Jung-Il Jin, Paul Heremans, Heinz Bässler. H (2007) Localized trions in conjugated polymers. Phys Rev B 76:235205

6. Zeghbroeck Van. B. (2010) Principles of Semiconductor Devices and Heterojunctions, 1st edn, Prentice Hall PTR, ISBN 978-0130409041.

7. Soeda J., Matsui H., Okamoto T. et al. (2014). Adv. Mater. 26: 6430.

8. Takayoshi Kubo, Roger Hauserman, Junto Tsurumi, Junshi Soeda, Yugo Okada and Yu Yamashita 2016 Apr Nat. Comm. 7: 11156, doi: 10.1038/ncomms11156.et al.

9. Б.М. Абдурахманов[1], М.М. Адилов[1], Ш.К. Кучканов[1,*], Х.Б. Ашуров[1], Б.К. Исмайлов // Получение эпитаксиальных кремниевых структур для солнечных элементов с применением оборотных технологий. Uzbek Journal of Physics 2022й. №3 с.219-223

10.Yamashita Y., Tsurumi J., Hinkel F. et al. (2014). Adv. Mater. 26: 8169.

11. Kobayashi H., Kobayashi N., Hosoi S. et al. (2013). J. Chem. Phys. 139: 014707.

12.Mitsui H., Kumaki D., Takahashi E. et al. (2012). Phys. Rev. B 85: 035308

13. Uemura T., Rolin C., Ke T.H. et al. (2016). Adv. Mater. 28: 151.

14. Marszalek T., Li M., Pisula W., Design directed self-assembly of donor–acceptor polymers. Chemical Communications 2016, 52 (73), 10938-10947.

15.Holliday S., Li Y., Luscombe C. K., Recent advances in high performance donor-acceptor polymers for organic photovoltaics. Progress in Polymer Science 2017, 70, 34-51.

16.Takeda T., Suzuki Y., Kawamata J., Noro S., Nakamura T., Akutagawa T., The emergent intramolecular hydrogen bonding effect on the electronic structures of organic electron acceptors. Physical Chemistry Chemical Physics 2017, 19 (35), 23905-23909.

17. Nielsen C. B., Giovannitti A., Sbircea D.T., Bandiello E., Niazi M. R., Hanifi D. A., Sessolo M., Amassian A. Molecular Design of Semiconducting Polymers for High-Performance Organic Electrochemical Transistors. Journal of the American Chemical Society 2016, 138 (32), 10252-10259.

18. Jian Liu, Matt P. Garman, Jingjin Dong,Bas van der Zee,Li Qiu, Giuseppe Portale, Jan C. Hummelen, L. Jan Anton Koster // Doping Engineering Enables Highly Conductive and Thermally Stable n-Type Organic Thermoelectrics with High Power Factor. ACS Applied Energy Materials 2019, 2 (9), 6664-6671.

* Corresponding author: e-mail sher.kurbonov@inbox.ru, Phone: +998 977 44 40 79

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Eshqobilova Dilrabo Turaxonovna
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi
fizika-matematika fanlari falsafa doktori (PhD)
dilrabotermez@mail.ru
Normamatova Zebiniso O‘rolovna
Termiz davlat universiteti 1-kurs magistranti
normamatovazebiniso5@gmail.com

TOPOLOGIK FAZOLARNI O‘RGANISHDA AJRIMLILIK AKSIOMALARINING O‘RNI.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada topologik fazolarni o‘rganishda ajrimlilik aksiomalari va ularning ahamiyati yoritiladi. Ajrimlilik aksiomalari fazolarni tasniflashda va ularning matematik tadqiqotlar hamda amaliyotdagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada T_0, T_1, T_2, T_3, $T_{3\frac{1}{2}}$ va T_4 aksiomalari hamda regulyar fazo, to‘la regulyar fazo va normal fazolar tahlil qilinib, misollar yordamida mustahkamlangan.*

Kalit so‘zlar: *Topologik fazo, ajrimlilik aksiomalari, T_0 fazo, T_1 fazo, Xausdorff fazo, regulyar fazo, to‘la regulyar fazo, normal fazo.*

Эшкобилова Дилрабо Турахоновна
Старший преподаватель Термезского государственного университета
Доктор философии (PhD) по физике и математике
Нормаматова Зебинисо Орловна
Студент 1 курса магистратуры Термезского государственного университета

РОЛЬ АКСИОМ РАЗДЕЛЕНИЯ В ИЗУЧЕНИИ ТОПОЛОГИЧЕСКИХ ПРОСТРАНСТВ.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются аксиомы отделимости топологических пространств и их значение. Аксиомы отделимости играют важную роль в классификации топологических пространств, математических исследованиях и определении их прикладного значения. В статье анализируются аксиомы T_0, T_1, T_2, T_3, $T_{3\frac{1}{2}}$ и T_4 а также рассматриваются регулярные, вполне регулярные и нормальные пространства с примерами.*

Ключевые слова: *Топологическое пространство, аксиомы отделимости, T_0 пространство, T_1 пространство, Хаусдорфово пространство, регулярное пространство, вполне регулярное пространство, нормальное пространство.*

Eshkobilova Dilrabo Turakhonovna
Senior Lecturer, Termez State University
Doctor of Philosophy (PhD) in Physics and Mathematics
Normamatova Zebiniso U'rolovna
1st year Master's student, Termez State University

THE ROLE OF SEPARATION AXIOMS IN THE STUDY OF TOPOLOGICAL SPACES.

Annotation. *This article discusses the separation axioms of topological spaces and their significance. Separation axioms play an important role in the classification of topological spaces, mathematical research, and determining their practical applications. The article examines the axioms T_0, T_1, T_2, T_3, $T_{3\frac{1}{2}}$ and T_4 as well as regular, completely regular, and normal spaces with examples.*

Keywords: *Topological space, separation axioms, T_0 space, T_1 space, Hausdorff space, regular space, completely regular space, normal space.*

Topologik fazo tushunchasi ancha keng tushuncha hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha topologik fazolar uchun ko‘plab qiziqarli xossalarni birdaniga isbotlash imkonsiz bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, topologik fazolarning maxsus sinflari kiritiladi. Ravshanki,

qaralayotgan sinf qancha tor bo'lsa, bu sinf shuncha ko'p qiziqarli xossalarga ega bo'ladi.

Topologik fazolarga qo'shimcha ravishda qo'yiladigan, topologik fazolardagi nuqtalarni va yopiq to'plamlarni ajratish bilan bog'liq hamda topologik fazolarning chegaralangan sinflarini o'rganish imkonini beruvchi qo'shimcha talablar yig'ilmalarini – ajrimlilik aksiomalarini bayon etamiz.

Ushbu ajrimlilik aksiomalari ancha keng qo'llaniladi: T_0, T_1, T_2, T_3, $T_{3\frac{1}{2}}$, T_4.

T_0 **(Kolmogorov aksiomasi).** Agar X fazoning ixtiyoriy ikkita turlicha x va y nuqtalaridan hech bo'lmaganda bittasi ikkinchisini saqlamaydigan atrofga ega bo'lsa, u holda X fazo ajrimlilikning T_0 aksiomasini qanoatlantiradi deyiladi.

Antidiskret fazo T_0-fazo bo'lmaydigan fazo misoli bo'ladi. Quyida T_0 –fazo bo'lmaydigan boshqa fazo misolini keltiramiz.

1-misol. $\boldsymbol{X = \{0, 1, 2, 3, 4\}}$ bo'lsin. Ushbu

$$\tau = \{\emptyset,\ X,\ \{0\},\ \{1\},\ \{2\},\ \{0,1\},\ \{0,2\},\ \{1,2\},\ \{0,1,2\}\}$$

oila X da topologiya bo'ladi. (X, τ) fazo T_0 aksiomani qanoatlantirmasligini ko'rsating.

Yechish: Agar $x = 3$ va $y = 4$ nuqtalarni olsak, ularning atrofi faqat X fazoning o'zidan iborat bo'lib, $x \in X$ va $y \in X$ bo'ladi, ya'ni x ning y ni saqlamaydigan ham y ning x ni saqlamaydigan ham atroflari mavjud emas. Shuning uchun (X, τ) fazo T_0 aksiomani qanoatlantirmaydi.

T_1 **(Tixonov aksiomasi).** Agar X fazoning ixtiyoriy ikkita turlicha x va y nuqtalaridan har biri boshqasini saqlamaydigan atrofga ega bo'lsa, u holda X fazo ajrimlilikning T_1 aksiomasini qanoatlantiradi deyiladi.

1-teorema. Topologik fazo faqat va faqat uning ixtiyoriy bir nuqtali to'plamostisi yopiq bo'lgandagina T_1– fazo bo'ladi.

Isbot. $X - T_1$ fazo va $x \in X$, $y \in X\backslash\{x\}$ bo'lsin. U holda, y nuqtani saqlovchi va x ni saqlamaydigan U_y atrof mavjud. Demak, $X\backslash\{x\} = \underset{y \in X\backslash\{x\}}{U} U_y$ – ochiq to'plamlarning yig'indisi sifatida ochiq to'plam, ya'ni $\{x\}$ yopiq to'plamdir.

Aksincha, $\{x\}$ va $\{y\}$ yopiq to'plam bo'lsa, $X\backslash\{x\}$ va $X\backslash\{y\}$ to'plamlar ochiq va $x \in G_x = X\backslash\{y\}$, $y \in G_x$, $y \in G_y = X\backslash\{x\}$, $x \in G_y$, ya'ni $X - T_1$ fazo bo'ladi.

1-teorema isbotlandi.

Ravshanki, har qanday topologik T_1 – fazo topologik T_0 – fazo bo'ladi. Aksinchasi, umuman olganda, o'rinli emas.

Masalan, $X = \{a, b\}$ to'plamni va undagi ushbu topologiyani qaraylik

$$\tau = \{X,\ \emptyset,\ \{a\}\}.$$

Bu (X, τ) fazo T_1 aksiomani qanoatlantirmasligini, T_0 aksiomani qanoatlantirishini ko'rish mumkin.

T_2 **(Xausdorff aksiomasi)**. Agar X fazoning ixtiyoriy har xil x va y nuqtalari kesishmaydigan atroflarga ega bo'lsa, u holda X fazo ajrimlilikning T_2 aksiomasini qanoatlantiradi deyiladi.

Ajrimlilikning T_2 aksiomasini qanoatlantiruvchi fazo Xausdorff fazosi yoki ajratiladigan fazo deb yuritiladi.

Ravshanki, har qanday topologik T_2 – fazo topologik T_1 – fazo bo'ladi. Aksinchasi, umuman olganda, o'rinli emas.

2-misol. Ushbu to'plamni va undagi Zarisskiy topologiyasini qaraylik

$$\tau = \{A \subset \mathbb{N}: |\mathbb{N}\backslash A| < \infty\} U \{\emptyset\}.$$

$(\mathbb{N}, \tau)$ topologik fazo T_1 aksiomani qanoatlantirishini, T_2 aksiomani qanoatlantirmasligini ko'rsating.

Yechish. Avval $(\mathbb{N}, \tau)$ fazoning T_1 – fazo ekanligini ko'rsataylik. $\mathbb{N}$ fazoning turli 2 nuqtalarini qaraylik. $A_1 = \mathbb{N}\backslash\{x_2\}$ va $A_1 = \mathbb{N}\backslash\{x_1\}$to'plamlar $\mathbb{N}$ fazoda ochiq va mos ravishda x_1, x_2 nuqtalar uchun atrof bo'ladi. Ravshanki, $x_2 \notin A_1$ va $x_1 \notin A_2$, ya'ni $(\mathbb{N}, \tau)$ fazo uchun T_1 aksioma o'rinli.

Endi $(\mathbb{N}, \tau)$ fazo T_2 – fazo bo'la olmasligini ko'rsatamiz. Teskarisini faraz qilaylik, ya'ni $(\mathbb{N}, \tau)$ da kesishmaydigan Ax_1, Ax_2, $Ax_1 \cap Ax_2 \neq \emptyset$ atroflariga ega x_1, $x_2 \in \mathbb{N}$, $x_1 \neq x_2$ turli nuqtalari mavjud bo'lsin. Kesishmaning to'ldiruvchisini qaraylik, $\mathbb{N}\backslash(Ax_1 \cap Ax_2) = (\mathbb{N}\backslash Ax_1) \cup (\mathbb{N}\backslash Ax_2) = \mathbb{N}$. Shartga ko'ra, $(\mathbb{N}\backslash Ax_1)$ va $(\mathbb{N}\backslash Ax_2)$ to'plamlar chekli to'plamlar, chekli to'plamlar yig'indisi esa cheklidir. Biz ziddiyatga keldik, chunki natural sonlar to'plami cheksizdir.

T_3 **aksioma.** Agar X fazoning ixtiyoriy yopiq to'plami va unga tegishli bo'lmagan har qanday nuqta kesishmaydigan atroflarga ega bo'lsa, u holda, X fazo ajrimlilikning T_3 aksiomasini qanoatlantiradi deyiladi.

2- teorema. X topologik fazo faqat va faqat har bir x nuqta va uning U atrofi uchun shunday V atrof topilib, $x \in V \subset [V] \subset U$ bo'lgandagina ajrimlilikning T_3 aksiomasini qanoatlantiradi.

Isbot. Zarurligi. X fazo ajrimlilikning T_3 aksiomasini qanoatlantirsin va $x \in X$ ixtiyoriy nuqta bo'lsin. x nuqta va uning ixtiyoriy U atrofini qaraylik. U holda $X\backslash U = F$ yopiq to'plam va u x nuqtani saqlamaydi. T_3 aksioma shartiga ko'ra shunday V_x va OF atroflar mavjudki, $V_x \cap OF = \emptyset$ bo'ladi. $X\backslash OF$ to'plam yopiq va $V_x \subset X\backslash OF \subset U$. Bundan $[V_x] \subset X$ munosabat kelib chiqadi.

Yetarliligi. $x \in X$ nuqta va $x \notin F$ -yopiq to'plam bo'lsin. $X\backslash F$ to'plam x nuqtaning atrofi bo'ladi. U holda $[V_x] \subset X\backslash F$ bo'ladigan x ning V_x atrofi mavjud. Bundan $X\backslash [V_x] = OF$ ochiq to'plamni F yopiq to'plamning atrofi deyish mumkin. 2 – teorema isbot bo'ldi.

T_1 va T_3 aksiomalarni qanoatlantiruvchi fazo regulyar fazo deyiladi.

3-misol. Zorgenfrey fazosi regulyar fazo bo'ladi.

Yechish: Bizga ma'lumki, $S = 0,1)$ yarim intervalda τ_B oila

$$\beta = \{\alpha, \beta): 0 \leq \alpha < \beta \leq 1\}$$

baza orqali hosil qilingan topologiya va (S, τ_B) juftligimiz Zorgenfrey fazosi (strelkasi) deyiladi.

Biz Zorgenfrey fazosi regulyar fazo bo'ladimi yo'qmi ko'rib chiqamiz. Haqiqattan ham, S dan $\forall x$ nuqtani olaylik

va uning O_x atrofini qaraylik, u holda, baza kriteriysiga ko‘ra $\exists \alpha,\beta) \in \beta$ mavjudki, $x \in \alpha,\beta) \subset O_x$. $\alpha,\beta)$ – ochiq-yopiq to‘plam edi. Shuning uchun uni yopiq to‘plam deb qarash mumkin. Demak, Zorgenfrey fazosi regulyar fazo bo‘ladi.

Har qanday regulyar fazo Xausdorff fazosi bo‘ladi. Aksincha tasdiq, umuman olganda, o‘rinli emas.

4-misol. $X = (-\infty, +\infty)$ barcha haqiqiy sonlar to‘plami bo‘lsin. Ushbu to‘plamni qaraymiz

$$D = \left\{\pm 1, \pm\frac{1}{2}, \pm\frac{1}{3}, \dots, \pm\frac{1}{n}, \dots\right\}.$$

Har bir $x \in X$ uchun ushbu to‘plamlarni va sistemani aniqlaymiz

$$U_i(x) = \left(x - \frac{1}{i},\ x + \frac{1}{i}\right),$$

$$\nu(x) = \begin{cases} \{U_i(x): i = 1,2,\dots,n,\dots\}, & x \neq 0, \\ \{U_i(x)\backslash D: i = 1,2,\dots,n,\dots\}, & x = 0. \end{cases}$$

$\nu = \bigcup_{x\in X} \nu(x)$ sistema (NS1) – (NS3) shartlarni qanoatlantiradi. ν atroflar sistemasi orqali hosil qilingan topologiya bilan ta’minlangan X topologik fazo Xausdorff fazosi bo‘ladi. D to‘plam X topologik fazoda yopiq bo‘ladi. Undan tashqari, $0 \notin D$ bo‘ladi. $0 \in U$ va $D \subset V$ bo‘ladigan har qanday U va V ochiq to‘plamlar uchun $U \cap V \neq \emptyset$ ekanligi ko‘rinib turibdi. Bundan X regulyar fazo emasligi kelib chiqadi.

$T_{3\frac{1}{2}}$ **aksioma.** Agar X fazoning ixtiyoriy yopiq F to‘plami va unga tegishli bo‘lmagan har qanday x_0 nuqtasi uchun shunday $f: X \to [0,1]$ uzluksiz funksiya topilib, $f(x_0) = 0$ va barcha $x \in F$ da $f(x) = 1$ bo‘lsa, u holda X fazo $T_{3\frac{1}{2}}$ aksiomani qanoatlantiradi deyiladi.

Ajrimlilikning T_1 va $T_{3\frac{1}{2}}$ aksiomalarini qanoatlantiruvchi topologik fazo to‘la regulyar fazo yoki Tixonov fazosi deb yuritladi.

5-misol. Haqiqiy sonlar to‘plami $X = \mathbb{R}$ ni va unda quyidagi topologiyani qaraymiz:

- Odatdagi ochiq to‘plamlar: Yevklid topologiyasidagi barcha ochiq to‘plamlar.
- Bundan tashqari, har qanday yakka nuqta ham ochiq deb olinadi.

Ya’ni, barcha ochiq intervallar va har qanday alohida nuqta ham ochiq to‘plam bo‘ladi.

Yechish:

1.Regulyarlikka tekshiramiz:

- Berilgan nuqta va yopiq to‘plam ajratilishi kerak.
- Bu holda, agar x nuqta va F yopiq to‘plam bo‘lsa, ularni ikkita kesishmaydigan ochiq to‘plam bilan ajratish mumkin.

2.To‘la regulyarlikka tekshiramiz:

- Yopiq to‘plam va tashqi nuqta orasida uzluksiz funksiya toppish mumkin.
- Masalan, quyidagi funksiya uzluksiz bo‘lib, ajratish shartini bajaradi:

$$f(y) = \begin{cases} 0, agary = x, \\ 1, agary \in F, \\ d(y,F)/\big(1 + d(y,F)\big), boshqaholatlarda. \end{cases}$$

Faraz qilaylik:

- Biz haqiqiy sonlar ustida ishlayapmiz.
- Lekin endi har qanday bitta nuqta ham ochiq bo‘lsa, yangi topologiya hosil bo‘ladi.
- Bu fazoda har qanday yopiq to‘plam va unga tegishli bo‘lmagan nuqtani uzluksiz funksiya yordamida ajratish mumkin.

Shuning uchun bu to‘la regulyar fazo hisoblanadi.

Har qanday to‘la regulyar fazo regulyar fazo bo‘ladi. Aksinchasi o‘rinli emas.

T_4 **aksioma**. Agar X fazoning ixtiyoriy ikkita yopiq, kesishmaydigan to‘plamlari kesishmaydigan atroflarga ega bo‘lsa, u holda X fazo ajrimlilikning T_4 aksiomasini qanoatlantiradi deyiladi.

3-teorema. X topologik fazo faqat va faqat har qanday F yopiq to‘plam va uning ixtiyoriy U atrofi uchun F ning shunday V atrofi topilib, $F \subset V \subset [V] \subset U$ bo‘lsagina ajrimlilikning T_4 aksiomasini qanoatlantiradi.

Isbot. Zarurligi. X fazo ajrimlilikning T_4 aksiomasini qanoatlantirib, $F \subset X$ fazoning ixtiyoriy yopiq qism to‘plami bo‘lsin. F ning ixtiyoriy U_F atrofini qaraylik. U holda $X\backslash U_F = F_1$ – yopiq to‘plam va $F_1 \cap F = \emptyset$. T_4 aksioma shartiga ko‘ra F va F_1 lar uchun kesishmaydigan atroflar mavjud, ya’ni $\exists OF, OF_1 \in \tau$, $OF \cap OF_1 = \emptyset$. $X\backslash OF_1$ – yopiq to‘plam va $OF \subset X\backslash OF_1 \subset U_F$. Oxirgi munosabatdan $[OF] \subset U_F$ kelib chiqadi.

Yetarliligi xuddi ikkinchi teoremadagi kabi isbotlanadi. 3-teorema isbot bo‘ldi.

T_1 va T_4 aksiomalarni qanoatlantiruvchi topologik fazo normal fazo deb yuritiladi.

6-misol. Har bir metrik fazo normal fazo bo‘ladi.

Yechish: 1-usul. Har bir metrik topologik fazo Xausdorf fazosi ($\boldsymbol{T_2}$) ekanligidan T_1 aksiomani ham qanoatlantirishi kelib chiqadi. Berilgan fazo normal bo‘lishi uchun uning T_4 aksiomani qanoatlantirishini ko‘rsatamiz.

(X, ρ) – metrik toplogik fazo va u $\mathbb{R}$ dagi tabiiy topologiya bilan ta’minlangan bo‘lsin. A va B – yopiq to‘plamlar ($A \subset X, B \subset X$) bo‘lib, $A \neq \emptyset, B \neq \emptyset, A \cap B \neq \emptyset$.

A va B atroflarini mos ravishda


$$U_A = \{x \in X: \rho(x,A) < \rho(x,B)\}$$
$$V_B = \{x \in X: \rho(x,A) > \rho(x,B)\}$$

belgilab, ularning ochiq va kesishmasligini ko‘rsatamiz.

Avval

$$f(x) = \rho(x,A) = \inf_{y\in A}\{\rho(x,y)\}$$
$$g(x) = \rho(x,B) = \inf_{z\in B}\{\rho(x,z)\}$$

ushbu funksiyalarning uzluksiz ekanligini ko‘rsataylik. Buning uchun



1-rasm.

$x, x', y \in X$ nuqtalar orasidagi masofa uchun uchburchak aksiomasini qo'llaymiz.

$$f(x) \le \rho(x,y) \le \rho(x,x') + \rho(x',y)$$
$$\Rightarrow f(x) \le \rho(x,x') + \rho(x',y)$$
$$\Rightarrow f(x) \le \rho(x,x') + f(x')$$
$$\Rightarrow f(x) - f(x') \le \rho(x,x') \quad (1)$$

$x\ va\ x'$ nuqtalarning o'rnini (rolini) almashtirib $f(x')$ funksiya uchun ham shu kabi yo'l tutsak

$$f(x') - f(x) \le \rho(x',x) \quad (2)$$

ga ega bo'lamiz.

(1) va (2) dan

$$|f(x) - f(x')| \le \rho(x,x') \quad (3)$$

kelib chiqadi. (3) munosabat $k = 1$ bo'lgan Lipshits shartini ifodlaydi va $f(x)$ finksiyaning uzluksizligini bildiradi. $g(x)$ funksiyaning uzluksizligini ham xuddi $f(x)$ funksiyaning uzluksizligi kabi ko'rsatiladi. Bizga ma'lumki, $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar uzluksiz bo'lsa, $\varphi(x) = f(x) - g(x)$ funksiya ham uzluksiz bo'ladi.

Endi $U_A va V_B$ to'plamlarni $\varphi(x)$ orqali quyidagicha yozib olamiz.

$$U_A = \{x \in X: f(x) < g(x)\} \Rightarrow U_A = \{x \in X: \varphi(x) < 0\}$$
$$V_B = \{x \in X: f(x) > g(x)\} \Rightarrow V_B = \{x \in X: \varphi(x) > 0\}$$
$$\Rightarrow U_A = \varphi^{-1}(-\infty; 0), V_B = \varphi^{-1}(0; +\infty).$$

$\emptyset = \varphi^{-1}(\emptyset)$ekanidan foydalanib topamiz.

$$\emptyset = \varphi^{-1}((-\infty; 0) \cap (0; +\infty)) = \varphi^{-1}(-\infty; 0) \cap \varphi^{-1}(0; +\infty)$$
$$= U_A \cap V_B \Rightarrow U_A \cap V_B = \emptyset$$

Endi biz ushbu misolni ikkinchi isbotini ko'ramiz.

2-usul. Bu misolni Urison teoremasidan foydalanib ham bajarish mumkin. Quyida Urison teoremasini keltiramiz.

Urison teoremasi. Ixtiyoriy normal X fazoning o'zaro kesishmaydigan yopiq $AvaB$ to'plamlari uchun shunday uzluksiz $\varphi: X \to [0,1]$ funksiya mavjudki, uning uchun $\varphi|_A = 0, \varphi|_B = 1$ va har bir $x \in X$ uchun shartlar o'rinlidir.

Demak, agar biz 3-teoremadagi (X, ρ) metrik fazoda $A \neq \emptyset, B \neq \emptyset, A \cap B \neq \emptyset$ yopiq to'plamlar va $x \in X$ lar uchun Urison teoremasi shartlarini qanoatlantiruvchi uzluksiz $\varphi(x)$ funksiyani analitik usulda topa olsak, (X, ρ) normal fazo bo'ladi. Bizga ma'lumki, (X, ρ) metrik fazoda $f(x) = \rho(x, A) = \inf_{y \in A}\{\rho(x,y)\}$ funksiya uzluksiz. $f(x)$ dan foydalanib $\varphi(x)$ ni quyidagicha yoza olamiz.

$$\varphi(x) = \frac{\rho(x,A)}{\rho(x,A)+\rho(x,B)}.$$

Bu funksiya uzluksiz. Endi Urison teoremasi teoremasi shartlarini qanoatlantirishini ko'rsatamiz.

$$\varphi(x) = \begin{cases} 0, agar x \in A; \\ 1, agar x \in B; \\ (0,1), agar x \in A, x \in B. \end{cases}$$

Bundan ko'rinadiki, (X, ρ) metrik fazo normal bo'ladi.

Har qanday normal fazo to'la regulyar fazo bo'ladi. Aksinchasi o'rinli emas.

Masalan, Nemisskiy tekisligi to'la regulyar fazo bo'ladi, ammo normal fazo bo'lmaydi. Uning qurilishini keltiramiz.

Yuqori yopiq $L = \{(x,y): y \ge 0\}$ yarimtekislik hamda $L_1 = \{(x,y): y = 0\}$ to'g'ri chiziqni qaraymiz. $L_2 = L \backslash L_1$ deb olamiz. Har bir $(\xi, 0) \in L_1$ va $r > 0$ uchun

$$U((\xi,0), r) = \{(x,y): (x-\xi)^2 + (y-r)^2 < r^2\}$$

bo'lsin. Yana

$$U_i(\xi,0) = U\left((\xi,0), \frac{1}{i}\right) \cup \{(\xi,0)\}, \quad i = 1,2,\ldots$$

bo'lsin. Har bir $(\xi, \zeta) \in L_2$ va $r > 0$ uchun

$$U((\xi,\zeta), r) = \{(x,y): (x-\xi)^2 + (y-\zeta)^2 < r^2, \ \zeta \ge 0\},$$
$$\nu = \left\{U_i(\xi,\zeta), \frac{1}{i}\right\}, \quad i = 1,2,\ldots$$

bo'lsin.

Ushbu

$$\nu = \{U_i(\xi,\zeta): (\xi,\zeta) \in L, \quad i \in \mathbb{N}\}$$

jamlanma L da atroflarning fundamental sistemasi bo'ladi.

Bu sistema hosil qilgan τ_ν topologiyaga ko'ra L_1 to'plam (L, τ_ν) topologik fazoda yopiq bo'ladi. Bundan tashqari har qanday $F \subset L_1$ to'plam L da yopiq bo'ladi. Xususan, $A = \{(x,0): x \in Q\}$ va $B = \{(x,0): x \in R \backslash Q\}$ to'plamlar L da yopiq bo'ladi, bunda $\mathbb{Q}$ – ratsional sonlar to'plami. Ravshanki,

$$A \cap B = \emptyset$$

Biroq, mos ravishda $AvaB$ to'plamlarni saqlovchi, L da ochiq har qanday U_A va U_B to'plamlar jufti uchun ushbuga egamiz

$$U_A \cap U_B \neq \emptyset$$

Shunday qilib, L normal fazo emas ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Narmanov, A.Ya. (2016). Differensial geometriya . Toshkent. Turon-Iqbol, 225 bet.
2. Садовничий, Ю.В., Бешимов, Р. Б., Жураев, Т.Ф. (2021). Топология. Ташкент.
3. Федорчук, В.В., Филиппов, В.В. (2006). Общая топология.–М., Физ.-мат. Лит.
4. Jo'rayev, T.F. (2012). Topologiyaga kirish. Toshkent. Tafakkur-Bo'stoni. 240 bet.

5. Narmanov, A.Ya, Sharipov, A.S., Aslonov, J.O. (2014). Differensial geometriya va topologiya kursidan masalalar to‘plami. Toshkent. Universitet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Sobirov Usmon Matyaqubovich
Urganch davlat universiteti Matematik tahlil kafedrasi katta o`qituvchisi
E-mail: s_usmon2014@.mail.ru
Baltabayeva Mahliyo Oybek qizi
Urganch davlat universiteti magistratura talabasi
E-mail: makhliyo.6642@gmail.com

MATRITSAVIY YUQORI YARIM TEKISLIKDA INTERPOLYATSION KETMA-KETLIKLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada $\mathbb{C}^n[m \times m]$ fazodagi matritsaviy yuqori yarim tekislikda interpolyatsion ketma-ketliklar va ularning xossalari keltirilgan. Matritsaviy yuqori yarim tekislikda interpolatsion ketma-ketliklar uchun yetarlilik sharti isbot qilingan.

Kalit so‘zlar: maritsaviy yuqori yarim tekislik, interpolyatsiya, Hardi fazosi, Blyashka ko‘paytmasi.

Собиров Усмон Матякубович
Старший преподаватель кафедры математического анализа Ургенчского государственного университета
Балтабаева Махлиё Ойбек кизи
Магистрант Ургенчского государственного университета

ИНТЕРПОЛЯЦИОННЫЕ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ В МАТРИЧНОЙ ВЕРХНЕЙ ПОЛУПЛОСКОСТИ

Аннотация: *В данной статье рассмотрены интерполяционные последовательности и их свойства в матричной верхней полуплоскости пространства* $\mathbb{C}^n[m \times m]$ *. Доказано достаточное условие для интерполяционных последовательностей в матричной верхней полуплоскости.*

Ключевые слова: *матричный верхняя полуплоскость, интерполяция, пространство Харди, произведение Бляшке.*

Sobirov Usmon Matyakubovich
Senior lecturer of the department of Mathematical Analysis at Urgench State University
Baltabayeva Makhliyo Oybek qizi
Master’s Student, Urgench State University

INTERPOLATION SEQUENCES IN THE MATRIX UPPER HALF-PLANE

Annotation: *This article presents interpolation sequences and their properties in the matrix upper half-plane of the space* $\mathbb{C}^n[m \times m]$. *A sufficient condition for interpolation sequences in the matrix upper half-plane has been proved.*

Key words: *matrix upper half-plane, interpolation, Hardy space, Blaschke product.*

Kirish

Kompleks analiz nazariyasining muhim bo‘limlaridan biri bu – analitik funksiyalar sinfida interpolyatsiya masalalarini o‘rganishdir. Ushbu masalalar ko‘plab amaliy va nazariy yo‘nalishlarda – signalni qayta tiklash, raqamli analiz, matematik fizika tenglamalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, analitik funksiyalar fazolarida (masalan, Hardi, Bergman, Dirixle fazolari) interpolyatsion ketma-ketliklarning mavjudlik shartlarini aniqlash, ularning xossalarini o‘rganish va konstruktsiya usullarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Yagona bog‘langan sohalarda interpolyatsion ketma-ketliklar analitik funksiyalarning xossalarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Karleson teoremasi [**1**] kompleks tekislikdagi birlik doirada interpolyatsion ketma-ketlikni tavsiflaydi. Berndtson esa [**2**] $\mathbb{C}^n$ fazodagi birlik shar ichidagi interpolyatsion ketma-ketlik uchun yetarlilik shartini keltiradi. [**3**] va [**4**, 5-bob] ishlarda $\mathbb{C}[m \times m]$ fazosidagi umumlashgan birlik doira ichidagi interpolyatsion ketma-ketliklarning xossalari ko‘rsatilgan. Ushbu maqolada matritsaviy yuqori yarim tekislikda interpolyatsion ketma-ketliklar uchun yetarlilik sharti keltirilgan.

Matritsaviy yuqori yarim tekislik

1-ta'rif. *Ushbu*

$$\mathfrak{I} = \{Z \in \mathbb{C}[m \times m]: Im\, Z > 0\}$$

ko'rinishdagi sohaga umumlashgan matritsaviy yuqori yarim tekislik deyiladi.

Bu yerda $Im \quad Z = \frac{1}{2i}(Z - Z^*)$ ifodaga teng. Agar $m = 1$ bo'lsa, $Z = z_{11}$ bo'lib,

$$Im \quad Z = \frac{1}{2i}(z_{11} - z_{11}{}^*) = \frac{1}{2i} \cdot 2iy = y > 0$$

bo'ladi. Bu esa uning $\mathbb{C}$ dagi yuqori yarim tekislik ekanligini ifodalaydi.

Ushbu

$$S(\mathfrak{I}) = \{Z \in \mathbb{C}[m \times m]: Im\, Z = 0\}$$

to'plamga umumlashgan matritsaviy yuqori yarim tekislikning *ostovi* deyiladi. Demak, $S(\mathfrak{I})$ barcha Ermit matritsalardan iborat ekan.

$\mathfrak{I}$ - matritsaviy yuqori yarim tekislikda chegaralangan golomorf funksiyalar fazosini $H^\infty(\mathfrak{I})$ bilan belgilaymiz. $H^p(\mathfrak{I})$ - matritsaviy yuqori yarim tekislik uchun Hardi fazosi. Aytaylik, $f(z)$ funksiya $\mathfrak{I} = \{Z \in \mathbb{C}[m \times m]: Im\, Z > 0\}$ yuqori yarim tekislikda analitik funksiya bo'lsin. $0 < p < +\infty$ bo'lganda, $f(z)$ funksiya uchun ushbu

$$\sup_y \int |f(x+iy)|^p dx = \|f\|_{H^p}^p < +\infty$$

tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda $f(z) \in H^p = H^p(dt)$ deyiladi. $p = \infty$ bo'lganda, matritsaviy yuqori yarim tekislikda chegaralangan analitik funksiyalar fazosini H^∞ Hardi fazosi deb belgilaymiz va ularni normasi

$$\|f\|_\infty = \sup_{\mathfrak{I}} |f(z)|$$

kabi belgilanadi.

1.Matritsaviy yuqori yarim tekislikda interpolyatsion ketma-ketlik

2-ta'rif. *Agar ixtiyoriy chegaralangan $\{b_k\}$ kompleks ketma-ketlik uchun shunday $F \in H^\infty(\mathfrak{I})$ funksiya topilib, uning uchun*

$$F(P_k) = b_k, k = 1,2,\ldots$$

bo'lsa, $\{P_k\}$ ketma-ketlik $\mathfrak{I}$ sohada interpolyatsion ketma-ketlik deyiladi.

$P, Z \in \mathfrak{I}$ uchun

$$\Phi_P(Z) = \frac{det\, Z - det\, P}{det\, Z - det\, P^*}$$

bo'ladi.

Ravshanki, $m = 1$ da $\Phi_P(Z)$ konform akslantirish yuqori yarim tekislikni birlik doiraga, P nuqtani nolga akslantiruvchi akslantirish bo'ladi.

1-teorema. Aytaylik, biror δ musbat son uchun va ixtiyoriy k natural son uchun ushbu tengsizlik bajarilsin:

$$\prod_{j \neq k} \left|\Phi_{P_j}(P_k)\right| \geq \delta.$$

u holda $\{P_k\} \subset \mathfrak{I}$ ketma-ketlik $\mathfrak{I}$ sohada $H^\infty(\mathfrak{I})$ sinfi uchun interpolyatsion ketma-ketlik bo'ladi.

1-teorema isboti. Buning uchun dastlab $\Phi_P(Z)$ funksiyani bir nechta xossalarini keltiramiz. Ravshanki bu funksiya P nuqtada nolga aylanadi

$$\Phi_P(P) = 0.$$

Ixtiyoriy $Z \in \mathfrak{I} = \{Im\, Z > 0\}$ sohada uning moduli birdan kichik:

$$|\Phi_P(Z)| < 1$$

Yuqorida ta'kidlaganimizdek $n = 1$ bo'lganda u yuqori yarim tekislikni birlik doiraga o'tkazadi. Endi teorema shartini qanoatlantiruvchi interpolyatsiya funksiya qurib olamiz, buning uchun berilgan $\{P_k\}$ ketma-ketlik uchun $F(Z)$ funksiyani quyidagicha aniqlaymiz. Har bir k uchun $B_k(Z)$ funksiya (Blyashka ko'paytmasi) quyidagicha bo'lsin.

$$B_k(Z) = \prod_{k \neq k} \Phi_{P_j}(Z)$$

Teorema shartiga ko'ra $\left|B_{P_j}(P_k)\right| \geq \delta$ shart o'rinli.

Endi $F(z)$ funksiyani quyidagicha aniqlaymiz:

$$F(Z) = \sum_{k=1}^{\infty} b_k \frac{B_k(Z)}{B_k(P_k)} \cdot \left(\frac{1 - \left|\Phi_{P_k}(P_k)\right|^2}{1 - \overline{\Phi_{P_k}(P_k)}\Phi_{P_k}(Z)}\right)^N$$

Bu yerda N ning yetralicha katta qiymatlarida $F(Z)$ funksiya chegaralangan bo'ladi.

Endi $Z = P_k$ bo'lganda, $B_j(P_k) = 0$ bo'ladi. Shuning uchun yagona qoladigan hadi k - hadi bo'ladi:

$$F(P_k) = b_k \cdot \frac{B_k(P_k)}{B_k(P_k)} \cdot 1 = b_k.$$

Demak, $F(P_k) = b_k$ sharti bajariladi. Tuzilishiga ko'ra, har bir $|\Phi_P(Z)| < 1$ bo'lgani uchun $|B_k(Z)| \leq 1$ bo'ladi. $B_k(P_k)$ ni maxraji $|B_k(P_k)| \geq \delta$ bo'lgani uchun u chegaralangan.

N soni yetarlicha katta qilib qo'shiluvchi hadlarining moduli tez kamayishini ta'minlaymiz, natijada $F(Z)$ chegaralangan bo'ladi. Shunday qilib, $F(Z) \in H^\infty(\mathfrak{I})$ bo'ladigan funksiyani topdik, u berilgan $\{b_k\}$ ketma-ketlikni interpolyatsiya qiladi. Demak, $\{P_k\}$ ketma-ketlik interpolyatsion ketma-ketlik bo'ladi. *Teorema isbot bo'ldi.*

Eslatma. Bu teorema Karleson teoremasining yuqori yarim tekislik uchun umumlashmasi hisoblanadi. Agar nuqtalar bir-biridan uzoq bo'lsa, u holda ixtiyoriy chegaralangan qiymatlar uchun interpolyatsiya mumkin. Shuningdek, $\Phi_P(Z)$ funksiya Blyashka ko'paytmasining xossalariga o'xshash rol o'ynaydi.

Xulosa.

Usbu taqdqiqot ishida $\mathbb{C}^n[\boldsymbol{m} \times \boldsymbol{m}]$ fazodagi matritsaviy yuqori yarim tekislikda interpolyatsion ketma-ketliklarlar tahlil qilindi. Bu soha murakkab matritsalar fazosida muhim analitik va geometrik xossalarga ega bo'lib, ayniqsa golomorf funksiyalar va Ermit matritsalar nazariyasida katta ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot natijalari matritsaviy analiz, operatorlar nazariyasi va raqamli usullar sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan nazariy asosni taqdim etadi. Keyingi bosqichda bu usullarni konkret fizika va muhandislik masalalariga tadbiq etish istiqbollari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Carleson L. An interpolation problem for bounded holomorphic functions, Amer. J. Math. 1958. V. 80. P. 921–930.

2. Berndtsson B. Interpolating sequences for in the ball, Proc. Amer. Math. 1985. V. 88. P. 1–10.

3. Шаимкулов Б.А. Интерполяционные последовательности в обобщенном единичном круге, Современные проблемы математической физики и информационных технологий: Труды междунар. науч. конф. 26–29 ноября 2003. Ташкент, 2003. Т. 2. С. 111–112.

4. Г. Худайберганов, А. М. Кытманов, Б.А. Шаимкулов, Анализ в матричных областях, Красноярск: Сибирский федеральный ун-т, 296 с. (2017).

5. G.Xudayberganov, T.T.To‘ychiyev, Matritsa argumentli golomorf funksiyalar (magistrlar uchun qo‘llanma) Toshkent 2008 y.

6. Kusis P., Introduction to Hp Spaces with an Appendix on Wolff’s Proof of the Corona Theorem, Cambridge University Press, Cambridge-New York, 1980.

7. Hua L. K. and Look K. H., Theory of harmonic functions in classical domains, Sci. Sinica 8 (1959), 1031-1094.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Sharibayev Nosir Yusupjanovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, f.-m.f.d. professor
Ergashov Abdurasul Qodirjonovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, katta o‘qituvchi
Yo‘ldoshaliyev Zuxriddin Faxriddin o‘g‘li
Namangan muhandislik-texnologiya institute, 1-bosqich tayanch doktoranti.
e-mail: zuhriddin2277@gmail.com

SEZGIR BO‘YOQLI QUYOSH ELEMENTLARI (SBQE) BO‘YICHA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR ULARNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Sezgir bo‘yoqli quyosh elementlari (SBQE) energiya ishlab chiqaruvchi ilg‘or texnologiya va sezgir fotodatchiklar sifatida ko‘plab sohalarda qo‘llanilishi mumkinligi bilan e’tiborni tortmoqda. Ushbu ishda SBQElarning samaradorligini oshirish bo‘yicha so‘nggi tadqiqot yutuqlari tahlil qilindi. Mualliflar tomonidan olib borilgan tajriba natijalari asosida SBQElarini arzon materiallar, oddiy ishlab chiqarish texnologiyalari va past xarajatli energiya manbai sifatida ahamiyatli ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Tadqiqotlarda yangi bo‘yoqlar, redoks vositalari va zamonaviy samarador elektrod materiallari yordamida fotogeneratsiya samaradorligini oshirish usullarini o‘rganilgan. Shuningdek, SBQElarning past yorug‘lik sharoitlarida yuqori samaradorlik ko‘rsatishi va elektron qurilmalarda sezgir element sifatida foydalanilishi muhokama qilib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sezgir bo‘yoqli quyosh elementlari (SBQE), Fotoelektrik samaradorlik, Energiyani yig‘ish, Kam yorug‘likda ishlash samaradorligi, Tejamkor quyosh texnologiyasi, Redoks tizimlari, Ilg‘or elektrodda materiallar, Qattiq holatdagi SBQE.*

Шарибаев Носир Юсупжанович
Наманганский инженерно-технологический институт
доктор физико-математических наук, профессор
Эргашев Абдурасул Қодиржонович
Наманганский инженерно-технологический институт
старший преподаватель
Йулдошалиев Зухриддин Фахриддин угли
Докторант 1 ступени Наманганский инженерно-технологический института

СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО СОЛНЕЧНЫМ ЭЛЕМЕНТАМ НА ОСНОВЕ КРАСИТЕЛЕЙ (DSSC) И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация. *Солнечные элементы на основе красителей (DSSCs) являются высокоактуальной технологией генерации энергии с применением в различных областях. В данной статье анализируются последние научные достижения, направленные на повышение эффективности DSSCs. Авторы подчеркивают важность DSSCs как экономичного и устойчивого источника энергии благодаря использованию доступных материалов. В исследовании рассматриваются возможности улучшения фотоэлектрических характеристик DSSCs за счет инноваций в красителях, редокс-системах и современных материалах для электродов. Также обсуждается пригодность DSSCs для работы в условиях низкой освещенности и использования в помещениях.*

Ключевые слова*: Солнечные элементы на основе красителей (DSSCs), Фотоэлектрическая эффективность, Сбор энергии, Эффективность работы при низкой освещенности, Экономичная солнечная технология, Редокс-системы, Современные материалы для электродов, Твердотельные DSSCs.*

Sharibayev Nosir Yusupjanovich
Namangan Institute of Engineering and Technology
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Ergashev Abdurasul Qodirjonovich
Namangan Institute of Engineering and Technology Senior Lecturer

Yuldoshaliyev Zukhriddin Fakhriddin ugli
1st year PHD level student of Namangan Institute of Engineering and Technology

MODERN RESEARCH ON DYE-SENSITIZED SOLAR CELLS (DSSCs) AND THEIR EFFICIENCY

Annotation: *Dye-sensitized solar cells (DSSCs) are a highly relevant energy generation technology with applications in various fields. This article analyzes the latest scientific advancements aimed at improving the efficiency of DSSCs. The authors emphasize the significance of DSSCs as an economical and sustainable energy source due to their use of cost-effective materials. The research explores opportunities to enhance the photovoltaic performance of DSSCs through innovations in dyes, redox systems, and advanced electrode materials. Additionally, the suitability of DSSCs for low-light conditions and indoor applications are discussed.*

Keywords: *Dye-Sensitized Solar Cells (DSSCs), Photovoltaic Efficiency, Energy Harvesting, Low-Light Performance Efficiency, Cost-Effective Solar Technology, Redox Systems, Advanced Electrode Materials, Solid-State DSSCs.*

Kirish.


Jahon aholisining ko‘payishi davom etar ekan, energiya talabining ortishi va issiqxona gazlari chiqindilari hamda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tashvishlar kuchaymoqda. Bu butun dunyo bo‘ylab tadqiqotchilarni energiya ishlab chiqarishning muqobil va toza usullarini qidirishga undadi. Turli xil qayta tiklanuvchi energiya manbalari orasida quyosh energiyasi boy, jim va ekologik xavfsiz manba sifatida global energiya talabini qondirish uchun ulkan salohiyatga ega.

Fotovoltaik texnologiyalar (PV) quyosh energiyasini arzon va samarali tarzda elektr energiyasiga aylantirish imkonini beradi. PV texnologiyalari orasida kristalli kremniy (Si) asosidagi tizimlar so‘nggi ellik yil ichida PV bozorda yetakchilik qildi. Bu tizimlarning to‘liq quyosh nurlari ostida samarali ishlashi, har qanday iqlim sharoitida barqaror fotovoltaik ko‘rsatkichga ega bo‘lishi va tadqiqot hamda rivojlantirish jarayonlarining mukammalligi bilan izohlanadi[1]. Biroq, Si asosidagi PV tizimlar energiya talabchan ishlab chiqarish jarayonlari, kam estetik ko‘rinish va past yorug‘lik sharoitlarida kam samaradorlik kabi bir qator kamchiliklarga ega. Bu ularning binolarga integratsiyalangan PV tizimlari, ko‘chma elektron qurilmalar va ichki sharoitlarda keng qo‘llanilishiga to‘sqinlik qildi[2].

An’anaviy PV texnologiyalaridan farqli o‘laroq, uchinchi avlod texnologiyalari, masalan, sezgir bo‘yoqli quyosh elementlari (SBQE), organik quyosh elementlari (OSC) va perovskit quyosh elementlari (PSC) arzon va mo‘l materiallar yordamida ishlab chiqildi[3]. Ushbu texnologiyalar oson va keng miqyosda ishlab chiqarish usullari bilan ajralib turadi. Ularning samaradorligi va barqarorligi hali ko‘p hollarda tashqi muhitda keng foydalanish uchun yetarli emas. Ammo, ularning ingichka va yengil moslashuvchan modullarda ishlab chiqarish imkoniyati ko‘chma elektron qurilmalar uchun ideal echimni taqdim etadi[4]. Bundan tashqari, past yorug‘lik sharoitlarida yuqori samaradorlik ko‘rsatib, qurilmalar uchun muhim energiya manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

An’anaviy sezgir bo‘yoqli quyosh elementlari (SBQE) ikki shaffof o‘tkazuvchan oksid (TCO) bilan qoplangan shisha elektrodlardan iborat bo‘lib, odatda flor bilan doplangan qalay oksidi (FTO) bilan qoplangan shisha substratlarni o‘z ichiga oladi[5]. Ushbu shisha substratlarning biri bog‘langan TiO_2 zarralar asosidagi nanokristalli qatlam bilan qoplangan bo‘lib, u bo‘yoq (odatda ruteniyning (Ru) asosidagi organometallik molekulasi) bilan sezgirlanganida fotoelektrod (PE) sifatida xizmat qiladi[5]. Ikkinchi shisha substrat katalizator (masalan, Pt) bilan qoplangan bo‘lib, u qarshi elektrod (CE) vazifasini bajaradi.

Fotoelektrod va qarshi elektrod odatda 10–45 μm qalinlikdagi termoplastik spacer folga yordamida biriktiriladi yoki ular qisqa tutashuvning oldini olish uchun qalin (1–30 μm) va g‘ovakli izolyator (masalan, ZrO_2 yoki Al_2O_3 asosidagi izolyatsiya qatlamlari) yordamida ajratiladi



Sezgir bo‘yoqli quyosh elementlari (SBQE)ning qurilma tuzilishi va ishlash printsipini ko‘rsatuvchi sxematik tasvir. CB = o‘tkazuvchanlik zonasi, Ef TiO_2 = TiO_2 fermi darajasi, S = bo‘yoq sezgir molekulasining asosiy holati, S* = bo‘yoq sezgir molekulasining qo‘zg‘algan holati, S_0 = oksidlangan bo‘yoq, S^+ = zaryad ajralishi, I^- = yodid ioni, va I_3^- = triiodid ioni.

Fotoelement ishlashi davomida, zaryadlar PE (fotoelektrod) va CE (qarshi elektrod) o‘rtasida odatda yodid/triiodid asosidagi redoks vositachisi bo‘lgan suyuq elektrolit orqali almashadi. Vositachi faqat g‘ovakli TiO_2 elektrodida emas, balki g‘ovakli (spacer) elektrolit qobig‘i va suyuq elektrolitning hajm fazasi orqali ham diffuziya qiladi. Shu sababli, termoplastik va spacer qalinligi SBQE'larning fotovoltaik ishlashiga massa transporti va hajmiy elektrolitning diffuziya qarshiligi (RD) orqali

bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda RD ni minimallashtirish faqat termoplastikni yoki g‘ovakli izolyator qalinligini moslashtirish, yoki past qovushqoqlikga ega erituvchi asosidagi elektrolitlardan foydalanish orqali yuqori samarali SBQE larni yaratishda amalga oshirildi.

Bu borada, Cao va boshqalar yaqinda mezoprousli TiO_2 asosidagi PE va polietilendioksitiofen; PEDOT katalizator asosidagi CE o‘rtasida hech qanday spacer ishlatilmasdan fizik bog‘lanishda bo‘lgan noyob SBQEni taqdim etdilar[6]. Qizig‘i shundaki, tayyorlangan SBQElarida elektrolit fotoelement abodlari orasiga joylangandan so‘ng (o‘tkazuvchanlikni taminlovchi elektrodlarda zaryad tashishni ta'minlash uchun) elektrodlarda qisqa tutashuv hodisasi kuzatilmagan. Buning o‘rniga, bu SBQElar II turdagi bog‘lanish hosil qilingan, bunda sezgirlashtirilgan yarimo‘tkazgich (TiO_2) qatlam n-tipli noorganik yarimo‘tkazgich muhit sifatida xizmat qiladi, PEDOT qatlami esa teshiklarni tanlovchi va elektronlarni to‘suvchi qavat sifatida p-tipli polimer yarimo‘tkazuvchi vazifasini bajaradi.

Natijada, amalda o‘rganilayotgan namuna fotoelement SBQElarning RD (diffuziya qarshiligi) pasaytirildi, bu esa ularning fotovoltaik samaradorligini oshirishga yordam berdi[7]. Rivojlangan tajriba sharoitlarida alternativ mis (Cu) asosidagi redoks vositachilar va TiO_2 qo‘shilgan elektrodlari yordamida to‘liq quyosh nuri ostida 13,1% samaradorlikka erishildi. Yanada qiziqarli tomoni shundaki, xuddi shu qurilmalarni sun’iy ichki yoritishda (1000 lyuks) juda yuqori (32%) aylantirish samaradorligini va 101 mW sm^{-2} maksimal chiqish quvvat zichligini ko‘rsatdi, bu sensorlar, va ko‘chma elektronika uchun istiqbolli yechim hisoblanadi[8].

Yaqinda shunga o‘xshash SBQElarning aylantirish samaradorligi yuqori yoritilganlikda 1000, 500 va 200 lyuks ostida mos ravishda 34,0%, 32,7% va 31,4% gacha yaxshilandi. Batareya shaklida ulangan SBQElar majmuasini yaratilishi orqali 1000 lyuks yoritilganlik sharoitida ishlovchi stansiyani hosil qilish mumkinligi aniqlandi. Bu ularning aqlli avtonom tizimlar tomonidan boshqariladigan texnologiyalarga kelajakda hissa qo‘shish salohiyatini ko‘rsatadi.

Germetizatsiyaning buzilishi sababli batareya elementida generatsiyalovchi emas aksincha istemolchi bo‘lib qolgan yacheyka vujudga keladi. Bunday yacheykalarni aniqlash, kamchiligini bartaraf etish yoki batareya tarmog‘idan uzish lozim[9]. Xususan, elektrolit solventi ataylab shisha elektrodda teshiklar orqali bug‘lanish yo‘li bilan quritilib, Cu asosidagi redoks juftligi va qo‘shimchalar hujayra kanalida qattiq holatdagi teshik tashish materiali sifatida xizmat qildi.

Shunga qaramay, ushbu ilg‘or SBQElar bilan bog‘liq cheklovlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1.Qurilmaning ikki shisha substrat sababli juda qalin (6–8 mm) bo‘lishi, bu IoT qurilmalar uchun yorug‘lik yig‘ish va quvvat ishlab chiqarish birligiga samarali integratsiyani cheklashi mumkin.

2.Ikki shisha substratni ishlatishning yuqori narxi, bu SBQElar ishlab chiqarishdagi materiallarning muhim qismini tashkil etadi.

3.Cu redoks va qo‘shimchalar asosidagi qattiq teshik tashish qatlamini yaratish usuli realistik emas, chunki Cu elektrolit solventining uzoq muddatda bug‘lanishi kerak (72–96 soat)[10].

4.Teshiklar, bu faol bo‘lmagan maydonni, umumiy element qarshiligini (RCELL) va ishlab chiqarish narxini oshiradi.

5.PEDOT katalizatorining kimyoviy mustahkamligi kamdan-kam hollarda hisobga olingan va shu sababli yana izlanish talab etiladi.

Ushbu muammolarni hisobga olgan holda, 4-rasm Cu redoks va PEDOT elektrod asosidagi SBQElarni monolit hujayra konfiguratsiyasida ekran bosish yoki inkjet bosib chiqarish kabi keng ko‘lamli ishlab chiqarish usullari orqali yaratish jarayonini ko‘rsatadi[11].

Muqobil redoks juftlik yordamida yaxshilangan fotovoltaik samaradorlik: Asbob-uskunalar dizaynlari bilan bir qatorda, muqobil redoks shuttllar bilan elektrolit formulalarining oxirgi vaqtlarda sezilarli darajada rivojlanishi va DSSC’lar energiya aylantirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi kuzatilmoqda.

Garchi ular ta’sirli konversiya samaradorligi va mustahkam uzoq muddatli barqarorligi bilan tanilgan bo‘lsada, an'anaviy yodid/triiodid redoks juftliklar asosidagi elektrolitlar tezda muqobil redoks juftliklari bilan almashtirildi. Bu o‘z navbatida ularning pastroq redoks potensiali yoki metall barmoqlarga zararli ta’siri kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan. Bu cheklovlar DSSC’ning fotovoltaik samaradorlik barqarorligini cheklaydi.

Ko‘plab muqobil variantlardan, kobalt (Co) va mis (Cu) asosidagi redoks juftliklar elektrolitlari e'tiborni tortgan. Bu ularning o‘ziga xos xususiyatlari, masalan, past haydovchi kuch bilan tez bo‘yoqni tiklash, ko‘rinadigan spektrdagi past so‘rilish, 1 volt va undan yuqori kuchlanishga erishish imkoniyati, shuningdek muqobil katalizator materiallari bilan yuqori moslashuvchanlik kabi xususiyatlari orqali o‘z ahamiyatini namoyon etdi. Ushbu tizimlar past yorug‘lik intensivligida a'lo fotovoltaik samaradorlikka erishdi, bu esa ko‘plab hisobotlarda qayd etilgan.

Co komplekslarining sozlanishi mumkin bo‘lgan redoks potensiali sensibilizatorning HOMO darajasiga tez sozlanishni ta’minlaydi va natijada yuqori ochiq zanjir kuchlanishlariga (VOC) erishish imkoniyatini yaratadi. Bir nechta dastlabki tajribalar orasida Sandra va boshqalar kobalt polipiridin kompleksi va organik sensibilizatorning to‘g‘ri kombinatsiyasini tanlash orqali ilg‘or SBQE’larda

6,7% konversiya samaradorligini hisobot berdi, bu qurilmalar to‘liq quyosh nuri ostida juda yuqori VOC (>0,9 V) ko‘rsatgan. Shu bilan birga, ayni qurilmalar juda ta’sirli fotovoltaik samaradorlikni (>7%) namoyish etdi va past yorug‘lik sharoitida yodid elektrolitlarini o‘z ichiga olgan SBQE’larni ortda qoldirdi. Ushbu umidli natijalar kobalt asosidagi redoks elektrolit tizimlarini karbonga asoslangan yoki polimerli muqobil katalizator materiallari bilan qo‘shimcha sinovlardan o‘tkazishga olib keldi, bu esa yuqori moslashuvchanlikni namoyon etdi va to‘liq quyosh nuri ostida juda ta’sirli 12–13% konversiya samaradorliklariga erishdi.

Hozirgi kunda SBQE’larning ochiq havoda qo‘llanilishi yoki ularning binolarga integratsiyalangan fotovoltaik (BIPV) tizimlarga kiritilishi uchun qiyin sharoitlarda uzoq muddatli fotovoltaik samaradorlik barqarorligi bo‘yicha ishonchli sertifikatlash talab etiladi. Ammo, zamonaviy qurilmalar uchun ichki sharoitlarda energiyani samarali yig‘uvchi SBQE’lar kutilganidan kam talab qiluvchi sertifikatlarga muhtoj bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning tijoratda muvaffaqiyatli bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Ichki sharoitdagi ekologik muhit tabiiy iqlim sharoitlariga qaraganda ancha boshqariladigan va turg‘un bo‘lganligi bilan izohlanadi[12].

SBQE’larning samaradorligini baholash uchun mos standart sinov protokollarini ishlab chiqish zarurati quyidagi sabablarga asoslanishi mumkin:

1.**Yorug‘lik manbalari xilma-xilligi**:Zamonaviy binolarda o‘rnatilgan yorug‘lik manbalari (masalan, LEDlar, ftorli lampalar va natriy lampalar) ko‘p bo‘lib, samaradorlikni ishonchli baholash uchun standart yorug‘lik manbasini tanlashni muhim sifatida e’tirof etadi.

2.**Issiqlik stress sinovlarining standart haroratlari**: Ochiq havoda foydalanish uchun talab qilinadigan yuqori haroratli sinovlar (85°C va 85% nisbiy namlik) ichki sharoitlar uchun moslashuvchanroq bo‘lishi mumkin. Lekin ishlab chiqarilgan SBQE’larni tashish va saqlash jarayonida haroratning keng diapazoniga duch kelishi mumkinligi ham hisobga olinishi kerak.

3.**Yangilangan UB (kuchli ultrabinafsha) sinovlari**: Zamonaviy LED yorug‘lik manbalari UB diapozoniga ega bo‘lmagani uchun, diffuz yoritilganlikda foydalanishda SBQE’lar UB sinovlariga nisbatan dahlsizlikda bo‘lishi mumkin.

4.**Barqarorlik sinovlarining davomiyligi**: Hozirgi 1000 soatlik(6 hafta) tajriba kuzatuv natijalarini 2000 soatgacha kengaytirish mumkin, chunki diffuz yoritilganlikda SBQE’lar ichida kimyoviy reaksiyalar sekinroq sodir bo‘ladi.

Oxirgi tadqiqotlar natijalari SBQE’larning bino-inshoatlarning ichki sharoitlarida uzoq muddatli va ishonchli ishlashini baholash uchun juda muhimdir. Namunada olingan natijalarga asoslanib, kelajakdagi portativ elektronika uchun energiya yig‘uvchi SBQE’larning turg‘unligini baholashga erishilgan.

Sezgir bo‘yoqli quyosh elementlari (SBQE) elektron ilovalar, masalan, simsiz datchiklar uchun zarur energiyani hosil qilishda samarali bo‘lib, ularni yopiq binolar ichidagi yoritishda energiya olish uchun ishlatish mumkin. Ularning arzon va mo‘l materiallari, shuningdek, ularni yupqa va yengil, moslashuvchan quyosh panellari sifatida ishlab chiqarish imkoniyati SBQElarni past narxli ichki muhitlar uchun quyosh panellarini yaratishga mos qiladi. Buning uchun quyosh elementi ishlab chiqarish usullari yuqori samaradorlik va uzoq muddatli bardoshlilikni saqlagan holda sanoat darajasida kengaytirilishi lozim.

SBQElarni ishlab chiqarish bo‘yicha oxirgi tadqiqot yo‘nalishlari ko‘rsatmoqdaki, yangi va optimallashtirilgan materiallar yordamida muhim yutuqlarga erishish mumkin. Bu materiallar SBQElarning mexanik tarzda bog‘langan suyuqlik o‘tish yoki erituvchisiz qattiq holatdagi SBQE kabi ilg‘or dizaynlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ochib beradi[13].

Bundan tashqari, taklif etilgan jarayon oqimi SBQE qurilmasini yagona shisha substratda iqtisodiy jihatdan samarali ishlab chiqarish yondashuvini taqdim etadi, bu esa umumiy ishlab chiqarish xarajatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Taklif etilgan jarayon yordamida bosilgan bo‘yoqlar va mis (Cu) asosidagi qattiq holatdagi kovak o‘tkazuvchi bilan qattiq holatdagi SBQE tuzilishini yaratish, tabiiy va simulyatsiya qilingan sharoitlarda SBQElarning mustahkamligini oshiradi va portativ elektronika qurilmalari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shuning uchun ko‘plab tadqiqot laboratoriyalari va tijorat kompaniyalari tomonidan tezkor tadqiqot va ishlanma faoliyatlari kutilmoqda, bu SBQE texnologiyasining arzon narxlarda keng tarqalishini va sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini tezlashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] S. A. Abrol, C. Bhargava, and P. K. Sharma, “Fabrication of DSSC using doctor blades method incorporating polymer electrolytes,” *Mater. Res. Express*, vol. 8, no. 4, 2021, doi: 10.1088/2053-1591/abf474.

[2] M. Bonomo *et al.*, “Unreported resistance in charge transport limits the photoconversion efficiency of aqueous dye-sensitised solar cells: an electrochemical impedance spectroscopy study,” *Mater. Today Sustain.*, vol. 21, 2023, doi: 10.1016/j.mtsust.2022.100271.

[3] I. Mihalache *et al.*, “Charge and energy transfer interplay in hybrid sensitized solar cells mediated by graphene quantum dots,” *Electrochim. Acta*, vol. 153, 2015, doi: 10.1016/j.electacta.2014.11.200.

[4] Q. A. Yousif and N. H. Haran, “Fabrication of TiO2 nanotubes via three-electrodes anodization technique under sound waves impact and use in dye-sensitized solar cell,” *Egypt. J. Chem.*, vol. 64, no. 1, 2021, doi: 10.21608/EJCHEM.2020.28233.2596.

[5] M. R. Aziza, E. Maulana, P. Mudjirahardjo, and Jumiadi, “Performance improvement of dye-sensitized solar cells by using natural chlorophyll and anthocyanin dyes,” *Indones. J. Electr. Eng. Comput. Sci.*, vol. 29, no. 3, 2023, doi: 10.11591/ijeecs.v29.i3.pp1290-1299.

[6] Р. В. Апраксин, С. Н. Елисеева, М. А. Каменский, Е. Г. Толстопятова, Г. Г. Ланг, and В. В. Кондратьев, “ Импеданс LiFe 0.4 Mn 0.6 PO 4 электродов с комбинированным проводящим полимерным связующим PEDOT:PSS и карбоксиметилцеллюлозой ,” *Электрохимия*, vol. 55, no. 11, 2019, doi: 10.1134/s0424857019110021.

[7] T. Raguram and K. S. Rajni, “Synthesis and characterisation of Cu - Doped TiO2 nanoparticles for DSSC and photocatalytic applications,” *Int. J. Hydrogen Energy*, vol. 47, no. 7, 2022, doi: 10.1016/j.ijhydene.2021.11.113.

[8] Q. Guo, C. Zhou, Z. Ma, and X. Yang, “Fundamentals of TiO2 Photocatalysis: Concepts, Mechanisms, and Challenges,” 2019. doi: 10.1002/adma.201901997.

[9] P. Trihutomo, S. Soeparman, D. Widhiyanuriyawan, and L. Yuliati, “Performance improvement of dye-sensitized solar cell- (DSSC-) based natural dyes by clathrin protein,” *Int. J. Photoenergy*, vol. 2019, 2019, doi: 10.1155/2019/4384728.

[10] A. A. Abdukarimov, R. G. Ikramov, O. O. Mamatkarimov, and A. K. Arof, “Dependence of the characteristics of dye-sensitized solar cells on amount tetrapropylammonium iodide,” *«Узбекский физический журнал»*, vol. 22, no. 4, 2019, doi: 10.52304/.v22i4.166.

[11] A. S. A. Rahim, M. Z. Kufian, A. K. M. Arof, and Z. Osman, “Variation of Li Diffusion Coefficient during Delithiation of Spinel LiNi0.5Mn1.5O4,” *J. Electrochem. Sci. Technol.*, vol. 13, no. 1, 2022, doi: 10.33961/jecst.2021.00780.

[12] J. H. Kim, D. H. Kim, J. H. So, and H. J. Koo, “Toward eco-friendly dye-sensitized solar cells (DSSCs): Natural dyes and aqueous electrolytes,” 2022. doi: 10.3390/en15010219.

[13] L. Lu *et al.*, “Thermal analysis of a portable DSSC mini greenhouse for botanical drugs cultivation,” *Energy Reports*, vol. 6, 2020, doi: 10.1016/j.egyr.2019.12.025.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Maxmanov Urol Kudratovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti
"Optika va spektroskopiya" laboratoriyasi mudiri fizika-matematika fanlari doktori, professor
E-mail: urolmakh@gmail.com
Aslonov Bobirjon Ashur o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti tayanch doktoranti
E-mail: aslonovbobir@mail.ru
Shodiyeva Dildora Soatmurot qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: dshodiyeva80@gmail.com

FULLEREN MOLEKULALARINING C_{70}/TOLUOL/SUV ERITMASIDA KLASTERLANISHI

Annotatsiya. *C_{70}/toluol/suv eritmasida fulleren molekulalarining klasterlanish jarayoni optik yutilish, Raman spektroskopiyasi va elektron mikroskopiya yordamida tahlil qilindi. C_{70}/toluol/suv eritmasining optik yutilish spektri va Raman spektridagi o‘zgarish va C_{70} molekulalarining muhitda klasterlanish darajasi o‘rtasida korrelyatsiya o‘rnatildi. Elektron mikroskop yordamida eritmada C_{70} asosidagi nanostrukturali viskerlarning sintezlanishi aniqlandi. Binar aralashmadagi C_{70} fullerenning kuzatilgan tabiati uning klasterlanish mexanizmini yanada aniqlashtirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *C_{70} fullereni; binar erituvchilar; fulleren eritmasi; fulleren klasterlanishi; nanovisker; nanoagregat.*

Махманов Урол Кудратович
заведующий лабораторией «Оптика и спектроскопия»
Института ионно-плазменных и лазерных технологий
Академии наук Республики Узбекистан, доктор физико-математических наук, профессор
Аслонов Бобиржон Ашурович
Докторант Института ионно-плазменных и
лазерных технологий Академии наук Республики Узбекистан
Шодиева Дилдора Соатмуротовна
Магистрант Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

КЛАСТЕРИЗАЦИЯ МОЛЕКУЛ ФУЛЛЕРЕНА В РАСТВОРЕ C_{70}/ТОЛУОЛ/ВОДА

Аннотация. *Процесс кластеризации молекул фуллерена в растворе C_{70}/толуол/вода был проанализирован с помощью оптического поглощения, Рамановской спектроскопии и электронной микроскопии. Установлена корреляция между изменением спектра оптического поглощения и спектра комбинационного рассеяния света раствора C_{70}/толуол/вода и степенью кластеризации молекул C_{70} в среде. Синтез наноструктурированных нитевидных кристаллов (нановискеров) на основе C_{70} в растворе был обнаружен с помощью электронного микроскопа. Наблюдаемая природа фуллерена C_{70} в бинарной смеси помогает дополнительно прояснить механизм его кластеризации.*

Ключевые слова: *Фуллерен C_{70}; бинарные растворители; раствор фуллерена; кластеризация фуллерена; нановискер; наноагрегат.*

Makhmanov Urol Kudratovich
Head of the Laboratory “Optics and Spectroscopy”
of the Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Aslonov Bobirjon Ashurovich
Doctoral student of the Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies,
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Shodieva Dildora Soatmurot kizi
Master's student at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

CLUSTERING OF FULLERENE MOLECULES IN C_{70}/TOLUENE/WATER SOLUTION

Abstract. *The clustering process of fullerene molecules in C_{70}/toluene/water solution was analyzed by optical absorption, Raman spectroscopy, and electron microscopy. A correlation was established between the change in the optical absorption spectrum and the Raman spectrum of the C_{70}/toluene/water solution and the degree of clustering of C_{70} molecules in the medium. The synthesis of nanostructured whiskers based on C_{70} in solution was observed using an electron microscope. The observed nature of C_{70} fullerene in a binary mixture helps to further clarify its clustering mechanism.*

Key words: *Fullerene C_{70}; binary solvents; solution of fullerene; fullerene clustering; nanowhisker; nanoaggregate.*

Kirish

Suvda eruvchan fulleren hosilalarining qiziqarli fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari [1-4] fullerenlarning suvli eritmalarini olishga [1-8] qiziqishni yanada orttiradi. Fullerenlar o‘zi deyarli suvda erimaydigan bo‘lganligi sababli [9], ularni suvli muhitga o‘tkazishga fulleren molekulalariga kimyoviy o‘zgartirish kiritish [1-4], suvda eruvchan komplekslarni hosil qilish [5-7], sirt faol moddalar orqali erishini ta’minlash kabi usullar bilan erishiladi [6-8].

Sof fullerenning suvdagi molekulyar eritmalarini tayyorlab bo‘lmaydi, buni ta’minlash uchun bir necha urinishlar bo‘lgan [10-14]. C_{70}/benzol eritmani dastlab tetragidrofuran (TGF) bilan, keyin atseton va oxirida suv bilan aralashtirib, organik erituvchilarni eritma tarkibidan haydash orqali C_{70}/suv dispers eritmasini olishga erishdilar [10]. C_{70}/toluol/suv eritmasidan toluol bug‘lanishi tugagunga qadar bir necha soat davomida ultratovush bilan ta’sir qo‘llanilgan va C_{70} ning suvdagi barqaror kolloid eritmasiga erishiladi [11-13]. Bu usullar modifikatsiyalanmagan fullerenlarning biologik faolligini baholash imkonini beradi.

Fullerenlarning biologik faolligini o‘rganish uchun fulleren dispersiyasining fundamental xossalarini, jumladan fulleren kolloid zarrachalarining strukturasi, o‘lcham taqsimoti hamda ularni barqarorlashtirish mexanizmi kabi xususiyatlarini bilish juda muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda sof fullerenlarning suvdagi eritmalarini olish bilan birga ularni turg‘un holda saqlash, molekulalararo ta’sirlarni aniqlash, o‘lchamli effektlarni o‘rnatish kabi ilmiy masalalar muhimligicha qolmoqda.

Ushbu ishda C_{70} fullerenning toluol va toluol/suv eritmalaridagi molekulyar va kolloid xossalarini, eritmalarda sintezlangan C_{70} nanoagregatlarining optik yutilish, morfologik xususiyatlari va Raman spektrlari batafsil bayon etiladi.

Tadqiqot metodi va reagentlar

Tajribalarda C_{70} fullereni (>99.5% tozalikda) Sigma Aldrich (AQSh) kompaniyasidan keltirilgan, uni hech qanday qo‘shimcha tozalashlarsiz ishlatilgan. Toluol (C_7H_8) Sigma Aldrich (AQSh) kompaniyasidan olingan hamda bir marta distillangan toza suv erituvchilar sifatida ishlatilgan. Tajribalar davomida namunalarni yorug‘lik ta’sirida zararlanishni minimallashtirishga e’tibor qaratilgan.

Oldindan tayyorlangan germetik holdagi shisha kolbadagi “toluol+C_{70} kukuni” aralashmasi laboratoriya magnit rotatori (WIGO MS-11H, Polsha) yordamida 60 daqiqa davomida ~2.0 Gs chastotada uzluksiz mexanik aralashtirish orqali molekulyar darajagacha eritildi. So‘ngra ushbu eritmaga bosqichma-bosqich o‘lchangan miqdorda suv qo‘shib, dastlab magnit rotatorida (~2.0 Gs) 60 daqiqa davomida, keyin esa uni ultratovushli vannada (DC-120H) 30 daqiqa davomida ultratovushli ta’sir yordamida eritiladi. Ortiqcha erimagab qattiq qoldiqlar PTFE membrana filtri (nominal g‘ovakligi o‘lchami 0.22 μm) yordamida filtrlanib, natijada C_{70}/toluol va C_{70}/toluol/suv eritmalari olinadi.


Eritmalarning UV-ko‘rinuvchi yutilish spektrlari Shimadzu UV-2700 spektrofotometri (Shimadzu, Yaponiya) yordamida yozib olingan. Berilgan barcha spektrlar fon tuzatishlari bilan taqdim etilgan. O‘lchovlar xona haroratida bajarilgan.

Eritmalarda sintezlangan C_{70} nanostrukturalarining morfologik va o‘lchamli xususiyatlari JSM-IT200 markali (Yaponiya) skanerlovchi elektron mikroskopi (SEM) yordamida tadqiq etildi.

Fulleren nanostrukturalarining Raman spektrlari InViaRaman spektrometri (Renishaw, Buyuk Britaniya) yordamida o‘lchandi. Qurilmadagi Cobolt CW 532 nm DPSS lazeridan foydalanilgan.

Natijalar va ularning muhokamasi


C_{70} fullerenning toluol va toluol/suv (erituvchilarning hajmiy ulushi 0.8:0.2) erituvchilardagi eritmalarining UV-ko‘rinuvchi sohadagi yutilish spektrlari 1-rasmda keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, o‘rganilayotgan spektral diapazondagi fulleren C_{70} eritmalari aniq maksimal yutilish spektrlariga ega. C_{70} eritmalarining elektron yutilish spektrlaridagi o‘zgarishlarning evolyutsiyasi doimiy C_{70}~0.15 mg/ml konsentratsiyasida erituvchilarning hajmiy ulushlariga kuchli bog‘liq. C_{70}/toluol eritmasida ~334, ~382, ~470 nm to‘lqin uzunliklarda yaqqol yutilish maksimumlari, ~363 va ~550 nm larda esa kuchsiz yelka yutilish polosalari mavjud bo‘lib (1 egri chiziq), bular shubhasiz, C_{70} fullerenning molekulyar eritmalariga xos xususiyat hisoblanadi.



1-rasm. C_{70}/toluol (*1 egri chiziq*) va C_{70}/toluol/suv (2) eritmalarining optik yutilish spektrlari. Eritmalarda C_{70} konsentratsiyasi ~0.15 mg/ml.


C_{70}/toluol eritmaga 20% hajmiy ulushda suv qo‘shilgandagi C_{70}/toluol/suv eritmaning optik yutilish spektri 1-rasm, 2-egri chiziqqa mos keladi. Ko‘rinib turibdiki, yutilish spektrida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi, bu eritmaning rangi o‘zgarishi bilan bog‘liq. C_{70}/toluol/suv eritma C_{70}/toluol eritmaga nisbatan optik nurlanishni ko‘proq yutishi namoyon bo‘lgan. Bu holda C_{70}/toluol eritmadagi ~334, ~363 va ~550 nm yutilish polosalari butunlay yo‘qolgan, boshqa yutilish polosalari esa kengayib, “qizil siljish” namoyon qilmoqda. Xususan, C_{70}/toluol/suv eritmada C_{70} ning ikkita kuchli yutilish cho‘qqilari quyidagicha qizil siljishga uchradi: 382 nm → 384 nm (~2 nm ga siljish), 470 nm → 486 nm (~16 nm ga siljish). Optik yutilish spektrlaridagi ushbu o‘zgarishlar (2-egri chiziqqa qarang) C_{70}/toluol/suv eritmada molekulalararo ta’sirlarda suv molekulalarining ulushi mavjudligi bilan bo‘gliq. C_{70} fulleren suvda individual molekula sifatida deyarli erimaydi, balki mayda qattiq agregatlar sifatida dispers holatga o‘tadi. Grafikda C_{70} ning suvdagi yutilish qirrasi sof C_{70} dagi ~2 nm dan ~16 nm gacha qizil siljish bilan namoyon etishi C_{70} suvda sof molekula shaklida emas, balki nanoagregat sifatida mavjudligini ko‘rsatadi.

C_{70} nanostrukturalari yarimo‘tkazgich xususiyatli bo‘lib, uni ishqoriy metallar bilan legirlanganda engil va moslashuvchan o‘ta o‘tkazuvchan materiallar sifatida qo‘llanilishi mumkin. Raman spektroskopiyasi C_{70} nanostrukturalarining strukturasi, tarkibi va sifati haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Ularning kristallik darajasini, defektlarini, funksional guruhlarini va boshqa xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. 2-rasmda C_{70}/toluol/suv eritmasining Raman spektri keltirilgan. Ushbu spektrda C_{70} ga tegishli bo‘lgan 254, 404, 565, 697, 736, 768, 1059, 1182, 1228, 1255, 1294, 1308, 1335, 1370, 1440, 1473, 1512 va 1567 cm^{-1} to‘lqin sonlarga mos piklar mavjudligi ko‘rinib turibdi. Ushbu piklar [14] adabiyotda berilgan C_{70} molekulalarining D_{5h} simmetriyasidagi Raman faol rejimlariga mos keladi. Ammo ba’zi piklarda siljish ro‘y berganligini hisobga olsak, fulleren molekulalari eritmada monomer holatda emas, balki o‘z-o‘zidan tashkillanish hisobiga nanostrukturalar hosil qilgan degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi.



2-rasm. C_{70}/toluol/suv eritmasidagi C_{70} fullerenning Raman spektri. Eritmada C_{70} konsentratsiyasi ~0.15 mg/ml.

C_{70}/toluol/suv eritmada suvning ta’siri natijasida fulleren molekulalarining holati o‘zgarganligini Raman spektri natijasi ko‘rsatdi. Shu bois eritmada sintezlangan C_{70} nanostrukturalarining morfologik va o‘lchamli xususiyatlarini SEM yordamida tadqiq qilindi. 3-rasmda C_{70}/toluol/suv eritmada sintezlangan C_{70} nanostrukturalarining SEM tasviri keltirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, sintezlangan C_{70} nanostrukturalari bir o‘lchovli nanomateriallar (fulleren nanoviskerlari – C_{70}NV) shaklida bo‘lib, ularning eng uzun C_{70}NV ning o‘lchami 2,75 mkm, eng kichik uzunlikdagisi esa 1,8 mkm o‘lchamga ega. Eng katta diametrli C_{70}NV 180 nm, eng kichigi 100 nm diametrli hisoblanadi. Umuman olganda bu holda o‘rtacha uzunligi va diametri mos holda 2.28 mkm va 137 nm o‘chamdagi C_{70}NV lar sintezlangan.



3-rasm. C_{70}/toluol/suv eritmasida sintezlangan C_{70} fulleren nanoviskerlarining SEM tasviri. Eritmada C_{70} konsentratsiyasi ~0.15 mg/ml.

Tadqiqotda olingan C_{70}NV lar turli yarimo‘tkazgichli qurilmalar, o‘ta sezgir datchiklar, gibrid fotovoltaik qurilmalar va boshqa nanoelementlarni yaratishda samarali qo‘llanilishini mumkin. Eritmada

komponentlar konsentratsiyasini (xususan, suv miqdorini) o‘zgartirish orqali sintez jarayonini boshqarish ajoyib tadqiqot maydoni bo‘lib, keyingi tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Xulosa

Yuqori aniqlikdagi optik yutilish, Raman spektroskopiyasi va elektron mikroskopiya metodlari yordamida C_{70}/toluol va C_{70}/toluol/suv eritmalaridagi fulleren molekulalarining klasterlanish hodisasi tadqiq qilindi. C_{70}/toluol eritmaga 20% hajmiy ulushda suv qo‘shilganda optik yutilish spektrida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. C_{70}/toluol/suv eritma C_{70}/toluol eritmaga nisbatan optik nurni ko‘proq yutishi bilan birga, C_{70}/toluol eritmadagi ~334, ~363 va ~550 nm yutilish polosalari butunlay yo‘qolgan, boshqa yutilish polosalari esa kengayib, “qizil siljish” namoyon qilgan (382 nm → 384 nm (~2 nm ga siljish), 470 nm → 486 nm (~16 nm ga siljish)). C_{70}/toluol/suv yutilish spektrida ~2 nm dan ~16 nm gacha qizil siljishi C_{70} suvda sof molekula shaklida emas, balki nanoagregat sifatida mavjud bo‘lishi bilan bog‘liqligi aniqlandi. C_{70}/toluol/suv eritmasi Raman spektrida monomer C_{70} ga tegishli faol piklarning siljishi fulleren molekulalari eritmada klasterlanish hisobiga nanostrukturalar hosil qilganligini bilan izohlandi. C_{70}/toluol/suv eritmada sintezlangan C_{70} nanostrukturalarni SEM metodi yordamida o‘rganilganda, eritmada asosan bir o‘lchovli nanomateriallar sintez bo‘lganligini ko‘rsatdi. Bu holda ularning o‘rtacha uzunligi va diametri mos holda ~2.28 mkm va ~137 nm o‘chamda ekanligi aniqlandi.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining fundamental tadqiqotlar jamg‘armasi moliyaviy ko‘magida amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.V. Baskar, M. Rose, S.N. Talapaneni. Self-Assembled Fullerene Nanostructures: Synthesis and Applications // Advanced Functional Materials, 32(6), 2106924 (2021). https://doi.org/10.1002/adfm.202106924

2.Y. Lahir. Impacts of fullerene on biological systems // Clinical Immunology, Endocrine & Metabolic Drugs, 4(1), 47-58 (2017). https://doi.org/10.2174/2212707004666171113151624

3.U.K. Makhmanov, S.A. Esanov, D.T. Sidigaliyev, K.N. Musurmonov, B.A. Aslonov, T.A. Chuliev. Behavior of C_{70} fullerene in a binary mixture of xylene and tetrahydrofuran // Liquids, 3(3), 385-392 (2023). https://doi.org/10.3390/liquids3030023

4.S.D. Peroukidis, A.G. Vanakaras, D.J. Photinos. Self-organisation of fullerene-containing conical supermesogens // Soft Matter, 4(3), 493-499 (2008). https://doi.org/10.1039/B714506C

5.J. Labille, A. Masion, F. Ziarelli, J. Rose. Hydration and Dispersion of C_{60} in Aqueous Systems: The Nature of Water-Fullerene Interactions // Langmuir, 6,25(19), 11232-5 (2009). https://doi.org/10.1021/la9022807

6.G.V. Andrievsky. Studies of aqueous colloidal solutions of fullerene C_{60} by electron microscopy // Chemical Physics Letters, 300(3-4), 392-396 (1999). https://doi.org/10.1016/S0009-2614(98)01393-1

7.У.К. Махманов. Синтез нанотрубок фуллерена C_{60} в объеме испаряющейся капли раствора // Uzbek Journal of Physics, 22(3), 144-150 (2020). https://doi.org/10.52304/.v22i3.152

8.H. Kuroki, E. Aida, T. Komine, K. Matsuoka. Solubilization of fullerene in polyoxyethylene tetradecyl ether type nonionic surfactants // Journal of Molecular Liquids, 335(3-4), 116236 (2021). https://doi.org/10.1016/j.molliq.2021.116236

9.S. Thakral, R.M. Mehta. Fullerenes: An introduction and overview of their biological properties // Indian Journal of Pharmaceutical Sciences, 68(1), 13-19 (2006).

10. I.V. Mikheev, V.A. Verkhovskii, S.M. Byvsheva, D.S. Volkov. Simultaneous quantification of fullerenes C_{60} and C_{70} in organic solvents by excitation–emission matrix fluorescence spectroscopy // Inorganics, 11(4), 136 (2023). https://doi.org/10.3390/inorganics11040136

11. R.G. Alargova, S. Deguchi, K. Tsujii. Stable dispersions of fullerenes, C_{60} and C_{70}, in water. preparation and characterization // J. Am. Chem. Soc., 17(19), 6013-6017 (2001). https://doi.org/10.1021/la010651o

12. Д. Волков. Development of standard reference samples of aqueous fullerene dispersions // Journal of Analytical Chemistry, 73(9), 837-846 (2018). https://doi.org/10.1134/S106193481809006X

13. L. Bulavin. Colloidal structure and stabilization mechanism of aqueous solutions of unmodified fullerene C_{60} // Crystallography Reports, 52(3), 487-491 (2007). https://doi.org/10.1134/S1063774507030273

14. V. Schettino, M. Pagliai, G. CardiniJ. The Infrared and Raman Spectra of Fullerene C_{70} . DFT Calculations and Correlation with C_{60} // Journal of Physical Chemistry A, 106 (9), 1815-1823(2002) https://doi.org/10.1021/jp012680d

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Zokirjonov Akramjon Akmal o‘g‘li
Abdurasulova Aliya Axmadjon qizi
NamDU Fizika-matematika fakulteti talabalari
Ilmiy raxbar: Usmanjanova Nigora Shuxratali qizi
NamDU raqamli texnologiyalar kafedrasi katta o‘qituvchisi

C++ DASTURLASH TILIDA BIR VA KO‘P O‘LCHAMLI MASSIVLAR BILAN ISHLASH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada C++ dasturlash tilida bir va ko‘p o‘lchamli massivlar bilan ishlash jarayonlari haqida ma’lumotlar keltiriladi . Massivlarning turlari, ulardan foydalanish usullari va dastur kodida qo‘llanilishi misollar bilan tushuntiriladi. Massivlar bilan ishlashda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari ham ko‘rib chiqiladi. Massivlarning xotirada qanday saqlanishi va ulardan unumli foydalanishning ko‘p usullari haqida ham ma’lumot beriladi. Maqola yangi boshlovchilar va dasturchilar uchun chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *C++ dasturlash tili, massivlar, bir o‘lchamli massiv, ko‘p o‘lchamli massiv, dasturlash asoslari, ma’lumotlar tuzilmasi, C++ da array, indekslar, massivlar bilan ishlash, dastur tuzish, ma’lumotlarni saqlash, kod yozish(tuzish).*

РАБОТА С ОДНО-И МНОГОМЕРНЫМИ МАССИВАМИ НА ЯЗЫКЕ ПРОГРАММИРОВАНИЯ C++

Аннотация: *В этой статье будет представлена информация о процессах работы с одномерными и многомерными массивами на языке программирования C++. Типы массивов, способы их использования и применение в программном коде объясняются примерами. Также будут рассмотрены проблемы, возникающие при работе с массивами, и их решения. Также будет рассказано о том, как массивы хранятся в памяти, и о многих способах их эффективного использования. Статья предлагает более глубокое понимание как для новичков, так и для программистов.*

Ключевые слова: *Язык программирования C++, массивы, одномерный массив, многомерный массив, основы программирования, структура данных, работа с массивами, индексами, массивами в C++, компиляция программы, хранение данных, написание(компиляция)кода.*

Zokirjonov Akramjon Akmal oglu,
Abdurasulova Aliya Akhmadjon qizi
Students of the Faculty of Physics and Mathematics of NamSU
Scientific supervisor: Usmanjanova Nigora Shukhratali qizi
Senior lecturer of the Department of Digital Technologies of NamSU

WORKING WITH ONE-AND MULTI-DIMENSIONAL ARRAYS IN THE C++ PROGRAMMING LANGUAGE

Annotation: *This article provides information on processes for working with one-and multi-dimensional arrays in the C++ programming language . The types of arrays, the methods of their use and their application in the program code are explained by examples. Problems encountered when working with arrays and their solutions are also considered. Information is also provided on how arrays are stored in memory and many ways to make the most of them. The article provides a deeper understanding for beginners and programmers.*

Keywords: *C++ programming language, arrays, one-dimensional array, multidimensional array, programming fundamentals, data structure, array in C++, indexes, working with arrays, program structuring, data storage, code writing (structuring).*

Dasturlashda ma’lumotlarni samarali saqlash va ularga murojaat qilish muhim ahamiyatga ega. C++ dasturlash tilida **massivlar** bir xil turdagi ma’lumotlarni tartibli ravishda saqlash uchun ishlatiladi. Oddiy o‘zgaruvchilardan farqli ravishda, massivlar bir nechta qiymatni bitta nom ostida jamlash imkonini beradi, bu esa kodni soddalashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Massivlar **bir o‘lchamli** va **ko‘p o‘lchamli** turlarga bo‘linadi. Bir o‘lchamli massiv oddiy ro‘yxat shaklida bo‘lsa, ko‘p o‘lchamli massivlar jadval yoki matritsa shaklida tuziladi. Ushbu maqolada **C++ dasturlash tilida massivlarni yaratish, ulardan foydalanish va amaliy misollar** haqida tushuntiriladi.

Bir o‘lchamli massivlar tartiblangan elementlar to‘plamidir. Ular quyidagi sintaksis yordamida e’lon qilinadi:

data_type array_name[size];

Bu yerda:

• data_type – massiv elementlari turi (masalan, int, double, char va hokazo).

• array_name – massiv nomi.

• size – massivdagi elementlar soni.

1. Bir o‘lchamli massivni e’lon qilish va ishlatish

Misol tariqasida, 5 ta sonni o‘z ichiga olgan massivni yaratamiz va ularni ekranga chiqaramiz:

```
#include <iostream>
using namespace std;

int main()
{
   int sonlar[5] = {10, 20, 30, 40, 50}; // Massiv e’lon qilindi va qiymatlar berildi

   cout << "Massiv elementlari: ";
   for (int i = 0; i < 5; i++)
{
      cout << sonlar[i] << " ";
 }

   return 0;
}
```

1.1. Foydalanuvchidan kiritilgan massiv

Agar massiv elementlarini dastur ishlayotgan paytda foydalanuvchidan olish kerak bo‘lsa, quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

```
#include <iostream>
using namespace std;

int main() {
   int sonlar[5];

   cout << "5 ta son kiriting: ";
   for (int i = 0; i < 5; i++) {
      cin >> sonlar[i]; // Foydalanuvchi tomonidan kiritiladi
   }

   cout << "Siz kiritgan sonlar: ";
   for (int i = 0; i < 5; i++) {
      cout << sonlar[i] << " ";
   }

   return 0;
}
```

Ko‘p o‘lchamli massivlar bir nechta indekslar orqali elementlarga murojaat qilish imkonini beradi. Eng ko‘p ishlatiladigan turi **ikkita o‘lchamli massivlar** bo‘lib, ular jadval yoki matritsalarni ifodalashda qo‘llaniladi.

2. Ko‘p o‘lchamli massivni e’lon qilish

Quyidagi sintaksis yordamida 2 o‘lchamli massiv yaratish mumkin:

data_type array_name[rows][columns];

Bu yerda:

• rows – qatorlar soni.

• columns – ustunlar soni.

2.1. 2x3 o‘lchamli massivni e’lon qilish va ekranga chiqarish

Misol tariqasida, 2 qator va 3 ustundan iborat massivni yaratamiz va ekranga chiqaramiz:

```
#include <iostream>
using namespace std;

int main()
{
   int matn[2][3] = {{1, 2, 3}, {4, 5, 6}};

   cout << "Massiv elementlari: \n";
   for (int i = 0; i < 2; i++)
{
      for (int j = 0; j < 3; j++)
{
         cout << matn[i][j] << " ";
 }
      cout << endl;
 }

   return 0;
}
```

Bu dastur 2x3 o‘lchamli massivni ekranga chiqaradi:

```
Massiv elementlari:
1 2 3
4 5 6
```

"Quyidagi dastur foydalanuvchidan massivning o‘lchamini va elementlarini kiritishni so‘raydi, so‘ng ularni ekranga chiqaradi. Dastur C++ tilida yozilgan bo‘lib, massiv bilan ishlashning oddiy namunasi hisoblanadi.".

```
#include <iostream>
using namespace std;

int main()
{
  int n,i;
  cout<<"Massiv elementlari sonini kiriting: ";
  cin>>n;
  int a[n];
  for(i=0; i<n; i++)
```

```
        {
          cout<<"Massivning "<<i+1<<"-elementlarini
kiriting: ";
          cin>>a[i];
         // cout<<a[i];
        }
        cout<<"Massiv elementlari: ";
        for(i=0; i<n; i++)
        {
        cout<<a[i]<<" ";
        }
        return 0;
      }
```

Bir va ko‘p o‘lchamli massivlar bilan ishlashning afzalliklari

Ma’lumotlarni tartibli saqlash – Massivlar yordamida bir xil turdagi elementlarni tartibli ravishda saqlash mumkin.

Tezkor kirish – Indekslash orqali istalgan elementga bevosita murojaat qilish mumkin.

Qulay ishlov berish – Dasturlashda massivlar yordamida turli xil hisob-kitoblarni avtomatlashtirish mumkin.

Xulosa

Ushbu maqolada C++ dasturlash tilida bir va ko‘p o‘lchamli massivlar bilan ishlash bosqichlari to‘liq yoritildi. Massivlarning turlari, ularni samarali tashkil qilish va dastur kodida to‘g‘ri qo‘llash usullari amaliy misollar bilan tushuntirildi. Massivlar bilan ishlashda uchraydigan muammolar va ularning optimal yechimlari ko‘rib chiqildi. Massivlar — ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashning eng muhim vositalaridan biri bo‘lib, ularni samarali qo‘llash dasturlash jarayonini yengillashtiradi. Kelajakdagi dasturiy loyihalarda massivlardan to‘g‘ri foydalanish, kodning tezkor ishlashiga hamda xotira sarfini optimallashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bjarne Stroustrup. "The C++ Programming Language" (4th Edition). Addison-Wesley, 2013.

2. Sh.F.Madraximov, A.M.Ikramov, M.R.Babajanov, “C++ tilida programmalash bo‘yicha masalalar to‘plami”, Toshkent – 2014.

3. B.B.Mo‘minov, “Informatika”, Toshkent “Tafakkur – bo‘stoni”, 2014 y.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Mamanazarov M.T.
U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti
e-mail: marufmamanazarov797@gmail.com

SUPERO'TKAZUVCHI QUBITLARNING LANDAU-ZENER (LZ) MODELIGA ASOSLANGAN TEZLASHISH NAZARIYASI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ishimizda biz kvant adiabatik o'tishlarni tezlashtirishning ob'ektiv usuli supero'tkazuvchi kubitlarda kvant operatsiyalarining tezligi va aniqligini oshirishning muhim usuli hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda biz Landau-Zener (LZ) o'tishlari uchun qarshi (CD) haydashni Gauss va DRAG (adiabatik darvoza orqali hosilalarni olib tashlash) impulslari kabi impulslarni shakllantirish texnikasi yordamida amalga oshiramiz. Bizning natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, optimallashtirilgan impuls ketma-ketligi o'tish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi va yuqori energiya holatlariga oqib chiqishni bostiradi. Topilmalar supero'tkazuvchi tizimlarda yuqori aniqlikdagi kvant eshiklari uchun amaliy strategiyalarni taklif etadi.*

Kalit so'zlar: *Kubit, Landau-Zener model, Gauss impulse, DRAG, supero'tkazuvchi kubit.*

Маманазаров М.Т
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий имени У.А.Арифова

БЫСТРЫЙ ПЕРЕХОД ОТ ТЕОРИИ К МОДЕЛИ СВЕРХПРОВОДЯЩИХ КУБИТОВ ЛАНДАУ-ЗЕНЕРА (ЛЗ)

Аннотация. *В этом исследовании объективный способ ускорения квантовых адиабатических переходов является важным методом повышения скорости и точности квантовых операций в сверхпроводящих кубитах. В этом исследовании мы реализуем противодиабатическое (ПД) управление переходами Ландау-Зенера (ЛЗ) с использованием методов формирования импульсов, таких как гауссовы импульсы и импульсы сопротивления (удаление производной с помощью адиабатического затвора). Наши результаты показывают, что оптимизированные последовательности импульсов значительно повышают вероятность перехода и подавляют утечку в состояния с более высокой энергией. Полученные результаты предлагают практические стратегии для создания высокоточных квантовых затворов в сверхпроводящих системах.*

Ключевые слова: *Кубит, модель Ландау-Зенера, гауссовский импульс, перетаскивание, сверхпроводящий кубит.*

Mamanazarov M.T.
[1]Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies named after U.A. Arifov

FAST-FORWARD THEORY TO THE LANDAU-ZENER (LZ) MODEL OF SUPERCONDUCTING QUBITS

Abstract. *In this study, the objective way to accelerate quantum adiabatic transitions is an essential method for enhancing the velocity and accuracy of quantum operations in superconducting qubits. In this study, we implement counterdiabatic (CD) driving for Landau-Zener (LZ) transitions using pulse-shaping techniques such as Gaussian and DRAG (Derivative Removal by Adiabatic Gate) pulses. Our results show that optimised pulse sequences significantly enhance transition probabilities and suppress leakage to higher energy states. The findings offer practical strategies for high-fidelity quantum gates in superconducting systems.*

Key words: *qubit, Landau-Zener model, gaussian momentum, drag, superconducting qubit.*

Introduction

Accelerating quantum adiabatic transitions is an essential method for enhancing the velocity and accuracy of quantum operations in superconducting qubits. In this study, we implement counterdiabatic (CD) driving for Landau-Zener (LZ) transitions using pulse-shaping techniques such as Gaussian and DRAG(derivative removal by adiabatic gate) pulses. Our results show that optimised pulse sequences significantly enhance transition probabilities and suppress leakage to higher energy states. The findings offer practical strategies for high-fidelity quantum gates in superconducting systems. The protocol of this technique states that an external electromagnetic potential can be used to speed up or slow down the growth

of a certain quantum system (1). Masuda and Nakamura investigated a method to accelerate quantum dynamics of the adiabatic wave function without accompanying the non-adiabatic transition among different quantum states. They proposed a way to accelerate a given adiabatic quantum dynamic to reproduce the target state in any desired short time. This kind of acceleration is called the fast forward of quantum adiabatic dynamics (2). If fulfilled, this old goal has important implications. Secondly, Bose-Einstein condensation may be executed in rapid cycles, therefore enhancing the f low of cold atoms generated and improving the signal-to-noise ratio in an atomic clock (3).

The enhanced prescription was subsequently provided in (4), utilised for accelerating soliton dynamics articulated by the nonlinear Schr ö dinger equation and tunnelling in the quantum realm (5). A modified version of the prescription was subsequently given in (7), utilised for the acceleration of soliton dynamics articulated by the nonlinear Schrodinger equation and tunnelling in the quantum state. Thirdly, we showed a fast-forward theory and calculation for cold atoms on the optical lattice more effective than shortcuts to adiabatically (STA) [8]; in this theory, we used dynamical invariants (Lewis-Riesenfeld invariants) and modified Hamiltonian $H_{STA}(t) = H_0(t) + H_{CD}(t)$. Masuda-Nakamura's theory is optimal for modelling prolonged development in discrete increments utilising cold atoms confined in optical lattices or Rydberg atom arrays. Counterdiabatic driving (CD) adds control field to counteract non-adiabatic transition during cooling on cold atoms.

Metodologia of general fast-forward theory

Initially, in accordance with ref. (1-2), we shall succinctly reiterate the explanation of the fast forward methodology for the Schr ö dinger equation. This section succinctly elucidates the primary elements of the theoretical framework. In the presence of the external time dependent potential $V_0(x,t)$, the time evolution of the electronic wave function $\Psi_0(x,t)$ is governed by the time-dependent Schrödinger equation:

$$i\,\hbar\,\frac{\partial\,\psi(x,t)}{\partial t} = H\psi(x,t)$$

$$\Lambda(t) = \overline{\alpha(t)}\,t$$

considering a proportionality constant $\overline{\alpha(t)}$ ($\gg 1$). $\psi(x,\Lambda)$ means that the time evolution $\psi(x,t)$ is accelerated, just like a rapid projection of a movie film on the screen. The advanced time variable can be more generalized as

$$\Lambda(t) = \int_0^t \alpha\,(t')dt'$$

The time-dependent Schrödinger equation $\psi_{FF}(x,t)$ has a standard form:

$$i\,\hbar\,\frac{\partial\,\psi_{FF}(x,t)}{\partial t} = -\frac{\hbar^2}{2m}\nabla^2\psi_{FF}(x,t) + V_{FF}(x,t)\psi_{FF}(x,t)$$

On the other hand, the real part of the equality is:

$$-\frac{\hbar^2}{2m}(\alpha-1)Re\left(\frac{\nabla^2\psi_\alpha}{\psi_\alpha}\right) + \alpha\,V_\alpha \quad - V_{FF}(x,t) = \hbar\frac{\partial f}{\partial t} - \frac{\hbar^2}{2m}(-2Im\left(\frac{\nabla^2\psi_\alpha}{\psi_\alpha}\right)\nabla f - (\nabla f)^2)$$

After integration of Eq. (5) over x and dividing by ρ^2, we can see the additional phase *f* expressed as below.

$$f = (\alpha(t)-1)\xi$$

Substituting the expression for f in Eqs. (5) and (6), we reach the goal:

$$V_{FF} = V_\alpha - \frac{\alpha^2-1}{\alpha}\hbar\frac{\partial\xi}{\partial t} - \hbar\frac{\partial\alpha}{\partial t}\xi - \frac{\hbar^2}{2m}(\alpha^2-1)(\nabla\xi)^2$$

We establish the initial and final conditions for the time-scaling factor $\alpha(t)$ as $\alpha(0) = \alpha(T) = 1$, despite $\alpha(t) \gg 1$ certain intervals$0 \le t \le T$.Then the additional phase f vanishes at t = 0 and t = 0 = T. In this way, once we have a given electronic wave function $\psi_0(x,t)$, we can realise its fast-forward variant $\psi_{FF}(x,t)$ by applying the driving potential V_{FF} in Eq. (7). $\psi_{FF}(x,t)$ completely recovers the exact fast-forwarded state t =T.

Adiabatic quantum dynamics

The theory of fast-forward dynamics of nanosystems proposed and developed by Masuda and Nakamura ref (1). We shall take the following strategy: A given confining potential V_0 is assumed to change adiabatically through a parameter R(t) with $\frac{dR}{dt} = \epsilon(\ll 1)$. We consider that the original potential profile changes very slowly through a time-dependent parameter, R(t) as $R(t) = R_0 + \epsilon t$ with $\epsilon \ll 1$, which means that it requires a very long time T to see the recognisable change of R(t). Firstly, we find a stationary state $\phi 0$, which is an instantaneous eigenstate of the "Time-independent" Schr ö dinger equation with the instantaneous Hamiltonian. Then both ϕ_0 and V_0 are regularised so that they should satisfy the "Time-dependent" Schr ö dinger equation. Finally, taking the regularized state as a standard state, we apply the scheme in Chapter 1, where the mean value $\bar{}\,\alpha$ of the infinitely-large time scaling factor $\alpha(t)$ will be chosen to cope with the infinitesimally small growth rate of the quasi-adiabatic parameter and to satisfy $\lim_{\epsilon\to 0}\ \lim_{\alpha\to+\infty}\ \overline{\alpha}$ = finite. Originally, the adiabatic quantum dynamics of the electron is described by

$$i\,\hbar\,\frac{\partial\,\psi_0(x,t)}{\partial t} = H_0\psi_0(x,R(t))$$

Then, the time-dependent solution is given by:

$$H_0 == -\frac{\hbar^2}{2m}\nabla^2\psi_0(x,t) + V_0(x,t)\psi_0(x,t)$$

Then, the time-dependent solution is given by:

$$\boldsymbol{\psi_0 = \phi(x,t)e^{-\frac{i}{\hbar}\int_0^t E(R(t'))}}$$

Some examples of Landau-Zener Fast-forwarding

The Landau-Zener Hamiltonian describes a two-level system undergoing a time-dependent energy sweep:

$$\boldsymbol{H_{LZ}(t) = \frac{vt}{2}\sigma_z + \frac{\Delta}{2}\sigma_x}$$

where v is the sweep velocity and where Δ is the minimum energy gap? The transition probability between states is given by:

$$P_{LZ} = 1 - e^{\frac{\pi\Delta^2}{2v}}$$

To suppress non-adiabatic transitions, a counterdiabatic term is introduced:




Figure 1: The plot shows the 2D surface plot of Gaussian vs. DRAG pulse evolution

$$H_{CD}(t) = -\frac{\dot{\theta}(t)}{2}\sigma_y$$

where $\dot{\theta}(t)$ is the time derivative of the mixing angle? This ensures perfect transitions but requires additional control fields. A Gaussian pulse minimises sharp transitions, reducing spectral leakage:

$$\Omega_{CD} = \Omega_0 e^{-\frac{t^2}{2\sigma^2}}$$

where Ω_0 the peak amplitude is and σ controlling pulse duration. A Gaussian pulse minimises sharp transitions, reducing spectral leakage.




Figure 2: The plot shows the 2D plot of excited state probability for standard vs. fast-forwarded LZ transitions

Conclusion

In summary, our results demonstrate that fast-forwarded LZ transitions can be effectively implemented in superconducting qubits using Gaussian and DRAG pulse shaping. DRAG pulses offer superior leakage suppression, improving fidelity in practical quantum computing applications. These findings provide a pathway toward optimized quantum gate designs, ensuring rapid and reliable qubit operations.

References

[1]. S. Masuda and K. Nakamura, Phys. Rev. A 78, 062108 (2008).,
[2] S. Masuda and K. Nakamura, Proc. R. Soc. A 466, 1135 (2010).
[3] S. Masuda and K. Nakamura, Phys. Rev. A 84, 043434 (2011).
[4] A. Khujakulov and K. Nakamura, Phys. Rev. A 93, 022101 (2016).
[5] K. Nakamura, A. Khujakulov, and S, Masuda, Phys. Rev. A 95, 062108 (2017).
[6] I. Setiawan, B. E. Gunara, S. Masuda, and K. Nakamura, Phys. Rev. A 96, 052106 (2017).
[7] I. Setiawan, B. E. Gunara, S. Avazbaev, K. Nakamura, Phys. Rev. A 99, 062116 (2019).
[8] K. Takahashi, Phys. Rev. A89, 042113 (2014).
[9] S. Masuda and S. A. Rice, Phys. Rev. A 89, 033621 (2014).
[10] K. Nakamura, J. Matrasulov and Y. Izumida, Phys. Rev. E 102, 012129 (2020). (A.5)
[11] Xi. Chen, S. Ruschhaupt, A. del Campo, D. GuLery-Odelin, J. G. Muga, Phys. Rev. Lett. 104, 063002 (2010).
[12] E. Torrontegui, S. Ibanez, M. Martinez-Garaot, M. Modugno, A. del Campo, D. Guery-Odelin, A. Ruschhaupt, Xi Chen, and J. G. Muga, Adv. At. Mol. Opt. Phys. 62, 117 (2013).
[13] S. Masuda and K. Nakamura, Phil. Trans. R. Soc. A 380, 20210278 (2022).
[14] I.Setiawan1, R.Sugihakim, B.E.Gunara, S.Masuda, and K.Nakamura, Nat. Prog. Theor. Exp. Phys.063A04, 397 (2023)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

To‘raboyev Sanjarbek Qodirjonovich
Namangan davlat universiteti, Fizika kafedrasi
Muxriddin Mahkamov
Eksperimental Biofizika Laboratoriyasi, Ilg‘or Texnologiyalar Markazi
Razzokov Jamoliddin Inotullayevich
Milliy Tadqiqiot Universiteti huzuridagi “Fundamental va Amaliy tadqiqotlar” instituti

CH_4/CO_2 GAZ MOLEKULALARINING UGLEROD NANONAY ATOMLARI BILAN O‘ZARO TA`SIRI: MOLEKULYAR DINAMIKA TADQIQOTI

Annotatsiya. *Uglerod nanonaylarining (UNN) gazlarni ajratish va saqlashdagi ahamiyati ularning noyob xususiyatlari bilan bog‘liq. Ushbu ishda armchair (7,7) tipidagi, uzunligi 5 nm va diametri 1 nm bo‘lgan UNN bilan CH_4 va CO_2 gazlari ishtirokida ikki model sistema yaratilib, NPT ansamblida (T=298,15 K, P=0.1 MPa) molekulyar dinamika simulyatsiyalari o‘tkazildi. Van der Vaals ta’sirlar Lennard-Jones potensiali orqali hisobga olindi. Bog‘lanish energiyasi, RDF va MSD ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *metan, karbonat angidrid, uglerod nanonay, gaz, MD, RDF, MSD, adsorbsiyalanish.*

Турабоев Санжарбек
Наманганский государственный университет, кафедра физики
Мухриддин Махкамов
Лаборатория экспериментальной биофизики, Центр передовых технологий
Раззоков Джамолиддин
Институт «Фундаментальных и прикладных исследований» при Национальном исследовательском университете

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ МОЛЕКУЛ ГАЗОВ CH4/CO2 С АТОМАМИ УГЛЕРОДНЫХ НАНОТРУБОК: ИССЛЕДОВАНИЕ МОЛЕКУЛЯРНОЙ ДИНАМИКИ

Аннотация. *Углеродные нанотрубки (УНТ) представляют большой интерес для технологий разделения и хранения газов благодаря своим уникальным физико-химическим свойствам. В данной работе были созданы две модельные системы с использованием нанотрубок типа armchair (7,7) длиной 5 нм и диаметром 1 нм в присутствии молекул газов CH_4 и CO_2. Молекулярно-динамические симуляции проводились в ансамбле NPT (T = 298,15 K, P = 0,1 МПа). Ван-дер-ваальсовы взаимодействия описывались потенциалом Леннард-Джонса. Анализировались энергия связывания, радиальная функция распределения (RDF) и среднеквадратичное смещение (MSD).*

Ключевые слова*: метан, углекислый газ, углеродные нанотрубки, газ, МД, RDF, MSD, адсорбция.*

Sanjarbek Turaboev
Namangan State University, Department of Physics
Mukhriddin Makhkamov
Experimental Biophysics Laboratory, Center for Advanced Technologies
Jamoliddin Razzokov
Institute of Fundamental and Applied Research, National Research University

INTERACTION OF CH4/CO2 GAS MOLECULES WITH CARBON NANOTUBE ATOMS: A MOLECULAR DYNAMICS STUDY

Annotation. *Carbon nanotubes (CNTs) are of great interest in gas separation and storage due to their unique physicochemical properties. In this study, two model systems were created using armchair (7,7) CNTs with a length of 5 nm and diameter of 1 nm, in the presence of CH_4 and CO_2 gas molecules. Molecular dynamics simulations were performed in the NPT ensemble (T = 298.15 K, P = 0.1 MPa). Van der Waals interactions were described using the Lennard-Jones potential. Binding energy, radial distribution function (RDF), and mean square displacement (MSD) were analyzed.*

Keywords: *methane, carbon dioxide, carbon nanotube, gas, MD, RDF, MSD, adsorption.*


Kirish.

Metan (CH_4) atmosferadagi kuchli issiqxona gazlaridan biri bo‘lib, 1750-yildan buyon uning miqdori ikki baravarga oshgan va iqlim o‘zgarishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda [1]. CH_4 va CO_2 gazlarining emissiyasi global iqlim xavflarini kuchaytirayotgan bo‘lib, ularni kamaytirish va ajratish bugungi kundagi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir [2], [3]. Ushbu gazlarni ajratish tabiiy gazni tozalash, biogazni qayta ishlash va sanoat chiqindilarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. UNNlar o‘zining noyob tuzilmasi va selektivligi tufayli istiqbolli material sifatida ajralib turadi [4], [5]. Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqotda armchair (7,7) tipidagi UNN bilan CH_4 va CO_2 gazlarining molekulyar darajadagi o‘zaro ta’siri MD simulyatsiyasi yordamida o‘rganildi [6],[7].


Simulyatsiya parametrlari.

MD simulyatsiyalari GROMACS 2024.1 [8] dasturida amalga oshirildi. UNN 4×4×8 nm o‘lchamdagi quti markaziga joylashtirildi; CH_4 va CO_2 molekulalari esa PACKMOL [9] yordamida tasodifiy tarzda kiritilib, har bir modelda 400 ta gaz molekulasi mavjud bo‘ldi (1-rasm). UNN uchun topologiya fayllari CHARMM-GUI [10],[11] orqali olindi. Simulyatsiyalar T = 298.15 K va P = 0.1 MPa sharoitida, NVT va NPT ansambllari ostida, 20 ps davomida olib borildi. Samaraliroq natijalar uchun simulyatsiya vaqti 100–500 ns gacha uzaytirilishi mumkin.

Lennard-Jones potensiali. Gaz molekulalari va UNN o‘rtasidagi bog‘lanmagan o‘zaro ta’sirlarni tahlil qilish uchun Lennard-Jones potensiali qo‘llanildi [12].



a



b

1-rasm *a) CH_4 gaz molekulalari va UNN uchun 1-model Sistema b) CO_2 gaz molekulalari va UNN uchun 2- model sistema*

Bog‘lanish Energiya (Binding Energy). Gaz molekulalari va UNN o‘rtasidagi bog‘lanish energiyasi quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$\delta E = E_{\text{total system}} - (E_{\text{UNN}} + E_{\text{gas molecules}})$$

Bu yerda har bir komponentning alohida energiyasi aniqlab chiqildi [13].

O‘rtacha Kvadratik Siljish (MSD). Gaz molekulalarining sistemada diffuziya harakatini aniqlash imkonini berdi [14].


Radial Taqsimot Funksiyasi (RDF). Gaz molekulalarining UNN sirtiga nisbatan taqsimoti radial taqsimot funksiyasi yordamida o‘rganildi [15].

Natijalar va muhokama.


3.1. Lennard-Jones Potensiali (LJ).

Lennard-Jones potensiali natijalari CO_2 molekulalarining UNN bilan CH_4 molekulalariga qaraganda kuchliroq ta’sirlashishi aniqlandi. Bu CO_2ning dipol tabiati bilan izohlanadi, odatda CO_2 gazi molekulasi qutublanmagan, ammo yuqori bosim, harorat va bazi tashqi kuchlar ta’sirida dipol tabiati o‘zgarishi kuzatiladi [16], bu esa UNN sirtida kuchli Van der Vaals ta’sirini hosil qiladi. CH_4ning qutbli bo‘lmagan xususiyatlari esa uning zaifroq o‘zaro ta’sir ko‘rsatishiga olib keladi [17]. Bu natijalar oldingi tadqiqotlar bilan mos keladi, bu esa UNNlarning qutbli gazlar bilan kuchliroq o‘zaro ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

CH_4 molekulalarining potensial energiyasi 20 ps davomida sezilarli tebranishlarni namoyish etdi. Bu CH_4 molekulalarining UNN yuzasi bilan dinamik o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi. O‘rtacha potensial energiya E_{lj} = 39740 kJ/mol atrofida saqlanib qoldi.



a



b


2-rasm *a) CH_4 va UNN model sistemasi uchun Lennard-Jones potensialining o'zgarishini ko'rsatadi.*
b) CO_2 va UNN sistema uchun Lennard-Jones potensialining o'zgarishi.

CO_2 molekulalari uchun potensial energiya manfiy qiymatda bo'lib, E_{lj} = -3850 kJ/mol atrofida. Bu CO_2 molekulalari va UNN yuzasi o'rtasidagi kuchliroq o'zaro ta'sir mavjudligini bildiradi [18]. CO_2 molekulalarining bog'lari qutbli ekanligi asosiy omil bo'lishi mumkin. Bu farq CO_2 ning elektron taqsimoti va Van der Vaals kuchlarining kuchliroq ta'siri bilan izohlanadi [19].


3.2 Bog'lanish Energiya.

Bog'lanish energiyasi natijalari CO_2-UNN sistemasi CH_4-UNN sistemasiga nisbatan yuqoriroq bog'lanish energiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu CO_2 molekulalarining UNN sirtiga nisbatan kuchliroq adsorbsiya qilinishini ko'rsatadi, bu esa UNNlarning CO_2 ajratish jarayonlari uchun samaradorligini oshiradi. Ikkala sistema uchun olingan bog'lanish energiyalari oldingi tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Shuningdek, UNNlarda CH_4 va CO_2 gazlarining harorati ko'tarilishi bilan adsorbsiyasi kamayishi kuzatilgan [20], [21].

3-rasmda ko'rsatilganidek, CH_4-UNN sistemasida umumiy energiya 0–5 ps oralig'ida keskin kamayib, ~84000 kJ/mol atrofida barqarorlashdi. CH_4 energiyasi ~57000 kJ/mol, UNN esa ~25000 kJ/mol ga yetdi. Bu CH_4 molekulalarining tizim energiyasiga asosiy hissa qo'shayotganini va ularning yuqori kinetik faolligini ko'rsatadi.



a



b

3-rasm *a) CH_4 molekulalari va UNN o'rtasidagi bog'lanish energiyasi (binding energy (kJ/mol)) grafigi. b) CO_2 molekulalari va UNN o'rtasidagi bog'lanish energiyasi (binding energy (kJ/mol)) o'zgarishi keltirilgan.*

CO_2-UNN sistemasida esa umumiy energiya ~26000 kJ/mol da, CO_2 ~3000 kJ/mol va UNN ~25000 kJ/mol da barqarorlashgan bo'lib, har ikki tizim 5 ps dan so'ng muvozanatga erishgan.

3.3 O'rtacha Kvadratik Siljish (MSD).

CO_2 molekulalari UNN yuzasi bilan kuchliroq o'zaro ta'sir qiladi, bu esa uning diffuziya harakatini sekinlashtiradi. Molekulyar simulyatsiya asosida CO_2 ning UNN bilan kuchli Van der Vaals o'zaro ta'sirga ega ekanligi, bu esa uning pastroq diffuziya koeffitsientiga olib keladi [20]. CH_4 molekulalari esa qutblanmagan bo'lib [17] [22], UNN yuzasi bilan zaifroq o'zaro ta'sir qiladi, natijada ularning diffuziya harakati nisbatan tezroq bo`ldi.


3.3.1.UNNning geometriyasi va molekulalarning diffuziya xususiyatlari

UNNlarning g'ovak strukturasi va yuzasi molekulalarning diffuziya xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi [23]. Ichki diametri UNN to'plamlarida molekulalarning harakati o'rganilgan bo'lib, CO_2 molekulalarining UNN yuzasiga yaqin joylashishi ularning diffuziyasini sekinlashtirishi aniqlangan.


Grafikdan ko‘rinib turibdiki, CO_2 gazi molekulalarining MSD qiymati vaqt bo‘yicha juda sekin ortib boradi, bu ularning UNN yuzasiga yaqin joylashib, kinetik harakati cheklanganligini ko‘rsatdi. CH_4 gazi molekulalari esa bu cheklanishga kamroq uchraydi va uning MSD qiymatlari chiziqli ravishda o‘sib bordi.

3.3.2 Struktura geterogenligi va diffuziya jarayoni

Struktura geterogenligi ham molekulalarning diffuziyasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Geterogen strukturalarda CO_2 va CH_4 ning diffuziya xususiyatlari taqqoslangan. Natijalarga ko‘ra, CO_2 molekulalarining UNN bilan kuchliroq o‘zaro ta’siri tufayli ularning diffuziya koeffitsienti kichik bo‘lgan [24]. 4-rasmdan ko‘rinadiki, CO_2 ning o‘rtacha kvadratik siljishi atigi 0.52 nm² gacha yetgan bo‘lsa, CH_4 ning MSD qiymati 3.35 nm² ga yetgan. Bu CO_2 molekulalarining kinetik cheklanishi va CH_4 molekulalarining nisbatan erkin harakatini tasdiqlaydi.



4-rasm. *Ikki tizim uchun molekulalarning MSD (nm²) qiymatlari vaqt (ps) bo‘yicha tasvirlangan.*



5-rasm. *RDF grafigi CH_4 (qizil) va CO_2 (ko‘k) molekulalarining UNN ga nisbatan taqsimotini ko‘rsatadi.*

3.5 Radial Taqsimot Funksiyasi (RDF).

5-rasmda keltirilgan RDF natijalariga ko‘ra, CH_4 molekulalarining birinchi maksimumi $r \approx 0.45$ nm da $g(r) \approx 0.75$ qiymatga erishadi, bu ularning UNN yuzasiga yaqin joylashganini va adsorbsiyalanganligini ko‘rsatadi. Uzoq masofalarda g(r) qiymati 1 ga yaqinlashib, molekulalarning bir tekis taqsimlanganini bildiradi. CO_2 uchun esa birinchi cho‘qqi $r \approx 0.35$ nm da $g(r) \approx 0.5$ qiymatda kuzatilib, molekulalarning nanoyuzaga yaqinroq joylashganini anglatadi. CO_2 molekulalari CH_4 molekulalariga nisbatan UNN yuzasiga kuchliroq o‘zaro ta’sir mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Natijalar ko‘rsatganidek, UNNlarning CO_2 va CH_4 bilan o‘zaro ta’sirini taqqoslash natijasida, CO_2 molekulalari UNN bilan kuchliroq bog‘lanishi aniqlangan. Bunga CO_2 ning dipol tabiati sabab bo‘lib, bu molekulalarning nanoyuzaga yaqinroq joylashishiga va kuchliroq Van der Vaals o‘zaro ta’sirlarini hosil qilishiga olib keladi. CH_4 esa polar bo‘lmagan molekula sifatida nisbatan zaifroq bog‘lanish va dinamik harakat ko‘rsatadi.

CO_2 ning UNN bilan kuchli bog‘lanishi Lennard-Jones potensial energiyasi va bog‘lanish energiyasi ko‘rsatkichlarida aks etdi. RDF grafigidagi intensiv cho‘qqilar CO_2 molekulalarining UNN bilan yaqinroq va barqaror o‘zaro ta’sirga ega ekanligini tasdiqladi. CH_4 molekulalari esa nisbatan zaifroq o‘zaro ta’sir ko‘rsatib, ko‘proq kinetik harakatlanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] D. S. Reay, P. Smith, T. R. Christensen, R. H. James, and H. Clark, ‘Methane and Global Environmental Change’, *Annu. Rev. Environ. Resour.*, vol. 43, no. 1, pp. 165–192, Oct. 2018, doi: 10.1146/annurev-environ-102017-030154.

[2] T. Chung, ‘Development of asymmetric 6FDA-2,6DAT hollow fiber membranes for CO2/CH4 separation Part 2. Suppression of plasticization’, *J. Membr. Sci.*, vol. 214, no. 1, pp. 57–69, Mar. 2003, doi: 10.1016/S0376-7388(02)00535-5.

[3] C. Cao, ‘Chemical cross-linking modification of 6FDA-2,6-DAT hollow fiber membranes for natural gas separation’, *J. Membr. Sci.*, vol. 216, no. 1–2, pp. 257–268, May 2003, doi: 10.1016/S0376-7388(03)00080-2.

[4] M. N. Nejad, M. Asghari, and M. Afsari, ‘Investigation of Carbon Nanotubes in Mixed Matrix Membranes for Gas Separation: A Review’, *ChemBioEng Rev.*, vol. 3, no. 6, pp. 276–298, Dec. 2016, doi: 10.1002/cben.201600012.

[5] A. Aqel, K. M. M. A. El-Nour, R. A. A. Ammar, and A. Al-Warthan, 'Carbon nanotubes, science and technology part (I) structure, synthesis and characterisation', *Arab. J. Chem.*, vol. 5, no. 1, pp. 1–23, Jan. 2012, doi: 10.1016/j.arabjc.2010.08.022.

[6] K. Gharbavi and H. Badehian, 'Structural and electronic properties of armchair (7, 7) carbon nanotubes using DFT', *Comput. Mater. Sci.*, vol. 82, pp. 159–164, Feb. 2014, doi: 10.1016/j.commatsci.2013.09.050.

[7] E. R. Lindahl, 'Molecular Dynamics Simulations', in *Molecular Modeling of Proteins*, vol. 443, A. Kukol, Ed., in Methods in Molecular Biology, vol. 443. , Totowa, NJ: Humana Press, 2008, pp. 3–23. doi: 10.1007/978-1-59745-177-2_1.

[8] M. J. Abraham *et al.*, 'GROMACS: High performance molecular simulations through multi-level parallelism from laptops to supercomputers', *SoftwareX*, vol. 1–2, pp. 19–25, Sep. 2015, doi: 10.1016/j.softx.2015.06.001.

[9] L. Martínez, R. Andrade, E. G. Birgin, and J. M. Martínez, 'P ACKMOL : A package for building initial configurations for molecular dynamics simulations', *J. Comput. Chem.*, vol. 30, no. 13, pp. 2157–2164, Oct. 2009, doi: 10.1002/jcc.21224.

[10] S. Jo, T. Kim, V. G. Iyer, and W. Im, 'CHARMM-GUI: A web-based graphical user interface for CHARMM', *J. Comput. Chem.*, vol. 29, no. 11, pp. 1859–1865, Aug. 2008, doi: 10.1002/jcc.20945.

[11] B. R. Brooks *et al.*, 'CHARMM: The biomolecular simulation program', *J. Comput. Chem.*, vol. 30, no. 10, pp. 1545–1614, Jul. 2009, doi: 10.1002/jcc.21287.

[12] V. G. Baidakov and S. P. Protsenko, 'Molecular-Dynamics Simulation of Relaxation Processes at Liquid–Gas Interfaces in Single- and Two-Component Lennard-Jones Systems', *Colloid J.*, vol. 81, no. 5, pp. 491–500, Sep. 2019, doi: 10.1134/S1061933X19040021.

[13] H. Yu, H. Luo, J. Cai, and C. Dong, 'Molecular and atomic adsorptions of hydrogen, oxygen, and nitrogen on defective carbon nanotubes: A first-principles study', *Int. J. Hydrog. Energy*, vol. 45, no. 51, pp. 26655–26665, Oct. 2020, doi: 10.1016/j.ijhydene.2020.07.039.

[14] M. Shahbabaei and D. Kim, 'Nanofluidics for Gas Separation Applications: The Molecular Dynamics Simulation Perspective', *Sep. Purif. Rev.*, vol. 51, no. 2, pp. 245–260, Apr. 2022, doi: 10.1080/15422119.2021.1918720.

[15] A. Farazin and M. Mohammadimehr, 'Nano research for investigating the effect of SWCNTs dimensions on the properties of the simulated nanocomposites: a molecular dynamics simulation', *Adv. Nano Res.*, vol. 9, no. 2, pp. 83–90, Aug. 2020, doi: 10.12989/ANR.2020.9.2.083.

[16] M. Calcara and M. Caricaterra, 'CO2 Dipole Moment: A Simple Model and Its Implications for CO2-Rock Interactions', *Minerals*, vol. 13, no. 1, p. 87, Jan. 2023, doi: 10.3390/min13010087.

[17] F. Gibanel, M. C. López, F. M. Royo, J. Pardo, and J. S. Urieta, 'Solubility of 13 non-polar gases (He, Ne, Ar, Kr, Xe, H2, D2, N2, CH4, C2H4, C2H6, CF4 and SF6) in 2-methyltetrahydrofuran at 273.15 to 303.15 K and 101.33 kPa partial pressure of gas', *Fluid Phase Equilibria*, vol. 87, no. 2, pp. 285–294, Aug. 1993, doi: 10.1016/0378-3812(93)85032-H.

[18] P. Raveendran, Y. Ikushima, and S. L. Wallen, 'Polar Attributes of Supercritical Carbon Dioxide', *Acc. Chem. Res.*, vol. 38, no. 6, pp. 478–485, Jun. 2005, doi: 10.1021/ar040082m.

[19] M. Maurya, P. K. Sappidi, and J. K. Singh, 'Selective Separation of CO_2 from Flue Gas Using Carbon and Boron Nitride Nanotubes as a Membrane', *Energy Fuels*, vol. 34, no. 6, pp. 7223–7231, Jun. 2020, doi: 10.1021/acs.energyfuels.0c00311.

[20] Y. Yang, A. K. Narayanan Nair, and S. Sun, 'Adsorption and Diffusion of Carbon Dioxide, Methane, and Their Mixture in Carbon Nanotubes in the Presence of Water', *J. Phys. Chem. C*, vol. 124, no. 30, pp. 16478–16487, Jul. 2020, doi: 10.1021/acs.jpcc.0c04325.

[21] X. Zhu and Y.-P. Zhao, 'Atomic Mechanisms and Equation of State of Methane Adsorption in Carbon Nanopores', *J. Phys. Chem. C*, vol. 118, no. 31, pp. 17737–17744, Aug. 2014, doi: 10.1021/jp5047003.

[22] A. Thomas, R. Ahamed, and M. Prakash, 'Effect of functional group in the zeolitic imidazolate framework for selective CH4/CO and CO/N2 separation: A theoretical study', *Mater. Lett.*, vol. 303, p. 130575, Nov. 2021, doi: 10.1016/j.matlet.2021.130575.

[23] W. Cao, G. M. Tow, L. Lu, L. Huang, and X. Lu, 'Diffusion of CO_2 /CH_4 confined in narrow carbon nanotube bundles', *Mol. Phys.*, vol. 114, no. 16–17, pp. 2530–2540, Sep. 2016, doi: 10.1080/00268976.2016.1177665.

[24] A. H. Farmahini, A. Shahtalebi, H. Jobic, and S. K. Bhatia, 'Influence of Structural Heterogeneity on Diffusion of CH_4 and CO_2 in Silicon Carbide-Derived Nanoporous Carbon', *J. Phys. Chem. C*, vol. 118, no. 22, pp. 11784–11798, Jun. 2014, doi: 10.1021/jp502929k.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Rayxona Ortiqova Baxodirovna
Andijon davlat universiteti
E-mail address: rayxonabaxodirovna@gmail.com
Muslimabonu Muhammadjonova Akramjon qizi
Andijon davlat universiteti
E-mail address: muslimamuhammadjonova8914@gmail.com

"IKKI BURCHAKLI BESHBURCHAK PRIZMA" QIRRALARIDA IKKI QUVLOVCHI VA BIR QOCHUVCHINING DIFFERENSIAL O'YINI.

Annotatsiya. *Ushbu maqola ikki burchakli beshburchak prizma qirralari bo'ylab ikki quvlovchilar va bir qochuvchining differensial o'yiniga bag'ishlangan. Quvlovchilar va qochuvchining boshqaruv parametrlari geometrik chegaralanishga ega, ya'ni o'yinchilarning tezliklariga chegaralar qo'yilgan. O'yinda quvlovchilarning va qochuvchining maksimal tezligi* $\rho_i = 1, i = 1,2,$ *ga teng. Quvlovchilardan birining biror momentdagi holati qochuvchining huddi shu momentdagi holati bilan ustma-ust tushsa, quvuvchilar o'yinda g'alaba qozongan deb ataladi. O'yinni yakunlash uchun quvlovchilarga strategiyalar qurilgan va strategiyadan foydalangan holda tutish mumkinligi isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *Differensial o'yin, strategiya, quvuvchi, qochuvchi, ikki burchakli beshburchak prizma.*

Raykhona Ortiqova Bakhodirovna
Andijan State University
Muslimabonu Muhammadjonova Akramjon kizi
Andijan State University

DIFFERENTIAL GAME OF TWO PURSUERS AND AN EVADER ON "BIAUGMENTED PENTOGANAL PRISM".

Abstract. *This paper is devoted to study a differential game of two pursuers and an evader on biaugmented pentoganal prism. The control parameters of pursuers and an evader are subjected to geometric constraints, which means the players have speed limits. In the game, pursuers have maximum speed of* $\rho_i = 1, i = 1,2,$ *as well as the evader. When the state of, at least, one of the pursuers coincides with the one of the evader, it can be said that the pursuers win the game. The strategy for the pursuers to complete the game is constructed and it is proven that the pursuit is possible by using the constructed strategy.*

Key words: *Differential game, strategy, pursuer, evader, biaugmented pentoganal prism.*

Райхона Ортикова Баходировна
Андижанский государственный университет
Муслимабону Мухаммаджонова Акрамджон кызы
Андижанский государственный университет

ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНАЯ ИГРА ДВУХ ПРЕСЛЕДОВАТЕЛЕЙ И УБЕГАЮЩЕГО НА «ДВУКРАТНО ДОПОЛНЕННОЙ ПЯТИУГОЛЬНОЙ ПРИЗМЕ».

Аннотация*. В данной работе изучается дифференциальная игра двух преследователей и убегающего в модифицированной пятиугольной призме. Управляющие параметры преследователей и убегающего подчиняются геометрическим ограничениям, что означает наличие ограничений на скорости игроков. В игре преследователи имеют максимальную скорость* $\rho_i = 1,\ i = 1,2,$ *что соответствует максимальной скорости убегающего. Если хотя бы один из преследователей достигает того же состояния, что и убегающий, считается, что преследователи выигрывают игру. Стратегия преследователей разработана к концу игры, и доказано, что предложенная стратегия обеспечивает успешное преследование.*

Ключевые слова*: Дифференциальная игра, стратегия, преследователь, убегающий, двукратно дополненной пятиугольной призме.*


Kirish

Differensial o‘yin nazariyasi - bu o‘yinchilarning berilgan dinamik sistemaning natijasiga ta‘sir ko‘rsatadigan, vaqt o‘tishi bilan tanlov qiladigan ziddiyatli senariylarni o‘rganadigan matematikaning bir tarmog‘idir. Ushbu o‘yinlar doimiy vaqt dinamikasi bilan tavsiflanadi va differentsial tenglamalar bilan ifodalanadi. Klassik misol, quvish-tutish o‘yini bo‘lib, unda bir o‘yinchi, ya’ni quvuvchi boshqa o‘yinchini, qochuvchini, qo‘lga olishni maqsad qiladi, qochuvchi esa o‘z navbatida qo‘lga tushmaslikka intiladi. Bunday o‘yinlarning strategiyalari va natijalari turli sohalarda, jumladan, harbiy taktika, robototexnika va iqtisodiyotda qo‘llaniladi. Differensial o‘yinlar nazariyasining asoslari Rufus Isaacs [12] tomonidan uning mashhur **“Differential Games: A Mathematical Theory with Applications to Warfare and Pursuit, Control and Optimization”** kitobida qo‘yilgan. Isaacs 1950-yillarda differensial o‘yinlar tushunchasini kiritib, dinamik tizimlarda ziddiyat va hamkorlik muammolarini tahlil qilish hamda hal etish uchun nazariy asos yaratdi. Uning ishlari turli vaziyatlarni, jumladan, quvish-qochish muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu mavzu keyinchalik differensial o‘yinlar tadqiqotining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Quvish-qochish o‘yinlarida o‘yinchilarning dinamikasi ko‘pincha ularning harakat va boshqarish imkoniyatlarini tavsiflovchi differensial tenglamalar yordamida aniqlanadi. Quvuvchining maqsadi qochuvchigacha bo‘lgan masofani minimallashtirish va shu bilan uni qo‘lga olishdir, qochuvchining maqsadi esa qo‘lga tushmaslik uchun bu masofani maksimal darajada oshirishga intiladi. Ikkala o‘yinchi tomonidan qo‘llaniladigan strategiyalar ularning tegishli boshqaruv chegaralanishlarga va o‘yin o‘tkaziladigan muhitga bog‘liq (misol uchun [6-8,10,13-16] adabiyotlarga qarang).

Yana bir qiziqarli sohalardan biri - bu ko‘pyoqlar, ko‘pburchaklar kabi aniq geometrik shakllar ichida quvish-qochish o‘yinlarini tahlil qilishdir. Geometrik shakllarning tuzilishi o‘yinchilarning soniga, ularning maksimal tezliklariga, ular qo‘llayotgan strategiyalariga va natijalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi ([1-5,9,11] ga qarang).

Ikki burchakli beshburchak prizma bu beshburchak prizmadan uning har bir kvadrat yuziga ikkita teng qirrali kvadrat piramidani biriktirish orqali hosil qilinadi, bu jarayon kengaytma deb ataladi. Bu kvadrat piramidalar prizmaning kvadrat yuzini qoplaydi, shuning uchun hosil bo‘lgan ko‘pburchakning yuzlari sifatida sakkizta teng yonli uchburchak, uchta kvadrat va ikkita muntazam beshburchak mavjud. Barcha yuzlari muntazam bo‘lgan qavariq ko‘pburchak “Jonson solid”i deb ataladi va kengaytirilgan beshburchak prizma ular orasida 53-“Jonson solid”i sifatida sanab o‘tiladi.



1-rasm. Ikki burchakli beshburchak prizma.

2. Masalaning qo‘yilishi.

Aytaylik tomoni bir birlik bo‘lgan ixtiyoriy $A_1 \dots A_5 B_1 \dots B_5 R_1, R_2$ ikki burchakli beshburchak prizmada (G shakl) $P = \{P_1; P_2\}$ quvlovchilar guruhi va bitta E qochuvchi harakatlanayotgan bo‘lsin (2-rasm). Ular umumiy holatda o‘yinchilar deb ataladi. O‘yinchilar doimo bir-birlarining harakatlari, holatlarini ko‘rib turadi deb olamiz. $P_i(t), i = 1,2$ va $E(t)$ lar mos ravishda quvlovchilar va qochuvchining t momentdagi ikki burchakli beshburchak prizmadagi vaziyati hisoblanadi. Shuningdek, $t = 0$ momentdagi holat o‘yinchilarning boshlang‘ich holati deyiladi. Biz tutish o‘yinini o‘rganayotganimiz uchun quvlovchilarga o‘yinni o‘z foydalariga hal qilish uchun strategiyalar quramiz. Qochuvchi esa ixtiyoriy boshqaruvni qo‘llab harakatlansin deb olamiz.

Qaralayotgan differensial o‘yin quyidagicha berilgan:

$$\begin{cases} \dot{P}_i(t) = u_i \;\; P_i(0) = P_{i0}\,, i = 1,2; \\ \dot{E}(t) = v\,, E(0) = E_0 \end{cases} \qquad (1)$$

Bu yerda $P_i, E, u_i, v \in R^2$, $P_i(0) \neq E(0)$, va $|v| \leq \sigma = 1$, $|u_i| \leq \rho_i = 1$. P_{10}, P_{20} quvlovchilarning boshlang‘ich holatlari va E_0 esa qochuvchining boshlang‘ich holati. B(r) orqali radiusi r va markazi R^2 da bo‘lgan doiralar to‘plamini belgilaylik.

1-Ta’rif. *Agar ushbu*

$$\dot{E}(t) = v\,,\; E(0) = E_0,$$

Koshi masalasining $E(\cdot)$ *yechimi* $E(t)$, $t \geq 0$ *shartni qanoatlantirsa,* $v(\cdot)$, $v: [0, \infty) \to B(\sigma)$ *funksiya* E *qochuvchining joiz boshqaruvi deyiladi*.

Quvlovchilarning strategiyalariga ta’rif beramiz.

2-Ta’rif. *Agar* $u_i = U_i(t, x_1, x_2, y, v)$, $i = 1,2$, *funksiyalar va qochuvchining ixtiyoriy* $v = v(t)$ *joiz boshqaruvi uchun berilgan (1) Koshi masalasi yagona* $P_1(t), P_2(t), E(t), t \geq 0$, *yechimga ega bo‘lsa,* $(t, P_1, P_2, E, v) \to U_i(t, P_1, P_2, E, v)$, $i = 1,2$ *funksiyalar mos ravishda* P_i , $i = 1,2$ *quvlovchilarning strategiyalari deyiladi.*


3-Ta’rif. *Agar E qochuvchi ikki burchakli beshburchak prizmaning ixtiyoriy qirrasida joylashgan holda har qanday joiz boshqaruv qo‘llaganda ham,* $P = \{P_1; P_2\}$ *quvlovchilar guruhning shunday strategiyasi va unga binoan shunday* $\tau > 0$ *soni topilsaki, biror* $i = 1,2$ *uchun* $P_i(\tau) = E(\tau)$ *tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda o‘yinni quvlovchilar guruhi yutdi (ba’zan o‘yin tugadi) deyiladi.*

Asosiy natija


Endi ushbu maqolaning asosiy natijasi bo'lgan teoremani keltiramiz va uni isbotlaymiz.

Teorema. Agar $\sigma = 1$ hamda $\rho_1 = \rho_2 = 1$ bo'lsa, o'yinni P quvlovchilar guruh yutadi, ya'ni ikki burchakli beshburchak prizma qirralarida quvlovchilar guruhi qochuvchini tuta oladi.

Isbot. Boshlang'ich $t = 0$ vaqtda qochuvchi shaklning biror uchida, quvlovchilar esa shaklning bu uchidan boshqa ixtiyoriy joylarda bo'lsin. Aniqlik uchun birinchi va ikkinchi quvlovchilar P_{10} , P_{20} boshlang'ich vaziyatini mos ravishda R_1 va R_2 uchlarda bo'lsin. Dastlab, G shaklda parallel va perpendikulyar F tekislik (G shakl bilan kesishmasi yettiburchak, 2a-rasm) va H tekislik (2b-rasm) o'tkazib olamiz . Bu tekisliklarni o'tkazib olishimizdan asosiy maqsad qochuvchining joylashuv holatlariga qarab ko'riladigan holatlarning sonini qisqartirishdan iborat. Ya'ni 2-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, F va H tekisliklar G shaklni simmetrik bo'lgan qismlarga ajratmoqda. Masalan, aytaylik $E_0 = A_1$ bo'lsin, ya'ni qochuvchi A_1 uchda. U holda B_1 uch va A_2 uch mos ravishda F va H tekisliklarga nisbatan A_1 uchga simmetrik. Boshqacha qilib aytganda agar quvlovchilar qochuvchini A_1 uchda turgan holatda tuta olsalar, u holda qochuvchi B_1 va A_2 uchlarda turgan holatlarda ham tutiladi deya olamiz. Holatlardagi asosiy farq shundaki, quvlovchilarning rollari almashadi.



a)




b)

2-rasm. Ko'k rangdagi nuqtalar quvlovchilarni ifodalaydi.


Qochuvchining holatiga bog'liq ravishda quyidagi holatlarni o'rganib chiqamiz:

1) Qochuvchi G shaklning R_1A_1 qirrasida bo'lsin (qochuvchi A_1 uchda turgan hol ham bu holatga tegishli).

Tutish o'yinlarida eng muhim ish bu quvuvchilarga qochuvchini tutish uchun kerak bo'lgan strategiya qurishdan iborat. Shuning uchun biz ham quvuvchilarga o'yin davomida strategiya quramiz. Dastlab P_2 quvuvchi bor tezligi bilan A_2 uch tomon harakatlanadi, P_1 quvuvchi esa o'z boshlang'ich vaziyatini qochuvchi A_1 uchga kelguncha saqlaydi. Aytaylik, $t_1 = \frac{E_0A_1}{v(t)}$, vaqtdan so'ng qochuvchi A_1 uchga yetib kelsin (3a-rasm). Qochuvchi A_2 uchga kelsa, P_2 quvuvchi tomonidan tutiladi, chunki $E_0A_2 \geq R_2A_2$ va P_2 quvuvchi o'zining maksimal tezligi ($\rho_2 = 1$) bilan harakatlanyabdi. Shu sababli qochuvchi yoki B_1 yoki A_5 uchlar tomon harakatlana oladi. Agar shunday bo'lsa, birinchi quvuvchi $P_1(t)A_5 = E(t)A_5$ yoki $P_1(t)B_1 = E(t)B_1$ (qochuvchining harakat yo'nalishiga qarab) tenglikni saqlagan holda harakatlanadi. Natijada, P_1 quvuvchi E qochuvchini ma'lum vaqtdan so'ng A_5 yoki B_1 uchda tuta oladi. P_2 quvuvchi esa doimiy $\rho_2 = 1$ tezlik bilan $R_2A_2A_1E(t)$ siniq chiziq bo'ylab qochuvchini quvlaydi (3b-rasm). Demak, ushbu holatda qochuvchi qamalda qoldi, qochuvchi uchun hech qanday harakatlanish sikli yo'qligi sababli quvuvchilar guruhi o'yinni o'z foydalariga yakunlay oladilar.



a)




b)

3-rasm. Ko'k nuqtalar quvuvchilarning, yashil nuqta qochuvchining holatini ifodalaydi.

Qochuvchining boshlang'ich holatini F va H tekisliklarga nistaban simmetrik ko'chirsak, mos ravishda $E_0 \in R_1B_1$ va $E_0 \in R_2A_2$ bo'ladi. Yuqorida isbotlangan hol kabi bu holatlar ham isbotlanadi. $E_0 \in R_1B_1$ holda shunchaki o'yin yuqori qismdan pastki qismga almashadi, $E_0 \in R_2A_2$ holda esa quvlovchilarning qurilgan strategiyadagi rollari almashadi. Shuning uchun bu holatlarga alohida to'xtalmaymiz.


2) Qochuvchi G shaklning R_1A_5 qirrasida bo‘lsin (qochuvchi A_5 uchda turgan hol ham bu holatga tegishli).

Qochuvchi A_5 uchga kelguncha P_1 quvuvchi o‘zining boshlang‘ich holatini saqlaydi, P_2 quvuvchi esa maksimal tezligi bilan A_3 uchga qarab harakatlanadi. P_2 quvuvchi A_3 uchga qochuvchidan ko‘ra tezroq yetib kela oladi, chunki $P_{20}A_3 < E_0A_3$ va ularning maksimal tezliklari bir xil. Agar qochuvchi P_2 quvuvchi A_3 uchga yetib kelguncha A_5 uchga yetib kelmasa yoki A_5 uchga yetib kelsa, quvuvchi A_4 uchga ham qochuvchidan ko‘ra ertaroq yetib kela oladi, chunki, $P_2(t)A_4 \le E(t)A_4$. Bu holatda qochuvchi yana qamalda qoladi (4-rasm). Shuning uchun qochuvchi ma’lum vaqtdan so‘ng A_5 uchga kelsin. Bu payt P_1 quvuvchi R_1 uchda $P_1(t) = R_1$, $P_2(t) \in R_2A_3, P_2(t) \neq A_3$. Qochuvchi A_1 va B_5 uchlarga kela olmaydi, chunki P_1 quvuvchi $P_1(t)A_1 = E(t)A_1$ $(P_1(t)B_5 = E(t)B_5)$ tenglikni saqlagan holatda qochuvchini A_1 (B_5) uchda tuta oladi. Shuning uchun qochuvchi A_4 uch tomon harakatlanadi. P_1 quvuvchi esa $E(t)A_4 = P_1(t)B_5$ tenglikni saqlagan holda harakatlanadi. Qochuvchi aynan A_4 uchga kelishi shart emas, xohlasa ortga qaytishi (qandaydir “manoeuvre” qilishi) mumkin, bunda P_1 quvuvchi $E(t)A_4 = P_1(t)B_5$ tenglikni saqlagani uchun u ham xuddi qochuvchi singari harakat qiladi. P_2 quvuvchi esa o‘zining maksimal tezligi bilan harakatlanib qochuvchining soyasi deb ataluvchi nuqtani tutishga harakat qiladi.



4-rasm.

Endi soya tushunchasini aniqlashtirib olamiz. Agar qochuvchi uchun $E(t) \in A_4A_5$ bo‘lsa, u holda uning soyasini aniqlash uchun $E(t)$ nuqtadan A_3A_5 kesmaga parallel l_1 to‘g‘ri chiziq o‘tkazamiz. Shu l_1 to‘g‘ri chiziqning A_3A_4 kesma bilan kesishgan nuqtasini qochuvchining A_3A_4 kesmadagi soyasi deb ataymiz ($E'(t)$ – qochuvchining soyasi, 5a-rasm). Xuddi shunday agar qochuvchi uchun $E(t) \in A_4B_4$ bo‘lsa, uning soyasi $E(t)$ nuqtadan A_3B_4 kesmaga parallel o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziqning A_3A_4 kesma bilan kesishgan nuqtasi orqali aniqlanadi (5b-rasm).




5-rasm.

Qochuvchi A_4A_5 qirradan o‘tib A_3 uch tomon yurolmaydi, chunki P_2 quvuvchi A_3 uch tomondan qochuvchi tomon harakatlanib kelmoqda. Shuning uchun qochuvchi B_4 uch tomon harakatlana oladi. Umuman olganda ma’lum $t = T$ vaqt o‘tgandan so‘ng P_2 quvuvchi qochuvchining soyasini tuta oladi. Qochuvchining soyasini tutib olgandan so‘ng P_2 quvuvchi $P_2(t) = E'(t), t \ge T$ tenglikni saqlab harakatlanadi, ya’ni qochuvchining soyasini qo‘yib yubormaydi. Agar qochuvchi A_4A_5 qirrada bo‘lganda P_2 quvuvchi uning soyasini tutib olsa, endi P_2 quvuvchi maksimal tezligi bilan A_4 uch tomon harakatlanadi. P_2 quvuvchi qochuvchining A_4 uch orqali A_4B_4 qirraga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaydi, chunki, $P_2(T) = E'(T)$ edi. Shu payt P_1 quvuvchi maksimal tezligi bilan R_1 uchga qaytib oladi. Yana qochuvchi qamalda qoldi. P_2 quvuvchi $A_4E(t)$ siniq chiziq bo‘ylab kelib qochuvchini tutib oladi. Agar qochuvchi A_4B_4 qirrada bo‘lganda uning soyasi tutilsa, u holda qochuvchi endi A_4 va B_3 uchlarga kelsa, P_2 quvuvchi tomonidan tutiladi. Shuning uchun qochuvchi u uchlar tomon harakatlanmaydi. Lekin P_1 quvuvchi endi maksimal tezligi bilan $B_5B_4E(t)$ siniq chiziq bo‘ylab kelib qochuvchini tutib oladi. Shunday qilib 3-holda ham qochuvchining tutilishi ko‘rsatildi. Xuddi shunday qochuvchi R_2A_3 va R_1B_5 qirralarda bo‘lganda ham ushbu holdagi strategiya orqali quvuvchilar guruhi qochuvchini tuta oladi.

3) Qochuvchi G shaklning A_1A_5 qirrasida bo‘lsin (qochuvchi A_1 va A_5 uchda turgan hol ham bu holatga tegishli).


Ushbu holatda harakatni P_1 quvuvchi boshlab beradi. P_2 quvuvchi R_2 uchda harakatlanmay turadi. P_1 quvuvchi qochuvchining R_1A_1 qirradagi soyasi tomon harakat qiladi (6a-rasm). Aytaylik, soyani tutib olsin, u

holda keyin P_1 quvuvchi $P_1(t) = E'(t)$ tenglikni saqlagan holda harakatlanadi. Bu orqali qochuvchini A_1 uchga keltirmaydi, chunki qochuvchining A_1 nuqtadagi soyasining holati bu A_1 nuqtaning o‘zi demakdir (6b-rasm). Qochuvchi A_5 uchga kelsa, P_1 quvuvchi R_1 uchga keladi. Bundan keyin quvuvchilar 2-holdagi kabi harakatlanishadi va qochuvchini tutib olishadi.



6-rasm.


Demak, qochuvchi uchun uning soyasining tutilishi yaxshi signal emas ekan, shuning uchun qochuvchi faqatgina A_1 uch tomon harakatlanishi zarur, aks holda P_1 quvuvchi uning soyasini tutib oladi. Aytaylik, qochuvchi ma’lum vaqtdan so‘ng A_1 uchga kelsin. Qochuvchi harakatlanishi uchun 4 ta yo‘nalish mavjud: R_1 uch tomon harakatlana olmaydi, chunki P_1 quvuvchi R_1 uchdan A_1 uch tomon kelmoqda; A_2 uchga borolmaydi, chunki P_2 quvuvchi R_2 uchda turibdi va u $P_2(t)A_2 = E(t)A_2$ tenglikni saqlagan holda qochuvchini A_2 uchda tutib oladi; ortga A_5 uch tomonga ham yurolmaydi, chunki P_1 quvuvchi qochuvchining R_1A_1 qirradagi soyasini tutib oladi va yuqoridagi kabi qochuvchi tutiladi. Demak, qochuvchi B_1 uch tomon yurishi kerak ekan. Lekin, bu holatda ham $E(t)$ nuqtadan R_1B_1 kesmaga parallel to‘g‘ri chiziq o‘tkazsak, bu to‘g‘ri chiziq R_1A_1 kesma bilan kesishishidan yana qochuvchining $E'(t)$ soyasi hosil bo‘ladi. Qochuvchining soyasi P_1 quvuvchi tomon yaqinlashmoqda, demak P_1 quvuvchi yana qochuvchining soyasini tutib oladi (7-rasm). Qochuvchining soyasi P_1 quvuvchi tomonidan tutilguncha P_2 quvuvchi B_2 uch tomon $E(t)B_1 = P_2(t)B_2$ teklikni saqlab harakatlanadi. Qochuvchining soyasi tutilishi bilan P_2 quvuvchi maksimal tezligi bilan qochuvchi tomon harakatlanadi va uni qamalga oladi.



7-rasm.

4) Qochuvchi G shaklning A_1A_2 qirrasida bo‘lsin (qochuvchi A_1 va A_2 uchda turgan hol ham bu holatga tegishli).


Ta’qibni qochuvchiga eng yaqin joylashgan quvuvchi boshlaydi. Aytaylik, harakatni P_1 quvuvchi boshlab bersin. P_1 quvuvchi maksimal tezligi bilan qochuvchi tomon $P_1(t)A_1E(t)$ yo‘nalishda harakatlanadi. P_2 quvlovchi R_2 uchda o‘z vaziyatini saqlaydi. Qochuvchi A_2 uchga, yoki A_1 orqali A_1B_1 va A_1A_5 qirralarga o‘tib olishi mumkin (8a-rasm). Agar u A_2 uchga kelsa P_2 quvuvchi $P_2(t)B_2 = E(t)B_2$ va $P_2(t)A_3 = E(t)A_3$ tengliklarni saqlab uni B_2 yoki A_3 uchda tuta oladi. Demak, u A_2 uchga kelmasligi kerak (8b-rasm).



8-rasm.

Agar A_1 uchdan A_1A_5 yoki A_1B_1 qirralarga o‘tib olsa, P_1 quvuvchi uni soyasini tutishga harakat qiladi. Qochuvchi qaysi qirraga o‘tib harakatlansa ham uning R_1A_1 qirradagi soyasini P_1 quvuvchi tuta oladi, chunki bu holatda ham xuddi 3-holatda ta’kidlanganidek qochuvchining soyasini R_1A_1 qirrada P_1 quvuvchi tomon

harakatlanadi. Bundan keyin quvuvchilar 3-holatdagidek harakatlanishadi va qochuvchini tutib olishadi (9-rasm).



9-rasm.

Shu bilan ushbu ikki burchakli beshburchak prizmada (G shaklda) ikki quvuvchi va bir qochuvchili differensial o‘yin yakunlandi. Boshqa barcha holatlar qochuvchining boshlang‘ich vaziyatidan kelib chiqib F va H tekisliklarga nisbatan yuqorida ko‘rilgan barcha holatlarga simmetrik bo‘ladi. Shuning uchun bu holatlarga alohida to‘xtalishimiz shart emas. Bu holatlarda ham quvuvchilar yuqorida qurilgan strategiyalarni qo‘llab qochuvchini tuta oladilar.

Xulosa

Ushbu maqolada biz ikki burchakli beshburchak prizma qirralarida harakatlanuvchi ikki quvlovchi va bir qochuvchining differensial o‘yinini o‘rgandik. Bu o‘yinda o‘yinchilarning boshqaruv parametrlariga geometrik chegaralanishlar qo‘yilgan, ya’ni o‘yinchilarning tezliklariga chegaralar qo‘yilgan. O‘yinda quvlovchilarning va qochuvchining maksimal tezligi $\rho_i = 1, (i = 1,2), \sigma = 1$ ga teng. Agar quvlovchilardan birining biror vaqtdagi holati qochuvchining huddi shu vaqtdagi holati bilan ustma-ust tushsa, quvuvchilar guruhi o‘yinda g‘alaba qozongan deyiladi. O‘yinni yakunlash uchun quvlovchilarga strategiyalar qurilgan va strategiyadan foydalangan holda tutish mumkinligi isbotlangan. Umuman olganda ushbu G shakldagi o‘yinni quvuvchilar foydasiga hal qilish uchun 2 quvlovchi yetarli ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Azamov A., Ibaydullaev T. (2020). A pursuit-evasion differential game with slow pursuers on the edge graph of simplexes I. Mathematical Game Theory and Applications. 12(4): 7–23. https://doi.org/10.17076/mgta_2020_4_23.

[2] Azamov A.A., Ibragimov G.I., Ibaydullaev T., Alias I.A. (2021) Optimal number of pursuers in the differential games on the 1-skeleton of orthoplex. Symmetry (Game Theoretical Symmetry Dynamic Processes). 10.3390/sym13112170.

[3] Azamov A.A., KuchkarovA.Sh., Holboyev A.G. (2015). The pursuit-evasion game on the 1-skeleton graph of the regular polyhedron. I. Mat. Teor. IgrPril., Vol. 7 (2015), 3–15.

[4] Azamov A.A., KuchkarovA.Sh., Holboyev A.G. (2016). The pursuit-evasion game on the 1-skeleton graph of the regular polyhedron. II. Mat. Teor. IgrPril., Vol. 8 (2016), 3–13.

[5] Azamov A.A., KuchkarovA.Sh., Holboyev A.G. (2019). The pursuit-evasion game on the 1-skeleton graph of the regular polyhedron. III. Mat. Teor. IgrPril., 11:4 (2019), 5–23.

Таким образом, из теоретического анализа и графических расчетов систем из хлоридов и сульфатов натрия и астраханита установлено, что хлорид натрия относительно мало растворим в сравнении с другими вышеперечисленными компонентами. Разница изменения растворимости при температурах от 0 до 80^0C составляет 1,5%. Исходя из этого, можно сделать вывод, что при комплексной переработке сульфатных солей первым из раствора можно отделить хлорид натрия который отправляется для йодирования. Далее процесс конверсии сульфатных солей с хлоридом калия продолжается в зависимости от состава исходных компонентов для получения сульфата калия и хлорида магния.

Список использованной литературы

1. Лимонова К.Н., Кочнева О.Е. Роль Уралкалия на мировом рынке калийных солей // Вестник Пермского университета. – 2013. – №2(19). –С. 75-78.

2. Позин М.Е. Технология минеральных удобрений. – Л.: Химия, 1989. –352 с.

3. Обзор технологий производства калийных удобрений // https://newchemistry.ru/letter.php?n_id=4959. 15.01.2021.

4. Жарков М.А., Соколов А.С. Калийные соли. Ресурсы, добыча, международная торговля // https://mining-media.ru/ru/article. 10.04.2020.

5. Кучаров Б.Х., Эркаев А.У., Закиров Б.С. Физико-химические основы образования сульфат содержащих солевых отложений в аральском регионе и ресурсосберегающая технология их переработки // Сборник трудов I Международного Узбекско-Казахского симпозиума «Актуальные проблемы развития химической науки и промышленности». г. Ташкент. 2019 г. С.180-185.

6. Эркаев А.У., Реймов К.Д., Тоиров З.К., Кайпбергенов А.Т.Туремуратова А.Ш. Солевые отложения и современное экологическое состояние Аральского моря. // Журнал «Узбекский химический журнал». Ташкент. 2014. - №5. -С. 4-20.

7. Х.Ч. Мирзакулов, Г.Х. Жураева. Производство сульфата натрия. –Монография. Ташкент.: Изд. «Навруз». 2014. -224 с.

8. Большое Аральское море в начале XX! века:физика,биология, химия /П.О.Завьялов, Е.Г.Арашкевич, И.Бастида и др.: Инититут океанологии им.П.П. Ширшова РАН.М.:Наука. 2012. -229 с.

9. Вант-Гофф Я. Г. Океанические соляные отложения. - Л.: ОНТИ Химтеорет.б 1936. – 344 с.

10. .ГОСТ 20851.3—93. Методы определения массовой доли калия. –Минск: Издательство стандартов, 1995.– 44 с.

11. .ГОСТ 24024.12-81. Фосфор и неорганические соединения фосфора. Методы определения сульфатов. - М.: Издательство стандартов, 1981. - 4 с.

12. .ГОСТ 4245-72. Методы определения содержания хлоридов Межгосударственный стандарт. -С.487-492

13. Дмитревский Б.А., Жекеев М.А. Графические расчеты по фазовым диаграммам солевых систем: учеб.пос. – Шымкент, ЮКГУ им. М. Ауэзова, 2016. – 125 с.

14. Kucharov B. Kh. Zakirov B.S., Erkaev A.U., Orakbaev A.A., Reymov A.M. Volume diagram system Na+ , K+ , 1/2Mg2 + // 1/2SO4 2-, Cl- - H2O at 0°C. Журнал Наука и образование в Каракалпакстане. -2019. - №.1.-С.34-39. 4. Справочник по растворимости / В.Б. Коган, С.К. Огородников, В.В. Кафаров ; под ред. В.В. Кафарова. Т.3 в 3 –х кн. – Л.: Наука, 1969. кн.3. – 1222 с.

15. Солиев Л. Прогнозирование фазовых равновесий в многокомпонентной системе морского типа методом трансляции (кн. 2). – Душанбе: Шухоиён, 2011. -147 с.

16. Сапаров Г.М. Исследование растворимости системы системе Na^+, Mg^{2+} // Cl^-, SO_4^{2-} – H_2O при 0 °С // VIII Всес. совещ. по физ.-хим. анал.: Тез докл. – Саратов. 1991. -С. 49.

17. Н.А. Улашова, Кучаров Б.Х., Эркаев А.У., Закиров Б.С., Физико-химические исследования переработки астраханита // International scientific- online conference “Innovative achievements an science 2024”. -Russia. -2024. -Part 25. -Issue 1. -Pp. 132-134.

18. Эркаев А.У., Якубов Р.Я., Терехин Е.Л. Тузлар тизимининг график тахлили. Тошкент, 2012й. «Мухарир» нашрети,2012й. 373б.

19. Набиев М. Н., Кучаров Х., Тухтаев С. Система K_2SO_4-$MgSO_4$-$CuSO_4$-H_2O при 50 С – ЖНХ, 1984, т, 29, № 11, с. 2934-2938.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Yo'lbarsova Mashxuraxon Vaxobovna
O'zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti,
Email: mashhura_1909@mail.ru

KARBAMIDNING NOORGANIK KISLOTALAR BILAN HOSIL QILGAN BIRIKMALARINING SUVDA ERUVCHANLIGINI O'RGANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada HNO_3•$CO(NH_2)_2$ – H_2O, H_3PO_4•$CO(NH_2)_2$ – H_2O, H_2SO_4•$CO(NH_2)_2$ – H_2O va $H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$ – H_2O tizimlarining eruvchanlik diagrammalari vizual-politermik usulda o'rganildi. Ularning kristallanish nuqtalari va fazaviy o'tishlari aniqlandi. Muvozanatda turgan qattiq fazalarga to'g'ri keluvchi suyuq fazalarning sifat va miqdor tarkiblari aniqlandi. Olingan natijalar asosida sistemalarning politermik eruvchanlik diagrammasi qurildi.*

Kalit so'zlar: *Sistema, eritma, karbamid, nitrat, sulfat va fosfat kislotalari, suv, eruvchanlik, qattiq va suyuq faza, diagramma.*

Йулбарсова Машхурахон Вахобовна
Институт общей и неорганической химии АН РУз

ИЗУЧЕНИЕ РАСТВОРИМОСТИ СОЕДИНЕНИЙ КАРБАМИДА С НЕОРГАНИЧЕСКИМИ КИСЛОТАМИ В ВОДЕ

Аннотация. *Методом визуально-политермического анализа в данной статье исследованы диаграммы растворимости систем HNO_3•$CO(NH_2)_2$ – H_2O, H_3PO_4•$CO(NH_2)_2$ – H_2O, H_2SO_4•$CO(NH_2)_2$ – H_2O и $H_3PO_{4(ЭФК)}$•$CO(NH_2)_2$ – H_2O. Определены фазовые переходы и точки кристаллизации. Установлены качественный и количественный составы жидкой фазы, соответствующей равновесной твёрдой фазе. Построены политермические диаграммы растворимости исследуемых систем на основе полученных результатов.*

Ключевые слова: *система, раствор, карбамид, азотная, серная и фосфорная кислоты, вода, растворимость, твёрдая и жидкая фаза, диаграмма.*

Yulbarsova Mashkhurakhon Vaxobovna
Institute of general and inorganic chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

STUDY OF THE SOLUBILITY OF UREA COMPOUNDS WITH INORGANIC ACIDS IN WATER

Abstract. *Using the visual-polythermal analysis method, the solubility diagrams of the systems HNO_3•$CO(NH_2)_2$ – H_2O, H_3PO_4•$CO(NH_2)_2$ – H_2O, H_2SO_4•$CO(NH_2)_2$ – H_2O and $H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$ – H_2O were investigated in this article. Phase transitions and crystallization points were determined. The qualitative and quantitative compositions of the liquid phase corresponding to the equilibrium solid phase were established. Polythermal solubility diagrams of the studied systems were constructed based on the obtained results.*

Keywords: *System, solution, urea, nitric, sulfuric and phosphoric acids, water, solubility, solid and liquid phase, diagram.*

Kirish

Karbamid noorganik kislotalar, jumladan fosfat (H_3PO_4), sulfat (H_2SO_4) va nitrat (HNO_3) kislotalari bilan birikmalar hosil qiladi [1-6]. Ushbu birikmalar kimyo sanoati va qishloq xo'jaligida, ayniqsa, mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Kimyoviy birikmalarning eruvchanligi texnologik jarayonlarda, xususan, kimyo sanoati va o'g'itlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir qator olimlar karbamidning mineral kislotalar bilan hosil qilgan birikmalarining ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan, bu esa yo'nalishdagi ilmiy ma'lumotlarni boyitishga xizmat qilgan [7-9]. Nitrat, sulfat va fosfat mochevinalar suvda kongruent va inkongruent ravishda eriydi, ya'ni erish jarayonida uning tarkibiy qismlari o'z nisbiy miqdorini saqlab qolishi yoki suvda eriganda parchalanishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, eritmada fosfat va karbamid muvozanatli ravishda tarqaladi, cho'kma hosil bo'lmaydi va tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmaydi. Ushbu xususiyat ularning kimyoviy

barqarorligini ta'minlab, o'g'it sifatida samarali qo'llanilishiga imkon beradi.

Usullar va materiallar.

Karbamidning mineral kislotalar bilan birikmalarini sintez qilish uchun xom ashyo sifatida nitrat, ortofosfat, sulfat, ekstrasion fosfat kislotalari xamda "kt" va "aut" markali karbamid ishlatildi.


Fizik-kimyoviy tizimlarda fazalar muvozanatini aniqlash vizual-polityermik usul yordamida o'rganildi [10].

Eruvchanlikni aniqlash uchun maxsus qurilma, yopish uchun tiqin, shisha aralashtirgich xamda aniq o'lchovga ega (shkala oraliq qiymati 0,10°C) termometr ishlatildi. Haroratni teng taqsimlash va bir xil sovitish jarayonini ta'minlash uchun probirka sovutish aralashmasiga joylashtirilgan tashqi probirkaga (muftaga) o'rnatildi. Isitish xam xuddi shu mufta orqali amalga oshirildi. Sovutish jarayoni esa suyuq azot bilan to'ldirilgan Dyuar idishlarida bajarildi.

O'rganilgan tizimlar eruvchanlikning politermik diagrammalari to'g'ri burchakli uchburchak shaklida qurildi. Eritmalar konsentratsiyasi massa foizlarida ifodalandi.

Tahlil va natijalar.

$HNO_3•CO(NH_2)_2$ – H_2O sistemasini eruvchanlik diagrammasi o'rganish shuni ko'rsatadiki, sistemada nitrat mochevinaning past konsentratsiyasi bo'lganda (2–4,2%) kristallanish harorati -1,1 va -2,3°C saqlanib turadi va qattiq faza sifatida muz kristallanadi. Eritmada $HNO_3•CO(NH_2)_2$ ning konsentratsiyasi 7,6% gacha yetganda -3,4°C haroratda evtetik nuqta, ya'ni muz va $HNO_3•CO(NH_2)_2$ aralashmasi kristallanishi kuzatiladi. Shu nuqtadan boshlab eritmada $HNO_3•CO(NH_2)_2$ miqdorining ortib borishi bilan qattiq fazada $HNO_3•CO(NH_2)_2$ ning kristallanishi kuzatiladi (1-rasm, 1-jadval).




1-rasm. $HNO_3•CO(NH_2)_2$ – H_2O tizimining eruvchanligi diagrammasi.

$HNO_3•CO(NH_2)_2$ – H_2O tizimining eruvchanligi

Suyuq faza tarkibi, %		Krist. harorati, °C	Qattiq faza
$HNO_3•CO(NH_2)_2$	H_2O		
2.0	98.0	-1.1	Muz
4.2	95.8	-2.3	--//--
7.6	92.4	-3.4	Muz+ $HNO_3•CO(NH_2)_2$
10.1	89.9	4.0	$HNO_3•CO(NH_2)_2$
12.0	88.0	8.9	--//--
14.0	86.0	14.0	--//--
16.0	84.0	19.0	--//--
18.0	82.0	24.2	--//--
20.0	80.0	29.0	--//--
22.0	78.0	34.0	--//--
24.0	76.0	38.0	--//--
26.0	74.0	43.0	--//--
28.0	72.0	47.8	--//--
32.0	68.0	55.0	--//--
34.0	66.0	58.0	--//--

Fosfat mochevina – suv tizimi -9,6 dan to 60,0°C harorat oralig'ida o'rganildi. Bunga muvofiq fosfat mochevinaning suvda erish diagrammasida uning ikkita kristallanish chegaralari kuzatildi. Bunda 18 ta figurativ nuqtalar uchun tarkib va kristallanish haroratlari aniqlandi. Muvozanatda qattiq fazalarga to'g'ri keluvchi suyuq fazalarning sifat va miqdor tarkiblari aniqlandi. Olingan natijalar asosida sistemaning politermik eruvchanlik diagrammasi qurildi (2-rasm, 2-jadval).



1-jadval.


2-rasm. $H_3PO_4 \bullet CO(NH_2)_2 – H_2O$ tizimining eruvchanligi diagrammasi.

2-jadval.

$H_3PO_4 \bullet CO(NH_2)_2 – H_2O$ tizimining eruvchanligi

Suyuq faza tarkibi, %		Krist. harorati, °C	Qattiq faza
$H_3PO_4 \bullet CO(NH_2)_2$	H_2O		
2.0	98.0	-0.9	Muz
4.0	95.8	-1.6	--//--
8.0	92.4	-2.8	--//--
12.0	88.0	-3.8	--//--
16.0	84.0	-4.4	--//--
22.0	78.0	-6.8	--//--
26.0	74.0	-7.9	--//--
30.0	70.0	-9.0	--//--
31.8	68.2	-9.6	Muz+ $H_3PO_4 \bullet CO(NH_2)_2$
34.0	66.0	-3.8	$H_3PO_4 \bullet CO(NH_2)_2$
38.0	62.0	3.7	--//--
44.0	56.0	12.0	--//--
48.0	52.0	17.1	--//--
52.0	48.0	22.3	--//--
56.0	44.0	28.1	--//--
60.0	40.0	34.0	--//--
68.0	32.0	46.0	--//--
75.0	25.0	56.0	--//--

$H_2SO_4 \bullet CO(NH_2)_2 – H_2O$ sistemasi -19,2 dan to 40°C harorat oralig'ida o'rganildi. Diagrammada muzning kristallanish chegarasi eritmaning evtektik nuqtasigacha davom etib, so'ng esa eritmada $CO(NH_2)_2$ ning kristallanish chegarasi boshlanishi aniqlandi. Xuddi shunday eritma tarkibida sulfat mochevinaning konsentratsiyasining ortishi bilan, ya'ni sistemaning tarkibi -24,0°C va 60% sulfat mochevina bo'lganda sistemaning qattiq fazasida $H_2SO_4 \bullet 2CO(NH_2)_2$ ning kristallanish maydoni aniqlandi. O'rganilgan diagrammadan ko'rinib turibdiki, sistemada konsentratsiya ortishi bilan $H_2SO_4 \bullet CO(NH_2)_2$ ning hosil bo'lishi kuzatiladi, 70% dan boshlab faqat $H_2SO_4 \bullet CO(NH_2)_2$ kristallari cho'kadi, va kristallanish harorati ortib boradi. Eritmaning konsentratsiyasi 94% ga yetganda qattiq fazalarning kristallanish harorati 38°C gacha yetadi Diagrammadan ko'rinib turibdiki, sulfat mochevina inkongruent erauchan bo'lib, bunda u karbamidga parchalanishi kuzatildi. Bu tizim uchun 20 ta figurativ nuqtalar uchun tarkib va kristallanish haroratlari aniqlandi. Muvozanatda qattiq fazalarga to'g'ri keluvchi suyuq fazalarning sifat va miqdor tarkiblari topildi. Olingan natijalarga tayangan xolda bu sistemaning xam politermik eruvchanlik diagrammasi qurildi (3-rasm, 3-jadval).



3-rasm. $H_2SO_4 \bullet 2CO(NH_2)_2$-$H_2O$ tizimining eruvchanligi diagrammasi.


3-jadval.

$H_2SO_4 \bullet 2CO(NH_2)_2$-$H_2O$ tizimining eruvchanligi

Suyuq faza tarkibi, %		Krist. harorati, °C	Qattiq faza
$H_2SO_4 \bullet 2CO(NH_2)_2$	H_2O		
2.8	98.0	-1.0	Muz
9.6	90.4	-3.0	--//--
18.0	82.0	-4.0	--//--
24.0	76.0	-5.7	--//--
32.0	68.0	-7.9	--//--
40.0	60.0	-10.2	--//--
48.0	52.0	-12.9	--//--
53.0	47.0	-15.0	--//--
58.0	42.0	-16.7	--//--
61.0	39..0	-18.0	--//--
63.1	36.9	-19.2	Muz+$CO(NH_2)_2$
64.0	36.0	-9.2	$CO(NH_2)_2$
65.0	35.0	-1.0	--//--
66.8	33.2	-10.0	--//--
69.0	31.0	-24.0	--//--
69.4	30.6	-6.8	$CO(NH_2)_2$+$H_2SO_4 \bullet 2CO(NH_2)_2$
70.0	30.0	5.0	$H_2SO_4 \bullet 2CO(NH_2)_2$
74.0	26.0	13.0	--//--

84.0	16.0	25.2	--//--
94.0	6.0	38.0	--//--

$H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$-H_2O sistemasini suvda eruvchanligini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bunda **sistemada komponentlar** konsentratsiyalarining 33,2% gacha borishi hosil bo‘lgan eritmalarning kristallanish harorati -10°C gacha pasayishi kuzatildi. Ushbu diapazonda sistemaning qattiq fazasida asosan kristallanish faza muz hisoblanadi. 3,2% konsentratsiyada -10,0°C da evtektik nuqta kuzatiladi, bu konsentratsiyalarda muz va $H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$ aralash kristallari hosil bo‘ladi. $H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$ kristalllari 36,0% konsentratsiyada harorat -3.2°C teng bo‘lganda sistemaning qattiq fazasida fosfat mochevina ajrala boshlaydi, 72% konsentratsiyada harorat 50°C ga yetgancha davom etadi Olingan natijalarga tayangan xolda bu sistemaning xam politermik eruvchanlik diagrammasi qurildi (4-rasm, 4-jadval).



4-rasm. $H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$-H_2O tizimining eruvchanligi diagrammasi.

4-jadval.

$H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$-H_2O tizimining eruvchanligi

Suyuq faza tarkibi, %		Krist. harorati, °C	Qattiq faza
$H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$	H_2O		
2.0	98.0	-0.5	Muz
4.0	96.0	-1.0	--//--
10.0	90.0	-2.8	--//--
14.0	86.0	-3.9	--//--
20.0	80.0	-5.0	--//--
30.0	70.0	-8.2	--//--
33.2	66.8	-10.0	Muz+$H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$
36.0	64.0	-3.2	$H_3PO_{4(EFK)}$•$CO(NH_2)_2$
40.0	60.0	5.7	--//--
48.0	52.0	18.2	--//--
54.0	46.0	27.8	--//--
60.0	40.0	36.6	--//--
66.0	34.0	44.1	--//--
72.0	28.0	50.0	--//--

Xulosa.

Shunday qilib, o‘rganilgan binar sistemalarning tahlil natijalariga ko‘ra, karbamidning noorganik kislotalar bilan hosil qilgan birikmalarining HNO_3•$CO(NH_2)_2$, H_3PO_4• $CO(NH_2)_2$ va $H_3PO_{4(EFK)}$• $CO(NH_2)_2$ sistemalari suvda kongruent eruvchan bo‘lib, parchalanmaydi, H_2SO_4• $CO(NH_2)_2$ sistemasi esa suvda inkongruent eruvchan bulib, suvda eriganda karbamid va sulfat mochevinaga parchalanishi kuzatildi. O‘rganilgan sistemalar uchun 68 ta figurativ nuqtalar uchun tarkib va kristallanish haroratlari aniqlandi. Muvozanatda qattiq fazalarga to‘g‘ri keluvchi suyuq fazalarning sifat va miqdor tarkiblari topildi. Olingan natijalarga tayangan xolda bu sistemaning xam politermik eruvchanlik diagrammasi qurildi. Olingan eruvchanlik diagrammasi ma’lumotlari komponentlarni kristallanish va ularni eritmalardan ajratish sharoitlarini shu bilan birga suyuq yoki qattiq o‘g‘itlar uchun barqaror eritmalarni ishlab chiqish va ularni saqlash xamda tashish sharoitlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н.Н. Нурахметов, Б.А. Беремжанов. О взаимодействии неорганических кислот с амидами. ЖНХ, XXIII, 504-514 (1978)

2. M.V. Yulbarsova, B.X. Kucharov, B.M. Smailov, A.U. Erkayev. Study of interaction components in the obtaining of nitrogen-containing fertilizers // Rasayan Journal of chemistry, Vol. 17 | No. 4, October – December, 2024, Pp1395-1400

3. М.В.Йулбарсова, Б.Х.Кучаров, Б.С.Закиров, А.У.Эркаев, Э.Э.Машаев. Изучение взаимодействия компонентов в системе мочевина-фосфатная кислота-вода // Ўзбекистон кимё журнали, 2024-йил, №4, 61-69 бетлар.

4. Yulbarsova M.V., Kucharov B.Kh., Erkayev A.U., Zakirov B.S. Interaction of urea with inorganic acids // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. 2024. №7-8. С. 52 - 61.

5. Шукуров Ж.С., Аскарова М.К., Тухтаев С. Растворимость компонентов в системе $NaClO_3$ – H_3PO_4·$CO(NH_2)_2$ – H_2O // Химический журнал Казахстана. 2015, № 3, С.171–174.

6. Хамдамова Ш.Ш., Тухтаев С. Изучение физико-химического взаимодействия компонентов в системе хлорат кальция - фосфат мочевины-вода // Universum: Технические науки: электрон. научн. журн. 2016, № 9(30),
http://7universum.com/ru/tech/archive/item/3664

7. А.К. Молодкин, Г.В. Эллерт, О.М. Иванова, Г.А. Скотникова. О соединениях карбамида с кислотами. ЖНХ, XII, 947-957 (1967)

8. И.М. Каганский, В.М. Харламова, З.К. Федасеева и А.С. Маркова. Растворимость в системе мочевина - азотная кислота – вода. ЖПХ, XXXIX, 1872-1875 (1966).

9. И.М. Каганский, Г.С. Мухля, В.М. Харламова, В.А. Наумов. Растворимость в системе мочевина-фосфорная кислота-вода. ЖПХ, XXXVII, 1111-1116 (1964)

10. Трунин А.С., Пешрова Д.Г. Визуально-политермический метод. -Куйбышев: Куйбышевский политехн. ин-т,1977.-94с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Muxammatova Umida Xusan qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tayanch doktoranti
E-mail:umida-1995@gmail.com
Temirov O'ktam Shavkatovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professori
E-mail:temirov-2012@mail.ru
Isomurodova Sabina Yorqin qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabasi

AZNEK FOSFORITLARINI NITRAT KISLOTALI QAYTA ISHLASHDA FAZAVIY VA KIMYOVIY O'ZGARISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Aznek fosforitining nitrat kislotasi bilan qayta ishlanishi natijasidagi fazaviy va kimyoviy o'zgarishlari o'rganilgan. Tadqiqotda fosforitlarning mineralogik tarkibini tahlil qilish uchun rentgen difraktometriya (XRD) usuli qo'llanildi. Ikkita namuna — tabiiy va nitrat kislotasi bilan ishlangan fosforit qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, kislotali ishlov berish jarayonida kalsiy karbonat ($CaCO_3$) parchalanib, natijada mono- va dikalsiy fosfatlar ($Ca(H_2PO_4)_2$, $CaHPO_4$) hamda kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$) hosil bo'ldi. Bu esa fosforning o'simliklar uchun suvda eruvchan va oson o'zlashtiriladigan shaklga aylanishiga imkon berdi. Shuningdek, maqolada jahonda mavjud fosforit konlari, ularni qayta ishlash usullari va O'zbekistondagi fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari fosforitlarni yangi texnologiyalar asosida qayta ishlash va qishloq xo'jaligida samarali mineral o'g'itlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Aznek fosforiti, nitrat kislotasi, rentgen difraktometriya (XRD), mono- va dikalsiy fosfat, kalsiy nitrat, fosforli o'g'itlar, qayta ishlash usullari.*

Мухамматова Умида Хусан кизи
Базовый докторант Навоийского государственного горного и технологического университета
Темиров Уктам Шавкатович
Профессор Навоийского государственного горного и технологического университета
Исомуродова Сабина Ёркин кизи
студентка Навоийского государственного горного и технологического университета

ФАЗОВЫЕ И ХИМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПРИ ПЕРЕРАБОТКЕ АЗНЕКСКИХ ФОСФОРИТОВ АЗОТНОЙ КИСЛОТОЙ

Аннотация. *В данной статье изучены фазовые и химические изменения Азнякского фосфорита под воздействием азотной кислоты. Для анализа минерального состава фосфоритов применялся метод рентгеновской дифрактометрии (XRD). Проведено сравнительное исследование двух образцов – природного и обработанного азотной кислотой фосфорита. Согласно полученным результатам, в процессе кислотной обработки происходит разложение карбоната кальция ($CaCO_3$), в результате чего образуются монокальцийфосфат ($Ca(H_2PO_4)_2$), дикальцийфосфат ($CaHPO_4$) и нитрат кальция ($Ca(NO_3)_2$). Это приводит к увеличению растворимости фосфатов в воде, что делает их более доступными для растений. В статье также представлены данные о мировых месторождениях фосфоритов, методах их переработки и возможностях производства фосфорных удобрений в Узбекистане. Результаты исследования могут послужить основой для разработки новых технологий переработки фосфоритов и производства эффективных минеральных удобрений для сельского хозяйства.*

Ключевые слова: *Азнякский фосфорит, азотная кислота, рентгеновская дифрактометрия (XRD), монокальцийфосфат, дикальцийфосфат, нитрат кальция, фосфорные удобрения, методы переработки.*

Muxammatova Umida Xusan qizi
basic doctoral student, Navoi State Mining and Technology University

Temirov Uktam Shavkatovich
Professor, Navoi State Mining and Technology University
Isomurodova Sabina Yoqin qizi
student of Navoi State Mining and Technology University

PHASE AND CHEMICAL CHANGES IN THE NITRIC ACID PROCESSING OF AZNEK PHOSPHORITES

Annotation. *This article examines the phase and chemical transformations of Aznyak phosphorite under the influence of nitric acid. The X-ray diffraction (XRD) method was used to analyze the mineral composition of phosphorites. A comparative study was conducted on two samples – natural and nitric acid-treated phosphorite. The results indicate that during acid treatment, calcium carbonate ($CaCO_3$) decomposes, leading to the formation of monocalcium phosphate ($Ca(H_2PO_4)_2$), dicalcium phosphate ($CaHPO_4$), and calcium nitrate ($Ca(NO_3)_2$). This enhances the solubility of phosphates in water, making them more accessible for plants. Additionally, the article provides information on global phosphorite deposits, their processing methods, and the prospects for phosphorus fertilizer production in Uzbekistan. The research findings serve as a basis for developing new technologies for phosphorite processing and producing efficient mineral fertilizers for agriculture.*

Keywords: *Aznyak phosphorite, nitric acid, X-ray diffraction (XRD), monocalcium phosphate, dicalcium phosphate, calcium nitrate, phosphorus fertilizers, processing methods.*

Kirish.

Fosforli o‘g‘itlar jahon oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi, ammo hozirgi kunda ularning ishlab chiqarish va qo‘llanilishi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Avvalo, tabiiy fosfor resurslarining cheklanganligi jahon qishloq xo‘jaligida uzoq muddatli barqarorlikka tahdid solmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda foydalanish mumkin bo‘lgan fosforit konlari cheklangan bo‘lib, asosiy zaxiralar Marokash, Xitoy, AQSH va Rossiya kabi davlatlarda joylashgan. Shu sababli, fosforli o‘g‘itlarni samarali ishlab chiqarish va resurslarni tejash dunyo miqyosidagi strategik masalalardan biriga aylanmoqda[1].

Jahondagi eng yirik fosforit konlari asosan Marokash, Xitoy, AQSH va Rossiyada joylashgan bo‘lib, ular orasida Marokash dunyodagi eng katta fosforit zahirasiga ega va umumiy global zaxiralarning 70% dan ortig‘ini tashkil etadi. AQSH va Xitoy esa eng yirik fosforli o‘g‘it ishlab chiqaruvchi mamlakatlar hisoblanadi. Fosforitlarni qayta ishlash usullari asosan kislotali, termal va biologik qayta ishlash yo‘llari orqali amalga oshiriladi. Kislotali qayta ishlash usulida fosforitga sulfat kislotasi (H_2SO_4), nitrat kislotasi (HNO_3) yoki xlorid kislotasi (HCl) bilan ishlov berilgan holda suvda eruvchan fosfatlar hosil qilinadi, bu jarayondan superfosfat, ammofos, diammofos va boshqa mineral o‘g‘itlar olinadi. Termal qayta ishlash esa fosfat minerallarini yuqori haroratda qayta ishlash orqali suyuq fosfor yoki termik fosfatlar hosil qilish jarayoni hisoblanadi, ammo bu usul ancha qimmat va sanoatda kamroq qo‘llaniladi. Biologik qayta ishlash esa fosforitni mikrobiologik usullar yordamida parchalash jarayoni bo‘lib, bu ekologik xavfsiz usul sanaladi, lekin hozircha sanoat miqyosida kamroq qo‘llaniladi[2].

Bundan tashqari, an’anaviy fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish jarayonida muhitga katta ta’sir ko‘rsatiladi. Fosfatlarni qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan chiqindilar suv va tuproqning ifloslanishiga olib keladi, shuningdek, atmosferaga zararli gazlarni chiqarishi mumkin. Shu sababli, yangi, ekologik xavfsiz va samarali usullarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistondagi vaziyat ham shunga o‘xshash holatga ega. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligida fosforli o‘g‘itlarga bo‘lgan talab juda yuqori. Ammo mahalliy resurslardan samarali foydalanish va o‘g‘itlarning erimagan fosfor miqdorini kamaytirish muhim muammolardan biri hisoblanadi. Hozirda fosforit konlarining asosiy qismi Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyatlarida joylashgan bo‘lib, ularni qayta ishlashda zamonaviy usullardan foydalanish zarur. Shuningdek, O‘zbekistondagi mavjud mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish zavodlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish dolzarb masala hisoblanadi[3].

Yuqoridagilardan xulosa qilib, fosforitlarning o‘g‘it sifatida samaradorligini oshirish uchun turli kimyoviy qayta ishlash usullarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biridir.


Tadqiqot usuli

Ushbu tadqiqotda Aznek fosforiti namunasini 0,25 mm katalikda to‘liq maydalab olindi va uning kimyoviy tarkibi taxlil qilindi. 0,25 mm katalikdagi Aznek fosforiti namunasini ning nitrat kislotasi bilan fosforit tarkibidagi kaltsiy oksidiga nisbattan 100 normada stixiometrik ta’sirlashtirib namuna olindi. Boshlang‘ich va nitrat kislotasi ta’sirlashtirib olingan namunalardagi fazaviy va kimyoviy o‘zgarishlari rentgen difraktometriya (XRD) usuli orqali o‘rganildi. Ikkita namuna – boshlang‘ich va kislotali ishlov berilgan fosforitning mineralogik tarkibi qiyoslab tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida kislotali qayta ishlash jarayonida fosfor va kalsiyning yangi birikmalar hosil qilish xususiyatlari aniqlandi va ularning o‘g‘it sifatida qo‘llanilishi mumkinligi baholandi.

Namunalar tayyorlash jarayonida Aznek fosforiti tabiiy holda olinib, uning bir qismi nitrat kislotasi (HNO_3) bilan ishlov berildi. Ishlov berish jarayonida kislotali muhitda kalsiy karbonat ($CaCO_3$) parchalanishi va natijada mono- va dikalsiy fosfatlar ($Ca(H_2PO_4)_2$, $CaHPO_4$) hamda kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$) hosil bo'lishi kutilgan. Ikkala namuna rentgen difraktometriya (XRD) usulida tahlil qilindi, buning uchun Shimadzu XRD-7000 difraktometri qo'llanilib, 4°–80° Theta-2Theta diapazonida skaner qilindi. Olingan XRD ma'lumotlari asosida har bir namunaning piklar, d (Å) qiymatlari va intensivlik xarakteristikalari aniqlanib, fazaviy tarkibi o'rganildi[4-8]. Ushbu ma'lumotlar asosida tabiiy va nitrat kislotasi bilan ishlangan fosforit tarkibidagi o'zgarishlar qiyoslab chiqildi, shuningdek, kislota bilan ishlov berish natijasida karbonatlarning parchalanishi, fosforning yangi birikmalar shaklida tuzilishi va kalsiy nitrat hosil bo'lishi kabi jarayonlar tahlil qilindi.

Tahlil natijalari va muhokama

Boshlang'ich Aznek koni fosforitining kimyoviy taxlil natijalari (1-rasm) ularning yuqori fosfor angidridi (P_2O_5 – 23,39%) va kalsiy oksidi (CaO – 44,78%) miqdoriga ega ekanligini ko'rsatadi, bu esa ularni fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish uchun istiqbolli xomashyoga aylantiradi. Shu bilan birga, kremniy oksidi (SiO_2 – 9,14%) va karbonat angidridi (CO_2 – 13,58%) miqdori qayta ishlash jarayonida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim omillar hisoblanadi. Magniy oksidi (MgO – 1,78%) va alyuminiy oksidi (Al_2O_3 – 2,31%) miqdori fosforitlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini belgilab beradi. Temir oksidi (Fe_2O_3 – 0,71%) miqdori nisbatan past bo'lib, bu qayta ishlash jarayoni uchun ijobiy faktor sanaladi. Ftorning yuqori miqdori (2,17%) ekologik xavfsizlik va ishlab chiqarish jarayonlarida maxsus chora-tadbirlarni talab qiladi. Erimaydigan qoldiq miqdori (2,14%) fosforitlarning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ta'sir qiluvchi qo'shimcha omildir.



1-rasm. Aznek koni fosforitining kimyoviy taxlili.

Aznek fosforiti uchun rentgen difraktogramma taxlil natijalari shuni ko'rsatdiki boshlang'ich fosforitida (1-jadval) fosfor asosan apatit ($Ca_5(PO_4)_3OH$, $Ca_5(PO_4)_3F$) va trikalsiy fosfat ($Ca_3(PO_4)_2$) shaklida mavjud bo'lib, ularning eng muhim piklari 31.44° (d = 2.84 Å, I = 15.93), 39.52° (d = 2.28 Å, I = 152.43), 43.30° (d = 2.09 Å, I = 136.44), 48.60° (d = 1.87 Å, I = 144.02) va 57.58° (d = 1.60 Å, I = 57.10) atrofida qayd etilgan. 29.45° (d = 3.03 Å, I = 1000) pigi ham yuqori intensivlikka ega bo'lib, bu pik kalsit ($CaCO_3$) bilan birga fosfatlarning mavjudligini tasdiqlaydi. 25.9° (d = 3.44 Å) pigi aniq qayd etilmagan yoki zaif bo'lib, bu fosfat miqdorining nisbatan kamligini ko'rsatadi. Shuningdek, fosforit tarkibida karbonatlar bilan bog'langan holda karbonat-apatit ($Ca_{10}(PO_4)_6CO_3$) shaklida uchrashi mumkin, bu esa kalsit va fosfat piklarining birga kelishi bilan tasdiqlanadi. Umuman olganda, fosfor kalsiy bilan mustahkam bog'langan bo'lib, fosforit jinsining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

1-jadval.

Aznek fosforiti uchun rentgen difraktogramma natijalari

№	2θ (gradus)	d (Å)	Mumkin bo'lgan fazalar
1	23.12°	3.8437	Kalsit ($CaCO_3$)
2	29.45°	3.0302	Kalsit ($CaCO_3$), Apatit ($Ca_5(PO_4)_3OH$)
3	31.44°	2.8431	Apatit ($Ca_5(PO_4)_3OH$), Trikalsiy fosfat ($Ca_3(PO_4)_2$)
4	36.10°	2.4861	Magniy-kalsit ($Ca_{0.94}Mg_{0.06}CO_3$), Silikatlar (SiO_2)
5	39.52°	2.2782	Kalsit ($CaCO_3$), Fosfat aralashmasi
6	43.30°	2.0878	Temir oksidlari (Fe_2O_3), Apatit ($Ca_5(PO_4)_3F$)
7	47.54°	1.9111	Kalsit ($CaCO_3$), Temir va kremniy qotishmalari
8	48.60°	1.8718	Apatit ($Ca_5(PO_4)_3OH$), Trikalsiy fosfat ($Ca_3(PO_4)_2$)
9	56.76°	1.6207	Fosfat va kremniy silikati (Ca-Si)
10	57.58°	1.5995	Apatit ($Ca_5(PO_4)_3OH$), Fosfat aralashmasi
11	60.88°	1.5204	Alyuminiy oksidlari (Al_2O_3)
12	63.22°	1.4696	Kremniy va alyuminiy aralashmasi
13	64.88°	1.4360	Magniy-kalsit ($Ca_{0.94}Mg_{0.06}CO_3$), Kremniy oksidlari (SiO_2)
14	65.61°	1.4217	Kalsit ($CaCO_3$)
15	69.34°	1.3541	Fosfat ehtimoli bor
16	70.32°	1.3376	Fosfat va kalsit aralashmasi
17	73.04°	1.2943	Temir va alyuminiy qotishmalari

18	76.58°	1.2432	Fosfat va alyuminiy oksidlari
19	77.23°	1.2343	Fosfat va karbonat aralashmasi

Nitrat kislotasi bilan ishlov berilgan Aznek fosforitida rentgen difraktogramma taxlil natijalariga ko‘ra, monokalsiy fosfat ($Ca(H_2PO_4)_2$) uchun standart XRD piklari bilan solishtirilganda 26.616° (d = 3.346 Å, I = 80) va 30.150° (d = 2.96 Å, I = 16) piklari ushbu birikma mavjudligini tasdiqlashi mumkin, ammo 5.890° (d = 14.99 Å) va 6.300° (d = 14.02 Å) piklari juda zaif bo‘lib, $Ca(H_2PO_4)_2$ uchun aniq dalil bo‘la olmaydi. Shu bilan birga, dikalsiy fosfat ($CaHPO_4$) fazasiga tegishli 26.616° (d = 3.346 Å, I = 80) va 34.136° (d = 2.624 Å, I = 44) piklari ushbu moddaning tarkibda mavjudligini ko‘rsatmoqda, biroq 10.830° (d = 8.16 Å, I = 14) pigi standart piklardan biroz uzoq bo‘lgani sababli, uning miqdori kam yoki fazaviy o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lishi mumkin. Kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$) uchun esa 22.800° (d = 3.89 Å, I = 22) va 23.044° (d = 3.85 Å, I = 42) piklari ushbu modda bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, shuningdek, 29.398° (d = 3.035 Å, I = 378) pigi kalsit va fosfatlar bilan bog‘liq ekanligi ehtimoldan yiroq emas. Umuman olganda, tahlil natijalari kislotali ishlov berilgan fosforitda $Ca(H_2PO_4)_2$, $CaHPO_4$ va $Ca(NO_3)_2$ birikmalarining mavjudligini tasdiqlaydi, biroq ularning aniq tarkibiy ulushini baholash uchun qo‘shimcha spektroskopik yoki ximiyaviy tahlil talab etiladi.

2-jadval.

Rentgen difraktometriya (XRD) natijalari – Nitrat kislotasi bilan ishlangan Aznyak fosforiti

T/r	2θ (gradus)	d (Å)	Fazalar
1	10.25	8.63	Dikalsiy fosfat ($CaHPO_4$)
2	15.78	5.61	Monokalsiy fosfat ($Ca(H_2PO_4)_2$)
3	20.34	4.36	Kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$)
4	22.800	3.89	Kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$)
5	23.044	3.85	Kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$)
6	26.60	3.35	Monokalsiy fosfat ($Ca(H_2PO_4)_2$)
7	26.616	3.346	Monokalsiy fosfat ($Ca(H_2PO_4)_2$), Dikalsiy fosfat ($CaHPO_4$)
8	29.398	3.035	Kalsit ($CaCO_3$), Fosfat birikmalari
9	30.150	2.96	Monokalsiy fosfat ($Ca(H_2PO_4)_2$)
10	30.30	2.95	Dikalsiy fosfat ($CaHPO_4$)
11	32.001	2.794	Trikalsiy fosfat ($Ca_3(PO_4)_2$)
12	34.10	2.63	Kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$)
13	34.136	2.624	Dikalsiy fosfat ($CaHPO_4$)
14	36.571	2.455	Kremniy (SiO_2), silikatlar
15	39.52	2.28	Qoldiq kalsiy karbonat ($CaCO_3$)
16	39.880	2.259	Trikalsiy fosfat ($Ca_3(PO_4)_2$)
17	43.177	2.093	Gematit (Fe_2O_3), Temir oksidlari
18	47.54	1.91	Fosfat va nitrat aralashmasi
19	50.60	1.81	Fosforitning modifikatsiyalangan shakli

Aznek fosforiti va Aznek fosforitini nitrat kislotasi bilan ishlov berilgan namuna natijalarini qiyoslab, ularning rentgen difraktometriya (XRD) farqlarini tahlil qilish natijalari (2-jadval) boshlang‘ich namuna tarkibidagi karbonatlar ($CaCO_3$, $MgCa(CO_3)_2$) parchalanib, ularning 29.45° (d = 3.03 Å), 39.52° (d = 2.28 Å), 47.54° (d = 1.91 Å) piklaridagi intensivligi pasaygan yoki yo‘qolgan, bu esa kalsiyning nitrat kislotasi bilan reaksiyaga kirishganini ko‘rsatadi. Apatit ($Ca_5(PO_4)_3OH$, $Ca_5(PO_4)_3F$) fazasi zaiflashgan, ammo dikalsiy fosfat ($CaHPO_4$) va monokalsiy fosfat ($Ca(H_2PO_4)_2$) fazalari paydo bo‘lgani 26.6° (d = 3.34 Å), 30.3° (d = 2.96 Å) va 34.1° (d = 2.62 Å) piklarining kuchaygani bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, yangi kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$) fazasi hosil bo‘lib, 22.8° (d = 3.89 Å), 23.0° (d = 3.85 Å) va 29.4° (d = 3.04 Å) piklarida kuchli intensivlik ko‘rsatgan. Kremniy (SiO_2) va temir (Fe) birikmalari nitrat kislotasi ta’sirida o‘zgarmagani, ularning kislotali muhitga chidamli ekanligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, kislota bilan ishlov berish natijasida karbonatlar yo‘qolib, kalsiy va fosfor qayta taqsimlanib, yangi fosfat va nitrat birikmalari hosil bo‘lgan, bu esa kislotali qayta ishlash jarayonidagi qayta kristalllanishni tasdiqlaydi.

3-jadval.

Aznek fosforiti uchun va uni nitrat kislotasi bilan ishlov berilgan namuna natijalarini qiyoslab, ularning rentgen difraktometriya (XRD) farqlarini tahlili

№	Mineral/Birikma	Birinchi namuna (Aznek fosforiti)	Ikkinchi namuna (Nitrat kislotasi bilan ishlangan fosforit)

1	Kalsit ($CaCO_3$)	Kuchli piklar (29.45°, 39.52°, 47.54°)	Intensivlik pasaygan yoki yo‘qolgan
2	Apatit ($Ca_5(PO_4)_3OH$, $Ca_5(PO_4)_3F$)	31.44°, 39.52°, 43.30° piklari bor	Ayrim piklar zaiflashgan yoki siljishlar bor
3	Kremniy (SiO_2)	36.10°, 64.88° piklari bor	Kremniy birikmalari saqlangan
4	Temir oksidlari (Fe_2O_3, Fe_3O_4)	43.30°, 47.54° piklari bor	Temir qotishmalarida katta o‘zgarish yo‘q
5	Karbonatlar ($CaCO_3$, $MgCa(CO_3)_2$)	Karbonatlar miqdori yuqori	Intensivlik pasaygan, ko‘p qismi parchalangan
6	Monokalsiy fosfat ($Ca(H_2PO_4)_2$)	Yo‘q yoki juda kam	Yangi kuchli piklar paydo bo‘lgan (26.5° va 30.3°)
7	Dikalsiy fosfat ($CaHPO_4$)	Kam miqdorda	Yangidan shakllangan, 26.6° va 34.1° piklari kuchaygan
8	Kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$)	Yo‘q	Yangi kuchli piklar (22.8°, 23.0°, 29.4°)

Xulosa

Nitrat kislotasi bilan ishlov berilmagan Aznek fosforiti tarkibida asosan kalsiy karbonat ($CaCO_3$), apatit ($Ca_5(PO_4)_3OH$, $Ca_5(PO_4)_3F$) va turli mineral birikmalar mavjud bo‘lib, bu jinsdagi fosfor o‘simliklar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri oson o‘zlashtirilmaydi. Fosfor asosan erimaydigan fosfatlar shaklida bo‘lgani uchun uning agronomik qiymati past hisoblanadi. Shu sababli, bu kabi tabiiy fosforitlardan o‘g‘it sifatida foydalanish samarasiz yoki juda sekin ta’sir qiladigan jarayon hisoblanadi.

Nitrat kislotasi bilan ishlangan Aznek fosforiti tahlili shuni ko‘rsatdiki, kislotali ishlov berish natijasida kalsiy karbonat ($CaCO_3$) parchalanib, mono- va dikalsiy fosfatlar ($Ca(H_2PO_4)_2$, $CaHPO_4$) hamda kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$) hosil bo‘ldi. Bu jarayon fosfatlarning suvda eruvchanligini oshirib, ularni o‘simliklar uchun ancha oson o‘zlashtiriladigan shaklga aylantirdi. Shuningdek, hosil bo‘lgan kalsiy nitrat ($Ca(NO_3)_2$) qo‘shimcha ravishda nitratli o‘g‘it sifatida ham ishlatilishi mumkin, chunki u o‘simliklarning o‘sishini qo‘llab-quvvatlovchi kalsiy va nitrat manbaiga aylanadi.

Shuning uchun, nitrat kislotasi bilan ishlov berilgan Aznek fosforiti qishloq xo‘jaligida yuqori samarali fosforli o‘g‘it sifatida ishlatilishi mumkin. Bu jarayon sanoatda monoammoniy fosfat, diammoniy fosfat va superfosfat ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu tariqa, kislota bilan ishlov berish natijasida karbonatlar parchalanib, kalsiy va fosfor qayta taqsimlanib, yangi fosfat va nitrat birikmalari hosil bo‘ladi, bu esa uning agronomik qiymatini oshiradi va hosildorlikni yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sыchyov V. G. Mineralnыye udobreniya v selskom xozyaystve Rossii: potrebnost i realnost //Rossiyskiy ximicheskiy jurnal. – 2005. – T. 49. – №. 3. – S. 11-14.

2. Sushenisa B. A., Adrianov S. N., Kapranov V. N. Fosfor v sisteme mirovogo i otechestvennogo proizvodstva //Plodorodiye. – 2006. – №. 5. – S. 29-31.

3. Saydaxmedov X. M., Mamadaliyeva E. R. Osenka vliyaniya ispolzovaniya mineralno-sыryevыx resursov na ekonomicheskiy rost regionov //Ekonomika: analizы i prognozы. – 2021. – №. 3. – S. 58-63.

4. Cullity, B. D., & Stock, S. R. Elements of X-ray Diffraction. 3rd ed. Pearson, 2001. – 664 p.

5. Klug, H. P., & Alexander, L. E. X-ray Diffraction Procedures for Polycrystalline and Amorphous Materials. 2nd ed. Wiley, 1974. – 992 p.

6. Pecharsky, V. K., & Zavalij, P. Y. Fundamentals of Powder Diffraction and Structural Characterization of Materials. 2nd ed. Springer, 2009. – 713 p.

7. Brindley, G. W., & Brown, G. Crystal Structures of Clay Minerals and Their X-ray Identification. Mineralogical Society, 1980. – 495 p.

8. Dinnebier, R. E., & Billinge, S. J. L. Powder Diffraction: Theory and Practice. Royal Society of Chemistry, 2008. – 604 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Тошпулатова Дилдора Хайдаркуловна
Преподователь Джизакский Педагогический университет
Наркулов Сайдулла Каримович
Преподователь Джизакский Политехнический институт

КПД ФОТОЭЛЕМЕНТОВ ПРИ РАЗЛИЧНЫХ МОЩНОСТЯХ НАГРУЗКИ

Аннотация: *Проведены теортетические расчеты мощности и коэффициента полезного действия солнечных электростанций и ее элементов, позволяющая учитывать изменение нагрузки в течение суток и тем самым точно определять требуемую емкость аккумуляторной батареи.*

Ключевые слова: *солнечный модуль, солнечная электростанция, автономная солнечная электростанция, импульсный преобразователь постоянного напряжения, автономный инвертор напряжения.*

Tashpulatova Dildora Xaydarqulovna
Jizzax Davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi
Norkulov Saydulla Karimovich
Jizzax Politexnika instituti, o'qituvchi

TURLI QUVVATLARDAGI FOTOELEMENTLARNING FOYDALI ISH KOEFFITSIENTINI

Annotatsiya:*Quyosh elektr stansiyalari va ularning elementlarining quvvati hamda foydali ish koeffitsiyentini nazariy hisoblash ishlari amalga oshirildi. Bu yondashuv kun davomida yuklama o'zgarishini hisobga olish imkonini beradi va natijada akkumulyator batareyasining zarur sig'imini aniq aniqlash imkonini yaratadi.*

Kalit so'zlar:*quyosh moduli, quyosh elektr stansiyasi, avtonom quyosh elektr stansiyasi, doimiy kuchlanishli impulsli o'zgartirgich, avtonom kuchlanish inverteri.*

Tashpulatova Dildora Khaydarqulovna
Teacher Jizzakh State Pedagogical Universitite
Norkulov Saydulla Karimovich
Teacher Jizzakh Polytechnic Institute

ENERGY EFFICIENCY OF PHOTOELEMENTS AT DFFERENT POWER SETS

Abstract:*Theoretical calculations of the power and efficiency of solar power plants and their components have been carried out. This approach takes into account load variations throughout the day, allowing for the accurate determination of the required battery capacity.*

Keywords: *solar module, solar power plant, standalone solar power system, DC-DC pulse converter, standalone voltage inverter.*

Введение

Солнечная электроэнергетика относится к восстанавливаемым источникам энергии и обладает практически безграничным потенциалом для использования с точки зрения затрачиваемых ресурсов. Она являетя одной из экологически безопасных источников энергии, который не загрязняет окружающую среду. Сегодня отрасль солнечной энергетики переживает стремительный рост, по всему миру активно исследуются возможности увеличения КПД солнечных батарей. При этом актуальной задачей является проблема повышения коэффициента полезного действия (КПД) солнечной батарейки. Известно, что КПД солнечных батарей зависит от используемого в них материала. Более 95% солнечных панелей работают на кремниевых полупроводниках, которые обеспечивают КПД на уровне 15 − 25 % [1]. Например, КПД солнечных панелей на основе перовскита составляет 12 % [2], а для тонких пленок на основе теллурида кадмия КПД достигает 22 % [3]. Важными факторами, определяющими величину КПД являются уровень инсоляции в регионе установки, азимут и угол наклона солнечных батарей [4]. В данной работе проведены теортетические расчеты мощности и

коэффициента полезного действия солнечных электростанций и ее элементов, позволяющая учитывать изменение нагрузки в течение суток и тем самым точно определять требуемую емкость аккумуляторной батареи.

Основные результаты и их обсуждения

Как мы знаем, что в практике применяется два основных режима использования фотоэлементов - непрерывный и периодический. Расчет энергетической эффективности фотоэлементов для этих режимов производится по разным методикам. Так, для оценки эффективности в непрерывном режиме используется показатель КПД. В периодическом же режиме показатель КПД не отражает картину потребления энергии. В непрерывном режиме работы фотоэлемент постоянно работает на нагрузку. Мощность этой нагрузки может изменяться во времени. Оценим влияние КПД фотоэлементов на длительность их работы. Тогда для мощности нагрузки и длительности работы имеем следующие формулы

$$P = \eta \cdot P_i$$

$$T = \eta \cdot \frac{E}{P}.$$

где P - мощность загрузки; P_i потребляемая от аккумулятора мощность; E - доступная энергия акумулятора; T – длительность работы нагрузки; η - показатель КПД.




Рис. № 1. Электрическая схема модели

Видно, что время длительности работы нагрузки пропорционально КПД. Так, если в идеальном случае при η =100% время автономной работы составляет 10 часов, то при реальном значении КПД 80% время работы уменьшается на 20% и составит 8 часов. Для того, чтобы оценивать эффективность работы фотоэлемента нам нужно знать показатель КПД при произвольной мощности нагрузки. Рассмотрим теперь, предлагаемую линейную энергетическую модель фотоэлемента. Модель можно отобразить в виде электрической схемы, приведенной на Рис. 1. Суть схемы заключается в том, что от источника электрической энергии имеется нагрузка, отображаемая сопротивлением R_n. Присутствующие на схеме сопротивления R_s и R_p моделируют потери энергии. R_p моделирует потери холостого хода, а R_s - потери за счет вносимого последовательного сопротивления. Типовой график этой зависимости приведен на Рис.2.




Рис. № 2. График зависимости КПД от выходной мощности.

Рассмотрим работу фотоэлемента в области больших и малых мощностей более подробно Для упрощения расчетов рассмотрим эти случаи как отдельные режимы.

1.Область малых мощностей

В области малых мощностей влияние потерь в последовательном сопротивлении R_s незначительно. Основные потери связаны с параллельным сопротивлением R_p. Соответственно для данного случая можно упростить модель, исключив сопротивление R_s. Рассчитаем эффективность работы фотоэлемента для данного случая

$$\eta = \frac{P}{P_i} = \frac{P}{P + P_p}$$

где P_p- мощность потерь в сопротивлении R_p. Таким образом, если принять порог эффективности 80%, то, подставляя его в формулу, получим значение мощности P_{min}, при котором достигается такой КПД

$$\frac{P_{min}}{P_{min} + P_p} = 0.8\%$$

2.Область больщих мощностей

В диапазоне же больших мощностей мощность потерь P_p становится незначительной по сравнению с выходной, поэтому данный вид потерь можно не учитывать и исключить R_p из схемы. Тогда в качестве источника потерь остается лишь сопротивление R_s. Аналогичные расчеты показывают, что в этом случае для КПД нагрузки имеем следующее выражение

$$\eta = \frac{P}{P_i} = \frac{P}{P + P_s} = \frac{R_n}{R_n + R_s}$$

Общая мощность нагрузки при этом

$$P = \frac{E^2}{R_s}\eta(1-\eta).$$

где P_s - мощность потерь в сопротивлении R_s. Последнее выражение описывает параболу, повернутую на 90° в системе координат. Также как и в предыдущем случае с результатами моделирования, график имеет две ветви. Интересующая нас верхняя ветвь графика является спадающей, то есть КПД падает с увеличением выходной мощности. Аналогично с предыдущими расчетами можно подставить

пороговый КПД, для получения значения мощности P_{max}, при которой КПД равен 80%

$$P = 0.16 \cdot \frac{E^2}{R_s}.$$

Однако часто нет необходимости производить математические расчеты для определения диапазона эффективной работы фотоэлемента в области больших мощностей, потому что фотоэлемент в данной ситуации достаточно эффективен. Во многих случаях КПД фотоэлемента определяется номинальной мощностью. А работать длительно на мощности более чем номинальная фотоэлемент не способен, поэтому указанный КПД на номинальной мощности будет минимальным, особенно в области больших мощностей. Поэтому если указанный КПД больше, чем пороговый, то фотоэлемент заведомо эффективен. Исходя из проведенного анализа для данных двух граничных режимов, построен аналитический график зависимости КПД от выходной мощности, приведенный на Рис.3.




Рис. №3. Аналитический график зависимости КПД от выходной мощности.

На графике сплошной линией изображена верхняя ветвь зависимости КПД от выходной мощности для модели, приведенной на Рис.1. Пунктирными же линиями изображены упрощенные зависимости для областей малой и большой мощности. Можно отметить, что как раз в этих областях пунктирные и сплошная линия сходятся, то есть упрощенные модели достаточно точно отображают исходную [5,6].

Заключение

Таким образом, в данной работе проведены теортетические расчеты мощности и коэффициента полезного действия солнечных электростанций и ее элементов, позволяющая учитывать изменение нагрузки в течение суток и тем самым точно определять требуемую емкость аккумуляторной батареи. Исходя из полученных результатов, можно отметить, что фотоэлемент способен работать эффективно в некотором диапазоне выходной мощности, ограниченном и снизу и сверху. Причем обычно сверху диапазон выходной мощности ограничен не падением КПД ниже порога, а величиной номинальной мощности. Поэтому в дальнейшем в качестве P_{max} можно использовать номинальную мощность фотоэлемента P_n. Этот диапазон мощностей является важной характеристикой фотоэлемента и показывает, какой мощности можно подключать нагрузку, чтобы оставаться в области эффективной работы фотоэлемента.

Литература

1. Михеев Г.М. Электростанции и электрические сети. Диагностика и контроль электрооборудования. Г.М. Михеев. М.: ИД «XXI Век», 2010. 224 с.

2. Аронова Е.С., Охоткин Г.П., Теруков Е.И., Шварц М.З. Особенности работы тонкопленочных солнечных модулей на основе кремния. Изд-во Ч, 2011. С. 222-224.

3. Охоткин Г.П., Серебрянников А.В. Основные принципы построения автономных солнечных электростанций. Современные проблемы науки и образования. 2012.

4. Солнечная инсоляция – справочные. Альтернативная энергетика, 2018.

5. Н.А. Тайланов. Расчет энергетических параметров автономной солнечной электростанции в Арнасайском районе. Узбекский Физический Журнал, Том 20, №1, 2018.

6. Н.А. Тайланов. Вычисление энергетических параметров солнечной электростанции. Международная научная конференция. «Роль женщин в современной науке и технике» 12-14 апреля 2017 г., Узбекистан, Джизакский Политехнический Институт, Джизак, Узбекистан.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Sharipov San'at Shuhrat o'g'li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
E-mail:element_2993@mail.ru

UO'K 622.765.3

SULFID MA'DANLARINING BAKTERIAL OKSIDLASHDA KAMYOB YER ELEMENTLARINI BIRGALIKDA AJRATISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishning asosiy maqsadi KYEni ishlab chiqish imkoniyatlarni baholash va birgalikda ajratib olish texnologiyasini yartishdir. Tadqiqot materiallari sulfidli ma'danlarni bakterial oksidlanish texnologik zanjirning 5 nuqtasidan olingan turli xil namunalar (klassifikatorning yuqori oqish nuqtasi, flotokonsentratni quyuqlashtirgichdan, qarama-qarshi dekantatsiya yuvich bosqichi-1, yuvish bosqichi-3, sianilash chiqindilari ajratish nuqtasi). KYEni olish imkoniyatlarini asoslash maqsadida ekstraktsiya usuli o'rganildi. Ekstrakgent sifatida D2EGFK ishlatilgan. Ekstraktsiya natijalari shuni ko'rsatdiki, yengil va og'ir KYE ekstraktsiya qilinadi. Tahlillar asosida temirni ammiak suvi bilan cho'ktirish va KYEni olish imkonini beradigan texnologik sxema taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *Kamyob yer elementlari (KYE), sulfid ma'danlari, fosforit ma'danlari, flotokonsentrat, qattiq faza, suyuq faza, qarama-qarshi oqim dekantatsiyasi.*

Шарипов Санъат Шухрат угли
Доцент Навоийского государственного горно-технологического университета

ВОЗМОЖНОСТИ ПОПУТНОГО ИЗВЛЕЧЕНИЯ РЗЭ ПРИ БАКТЕРИАЛЬНОМ ОКИСЛЕНИИ СУЛЬФИДНЫХ РУД

Abstract. *This study investigates the potential of obtaining water-soluble phosphate compounds through the processing of Aznek phosphorite with an organic reagent - oxalic acid. Phosphorite samples were treated and then separated into solid and liquid phases, followed by FTIR spectroscopic analysis. The spectral results confirmed the formation of agronomically valuable phosphate salts such as monocalcium phosphate and dicalcium phosphate. The residual solid contained primarily silicate-based and low-solubility metal compounds. The findings demonstrate the viability of using organic acids for the production of phosphorus fertilizers.*

Keywords: *Aznek phosphorite, oxalic acid, IR spectroscopy, phosphate salts, agronomic efficiency, organic processing.*

Kirish. Fosforning tabiiy manbalari - ya'ni fosforitlardan oqilona va samarali foydalanish butun dunyodagi oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy sababi

shundaki, qazib olinayotgan fosforit zaxiralarining katta qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qishloq xo‘jaligi ekinlariga mineral o‘g‘it sifatida qo‘llaniladi va ularning hosildorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Dunyo miqyosida ko‘plab dehqonchilik yerlarida fosfor besh oksidining biologik faol shaklda mavjud bo‘lishi yetarli emas. Shu bois, fosforli o‘g‘itlarni qo‘llash qishloq xo‘jaligi amaliyotida asosiy agrotexnik chora-tadbirlardan biri sifatida qo‘llaniladi. Biroq, jaxonda mavjud fosforit konlarining ko‘p qismida uchraydigan namunalar tarkibidagi fosfor besh oksidining faollikka ega bo‘lmagan rudalar shaklida bo‘ladi. Bunday rudalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri dehqonchilikda o‘g‘it sifatida qo‘llanilganda, fosforning o‘simlik tomonidan o‘zlashtirilishi juda past bo‘ladi va ular samarali fosfor manbai sifatida ishlatishga mos kelmaydi [1].

Shu sababli, fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish jarayonida fosforitlar asosan yuqori tarkibidagi fosfor besh oksidining o‘zlashuvchan shaklga o‘tishi mineral kislotalar, ayniqsa sulfat (H_2SO_4) kislotasi bilan kimyoviy ishlov berishga juda katta bog‘liqdir. Bu jarayonda fosforit tarkibidagi fosfor besh oksidining o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladigan shaklga aylantirishni ta’minlaydi. Biroq, so‘nggi yillarda yuqori sifatli, ya’ni tarkibida faol fosfor besh oksidi bo‘lgan fosforit konlarining zaxiralari tobora kamayib borayotgani kuzatilmoqda. Shu bilan birga, qazib olish ishlari, mineralni tozalash, qayta ishlash hamda uni logistika orqali iste’molchiga yetkazish bilan bog‘liq xarajatlar izchil ravishda oshib bormoqda. Bu esa o‘g‘itlarni ishlab chiqarish tan narxining o‘sishiga olib kelmoqda [2].

Qolaversa, ayrim xalqaro tahlilga ko‘ra, kelgusi 100 yil ichida yuqori sifatli fosforit konlari to‘liq tugashi ehtimoli mavjud. Shu sababli, fosforitni qayta ishlash jarayonida xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan innovasion yondashuvlar fosforli o‘g‘itlar sanoatida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ayniqsa, bunday texnologiyalar kam xarajatlikka ega past sifatli fosforit rudalarini iqtisodiy va texnologik jihatdan maqbul tarzda qayta ishlash imkonini bersa, bu fosforit zaxiralaridan kengroq va samarali foydalanishga, ularning umumiy foydali xizmat muddatini uzaytirishga hamda hozirda chiqindilarga kiritilayotgan mineral rudalarni qayta ishlash jarayoniga jalb qilishga sharoit yaratadi[3].

Fosfatlarni parchalab tarkibidagi fosfor besh oksidining o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladigan shaklga o‘tkazuvchi mikroorganizmlar (PSM – Phosphate-Solubilizing Microorganisms) fosforitlarni biotexnologik yo‘l bilan qayta ishlashning zamonaviy va istiqbolli texnologiyalar sifatida keng muhokama qilinmoqda. Bu mikroorganizmlar tabiiy holda kam eruvchan bo‘lgan fosfat minerallari tarkibidagi fosfor besh oksidining o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladigan shaklga o‘tish qobiliyatiga ega bo‘lib, ularning faoliyati mineral yuzasiga ta’sir etuvchi organik kislotalarni hosil qilishi orqali amalga oshadi. Bu kislotalar minerallarni parchalab, fosforit tarkibidagi fosfor besh oksidining o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirishga tayyor holdagi shaklga aylantiradi [4].

Shuningdek, mikroorganizmlar chiqaradigan organik kislotalar mineral tarkibidagi metall kationlari (Ca^{2+}, Fe^{3+}, Mg^{2+} va boshqalar) bilan barqaror kompleks birikmalar hosil qilib, fosfat anionining (PO_4^{3-}) muhitga ajralib chiqishiga ko‘maklashadi. Bu jarayon fosforit tarkibidagi fosfor besh oksidining o‘simlik tomonidan singdiriladigan shaklda mavjud bo‘lishiga asos yaratadi.

Fosfatlarni parchalovchi mikroorganizmlar keng turdagi organik kislotalarni ishlab chiqaradi. Ular qatoriga sitrat, glyukonat, itakonat, malat va ayniqsa shavel kislotasi (oksal kislotasi) kiradi. Bu kislotalar har xil funksional guruhlarga va kislotalik darajalariga ega bo‘lib, ularning mineral bilan o‘zaro ta’siri turlicha bo‘ladi.

Ushbu kislotalarning minerallarni parchashdagi samaradorligi avvalo ularning molekulyar-strukturaviy xususiyatlariga (masalan, karboksil va gidroksil guruhlarining soni va joylashuvi, kislotaning dissosiatsiya konstantalari) bog‘liq. Shuningdek, ularning faolligi mineral muhit sharoiti – ya’ni metall ionlarining konsentratsiyasi, hamda muhitning kislotalik darajasi (rN) kabi omillar bilan ham belgilanadi[5].

Fosforitlar tarkibidagi asosiy mineral modda — apatit [$Ca_5(PO_4)_3(OH,F,Cl)$] hisoblanadi. Ammo ushbu mineralning kimyoviy tarkibi va mineralogik tuzilishi fosforitning geologik kelib chiqishiga, ya’ni qanday shakllanganiga qarab turlicha bo‘ladi. Fosforitlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati, boshqacha aytganda, faolligi, apatit kristallining fosfat ionlari (PO_4^{3-})ning karbonat ionlari (CO_3^{2-}) bilan izomorf almashinuv darajasiga bog‘liq. Bu almashinuv apatit kristallining yaxlitligini zaiflashtiradi va uning kislotalar bilan ta’sirlashishiga moyilligini oshiradi[6].

Mineralogik farqlar organik kislotalar bilan olib boriladigan fosforni parchalash reaksiyasining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki kislotalarning ruda bilan ta’sirlanish qobiliyati ruda tarkibidagi kimyoviy elementlar bilan belgilanadi. Ayrim tarkibiy moddalar kislotaning faolligini kamaytirishi yoki aksincha, reaksiyani tezlashtirishi mumkin.

Shuningdek, fosforitlarni parchalashda organik kislotalar muhim vosita sifatida ishtirok etsada, bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada rivojlanmagan. Mavjud bo‘lgan kam sonli ishlarda organik kislotalar qo‘llangan bo‘lsada, ularning konsentratsiyasi past darajada bo‘lgan. Bu esa fosforning to‘liq parchalashiga to‘sqinlik qilgan va har bir kislotaning potensialini baholash imkoniyatini cheklagan. Shuningdek, natijalar asosida aniq matematik modellar tuzish va ularni keng miqyosda umumlashtirish imkoni ham cheklangan[7].

Bundan tashqari, fosforitlarni parchalash qobiliyatiga ega bo‘lgan glyukonat va itakonat kabi kislotalari bilan fosforitlarni parchalashga bog‘liq tadqiqotlarda qayd etilgan bo‘lsada, mavjud ba’zi ilmiy

ishlar doirasida ular tahlilga jalb qilinmagan. Aslida, bu organik kislotalarning salohiyatini to‘liq baholash fosforitlarning qayta ishlash jarayonlarini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega [8].

Turli geologik manbaalardan olingan va bir-biridan farq qiluvchi mineralogik tuzilishiga ega fosforit namunalariga nisbatan aniq organik kislotalarning parchalash samaradorligini aniqlash, ular orqali fosforitlarni qayta ishlashning texnologik usullarini takomillashtirish va eruvchanligi yuqori bo‘lgan fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biridir.

Shu sababli, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — fosfatlarni parchalashda ishtirok etuvchi organik kislotalar ta’sirida fosforitlarning eruvchanligini baholashdan iborat bo‘ldi. Bu maqsadda fosforitlarni parchalash jarayonida organik kislotalarni ta’sirini maq’bul imkonini o‘rganiladi.


Tadqiqot usuli

Tadqiqot ob’yekti sifatida Navoiy viloyatida joylashgan Aznek kon zonasidan olingan fosforit namunasi tanlandi. Namuna quritilgandan so‘ng, 0,25 mm li donachalar hajmigacha maydalanib, tahlil uchun gomogen holatga keltirildi. Tajribada texnik tozalikdagi oksal kislotasi ($H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$) ishlatildi. 10 g fosforit namunasi 100 ml 0,5 M oksal kislotasi eritmasi bilan 1 soat davomida 60°C haroratda shisha idishda magnit aralashtirgich yordamida reaksiyaga kiritildi. Reaksiyadan so‘ng suspenziya vakuum filtratsiya usulida ishlov berilib, suyuq va qattiq fazaga ajratildi. Olingan cho‘kma suvda yuvilib, 90°C da quritildi va keyinchalik tahlil uchun saqlandi.

Barcha namunalar (boshlang‘ich fosforit, ishlov berilgan fosforit va filtratsiyadan keyingi erimagan qattiq qoldiq) FTIR (Fourier Transform Infrared Spectroscopy) usuli orqali tahlil qilindi. Tahlil Nicolet 6700 FTIR spektrometrida 4000–400 sm^{-1} diapazonda, KBr tabletka usulida olib borildi. Har bir spektr 32 ta skan orqali o‘rtacha olindi, spektral ma’lumotlar fosfat, karbonat, silikat va metall tuzlariga xos tebranish piklarini aniqlashda foydalanildi. Olingan spektrlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri solishtirma tahlil qilish orqali baholandi. Asosiy piklarining joylashuvi va intensivligi fosfor va boshqa komponentlarning strukturasidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini berdi. Qo‘llanilgan usullar asosida fosforning yeruvchan tuzlar shaklida ajralishi va qoldiqda qaysi komponentlar saqlangani aniqlandi [9-10].

Tahlil natijalari va muhokama

Aznek koni fosforiti tarkibidagi asosiy kimyoviy moddalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda kalsiy oksidi (CaO) miqdori eng yuqori bo‘lib, 44,78% ni tashkil etadi, bu esa fosfatli o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun muhim resurs sanaladi. Fosfor besh oksidi (P_2O_5) miqdori 23,39% bo‘lib, fosfor manbai sifatida uning agrokimyoviy qiymati yuqori ekanini ko‘rsatadi. Karbonatlar (CO_2) 13,58% ni tashkil etib, kalsiy karbonat va shunga o‘xshash birikmalar tarkibida mavjud. Kremniy dioksidi (SiO_2) miqdori 9,14% bo‘lib, inert modda sifatida reaktiv faollikni pasaytirishi mumkin.




1.rasm. Aznek fosforit namunasining IQ spektroskopik taxlili.

Alyuminiy oksidi (Al_2O_3) – 2,31%, magniy oksidi (MgO) – 1,78%, va temir(III) oksidi (Fe_2O_3) – 0,71% miqdorda bo‘lib, ular yordamchi minerallar sifatida qayd etilgan. Shuningdek, tarkibida 2,17% ftor (F) va 2,14% erimas qoldiq mavjud bo‘lib, ular fosforit strukturasi bilan bog‘liq. Ushbu natijalar Aznek fosforitini fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo sifatida baholashga asos yaratadi.


Aznek fosforit namunasining IQ spektroskopik taxlili (1-rasm) natijalari ko‘rsatdiki namunasida fosfat (PO_4^{3-}) ionlariga oid 1055 sm^{-1} va 929 sm^{-1} atrofidagi piklar juda aniq va intensiv bo‘lib, bu namunada fosfat strukturasi yaxshi saqlanganligini ko‘rsatadi. Karbonot guruhlari (CO_3^{2-}) 1482 va 1448 sm^{-1} da aniqlanib, kalsiy karbonat yoki apatit strukturasida izomorf almashinuvlarning mavjudligidan dalolat beradi. 3531

sm^{-1} atrofidagi keng pik esa gidroksil guruhlari yoki namlik ishtirokini bildiradi. 490–410 sm^{-1} orasidagi piklar esa metall-kislorod bog‘lari, xususan Ca–O va Fe–O strukturalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.



2.rasm. Aznek fosforitining oksalat kislotasi bilan ishlov berilgan namunasining IQ spektroskopik taxlili.

Aznek fosforitining oksal kislotasi bilan ishlov berilgan namunasining IQ-spektroskopik tahlili natijalari (2-rasm), unda fosforning eruvchan tuzlari hosil bo‘lganini ko‘rsatadi. 1170–1201 sm^{-1} va 1045–1080 sm^{-1} atrofidagi piklar fosfat ionlarining simmetrik va asimmetrik tebranishlariga to‘g‘ri kelib, monokalsiyfosfat ($Ca(H_2PO_4)_2 \cdot H_2O$) yoki dikalsiyfosfat ($CaHPO_4 \cdot 2H_2O$) kabi eruvchan fosfat tuzlarining hosil bo‘lganini anglatadi. 900–600 sm^{-1} orasida kuzatilgan piklar fosfor va metall ionlari (Mg, Ca) o‘rtasidagi bog‘lanishlar natijasidagi tebranishlarga to‘g‘ri kelib, metall-fosfat birikmalarining mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, 1385 va 1470 sm^{-1} dagi piklar oksal kislotasining C=O va C–O tebranishlariga mos kelib, CaC_2O_4 kabi metall-oksalat tuzlarining hosil bo‘lganidan dalolat beradi. Ushbu ma’lumotlar umumiy holda fosforitning oksal kislotasi ta’sirida yemiralib, fosforni eruvchan va agronomik jihatdan foydali tuzlar shaklida ajralib chiqishi jarayoni muvaffaqiyatli kechganini tasdiqlaydi.



3.rasm. Aznek fosforitining oksalat kislotasi bilan ishlov berilgandan so‘ng erimagan qoldiq namunasining IQ spektroskopik taxlili.

Aznek fosforitining oksalat kislotasi bilan ishlov berilganidan so‘nggi filtratsiyada ajratib olingan erimagan qattiq qoldiqning IQ-spektroskopik tahlili (3-rasm) shuni ko‘rsatdiki, qoldiq tarkibida asosan kremniyli birikmalar — ya’ni Si–O–Si va Si–O–Al bog‘lanishlariga xos 1000–1100 sm^{-1} va 460–500 sm^{-1} oralig‘idagi piklar orqali amorf silikatlar, kvars yoki gidrosilikatlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, 600–700 sm^{-1} atrofidagi tebranishlar metall–kislorod (Mg–O, Ca–O, Fe–O) bog‘lariga xos bo‘lib, kam yeruvchi metall oksid yoki silikati tuzlarining qolganini anglatadi. 850–900 sm^{-1} va 1400 sm^{-1} piklari esa ba’zi oksal kislotasi bilan to‘liq reaksiyaga kirishmagan metall oksalatlar (Fe, Mg, Ca tuzlari) saqlanganini ko‘rsatadi. Bu natijalar fosforit tarkibidagi faolsiz silikat va metall komponentlari oksal kislotasi ta’sirida ham erimasdan, qoldiqda saqlanib qolganini tasdiqlaydi.

Xulosa.

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, Aznek fosforiti o‘z tarkibida yuqori miqdorda kalsiy oksidi

(44,78%) va fosfor besh oksidi (23,39%) saqlagan holda, fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun istiqbolli xomashyo hisoblanadi. IQ-spektroskopik tahlillar fosforit tarkibidagi fosfat ionlarining (1055 va 929 sm^{-1}), karbonat guruhlarining (1482 va 1448 sm^{-1}), hamda gidroksil va metall–kislorod bog‘larining aniq piklari orqali fosforit strukturasining murakkab va minerallashgan tabiatini ko‘rsatadi.

Oksal kislotasi bilan ishlov berilgan namunaning spektral tahlilida fosforning yerkin va eruvchan shaklga o‘tgani aniqlandi. Xususan, 1170–1045 sm^{-1} diapazonidagi piklar monokalsiyfosfat va dikalsiyfosfat kabi agronomik jihatdan foydali fosfat tuzlarining hosil bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, oksal kislotasi bilan metall ionlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar tufayli metall-oksalat tuzlarining shakllanishi ham qayd etilgan. Bu jarayon fosforni yuqori samara bilan yeruvchan holatga o‘tkazish imkonini yaratadi.

Filtratsiyadan so‘nggi erimagan qattiq qoldiq tarkibining spektroskopik tahlilida asosan kremniyli birikmalar (Si–O–Si, Si–O–Al) va kam yeruvchi metall oksidlar (MgO, CaO, Fe_2O_3) saqlangani aniqlandi. Bu holat faol reaksiya jarayonidan so‘ng ham silikatli va metall komponentlarning bir qismi reaksiyaga kirishmasdan qolganini anglatadi.

Umuman olganda, olib borilgan kimyoviy va spektroskopik tahlillar Aznek fosforitining oksal kislotasi bilan ishlov berish orqali fosforni agronomik faol shaklga o‘tkazish mumkinligini va ushbu jarayon fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun samarali yo‘l ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliveira Mendes, G., Murta, H. M., Valadares, R. V., Da Silveira, W. B., Da Silva, I. R., & Costa, M. D. (2020). Oxalic acid is more efficient than sulfuric acid for rock phosphate solubilization. Minerals Engineering, 155, 106458.
2. Кирьянов, А. О., Правдин, Н. Н., & Петров, Н. В. (2017). Разложение вятско-камского фосфорита в присутствии карбоновых кислот. Известия Санкт-Петербургского государственного технологического института (технического университета), (39 (65)), 49-52.
3. Carmo, T. S., Moreira, F. S., Cabral, B. V., Dantas, R. C., de Resende, M. M., Cardoso, V. L., & Ribeiro, E. J. (2019). Phosphorus recovery from phosphate rocks using phosphate-solubilizing bacteria. Geomicrobiology Journal, 36(3), 195-203.
4. Сушеница, Б. А. (2009). Роль карбоновых кислот в мобилизации фосфора из труднорастворимых соединений почвы. Агрохимия, (7), 5-10.
5. Bhatti, T. M., & Yawar, W. (2010). Bacterial solubilization of phosphorus from phosphate rock containing sulfur-mud. Hydrometallurgy, 103(1-4), 54-59.
6. Vassilev, N., & Vassileva, M. (2003). Biotechnological solubilization of rock phosphate on media containing agro-industrial wastes. Applied Microbiology and Biotechnology, 61, 435-440.
7. Жиглецова, С. К., Дунайцев, И. А., & Бесаева, С. Г. (2010). Возможности применения микроорганизмов для решения задач экологической и продовольственной безопасности. Агрохимия, (6), 83-96.
8. Amarasinghe, T., Madhusha, C., Munaweera, I., & Kottegoda, N. (2022). Review on mechanisms of phosphate solubilization in rock phosphate fertilizer. Communications in Soil Science and Plant Analysis, 53(8), 944-960.
9. Socrates, G. (2004). Infrared and Raman characteristic group frequencies: tables and charts. John Wiley & Sons.
10. Larkin, P. (2017). Infrared and Raman spectroscopy: principles and spectral interpretation. Elsevier.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Bahodirov Husen Quvondiq o'g'li
Biofizika va biokimyo instituti
Yigitaliyeva Mavjuda Shavkat qizi
Universitet of Business and Science
Bo'ronboyeva Ruxshona Soxibjon qizi
Universitet of Business and Science
Ikromov Sirojiddin Abdulvoxid o'g'li
University of Business and Science
E-mail: odinayigitaliyeva1@gmail.com

UDK: 575.131.3

EKSPERIMENTAL GEPATIT SHAROITIDA KALAMUSH QON ZARDOBIDA T_3, VA T_4 GORMONI MIQDORINI ANIQLASH O'SIMLIKLARIDAN OLINGAN GOSSIPOL HOSILALARI BILAN KORREKSIYALASH.

Annotatsiya: *Qalqonsimon bez endokrin bezlar orasida eng muhim funksiyalarni bajaruvchi gormonlar ishlab chiqaradigan va shu orqali organizm metabolizmini boshqaradigan bez hisoblanadi [1]. Qalqonsimon bez funksiyasi gipofiz bezining tireotrop gormoni orqali boshqarilib, uning faoliyati ham o'z navbatida gipotalamusning tireotrop-rilizing gormoni tomonidan boshqariladi. Tireotrop gormoni qalqonsimon bezdan 7% triyodtironin va 93% tiroksin gormoni ajralishida katta ahamiyatga ega [2]. Qalqonsimon bez gormonlari boshqaruvi muvozanati buzilganda, turli xildagi qalqonsimon bez disfunksiyalari yuz beradi.*

Kalit so'zlar: *Toksik gepatit, metabolism, gossypol, qalqansimon bez, teriod garmon, T_3, T_4.*

Баҳодиров Ҳусен Қувондиқ уғли
Институт биофизики и биохимии
Йигиталиева Мавжуда Шавкат қизи
Институт биофизики и биохимии
Бўронбоева Рухшона Сохибжон қизи
Институт биофизики и биохимии
Икромов Сирожиддин Абдулвохид уғли
University of Business and Science

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ГОРМОНОВ Т3 И Т4 В СЫВОРОТКЕ КРОВИ КРЫС В УСЛОВИЯХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ГЕПАТИТА. КОРРЕКЦИЯ С ПОМОЩЬЮ РАСТИТЕЛЬНЫХ ПРОИЗВОДНЫХ ГОССИПОЛА.

Аннотация*: Щитовидная железа считается одной из важнейших эндокринных желез, секретирующей гормоны, выполняющие важнейшие функции и тем самым контролирующие обмен веществ в организме [1]. Функция щитовидной железы контролируется тиреолиберином гипофиза, который, в свою очередь, контролируется тиреолиберином гипоталамуса. Тиреолиберин необходим для секреции 7% трийодтиронина и 93% тироксина из щитовидной железы [2]. При нарушении баланса выработки гормонов щитовидной железы возникают различные нарушения функции щитовидной железы.*

Ключевые слова: *Токсический гепатит, метаболизм, госсипол, щитовидная железа, тиреоидные гормоны, Т3, Т4.*

Bakhodirov Khusen Kuvondik ugli
Institute of Biophysics and Biochemistry
Yigitalieva Mavdjuda Shavkat kizi
Institute of Biophysics and Biochemistry
Buranbaeva Ruxshona Soxibjon kizi
Institute of Biophysics and Biochemistry
Ikromov Sirodjiddin Abdulvokhid ugli

University of Business and Science

DETERMINATION OF T3 AND T4 HORMONE CONTENT IN RAT BLOOD SERUM UNDER EXPERIMENTAL HEPATITIS CONDITIONS. CORRECTION WITH PLANT-DERIVATIVES OF GOSSYPOL.

***Abstract**: The thyroid gland is considered one of the most important endocrine glands, secreting hormones that perform essential functions and thereby control metabolism in the body [1]. Thyroid function is controlled by pituitary thyrotropin-releasing hormone, which in turn is controlled by hypothalamic thyrotropin-releasing hormone. Thyrotropin-releasing hormone is necessary for the secretion of 7% of triiodothyronine and 93% of thyroxine from the thyroid gland [2]. When the balance of thyroid hormone production is disturbed, various thyroid dysfunctions occur.*

***Key words:** Toxic hepatitis, metabolism, gossypol, thyroid gland, thyroid hormones, T3, T4.*

Kirish


Gepatit – jigar to‘qimalarining turli etiologik faktorlarga bog‘liq yallig‘lanishidir. Gepatitning hujayraviy va molekulyar mexanizmlari to‘g‘risidagi fundamental bilimlar, patologik jarayon mohiyatini tushunish uchun zarur hisoblanadi, chunki bu bilan kasallik diagnostikasi va davolanishini takomillashtirishga yordam berishi mumkin. Tireoid gormonlarning miqdori oshishi yoki kamayishiga ko‘ra, qalqonsimon bez kasalliklari shartli ravishda ikki asosiy guruhga bo‘linadi, gepatit va gipertireoz [3].

Organizmda gepatitning kelib chiqishi tireoid gormonlar miqdorining kamayishi bilan tavsiflanadi. Mazkur tadqiqotda har bir tajribadan so‘ng qonda qalqonsimon bez gormonlari miqdori aniqlandi. Unga ko‘ra, 1-guruh nazorat guruhi (n=5) kalamushlarga nisbatan tajriba guruhidagi hayvonlar (n=5) qonida T_3 gormoni miqdori 18,2% ga, T_4 gormoni miqdori esa, 9,5% ga kamaydi. Shundan keyin qolgan tajriba guruhlari qaytadan 4 ta guruhlarga bo‘lindi (n=5) va ularga X-1 S.M.K(1:9) va X-2 S.M.K(1:15) o‘simliklaridan ajratib olingan polifenol lar berilishi boshlandi. 7 kundan so‘ng X-1 S.M.K(1:9) polifenol i berilgan hayvonlar qonida T_3 miqdori nazorat guruhiga nisbatan 7,1 % ga ($p<0.05$), T_4 miqdori esa, 12,8% ga tiklanganligi aniqlandi ($p<0.05$). X-2 S.M.K(1:15) o‘simligi polifenol i berilganda esa, T_3 miqdori 13% ($p<0.05$) ga, T_4 miqdori esa, 10,8 % gacha tiklanganligi aniqlandi

Biroq, shuni qayd etish lozimki, eksperimentaljigar kasalliklarida aminokislotalar miqdorining o‘zgarishiga doir mavjud ma’lumotlar bir xil emas, balki ayrim xollarda qarama-qarshidir. Bu ehtimol aniqlash usulining xilma-xilligiga: klinik tadqiqotlar holatida tekshirilgan bemorlarning turli xilligi, eksperimental tekshiruvlarda turli gepatoprotektorlar bilan yuzaga keltirilgan eksperimental modellarning turliligiga bog‘liqdir [4,5].

O. Voloshuk va boshqalar ishida surunkali gepatit va jigar sirrozi bilan og‘rigan bemorlardagi oqsil almashinuvi ko‘rsatkichlari tekshirilgan. Bunda erkin aminokislotalar, umumiy oqsil va oqsil fraksiyalari miqdorlari o‘rganilgan. Surunkali gepatit va jigar sirrozida aminokislotalar spektridagi o‘zgarishlar deyarli bir xil bo‘lishi va gepatotsitlar funksiyasidagi muhim buzilishlarni ko‘rsatishi aniqlandi[8].

Gossipol-paxta chigitidan olingan spetsifik pigment (1-rasm). (2,21 -di- 1,6,7-uch gidroksi-3 metil-5 izotropil-8-naftolaldegid)-polifenol birikma XIX asr oxiridan buyon ma’lum. Ixtiro qilinganligiga ancha bo‘lishiga qaramay, bu birikma va uning ko‘plab hosilalari kimyogarlar, biologlar, farmakologlar, tibbiyot xodimlarining diqqat e’tiborini tortib kelmoqda [10].



1-Rasm: Gossipolning srukturaviy formulasi.


Tadqiqot metodi: Eksperimentlar vivariyning standart sharoitlarida saklangan, 200-220 gr vaznga ega 30 ta zotsiz oq erkak kalamushlarda o‘tkazildi. Kalamushlarga so‘yilishidan 1 sutka oldin ovqat berilmasdan faqat suv berildi. O‘tkir CCl_4 gepatit modeli 100g tana vazniga 0.2 ml/kg dozadagi CCl_4 gepatotoksinni (O‘zMU Biofizika va biokimo institutidan olingan) 3 martalik teri ostiga yuborilishi orqali olindi. CCl_4 bilan zaharlanishda jigarda kechadigan patomorfologik o‘zgarish ko‘p jixatdan virusli gepatitlardagi o‘zgarishlarga o‘xshash. Stabillovchi agentlar sifatida O‘zR FA Bioorganik kimyo institutida sintezlangan X-1 S.M.K (1:9) va X-2 S.M.K (1:15)- tabiiy polifenol gossipolning hosilalaridan foydalanildi. Polifenol birikmalar patentlash jaroyonida bo‘lganligi sababli nomi keltirilmagan. X-1 S.M.K (1:9) ga LD_{50} 4500 mg/kg teng, X-2 S.M.K (1:15) ga 5000 mg/kg teng. Eksperimentalgepatit xayvonlarga 7 kun mobaynida X-1 S.M.K (1:9) – 100 gr vaznga 0,75mg, X-2 S.M.K (1:15)- 0,4 mg miqdorda teri ostiga yuborildi.


T4 ni aniqlash raqobatli immunoferment analizini aniqlashga qaratilgan. Planshetning ichida maxsus lunkalar mavjud bo‘lib, har bir lunkalar ichiga T4 ga nisbatan bo‘lgan kalamushning poliklonal antitanasi immobillashgan. Lunkaning yuza qismida biz aniqlamoqchi bo‘lgan T4 namunamiza bilan konyugirlangan T4 bog‘lovchi antitana raqobatga kirishadi.

Buning natijasida o‘zida peroksidaza saqlagan “sendvich” modeli hosil bo‘ladi. Inkubatsion davrida substrat eritma bilan tetrametilbenzidin (TMB) lunkalar o‘rtasida rang hosil bo‘ladi. Rang intensivligi to‘g‘ridan to‘g‘ri T4 konsentratsiyasiga teskari proporsionaldir. T4 konsentratsiyasi kolibrovka namunasidagi optik zichligiga nisbatan aniqlanib, kolibrovka grafigi tuziladi.

Olingan natijalarni statistik qayta ishlash va rasmlarni chizish OriginPro 7.5 (Microsoft, USA) kompyuter dasturi yordamida amalga oshirildi. Nazorat, tajriba va tajriba+ X-1 S.M.K (1:9) tajriba+ X-2 S.M.K (1:15), guruhlaridan olingan qon va jigar gomogenati tarkibidagi ko‘rsatkichlarni aniqlash natijasida qayd qilingan qiymatlar o‘rtasidagi farq t-test bo‘yicha hisoblab chiqildi. Bunda R<0,05 va R<0,01 qiymatlar statistik ishonchlilikni ifodalaydi[12].

Natijalar: Gepatitda qonda T_3 va T_4 fermentlari miqdorining o‘zgarishi va polifenol lar bilan korreksiyalash (I guruh, nazorat, II guruh, tajriba: gepatit, III guruh, gepatit+X-1 S.M.K(1:9) (32 mkg/kg), IV guruh, gepatit+X-2 S.M.K(1:15) (40 mkg/kg); M±m; n=5;) (Izoh: *p<0.05, **p<0.01)





2-rasm: T3 va T4 garmonlar miqdori

Mazkur tajribadan keyin polifenol larning antioksidantlik xususiyatlari davomida gepatit kalamushlarga berilganda qanday natija berishi sinab ko‘rish maqsadida ularga polifenol lar berish davom ettirildi. dan keyingi natijalar quyidagicha bo‘ldi:

X-1 S.M.K (1:9) o‘simligi davomida berilganda T_3 miqdori nazorat guruhiga nisbatan 20 % natija berganligi, T_4 miqdori esa, 10 % ($p<0.05$) gacha ko‘tarilganligi aniqlandi. X-2 S.M.K (1:15) o‘simligi polifenoli davomida qo‘llanilganda esa, T_3 miqdori 15,2 % ($p<0.05$), T_4 miqdori esa 7,3% ($p<0.05$) ga oshganligi aniqlandi (2-rasm)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ивашкин В.Т. Клеточная и молекулярная биология воспаления печени. [Росс. ж-л гастроэнтерол., гепатол., колопроктол. 1998. - №5. - С. 13-18.

2. Подымова С.Д. Проблема хронического гепатита [Клиническая медицина. - 1991.- №6.-С.9-13.

3. Абдуллаев Н.Х., Азимов Р.К., Мухамедов Т.М. Алиментарно- токсические поражения печени - Т.: Медицина, 1987.- 152с.

4. Пальцин А.А. Авторадиографическое изучение синтеза ДНК и РНК в клетках печени у мыши при хронической интоксикации четыреххлористым углеродом. [Бюллетень экспериментальной биологии и медицины- 1992. - №4.-С.34-36.

5. Паевская Л.А Изменение белоксинтезирующей функции печени при хроническом гепатите и ее коррекция.: Дис... канд.биол. наук.-Т.,1988.- 158с.

6. Никитин И.Г., Кузнецов С.А., Строжаков Г.И. Хронический гепатит с нормальным уровнем аланиновой транс-амилазы: интерферонотерапия или активное наблюдение. [[Клиническая медицина. -1998. - №6.- С.41-44.

7. Барам Н.И., Исмаилов А.И. Биологическая активность госсипола и его производных. [Химия природных соединений. -1993. - №3. С.334- 349.

8. Петрачева Т.К., Лагуткин Н.А., Бадаев Ф.А., Барам Н.И., [[Методические проблемы экспериментальной химиотерапии вирусных инфекций. Минск. 1987 -С.164.

9. Georgievskiy V.P., Komissarenko P.F., Dmitruk S.E. Dorivor o‘simliklarning
biologik faol moddalari... - Novosibirsk: Ilm, Sib. kafedra, 1990.- 333 b.

10. Hakberdiev, S. M., Talipov, S. A., Dalimov, D. N., & Ibragimov, B. T. (2013). 2, 2′-Bis {8-[(benzylamino) methylidene]-1, 6-dihydroxy-5-isopropyl-3-methylnaphthalen-7 (8H)-one}. Acta Crystallographica Section E: Structure ReportsOnline, 69(11), o1626-o1627.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Kaxxorova Xolidaxon Raximjon qizi
Andijon davlat universiteti, tayanch doktorant
E-mail: holidakakhorova@gmail.com
Sobirov Ozodbek Tojimatovich
Andijon davlat universiteti, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail: ozodbeksobirov1988@gmail.com
Zakirov Odil Kazimjanovich
Andijon davlat universiteti, katta o‘qituvchi
E-mail: odil19671910@gmail.com
Raximova (Xoshimova) Muxabbat
Andijon davlat universiteti, magistrant
E-mail: raximovamuxabbat@gmail.com
Turg‘unova O‘g‘iloy Shuxratbek qizi
Andijon davlat universiteti, magistrant
E-mail: ogiloyturgunova2@gmail.com

UDK: 595.752.3

ANAPULVINARIA VA *PULVINARIA* AVLODLARI BO‘YICHA ILMIY TADQIQOTLARNING BIBLIOMETRIK TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqola yostiqsimon soxtaqalqondorlar mansub bo‘lgan Anapulvinaria, Pulvinaria avlodlariga oid ilmiy adabiyotlarning bibliometrik tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazalaridan olingan ilmiy maqolalar tahlil qilinib, ushbu avlodlar bo‘yicha ilmiy izlanishlarning rivojlanish dinamikasi, yetakchi mualliflar, nufuzli jurnallar hamda ilmiy hamkorlik tarmog‘i o‘rganildi. Ma’lumotlar Bibliometrix (R paketi) yordamida tahlil qilinib, kalit so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, ilmiy tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlari aniqlab berildi. Olingan natijalar Anapulvinaria, Pulvinaria avlodlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning hozirgi holatini baholash va kelgusidagi izlanishlar uchun yo‘nalish belgilashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Anapulvinaria, Pulvinaria, bibliometrik tahlil, Scopus, Web of Science, Bibliometrix, ilmiy trendlar, tarmoq tahlili.*

Каххорова Халидахон Рахимджон кизи
Андижанский государственный университет, базовый докторант
Собиров Озодбек Тожиматович
Андижанский государственный университет, доктор философии по биологическим наукам, доцент
Закиров Одил Казимджанович
Андижанский государственный университет, старший преподаватель
Рахимова (Хошимова) Мухаббат
Андижанский государственный университет, магистрант
Тургунова Огилой Шухратбек кизи
Андижанский государственный университет, магистрант

БИБЛИОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО РОДАМ *ANAPULVINARIA* И *PULVINARIA*

Аннотация: *Данная статья посвящена библиометрическому анализу научной литературы, относящейся к родам Anapulvinaria, Pulvinaria представляющим ложнощитовок. В работе проанализированы научные статьи, полученные из баз данных Scopus и Web of Science, с целью изучения динамики развития исследований по данным родам, выявления ведущих авторов, авторитетных журналов и научных сетей сотрудничества. Данные были проанализированы с помощью пакета Bibliometrix (R), что позволило установить взаимосвязи между ключевыми словами и определить приоритетные направления научных исследований. Полученные результаты позволяют оценить текущее состояние исследований по родам Anapulvinaria, Pulvinaria и определить вектор для дальнейших научных изысканий.*

Ключевые слова: *Anapulvinaria, Pulvinaria, библиометрический анализ, Scopus, Web of Science, Bibliometrix, научные тренды, сетевой анализ.*

Kakhorova Halidahon Rahimjon kizi
Andijan State University, basic doctoral student
Sobirov Ozodbek Tojimatovich
Andijan State University, PhD in Biological Sciences, Associate Professor
Zakirov Odil Kazimjanovich
Andijan State University, senior lecturer
Rakhimova (Khoshimova) Mukhabbat
Andijan State University, master's student
Turgunova Ogiloy Shukhratbek kizi
Andijan State University, master's student

BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH ON THE GENERA ANAPULVINARIA AND PULVINARIA

Annotation: *This article is dedicated to the bibliometric analysis of scientific literature related to the genera Anapulvinaria, Pulvinaria which belong to the soft scale insects. Scientific articles retrieved from the Scopus and Web of Science databases were analyzed to study the development dynamics of research on these genera, identify leading authors, prominent journals, and scientific collaboration networks. The data were analyzed using the Bibliometrix package (R), highlighting the relationships between keywords and identifying the main directions of scientific research. The results serve to assess the current state of research on the Anapulvinaria, Pulvinaria genera and guide future investigations.*

Keywords: *Anapulvinaria, Pulvinaria, bibliometric analysis, Scopus, Web of Science, Bibliometrix, scientific trends, network analysis.*

Kirish

Hozirgi kunda dunyo faunasida Coccidae oilasiga mansub 180 ta avlod va 1241 ta tur fanga ma’lum. Ushbu oilaga kiruvchi yostiqsimon qalqondorlar asosan *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlarini o‘z ichiga oladi. *Anapulvinaria* avlodidan faqat bitta tur – *Anapulvinaria pistaciae* aniqlangan bo‘lsa, *Pulvinaria* avlodiga 143 tur kiradi. Bu turlar manzarali va mevali o‘simliklarga, ayniqsa sitrus mevalariga zarar yetkazadi [14].

Yostiqsimon soxtaqalqondorlarning ko‘p turlari keng polifag xususiyatiga ega, ya’ni turli o‘simlik turlari bilan oziqlanadi. Masalan, *Protopulvinaria pyriformis* turi avokadoga zarar keltiruvchi zararkunanda sifatida Isroilda qayd etilgan [22]. Yevropa Ittifoqida EFSA (O‘simliklar salomatligi bo‘yicha Yevropa agentligi) ushbu avlod vakillarini nazorat qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib bormoqda, xususan, *Jasminum polyanthum* o‘simligiga ta’siri o‘rganilmoqda [6-8].

Anapulvinaria va *Pulvinaria* avlodlari dunyo olimlari tomonidan keng o‘rganilmoqda. Ushbu sohadagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazalaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ma’lumot manbai va adabiyotlarnni kiritish mezonlari.

2025-yil 25-mart holatiga ko‘ra, Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazalaridan “*Anapulvinaria, Pulvinaria*” avlodlarini kalit so‘zlari bo‘yicha qidiruv amalga oshirildi. Dastlabki izlanish natijalariga ko‘ra, Scopus bazasida 195 ta, Web of Science bazasida esa 142 ta maqola aniqlandi. Keyingi bosqichda tanlab olish mezonlariga javob beradigan maqolalar saralandi. Natijada Scopus bazasidan 165 ta, Web of Science bazasidan esa 138 ta maqola ochiq kirish imkoniyati tufayli tahlil uchun qabul qilindi. Maqolalar R dasturidagi Bibliometrix paketidan foydalanilgan holda avtomatik aniqlanib, bibliometrik tahlilga jalb qilindi. Ma’lumotlar Scopus bazasidan scopus.csv, Web of Science bazasidan esa savedrecs.bib formatida yuklab olindi. Tahlil jarayonida takroriy yozuvlar va mavzuga aloqador bo‘lmagan maqolalar chiqarib tashlandi. Tanlov jarayonining barcha bosqichlarida tadqiqot mavzusi sifatida “*Anapulvinaria, Pulvinaria*” atamalari belgilangan bo‘lib, ma’lumotlar 2025-yil 25-mart kuni yuklab olindi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish

Bibliometrik tahlil R dasturidagi Bibliometrix (4.1.3-versiya) kutubxonasi yordamida amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida mualliflar tomonidan berilgan kalit so‘zlar asosida ularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi tarmoq xaritasi tuzildi. Ushbu xarita klaster tahlili asosida shakllantirilib, kalit so‘zlarning turli maqolalarda birgalikda uchrashuv chastotasi inobatga olindi. Kalit so‘zlar o‘rtasidagi aloqadorlikka qarab avtomatik tarzda guruhlash amalga oshirildi hamda natijalar vizual ko‘rinishda tasvirlandi.

Tahlil va natijalar


Scopus ma’lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga oid ilmiy adabiyotlarning tahlili

Scopus ma'lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga oid 195 ta ilmiy maqola chop etilgan. Ularning 165 tasi ochiq kirish imkoniyatiga ega. Bibliometrix vositasidan foydalanib, 183 olim tomonidan yozilgan ushbu maqolalar va 109 ta kalit so'z tahlil qilindi. Tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatdi.

Scopus ma'lumotlar bazasidagi nashrlar tendensatsiyasi

Scopus ma'lumotlar bazasida yostiqsimon soxtaqalqondor – *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlarira oid tadqiqotlar 1652 yildan boshlangan bo'lib, bu davrda faqat bitta maqolada ushbu avlod haqida ma'lumotlar keltirilgandi [48].

Keyingi asrlarda, xususan, 1920 yilgacha ushbu mavzu bo'yicha izlanishlar deyarli to'xtab qolgan. 1921-yildan e'tiboran tadqiqotlar qayta jonlana boshlagan va 1981 yilga kelib 5 ta maqola chop etilgan. 1997-yilda Y.Ben-Dov va C.J.Hodgson muallifligidagi "Soft Scale Insects: Their Biology, Natural Enemies and Control" kitobda ushbu avlodlarga doir 51 ta maqola mavjudligi mazkur yo'nalishga qiziqish ortganini ko'rsatadi [5]. So'nggi yillarda, ya'ni 2020-2024 yillarda, *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga bag'ishlangan maqolalar soni ko'payib, 2020 va 2024 yillarda 7-8 taga yetgani ushbu tendensiyaning isbotidir (1-rasm).



1-rasm. Scopus'da *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* nashr dinamikasi, 1920–2025.

Jurnallar kesimida nashrlar chop etilishi

Scopus ma'lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlari bo'yicha 10 ta yetakchi jurnal o'rganildi. Ushbu ro'yxatda birinchi o'rinni 1997 yilda Elsevier nashriyoti tomonidan chop etilgan "Soft Scale Insects their Biology, Natural Enemies and Control" kitobi egallaydi, unda mavzuga doir 51 ta maqola qamrab olingan bo'lib, bu uni boshqa nashrlardan ajratib turadi. Jurnallar orasida esa "ZooKeys" birinchi o'rinda turadi, uning kvartili Q1 bo'lib, ushbu jurnalda 7 ta maqola nashr qilingan. Uchinchi o'rinda "Transactions of the British Mycological Society" (kvartil Q2) joylashgan bo'lib, unda 6 ta maqola chop etilgan (1-jadval).

1-jadval

Scopus'da *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* jurnallarda o'rganilishi

№	Manba nomi	Maqolalar soni	Kvartil (Q)
1	Soft Scale Insects Their Biology, Natural Enemies And Control	51	-
2	Zookeys	7	Q1
3	Transactions Of The British Mycological Society	6	Q2
4	Journal Of Asia-Pacific Entomology	5	
5	Protist	5	
6	Mycological Research	4	
7	Biological Control	3	
8	Biology Of Insect Eggs	3	
9	Crop Protection	3	
10	Handbook Of Biological Control	3	

Olimlar tomonidan o'rganilishi

Scopus ma'lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlari bo'yicha eng ko'p maqola nashr etgan 10 ta yetakchi olim aniqlandi. Isroillik koksidolog Y.Ben-Dov ushbu ro'yxatda birinchi o'rinni egallaydi, uning Scopus ma'lumotlar bazasida 6 ta maqolasi mavjud bo'lib, ushbu bazasida umumiy 64 ta maqolasi koksidologiyaga bag'ishlangan. Ishga oid 1083 ta maqolalardan 944 tasida iqtiboslar tegishli bo'lib, h-indeksi 15 ni ko'rsatadi. U F. Kozár bilan hamkorlikda 1997 yilda "World Crop Pests" nashrida chop etilgan "Zoogeographical considerations and status of knowledge of the family" maqolasida Coccidae oilasining 10 ta zoogeografik mintaqada tarqalishi, xususan, "*Pulvinaria vitis*" turining ekologiyasi va biologiyasi haqida muhim ma'lumotlar keltirgan [27].

Ikkinchi o'rinda isroillik olimlar E. Swirski va M. Wysoki joylashgan bo'lib, ularning 5 ta maqolasi Scopus jurnallarida nashr qilingan [35, 37].

Ularning umumiy 37 ta maqolasi hasharotlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, 511 ta iqtibosga ega, h-indeksi esa 15 ni ko'rsatadi. Ular 1985 yilda "Hassadeh" jurnalida chop etilgan maqolada Isroilda avokado o'simligida ilk bor aniqlangan "*Protopulvinaria pyriformis*" turini tasvirlab, uni mintaqa uchun yangi tur sifatida qayd etgan [35-38].

Buyuk Britaniyalik koksidolog C.J. Hodgson'ning Scopus ma'lumotlar bazasida 106 ta maqolasi mavjud bo'lib, ular 1601 ta iqtibosga ega va uning h-indeksi 20 ni tashkil qiladi. U *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlarining filogeniyasi va biologiyasini o'rganishda muhim hissa qo'shgan olimlardan biridir. U D. R. Miller bilan hamkorlikda 1997 yilda "Soft Scale Insects: Their Biology, Natural Enemies and Control" kitobida nashr etilgan "Phylogeny" maqolasida ushbu avlodlarning evolyutsiyasi va biologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan [20, 21, 32].

Avstraliyalik olim M. P. Kosztarab "Ornamental and House Plants" nomli maqolasida (Soft Scale Insects: Their Biology, Natural Enemies and Control kitobida nashr

etilgan) Pulvinaria avlodiga mansub turlardan “P. citricola”, “P. urbicola” va “P. vitis” turlarini manzarali va mevali o‘simliklarda aniqlagan. U ushbu turlarning biologiyasi va entomofaglari (foydali organizmlar) ni chuqur o‘rgangan. Fransiyalik olim I. Foldi esa “International Journal of Insect Morphology and Embryology” jurnalida 1997 yilda nashr qilingan “Fine Structure of Wax Glands, Wax Morphology and Function in the Female Scale Insect, Pulvinaria regalis Canard (Hemiptera: Coccidae)” maqolasida “Pulvinaria regalis” turining mum bezlari tuzilishi va mum morfologiyasini tahlil qilib, ushbu sohada muhim natijalarga erishgan (2-rasm) [23-26].

Fransiyalik olim Imre Foldi 27 ta maqola muallifi bo‘lib, uning h-indeksi 11 ni tashkil etadi. Uning ishlariga 397 ta maqolada 281 marta iqtibos keltirilgan. Foldi asosan koksidlarning anatomiyasi, xususan, ovqat hazm qilish tizimiga oid tadqiqotlar bilan shug‘ullangan. Ushbu tadqiqotlar soha uchun muhim ma’lumotlarni taqdim etadi [12, 13].

Kaliforniyalik olim R. Gill qalqondorlarning biologiyasi, xususan, Pulvinaria citricola turi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [15, 16].

Buyuk Britaniyalik olim D.J. Greathead qalqondorlar oilasining biologiyasi, ekologiyasi va entomofaglari, shuningdek, *Pulvinaria* avlodiga mansub *Pulvinaria aurantii, P. obitsuensis* va *P. peregrina* turlarining bioekologik xususiyatlarini o‘rgangan [18, 19].

Olimlarning ishlari tahlili asosida Scopus ma’lumotlar bazasida ularning iqtiboslar soni ham o‘rganildi. Iqtiboslar soni bo‘yicha Kaliforniyalik olim Franz Engelmann yetakchilik qiladi. Uning ikki monografiyasida Coccidae oilasi va yostiqsimon soxtaqalqondorlarga doir muhim ma’lumotlar keltirilgan [49, 50].


Ikkinchi o‘rinda Y.Ben-Dov 9432 iqtibos bilan, uchinchi o‘rinda esa E. Swirski va M. Wysoki 7860 iqtibos bilan joylashgan (2-jadval).

2-jadval

Scopus’da *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodi turlarini olimlar tomonidan o‘rganilishi

Olimlar	Mansublik	Jami nashrlar (TP)	Jami iqtiboslar (TC)
Ben-Dov Y.	Isroil, Bet-Dagan, Qishloq xo‘jaligi tadqiqot tashkiloti	6	9432
Swirski E.	Isroil, Qishloq xo‘jaligi tadqiqot tashkiloti	5	7860
Wysoki M.	Isroil, Entomologiya bo‘limi, Vulkan markazi, Bet-Dagan	5	7860
Hodgson C.J.	Buyuk Britaniya, Kardiff Uels muzeyi	3	4716
Kosztarab M.	Avstraliya Milliy universiteti	3	4716
Engelmann F.	AQSh, Kaliforniya universiteti, Los-Andjeles, Zoologiya	2	1,496,614
Foldi I.	Fransiya, Parij, Milliy tabiat tarixi muzeyi	2	3144
Gill R.J.	AQSh, Kaliforniya qishloq xo‘jaligi departamenti, Sakramento	2	3144
Greathead D.J.	Buyuk Britaniya, Uollingford, CABI	2	3144
Marotta S.	Italiya, Potensa, Bazilikata universiteti	2	3144

Izox: TP-chop etilgan maqolalar soni, TC-iqtiboslar soni




2-rasm. Scopus’da *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlarini olimlar tomonidan o‘rganilishi


Kalit so‘zlar tahlili

Scopus ma’lumotlar bazasidagi 165 ta maqolada Coccidae oilasining morfologik, biologik, ekologik va molekulyar-genetik jihatlari, shuningdek, ularga asoslanib, yostiqsimon so‘xtaqalqondorlar o‘rganilgan. Ushbu maqolalarda 109 ta kalit so‘z aniqlanib, ular Bibliometrix dasturining 'Thematic Map' qismida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, kalit so‘zlar to‘rt guruhga bo‘lindi: vertikal o‘q (Y o‘qi) tadqiqotning rivojlanish darajasini, gorizontal o‘q (X o‘qi) esa mavzularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.


Mavzuga doir eng ko‘p o‘rganilgan kalit so‘zlar qatoriga “parasitoids” (5), “biological control” (5), “coccoidea” (4), “insects” (4), “integrated pest management” (4), “pests” (4) va “scale insects” (4) kiradi, bu ushbu so‘zlarning dolzarbligi va tadqiqotda ustunligini ko‘rsatadi (3-rasm). Ikkinchi guruhda o‘rtacha o‘rganilgan kalit so‘zlar joylashgan: “biological invasions” (3), “phylogeny” (3), “soft scale insects” (3), “evolution” (3) va “taxonomy” (3). Uchinchi guruhda esa hali chuqur o‘rganilmagan kalit so‘zlar, jumladan, “classification”, “invasive species management” va “cultural practices” mavjud bo‘lib, ular kamroq e’tiborga olingan (4-rasm).



3-rasm. Scopus ma'lumotlar bazasida mavzuga oid ko'p o'rganilgan kalit so'zlar



4-rasm. Ikkinchi markazda o'rtacha miqdorda o'ranilgan o'rtalikdagi kalit so'zlar



5-rasm. Scopus ma'lumotlar bazasidagi yostiqsimon soxtaqalqondorlarni o'rganishdagi maqollardagi 109 kalit so'zlarni Thmatic map ko'rinishi

Kalit so'zlar tahlilidan kelib chiqib, hozirgi kunda yostiqsimon so'xtaqalqondorlarning morfologiyasi, biologiyasi va ekologiyasi, ayniqsa ularning entomofaglari va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati dolzarbligi jihatidan ko'proq o'rganilmoqda. Kam e'tibor berilayotgan mavzular qatoriga invaziv turlarni aniqlash, ularga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish va nazorat qilish usullari kiradi.


Scopus ma'lumotlar bazasidagi 165 ta maqolaning yostiqsimon so'xtaqalqondorlarga oid qismlari tahlil qilinganda, 1652 yildan boshlab ushbu mavzuga doir ma'lumotlar mavjud ekanligi aniqlandi. Xususan, 2020–2024 yillarda maqolalar soni sezilarli ko'payib, bu yo'nalishga berilayotgan e'tiborning ortganini ko'rsatadi. Nashrlarning aksariyati "ZooKeys" jurnalida chop etilgan bo'lib, ushbu jurnalda mazkur mavzuga bag'ishlangan maqolalar soni boshqa nashrlardan ustun turadi. Olimlar orasida Y. Ben-Dov maqolalar soni bo'yicha yetakchilik qiladi, kalit so'zlar esa dolzarb muammolarga yo'naltirilganligi bilan aniqlandi.

Web of Science ma'lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga oid ilmiy adabiyotlarning tahlili.

Web of Science ma'lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga doir 142 ta ilmiy maqola mavjud bo'lib, ularda 46 ta davlatdan 779 nafar olim ishtirok etgan va bu maqolalar 40 ta jurnalda chop etilgan. Ushbu 142 ta ma'lumotdan 138 tasi "Bibliometrix" vositasi yordamida tahlil qilindi.

Web of Science ma'lumotlar bazasida nashrlar tendensatsiyasi

Anapulvinaria va *Pulvinaria* avlodlarini o'rganish Web of Science ma'lumotlar bazasida 1960-yillardan boshlangan. So'nggi yillarda, xususan 2020-2024 yillarda, ushbu avlodlarga doir maqolalar soni boshqa davrlarga nisbatan sezilarli darajada ortgan. Buni 2020 va 2024 yillarda maqolalar soni 12 taga yetkani isbotlaydi (6-rasm).



6-rasm. Web of Science ma'lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga oid 1960-2025 yillardagi nashr tendensatsiyasi

Jurnallar kesimida nashrlar chop etilishi

Web of Science ma'lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga oid ilmiy maqolalar nashr qilingan 10 ta asosiy jurnal o'rganildi. Ushbu jurnallar orasida birinchi o'rinni "ZOOTAXA" jurnali egallaydi, uning kvartili Q1 bo'lib, unda 20 ta maqola chop etilgan. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarda "ZooKeys" jurnali turadi, uning kvartili ham Q1 bo'lib, ushbu jurnalda 5 ta maqola nashr qilingan. Shuningdek, "Zeitschrift Fur Pflanzenkrankheiten Und Pflanzenschutz - Journal of Plant Diseases and Protection" jurnalida yostiqsimon soxtaqalqondorlarga doir 4 ta maqola chop etilgan (3-jadval).

3-jadval

Web of Science ma'lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga oid asosiy jurnallar kesimida o'rganish.

№	Jurnal nomi	Maqolalar soni	Kvartil (Q)

1	Zootaxa	20	Q1
2	Zookeys	5	Q1
3	Zeitschrift Fur Pflanzenkrankheiten Und Pflanzenschutz-Journal of Plant Diseases and Protection	4	Q2
4	Bulletin of Entomological Research	3	-
5	Efsa Journal	3	-
6	Entomon	3	-
7	Journal of Insect Conservation	3	-
8	Acta Agriculturae Scandinavica Section B-Soil And Plant Science	2	-
9	Anzeiger Fur Schadlingskunde-Journal of Pest Science	2	-
10	Archives of Phytopathology and Plant Protection	2	-

Olimlar tomonidan o‘rganilishi

Web of Science ma‘lumotlar bazasida *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga doir ko‘p maqolalar nashr qilingan 10 ta asosiy olimlari aniqlandi. Ular orasida Yaponiyalik koksidolog olim Hirotaka Tanaka birinchi o‘rinni egallaydi. Hirotaka Tanaka bugungi kungacha Web of Science ma‘lumotlar bazasida koksidologiyaga oid 118 maqola chop etgan bo‘lib, ular 2132 maqolada 1990 ta iqtibosga ega. Uning h-indeksi 23 ga teng. Ushbu olim *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga doir 7 ta maqola bilan yetakchilik qiladi.

Hirotaka Tanaka “Zootaxa” jurnalida hamkasbi Kamitani Satoshi bilan birgalikda nashr qilgan “Review of the *Pulvinaria* (Hemiptera: Coccomorpha: Coccidae) species of the Ryukyu Islands, Japan” nomli maqolasida Yaponiyada tarqalgan yostiqsimon soxtaqalqondorlarning to‘rt turi (*Pulvinaria* avlodi) Ryukyu orollaridan ma’lum bo‘lgan Targioni Tozzetti (Hemiptera: Coccomorpha: Coccidae) asosida tahlil qilinib, ularning kalitlari ishlab chiqilgan. Maqolada ko‘rib chiqilgan turlarning morfologik belgilari va *P. vitis* (Linnaeus, 1758) turlarining morfologik xususiyatlari jadvali kelgusidagi taksonomik qayta ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan. Shuningdek, barcha to‘rt tur *Pulvinaria* bu mintaqada va jinsning turlari orasida, xususan *P. vitis* bilan bir qancha diagnostik morfologik belgilar bo‘yicha bir-biridan aniq farqlanishi mumkinligi aniqlangan.

Bundan tashqari, Xirotaka Tanaka ushbu bazada yostiqsimon soxtaqalqondorlar turlariga oid yana 6 ta maqola nashr qilgan [39, 40, 41, 42, 43, 44].

Web of Science ma’lumotlar bazasida hasharotlarni o‘rganishga oid 125 ta maqola nashr qilgan germaniyalik olim Sengonca Cetin yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. Uning maqolalari 912 ta iqtibosga ega bo‘lib, ulardan 747 tasi foydalanilgan va h-indeksi 15 ga teng. Uning shogirdi C.Arnold esa h-indeksi 2 bo‘lgan olim sifatida 6 ta maqola nashr qilgan, ularning barchasi yostiqsimon soxtaqalqondorlarga bag‘ishlangan. C.Arnold’ning umumiy 16 ta maqolasidan 11 tasida iqtiboslar keltirilgan bo‘lib, u yostiqsimon soxtaqalqondor turlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy ishlarida ikkinchi o‘rinni egallaydi.

C.Arnold’ning 6 ta maqolasi Web of Science ma’lumotlar bazasida chop etilgan. Xususan, “Observations on the newly imported scale insect *Pulvinaria-regalis* Canard on urban trees in some urban areas of the northern Rheinland” nomli maqolasida Bonn shahrida manzarali o‘simliklar va import qilingan kashtan o‘simligida tarqalgan *Pulvinaria regalis* turining biologiyasi va ekologiyasi o‘rganilgan (4-jadval) [1, 2, 3, 4, 33, 34].

Polshada joylashgan Lyublin hayot universiteti olimlaridan B. Lagovska h-indeksi 7 ga teng bo‘lib, 20 ta maqola muallifidir. Uning maqolalari 152 ta iqtibosga ega bo‘lib, ulardan 18 tasida iqtiboslar keltirilgan. Uning hamkasbi Katarina Golannig h-indeksi 8 ga teng bo‘lib, 27 ta maqola muallifi hisoblanadi. Uning maqolalari 227 ta iqtibosga ega bo‘lib, 191 ta turli maqolada keltirilgan. Katarina Golanning Web of Science ma’lumotlar bazasida 4 ta maqolasi yostiqsimon soxtaqalqondorlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Masalan, B.Lagowskani “The phenology of *Pulvinaria floccifera* Westwood (Hemiptera: Coccomorpha: Coccidae), a new invasive pest on ornamentals outdoors in Poland” nomli maqolada *Pulvinaria floccifera* turi 2009 yil iyunidan 2011 yil oktyabrigacha Markaziy Polshada o‘rganilib, uning filogeniyasi va ekologiyasi tadqiq qilingan [17, 29-31].

Janubiy Koreyadagi Oknava universitetida faoliyat yurituvchi koksidolog Jinyeong Choi h-indeksi 6 ga ega bo‘lib, jami 11 ta maqola muallifidir. Uning maqolalari 103 ta iqtibosga ega bo‘lib, shundan 91 tasida iqtiboslar keltirilgan. Olim Koreyada tarqalgan Pulvinaria avlodiga mansub Pulvinaria hydrangeae Steinweden, 1946 va P. photiniae Kuwana, 1914 turlarining aniqlash kalitlarini o‘rganib chiqqan.

Bundan tashqari, Jinyeong Choi soxtaqalqondorlarning biologiyasi, ekologiyasi va molekulyar genetik jihatlarini tadqiq qilib, Koreyada tarqalgan 18 turini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotlari asosida olim o‘z dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan [9, 10, 28].

Yevropa Komissiyasining O‘simliklik salomatligi bo‘yicha YEFSA (Yevropa Oziq-ovqat xavfsizligi idorasi) komissiyasi a’zolari — Katolik Luven universiteti (UCLouvain) olimlari Bragard Claude Di Serio Francesco, Valensiya Politexnika universitetidan Civera Antonio Vicentlar va Afina qishloq xo‘jaligi universitetidan

Chatzivassiliou Elisavet 2022 yilda olib borgan tadqiqotlarida *Puccinia psidii* zararkunandasining Yevropa Ittifoqidagi o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgandilar. Ushbu tadqiqotlarda *P. psidii* turining dastlab Gavayi orollarida *Psidium* sp. turlarida aniqlangani va ushbu tur bilan bir-biridan farqlanishi ko‘rsatildi. Hozirda bu zararkunanda dunyoning tropik va subtropik mintaqalarida keng tarqalgan polofag tur sifatida tasniflanadi.

Olimlar *P. psidii* turining Isroil davlati va Uganda shahrida tarqalgan, ildizsiz *Jasminum polyanthum* turiga ham jiddiy zarar yetkazishi mumkinligini aniqladilar. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, zararkunandaning biologiyasi va ekologiyasi bo‘yicha 3 ta maqola Web of Science ma’lumotlar bazasida chop etildi (4-jadval, 7-rasm) [6-8].

4-jadval.


Web of Science ma’lumotlar bazasida yostiqsimon soxtaqalqondorlarni o‘rganish bo‘yicha eng faol olimlar

Olimlar	Mansublik	TP (Maqolalar soni)	TC (Iqtiboslar soni)
Tanaka Hirotaka	Yaponiya, Ehime universiteti	7	30
Sengonca C	Germaniya, Bonn Universiteti	6	28
Arnold C	Germaniya, Bonn Universiteti	5	16
Golan Katarzyna	Polsha, Lublin hayot fanlar universiteti	4	12
Lagowska Bozena	Polsha, Lublin hayot fanlar universiteti	4	12
Bragard Claude	Katolik Luven universiteti (UCLouvain)	3	10
Chatzivassiliou Elisavet	Gresiya, Afina qishloq xo‘jaligi universiteti	3	10
Choi Jinyeong	Janubiy Koreya, Seul, Okinava fan va texnologiya instituti magistratura universiteti	3	31
Civera Antonio Vicent	Ispaniya, Valensiya Politexnika universiteti	3	10
Di Serio Francesco	Livan universiteti	3	10

Izox:

TP (Total Publications) — olim tomonidan chop etilgan maqolalar soni.

TC (Total Citations) — ushbu maqolalarga keltirilgan umumiy iqtiboslar soni.



7-rasm. Web of Science ma‘lumotlar bazasida yostiqsimon soxtaqalqondorlarni olimlar tomonidan o‘rganilganligi

Web of Science ma’lumotlar bazasida yostiqsimon soxtaqalqondorlarga (*Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlari) doir 138 ta maqola tahlil qilinganda, ushbu mavzuga oid ma’lumotlar 1950 yildan boshlab mavjud ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda, xususan 2020 va 2024 yillarda, yostiqsimon soxtaqalqondorlarga bag‘ishlangan maqolalar soni sezilarli darajada ko‘paydi, bu esa ushbu sohaga bo‘lgan e’tiborning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ilmiy maqolalarning nashr qilinishida “Zootaxa” jurnali ushbu mavzu bo‘yicha eng ko‘p maqolalar chop etgan nashr sifatida yetakchilik qiladi. Olimlar orasida Xirotaka Tanaka maqolalar soni jihatidan yetakchi o‘rinni egallaydi, kalit so‘zlar esa dolzarb muammolarga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Mazkur bibliometrik tahlil natijalari *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga oid ilmiy izlanishlarning rivojlanish dinamikasi, yetakchi mualliflar, faol jurnallar hamda ilmiy hamkorlik yo‘nalishlarini aniqlashga imkon berdi. Scopus va Web of Science xalqaro ma’lumotlar bazalari asosida o‘tkazilgan tahlil bu avlodlar bo‘yicha ilmiy faollik so‘nggi yillarda oshganini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar tahlili va ilmiy tarmoq vizualizatsiyasi orqali dolzarb mavzular, ya’ni biologik kurash, zararkunandalar monitoringi va ekologik muvozanatga oid tadqiqotlar yetakchi yo‘nalish sifatida ajralib chiqdi. Tahlil natijalari *Anapulvinaria* va *Pulvinaria* avlodlariga oid ilmiy-tadqiqotlarning hozirgi holatini baholash, istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash va kelgusida samarali ilmiy hamkorliklarni yo‘lga qo‘yish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Arnold C., Hamacher J., Nahif A. A. (2004). Occurrence of microsporidia, endosymbionts and viruses in the horse chestnut scale *Pulvinaria regalis* Canard (Homoptera: Coccidae). *Zeitschrift für Pflanzenkrankheiten und Pflanzenschutz, 111*(2), 173–182.

2.Arnold C., Sengonca C. (2000). Die Wollige Napfschildlaus *Pulvinaria regalis* Canard – ein Problem für Strassen- und Alleebaume unserer Stadte? *Mitteilungen der Deutschen Gesellschaft für Allgemeine und Angewandte Entomologie, 12*(1-6), 93–96.

3.Arnold C., Sengonca C. (2001). Use of the fluorescent vital dye Acridinorange as an internal marker to investigate the exact larval stage of parasitation of *Pulvinaria regalis* Canard (Hom., Coccidae) by two parasitic wasps. *Mitteilungen der Deutschen Gesellschaft für Allgemeine und Angewandte Entomologie, 13*(1-6), 121–124.

4.Arnold C., Sengonca C. (2003). Possibilities of biological control of the horse chestnut scale insect, *Pulvinaria regalis* Canard (Homoptera: Coccidae), on ornamental trees by releasing its natural enemies. *Zeitschrift für Pflanzenkrankheiten und Pflanzenschutz, 110*(6), 591–601.

5.Ben-Dov Y., Hodgson C. J., Miller D. R. (1997). Changes and comments on the taxonomy and nomenclature of some taxa in the families Coccidae, Eriococcidae and Pseudococcidae (Homoptera: Coccoidea). *Phytoparasitica, 25*(3), 199–206.

6.Bragard C., Baptista P., Chatzivassiliou E., Di Serio F., Gonthier P., Miret J. A. J., MacLeod A. (2020). Commodity risk assessment of *Jasminum polyanthum* plants from Israel. *EFSA Journal, 18*(8), e06225. https://doi.org/10.2903/j.efsa.2020.6225

7.Bragard C., Baptista P., Chatzivassiliou E., Di Serio F., Gonthier P., Miret J. A. J., MacLeod A. (2022a). Commodity risk assessment of *Jasminum polyanthum* unrooted cuttings from Uganda. *EFSA Journal, 20*(5), e07300. https://doi.org/10.2903/j.efsa.2022.7300

8.Bragard C., Baptista P., Chatzivassiliou E., Di Serio F., Gonthier P., Miret J. A. J., MacLeod A. (2022b). Pest categorisation of *Pulvinaria psidii*. *EFSA Journal, 20*(8), e07526. https://doi.org/10.2903/j.efsa.2022.7526

9.Choi J., Lee S. (2017). Taxonomic review of the tribe Pulvinariini (Hemiptera: Coccidae) in Korea. *Journal of Asia-Pacific Entomology, 20*(1), 89–100. https://doi.org/10.1016/j.aspen.2016.11.006

10. Choi J., Lee S. (2019). Molecular phylogeny of the family Coccidae (Hemiptera, Coccomorpha), with a discussion of their waxy ovisacs. *Systematic Entomology, 45*(2), 396–414. https://doi.org/10.1111/syen.12404

11. Foldi I. (1997a). Fine structure of wax glands, wax morphology and function in the female scale insect, *Pulvinaria regalis* Canard (Hemiptera: Coccidae). International Journal of Insect Morphology and Embryology, 26 (3-4), 173–182.

12. Foldi I. (1997b). Internal anatomy of the adult female. In Y. Ben-Dov C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7A, pp. 73–90). Elsevier.

13. Foldi I. (1997c). Ultrastructure of integumentary glands. In Y. Ben-Dov & C. J. Hodgson (Eds.), *Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control* (Vol. 7A, pp. 91–109). Elsevier.

14. García Morales M., Denno B. D., Miller D. R., Miller G. L., Ben-Dov Y., Hardy N. B. (2016). ScaleNet: A literature-based model of scale insect biology and systematics. *Database, 2016*, bav118. https://doi.org/10.1093/database/bav118

15. Gill R. J. (1997). Citrus. In Y. Ben-Dov, C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7B, pp. 159–170). Elsevier.

16. Gill R.J. (2000). Necrology [John Steinweden]. The Scale, 24(1), 6–7.

17. Golan K, Lagowska B, Goliszek K. (2010). *Pulvinaria floccifera* (Westwood) (Hemiptera: Coccoidea): The invasive species of scale insects in Poland. Progress in Plant Protection, 50(4), 1–4.

18. Greathead D.J. (1997a). Crawler behaviour and dispersal. In Y. Ben-Dov & C. J. Hodgson (Eds.), *Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control* (Vol. 7A, pp. 339–350). Elsevier.

19. Greathead D.J. (1997b). Tea. In Y. Ben-Dov, C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7B, pp. 367–375). Elsevier.

20. Hodgson C.J. (2005). The adult males of Coccoidea (Hemiptera: Sternorrhyncha) known from Greenland. Zootaxa, 907(1), 1–48. https://doi.org/10.11646/zootaxa.907.1.1

21. Hodgson C.J., Henderson R.C. (2000). Coccidae (Insecta: Hemiptera: Coccoidea). Fauna of New Zealand 41. Manaaki Whenua Press.

22. Izhar Y., Swirski E., Wysoki M. (1985). The pyriform scale, *Protopulvinaria pyriformis*, an avocado pest new to Israel. *Hassadeh, 55*(9), 1409.

23. Kosztarab M. P. (1977). Status of scale insects of forest trees – an overview (Homoptera: Coccoidea). *Journal of the New York Entomological Society, 85*(4), 184–185.

24. Kosztarab M. P. (1997a). Deciduous forest trees. In Y. Ben-Dov, C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7B, pp. 287–300). Elsevier.

25. Kosztarab M.P. (1997b). Ornamental and house plants. In Y. Ben-Dov, C.J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7B, pp. 301–315). Elsevier.

26. Kosztarab M.P., Kozár, F. (1983). Introduction of *Anthribus nebulosus* (Coleoptera: Anthribidae) in Virginia for control of scale insects: A review. Virginia Journal of Science, 34(4), 223–236.

27. Kozár F., Ben-Dov Y. (1997). Zoogeographical considerations and status of knowledge of the family. In Y. Ben-Dov & C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7A, pp. 213–228). Elsevier.

28. Kwon G.M., Han M.J., Choi D.R. (2005). Scale insects (Sternorrhyncha) occurring on flowering plants in Korea. Korean Journal of Applied Entomology, 44(1), 51–59.

29. Lagowska B. (1996). *Pulvinaria Targioni-Tozzetti* (Homoptera, Coccidae) in Poland. Wydawnietwo Akademii Rolniczej.

30. Lagowska B., Golan K. (2020). An updated annotated checklist of scale insects (Hemiptera, Sternorrhyncha, Coccomorpha) of Poland. ZooKeys, 918, 65–81. https://doi.org/10.3897/zookeys.918.47792

31. Lagowska B., Golan K., Michalski M. (2018). First record of *Pulvinaria regalis* Canard, 1968 (Hemiptera: Coccomorpha: Coccidae) in Poland. Polish Journal of Entomology, 87(4), 371–378.

32. Miller D.R., Hodgson C.J. (1997). Phylogeny. In Y. Ben-Dov & C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7A, pp. 229–250). Elsevier.

33. Sengonca C., Arnold C. (2003). Development, predation and reproduction by *Exochomus quadri-pustulatus* L. (Coleoptera: Coccinellidae) as predator of *Pulvinaria regalis* Canard (Homoptera: Coccidae) and its coincidence with the prey in the field. Zeitschrift für Pflanzenkrankheiten und Pflanzenschutz, 110(3), 250–262.

34. Sengonca E., Arnold C. (1999). Survey on the distribution of the horse chestnut scale *Pulvinaria regalis* Canard (Hom., Coccidae) in Germany in the years 1996 to 1998. Anzeiger für Schädlingskunde, 72(6), 153–157.

35. Swirski E., Ben-Dov Y., Wysoki M. (1997a). Mango. In Y. Ben-Dov & C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7B, pp. 241–252). Elsevier.

36. Swirski E., Ben-Dov Y., Wysoki M. (1997b). Guava. In Y. Ben-Dov, C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7B, pp. 253–260). Elsevier.

37. Swirski E., Ben-Dov Y., Wysoki M. (1997c). Other subtropical fruit trees. In Y. Ben-Dov & C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7B, pp. 261–270). Elsevier.

38. Swirski E., Wysoki M., Ben-Dov Y. (1997d). Avocado. In Y. Ben-Dov, C. J. Hodgson (Eds.), Soft scale insects: Their biology, natural enemies and control (Vol. 7B, pp. 231–240). Elsevier.

39. Tanaka H. (2008). A new genus of Pulvinariini (Hemiptera, Coccidae) from Japan. Japanese Journal of Systematic Entomology, 14(2), 165–170.

40. Tanaka H. (2012). Redescription of *Takahashia citricola* Kuwana, 1909, and its transfer to the genus *Pulvinaria* Targioni Tozzetti (Coccoidea, Coccidae). ZooKeys, 217, 1–10. https://doi.org/10.3897/zookeys.217.3401

41. Tanaka H. (2015). Redescription of *Pulvinaria nishigaharae* (Kuwana, 1907) (Hemiptera: Coccoidea: Coccidae). Japanese Journal of Systematic Entomology, 21(1), 13–16.

42. Tanaka H. (2020). Redescriptions of three species of *Pulvinaria* (Hemiptera: Coccomorpha: Coccidae) in Japan. Zootaxa, 4779(1), 131–141. https://doi.org/10.11646/zootaxa.4779.1.8

43. Tanaka H., Amano H. (2004). Two new species of *Pulvinaria* (Homoptera, Coccidae) from Japan. Japanese Journal of Systematic Entomology, 10(2), 265–270.

44. Tanaka H., Amano H. (2005). A new species of *Pulvinaria* (Homoptera: Coccidae) and a new locality record of *Pulvinaria neocellulosa*. Entomological Science, 8(1), 79–84. https://doi.org/10.1111/j.1479-8298.2005.00100.x

45. Tanaka H., Amano H. (2007). Redescription of *Pulvinaria floccifera* (Insecta: Hemiptera: Coccidae). Species Diversity, 12(4), 211–215.

46. Tanaka H., Kamitani S. (2020). Review of the *Pulvinaria* (Hemiptera: Coccomorpha: Coccidae) species of the Ryukyu Islands, Japan. *Zootaxa, 4868(3),* 408–422. https://doi.org/10.11646/zootaxa.4868.3.5

47. Williams D.J., Ben-Dov Y. (2009). A review of species names combined with the genus name *Coccus* Linnaeus (Hemiptera: Sternorrhyncha: Coccoidea). Zootaxa, 2285(1), 1–64. https://doi.org/10.11646/zootaxa.2285.1.1

48. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/B9781493303984500614ю

49. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/B9780080155593500061

50. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/B978008015559350005Xк

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Karimjonov Hayotbek Mirodilbek o‘g‘li
Andijon davlat universiteti
Gayibov Ulug‘bek Gapparjanovich
O‘zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Biorganik kimyo instituti
Mutalipov Azizbek Abdullajon o‘g‘li
Andijon davlat universiteti
Zaynabiddinov Anvar Erkinjonovich
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
Isayeva Shohida Yusupjon qizi
Andijon davlat universiteti
hayotbek656@gmail.com

RHUS GLABRA O‘SIMLIGIDAN AJRATIB OLINGAN GIDROLIZLANUVCHI TANINLARNING AORTA PREPARATINING QISQARISHIGA VAZORELAKSANT TA’SIRINI ANIQLASH

Annotatsiya. *Ushbu ishda Rhus glabra o‘simligidan ajratib olingan PS-5 va Plantagen gidrolizlanuvchi taninlarining kalamush aorta silliq muskul hujayralari potentsialga bog‘liq faollashuvchi va retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallariga ta’siri o‘rganildi. Aorta muskul preparatlarining qisqarish faoligi in vitro sharoitda mexanografiya uslubida muskul qisqarish kuchini qayd qiluvchi qurilmada Grass FT–03 mexanotroni (Grass Instrument, AQSh) va signal kuchaytirgich qurilma orqali Endim 621.02 (Rossiya) qurilmasi yordamida o‘rganildi. Olingan natijalar PS-5 ekstrakti qon aylanish sistemasi kasalliklarini davolash va oldini olish uchun kardioprotektiv faollikka ega bo‘lgan yuqori samarali va xavfsiz preparatni olish uchun foydalanish imkonini berishiga xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari turli qon aylanish sistemasi kasalliklarining oldini olish va davolash uchun foydalanishga imkon berishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *aorta silliq muskuli, gidrolizlanuvchi taninlar, PS-5, plantagen, verapamil, fentolamin.*

Karimjonov Hayotbek Mirodilbek oglu
Andijan State University
Gayibov Ulug‘bek Gapparjanovich
Institute of Biorganic Chemistry named after O.S. Sodiqov of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Mutalipov Azizbek Abdullajon oglu
Andijan State University
Zaynabiddinov Anvar Erkinjonovich
Andijan Institute of Economics and Construction
Isayeva Shohida Yusupjon qizi
Andijan State University

DETERMINATION OF THE VASORELEAXANT EFFECT OF HYDROLYZABLE TANNIS FROM RHUS GLABRA ON THE CONTRACTION OF AORTIC PREPARATION

Annotation. *In this work, the effect of PS-5 and Plantagen hydrolyzable tannins isolated from Rhus glabra on potential-dependent activation and receptor-gated Ca2+ channels of rat aortic smooth muscle cells was studied. The contractile activity of aortic muscle preparations was studied in vitro using the mechanography method using a Grass FT–03 mechanotron (Grass Instrument, USA) and an Endim 621.02 (Russia) signal amplifier. The results obtained show that PS-5 extract can be used to obtain a highly effective and safe drug with cardioprotective activity for the treatment and prevention of circulatory system diseases. The results of the study may allow for its use in the prevention and treatment of various circulatory system diseases.*

Keywords*: aortic smooth muscle, hydrolyzable tannins, PS-5, plantagen, verapamil, phentolamine.*

Karimjonov Hayotbek Mirodilbek oglu

Andijan State University
Gayibov Ulug'bek Gapparjanovich
Institute of Biorganic Chemistry named after O.S. Sodiqov of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Mutalipov Azizbek Abdullajon oglu
Andijan State University
Zaynabiddinov Anvar Erkinjonovich
Andijan Institute of Economics and Construction
Isayeva Shohida Yusupjon qizi
Andijan State University

DETERMINATION OF THE VASORELEAXANT EFFECT OF HYDROLYZABLE TANNIS FROM RHUS GLABRA ON THE CONTRACTION OF AORTIC PREPARATION

Annotation*. In this work, the effect of PS-5 and Plantagen hydrolyzable tannins isolated from Rhus glabra on potential-dependent activation and receptor-gated Ca2+ channels of rat aortic smooth muscle cells was studied. The contractile activity of aortic muscle preparations was studied in vitro using the mechanography method using a Grass FT–03 mechanotron (Grass Instrument, USA) and an Endim 621.02 (Russia) signal amplifier. The results obtained show that PS-5 extract can be used to obtain a highly effective and safe drug with cardioprotective activity for the treatment and prevention of circulatory system diseases. The results of the study may allow for its use in the prevention and treatment of various circulatory system diseases.*

Keywords*: aortic smooth muscle, hydrolyzable tannins, PS-5, plantagen, verapamil, phentolamine.*

Kirish

Ayni davrda butun dunyoda qon aylanish tizimi patologiyalarini keng tarqalishi kuzatilmoqda va bu yer yuzining ko'p mamlakatlarida kasallanish va o'lim holatlarining umumiy fonida yetakchi o'rin egallamoqda. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari rivojlanishining asosiy omillaridan biri arterial gipertoniya bo'lib, bu miokard infarkti va insult rivojlanishining xavfi yetakchi omillaridan biri hisoblanadi. Butun dunyo aholisining 20-50% da arterial gipertenziyani keng tarqalganligini hisobga olib, hozirgi kunda Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bu kasallikni eng muhim tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida qaramoqda. Shu sababli molekulyar farmakologiyaning so'nggi yutuqlariga asoslangan holda arterial gipertenziyani adekvat davolashning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi

Hozirgi vaqtdada zamonaviy tibbiyot va farmakologiyaning dolzarb muammolaridan biri yo'naltirilgan ta'sirga ega va qarshi ko'rsatmalarga ega bo'lmagan eng samarali dori vositalarini yaratishdan iborat. Mazkur muammo ilm fan rivojlanishi va ilmiy dalillar to'plangani sari doimo saqlanib qolmoqda. Bugungi kunda yana bir faktlardan biri shundan iboratki ko'plab kasalliklarni, ayniqsa yurak-qon tomir kasalliklarining kelib chiqish xolatlari hujayralardagi ion-transport tizimi funktsiyalarini buzilishidan iboratdir. Mazkur sistema buzilishi kuplab kasalliklarni, jumladan neyrogedegenerativ, yurak-qon tomir va boshqa tizimlardagi kasalliklarini keltirib chiqaradi yoki ularni kechishiga sabab bo'ladi [1].


Hozirgi kundagi adabiyotlarni taxlili shuni ko'rsatadiki, yurak-qon tomir tizimiga samarali ta'sir qiladigan biologik faol moddalar o'simliklardan ajratib olingan bo'lib, ular qatoriga polifenollar, flavonoidlar, alkaloidlar kabi o'simliklardagi ikkilamchi metabolitlarni kiritish mumkin [2]. Mazkur birikmalar keng qamrovli biologik faollikga ega bo'lib, ular antioksidant, viruslarga qarshi, interferon induktsiyalovchi, saratonga qarshi, immunosupressiv xususiyatlarga ega ekanligi adabiyotlarda keltirilgan [3]. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda mazkur ilmiy maqolada yurak-qon tomir hujayralarining tuzilishi, ularning funktsional parametrlari sifatida ishtirok etadigan ion kanallari, kannallarning funktsiyasini buzilishi va ularni korrektsiyalash bo'yicha qo'llaniladigan tabiiy birikmalarga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, hozirgi vaqtda dorivor o'simliklarni tadqiq qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri nafaqat dorivor o'simliklarning yangi turlarini izlash, balki ishlatiladigan dorivor o'simlik materiallarining farmakologik faolligining yangi xususiyatlarini izlashdir. Bugungi kunda dunyoda Rhus glabra o'simliklarining damlamasi va ekstrakti xalq tabobatida ham, rasmiy tibbiyotda ham keng qo'llaniladi va ularning farmakologik ta'siri ko'p miqdordagi biologik faol moddalar mavjudligi bilan bog'liqligi aniqlangan. Bu o'simlikning kimyoviy tarkibini xromatografik va spektral usullar asosida o'rganish natijasida vitaminlar - retinal, xolekalsiferol hosilasi, tokoferol, flavonoidlar va ksantonlar va b guruhi ikkilamchi metabolitlar sifatida keng tarqalganligi aniqlandi [4]. Ushbu turga mansub o'simliklarning yuqorida qayd etilgan barcha biologik faol moddalari ularning farmakologik ta'sirining keng doirasiga ega ekanligini taxmin qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin - kardioprotektiv, antioksidant,

immunomodulyator, antitoksik, antitumor va boshqa xususiyatlarga ega.

Material va metodlar. Kalamush aorta qon tomir preparatini tayyorlash standart uslub yordamida amalga oshirilgan.


Tajribalar standart ozuqa va suv bilan ta'minlangan sharoitda boqilgan, sog'lom oq, zotsiz kalamushlarda (140–180 gr.) amalga oshirildi. Tajriba hayvonlari maxsus usulda jonsizlantirilgandan keyin, jarrohlik usulida aorta qon tomiri ajratib olindi va halqasimon segmentlar (l=2–4 mm; ø=1–2 mm) holatda kesildi. Tajribalarda Krebs–Xenzeleyt fiziologik eritmasidan foydalanildi (mM hisobida): (mM): NaCl – 120,4; KCl – 5; $NaHCO_3$ – 15,5; NaH_2PO_4 – 1,2; $MgCl_2$ – 1,2; $CaCl_2$ – 2,5; $C_6H_{12}O_6$ – 11,5 (pH=7,4) [5]. Fiziologik eritma karbogen (O_2–95% ва CO_2–5%) bilan aeratsiyalandi, harorat doimiyligi (t=+37±0,5°C) ulьtratermostat (U–8; Bolgariya) yordamida ta'minlandi. Aorta qon tomir preparatining qisqarish faolligi izometrik sharoitda FT–03 (Grass Instrument Co., AQSh) kuch sensori, signal kuchaytirgich qurilma (Grass Instrument, AQSh) orqali Endim 621.02 samopisetsida (Chexiya) standart uslub (mexanografiya) yordamida qayd qilindi. Quyidagi 1-rasmda kalamush aorta qon tomir silliq muskul preparatining izometrik sharoitda qisqarish faolligini qayd qilish qurilmasining umumiy sxematik ko'rinishi keltirilgan.



1–rasm. Kalamush aorta qon tomir silliq muskul preparatining izometrik sharoitda qisqarish faolligini qayd qilish qurilmasining umumiy sxematik ko'rinishi.

Tajribalarda verapamil gidroxlorid [7,8] («Sigma–Aldrich», Germaniya), $NaHCO_3$, $CaCl_2$, $MgSO_4$, glyukoza, NaCl, KCl, NaH_2PO_4 (Rossiya) reaktivlaridan foydalanildi. Tajribalarda o'rganilgan polifenollarning $Ca^{2+}{}_L$–kanaliga ta'siri KCl (50 mM) yordamida yuzaga keltirilgan qisqarish kuchi amplitudasi bo'yicha baholandi [6]. Tajribalarda o'rganilgan polifenollarning zahiradan ishga tushuvchi Ca^{2+}–kanali (SOCC – store–operated Ca^{2+}–channels)/retseptorga bog'liq funktsiya bajaruvchi Ca^{2+}-kanallari (ROCC – receptor–operative Ca^{2+}-channels) faolligiga ta'siri fenilefrin (1 mkM) yordamida yuzaga keltirilgan qisqarish kuchi amplitudasi bo'yicha baholandi [9]. Olingan natijalar OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, Northampton, MA 01060–4401, AQSh) maxsus dastur paketi yordamida statistik qayta ishlandi. Dastlab, kalamush aorta preparati 1 gr (9,8~10 mN) kuchlanish berish asosida, ~40–60 minut davomida normal elektromexanik faollik qayd qilinishga qadar inkubatsiyalandi.


Olingan natijalar va ularning tahlili. Tajribalarimizda dastlab kalamush aortasi preparatiga PS-5 hamda Plantagen gidrolizlanuvchi taninlarning dozaga bog'liq ta'sirini KCl (50 mM) bilan chaqirilgan aorta muskuli preparati qisqarishlarida amalga oshirdik (1-rasm). Biz bundan oldingi tadqiqotlarimizda takidlab o'tganimizdek KCl (50 mM) bilan chaqirilgan qisqarish silliq muskul hujayralari sarkolemmasida joylashgan potensialga bog'liq faolllashuvchi Ca^{2+}-kanallar aktivatsiyasi bilan belgilanadi [10]. Ya'ni [K+]in konsentratsiyasi ortishi sharoitida membrana potensiali qiymati o'zgaradi, natijada membrana depolyarizatsiyasi yuzaga keladi va potensialga bog'liq faollashuvi Ca^{2+}-kanallari faollashib, [Ca^{2+}]in oshishi hisobiga qisqarish kuchi ortadi. Shu sharoitda PS-5 va Plantagenlarning kalamush aorta qon tomirining KCl (50 mM) yordamida yuzaga keltirilgan izometrik qisqarish faolligiga vazorelaksant ta'sir ko'rsatishi kuzatilib, Plantagen minimal 10 mkM konsentratsiyada qisqarish kuchini nazoratga nisbatan 6,6±1,1% ga kamaytirishi va maksimal 70 mkM konsentratsiyada 65,1±3,8% ga kamaytirishi aniqlandi. Shuningdek, PS-5 minimal 10 mkM konsentratsiyada qisqarish kuchini nazoratga nisbatan 7,9±1,7% ga, maksimal 70 mkMda 79,1±3,5% ga kamaytirishi kuzatildi. Bunda PS-5 va Plantagen uchun (YES50) qiymati mos ravishda 28,2 mkM va 36,4 mkM ga tengligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. PS-5 va Plantagenlarining aorta preparatida KCl (50 мМ) bilan yuzaga keltirilgan qisqarishga konsentratsiyaga bog'liq vazorelaksant ta'siri. Ordinata o'qida – 50 mM KCl bilan yuzaga keltirilgan aorta qisqarish kuchi 100% deb olingan. Absissa o'qida – polifenollarning konsentratsiyasi mkM ifodalangan. Barcha holatlarda ishonchliylik ko'rsatkichi (*p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001 n=5–6).

Tajribalarimizning keyingi bosqichida biz o'rganilayotgan taninlarning vazorelaksant ta'sirini


yuzaga kelishida Ca2+-kanallarini ishtrokini tekshirish maqsadida L-tip Ca2+-kanallarining spesifik blokatori - verapamildan foydalanib tajribalar olib bordik. O‘tkazilgan tajribalarimizdan ma’lum bo‘ldiki, verapamil aorta silliq muskuli preparatiga dozaga bog‘liq ta’sir ko‘rsatib, 0,1 mkM konsentratsiyada aorta muskul preparati qisqarishlarini 50±3,9%ga pasaytirdi va verapamilning yarim maksimal konsentratsiyasi YES50=0,1 mkMni tashkil etdi. Muhitda verapamil 0,1 mkM mavjud sharoitda PS-5 yarim maksimal ta’sir konsentratsiyasi YES50=98,7 mkM va Plantagen YES50=53,1 mkM ta’sirida qisqarish kuchi qo‘shimcha ravishda 12,2±3,9%ga (nazortaga nisbatan 62,2±3,3%), 15,6±3,4%ga (nazoratga nisbatan 65,6±4,7%) kamaytirishi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. PS-5 va Plantagen gidrolizlanuvchi taninlar ning kalamush aorta qon tomiri silliq mukul preparatida muhitda L-tip Ca^{2+}-kanalining spesifik blokatori – verapamil (0,1 mkM) mavjud sharoitda 50 mM KCl yordamida chaqirilgan qisqarishga vazorelaksant ta’siri. Ordinata o‘qida – KCl (50 mM) yordamida chaqirilgan qisqarish kuchi nazorat sifatida 100% deb olingan (barcha holatlarda ishonchliylik ko‘rsatkichi p<0,05; n=4-5).


Olingan natijalar tahlili tekshirilayotgan polifenollarning vazorelaksant ta’siri bevosita L-tip Ca^{2+}-kanallarining blokadasi bilan bog‘liq ekanligidan dalolat beradi. Tekshirilayotgan polifenollar L-tip Ca^{2+}-kanallarining bloklashi orqali aorta qon tomiri silliq muskul hujayralariga Ca^{2+}-ionlarini kirishini susaytiradi va natijada hujayrada [Ca2+]i miqdorining kamayishi kuzatilib, qisqarish faolligini susayishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, Plantagen ta’sirida aorta muskul qisqarishlarining verapamil mavjud sharoitga nisbatan sezilarli kamayishi, bu uning Ca2+-kanallarining blokadasidan tashqari boshqa ion transport tizimlariga ham ta’siri mavjud bo‘lishi mumkunligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki silliq muskul hujayralarida Ca^{2+} gomoyeostazini boshqarilishida potensialga bog‘liq Ca2+–kanallaridan tashqari retseptor boshqariluvchi Ca^{2+}–kanallari ham muxim rol o‘ynaydi [11].Navbatdagi tajribalarda tekshirilayotgan taninlarning retseptor boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallariga ta’sir effektini baholash uchun α1–adrenoretseptor agonisti fenilefrin (FE)dan foydalanildi. FE yordamida chaqirilgan aorta muskuli qisqarishi asosan retseptor-boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari orqali kiruvchi Ca^{2+}-ionlari bilan ta’minlanadi. Tajribalarimizda FE yordamida chaqirilgan aorta silliq muskuli qisqarishlariga taninlarning ta’siri tekshirildi. FE bilan chaqirilgan aorta muskuli qisqarishiga PS-5 va Plantagenlarning ta’siri tekshirilganda konsentratsiyaga bog‘liq ta’sir ko‘rsatishi kuzatilib, PS-5 ва Plantagen 100 mkM konsentratsiyalarda maksimal vazorelaksant ta’sirini namoyon qilishi aniqlandi va qisqarish kuchini nazoratga nisbatan dastlabki 10 mkM konsentratsiyada 5,8±2,2% va 4.6±2,4% ga hamda maksimal 100 mkM konsentratsiyada qisqarish kuchini 64,8±2,8% va 57,2±3,4% ga kamaytirdi (3-rasm). Ushbu sharoitda PS-5 va Plantagentaninlarning yarim maksimal ta’sir konsentratsiyasi EC_{50}=58,2 мкМ ва EC_{50}= 43,4 мкМни ташкил этди.



3-rasm. Feneliferin bilan chaqirilgan kalamushaortasi silliq muskulpreparati qisqarishiga PS-5 va plantagin gidrolizlanuvchi taninlarning ta`siri. Ordinata o‘qida aorta preparatning KCl (50 мМ) yordamida chaqirilgan qisqarish kuchi 100% deb xisoblangan , absitssaa o‘qida – gidrolizlanuvchi taninlar (мкМ) ifodalangan.Barcha xolatlarda *p<0,05, **p<0,01, ***p<0,001; n=5-6).

Yuqoridagi tadqiqotlarga qo‘shimcha qilish va to‘liqroq oydinlik kiritish maqsadida biz, retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallariga taninlarning ta’sirini aniqlashda α_1–adrenoretseptorlarning blokatori – fentolamindan (FA) foydalanib tadqiqotlar olib bordik. O‘tkazilgan tajribalarda muhitda 10 mkM fentolamin mavjud sharoitda PS-5 (58,2 mkM) va Plantagen(43,4 mkM)ning vazorellaksant ta’siri fentolaminsiz sharoitga nisbatan 29,8±3,4% hamda 53,2±3,1%ga kamayishi kuzatildi (4-rasm).



4-расм. PS-5 va Plantagentaninlarning vazorelaksant ta'siriga fentolaminning ta'siri. Ordinata o'qida – FE (1 mkM) yordamida chaqirilgan aorta silliq muskuli qisqarish kuchi 100% deb olingan (barcha holatlarda ishonchliylik ko'rsatkichi $p<0,05; n=4$).

Yuqorida o'tkazilgan tajribalarga asoslanib aytishimiz mumkinki, tekshirilayotgan taninlarning vazorelaksant ta'siri retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallarining blokadasi bilan bog'liq bo'lib, FE yordamida chaqirilgan aorta silliq muskuli qisqarishlariga FA mavjud sharoitda Plantagentaninning yarim maksimal konsentratsiyasi ta'sirida vazorelaksant tasirini sezilarli darajada kamayishi, uning tasiri asosan retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari blokadasi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Tajirbalarimizda aniqlanishicha aniqlanishicha o'rganilayotgan taninlarning vazorelaksant ta'sirini ta'minlanishida L-tipdagi Ca^{2+}-kanallari bilan birga retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari blokadasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki taninlarning yuqorida keltirib o'tilgan kompleks ta'siri natijasida aorta silliq muskuli hujayralarida $[Ca^{2+}]_i$ miqdorining keskin kamayishi taninlarning vazorelaksant ta'sirini ortishiga sabab bo'ladi.

Xulosalar. Yuqorida olib borilgan tajribalarning tahlili asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, tekshirilgan taninlarning vazorelaksant ta'siri bevosita L-tip Ca^{2+}-kanallari va retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallar blokadasi bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, tajribalarimizda Plantagen ning aorta muskul qisqarishlariga vazorelaksant ta'sirini FA mavjud sharoitda sezilarli darajada kamayishi, uning retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari blokadasi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga muhitda verapamil mavjud sharoitda PS-5 ning vazorelaksant ta'sirini kamroq namoyon qilishi, bu uning L-tip Ca^{2+}-kanallarining blokadasi bilan bog'liq bo'lib, aorta qon tomiri silliq muskul hujayralariga Ca^{2+}-ionlarini kirishini susaytirishi natijasida hujayra ichki $[Ca^{2+}]i$ miqdorining kamayishi kuzatilib, qisqarish faolligini susayishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atanasov, A.G.; Waltenberger, B.; Pferschy-Wenzig, E.M.; Linder, T.; Wawrosch, C.; Uhrin, P.; Temml, V.; Wang, L.; Schwaiger, S.; Heiss, E.H.; Rollinger, J.M.; Schuster, D.; Breuss, J.M.; Bochkov, V.; Mihovilovic, M.D.; Kopp, B.; Bauer, R.; Dirsch, V.M.; Stuppner, H. Discovery and resupply of pharmacologically active plant-derived natural products: A review. Biotechnol. Adv., 2015, 33(8), 1582-1614.

2. Gayibov, U.G., Gayibova, S.N., Karimjonov, H.M., Zaynabiddinov, A.E. Aripov T.F.Antioxidant and cardioprotective properties of polyphenolic plant extract of Rhus glabra L. Plant Science Today, 2024, 11(3), pp. 655–662

3. Каримжонов, Х. М. У., Зайнобиддинов, А. Э., Рахимов, Р. Н., & Гайибов, У. Г. (2023). Антиоксидантная/антирадикальная активность полифенольного соединения пс-2. Universum: химия и биология, (1-1 (103)), 50-54.

4. Pozilov, M. K. ., U. Gayibov, M. I. . Asrarov, N. G. Abdulladjanova, H. S. . Ruziboev, and T. F. . Aripov. "Physiological alterations of mitochondria under diabetes condition and its correction by polyphenol gossitan". *Journal of Microbiology, Biotechnology and Food Sciences*, vol. 12, no. 2, Oct. 2022, p. E2224, doi:10.55251/jmbfs.2224.

5.Popov A.G. Issledovaniye mexanizmov deystviya nitrosoyedineniy na elektricheskiye i sokratitelnыe svoystva gladkix mыshs mochetochnika i Taenia coli morskoy svinki // Avtoreferat k.med.n. (03.00.13–fiziologiya, 03.00.02–biofizika). – Tomsk, 2004. – S.24.

6. RapsomanikiE, TimmisA, GeorgeJ, et al. Blood pressure and incidence of twelve cardiovascular diseases: lifetime risks, healthy life-years lost, and age-specific associations in 1•25 million people. Lancet. 2014,vol 383, pp.1899-19911.

7. Williams D.M., Rubin B.K. Clinical Pharmacology of Bronchodilator Medications // Respir Care. – 2018. – V. 63(6). – P.641-654.

8. Angus J.A., Wright C.E. Techniques to study the pharmacodynamics of isolated large and smallblood vessels // ournalofPharmacologicalandToxicologicalMethods. – 2000. – V.44. – P.395–407.

9. BLAUSTEIN, M.P., BOVA, S., YUAN, X.-J. & GOLDMAN, W.F. (1990). The role of sodium/calcium exchange in the regulation of vascular contractility. In Calcium Transport and Intracellular CalciumHomeostasis. ed. Datsu, T. & Bronner, F. pp. 123-132. Berlin: Springer-Verlag.

10. Chemaly Elie R., Luca Troncone2, and Lebeche Djamel SERCA Control of Cell Death and SurvivalCell Calcium. 2018 January; 69: 46–61. doi:10.1016/j.ceca.2017.07.001.

11. Chemaly ER, Bobe R, Adnot S, Hajjar RJ, Lipskaia L. Sarco (endo) plasmic reticulum calcium ATPases (SERCA) isoforms in the normal and diseased cardiac, vascular and skeletal muscle.Journal of Cardiovascular Diseases & Diagnosis. 2013; 1(3):1–6.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Abdusalomov Isroil Komiljon o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktoranti
O‘zbekiston, Chirchiq.
E-mail: abdusalomovisroil@gmail.com

UO‘K: 796.325:612.76

TALABA-VOLEYBOLCHILAR BLOK QO‘YISH TEXNIKASINING ZAMONAVIY BIOMEXANIK TAHLILI: 3D KINEMATIK YONDASHUV

Annotatsiya. *Ushbu maqolada voleybolchilarning blok qo‘yish texnikasining zamonaviy biomekanik tahlili, xususan 3D kinematik yondashuv orqali o‘rganish natijalari taqdim etilgan. Tadqiqot “Qualisys” tizimi yordamida amalga oshirilgan bo‘lib, 2-zona va 4-zonaga blok qo‘yish harakatlarida sportchilarning tos, son, tizza va to‘piq bo‘g‘imlarining harakat diapazoni o‘rganilgan. Olingan natijalar sportchilarning blok qo‘yish harakatlarida sezilarli biomexanik asimmetriya mavjudligini ko‘rsatadi. Maqolada aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun maxsus mashqlar tavsiya etilgan.*

Kalit so‘zlar: *voleybol, blok qo‘yish texnikasi, biomexanika, 3D kinematik tahlil, harakat asimmetriyasi, bo‘g‘imlar harakati.*

Абдусаломов Исроил Комилжонович
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, докторант (PhD)
Чирчик, Узбекистан.

СОВРЕМЕННЫЙ БИОМЕХАНИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕХНИКИ БЛОКИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ-ВОЛЕЙБОЛИСТОВ: 3D КИНЕМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация. *В статье представлены результаты современного биомеханического анализа техники блокирования волейболистов с использованием трехмерного кинематического подхода. Исследование проводилось с помощью системы “Qualisys”, где изучались диапазоны движений тазобедренных, бедренных, коленных и голеностопных суставов спортсменов при блокировании во 2-й и 4-й зонах. Полученные результаты указывают на значительную биомеханическую асимметрию в движениях блокирования спортсменов. В статье предложены специальные упражнения для устранения выявленных проблем.*

Ключевые слова: *волейбол, техника блокирования, биомеханика, 3D кинематический анализ, двигательная асимметрия, суставная кинематика.*

Abdusalomov Isroil Komiljonovich
Uzbek State University of Physical Education and Sport, PhD student
Chirchik, Uzbekistan.

MODERN BIOMECHANICAL ANALYSIS OF BLOCKING TECHNIQUE IN STUDENT VOLLEYBALL PLAYERS: A 3D KINEMATIC APPROACH

Abstract*. This article presents the results of modern biomechanical analysis of volleyball blocking technique using a 3D kinematic approach. The research was conducted using the “Qualisys” system, studying the range of motion in hip, femoral, knee, and ankle joints of athletes during blocking in zones 2 and 4. The obtained results indicate significant biomechanical asymmetry in athletes’ blocking movements. The article recommends specific exercises to address the identified issues.*

Keywords: *volleyball, blocking technique, biomechanics, 3D kinematic analysis, movement asymmetry, joint kinematics.*

Kirish.

Zamonaviy voleybol sport turida blok qo‘yish texnikasining mukammalligi sportchining raqobatbardoshligi va jamoaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omillardan biridir [11]. Blok qo‘yish harakati sportchidan yuqori darajadagi koordinatsion qobiliyat, fazoviy aniqlik va harakat segmentlari o‘rtasidagi mukammal uyg‘unlikni talab etadi. Shpextin va boshqalar (2016)ning ta’kidlashicha, blok qo‘yish voleybolda eng muhim himoya elementlaridan biri bo‘lib,

o‘yindagi ballar taqsimotining 45% gacha qismini tashkil etishi mumkin. Voleybolchilarning mahorat darajasini baholash va texnik ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda zamonaviy biomexanik yondashuvlar, xususan 3D kinematik tahlil usullari alohida ahamiyat kasb etadi [21, 22].

Zamonaviy voleybolda blok qo‘yish sportchilardan reaktiv harakat qobiliyatini, shuningdek mushak kuch-quvvatini optimal darajada muvofiqlashtirish va safarbar qilishni talab etadi [3]. Shu bilan birga, sport biomexanikasi sohasidagi so‘nggi tadqiqotlar sportchilarda harakat asimmetriyasi va uning sport natijalariga ta’siri masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda [5].

Tadqiqot maqsadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi voleybol sport turida tajriba bosqichidagi sportchilarning blok qo‘yish texnikasini 3D kinematik tahlil asosida o‘rganish va harakatlarning biomexanik samaradorligini baholashdan iborat.

Wagner va boshqalar (2022) ta’kidlaganidek, biomexanik ko‘rsatkichlarning miqdoriy tahlili sportchilarda texnik harakatlarni mukammallashtirish uchun aniq yo‘naltirilgan istiqbollarni belgilash imkonini beradi [23].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot “Qualisys” tizimiga asoslangan 3DMA 2023.0 (Motive) dasturiy platformasi yordamida amalga oshirildi. Bu metodologiya ilgari Krüger va boshqalar (2021) tomonidan sport harakatlarini tahlil qilishda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan [8]. Harakatlar yuqori aniqlikdagi 8 ta infraqizil kamera orqali 200 Hz chastotada qayd etildi, bu esa Needham va boshqalar (2018) tavsiya etgan standartlarga to‘liq mos keladi [14].

Kinematik modellash uchun Helen Hayes marker tizimidan foydalanildi, bu tizim inson harakatlarini o‘rganishda keng tarqalgan bo‘lib, uning afzalliklari Robertson va boshqalar (2013) tomonidan batafsil tavsiflangan. 3 qadamli blok harakatining chapga va o‘ngga yo‘nalishlarida tos, son, tizza va to‘piq bo‘g‘imlarining harakatlari o‘rganildi [18].

Ciapponi va boshqalar (2016) ta’kidlaganidek, blok qo‘yish biomexanikasini to‘g‘ri baholash uchun bo‘g‘imlarning fazoviy harakat diapazoni va ularning vaqt ichida o‘zgarishi muhim ahamiyatga ega [4].

Tadqiqot natijalari. Voleybol sport turida blok qo‘yish texnikasi sportchi harakatlarining biomexanik samaradorligini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Blok qo‘yish harakatini 3D kinematik tahlil asosida o‘rganish orqali sportchilarning chap va o‘ng tomon bo‘g‘imlarining harakat diapazonlari o‘rtasidagi farqlarni aniq baholash mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2-zona va 4-zonaga blok qo‘yish harakatlarida quyidagi biomexanik ko‘rsatkichlar aniqlandi.

3.1-jadval

O‘rta blokerning markazdan 2-zonaga 3 qadam bilan blok qo‘yish harakati kinematik ko‘rsatkichlari

Tana qismlari	Tananing harakat holati	Tananing chap tomoni ko‘rstkichlari			Tananing o‘ng tomoni ko‘rstkichlari		
		Min	Max	Diap	Min	Max	Diap
Tos	og‘ish: oldinga[+] /orqaga[-]	-11	8	19	-11	17	27
	yonga og‘ishi: yuqoriga [+] /pastga[-]	-6	-1	5	-9	5	13
	burilish: ichki[+] /tashqi[-]	-154	-7	146	4	157	152
Son	oldinga: bukish[+] /yozish[-]	3	51	47	-10	49	58
	yonga: o‘ngga [+] /chapga[-]	-10	3	12	-21	3	23
	burilish: o‘ngga [+] /chapga[-]	-1	17	17	-9	12	21
Boldir	tizza bukilishi: bukish[+] /yozish[-]	-4	76	79	-2	90	91
	yonga: o‘ngga [+] /chapga[-]	-23	-2	20	-11	17	28
	burilish: o‘ngga [+] /chapga[-]	-18	26	43	-18	20	37
To‘piq	bukish[+] /yozish[-]	-36	30	66	-36	37	73
	yonga: o‘ngga [+] /chapga[-]	-1	14	15	-1	15	16
	burilish: o‘ngga [+] /chapga[-]	-34	7	41	-15	25	39

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sportchilarning 2-zona va 4-zonaga blok qo‘yish harakatlarida sezilarli biomexanik farqlar aniqlandi. 2-zonaga blok qo‘yish harakatida tos bo‘g‘imining oldinga/orqaga egilishi o‘ng tomonda (27º) chap tomonga (19º) nisbatan sezilarli yuqori ekanligi kuzatildi. Shuningdek, tos bo‘g‘imining yonga og‘ishida ham o‘ng tomonda (13º) chap tomonga (5º) nisbatan katta farq aniqlandi. Tos bo‘g‘imining burilishida esa o‘ng tomon diapazoni (152º) chap tomonga (146º) nisbatan biroz yuqoriroq ko‘rsatkichga ega bo‘ldi.

Son bo‘g‘imi harakatlarida ham o‘xshash tendensiya kuzatildi. Oldinga bukilishda o‘ng tomonda (58º) chap tomonga (47º) nisbatan kengroq diapazon qayd etildi. Yonga harakatda o‘ng tomonda (23º) chap tomonga (12º) nisbatan yuqori ko‘rsatkich aniqlandi. Burilish harakatida ham o‘ng tomon (21º) chap tomon (17º) dan yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Tizza boʻgʻimi harakatlarida bukilish diapazoni oʻng tomonda (91º) chap tomon (79º) dan keng ekanligi aniqlandi. Yonga harakatda oʻng tomonda (28º) chap tomonga (20º) nisbatan yuqori koʻrsatkich qayd etildi. Biroq burilishda chap tomon (43º) oʻng tomon (37º) dan biroz yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Toʻpiq boʻgʻimi harakatlarining tahlili shuni koʻrsatdiki, bukilishda oʻng tomon (73º) chap tomon (66º) dan yuqoriroq. Yonga harakatda oʻng (16º) va chap (15º) tomonlar oʻrtasida deyarli farq kuzatilmadi. Burilishda ham chap tomon (41º) va oʻng tomon (39º) koʻrsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligi aniqlandi.

2-jadval

Oʻrta blokerning markazdan 4-zonaga 3 qadam bilan blok qoʻyish harakati kinematik koʻrsatkichlari

Tana qismlari	Tananing harakat holati	Tananing chap tomoni koʻrstkichlari			Tananing oʻng tomoni koʻrstkichlari		
		Min	Max	Diap	Min	Max	Diap
Tos	ogʻish: oldinga[+] /orqaga[-]	-11	23	33	-11	6	17
	yonga ogʻishi: yuqoriga [+] /pastga[-]	-7	5	12	-6	2	7
	burilish: ichki[+] /tashqi[-]	-1	138	139	-139	43	181
Son	oldinga: bukish[+] /yozish[-]	-18	43	61	5	55	50
	yonga: oʻngga [+] /chapga[-]	-28	4	31	-16	11	26
	burilish: oʻngga [+] /chapga[-]	-9	26	34	-4	7	11
Boldir	tizza bukilishi: bukish[+] /yozish[-]	-6	102	107	5	99	93
	yonga: oʻngga [+] /chapga[-]	-23	-3	19	-16	9	24
	burilish: oʻngga [+] /chapga[-]	-21	19	40	-11	30	40
Toʻpiq	bukish[+] /yozish[-]	-36	39	74	-36	40	76
	yonga: oʻngga [+] /chapga[-]	-6	18	24	-8	14	22
	burilish: oʻngga [+] /chapga[-]	-30	9	38	-22	23	44

4-zonaga blok qoʻyish harakatida esa aksincha, chap tomon boʻgʻimlarining harakatlari ustunligi kuzatildi. Tos boʻgʻimining oldinga/orqaga egilishida chap tomon (33º) oʻng tomonga (17º) nisbatan yuqori koʻrsatkichga ega boʻldi. Yonga ogʻishda ham chap tomon (12º) oʻng tomonga (7º) nisbatan kengroq ekanligi aniqlandi. Biroq, burilishda oʻng tomon (181º) chap tomonga (139º) nisbatan katta farq bilan yuqori ekanligi kuzatildi.

Son boʻgʻimi harakatlarida oldinga bukilishda chap tomon (61º) oʻng tomonga (50º) nisbatan yuqori, yonga harakatda chap tomon (31º) oʻng tomonga (26º) nisbatan kengroq diapazon namoyon etdi. Burilishda esa chap tomon (36º) oʻng tomonga (11º) nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

Tizza boʻgʻimi harakatlarida bukilish diapazoni chap tomonda (107º) oʻng tomonga (93º) nisbatan kengroq ekanligi kuzatildi. Biroq, yonga harakatda oʻng tomon (24º) chap tomonga (19º) nisbatan yuqori koʻrsatkichga ega boʻldi. Burilishda esa oʻng (42º) va chap (40º) tomonlar deyarli teng ekanligi aniqlandi.

Toʻpiq boʻgʻimi harakatlarida bukilishda oʻng (76º) va chap (75º) tomonlar deyarli bir xil koʻrsatkichga ega ekanligi, yonga harakatda ham oʻng va chap tomonlarda teng diapazon (22º) kuzatildi. Burilishda esa oʻng tomon (44º) chap tomonga (38º) nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Umumiy natijalar shuni koʻrsatadiki, 2-zonaga blok qoʻyishda asosan oʻng tomon boʻgʻimlari, 4-zonaga blok qoʻyishda esa asosan chap tomon boʻgʻimlari faolroq ishlaydi, bu esa sportchilarda harakatlar asimmetriyasiga va biomexanik yuklamalarga olib kelishi mumkin.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, blok qoʻyish harakatida chap va oʻng tomonlar oʻrtasida sezilarli biomexanik farqlar mavjud boʻlib, bu harakat simmetriyasining buzilishiga va texnik samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu natijalar Marquez va boshqalar (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan mos keladi, ular ham sportchilarning harakat asimmetriyasi va sport natijalariga ta’siri oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlagan [12].

2-zonaga blok qoʻyishda oʻng tomon, 4-zonaga blok qoʻyishda esa chap tomon boʻgʻimlariga yuqori yuklamalar tushishi aniqlandi. Sato va Inoue (2016) ta’kidlaganidek, bu holatda asimmetriya blok qoʻyish jarayonida muvozanatni saqlash uchun qoʻshimcha energiya sarflanishiga va harakatning biomexanik samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin [19]. Bundan tashqari, Lima va boshqalar (2019) oʻz

tadqiqotlarida yuqori darajadagi asimmetriya sportchilarda jarohatlanish xavfini 28% ga oshirishini aniqlagan [10].

Ayniqsa, tos va son bo‘g‘imlarining harakat diapazonlaridagi farqlar blok qo‘yish texnikasining fazoviy aniqligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Schons va boshqalar (2023) izlanishlariga ko‘ra, bo‘g‘imlar harakati o‘rtasidagi nomutanosiblik sakrash balandligining kamayishiga va blok qo‘yish samaradorligining pasayishiga olib keladi [20]. 2-zonaga blok qo‘yishda o‘ng tomon bo‘g‘imlari, 4-zonaga blok qo‘yishda esa chap tomon bo‘g‘imlari faolroq ishlashi natijasida harakat disbalansi yuzaga keladi, bu esa Okazaki va boshqalar (2017) tomonidan tavsiflanganidek, blok qo‘yish harakati kinematikasida muhim ahamiyatga egan [15].

To‘piq bo‘g‘imining harakatlari tahlili Lichtenstein va boshqalar (2022) ning izlanishlari bilan mos keladi, ular ham yuqori darajali voleybolchilarning to‘piq bo‘g‘imi harakatida kichik, ammo statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjudligini aniqlagan [9].

Xulosa va tavsiyalar. Voleybolchilarning blok qo‘yish texnikasida chap va o‘ng tomon bo‘g‘imlari o‘rtasida sezilarli biomexanik asimmetriya mavjud bo‘lib, bu harakat samaradorligining pasayishiga va jarohatlanish xavfining oshishiga olib kelishi mumkin. Bunday asimmetriyalarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish sportchining uzoq muddatli karyer rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

3D kinematik tahlil natijalariga ko‘ra, blok qo‘yish texnikasini takomillashtirish uchun quyidagi mashqlar majmuasini ishlab chiqish tavsiya etiladi:

1.2-zonaga blok qo‘yishda o‘ng tomon stabilizatsiyasini ta’minlovchi maxsus mashqlar. Bu yondashuv Michalska va boshqalar (2020) tomonidan taklif etilgan proprioseptiv mashqlar tizimiga asoslanadi [13].

2.4-zonaga blok qo‘yishda chap tomon mushaklarini mustahkamlovchi mashqlar. Bu tavsiya Horst va boshqalar (2017) aniqlagan mushak kuch-quvvati va harakat koordinatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslanadi [6].

3.Bo‘g‘imlar harakati amplitudasini barqarorlashtiruvchi mashqlar kompleksi, bu Kim va Jeon (2016) tomonidan ishlab chiqilgan mushak balansi strategiyasiga mos keladi [7].

4.Harakat simmetriyasini rivojlantiruvchi maxsus mashqlar. Bu yondashuv Oliveira va boshqalar (2021) tomonidan taklif etilgan texnik-taktik tayyorgarlik tizimiga asoslanadi [16].

3D kinematik tahlil texnologiyalari voleybolchilarning blok qo‘yish texnikasini mukammallashtirish, individual xatoliklarni aniqlash va manzilli mashqlar yordamida bartaraf etish imkonini beradi [23]. Bunday texnologiyalar nafaqat sportchilarning texnik ko‘rsatkichlarini baholash, balki mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari voleybol nazariyasi va amaliyotini zamonaviy biomexanik yondashuvlar bilan boyitib, sportchilarning texnik tayyorgarlik jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, olingan natijalarni boshqa sport turlaridagi o‘xshash harakatlarni tahlil qilish va takomillashtirish uchun ham qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdusalomov I.K. / Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligi tizimi va harakat qobiliyatlarini rivojlantirish: Mag. diss. - Chirchiq, O‘zDJTSU, 2022-yil. - 81 bet.

2. Altschuler, E. L., Kovalev, D., & Rodriguez, N. (2024). Cross-application of kinematic analysis methods between volleyball and basketball jumping techniques. *Journal of Applied Biomechanics*, 40(1), 45-59.

3. Buscà, B., Moras, G., Peña, J., & Rodríguez-Jiménez, S. (2013). The influence of serve characteristics on performance in men’s and women’s high-standard beach volleyball. *Journal of Sports Sciences*, 31(3), 269-276.

4. Ciapponi, T. M., McLaughlin, E. J., & Hudson, J. L. (2016). The volleyball spike: A kinesiological and physiological analysis with recommendations for skill development and conditioning programs. *NSCA Journal*, 18(1), 76-81.

5. Fuchs, P. X., Menzel, H. J., Guidotti, F., Bell, J., von Duvillard, S. P., & Wagner, H. (2019). Spike jump biomechanics in male versus female elite volleyball players. *Journal of Sports Sciences*, 37(21), 2411-2419.

6. Horst, F., Schöllhorn, W. I., Bauer, H. U., & Federolf, P. A. (2017). Neuromuscular coordination in volleyball blocking movements: A dynamical system approach. *Sports Biomechanics*, 16(2), 227-243.

7. Kim, Y., & Jeon, J. (2016). Developing joint stability training programs for elite volleyball players. *International Journal of Sports Physical Therapy*, 11(6), 954-965.

8. Krüger, K., Pilat, C., Ueckert, K., Frech, T., & Mooren, F. C. (2021). Physical performance profile of elite volleyball players: A comprehensive analysis using Qualisys motion capture system. *Journal of Strength and Conditioning Research*, 35(10), 2722-2730.

9. Lichtenstein, E., Fischer, A., Trentmann, J., & Wonisch, M. (2022). Ankle joint kinematics in elite volleyball players during blocking movements. *European Journal of Sport Science*, 22(3), 398-409.

10. Lima, Y. L., Ferreira, V. M., de Paula Lima, P. O., Bezerra, M. A., de Oliveira, R. R., & Almeida, G. P. (2019). The association of ankle dorsiflexion range of motion and dynamic knee valgus: A systematic review with meta-analysis. *Physical Therapy in Sport*, 29, 61-69.

11. Lobietti, R., Coleman, S., Pizzichillo, E., & Merni, F. (2010). Landing techniques in volleyball. *Journal of Sports Sciences*, 28(13), 1469-1476.

12. Marquez, G. J., Mon, J., Acero, R. M., Sanchez, J. A., & Fernandez-del-Olmo, M. (2020). Low-load high-velocity resistance exercises improve functional performance of volleyball players. *Journal of Sports Medicine and Physical Fitness*, 60(1), 89-97.

13. Michalska, J., Kamieniarz, A., Fredyk, A., Bacik, B., & Juras, G. (2020). Effect of expertise in volleyball on static and dynamic postural control in male volleyball players and non-athletes. *Heliyon*, 6(9), e04937.

14. Needham, R. A., Naemi, R., & Chockalingam, N. (2018). A new coordination pattern classification to assess gait kinematics when utilising a modified vector coding technique. *Journal of Biomechanics*, 76, 169-174.

15. Okazaki, V. H. A., Rodacki, A. L. F., & Satern, M. N. (2017). A review on the basketball jump shot. *Sports Biomechanics*, 14(2), 190-205.

16. Oliveira, T. S., Mesquita, I., Afonso, J., & Gomes, I. (2021). Technical-tactical training intervention in volleyball blocking performance. *International Journal of Performance Analysis in Sport*, 21(2), 234-246.

17. Raxmanov, Eldor; Abdusalomov, Isroil; Yosh voleybolchilarning sakrovchanlik qobiliyatini maxsus mashqlar orqali rivojlantirish samaradorligi, Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, 6, 436-441, 2023-yil.

18. Robertson, D. G. E., Caldwell, G. E., Hamill, J., Kamen, G., & Whittlesey, S. N. (2013). *Research methods in biomechanics* (2nd ed.). Human Kinetics.

19. Sato, K., & Inoue, Y. (2016). Comparison of lower limb biomechanics between frontal and lateral jump-landing tasks. *Sports Biomechanics*, 15(4), 440-452.

20. Schons, P., Da Rosa, R. G., Fischer, G., & Peyré-Tartaruga, L. A. (2023). The relationship between lower extremity asymmetries and volleyball performance: A systematic review. *Sports Medicine*, 53(6), 1225-1240.

21. Shpekht, V., Bohning, W., & Meyer, A. (2016). Positional importance of successful blocking in elite men's volleyball. *International Journal of Performance Analysis in Sport*, 16(1), 300-309.

22. Tilp, M., Wagner, H., & Müller, E. (2019). Differences in 3D kinematics between volleyball and beach volleyball spike movements. *Sports Biomechanics*, 18(1), 86-97.

23. Wagner, H., Tilp, M., & Duvillard, S. P. (2022). Technical and biomechanical analysis of blocking in volleyball. *Journal of Sports Science & Medicine*, 21(3), 466-477.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Никитина Е.В.
Тожибоева У.К.
Институт ботаники Академии наук Республики Узбекистан, Ташкент
elenanikita2013@rambler.ru

УДК 502:75:582:577.21

ИДЕНТИФИКАЦИЯ ВИДОВ СЕМЕЙСТВА *LAMIACEAE* С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЕЙ ITS-РЕГИОНА РИБОСОМНОЙ ДНК

Аннотация: *В данной работе изучена эффективность применения ITS региона в качестве молекулярного маркера с целью генетической идентификации представителей семейства Lamiaceae, произрастающих на территории Узбекистана. Показано, что 76 видов семейства Lamiaceae, относящихся к 3 подсемействам и 26 родам, хорошо различимы на молекулярном уровне. Построенная филогенетическая сеть на основании нуклеотидной вариабельности ITS региона, полностью согласуется с существующей классической таксономией этого семейства, основанной на морфологических особенностях. Полученные результаты позволяют рассматривать участок ITS в качестве маркера для установления видовой принадлежности.*

Ключевые слова: *биоразнообразие, ДНК-штрихкодирование, Lamiaceae, ITS-регион, молекулярные маркеры.*

Nikitina E.V.
Tojiboeva U.K.
Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent

IDENTIFICATION OF SPECIES OF THE FAMILY LAMIACEAE USING SEQUENCES OF THE ITS REGION OF RIBOSOMAL DNA

Abstract: *The efficiency of using the ITS region as a molecular marker for genetic identification of representatives of the Lamiaceae family growing in Uzbekistan was studied. It was shown that 76 species of the Lamiaceae family, belonging to 3 subfamilies and 26 genera, are well distinguishable at the molecular level. The constructed phylogenetic network based on the nucleotide variability of the ITS region corresponds to the classical taxonomy of this family based on morphological features. The obtained results allow us to consider the ITS region as a marker for establishing species affiliation.*

Keywords: *biodiversity, DNA barcoding, Lamiaceae, ITS region, molecular markers.*

Nikitina E.V.
Tojiboeva U.K.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti

RIBOZOMAL DNKLARNING REGIONAL KETILSINDAN FOYDALANGAN LAMIACEAE OILASI TURLARINI ANIQLASH.

Annotatsiya: *O‘zbekistonda o‘sadigan Lamiaceae oilasi vakillarini genetik identifikatsiyalashda molekulyar marker sifatida ITS mintaqasidan foydalanish samaradorligi o‘rganildi. Lamiaceae oilasining 3ta kenja oila va 26 avlodga mansub 76 turi molekulyar darajada yaxshi ajralib turishi ko‘rsatildi. ITS mintaqasining nukleotid o‘zgaruvchanligi asosida tuzilgan filogenetik tarmoq morfologik belgilarga asoslangan ushbu oilaning klassik taksonomiyasiga mos keladi. Olingan natijalar ITS mintaqasini turlarga mansublikni aniqlash belgisi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.*

Kalit so‘zlar: *biologik xilma-xillik, DNK shtrix kodlash, Lamiaceae, ITS mintaqasi, molekulyar markerlar.*

Введение

Первым и важным шагом в разработке стратегии сохранения биоразнообразия является инвентаризация видового состава природных объектов, их жизнедеятельности, степени морфологической и генетической изменчивости. В результате оценивания состояния растительного генофонда, выявляются объекты, нуждающиеся в особом внимании и изучении.

Основным способом видовой идентификации растений по-прежнему остается морфологический метод, однако как надежный дополнительный подход, а в отдельных случаях и единственно возможный, используется молекулярно-генетический анализ. Применение коротких нуклеотидных последовательностей в геноме (ДНК-маркеры) позволяет определять видовую принадлежность организма, определение которых с помощью морфологических критериев затруднено. [1].

Семейство *Lamiaceae* – одно из самых крупных по количеству и разнообразию видов, что создает трудности при выяснении родственных отношений среди подсемейств и их филогении. В данной работе, вариабельность ITS-региона оказалась полностью согласованной с существующей таксономией и позволила эффективно установить статус отдельных таксономических групп внутри семейства. Цель данного исследования — генетическая идентификация видовой принадлежности образцов растительного материала видов семейства *Lamiaceae* с применением ядерной 26S рибосомальной ДНК.

Результаты и обсуждение

Область генов многокопийной ядерной рибосомной ДНК (рДНК), кодирующих структурные РНК рибосом (рРНК), широко используется в ДНК-штрихкодировании растений [2]. ITS относится к гену, кодирующему рибосомальную субъединицу 5.8S и двум граничащим с ним некодирующим локусам ДНК - ITS1, примыкающий к гену рибосомных субъединиц 18S и ITS2, примыкающий к гену 26S. ITS является наиболее часто секвенированным локусом в растениях и легко амплифицируется универсальными праймерами. Так, внутренние транскрибируемые спейсеры (ITS1 и ITS2) ядерного рибосомального оперона вариабельны и многокопийны, широко используются для разделения растений на межвидовом и межродовом уровнях [3]. ITS2 является наиболее широко используемым однолокусным штрихкодом в качестве стандартной маркерной последовательности для идентификации растений, в том числе представителей семейства *Lamiaceae*, так как легко амплифицируется и обладает достаточной изменчивостью, чтобы различать даже близкородственные виды [4, 5].

Объектами настоящего исследования являются виды семейства *Lamiaceae* Martinov, принимающие значимое участие в формировании растительного покрова Узбекистана, представляющие интерес не только с точки зрения таксономии, статуса редкости и эндемизма, а также в прикладном отношении, являясь перспективными эфиромасличными, лекарственными, медоносными, декоративными и кормовыми растениями. Данное исследование является началом изучения флоры Узбекистана методом ДНК-штрихкодирования, включающим в себя секвенирование филогенетически значимых последовательностей.

ДНК выделяли из высушенной в силикагеле или гербарной растительной ткани листьев с использованием коммерческого набора *GeneJET Plant Genomic DNA Purification Kit* (*Thermo Fisher Scientific*) .согласно протоколу производителя. Оценка концентрации ДНК проводилась спектрофотометрически с использованием прибора ImplenNanoPhotometerNP80, коэффициент OD260/280 в среднем составляла 80-100 нг/мкл для полученных образцов. Для амплификации вариабельного участка рДНК использовали праймеры ITS1 5'-TCCGTAGGTGAACCTGCGG-3'; ITS2 5'GCTGCGTTCTTCATCGATGC3' [6]. ПЦР проводили в финальном объеме 15 мкл; смесь для амплификации включала готовый буфер для проведения ПЦР *DreamTaq PCR Master Mix* (2X) (*Thermo Fisher Scientific*), прямой и обратный праймеры в конечной концентрации 0,3 пмоль/мкл и ddH2O. Матрицу ДНК вносили 1 мкл в концентрации 50 нг/мкл. Амплификацию проводили в термоциклере C1000 Touch Thermal Cycler (BioRad, США) в следующем режиме: начальная денатурация – 3 мин при 94°C, денатурация 30 с при 94°C, отжиг 30 с при 52°C, синтез 1 мин при 72°C. Финальный синтез 8 мин при 72°C. Количество циклов – 35. Результаты амплификации проверяли в 1,5% агарозном геле. Для одного вида анализировали по три индивидуальных растения, для каждого ДНК-штрихкода получено по 2 хроматограммы – одна с прямым и одна с обратным праймером. Прямой и обратный последовательности ДНК выравнивали с помощью программного обеспечения BioEdit 7.0.01. и сохраняли в формате FASTA. Множественное выравнивание консенсусных последовательностей выполняли по алгоритму ClustalW в программе MegaX.

В ходе исследования получены 48 нуклеотидные в прямой и обратной последовательности (в трех репликациях) для 24 видов *Lamiaceae*. Полученные консенсусные последовательности сравнивали с последовательностями в международной базе данных Генбанк (http://www.ncbi.nlm.nih.gov). 82 последовательности участка ITS, используемые для построения дендрограммы, были загружены из базы данных GenBank. ДНК штрихкод, продемонстрировал возможность успешной, быстрой и точной молекулярной идентификации на уровне видов для определения таксономической принадлежности растений. Матрица выравниваний ITS-последовательностей областью целевого маркера для сравнительного анализа составляла 610 п.н., с 453 вариабельных сайтами (V), из которых 348 оказались парсимонически-информативными (Pi) (График 1).

| | | |

Lophantus, Salvia-Perovskia, Phlomoides-Eremostachys, Thymus-Origanum, Dracocephalum-Hyssopus.

Заключение

Таким образом, высокая межвидовая вариабельность позволяет однозначно различать близкородственные виды. Маркеры *ITS1* и *ITS2* оказались филогенетически информативными для представителей, произрастающих на территории Узбекистана. Проведенный филогенетический анализ подтвердил таксономический статус исследуемых образцов. ITS регион может быть рекомендован для использования в качестве молекулярного маркера.

Работа выполнена в рамках проекта: «***Молекулярно-генетическая идентификация видов лекарственных растений флоры Узбекистана и Беларуси с использованием ДНК-маркеров***».

Литература

[1] Hubert N. DNA Barcoding, species delineation and taxonomy: a historical perspective / Hubert N., Hanner R. // DNA Barcodes. 2015. Vol. 3. P. 44–58.

[2] Braukmann et. al. 2017. Testing the Efficacy of DNA Barcodes for Identifying the Vascular Plants of Canada. PLOS ONE. 12. e0169515. 10.1371/journal.pone.0169515.

[3] Yao H., Song J, Liu C. et. al. 2010. Use of ITS2 region as the universal DNA barcode for plants and animals. PLoS One 5:e13102. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0013102

[4] Bräuchler C., Meimberg H., Heubl G. 2010. Molecular phylogeny of *Menthinae* (*Lamiaceae, Nepetoideae, Mentheae*) – Taxonomy, biogeography and conflicts. Molecular Phylogenetics and Evolution, 55(2), 501–523. doi:10.1016/j.ympev.2010.01.016

[5] Salmaki Y., Zarre, S., Ryding O., et. al. 2012. Phylogeny of the tribe *Phlomideae* (Lamioideae: Lamiaceae) with special focus on Eremostachys and Phlomoides: New insights from nuclear and chloroplast sequences. TAXON, 61(1), 161–179. doi:10.1002/tax.611012

[6] White T.J., Bruns T., Lee S., Taylor J., 1990. Amplification and direct sequencing of fungal ribosomal RNA genes for phylogenetics. PCR Protocols – A Guide to Methods and Applications. United Kingdom Edition. Academic Press, San Diego, pp. 315–322.

[7] Bryant D., Moulton V. 2004. Neighbor-net: an agglomerative method for the construction of phylogenetic networks. *Mol Biol Evol.* 21(2):255-265. doi: 10.1093/molbev/msh018

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Toshmatov Sarvar Omonjon o'g'li
Namangan davlat universiteti, o'qituvchi
Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o'g'li
Namangan davlat universiteti, PhD, katta o'qituvchi
Dexqonov Davron Burxonovich
Namangan davlat universiteti, DSc, dotsent
E-mail: toshmatovsarvar94@gmail.com

FARG'ONA VODIYSI SHIMOLIY ADIRLARIDA TARQALGAN *CAROXYLON* THUNB. (AMARANTHACEAE JUSS.) TURKUM TURLARINING ZAMONAVIY KONSPEKTI

Annotatsiya. *Maqola Caroxylon* Thunb. *turkumiga mansub 5 turi (Caroxylon dendroides, Caroxylon micrantherum, Caroxylon orientale, Caroxylon scleranthum, Caroxylon turkestanicum) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, adabiyotlar tahlili, 2020-2024 yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida turkum turlarining Farg'ona vodiysi shimoliy adirlarida tarqalishini to'r tizimli xaritada ifodalanishi hamda har bir tur uchun zamonaviy konspekt tuzilgan.*

Kalit so'zlar: *flora, konspekt, Caroxylon, endem, invertarizatsiya.*

Ташматов Сарвар Омонжон угли
Наманганский государственный университет, преподаватель
Хошимов Хушбахт Рустамжон угли
Наманганский государственный университет, PhD, старший преподаватель
Дехконов Даврон Бурхонович
Наманганский государственный университет, DSc, дотцент

СОВРЕМЕННЫЙ КОНСПЕКТ ВИДОВ РОДА *CAROXYLON* THUNB. (AMARANTHACEAE JUSS.), РАСПРОСТРАНЕННЫХ НА СЕВЕРНЫХ ПРЕДГОРИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация. *В статье представлены исследования 5 видов рода Caroxylon Thunb. (Caroxylon dendroides, Caroxylon micrantherum, Caroxylon orientale, Caroxylon scleranthum, Caroxylon turkestanicum), выполнен анализ литературы, а также результаты полевых исследований, проведенных в 2020-2024 годах. Распространение видов рода на северных предгорий Ферганской долины отображено на сеточной систематической карте, и для каждого вида составлен современный конспект.*

Ключевые слова: *флора, конспект, Caroxylon, эндемик, инвентаризация.*

Tashmatov Sarvar Omonjon ugli
Namangan State University, teacher
Hoshimov Hushbaht Rustamjon ugli
Namangan State University, PhD, Senior lecture
Dekhkonov Davron Burkhonovich
Namangan State University, DSc, Associate Professor

MODERN CONSPECTUS OF *CAROXYLON* THUNB. (AMARANTHACEAE JUSS.) SPECIES DISTRIBUTED ON THE NORTHERN FOOTHILLS OF THE FERGHANA VALLEY

Abstract. *The article presents research on 5 species of the genus Caroxylon Thunb. (Caroxylon dendroides, Caroxylon micrantherum, Caroxylon orientale, Caroxylon scleranthum, Caroxylon turkestanicum), including a review of the literature and the results of field studies conducted from 2020 to 2024. The distribution of the genus species on the northern foothills of the Ferghana valley is depicted on a grid-based systematic map, and a modern synopsis has been compiled for each species.*

Keywords: *flora, synopsis, Caroxylon, endemic, inventory.*

O‘simlik dunyosi ob’ektlarini muhofaza qilish, davlat kadastrini yuritish, biologik xilma-xilligini saqlash va undan oqilona foydalanishga katta e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga, jumladan, mahalliy floralarning tur tarkibini aniqlash, ularni tabiiy o‘sish sharoitida saqlab qolish va muhofaza qilish, o‘simlik xom ashyosi zaxiralarini aniqlash hamda yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan o‘simlik turlarining *ex-situ* sharoitidagi kollektsiyalarini barpo qilish, kamyob va endem turlarni tur tarkibini aniqlash va ularning tarqalish xaritalari tuzish singari muhim natijalarga erishildi. Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining florasidagi yuksak o‘simliklarning ro‘yxati shakllantirilgan [1,4].

Farg‘ona vodiysi urbanizasiya darajasi yuqori bo‘lib, har km² maydonga 300-400 kishi to‘g‘ri keladi [1]. Bu esa bevosita antropogen omilining tabiatga ta’siri, jumladan yerlarning o‘zlashtirilishi, qurilish va sanoat korxonalarining rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida flora va fauna tarkibidagi turlarning kamayib borishi, ayrim holatlarda hududdan butunlay yo‘qolib ketishiga olib keladi [4]. Shuningdek, Biologik xilma-xillikning qaynoq nuqtalari turlarga boyligi yuqori bo‘lgan hududlarni va endemik turlarning markazlarini ifodalaydi [3]. Natijada, Farg‘ona vodiysi florasini invertirizatsiya qilish, o‘simlik turlarining zamonaviy holatini o‘rganish, kartalashtirish, tabiiy genofondini saqlab qolish nuqtai nazaridan bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Yer yuzida *Caroxylon* Thunb. turkumining 128 dan ortiq turni o‘z ichiga oladi [2]. *Caroxylon* turkumi *Salsola* turkumidan ajralib chiqgan bo‘lib, u morfologik, ekologik va molekulyar-genetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Morfologik filogenetik tadqiqotlar natijasida Caroxylon turkumi Salsola turkumidan o‘zining qat'iy **monofiliyasi hamda** o‘ziga xos trixom (tuklar) tiplari bilan farqlab bergan [14,15]. Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarida esa turkumning 5 turi tarqalgani aniqlandi [4]. Mazkur tadqiqot ishida Farg‘ona vodiysida tarqalgan *Caroxylon* turkum turlarni invertarizatsiya qilish hamda zamonaviy konspektini shakillantrish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti va metodlari.

2020-2024-yillarda maqsadli olib borilgan dala tadqiqot natijasida 4 turning 150 dan ortiq gerbariy namunalari tahlili, TASH, MW, LE, GAT da saqlanayotgan gerbariy namunalari tahlili, Plantarium-onlayn o‘simliklar aniqlagichi (https://www.plantarium.ru/) platformasi va global biologik xilma-xillik axborot xizmati (www.//gbif.org/) ma’lumotlar bazasidan olingan ma’lumotlar tahlili va adabiyot manbalarining [4,5,6,7,8,9,10] tanqidiy tahlil qilish natijasida shakllantirildi.

Konspekt tuzishda har bir tur uchun quyidagilardan foydalanildi:

Yashash joyi (hab. – lat. habitationes) ma’lumotlar konspektda floristik ishlar uchun an’anaviy shaklda asosiy turlarni ikkilamchi yashash joylari bo‘yicha berilgan. Ayrim turlarning substratlarga (masalan, qumli yoki qumloq tuproqlarga) to‘g‘ri kelishi alohida ko‘rsatilgan. Ko‘chib yuruvchi turlar uchun hozirda kuzatilayotgan yovvoyi tabiat bosqichi ko‘rsatilgan (urug‘lardan o‘sadi, lekin qishlamaydi; ko‘chgan joylarida saqlanadi, lekin tabiiy emas; ehtimol tabiiylashtirilgan; tabiiy moslashgan va hokazo.) [12].

Uchrash darajasi (**fr. - lat. frequentia**) xaritalarni yaratish uchun ishlatiladigan ma’lumotlar bazasiga muvofiq beriladi. Aniqlik uchun uchrash darajasi 3 ta ko‘rsatkich shaklida ko‘rsatilgan: 1) vujudga kelish toifalari [13] metodikasi asosida 7 bosqichli kriteriya qabul qilindi (1- jadval); 2) turlar ro‘yxatga olingan to‘r tizimli xaritadagi indekslar soni; 3) olingan natijani umumiy indekslar sonidan (160) ulushi[4].

Agar tur FVSHA florasining eng keng tarqalgan o‘simlik turidan biri bo‘lsa, lekin bu tur tizimli xato tufayli indekslarda nisbatan kam ifodalangan bo‘lsa, uchrash darajasidan oldin yulduzcha belgisi (*) qo‘yiladi.

1-jadval

Indekslarda turlarning vujudga kelish kriteriyasi bo‘yicha taqsimlanishi

№	Kriteriyalar	Indekslar soni	Ulushi %
1	Juda kam	1-5	<3,125 %
2	Kam	6-25	3,75-15,625 %
3	Yetarlicha kam	26-50	16,25-31,25 %
4	Kamroq	51-84	31,875-52,5 %
5	Yetarlicha ko‘p	85-116	53,125-72,5 %
6	Ko‘p	117-140	73,125-87,5 %
7	Juda ko‘p	>141	>88,125 %

Tarqalishi (**distrib. – lat. distributio**) mintaqadagi o‘simlik turlarning joylashishi turli xil ekologik omillarga – tabiiy va antropogen omillarga bog‘liq. Muayyan hududlarda turlarning tarqalish joylarini hisoblashda alohida tumanlar chegaralarining eng yaqin chegaralariga bog‘langan holda belgilanadi [13].

Indekslarda eng kam tarqalgan turlarning uchrash joylari uchun keltiriladi. Tur aniqlangan alohida nuqtalar haqidagi ma’lumotlarni kiritish usullari quyidagicha:

- ✓ 1-5 indekslardan ma’lum bo‘lgan turlar uchun uchrash joylari (**loc. acc. – lat. loci accurati**) berilgan, ya’ni barcha ma’lum gerbariy namunalari, adabiyot ma’lumotlari va boshqa ko‘rsatkichlar to‘liq keltirilgan;
- ✓ tabiiy floraning kam uchraydigan turlari uchun (ma’lum, qoida tariqasida, 5-10 kvadratdan), barcha

uchrash joylari (**loc.**) ham berilgan, ammo ular qisqartirilgan sxema bo‘yicha keltirilgan – geografik nuqtalar ko‘rsatilgan (lekin koordinatalarsiz), ekologik ma’lumotlar keltirilmagan, faqat gerbariy yig‘ilgan yil ko‘rsatilgan va gerbariy namunalari teruvchilarsiz yoki raqamlarisiz;

✓ mintaqada notekis tarqalgan turlar uchun ba’zida alohida uchrash joylar ko‘rsatilgan (**loc. select. – lat. loci selecti**) - bu ma’lum tabiiy hududlardagi yagona joylar, uzoq vaqt davomida aniqlanmagan yoki o‘ziga xos bo‘lmagan uchrash joylarida topilgan joylar bo‘lishi mumkin.

✓ Maxsus himoya qilinadigan turlar uchun (**stat. prot. – lat. status protectiones**) qo‘llaniladi. Masalan, “Qizil kitob”ga kiritilgan turlar [11].

Munozara va olingan natijalar.

Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarida tarqalgan *Caroxylon* turkumining 5 turi uchun zamonaviy konspekt shakillantirildi. Konspektda turning chop etilgan ilk nashri, tarqalish areali, indekslarda uchrash darajasi, ekologiyasi, tuprog‘i balandlik mintaqasi, botanik-geografik rayonlarda uchrashi hamda indekslarda turlarning uchrash joylari keltirilgan.

***Caroxylon* Thunb.- Sho‘rak**

1. *Caroxylon dendroides* (Pall.) Tzvelev. Ukrayins'k. Bot. Zhurn. 50: 81 (1993). daraxsimon sho‘rak

=*Nitrosalsola dendroides* (Pall.) Theodorova in Ukrayins'k. Bot. Zhurn. 72: 443 (2015)

=*Salsola dendroides* Pall. in Ill. Pl.: 22 (1803)


Hab. Sho‘rlangan maydonlar, gipsli gil, lyoss tuproqlar va shag‘alli yon bag‘irlarda tarqalgan.

***Fr.** Yetarlicha kam 45 indeks (28.21 %) (1-rasm)

Distrib. Tarbagatay, Jung‘or Olatog‘i, Tiyon-Shon, Pomir-Oloy

Adm. Hamma hududda.

Loc. acc. I-2 F, I-2-a JCHBGR; I-1 ZTO, I-1-e CHBGR



1-rasm. *Caroxylon dendroides* turining to‘r tizimli xaritasi

2. *Caroxylon micrantherum* (Botsch.) Sukhor. Karpologiya Chenopodiaceae: 348 (2014). Maydachangdonli sho‘rak.

=*Nitrosalsola micranthera* (Botsch.) Theodorova in Ukrayins'k. Bot. Zhurn. 72: 444 (2015)

=*Salsola micranthera* Botsch. in Bot. Mater. Gerb. Inst. Bot. Zool. Akad. Nauk Uzbeksk. S.S.R. 13: 5 (1952)

Hab. Sho‘rxoklar, qumli, gilli tuproqlar hamda cho‘llar, to‘qaylar


***Fr.** Judda kam 2 indeks (1.25%) (2-rasm)

Distrib. O‘rta Osiyo, G‘arbiy Xitoy

Adm. Chust

Loc. acc. I-1 ZTO, I-1-e CHBGR

Loc. Select. CF268: Farg‘ona vodiysi. Yangi-ariq irrigatsiya maydoni. Mahalla st. Chust. Ariq bo‘ylab. 27.06.1928. A.F.Ioffe.



2-rasm. *Caroxylon micrantherum* turining to‘r tizimli xaritasi

3. *Caroxylon orientale* (S.G.Gmel.) Tzvelev Ukrayins'k. Bot. Zhurn. 50: 80 (1993). Sharq Sho‘ragi.

=*Nitrosalsola orientalis* (S.G.Gmel.) Theodorova in Ukrayins'k. Bot. Zhurn. 72: 444 (2015)

=*Salsola orientalis* S.G.Gmel. in Reise Russland 4: 47 (1784)


Hab. qumli, gilli, shag‘alli cho‘llar, sho‘r yerlar, toshli, shag‘alli yon bag‘irlar,

***Fr.** Yetarlicha kam 42 indeks (26.25%) (3-rasm)

Distrib. Markaziy va Janubi-G‘arbiy Osiyo

Adm. Hamma hududda uchraydi.

Loc. acc. I-2 F, I-2-a JCHBGR; I-1 ZTO, I-1-e CHBGR



3-rasm. *Caroxylon orientale* turining to‘r tizimli xaritasi


4. ***Caroxylon scleranthum*** **(C.A.Mey.) Akhani & Roalson.** First published in Int. J. Pl. Sci. 168: 947 (2007)

=*Salsola sclerantha* C.A.Mey. in K.E.I.von Eichwald, Pl. Nov. Casp.-Cauc.: 35 (1835)

***Fr.** Yetarlicha kam 32 indeks (3,125%) (4-rasm)

Adm. Hamma hududda uchraydi.

Loc. acc. I-2 F, I-2-a JCHBGR; I-1 ZTO, I-1-e CHBGR



4-rasm. ***Caroxylon scleranthum*** **turining to‘r tizimli xaritasi**


5. ***Caroxylon turkestanicum*** **(Litv.) Akhani & Roalson.** First published in Int. J. Pl. Sci. 168: 948 (2007).Turkiston sho‘ragi.

=*Salsola turkestanica* Litv. in Trudy Bot. Muz. Imp. Akad. Nauk 7: 78 (1910)

***Fr.** Yetarlicha kam 26 indeks (16.25%) (5-rasm)

Adm. Hamma hududda uchraydi

Loc. acc. I-2 F, I-2-a JCHBGR; I-1 ZTO, I-1-e CHBGR



5-rasm. ***Caroxylon turkestanicum*** **turining to‘r tizimli xaritasi**

Indekslarda turlarning vujudga kelish kriteriyasi bo‘yicha taqsimlanishi shuni ko‘rsatdiki 1 tur (*C. micrantherum*) juda kam va 4 tur (*C. turkestanicum, C. scleranthum, C. orientale, C. dendroides*) yetarlicha kam kriteriyalariga tug‘ri keldi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarida *Caroxylon* turkumining 5 turini uchrashi aniqlandi hamda har bir tur uchun zamonaviy konspekti keltirildi. Turlarning Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlari florasida tarqalganni aniqlash kelgusida olib borilishi rejalashtirilgan tadqiqotlar va O‘zbekiston florasining kelgusidagi Amaranthaceae oilasiga bag‘ishlangan yangi nashri uchun hamda Farg‘ona vodiysi florasining yangi ro‘yxatini shakillantrish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. CEPF (Critical Ecosystem Partnership Fund). Ecosystem Profile. Mountains of Central Asia Biodiversity Hotspot // Final Version, 2017. – 202 pp.

2. POWO (2024). "Plants of the World Online. Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. Published on the Internet; https://powo.science.kew.org/Retrieved 10 December 2024.

3. Tojibaev KS, Karimov FI, Hoshimov HR, Gulomov R, Lazkov GA, Jang C-G, Gil H-Y, Jang J-E, Batoshov AR, Iskandarov A, Choi HJ (2023) Important plant areas (IPAs) in the Fergana Valley (Central Asia): The Bozbu-Too-Ungortepa massif. Nature Conservation 51: 13–70. https://doi.org/10.3897/natureconservation.51.94477

4. Xoshimov X.R. Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining florasi. Dissertatsiya. Toshkent 2023. 166-251.

5. Арифханова М.М. Растительность Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 1967. – 296 с.

6. Бондаренко О.Н. Растительность Наманганской области и её хозяйственное значение: Дис… канд. биол. наук. – Ташкент, 1955. –30-220 с.

7. Верник Р.С., Рахимова Т.Т. Естественная растительность и пастбища адыров Наманганской области. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 4-85.

8. Кнорринг О.Э. Ботанико-географический очерк Наманганского уезда. //Труды. почв.-ботан. экспед. исслед. колонизац. район. Азиат. Росс. –Петроград: Переселенческого управления, 1915. ч. 2., в. 5. – С. 62-103.

9. Кудряшев С.Н. Эфирно-масличные растения Южных склонов васточного Чаткала. – Тошкент: изд. КН УзССР,1938. –С. 1-181.

10. Набиев М.М. Растительность пестроцветных толщ бассейна р. Майлисая (Восточная часть Ферганской долины). // Труды Ин-та ботаники АНУзССР. Вып. 5. – Ташкент, 1959. – С 197-291.

11. Серегин А.П. Новая флора национального парка «Мещера» (Владимирская область): Конспект, атлас, характерные черты, динамика в распространении видов за десять лет (2002–2012). Тула, 2013 а. – 297 с.

12. Серегин А.П. Сеточное картирование флоры Владимирской области (Россия): от распространения видов к распространению сообществ // Растительность России. СПб 2013. № 23 b. – С. 36-56.

13. Серегин А.П. Флора Владимирской области: конспект и атлас // А.П. Серегин при участии Е.А. Боровичева, К.П. Глазуновой, Ю.С. Кокошниковой, А.Н. Сенникова. – Тула, 2012. – 620 с.

14. Фёдорова Т.А. Филогенетические отношения южноафриканских солянок (секции *Caroxylon* и *Tetragonae* рода *Caroxylon*, Chenopodiaceae) по данным морфологии и молекулярной филогении. Turczaninowia 2011, 14(3) : 69–76

15. Федорова Т.А., Самигуллин Т.Х. Таксономическое положение видов подсекции *Vermiculatae* Botsch. секции *Caroxylon* (Thunb.) Fenzl рода *Salsola* L. (Chenopodiaceae Juss.) // Вопросы современной альгологии. 2014. № 3S (7S). По Материалам Международной конференции «Экологическая физиология водных фототрофов: распространение, запасы, химический состав и использование» III Сабининские чтения. Ч.2. URL: http://algology.ru/525

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Dilnoza Azimova Ergashevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti

NUROTA BOTANIK-GEOGRAFIK OKRUGI ENDEM O‘SIMLIK TURLARINING BIOIQLIMIY MODELLASHTIRISH ORQALI YASHASH MUHITI O‘ZGARISHLARINI TAHLIL QILISH

Annotatsiya. *Maqolada Nurota botanik-geografik okrugi endem o‘simlik turlarining bioiqlimiy modellashtirish orqali yashash muhiti o‘zgarishlarining tahlili haqida ma’lumotlar keltirilgan. Nurota botanik-geografik okrugi endem o‘simlik turlarining bioiqlimiy modellashtirish xaritasi ham berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Gerbariy, illyustratsiya, TASH ba’zasi, endem turlar, morfologik belgilar, botanik-geografik rayon.*

Dilnoza Azimova Ergashevna
Jizzakh State Pedagogical University

ANALYSIS OF ENVIRONMENTAL CHANGES OF ENDEMIC PLANT SPECIES IN NUROTA BOTANICAL-GEOGRAPHICAL DISTRICT THROUGH BIOCLIMATE MODELING

Abstract. *The article presents information on the analysis of habitat changes of endemic plant species of the Nurota botanical-geographical district through bioclimatic modeling. A bioclimatic modeling map of endemic plant species of the Nurota botanical-geographical district is also presented.*

Keywords. *Herbarium, illustration, TASH database, endemic species, morphological characters, botanical-geographical district.*

Дильноза Азимова Эргашевна
Джизакский государственный педагогический университет

АНАЛИЗ ИЗМЕНЕНИЙ СРЕДЫ ЭНДЕМИЧНЫХ ВИДОВ РАСТЕНИЙ В НУРОТИНСКОМ БОТАНИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОМ РАЙОНЕ ПУТЕМ МОДЕЛИРОВАНИЯ БИОКЛИМАТА

Аннотация: *В статье представлены данные об анализе изменений среды обитания эндемичных видов растений Нуротинского ботанико-географического округа с использованием биоклиматического моделирования. Также приведена карта биоклиматического моделирования ареала эндемичных видов растений данного округа.*

Ключевые слова: *гербарий, иллюстрация, база данных TASH, эндемичные виды, морфологические признаки, ботанико-географический район.*

So‘nggi yillarda turlar tarqalishining zamonaviy modellari (Species Distribution Models, SDMs) keng miqyosda qo‘llanilib, ularning iqlim o‘zgarishiga qanday javob berishini baholash va hozirgi hamda kelajakdagi tarqalish xaritalarini bashorat qilishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda [1, 2]. SDMlar yordamida yashash muhiti uchun ekologik moslikni hamda turlar tomonidan rivojlangan moslashuv strategiyalarini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa biologik xilma-xillikni saqlash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarga muhim hududlarni aniqlash, xavf ostida bo‘lgan turlarni muhofaza qilish bo‘yicha samarali choralarni ishlab chiqish va ularni boshqarish strategiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, bu yondashuv turlarning mahalliy darajada yo‘q bo‘lib ketishining oldini olish va konservatsiya (o‘simliklarni saqlab qolish) sa’y-harakatlarini yanada kuchaytirish uchun zamin yaratadi [3].

Bir nechta tadqiqotlar MaxEnt usulidan foydalanib, O‘zbekistondagi endemik turlarni tarqalishini model qilishda ishlatilgan va bu turlar ustida iqlim o‘zgarishining ta’siri haqida qimmatli ma’lumotlar taqdim etgan. Masalan, Markaziy Osiyoda o‘sadigan bir nechta lola turlari, xususan *Tulipa korolkowii*, *Tulipa lehmanniana* va *Tulipa ferganica* ning iqlim o‘zgarishidan qanday ta’sirlanishini aniqlash maqsadida MaxEnt usuli bilan turlarni tarqalishini model qilish o‘rganilgan [4]. Yana bir tadqiqot, O‘zbekistondagi Nurota tog‘larida joylashgan endemik turlarni iqlim o‘zgarishi ta’sirini bashorat qilish maqsadida turlar tarqalishini model qilish (SDM) usuli qo‘llanildi. Tadqiqotchilar tomonidan 27 ta o‘simlik turlarining

yashash muhiti mosligini tahlil qilib, ayniqsa tor endemiklar bo‘yicha natijalari ko‘rib chiqildi. [5]

Mavjud SDMlar ichida MaxEnt (Maksimal Entropiya) modeli bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, yuqori bashoratlilik darajasi, qisqa hisoblash vaqti va aniq modellashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, faqat mavjudlik nuqtalari mavjud bo‘lgan, ma’lumotlar soni cheklangan va areali tor turlarni o‘rganishda MaxEnt modeli samaradorligi yuqori bo‘ladi [6]. MaxEnt — bu tur tarqalishini baholashda qo‘llaniladigan ko‘p parametrli statistik yondashuv bo‘lib, u mavjud bo‘lgan notugal ma’lumotlar asosida ehtimollik taqsimotining maksimal entropiyasini aniqlashga asoslanadi. Modelning ishlash sifatini baholash uchun egri chiziq ostidagi maydon (Area Under the Curve, AUC) ko‘rsatkichidan foydalaniladi. AUC qiymati 0,7 dan past bo‘lsa, bu modelning past aniqligini bildiradi; 0,7–0,9 oralig‘idagi qiymatlar qoniqarli bashorat natijalarini; 0,9 dan yuqori bo‘lgan qiymatlar esa yuqori aniqlikka ega modelni anglatadi va u keyingi tahlillarda qo‘llanishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda zarur bo‘lgan ekologik omillar haqidagi ma’lumotlar turli ochiq manbalardan yig‘ildi. Xususan, 1970–2000 yillar oralig‘ini o‘z ichiga olgan 19 ta global bioiqlim o‘zgaruvchisi WorldClim (https://www.worldclim.org/) ma’lumotlar bazasidan olindi. Kelajakdagi iqlim bashoratlarini, xususan, 2070-yil uchun RCP2.5 va RCP8.5 ssenariylari asosida, CCAFS (Climate Change, Agriculture and Food Security) portalidan (https://ccafs-climate.org/data_spatial_downscaling/) yuklab olindi. Qo‘shimcha ravishda, tuproq bilan bog‘liq ma’lumotlar Harmonized World Soil Database (HWSD) 1.2 versiyasi orqali yig‘ildi, jumladan, 4 ta ekspozitsiya va 8 ta qiyalik ko‘rsatkichlari (foydalanilgan sana: 2024-yil 25-mart).

Tadqiqot doirasida MaxEnt dasturiy ta’minoti yordamida bioiqlimiy ssenariylarga asoslangan holda, populyatsiyasi kamayib borayotgan endemik va noyob o‘simlik turlarining hozirgi va kelajakdagi potentsial tarqalish xaritalari modellashtirildi. Bunda 1970–2000 yillardagi tarixiy bioiqlimiy ma’lumotlar bilan 2070-yil uchun RCP8.5 ssenariysi asosida olingan bashoratlar o‘zaro solishtirildi. Natijada, o‘simliklarning optimal yashash sharoitlari, asosiy ekologik omillar (masalan, yillik harorat amplitudasi, eng sovuq chorakdagi yog‘ingarchilik, balandlik, qiyalik gradienti va boshqa bioiqlimiy parametrlarning) ta’siri aniqlanib, ularning tarqalish maydonida yuzaga keladigan o‘zgarishlar bashorat qilindi.


O‘zbekiston Respublikasi yer maydonining umumiy hajmi 448,925 km² ni tashkil etadi. Ayni paytda mamlakat hududining 9.53 foizi, ya’ni 42,788 km² qismi muhofaza etilgan hududlar sifatida ajratilgan. Respublika bo‘yicha jami 42 ta rasmiy muhofaza etilgan hudud mavjud. Ushbu hududlar xalqaro miqyosda tan olingan IUCN (Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi) boshqaruv toifalari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi

1-jadval.

Toifa	Hududlar soni	Foiz
Ia – Ilmiy qat’iy qo‘riqlanadigan hududlar	6	14.29%
Ib – Yovvoyi tabiiy hududlar	1	2.38%
II – Milliy bog‘lar	7	16.67%
III – Tabiiy yodgorliklar	8	19.05%
IV – Biotoplar va turlarni faol muhofaza qilishga yo‘naltirilgan hududlar	12	28.57%
VI – Barqaror foydalanishga asoslangan muhofaza etilgan hududlar	1	2.38%
Toifa ko‘rsatilmagan	2	4.76%
Qo‘llanilmaydigan toifa	3	7.14%
Belgilanmagan toifa	2	4.76%

Nurota botanik-geografik okrugi (BGO) 3 ta regionga Nurota, Oqtog ‘ va Nurota qoldiq tog‘lariga bo‘lingan (1rasm). Xarita tahlili natijalariga ko‘ra, endemik turlar zich joylashgan hududlar asosan Nurota tog‘ tizmasi va Nurota qoldiq tog‘lari hududlariga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, Nurota davlat qo‘riqxonasi, Qo‘shrabot davlat buyurtma qo‘riqxonasi, va ularga tutash tog‘li hududlarda og‘irlik endemizmi yuqori bo‘lgan nuqtalar (ko‘k va to‘q yashil ranglar) aniqlangan. Bu esa mazkur hududlarda noyob va endemik turlar xilma-xilligining yuqoriligini ko‘rsatadi.


Iqlim o‘zgarishi natijasida *Acantholimon nuratavicum* ning optimal yashash muhiti o‘zgaradi. Yog‘ingarchilik bilan bog‘liq omillarning ta’siri ortib, issiqlik bilan bog‘liq omillarning ta’siri pasayishi mumkin. Ayniqsa, turning tarqalishiga balandlikning ahamiyati kelajakda ortadi, bu esa ushbu turni muhofaza qilish strategiyalarida balandlik gradientlarini hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi.



1-rasm. *Acantholimon nuratavicum* turining 1970–2000 yillardagi tarixiy va 2070-yil RCP8.5 ssenariysi bo‘yicha bioiqlimiy modellashtirish xaritasi.


Astragalus nuratensis ning tarqalishi 1970–2000 va 2070 yil (RCP8.5 ssenariysi) bo‘yicha tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, ushbu turning areali vaqt o‘tishi bilan muhim o‘zgarishlarga uchrashi mumkin.

Samarqand viloyati hududida tarqalish deyarli saqlanib qolgan, ammo zichlik pasaygan. 1970–2000 yillar davomida *GloSlopesCl2* (0.5 % ≤ qiyalik ≤ 2 %), *GloSlopesCl1* (0 % ≤ qiyalik ≤ 0.5 %), *GloSlopesCl7* (30 % ≤ qiyalik ≤ 45 %) kabi iqlim omillari o‘simlikning tarqalishiga katta hissa qo‘shgan. 2070 yil uchun RCP8.5 ssenariysi bo‘yicha, *slope2* (0.5 % ≤ qiyalik ≤ 2 %), *slope1* (0 % ≤ qiyalik ≤ 0.5 %), *slope3* (2 % ≤ qiyalik ≤ 5 %) qiyaliklarining ta’siri kutilmoqda. Bundan tashqari, *bio18* (eng issiq chorakdagi yog‘ingarchilik), *bio14* (qurg‘oqchilik oyidagi yog‘ingarchilik) va *bio17* (quruq chorakdagi yog‘ingarchilik) kabi omillar ham o‘simlikning tarqalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.



2-rasm. *Astragalus nuratensis* turining 1970–2000 yillardagi tarixiy va 2070-yil RCP8.5 ssenariysi bo‘yicha bioiqlimiy modellashtirish xaritasi.


Cousinia botschantzevii turining hozirgi va kelajakdagi (2070 yil, RCP8.5 ssenariysi) tarqalish maydoni tahlil qilindi. 1970–2000 yillar davridagi bashoratlangan tarqalish hududlari xaritada qizil va sariq ranglar bilan ifodalangan. Model natijalari shuni ko‘rsatdiki, *C. botschantzevii* turlarining asosiy populyatsiyalari Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlarining tog‘oldi hududlarida joylashgan. Kelajak (2070 yil, RCP8.5) uchun bashorat qilingan xaritaga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi natijasida ushbu turning yashash joylari sezilarli darajada o‘zgaradi. Issiqlik va qurg‘oqchilikning oshishi natijasida Jizzax viloyatida turning tarqalish maydoni qisqarishi kuzatilmoqda.



3-rasm. *Cousinia botschantzevii* turining 1970–2000 yillardagi tarixiy va 2070-yil RCP8.5 ssenariysi bo‘yicha bioiqlimiy modellashtirish xaritasi.


Arctium pallidivirens ning tarqalishi 1970-2000 va 2070 yil (RCP8.5 ssenariysi) bo‘yicha tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, ushbu turning areali vaqt o‘tishi bilan sezilarli o‘zgarishlarga uchrashi mumkin.

Tarixiy tarqalish (1970–2000): *Arctium pallidivirens* ning asosiy populyatsiyalari Navoiy va Jizzax viloyatlarida joylashgan. O‘simlik asosan tog‘ oldi va baland tog‘ hududlarida uchraydi, Samarqand viloyatining ayrim qismlarida ham tarqalgan. Eng yuqori zichlik Navoiy va Jizzax oralig‘idagi tog‘li hududlarda kuzatilgan.



4-rasm. ***Arctium pallidivirens*** turining 1970–2000 yillardagi tarixiy va 2070-yil RCP8.5 ssenariysi bo‘yicha bioiqlimiy modellashtirish xaritasi.

Autumnalia innopinata turining hozirgi (1970–2000) va kelajakdagi (2070, RCP8.5) iqlim sharoitlaridagi potensial tarqalishini bashorat qilish uchun ishlatildi. Natijalar vaqt o‘tishi bilan turning mos yashash muhitida sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda. 1970–2000 yillardagi asosiy davr uchun olingan model natijalari *A. innopinata* ning asosan O‘zbekistonning markaziy va g‘arbiy hududlarida, xususan, Navoiy, Samarqand, Buxoro va qisman Qashqadaryo viloyatlarida mos yashash joylariga ega ekanligini ko‘rsatdi. Turning yashash joylari asosan yarim cho‘l va qurg‘oqchil hududlarda to‘plangan bo‘lib, bu uning o‘ziga xos ekologik sharoitlarga bog‘liqligini anglatadi. 2070 yil uchun RCP8.5 iqlim ssenariysi bo‘yicha model natijalari mos yashash hududlarining sezilarli darajada qisqarishini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Samarqand va Qashqadaryoda turning yashash joylari keskin kamayib, faqat kichik oraliq maydonlar saqlanib qolgan. Navoiyda esa oz miqdorda yashash joylari saqlanib qolgan bo‘lsa-da, Buxoro va Qashqadaryoning g‘arbiy hududlarida biroz kengayish kuzatilmoqda, bu turning yashash joylari iqlim o‘zgarishlariga javoban siljishi mumkinligini ko‘rsatadi.



5-rasm. ***Arctium pallidivirens*** turining 1970–2000 yillardagi tarixiy va 2070-yil RCP8.5 ssenariysi bo‘yicha bioiqlimiy modellashtirish xaritasi.

1970–2000 yillarda *Slope6* (15 % ≤ qiyalik ≤ 30 %), *slope2* (0.5 % ≤ qiyalik ≤ 2 %), *bio6* (eng sovuq oyning minimal harorati) va *bio4* (haroratning mavsumiyligi) kabi iqlim omillari o‘simlikning tarqalishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. 2070 yil uchun RCP8.5 ssenariysi asosida,

Slope6, *slope2*, *bio14* (qurg‘oqchilik oyidagi yog‘ingarchilik), va *bio18* (eng issiq chorakdagi yog‘ingarchilik) o‘zgarishlarining o‘simlikning tarqalishiga ta’siri sezilarli bo‘lishi kutilmoqda. Bu omillar o‘simlikning ekologik moslashuvini va tarqalish maydonlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar

1. Qin, A.L.; Jin, K.; Batsaikhan, M.E.; Nyamjav, J.; Li, G.L.; Li, J.; Xue, Y.D.; Sun, G.; Wu, L.J.; Indree, T.; et al. Predicting the current and future suitable habitats of the main dietary plants of the Gobi Bear using MaxEnt modeling. Glob. Ecol. Conserv. 2020, 22, e01032.

2. Franklin, J. Species distribution models in conservation biogeography: Developments and challenges. Divers. Distrib. 2013, 19, 1217–1223.

3. Hu, W.J.; Wang, Y.Y.; Dong, P.; Zhang, D.; Yu, W.W.; Ma, Z.Y.; Chen, G.C.; Liu, Z.H.; Du, J.G.; Chen, B.; et al. Predicting potential mangrove distributions at the global northern distribution margin using an ecological niche model: Determining conservation and reforestation involvement. For. Ecol. Manag. 2020, 478, 118517.

4.Davron, D., Temur, A., Umida, T., Sari, I., & Komiljon, T. S. (2023). Suitable habitat prediction with a huge set of variables on some Central Asian tulips. *Journal of Asia-Pacific Biodiversity*, *16*(1), 75-82.

5.Volis, S., & Beshko, N. (2023). How to preserve narrow endemics in view of climate change? The Nuratau Mountains as the case.Plant Diversity of Central Asia (2023) 2(2): 82–101

6. Rhoden, C.M.; Peterman, W.E.; Taylor, C.A. Maxent-directed field surveys identify new populations of narrowly endemic habitat specialists. PeerJ 2017, 5, e3632.

7. UNEP-WCMC (2025). Protected Area Profile for Uzbekistan from the World Database on Protected Areas, April 2025. Available at: www.protectedplanet.net

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Tadjiev Anvar Yuldashevich
Urganch davlat universiteti, dotsent
anvartadjiev@mail.ru
Ismatov Azamat Muydinjonovich
Namangan davlat universiteti, katta o'qituvchi

UO'K: 57.579.67

DIAGNOSTIK FERMENTLAR ISHLAB CHIQARISH TAHLIL, PROGNOZ VA TENDENTSIYALAR

Annotatsiya. *Diagnostik fermentlari ishlab chiqarish va ularni qo'llash orqali inson salomatligida muhim o'rin tutuvchi va zaruriy bo'lgan oqsillar, vitaminlar va aminokislotalar bilan ta'minlash asosiy masalalardan biridir.*

Kalit so'zlar: *Diagnostik fermentlari, mikroorganizm, nukleaza*

Таджиев Анвар Юлдашевич
Ургенческий государственный университет, доцент
Исматов Азамат Муйдинжанович
Наманганский государственный университет, старший преподаватель

АНАЛИЗ, ПРОГНОЗ И ТЕНДЕНЦИИ ПРОИЗВОДСТВА ДИАГНОСТИЧЕСКИХ ФЕРМЕНТОВ

Аннотация. *Одним из основных вопросов является обеспечение важными и необходимыми для здоровья человека белками, витаминами и аминокислотами посредством производства и использования диагностических ферментов.*

Ключевые слова: *Диагностические ферменты, микроорганизмы, нуклеазы.*

Tadjiev Anvar Yuldashevich
Urgench state university, docent
Ismatov Azamat Muydinjonovich
Namangan state university, senior teacher

ANALYSIS, FORECAST AND TRENDS IN DIAGNOSTIC ENZYME PRODUCTION

Annotation. *One of the main issues is the provision of proteins, vitamins and amino acids that are important and necessary for human health through the production and use of diagnostic enzymes.*

Key words: *Diagnostic enzymes, microorganisms, nucleases.*

Kirish

Fermentlar dori sifatida ularni boshqa barcha dori turlaridan ajratib turadigan ikkita muhim xususiyatga ega. Birinchidan, fermentlar ko'pincha o'z maqsadlariga katta yaqinlik va o'ziga xoslik bilan bog'lanadi va harakat qiladi. Ikkinchidan, fermentlar katalitikdir va bir nechta maqsadli molekulalarni kerakli mahsulotlarga aylantiradi. Bu ikki xususiyat fermentlarni o'ziga xos va kuchli dorilarga aylantiradi, ular organizmda kichik molekulalar qila olmaydigan terapevtik biokimyoni amalga oshiradilar. Bu xususiyatlar ko'plab kasalliklar uchun ko'plab ferment preparatlarini ishlab chiqishga olib keldi.

Adabiyotlar tahlili

GP (EC 2.4.1.1) uglevod almashinuvida hal qiluvchi rol o'ynaydigan glikolitik fermentdir. glikogenni mobilizatsiya qilish orqali. GP uchta izoformada mavjud; GPMM, GPLL va GPBB, turli fiziologik funktsiyalarga ega. GPMM mushaklarning qisqarishini qo'llab-quvvatlaydigan mushak izoformidir, GPLL - bu qon glyukoza gomeostazini saqlaydigan jigar izoformidir va nihoyat, GPBB miyadir. anoksiya/gipoglikemiya davrida glyukoza ta'minoti uchun javob beradigan izoform. Uchtasi orasida izoformlar, GPBB ustunlik qiladi va antratsiklin kardiotoksikligi uchun biomarker sifatida ishlaydi [1, 2, 3, 4],

Tadqiqot metodologiyasi

So'lak a-amilazasi (EC 3.2.1.1) ovqat hazm qilish fermenti bo'lib, ichki a-1,4-glikozid bog'larini gidrolizlash orqali kraxmalni kichikroq uglevodlarga ajratadi. A-

amilaza faolligini o‘lchash yurak etishmovchiligini aniqlash uchun kuchli biomarker sifatida paydo bo‘ladi.

Natijalar va ularning tahlili


Diagnostik fermentlar bozori 2021-2026 yillar prognoz davrida CAGR *(o‘rtacha yilli o‘sish sur’ati)* darajasida 6,2% ga o‘sishi kutilmoqda. Garchi COVID-19 blokirovka stsenariysi tufayli qisqa vaqt davomida farmatsevtika va biotexnologiya sohalariga jiddiy ta'sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, oxir oqibat ularga COVID-19 ga qarshi yangi dori vositalari yoki vaktsinalarni ishlab chiqarish va ishga tushirish imkoniyatini taqdim etish orqali yordam berdi.

Annotatsiya. *Tadqiqotlarimizda Euphorbia farnchetii turiga mansub o'simliklardan ajratib olingan 1-O-galloil-6-O-bisgalloil-2,4-valoneil-β-D-glyukoza (PS-1), 1-O-galloil-2,3-geksagidroksidifenoil-4,6-valoneil-β-D-glyukoza (PS-2) va 1,4,6 tri-O-galloil-2,3-valoneil-β-D-glyukoza (PS-3) polifenollarining izometrik sharoitda kalamush aorta qon-tomir silliq muskuli preparati qisqarish faolligiga vazorelaksant ta'sirini ta'minlanishida retseptor boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallarining roli o'rganilgan. Tajribalarda polifenollarning vazorelaksant ta'siri retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallarining blokadasi bilan bog'liq bo'lib, FE yordamida chaqirilgan aorta silliq muskuli qisqarishlariga fentolamin mavjud sharoitda PS-1 polifenolining vazorelaksant ta'siri PS-2 va PS-3 polifenollariga nisbatan sezilarli darajada kamayishi, PS-1 polifenolining vazorelaksant ta'siri asosan retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari blokadasi bilan bog'liqligi aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *Ca^{2+}-kanallari, Ca^{2+}-ionlari, polifenol, qon tomir, silliq muskul, α_1-adrenoretseptor, fenilefrin, blokator, fentolamin.*

Ахмедов Фазлиддин Юсупович
Андижанского государственного педагогического института
Юнусов Лазизбек Содиқович
Андижанского государственного педагогического института
Зайнабиддинов Анвар Эркинжонович
Андижанского государственного университета
Холмирзаева Мадина Акрамжоновна
Андижанского государственного университета
Муталипов Азизбек Абдуллажонович
Андижанского государственного университета

РОЛЬ РЕЦЕПТОР-ЗАВИСИМЫХ CA^{2+}-КАНАЛОВ В РЕЛАКСИРУЮЩЕМ ДЕЙСТВИИ ПОЛИФЕНОЛОВ PS-1, PS-2 И PS-3 НА ПРЕПАРАТЫ ГЛАДКИХ МЫШЦ АОРТЫ КРЫСЫ

Аннотация. *В наших исследованиях были изучены роль рецептор-зависимых Ca^{2+}-каналов в вазорелаксирующем действии полифенолов 1-О-галлоил-6-О-бисгаллоил-2,4-валонеил-β-D-глюкоза (PS-1), 1-О-галлоил-2,3-гексагидроксидифеноил-4,6-валонеил-β-D-глюкоза (PS-2) и 1,4,6-три-О-галлоил-2,3-валонеил-β-D-глюкоза (PS-3), выделенные из растений вида Euphorbia farnchetii, на сократительную активность гладких мышц аортальных сосудов крысы в изометрических условиях. В экспериментах вазорелаксантный эффект полифенолов связан с блокадой рецептор-зависимых Ca^{2+}-каналов. Было обнаружено, что вазорелаксантный эффект полифенола PS-1 на вызванные FE сокращения гладких мышц аорты в присутствии фентоламина был значительно снижен по сравнению с полифенолами PS-2 и PS-3, и что вазорелаксантный эффект полифенола PS-1 был связан в основном с блокадой рецептор-зависимых Ca^{2+}-каналов.*

Ключевые слова: *Ca^{2+}-каналы, ионы Ca^{2+}, полифенол, кровеносный сосуд, гладкая мышца, α_1-адренорецептор, фенилэфрин, блокатор, фентоламин.*

Akhmedov Fazliddin Yusupovich
Andijan State Pedagogical Institute
Yunusov Lazizbek Sodiqovich
Andijan State Pedagogical Institute
Zaynabiddinov Anvar Erkinjonovich
Andijan State University
Kholmirzayeva Madina Akramjonovna
Andijan State University
Mutalipov Azizbek Abdullajonovich
Andijan State University

ROLE OF RECEPTOR-DEPENDENT CA^{2+} CHANNELS IN THE RELAXANT EFFECTS OF PS-1, PS-2, AND PS-3 POLYPHENOLS ON RAT AORTIC SMOOTH MUSCLE PREPARATIONS

Annotation. *In our studies, the role of receptor-gated Ca2+ channels in the vasorelaxant effect of 1-O-galloyl-6-O-bisgalloyl-2,4-valoneyl-β-D-glucose (PS-1), 1-O-galloyl-2,3-hexahydroxydiphenoyl-4,6-valoneyl-β-D-glucose (PS-2), and 1,4,6 tri-O-galloyl-2,3-valoneyl-β-D-glucose (PS-3) polyphenols isolated from plants of the Euphorbia farnchetii species was studied on the contractile activity of rat aortic vascular smooth muscle under isometric conditions. In experiments, the vasorelaxant effect of polyphenols is associated with the blockade of receptor-gated Ca^{2+} channels, and it was found that in the presence of phentolamine, the vasorelaxant effect of PS-1 polyphenol on FE-induced aortic smooth muscle contractions was significantly reduced compared to PS-2 and PS-3 polyphenols, and the vasorelaxant effect of PS-1 polyphenol was mainly associated with the blockade of receptor-gated Ca^{2+} channels.*

Key words: *Ca^{2+} channels, Ca^{2+} ions, polyphenol, blood vessel, smooth muscle, α_1-adrenoreceptor, phenylephrine, blocker, phentolamine.*

Kirish

Silliq muskul hujayra (SMH)lari membranasida potensialga bog‘liq Ca^{2+}-kanallaridan tashqari retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari ham mavjud bo‘lib, ushbu kanallar hujayradan tashqari ligandlar tomonidan ya’ni, gormonlar va neyrotransmitterlar yordamida faollashuvchi kanallar hisoblanadi [1]. Retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari Ca^{2+}-ionlarining kirishi bilan bog‘liq bo‘lgan signallari potensialga bog‘liq Ca^{2+}-kanallaridan farq qiladi. Ma’lumki, umurtqali hayvonlarning turli hujayra turlarida retseptorlarni stimulyatsiya natijasida fosfatidilinozitol-4,5-disfosfat [$PI(4,5)P_2$]ning fosfolipaza C (PLC) yordamida parchalanishi natijasida retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari orqali sitozolga Ca^{2+}-ionlarining kirishi kuzatiladi [2,6]. Retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallar to‘g‘ridan-to‘g‘ri agonist ishtirokida faollashuvchi Ca^{2+} kanallar hisoblanadi. Retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallar G oqsili bilan bog‘liq retseptorlar yoki tirozin kinaza bilan bog‘liq retseptorlari faollashishiga javoban aktivlashadi [3], bu esa Ca^{2+}-ionlarining qon tomir SMHlariga kirishiga olib keladi va natijada silliq muskullarning qisqarishi yuzaga keladi [4,5]. Umuman olganda siliiq muskul hujayralari qisqarishining funksional faolligida retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallarining me’yoriy holatda ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Silliq muskul hujayralari sarkoplazmasida ionlar konsentratsiyasining nazoratsiz o‘zgarishi, ion trasport tizimlarining buzilishi natijasida ularning elektr xususiyatlarining sezilarli o‘zgarishiga, qo‘zg‘aluvchanligi va qisqarish faolligining buzilishiga olib keladi. Ushbu o‘zgarishlar natijasida qon tomirlar tonusining regulyatsiyasi va umuman yurak-qon tomir tizimining faoliyati buziladi, bu oxir-oqibatda yurak-qon tomir kasalliklari, miokard infarkti, gipertenziya va insult kabi patologiyalarning rivojlanishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan, SMHlarining funksional faolligini modulyatsiya qilish mexanizmlarini va ayniqsa, unda ishtirok etuvchi ion transport tizimlarini farmakologik tartibga solish mexanizmlarini o‘rganishga hozirgi kunda alohida e’tibor qaratilmoqda.

Material va metodlar


Aorta qon tomir preparatini tayyorlash standart uslub yordamida amalga oshirildi. Tajribalar standart ozuqa va suv bilan ta’minlangan sharoitda boqilgan, sog‘lom oq, zotsiz kalamushlarda (150–200 gr.) amalga oshirildi. Tajriba hayvonlari servikal dislokatsiya usulida jonsizlantirilgandan keyin, ko‘krak qafasini jarrohlik usulida ochilib, aorta qon tomiri ajratib olindi va Krebs–Xenzelayt fiziologik eritmasi muhitida biriktiruvchi to‘qimadan tozalanib, halqasimon segmentlar (*l*=2-4 mm; ⌀=1-2 mm) shaklida kesildi. Tajriba yacheykasida (5 ml) doimiy ravishda quyidagi kimyoviy tarkibga ega bo‘lgan Krebs-Xenzeleyt fiziologik eritmasi sirkulyatsiyalandi (mM

hisobida): NaCl – 120,4; KCl – 5; $NaHCO_3$ – 15,5; NaH_2PO_4 – 1,2; $MgCl_2$ – 1,2; $CaCl_2$ – 2,5; $C_6H_{12}O_6$ – 11,5 (pH=7,4). Fiziologik eritma karbogen (O_2-95% va CO_2-5%) bilan aeratsiyalandi, harorat doimiyligi (t=+37±0,5°C) ultratermostat (U-8; Bolgariya) yordamida ta'minlandi. Aorta qon tomir preparatining qisqarish faolligi izometrik sharoitda FT-03 (Grass Instrument Co., AQSh) kuch sensori, signal kuchaytirgich qurilma (Grass Instrument, AQSh) orqali Endim 621.02 samopisesida (Chexiya) standart uslub (mexanografiya) yordamida qayd qilindi. Tajribalarda fenilefrin (1 mkM), fentolamin (10 mkM), $NaHCO_3$, $CaCl_2$, $MgSO_4$, glyukoza, NaCl, KCl, NaH_2PO_4 (Rossiya) reaktivlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, Northampton, MA 01060–4401, AQSh) maxsus dastur paketi yordamida statistik qayta ishlandi. Natijalar Lakin G.F. (1990) tomonidan keltirilgan uslublar yordamida matematik–statistik qayta ishlandi. Natijalar n marta takroriylikda amalga oshirilgan tajribalar natijalarining M±m shaklida keltirilgan bo'lib, M – o'rtacha arifmetik qiymat va m – standart xatolik qiymatini ifodalaydi. Shuningdek, tajriba natijalari guruhlar o'rtasidagi qiymatlarning statistik ishonchlilik darajasi Styudent t–mezoni asosida hisoblandi va $p<0,05$, $p<0,01$ qiymatlarda statistik ishonchli deb baholandi. Dastlab, kalamush aorta preparati 1 gr (9,8~10 mN) kuchlanish berish asosida, ~45-60 minut davomida me'yoriy elektromexanik faollik qayd qilinishga qadar inkubatsiyalandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili


Silliq muskul hujayralarida Ca^{2+} gomoeostazini boshqarilishida potensialga bog'liq Ca^{2+}-kanallaridan tashqari retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari ham muxim rol o'ynaydi. Tajribalarda o'rganilayotgan polifenollarning retseptor boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallariga ta'sir samarasini baholash uchun α_1-adrenoretseptor agonisti 1 mkM fenilefrin (FE)dan foydalanildi. FE yordamida chaqirilgan aorta muskuli qisqarishi asosan retseptor boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari orqali kiruvchi Ca^{2+}-ionlari bilan ta'minlanadi. Tajribalarimizda FE yordamida chaqirilgan aorta muskuli qisqarish kuchiga polifenollarning ta'siri o'rganildi. FE bilan chaqirilgan aorta muskuli qisqarishiga PS-1 (40 mkM) va PS-2 (25 mkM) polifenollarini ta'siri o'rganilganda qisqarish kuchini nazoratga nisbatan 81,8±6,1% va 70,1±5,4%ga maksimal kamaytirdi (1-rasm A va B).



1-rasm. PS-1 (A) va PS-2 (B) polifenollarining fenilefrin bilan chaqirilgan kalamush aortasi qisqarishiga ta'siri. PS-1 va PS-2larning 1 mkM FE bilan chaqirilgan kalamush aortasi qisqarishiga dozaga bog'liq ta'siri. Ordinata o'qida – aorta qisqarish kuchi 1 mkM FE yordamida chaqirilgan aorta qisqarish kuchi 100 % deb olingan. Abssissa o'qida – polifenollar konsentratsiyasi. (barcha holatlarda ishonchlilik ko'rsatkichi $p<0,05$ $n=4$).

Ushbu tajribalarda PS-1 va PS-2 polifenollarning EC_{50} qiymatlari mos ravishda 8,4 mkM va 13,8 mkMni tashkil qildi. Olingan natijalar, o'rganilayotgan polifenollarning kuzatilayotgan ta'siri retseptor boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallar blokadasi bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

Tajribalarimiz davomida PS-3 polifenolini ham 1 mkM FE yordamida chaqirilgan aorta qisqarish kuchiga ta'siri tekshirib ko'rildi. PS-3 polifenoli 200 mkM konsentratsiyada FE yordamida chaqirilgan aorta qisqarish kuchini nazoratga nisbatan 58±4,9%ga kamaytirishi kuzatildi (2-rasm). Ushbu sharoitda PS-3 polifenolining EC_{50} qiymati 96,2 mkMni tashkil etdi.




2-rasm. PS-3 polifenolining fenilefrin bilan chaqirilgan kalamush aortasi qisqarishiga ta'siri. Ordinata o'qi bo'yicha – 1 mkM FE yordamida chaqirilgan aorta qisqarish kuchi 100% deb olingan **(barcha holatlarda ishonchlilik ko'rsatkichi $p<0,05$ $n=3$).**

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tekshirilayotgan PS-1 va PS-2 polifenollarining FE bilan chaqirilgan aorta muskuli preparati qisqarishiga kuzatilayotgan vazorelaksant ta'siri retseptor boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallar bloklashi orqali ta'minlanishini tahmin qilish mumkin. PS-3 polifenolining FE bilan chaqirilgan aorta silliq muskuli qisqarishiga vazorelaksant ta'sirining kamligi ushbu polifenolning retseptor boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallariga ta'siri mavjud emasligidan dalolat beradi. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari asosida hulosa qiladigan bo'lsak, PS-1 polifenoli skeletiga o'rin almashuvchilarni kiritish orqali modifikatsiyalash yo'li bilan xosil qilingan PS-2 va PS-3 polifenollarining vazorelaksant faolligi FE


bilan chaqirilgan kontraktura sharoitida ancha sezilarli darajada ortishiga olib kelgan.

Tajribalarmiz davomida retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallariga tekshirilayotgan polifenollarning ta'sirini qo'shimcha tekshirish maqsadida biz α_1-adrenoretseptorlarining blokatori – fentolamindan (FA) foydalanib tadqiqotlar olib bordik. O'tkazilgan tajribalarda muhitda 10 mkM fentolamin mavjud sharoitda PS-1 (40 mkM) va PS-2 (25 mkM) polifenollarining vazorellaksant ta'siri fentolaminsiz sharoitga nisbatan 48,9±5,7% hamda 43,2±4,1%ga kamayishi kuzatildi (3-rasm).



3-rasm. PS-1 va PS-2 polifenollarining vazorelaksant samarasiga fentolaminning ta'siri. Ordinata o'qida – FE (1 mkM) yordamida chaqirilgan aorta silliq muskuli qisqarish kuchi 100% deb olingan (barcha holatlarda ishonchlilik ko'rsatkichi *p<0,01 n=4*).

Tajribalarimiz davomida PS-3 polifenolining ham retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallariga ta'sirini biz α_1-adrenoretseptorlarning blokatori – fentolamin mavjud sharoitda tekshrib ko'rdik (4-rasm). PS-3 polifenoli 200 mkM konsentratsiyada fentolamin (10 mkM) mavjud sharoitda nazoratdan 40,9±5,1%gacha susaytirishi aniqlandi.



4-rasm. PS-3 polifenolining vazorelaksant samarasiga fentolaminning ta'siri. Ordinata o'qida – FE (1 mkM) yordamida chaqirilgan aorta silliq muskuli qisqarish kuchi 100% deb olingan (barcha holatlarda ishonchlilik ko'rsatkichi *p<0,01 n=4*).

Xulosa

O'tkazilgan tajriba natijalari asosida shuni hulosa qilishimiz mumkinki, tekshirilayotgan polifenollarning vazorelaksant ta'siri retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallarining blokadasi bilan bog'liq bo'lib, FE yordamida chaqirilgan aorta silliq muskuli qisqarishlariga fentolamin mavjud sharoitda PS-1 polifenolining vazorelaksant ta'siri PS-2 va PS-3 polifenollariga nisbatan sezilarli darajada kamayishi, PS-1 polifenolining vazorelaksant ta'siri asosan retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari blokadasi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Demak, ushbu tekshirilayotgan polifenollarning vazorelaksant ta'sirini ta'minlanishida L-tipdagi Ca^{2+}-kanallari bilan birga retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanallari blokadasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki polifenollarning yuqorida keltirib o'tilgan kompleks ta'siri natijasida aorta silliq muskuli hujayralarida $[Ca^{2+}]_{in}$ miqdorining keskin kamayishi polifenollarning vazorelaksant ta'sirini ortishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Kirk Riemer and Michael A. Heymann. Regulation of Uterine Smooth Muscle Function during Gestation. // *Pediatric Research*, V. 44, –P. 615-627. (1998)

2. Bradley J. Stith. Phospholipase C and D regulation of Src, calcium release and membrane fusion during *Xenopus laevis* development. // Developmental Biology. Volume 401, Issue 2, 15 May 2015, –P. 188-205.

3. Fabio Cattaneo, Germano Guerra, Melania Parisi, Marta De Marinis, Domenico Tafuri, Mariapia Cinelli, and Rosario Ammendola. Cell-Surface Receptors Transactivation Mediated by G Protein-Coupled Receptors. // Int J Mol Sci. 2014 Nov; 15(11): –P. 19700-19728.

4. Qing-Hua Liu, Yun-Min Zheng, Amit S Korde, Vishal R Yadav, Rakesh Rathore, Jürgen Wess, Yong-Xiao Wang. Membrane depolarization causes a direct activation of G protein-coupled receptors leading to local Ca^{2+} release in smooth muscle. // Proc Natl Acad Sci USA., 2009. Jul 7;106(27): –P. 11418-11423.

5. Ahmedov Fazliddin, Zaynabiddinov Anvar, Yunusov Lazizbek, Mutalipov Azizbek. Vazorelaxant Effect Of The PC-3 And PC-2 Polifenol Compounds Depending On Their Chemical Structure // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume 7, Issue 8, 2020, –P 1145-1155.

6. Akhmedov F., Zaynabiddinov A., Gayibov U., Rakhimov R. Role of the Na^{+}/Ca^{2+}-exchange system in the vaso-relaxant effect of polyphenols 1-O-galliol-6-O-bisgalliol-2,4-valoneil-B-D-glucose and 1-O-halloil-2,3-hexahydroxydiphenoil-4,6-valoneil-B-D-glucose on the muscle of the aorta // Norwegian Journal of development of the International Science. No 115/2023, –P 3-7.

7. Yunusov. L., Zaynabiddinov A., Adizov Sh., Khalilov E., Ahmedov F., Mutalipov A., Gayibov U. Vasorelaxant Effect of Copsinine and N4-Iodine Methylate Copsinin Alkaloids // Advances in Biotechnology & Microbiology. Volume 15. Issue 3, 2020, –P 52-54.

8. Yunusov L.C., Zaynabiddinov A.E., Kholmirzaeva M.A., Kholisov A.Sh. The effect of alkaloides of copsinine and N1-acetyl copsinine isolated from Vince erecta plant species on the sarcoplasmic reticulum Ca2+ -transport system of aortic smooth muscle // African Journal of Biological Sciences. Volume 6, Issue 8, 2024, –P 79-86.

9. Mutalipov A., Zaynabiddinov A., Kholmirzayeva M., Usmanov P., Juraboev Sh., Rakhimov R. Description of the influence of 1-o-galloyl-4,6-hexahydroxydiphenoyl-β-D-glucose and 1,2,6-tri-ogalloy-β-D-glucose hydrolyzable tannins on the transport of Ca^{2+}-ions in the sarcoplasmatic reticulum // African Journal of Biological Sciences. Volume 6, Issue 8, 2024, –P 72-78.

10. Beilei Lei, Debra Schwinn, Daniel P Morris. Stimulation of α1a Adrenergic Receptors Induces Cellular Proliferation or Antiproliferative Hypertrophy Dependent Solely on Agonist Concentration // PLoS ONE, 2013, 8(8): –P. e72430.

11. Blake S. Wachter and Edward M. Gilbert. Beta-Adrenergic Receptors, from Their Discovery and Characterization through Their Manipulation to Beneficial Clinical Application // Cardiovascular System, *Cardiology* (2012) 122 (2): –P. 104-112.

12. Bylund D B. Subtypes of alpha 1- and alpha 2-adrenergic receptors // FASEB J, 1992 Feb 1;6(3): –P. 832-9.

13. Fabio Cattaneo, Germano Guerra, Melania Parisi, Marta De Marinis, Domenico Tafuri, Mariapia Cinelli, and Rosario Ammendola. Cell-Surface Receptors Transactivation Mediated by G Protein-Coupled Receptors. // Int J Mol Sci. 2014 Nov; 15(11): –P. 19700-19728.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

N.S. Qurbonova
ilmiy xodim, O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent

UO‘K: 595.132:633.491

KARTOSHKA AGROBIOTSENOZIDA ENTOMOPATOGEN NEMATODALAR FAUNASI VA EKOLOGIK TARQALISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatining kartoshka agrobiotsenozi hududlarida uchraydigan entomopatogen nematodalar turlarining faunaviy tarkibi va ekologik tarqalishi o‘rganildi. Tadqiqotlar davomida 2021–2024 yillarda Qumqo‘rg‘on va Sho‘rchi tumanlaridan olingan tuproq namunalari asosida Steinernema va Heterorhabditis avlodiga mansub 7 tur aniqlanib, ularning uchrash chastotasi, ekologik moslashuvchanligi va dominantlik darajalari baholandi. Olingan natijalar kartoshka ekinlarini biologik himoya qilishda samarali bo‘lgan bioagentlarni tanlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *entomopatogen nematodalar, fauna, ekologik tarqalish, agrobiotsenoz, kartoshka, dominantiya, O‘zbekiston.*

N.S. Kurbanova
Researcher, Research Institute of Plant Quarantine and Protection, Tashkent

FAUNA AND ECOLOGICAL DISTRIBUTION OF ENTOMOPATHOGENIC NEMATODES IN POTATO AGROBIOCENOSE

Аннотация. *В данной статье представлены результаты исследования фаунистического состава и экологического распространения энтомопатогенных нематод в агробиоценозе картофеля Сурхандарьинской области. На основе почвенных проб, собранных в 2021–2024 годах в районах Кумкурган и Шурчи, были выявлены 7 видов нематод, относящихся к родам Steinernema и Heterorhabditis. Проведен анализ частоты встречаемости, уровня доминантности и экологической адаптации. Полученные данные служат научной основой для выбора эффективных биологических агентов в системах защиты растений.*

Ключевые слова: *энтомопатогенные нематоды, фауна, экологическое распространение, агробиоценоз, картофель, доминантность, Узбекистан.*

Н.С. Курбанова
Научный сотрудник НИИ карантина и защиты растений, г. Ташкент

ФАУНА И ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ЭНТОМОПАТОГЕННЫХ НЕМАТОД В КАРТОФЕЛЬНОМ АГРОБИОЦЕНОЗЕ

Abstract. *This article presents the results of a study on the faunal composition and ecological distribution of entomopathogenic nematodes in the potato agrobiocenosis of the Surkhandarya region. Based on soil samples collected from Qumqo‘rg‘on and Sho‘rchi districts between 2021 and 2024, seven species belonging to the genera Steinernema and Heterorhabditis were identified. Frequency of occurrence, dominance status, and ecological adaptability were analyzed statistically. These findings provide a scientific basis for selecting effective biological control agents in agricultural ecosystems.*

Key words: *entomopathogenic nematodes, fauna, ecological distribution, agrobiocenosis, potato, dominance, Uzbekistan.*

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida kartoshka ekinining ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, kartoshka agrobiotsenozida uchraydigan zararli organizmlar, xususan, simqurt *(Agriotes spp.)*, kuzgi tunlam *(Agrotis segetum)* va boshqa ko‘p turlar soni ham ortib bormoqda. Kimyoviy vositalarning ekologik xavfi, zaharliligi va narxi yuqoriligi sababli, hozirgi kunda biologik himoya vositalarini qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshgan. Shunday bioagentlardan biri — entomopatogen nematodalar (EPNlar) hisoblanadi. Ular Steinernematidae va Heterorhabditidae oilalariga mansub bo‘lib, simbiont bakteriyalari bilan birga hasharotlar organizmida parazitlik qiladi va ularni samarali yo‘q qiladi.

Hozirgi paytda dunyo bo‘yicha entomopatogen nematodalar trixogramma va *Bacillus thuringiensis*dan keyingi uchinchi eng ko‘p qo‘llaniladigan biologik kurash vositasi hisoblanadi. Ammo O‘zbekistonda, ayniqsa kartoshka yetishtiriladigan agrobiotsenozlarda ularning faunaviy tarkibi, ekologik moslashuvi, dominantlik darajasi kabi omillar chuqur o‘rganilmagan. Ana shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida biz Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on va Sho‘rchi tumanlarida keng ko‘lamli tadqiqot olib bordik.

Mazkur maqolada kartoshka agrobiotsenozida uchraydigan entomopatogen nematodalar turlarining xilma-xilligi, uchrash chastotasi, ekologik moslashuvchanligi, hamda dominant-subdominant-retsedent taqsimoti ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ushbu ma’lumotlar nafaqat faunaviy tahlil uchun, balki dalaviy biologik kurash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on va Sho‘rchi tumanlarida 2021–2024 yillar davomida olib borildi. Ushbu hududlar kartoshka ekinining asosiy agrobiotsenozlariga kiradi va tuproq-iqlim sharoitlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotda faunistik yondashuv asosida entomopatogen nematodalar (EPNlar) tarqalishini aniqlash va ekologik baholash ishlari olib borildi.

Tuproq namunalari 25 × 25 × 25 sm o‘lchamdagi kvadrat kesim bo‘yicha olindi. Har bir tuman bo‘yicha 3 ta fermer xo‘jaligidan, har bir xo‘jalikda 5 ta nuqtadan namunalar yig‘ildi. Tuproqda yashovchi entomopatogen nematodalarni ajratib olish uchun **Kaya va Stock (1997)** taklif etgan **o‘zgartirilgan “White trap” (oq tuzoq)** usulidan foydalanildi. Namunalardan ajratib olingan nematodalar in vivo usulda ***Galleria mellonella*** lichinkalari yordamida ko‘paytirildi.

Ajratilgan namunalar morfometrik tahlil uchun Diaplan mikroskopida 400x kattalashtirishda tahlil qilindi. Quyidagi asosiy morfometrik ko‘rsatkichlar aniqlangan: tananing umumiy uzunligi (L), maksimal tana diametri (MBD), ekskretor teshikkacha bo‘lgan masofa (EP), nerv halqasigacha (NR), qizilo‘ngach asosigacha (ES), anal diametri (ABD), dum uzunligi (T).

Har bir nematoda turi bo‘yicha aniqlangan namunalar nisbiy uchrash chastotasi (F%) bo‘yicha hisoblandi:

$$F = (a / A) \times 100$$

bu yerda: a – muayyan tur aniqlangan namunalar soni, A – umumiy namunalar soni.

Shuningdek, turlar ekologik tarqalish darajasi bo‘yicha **dominant (D > 5%), subdominant (2% < D ≤ 5%) va retsedent (D ≤ 2%)** guruhlarga ajratildi.

Statistik tahlillar **Excel 2016** va **Statistica 13.3** dasturlarida o‘tkazildi. Diagrammalar va grafiklar **Python Matplotlib** kutubxonasi orqali chizildi. Turlar identifikatsiyasi uchun morfologik kalitlar, ilmiy adabiyotlar (Poinar, 1990; Nguyen & Hunt, 2007; Stock, 2005) va ilgari chop etilgan molekulyar identifikatsiya ma’lumotlari (GenBank) asosida tekshirildi.

Natijalar. Surxondaryo viloyatining kartoshka agrobiotsenozida olib borilgan entomopatogen nematodalarni faunistik o‘rganish natijasida *Steinernema* va *Heterorhabditis* avlodlariga mansub jami 7 ta tur aniqlandi. Ular quyidagilar:


1.*Steinernema carpocapsae* (Weiser, 1955)
2.*Steinernema feltiae* (Filipjev, 1934)
3.*Steinernema scarabaei* (Stock & Koppenhöfer, 2003)
4.*Steinernema scapterisci* (Nguyen & Smart, 2006)
5.*Heterorhabditis bacteriophora* (Poinar, 1976)
6.*Heterorhabditis megidis* (Poinar, Jackson & Klein, 1987)
7.*Heterorhabditis indica* (Poinar, Karunaka & David, 1992)

Har bir tur bo‘yicha uchrash chastotasi (F%) quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval.

Kartoshka agrobiotsenozida entomopatogen nematodalar uchrash chastotasi (F%)

Nematoda turi	**Uchrash chastotasi (F%), %**
Steinernema feltiae	87.5
Heterorhabditis bacteriophora	75.0
Steinernema carpocapsae	65.0
Heterorhabditis megidis	41.7
Steinernema scapterisci	20.8
Heterorhabditis indica	16.7
Steinernema scarabaei	8.3



1-rasm. Entomopatogen nematodalar uchrash chastotasi


Ekologik tarqalish darajasi (dominantlik) va tur guruhlari bo‘yicha taqsimot quyidagicha:

2-jadval.

Entomopatogen nematodalarning dominantlik darajasi va guruhlanishi

Nematoda turi	**Uchrash chastotasi (F%)**	**Ekologik maqomi**
S. feltiae	87.5	Dominant

H. bacteriophora	75.0	Dominant
S. carpocapsae	65.0	Dominant
H. megidis	41.7	Subdominant
S. scapterisci	20.8	Retsedent
H. indica	16.7	Retsedent
S. scarabaei	8.3	Subretsedent



2-rasm. Entomopatogen nematodalarning ekologik guruhlar bo‘yicha tarqalishi

Ushbu natijalardan ko‘rinadiki, *S.feltiae, H.bacteriophora* va *S.carpocapsae* kartoshka agrobiotsenozining asosiy dominant turlari sifatida belgilandi. *H.megidis* subdominant tur bo‘lsa, qolgan to‘rt turning ekologik moslashuvi nisbatan past bo‘lib, ular retsedent yoki subretsedent maqomida baholandi.

Munozara. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, kartoshka agrobiotsenozi sharoitida entomopatogen nematodalar faunasi yetarli darajada boy bo‘lib, ularning ekologik tarqalishi o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega. *Steinernema feltiae*, *Heterorhabditis bacteriophora* va *Steinernema carpocapsae* turlari yuqori uchrash chastotasi bilan ajralib turib, ushbu agroekotizim uchun asosiy biologik faol turlar qatoriga kiradi. Ular tuproq sharoitlariga keng moslashgan, rivojlanish sikli barqaror va patogenlik darajasi yuqori bo‘lgan dominant turlar hisoblanadi.

Heterorhabditis megidis subdominant tur sifatida baholandi, bu esa uning ma’lum ekologik sharoitlarda barqaror populyatsiya hosil qila olishini ko‘rsatadi. *Steinernema scapterisci*, *Heterorhabditis indica* va *Steinernema scarabaei* esa faqat cheklangan hududlarda qayd etilgan bo‘lib, ularning ekologik moslashuvchanligi pastligi sababli retsedent yoki subretsedent maqomida baholandi.

Ushbu natijalar xalqaro tadqiqotchilar, xususan, G.O. Poinar, R. Gaugler, D. Shapiro-Ilan va R.U. Ehlers tomonidan qayd etilgan ilmiy yondashuvlar bilan muvofiqlik kasb etadi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, entomopatogen nematodalarning ekologik samaradorligi faqat laboratoriya sharoitidagina emas, balki dalaviy sharoitlarda ularning adaptiv salohiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois faunaviy tarkibni aniqlash bilan birga, turlarning tarqalish dinamikasi, dominantlik darajasi va ularning agrobiotsenozga integratsiyasi ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi jadval va grafik tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, kartoshka agrobiotsenozida yuqori chastotada aniqlangan EPN turlari biologik kurash agenti sifatida tanlab olinishi va mos ekologik zonalarga moslashtirilgan holda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa.

1.Surxondaryo viloyatining kartoshka agrobiotsenozlarida entomopatogen nematodalar faunasi o‘rganilib, *Steinernema* va *Heterorhabditis* avlodlariga mansub 7 tur aniqlandi.

2.Uchrash chastotasi va ekologik tarqalishiga ko‘ra, *S. feltiae*, *H. bacteriophora* va *S. carpocapsae* turlari dominant, *H. megidis* subdominant, qolgan turlar esa retsedent yoki subretsedent sifatida baholandi.

3.Ushbu turlar o‘zaro farqli ekologik moslashuvchanlik darajasiga ega bo‘lib, agroekotizimda ulardan foydalanishdan oldin faunaviy va ekologik monitoring muhim hisoblanadi.

4.Tadqiqot natijalari EPNlarni kartoshka zararkunandalariga qarshi biologik kurash vositasi sifatida tanlashda asosiy yo‘naltiruvchi ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

5.Ushbu ma’lumotlar O‘zbekiston agrobiotsenozlari uchun mos biologik preparat formulalarini yaratish va mahalliy sharoitga moslashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 июлдаги ПФ–6262-сон Фармони. – Т.: 2021..

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 ноябрдаги ПҚ–4901-сон Қарори. – Т.: 2020.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 майдаги ПҚ–251-сон Қарори. – Т.: 2022.

1.2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта с основами статистической обработки результатов исследований. – 5-е изд., доп. и перераб. – М.: Агропромиздат, 1985. – 351 с.

2.Зайцев Г.Н. Обработка результатов фенологических наблюдений в ботанических садах // Бюл. Глав. бот. сада. – 1974. – Вып. 94. – С. 3–10.

3.Nguyen K.B., Hunt D.J. Entomopathogenic nematodes: systematics, phylogeny and bacterial symbionts. – Leiden: Brill, 2007. – 816 p.

4.Kaya H.K., Stock S.P. Techniques in insect nematology. – Wallingford: CAB International, 1997. – 281 p.

5.Gaugler R., Kaya H.K. Entomopathogenic nematodes in biological control. – Boca Raton: CRC Press, 1990. – 365 p.

6.Ehlers R.U. Mass production of entomopathogenic nematodes for plant protection. – Biocontrol Science and Technology, 2001. – Vol. 11(3). – P. 305–316.

7.Shapiro-Ilan D.I., Gaugler R. Production technology for entomopathogenic nematodes and their bacterial symbionts // Journal of Industrial Microbiology and Biotechnology. – 2002. – Vol. 28. – P. 137–146.

8.StatSoft Inc. Statistica (ver. 13.3). – URL: www.statsoft.com (murojaat qilingan sana: 12.04.2025).

9.Grewal P.S., Ehlers R.U., Shapiro-Ilan D.I. Nematodes as biocontrol agents. – Wallingford: CABI Publishing, 2005. – 505 p.

10. Stock S.P. Natural populations of entomopathogenic nematodes in the United States: current status and future prospects // Journal of Nematology. – 2005. – Vol. 37(2). – P. 121–128.

11. Hazir S., Kaya H.K., Stock S.P., Keskin N. Entomopathogenic nematodes (Steinernematidae and Heterorhabditidae) for biological control of soil pests // Turkish Journal of Biology. – 2004. – Vol. 28. – P. 61–70.

12. Koppenhöfer A.M., Grewal P.S. Compatibility of Steinernema scarabaei with chemical insecticides for integrated management of white grubs in turfgrass // Biological Control. – 2005. – Vol. 33(1). – P. 64–71.

13. Lacey L.A., Georgis R. Entomopathogenic nematodes for control of insect pests above and below ground with comments on commercial production // Journal of Nematology. – 2012. – Vol. 44(2). – P. 218–225.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Гуломов Рустам Комилжон угли
Старший преподаватель Наманганского государственного университета, PhD
Email: gulomovr92@mail.ru
Нуриддинов Дилшод Шарибжанович
Преподаватель Наманганского государственного университета
E-mail: nuridinovd1983@mail.ru
Хошимов Хушбахт Рустамжон угли
Старший преподаватель Наманганского государственного университета, PhD
E-mail: xushbaxt_2090@mail.ru

UDK; 58.(006).581.9.(949).2.

ИЗДАНИЕ ВИДА *PHLOMOIDES OREOPHILA* (LAMIACEAE) В ФОРМАТЕ ФЛОРЫ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В статье приведены библиография, тип, ботаническая классификация, фенология, ареалы распространения, экология и таксономические заметки о растении. Исследования выполнены в рамках фундаментального проекта Института ботаники по теме «Таксономическая ревизия полиморфных семейств флоры Узбекистана» (2021–2025 гг.) плана НИР Института ботаники. Полученные результаты послужат основой для подготовки нового издания «Флоры Узбекистана», посвященного семейству яснотковых.*

Ключевые слова: *Тип, Ферганская долина, фенология, ареал, Phlomoides Moench.*

Gulomov Rustam Komiljon ugli
Senior Lecturer, Namangan State University, PhD
Nuriddinov Dilshod Sharibzhanovich
Lecturer, Namangan State University
Khoshimov Khushbakht Rustamjon ugli
Senior Lecturer, Namangan State University

PUBLICATION OF THE SPECIES *PHLOMOIDES OREOPHILA* (LAMIACEAE) IN THE FORMAT OF THE FLORA OF UZBEKISTAN

Annotation: *This article presents the bibliography, type, botanical classification, phenology, distribution areas, ecology and taxonomic annotations of the plant. The research was carried out within the framework of the fundamental project F5-FA-0-64792 "Taxonomic revision of polymorphic families in the flora of Uzbekistan" (2021–2025) of the scientific research plan of the Institute of Botany. The results obtained will serve as the basis for preparing a new edition of the work "Flora of Uzbekistan" dedicated to the Lamiaceae family.*

Key words: *Type, Fergana Valley, phenology, range, Phlomoides* Moench**.**

G‘ulomov Rustamjon Komiljon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
Nuriddinov Dilshod Sharibjanovich
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

PHLOMOIDES OREOPHILA (LAMIACEAE) TURLARINING O‘ZBEKISTON FLORASI FORMATIDAGI TAHRIRI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘simlikning bibliografiyasi, tipi, botanik tasnifi, fenologiyasi, tarqalish maydonlari, ekologiyasi va taksonomik izohlari keltirib o‘tilgan. Tadqiqotlar Botanika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F5-FA-0-64792 "O‘zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi" (2021–2025) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida amalga*

oshirilgan. Olingan natijalar "O'zbekiston Florasi" asarini Lamiaceaye oilasiga bag'ishlangan yangi nashrini tayyorlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Tip, Farg'ona vodiysi, fenologiya, areal, Phlomoides Moench*.

Введите

В настоящее время уделяется внимание обеспечению устойчивости природных ландшафтов Республики Узбекистан, оценке воздействия антропогенных факторов на уязвимые и исчезающие редкие и эндемичные виды, охране особо ценных ботанических территорий. В связи с этим в нашей республике развернуты исследования по созданию новой редакции национальной флоры Узбекистана, сетевому картографированию, кадастру и мониторингу, динамике растительного покрова, выявлению потенциальных ареалов редких и эндемичных видов, биоклиматическому моделированию.

Целевые исследования проводились по всей Ферганской долине в течение 2021–2024 гг. в рамках фундаментального проекта Ф5-ФА-0-64792 «Таксономическая ревизия полиморфных семейств флоры Узбекистана» (2021–2025 гг.) плана НИР Института ботаники. В ходе исследования были собраны данные по виду рода *Phlomoides oreophila*. Он послужит основой для подготовки нового издания «Флоры Узбекистана», посвященного семейству яснотковых (Lamiaceae).

Литературный обзор

Основные результаты таксономии рода Phlomis и семейства Lamiaceae в целом, распространенных в Средней Азии, получены Т.А. Адилов (1986), Р.В. Камелин, А.М. Махмедов (1990a), А.М. Махмедов (1991), Т.Х. Худойбердиев (1995), А.Н. Сенников, Г.А. Лазьков (2013), Г.А. Это отражено в работах Лазкова (2011, 2016) и других.

М.М. Арифханова (1967), П.Х. Холкозиев (1971), Р.С. Верник и Т.Т.Рахимова (1982), Г.Гафаров (1991), И.Туракулов (1998), К.Ш. Тоджибаев (2002, 2010), И.Ф. Каримов (2016), Г.А. Иброхимова (2020), Н.М. Наралиева (2022) и другие ученые провели флористические и геоботанические исследования, направленные на изучение растений Ферганской долины. Однако целенаправленных полевых исследований в этой категории на территории долины не проводилось.

Методология исследования

Из гербарных образцов, собранных в Ферганской долине в период с 1871 по 2024 гг. и в настоящее время хранящихся в Национальном гербарии Узбекистана Института ботаники Академии наук Узбекистана (TASH), Гербарии Российского ботанического института им. В. Л. Коморова (LE), Гербарии Института биологии Академии наук Кыргызстана (FRU), Гербарном фонде и Виртуальном гербарном фонде Худжандского государственного университета (MW; https://www.plant.depo.msu.ru), а также в Глобальной базе данных по биоразнообразию GBIF; (https://www.gbif.org) был использован. Номенклатура и научные названия таксонов предоставлены в соответствии с международным каталогом Plants of the World Online (POWO; https://www.plantsoftheworldonline.org), International Plant Name Index (IPNI; https://www.ipni.org/).

Результаты и их анализ

Phlomoides oreophila (Kav. et Kir) Adylov, Kamelin & Makhm. **— Фломоидес горный.**

Адылов, Махмедов в Опр. раст. Ср. Аз. 9: 105 (1987). — *Phlomis oreophila* Kar. et Kir., in Bull. Soc. Nat. Mosc. 15: 426 (1842); Кнорринг во Фл. СССР 21: 95 (1954); Введенский во Фл. Узбекистана 5: 358 (1961).

Тип: Kazakhstan. "In pratis subalpinis Alatau ad fl. Lepsa et Sarchan", 1841 *G. Karelin & I. Kiriloff* (LE, lectotype, designated by Gubanov et el. 1998: 44; isolectotype MW).

= *Phlomoides dszumrutensis* (Afan.) Adylov, Kamelin & Makhm., Адылов, Махмедов в Опр. раст. Ср. Аз. 9: 105 (1987). — *Phlomis dszumrutensis* Afan., in Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Acad. Sci. CCCP 8: 110 (1940).

Тип: Kirghizia. Northern slope of Turkestan Range, Jumurt river (Aksu river basin), among stones, northern slope to the river with rare juniper, 15.07.1937, *K.Afanasiev 100* (LE, holotype; isotype LE) [9].

Растения 30–80 см высоко, с шнуровидными корнями; стебель немногочисленные, прямые, в нижней части покрыты простыми волосками, в верхней кустистыми; прикорневые листь яйцевидные, заостренные, тупозубчатые, верхние прицветные узкие, цельнокрайние, превышают мутовки; листь сверху рассеянно опушенные простыми волосками, снизу по жилкам усажены густыми звездчатыми и кустистыми волосками. Сцветы из Многоцветковых мутовок, сближенных наверху; прицветы тонкие, 10–13 мм длинные, нитевидно-шиловидные, трубка его голая; верхняя губа изнутри по краю с густой бородкой волосков, неравно зубчатая, нижняя губа с обратнояйцевидной удлиненной средней лопастью и боковыми широко яйцевидными; тычиночные нити не выдаются из трубки венчика, почти без придатков или с короткими только зачатками; орешки на верхушке с волосками [3].

Фенология. Цв. VII, пл. VIII.

Экология. На каменистых и щебнистых, арчовниках, травянистых склонах, на скалах и моренах

в среднем, иногда в верхнем поясе гор, на высоте 2200–3200 м [2].

Ареал. Алтай, Монголия, Китай (Синьцзян), Средняя Азия (Тарбагатай, Джунгарский Алатау, Тянь-Шань: хребты Заилийский, Кунгей, Терскей, Киргизский и Таласский Алатау, Талас, Суусамыр, Ферганский, Узунахматский, Чаткальский, Кураминский, Баубашата, Памиро-Алай: хребты Алайский, Заалайский, Туркестанский, Зарафшанский, Алайская долина): Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Узбекистан.

Распространение в Узбекистане. (Джизакская?), Ферганская области. I-3 **Ферано-Алайский округ**. I-3-b **Восточно-Алайский район**: АЛАЙСКИЙ ХР. (Ур. Шували 10.06.1968, *Худойбердиев*; Ур. Машаланг 16.07.1968, *Худойбердиев*; Окренности посилка Шахимардан, 26.06.1963, 16.06.1964, 15.06.1965, *Шоназаров 2633, 2615, 1557*; Бассейн. Р. Шахимардан, 02.07.1934, *Абдухакимов 58, 59*; Бассейн реки Шахимардан. Арчевник в верховые р. Шахимардан по правому берегу мелкоземыстые скл., 12.07.1934, *Абдухакимов 58*; Бассейн р. Шахимардан. У. арчевника ущелье Машаланг, Верховья в тени арчевников, 03.08.1966, 16.07.1968, *Холкузиев*; С. Ярдан. Киз-курган. (Хурджун-тау) верх. Поястау, 02.08.1967, *Холкузиев*; Бассейн р. Шахимардан. Ущелье Увларди-сай. Зона Яйлау, 12.06.1966, *Холкузиев*; Басс.р. Шахимардан. Верховья Иордан-сая, Улютор-сай. У верхней границы арчи. 26.06.1962, *Цукерваник 439*; Бассейн р. Шахимардан, Ярдон, Арчамазар (Дугоба-сай), около 2200 м н.у.м. 09.06.2021, *Гуламов, Абдуллаев* (TASH, www.plantarium.ru). Необозначенное место хранения — TASH [1,7,8].




Рисунок -1. A) Естественная иллюстрация растения; B) Местная зона роста; C) Общий ареал распространения

Примечание. *Phlomoides dszumrutensis* описан из Туркестанского хребта. Говорят (Афанасьев, 1938), что он отличается от *Phlomoides oreophila* более крупными цветками, прерывистыми мутовками и волосяным покровом на стебле. Однако типовой экземпляр *Phlomoides dszumrutensis* полностью находится в пределах вариации *Phlomoides oreophila*. Наличие отростков нитей, отмеченное ранее у *Phlomoides dszumrutensis*, нашими наблюдениями не подтверждается. В южной части ареала *Phlomoides oreophila* (Ферганский, Алайский и Туркестанский хребты) встречаются формы, переходные к *Phlomoides canescens*. В отличие от типичных *Phlomoides canescens*, эти формы не имеют придатков нитей (Рисунок-2) [4,5].




Рисунок-2. Морфологические различия обоих видов растений

Заключение

Практическая значимость результатов исследований подтверждается тем, что полученные результаты служат основой для разработки и мониторинга эффективных мер по охране редких и исчезающих видов растений Ферганской долины. Ферганская долина послужит основой для создания кадастра растительного разнообразия, сетевой карты видов растений долины и нового издания «Флоры Узбекистана», посвященного семейству яснотковых.

Список литературы

1. Арифханова М.М. Растительность Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 967. – 287 с.
2. Определитель растений Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1987-2015. 9-11 т. – 82-106 с.

3. Адылов Т.А., Камелин Р.В., Махмедов А.М. Заметки о семестве Lamiaceae 1. – Новос. Сист. Высш. Раст., 1986. 23: – 110-114.

4. Махмедов А.М. 1986: Новый вид *Phlomoides* Moench (Lamiaceae) из Средней Азии. – Novit. Syst. Pl. Vasc., 1986. 23: – 115-116 с.

5. Махмедов А.М. Губоцветние Средней Азии (систематика, география и филогенея, ботанико-географическо и флорогенетический анализ). Докт. биол. наук. // Т.: 1991. – 220 с.

6. Худойбердиев Т.Х. Губоцветние и растительном покрове Ферганской долины. Докт. биол. наук. // Т.: 1995. (2). – 4-265 с.

7. Ғуломов Р.К., Батошов А.Р. Фарғона водийсида тарқалган *Phlomoides* (Lamiaceae) туркуми турларининг ўрганилишига доир // Андижон давлат университети илмий хабарномаси "Scientific Bulletin Series: Biological Research". – Андижон, 2021. – № 4 (56). – Б. 13-28.

8. 10. Ғуломов Р.К. Фарғона водийсида тарқалган *Phlomoides* Moench туркуми (таксономияси, географияси, экологияси ва муҳофазаси): автореф. дисс. PhD. –Тошкент: 2022. – б. 43.

9. Lazkov G.A. Family *Labiatae* Juss. in flora of Kyrgyzstan. – Pocheon, Republic of Korea, 2016. – P. 176-215.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

To‘xtasinov Farxod Raxmonberdiyevich
Farg‘ona davlat universiteti Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi b,f,f,d PhD
Abduqayumova Sayyora Nematjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi magistranti

BO‘RTMA NEMATODALARIGA QARSHI BODRING (*CUCUMIS SATIVUS. L*)DA OKSIDAT PREPARATINING SAMARADORLIGINI ANIQLASH

Annotasiya: *Ushbu maqolada Quva tumani ayrim fermer xo‘jaliklaridagi ochiq dala sharoitida asosiy ekinlaridan biri hisoblangan bodring o‘simligida keng tarqalgan shimol bo‘rtma nematodasi (Meloidogyne hapla)ga qarshi qarshi kurashishda oksidat preparatining samaradorligini aniqlash to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Bo‘rtma nematoda, nematatsid, bodring (Cucumis sativus. L), nazorat variant, preparat.*

Тохтасинов Фарход Рахмонбердиевич
Старший преподаватель факультета зоологии и общей биологии Ферганского государственного университета, PhD, доктор наук
Абдукаюмова Сайёра Нематжоновна
магистрант кафедры зоологии и общей биологии Ферганского государственного университета

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПАРАТА ОКСИДАТ В ОГУРЦЕ (*CUCUMIS SATIVUS*. L) ПРОТИВ ПОЛЕВЫХ НЕМАТОД

Аннотация: *В статье приведены данные по определению эффективности препарата оксидат в борьбе с северной цистообразующей нематодой (Meloidogyne hapla), широко распространенной на растениях огурца — одной из основных сельскохозяйственных культур в условиях открытого грунта некоторых хозяйств Кувинского района.*

Ключевые слова: *галловая нематода, нематоцид, огурец (Cucumis sativus. L), контрольный вариант, препарат.*

Tukhtasinov Farkhod Rakhmonberdiyevich
Senior Lecturer, Department of Zoology and General Biology, Fergana State University b,f,f,d PhD
Abdukayumova Sayyora Nematzhonovna
Master's Student, Department of Zoology and General Biology, Fergana State University

DETERMINATION OF THE EFFICIENCY OF THE PREPARATION OXIDATE IN CUCUMBER (*CUCUMIS SATIVUS*. L) AGAINST FIELD NEMATODES

Abstract: *The article presents data on determining the effectiveness of the oxidate preparation in the fight against the northern cyst nematode (Meloidogyne hapla), which is widespread on cucumber plants - one of the main agricultural crops in open ground conditions of some farms in the Kuvinsky district.*

Key words: *root-knot nematode, nematicide, cucumber (Cucumis sativus. L), control variant, preparation.*

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha atrof-muhitning global ravishda o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi sohasida madaniy o‘simliklarda parazitlik qiluvchi organizmlarning keng tarqalishiga va ularning parazitlik ta’sir ko‘lamini ortib borishiga olib kelmoqda. Bu borada o‘simlik parazit nematodalari ta’siri natijasida qishloq xo‘jaligi sohasida madaniy o‘simliklarning hosildorligi keskin pasayishi kuzatilmoqda. Xozirgi vaqtda o‘simlik parazit nematodalarining 4100 turi identifikatsiya qilingan, ularning ayrim turlari iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, qishloq xo‘jalik ekinlariga sezilarli darajada zarar keltiradi. Jahon iqtisodiyotiga o‘simlik parazit nematodalarining har yili keltiradigan zarari 77 mlrd. dollarni tashkil etishi aniqlangan1. Bu borada qishloq xo‘jalik ekinlarini parazit nematodalar bilan zararlanishining oldini olish va qarshi kurash choralarini samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [5].

O‘simliklarni bo‘rtma nematodalardan himoya qilishning ancha samarali yo‘llaridan biri kimyoviy

vositalar va agrotexnik chora tadbirlardir. Ayniqsa, karshi kurashda kimyoviy chora tadbirlarini qo‘llash qulayligi va samaradorligi bilan ajralib turadi. Meloidogyne avlodi nematodalari bilan zararlangan o‘simliklarni kimyoviy preparatlar yordamida o‘simliklarning hosildorligiga ijobiy ta’sir etishi qayd etilgan [1].

Tadqiqot maqsadi. Dala sharoitida bo‘rtma nematoda bilan zararlangan tuproqlarda shimol bo‘rtma nematodasi (*Meloidogyne hapla*)ga qarshi kurashda bodring o‘simligida oksidat preparatining samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot materiali va metodlari. Ilmiy izlanishlarimizda bo‘rtma nematodalarga qarshi zamonaviy nematatsidlardan oksidat nematitsid preparatining ta’siri o‘rganildi. Preparatning samaradorligini aniqlash uchun tajribalar 2024 yil sentabr-noyabr oylarida Farg‘ona viloyati Quva tumani „ Begzodbek Bexruzbek” fermer xo‘jaligi qora hosil uchun mo‘ljallangan bo‘rtma nematodalar bilan zararlangan maydonlarda bodring (*Cucumis sativus*. L) ning „O‘zbekiston” navi ustida olib borildi.

Meloidogyne avlodi nematodalari tarqalgan hududlarda o‘simliklarning zararlanish ekstensivligi aniqlandi. O‘simliklarning nematoda bilan zararlanish darajasini baholash uchun o‘rganilgan maydonlarda meloydoginoz invaziyasining tarqalishi YE.S.Kiryanova, E.L.Krall [1969] bo‘yicha aniqlandi. Zararlangan o‘simliklar soni maydon birligi bo‘yicha quyidagi formula orqali foizda belgilanadi (2).

$$S = \frac{M}{N} \times 100$$

Bunda:

S – hududda meloydoginozning tarqalishi (% da).

N – maydondagi vizual tekshiruvdan o‘tkazilgan o‘simliklarning umumiy soni.

M – maydondagi nematodalar bilan zararlangan o‘simliklar soni.

O‘rganilgan maydonda tekshirilgan o‘simliklarning 50 % dan ortig‘i bo‘rtma nematodalar bilan zararlangan bo‘lsa, bu uchastka kuchli zararlangan deyiladi; zararlangan o‘simlik 50 % dan kam bo‘lsa, lekin 15 % dan kam bo‘lmasa, bu uchastka o‘rtacha zararlangan; zararlangan o‘simliklar 15 % dan kam bo‘lsa kuchsiz zararlangan uchastkalar deyiladi.

Zararlangan o‘simliklar soni maydon birligi bo‘yicha quyidagi formula orqali foizda belgilanadi:

$$S = \frac{M}{N} \times 100$$

Bunda:

S – hududda meloydoginozning tarqalishi (% da).

N – maydondagi vizual tekshiruvdan o‘tkazilgan o‘simliklarning umumiy soni.

M – maydondagi nematodalar bilan zararlangan o‘simliklar soni.

O‘rganilgan maydonda tekshirilgan o‘simliklarning 50 % dan ortig‘i bo‘rtma nematodalar bilan zararlangan bo‘lsa, bu uchastka kuchli zararlangan deyiladi; zararlangan o‘simlik 50 % dan kam bo‘lsa, lekin 15 % dan kam bo‘lmasa, bu uchastka o‘rtacha zararlangan; zararlangan o‘simliklar 15 % dan kam bo‘lsa kuchsiz zararlangan uchastkalar deyiladi.

Aniqlangan parazit fitonematodalar orasida iqtisodiy muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fitogelmintlar (*Meloidogyne*) bilan o‘simlik ildizining zararlanishini o‘rtacha ko‘rsatkichini aniqlashda besh ballik shkaladan foydalanildi [Kiryanova, Krall, 1969]. Unga ko‘ra:

1 ball – o‘simlik ildizida bitta yoki ikkita bo‘rtmalar kuzatilsa, ildiz 10% gacha zararlangan bo‘lsa; 2 ball – ildiz nematoda bilan 10 dan 35 % gacha zararlangan bo‘lsa; 3 ball – ildiz nematoda bilan 35 dan 70 % gacha zararlangan va ildizning ayrim qismi deformatsiyaga uchragan bo‘lsa; 4 ball – ildizning 70 % dan ortiq qismi bo‘rtmalar bilan qoplangan, aksariyat qismi deformatsiyaga uchragan bo‘lsa; 5 ball – ildizining deyarli barcha qismi nematoda bilan zararlangan bo‘lsa.(4)

OKSIDAT (ta’sir etuvchi moddasi oksamil) (O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan) preparati O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida o‘simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o‘tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defoliantlar hamda o‘simliklarning o‘sishini boshqaruvchi vositalalar ro‘yxatiga (2016) kiritilgan.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Farg‘ona viloyatida sabzavot-poliz maxsulotlari yetishtirishda Quva tumani yetakchi tumanlar qatorida turadi Shuning bilan birga qishloq xo‘jalik ekinlari intensiv darajada yetishtirilishi natijasida vodiy sharoitida madaniy o‘simliklarda nematodalar zarari katta. Quva tumani ayrim fermer xo‘jaliklarida monitoring kuzatuvlar orqali o‘simliklarni, jumladan bodringni bo‘rtma nematodalar bilan zararlanishi 65-70% gacha yetganli aniqlandi. Ayniqsa, nematodalar bilan zararlangan o‘simliklar o‘sishdan ortda qolishi, hosil elementlari kam bo‘lishi, buning natijasida hosilini odatdagiga nisbatan kamayishiga sabab bo‘ladi. Ba’zi hollarda esa nematodalar zarari oqibatida o‘simlik so‘lib nobud bo‘lishi ham mumkin.

Adabiyot ma’lumotlari [3] va olib borilgan izlanishlarimiz natijasida o‘rganilgan hududlarda qishloq xo‘jalik ekinlarida shimol bo‘rtma nematodasi (*Meloidogyne hapla*)ning keng tarqalganligi qayd etildi. Bo‘rtma nematoda bilan zararlangan tuproqlarda shimol bo‘rtma nematodasiga qarshi kurashda bodringda oksidat preparatining turli miqdorlarda samaradorligini aniqlash uchun tajribalar olib borildi. Preparat 3 marta qo‘llaniladi: tuproqga ko‘chat ekilganidan 3-5 kundan keyin, keyingi ishlovlar 15 kun oralatib (14.09.22; 29.09; 10.01) o‘tkazildi. Gektariga 10 litr preparat aralashtirilgan suvning miqdori har bir ko‘chatning ostiga 100 ml ishchi eritma quyish hisobidan aniqlanadi. Preparatni ish eritmasi bodring ko‘chatlarining ostiga quyib chiqiladi. Tajribalar 3 variantda olib borildi: preparatning sarf meyori birinchi

variantda 25ml/m², ikkinchi variantda 30ml/m², uchinchi variantda 40ml/m² sarf-meyorlari ishlatildi. Tajribada o‘simlik ekilgandan so‘ng 3-5 kun o‘tgach har bir o‘simlik ildiz atrofi tuprog‘iga 100 ml dan preparatning ishchi eritmasi qo‘yildi. Nazorat variantida esa o‘simlik ildiz atrofiga toza suv quyildi. Tajribalarni qo‘yishdan oldin nazorat varianti bilan birgalikda tuproqdagi nematodalar hisobga olindi.

Preparat bilan ishlov berilgandan keyin kuzatuvlar natijasida: birinchi variant 25ml/m² sarf-meyorida o‘tkazilgan tajribada vegetatsiya oxirida invazion lichinkalarning tuproqdagi soni 430,5 tani tashkil etdi. Ildizning zararlanish darajasi o‘rtacha 3,4 ball, biologik samaradorlik nazoratga nisbatan 81,7%;

ikkinchi variant 30ml/m² sarf-meyorida o‘tkazilgan tajribada vegetatsiya oxirida invazion lichinkalarning tuproqdagi soni 340,1 tani tashkil etdi. Ildizning zararlanish darajasi o‘rtacha 3,0 ball, biologik samaradorlik nazoratga nisbatan 85,1%;

uchinchi variant 40ml/m² sarf-meyorida o‘tkazilgan tajribada vegetatsiya oxirida invazion lichinkalarning tuproqdagi soni 289,5 tani tashkil etdi. Ildizning zararlanish darajasi o‘rtacha 2,2 ball, biologik samaradorlik nazoratga nisbatan 87,3% ni tashki etdi;

nazorat variantida esa o‘simlik vegetatsiya oxirida invazion lichinkalarning tuproqdagi soni 1912,0 ta, ildizning zararlanish darajasi o‘rtacha 4,1 ballni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval.

Bodring ekinida bo‘rtma nematodalarga qarshi sinalgan preparatning biologik samaradorligi (“O‘zbekiston” navi). Quva tumani, ishchi suyuqlik 1000 l/ga, 2024 yy.

Variantlar	Sarf-meyori, l(kg)/ga	Invazion lichinkalarning tuproqdagi soni (100 sm³ da)	Ildizning o‘rtacha zararlanish ko‘rsatgichi (ball)	Biologik samaradorlik (nazoratga nisbatan)
Oksidat 10% g.	25ml/m²	330,5	3,4	81,7%
	30ml/m²	240,1	3,0	85,1%
	40ml/m²	189,5	2,2	87,3%
Nazorat (preparat qo‘llanilmagan)	0	1912,0	4,1	0

Demak, bo‘rtma nematoda bilan zararlangan tuproqlarda bulg‘or qalampirida nematozin preparati 40ml/m² sarf-meyorida qo‘llanilganda nematoda lichinkalarining soni boshqa variantlarga nisbatan keskin kamayganligi, miqdor jihatdan ortmaganligi, samaradorligi nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi. Lekin, preparatni bu sarf-meyorida bo‘rtma nematodalar bilan kuchli zararlangan tuproqlarda ishlatish tavsiya etiladi.

Xulosa.

Quva tumani dala sharoitida bo‘rtma nematoda bilan zararlangan tuproqlardagi bodringda shimol bo‘rtma nematodasiga qarshi kurashda oksidat preparatining 40ml/m² sarf-meyorida qo‘llanilganda yuqori natijaga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Долматов Д.А. Защита культуры томата и огурца от галловых нематод в условиях закрытого грунта // Весцы Нацыянальнай Акадэм Навук Беларуси. – Серыя аграрных навук, 2005. – № 5. – С. 123-124.

2. Кирьянова Е.С., Кралль Э.Л. Паразитические нематоды растений и меры борьбы с ними. В 2-х т. – Ленинград: Наука, 1969. Т. 1. – 441 с.

3. Нарбаев З.Н., Некоторые наблюдение по биологии и экологии южной галловой нематоды – *Meloidogyne incognita* в условиях Ташкенткой области // Научные труды Ташкентского государственного университета, 1976. Вып. 514. – С. 79-81.

4. Abbot W.S. A method of computing the effectiviness of an insecticide con. Entomol. – 1925. – V.18. - №3. – P. 265-267.

5. Juan E. Palomares-Rius, Escobar C., Cabrera J., Vovlas A. and Castillo P. Anatomical alterations in plant tissues induced by plant-parasitic nematodes // Frontiers in plant science. – 2017. V. 8. – P. 1-16.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Boyatova Guzalxon Ibrohimovna
Namangan Davlat Universiteti
Yuldashev Xusanboy Ergashali o'g'li
O'zbekiston Milliy Universiteti
Elektron pochta: xusanboyyuldashev@gmail.com
Yusupov Ziyoviddin
Elektron pochta: ziyo-nur87@mail.ru
O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti
Ro'zmatov Ergashali Yuldashevich
Andijon Davlat Universiteti

"O'ZBEKISTON FLORASI"DAGI *HELICHRYSUM* TURLARINING O'RNI VA ULARNING TAHLILI: *HELICHRYSUM NURATAVICUM* MISOLIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Asteraceae oilasiga mansub Helichrysum turkumiga kiruvchi, O'zbekistonda endemik hisoblangan Helichrysum nuratavicum Krasch. turi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Maqolada ushbu turkumning ahamiyati, xususan uning dorivor xususiyatlari va tabiiy tarqalish hududi — Pomir-Olay mintaqasida, 1500–2000 metr balandlikdagi sho'ra-o'tloq butazorlarida uchrashi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, bu turning noyob va endemik xususiyatlari hamda dorivor ahamiyati sababli ilmiy tadqiqotlar va saqlab qolish choralari muhim ekani ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *Helichrysum nuratavicum, dorivor o'simlik, endemik, O'zbekiston florasi, SSSR florasi.*

Боятова Гузалхон Иброхимовна
Наманганский государственный университет
Юлдашев Хусанбой Эргашали угли
Национальный университет Узбекистана
Юсупов Зиёвиддин
Институт ботаники Академии наук Узбекистана
Рузматов Эргашали Юлдашевич
Андижанский государственный университет

ПОЛОЖЕНИЕ ВИДОВ РОДА *HELICHRYSUM* ВО «ФЛОРЕ УЗБЕКИСТАНА» И ИХ АНАЛИЗ: НА ПРИМЕРЕ *HELICHRYSUM NURATAVICUM*

Аннотация. *В данной статье представлен обзор Helichrysum nuratavicum Krasch., эндемичного вида, произрастающего в Узбекистане и относящегося к роду Helichrysum семейства Asteraceae. Рассматривается значение этого рода, особенно его лекарственные свойства, а также местообитание растения в Памиро-Алайском регионе, где оно встречается в полынно-злаковых зарослях на высоте от 1500 до 2000 метров над уровнем моря. Отмечена необходимость дальнейших научных исследований данного вида, так как его лечебные свойства и уникальность как эндемика делают его ценным объектом для изучения и сохранения.*

Ключевые слова: *Helichrysum nuratavicum, лекарственное растение, эндемик, флора Узбекистана, флора СССР.*

Boyatova Guzalxon Ibrohimovna
Namangan State University
Yuldashev Xusanboy Ergashali o'g'li
National University of Uzbekistan
Yusupov Ziyoviddin
Institute of Botany, Academy of Sciences of Uzbekistan
Ro'zmatov Ergashali Yuldashevich
Andijan State University

THE POSITION OF *HELICHRYSUM* SPECIES IN "FLORA OF UZBEKISTAN" AND THEIR ANALYSIS, CASE STUDY OF *HELICHRYSUM NURATAVICUM.*

Abstract. *This article provides an overview of Helichrysum nuratavicum Krasch, an endemic species in Uzbekistan, belonging to the Helichrysum genus within the Asteraceae family. It discusses the significance of genus, with a focus on its medicinal properties and the plant's habitat in the Pamiro-Alai region, found in wormwood-grass thickets at altitudes of 1,500 to 2,000 meters. The article highlights the importance of further research on this species, as its medicinal benefits and unique endemic nature make it a valuable subject for scientific study and conservation efforts.*

Key words: Helichrysum nuratavicum, medicinal plant, endemic, Flora of Uzbekistan, Flora USSR.

Introduction

The genus *Helichrysum* Mill, belonging to the Asteraceae Bercht. & J.Presl family, which is the largest family of vascular plants in the world, containing more than 1.900 genera and more than 32.000 individual species. Many members of the Asteraceae are important for medicinal, ornamental, and economic purposes [1]. The four *Helichrysum* species—*H. tianschanicum*, *H. mussa*, *H. nuratavicum*, and *H. maracandicum*—represent the genus in Uzbekistan [5].

The genus, known as everlasting flowers or immortelles worldwide, is a member of the Asteraceae represented by about 600 species over the world. One of the species of this genus indigenous plants in Uzbekistan is *Helichrysum nuratavicum* [7].

Wormwood-grass thickets on hilly slopes between 1500 and 2000 m a.s.l. Pamiro-Alai is endemic throughout Central Asia, according to Uzbekistan [2]. As well as, this species is considered important medicinal plant in Uzbekistan (Fig. 1.). Due to its endemic nature and medicinal properties for Uzbekistan, studying this plant is considered one of the most relevant topics today.

Literature Review and Methodology

The publications "Flora of the USSR" (1959), "Flora of Uzbekistan" (1962), and literature on the genus were utilized to analyze the place of *Helichrysum* species in the flora system of Uzbekistan.

Result and discussion

The *Helichrysum* has 559 species in the genus, and they are mostly located in the Old World. Perennial or annual herbs, sometimes shrublets. Leaves alternate, often hairy, usually with flat, entire margin. Capitula disciform, in terminal corymbs or solitary; receptacle flat, usually epaleate; phyllaries in several to many series, papery, brown, yellow, pink or white, with divided stereome. Outer florets female, yellow, filiform, in 1–several rows, with 3–4 lobes; inner florets usually more numerous than the outer ones, hermaphrodite, yellow, lobes 5, erect, anthers tailed and with a flat apical appendage, style with truncate branches. Achenes small, oblong, sparsely hairy with short, clavate mucilaginous hairs, or with long normal hairs, or glabrous; pappus of barbellate to subplumose bristles, 1-seriate, free or basally slightly connate with cilia, caducous in groups or individually (POWO 2025).




Figure 1. The distribution of *Helichrysum nuratavicum* in Uzbekistan

Botanical institute was founded in 1940 as a division of the Uzbek Academy of Sciences. The six-volume book "Flora of Uzbekistan" was produced between 1941 and 1962 and was based on field observations and the examination of plant specimens stored in the Uzbekistan National Herbarium (TASH). The scientists who worked at this institute also planned scientific plant research missions. Under the direction of A.I. Vvedensky (1889–1971), this endeavor produced a study that details 4,230 plant species from 138 families that are found in Uzbekistan.

In this work, the following information about the plant *H. nuratavicum* is provided: Perennial plant has sterile stems that form a small but dense tussock; the root is woody, usually tap-root, about 5 mm in diameter, usually short, many-headed, and produces many sterile and few (usually three to five) flowering stems (3)



Figure 2. *Helichrysum nuratavicum*. Photo by N. Beshko.

that are 5–20(35) cm high, covered with grayish arachnoid tomentum, sometimes mixed with a few glandular hairs (Fig.2). The leaves are typically 1-2 mm wide and 0.5-2.5 cm long, and they can be linear, linear-lanceolate, linear-spatulate, or revolute. 4-6 mm long by 3-4 mm wide, capitula 2-6 (rarely more, some underdeveloped), obconical or thin campanulate, typically on short, densely white tomentose peduncles, terminal in compressed, almost capitate corymbs. About 40 involucral bracts are brownish-yellow or pale straw-yellow, even whitish, imbricate, and five to eight rowed; the inner bracts on the back tomentose are linear-spatulate or linear, to 5 to 6 mm long; the bracts of the outer two or three rows are broad lanceolate, elliptical or ovate, and very short (1-2 mm long), densely arachnoid pubescent. There are roughly 20 flowers in the capitulum, and the pappus has about 25 tiny, white hairs that are nearly as long as the corolla [3]. However, significantly different information about this plant is given in another piece of literature:

Woolly, sedose, tussocky, and thickly cobwebby. With short, sterile shoots, caudex spreads. Simple, erect, foliated, shorter, ascending, and 5–12 cm tall are stems 1–6. Sterile branch and stem leaves are nearly spatulate, obtuse, 5–15 mm long, 1-2 mm wide, and have a sharply projecting midrib underneath. Anthodia are 4-5 mm length, 3-4 mm in diameter, and obliquely conical. The involucral leaflets are glossy, membrane-bound, many, imbricated, pale, straw-yellow, and whitish-yellow. The middle ones are obovate, internal linear, and the outer ones are ovate, 1-1.5 mm long. It has a white tuft. It produces fruit in July and August after blooming in June and July (Table 1) [8].

Table 1. Comprise of informations about *H. nuratavicum* in 2 main literatures.

	ФЛОРА УЗБЕКИСТАНА Т.VI (1962)	FLORA OF THE USSR (1959)
stems	has sterile stems that form a small but dense tussock, are 5–20(35) cm high, covered with grayish arachnoid tomentum	With short, sterile shoots, caudex spreads. Simple, erect, foliated, shorter, ascending, and 5–12 cm tall are stems 1–6. Sterile branch
leaves	The leaves are typically 1-2 mm wide and 0.5-2.5 cm long, and they can be linear, linear-lanceolate, linear-spatulate	leaves are nearly spatulate, obtuse, 5–15 mm long, 1-2 mm wide, and have a sharply projecting midrib underneath
Flowers	There are roughly 20 flowers in the capitulum, and the pappus has about 25 tiny, white hairs that are nearly as long as the corolla	blooming in June and July
involucral bracts	About 40 involucral bracts are brownish-yellow or pale straw-yellow, even whitish, imbricate, and five to eight rowed, the bracts of the outer two or three rows are broad lanceolate, elliptical or ovate, and too short (1-2 mm long), densely arachnoid pubescent	The involucral leaflets are glossy, membrane-bound, many, imbricated, pale, straw-yellow, and whitish-yellow. The middle ones are obovate, internal linear, and the outer ones are ovate, 1-1.5 mm long.

The plant decoction is used as an anthelmintic, as well as a diuretic, laxative, nephritis, cystitis, dyspepsia, vomiting, and colitis in the Altai and Middle Asia. Artherosclerosis, hypertension, rheumatism, gout, arthritis, respiratory conditions, venereal diseases, rabid dog bites, sciatica, and external eczema and dermal diseases are among the conditions it treats in the Northern Caucasus [6].

Conclusion

In conclusion, the significance of *H. nuratavicum* in the flora of Uzbekistan is primarily based on the fact that this species is found only in Uzbekistan and its medicinal properties. Therefore, the risk of this species declining is considered to be very high. In addition, to prevent this situation, it is essential to conduct sufficient research on this species, particularly molecular studies. Moreover, the information provided about this species is somewhat outdated, as it mainly relies on data from the years 1959-1960. Therefore, it is crucial that we do not delay studying this species.

Acknowledgment

This research was funded by the project titled "Molecular-genetic identification of medicinal plant species in the flora of Uzbekistan and Belarus using DNA markers" (FL-7923051878).

Reference

1. Akhmetollayeva A, Zhumabek T, Sutula M. «DNA BARCODING ANALYSIS OF THE ASTERACEAE SPECIES FROM KAZAKHSTAN.» *Eurasian Journal of Applied Biotechnology*, 2024: 3S.

2. Khojimatov O. K., Khujanov Alisher N., Bussmann R. W. *Helichrysum* maracandicum N. Pop. ex Kirp., *Helichrysum* mussae Nevski, *Helichrysum nuratavicum* Krasch.-ASTERACEAE //Ethnobiology of Uzbekistan: Ethnomedicinal Knowledge of Mountain Communities. – Cham : Springer International Publishing, 2023. – С. 403-410.

3. Kirpicznikov M.E. *Helichrysum nuratavicum* // B.K. SCHISCHKIN FLORA OF THE USSR. Flora SSSR, Tom XXV Akademiya Nauk SSSR Publishers Moscow-Leningrad, 1959: 418.

4. Kuchkarov B, Khasanov F, Tozhibaev K. 2019. The Red Data Book of The Republic of Uzbekistan. Chinor ENK, Tashkent.

5. Sarabekov A et al. «Terpenoids and Flavonoids from *Helichrysum* maracandicum of the Flora of Uzbekistan.» Chemistry of Natural Compounds, 2022: 929-931.

6. Sokolov. «Flowering plants, their chemical composition, use.» Plant Resources of the USSR, 1993: 352.

7. Yilmaz. «*Helichrysum* plicatum DC.» Novel Drug Targets With Traditional Herbal Medicines: Scientific and Clinical Evidence, 2022: 317-335.

8. Набиев М. М. *Helichrysum* Mill. // Введенский А.И. (Ред.) Флора Узбекистана. – Ташкент: Издательство Узбекистанского филиала Академии Наук СССР, 1962. 6 т. – 78-80 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Orziyeva Y.M.
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.
Davronov B.O.
Qarshi davlat universiteti dotsenti.
y.orziyeva@mail.ru

JINNIDARYO ATROFIDAGI QURUQLIK QORINOYOQLI MOLLYUSKALARNING TARQALGANLIK HOLATI.

Annotatsiya: *Jinnidaryo–Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi daryo hisoblanib, Qashqadaryoning chap irmog ‘i, Zarafshon va Hisor tog ‘ tizmalarini tutashtiruvchi Shertog ‘ning g ‘arbiy yonbag ‘irlaridan oqib tushuvchi irmoqlarning qo ‘shilishidan hosil bo ‘ladi. Daryo Kitob tumanining Do‘ngqishloq, Obikanda,Tuyavoshi, Kuhsor, Jovuz qishloqlari bo‘ylab oqadi. Tadqiqotimiz davomida daryo atrofining turli biotoplarida tarqalgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar o‘rganildi. Tadqiqot hududida 13 turdagi quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar uchrashi qayd etildi.*

Kalit so‘zlarr*: Jinnidaryo, Kitob, quruqlikdagi oshqozon oyoqlilar, biotop.*

Orziyeva Y.M.
PhD student of Guliston State University.
Davronov B.O.
Dosent of Karshi State University

THE DISTRIBUTION OF TERRESTRIAL GASTROPODS AROUND THE JINNIDARYO RIVER

Abstract: *Jinnidaryo is a river located in the Kashkadarya region, specifically in the Kitob district. It is formed by the confluence of tributaries flowing from the western slopes of the Shertog Mountains, which connect the Zarafshon and Hisor mountain ranges. The river flows through the villages of Do‘ngqishloq, Obikanda, Tuyavoshi, Kuhsor, and Jovuz in the Kitob district. Terrestrial gastropods, which are distributed in various biotopes around the river, were studied. A total of 13 species of terrestrial gastropods were recorded in the research area.*

Keywords: Dj*innidaryo, Kitob, terrestrial gastropods, biotopes.*

Орзиева Ё.М.
Гулистанский государственный университет.
Давронов Б.О.
Каршинский государственный университет

РАСПРЕДЕЛЕНИЕ НАЗЕМНЫХ БРЮХОНОГИХ МОЛЛЮСКОВ ВОКРУГ РЕКИ ДЖИННИДАРЁ

Аннотация: *Джиннидарё — река в Кашкадарьинской области, в районе Китоб, является левым притоком реки Кашкадарья, образуется слиянием ручьев, стекающих с западных склонов гор Шертох, которые соединяют горные хребты Зарафшан и Хисор. Река протекает через сёла Донгкышлок, Обиканда, Туявоши, Кухсор и Джовуз в районе Китоб. Исследовались наземные брюхоногие моллюски, распространенные в различных биотопах вокруг реки. В исследуемой области было зарегистрировано 13 видов наземных брюхоногих моллюсков.*

Ключевые слова: *Джиннидаря, Китаб, наземные брюхоногие моллюски, биотоп.*

Kirish.

O‘zbekiston hududi tabiiy ekotizimlarning nihoyatda xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Tekis mintaqalarda cho‘l ekotizimlari, tog‘ ekotizimlarida esa balandlik zonalari mavjud, tog‘ ekotizimlarining asosiy tiplariga muvofiq bo‘lgan bir qancha zonal-iqlim poyaslari aniq namoyon bo‘ladi. Daryo va qirg‘oqbo‘yi ekotizimlari ham tekkislikda, ham tog‘li mintaqalarda joylashgan, ularning har birida o‘ziga xos yashash joyi mavjud. Turli ekotizimlarda tarqalgan chuchuk suv va quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarni o‘rganish tadqiqot uchun murakkab guruh hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda

qorinoyoqli mollyuskalarining tarqalishi, zoogeografik muammolari, bioekologik xususiyatlari, bioindikatsiya kabi masalalarni o‘rganishda tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilib kelmoqda.

Material va metodika. O‘zbekistonda olib borilayotgan malakofaunistik tadqiqotlar hali hamma hududlarni to‘liq qamrab olmagan, qaysiki, bunga Jinnidaryo artofi misol bo‘la oladi. Jinnidaryo-Qashqadaryoning birinchi chap irmog‘i hisoblanadi. Uning suv yig‘ish maydoni boshqa irmoqlarga qaraganda sezilarli darajada past. Zarafshon va Hisor tog‘ tizmalarini tutashtiruvchi Shertog‘ning g‘arbiy yon bag‘irlari (2500 m)dan oqib tushuvchi 100 dan ortiq irmoqning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi(1). U umumiy g‘arbiy yo‘nalishda, yuqori oqimlarda shimolga sezilarli qiyalik bilan, o‘rtacha — janubga tomon esa bir oz qiyalik bilan oqadi. Quyi oqimlarda kanal joylarda meanderlar hosil qiladi. Umumiy uzunligi 57 km ni, daryo havzasining maydoni esa 367 km². Qor, yomg‘ir va buloq suvlaridan to‘yinadi. O‘rtacha yillik suv sarfi 1,35 m³/sekund (Jovuz qishlog‘i yaqinida). Yillik oqimining 56% bahorgi to‘lin suv davri(mart-iyun)da oqib o‘tadi(2).



Rasm. Jinnidaryo (Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani)

Tadqiqot ishi uchun materiallarni 2022-2024 yillar davomida Jinnidaryo daryosi atrofi xususan, Kitob tumaning Do‘ngqishloq, Obikanda,Tuyavoshi, Kuhsor, Jovuz qishloqlari hududida atrofi turli biotoplarida tarqalgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar o‘rganildi. Material terishda asosan Shileyko(4,5), Pazilov va Azimov(3) metodlaridan foydalanildi. Materiallarni asosan, nam havoda ertalab terildi, chunki bu paytda shudring hali qurimagan bo‘ladi va ko‘pgina mollyuskalar faol harakatda bo‘lganligi sababli ularni oson topish mumkin. Mollyuskalarni quyidagi biotoplardan- suv bo‘ylaridagi turli xil o‘tlar orasidan, turli xil tosh uyumlari orasidan, butali va daraxtli o‘simliklar ostidagi o‘tli o‘simliklar poyasidan, yirik xarsang toshlar ostidan, yirik bargli o‘simlik barg to‘shamlari ostidan yig‘ildi. Material, asosan, qo‘lda terildi, chunki qo‘lda terilganda tabiiy landshaftlarning xilma-xil biotoplarini to‘liq o‘rganish imkoniyati katta bo‘ladi. Laboratoriya sharoitida terilgan materiallar qayta saralanib yirik va mayda chig‘anoqlar alohida- alohida qutilarga solinadi. Tirik materiallar fiksatsiyaga tayyorlanadi.

Natijalar va ularning tahlili. Ma’lumki quruqlik qorinoyoqli mollyukalari hayotida namlik, harorat va o‘simlik qoplami muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotimizni daryo yaqinidagi qishloqlar, soylar, irmoqlar atrofida mavjud turli biotoplarda olib bordik va to‘plangan quruqlik mollyuskalarni sistematik, zoogeografik tahlil qildik.

Tip **MOLLUSCA**
Sinf **Gastropoda** Cuvier, 1795
Kenja sinf **Pulmonata** Cuvier in Blainville, 1814
Katta turkum **Stylommatophora** A. Shmidt, 1855
Turkum **Geophila** Ferussac, 1812
Oila **Cochlicopidae** Pilsbry, 1900
Urug‘ ***Cochlicopa*** Ferussac, 1821
1.Cochlicopa nitens (Gallenstein, 1852),
2. *C. lubrica* (Muller, 1774),
Oila **Orculidae** Steenberg, 1925
Kenja oila **ORCULINAE** Steenberg, 1925
Urug‘ ***Sphyradium*** Charpentier, 1837
3.Sphyradium doliolum (Bruguiere, 1792)
Oila **Vallonidae** Morse, 1864
Kenja oila ***Valloniinae*** Morse, 1864
Urug‘ ***Vallonia*** Risso, 1826
4.Vallonia costata (Muller, 1774)
Oila **Pupillidae** Turton, 1831
Urug‘ ***Gibbulinopsis*** Germain, 1919.
5.Gibbulinopsis (Pupa) signata (Mousson, 1873)
6. Gibbulinopsis nanosignata (Schileyko et Izzatullayev 1980)
Urug‘ ***Pupilla*** Turton, 1831
7.Pupilla (Turbo) muscorum (Linnaeus, 1758)
8. Pupilla triplicate (Studer, 1820)
Oila **Hygromiidae** Tryon, 1866
Kenja oila **TRICHIINAE** Zilch et Jaeckel, 1962
Urug‘ ***Xeropicta***
9. *Xeropicta candacharica* (Pfeiffer, 1846)
Oila **Agriolimacidae** Wagner, 1975
Urug‘ ***Deroceras*** Rafinesque, 1820
Kenja urug‘ ***Deroceras*** s.str.
10. *Deroceras laeve* (Muller, 1774)
11. *Deroceras agreste (Linnaeus, 1758)*
Oila **Parmacellidae** Gray, 1860
Urug‘ ***Candaharia*** Godwin-Austen, 1888

Kenja urug‘ ***Levanderia*** s.str.
12. *Candaharia levanderi* (Simroth, 1901),
Oila **Ariophantidae** Benson, 1832
Urug‘ ***Macrochlamys*** Benson, 1832
13. Macrochlamys sogdiana (Martens, 1871)

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Jinnidaryo atrofidagi biotoplarda tarqalgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar quyidagi turlari: *Cochlicopa nitens, C.lubrica, Vallonia costata, Gibbulinopsis signata, G. nanosignata, Pupilla triplicate, P.muscorum, Sphyradium doliolum Xeropicta candacharica, Deroceras laeve, D.agreste, Candaharia levanderi,*

Macrochlamys sogdiana turlari tarqalgan bo‘lib, ular hududlar bo‘yicha notekis tarqalgan. Масалан, *Cochlicopa lubrica* Do‘ngqishloq yaqinida tarqalib, uning populyatsiya zichligi 1 м² maydonda 9-10 ta uchraydi. Jovuz qishlog‘i yaqinidagi tomorqalar va yo‘l bo‘ylarida *Xeropicta candacharica* turi tarqalgan bo‘lib, uning populyatsiya zichligi 1 м² da 50-60 ni tashkil qiladi.

Daryo bo‘ylaridagi turli xil o‘tlar orasi va poyasida: *Vallonia costata* 5-7ta/1m², *G. signata* 25-30 ta /1m², *G. nanosignata* 20-25ta /1m², *Cochlicopa nitens* 6-8 ta/1m², *Pupilla muscorum* 8-10 ta/1m², *Deroceras laeve* 7-8 ta/1m² turlari yashaydi.

Suv havzalariga yaqin yerlardagi o‘simlik qoplami siyrak bo‘lgan joylarda *Vallonia costata* 3-4 ta/1m², *C. lubrica* 10-12 ta/1m², *C. nitens* 9-10 ta/1m², *Pupilla muscorum* 4-6 ta/1m², *Deroceras laeve* 3-5 ta/1m², *D. agreste* 6-7 ta/1m² turlari tarqalgan. Poliz va sabzavot ekin maydonlariga yaqin bo‘lgan hududlarda shox-shabbalar orasida *Xeropicta candacharica* 25-28 ta/1m², *Candaharia levanderi* 8-10 ta/1m² yashaydi.

Chala butali o‘simliklar orasi va mayda tosh uyumlari orasi ostida *Sphyradium doliolum* 12-14 ta/1m², *G. signata* 20-22 ta/1m², *Pupilla triplicata* 7-8 ta/1m², *P. muscorum* 8-10 ta/1m², *Macrychylamus sogdianum* 4-6 ta/1m² turlari uchrab, bu biotop uchun *G. signata* dominant hisoblanadi.

Siyrak chala butali o‘simliklar orasi va mayda tosh uyumlari orasi ostida *S.doliolum* 10-12 ta/1m², *G.signata* 30-35 ta/1m², *G. nanosignata* 10-12 ta/1m² tarqalgan.

2022-2024- yillarda Jinnidaryo atrofida tarqalgan tarqalgan quruqlik mollyuskalari zoogeografik tahlil qilindi.

Palearktika va Golarktika turlari. Ushbu mollyuskalar guruhi sovuqqa chidamliligi va yuqori namlikni yaxshi ko‘rishi bilan ajralib turadi, yuqori namlik bilan turli xil biotoplarda yashaydi.

Tadqiqot hududda o‘simlik qoldiqlaridan nam chirindi biotoplarida *Cochlicopa nitens, C. lubrica, Vallonia costata, Pupilla muscorum, Deroceras leave, D.agreste faqat tog‘ oldi biotoplarida* qayd etiladi.

Yevropa turlari. Ekologik jihatdan kserofillar- *Sphyradium doliolum, Pupilla triplicate.* Ular yarim butalar orasida, va toshlar ostida yashaydi. Ba’zilari ochiq, o‘rtacha namlikka ega bo‘lgan biotoplarda yashaydilar.

O‘rta Osiyo turlari. O‘rta Osiyo turlarining hududlari juda xilma-xildir. *Gibbulinopsis nanosignata, Candaharia (Levanderia) levanderi, Macrochlamys sogdiana.*

Old Osiyo turlari. *Gibbulinopsis signata, Xeropicta candacharica-* asosan, o‘rmon zonalarida nam biotoplarda yashaydi.

Olingan tadqiqot natijalarga ko‘ra, turlar soniga nisbatan O‘rta Osiyo turlari 2 ta tur, Palearktik va Goloarktik turlari 6 ta, Yevropa turlari 2 ta, Old Osiyo turlari 2 ta.

Yuqorida ko‘rinib turibdiki, Jinnidaryo atrofidagi turli biotoplarda xilma-xil quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar tarqalgan hisoblanib, ular turli zichlikda tarqalgan.

Xulosa. Tadqiqot ishi davomida Jinnidaryo daryosi atrofi xususan, Kitob tumaning Do‘ngqishloq, Obikanda,Tuyavoshi, Kuhsor, Jovuz qishloqlari hududida atrofi turli biotoplarida tarqalgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar o‘rganildi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Jinnidaryo atrofi quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar yashashi uchun qulay muhit hisoblanib, ularning 13 turi tarqalgan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.–Toshkent, 2005.–B.146.

2.Baratov I. O‘zbekistonning tabiiy geografiyasi.–Toshkent:O‘qituvchi,1996.–B.84.

3. Пазилов А.П., Азимов Д.А. Наземные моллюски (Gastropoda, Pulmonata) Узбекистана и сопредельных территорий. – Ташкент: Фан, 2003. – 316 с

4. Шилейко А.А. Наземные моллюски подотряда Pupillina фауны СССР (Gastropoda, Pulmonata, Geohpila) // Фауна СССР. Моллюски. — Л., 1984. — Т. 3. — Вып. 3. — № 130. — 399 с

5. Шилейко А.А. Наземные моллюски надсемейства Helicoidea // Фауна СССР. Моллюски. — Л., 1978. — Т. 3. — Вып. 6. — № 117. — 384 с

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Turdaliyeva Xurmatoy Sultonovna
O‘zbekiston Milliy Universiteti, dots.
E-mail:xurmatoysultonova@gmail.com
Rustamov Jasurbek Xasanboy o‘gli
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, magistranti
E-mail:rjasur435@gmail.com
Bavbekov O‘rinbosar Xasanboy o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, magistranti
E-mail:bavbekovorinbosar@gmail.com
Mahliyo Narzullayeva
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, magistranti
E-mail:mahliyouroqboyeva@gmail.com

SANOAT VA MAISHIY OQOVA SUVLARNI TOZALASH UCHUN PISTIA STRATIOTES L. VA AZOLLA CAROLINIANA WILLD. NING VEGETATIV KO‘PAYISHINI O‘RGANISH.

Annotatsiya: *Sanoat va qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi, shaharlarning kengayishi, sug‘oriladigan yerlarning ko‘payishi, aholi yashash sharoitlarining yaxshilanishi va boshqa omillar tasirida suv bilan taminlash muammosi keskinlashmoqda. Shuning uchun ushbu maqolada oqova suvlarni tozalash uchun foydalanib kelinyotgan* ***Pistia stratiotes L. va Azolla caroliniana willd.*** *ning vegetativ ko‘payishi turli suv muhitlarida o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *Pistia stratiotes L, Azolla caroliniana willd, azot fiksatsiya, simbiotik aloqalar, Anabaena azollae,*

Турдалиева Хурматой Султановна
Национальный университет Узбекистана, доц.
Рустамов Жасурбек Хасанбой сын
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, аспирант
Бавбеков Уринбосар Хасанбой сын
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, аспирант
Махлиё Нарзуллаева
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, аспирант

ПРОМЫШЛЕННОСТЬ И ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ВЕГЕТАТИВНОМУ РАЗМНОЖЕНИЮ PISTIA STRATIOTES L. И AZOLLA CAROLINIANA WILLD. ДЛЯ ОЧИСТКИ БЫТОВЫХ СТОЧНЫХ ВОД.

Анномация *: В связи с бурным развитием промышленности и сельского хозяйства, расширением городов, увеличением орошаемых земель, улучшением условий жизни населения и другими факторами остро становится проблема водоснабжения. Поэтому в данной работе изучено вегетативное размножение* ***Pistia stratiotes L.*** *и* ***Azolla caroliniana willd.*** *, используемых для очистки сточных вод, в различных водных средах.*

Ключевые слова: *Pistia stratiotes L, Azolla caroliniana willd, азотфиксация, симбиотические отношения, Anabaena azollae.*

Turdaliyeva Khurmatoy Sultanovna
National University of Uzbekistan, Assoc.
Rustamov Jasurbek Khasanboy ogli
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, master's student
Bavbekov Orinbosar Khasanboy ogli
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, master's student
Mahliyo Narzullayeva
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, master's student

STUDY OF VEGETATIVE REPRODUCTION OF PISTIA STRATIOTES L. AND AZOLLA CAROLINIANA WILLD. FOR THE TREATMENT OF INDUSTRIAL AND DOMESTIC WASTEWATER.

Annotation: *The problem of water supply is becoming acute due to the rapid development of industry and agriculture, the expansion of cities, the increase in irrigated land, the improvement of living conditions of the population and other factors. Therefore, in this article, the vegetative reproduction of* ***Pistia stratiotes L.*** *and* ***Azolla caroliniana willd.*** *, which are used for the treatment of wastewater, was studied in various aquatic environments.*

Keywords: *Pistia stratiotes L, Azolla caroliniana willd, nitrogen fixation, symbiotic relationships, Anabaena azollae.*

Kirish

Sanoat va maishiy oqova suvlarni tozalash jarayonini Angren Suv oqova tozalash inshooti misolida ko‘ramiz. U yerda yuksak suv o‘simliklarining floristik xilma-xilligi ko‘p bo‘lgani uchun boshqalardan ajalib turadi. Bizning obyektimiz hisoblangan *Pistia stratiotes L.* va *Azolla caroliniana willd.* ham shu yerda o‘stiriladi, ko‘paytiriladi va suvni tozalash uchun foydalaniladi.

Angren “Suvoqova” tozalash inshooti algoflorasi tarkibidan suvo‘tlarining 5 bo‘lim, 9 sinf, 12 tartib, 16 oila, 32 turkumga mansub 190 tur va tur xillari (150 tur, 34 variatsiya, 6 forma) aniqlangan va invertarizatsiya qilingan.[1] Hozirgi kunda oqova suvlarni tozalash juda katta ahamyatga ega. Suv tozalash inshootlarida suvni tozalash uchun tindirgichlardan foydalaniladi bu usul esa o‘z navbatida juda katta elektr energiyasini talab qiladi. Shuning uchun so‘ngi yillarda suv tozalash maqsadida suv o‘tlardan foydalanish yo‘lga qoyilgan bu usul esa tindirgichlarga ishlatilayotgan elektr energiyani tejab qoladi. Suv o‘tlar ildizlari yordamida suvdagi turli kattalikdagi moddalarni(suvni ifloslanishiga sabab bo‘lgan) cho‘ktirish hususyatiga ega va o‘z ildizlari yordamida suvdagi turli mayda zarralarni (kimyoviy) ushlab qoladi. Ushbu maqolada *Pistia stratiotes L.* va *Azolla caroliniana willd*. ning turli muhitli suvlarda vegetativ ko‘payishiga asoslangan. Malumki tashqi muhitning turli tasirlari natijasida suv tozalash inshoatidagi suv o‘tlar nobud bo‘ladi shuning uchun suv o‘tlarni qanday muhitta tezroq ko‘payishi va qanday suv muhitida ildiz tizimi kuchliroq rivojlanishini o‘rganish asoslidir. Hozirda Pistia suv o‘simlikining faqat bitta turi mavjud. Azolla suv o‘simlikining esa 7 ta turi fanga malum. Ushbu maqolada esa *Pistia stratiotes L.* va *Azolla caroliniana willd.* tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan.

Material va metodlar: *Pistia stratiotes L.* va *Azolla caroliniana willd.* o‘simligining o‘sishi uchun foydalanilgan suv xarakteristikasi: bu tajribada oddiy vodoprovod suvi (suv tarkibida qo‘shimcha ozuqa moddalari qo‘llanilmagan) va organic ozuqa muhiti bilan boyitilgan suvdan foydalanilgan holatda o‘simlikning vegetativ ko‘payishi va o‘simlik biomassasining qanday o‘zgarib borishini 2 oy muddat davomida o‘rganilgan.

Kerakli jihozlar va reaktivlar: Suv tarkibidagi mikro va makro elemenlarni aniqlash uchun LaMotte SMART3 colorimeter, electron tarozi (o‘simlik biomassasini o‘lchash uchun), to‘rtta 30 litr hamjdagi plastik idishlar, (suv o‘tlarni ko‘paytirish uchun) ikkita 100ml hajmdagi kolbalar, termometr (suvning haroratini o‘lchash uchun) , chizg‘ich.

Olingan natijalar va muhokama

Pistia stratiotes L. (suv karami) – bu tropik va subtropik hududlarda keng tarqalgan, suv yuzasida o‘suvchi o‘simlikdir. U suv muhitining yuqori qatlamlarida suzuvchi tarzda yashaydi va kuchli vegetativ ko‘payish qobiliyatiga ega.[2]

Asosiy xususiyatlari:

Ko‘rinishi: Yashil, baxmal kabi barglari rozet shaklida joylashgan. Ildizlari ingichka va tolali bo‘lib, suv ostida osilib turadi.

Ko‘payishi: Asosan vegetativ (klonal) yo‘l bilan juda tez ko‘payadi.

Ekologik roli: Suvdagi organik moddalar va ifloslantiruvchi moddalarning miqdorini kamaytiradi.





1-Rasm. ***Pistia stratiotes L*** **ni labaratorya sharoitida ko‘paytirish.**

1-jadval

Pistia stratiotes L. **ning vegetativ (klonal) yo‘l bilan ko‘payishi**

Haftalar	*Pistia stratiotes L.*ning vegetativ (klonal) yo‘l bilan ko‘payishi (Ozuqa muhitsiz suv)	*Pistia stratiotes L.*ning vegetativ (klonal) yo‘l bilan ko‘payishi (Organik ozuqa muhitli suv)
1-hafta	8ta	8ta
2-hafta	8ta	9ta
3-hafta	9ta	11ta
4-hafta	9ta	12ta
5-hafta	9ta	14ta
6-hafta	10ta	15ta
7-hafta	10ta	16ta
8-hafta	10ta	18ta

Ushbu jadval shuni asoslab beradiki *Pistia stratiotes L.*ning vegetetiv ko‘payishi ozuqa muhitsiz suvga qaraganda organik ozuqa muhitli suvda qarib 2 barobar tezroq amalga oshishi kuzatildi.

Azolla caroliniana willd. haqida qisqacha ma'lumot

Azolla caroliniana willd.– bu suvda yashovchi, tez o‘sadigan, paporotniksimon o‘simlik bo‘lib, u asosan tropik va subtropik mintaqalarda uchraydi. *Azolla caroliniana willd.*o‘zining simbiotik aloqalari tufayli havodagi erkin azotni fiksatsiya qila oladi. Uning barglarida yashovchi Anabaena azollae nomli siyanobakteriyalar azotni atmosferadan olib, o‘simlikka ammiak shaklida yetkazib beradi.[3] Bu xususiyat *Azolla caroliniana willd.* ni ekologik va qishloq xo‘jaligi sohalarida qimmatli qiladi.

Bizning tajribamiz davomida 2 ta idish olindi ulardan birinchisiga hech qanday ozuqa muhitsiz bo‘lgan oddiy suv quyildi, ikkinchisiga esa organik ozuqa muhiti bilan boyitilgan suv quyildi (suvning miqdori ikkala idishda ham 20litrni tashkil etadi). Shuningdek ikkala muhitdagi suvga 100gr dan *Azolla caroliniana willd.* o‘simligidan solindi va kuzatuv ishlari ikki oy davom etti. Tajribadan asosiy maqsad *Azolla caroliniana willd.* ning ozuqa muhit bilan boyitilgan suvda va ozuqa muhitisiz suvda qanday ko‘payishiga asoslangan edi biroq *Azolla caroliniana willd.* ning havodagi erkin azotni o‘zlashtirish qobilyati (Bu jarayon o‘simlikning bargida yashovchi *Anabaena azollae* dep nomlangan simbiotik azot fiksatsiya qiluvchi siyanobakteryalar orqali amalga oshadi. [4]) bizga yangi natijalar olishga sabab bo‘ldi. Natijada ikkala suv tarkibida ham azot birikmalari mavjud bo‘la boshladi. Quyidagi 2- va 3-jadval orqali bu jaroyonni izohlaymiz. Tajribalarda harorat va yorug‘lik bir xil taqsimlangan.

2 - jadval

Azolla caroliniana willd. **ning ko‘paytirilayotgan suv tarkibidagi nitrit va nitratlarning o‘lchov natijalari. (Ozuqa muhitsiz bo‘lgan suvda)**

Hafta	**Nitrit (ppm)**	**Nitrat (ppm)**
1-hafta	0.01	10.0
2-hafta	0.02	10.8
3-hafta	0.04	11.4
4-hafta	0.08	12.6
5-hafta	0.10	12.8
6-hafta	0.12	13.6
7-hafta	0.14	14.2
8-hafta	0.16	15.0

3- jadval

Azolla caroliniana Willd **. ning ko‘paytirilayotgan suv tarkibidagi nitrit va nitratlarning o‘lchov natijalari.(Organik ozuqa muhiti bilan boyitilgan suvda)**

Hafta	**Nitrit (ppm)**	**Nitrat (ppm)**
1- hafta	0.01	20.0
2- hafta	0.06	21.8
3- hafta	0.12	23.6
4- hafta	0.15	25.9
5- hafta	0.18	27.1
6- hafta	0.20	28.3
7- hafta	0.26	29.5
8- hafta	0.32	30.8

Bunda 1-idishdagi *Azolla caroliniana willd.* ozuqa muhiti mavjud bo‘lmagan suvda o‘stirilgani sababli azot o‘zlashtirish qobilyati pastroq ko‘rsatkichda namoyish etildi. 2-idishda esa bu jarayonni aksini kuzattik yani suv tarkibidagi azot birikmalari yetarlicha ortti. Endi shu ikkala muhitta o‘sayotgan *Azolla caroliniana willd.* ning vegetative ko‘payishiga oid malumotlarni quyidagi jadval asosida muhokama qilamiz.

4-jadval

***Azolla caroliniana Willd.* o‘simligining biomassasining ortib borish dinamikasi.**

Hafta	*Azolla caroliniana Willd*ning ozuqa muhitsiz bo‘lgan suvda ko‘payish ko‘rsatkichlari(1-Idish)			*Azolla Caroliniana Willd*ning organic ozuqa muhitida bo‘lgan suvda ko‘payish ko‘rsatkichlari (2-Idish)		
	Boshlang‘ich biomassa (g)	Haftalik o‘sish (%)	Yakuniy biomassa (g)	Boshlang‘ich biomassa (g)	Haftalik o‘sish (%)	Yakuniy biomassa (g)
1-hafta	100 g	10%	110 g	100 g	28%	128 g
2-hafta	110 g	7.2%	118 g	128 g	18.75%	152 g
3-hafta	118 g	6%	125 g	152 g	17.1%	178 g
4-hafta	125 g	4.8%	131 g	178 g	12.3%	200 g
5-hafta	131 g	6.8%	140 g	200 g	12.5%	225 g
6-hafta	140 g	4.2%	146 g	225 g	16.2%	262 g
7-hafta	146 g	4.1%	152 g	262 g	13.2%	296 g
8-hafta	152 g	7.2%	163 g	296 g	15.5%	342 g

Yuqorida keltirilgan malumotlar asosida shuni aytishimiz mumkunki organik ozuqa muhitta o‘stirilgan *Azolla caroliniana Willd.* o‘simliki vegetetiv ko‘payish borasida va erkin azotni o‘zlashtirish bo‘yicha ozuqa muhitsiz bo‘lgan suvda o‘stirilgan *Azolla caroliniana Willd.* qaraganda sezilarli darajada ko‘proq biomassaga ega bo‘ldi va suvni azot bilan boyitti. Tajribadan shuni aytish mumkunki 1-idishdagi past biomassa va azot miqdori ozuqa moddalarining yetishmasligi tufayli *Azolla caroliniana Willd.* o‘sishiga to‘sqinlik qilganligini ko‘rsatadi. 2-idishdagi yuqori biomassa va azot miqdori organik o‘g‘itning siyanobakteriyalarni rag‘batlantirgani va azot fiksatsiyasi jarayonini kuchaytirganidan dalolat beradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, *Pistia stratiotes L.* va *Azolla caroliniana willd.* suv ekotizimlarida muhim ekologik va agronomik rol o‘ynaydi. *Azolla caroliniana willd.* o‘zining *Anabaena azollae* bilan simbiotik aloqasi orqali havodan erkin azotni fiksatsiya qilib, qishloq xo‘jaligida yashil o‘g‘it sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin. O‘tkazilgan tajriba shuni ko‘rsatdiki, organik o‘g‘it bilan boyitilgan suvda o‘sgan *Azolla caroliniana willd.* biomassasi va azot fiksatsiyasi darajasi yuqoriroq bo‘ldi, bu esa oziqa muhitining o‘sish jarayoniga ta’sirini isbotlaydi.

Bundan tashqari, *Pistia stratiotes L.* suvni fitoremediasiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u azot, fosfor va og‘ir metallarni so‘rib olib, suv sifatini yaxshilaydi. Uning tez o‘sish va ko‘payish qobiliyati suv havzalarining ifloslanishini kamaytirishda samarali bo‘lishiga qaramay, nazorat qilinmasa, invaziv o‘simlik sifatida zarar yetkazishi mumkin.

Umuman olganda, ushbu suv o‘simliklari qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit muhofazasida muhim rol o‘ynaydi. Kelajakda ularni ekologik va biotexnologik maqsadlarda yanada kengroq tadqiq qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Turdalieva X.C., Ibragimova Z.Yu., Yuldasheva Sh.B. Angren “Suvoqava” tozalash inshooti suvotlarining taksonomik tahlili. O‘zMU Xabarlari. №3/2. Toshkent 2023. 130-132 b.

2. **Kross A. & Helmi M.** (2002). *Water quality improvement using Pistia stratiotes.* Journal of Environmental Management, 65(4), 235-243.

3. Dosmetov, A. T. "Azolla caroliniana Willd., distributed in Tashkent and Syrdarya regions: bioecological features."

4. Moore, A. W. (1969). "Azolla: Biology and agronomic significance." Botanical Review, 35(1), 17–34.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Boyatova Guzalxon Ibrohimovna
Namangan state university
Yuldashev Xusanboy Ergashali o'g'li
National University of Uzbekistan
E-mail: xusanboyyuldashev@gmail.com
Yusupov Ziyoviddin
E-mail: ziyo-nur87@mail.ru
Institute of Botany of Uzbekistan Academy of Sciences
Dekhkonov Davron Burxonovich
Namangan state university

EFFECTIVE DNA EXTRACTION TECHNIQUE FOR *HELICHRYSUM* SPECIES

Abstract. *In this scientific study, an efficient and high-quality DNA extraction technique from plants belonging to the Helichrysum genus was developed and improved. During the study, a modified version of the CTAB (cetyltrimethylammonium bromide)-based extraction method was used to obtain high-molecular-weight pure DNA from plant tissues. The experimental results were confirmed using a spectrophotometric method (Nanodrop spectrophotometry) and agarose gel electrophoresis. It was found that high-quality DNA can be obtained from the genome of plants belonging to the Helichrysum genus by effectively eliminating inhibitors such as polyphenols and polysaccharides during the extraction process. The method presented in the study is characterized by its convenience for PCR and other molecular biological analyses and expands the possibilities of its application in botany, biotechnology and genetic research.*

Keywords: *DNA extraction, Helichrysum, cetyltrimethylammonium bromide (CTAB), molecular biology, agarose gel electrophoresis, spectrophotometry, genomic DNA, polyphenols, polysaccharides, PCR.*

Boyatova Guzalxon Ibrohimovna
Namangan davlat universiteti
Yo'ldoshev Xusanboy Ergashali o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti
Yusupov Ziyoviddin
O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti
Dexqonov Davron Burxonovich
Namangan davlat universiteti

GELIXRIZ TURLARI UCHUN SAMARALI DNK EKSTRAKSIYA TEXNIKASI

Annotatsiya*. Ushbu ilmiy tadqiqotda Helichrysum turkumiga mansub o'simliklardan samarali va sifatli DNK ekstraksiyasi texnikasi ishlab chiqildi va takomillashtirildi. Tadqiqot davomida o'simlik to'qimalaridan yuqori molekulyar og'irlikdagi toza DNKni olish uchun CTAB (cetyltrimethylammonium bromide) asosidagi ekstraksiya usulining modifikatsiyalangan varianti qo'llanildi. Tajriba natijalari spektrofotometrik usul (Nanodrop spektrofotometriyasi) va agaroz gel elektroforezi yordamida tasdiqlandi. Ekstraksiya jarayonida polifenol va polisaxarid kabi inhibitorlarni samarali tarzda bartaraf etish orqali Helichrysum turkumiga mansub o'simliklar genomidan yuqori sifatli DNK olish mumkinligi aniqlandi. Tadqiqotda taqdim etilgan uslub PCR va boshqa molekulyar biologik tahlillar uchun qulayligi bilan ajralib turadi hamda botanika, biotexnologiya va genetik tadqiqotlarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.*

Kalit so'zlar*: DNK ekstraksiyasi, Helichrysum, cetyltrimethylammonium bromide (CTAB), molekulyar biologiya, agaroz gel elektroforezi, spektrofotometriya, genom DNK, polifenollar, polisaxaridlar, PCR.*

Боятова Гузалхон Иброхимовна
Наманганский государственный университет
Юлдашев Хусанбой Эргашали угли
Национальный университет Узбекистана

Юсупов Зиёвиддин
Институт ботаники Академии наук Узбекистана
Дехконов Даврон Бурханович
Наманганский государственный университет

ЭФФЕКТИВНАЯ МЕТОДИКА ЭКСТРАКЦИИ ДНК ИЗ ВИДОВ РОДА HELICHRYSUM

Аннотация. *В данном научном исследовании была разработана и усовершенствована эффективная и качественная методика экстракции ДНК из растений, принадлежащих к роду Helichrysum. В ходе исследования была использована модифицированная версия метода экстракции на основе CTAB (цетилтриметиламмоний бромида) для получения высокомолекулярной чистой ДНК из растительных тканей. Экспериментальные результаты были подтверждены с использованием спектрофотометрического метода (спектрофотометрия Nanodrop) и электрофореза в агарозном геле. Было обнаружено, что высококачественную ДНК можно получить из генома растений, относящихся к роду Helichrysum, эффективно устраняя ингибиторы, такие как полифенолы и полисахариды, в процессе экстракции. Представленный в исследовании метод отличается удобством для ПЦР и других молекулярно-биологических анализов и расширяет возможности его применения в ботанике, биотехнологии и генетических исследованиях.*

Ключевые слова: *экстракция ДНК, Helichrysum, бромистый цетилтриметиламмоний (CTAB), молекулярная биология, электрофорез в агарозном геле, спектрофотометрия, геномная ДНК, полифенолы, полисахариды, ПЦР.*

Introduction

For many years, plant identification was based on their morphological characteristics (such as flowers, fruits, seeds, leaves, stems, and roots, including various biometric and qualitative features) as well as biogeographic traits. However, this type of identification does not always yield accurate results. Nowadays, in addition to identifying certain common morphological features, scientists have proposed a method for determining phylogenetic relationships based on the nucleotide sequence of DNA, which has started to provide more reliable results. Therefore, for species like *Helichrysum nuratavicum* Krasch, molecular-genetic identification and the investigation of phylogenetic characteristics were carried out using nuclear and chloroplast DNA. Differences between the species are identified through these genomic regions, and DNA barcoding is performed. For this, DNA is first extracted from the sample [1; 2], followed by PCR amplification using specific primers. The amplified region (nuclear and chloroplast DNA) is sequenced, and the nucleotide sequence is determined. Plant cell walls are composed of polysaccharides (cellulose), and the use of STAB (cetyltrimethylammonium bromide) buffer is effective in breaking the cell wall, thus ensuring complete cell lysis [2]. Therefore, we used the STAB method for DNA extraction from the samples.

For molecular-genetic analysis, high-quality DNA extraction is required. Based on the characteristics of the studied object (plant), an appropriate method for DNA extraction is chosen.

Research Materials and Methods

Biological material used in the study was obtained from *H. nuratavicum* species sample.

Using a STAB method for DNA extraction, the whole genomic DNA was recovered from dried leaves. A nanophotometer (IMPLEN, Germany) was used to determine the DNA concentration. Additionally, DNA samples were visually inspected using 1.0% agarose gel electrophoresis [5].

A general PCR master mix (dNTPs, MgCl2, 10x buffer, DNA polymerase) was used for the PCR reaction. The total reaction volume was 10 µl (5 µl PCR master mix, 2 µl nuclease-free water, 1 µl DNA sample, 1 µl forward primer (5′- GGAAGKARAAGTCGTAACAAGG -3′) and 1 µl reverse primer (5′- GCGTTCAAAGAYTCGATGRTTC -3′)) [3].

Table 1

For the *H. nuratavicum* sample, the PCR program for ITS amplification (using ITS-u1 and ITS-u2 primers) was as follows

№	Stage	Temperature	Time(minute)
1	Initial denaturation	95°C	3 min
2	Denaturation	95°C	30 sek
3	Annealing	50°C	30 sek
4	Elongation	72°C	45 sek
5	Final elongation	72°C	7 min

Gel Electrophoresis

After completing the PCR process, the results were checked on a 1.5% agarose gel. To prepare 100 ml of 1.5% agarose gel, 1.5 g of agarose powder was weighed and placed into a flask, then 100 ml of 1x TBE buffer was added to it. The mixture was heated for 2-3 minutes at a high temperature until the agarose dissolved completely and then cooled to room temperature. To the prepared 100 ml agarose gel, 4 µl of ethidium bromide was added, and the gel was poured into a special electrophoresis comb mold. Samples were loaded into the gel wells at 5 µl per well. The gel electrophoresis process lasted for 30 minutes.[3]

Sequencing Reaction

To clean the PCR product, ExoSAP-IT™ PCR Product Cleanup reagents were used to remove any unused nucleotides and primers from the PCR reaction. For this, 2 µl of ExoSAP-IT™ was added to 5 µl of the PCR product, vortexed thoroughly, and placed in the thermal cycler with the following program [4].

Table 2

Purification of PCR Product with ExoSAP-IT™ PCR Product Cleanup.

№	Stage	Temperature	Time (minute)
1	Activation	37°C	5
2	Inaktivation	80°C	1
3	Storage of the product	4°C	∞

The master mix is distributed into new PCR tubes at 9 µl per tube. For each sample, the forward and reverse primers are added separately to the tubes (1 µl each). The PCR program mentioned above is used for sequencing (Table 1).

Before sequencing the obtained products, excess ddNTPs were removed using the BigDye X Terminator 3.1 buffer. For this, 10 µl of X Terminator and 45 µl of SAM solution buffer were mixed, and a total of 55 µl was added to each well of the 96-well plate. Then, 10 µl of the sequencing PCR product was added. The plate was shaken for 20-25 minutes, followed by centrifugation at 1200 rpm for 3 minutes. The prepared plate was placed in the Seq Studio Genetic Analyzer, running the LongSeq_BDX program.

Amount of Obtained DNA

The amount and quality of the extracted DNA were determined using a NanoDrop, and the following results were obtained:




Figure 1. DNA Results Obtained from NanoDrop.

After completing the PCR process, the results were checked using gel electrophoresis.

The gel electrophoresis analysis shows that the region amplified by PCR has a length of approximately 750 bp.




Figure 2. Gel electrophoresis analysis of PCR results using ITS-u1 and ITS-u2 primers (for the internal transcribed spacer region, DNA ladder 100 bp): *H.nuratavicum*.

Conclusion

In the study of *Helichrysum* species, effective DNA extraction is critical for molecular analysis such as PCR amplification, sequencing, and other genetic studies. The choice of extraction method directly impacts the quality and yield of DNA, which is crucial for accurate and reliable results. In conclusion, employing an optimized DNA extraction method, such as the STAB method, is essential for obtaining high-quality genetic material from Helichrysum species, facilitating in-depth molecular analysis and advancing research in the field of plant biology and pharmacology.

Acknowledgment

This research was funded by the project titled "Molecular-genetic identification of medicinal plant species in the flora of Uzbekistan and Belarus using DNA markers" (FL-7923051878).

Reference

1.Dairawan M., Shetty P. J. The evolution of DNA extraction methods. America Journal of Biomedical Science and Research. 2020.T. 8. №. 1.C. 39-46.

2.Doyle J. J., Doyle J. L. A rapid DNA isolation procedure for small quantities of fresh leaf tissue. 1987. Research.

3.Li J. et al. A modified CTAB protocol for plant DNA extraction //Chinese Bulletin of Botany. – 2013. – T. 48. – №. 1. – C. 72.

4.Ma H., Difazio S. An efficient method for purification of PCR products for sequencing //Biotechniques. – 2008. – T. 44. – №. 7. – C. 921-923.

5.Nakagawa M. et al. Development of a novel two-dimensional gel electrophoresis protocol with agarose native gel electrophoresis //Electrophoresis. – 2023. – T. 44. – №. 17-18. – C. 1446-1460.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Xurramov Otabekxon G‘ayratxon o‘g‘li
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti
Email: otabekxurramov64@gmail.com

UO‘K 581.9(582.738)

GLYCYRRHIZA TURKUMI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT: MUHIM TADQIQOTLAR NATIJALARI, GLOBAL TARQALISHI VA TABIIY RESURSLARI

Annotatsiya. *Glycyrrhiza turkumining turlarining vegetativ va generativ organlari o‘ziga xos tuzilish xususiyatiga ega bo‘lib, ular asrlar davomida tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otib kelgan. Natijada, bu jinsga oid tadqiqotlar uzoq va yaxshi hujjatlashtirilgan tarixga ega. Ushbu maqolada Glycyrrhiza turlarining kashf qilinishi, global tarqalishi va Markaziy Osiyo mintaqasida olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar haqida to‘liq ma‘lumot berilgan. Bundan tashqari, tadqiqot ishida Glycyrrhiza turlaridan foydalanish va ularning tabiiy zaxiralarini qimmatbaho o‘simlik resursi sifatida baholash bo‘yicha izlanishlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Glycyrrhiza L, glitsirrizin, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, resurs.*

Хуррамов Отабекхон Гайратхон оглы
Ассистент Узбекско-Финского педагогического института

ОБЩАЯ ИНФОРМАЦИЯ О РОДЕ *GLYCYRRHIZA*: РЕЗУЛЬТАТЫ ВАЖНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ГЛОБАЛЬНОЕ РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ПРИРОДНЫЕ РЕСУРСЫ

Аннотация. *Вегетативные и генеративные органы видов рода Glycyrrhiza обладают уникальными структурными особенностями, которые на протяжении веков вызывали большой интерес у исследователей. В результате исследования этого рода имеют долгую и хорошо задокументированную историю. В данной статье представлена полная информация об открытии видов Glycyrrhiza, их глобальном распространении, а также обширных исследованиях, проведенных в регионе Центральной Азии. Кроме того, в работе рассматриваются исследования, посвященные использованию видов Glycyrrhiza и оценке их природных запасов как ценного растительного ресурса.*

Ключевые слова*: Glycyrrhiza L, глицирризин, Центральная Азия, Узбекистан, ресурсы.*

Khurramov Otabekkhon Gayratkhon ogli
Assistant, Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

OVERVIEW OF THE GENUS *GLYCYRRHIZA*: KEY RESEARCH FINDINGS, GLOBAL DISTRIBUTION, AND NATURAL RESOURCES

Annotation. *The vegetative and generative organs of Glycyrrhiza species have unique structural characteristics that have fascinated researchers for centuries. As a result, studies on this genus have a long and well-documented history. This article provides comprehensive information on the discovery of Glycyrrhiza species, their global distribution, and extensive research conducted in the Central Asian region. Additionally, it highlights studies on the utilization of Glycyrrhiza species and the assessment of their natural reserves as a valuable plant resource.*

Keywords: *Glycyrrhiza, glycyrrhizin, Central Asia, Uzbekistan, resource.*

Kirish

Glycyrrhiza **L.** turkumi Dukkakdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub bo‘lib, Yer sharida tarqalgan turlar soni turli manbaalarda turlicha keltirilgan, jumladan 13 dan (Kruganova, 1955; Meng, 2005) 36 (Grankina, 2008) tagacha farq qiladi. Turkumning turlari Antraktidadan tashqari yer yuzining barcha mintaqlarida uchraydi (Yan va boshq., 2023). *Glycyrrhiza* turlari ko‘p yillik o‘t bo‘lib, ildizlari qalin va tarmoqlangan, sariq-qizg‘ish rangda bo‘ladi (Savant va boshq., 2016). Ushbu turkumga mansub o‘simliklar daryo vodiylari, qumli va sho‘rlangan tuproqli hududlar, qirg‘oqbo‘yi hududlari hamda yarim cho‘l mintaqalarida o‘sadi (Tolstikov va boshq., 2007). Mazkur turkumdan butun dunyoda oziq-ovqatda va farmatsevtikada foydalaniladi (Kao va boshq., 2014). Turkumning o‘ziga xos tarkibiy qismi - glitsirrizin tabiiy shirinlantiruvchi va

farmatsevtik vosita sifatida keng qo‘llaniladi, chunki u yallig‘lanishga qarshi va jigarni himoya qiluvchi xususiyatlarga ega (Hayashi va boshq., 2009). An’anaviy tibbiyotda uning ildizlari Osiyo va Yevropaning qadimgi mamlakatlarida, jumladan Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Gretsiya va Misrda yo‘talni yengillashtirish va balg‘amni ko‘chirish uchun keng qo‘llanib kelingan (Bao va boshq., 2010; Xitoy farmokopiyasi 2015; Dastager va boshq., 2016; Zhou va boshq., 2016; Sharma va boshq., 2018). Turkumning keng tarqalish diapazoniga va yuqori dorivorlik hususiyatiga ega ekanligi, uning ustida ko‘p sonli tadqiqotlarning amalga oshirilishiga sabab bo‘lgan. Ammo, turkum bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, ushbu ilmiy tadqiqotlarni bir joyda jamlashga qaratilgan keng qamrovli izlanishlar mavjud emas.

Ushbu maqolada *Glycyrrhiza* turkumi bo‘yicha olib borilgan asosiy tadqiqot ishlari haqida ma’lumot taqdim etilgan. Jumladan, *Gylycyrrhiza* turkumini o‘rganish bo‘yicha shu vaqtga qadar olib borilgan dastlabki tadqiqotlar, dunyo bo‘ylab turlarining tarqalishi, Markaziy Osiyoda olib borilgan tadqiqot ishlari hamda xom-ashyo zaxirasini aniqlash va undan foydalanishga qaratilgan tadqiqot ishlari haqida batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan.

Material va metodlar

Glycyrrhiza turkumi turlarini aniqlashda “ОПРЕДЕЛИТЕЛЬ РАСТЕНИЙ СРЕДНЕЙ АЗИИ” (6 jild), “ФЛОРА СССР” (13 jild), “ФЛОРА УЗБЕКИСТАНА (3 jild)” asrlaridan foydalanildi. Turlarning dastlabki tavsifi chop etilgan manbaani yozishda IPNI (International Plant Names Index), sinonimlari va tarqalish areali POWO (Plants of the World Online, powo.science.kew.org), Catalogue of life (www.catalogueoflife.org) va GBIF (Global Biodiversity Information Facilit, www.gbif.org) raqamli platformalaridan foydalanildi. Turlarning davlatlar kesimida tarqalishiga doir ma’lumotlarni yozishda o‘sha davlatning milliy flora adabiyotiga tayanlidi.

Natijalar va ularning muhokamasi

***Glycyrrhiza* turkumi turlarining kashf qilinishi va ularning xilma xilligi**

Glycyrrhiza turkumi dastlab 1753-yilda K.Linney tomonidan “Species plantarum” asarida keltirilgan bo‘lib, ushbu asarda turkumining 3 ta turi (*Glycyrrhiza glabra* L., *G. hirsuta* L., *G. echinata* L.) haqida ma’lumot berilgan [15]. Keyinchalik, 1773-yilda P.S.Pallas Volga bo‘yi huddlarida turkumning 2 ta: *G. aspera* Pall. hamda *G. hispida* Pall. turlarini ilk marotoba tavsiflagan [17]. 1802-yilda Vengriya florasidan *G. glandulifera* Waldst. et Kit. turi ilk marotaba e’lon qilingan [50]. 1825-yilga kelib, Dekandol tomonidan *G. uralensis* turi kashf qilingan [6]. Lekin Dekandol tomonidan berilgan tavsif *G.uralensis* turini to‘liq yoritib bera olmadi. 1831-yilda I.E.Taush ikkita yangi *G. grandiflora* hamda *G. foetidissima* turlarini tavsiflab bergan. 1842-yilga kelib, N.S.Turchaninov Sibir, O‘rta Osiyo hududlaridan topilgan turlarni *G. uralensis* deb nomlagan [35]. Bu vaqtda O‘rta Osiyo hududida F.R.Fisher va K.A.Meyer tomonidan *G. triphylla* Fisch. Et Mey turini aniqlangan edi [39].

Tahlillar davomida turkumning turlar sonini mamlakatlar bo‘yicha tarqalishi ham tahlil qilindi. Unga ko‘ra, Avstraliya, Shimloy Amerika, Janubiy Amerika va Afrika qita’larida bittadan tur, Yevroosiyo mintaqasida esa turkum turlarining asosiy qismi tarqalishi ma’lum bo‘ldi. Tahlil qilingan 28 ta mamlakat florasidagi *Glycyrrhiza* turlari soni haqida ma’lumot 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Dunyo mamlakatlari kesimida *Glycyrriza* turkumi turlarini soni

№	Davlat nomi	Turlar soni	Adabiyot manbaasi
1	Xitoy	8	Bojian Bao, Kai Larsen, 2010
2	Turkiya	6	Davis, 1970
3	O‘zbekiston	5	Korovin, 1960
4	Eron	6	Rechinger, 1984
5	Pokiston	3	Nasir, 1977
6	Iroq	1	Tovnsend, 1974
7	Sobiq SSSRning Yevropa qismi	5	Federov, 1987
8	Yevropa	5	Yeo, 1968
9	Shimoliy Kavkaz	4	Galushko, 1980
10	Ozorboyjon	5	Karyagin, 1954
11	Armaniston	2	Mulkidjanyan, 1962
12	Afg‘oniston	4	**Podlech; München, 2012**
13	Gruziya	4	Lichashvili, 1981
14	Qozog‘iston	5	Pavlov, 1961
15	Qirg‘iziston	3	Vvidensky, 1957
16	Sibir	3	Poloshey; Maltsev, 1994
17	Tojikiston	4	Rasulova; Sharipova, 1978
18	Turkmaniston	4	Vasilchenko, 1950
19	Kanada	1	Scoggan, 1978
20	AQSH	1	Britton, 1987
21	Shimoliy Afrika	1	Desfontaines, 1798
22	Kvinslend	1	Ross & Stanley, 1983

23	Yangi Janubiy Uels	1	Hardner, 1991
24	Viktoriya	1	Jeanes, 1996
25	Janubiy Avstraliya	1	Jessop; Toelken, 1986
26	G‘arbiy Avstraliya	1	Herbarium, W. A 1998
27	Chili	1	Reiche, 1998
28	Argentena	1	Zuloaga, 1996

Tahlillar davomida *Glycyrrhiza* turkumining turlar ro‘yxati amaldagi taksonomik o‘zgarishlardan kelib chiqib shakillantirildi. Unga ko‘ra *Glycyrrhiza* turkumi quyidagi turlardan iborat:

1.*Glycyrrhiza acanthocarpa* (Lindl.) J.M.Black – in Trans. & Proc. Roy. Soc. South Australia 43: 351 (1919)

Umumiy tarqalishi: Avstraliya.

2.*Glycyrrhiza aspera* Pall.- in Reise Russ. Reich. 1: 499 (1771)

Umumiy tarqalishi: O‘rta Osiyo**,** Markaziy Osiyo, Old Osiyo, Janubiy-G‘arbiy Osiyo, Sharqiy Yevropa.

3.*Glycyrrhiza astragalina* Gillies ex Hook. & Arn.- in Bot. Misc. 3: 183 (1833)

Umumiy tarqalishi: Argentena va Chili.

4.*Glycyrrhiza bucharica* Regel-in Trudy Imp. S.-Peterburgsk. Bot. Sada 8: 697 (1884)

Umumiy tarqalishi: O‘rta Osiyo.

5.*Glycyrrhiza echinata* **L**.- in Sp. Pl.: 741 (1753)

Umumiy tarqalishi: Sharqiy Yervropa, O‘rta va Janubiy Yevropa, Old Osiyo, O‘rta Osiyo.

6.*Glycyrrhiza foetida* Desf.- in Fl. Atlant. 2: 170 (1799)

Umumiy tarqalishi: Jazoir, Marokash, Ispaniya, Tunis.

7.*Glycyrrhiza glabra* L.- in Sp. Pl.: 742 (1753)

Umumiy tarqalishi: Sharqiy Yervropa, O‘rta va Janubiy Yevropa, O‘rta Osiyo, Old Osiyo, Janubiy-G‘arbiy Osiyo, Markaziy Osiyo.

8.*Glycyrrhiza gontscharovii* Maslenn.- in Trudy Tadzhikistansk. Bazy 8: 617 (1938 publ. 1940)

Umumiy tarqalishi: Tojikiston.

9.*Glycyrrhiza inflata* Batalin- in Trudy Imp. S.-Peterburgsk. Bot. Sada 11: 484 (1891), nom. cons.

Umumiy tarqalishi: Shimoliy-Markaziy Xitoy, Mangoliya, Shinjon.

10.*Glycyrrhiza lepidota* Pursh-in Fl. Amer. Sept. 2: 480 (1813)

Umumiy tarqalishi: AQSH va Kanada.

11.*Glycyrrhiza pallidiflora* Maxim- in Mém. Acad. Imp. Sci. St.-Pétersbourg Divers Savans 9: 97 (1859).

Umumiy tarqalishi: Xitoy, Xabarovsk, Manchjuriya, Mongoliya, Primorye.

12.*Glycyrrhiza squamulosa* Franch.- in Nouv. Arch. Mus. Hist. Nat., sér. 2, 5: 245 (1883).

Umumiy tarqalishi: Xitoy, Mug‘iliston, Shinjon.

13.*Glycyrrhiza triphylla* Fisch. & C.A.Mey.- in Index Seminum (LE, Petropolitanus) 1: 29 (1835).

Umumiy tarqalishi: O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Iron, Pokiston.

14.*Glycyrrhiza uralensis* Fisch. ex DC.- in Prodr. 2: 248 (1825).

Umumiy tarqalishi: O‘rta Osiyo, Markaziy Osiyo, Old Osiyo, G‘arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Sharqiy Yevropa, O‘rta Yevropa.

15.*Glycyrrhiza yunnanensis* S.H.Cheng & L.K.Tai ex P.C.Li-in Acta Bot. Boreal.-Occid. Sin. 4(2): 117 (1984).

Umumiy tarqalishi: Janubiy-Markaziy Xitoy.

16.*Glycyrrhiza zaissanica* Serg.- n Sist. Zametki Mater. Gerb. Krylova Tomsk. Gosud. Univ. Kuybysheva 1933(1-2): 11 (1933).

Umumiy tarqalishi: Qozog‘iston, Shinjon.

Tahlillarimizga ko‘ra *Glycyrrhiza* turkumining O ‘zbekiston florasida 5 turi o‘sishi ma’lum bo‘ldi (1-rasm).

Glycyrrhiza turkumi bo‘yicha Markaziy Osiyoda olib borilgan tadqiqot ishlari

Markaziy Osiyoda ham *Glycyrrhiza* turkumi ustida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Y.S.Grigoriyev tomonidan 1932-yilda *G. glandulifera* var. *grandiflora Ledeb*. turini *G.urralensis* Fich. turi sifatida qayta nomlagan [42]. B.A. Fedchenko tomonidan *Glycyrrhiza* turkumining G‘arbiy Tyan-Shan hududida tarqalgan 3 turi (*G. glabra, G. aspera, G. uralensis*) o‘rganilgan [60]. E.A. Kruganova esa *Meristotropis* va *Glycyrrhiza* turkumlarini mustaqil turkum sifatida qarashni taklif qilgan [48].

O‘zbekiston hududida *Glycyrrhiza* turkumi turlarini tadqiq qilish 1965-yillardan boshlangan. O‘z FA Botanika institutida L.E. Pauzner boshchiligida “Glitsirizin saqlovchi o‘simliklar” laboratoriyasi (1965) tashkil qilingan. Bu laboratoriya olimlari tamondan (Q.Z.Zokirov, L.E.Pauzner, M.M.Badalov, B.Yo.To‘xtaev, S.S.Muinova, G.S. Aprasidi, E.Valieva, S.X.Nigmatov, L. F. Streltsova, N.Xaydarov va boshqalar) turkumning turlarini kompleks o‘rganish va ularning kollektsiyalarini tashkil etish yo‘nalishida juda katta ishlar qilingan. Laboratriya ishlari 4 to‘plam (1970, 1975, 1979, 1985), qator qo‘llanma va tavsiyanomalar (1973, 1978, 1984, 1986, 1989, 1995, 1996 va boshqalar)da yoritilgan. 1969-yilda A. Baxiev Quyi Amudaryo mintaqasida shirinmiya formatsiyalarini o‘rganib, 27 oila, 68 turkum va 99 tur uchrashini hamda hududda 19 ta massiv, 17991 ga maydonda 59354.2 tn quruq ildiz zaxirasi borligini, Davletmuratov S.D. (1979) Qoraqalpog‘istonda 2685 ga maydonda 12059.2-13576.1 tn ildiz zaxirasi mavjudligini aniqlagan [34,43]. S.S.Muinova Toshkent viloyati sharoitida tuksiz shirinmiya o‘simligining biologik xususiyatlarini kuzatib, vegatatsiyasi 205 kundan 230 kungacha davom etishini aniqladi [51].



1-rasm. Glycyrrhiza turkumining O‘zbekistonda tarqalgan turlari: a-G. uralensis, b-G. aspera, c-G. bucharica, d-G. triphylla, e-G. glabra Fotosuratlar: a-Panov, b,d,e-Xurramov, c- Beshko tomonidan olingan.

Shuningdek, K.A Galimova va S.S Muinova shirinmiya turkumining tuksiz va ural turlarini chatishtirib yangi duragayini olishga muvaffaq bo‘lgan [9]. G.S. Aprasidi 4 xil populiyatisyada *Glycyrrhiza* turkumini 7 ta turini fiziologik xususiyatlarini o‘rgangan va *Glycyrrhiza aspera* turi kserotermik sharoitlarga moslashish darajasi yuqori ekanligini ma’lum qilgan [33]. N. Xaydarov tuproqning Tuksiz shirinmiya bilan to‘liq qoplanishi bug‘lanishning kamayishini, bug‘lanishda uning ulushini va vegetatsiya davrida tuzlarning ko‘tarilishining sezilarli sekinlashishini aniqladi [61]. Shamsuvaliyeva L.A. *Glycyrrhiza* turkumini tuzlarga chidamliligiga asoslanib, *G. glabra* va *G. aspera* turlarini xlorid-sulfat tuzlari bilan sho‘rlangan tipidagi tuproqlarda o‘stirishni tavsiya etadi [63]. B. To‘xtayev *G. glabra*ning sho‘rlanish darajasi yuqori bo‘lgan yerlarda sho‘rsizlantirish ta’siri vegetatsiya davrining 3-yilidan boshlab namoyon bo‘lishini tadqiqot natijalari orqali ma’lum qilgan [59].

Xom-ashyo zaxirasini aniqlash va undan foydalanishga qaratilgan tadqiqot ishlari

Ilk marotaba dunyo miqyosida *G. glabra* o‘simligining ildiz qismidan sanoatda foydalanish 1880-yilda Ozorbayjon respublikasida amalga oshirilgan. 1929-1934-yillarda hudud bo‘ylab o‘simlik zaxiralarni baholash ishlari amalga oshirilgan. Ozarbayjonda yiliga 50000 tn gacha xom-ashyo yig‘ilgan. O‘rtacha hosildorlik 11.86 tn/ga tashkil etgan [54].

Qozog‘istonda 1898-yildan boshlab o‘simlik xom-ashyosini qazib olish boshlangan. Yiliga 500000 tn gacha shirinmiya Yevropaga eksport qilingan. 1920-yilga kelib hududda shirinmiya o‘sadigan maydon 20-30 ming gektar deb baholangan va zaxirasi 50 ming tonna ekanligi qayd etilgan [44].

1906-yillarga kelib Turkmaniston va O‘zbekiston hududlarida o‘zimlikning zaxirasi juda katta maydonni tashkil etishi va tarkibida glisirrizin kislotasi ko‘p ekanligi

bois xorijiy tadbirkorlarda yaxshi qiziqish uyg‘otgan. Turkmanistonda Chorjou zavodi tashkil etib, yiliga 10 ming tonna xom-ashyo tayyorlangan. Bu yerda 11 ming gektar maydonda 25446 tonna xomashyo bazasiga ega “Солодковое дело” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan [35]. 1922-1923-yillarda Aksiyadorlik jamiyati “Средазлакрица” shirkatiga aylantirilib, yillik mahsuldorligi 10-11 ming tonna ildiz ekstrakti ishlab chiqarildi [53]. Keyinchalik Chorjuy fermasi “Средазлакрица” kompaniyasiga aylantirildi, u 1963-yildan 1985-yilgacha har yili 110 ming tonna quruq ildiz yig‘ib oldi [39]. 1962-yilga kelib shirinmiyani zaxirasidan foydalanish eng yuqori darajaga yetdi, ya’ni 30724 tonnani tashkil etdi. 1972-yilda ishlab chiqarish 10 ming tonnaga kamaygan. 1968-yilda esa 6,5 ming tonna quruq ildiz yig‘ilgan [55]. Keyinchalik, 1986-yilda Amudaryo havzasida 21022 tonna (14658 tn Turkmaniston, 6200 tn O‘zbekiston, 164 tn Tojikiston) o‘simlik ildizi tayyorlangan [46]. O‘zbekistonda Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Angren va Amudaryoning quyi oqimlarida o‘simlikning zich o‘sish zaxiralari mavjud bo‘lib, 1358 ga maydonni tashkil qilishi va bu yerdan 18.5 ming tonna quruq ildiz olish mumkinligi aniqlangan [62,50]. 1991-yilga kelib, bu maydonladan doimiy foydalanish oqibatida 15 yil ichida zaxira miqdori 15 baravarga kamaygani ma’lum bo‘ldi, agar holat shunday davom etsa ishlab chiqarish uchun yaroqli zaxira miqdori batamom tugashi mumkinligini takkidlangan [34].

XULOSA

Tadqiqotimiz davomida *Glycyrrhiza* turkumining 16 ta turi dunyo bo‘ylab 28 ta davlatda uchrashini aniqladik. Eng kam turlar Avstraliya, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika va Afrika davlatlariga to‘g‘ri keladi. Osiyo davlatlaridan Xitoy, Eron, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston hamda Yevropa davlatlaridan Turkiya, Rossiyaning Yevropa qismida turlar xilma-xilligi yuqori ekanligini ma’lum bo‘ldi.

Glycyrrhiza turkumining asosan bitta turi *G. glabra* sanoat miqyosida ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu turning dunyo bo‘yicha tabiiy zaxiralarining asosiy qismi Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog‘iston va O‘zbekiston hududida joylashgan. Shu bois O‘zbekistonda ham ushbu turning tabiiy zaxiralarini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ali S., Nasir E. Flora of West Pakistan. No. 100, Papilionaceae. – University of Karachi, 1977. 94-97
2. Bao B., Larsen K. Glycyrrhiza Linnaeus //Flora of China. – 2010. – T. 10. – C. 509.
3. Chinese Pharmacopoeia Commission et al. Pharmacopoeia of the people's republic of china 2015 //(No Title). – 2015.
4. Dastagir G., Rizvi M. A. Glycyrrhiza glabra L.(Liquorice) //Pakistan journal of pharmaceutical sciences. – 2016. – T. 29. – №. 5.
5. Davis P. H. Lathyrus in Flora of Turkey vol. 3: 328-369. – 1970. 260-263
6. De Candolle A. P. Prodromus systematis naturalis //Regni vegetabilis, pars. – 1825. – T. 2.247-248.
7. Desfontaines R. 99: Flora atlantica 2. – 1798. 170.
8. Federov A. Flora part of the European USSR// -1987. vol. 4**.** 84-86.
9. Galimova, K. A., and S. S. Muinova. "Producing interspecific hybrids of Glycyrrhiza glabra and G. uralensis." //1985. 32-34.
10. Harden G. J. Flora of New South Wales Vol. II //New South Wales. – 1991. 442.
11. Hayashi H., Sudo H. Economic importance of licorice //Plant Biotechnology. – 2009. – T. 26. – №. 1. – C. 101-104.
12. Jeanes JA. Glycyrrhiza. In: NG Walsh, NG Entwisle, editors. Flora of Victoria, vol. 3. Melbourne: Inkata Press. 1996; 698-699.
13. Jessop J., Toelken H. R. Flora of South Australia: Polemoniaceae-Compositae. – South Australian Government Printing Division, 1986. Vol.2. 603-604.
14. Kao T. C., Wu C. H., Yen G. C. Bioactivity and potential health benefits of licorice //Journal of agricultural and food chemistry. – 2014. – T. 62. – №. 3. – C. 542-553.
15. Linnaeus, Carl von. "Glycyrrhiza L." Species plantarum 2 (1753): 741-742.
16. Meng L. Systematics of Glycyrrhiza L.(Fabaceae)-with a special reference to its relationship to Glycyrrhizopsis Boiss. & Bal : дис. – Ph. D. Thesis, Institute of Botany, Chinese Academy of Sciences, China, 2005.
17. Pallas P. S. Reise durch verschiedene Provinzen des russischen Reichs. – Kayserliche Akademie der Wissenschaften, 1771. – T. 1. 499.
18. Расулова М. Р., Шарипова Б. Флора Таджикской ССР 1978. том-5. Ленинград
19. Podlech D. Checklist of the flowering plants of Afghanistan //München: Ludwig-Maximilians Universität Publ. – 2012.
20. Press. Sharma, V., Katiyar, A., and Agrawal, R. C. “Glycyrrhiza glabra: chemistry and pharmacological activity,” in Sweeteners: Pharmacology, Biotechnology, and Applications, eds J.-M. Mérillon and K. G. Ramawat (Cham: Springer International Publishing), (2018). 87–100. doi: 10.1007/978-3-319-27027-2_21

21. Rechinger K.H Glycyrrhiza L. Flora of the Iranian highlands and the surrounding mountains 1984. Nr 157. 164-169.

22. Reiche C. Glycyrrhiza. In Flora de Chile, vol. 2. Santiago: Imprenta Cervantes. 1898; 113-114.

23. Ross, E. M., & Stanley, T. D. Flora of south-eastern Queensland. Queensland Department of Primary Industries. 1983. 302.

24. Sawant, B. S., Alawe, J. R., & Rasal, K. V. (2016). Pharmacognostic study of Glycyrrhiza glabra Linn-a review. International Ayurvedic Medical Journal, 4(10), 3989-3993.

25. Scoggan H. J. Glycyrrhiza //The Flora of Canada, Part. – 1978. – T. 3. 996

26. Townsend C.C Flora of Iraq //Published by the Ministry of Agriculture and Agrarian Reform of the Republic of Iraq, 1974. vol.3, 445-448.

27. Western Australian Herbarium. FloraBase-the Western Australian Flora. Department of Biodiversity, Conservation and Attractions. 1998/ . – T. 31. – C. 1-7.

28. Wu, D. Y. Hong, and P. H. Raven (Beijing: Science Press), 509–511

29. Yan B. et al. A review on the plant resources of important medicinal licorice //Journal of Ethnopharmacology. – 2023. – T. 301. – C. 115823.

30. Yeo P. F. Glycyrrhiza //Flora Europaea. – 1968. – T. 2. – C. 127.

31. Zhou, C. M., and Jin, G. Q. Liquorice, 2nd Edn. Beijing: China Agriculture 2016.

32. Zuloaga F. O., Morrone O. Catálogo de las plantas vasculares de la República Argentina. – 1996.

33. Апрасиди Г.С Биоекологеческие особенности и основные показатели водного режима видов и популяций слодки при интродукции в условия Узбекистана. Ташкент-1981. 184-185.

34. Бахиев А.Б., Трешкин С.Е. // Обучение и состояние соликофи в народном хозяйстве СССР: Материалы науч. сообщение. IV симпоз. Алма-Ата: Гылым, 1991. С. 32-34.

35. Варганов Л.А. Развитие и размещение производства и переработки солодкового корня в СССР: Автореф. дис. канд. экон. наук. Ташкент, 1970. 22 с.

36. Васильченко. И.Т. Флора Туркмении/ Издательство Туркменского филиала академии наук СССР / 1950. том-4, 301-302.

37. Введенский А. И. "ОПРЕДЕЛИТЕЛЬ РАСТЕНИЙ СРЕДНЕЙ АЗИИ". Том VI. – Ташкент: ФАН, 1981. – 520 с.

38. Введенский А. ИФлора Киргизской ССР Издательство ан Киргизской ССР 1957. том-7, 394-397.

39. Гладышев А.И. // Обучение и состояние соликофи в народном хозяйстве СССР: Материалы науч. сообщение. IV симпоз. Алма-Ата: Гылым, 1991. С. 25-27

40. Голушко А. И. Флора северного кавказа издательство ростовского университета, 2.1980, 160-161.

41. Гранкина В. П. Система рода Glycyrrhiza L.(Fabaceae) //Новости систематики высших растений. – 2008. – Т. 40. – С. 89-109.

42. Григорьев Ю.С. Изв. Гл. ботан. Сада АН СССР. 29 (1930): 94.

43. Давлетмуратов, С. Д Лекарственные растения Каракалпакии, применяемые в научной медицине. - Нукус : Каракалпакстан, 1990. - 93 с

44. Иванов В.В. // Учен. зап. Урал. пед. ин-та. 1955. III, 2. С. 23-62.

45. Карягин И. И. Род glaycyrrhiza L. Флора Азербайджана.-1954, Баку том-5. 438-444

46. Кербабаев Б.Б., Гладышев Д.И, Итоги изучения солодки в Туркмении //III симпоз. по изуч и использ. солодки в нар. х-ве СССР: Матер, науч. сообщ. - Ашхабад: Изд-во АН ТССР. - 1988. - С.15-17.

47. Коровин Е. П. (ред.). Флора Узбекистана. Том III. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1960. – 560 с.

48. Круганова Е.А. // Флора и систематика высших растений. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1955. С. 161-197. (Тр. / Ботан. ин-т АН СССР; Сер. 1, вып. 11).

49. Лачашвили И. Я. Флора Грузии "мецниереба" тбилиси; (1981) том-7, 352-360.

50. Мениахмедов Г.З., Бахиев А.Б. // Изучение и использование солодки в народном хозяйстве СССР: Материалы науч. сообщ. III симпоз. Ашхабад, 1988. С. 20--22.

51. Муинова С. С. Перспективные популяции солодки голой и их культура под Ташкентом //В сб.: Пути повышения продуктивности лекарственных и кормовых растений в культуре. Ташкент: ФАН. – 1985. – С. 18-26.

52. Мулкиджанян Я. И. Новые разновидности из флоры Армении //ՀՍՍՀ ԳԱ Զեկույցներ. – 1962. – Т. 45. – №. 4. – С. 218-225.

53. Мусаев И.Ф., Надежина Т.П., Серых Г.А. // Атлас ареалов и ресурсов офисных раст16ений СССР / Гл. ред. П.С. Чиков. М.: ГУГК, 1976. С. 301-302

54. Мусаева С.М. Формации Glycyrrhizeta (G. glabra L.) в Азербайджане: Автореф. дис. канд. биол. наук. Баку, 1968. 31

55. Павлов В.С. // Изучение и использование солодки в народном хозяйстве СССР: Материалы науч. сообщ. III симпоз. Ашхабад: АН ТССР, 1988. С. 3-5.

56. Павлов Н. В. (ред.). Флора Казахстана. – Изд-во Академии наук Казахской ССР, 1956. – Т. 5, 412-416.

57. Положий А.В., Л.И.Малыщев Флора Сибир том-9. Новосибирск в "науке" 1994. 152-153.

58. Толстиков Г. А. и др. Солодка: биоразнообразие, химия, применение в медицине //Новосибирск: Гео. – 2007. – Т. 311.

59. Тухтайев Б.Ё Использование солодки как адаптирующегося растения на засоленных почвах и ее биоэкологические особенности Ташкент-1991. 135-137.

60. Федченко Б.А. // Труды Импер. СПб. ботан. сада. 1905. XXXIV, вып. 2. С. 157-260.

61. Хайдаров Н. Биоекологические аспекты солодки голой и агроценотичиская среда. Ташкент-1989. 119-120.

62. Чевреници С.Х. // Вопросы изучения и использования солодки в СССР. М.; Л.: Наука, 1966. С. 68-74.

63. Шамсувалиева Л.А Фирмирование структуры вегетатиивных и генеративных органов видов родов Glycyrrhiza L. и Meristotropis Fish. В онтогенез и в связи с голофактором. Ташкент. 1999. 183-184.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Urinboeva Maftuna Maxmudjonovna
Qorakoʻlchilik va choʻl ekologiyasi ilmiy tadqiqot institutining mustaqil izlanuvchisi
Aripov Oʻktam Xajimuradovich
Qorakoʻlchilik va choʻl ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti professori
Suleymanova Muxabbat Kasimovna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti
Xuseinova Maysara Abduvafoevna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti, q.x.f.f.d. (PhD)

UDK: 636.933: 575.174.015.3

TURLI GENOTIPDAGI HISORI ZOTLI QOʻYLARNING CAST GENI BOʻYICHA OʻSISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Аннотация. *Maqolada Surxondaryo viloyati Qumqoʻrgʻon tumani "Bobotogʻ suri" mas'uliyati cheklangan jamiyatida urchitilayotgan turli genotipga ega boʻlgan hisori zotli qoʻzilarning CAST geni boʻyicha M va N allellari asosida oʻsish va rivojlanish xususiyatlari keltirilgan. Tajribadagi qoʻylarning turli genotiplari ontogenez davrida yosh hayvonlarning oʻsishiga turlicha tasir qilishi, jumladan MM gomozigotali allelga ega boʻlgan qoʻzilar MN geterozigotali allelga ega boʻlgan qoʻzilardan 0,1 kg kichik tirik vaznga ega ekanligini, hamda shunday koʻrsatkichlarni 21 kunlikda 0,2 kg; 4,5 oyligida 2,5 kg va 6 oyligida 1 kg tirik vazni kichik ekanligini koʻrish mumkin.*

Kalit soʻzlar: *hisori, allel, CAST, gen, gomozigota, geterozigota, tana oʻlchamlari, tirik vazn, indeks.*

Уринбоева Мафтуна Махмуджоновна
Независимый научный сотрудник НИИ каракулеводства и экологии пустынь
Арипов Октам Хаджимурадович
Профессор, НИИ каракулеводства и экологии пустынь
Сулейманова Мухаббат Касимовна
Доцент Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии
Хусейнова Майсара Абдувафоевна
Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, доктор наук. (доктор философии)

РОСТ И РАЗВИТИЕ ОВЕЦ ГИССАРСКОЙ ПОРОДА ПО ГЕНУ CAST РАЗНЫХ ГЕНОТИПОВ

Аннотация. *В статье приведены рост и развитие 18 голов овец гиссарской породы по гену CAST на основе аллелей M и H. Разные генотипы овец в эксперименте по-разному влияют на рост молодняка в онтогенезе, в том числе ягнята с гомозиготным аллелем MM имеют живую массу на 0,1 кг меньше, чем ягнята с гетерозиготным аллелем MH, и такие показатели составляют 0,2 кг в 21 день; Видно, что живая масса 2,5 кг в 4,5 месяца и 1 кг в 6 месяцев небольшая.*

Ключевые слова*: гиссарская, порода, овец, аллель, CAST, гены, гомозигота, гетерозигота, промеры тела, живой вес, индекс.*

Urinboeva Maftuna Makhmudjonovna
Independent researcher at the Scientific Research Institute of Karakul Farming and Steppe Ecology
Aripov Oktam Khajimuradovich
Professor at the Scientific Research Institute of Karakul Farming and Steppe Ecology
Suleymanova Mukhabbat Kasimovna
Assistant at the Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology
Khuseinova Maysara Abduvafoevna
Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology PhD

GROWTH AND DEVELOPMENT OF GISSAR SHEEP BREED ACCORDING TO THE CAST GENE OF DIFFERENT GENOTYPES

***Annotation**: The article presents the growth and development of 18 heads of Gissar sheep according to the CAST gene based on the M and H alleles. The article presents the growth and development of 18 heads of Hissar sheep according to the CAST gene based on the M and H alleles. Different sheep genotypes in the experiment have different effects on the growth of young animals in ontogenesis, including lambs with the homozygous MM allele have a live weight of 0.1 kg less than lambs with the heterozygous MH allele, and such indicators are 0.2 kg at 21 days; It is evident that the live weight of 2.5 kg at 4.5 months and 1 kg at 6 months is small.*

***Keywords**: hissar, allele, CAST, gene, homozygote, heterozygote, body measurements, live weight, index.*

Kirish.

Hozirgi kunda qo‘ychilikda urchitilib kelinayotgan qorako‘l, hisori, jaydari va ularning duragaylarini xalqimiz yaxshi ko‘rib, urchitib kelmoqda va bu qo‘ylarga bo‘lgan qiziqish kundan – kunga ortib bormoqda.

Hisori qo‘ylari jahondagi yirik qo‘ylardan biri xisoblanadi. Ularning yirikligi, tez yetiluvchanligi, yuqori go‘sht-yog‘ mahsuldorligi, semirish sifatlari va chidamliligi bilan ajralib turadi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun hisori qo‘ylari yuqori qiymatga ega, chunki ular baland tog‘lardagi yaylovlarni katta massivlarni o‘zlashtira oladi. Hisori zotli qo‘ylar boshqa zotlarga qaraganda boshining yirikligi, keng peshonaligi, bo‘ynining uzunligi, ko‘krakning kengligi, mustahkam va oyoq tuzulishiga egaligi bilan ajralib turadi.

Hisori qo‘ylari bilan naslchilik ishlari ko‘lami zot ichida ularni tirik vaznini dumba o‘lchamini tez yetiluvchanlikni, serpushtlikni oshirishga qaratilgan.

Qo‘ylarning go‘sht mahsuldorligini oshirishda naslchilik ishlarini yo‘lga qo‘yish, texnologik, biotexnologik va boshqa usullardan foydalangan holda qo‘ylarning go‘sht mahsuldorligini oshirish yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida olib borilmoqda.

Hozirgi kunda AQSh, Fransiya, Germaniya, Angliya va Avstraliyada go‘sht mahsuldorligi yo‘nalishidagi qo‘ylar ustida seleksiya ishlari olib borish, mayin junli qo‘y zotlarining jun mahsuldorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar keng olib borilmoqda.

Yangi Zelandiya, Angliya, Fransiya va Rossiyada tajriba stansiyalari va laboratoriyalarida go‘sht va go‘sht-jun mahsuldorligining yangi zotlari va zot tiplarini yaratish, yuqori go‘sht mahsuldorligini va genetik parametrlarni, go‘shtning boshqa xususiyatlari bilan korrelyativ aloqalarini aniqlashda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda so‘nggi yillarda mahalliy dumbali qo‘ylarning go‘sht mahsuldorligini oshirish maqsadida go‘sht-yog‘ tipidagi qo‘ylar – “Hisor”, “Edilboy” va boshqalar bilan chatishtirish ishlari olib borilgan. Olingan natijalar go‘sht mahsuldorligining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qo‘ychilik turli xil mahsulotlar – jun, sut, go‘sht ishlab chiqarishda ahamiyatga ega soha hisoblanadi, ular orasida eng ommabop va oson sotiladigan qo‘y go‘shti hisoblanadi, shuning uchun dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida 60-80% daromad qo‘y go‘shti ishlab chiqarishdan olinadi.

Tadqiqot maqsadi. Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani “Bobotog‘ suri” MChJ xo‘jalikda urchitilayotgan turli genotipga ega bo‘lgan hisori zotli qo‘zilarining o‘sish va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tajriba obekti va usullari. Tajribada CAST geni bo‘yicha M va N allellari asosida 18 bosh qo‘zilarning o‘sish va rivojlanish xususiyatlari keltirilgan.

Tajriba hayvonlarining tirik vazni platforma tarozisida aniqlanildi. Tana o‘lchamlari o‘lchov asboblari yordamida aniqlanib, tana indekslari xisoblab chiqildi.

Olingan natijalar va ularning taxlili: Turli xil allellarga ega bo‘lgan hisori zotli qo‘zilarning tirik vazni 1-jadvalda keltirilgan

1-Jadval

CAST geni uchun hisori zotli qo‘zilarning o‘sish dinamikasi, kg (n=18)

Ko‘rsatkichlar	Genotip	
	MM	MN
Tug‘ulganda	4.8±0.06	4.9±0.11
21 kunlik	13.8±0.14	14.0±0.16
4,5 oylik	40.7±0,29	43.2±0.88
6 oylik	48.9±0.55	49.9±0.49

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki qo‘ylarnii turli genotiplari ontogenez davrida yosh hayvonlarning o‘sishiga turlicha tasir qiladi. Jumladan MM gomozigotali allelga ega bo‘lgan qo‘zilar MN geterozigotali allelga ega bo‘lgan qo‘zilardan 0,1 kg kichik tirik vaznga ega ekanligini ko‘rish mumkin, xuddi shunday ko‘rsatkichlarni 21 kunlikda 0,2 kg; 4,5 oyligida 2,5 kg va 6 oyligida 1 kg tirik vazni kichik ekanligi aniqlandi.

Tana tuzilish o‘lchamlari hayvonning ekstererini to‘liq tavsiflamaydi. Shuning uchun amaliyotda tana tuzilish indekslaridan keng foydalaniladi. Tajribadagi qo‘zilarning tug‘ulgandan to 6-oylikgacha bo‘lgan davr mobaynidagi tana tuzulish indekslari hisoblandi.

2-Jadval

CAST geni uchun hisori zotli qo‘zilarning tana tuzilish indekslari, %

Davrlarda	Uzunoyoqlilik		Cho‘zinchoqlik		Ko‘krak		Zichlik		Suyakdorlik	
	MM	MN	MM	MN	MM	MN	MM	MN	MM	MN
Tug‘ilganda	66.2	66.1	87.9	88.6	79.7	78.9	114.5	116.8	16.3	16.6
21-kunlik	51.9	51.1	87.5	88.2	67.6	66.4	123.8	122.7	15.2	15.2
4.5 oylik	54.6	54.7	99.2	100.5	80.1	81.2	128.5	127.3	12.9	13.0
6-oylik	55.7	55.7	93.8	93.3	87.6	87.9	133.0	132.1	12.1	12.1

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gomozigotali va geterozigotali alellarga ega bo‘lgan qo‘zilar hisori qo‘y zotiga ega bo‘lgan talablarga to‘g‘ri keladi. Ammo uzunoyoqlilik, suyakdorlik kabi indekslar yosh o‘tishi bilan kamayib boradi. Buning sababi shundaki, qo‘zilar odatda uzunoyoqli bo‘lib tug‘ulgadi, ammo yosh o‘tishi bilan cho‘ziluvchanlik, ko‘krak va semizlik indekslari bo‘yicha farq kuzatilsada u ishonchli emas.

Xulosa

Tadqiqot natijalari qo‘ylarni turli genotipdagi ontogenez davrida qo‘zilarni o‘sish va rivojlanishiga turlicha ta’sir etishini ko‘rsatadi. CAST geni bo‘yicha MN genotipi o‘zining go‘sht ko‘rsatkichlarining ustunligi bilan MM genotipidan ajralib turadi.

Adabiyotlar

1. «Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3603 sonli qarori. Toshkent. 2018 yil 14 mart. lex.uz

2. «Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4420sonli qarori. Toshkent. 2019 yil 16avgust. lex.uz

3. Шацкий А.Д., Кравцевич В.П. “Овцеводство” Учебно пособие. Минск, 2016 год.

4. Асамов С.А., Валиев Р.Г. Селекционно-племенная работа с каракульскими овцами черной окраски. Тр. ВНИИК. Самарканд. 1975. 5-8 с.

5. Ашрати А.С. К Экотипичности черных каракульских овец Афганистана. Автореф.канд.дисс. Душанбе. Отд. биол. АН Тадж. ССР. 1967. 18 с.

6. Bazarov S.R., Yorqulov X.N. Har xil rangbaranglikdagi sur qo‘zilar ranggining sifat ko‘rsatkichlari. “Cho‘l – yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho‘llanishning oldini olishning ilmiy-amaliy asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand. 2019. 73-74 b.

7. Ерохин А.И. Овцеводство / А.В. И. Ерохин, В. И. Котарев, С. А. Ерохин - Воронеж: ФГБОУ ХПИ Воронежского ГАУ, 2014.-с. 450

8. Сулейманова, М. К., Ризаева, Д. Т., & Бошмонов, С. С. (2023). Влияние молочной продуктивности каракульских овец разной окраски на живой вес и прирост ягнят. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, *1*(1), 127-129.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Abdullayev G‘ofurjon Raximjanovich
Namangan davlat universiteti,Fiziologiya kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori
e-mail : gafurjan_raximjanovich@mail.ru
Azimova Nozanin To‘ymurodovna
Namangan davlat universiteti,Fiziologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
e-mail : nozaninazimova11091994@gmail.com

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR ORGANIZMINING MAKTAB REJIMIGA MOSLASHUVIDA MIKROKLIMAT HAMDA O‘ZGARUVCHAN MUXIT OMILLARINING O‘RNI.

Annotatsiya: *Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar organizmini maktab rejimining yangi sharoitlariga moslashish jarayoni hamda unga o‘zgaruvchan atrof muxit sharoitlari ta’sirida fiziologik o‘zgarish masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar ma’lumotlari taqdim etilgan va morfofunksional ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar, jumladan yurak urishi tezligi, stress darajasi, kognitiv funksiyalar va umumiy jismoniy faollik tahlil qilingan. Bolalarning psixofiziologik holatiga maktab rejimi, ovqatlanishi va mintaqaviy o‘ziga xosliklari, jumladan, respublikamizda bu boradagi ma’lumotlar, shuningdek, boshqa mamlakatlardagi bolalarni rasional ovqatlanishi bilan taqqoslashning ilmiy hulosalariga e’tibor qaratilgan. O‘rganilgan ilmiy manbaalar asosida bolalarning maktab ta’limiga moslashuvini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *adaptatsiya, maktab rejimi, kichik maktab yoshidagi bolalar, morfofunksional ko‘rsatkichlar, kognitiv funksiyalar, ovqatlanish, O‘zbekiston, xalqaro taqqoslash.*

Абдуллаев Гафурджон Рахимжанович
Наманганский государственный университет, профессор кафедры физиологии, доктор биологических наук
Азимова Нозанин Тоймурадовна
Независимый научный сотрудник кафедры физиологии Наманганского государственного университета

РОЛЬ ФАКТОРОВ МИКРОКЛИМАТА И ИЗМЕНЧИВОЙ СРЕДЫ В АДАПТАЦИИ ОРГАНИЗМА ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ШКОЛЬНОМУ РЕЖИМУ.

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы физиологических изменений организма детей младшего школьного возраста в процессе адаптации к новым условиям школьного режима. В статье представлены данные научных исследований по теме и проанализированы изменения морфофункциональных показателей, включая частоту сердечных сокращений, уровень стресса, когнитивные функции и общую физическую активность. Внимание уделено психофизиологическому состоянию детей, школьному режиму, питанию и региональным особенностям, в том числе данным по этому поводу в нашей республике, а также научным выводам по сравнению с рациональным питанием детей в других странах. На основе изученных научных источников даны рекомендации по оптимизации адаптации детей к школьному образованию.*

Ключевые слова: *адаптация, школьный режим, дети младшего школьного возраста, морфофункциональные показатели, когнитивные функции, питание, Узбекистан, международное сравнение.*

Abdullayev Gafurjon Rakhimjanovich
Namangan State University, Professor of the Department of Physiology, Doctor of Biological Sciences
Azimova Nozanin Tuymurodovna
Namangan State University, Independent Researcher, Department of Physiology

THE ROLE OF MICROCLIMATE AND VARIABLE ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE ADAPTATION OF THE BODY OF YOUNG SCHOOLCHILDREN TO SCHOOL REGIME.

Abstract: *The article examines the issues of adaptation of primary school children’s bodies to new conditions of the school regime. It provides data from scientific studies, analyzes changes in morphofunctional indicators, including heart rate, stress level, cognitive functions and overall physical activity. Particular attention is paid to the influence of the school regime, nutrition and regional*

specifics, including data on Uzbekistan, as well as comparison with other countries, on the psychophysiological state of children. Recommendations are given for optimizing children's adaptation to school education.

Keywords: *adaptation, school regime, primary school children, morphofunctional indicators, cognitive functions, nutrition, Uzbekistan, international comparison.*

Kirish

Bolalarning maktab rejimiga moslashish jarayoni fiziologik, psixologik va ijtimoiy omillarning murakkab o‘zaro ta’siri bo‘lib, bunda organizmning tartibga solish mexanizmlariga ta’sir ko‘rsatadigan iqlim sharoitlarining o‘zgarishi alohida rol o‘ynaydi. So‘nggi o‘n yilliklarda global iqlim o‘zgarishlari harorat rejimining beqarorligi, namlik darajasi va atmosfera bosimining o‘zgarishi, anomal ob-havo hodisalari chastotasining oshishi bilan birga kechmoqda, bu esa maktab muhitiga moslashish davrida bolalar organizmi uchun qo‘shimcha stressogen omillarni keltirib chiqarmoqda.

O‘zgaruvchan iqlim ta’sirining asosiy jihatlaridan biri, ayniqsa mavsumlararo o‘zgarishlar davrida sirkadian ritmlarning buzilishidir. Harorat va namlikning o‘zgarishi organizmdan termoregulyasiya mexanizmlarini doimiy ravishda qayta qurishni talab qiladi, bu esa moslashuv zaxiralarining pasayishiga, charchoqning kuchayishiga va kognitiv funksiyalarning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Atmosfera bosimining keskin o‘zgarishi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa vegetativ boshqaruvning buzilishiga, qon tomirlar tonusining o‘zgarishiga va natijada diqqatning pasayishiga va o‘quvchilarning umumiy ahvolining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, beqaror iqlim sharoiti shamollashning ko‘payishiga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida organizmning o‘quv yuklamalariga chidamliligini pasaytiradi va moslashish jarayonini sekinlashtiradi. Iqlim omillari ta’sirida mavsumiy infeksiyalar tarkibining o‘zgarishi ta’lim muassasalaridagi epidemiologik vaziyatga ta’sir ko‘rsatib, bolalarning immun tizimiga qo‘shimcha yuklama yaratadi.

Global isish va anomal ob-havo hodisalarining tezlashishi ultrabinafsha nurlanish darajasida ham aks etadi, bu esa endokrin mexanizmlarga, xususan, uyqu va uyg‘onish jarayonlarini, shuningdek, organizmning stress reaksiyalarini tartibga soluvchi melatonin va kortizol ishlab chiqarilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [14]. Ob-havo sharoitining keskin o‘zgarishi sharoitida psixoemosional zo‘riqish darajasining oshishi kuzatiladi, bu esa uyquning buzilishiga, xavotir darjasining kuchayishiga va moslashish imkoniyatlarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishi bolalarning maktab rejimiga moslashishiga ta’sir qiluvchi muhim ekzogen omil hisoblanadi. Mintaqaning iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga kompleks yondashuv, o‘quvchilarning salomatlik holatini kuzatish va o‘quv yuklamasini boshqarishning moslashuvchan strategiyalari iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini kamaytirish va bolalarning maktabga muvaffaqiyatli moslashishi uchun qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi.

O‘zgaruvchan ekologik vaziyat sharoitida bolalarning maktab rejimiga moslashish jarayonlariga ifloslangan havoning, xususan, muallaq qattiq zarrachalarning (PM10, PM2.5, ulьtradispers zarrachalar <100 nm) ta’siri alohida tashvish uyg‘otmoqda [15]. Bu zarrachalar antropogen faoliyat natijasi bo‘lib, sanoat korxonalari chiqindilari, transport chiqindilari, yoqilg‘i yonishi va organizmning fiziologik tizimlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organik va noorganik birikmalarning murakkab birikmasidir.

Nafas yo‘llariga tushgan PM10 zarralari nafas yo‘llarining yuqori qismlarida joylashib, shilliq qavatlarning yallig‘lanish reaksiyalarini keltirib chiqaradi va nafas yo‘llari kasalliklari xavfini oshiradi. Mayda PM2.5 zarrachalari bronxiolalar va alveolalarga chuqurroq kirib, surunkali yallig‘lanish jarayonlarining rivojlanishiga, epiteliyning to‘siq xususiyatlarining o‘zgarishiga va o‘pka tomirlarining o‘tkazuvchanligini oshirishga yordam beradi. Alveolyar-kapillyar to‘siqni yengib o‘tish, tizimli qon oqimiga kirish va yurak-qon tomir va asab tizimlari ishiga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lgan ulьtradispers zarralar eng xavfli hisoblanadi.

Ifloslangan havoning bolalarning kognitiv funksiyalariga ta’siri faol ilmiy tadqiqotlar mavzusidir. PM2.5 va PM10 ning yuqori konsentratsiyasining doimiy ta’siri charchoqning kuchayishi, diqqatni jamlashning pasayishi, xotira va kognitiv tezlikning pasayishi bilan bog‘liqligi aniqlandi [13]. Bu ta’sirning mumkin bo‘lgan mexanizmlaridan biri zarrachalar tomonidan qo‘zg‘atilgan oksidlovchi stress bo‘lib, u yallig‘lanish kaskadlarining faollashishiga va neyromediator almashinuvining buzilishiga olib keladi. Ifloslangan havodan uzoq vaqt nafas olish markaziy asab tizimida yallig‘lanish oldi sitokinlari darajasini oshirishi mumkinligi isbotlangan, bu esa o‘z navbatida o‘rganish va xotira jarayonlari uchun mas’ul bo‘lgan asosiy tuzilma - gippokamp faoliyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, tarkibida zaharli metallar (qo‘rg‘oshin, kadmiy, simob) bo‘lgan zarrachalar stressga moslashishda ishtirok etuvchi gormonlarning boshqarilishiga ta’sir ko‘rsatib, endokrin va neyrotoksik ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega. Ifloslangan havoning surunkali ta’siri kortizolning disregulyasiyasiga, sirkadian ritmlarning buzilishiga va xavotirning kuchayishiga olib

kelishi mumkin, bu esa bolalarning maktab muhitiga moslashish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida bolalarni qo'llab-quvvatlash va sog'lom avlodni shakllantirishga an'anaviy ravishda katta e'tibor qaratiladi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat o'tish davrining o'ziga xos xususiyatlarini, mamlakat aholisining mentaliteti va ma'naviy qadriyatlarini hisobga oladi. Oilaviy munosabatlarni ishonch va o'zaro hurmat, oila va ta'lim muassasalarining hamkorligi, o'zaro yordami asosida mustahkamlash qonunchilikning vazifalari hisoblanadi.

Maktabga moslashish - bu bolaning ta'lim muassasasi sharoitiga ko'nikish davri, ya'ni kichkintoy muntazam darslarga, tartiblarga, yangi odamlarga (o'qituvchilar va sinfdoshlarga) ko'nikadi.

Mutaxassislar moslashishning taxminiy muddatlarini 5 haftadan 7 oygacha deb aytishadi. Uning davomiyligi oilada shakllangan muhitga, kichkintoyning psixologik xususiyatlari va xarakteriga, uning bilim darajasiga, shuningdek, maktab turi va o'quv dasturlarining murakkabligiga bog'liq bo'ladi.

Bolalarning maktab ta'limiga o'tishi ularning rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, turmush tarzidagi sezilarli o'zgarishlar bilan birga kechadi. O'quv yuklamasi, kun tartibi, ovqatlanish va ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq yangi talablarning joriy etilishi bolalarning fiziologik va psixoemosional holatiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu davrda yuzaga keladigan morfofunksional o'zgarishlarni o'rganish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan buzilishlarni qo'llab-quvvatlash va oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish uchun zarurdir

Maqolada O'zbekiston sharoitida bolalarning moslashuvi xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu jarayonga iqlim, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar qo'shimcha ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, turli ta'lim tizimlari va ijtimoiy sharoitlarning bolalarning moslashuviga ta'sirini taqqoslash uchun Yaponiya, Finlyandiya, AQSH va Xitoy kabi boshqa mamlakatlardan olingan ma'lumotlar keltirilgan.

Metodlar

Bolalarning maktab muhitiga moslashuvi jarayonidagi fiziologik o'zgarishlarni o'rganish ularning funksional holati darajasini baholash va moslashuvning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Asosiy usullar kardiorespirator monitoring, yurak ritmining o'zgaruvchanligini baholash, akselerometriya yordamida harakat faolligini tahlil qilish va kuzatuv usullari hisoblanadi.

Yurak qisqarishlari chastotasini organizmning moslashuv reaksiyalarining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Uni o'rganish quyidagilardan foydalangan holda amalga oshiriladi: elektrokardiografiya (EKG) - nafaqat yurak urish tezligini, balki moslashuvning stress omillari bilan bog'liq bo'lgan yurak faoliyatidagi mumkin bo'lgan og'ishlarni ham baholashga imkon beradi, fotopletizmografiya - optik sensorlardan foydalangan holda YUQSni o'lchashning kontaktsiz usuli. Taqiladigan qurilmalardan foydalangan holda uzluksiz monitoring - real vaqt rejimida yurak urish tezligidagi o'zgarishlarni uzoq muddatli kuzatish uchun qo'llaniladi, yurak ritmi o'zgaruvchanligini baholash.

Nafas olish tizimini o'rganish usullari: nafas olish chastotasini (NOCh) qayd qilish, pulsoksimetriya, harakat faolligini o'rganish usullari, akselerometriya va harakat faolligi monitoringi.

Ifloslangan havo, xususan, muallaq zarrachalar (PM10, PM2.5, ulьtradispers zarrachalar) ning bolalarning maktab rejimiga moslashishiga ta'sirini tahlil qilish uchun ekologik monitoring, fiziologik tadqiqotlar va ma'lumotlarni statistik tahlil qilishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvdan foydalanish rejalashtirilgan.

Ekologik monitoring turli disperslikdagi qattiq zarrachalar konsentratsiyasini, shuningdek, havodagi azot oksidi (NO_2), oltingugurt (SO_2), uglerod (CO), uchuvchan organik birikmalar (UOB) va og'ir metallar miqdorini qayd etuvchi hududiy havo sifati kuzatuv stansiyalari ma'lumotlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Tahlil so'nggi 5 yildagi ma'lumotlar asosida ta'lim muassasalariga yaqin joylashgan urbanizatsiyalashgan hududlarda atmosfera havosi sifatining o'zgarish tendensiyalarini baholash uchun amalga oshiriladi.

Fiziologik tadqiqotlar kichik va o'rta maktab yoshidagi bolalarning nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarining funksional holatini baholashni o'z ichiga oladi. Nafas olish tizimining holatini baholash uchun spirometriya va pikfluometriya usullaridan foydalanish rejalashtirilgan bo'lib, ular o'pkaning tiriklik sig'imining pasayishi va ifloslantiruvchi moddalar ta'siri bilan bog'liq bronxial o'tkazuvchanlikning buzilishini aniqlash imkonini beradi. Yurak-qon tomir ko'rsatkichlari variasion pulьsometriya, elektrokardiografiya (EKG) va qon bosimi monitoringi usullaridan foydalangan holda tahlil qilinadi, bu esa ekologik vaziyatning o'zgarishiga javoban moslashuv reaksiyalarining xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Kognitiv funksiyalar va psixoemosional holatni baholash uchun standartlashtirilgan neyropsixologik testlar, jumladan, diqqatni jamlash, operativ xotira va ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi testlari qo'llaniladi. O'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnoma ekologik omillar ta'siri bilan bog'liq sub'yektiv stress darajasini aniqlash, shuningdek, surunkali charchoq va uyqu buzilishi belgilarining mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumotlarning statistik tahlili havoning ifloslanish darajasi va fiziologik parametrlarning o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun korrelyasion va regression tahlil usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. SPSS Statistics dasturiy paketidan va

ma’lumotlarni ko‘p o‘lchovli tahlil qilish usullaridan, shu jumladan omilli va klasterli tahlildan foydalanish rejalashtirilgan bo‘lib, bu ifloslangan atrof-muhit sharoitida turli darajadagi moslashuv imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhlarini ajratish imkonini beradi.

Ob’yektiv fiziologik o‘lchovlar, ekologik monitoring va psixofiziologik baholashni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv ifloslangan havoning bolalar organizmi moslashuv mexanizmlariga ta’siri qonuniyatlarini aniqlash va noqulay ekologik omillar ta’siriga moil bo‘lgan maktab o‘quvchilarining eng zaif guruhlarini aniqlash imkonini beradi.

Natijalar

Ekologik monitoring ma’lumotlarini tahlil qilish natijasida ta’lim muassasalari yaqinida, ayniqsa urbanizatsiyalashgan hududlarda havoning ifloslanish darajasi yuqori ekanligi aniqlanishi kutilmoqda. PM10 va PM2.5 qattiq zarrachalarining konsentratsiyasi yuqori transport yuklamasi va noqulay meteorologik sharoitlar (havo turg‘unligi, yuqori namlik) davrida ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyadan yuqori bo‘lishi kutilmoqda.

Fiziologik tadqiqotlarni maktab o‘quvchilarining nafas olish tizimidagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlashga yo‘naltirish rejalashtirilgan. Atmosfera ifloslanishi yuqori bo‘lgan hududlarda yashovchi bolalarda o‘pkaning xayotiy sig‘imi (O‘XS) pasayishi, bronxospastik reaksiyalar chastotasi oshishi va nafas yo‘llari shilliq qavatining yallig‘lanish reaksiyasi ko‘proq namoyon bo‘lishi ilmiy tadqiqot natijalarida aniqlanilgan.

Ifloslangan havoning yurak-qon tomir tizimiga ta’siri yurak urishi (HRV), qon bosimi va funksional sinovlarning o‘zgaruvchanligi asosida baholanadi. Ekologik jihatdan noqulay hududlardan kelgan o‘quvchilarda simpatik faollikning oshishi va yurak-qon tomir tizimining moslashuv zaxirasining pasayishi kuzatiladi, bu esa vegetativ boshqaruv mexanizmlarining buzilishini ko‘rsatishi mumkin.

Neyropsixologik testdan ifloslangan havoning o‘quvchilarning kognitiv funksiyalari va psixoemosional holatiga mumkin bo‘lgan ta’sirini aniqlash uchun foydalanish rejalashtirilgan. PM2.5 ning yuqori konsentratsiyasiga duchor bo‘lgan bolalarda diqqatni jamlashning pasayishi, axborotni qayta ishlash tezligining sekinlashishi va xavotirlanish darajasining oshishi kuzatilishi kutilmoqda, bu esa ularning o‘quv jarayoniga moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatdiki, maktab ta’limiga o‘tish fiziologik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi bilan birga keladi. Masalan, bolalarning 70 foizida o‘qishning dastlabki haftalarida yurak urish tezligining oshishi kuzatiladi, bu stress darajasining oshishi bilan bog‘liq [2]. Bundan tashqari, bolalarning 15 foizida qon bosimi ko‘rsatkichlari vaqtincha me’yordan tashqariga chiqadi.

O‘quv yuklamasi muvozanatlashgan va bolalar uzoq tanaffuslarga ega bo‘lgan Finlyandiyada shunga o‘xshash o‘zgarishlar faqat 30% maktab o‘quvchilarida kuzatiladi [8]. Xitoyda o‘quv yuklamasining yuqoriligi tufayli bolalarning 50 foizida charchoqning ortishi kuzatiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik maktab yoshidagi bolalarning 60 foizida ta’limning dastlabki oylarida diqqatni jamlash va yangi ma’lumotlarni eslab qolishda vaqtinchalik qiyinchiliklar kuzatiladi [4]. Yaponiyada o‘qitish texnologiyalarini faol joriy etish tufayli bunday ko‘rsatkichlar bolalarning atigi 35 foizida qayd etilgan. Ammo AQSHda bu ko‘rsatkich 55% ni tashkil etadi, chunki jismoniy faollik yetarli emas.

JSST ma’lumotlariga ko‘ra, maktabda o‘qish boshlangandan so‘ng bolalarning jismoniy faolligi sezilarli darajada pasayadi [6]. Bu o‘tirgan holatda o‘tkaziladigan vaqtning ko‘payishi bilan bog‘liq. O‘zbekistonda kurash kabi milliy sport turlarini ommalashtirish bu ta’sirni kamaytirish imkonini beradi. Finlyandiyada ochiq havoda darslarda faol ishtirok etish gipodinamiya xavfini 10% gacha kamaytiradi.

40% gacha bolalar maktabga moslashish davrida yuqori darajadagi xavotirga duch kelishadi. Ota-onalar farzandlarining muvaffaqiyatiga katta e’tibor qaratadigan Xitoyda bu ko‘rsatkich 60 foizga yetadi. Finlyandiyada, aksincha, ta’limning o‘yin shaklini qo‘llash orqali xavotirlanish 20% gacha kamayadi [8,10].

Muhokama

Mavjud ma’lumotlar va ilmiy nashrlar asosida shuni taxmin qilish mumkinki, havoning ifloslanishi, ayniqsa, unda mayda dispers zarrachalar va zaharli birikmalarning mavjudligi bolalar organizmining fiziologik tizimlariga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. PM2.5 zarrachalarining ta’siri nafas yo‘llarida surunkali yallig‘lanish jarayonlarining rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin, bu esa o‘quvchilarda nafas yo‘llari kasalliklari chastotasining oshishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, havoning ifloslanishi vegetativ boshqaruvning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu arterial bosimning o‘zgarishi va yurak ritmining buzilishi bilan ifodalanadi. Taxminlarga ko‘ra, ifloslanish darajasi yuqori bo‘lgan hududlardan kelgan o‘quvchilarda yurak ritmi o‘zgaruvchanligining pasayishi kuzatiladi, bu esa yurak-qon tomir tizimiga yuqori yuklama va moslashuv zaxiralarining pasayishini ko‘rsatishi mumkin. Ifloslangan havoning kognitiv funksiyalarga potensial ta’siri ulьtradispers zarrachalarning gematoensyefalik to‘siqdan o‘tish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, markaziy asab tizimida oksidlovchi stress va yallig‘lanish reaksiyalarining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shunga asoslanib, ifloslangan havo ta’siriga uzoq vaqt duchor bo‘lgan o‘quvchilarda kognitiv yetishmovchiliklar, jumladan, diqqatning pasayishi, qisqa muddatli xotiraning

yomonlashishi va ma’lumotlarni qayta ishlash tezligining pasayishi kuzatilishi mumkinligini taxmin qilish mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu farazlarni tasdiqlash yoki rad etish va ifloslangan havoning maktab o‘quvchilarining turli fiziologik va psixofiziologik parametrlariga ta’sirining miqdoriy qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Olingan natijalar ifloslantiruvchi omillarning salomatlikka salbiy ta’sirini kamaytirish va o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga moslashtirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo‘lishi mumkin.

Xulosalar

Mo‘ljallangan tadqiqot havo ifloslanishi darajasi va maktab yoshidagi bolalarning fiziologik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Mavjud ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish asosida tadqiqot davomida tekshiriladigan bir nechta asosiy farazlarni shakllantirish mumkin.

Ta’lim muassasalari yaqinida qattiq zarrachalar (PM2.5, PM10) konsentratsiyasining oshishi o‘quvchilarning nafas olish tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘pkaning tiriklik sig‘imining pasayishiga, bronxial reaktivlikning oshishiga va respirator kasalliklarning ko‘payishiga olib kelishi kutilmoqda.

Shuningdek, havoning ifloslanishi yurak-qon tomir tizimining vegetativ boshqarilishiga ta’sir ko‘rsatishi taxmin qilinmoqda, bu esa yurak ritmi o‘zgaruvchanligining o‘zgarishi, moslashish salohiyatining pasayishi va bolalarda yurak-qon tomir tizimining funksional buzilishlari xavfining oshishi bilan ifodalanishi mumkin.

Ifloslangan havoning o‘quvchilarning kognitiv funksiyalari va psixoemosional holatiga ta’siri ham tadqiqotning muhim jihati hisoblanadi. Ifloslantiruvchi moddalar uzoq vaqt davomida ta’sir qiladigan o‘quvchilarda diqqatni jamlashning pasayishi, qisqa muddatli xotiraning yomonlashishi va xavotirlanishning kuchayishi kuzatilishi kutilmoqda, bu esa ularning maktab rejimiga moslashishini qiyinlashtirishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar ko‘rsatilgan farazlarni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi miqdoriy ma’lumotlarni olish, shuningdek, ifloslangan havoning maktab o‘quvchilari salomatligining turli jihatlariga ta’sir darajasini aniqlash imkonini beradi. Ish natijalari ekologik omillarni hisobga olgan holda ta’lim muhiti sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha profilaktik strategiyalar va tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Abdullayeva, Z.M. Adaptatsiya detey k shkolnomu obucheniyu. — Tashkent: Uzbekskoye izdatelstvo, 2019.

2.Ivanov, A.A. Psixofiziologiya detskogo vozrasta. — Moskva: Nauka, 2020.

3.Karimov, U. Adaptation of primary school children in Uzbekistan // Journal of Child Development. — 2021. — Vol. 45. — №1.

4.Smith, J., & Brown, K. Cognitive development in early school years. — London: Springer, 2018.

5.Galina, Ye.V. Problemы adaptasii detey v shkole. — Kazan: Kazanskiy universitet, 2017.

6.World Health Organization. Physical activity guidelines for children // WHO Guidelines, 2020.

7.Yusufov, B. Nutritional habits and child health in Uzbekistan // Central Asia Journal of Health. — 2020. — Vol. 12. — №3.

8.Larsen, P., et al. Physical activity in Finnish schools // Scandinavian Journal of Education. — 2020. — Vol. 56.

9.Yamada, H., et al. School nutrition and cognitive performance in Japan // Asian Journal of Nutrition. — 2020. — Vol. 15.

10. Zhang, W., et al. Academic pressure and mental health in Chinese students // Chinese Education Review. — 2019. — Vol. 34.

11. CDC. Childhood obesity in the United States // Centers for Disease Control and Prevention. — 2020.

12. https://www.unicef.org/media/157666/file/RUSSIAN-child-food-poverty-2024-brief.pdf (r 3)

13. World Health Organization (WHO). Air Pollution and Child Health: Prescribing Clean Air. – Geneva: WHO, 2018. – 140 p.

14. Gromova, O. A. Zagryazneniye vozduxa i yego vliyaniye na kognitivnыye funksii u detey // *Medisinskaya ekologiya i gigiyena*. – 2019. – T. 24, № 3. – S. 56–63.

15. Dockery, D. W., Pope, C. A. Acute Respiratory Effects of Particulate Air Pollution // *Annual Review of Public Health*. – 2020. – Vol. 41. – P. 235–252.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Norova Sarvinoz Urinovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, o'qituvchi.
1985.sarvinoz@gmail.com
Sanamyan Marina Feliksovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,
yetakchi ilmiy xodim.
sanam_marina@rambler.ru
Jalalova Barnoxon Ne'matilla qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,
bakalavriat talabasi
barnojalalova2@gmail.com
Qo'ldosheva Sevinch Asror qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,
bakalavriat talabasi
sevinchquldosheva56@gmail.com

G'O'ZANING GOMOZIGOTALI TRANSLOKATSIYA LINIYALARI BILAN TESTER TO'PLAMLI TRANSLOKATSIYA LINIYALARINI CHATISHTIRISHDAN OLINGAN F_0 DURAGAY AVLODNING KO'SAKLARIDAGI CHIGITLAR TUGUVCHANLIGINI TAHLILI

Annotatsiya. O'zbekiston Milliy universitetining Noyob Sitogenetik *kollektsiyasida 9 ta gomozigotali translokatsiya Tr1, Tr3, Tr5, Tr6, Tr13, Tr15, Tr17, Tr20, Tr27, liniyalarini xromosomasini identifikatsiya qilish uchun xromosomasi raqamlangan tester to'plamli translokatsiya liniyalari bilan chatishtirib olingan 30 ta kombinatsiyani F_0 avlodlarni chigit tuguvchanligi ushbu maqolada tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *g'o'za, G. hirsutum L, gomozigotali translokatsiya liniyasi, chigit tuguvchanligi, duragay, sitogenetik kolleksiya.*

Норова Сарвиноз Уриновна
Национальный Университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека, преподаватель
Санамьян Марина Феликсовна
Национальный Университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека,
главный научный сотрудник
Жалалова Барнохон Неъматилла қизи
Национальный Университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека, студентка бакалавриата
Қулдошева Севинч Асрор қизи
Национальный Университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека, студентка бакалавриата

АНАЛИЗ ЗАВЯЗЫВАЕМОСТИ СЕМЯН В КОРОБОЧКАХ ПОТОМСТВА F_0, ПОЛУЧЕННОГО ОТ СКРЕЩИВАНИЯ ГОМОЗИГОТНЫХ ТРАНСЛОКАЦИОННЫХ ЛИНИЙ ХЛОПЧАТНИКА С ТРАНСЛОКАЦИОННЫМИ ЛИНИЯМИ ТЕСТЕРНОГО НАБОРА.

Аннотация. *В Уникальной Цитогенетической коллекции Национального университета Узбекистана было получено 30 комбинаций, полученных путем скрещивания 9 гомозиготных транслокационных линий Тр1, Тр3, Тр5, Тр6, Тр13, Тр15, Тр17, Тр20, Тр27 с тестерного набора транслокационными линиями с пронумерованными хромосомами для идентификации хромосом. В данной статье анализируется завязываемость гибридных семян F_0 поколения.*

Ключевые слова: *хлопчатник, G. hirsutum L., гомозиготных транслокационных линий, завязываемости семьян, гибриды, цитогенетическая коллекция.*

Norova Sarvinoz Urinovna
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Lecturer

Sanamyan Marina Feliksovna
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Senior Researcher
Jalalova Barnoxon Ne'matilla qizi
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Student
Qo'ldosheva Sevinch Asror qizi
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Student

ANALYSIS OF SEED SETTING IN THE BOLLS OF F_0 OFFSPRING OBTAINED FROM CROSSING HOMOZYGOUS TRANSLOCATION LINES OF COTTON WITH TRANSLOCATION LINES FROM A TESTER SET

Abstract. *Thirty combinations were obtained in the Unique Cytogenetic Collection of the National University of Uzbekistan through the crossing of 9 homozygous translocation lines Tr1, Tr3, Tr5, Tr6, Tr13, Tr15, Tr17, Tr20, Tr27 with translocation lines from a tester set, which have numbered chromosomes for chromosome identification. This article analyzes the seed setting of hybrid F_0 generation seeds.*

Key words: *Cotton, G. hirsutum L., homozygous translocation lines, seed setting, hybrids, cytogenetic collection.*

Retsiprok translokatsiyalar ikkita nogomologik xromosomalar o'rtasidagi xromosomaning ma'lum qismlarini almashinuvi, o'simlik turlarida eng keng tarqalgan strukturaviy qayta tuzilishlardan biridir. O'simliklarda translokatsiyani ilk bora Gates (1908) tomonidan *Enotera* o'simligida o'rgangan. Iqtisodiy jihatdan muhim bo'lgan ekinlardan makkajo'xorida M.Klintok (1930) nogomologik xromosomalarni ayrim qismlarida almashinuv bo'lganligini sitologik dalillarini taqdim etdi.

Burnham (1956) makkajuxori va arpada translokatsiya liniyalarini yaratish va xromosomalarini identifikatsiya qilish tadqiqotlarini olib borgan. Shuningdek translokatsiyalar yana bir qancha ekin turlarida jumladan *Triticum aestivum* L. (Naranjo va boshqalar, 1987), Lens L. (Tadmor va boshqalar, 1987), *Hordeum vulgare* L. (Benito va boshqalar 1994), *Clycine maxim* L. (Mahama va Palmer, 2003), *Brassica napus* (Osborn va boshqalar, 2003), mevali daraxtlardan *Prunus* L. (Jáuregui va boshqalar, 2001) va boshqa bir qancha o'simlik turlarida o'rganilgan.

Tranlokatsiyalar xromosoma xaritalarini yaratish, xususan xromosomalarda joylashgan genlarni bog'lanish guruhlarini aniqlash, o'rganilayotgan ob'ektni genetik va sitogenetik xaritalarini ishlab chiqish uchun fundamental va amaliy ahamiyatga ega.

Material va metodlar

Ushbu maqolani yozish O'zMUning Noyob Sitogenetik kollektsiyasida yaratilgan materiallardan foydalanildi. Olingan materiallar Tr1, Tr3, Tr5 va Tr6 liniyalari F_1 L-500xL461 chatishtirib olingan duragay avlodlarning chigitlariga kombinirlangan ishlov berish, ya'ni kolxitsinni 0,1% eritmasi va 50 Gr gamma nurlari ta'sir ettirish orqali olingan (Sanamyan, Almatov 1985; Sanamyan, Musaev 1992). L-458 liniyasini changchilariga 20 Gr dozada gamma nurlari ta'sir ettirib, Tr13 va Tr14 gomozigotali translokatsiya liniyasi olingan (Sanamyan 2003). Shu bilan birga, L-458 liniyasini chigitlariga issiq neytron nurlari 15 Gr dozada Tr27, 25 Gr dozada Tr20 va 27 Gr dozada Tr15 gomozigotali translokatsiya liniyalari olingan (Sanamyan, Musaev 2014; Sanamyan et el., 2014; Sanamyan 2020).

Shuningdek, AQShning Sitogenetik kollektsiyasidan ARS-USDA almashinuv dasturi orqali Texas universiteti professori David Stelli tomonidan taqdim etilgan xromosomasi raqamlangan tester to'plamli liniyalar Tn4, Tn13, Tn14, Tn17, Tn19, Tn21, Tn22, Tn23, Tn24, Tn25, Tn26, Tn28, Tn29, Tr30, Tn31, Tn34, Tn36, Tn40, Tn43, Tn47 foydalanildi. Ushbu liniyalar Braun M.S. va shogirdlari tomonidan 20 yildan ortiq vaqt davomida yaratilgan G. hirsutum L. g'o'za turining translokatsiya liniyasi hisoblanadi (Braun 1980).

Gomozigotali translokatsiya liniyalari xromosomasi raqamlangan tester to'plamli translokatsiya liniyalarini chatishtirishdan olingan duragay chigitlarning tuguvchanlik tahlilini aniqlash uchun duragay ko'saklardagi to'liq yetilgan chigitlar soni va puch chigitlar (ya'ni urug'lanmagan tuxum hujayra) soni sanalgan holatda o'rganildi.

Olingan materiallarni natijalarini tahlil qilish uchun Dospexov usulidan foylanildi (Dospexov 1985).

Olingan natijalar va muhokama

Gomozigotali translokatsiya liniyalari bilan xromosomasi raqamlangan tester to'plamli liniyalar bilan chatishtirib olingan F_0 duragay avlod chigitlarini tuguvchanligi tahlil qilindi.

Duragay chigitlarning umumiy tuguvchanligi 1-jadvalda Tr5xTn24 va Tr3xTn29 variantlarida katta diapazonda pasayishi aniqlandi. (94,59±3,72% dan 56,25±12,4%gacha). Gomozigotali translokatsiya liniyasi Tr1 ikkita kombinatsiya bilan chatishtirilgan variantlar olingan Tn28 va Tn30. Bu kombinatsiyalarni F_0 duragay avlod chigitlarining tuguvchanlik tahlili juda bir-biriga yaqin ekanligi bilan ifodalandi (81,82±5,81 dan 82,50±6,01gacha).

Gomozigotali translokatsiya liniyasi Tr3 oltita xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalar Tn13, Tn17, Tn22, Tn26, Tn29 va Tn40 bilan chatishtirib olingan variantlarni ham tuguvchanlik foizi o‘rganildi. Olingan duragaylardan Tr3xTn13 variantida tuguvchanlik ko‘rsatgichi 57,89±11,3%ni ko‘rsatdi. Shuningdek, qolgan to‘rtta variantda ya’ni Tr3xTn22 variantida tuguvchanlik (90,63±5,15), Tr3xTn40 variantda tuguvchanlik (82,61±7,90), Tr3xTn26 variantda tuguvchanlik (70,37±8,79) va Tr3xTn17 variantida esa tuguvchanlik (67,74±8,40) ni ko‘rsatdi.

Gomozigotali translokatsiya liniyasi Tr6 xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalar Tn21 va Tn47 bilan chatishgan variantlarda tuguvchanlik ko‘rsatgichi 79,17±8,29 dan 86,11±5,76 gacha ekanligi aniqlandi (Jadval 1).

1-jadval

G‘o‘zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalar bilan chatishishidan olingan F_0 duragay chigitlarning tuguvchanligi (kombinirlangan ishlov berilgan ya’ni kolxitsin va gamma nurlari bilan)

Chatishtirilgan variantlar	Ko‘sakdagi chigitlar soni		Umumiy chigitlar va puch chigitlar soni	Duragaylarda chigitlarning tuguvchanligi, %
	chigitlar	puch chigitlar		
Tp1xTH28	36	8	44	81,82±5,81
Tp1 x TH30	33	7	40	82,50±6,01
Tp3 x TH13	11	8	19	57,89±11,3
Tp3 x TH17	21	10	31	67,74±8,40
Tp3 x TH22	29	3	32	90,63±5,15
Tp3 x TH26	19	8	27	70,37±8,79
Tp3 x TH29	35	2	37	94,59±3,72
Tp3 x TH40	19	4	23	82,61±7,90
Tp5 x TH24	9	7	16	56,25±12,4
Tp6 x TH21	19	5	24	79,17±8,29
Tp6 x TH47	31	5	36	86,11±5,76

Changchilariga gamma nurlari nurlantirilishi natijasida olingan ikkita gomozigotali translokatsiya liniyalar xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalar chatishishidan hosil bo‘lgan F_0 duragay chigitlarning tuguvchanligi o‘rganildi. Shuningdek, umumiy olingan duragay chigitlarning tuguvchanligi pastligi aniqlandi (55,88±8,52dan 91,67±4,61%gacha). Shu bilan birga Tr13xTn36 variantida 88,00±4,60% tuguvchanlik ko‘rsatgichi aniqlandi.

Gomozigotali translokatsiya liniyasi Tr14 oltita xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalar (Tn21, Tn22, Tn23, Tn26, Tn29, Tn47) bilan chatishtirilgan variantlarni ham tuguvchanligi o‘rganilganda, shundan uchta variantda 75,93±5,82%dan 79,25±5,57%gacha ko‘rsatgich aniqlandi (Tr14x Tn21, Tr14xTn22 va Tr14xTn23). Shu bilan birga Tr14xTn26 variantida 65,22±7,02% va Tr14xTn47 variantida 60,61±8,51% tuguvchanlik tahlil qilindi (Jadval 2).

2-jadval

G‘o‘zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalar bilan chatishishidan olingan F_0 duragay chigitlarning tuguvchanligi (changchilarga gamma nurlari bilan)

Chatishtirilgan variantlar	Ko‘sakdagi chigitlar soni		Umumiy chigitlar va puch chigitlar soni	Duragaylarda chigitlarning tuguvchanligi, %
	chigitlar	puch chigitlar		
Tp13x Tн36	44	6	50	88,00±4,60
Tp13 x Tн43	19	15	34	55,88±8,52
Tp14 x Tн21	42	11	53	79,25±5,57
Tp14 x Tн22	40	12	52	76,92±5,84
Tp14 x Tн23	41	13	54	75,93±5,82
Tp14 x Tн26	30	16	46	65,22±7,02
Tp14 x Tн29	33	3	36	91,67±4,61
Tp14 x Tн47	20	13	33	60,61±8,51

Chigitlarga issiq neytronlar bilan nurlantirish natijasida olingan translokatsiya liniyalar, xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalar bilan chatishishidan olingan F0 duragay chigitlarni tuguvchanligi tahlil qilindi, shuningdek katta diapazonda umumiy duragay urug‘larning tuguvchanligi pastligi aniqlandi (51,85±9,62 dan 89,47±4,98%gacha). Shuningdek, Tr15xTN40 variantida tuguvchanlik ko‘rsatgichi 69,23±7,39% ni ko‘rsatdi.

Gomozigotali translokatsiya liniyasi Tr20 beshta xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalar Tn4, Tn25, Tn26, Tn30, Tn34 liniyalari bilan chatishtirilgan variantlar o‘rganildi. O‘rganilgan variantlardan eng past ko‘rsatgich Tr20xTn34 variantida aniqlangan. Tr20x Tn4 variantida 60,00±8,94 % tuguvchanlik ko‘rsatgichi tahlil qilingan. O‘rtacha tuguvchanlik aniqlangan variantlar Tr20xTn30 va Tr20xTn26 (bir biriga mos ravishda 70,59±6,38dan 73,33±6,59gacha). Shuningdek, gomozigotali translokatsiya liniyasi Tr20 xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniya Tn25 bilan chatishgan variantda tuguvchanlik ko‘rsatgichi 81,08±6,44% ekanligi aniqlandi.

Gomozigotali translokatsiya liniyasi Tr27 xromosomasi raqamlangan to‘rtta tester to‘plamli translokatsiya liniyalari Tn14, Tn19, Tn24, Tn43 bilan chatishgan variantlarda tuguvchanlik ko‘rsatgichi o‘rganildi. Tr27xTn19 va Tr27xTn14 variantlarida 86,49±5,62 dan 87,88±5,68%gacha bir biriga yaqin darajadagi tuguvchanlik aniqlandi. Shuningdek, Tr27x Tn24 va Tr27xTn43 variantlarida ham tuguvchanlik ko‘rsatgichi bir-biriga yaqin ekanligi tahlil qilindi (bir-biriga mos ravishda 71,43±6,45dan 73,08±8,70gacha) (Jadval 3).

3-jadval

G‘o‘zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalar bilan chatishishidan olingan F_0 duragay chigitlarning tuguvchanligi (chigitlarga issiq neytron nurlari bilan)

Chatishtirilgan variantlar	Ko‘sakdagi chigitlar soni		Umumiy chigitlar va puch chigitlar soni	Duragaylarda chigitlarning tuguvchanligi,%
	chigitlar	puch chigitlar		
Tp15 x TH31	27	12	39	69,23±7,39
Tp 15x TH40	34	4	38	89,47±4,98
Tp 20 x TH4	18	12	30	60,00±8,94
Tp 20 x TH25	30	7	37	81,08±6,44
Tp 20 x TH26	33	12	45	73,33±6,59
Tp 20 x TH30	36	15	51	70,59±6,38
Tp 20 x TH34	14	13	27	51,85±9,62
Tp 27 x TH14	29	4	33	87,88±5,68
Tp 27 x TH19	32	5	37	86,49±5,62
Tp 27 x TH24	19	7	26	73,08±8,70
Tp27 x TH43	35	14	49	71,43±6,45

Shuningdek, bug‘doyda ya’ni turlar aro chatishtirib olingan va hamda geografik kelib chiqishi turlicha bo‘lgan duragay avlodlarda tuguvchanlik ko‘rsatgichi yuqori ekanligi (65-85%) bilan izohlangan [Zhangaziev va boshqalar 2013]. Sanamьyan va boshqalar tomonidan liniyalararo chatishtirib olingan duragaylarni tuguvchanligi yuqori va past diapazonda ekanligi o‘rganilgan [Sanamьyan, Norova 2019].

Xulosa

O‘zMUning Noyob Sitogenetik kollektsiyasidagi translokatsiya liniyalari va AQShning Sitogenetik kollektsiyasidagi xromosomasi raqamlangan tester to‘plamli liniyalarni chatishtirishdan olingan duragaylarning chigitlarini tuguvchanligini sezilarli darajada farqlandi. G‘o‘zaning tester to‘plamli translokatsiya liniyalarida har xil nogomologik xromosomalarni translokatsiyaga jalb qilinishi bilan, shuningdek O‘zMU Noyob Sitogenetik kollektsiyasidagi translokatsiya liniyalari o‘ziga xosligi bilan bog‘liq edi. Shu bilan birga translokatsiyalarga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri nogomologik xromosomalarni ma’lum qismlarini almashinuvlari va xromosomalarni qayta kombinatsiyalanishiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта с основами статистической обработки результатов исследований. – Москва: Колос, 1985.– 285 с.

2. Санамьян М.Ф., Алматов А.С. Цитогенетические особенности растений M_1 межлинейного гибрида хлопчатника после комбинированной обработки семян колхицином и гамма-лучами //Узбек.биол.ж. 1985. №3. С.56-59.

3. Санамьян М.Ф., Мусаев Д.А. Получение и цитогенетическое изучение гомозиготных транслокационных линий хлопчатника //Генетика. Москва. 1992. Т.28. №11. С.75-82.

4. Санамьян М.Ф. Цитогенетический эффект обработки семян хлопчатника тепловыми нейтронами //Цитология и генетика. Киев, 2003а, Т. 37. №3. С.49-54.

5. Санамьян М.Ф., Мусаев Д.А. Цитогенетические особенности новых линий хлопчатника с межхромосомными обменами //ДАН РУз. 2014. №5. С.75-77.

6. Санамьян М.Ф. Норова С.У. Анализ завязываемости гибридных семян, полученных от скрещивания транслокационных линий хлопчатника *G.hirsutum* L. с линиями тестерного набора с идентифицированными хромосомами // Вестник НУУз. 2019. № 3/2.С.164-167.

7. Санамьян М.Ф. Цитогенетика мутаций, транслокаций, моносомии и межвидовой гибридизации у хлопчатника //Ташкент «Узбекистан» Глава 3. 2020. – С. 73-204.

8. Benito C., Liorente F., Henriques-Gil N., Gallego F.J., Zaragoza C., Delibes A., Figueiras A.M. A map of rye chromosome 4R with cytological and isozyme markers //Theor Appl Genet. 1994. V.87. P. 941-946.

9. Brown M.S. Identification of the chromosomes of *Gossypium hirsutum* L. by means of translocations //J. Hered. 1980. V. 71. № 4. P. 266 - 274.

10. Burnham C.R. Chromosomal interchanges in plants //Bot. Rev. 1956. V.22. P.419-552.

11. Gates R.R. A study of reduction in Oenothera rubrinervis // Bot. Gaz.1908. V.46. P.1-34.

12. Jáuregui B., Vicente M.C., Messeguer R., Felipe A., Bonnet A., Salesses G., Arús P. A reciprocal translocation between 'Garfi' almond and 'Nemared' peach // Theor. Appl. Genet. 2001. V.102. P.1169-1176.

13. Mahama A.A., Palmer R.G. Translocation in soybean classical genetic linkage groups 6 and 8 //Crop Sci. 2003. V.43. P.1602-1609.

14. Mc.Clintock B. A cytological demonstration of the location of an interchange between two non-homologous chromosomes of Zea mays //Proc Natl. Acad. Sci U.S.A. 1930. V.16. P.791-796.

15. Naranjo T., Roca P., Goicoechea P.G., Giraldez R. Arm homoeology of wheat and rye chromosomes //Genome. 1987. V.29. P.873-882.

16. Sanamyan M.F., Petlyakova J., Rakhmatullina E.M., Sharipova E. Chapter 10. «Cytogenetic Collection of Uzbekistan». In: Abdurakhmonov I. Y. (ed). «World Cotton Germplasm Resources». Intech. Croatia. 2014. P. 247-287.

17. Osborn T.C., Butrulle D.V., Sharpe A.G., Pickering K.J., Parking I.P., Parker J.S., Lydiate D. Detection and effects of a homeologous reciprocal translocation in *Brassica napus* //Genetics. 2003. V.165. P.1569-1577.

18. Tadmor Y., Zamir D., Ladizinsky G. Genetic mapping of an ancient translocation in the genus Lens //Theor Appl Genet. 1987.V.73. P.883-892.

19. Zhangaziev A., Ziyaeva G., Taichibekov A., Tuleubaev Zh., Shaimerdenova G. Species hybrid genetic analysis //European Researcher. 2013.V.54. P.1810-1816

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Ikramova Muqaddam Madaminovna
Andijon davlat universiteti professori
Jalolov Baxtiyor Vahobovich
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi
Kasimova Iroda Unvanovna
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi
Tojiboyev Qo‘ldoshali Tojiboyevich
Andijon davlat universiteti professori

UO‘K 616.36.003

CCL_4 LI GEPATITDA JIGARDA ADENINLI NUKLEOTIDLAR MIQDORIY O‘ZGARIShIGA BONDJIGARNING TA’SIRI

Annotatsiya: *Maqolada Hayvonlarning CCL4 bilan o‘tkir zaharlanishida jigarda moddalar almashinuvining buzilishi, jigar venasi shoxlari yaqinida gepatotsitlarning nekrozi va degeneratsiyasi kuzatilishi va uni mo‘tadillashtirish uchun Bondjigar siropining tasiri bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jigar, gepatit, organizm, gepatotsit, ekstrakt, adeninnukleotit, qon, toksik moddalar.*

Ikramova Muqaddam Madaminovna
professor of Andijan State University
Jalolov Baxtiyor Vahobovich
teacher at Andijan State University
Kasimova Iroda Unvanovna
teacher at Andijan State University
Tojiboev Koldoshali Tojiboevich
professor of Andijan State University

THE EFFECT OF BONDJIGAR ON THE QUANTITATIVE CHANGES OF ADENINE NUCLEOTIDES IN THE LIVER IN HEPATITIS WITH CCL4

Abstract: *The article provides information on the observation of liver metabolism disorders, necrosis and degeneration of hepatocytes near the hepatic vein branches and the effect of Bondjigar syrup on its moderation in acute poisoning of animals with CCL4.*

Key words: *Liver, hepatitis, organism, hepatocyte, extract, adenine nucleotide, blood, toxic substances.*

Икрамова Мукаддам Мадаминовна
профессор Андижанского государственного университета
Жалолов Бахтиёр Вахобович
преподаватель Андижанского государственного университета
Касимова Ирода Унвановна
преподаватель Андижанского государственного университета
Тожибоев Колдошали Тожибоевич
профессор Андижанского государственного университета

ВЛИЯНИЕ БОНДЖИГАРА НА КОЛИЧЕСТВЕННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ АДЕНИНОВЫХ НУКЛЕОТИДОВ В ПЕЧЕНИ ПРИ ГЕПАТИТЕ С CCL4

Аннотация: *В статье приведены сведения о наблюдении нарушений метаболизма печени, некроза и дегенерации гепатоцитов вблизи ветвей печеночной вены и влиянии сиропа «Бонджигар» на их замедление при остром отравлении животных CCL4.*

Ключевые слова: *Печень, гепатит, организм, гепатоцит, экстракт, адениннуклеотид, кровь, токсические вещества.*

Jigar organizmdagi adaptiv o‘zgarishlarda muhim rol o‘ynaydi. U qon oqsillarini, fosfolipidlarni, xolesterinni sintez qiladi, metabolik mahsulotlarni, lipoproteinlarning katabolizmini, ksenobiotiklar bilan biotransformatsiyani va boshqa ko‘plab jarayonlarni neytrallaydi.

Energiya almashinuvi uchun glyukoza (12) hosil bo‘lishi va juda past zichlikdagi lipidlar-lipoproteinlarning transport shaklining shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Jigar tashqi muhitdan organizmga kiradigan va organizmning o‘zida metabolizm jarayonida hosil bo‘lgan zaharli moddalarni zararsizlantiradigan organdir.

Organlarning anatomik joylashuviga ko‘ra jigar; avvalo, oshqozon-ichak traktidan keladigan moddalar, shu jumladan toksik moddalar зарарсизлантиради (24).

Jigarning toksik shikastlanishi kimyoviy va o‘simliklar keltirib chiqaradigan turli gepatotrop zaharlar ta'sirida rivojlanadigan kasalliklar orasida muhim o‘rin tutadi.

Ular qishloq xo‘jaligida va kundalik hayotda keng qo‘llaniladi va surunkali jigar shikastlanishiga olib kelishi mumkin (17)

O‘simliklardan kelib chiqqan gepatotrop zaharlar orasida dunyoning turli burchaklarida keng tarqalgan va tarkibida senetsefalin, senetsifalidin va ayniqsa alkaloidlar bo‘lgan o‘simliklar katta amaliy qiziqish uyg‘otadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, geliotrop va lasiokarpin alkaloidlarini o‘z ichiga olgan pirolizidin alkaloidlarining ta'siri jigar shikastlanishining yuqori darajasi bilan bog‘liq, Afrika va Janubiy Amerikada odamlarda siroz va birlamchi jigar saratoni Markaziy Osiyoда qorako‘l qo‘ylarining o‘limiга олиб келади (23).

Hozirgi vaqtda sog‘liqni saqlash вазирлиги tomonidan olib borilayotgan tadbirlar tufayli jigarning "geliotrop degeneratsiyasi" yoki "toksik gepatit" epidemik xarakterdagi kasallik sifatida, bartaraf etilgan, ammo barcha ishlarga qaramay, vaqti-vaqti bilan geliotrop urug‘lari bilan zaharlanish holatlari ro‘y beradi. G.S.Levinning ma'lumotlariga ko‘ra, surunkali jigar kasalliklari bilan tekshirilgan 29 nafar bemordan 7 nafari geliotropik jigar distrofiyasi bilan og‘rigan.

Surxondaryo viloyat kasalxonasi materiallari tahlili shuni ko‘rsatdiki, 464 holatda jigar sirrozining etiologik omili geliotrop jigar distrofiyasi hisoblanadi.

Jigar sirrozi O‘rta Osiyo respublikalarida Rossiya Federatsiyasi shaharlariga qaraganda 5-8 marta tez-tez uchraydi (13).

Geliotropik jigar distrofiyasi va shu asosda sirozning rivojlanishi mintaqaviy patologiyaning muammolaridan biridir. Boshqa tomondan, geliotropning turli dozalarini jigarga kiritish zaharli jigar shikastlanishining qulay eksperimental modelini yaratishga imkon beradi. Bir qator mualliflarning fikriga ko‘ra, geliotrin bilan zaharlanish paytida jigarda patomorfologik o‘zgarishlar ko‘p jihatdan yuqumli gepatit paytida toksik distrofiyaga o‘xshaydi (19).

Surunkali shikastlanishlar bilan jigarda distrofik va nekrotik jarayonlar nafaqat etiologik omilning jigar hujayralariga bevosita zarar etkazuvchi ta'siri, balki jigar sinusoidlarida qon aylanishining buzilishi, gepatotsitlarning ishemiyasi va gepoksiyasiga olib keladi.

CCL4 ta'sirida jigar parenxima hujayralarining sezilarli darajada shishishi, sinusoidlarning torayishi va qon ta'minotining pasayishiga olib kelishi ko‘rsatilgan. Gepatoksik moddalar organizmga ta'sir qilganda, jigar ichidagi qon aylanishining buzilishi va hujayra ichidagi fermentlar faolligini пасайиши natijasida jigar to‘qimalarining gipoksiyasi rivojlanishini ko‘rsatadigan ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

CCL4 ta'sirida morfologik o‘zgarishlar rivojlanishining asosiy bo‘g‘inlari uning jigar parenxima hujayralariga bevosita ta'siri va simpatik-adrenal tizimning reaktsiyasi bo‘lib, birinchi navbatda qon tomir касаллигига olib keladi.

Hayvonlarning CCL4 bilan o‘tkir zaharlanishida jigarda sinuslar tuzilishining buzilishi, qon ketish o‘choqlari paydo bo‘lishi, jigar venasi shoxlari yaqinida gepatotsitlarning nekrozi va degeneratsiyasi кузатилади.

Jigar epiteliysining distrofiyasi hujayra nobud bo‘lishi, kollagen tolalarning yangi hosil bo‘lishi (17) va jigar sirrozining shakllanishi bilan yakunlanadi.

Material va tadqiqot uslublari.

Hayvonlarni saqlash va tadqiqotlar o‘tkazish sharoitlari

Ishimizda turli jinsli, og‘irligi 180-200g li oq kalamushlardan foydalandik. Tekshiruv vaqtida hayvonlar 10 tadan guruhga bo‘lib o‘rganildi. Oziq-ovqat va suv ularga yetarlicha berildi.

CCL_4 -to‘rt xlor uglerod ta’sirida toksik gepatit chaqirish.

Hayvonlar terisi orasiga uglerod to‘rt xlor uglerodining tozalangan o‘simlik yog‘idagi 0,5 ml eritmasini 100 g og‘irligiga nisbatan har haftada ikki marta 2 oy davomida yuboriladi.

Dorivor giyohlardan tayyorlangan “Bondjigar” siropi CCL_4 ta’sir ettirilishining oxirgi oyida bir oy davomida har kuni 100 g og‘irlikka nisbatan 0,7 ml dan ovqat bilan berildi.

Adeninli nukleotidlarning miqdorini aniqlash

Jigar to‘qimasida adeninli nukleotidlarning miqdorini (ATF, ADF va AMF) “Boehringer” (Germaniya) firmasi tomonidan enzimli yig‘ma reaktivlarda aniqlandi.

Usulning asl mohiyati jigar hujayrasi ekstraktidagi ATF avvaliga glyukoza bilan birga ta’sir qilib, ATF dagi

fosfor glyukoza bilan geksokinaza enzimi yordamida birikib glyukozo-6-fosfat hosil qiladi. Keyingi etapda glyukozo-6-fosfatde-gidrogenaza enzimi ishtirokida glyukozo-6-fosfat NADF ni qayta tiklaydi va natijada NADF hosil bo‘ladi. Bunda reaksiyaning boshlanishida hosil bo‘lgan NADFN miqdori ATF ning miqdoriga teng bo‘ladi. NADFN ning miqdorini spektrofotometrda 340 nm li to‘lqin uzunligida o‘lchanadi.

Jigar ekstraktidagi ADF va AMF larning miqdorlarini ham “Boehringer” (Germaniya) firmasi tomonidan tayyorlangan yig‘mada, avval yozilgan usul bo‘yicha [Asatiani V.S., 1972] aniqlandi. Bunda ADF fosfoyenolpiruvat bilan birgalashib ATF va piruvat hosil qiladi. Piruvat lakatatdegidrogenaza enzimi yordamida NAD ni NADN ga aylantiradi. Hosil bo‘lgan NADN ning miqdori tekshirilayotgan to‘qimadagi ADF ning miqdoriga to‘g‘ri keladi.

Jigardagi AMF ning miqdorini aniqlash uchun, uning ustiga miokinaza enzimi qo‘shiladi, natijada ATF ishtrokida AMF ni ADF ga aylanishini tezlashtiradi. Hosil bo‘lgan ADF yuqorida ko‘rsatilganidek NADN ga aylanadi va uning miqdori spektrofotometrda 340 nm li to‘lqin uzunligida aniqlanadi.

Gepatitda kalamush jigari to‘qimasida adeninli nukleotidlarning miqdoriy o‘zgarishiga Bondjigarni ta’siri

Adeninnukleotidlarning birlamchi vazifasi barcha metabolik yo‘llarni bir - biriga bog‘lashdan iborat, shuning uchun ham adeninnukleotidlar tizimining holati metabolik jarayonlarning yo‘nalishi va tezligiga ta’sir ko‘rsatadi, o‘z navbatida ularga ham bog‘liq Hujayradagi energetik almashinuvga baho berish uchun faqatgina ayrim metabolitlarning miqdorinigina bilib qolmasdan, ularning bir-biriga nisbatlarini ham bilish lozim. Adenilat tizimning holatini odatda fosfatli potensial kattaligi (ATF/ADF.F_N), yoki Atkinsonning energetik zaryadi (ATF +½ADF/ATF+ADF+AMF) kattaliklari bo‘yicha baholanadi. Adenilat tizimni bu kattaliklari metabolik jarayonning turli aspektlariga: fosfatli potensial termodinamikaga energetik zaryad esa kinetikaga [Atkinson, 1977] ta’sir qiladi.

Natija va muhokama.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tajribamizda to‘rt xlor uglerod ni organizmga kiritilganida, jigarda adeninli nukleotidlarning miqdorlarini va ularning bir-birlariga nisbatlarini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik. Organizmga to‘rt xlor uglerodni kiritilishini 0,5; 1; 1,5 va 2 oylarida jigarda ATF ning miqdori 8,3; 13,4; 28,8 va 32,4% larga kamaydi, AMF ning miqdori esa aksincha 33,3; 64,7; 72,2 va 78,9% larga ko‘paydi. Ammo ADF ning miqdorida sezilarli o‘zgarish bo‘lmadi. Bunda to‘rt xlor uglerodning organimga kiritilish muddatiga qarab adeninli nukleotidlarning umumiy miqdorlari 3,7; 4,2; 15,5 va 18,1% larga kamaydi, noorganik fosforning miqdori esa, aksincha 3,0; 11,5; 17,9 va 25,9% larga ko‘paydi.

Organizmga to‘rt xlor uglerodni kiritilishini 0,5; 1; 1,5 va 2 oylarida fosfatidli potensial 9,8; 21,9; 36,3 va 46,3% larga, Atkinsonning energetik zaryadini esa 3,8; 6,3; 9,0 va 12,7% larga kamayishga olib keldi.

Olingan natijalarni tahlil qilib shuni aytish mumkin, organizmga to‘rt xlor uglerodni kiritilganda, jigarda ATF ning miqdori kamayadi, AMF va fosfor miqdorlari, aksincha ko‘payadi. Bu o‘zgarishlar o‘z navbatida Atkinsonning energetik zaryadini va ayniqsa fosfatidli potensialni kamayishga olib keladi.

Ko‘pchilik eukariot hujayralarda 95% ATF oksidlanishli fosforlanish tizimida sintezlanadi. Hujayrada ATF ning kamayishi yoki yo‘qolishi mitoxondriyaning funksiyasini yo‘qolishini, ya’ni oksidlanishli fosforlanish jarayoninini o‘chishini (yoki kuchli pasayishini) bildiradi. Turli kompartmentlarda kechayotgan reaksiyalar, ma’lumki o‘zaro bir-biriga bog‘langan, va piridinli nukleotidlarning redoks’holati, ATF/ADFni nisbati, ATF/ADF·F_N ni fosfatli potensialining ahamiyati, bevosita sitoplazmatik va mitoxondrial mexanizmlar orqali biriktiradi [25].

1-jadval

Kalamush tanasiga to‘rt xlor uglerod yuborilganida jigar to‘qimasida adenil nukleotidlarning o‘zgarish dinamikasi (M ± m; n = 10)

Variantlar	Tadqiqot o‘tkazish muddati, oylarda			
	0,5	1	1,5	2
	ATF			
S. h-r	1,82±0,17	1,80±0,16	1,84±0,18	1,79 ± 0,51
G. h-r	1,67±0,15	1,56±0,14	1,31±0,12**	1,21±0,12***
%	91,7	86,6	71,2	67,6
	ADF			
S. h-r	0,74±0,08	0,71±0,07	0,75±0,09	0,72±0,07
G. h-r	0,73±0,07	0,71±0,06	0,72±0,08	0,70±0,09
%	98,6	100	96,0	97,2
	AMF			
S. h-r	0,18±0,05	0,17±0,06	0,18±0,07	0,19±0,06
G. h-r	0,24±0,04	0,28±0,03***	0,31±0,05***	0,34±0,08***
%	133,3	164,7	172,2	178,9
	F_N			
S. h-r	2,66±0,21	2,61±0,27	2,68±0,24	2,62±0,29
G. h-r	2,74±0,24	2,91±0,18	3,16±0,16*	3,30±0,24**
%	103,0	111,5	117,9	125,9
Adenilli nukleotidlarning umumiysi				
S. h-r	2,74±0,30	2,66±0,29	2,77±0,34	2,71±0,28

G. h-r	2,64±0,26	2,55±0,23	2,34±0,25	2,22±0,19*
%	96,3	95,8	84,5	81,9
	Fosfatidli potensial			
S. h-r	0,93	0,96	0,91	0,95
G. h-r	0,83	0,75	0,58	0,51
%	89,2	78,1	63,7	53,7
	Atkinsonning energetik zaryadi			
S. h-r	0,80	0,80	0,78	0,79
G. h-r	0,77	0,75	0,71	0,69
%	96,2	93,7	91,0	87,3

Eslatma: Adenilli nukleotidlarning umumiysi (ATF + ADF + AMF); Fosfat potensiali (ATF/ADF · F_N); Atkinsonning energetik zaryadi (ATF + ½ ADF:ATF + ADF + AMF).

Gepatitli kalamushlarning organizmiga Bondjigarni kiritilganidan keyin jigar to‘qimasidagi adeninli nukleotidlarning o‘zgarish dinamikasi to‘g‘risida olingan natijalar jadvalda keltirilgan.

Olingan natijalardan tajribaning 0,5; 1 va 2 oylarida gepatitli kalamushlarning jigarida ATF ning miqdorini 33,7; 38,8 va 34,2% larga kamayganligi, Bondjigar olgan gepatitli kalamushlarda esa 22,5; 19,2 va 6,6% largagina kamayib sog‘lom xayvonlardagi ko‘rsatgichlarga tenglashgani ko‘rinib turibdi. Tajribaning 0,5; 1 va 2 oylarida gepatitli hayvonlarning jigarida AMF ning miqdori 89,5; 95,0 va 80,9% larga ko‘paygan bo‘lsa, Bondjigar olgan kalamushlarda esa 63,1; 30,0 va 4,7% largagina ko‘paydi. Noorganik fosforning miqdori ham gepatitda 18,4; 23,0 va 25,8% larga ko‘paysa, Bondjigar olganlarida esa 14,4; 10,3 va 6,9% largagina ko‘payib sog‘lom hayvonlardagi ko‘rsatgichga yaqinlashdi. Gepatitda jigar to‘qimasida ATF, ADF, AMF va F_n larning bunday o‘zgarishi adeninukleotidlarning umumiy miqdorini kamayishga olib keldi.

Tajribaning 0,5; 1 va 2 oylarida gepatitli kalamushlarning jigarida adeninnukleotidlarning umumiy miqdorilari 18,1; 21,7 va 17,7% larga kamaygan bo‘lsa, Bondjigar olgan gepatitli kalamushlarda esa 9,7; 12,6 va 3,7% largagina kamayib sog‘lom hayvonlardagi ko‘rsatgichlarga yaqinlashdi. Bondjigar gepatitli hayvonlarning jigar to‘qimasida fosfatidli potensialni ham normallashtirdi. Agar, tajribaning 0,5; 1 va 2 oylarida fosfatidli potensial 41,6; 48,4 va 46,3% larga kamaygan bo‘lsa, Bondjigar olgan kalamushlarda esa 36,3; 27,5 va 15,8% largagina kamayib, tajribaning oxirgi muddatlarida sog‘lom hayvonlardagi ko‘rsatgichga yaqinlashdi. Gepatitli hayvonlarning jigarida Atkinsonnning energetik zaryadi ham Bondjigar ta’sirida ijobiy o‘zgarishlarga uchradi. Nazoratdagi kalamushlarning jigar to‘qimasida Atkinsonning energetik zaryadi 15,6; 15,8 va 12,7% larga kamaygan bo‘lsa, Bondjigar olganlarida esa 6,7; 5,0 va 2,6% largagina kamayib sog‘lom hayvonlarning jigaridagi ko‘rsatgichlarga tenglashdi.

2-jadval

Bondjigarni gepatitli kalamushlarni jigaridagi adeninli nukleotidlarining miqdoriga ta’siri (M ± m ; n = 10).

Ko‘rsatgichlar	Vari-antlar	Tadqiqot o‘tkazish muddati, oylarda		
		0,5	1	2
ATF	S. h-r	2,05 ± 0,15	2,19 ± 0,17	1,99 ± 0,13
	G. h-r	1,36 ± 0,17	1,34 ± 0,15	1,31 ± 0,14
	%	66,3	61,2	65,8
	Bondjigar	1,59±0,17	1,77 ± 0,12	1,86 ± 0,16
	%	77,5	80,8	93,4
ADF	S. h-r	0,75 ± 0,10	0,80 ± 0,08	0,80 ± 0,09
	G. h-r	0,73 ± 0,09	0,77 ± 0,08	0,78 ± 0,07
	%	97,3	96,2	97,5
	Bondjigar	0,80±0,11	0,79 ± 0,06	0,79 ± 0,06
	%	106,6	98,7	98,7
AMF	S. h-r	0,19 ± 0,05	0,20 ± 0,03	0,21 ± 0,03
	G. h-r	0,36 ± 0,06	0,39 ± 0,05	0,38 ± 0,04
	%	189,5	195,0	180,9
	Bondjigar	0,31±0,05	0,26 ± 0,02	0,22 ± 0,03
	%	163,1	130,0	104,7
F_N	S. h-r	2,99 ± 0,31	3,00 ± 0,28	2,91 ± 0,35
	G. h-r	3,54 ± 0,27	3,69 ± 0,36	3,66 ± 0,34
	%	118,4	123,0	125,8
	Bondjigar	3,42±0,25	3,31 ± 0,28	3,11 ± 0,32
	%	114,4	110,3	106,9
ANU	S. h-r	2,99 ± 0,30	3,19 ± 0,25	3,00 ± 0,25
	G. h-r	2,45 ± 0,32	2,50 ± 0,28	2,47 ± 0,25
	%	81,9	78,3	82,3
	Bondjigar	2,70±0,33	2,79 ± 0,20	2,89 ± 0,25
	%	90,3	87,4	96,3
FP	S. h-r	0,91	0,91	0,95
	G. h-r	0,53	0,47	0,51
	%	58,4	51,6	53,7
	Bondjigar	0,58	0,66	0,80
	%	63,7	72,5	84,2
AEZ	S. h-r	0,81	0,81	0,79

	G. h-r	0,70	0,69	0,69
	%	86,4	85,2	87,3
	Bondjigar	0,74	0,77	0,77
	%	91,3	95,0	97,4

Olingan natijalarni tahlil qilib, Bondjigar to‘rt xlor uglerodli gepatitda, jigar to‘qimalarida ATFning miqdorini, fosfatidli potensialni va Atkinsonning energetik zaryadini qayta tiklab sog‘lom hayvonlardagi ko‘rsatgichlarga tenglashtiradi. Bu olingan natijalar Bondjigar gepatitli hayvonlarning jigari mitoxondriyalarining ATF sintezlash faoliyatini qayta tiklaganidan darak beradi.

Xulosa.

Gepatitda jigar to‘qimasida ATFning miqdori kamayib, Atkinsonning energetik zaryadi va fosfat potensiali pasayadi. Kasallikning kuchayishiga qarab bu jarayonlar tezlashadi. Bondjigar olgan gapatitli xayvonlarning jigarida ATFning miqdori oshadi va yuqorida aytib o‘tilgan ko‘r-satgichlar normal holatga yaqinlashadi.

To‘rt xlor uglerod ta’sirida gepatit chaqirilganda jigar mitoxondriyalarida ATF sintezlash faoliyati pasayadi.

Gepatitning boshlang‘ich davrida bu jarayonning buzilishi asosan nafas olish zanjiring NADga bog‘liq sohalarida kuzatiladi, kasallikni davom etishiga qarab oksidlanishli fosforlanishning pasayishi FADga bog‘liq sohasiga ham tarqaladi.

Bondjigarni gepatitli hayvon organizmiga kiritilganda jigar mitoxondriyasining nafas olishi va oksidlanishli fosforlanishini qayta tiklanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абдуллаев Н.Х., Каримов Х.Я. Печень при интоксикациях гепатотропными ядами. Ташкент, 2000, 180с.
2. Алматов К.Т., Рахимов М.М. Функционирование митохондрий печени крыс при гепатите // Вопросы мед. химии, 1999, Т. 24, № 6, С. 740-747.
3. Голиков С.Н., Саноцкий И.В., Тиунов Л.А. Общие механизмы токсического действия // Москва, 2001, 280 с.
4. Голиков С.Н., Саноцкий И.В., Тиунов Л.А. Общие механизмы токсического действия // Москва, 1998, 280 с.
5. Губский Ю.И. Коррекция химического поражения печени // Киев, 1989, 168 с.
6. Тожибоев К.Т., Кодиралиева М.Р. Жигарда моддалар алмашинувининг узгаришига таъсир этувчи омиллар. “Фаргона водийсининг ысимлик, хайвонот дунёси ва улардан оқилона фойдаланиш муаммолари”регионал анжуман материаллари. Андижон 2009, 116-117 б.
7. Тожибоев К.Т., Кодиралиева М.Р. Токсический гепатит и метаболизм. “Фаргона водийсининг ўсимлик, хайвонот дунёси ва улардан оқилона фойдаланиш муаммолари” регионал анжуман материаллари. Андижон 2009, 114-115 б.
8. Каримов Х.Я., Иноятова Ф.Х. Окислительные процессы в печени при токсических поражениях //Справочник-путеводитель, ГЭОТАР, 2000, С. 50-52.
9. Майер К.П. Гепатит и последетвия гепатита. Москва. 2001. с.423.
10. Маянский Д.Н., Зубахин А.А. Клеточно-молекулярные механизмы форми-рования цирроза печени // Росс. ж. гастроэнтерологии, гепатологии и прок-тологии, 1998, № 6, С. 6-10.
11. Подымова С.Д. Болезни печени. Москва: Медицина, 1984, 480С.
12. Скулачев В.П. Аккумуляция энергии в клетке. Москва: Наука, 1999,
13. 493 с.
14. Скулачев В.П. Трансформация энергии в клетке. Москва: Наука. 2002.
15. Скулачев В.П. Энергетика биологических мембран. Москва: Наука, 2001, 564 с.
16. Скулачев В.П. Законы биоэнергетики.// Соросовский образовательный журнал, Москва, 2004, №1, С.9-14.
17. Тареев Е.М. Тареев И.Е. Хранические гепатиты и циррозы. // В кн.: “Руководство по внутренным болезням, под. ред. Тареева Е.М. Москва, 2005, Т.5.
18. Тихонов А.Н. Молекулярные преобразователи энергии в живой клетке.// Соросовский образовательный журнал, Москва, 2007, №4, С.24-32.
19. Тожибоев К.Т. Особенности секреции белка печенью крыс на разных стадиях отравления CCl_4 или гелиотрием.// Патологическая физиология и экспериментальная терапия. 1999, №2, 57-60.
20. Ченцов Ю.С. Общая цитология, Москва: Изд-во МГУ, 1995.
21. Ченцов Ю. С. Хондриом - совокупность митохондрий клетки.// Соросов-ский образовательный журнал, 1997, №12 с. 10-16.
22. Ханин М.Н. Экспериментальный гелиотропный гепатит. // Вторая Всесо-юзная конференция патофизиологов. Тезисы докладов, Киев, 1963, с.25
23. Ханин М.Н. Гелиотропная дистрофия печени. В кн. Труды кафедры патол. физиологии Таш. Гос. М.и. Таш. 1996, 7-21.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Narimon Dexkanov
Namangan davlat universiteti professori
e-mail: narimon-b@mail.ru

O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY SOVETLARNING TASHKIL ETILISHI
(1990-yil 18-fevralda o‘tkazilgan saylov misolida)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 1990-yil 18-fevralda O‘zbekiston SSR o‘tkazilgan xalq deputatlari oblast, rayon, shahar, shaharlardagi rayonlar, posyolka va qishloq sovetlari deputatlari saylovi tarixi yoritilgan. Unda saylov qonunchiligi hamda o‘tkazilgan saylov davrida amalga oshirilgan siyosiy jarayonlar manbalar asosida tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Mustaqillik Deklaratsiyasi”, mustaqillik, saylov, saylov okrugi, saylov uchastkasi, xalq deputatlari saylovi, deputat, saylovchi.*

Наримон Дехканов
Профессор Наманганского государственного университета

ФОРМИРОВАНИЕ МЕСТНЫХ СОВЕТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ
(на примере выборов, проведённых 18 февраля 1990 года)

Аннотация: *В данной статье освещена история выборов депутатов народных советов области, района, города, городских районов, посёлков и сельсоветов, проведённых 18 февраля 1990 года в Узбекской ССР. В статье анализируются выборное законодательство и политические процессы, которые имели место в ходе выборов, на основе соответствующих источников.*

Ключевые слова: *“Декларация независимости”, независимость, выборы, избирательный округ, избирательный участок, выборы депутатов народных советов, депутат, избиратель.*

Narimon Dekhanov
Professor at Namangan State University

FORMATION OF LOCAL SOVIETS IN UZBEKISTAN
(based on the example of the elections held on February 18, 1990)

Annotation: *This article covers the history of the elections of the people’s deputies of oblasts, districts, cities, city districts, settlements, and rural councils, held on February 18, 1990, in the Uzbek SSR. The article analyzes the electoral legislation and the political processes that took place during the election period based on relevant sources.*

Keywords: *“Declaration of Independence”, independence, elections, electoral district, polling station, people’s deputies election, deputy, voter.*

Kirish

Ma’lumki, 90-yillarda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil qilishning tarixiy tajribasi haqida fikr yuritilganda, albatta, 1990-yil 20-iyunda “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qabul qilinishi va unda yangi tamoyillar belgilab berilganini ko‘rsatib o‘tish lozim. Masalan, Deklaratsiyada: “O‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an’analari, har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta’minlashdan iborat oliy maqsad haqi har bir kishining farovon hayot kechirishini ta’minlash – oliy maqsad sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, O‘zbekiston xalqining kelajagi uchun tarixiy mas’uliyatni chuqur his etgan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratik prinsiplarga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qiladi” [3, 239], - deb e’tirof etilishi zamonaviy mahalliy vakillik organlari yangi tizimini yaratish imkoniyatini boshlab berdi.

Ushbu qoida va talablar asosida mahalliy Sovetlarga o‘tkazilgan saylovlar hokimiyatning zamonaviy vakillik organlarini shakllantirishda, aniqrog‘i hokimiyatni xalq vakillariga o‘tishida muhim bosqich bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili va metod

Mazkur mavzu bo‘yicha bir qator manbalarni ko‘rish mumkin: O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asari, E.Xalilovning “O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar” kitobi, tadqiqotchi O.Xusanovning “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va mahalliy davlat hokimiyati asoslari: huquqiy, tashkiliy masalalar va muammolar” mavzusidagi yuridik fanlari doktori olish uchun yozilgan dissertatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari hamda “Sovet O‘zbekistoni” gazetalari va boshqa bir qator adabiyotlarda keltirilgan.

Muhokama

Hozirgi demokratik O‘zbekiston Respublikasi xarakteriga mos tushadigan, huquqiy talablarga mos keladigan mahalliy vakillik organlari tizimini yaratish ishi O‘zbekiston rasman mustaqillikka erishguniga qadar, ya’ni O‘zbekiston hali Ittifoq tarkibida turgan vaqtda boshlangan edi[11, 52]. “O‘zbekiston SSR xalq deputatlari mahalliy sovetlari deputatlari saylovi haqida”gi qonun asosida o‘tkazilgan saylovlar jarayonida xalq deputatlari mahalliy sovetlarining tashkil etilishi bu borada qo‘yilgan dastlabki qadamlar bo‘ldi.

1990-yil 18-fevralda mazkur qonun bo‘yicha O‘zbekiston SSR xalq deputatlari oblast, rayon, shahar, shaharlardagi rayonlar, posyolka va qishloq sovetlari deputatlari saylovi bo‘lib o‘tdi. Saylov natijasida Respublikada 11 oblast, 156 rayon, 124 shahar va 18 shahardagi rayon, 103 posyolka va 1245 qishloq sovetlari saylandi. Ana shu saylov davrida respublikada 73514 saylov okrugi tashkil qilindi. Saylovoldi yig‘ilishlarda 100 mingdan ortiq nomzod muhokama qilindi. Ularning 65,5 foizi mehnat jamoalari yig‘ilishlarida, 20 foizi fuqarolarning istiqomat qiladigan joylaridagi yig‘ilishlarida, 11 foizi jamoat tashkilotlari yig‘ilishlarida muhokamadan o‘tdi. Ko‘pgina okruglarda saylov muqobillik asosida o‘tdi. 86,6 ming nomzod ro‘yxatga olindi. 9 ta mahalliy sovetlarga saylov okrugidagi saylov qonunchilik buzilganligi uchun saylov haqiqiy emas deb topildi. 46 okrugda nomzod ketib qolganligi tufayli saylov bo‘lmagan deb topildi. Nomzodlar ikkidan ortiq bo‘lmagan 1849 okrugda birorta ham nomzod yetarli ovoz ola olmaganligi uchun qayta saylov o‘tkazildi. 138 ta oblast, 65 ta rayon, 268 ta shahar, 76 ta shaharlardagi rayon, 25 ta posyolka va 38 ta qishloq sovetlariga saylov bo‘yicha okruglarda, hech bir nomzod tegishli ovozni ololmaganligi uchun, eng ko‘p ovoz olgan ikkitadan nomzod takror ovozga qo‘yildi[6]. Bunday hol avvalgi saylovlarda uchramagan edi. Bu qonun saylovlarni demokratik ruhda o‘tishiga zamin yaratib berdi, natijada mahalliy vakillik organlarini sifat jihatdan yaxshilashga tomon qo‘yilgan birinchi qadam bo‘ldi[11, 55].

Buni davriy matbuot nashrlarida e’lon qilingan ma’lumotlardan ham bilsa bo‘ladi. Jumladan, saylovda bevosita qatnashgan Andijon oblasti Leninsk (hozirgi Asaka) shahridagi Oqbo‘yra qishlog‘ida yashovchi Isomiddin ota Asranov shunday deydi: “Bu yil yoshim 80 ga to‘ladi. Bugun respublikada 30-yillarning ikkinchi yarmida o‘tkazilgan birinchi saylov esimga tushmoqda. O‘shanda men “Mustahkam” qishloq sovetining raisi edim. Lavozimimga ko‘ra meni saylov okrugining raisi etib tayinlashdi. Esimda, bizga deputatlikka nomzodlarni zo‘rlab o‘tkazishar edi. Saylovchilar nomzodlarni avval ko‘rmagan bo‘lishar edi. Bugun o‘tgan saylovdan yurtdoshlarimning ongi juda oshganini, jamiyatimiz va uning saylov sistemasi demokratiyalashib borayotganini yaqqol ko‘rib turibman”. Bunday fikrni Xorazm oblasti 452-Xiva saylov okrugi saylovchisi, saylov kuni rosa yuz yoshga to‘lgan Sharifa opa Otajonova ham davom ettirib, shu paytgacha “hozirgidek demokratik saylov bo‘lmagan, endi haqiqiy saylov bo‘lyapti”, deb ta’kidlaydi. Saylov Samarqand oblastida ham ko‘tarinki ruhda o‘tdi. Buni Samarqand universiteti binosida joylashgan tashviqot punkti mudiri, tarixchi R.Azimov so‘zlaridan ham bilib olish mumkin. Jumladan, u: “Saylov normal o‘tdi. Saylovchilarning katta guruhi ertalab soat 7 dayoq ovoz berishga keldi. Ular orasida urush va mehnat veteranlari, studentlar, muallimlar bor edi”, deb ta’kidlaydi. O‘tgan saylov haqida Jizzax shahar Soveti deputatligiga nomzod, shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi bosh vrachining o‘rinbosari E.Mirazimov ham o‘z munosabatini bildirib shunday deydi: “Bu galgi saylov faol o‘tdi. Avvalgi yillardan buning farqi shu bo‘ldiki, odamlar saylov uchastkalariga biron narsa xarid qilish ilinjida emas, balki deputatlikka ko‘rsatilgan nomzodlarning birini yoqlab ovoz berish uchun keldilar” [5].

Umuman, bu saylovda Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti Prezidiumi, oblast ijroiya komitetlari va Toshkent shahar ijroiya komitetidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, respublika mahalliy sovetlari deputatlari saylovida 9.376.454 nafar saylovchi yoki saylovchilar umumiy sonining 93.4 foizi qatnashdi.

Qoraqalpog‘iston ASSRda ovoz berishda saylovchilarning 98,3 foizi, Namangan oblastida – 98,1 foizi, Sirdaryoda – 97,6 foizi, Xorazmda – 97,3 foizi, Andijonda – 96,1 foizi, Qashqadaryoda – 96,0 foizi, Samarqandda – 95,5 foizi, Farg‘onada – 95,3 foizi, Surxondaryoda – 95,0 foizi, Buxoroda – 92,6 foizi, Toshkent oblastida – 91,4 foizi va Toshkent shahrida – 80,5 foizi qatnashdi[9].

1-jadval

1990-yil 18-fevralda mahalliy sovetlarga bo‘lib o‘tgan saylov natijalari

Sovetlar	Jami saylovchilar	Ovoz berishda ishtirok etganlar	Foiz hisobida, %
Oblast	8.243.611	7.824.355	94.9
Rayon	6.232.670	6.083.573	97.6

Shahar	4.239.475	3.715.720	87.6
Shaharlardagi rayon	1.641.990	1.349.055	82.2
Posyolka	434.287	393.289	90.6
Qishloq	5.740.365	5.307.109	92.5

Ovoz berish yakunlariga ko‘ra, respublika bo‘yicha mahalliy sovetlarga 71 ming nafar deputat saylandi. Shundan 2.071 nafar oblast sovetlari deputatlari, 11.549 nafar rayon sovetlari deputatlari, 7.222 nafar shahar sovetlari deputatlari, 1.321 nafar shaharlardagi rayon sovetlari deputatlari, 3.446 nafar posyolka sovetlari deputatlari, 45.391 nafar qishloq sovetlari deputatlarini tashkil etdi[7].

Murakkab sharoitga qaramay, butun respublikada saylov uyushqoqlik va ommaning yuksak faolligi ruhida o‘tdi. Saylovda saylovchilarning 90 foizdan ko‘prog‘i ishtirok etganligini aytishning o‘zi kifoya. Natijada hokimiyatning barcha organlari, ya’ni O‘zbekiston SSR Oliy Sovetidan to qishloq sovetigacha hamma joyda ana shunday organlar shakllantirildi[4]. Shuningdek, xalqning muxtor vakillari hisoblangan deputatlarning “eng ishbilarmon, eng adolatli, eng irodali, xalq uchun o‘z jonini fido qilishga ham tayyor kishilar bo‘lishi kerak”ligi[2], shu bilan birga “eng muhimi, xalqqa vijdon bilan, halol xizmat qilishni asosiy mezon deb bilish lozim” ligi ta’kidlandi[1, 145].

Biroq, saylov demokratik prinsiplarga asoslangan holda bo‘lishiga qaramay, bu saylov jarayonlarida bir qator kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan edi. Masalan, saylovda respublika aholisi tomonidan Oliy va mahalliy Kengashlarga deputatlar saylandi. Ammo mazkur saylov jarayoni tahlilidan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, saylovni xususiyatiga ko‘ra “yakdillik va jipslik” vaziyatida o‘tdi deb bo‘lmaydi. Ayni paytda demokratik jamiyatning belgilaridan biri bo‘lmish fikrlar xilma-xilligi yaqqol ko‘zga tashlanganiga qaramasdan, mazkur saylovda qatnashganlar soni kutilgan darajada bo‘lmadi. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, aholining “siyosiy faolligi juda oshdi” deb bo‘lmaydi[5].

Shu bilan birga ba’zi saylov okrug va uchastkalarida saylovning muqobil nomzodlarsiz o‘tganligini kuzatish mumkin. Jumladan, “Toshkentning aholi zich yashaydigan rayonlaridan biri – Chilonzordagi 576-saylov uchastkasida Oliy, shahar va rayon Sovetlari nomzodlari yozilgan uchta byulletenda faqat bittadan kishining nomi bor edi. Buni ko‘rgan ko‘pgina saylovchilar o‘zlarining tanlab olish huquqi buzilganligi sababli hamma nomzodlarni ketmaket o‘chirib tashladilar. Buning ustiga byulletenga kiritilgan “Tashmetrosaroy” trestining boshqaruvchisi G.Shtern, qurilish trestining slesari E.Norboyev, rayon partiya komitetining sekretari T.Morning familiyalari odamlarga tanish emas edi. Saylovoldi davrida ular bilan uchrashuv ham kamdan-kam o‘tkazildi. Saylovchilarning “ovozi uchun zarurat” bo‘lmaganidan keyin uchrashuvlarning ham hojati yo‘q edi. Xalq deputatlarini saylash uchun tuzilgan besh yuz okrugning uchdan bir qismida faqat bittadan nomzod bor edi. Ayni paytda saylovga tayyorgarlik ishlari ham to‘laqonli bo‘lgan deyish qiyin. Xususan, deputatlikka nomzodlarning juda qisqa tarjimai hollari yozilgan rasmiy saylovoldi varaqalari 1990-yil 18-fevralidan bir necha kun avvalgina paydo bo‘lib, bu narsa fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini ko‘tarishga yordam bermaganligi mutlaqo ravshan” [5].

Yuqorida qayd etilgan holat respublikaning barcha hududlariga xos bo‘lgan deyish mumkin. Masalan, Nukus shahridagi Glier nomli san’at maktabida joylashgan uchastka saylov komissiyasidagi ro‘yxatda aholi istiqomat qiladigan joylarda birorta yig‘ilish o‘tkazilganligi ko‘rsatilmagan, ko‘pchilik saylovchilar saylovga kelish haqidagi taklifnoma ham olishmagan. Komissiya tarkibida 11 kishi ishlashiga qaramay, “saylovchilarni uylaridan topolmadik” qabilidagi bahonalar to‘qilgan. Qashqadaryo oblastining ko‘pgina okruglarida ham saylov muqobil nomzodlarsiz o‘tkazildi. Termiz saylov uchastkalarida ovoz beruvchilar viloyat, shahar va posyolka Sovetlariga ko‘rsatilgan nomzodlarning familiyalarini byulletenlarni o‘qigandan keyingina bilib olishdi. Saylovchilarning barchasi ham uchastka saylov komissiyasidan yozma taklifnoma olmaganligi ma’lum bo‘lib qoldi. Oxir-oqibatda saylovni o‘tkazish chog‘ida va ovozlar sanalayotganida saylov qonuni buzilganligi sababli okrug saylov komissiyalari rayon Sovetlariga saylov o‘tkazuvchi to‘rt saylov okrugida, shahar Sovetlariga saylov o‘tkazuvchi ikkita va qishloq Sovetlariga saylov o‘tkazuvchi uchta saylov okrugida saylovni bekor qildilar. Deputatlikka nomzod qolmaganligi sababli bir saylov okrugida saylov bo‘lmadi[9].

Shu bilan birga ta’kidlash joizki, viloyat, shahar va tumanlarda erkin saylovlar o‘tkazishning qonun tomonidan berilgan eng muhim vositalaridan biri sifatidagi raqobatga yetarlicha tayyor emaslik ayrim salbiy hodisalarni ham keltirib chiqardi. Ba’zan qishloq tumanlarida ishchan, kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan nomzodlar uchun emas, balki ko‘proq o‘z qarindoshlari, oshna-og‘aynilari uchun ovozlar berilgan. Ayrim shaxslar saylov to‘g‘risidagi qonunlarning demokratik normalaridan g‘arazli maqsadlarda foydalanib, o‘zlarining nomunosib nomzodlarini ko‘rsatganlar va saylovchilarni aldash yo‘li bilan ham, ba’zi hollarda esa ochiqdan-ochiq qo‘rqitish yo‘li bilan ham ularning saylanishiga urinishlar bo‘lgan.

Natijalar

O‘zbekistonda aniq, ancha demokratikroq, jahon andozalariga javob beradigan, raqobatga asoslangan saylov tizimini vujudga keltirishga o‘sha davrda Markazdan bo‘lgan ko‘rsatma va yo‘l-yo‘riqlar bilan jiddiy to‘siqqa uchragan. Bu borada “okrug saylovchilari vakillarining konferensiyalarini o‘tkazish mumkinligini

nazarda tutgan “O‘zbekiston Respublikasi xalq deputatlari saylovi haqida”gi Qonunning 32-moddasini keltirish mumkin[8]. Bu institut aslida ittifoq qonun chiqaruvchisi tomonidan majburan qabul qildirilgan edi: bu konferensiyalarning vakolatlari saylovchilar saylovoldi okrug yig‘ilishlarining vakolatlariga o‘xshash bo‘lib, ularni o‘tkazish mumkinligi “SSSR xalq deputatlari saylovi to‘g‘risida”gi Qonunning 38-moddasida nazarda tutilgan edi. Xalq deputatlari saylovi paytida bu konferensiyalar nomzodlarni oldindan tanlash shakli, u yoki bu nomzodni saralab olish uchun o‘ziga xos g‘alvir vazifasini o‘tagan. Bir qancha joylarda vakillar konferensiyalari bitta yoki ikkitadan nomzodni qoldirib, saylovchilarni tanlash imkoniyatidan mahrum etganlar. Hatto ikkita nomzod bo‘lgan joylarda ham ko‘pincha ikkinchisi nomigagina, xo‘ja ko‘rsinga bo‘lgan. Boshqa nomaqbul hollar ham bo‘lgan. Masalan, o‘zini o‘zi maqtashning mashqini olgan safsatabozlar o‘ziga yo‘l ochgan va aksincha, kamtar, yuqori ishchanlik fazilatlariga ega bo‘lgan halol fuqarolar soyada qolib ketgan[10, 62].

Xulosa

Ko‘rinib turibdiki, yagona kommunistik partiyaning hukmronlik roli saylov tizimini isloh qilish yo‘lida ham bevosita va bilvosita qiyinchiliklar tug‘dirar edi, bir partiyali tizimda saylovlarni to‘la demokratlashtirishni murakkablashtirar yoki xalqda tanlash imkoniyatining o‘zini umuman istisno etar edi.

Hayot esa tarixiy shart-sharoitlar O‘zbekistonda ilk bor muqobillik asosida saylov o‘tkazish, uni yanada demokratlashtirish, saylovchilarning ijtimoiy hayotda faolligini oshirish, millionlab fuqarolarning davlat boshqaruvida so‘zda emas, amalda ishtirok etishi, mahalliy vakillik organlari ishining shakllarini boyitish va uning faoliyatini yangi mazmun bilan to‘ldirishni tobora zarur qilib qo‘ya boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 145.
2. Депутат – ҳамма ишга бош-қош. Ўзбекистон ССР ва Қорақалпоғистон АССР, область, шаҳар, район, посёлка, қишлоқ ва овул Советлари халқ депутатларига мурожаат // Совет Ўзбекистони. 1990. 1 март. № 51.
3. Инсон ҳуқуқлари (ўқув қўлланма). Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 240 б.
4. Куч-ғайратларни бирлаштириш – қайта қуриш муваффақиятининг гарови // Совет Ўзбекистони. 1990. 24 февраль. № 47.
5. Сайлов бўлиб ўтди // Совет Ўзбекистони. 1990. 20 февраль. № 43.
6. Ўзбекистон Республикаси Олий Совети Котибияти жорий архиви. 1990;
7. Йигирма биринчи чақириқ Ўзбекистон ССР халқ депутатлари маҳаллий Советлари депутатлари сайловининг якунлари тўғрисида Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиумининг ахбороти // Совет Ўзбекистони. 1990. 24 февраль. № 47.
8. Ўзбекистон Республикаси Олий Советининг Ведомостлари. 1989. № 26-28. –Б. 28.
9. Ўзбекистон ССР халқ депутатлари сайлови якунлари тўғрисида Марказий сайлов комиссиясининг ахбороти // Совет Ўзбекистони. 1990. 22 февраль. № 45.
10. Халилов Э.Ҳ. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 384 б.
11. Хусанов О. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва маҳаллий давлат ҳокимияти асослари: ҳуқуқий, ташкилий масалалар ва муаммолар. Юридик фан. доктор. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 278 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Burxanova Mashhura Qozoqjanovna
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
e-mail: mashhuraburhanova090@gmail.ru

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONGA AHOLINI KO'CHIRISH SIYOSATI VA UNDA TEMIR YO'L TRANSPORTINING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya: *Maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan ko'chirish siyosatining Turkiston o'lkasi iqtisodiy-siyosiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri Farg'ona viloyati misolida yoritib berilgan. Shuningdek, Turkistonda amalga oshirgan ko'chirish siyosati jarayonida temir yo'llar qurilishining tutgan o'rni, yangi temir yo'l bekatlarida ko'chirib keltirilgan aholiga bo'lgan munosabat, ko'chirish siyosati natijasida o'lka qishloq va shaharlarida sodir bo'lgan etnik hamda ijtimoiy o'zgarishlar tahlil qilingan.*

Kalit so'z va iboralar: *Ko'chirish siyosati, iqtisodiy-siyosiy hayot, temir yo'l, ishlab chiqarish, etnik madaniyat, temir yo'l bekatlari, xom ashyo, tabiiy boylik, metropoliya, sanoat, uyezd, posyolka,.*

Бурханова Машхура Казакжановна
Преподаватель Наманганского государственного университета

ПОЛИТИКА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ ПО ОБЛЕГЧЕНИЮ НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА И РОЛЬ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА В НЕЙ

Аннотация*: В данной статье рассматривается влияние переселенческой политики, проводимой Российской империей, на экономическую и политическую жизнь Туркестанского края на примере Ферганской области. Также проанализирована роль железнодорожного строительства в процессе переселенческой политики, осуществляемой в Туркестане, отношение к переселяемому населению на новых железнодорожных станциях, а также этнические и социальные изменения, произошедшие в селах и городах страны в результате переселенческой политики.*

Ключевые слова*: Переселенческая политика, экономическая и политическая жизнь, железная дорога, производство, этническая культура, железнодорожные станции, сырье, природные ресурсы, метрополия, промышленность, уезд, поселение.*

Burkhanova Mashkhura Kazakzhanovna
Lecturer of Namangan State University

.THE POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE TO ALLEVIATE THE POPULATION OF TURKESTAN AND THE ROLE OF RAILWAY TRANSPORT IN IT

Annotation. *The article examines the influence of the resettlement policy pursued by the Russian Empire on the economic and political life of the Turkestan region using the example of the Fergana region. The role of railway construction in the process of resettlement policy implemented in Turkestan, the attitude towards the resettled population at new railway stations, as well as the ethnic and social changes that occurred in the villages and cities of the country as a result of the resettlement policy are also analyzed.*

Key words and phrases*: Migration policy, economic and political life, railway, production, ethnic culture, railway stations, raw materials, natural resources, metropolis, industry, district, settlement.*

Kirish

Rossiya imperiyasi hukumati Turkistonni zabt etar ekan, uning oldiga qo'ygan yagona maqsadi – o'lkaning milliy boyliklaridan imperiyaning tobora oshib borayotgan sanoat ehtiyojlari yo'lida foydalanish, o'lkani o'zining xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirishdan iborat edi. Tabiiyki, bu borada imperiya hukumatining maqsadlari yirik sarmoyadorlar, yer-mulk egalari va savdo-sotiq tabaqasi vakillarining manfaatlari bilan mushtarak edi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganidan so'ng bu yerda imperiya manfaatlarini ifoda etuvchi boshqaruv tizimi tashkil etildi. Imperiyaning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, Turkiston iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi va shu asosda iqtisodiy siyosat amalga oshirila boshlandi. Metropoliya bilan uning mustamlakasiga xos

bo'lgan munosabatlar o'rnatilganidan so'ng, imperiya oldida o'lka boyliklaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Biroq, bu borada asosiy muammolardan biri Turkiston o'lkasini Rossiya imperiyasi bilan bog'lab turuvchi, ikkala o'rtadagi mustahkam harbiy, siyosiy-ma'muriy, savdo-iqtisodiy aloqalarini amalga oshirish uchun zamonaviy transport vositalarining mavjud emasligi edi. Bunday transport vositasi – temir yo'llar bo'lib, bir so'z bilan aytganda, Turkistonga temir yo'l o'tkazilishi Rossiya imperiyasining o'lkadagi mavqeini mustahkamlashi lozim edi. [6, 16].

Ayniqsa, Rossiya imperiyasining Turkistonda amalga oshirgan ko'chirish siyosati jarayonida temir yo'llar qurilishining tutgan o'rni, yangi temir yo'l bekatlarida ko'chirib keltirilgan aholiga bo'lgan munosabat, ko'chirish siyosatini muhim omili sifatida namoyon bo'ldi. Turkiston va Buxoro amirligi, Xiva xonligi bozorlari, tabiiy boyliklari hamda tub aholining arzon mehnatidan imperiya manfaatlaridan foidalanishni vaziyat taqozo qilsa, askarlarni qurol^slahalarni tez va ko'plab yetkazishni ko'plab chor Rossiyasi hukumati mintaqada temir yo'l o'tkazish ishlarini 7–8 yil mobaynida amalga oshirdi. Natijada, 1887-yilda Krasnovodsk-Ashxabod-Qizil-Arvot temir yo'li Samarqandgacha yetkazildi. Bu yo'lga Kaspiyorti Harbiy temir yo'li nomi berilgani ham uning asosiy vazifasining mohiyatini ko'rsatar edi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan ko'chirish siyosatining Turkiston o'lkasi iqtisodiy-siyosiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri Farg'ona viloyati misolida yoritib berilgan. Mazkur muallifning to'g'ri qayd etishicha, aholini ko'chirish siyosatida Turkiston tub xalqlarining manfaatlari va haq-huquqlarini umuman inobatga olmasdan, iqtisodiy, ijtimoiy hamda milliy zug'umni kuchaytirdi. Lekin, endi o'lkada yangicha fikrlovchi, xalqparvar, millatparvar va taraqqiyot istiqbollarini chuqur anglagan ko'psonli ziyolilar mavjud edi. Bu esa tub aholining mustamlakachilikka qarshi istiqlol uchun kurash tajribasi ancha boyiganligi bilan Turkiston, shu jumladan, Farg'ona vodiysida istibdodga qarshi kurash o'tkir hamda davomli bo'lishiga juda muhim omil bo'ldi [1. 39–44]

Muhokama

XIX asr o'rtalariga kelib, Rossiya imperiyasining hukmron doiralari O'rta Osiyoni bo'ysundirish mustamlakaga aylantirish bo'yicha harbiy-ma'muriy choralarni faol hamda tajovuzkorona amalga oshirgan pallada rus hukumati Kaspiy va Qoradengizlardan Tinch va Muz okeanlarigacha bo'lgan ulkan hududda hukmronlik qilib turgan edi. Rossiya imperiyasining boyligini ko'paytirishga hizmat qiladigan Uzoq Sharq hamda bepoyon Sibirni Rossiya imperiyasi va savdo sanoat doiralari o'zlashtirish qolaversa rivojlantirish bo'yicha harajatlar, tashkiliy choralar ustida bosh qotirmay, bu yerda mustahkamroq ildiz otishga, shuningdek, tayyor boyliklar(o'rmon, mo'yna, baliq va h.k)dan foydalanishga imkon qadar harakat qildilar [6. 30].

Shunday ekan, Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining bosh siyosiy, strategik maqsadi bu yerda, Hindiston tomon siljib borish uchun tegishli sharoitlarni barpo etish bo'lgani holda, butun O'rta Osiyoning harbiy strategik ahamiyati qolaversa, ulkan boyliklari haqida yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan imperiya oliy doiralari, bu yerda o'z hukmronliklarini mustahkamlashga qaror qildilar. Buning uchun esa kuchli armiya va keng tarmoq otgan politsiya tizimidan tashqari, rus umuman, xristian aholidan iborat ishonchli tayanchni yaratish kerak edi. Mustamlakachilik tashabbuschilarining yoki davlat, siyosiy rahbarlarining fikricha, buni tub aholisi 5 million kishiga yaqin, bo'lgan Turkistonda amalga oshirish ayniqsa zarur edi. Bu eng avvalo, Rossiya imperiyasining aholini ko'chirish siyosatini yuzaga keltirdi. Rossiya imperiyasi uchun mazkur mintaqani bosib olishdagi siyosiy va harbiy maqsadlar ustun bo'lganligi 1866-yildayoq imperiya kansleri o'sha yillarda aholini ko'chirish harakatini tartibga soluvchi biron bir qoida, hujjatlar bo'lmagani hamda ko'chiruvchilar ma'muriyat, harbiy kuchning qo'llab quvatlashi ostida o'zboshimchalik bilan tub aholidan yer, qoramol, mehnat qurollarini tortib olish yo'li bilan joylashganlar.

Ushbu davrda ko'chiruvchilik harakatining betartibligi, o'zini g'olib hisoblagan ko'chib kelayotganlarning tub aholiga, ayniqsa qishloq aholisiga nisbatan bedodligi ularning askari shaharlarda hamda rus garnizonlari istehkomlari atrofida joylashganliklari bilan harakterlidir. Ko'chiruvchilarning turli guberniyalardan chiqishi va Turkistonning qaysi joylarida o'rnashib qolishi hali yaxshi nazorat qilinmas va boshqarilmas edi. Bu eng avvalo, ushbu bosqichda bosib olingan barcha hududlarda mustamlakachi harbiy-ma'muriy boshqaruv organlarining hali tuzilmagani bilan izohlanadi.

Mazkur davr, ya'ni 1865–1867-yillarda Rossiya imperiyasi mustamlakachi harbiy ma'muriy boshqaruv tizim ko'proq Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi hududlarini bosib olish masalalari bilan band edi. Rossiyadan ko'chirib keltirilganlar uning fuqarolari uchun umumiy bo'lgan polpartiga ega bo'lib, metropolgiyaga erkin borib kelsalar Turkiston musulmonlariga u yerga borish uchun alohida hujjat berilgan. Ushbu hujjatda egasi sart deb atalganidan tashqari, o'sha "sart"ning belgilari: yoshi, bo'yining uzunligi, sochi, qoshi va ko'zlarining rangi, burni, og'zi, engachi, yuzining o'ziga xosliklari alohida alomatlari qayd etilgan. Bular jinoyatchi xaqidagi to'planadigan ma'lumotlarga o'xshar edi. O'rta Osiyo (Buxoro) yahudiylari huquqlarini alohida tartibga solish imperiya va mustamlakachi ma'muriyatning Turkiston, ya'ni butun O'rta Osiyo mintaqasi ijtimoiy-siyosiy hayotiga nisbatan tutgan pozitsiyasining buyuk davlatchilik ko'rinishlaridan biri bo'ldi [3. 345].

Turkistonga ko'chiruvchilar oqimining buyuk davlatchilik va shovinistik harakteri hamda ko'lami ko'p jihatdan belgilangan ediki ma'muriy markazi Chimkent shahrida bo'lgan Turkiston oblasti tashkil qilingan 1869 yil 2 martdan boshlab o'lka Orenburg gubernatorligiga qarardi. Orenburg guberniyasi esa Rossiyaning eng yirik guberniyalaridan biri bo'lgan. Binobarin rus aholisining bir qismini Turkistonga ko'chirish oddiy bir hol sifatidagina emas, balki zaruriy ish sifatida qaralardi. Shunday ekan Rossiya imperiyasi nuqtayi nazaridan, Turkiston oblasti iqtisodiy vazifalardan ko'ra ko'proq strategik, siyosiy-harbiy vazifalarni hal etish uchun tashkil etilgan harbiy ma'muriy tuzilma edi [2,18]

Ta'kidlash joizki, Rossiya imperiyasining bu viloyatiga aholining ko'chirish siyosatining dastlabki yillari ko'chirib keltirilgan kazaklarga, ruslarga eng ko'p qulaylik – yaratib berish, ularning sonini ko'paytirish davrigina bo'lmay, balki keyinchalik takomillashtirilgan mustamlakachi ma'muriyatning asosiy harbiy-siyosiy va boshqa tuzilmalarini vujudga keltirishning tashkiliy jihatdan yakunlanish davri ham bo'ldi.

Natijalar

Mustamlakachilar tuzgan hokimiyat tizimi 1865-yil 6-avgustdagi "Muvaqqat nizom"da "harbiy xalq boshqaruvi" deb nomlansa-da, aslida butun harbiy va fuqarolik hokimiyati Turkiston viloyati harbiy gubernatori, joylarda esa harbiy komendant ham hisoblangan bo'limlar boshliqlari ixtiyorida bo'lgan. 1866-yilda zabt etilgan hududlarda Erjar va Zomin bo'limlari hamda O'ratepa, Jizzax tumanlari tuziladi. Jizzax ostonasida mag'lubiyatga uchragandan so'ng 1866-yil fevralda Turkiston oblastining birinchi harbiy gubernatori general M. G. Chernyaev lavozimidan olib tashlandi va uning o'rniga D. I. Romanovskiy tayinlandi. Toshkentning eski shahar qismida, qishloq va ovullarda aholi yumushlarini boshliqlar tomonidan tashlanadigan yoki tasdiqlanadigan oqsoqollar, muftilar, miroblar, zakotchilar boshqargan [2. 20].

Mahalliy millatli halqlarning ijtimoiy hayotining an'anaviy negizlaridan o'troq aholida qozilik sudi, ko'chmanchi alohida esa biy sudlarigina saqlanib qolgandi. Biroq ularning vakolatlari jiddiy ravishda o'zgartirilib, qozikalon lavozimi bekor qilingandi. Qozi va biylarning o'lim jazosi yoki jismoniy jazo belgilangan hukmlari viloyat harbiy gubernatoriga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladigan bo'ldi. Tub aholiga nisbatan boshqa bir qancha cheklashlar ham joriy qilindi. Rossiya imperiyasining strategik niyatlarining amalga oshirishi uning ixtiyoridagi va nazoratidagi hududlarni ancha kengayishiga olib keldi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, imperiya xukumatining ko'chirib keltirilgan ruslar manfaatlari taqazosi bilan yuzaga kelgan ulug' rus kayfiyati ko'pincha Turkistonga kelgan Rossiya yaxudiylariga nisbatan ham o'zboshimchalik qilinishiga olib kelardi. Shu bilan bevosita bog'liq ravishda imperiyaning hukmron doiralari hamda Turkiston ma'muriyati doimiy harbiy xukmronlikni ta'minlash, ishonchli rus aholisining sonini ho'jalik farvonligini oshirish, iqtisodiyot va mehnat zahiralarini Rossiya imperiyasi manfaatlarida foydalanishning buyuk davlatchilik tizimini yaratish, tub aholi ustidan qattiq siyosiy va pasport rejimini Turkiston, Buxoro va Xiva aholisining borib-kelishi bo'yicha vatandoshlarning parokanda bo'lishiga sabab bo'ladigan bir qator cheklashlarni joriy etish bilan bir qatorda, tub millat xalqlarini rus madaniyatining rus tilining, umuman, Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lishning afzalligi va maqbulligiga asta-sekin ishontirib borish choralariga jiddiy e'tibor berdi. Yuqorida tub aholi fuqarolik holatining Buxoro va Xiva savdogarlari, boshqa fuqarolarning Turkiston hududida bo'lishi, mahalliy millat vakillarining Rossiya uning hududidan chetga viza bo'yicha borib-kelishi mustamlakachi ma'muriyat tomonidan nazorat qilishi, boshqarilishi, shuningdek Buxoro yaxudiylarining huquqiy axvoli qanday ekanligi ta'kidlandi.

Umuman, Turkiston tub xalqlariga qo'llangan xatti-xarakatlar oblastlarning harbiy gubernatorlari, uyezd boshliqlari nibstan qo'pol shaklda davoim ettirdilar. Bu yo'lda biron-bir sezilarli mutaraqqiy maqsad qo'yilmagan edi. Chunki mintaqalar "o'z huquqlarining jabr-zulmiga asrlar davomida ko'milib kelgan tub aholiga nisbatan insoniylik va gumanizm pritsiplarini qo'llab bo'laydi" deb hisoblardi. So'nggi general-gubernetor A. N. Kuropatkin e'tirofiga ko'ra, hukumat "tub joy aholini rivojlantirishdan chetda tutib kelgan" bo'lsa-da, bu borada Rossiya imperiyasi jiddiy natijani qo'lga kirita olmadi. Aksincha, tub millatlari xalq ommasining fuqarolik siyosiy huquqsizligi o'z-o'zidan norozilik va qahr g'azab uyg'otibgina qolmay, balki qattiq qarshilikka qaramay, ilg'or tub aholi ma'lum bir qismining siyosiy ongini va faolligini oshirishga sabab bo'ldi, deb qayd etish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдурахимова Н. А., Рустамова Г. К. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начала XX века). – Ташкент, 1994. – С. 63–66.

2. Авазов Н. Туркистон вилояти бошқарув тизими. – Тошкент: Фан. 2004. – Б. 18.

3. Муртазаева Р. Ҳ. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – Б. 345.

4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон чор мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 45.

5. Ғаффоров Ш. Тарих ва тақдир. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 30.

6. ЎзР МДА. И-1 жамғарма, 16-рўйхат, 652-иш, 171-варақ.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

G‘ofurov Nizomjon Oktyabrovich
Namangan davlat universiteti dotsenti

O‘ZBEKISTON VA XITOY O‘RTASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI RIVOJIDA TURIZMNING O‘RNI

Annotatsiya: *Turizm va sport sohalarini jahon xamjamiyati bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirishdagi o‘ta muhim ahamiyatini hisobga olgan O‘zbekiston Respublikasi hukumati mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu sohalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. O‘zbekiston tarixiy obidalar, noyob tabiat manzaralari asosida ulkan turistik salohiyatga ega. Ushbu maqolada O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida turizm sohasidagi hamkorlik masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *turizm, mehmonxona, turistik baza, turistik firma.*

Гофуров Низомжон Октябрович
Наманганский государственныйуниверситет, доцент

РОЛЬ ТУРИЗМА В РАЗВИТИИ ОТНОШЕНИЙ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ

Аннотация: *Учитывая чрезвычайную важность сфер туризма и спорта в установлении и развитии отношений сотрудничества с мировым сообществом, правительство Республики Узбекистан с первых дней независимости уделяло особое внимание развитию этих сфер. Узбекистан обладает огромным туристическим потенциалом, основанным на исторических памятниках, уникальных природных ландшафтах. В данной статье освещены вопросы сотрудничества между Узбекистаном и Китаем в сфере туризма.*

Ключевые слова: *туризм, гостиница, туристическая база, туристическая фирма.*

Gofurov Nizomjon Oktyabrovich
Namangan State University docent

THE ROLE OF TOURISM IN THE DEVELOPMENT OF COOPERATION RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA

Abstract: *Considering the crucial importance of tourism and sports in establishing and developing cooperation relations with the global community, the government of the Republic of Uzbekistan has paid special attention to the development of these areas since the first days of independence. Uzbekistan has a huge tourist potential based on historical monuments and unique natural landscapes. This article highlights the issues of cooperation between Uzbekistan and China in the field of tourism.*

Keywords: *tourism, hotel, tourist base, travel agency.*

Kirish

Jahon mamlakatlari xalqlarining madaniy-ma’naviy rivojlanishida turizm va sport sohalari muhim o‘rin tutadi. Zero, bu sohalar xalqlarning ma’naviy qadriyatlarini yaqinlashtirishga, bir-birlarini yaxshiroq tushunishlariga xizmat qiladi.

Turizm va sport sohalarini jahon xamjamiyati bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirishdagi o‘ta muhim ahamiyatini hisobga olgan O‘zbekiston Respublikasi hukumati mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu sohalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. O‘zbekiston tarixiy obidalar, noyob tabiat manzaralari asosida ulkan turistik salohiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi turizm sohasida hamkorlik aloqalari mazkur maqola muallifi tomonidan “O‘zbekturizm” MK joriy arxivi, ommaviy axborot vositalari, hamda internet nashrlar ma’lumotlari asosida o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ikki mamlakat turistik salohiyati va o‘zaro hamkorlik istiqbollari tahlil etiladi. O‘zaro hamkorlikka ta’sir etuvchi omillar tavsiflanadi. Turizm sohasidagi hamkorlikning samaralari fakt va dalillar asosida ko‘rsatib beriladi.

Natijalar va ularning tahlili

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridanoq turizm sohasining ichki tuzilmasini rivojlantirish va servis

xizmat koʻrsatish sifatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlari yaratildi.

1992-yil 20-oktyabrda Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekturizm” Milliy kompaniyasi faoliyatini tashkil qilish masalalari toʻgʻrisidagi” qarori qabul qilindi[1]. Bugungi kunda “Oʻzbekturizm” Milliy kompaniyasi oʻz tarkibiga qator mehmonxonalar, turistik bazalar, sayyohlik firmalari, qurilish va savdo tashkilotlari, bank va sugʻurta firmalarini jamlagan keng qamrovli tashkilotdir. “Oʻzbekturizm” MK Oʻzbekistondagi turistik firmalarning faoliyat olib borishi uchun litsenziyalar berish, xorijlik sayyohlarni jalb etadigan qiziqarli yoʻnalishlar ishlab chiqish borasida ham keng koʻlamdagi ishlarni amalga oshirmoqda[2].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 15-apreldagi “2005-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi toʻgʻrisida” gi farmoni[3] mamlakatimizda turizm taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi.

Oʻzbekiston xalqaro turistik aloqalarni rivojlantirar ekan, Xitoy kabi qadimiy va madaniy-tarixiy obidalarga boy boʻlgan mamlakat bilan hamkorlikni kengaytirishga katta e’tibor bermoqda.

Xitoyda turizm industriyasi jadallik bilan oʻsib borayotgan xalqaro miqyosda raqobatbardoshligi juda yuqori boʻlgan soha hisoblanadi. 2002-yilda turizm sanoatidan kelgan umumiy daromad 67.3 mlrd. dollarga yetdi, bu Xitoy yalpi ichki mahsulotining 5.44 % ni tashkil etdi. 2003-yilda Xitoyga 32.7 mln xorijlik turistlar kelib ketganlar. 2004-yilda 29 mln. xitoyliklar xorijiy mamlakatlarga sayohatga chiqishgan[4]. Xorijiy mamlakatlarning xitoylik turistlarni jalb etishga qiziqishlari ortib borishiga sabab boʻlayotgan eng asosiy omillardan biri ular toʻlov qobiliyatlarining yuqoriligidir. Har bir xitoylik turist xorijiy sayohatlar paytida turistik xizmatlar bilan bogʻliq boʻlmagan holda oʻrtacha 980 dollar xarajat qiladi. Xitoyda xorijiy turizmning oʻsib borishi aviakompaniyalar, mehmonxonalar, turistik firmalar daromadlarining oshishi imkoniyatlarini yaratadi. Shu jihatdan Oʻzbekiston uchun Xitoy bilan turizm sohasida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash istiqbolli sohadir[5].

Mustaqillik yillarida yurtimizdagi turistik muassasalar va Xitoy turistik firmalari oʻrtasida hamkorlik aloqalari oʻrnatilgan va samarali rivojlanib bormoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida tashqi siyosiy aloqalarni yoʻlga qoʻyish, muzokaralar olib borish, hujjatlarni rasmiylashtirish kabi sohalarda yetarli tajribaga ega boʻlinmaganligi turizm sohasidagi hamkorlikning rivojlanishiga ham bir muncha salbiy ta’sir koʻrsatgan. Lekin, dastlabki davr qiyinchiliklariga qaramasdan ikki mamlakat xalqlarining sayyohlik borasidagi hamkorlikni rivojlantirishga oʻzaro qiziqishi soʻnmadi.

Bir-biriga tarixiy, madaniy va hududiy jihatdan yaqin boʻlgan ikki mamlakat xalqlari oʻz hamkorlarining ma’naviy-ma’rifiy, tarixiy qadriyatlariga katta qiziqish bilan qaradilar. Bu esa oʻz navbatida turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun asos boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1999-yili Xitoyga rasmiy tashrifi chogʻida imzolangan “Oʻzbekturizm” MK va XXR Milliy turizm ma’muriyati oʻrtasida turizm sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisidagi bitim, “Oʻzbekturizm” MK va “China International Touristic Service” turizm kompaniyasi bilan hamkorlik bitimlari ikki mamlakat oʻrtasidagi turizm sohasidagi hamkorlikning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega boʻldi. “China International Touristic Service” kompaniyasi xitoylik turistlarni Oʻzbekistonga yuborish boʻyicha keng koʻlamdagi ishlarni amalga oshirmoqda[6].

Oʻzbekistonlik turistlarning Xitoyga boʻlgan qiziqishlari ham ortib bormoqda. “Aviatur”, “Avto Olami”, “Jannat Oromi”, “Mika Planet”, “Nafosat Tur”, “Planeta Tur”, “Sport Tur” kabi yirik turistik firmalar oʻz faoliyatlarini Oʻzbekiston sayyohlarini Xitoy bilan yaqindan tanishtirishga yoʻnaltirganlar[7].

Hozirgi kunda Oʻzbekistonning “Chevar Orli” va Xitoyning “Komfort” kompaniyalari oʻrtasida Xitoy sayyohlarini Oʻzbekistonga joʻnatish boʻyicha aloqalar oʻrnatilgan va u muvaffaqiyatli rivojlanib bormoqda. Xitoyning “Chjoa Shan” va “Shang – Tang” sayyohlik kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlayotgan, “Avia Tur” va “TTS- Bridj” sayyohlik firmalari ham shu yoʻnalishda muvaffaqiyatli ish olib bormoqdalar[8].

Jahon miqyosida Buyuk Ipak yoʻli tarixiga boʻlgan qiziqish juda katta. Buni hisobga olgan holda “Oʻzbekturizm” MK Xitoy sayyohlik firmalari bilan hamkorlikda Yevropa va AQSH sayyohlari uchun Oʻzbekiston va Xitoy hududida joylashgan Buyuk Ipak yoʻli shaharlari boʻylab oʻtadigan bir qator sayyohlik yoʻnalishlarini ishlab chiqdi. Albatta, bu sohada hozircha bir qator kamchiliklar mavjud. Oʻzbekistonga kelayotgan sayyohlar sonining kamayib borayotganligi shundan dalolat bermoqda. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan turistik firmalarning sayyohlarga xizmat koʻrsatish darajasi pastligi ana shunday kamchiliklardan biri hisoblanadi. Respublikamiz hukumati tomonidan ushbu kamchilikni bartaraf etish va sayyohlarga xizmat koʻrsatish darajasini oshirish jahon andozalari talablari darajasiga yetkazish uchun zarur boʻlgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va ular oʻz samaralarini bermoqda.

Yurtimizning qadimiy shaharlaridagi tarixiy yodgorliklar, ziyoratgohlari, muqaddas qadamjolari, diqqatga sazovor joylari boʻylab tuzilgan sayyohlik yoʻnalishlari dasturlarining eskirganligi Oʻzbekistonga turistlar oqimi pasayishining sabab boʻlgan omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda sayyohlik yoʻnalishlarini ishlab chiqishda eskicha yondashuvlardan voz kechib jahon turistik industriyasining ilgʻor usullarini joriy etish zarur. Vatanimiz hududidan Gʻarb va Sharq davlatlarini bogʻlagan Buyuk Ipak yoʻlining asosiy trassalari oʻtgan va

mamlakatimiz shaharlaridagi turli tarixiy davrlarga oid koʻplab meʼmoriy obidalar shubhasiz, turli mamlakatlardan, xususan Xitoydan kelayotgan sayyohlarda katta qiziqish uygʻotadi. Shu bilan birga respublikamiz turizmning yangi shakllaridan biri boʻlgan ekoturizmni rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlarga ega. Yurtimizning betakror tabiati, togʻ qoʻynidagi daryo va koʻllari, noyob mineral buloqlar, qoʻriqxonalari ekoturizmni rivojlantirishga imkon beradi.

Oʻzbekistonda turistik sohani rivojlantirish va xorijiy sayyohlarni jalb etish uchun samarali reklama tizimini ishlab chiqilmaganligi uzoы yillar davomida soha taraqqiyotini orqaga tortib keldi, nafaqat reklama roliklari, balki turistik yoʻnalishlar boʻyicha oddiy yoʻl koʻrsatkich va risolalar ham yoʻqligi natijasida koʻplab sayyohlar yurtimizda taqdim etilishi mumkin boʻlgan xizmatlar haqida bilishmagan. Bunday holatni bartaraf etish maqsadida “Oʻzbekturizm” Milliy kompaniyasi tomonidan 2004-yilning yanvar oyida maxsus reklama agentligi tuzilib, uning zimmasiga sayyohlik sohasini mamlakatimizda va xorijda yoritish vazifasi yuklangan.

Soʻngi yillarda hamkorlik aloqalari yanada rivojlanib bormoqda. 2023-yil 8-oktyabrda Xitoy Xalq Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri Xu Xepin, BMT Butunjahon turizm tashkiloti Bosh kotibi Zurab Pololikashvili hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri Aziz Abduhakimov oʻrtasida turizm sohasida hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan uch tomonlama uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvda Aziz Abduhakimov XXR Madaniyat va turizm vaziri X.Xepinning mamlakatimizga tashrifidan mamnun ekanligini taʼkidlab, bu nafaqat turizm sohasida ikki tomonlama hamkorlik istiqbollari, balki UNWTO doirasida qoʻshma harakatlarni belgilab olishga xizmat qilishini taʼkidladi[9].

Xitoy tomoni esa Oʻzbekistonning turizm sohasida strategik hamkori ekanligini alohida qayd etdi. X.Xepin oʻzaro turistik oqimni oshirish, mamlakatimizda turizm maskanlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, turizm infratuzilmasiga sarmoya kirituvchilar uchun berilayotgan imtiyozlar bilan yaqindan tanishtirildi. Xitoy tomoniga 2023-yil mart oyida mazkur davlatning turistik guruhlari tashrif buyurishi tavsiya etilgan mamlakatlar roʻyxatiga Oʻzbekiston kiritilganligi uchun alohida minnatdorlik bildirildi. Qolaversa, hozirgi kunda Xitoy va Oʻzbekiston oʻrtasida haftasiga 11 ta aviaqatnov 3 ta aviakompaniya “Uzbekistan airways”, “China Southers Airlines” va “Loongair” tomonidan amalga oshirilayotgani hamda kelgusida ushbu qatnovlar sonini va geografiyasini kengaytirish boʻyicha fikr almashildi. Xitoy tomoni respublika hududiy aeroportlarini davlat xususiy sheriklik shartlari asosida modernizatsiya qilish loyihalariga taklif etildi.

Xulosa

Turizm sohasidagi hamkorlik bir tomondan turli mamlakat xalqlarini yurtimiz bilan yaqindan tanishishlariga imkoniyat yaratsa, ikkinchi tarafdan mamlakat iqtisodiyotiga kelib tushadigan valyuta manbalaridan biri boʻlib xizmat qilishi mumkin edi. Shuning uchun ham Oʻzbekiston rahbariyati respublikamizda jahon talablari darajasidagi xalqaro turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida ahamiyat beradi. Turizm sohasidagi Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi hamkorlik tobora rivojlanib bormokda va ikki mamlakat xalqlari oʻrtasida doʻstlik va hamjihatlikni mustahkamlashga koʻmaklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ўзбектуризм” МК ЖА. – ХХР да туризм тараққиёти тўғрисида маълумот. 1 - варақ.
2. “Ўзбектуризм” МК ЖА. – ХХР да туризм тараққиёти тўғрисида маълумот. 1 - варақ.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девонининг нашри. Хабарнома. 1999, №2(34), - Б. 46.
4. “Ўзбектуризм” МК ЖА. – ХХР да туризм тараққиёти тўғрисида маълумот. 1 - варақ.
5. “Ўзбектуризм” МК ЖА. – ХХР да туризм тараққиёти тўғрисида маълумот. 1 - варақ.
6. “Ўзбектуризм” МК ЖА. – Ўзбекистон – Хитой ҳамкорлиги тўғрисида маълумот. 1 - варақ.
7. “Ўзбектуризм” МК ЖА. – Ўзбекистон – Хитой ҳамкорлиги тўғрисида маълумот. 1 - варақ.
8. “Ўзбектуризм” МК ЖА. – Ўзбекистон – Хитой ҳамкорлиги тўғрисида маълумот. 1 - варақ.
9. https://yuz.uz/news/xitoy-ozbekiston-bilan-turizm-sohasidagi-hamkorlikni-yanada-kengaytirishdan-manfaatdor

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Nurmuxammedov Mirvohid Xamidullo o‘g‘li
NaMDU Tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Erqo‘ziyev Anvarjon
Email: nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com

ARAB OTA MAQBARASI – SOMONIYLAR DAVRINING MUQADDAS ME’ROSI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Somoniylar davrida bunyod etilgan, o‘z davri va hozirgi davr uchun ahamiyatli bo‘lgan, O‘rta Osiyodagi islom davridan qolgan ilk binolardan biri hisoblangan Arab ota maqbarasini ochib berishga harakat qilindi. Arab Ota maqbarasi nafaqat diniy, balki tarixiy va madaniy ahamiyatga ega ekanligi,uning saqlanib qolishi o‘tmish ajdodlarimizning me’moriy san’atga bo‘lgan e’tiboridan ham darak berishi yoritib boriladi.*

Kirish so‘zlar: *Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Ismoil Somoniy, Samarqand, Buxoro, Tim, Markaziy Osiyo, muqarnas, mehrob, peshtoq, kufiy, gumbaz.*

Nurmuhammedov Mirvohid Khamidullo ogli
1st year student of the History department of NaMSU
Scientific supervisor: Erkoziyev Anvarjon

ARAB ATA MAUSEUM – SACRED HERITAGE OF THE SOMONID ERA

Annotation: *This article attempts to explore the Arab Ota Mausoleum, which was built during the Samanid period and is considered one of the earliest surviving Islamic-era structures in Central Asia. The Arab Ota Mausoleum holds not only religious significance but also historical and cultural importance. Its preservation reflects the architectural appreciation of our ancestors.*

Keywords: *Samanids, Karakhanids, Ghaznavids, Ismail Samanid, Samarkand, Bukhara, Tim, Central Asia, muqarnas, mihrab, peshtak, Kufic, dome.*

Нурмухаммедов Мирвохид Хамидулло оглы
Студент 1 курса исторического факультета НамГУ
Научный руководитель: Еркузиев Анварджон

МАЗЕЙ АРАБ АТА – СВЯЩЕННОЕ НАСЛЕДИЕ ЭПОХИ СОМОНИДОВ

Аннотация: *В данной статье предпринята попытка раскрыть мавзолей Араб-Ота, построенный в период Саманидов и являющийся одним из первых сохранившихся сооружений исламской эпохи в Центральной Азии. Мавзолей Араб-Ота имеет не только религиозное, но и историческое и культурное значение. Его сохранность свидетельствует о внимании наших предков к архитектурному искусству.*

Ключевые слова: *Саманиды, Караханиды, Газневиды, Исмаил Самани, Самарканд, Бухара, Тим, Средняя Азия, мукарнас, михраб, пештак, Куфи, купол.*

Me’moriy obidalar - bu tarixning turli davrlarida qurilgan inshootlar bo‘lib, ular xalqning madaniyati,dini,san’ati va hayot tarzi haqida ma’lumot beradigan o‘ziga xos noyob madaniy merosdir. O‘zbekistonda qadimdan buyon qurilgan me’moriy obidalar juda boy tarixiy merosga ega.Me’moriy obidalar nafaqat san’at va madaniyat yodgorliklari,balki xalqning tarixiy taraqqiyoti,diniy e’tiqodi,ijtimoiy hayoti va texnologik bilimlarini aks ettiruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Ular o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy tuzilishi,iqtisodiy imkoniyatlari va madaniy darajasini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega. IX-XII asrlar O‘zbekiston va Markaziy Osiyo hududida islom madaniyati va me’morchiligining rivojlangan davri bo‘lib, bu davrda ko‘plab muhim yodgorliklar qurilgan. Bu davrda Somoniylar, Qoraxoniylar va G‘aznaviylar hukmronligi ostida o‘tgan bo‘lib,ularning har biri o‘ziga xos me’moriy an’analarga asoslangan yodgorliklar qoldirgan. Bu obidalar nafaqat arxitektura, balki tarixiy,diniy va madaniy ahamiyatga ega.

IX–XII asrlar O‘zbekiston hududida islom madaniyatining rivojlanish davri bo‘lib, bu davr me’moriy

obidalari tariximiz uchun bebaho meros hisoblanadi.Bu davrda masjidlar, madrasalar, maqbaralar va minoralar qurish keng rivojlandi. Ana shunday nodir yodgorliklardan biri–Arab Ota maqbarasi bo‘lib, u Somoniylar davrining me’moriy san’atidan dalolat beruvchi muhim inshootlardan hisoblanadi. Ushbu maqbara o‘zining betakror me’moriy yechimlari, tarixiy ahamiyati va diniy e’tiqodi bilan bog‘liq muqaddasligi sababli alohida o‘rin tutadi. Mamlakatimiz davlatchiligi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Somoniylar davlati o‘zining bunyodkorlik faoliyati bilan ham o‘rin olgan. Bu davrda Buxorada Ismoil Somoniy maqbarasi, Mag‘oki Attori masjidi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Namozgoh masjida, Samarqanddagi Arab Ota maqbarasi va Termiz yaqinidagi minoralar va masjidlar qoldiqlari kabilarni Somoniylar davrining yodgorliklari qatoriga kiritishimiz mumkin. Bunda tashqari Somoniylar davriga oid shahar va qishloq aholisining uylari to‘g‘risida hozir arxeologiya ancha ma’lumotlarga ega. Bu borada Samarqand-Afrosiyob, Xorashkent-Qanqa, Binkat, Termiz, Marv, Dehiston kabi o‘nlab yodgorliklarda olib borilgan izlanishlarning natijasi diqqatga molikdir. Somoniylar davrida me’morchilik o‘z taraqqiyotida katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. O‘rta Osiyo me’morlari bu davrda shunday noyob binolar,san’at durdonalarini bunyod etganlarki,ular asrlar osha odamlarni hayratga solib kelmoqda[1]. Bu davrda qurilgan o‘zining go‘zalligi va tarixiyligi bilan Arab Ota maqbarasi alohida ajralib turadi.U O‘zbekistondagi X asr me’moriy yodgorligi hisoblanadi.Markaziy Osiyoda islom davridan qolgan ilk binolardn biridir.Maqbarani 1958–yilda olim, geograf professor N.Leonev tomonidan topilgan.

Arab Ota maqbarasi hozirgi kunda Samarqand viloyati,Nurabod tumanining Tim qishlig‘ida qabriston ichida joylashgan bo‘lib,tahminan 977-978–yillarda qurilgan.Ikkita bino,ya’ni Ismoil Somoniy maqbarasi va Arab Ota maqbaralari tufayli Buxoro me’morchiligining Somoniylar davridayoq gullab-yashnaganligini bilish mumkin.Ilk o‘rta asrlarning bu ikki durdona me’morchilik namunalari So‘g‘d me’morchiligi davrini yakunlanganligidan dalolat beradi.Bezaklarning yangi usulini qo‘llangan.Maqbara qurilishida ishlatilgan bezaklar to‘liq rivojlanishi keyinroq sodir bo‘ladi.Maqbaraning bunday atalishi mahalliy aholi uni Arab Ota, “Arablarning otasi”deganidan kelib chiqqan.Mahalliy aholiga ma’lum bo‘lgan ism,ehtimol,maqbara VIII asrda halok bo‘lgan arab jangchilaridan birining qabri ustiga qurlganligiga ishora qiladi[2].Maqbara poydevori toshdan qurilgan,devorlari chorsi g‘ishtdan(23x23x4sm)ganchxok bilan terilgan.Binoning umumiy tarixi murabba ya’ni,to‘rtburchak shaklida qurilgan.Somoniylar imperiyasi davrida qurilgan Arab Ota maqbarasi islom me’morchiligining uchta muhim xususiyatini o‘z ichiga olgan eng qadimgi binolardan biri bo‘lgan:muqarnas,mehrob va peshtoqlari bilan ajralib turadi.Muqarnas bezatuv usuli bu-ravoqli kosachalardan ustma-ust joylashib tashkil topgan murakkab shakldagi bezak turi,mehrob bu-yarim aylana,devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy,peshtoq bo‘lsa,masjid,maqbara va madrasa kabi hashamatli binolarning kirish qismidagi usti baland ko‘tarilgan ravoqli serhasham qismidir[3].Arab ota maqbarasida mehrob paydo bo‘lgan keyin,X asrdan boshlab maqbaralarda mehroblar keng yoyila boshladi.Arab Ota maqbarasi peshtoqning eng qadimgi namunasi bo‘lib,u islom me’morchiligining asosiy qismiga aylandi.Maqbara tepasida gumbaz bo‘lib,u maqbaraga kirish eshigiga qaraganda,dastlab qurilganida balandligi 9 metrga ko‘tarilgan ark teshigi atrofidagi to‘rtburchaklar ramka bo‘lgan peshtoq bilan qoplanadi.Ta’kidlab o‘tganimizdek,Arab Ota maqbarasiga birinchi bo‘lib peshtoq qo‘shilgan.Peshtoq atrofida Qur’ondan olingan suraning yozuvi o‘rnatilgaan bo‘lib,u Markaziy Osiyodagi islomiy binoda paydo bo‘lgan arab xattotligining eng qadimgi namunalaridan biri hisoblanadi.Bundan tashqari boshqa yozuvlar ham bo‘lib,unda maqbaradagi marhumning faoliyati,tug‘ilgan sanasi,ijtimoiy mavqei va o‘limi haqida ma’lumot berilgan bo‘lishi mumkin deyiladi,yozuvlar to‘liqligicha aniq holatda saqlanib qolmaganligi uchun taxminlar qilinadi holos.Buxorodagi Somoniylar maqbarasi singari Arab-Ota ham ikki sharsimon uchburchakning qurilishi orqali kvadrat asos va dumaloq gumbaz o‘rtasida uch tomonlama o‘tish yo‘liga ega.Maqbaraga kiraverish ro‘parasida inshootning mehrobi joylashgan.Mehrob maqbaradagi ibodat uyining eng qadimgi namunalaridan biri bo‘lib,X asrdan Arab Ota maqbarasidan keyin asta-sekinlik bilan tarqala boshlaydi. Bino ustunlari naqshlar bilan bezalgan.Bu bejirim naqshlar xonaga shinam va ulug‘vor ko‘rinish beradi.Maqbaraning ko‘rki uning mahobatli peshtoqi deb atashadi.G‘ishtlari turli tartibda juftlab terilgan bo‘lib,choklar qatoriga ganchkori naqshlar bilan bezatilgan.Peshtoq poyalaridagi yozuvlar,kufiy yozuvida bitilgan.Kufiy yozuvida bitilgan so‘zlarda hijriy 367-yil,ya’ni milodiy 997-998-yil qurilgan sanasi saqlanib qolgan.Tadqiqotchilar bu yozuvni dafn etilgan shaxsning vafot etgan kuni va oyi berilmaganligi sababli,maqbara tadqiqotchilari majmuadagi sana qururilishi vaqtini bildiradi,deb hisoblashadi.Ammo,yana bir fikr bor,unga ko‘ra maqbara XI asrda qurilgan.Umaman olganda,bino yaxshi saqlangan, faqatgina ustki qismi qulab tushgan va asl kirish qismini to‘sib qo‘ygan.Uning o‘rnida kichik,tartibsiz shaklda eshik paydo bo‘lgan.Bundan tashqari burchak qirrali ustunlardan biri saqlanib qolmagan,devorning pastki qismlari asosan toshlar bilan qoplanganligi sababli yaxshi saqlangan va qisman qayta qurilgan ham. Yana binoning o‘ziga xos xususiyati shundaki, jabhalarning juftlangan devoriga alohida naqshlarni ajratib ko‘rsatish orqali bezak xarakteri berilganidir. G‘arbiy va sharqiy jabhalarda keng vertikal naqshlar o‘ziga xos parallel kesmalar bilan bezatilgan.

Bunday kesma keyingi vertikal naqsh bilan bog‘lanmaguncha to‘liq aylanib o‘tadi. Natijada, diagonal pog‘onali chiziqlar hosil bo‘lib, devorga o‘rnatilgan va uning tuzilishiga mos keladigan geometrik naqsh hosil bo‘lgan[4].O‘rta asrlar durdonalaridan biri bo‘lmish Arab Ota maqbarasini kim tomonidan qurilganligi ma’lum emas,faqatgina uni islom dinini yoyishga hizmat qilgan fidoyi shaxs uchun barpo etilganligi qayd etib o‘tiladi holos.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshqa yodgorliklar singari Arab Ota maqbarasini ham bugungi kunda davlat himoyasiga oldi, u yerga turistlar va mahalliy aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilib, e’tibor berib kelinmoqda. Arab ota maqbarasi Markaziy Osiyodagi islom davridan qolgan ilk binolardan biri hisoblanadi. Bu yodgorlik o‘z davrining me’moriy uslublarini aks ettiradi va o‘sha davr me’morchiligining noyob namunasi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.A.S.Sagdullayev,B.Eshov,A.A.Odilov,A.B.Xoliquv,A.M.Xidirov,O‘.M.Mavlov,O.P.Kobozeva O‘zebekiston tarixi I kitob T.:”NIF MISH” nashriyoti 2024,bet-622.

2.Хмельницкий1992https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Arabota_maqbarasi#CITEREF%D0%A5%D0%BC%D0%B5%D0%BB%D1%8C%D0%BD%D0%B8%D1%86%D0%BA%D0%B8%D0%B91992

3.P.SH.Zohidov Me’mor olami T.: “Qomuslar Bosh”tahriroyati-1996,bet-240.

4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Arabota_maqbarasi

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Abdurahmonov Zuhriddin Holdorali o‘g‘li
Mustaqil izlanuvchi
Namangan Impuls tibbiyot instituti o‘qituvchisi
E-mail:abdurahmonov zuhriddin9495@gmail.com

QO‘QON XONLIGI VA ROSSIYA IMPERIYASI O‘RTASIDA DIPLOMATIK MUNOSABATLAR TARIXIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasida yuzaga kelgan diplomatik munosabatlarning ayrim jihatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, elchilik aloqalarining shakllanishi, elchilarning vakolatlari, elchilik tantanalari, sovg‘alar va yozishmalar madaniyati kabi jihatlar alohida o‘rganiladi. Shuningdek, bu diplomatik aloqalarning mintaqaviy siyosiy muvozanatga ta’siri haqida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Diplomatik munosabatlar, Markaziy Osiyo, Marg’ilon, arxiv, sovg’a, elchi, marosim, etiket, tarjimon.*

Абдурахмонов Зухриддин Холдорали угли
Независимый исследователь
преподаватель Наманганского медицинского института «Импульс»

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ ПО ИСТОРИИ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ КОКАНСКИМ ХАНСТВОМ И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ

Аннотация: *В статье на основе исторических источников анализируются некоторые аспекты дипломатических отношений, сложившихся между Кокандским ханством и Российской империей. В частности, отдельно изучаются такие аспекты, как формирование посольских отношений, полномочия послов, посольские церемонии, дары, культура переписки. Также обсуждается влияние этих дипломатических связей на региональный политический баланс.*

Ключевые слова: *Дипломатические отношения, Центральная Азия, Маргилан, архив, подарок, посол, церемония, этикет, переводчик.*

Abdurahmanov Zuhriddin Holdorali o'g'li
Independent researcher, teacher of Namangan Impuls Medical Institute

SOME REMARKS ON THE HISTORY OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE KOKAN KHANATE AND THE RUSSIAN EMPIRE

Abstract: *This article analyzes some aspects of the diplomatic relations that emerged between the Kokand Khanate and the Russian Empire based on historical sources. In particular, aspects such as the formation of embassy relations, the powers of ambassadors, embassy ceremonies, the culture of gifts and correspondence are studied separately. The impact of these diplomatic relations on the regional political balance is also discussed.*

Index Terms: *Diplomatic relations, Central Asia, Margilan, archive, gift, ambassador, ceremony, etiquette, translator.*

Kirish.

Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan Qo‘qon xonligi XVIII – asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida o‘zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan ajralib turgan davlatlardan biri sifatida maydonga chiqdi. Ayniqsa, bu davrda xonlikning tashqi siyosati faollashdi va qo‘shni davlatlar bilan, xususan, Rossiya imperiyasi bilan bo‘lgan diplomatik aloqalar alohida ahamiyat kasb etdi. Bu diplomatik munosabatlar ikki davlat o‘rtasida siyosiy muvozanat, savdo-iqtisodiy manfaatlar va mintaqaviy ta’sir uchun olib borilgan siyosatlarning mahsuli bo‘lib, o‘z davrida muhim tarixiy voqealarga sabab bo‘ldi. Qo‘qon xonligi Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarni bir yoqlama emas, balki ikki tomonlama manfaatlar asosida shakllantirishga intildi. Bu aloqalarning murakkab va ziddiyatli jihatlari bo‘lishiga qaramay, ular ikki tomonning diplomatik faoliyati, elchilik tashriflari va yozishmalari orqali aniq shakllangan. Ayniqsa, XIX asrning birinchi yarmida yuzaga kelgan siyosiy jarayonlar Rossiyaning Markaziy Osiyoga kirib kelishiga zamin yaratdi. Qo‘qon

xonlari bu davrda Rossiya bilan munosabatlarda ehtiyotkorlik bilan harakat qilganlar, ba'zida esa bu munosabatlar orqali o'z siyosiy mavqelarini mustahkamlashga harakat qilganlar.

Adabiyotlar tahlili va metod.

Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi diplomatik aloqalar masalasi tarixiy adabiyotlarda ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortgan. Bu masala, ayniqsa, XIX asr va XX asr boshlarida yozilgan tarixiy hujjatlar va ilmiy ishlarda muhim mavzulardan biri sifatida ko'rilgan. Tadqiqotlarning asosiy qismi Rossiya arxivlariga asoslangan bo'lib, u yerda saqlanayotgan rasmiy yozishmalar, elchilik hujjatlari va hukumat ko'rsatmalari ushbu masalaning turli jihatlarini yoritishga xizmat qilgan. Masalan, A.A. Semenov, M.E. Masson, V.V. Bartold kabi rus sharqshunoslari Qo'qon xonligi tarixiga katta e'tibor bergan va xonlikning tashqi siyosati, ayniqsa Rossiya bilan munosabatlari haqida muhim ilmiy xulosalar berganlar. Ularning ishlari, ko'pincha, arxiv manbalariga asoslangan bo'lib, xonlik elchilarining tashriflari, olib kelingan sovg'alar, tantanali kutib olish marosimlari kabi tafsilotlarni o'z ichiga oladi. Yuqoridagi manbalar asosida keyinchalik O'zbekiston tarixshunosligida ham mazkur mavzu keng o'rganila boshlandi. Shu jumladan, A. Abduvaxobov, H. Ziyo, T. Toshmuhamedov, B. Ahmedov kabi o'zbek tarixchilari o'z tadqiqotlarida Qo'qon xonligining Rossiya bilan bo'lgan munosabatlarini tahlil qilganlar. Ular asosan rasmiy yozishmalar, elchilik safarlari, diplomatik marosimlar, siyosiy pozitsiyalar va bu aloqalarning O'rta Osiyo tarixiga ta'siri kabi jihatlarga e'tibor qaratganlar. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, Qo'qon xonlari diplomatik muloqotda an'anaviy sharqona siyosat uslublarini saqlab qolganlar. Elchilarning vakolat doirasi, ularning Rossiya imperiyasi saroyida tutgan o'rni, tantanali kutib olish marosimlari, elchilikka topshirilgan sovg'a-salomlar va yozishmalar shakli ana shu an'anaviylik bilan uyg'unlashgan.

Demak, Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni o'rganishda nafaqat rus manbalari, balki o'zbek tarixchilari tomonidan olib borilgan izlanishlar ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu esa mavzuning bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganligini anglatadi.

Muhokama.

Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi murakkab tarixiy jarayonlarning mahsuli bo'lib, bu aloqalar 18-asr oxiri – 19-asr boshlariga taqaladi. Bu davrda ikki davlat o'rtasidagi muloqotlar asosan elchilik aloqalari, savdo-sotiq munosabatlari va geosiyosiy manfaatlar bilan chambarchas bog'liq edi. Qo'qon xonligi o'zining siyosiy mavqeini mustahkamlash va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ya boshladi. Xonlikdan Rossiyaga yuborilgan ilk elchilar asosan iqtisodiy va siyosiy manfaatlar yo'lida harakat qilganlar. Jumladan, Qo'qon xoni Olimxon o'zining vakili Husaynxo'jani 1803-yilda Rossiya imperatoriga yuboradi. Bu tarixiy elchilik safari orqali Qo'qon xonligi Rossiya bilan rasmiy aloqa o'rnatishga harakat qilgan. Elchi olib borgan sovg'alar, u bilan birga yetkazilgan rasmiy maktublar va elchilik doirasidagi aloqalar Rossiya tomonidan muayyan darajada qabul qilinadi, ammo bu aloqa hali to'la rasmiy diplomatik tusga ega bo'lmagan. Rossiya imperiyasi ham O'rta Osiyodagi siyosiy kuchlar orasida nisbiy barqarorlik va o'z ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida Qo'qon xonligi bilan aloqa qilishga intilgan. Shu bois, 1811-yilda Rossiyadan Qo'qon xonligiga elchi Pyotr Gavrilovich Dmitrevskini yuborish rejalashtiriladi. U Rossiyaning Orenburgdan O'rta Osiyo tomon yuborgan ilk vakillaridan biri hisoblanadi. Uning safaridan ko'zlangan asosiy maqsad – Rossiyaning diplomatik pozitsiyasini mustahkamlash, xonlikdagi siyosiy muhit haqida ma'lumot to'plash va kelajakdagi hamkorlik imkoniyatlarini o'rganish bo'lgan. Dmitrevskiy Qo'qon xonligida alohida e'tibor bilan kutib olingan bo'lsa-da, unga ko'rsatilgan munosabatlardan ko'rinadiki, xonlik vakillari Rossiya bilan teng huquqli diplomatik aloqa o'rnatilishiga ehtiyotkorona yondashganlar. Elchi kutib olish marosimi, undan so'ralgan savollar va uni kuzatish tartibi bu ehtiyotkorlikni yaqqol ifoda etadi.

Shuningdek, tarixiy hujjatlarda qayd etilishicha, 1815-yilda Qo'qon elchisi Orenburgga yetib kelgan. Bu elchilik tashrifi Rossiya va Qo'qon o'rtasida aloqalar davom etayotganidan dalolat beradi. Biroq bu vaqtda ham ikki tomonlama munosabatlar doirasida to'laqonli siyosiy kelishuv yoki rasmiy bitimlar mavjud bo'lmagan.

Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi dastlabki diplomatik aloqalarda elchilik etiketi, ya'ni elchilarni yuborish, kutib olish, ularga munosabat va elchilik protokollari o'ziga xos shakllarda amalga oshirilgan. Bu jarayon ikki tomonning siyosiy madaniyati, davlat boshqaruvi an'analari hamda o'zaro ehtiyotkorlik bilan olib borilgan siyosatning yaqqol ifodasi bo'lgan. Qo'qon xonligi elchilik aloqalariga yuksak darajada e'tibor qaratgan. Masalan, 1803-yilda Qo'qon xoni Olimxon tomonidan Rossiyaga yuborilgan elchi Husaynxo'janing vakolatlari aniq belgilangan, u bilan birga Rossiya imperatoriga atalgan rasmiy maktub ham yuborilgan. Ushbu maktubda xon o'zining sadoqatini bildirgan holda, o'zaro do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish istagini izhor qilgan. Elchi bilan birga yuborilgan sovg'alar – otlar, qimmatbaho to'n va boshqa buyumlar esa elchilik odobining muhim unsuri sifatida qaralgan. Rossiya imperiyasi ham o'z navbatida, Qo'qon elchisini e'tibor bilan kutib olgan. Elchi Orenburgdan Sankt-Peterburgga yuborilgan va imperator Aleksandir I nomiga xat topshirgan. Elchilik delegatsiyasi uchun maxsus qarorgoh ajratilgan, bu esa Rossiya tomonidan Qo'qon xonligiga diplomatik hurmat ko'rsatilganini anglatadi. Elchilik

tashrifi davomida olib borilgan muzokaralar jarayonida elchi Husaynxo‘jaga ko‘rsatilgan ehtirom, o‘zaro savollarga berilgan javoblar va ularga nisbatan yuritilgan munosabat Rossiya imperiyasining tashqi siyosatdagi an’anaviy tartiblariga mos ravishda olib borilgan. Xuddi shunday, 1812-yilda Rossiyadan Qo‘qon xonligiga yuborilgan elchi Pyotr Gavrilovich Dmitrevskiy ham xonlikda alohida tartib asosida kutib olingan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, elchining tashrifi xonlik shahri Marg‘ilonda rasmiy qabul bilan boshlangan, unga bir qator savollar berilgan. Bu savollar asosan elchining asl kelish maqsadi, Rossiya imperatorining munosabati, olib kelingan sovg‘alar va boshqa tafsilotlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Xonlikdagi amaldorlar Dmitrevskiyga ehtiyotkorlik bilan munosabat bildirganlar, bu esa Qo‘qon xonligining tashqi siyosatda mustaqil va obro‘li pozitsiyaga ega bo‘lishga intilganidan dalolat beradi. Elchilik qabul marosimida kuzatilgan bir qator an’anaviy jihatlar diqqatga sazovordir. Jumladan, Dmitrevskiy uch oy davomida xonlikda saqlanib, unga doimiy kuzatuv belgilangan. Unga yo‘l ko‘rsatuvchilar, tarjimonlar va xizmatkorlar tayinlangan, bu esa xonlikda mehmonlar, ayniqsa elchilar uchun belgilangan maxsus tartib-intizom mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. 1815-yilda Qo‘qon elchisi Rossiyaga yuborilganida ham shunga o‘xshash elchilik odobi va diplomatik etikaga amal qilingan. Elchi Orenburg orqali Rossiyaga kirib kelgan va unga rasmiy tartibda qarshi olingan. Elchining keltirgan maktubi, uning diplomatik vazifalari va rasmiy munosabatlar Rossiya tomonidan hujjatlashtirilgan. Shu orqali ikki tomon o‘rtasida diplomatik muomala qoidalari shakllanib borganini ko‘rish mumkin. Umuman olganda, elchilik etiketi bu davrda nafaqat oddiy rasmiyatchilik sifatida, balki ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy madaniyat va o‘zaro hurmat ifodasi sifatida namoyon bo‘lgan. Qo‘qon xonligi ham, Rossiya imperiyasi ham o‘z elchilari orqali o‘z davlatining sha’nini, siyosiy niyatini va diplomatik pozitsiyasini ifoda etgan. Elchilik safarlari orqali ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat siyosiy, balki madaniy va ijtimoiy darajada ham rivojlanib borgan.

Xulosa.

Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiga doir manbalarni tahlil qilish natijasida, ushbu aloqalarning o‘ziga xos bosqich va xususiyatlarga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin. Xususan, ikki davlat o‘rtasidagi ilk siyosiy muloqotlar XVIII – asrning oxiri – XIX asrning boshlarida boshlangan bo‘lib, bu jarayonlar asosan elchilik aloqalari orqali amalga oshirilgan. Tarixiy hujjatlarga tayansak, Qo‘qon xonligining Rossiyaga 1803-yilda yuborgan elchisi Husaynxo‘ja, shuningdek, Rossiyaning 1812-yilda Qo‘qon xonligiga yuborgan elchisi P.G. Dmitrevskiy diplomatik munosabatlar rivojida muhim o‘rin tutgan. Ushbu elchilar olib borgan muzokaralar, maktublar va sovg‘alar ikki tomon o‘rtasidagi o‘zaro ehtiyotkorlik va manfaatlar muvozanatini aks ettiradi. Qo‘qon xonligi tashqi siyosatda mustaqil yondashuvni saqlab qolgan holda, Rossiya imperiyasi bilan tinch-totuv munosabatlarni o‘rnatishga harakat qilgan. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi ham Qo‘qon xonligiga nisbatan o‘z siyosatini aniq rejalashtirib, bu aloqalarda diplomatik protokollarga qat’iy rioya qilgan. Elchilik safarlarida kuzatilgan rasmiyatchilik, savollar, yozishmalar va sovg‘alar aytib o‘tilgan diplomatik etikaga asoslangan munosabatlarni oydinlashtirib beradi. Bu esa ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar o‘z davri uchun siyosiy madaniyat va tashqi siyosiy ehtiyotkorlik jihatidan e’tiborga molik bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik aloqalar ikki tomon o‘rtasidagi siyosiy manfaatlarni muvozanatlashtirishga, tinch-totuvlikni saqlashga va savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yishga xizmat qilgan. Ushbu tarixiy manbalar asosida shuni ta’kidlash joizki, elchilik munosabatlari sharq diplomatik an’analarining o‘ziga xos ko‘rinishini ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Шаниёзов К. Ш. Общественно-политический строй Кокандского ханства. – Ташкент: Фан, 1964. – 237 с.

2. Назаров К.Н. История Кокандского ханства. – Ташкент: Фан, 1993. – 206 с.

3. Мадрахимов Н.Ш. *Дипломатические отношения Кокандского ханства с сопредельными государствами (первая половина XIX века)*: Дисс. … канд. ист. наук. – Ташкент, 2009. – 158 с.

4. Қўқон хонлиги тарихи (Матнлар, ҳужжатлар, манбалар). Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: Ҳ. Солиҳов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2019. – 478 б.

5. Беркинбойев Б. Россия – Қўқон муносабатларининг бошланиши. // *Илмий мақола*. – URL: https://www.samdu.uz/uz/article/14768 (muallif bergan matndan olingan havola)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Teshaboyev Abbos Xoldorjon o'g'li
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
E-mail:abbos030494@mail.ru

MADANIY ANTROPOLOGIYADA QARINDOSHLIK, NIKOH VA OILA MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oila-nikoh munosabatlari, oilaning tipik hamda tipik bo'lmagan shakllari, qarindoshlik munosabatlari, qarindoshlik va klanlar to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *family, marriage, typical forms of family, atypical forms of family, kinship, clans, taboo, S. A. Tokarev.*

Teshaboyev Abbas Khaldorjon ogli
Namangan State University
Teacher of the Department of Social Sciences

THE ISSUE OF KINSHIP, MARRIAGE AND FAMILY IN CULTURAL ANTHROPOLOGY

Annotation. *This article provides information about family and marriage relationships, typical and atypical forms of family, kinship relationships, kinship, and clans.*

Key words: *Neighborhood, self-management, values, Confucius, management, transformation, family, "peoples conscience", "democracy classroom".*

Тешабоев Аббас Халдорджон оглы
Наманганский государственный университет
Преподаватель кафедры общественных наук

ПРОБЛЕМА РОДСТВА, БРАКА И СЕМЬИ В КУЛЬТУРНОЙ АНТРОПОЛОГИИ

Аннотации. *В статье представлена информация о семейно-брачных отношениях, типичных и нетипичных формах семьи, родственных отношениях, родстве и кланах.*

Ключевые слова: *Семья, брак, типичные формы семьи, нетипичные формы семьи, родство, кланы, табу, С. А. Токарев.*

Kirish. Madaniy antropologiya inson jamiyati, madaniyati, undagi o'xshashlik va farqlarni o'rganadi. Madaniy tafovutlarni o'rganish va izohlab berish uchun antropologlar ko'proq etnologiya bilan shug'ullanadilar [1]. Madaniy antropologiyada qarindoshlik, nikoh va oila masalasi o'tmishdan dolzarb hisoblanadi. Chunki, xalqimizda o'tmishdan yuqoridagi masalalarga jiddiy yondashib kelingan.

Nikoh keng ommalashgan ijtimoiy institutlar sirasiga kiradi. Nikoh ikki balog'atga yetganlar o'rtasidagi jamiyat tomonidan tan olingan va ma'qullangan seksual ittifoqdir deb ta'riflash mumkin. Nikohga kirgan individlar bir-biri bilan qarindosh ham hisoblanadi. Ayni vaqtda nikoh majburiyati ularni juda keng doiradagi ishlarning qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'laydi. Nikohdan so'ng kuyov va kelin tomon qarindosh-urug'lari bilan qarindoshlik munosabatlariga kirishiladi.

Oila – kishilarning shunday guruhiki, uning a'zolari bir-biri bilan to'g'ridan – to'g'ri qon-qarindoshlik munosabatida bo'lib, guruhning yoshi katta a'zolari bolalarga qarashish va yordam berish majburiyatlarini o'z zimmalariga oladi.

"Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman[2]", - deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev.

Oila jamiyatning sotsial insituti sifatida namoyon bo'ladi. Oila nikoh qurish narijasida davomlishi yashashi

ko'rinishidir. Antropolog olim Vestermarkning fikriga ko'ra, "nikoh ozmi ko'pi avlod qoldirish maqsadiga aloqalari mustahkamlash uchun tuziladiga ittifoq". Nikoh ayol va erkakka farzand ko'rish bilan ota va ona bo'lishga bog'liq sotsial status beradi. Mashhur antropolog Loviening ta'kidlashicha, nikohni ortida ikkita motiv turishi mumkin: Kundalik yumushlarni yengish uchun birgalikda hayot kechishirish va avlod qoldirish ehtiyoji.

Oila – bu jamoa birligi bo'lib, uning ichki aloqalari nikoh va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan belgilanadi. Oilaning shakli va tabiati jamiyatning sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti darajasi bilan bog'liqdir. Xususan, oila bu faqat qon-qarindoshlik guruhigina emas, balki mustaqil xo'jalik birligi, jamiyatning boshlang'ich hujayrasidir.

Oilaning xo'jalik va maishiy jihatdan alohida o'rin tutishi undagi munosabatlarning konservativligiga, oldingi tuzumlarga xos belgilarni saqlab qolishga sharoit yaratish natijasida oilaviy munosabatlarni o'rganish etnograflarda qimmatli tarixiy-qiyosiy malumotlarni to'plash imkoniyatini beradi.

Etnograflar katta patriarxal tipidagi oilalarni o'rganish borasida mehnat taqsimotiga, avlodlar orasidagi munosabatlar, moliyaviy muammolarning ham qilinish masalasiga va boshqalarga e'tibor qilinishi kerak.

Zamonaviy oilalarni o'rganish ham amaliy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, nazardan chetga qolmaydi. Jumladan, O'zbekistonda o'tkazilgan etnografik tadqiqotlarda 65,4 foiz oila individual kichik oilalar ekanligi aniqlangan.

Tarixiy taraqqiyot natijasida ayol va erkak o'rtasidagi nikoh munosabatlari qonuniy ko'rinishga kelgan. Bunday nikoh insituti jamiyat tamonidan doimo qo'llab-quvvatlab kelinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Oila insoniyat jamiyatining asosi hisoblanib, u jamiyatdagi eng muhim bo'lgan dastlabki guruh hamdir. Jamiyatda oila ijtimoiy insitut sifatida namoyon bo'lib, undagi shaxslararo munosabatlar ijtimoiy birikishni ta'minlaydi. Oila faqatgina ijtimoiy jamoa asosigina emas; bu insoniyatning ijtimoiy o'zgarishlarga bardosh berib kelayotgan eng qadimgi ijtimoiy insituti hamdir. Oiladagi biologik va ijtimoiy reproduktivning mavjudigi uning jamiyat uchun muhimligini va davomiyligini ta'minlamoqda.

Insoniyat jamiyatining debochasida nikoh ham oila ham mavud bo'lmagan. Oila va nikoh deb nomlangan insititutlar ijtimoiy rivojlanishning ma'lum bosqichlaridan so'ng kirib kelgan. Oilaning tarixiy ildizlari borasida ko'pchilik antropologik tadqiqotlar va tahminlar olib borilgan. L. Morgan, J. Frezer va R. Briffaultlar kabi olimlarga Davrin hamda Spenserning evolyutsion nazariyasi ta'sir etgan. Ular oila evolyutsiyasi borasida ilmiy qarashlarni shakllantishga harakat qilishgan [3].

Odamlar jamoasi xo'jalik faoliyatining jiddiy buzilishi, urug'ning yashab qolishi uchun xavfning ro'yobga chiqishiga olib keldi. Shu tarzda yuzaga kelayotgan jamiyatda urug' ichidagi jinsiy muloqotni boshqarish, biologik instinkt, zoologik individualizmni jilovlash uchun maxsus ijtimoiy me'yorlar shakllana boshladi. Ana shunday ijtimoiy me'yorlardan biri mazkur urug' ichida erkak va ayollarning jinsiy muloqotlarini ma'lum bir muddatga (ovga tayyorlanish, ov vaqtlarida) taqiqlovchi jinsiy tabular (ta'qiqlash) ning yuzaga kela boshlaganligidir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni olib borishda mantiqiylik, tizimlilik, tarixiylik, qiyosiylik, o'zaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Manbalarni o'rganish, tahlil etish jarayonida tug'ilgan mantiqiy xulosaga ko'ra, oila bilan, unda shakllangan urf-odatlar bilan hisoblashmaslik mumkin emas edi.

Nikohning shakllari: hozirgi kunda insoniyat jamiyatlarida nikohning ikki shakli amalda: 1. Monogamiya, ya'ni bir ayol va bir erkak o'rtasida nikoh; 2. Poligamiya – bir erkak va ikki yoki undan ortiq ayollar o'rtasidagi nikoh.

Bundan tashqari, ayrim ibtidoiy jamiyatlar (Hindistonning shimoliy-g'arbiy Paxari viloyati, Nepal va Bangladeshning baland tog'li aholisi orasida) nikohning qadimgi shakllari saqlanib qolgan. Misol uchun poliandriya, ya'ni bir ayolning bir necha erkak bilan nikohda bo'lishi.

Nikoh uchun turmush o'rtoq tanlash muhim bo'lib, jamiyatda har doim ham shaxs o'zi yoqtirgan kishi bilan nikoh qura olmaydi. Bunday nikohni tartibga solish borasida ishlab chiqilgan tartib qoidalardan biri bo'lgan. Qadimda nikoh ittifoqining tuzilishining birinchi mezoni bunday jamoaning fikri ustunligi bilan izohlangan.

Belgilangan va imtiyozli nikoh: ko'p jamiyatlarda birinchi amakivachalar, xolavachchalar hamda boshqa yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga izn berilgan. Bunda asosan, oldindan kelishuvlar amal qiladi. Qachonki, shaxs nikoh uchun mukammal yoshga yetganda belgilangan nikoh amalga oshiriladi. Ba'zi bir jamiyatlarda bu majburiy hisoblanmaydi, lekin qarindoshchilik rishtalarini uzilmasligi ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Bunday nikohlar imtiyozli nikohlar ham deb ataladi. Bunday turdagi nikohlar amalga oshirilishida ko'proq quydagi uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Yaqin qarindoshlar almashinish nikohi- bu tushuncha birinchi bo'lib 1888- yilda olim A. Teylor tomonidan ifodalangan. Bu aka-uka yoki opa-singillarning farzandlari o'rtasidagi nikoh tuzilishidir. Bunday nikoh tuzishning shakllari asosan Markaziy Osiyoda ham uchrab turadi. Ushbu nikohga ko'picha bolalar hali aqli tanimagan paytda ularning ota-onalarning kelishib qo'yishi natijasida amalga oshiriladi.

2. Parallel yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohlar. Bunday turdagi nikoh musulmon jamiyatlarida tarqalgan.

3. Levirat va sororat – ko'pchilik jamiyat madaniyat normalarida umr yo'ldoshi vafot etgandan so'ng oilaning boshqa tirik qolgan a'zosi bilan tuziladigan nikoh. "Levir" so'zi lotinchadan tarjimadan qilganda, "turmush o'rtog'ining ukasi" degan ma'noni anglatadi. Ko'pincha an'anaviy jamiyatlarda turmush o'rtog'i vafot etgandan so'ng uning ukasi bilan nikohga kirishgan.

Yana bir odatga ko'ra, agar erkak kishining turmush o'rtogi vafot esa uning singlisiga uylanishga majbur etilgan. Lotinchadan tarjima qilinganda, "Sorror" so'zi singil ma'nosini anglatadi.

Tutqunlikdagi nikoh: bu nikoh turi ko'pincha qizning roziligisiz biron joyga olib borib nikohiga olish. Bunda hattoki qizning otaliqqa olgan yoki qarindoshlaridan ham ruhsat olinmaydi. Ko'pchilik ibtidoiy jamiyatlarda bunday nikoh turlari odat hisoblanadi. Ko'pchilik Markaziy Osiyo xalqlarida ham bunday nikoh turlari saqlanib qolgan.

Sotib olish orqali nikoh: bunday nikoh turlari ko'pincha qabilaviy jamiyatlarida turmush o'rtoq tanlashga erishish uchun odatda ko'p qo'llaniladi. Ko'pincha ana'anaviy jamiyatlarda kelin uchun qalin berilishi yoki kuyov uchun sovg'a berish kabi ko'nishlari mumkin.

Almashinish orqali nikoh: bu ham "nikohni sotib olish" turi sifatida ham qaraladi. Bunda ma'lum qabiladan kelin yoki kuyov qabul qilinsa, ayni o'sha qabiladan kelin yoki kuyov qabul qilinadi.

Qochish orqali nikoh: ba'zi qabilalarda asosan ikki yoshni voyaga yetgandan so'ng qochib ketishlari uchun sharoit yaratib beradi, bunday odat sharqiy Avstraliyadagi aborigen qabilalarda uchrab turadi. Hozirgi kunda ko'pincha ota-onasining roziligini ololmaganlar qochish orqali nikoh tuzish holatlari uchrab turadi.

Tabu – axloqiy me'yorlarga qaraganda ancha jiddiy va qattiq ta'qiqdir. Axloqiy me'yorlarni buzuvchilarni jamoa jazolashi, uni yo'q qilib yuborishi ham yoki kechirib tirik qoldirishi ham mumkin bo'lgan. Ko'pincha esa tabularni buzganlar, ular buni bilib qilganmi, yoki bilmaymi bundan qat'iy nazar so'zsiz jazolangan, yo'q qilib yuborilgan.

Ishlab chiqarishdagi jinsiy tabularni yuzaga kelishi urug' o'rtasida erkak va ayolni maishiy ajratib qo'yish bilan kuzatiladi. Tabu vaqtida erkaklarning nafaqat ayollarga teginishi, balki ularga qarashi, ular bilan gaplashishi, ular tayyorlagan ovqatni iste'mol qilishi, hatto ular bilan bir tom ostida, ya'ni "bir uyda" bo'lishi ta'qiqlangan.

Dehqonchilikning yuzaga kelishi, mavsumiy dala ishlarining ortib borishi bilan jinsiy tabulardan xoli vaqtlar bogan sari kam muddatli bo'lib boravergan. Erkaklarda ham, ayollarda ham jinsiy zo'riqishning jadalligi ortib borgan. Shuning uchun tabulardan holi qolgan vaqt oralig'i o'ziga xos shahvoniy ayshu ishratlarga aylana borgan.

Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga farqlanadi:

To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar. Bo'g'inlar soniga ko'ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo'lgan) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.

Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, 1, 2, 3–4, 5 va undan ortiq bolali oilalar. Turli mamlakatlarda bu mezonlar turlichadir. Masalan, AQSh, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda 3–4 bolali oilalar ko'p bolali oilalar hisoblanadi. O'zbekistonda bunday oilalar farzandlar soni o'rtacha bo'lgan oilalar sarasiga kiradi.

Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila. Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta, maxsus yordamchi maktab ma'lumotiga, va turli saviyadagi ma'lumotga ega bo'lgan qayliklardan tashkil topgan oila.

Oilaning "yoshiga" ko'ra: yosh oila (1 yilgacha, 3–5 , 6–10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi).

Qayliqlarning ota-ona oilasi (ota-onasi) ning moddiy ta'minlanganlik darajasi jihatidan qudalarning bir-biriga mos ekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo'yicha bir-biriga mos va mos bo'lmagan oilalar.

Regional jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila. Nikohdan koniqqanlik saviyasiga ko'ra. ajralish saviyasida-nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo'lgan oila, o'rta saviyada va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oila.

Oilada ayol yoki erkak yetakchiligiga ko'ra: er yetakchi bo'lgan oila, xotin yetakchi bo'lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila. Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

Er-xotinlarning millatiga ko'ra: bir millatli yoki baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: dini, urf-odatlari yoki tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohltar, masalan, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain, o'zbek-tatar va boshqalar, dini, urf- odatlari yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikoxlar, masalan o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-eston, o'zbek-nemis va boshqalar.

Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko'ra: sinovdagi oila (birga yashaydi, ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki bir-birlarini norasmiy nikohda uynashayapti), rasmiylashtirish arafasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi aniq, ammo ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kechiktirilayapti), nikoxdagi oila, nikoxdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi, yuridik

jihatdan norasmiy oilasi) .

Qarindoshlik: antropologiyadagi muhim tushuncha bu – "qarindoshlik" tushunchasidir. Qarindoshlik (qon-qarindoshlik aloqalari) – nikohdan o'tish natijasida yoki yaqin aloqalar jarayonidagi (ota-ona, bola, bobo, momo va hakozalar o'rtasidagi) munosabatlarning natijasidir.

Oddiy jamiyatlarda qarindoshlik munosabalari juda keng, fundamental va ta'sirchan bo'lib uning natijasida "ijtimoiy tizimlar" o'zining barqarorligi saqlaydi. Lekin, mukammalroq jamiyatlarda qarindoshlik me'yoriy shaklda ijtimoiy munosabatlarning bir qismi sifatidagina qaraladi. Sotsiologlar oila sotsiologiyasini o'rganishdan tashqari xolatlarda buning muhimligini ta'kidlashmaydi. Antropologlar bu borada ko'proq muhim bo'lgan qarama-qarshi tushunchalarni berishadi chunki qarindoshlik va oila antropologik izlanishlarda fokusli tushunchalari keltirib chiqaradi.

Har qanday jamiyatda har bir voyaga yetgan shaxs ikki xil nuklear oila a'zosi hisoblanadi. Misol uchun: Kishi o'zi tug'ilib voyaga yetgan oilasi va voyaga yetib nikohdan keyin o'zi paydo qiladigan oilasi. Qarindoshlik ijtimoiy guruhlaridek bo'lmasa ham shaxslarni o'zaro birlashtirib turadi. Bu bir butunlikda tuzilmaviy jihatdan odamlarni munosabatlar asosida birlashtirib turishga xizmat qiladi [4].

Qarindoshchilik asoslari asosan qondoshlik asosiga quriladi. Bu asosan an'anaviy jamiyatlarda o'zini yaqqol namoyish etadi. Qarindoshchilik qadimda ona tomondan belgilangan bo'lsa xozirda ota-tomon ustun hisoblanadi.

G'arb mamlakatlari xalqlarining aksar qismining hayotiga nazar tashlar ekanmiz ularda qarindoshlik munosabatlari eng yaqin qarindoshlar bilan chegaralanishini kuzatamiz. Ya'ni ular o'zlarining amaki va amakivachchalar, xolla va xolavachchalaridan boshqa qarindoshlari to'g'risida mavhum tasavvurga ega bo'ladilar. Ammo, Sharq mamalakatlari va boshqa ko'pchilik madaniyatlarda qarindoshlik juda muhim ahamiyatga ega hisobalanib, kichik, tor doiradagi ayrim madaniyatlarda hato muqaddaslashtirilgan.

Nasl qoidasi. "Nasl" – bu shaxslar o'rtasidagi mavjud biologik munosabatlarning ijtimoiy tan olishdir. Qarindoshlik aloqalari deyarli barcha jamiyatlarda juda muhim hisoblanadi. Shubhasizki shaxs doimo qarindosh kishisiga nisbatan o'zini majburiyati sezadi va o'z navbatida qarindosh kishisidan huddi shuni kutadi. Naslning qoidasiga muofaqiyat va meros bog'liq holda bo'ladi [5].

Klan: ko'pgina jamiyatlarda an'anaviy tipdagi qarindoshlik guruhlari mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi aloqalar odatdagi oilaviy qarindoshlik munosabatlari darajasida bo'lmay, balki bunday guruhlar orasida klanlar muhim o'rinni egallaydi. Masalan shotland klanlari bunga misol bo'la oladi. Shunga o'xshash urug'chilik tashkilotlari Afrika, Osiyo va Tinch okeanidagi ayrim jamiyatlarda o'z ahamiyatini bugungi kunga qadar ham saqlab kelmoqda. Klan shunday guruhki, uning barcha a'zolari fikriga ko'ra ular bir ota va onadan tarqalgan. Unga muvofiq, ma'lum bir bobo va momo bir necha avlod oldin mazkur klanga asos solgan hisoblanadi. Xuddi shunga o'xshash jarayonni o'zbek xalqi hayotida ham kuzatish mumkin. Xususan, o'zbeklarda bu urug' yoki to'p deb nomlanadi.

Odatda klan a'zolari umumiy yagona dinga e'tiqod qilib, ayni vaqtda bir joyda yashab, bir-birlariga yordam ko'rsatish uchun iqtisodiy javobgar ham hisoblanadilar. Klan a'zolari soni ko'pchilik hollarda kam sonli bo'lsa-da, ammo ayrim vaqtlarda ular bir necha yuz va hatto mingdan ortiq odamlarni o'zida birlashtirishi mumkin (An'anaviy Xitoy jamiyatidagi Si klani bunga misol bo'la oladi). Ular o'rtasida o'ziga xos munosabat xarakteri shakllanadi va o'zgarib boraveradi. Ular klan ichida o'zining uzoq qarindoshiga ham juda yaqin qarindoshlik munosabatida bo'lishadi. Har qanday sharoitda bir-birlariga yordam qo'lini cho'zadi.

Klan a'zolarining qarindoshlik tushunchasi mazmunan biz ishlatadigan qarindoshlik atamalaridan farq qiladi. Masalan ma'lum bir klan a'zosi o'z ammasiga "ota" xuddi shunga o'xshash tog'asiga "ona" deb murojaat qilishi mumkin va bunday hol biz uchun tushunarsiz tuyulsada ular uchun mantiiqiy hodisadir. Bunda kishi o'z tuqqan onasini yaxshi bilishi bilan birga yuqoridagi so'zlarni ishlatishi bilan u muomila qilayotgan odamni ona avlodiga, qarindoshlar shajarasiga tegishli hisoblab, u bilan yaqin qarindosh ekanligini tan oladi.

Shunday qilib, klan bir oiladan ko'ra kattaroq bo'lgan qarindoshlik guruhidir. Bunda klan a'zolari to'g'ridan to'gri qarindoshlik bog'lanishlar bo'lmasa-da, ajdodlari bir bo'lib bir-biri bilan munosabatlari shajaraviy jadvalga qarab ko'rib chiqishadi. Klanlarda avlodlarda ajdodlariga nisbatan afsonafiy qarashlar mavjud bo'ladi.

Klanlarga a'zolik nasldan-naslga o'tib boraveradi. Klanlar a'zolari odatda bir-birlari bilan do'stnona munosabatda bo'lishadi va ijtimoiy jihatdan muhtojlik holatlarida yordam beradi [6].

Klan a'zolar ajdodlaridan qolgan ramzlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi. Ular bunday ramz doimo ularning amaliy hayotida yordam bermasligini bilishsada nasldan naslga meros sifatida berib boradi.

Klanlar kelib chiqish asosiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

1. Ota tomonlama klanlar – Klanlar a'zolari o'zlarini shajarasini ota-tamonlama tuzib chiqsa, ota tomonlama klanlar deb ataladi. Har bir bola klanni nomini o'ziga meros qilib oladi lekin qizlar boshqa oilaga borgandan so'ng o'sha joydagi klan nomini o'zlashtirib nomini o'zgartiradi.

2. Ona tomonlama klanlar. Bunday klanlarda ona nomi saqlanib qoladi. Bu asosan, Hindiston janubiy hududlarida kuzatiladi.

3. Ajdodli klanlar. Bunday klanda klan a'zolarini ayol va erkak ekanligi muhim rol o'ynamaydi faqatgina ajdodlar birgi ahamiyatli hisoblanadi.

4. Ramzli klanlar. Bunda asosan, ajdodlari aytib bergan yoki qoldirib ketgan va shu asosida o'zaro birlashib turadigan qarindoshlar guruhiga aytiladi.

5. Hududiy klanlar. Bunda asosan, kishilar o'zlarining kelib chiqqan hududlari o'xshashliklari yuzasidan o'zaro mustahkam aloqaga kirishishadi. Bunda qarindoshlik muhim rol o'ynamasada o'zaro bir-birini tushunish va o'zaro ishonchaning mavjudligi muhim rol o'ynaydi.

Klanlarning funksiyasi:

– Klanlar o'zing a'zolari birodarlik rishtalarini ta'minlaydi;

– klanlarning ayol va erkaklari bir birlari aka-singillaridek munosabatda bo'lishini ta'minlaydi;

– klan o'zining a'zilarini ijtimoiy normalarni buzgan holatlarida jazolashi ham mumkin;

– klan hukumatdek harakatlanadi. U faqatgina inoqlikni mavjudligi ta'minlash uchungina hukm chiqiribgina qolmasdan turli hil sanksiya qo'llashi ham mumkin;

– klanlar mulkga egalik qilish ustidan nazorat o'rnatadi;

– klan a'zolari o'zlarining diniy va turli tantanalarda o'zaro birlashishi ta'minlaydi.

Oilaviy munosabatlar: qarindoshchilik munosabatlari orasida oilaviy qarindoshlik eng muhim sanaladi. Oila xo'jaligini birga yurituvchi turmush qurmagan farzandlari bilan birga yashovchi er-xotindan iborat nuklear oila hamma jamiyatlarda uchraydi. Klan mavjud bo'lmagan ko'pgina an'anaviy jamiyatlarda ham nuklear (kichik) oilalar keng qarindoshlik aloqalarining muhim qismi hisolanadi. Oilaning yana bir turi kengaytirilgan (murakkab) oila hisolanib, unda uch yoki undan ortiq avloddan tashkil topuvchi, bir xonadonda, yoki bir-birlariga yaqin bo'lgan xonadonlarda istiqomat qiluvchi kishilarning guruhini tushunimiz mumkin. Bunday turdagi oilalar o'zbek xalqi oroasida ham keng tarqalgan ("Kelinlar qo'zg'oloni" badiiy filmidagi Farmonbuvi oilasini misol qilib keltirish mumkin). Bunday turdagi oilaning a'zolari bobo, momo, akala rva ularning xotinlari, singillar va ularning erlari, xolalar, tog'alar, amakivachchalar, xolavachchalar bo'lishi mumkin.

Nuklear va murakkab oilalar bir individga nisbatan ota-ona va reproduktiv oilalarga bo'linadi. Birinchi tipiga bola tug'ilgan oila, ikkinchi tipiga bola ulg'ayib asos solgan va yangi avlod tarbiya topadigan oila kiradi. Ular orasidagi muhim farq ularning qaerda joylashganligiga qarab belgilanadi. Masalan g'arbda nikohlanganlar o'zlarining alohida oila xo'jaligini tashkil qilishi mumkin. Mazkur oila kuyov yki kelinning ota-onasi yashaydigan joyda bo'lishi yoki boshqa joyda makon topishi ham mumkin. Ammo, ko'pchilik jamiyatlarda nikohlanganlar an'anaga muvofiq, yo ota-onalari bilan birga yoki ularga yaqinroq bo'lgan joyda istiqomat qilshadi. Agar kelin-kuyov kelinning ota-onasinikiga ko'chib kelib yashasa, bunday turdagi oila matrilokal, agar kuyovning ota-onasinikiga ko'chib kelsa ular patrilokal oilalar deyiladi.

Oilaviy munosabatlarni o'rganishda iqtisodiy omillarga umuman sotsial-iqtisodiy, madaniy sohalarning oilaviy munosabatlarga ta'sirini o'rganishimiz ham zarur. Oilaviy munosabatlar turli xil shakillarni o'zida mujassamlashtiradi. Hozirgi paytda yer yuzidagi ko'pchilik mamlakatlarga keng tarqalgan oila individual kichik oila (ota-ona, farzandlari) yoki monogam oiladir. Yuqorida qayd etilganidek, O'rta Osiyo sharoitida, ayniqsa, qishloqlarda patriarxal tipidagi bir necha avlod vakillaridan iborat ajralmagan oilalar ham mavjud.

Oilaviy munosabatlarni o'rganish ko'p vaqtni va sabr-toqat bilan tadqiqot olib borishni talab qiladi, yo'qsa mutaxassis yuzaki xulosalarga kelishi mumkin. Shuning uchun oilani o'rganish statsionar uslubdagi ekspeditsiya orqali amalga oshirilsa, yaxshi natija beradi.

Oilani o'rganishning etnograf qo'llaydigan asosiy uslubi: shaxsiy kuzatuv va axborotchilar bilan savol-javobdir. Bu borada tadqiqotchi doimo xolis bo'lishi kerak, agar u borliqni bo'yab yoki o'zicha bir taraflama yoritsa, olingan malumotlarning qiymati yo'qoladi. Xolis ma'lumotlar olish uchun, shuningdek, yoppasiga anketalar to'ldirish natijasida olingan ma'lumotlardan ham foydalanish zarur. Bu borada qishloq kengashlarining xo'jalik daftarlaridan ham qiziqarli ma'lumotlar olish mumkin.

Oilaviy munosabatlarni o'rganishni uning tarkibi va sonini aniqlashdan boshlagan ma'qul. Bunday turdagi ma'lumotlarni aholi ro'yxati, xo'jalik daftari yoki o'tkazilgan etnosotsiologik tadqiqotlar beradi [7].

Oilaviy munosabatlarning iqtisodiy asosini-oila byudjetidan aniqlash mumkin. Bunday ma'lumotlarni ham anketalar orqali yoki savol-javob yo'li bilan aniqlashimiz mumkin.

Oila turmushining iqtisodiy asoslaridan biri bu – vorislik va mol-mulkka nisbatan haq-huquqdir. Ko'pincha xolisona, to'la ishonchli ma'lumot olish qiyin bo'lgan soha – bu oiladagi o'zaro munosabatlardir. Oila azolari bu haqda gapirishni ko'pincha istamaydi, qo'shnilarning bergan ma'lumotlari holis bo'lish qiyin. Shu sababdan, oiladagi mehnat taqsimoti, oila azolarining haq-huquqlari va majburiyatlari orqali malumot olishimiz mumkin. Ushbu sohada oilaviy bayramlar, yig'ilish yoki to'y, marosimlarni kuzatish orqali ham qiyosiy ma'lumotga erishamiz.

Taniqli rus etnografi S. A. Tokarev qarindoshlik munosabatlarini oddiy sonlar orqali (raqam bilan) ifodalashni taklif etgan. Buning uchun ko'plab qon-qarindoshlik munosabatlaridan 8 ta asosiy kategoriya olinadi: ota, ona, o'g'il, qiz, er, xotin, aka, singil. Bunday kategoriyalarning har biri: erkak jinslari toq, ayollar juft raqam bilan belgilanadi.

Ota – 1 Er – 5

Ona – 2 Xotin – 6

O’g’il – 3 Aka – 7

Qiz – 4 Singil – 8.

Bunday raqamlar sistemasidan foydalanib, har qanday qarindoshlik munosabatlarini ifodalash osonlashadi [8]. Misol uchun, (otasining otasi) 1-1, qaynotasi (xotinining otasi) 1-6, bobosi (onasining otasi) 1-2, qaynotasi (erining otasi) 2–5 va h.k. Mazkur sistema juda murakkab oilaviy munosabatlarni aniq yozib olishga imkon beradi. Misol uchun oilada er, xotin, xotinining oldingi eridan bo’lgan qizi va er-xotinning o’g’li yashasa, uni quyidagicha ifodalash mumkin: 5-6-6-4-5 6-3.

Oilaviy munosabatlar haqida qo’shimcha ma’lumotlarni moddiy va ma’naviy madaniyatning turli sohalaridan olish mumkin. Jumladan, urf-odatlar va xalq og’zaki ijodi bunday sohada alohida o’rin tutadi. Qishloq yoki mahallada qarindosh xo’jaliklarining joylashishiga qarab ham oilaviy munosabatlar haqida fikr yuritish mumkin.

Ba’zida oilaviy munosabatlar to’g’risida ma’lumotlarni uy-joylarning tuzilishi va rejasidan ham bilish mumkin. Uyning “ichkari” va “tashqari”ga bo’linishi, mehmonxona va qo’noqxonaning borligi va h.k asosida oilaviy munosabatlarni ravshanroq tasavvur qilishda kiyimlar (qizlar, juvonlar, qariyalar uchun); sochni o’rishi va mehnat taqsimotidagi farqlardan bilib olish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, odamlar o’rtasidagi munosabatlar va qadriyatlardir.

Qo’shnichilik munosabatlari qadimiy tarixga, an’analarga ega, ularning ko’pchiligi yo’qolib bormoqda, ularni yozib qoldirish etnograflarning vazifasidir. “Mehmon otangdek ulug” degan maqolning o’zida mehmondo’stlik ana’nalarining qanchalik chuqur mazmuni yotadi. Xar bir viloyat aholisining o’ziga xos mehmondo’stligi bor bo’lib, uni tadqiq qilish etnografiya fani uchun qiziqarli ma’lumotlar beradi. Bu borada qariyalar va bolalarga munosabat, ayollarga hurmat, e’tibor, ahloq va odob tushunchalari, bularning hammasi bizni tashvishlantiradigan muammolardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Begmatov A. Madaniy antropologiya (inglizchadan tarjima). – Toshkent, B. 46.
2. https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident.
3. Social Anthropology Core Course Calicut University. – Pp. 54–59.
4. Social Anthropology Core Course Calicut University… – Pp. 63.
5. Social Anthropology Core Course Calicut University… – Pp. 64.
6. Social Anthropology Core Course Calicut University… – Pp. 66.
7. Social Anthropology Core Course Calicut University… – Pp. 68.
8. Данные этносоциологических исследований «Настоящие и будущее электричества в Вашем быту», Обработаны на ВЦ. Талл.радио.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Xolboyev Mirzabek Karimjon o'g'li
Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi
e-mail: mirzabek7176@gmail.com

NAMANGAN VILOYATIDA ARXIVLARNING TASHKIL ETILISHIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING BARTARAF ETILISHI (1930-1950-yillar)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Namangan oblastida arxivlar tashkil topishidagi turli masalalar, oblastdagi hududiy arxivlari va ularning faoliyatidagi o'zgarishlar, ish yuritish hamda, hujjatlarni saqlash ishlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *arxiv, Namangan viloyati davlat arxivi, Namangan shahar arxivi, YAngiqo'rg'on tuman arxivi, tuman arxivlari, O'zSSR NKVD arxiv bo'limi, UNKVD Namangan viloyati arxiv boshqarmasi.*

Kholboev Mirzabek Karimjon ugli
Namangan State University Teacher of the Faculty of Social Sciences

PROBLEMS IN THE ORGANIZATION OF ARCHIVES IN NAMANGAN REGION AND THEIR ELIMINATION (1930-1950)

Abstract: *This article provides information on various issues related to the organization of archives in the Namangan region, changes in the activities of regional archives in the region, their work, and document storage.*

Key words: *archive, Namangan regional state archive, Namangan city archive, Angikurgan district archive, district archives, archive department of the NKVD of the UzSSR, UNKVD Namangan regional archive department.*

Холбоев Мирзабек Каримжон угли
Наманганский государственный университет Преподаватель факультета социалных наук

ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ АРХИВНОГО ДЕЛА В НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ УСТРАНЕНИЕ (1930-1950-гг.)

Аннотация: *В данной статье дана информация по различным вопросам, связанным с организацией архивного дела в Наманганской области, изменениями в деятельности региональных архивов области, их работой, хранением документов.*

Ключевые слова: *архив, Наманганский областной государственный архив, Наманганский городской архив, Янгикурганский районный архив, районные архивы, архивное управление НКВД УзССР, Наманганский областной архивный отдел УНКВД.*

Kirish

Sovet boshqaruvi kirib kelgandan keyin O'zbekiston SSRdagi barcha sohalarda jiddiy o'zgarishlar, yangicha ish uslubiga ega davlat muassasalari joriy etish boshlanadi. Shu asnoda tariximizga yot bo'lmagan, biroq zamonaviy uslubda ish yuritmaydigan arxiv ishida ham jiddiy o'zgarishlar boshlab yuborilgan edi. Xususan, Oktyabr inqilobdan keyin arxivlardagi vaziyat ham tubdan o'zgarib, ikkinchi davrni boshlab berdi. 1918-yil bahoridayoq bolsheviklar hukumati vakili D. B. Ryazanov Rossiya arxiv xodimlari uyushmasi ittifoqi a'zolari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu foydali birlashmaning samarali ishi natijasi 1918-yil 1- iyundagi RSFSRda arxivlarni qayta tashkil etish va markazlashtirish to'g'risidagi farmon matni bo'ldi. Aynan ushbu hujjatda sovet arxivlari tizimining asosiy qoidalari shakllantirilgan va arxivlarni boshqarishda davlat markazlaShuvi tamoyillari mustahkamlangan edi[1]. Mazkur qonun hujjatining kuchi deyarli SSSR parchalanguncha saqlanib turdi va aynan arxiv ishidagi barcha masalalar ushbu normativ-huquqiy hujjat orqali amalga oshirildi. Bolsheviklar chiqargan barcha qonun, qaror va farmonlar Turkistonga ham tegishli bo'lib, amal qilinishi qat'iy belgilangan edi.

Adabiyotlar tahlili va metod

Maqolada *adabiyotlar tahlili qilindi. Arxiv materiallari orqali* mavzuni mazmuni yaxlit holatga keltirildi.

Muhokama

1935-yil 21-dekabrda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi majlisida "1936-yilda Respublikaning

barcha hududlarida shahar sovetlari huzuridagi shahar arxivlarini tashkil etish to‘g‘risida” qaror qabul qilingan edi. O‘zSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining ushbu qaroriga muvofiq, Namangan shahar kengashi 1936 yil 19 apreldagi majlisida “SHahar arxivini tashkil etish to‘g‘risida”gi masalani ko‘rib chiqdi. Natijada, Namangan shahar arxivi tashkil etilib, dastlab uning tarkibi bir rahbardan iborat bo‘ldi[13]. Dastlabki asosiy muammolardan biri “Arxiv” tashkil etilgan paytda alohida bino berilmagan, xodimlar bilan ta’minlanmagan, bu vaqtda asosiy masala ham aynan bino va kadrlar masalasi edi.

1937-yil 27-noyabrda O‘zSSR Sovetlar MK Prezidiumi, tuman va shahar arxivlari tuzish tuman hamda shahar idoralari, korxonalar (qishloq sovetlari, kolxozlar, sovxozlar, MTS va boshqalar)da arxivni yaxshi yo‘lga qo‘yish haqida qaror qabul qilgan edi. Ko‘rsatilgan qarorni bajarilishi ustidan nazorat qilish O‘zSSR Markaziy arxiv boshqarmasiga topshirilgan edi. Shunga muvofiq, O‘zSSR Sovetlar MK Prezidiumining navbatdagi majlisida mazkur qarorning bajarilishi haqida O‘zSSR Markaziy arxiv boshqarmasining dokladi eshitiladi. Markaziy arxiv boshqarmasining ma’lumotiga qaraganda, Shu vaqtgacha (1937-y) joylardan arxiv boshqarmasi talab qilgan ma’lumotlar yuborilmagan. Shuning uchun 10 kun muddat ichida rayonlardagi ma’lumotlarni O‘zSSR Markaziy arxiv boshqarmasiga etkazib berishni O‘zSSR Sovetlar MK so‘raydi:

Yuqoridagilarni bajarish yuzasidan O‘zbekiston SSR Markaziy arxiv boshqarmasiga dekabr oyidan qoldirmasdan ma’lumot taqdim etish belgilandi[3]. Hududiy arxiv muassasalari tashkil etilishi haqidagi qarorga 2 yildan ortiq vaqt bo‘lishiga qaramay, bir qancha tashkiliy muammolar dolzarbligicha qoldi.

Namangan viloyatida arxiv ishini tashkil etishda erishilgan yutuqlar sirasiga hujjatlarni saqlash bo‘yicha alohida tashkilot ish boshlashi, boshqaruv mavjudligi, hodimlar biriktirilgani bo‘lsa, Shu bilan bir qatorda turli kamchiliklar ham mavjud edi. Xususan, Yangiqo‘rg‘on tumani NKVDning xabar berishicha, tuman arxiv bo‘limi 1940-yil oktyabr oyida tashkil etilgan, ammo ish joyi (alohida bino) yo‘q, hujjatlarni davlat muassasasidan qabul qilish amalga oshirilmagan, arxiv bo‘limiga xonani ajratish bo‘yicha hech qanday ish qilinmagan[9]. Moliyaviy muammolar ham arxiv ishini rivojiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Arxiv xodimlariga oz miqdorda maosh to‘langanligi bois ayrim arxivariuslar o‘z xohishlariga ko‘ra ishdan bo‘shagan. Xuddi Shunday jarayonni CHust tumani arxiv bo‘limi Namangan viloyati NKVD huzuridagi arxiv bo‘limiga yuqoridagi kabi murojatni yuborganligi arxiv manbalari dalolat beradi[10].

Namangan shahar arxividagi yana bir asosiy muammolardan biri qog‘ozli materiallarning turli shaxslar tomonidan sotib yuborilishi edi. Bunday holatlar turli savdo rastalari uchun xizmat qilgan. Bu esa tarixga bo‘lgan munosabatni mavjud jamiyatdagi ayrim odamlar ma’naviyatsizligi va o‘quvsizligidan deb bilish mumkin. Shunday holatlardan biri, Namangan shahar temir yo‘lining 1934-1935-yillarga tegishli umumiy arxiv hujjatlarini bir nomalum kishi tomonidan sotilayotganda va nos do‘konida Abdurahim Ne’matov ismli shaxs tomonidan qog‘ozlar (arxiv hujjatlari aslida)ning har kilosini 1 so‘mdan olib, xaridorlarga nos o‘rab, sotib turganda, arxiv bo‘limidan kishilar chiqib, ushlab olgan. Shunga binoan, ularga nisbatan akt tuzilgan[5].

YAna bir holatda 1939- yil 4- mayda quyidagicha mazmunda akt tuzilgan: “Bizlarkim, qo‘l qo‘yib akt qiluvchilar shahar arxiv bo‘limidan Vahobov, guvohlardan Yo‘ldoshev, Gortorg (Shahar savdo markazi – M. X.)ning stansiyadagi 127- do‘kon mudiri Karimjon Alimovlar bo‘lib Shul haqidakim, 1939- yil 4- mayda Shu do‘konda temir yo‘lining 1934–1935-yillar umumiy arxiv hujjatlarini qand o‘rab turgan paytda, Vahobov va Yo‘ldoshevlar tomonidan ushlandi. Ushbu hujjatlar har kilosi uchun 1 so‘m 50 tiyindan pul olingan[6]. To‘g‘ri, kimgadir yuqoridagi holat oddiy tuyulishi mumkin, lekin birgina arxiv qog‘ozida butun xalqning taqdiri, o‘tmishi va kelajagi turganini hisobga olinsa, aslida buni tarixiy fojialar sirasiga kiritish mumkin. Lekin, fidoyi arxiv xodimlari bunday hollarni oldini olishda ko‘rsatgan jonbozliklarini alohida e’tirof etish o‘rinli.

1939-yilda Namangan shahar arxiv bo‘limi mudiri Nurmatov yuqori organlarga arxiv ishini yaxshilash uchun talabnoma yuborishga majbur bo‘ladi. Uning oldin yozgan barcha murojati qanoatlantirilmaydi. Shu sababdan, arxiv rahbari barcha yuqori organga quyidagi mazmundagi murojatini yo‘llaydi:

O‘zSSR Oliy sovetiga
O‘zSSR NKVD arxiv bo‘limiga
Namangan shahar prezidiumiga
Namangan shahar NKVDsiga

Bu bilan Namangan shahar arxiv bo‘limi yozib ma’lum qiladiki, arxiv bo‘limining binosi shahardan chetda xonadonlar o‘rtasida qonunga xilof darajada joylashgan. Shunga qaramay, 1937- yildan buyon kapital yoki navbatli remont qilib borilmagan. Hozirda qish mavsumi bo‘lganligi uchun pechkalar qilinmagan, holbuki, hech qanday yoquv ashyolari hozirlangan emas. Binolar tabiiy yoki sun’iy yoritilgan emas. Deraza va eshiklar to‘liq reshotkali, ventilizatsiyali emas, demak, arxiv binosi arxiv hujjatlari uchun butunlar noloyiq. YAgona davlat arxiv fondiga qabul qilingan 11000 dan ortiq ilmiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy hamda so‘rovli ahamiyatga ega bo‘lgan arxiv materiallari joy va stellajlar etishmaganligidan qonunga hilof darajada zax betonli joyda yotmoqda. Shuning uchun ham shahar fondlaridan arxiv materiallarining qabul qilish ishi butunlay to‘xtatilgan. Binoda elektr yo‘q, aloqa ishi uchun telefon yo‘q, yong‘indan saqlash uchun shahar o‘t o‘chirish komandasining necha marotaba tuzgan aktiga qaramasdan o‘t o‘chirish asboblari bilan ta’min etilgani yo‘q. Arxiv

xonalarini ba’zi bir xavf va o‘g‘irliklardan saqlash uchun qorovul yoki qurol yo‘q.

Shahar hududida 219 ta idoraviy muassasalar bo‘lishiga qaramay, arxiv bo‘limida faqat bir mudir ishlaydi xolos. Mudir fondlarga chiqib ketganda, idora berkitilib qo‘yiladi. Demak, murojatchi fuqarolarga sharoit yaratib berilmagan. Idorani tozalash uchun tozalovchi yo‘qligidan tozalashni ham, inspektorlikni ham, arxivariuslikni ham, qorovullikni ham mudirning o‘zi bajaradi.

Shahar arxiv bo‘limini shahar soveti tomonidan idoraviy asboblar bilan ta’minlanmagan.

Maxfiy hujjatlarni saqlash uchun po‘lat sandiq yoki shkaflar bilan ta’min etilmagan. Hattoki, texnik xarajatlar uchun ham mablag‘ ajratilmagan. SSSR va O‘zSSR hukumat qarorlariga muvofiq, shahar sovetlari o‘z qoshidagi arxiv bo‘limlarining butun kamchiliklarini tugatishda tegishli yordam berishi shart edi. Biroq, shahar sovetiga arxiv bo‘limini 6–7 marotabalab yozgan talabi qondirilmay kelmoqda. Agarda, yana Shunday ahvolda shahar soveti arxiv bo‘limini o‘z holiga tashlab qo‘ysa, ish bundan ham bo‘shashib ketish ehtimoli turadi. Shuning uchun arxiv ishini yaxshilashda tegishincha yordam so‘raladi. Shu bilan birga, 1940 yil hisobidan shahar arxiv bo‘limini shahar NKVDsi hisobiga shtat va boshqalarni o‘tkazib berishingizni so‘raymiz deb jiddiy tarzda etirozli maktub yo’llangan”[7]. Bunday e’tirozli murojatdan so’ng muaammolar bartaraf etishga kirishiladi. Bunga asosiy sabab sohaning ichki ishlar tizimiga o’tkazilishi bo’ladi.

O‘zSSR Oliy Sovetining Namangan viloyati bo‘yicha tashkiliy qo‘mitasining 1941-yil 5-noyabrdagi 158-sonli O‘zSSR Namangan viloyati xalq komissiaryatining ichki ishlar boshqarmasi tarkibida davlat arxivi bo‘linmasi tashkil etildi. O‘zSSR Oliy Sovetining Namangan viloyati bo‘yicha tashkiliy qo‘mitasining 1942-yil 18-apreldagi 154-sonli qaroriga asosan, 1942–1944-yillar davomida Kosonsoy, Norin, Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Pop va Yangiqo‘rg‘on tumanlarida davlat arxivlari tashkil etildi[2]. Natijada, urushning eng avji pallasida ham arxiv ishida to‘xtalishlar bo‘lmadi. Hujjat ishi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, arxiv xodimlari sohani rivojlantirish uchun bor kuchlarini ishga solishga harakat qildi. Shulardan, SSSR hududiga bostirib kirgan Gitlerning Germaniya fashistik qo‘shinlariga qarshi sovet xalqining Vatan urushi sharoitida UNKVD Namangan viloyati arxiv boshqarmasi (bo‘linmasi)ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

– SSSR Davlat arxiv fondining hujjatli materiallari butlangan holda saqlanishini ta’minlash;

– SSSR davlat arxiv fondining hujjatli materiallaridan nemis bosqinchilariga qarshi Vatan urushi manfaatlarida keng va har tomonlama foydalanish;

– SSSR NKVDisining 1940-yil 2- fevraldagi 114-sonli buyrug‘i bilan e’lon qilingan farmon va ko‘rsatmalarga muvofiq, UNKVD arxiv bo‘limini tezkor ilmiy hamda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lmagan materiallardan ozod qilish, arxiv materiallarini tartibga solish va davlat muassasalari, tashkilotlari hamda korxonalari topshiriqlarining bajarilishini nazorat qilish.

Mazkur jarayonda olib borilgan tekshiruvlar natijasi Shuni ko‘rsatdiki, bir qator viloyat, shahar va tuman arxivlarida SSSR Xalq Komissarlari Kengashining 1941- yil 5- iyundagi 4853-sonli va 1941- yil 6- iyundagi 156-sonli qarori etarli darajada tashkillashtirilmagan edi. Shu bilan birga, okrug ijroiya qo‘mitalari O‘zSSR Oliy Soveti Namangan viloyati bo‘yicha tashkiliy qo‘mitasining 1941-yil 4- noyabrdagi 158-sonli “Viloyat markazlarida tuman arxivlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorini juda sust bajarilgan edi. YUqoridagi kamchiliklar faqat partiya, komsomol va kasaba uyushmalari tashkilotlari, Shuningdek, viloyat, shahar hamda tuman deputatlari yordamida SSSR NKVD Arxiv ishi boshqarmasining ko‘rsatmalariga muvofiq, arxiv fondlarini tartibga solish bo‘yicha qisqa muddatda tugatilishi mumkin.

O‘zSSR Oliy Kengashining Namangan viloyati bo‘yicha tashkiliy qo‘mitasi arxiv materiallarining siyosiy ahamiyatini inobatga olmay, 1942- yil 8- yanvardagi 10-sonli Qarori bilan farrosh-xodimlarning ish haqi qisqartirdi. Ushbu lavozimga qo‘riqchi yozildi, barcha umid bitta qo‘riqchida edi. Viloyat tashkil etilgandan beri shtatda qo‘riqchi shtati mavjud emas edi. Mazkur arxiv bo‘limida 23000 ta hujjat mavjud bo‘lib, ular ichki va tashqi dushmanlar, ayniqsa, urush davrida zudlik bilan himoya qilishni talab qilgan edi[8].

Namangan viloyatida tuman arxivlarining ish yuritish tizimi sust bajarilganligi sohaga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shunday hududlardan biri sifatida xizmat vazifalarini bajarishga beparvolik bilan munosabatda bo‘lganligi natijasida Ichki ishlar vazirligi Yangiqo‘rg‘on tumani davlat arxivi boshlig‘i Baybakova Ichki ishlar vazirligiga hisobot berish uchun chaqirilgan va faoliyati davomida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun javobgarlikka tortilgan. Hisobotdan ma’lum bo‘lishicha, tuman arxivini hujjatli materiallar bilan to‘ldirish bilan arxiv boshlig‘i Baybakova umuman Shug‘ullanmagan. 1951 yilgacha tuman davlat arxiviga Birlashgan kolxozlardan tanlab olingan hujjatli materiallar va fondlar qabul qilinmagan. Hujjatli materiallarning saqlanishi va tartibga solinishi bo‘yicha idoraviy muassasalarni qoniqarli darajada nazorat qilinmagan. Baybakova Ichki ishlar vazirligi Arxiv boshqarmasining 1951-yil 4-fevraldagi 15a-sonli ko‘rsatmalarini bajarmagan bo‘lib, unda uchinchi marta barcha hujjatli materiallarni qishloq va viloyat muassasalarida ro‘yxatdan o‘tkazish taklif qilingan va ular uchun saqlash muddati o‘tgan va hujjatli materiallarni qabul qilish jadvalini tuzish vazifasi bo‘lgan, bajarilmagan ishlar to‘g‘risida Ichki ishlar vazirligining Arxiv boshqarmasiga taqdim etish belgilangan. 1951 yil 10 fevraldagi 18-son ko‘rsatma bilan ikkinchi marta

Birlashtirilgan kolxozlardan qabul qilingan hujjatli materiallar miqdori to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish taklif qilindi, bu ish ham arxiv rahbari Baybakova tomonidan bajarilmagan.

1951-yil 15-martda viloyat ijroiya qo‘mitasining o‘sha yil 14-fevraldagi 285-sonli xatini bajarish natijalari to‘g‘risida, 1951-yil 15-martdagi O‘zbekiston SSR Ichki Ishlar Vazirligining 30-sonli ko‘rsatmasi ham bajarilmagan. Baybakova IIV Arxiv boshqarmasining uslubiy ko‘rsatmalarini o‘rganmagan, bu esa amalga oshirilayotgan tadbirlarning bajarilishiga ma’lum darajada ta’sir qiladi, buning uchun Baybakova IIV boshqarmasi buyrug‘i bilan tanbeh berilgan va ogohlantirilgan. Shuningdek, kelajakda bunday holatlarning oldini olish to‘g‘risida quyidalar tavsiya beriladi:

1. Ichki ishlar vazirligining tuman davlat arxivlari boshliqlariga 2 oy muddatda Birlashgan kolxozlardan hujjatli materiallar, saylov bo‘yicha hujjatli materiallar tuman arxiviga qabul qilinsin. Boshqa muassasalar, korxonalar, tashkilotlardan hujjatli materiallarni qabul qilishni 1951 yil 1 sentyabrga qadar tugatish va ishdagi boshqa jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish.

2. Kelgusida davlat arxivlari rahbarlariga hisobotlar bilan Shunday chaqiruvlar amalga oshiriladi. Shu bois, tuman davlat arxivi faoliyatini asosan birlashtirilgan kolxozlardan hujjatli materiallar olish, idoraviy muassasalarning hujjatli materiallarining saqlanishi va tashkil etilishi ustidan nazorat olib borish hamda ulardagi hujjatli materiallarning ilmiy ahamiyatini ekspertizadan o‘tkazish ishlarini kuchaytirish. Ichki ishlar vazirligi Arxiv boshqarmasining yo‘riqnomalarini o‘rganish va amaliy ishlarda qo‘llash ish yuritishda muhim ahamiyatga ega[12].

Ushbu asosiy vazifalar bajarilgandan keyin bo‘sh qolgan ish vaqti SSSR ichki ishlar vazirligining xatida nazarda tutilgan arxivda zarur bo‘lgan boshqa ishlarga taqsimlanishi kerak edi[11].

1958-yilda Namangan shahar mehnatkashlar deputatlari Kengashi Ijroiya qo‘mitasining “Viloyat davlat arxivi uchun ishlab chiqarish binolarini qurish uchun er maydoni ajratish to‘g‘risida” hamda O‘zSSR Vazirlar Sovetining 1956 yil 31 martdagi 178-sonli qarorini bajarish maqsadida shahar ijroiya qo‘mitasi qaror qiladi. Unga ko‘ra, Namangan viloyati davlat arxiviga ish faoliyatida foydalanish binosi qurish uchun 14-qurilish maydonidagi 2500 kv.m.dan er uchastkasi ajratilgan[14].

Natijalar

O‘zSSR Ichki ishlar vazirligi (sobiq) Arxiv boshqarmasi Davlat arxivi faoliyati to‘g‘risidagi yillik hisobotni o‘rganib chiqdi. Namangan viloyatida 1959-yilda hujjatli materiallarni saqlash sharoitlari (karton)ni yanada yaxshilash borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Hujjatli materiallardan nashriyot maqsadlarida foydalanish borasidagi ishlar birmuncha faollashdi, arxivning hujjatli boyliklarini bosma va radio orqali ommalashtirish bo‘yicha ilk qadamlar qo‘yildi.

Ammo, Shu bilan birga, ishda jiddiy kamchiliklar mavjudligini ta’kidlash kerak. Masalan, viloyatning eng muhim muassasalarining hujjatli materiallarini qabul qilish yo‘lga qo‘yilmagan, davlat arxividan hujjatli materiallarni muntazam qabul qilinmagan. Viloyat davlat arxivi xodimlari har doim ham yangi kiruvchi fondlarni hisobga olish bo‘yicha o‘z vaqtida ish olib bormagan. 1959-yilda buxgalteriya hisobi bo‘yicha rejalashtirilgan topshiriq bajarilmagan. Arxivda ilmiy-metodik ishlar juda kam ta’minlangan.

Xulosa

Umuman olganda Namangan oblastidagi arxivlarning tashkil etilishidagi muammolar va ularning bartaraf etilishida ko’plab shaxslar va soha yetakchilari jiddiy harakatlarni amalga oshirishdi. Shu say harakatlarga qaramay asosiy muammolar ochiqligicha qolaverdi. Hududiy arxivlarda rivojlanish kuzatilmadi, bu esa umumiy oblast arxiv ishiga o’z ta’sirini ko’rsatib turdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Цеменкова С. И. История архивов России: XX – начало XXI века: Учеб. пособие. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2019. – 200 с.
2. Yusupov U., Aliyev A. O‘zbekiston arxivlari. – Toshkent.: Tasvir, 2021. – 496 b.
3. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 23-varaq
4. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 25–26-varaqlar
5. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 8-varaq
6. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 9-varaq
7. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 21-varaq
8. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 6-ish, 9-varaq
9. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 3-varaq
10. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 4-varaq
11. Namangan viloyati davlat arxivi. 273- fond, 1- ro‘yxat, 43-ish, 14–15- varaqlar
12. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 43-ish, 22-varaq
13. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro‘yxat, 360-ish, 10-varaq
14. Namangan viloyati davlat arxivi. 788-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 2-varaq

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Raximov Muxammadjon Ro'ziyevich
University of business and science
nodavlat oliy ta'lim muassasasi professori, f.f.d.

SUN'IY INTELLEKT VA INSON ONGINING CHEGARALARI: FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya. *Sun'iy intellektning (AI) rivojlanishi bizning intellekt haqidagi tushunchamizda inqilob qildi va ongning tabiati va chegaralarini chuqur falsafiy o'rganishga undadi. Ushbu maqola falsafiy nazariyalar ob'ektivi orqali AI va inson ongining kesishishini o'rganadi, sun'iy tizimlar ongga ega bo'lishi yoki takrorlanishi mumkinmi va bu inson o'ziga xosligini aniqlash uchun qanday oqibatlarga olib keladi. Jon Searl, Devid Chalmers va Hubert Dreyfus kabi asosiy faylasuflarning g'oyalariga tayangan holda, maqola aqlli xatti-harakat va ongli tajribani farqlashdagi qiyinchiliklarni tahlil qiladi. Bundan tashqari, u insonga o'xshash xabardorlikka yaqinlashadigan yoki taqlid qiluvchi AI tizimlarining axloqiy va ontologik oqibatlarini o'rganadi. Oxir oqibat, maqolada ta'kidlanishicha, AI ma'lum kognitiv jarayonlarni taqlid qilishi mumkin bo'lsa-da, inson ongining sub'ektiv, mujassamlangan va ekzistensial tabiati o'ziga xos insoniy hodisa bo'lib qolmoqda va shu bilan inson va mashina o'rtasidagi chegaralarni yo'q qilish o'rniga qayta belgilab beradi.*

Kalit so'zlar. *Sun'iy intellekt, ong, ong falsafasi, inson identifikatori, mashina aqli, sub'ektivlik, AI etikasi, embodiment, Searle, Chalmers, Dreyfus.*

Рахимов Мухаммаджон Рузиевич
University of business and science
Профессор негосударственного высшего учебного заведения, доктор наук

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ПРЕДЕЛЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Абстрактный. *Развитие искусственного интеллекта (ИИ) произвело революцию в нашем понимании интеллекта и побудило к глубоким философским исследованиям природы и границ сознания. В этой статье рассматривается взаимосвязь искусственного интеллекта и человеческого сознания через призму философских теорий, могут ли искусственные системы обладать сознанием или копировать его, и какие последствия это имеет для определения человеческой идентичности. Опираясь на идеи таких выдающихся философов, как Джон Сирл, Дэвид Чалмерс и Хьюберт Дрейфус, в статье анализируются трудности в разграничении разумного поведения и сознательного опыта. Кроме того, в нем изучаются этические и онтологические последствия систем искусственного интеллекта, которые приближаются к человеческому сознанию или имитируют его. В конечном счете, утверждается в статье, хотя ИИ может имитировать определенные когнитивные процессы, субъективная, воплощенная и экзистенциальная природа человеческого сознания остается уникальным человеческим явлением, тем самым переопределяя, а не стирая границы между человеком и машиной.*

Ключевые слова*. Искусственный интеллект, сознание, философия сознания, человеческая идентичность, машинный интеллект, субъективность, этика ИИ, воплощение, Сирл, Чалмерс, Дрейфус.*

Rakhimov Mukhammadjon Ro'ziyevich
University of Business and Science
Non-State Higher Educational Institution, Professor, DSc

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE LIMITS OF HUMAN CONSCIOUSNESS: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Abstract. *The development of artificial intelligence (AI) has revolutionized our understanding of intelligence and prompted a deep philosophical study of the nature and limits of consciousness. This article examines the intersection of AI and human consciousness through the lens of philosophical theories, whether artificial systems can acquire or replicate consciousness, and what implications this has for defining human identity. Drawing on the ideas of key philosophers such as John Searle, David Chalmers, and*

Hubert Dreyfus, the article analyzes the difficulties in distinguishing between intelligent behavior and conscious experience. It also explores the ethical and ontological implications of AI systems that approach or imitate human-like awareness. Ultimately, the article argues that while AI may mimic certain cognitive processes, the subjective, embodied, and existential nature of human consciousness remains a uniquely human phenomenon, thereby redefining rather than erasing the boundaries between human and machine.

Keywords: *Artificial intelligence, consciousness, philosophy of mind, human identity, machine intelligence, subjectivity, AI ethics, embodiment, Searle, Chalmers, Dreyfus.*

Kirish.

XXI asrda sun'iy intellektning (AI) jadal rivojlanishi ong, idrok va odamlarni mashinalardan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlarning tabiati haqida misli ko‘rilmagan munozaralarni keltirib chiqardi. AI tizimlari bir paytlar inson aqlining yagona sohasi hisoblangan o‘rganish, qaror qabul qilish, tildan foydalanish va muammolarni ijodiy hal qilish kabi vazifalarni bajarish qobiliyati ortib borayotgani sababli, faylasuflar, kognitiv olimlar va axloqshunoslar asosiy savollarni ko‘tarishdi: Mashinalar ongga ega bo‘lishi mumkinmi? Inson ongining chegaralari sun'iy tizimlarga nisbatan qayerda yotadi? Va bu chegaralarni xiralashtirishning falsafiy oqibatlari qanday? Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining tez rivojlanishi bilan inson ongi va sun'iy aqlning imkoniyatlari, chegaralari va o‘zaro munosabati haqida falsafiy bahslar kuchaymoqda. AI insoniyat uchun foydali vosita bo‘lishi mumkin, lekin u inson ongini to‘liq takrorlasha oladimi yoki uning qobiliyatlari qayerda tugaydi? Bu savollarga falsafiy nuqtai nazardan yondashish muhim.

Ong tushunchasi: inson hodisasi? Inson ongi an'anaviy ravishda o‘z mavjudligini, his-tuyg‘ularini, fikrlarini va atrof-muhitni sub'ektiv anglashi sifatida tushuniladi. Bu fenomenologik tajriba - ba'zan kvaliya deb ataladi - ko‘pincha inson o‘ziga xosligining yadrosi hisoblanadi. Dekartdan Gusserlgacha bo‘lgan faylasuflar inson ongining o‘ziga xosligini ta’kidlaganlar. Rene Dekartning mashhur “Cogito, ergo sum” (“Men o‘ylayman, demak men borman”) so‘zi borliqni aniqlashda ongli fikrning markaziy o‘rinni egallaydi. [1] Falsafiy nuqtai nazardan, Jon Searlning "Xitoy xonasi" argumenti mashina ongining muhim tanqidi bo‘lib qolmoqda. Searle ta'kidlaganidek, agar kompyuter tilni tushunishni ishonchli tarzda taqlid qilsa ham, u insoniy ma'noda haqiqatda "tushunmaydi". Uning so‘zlariga ko‘ra, "semantika uchun sintaksis etarli emas". Mashina ma'lumotni qayta ishlashi mumkin, ammo u qasddan yoki sub'ektiv xabardorlikka ega emas. [2] Xuddi shunday, Tomas Nagelning mashhur inshosi ko‘rshapalak bo‘lish qanday? ong sub'ektiv nuqtai nazarni o‘z ichiga oladi, uni faqat jismoniy jarayonlarga qisqartirib bo‘lmaydi, deb ta'kidladilar.[3] Bu AI hamjamiyatiga qiyinchilik tug‘diradi: agar ong tabiatan sub'ektiv bo‘lsa, uni qanday qilib ob'ektiv, hisoblash tizimida takrorlash mumkin?

Sun'iy intellektning yuksalishi: taqlidmi yoki paydo bo‘lishmi? Neyron tarmoqlari va katta til modellarining paydo bo‘lishi bilan AI insonning bilish jihatlarini hayratlanarli tarzda taqlid qila boshladi. AI tizimlari she'r yozishi, musiqa yozishi, tibbiy holatlarga tashxis qo‘yishi va hatto falsafiy nutq bilan shug‘ullanishi mumkin. Ammo bu haqiqiy fikrmi yoki shunchaki taqlidmi? Alan Tyuring 1950 yilda o‘zining "Computing Machinery and Intelligence" nomli ilmiy maqolasida Tyuring testini mashina razvedkasi uchun mezon sifatida taklif qildi. Agar mashina suhbatda odamlarning javoblarini ishonchli tarzda taqlid qila olsa, u aqlli deb hisoblanishi kerakligini ta'kidladi. [4] Biroq, Tyuring mashinaning ongli ekanligidan ko‘ra, u o‘zini xuddi shunday tuta oladimi yoki yo‘qmi, degan savolga kamroq qiziqardi. Ong falsafasining yetakchi vakili Devid Chalmers kabi zamonaviy olimlar ongning “oson” va “qiyin” muammolarini farqlaydilar. Oson muammolar kognitiv funktsiyalarni tushuntirishni o‘z ichiga oladi - diqqat, xotira, o‘rganish - qiyin muammo esa sub'ektiv tajriba bilan bog‘liq. "Nima uchun kognitiv funktsiyalarni bajarish tajribani keltirib chiqaradi?" so‘raydi. AI ko‘plab oson muammolarni hal qilishi mumkin, ammo qiyin muammo qolmoqda.[5] Taniqli futurist va sun'iy intellekt himoyachisi Rey Kurtsveyl ko‘proq optimistik. Kurtsveyl o‘zining "Singularity is Near" kitobida 2045 yilga borib mashinalar har tomonlama inson aql-zakovatidan oshib ketishini, potentsial ravishda hatto ongga ham erishishini bashorat qiladi. Uning ta'kidlashicha, inson miyasi oxir-oqibat biologik mashina bo‘lganligi sababli, sun'iy tizimlar etarli darajada murakkablikka erishgandan so‘ng ong paydo bo‘lishi mumkin.[6]

Sun'iy ongning chegaralari. Kurzweilning optimizmiga qaramay, ko‘plab olimlar shubha bilan qarashadi. Xubert Dreyfus "Kompyuterlar nima qila olmaydi" asarida o‘z davrining ramziy sun'iy intellektini

[1] Davronovich M. A. PHILOSOPHICAL VIEWS OF RENE DEKART IN THE WORK “THE FIRST PHILOSOPHY” //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – №. 06. – C. 176-180.

[2] Searle J. R. The intentionality of intention and action //Cognitive science. – 1980. – T. 4. – №. 1. – C. 47-70.

[3] Hnyk T. Komentovaný překlad: Tomas Nagel: What is it like to be bat?(In: Philosophical Review LXXXIII, 4 (October 1974). – 2012.

[4] Turing A. M. Computing machinery and intelligence. – Springer Netherlands, 2009. – C. 23-65.

[5] Chalmers D. J. Facing up to the problem of consciousness //Journal of consciousness studies. – 1995. – T. 2. – №. 3. – C. 200-219.

[6] Kurzweil R. The singularity is near //Ethics and emerging technologies. – London : Palgrave Macmillan UK, 2005. – C. 393-406.

tanqid qilib, inson aql-zakovati kontekst, timsol va tajribada chuqur ildiz otganligini ta'kidlab o‘tdi - bu omillarni ajralmas mashinalarda taqlid qilish qiyin, hatto imkonsiz bo‘lsa ham. Dreyfusning tanqidi fenomenologik an'anaga mos keladi, u ong shunchaki hisoblash jarayoni emas, balki mujassamlangan va joylangan hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Masalan, Moris Merlo-Ponti ta'kidlaganidek, idrok tana tajribasi va dunyo bilan o‘zaro munosabatimiz bilan shakllanadi. Mashinaning chinakam idrok etishi uchun unga nafaqat sensorlar, balki ta'sirchan va ijtimoiy tajribaga qodir bo‘lgan tana kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, ekzistensializm falsafiy maktabi ongning qisqarishiga shubha tug‘diradi. Martin Xaydegger va Jan-Pol Sartr kabi mutafakkirlar inson mavjudligini dunyoda bo‘lish va erkinlik bilan bog‘liq deb bilishgan. Ular uchun inson ongi statik mavjudot emas, balki dinamik, o‘zini o‘zi talqin qiluvchi va kelajakka yo‘naltirilgan hodisadir

Axloqiy va epistemologik oqibatlar. Agar AI tizimlari ongga ostonadan o‘tsa, axloqiy oqibatlar chuqur bo‘lar edi. Bunday tashkilotlar huquqlarga loyiqmi? Ular o‘z qilmishlari uchun ma'naviy javobgarlikka tortilishi mumkinmi? Va ularning xatti-harakatlari uchun kim javobgar bo‘ladi - yaratuvchilarmi yoki mashinalarning o‘zlarimi? Nik Bostrom o‘zining Superintelligence kitobida ilg‘or AI tomonidan yuzaga keladigan ekzistensial xavflar haqida ogohlantiradi. Uning ta'kidlashicha, odamlardan ko‘ra aqlliroq mashina yaratish biz nazorat qila olmaydigan yoki bashorat qila olmaydigan natijalarga olib kelishi mumkin. Agar ong AIda paydo bo‘lsa, unda odam va ob'ekt o‘rtasidagi aniq chegaralarni o‘z ichiga olgan an'anaviy axloqiy asoslarimiz tubdan qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Gnoseologik savol ham bor: AI ongli ekanligini qanday bilamiz? Bu "boshqa onglar muammosi" deb ataladigan muammoga to‘g‘ri keladi - agar biz boshqa mavjudotning ongini, inson yoki boshqa tarzda bevosita kuzata olmasak, uning mavjudligiga qanday ishonch hosil qilishimiz mumkin? AI holatida bu noaniqlik kuchayadi. Xulq-atvorning o‘zi etarli bo‘lmasligi mumkin; faylasuf Ned Blok ogohlantirganidek, tizim "fenomenal ong"ga ega bo‘lmagan holda "funktsional ongni" namoyon qilishi mumkin.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning yuksalishi bizni ong, aql va inson bo‘lish nimani anglatishi haqidagi uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan taxminlarni qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Mashinalar kognitiv qayta ishlash bilan bog‘liq vazifalarni tobora ko‘proq bajarishi mumkin bo‘lsa-da, inson ongining sub'ektiv, gavdalangan va ekzistensial o‘lchamlari replikatsiyaga qarshilik ko‘rsatadi. Searl, Dreyfus va Chalmers kabi faylasuflar bizga haqiqiy ong hisoblashdan ko‘ra ko‘proq narsani o‘z ichiga olishini eslatib turadi - bu tajribani o‘z ichiga oladi. Shunga qaramay, biz texnologiya rivojlanishi bilan ongning yangi shakllari paydo bo‘lishi ehtimolini inkor eta olmaymiz - biznikidan farqli, ammo haqiqiy emas. Bu falsafa, nevrologiya, informatika va axloqni bog‘laydigan moslashuvchan, fanlararo yondashuvni talab qiladi. Inson ongining chegaralari statik emas; ular bizning tushunchamiz chuqurlashgani va sun'iy onglar bizni fikrlash, his qilish va o‘zlikni anglash mohiyatini qayta ko‘rib chiqishga chaqirgan sari rivojlanadi. AI hech qachon ongli bo‘ladimi yoki yo‘qmi, noaniq bo‘lib qolmoqda, ammo uning bizning falsafiy asoslarimizga qarshi kurashi allaqachon chuqur o‘zgaruvchan.

Foydalanilgan adabiytlar ro‘yhati

1. Davronovich M. A. PHILOSOPHICAL VIEWS OF RENE DEKART IN THE WORK “THE FIRST PHILOSOPHY” //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – №. 06. – C. 176-180.

2. Searle J. R. The intentionality of intention and action //Cognitive science. – 1980. – T. 4. – №. 1. – C. 47-70.

3. Hnyk T. Komentovaný překlad: Tomas Nagel: What is it like to be bat?(In: Philosophical Review LXXXIII, 4 (October 1974). – 2012.

4. Turing A. M. Computing machinery and intelligence. – Springer Netherlands, 2009. – C. 23-65.

5. Chalmers D. J. Facing up to the problem of consciousness //Journal of consciousness studies. – 1995. – T. 2. – №. 3. – C. 200-219.

6. Kurzweil R. The singularity is near //Ethics and emerging technologies. – London : Palgrave Macmillan UK, 2005. – C. 393-406.

7. Rus Z. Moris Merlo-Ponti: Oko i duh. Vuk Karadžić, Beograd, 1968 //Život umjetnosti: časopis o modernoj i suvremenoj umjetnosti i arhitekturi. – 1968. – T. 7. – C. 246-248.

8. Thorn P. D. Nick Bostrom: Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies: Oxford University Press, Oxford, 2014, xvi+ 328,£ 18.99, ISBN: 978-0-19-967811-2. – 2015.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Kurbonov Xurshidbek
Alfraganus universiteti tadqiqotchisi, ISFT instituti dotsenti, f.f.n.
D.Bozarov taqrizi asosida

UDK: 101.1

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya. *Aholi sog‘lig‘ini saqlash, sog‘lom yosh avlodni sog‘lom voyaga yetkazish davlat siyosatidagi dolzarb masala. O`zbekistonda shaxsni sog‘lig‘ini saqlash tizimini tubdan isloh qilish, fuqarolarni sog‘lig‘ini mustahkamlash, ushbu tizimni jahon standartlari darajasiga olib chiqish, jamiyatni sog‘lomlashtirish bo‘yicha barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Maqolada ushbu masalalar bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *aholi, yosh avlod, sog‘lig‘ini saqlash, davlat siyosati, jamiyatni sog‘lomlashtirish, tibbiy xizmatlar kengaytirish.*

Курбонов Хуршидбек
Научный сотрудник Университета Альфраганус, доцент Института ИСФТ, к.ф.-м.н.
На основе отзыва Д. Бозарова

Аннотация. *Сохранение здоровья населения и воспитание здорового молодого поколения является актуальной задачей государственной политики. В Узбекистане используются все возможности для кардинального реформирования системы здравоохранения, укрепления здоровья граждан, приведения этой системы к мировым стандартам, улучшения здоровья общества. В статье описываются реформы, проводимые по этим вопросам.*

Ключевые слова: *население, молодое поколение, здравоохранение, государственная политика, улучшение здоровья общества, расширение медицинских услуг.*

Kurbonov Khurshidbek
Researcher at Alfraganus University, Associate Professor of the ISFT Institute, Ph.D.
Based on the review of D. Bozarov

Abstract. *Maintaining public health and raising a healthy young generation is an urgent task of state policy. In Uzbekistan, all opportunities are used to radically reform the health care system, strengthen the health of citizens, bring this system to world standards, and improve the health of society. The article describes the reforms carried out on these issues.*

Keys words: *population, young generation, health care, state policy, improving public health, expanding medical services.*

Kirish.

“Aholi sog‘lig‘ini saqlash, sog‘lom yosh avlodni sog‘lom voyaga yetkazish davlat siyosatidagi dolzarb masala. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 48-moddasida ta’kidlanganidek, “har kim sog‘ligini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash choralarini ko‘radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”{1}.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shaxsni sog‘lig‘ini saqlash tizimini tubdan isloh qilish, fuqarolarni sog‘lig‘ini mustahkamlash, ushbu tizimni jahon standartlari darajasiga olib chiqish, jamiyatni sog‘lomlashtirish bo‘yicha barcha imkoniyatlar ishga solindi.

Tasdiqlangan huquqiy hujjatlar tez tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish, ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, sohada ilmiy-tadqiqot faoliyati ko‘lamini kengaytirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy etishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, respublikaning barcha hududlarida kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlash maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari keng yo‘lga qo‘yildi. “Yetakchi respublika

ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika tashkilotlari respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlariga aylantirilib, ularning asosiy vazifalari belgilandi"{2}.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

X.Pulatov, D.Yusubov, A.Eshamonov, Z.Kadirova, D.Raximova, M.Melikova, T.Ismoilov kabi olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda qishloq sharoitida tabiatni muhofaza qilish madaniyati, ekologik ongni shakllantirish, yosh kadrlarni madaniy dunyoqarashini o'stirish masalalari, yoshlar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlili amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar.

Aholiga tibbiy xizmatlarni kengaytirish, sifat va samaradorligini oshirish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. 2013-2017-yillar davrida bolalikdan nogironlar tug'ilishining oldini olish uchun tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi doirasida barcha «Ona va bola skrining» markazlari hal qilish qobiliyati yuqori bo'lgan biokimyoviy analizatorlar va zamonaviy ultratovush skanerlar bilan jihozlandi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika «Ona va bola skrining» markazlari chaqaloqlarda va kichik yoshdagi bolalarda irsiy kasalliklarning keng doirasiga tashxis qo'yish uchun yuqori texnologik analizatorlar – tandem mass-spektrometrlar bilan jihozlandi.

"Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 1,1 milliondan ortiq homilador ayol tekshiruvdan o'tkazildi, bu 21 ming nafardan ortiq rivojlanishida tug'ma nuqsonlar bo'lgan bola tug'ilishining oldini olish imkonini berdi. 1,7 milliondan ortiq chaqaloq tug'ma va irsiy kasalliklar yuzasidan tekshirildi, 2,7 ming nafar bolaga rivojlanishning tug'ma nuqsonlarini bartaraf etish yuzasidan malakali tibbiy yordam ko'rsatildi. "2018–2022-yillar davrida bolalarda tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi"{3} tasdiqlandi va asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Ushbu dastur «Ona va bola skrinigi» markazlarning kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash va mutaxassislari malakasini oshirish, homiladorlikni birinchi 3 oyida tekshiruvdan o'tkazilishi, homilada yuz berishi mumkin bo'lgan tug'ma, irsiy kasalliklarni oldi olinishiga, erta tashxis qo'yishga yordam berdi. Shuningdek, chaqaloqlarni yoppasiga tekshiruvdan o'tkazish, tug'ma va irsiy kasalliklarning birlamchi profilaktikasi bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish, irsiy kasalliklarga chalingan kasallarni davolash samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratildi.

"O'tgan davr mobaynida sog'liqni saqlashning xususiy sektori tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar turlari 50 tadan 126 taga ko'paydi. Stomatologiya va kosmetologiya tashkilotlaridan tashqari xususiy tibbiyot tashkilotlari barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalarni to'lashdan, shuningdek olib kelinadigan yangi tibbiyot asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, ularning ehtiyot qismlari va zarur materiallar uchun bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etildi. "Respublikaning qishloqlarida va olis tumanlarida aholini sog'lig'ini saqlash maqsadida tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalarni ham davlat ro'yxatidan o'tkazishga ruxsat berildi. Ular litsenziyaga ega bo'lgandan boshlab 10 yil davomida soliqlardan ozod etildi. Natijada, xususiy tibbiyot muassasalarining soni 440 taga ko'payib, ularning umumiy soni 4 ming"{4}tani tashkil etdi.

"Mamlakatimizda ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning samaradorligi, sifati va qulayligini oshirish ta'minlandi, BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlarining asosiy parametrlariga erishildi. Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash sohasida mamlakatimiz erishgan yutuqlarga xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baho berildi. Masalan, aholining umr ko'rishi 4,6 yoshga – 1995 yildagi 69,1 yoshdan 2017 yilda 73,7 yoshga oshdi. Onalar o'limi ko'rsatkichi 3,1 baravarga kamayib, 100 ming nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 21 ta holatni tashkil etdi, chaqaloqlar o'limi esa 3,1 baravarga kamayib, 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 11,5 ta holatni tashkil etdi. Bolalarda eng ko'p uchraydigan kasalliklarga qarshi emlash va profilaktika tadbirlari bilan qamrab olish darajasi 96–98 foizda qat'iy saqlanib turibdi"{5}.

"2017 yilda tez tibbiy yordam xizmati uchun 1269 ta ixtisoslashtirilgan avtotransport xarid qilindi va bu hududlarning ixtisoslashtirilgan avtotransport vositalariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplash imkonini berdi, tez tibbiy yordam xizmatini dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash esa 2 baravar ko'paydi"{6}. Shuningdek, shoshilinch tibbiy yordamning bepul ko'rsatildi, konstitutsiyaviy asosda malakali tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi joriy etildi.

2018 yilda aholiga shoshilinch tibbiy yordam sifatini oshirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash, kasalliklarni aniqlash, davolash ishlarini samaradorligini oshirishni chora-tadbirlari bo'yicha Dastur tasdiqlandi.

"Call-markazlar"ning faoliyati ta'minlandi. Ushbu markazlar respublikaning barcha hududlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni sifat va samaradorligini oshirishga va shoshilinch chaqiruvga qaratilgan yagona telefon raqami asosida uzluksiz ishlashi ta'minlandi.

"Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash, respublika sog'liqni saqlash sohasini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, shuningdek, sohaga chet el investitsiyalarini faol jalb qilish, umume'tirof etilgan xalqaro standartlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etishning strategik maqsadlari" ishlab chiqildi. Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

Aholini sog‘lig‘ini saqlash borasidagi davlatning innovatsion siyosati natijasida “1991-2017-yillarda umumiy o‘lim ko‘rsatkichi 20 foizga, onalar va chaqaloqlar o‘limi 3,1 barobar kamaydi. O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1995-yilga nisbatan 4,6 yilga oshdi va bugungi kunda 73,7 yilni tashkil etmoqda”.

Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faolligini oshirishni tashkil qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida 2019-2022-yillarda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish Konsepsiyasi, 2019–2022-yillarda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari Dasturi” tasdiqlandi.

2019–2023-yillarda reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish kengashi” tashkil etildi. “Shuningdek, elektron ma’lumotlar almashinuvi dasturi 2020-yil 1-iyuldan boshlab mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat’i nazar barcha tug‘ruqni qabul qilish muassasalarida yuritilishi majburiyati belgilandi.

Ma’lumot uchun shuni ta’kidlash kerakki, respublikaning markazi, viloyat, shahar, tuman markazlarida, aholining sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha tibbiyot xodimlari yetarli, chekka tumanlar va qishloqlarda esa buni aksi, ya’ni tibbiyot xodimlariga bo‘lgan ehtiyoj ortgan. Ushbu muammoni yechimini topish maqsadida “boshqa hududda yashovchi tibbiyot xodimi olis va chekka hududlarda joylashgan oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarga ishga qabul qilinganda ularga kamida 3 yil ishlab berish sharti bilan 30 million so‘m miqdorida bir martalik boshlang‘ich yordam puli, uy-joyi bo‘lmaganlarga esa 3 yil davomida xizmat uy-joylari berilishi yoki bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik pul kompensatsiyasi berilishi” belgilandi.

“Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatni aholiga yaqishlashtirish, shoshiling tibbiy yordamni o‘z vaqtida ko‘rsatish hisobiga fuqarolar hayotini saqlab qolish va ularning faol mehnat qobiliyatini tiklashga imkoniyat yaratish, bolalar, tug‘ish yoshidagi, homilador va bola emizuvchi ayollarni profilaktik maxsus preparatlar bilan bepul ta’minlash hamda refrologiya va gemodializ yordamini ko‘rsatish tizimini yanada yaxshilash maqsadida 2021-2022-yillar davomida tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari tarkibida 35 ta Tumanlararo qo‘shma shikastlanishlar va o‘tkir qon-tomir kasalliklari markazlari”{8} tashkil etildi.

Shuningdek, “davlat budjeti mablag‘lari hisobidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar davolanishga yo‘llanma olish uchun “elektron axborot tizimi” joriy etildi.

“Tibbiy uskunalar xarid qilish hamda ulardagi mutaxassislarning yetakchi xorijiy tibbiy muassasalarda malakasini oshirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan Moliya vazirligiga uning talabnomalariga asosan 2021–2022-yillarda 100 mln. AQSh dollarigacha ekvivalentdagi milliy valyutada yillik 2 foiz stavkada kredit mablag‘lari”{9} ajratildi.

Xulosa va tarliflar. Sog‘lom yosh avlodni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Davlatning innovatsion siyosati natijasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari respublikada aholini, ayniqsa yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda huquqiy poydevor vazifasini bajardi. Aholiga sifatli va keng qamrovli tibbiy xizmatni amalga oshirish maqsadida davlat tizimi bilan birga xususiy sektorni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi. “Ona va bola skriningi” markazi, Call markazlari, “Ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari” kabilar tashkil etilib, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni bir necha bor yuqori pog‘onaga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Янги таҳрирда. –Тошкент: Ўзбекистон, 2023. –Б. 12

2. Ўзбекистон Республикаси аҳолисига 2017-2021 йилларда ихтисослаштирилган тиббий ёрдам кўрсатишни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. 20.06.2017 йилдаги ПҚ-3071-сон. /

3. 2018-2022 йиллар даврида болаларда туғма ва ирсий касалликларни барвақт аниқлаш давлат дастури тўғрисида. 25.12.2017 йилдаги ПҚ-3440-сон.

4. Хусусий тиббиёт ташкилотларини ривож-ш бўйича қўшимча шарт-шароитларни яратиш тўғрисида. 29.12.2017 йилдаги ПҚ-3450-сон.

5. Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида. 07.12.2018 йилдаги ПФ-5590-сон.

6. Шошилинч тиббий ёрдам тизимини жадал такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 25.01.2018 йилдаги ПҚ-3494-сон.

7. 2018-2022 йиллар даврида болаларда туғма ва ирсий касалликларни барвақт аниқлаш давлат дастури тўғрисида. 25.12.2017 йилдаги ПҚ-3440-сон.

8. Аҳолига кўрсатилаётган тиббий ёрдам сифатини янада яхшилаш чора-тадбирлари. 2021 йил 26 июль.ПҚ-5198-сон.

10. Аҳолига тиббий хизматлар кўрсатиш сифатини яхшилаш ва соғлиқни сақлаш соҳасида кадрлар салоҳиятини янада оширишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2021 йил 11 ноябрь. ПҚ-6-сон.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Temirov Humoyunmirzo Najmiddinovich
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: humoyunmirzo.temirov.82@mail.ru

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FINLYANDIYA TAJRIBASI

Annotasiya. *Maqolada Finlyandiya - dunyoda eng kam korrupsiyaga ega bo'lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. shuningdek Finlyandiya tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashishda ko'plab davlatlar uchun namuna bo'la olishi asoslangan.*

Kalit so'zlar. *korrupsiya, mamlakat, iqtisodiyot, ijtimoiy, rivojlanish, tahdid, milliy xavfsizlik.*

Темиров Хумоюнмирзо Наджмиддинович
научный сотрудник, Андижанский государственный университет

ФИНСКИЙ ОПЫТ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

Аннотация. *В статье утверждается, что Финляндия — одна из наименее коррумпированных стран в мире. Он также исходит из того, что опыт Финляндии может послужить моделью для многих стран в борьбе с коррупцией.*

Ключевые слова. *коррупция, страна, экономика, социальный, развитие, угроза, национальная безопасность.*

Temirov Humoyunmirzo Najmiddinovich
Researcher, Andijan State University

FINNISH EXPERIENCE IN FIGHTING CORRUPTION

Abstract. *The article argues that Finland is one of the least corrupt countries in the world. It is also based on the fact that Finland's experience can serve as a model for many countries in the fight against corruption.*

Keywords. *corruption, country, economy, social, development, threat, national security.*

Korrupsiya mamlakatlar iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Korrupsiya va milliy xavfsizlikka qarshi kurashish sifatida Finlyandiyada Transparency International [1], korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshiradigan xalqaro tashkilot tashkil etilgan bo'lib, u davlat idoralarida 1995-yildan beri korrupsiyani idrok etish indekslarini shakllantirish va nashr etishga yo'naltirilgan tashkilot hisoblanadi.

Finlyandiyaning korrupsiyaga qarshi kurashishidagi muvaffaqiyati bir nechta omillarga asoslangan:

1. **Kuchli huquqiy tizim** – Finlyandiyada qonun ustuvorligi juda yuqori va sudlar mustaqil ishlaydi. Korrupsiyaga aralashgan amaldorlar qattiq jazolanadi.
2. **Ochiqlik va shaffoflik** – Davlat tashkilotlari va byudjet mablag'larining xarjatlari ochiq va jamoatchilikka oshkor etiladi. Ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi va erkinligi ta'minlangan.
3. **Kuchli ta'lim va madaniy qadriyatlar** – Jamiyatda halollik, adolat va mas'uliyat tuyg'usi bolalikdan tarbiyalanadi.
4. **Mustahkam iqtisodiy tizim** – Maoshlar yuqori bo'lgani sababli, davlat xizmatchilari pora olishga ehtiyoj sezmaydi.
5. **Ochiq hukumat va jamoatchilik nazorati** – Finlyandiyada fuqarolar davlat organlari qarorlarini nazorat qila oladi, va ular bilan muloqot qilish imkoniyati katta.

Mamlakatlar tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan 17 ta so'rov va tadqiqotlar ma'lumotlari asosida davlat xizmatchilari va siyosatchilar o'rtasida korrupsiya haqidagi tasavvurlar darajasiga ko'ra tartiblangan va mahalliy tahlilchilar tomonidan olib boriladi. Davlat xizmatchilari o'rtasida korrupsiya muammosiga alohida e'tibor qaratiladi va u shaxsiy manfaatlar uchun lavozimni suiiste'mol qilish sifatida tavsiflanadi. Masalan davlat amaldorlarining poraxo'rligi sifatida. "Buzuq xarakterdagi noqonuniy xatti-harakatlar jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining eng salbiy omillaridan biridir."[2]

Dunyo statistikasida Transparency International statistikasi shuni ko'rsatadiki, 1995-1997-yillarda Finlyandiya korrupsiya bo'yisa to'rtinchi o'rinda edi.

2000-yilda u dunyodagi ikkinchi eng korrupsiyalashgan mamlakatga aylandi va 2001-yilda yetakchi va xalqaro reytinglarda bu pozitsiyalarni “mustahkam” egallaydi. Finlyandiyaning yutuqlari korrupsiyaga qarshi kurash ushbu tashkilot tomonidan olib borilgan boshqa tadqiqotlarda ham o‘z aksini topgan, xususan Global korrupsiya barometri va pora beruvchilar indeksi bunga misol bo‘la oladi. [3]

Finlyandiyada korrupsiyaga qarshi kurashish uchun kuchli huquqiy baza va qonunlar mavjud. Mamlakatdagi qonunlar korrupsiyani oldini olish, uni aniqlash va jazolashga qaratilgan. Quyida Finlyandiyadagi asosiy korrupsiyaga qarshi qonunlar va mexanizmlar keltirilgan:

1. Jinoyat kodeksi (Rikoslaki)

Finlyandiya Jinoyat kodeksida (Penal Code of Finland) korrupsiyaga oid jinoyatlar aniq belgilangan. Unda quyidagi harakatlar korrupsiya sifatida qaraladi:

- Davlat xizmatchilarining pora olishi yoki berish;
- Noqonuniy mukofotlar qabul qilish;
- Xususiy sektorda pora berish yoki olish;
- Xalqaro miqyosdagi korrupsiya;

Bu jinoyatlar uchun jarima yoki ozodlikdan mahrum etish kabi jazo choralari ko‘riladi.

2. Davlat xizmatchilari uchun odob-axloq qoidalari

Finlyandiyada davlat xizmatchilari uchun aniq tartib-qoidalar mavjud:

- Ular shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo‘ya olmaydi;
- Har qanday manfaatlar to‘qnashuvini oldindan xabar qilishlari kerak;
- Har qanday porani qabul qilish qat’iyan man etiladi;

Bu qoidalarni buzgan amaldorlar qonunchilik bo‘yicha jazolanadi.

3. Jamoat axborotining ochiqlik to‘g‘risidagi qonun (Act on the Openness of Government Activities)

- Finlyandiyada davlat tashkilotlari faoliyati shaffof bo‘lishi shart;
- Barcha davlat hujjatlari ommaviy axborot uchun ochiq;
- Fuqarolar va jurnalistlar davlat qarorlari haqida ma’lumot olish huquqiga ega;

Bu qonun korrupsiya xavfini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

4. Xalqaro konvensiyalarga muvofiqlik

Finlyandiya xalqaro korrupsiyaga qarshi konvensiyalarga qo‘shilgan.

- **Yevropa Ittifoqi qonunlari**
- **OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) korrupsiyaga qarshi konvensiyasi**
- **BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC)**

Bu konvensiyalar Finlyandiya qonunlarini xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

5. Finlyandiyada korrupsiyaga qarshi idoralar

Finlyandiyada korrupsiyaga qarshi bir nechta tashkilotlar ishlaydi:

- **Politsiya va prokuratura** – korrupsiyaga oid ishlarni tekshiradi va jinoiy javobgarlikka tortishadi.
- **Ombudsman (Parliamentary Ombudsman)** – davlat organlari ustidan nazorat o‘rnatadi.
- **Davlat auditi tashkiloti (National Audit Office)** – davlat mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanishni nazorat qiladi.

Finlyandiya Jinoyat kodeksida "korrupsiya" atamasi yo‘q. Mansabdor shaxslarning poraxo‘rligi aniqlansa, buning uchun jinoyat hajmiga qarab jarima jazosidan to‘rt yilgacha ozodlikdan mahrum qilishgacha tegishli jazo beriladi.

Finlyandiyada korrupsiyaning eng keng tarqalgan turi bu pul yoki alkogol shaklida pora berishdir. Mansabdor shaxslar tomonidan xizmatlar ko‘rsatish. Politsiya shunga o‘xshash holatlarni 2012-yilgi shahar saylovlarida aniqlagan. Finlyandiya huquq-tartibot idoralari saylovchilarning poraxo‘rligini korrupsiyaning xavfli turi deb hisoblashadi.

Aslida, Finlyandiyada korrupsiyaga qarshi qonun yo‘q va uni nazorat qiladigan Davlat organlari ham yo‘q. Poraxo‘rlik jinoiy jinoyatchilikning bir qismi sifatida qaraladi. Barcha darajadagi Qonunchilik, me’yoriy hujjatlar va boshqa nazorat tizimlarida tartibga solinadi.

Finlyandiyada axloqiy me’yorlar alohida rol o‘ynaydi. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari korrupsiyaga qarshi normalarga rioya etilishini nazorat qiladi va ular buzilgan taqdirda choralar ko‘radi.

Adliya kansleri va Parlament Ombudsmani Konstitutsiyaviy va boshqa inson huquqlari bo‘yicha Komissar, respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi, lekin o‘z faoliyatida mutlaqo mustaqil bo‘lib, tergov o‘tkazish va chora ko‘rish uchun zarur bo‘lgan barcha vositalar va huquqlarga ega hisoblanadi. Adliya kansleri hukumatning barcha tarmoqlari va darajalari faoliyatini nazorat qiladi.

Finlyandiyada Adliya kansleri, Oliy yoki ma’muriy sud a’zolari kabi maxsus toifadagi yuqori lavozimli amaldorlarga qo‘yilgan ayblovlarni ko‘rib chiqish uchun maxsus organ – zarur bo‘lganda chaqiriladigan, ammo ishlaydigan Davlat sudi mavjud u Finlyandiya Konstitutsiyasida belgilangan qoidalarga asoslanadi. Ushbu sud ham ko‘rib chiqish huquqiga ega hisoblanadi [4].

Finlyandiya korrupsiyaga qarshi siyosatini xalqaro standartlar va me’yorlarga muvofiq xalqaro huquqiy vositalardan foydalangan holda amalga oshiradi. Ushbu sohadagi yirik tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1997-yilgi Yevropa

Ittifoqining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, iqtisodiy hamkorlik Tashkilotining 1998-yilgi Konvensiyasi kabi hujjatlar va Poraxo‘rlikka qarshi kurash bo‘yicha rivojlanish va Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, 2003-yil dekabr oyida Mexiko shahrida qabul qilinib, imzolangan va ratifikatsiya qilingan.

Finlyandiya jamiyati barqaror va uning qatlamlari o‘rtasida sezilarli siyosiy farqlar deyarli yo‘q bo‘lib, o‘ta qashshoqlik umuman mavjud emas. Aksariyat finlar o‘rta sinfga tegishli bo‘lib, ular xavfsizlikda yashash va o‘z kelajagi va farzandlarining kelajagini rejalashtirish imkoniyatiga ega.

Finlyandiyada korrupsiya tarqalishiga to‘sqinlik qiluvchi eng muhim omillardan biri bu mansabdor shaxslarning moliyaviy xavfsizligi va ijtimoiy himoyasi hisoblanadi. Ba’zi mamlakatlarda korrupsiya muammosi siyosiy partiyalarni moliyalashtirish bilan bog‘liq. Ba’zi Yevropa mamlakatlarida saylov kampaniyasiga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan xususiy mablag‘lar miqdorini cheklash tizimi mavjud.

Finlyandiyada boshqaruvdad yaxshi rivojlangan axloqiy qadriyatlar tizimi asosida boshqariladi, unga davlat amaldorlari va oddiy fuqarolar ham qat’iy rioya qiladilar. Bu tizim farovon jamiyat va davlatning kalitidir.

Jamoatchilik ishonchi Finlyandiyada hukumati va davlat institutlarining obyektivligi, xolisligi va qonuniyligi juda yuqori o‘rinda turadi [5]. Siyosiy partiyalarga shaxsiy xayr-ehsonlarning shaffofligi va halolligi, boshqa ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi, zaif nuqta bo‘lib qolmoqda.

Yaxshi shakllangan va rivojlangan fuqarolik jamiyati, yuqori darajadagi huquqiy ong va huquqiy madaniyat bilan birgalikda Finlyandiyada korrupsiya o‘sishining oldini olishga yordam beradi.

Bunga korrupsiya mavjud bo‘lgan mamlakatdagi umumiy vaziyat yordam beradi odatda jamiyat tomonidan rad etiladi. [6]

O‘tgan asr 60-yillarida Davlat sudi tomonidan korrupsiya bo‘yicha ko‘plab yirik jinoiy ish qo‘zg‘atilgan. 1960-yil poraxo‘rlar orasida mas’ul davlat lavozimida xizmat qilgan sobiq Aarri Simonen, Vilyo Vyayriyen kabi parlament deputatlari, vazirlar bor edi. Moliya vaziri Simonen “Rakennusliike Teora Oy” nomidagi yirik zamonaviy obyekt qurilishiga buyurtma berib, bajarilmagan ish hisobidan noqonuniy ravishda 200 million fin markasi miqdorida avans oladi. Ko‘p o‘tmay, kompaniya bankrotga uchraydi va soliq to‘lovchilar 300 million fin markasiga aldanadi. 1961-yil 14-dekabrda sud xizmat lavozimida sodir etgan jinoyati uchun mansabdorga nisbatan 375 ming marka soliq to‘lash to‘g‘risida hukm chiqaradi [7].

Xulosa

Finlyandiyada korrupsiyaga qarshi qonunlar shaffoflik, mas’uliyat va jazoning muqarrarligiga asoslangan. Davlat xizmatchilari, xususiy sektor va jamoatchilik o‘rtasida kuchli nazorat mexanizmi mavjud. Shu sababli, Finlyandiya dunyodagi eng kam korrupsiyaga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Konvensiya Organizatsii Obyedinennых Natsiy protiv korrupsii (prinyata Generalnoy Assambleey OON 31-oktyabrya 2003 g.).

2. Godunov I.V. Osnovы protivodeystviya korrupsii/I.V.Godunov – M: Akademicheskiy proyekt, 2012. – 447 s.

3. https://www.transparency.org/ 7.A ntayeva L.A., Paulov P.A. Korrupsiya v sovremennoy Rossii: problemы protivodeystviya // V sbornike: PRAVOVOE REGULIROVANIE DEYATELNOSTI XOZYAYSTVUYUЩEGO SUBYEKTA. Materialы 15-y mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. 2016. S.

4. Larkina Ye.A. Opыt borbы s korrupsiyey v Finlyandii. *Vestnik magistraturы. 2018. № 4-2(79). – C.150.*

5. Matti Joutsen, Juna Keranen Corruption and the prevention of corruption in Finland. www.om.fi

6. Matti Joutsen, Juna Keranen Corruption and the prevention of corruption in Finland www.om.fi

7. **Irismat Abduxoliqov.** https://uza.uz/uz/posts/finlyandiya-korrupciyaga-qarshi-kurashda-hech-kimni-ayamaydi_596893

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdullayeva Iroda Daronovna
"Oila ava gender" ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotchisi

MALAKALI KADRLARNI ISH BILAN TA'MINLASHDA YOSHLAR MIGRATSIYASINING GENDER XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekistonning 3 millionga yaqin fuqarosi xorijiy mamlakatlarda ishlamoqda. Ularning ko'p qismini kuch-quvvatga to'la yoshlar tashkil etishi bois mamlakat tarixida ilk bor "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda huquqlari va manfaatlarini himoya qilig jamg'armasi tashkil etilishi yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *Mintaqa, yagona, davlat, moliyalashtirish, odam savdosi, yordam, Respublika, reablitatsiya, markaz.*

Абдуллаева Ирода Дароновна
Научный сотрудник НИИ «Семья и гендер»

ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МОЛОДЕЖНОЙ МИГРАЦИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ТРУДОУСТРОЙСТВА КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ

Аннотация. *В статье говорится, что около 3 миллионов граждан Узбекистана работают за рубежом. Поскольку большинство из них — молодые и энергичные люди, впервые в истории страны был принят Закон «О частных агентствах занятости». Постановлением Президента Республики Узбекистан предусмотрено создание Фонда поддержки граждан, работающих за рубежом, защиты их прав и интересов.*

Ключевые слова. *Регион, единый, государственный, финансирование, торговля людьми, помощь, Республика, реабилитация, центр.*

Abdullayeva Iroda Daronovna
Researcher, Research Institute "Family and Gender"

GENDER CHARACTERISTICS OF YOUTH MIGRATION IN PROVIDING QUALIFIED PERSONNEL WITH EMPLOYMENT

Abstract. *The article describes the fact that about 3 million citizens of Uzbekistan work abroad. Since most of them are young people full of energy, for the first time in the history of the country the Law "On Private Employment Agencies" was adopted. The resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on the establishment of a fund to support citizens working abroad and protect their rights and interests is highlighted.*

Keywords. *Region, unified, state, financing, human trafficking, assistance, Republic, rehabilitation, center.*

Mintaqada yagona bo'lgan va davlat tomonidan to'liq moliyalashtiriladigan Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha respublika reablitatsiya markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

Xalqaro mehnat migratsiyasi tavsiyalariga ko'ra, fuqarolar mamlakatda qolish muddatiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:

Tashrif buyuruvchilar - bu erda uch oydan kam bo'lgan odamlar (masalan, sayyohlar). Bu toifa immigrantlar hisoblanmaydi, biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasining ulushi qisqa muddatga (uch oydan kam) sodir bo'lishi mumkin, masalan, mavsumiy migratsiya yoki ma'lum qisqa muddatli ishlar uchun chet ellik ishchilarni yollash.

Migrantlar, shu jumladan

– qisqa muddatli muhojirlar – odatdagi yashash joyidan boshqa davlatga kamida 3 oy va 12 oydan ortiq bo'lmagan muddatga ko'chib kelgan shaxslar;

- uzoq muddatli migrantlar - doimiy yashash joyiga ega bo'lgan boshqa davlatga kamida bir yil (12 oy) muddatga ko'chib o'tadigan odamlar.

Ma'lumki, so'nggi yarim asrda ulkan iqtisodiy natijalarga erishgan Turkiya, Xitoy, Hindiston, Filippin va hatto sanoati rivojlangan Yaponiya ham migratsiya jarayonlarini tizimli ilmiy jihatdan o'rganish, inson

tajribasi sotsiologiyasi orqali ulkan yutuqlarga erishdi. Ularning tajribasidan endi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar ham samarali foydalanmoqda.

Umuman olganda, mehnat migratsiyasi mahalliy mehnat bozoridagi inqiroz tufayli yuzaga kelgan vaziyatdir. Mehnat bozori inqirozini tavsiflovchi bir qator tarkibiy muammolar mavjud:

– eski texnika va texnologiyalar, qo‘l mehnati, kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyalanmagan faoliyat turlaridan foydalanishga moyillik;

– mehnatni ko‘p talab qiluvchi tarmoqlar va tarmoqlar yo‘qligi sababli qo‘l mehnatining rivojlanmaganligi;

– ba’zi zamonaviy hududlarda zamonaviy uy-joy bozorining harakatsizligi tufayli zaif mintaqaviy va professional harakatchanlik;

– mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishchi kuchining kasbiy va malakaviy tuzilmasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik.

Migratsiya jarayonining hozirgi bosqichi avvalgilaridan ko‘lami, geografik xususiyatlari, o‘zgarish va integratsiyaning dinamik ko‘rsatkichlari, ijtimoiy-demografik tuzilishi bilan farq qiladi. Dunyo bo‘ylab migratsiya oqimining yo‘nalishi o‘zgarmoqda, xususan, O‘zbekiston fuqarolarining uzoq davlatlarga (AQSh, Yevropa, arab mamlakatlari, asosan, BAA, Misr, Bahrayn, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Koreya, Tailand, Malayziya), shuningdek qo‘shni mamlakatlarga (masalan, Rossiya, Qozog‘iston).

Pandemiyadan oldingi sharoitlarda butun dunyo bo‘ylab migratsiya qiluvchilar soni keskin oshganini ko‘rayotganimiz sababli, pandemiyadan keyin ham ularning soni ortishi kutilayotgani bejiz emas. Migratsiyaning kuchayishiga qashshoqlik, ishsizlik, inson huquqlarining buzilishi, kelajakka umidsizlik va umidsizlik, turli mojarolar va urushlardan qo‘rqish kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda fan va amaliyotda yoshlarni kasbga yo‘naltirish, mavjud va yangi ish o‘rinlarini raqamlashtirish, yoshlar ishtirokida yuqori sifatli migratsiya jarayonlarini boshqarish, shu orqali mehnat bozorining yoshlar segmentini tartibga solish, mehnat resurslarini ishga tushirishni minimallashtirish bo‘yicha samarali vositalar mavjud. professional, malaka, malaka va mintaqaviy balans. takomillashtirish keng qamrovli kontseptsiyani talab qiladi.

Bu, o‘z navbatida, mehnat bozorining yoshlar segmentini tartibga solish va takomillashtirish masalalarini ilmiy tadqiq qilish uchun asos bo‘ladi.

O‘z tabiatiga ko‘ra migrantlar tadbirkorlar va jamiyatning faol a’zolaridir. Tarixan migratsiya iqtisodiy o‘sishga, xalqlarning assimilyatsiyasiga va marginallashgan madaniyatlarning boyib ketishiga olib keldi .[7]

Farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini takomillashtirish, xorijda ishlash istagida bo‘lgan shaxslarni talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish, fuqarolarning xorijdagi huquqlarini himoya qilish, qaytgan mehnat migrantlarini ishga joylashtirish; shuningdek, ularning oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.

Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi quyidagilardan iborat:

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga tashkiliy ravishda jo‘natish ko‘lamini kengaytirish, bu maqsadlarda vazirliklar, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifa va vakolatlari doirasini kengaytirish;

– tashqi mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijdagi vatandoshlar tashkilotlari va o‘zbek diasporalari bilan aloqalarni mustahkamlash;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari xorijga ishlash uchun ketgunga qadar ularga amaliy kasblar va tillarni o‘rgatishning samarali usullarini yo‘lga qo‘yish, ularning kasbiy malakasini tasdiqlovchi xalqaro miqyosda tan olingan sertifikatlar berish tizimini joriy etish;

– og‘ir ahvolda qolgan mehnat muhojirlarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash, madaniy-ma’rifiy tadbirlarini o‘tkazish amaliyotini kengaytirish;

– xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarning huquqlarini rag‘batlantirish va ta’minlash, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– mehnat migratsiyasidan qaytganlarning reintegratsiyasi, shu jumladan ularni ishga joylashtirish, malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish .[8]

Farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini takomillashtirish, xorijda ishlash istagida bo‘lgan shaxslarni talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish, fuqarolarning xorijdagi huquqlarini himoya qilish, qaytgan mehnat migrantlarini ishga joylashtirish; shuningdek, ularning oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.

[7] Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 15-sentabrda imzolangan “Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4829-son qarori .

[8] Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 15-sentabrda imzolangan “Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4829-son qarori

Shuningdek, 2021-yil 1-yanvardagi farmonga asosan:

– "Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri" axborot tizimida e'tirof etilgan, ehtiyojmand oila a'zosi va uyushgan mehnat migratsiyasi bo'yicha xorijga vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan shaxslarga mikrokreditlar berish tartibi joriy etildi;

– mikrokreditlar chet elda ishga joylashish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun (shu jumladan, sayohat xarajatlari, ishga joylashish uchun ruxsatnomalarni rasmiylashtirish) bir yil muddatga 10 (o'n) million so'mgacha miqdorda beriladi;

– mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkasining Markaziy bankning bazaviy stavkasidan yuqori bo'lgan qismi, lekin bazaviy stavkaning 1,5 (bir yarim) baravaridan ko'p bo'lmagan qismi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi tomonidan qoplanadi.

Jahon bankining 2020-yilning 2-chorak uchun Jahon iqtisodiy prognozi 4-bobidagi yangi tadqiqot "... biz migratsiyani qabul qiluvchi mamlakatlarga iqtisodiy ta'sirni ko'rib chiqamiz va migratsiya odatda qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va samaradorlikni oshiradi" degan xulosaga keldi.

Biroq pandemiya natijasida migratsiya oqimi birdaniga to'xtab qoldi. Haddan tashqari o'zini-o'zi izolyatsiya qilish vaqtinchalik, ammo pandemiya umumiy izolyatsiya tuyg'usini va tashqi dunyoga ochiqlikka ishonchsizlikni kuchaytirishi va mamlakatlarning immigrantlarni qabul qilish moyilligiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Immigratsiyaning qisqarishi tashqi migratsiyani qo'llab-quvvatlovchi mamlakatlarda ishsizlikning oshishiga va uy xo'jaliklariga pul o'tkazmalarining qisqarishiga olib keldi.

Bundan tashqari, migratsiya ijtimoiy hayotning ko'plab sohalariga ta'sir qiluvchi murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi, chunki migratsiya insoniyat tarixida muhim rol o'ynaganligi sababli, ular jamoaviy va mehnat munosabatlarining rivojlanishi, erlarni o'zlashtirish, turli xil madaniyatlarning shakllanishi bilan bog'liq. irqlar, madaniyatlar, tillar va odamlar.

Pandemiya holatlaridan tashqari, migratsiya oqimining tez kengayishi barcha global o'zgarishlarning tarkibiy qismiga aylandi.

Yoshlarning mehnat migratsiyasi bugungi kunda global xarakterga ega va globallashuv belgisidir. Ma'lumki, globallashuv – bu xalqlar va davlatlarni birlashtirish jarayoni; xalqlar o'rtasidagi chegaralarning buzilishiga, yagona siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy makonning vujudga kelishiga olib keladi. U turli mamlakatlarning iqtisodiy tizimlarini yagona tizimga, jahon bozoriga birlashtiradi, bu esa odamlarning madaniyati va turmush tarzini o'zgartirishga yordam beradi. Globallashuv jarayoni butun insoniyatning yangi ixtirolar, texnologiyalar, bilimlardan foydalanishini osonlashtiradi, rivojlanish va ijodkorlikdagi taqiq va cheklovlarni olib tashlaydi, shuning uchun globallashuv tizimli bo'lib, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi.

Migratsiyaning har xil turlari iqtisodiy, etnik, ortib borayotgan mehnat zichligi bo'lib, bu globallashuvning o'ziga xos xususiyati bo'lib, mamlakatlarning doimiy aholisi tarkibidagi migrantlar ulushi globallashuv jarayonlariga integratsiyalashuv darajasini aks ettiradi. Biroq, migratsiya jarayonlarining ham afzalliklari, ham kamchiliklari bor, shuning uchun ular qarama-qarshilik va nizolar manbai bo'lib qoladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi sonining tez o'sishi u erda mehnat resurslarining haddan tashqari ko'payishiga olib keldi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda zamonaviy ta'limning rivojlanishi yoshlarga rivojlangan mamlakatlar mehnat bozori talablariga moslashish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, I. A. (2008). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat.
2. G'ofurov, Q. (2019). *Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda falsafaning o'rni*. Falsafa va huquq, №1, 48–52.
3. Zokirov, M. (2020). *Globalizatsiya sharoitida ijtimoiy ong va gender tenglik masalalari*. O'zbekiston falsafiy mulohazalari jurnali, №2, 15–19.
4. Habermas, J. (1987). *The Theory of Communicative Action* (Vol. 2). Cambridge: Polity Press.
5. Althusser, L. (1971). *Ideology and Ideological State Apparatuses*. In: *Lenin and Philosophy and Other Essays*. New York: Monthly Review Press.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yilgi yoshlarga oid siyosat bo'yicha nutqlari. (2023). *Xalq so'zi*, 14-mart soni.
7. Sayfullayeva, D. (2016). *Gender va jamiyat: falsafiy-huquqiy yondashuvlar*. Toshkent: TDYU nashriyoti.
8. Saidov, A.X. (2007). *Falsafa: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik*. Toshkent: Universitet.
9. Bauman, Z. (2000). *Liquid Modernity*. Cambridge: Polity Press.
10. Omonov, A. (2022). *Zamonaviy migratsiya jarayonlarining falsafiy tahlili*. Ilmiy-amaliy jurnal "Falsafa va hayot", №3(58), 30–35.
11. Gulyamov, S. (2021). *Yoshlar va migratsiya: ijtimoiy-falsafiy tahlil*. "Falsafa va huquq" jurnali, №2, 67–71.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Nermatov Bobir Abdusattorovich
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

SAYFIDDIN QUTUZ SHAXSIYATI VA SARKARDALIK FAOLIYATINING SIVILIZATSION SHAROITDA SHAKLLANISHI: XIII ASR MUSULMON JAMIYATIDA LIDERLIK MODELI

Annotatsiya. *Sayfiddin Qutuzning Ayn Jalut jangidagi g‘alaba bu liderlikning kulminatsion nuqtasidir. Mo‘g‘ullar ilk bor to‘liq mag‘lubiyatga uchragan bu jang musulmon ongida g‘alabaga ishonchni qaytargan voqea sifatida tarixda qoldi. Ijtimoiy falsafiy tilda bu jamiyat o‘zligini “qahramon shaxs” orqali anglash fenomenidir.*

Kalit so‘zlar*. Ayn Jalut, jang, g‘alaba, liderlik, kulminatsiya, mo‘g‘ul, mag‘lubiyat.*

Нерматов Бобир Абдусатторович
Научный сотрудник Ферганского государственного университета

ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ И КОМАНДЕРСТВА САЙФИДДИНА КУТУЗА В УСЛОВИЯХ ЦИВИЛИЗАЦИИ: МОДЕЛЬ ЛИДЕРСТВА В МУСУЛЬМАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ XIII ВЕКА

Аннотация. *Победа Сайиддина Кутуза в битве при Айн-Джалуте является кульминацией этого лидерства. Эта битва, в которой монголы впервые потерпели полное поражение, вошла в историю как событие, вернувшее мусульманам веру в победу. На языке социальной философии это явление осознания обществом своей идентичности через “героическую фигуру”.*

Ключевые слова. *Айн-Джалут, битва, победа, лидерство, кульминация, монгол, поражение.*

Nermatov Bobir Abdusattorovich
Researcher at Fergana State University

THE FORMATION OF THE PERSONALITY AND COMMANDERSHIP OF SAIFIDDIN KUTUZ IN CIVILIZATION CONDITIONS: A LEADERSHIP MODEL IN THE 13TH CENTURY MUSLIM SOCIETY

Abstract*. Sayfuddin Qutuz’s victory at the Battle of Ain Jalut is the culmination of this leadership. This battle, in which the Mongols were completely defeated for the first time, went down in history as an event that restored confidence in victory in the Muslim mind. In socio-philosophical language, this is a phenomenon of understanding the identity of society through the ”heroic figure”.*

Keywords. *Ain Jalut, battle, victory, leadership, culmination, Mongol, defeat.*

Tarixiy manbalar Qutuzning siyosiy harakatlarini nafaqat voqelik, balki dramatik, ramziy, ijtimoiy ruhiyatni uyg‘otuvchi kontekstda keltiradi. Bu “literarizatsiya” - tarixiy shaxsni jamiyat ongiga singdirish strategiyasi bo‘lib xizmat qiladi [9]. Shuningdek, Qutuzning sivilizatsiyaviy o‘rni turkiy xalqlarning musulmon dunyosidagi geosiyosiy pozitsiyasi bilan ham bog‘liq. Bahri mamluklarining ko‘pchiligi Movarounnahrdan chiqqan bo‘lib, ular Misrda yangi madaniy-siyosiy muhitni shakllantirdi. Qutuz ularning eng yorqin timsollaridan biri sifatida, turk-islom liderlik modelining sivilizatsiyaviy barqarorlikdagi rolini aks ettirdi[10].

Sayf ad-Din Qutuz fenomeni - bu ijtimoiy ehtiyoj, tarixiy zarurat va shaxsiy salohiyat kesishgan nuqtada yuzaga kelgan sivilizatsion liderlik namunasi. U jamiyatga nafaqat harbiy g‘alaba, balki ma’naviy tiklanish, ijtimoiy konsolidatsiya va tarixiy ishonchni qayta taqdim etdi. Qutuz timsoli orqali XIII asr musulmon jamiyatida liderlik modeli sivilizatsiyaviy ong asosida qayta shakllangan bo‘lib, u shaxs orqali tarixni harakatga keltiruvchi falsafiy kuchning timsolidir.

[9] Yosef, Joseph. (2021). Symbolic Leadership and Literary Historicity in Medieval Islamic Historiography.

[10] Aripova Miss, Z. (2020). STRUCTURE FORMATION MAMLUK SALTANATE IN EGYPT. The Light of Islam, 2020(1), 82-88.

Mamluklar tizimi ichida mavjud bo‘lgan bahriy (ko‘proq turkiy-movaronnahrliklar) va mu’izziy (al-Mu’izz Aybakga sodiq guruhlar) fraksiyalari o‘rtasidagi raqobat - Fuko tomonidan ilgari surilgan “mikrohokimiyat” nazariyasining timsolidir. Qutuz bu raqobatni repressiv kuch bilan emas, balki strategik muvozanatlashtirish bilan yengdi: u har ikki tomonni vaqtincha manfaatdor etuvchi pozitsiyalar bilan siyosiy turg‘unlikni barqarorlikka aylantirdi. Bunday yondashuv sosiologik jihatdan real-politik aqlli manipulyatsiya sifatida baholanadi. Qutuz markazlashgan hokimiyatni tiklash orqali mamlakatning sosiopolitik mohiyatini qayta ta’rifladi. Bu ijtimoiy falsafada Max Weberning ruxiy-karizma va qonuniy hukmronlik nazariyasi bilan to‘qnashadi. Qutuz bir vaqtning o‘zida karizmatik (jang maydonida ishtirok etgan, shaxsiy jasorat ko‘rsatgan) va rasmiy (hukmronlikni qonuniylashtirgan) lider sifatida ko‘rinadi. Uning vakolati xalq tomonidan ehtiyoj darajasida qabul qilindi, bu esa “sivilizatsiyaviy ehtiyoj orqali legitimatsiya” tamoyiliga asoslanadi.

Ayn Jalut jangi – mo‘g‘ullarga qarshi ilk to‘liq g‘alaba – Qutuzning harbiy-intellektual salohiyatining timsolidir. Shaxsning jang maydonida shaxsan ishtirok etishi, tezda strategiyani qayta shakllantirishi – bu Tomas Karleyl ilgari surgan “Qahramonlar orqali tarix” g‘oyasiga muvofiqdir. Bunda tarixiy shaxs ijtimoiy jarayonlarning passiv mahsuli emas, balki faol determinanti sifatida qaraladi. Qutuzning zamondoshlari tomonidan yuqori baholanishi, keyingi tarixchilarning uni dramatik va ramziy tarzda tasvirlashi (masalan, Maqrizi, Ibn Taghribirdi) — bu “ijtimoiy ongni shakllantirishda shaxsiy obrazning konstruksiyasi” fenomenidir[11]. Bu fenomen Roland Barthesning mitologik liderlik nazariyasida o‘z ifodasini topadi: tarixiy shaxs muayyan ijtimoiy xotiraning timsoli sifatida qayta ishlab chiqiladi.

Qutuzning turkiy-movaronnahrlik ildizlari, uni Misrda sivilizatsiyaviy oraliq shaxsga aylantirdi. U Sharqiy Yevrosiyo bilan Islom dunyosi o‘rtasida madaniy vositachi rolini bajardi. Bu holat Spenglerning “sivilizatsiyalar oralig‘idagi qutbli liderlik” nazariyasiga hamohangdir. U turkiy xalqlarning musulmon dunyosidagi tarixiy missiyasini kuchli harbiy va ma’naviy pozitsiyada aks ettirdi. Amitai fikricha, Qutuzning jangovar rejalashtirish uslubi va kontingentlarni joylashtirishdagi o‘ziga xosligi haqidagi yangi arxiv dalillarni tahlil qiladi[12]. Ayn Jalutda mo‘g‘ullar tomonidan berilgan kutilmagan zarbaga berilgan tezkor javob — harbiy yetakchilikda intellektual tayyorgarlikning namunasidir.

Levanoni mamluklarning ichki fraksiyalari orasidagi kuchlar muvozanati va Qutuzning siyosiy o‘yinlari orqali markazlashgan hokimiyatga erishganini sotsiopolitik nazariy doirada tushuntiradi[13]. Yosef fikricha, Qutuzning tarixiy obrazining “dramaturgik inshoot” orqali jamiyat xotirasiga qanday singdirilgani haqida ramziy tarixshunoslik kontekstida izohlar beradi. Qutuzning yetakchilik fenomeni — bu shunchaki tarixiy fazilatlar emas, balki sivilizatsiyaviy ehtiyoj, siyosiy strategiya, jamiyat ongidagi arxetip va tarixiy zarurat bilan shakllangan kompleks liderlik modelidir. Uning harakatlari orqali musulmon dunyosi o‘z o‘zligini qayta kashf etdi, va ayni paytda mamluklar tizimining eng murakkab siyosiy strukturalarida ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga erishildi.

Mamluklar tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra harbiy meritokratiya va sadoqatga asoslangan edi. Ammo Qutuz o‘limi bu tamoyilning real siyosiy hayotda saqlanib qolmasligini isbotlaydi. Baybars kabi ittifoqchilarining sadoqat o‘rniga siyosiy pragmatizmni tanlashi – Nikollo Makiavellining “hokimiyat sodiqlikka emas, zaruriyatga asoslanadi”[14] degan g‘oyasining shoh ifodasidir. Bunda shaxsiy manfaatlar kollektiv tuzumdan ustun qo‘yiladi. Qutuzning fojiali o‘limi mamluklar tizimidagi hokimiyat aylanishining zo‘ravon va qonli xususiyatini namoyon etadi. Bu Golbax va Gobbs kabi faylasuflarning hokimiyat uchun kurashni tabiiy holat sifatida qabul qiluvchi yondashuvlarini eslatadi[15]. Aynan shu nuqtada Qutuzning o‘limi mamluklar davlatidagi “post-karizmatik krizis”ga olib keldi: karizmatik lider qulatilgach, tizim o‘zini qayta tiklashga majbur bo‘ldi.

Qutuz o‘z hayotini jang maydonida emas, balki ichki siyosiy xiyonat orqali yakunladi. Bu holat Aristotelning tragediya modeli bilan uyg‘unlashadi – ya’ni shaxsiy fazilat va yetakchilik qobiliyatlari mavjud bo‘lsa ham, ijtimoiy tuzum ichidagi muvozanatsizlik uni qulatadi. Bu “katarsis” (ruhan tozalanish) nuqtasi emas, balki jamiyatdagi struktural nomutanosiblikning ochiq ifodasidir. Qutuzning qisqa hukmronligi, aslida, tarixiy determinatsiya ichida yo‘nalishni belgilovchi intervensiya sifatida o‘qiladi. Uning siyosiy va harbiy harakatlari mamluklar sultonligini mo‘g‘ul xavfidan saqlab qolgan bo‘lsa, uning o‘limi Baybars kabi liderlarga yo‘l ochdi. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu G. V. F. Gegelning “dunyo ruhini amalga oshiruvchi individ”[16] tamoyiliga mos keladi: Qutuz tarixiy zarurat orqali paydo bo‘ldi va o‘z

[11] Al-Maqrizi. al-Khitāt. 14-asr tarixiy manbasi. (Arab tilidagi manba. Qo‘lyozmalar misrlik tarixchilar tomonidan saqlanadi.)

[12] Amitai, R. (1995). Mamluk Perceptions of the Mongol-Frankish Rapprochement. Mamluk Studies Review, 1(1), 1–13.

[13] Levanoni, Amalia. (1991). The Mamluks in Egyptian Politics and Society. In: Cambridge Middle East Studies.

[14] Makiavelli N. Gosudar. - Moskva : OLMA : Prosveщeniye-Soyuz, 2021. - 223 s.

[15] Ivonin Yu.P. Leviafan i homo civis (Istoriya politicheskoy antropologii v yevropeyskom filosofskom soznanii. Epoxa Prosveщeniya) : monografiya / Yu. P. Ivonin, O. I. Ivonina. - Novosibirsk : Izdatelstvo SibAGS, 2021. - 227 s.

[16] Gegel G.V.F. Leksii po istorii filosofii. - Moskva : Eksmo, 2018. - 255 s.

missiyasini bajargach, sahnani tark etdi. Qutuzning oʻlimi musulmon jamiyatida dushmanga qarshi umumiy ruhiy birdamlikni mustahkamlovchi omil sifatida qabul qilindi. U haqidagi tarixiy rivoyatlar (Maqrizi, Ibn al-Davodariy va boshqalar tomonidan) uni shaxs sifatida emas, balki sivilizatsiyaviy qurbongohga aylantiradi[17]. Bu – Emile Durkheimning ijtimoiy birdamlik uchun zarur boʻlgan ramziy qurbonlik gʻoyasi bilan mutanosibdir.

Levanoni mamluklar davrida hokimiyat almashinuvi doimo harbiy ziddiyatlar bilan kechganini tahlil qiladi[18]. Qutuz ham bu qonli aylanishning qurboniga aylandi, biroq avvalgi bosqichdan farqli oʻlaroq, uning oʻlimi umummilliy identitetni mustahkamlovchi harakatlar bilan birga yuz berdi. Yosef mamluk tarixshunosligida shaxsiy biografiyalar qanday ramziy "adabiy artefakt" sifatida ishlatilganini koʻrsatadi[19]. Qutuzning shaxsiyati ramzga aylanib, fitna orqali oʻldirilishi bilan "sadoqat yoʻli"dagi shahidga aylantirilgan. Amitai Qutuz va Baybars oʻrtasidagi murakkab psixologik va harbiy aloqalar asosida suiqasdni pragmatik qaror sifatida baholaydi, ayniqsa Baybarsning keyingi siyosiy yuksalishi nuqtayi nazaridan Qutuzning fojiali oʻlimi — bu shaxsiy tragediya emas, balki ijtimoiy tizimning oʻz tabiatini oshkor etgan dramatik sinov nuqtasidir. Bu holat mamluklar siyosiy strukturasining zaifliklarini, hokimiyat almashinuvidagi zoʻravonlik tsiklini va sadoqat tamoyilining beqarorligini koʻrsatadi[20]. Shu bilan birga, Qutuz tarixiy zarurat sharoitida paydo boʻlgan, qisqa muddatda sivilizatsiyaviy burilish yasagan, va oʻz hayoti bilan ijtimoiy ongda "yetakchilik-qurbonlik" arxetipini mustahkamlagan buyuk tarixiy figuradir.

Sayf ad-Din Qutuz islom tarixida oʻzining dono siyosiy qarorlari, strategik harbiy yurishlari va dushmanga qarshi birlashtiruvchi gʻoyalari bilan yuksak oʻrin egallagan buyuk shaxsiyat sifatida namoyon boʻladi. Uning hayotiy faoliyati faqatgina oʻz davrining voqealari bilan emas, balki keyingi musulmon davlatchiligi va harbiy-siyosiy fikr taraqqiyotiga ta'sir koʻrsatgan tarixiy meros bilan qadrlanadi. Quṭuz shaxsiyati va sarkardalik faoliyatining sivilizatsion sharoitda shakllanishi XIII asr musulmon jamiyatining geosiyosiy muhitida, ayniqsa moʻgʻullar istilosi va islom olamining markaziy institutlarining halokatiga javoban yuzaga kelgan kuchli liderlik zarurati fonida shakllandi. Quṭuzning oʻziga xosligi shundaki, u oddiy bir mamlukdan yetuk davlat rahbarigacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtgan, sivilizatsion xavfga qarshi turishda nafaqat harbiy kuch, balki siyosiy, diniy va ijtimoiy jihatdan moslashuvchan, oʻz davrining liderlik modelini mujassamlashtirgan shaxs sifatida tarixiy maydonga chiqqan.

Qutuzning asirlikdan sultonlikka qadar boʻlgan yoʻli ijtimoiy marginal shaxsning tarixiy markazda agent sifatida shakllanishini anglatadi. Bu yoʻl — Pierre Bourdieu nazariyasi nuqtayi nazaridan — "ijtimoiy kapital" va "simvolik kapital" yigʻish orqali hokimiyatni egallash strategiyasidir[21]. U oʻz bilimini, harbiy tajribasini va psixologik qaror qabul qilish salohiyatini strategik momentda ishga solib, faqat shaxsiy emas, balki sivilizatsiyaviy ehtiyojlar nuqtayi nazaridan muhim harakatni amalga oshirdi. 1259-yilda yosh sulton al-Mansur Ali taxtdan chetlatilishi va Quṭuz tomonidan hokimiyatning egallanishi zamonaviy siyosiy-falsafiy tilda emergent liderlik deb nomlanadi. Bu — Max Weber tomonidan belgilangan "karizmatik legitimatsiya" shaklining realpolitik misolidir[22]. Qutuz oʻzining qarorini shaxsiy ambitsiyalardan emas, balki tarixiy zaruratdan kelib chiqib asoslagan. Mamlakat moʻgʻul tahdidi ostida boʻlgan bir vaqtda, kuchli va qatʼiy lider zarur edi. Shu bois, Qutuzning taxtga chiqishi institutsional ehtiyojga muvofiq shakllangan zarurat hokimiyatidir.

[17] Al-Maqrizi. al-Khitāt. 14-asr tarixiy manbasi. (Arab tilidagi manba. Qoʻlyozmalar misrlik tarixchilar tomonidan saqlanadi.)

[18] Levanoni, Amalia. (1991). The Mamluks in Egyptian Politics and Society. In: Cambridge Middle East Studies.

[19] Yosef, Joseph. (2021). Symbolic Leadership and Literary Historicity in Medieval Islamic Historiography.

[20] Amitai, Reuven. (1995). The Mongol Invasions of Bilād al-Shām and the Ayyubid Response (1239–1260). In: Mamluk Studies Review, Vol. 2, pp. 1–44.

[21] Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. In: Richardson, J. (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education, pp. 241–258.

[22] Weber, M. (1922/1978). Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology. University of California Press.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yosef, Joseph. (2021). Symbolic Leadership and Literary Historicity in Medieval Islamic Historiography.
2. Aripova Miss, Z. (2020). STRUCTURE FORMATION MAMLUK SALTANATE IN EGYPT. The Light of Islam, 2020(1), 82-88.
3. Al-Maqrizi. al-Khitāt. 14-asr tarixiy manbasi. (Arab tilidagi manba. Qo‘lyozmalar misrlik tarixchilar tomonidan saqlanadi.)
4. Amitai, R. (1995). Mamluk Perceptions of the Mongol-Frankish Rapprochement. Mamluk Studies Review, 1(1), 1–13.
5. Levanoni, Amalia. (1991). The Mamluks in Egyptian Politics and Society. In: Cambridge Middle East Studies.
6. Makiavelli N. Gosudar. - Moskva : OLMA : Prosveщeniye-Soyuz, 2021. - 223 s.
7. Ivonin Yu.P. Leviafan i homo civis (Istoriya politicheskoy antropologii v yevropeyskom filosofskom soznanii. Epoxa Prosveщeniya) : monografiya / Yu. P. Ivonin, O. I. Ivonina. - Novosibirsk : Izdatelstvo SibAGS, 2021. - 227 s.
8. Gegel G.V.F. Leksii po istorii filosofii. - Moskva : Eksmo, 2018. - 255 s.
9. Al-Maqrizi. al-Khitāt. 14-asr tarixiy manbasi. (Arab tilidagi manba. Qo‘lyozmalar misrlik tarixchilar tomonidan saqlanadi.)
10. Levanoni, Amalia. (1991). The Mamluks in Egyptian Politics and Society. In: Cambridge Middle East Studies.
11. Yosef, Joseph. (2021). Symbolic Leadership and Literary Historicity in Medieval Islamic Historiography.
12. Amitai, Reuven. (1995). The Mongol Invasions of Bilād al-Shām and the Ayyubid Response (1239–1260). In: Mamluk Studies Review, Vol. 2, pp. 1–44.
13. Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. In: Richardson, J. (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education, pp. 241–258.
14. Weber, M. (1922/1978). Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology. University of California Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xo‘jayev Mo‘minjon Isoxonovich
Alfraganus universiteti Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari Falsafa fanlari doktori

AHMAD ZAKI VALIDIY ILMIY-FALSAFIY MEROSI SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHIT

Annotatsiya. *Maqolada muallif Zaki Validiy ijodi jahon turkshunosligini o‘rganish uchun muhim bo‘lgan asosiy mavzularidan biridir. Ahmad Zaki Validiy o‘zining “Tarixda usul” kitobida Renan, Dreyper, Kromer, Doziy, Massis, Pol Valeri, Kayzerling, Gustav Le Bon, Osvald Shpengler, Arnold Toynbi va boshqalar kabi G‘arb mutafakkirlarining qarashlarini xolis va tanqidiy yoritishga harakat qilgan.*

Kalit so‘zlar. *Boshqird, Turkiya, siyosiy, muhojir, oila, viloyat, islom ma’rifati, madaniyat.*

Ходжаев Моминджон Исохонович
Руководитель Международного исследовательского центра Университета Альфраганус Доктор философии

СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНАЯ СРЕДА В ФОРМИРОВАНИИ НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОГО НАСЛЕДИЯ АХМАДА ЗАКИ ВАЛИДИ

Аннотация. *В статье рассматривается творчество автора Заки Валидия как одна из основных тем, важных для изучения мировой тюркологии. В своей книге «Метод в истории» Ахмад Заки Валиди попытался объективно и критически осветить взгляды западных мыслителей, таких как Ренан, Дрейпер, Кромер, Дозье, Массис, Поль Валери, Кайзерлинг, Густав Лебон, Освальд Шпенглер, Арнольд Тойнби и другие.*

Ключевые слова. *башкир, Турция, политический, иммигрант, семья, регион, исламское просвещение, культура.*

Khojayev Mominjon Isokhonovich
Head of the International Research Center of Alfraganus University Doctor of Philosophy

SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FORMATION OF AHMAD ZAKI WALIDI’S SCIENTIFIC-PHILOSOPHICAL HERITAGE

Abstract. *The article considers the work of the author Zaki Validi as one of the main topics important for the study of world Turkic studies. In his book "Method in History", Ahmed Zaki Validi tried to objectively and critically illuminate the views of such Western thinkers as Renan, Draper, Kromer, Dozi, Massis, Paul Valery, Kayserling, Gustav Le Bon, Oswald Spengler, Arnold Toynbee and others.*

Keywords. *Bashkir, Turkey, political, immigrant, family, region, Islamic enlightenment, culture.*

1917 yil Fevral inqilobidan keyin Boshqird milliy ozodlik harakatiga rahbarlik qilgan. 1918 yil 18 fevral Orenburgda bo‘lib o‘tgan Umumboshqird qurultoyida shaharni bosib olgan ruslar tomonidan hibsga olingan. U shu yilning iyun oyida qamoqdan qochib ketgan. 1919 yil Boshqirdlar davlati tuzilganda mudofaa vaziri etib tayinlanadi. Turkiston milliy birligi jamiyatining asoschisi bo‘lgan. 1925 yilda Turkiyaga borib, Istanbul universitetida ishlagan, 1932 yilda esa Vena shahriga ko‘chib o‘tgan. U Bonn (1935) va Gyottingen universitetlarida (1938) o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. Ahmad Zaki Validiy 1935 yil Manchester universitetining faxriy doktori darajasini oladi.1939 yilda Turkiyaga qaytib keladi. Istanbul universitetida umumiy turk tarixi bo‘limiga asos solgan. Ikkinchi jahon urushi oxirida millatchilik va turonchilik mafkurasini tarqatgani uchun qamoqqa olinadi. Ozodlikka chiqqanidan keyin u universitetda o‘qituvchilik faoliyatini davom ettiradi. Sovet tuzumiga qarshi kurashgan ko‘plab muhojirlar vakillari singari Zaki Validiyning ham xalqi oldidagi xizmatlari sovet tuzumi qulashi arafasidagina o‘zining haqiqiy bahosini oladi. 1990 yilda Ufada Ahmad Zaki Validiy tavalludining 100 yilligi davlat darajasida nishonlandi. Boshqirdiston Milliy kutubxonasiga Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on nomi berilgan. Uning asarlarini tarjima qilish va chop etish yo‘lida ilk qadamlar qo‘yildi. 1995 yilda jahon boshqirdlarining qurultoyida Boshqird prezidenti Murtazo Rahimov uni zamonaviy Boshqird davlatchiligining asoschisi sifatida sharaflagan. Professor Muhammadjon Abdurahmonov shunday yozgan edi:

“Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on XX asrning atoqli sharqshunosi, jahon turkshunosiyasi nuroniylaridan biri, O‘rta Osiyo va Volga bo‘yi turkiy xalqlari tarixi, etnografiyasi va madaniyatiga oid ko‘plab asarlar muallifi, Turkiston xalqlari kurashi markazida bo‘lgan atoqli jamoat arbobi. 1917-1923 yillarda mustaqillik uchun kurashidagi harakatlari uchun Sho‘rolar tomonidan ta’qibga uchrab, vatanini tark etishga majbur bo‘ldi”[23].

Boshqirdlardan bo‘lgan Zaki Validiy To‘g‘on 1890 yil 10 dekabrda hozirgi Boshqirdiston Respublikasi Sterlitamak viloyati Kuzyan qishlog‘ida tug‘ilgan. Asl ismi Ahmad Zaki bo‘lgan To‘g‘on Ahmad Zaki Validiy familiyasini olib, Turkiyaga siyosiy muhojir sifatida ketganidan so‘ng Validi To‘g‘on familiyasini olgan. Uning oilasi o‘zlari yashab turgan viloyatning elita oilalaridan bo‘lib, islom ma’rifati va madaniyatini targ‘ib qilishda katta rol o‘ynagan. Zaki Validiy madrasada o‘qishni boshlagan va diniy saboq oladi. Madrasaga borgan yillari otasi qo‘lidagi muallimdan rus tili, onasidan fors tilidan saboq olib, 1902 yildan O‘tak madrasasi mudarrislaridan amakisi Habib Najjor qo‘lida ta’limni davom ettiradi. Madrasada arab tilidan saboq olgan Zaki Validiy 18 yoshida rus, fors va arab tillarini yaxshi bilardi. U fors tilini o‘z onasidan o‘rganganligini “Xotiralar” kitobida yozadi.

“Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onni buyuk turkshunos deyishadi. Lekin uni sharqshunos deyish to‘g‘riroq bo‘lardi, chunki bu tushuncha uning faoliyatining mohiyatini chuqurroq va kengroq aks ettiradi. U zamonaviy federalizmning kelib chiqishida turdi. Va o‘z tamoyillarini ochiq ifoda eta boshladi”[24].

1908 yilda Zaki Validiy To‘g‘on oilasidan yashirincha Qozon madrasasida saboq ola boshlaydi. O‘sha davr turkiy dunyosining markazi hisoblangan Qozon dunyoga mashhur turkshunos va olimlar istiqomat qilgan shahar hisoblangan. Ozarbayjonlik olim va turkshunos Mirzo Kozimbek sa’y-harakati bilan tashkil etilgan Qozon Sharqshunoslik instituti tez orada chor Rossiyasining barcha hududlaridan musulmon olimlari yig‘iladigan markazga aylandi. Bunday muhitga tushib qolgan Ahmad Zaki Validiy tezda mashhur turkshunoslar Katanov va Ashmarin bilan uchrashadi. Yosh Ahmadning turkiylar tarixi va adabiyotiga bo‘lgan chuqur mehr muhabbati ana shunday boshlangan. Validiyshunos olim M.Abdurahmonov mutafakkir shaxsiyati haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi: “Ahmad Zaki Validiy Boshqirdiston Respublikasining Ishimboy rayoni (sobiq Sterlitamak uezdi)ning Kuzen ovulida Ahmadshoh Valid o‘g‘li Kuzanov-dindor, ma’rifatparvar, o‘z davrining ziyoli oilasida 1890 yil 10 dekabrda tavallud topdi. U boshlang‘ich ta’limni otasiga qarashli madrasada, keyinroq tog‘asining Utyakdagi madrasasida, shuningdek, Ufa shahrida va Qozondagi “Usmoniya”, “Shahobiddin Marjoniy”, “Qosimiya” madrasalarida tahsil oladi”[25].

1909 yilda o‘qishni tamomlagan Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on o‘sha yili Qosimiya madrasasiga “Turk va arab adabiyoti tarixi” fanidan muallim etib tayinlanadi. To‘rt yillik o‘qituvchilik davrida “Turk tarixi” bo‘yicha tadqiqot olib borgan Ahmad Zaki Validiy 1911 yili “Turk-tatar tarixi” nomli kitobini yozadi. Kitob uchun Ahmad Zaki Validiy Qozon universitetining Arxeologiya, tarix etnografiya jamiyati a’zoligiga saylanadi. Universitet tomonidan O‘rta Osiyoda ilmiy tadqiqotlar olib borish topshirilgan Ahmad Zaki 1913 yilda Farg‘onada, 1914 yilda Buxoroda ilmiy va arxeologik tadqiqotlarda qatnashadi. XI asrda yashab o‘tgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” nomli mashhur asarining qo‘lyozmasini topgan. Ahmad Zaki Validiy ilm-fan olamida Farg‘ona nusxasining kashfiyotchisi sanaladi. Bu qo‘lyozma tadqiqotlarini Peterburg arxeologiya jamiyatiga taqdim etgan. Uning Qozon va Toshkent arxeologiya jamiyatlari jurnallarida ko‘plab maqolalari chop etilgan. Turkshunos olim Katanov kutubxonasini Istanbulga olib kelish ustida ishlagan Ahmad Zaki Validiy bu sohada Istanbuldagi Turk institutining ilmiy bazasini yaratdi. “O‘rta Osiyo tarixchilaridan o‘zbek olimi Muhammadjon Abdurahmonov Ahmad Zaki Validiy ijodini chuqur o‘rgangan. Doktorlik dissertatsiyasining “Ahmad Zaki Validiyning Turkistondagi ilmiy faoliyati” nomli bo‘limida siyosiy arbobning hayoti va ilmiy merosini yangicha nuqtai nazardan ko‘rsatdi. Uning turkiy xalqlar tarixi va madaniyatiga oid asarlari, arxeologik va etnologik tadqiqotlariga alohida e’tibor qaratdi. Zaki Validiy “Xotiralar”ida “Ahmad Zaki Validiy nafaqat qisman ma’lum bo‘lgan voqealarga oid boy ma’lumotlarni, balki XX-asr boshlaridagi Turkiston tarixiga oid ko‘plab noma’lum ma’lumotlarni o‘z ichiga olganligi bilan ham qimmatlidir”[26].

“Nemis olimi Le Kok Rashididdinning “Jome ut-tavorix” asarining Sharqiy Turkistonda uyg‘ur harflari bilan yozilgan nusxasi arab alifbosida nashr etilgan. Ba’zi joylarida uyg‘ur tilidagisi ham qolib shu holatda saqlangan nusxasini keltirgan edi (Bu qo‘lyozma nusxa Berlindagi Etnografiya muzeyida saqlanadi). Rashididdinning “Shu’bi panjgona” nomli asarining xonlar ismi va fasllar nomi hamda ba’zi izohlar uyg‘ur harflarida bitilgan mo‘g‘ulcha yozilgan qimmatli nusxasi Topqopi saroyida 2937 raqami ostida saqlanadi. Bu nusxa Qosim sulton bin Sayyid Ahmadxon al-G‘oziyning xos kutubxonasi uchun maxsus yozilgan. Qosim sulton 1532

[23] Абдурахманов М. Научная деятельность А. З. Валидова в Туркестане. – Ташкент: Фан, 2003. 3-4 с.

[24] https://kulturarb.ru/ru/persony/validov-ahmet-zaki

[25] Абдураҳмонов М., А.Зоҳидий, А.З.Валидий Тўғоннинг Туркистонга илмий сафари. (1913-1914 йиллар) - Тошкет: Фан. 1997. - Б.4.

[26] Мусагалиева А. Заки Валиди natsіональная интелигенция Казахстана. Вестник Академии наук РБ. Том 15. № 1. - С. 39-46.

yil vafot etgan Astraxan xoni Qosim yoki Kasay bo‘lib, Qozon xoni Yodgorning otasi hisoblanadi”. Qosimxonning bobosi Ahmadxonning Fotih sulton Muhammadga yozgan maktubi ham bor. Ular Istanbul sultonlari bilan munosabat o‘rnatishgan. Nastaliq yozuviga ko‘ra, To‘pqopi nusxasi XVI asr boshlarida Buxoroda ko‘chirilgan. Yoshlikdagi do‘sti hisoblangan Muhammad Shayboniy bu nusxani Qosimxonning kutubxonasi uchun yozdirib, sovg‘a qilgan. U ham bu asarni Sulton Salim yoki Sulaymon Qonuniyga armug‘on sifatida jo‘natgan bo‘lsa kerak. Bundan boshqa uyg‘ur yoki mo‘g‘ul tilida yozilgan asarlarning faqatgina arab alifbosida bitilganlari bizgacha etib kelgan”.

Ahmad Zaki Validiyning turkiy millatparvarligi ham yuksak edi. Podshoh zulmi ostida yashagan turkiylarning milliy kurashida rol o‘ynash uchun Ufa musulmonlari nomidan Rossiya Davlat Dumasiga deputat etib saylanadi. Dumada keskin so‘zlar bilan chiqqan Ahmad Zaki Validiy Rossiyada “Turkiylar milliy o‘zligi”ning shakllanishida katta rol o‘ynagan. Zaki Validiy kundalik yozmagan bo‘lsa-da, yoshligidanoq hayotidagi barcha muhim o‘zgarish va voqealarni muntazam qayd qilib boradi. Ammo u yashirincha bolsheviklar Rossiyasini tark etgach, o‘zining boy shaxsiy arxivi va ko‘plab qo‘lyozmalari bilan “xayr”lashishga majbur bo‘ldi. Barcha buyuk shaxslar qatori Zaki Validiyning hayot yo‘li, g‘oyalari, ilmiy merosi, ozodlik uchun kurashi turkiy xalqlarga tegishli ekanini yaxshi bilar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдурахманов М. Научная деятельность А. З. Валидова в Туркестане. – Ташкент: Фан, 2003. 3-4 с.

2.https://kulturarb.ru/ru/persony/validov-ahmet-zaki

3.Абдураҳмонов М., А.Зоҳидий, А.З.Валидий Тўғоннинг Туркистонга илмий сафари. (1913-1914 йиллар) - Тошкет: Фан. 1997. - Б.4.

4.Мусагалиева А. Заки Валиди natsіональная интелигенция Казахстана. Вестник Академии наук РБ. Том 15. № 1. - С. 39-46.

5.Vilyaminov-Zernov, Izsledovanya o kasinovskikh Tsariakh, I 286, 368-369: Qasim bn Seyyid ahmed bn Ahmed Khan bn Kücük Muhammed Khan.

6.Prof. Zeki Velidi Togan. Bugünkü Türkili (Türkistan) ve yakin tarihi. Cilt I. 2 Baski. - Istanbul. - 1981. S.193.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Karimov Elmurod Salimjonovich
Andijon davlat pedagogika instituti Milliy g`oya ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi kafedrasi v.b.,dotsenti

INFORMATSION TARAQQIYOT KONTEKSTIDA KIBERNETIKANING IJTIMOIY FALSAFIY ASPEKTLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada informatsion taraqqiyot sharoitida kibernetika fanining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor, kibernetik tizimlar orqali ijtimoiy jarayonlarning boshqarilishi, inson – texnologiya munosabatlarining ontologik va aksiologik o'zgarishlariga qaratiladi. Kibernetika nazariyasining ijtimoiy strukturalarga ta'siri, axborot oqimlarining determinatsiyasi, shuningdek, kognitiv tizimlar va inson ongining raqamli muhitdagi transformatsiyasi falsafiy-metodologik nuqtai nazardan yoritiladi. Tadqiqotda jamiyatning o'zini-o'zi tashkil etish (avtoorganizatsiya) tamoyillari, kommunikativ racionalitet, tizimli yondashuv, hamda texnogen muhitda ijtimoiy subyektivlikning qayta konstruksiyasi kabi kontseptlar asosida tahlil olib boriladi. Maqola kibernetikaning epistemologik ahamiyatini ochib berish barobarida, raqamli modernizatsiya kontekstida axborot jarayonlarining antropologik va sotsiokulturniy oqibatlariga ham e'tibor qaratadi.*

Kalit so'zlar. *Kibernetika, informatsion jamiyat, ijtimoiy subyektivlik, tizimli yondashuv, kommunikativ racionalitet, avtoorganizatsiya, texnogen muhit, raqamli ong, epistemologiya, aksiologik transformatsiya, axborot determinatsiyasi, sotsiotexnik muvozanat.*

Каримов Элмурод Салимжонович
Андижанский государственный педагогический институт, кафедра основ национальной идеи, духовности и правового образования, и.о. доцента

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ КИБЕРНЕТИКИ В КОНТЕКСТЕ ИНФОРМАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация*. В статье анализируется социально-философская сущность кибернетики в контексте информационного развития. Основное внимание уделяется управлению социальными процессами посредством кибернетических систем, онтологическим и аксиологическим изменениям в отношениях человека и техники. С философско-методологической точки зрения освещается влияние теории кибернетики на социальные структуры, детерминация информационных потоков, а также трансформация когнитивных систем и сознания человека в цифровой среде. В исследовании анализируются принципы самоорганизации общества (автоорганизации), коммуникативной рациональности, системного подхода, реконструкции социальной субъектности в техногенной среде. Статья, раскрывая эпистемологическое значение кибернетики, также фокусируется на антропологических и социокультурных последствиях информационных процессов в контексте цифровой модернизации.*

Ключевые слова*: Кибернетика, информационное общество, социальная субъектность, системный подход, коммуникативная рациональность, самоорганизация, техногенная среда, цифровое сознание, эпистемология, аксиологическая трансформация, информационная детерминация, социотехническое равновесие.*

Karimov Elmurod Salimjonovich
Andijan State Pedagogical Institute, Department of Fundamentals of National Idea, Spirituality and Legal Education, Acting Associate Professor

SOCIAL PHILOSOPHICAL ASPECTS OF CYBERNETICS IN THE CONTEXT OF INFORMATION DEVELOPMENT

Annotation*. This article analyzes the socio-philosophical essence of cybernetics in the context of information development. The main attention is paid to the management of social processes through cybernetic systems, ontological and axiological changes in human-technology relations. The impact of cybernetics theory on social structures, the determination of information flows, as well as the transformation of cognitive systems and human consciousness in the digital environment are covered from a philosophical and methodological point of view. The study analyzes the principles of self-organization of society (auto-organization), communicative rationality, a systematic approach, and the reconstruction of social subjectivity in a technogenic environment. The article, while revealing*

the epistemological significance of cybernetics, also focuses on the anthropological and sociocultural consequences of information processes in the context of digital modernization.

***Keywords**: Cybernetics, information society, social subjectivity, systemic approach, communicative rationality, self-organization, technogenic environment, digital consciousness, epistemology, axiological transformation, information determination, sociotechnical equilibrium.*

Jamiyatning o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot, siyosat, fan, madaniyat kabi hayotning muhim sohalarini tobora ko‘proq qamrab olayotgan kibernetika, elektron-hisoblash texnikasining paydo bo‘lishi va intensiv taraqqiyot turli gumanitar fanlar, shu jumladan, falsafaning ham bilish ob’yekti hisoblanadi.

Kompyuter texnikasi va u ochib berayotgan imkoniyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan falsafiy muammolarni dastlabki sistemali ravishda aniqlash va o‘rganishga urinishlar ancha avval kibernetik harakat deb atalgan hodisa doirasida amalga oshirila boshlangan edi. Bu intellektual harakat asoschisi, amerikalik matematik N.Viner[27] ikkinchi jahon urushi yillarida o‘q otishda hisob-kitoblarni ta’minlovchi hisoblash qurilmalardan foydalanishda boshqarishni matematik vositalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullangan edi. Bu ish jarayonida inson tomonidan elektrotexnik sistemaga, eng avvalo, kelajakni bashorat qilishga beriladigan vazifalarni tadqiq etish zaruriyati tufayli olimlar ongli faoliyat va neyrofiziologiya muammolariga murojaat qila boshladilar. 1947 yilning yozida «kibernetika» termini paydo bo‘ldi. Viner va Rozenbiot atrofida birlashgan bir guruh olimlar «mashina va tirik organizmlarda boshqaruv va aloqadorlik nazariyasi»ni ana shunday deb atashga qaror qildilar. «Axborot», «teskari aloqa», «kodlashtirish», adaptatsiya», «gomeostaziye» kabi so‘zlar yangi nazariyaning asosiy tushunchalari bo‘lib hisoblana boshlandi[28].

Kibernetikaning g‘oyalari turli soha olimlari qatori keng jamoatchilik orasida ham tez yoyila boshladi. Bu atama ko‘p ma’noli edi, u bilai XIX-XX asrlarda axborotni qayta ishlashniig turli jarayonlarini o‘rganadigan ko‘plab fanlarning yagona nazariy bazasini yaratishga umid bog‘lashar edi. Bular o‘tkazgich aloqalar nazariyasi, radioaloqalar nazariyasi, avtomatik boshqaruv nazariyasi, matematik mashinalar nazariyalari va shu kabilarni u asosida o‘rganishga harakat qilindi. Ko‘p hollarda bu fanlarii kibernetika (yoki texnik kibernetika) deb atashardi. Shu bilan birga, ko‘plab olimlar turli sohalarda kibernetik atamalardan foydalanmasdan ham ish olib borishar edi.

Kibernetika bir vaqtning o‘zida bironta amaliy soha bilan bog‘liq bo‘lmagan va ayni paytda, ularning har birida qo‘llaniladigan umumiy boshqaruv nazariyasi hamda boshqaruv to‘g‘risidagi aniq fan sifatida tushunila boshlandi. Bu fan sohasi, umuman olganda, xilma-xil yo‘nalishlarni, jumladan, sun’iy intellekt, turli xil modellashtirish, mantiqiy-matematik, biologik, tabbiy, sosial-iqtisodiy va boshqa gumanitar tadqiqotlarda qo‘llaniladigan usullarni qamrab ola boshladi. Bu hol kabernetikani matematika va mantiqni nazariy negiziga asoslanadigan avtomatik vositalar, xususan elektron-raqamli hisoblash, boshqaruv va axborot, mantiqiy mashinalardan foydalanadigan murakkab dinamik sistemalar, deya ta’riflanishida o‘z ifodasini topdi.

Kibernetik harakat negizida boshqaruv, axborot, tafakkur, bilish, ilmiy bilim strukturasi va uning taraqqiyotini falsafiy hamda mantiqiy metodologik tadqiq etish amalga oshirildi. Ushbu harakat uchun tegishli bo‘lgan voqelikni turli sohalarga oid axborotni boshqarish va qayta ishlash jarayonlarini belgilovchi qonuniyatlardan iborat g‘oya va abstraksiyani turlicha darajada bu jarayonlarni mantiqiy-matematik talqin etishda samarali foydalanish g‘oyasi inson tafakkuri va EHM rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Kibernetika so‘zi qadimiy yunoncha “kibernetis ” (boshqarish san’ati) so‘zidan olingan bo‘lib, murakkab boshqariluvchi sistemalarda axborotlarni qabul qilish, saqlash va o‘zgartirishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir.

Kibernetika fanining murakkabligi hozir ham olimlar o‘rtasidagi ko‘pgina munozalarga sabab bo‘lmoqda. Shunga ko‘ra unga berilayotgan ta’riflar ham turlichadir. Masalan, akademik A. Berg ta’rificha, “kibernetika – murakkab dinamik sistemalarni maqsadga muvofiq va optimal boshqarish to‘g‘risidagi fandir”. Akademik V. Glushkovning fikricha, “kibernetika – boshqariluvchi murakkab sistemalarda axborotni o‘zgartirish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir”. Akademik A. Kolmogorovning ta’rifiga ko‘ra “kibernetika – mashinalar va tirik organizmlardagi bog‘lanish xaqidagi axborotlarni qabul qilish, saklash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullari to‘g‘risidagi fandir”. Akademik V. Jobulovning ta’rificha “kibernetika – murakkab dinamik sistemalarni boshqarish, ular orasidagi informasion aloqalar va shunga kerakli texnik moslamalar to‘g‘risidagi fandir”.

Nazariy kibernetikaning muhim metodologik tamoyillari quyidagilardan iborat :

- miqdor va sifat, mazmun va ko‘rinish birligi;
- boshqarish sistemalarini mikro va makro nuqtai nazardan o‘rganish;
- moddiy sistemalarni modellashtirish, simvollar va belgilar yordamida ifodalash;

[27] Норберт Винер. Кибернетика и общество. Сборник. (переводчик: Желнинов В. редактор: Веснина Г). АСТ, Москва 2019 г.

[28] Belsey B.Cyberbullying: An Emerging Threat to the «Always On» Generation URL: http://www.cyberbullying.ca/pdf/Cyberbullying_Article_by_Bill_Belsey.pdf.

- modellashtiriluvchi ob'yekt bilan model parametri o'rtasidagi o'zaro moslikning chegaralarini aniqlash.

Kibernetika quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Birinchi guruh bu biologik kibernetika – tirik organizmlardagi jarayonlarni boshqarish sistemalari.

Ikkinchi guruh bu texnik kibernetika – mashinalar, texnik qurilmalar va texnologik komplekslardagi jarayonlarni boshqarish sistemalari.

Uchinchi guruh bu iqtisodiy kibernetika – davlatlar iqtisodini boshqarish jarayonlari.

Shaharda korxona va muassasalar, dam olish maskanlari, uy-joylarning eng qulay va eng maqbul joylashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shaharlarda aholi ko'payishi bilan shaharning o'zi kengayishi, yo'llar ko'payishi, transportning miqdori va tezligi ortishi kerak bo'ladi. Natijada shaharni rejalashtirishga oid manzilga eng yaqin yo'l bilan eng qisqa vaqt ichida, behatar yetib olish kabi masalalar tobora ko'paya borishi shubhasiz. Hozir ko'cha harakati kelajakda qanday bo'lishini oldindan aytib berish kerak bo'lib qoldi. Shuning uchun shaharlarda ko'cha qatnovini va maydonlardagi harakatni tekshirish, o'tayotgan transport sonini bilish ustida ishlar olib borilmoqda, Bular asosida butun shahar sathida harakat sxemasi tuzilmokda.

Jonli organizmni boshqarish sohasadagi muhim kashfiyotlar hammaga ma'lum. Mashina mexanizmlarining harakati asosida mexanika qonunlari yotadi. Demak, bir tomondan xar xil sisgemalar (tabiat, xalq xhjaligi, jonli organizm, mashina, mexanizmlar va hokazo) o'zlariga xos qonunlarga asosan harakatda bo'ladi, ya'ni xar qaysi sistemaning hziga xos xarakat qonunlari bor. Bu sistemalarning xar qaysisiga xos qonunlarni fizika, kimyo, biologiya, medisina, siyosiy iqtisod kabi mustaqil fanlar o'rganadi. Ikkinchi tomondan, kibernetika fani barcha sistemalarda boshqarish jarayonlarini o'rganishni o'z zimmasiga oladi.

Ishlab chiqarish kuchlari yuksak taraqqiy etgan jamiyatda faqat jismoniy mexnatnigina emas, balki miya vazifalarini ham avtomatlashtirish zaruriyati tug'ildi, chunki bunday jamiyatda axborot miqdori ishlab chiqarish kuchlari miqdoriga nisbatan juda katta darajada ko'payadi. Natijada eski usullar bu qadar ko'p axborotni yig'ish va qayta ishlashni vaqtida ta'minlashga imkon bermay qo'ydi. Shu sababli XX asr o'rtalarida kibernetika, ayniqsa axborotnn qayta ishlash quroli bo'lgan elektron hisoblash mashinalari dunyoga keldi.

Xozirgi kunda kibernetikannng nazariy asoslari yaratilmoqda va ularni xalq xo'jaligida, fan-texnikada, taьlim sohasida qo'llash ishlari olib borilmoqda, elektron-hisoblash mashinalari takomillashtirilmokda. Kibernetikaning asosiy tushunchalaridan biri axborotdir. Havo bo'lmasa odam yashay olmaydi, energiyasiz zavod ishlamaydi, axborotsiz boshqarish bo'lmaydn. Boshqarish uchun axborot yig'ish, uni aloqa kanallarida bir joydan ikkinchi joyga yetkazib berish, uni qayta ishlash kerak. Kibernetikada sezgi a'zolari (quloq, ko'z, burun, og'iz, teri) yordamida bevosita yoki asboblar vositasida qabul qilingan har qanday ma'lumot *axborot deyiladi.*

Kibernetika tirik tabiat, jamiyat va ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan jarayonlarni o'rganib, ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarga mos holda ushbu jarayonlarni eng maqkbul holda boshqarishni ta'minlaydi. Kibernetikaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning turli muhit, turli sharoit, odam faoliyatining turli sohalarida bo'ladigan jarayonlarni boshqarish asosida yotuvchi qonuniyatlarning umumiyligiga asoslanganligidir. Kibernetika nuqtai nazaridan barcha jarayonlar boshqarish ob'yektlaridan iborat murakkab dinamik sistemalarda ro'y beradi. Ularda ro'y berayottan jarayonlar qanchalik murakkab bo'lmasin, ularni bilish mumkin hamda ular aniq matematik va mantiqiy qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Boshqariladigan dinamik sistemalarda ro'y beradigan jarayonlar va ular bo'ysunadigan qonuniyatlarni bilish boshqarish texnik vositalarini, boshqarish sub'yektlarini, boshqaruvchi sistemalarni (elektron hisoblash mashinalari, elektron avtomat vositalari va boshqalar) yaratish imkonini beradi. Boshqarish sub'yektlari - boshqaruvchi sistemalar va boshqarish ob'yektlari turli tabiatli murakkab dinamik sistemalar birgalikda *boshqarish sistemasini* tashkil etadi. Bunday boshqarish sistemalariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Tirik tabiatda qon aylanishi, ovqat hazm bo'lishi, jamiyatda - rejalashtirish, ta'minot, mablag' ajratish sistemalari, sanoatda – alohida ishlab chiqarish jarayonlari, korxona, ishlab chiqarish tarmog'ini boshqarish sistemalari va hokazo.

Intellektual sistemalar (IS) deb atala boshlangandan buyon sun'iy intellektlagan kompyuter sistemalari paydo bo'lishi va sun'iy intellekt (SI) deb atalgan yo'nalish rivojlanishi bir qancha an'anaviy nazariy-bilish muammolariga yangicha yondashuvga turtki berdi. Bu, o'z navbatida, yangi tadqiqot yo'llarini topish, bilish faoliyatini ilgari hech kimning esiga kelmagan ko'plab jihatlariga e'tibor berish, yangi bilish mexanizmlari va natijalarini anglashga yordam berdi.

O'tgan asrning 60-70-yillaridagi "Mashina fikrlay oladimi?" degan mavzudagi qizg'in munozaralar davomida bu savolga javobning xilma-xil variantlari o'rtaga tashlandi. Bilish sub'yekti kim bo'lishi mumkin, faqat insonmi yoki mashina ham intellektga ega bo'lgan, binobarin fikrlay oladigan sub'yekt bo'la oladimi, degan savol ko'pchilikni qiziqtirib qoldi. So'nggi variant tarafdorlari tafakkurning mashinada ham mavjudligini e'tirof etish mumkin bo'lgan ta'rifini o'ylab topishga urina boshlashdiki, unga ko'ra, masalan, tafakkur masalani yechishdan iborat, deya ta'riflana boshlandi. Ammo shunday bo'lsada, kompyuter sistemasi biron-bir qaror qabul qilish qobiliyatiga egaligi shubha ostiga olinar edi. "Kompyuter tafakkuri" fikri tarafdorlari, aksincha, inson fikrlash faoliyatini belgilovchi shunday xossalarni aniqlay

boshlashdiki, ular kompyuterga xos bo‘lmasada, ularsiz tom ma’noda tafakkur to‘g‘risida gapirishning iloji yo‘q.

Tafakkurni kompyuterli modellashtirish bilish faoliyatining mexanizmlarini psixologik tadqiq etish uchun kuchli turtki berdi. Bu, bir tomondan, kompyuterda axborotni qayta ishlashga asoslangan inson bilish faoliyatini o‘rganishda ko‘rinsa, boshqa tomondan esa, o‘zgacha yondashuvlar, masalan, tafakkurni o‘rganishning umumiy asosida samarali va mustaqil yondashuvlar asoslangan tadqiqotlarni ko‘payishida namoyon bo‘ldi. Inson tafakkuri bilan axborotni kompyuterli qayta ishlash o‘rtasidagi o‘xshashlikni tavsiflar ekan, ingliz tadqiqotchisi M.Bodenning fikricha kompyuterga o‘xshash tarzda aqlni chuqurroq o‘rganish uchun umumiy insoniy manfaatlarga xizmat qiluvchi “psixologik terminologiya”ni muayyan mashina shakllariga nisbatan ehtiyotkorona ishlatishni ta’qiqlashdan ko‘ra, rag‘batlantirish ma’qul. Bu boradagi analogiyalar nafaqat o‘xshash jihatlarni, balki taqqoslanayotgan ob’yektlardagi muhim umumiylik va farqlarni aniqlashga ham imkon beradi”.

XX asr oxirlarida kompyuter fanida falsafa fani sohasi uchun an’anaviy bo‘lgan bilimga katta ahamiyat berila boshlandi. “Bilim” so‘zi kompyuter va tashkil qiluvchi yo‘nalishlar sistemalari nomida ham qo‘llana boshladi. Masalan, «bilimlar asoslanuvchi sistemalar», «bilim majmui» va «bilimlar banki», «bilimlar imperiyasi» tushunchalari bugun keng qo‘llaniladi. «Kompyuter va bilim» mavzui munozara mavzuiga aylandi, bunda falsafiy epistemologik, sosial va siyesiy-texnologik jihatlar birinchi o‘ringa chiqdi. Sun’iy intellekt (SI) sohasi bo‘lsa, 80-yillarda bilim tushunchasi an’anaviy o‘rin egallagan tafakkur va intellekt tushunchalarini siqib chiqardi. Sun’iy intellekt nazariyasi ba’zan bilimlar to‘g‘risidagi fan, sun’iy tizimlarda ularni qanday qo‘lga kiritish, sistema ichida qayta ishlash va masalalarni yechishda qo‘llash to‘g‘risidagi fan sifatida tavsiflana boshladi. Dastlabki boskichlarini e’tiborga olmaganda sun’iy intellekt bilimlarni taqdim etish metodlarini o‘rganish tarixi sifatida xarakterlana boshladi.

Intellektual sistemalarni qo‘llanish sohasini kengaytirish tibbiyot, geologiya va kimyo singari murakkab sohalarga o‘tishda bilimlarni formallashtirish bo‘yicha qattiq urinishni talab qildi. Intelektual sistemalar yaratuvchilari izlanishlar qaratilgan fan sohasi yoki boshqa professional faoliyatdagi turli ma’lumotlarni, empirik dalillar, nazariy xulosalar va evristik tasavvurlarni tartibga solish, kompyuter yordamida masalalarni yechishda sistema yaxshi ishlashi uchun ularni qayta ishlash usullarini bilish muammosiga duch keldilar. Bu kompyuter sistemasi xotirasida joylashgan ma’lumotlarning xarakterida o‘zgarishlarga olib keldi, ular murakkablasha boshladi, ro‘yxatlar, hujjatlar, semantik saytlar, fayllardan iborat murakkab tizimli ma’lumotlar paydo bo‘ldi. Ma’lumotlarni oddiy qayta ishlash, ularni izlash, qayd qilish va bir qator boshqa operatsiyalar uchun maxsus yordamchi dasturlardan foydalanila boshlandi, bu bilan bog‘liq proseduralar murakkablashdi, mustaqil soha, yo‘nalish darajasiga yeta boshladi.

Faylli va aloqali modellar ham inson idroki va xotirasini muayyan konsepsiyalari strukturasiga tayanadi. Kompyuter tufayli intellektual texnologiya va mashina tafakkuri imkoniyatlariga kuchli qiziqish paydo bo‘lishi, epistemodogiya yangi, noan’anaviy bo‘limi - informasion epistemologiya shakllanishiga olib keldi. U ilmiy bilimning u yoki bu turlarini o‘rganmaydi, balki umuman bilimni, axborotni qayta ishlab va o‘zgartirib, uning oliy shakli - bilimga aylantirish pozisiyasidan o‘rganadi. Informasion epistemologiya bilimlarni namoyish qilishning turli usullari va texnik sistemalar yordamida bilimlarni qurish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Informasion epistemologiyaning asosiy muammolariga quyidagilar kiradi: axborot nima; u qanday uzatiladi; tashiladi; signallar va kodlarning vazifa va munosabatlari qanday; kompyuterlarning epistemik vazifasi nimadan iborat; ular fikrlay oladimi, axborotdan qanday qilib bilim hosil bo‘ladi; bilimni mashina yordamida taqdim etish usullari qanday; axborot va tilning bog‘liqligi qanday; inson va mashinaning o‘zaro bir-birini tushunishi qanday amalga oshiriladi; bilish faoliyatiga muhandislik yondashuvining mohiyati nimada; kompyuter va miyaning o‘zaro munosabati qanday.

Informasion epistemiologiya haqiqatan ham bilishning alohida shaklimi yoki yo‘qmi, degan masala hozirgacha bahsli hisoblanadi. Bu borada to‘liq ijobiy fikrda mutlaq turadiganlar ham bor. Shu bilan birga, informasion epistemologiya «bilish falsafasining mustaqil bo‘limi bo‘lib bormokda», degan fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi, deb hisoblovchilar ham yo‘q emas.

Nima bo‘lganda ham, kompyuter sistemalarini ishlab chiqishda sodir bo‘layotgan hodisalarni epistemologiya pozisiyasidan turib tushunish uchun kompyuter inqilobi talablarni hisobga olgan xolda yondashuv bo‘lishi lozim. Afsuski, bugungi kunda kompyuter sohasidagi o‘zgarishlar ularni falsafiy-gnoseologik tushuntirishdan ancha ilgarilab ketdi. Zamonaviy falsafa asosan bu o‘zgarishlarni nari borganda qayd qilish bilan shug‘ullanmoqda, xolos. Bu esa hozirgi davrda gnoseologiyaning muhim vazifalarndan biri - mantiq va mantiq metodologiyasi vositalari yordamida shakllanadigan umumilmiy hamda intellektual tushunchalarni muayyan kategoriyalarga bo‘lishdan, ularni zamonaviy talablarga mos tarzda o‘rganish va izoxlashdan iborat.

Kompyuterlar va kompyuter sistemalarini yaratish va foydalanish tufayli kelib chiqadigan falsafiy muammolar nafaqat bilish nazariyasi va epistemologiya nuqtai nazaridan, balki kompyuter etikasi sifatida paydo bo‘layotgan yo‘nalish doirasida ham o‘rganilmoqda.

Kompyuter tizimlarini ishlab chiqish va foydalanishning axloqiy masalalari bo‘yicha

munozaralarning boshlanishiga sun'iy intellekt sohasida taniqli tadqiqotchi Dj. Veysenbaum [29] tomonidan asos solingan. Veysenbaum «hisoblash mashinalari va miya» mavzuidagi munozaralarda paydo bo'ladigan muhim muammolar texnik yoki matematik masala emas, balki axloqiy muammolar ekanligi[30] to'g'risidagi tezisni ilgari surdi. Dj. Veysenbaum fikricha, biz insonni shaxslararo munosabatlar, o'zaro tushunish va mehr-muhabbat bilan bog'langan sohalarda hisoblash mashinalari bilan almashtira olmaymiz, chunonchi, psixiatr yoki sudyami kompyuter bilan almashtirish axloksizlikdir[31].

Ahlokiy tasavvurlardan kelib chikdan holda, kompyuter tomonidan hal kilinadigan va undan foydalanish soxalarini cheklashga urinishlar mavjud. Dj. Mur[32] masalan, kompyuter tomonidan hal kilinayotgan muammolar doirasini cheklashni tavsiya qiladi va shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolishga qodir bhlgan joylarda, masalan, tibbiyot sohasida kompyuterlarni taqiqlash ahloqiy jihatdan noto'g'ridir, deb xisoblaydi.

Xozirgi davrda amerikalik olimlar tomonidan o'rganilayotgan kompyuter etikasi muammosi kompyuterlardan foydalanishning ahloqiy chegaralari to'g'risidagi doiradan tashqariga chiqdi. Kompyuter etikasi ma'lum kompyuter dasturlari ishidagi nosozliklar uchun javobgarlik muammolarini xam o'rganadi. Kompyuter tyexnikasi tarakqiyoti, xususiy axborotga kirishga bardam berish, mualliflik huquqi, intellektual mulk va tijorat sirlarini saqlashning ahloqiy asoslarini o'rganadi. Bunda xozirgi zamon tyexnikasi taraqqiyoti tufayli paydo bo'layotgan vaziyatlarni o'rganish doirasi turli ahloqiy nazariyalar (ahloqiy relativizm, deontologik konsepsiyalar, huquq va adolat konsepsiyalari) bilan bog'lik holda qarab chiqiladi. Bunday yondashuvga D. Djonsonning «Kompyuter etikasi» kitobi misol bo'la oladi. Ushbu kitobning asosiy maqsadini muallif «kishilar kompьyuterdan foydalanayotgan paytda o'zlarini qanday tutishlari lozimligini tushunishdan iborat»[33], deb ta'riflaydi.

D. Djonson va X. Nesselbaum tahriri ostida 1995 yilda nashrdan chiqqan «Kompyuterlar, etika va ijtimoiy qadriyatlar» to'plamining bir bo'limi kompyuter ahloqlaridan foydalanishdagi maxsus ahloqiy muammolarga bag'ishlangan[34]. Dj. Murning ushbu to'plamdan joy olgan «Kompyuter etikasi nima?» maqolasi kompyuter etikasining mustaqil fan sifatidagi xarakterini aniqlashga urinishdan iborat. «Mening fikrimcha, - deb yozadi Dj. Mur, - kompyuter etikasi tadqiqotning dinamik va murakkab soxasi bo'lib, u doimiy ravishda o'zgarib turadigan kompyuter texnikasining faktlar, konseptuallashtirish, siyosat va qadriyatlar tili bilan munosabatini o'rganadi[35].

Tafakkurni kompyuterni modellashtirish, uni o'rganishda matematik va texnik fanlar ycyllapidan foydalanish, o'tgan asrdagi «kibernetik shov-shuv» davrida yaqin kelajakda «qat'iy tafakkur nazariyalari yaratishga umid uyg'otdi. Lekin bunday umidlar ro'yobga chiqmadi, bugun ular psixologiya, mantiq, sun'iy intellekt, kognitiv, lingvistika kabi qator fanlarni o'rganish mavzuiga aylandi va falsafiy izlanishlarning ob'yekti bo'lib kirdi.

[29] Вейценбаум Дж. Возможности вычислительных машин и человеческий разум. От суждений к вычислениям. Перевод с английского И.Б. Гуревича. Под редакцией А.Л. Горелика. Москва: Издательство «Радио и связь»: Редакция литературы по кибернетике и вычислительной технике, 1982г.

[30] Ўша жойдан.

[31] Ўша жойдан.

[32] Дж. Мур. - Принципы этики. (перевод с английского Л.В.Коноваловой) М.: Прогресс, 1984.- 327 с.

[33] Манжуева О.М. Феномен информационной безопасности : сущность и особенности: автореф. дисс. ... док. философ. наук. - Улан-Удэ, 2015.

[34] Костюк А.А. Отчуждение творчества в информационном обществе : дисс. ... канд. философ. наук. – Воронеж, 2020.

[35] Манжуева О.М. Феномен информационной безопасности : сущность и особенности: автореф. дисс. ... док. философ. наук. - Улан-Удэ, 2015.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Норберт Винер. Кибернетика и общество. Сборник. (переводчик: Желнинов В. редактор: Веснина Г). АСТ, Моска 2019 г.

2.Belsey B.Cyberbullying: An Emerging Threat to the «Always On» Generation URL: http://www.cyberbullying.ca/pdf/Cyberbullying_Article_by_Bill_Belsey.pdf.

3.Вейценбаум Дж. Возможности вычислительных машин и человеческий разум. От суждений к вычислениям. Перевод с английского И.Б. Гуревича. Под редакцией А.Л. Горелика. Москва: Издательство «Радио и связь»: Редакция литературы по кибернетике и вычислительной технике, 1982г.

4.Дж. Мур. - Принципы этики. (перевод с английского Л.В.Коноваловой) М.: Прогресс, 1984.- 327 с.

5.Манжуева О.М. Феномен информационной безопасности : сущность и особенности: автореф. дисс. ... док. философ. наук. - Улан-Удэ, 2015.

6.Костюк А.А. Отчуждение творчества в информационном обществе : дисс. ... канд. философ. наук. – Воронеж, 2020.

7.Манжуева О.М. Феномен информационной безопасности : сущность и особенности: автореф. дисс. ... док. философ. наук. - Улан-Удэ, 2015.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xoldarov Saidbek Raxmadjon o‘g‘li
Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi

IJTIMOIY TUZILMA VA IJTIMOIY ADOLAT: BERUNIYNING QARASHLARIDA.

Annotatsiya: *Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy adolat masalalariga oid qarashlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.Beruniyning ”Hindiston”, ”Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarida jamiyatning tuzilishi, tabaqalanishi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy adolatning ahamiyati haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan.Beruniyning adolat, tenglik, erkinlik va inson huquqlariga bo‘lgan munosabati, shuningdek, uning axloqiy qarashlari tahlil qilinadi.Beruniyning ijtimoiy adolatga bo‘lgan intilishi, inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatda tenglikni o‘rnatishga qaratilgan qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.*

Kalit so‘zlar:*ijtimoiy, adolat,jamiyat matematik, fizika, geografiya, glabollashuv.*

Холдаров Саидбек Раҳмаджон ўғли
Кафедра философии Андижанского государственный университет старший преподаватель

СОЦИАЛЬНАЯ СТРУКТУРА И СОЦИАЛЬНАЯ СПРАВЕДЛИВОСТЬ: ВЗГЛЯДЫ БЕРУНИ.

Аннотация: *Он посвящен анализу взглядов Абу Райхана Беруни на вопросы общественного устройства и социальной справедливости.В таких произведениях Беруни, как «Индия» и «Памятники древних народов», содержатся ценные идеи о структуре общества, его стратификации, взаимоотношениях между людьми и значении социальной справедливости. Анализируется отношение аль-Бируни к справедливости, равенству, свободе и правам человека, а также его этические взгляды. Приверженность Беруни социальной справедливости, уважению прав человека и взгляды, направленные на установление равенства в обществе, не утратили своей актуальности и сегодня.*

Ключевые слова: *социальный, справедливость, общество, математика, физика, география, глобализация*

Xoldarov Saidbek Rahmadjon o‘g‘li
Department of Philosophy Andijan State University Senior lecturer

SOCIAL STRUCTURE AND SOCIAL JUSTICE: BIRUNI'S VIEWS.

Annotation*: It is dedicated to the analysis of Abu Rayhan Beruni’s views on issues of social structure and social justice. Beruni’s works such as ”India” and ”Monuments of Ancient Peoples” contain valuable ideas about the structure of society, its stratification, relationships between people and the meaning of social justice. Al-Biruni’s attitude towards justice, equality, freedom and human rights, as well as his ethical views, are analyzed. Beruni’s commitment to social justice, respect for human rights and views aimed at establishing equality in society remain relevant today.*

Key words: *social, justice, society, mathematics, physics, geography, globalization.*

Tadqiqot usullari.

Beruniyning asarlarini o‘rganish: "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Mineralogiya" kabi asarlari ijtimoiy tuzilma, ijtimoiy adolat va axloqiy qadriyatlar haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbai hisoblanadi. Bu asarlarda Beruniyning jamiyat, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, adolat va tenglik haqidagi fikrlari aks etgan.Boshqa manbalarni o‘rganish: Beruniyning hayoti, faoliyati va ilmiy merosini yorituvchi tarixiy manbalar, tadqiqotlar va adabiyotlarni tahlil qilish. Bu Beruniyning ijtimoiy-siyosiy muhitini tushunishga va uning qarashlarining shakllanishiga ta'sir etgan omillarni aniqlashga yordam beradi.

Kirish

Abu Rayhon Beruniy o‘rta asr Sharqining buyuk olimi, qomusiy bilimdoni sifatida ilm-fan tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Uning astronomiya, matematika, geodeziya, mineralogiya, tarix, etnografiya, falsafa va boshqa sohalardagi ilmiy merosi jahon tamadduniga bebaho hissa bo‘lib qo‘shilgan. Beruniyning ilmiy-falsafiy qarashlari nafaqat o‘z davri uchun muhim ahamiyat kasb etgan, balki bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan.Ushbu maqolada biz Beruniyning ijtimoiy tuzilma

va ijtimoiy adolat masalalariga oid qarashlarini o‘rganamiz. Beruniy o‘z asarlarida jamiyatning tuzilishi, tabaqalanishi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy adolatning ahamiyati haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan. Uning ijtimoiy adolatga bo‘lgan intilishi, inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatda tenglikni o‘rnatishga qaratilgan qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Maqolaning maqsadi Beruniyning ijtimoiy-falsafiy merosini tahlil qilish, uning qarashlarining dolzarbligini ochib berish va ularni bugungi kun ijtimoiy muammolarini hal qilishda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatishdan.

Natijalar va ularning muhokamasi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o‘rta asrlarning eng yirik ensiklopedist olimlaridan biri bo‘lib, u astronomiya, matematika, geografiya, tarix, etnografiya va boshqa ko‘plab fanlar bo‘yicha ulkan me’ros qoldirgan. Beruniy ijtimoiy masalalarga, xususan, jamiyat tuzilishi, adolat va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga katta e’tibor qaratgan.Beruniy ijtimoiy masalalarga katta e’tibor qaratgan va jamiyatning taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rgangan. Uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: an’anaviy aqidalarga tanqidiy munosabat, mavjud ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan pragmatik yondashuv, insonning aql-zakovati va bilim olishga bo‘lgan intilishiga yuqori baho berish, shuningdek, turli madaniyatlar va xalqlarning o‘zaro hurmatiga asoslangan insonparvarlik g‘oyalari.Bu xususiyatlar Beruniyning jamiyat haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan va uning asarlarida o‘z aksini topgan. U nafaqat o‘z davrining muammolarini tahlil qilgan, balki kelajak avlodlar uchun ham ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatib bergan.

Ayniqsa, uning "Hindiston" asarida turli xalqlarning urf-odatlari, ijtimoiy tuzumi va diniy e’tiqodlari haqidagi ma’lumotlar jamiyatni tushunish va ijtimoiy taraqqiyot yo‘llarini izlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Beruniy kasta tizimining ijtimoiy tengsizlikka olib kelishini tanqid qiladi. Uning fikricha, jamiyat a’zolarining ijtimoiy kelib chiqishiga qarab ajratilishi adolatsizlikdir va bu jamiyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Beruniy barcha insonlarning tengligi va ularning qobiliyatlariga qarab baholanishi kerakligini ta’kidlaydi. Beruniyning kasta tizimiga bo‘lgan tanqidi nafaqat o‘z davri uchun muhim bo‘lgan, balki bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan. U adolat, tenglik va inson qadr-qimmati kabi umuminsoniy qadriyatlarni himoya qilib, har qanday kamsitish va tengsizlikka qarshi kurashishga chorlaydi. Beruniyning fikricha, jamiyat a'zolarining ijtimoiy kelib chiqishiga qarab emas, balki ularning bilim, mahorat va axloqiy fazilatlariga qarab baholanishi adolatli va rivojlangan jamiyat qurishning muhim shartidir.Beruniyning kasta tizimiga bo‘lgan tanqidi uni boshqa mutafakkirlarning qarashlaridan ajratib turadi. U nafaqat ijtimoiy tengsizlikni qoralaydi, balki kasta tizimining kelib chiqishi, mohiyati va jamiyatga ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qiladi. Beruniy kasta tizimining iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarga bog‘liqligini ko‘rsatib beradi va unga qarshi kurashish uchun kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Beruniyning kasta tizimiga bo‘lgan tanqidi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Globallashtiruv jarayonlari kuchayib borayotgan bir paytda turli madaniyatlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashmoqda. Beruniyning adolat, tenglik va o‘zaro hurmatga asoslangan jamiyat qurish haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham etnik, diniy va ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etish va barqaror taraqqiyotga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.Beruniy adolatni jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri deb hisoblagan. Uning fikricha, adolatsizlik jamiyatda tartibsizlikka, noroziliklarga va hatto inqirozga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, Beruniy hokimlarni adolatli bo‘lishga, qonun ustuvorligini ta’minlashga va barcha fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga chorlaydi.Beruniy adolatni nafaqat huquqiy me'yor, balki axloqiy kategoriya sifatida ham tushungan. Uning fikricha, adolatli jamiyat - bu har bir a'zo o‘zining munosib o‘rnini topgan, huquqlari himoya qilingan va majburiyatlari bajarilgan jamiyatdir.Beruniy adolatni tenglik bilan bog‘lagan, lekin tenglikni sodda tenglashtirish deb tushunmagan.U har bir insonga o‘zining mehnatiga, qobiliyatiga va jamiyatga qo‘shgan hissasiga qarab munosib baho berilishini nazarda tutgan.Beruniy adolatli qonunlar qabul qilish va ularni so‘zsiz ijro etishni adolatni ta'minlashning muhim sharti deb bilgan.Qonunlar hammaga teng bo‘lishi va hech kim imtiyozga ega bo‘lmasligi kerak. Beruniy adolatli sud tizimini yaratish va uning mustaqilligini ta'minlashni ham muhim deb hisoblagan. Sudyalar adolatli, xolis va korrupsiyadan xoli bo‘lishi kerak deb takidlab o‘tkan. Beruniy adolatli soliq tizimini joriy etishni ham adolatni ta'minlashning bir yo‘li deb bilgan. Boylar kambag‘allarga nisbatan ko‘proq soliq to‘lashi kerakligini ham aytib o‘tkan.Alloma ta'lim va ma’daniyatni rivojlantirishni adolatli jamiyat qurishning muhim sharti deb hisoblagan.Ta'lim hamma uchun ochiq bo‘lishi va odamlarni adolatli bo‘lishga o‘rgatishi kerakligini aytib o‘tadi.Beruniyning adolat haqidagi qarashlari bugungi kunda ham dolzarbdir.Chunki adolat - bu har qanday jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun zarur shartdir.Beruniyning me’rosi adolatli jamiyat qurishga intilish, inson huquqlarini himoya qilish va kamsitishga qarshi kurashish uchun bizni ilhomlantiradi. Masalan: Alloma o‘z asarlarida hukmdorlarga adolatli bo‘lish, kambag‘allarga yordam berish, korrupsiyaga qarshi kurashish va ta'limni rivojlantirish haqida maslahatlar bergan.U o‘zining shaxsiy hayotida ham adolatli bo‘lishga intilgan va hech qachon yolg‘on gapirmagan, pora

olmagan va kamsitishga yo‘l qo‘ymagan.Beruniy jamiyatdagi tartib-intizom va qonun ustuvorligini ta’minlash uchun ta’limning ahamiyatini alohida qayd etgan.Uning fikricha, bilimli va ma’rifatli insonlargina jamiyatga foyda keltirishi, adolatli qarorlar qabul qilishi va ijtimoiy muammolarni hal qilishi mumkin.Beruniy ta’limni barcha uchun yetkazilishini va ilm-fanni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlagan.Ayniqsa Alloma ta'limni shunchaki bilim olish vositasi deb emas, balki insonni kamolotga yetkazuvchi, uni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalovchi omil deb bilgan. Uning fikricha, ta'lim olgan inson o‘zini o‘rab turgan olamni tushunib, jamiyatga foyda keltirishga intiladi. Beruniy Ilm-fanning ahamiyati haqida ham fikr bildirib o‘tadi, ilm-fanni jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilgan.Uning fikricha, ilm-fan yordamida odamlar tabiat sirlarini ochadi, yangi texnologiyalarni yaratadi va hayot sifatini yaxshilaydi.Uning fikricha ta'lim hamma uchun ochiq bo‘lishi kerak, deb hisoblagan.Uning fikricha, ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi va dinidan qat'iy nazar, har bir inson bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Beruniy ta'lim olgan insonlar jamiyatda muhim ro‘l o‘ynashini takidlagan. Uning fikricha, ular adolatli hukmlar chiqaradi, to‘g‘ri qarorlar qabul qiladi va ijtimoiy muammolarni hal etadi.U o‘zining ilmiy faoliyati: Beruniy o‘zining ilmiy faoliyati bilan ta'limning naqadar muhimligini isbotlagan.U matematika, astronomiya, geodeziya, mineralogiya, tarix, etnografiya va boshqa fanlar bo‘yicha qimmatli asarlar yaratgan.Uning asarlari o‘z davrida ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan.Allomaning ko‘plab shogirdlar yetishtirgan. Ular ham o‘z ustozlarining yo‘lini davom ettirib, ilm-fan rivojiga hissa qo‘shgan.Beruniyning ta'limga bo‘lgan e'tibori uning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan muhim hissasidir. U o‘zining ilmiy faoliyati va ta'limga oid qarashlari bilan kelajak avlodlar uchun o‘rnak bo‘lgan.

O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta’minlash bo‘yicha davlat siyosati aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, kambag‘allikni kamaytirish, bandlikni ta’minlash va imkoniyatlar tengligini yaratishga qaratilgan. Xususan, "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilangan.Bu strategiya doirasida, Beruniyning adolat, tenglik va ta’lim haqidagi qarashlarini inobatga olgan holda, ijtimoiy siyosatni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.Allomaning adolat, tenglik va ta'limga oid qarashlari zamonaviy ijtimoiy siyosat uchun muhim yo‘nalishlarni belgilab beradi. Uning fikrlari adolatli jamiyat qurish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, ta'lim sifatini oshirish va hamma uchun imkoniyatlar yaratish kabi vazifalarni amalga oshirishda yordam beradi.Uning me’rosi ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda insonparvarlik, adolat va ilmiylik tamoyillariga asoslanish zarurligini eslatib turadi.

Beruniyning adolat haqidagi qarashlaridan kelib chiqib, ijtimoiy siyosatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Bunga kambag‘allikni bartaraf etish, daromadlarni adolatli taqsimlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va hamma uchun teng imkoniyatlar yaratish kiradi.Shunigdek tenglik haqidagi qarashlaridan kelib chiqib, ijtimoiy siyosatda kamsitishning barcha shakllariga qarshi kurashish zarur. Bunga gender tengligini ta'minlash, etnik va diniy ozchiliklarning huquqlarini himoya qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun sharoitlar yaratish va boshqa kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik kiradi.Ayniqsa uning ta'lim haqidagi qarashlaridan kelib chiqib, ijtimoiy siyosatda ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunga ta'lim sifatini oshirish, hamma uchun ta'lim olish imkoniyatini yaratish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ilm-fanni rivojlantirish kiradi.Mamlakatimizda Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda Beruniyning ilmiy va nazariy qarashlarini inobatga olish darkor.

Xulosa.

Ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy adolat jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Beruniyning ijtimoiy tuzilmalarga qarashlari, xususan, uning adolatsizlikni tanqid qilishi va barcha insonlarning tengligini ta’kidlashi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan. O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, Beruniyning qarashlarini inobatga olgan holda, jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlash va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.Bunda adolat tamoyillariga asoslangan iqtisodiy siyosat yuritish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida imkoniyatlarni tenglashtirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va qonun ustuvorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek,Beruniyning ilm-ma’rifatga intilish, halollik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi axloqiy o‘gitlariga amal qilish orqali har bir fuqaroning jamiyat rivojiga qo‘shadigan hissasi ortadi hamda ijtimoiy birdamlik mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Burde, P. (2005). Sotsiologiya sotsialnogo prostranstva. Moskva: Institut eksperimentalnoy sotsiologii, Sankt-Peterburg: Aleteyya.

2. Rawls, J. (1971). A Theory of Justice. Cambridge, MA: Harvard University Press.

3. Beruniy, A. R. (1963). Indiya. Tashkent: Fan.

4. Xalidov, A. B. (Red.). (1995). Abu Reyxan Biruni: Sbornik statey. Moskva: Nauka.

5. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.

6. *Крачковский И.Ю.* Избранные сочинения. /Арабская географическая литература. В 6 т. Т.IV. – Москва-Ленинград: Изд-во Акад. наук СССР, 1955–1960, 1957.

7. *Qodirov M.* O‘rta asr yaqin va o‘rta sharq xalqlari naturfalsafasi. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2010.

8.Xo‘jamurodov I. Milliy o‘zlikni anglashda diniy qadriyatlarning o‘rni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Sulaymonov Maxmudjon Shuhratbekovich
Andijon davlat pedagogika instituti

FUQAROLIK POZISIYASINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANGAN HOLDA O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNI SAFARBAR ETISH USULLARI

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonda fuqarolik pozisiyasini shakllantirishning ikki manbasi mavjud. Birinchidan, ichki imkoniyatlari ishga solish bo‘lsa, ikkinchidan xorijiy tajribadan foydalanishdir. Shu nuqtai nazardan ham ushbu bobda Rossiya Federatsiyasi va Turkiya jumhuriyatining bu boradagi tajribasi batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy vatanpararvarlik, davlat, jamiyat hayoti, yosh gvardiyachilar, yosh sosialistlar, yosh konservatorlar, yosh sosialistlar.*

Сулаймонов Махмуджон Шухратбекович
Андижанский государственный педагогический институт

МЕТОДЫ МОБИЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ

Аннотация: *в данной научной статье рассматриваются два источника формирования гражданской позиции в Узбекистане. Во-первых, это использование внутренних возможностей, а во-вторых, использование зарубежного опыта. С этой точки зрения в данной главе подробно освещается опыт Российской Федерации и Турецкой Республики в этом направлении.*

Ключевые слова: *военный патриотизм, государство, общественная жизнь, молодые гвардейцы, молодые социалисты, молодые консерваторы, молодые социалисты.*

Sulaymonov Makhmudjon Shukhratbekovich
Andijan State Pedagogical Institute

METHODS OF MOBILIZING YOUTH IN UZBEKISTAN USING FOREIGN EXPERIENCE IN THE FORMATION OF A CIVIC POSITION

Abstract: *This scientific article discusses two sources for shaping civic position in Uzbekistan. The first is utilizing internal capabilities, and the second is applying foreign experience. From this perspective, this chapter provides a detailed examination of the experiences of the Russian Federation and the Republic of Turkey in this area.*

Keywords: *military patriotism, state, social life, young guardsmen, young socialists, young conservatives, young socialists.*

Kirish: Rossiya Federatsiyasi murakkab geosiyosiy qarama qarshilik sharoitida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun kichik maktab yoshidan to oliy ta’lim muassasalarini qamrab olgan yirik ijtimoiy loyihalar orqali fuqarolik pozisiyasini shakllantirish uchun juda katta resusrlarni yo‘naltirmoqda. Hozirgi kunda bu kabi loyihalarning ayrimlari umummilliy harakat darajasiga ko‘tarilganiga e’tibor qaratilgan. Turkiya jumhuriyatida fuqarolik pozisiyasini shakllantirish kichik maktab yoshinadanoq yo‘lgan qo‘yilgani, fuqarolik mas’uliyati bolalik davrlarilanoq ongga singdirilishiga yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda bu davlatla yuksak darajadashi ijtimoiy siyosiylashuv jarayoni fuqarolik pozisiyasini shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniq misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Jumladan, 2016 yilda yuz bergan fitna sharoitida aholi yuksak darajada fuqarolik pozisiyasini namoyon etgani qayd etilgan.

O‘zbekistonda fuqarolik pozisiyani shakllantirish va rivojlantirish uchun harbiy vatanpararvarlik harakatini shakllantirish, siyosiy partiyalarning yoshlar qanoti faoliyatini qayta ko‘rib chiqish hamda ta’lim tizimida fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Fuqarolik pozisiyasi jamiyat va davlat hayoti tashkil qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu sababli dunyoning barcha davlatlarida ham fuqarolarning ma’rifatli bo‘lishi, davlat va jamiyat hayotidagi muhim masalalarida faol ishtirok etishi uchun tegishli shart-

sharoit yaratib berishga – fuqarolik pozisiyasini shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. Dunyo davlatlarining tashkil topishi va tarixi turlicha. Bu esa o'z o'zidan fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki, mavjud masalalarga yondashuvni turlicha bo'lishi olib kelgan. Misol uchun, diniy aqidalar hukmronlik qiladigan davlatlarda fuqarolarning diniy tuyg'ulari orqali fuqarolik pozisiyasi shakllantirilsa, monarxiya shaklidagi davlat boshqaruvida manarx va uning oilasi, ko'p yillik tarixi va shonli an'analari bu borada muhim o'rin tutadi. "Mazkur masalani o'xshash xorijiy tajriba bilan taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlardagi bunday tuzilmalar o'z oldiga qo'ygan ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy va fuqarolik pozisiyasini shakllantirish bilan bog'liq maqsadlari, partiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlaniladigan yoshlarni muayyan mafkuraviy pozisiyaning tarafdori yoki tashuvchisiga aylantirish, shu asosda o'z tarafdorlarini ko'paytirishni nazarda tutadi. Bunday ilg'or tajribani Buyuk Britaniya Konservatorlar va Leyboristlar partiyalarining "Yosh konservatorlar" va "Yosh sosialistlar", Ispaniya Xalq partiyasining "Xalq partiyasining yangi avlodi" va Yagona Rossiya partiyasining "Yosh gvardiyachilar" kabi tuzilmalar faoliyatida ko'rish mumkin.[36] Demokratik davlatlarda asosiy e'tibor davlat tuzumi, demokratik qadriyatlarni qaror toptirish va konstitutsiya va qonunlar ustuvorligiga qaratiladi. Biz quyida Rossiya Federatsiyasi va Turkiya misolida fuqarolik pozisiyasini shakllantirishga doir ilg'or tajribalarni ko'rib chiqamiz.

Shu bilan birgalikda butun dunyoda ham fuqarolik pozisiyasinining elementlari, uning qaror topishi va takomillashuvi jarayoni buyicha ma'lum bir uyg'unlik mavjud. Misol uchun, yoshlarda fuqarolik pozisiyasini shakllantirishda quyidagi shaxsiy fazilatlar bo'lishi talab etiladi. Birinchidan, vatanparvarlik hissi. Vatanparvarlik – o'zi tug'ilib o'sgan yurtning yagona va takrorlanmas ekanini anglab yetish, uni boshqa joyga almashtirib bo'lmasligiga bo'lgan yuksak ishonch va mamlakat taraqqiyoti hamda xavfsizligi uchun o'zini mas'ul his qilish bilan kechadigan jarayondir. Bu esa fuqarolik pozisiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan va uning asosini tashkil qiladigan hissiyot hisoblanadi. Demokratik davlatlarda fuqarolik masalalari davlat va shaxsning siyosiy aloqalari, uning birligi va yagonaligini ta'minlaydligan xislat hisoblanadi. Vatanparvarlik butun mamlakatni sevishda ifoda etilsa, fuqarolik hissi uning davlat va jamiyat institutlari hayotidagi faol ishtiroki, o'z munosabati mas'uliyat bilan ifoda etish, mavjud ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga nisbatan javobgarlik hissi bilan kechadigan jarayondir. Bu esa fuqarolik pozisiyasini shakllanishida muhim rol o'ynaydigan ikkinchi muhim yo'nalish hisoblanadi. Uchinchidan, faol hayotiy pozisiya ham bu jarayonda ma'lum bir rol o'ynaydi. Global axborot makonida kuchli g'oyaviy qarama-qarshilik va turli tumanlik hukm surgan bir vaqtda yoshlarning qay masalalar eng muhim, qaysilari muhim va qaysilari hal qilinishi kutib turadi, degan muhim savolga javob berishga qiynalidilar. Bu esa yoshlarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan o'zini chetga olish, davlat va jamiyat hayotidagi muhim jarayonlarni bilmaslik va xabarlarni kuzatmaslik, shuningdek davlat siyosiy institutlarining qanday ishlashini tushunmaslik kabi holatlarga olib kelmoqda. Faol hayotiy pozisiya nafaqat davlat va jamiyat hayotidagi masalalar, balki o'zining shaxsiy kamoloti, oiladagi o'rni roli, ta'lim va mehnat jamoalaridagi ishtiroki bilan ham bog'liqdir. "— Z, ya'ni bugungi yosh avlod alohida auditoriya hisoblanadi. Biz ularni axborot ummoniga g'arq bo'lgan yoki yangiliklar to'fonida qolib ketgan, deb o'ylaymiz, — deydi Beruniy Alimov. — Vaholanki, yosh avlod faqat o'ziga kerakli bo'lgan axborotni, xususan, qisqa hajmdagi matnlarni o'qiydi. Tahliliy materiallarga e'tibor bermaydi. Nima uchun? Sababi, ular har sohadan bir shingil yangilik topishni istashadi. Chunki ularda "qisqa o'ylash" (inglizcha "clip thinking", ruschada "klipovoye мышleniye") juda yaxshi shakllangan. Bitta axborot mavzusiga chuqur kirib borishga yoki bir mavzuga atroflicha tahliliy yondashilgan materialni o'qib o'tirishga ularda vaqt ham, imkoniyat ham chegaralangan. Shundan kelib chiqib, ular biror masalaga jiddiy va chuqurroq kirishishga o'zlarida sabr-toqat topa olmaydi". Bu esa faol hayotiy pozisiyani shakllanishiga to'siq bo'ladigan omillardan biri bo'lib qolmoqda. To'rtinchidan, jamiyat qadriyatlar tizimidagi yuksak ahloqiy tuyg'ularning shakllantirish va mana shunday fazilatlarga ega bo'lish fuqarolik pozisiyasini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ahloqiy qadriyatlar global axborot makoni ta'sirida nihoyatda kuchli transformatsiyaga uchramoqda. Dunyo miqyosida "ommaviy madaniyat" va neoliberal qadriyatlar intervensiyasi an'anaviy jamiyatlar hayotiga tubdan o'zgartirish kiritmoqda. Milliy qadriyatlar har bir jamiyatlarda ham mana shunday ta'sir sharoitida ma'lum o'zgarishlarga uchramoqda. Yangi ahloq qanday bo'lishi kerak, uning neoliberal qadriyatlar bilan uyg'unligi masalalari falsafa fanlari doirasida tadqiq qilinishi kerak bo'lgan mavzulardan biri bo'lmoqda.

Umuman olib qaraganda fuqarolik pozisiyasi shaxsning dunyoqarashi va madaniyati bilan bog'liq jarayon bo'lganligi sababli ko'pchilik holatlarda mana shu masalalarga e'tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Rossiya Federatsiyasida fuqarolik pozisiyasiga yondashuv masalasi keng o'rganilgan muammolardan biri hisoblanadi. Rossiyalik olim N.N.Perepicha fuqarolik

[36] Холмахаматов А. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишнинг механизмлари ва технологиялари. Сиёсий фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2019. - Б. 9

pozisiyasini shakllantirishning to‘rt yo‘nalishini ajratib ko‘rsatgan – aksiologik, sosiomadaniy, me’yoriy, muhit bilan bog‘liq.[37] Bu kabi omillar Rossiya Federatsiyada hozirgi murakkab qarama-qarshilik sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Chunki, Rossiya Federatsiya uchun hozirgi davr hayot-mamot masalasidir. Global qarama-qarshilik sharoitida mamlakat ichkasidagi ijtimoiy qatlamning siyosiy elitani qo‘llab-quvvatlashi, o‘z fuqarolik pozisiyasini bildirgan holda mamlakat hayotini saqlab qolish uchun o‘z salohiyatini namoyon qilishi kerak.

Tahlil va natijalar: Rossiya Federatsiyasida fuqarolik pozisiyasining shakllantirishning huquqiy asosi Konstitutsiya, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuning 48-moddasi, “2025 yilgacha milliy ta’lim doktrinasi”, “Rossiyada ta’lim sohasida shaxsni ma’naviy va ahloqiy tarbiyalash va rivojlantirish konsepsiyasi” va boshqa hujjatlar hisoblanadi.

Rossiyalik bir qator pedagoglar kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida fuqarolik pozisiyasini shakllantirish uchun o‘lkashunoslik metodidan foydalanishni tavsiya etadilar.[38] Ushbu maqolada qayd etilganidek, inson, oila, kichik Vatan va Vatan tamoyili asosida tashkil etiladigan tadbirlar yosh bolalarda fuqarolik pozisiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda mualliflar asosiy e’tibor qaratadigan jihat sifatida o‘lkaning tarixiy va geografik xususiyatlarini o‘rgatish orqali fuqarolik pozisiyasini shakllantirish mumkinligini e’tirof etganlar. O‘zbekistonning ham boy tarixi, boy moddiy va ma’naviy merosi, yuzlab qadimiy bino va inshoatlari hamda o‘ziga xos an’analari mavjud. Maktab davridanoq o‘quvchilarni ana shu maskanlarga tashrifini ta’lim dasturlarining tarkibiy qismi sifatida qabul qilish orqali bolalarda fuqarolik pozisiyasining elementi bo‘lgan vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bunday vatanparvarlik marshrutlari uchun har bir viloyatda tarixiy ob’yektlar yetarli bo‘lib, yil davomida o‘quvchilarni bosqichma bochqich tanishitirib borish va bu jarayonda asosiy urg‘u O‘zbekiston qadimiy davlatchilikka ega ekani, boy madaniy meros, ajdodlarimizning ilm-fan sohasidagi muvaffaqiyatlariga qartilishi va tashrif buyuriladigan obidalar ana shu madaniyatning yaqqol namunasi sifatida taqdim etilishi zarur.

Rossiyada bolalar va yoshlarda fuqarolik pozisiyasini shakllantirishda harbiy-vatanparvarlik klublarining o‘rni alohida bo‘lib kelmoqda. O‘tgan asrning 80-90 yillarida veterenlar tomonidan tashkil etilgan bu klublar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, dastlabki harbiy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda harbiy sohaga yoshlar orasida qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilib kelgan. Hozirgi kunda harbiy vatanparvarlik klublari faoliyati Rossiya Federatsiyasi hukumatining 2000 yil 24 iyuldagi 551-sonli “Bolalar va yoshlarnning harbiy-vatanparvarlik birlashmalari to‘g‘risida”gi qaroriga tayanadi.[39]

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Rossiya Federatsiyasida harbiy-vatanparlik harakatining asosida qayd etib o‘tilgan klublar turadi. Bolalik davridanoq harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash natijasida fuqarolalik pozisiyasini shakllanishi va rivojlanishi ancha samarali kechadi. Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida harbiy-vatanparlik klublari soni 36 mingtaga yetgan.[40] Harbiy-vatanparlik klubi tashkil etish bilan bog‘lik jarayonlar mana hujjatda aks etgan.[41]

Ushbu klublari faoliyati tartibi quyidagicha. Yirik harbiy yoki harbiylashgan tuzilmalarning nafaqadagi ofiserlari bolalar va yoshlarni yuqoridagi maqsad va yo‘nalishlardan kelib chiqib jamoat tashkiloti shaklidagi birlashmaga to‘playdi. Bu jarayon asosiy ta’lim olishga halaqit bermaydi va tadbirlar ta’til vaqtlari yoki darsdan bo‘sh vaqtlarda o‘tkaziladi. Misol uchun, Butunrossiya desant qo‘shinlari veteranlari birlashgan jamoatchilik ittifiqining “Rossiya desantchilar ittifoqi” qoshida yuzlab harbiy-vatanparlik klublari faoliyat ko‘rsatadi.

Shu kabi bolalar va yoshlarning jamoat tashkilotlari Rossiyaning armiya, flot va aviatsiyasining ko‘ngillilar jamoat tashkiloti – DOSAAF va “Alfa” aksilterror tashkiloti veteranlarining halqaro assosatsiyasi qoshida ham faoliyat ko‘rsatadi.

Xulosa

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, Rossiya Federatsiyasida harbiy vatanparvarlik harakati faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va bu jarayondagi dastlabki bosqich hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu amaliyotni qo‘llash istiqbollari mavjud bo‘lib, bu boradagi bo‘shliq hozirgacha to‘ldirilmagan. Mamlakatimizda harbiy-vatanparlik harakatini tashkil etish bo‘yicha juda katta salohiyat bor. Hozirgi murakkat geosiyosiy sharoitda ushbu harakatni tashkil etish zarur bo‘ladi.

[37] Перепеча Н.Н. Условия формирования у студентов гражданскоий позиции. Вестник университета (ГУУ). – 2010. № 17. – С. 86-87.

[38] Перепеча Н.Н. Условия формирования у студентов гражданскоий позиции. Вестник университета (ГУУ). – 2010. № 17. – С. 86-87.

[39] https://fadm.gov.ru/documents/?SECTION_ID=179&filter_region=43&trends=28884&user_lang=en&TYPE=31&%3BELEMENT_ID=33213&PAGEN_1=3 - Постановление Правительства Российской Федерации от 24.07.2000 № 551 «О военно-патриотических молодежных и детских объединениях»

[40] https://er-gosduma.ru/news/edinaya-rossiya-i-rosmolodezh-prodolzhat-voenno-patrioticheskoe-vospitanie-molodezhi-/ «ЕДИНАЯ РОССИЯ» И РОСМОЛОДЕЖЬ ПРОДОЛЖАТ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ 27.09.2023 15:31:15

[41] https://patriotsport.moscow/wp-content/uploads/2023/09/voenno-patrioticheskij-klub-2.0.pdf - ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКИЙ КЛУБ

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmaxamatov A. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning mexanizmlari va texnologiyalari. Siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2019.

2. Перепеча Н.Н. Условия формирования у студентов гражданскоий позиции. Вестник университета (ГУУ). – 2010. № 17. – С. 86-87.

3. Перепеча Н.Н. Условия формирования у студентов гражданскоий позиции. Вестник университета (ГУУ). – 2010. № 17. – С. 86-87.

4.https://fadm.gov.ru/documents/?SECTION_ID=179&filter_region=43&trends=28884&user_lang=en&TYPE=31&%3BELEMENT_ID=33213&PAGEN_1=3 - Постановление Правительства Российской Федерации от 24.07.2000 № 551 «О военно-патриотических молодежных и детских объединениях»

5. https://er-gosduma.ru/news/edinaya-rossiya-i-rosmolodezh-prodolzhat-voenno-patrioticheskoe-vospitanie-molodezhi-/ «ЕДИНАЯ РОССИЯ» И РОСМОЛОДЕЖЬ ПРОДОЛЖАТ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ 27.09.2023 15:31:15

6. https://patriotsport.moscow/wp-content/uploads/2023/09/voenno-patrioticheskij-klub-2.0.pdf - ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКИЙ КЛУБ

7. http://sdrvdv.ru/voenno-patrioticheskie-kluby/ - Список военно-патриотических клубов Всероссийского союза общественных объединений ветеранов десантных войск «Союз десантников России»

8. https://www.dosaaf.ru/articles/tcentry-voenno-patrioticheskogo-vospitaniya/ - Центры военно-патриотического воспитания

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ilimjon Abduxamjonovich Adbumalikov
Andijon davlat universiteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi, PhD, dotsent

TINCHLIK MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolada tadqiqotchi tomonidan tinchlik madaniyati bu tenglik, adolat, demokratiya, inson huquqlari, bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillariga asoslangan va birgalikda yashash va baham ko‘rishni qo‘llab-quvvatlaydigan madaniyatdir. Bizning nazarimizda tinchlik madaniyatini rivojlantirish uchun qabul qilinishi kerak bo‘lgan takliflarni aniqlash kerak bo‘ladi. Chunki bu madaniyat birinchi navbatda zo‘ravonlikka qarshidir.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, qadriyat, madaniy-axloqiy, vatanparvarlik.*

Илимжон Абдухамжонович Адбумаликов
Андижанский государственный университет
Национальная идея, кафедра «Основы духовности и правового образования», кандидат философских наук, доцент

ПОНЯТИЕ КУЛЬТУРЫ МИРА И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация: *В данной научной статье исследователь утверждает, что культура мира - это культура, основанная на принципах равенства, справедливости, демократии, прав человека, толерантности и солидарности, которая поддерживает совместное проживание и взаимодействие. По нашему мнению, необходимо определить предложения, которые следует принять для развития культуры мира. Это обусловлено тем, что данная культура прежде всего направлена против насилия.*

Ключевые слова: *молодежь, ценности, культурно-нравственные, патриотизм.*

Ilimjon Abdukhamjonovich Adbumalikov
Andijan State University
Department of National Idea, Fundamentals of Spirituality and Legal Education, PhD, Associate Professor

THE CONCEPT OF PEACE CULTURE AND ITS SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION

Annotation: *In this scientific article, the researcher defines a culture of peace as one based on the principles of equality, justice, democracy, human rights, tolerance, and solidarity, which supports coexistence and sharing. In our view, it is necessary to identify proposals that should be adopted for the development of a culture of peace. This is because such a culture is primarily opposed to violence.*

Key words: *youth, value, cultural and moral, patriotism.*

Kirish: Hozirgi kundagi murakkab xalqaro va mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot muammolari orasida davlatlararo, millatlararo, dinlararo o‘zaro fuqarolik munosabatlarini tartibga keltirish, o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash o‘ta dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalaga aylanib qoldi. Bugun jahon hamjamiyatining asosiy e’tibori tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash bo’lib, shu bois, dunyoviy o’zgarishlar xususiyatlari, xavfsizlik mexanizmlari, umuminsoniy manfaatlarning ustuvorligi, ma’rifat, diniy bag’rikenglik, barqaror taraqqiyot kabi omillarga alohida e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda ham tinchlik va barqarorlikni, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglikni, fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hurmatni mustahkamlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022-2026 yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” PF-60-sonli farmonining V-Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga ko‘tarish yo‘nalishida aynan shu masalalarga katta e’tibor qaratiladi. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metod:

Insoniyatning turli-tumanliklarida o‘zaro birdamlik tuyg‘usini, shuningdek, tirik mavjudot bilan yaqin munosabatlarni anglatadi” deb ta’riflaydi. Tinchlik madaniyati va barqarorlik haqida rus olimi A.N.Samarinning asarlarida shuningdek, V. Alimasovning “ Tinchlik madaniyati va global muammolar”, Mannopov X va Ahmadaliyev A larning “Yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirishning falsafiy mazmun-mohiyati” nomli maqolalarida fikr-mulohazalar yuritilgan. “Tinchlik madaniyati” tushunchasi aksariyat hollarda boshqa ijtimoiy-falsafiy tushunchalar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuning uchun ham ayrim tadqiqotchilar, masalan, Rossiyalik A.N.Samarin fikricha, “Tinchlik madaniyati va urush madaniyati quyidagi belgilarga ko‘ra farqlanadi: davlatda tinchlik madaniyati o‘zgacha fikrlashga qarshilik va har qanday qarshilik har xillikning bostirilishi bilan harakterlanadi”[42].

Muhokama (обсуждение/discussion): Bugungi kunda uyushgan va uyushmagan yoshlarni ish bilan bandligini ta’minlashda davlatimiz tomonidan, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinganligi, Yoshlar ittifoqi qaytadan tashkil etilganligi, 30 iyun yoshlar kuni deb e’lon qilinganligi, Yoshlar parlamentlari, yoshlar ishlar agentligi tashkil etilganligidan ham yoshlarga berilayotgan e’tiborni bilsak bo‘ladi. Bundan tashqari, tadbirkorlikka, kasb hunarga hamda shunga o‘xshash turli xil sohalarga qiziqtirib ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida kreditlar ajratilmoqda. Berilayotgan imtiyozlardagi shaffoflikni ta’minlash maqsadida, maxallalarda xokim maslaxatchilari ish boshladi. Bu esa, Davlatimiz rahbari tomonidan yana bitta O‘zbekiston tajribasi uchun bitta tajribaga aylandi. Bu esa alyuatta juda katta natija beradi. Insoniyatning o‘zi ertangi kun, orzular ravnaqi, vatanga, oilaga, mehnatga muhabbat va hokazolar uchun yashaydi. Bularning barchasining negizi, kelib chiqishi, muayyan yutuqlarni ishlab chiqarish, jumladan, ustozingiz, bugungi farzand va yoshlar tarbiyasidir. Jamiyatning ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, madaniy-ma’naviy yuksalishida yoshlar alohida o‘rin tutadi. Yoshlarning bu xususiyati shundaki, ular keksa avlod vakillari ega bo‘lgan eng ilg‘or bilim va tajribani oladilar. Bu qadriyatlar yoshlar bilan uyg‘unlashib, ijtimoiy taraqqiyotning qudratli omiliga aylanadi. Hayotiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, uyushgan yoshlar guruhi ulkan ijtimoiy va ijodiy kuchga ega, o‘z hayotiy muammolarini hal qilishning zamonaviy yondashuvlari va usullarini shakllantirish va butun yosh avlodning kundalik muammolarining oldini olishga faol ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega. O‘zbekistondagi yoshlar harakati salohiyatini o‘rganish, ilmiy baho berish va yoshlar siyosatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarurati zamonaviy O‘zbekiston jamiyati taraqqiyoti sharoitida juda dolzarb va dolzarbdir. Davlatimiz tomonidan yoshlar hayotini yanada yaxshilash, huquq va manfaatlarini ta’minlash, iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashish, bilim olish, kasb-hunar va mutaxassislik egallash borasida muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[43]

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish ana shu chora-tadbirlarni o‘zida mujassam etgan va ularning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi tizimdir. Yoshlarga oid davlat siyosati tizimining asosiy harakatlantiruvchi kuchi yoshlar birlashmalari bo‘lib, ular faoliyatini rivojlantirish va salohiyatini mustahkamlash yoshlar hayotini har tomonlama yuksaltirish, ularning siyosiy savodxonligini oshirish, iqtisodiy mustaqillikka erishish, madaniy bilim olish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va jamiyat hayotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yoshlar siyosatining ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyotni rivojlantirish, siyosiy platformalarda ishtirok etish, yoshlar madaniyati, ta’lim, fuqarolik jamiyati va boshqalarda eng dolzarb muammolarini hayotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy ishlarni amalga oshirish zarur bo‘lib, ularda yoshlarga oid talablar mavjud. Jamiyatda yoshlar tarbiyasi davlat darajasidagi eng muhim masalalardan biridir. Ma’lumki, yoshlarga oid davlat siyosati davlat tomonidan amalga oshirilayotgan hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar tizimidir. Yoshlarga oid davlat siyosati faqat yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanib qolmay, ularni fuqarolik ruhida tarbiyalash, O‘zbekistonlik vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishda madaniy-axloqiy va ma’naviy qadriyatlar, qolaversa, avlodlar vorisligi, oilaviy tarbiyaning ustuvorligi tamoyillari asos qilib olingan. Kelajakda mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishga qodir va hayotga mas’uliyatli, faol qaraydigan yoshlarni tarbiyalash, O‘zbekistonlik vatanparvarlikni shakllantirish, ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirish uchun katta mehnat talab etiladi. Shunga ko‘ra, yoshlar ta’lim-tarbiyasida xalqimizning tariximiz qa’riga yetib, bugungi kungacha yetib kelgan ma’naviy qadriyatlarini hisobga olish ustuvor vazifalardan biridir.

[42] Самарин А.Н. Культура мира как открытый междисциплинарный проект / А.Н.Самарин // Конфликтология. Теория и практика. – М.:СПб., 2005. №1. –С.13-21

[43] Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва баркамол ёшлар – бугунги ва эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучидир. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Жилд 1. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 504-505

Tinchlik o‘zaro farqlarni o‘zaro tan oladigan uyg‘unlikka ishora qiluvchi ma’nolar bilan ifodalanishi mumkin, ya’ni ziddiyatsizlik madaniyati, yarashuv madaniyati, o‘zaro tan olish yoki alohida-alohida uchrashuvlarning aynan bir-biriga mos kelishini anglatadi. Biroq, ziddiyatsizlik, murosaga kelish yoki o‘zaro tan olish madaniyati qaysi sharoitda, asosda va munosabatlar darajasida saqlanib qolishi muhimdir. Tinchlik - bu birinchi navbatda o‘z nomi bilan tinchlikdir. So‘ngra har bir fuqaroning o‘z yurtdoshlari bilan tinch-totuvligini bildiradi, nihoyat, odamlar o‘zlari yashayotgan muhitni hisobga olgan holda tabiat bilan munosabatlaridagi o‘zaro uyg‘unlik yashash holatini ifodalaydi. Tinchlikni yana hayotning barcha sohalarida zulm qilmaslik va o‘zaro totuvlik holati deb ta’riflash mumkin. Yuqorida qayd etilgan xususiyatlardan xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan tinchlik; demokratiya, tenglik, erkinlik va adolat mavjudligini bildiradi. Tinchlik - bu demokratiya, tenglik, erkinlik va adolatning har kimga va hamma narsaga yoyilishi, inson va tabiat munosabatlarida o‘zaro yordam ko‘rsatish orqali rivojlangan muhabbat va ishonch muhitining odamlarning moddiy va ma’naviy hayotida hukmronlik qilishini anglatadi. Tinchlik - bu insoniyat ozodlik va ijtimoiylashuvi orqali erishgan yengilmas immanent avtarkiyadir.

Agar odamlar tinchlikda bo‘lmasa, ular to‘qnashuv va halokatga tayyorlanishning doimiy keskinligida hayotni urushga aylantiradilar. Bugungi kunda butun insoniyatning balosi bu vaziyatdan qochib qutula olmaslikdir.

Tinchlik kurashining o‘zini tinchlik uchun sa’y-harakatlar deb atash mumkin va tinchlikning o‘zi tinchlikni qurish va bu asoslarni tayyorlashdan boshqa narsa emas. Kim birovdan teng va erkinroq bo‘lsa, adolatsizlik boshlanadi, boy va qudratlilar halokat psixologiyasiga tushib qoladilar, zaiflar esa sudraladi. Chunki jamiyat bir butun bo‘lib, bir qismning boshqa qismdan farqi yaxlitlikni aks ettirib, bu tengsizlikdan kelib chiqadigan adolatsizlik va erkinliksizlikni keltirib chiqaradi, har bir insonga ta’sir qiladi. Tinchlik etikasi o‘zaro munosabatlar sharoitida inson-inson, inson-tabiat munosabatlarida vaqtinchalik va fazoviy uyg‘unlikni o‘rnatadigan fikr, harakat va hissiyot holatida bo‘lishni nazarda tutadi. Demak, tinchlik o‘z ichiga mehr-muhabbatni o‘z ichiga oladi, ya’ni boshqalar bilan munosabatlar o‘zaro yordam va hamjihatlikka, boshqa odamlar va tabiat bilan uchrashish umumiy hamdardlikka, o‘zaro harakatlar esa o‘zaro bag‘rikenglikka asoslanadi. Axloqiy harakat - bu o‘zaro hamdardlik (empatiya). O‘zaro hurmat doirasida bir-birlari bilan munosabatlarni bag‘rikenglik asosida qurish axloqiy harakatning bir jihati hisoblanadi. Inson va tabiatning begonalashuvi va o‘zini o‘zi anglashini yo‘q qilishga urinish o‘z-o‘zini anglash, shuningdek, individual o‘zini o‘zi anglash uchun kurashni anglatadi, shuning uchun har bir kishi hamma bilan umumiy birdamlikda bo‘lishi kerak. Chunki nazorat ostiga olingan erkinliklar yakkaliklarda hayoliy voqelik bo‘lsada, umumiylikka yoyilganda haqiqatga aylanadi. Shu o‘rinda Abdurauf Fitratning “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”, degan fikrlarini takidlash joizdir.

Xulosa (заключение / conclusion): tinchlik madaniyati bu yuksak ijtimoiy-siyosiy va insonparvar tamoyillaridan biri, urushlarga yo‘l qo‘ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta’minlashga oid integral madaniy hodisadir; b) Hozirgi kunda dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikni qaror toptirish uchun, avvalo, qonli mojarolarga barham berish, tolerantlik va totuvlikni qaror toptirish, madaniy meros, osori-atiqalar, urf-odatlarni asrab avaylash, dunyo xalqlarining ilm-fan yutuqlaridan birdek bahramand bo‘lishiga erishish zarur. Bunday madaniy o‘zgarishlar tizimida tinchlik madaniyati o‘ziga xos o‘rinni egallaydi; v) hozirgi kunda har qanday davlatni aynan tinchlik madaniyati mezoni orqali qaysi taraqqiyot pog‘onasida turganini va qayerga borayotganini bilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. - B. 305.

2.Самарин А.Н. Культура мира как открытый междисциплинарный проект / А.Н.Самарин // Конфликтология. Теория и практика. –М.:СПб., 2005. №1. –С.13-21

3.Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият. 2000. – Б. 4.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Safarov Nurbek Abdivaliyevich
(Qarshi davlat universiteti, Falsafa va sotsiologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

UDK: 112:100.005.4(477)

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIKNING MINTAQAVIY MEXANIZMI

Annotatsiya. *Maqolada jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning mintaqaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Barcha konvensiya, shartnoma va kelishuvlar maxsus protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali ahdlashuvchi tomonlar o‘rtasida jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik qilishni belgilovchi qoidalar o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xalqaro hamkorlik, Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi, Jinoyatchilikka qarshi kurash, Parlament Assambleyasi, Huquqiy hamkorlik, jinoyat, rezolyutsiya, xalqaro-huquqiy hujjat.*

Сафаров Нурбек Абдивалиевич
Каршинский государственный университет, Старший преподаватель кафедры философии и социологии, доктор юридических наук (PhD)

РЕГИОНАЛЬНЫЙ МЕХАНИЗМ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ БОРЬБЫ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ

Аннотация. *В статье проанализированы региональные механизмы международного сотрудничества в сфере борьбы с преступностью. Во всех конвенциях, договорах и соглашениях изучаются положения, определяющие международное сотрудничество договаривающихся сторон в уголовных делах посредством совершения специальных процессуальных действий.*

Ключевые слова: *международное сотрудничество, Совет Европы, ЕС, борьба с преступностью, Парламентская ассамблея, правовое сотрудничество, преступление, резолюция, международно-правовой акт.*

Safarov Nurbek Abdivaliyevich
Qarshi State University, Senior Lecturer, Department of philosophy and sociology
Doctor of philosophy in law (PhD)

REGIONAL MECHANISM OF INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF COMBATING CRIME

Annotation. *The article analyzes regional mechanisms of international cooperation in the field of combating crime. All conventions, treaties and agreements have been studied by the implementation of special procedural actions, which determine the international cooperation in criminal cases between contracting parties.*

Keywords: *International Cooperation, Council of Europe, European Union, Fight Against Crime, Parliamentary Assembly, legal cooperation, crime, resolution, international-legal document.*

Kirish. Xalqaro hamkorlikni amalga oshiruvchi Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqi tashkilotlarining tegishli organlari faoliyatini Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning mintaqaviy mexanizmiga namuna sifatida olishimiz mumkin.

1949 yil 5 mayda tuzilgan Yevropa Kengashi tarkibiga hozirgi vaqtga kelib 46 ta davlat kiradi. Yevropa Kengashining faoliyati Yevropa hamkorligining barcha asosiy masalalarini, shu jumladan jinoyatchilikka qarshi kurash masalasini ham o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlatlar metodologiyasi. Mazkur mavzu dolzarb va ayni paytda tahlil talab muammolardan biridir. Jahon mamlakatlarning qator olimlari mazkur mavzuning turli aspektlarini o‘rganmoqdalar [Блюнчли И. Современное международное право цивилизованных государств, изложенное в виде кодекса. – М.: Б. и., 1878. – С. 283. http: // lawlibrary.ru/izdanie47227.htm], [Грабарь В. Э. Материалы к истории международного права в России (1647-1917 г г.). – М.: Зерцало, 2003. – С.456.],

[Umarxanova D.SH. Jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik: Monografiya. – T.: JIDU, 2017. – B.29],[Бирюков П.Н. Международное уголовно-процессуальное право и правовая система Российской Федерации: теоретические проблемы: *Дис. ... д-ра юрид. наук.* – Воронеж, 2001. – С. 129].

Yevropa Kengashining jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik masalalari bilan shug‘ullanuvchi quyidagi organlarini misol qilib keltirishimiz mumkin:

Parlament Assambleyasi;

Vazirlar qo‘mitasi;

Jinoyatchilik muammolari bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi;

Huquqiy hamkorlik bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi.

Yevropa kengashi qoshida bir necha konsultativ maqomga ega tashkilotlar mavjud.

Yevropa Kengashi doirasida faoliyatning katta qismi amalga oshiriladi, ya’ni: tegishli Yevropa konvensiyalari va kelishuvlari ishlab chiqiladi, konferensiya va seminarlar o‘tkaziladi va shu yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Yevropa Kengashining ish faoliyati davomida jinoyatchilikka qarshi kurash va jinoyat huquqi muammolari bo‘yicha 20 dan ortiq xalqaro-huquqiy hujjatlar (konvensiya va kelishuvlar) ishlab chiqilib, qabul qilingan. Bundan tashqari, Vazirlar qo‘mitasi jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha 40 ga yaqin rezolyutsiya va 45 ta tavsiya ishlab chiqib, qabul qilgan [1;288 pp].

Yevropa konvensiyalarini mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni tashkil qiluvchi konvensiyalar ishtirokchi davlatlarning milliy qonunchiligini o‘zaro yaqinlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, muayyan qilmishlarni jinoyat sifatida baholash, jinoyatlarning oldini olish va ularni tergov qilishga yo‘naltirilgan jinoyat-huquqiy, jinoyat-protsessual va ma’muriy-huquqiy choralarni milliy qonunchilikka kiritish majburiyatlarini nazarda tutadi. Konvensiyalarning ikkinchi guruhida hamkorlikning aniq shakl va jarayonlari hamda ishtirokchi davlatlarning o‘zaro hamkorlik prinsipi asosida xalqaro jinoyatchilik va transmilliy jinoiy tashkilotlarga qarshi kurash borasida faoliyat olib borishi nazarda tutiladi.

Tahlil va natijalar. Yevropa mintaqasidagi yana bir tashkilot, ya’ni Yevropa Ittifoqi ham o‘z faoliyatida jinoyachilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratmoqda. Jumladan, ushbu maqsadda Yevropa Ittifoqi davlatlarining Adliya va Tashqi ishlar vazirliklari qarorlariga asosan, «Yevropol» Markaziy kriminal politsiya agentligi tashkil etildi va u 2010 yildan buyon Yevropa Ittifoqi agentligi hisoblanadi. Tashkilotning tuzilishiga nafaqat ushbu mamlakatlarda jinoyatchilikning o‘sib borishi, balki yagona Yevropa pasporti joriy etilishi munosabati bilan mazkur mamlakatlarda bojxona va chegara nazorati bekor qilinganligi ham sabab bo‘ldi. [2]

Yevropol tashkiloti yordamida mafiya ko‘rinishidagi uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek ushbu mamlakatlardagi mafiya tarkibiy tuzilmalari faoliyatini tergov qilish va ularga qarshi kurash bo‘yicha Yevropa strategiyasini ishlab chiqish uchun shu davlatlarning politsiya, tergov va sud idoralari vakillaridan mafiyaga qarshi maxsus guruhlar tuzish rejalashtirilgan. Bu faoliyatda giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda sotish, terrorizm, pul birliklarini qonunga xilof ravishda muomalaga chiqarish va Yevropa hamjamiyatining tashqi chegaralarini nazorat qilishga alohida e’tibor beriladi. Tashkilotchilarning fikriga ko‘ra, ushbu tashkilot keyinchalik Yevropa federal qidiruv byurosiga aylantirilishi mumkin [3;102-103].

Yana bir mintaqaviy tashkilot – Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi –doirasida ham jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida mintaqaviy hamkorlik amalga oshiriladi.

1991 yil 8 dekabrda imzolangan MDHni tuzish to‘g‘risidagi kelishuvda [4;210] uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida davlatlarning hamkorlik qilishi belgilangan edi. Ushbu qoida keyinchalik MDH Nizomining 4-moddasida mustahkamlandi. Nizomning 2-moddasida Hamdo‘stlikning maqsadlari qatorida o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish va huquqiy munosabatlarning boshqa sohalari bo‘yicha hamkorlik qilish, 20-moddasida esa Hamdo‘stlikka a’zo davlatlarning o‘z milliy qonunchiligini o‘zaro yaqinlashtirish va bir-biriga huquqiy yordam ko‘rsatish borasidagi hamkorligi ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar asosida amalga oshirilishi belgilandi.

1993 yil 22 yanvarda MDH Nizomi qabul qilinishi bilan bir qatorda, Hamdo‘stlikka a’zo davlatlarning rahbarlari Fuqarolik, oilaviy hamda jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi konvensiyani imzoladilar [5;108]. Ushbu hujjat Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari uchun jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik qilishiga asos bo‘ldi. Keyinchalik, 1997 yil 28 martda ushbu Konvensiya qo‘shimcha Protokol bilan to‘ldirildi. 2002 yil 7 oktabrda Kishinyov (Moldova Respublikasi)da o‘tkazilgan MDHda ishtirok etuvchi davlatlar boshliqlarining navbatdagi sammitida mazkur Konvensiyaning yangi tahriri O‘zbekiston Respublikasining ishtirokisiz qabul qilindi [6;85].

Bundan tashqari, MDH mamlakatlarining aksariyati (Armaniston, Ozarbayjon Respublikasi, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina) jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamkorlikka oid Yevropa konvensiyalarining ham ishtirokchisi hisoblanadi.

Barcha konvensiya, shartnoma va kelishuvlar maxsus protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali ahdlashuvchi tomonlar o‘rtasida jinoyat ishlari bo‘yicha

xalqaro hamkorlik qilishni belgilovchi qoidalarni mujassamlashtirgan. Lekin bu jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha mintaqaviy hamkorlikni amalga oshirish uchun yetarli asos bo‘lib xizmat qilmaydi.

Buni, masalan, quyidagi amaliy misollarda ko‘rishimiz mumkin:

BMTning narkojinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasining prognoz ma’lumotlariga ko‘ra, Afg‘onistonda 6,4 ming tonna «opiy» narkotik moddasi yetishtirilishi, shundan 500 tonnadan ortig‘i ushbu davlatning shimoliy viloyatlari, ya’ni mamlakatning O‘zbekiston bilan chegaradosh hududlariga to‘g‘ri kelishi taxmin qilingan. Ushbu davlatning shimoliy viloyatlarida yetishtiriladigan narkotik moddalar Markaziy Osiyo davlatlari orqali Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi va Yevropaga o‘tkaziladi.

Afg‘onistonda tayyorlangan narkotik moddalar asosan xalqaro toifadagi temir yo‘llar, tranzit yo‘nalishlar orqali olib o‘tilishi aniqlangan. Shuningdek, ko‘p miqdordagi narkotik moddalarni O‘zbekiston temir yo‘llari orqali olib o‘tish yagona muqobil tranzit yo‘li hisoblanadi. Respublikamizda ro‘y berayotgan mintaqaviy integratsiya jarayonlari ko‘p miqdordagi narkotik moddalarning bojxona chegaralari orqali osonlik bilan o‘tkazilishi, guruh a’zolari shaxsining mavhum bo‘lib qolishi transmilliy xalqaro narkotik moddalari bilan shug‘ullanuvchi guruhlarga qo‘l kelmoqda.

Nazorat tartibida yetkazib berish tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati» hamda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi qonunlarida ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa-da, manfaatdor organlarda ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi mexanizmini belgilab beruvchi aniq idoralararo normativ-huquqiy hujjatlar mavjud emas.

Shuningdek, aksariyat ilg‘or davlatlarda nazoratdagi narkotik moddalar yo‘q qilinishining oldini olish maqsadida nazoratdagi «yukni almashtirib qo‘yish» tadbiri keng qo‘llanib kelmoqda. Shu bilan birga, Qozog‘istonning manfaatdor idoralari bilan hamkorlikdagi qo‘shma buyrug‘iga asosan, nazoratdagi «yukni almashtirib qo‘yish» majburiy chora-tadbir sifatida belgilab qo‘yilgan. Xuddi shu tartib Turmaniston Respublikasida ham belgilangan.

Hozirgi kunda Tojikiston Respublikasining tashabbusi bilan MDHga a’zo davlatlar Ichki ishlar vazirlarining Kengashida «MDHga a’zo davlatlar tomonidan xalqaro nazorat tartibida yetkazib berish tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazilishining yagona tartibi to‘g‘risida»gi hujjat loyihasi muhokama qilinmoqda. Hozirgi kunda bu turdagi jinoyatlar soni mamlakatimizda oshib borayotgani sababli, nazorat tartibida yetkazib berish tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish orqali jinoyatni fosh etish zarurati paydo bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, nazorat tartibida yetkazib berish tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati» hamda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi qonunlariga manfaatdor organlarning ushbu tadbirlarni amalga oshirish mexanizmini aniq ishlab chiqqan holda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, Gruziya Respublikasi fuqarolaridan bo‘lgan sayyor («gastrolyor») jinoyatchilar Toshkent shahrida o‘g‘rilik jinoyatlarini sodir etib yurganlar. Mazkur jinoyat professional jinoyatchilik turi bo‘lib, ular odam o‘ldirish, o‘g‘rilik kabi og‘ir jinoyatlarni dunyoning istalgan hududida sodir etishlari mumkin. Mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslar tezkorlik bilan qo‘lga olinmayotgani va tegishli jazo belgilanmayotgani sababli o‘z hududidan erkin chiqib, qo‘shni davlatlarda ham faoliyatini davom ettirmoqdalar.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida, fikrimizcha, Yevropa tajribasidan MDH doirasida ham foydalangan holda Davlat chegaralarini qo‘riqlash qo‘mitasi DXX bilan birgalikda Interpol axborot-ma’lumot bazasi (xalqaro qidiruvdagi, jinoiy kriminal toifasiga kiruvchi, jinoyat sodir etishga moyilligi bor shaxslar, sayyor jinoyatchilar, qo‘poruvchilar, narkoruryerlar, yo‘qotilgan o‘g‘irlangan boyliklar, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqalar bo‘yicha ma’lumotlar bazasi) bo‘yicha shaxslarni tekshirish tizimini joriy etish masalalarini ko‘rib chiqish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini kesib o‘tishda biometrik pasport ma’lumotlarining kiritilishi qidiruvdagi shaxslarni qo‘lga olish imkonini oshirgan bo‘lardi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda milliy jinoyat qonunchiligining o‘rni va ahamiyatini aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi normalarining mazmunini tahlil qilish bilan bir qatorda, qiyosiy tahlil uchun xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligi xalqaro huquq normalariga qanchalik muvofiq kelishini ham alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish imkonini beruvchi O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini tahlil qilishda, ularni bevosita mamlakatimizning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligining huquqiy asoslarini tashkil etuvchi qonun hujjatlari hamda jinoyat qonunchiligini tashkil etuvchi qonun hujjatlariga ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchi guruhdagi qonun hujjatlarini jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bir qatorda boshqa sohalarda ham mamlakatimiz xalqaro hamkorligining huquqiy asoslarini tashkil etuvchi qonunchilik hujjatlari tashkil qiladi. Ularga, xususan, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar

bilan hamkorligining huquqiy asoslarini tashkil etuvchi qonunchilik hujjatlari (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Xalqaro shartnomalar to‘g‘risidagi qonun, O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi, Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi to‘g‘risidagi qonun va h.k.); huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi qonunlar (jumladan, Prokuratura to‘g‘risidagi, Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi, Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risidagi, Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi qonunlar kabi qonunchilik hujjatlari); shuningdek terrorizmga, ekstremizmga, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalada bo‘lishiga qarshi kurashning huquqiy asoslari bo‘lgan maxsus qonunlar kiritilishi mumkin.

Ikkinchi guruhdagi qonunchilik hujjatlari moddiy va protsessual jinoyat qonunchiligini tashkil etuvchi qonun hujjatlari, jumladan Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat ijroiya kodekslaridan iborat.

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida birinchi guruhga kiruvchi qonunchilik hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasi tegishli vazirlik va idoralarining jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi vakolatlari, huquq va majburiyatlari, faoliyat yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan.

Misol uchun, 2016 yilda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining xalqaro hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan 45-moddasida belgilanganidek, «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan o‘z vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha hamkorlikni amalga oshiradi» [7]

2012 yilda qabul qilingan «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 15-moddasiga ko‘ra, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun asoslar tarkibiga, O‘zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqiy yordam ko‘rsatish sohasidagi hamkorlik masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalari asosida kelib tushgan so‘rovnomalar ham asos bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan [8].

2018 yil 30 iyulda qabul qilingan «Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 20-moddasida mamlakatimizning ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorligi quyidagicha tartibga solingan: «Ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari chet davlatlarning vakolatli organlariga belgilangan tartibda zarur axborotni taqdim etish to‘g‘risida so‘rovlar yuborish va ularning so‘rovlariga javob berish, shuningdek boshqa hamkorlikni amalga oshirish huquqiga ega» [9].

Xulosa va takliflar. Birinchi holatda ichki ishlar organlariga boshqa davlatlarning tegishli organlari bilan xalqaro hamkorlik qilish uchun vakolat berilayotgan bo‘lsa, ikkinchi holatda bu hamkorlik predmeti bo‘lmish asos keltirilmoqda, uchinchi holatda esa muayyan sohada jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari uchun xalqaro hamkorlikning asoslari va ularning huquqlari belgilab berilmoqda.

Mazkur qonun hujjatlari muayyan davlat organlari tegishli sohada jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoyatlarning oldini olish va ularni ochish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik qilishiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Daniele Archibugi and Alice Pease, Crime and Global Justice. The Dynamics of International Punishment. Cambridge: Polity Press, 2018, -288 pp.

2.Governance & Accountability. https: /.

3.Панов В.П. Сотрудничество государств в борьбе с международными уголовными преступлениями. – М.: Юрист, 1993. – С. 102-103.

4.Fayziyev M.M. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi a’zolarining huquqiy statusi // O‘zbekiston Respublikasi-mustaqil davlat / Mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 1995. – 210 – B.

5.Qo‘shimcha ma’lumot olishi uchun qarang: Deystvuyusheye mejdunarodnoye pravo: V 3-x t. T. 3. – M.: MNIMP, 1999. – S. 108.

1.Файзиев Ф. М. Международное сотрудничество в оказании взаимной правовой помощи // Ҳуқуқ-Право-Law. 2003. № 1. – 85 – Б.

2.O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonuni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 38-son, 438-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda, 37-son, 978-modda).

3.O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 52-son, 585-modda; 2016 y., 17-son, 173-modda; 2017 y., 36-son, 943-modda).

4.Ўзбекистон Республикасининг «Экстремизмга қарши курашиш тўғрисида»ги қонуни. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 03/18/489/1593-сон). Мазкур норма биз томонимиздан

ишлаб чиқилган бўлиб, қонун ижодкорлиги фаолиятида фойдаланиш учун юборилган ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Мудофаа ва хавфсизлик масалалари қўмитасининг 08.01.2019даги №06/2-06 далолатномаси, Қонунчилик ва суд-ҳуқуқ масалалари бўйича қўмитасининг 25.01.2019даги №06/1-05 далолатномаси билан тасдиқланган.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Nishanov Muhammadjon Sadikjanovich
ADU erkin izlanuvchisi

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY MUAMMOLAR HAL ETILISHINING ADEKVATIK TAHLILI

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etish jarayonlari bayon qilingan. Ijtimoiy muammolarni bartaraf etish tamoyillari va huquqiy asoslari ko‘rsatib berilgan. Ijtimoiy muammolarning bartaraf etilishida mahalla yettiligining roli ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy davlat, farmon, mahalla beshligi, mahalla yettiligi, o‘zaro hamjihatlik, ijtimoiy va moddiy yordam.*

Нишанов Мухаммаджон Садыкжанович
Независимый исследователь в ADU

КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ РЕШЕНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация: *В статье описываются процессы построения социального государства в Узбекистане. Изложены принципы и правовые основы устранения социальных проблем. Раскрывается роль махаллинской семерки в решении социальных проблем.*

Ключевые слова: *социальное государство, указ, махаллинская пятёрка, махаллинская седмёрка, взаимная солидарность, социальная и материальная помощь.*

Nishanov Muhammadjon Sadikjanovich
Freelance Researcher at ASU

ADEQUATE ANALYSIS OF SOLVING SOCIAL PROBLEMS IN UZBEKISTAN

Abstract: The article describes the processes of building a social state in Uzbekistan. The principles and legal *foundations of eliminating social problems are indicated. The role of the mahalla seven in eliminating social problems is revealed.*

Key words: *welfare state, decree, neighborhood five, neighborhood seven, mutual solidarity, social and material support*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida aholining muammolarini hal etuvchi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiluvchi ijtimoiy davlatni barpo etishning yo‘l-yo‘riqlarini belgilab berdi.[44] Ijtimoiy davlatni barpo etishda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo mamlakatlarining tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, misol uchun: Daniya, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Germaniya, Yaponiya kabi ko‘pgina rivojlangan davlatlarda o‘zini o‘zi boshqarish organlari joylardagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish borasida katta tajribaga ega.[45]

Sharqona odob-ahloqni o‘zida mujassam etgan, xalqimiz hayotining yashash tarziga aylanib ulgurgan, necha asrlar davomida saqlanib, sayqallanib kelayotgan mahallalar faoliyatini tubdan yaxshilash, zamon bilan hamnafas bo‘lishiga erishish maqsadida mamlakatimiz hayotining keyingi 7 yil davomida juda muhim, e’tiborga molik yangilanishlar amalga oshirildi. O‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahalla tizimi, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini ta’minlash masalalari davlatimiz siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xalqimizning orzu intilishlarini o‘zida mujassam etgan Bosh Qomusimizda ham bu muhim o‘zgarish va yangilanishlar mustahkamlab qo‘yilganligi bilan ahamiyatli. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasida mahallalarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal qilish vakolatining berilishi mahalla tizimida tarixiy voqea bo‘ldi.[46]

Fuqarolar yig‘ini to‘g‘risidagi namunaviy nizomda fuqarolar yig‘inlarining maqomi, faoliyat maqsadi, asosiy

[44] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 464 б.

[45] Мўминов М. Янги Ўзбекистонда барқарорликни таъминлаш: муаммо ва ечимлар. – Андижон:”Андижон нашриёт-манбаа” МЧЖ. 2021. – 48 б. Б. 20-23.

[46] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2023. Б. 102-103.

vakolatlari, huquq va majburiyatlari hamda faoliyatini tashkil etish tartibi belgilangan.[47] “Fuqarolar yig‘inining maqsadi va vakolatlari” deb nomlangan 2-bobning “b” bandida ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlash bo‘yicha vazifalar ko‘rsatilgan. Unda kam ta’minlangan, nogironi bor oilalardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni, xotin-qizlarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikka o‘qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olish ishlarida ularga ko‘maklashish belgilab qo‘yilgan. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan muammolarni hal etish bo‘yicha manzilli ishlarni amalga oshiriladi.

So‘nggi yillarda mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash, uning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining hamkorligini mustahkamlash, ularning faoliyatini yanada kuchaytirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi PF-81-son Farmoni bilan mahalla raisiga - hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektorlari faoliyatini muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirish, ular faoliyatini baholash hamda rag‘batlantirish yoki lavozimidan ozod etish bo‘yicha yuqori turuvchi tashkilotlariga taqdimnomalar kiritish huquqi berilganligi, mahallada “beshlik”ning uzviy hamkorlikda faoliyat ko‘satishiga zamin yaratdi. Har oyda mahalla kengashida tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha axboroti eshitilishi hamda mavjud ijtimoiy muammolarning bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishi belgilab qo‘yildi.

“Mahalla beshligi” zimmasiga juda ko‘p vazifalar yuklatilgani, mutasaddi rahbarlar esa buni tahlil qilmayotgani, ularning aniq ish metodikasi ishlab chiqilmagani tanqid qilindi. “Mahallaga topshiriq ham, ulardan so‘rov ham haddan tashqari ko‘p. Mahalladagi vakillarning yarim vaqti faqat “qog‘oz” to‘ldirish va majlislarga ketayapti”, - deb ta’kidladi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Shuningdek, videoselektor yig‘ilishida mahalla boshqaruvi yangi yondashuvlar asosida tashkil qilinishi, amaldagi “Mahalla beshligi”ga soliqchi va ijtimoiy xodim ham qo‘shilib, birgalikda ishlaydigan “mahalla yettiligi” tizimi joriy etilishi, aholini 3 ta daftarga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar mahallaning o‘zida, kollegial hal qilinishi, shuningdek 3 ta daftarga beriladigan mablag‘ni ishlatish mahallaning o‘ziga, “yettilik” ixtiyoriga berilishi ta’kidlandi. “Bu – mahallaga ham vakolat, ham mas’uliyat degani”, - dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev yig‘ilishda “mahalla yettiligi”ning vazifalarini aniq belgilab berdi. Jumladan,

✓ mahalla raisi – mahalla obodligini ta’minlash, sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni saqlash, mahalla hududida qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

✓ hokim yordamchisi – doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish hamda bandligini ta’minlash;

✓ yoshlar yetakchisi – Mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari bandligiga ko‘maklashish, davlat ko‘magiga muhtoj “og‘ir” toifadagi yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish;

✓ xotin-qizlar faoli – “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat” tamoyillarini targ‘ib qilish, xususan yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi va erta nikohning oldini olish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

✓ profilaktika inspektori – mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta’minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishda ko‘maklashish;

✓ soliq xodimi – tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko‘rsatish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish va mahalla byudjetining daromadini shakllantirish;

✓ ijtimoiy xodim – og‘ir ahvolga tushib qolgan va og‘ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ularning ehtiyojlariga qarab, kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va yordamlarni tashkil etish kabi aniq vazifalar bilan shug‘ullanishi lozim.[48]

Bugungi kunda mahalla tom ma’noda “mahallabay”, “xonadonbay” ishlash usuli orqali har bir xonadon kesimida aholining muammolarini ijobiy hal etib kelmoqda. Mahalla tizimida joriy etilgan islohotlar aholini ijtimoiy himoya qilishning yangi bosqichini boshlab berdi. Maxsus farmon bilan mahallalarninng jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish hamda sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida bevosita mahallada mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq

[47] Фуқаролар йиғини тўғрисидаги намунавий низом. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 июндаги 380-сонли қарори билан тасдиқланган.

[48] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2023 йил 26 сентябрь куни маҳаллалардаги “еттилик тизими” фаолиятини янги ёндашувлар асосида ташкил этиш чора-тадбирлари юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилиши.

inspektoridan iborat mahalla “yettiligi” tashkil qilinib, ular o‘rtasidagi vazifalar aniq belgilab berildi.[49]

Mahalladagi “yettilik” faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida alohida bo‘lim faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Avval mahallalar faoliyati ustidan nazorat va monitoring davlat organi zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, mazkur holat o‘zini o‘zi boshqarish organlari maqomiga zid bo‘lib qolayotgan edi. Endilikda mahallalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi, daromad va xarajatlar hamda dasturlarni tasdiqlovchi oliy organ hisoblangan, jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan Respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar) mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari shakllantirildi. Ularning asosiy vazifasi mahalladagi muammolarni hal etishga boshqa manfaatdor idora va tashkilotlarni faol jalb qilish, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish hamda sohaning nufuzi va unga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish hisoblanadi.

2023-yil 21-dekabrda qabul qilingan 209-sonli Farmonda aks etgan yana bir muhim yangiliklardan biri sifatida “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” orqali yordam va subsidiyalar berishda byurokratiyadan xoli va mahallaning hamjihatligini aks ettiruvchi yangi tartib joriy etilganligi ko‘rsatishimiz mumkin. 2024 yil 1 martdan boshlab jismoniy shaxslarni daftarlarga kiritish, shuningdek, ijtimoiy daftarlar hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hamda Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi orqali beriladigan yordam va subsidiyalar “mahalla yettiligi”ning kollegial qarori asosida amalga oshirilishi belgilandi.

2024 yil 1 yanvardan boshlab barcha tuman va shaharlarda mol-mulk va yer solig‘ini 10 %ni yo‘naltirish, bo‘sh turgan ko‘chmas mulkni sotish, binolar ijarasidan tushumlar, homiylik mablag‘lari, grant hamda boshqa tushumlar hisobidan “Mahalla byudjeti” tizimi amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, mahalla raislari hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektorlari faoliyatini KPI asosida baholashda 20 foiz ball berish huquqiga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, ijtimoiy yordam va subsidiyalar aholining kambag‘allikdan chiqishini ta’minlash uchun maqsadli va manzilli yo‘naltirilishi hamda qarorlar qabul qilinishida ochiqlik, haqqoniylik, ijtimoiy adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi uchun “mahalla yettiligi” mas’ul va javobgar bo‘ldi. Mahalla raisi tomonidan mahalla obodligini ta’minlash maqsadida “Obod mahalla”, “Obod ko‘cha”, “Obod xonadon” tanlovlari o‘tkazilyapti. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt va buta ko‘chatlari ekish ommaviy hasharlari o‘tkazilyapti. Har oyda 2ta kam ta’minlangan oila xonadoni ta’mirdan chiqarilmoqda.

Mahalla raisi mahalladagi “yettilik” va yoshlar bilan ishlash masalalari hamda nuroniylar bilan ishlash bo‘yicha maslahatchilari bilan birga o‘z hududining egasi bo‘lib, har bir xonadondagi holatni, oilalardagi muhitni yaxshi bilishi, ehtiyojmand oilalarga ko‘mak berishi kerak. Shunday vazifalar ijrosini ta’minlash, mahallaning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish hamda sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida 2023-yil 21-dekabrda qabul qilingan 209-sonli Farmon bilan “mahalla yettiligi”ning asosiy vazifalari belgilab berildi. Jumladan, Yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, jumladan ularni “Besh tashabbus olimpiadasi”da ishtirok etishga jalb etish. (Har oyda kamida 20 nafar yoshlarni sport, musiqa va fan to‘garaklariga jalb etadi. Haftada bir marotaba sport musobaqalari, musiqa va raqs tanlovlarini tashkil etadi).

2. Ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari bandligiga ko‘maklashish, jumladan “Yoshlar bandligi dasturi”ni mahallada amalga oshirish. (Mahallada ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilarining ro‘yxatini shakllantiradi va hokim yordamchisi bilan birgalikda ularning bandligini ta’minlaydi. Har oyda bir marotaba maktabning bitiruvchi sinf o‘quvchilari bilan uchrashib, oliy ta’lim muassasasi va mutaxassislik yo‘nalishini tanlash hamda kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi).

3. Davlat ko‘magiga muhtoj “og‘ir” toifadagi yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish. (Mahallada “og‘ir” toifadagi yoshlarning yashash manzili va ish joyiga har oyda kamida bir marotaba borib, biriktirilgan rahbarlar bilan birgalikda hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashadi).

4. Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan, shuningdek, profilaktika inspektori bilan birgalikda huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan voyaga yetmaganlar bilan tizimli ishlash. (Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar va voyaga yetmaganlarni har biri bilan individual ishlaydi).

5. “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning muammolarini hal etish, jumladan yoshlarga ko‘rsatiladigan 30 ta yordam turlaridan samarali foydalanish. (Har chorakda bir marotaba yordam ko‘rsatilgan yoshlarning uyiga borib, loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashadi).

6. Xorijdagi vatandosh yoshlar bilan ishlash va ularni qo‘llab-quvvatlash. (Har oyda kamida bir marotaba xorijdagi yosh vatandoshlar bilan muloqot qilish orqali ularning faoliyatini o‘rganadi hamda Vatanga qaytib faoliyatini yuritishi uchun “mahalla yettiligi” bilan zarur choralarni ko‘radi).

[49] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 21 декабрдаги “Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-209-сон Фармони.

7. Iqtidorli yoshlarni izlab topish, iste'dodini ro'yobga chiqarish va ularni qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish. (Har oyda kamida 1 nafar iqtidorli yoshlarni aniqlaydi, iste'dodini ro'yobga chiqarish bo'yicha ular bilan individual ishlaydi, mavjud yordam turlari orqali ularni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'radi).

8. Yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, jumladan yoshlar yetakchisining o'zi har oyda kamida 1 ta kitob mutolaa qilish orqali shaxsiy namuna ko'rsatishi. (Har chorakda kamida bir marotaba ma'naviyat, madaniyat xodimlari, yozuvchi va shoirlarni jalb qilgan holda yoshlar o'rtasida kitobxonlikka oid tadbirlarni tashkil etadi).

9. Shaxsiy rivojlanish maqsadida, jumladan "Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida kamida 1 ta xorijiy tilni mukammal o'rganish. (Mahalla yoshlarini xorijiy tillarni o'rganishga doimiy qiziqtirib boradi).

Hokim yordamchisi doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitadi. Har oyda kamida 10 nafar ishsizning daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash chorasini ko'rayotgani, kambag'al oilalarning ozayib borishini ta'minlamoqda.

Profilaktika inspektorlari havfsiz muhitni ta'minlash, jinoyatdan holi hududga aylantirish ishlarini amalga oshirmoqda.

Soliq inspektorlari mahalla byudjeti shakllanishi va uning sarflanishini "Mahalla yettiligi" a'zolari bilan kollegial holda amalga oshirmoqda.

Ijtimoiy xodim tomonidan kam ta'minlangan, muhtoj fuqarolarga belgilangan ijtimoiy yordam amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida berilishi nazoratga olingan.

Mahalla fuqarolar yig'ini raislari rahbarligida "mahalla yettiligi" jamoatchilik tuzilmasi tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1) Davlat hokimiyati organlariga millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlashga ko'maklashadi;

2) "Ayollar maslahat kengashi" jamoatchilik tuzilmasi tomonidan xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlaydi;

3) tazyiqqa uchragan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib boradi, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etadi;

4) "Yoshlar yetakchisi" tomonidan yoshlarni milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy urf-odat va an'analar bilan tanishtiradi va ularni targ'ib qiladi;

5) mahalladagi uyushmagan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

6) "Ota-onalar universiteti" hamda "Keksalar maslahat guruhi" a'zolari orqali to'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar beradi;

7) yoshlar ta'lim-tarbiyasida va oilalarni mustahkamlashda keksa avlod vakillarining rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

8) profilaktika inspektori bilan hamkorlikda ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod etilgan, shuningdek, probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy-mehnat reabilitatsiyasi va jinoyatchilikning oldini olishga doir tadbirlarni amalga oshiradi;

9) suv bilan ta'minlash choralarini ko'radi;

10) hududagi turar joylarning, ta'lim muassasalarining sanitariya va ekologik holatini yaxshilaydi;

11) "Mahalla nazorati" guruhi bilan birgalikda savdo qoidalari va fuqarolarga xizmat ko'rsatish madaniyatiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

12) soliqlarning undirilishini ta'minlaydi va mahalla byudjetini shakllantiradi;

13) hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishdagi muammolarni aniqlaydi hamda hal etish bo'yicha takliflar kiritadi;

14) aholining tomorqa xo'jaligidan ko'p foyda olish yo'llarini targ'ib qiladi;

15) fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi va muammolarni bartaraf etishda davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

Demak, "Mahalla yettiligi" jamoatchilik tuzilmasi mavjud muammolarni tezda bartaraf qiladigan noyob tuzilmaga aylandi. Aholining muammolari bilan ishlash tizimi ijtimoiy himoya qilish sohasida mahallaning xalq bilan davlat o'rtasidagi "ko'prik" vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanish imkonini berdi.[50] Mahalla boshqaruvida aholining faol ishtirokini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish orqali mahallada jamoatchilik boshqaruvini ta'minlashga erishilyapti. "Mahalla yettiligi" jamoatchilik tuzilmasi a'zolari tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda har bir fuqaroning oila farovonligini ta'minlash bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilyapti. Davlat boshqaruvida o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifalari aniq belgilab qo'yildi.[51]

O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi mahallalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilovchi,

[50] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги "Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-209-сонли Фармони. Lex.uz. murojaat etilgan sana: 21.10. 2024.

[51] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги "Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси фаолиятини йўлга қўйиш ва маҳаллаларда бошқарув тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча-чора-тадбирлар тўғрисида"ги 402-сонли қарори. Lex.uz. murojaat etilgan sana: 21.10. 2024.

daromad va harajatlar hamda dasturlarni tasdiqlovchi oliy organ hisoblanib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlarining jamoatchilik asosida faoliyat yuritishini ta’minlamoqda. Har uch oyda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari, tuman (shahar) mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari esa har oyda kamida bir marotaba Uyushma va boshqa davlat tashkilotlari, ularning tegishli hududiy bo‘linmalari faoliyatini baholash va muammolarni kompleks hal qilish yuzasidan yig‘ilib, ilg‘or ish tajribalarni o‘rganish, mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Joylarda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmalari hamda tuman-shahar bo‘limlari shakllantirildi. “Mahalla yettiligi” faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hududiy tizim faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, fuqarolarni ijtimoiy himoyalash uchun mahallalar faoliyatini moliyalashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zarur bo‘lgan mablag‘lar bilan ta’minlash, mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish ishlari amalga oshirilmoqda. Har bir mahallada o‘zi tasarruf etadigan byudjetga ega bo‘ldi. Uyushmaning tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan Jamg‘arma va Jamoat fondi tomonidan ajratiladigan subsidiya mablag‘larining hisobi va hisobotlari yuritilmoqda.

“Mahalla byudjeti” tizimi doirasida amalga oshirilgan harajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar har oy yakuni bilan kelgusi oyning 5-sanasiga qadar “Ochiq byudjet” axborot portaliga joylashtirib borilyapti. Masalan, “Mahalla yettiligi” jamoatchilik tuzilmasi a’zolari tomonidan fuqarolarga tadbirkorlik faoliyatini yuritish va o‘zini o‘zi band qilish uchun noturar joy ijara harajatlari uchun subsidiya ajratish bo‘yicha hujjatlar, chekka qishloqlarda ilm-fan, sport, san’at va madaniyat, kitobxonlik yo‘nalishlaridagi to‘garaklarni tashkil etish, nogironligi bo‘lgan yoki bemor fuqarolarga zarur birlamchi tibbiy anjomlar va dori vositalarini ijtimoiy xodim bilan birgalikda xarid qilish ishlari amalga oshirilyapti. Mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari va boshqa mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishini ta’minlash “Mahalla yettiligi” jamoatchilik tuzilmasi a’zolarining asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 21 dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni. Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha-chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 402-sonli qarori. Lex.uz.
5. Fuqarolar yig‘ini to‘g‘risidagi namunaviy nizom. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 iyundagi 380-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yil 26 sentyabr kuni mahallalardagi “yettilik tizimi” faoliyatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi.
5. Mo‘minov M. Yangi O‘zbekistonda barqarorlikni ta’minlash: muammo va yechimlar. – Andijon:”Andijon nashriyot-manbaa” MCHJ. 2021. – 48 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xoldarov To'lqinjon Qodirjonovich
Andijon davlat universiteti

YANGI O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYALASHUVNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolda muallif tomonidan Yangi O'zbekistonda hududlari qadim davrlardan boshlab inson hayoti va faoliyati uchun qulay hudud hisoblangan. Bu yerda o'ziga xos tamaddun va shahar madaniyati rivojlangan.*

Kalit so'zlar: *geografik joylashuv, hudud geologiyasi, iqlim, urf-odat, ekologik qulay shahar, millatlararo totuvlik.*

Холдаров Тулкинжон Кодиржонович
Андижанский государственный университет

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УРБАНИЗАЦИИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *в данной научной статье автор рассматривает территории Нового Узбекистана, которые с древних времен считались благоприятными для жизни и деятельности человека. Здесь развивались своеобразная цивилизация и городская культура.*

Ключевые слова: *географическое положение, геология территории, климат, обычаи, экологически благоприятный город, межнациональное согласие.*

Kholdarov Tulkinjon Kodirjonovich
Andijan State University

MAIN DIRECTIONS OF URBANIZATION IN NEW UZBEKISTAN

Abstract: *In this scientific article, the author discusses how the territories of New Uzbekistan have been considered favorable for human life and activity since ancient times. A unique civilization and urban culture have developed in this region.*

Keywords: *geographical location, regional geology, climate, customs, environmentally friendly city, interethnic harmony.*

Kirish

Ayniqsa o'rta asrlarda shaharsozlik sohasida ulkan o'zgarishlar vujudga keldi. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududlarida paydo bo'lgan shaharlar savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari sanalgan va o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar rivojlanishida muhim o'rin egallagan. Shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga turli omillar geografik joylashuv, hudud geologiyasi va iqlimi, aholining tarkibi, dunyoqarashi, faoliyat turi va imkoniyatlarini kiritish mumkin. O'zbekiston hududlarida paydo bo'lgan shaharlar asosan savdo yo'llari kesishmalarida, daryolar vodiylarida, tog' yon-bag'irlarida joylashgan.

Shahar - universal tarixiy tushuncha bo'lib mustaqil, murakkab va rivojlanib boruvchi fenomendir. Uning insoniyat taraqqiyoti jarayonidagi o'rni va ahamiyati katta. Shaharlar o'tmishda ham hozirgi zamonda ham o'zgarishlar asosi bo'lib, bir vaqtning o'zida urf-odat va an'analarni jamlovchi va saqlovchilik vazifasini ham bajarib kelmoqda. Shaharlar alohida ijtimoiy-hududiy tuzilma sifatida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Urbanizasiya jarayonlari ta'sirida oddiy va kichkina tuzilmadan murakkab va yirik megapolislar va shahar aglomeleratsiyalariga aylandi. Urbanizasiyaning zamonaviy fazasi dunyo xo'jalik tizimidagi o'zgarishlar va ulkan geopolitik jarayonlar kuchaygan davrga to'g'ri kelmoqda. Urbanizasiya jarayonlari butun dunyo mamlakatlari hayotiga keskin tarzda kirib bormoqda. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2030-yilga qadar shahar aholisi ulushini 65 foizga yetkazish, zamonaviy, ixcham va ekologik qulay shahar infratuzilmasini yaratish hamda Respublikada urbanizasiya jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan ishlar tizimli olib borilmoqda .

"Yangi O'zbekiston" massivlarini barpo etishda zamonaviy shahar talablariga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bu yerda aholi ixcham joylashadi, yashil hududlar va xizmat ko'rsatish obyektlari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bunlay obyektlar shunday joylashtiriladiki,

odamlar o‘ziga kerakli joyga piyoda borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yangi O‘zbekiston aholi punktlari bunday loyihalash birinchi navbatda aholi uchun qulay bo‘lsa, ikkinchidan, transport vositalaridan foydalanishga ehtiyoj qondirilmaydi. Bu esa shahar havosining toza saqlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shaharlarni kengaytirish va ular atrofida yo‘ldosh shaharlar tizimini tashkillash har tomonlama chuqur o‘ylangan loyihalashtirishni talab qiladigan murakab jarayon hisoblanadi. Birinchi navbatda shahar rivojlanish potensialini aniqlash zarur. “Ushbu potensial quyidagilarni o‘z ichiga oladi, ya’ni shaharning geografik joylashuvi, tarixi mamlakat transport tizimidagi o‘rni, demografik imkoniyatlari, rekresion va turizm salohiyati”[52].

O‘zbekistondagi urbanizasiya jarayonlarining alohida belgisi qishloq va shahar o‘rtasidagi yaqin aloqalar, yangi shahar aholisining katta qismi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq holda faoliyat olib borishidadir. Buning asosiy sabablaridan biri ko‘plab shaharlarimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo‘naltirilgan sanoat korxonalarimning mavjudligi bilan bog‘liq. O‘zbekiston shaharlarini rivojlantirishda olib borilayotgan aniq yo‘naltirilgan mintaqaviy siyosat ijobiy natijalar bermoqda. Chunki, har bir mintaqa bir biridan ko‘p jihatlari - aholining turmush tarzi, mashg‘ulotlari va imkoniyatlari bilan farqlanadi. Jumladan, Geograf olimlar Z.Akramov, A.Voxobov, N.To‘xliyev, A.Soliyevlar mamlakatimizni 6 ta mintaqaga ajratishgan:

1. Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati);
2. Mirzacho‘l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);
3. Farg‘ona (Farg‘ona,Andijon, Namangan viloyatlari);
4. Zarafshon (Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari);
5. Quyi Amudaryo (Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi);
6. Janubiy (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari)[53].

Mintaqaviy siyosatning eng asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchi kuchlarni to‘g‘ri joylashtirish va rivojlantirish, ijtimoiy infrastrukturani shakllantirish va aholini turmush sharoitlarini yaxshilash sanaladi. Mintaqaviy siyosat umummilliy maqsadlarga erishish yo‘lida mintaqalar rivojlanishini tartibga solishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Har bir mamlakatning turlicha rivojlangan mintaqalari mavjud. To‘g‘ri olib borilayotgan mintaqaviy siyosat mintaqalar o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf qilish va mamlakat aholisining turmush darajasini ko‘tarilishiga olib keladi. Bunda asosiy e’tibor mintaqaning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqaruvchi sohalarini rivojlantirish va mintaqaning imkoniyatlardan kelib chiqib yangi yo‘nalishlarni kashf etishdan iborat.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashni talab qiladi. Mintaqalar iqtisodiyotini ko‘tarmasdan, islohotlarni chuqurlashtirmasdan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emas. Chunki, aynan mintaqalar milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlarini, unga xos xususiyatlarini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Bunda mintaqalarda mavjud tabiiy resurslar, demografik vaziyat va inson resurslari, ma’muriy-hududiy tuzilmalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mintaqalar rivojlanishini taminlash maqsadida har bir mintaqa bo‘yicha alohida yo‘naltirilgan qaror va farmonlar ishlab chiqilgan O‘zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyot siyosati birinchi navbatda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish, mintaqaviy tabaqalanishni kamaytirishga qaratilgan. Ushbu siyosatni amalga oshirishning vositalari quyidagilar hisoblanadi: mahalliy byudjetlarni moliyalashtirishning mavjud tizimini takomillashtirish, davlatning maqsadli ijtimoiy dasturlarini ishlab chiqish, kam rivojlangan, mehnat resurslariga boy hududlarga yo‘naltirilgan davlatning alohida investitsiya siyosati, shuningdek, yangi transport kommunikasiyalarini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy dasturlarining ishlab chiqilishi va hayotga tadbiq qilinishining ahamiyati katta. Mintaqalar taraqiyotida shu hududda joylashgan shaharlar alohida etibor talab qiladi. Urbanizatsiya darajasining ortishi mintaqaning iqtisodiy jozibadorligini ortishiga olib keladi..

Markaziy Osiyo urbanizasiyasining asosiy belgisi shaharlarning qishloq aholi punktlari asosida paydo bo‘lishi bo‘lsa, O‘zbekistondagi urbanizasiyaning o‘ziga xos jixati sifatida shahar infratuzilmasi va shahar turmush tarzining qishloqlarga kirib borishini ko‘rsatish mumkin. Hozirgi kunda mamlakatimiz qishloq hududlarida kichik va o‘rta biznes rivojlanishi sanoat korxonalarining barpo etilishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini to‘liq qayta ishlashlab tayor mahsulot ishlab chiqaruvchi klasterlar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi qishloqlardagi turmush tarzini keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Qishloq hududlarida kutubxonalar, sport majmualari, kasb-hunarga o‘rgatuvchi markazlar va fanlarga yo‘naltirilgan o‘quv muassasalarining paydo bo‘lishi qishloq yoshlarini o‘z ustida ishlashga zamonaviy kasb-hunarlarni o‘zlashtirishiga, o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishiga keng yo‘l ochib bermoqda. Har bir mamlakatning turlicha rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan mintaqalari mavjud bo‘lib ushbu mintaqalar rivojlanishida shaharlar muhim o‘rin tutadi.

[52] Гаппаров А.Н. НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОЦЕССА УРБАНИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ // Экономика и социум. 2020. №11 (78). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-osobennosti-razvitiya-protsessa-urbanizatsii-v-uzbekistane дата обращения: 26.08.2024.

[53] Қодиров Р.Б.”Фарғона минтақаси ахолиси ва мехнат ресурслари”Тошкент 2016 йил.24 бет.168 бет.

Shaharlarning nufuzi ortib borishi uning xalqaro obro‘-e’tiborini ko‘tarilishi mintaqa iqtisodi rivojlanishiga zamin yaratadi. Mamlakat taraqiyotiga kuchli tasir ko‘rsatayotgan shaharlar ko‘p shunday shaxarlar qatoriga toshkent shahrini ham kiritish mumkin.

Toshkent nafaqat O‘zbekistonni balki Markaziy Osiyoning eng yirik shaharlaridan biri hisoblanadi. Toshkent 2000 yillik tarixga ega qadimiy va zamonaviy shahar hisoblanadi. Hozirgi kunda Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 3 milion 40 ming 8 kishini tashkil etadi[54]. Hozirgi kunda Toshkent shahri tez urbanizasiyalashayotgan hudud sanaladi. Bu yerda davlat hokimiyati organlari, chet davlatlarning elchixonalari, yirik tijorat tashkilotlarining shtab-kvartiralari, jamoat birlashmalarining idoralari joylashgan. Toshkent mamlakatimizning madaniy va marifiy ta’lim va tibbiy markazi hamdir. Toshkent shahrining mamlakat iqtisodiy hayotidagi o‘rni ham katta. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat-mahsulotining 19.2%, keng iste’mol mollarining 27.1% Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri keladi[55]. Toshkent shahrining yetakchi sanoat sohasi mashinasozlik bo‘lib, bu yerda Toshkent traktor zavodi, Toshkent teplovozlarni ta’mirlash zavodi, Toshkent mexanika zavodi, joylashgan. Toshkent shaxridja elektrotexnika soxasi ham yaxshi roivojlangan bu yerda renzistorlar va integral sxemalar ishlab chiqaruvchi “Foton” “Sputnik”,” Menond” integral sxemalar va radioaparatura ishlab chiqaruvchi “Zenit” kabi ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, Toshkent radioaparatura va Toshkent elektron hisoblash mashinalari ishlab chiqaruvchi Algoritm korxonalari faoliyati rivojlanib bormoqda. Toshkent markaziy osiyoning yetakchi ilmiy markazi sanaladi. Bu yerda Fanlar akademiyasi va 30 dan ortiq ilmiy tekshirish institutlari, Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi milliy universitet va 20 dan ortiq oliy ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda[56]. Toshkent mamlakatimizning madaniy markazi sifatida alohida ahamiyatga ega bu yerda muzeylar, teatrlar ko‘rgazma va konsert zallari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu jihatlar Toshkent shahriga mamlakatning barcha hududlaridan aholini ko‘chib kelishiga va aholi sonining tez ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Toshkent haqiqatan ham O‘zbekistonning eng yirik va ko‘p millatli shaharlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda u zamonaviy va qadimiy madaniyatlarning o‘zaro hamohanglikda yashab turgan markazidir. Shaharda turli millat va etnik guruhlar birgalikda tinch va do‘stona hayot kechirib, o‘z an’ana va urf-odatlarini saqlab qolganlar. Toshkent shahridagi millatlararo totuvlik - O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrida turli millat va elatlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlikni saqlashga qaratilgan siyosat va ijtimoiy munosabatlarning muhim qismi hisoblanadi. Shaharda turli etnik guruhlar - o‘zbeklar, ruslar, qozoqlar, tojiklar, koreyslar va boshqa xalqlar yashaydi. Bu millatlar o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar davlat siyosati asosida qo‘llab-quvvatlanadi.

O‘zbekiston Konstitusiyasi barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari, jumladan, diniy va milliy erkinliklarini kafolatlaydi. Shuningdek, mamlakatda ko‘plab millatlararo do‘stlik uylari faoliyat ko‘rsatadi, ular turli millatlarning madaniy an’analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Toshkentda har yili turli millatlarning bayramlari, madaniy tadbirlari va festivallari o‘tkazilib, ular turli xalqlarning madaniy merosini yorqin ko‘rsatish uchun maydon bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tadbirlar millatlararo totuvlik va birdamlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Toshkent shahri hozirgi kunga kelib tez rivojlanib kengayib borayotgan shahar sifatida ko‘plab o‘ziga xos muamolarga ham duch kelmoqda. Bunday muammolar sarasiga birinchi navbatda shahardagi ekologik holatning yomonlashib borayotganini kiritish mumkin. Toshkent shahrida ekologik vaziyat juda murakkab va bir necha muhim muammolar mavjud. Shahar havosining ifloslanishi eng asosiy muammolardan biri bo‘lib, 2023-yildagi tadqiqotlarga ko‘ra, Toshkent dunyodagi 22-o‘rindagi eng ifloslangan poytaxtlar qatoriga kirgan. Havodagi PM2.5 konsentrasiyasi Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalaridan 5-7 marta yuqori bo‘lgan, bu esa aholi salomatligiga katta zarar yetkazadi. Toshkent shahrida atmosfera xavosining keskin ifloslanishining asosiy sababi shahardagi sanoat korxonalari va transport vositalaridan chiqayotgan zaxarli chiqindilar hisobiga to‘g‘ri keladi. “Toshkent shahrida 2022-yilda 715 ming avtotransport vositasi harakatlangan va natijada atmosfera havosiga 403,0 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar tashlangan. 2023-yilda esa poytaxtda harakatlangan avtotransport vositalari soni 8 foizga ortib, 775 mingtani tashkil etgan. Natijada atmosfera havosiga 435,0 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar tashlangan”[57]. Bunday muammolarni kelib chiqishining asosiy sababi shaxarlarimiz hali ham avtomobillarga yo‘naltirilgan holda bunyod etilayotganidadir. Dunyoning ko‘plab yirik shaharlarida avtomobillar harakati cheklanmoqda ushbu chora shahar havosini toza saqlash maqsadida amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz shaharlari, jumladan, Toshkent shahrida ham shaharlarni kengaytirish va

[54] www .toshstat. uz. 2024 йил 5 июлда мурожат қилинди

[55] stat. Uz . 6 июл 2024 мурожат қилинди

[56] Республика Узбекистан. Энциклопедический словарь.Тошкент 2001 81 -82 бетлар.

[57] https://yuz.uz/news/toshkent-shahrida-ekologik-vaziyatni-yaxshilash-borasida-kechiktirib-bolmas-chora-tadbirlar-malum-qilindi 3.09.2024 мурожат қилинди.

rekonstruksiya qilishda asosiy etibor avtomobillar harakatini yaxshilash, yo‘llarni kengaytirish, yo‘llar infratuzilmasini yaxshilashga yo‘naltirilmoqda. Piyodalar haq-huquqlari ko‘p hollarda e’tibordan chetda qolib ketmoqda. Shaharlarimiz avtomobillarga to‘lib-toshmoqda, kunning tig‘iz paytlarida asosiy yo‘nalishlardagi tirbandliklar hozirgi kunga kelib tuman markazlarida ham oddiy holga aylanib qoldi. Chorraxa va kesishmalarning ko‘pligi, avtoturargohlarning yetishmasligi shovqin va zaharli gazlarning me’yoridan ortib borishi shahar aholisining sog‘ligi va ruhiyatiga salbiy tasir ko‘rsatmoqda. Shaharlarimiz ko‘plab yirik shaharlar yo‘l qo‘ygan xatolarni takrorlamoqda yani piyodalarga shart sharoitlar yaratish masalasida. Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining taqdim etgan ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning besh oyida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalarining 53,7 foizi piyoda va velosipedchilar bilan bog‘liq holatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar xususida ularni bartaraf qilish yo‘llari haqida mamlakatimiz Prezidenti o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tgan. Prezidentimiz piyodalar va velosipedlar harakatiga ko‘proq sharoit yaratish zarurligini qayd etdi: “Bizning yo‘llarda transport vositalariga ko‘p ustuvorlik berilgan. Aslida piyodalar harakatini, odamlarning halovati, salomatligini birinchi o‘ringa qo‘yish kerak”, - deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev. “Shaharsozlik va yo‘l harakatiga mas’ul barcha bo‘g‘indagi rahbarlar **“Shahar — piyodalar uchun” degan shiorni o‘zining asosiy tamoyili qilib olishi shart.** Bunda, **jamoat transportiga har tomonlama ustunlik berilishi, avtomobillar esa hashamatga aylanishi** kerak”.

Shaharzolikda piyodalar uchun yaxshi sharoitlar yaratishga intilish o‘z navbatida ko‘plab muamolarni bartaraf etishga hamda oldini olishga imkon beradi. Shaharlarda piyodalar bilan bog‘liq masalalar ularga yaratilayotgan shart-sharoitlarga qarab shaharning rivojlanish istiqbolarini belgilash mumkin. Dunyoning eng rivojlangan yuksak darajadagi turistik salohiyatga ega shaharlarning asosiy belgilaridan biri piyodalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, piyodalar yo‘laklarining qulay va xavsizligi sanaladi. Shaharda piyodalar bilan bog‘liq masalalar ko‘plab olimlar urbanistlar tomonidan o‘rganilgan va o‘ziga xos yechimlar taklif qilingan. “Ko‘chalar va tratuarlar katta shaharning asosiy omaviy joylari bo‘lib uning eng asosiy organlaridir. Shaharni tasavur qilganda birinchi navbatda nima ko‘z oldimizga keladi: uning ko‘chalari. Agar ko‘chalarning tashqi ko‘rinishi qiziqarli bo‘lsa shahar jozibali ko‘rinadi agarda buning aksi bo‘lsa zerikarli”.

Xulosa: Shaharlarimizda piyodalar uchun qulay yo‘laklarning barpo etilishi ko‘pchilikni avtomobillardan voz kechib piyoda yurishga undashi mumkin. Buning uchun mamlakatimizda dastlabki qadamlar qo‘yilgan lekin muamolar ham mavjud ushbu muamolar asosan shahar infratuzilmasi obyektlarining aholi yashash punktlaridan uzoqda joylashganligi oqibatida kelib chiqadi hamda aholini avtomobildan foydalanishga majburlaydi. “Piyoda shaxarning yashovchanligini ko‘rsatib turuvchi nozik indikator sifatida nomoyon bo‘ladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Гаппаров А.Н. НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОЦЕССА УРБАНИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ // Экономика и социум. 2020. №11 (78). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-osobennosti-razvitiya-protsessa-urbanizatsii-v-uzbekistane (дата обращения: 26.08.2024).

2.Қодиров Р.Б.”Фарғона минтақаси ахолиси ва мехнат ресурслари”Тошкент 2016 йил.24 бет.168 бет.

3.www .toshstat. uz. 2024 йил 5 июлда мурожат қилинди

4.stat. Uz . 6 июл 2024 мурожат қилинди

5.Республика Узбекистан. Энциклопедический словарь.Тошкент 2001 81 -82 бетлар.

6.https://yuz.uz/news/toshkent-shahrida-ekologik-vaziyatni-yaxshilash-borasida-kechiktirib-bolmas-chora-tadbirlar-malum-qilindi. 3 .09.2024 мурожат қилинди.

7.https://daryo.uz/k/2024/07/17/yollar-piyodalar-uchun-qachon-xavfsiz-boladi)7 04 09 2024 мурожат қилинди

8.2020 йил 29 май куни Сергели тумани фаоллари билан ўтган учрашувда ги нутқи https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/29/city-for-pedestrians/) 31 08 2024 мурожат қилинди.

9.https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/29/city-for-pedestrians

10. (*Джекобс Д.* “Смерть и жизнь больших американских городов “Перевод с англ .М. Новое издательство.2011.43 бет.460 стр.)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xakimov Alisher Olimjonovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
"Gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti v.b. falsafa doktori (PhD)

"TASAVVUF" TUSHUNCHASINING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada islom ma'naviyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan tasavvuf va uning kengroq falsafiy kontekstidagi ifodasi – Tasavvuf tushunchalari ilmiy tahlil qilingan. Maqolada "Tasavvuf" atamasining paydo bo'lishi, ularning etimologiyasi, tarixiy-ma'naviy manbalari hamda falsafiy mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga, islom ta'limoti doirasidagi zohidlik tendensiyalarining tasavvufga aylanish jarayoni o'rganilgan. Shuningdek, maqolada tasavvufning inson ongi, qalbi va nafsini tarbiyalashdagi roli, uning aqliy va irfoniy yo'nalishlari, shuningdek, tasavvuf va Tasavvufning mutafakkirlar tomonidan izohlanishi hamda ularning islom falsafasi bilan o'zaro bog'liqligi hamda tasavvufning nafaqat diniy, balki falsafiy va madaniy jarayon sifatidagi o'rni yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Tasavvuf, zohidlik, islom falsafasi, irfoniy ma'rifat, qalb tarbiyasi, nafs, zuhd.*

Хакимов Алишер Олимжонович
и.о. доцента доктор философии (PhD) кафедры "Туманитарные науки" Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ "СУФИЗМ"

Аннотация: *В данной статье научно проанализированы суфизм, одно из важных направлений исламской духовности, и его выражение в более широком философском контексте - понятия суфизма. В статье раскрывается возникновение термина "Суфизм", их этимология, историко-духовные источники и философское содержание. Вместе с тем, изучен процесс трансформации аскетических тенденций в рамках исламского учения в суфизм. Также в статье рассматривается роль суфизма в воспитании человеческого сознания, сердца и души, его интеллектуальные и мистические направления, а также толкование суфизма и суфизма мыслителями, их взаимосвязь с исламской философией и роль суфизма не только как религиозного, но и как философского и культурного процесса.*

Ключевые слова: *Суфизм, аскетизм, исламская философия, мистическое просвещение, воспитание сердца, эго.*

Khakimov Alisher Olimjonovich
Acting Associate Professor of the Department of "Humanities" of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi Doctor of Philosophy (PhD)

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF "SUFI"

Abstract: *This article provides a scientific analysis of Sufism, one of the important directions of Islamic spirituality, and its expression in a broader philosophical context - the concepts of Sufism. The article reveals the emergence of the term "Tasawwuf," their etymology, historical and spiritual sources, and philosophical content. At the same time, the process of transformation of ascetic tendencies into Sufism within the framework of Islamic teachings has been studied. The article also highlights the role of Sufism in educating human consciousness, heart, and soul, its intellectual and mystical directions, as well as the interpretation of Sufism and Sufism by thinkers and their interconnection with Islamic philosophy, and the role of Sufism not only as a religious but also as a philosophical and cultural process.*

Keywords: *Sufism, asceticism, Islamic philosophy, mystical enlightenment, spiritual education, ego.*

Kirish

Tasavvuf – islomning ruhiy va ma'naviy yo'lining aniq bir ko'rinishi bo'lib, u insonning ma'naviy maqsadiga, ya'ni Allohga yaqinlashishga, ruhiy poklanish va ichki ilhom orqali hayotni ko'proq ma'naviy va axloqiy jihatdan tushunishga qaratilgan. Tasavvuf falsafasi, o'zining ilk shakllarida, asketizm, ma'naviy poklik va Allohga bog'lanishga erishish maqsadida yashashga asoslangan.

Tasavvufning falsafiy talqini zamon va makon bilan bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Bugungi kunda, globalizatsiya, axborot texnologiyalari, insonni ma’naviy qiyinchiliklarga tushirish bilan bog‘liq yangi muammolar va falsafiy savollar yuzaga kelgan zamonda, Tasavvufning falsafiy talqini muhim ahamiyatga ega. Bu kunning falsafiy muammolari, ya’ni inson va tabiat, ma’naviy va moddiy olam, egoizm va huriyat, axloq va ma’naviy hayotga oid savollar Tasavvufdagi muhim tushunchalar va yo‘nalishlar bilan yaqindan bog‘liqdir. Tasavvufning tarkibiy qismlari, masalan, yagona Allohga ishonish, haqiqatga intilish, insoniyatning ma’naviy yagonaligi, muhabbat va nafsni taqvoga qo‘yish kabi o‘zgarmas qimmatlar, hozirgi zamonning ma’naviy axloqiy muammolariga yordam beradi.

«Tasavvuf» atamasining kelib chiqishini tasavvuf mualliflari odatda *safo* – «pok bo‘lish, begunoh bo‘lish» so‘zidan yoki *ahl as-suffa* (o‘rindiq yoki soyabon ahli) iborasidan izlashadi. Bu ibora Payg‘ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning eng sodiq va taqvodor shogirdlarini anglatadi, ular soni taxminan 70 tadan 300 tagacha bo‘lgan va o‘z hayotlarida ma’naviy va zohidona amallarga ustunlik berishgan. Boshqa bir etimologik nazariya, mashhur olim Abu Rayhon Byeruniy tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u «tasavvuf» so‘zini yunonchadan olingan *sofiya* (hikmat) so‘zi bilan bog‘laydi.

Tasavvuf, sufiylik - islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi ta’limot. Tasavvuf so‘zining o‘zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e’tirof etilgan. U “Muqaddima” asarida tasavvuf “suvf” – “jun”, “po‘stin” so‘zidan olingan bo‘lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to‘qilgan kiyim yoki po‘stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi axli dunyolardan farqli hayot tarzini o‘zlarida namoyon etganlar, deydi [1].

Tasavvuf ko‘pincha islomning mistik, ya’ni botiniy, ruhiy va ma’naviy yo‘nalishi sifatida ta’riflanadi. U insonning ilohiy haqiqat bilan shaxsiy muloqoti, Qur’on va sunnat amaliyotining ichki ma’nolarini anglashga urinishini anglatadi. Bu jihatda Tasavvuf, shubhasiz, muayyan ma’naviy va irfoniy mazmunga ega. Ammo bunday ta’rif bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Ilmiy ta’riflar aniqlik va universallikni talab qiladi, Tasavvuf esa, aksincha, shaxsiy tajriba, zohiriy emas, botiniy anglashni nazarda tutadi. Buning ustiga, Tasavvuf faqat shaxsiy tajriba emas, balki jamoaviy hayot, so‘fiy tarikatlar, ijtimoiy ta’sir va hatto siyosiy harakat sifatida ham namoyon bo‘lgan. Bu holat uni faqat mistik tasavvur orqali tushuntirishni qiyinlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili

Tasavvufni ilmiy asosda o‘rganish jarayoni Yevropada XVIII asr oxirlari — XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda yevropalik sharqshunoslar va mustamlaka boshqaruvchilari tasavvufni nafaqat diniy harakat, balki madaniy va siyosiy hodisa sifatida ham talqin qilishgan.

Ularning talqinida sufiylar «ekzotik», «maxsus», «fanatik» toifa sifatida tasvirlangan. Bu tasvirlarda so‘fiylarning turmush tarzi Yevropadagi urf-odatlardan keskin farq qilgani ayniqsa ta’kidlangan. Ushbu farqlar mustamlakachi hukumatlarning diqqatini mahalliy aholining ehtimoliy qarshiligiga qaratishda ham qo‘llangan.

Tasavvufning islomdan tashqari ta’limot sifatida ko‘rilishining sababi, dastlabki so‘fiylarning shariatning ibodat qilish tomonlaridan chiqib, o‘z asarlarida va amallarida bu narsadan butunlay ustun bo‘lgan haqiqatga erishishga intilishidir. Tasavvuf dastlab turli xil ijtimoiy va siyosiy tazyiqlar tufayli odamlarning so‘fiy hayotini afzal ko‘rganliklari tufayli shaxsiy hayot tarzi sifatida amalga oshirildi. So‘fiylikning eng muhim xususiyati shundaki, u nazariy bilimlardan ko‘ra hayot va tajribaga asoslangan intizomdir. So‘fiylikning markazida Xudoga Uni ko‘rgandek sig‘inish yotadi.

«Tasavvuf – mutlaq haqiqat sari olib boruvchi yo‘ldir. Bu yo‘lga harakatlanishga turtki beruvchi kuch – muhabbat, rivojlanish vositasi esa har qanday holatda ham diqqatni jamlash va ichki hotirjamlikdir. Bu yo‘lning maqsadi – Allohdir». Boshqacha aytganda, sufiy yo‘lining oxirida Allohdan o‘zga hech narsa qolmaydi.

Sufiylik oqimi musulmon mamlakatlarda paydo bo‘lib, Yaqin Sharqdan Markaziy Osiyoga va Hindistondan Indoneziyaga qadar tarqaldi. Sufiylik Sharqning ruhi madaniyatining yorqin hodisasi sifatida namoyon bo‘lib, islom xalqlarining tafakkur uslubiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilm-fanda sufiylik islom ichidagi mistik oqim sifatida talqin etiladi. Ommaviy ongda esa, sufiylik dono bo‘lish bilan tenglashtiriladi. Sufiylikning falsafiy mohiyati – bu Xudoga yaqinlashish va Ilohiy haqiqatga erishish yo‘lida mistik izlanishlarni anglatadi [2.102].

“Tasavvuf” tushunchasini aniqlashda barcha islom ta’limotlarini qamrab oladigan ma’noga alohida e’tibor berish kerak. Bu ta’limotlarning asosiy maqsadi – insonga Alloh bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish imkonini berishdir. Bu – islom ta’limotining asosiy rivojlanishidan mustaqil ravishda shakllangan diniy tajriba sohasidir. Bu ta’limot payg‘ambarlik vahiysiga asoslanadi, uning mohiyatini anglash uchun esa shariat va ilohiy ilmni bilish shart [3.6].

Shuningdek, tasavvuf va an’anaviy islom o‘rtasidagi farqka ham e’tibor qaratish lozim. An’anaviy islom ma’naviy bilimga bilvosita yetishni taklif qilsa, tasavvuf esa bevosita ma’naviy tajribani taklif etadi. Birinchisida bilim olinadi, ikkinchisida esa his etiladi, bu esa sufiy uchun muhimdir. Tasavvuf – munozara emas, ichki ma’rifat maktabi. Tasavvuf – ma’naviy o‘zgarish, ikkinchi qo‘ldan olingan ma’lumotlarni yod olish emas.

Nurlanishga oid narsalar so‘z bilan ifodalanmaydi. Shu sababli, sufiylar: «Agar so‘z bilan aytilsa, u Tasavvuf emas», – deb ta’kidlashadi. Mana shu ziddiyat ulamolar tomonidan tasavvufga qarshilikka sabab bo‘lgan, chunki sufiylar haqiqatni faqat shariat bilan emas, balki bevosita mistik tajriba bilan anglash mumkin, deb hisoblashgan [3.45].

Biroq sufiylarning o‘zlari doim an’anaviy islom va tasavvuf ta’limotlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’kidlab kelishgan. Shariat va haqiqat o‘rtasidagi bog‘liqlik mashhur sufiy Qushayriyning quyidagi so‘zlarida yaqqol ko‘rinadi: «Shariat dinning tashqi ko‘rinishlari (ibodatlar, namoz, muamalat) bilan shug‘ullanadi, haqiqat esa – Ilohiy qudratning ichki ko‘rinishlari (mushohadat ar-rububiya) bilan. Agar ibodat haqiqat ruhi bilan bajarilmasa, unda hech qanday qiymat yo‘q. Va haqiqat ruhi shariat qonuni bilan chegaralanmasa, u to‘liq bo‘lmaydi. Shariat insonlar bilan munosabatni tartibga soladi, haqiqat esa – Allohning roziligini anglash imkonini beradi. Qonun – Unga ibodat qilish uchun, haqiqat – Unga mushohada qilish uchun. Qonun – Uning buyruqlariga itoat qilish uchun, haqiqat – Uning amrlarini anglash va guvoh bo‘lish uchun mavjud. Qisqasi, biri – tashqi, ikkinchisi – ichki»[5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tasavvuf islomda ruhiy ehtiyojlarni ro‘yobga chiqarish sifatida, dogmatizmga qarshi reaksiya va inson bilan Alloh o‘rtasidagi muhabbatga bo‘lgan sog‘inch sifatida paydo bo‘lgan. Boshqacha aytganda, tasavvuf – islom doirasidagi maxsus mistik, diniy-falsafiy dunyoqarash bo‘lib, uning tarafdorlari shaxsiy ruhiy tajriba orqali insonning Alloh bilan bevosita muloqot qilishi mumkinligini tan olishadi. Bu Allohga muhabbat ila yo‘lga tushgan insonga inoyat qilinadigan mastlik (ekstaz) yoki ichki nurlanish orqali sodir bo‘ladi. Sufiylar hayotlarining asosiy maqsadi – Allohni ruhiy, intuitiv va bevosita anglash bo‘lgan. Ularning butun ma’naviy intilishlari aynan shu maqsadga xizmat qilgan. Sufiylarning mistik yo‘lida insonning axloqiy poklanishi va kamol topishi g‘oyasi yotadi.

Shuni anglash muhimki, tasavvufning ichki mohiyati uning tashqi ifoda vositalarini ham talab etadi. Shuning uchun tasavvuf bir vaqtning o‘zida islomiy an’analarga ham amal qiladi va zarurat bo‘lganda ular chegarasidan chiqadi. Sufiylar uchun eng muhim tamoyillar – islom, iymon va ehson (bo‘ysunuv, e’tiqod va ixlos). Ehson – tasavvufda asosiy qoida hisoblanadi, u Allohning doimiy huzurini his qilish, iymonni ichki ehsos sifatida anglash va so‘ngra shu holatda yashashni anglatadi. Tasavvuf amaliyoti o‘z asosini Payg‘ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning zohidona hayot tarzidan olgan. Zohidlar bu tajribani anglab, ongli ravishda ulug‘lash va ulug‘ yo‘l sifatida qabul qilganlar. Sufiylar uchun Payg‘ambarning Me’roʏi ham juda muhim bo‘lgan – bu hodisa sufiylarning Allohga yaqinlik sari ruhiy ko‘tarilishlarining ramzi sifatida qaraladi. Bu holatga sufiylikda «ruya» (ruhiy ko‘rish, vaxiyga xos ko‘rinish) deb ta’rif berilgan.

Sufiylarning mistik g‘oyalarida yana bir asosiy manba – Qur’on hisoblanadi. Qur’onda inson va Alloh o‘rtasidagi yaqinlik, Allohning tanib bo‘lmasligi, ammo Uning oyatlarining ma’nosini anglash mumkinligi kabi g‘oyalar mujassam. Qur’on – sufiy ta’limotining asosiy poydevori hisoblanadi. Qur’ondagi ko‘plab ishoralar va Payg‘ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning mistik tajriba bilan to‘lgan hayoti islomdagi zohidlikni yetuk, falsafiy-ma’naviy dunyoqarash – tasavvufga aylanishi uchun g‘oyaviy asos bo‘lgan.

Tahlillar va natijalar

Yevropalik sayyohlar XVI asrdan boshlab darveshlarni xristian roxiblariga o‘xshash, zo‘r taqvodor va cheklangan hayot tarzida yashovchi shaxslar sifatida tasvirlashgan. Ammo XVII–XIX asrlarga kelib, ayniqsa Usmonli imperiyasi hududlarida, ommaviy zikr marosimlari — aylanuvchi (raqqos) va uvilovchi darveshlar guruhlari yevropaliklar diqqatini jalb qila boshladi. Bu marosimlar tashqi tomondan tushunarsiz bo‘lgani bois, ular «ekzotik sharq tajribasi» sifatida qabul qilindi.

Bundan tashqari, “faqir” atamasi Hindistondagi Boburiylar davlatida faqatgina so‘fiylarga nisbatan emas, balki induizm yo‘nalishidagi asketlarga (masalan, yogilar) nisbatan ham ishlatilgan. Bu esa atamaning universallashuvi va so‘fiylik tushunchasining o‘ziga xos chegarasizligini ko‘rsatadi.

Tasavvufni ichidagi an’analar, ya’ni sufiylar o‘zlari qanday tushungani va uning tashqi, yevropaliklar tomonidan berilgan talqini o‘rtasida jiddiy farq bor. Ichki qarashlar Tasavvufni axloqiy kamol, ruhiy tarbiya va Alloh muhabbatiga asoslangan hayot tarzi deb ta’riflasa, tashqi manbalar buni yo turmush uslubi, yo diniy fanatizm, yo mistik sekta deb baholagan.

Tasavvuf — bu faqat diniy tajriba emas, balki chuqur falsafiy tizim hamdir. U insonning mavjudlikdagi o‘rni, ong va haqiqatga nisbatan munosabatini qayta ko‘rib chiqadi. Tasavvuf falsafiy ma’noda **ontologiya**, **gnoseologiya** va **axloqshunoslik** sohalariga daxldor asosiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi:

Tasavvufda Alloh mutlaq borliq sifatida qabul qilinadi, boshqa har qanday mavjudot esa foniy va nisbiy hisoblanadi. Bu qarash *vahdat ul-vujud* (yagona borliq) nazariyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shayx Ibn Arabiy ta’limotida borliq — bu Allohning tajallisidir (zohir bo‘lishi).

Sufiy falsafasi aql bilan emas, balki qalb va intuisiya orqali bilgan haqiqatni ustun qo‘yadi. Bu tushuncha *zohiriy ilm* va *botiniy ilm* o‘rtasidagi farqni belgilaydi. Sufiylarcha, chinakam ma’rifat — bu Allohni qalbda his qilish va Unga yetishishdir.

Tasavvuf insonni ruhiy kamolotga yetkazish jarayoni sifatida qaraladi. U nafsni tarbiyalash, qalbni poklash va muhabbat asosida yashashga chaqiruvchi falsafiy tarzda namoyon bo‘ladi. Kamolot — Allohga qullik orqali insoniylikning yuksalishidir.

Sufiy axloqi muhabbat, hilm, sabr, tavozu va ehson kabi tushunchalarda o‘z ifodasini topadi. Sufiyga ko‘ra, Alloh muhabbatidir va Unga yetmoq uchun dunyoviy manfaatlardan yuz olish kerak. Shu bois Tasavvufning falsafiy mazmuni nafaqat nazariy, balki amaliy hayot tarziga aylangan.

Sufiylar insonni millat, dinga qarab emas, balki ruhiy holatiga ko‘ra baholaydilar. Bu qarash falsafiy universalizmni va barcha insonlarga nisbatan bag‘rikeng munosabatni shakllantiradi. Bunda insoniylik — eng yuksak qadriyat sifatida qaraladi.

Tasavvuf faqat diniy harakat emas, balki mukammal falsafiy ta’limotga ega. U inson, borliq va ma’rifat haqida chuqur mulohazalarni o‘z ichiga oladi. Sufiylik falsafasida inson ruhi markaziy o‘rinda turadi; nafsni tarbiyalash va Allohga yetmoq ruhiy faoliyatning asosiy maqsadidir. Sufiylarning qalb orqali bilish konsepsiyasi G‘arb falsafasidagi rasional bilish usuliga muqobil ruhiy bilish modelini taklif etadi. Tasavvufning vahdat ul-vujud g‘oyasi ontologik nuqtai nazardan mutlaq va nisbiy borliq tushunchalarini chuqur falsafiy bahsga tortadi. Tasavvuf falsafasi global miqyosda bag‘rikenglik, ma’naviy kamol, va axloqiy kamolot g‘oyalarini ilgari suradi.

Tasavvufning asosiy tamoyillari

Islomiy mistik amallar uchun qo‘llaniladigan “Tasavvuf” atamasi uning mohiyatini ifoda etuvchi boy ma’nolar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Ibodat. “Ibodat” tushunchasi arabcha “obid” (ya’ni “Allohga ibodat qiluvchi”) so‘zidan kelib chiqqan. Bu so‘z “abd” – “banda” so‘zidan yuzaga kelgan bo‘lib, Allohga sadoqat, itoat va ilohiy buyruqlarni bajarish ma’nosini qamrab oladi. Forschada “parsa” so‘zi bilan ifoda etiladi, u taqvodor va solih insonni anglatadi.

Axloq. Sufiylikdagi axloqiy tarbiyaning ilk ko‘rinishi “zўhd” – dunyoviy lazzatlardan voz kechish, asketizmni anglatadi. Bu holatdagi shaxs “zohid” deb atalgan. Ular dunyoviy ishlardan yuz o‘girib, oxirat hayotiga tayyorgarlik ko‘rishga intilishgan. Ba’zilari qattiqqo‘l va muhabbatsiz hayot tarzi uchun tanqid qilingan. Yaxshi xulq “solix” tushunchasi bilan ifoda etiladi; u tinchlik, tartib va xayrlilik bilan bog‘liq. “Siddiq” – rostgo‘y va samimiy inson sifatida tavsiflanadi, ko‘pincha Xalifa Abu Bakrga tegishli. “Vara” – insonning harom ishlardan saqlanishi, Alloh amrlariga qattiq bog‘lanishini ifoda etadi.

Ilm. Ilk sufiylar tasavvufni islomiy ilmlar qatorida ko‘rsatganlar. Bu ilm egasi “olim” deb atalgan. Sufiy manbaalarda mistik bilim “ma’rifat” yoki “irfon” deb yuritilgan – bu ichki, ma’naviy fahm bo‘lib, uning sohibi “orif” deb atalgan. Sufiylik bilan metafizika o‘rtasida ham aloqalar mavjud. Masalan, Ibn Sino kabi faylasuflar sufiy tafakkurga ta’sir qilgan. Ularning bilim sohasi “hakim” – hikmat egasi sifatida ifoda etilgan.

Sayohat. Sufiylikdagi ma’naviy kamolot yo‘li “tarika” – yo‘l sifatida tushuniladi. Bu yo‘l bo‘ylab ruhiy harakat “suluk” deb atalgan. Bu yo‘lda qat’iyat bilan ketayotgan shaxs “salik”, forscha “raxrav” deb yuritilgan. Bu sayohat nafsni tarbiyalash va ilohiy yaqinlikka intilishni anglatgan.

Muhabbat. Sufiylar Alloh, Payg‘ambar va shayxlarga muhabbatni o‘z hayotlarining markaziga qo‘yganlar. Bunday muhabbat ifodasi uchun “muhibb”, “oshiq”, “yor” singari atamalar qo‘llanilgan. Ustozlar “qalb ustozlari” deb atalgan. Muhabbat mistik tajribaning yuragi sanaladi.

Ijtimoiy holat. XII asrdan keyin sufiylar keng jamoatchilik ichida faoliyat yuritganlar. Ba’zilar jamoat tanqidini ataylab qabul qilganlar (malomatiylar), boshqalar esa an’anaviy sufiylik va ijtimoiy normalarni rad etishgan. Ular g‘alati kiyim kiygan, noodatiy harakatlar qilgan asketlar bo‘lib, keng musulmon olamda sayr qilganlar.

Ustoz-shogird munosabati. Sufiylikda ustozning o‘rni beqiyos. “Shayx”, “pir”, “ustoz”, “murshid” atamalari keng tarqalgan. Ular hadis ulamolari kabi rivoyat zanjiriga ega bo‘lishgan. Shogird “murid” deb atalgan. U ustoziga sadoqat va muhabbat bilan bog‘langan. Eng qobiliyatli muridlar “xalifa” yoki “muqaddam” deb yuritilgan.

Ruhiy maqomlar. Sufiylar valiylarni turli darajalarda deb hisoblashgan. Bu ilohiy maqomlar – koinotning ma’naviy iyerarxiyasini tashkil qilgan.

Ushbu tamoyillar va holatlar sufiylikning chuqur falsafiy va ma’naviy mazmuniga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bois, “Tasavvuf” tushunchasi bugungi kunda ham turli ichki va tashqi qarashlarni uyg‘unlashtirishda murakkablik kasb etadi. Quyidagi qismlarda aynan shu qarashlar o‘rtasidagi ko‘priklar yaratishga harakat qilinadi.

Xulosa

Tasavvufning falsafiy mohiyati — u insonning ichki dunyosi, ma’naviy kamoloti va Xudoga yaqinlashuvi yo‘lidagi say’-harakatlar tizimidir. Sufiylik faqat diniy emas, balki falsafiy va axloqiy jarayon sifatida ham ko‘rinadi.

Inson va olam munosabati sufiylikda falsafiy tarzda talqin qilinadi. Sufiylar insonni olamning markazi, Xudoning zohir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yuksak ruhiy mavjudot sifatida ko‘radilar. Bu qarash ontologik va antropologik masalalarga alohida yondashuvni taqozo etadi.

Sufiylik va falsafa o‘rtasidagi aloqa — Tasavvuf falsafiy tahlil uchun boy manba hisoblanadi. Unda borliq, haqiqat, ruh, aql va qalb kabi tushunchalar keng qamrab

olinadi. Bu Tasavvufni falsafa, xususan, islomiy falsafa doirasidagi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qarash imkonini beradi.

Ma’rifat va intuisiya — sufiylikda bilim faqat rasional tafakkur natijasi emas, balki ilhom, qalb ko‘zi orqali hosil qilinadigan ma’rifat orqali ham kashf etiladi. Bu esa uni g‘arb falsafasidagi rasionalizmdan farq qiluvchi jihatlaridan biridir.

Axloqiy kamolot — Tasavvufda insonning o‘z nafsi bilan kurashi, poklanishi va axloqiy yuksalishi markaziy o‘rin tutadi. Bu falsafiy nuqtai nazardan insonning o‘zligini anglash va shakllantirish jarayoni sifatida qaraladi.

Tasavvuf va ekzistensializm o‘rtasidagi uyg‘unlik — ayrim sufiy tushunchalari zamonaviy ekzistensial falsafaga yaqindir. Bu Tasavvufni faqat tarixiy emas, balki zamonaviy falsafiy kontekstda ham dolzarb qiladi.

Tasavvufni anglash va o‘rganishda uning tarixiy, madaniy va ijtimoiy murakkabligi nazarda tutilishi lozim. G‘arb tafakkuri uni asrlar davomida turlicha talqin qildi – avvalida ro‘hiy adashish deb qaraldi, keyinchalik esa uning estetik, falsafiy va hatto siyosiy jihatlari tan olina boshladi. Bugungi kun tadqiqotchilari uchun esa Tasavvufni to‘liq tushunish faqat “ichkaridan” va “tashqaridan” berilgan tasvirlarni chuqur tahlil qilish orqali mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Шангараев Р.История Тасаввуфа. -Казан: ИД “МеДДок”, 2020.

2. Степанянс М.Т. Исламский мистисизм [Электронный ресурс] / М.Т. Степанянс. – М.: «Канон» РООИ «Реабилитатсия», 2009. – 272 с.

3. Дроздов В.А. Мусулманский мистисизм: учебное пособие / В.А. Дроздов; С.-Петерб. гос. ун-т. – Санкт-Петербург: Президентская библиотека, 2015. – 183 с.

4. Бертелс Е.Э. Происхождение Тасаввуфа и зарождение суфийской литературы. – М.: «Наука», 2000. – 44 с.

5. Шангараев Р. История Тасаввуфа. Болгар.2020. –244 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdullayeva Madinaxon Erkinjon qizi
Andijon Davlat Universiteti Falsafa kafedrasi o'qituvchisi

O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA DAVLAT VA DINIY TASHKILOTLAR MUNOSABATINING AKS ETISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlangan. O'zbekistonning sekulyar davlat sifatidagi mavqei, din ozodligini ta'minlash va davlatning dindan ajratilishi prinsipi Konstitutsiyaning 61-moddasida aks etgan: "Din ishlari davlat ishlaridan ajratilgan, ularning o'zaro munosabatlari qonun bilan tartibga solinadi" (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023). Maqolada ushbu modda asosida davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning amaliy jihatlari, shuningdek, ularning qonunchilikdagi ifodasi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar*: O'zbekiston Konstitutsiyasi, davlat va din munosabatlari, sekulyarizm, din ozodligi, huquqiy asoslar.*

Абдуллаева Мадинахон Эркинжон кизи
Андижанского государственный университет
Кафедра философии преподаватель

ОТРАЖЕНИЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ГОСУДАРСТВА И РЕЛИГИОЗНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация*: Статья посвящена анализу правовых основ взаимоотношений государства и религиозных организаций в Конституции Республики Узбекистан. Положение Узбекистана как светского государства, обеспечивающее свободу вероисповедания, принцип отделения государства от религии отражены в статье 61 Конституции: «Религиозные отношения отделены от государственных, а их взаимоотношения регулируются законом» (Конституция Республики Узбекистан, 2023 г.). В статье рассматриваются практические аспекты взаимоотношений государства и религиозных организаций на основе данной статьи, а также их отражение в законодательстве.*

Ключевые слова: *Конституция Узбекистана, государственно-религиозные отношения, светскость, свобода вероисповедания, правовые основы.*

Abdullayeva Madinakhon Erkinjon kizi
Andijan State University Department of Philosophy lecturer

REFLECTION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE STATE AND RELIGIOUS ORGANIZATIONS IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: *This article is devoted to the analysis of the legal basis of relations between the state and religious organizations in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The status of Uzbekistan as a secular state, ensuring freedom of religion and the principle of separation of the state from religion are reflected in Article 61 of the Constitution: "Religious affairs are separated from state affairs, their mutual relations are regulated by law" (Constitution of the Republic of Uzbekistan, 2023). The article examines the practical aspects of relations between the state and religious organizations on the basis of this article, as well as their expression in legislation.*

Keywords: *Constitution of Uzbekistan, relations between the state and religion, secularism, freedom of religion, legal basis.*

Tadqiqot usullari.

O'zbekiston Konstitutsiyasi davlat va din munosabatlari, masalalarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun asosida tahlil qilinadi. Masalan, Konstitutsiyaning 31-moddasi quyidagicha e'tirof etadi: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi." O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2300 dan ortiq diniy tashkilot faoliyat

yuritmoqda. Masalan, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasi quyidagicha ta’kidlaydi: “Davlat turli dinlarga e’tiqod qiluvchi va ularga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e’tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu mavzuni yoritilishida asoisy manba vazifasini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda, O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni bajaradi.

Kirish qismi

Zamonaviy davlatlarda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar demokratik jamiyatning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida bu masala Konstitutsiyada mustahkamlangan huquqiy asoslar orqali tartibga solinadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi dinning jamiyatdagi o‘rni, davlatning dinga munosabati va diniy tashkilotlarning faoliyatining huquqiy doirasini aniq belgilab beradi. Ushbu maqola O‘zbekiston Konstitutsiyasida davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarning qanday aks etganini, ushbu munosabatlarning huquqiy asoslari va amaliy jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida alohida ta’kidlanishicha: "Davlat va din bir-biridan ajratilgan, diniy tashkilotlar davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi." [58] Bu modda davlatning sekulyarlik prinsiplariga sodiqligini va dinni siyosiy jarayonlardan ajratish siyosatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 31-moddasida "Fuqarolarning dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod qilmaslik erkinligi kafolatlanadi" deb belgilanadi, bu esa inson huquqlari va erkinliklarining xalqaro standartlariga muvofiqligini ta’minlaydi. Davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat huquqiy normalar bilan, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar bilan ham belgilanadi. O‘zbekistonda dinning jamiyatdagi o‘rni, xususan, islom dinining ta’siri tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu Konstitutsiya normalarida muvofiqlashtirilgan. Maqolaning asosiy maqsadi – O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan ushbu munosabatlarning nazariy va amaliy jihatlarini ochib berish, shuningdek, ularning zamonaviy demokratik davlat modellariga muvofiqligini tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston Respublikasida davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari mavzusi o‘zbek va xorijiy olimlarning ko‘plab tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ushbu mavzu yuridik, siyosiy va ijtimoiy-madaniy jihatlardan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unga doir tadqiqotlarda O‘zbekistonning sekulyar davlat sifatidagi o‘rni, din erkinligini ta’minlash va diniy ekstremizmga qarshi kurashish kabi masalalar muhokama qilingan. Ushbu bo‘limda mavzuga oid asosiy adabiyotlar tahlil qilinadi va ularning ilmiy ahamiyati baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mavzuning asosiy manbai sifatida xizmat qiladi. Konstitutsiyaning 61-moddasida "Davlat va din bir-biridan ajratilgan, diniy tashkilotlar davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi" deb alohida ta’kidlanadi. Ushbu modda O‘zbekistonda sekulyarizm prinsipining huquqiy asosini tashkil qilib, davlatning dinga munosabatini tartibga soladi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 31-moddasida "Fuqarolarning dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod qilmaslik erkinligi kafolatlanadi" deb belgilanadi, bu esa din erkinligining xalqaro standartlarga muvofiqligini ko‘rsatadi.

O‘zbek olimi A.X. Saidovning "O‘zbekistonda inson huquqlari va din erkinligi" asarida O‘zbekistonda din erkinligining huquqiy asoslari va amaliy jihatlari atroflicha tahlil qilinadi. Saidov o‘z tadqiqotida Konstitutsiya normalarining din erkinligini ta’minlashdagi rolini ta’kidlab, "O‘zbekistonda din va davlat munosabatlari sekulyarlik va plyuralizm prinsiplariga asoslanadi"[59] deb yozadi. Uning xulosalari O‘zbekistonning din siyosati xalqaro huquq normalariga muvofiqligini ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy adabiyotlarda esa Jon Andersonning "Religion, State and Politics in the Soviet Union and Successor States" kitobi muhim manba sifatida ko‘riladi. Anderson o‘z tadqiqotida postsovet davlatlarida, jumladan, O‘zbekistonda din va davlat munosabatlarining tarixiy evolyutsiyasini ko‘rib chiqadi. U " Mustaqillikka qadar O‘zbekistonda dinning jamiyatdagi o‘rni davlat tomonidan qat’iy nazorat qilingan, lekin bu nazorat din erkinligini cheklashga emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan"[60] deb ta’kidlaydi. Bu xulosa O‘zbekistonning din siyosatidagi o‘ziga xos yondoshuvni ochib beradi. Shuningdek, M.Q. Umarovning "O‘zbekistonda diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari" maqolasi mavzuga doir muhim tadqiqotlardan biridir. Umarov O‘zbekiston qonunchiligida diniy tashkilotlarning faoliyatini tartibga soluvchi normalarni tahlil qilib, "Konstitutsiyada belgilangan sekulyarlik prinsipi amalda diniy tashkilotlarning mustaqilligini ta’minlash bilan birga, ularning davlat manfaatlariga zid bo‘lgan faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘ymaydi" deb yozadi. Uning tadqiqoti amaliy va nazariy jihatlarning uyg‘unligini ko‘rsatadi. Xorijiy tadqiqotchilardan Ya. Troshevning "Secularism and Religious Freedom in Central Asia" maqolasi O‘zbekistonda din erkinligi va

[58] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 yilgi tahrir.

[59] Саидов.А. Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари ва дин эркинлиги. – Т.:Ўзбекистон, 2018. – Б.24

[60] John Anderson. Religion, State and Politics in the Soviet Union and Successor States. – Scotland. University of St Andrews, 1994. – P.112

sekulyarizm o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritib beradi. U "O‘zbekistonda sekulyar davlat modeli dinning jamiyatdagi ta’sirini tan olish bilan birga, uni siyosiy jarayonlardan uzoqlashtirishga xizmat qiladi" deb xulosa qiladi. Bu xulosa O‘zbekistonning din va davlat munosabatlarida o‘ziga xos balansni saqlashga intilishini ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar munosabatlari mavzusi ko‘p qirrali tadqiqotlarni talab qiladi. O‘zbek olimlari ko‘proq huquqiy va amaliy jihatlarga e’tibor qaratgan bo‘lsa, xorijiy tadqiqotchilar mavzuni tarixiy va qiyosiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga intilgan. Ushbu tadqiqotlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, O‘zbekiston Konstitutsiyasi sekulyar davlat modelini mustahkamlash bilan birga, din erkinligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida davlat va diniy tashkilotlar munosabatining aks etishi: Ilmiy yangilik.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat va diniy tashkilotlar munosabatlarining aks etishini tahlil qilish orqali ilmiy-amaliy yangilik taklif etadi. Mavzu bo‘yicha avvalgi tadqiqotlar asosan konstitutsiyaviy normalarning umumiy tahlili yoki din erkinligining huquqiy jihatlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, ushbu maqola O‘zbekistonning sekulyar davlat sifatidagi o‘ziga xos modelini zamonaviy xalqaro standartlar va madaniy-tarixiy kontekst nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, tadqiqot O‘zbekiston Konstitutsiyasining 2023 yilgi tahririga asoslanib, davlat va din munosabatlarining yangilanishini ko‘rib chiqadi. Xususan, Konstitutsiyaning 61-moddasida "Davlat va din bir-biridan ajratilgan, diniy tashkilotlar davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi" deb belgilanadi. Tadqiqot ushbu sohadagi mavjud bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi, xususan, diniy tashkilotlarning davlat bilan munosabatlaridagi mustaqillik darajasini amaliy misollar asosida tahlil qiladi.

Ikkinchidan, tadqiqot O‘zbekistonning din va davlat munosabatlari modelini xalqaro tajriba, xususan, Fransiya va Turkiya kabi sekulyar davlatlar bilan qiyosiy jihatdan o‘rganish orqali yangi yondoshuv taklif etadi. Masalan, Fransiyaning sekulyarizm modeli (laïcité) davlatning dinga butunlay betaraf munosabatiga asoslansa, O‘zbekiston modeli madaniy-tarixiy omillarni hisobga olib, dinning ijtimoiy ahamiyatini tan olish bilan birga uni siyosiy jarayonlardan uzoqlashtiradi. Bu esa O‘zbekistonning "muvofiqlashgan sekulyarizm" deb atash mumkin bo‘lgan o‘ziga xos modelini shakllantiradi. Ushbu konsepsiya tadqiqotda ilk bor tizimli ravishda ishlab chiqilmoqda.

Uchinchidan, tadqiqot O‘zbekistonda diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining zamonaviy globallashuv sharoitidagi muammolari va istiqbollarini ko‘rib chiqadi. Masalan, A.X. Saidovning "O‘zbekistonda din erkinligining huquqiy asoslari" asarida asosiy e’tibor konstitutsiyaviy normalar tahliliga qaratilgan bo‘lsa, ushbu tadqiqot amaliy tatbiqdagi muammolar, xususan, diniy tashkilotlarning moliyaviy mustaqilligi va davlat nazorati orasidagi muvozanat masalalariga urg‘u beradi. Saidovning xulosasiga ko‘ra, "O‘zbekistonda sekulyarlik prinsipi din erkinligini ta’minlashga xizmat qiladi", lekin ushbu tadqiqot bu prinsipning amaliy tatbiqdagi murakkabliklarini ochib beradi.

To‘rtinchidan, tadqiqot O‘zbekistonda din va davlat munosabatlarining ijtimoiy-madaniy kontekstiga alohida e’tibor qaratadi. Masalan, islom dinining O‘zbekiston jamiyatidagi tarixiy va madaniy ahamiyatini hisobga olib, tadqiqot dinning jamiyatdagi integrativ roli va uning davlat siyosatiga ta’sirini tahlil qiladi. Bu yo‘nalishda Ya. Troshevning "Secularism and Religious Freedom in Central Asia" maqolasidagi "O‘zbekistonda sekulyarizm dinni siyosiy jarayonlardan uzoqlashtirishga xizmat qiladi" degan xulosasi asos qilib olingan va unga madaniy kontekst nuqtai nazardan yangi talqin berilgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot O‘zbekiston Konstitutsiyasida davlat va diniy tashkilotlar munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ilmiy yangilik taklif etadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning sekulyar davlat sifatidagi o‘ziga xos modelini yanada rivojlantirish va xalqaro tajriba bilan muvofiqlashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqotda Konstitutsiya moddalarining matnlari va ularning amaliy ijrosi tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligining xalqaro inson huquqlari standartlariga muvofiqligi qiyosiy tahlil orqali baholandi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi davlat va diniy tashkilotlar munosabatini tartibga solishda dunyoviylik, vijdon erkinligi va milliy xavfsizlik prinsiplariga asoslanadi. 31, 57 va 61-moddalar ushbu munosabatlarning huquqiy asosini tashkil qiladi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun esa amaliy mexanizmlarni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistonRespublikasiKonstitutsiyasi.(https://constitution.uz).
2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun . (https://lex.uz/docs/).
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 263-son qarori. (https://lex.uz).
4. U.S. Department of State. (2023). 2023 Report on International Religious Freedom: Uzbekistan. (https://www.state.gov/reports/2023-report-on-international-religious-freedom/uzbekistan/).

5. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. (2022). O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik borasida namuna. (https://bukhari.uz).

6. Smith, J. (2019). Secularism and State-Religion Relations in Modern Democracies. *Journal of Comparative Law*, 45–67.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdurauf Dehqonov
Osiyo xalqaro universiteti magstranti

DIN PSIXOLOGIYASI VA UNING ZAMONAVIY SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada din tushunchasining mohiyati, uning inson hayotida tutgan o'rni, dinning vazifalari, bugungi globallashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda dinning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *din, ishonch, e'tiqod, qadriyat, komil inson, integratsiya, kompensatorlik, legitimizatsiya.*

Абдурауф Дехканов
Магистрант Азиатского Международного Университета

ПСИХОЛОГИЯ РЕЛИГИИ И ЕЁ РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ СОВРЕМЕННОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается сущность понятия религии, её роль в жизни человека, функции религии, а также значение религии в воспитании личности в эпоху стремительных процессов глобализации.*

Ключевые слова: *религия, вера, убеждение, ценности, совершенный человек, интеграция, компенсация, легитимация.*

Abdurauf Dehkanov
Master's student at Asian International University

THE PSYCHOLOGY OF RELIGION AND ITS ROLE IN THE FORMATION OF MODERN PERSONALITY

Summary. *This article explores the essence of the concept of religion, its role in human life, the functions of religion, and the importance of religion in personal development during the era of rapid globalization.*

Keywords: *religion, faith, belief, values, perfect human, integration, compensation, legitimization.*

Kirish.

Din komil insonni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir. Din o'z mohiyatiga ko'ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ularni insonlar qalbi va ongiga singdiradi. Din kishilarni hamisha yaxshilikka va ezgu ishlarga chorlagan, yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Aynan din tufayli xalqlarning ming yillar mobaynida boy ma'naviyati va merosi, o'zligi omon saqlanib kelindi. Din psixologiyasining asosiy o'ziga xos j ihati shundaki, unda dinning manbai insonni o'rab turgan dunyoda emas, balki, insonning o'zida, uning ichki dunyosida deb tushuntiriladi. Shu bilan birga, dinning asosi insonning aqliy emas, balki, hissiy-ruhiy dunyosidadir, deya ta'kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Din jamiyatda bir qator ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalarni bajaradi:

Birinchidan, har qanday din o'z e'tiqod qiluvchilari uchun to'ldiruvchilik, tasalli beruvchilik - kompensatorlik vazifasini bajaradi va shaxs shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil bo'lishi hodisasini olaylik:

Inson o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishishi ilojsiz bo'lib ko'ringanida unda qandaydir ma'naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat seziladi.

Ikkinchidan, muayyan din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchilik - integratsion vazifasi deyiladi. Din hamisha muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotni qamrab olishga intiladi. Buning muntazamligini ta'minlash maqsadida din xalqlarning ijtimoiy hayotiga, s huningdek, adabiyoti va san'atiga chambarchas bog'lanib keta olgan.

Uchinchidan, har bir din o'z qavmlari turmushini tartibga solib, nazorat qiluvchilik - regulyativ vazifani bajaradi. Dinlar o'z urf-odatlarining, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o'z vaqtida, qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi.

To'rtinchidan, din aloqa bog'lashlik, birlashtiruvchilik - kommunikativ vazifani ham bajaradi, ya'ni har bir din o'z qavmlarining birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqadorlikda bo'lishini ta'minlashga

intiladi. Bunda u yoki bu dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning o‘z dinidagi boshqa kishilar bilan aloqador ekanligi, o‘zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo‘lib bajarilishi lozimligi nazarda tutiladi.

Beshinchidan, din legitimizatsiya - qonunlashtiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Dinning bu funksiyasining nazariy asosini yirik amerikalik sotsiolog T.Parsons ishlab chiqdi. Uning fikricha, har qanday ijtimoiy sistema muayyan cheklovlarsiz mavjud bo‘la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko‘tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo‘lgan munosabatni ham belgilaydi.

Oltinchidan, din vazifalarining falsafiy-nazariy jihatlari ham mavjud. Bu vazifa insonga yashashdan maqsad, hayot mazmunini, dorulfano va dorulbaqo masalalariga o‘z munosabatini bildirib turishdan iboratdir. Din insonning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo‘ladi. Shuning uchun ham dinni o‘rganish - bu insoniyatni o‘rganish demakdir.Dinni insoniyatdan,insoniyatni dindan ajratib bo‘lmaydi

Hozirgi kunda milliy g‘oya va istiqlol mafkurasini shakllantirish va yoshlar ongiga singdirishda dinni to‘g‘ri hamda tahliliy o‘rganish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Globallashuv jarayoni bugungi kunda g‘oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga o‘z ta'sirini ko‘rsatayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Hozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda dinni o‘ziga niqob qilib olib, uni mafkuraviy ta'sir o‘tkazishning nihoyatda kuchli vositasiga aylantirishga urinayotgan kuchlar soni oshganligi hech kimga sir emas. Din va diniy qadriyatlar kishilarni hamisha yaxshilikka va ezgu ishlarga chorlagan hamda muqaddas e'tiqodlarga asoslanib, shaxsda yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan, insoniyatni komillikka da'vat etuvchi buyuk ta'limot bo‘lib kelgan. Biroq ayrim hollarda dinni soxtalashtiruvchilar, undan o‘z shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanuvchilar ham mavjudligini, ayni ana shu salbiy hodisalar jamiyat taraqqiyotida kutilmagan fojialarni keltirib chiqarishi mumkinligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Afsuski, diniy ongning ajralmas qismi bo‘lgan e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki, vayronkor g‘oyalarni o‘zlariga maqsad qilib olgan kimsalar ham foydalanmoqdalar. Bu esa butun kishilik jamiyatiga, jumladan, mustaqil O‘zbekiston davlatiga nisbatan turli tahdidlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu zo‘ravonlikka asoslangan harakatlar nafaqat O‘zbekiston, balki, jahonning barcha davlatlarining osoyishta yashashlariga rahna solmoqda. Dinni, xususan, islom dinini noto‘g‘ri talqin qilib, o‘zining yovuz niyatini amalga oshirishda xalqning diniy qadriyatlaridan va dinga bo‘lgan hurmatidan foydalanishga urinayotganlar katta muammolar keltirib chiqarayotgani bugun hech kimga sir emas. Ushbu muammolarni bartaraf etish, nafaqat islom dinining, balki, jahon dinlarining ham sof insonparvarlik tamoyillarini yuzaga chiqarish bugungi kunning dolzarb masalalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT minbaridagi nutqida butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblashni aytgan. "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi, islom dinini to‘g‘ri tashviqot qila olsak, xalqqa yetkaza olsak, boshqa davlatlarda islom dinini o‘ziga niqob qilib, boshqa yo‘llarga yurayotgan bolalar, shu terrorizm, diniy aqidaparastlik kabi narsalar bizga yot bo‘lishi muqarrar" [Mirziyoyev Sh.M .(2017) BMTning 72-sessiyasidagi ma'ruzasi] .-deya ta'kidladi Prezident

Shavkat Mirziyoyev BMT minbarida. O‘z navbatida, O‘zbekistonning dunyoviy davlat sifatida diniy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatining muhim prinsiplarini ham ko‘rsatib bergan edilar.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlamoqchimizki, O‘zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo‘yilgan bir paytda din masalasini chetlab o‘tish mumkin emas. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g‘oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do‘stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Din odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag‘rikenglikka da'vat etadi. Milliy va diniy qadriyatlarni yaxshi bilmay, ularning hurmatini o‘rniga qo‘ymay turib, inson yuksak ma'naviyatli bo‘la olmaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Muminov A, Yoldashkhujayev H, Rahimjonov D (2003). "Religious studies". (1) 27
2.Abdurahmanov F, Abdurahmanova Z (2011). "Psychology of religion". (2) 83
3.Mirziyoyev Sh.M (2017) report from the 72-th session of the UN.(3)

4.Khasanovna, S. D. (2021). EDUCATION OF FEELINGS WITH ARTISTIC WORDS. International Engineering Journal For Research & Development, ¿(ICDSIIL), 4

5.Сайдахметова, Д. Х. (2021). КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ В СИСТЕМЕ ВУЗОВСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Academic research in educational sciences, 2(1).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Bobojanov Safar
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ QATLAMLARGA G‘AMXO‘RLIK: DAVLAT SIYOSATI VA AMALIYOTI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga g‘amxo‘rlik qilishning dolzarbligi yoritiladi. Aholining ijtimoiy zaif toifalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, huquqiy-me’yoriy asoslar va davlat dasturlari tahlil qilinadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz keksalar, kam ta’minlangan oilalar va yetim bolalar uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda ularni yanada yaxshilash yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy tajriba o‘rganilib, mamlakatimizda uni amaliyotga tatbiq etish istiqbollari bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy himoya, davlat siyosati, ijtimoiy zaif qatlamlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta’minlangan oilalar, davlat dasturlari, g‘amxo‘rlik, islohotlar.*

Бободжонов Сафар
Базовый докторант Джизакского государственного педагогического университета

ЗАБОТА О СОЦИАЛЬНО ЗАЩИЩЕННЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ: ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И ПРАКТИКА

Аннотация: *В данной статье рассматривается актуальность заботы о социально уязвимых слоях населения в Республике Узбекистан. Анализируются осуществляемые реформы, правовые и нормативные основы, а также государственные программы по поддержке социально незащищённых категорий граждан. Освещены условия, создаваемые для лиц с инвалидностью, одиноких пожилых людей, малообеспеченных семей и детей-сирот, а также направления их дальнейшего улучшения. Кроме того, изучается зарубежный опыт совершенствования системы социальной защиты и его перспективы внедрения в практику в Узбекистане.*

Ключевые слова: *социальная защита, государственная политика, социально уязвимые слои, лица с инвалидностью, малообеспеченные семьи, государственные программы, забота, реформы.*

Bobojanov Safar
Jizzakh State Pedagogical University, basic doctoral student

CARE FOR SOCIALLY PROTECTED PERSONS IN UZBEKISTAN: STATE POLICY AND PRACTICE

Abstract: *This article discusses the relevance of providing care for socially vulnerable groups in the Republic of Uzbekistan. It analyzes ongoing reforms, legal and regulatory frameworks, and government programs aimed at supporting socially disadvantaged segments of the population. It highlights the conditions created for people with disabilities, lonely elderly individuals, low-income families, and orphans, as well as strategies for their further improvement. Additionally, foreign experiences in improving social protection systems are examined, along with their potential application in Uzbekistan.*

Keywords: *social protection, state policy, socially vulnerable groups, persons with disabilities, low-income families, government programs, care, reforms.*

Kirish.

Nogiron odam – o‘zining jismoniy yoki aqliy zaifliklari oqibatida ishlashi cheklanganligi tufayli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj inson hisoblanadi. Inson ishlashining cheklanishi ularning o‘ziga o‘zi xizmat qilish qobiliyati, atrofda harakatlanish, yo‘nalishni aniqlash, muloqot qilish, o‘zining xatti-harakatlarini nazorat qilish va ishlash salohiyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotish bilan tavsiflanadi. Ushbu kamchiliklarga asoslangan rasmiy ta’rif Nogironligi bo‘lgan kishilar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada mavjud bo‘lgan nogironlikning ijtimoiy ta’rifidan farq qiladi. Konvensiyada berilgan ta’rif inson huquqlarini mustahkamlash, ta’minlash va kafolatlashga qaratilgan bo‘lib, atrof-muhitni baholashni o‘z ichiga oladi va yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanayotgan, o‘z-o‘ziga ishongan shaxsni ifodalaydi.[1;89]

Keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish an'anaviy ravishda ijtimoiy ta'minot huquqi fani doirasida o'rganilgan. Bu borada jahonda ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning haq-huquqlari, ularni qo'llab-quvvatlash borasida M.L.Zaxarov, A.N.Yegorov, V.Sodiqova, S.Mirzaahmedova, E.G.Tuchkova, Ya.M.Fogel va boshqa qator mualliflar o'z asarlarini e'lon qilishgan. Biroq bu asarlar asosan ommabop ruhda yozilgan bo'lib, ularda mavzuni tadqiq etishdan ko'ra bu toifadagi shaxslarning qonunda belgilangan huquq, imtiyoz va yengilliklarini tushuntirish, sharhlashga asosiy e'tibor qaratilgan. Ayni vaqtda bu mualliflar mavzuni sobiq sovet tuzumi davrida amal qilgan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidagi ijtimoiy ta'minot huquqi asosida yoritishgan. [2;56]

O'zbekistonda ham I.B.Zokirov, X.R.Rahmonqulov, K.Mirzajonov, M.Mirxamidov, G.Axmedov kabi olimlarning ilmiy ishlarida, maqolalarida, risolalarida, dissertatsion ishlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning haq-huquqlarini ochib berishda ko'plab ishlar qilingan.

Shuningdek, O'zbekistonda davlatning ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga nisbatan ijtimoiy g'amxo'rligi, bu siyosatning tarixiy bosqichlari, mohiyati va asosiy tamoyillari, shu toifadagi kishilarning huquq subyekti sifatidagi maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlat va jamiyat funksiyasining asosiy yo'nalishlarini tadqiq etishdir. Ulardan kelib chiqqan tashkilotlarning qo'llab-quvvatlashlari va ularning xavfsizligini ta'minlamoqda, qolaversa, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga kuchli ijtimoiy yordam berib kelmoqda. Bu vazifani amalda harakatga keltirish davlat boshqaruvining ustivor yo'nalishi bo'yicha siyosiy va orqaga qayta-qurishlar tinchlik va totuvlik sharoitlarida amalga oshib bormoqda.

Mana shunday sharoitda davlat aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga, ayniqsa keksalar va nogironlarga qanday g'amxo'rlik qiladi, degan masala ko'ndalang turishi, tabiiy. Keyingi yillarda ro'y bergan voqealar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimda tub sifat o'zgarishlariga olib keldi. Bu sifat o'zgarishlari huquqshunoslar, davlatshunoslar, iqtisodchilar tomonidan hali chuqur va yetarlicha o'rganilmagan, nazariy va ilmiy tadqiq qilinmadi. Bunday holatda ularga bo'lgan e'tiborni quyidagi guruhlarga bo'lib tasnif etish mumkin:

1.Ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarlarga jamiyat va davlat kuchi g'amxo'rlikning ma'naviy asoslarini bayon etish;

2. Nogironligi bor shaxslarga davlat va jamiyat g'amxo'rligining vujudga kelish tarixi va rivojlanishi:

3.Bozor sharoitida keksalar, nogironlarni davlat va jamiyat sharoitida ijtimoiy himoya qilish shakllarini ilmiy-nazariy hayotdan olib tashlash;

4.O'zbekistonda Mehribon uylarining tarbiyalanuvchilarilarga davlat g'amxo'rligi siyosatini tashkiliy-huquqiy ta'minlash mexanizmini o'rganish va umumlashtirish;

5.Keksalar va nogironlar o'zlarini tiklashning o'ziga xos tomonlarini ochib berish;

6.Keksalar va nogironlarga jamiyat g'amxo'rligining ahamiyati va mazmunini e'tiborga olish;

7.Nogironlar jamoat birlashmalari va xayriya jamg'armalarini tashkil etish va qonunchilikka muvofiqligini va oqibatlarini amaliyotini o'rganish ilmiy umumiy boshqarish;

8. Nogironligi bor bolalarni moddiy ta'minot, mehnatni to'g'rilash, sog'lig'ini saqlash va tiklashning qonuniyligini ta'minlash;

9.Keksalar va nogironlarga davlat g'amxo'rligi va davlat boshqaruvi organlarini ishlab chiqish.

Bozor munosabatlari tizimida keksalar va nogironlarga g'amxo'rlik qilish o'ziga xos xususiyatga ega. Agar sotsialistik jamiyatda ijtimoiy ta'minot ko'p jihatdan ommabop bir xil bo'lsa, bozor asosi va tuzilmagan davlatda faqat nochorlarni ijtimoiy himoya qilishga harakat qiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar qayta tiklangan holatlarga nisbatan keng huquqli asoslarga ega. Shuningdek, Keksalar va nogironlarning shaxsi, yuridik munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi. Shuning bilan birgalikda, keksalar va nogironlarga berilgan ba'zi huquqlar tiklandi.

Nogironligi bor shaxslarga davlat ixtimoiy g'amxo'rligi siyosatini amalda ta'minlash ijtimoiy tizimni belgilash ravishda aniq materiallar yozilgan asarlar bor. Jumladan, "Injil", "Kur'oni karim", hadislardan, "Hidoya", "Temur tuzuklari" kabi mutafakkirlarning asarlarida ham ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning hayotdagi o'rni, qiziqishlarini alohida ta'kidlab o'tganalar.

Davlat organlari aholining murojaatlariga to'g'ridan-to'g'ri javob berishga, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning muammolarini o'rganib, ularni hal qilishga, yuzma-yuz muloqot o'rnatishga harakat qilmoqda. Ommaviy axborot vositalaridagi keskin o'zgarishlar yillab o'z yechimini topmagan ayrim eski muammolarni qayta ko'rib chiqishga va hal etishga yordam bermoqda. O'zbekistonda davlatning insonparvar, demokratik ijtimoiy mohiyati, uning keksalarga va nogironlarga g'amxo'rligi siyosatining mazmuni, tamoyillari, bu siyosatni amalga oshirishni ta'minlovchi tashkiliy tuzilmalar tabiati va faoliyati, huquqiy asoslari tizimi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoyaga muhtojlar va keksalarni ijtimoiy himoyalashning xususiyatlari, ularga ijtimoiy yordam shakllari, bunda jamiyatning ishtiroki birlamchi ekanligi ta'kidlangan.

Mavjud manbalar va amaldagi qonunlarga asoslanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni ijtimoiy

himoya qilish masalalari davlatshunoslik va huquqshunoslikning umumiy muammolari bilan uzviy bog‘liq ravishda tahlil qilindi. Bu esa bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida davlatning keksalarni va nogironlarni ijtimoiy himoyalash siyosati va funksiyasini, uning huquqiy va tashkiliy negizlarini, bu borada davlat va jamiyatning o‘zaro birgalikdagi faoliyatini ochib berishga imkon berdi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga hozirgi paytdagi davlat hamda jamiyat g‘amxo‘rligi o‘zining ma’naviy va tarixiy negizlariga, tajribasiga ega. Bunda diniy asoslar ham muhim o‘rin tutadi. Muallif musulmon huquqidagi zakot institutini o‘rganib, bu huquq keksalar va nogironlarga g‘amxo‘rlik majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydi va uni amalga oshirish shart-sharoitlari va tartibini belgilab beradi, deb hisoblaydi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar insonparvarlikka va ijtimoiy adolatga asoslangan qonunchilik demokratik davlat va ijtimoiylikka yo‘naltirilgan bozorni tashkil etish kontsepsiyalari tashkil etish. Bu kontsentsiyalarning birlashmasi bo‘lib va jamiyat yordamning davlat yordamining nochor qismini, shu jumladan keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoyalashni ta'minlash uchun javobgarlik bilan-nadi. Ushbu texnologiyalariga tayanib, ishlab chiqarish vokealiklari va jarayonlari tayanch texnikalar orqali ishonchli dialektik, shu jumladan foydalanish tarixiy, mantiqiy va qiyosiy usullar keng qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Xulosa qilib aytish kerakki, bugungi kunda ijtimoiy himoyaga muhtojlarni va davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga **muhtojlarni hisobga oluvchi Yagona reyestrni tashkil etish talab qilinadi,** unda Pensiya jamg‘armasi, Soliq qo‘mitasi, TMEKdan nogironligi bor insonlarni ro‘yxatga olish bo‘yicha dalolatnoma, yordamga muhtojlik to‘g‘risida mahalladan ro‘yxatdan o‘tganligi va shu kabi hujjatlarni davlat ma'lumotlar bazasiga joylashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurahmonov Q.X., Umurzakov B.X., Abdurahmanov X.X. “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish”. Toshkent, 2019.

2. Mahmudov N. “Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati”. Toshkent: MASHHUR-PRESS, 2021.

3. Temirova M.T. “O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash istiqbollari”. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 2024, №12, 49–52-betlar.

4. Babakuliyeva S.Sh. “Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan xotin-qizlarning bandligini ta’minlash va turmush farovonligini oshirish masalalari”. Science and Education, 2025, 6(2), 464–466-betlar.

5. Maxmudova G., Abbosova M.S. “O‘zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar”. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 2024, 21(8), 100–105-betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

G. T. Kabulniyazova
O‘zMu Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa” kafedrasi professori, f.f.d.

FLORENSIYALIK FAYLASUF MARSILIO FICHINONING NEOPLATONIK VA GUMANISTIK QARASHLARI.

Annotatsiya. *Maqolada mashhur italiyalik faylasuf Marsilio Fichchinoning neoplatonik va gumanistik qarashlari yoritib berilgan. Fichchino o‘zining qarashlarida antik davr faylasufi Platon hamda Plotinlarning olamiy jon, ruhiy ishq, emanatsiya nazariyalarini xristian dinidagi g‘oyalar bilan bog‘lagan. Shu bilan bir qatorda Fichchino ijodida inson madhiyasi, uning koinotda egallagan o‘rni ko‘rsatilgan. Marsilio Fichchino boshqa italiyalik faylasuflarga o‘xshab insonni mikrokosmos deb ta’riflagan va uning koinotdagi markaziy o‘rnini ochib bergan. O‘rta asr falsafasida bunday qarashlar yangicha gumanistik falsafani yuzaga kelishini anglatar edi.*

Kalit so‘zlar: *Antik falsafa, neoplatonizm, Platon, Aristotel, neoplatonizm, inson – mikrokosmos, koinot, ontologiya, gnoseologiya, emanatsiya, rivojlanish, harakat, cheksizlik, sxolastika, ierarxiya.*

G.T.Qobulniyazova
Professor of the Department of Philosophy, Faculty of Social Sciences National University of Uzbekistan, Doctor of Philosophy

NEOPLATONIC AND HUMANISTIC VIEWS OF THE FLORENTINE PHILOSOPHER MARSILIO FICCHINO.

Abstract. *The article discusses the neoplatonic and humanist views of the famous Italian philosopher Marsilio Ficchino. In his views, Ficchino connected the theories of the universal soul, spiritual love, and emanation of the ancient philosophers Plato and Plotinus with the ideas of the Christian religion. At the same time, Ficchino‘s work shows the hymn to man and his place in the universe. Marsilio Ficchino, like other Italian philosophers, described man as a microcosm and revealed his central place in the universe. In medieval philosophy, such views meant the emergence of a new humanistic philosophy.*

Keywords: *Ancient philosophy, Neoplatonism, Plato, Aristotle, Neoplatonism, man - micro*cosm, universe, ontology, *epistemology, emanation, development, movement, infinity, scholasticism, hierarchy.*

Г.Т.Кабулниязова
Профессор кафедры философии факультета социальных наук Узбекского национального университета доктор философских наук

NEOPLATONIC AND HUMANISTIC VIEWS OF THE FLORENSINE PHILOSOPHER MARSILIO FICINO.

Абстрактный. *В статье освещаются неоплатонические и гуманистические взгляды известного итальянского философа Марсилио Фиччино. В своих взглядах Фичино связал теории универсальной души, духовной любви и эманации античных философов Платона и Плотина с идеями христианской религии. В то же время творчество Фиччино является гимном человеку и его месту во вселенной. Марсилио Фиччино, как и другие итальянские философы, описывал человека как микрокосм и раскрывал его центральное место во вселенной. В средневековой философии подобные взгляды знаменовали возникновение новой гуманистической философии.*

Ключевые слова: *Античная философия, неоплатонизм, Платон, Аристотель, неоплатонизм, человек - микрокосм, вселенная, онтология, гносеология, эманация, развитие, движение, бесконечность, схоластика, иерархия.*

O‘rta asrlarda Platonning ijodi nihoyatda kam ma’lum bo‘lgan. Bular asosan “Timey”, “Fedon” va “Menon” kabi dialoglar bo‘lgan edi. Uyg‘onish davrida, antiq madaniy meros qaytadan kashf etildi va ma’lum bo‘lmagan ko‘pgina asarlar tarjima qilina boshladi. Endi bu asarlarning estetik, siyosiy va badiiy tomonlariga ham katta e’tibor berilar edi. Florensiyalik mashhur mutafakkir Marsilio Fichino butun e’tiborini Platon ijodiga qaratdi va o‘z atrofidagi shogirdlari bilan birgalikda yirik akademiyaga asos soldi.

Marsilio Fichino o‘z zamondashlarining e’tiborini va hurmatini qozongan bo‘lib, ikkinchi Platon nomi bilan mashhur edi. U Platon va Plotin asarlarini nafaqat mohirona tarjima qilgan, balki o‘zining nodir komentariylari bilan falsafa tarixidan salmoqli o‘rin olgan faylasuf edi. Fichino Uyg‘onish davri falsafasiga neoplatonizmning yirik namoyandasi va diniy – teologik maktabni rivojlantirgan ijodkor faylasuf sifatida kirdi. [2]

Marsilio Fichino (Toskana)da 1433 yilda meditsina amaliyoti bilan shug‘ullangan oilada tug‘iladi. Boshlang‘ich ta’limni Florensiya va Piza shahrida olgan edi. Fichino 18 yoshidayoq antik merosga bo‘lgan zo‘r qiziqishi, lotin va grek tillarini mukammal bilishi bilan barcha odamlarni hayratga soldi. Florensiyaning mashhur hokimi Kozimo Medichi ham nihoyatda Fichinoga katta e’tibor berdi va o‘ziga yaqinlashtirdi. Fichino bilan hamsuhbat bo‘lishi uchun unga o‘zining villalaridan birini sovg‘a qildi va “grek kodeksi” deb nomlangan Platon ijodiga mansub barcha kitoblarni sovg‘a qildi. Fichino ijodining ilk bor yillarida Aristotelning asarlarini o‘rgansada, lekin eng samarali va yetuk davrini Platon va lotin neoplatoniklarining tarjima qilish va o‘rganishga bag‘ishladi. Fichino Platon va neoplatoniklarning antik merosidan xristian diniy – falsafiy qarashlarini asoslash uchun foydalandi. U nafaqat Platon va Plotin asarlarini tarjima qilar, balki ularning tavsirini berish bilan bir qatorda o‘zining diniy – falsafiy dunyoqarashini ham shakllantirar edi. Xususan, u quydagi asarlarini yozdi: “Jonlarning abadiyligi haqida Platonning diniy ta’limoti”, “Xudoni quyosh bilan solishtirish”, “Hayot haqida uchta kitob”, “Nur haqida”, “Xristian dini haqida” va boshqalar. [1]

Fichinoning mehnatkashligi va serg‘ayratligi tufayli mashhur italyan hukmdori Kazimo Medichi Florensiyaning yaqinidagi Koredjo shahrida joylashgan villasini unga sovg‘a qiladi va bu villa nafaqat Italiya, balki Yevropaning ham yirik antiq merosni o‘rganuvchi markazlaridan biriga aylanadi. Kazimo Medichidan keyingi hukmdor Lorenso Medichi ham Fichinoning diniy – falsafiy qarashlariga yuqori baho berib unga homiylik qilishda davom etadi. Bu homiylik akademiyani ko‘p yillar davomida gullab yashnashiga sabab bo‘ldi va u Yevropaning eng yirik neoplatonizm markaziga aylandi.

Fichino atrofida yig‘ilgan uning hamfikrlari, shogirdlari, do‘stlari va homiylari o‘sha davrda Platon Akademiyasi nomi bilan mashhur bo‘ldilar. Bu Akademiya erkin jamoa bo‘lib, hech qanday Universitet yoki cherkov qoshida bo‘lmagan. U erkin fikr yurituvchilarning ham jihatligi bo‘lib, ular xuddi Platon davridagi Akademiyaga o‘xshashar edi. Bu yerda yig‘ilgan erkin fikr yurituvchi olimlar, tarjimonlar va hokazolar bog‘ni aylangan payt suhbat qurishar, bir-biri bilan fikr almashishar va Platon ruhiyatiga yaqin bo‘lgan dialoglarda qatnashishar edi. 1468 yil 7 noyabrda bu akademiya dargohida “Platon” tavalludiga bag‘ishlangan katta yig‘in o‘tkazildi.

Fichino asarlari ko‘p yillar davomida Fichino, Platon asarlari va neoplatonizmga tegishli bo‘lgan kitoblarni tarjima qilib bordi. U ayniqsa “Germetik traktat” deb atalishi Pifagor va Platon maktablariga mansub bo‘lgan faylasuflarning kitoblarini ham tarjima qildi, ham chuqur o‘rgandi. Germest Trismegist nomi bilan mashhur bo‘lgan qadimgi yunon traktati eramizning ikkichni va uchinchi asrlarida neoplatonizm oqimiga asos soldi va Platon ruhiyatidagi xristian diniy oqimlarini ham yuzaga keltirdi.[2]

1460 yillarda Fichino Platonning barcha ma’lum bo‘lgan asarlarini tarjima qilib bo‘ldi. Bundan tashqari u Prokl, Yamvlix, Porfiriy, Plotin ijodiga mansub bo‘lgan ko‘pgina traktatlarni ham tarjima qildi. XII asrda Yevropada mashhur bo‘lgan vizantiyalik neoplatonik faylasuf Mixail Panni ham aynan Fichino tarjima qilgan edi. Fichinoning qalamiga mansub bo‘lgan ko‘pgina asarlar ham o‘sha davrda chiqa boshladi. Bular: Platonning “Pir” asariga tahlil (1469), “Jonning abadiyligiga Platonning diniy qarashlari” (1469-1474), nashrga chiqgan yili 1482 yil, “Xristian dini haqida” (1474–1489), “Xabarlar” deb nom olgan kichik asarlar to‘plami (1495).

Neoplatonizm ijodini Renessans ruhiyatida qayta ishlab chiqilishi. Marsilio Fichino Katolitsizm diniga mansub bo‘lgan chin dildan xristian diniga ishonuvchi faylasuf bo‘lgan. Shunga qaramay u sxolastik diniy qarashlar o‘rniga Platon va neoplatonizm davriga mansub bo‘lgan falsafiy g‘oyalarni qo‘yadi. Bu g‘oyalar asosan xudo va tabiat, xudo va inson, jonning abadiyligi, ruhiy muhabbat mavzulari edi. Sxolastik diniy dunyoqarashga xudoni dunyodan, tabiatdan va insondan o‘tib bo‘lmas to‘siq bilan ajratish xos bo‘lgan. Bu qarashlarga binoan xudo dunyoni yaratadi. Lekin keyinchalik unga aralashmaydi, chetdan kuzatadi. Fichino aynan shu qarashlarga qarshi chiqadi.[3] Uyg‘onish davri falsafasi va ayniqsa, Fichinoning qarashlarida xudo bilan olamning aloqasi birlikdan ko‘plikka o‘tishga va bundagi aloqalarga o‘xshaydi. Xudo va dunyo masalasida Marsilio Fichino xuddi-Nikolay Kuzanskiy va Piko della Mirondolaga o‘xshab koinotda xudo va uning yaratgan olami yagona birlikni tashkil etadi, deb hisoblaydi.

Ierarxiya va birlik. Fichino karashlariga binoan butun olam pog‘onama-pog‘ona tashkil topgan va bu pog‘onalardagi quyidagi bosqichlar yuqoriga intiladi, bu pog‘onalarning barchasi ilohiy, ruhiy qudrat tomonidan boshqariladi. Eng yuqori pog‘onadagi ruhiy kuch asta-sekin pastga tarqaladi. Olamni Fichino besh pog‘onasini ajratadi. Eng yuqori pog‘ona bu Xudodir. Keyingi pog‘onalar “Farishtalar”, “jon”, “sifat” va nihoyat “materiya” yoki vaznga ega bo‘lgan “modda”.

Fichinoning “Platon diniy qarashlari” deb nomlangan asarida Xudo va dunyo bir-biridan ajralmas,

birlik va ko‘plik aloqalari bilan bog‘liqligini ko‘rsatishadi. Eng oliy pog‘onadan Ollohning nuri butun dunyoga tarqaladi va dunyodagi barcha jonzotlarda Ollohning nuri mavjuddir. Bu nur orqali Olloh yerda ham mavjuddir. [4]

Fichino qarashlariga mistik ruhiyatdagi panteizm xos bo‘lgan. Xudo dunyoda tajalli etmaydi, dunyo xudoda tajalli etadi, ya’ni xudo faqatgina moddiy borliq bilan chegaralanib qolmaydi. Moddiy borliq ruhiyat olamining bir qismidir. Materiya va ruh aloqalarida ruh birlamchi o‘rinni egallaydi.

Eng oliy bosqichdagi Xudo butun yaratgan dunyosi bilan farishtalar orqali aloqada. Farishtalarni Fichino sof aql deb ataydi. Bu sof aqlda yoki farishtalar aqlida barcha narsalarning shakli ham mavjuddir. Sof aqldagi shakllardan osmon jismlari paydo bo‘ladi. Ulardan keyin esa o‘simliklar, hayvonot olami, to‘rtta unsur (yer, suv, havo, o‘t) va tosh ma’danlar paydo bo‘ladi. Sof aqlda barcha narsalarning shakli mavjud. Sof aqldagi mavjudlik harakatsiz sukunat holatidagi mavjudlikdir. Bu harakatsiz pog‘onadan xilma-xil shakllarning harakatli shakliga o‘tish sodir bo‘ladi. Marsilio Fichinoning emonatsiyasida uchinchi bosqich yoki pog‘ona eng muhim ahamiyatga egadir. Bu bosqichda jon joylashgandir. Bu jonni Fichino olamiy jon yoki tabiat deb ham ataydi. [5]

Jon, tabiat va muhabbat. Jon-Marsilio Fichino falsafiy qarashlarining markaziy tushunchasidir. Fichinoning emonatsiya ta’limotida uchinchi o‘rtadagi bosqichni jon egallaydi. U yuqoridagi va pastdagi bosqichlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ularning barchasini o‘zining taroat nurlari bilan harakatga keltiradi. Sof aqldagi shakllarni aynan jon harakatga keltiradi. Sof aql harakatsiz holatda bo‘lgani uchun barcha shakllarga harakatni jon bag‘ishlaydi. Jonda barcha ziddiyatlar birlashadi va barcha shakllar harakatga keladi. Jon koinotning qalbidir. Olloh yaratgan eng buyuk mo‘jizadir, deb hayratlanib yozadi Fichino. Jon-bu hayot ma’nosidir. Hayotning o‘zi bu-jondir. Hayotdagi barcha narsalarning paydo bo‘lishi, harakatlanishi jon tufayli bo‘ladi. Harakatning sababi masalasida Marsilio Fichino o‘rta asrda hukmron bo‘lgan birlamchi turtki haqidagi qarashlarga qarshi chiqadi. Aristotel sxolastikasi fikricha, tabiatni bevosita harakatga keltirgan birlamchi sabab xudodir. Fichino fikricha esa xudo, olamni jon orqali harakatga keltiradi. U xudo jonga butun muhabbatini beradi va bu ilohiy muhabbat kuchi orqali jon butun olamni, harakatga keltiradi. [6]

Shunday qilib, ruhiy muhabbat olamdagi barcha narsalarni bog‘lovchi va harakatga keltiruvchi kuchdir. Bu kuch eng yuqori bosqichdan boshlanib, eng pastdagi bosqichlarga yetib boradi va ularni yana yuqori bosqich bilan bog‘laydi. Koinotni harakatga keltiruvchi barcha narsalardagi go‘zallikni garmonik holatining sababi ham ruhiy muhabbatdir. Barcha narsalardagi go‘zallik Ollohning go‘zalligidan kelib chiqadi. Fichino uchun bu o‘tkinchi olam dard va azob chekish olami emasdir. Uning uchun bu dunyo xudo tomonidan yaratilgan go‘zallik va muhabbat dunyosidir. Olloh butun dunyoga shu qadar buyuk muhabbat va go‘zallikni ato etdi-ki, undagi barcha jonzotlar bu kuchdan lazzatlanadilar va zavqalanadilar. Agar inson ham o‘z qalbida ruhiy muhabbatni his qila olsa u bundan zavqlanadi va lazzatlanadi. Shunday qilib Marsilio, Lukresiy Kar ta’limotidagi lazzatlanish va zavqlanish tushunchalarini neoplatonik ruhiyatida talqin qildi. Fichino ta’limotida, koinot bu go‘zallik, muhabbat va zavqlanish olamidir. Olamdagi Ollohning tajallisi nur orqali sodir bo‘ladi. Bu nur emonatsiyaning barcha bosqichlarida mavjuddir. Haqiqatning o‘zi ham aslida Ollohning nuridir. Xudo nur orqali barcha ayrim narsalarda mavjuddir va bu mavjudlik orqali narsalar chegarasini biladi va ularga uning usturlabi orqali qaraydi. [7]

Narsalar xudo uchun bir ko‘zgudir. Bu ko‘zguda u o‘z aksini ko‘radi. Dunyoviy go‘zallik ham Marsilio Fichinoning fikricha, narsalarda yashiringan Olloh timsolining aksidir. [2]

Shunday qilib, dunyoviy go‘zallik ham ruhiy tusga ega.

Inson madhiyasi. Insonga madhiya keltirar ekan Fichino uni ilohiylashtiradi. Fichino fikricha, xudo yaratuvchilik kuchini borliqdagi hech bir jonzotga bermadi, uni faqat insonga beradi va aynan shu ijodkorlik kuchi orqali insonni o‘ziga yaqinlashtirdi. O‘z ijodkorligi orqali inson xudoning yerdagi xalifasidir. Insonning yerdagi xalifaligi barcha narsalarni ruhiy iroda kuchi orqali boshqarishdan kelib chiqadi.

U nafaqat tabiatni, o‘zni ham boshqara oladi. Insonning ruhi ozod va erkin yaratilganligi uchun u doimo erkinlikka intiladi, u boshqa barcha jonzotlar bilan erkinlikka intilishi bilan farq qiladi. [8] Insonning daholigi unda buyuk bilimlar yashiringanligidan dalolat beradi. Barcha jonzotlar ichida insonning o‘rni beqiyosdir. U o‘zining ezgu xislatlari orqali Ollohga eng yaqin turadigan mavjudotdir. Fichino tomonidan insonga aytilgan madhiya uni o‘rta asr sxolastik, diniy dunyoqarashdan tubdan farq qilar edi.

O‘zining “Xristian dini haqida” asarida Fichino yer yuzidagi hilma-xil dinlarning mavjudligi haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, oldingi ko‘p xudolik dinlarida inson o‘zining erkin ruhi orqali xudoni bilishga intilgan, lekin u xudoni birligi orqali emas, balki ko‘plik shaklda anglagan. [9]U tabiatning barcha kuchlarida yagona xudoni xilma-xil shakllarini ko‘rgan va bu shakllarni inson xudo sifatida qabul qilgan. Ko‘p xudolilik dinlarida ham Fichinoning fikricha, asosiy xudoning mavjudligi xudoning yagonaligidan darak beradi. Ko‘p xudolilik dinlari insondagi hissiy tasavvurning rivojlangan paytida mavjud bo‘lishgan va inson bu hissiy tasavvur orqali inson xudoni barcha shakllarda his qilgan. O‘sha davrda inson tabiatga yaqinroq bo‘lgan va u xudoni borligini aqli

orqali emas, balki his tuyg‘ulari va tasavvuri orqali sezgan. Shuning uchun Fichino ham yagona xudoga bo‘lgan e’tiqodning bu fikrlari uning hurfikrlilik va diniy bag‘rikengligidan dalolat berib turadi. [10]

Shunday qilib, Marsilio Fichino ta’limotida biz xristian diniy qarashlarni antik davrdagi neoplatonik qarashlar bilan, ulardagi insonni mikrokosmos deb tushunish bilan bog‘liqligini, xudoni tabiatda mavjudligi bilan, inson jonini undagi ruhiy muhabbat tufayli faol harakatda ekanligi haqidagi g‘oyalar bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Fichinoning bunday qarashlari aynan Uyg‘onish davri ruhiyatiga nihoyatda mos kelar va bu davrning gumanistik ruhiyatini rivojlantirar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Соколов В.В. Европейская философия XV-XVII веков. – М.: Высшая школа, 1984. – С. 98.

2. Горфункель А.Х. “Философия эпохи возрождения”. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 127.

3. Горфункель А.Х. Гуманизм и натурфилософия итальянского Возрождения. – *М.:* Мысль, *1977*. – 97 с.

4. Йулдошев С. Янги ва энг Янги Давр Ғарбий Европа фалсафаси. – Т.: Шарқ, 2002. – 86 б.

5. Шодиев, Ж. Ж. (2023). Значение исторического мышления в создании фундамента третьего возрождения и его значение в укреплении человеческих ценностей. In international scientific research conference (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).

6. Назаров Қ. Ғарб фалсафаси. – Т.: Шарқ, 2004. – 134 б.

7. Брагина *Л*.М. Итальянский гуманизм. Этические учения XIV-XV веков. – М.: Высш. школа, 1977. – 73 с.

8. Jurakulovich, S. J. (2023). Philosophical Views of Sages on Human Values and Glorifying Him. Theory and analytical aspects of recent research, *2*(16), 229-238.

9. Блинников *Л*.В. Великие философы. – М.: *Л*огос, 1997. – С. 80.

10. Гуговский М.А. Итальянское Возрождение: В 2-х томах. *Л*.: *Л*ГУ, 1947-1961. – С. 67.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Kazakov Ilhom Rozmamatovich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti
Email: ikazakov1973@ mail. ru

UDK: 81-2

REALIYALARDA MADANIYATLAR O‘RTASIDAGI XUSUSIYLIK TASVIRI

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining qadimiy milliy-madaniy xususiyatlaridan guvohlik beruvchi, ularning etnik belgilarini ko‘rsatib turuvchi realiyalar, ya’ni kiyim-kechaklar lingvokulturologik jihatdan o‘rganilgan. Ushbu madaniyat namunalarida takrorlanmas joziba-yu tarovat, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar hamda diniy e’tiqodlar yashiringanligi tavsiflangan. Realiyalarda inson hayotidagi quvonchli yoki g‘am-tashvishli damlar namoyon bo‘lishi ko‘rsatilgan. Realiyalarni madaniyatlararo hamkorlik asosida tadqiq etish har ikki xalq lisoni va madaniyati o‘rtasidagi farqlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi isbotlangan.*

Tayanch so‘zlar: *realiya, milliy-madaniyat, urf-odat, an’ana, milliy libos, lingvokulturologik birlik, mentalitet, milliy nigoh, leksik birlik, lison, madaniyat.*

Казаков Илхом Розмаматович
Доцент Каракалпакский государственный университет им. Бердаха

ПОРТРЕТ ИНТЕРКУЛЬТУРНОЙ ЛИЧНОСТИ В РЕАЛИИ

Аннотация: *В статье с лингвокультурологической точки зрения исследуются реалии, то есть одежда, свидетельствующая о древних национально-культурных особенностях узбекского и каракалпакского народов, проявляющая их этнические особенности. Описано, что в этих образцах культуры скрыты неповторимое очарование и свежесть, обычаи, социальные отношения и религиозные верования. Показано, что счастливые или грустные моменты в жизни человека показывают в реалии. Доказано, что исследование реалий на основе межкультурного сотрудничества имеет большое значение для определения различий между языками и культурами обоих народов.*

Ключевые слова: *действительность, национальная культура, обычай, традиция, национальная одежда, языково-культурное единство, менталитет, национальное мировоззрение, лексическое единство, язык, культура.*

Kazakov Ilhom Rozmamatovich
Associate professor Karakalpak State University named after Berdak

PORTRAIT OF INTERCULTURAL PERSONALITY IN REALITY

Annotation: *In the article, the realities, that is, clothes, which testify to the ancient national and cultural characteristics of the Uzbek and Karakalpak peoples, showing their ethnic characteristics, are studied from a linguistic and cultural point of view. It is described that unique charm and freshness, customs, social relations and religious beliefs are hidden in these culture samples. It is shown that happy or sad moments in a person’s life are shown in reality. Researching realities based on intercultural cooperation has been proven to be of great importance in defining the differences between the languages and cultures of both nations.*

Keywords: *reality, national culture, custom, tradition, national dress, linguistic and cultural unity, mentality, national outlook, lexical unity, language, culture.*

Kirish.

Moddiy va ma’naviy yodgorliklar orasida o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining milliy kiyimlari har qaysi millat o‘ziga xosligini aks ettirishi bilan birga ularning etnik belgilarini ham namoyish etadi. Xususan, ushbu tarixiylikka daxldor kiyimlarda takrorlanmas joziba-yu nafosat, inson umrining fasllari bilan bog‘liq urf-odatlar, an’analar, shuningdek, ijtimoiy munosabatlardagi tafovutlar, diniy e’tiqodlar, hayotdagi quvonchli yoki qayg‘uli voqealar yashiringan.

O‘tmishga nazar tashlasak, o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining o‘ziga xos va rang-barang moddiy madaniyati shakllanganligi ma’lum bo‘ladi. Qadimgi davrlarda turli xil yoshda kiyilgan liboslar bu ikki

qardosh xalq ayollarining butun hayot tarzini o‘zida jamlagan bo‘lib, ular bir-biriga aslo o‘xshamaydi. Chunonchi qoraqalpoqlarning *jegde, kiymeshek, sáwkele, malaqay, shógurme, shekpen* lari o‘zbek madaniyatida uchramaydi. Shuningdek, o‘zbek millatiga mansub *beqasam, alocha, atlas, adras* kabi mato turlari; *munisak, kaltacha, loki, kultapo‘shak* singari liboslar qoraqalpoq xalqi madaniyatiga xos bo‘lmagan kiyimlar sirasiga kiradi. Ushbu milliy kiyimlarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish natijasida ularning o‘ta qadimiy ekanligi, o‘tmish davrlardan e’tiboran o‘zbek va qoraqalpoqlarning bir-biridan tafovutlanadigan milliy nigohi vujudga kelganligi, shunga muvofiq o‘sha madaniyat namunalari lisonda o‘zgacha manzara yaratib, shu bugunga qadar yashab kelayotganligi ayon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Ilmiy adabiyotlarda realiyalarga turli xil munosabat bildirilgan. Aslida, realiya – yunoncha *realia* so‘zidan olingan bo‘lib, u *«ash’yoviy, haqiqiy»* degan ma’noni ifodalaydi [1, 6]. O.S.Axmanovaning «Словарь лингвистических терминов» nomli lug‘atida unga quyidagicha ta’rif berilgan: «Realiya deganda – borliqdagi ash’yoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so‘zlar, ma’lum bir tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birliklar tushuniladi» [2, 381]. Rus olimi L.N.Sobolevning fikricha, «Realiyalar – maxsus xususiyatga ega bo‘lgan, bir tilda va boshqa mamlakatlardagi tillar muhitida muqobillari bo‘lmagan milliy so‘z va so‘z birikmalaridir» [3, 281]. Lingvist L.S.Barxudarovning realiyalarga bergan ta’rifi bir qadar mufassalligi bilan ajralib turadi: «Realiyalar – shunday so‘zlarki, ular boshqa tilda gaplashuvchi xalqlarning tillarida, amaliy hayotlarida mavjud bo‘lmagan leksik birliklar hisoblanadi» [4, 95]. Realiyalar to‘g‘risida nisbatan mukammal va haqiqatga yaqin ta’rif mualliflari S.Vlaxov va S.Florinlardir. Ularga ko‘ra: «Realiyalar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlari, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari bo‘lib, ular milliy va davriy xususiyatga ega» [5, 48]. Xullas, realiyalar bu – muayyan millat madaniyatiga aloqador bo‘lgan narsa yoki hodisalarni tavsiflovchi so‘zlarning ikkinchi xalq tilida mavjud emasligidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Realiyalar tillarni qiyoslash jarayonida aniq ko‘zga tashlanadigan, tillararo tafovutlanadigan, muayyan xalq maishiy hayoti va milliy-madaniyatiga xos tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlar va an’analarni ifodalaydigan nomlarning tabiiy ravishda boshqa xalqlar ijtimoiy hayot tarzida mavjud emasligidir. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, realiya bu – muayyan millat mentalitetiga xos xususiyatlarni o‘zida aks ettiradigan, boshqa xalqlar milliy-madaniyatida uchramaydigan so‘z yoki so‘z birikmalari hisoblanadi. O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari milliy-madaniyatida ham takrorlanmas, faqat ularning o‘zlari uchungina xos kiyim-kechaklar mavjud. Bu, albatta, har ikki xalq o‘tmishda olamga o‘ziga xos va mos tarzda nazar tashlab, borliqni milliy nigohi orqali kuzatib, olamdagi narsa va hodisalarni tasavvur etganligi hamda tafakkuriga joylab, ularni lisonda aks ettirganligi natijasidir. Qardosh xalqlar mentalitetidan darak beruvchi ushbu realiyalarni qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganish orqali o‘tmishda yashab o‘tgan ota-bobolarimizning milliy nigohi, tasavvur va tafakkuri, dunyoni anglashi har xil bo‘lganligi, shunga bog‘liq ravishda ular olamdagi narsa va hodisalarni lisonda turfa xil tasvirlaganligi yanada aniq ko‘zga tashlanadi.

Tahlil va natijalar

Qoraqalpoq ayollari hamda qizlari bayramlarda kashtali qizil yoki ko‘k rangli matolardan tikilgan liboslarni kiyishni xush ko‘rishgan. Yosh ayollar rang-barang liboslarni, yoshi kattalar oq-qizil, katak-katak kiyimlarni, keksa yoshdagi ayollar esa oq matodan to‘qilgan liboslarni kiyishni ma’qul ko‘rishgan. Ularning milliy liboslari sifatida qadimdan to hozirgi kungacha saqlanib kelgan *jegde* va *kiymeshek* larni kiyish o‘z davrida ham urf bo‘lgan.

Jegde – ayol-qizlarning qadimgi davrda ipakdan tikilgan va boshiga yopinchiq kabi o‘rab kiyib yuradigan yengli kiyimidir. *Jegdesin qıya jamılǵan, Ishi attay qımılǵan, Birpara kórgen jigitler, Hátte jatıp saǵınǵan* («Alpamıs») [6, 192]. Darhaqiqat, *jegde* ayollar egniga yopinchiq kabi o‘ralgan. O‘sha yopinchiq yelka qismiga emas, balki boshning tepasiga tashlangan. Uning uzun yenglari bo‘lgan, biroq ular qo‘lni kiritish uchun emas, aksincha, orqa tomondan kalta ip bilan bog‘lab qo‘yilgan. Odatda *jegde* uy tashqarisida kiyilgan bo‘lib, u o‘zbek paranjilari kabi ayollarning yuzini o‘zga nigohlardan himoya qilish vazifasini o‘tagan. *Jegde* ning uch asosiy turi mavjud bo‘lib, ular, asosan, yoshga qarab kiyilgan. Masalan, yosh, turmushga chiqqan ayollar yoki nikoh yoshidagi qizlar *jipek jegde*, onalar va o‘rta yoshdagi ayollar *aq jegde* va keksa yoshdagi ayollar *kempir jegde* kabi liboslarni kiyishgan.

Qızıl yoki *jipek jegde* – yuz foiz paxtadan ishlangan bo‘lib, XIX asrning oxirida paydo bo‘lgan va XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida tobora ommalashib borgan. Uning to‘qilishi o‘zbeklarning *alocha* matosiga o‘xshab ketadi. Faqat matoning rangi va unga tushirilgan oq, qora va qizil chiziqlari *alocha* dan farqlanadi. *Jipek jegde* ning yoqa qismiga, asosan, qizil, qora va yashil ranglardan iborat bo‘lgan kashtalar tushirilgan.

Aq jegde – ingichka paxta matosidan tayyorlangan bo‘lib, u dastlab qo‘lda tikilgan. Paxta ipining qattiq bo‘lishi va sarg‘ish kulrang tus olishi uchun uni avval jo‘xori yormasi bilan suvda qaynatishgan. Keyinchalik *aq jegde* oq paxta matosidan tayyorlangan bo‘lib, uning butun yuzasi, orqa va yenglari geometrik naqshlar bilan

bezatilgan. Agar o‘sha *aq jegde* da kashtado‘zlik bezaklari qanchalik murakkab bo‘lsa, bu uning egasi shunchalik yuqori maqomga sazovor ayol ekanligidan dalolat bergan. Shuning uchun ham *aq jegde* ni o‘ttiz yoshdan ellik yoshgacha bo‘lgan ayollar oq salla ustidan yopishgan.

Kempir jegde – boshqa *jegde* larga qaraganda oddiy bezaklarga ega bo‘lgan va faqat yoqa qismiga soddaroq kashta tushirilgan. Uning yuza qismi tekis bo‘lgan, ya’ni hech qanday kashta tushirilmagan, mato holaticha qoldirilgan.

Qoraqalpoq millatiga mansub *kiymeshek* – sochlar va tananing ustki qismini qoplaydigan, ammo yuzini ochiq qoldiradigan ayollarning bosh pardasi hisoblanadi. *Kiymeshek* so‘zma-so‘z tarjima qilinganda, *kichkina kiyim* degan ma’noni anglatib, «*ximar*» so‘zidan kelib chiqqan. U har doim mos keluvchi salla bilan kiyilgan bo‘lib, old va orqa qismlari uchburchak shaklda bo‘lgan. *Kiymeshek* ning ikkita asosiy turi mavjud bo‘lgan: a) konservativ ravishda geometrik naqshlar bilan bezatilgan, oq matodan yoki paxta matosidan tikilgan oq rangli kiymeshek; b) zanjirli naqshlar bilan bezatilgan, maxsus fabrikalarda ishlab chiqarilgan qizil va qora jundan tikilgan kiymeshek. Bunday *kiymeshek* lar, asosan, gulli bo‘lib, zumorfik naqshlar bilan bezatilgan.

Qayd qilingan *kiymeshek* lardan birinchisi eng qadimiy turga mansubdir. U XIX asrning birinchi yarmidan e’tiboran urfga kirgan. Uni ellik yoshdan oltmish yoshgacha bo‘lgan keksa yoshli ayollar kiyishgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida u sekin urfdan chiqa boshlagan. Ikkinchi turi esa qoraqalpoq kelinlarining to‘y liboslaridan biri hisoblanib, XIX asrning oxirlarida urfda bo‘lgan va 1930-yilning o‘rtalariga qadar kiyilgan. O‘sha davrda qizlar o‘n besh yoshga kelib turmushga uzatilganligi bois ularga yoshligidan-oq, hunarmandchilik sohasi katta yoshdagi momolar tomonidan o‘rgatilgan. Qizlar turmush yoshiga yetguniga qadar o‘zlarining to‘y liboslarini o‘z qo‘llari bilan tikishgan. To‘y libosi beshta asosiy qismdan iborat bo‘lgan: *oltin kiymeshek, ko‘ylak, oltin jegde, oltin tuyme va zarli kovush.* Ushbu liboslarning dastlabki uchtasini qizning o‘zi tayyorlagan. Ularni tayyorlash jarayonida matoga turli xil naqshlar joylangan. Ana shu liboslarga razm solgan kishi qizlarning qay darajada chevar ekanligini baholay olgan. Umuman, «Kelinchaklar tomonidan kiyiladigan *kiymeshek* lar asosan to‘y libosi bo‘lib, ular uchburchaksimon shaklda tikilgan. Ularda rang-barang naqshlar jo bo‘lgan. *Kiymeshek* larning naqshlari har xil bo‘lib, besh naqshli va to‘qqiz naqshli kiymesheklar uchraydi» [7, 119]. *Kiymeshek* lar har kuni emas, balki to‘y va boshqa rasmiy yoki bayram tadbirlarida kiyilgan. Shunga bog‘liq holda ular avloddan-avlodga o‘tib, hozirgacha saqlanib kelgan.

Ma’lumotlarga qaraganda, *kiymeshek* XVI asrning birinchi yarmida Eron va Markaziy Osiyoda bir vaqtning o‘zida paydo bo‘lgan. Arabistonda ular «*ximar*» nomi bilan tanilgan. Bu nom Qur’onda ham keltirilgan. *Kiymeshek* ka o‘xshash kiyimlarni o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar va hatto, qirg‘izlar ham kiyishgan. Biroq ular qoraqalpoqlar kiyadigan *kiymeshek* dan butkul farq qilgan. Ularning farqlanishi islomning qabul qilinishi bilan bevosita aloqadordir.

Qoraqalpoq ayollari milliy madaniyatini o‘zida yorqin namoyon etuvchi bosh kiyimlardan biri *sáwkele* bo‘lib hisoblanadi. U qizlar kiygan bosh kiyimlarning eng qadimiysidir. Bu bosh kiyimning tarqalishi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. «Sáwkele bosh kiyimi juda qadimgi davrlarda, ya’ni eramizdan avvalgi X asrda Mesopotamiyada paydo bo‘lganligi ehtimol. Keyinchalik sak va massagetlar eliga kirib kelgan bo‘lishi kerak. Uning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, faqat qoraqalpoqlar orasida tarqalishi ko‘pchilik olimlar diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qilib keladi» [8, 120]. Qoraqalpoq *sáwkele* si marvarid va yarim qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan tantanavor bosh kiyimdir. Uni dastlab XIX asrdagi o‘ziga to‘q, boy xonadonning qizlari nikoh marosimlarida kiyishgan. *Sáwkele* uchta asosiy qismdan iborat bo‘lgan: a) *tumaq* deb nomlanuvchi uzun gumbazsimon shapka yoki dubulg‘a; b) marjon bilan o‘ralgan va bezatilgan peshona qoplamasi; v) turli xil yuqori va pastki qismlardan tashkil topgan quloqchinlar.

Bunday bosh kiyimning vazifasi turlicha bo‘lgan. Birinchi navbatda, u kelinchakning yuqori darajadagi maqomini mehmonlarga ko‘z-ko‘z qilishga xizmat qilgan. Ikkinchidan, nikoh paytida kelinning sochlarini yashirish vazifasini o‘tagan. Chunki qadimgi e’tiqodlardan kelib chiqqan holda, yovuz kuchlar ayolning ochiq turgan sochlaridan kirib, butun tanasiga va ongiga o‘rnashib oladi va hali dunyoga kelmagan chaqalog‘iga ham ziyon yetkazadi, deb o‘ylashgan. Shu sababli turmush qurmagan qizlar sochlarini ochiq qilib yurishgan. Ular oila qurayotgan paytidan boshlab yuqoridagi e’tiqodga amal qilib, sochlarini yashirishgan bo‘lsa ajab emas. Shuningdek, *sáwkele* qizlarni har xil ins-u jinslardan, yomon ko‘zlardan asraydi, degan tasavvur bo‘lgan. Shuning uchun *sáwkele* ga marjon va turkuaz kabi qizil va yarim qimmatbaho toshlar, munchoqlar qadalgan.

Azaldan O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida bo‘lgani singari o‘zbeklarda ham *do‘ppi, ro‘mol* asosiy bosh kiyim sifatida qadrlanib kelinadi. *Do‘ppi* o‘zining bichimi, shakli, naqshindorligi, ranglar uyg‘unligi, shu bilan birga zardo‘zlik san’atining qo‘llanilishi jihatidan urf-odatlariga ko‘ra har bir viloyat ahli kiyadigan bosh kiyimlardan tubdan farq qiladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, o‘zbeklar orasida *do‘ppi* va *ro‘mol* dan tashqari *salla* ga o‘xshash bosh kiyim ham bo‘lgan. Uni Samarqand tomonlarda *loki* deb nomlashgan. *Loki* bir nechta qismdan tashkil topgan bo‘lib, avval boshga zar iplar bilan zeb berib tikilgan *kultapo‘shak* (oddiy matodan qilingan turi ham mavjud) deb ataluvchi bosh kiyim kiyilgan. U old gardish, chuqur va to‘g‘ri burchakli uzun, ikki tomoni ochiq qopchiqdan iborat bo‘lgan. O‘sha qopchiqdan soch

o‘tkazilgan. *Kultapo‘shak* ning ustidan ro‘mol tashlangan. Ro‘mol ustidan zarhal naqshlar tushirilgan *peshonaband* (ayollarning peshona qismiga bog‘lanadigan mato yoki ro‘mol) bog‘lab qo‘yilgan. *Peshonaband* ustidan esa zar bilan to‘qilgan shoyi ro‘mol tashlangan. Ayol-qizlar boshlariga bitta yoki ikkita ro‘mol yopinishgan. Bunda bittasi bosh ustiga tashlanib, ikkinchisi uning ustidan *peshonaband* ko‘rinishida bog‘lab qo‘yilgan. Aytish joizki, ro‘mol bu – yuzga tutilgan mato: sochiq; ro‘mol (cha)] 1. Ayollar boshiga o‘raydigan, odatda, to‘rtburchak shaklidagi mato. *Doka ro‘mol. Shohi ro‘mol. Er-xotinning urishi, doka ro‘molning qurishi* (Maqol). 2. Umuman, shunday mato, parcha. *Uning [Toshmatning] boshi ..o‘ralgan, chap qo‘li ro‘mol bilan yelkasiga osib qo‘yilgan edi* (H.G‘ulom, Mash’al) [9, 694].

Qoraqalpoq erkaklari kiyimlari orasida turli xil chopon va po‘stinlar mavjud bo‘lib, ulardan eng mashhuri movut, ya’ni, tuya junidan qo‘lda to‘qilgan keng *shekpen* (chopon) lar bo‘lgan. Kambag‘alroq odamlar uni qo‘y junidan, shuningdek, paxta ipidan ham to‘qib kiyishgan [10, 116]. *Shekpen* va *po‘stin* larning o‘ziga xosligi shunda ko‘rinadiki, ularning orqa tomoniga kashta bilan uchburchak shakldagi tumor tushirilgan. Ushbu tumor inson orqa tomonidan hamisha zaif bo‘lishi g‘oyasini o‘zida mujassam etib, u erkaklarning *«belida o‘q to‘la o‘qdon olib yurish»* an’anasidan vujudga kelgan. *Shekpen* ning orqa tomoniga tushirilgan uchburchak tumor shakli – qadimgi ona ma’budi ramzi sifatida baholangan. Yana bir ma’lumot shuki, o‘tmishda qoraqalpoq erkaklari uchun *qayıs* (kamar) taqish majburiy sanalgan. Chunki kamar – insonning sha’ni va kuch-qudrati ramzi degan tasavvur paydo bo‘lgan. Kundalik turmushda kamar vazifasini oddiy ro‘mol bajargan bo‘lsa, bayramlarda shoyi belbog‘ bilan bellar bog‘langan. Iqtisodiy tomondan o‘ziga to‘q xonadon erkaklari mol terisidan tikilgan *qayıs* ni bog‘lashni odat tusiga aylantirishgan. Ushbu *qayıs* da yo‘lbarsning boshi va panjasi tasviri tushirilgan bo‘lib, u kumushdan ishlangan hamda har xil ranglar bilan bezatilgan. Bundan tashqari unga turli xil shokilalar qadalgan. Shuningdek, qoraqalpoqlarda mayin teridan tayyorlangan *qayıs* larni taqish ham urf bo‘lgan. Bu xildagi kamarlar asosan, ovchilar tomonidan foydalanilgan bo‘lib, ular piyola, o‘qdon, chaqmoqtosh va shu kabi boshqa ko‘chma hayot uchun zarur ash’yolar bilan to‘ldirilgan.

Xulosa va takliflar

Xullas, realiyalar bir tomondan, har qanday xalq milliy-madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan guvohlik berib, o‘sha millat mentaliteti darajasining ko‘rsatkichi hisoblansa, ikkinchi tomondan, uzoq yillik madaniyatlararo ta’sir natijasida o‘zgacha husn-u tarovat, ko‘rinish kasb eta oladigan darajadagi lingvokulturologik birliklar hisoblanadi. Realiyalarni madaniyatlararo hamkorlik asosida o‘rganish har ikki millat lisoni va madaniyati o‘rtasidagi farqlarni aniq ko‘rsatib berish barobarida muloqot jarayonidagi har xil to‘siqlarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Садиқов З. Қадимги туркий реалиялар таржимаси. Монография. –Наманган: «Vodiy Media», 2021.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Сов. Энциклопедия, 1969.
3. Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский язык. –Москва: Просвещение, 1952.
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод. –М.: Международные отношение, 1975.
5. Влахов С., Флорин С. Непереводимые в переводе. –Москва: Просвещение, 1986.
6. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 2-том. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1984.
7. Мамбетов К. Қарақалпақлардың этнографиялық тарийхы. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1995.
8. Ўша манба.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2007.
10. Мамбетов К. Кўрсатилган манба.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ikromova Laylo Baxrom qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

ZAMONAVIY O‘ZBEK FALSAFASIDAGI GNOSEOLOGIK TADQIQOTLARDA HAQIQAT FENOMENI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek falsafasi, undagi gnoseologik taqdiqotlar, haqiqat kategoriyasining mohiyati, postmodernizm davrida ushbu tushunchaning nisbiylik xususiyati atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqotchilar qarashlari asosida haqiqat fenomenining bugungi kundagi dolzarb masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘zbek falsafasi, gnoseologik tadqiqotlar, epistemologik yondashuvlar, haqiqat fenomeni, postmodernizm, nisbiylik, obyektivlik, subyektivlik*.

Икромова Лейла Бахром кызы
Магистрант Ферганского государственного университета

ФЕНОМЕН ИСТИНЫ В ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация: *В данной статье всесторонне рассматриваются современная узбекская философия, её гносеологические исследования, сущность категории истины и относительный характер этого понятия в эпоху постмодернизма. Также проанализированы актуальные вопросы феномена истины на основе взглядов различных исследователей.*

Ключевые слова: *современная узбекская философия, гносеологические исследования, эпистемологические подходы, феномен истины, постмодернизм, относительность, объективность, субъективность.*

Ikromova Laylo Bakhrom kizi
Master's student of Fergana State University

THE PHENOMENON OF TRUTH IN EPISTEMOLOGICAL RESEARCH OF CONTEMPORARY UZBEK PHILOSOPHY

Annotation: *This article provides a comprehensive overview of contemporary Uzbek philosophy, its epistemological research, the essence of the category of truth, and the relativity of this concept in the postmodern era. It also analyzes the current pressing issues of the phenomenon of truth based on the views of various researchers.*

Keywords: *contemporary Uzbek philosophy, epistemological research, epistemological approaches, phenomenon of truth, postmodernism, relativity, objectivity, subjectivity.*

Kirish.

Hozirgi kunda olib borilayotgan tadqiqot va izlanishlar zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga erishishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mamlakatimizning nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan rivojlanishiga ham zamin yarata oladi. Hurmatli Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 20-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan murojaatnomasida: “Mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir”, - deb ta’kidlaydilar [1]. Ushbu yuksalishlarga erishish, albatta, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarni o‘zlashtirishimizni taqozo etadi. Shuning uchun ham zamonaviy o‘zbek falsafasida gnoseologik, ya’ni bilish faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlarni o‘rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Postmodernizm davrida haqiqat fenomeni bilish faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan izlanishlarda bosh mavzu hisoblanadi. Chunki u gnoseologiyaning asosiy kategoriyasidir. Haqiqat borliqning bilishdagi ideal ifodasi, chunki haqiqat ongdan, bilayotgan subyektdan tashqarida va undan qat’iy nazar mavjuddir [2.206]. Zamonaviy o‘zbek falsafiy tafakkurida gnoseologik yondashuvlar orqali haqiqat fenomenining nazariy asoslarini, tarixiy rivojlanishini tahlil qilish tadqiqotimizning bosh maqsadidir. Shu bilan birga, bilish faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan bir qancha asarlar tadqiqotimiz

uchun zamin bo‘la oldi. Ushbu maqolamizni yozishimizda professor Nigina Shermuhamedovaning 2011-yilda nashr qilingan “Gnoseologiya – bilish nazariyasi” asaridan [3.463], Panjiyev Suhrobing 2023-yildagi “Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili” [4.51], 2023-yildagi Sherboboyev Muxriddinjonning “Karl Popper ijodida ilmiy bilish mantig‘i masalasi” [5.45] va 2023-yilda nashr qilingan Abdullayeva Xulkarning “Ilmiy bilish imkoniyatlarining falsafiy tahlili” [6.51] deb nomlangan avtoreferatlaridan keng foydalanildi.

Zamonaviy o‘zbek falsafasidagi gnoseologik tadqiqotlarda haqiqat mavzusini yoritar ekanmiz, tarixiy-falsafiy, mantiqiy-tahliliy, dialektik kabi ilmiy metodlardan foydalandik. Bu metodlar haqiqat tushunchasining shakllanishi, rivojlanishi hamda zamonaviy falsafiy tafakkurdagi o‘rnini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Natijalar va muhokama.

Qadimgi davrdanoq dolzarbligini yo‘qotmagan haqiqat fenomeni bugungi kunda ham olimlar bahsida bir qancha munozaralarga sabab bo‘lmoqda. N. Shermuhammedova ta’kidlashicha, haqiqat – bilish jarayonining yakuni va ayni vaqtda, omilidir [7.206]. Chunki, u bilimlarning obyektiv reallikka muvofiq kelishi. Haqiqat dinamik xususiyatga ega, ya’ni u o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham har bir nazariya rivojlantirilishi, ba’zi vaqtlarda esa oldingi nazariyalar o‘rnini yanada ham asosli dalil, gipotezalarga ega bo‘lgani egallashi lozim.

Har bir voqeaning, har bir narsaning o‘z haqiqati bo‘ladi. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining keskin rivojlanishi nafaqat inson mehnatini, balki haqiqatning o‘zi bilan bog‘liq fundamental jarayonlarni ham o‘zgartirdi. Ayniqsa, soxta haqiqatlar, masalan yolg‘on axborot, manipulyatsiya qilingan tasvirlar, deepfake videolar tufayli haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi chegara tobora noaniq bo‘lmoqda. Buning natijasida esa turli xil jinoyatlar kelib chiqmoqda.

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Suhrob Panjiyev “Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili” (2023) deb nomlangan dissertatsiya avtoreferatida shunday deydi: “Falsafada haqiqat masalasini ilmiy asosda hal qilishning yagona yo‘li bu inson bilimlari bilan obyektiv borliqdagi real predmet va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni xolisona tahlil qilishdan iboratdir” [8.11]. Darhaqiqat, haqiqatni anglashda obyektiv borliq va inson bilimi ishtirok etadi. Aslida, obyektiv borliq nima? Obyektiv borliq – bu insonning fikridan mustaqil, real tarzda mavjud bo‘lgan moddiy dunyo. Ular o‘rtasidagi munosabatni obyektiv yondashuv orqali, ya’ni xolis tahlil qilish natijasida haqiqatni topa olamiz.

Haqiqat fenomening uch konsepsiyasi mavjud:

- Korrespondent – nazariyaning tajribada olingan ma’lumotlarga muvofiq bo‘lishini talab qiluvchi konsepsiya.
- Kogerent – eksperimentga muvofiq bo‘lishi, unga zid kelmasligi, uning natijalarini bashorat qilish imkonini beradigan konsepsiya.
- Pragmatik – amaliyot mezoni to‘g‘ridan to‘g‘ri eskperiment tushunchasi bilan bog‘lanuvchi konsepsiya.

Zamonaviy falsafiy tafakkurda pragmatik yondashuv muhim o‘rin egallaydi, chunki hozirgi kunda natija va foyda asosiy maqsad hisoblanadi. S. Panjiyev haqiqatning pragmatik va kogerent gnoseologik manbalariga yaqinligini aytadi. Kogerent nazariya tarafdorlari subyektning faolligi ahamiyatini, hissiyotga tayangan tajribalarning fikrlashga bog‘liq bo‘lishida va subyekt oldida konseptuallashgan shaklda namoyon bo‘lishida deb bilishadi. Bunday faollik ratsionallik xarakterga ega. Pragmatizm o‘zining boshlang‘ich mohiyati bilan sahnadan chiqib bo‘lgan. Lekin bu, haqiqatning pragmatik konsepsiyasi faqat tarix mulki deb bo‘lmaydi [9. 19].

Tadqiqotchi Sh. Muxriddinjon Karl Popper ijodida ilmiy bilish mantig‘i ustida ishlar ekan, inson bilimlari hech qachon haqiqat darajasiga yetolmasligini aytadi. K.Popper o‘z g‘oyalari orqali haqiqatni qidirmaydi.(2023) Bir so‘z bilan aytganda uning g‘oyalari haqiqatning ham nisbiy ekanligi va hech bir nazariya mutlaq haqiqat deb olinishi to‘g‘ri emasligini ta’kidlashga asoslangan [10.19]. Bizga ma’lumki, bu qarashga agnostizm va skeptisizm falsafasi asos bo‘ladi.

“Sinergetik dunyoqarash paradigmasi taraqqiyotining falsafiy-epistemologik xususiyatlari” (2024) mavzusidagi M. Tajibayevning dissertatsiyasi avtoreferatida muallif haqiqatning statik jarayon emasligini ta’kidlaydi. O‘zagi sinergetika bo‘lgan zamonaviy ilm-fan nafaqat dunyoning obyektiv tavsifidan, balki proyektiv tavsifdan ham foydalanadi. Harakat loyihalari bu yerda alohida ko‘rsatib o‘tiladi, chunki sinergetik tushunishda bitta mutlaq haqiqat bo‘lmasligi mumkin [11.14].

Tadqiqotchi Majidova Oysafarning “Abu Ali ibn Sino falsafasida haqiqatga erishishning mantiqiy konsepsiyasi” (2020) mavzusidagi dissertatsiya avtoreferatida Ibn Sinoning haqiqat konsepsiyasidagi empirizm va ratsionalizm birligi yoritilib bergan. Muallif Ibn Sinoning haqiqatga oid qarashlari bilan Ibn Rushdning ikki haqiqat g‘oyasini qiyosiy tahlil qiladi. O. Majidova shunday xulosa qiladiki, Ibn Sino ijodidagi haqiqat fikrning voqelikka, obyektga bevosita muvofiqligini anglatadi. [12. 14]

Filolog tadqiqotchilarimizdan Muminova Nasiba “Haqiqat konseptining leksik, kognitiv tadqiqiga doir annotatsiya” (2024) deb nomlangan avtoreferatida haqiqatning voqelikning kishi ongida to‘g‘ri aks etishi, bilimlarimizning obyektiv reallikka mos kelishini

ta’kidlaydi. Haqiqat insonning borliqni bilishdagi asosiy maqsadlaridan biri. U asosan inson bilimlari bilan borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabat masalasini o‘z ichiga oladi. [13. 6]

Xulosa.

Zamonaviy o‘zbek falsafasida gnoseologik tadqiqotlar doirasida haqiqat fenomeniga bo‘lgan yondashuvlar tobora chuqurlashib, global falsafiy yo‘nalishlar ta’sirida shakllanmoqda. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan tarixiy-falsafiy, mantiqiy-tahliliy va dialektik metodlar haqiqatning mazmunini har tomonlama yoritish imkonini berdi. Ayniqsa, haqiqatning obyektiv, mutlaq va nisbiy shakllari, shuningdek, uning korrespondent, kogerent hamda pragmatik konsepsiyalari, bilish jarayonidagi subyekt va obyekt munosabatlari zamonaviy o‘zbek gnoseologiyasining o‘ziga xos jihatlarini ochib berdi. O‘zbekistonlik mutafakkirlar mamlakatimizda diniy tafakkurning mavjudligi sababli haqiqatni nafaqat nazariy tushuncha sifatida, balki ijtimoiy ong, axloqiy me’yor va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilishmoqda. Bu esa haqiqat fenomenining o‘zbek falsafasida mustaqil, asosli va teran ilmiy izlanish obyekti sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, 2023-yil 20-dekabr. https://yuz.uz
2. Shermuhammedova N. A. Gnoseologioya- bilish nazariyasi. - Toshkent, 2011. – 463 b.
3. Shermuhammedova N. A. Gnoseologioya- bilish nazariyasi. - Toshkent, 2011. – 463 b.
4. Panjiyev S. Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 51b.
5. Sherboboyev M. Karl Popper ijodida ilmiy bilish mantig‘i masalasi. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 45 b.
6. Abdullayeva X. Ilmiy bilish imkoniyatlarining falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 51 b.
7. Shermuhammedova N. A. Gnoseologioya- bilish nazariyasi. - Toshkent, 2011. – 463 b.
8. Panjiyev S. Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 51b.
9. Tajibayev M. Sinergetik dunyoqarash paradigmasi taraqqiyotining falsafiy-epistemologik xususiyatlari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 54 b.
10. Sherboboyev M. Karl Popper ijodida ilmiy bilish mantig‘i masalasi. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 45 b.
11. Tajibayev. M. Sinergetik dunyoqarash paradigmasi taraqqiyotining falsafiy-epistemologik xususiyatlari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 14 b.
12. Majidova O. Abu Ali ibn Sino falsafasida haqiqatga erishishning mantiqiy konsepsiyasi. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 44 b.
13. Muminova N. Haqiqat konseptining leksik, kognitiv tadqiqiga doir annotatsiya\\ Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – № 8. Toshkent, 2024. http://interscience.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Mamayusupov Umidjon Kurbanovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti v.b.dotsenti. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: mamayusupovumidjon76@gmail.com

QONUN VA UNING BASHORAT SHAKLLANISHIDAGI USTUVORLIGI

Annotatsiya: *Maqolada tabiat hodisalari va ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash, ularning rivojlanish qonunlarini bilish bashoratning birinchi asosiy sharti ekanligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *qonun, qonuniyat, bashorat, ijtimoiy bashorat, jamiyat.*

Мамаюсапов Умид Курбанович
Доцент Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
Доктор философии в области философских наук (PhD)

ЗАКОН И ЕГО ПРЕИМУЩЕСТВО В ФОРМИРОВАНИИ ПРОГНОЗА

Аннотация: *В статье уточняется о связи между событиями в природе и социальными прцессами речь идет о том, как заранее предвидеть законы их развития вот и основное условие.*

Ключевые слова: *закон, закономерность, предвидение, социальное предвидение, общество.*

Mamayusupov Umidjon Kurbanovich
Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Kwarizmi
Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)

THE LAW AND ITS ADVANTAGE IN FORMING THE FORECAST.

Abstract: *The conection between wents in nature and their progressing prophesies is defined in this article. The matter is how to see the laws of their development before hand. Here is the main condition.*

Key words: *law, conformity with a law, prevision, social prevision, society.*

Kirish

Ob'yektiv olam taraqqiyoti uzoq va zaruriy evolyusiya natijasidir. Bu esa ob'yektiv olam taraqqiyotining muayyan qonuniyatini ham qamrab oladi va uni yuksak darajada belgilaydi. Akademik Jondor Tulenov ta'kidlaganidek "Dunyo moddiy bir butunlikdir, undagi hilma hil, rang barang narsa va hodisalar o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'ladi. Harakatdagi materiyani tekshirayotganimizda dastavval ko'zimizga tashlanadigan narsa —ayrim jismlarning ayrim harakatlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlari, ularning bir birlarini o'zaro taqozo qilib turishlaridir"[1] Ob'yektiv olamning mohiyatini bilishga intilish insondagi muayyan bilim, tajriba va oldindan ko'ra olish qobiliyatini shakllantirdi.

Adabiyotlar tahlili

Fan tarixida ilmiy muammolarning nazariy va amaliy jihatdan hal qilinishi voqelik qonunlarini kashf etilishiga olib keldi. Fanning rivojlanish jarayonida esa ekstensiv va inqilobiy davrlar farqlanadi, ular fan strukturasi, bilish tamoyillari, kategoriyalari, metodlari va uni tashkil etish shakllari o'zgarishiga olib keladi.[2] Bu esa o'z navbatida fan taraqqiyotini jadallashtirgan va ilmiy texnika taraqqiyotiga yo'l ochdi. Tabiat va jamiyatning har qanday qonuni ma'lum bir shart-sharoitlarda namoyon bo'lar ekan, u ilmiy bilish jarayonida va amaliy faoliyatda muhim, zaruriy, umumiy va nisbiy barqaror aloqalar ma'lum bir natijalarga olib kelishi mumkinligini yaxshi bilishga imkon tug'diradi. [3]

Qonun muayyan bir natijalarni tug'dirib, voqealar rivojlanishining tasnifi va yo'nalishini belgilab berar ekan, bu narsa, ilmiy va amaliy faoliyatda ob'yektiv qonunlar asosida harakat qiladigan muhim, zaruriy, umumiy va nisbiy barqaror munosabatlarni ko'rsatibgina qolmay, balki kelajakda ularning rivojlanish mayllarini

Jamiyatda oila qadriyatlarining shakllanishi va evolyutsiyasi tasodifiy emas. Bu jarayon ijtimoiy ong, madaniy meros, g‘oyaviy muhit va institutsional boshqaruv orqali amalga oshadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lgan murakkab ijtimoiy makonda, ular orasidagi uyg‘unlikni ta’minlash ongli va tizimli siyosiy-ijtimoiy faoliyatni talab etadi. Bu jarayon qadriyatlar muvozanatini ta’minlovchi aksiyologik boshqaruv tizimi sifatida qaraladi. Bu tizimda davlat siyosati va ijtimoiy institutlar o‘zaro uyg‘unlikda harakat qilishi lozim. Davlat siyosati shunchaki normativ-huquqiy faoliyat emas, u axloqiy-ma’naviy tamoyillar asosida shakllangan bo‘lishi kerak. Ya’ni, siyosat jamiyatda qanday qadriyatlar ustuvor bo‘lishi lozimligini belgilovchi g‘oyaviy kompas bo‘lishi lozim. Bu aksiologik strategiyalash bo‘lib, u orqali: milliy qadriyatlar (ota-onaga hurmat, oilaviy sadoqat, mehr-oqibat) saqlab qolinadi; zamonaviy qadriyatlar (tenglik, erkinlik, shaxsiy mas’uliyat) tan olinadi; har ikkisi o‘rtasidagi muvozanat g‘oyaviy jihatdan asoslanadi. Davlat siyosati faqat umumiy tamoyillar bilan cheklanmasdan, mahalliy, madaniy va yoshga doir xususiyatlarga mos differensial yondashuvga ega bo‘lishi zarur. Misol uchun: yoshlarga zamonaviy qadriyatlar bilan tanishtiruvchi media loyihalar; keksalarga an’anaviy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi dasturlar; oilalarga ikkisini uyg‘unlashtiruvchi psixologik va pedagogik ko‘mak. Bu yondashuv falsafiy jihatdan holistik deb ataladi, ya’ni, butun jamiyatning barcha qatlamlariga qamrovli yondashuv. Davlat siyosatida buyruqbozlik emas, balki axborot, tarbiya va rag‘batlantirish uslublari ustun bo‘lishi kerak. Bu etika orqali boshqaruv modeli hisoblanadi.

Ijtimoiy institutlar (mahalla, maktab, OAV, diniy tashkilotlar, NNT) faqat targ‘ibot emas, balki amaliy qadriyatlar muhitini shakllantiruvchi subyekt bo‘lishi lozim. Ular aksiologik makonlarni (qadriyatlar tarqaladigan ijtimoiy maydonlarni) yaratuvchilar sifatida qaraladi. Institutlar bir tomonlama ma’lumot bermasdan, balki turli qadriyatlar o‘rtasida muloqot madaniyatini shakllantiruvchi muhit yaratishi kerak. Misol: mahallalarda avlodlar uchrashuvlari (keksalar va yoshlar qadriyatlar haqida suhbatlashadi), maktablarda qadriyatlar bo‘yicha falsafiy-fikriy musobaqalar, OAVda “an’ana va zamon” formatidagi ijtimoiy tok-shoular. Bunday yondashuv interaktiv aksiologik rivojlanish deb ataladi. “Oila qadriyatlari shakllanishida ijtimoiy muloqot asosiy vositaga aylanadi” [10]. Har bir institut alohida emas, o‘zaro bog‘liq va hamkorlikdagi tizim sifatida ishlashi kerak. Ya’ni: ta’lim oilaga bilim va ongni beradi; mahalla oilada urf-odatlar va axloqiy mezonlarni saqlaydi; OAV oilaviy qadriyatlarni namoyon qiladi; diniy institutlar oilaning ma’naviy asoslarni mustahkamlaydi; NNTlar oilaviy qadraiyatlarni mustahkamlash uchun muqobil tashabbuslarni ilgari suradi. Uni aksiologik sinergiya (barcha kuchlarning umumiy qadriyatlar maqsadida birlashuvi) deb talqin qilinadi. An’anaviy va zamonaviy oila qadriyatlarini uyg‘unlashtirish bu ijtimoiy muvozanatni saqlash va yangi ijtimoiy ongni shakllantirish jarayonidir. Buning uchun: davlat siyosati oilaviy qadriyatlarni belgilovchi, yo‘naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi; ijtimoiy institutlar ularni singdiruvchi, shakllantiruvchi va faol hayotga tadbiq etuvchi; shaxs esa ushbu qadriyatlarni idrok etuvchi va hayotga tatbiq etuvchi faol ishtirokchiga aylanishi lozim. Bu uyg‘unlik orqali jamiyat nafaqat an’analarni saqlab qoladi, balki ularga zamonaviy mazmun bag‘ishlab, o‘z ma’naviy kelajagini quradi.

Oilaviy tarbiya jamiyatning o‘zini-o‘zi davom ettirish, qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish va inson ongi va axloqini shakllantirishdagi eng muhim bosqichidir. Har qanday davrda oila tarbiyasi mavjud ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar va shaxsiy erkinlik o‘rtasidagi murakkab muvozanatni saqlashi kerak bo‘ladi. Zamonaviy davrda esa bu vazifa yanada murakkablashdi. “Zamonaviy oila o‘zbek an’analariga tayanib, global qarashlarga ochiq bo‘lishi kerak” [9]. Bugungi kunda globallashuv, texnologik taraqqiyot, shaxs erkinligi va gender tengligi kabi omillar oilaviy munosabatlarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, avvalgi avlodlardan meros bo‘lib kelayotgan an’anaviy tarbiya uslublari ko‘plab holatlarda zamonaviy sharoitga mos kelmay qolmoqda. Shunday sharoitda tarbiya uslublarini yangilash bu faqat metodik ehtiyoj emas, balki falsafiy zaruratga aylandi.

Ushbu mavzuni o‘rganish asosida olingan xulosalarni mantiqiy ketma-ketlikda aniq va tushunarli qilib quyidagicha bayon qilamiz:

An’anaviy va zamonaviy oila qadriyatlarini uyg‘unlashtirish jarayoni murakkab dialektik xarakterga ega bo‘lib, bu holat jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlari bilan tarixiy meros o‘rtasida muvozanat topishni talab etadi. Birinchidan, **an’anaviy qadriyatlar ijtimoiy barqarorlik va axloqiy mezonlarni saqlab qolish uchun zarur asos bo‘lib xizmat qiladi.** Ular oilaviy rishtalarni

mustahkamlab, o‘zaro hurmat, kattaga ehtirom, kichikka g‘amxo‘rlik kabi qadriyatlarni ilgari suradi.

Ikkinchidan, **zamonaviy qadriyatlar shaxs erkinligi, gender tengligi va texnologik taraqqiyotga moslashuvni targ‘ib etadi.** Bu esa oila ichidagi rollarni qayta ko‘rib chiqish, farzand tarbiyasida ochiqlik va ishonchga asoslangan yondashuvlarni kiritishga imkon beradi.

Uchinchidan, **an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni uyg‘unlashtirish dolzarb vazifadir.** Bu jarayonda dialektik yondashuv — ziddiyatlardan uyg‘unlik yaratish, eski va yangini maqsadli integratsiya qilish yo‘li muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, **oila institutining barqarorligi bu qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq.** Bir tomonlama modernizatsiya yoki qotib qolgan an’anaparastlik jamiyatda ijtimoiy inqirozga olib keladi.

Va nihoyat, beshinchidan, **bu uyg‘unlik jarayonida ma’naviyat, ta’lim va ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyosdir.** Ular orqali yosh avlodga qadriyatlar uyg‘unligining afzalliklari aniq va tushunarli tarzda yetkaziladi.

Yuqorida qayd etilgan xulosalar asosida quyidagi takliflarni bildirib o‘tamiz:

1. Kelajakda oilaviy tarbiyada an’anaviy qadriyatlarning asosi saqlanib, zamonaviy shaxs erkinligi, gender tengligi, axborot madaniyati kabi jihatlar bilan uyg‘unlashtirilgan model ishlab chiqilishi lozim. Bu model yoshlarning zamonga mos, lekin ildizli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

2. Yoshlar va kattalar o‘rtasida qadriyatlar to‘g‘risida ochiq, hurmatli va zamonaviy kommunikatsiyaga asoslangan muloqot yo‘lga qo‘yilishi kerak. Bu orqali qarama-qarshiliklar emas, o‘zaro tushunish va tajriba almashinuvi kuchayadi.

3. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida oila qadriyatlari, axloqiy mezonlar, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar falsafasi asosida integratsiyalashgan o‘quv dasturlari joriy etilishi lozim. Bu esa yoshlarda qadriyatlar haqida ongli fikrlashni rivojlantiradi.

4. Televizion va raqamli kontentlar orqali oilaviy qadriyatlar targ‘ibotiga jiddiy e’tibor qaratilishi zarur. Media tarbiyaviy vosita sifatida har ikki qadriyat tizimi o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajara oladi.

5. Oila institutini mustahkamlovchi, zamonaviy talablarni inobatga olgan holda an’analarni tiklaydigan va rivojlantiradigan davlat dasturlari, qonuniy asoslar va ijtimoiy loyihalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jamiyatdagi barqarorlik va ruhiy sog‘lomlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I. A. Karimov. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat. 2008. 42-b.
2. B. G‘afurov. Oila va qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU. 2015. 38-b.
3. E. Fromm. Sevish san’ati. – Toshkent: Sharq. 2003. 15-b.
4. N. G‘aybullayev. Zamonaviy oila: qadriyatlar va muammolar. – Toshkent: Ijtimoiy fikr. 2020. 62-b.
5. A. Jalolov. Falsafa. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2004. 82-b.
6. Z. Bauman. Suyuq zamonlar: zamonaviylik va barqarorlik muammosi. – London: Polity Press. 2005. 56-b.
7. R. Rahmonov. Milliy oila modeli va ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: Tafakkur. 2017. 78-b.
8. E. Durkgeym. Elementary Forms of Religious Life. – New York: Free Press. 1912. 69-b.
9. A. Saidov. Oila instituti va zamonaviy islohotlar. – Toshkent: Adolat. 2010. 25-b.
10. J. Habermas. Muloqot etikasi va ijtimoiy ong. – Cambridge: MIT Press. 1992. 58-b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Najmiddinov Zafar Xoshimjonovich
University of Business and Science dotsenti
znajmiddinov@yandex.ru

DABUSIYA SHAHRIDAGI ILMIY MUHIT HAQIDA DASTLABKI MA'LUMOTLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'rta Osiyo shaharshunosligida kam o'rganilgan shaharlardan biri Dabusiya shahri haqida so'z boradi. Ushbu shaharda hanafiy va shofiiy mazhabiga mansub ko'plab faqihlar yashagan. Tadqiqot uchun o'rta asrga mansub arab tilidagi manbalar ilmiy muomalaga tortilgan. Dabusiya o'rta asrlarning so'ngiga borib o'z ahamiyatini yo'qotgani ma'lum.*

Kalit so'zlar: *hadis ilmi, shaharshunoslik, hanafiy mazhabi, faqihlar.*

Нажмиддинов Зафар Хошимжонович
Доцент Университй оф Бусинесс анд Ссиенсе

ПРЕДВАРИТЕЛНАЯ ИНФОРМАТСИЯ О НАУЧНОЙ СРЕДЕ В ГОРОДЕ ДАБУСИЯ

Аннотатсия: *В стате рассматривается город Дабусия, один из наименее изученных городов в урбанистике Сентралной Азии. В этом городе проживало много юристов, принадлежащих к школам ханафизма и шафиизма. В ходе исследования были подвергнуты научному изучению средневековые арабские источники. Известно, что Дабусия утратила свое значение к консу Средних веков.*

Ключевые слова: *хадисоведение, урбанистика, ханафитский мазхаб, правоведы.*

Zafar Najmiddinov
Docent, University of Business and Science

PRELIMINARY INFORMATION ABOUT THE SCIENTIFIC ENVIRONMENT IN THE CITY OF DABUSIA

Abstract: *This article discusses the city of Dabusiya, one of the least studied cities in Central Asian urban studies. Many jurists of the Hanafi and Shafi'i schools lived in this city. Medieval Arabic sources were used for the study. It is known that Dabusiya lost its importance by the end of the Middle Ages.*

Key words: *science of hadith, urban studies, Hanafi school of lawt, jurists.*

Kirish.

Abu Zayd ad-Dabusiy yashagan davr — IV/X asrning oxirgi choragi va V/XI asrning birinchi yarmi 'Abbosiylar hukmronligining (132-656/750-1258) o'rtasiga to'g'ri keladi. Manbalarda Abu Zayd ad-Dabusiy tug'ilgan shahar "Dabusa", "Dabus", "Dobusiya", "Dabbusiya" deb nomlangan. Dabusiya "Samarqand va Buxoro o'rtasidagi katta shahar, shaharcha yoki qishloq", deb tasvirlanadi.

Adabiyolar tahlili:

"Dabusiya" nomli maqola muallifi K. E. Bosvort shahar tarixida bo'lib o'tgan janglarga e'tibor qaratadi. Muallifga ko'ra, Chingizxon qo'shinlari 617/1220 yil boshida Dabusiya va Saripulda qattiq qarshilikka uchraganlar. X/XVI asr boshlarida esa Bobur qo'shini Shayboniyxon boshchilik qilgan lashkarga qarshi Dabusiyada jang olib borgan.

Tadqiqotchi V. Bartoldning fikricha, "Movarounnahrning markaziy shaharlari bo'lgan Buxoro va Samarqand o'rtasidagi "shoh yo'li"da (*shohroh*) uchta asosiy shahar bo'lib, ular — Dabusiya, Karminiya va Tavovisdir. Dabusiya so'zi Ziyo ad-din qishlog'idan biroz sharqda joylashgan Qala-i Dabus xarobalari ismida saqlanib qolgan; qadimgi Dabusiya hududiga, ehtimol, xarobalarga yonma-yon joylashgan, mahalliy hukmdor qarorgohi bo'lgan Qala-i Ziyo ad-din qo'rg'oni ham kirgan"[1].

Dabusiya shahri va qal'asi haqida tarixiy manbalarda ko'pgina ma'lumotlar bor. Xuroson voliysi al-Ashras ibn Abdulloh as-Sulamiy (727-729) davrida Movarounnahr aholisi arablarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Buning natijasida Samarqand va Dabusiyadan boshqa barcha shaharlar mahalliy aholi qo'liga o'tdi.

Oxirgi Somoniy Abu Ibrohim Ismoil ibn Nuh al-Muntasir 1004 yili yana Qoraxoniylarga qarshi hujum qilib, Movarounnahr hududiga kirgan. Al-Muntasir Nur (hozirgi Nurota) shahrida joylashadi va Dabusiyadagi

dushman qo‘shinlariga hujum qiladi. Bunda al-Muntasirning qo‘li baland keladi, lekin keyinchalik yana mag‘lubiyatga uchrab, 1005 yil o‘ldiriladi[2].

1032 yili Mas’ud al-G‘aznaviyning Xorazmdagi voliysi Oltuntosh Buxoroga hujum qiladi. Bu paytda shahar hokimi Ali-tegin himoyani askarlarga topshirib, o‘zi Dabusiyaga chekingan. Mas’ud qo‘shinlari Buxoro shahri va qo‘rg‘onini qo‘lga kiritishadi. Dabusiya yaqinida asosiy jangda esa ular Ali-tegin qo‘shinidan engilishadi va Xorazmga qaytib ketishadi.

Dabusiyada 425/1033-34 yili Ali ibn Husayn nomiga tangalar zarb qilingan. Shams ad-din al-Maqdisiy (v. 388/988) "Ahsan at-taqosim" asarida Dabusiyada to‘qilgan gazlamalarning Bag‘dodga olib borib sotilishi haqida yozgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Islom tarixi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Movarounnahr shaharlaridan Buxoro va Samarqand muhitiga e’tibor qaratish an’anasi kuchlidir. Mintaqaning kichikroq shaharlaridan bo‘lgan Usrushana, O‘zgan va Farg‘ona, shuningdek Dabusiya ilmiy muhiti bo‘yicha deyarli tadqiqotlar olib borilmagan.

Tahlillar va natijalar

Abu Sa’d Abd al-Karim as-Sam’oniy (v. 562/1166-67) ad-Dabusiy nisbali to‘qqiz nafar shaxs haqida ma’lumot bergan. Muallif bu ma’lumotlarni yozishda Abu Hafs an-Nasafiyning (v. 537/1142) "al-Qand" asariga asoslangan bo‘lishi kerak, chunki "al-Qand"dagi ad-Dabusiylarning bir nechtasi "al-Ansob"da aynan qaytirilgan. Ikki asardagi ma’lumotlarni qiyoslash natijasida "ad-Dabusiy"larning asosan hadisshunoslik bilan shug‘ullanganliklari ma’lum bo‘ldi.

"Al-Qand"da Abu-l-Abbos Ahmad ibn Muhammad ad-Dabusiy rivoyatidan Dabusiya tarixida bo‘lib o‘tgan o‘lat haqida ma’lumot olish mumkin. Ta’kidlash lozimki, bu muhim ma’lumot faqat "al-Qand" orqali etib kelgan.

Movarounnahrda islom tarqala boshlagan yillarda Dabusiya shahri va qo‘rg‘oni arablar tomonidan harbiy maqsadlarda qo‘llanilgan. Abu Humayd Muhammad ibn Ibrohim al-Marvaziy al-Mohiyoniy ad-Dabusiy asli marvlik bo‘lgan. U Ummaviylar davrida Dabusiya qal’asida turib jang qilgani uchun ad-Dabusiy nisbasini olgan[3].

Dabusiyaliklar tarkibida arablar ko‘p bo‘lgan. Masalan, Dabusiyada yashab, vafot etgan Abu-l-G‘ushaym Zulaym ibn Hutayt al-Azdiy ad-Dabusiy al-Jahzamiyning (v. 252/866 yil) kelib chiqishi arablarning Azd qabilasiga mansub edi. Abu Usmon Sa’id ibn al-Ahvas al-Azdiy ad-Dabusiy esa uning qabiladoshi bo‘lgan. Abu Abdulloh Salmon ibn al-Ahvas ad-Dabusiy esa Abu Usmon Sa’id ibn al-Ahvas al-Azdiy ad-Dabusiyning ukasidir.

"Ad-Dabusiy" nisbasi "Dabusa" so‘ziga nisbatan ham qo‘llangan. Masalan, Ahmad ibn Amr ibn Dabusa an-Nasafiy ad-Dabusiy (v. 385/995) asli dabusiyalik bo‘lmagan. Uning bobosi Dabusa 93/712 yili Qutayba ibn Muslim davrida islomni qabul qilgani sababli Ahmad bu nisbani olgan[4].

O‘sha davrda Movarounnahrda keng rivojlangan an’analarga qarama-qarshi ravishda, Dabusiyada hadisshunoslik rivojlangan edi. Shaharda bir nechta taniqli muhaddislar bo‘lib, ular ham o‘z navbatida shogirdlar tarbiyalab etishtirganlar. Manbalardagi ma’lumotlar "Dabusiyada o‘z ilmiy an’analariga ega hadis maktabi bo‘lgan", degan xulosa chiqarishga zamin yaratmoqda. Abu Amr Usmon ibn al-Husayn ad-Dabusiy va Abu-l-Fath Maymun ibn Muhammad ad-Dabusiy (v. 535/1141) Dabusiya hadis maktabining vakillaridan edilar. Abu-l-Fath Maymun ad-Dabusiy Marvda yashagan bo‘lib, uning o‘g‘li Abu-l-Qosim Mahmud ibn Maymun ad-Dabusiy (v. 539/1145, Marv) ham Dabusiya hadis maktabi ta’sirida ulg‘aygan, deyish mumkin.

Usmon ibn Humayd ad-Dabusiy, Abu Hanifaning bevosita shogirdi bo‘lib, "Ikkinchi Abu Hanifa" laqabini olgan [5]. Usmonning o‘g‘li Abdulloh ibn Abi Hanifa ad-Dabusiy bo‘lib, uni Abu Humayd al-Bohiliy yoki Abdulloh ibn Usmon ibn Harb deb atashgan.

"Al-Qand"da ismlari kelgan Abu Is’hoq Burhon ibn Sulaymon al-Jahzamiy ad-Dabusiy, Abu Sa’id Usmon ibn al-Ahnaf ad-Dabusiy, Abu Solih Xalaf ibn al-Husayn (al-Hasan) ad-Dabusiy al-Bursoniy, Solih ibn Ahmad ad-Dabusiy, Abu Muhammad ‘Abdulloh ibn al-Ahvas ad-Dabusiy, Abdulloh ibn al-Hasan ad-Dabusiy, al-Abbos ibn Sufyon ad-Dabusiy va Abu Nu’aym al-Fazl ibn Ibrohim al-Bohiliy ad-Dabusiy barchasi muhaddislardir.

Ad-Dabusiy nisbali faqihlar ham bo‘lgan. Masalan, shofiiy olim Abu-l-Qosim Ali ad-Dabusiy (v. 482/1089) Dabusiyada tug‘ilgan, Bag‘dodga borib "Nizomiya" madrasasida dars bergan va o‘sha erda vafot etgan.

Manbalarda hanafiy faqih va ilohiyotshunos Abu Nasr Mansur ibn Ja’far al-Muhallabiy ad-Dabusiy (v. 352/963-64) haqida kam ma’lumot uchraydi. U Samarqand ilohiyot maktabi vakili bo‘lib, moturidiylik tarixida muhim o‘rin tutgan.

Xulosalar.

Yuqorida bayon etilgan ma’lumotlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Abu Zayd ad-Dabusiy yashagan davr siyosiy hayotida Abbosiylar xalifaligining ta’siri kuchsizlangan edi;

- xalifalikda yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklarga qaramay ilm-fan rivojlanib borgan;

- ad-Dabusiy yashagan davrda shofiiylikka nisbatan hanafiylikka e’tibor kuchaygan edi;

- tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, V/XI asr o‘rtasigacha Movarounnahrda yozilgan fiqhiy asarlar ichida ettitasi bugungacha etib kelgan bo‘lib, ulardan uchtasi nashr qilingan;

- V/XI asr o‘rtasigacha Movarounnahrda yozilgan ilohiyotga oid asarlardan sakkiztasi bugungacha etib kelgan bo‘lib, ulardan oltitasi nashr qilingan;

- "Kashf al-osor" va "Ravzat al-ulamo‘" asarlari Movarounnahrda fiqh tarixini o‘rganish bo‘yicha muhim manbalar hisoblanadi;

- IV/X asrda bir necha shofiiy ulamolarning Movarounnahr shaharlarida faoliyat olib borgani, ulardan to‘rt nafari esa markaziy shaharlarda qozilik vazifasini bajargani o‘sha davrda shofiiylik mazhabining rivojlanganini ko‘rsatadi;

- Dabusiya shahri va qal’asi, asosan harbiy maqsadlarda foydalanilgan bo‘lib, mintaqada islom tarqalishining ilk davridan boshlab, u arablar tomonidan boshqarilgan;

- Dabusiyada arablar soni ko‘p bo‘lgan. Odatda "hadis tarafdorlari" bo‘lgan arablar Dabusiyani hadisshunoslik markaziga aylantirganlar;

- hadisshunoslik bilan bir qatorda Dabusiyada shofiiylik rivojlangan. Shofiiy ulamo Abu-l-Qosim Ali ad-Dabusiy fiqhni Dabusiyada o‘rgangan;

- shofiiy fiqhi ta’siri sababli Dabusiyada ash’ariylik ilohiyoti katta nufuzga ega bo‘lgan. Bu muhit sababli Abu Nasr Mansur ad-Dabusiy moturidiylik himoyachisiga aylangan;

- Dabusiya qo‘rg‘oni hozirgi Navoiy va Samarqand viloyatlari o‘rtasidagi Ziyoviddin qal’asiga yaqin joyda joylashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.V. V. Bartold. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya / [vstupitelnaya statya I. Petrushevskogo]. - 1963. - 760 s.

2.Abu Hafs an-Nasafiy. Al-Qand fi zikr ulamo Samarqand. Nazar Muhammad al-Foryobiy tahriri ostida. Riyoz: Maktabat al-kavsar, 1412/1991.

3.Abd al-Karim as-Sam’oniy. Al-Ansob. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1998.

4.Abu Hafs an-Nasafiy. Al-Qand fi zikr ulamo Samarqand. Nazar Muhammad al-Foryobiy tahriri ostida. Riyoz: Maktabat al-kavsar, 1412/1991.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdullayeva Umidaxon G‘ulomidinovna
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
ORCID: 0000-0002-6115-2281

UO‘K: 378.014.15

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistondagi ekologik muammolar va ularning bartaraf etish choralari xaqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kimyo, ekologiya, biosfera, sog‘lom turmush tarzi, ekologik muloqot, pedagogik jarayon, kasbiy-pedagogik faoliyat, integrativ, korporativ, milliy, tarixiy, texnologik, kompetensiya.*

Абдуллаева Умидаксон Гуломидиновна
Научный сотрудник Ферганского государственного университета

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ УЗБЕКИСТАНА И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ.

Аннотация: *В данной статье проанализированы экологические проблемы Узбекистана и меры по их устранению.*

Ключевые слова: *химия, экология, биосфера, здоровый образ жизни, экологическая коммуникация, педагогический процесс, профессионально-педагогическая деятельность, интегративная, корпоративная, национальная, историческая, технологическая, компетентность.*

Abdullaeva Umidakson Gulomidinovna
Researcher at Fergana State University

ENVIRONMENTAL PROBLEMS OF UZBEKISTAN AND WAYS TO ADDRESS THEM

Abstract: *This article analyzes the environmental problems of Uzbekistan and the measures taken to address them.*

Key words: *chemistry, ecology, biosphere, healthy lifestyle, ecological communication, pedagogical process, professional-pedagogical activity, integrative, corporate, national, historical, technological, competence.*

Kirish.

O‘zbekistonning ekologik holati so‘nggi yillarda jiddiy e'tibor talab qilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, havoning ifloslanishi kabi muammolar mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli, ekologik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur. Buning uchun esa, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari, ularning atrof-muhitni asrab-avaylash, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga doir bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, flora va faunani asrash va boyitishga qaratilan pozisiyasini yuzaga chiqarish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Respublikamiz ekologiyasini muhofaza qilish va uni yaxshilash uchun, ekologik tanazzulning oldini olish, yurtimizning qadimda ma`lum bo‘lgan ekologik holatini qayta tiklashimiz, tarixni yaxshilab o‘rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.

Hozirda inson faoliyati ta`sirida biosferaning o‘zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ta’siri yoki yomon munosabatda bo‘lishi natijasida XX asr o‘rtalarida ekologik muammolar ko‘payishiga olib ketdi va bu muammolar avj olib ketdi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Chunki yer yuzidagi o‘rmonlar qisqarishi, shu bilan birga daraxt va butalarning kesib tashlanishi, yerlar dehqonchilik qilish maqsadida o‘zlashtirildi, dorilar bilan o‘g‘itlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiatga zarar yetkazildi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o‘rmon yoginlari, chang bo‘ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy o‘zgarib borishiga va muvozanatining buzilishiga olib keldi.

Hozirda Respublikamiz yirik sanoat va agrar mintaqa bo‘lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko‘zda tutulgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy ta`sir ko‘rsatadi. Respublikada keskin bo‘lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan tumanlarda ya`ni Angren-Olmaliq Chirchiqlarda, Farg‘ona-Marg‘ilonda, Navoiy va boshqa tumanlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu tumanlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekolgik holatini buzulishiga olib kelmoqda.

Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.

Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o‘g‘itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.

O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo`riqxonalar va milliy bog`lar tarmog`ini kengaytirish.

Natijalar va muhokama.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnilogiyalarni yaratish, chang to‘plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar. Orol dengizinimg qurishi iqlim o‘zgarishiga ham sababchi bo‘ldi. Qurg‘oqchilik tufayli iqlimning keskin kontenentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o‘rtasidagi haroratning o‘zgarishi, shamol tezligining ortishi, suvning to‘lqinlanish hodisasini kuchaytirishiga olib keldi.

Sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi. Qurigan maydonlar xavfli kasalliklarni tarqatuvchi kemiruvchi bilan to‘lib bormoqda. Orol bo‘yining sanitar-epidemiologik ahvoli nihoyatda og‘irlashmoqda. Agar zudlik bilan tabiatda vujudga kelayotgan muammolar hal qilinmasa insoniyat va butun mavjudodning hayoti xavf ostida qoladi. Biz tabiatga qarammiz, biz tabiatsiz yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich yerini ko‘z qorachig`iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo g‘amxo‘rlik qilishimiz lozim. Prezidentimizning 2017 yil 12 iyuldagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va O‘zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasida hokimiyat vakillik organlari hamda siyosiy partiyalar va Ekologik harakatning o‘tgan davrdagi faoliyati tanqidiy ruhda tahlil etilib, islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, Ekologik harakat hamda uning Qonunchilik palatasidagi deputatlik guruhining istiqboldagi vazifalari aniq ko‘rsatib o‘tildi. Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni aholining iste’mol, maishiy va boshqa ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanish qismining ijro etilishi yuzasidan Sog‘liqni saqlash hamda Uy-joy kommmunal xizmat ko‘rsatish vazirliklari, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitalari axboroti yuzasidan parlament eshituvlari bo‘lib o‘tdi. Ayni chog‘da “Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo‘q qilish ustidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Bazel konvensiyasi bajarilishi holati o‘rganilib, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi eshituvi tashkil etildi.

Xulosa.

O‘zbekiston hududidagi ekologik muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu jarayonda davlat, xususiy sektor va fuqarolar jamiyati o‘rtasida hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Faqatgina birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali ekologik barqarorlikka erishish mumkin. O‘zbekiston ekologik muammolar bilan yuzma-yuz kelayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi, Orol fojiasi, suv tanqisligi, havo va tuproqning ifloslanishi, chiqindilar muammosi hamda biologik xilma-xillikning kamayishi bugungi kunda ekologik barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda. Bu muammolar nafaqat atrof-muhitga, balki aholi salomatligiga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga va umuman olganda, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ekologik muammolarni bartaraf etish – faqat tabiatni asrash bilan chegaralanmaydi, balki bu keng qamrovli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu borada davlat siyosati, qonunchilikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirish va xalqaro hamkorlik asosiy yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi. Bundan tashqari, ekologik muammolarga qarshi kurashda har bir fuqaroning faolligi va mas'uliyati katta ahamiyatga ega.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, daraxt ekish kabi oddiy, lekin samarali amaliyotlar orqali ekologik muhitni yaxshilash mumkin. Ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha davlat, jamiyat va xalqaro hamjamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash O‘zbekistonning kelajak avlodlar oldidagi eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston hududidagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalari.Xoldarov Xatamjon Mo‘ydinovich Islom Karimov nomidagi TDTU Qo‘qon filiali.
2. Кулешова М.Е., Мазуров Ю.Л. Экологические функции как основа выявления ценности территорий // Уникальные территории в природном и культурном наследии регионов. М.: РНИИ культурного и природного наследия, 1994.
3. Новик, И.Р. Подготовка компетентного специалиста в системе высшего химико - педагогического образования для работы с одаренными учащимися [Текст]:моногр. / И.Р.Новик. – Н. Новгород: НГПУ, 2013. – 158 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdullayeva Umidaxon G‘ulomidinovna
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
Norliyev Rustam Ibragimovich
Termiz davlat pedagogika instituti Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasi mudiri,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent
e–mail: norliyevr@mail.ru

UDK: 193.479.135

SHAXS IJTIMOIYLASHUVIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: *Insonning biologik, ijtimoiy va ma’naviy mohiyati o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular insonning to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Biologik xususiyatlar insonning hayotiy ehtiyojlarini ta’minlasa, ijtimoiy jihat uni jamiyatning faol a’zosiga aylantiradi. Ma’naviy tomon esa insonning ichki dunyosini boyitadi va uni ongli mavjudot sifatida namoyon etadi. Ushbu maqolada inson mohiyatining ushbu uch jihati dialektik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Falsafa tarixida shaxs va uning biosotsial xususiyatlari borasida bildirilgan fikrlar qiyosiy o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *falsafa tarixi, shaxs, inson, odam, biosotsial mavjudot, falsafiy antropologiya.*

Абдуллаева Умидаксон Гуломидиновна
научный сотрудник Ферганского государственного университета
Норлиев Рустам Ибрагимович
Термезский государственный педагогический институт
Заведующий кафедрой Философии и основ духовности, кандидат философских наук, доцент

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: *Биологическая, социальная и духовная сущность человека взаимосвязаны и играют важную роль в формировании человека как полноценной личности. В то время как биологические характеристики обеспечивают жизненные потребности человека, социальный аспект делает его активным членом общества. Духовный аспект обогащает внутренний мир человека и раскрывает его как сознательное существо. В данной статье эти три аспекта человеческой сущности анализируются с диалектической точки зрения. Сравнительно изучаются идеи, высказанные в истории философии относительно человека и его биосоциальных характеристик.*

Ключевые слова: *история философии, личность, человеческое существо, человек, биосоциальное существо, философская антропология.*

Abdullayeva Umidaxon Gulomidinovna
Researcher, Fergana State University
Norliev Rustam Ibragimovich
Termez State Pedagogical Institute
Head of the Department of Philosophy and Foundations of Spirituality,
Candidate of philosophical sciences, associate professor

FACTORS AFFECTING THE SOCIALIZATION OF A PERSON

Abstract: *The biological, social and spiritual essence of a person are interconnected and play an important role in the formation of a person as a full-fledged individual. While biological characteristics provide for the vital needs of a person, the social aspect makes him an active member of society. The spiritual aspect enriches the inner world of a person and reveals him as a conscious being. This article analyzes these three aspects of the human essence from a dialectical perspective. The ideas expressed in the history of philosophy regarding the person and his biosocial characteristics are comparatively studied.*

Keywords: *history of philosophy, personality, human being, man, biosocial being, philosophical anthropology.*

Kirish.

Shaxsiyat shaxsni boshqalardan ajratib turadigan barcha xususiyatlarni ifodalaydi. Shu ma'noda shaxs – asrlar davomida allomalarni eng ko'p qiziqtirgan va ko'plab olimlar o'rgangan mavzulardan biridir. Shaxsning shakllanishida irsiy va atrof-muhit omillari juda muhim rol o'ynaydi. Shaxs rivojlanib borar ekan, u doimo ichki va tashqi stimullar ta'sirida bo'ladi. Shaxsning shakllanishida irsiyat, oilaviy hayot, oiladan tashqari turmush sharoiti, jamiyatning talablari kabi ko'plab turli omillar ham muhim rol o'ynaydi. Shaxs borasidagi tadqiqotlar faol tarzda XX asrning dastlabki yillarida boshlangan va psixologlar, faylasuflar, biologlar, antropologlar tomonidan ko'plab shaxs to'g'risidagi nazariyalari ishlab chiqilgan.

Shaxs tabiati va mohiyati muammosini o'rganish jahon hamjamiyati, shu jumladan bizning jamiyatimiz oldiga doimiy ravishda yangi muammolarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularning aksariyati global xarakterga ega va odamlarning mavjudligiga tahdid soladi. Insoniyat hal etilmagan muammolar yuki bilan uchinchi ming yillikka qadam qo'ygan bugungi kunda ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, inson avvalo o'zini, mohiyati va maqsadini anglamay turib, o'zining dolzarb muammolarini hal eta olmaydi.

Shaxs tabiati va mohiyatini o'rganish nafaqat mavhum-nazariy, balki konkret-amaliy xususiyatga ham ega. Ko'pgina muammolar shaxsning o'z mavjudligining maqsadi va ma'nosini yetarli darajada bilmasligi, yetarlicha o'ylanmagan qiymat yo'nalishi va haqiqiy ehtiyojlarni soxta narsalar bilan almashtirish natijasidir. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, insonning mohiyatini adekvat tushunish ularni hal qilishda muayyan hissa qo'shishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili.

Shaxs mohiyatini tahlil qilish muammosi u yoki bu darajada ko'pchilik falsafiy asarlarda qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha ko'rib chiqiladi. Bu muammo o'rta asrlarda, Uyg'onish va Yangi asrda ham doimiy tarzda tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu muammoni o'rganishga nemis klassik falsafasi vakillari hisoblangan I.Kant [7], I.G.Fixte, I.V.Gyote kabilar katta hissa qo'shgan. Keyingi davrda esa S.Kerkegor, Z.Freyd [9], E.From [10], K.Yung asarlarida shaxsning ijtimoiy, psixologik, ma'naviy mohiyatini ochib berishga alohida ahamiyat qaratildi.

K.Marks [8] va F.Engels kabi faylasuflar esa shaxsning mohiyatini sotsial determinizm nuqtai nazaridan ochib berdilar va shaxs tabiatidagi tabiiy va ijtimoiy xususiyatlarni tushuntirishga dialektik-materialistik monizm tamoyillari asosida yondashdilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shaxs mohiyatiga ta'sir qiluvchi biologik, ijtimoiy va ma'naviy omillarga bag'ishlangan ushbu maqolada mavzuni to'liqroq yoritib berish uchun taqqoslash, analiz, sintez, germenevtik tahlil kabi ilmiy-tadqiqot metodlari va usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Shaxs mohiyati uni boshqa obyektlar va hodisalardan xususan, boshqa hayvonlardan ajratib turadigan narsadir. Shaxs mohiyati bir-biriga bog'liq bo'lgan biologik, ijtimoiy va ma'naviy jihatning ajralmas birikmasidir. Ularning har biri, o'z navbatida murakkab tuzilishga ega [1].

Shaxsning o'zi uchta tarkibiy qismga (biologik, ijtimoiy va ma'naviy) ega bo'lganidek, biz ham uning ma'naviyatini uch tomonning birikmasi sifatida ko'rib chiqishimiz mumkin. Falsafada, sotsiologiyada, shuningdek, psixologiyada an'anaviy ravishda shaxs deb tushuniladigan narsa bizning tushunchamizda "fuqaro" va "individ" atamalari bilan ko'proq bog'liqdir. Fuqaro – jamiyat a'zosi, ijtimoiy munosabatlar va aloqalar tizimiga kiradigan shaxs, shaxsning ijtimoiy xususiyatlari, fazilatlari va munosabatlari majmuidir. Individuallik esa bir individning boshqalarga o'xshamasligining o'lchovidir, uni umumiy massadan ajratib turadigan o'lchovdir.

Shaxsning tuzilishida individlar tug'ilib kamolga yetgan oila tuzilishi, ularning shu muhitdagi shaxslar bilan o'zaro munosabati muhim rol o'ynaydi. Inson dunyoga kelganida duch keladigan birinchi ijtimoiy guruh bu oiladir. Oila shaxsning asosiy biologik xususiyatlari natijasida paydo bo'lgan institut bo'lsa-da, funksional nuqtai nazardan u jamiyatdagi boshqa institutlar tomonidan bajarilmaydigan ba'zi funksiyalarni o'z zimmasiga oladigan muhim tuzilmadir. Bu oila institutini universal qiladi va uning jamiyatda mavjudligi va haqiqiyligini ta'minlaydi. Oilaviy muhit – bu qadriyatlarni o'rganish, xulq-atvor tendensiyalarini o'zlashtirish va ijtimoiy qadriyatlarni singdirish boshlanadigan birinchi joy hisoblanadi. Oilaviy muhitda shaxslar ijtimoiy normalarni mukofot va jazo tizimi orqali o'rganadilar [4].

Ba'zi olimlar oiladagi shaxslar soni, ota-onalarning ta'lim darajasi, ijtimoiy tabaqa va geografik joylashuv kabi omillar shaxsning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Masalan, agar ota-onalar oilada ijtimoiy munosabatlarda demokratik boshqaruvni yo'lga qo'ysa, bola qulayroq muhitda tarbiyalanadi, voqea-hodisalarga nisbatan obyektiv nuqtai nazarga ega bo'ladi, bolaning o'zini erkin tutishi va vaqt o'tishi bilan faollashib, atrofdagilar bilan samarali muloqot qila olishi kuzatiladi.

Kishilar yashaydigan jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil hisoblanadi. Har bir shaxs yashaydigan jamiyatning madaniy xususiyatlari uning shaxsiyatiga chuqur ta'sir qiladi. Jamiyatda ishlab chiqilgan me'yorlar odamlarni muayyan xulq-atvor namunalari doirasida harakat qilishga olib keladi. Shu sababli, shaxslar

jamiyatning umumiy mahsuloti bo‘lgan madaniyatni so‘zsiz qabul qiladilar. Bu holat shaxsning shaxsiyatiga ham ta’sir qiladi [5].

Biz jamiyatda birga yashayotgan odamlar ham biz o‘rgangan narsalarimizga ta’sir qiladi. Bu guruhlar orasida eng muhim misollar oila, maktab va do‘stlardir. Yaxshi, yomon, to‘g‘ri, noto‘g‘ri kabi qadriyat hukmlari birinchi navbatda ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Biz yashayotgan ijtimoiy muhit ham odamlarning o‘xshash xatti-harakatlarni namoyon qilish tendensiyasiga ta’sir qiladi. Shaxslarning o‘xshash xulq-atvor namunalarida harakat qilishlari ularning umumiy xarakterga ega bo‘lishiga ta’sir qiladi.

Kishilar mansub bo‘lgan ijtimoiy sinflar va tuzilmalar ularning shaxsini shakllantirishga ta’sir etuvchi yana bir omildir. Bugungi kunda odamlar moliyaviy darajasi, ega bo‘lgan ma’lumoti, qilayotgan ishlari va obro‘-e’tibor me’yorlari asosida ijtimoiy sinflarga ajratiladi. Sinf muhiti odamlarning xatti-harakatlari, g‘oyalari va fikrlariga ta’sir qiladi. Shaxslar mansub bo‘lgan sinfning xususiyatlari ularning ta’lim imkoniyatlariga, turmush tarziga, e’tiqod tizimiga, munosabatiga va xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy saviyasi yuqori oila farzandi ro‘zg‘orini to‘ldirish haqida o‘ylamay, kelgusidagi rejalarida ta’lim-tarbiyaga e’tibor qaratadi. Biroq, imkoniyatlari cheklangan shaxs uchun buni aytish mumkin emas. Bu kabi shaxs o‘z kelajagini qurish va hozirgi holatidan yaxshiroq mavqega ega bo‘lishni maqsad qilib olgan ta’lim imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qiladi [6].

Ommaviy axborot vositalari shaxslarning erta yoshda ijtimoiylashuvi va sotsializatsiya jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ommaviy axborot vositalari bolalar va hatto kattalarning hayoti va shaxsiy rivojlanishida chuqur iz qoldirishi tadqiqotlar natijasida isbotlangan.

Kishilarning shaxsiy xususiyatlariga ular yashayotgan hududning iqlimi, tabiati va geografik sharoiti ham ta’sir qiladi. Tekisliklarda, issiq yoki sovuq iqlimda, tog‘li hududlarda va turli geografik xususiyatlarga ega mintaqalarda yashovchi shaxslarning shaxsiy xususiyatlari ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, sovuq iqlimli mintaqada yashovchi shaxsning turmush tarzi shunga mos ravishda shakllanadi. Bu hududlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish imkoni bo‘lmagani uchun, odamlar asosan ov va baliqchilik bilan kun kechiradi, shuningdek, ularning tanasi sovuq iqlim sharoitlariga chidamli ko‘rinishga keladi. Shunga asoslanib aytishimiz mumkinki, odamlar yashaydigan geografik mintaqalar ularning shaxsiyatiga ta’sir qiladi [7].

Xulosalar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, shaxs o‘zida ijtimoiy, ma’naviy hamda biologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan mavjudot bo‘lib, bu xususiyatlar orasida ijtimoiylashuv hodisasi ayniqsa muhim hisoblanadi. Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishi va jamiyat me’yorlariga moslashish jarayonidir. Shaxs ijtimoiylashuvi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, unga oila, ta’lim, tengdoshlar, madaniyat, axborot vositalari va boshqa omillar ta’sir qiladi. Ushbu omillarning uyg‘unligi insonning ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.*Abu Nasr Forobiy: Fozil odamlar shahri*. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 206. – 320 b.

2.Engel George L. The Biopsychosocial Model and the Education of Health Professionals. Annals of the New York Academy of Sciences. 310 (June): 1978. – P. 169–87.

3.Абульханова-Славская К.А. *Диалектика человеческой жизни*. – Москва: Мысль, 1977. – 224 с.

4.Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. – Москва: Мысль, 1991. – 299 с.

5.Августин Блаженный. Об истинной религии. Теологический трактат. –Минск: Харвест, 1999. – 1598 с.

6.Грицанов А. А. Никомахова этика // История философии: Энциклопедия. — Минск: Интерпрессервис; Книжный Дом, 2002. – 1376 с.

7.Кант И. Антропология с прагматической точки зрения //Кант И. Соч.: В 6-ти т. -Т. 6. – Москва: Мысль, 1966. – С. 349 - 588.

8.Маркс К. Капитал. Процесс обращения капитала //Маркс К., Энгельс Ф. Соч.-Т. 24. – Москва: Политиздат, 1961. – С. 31-596.

9.Фрейд З. Основной инстинкт. – Москва: Олимп: АСТ, 1997. – 654 с.

10. Фромм Э. *Душа человека*. – Москва: АСТ-*ЛТД*, 1992. – 664 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Iqboljon Orziyev
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
NamDU, Ijtimoiy fanlar kafedrasi

GLOBALLASHUVDA DINIY AN’ANALAR VA SEKULYAR MODERNIZMNING UYG‘UNLIGI

Anotatsiya. *Globallashuv sharoitida diniylik va dunyoviylik tendensiyalarining rivojlanishi zamonaviy dunyoning murakkab ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotda globallashuvning diniy an’analar va sekulyar qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’siri, ularning transformatsiyasi va yangi shakllarining paydo bo‘lishi ko‘rib chiqiladi. Xalqaro integratsiya, madaniy almashinuv va texnologik taraqqiyot sharoitida diniy identiklikning mustahkamlanishi yoki zaiflashishi, shuningdek, dunyoviy hayot tarzining kengayishi tahlil qilinadi. Tadqiqot globallashuvning ushbu ikki paradigmaga qanday ta’sir qilishi, ularning uyg‘unligi yoki qarama-qarshiliklarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy jamiyatlarda diniylik va dunyoviylikning kelajakdagi yo‘nalishlarini bashorat qilishga harakat qiladi.*

Kalit so‘zlar. *Globallashuv, diniylik, dunyoviylik, sekulyarizm, diniy identiklik, madaniy almashinuv, xalqaro integratsiya, sekulyar paradigma, diniy an’analar, zamonaviy jamiyat, transformatsiya, texnologik taraqqiyot.*

Икболжон Орзиев
Доктор философии (PhD) по специальности «Философия»
НамДУ, Кафедра социальных наук

РЕЛИГИЯ РЕЛИГИОЗНОГО УРБАНИЗМА И МИРОВОЙ МОДЕРНИЗМ В ГЛОБАЛИЗАЦИИ.

Абстрактный. *Развитие религиозных и светских течений в условиях глобализации анализирует сложные социальные, культурные и политические процессы современного мира. В исследовании изучается взаимодействие религиозных традиций и светских ценностей, их трансформация и возникновение новых форм глобализации. Анализируется усиление или ослабление религиозной идентичности, а также распространение светского образа жизни в контексте международной интеграции, культурного обмена и технического прогресса. Целью исследования является выявление того, как глобализация влияет на эти две парадигмы, их гармонию или противостояние, а также попытка предсказать будущие направления религиозности и секуляризма в современных обществах.*

Ключевые слова. *Глобализация, религиозность, секуляризм, светскость, религиозная идентичность, культурный обмен, международная интеграция, светская парадигма, религиозные традиции, современное общество, трансформация, технический прогресс.*

Iqboljon Orziev
Doctor of Philosophy (PhD)
NamDU, Department of Social Sciences

THE COMPATIBILITY OF RELIGIOUS TRADITIONS AND SECULAR MODERNISM IN GLOBALIZATION

Abstract. *The development of religious and secular trends in the context of globalization analyzes the complex social, cultural and political processes of the modern world. This study examines the interaction between religious traditions and secular values, their transformation and the emergence of new forms of globalization. The strengthening or weakening of religious identity, as well as the expansion of secular lifestyles in the context of international integration, cultural exchange and technological progress, are analyzed. The study aims to reveal how globalization affects these two paradigms, their harmony or contradictions, and attempts to predict the future directions of religiosity and secularism in modern societies.*

Keywords. *Globalization, religiosity, secularism, secularism, religious identity, cultural exchange, international integration, secular paradigm, religious traditions, modern society, transformation, technological progress.*

Globallashuv zamonaviy dunyoning eng muhim ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlaridan biridir. U davlatlar, xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qotib, global miqyosda o‘zaro ta’sirni kuchaytiradi. Shu bilan birga, globallashuv diniylik va dunyoviylik kabi muhim paradigmalar o‘rtasidagi munosabatlarga ham

chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqola globallashuv sharoitida diniy an’analar va sekulyar qadriyatlarning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qiladi, ularning o‘zaro ta’siri, transformatsiyasi va kelajakdagi yo‘nalishlarini ko‘rib chiqadi.

Globallashuv diniy an’analarga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, global aloqalar va axborot texnologiyalari diniy jamoalarga o‘z e’tiqodlarini kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini berdi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali diniy ta’limotlar global miqyosda tarqalmoqda. Bu, ayniqsa, diasporadagi diniy jamoalar uchun o‘z identikliklarini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Boshqa tomondan, globallashuv diniy an’analarga sekulyar qadriyatlarning kirib kelishiga olib kelmoqda. G‘arb madaniyatining global ta’siri, shuningdek, urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari ba’zi jamiyatlarda diniy amaliyotlarning zaiflashishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, yosh avlod orasida diniy marosimlardan ko‘ra dunyoviy hayot tarziga intilish tendensiyasi kuchaymoqda.

XX asrning oxirlariga kelib mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘liga kirgan Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekiston ham “diniy uyg‘onish” davrini boshdan kechirdi, jahon tendensiyasi maqomiga erishgan diniy-siyosiy jarayonlar ta’siriga uchradi. Jahonda 1989-yil “Berlin devori” qulashi, ikki Germaniyaning qo‘shilishi va “sovuq urush” davrining yakuni va 2001-yilning 11-sentyabirda AQSHda yuz bergan terroristik harakat ta’sirida “dinning “siyosiy subyekt”lik mavqei bilan bog‘lash va ifodalash mumkin”[1]. Markaziy Osiyo, xususan, mustaqil O‘zbekiston sharoitida esa dinning siyosiy jarayonlarning muhim subyektiga aylanishi “desekulyarizatsiya”, ya’ni uni jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini ortib borishi milliy mustaqillik va u bilan bog‘liq bo‘lgan milliy ozodlik, qadriyatlarni tiklash va milliy o‘zlikni anglash tendensiyasining shakllanishi bilan bog‘liq.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy mustaqillikni barcha sohalarda saqlash, mustahkamlash taniqli faylasuf – siyosatshunos olim S.Otamurodov ta’kidlaganidek, mas’uliyatli vazifaga aylanmoqda[2]. Ushbu vazifa Prezident Sh.Mirziyoyev olg‘a surgan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini va unda jamiyat oldiga qo‘ygan ustuvor vazifalar, ularni bajarish bilan uyg‘un.

Globallashuv ba’zi hollarda diniy identiklikning mustahkamlanishiga olib keldi. Global muhitda o‘z madaniy va diniy o‘ziga xosligini yo‘qotishdan xavotirlangan jamoalar o‘z an’analariga yanada qattiq yopishib olishmoqda. Bu jarayon ko‘pincha "diniy uyg‘onish" yoki "diniy fundamentalizm" sifatida talqin qilinadi. Masalan, islomiy mamlakatlarda globallashuvga javoban mahalliy diniy harakatlarning faollashuvi kuzatilmoqda.

Globallashuv beixtiyor O‘zbekistonni xalqaro transmilliy jarayonlar domiga tortadi. O‘zbekiston taraqqiyoti xalqaro hamjamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlariga uyg‘unlashuvisiz mumkin emas. Buni O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar bilan o‘zaro strategik hamkorligining tobora kengayishi, hatto qo‘shni Afg‘oniston “Tolibon” rahbarlari bilan do‘stona munosabatlarining birinchilardan bo‘lib yo‘lga qo‘yilishi, o‘zaro manfaatdorlik siyosatini olib borayotganligi globallashuv sharoitida milliy o‘zbek davlatining strategiyasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un ekanligi isbotlab turibdi[3.].

Globallashuv va jamiyat hayotining liberallashuvi va demokratlashuvi sharoitida chuqur o‘ylangan sekulyar siyosat o‘z tatbiqini turli ijtimoiy texnologiyalar vositasida amalga oshirilishini taqozo qiladi. Buni tasavvur qilish uchun “texnologiya” kategoriyasining mazmun-mohiyatini bilish lozim. O‘zbek tilida nashr qilingan va ko‘zga ko‘ringan jamiyatshunos olimlarimiz tomonidan milliy g‘oyanining targ‘ibot texnologiyalari masalasiga bag‘ishlangan jamoaviy kitobda “texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur uslubi”[4], deb baholanadi.

Bugungi eng samarali ko‘rinishi – media makonda fuqarolarga ruhiy-ijtimoiy manipulatsion ta’sir texnologiyalaridir. “Mavjud diniy tashkilotlar internet muhitida amalga oshiradigan kasbiy faoliyatning bir qancha shakllari bo‘lib, jumladan, diniy ma’lumotlarni onlayn yig‘ish, marosim tafsilotlarini onlayn tarzda o‘tkazish, missionerlik va dogma targ‘iboti... Internetda turli diniy tashkilotlar faoliyatini tahlil qilganimizda, protestant diniy guruhlari, yangi diniy oqimlar va musulmonlar tomonidan ko‘rsatilishini ko‘ramiz”[5].

Desekulyarizatsiya ushbu hodisalarda moddiylashdi, g‘oya natijaga olib keldi, jamiyat junbushga keldi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetdi. Ushbu voqealar shuni tasdiqlaydiki, hech qpnday bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik jamiyatga farovonlik, yuksak hayot darajasini ma’naviy aososlarsiz bera olmaydi. Ma’naviy nogiron, pachoq, biroq boy-badavlat, faqat pulni, moddiy boylikni qadrlovchi inson – betayin, e’tiqodini ham boylikka almashib yuboradigan ijtimoiy xavfli, aniqrog‘i xiyonatkor shaxs. Shuning uchun “din” atamasi, “e’tiqod”, “iymon” kategoriyasi bilan nafaqat sinonim, balki uyg‘undir. E’tiqodi, iymoni butun, sog‘lom inson iymoniga, e’tiqodiga xiyonat qila olmaydi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, “Alloh qalbimizda, yuragimizdadir!” deb bot-bot takrorlashi ham shu bois yuksak donolik ifodasidir. Iymonli odam pora olmaydi, xalqiga, Vatanga, millatga xiyonat qilmaydi.

Desekulyarizatsiya jahon tendensiyasi sifatida XX asrda ma’naviy inqirozga yetakladi, ma’naviyat tanazzulga duchor bo‘ldi. Buni ushbu tadqiqot birinchi bobida F.Nisshe, Z.Freyd, E.Fromm, O.Toffler va boshqa

G‘arb olimlari ta’limotlari misolida yoritgan edik. F.Nisshe “Antixirist” asarini yozdi, dinga, e’tiqodga K.Marks kabi butunlay qarshi ta’limotni yaratdi.

Bugungi G‘arb “ommaviy madaniyati” transseksualizm, bir jinsli nikoh va h.k. g‘ayriinsoniy hodisalar xudosi, e’tiqodi yo‘q, hayvoniy instinktlar quliga aylangan, inson qiyofasidagi, biroq o‘z davlatida fuqarolik legitimligiga ega “erkin” kishilar axloqidir. G‘arbda o‘rta asrlarda yuzaga kelgan, natijada G‘arbni Sharqqa nisbatan fan, texnika va texnologiyasi ilgarilab ketishiga olib kelgan sekulyar siyosatning XX asr boshlariga kelib desekulyarizatsiyalashuvi bunday noxush, hatto G‘arb ilg‘or ziyolilarini ham tashvishga solayotgani bejiz emas. Desekulyarizatsiya – bu liberal demokratiya, inson huquq va erkinliklariga din omilini hisobga olmay legitimlilik huquqini berish demakdir. Bu – ma’nan nosog‘lom, bilimsiz kishiga o‘qotar qurolni berishga teng adashishdir. Faqat ma’naviyat, burch, vijdon va h.k. tushunchalar inson faoliyatining yuksak ijtimoiylashuvini ta’minlaydi, jamiyatga xavf tahdidini yuzaga chiqarmaydi. O‘zbek siyosatshunos olimlaridan X.Axmedov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, ma’naviy hayot dinamikasini, umumiy qonuniyatlarni hisobga olmasdan bugungi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarni hal etish mumkin emas[6].

Desekulyarizatsiya jahon miqyosida din va davlat, dunyoviylik va diniylik nisbatida bugungi global xavflar (global isish, yadro urushi xavfining kuchayishi, pandemiya, notekis rivojlanish, texnogen xavflar va h.k.) kontekstida ma’naviy-axloqiy jihatlarning inqirozi, axloqiy qoida va normalarni inson gedonistik talablarining oshib borishi sharoitida qadrsizlanayotganligini ifodalaydi. Sodda qilib ifodalansa – bugungi liberal demokratiyaning tobora axloqsizlashayotanligini ifoda etadi. Buni dunyoning yetakchi globalistlari, iqtisodchi, tarixchi, faylasuf, sotsiolog olimlari fahmlay boshladilar, global ma’naviy inqirozdan faqat diniy omil qutqarishi mumkinligini ta’kidlamoqdalar. Bu fikrning o‘rinli ekanligini konkret misolarda kuzatamiz.

Olimlarning fikriga ko‘ra, ratsional ishonch shaxsning faol harakatiga, yaratuvchiligiga tayanadi. Uning negizida turgan g‘oya, ta’limot, ideal to‘g‘ri yoki xato, hayotiy yoki havoyi, xayoliy bo‘lishi mumkin. Lekin shaxs unga sidqidildan ixlos bilan intiladi, erishish yo‘llarini izlaydi, ijod qiladi. Natijada u o‘sha maqsadga yetolmasa xam, ma’lum samaraga erishadi, faoliyati izsiz ketmaydi.

“Resekulyarizatsiya”, ya’ni dinga nisbatan davlat munosabatining “yumshashi”, mo‘tadillashuvi milliy mustaqillikka erishilgan kundan buyon kuzatildi – Konstitutsiyaning 33-moddasi ayni shu jihatga – diniy e’tiqod erkinligiga, dindor fuqarolarning ham boshqa fuqarolar kabi teng huquqligi kafolatini tasdiqlaydi. Muqaddas kitob Kur’oni Karimning “Kaxf” surasi 29-oyatida: “Ayting: “(Bu Kur’on) Rabbingiz (tomoni)dan (kelgan) Xaqiqatdir. Bas, hohlagan kishi imon keltirsin, hohlagan kimsa kofir bo‘lsin”[7], deb marxamat qilinadi.

Albatta, desekulyarizatsiya va resekulyarizatsiya ham muayyan siyosiy me’yorlarni taqozo etadi. Jamiyat demokratiyalashuvi shu o‘rinda ham ijobiy va ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunga misol – mustaqillikning dastlabki yillarida diniy fundamentalizm va diniy ekstremizmning ijtimoiy hayot sahnasiga qalqib chiqishi, dinning siyosiylashuvi, ya’ni hokimiyatga da’vogarligining kuchayishi, dunyoviy taraqqiyot yo‘lini diniy taraqqiyot yo‘liga burib yuborishga urinishlar hisoblanadi.

Resekulyarizatsiya umumjahon tendensiyasi O‘zbekistonda ham kuzatildi. “Hizb at-tahrir al-islomiy” tashkiloti, akromiylar, vahhobiylar, nurchilar va boshqa diniy siyosiy partiya va oqimlar din erkinligi konstitutsiyaviy huquq nuqtayi nazaridan kafolatlanganidan unumli foydalanishga urindilar, ushbu tendensiyani yurtimizda ham qaror toptirishga harakat qildilar. Ular ichida eng ashaddiy va g‘oyaviy jihatdan yetakchisi “Hiz ut-tahrir”, ya’ni “Ozodlik partiyasi”dir. Tadqiqotimiz siyosiy yo‘nalishda bo‘lganligi sababli ushbu diniy partiya va uning mafkurasi xususida to‘xtaymiz.

“Hizb ut-tahrir” partiyasi va uning buzg‘unchi faoliyati xususida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy adabiyotida xo‘b va ko‘p yozilgan. Ayniqsa 1999-yil 16-fevral voqealaridan so‘ng ular “bodroq” kabi ko‘paydi, o‘nlab dissertatsion tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Ushbu diniy partiya Falastinda Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo‘ldi. Ushbu partiyaning asoschisi Taqiyud-din Nabahoniy (1909-1979) hisoblanadi[8].

Aslida ushbu partiya arab-isroil ziddiyatlari, Sinay yarim orolida Isroil yahudiy dalvlatining paydo bo‘lishi, muqaddas qadamjoy – Quddus maqomi bilan bog‘liq. Xalqaro tashkilot – BMTning tuzilishi, 1947-yil 29-noyabrdagi uning 181-sonli qarori asosida siyosiy xaritada Isroil davlati paydo bo‘lishi, bunga qator arab davlatlarining noroziligi sabab bo‘ldi.

Partiya o‘ziga xos evolyutsiyani boshdan kechirdi – u dastlab arablar yeri uchun kurashdi, so‘ng keyingi rahbarlari Abulkarim Zallum, so‘ng Ato Abu Rushta kabi yetakchilar ta’sirida nafaqat kichik arab davlati, balki butun yer yuzida o‘rta asr qabilidagi diniy xalifalikni yaratish dasturini ishlab chiqdi. Siyosiy partiya asosan siyosiy hokimiyatga erishish uchun tuziladi, maqsadi ham shu – hokimiyatga da’vogarlik. Resekulyarizatsiya dinning ijtimoiy hayotda kuchayishi, mavqeining ko‘tarilishi bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq diniy dasturdagi siyosiy partiyalar tuzishga ruxsat berilmaydi. Biroq bugungi media makonda resekulyarizatsiya ta’sirida diniy targ‘ibot katta o‘rin egallamoqda, diniylik va dunyoviylik nisbatida

birinchisining aholi, ayniqsa yoshlar qatlami ichida oʻsib borishi xavotirlidir[9].

Hizb ut-tahrir oddiy harakat emas. U aniq siyosiy maqsadlarga qaratilgan. Uning asoschilari Nabahoniy va Abulqosim Zullumlarning dunyoviy demokratik taraqqiyotga Gʻarb mahsuloti deb qarash, "Demokratiya – kufr nizomi", "Xalifalik" kabi asarlarida Konstitutsiya, saylov kabi institutlar qoralanadi, ular "kufr dunyoqarashi va nizomi" deb baholanadi. "Zero, saylov, referendum, koʻpchilikning xal qiluvchi ovozi, koʻppartiyaviylik, hurfikrlilik, muholifat, OAV erkinligi, sudning daxl sizligi kabi demokratiyaning asosiy va ajralmas atributlari - islom taʼlim otlariga zid emas.[10]"

Sekulyarizm garchi umuminsoniy, global miqyosda qaror topayotgan prinsp va qadriyat boʻlishiga qaramay, u turli ijtimoiy-madaniy makonlarda demokratiya, inson huquq va erkinliklari kabi turlicha shaklda qaror topmoqda. Bu – tabiiy hol. Zero, demokratiya kabi sekulyarizmning ham universal, barcha uchun birday amal qiladigan modeli, andozasi mavjud emas. Shu oʻrinda taniqli davlat arbobi, buyuk tarixiy shaxs, ser Uinston Cherchillning demokratiya xususida aytgan fikrlarini sekulyarizm uchun ham oʻrinli deyish mumkin: "Demokratiya ... oʻzi bemaza narsa. Biroq insoniyat undan ustun boʻlgan gʻoyani yarata olmadi...".

Dunyoviylik yoki sekulyarizm globallashuvning eng muhim natijalaridan biridir. Sekulyar qadriyatlar, ayniqsa, Gʻarb jamiyatlarida dominant boʻlib, ular global miqyosda tarqalmoqda. Urbanizatsiya, ilmiy-texnik taraqqiyot va individual erkinliklarga urgʻu berish dunyoviy hayot tarzining ommalashishiga yordam bermoqda.

Masalan, Yevropa mamlakatlarida cherkovga tashrif buyurish va diniy marosimlarda ishtirok etish darajasi sezilarli darajada pasaygan. Bu jarayon globallashuvning taʼsiri bilan boshqa mintaqalarga ham tarqalmoqda. Biroq, sekulyarizmning kengayishi har bir jamiyatda bir xil shaklda roʻy bermaydi. Baʼzi mamlakatlarda, masalan, diniy anʼanalar kuchli boʻlgan joylarda, sekulyarizmga qarshilik ham yuqori boʻlmoqda.

Globallashuv sharoitida diniylik va dunyoviylik oʻrtasida nafaqat qarama-qarshilik, balki uygʻunlik ham kuzatilmoqda. Zamonaviy jamiyatlarda diniy eʼtiqodlar sekulyar hayot tarziga moslashmoqda. Masalan, koʻplab diniy jamoalar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etish orqali oʻz taʼsirini kengaytirmoqda.

Bundan tashqari, globallashuv natijasida sinkretik diniy shakllar paydo boʻlmoqda. Turli dinlar va madaniyatlarning aralashuvi yangi diniy harakatlar va eʼtiqodlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, koʻp madaniyatli jamiyatlarda yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Globallashuv diniylik va dunyoviylikning rivojlanishiga murakkab va koʻp qirrali taʼsir koʻrsatmoqda. Ushbu jarayon bir tomondan diniy identiklikni mustahkamlashga yordam bersa, boshqa tomondan sekulyar qadriyatlarning kengayishiga olib kelmoqda. Zamonaviy jamiyatlarda diniylik va dunyoviylik oʻrtasidagi muvozanatni topish global muhitda barqaror rivojlanish uchun muhim shartdir. Kelajakda ushbu ikki paradigmaning oʻzaro taʼsiri yanada chuqurlashib, yangi ijtimoiy va madaniy shakllarni vujudga keltirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati.

1.Журавский А.З., Садов О.В., Фетисов А.В. Субъекты миропорядка XXI века // Глобализация и столкновения идентичностей. Материалы международной интернет конференции 24 февраля – 14 марта 2003 г. Под ред. А.Журавкого, К. Костюкова. – М., 2004.

2.Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти (сиёсий фалсафий қирралари). – Т."Oʻzbekiston", НМИУ, 2018. – 352 б.; Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. – Т.: "Akademiya", 2008. – 230 б.

3.Адылходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. – Т.: ТГЮИ, 2007ю – 130 с.

4.Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Т.: "Akademiya", 2007. – Б. 22.

5.Fedorova M. V. Religious identity in the modern digital world. Sotsiodinamika[Sociodynamics], 2020, no. 6, - p 70. https://doi.org/10.25136/2409-7144.2020.6.33085

6.Ахмедов Х. Маънавий ҳаёт динамикаси. Монография. – Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2018. – 210 б.

7.Қуръони Карим. Таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон, 1992. –Б.331. (767)

8.Зейего Барат. Хизбуттахрир. Политическая родина +++ ислама. – Вашингтон: +++ +++, 2004.

9.Туленов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар . иккинчи нашр. – Т.: "Sharq", 2013. – 336 б.

10. Юсуф Карзовий. Фатави муасира. Т.II. Мансура: Дар ал-вафо, 1994. - Б. 636-651.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Sanaqulov Abror Nazarovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
“Gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: sanabror80@gmail.com

VIRTUAL REALLIKKA ZAMONAVIY FALSAFIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya: *Maqolada virtual reallikning mohiyati, shakllari, psixologik virtual reallikning ko‘rinishlari, virtual reallik tushunchasining falsafiy maqomi ochib berilgan. Virtual reallikning interaktiv imkoniyatlari, virtualistikaning nazariy va uslubiy natijalarini ijtimoiy hayot sohalarida qo‘llanilishi hamda virtuallik fenomeni tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar*: virtual reallik, falsafa, borliq, texnologiya, gratual, ingratual, prinsip, gipoteza, induksiya, deduksiya.*

Санакулов Аброр Назарович
Доцент Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
Доктор философии в области философских наук (PhD)

СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ПОДХОДЫ К ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ

Аннотация: *В статье раскрываются сущность и формы виртуальной реальности, проявления психологической виртуальной реальности, а также философский статус понятия виртуальной реальности. Также в статье анализируются интерактивные возможности виртуальной реальности, применение теоретических и методологических результатов виртуалистики в сферах социальной жизни и феномен виртуальности.*

Ключевые слова: *виртуальная реальность, философия, бытие, технологии, церемониальность, интегральность, принцип, гипотеза, индукция, дедукция.*

Sanaqulov Abror Nazarovich
Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Kwarizmi
Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)

MODERN PHILOSOPHICAL APPROACHES TO VIRTUAL REALITY

Annotation: *The article reveals the essence, forms of virtual reality, manifestations of psychological virtual reality, and the philosophical status of the concept of virtual reality. Also in the article are analyzed interactive possibilities of virtual reality, application of theoretical and methodological results of virtualistics in the spheres of social life, and the phenomenon of virtuality.*

Keywords: *virtual reality, philosophy, existence, technology, ceremonial, integral, principle, hypothesis, induction, deduction.*

Kirish

Bugungi kunda texnologiyalar jadal sur’atda rivojlanib, inson tafakkuri va hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Shunday texnologiyalardan biri — virtual reallik nafaqat axborot va ko‘ngilochar sohalarda, balki falsafiy nuqtai nazaridan ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Virtual reallik voqelik, inson idroki, ong va haqiqat kabi fundamental tushunchalarga qayta nazar tashlashga turtki beradi. Shu bois, uning falsafiy jihatlari bugungi kun ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Birinchidan, virtual reallik tushunchasi “reallik”ni qay darajada anglatadi, degan savolni o‘rtaga qo‘yadi. Virtul reallikda insonlar haqiqiy real hayotda bo‘lmagan voqealarni his qilishlari, harakat qilishlari va qaror qabul qilishlari mumkin.

Ikkinchidan, virtual reallik inson ongi va shaxsiyatining tabiati haqida yangi falsafiy savollarni tug‘diradi.

Uchinchidan, virtual reallik axloqiy va ekzistensial muammolarni ham olib chiqadi.

Shu jihatdan qaralganda, virtual reallik faqatgina texnik yoki axborot texnologiyasi masalasi emas, balki

ong, shaxsiyat, voqelik va axloq to‘g‘risidagi falsafiy mulohazalarni ham qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Bu uning bugungi kundagi dolzarbligi va o‘rganish zarurligini yaqqol ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili

Hozirgi davr kibernetika fanida “axborot maydoni”ni talqin etishda virtual reallik tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. Vaholanki bu g‘oya ham falsafa uchun yangi emas, u qadimgi falsafadayoq shakllangan bo‘lib, F.Akvinskiy ta’limotida ayniqsa keng o‘rin egallagan. Bu tushunchaning biz uchun yaqinroq, tushunarliroq talqinini uyg‘onish davrining eng yirik faylasuflaridan biri bo‘lgan N.Kuzanskiy bergan edi. U birinchilardan bo‘lib virtual reallikni yong‘oq daraxtida sodir bo‘ladigan jarayonlar misolida asoslab bergan. N.Kuzanskiy fikricha, biz yong‘oq daraxti kattaligini, sershohligini, ko‘m-ko‘kligini, mevalarini vujudiy ko‘zimiz bilan ko‘ramiz. “Keyin, - deydi u, - men o‘zimning aql ko‘zim bilan ham aynan o‘sha daraxtning hozirgiday o‘sib ungan, meva bergan va h. k. xolatida emas, balki urug‘da, ya’ni virtuallikda ekanida qanday bo‘lganini, uning urug‘dagi ajib go‘zalligini, shoxu butoq va mevalari bilan birgalikdagi bir butun bo‘lgan daraxtni tasavvur etaman, ya’ni urug‘da jo bo‘lgan kuch-quvvatga o‘z e’tiborimni qarataman... Yong‘oq mening kuzatishimcha, urug‘dagi o‘sha kuchning amalga oshuvidir” [1]. Ushbu talqin borliqdagi obyektlar zamirida faol (Virtus) ongli asos, ichki kuch va qobiliyat, imkoniyat mavjudligi g‘oyasini oldinga suradi. Ya’ni, daraxt o‘z urug‘ida virtual imkoniyat tarzidagi mavjud bo‘lib, bu holatda jo bo‘lgan ichki kuch tegishli sharoit tayyor bo‘lganida urug‘ni daraxtga aylantiradi. Bu g‘oya Aristotel talqinidagi shakl sababning faoliyatiga to‘g‘ri keladi.

Virtual reallikning uchinchi shakli fikriy va psixologik virtualliklardir. Psixologik virtual reallik bevosita insonning ichki kechinmalari, his tuyg‘ulari bilan bog‘liq hisoblanadi. Psixologik virtual reallikning bir ko‘rinishi virtual qobiliyatlardir. Psixologik virtual reallikning ham ikki ko‘rinishi mavjud: konsuyetal va virtual. Psixologik virtuallikning qanchalik ko‘p hajmli axborotni qabul qilishi va saqlashiga qarab gratual va ingratual ko‘rinishlarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Virtual reallik tushunchasining falsafiy maqomi inson borlig‘ining uchta ma’lum makonlariga nisbatan qo‘llaniladi: fikriy olam, ko‘rinuvchi olam va obyektiv tashqi olam. O‘ziga xos holdagi «virtual reallik falsafasi» (bu uning muhim va prinsipial xususiyatidir) dastlab professional faylasuflar tomonidan emas, balki kompyuter injenerlari, jamoat arboblari, yozuvchilar, jurnalistlar tomonidan taklif qilingan. Virtual reallikning tarkibiy qismlari bilan ishlash real jihozlar va predmetlar bilan ishlashga aynan o‘xshashdir.

Virtual reallik muhitida ishlash yengillik, tezlik bilan birga o‘yin xarakteriga ega, unda mashinadan foydalanuvchi virtual olamga o‘tkaziladi: virtual obyektlarning ta’siri inson tomonidan xuddi «odatdagi» reallik kabi qabul qilinadi. Aynan virtual reallikning mana shunday interaktiv imkoniyatlari shu darajada ahamiyatli bo‘lib borishiga olib kelmoqda[2]. Virtual reallik borasidagi qarashlarni to‘g‘ri tahlil qilgan holda O‘zbekistonda ham virtualistika fani va falsafasini shakllantirmoq lozim va shu asosida mamlakatimizda virtual qabulxonalar, virtual korxona va ofislarni yaratish, virtual modellar va obyektlar bilan ishlash darajasini oshirish lozim. O‘ylaymizki bu O‘zbekiston fani va falsafasiga, texnika va texnologiyasiga yangicha o‘zgarishlar olib keladi, chunki virtualistika falsafasi hozirgi zamon fan falsafasi strukturasini o‘zida aks ettirib, bir qancha yo‘nalishlar doirasida rivojlanmoqda. Shunday qilib biz falsafiy tahlil natijasida shuni aniqladikki nazariya, amaliyot, texnologiya va falsafadagi virtual reallik oddiy narsa emas ekan. Virtual reallikni o‘rganish ayniqsa, realizatsiyada juda katta bilimni talab qiladi. Agar biz virtual reallikning tajribaviy jihatdan ta’rifini bilib tushunib olsak virtual reallik nazariyasini yarata olamiz. O‘z vaqtida mashhur bo‘lgan fizik olim Lyudvig Bolsman ham «Tajribani ozroq bilib nazariyani yaxshi bilib bo‘lmaydi» deb aytgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Yuqoridagi mushohadalardan ko‘rinadiki, garchi virtual reallikning kompyuter texnologiyalarida ishlatilayotgan ma’nosi falsafaning tushunchalariga nisabatan “tesha tegmagan”, ya’ni ancha qo‘pol tushunchalar bo‘lsa hamki, ular mazmunida falsafiy tushunchalarga muayyan yaqinlik yuzaga chiqayotgani kuzatilmoqda. Shu umumiyat asosida biz hozir kompyuter texnologiyalarida keng ishlatilayotgan informatsiya mazmunida g‘oyaviy olam o‘z ontologik mazmuni bilan ishtirok etayotgani haqidagi xulosaga kelamiz. Lekin virtual texnika bu olamga qanday (salbiy yoki ijobiy) o‘zgarish va ta’sirlar olib kirishi hali noma’lum. Bizningcha, bizning hozirgi rasional tafakkurimiz tariqatlarda ko‘rsatilgan yetti muhim bosqich orqali sublimatsiya (poklanish orqali nafislashuv) jarayonini bosib o‘tmasdan bu reallikka kirayotgani tufayli, bizningcha, bu ijobiy emas, balki salbiy bo‘lib chiqishi xavfi kuchliroqdir.

Virtualistikaning ko‘p jihatliligi to‘g‘risida so‘z yuritganda mazkur yo‘nalish tadqigqotchisi N.Nosov uni umumiy, paradigmal tushunish no‘qtai nazaridan taklif qilgan ta’rifni qayd etib o‘tish kerak: «Poliontik voqyelikni e’tirof etishga asoslangan yondashuv virtualistika deb ataladi». Virtual voqyelik g‘oyasini bunday tushunish fan falsafasining nazariy muammolariga yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi. Insoniyatning barqaror rivojlanishi o‘z kosmo-psixo-axborot muhitining yangi jihatlarini anglab yetish, ularni dunyoning hozirgi zamon ilmiy manzarasiga kiritish va olamshumul entropiyaga qarshilik qo‘rsatishning ma’naviy tayanchlarini qidirish zaruriyati bilan bog‘liq. Virtual reallikdagi narsa va

hodisalar murakkab hisoblanib, ularni modellashtirishda ilmiy bilishga yangi konseptual tushunchalarni kiritishni taqozo etadi. Mazkur tushunchalar ob'yektni tadqiq etish uchun adekvatli falsafiy tilni berishi lozim. Chunki Sh.S.Qo'shoqov to'g'ri ta'kidlaganidek, virtualistikaning nazariy va uslubiy natijalarini ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida qo'llanilishi virtuallik tushunchasini umumilmiy kategoriyaga, aytish mumkinki XXI asr madaniyatini universaliysiga aylanishiga olib keldi [3].

Hozirgi davr eng yangi fanlari butun koinot, undagi barcha yoritkichlar, planetalar, predmet va mavjudodlar nafaqat fizikaviy (gravitasion, kuchli va kuchsiz, elektro-magnit) maydonlarining, balki real axborot (axbor-quvvat) maydonlarining o'zaro ta'sirlarida ham mavjud ekani va umuman butun koinot ongli ekani haqidagi xulosalarni ham oldinga surmoqda. Bu esa daholarga kelgan kashfiyotlar, ijodiy g'oyalar axborot shu maydonning qaysidir yuqori qatlamlaridan kelgan, degan xulosaga olib keladi. Kvant-vakuum texnologiyalari o'z istiqbolida ushbu virtual reallikning mag'zini tashkil etishi mumkin. Lekin buning uchun hozirgi davr fani kvant hodisalarining hissiy norealligi bilan bog'liq o'z eksperimentlarini jiddiy ilmiy nazorat ostiga olishi va ular asosida yangi umumilmiy paradigmani ishlab chiqishi kerak [4]. Buning uchun fan, agar u ushbu (kvant) hodisalarning realligini tan olsa, quyidagi ikki alternativ gipotezadan birini tanlashiga to'g'ri kelmoqda: birinchidan, ongni moddiylikdan mustaqil, bosh miya po'stlog'idagi atom-molekulyar neyrofiziologik jarayonlardan tashkil topmaydigan avtonom hodisa deb hisoblash kerak.

Ikkinchidan, olamda ikki o'zaro bog'langan qatlamlarni - moddiylik va ongni keltirib chiqaradigan va ular evolyusiyasini ta'minlaydigan tizim - shakllantiruvchi fundamental protoctruktura mavjud. Birinchi gipoteza olamda qanday murakkab narsa bo'lmasin, u atom-molekular jarayonlardan tashqari mavjud bo'la olmaydi, degan avval shakllangan tasavvurlarga zid keladi. Bu bizni Dekartning reallikning ikki qatlamga – moddaga va nomoddiy ongga ajralishi haqidagi dualistik ta'limotiga qaytaradi. Ikkinchisi esa, ko'rinib turganiday, butun borliqning hech qanday moddiy sifat, shaklsiz, sof (noborliq) yagona asosi, mohiyati mavjudligi haqidagi Platon ta'limotiga qaytishni taqozo etadi. Ikkinchi gipotezaning qizig'ligi shundaki, uni kvant vakuumi fizikasi sohasida erishilgan kashfiyotlar bilan qiyoslash ham mumkin. Zero, kvant yoki fizik vakuumning qonuniy ta'rifiga ko'ra bu borliqning hech qanday eng mayda zarrachasi ham mavjud bo'lmagan bo'shliq, ya'ni noborliqdir.

Ayni paytda Geyzenbergning noaniqliklar nisbatiga muvofiq quvvat kvantining fluktuatsiyalari tufayli vakuum virtual zarrachalar "tumani"ni bilan to'liq. Ko'pgina fizik hodisalar real fizik zarrachalar kollektivi bilan shu virtual kvant "tumani" orasidagi o'zaro ta'sirlar orqali tushuntirilmoqda. Boz ustiga hozirgi kosmologik nazariyalarga ko'ra, Koinotning o'zi ham kvant vakuumining gigant quvvati fluktuatsiyasining Katta Portlashi jarayonida kelib chiqqan. Agar bu nazariya qabul qilinsa, u holda Olamni vujudga keltirgan ushbu vakuumning mazkur Koinotning (18 ming Olamning) xossalarini, uning evolyusiya qonunlarini va barqarorlik parametrlarini belgilab beradigan muayyan informasion matrisasi (shakllantiruvchi g'oyaviy qolipi) ham bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda vakuumning nomoddiy shakllantiruvchisi mavjud bo'lishi kerak. Hozirgi kvant kosmologiyasi bu xulosani oshkor etmayapti. Lekin hozirgi kunda vakuumning shakllantiruvchi xususiyatlari batafsilroq yoritilgan kvant vakuumi nazariyalari bor [5] hamda bu yo'nalishda yuzlab adabiyotlar nashr etilgan. Ayni paytda bu nazariyalarga skeptiklarcha qarayotgan olimlar guruhi ham bor. Lekin mazkur nazariyalar bo'yicha Rossiya va AQSHning ko'pgina ilmiy tadqiqot markazlarida muvaffaqiyatli ishlar olib borilmoqda. Shu nazariyalar asoslagan kvant-vakuum effektlarini o'rganish asosida yaratilgan yangi texnologiyalar sanoat tajribalarida sinovdan o'tkazib kelinmoqda.

Tahlillar va natijalar

Kvant vakuumi semantikasi (ma'nosi)ning tahlili muammosi xususida to'xtalsak, bu yo'nalishdagi ishlar ongni o'rganishda katta ahamiyatga ega ekanini qayd etilmoqda. Bu borada V.V.Nalimov va N.I.Kobzevaning psixion vakuum haqidagi xulosalari asosida shakllangan mezon konsepsiyasi diqqatga sazovor [6]. Ushbu tadqiqotlar psixologiya va va neyrofiziologiya muammolarini yechish yangi imkoniyatlarini yaratadi, farmokologiya, medisina, qishloq xo'jaligida va, ayniqsa, axborotlashuv va kommunikatsiyada foydali bo'ladi, deb qaralmoqda. Shuningdek, kvant axborotini mikro va makro darajalarda uzatilishi paradokslarining B.B.Kadomsev [7] tomonidan tahlil etilishi ituisiya hodisasini ham shu konsepsiya asosida tushunish mumkinligi haqidagi xulosaga olib keldi. Fan shu kungacha bosib o'tgan umumiy yo'li "xususiylikdan umumiylikka" o'tish (induksiya) metodiga tayanib kelgan edi. To'g'ri, bu yo'l fanning o'z ichida yangi umumlashmalar, xulosalar va paradigmalarga tayangan ichki (tor miqyosdagi, ichki) deduksiya vositasida muayyan bilim xazinasini qo'lga kiritdi. Lekin bu bilim insoniyatga juda qimmatga tushdi, uni halokat jari yoqasiga olib kelib qo'ygan global ekologik, iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa krizislar girdobiga tortdi.

Shuning uchun endi fanning boshqa namoyandalari sinalgan "tajriba va adashuvlar" yo'lidan voz kechib borliqqa o'zlari izlab topgan yangi "ilmiy paradigma" yoki "materialistik" nuqtai nazaridan deb atalgan, aslida yalpi umumiy haqiqatni qismlarga bo'lib, turli "filtr"lardan o'tkazib qabullashdan iborat metoddan voz kechdilar va oliy (ilmiylik doirasidan tashqariga

chiqadigan) keng miqyosli deduksiya metodiga tayanish zaruratini anglamoqdalar. Zero, ular kibernetika, genetika fanlarini shunday “filtrlardan” o‘tkazmagan tafakkurning torligini o‘z tajribalarida boshdan kechirdilar. Endilikda ular borliqqa “o‘zlarining (tor, ilmiy manzaralari) nuqtai nazarlaridan” kelib chiqib emas, kengroq, “obyektivroq”, “demarkatsiya” ko‘znoynagisiz qarash kerakligini, ilgari o‘zlari “noilmiy, g‘ayriilmiy, soxta bilim” deb qarab kelgan ilmlarning fan bilan teng mavjud bo‘lish xuquqi borligini ham anglab yeta boshladilar [8]. Bundan tashqari fan o‘z shakllanishining dastlabki bosqichida tanlagan yo‘li biryoqlama edi. Zero u faqat va faqat tashqi olamni bilishga yo‘nalgan (ekstraversiv) edi, insonning o‘zi, uning ichki olami uning yo‘li bo‘lmay kelgan edi. Bu insonning tashqi olam qurshovida yashashi, unga hamisha moslashib borishi ob’yekti zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan edi. XX asr Amerikada shakllangan bixeviorzm oqimi psixologiya fanidagi shu tamoyilni gavdalantirgan edi. Umuman esa insonning tashqi olamga moslashuvi ham zarurat bo‘lib, chiziqli tafakkurni shu tashqi olamga moslashuvning samarali vositasi deb qarash joiz[9].

Xulosa

Xulosa qilganda, zamonaviy ilmiy adabiyotda virtuallik fenomenini turli xilda tahlil qiladigan konsepsiya va g‘oyalarning uch guruhi mavjud. Birinchi guruhga virtuallikni ontologik maqomini taxlil qiladigan falsafiy va umumilmiy konsepsiyalar kiradi. Ikkinchi guruh jamiyatda virtual xodisalar paydo bo‘lishini kuzatadigan ijtimoiy g‘oyalarni kuzatadi. Uchinchi guruhga jamiyat xayoti faoliyatini umumiy qonun va mexanizmlarini bir butun va virtuallashuvni uning bir tarafi sifatida ko‘rsatadigan ijtimoiy komunikatsiya g‘oyalari tashkil etadi.

Virtual reallik bugungi zamonning eng muhim texnologik yangiliklaridan biri bo‘lib, uning falsafiy jihatlari inson tafakkuri, ong, haqiqat va mavjudlik tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘lmoqda. Virtual reallik orqali inson real hayotdan ajralgan holda, lekin sezgilari va ongini ishga solgan holda yangi “haqiqat”ni boshdan kechiradi. Bu esa falsafada qadimdan mavjud bo‘lgan “voqelik nima?”, “haqiqat qayerda?”, “inson kim?” kabi savollarni zamonaviy kontekstda qayta tahlil qilish zaruratini tug‘diradi.

Virtual reallikning ontologik, epistemologik va axloqiy jihatlari insonning mavjudligi, bilim manbalari va axloqiy javobgarligi borasida yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Shunday qilib, virtual reallik zamonaviy falsafa uchun muhim tadqiqot maydoniga aylangan. U inson va haqiqat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, insoniyatning raqamli muhitda tobora ko‘proq yashashi sharoitida, virtual reallikning falsafiy jihatlarini o‘rganish – nafaqat ilmiy, balki amaliy zaruratga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Виртуальная реальность // История философии. Энциклопедия. Интерпрессервис. Книжный Дом, Минск. 2002.-S.122.

2.Sanaqulov, A. (2021). Ҳозирги давр фани ва фалсафасида виртуал реаллик муаммоси. *ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР НОМИДАГИ АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ХАБАРНОМАСИ*.

3. Qo‘shoqov Sh.S. (2011) Виртуалность как универсалия культуры XXI века. // Falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari. Alloma Omonulla Fayzullayevning 90 yillik yubileyi o‘qishlariga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy o‘qishlari materiallari. –T.: Falsafa va huquq instituti, 1-kitob, -B.54.

4. Djan R., Dann B. (1995). Granisi realnosti. M., -S.76.

5. Akimov A.Ye. (1997). Oblik fiziki i texnologii v nachale XXI veka. Yekaterinburg. – S.25;

6. Shipov G.I. (1998). Teoriya fizicheskogo vakuuma. M., – S.95;

7. Baurov Yu.A. O strukture fizicheskogo prostranstva i novom sposobe polucheniya energii. M., -S.146.

6. Leskov L.V. (1997) Fundamentalnaya konsematicheskaya protostruktura Vselennoy // Soznaniye i fizicheskiy mir. M.-B.84-128.

7. Kadomsev, B.B. (1997). Dinamika i informatsiya. Nauchnoye izdaniye / B.B.Kadomsev. - M. (1997) : Red. jurn. «Uspexi fiz. Nauk», -S.397.

8. Shermuxamedova N. (2005). Falsafa va fan metodologiyasi.T., -B.167-180.

9. Sanaqulov, A. (2024). TA’LIM TIZIMIDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. *Farg‘ona davlat universiteti*, (2), 41-41.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Azamova Sitora Ayonovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: azamovasitora06@gmail.com
Boboqulova Zulfiya Jamshid qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: boboqulova22@bk.ru

UDK: 091.122.34

EKOLOGIK MADANIYAT VA DINIY QADRIYATLARNING IJTIMOIY-MADANIY TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: *Maqolada ekologik madaniyat va diniy qadriyatlarning transformatsiyasi, ularning insonlarda atrof-muhitga hamda ona tabiatga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, bugungi kunda global ekologik muammolar va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, jumladan suv resurslarining yetishmasligi, global iqlim o‘zgarishlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar*: ekologik madaniyat, ona tabiat, ijtimoiy-madaniy omillar, fan-texnika, global iqlim o‘zgarishi, diniy ong, transformatsiya.*

Азамова Ситора Айоновна
Преподаватель Шахрисабзского государственного
педагогического института
доктор философии (PhD) по философии
Бобокулова Зулфия Жамшид кизи
Магистрант Шахрисабзского государственного
педагогического института

СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация: *В статье рассматривается трансформация экологической культуры и религиозных ценностей, их роль в позитивном изменении отношения людей к окружающей среде и родной природе. В нем также представлены мнения о глобальных экологических проблемах и устранении их негативных последствий, нехватке водных ресурсов и глобальном изменении климата.*

Ключевые слова: *экологическая культура, мать-природа, социокультурные факторы, наука и технологии, глобальное изменение климата, религиозное сознание, трансформация.*

Azamova Sitora Ayonovna
Lecturer at Shakhrisabz State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy
Bobokulova Zulfiya Jamshid kizi
Master’s student at Shakhrisabz State Pedagogical Institute

SOCIOCULTURAL TRANSFORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AND RELIGIOUS VALUES

Abstract: *The article examines the transformation of environmental culture and religious values, their role in positively changing people’s attitudes toward the environment and native nature. It also presents opinions on global environmental problems and the elimination of their negative consequences, water shortages and global climate change.*

Key words: *ecological culture, mother nature, socio-cultural factors, science and technology, global climate change, religious consciousness, transformation.*

Kirish.

Sayyoramizning kelajagi yosh avlodning ekologik madaniyatiga bog‘liq ekanligi barchamizga yaxshi ayon. Zero, global ekologik muammolarni faqat milliy va global miqyosdagi birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan hal qilish mumkin. Shu bois, 1992-yil 15-aprel kuni BMTning atrof-muhit muammolari muhokamasiga bag‘ishlangan konferensiyasida insoniyat hayoti va barqarorligi uchun ekologik tarbiyaning ulkan ahamiyatiga to‘xtalilib, ushbu kunni “Ekologik bilimlar kuni” sifatida nishonlash taklif etilgandi. Bundan asosiy maqsad esa ekologik bilimlarni targ‘ib qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish, aholini dolzarb ekologik muammolar va atrof-muhit holati to‘g‘risida xabardor qilishdan iborat. Har yili dunyoning ko‘plab davlatlari qatori mamlakatimizda ham ushbu sana keng nishonlanishi sababi ham shundadir [5].

So‘nggi yillarda yurtimizda global rivojlanish va iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq ekologik muammolarning oldini olish va bartaraf etishda fuqarolarning ishtirokini ta’minlash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi belgilab qo‘yildi. 2030- yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturida aholining ekologik huquqlari va majburiyatlari o‘z aksini topdi. Jamiyatda huquqiy ong va ekologik madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Biroq jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirishda bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarda uzviylik mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

Ushbu masalada oila, mahalla va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan. Shu sababli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iste’mol madaniyatini shakllantirish maqsadida “yashil” iqtisodiyotni barpo etishga yoshlarni jalb etish bo‘yicha maxsus dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasini ishlab chiqish belgilandi.

Adabiyotlar tahlili.

Bugungi kunda barqaror ekologik muhitni yaratish, o‘quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishning yangi zamonaviy modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda “ekologik shaxs”ni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik vaziyat, uning keskinlashuvi, ekologik munosabatlar xarakterining o‘zgargani, ekologik muammolarning umumsayyoraviy tus olgani mutaxassislarning mavzuga e’tiborini nihoyatda kuchaytirdi. Jahon ilm-fanida bu borada ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Xususan, A.Berdimurotova, B.N.Omonov o‘z asarlarida Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik muammolarga doir ilmiy qarashlarini bayon qilganlar. Sh.O‘.Axrorova [1], G.N.Eshanova [3] dissertatsiyalarida shaxs ekologik ongini shakllantirish masalalari talqin etilgan. N.Z.Madaminova esa o‘z tadqiqotlarida diniy va dunyoviy qadriyatlarning ekologik tarbiyani shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida urg‘u beradi [4].

Ilmiy manbalar tasnifi va talqini ko‘rsatadiki, mutaxassislar, bir tomondan, zamonaviy ekologik jarayonlarning turli xususiyatlari va yo‘nalishlari, ikkinchi tomondan esa, davlat ekologik siyosatining asoslarini mufassal tadqiq qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ekologik madaniyat va diniy qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy transformatsiyasiga bag‘ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi mantiqiy uslublaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ham aholi orasida ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir vazifalar o‘rin olgan. Jahon ilm-fanida global ekologik muammolarning barcha sohalar rivojiga, atrof-muhit barqarorligiga, ekologik vaziyat xususiyatlari va munosabatlar xarakteriga ta’sirini ilmiy-nazariy o‘rganish, uning ijtimoiy munosabatlardagi rolini tadqiq etish, barqarorlikni ta’minlashda inson ekologik madaniyatini shakllantirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Turli ilmiy-nazariy va mafkuraviy jarayonlardan tahlil etilgan tadqiqotlar, ekologik madaniyat modellariga oid nazariyalar, ta’limotlar va g‘oyalar ekologik globallashuv jarayonida yoshlar ekologik madaniyatini yanada takomillashtirishni,uning ekologik ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishni va xalqaro standartlarga moslashtirishni ilgari surmoqda. Shu munosabat bilan o‘quvchilar ekologik madaniyatini yuksaltirishning, ta’lim muassasalari va ekologik tarbiyaga aloqador subyektlar vazifalarini optimallashtirishning ijtimoiy mexanizmlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta’minlash shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta’minlash maqsadida izchil ishlar olib borilmoqda [3].

Har qanday an’anaviy din insoniyat tarixida alohida o‘rin tutadi. Diniy ongi shakllanmagan xalq bo‘lmagan. Biroq odamlarning dinga munosabati vaqti-vaqti bilan turlicha takomillashib borgan. Buning uchun, avvalo, diniy qiziqish va bilim har bir ongli insonning ma’naviy ehtiyojlaridan kelib chiqadi. O‘zbek xalqi uchun, ayniqsa, mustaqillikning ilk kunlaridanoq bunday ma’naviy ehtiyoj alohida o‘rin tutadi. Xalqimizning o‘rta asrlarga borib taqaladigan tarixida diniy tinchlik va xalqlarning totuvligi masalasi doimo kun tartibida bo‘lib kelgan. Bunday jamiyatning yaxlitligi, o‘z navbatida, har bir dunyoviy davlatda erkin faoliyat yuritayotgan an’anaviy dinlarning bebaho boyligidir. Shu boisdan ham G.N.Eshanova “Diniy qadriyatlar tizimi ideal tarzda namoyon bo‘ladi, shuningdek inson ilohiy qonunlarni muqaddas qadriyat sifatida qabul qiladi. Diniy e’tiqod hamisha insoniyat axloqining poydevorini tashkil etib kelgan”, – deb ta’kidlaydi [4]. O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar o‘zini dunyoviy davlat sifatida shakllantirgan edi. Davlatimiz tomonidan diniy sohada jamiyatda totuvlik va hamjihatlikni saqlash, rivojlantirishga qaratilgan konstruktiv siyosat izchil olib borilib, bu borada ko‘plab dasturlar qabul qilindi. Ularni amalga oshirishda mamlakatimizdagi turli diniy birlashmalarning vakillari ishtirok etmoqda. Buning sababi bugungi kunda dunyoda etnik va diniy nizolarning ko‘pligidir. O‘zbekiston sharoitida diniy konfessiyalarning faoliyati va ularda qadriyatlarga munosabat orqali ekologik madaniyatni shakllantirishga teng imkoniyat yaratilgan. 30 yillik suverenitet davomida mamlakatimizda ana shunday hamkorlik va tinchlikka da’vat etuvchi diniy qadriyatlar masalasi doimo dolzarb bo‘lib kelgan. O‘zbek xalqi azaldan dinni milliy birdamlikning zaruriy sharti deb bilgan, shu bilan birga, milliy qadriyatlar va ma’naviyatga sodiq qolgan. Islom dini dastlab yurtimizga zo‘rlik bilan emas, tinch yo‘l bilan kirdi. O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida o‘z boshqaruv tizimida din ishlariga bevosita aralashmagan bo‘lsa-da, tinchlik va birodarlikni targ‘ib qiluvchi ko‘p asrlik diniy qadriyatlar xalq orasida chuqur ildiz otgan. O‘zbekiston tarixi bilan shug‘ullangan olimlar Sharqda tolerantlik qadimdan mavjudligini, xususan Kushonlar davlati tarixida turli diniy e’tiqod, qavm vakillari o‘zaro tinch-totuv, ahillikda yashagani, Markaziy Osiyoda, hatto siyosiy raqiblarning o‘zaro tolerant: xayrixohlik, bir-birini tushunish, rahmshafqat, murosa va sabr-toqat bilan munosabatda bo‘lganliklari haqida ko‘plab misollar keltirganlar va hozir ham bu fazilatlar o‘zgartirilmasdan saqlanib qolganligi haqida fikr yuritganlar [3].

Bu, o‘z navbatida, o‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosligi va diniy pozitsiyasi azaldan muvaffaqiyatli uyg‘unlashganidan dalolat beradi. Masalan, sunnat, er-xotinning nikohi, Qurbon hayitlari, motam, sadaqa, fitr, fotiha va boshqalar. Diniy an’analar o‘zining hayotiyligini isbotladi. O‘z navbatida “...diniy qadriyatlar har bir dinning muqaddas kitoblari, ta’limotlari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Borliqni, insonni Yaratuvchi, Boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi sifatida haqiqat, adolat, ezgulik, yaxshilik, saxovat, go‘zallik va boshqa ma’naviy barkamollikning oliy namunasi bo‘lgan Allohga munosabat qadriyatdir. Alloh yaratganlari ichida insonni Xalifa sifatida qadrini ulug‘laydi. Inson Yaratgan tomonidan yuborilgan axloqiy qonunlarni muqaddas qadriyat sifatida qabul qiladi hamda axloqiy normalar tizimi shakllanadi” [4].

Diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash o‘z navbatida ekologik madaniyatni yuksaltiradi. Binobarin, din sohasidagi axborot, ma’rifiy ishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri an’anaviy qadriyatlarni tiklashdan iboratdir. Sh.O‘.Axrorova ta’kidlaganidek, “Diniy qadriyatlar ham “milliylashgan” ko‘rinishda amal qilishi, diniy amal va qoidalar yaralishidayoq milliy amal va qoidalarga asoslanganligi, din chegara hatlab o‘tayotganda o‘z hududi milliy unsurlarini ham olib o‘tishini nazarda tutib, ijtimoiy siyosat milliy qadriyatlarni o‘rganish va takomillashtirishda mana shu uyg‘unlikni e’tiborga olish lozim” [1].

Din va an’ana yonma-yon bo‘lsa, din rivojlanadi, urf-odat boyib boradi, millat din ruhini his qiladi, uni qadriyat sifatida qabul qiladi. Ma’naviy qadriyatlarimiz dinimiz va ajdodlar an’analari o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikning o‘rganilgan mahsulidir. Binobarin, din va an’ana birligi o‘tmishimiz tarixi, kelajagimiz garovidir. An’anaviy qadriyatlar zamonaviy dunyoviy jamiyatlarda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi va ichki siyosiy jarayonlarni barqarorlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Nafaqat O‘zbekiston jamiyati, balki butun jahon hamjamiyati, jumladan, tarixiy taqdiri mushtarak bo‘lgan MDH davlatlari ham bu omilga alohida e’tibor qaratmoqda. Binobarin, millatni shakllantirish, qadriyatlarni himoya qilish mamlakatning ichki barqarorligi va davlat poydevori yaxlitligini himoya qilishdir. Diniy qadriyatlarning asosi tinchlik va totuvlikdir. Chunki faqat tinch-osoyishta hayot dindor kishiga Yaratgan oldidagi insoniy burchlarini bajarish imkonini beradi. Dunyoviy jamiyat nuqtayi nazaridan esa tinchlikning ahamiyati beqiyos. Din ham, dunyo ishlari ham faqat tinchlikda gullab-yashnaydi. Dinning ma’naviy salohiyati va asl mazmuni inson hayotiga chuqur ma’naviy mazmun baxsh etadi. Dinning faqat rasmiy tomoniga e’tibor qaratish va uning mazmunini nazardan chetda qoldirish – din tushunchasini cheklash, din institutlari doirasini toraytirish, uning hayotiyligi va moslashuvchanligiga sun’iy ravishda putur yetkazishdir. Binobarin, dinning ma’naviy qadriyatlari va salohiyatini to‘g‘ri baholab, undan to‘g‘ri foydalansak, jamiyatning ma’naviy saviyasi yuksaladi, dunyoviyligimiz yanada barkamol bo‘ladi. Bu borada bevosita diniy bilimlar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarga e’tibor qaratish lozim. Kishilik

jamiyati o‘zining butun taraqqiyoti davomida ma’naviy kamolotga e’tibor qaratgan. “Komil inson” ideali barcha jamiyatlarga, barcha dinlarga xosdir. Zero, ma’naviy barkamol inson din nuqtayi nazaridan gunohdan, qonun nuqtayi nazaridan jinoyatdan uzoqlashadi, u eng yaxshi axloqiy g‘oyalarga intiladi, insoniyat jamiyatining umumiy manfaati, yuksak ma’naviyatga xizmat qiladi. Shu boisdan ham Sh.O‘.Axrorova “Ijtimoiy siyosat milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda diniy qadriyatlarlarning takomillashuvini ham hisobga olishi lozim. Chunki, birinchidan, diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar elementlarisiz amal qilmaydi; ikkinchidan, ular o‘z navbatida milliy qadriyatlar shakllanishiga ta’sir qiladi; uchinchidan, ularning aksari azaldan muayyan urug‘-qabilalar an’analariga ilohiy tus berib, aqidaga aylantirilgan ko‘rinishidir; to‘rtinchidan, diniy ta’limot qaysi hududda yaralgan bo‘lsa, diniy qoidalarda o‘sha hudud xalqlari milliy amal va qoidalarining namoyon bo‘lishidir”, – deb yozadi [1].

Xulosa.

Bugungi kunda aholi o‘rtasida ekologik tarbiyani shakllantirish masalasini nafaqat axborot va targ‘ibot sohasi mutaxassislari, balki diniy birlashmalar vakillari har tomonlama targ‘ib etishi zarur. Shu bilan birga, har bir ma’ruza, nasihatlarni bugungi jamiyatning o‘ziga xos jihatlari, taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda aytish zarurligiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Axrorova Sh.O‘. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda milliy qadriyatlarning o‘rni. Fals.f.f.d. (PhD) dis. avtor.. – Samarqand, 2021. – 48 b.

2.Azamova.S.A. Ekologik globallashuv sharoitida o‘zbekiston umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDu, 2024. – 49 b.

3.Eshanova G.N. Diniy qadriyatlar va tasviriy san’at integrasiyasining shaxs ma’naviyatiga ta’siri. Fals. fan. nom. ...dis. avtor.. –Toshkent, 2011. – 47 b.

4.Madaminova N.Z. Diniylik va dunyoviylik konvergensiyasi. Zamonaviy ta’lim. – Toshkent. 2018. № 9. – B.23-28.

5.Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. и др. Дальверзинтепе – кушанский город на юге Узбекистана. – Ташкент, 1978. – 292 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Sodiqov Abduhalil Abduqaxxor o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Is`hoqxon Ibrat nomidagi Namangan Davlat chet tillari instititi "Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya"kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

ZIYOLI MAFKURASI- KELAJAK POYDEVORI

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy jamiyatda ziyolilar mafkurasining ahamiyati va uning kelajak avlod tarbiyasidagi o'rnini tahlil qiladi. Maqolada ziyolilar mafkurasining ilmiy paradigmalarni yangilash, milliy va jahon ilm-fanini uyg'unlashtirish, innovatsion g'oyalarni ilmiy asoslash, ilmiy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash kabi asosiy vazifalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada tanqidiy fikrlashning epistemologik ahamiyati, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishning dolzarbligi va O'zbekiston ziyolilari oldida turgan strategik vazifalar tahlil qilingan. Yangi O'zbekiston ziyolilari mafkurasining shakllanishi ilmiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan mamlakatning XXI asrda raqobatbardosh davlatga aylanishida muhim rol o'ynashi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *ziyolilar mafkurasi, tanqidiy fikrlash, ilmiy paradigmalar, innovatsion g'oyalar, xalqaro ilmiy hamkorlik, epistemologiya, ma'naviy taraqqiyot.*

Содиков Абдухалил Абдукаххорович
Независимый исследователь Намаганского государственного педагогического института
Стажёр-преподаватель кафедры «Гуманитарные науки и физическое воспитание» Наманганского государственного института иностранных языков имени Исхокхона Ибрата

ИДЕОЛОГИЯ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ — ОСНОВА БУДУЩЕГО

Аннотация: *В статье анализируется важность идеологии интеллигенции в современном обществе и ее роль в воспитании будущего поколения. В статье рассматриваются основные задачи интеллектуальной идеологии, такие как обновление научных парадигм, интеграция национальной и мировой науки, научное обоснование инновационных идей и связь научных знаний с практикой. Также в статье анализируется эпистемологическое значение критического мышления, актуальность развития международного научного сотрудничества и стратегические задачи, стоящие перед интеллигенцией Узбекистана. Подчеркивается, что формирование идеологии интеллигенции нового Узбекистана с научной, духовной и социальной точки зрения играет важную роль в превращении страны в конкурентоспособное государство в XXI веке.*

Ключевые слова*: идеология интеллигенции, критическое мышление, научные парадигмы, инновационные идеи, международное научное сотрудничество, эпистемология, духовное развитие.*

Sodiqov Abdukhalil Abduqahkhor ogli
Independent Researcher at Namangan State Pedagogical Institute
Trainee Lecturer at the Department of "Humanities and Physical Education," Ishoqkhan Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages

THE IDEOLOGY OF THE INTELLIGENTSIA — THE FOUNDATION OF THE FUTURE

Abstract: *This article analyzes the importance of intellectual ideology in modern society and its role in the education of future generations. The article examines the main tasks of intellectual ideology, such as updating scientific paradigms, integrating national and world science, scientific substantiation of innovative ideas, and connecting scientific knowledge with practice. The article also analyzes the epistemological significance of critical thinking, the relevance of developing international scientific cooperation, and the strategic tasks facing the intellectuals of Uzbekistan. It is emphasized that the formation of the ideology of intellectuals of New Uzbekistan from scientific, spiritual, and social perspectives plays an important role in transforming the country into a competitive state in the 21st century.*

Keywords: *intellectual ideology, critical thinking, scientific paradigms, innovative ideas, international scientific cooperation, epistemology, spiritual development.*

Kirish. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi uning ma'naviy-mafkuraviy asoslarining qanchalik mustahkam ekanligiga bog‘liq. Bu jarayonda ziyolilar qatlami va ularning dunyoqarashi, mafkuraviy pozitsiyasi muhim o‘rin tutadi. Ziyolilar mafkurasi - jamiyat taraqqiyotining ma'naviy kompasi, milliy rivojlanishning nazariy asosi hisoblanadi. Har bir zamon va davrda ziyolilar, o‘zlarining bilim va ma'naviyatlarini jamiyatga singdirish orqali ijtimoiy o‘zgarishlar va yangilanishlarga turtki berib kelganlar. Ularning mafkuralari jamiyatni yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ziyolilar, jamiyatning bilimdon, ma'naviy yetakchilari sifatida, ijodiy fikrlash, erkin tafakkur, va ijtimoiy mas'uliyat kabi tamoyillarni ilgari suradilar. Ular o‘z faoliyatlari orqali jamiyatni barqaror rivojlantirishga, zamonaviy muammolarni hal qilishga va yosh avlodni yuksak axloqiy va ilmiy qarashlar asosida tarbiyalashga hissa qo‘shadilar. Ziyolilar mafkurasining shakllanishi, nafaqat jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, balki ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Zamonaviy jamiyatda ziyolilar qatlami nafaqat bilim va madaniyat tarqatuvchilari, balki yangi ilmiy qarashlar, g‘oyalar va paradigmalarni shakllantirishdagi asosiy kuch hisoblanadi. Ilmiy paradigmalarni yangilash va zamonaviylashtirish vazifasi bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vazifani quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish mumkin:

1. Ilmiy bilimlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish – Har qanday jamiyat taraqqiyotida ilmiy bilimlarni muntazam ravishda tanqidiy qayta ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon eskirgan qarashlardan voz kechish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va mavjud bilimlarni zamonaviy kontekstda qayta tushunishni o‘z ichiga oladi. Olim A. Aripov ta'kidlaganidek: "Bizning jamiyatimiz o‘tgan asrning ko‘plab ilmiy-nazariy qarashlaridan tanqidiy yondashib, zamonaviy talablar asosida xolis baholash orqali xalos bo‘lishi zarur".

2. Milliy va jahon ilm-fanini uyg‘unlashtirish – Zamonaviy dunyoda ilm-fan chegaralarni tan olmay di. Shu bilan birga, har bir millat o‘z ilmiy an'analariga, tadqiqot usullariga va ustuvor yo‘nalishlariga ega. Ziyolilarning muhim vazifalaridan biri milliy ilmiy qadriyatlarni saqlagan holda, jahon ilm-fani yutuqlarini o‘zlashtirish va ularni mahalliy kontekstga moslashtirishdir. Professor Nodira Egamberdieva shunday yozadi: "Milliy ilmiy maktablarning o‘ziga xos jihatlarini saqlab qolgan holda, global ilmiy jamoatchilik bilan integratsiyalashish – bugungi kunning dolzarb talabi hisoblanadi. Bu jarayon bir tomonlama bo‘lishi mumkin emas; biz ham jahon ilmiy hamjamiyatiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim".

4. Innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ilmiy asoslash – Innovatsiyalar zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq, har qanday innovatsiya ilmiy asosga ega bo‘lishi, amaliy tajribada sinab ko‘rilishi va jamiyat talablariga mos kelishi zarur. Ziyolilarning vazifasi innovatsion g‘oyalarni ilmiy jihatdan asoslash, ularning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlashtirish, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ishlab chiqishdir. Professor Davron Asqarov shunday yozadi: "Innovatsion g‘oyalarning ilmiy asoslanishi – bu ularning amaliy qiymatini oshirishning zaruriy shartidir. Buning uchun fundamental va amaliy tadqiqotlarni bir-biriga bog‘lash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur".

5. Ilmiy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash Zamonaviy jamiyatda ilmiy bilimlar nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy muammolarni hal qilishda bevosita qo‘llaniladi. Shuning uchun ziyolilarning muhim vazifalaridan biri ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash, ilmiy natijalarni real hayotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Akademik Maruf Jalilov bu haqda shunday deydi: "Ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi uzilish – bu bizning eng jiddiy muammolarimizdan biridir. Ziyolilar bu ikki soha o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarishlari, ilmiy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilishga yo‘naltirishlari lozim".

Ziyolilar mafkurasining ilmiy paradigmalarni yangilash va zamonaviylashtirish vazifasi jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchi hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda tez sur'atlar bilan o‘zgarayotgan ilmiy manzara barcha sohalarda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ilmiy bilimlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish orqali eskirgan qarashlardan voz kechib, zamonaviy talqinlarni ilgari surish imkoniyati yaratiladi. Milliy va jahon ilm-fani yutuqlarini uyg‘unlashtirish milliy ilmiy qadriyatlarni saqlagan holda global ilmiy hamjamiyat bilan integratsiyalashishga xizmat qiladi. Innovatsion g‘oyalarni ilmiy asoslash ularning amaliy qimmatini oshiradi va jamiyat hayotiga samarali tatbiq etilishini ta'minlaydi. Ilmiy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash esa ilm-fan va hayot o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etib, ilmiy kashfiyotlar va nazariyalarning real muammolarni hal etishga yo‘naltirilishini kafolatlaydi. Bu yo‘nalishlarda olib boriladigan izchil harakatlar natijasida zamonaviy ziyoli nafaqat bilimlarni tarqatuvchi, balki yangi bilimlar va paradigmalarni yaratuvchi kuchga aylanadi. Shu tariqa zamonaviy ilmiy paradigmalar jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida sifat o‘zgarishlarini ta'minlab, milliy rivojlanishga xizmat qiladi va global raqobatbardoshlikni oshiradi

Yangi O‘zbekiston ziyolilari milliy ilm-fan taraqqiyotini ta'minlash jarayonining falsafiy mohiyati

an'anaviy epistemologik paradigmalardan transformatsion o‘tish, bilishning yangi metodologik qurilmalarini shakllantirish, gnoseologik chegaralarni kengaytirish va voqelikni tadqiq etishning innovatsion dialektikasini yaratishda namoyon bo‘ladi. Epistemologik nuqtai nazardan, zamonaviy ilmiy bilish faqat bilimlarni kumulyativ to‘plash emas, balki mavjud bilimlar tizimining ichki qarama-qarshiliklarini aniqlash, ularni dialektik inkor etish va yangi sintezga erishish orqali ro‘y beradi.

Qadimgi yunon skeptiklari - Pirron, Sekst Epikiur va ularning izdoshlari ilgari surgan falsafiy konsepsiyalardagi epistemologik shubha va tanqidiy fikrlash bugungi zamonaviy ilm-fanining metodologik poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Skeptitsizm falsafiy doktrinasi barcha mavjud bilimlarni shubha ostiga olish, har qanday fikrni tanqidiy tahlil qilish orqali haqiqatga yaqinlashish mumkinligini ta'kidlagan. Bu epistemologik pozitsiya bugungi ilmiy-texnik taraqqiyot davrida yanada dolzarblashmoqda.

Professor Sirojiddinovning "Tanqidiy fikrlash ilmiy tadqiqotlarning asosiy mezoni bo‘lib, mavjud bilimlarni tahlil qilish, qayta ko‘rib chiqish va yangi g‘oyalarni ilgari surish imkonini beradi" degan fikri falsafiy nuqtai nazardan Rene Dekartning "metodologik shubha" prinsipi bilan uzviy bog‘lanadi. Dekartning "Fikrlayman, demak mavjudman" tezisi zamonaviy epistemologiyaning tamal toshi bo‘lib, har qanday bilimni tanqidiy tahlil qilish orqaligina uning haqiqatligini aniqlash mumkinligini ko‘rsatadi.

Tomas Kunning ilmiy paradigmalar almashinuvi nazariyasi ta'kidlaganidek, ilm-fan taraqqiyoti evolutsion emas, balki revolutsion tarzda, ya'ni mavjud paradigmalarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish va ularni yangilari bilan almashtirish orqali ro‘y beradi. Yangi O‘zbekiston ziyolilari aynan ana shu paradigmatik o‘zgarishlarning subjektlari bo‘lishlari, faqat mavjud bilimlarni reproduksiya qilish emas, balki ularni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish orqali yangi bilimlar yaratishlari talab etiladi. Karl Popperning falsafiy konsepsiyasida taklif etilgan "falsifikatsiya" prinsipi ham zamonaviy ilm-fanning epistemologik asosini tashkil etadi. Bu prinsipga ko‘ra, har qanday ilmiy nazariya faqat uni inkor etish imkoniyati mavjud bo‘lgandagina haqiqiy ilmiy nazariya hisoblanadi. Shu ma'noda, tanqidiy fikrlash nafaqat mavjud bilimlarni shubha ostiga olish, balki o‘z nazariyalariga ham tanqidiy munosabatda bo‘lishni talab etadi.

Bekon ta'biri bilan aytganda, zamonaviy olim "idollar"dan (tafakkurdagi stereotiplar, dogmalar, aqlni chalg‘ituvchi noto‘g‘ri tasavvurlar) xoli bo‘lishi lozim[61]. Binobarin, tanqidiy tafakkur aqlni "idollar"dan tozalash va haqiqatga yaqinlashishning muhim vositasi hisoblanadi. Gegel dialektikasidagi "inkor etishni inkor etish" qonuni ilmiy bilimlarning dialektik taraqqiyotini ifodalaydi. Bu jarayonda yangi bilimlar eskisini inkor etish orqali paydo bo‘ladi, ammo eski bilimlarning ratsional mag‘zini o‘zida saqlab qoladi. Shu ma'noda, tanqidiy fikrlash dialektik inkor etish jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

Kant ta'kidlaganidek, tanqidiy tafakkur insonning intellektual emansipatsiyasiga, ya'ni aqlan ozodlikka erishishining zaruriy shartidir[62]. Immanuel Kantning "Tanqidiy Falsafa" triptixida ilgari surilgan g‘oyalar inson aqlining imkoniyatlari va chegaralarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash orqali ilmiy bilimlarning mustahkam poydevorini yaratish mumkinligini ko‘rsatib bergan.

Tanqidiy fikrlash falsafiy kontekstda faqat bilish nazariyasiga tegishli tushuncha emas, balki zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy transformatsiyalarning ham asosiy drayveri hisoblanadi[63]. Yurgen Habermasning kommunikativ ratsionallik nazariyasi tanqidiy fikrlashning ijtimoiy o‘lchamini ochib bersa, Mishel Fukoning bilim va hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlar tahlili tanqidiy fikrlashning siyosiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston ziyolilari ham tanqidiy fikrlashni epistemologik, metodologik va aksiologik poydevor sifatida qabul qilishlari, uni nafaqat ilmiy tadqiqotlar jarayonida, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarida qo‘llashlari lozim. Zero, antik davr skeptiklari aytganidek, "Haqiqat ma'budasi oyoqlarimiz ostida emas, balki bizning oldimizda, bizning harakatlarimiz yo‘nalishida yashiringan". Shu ma'noda, tanqidiy fikrlash ilm-fan va jamiyat taraqqiyotining abadiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib qoladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, yangi O‘zbekiston ziyolilari mafkurasining asosiy vazifasi tanqidiy tafakkurni epistemologik, metodologik va aksiologik poydevor sifatida jamiyatga singdirish orqali milliy ilm-fan taraqqiyotini ta'minlash, insonlarni dogmatik fikrlashdan xalos etib, aqliy faollikka undash hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida ilmiy yondashuvni ustuvor qilishdan iborat. Faqat tanqidiy fikrlash madaniyatini o‘zlashtirgan ziyolilar bilan qurollangan jamiyatgina XXI asrda global raqobatbardoshlikka va barqaror taraqqiyotga erisha oladi.

Muhokama. Zamonaviy ilm-fan globallashuv sharoitida rivojlanmoqda. Shu bois, ziyolilar mafkurasining yana bir muhim vazifasi – xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish borasida ziyolilarning vazifalari

[61] Bekon F. Yangi Organon. O'zbekchaga tarjima. – Toshkent: "Fan", 2018. – 112-b.

[62] Kant I. Sof aqlning tanqidi. O'zbekchaga tarjima. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. – 175-b.

[63] Abdullayev Z. Zamonaviy jamiyatda tanqidiy tafakkur. – Toshkent: "Akademiya", 2023. – 148-b.

esa quyidagicha: Bugungi globallashuv sharoitida hech bir davlat ilm-fan sohasida izolyatsiya qilingan holda rivojlana olmaydi. Dunyoning barcha mamlakatlarida, ayniqsa, rivojlangan davlatlarda ilm-fan sohasining taraqqiyoti xalqaro hamkorlik va integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ko‘pincha ko‘p milliy jamoalar tomonidan olib boriladi, ilmiy natijalar xalqaro jurnallarda chop etiladi va yuqori nufuzli xalqaro konferensiyalarda muhokama qilinadi. Shuning uchun, O‘zbekiston ilm-fani oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - jahon ilmiy hamjamiyati bilan faol integratsiyalashuvni ta'minlash, rivojlangan davlatlarning yetakchi ilmiy markazlari bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o‘rnatishdir. Bu vazifaning muhimligini davlat rahbariyati ham to‘liq anglaydi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmonida qayd etilganidek: "Xalqaro ilmiy markazlar va institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish orqali mamlakatimiz ilm-fanini jahon miqyosiga olib chiqish imkoniyati yaratiladi". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro ilmiy markazlar va institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish orqali mamlakatimiz ilm-fanini jahon miqyosiga olib chiqish imkoniyati yaratiladi" degan fikri strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatimiz ilm-fani taraqqiyotining asosiy yo‘nalishini belgilab beradi. Xalqaro ilmiy hamkorlik nafaqat zamonaviy bilimlar va texnologiyalarni o‘zlashtirish, balki milliy ilm-fanning yutuqlarini jahon miqyosida namoyish etish, O‘zbekiston olimlarining xalqaro ilmiy hamjamiyatdagi mavqeini mustahkamlash imkonini beradi. Bunday hamkorlik o‘zbek olimlarining ilmiy salohiyatini oshirishga, ilg‘or metodologiya va uskunalar bilan tanishishga, global muammolar yechimida ishtirok etishga yo‘l ochadi.

Xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishda O‘zbekiston olimlarining xorijiy tillarni bilishi, xalqaro loyihalarda ishtirok etish uchun zarur ko‘nikmalarni egallashi, taniqli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan qabul qilingan farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ilmiy muassasalar va oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, ilmiy jamoalar, alohida olimlar va ziyolilar faol harakat qilishlari, strategik hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga intilishlari va pirovard natijada O‘zbekiston ilm-fanini jahon miqyosiga olib chiqishga hissa qo‘shishlari lozim. Faqatgina xalqaro hamkorlikni kengaytirib, qo‘shma tadqiqotlarni amalga oshirib, O‘zbekiston XXI asrda rivojlangan ilm-fan mamlakatiga aylanishi mumkin. Zamonaviy global ilmiy muhitda har bir mamlakat o‘zining ilmiy salohiyati va erishgan yutuqlari bilan baholanadi. Bugungi kunda ilmiy-tadqiqot natijalarining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri - bu xalqaro nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar soni va sifatidir. Web of Science, Scopus kabi xalqaro ilmiy-ma'lumot bazalarida indekslanadigan jurnallarda maqolalar chop etish nafaqat mazkur tadqiqotning ilmiy qimmatini tasdiqlaydi, balki tadqiqotchining va umuman, uning mansub bo‘lgan mamlakatining ilmiy salohiyatini ham namoyon etadi. Xalqaro ilmiy hamjamiyat ilmiy maqolalarning soni, ularning iqtibos keltirilish darajasi va h-indeks orqali nafaqat alohida olingan olimlarning, balki butun bir mamlakatning ilmiy salohiyatini baholaydi. Shuning uchun ham O‘zbekiston ilm-fani oldida o‘z tadqiqot natijalarini xalqaro nufuzli jurnallarda chop etish orqali mamlakatimiz ilmiy salohiyatini jahon ilmiy hamjamiyatiga taqdim etish vazifasi turibdi. Professor Dilshod Rahimov ta'kidlaganidek: "O‘zbek olimlarining xalqaro nufuzli jurnallarda maqolalar chop etishi nafaqat individual yutuq, balki mamlakat ilm-fani obro‘sini oshirishning muhim omilidir". Professor Dilshod Rahimov "Ilmiy natijalarni xalqaro miqyosda tarqatish" nomli tadqiqotida: "O‘zbek olimlarining xalqaro nufuzli jurnallarda maqolalar chop etishi nafaqat individual yutuq, balki mamlakat ilm-fani obro‘sini oshirishning muhim omilidir". Professor Dilshod Rahimovning "O‘zbek olimlarining xalqaro nufuzli jurnallarda maqolalar chop etishi nafaqat individual yutuq, balki mamlakat ilm-fani obro‘sini oshirishning muhim omilidir" degan fikri bugungi O‘zbekiston ilm-fani uchun strategik ahamiyatga ega. Xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan har bir maqola - bu O‘zbekiston ilm-fani yutuqlarini jahonga namoyon etishning, mamlakatimiz ilmiy salohiyatini ko‘rsatishning va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishning muhim vositasidir.

Bu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat darajasida ilmiy tadqiqotlarga qaratilgan e'tiborni oshirish, ilmiy infrastrukturani takomillashtirish, olimlarning xorijiy tillarni o‘rganishini rag‘batlantirish va xalqaro ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirish zarur. Shuningdek, olimlarning o‘zlari ham xalqaro standartlarga javob beradigan, dolzarb va innovatsion tadqiqotlar olib borish, xalqaro ilmiy jurnallar talablariga to‘liq javob beradigan maqolalar tayyorlash va xalqaro hamkorlarni jalb qilish orqali O‘zbekiston ilm-fanini jahon miqyosiga olib chiqishga hissa qo‘shishlari muhimdir.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston ziyolilari mafkurasining ilmiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan o‘rni zamonaviy jamiyatda juda katta ahamiyatga ega. Ularning vazifasi faqat ilm-fan va madaniyat sohalarini rivojlantirish emas, balki zamonaviy dunyoda amalga oshiriladigan transformatsion jarayonlarga ta'sir ko‘rsatishdir. Ziyolilarning mafkurasida tanqidiy fikrlash va innovatsion g‘oyalar asosiy o‘rinni egallaydi, chunki bugungi global muhitda jamiyatni barqaror rivojlantirish uchun yangicha yondashuvlar va metodologiyalar talab etilmoqda. Umuman olganda, yangi O‘zbekiston ziyolilari

mafkurasining ilmiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan shakllanishi, shuningdek, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekistonning XXI asrda ilmiy va madaniy jihatdan rivojlangan, raqobatbardosh davlatga aylanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon davomida ziyolilarning ilmiy va axloqiy yondashuvlari, tanqidiy fikrlash va innovatsion g‘oyalarni qo‘llash orqali jamiyatning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aripov A. "Zamonaviy jamiyatda ilm-fan va ta'limning roli". Toshkent, 2023, 45-bet.
2. Egamberdieva N. "Milliy ilmiy maktablar va global integratsiya". Samarqand, 2022, 78-bet.
3. Asqarov D. "Innovatsiyalar va ilmiy asoslanish". Buxoro, 2023, 112-bet.
4. Jalilov M. "Ilm-fan va amaliyot: integratsiya muammolari". Toshkent, 2024, 67-bet.
5. Nazarov Q. Bilish falsafasi. – Toshkent: "Universitet", 2021. – 127-b.
6. Sultanov A. Falsafa tarixidan lavhalar. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2022. – 98-b.
7. Sirojiddinov Sh. Zamonaviy ilm-fan metodologiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021. – 73-b.
8. Kuhn T. The Structure of Scientific Revolutions. – Chicago: University of Chicago Press, 1962. – P. 45. (O‘zbekchaga tarjima: Toshkent, "Fan", 2019 y)
9. Popper K. The Logic of Scientific Discovery. – London: Routledge, 1959. – P. 78-79. (O‘zbekchaga tarjima: Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2020)
10. Bekon F. Yangi Organon. O‘zbekchaga tarjima. – Toshkent: "Fan", 2018. – 112-b.
11. Hegel G. Ruh fenomenologiyasi. O‘zbekchaga tarjima. – Toshkent: "Falsafa va huquq instituti", 2019. – 203-b.
12. Kant I. Sof aqlning tanqidi. O‘zbekchaga tarjima. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2018. – 175-b.
13. Abdullayev Z. Zamonaviy jamiyatda tanqidiy tafakkur. – Toshkent: "Akademiya", 2023. – 148-b.
14. Fayzullayev O. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: "Universitet", 2022. – 215-b.
15. Yunon falsafasida skeptisizm. O‘zbekchaga tarjima. – Toshkent: "Fan", 2023. – 67-b.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-6097-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
17. Rahimov D. Ilmiy natijalarni xalqaro miqyosda tarqatish // Xalqaro ilmiy aloqalar. – 2023. – №2. – B. 45-52.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Sirojbek Sultanov
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD
E-mail: sirojbek.sultanov@mail.ru
TDTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

UDK:321.(51)

IJTIMOIY-HUQUQIY DAVLATNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy-huquqiy davlat tushunchasi, uning nazariy va tarixiy asoslari, shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ijtimoiy-huquqiy davlat qurilishi yo‘lida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, konstitutsiyaviylik, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, demokratiya, islohotlar.*

Sirojbek Sultanov
Associate Professor of Tashkent State Transport University, Candidate of Technical Sciences
According to the commentary of the professor of TDTRU J. Ramatov,
Doctor of Physical and Mathematical Sciences.

CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE SOCIAL-LEGAL STATE

Annotation: *This article covers the concept of the social-legal state, its theoretical and historical foundations, stages of formation and its role in the modern state administration system. It also analyzes the content and essence of the reforms being carried out in Uzbekistan to build a social-legal state.*

Keywords: *legal state, social state, constitutionalism, rule of law, human rights, democracy, reforms.*

Сироджбек Султанов
Доцент, кандидат технических наук, Ташкентский государственный транспортный университет
По отзыву профессора ТДТрУ Ж. Раматова, д.ф.-м.н.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОГО ГОСУДАРСТВА

Аннотация: *В статье рассматривается понятие социально-правового государства, его теоретические и исторические основы, этапы становления и его роль в современной системе государственного управления. Анализируются содержание и суть проводимых в Узбекистане реформ по построению социально-правового государства.*

Ключевые слова: *правовое государство, социальное государство, конституционализм, верховенство права, права человека, демократия, реформы.*

Kirish. Ijtimoiy-huquqiy davlat zamonaviy siyosiy-huquqiy tafakkurning muhim natijalaridan biri bo‘lib, unda davlat hokimiyati qonuniylik, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash prinsiplariga asoslanadi. Bu tushuncha XIX–XX asrlarda shakllangan bo‘lsa-da, uning ildizlari qadimgi yunon falsafasi va Rim huquqi tizimiga borib taqaladi. Bugungi kunda demokratik jamiyatlarni shakllantirish va barqaror rivojlantirishda ijtimoiy-huquqiy davlat konsepsiyasi muhim rol o‘ynamoqda. Bugungi kunda demokratik huquqiy davlat hamda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish masalasi O‘zbekiston davlat siyosatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, O‘zbekiston Respublikasi o‘z davlat boshqaruvini tarixiy-milliy tajribaga asoslanib, xalqaro huquqiy standartlarga muvofiq amalga oshirmoqda. Ilg‘or rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-huquqiy davlat konsepsiyasini amaliyotda qo‘llash orqali umumxalq manfaatlarini to‘la to‘kis ifoda etish va davlat boshqaruvida tizimli boshqaruvni samarali yo‘lga qo‘yish mumkin. Umumxalq manfaatlarini to‘la to‘kis ifoda etish inson huquqlari, erkinliklari va ularning qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishni nazarda tutsa, davlat boshqaruvida tizimli samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish xalq manfaatlarini ifoda etishda hal qiluvchi o‘rin

tutuvchi davlat mexanizmini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham mazkur masalaga alohida e’tibor qaratiladi. O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur iste’mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi. Fuqarolar munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi ajratish, bandlikni ta’minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishni ko‘zda tutadi. Sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi. Qayd etish lozim, ijtimoiy davlat – har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishishini ta’minlash, ijtimoiy tafovutni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun moddiy boyliklarni adolat tamoyiliga muvofiq taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Ijtimoiy davlatning konseptual asoslariga oid tadqiqotlar yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konnstitutsiyasi, O‘zbekiston Resprublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sohaga oid nutqlari, A.A. Azizxo‘jayev, F.Musayev, B.U. Tadjixanov, Z. Islamov, A. V. Malkov, A. F. Cherdansev, V. A.Chetvernin, R.Baratov larning qator ilmiy ishlaridan keng foydalangan holda ochib berildi.

O‘z navbatida ta’kidlab o‘tish kerakki, huquqiy davlat doktrinasi bir qator huquqshunos olimlar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Misol uchun A.A.Azizxo‘jayevning —Davlatchilik va ma’naviyat nomli maqolalar to‘plamida ma’naviyat - O‘zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy davlatning asosiy poydevorlaridan biri ekanligi har tomonlama asoslab berilgan; demokratiya, huquqiy davlatchilik, davlat hokimiyati tizimlari tushunchalari atroflicha tahlil qilingan. Akademik M.Sharifxo‘jayevning monografiyasida yuksak huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqiy davlatning belgilari va ularning ahamiyati, shuningdek, huquqiy davlatning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari bilan bog‘liq jihatlar ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan. F.Musayevning —Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari asarida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni barpo etishning o‘zaro bog‘liqligi, ularni bir-biridan ajralmas holda barpo etish mumkin emasligi asoslab berilgan, huquqiy davlat doktrinasining konstitutsiyaviy asoslari, asosiy prinsiplari tahlil etilgan. B.U.Tajixanovning nomzodlik dissertatsiyasida huquqiy davlat barpo etishda davlat huquqiy islohotlarining obyektiv zarurati, huquqiy davlat prinsiplariga oid masalalar ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “ijtimoiy davlat” tushunchasi ilk bor 1850 yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo‘llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o‘rnatish, quyi va kam ta’minlangan tabaqalarni boylar va qudratlilar darajasiga ko‘tarishdan iborat, deb hisoblagan. Milliy davlatchiligimiz tarixini o‘rganganimizda ham “ijtimoiy davlat” tushunchasi shunga o‘xshash nomlarda ko‘plab uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan “ijtimoiy davlat” tamoyilining mazmun-mohiyati hisoblanadi. Shunga o‘xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin. Prezidentimiz ushbu tushunchani izohlar ekan, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir”, deya ta’rif bergan edi. Mazkur ilmiy maqolada qiyosiy tahlil, tarixiylik, dalillash, tashqi va ichki kuzatuv kabi metodlardan foydalanildi.

Natijalar. Mustaqillikning o‘ttiz uchinchi yiliga kelib davlatimizda jamiyat rivoji mohiyatan va shaklan jihatdan yangi bosqichga kirib bormoqda. Asosiy qonunga o‘zgartishlar kiritish bo‘yicha olib borilayotgan siyosiy-huquqiy harakatlar, jumladan, inson-jamiyat-davlat konsepsiyasining huquqiy rasmiylashtirilishi ijtimoiy davlat yangi paradigma sifatida jamiyatning mutlaqo yangi siyosiy-huquqiy tizimi sifatida rivojlanayotganidan dalolat bermoqda. Istiqbolda o‘zimizda va jahonda taraqqiy etgan hozirgi zamon davlatchiligining tajribasi asosida yangi davlat va jamiyat shakllanmoqda. Konstitutsiyaga o‘zgartishlar kiritish jarayonining dastlabki tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlangan harakatlarda keng jamoatchilikning, ayniqsa, yoshlarning faol ishtiroki kuzatilmoqda, kuniga minglab taklif va mulohazalar bildirilmoqda. “Ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu g‘oyaning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib beradi. U ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir. Shuningdek, ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo‘lgan iste’mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi. Shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta’minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishni talab qiladi. Avvalambor shuni aytish kerakki, dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, ijtimoy davlat bu jamiyatning siyosiy tashkiloti, ya’ni tom ma’noda davlatdir. Ijtimoiy

davlat o‘z siyosatida ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib, faoliyat yuritadi. Asosiy maqsad – jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdan iboratdir. Bunda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishiga, ya’ni ular o‘rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf-xarajatlar bo‘yicha farqlarning kattalashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizim orqali yordam ko‘rsatiladi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, maqsad yaratilgan ne’matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo‘lishini ta’minlashdan iborat.

Muhokama. Jahondagi “ijtimoiy davlat” mavqeiga ega mamlakatlar iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan, jamiyatning iqtisodiyot tuzilishi ijtimoiy yo‘naltirilgan, fuqarolik jamiyati shakllangan, davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish tizimi mavjud, har bir kishiga munosib turmush sharoiti ta’minlanadi, har bir shaxs o‘zini namoyon qilishi uchun teng sharoit yaratilgan, davlatning o‘z fuqarolari oldidagi ijtimoiy ma’suliyati kuchli. Ijtimoiy davlatning vazifalari borasida ilg‘or mamlakatlar tajribasi tahliliga ko‘ra, aholining ijtimoiy jihatdan himoyalanmagan qismi - ishsiz, pensioner yoki imkoniyati cheklangan shaxslarni, oilani, onalik, otalik va bolalikni qo‘llab-quvatlash, sog‘liq va mehnatni himoyalash, daromadni qayta taqsimlash orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yo‘qotish, madaniyat va ta’lim loyihalari dasturlarini moliyaviy rag‘batlantirish va ishsizlikka qarshi kurashish ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir.

Ijtimoiy ta’minot tizimi ijtimoiy sug‘urta shaklida vujudga kelgan. Bunda nafaqa, ishsizlik bo‘yicha nafaqa, davlat byujeti hisobidan va homiy jamg‘armalar tomonidan ajratiladigan to‘lovlar tushuniladi. Xalq farovonligining asosiy ko‘rsatkichi qashshoqlik darajasi orqali belgilanadi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 10 foizdan oshmaydi. Masalan, Shvetsiyada bu ko‘rsatkich 4 foiz atrofida. Jahondagi sotsial-demokratik harakatlarning asosiy mazmunini ijtimoiy davlatning yaratuvchanlik va uning vositasida aholini o‘ziga jalb qilish orqali davlatni boshqarishga harakat tashkil etadi. O‘z navbatida, bu usul ko‘pgina davlatning konstitutsiyalarida hamda boshqa qonunlarida aks etgan. Davlat tomonidan ijtimoiy kafolat iqtisodiyot (avvalambor, yirik biznes) va soliq siyosatini boshqarish orqali ta’minlanadi. Shuningdek, bu g‘oyalar va siyosat oldingi sotsialistik g‘oyalardan keskin farq qiladi. Sotsialistik g‘oyalarga asoslangan sobiq ittifoq tizimiga aholini mulksiz qilib quyish, fuqarolarning ijtimoiy kafolati faqat qog‘ozlarda qolib ketishi, ijtimoiy mas’uliyat, ijtimoiy raqobatning yo‘qligi xos edi. Natijada aholining ijtimoiy faolligi pasayib ketgan. Kelajakni yaratish, yangilanishga, o‘zgarishlarga bo‘lgan harakat qo‘llabquvvatlanmagan, natijada ijtimoiy mobillik va ijtimoiy yaratuvchanlik yo‘qolib ketgan. Umuman, bu tajriba jamiyat uchun teskari natija berishini hayotning o‘zi tasdiqladi. Lekin tarixning boshqa kesimida ijtimoiy davlatchilik tajribasini ilgari surgan G‘arb davlatlarida katta ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Mutaxassislar tomonidan xorijiy davlatlarning ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida ijtimoiy davlatning uchta modeli Skandivaniya , Kontinental , Amerika-Buyuk britaniya modellari ajratiladi. Birinchidan, Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya davlatlari Skandinaviya modelini o‘zida namoyon qiladi. Bu mamlakatlarda davlat byudjetni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy xarajatlarning anchagina qismini o‘z bo‘yniga oladi. Bu davlatlar o‘z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish uchun mas’ul bo‘ladi. Bu faoliyat davlat byujeti va ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish asosan munitsipalitetlar, ya’ni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ikkinchidan, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan. Bu davlatlarda davlat asosan aholining muhtoj qismiga ijtimoiy yordam pullarini berishga mas’ul hisoblanadi. Lekin aholiga davlat ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanmaydi. Ijtimoiy xarajatlar davlat va xususiy ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari tomonidan qoplanadi. Ya’ni ijtimoiy ta’minot byujetdan ajratiladigan mablag‘lar hamda ish beruvchi va xodimlarning sug‘urta badallaridan ta’minlanadi. Shunday qilib,

birinchidan, Skandivaniya, Kontinental, Amerika Britaniya modellari bo‘yicha ijtimoiy davlatlarda, liberal davlatlarda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarga minimal mablag‘lar ajratiladi, bir vaqtning o‘zida ijtimoiy yordamga muhtojlar har tomonlama o‘rganiladi. Bajarilgan ish hamda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish natijasida olinadigan har tomonlama kafolatlangan daromad fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta’minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik turi Skandinaviya turiga mos keladi. Bu yerda moddiy ne’matlarni aholi orasida qayta taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojga zarur xarajatlarda davlatning ustunligi mavjud.

Uchinchidan, ushbu jarayon davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan kuchli jamoatchilik nazorati asosida kuzatiladi. Shuningdek, jarayonning borishi, samaradorlikni aniqlash, vujudga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va zarur qarorlar qabul qilish uchun tizimli monitoring va tahlil qilib borishning mustaqil tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

To‘rtinchidan, ijtimoiy davlatchilik Osiyo davlatlarida – Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy davlatchilik O‘zbekistonda ham rivojlanib bormoqda. O‘ziga xos yutuqlar bor. Endilikda bu tizimni Konstitutsiya darajasida mustahkamlash kun tartibida turibdi.

XULOSA. Ijtimoiy-huquqiy davlat — bu faqat nazariy model emas, balki amalda inson huquqlari, adolat, tenglik va qonun ustuvorligini ta’minlaydigan siyosiy-huquqiy tizimdir. O‘zbekiston misolida bu konsepsiyaning bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilayotgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ushbu yo‘ldagi davomli islohotlar va institutsional o‘zgarishlar mamlakatni barqaror va demokratik taraqqiyot sari yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Kadamovich, Y. J., Muzaffarovna, I. G., Maxmudovich, Y. B., Boxtiyarovna, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, *7*(5), 816-818.

2.Ramatov, J. S., Baratov, R. O‘., Sultanov, S. H., Kushakov, F. A., Valiyev, L. A., & Xasanov, M. N. (2022). HOZIRGI DAVRDA IJTIMOIY ADOLAT HAQIDAGI ILMIY-FALSAFIY QARASHLARNING O‘ZIGA XOS TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(9), 647-656.

3.Ramatov, J.S., &Khasanov, M.N. (2022). HISTORY OF RAILWAY CONSTRUCTION IN UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY. Orientalrenaissance: Innovative, educational, naturalandsocialsciences, 2 (6), 925-930.

4.Ramatov, J. S., Hasanov, M., & Nazarova, N. J. (2022). MEDIAMADANIYAT VA AXBOROTDAN FOYDALANISHNING INTELLEKTUAL TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI. Academic research in educational sciences, 3(6), 984-988.

5.Russo, J.J. (2010) "Ijtimoiy shartnoma yoki siyosiy huquq prinsiplari", Toshkent: "O‘zbekiston", b. 65-72.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Yuldashxodjayev Haydar Hashimxanovich
Yangi asr universiteti kafedra mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi
haydarxon69@mail.ru

MARKAZIY OSIYODA MANG‘ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI: AMIR SHOHMUROD ISLOHOTLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XVII asr oxiri – XVIII asr boshlari Markaziy Osiyo tarixida ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sohada muhim o‘zgarishlar, Ashtarxoniylar sulolasining tanazzulga yuz tutishi va Mang‘itlar sulolasining davlat tepasiga kelishi bilan bog‘liq jarayotnlar tahlil etilgan. Shuningdek, mang‘itlar sulolasidan bo‘lgan Shohmurod Ma’sumning mintaqadagi siyosiy, ijtimoiy va diniy vaziyatni tartibga solish maqsadida amalga oshirgan islohotlari, naqshbandiya-mujaddidiya shayxlariga hukmron doiralar tomonidan turli imtiyozlar berilishi haqida so‘z boradi.*

Tayanch so‘zlar*: jamiyat, siyosat, ijtimoiy, Ubaydullohxon, Abulfayzxon, sulola, qabila, Qo‘qon xonligi, Nodirshoh, otaliq, Mir Arab madrasasi.*

Юлдашходжаев Хайдар Хашимханович
Заведующий кафедрой, доцент, кандидат исторических наук, Университет Нового Века

ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МАНГИДОВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ: РЕФОРМЫ АМИР-ШАХ-МУРАДА

Аннотация: *В статье анализируются процессы, связанные с упадком династии Аштарханидов и приходом к власти династии Мангидов в истории Средней Азии в конце XVII — начале XVIII вв. Также говорится о реформах, проведенных Шахмурадом Масумом, потомком династии Мангидов, с целью регулирования политической, социальной и религиозной ситуации в регионе, а также о различных привилегиях, предоставленных правящими кругами шейхам Накшбанди-Муджаддидов.*

Ключевые слова: общество, политика, социальное, Убайдулла-хан, Абульфайз-хан, династия, племя, Коканское ханство, Надиршах, отцовство, медресе Мир Араб.

Yuldashkhodjaev Khaydar Khoshimkhonovich
Head of Department, Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, New Age University

THE PERIOD OF MANGID RULE IN CENTRAL ASIA: THE REFORMS OF AMIR SHAHMURAD

Annotation: *The article analyzes the processes associated with the decline of the Ashtarkhanid dynasty and the rise to power of the Mangid dynasty in the history of Central Asia in the late 17th – early 18th centuries. It also speaks of the reforms carried out by Shahmurad Masum, a descendant of the Mangid dynasty, to regulate the political, social and religious situation in the region, as well as the various privileges granted by the ruling circles to the Naqshbandi-Mujaddid sheikhs.*

Key words: *society, politics, social, Ubaidullah Khan, Abulfayz Khan, dynasty, tribe, Kokan Khanate, Nadirshah, fatherhood, Mir Arab madrasah.*

Kirish

Xalqimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichini milliy tiklanish va madaniy yangilanish borasidagi vorislik huquqlarini qo‘lga kiritish asnosida amalga oshira boshladi. Milliy qadriyatlarni milliy g‘urur va iftixorni shakllantirish ishlariga xizmat kildirish, kelajakka qat’iy ishonch bilan qarash omiliga aylantirish jarayonlari faollasha boshladi.

O‘zlikni anglash, eng avvalo, o‘tmishni o‘rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o‘zini anglayotgan, o‘zini tushunayotgan har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o‘z ajdodlari kimlar bo‘lgani, ota-bobolari nimalar bilan shug‘ullanishgani va qanday umr kechirishganini bilib olishga intiladi. Ularning fazilatlari va meroslari bilan faxrlanib yashaydi. O‘z naslu nasabini bilish, kelib chiqishini o‘rganish kishining hayotda omonatligini va ayni chog‘da tasodifiy emasligini tushunishga imkon beradi. Shu bilan birga atrof-muhit, uni o‘rab turgan olam xususida o‘ylashga undaydi.

Uzoq o‘tmishga ega Vatanimiz turli zamonlarda har xil nomlar bilan atab kelingani, shuningdek uning chegara

hududlari ham muayyan davrlarda o‘zgarib turgani tarixiy manbalardan ma’lum. Ammo hamma davrlarda ham yurtimiz ulug‘ zotlar, aziz avliyolar vatani ekani bilan dovrug‘ qozongan. Shuningdek, diniy ulamolarimiz xam maktablarda ma’rifat, bagrikenglik, odob va axloq ilmlarini, Imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ ajdodlarimiz ma’naviy merosini o‘rgatishi maksadga muvofik.”[64].

XVII asr oxiri – XVIII asr boshlari Markaziy Osiyo tarixida ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sohada muhim o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu vaqtga kelib, Markaziy Osiyoning kattagina qismida bir asrdan ko‘proq muddatda hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi (1601–1757) zaiflashib tanazzulga yuz tutdi. Ushbu sulolaning so‘nggi vakili Abulfayzxon (1711–1747) saltanatining parchalanish jarayonlarini tarixchi Xumuliy quyidagicha bayon qiladi:

اما ابو الفيض خان پادشاهی بود ملايم طينت و بی آزار، زياده از مرسوم از فقرا چيزی نميخواست طبعش از محاربه و پرخاش متنفر و جانش از تحمل ميثاق متقرر مشعوف عيش و طرب تارك طيش و غضب بود از آنجهت فتوری عظيم و ضعف جسيم در قواعد سلطنتش راه يافت قبايل اوزبكيه بيقاعدگی ها برپا كردند. هر كرا اندك قومي بود دعوی سرداری داشت و هر كدام را دستی بود از راه اعتدال پای بيرونگذاشت. از توهمی كه در مزاجش طاری گشته بود چند دفعه امرا و سرداران اوزبكيه را بيهانه مشورت جمع كرده جمعی را قتل .نمود ايلات از وی نفور نموده، اينمعنی علاوه ضعف و باعث وهن او گرديد

Ma’nosi: “Abulfayzxon muloyim tiynatli, beozor bir podshoh edi. Fuqarodan belgilangandan ortiq hech narsa olmas, tabiati jang-jadalni yoqtirmas, ayshu tarabga berilgan, junbush va g‘azabni tark qilgan kishi edi. Shu sababli saltanatiga katta putur yetdi va kuchsizlanib qoldi. O‘zbek qabilalari orasida tartibsizliklar ro‘y berib, ozgina qavmi bo‘lgan har bir kimsa sardorlik da’vosini qilar, har qaysisi adolat yo‘lidan chetga chiqish imkoniyatiga ega edi. Bundan tashvishga tushgan xon o‘zbek amirlari va sarkardalarini kengash bahonasi bilan to‘plab, ularning barchasini qatl qildi. Natijada elatlar undan yuz o‘girdi, uning hokimiyati zaiflashdi” [65]. Shu asnoda alohida o‘zlarini mustaqil deb e’lon qilgan amir va sarkardalar o‘rtasida hokimiyatni egallash uchun adovat urushlari boshlandi.

1709 yilda Farg‘ona viloyati Buxorodan siyosiy jihatdan mustaqil deb e’lon qilindi va Qo‘qon xonligiga asos solindi, Turkiston va Toshkent viloyatlari esa qozoq xonligiga bo‘ysundirildi. Ayni paytda Eron shohi Nodirshohning Markaziy Osiyoga qilgan yurishi Ashtarxoniylar davlatining butkul yemirilishiga olib keldi. Nodirshoh Ashtarxoniylar sulolasining oxirgi vakili Abulfayzxonni o‘zining Movarounnahrdagi noibi qilib tayinladi. Nodirshoh huzurida harbiy lashkarboshi sifatida xizmatga olingan Muhammad Rahim Mang‘itning hukumat ishlarida ta’siri kuchliroq edi. 1747 yili Nodirshohning o‘limidan so‘ng Muhammad Rahim Mang‘it Buxoroda Mang‘itlar sulolasiga (1753–1920) asos soldi. Nodirshoh vafot etmasdan bir necha muddat avval Muhammad Rahimni huzuriga chorlaydi va yorliq berib, uni Buxoroga jo‘natadi. Yorliqda, Abulfayzxonni Makkaga – haj ziyoratiga yuborish, uning o‘rniga hali yosh bo‘lgan o‘g‘li Ubaydullohxonni taxtga o‘tkazish, Muhammad Rahimni esa, vazir va otaliq vazifasiga tayinlash ko‘rsatilgan edi. Muhammad Rahim shitob bilan kelib, Buxoroni egalladi. Abulfayzxon esa Mir Arab madrasasining hujralaridan birida qatl etildi. Ubaydullohxon taxtga o‘tirganidan bir necha kun o‘tgach, ark devoridan qulab, halok bo‘ladi va Muhammad Rahim rasman hukumat boshqaruvini qo‘lga kiritadi.

اول پادشاهی كه از جماعه منغيت بر اورنگ پادشاهی نشست محمد رحيم خان بود كه بعد از شهادت ابو الفيض خان برعاية رسوم اوزبكيه كه از زمان ظهور دولت چنگيزخانی تا اين زمان آن بود كه بغير از اولاد چنگيزخان بكسی بيعت نميكردند. بنابرين پسر خان شهيد عبيد الله خانرا كه قريب ببلاغت رسيده بود بخانی برداشته خود بدستور اتاليقی قيام نمود و لشكر را مواجب و احسان آنمقدار بجای آورد كه همه از وی راضی شدند. علما و سادات را تعظيم و توقير بحد كمال ،نموده فقرا و رعيت از استمالت او شاكر گشتند. رسوم و آداب سلطنت و جهانداری را از نادرشاه آموخته بود قواعد پسنديده در ملك نصب نموده، نظام عسكريه كه از بی پروايی (193) خان شهيد برهم خورده بود، از سر تازگی يافت و صلبيه محترمه خود را در عقد نكاح خانزاده عبيد الله درآورد در ايام كورونش اورا بر تخت خانی نشانيده خود بر كرسی وزيری و اتاليقی مينشست و خطبه و سكه را بنام عبيد الله خان موشح و مذيل گردانيد اكثر امراء قبائل اوزبك منقاد او گرديدند، بعد از ايامی چند عبيد الله خان ببالای حصار ارك بخارا باطفال بازی ميكرد. ناگاه از شعبده بازی ايام بتماشای چرخ فلک كه در آن وقت بنا نموده، ببالا آب از وی می برآوردند، رفته در اثنای تماشا پايش لغزيده از بالای قلعه بزير افتاده بهلاكت رسيد. محمد رحيم خان برسوم عزا و قاعده سوگداری او چنانچه قاعده پادشاهان عظام است قيام نموده، بدخمه آبا و اجدادش بخاک سپارید دُودَهٔ چنگيز شاه و پيضه جوجی تباه گرديده دفتر اعتبار آن خاندان مختوم گردید ابو الفيض خان ديگر پسرانش را بدست خود هلاك كرده بود غير از عبيد الله فرزند پسرينه نداشت و شامت فعل فرزندكشی را در خاندان خود بعين اعتبار مشاهده ،نموده نسل آن خاندان از اولاد ذكور منقطع گرديد.

Ma’nosi: “Mang‘itlar sulolasidan birinchi bo‘lib taxtga o‘tirgan Muhammad Rahimxon edi. Abulfayzxonning vafotidan keyin Chingizxon davridan shu kunga urf bo‘lib kelayotgan o‘zbek urf-odatlariga rioya qilib, uning balog‘at yoshiga yetay deb qolgan o‘g‘li Ubaydullohxonni taxtga o‘tqazib, o‘zi Otaliq vazifasini oldi. Vazifasidan kelib chiqib lashkarni tartibga soldi, barcha undan rozi edilar. Ulamo va sayyidzodalarni imkon qadar ulug‘ladi, shuningdek fuqaro ham uning tadbirlaridan minntdor edilar… O‘zining pushti kamaridan bo‘lgan qizini xonzoda Ubaydullohxonga nikohlab qo‘ydi, o‘zi vazirlik lavozimiga o‘tirdi. Xutba aytish va pul zarb qilish Ubaydullohxon nomiga bo‘ldi. Ko‘plab o‘zbek amir va beklarini o‘ziga bo‘ysundurdi. Bir necha vaqtdan so‘ng Ubaydullohxon bolalar bilan o‘ynab yurib, Arkning tepasiga o‘rnatilgan charxpalakni tomosha qilaman deb pastga qulab tushdi va halok bo‘ldi. Muhammad Rahimxon barcha rasm-rusumlar bilan uning tanini ota-bobolari yoniga qo‘ydi. Abulfayzxonning boshqa o‘g‘il farzandi qolmagani sababli u xonadonning nasli uzildi”. [66]

[64] Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2020. – Б. 148.

[65] Жумақули Хумулий. Тарих-и Хумулий. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв. № 37/VI. – В. 192[а]

[66] Хумулий, Тарихи-и Хумулий. – Б. 186[б]-193[а].

Muhammad Rahim uch yilga yaqin hukmronlik qildi. Bu davrda u ko‘p janglar o‘tkazdi, Qunduzdan Qavadiyongacha bo‘lgan Hisor, Ko‘lob, Badaxshon, Hinduvon yerlarini o‘ziga bo‘ysundirdi. Uning ismi tangalarga zarb qilinib, nomi xutbalarga qo‘shib aytiladigan bo‘ldi.

Tarixchilar Abulfayzxonning o‘limida aynan Muhammad Rahimbiyning qo‘li bor deb xabar beradi. Sayyid Nasriddinxon al-Buxoriy ham o‘zining “Tuhfat az-zohirin” asarida “Abulfayzxon 1747 yili Muhammad Rahimbiy boshchiligida uyushtirilgan fitnaning qurboni bo‘ldi”[67] deb qayd etadi. Xumuliy “Tarixiy Xumuliy” da bu haqdagi ma’umotni quyidagicha keltiradi: u (ya’ni, Muhammad Rahimbiy. H.Yu.) Erondan qaytib kelganida Abulfayzxonning o‘ldirilganini, so‘ng uni shohlarga xos izzat-ikrom bilan dafn etib, o‘rniga balog‘at yoshiga yetay deb qolgan o‘g‘li Ubaydullohxonni (1747-1753) xon qilib ko‘targanini ta’kidlaydi. Keyinroq Muhammad Rahimxon unga o‘z qizini nikohlab beradi. Ubaydullohxon o‘n besh yoshida Buxoro arki qal’asida bolalar bilan o‘ynab turib, yiqilib o‘ladi va Muhamad Rahim Otaliq taxtga o‘tiradi[68]. Bizning fikrimizcha, Xumuliy Mang‘itlar sulolasiga yaqin munosabatda bo‘lgani, ulardan ko‘plab iltifotlar ko‘rgani sababli Muhammad Rahimxon nomini qora qilishni istamagandir. Boshqa tarafdan, Abulfayzxonning o‘limi mantiqan Mang‘itlar foydasiga xizmat qilgan bo‘lsa-da, Muhammad Rahimxonning o‘zi shaxsan bu fitnada ishtirok etmagan bo‘lishi mumkin.

Muhammad Rahimxon Chingizxon avlodidan bo‘lmagani uchun o‘sha davr odatiga ko‘ra xon bo‘lolmasdi. Shuning uchun Abulfayzning qiziga uylandi. Birinchi amir 1757-1758 yillarda uni tan olmagan viloyatlarga bosqinlar yasab ko‘plab qirg‘inlar uyushtirdi va markazlashgan Buxoro davlatini tuzdi. Muhammad Rahimbiy 1758 yil 24 martda vafot etdi.

Tarixi Xumuliy risolasida Xumuliy Muhammad Rahimxonning davlat boshqaruvini o‘z qo‘liga olishidan to uning qo‘shni viloyatlarga, jumladan, Balx, Badaxshon, Hisor, Xazlon va Qunduzga qilgan zafarli yurishlari, shu bilan birga uning O‘ratepaga yurishidagi talofati haqida ham ma’lumotlar keltirgan[69].

Muhammad Rahimbiy vafotidan so‘ng mang‘itlar uning o‘rniga amakisi Doniyolbiyni taxtga o‘tqazishdi. Rahimbiy vafotidan so‘ng bir qancha mintaqalarda qo‘zg‘olonlar boshlanib ketdi. Bu tartibsizliklar tezda bostirildi. Doniyolbiy taxtga Rahimbiyning nevarasi Fozilto‘rani o‘tqazib, amalda o‘zi davlatni boshqarishda davom etdi. Lekin uning hukmronligi boshdan-oxir ichki qo‘zg‘olonlarga to‘la bo‘ldi. Shuningdek, buxoroliklar 1782 yili Xorazmga bosqinchilik yurishi uyushtirishdi. Buxoroda 1784 yili boshlangan qo‘zg‘olon Doniyolbiyni taxtdan voz kechishga majbur etdi. U o‘zining o‘rniga o‘g‘li Shohmurodni taxtga chiqardi.

3. Varela-Aldas, J.,Buele, J., Amariglio, R., Garcia-MArgarino, I. & Palacios-Navarro, G. (2022). The Cupboard Task: An Immersive Virtual Reality-Based System for Everyday Memory Assessment. International Journal of Human-Computer Studies, 167: 1012885: 1-8. ScienceDirect. https://doi.org/10.1016/j.ijhcs.2022.102885
4. Butt, W., Idris, S., & Ahmed, M.K., (2020). Study and Analysis of Virtual Reality and its Impact on the Current Era. Seventh International Conference on Information Technology Trends (ITT). 25-26, November 2020. DOI: 10.1.109/ITT151279.2020.9320776
5. Kramer, N.C., (2017). Chapter 4: The Immersive Power of Social Interaction: 55-70. Virtual, Augmented, and Mixed Realities in Education, Smart Computing and Intelligence, DOI 10.1007/978-981-10-5490-7_4. Springer Nature Singapore Pte Ltd
6. Абдеев, Р.Ф. Философия информационной цивилизации. – М.: ВЛАДОС, 1994. – 336 с.
7. Madary, M., &Metzinger, T. K. (2016). Real virtuality: A code of ethical conduct. Recommendations for good scientific practice and the consumers of VR-technology. Frontiers in Robotics and AI, 3, 3. https://doi.org/10.3389/frobt.2016.00003
8. Lunenfeld, P. (2000) The Digital Dialectic: New Essays on New Media. Boston, MA: MIT Press.
9. Засурский, Я.Н. Искушение свободой. Российская журналистика: 1990-2004. – М.: Изд-во МГУ, 2004.– 464с.
10. Lavoie, R., Main, K., King, C., & King, D. (2020). Virtual experience, real consequences: the potential negative emotional consequences of virtual reality gameplay. Virtual Reality, 25(1), 69–81. https://doi.org/10.1007/s10055-020-00440-y.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Taylyaqova Feruzaxon Sultanovna
Andijon davlat texnika instituti
“Tillar va gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchsi
e-mail:Nurislom_2000@mail.ru

ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR BILIMLAR DOIRASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK MASALALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oilaviy tadbirkorlikning zamonaviy ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasida olib borilgan taxlillar, umumiy ijtimoiy-falsafiy bilimlar doirasida biznes yoki oilaviy tadbirkorlik axloqining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etish bilan sosiologlar, psixologlar, iqtisodchilar, madaniyatshunoslar va siyosatshunoslarning o‘rganilayotgan muammolari doirasiga kirishi masalalari taxlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Oilaviy tadbirkorlik, genetik, tabiiy muhit, ijtimoiy-gumanitar, ijtimoiy-falsafiy, falsafiy-metodologik.*

Тайлякова Ферузахон Султановна
Андижанский государственный технический институт
старший преподаватель кафедры "Языки и Гуманитарные науки"

ВОПРОСЫ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ ЗНАНИЙ

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы включения семейного предпринимательства в круг изучаемых проблем социологов, психологов, экономистов, культурологов и политологов. Рассматриваются результаты исследований, проведенных в рамках современных социально-гуманитарных наук, а также проявления специфических особенностей этики бизнеса и семейного предпринимательства в контексте общих социально-философских знаний.*

Ключевые слова: *семейное предпринимательство, генетический, природная среда, социально-гуманитарный, социально-философский, философско-методологический.*

Taylyakova Feruzakhon Sultanovna
Andijan State Technical Institute
Senior Lecturer of the Department of Languages and Humanities

FAMILY ENTREPRENEURSHIP ISSUES WITHIN THE SCOPE OF MODERN SOCIAL AND HUMANITARIAN KNOWLEDGE

Abstract:*This article analyzes family entrepreneurship within the framework of modern socio-humanitarian knowledge. It examines the distinctive features of business or family entrepreneurial ethics in the context of general socio-philosophical knowledge. The study also explores how the issues surrounding family entrepreneurship.*

Keywords: *Family entrepreneurship, genetics, natural environment, socio-humanitarian, socio-philosophical, philosophical-methodological.*

Kirish.

Hozirgi vaqtda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yuritish va amalga oshirishning turli shakllari izlanmoqda, bu an’analar va innovatsiyalarni iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda birlashtirishga imkon beradi. Yuqoridagi holatlar, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirish va tartibga solish bilan bog‘liq boshqa muammoli masalalar dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini, uni nazariy va amaliy o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish bu shunchaki, xohish-istak, sub’yektiv hodisa bo‘lmay, tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatni o‘zida taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu - intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob’yektiv zaruratdir. Islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan jamiyatimiz a’zolari bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azmu shijoatini ishga solishga intilmoqda. Bu borada

jamiyatning asosi bo‘lgan oila institutining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni va roli nihoyatda muhimdir. Binobarin oiladagi muammolarni ishsizlik, qo‘shimcha daromad topish, biznes ishini tashkil qilish va xakozo shu kabi masalalarni oilani o‘zini imkoniyatlarini ishga solib tashkil etish, bu davlatning muammolarni oilaviy tadbirkorlik yo‘li bilan xal etishni anglatadi.

Shu bilan birga respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallayotgan iqtisodiy rivojlanish sharoitida oilaviy biznes va oilaviy tadbirkorlik mamlakatimizda yangi ish o‘rinlarini yaratishnigina emas, balki ilgari aytilmagan amalda bo‘lgan kambag‘alchilikni tugatishda muhim o‘rin egallab kelmoqda.

Xalqimiz farovonligiga erishish, nochor oilalarga doimiy daromad manbai yaratishda oilaviy tadbirkorlikni keng joriy etilishi, fuqarolarning unda faol ishtirok etishlari bu boradagi islohotlarni jadallashtirishga yordam beradi. Bunday omil O‘zbekistonda va jahonning ko‘plab mamlakatlarida keng tarqalgan

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Oilaviy tadbirkorlik MDH mamlakatlari ijtimoiy-falsafiy jihatlarini B.Muslimov, U.Xoshimov, B.Valiyev, B.Talapov, M.Xolmatova, N.Annayeva, S.Norqulov, S.Safayeva, U.Utanova, F.Musayev”[1], A.Marshall, A.Smit, J.B.Sey, J.Keyns, Y.Shumpeter, P.Samuelson, M.Friedman, J.Wlasiuk, M.Tsukanova, V.Dobes, J.Fresner, C.Krenn, C.Rinaldi, S.Cortesi, N.Boso, C.Danso, A.Leonidou, M.Uddin, M. Does ”[2] singari xorijiy olimlar ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish S.S.G‘ulomov, Q.Muftaydinov, M.P.Eshov, B.T.Bayxonov, N. R.Annayeva, M.M.Ibragimova, K.I.Kurpayanidi, M.S.Ashurov, M.E.Jo‘raxonov, I.U.Ibragimovlarning”[3] ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. U.V.G‘afurov, O.A.Aripovlar”[4] tomonidan kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan. Shuningdek, kichik biznesning rivojlanish tendentsiyalarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash masalalari bo‘yicha B.Yu.Xodiyev, S.K.Salayev, B.T.Salimov, H.N. Baqoyev, L.N.Xudoyorov”[5] kabi olimlar tadqiqot olib borgan.

Tahlil va natijalar.

Jamiyatimizda “Har bir oila – tadbirkor” dasturi qabul qilinib uni amalga oshirish to‘g‘risida to‘xtalib, Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday degan: “Bir-ikkita zavod bir foiz aholiniyam ish bilan ta’minlay olmaydi. Bu yerda odamlarni faqat tadbirkorlik, hunarmandlik orqali boqish mumkin. Xonadonlarga mablag‘ kiritsak, zarur uskunalar berib, aql bilan ishlashni o‘rgatsak, odamlar o‘zini o‘zi boqadi. Uyiga buyum oladi, bolasiga kitob olib beradi, soliqqa, elektrga pul to‘laydi, byudjetga mablag‘ tushadi. Bir yildan keyin sarflagan pulimiz ikki barobar bo‘lib qaytadi. Iqtisodiy mexanizm mana shunday bo‘lishi kerak”[6] “Mamlakatimizda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning yanada samarali yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikning moliyaviy va nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlashning maqsadga yo‘naltirilgan, ayniqsa, aholini tadbirkorlikka o‘qitish va kasbga o‘rgatish ishlarini yangi bosqichga ko‘tirish, shu jumladan, barcha dasturlar hisobidan ajratilayotgan mablag‘larning sarflanish samaradorligi baholash ishlarini tashkil etishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklari barham berish lozim”[7]- deb ta’kidlagan edi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik-savdogarlikning kuchli rivojlanishi Buyuk Ipak yo‘li tashkil topgan dastlabki asrlarga to‘g‘ri keladi. Movarounnahr, Sharq va G‘arbni bog‘lab turadigan Buyuk Ipak yo‘lining markazida joylashgani unga ham G‘arb ham Sharq tadbirkorligidagi ijobiy jihatlarni o‘zlashtirish imkonini bergan.

Oilaviy tadbirkorlikni vujudga keltirgan va rivojlantirgan yana bir omil hunarmandchilik. Mamlakatimiz hududida hunarmandchilik juda qadim zamonlardan rivojlanib kelgan. Arxeologlarimiz topgan eng qadimgi hunarmandchilik namunalari eramizdan avvalgi 3-4 ming yillikka oiddir. Ana shu topilmalarga asoslanib mamlakatimiz hududida oilaviy tabirkorlik bundan 5-6 ming yil avval vujudga kelgan deyish mumkin Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik, savdogarlik, ishbilarmonlik odob-axloqi, odati va ma’naviy mezonlariga oid juda ko‘p ma’lumot mavjud. O‘tmishda, barcha zamonlarda jamiyat barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, xalq farovonligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti masalalari doimo dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan.

Sharq mutafakkirlari savdogarlar va tijoratchilarning xulq-atvoriga ham katta e’tibor berishgan. Bunda Qur’oni Karimda belgilangan me’yorlar asos vazifasini o‘tagan. Bugun o‘rta mulkdorlar sinfi asta-sekin shakllanayotgan, tadbirkorlikka va ishbilarmonlikka katta o‘rin berilayotgan, bu ish davlat siyosati”[8] darajasiga ko‘tarilayotgan pallada o‘tmish mutafakkirlarining kasb-hunar axloqi, odobiga oid g`oyalar benihoyat katta ahamiyat kasb etadi.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy fikricha, eng oliy baxt-saodatga erishuv, avvalo u baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o‘ziga g`oya va oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo‘lishi kerak. Keyin bu – baxt saodatga olib boradigan ish amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olish zarur. So‘ngra baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog‘i lozim bo‘ladi, shundagina u kamolotga erishadi. Barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish insoniyatni kamolotga erishuvining asosiy vositasidir”[9]. Demak, ezgulik, yaxshilik, savobli ishlarga sababchi bo‘lish – inson tabiatining tub xislatlaridir. Forobiy fikricha “inson faoliyatsiz turaolmaydi, ammo har qanday faoliyat va harakat insonni inson qilib ko‘rsata olmaydi. Chunki, o‘z

tabiatiga ko‘ra hayvonlar ham harakat qiladilar. Hayvon ovqatni ko‘radi va unga intiladi va bunda ongsiz harakatni amalgaoshiradi. Natijada u o‘z maqsadiga yetish uchun ongli faoliyat olib boradi. Inson juda ko‘p narsani orzqilib yashaydi, biroq ularning hammasiga hamega bo‘lmaydi”[10].

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik, savdogarlik, ishbilarmonlik odob-axloqi, odati va ma’naviy mezonlariga oid juda ko‘p ma’lumot mavjud. O‘tmishda, barcha zamonlarda jamiyat barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, xalq farovonligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti masalalari doimo dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan.

Kaykovus, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mutafakkirlar tomonidan qoldirilgan kasb-hunarga oid boy meros, axloqiy pand-nasihatlar bugun xususiy tadbirkorlar uchun suv bilan havodek zarur. Faqat ko‘pchilik, ya’ni jamoatchilik qo‘llab-quvvatlashi bilan olib-sotarlikni, tadbirkorlik, ishbilarmonlikni niqob qilib, hatto odam savdosigacha boradigan shaxslarni “tiyib” qo‘yish mumkin.

“Ey farzand, - deydi Kaykovus, - xiyonatdan qochgilki, kimki bir marta xiyonat qilsa, unga hech kimning e’tiqodi qolmaydi. To‘g‘rilikni o‘zingga kasb qilib olginki, to‘g‘rilik eng yaxshi ishdir. Oldi-sotdida muloyim bo‘l va kishiga va’da qilmagil, va’da qilsang, unga xilof qilmagil. Xaridorga yolg`on so‘z demagil, rostini aytgil”[11].

Amir Temur o‘zining “Temur tuzik”larida “azmi qat’iy tadbirkor va xushyor bir kishi, mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”[12]-degan.

Oilaviy tadbirkorlikning o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, unda to‘plangan tajriba bosqichma-bosqich ishbilarmonlik doirasini kengaytirish, shu asosda raqobatbardosh ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega[13].

Abdulla Avloniy “Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarur, madaniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, mehnatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur”[14].

Ma’rifatparvar ayol Anbar Otin “Qarolar falsafasi” asarida asosan qora mehnat tufayli dunyoni yashnatayotgan insonlar qalbining oqligi, oq tanayu oq bilak kimsalar qilayotgan ishlarning qoraligi ta’kidlanadi va ular shu orqali axloqiy mazmun kasb etadi. Anbar otin shunday deb yozadi: “Ul qaro xalq oftob so‘zanida mehnat qilib, o‘zlari har qancha kuyganlari holda, hosillarini hamtovoqlariga tuhfa qilurlar. Misol andoqdurki, qazon bovujud qoradur, o‘zi o‘tda kuyib qaro bo‘lg‘oni holda ovqat pishurib odamlarni to‘ydirur. Qarolar bordurlarki, alar o‘zlari qaro bo‘lg‘oni holda, ma’rifat nuri siyratlarida to‘ladur va ul nurlarni fasohat va til durdonalari vositasi ila olamg‘a oq shu’la socharlar. Misol uldurki, qaro charog‘ o‘zi qaro yog‘, kuyundig‘a giriftor bo‘lg‘oni holda, nuri ilan kulbani ravshan qilur” [15].

O‘zbek faylasuf olimi Q.Nazarov “inson faoliyati ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirish, insonning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘zini qurshagan dunyo bilan aloqaga kirishish usuli sifatida qaraladi. Faoliyat muayyan faoliyat turi bilan shug‘ullanish qobiliyati uning amaldagi moddiy ifodasiga o‘zaro o‘tishini nazarda tutadi. Bu faol inson tashqi dunyoni o‘zgartirishi va o‘zi ham o‘zgarishini anglatadi”[16] deb ta’kidlaydi.

Faylasuf olima Sh.Madayeva mehnat insonni dunyoqarashi orqali olamda “Dunyoqarash – insonning o‘zini qurshagan borliqqa va o‘zo‘ziga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek uning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e’tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo‘ljallaridir”[17].

Axloqshunos olim Abdulla Sher “Ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lmagan kishilar ilm-fanni o‘rganishga ham, halol mehnat qilishga ham, odamlarga foydasi tegadigan kasb-hunarni egallashga ham rag‘bat qilmaydilar”[18] deb hisoblaydi.

Inson endilikda o‘zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta’sir ko‘rsata boshladi. Er tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo‘lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta’limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta’siri ostida biosfera yangi holat bo‘lmish noosferaga o‘tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o‘z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o‘zgarishga kirishganini ta’kidlaydi: “Sayyoramiz yuzi — biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o‘zgarishlar- ga duchor etilmoqda, — deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig‘ini, uning barcha tabiiy suvlarini o‘zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o‘zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz”[19].

Oilaviy tadbirkorlikning O‘zbekiston iqtisodida tutgan o‘rni va roli demokratik taraqqiyot yo‘lidan borayotgan O‘zbekistonning milliy xavfsizligi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik mamlakatimizda mavjud tuzumning mavjudligidan manfaatdor bo‘lgan o‘rta sinfning rivojlanishi bilan bog‘liq. O‘rta sinfning asosini kichik biznes, jumladan, oilaviy tadbirkorlar tashkil qiladi.

Oilaviy tadbirkorlik faoliyati ko‘p jihatdan uni tashkil etgan tadbirkorning o‘zi, oila a’zolari va ular shug‘illanayotgan tadbirkorlik sub’yektlarining ijtimoiy falsafiy tabiati bilan belgilanadi. Biroq, tajriba shuni

ko‘rsatadiki, tadbirkorlikning tabiati, uni tashkil etuvchi sub’yektlarning barqaror individual va shaxsiy xususiyatlari insonning biosomatik, genetik, tabiiy muhitdan, ularning temperamentidan, moyilliklaridan va nixoyat daromadlaridan olayotgan foyda asosida shakllangan munosabatlarning o‘zaro integratsiyalashuvi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasida olib borilgan taxlillarga ko‘ra oilaviy tadbirkorlikning shakllanishiga muhim ta’sir ko‘rsatadigan asosiy tarkibiy qismlar bu tadbirkorlikning tabiiy asosini tashkil etuvchi insoning tabiiy, biosomatik va genetik determinatsiyalar, tadbirkorlikning milliy xarakteriga, mentalitetiga va iqtisodiy manfaatdorlik yo‘nalishi tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy determinatsiyalar va tadbirkorning iroda erkinligi, o‘z-o‘zini anglash, shu jumladan, shaxsning yo‘nalishi, uning hayotiy pozisiyasi va tashqi dunyo bilan uyg‘unlik o‘lchovi hukmron bo‘lgan shaxsiy manfaatdorlik komponentidir.

Umumiy ijtimoiy-falsafiy bilimlar doirasida esa biznes yoki oilaviy tadbirkorlik axloqining o‘ziga xos xususiyatlarini nomoyon etish bilan sosiologlar, psixologlar, iqtisodchilar, madaniyatshunoslar va siyosatshunoslarning o‘rganilayotgan muammolari doirasiga kiradi.

Uslubiy yondashuv oilaviy tadbirkorlikni falsafiy-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari esa davlat va xususiy tarmoqlarga xos bo‘lgan reseptlar, taqiqlar va ruxsatnomalar qo‘llanilishi bilan bog‘liq degan xulosaga kelish imkonini berdi. Oilaviy tadbirkorlikning falsafiy-huquqiy munosabatlarini tadqiq qilishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ilmiy bilishning barcha usullaridan kompleks foydalanishga bog‘liq. Ushbu yondashuv bilan tuzilgan xulosalar va taxminlar ba’zan ikki tomonlama va hatto bir-biriga qarama-qarshi bo‘lishi mumkin, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik oila qonunchiligi bilan emas, balki birinchi navbatda falsafiy umumiy aloqadorlik qonunchiligi va biznes qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytsak, jahondagi mamlakatlarning taraqqiyot tajribasi tasdiqlashicha, kichik va o‘rta biznes, xususan, oilaviy tadbirkorlik har qanday davlatning, jumladan yangilanayotgan O‘zbekistonning farovonligi asosini tashkil qiladi. Shu bois oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi har jihatdan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida oila muammolari va oila-nikoh munosabatlari doimo ijtimoiy falsafa manfaatlari doirasida bo‘lib kelgan.

Zero falsafiy xulosalar asosida chiqarilgan xukmda ham sharoitlarning rivojlanishi bilan oilaviy tadbirkorlik mamlakatda mustahkam daromad manbai bo‘lib xizmat qilishi, ijtimoiy keskinlikni kamaytirishi va investisiya kiritish imkoniyatini oshirishi mumkin deb baholanadi. Turli mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, biznesning ushbu shakli o‘sishda davom etadi va jahon iqtisodiyotida muhim bo‘lib qoladi.

Yangilanayotgan jamiyat sharoitida oilaviy tadbirkorlikka falsafiy-metodologik yondashuv oila va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish, uning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy jihatlarini o‘rganishni talab qiladi. Bu borada asosiy e’tiborni quyidagi nuqtalarga qaratish mumkin:

O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni o‘rganish ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. U nafaqat iqtisodiy manfaatlarga, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bu jarayonni chuqur o‘rganish orqali milliy rivojlanish strategiyasiga yanada samarali hissa qo‘shish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Давлатов Ж. Ўзбекистонда “Ҳар бир оила – тадбиркор” концепцияси ва унинг инновацион моҳияти. Самарқанд 2020. Диссертация 7-бет

2. Маршалл А. Принципы политической экономии. Т. – 1. – М.: Директ-Медиа

3. Ғуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2002. – 365 б.

4. Арипов О.А. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш: иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДИУ 2020. 72 б.

5. Ходиев Б.Ю. Ўзбекистон иқтисодиётида тадбиркорлик ривожланишини эконометрик моделлаштириш.: иқт.фан.док. дисс. – Тошкент: ТДИУ.

6. “Халқ сўзи” газетаси май, 2018 йил.

7. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент 2023. 136-бет

8.“Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июлдаги ПФ-5490-сон Фармони – https://www.norma.uz/

9. Форобий. Рисолалар. Жисмлар ва акциденцияларнинг ибтидоси ҳақида. – Тошкент: Фан, 1975. 138 бет

10. Muhammadjanova L., Abdulla sher, Shadimetova G. Axloq falsafasi. T.,

11. Кайковус. Қобуснома. Т., 1968. – 83-б.
12. Темур тузиклари. Тошкент “Ўзбекистон”, 2019 йил. 14-бет
13. Жданов А. Рифы семейного бизнеса. - http://www.wmnspb.ru/rub/carier/391-rif.html
14. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” Toshkent, “O‘qituvchi”, 1993. 14b.
15. Anbar Otin. Tanlangan asarlar. T., “G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1970, 84-b.
16. Nazarov Q. Falsafa qomusiy lug‘at.. – T.: “Sharq”, 2004. –B. 186
17 Madayeva Sh.O. va boshqalar. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2019.-515 bet.
18. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T., “O‘zbekistom faylasuflari milliy janiyati nashriyoti”. 2010 yil. –B.128.
19. Vernadskiy V.I. Nachalo i vechnost jizni M., Sov. Rossiya, 1989. S. 186–187.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Aliqulov O‘ktam Yusupovich
O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyat” kafedrasi katta o‘qituvchisi

UO‘K 32:316.43

GLOBALLASHUV TUSHUNCHASINING FALSAFIY TALQINI: ASOSIY NAZARIY KONSEPSIYALAR VA PARADIGMATIK YONDASHUVLAR.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi globallashuvga oid turli falsafiy va ijtimoiy nazariyalar, dunyodagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar,* ***madaniy globallashuv nazariyasi,*** *“global”, “globallashuv jarayonlari”, “zamonaviy global muammolar”, “global shartnoma”, “global konstitutsiyaviy ideal”, “xalqaro huquqiy hamkorlik”, “global xavfsizlik”, “global notenglik”, “global ochiq jamiyat”, “global fuqarolik jamiyati”, “global demokratiya”, “siyosiy globalistika”, kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati va ularning o‘zaro aloqadorligini muhokama tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *Globallashuv, globalistika,* demokratiya*,* ***konflikt,*** *periferiya, hokimiyat, jamiyat, parlament,* ***integratsiya, dezintegratsiya,*** *konsepsiya, strategiya, ommaviy axborot vositalari, axborot suvereniteti, veb-makon, liberallashuv.*

Аликулов Ўктам Юсупович,
старший преподаватель кафедры “Психология служебного положения и профессиональная культура” Академии МВД Республики Узбекистан

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ОСНОВНЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ И ПАРАДИГМАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация: *В статье рассматриваются и анализируются содержание и взаимосвязь различных философских и социальных теорий, связанных с современной глобализацией, социальными, экономическими, политическими и культурными процессами в мире, теория культурной глобализации, понятия “глобальный”, “глобальные процессы”, “современные глобальные проблемы”, “глобальный договор”, “глобальный конституционный идеал”, “международно-правовое сотрудничество”, “глобальная безопасность”, “глобальное неравенство”, “глобальное открытое общество”, “глобальное гражданское общество”, “глобальная демократия”, “политическая глобалистика” и т. д.*

Ключевые слова: *Глобализация, глобалистика, демократия, конфликт, периферия, власть, общество, парламент, интеграция, дезинтеграция, концепция, стратегия, СМИ, информационный суверенитет, веб-пространство, либерализация.*

Alikulov Oktam Yusupovich,
Senior Lecturer, Department of “Service Psychology and Professional Culture” of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF GLOBALIZATION: BASIC THEORETICAL CONCEPTS AND PARADIGMATIC APPROACHES.

Abstract: *This article discusses and analyzes the content and essence of various philosophical and social theories related to today’s globalization, social, economic, political and cultural processes in the world, the theory of cultural globalization, the concepts of “global”, “globalization processes”, “modern global problems”, “global agreement”, “global constitutional ideal”, “international legal cooperation”, “global security”, “global inequality”, “global open society”, “global civil society”, “global democracy”, “political globalistics”, and their interrelationships.*

Keywords: *Globalization, globalistics, democracy, conflict, periphery, power, society, parliament, integration, disintegration, concept, strategy, mass media, information sovereignty, web space, liberalization.*

Kirish

Globallashuv - bugungi dunyodagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va integratsiya darajasining oshib borishi bilan xarakterlanadigan murakkab hodisadir. Bu jarayon jahon miqyosida davlatlar, millatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni qayta shakllantirib, ularning o‘zaro ta’sirini yanada kuchaytirib boradi. Falsafiy nuqtai nazardan, globallashuv umuminsoniy taraqqiyot jarayonining tabiiy bosqichi bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni, balki insoniyat tafakkuri va qadriyatlar tizimidagi evolyusiyani ham qamrab oladi. Shu bilan birga, globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud bo‘lib, bu holat turli nazariy konsepsiyalar va paradigmatik yondashuvlarda aks etadi. Globallashuvga oid turli falsafiy va ijtimoiy nazariyalar mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda quyidagi yo‘nalishlarga ajratish mumkin. **Liberal globalizm** – globallashuvni ijobiy jarayon sifatida talqin qiladi va uni bozor iqtisodiyoti, texnologik taraqqiyot hamda inson huquqlari rivoji bilan bog‘laydi. Liberal konsepsiya tarafdorlari globallashuv dunyo miqyosida integratsiyani kuchaytiradi va iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblaydilar. **Marksistik yondashuv** globallashuvni kapitalizmning yangi bosqichi sifatida ko‘rib, uni imperializm va gegemoniya vositasi sifatida baholaydi. Bu nazariyaga ko‘ra, globallashuv iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirib, boy mamlakatlarning mustamlakachilik siyosati uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. **Madaniy globallashuv nazariyasi** globallashuv madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, u milliy an’analar va qadriyatlar transformatsiyasiga olib keladi. Bu yondashuv tarafdorlari global madaniy almashinuv ijobiy natijalarga ega bo‘lishi mumkinligini ta’kidlasalar, uning muxoliflari esa globallashuv milliy madaniyatlar va an’anaviy qadriyatlarga tahdid solishi mumkinligini qayd etadilar. **Geosiyosiy yondashuv** globallashuv xalqaro munosabatlar kontekstida ko‘rib chiqiladi va uning davlatlar o‘rtasidagi kuchlar muvozanatiga ta’siri tahlil qilinadi. Bu konsepsiyaga ko‘ra, globallashuv natijasida ayrim davlatlar va xalqaro tashkilotlar siyosiy va iqtisodiy ustunlikka ega bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili

Globallashuvning nazariy tahlilida bir nechta asosiy paradigmalar shakllangan. **Integratsiya paradigmasi** globallashuv dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, iqtisodiy rivojlanish va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish imkoniyati sifatida ko‘riladi. **Konflikt paradigmasi** globallashuv ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirib, muayyan davlatlar va madaniyatlarning hukmronligini ta’minlash vositasi sifatida baholanadi. **Transformatsiya paradigmasi** globallashuv natijasida an’anaviy davlat institutlari va ijtimoiy tuzilmalar o‘zgarib, yangi turdagi global boshqaruv mexanizmlari shakllanib boradi.

2006 yilda texnika fanlari doktori, professor I.I. Mazur va falsafa fanlari doktori, professor A.N. Chumakov tomonidan nashr etilgan “Globalistika: Xalqaro fanlararo ensiklopedik lug‘at” asarida globallashuvga oid 3200 dan ortiq atama, tashkilot va hodisa bayon etilgan. Demak, globallashuv ta’sir etmagan ijtimoiy hayot sohalari, institutlar, xalqlar va davlatlar mavjud emas.

Zamonaviy global muammolar asosan XX asrda yuzaga kelgan va umumjahon ahamiyatiga ega bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu muammolarning ilk ildizlarini Fridrix Nisshe XIX asrdayoq ko‘rsatib o‘tgan. U o‘zining “Hokimiyatga iroda. Barcha qadriyatlarni qayta baholash tajribasi” (1884–1888) asarida insoniyat yaratgan barcha qadriyatlar — til, din, madaniyat, fan va axloq o‘z ma’nosini yo‘qotib borayotganini ta’kidlaydi[5]. Ushbu inqirozga javob tariqasida u yangi qadriyatlarni shakllantirish g‘oyasini ilgari surgan. Uning “A’lo Odami” (Sverxchelovek) timsoli ham aslida insoniyatni kelajakdagi global inqirozlardan qutqarishga qaratilgan konsepsiya edi. Keyinchalik, O.Shpengler bu inqirozni “G‘arbning so‘nishi” deb atagan, B.Rassel uni umuminsoniy-falsafiy muammoga aylanayotganini ta’kidlagan, V.I.Vernadskiy esa bu jarayonni noosfera taraqqiyotiga tahdid sifatida ko‘rgan.

XX asrning 70-yillariga kelib, global muammolar borasidagi tadqiqotlar yanada jadallashdi. Bu sohada “Rim klubi” prezidenti A.Pechchei, D.Medouz, Dj.Forrester, Ya.Kaya (Yaponiya), A.Erreri (Argentina), X.Linneman (Gollandiya), V.Leontev (AQSh), G.Kan, U.Braun, L.Martel va Dj.Saymon kabi olimlar faol izlanishlar olib bordilar. Ularning asarlari va ilmiy tadqiqotlari ta’sirida zamonaviy global muammolarning doirasi kengayib, jahon iqtisodiyoti, ochiq bozor munosabatlari, kapital va tovarlarning davlatlar o‘rtasida erkin harakatlanishi, moliyaviy oqimlarning liberallashuvi, global aloqalar (kommunikatsiya), yangi transport tizimlari va savdo-sotiqdagi boshqaruv modellari kabi masalalar ham bu tushunchadan o‘rin oldi.

Tadqiqot metodologiyasi

Globallashuv jamiyat taraqqiyotining uzviy qismi sifatida turli xil nazariy va amaliy yondashuvlarni talab qiladi. Uning ijobiy yoki salbiy ta’siri haqidagi bahslar haligacha davom etmoqda. Biroq uning dunyodagi axborot, iqtisodiyot va madaniyat almashinuviga kuchli ta’sir etuvchi jarayon ekanligi aniq. Shu bois, uning mafkuraviy va axborot xavfsizligiga ta’sirini chuqur o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda tez-tez uchraydigan “global”, “globalistika”, “globallashuv jarayonlari”, “aksilglobal harakat”, “global muammolar” kabi atamalar umumjahon voqeliklarini ifodalasa-da, ular orasida muayyan etimologik va aksiologik farqlar mavjud.

“Global” atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib[1], “umumiy, butunga tegishli” degan ma’noni anglatadi. Aslida u lotincha “globus” (“shar”) so‘zidan kelib chiqqan. Agar ushbu lug‘aviy manbadan kelib chiqadigan bo‘lsak, “global” – Yer shari, umuman, sayyoramizga tegishli tushuncha sifatida yuzaga kelgan.

Tahlillar va natijalar

Ma’lumki, Yerning sharsimon shaklda ekanligi haqidagi ilk nazariyani Aristotel ilgari surgan[2]. Shundan beri Yerga oid tushunchalar “globus” sifatida talqin qilib kelingan. 1492 yilda nemis sayohatchisi va geografi M. Bexaym Yerning globusini yaratib, uni “Yer olmasi” deb nomlagan. Shu tariqa “globus” tushunchasi Yer shari bilan bog‘liq atamaga aylangan. Biroq “globus” so‘zining fransuz tilida “global” shakliga qanday tarzda aylangani va ilm-fan doirasida keng qo‘llanilishi haqida aniq fikr bildirish qiyin. Taniqli olim B. Umarovning ta’kidlashicha, g‘arb tadqiqotchilari globallashuvni 50, hatto 25 yil avval yuzaga kelgan hodisa sifatida baholaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, “globallashuv – bu global moliya bozorlarining taraqqiyoti, transmilliy korporatsiyalar va ularning milliy iqtisodiyotlarga ta’sirining kuchayishi” hisoblanadi[3]. Shuningdek, olimlar yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqarayotgan turli mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb ataydilar. Umuman olganda, dunyo iqtisodiy rivojlanishiga transmilliy korporatsiyalar va moliyaviy resurslar katta ta’sir o‘tkazib, global ochiq jamiyat shakllanishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, globallashuv jarayonlarining kelib chiqishini XVII asrdan, hatto qadimgi davrlardan izlashga urinishlar ham mavjud. Masalan, I. Prigojin globallashuv jarayonlarini bifurkatsiya (tarmoqlanish, bo‘linish) va fluktatsiya (tebranish, o‘zgarish) tushunchalari bilan izohlaydi. Unga ko‘ra, tarixiy taraqqiyot davomida insoniyat bir necha marotaba bunday jarayonlarni boshdan kechirgan. Masalan, paleolitdan neolit davriga o‘tish butun Yer yuzida sodir bo‘lgan katta sivilizatsion o‘zgarish sifatida qaraladi. Shuningdek, yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi – temir, ko‘mir, neft kashf etilishi, elektr energiyasidan keng foydalanishga o‘tish, axborotlashtirish jarayonlarining jadallashishi, sun’iy intellekt va robototexnika kabi zamonaviy innovatsiyalarning taraqqiyoti Prigojin ta’biri bilan aytganda, insoniyatni “tarmoqli tizimli jamiyat”ga – ya’ni “global qishloq” tamoyiliga yaqinlashtirmoqda[4].

Ko‘rinib turibdiki, olim globallashuvni inson taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida ko‘radi va uni ijtimoiy-tarixiy bosqichlarning evolyusion rivojlanishi doirasida tahlil etadi. Bunday jarayonlarni din, madaniyat, savdo aloqalari, hatto imperiyalar tuzilganida ham kuzatish mumkin. Biz ham bu nuqtai nazarga qo‘shilamiz: jahon dinlarining shakllanishi va tarqalishi, tillarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, savdo-sotiqning kengayishi, shuningdek, Doro I, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon va Amir Temur singari tarixiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan imperiyalar umumjahon ahamiyatga ega hodisalar sirasiga kiradi. Shuning uchun ham ularni zamonaviy globallashuv jarayonlarining tarixiy asoslari deb baholash mumkin.

Shu tariqa, “zamonaviy global muammolar” tushunchasi faol rivojlanib bordi va hozirgacha ushbu yo‘nalishda izlanishlar davom etmoqda. Shuning uchun bu tushuncha kelajakda yana ham kengayishi va yangi mazmun bilan boyishi mumkin.

“Global shartnoma” tushunchasi BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan tomonidan ilgari surilgan. Ushbu konsepsiya insoniyat duch kelayotgan umumjahon muammolarini hal etishda xususiy sektor va xalqaro tashkilotlarni faol ishtirokchi sifatida jalb etishni nazarda tutadi. Bu tashabbus doirasida biznes sub’ektlari va tashkilotlar BMTning inson huquqlari, ekologiyani muhofaza qilish, qurol-aslaha ishlab chiqarishdan voz kechish va siyosiy erkinliklarni ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan xalqaro normalarga rioya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Inson turmush tarzi, manfaat va ehtiyojlarining o‘xshashligi, axborot va madaniy aloqalarning kuchayishi, ilg‘or texnologiyalardan birgalikda foydalanish, urush va terrorizm xavfini bartaraf etish, demokratiyani umuminsoniy qadriyatga aylantirish, shuningdek, qashshoqlik va yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish kabi jarayonlar yuridik sohada ham xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurligini vujudga keltirdi. Shu asosda xalqaro huquq tizimi shakllanib, hozirgi kunda esa u global huquq konsepsiyasiga aylanmoqda.

Global jarayonlardagi integratsiya va dezintegratsiya jarayonlarini to‘g‘ri anglash, ularning destruktiv tus olishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Shuning uchun xalqaro hamkorlik asosida global xavfsizlikni ta’minlash konsepsiyasi ishlab chiqilishi lozim. Global xavfsizlik faqat xalqaro hamkorlik va huquqiy mexanizmlar orqali ta’minlanishi mumkin.

Globallashuv jarayonlarini murakkab va ziddiyatli hodisaga aylantirayotgan asosiy omillardan biri – notenglikning keng miqyosli global voqelikka aylanayotganidir. Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda “global notenglik” iborasining qo‘llanilishi ham globallashuvning ziddiyatli tusga ega ekanini ko‘rsatadi[6].

Yuridik fanlari doktori A. Tursunov ta’kidlaganidek: *“Notenglik ko‘p hollarda pardalangan shaklda davom etmoqda, bu esa unga aniq yuridik ta’rif va baho berishni mushkullashtiradi.”* Darhaqiqat, dunyo aholisining eng boy 20% qatlami eng kambag‘al 20% qatlamga nisbatan 30 barobar ko‘proq daromadga ega[7]. XXI asrda bu farq yanada ortishi kutilmoqda. Bunday vaziyatni oddiy yuridik ta’rif bilan izohlash qiyin.

A. Tursunov bu muammoni hal etish yo‘li sifatida davlatlarning xalqaro huquqdagi rolini va suveren tenglik

prinsipini amalga oshirishda faol mavqeini kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Albatta, global notenglikni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar ham muhim ahamiyatga ega:

- Tabiiy resurslardan teng foydalanish imkoniyatini ta’minlash,
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash,
- Yangi ish o‘rinlarini yaratish,
- Neokolonializm va iqtisodiy ekspluatatsiyaga barham berish,
- Daromadlar o‘rtasidagi keskin tafovutni kamaytirish,
- Ochiq bozor iqtisodiyotiga o‘tish,
- Aholi savodxonligini oshirish,
- Ilg‘or texnologiyalarni rivojlanayotgan davlatlarga joriy etish.

Biroq shuni unutmaslik kerakki, har bir mamlakat o‘z ichki resurslarini samarali ishga solishi va mustaqil rivojlanish yo‘lida harakat qilishi lozim.

Hozirgi globallashuv davrida jamiyatning axborotlashuvi darajasining oshishi, axborot texnologiyalarining rivoji yoshlardan ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi o‘zgarishlarga moslashish hamda jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashni kafolatlovchi chuqur bilim va o‘ziga xos fikrlashni talab etmoqda. Bu jarayon, ba’zi olimlar nazarida, nafaqat OAV, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarni ham qamrab olmoqda[8]. Bir so‘z bilan aytganda, axborotlashuv jarayonlarining shiddat bilan kechishi, yosh avlodning ma’naviy qiyofasida bir tomondan, axborot resurslari va axborot vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oluvchi axborot madaniyatini shakllantirish, ikkinchi tomondan esa, ularni bu sohadagi turli xurujlar va tahdidlardan asrashni hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylantirmoqda. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari butun dunyo miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni jadallashtirmoqda. Ushbu transformatsiyalar jamiyatning turli jabhalariga sezilarli ta’sir o‘tkazib, yangicha tafakkur shakllari, kommunikatsiya uslublari hamda boshqaruv mexanizmlarini shakllantirmoqda. Globallashuv bilan bog‘liq ijtimoiy metamorfizmlar quyidagi omillar natijasida sodir bo‘layotgani kuzatilmoqda. **Texnologik innovatsiyalar** – raqamli texnologiyalar, internet va sun’iy intellekt inson faoliyatining barcha jabhalariga kirib kelib, hayot tarziga sezilarli o‘zgarishlar olib kirmoqda. **Iqtisodiy integratsiya** – xalqaro savdo, transmilliy korporatsiyalar va moliyaviy tizimlarning o‘zaro bog‘liqligi tufayli jahon iqtisodiyoti yaxlit tizim sifatida shakllanmoqda. **Geosiyosiy mutanosiblik** – davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi kuch nisbati o‘zgarib, global miqyosda mafkuraviy raqobat kuchaymoqda. **Axborot oqimining erkin harakati** – ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali ma’lumotlar tezkor tarqalib, jamoatchilik tafakkuriga hamda dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Global ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida madaniyatlar o‘zaro uyg‘unlashib, milliy qadriyatlar transmilliy madaniy ta’sirlar ostida yangi shakl kasb etmoqda. Ushbu jarayon ikki yo‘nalishda kechmoqda.

G‘arbiy madaniyatning ustunligi – xalqaro axborot makoni asosan G‘arb davlatlari tomonidan boshqarilayotgani sababli, ularning qadriyatlari, hayot tarzi va iste’mol madaniyati butun dunyoga tarqalmoqda. Mahalliy madaniyatlarning moslashuvi va transformatsiyasi – ayrim milliy madaniyatlar globallashuvning ta’siriga moslashib, o‘ziga xosligini yo‘qotmagan holda yangi shakl kasb etmoqda. Madaniy xilma-xillikning qisqarishi – yirik madaniyatlarning global maydonda yetakchilik qilishi natijasida kichik milliy madaniyatlar yo‘qolish xavfi ostida qolmoqda. Shu o‘rinda dunyoning ba’zi rivojlangan mamlakatlarida axborotlashuv jarayonida insondagi axborot madaniyatini shakllantirish masalalarini tahlil etishda, uning darajasini belgilovchi bir qator indikatorlar qabul qilinganligi va bu borada muayyan tajriba to‘planganini alohida qayd etish lozim, deb hisoblaymiz. Professor A.Mo‘minovning fikriga ko‘ra, bunday indikatorlardan eng muhimlari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning intellektual rivojlanishi, ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari umumiy darajasini namoyon etuvchi ta’lim tizimining shakllanganligi;

axborotni olish, uzatish, foydalanish imkoniyatlarini beruvchi axborot infratuzilmasining mavjudligi;

axborot olish huquqi kafolatlarini yaratuvchi hamda ommaviy axborot vositalari faoliyatini liberallashtirishga qaratilgan demokratlashuv jarayonlari;

mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lgan ta’lim olish, ilg‘or zamonaviy axborot texnikasi va vositalarini xarid qilish hamda ulardan foydalanish uchun mavjud moddiy imkoniyatlar[9].

Bu borada ayniqsa, G‘arb mamlakatlarida axborotlarni saqlash, uzatish, qayta ishlash va o‘zgartirish usullarini o‘rganish bo‘yicha dastlab muhandislik muammolari doirasida yuzaga kelgan, so‘ng kibernetik tizimlar, hozirgi davrda esa axborotlashtirish, informatsion kommunikatsiyalar, internet, uyali aloqalar va boshqarish sohasiga keng yoyilgan axborot nazariyasi haqidagi qarashlar muhim ahamiyatga ega.

Axborot nazariyasida axborotning qanchalik foydali ekani va maqsadga yo‘naltirilganligiga urg‘u beradigan pragmatik jihat kuchli tavsiflab berilgan. Bu qarashga ko‘ra axborotning foydalilik me’yori uning mavhumlik me’yoriga bog‘liq bo‘lib, agar xabar olish jarayonida iste’molchi ongidagi muayyan masala bo‘yicha mavhumlik o‘zgarsa, axborotning foydaliligi xabar olingungacha bo‘lgan va undan keyingi mavhumlik o‘rtasidagi farqqa teng bo‘ladi

Globallashuv – bu dunyo miqyosida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot oqimlarining o‘zaro bog‘lanishi va integratsiyalashuvi jarayoni bo‘lib, u turli falsafiy maktablar va ilmiy nazariyalarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ushbu jarayonni tushuntirish uchun turli nazariy konsepsiyalar va paradigmatik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Quyida globallashuvning falsafiy talqini bilan bog‘liq asosiy nazariyalar va ularga oid olimlarning fikrlari tahlil qilinadi.

Globallashuvning madaniy ta’siri haqida ko‘plab nazariy konsepsiyalar mavjud. Roland Robertsonning “Glocalization” nazariyasi Robertson globallashuv va lokalizatsiyaning o‘zaro ta’sirini “glokalizatsiya” (glocalization) tushunchasi orqali izohlaydi. Uning fikricha, globallashuv jarayoni barcha madaniyatlarni bir xillashtirmaydi, aksincha, ularning o‘ziga xosligini yangi shaklda aks ettiradi. Samuel Xantingtonning Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi nazariyasi[10]. Xantington globallashuv jarayonining asosiy natijasi sivilizatsiyalar o‘rtasidagi mafkuraviy va madaniy to‘qnashuvlar ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, kelajakdagi mojarolar milliy yoki iqtisodiy asoslarda emas, balki sivilizatsion tafovutlarga ko‘ra yuzaga keladi. Herbert Shillerning Madaniy imperializm nazariyasi Shiller madaniy imperializm tushunchasini ilgari surgan bo‘lib, u G‘arb ommaviy axborot vositalari va madaniy mahsulotlari orqali boshqa davlatlarning madaniy muhitiga ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi. Globallashuvga turli paradigmatik yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri jarayonni o‘z nuqtai nazaridan tushuntiradi. Neoliberalizm tarafdorlari, jumladan, Milton Fridman va Frensis Fukuyama, globallashuvni bozor iqtisodiyoti va liberal demokratik qadriyatlarning kengayishi sifatida ko‘radi. Fukuyama hatto “tarixning oxiri” konsepsiyasini ilgari surib, G‘arb demokratik modeli g‘alaba qozonganini da’vo qiladi. Marksist olimlar globallashuvni kapitalistik tizimning bosqichma-bosqich rivojlanishi natijasi deb ko‘radi. Masalan, Devid Xarvi “Yangi imperializm” tushunchasini ishlab chiqib, global kapitalizm notekis rivojlanish va iqtisodiy ekspluatatsiyani kuchaytirayotganini ta’kidlaydi. Devid Xarvi zamonaviy geosiyosat, iqtisodiy geografiya va marksistik nazariyalar bo‘yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. Uning **“Yangi imperializm”** tushunchasi kapitalistik globallashuv jarayonlarini tanqidiy baholashga asoslangan bo‘lib, hozirgi zamon imperialistik amaliyotlarining yangi shakllarini tushuntirishga qaratilgan[11]. Devid Xarvining fikricha, **yangi imperializm** an’anaviy imperializmning bevosita harbiy bosib olish va mustamlaka tizimi orqali o‘zgarishi natijasida paydo bo‘lgan. Xarvining nazariyasi bugungi dunyoda quyidagi real hodisalar orqali namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi. **Iqtisodiy mustaqillikni cheklash-** Xalqaro moliyaviy institutlar rivojlanayotgan davlatlarga katta miqdorda qarz berib, ularning iqtisodiy siyosatini nazorat qiladi. **Tabiiy resurslarni egallash-** Yirik kompaniyalar Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyo davlatlarida tabiiy resurslar ustidan monopoliyani qo‘lga kiritmoqda. **Harbiy intervensiyalar-** AQSh va G‘arb davlatlari demokratiyani bahona qilib, Iroq, Afg‘oniston kabi mamlakatlarda harbiy harakatlar olib bordi va ularning iqtisodiyotini o‘ziga qaram qildi. **Madaniy va mafkuraviy ekspansiya-** Katta axborot kompaniyalari va G‘arb ommaviy axborot vositalari global miqyosda jamiyatlarni neoliberallashuvi va iste’molchilik madaniyatiga bog‘liq qilib qo‘ymoqda. Xarvining “Yangi imperializm” nazariyasini axborot xavfsizligi kontekstida ham ko‘rib chiqish mumkin. Bugungi dunyoda axborot ustidan nazorat ham yangi imperializmning muhim vositasiga aylanmoqda. “Yangi imperializm” nazariyasi globallashuvning haqiqiy mohiyatini tushunish uchun muhim tahliliy yondashuvni taqdim etadi. Uning fikricha, hozirgi davrda imperialistik hukmronlik harbiy bosib olish shaklidan ko‘ra, iqtisodiy, moliyaviy va axborot ustidan nazorat o‘rnatish yo‘li bilan amalga oshirilmoqda. Ushbu nazariya zamonaviy geosiyosiy o‘zgarishlarni tushunishda, iqtisodiy mustaqillik va axborot xavfsizligini ta’minlash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Postmodernist olimlar, jumladan, Jan Bodriyar va Lyotard, globallashuvni simulyatsiya, hipper-reallik va axborot manipulyatsiyasi orqali tushuntiradi. Ularning fikricha, globallashuv haqiqatni emas, balki uning sun’iy yaratilgan ko‘rinishini ommalashtiradi.

Globallashuv tushunchasi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u turli falsafiy yondashuvlar orqali izohlanadi. Uning iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy va axborot sohalariga ta’siri haqida turli olimlar o‘z fikrlarini ilgari surgan. Ularning qarashlarini umumlashtirsak, globallashuv bir tomondan iqtisodiy integratsiya, madaniy almashinuv va texnologik taraqqiyotga zamin yaratmoqda, ikkinchi tomondan esa milliy qadriyatlar, sivilizatsiyalararo ziddiyatlar va madaniy imperializm tahdidlarini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish va unga nisbatan muvozanatli yondashuv ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayonlari mafkuraviy sohada ham tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Turli mafkuralar o‘rtasidagi raqobat kuchayib, davlatlar va jamiyatlar o‘rtasida g‘oyaviy bahs-munozaralar avj olmoqda. Bu jarayonda quyidagi omillar kuzatilmoqda. **Milliy mafkuralarning o‘zgarishi** – globallashuv sharoitida davlatlar o‘z mafkuraviy negizlarini mustahkamlashga harakat qilmoqda, shu bilan birga, yangi mafkuraviy oqimlar shakllanayotganini kuzatish mumkin. **G‘arb va Sharq o‘rtasidagi mafkuraviy tafovut** – demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinlik masalalarida G‘arb va Sharq davlatlari o‘rtasida mafkuraviy ziddiyat kuchayib bormoqda. **Mafkuraviy ta’sir vositalarining**

o‘zgarishi – ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va internet orqali mafkuraviy tashviqot kuchayib, an’anaviy mafkuraviy vositalarning o‘rni kamaymoqda. Globallashuv sharoitida axborot maydoni tobora kengayib, uning jahon miqyosidagi ta’siri ortib bormoqda. Axborot oqimining ortishi nafaqat ijobiy natijalarga olib kelmoqda, balki bir qator tahdidlarni ham yuzaga chiqarmoqda. **Axborot urushlari va dezinformatsiya** – ayrim davlatlar va manfaatdor guruhlar raqiblarini zaiflashtirish yoki jamiyatda ijtimoiy beqarorlik yaratish maqsadida yolg‘on axborot va targ‘ibot materiallarini ommaviy tarqatmoqda. **Axborot ustidan nazorat va senzura** – ayrim davlatlar global axborot maydonida o‘z ta’sirini oshirish uchun axborot oqimini cheklash yoki boshqarish choralarini ko‘rmoqda. **Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali axborot manipulyatsiyasi** – sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va algoritmlar yordamida axborot oqimini boshqarish va yo‘naltirish imkoniyatlari kengaymoqda. Global ijtimoiy o‘zgarishlar jamiyatning barcha jabhalariga, jumladan, madaniyat, mafkura va axborot maydoniga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. Ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini to‘g‘ri baholash va ularga mos strategik yondashuv ishlab chiqish milliy manfaatlarni himoya qilish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, axborot xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash hozirgi sharoitda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa

Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilib aytish mumkinki, **global jarayonlar integratsiya va dezintegratsiya, global va lokal, umumsayyoraviy va hududiy, umuminsoniy va milliy jarayonlarni qamrab olgan murakkab hodisadir**. Shuning uchun globallashuvni aniq ta’riflar, modellar yoki umumiy mezonlar asosida baholab bo‘lmaydi. Har bir global voqelikni alohida o‘rganish, uning xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Словарь иностранных слов. – Москва: Гос. Изд.иностр. и нац. словарей, 1954.– С.183.

2. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент: «Маънавият», 2006. – Б. 8.

3. Пригожин И. Кость еще не брошена // Синергетическая парадигма. Нилейное мышление в науке и искустве. – Москва: Прогресс-Традиция, 2002. – С.18..

4. Ницше Фр. Воля к власти. Опыт переоценки всех ценностей (1884-1888). – Москва: ТООТраспорт», 1995. – С.35.

5. Шпенглер О. Закат Европы. – Новосибирск: «Наука», 1993.

6. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент: «Маънавият», 2006. – Б. 18.

7. Турсунов А. Глобаллашув жараёнида хавфсизликни таъминлаш // Жамият ва бошқарув, 2005. 3-сон. – Б.52.

8. Коляда М.Г. Окно в удивительный мир информатики. -Донецк: Сталлер, 2007.

9. Алимов Қ.А. Информация и искусственный интеллект// Иқтисодиёт ва таълим, №4, 2004, -С.106-108.;

10. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций / Пер. с англ. Т. Велимеева. Ю. Новикова.. — М.: ООО «Издательство АСТ», 2003. — С. 603. — ISBN 5-17-007923-0.

11. Дэвид Харви. Социальная справедливость и город. 2-е издание. Перевод с английского Герасимова Екатерина. 2019. 140 x 215 мм. Твердый переплёт. 440 с. ISBN 978-5-4448-1108-5

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
falsafa fanlari nomzodi, dotsenti,
ORCID 0000-0003-0847-9901, sagdullaevadilbar14@gmail.com

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FUQAROLAR IJTIMOIYLASHUVINING SHAKLI SIFATIDA

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlarining navbatdagi bosqichida, barqaror iqtisodiy o‘sish, rivojlangan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash maqsadlari yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili qamrab olingan. Uchinchi sector bo‘lmish nodavlat notijorat tashkilotlarining ushbu jarayondagi o‘rni, faoliyati doirasi, rivojlanish imkoniyatlari o‘rganildi. NNTning fuqarolar siyosiy-huquqiy madaniyati darajasini o‘stirishga ta’siri hamda ijtimoiy faollikni oshirishdagi ahamiyati asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *demokratiya, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik nazorati, liberallashtirish, modernizatsiyalash, nodavlat-notijorat tashkilotlari, siyosiy-huquqiy madaniyat.*

Сагдуллаева Дилбар Шухратовна
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми,
кандидат философских наук, доцент

ПЕРСПЕКТИВЫ НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация: *В статье дается анализ реформ, реализуемых на очередном этапе модернизационных процессов в новом Узбекистане, направленных на достижение устойчивого экономического роста, развитие системы образования, медицины и социальной защиты, создание благоприятных экологических условий, построение справедливого и современного государства, служащего народу, обеспечение суверенитета и безопасности страны. Изучены роль, масштабы и возможности развития негосударственных некоммерческих организаций, являющихся третьим сектором, в этом процессе. Обосновано влияние ННО на повышение уровня политической и правовой культуры граждан и их значение в повышении социальной активности.*

Ключевые слова: *демократия, гражданское общество, институты гражданского общества, общественный контроль, либерализация, модернизация, неправительственные организации, политико-правовая культура.*

Sagdullaeva Dilbar Shuhratovna
Tashkent University of Information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi,
Candidate of Philosophy, Associate Professor

PROSPECTS OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE MODERNIZATION OF SOCIETY

Abstract: *The article provides an analysis of the reforms implemented at the next stage of modernization processes in the new Uzbekistan, aimed at achieving sustainable economic growth, developing the education system, medicine and social protection, creating favorable environmental conditions, building a fair and modern state serving the people, ensuring the sovereignty and security of the country. The role, scale and development opportunities of non-governmental non-profit organizations, which are the third sector, in this process are studied. The influence of NGOs on raising the level of political and legal culture of citizens and their importance in increasing social activity are substantiated.*

Key words: *democracy, civil society, civil society institutions, public control, liberalization, modernization, non-governmental organizations, political and legal culture.*

Kirish

Demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish Yangi O‘zbekiston uchun strategik maqsaddir. Bu yo‘lda O‘zbekiston Respublikasi umuminsoniy qadriyatlarni va ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi, fuqaroning qonun oldidagi tengligi, jamiyat va davlat boshqaruvida teng huquqli ishtirok etishini, davlat asosiy organlarining saylab qo‘yilishi, ularning saylovchilar oldida hisobdorligi, tayinlash yo‘li bilan shakllantiriladigan davlat organlarining saylanadigan organlarga hisobot berishi kabi demokratik fuqarolik jamiyati tamoyillarini e’tirof etish bilan birga xalqimizning ma’naviyatga yo‘g‘rilgan mentalitetiga asoslanadi. Ushbu jarayon jamiyat sohalarini liberallashtirish asosida amalga oshirilib, davlatning turli xil vazifalari bosqichma-bosqich jamiyatga ya’ni, xalqning o‘ziga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, nodavlat notijorat tashkilotlariga topshirib borilmoqda. Mamlakatimizni liberallashtirish va modernizatsiyalashning har bir bosqichida “davlatning birdan – bir va yagona manbai xalqdir” degan konstitutsion qoidaga muvofiq, xalq hokimiyatchiligi, keng jamoatchilikning, har bir fuqaroning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ta’minlanmoqda.

Asosiy qonunning ana shu talablaridan kelib chiqib, 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish masalalariga [1] oid 12-maqsadda: Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa, davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatida “Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. ... inson va uning manfaatlarini ta’minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik”, deb ta’kidlandi [2].

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Jamiyatni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy modernizsiyalash, demokratlashtirishda kuchli jamoatchilik nazoratini o‘rnatishning ahamiyati beqiyosdir. Jamoatchilik nazorati subyektlaridan biri – nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) dir. Jamoatchilik nazorati – davlat boshqaruvini erkinlashtirish va demokratlashtirishning asosiy sharti bo‘lib, aholining davlat boshqaruvidagi faol ishtirokini ta’minlaydi.

Jamoatchilik nazoratini shakllantirishdan maqsad fuqarolarni davlat tashkilotlari tomonidan me’yoriy talablarga rioya qilinishini nazorat etilishiga, davlat organlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish samaradorligining oshishiga erishishgina emas, balki jamoatchilikning ehtiyoj va irodasi davlat miqyosidagi vakolatlarini amalga oshirishning me’yoriy mexanizmini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zR qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir [3].

Demokratik jamiyatni barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy faollikni oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va roli beqiyos ortib bormoqda. Zero, “Jamiyatimiz tuzilmalarida muvozanatni saqlaydigan kuchli ommaviy, jamoat birlashmalari bo‘lmas ekan, davlat hokimiyatining barcha bo‘g‘inlarida o‘zboshimchalik, volyuntarizm, avtoritar tafakkur va boshqaruv apparatining korrupsiyasi singari illatlar paydo bo‘lmasligiga jiddiy kafolat ham bo‘lmaydi” [4, 26-27].

Fuqarolik jamiyatini barpo etish davrida NNTlarining faoliyati mamlakatda siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga ko‘maklashish, bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida boqimandalik, loqaydlik, mutelik ruhiyatini barham toptirish, xalqimizda milliy g‘urur va iftixor, vatanparvarlikni o‘stirish, ishbilarmonlik va tadbirkorlik fazilatlari va xislatlarini rivojlantirish, umuman olganda, inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari qarorlarini tayyorlashda ishtirok etishiga erishish, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga qaratilgandir.

“Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni o‘z qatnashchilari o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi”[5, 61].

O‘zbekistonda dastlab NNT faoliyatining huquqiy asoslari “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy fondlar to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi kabi qonunlar bilan mustahkamlandi.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni rivojlantirishning muayyan bosqichlarida bir qator muhim qaror va qonunlar, jumladan, “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zR Prezidentining qarori[6], “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi [7], “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi [8], “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi

to‘g‘risida”gi [9] O‘zR qonun hujjatlari qabul qilindi. Ular NNTlar faoliyatini rivojlantirish bilan birga, uchinchi sektorning davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklik asosida hamkorlik qilishi, tabiatni muhofaza qilish ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishi, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash masalalari bo‘yicha huquq va imkoniyatlarini kengaytirdi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining samarali va erkin faoliyat ko‘rsatishi uchun bir qancha imtiyozlar berildi. Biroq, NNTlar faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanib borilayotgan bugungi kunda ularga oid qonunchilik me’yorlarini amaliyotga tatbiq qilishga doir bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Shuningdek, “aholining muammolarini tizimli o‘rganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti og‘ir ayollarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan ta’minlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti”[10]. Ushbu holat NNTlar faoliyati, imkoniyatlari doirasini chuqurroq o‘rganish zaruriyatini namoyon etadi.

NNTlarni atroflicha tadqiq etgan mutaxassislar fikricha, nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlari fuqarolarga eng yaqin, ularning qiziqish va manfaatlarini to‘liq ifoda eta oladigan ixtiyoriy birlashmalardir. Aynan shu nuqtayi nazardan, ular davlat hokimiyati bilan xalq o‘rtasidagi vositachi institut sifatida qaraladi [11, 18].

A.Saidov fikriga ko‘ra, NNT zamonaviy demokratiya sharoitida vositachi, bog‘lovchi bo‘g‘in emas, balki hukumat nazoratchisi bo‘lib hisoblanadi. “Nodavlat notijorat tashkilotlari davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatadi va davlat hokimiyati o‘zining uzoq yillik hukmronligini ta’minlashni xohlasa, bu tashkilotlar kayfiyatiga qarashi lozim. Nodavlat notijorat tashkilotlari hukumatning barometri bo‘lishi zarur. Ularga qarab, hukumat – xalq tomonidan davlat hokimiyati xatti-harakati qanday qabul qilinayotganligini aniqlashi shart” [12, 144].

Natijalar va muhokama

Fuqarolik jamiyati institutlari (NNT) ham nafaqat jamoatchilik fikrini ifodalashi, balki erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ularni shakllantirishi ham shartdir[13, 18-19]. Demak, NNT hukumat ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish orqali xalqni jamiyatni boshqarish ishlariga jalb etadi. Fikrimizcha, ushbu jarayonda NNTlar qator imkoniyatlarga ega:

Birinchidan, NNT faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichi fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongi, madaniyatining yuqori darajasini taqozo etadi. Shuningdek, NNTning jamiyat hayotidagi o‘rni mustahkamlanib borishi aholi siyosiy-huquqiy madaniyati yanada takomillashib borishiga olib keladi. Bu jarayonda NNT fuqarolarning ijtimoiy aloqalarini mustahkamlaydi. Jamiyat a’zolari turli nodavlat tashkilotlariga birlashib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanib boradi. Ijtimoiy munosabatlarda aholining faol fuqarolik nuqtai-nazariga ega bo‘lishi esa, avvalo, ular siyosiy-huquqiy madaniyatining takomillashib borishini talab qiladi.

Ijtimoiy - siyosiy jarayonlar o‘zaro chambarchas munosabatlardan tashkil topadi. Iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati ko‘p jihatdan siyosiy barqarorlikni talab etsa, siyosiy barqarorlik, o‘z navbatida, mustahkam qonunchilikka asoslanadi. Qonunchilik esa, ma’naviy qadriyatlar va me’yorlar yordamida mustahkamlansagina, har bir fuqaroning hayot tarziga aylanadi. NNT o‘z faoliyatini qonun doirasida va himoyasida amalga oshirib davlat hokimiyati va mansabdor shaxslar ustidan jamoatchilik nazoratini real o‘rnatishi uchun muqarrar ravishda o‘z a’zolari siyosiy-huquqiy madaniyati darajasini oshirib borishi taqozo etiladi. Zero, jamoatchilik nazoratiga tayanib yashaydigan jamiyatgina barqaror rivojlanish yo‘liga ega bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, davlat va alohida fuqaro o‘rtasidagi to‘siqlarni yo‘qotishga yordam beradi. Hokimiyat uchun kurash olib borish emas, balki fuqarolarni uyushtirish, jamiyatda barqaror taraqqiyotga erishish, ularning moddiy shart-sharoitlarini yaxshilash hamda huquq va erkinliklarini himoya qilish kabilar NNT faoliyatining asosi bo‘lganligi uchun ham hokimiyat ular bilan hamkorlik qilishga harakat qiladi.

NNTning bunday faoliyati, ya’ni hokimiyat funksiyalarining ularga asta-sekinlik bilan o‘tib borishi hokimiyat bilan aholi o‘zaro yaqinlashishiga olib keladi. Bu bilan NNT zimmasidagi ma’suliyat ham ortib boradi. Ularning ushbu vazifasi aholi ehtiyojlarini qondirish maqsadida tegishli qonun, qarorlar ishlab chiqilishiga ta’sir o‘tkazib, mavjud muammolarni amaldagi qonunchilik tizimi asosida hal qilishga qaratilgan. Ya’ni, huquqiy me’yorlarni o‘z o‘rnida ishlata olish, qonun asosida o‘z manfaatlarini amalda ro‘yobga chiqarish, o‘z huquq va erkinliklari ta’minlanishi, qonunning to‘laqonli ishlashiga, uning har bir fuqaro hayot faoliyatining asosiga aylanishiga samarali ta’sir ko‘rsata oladi.

Uchinchidan, demokratiyaning quyidan rivojlanishini ta’minlaydi. Har qanday jamiyatda ham, demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi mezonlar mavjud. Bular - xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi, hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolarning davlatni boshqarishdagi ishtiroki. “Bunga erishish uchun esa,- deydi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, - avvalo, jamoatchilik vakillarining siyosiy, ijtimoiy saviyasini o‘stirish kerak. Har bir fuqaro, har bir inson o‘z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarni huquqiy ong, huquqiy bilimlar hamda ularni amalda qo‘llay olish ko‘nikmasi bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi shart. Toki

jamiyatning har qaysi a’zosi o‘z huquqi, o‘z burchi va ma’suliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha so‘zlarimiz, sa’y-harakatlarimiz besamar ketaveradi”[14, 243-246].

Demokratiyaning quyidan rivojlanishi aholining ijtimoiy-siyosiy bilimdonligini, yuqori saviyadagi siyosiy-huquqiy madaniyatning mavjud bo‘lishini taqozo etadi. NNT manfaatlari yaqin, o‘zida bir maqsadni ko‘zlagan kishilarni uyushtirib, unga erishishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimining haqiqiy holatidan to‘laqonli xabardor bo‘lishni, fuqaroning o‘z huquq va erkinliklarini mavjud huquq bazasiga muvofiq ro‘yobga chiqarish mexanizmlarini o‘zlashtirishi uchun imkon beradi. Umuman olganda, fuqaro o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga boshqa kishilar bilan birlashgan holda qonun doirasida, hech kimning tazyiqisiz mustaqil tarzda o‘zining bilimi va uni qo‘llay olish ko‘nikmalarini tarbiyalashi orqali erishishi mumkin. Bu jarayon esa, muqarrar ravishda aholi huquqiy madaniyati takomillashib borishini shartlaydi hamda unga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, g‘oyalar va tashabbus jamiyat fikrining o‘tkazgichi bo‘lib xizmat qiladi. NNT aholi ijtimoiy fikrini shakllantirishga xizmat qiladi. “NNT bosh vazifasi, - eng avvalo, demokratik qadriyatlarni, kishilarning qonuniy haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir. NNT fuqarolarning ko‘ngilli uyushmasi sifatida aholining hayot tarzi, intilishlari, qiziqishlari, muammolari bilan yetarli darajada xabardor bo‘lib, o‘z faoliyati davomida ularni amalga oshirish uchun ko‘mak beradi. NNT o‘z a’zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish huquqlariga egadirlar. Demak, NNT xalq bilan davlat o‘rtasidagi vosita, aholi xohish-irodasini inobatga olib, ularni himoya qilib faoliyat yurituvchi tashkilot ekanligi bilan ahamiyatga egadir.

2. NNT va aholining ijtimoiylashuv jarayonlari

NNTni rivojlantirishdan maqsad – jamiyat a’zolarining manfaatlari muvozanatini ta’minlash va himoya qilish. Siyosiy va ijtimoiy sohada esa davlat tizimlariga muqobil kuch sifatida ular adolat tarozini hayotda hukmronlik qilishiga hissa qo‘shishlari lozim”[15, 23].

NNTning fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli ularning bajaradigan vazifalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular qaysi maqsadni ko‘zlashidan qat’i nazar eng asosiy vazifasi davlat hokimiyati institutlarini shakllantirish va davlat hokimiyati faoliyati ustidan ijtimoiy nazoratni o‘rnatishdan iboratdir. Bu jarayonda siyosiy partiyalardan farqli ravishda NNT hokimiyatga bevosita ta’sir ko‘rsatmay, balki bavosita ta’sir ko‘rsatish imkoniga egadir. Qonunga binoan, ular siyosiy partiyalar kabi hokimiyatning vakillik organlariga o‘z nomzodlarini ko‘rsatish huquqiga ega emas. NNT davlat tuzilmalarini egallashga intilmaydi, balki hokimiyatga ta’sir o‘tkazish bilan cheklanadi.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, NNT quyidagi huquqlarga egadir: o‘z a’zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish; davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish[16, 63].

Bizningcha, NNTning qonunda mustahkamlangan ushbu huquqlari ular funksiyalarining to‘laqonli bajarilishi uchun asos bo‘lib, aholi huquqiy madaniyati darajasini takomillashtirishga ko‘rsatuvchi ta’siri bilan ham hamohangdir.

Jamoat tashkilotlari, NNT ijtimoiy munosabatlar holatidan, fuqaro manfaatidan kelib chiqib, ularni tartibga solishga qaratilgan huquq me’yorlarini ishlab chiqishda va ro‘yobga chiqarishda hamda ularning amal qilish mexanizmida keng ishtirok etadi. Natijada unga muvofiq ijtimoiy fikr shakllanadi. Ushbu tashkilotlar doirasida barqaror, jamoaviy aloqalarni o‘rnatish uddasidan chiqilsa, ularda o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatlari shunchalik darajada ortadi. NNT oddiy fuqarolarning bir maqsadga yo‘naltirilgan uyushmasi sifatida ular hayotidagi muammolarni qonun yordamida, unga muvofiq bo‘lgan huquq me’yorlarini ishlab chiqilishiga erishib, hal eta oladi.

Shu asosida NNT qonunga itoatkorlik, fuqaroning mavjud huquq me’yorlaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalana olish ko‘nikmasi, ularni amaliyotda qo‘llash mahorati o‘sib, takomillashib borishiga turtki beradi. NNTning ushbu yo‘nalishdagi muvaffaqiyati jamiyatda demokratik tamoyillar amal qilishida, fuqarolar faolligi, huquqiy madaniyati takomillashib borishida ko‘rinadi. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi”da fuqarolik jamiyatining huquqiy madaniyat darajasi jamoat birlashmalari, jamg‘armalar, ittifoqlar, uyushmalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining keng tarmog‘i mavjudligi hamda bu demokratik tuzilmalarning muayyan shaxs va jamiyatning huquqlarini ta’minlashdagi ijtimoiy faolligi bilan belgilanishi ko‘rsatilgan.

NNT ijtimoiy fikrga ta’sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu jarayonda ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borish, axborot almashinishni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. NNTning o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatish, ommaviy axborot vositalarini ta’sis etish hamda noshirlik faoliyatini amalga oshirish kabi huquqlaridan mohirlik bilan foydalana olishi jamiyat hayotini

demokratlashtirishda, xususan aholi huquqiy madaniyati takomillashib borishida katta ta'sir kuchiga ega.

O'zbekistonda inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi qator davlat (Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi, O'zbekiston Advokatlar Assotsiatsiyasi, O'zbekiston Sud'yalar Assotsiatsiyasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti va h.k.) va NNT (Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish bo'yicha markaz, O'zbekiston inson huquqlari mustaqil tashkiloti, Demokratiya va inson huquqlari instituti, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, O'zbekiston yurist-ayollar ijtimoiy tashkiloti va h.k.) faoliyat olib bormoqda. Ushbu NNTlarni tashkil etishdan maqsad - inson huquqlarini himoya qilish va amalda ro'yobga chiqarish, kishilarda huquqiy bilimlarni shakllantirish, ommalashtirish, huquqiy savodxonlikni oshirishga, inson huquqlari poymol etilishi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etishga ko'maklashish orqali jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlovchi jamoatchilik va fuqarolik nazorati institutini barqarorlashtirishdan iborat[17, 142].

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, NNT hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda[18].

2005 yilda birinchi umummilliy Fuqarolik forumida O'zbekiston NNT Milliy Assotsiatsiyasi tashkil topdi. Assotsiatsiya qoshida NNTni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, O'zR Oliy Majlisi qoshida NNT va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuzildi.

Inson huquqlarini va qonun ustuvorligini himoya qilish, fuqarolar huquqiy madaniyatini takomillashtirish maqsadini ko'zlagan davlat va NNT tomonidan olib borilayotgan targ'ibot ishlari bir muncha darajada o'z natijasini berayotganligi ushbu tashkilotlarga aholi tomonidan kelayotgan murojaatlar soni oshib borayotganligi bilan ham izohlash mumkin. O'zbekiston xalqaro taraqqiyotning ilg'or an'analaridan kelib chiqib, inson huquqlarini himoya qilishda o'z sodiqligini ochiq bildirgani holda o'z hududida ularga rioya etish majburiyatini oldi hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini ishlab chiqdi. Mazkur mexanizmning asosiy elementi bo'lgan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti faoliyati kengayirilmoqda.

Butun dunyoda Ombudsman instituti fuqarolar shikoyatlarini suddan tashqarida ko'rib chiqadigan qo'shimcha institut sifatida nafaqat ayrim adolatsizlik hollarining oldini olishga, balki hokimiyat idoralari faoliyati mexanizmidagi kamchiliklarni bartaraf etishga, ishini yanada samaraliroq qilishga imkon yaratib, huquqiy davlat maqsad va vazifalariga erishishga ko'maklashadi va shu tariqa fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga yordam beradi. Demokratiyaning inson huquq va erkinliklarining ustunligi kabi muhim belgisining haqiqiy tafsiloti va mazmunini aniqlash, fuqarolar huquqlarini davlat tomonidan himoya qilish va amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish Ombudsmanning vazifasi hisoblanadi. Ammo, bu boradagi yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar mavjudligini ham qayd etish lozim.

Birinchidan, aholi huquqiy savodxonligi yetarli darajada emas. Inson huquqlarini himoya qiluvchi davlat va NNT bilan aholi o'rtasidagi munosabatni mustahkamlashda fuqarolar huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik institutlar xalqimizning mentalitetini, madaniyatining o'ziga xos jihatlarini aks ettirishi lozim. Siyosiy munosabatlarda ham u uchun ma'rifatga, ilmga, adolatga, qonunga itoatkorlikka, axloqiylik, ma'naviylikning ustunligiga intilish xosdir [19].

Ikkinchidan, mahalliy aholining biror bir masala yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmasligi. Fuqaro ko'pincha mavjud vaziyatga ko'nikishga, murosaga kirishishga odatlangan.

Uchinchidan, bugungi o'tish davrida fuqarolar tashabbusi bilan tuzilgan inson huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan NNT siyosiy hayotga, qonun ijodkorligi jarayoniga ham uning ijrosiga ham ta'sir eta olishiga ishonchsizlik ustunlik qilmoqda. Demak, olib borilayotgan demokratik islohotlarning samaradorligi fuqaro, mansabdor shaxslarning huquqiy madaniyatini oshirib borilishini taqozo etadi [20, 55]. Fuqaro ishonchsizligini, ijtimoiy munosabatlarga nisbatan beparvoligini yengish muhim ahamiyatga egadir.

Demak, jamiyatda qonunning hamma uchun barobarligi, ustuvorligi davlat va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan ta'minlangan taqdirdagina aholida yangicha tafakkur tarzi, huquqni yangicha idrok etish qaror topib, huquqiy madaniyat takomillashib boradi va bunda NNT roli ham ortadi.

Xulosa

Huquqiy madaniyatning taraqqiyoti shaxs huquqlari va erkinliklari ko'lamining kengayishi, himoyalanganlik darajasining o'sishidadir. Huquqiy taraqqiyot markazida shaxs, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari hamda madaniyatdagi oliy qadriyat bo'lgan shaxsning, barcha narsalarning mezoni bo'lgan insonning maqomini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy vositalar, mexanizmlar va institutlar turadi. NNT jamiyatni o'zini o'zi uyushtirish va tartibga solishining muhim omili bo'lib, ularning amal qilish mexanizmlari aniq ishlab chiqilgan taqdirdagina fuqarolik jamiyati

fuqaroning haqiqiy erkinligini ta'minlab bera olishi, jamiyatda demokratiya real amal qilishi mumkin bo'ladi. Shu asosda NNT aholini huquqiy me'yorlarni ishlab chiqishda va amaliyotda qo'llashda keng ko'lamda ishtirok etishiga jalb eta oluvchi kuch bo'lib maydonga chiqib, davlat va fuqaroning o'zaro mas'ulligini ta'minlaydi.

Demak, NNTning keng quloch yoyishi nafaqat inson huquqlarini himoya qilish mexanizmining samaradorligi ortishiga, balki davlat va fuqaro orasida huquq va majburiyatlar asosida barqaror aloqalar tizimi shakllanishiga olib keladi. Jamiyatda NNT qanchalik faollashsa, "hokimiyat - jamoatchilik - xalq", o'zini o'zi boshqarish tizimi tobora takomillashadi, mustahkamlanadi hamda bu jarayonda fuqarolarning yuksak huquqiy madaniyati asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanadi [21,23].

Bizningcha, fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirishda NNT va jamoat tashkilotlarining rolini kuchaytirishga xizmat qiluvchi quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

-inson huquqlariga hurmat va ularni ta'minlash uchun institutsional mexanizmlarni mustahkamlash;

-sud-huquq sohasini liberallashtirish jarayonlarining samaradorligini oshirish;

-fuqarolarda milliy ong, milliy g'ururni kamol toptirish[22, 434];

-shaxs huquqiy madaniyatining ma'naviy asosi bo'lmish erkinlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, ijtimoiy tenglikni rivojlantirish;

-so'z erkinligi, axborot olish va tarqatish erkinligiga ega bo'lgan mustaqil ommaviy axborot vositalarini takomillashtirish;

-fuqarolar ijtimoiy faolligi yo'lidagi barcha to'siqlarni bartaraf etib, ularning bunyodkorligi va g'ayratidan foydalangan holda quyidan yo'nalgan tashabbusni qo'llab-quvvatlash lozim.

Fuqarolarda yuksak darajadagi siyosiy-huquqiy ong va madaniyatning kamol topishi, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnata olishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. №PF - 60 // QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022-y. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026.)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati //«Xalq so'zi», 2022 yil 21 dekabr. (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis // "People's word", December 21, 2022.)

3. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // «Xalq so'zi», 2018 yil 13 aprel, №73(7031). (Law of the Republic of Uzbekistan 4. Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari // Bunyodkorlik yo'lidan. 4-Jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. - 26-27-betlar. (Karimov I.A. Important tasks of deepening democratic reforms at the current stage // From the path of creativity. Volume 4. - Tashkent: Uzbekistan, 1996. - Pages 26-27.)

5. Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni // O'zR Oliy Majlisining Axborotnomasi. - Toshkent, 1999, - № 5(1277). - 61-bet. (The Law of the Republic of Uzbekistan "On Non-Governmental Non-Commercial Organizations" // Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 1999, - No. 5(1277). - Page 61.)

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2013 yil 12 dekabrdagi PQ-2085-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida// O'zR qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil.11(615)-son, 126-modda. (On measures to implement the decision of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures to support the development of civil society institutions" dated December 12, 2013 PQ-2085// Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2014 year. No.11(615), Article 126.)

7. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014 y., 11-son, 339-modda. (The Law of the Republic of Uzbekistan "On Social Partnership" // Bulletin of the Chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2014, No. 11, Article 339.)

8. "Parlament nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016 y., 5-son, 149-modda. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Parliamentary Control"// Bulletin of the Chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2016, No. 5, Article 149.)

9. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 45-son, 575-modda. (Law of the Republic of Uzbekistan "On the Openness of the Activities of State Power and Management Bodies" // Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2015, No. 45, Article 575.)

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati // «Xalq so‘zi», 2017 yil 23 dekabr. (10. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis // "People's word", December 23, 2017.)

11. Tangriyev L. Mustaqillik va jamoat tashkilotlari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000. – 18-bet. (11. Tangriev L. Independence and public organizations. - Tashkent: New age generation, 2000. - p. 18.)

12. Джавакова К. Институты народовластия в Республике Узбекистан. - Ташкент: Академия МВД РУз, 2006. - 144 с. (12. Djavakova K. Institutions of democracy in the Republic of Uzbekistan. Tashkent: Academy MVD RUz, 2006. - 144 p.)

13. Saidov A.X. Osobennosti razvitiya institutov grajdanskogo obshestva v Uzbekistane // “Sovremenniy opit obshestvenno – politicheskoy modernizatsii i voprosi obespecheniya stabilnosti”. - Toshkent: Akademiya, 2007. –S.18-19. (Saidov A.Kh. Features of the development of civil society institutions in Uzbekistan // “Modern experience of social and political modernization and issues of ensuring stability".- Tashkent: Academy, 2007. - P.18-19.)

14. Qarang: Karimov I.A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin // Biz o‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-Jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 1999. - 243-245-betlar. (14. See: Karimov I.A. Let justice be our companion and program in every work // We build our future with our own hands. Volume 7. - Tashkent: Uzbekistan, 1999. - Pages 243-245.)

15. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda // Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-Jild. - Toshkent: O‘zbe\]\] kiston, 1999. - 23-bet.(15. Karimov I.A. Uzbekistan is moving into the 21st century // We will build our future with our own hands. Volume 7. - Tashkent: Uzbekistan, 1999. - p. 23.)

16. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni // O‘zR Oliy Majlisining Axborotnomasi. - Toshkent, 1999, -№ 5(1277). - 63-bet. (17. The Law of the Republic of Uzbekistan "On Non-Governmental Non-Commercial Organizations" // Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 1999, - No. 5(1277). - page 63.)

17. Туленова, Г. Ж., & Сагдуллаева, Д. Ш. (2019). Особенности политического реформирования в Республике Узбекистан. Социосфера, (1), 142.

18. Сагдуллаева, Д. Ш. СТРАТЕГИЯ ДЕЙСТВИЙ ПО РАЗВИТИЮ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ СТРАНЫ. (Sagdullaeva, D. Sh. ACTION STRATEGY FOR THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN AS A FACTOR OF THE COUNTRY'S MODERNIZATION)

19. Sagdullayeva, D. Sh. Сагдуллаева, Д. Ш. ДУХОВНО-КУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА. ББК 87.3 (4Bei) ya43 I73, 196. (Sagdullaeva,D. Sh. SPIRITUAL AND CULTURAL ASPECTS OF MODERNIZATION OF SOCIETY. BBK 87.3 (4Bei) i43 I73, 196.)

20. Сагдуллаева, Д. Ш. (2017). ДЕМОКРАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И ПРОЦЕССЫ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Инновации в технологиях и образовании* (pp. 54-59).

(Sagdullaeva, D. Sh. (2017). DEMOCRATIC DEVELOPMENT AND PROCESSES OF SOCIO-POLITICAL MODERNIZATION IN UZBEKISTAN. In Innovation in Technology and Education (pp. 54-59).)

21. Sagdullayeva, D. S. (2019). CERTAIN PHILOSOPHICAL ASPECTS OF SOCIETY MODERNIZATION. *Paradigmata poznani*, (1), 20-24.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Kutlimuratov Sardorbek Rustamovich
Buxoro Davlat universiteti tadqiqotchisi

TURKISTONDA IX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA JADIDCHILIK MILLIY HARAKATI VUJUDGA KELISHI VA UNING TARIXIY BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asr oxiri, XX asr boshlarida buxorolik ma'rifatparvar olimlar ta'sirida yangi milliy g'oya - jadidchilik harakatining paydo bo'lishi, Chor rossiyasida musulmon turkiy xalqlar orasida Volga-Ural, Qirim, Ozarboyjon, Turkiston, Xiva xonligi va Buxoro amirligida boshlangan jadidchilik milliy harakatlarining manbai, tug'ilishi, bosqichlari, hamda bosh g'oya va maqsadlari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada jadidchilik harakatining asosiy g'oyalari birinchi martaba tasnif qilinib, izohlanadi.*

Kalit so'zlar. *Jadid, Jadidchilik, ma'rifatchilik, milliy o'zlik, huquqiy tenglik, adolat milliy istiqlol, milliy davlatchilik, mustaqillik, Bog'chasaroy. Jadid maktabi.*

Кутлимуратов Сардорбек Рустамович
Научный сотрудник Бухарского государственного университета

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ДЖАДИДСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ДВИЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ В КОНЦЕ IX — НАЧАЛЕ XX ВЕКА И ЕГО ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ

Аннотация. *В статье дается информация о возникновении новой национальной идеи — джадидского движения — под влиянием бухарских просветителей в конце XIX — начале XX вв., об истоках, зарождении, этапах, а также об основных идеях и целях джадидских национальных движений, начавшихся среди мусульманских тюркских народов в царской России в Волго-Урале, Крыму, Азербайджане, Туркестане, Хивинском ханстве и Бухарском эмирате. В статье впервые классифицируются и объясняются основные идеи джадидского движения.*

Ключевые слова. *Джадид, джадидизм, просветительство, национальная идентичность, правовое равенство, справедливость, национальная независимость, национальная государственность, независимость, Багчасарай. Школа джадидов.*

Kutlimuratov Sardorbek Rustamovich
Researcher, Bukhara State University

THE SPREAD OF THE JADID NATIONAL MOVEMENT IN TURKESTAN IN THE LATE 9TH - EARLY 20TH CENTURIES AND STAGES OF ITS HISTORY.

Abstract*. This article provides information about the emergence of a new national idea - the Jadid movement - under the influence of Bukhara enlightened scholars in the late 19th and early 20th centuries, the source, birth, stages, as well as the main ideas and goals of the Jadid national movements that began among the Muslim Turkic peoples in Tsarist Russia in the Volga-Urals, Crimea, Azerbaijan, Turkestan, the Khiva Khanate and the Bukhara Emirate. The article first classifies and explains the main ideas of the Jadid movement.*

Keywords. *Jadid, Jadidism, enlightenment, national identity, legal equality, justice, national independence, national statehood, independence, Baghchasaroy. Jadid school.*

Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz.

Turkiston jadidchilari qoldirgan chuqur meros va jadidchilik harakatining tarixiy ahamiyatini katta sharaf bilan o'rganamiz. Jadidlar buyuk o'zgarishlar davrida nafaqat o'z davrining dolzarb muammolariga javob bergan, balki yangilangan milliy o'zlikni anglash uchun asos solgan ko'ngillilar edi. Ularning ta'lim, madaniyatni boyitish va ijtimoiy islohotlarga bo'lgan fidoyiligi O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritar ekanmiz, bularning barchasi bizni ilhomlantirishda davom etadi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo‘lib, u bir tarafdan, XIX-XX asrlar oralig‘ida butun dunyoda sodir bo‘layotgan ulkan taraqqiyot va o‘zgarishlar, ikkinchi tarafdan, turkiy va musulmon xalqlari yashayotgan Rossiya imperiyasi tarkibidagi Qrim, Volgabo‘yi, Kavkaz va Turkistondagi og‘ir siyosiy, ijtimioiy va madaniy muammolar ta’sirida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan o‘ta muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hamda tom ma’noda milliy uyg‘onish va yangilanish borasidagi demokratik harakatdir.

Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalari tahlilidan avval mazkur milliy harakatning Turkistonda vujudga kelishi va keng yoyilishiga sabab bo‘lgan XVIII-XX asrlar oralig‘ida yuz bergan jahondagi muhim voqealar, progressiv jarayonlar va o‘zgarishlarga nazar solish maqsadga muvofiqdir. XVIII-XX asrlar oralig‘ida dunyoda sodir bo‘lgan muhim o‘zgarishlarni tizimlashtirish orqali quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Sanoat inqilobi;
2. Emansipatsiya,
3. Mustamlakachilik va unga qarshi kurash;
4. İmperiyalar o‘rniga milliy davlatlarning tuzulishi
5. Modernizm, modernizatsiya;
6. Ilmiy-texnologik inqilob.

XVIII-XX asrlarda Turkistonda ham mazkur o‘zgarishlarni kuzatamiz. O‘zbek xonliklari (Qo‘qon xonligi, Xorazm xonligi hamda Buxoro amirligi) va Markaziy Osiyodagi boshqa hududlar 1853-1895 yillar oralig‘ida Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi. Natijada Qo‘qon xonligi tugatildi (1876), Buxoro amirligi va Xorazm xonligi ustidan Rossiya imperiyasi protektorati o‘rnatildi, ya’ni yarim mustamlakaga aylantirildi. 1867 yilda Buxoro amirligi va Xorazm xonligi tashqarisidagi çanubiy Turkiston yerlari Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligi, uning shimolidagi Turkiston yerlari (hozirgi Qozog‘iston hududi)da esa 1882 yilda Dasht (qozoq tilida Dala) general-gubernatorligi tuzildi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi hududidagi musulmon xalqlari orasida keng yoyilgan jadidchilik harakati, XIX asr o‘rtalaridan butun Musulmon dunyosida G‘arb mustamlakachiligiga javob (reaction) o‘laroq yuz bergan “islom modernizmi” harakatining bir qismi sifatida tarix maydoniga chiqadi.

Alohida ta’kidlash joizki, Turkistonda jadidchilik harakatining keng yoyilishiga hamda ularning ma’rifatchilik g‘oyalarining shakllanishida tashqi ta’sirlar bilan bir qatorda XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha faoliyat olib borgan Munis, Ogahiy, Maxtumquli, Muqimiy, Furqat, Abay Qunonboyog‘li, Ahmad Donish kabi Markaziy Osiyolik ma’rifatparvarlarning ilmiy va adabiy merosi katta rol o‘ynagan.

XX asr boshlarida O‘rta Osiyo hududida milliy ozodlik harakatining rivojlanishi kuzatila boshlandi. Shu bilan birga xalqning yashash sharoitlarini yaxshilash, chet el davlatlarining illor tajribalaridan foydalanish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Ushbu davrda O‘rta Osiyo hududida xonliklar asoratining mavjudligi va shu asorat yordamida milliy mafkuraning istiqlol g‘oyalari bilan boyitilishi jadidlar faoliyatining asosini tashkil etadi. Jadidlar ozodlikka erishishning yagona yo‘li sifatida milliy ongni o‘stirish hamda ushbu vazifaning bajarilishida “Usuli savtiya” yangi usul maktablarining ochilishi bilan belgilaydilar. Turkiston, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarda dastlabki yangi usul maktablarining ochilishi, keyinchalik esa Tarbiyayi atvol maxfiy majimiyatining ochilishi ham o‘z davrining ahamiyatli boqealaridan biridir. Xiva xonligi hokimiyatida faoliyat yuritib keluvchi mas’ul shaxslar faqatgina madrasada emas balki, yangi usul maktablarida ham tahsil lozim ekanligi oshkora haqiqatlarga aylangach, xon huzurida faoliyat yurituvchi dodxoh, parvonachi, Qozi kalon kabi mansab egalarining ham e’tiborini torishiga olib keldi. Jamiyat va millatning keng tarzda farovonlikka yuz tutishida adabiyot va badiiy asarlar, drammalar, teatr truppalarining o‘rni katta bo‘lib, ochiqdan-ochiq oina bo‘lib xizmat qilar edi. Shuning uchun ham o‘sha davr muhiti, tarixiy haqiqatlari, xonliklar yurishlari, ijtimoiy siyosiy tuzum, milliy ozodlik harakati ruhinining o‘sha davr muhitida yaratilgan asarlarida ham sezilib turadi. “Amerikalik olim Edvard Olvortning fikricha, o‘sha davrda yaratilgan boshqa dramalar Behbudiyning “Padarkush”i kabi muvafaqqiyatli chiqmagan. Asar diologlaridagi ayrim detallar muallif fikrini ifodalashda kalit vazifasini bajaradi”.Rustam Sharipovnong “Turkiston Jadidchilik harakati tarixidan” nomli asarida jadidchilik harakatlarining geosiyosiy ahamiyati, milliy ozodlik yo‘lida amalga oshirilgan turli pedogogik islohotlar, o‘tgan davr siyosiy masalalarining ham tub mohiyatini yechishda, o‘rganib tahlil etishda ham o‘ziga xos manba bplib xizmat qiladi. Jadidlarning amaliyotiga tarixiy jihatdan nazariyalar bilan yondashish “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”, “Siyosiy-huquqiy ta’limotlar tarixi” kabi sohaviy yo‘nalishlarning keng tarzda tatbiq etilishida jadidlar faoliyatining siyosiy ahamiyati, milliy ozodlik harakati yo‘lidagi pedogogik islohotlari katta manba bo‘lib xizmat qildi. Jadidlarning amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishlar konsepsiyasi rasmiy jihatdan mavjud bo‘lmasada g‘oyaviy maqsad bitta edi”. Bosh maqsad Turkiston hududida mustaqil davlat tuzish bo‘lib, quyidagicha vazifalar mavjud edi. Ular:-jamiyatning mustaqilligiga erishish. Ushbu yo‘lda milliy ozodlik harakatlari faollarining mavjud barpo etiladigan davlat boshqaruvini ta’minlash;-Turkistonning mustaqil demkokratik zaminga aylanishida islohotlarning davomiy o‘tkazilishi;-maorif va san’at sohalarining rivojlanishi,

ta’limiy maqsadlarning amaliyotini ta’minlash va boshqalar. Bilamizki, o‘tgan asrning 20-yillarida jadidlar faoliyatiga nisbatan qiziqish, tahliliy fikrlar nazariyalar kuchaya bordi. Jadidlarning ayni islohotlarining tub mohiyati milliy mustaqillik bo‘ladigan bo‘lsa, ayni shu masalaning yechimi sifatida milliy va chet tillarini yaxshi bilish deya qaralgan. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o‘zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, “Usuli qadim” ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiy yo‘lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko‘rish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qushin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma‘rifatchilarining Turkiston o‘lkasida ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo‘lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o‘lkadagi maxalliy xalqning ongiga o‘z ta‘sirini o‘tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffak bo‘ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma‘rifatchilik g‘oyalari tarkala boshladi, yangi ta‘lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi

Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o‘zanga solish, teatr sahnasidan ibratxona o‘rnida foydalanish naqadar muhim bo‘lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Samarqandlik jadid muharriri Hoji Muin ta’kidlaydi: “Matbuot bir millatni uyg‘otish uchun birinchi omil bo‘lg‘onidek, uning tarixi ham “uyg‘onish davri” tarixining muhim bir bo‘lagi sanaladur”. Darhaqiqat, matbuot o‘zbek jadidchilik davri tarixida juda muhim o‘rin tutadi.

“Haqiqat ochib so‘zlashdadir” tamoyiliga asoslangan jadid matbuotidagi haq so‘zning, haqiqat siyoqining kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta’siri kuchli bo‘ldi. Vaqtli matbuot odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashmog‘i va dunyodan boxabar bo‘lmog‘i uchun zaruratga aylandi. Boshlab gazetalar oyda bir bora bazo‘r chiqdi; asta-asta haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi; sahifalaridagi maqola va ma’lumotlar ma’naviy ehtiyoj tusini oldi.

Darahaqiqat, millat ma’naviyatini isloh etish, odamlarni ma’rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o‘rgatish va lohas-mudroq tafakkurni uyg‘otishning eng asosiy omili sifatida jadid muharrirlari matbuotning qadrini baland ko‘tardi. Matbuot ular nazdida fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo‘lida xizmatchi, odamlar ongu shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko‘zgu bo‘lmog‘i lozim edi. “Ulfat” ko‘ngillar birligidan so‘z ochishi, “sado”lar ma’rifat va ma’naviyat, odobiyot va adabiyotning ovozi bo‘lishi kerak edi. Gazeta va jurnallar nomi shu ezgu niyatlarga moslab tanlandi.

Turkistonlik ziyolilar o‘zlari gazeta chiqargunga qadar bir muddat Qrimga – Boqchasaroyga ko‘z tikishdi. Ismoilbek Gasprinskiyning “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan g‘oyalariga havaslanib qarashdi. Jadidlar shu allomaning “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini o‘qib, uning muxlisi va muhibiga aylanishdi. Gazeta til va fikr birligi masalasini kun tartibiga qo‘ydi, uning yo‘li, maslagi va maqsadi aniq edi: “Tarjimon” - har turli ish, ahvol va ixtilofga “haqqoniyat”va “mumkiniyat” jihatidan boqajakdir. “Tarjimon” tavhidi lison, tavhidi afkor va maorifi milliya masalalarida g‘ayrati doimiyda bo‘lajakdirTurkiston ziyolilari “Tarjimon”dan juda mamnun bo‘ladilar. Deylik, shu mamnuniyatni toshkentlik shoir Karimbek Kamiy “Mo‘tabar “Tarjumon” va “Ismoilbek Gasprinskiy janoblari haqqinda” degan she’rida izhor etdi. Unda gazetaning barchaga manzuru maqbul ekani, undan o‘quvchi “hilmu odobu maoshu ilmu fan” o‘rganishi mumkinligini ta’kidlab:

“Har hurufi gul kabi, har nuqtasi g‘uncha misol,
Xush tamosho istayanlarg‘a guliston “Tarjimon”,

deb yozdi. Ziyo Said jurnalning maqsadi islom millatining saodati va islohi, musulmonlarning madaniyati va zamonaviy fanlardan foydalanishlari yo‘lida xizmat qilishini yozar ekan, Behbudiyning “tavahhudi lisoniya” (turkiy tillarni birlashtirish) tarafdori ekaniga urg‘u beradi. Bu g‘oyaning ildizi ham “Tarjimon”ga borib taqaladi, albatta. “Oyina” jurnali o‘z vaqtida juda yuksak bir obro‘ga ega bo‘ldi, har bir o‘quvchining dildoshiga aylandi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnali xuddi “Tarjimon”dek ulkan va olamshumul bir missiyani ado qildi: ma’rifat tarqatdi, odamlarni fikr tarbiyasiga o‘rgatdi; yangi paydo bo‘lgan matbuot nashrlarini targ‘ib-tashviq qildi. “Sadoi Turkiston” va “Sadoi Farg‘ona” gazetalarini “Turonning egizak farzandlari” deb atar ekan, gazetxonlarga shu nashrlarni o‘qish va ularga obuna bo‘lishni tavsiya etadi: “Millatg‘a iona va olib o‘qumoqlarini ojizona tavsiya etarmiz, chunki matbuot chirog‘ va niholdek bo‘lub, anga yog‘ va suv berib tarbiyat qilmaguncha, ma’zolloh, so‘nub qurumog‘i tabiiydur”.

O‘zbekiston matbuoti tarixida jadid ziyolilari nashr qilgan gazeta va jurnallar son-sanog‘i ko‘p. Bir marta chiqib to‘xtaganlari ham bor. Ularning ba’zilari o‘z yo‘l-yo‘rig‘iga ko‘ra jiddiy farqlanadi ham. Garchand o‘zaro qarama-qarshi kayfiyatda bahslashadiganlari bo‘lsa ham, ular oldiga qo‘ygan maqsadlari nihoyatda ulug‘, niyatlari ezgu, qarashlar aniq va tiniq edi. Millatni uyg‘otishdek ulkan vazifa ijrosiga bel bog‘lagan edi jadidlar va ularning maktabi, maorifi, teatri, adabiyoti va matbuoti.

Muhim bir fikr shuki, davriy nashrlar qaysidir ma’noda ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar tarixi bilan uyg‘un-hamqadam edi. O‘zgarishlar, yangilanishlar gazeta va jurnallarda aks etdi. Yoki shu o‘zgarishlarga mos yangidan yangi matbuot nashrlari vujudga keldi. Shunga ko‘ra, 1917-yilgi fevral o‘zgarishi, Turkiston Muxtoriyati, oktyabr inqilobi kabi voqea-hodisalar munosabati bilan “Najot”, “Turon”, “Kengash”, “Ulug‘ Turkiston”, “Yurt”, “Hurriyat” kabi nashrlar maydonga keldi. “Yashasin, Turkiston muxtoriyati!” shiorlarini o‘rtaga tashlab, ozodlik va hurriyatdan, tenglik va adolatdan so‘z ochdi. Darhaqiqat, millatparvarlar nazdida matbuot millat ma’naviyatini yuksaltirishi, ufqlari sari parvozga tayyorlashi lozim edi. Matbuot ma’naviyat qanoti edi.

Jadidlar chorizmning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy zaiflantiruvchi o‘zgarishlar qilishga majbur etuvchi vatanparvar siyosiy kuch sifatida 19-asr oxiri - 20-asr boshlaridan tarix sahnasiga chiqa boshlaganlar. Jadidlar Turkistonda 19- asr oxirida paydo bo‘lgan ilg‘or usullarni yoqlagan ma’rifatparvarlargina bo‘lib qolmay, ayni damda turkiy-islomiy huquqiy merosning millat ichida keng yoyilishi, xurfikrlilik, taraqqiyot va milliy istiqlol uchun ham kurashni maqsad qilib qo‘ygan edi. Chor mustamlakachilari O‘rta Osiyoda ochilgan yangi usul maktablariga qarshi kurash boshlaydi, bu maktablarni “islomiyatga qarshi”, “g‘ayridin maktablari” deb tashviqot yurgizadilar, josuslik idoralarini ishga soladilar, hatto Buxoro amiriga va Xiva xoniga ham kuchli tazyiq o‘tkazganlar. Ahvol shu darajaga borib yetganki, bu masala bilan bog‘liq ko‘plab qurbonlar yuz beradi. Chor ma’murlari islom diniga ham qarshi kurashni kuchaytirib yuboradilar. Hattoki, 1903-yili podsho Turkiston aholisi uchun muborak Haj qilishni ham farmon bilan man etib qo‘yadi. Bu mahalliy musulmon aholisida kuchli norozilik uyg‘otgan. 1905-yilgi to‘ntarish harakatidan keyin Rossiya hududidagi turkiy xalqlar va ularning Turkiya bilan qardoshlik aloqasi kuchaydi. O‘z davrida Turk dunyosi markazlaridan biri bo‘lgan Qrim, Qozon, Istanbulda chop etilgan jadidchilik ruhidagi adabiyotlar Turkistonga ham keng yoyila boshlandi.

1908-yil “Buxoroi sharif shirkati” tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi:

- Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov)
- Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmon Xo‘ja)
- Homidxo‘ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov
- Abdulqodir Muhiddinov, Sadriddin Ayniy
- Abdurahmon Sa’diy.

1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo‘ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi «Buxoro ta’mimi maorif jamiyati» bo‘limiga o‘qishga jo‘natdi. Xorijdagi ta’lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo‘lsa ham, amirlikdagi og‘ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va «Tarbiyai atfol» maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

20-asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi.

Xivada jadidchilikning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. 1904-yil «jamiyati xayriya» tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma’rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

Matbuot millat dilidagi gaplarni o‘z sahifalariga ko‘chirish bilan kifoyalanmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini o‘rtaga qo‘ydi. 1909-yilda Toshkent yosh ziyolilari tomonidan “Jamiyati xayriya” tashkil etildi. Mahalliy yoshlardan davlat mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag‘al musulmonlarga madaniy-ma’naviy yordam ko‘rsatish masalasi qo‘yildi. Bu millatning boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo‘lida ko‘rilgan tadbirlar edi.

Bu davrda jadidlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida koʻrindilar. Xalq ularda oʻz himoyachilarini his etdi. Sirdaryo viloyatidan Peterburgda oʻtadigan Davlat dumasiga aʼzolikka saylangan Abduvohidqori Abduraufqoriyevga Toshkent, Chimkent va boshqa joylarning aholisidan 12 moddadan iborat talabnomani Davlat dumasiga topshirish yuklandi. Bu hujjatda koʻpgina ijtimoiy talablar koʻrsatilgan edi. Abduvohidqori 1907-yil 20-fevral-3-iyunda Peterburgda Sadri Maqsudiy, Muso Jorilloh, Alimardon Toʻpchiboshev kabi musulmon ziyolilari bilan tanishib, musulmon fraksiyasining raisi Biglovga Turkiston xalqi dardini yetkazdi. Biroq Abduvohidqori, oradan koʻp oʻtmay, qamoqqa olindi va Tulaga surgun qilindi.Shu tarzda, jadidchilik harakati 1906-1916-yillarda oʻzining asosiy yoʻlini belgilab oldi.

Jadid matbuoti oʻz vakillarining fikrlarini eʼlon qilar ekan, xalqni «har vaqt gʻaflat uyqusidan uygʻotuvchi millat ongining ochqichi" ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda "Erk", "Turon", "Oʻqituvchilar jamiyati" kabi uyushmalar paydo boʻldi. Ularning 1916-yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati gʻoyatda eʼtiborga molikdir. Mardikorlikka olish - Birinchi jahon urushi ketayotgan joylardagi ishlarga turkistonliklarni jalb qilish oq podshoning 1916-yil 25-iyun farmoniga muvofiq amalga oshirildi. Bu kutilmagan tadbir, birinchidan, 1865-yil shartnomasiga zid edi. Ikkinchidan, general Aleksey Kuropatkinning xulosasiga qaraganda, "Aholi va maʼmuriyat turar joydan tashqaridagi ishlarga mutlaqo tayyorlanmagan va bunday shoshilinch amalga oshirilgan tadbir ogʻir tartibsizliklarni keltirib chiqargan". Aholi uchun ana shunday musibatli paytda jadidlarning koʻzga koʻringan namoyandalaridan Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayev ("Turkiston mardikorlikka olish qoʻmitasi" raisi) va millatparvar boy Mirkomilboy Mirmoʻminboyev Rossiya jamoatchiligining eʼtiborini bu masalaga jalb etish, farmonni bekor qildirish uchun Peterburgga yoʻl oldilar. Davlat dumasining 1916-yil 13 va 15-dekabr kunlari oʻtgan majlisida Nikolay IIning 25-iyundagi farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligida koʻrsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilingani tan olindi. Farmon Dumada muhokama qilingunga qadar iyun-avgust oylarida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon toʻxtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917-yil fevral inqilobi boshlanishi bilan toʻla amalga oshdi. Bu hodisa el orasida ularning obroʻsini koʻtardi. Mazkur holat jadidlar maʼrifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon oʻtganliklarini bildirar edi.

Rus akademigi V.V.Bartoldning yozishicha: "Erli aholi ruslar bilan yaqinlashishi, rus tilini oʻrganishi natijasida rus hayotining asosan tashqi, salbiy tomonlarini oʻzlashtirdilar. Fahsh hayot kechirishga, vino, pivo ichishga oʻrgandilar. Hatto ulamolar, din ahllari ham shunday yaramas hayot kechira boshladilar". Jadidlar ana shu axloqiy tanazzulning oldini olishga jiddu jahd qildilar. Afsuski, oʻsha zamondagi tarixiy vaziyat bunga yoʻl bermadi. Biroq maʼrifatparvar jadidlarning millat va milliyat borasida urgan bonglari fikri ochiq ziyolilarimizni hanuz ogohlikka, Vatan va millat taraqqiysi yoʻlida birdamlikka daʼvat etib kelayotir.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Mustaqillik sharofati bilan tarixga, maʼnaviy qadriyatlarga, oʻtmish mutafakkir va xalqimizning boy maʼnaviy-madaniy merosiga munosabat oʻzgardi. Tarix sahifalaridan oʻchirib tashlangan qancha-qancha allomalarning nomlari tiklanmoqda va abadiylashtirilmoqda. Jadidchilik harakatini bunga misol sifatida koʻrsatish mumkin. Jadidchilik yirik va yaxlit ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida Kavkaz, Rossiya, Turkiya va Oʻrta Osiyo musulmonlari orasida keng tarqaldi. U ijtimoiy-siyosiy sohalarda jahon sivilizatsiyasi qoʻlga kiritgan yutuqlardan xalqni bahramand boʻlishga chaqirdi, feodal va milliy cheklanishlar, maʼnaviy tanazzullar sababini ochiq-oydin xalqqa tushuntirishga harakat qildi. Shu bois, jadidlarning boy merosini har tomonlama xolisona oʻrganish dolzarb masalalardan biridir. Zero, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, "Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yoʻlida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-maʼrifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega". "Jadidchilikning fenomeni shundaki, - deb yozadi professor D.A.Alimova, - keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi boʻlib milliy davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik gʻoyasiga asos soldi, uyqudagi Sharqni uygʻonishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy gʻurur, oʻz buyuk ajdodlari, boy madaniyati va, umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar taʼlimoti – oʻz zamonasining haqiqiy taʼlimoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni oʻz ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna boʻldi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar). – Urganch: Xorazm, 1999.
2. Bobojonov, X. "Xiva xonligi tarixi." – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
3. Ibragimov, H. "Oʻzbekiston maʼrifatparvarlari." – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
4. Toʻraqulov, N. "Xiva xonligi va jadidchilik harakati." – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015.
5. Olimov, M. "Oʻrta Osiyoda jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati." – Toshkent: Sharq, 1999.
6. Jadidchilik:isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: "Universitet, 1999. – B.13.

7. “Sharq yulduzi”, 1992, № 10 - son.
8. Jadidchilik:isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: “Universitet”, 1999. – B. 17.
9. Niyozov, S. "Jadidchilik va ta’lim islohotlari." – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
10. Rahimov, B. "Xiva jadidlari va ularning ma’rifiy islohotlari". – Urganch: Xorazmiy, 2010.
11. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi// Xalq va demokratiya, 1992,3-4-son.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Тюкмаева Аида Маратовна
доктор философии PhD по философским наукам, преподаватель кафедры «философия и основы духовности» Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Узбекистан, Ташкент.

СПЕЦИФИКА СЕМИОТИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ В СИСТЕМЕ ПОСТСТРУКТУРАЛИСТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Аннотация. *Данная статья посвящена комплексному анализу особенностей семиотических концепций в контексте постструктуралистского дискурса, где подчеркивается деструктивная переоценка традиционных структурных подходов к знаковым системам. Исследование фокусируется на выявлении и интерпретации ключевых семиотических категорий, таких как размывание границ между знаками и смыслом, деконструкция фиксированных интерпретаций и акцент на дифференциации в семиотических системах, обуславливая их динамическую и многозначную природу. В рамках анализа рассматриваются такие концепты, как интертекстуальность, гипертекстуальность и интерсубъективность, приобретающих особое значение в условиях отказа от универсальных метанарративов и акцента на локальных и контекстуальных интерпретациях.*

Ключевые слова: *семиотика, постструктурализм, дискурс, концепции, знаки, символы, интерпретация, смысл, структура, культурные коды, язык, теория знаков, деконструкция.*

Tyukmaeva Aida Maratovna
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti "Falsafa va ma’naviyat asoslari" kafedrasi o‘qituvchisi. O‘zbekiston, Toshkent.

SEMIOTIK KONSEPTSIYALARNING POSTSTRUKTURALIST DISKURSIY SISTEMASIDAGI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola poststrukturalist diskurs kontekstida semiotik konseptlarning xususiyatlarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan, bu yerda an’analarning struktural yondashuvlariga destruktiv baho berish ta’kidlanadi. Tadqiqot asosiy semiotik kategoriyalarni, masalan, belgilar va ma’no o‘rtasidagi chegaralarni cho‘zish, doimiy interpretatsiyalarni dekonstru qilish va semiotik tizimlarda farqlashga urg‘u berishni aniqlash va talqin qilishga qaratilgan, bu esa ularning dinamik va ko‘p ma’noli tabiatini ta’riflaydi. Tahlil doirasida intertekstuallik, gipertekstualik va intersub’ektivlik kabi kontseptsiyalar ko‘rib chiqiladi, ular universal meta-narrativlardan voz kechish sharoitida va mahalliy hamda kontekstual talqinlarga e’tibor qaratish bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lib qoladi.*

Kalit so‘zlar: *semiotika, poststrukturalizm, diskurs, kontseptsiya, belgilar, ramzlar, tarjima qilish, ma’no, tuzilma, madaniy kodlar, til, belgilar nazariyasi, dekonstruktsiya.*

Tyukmaeva Aida Maratovna
Doctor of Philosophy PhD in Philosophical Sciences, Lecturer at the Department of Philosophy and Foundations of Spirituality at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. Uzbekistan, Tashkent.

THE SPECIFICITY OF SEMIOTIC CONCEPTS WITHIN THE SYSTEM OF POST-STRUCTURALIST DISCOURSE

Abstract. This article is dedicated to a comprehensive analysis of the features of semiotic concepts within the context of *post-structuralist discourse, highlighting a destructive reevaluation of traditional structural approaches to sign systems. The study focuses on identifying and interpreting key semiotic categories such as the blurring of boundaries between signs and meaning, the deconstruction of fixed interpretations, and an emphasis on differentiation within semiotic systems, which determines their dynamic and polysemous nature. The analysis considers concepts such as intertextuality, hypertextuality, and intersubjectivity, which acquire particular significance in conditions of rejecting universal meta-narratives and emphasizing local and contextual interpretations.*

Keywords: *semiotics, post-structuralism, discourse, concepts, signs, symbols, interpretation, meaning, structure, cultural codes, language, sign theory, deconstruction.*

Введение. В рамках современного постструктуралистского дискурса исследование семиотических концепций приобретает особую актуальность, поскольку раскрывает динамическую природу знаковых систем и их функционирование в условиях децентрации и множественности смысловых горизонтов. Специфика семиотического концепта, являющегося одним из фундаментальных аналитических инструментов в рамках постструктуралистской парадигмы, характеризуется способностью к многослойному и глубинному исследованию знаковых систем, их семантических структур и механизмов интерпретации и декодирования знаков. В контексте теоретической рамки семиотики — дисциплины, изучающей функционирование знаков, их значения и способы коммуникации в различных социокультурных и дискурсивных контекстах — семиотические концепты выступают в роли первичных аналитических единиц, обеспечивающих структурирование и систематизацию знания о процессе формирования смыслов. Данные концепты служат инструментами для проведения дифференциации между обыденными и профессиональными формами дискурса, способствуя более глубокому пониманию процессов конституирования значений и когнитивных репрезентаций в социокультурной сфере. Анализируя феномены с позиции семиотической теории, существует потенциальная выявлять культурные кодировки и символические системы, определяющие восприятие, социальные действия и идентичностные практики в различных культурных контекстах. Постструктуралистическая парадигма, являясь важнейшим этапом развития современной философии второй половины XX века, включает в себя оригинальные семиотико-герменевтические идеи, методологические подходы и специфическое восприятие человеческой истории, культуры и социальной реальности, оказавшие значительное влияние на трансформацию философского дискурса.

Анализ и результаты. В рамках данной парадигмы центральное место занимает концепция динамической и нелинейной природы значения, отвергающей представление о его статической фиксированности. Вместо этого подчеркивается его подвижная, контекстуально обусловленная природа, проявляющаяся в многозначности текстов и вариативных условиях интерпретации. Особо значимо то, что сторонники постструктурализма используют термин «значимость» не в традиционном смысле устойчивого и неизменного признака, а как динамическую категорию, постоянно находящуюся в перманентном состоянии трансформации и переработки. Данный методологический подход акцентирует их приверженность к децентрализованной, анархической концепции языка и смыслообразования, где смысл не является фиксированным продуктом, а является результатом «непрерывного взаимодействия множества факторов и интерпретационных процессов». [1]

В рамках постструктуралистской методологии ключевое значение придается концепции деконструкции, разработанной Жаком Дерридой, которая систематически подвергает сомнению бинарные оппозиции, являющиеся фундаментальными в западной философской традиции. Специфика данного видения способствует выявлению скрытых предпосылок, нормативных ценностей и идеологических установок, заложенных в текстах, актуализируя расширение их интерпретативных возможностей и порождая многозначность, а также открытость к множеству интерпретационных вариантов. В качестве примера следует упомянуть Ролана Барта, подчеркивающего важность анализа процессов формирования новых дискурсивных практик, способных не только переосмыслить устоявшиеся предвзятости, но и подвергнуть сомнению, казалось бы, непреложные истины. В качестве иллюстративной модели целесообразно рассмотреть работы Виктора Проппа, анализ которых, выполненный в рамках структурного подхода Клода Леви-Стросса, демонстрирует перспективы применения семиологических методов к исследованию литературных текстов, в особенности к анализу повествовательных структур и их функционирования в культурном контексте. [2] В рамках современного научного дискурса Юлия Кристева представляет радикально обновленную концептуальную парадигму в области семиотики, вводя инновационные категории, такие как интертекстуальность, существенно расширяющие аналитические возможности для интерпретации текстуальных взаимосвязей. В свою очередь, Жак Деррида вносит значительный вклад в развитие теоретического понимания знака, акцентируя внимание на феномене отсроченного означаемого «différance» и дестабилизации структурных стабилизаторов смысловой системы, что способствует переосмыслению статичных моделей интерпретации и подчеркивает роль интерпретативных разломов. Параллельно, Мишель Фуко осуществляет углубленный историко-социальный анализ феномена

знака, выделяя его «культурно-историческую обусловленность и социальные конструкторы», выявляя контекстуальную обусловленность смысловых процессов и их взаимосвязь с властными структурами в эпоху модерна и постмодерна. [3]

Французский философ Жак Лакан формулирует комплексную теоретическую модель, детально описывающую динамические механизмы формирования субъективности через процессы сегментации и дифференциации субъекта. Данный методологический прием занимает центральное место в аналитической парадигме, поскольку выявляет фундаментальные структурные особенности субъективного опыта, что критически важно для интерпретации психоаналитических феноменов и культурологических процессов. Отсутствие учета этих механизмов зачастую приводит к ограниченности и теоретической неполноте в современных междисциплинарных исследованиях, связанных с человеком и его внутренним миром. [4] В связи с этим, развитие концептуальных рамок, предложенных такими мыслителями, как Кристева и Деррида, иллюстрирует сложность восприятия текста в контексте диалога с другими текстами и идеями, подчеркивая динамическую природу смыслов и интерпретаций, не являющимися статичными, а постоянно формируются под воздействием культурных и исторических условий. Внесение вклада Фуко и Лакана усложняет данную картину за счет анализа знаковых систем и субъективности, демонстрируя, как структурные различия в механизмах власти и социальных контекстах влияют на формирование наших представлений о знаках и идентичности. Следовательно, постструктурализм выступает как направление, деконструирующее традиционные нарративы, одновременно предлагая новые методологические подходы к исследованию субъекта и культурных феноменов в условиях глобальных трансформаций. Взаимодействие данной теоретической парадигмы с концепциями «великих нарративов» — таких как гегельянство, герменевтика, марксизм и другие — придает философскому дискурсу характеристики современности, где знание приобретает легитимность через обращение к метарассказам, охватывающим исторический процесс и его философские компоненты. В этом контексте категория «справедливость», подразумевающая легитимность институтов, регулирующих социальные отношения, оказывается связанной как с «великими нарративами», так и с понятием «истины». В связи с этим, метарассказы функционируют как «объяснительные системы», формирующие структуру буржуазного общества и служащие инструментами его идеологической репрезентации, объединяя религию, науку, историю, искусство и другие культурные сферы в единую дискурсивную матрицу, тем самым подчеркивая их роль в формировании и поддержании доминантных социальных порядков. [5] В отличие от концепции «модерна», характеризующейся возможностью формирования универсальных метарассказов, постмодернизм реализуется через принципиальное отрицание их легитимности, обуславливающиеся как научным прогрессом, так и осознанием его пределов. Кризис метанарративных структур, традиционно служащих оправданием и систематизацией знания и высоких идеалов, приводит к необратимому кризису метафизической философии и связанных с ней академических институтов.

Следует также отметить вклад американского теоретика коммуникации Дж. Шоттера, который, углубляясь в анализ постмодернистской науки, выдвигает концепцию «мета-методологии» как центрального элемента трансформации научного познания. Данный методологический прием предвосхищает смену роли учёного, где традиционная позиция нейтрального наблюдателя уступает месту активного участника социальных процессов, непосредственно влияющих на формирование знаний. В результате этого, в рамках постмодернистской парадигмы происходит переосмысление научного метода, ориентированное на интеграцию социального контекста и практической деятельности исследователя. [6] В своих рассуждениях Шоттер акцентирует внимание на смещении фокуса научной практики с абстрактной теоретизации на эмпирическую практику, подразумевающую предпочтение разработки вероятностных моделей в ущерб универсальным и жестким теориям, подводя к концепту ситуации и исторической контекстуализации. Таким образом, подчеркивается важность методологических подходов, что делает актуальным переход от поиска «хорошей теории» к глубокому изучению методологических парадигм. Наряду с этим, Ф. Далмайр вводит в обсуждение ключевую концепцию «не-идентичности», интерпретируя её как «альтернативный подход к традиционному рационализму и гегелевской диалектической методологии». [7] Опираясь на концептуальные положения Т. Адорно и его критическую методологию, выраженную в рамках «негативной диалектики», служа инструментом для критического осмысления ограничений и пределов традиционных форм рациональности, можно рассматривать «не-идентичность» как динамический и процессуальный механизм формирования идентичности. В этом контексте, «не-идентичность» выступает не как статичная характеристика, а как непрерывно развивающийся феномен, отражающий диалектическое взаимодействие между различными

аспектами и уровнями самосознания. [8] В рамках данного теоретического анализа Ж.-Ф. Лиотар и Ж. Делёз подчеркивают кардинальные сдвиги в структуре научных и философских парадигм, характеризующиеся переходом от традиционного представления о единой и всеобъемлющей системе к более децентрализованной, фрагментарной и множественной модели познания, что отражает глубокие трансформации в концептуальных основаниях современного интеллектуального дискурса. Таким образом, существенное значение для концептуализации Далмайра приобретает аналитическая интерпретация политических заключений Э. Сэйда, в рамках которой осуществляется углубленное исследование феномена культурного империализма Соединённых Штатов. Подобный феномен рассматривается как специфическая интерпретация проблематики идентичности, в которой подчеркивается его связь с концепцией «кочевого сознания», что способствует расширению понимания динамики культурной гегемонии и процессов формирования культурной идентичности в условиях глобализации. [9] В качестве примера можно рассмотреть позицию Жиля Делёза, который посредством своего критического подхода демонстрирует возможность современных интеллектуальных акторов оказывать существенное сопротивление доминирующим политико-культурным дискурсам. В этом контексте постмодернизм выступает как концептуальный оппонент империалистической гегемонии, что ярко проявляется в трудах постструктуралистских философов, для которых критическое переосмысление метафизических оснований и концепции «центра» служит методологической платформой для деструкции всех форм империалистического гегемонизма. Представленные формы охватывают как так называемые «центральные» имперские структуры, так и различные дискурсивные конструкции, такие как «структуры», «рацио» и их производные, выступая в качестве средств сопротивления гегемоническому доминированию.

На наш взгляд, важнейшим этапом в развитии концепции языка в рамках структурализма является обращение к теоретическим положениям Фердинанда де Соссюра, швейцарского лингвиста, чьи идеи легли в основу множества последующих структуралистских концепций. Изначально акцент на лингвистическом анализе, предложенный де Соссюром, воспринимался преимущественно в рамках узкоспециализированных филологических исследований и не привлекал значительного внимания философского сообщества. Однако к середине XX века структуралисты, среди которых особое место занял Клод Леви-Строс, предприняли переосмысление его идей, привнеся совершенно новое качество в современный философский дискурс. В соответствии с теоретическими положениями де Соссюра, языковой знак представляет собой синтетическую единицу, в которой осуществляется конгруэнтное единство между семантическим содержанием, то есть понятийной составляющей, и акустическим образом. Представленное единство подразумевает не простую связь между предметом и его именованием, а, скорее, между абстрактным концептуальным представлением и его звуковой репрезентацией. В данном контексте акустический образ не следует воспринимать в качестве физически осязаемого звукового сигнала, а скорее необходимо рассматривать как психическую репрезентацию этого сигнала, формируемую посредством когнитивных процессов восприятия, осуществляемых органами чувств. [10] Данная интерпретация подчеркивает важность субъективных аспектов восприятия в формировании значений языковых единиц и их функционировании в коммуникативных практиках. Существующая взаимосвязь предполагает их существование как неотъемлемых элементов семиотической системы, обеспечивающих целостность и функциональную полноту знакового процесса. В рамках своей теории языковых знаков, Фердинанд де Соссюр настоятельно подчеркивает необходимость переосмысления традиционной терминологии, заменяя концепции «понятие» и «акустический образ» на более специализированные и семантически точные категории «означаемое» и «означающее». Такой лингвистический сдвиг позволяет выявить и прояснить диалектическое противоречие, существующее не только между данными компонентами, но и в более широкой структуре их взаимосвязи внутри целостной системы, в которой каждый элемент функционирует как обусловленная и обусловливающая часть, определяемая через свои отношения с другими единицами того же уровня. В результате, язык представляется системой взаимосвязанных знаков, каждый из которых обладает двойственной структурой, что имеет существенные последствия для теоретического понимания механизмов его функционирования и организации.

Первым важным аспектом является произвольный характер связи между означающим и означаемым, что свидетельствует о полном отсутствии внутриформенной необходимой связи между формой знака и его содержательным аспектом. Наблюдаемая произвольность выступает в качестве фундаментальной характеристики, обусловливающей социальную конвенциональность и историческую изменчивость языковых кодов. Вторым аспектом является линейная природа означающего, которое организуется в последовательности, предполагающей

его размещение во временной и пространственной плоскостях. Такой структурный аспект ограничивает спонтанность восприятия и интерпретации знака, создавая рамки для его функционирования в рамках языковой системы. Особое значение приобретает понимание означающего как произвольно выбранного символа или знака, который устанавливает семантическую соотнесенность с объектом или понятием, которое он обозначает. Однако в пределах конкретного языкового сообщества, в рамках которого данный знак функционирует, произвольность данной связи подвергается трансформации под воздействием социокультурных и исторических факторов, воздействуя на его употребление и значение. Произвольный характер языковых знаков выступает как механизм, обеспечивающий устойчивость и структурную целостность системы, препятствуя произвольным модификациям и дестабилизации языковой организации.

В свете этих положений особое значение приобретает критическая позиция Жана Деррида, который, развивая идеи, заложенные де Соссюром, подчеркивает, что в языке отсутствует полное и непосредственное присутствие означаемого. Он утверждает, что означающее всегда сохраняет свою указательную и обращенную природу, находясь в постоянном движении между формой и содержанием, что обусловливает множественность интерпретаций и вариативность значений. Необходимо подчеркнуть, что концептуальная установка, сформулированная Фердинандом де Соссюром относительно произвольного характера соотношения между означающим и означаемым, должна восприниматься не как гипотеза, поддающаяся эмпирической или теоретической проверке, а как аксиоматический постулат, являющийся краеугольным камнем структурно-лингвистического анализа в рамках современной лингвистической теории. Осмысление и интерпретация идей, предложенных Соссюром, оказали фундаментальное влияние на формирование трёх основных лингвистических школ: пражской, копенгагенской и американской, каждая из которых внесла значительный вклад в развитие теоретического осмысления языка как социального и культурного феномена. Одновременно, на американском континенте развивалась школа структурной лингвистики, принципы которой находили существенное сходство с концепциями копенгагенской школы: это включало системный анализ языковых структур и грамматических правил в их конкретных проявлениях. Представители этой школы, такие как Леонард Блумфилд и Эдвард Сапир, внесли значимый вклад в развитие лингвистической теории, создав прочный фундамент для дальнейших исследований в области языковедения. Значимой вехой в истории лингвистики стало формулирование теории «порождающих грамматик» Ноама Хомского в конце 1950-х годов, которая произвела революцию в понимании структурных механизмов функционирования языка и кардинально изменила представления о его когнитивной природе и внутренней организации. На основе фундаментальных концепций структурной лингвистики выдающийся ученый Ноам Хомский предложил инновационную теоретическую модель языковой системы, в рамках которой язык рассматривается как сложная, формально структурированная когнитивная система. Вышеупомянутая модель характеризуется способностью порождать потенциально бесконечное множество синтаксических конструкций, опираясь на ограниченный набор формальных правил и принципов, демонстрируя универсальность и генерирующую природу человеческого языка в рамках когнитивных и лингвистических структур. Данная концептуальная конструкция произвела кардинальные преобразования в лингвистической теории, что можно расценивать как своего рода научную революцию в области языковедения.

Заключение. Подводя итоги, следует констатировать, что семиотическая концептуализация, выступающая в качестве фундаментальной категории постструктуралистского дискурса, представляет собой сложную, многоуровневую и динамически развивающуюся конструкцию, актуализирующего углубленное понимание как внутренней логики семиотических явлений, так и более широких культурных и социально-коммуникативных процессов. Анализируя системные взаимодействия знаков и их значений, семиотическая рамка способствует формированию авторитетных интерпретаций разнообразных дискурсивных практик, а также позволяет дифференцировать контекстуальные условия их функционирования. Специфика подобного семиотического подхода способствует осмыслению культурных кодов и символов, выступающих определяющими элементами как индивидуальной, так и коллективной репрезентации реальности. В условиях современных трансформаций возникают потребности в переосмыслении классических парадигм, зародившихся на базе логико-семантических отношений, а также в активизации интердисциплинарных подходов, включающих постмодернистские концепции, подчеркивающие необходимость расширения семиотического поля для адекватного интерпретирования новых форм культурных артефактов и коммуникативных практик. В этом контексте специфика семиотического концепта как семантического ядра постструктуралистического

дискурса, обеспечивающее взаимодействие между знаками и их значениями, актуализирует новые интерпретации социальной динамики, культурной идентичности и субъективного опыта, позволяя более полно осмыслить механизмы, трансформирующие восприятия реальности и способы коммуникации.

Список литературы:

1.Деррида Ж. Письмо и различие / Ж. Деррида; пер. с фр: под ред. В. Лапицкого. СПб.: Академический проект, 2000. С. 213.

2.Пропп В.Я. Морфология сказки. Исторические корни волшебной сказки. – М.: Лабиринт, 1998. С. 124.

3.Фуко М. Слова и Вещи. Археология гуманитарных наук. Издательство: СПб., 1994. С. 185.

4.Дьяков А.В. Жак Лакан. Фигура философа. - М.: Издательский дом «Территория будущего», 2010. С. 336.

5.Лиотар Ж.-Ф. Состояние постмодерна / Ж.-Ф. Лиотар; пер. с фран. Н. А. Шматко. -Санкт-Петербург: Алетейя, 1998. С. 125.

6.Shotter, J. Dialogical realities: The ordinary, the everyday, and other strange new worlds / J. Shotter // Senior Faculty Fellow's Lecture, Center for the Humanities. - Toronto, 1996. P. 114.

7.Далмайр Ф. Николай Кузанский о вере, знании и учёном незнании // Вопросы философии. - 2007. - № 2. - С. 35-41.

8.Адорно Т. Негативная диалектика / Пер. с нем. Е.Л. Петренко. М.: Научный мир, 2003. С. 214.

9.Далмайр Ф. Секулярный век? Размышления о Чарльзе Тэйлоре и Раймоне Паникка-ре // Вопросы философии. 2013. № 10. С. 87.

10. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. Ред. Ш. Балли и А. Сеше. Пер. А. Сухотина. Под ред. М.Э. Рут. Екатеринбург, 1999. С. 69

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Nuriddinov Abdulvohid Orifxo'jaevich
Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd
abdulvohidjon.nuriddinov@mail.ru

UDK: 101.9

"BOBURNOMA"-DA QADIMIY KOSON ZIKRI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif tomonidan "Boburnoma" asarida Farg'ona vodiysidagi qadimiy shaharlardan biri bo'lgan Koson shahri haqidagi Z.M.Boburning yozgan qaydlari, tarixiy voqealar jarayonida mazkur istehkom-shaharning tutgan o'rni hamda ahamiyati to'g'risidagi fikrlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar:*Axsi, Koson, harbiy yurishlar, Xoja Ahror Vali, Xoja Muhammad Qoziy, Xoja Mavlono Qoziy, Maxdumi A'zam, tariqat, naqshbandiya, pir-murshid, xojagon, risola, raiyat, Xuroson, Hindiston,Panipat, Ibrohim Lo'diy*

Нуриддинов Абдулвохид Орифходжаевич
Доцент кафедры общественных наук Наманганского государственного университета
Доктор философии (PhD)

УПОМИНАНИЕ ДРЕВНЕГО КАСАНА В "БАБУРНАМЕ"

Аннотация: *В данной стате автор анализировал мысли и высказывания З.М.Бабура в его книге "Бабурнаме" о древнем городе-ситаделе Касан Ферганской долины, рол и значение данного города в протсессе исторических событий.*

Ключевые слова: *Ахси, Касан, военные походы, Ходжа Ахрор Вали, Ходжа Мухаммад Кази, Ходжа Мавлана Кази, Махдуми Аъзам, тарикат (пут, направления, течения), накшбандия, предводител, духовный наставник, ходжагон (система родовых наследников пророка), трактат, подданные, Хорасан, Индия, Панипат, Ибрагим Луди.*

Nuriddinov Abdulvohid Orifkhodjaevich
Associate Professor of the Department of Social Sciences, Namangan State University
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

THE REKORDS OF THE ANCIENT KOSON IN BABURNAME

Annotation: *In this article, the author, analysed the thoughts and statemtnts of Z.M.Babur in his book Baburname about the ancient citadel city of Koson in Fergana Valley, the role and significance of this city in the process of historical events.*

Key words: *Ahsi, Koson, military campaigns, Khoja Ahror Vali, Khoja Muhammad Kazi, Khoja Mavlana Kazi, Maxdumi Azam, Tariqat (path, direction, trend), Naqshbandiya, leader,spiritual mentor, Khojagon (system of patrimonial heirs of the Prophet),treatise, subjects, Khorasan, India, Panipat, Ibrahim Ludi.*

Kirish. Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"asari nafaqat tarixiy-xronologik, avtobiografik risola, balki nodir tarixiy hujjat, davrning muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarini, Movarounnahr,Xuroson va Hindistonning shimoliy qismidagi hududlarda joylashgan shahar, qishloqlar, tog'lar, cho'llar,daryolar hamda odamlari haqida ma'lumot beruvchi tarixiy-geografik, etnografik, qomusiy asar hisoblanadi. "Boburnoma" XV asr oxiri va XVI asr boshidagi Movarounnahr, Xuroson (Afg'oniston) va shimoliy Hindistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni sinchkovlik bilan mushohada etib, voqealar jarayonini tarixiy aniqlik va xolisonalik bilan yoritgan o'ziga xos nodir va betakror asar desak,mubolag'a bo'lmaydi. Boburmirzo noyob iste'dodga ega bo'lgan, matonatli, jasur, bilimdon va ma'rifatli inson sifatida kichik ahamiyatli hodisalardan tortib, toki ulkan miqyosdagi jangovar harakatlarni mahorat va ustomonlik bilan boshqara olgan, zukko notiq hamda dovyurak yo'lboshchi ekanligini ko'plab zamondosh muarrixlar ta'kidlashgan. Muallif ayniqsa, o'zi tug'ilib voyaga etgan maskan, vodiyning qadimiy istehkom shaharlaridan biri bo'lgan- Axsikent qal'asi va uning atrofida o'rin olgan shahar va qishloqlar, ularning joylashgan mavqei, ob-

havosi, aholi turmush tarzi, odamlari, nabotot va hayvonot dunyosi to‘g‘risida mukammal ma’lumot bergan.

Shu jihatdan olib qaraganda, Boburmirzoning Axsikentdan 60-65 chaqrim shimolda joylashgan qadimgi Koson shahri (hozirgi Kosonsoy shahri) haqidagi fikrlari ham e’tiborga loyiqdir.

Tarixiy manbalarga ko‘ra Boburmirzo turli sabab va voqealar bilan qadimgi Koson shahriga tashrif buyurgan va bu to‘g‘rida o‘z asarida qaydlar yozib qoldirgan.Aniqroq qilib aytganda, Boburmirzo “Boburnoma”-ning 8, 18, 19, 20, 21, 58-59, 68,76, 113,114 betlarida qadimiy Kosonga oid fikr-mulohazalari, tarixiy voqealar tafsilo- ti, ularga o‘z munosabati, tarixiy shaxslar haqidagi qarashlarini bayon etgan. Aniqroq qilib aytganda, Boburmirzo o‘rta asrlardagi Kosonni shunday tasvirlaydi: “Yana biri Kosondur, Axsining shimoliga tushubdur. Kichikroq qasabadur.Nechukkim Andijon suyi O‘shdin kelur, Axsi suyi Kosondin kelur. Yaxshi havoliq erdur. Safoliq bog‘chalari bordur. Vale safoliq bog‘chalari tamom soy yoqasida voqe’ bo‘lg‘on uchun “po‘stini peshi berra” debturlar. Safo va havoda O‘sh bila Koson elining taassubi bor”.Ushbu kichik parchada Koson diyorining maftunkor tabiati, musaffo havosi, go‘zal bog‘lari “po‘stini peshi berra”-ya’ni po‘stinning old qismiga tikilgan qorako‘l teri- yoqaga o‘xshatib tasvirlagan. Boburmirzo asarining 58-59 betlarida o‘zining pir-ustozi, asli Kosonlik bo‘lgan Xoja Mavlono Qozi haqida shunday yozgan:”Xoja Mavlonoi Qozining oti Abdullodur.Bu ot bila mashhur bo‘lub edi. Ota tarafidin nasabi Shayx Burhoniddin Qilichqa muntahiy bo‘lur.Ona tarafidin Sulton Ilik Mozig‘a etar.Farg‘ona viloyatida bu tabaqa muqtado va shayxulislom va qozi bo‘la kelgandurlar.Xoja Qozi hazrati Xoja Ubaydullohning (Xoja Ahror Vali,A.N) muridi edi. “Boburnoma”-ning 1989 yildagi “Yulduzcha” nashriyotida bosilgan nusxasida ushbu parcha shunday yozilgan: “Ustoz va pirimkim, Xoja Mavlonoi Qozining oti Abdullodur.Ota tarafidin nasabi Shayx Burhoniddin Qilichga etar...Xoja Qozi Xoja Ubaydullohning muridi edi”. Ajablanarlisi shundaki, 2019 yildagi nashrda Boburning “ustoz, pirimkim” degan so‘zlari qandaydir sabab bilan tushirib qoldirilgan. Bu esa ushbu nusxani nashrga tayyorlagan muhtaram olimlarimiz va obro‘li nashriyot bo‘lgan “Fan” sha’niga yarashmaydi-gan holdir.Demak, Boburmirzoning yoshligidagi ilk piri Xoja Mavlonoi Qozi bo‘lib, asarda ta’kidlanganidek, bu zot Shayx Burhoniddin Qilich avlodidan hamda mashhur tariqat piri Xoja Ahrori Valiyning xalifalaridan bo‘lgan. “Shu erda ta’kidlash joizki, Xoja Ahrori Valiyning boshqa bir xalifalari nomi Mavlono Muhammad Qozi (Maxdumi A’zamning piri murshidi, A.N.) bo‘lib, nomlari o‘xshashligi uchun ko‘p tarixchilar adashtirishadi. Ammo bular boshqa-boshqa shaxsdir”. Ya’ni yuqorida nomlari keltirilgan zotlar Xojagon tariqatining alohida-alohida vakillari bo‘lishgan.

Tadqiqotchi olim K.Kattayev yana yozadi: “Xoja Ahrori Vali vafot etganlaridan so‘ng Boburmirzoning otasi Umarshayx Mirzo Shayx Burhoniddin Qilich avlodi bo‘lgan ushbu Xoja Mavlonoi Qozini pir tutgan.Shuning uchun yosh Boburmirzo ham otasi vafotidan so‘ng ushbu murshidni pir va ustoz deb bilgan.Bu zot Maxdumi A’zamning amakizodalari edi”. Bu esa Xoja Mavlonoi Qozining asli Kosondan, tasavvufning naqshbandiya-Xojagon tariqatining XV- XVI asrdagi peshvosi Maxdumi A’zam Kosoniyning amakizodasi ekanligini tasdiqlaydi. “Boburmirzo Samarqandni egallagach, ona shahri Andijonni uning dushmanlari ishg‘ol qilib, piri Mavlonoi Qozini (Xoja Abdulloni) qatl ettiradilar...Boburmirzoning piridan ajratish uning qanotini sindirish bilan teng ekanligini ular yaxshi bilar edi. Endi uning piri Maxdumi A’zam bo‘lib qolgan edi”,-deb yozadi K.Kattaev.

Boburmirzo ham o‘z piriga bo‘lgan mehrini quyidagi ruboyisida bayon etgan:

Dar havoyi nafsi gumroh umr zoe’ kardaem,
Peshi ahlulloh az atvori xud sharmandaem.
Yak nazar bar muxlisoni xastadil binmo, ki mo,
Xojagiro mondaemu xojagiro bandaem.

Mazmuni: Nafsi gumroh havosi deb umr zoe aylaganmiz,

Ahlulloh oldida o‘z qilmishlarimizdan sharmandamiz.

Bir nazar bu xastadil muxlislaringga tashlagil,

Xojagiydan qolgan edik, xojagiyga bandamiz.

Ushbu ruboiydagi to‘rtinchi misraga e’tibor bersak, bu erda Boburmirzo Xoja Mavlonodan ayrilganiyu ikkinchi piri Maxdumi A’zamga yuz tutganini bayon etgan. Ushbu ruboiyni aynan Bobur- mirzoga tegishli ekanligini taniqli tazkiranavis olim Hasanxoja Nisoriy o‘zining “Muzakkirul- ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”) asarida ta’kidlab yozadi: “Uning (ya’ni Boburning,A.N.) naqshbandiya sulukiga bog‘liq irodat nisbati bor edi.Oliy sha’n va saltanatnishon otasi Xoja Ahror qadasallohu sirrahu irodati qaydida edilar.U ulug‘vorning avlod va ajdodlarig‘a ta’zim va takrim qilmoqni har soat va daqiqada ko‘zdan nari tutmas erdi. Hazrati Maxdumi A’zam- Xojagiy Kosoniy qadasallohu sirrahuga birmuncha oltin-kumush nazru niyoz yuborganida ushbu qit’ani ham yuborgan edi”. Mazkur misralar haqiqatdan ham Boburmirzo qalamiga mansubligini chuqur tahlil va taqrir etgan manbashunos olim K.Kattaev shunday yozadi: ”Maxdumi A’zamning “Risolai Boburiya” asarida Boburmirzodan keltirilgan ushbu misralar asl misradir.Chunki, uning ruboiysi bitilgan maktub Maxdumi A’zamga shaxsan yuborilgan va ul zot risolasiga kiritgan bu nazm haqiqiydir.Demak, Maxdumi A’zam Boburmirzoning ushbu misrasini ustoz sifatida isloh qilib, qayta jilo bergan va “Risolai Boburiya”-asariga kiritgan bo‘lib chiqadi”. “Boburnoma”-ning 21,68, 76, 113, 114 betlarida Boburmirzoning Koson shahri atrofida va o‘zida g‘animlari bilan olib borgan muhorabalari bayon

etilgan. Jumladan, 68-betda quyidagilarni mutolaa qilish mumkin:"Bir necha kun Axsida turub, Axsi va Koson va ul yurtning ish-kuchini zabt va saranjom qilib,ilg‘or kelgan mo‘g‘ul beklariga ruxsat berib, Uzun Hasanni ko‘ch va mutaalliqlari bila olib Andijonga kelildi". 76-betda ushbu satrlarni o‘qiymiz: "Ushbu asnoda Kosondin tahqiq xabar keldikim, xon Tanbalning ko‘magiga o‘g‘li Sulton Muhammad Xonikanikim, Sultontimg‘a mashhur edi, Ahmadbek bila ta’yin qilib, besh-olti ming cherik qo‘shubtur, Archakent yo‘li bila oshib kelib, Kosonni qabadilar.Biz dag‘i yiroqdagi kishimizga boqmay, hozir kishimiz bila betavaqquf qishning zarb sovug‘ida Tengriga tavakkul qilib, Andijondin Bandi Solor yo‘li bila Sultonim bila Ahmadbekning ustig‘a otlanduq. Kechasi hech erda turmay, tun qotib sabohi Axsiga tushtik... Axsida tavaqquf qilmay, Qosim Ajabning o‘runig‘a Yorak tag‘oyini ham oriyati qo‘yub, Koson ustig‘a o‘ttuk.Kosong‘a bir shar’i qolg‘anda xabar keldikim, Ahmadbek xabar topib, Sultonim bila buzulg‘on yo‘sunluq ildam yondi".

Yuqoridagilardan Boburmirzoning ashaddiy g‘animlari Uzun Hasan, Ahmad Tanbal va ularga qo‘shilgan ayrim beklar unga qarshi bosh ko‘tarib, mamlakatni parchalab tashlashga va shu orqali hukmronlikni o‘z qo‘llariga olish uchun naqadar qattiq kurash olib borganliklari ko‘rinib turibdi.Ular mudhish maqsadlariga etishish yo‘lida tinch aholi boshiga og‘ir musibatlarni solishganini, hatto ommaviy qirg‘inlar o‘tkazganliklarini ko‘rgan Boburmirzo "Uzun Hasan, Ahmad Tanbal hamda ularga qo‘shilganlarni zolim, fosiq, kofirvash va haromnamak kabi iboralar bilan "siylagan".

Atrofidagi ana shunday xiyonatkorlarning tobora kuchayib borgan tazyiqi ostida Boburmirzo 1504 yili Vatanni tark etib, Afg‘onis- ton sari yo‘l olishga majbur bo‘ladi. Keyinchalik Afg‘onistonda o‘z davlatini barpo etishga erishgan Bobur, bu o‘lkada mamlakat obodonligi, farovonligi va qudratini oshirishga katta kuch sarflaydi.Boburmirzo 1519-1525 yillar davomida Hindistonga besh marotaba yurish tashkil etadi. 1526 yil aprel oyida Boburmirzo Hindiston shohi Ibrohim Lo‘diyni Panipat yonidagi jangda mag‘lub etib, Dehli va Agra shaharlarini egallaydi va Gang daryosidan toki Amudaryo sohillarigacha bo‘lgan ulkan hududda qudratli imperiyani barpo etadi.Bobur va boburiylar sulolasi Hindiston o‘lkasini 300 yildan ko‘proq davr davomida boshqarib, insoniyat tarixida ulkan davlat tuzilmasini barpo etgan va mamlakati obodonligi hamda ma’murligini ta’minlagan iste’dodli hukmdorlar sifatida qoladi.

Zahiriddin Muhammad Boburdagi tabiiy iste’dod, uning hartomonlama rivojlangan va qomusiy bilimlarni o‘zida mujassam- lantirgan shaxsiyati, noyob aql-zakovati, insoniy fazilatlari, qolaversa o‘zining ochiqko‘ngilliligi, nozik tabiatliligi bilan taraqqiyparvar jahon ahlini hayratga solib kelmoqda.Bugungi avlod shoh va adib Z.M.Boburning yuqoridagi fazilatlarini, uning ibratli hayot yo‘lini qoldirgan boy adabiy merosini o‘rganib, ayniqsa "Boburnoma"-ni mutolaa qilib, ishonch hosil qilish imkoniyatiga ega. "Boburnoma"-ni chuqur o‘rganish, undagi adibning ilg‘or fikrlarini anglash yosh avlodni vatanparvarlik va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Z.M.Bobur" Boburnoma", - Toshkent:," Yulduzcha" nashriyoti, 1989.

2. Z.M.Bobur" Boburnoma", Vaqoe’. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi.-Toshkent:2019.

3. K.Kattaev. Maxdumi A’zam va Dahbed.Samarqand," Sug‘diyon" nashriyoti, 1994.

4. K.Kattaev.Maxdumi A’zam tarixi va mukammal dahbediylar tariqati.-Toshkent:" MASHUR PRESS" nashriyoti,2016.

5. K.Kattaev. Silsilai A’zamiya va tariqai Dahbediya. (Maxdumi A’zamiylar silsilasi va Dahbediy murshidlar tariqati).-Toshkent: "Oltin kitob" nashriyoti,2024.

6. Nisoriy Hasanxoja."Muzakkiri ahbob"-Toshkent:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1993.

7. A.Nuriddinov. Maxdumi A’zam va Bobur Mirzo. ("BOBUR VA AXSIKENT" mavzusida respublika olimlari ishtirokidagi uchinchi ilmiy-amaliy anjuman Ilmiy to‘plami.Namangan, 2023 yil 14-fevral, 80-91.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich,
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent ISFT instituti Gumanitar va tabiiy fanlar kafedrasi
Toshkent shahar, O‘zbekiston
bozarov_d@list.ru

SINERGETIKA VA ILMIY QADRIYATLAR TADRIJI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sinergitika nazariyasining zamonaviy ilmiy tafakkur va ilmiy qadriyatlar tizimidagi o‘rni tizimli tarzda yoritiladi. Global muammolar sharoitida fan va tafakkurning o‘zaro ta’siri, hamda sinergetik yondashuvning ilmiy qadriyatlar evolyutsiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. Sinergetik paradigmada ilmiy tafakkurdagi ierarxik tuzilmalar, bilimning kontekstlashuvi va postnonklassik tafakkurning gnozeologik-metodologik xususiyatlari asosida jamiyat va inson qadriyatlari o‘rtasidagi dinamik aloqalar falsafiy baholanadi. Tadqiqotda sinergetik metodologiyaning cheklovlari ham tanqidiy ko‘rib chiqilib, ilmiy tafakkurdagi alternativ paradigmalarning mavjudligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Sinergitika, ilmiy qadriyatlar, gnozeologiya, metodologiya, tizimlilik, global muammolar, ilmiy tafakkur, postnonklassik paradigma.*

Бозаров Дилмурод Мирзарасулович,
Кандидат философских наук, доцент кафедры гуманитарных и естественных наук Института ИГФТ
город Ташкент, Узбекистан

СИНЕРГЕТИКА И ИЗУЧЕНИЕ НАУЧНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация: *В данной статье системно анализируется роль синергетики в современной научной мысли и системе научных ценностей. Исследуется взаимодействие науки и мышления в условиях глобальных проблем, а также влияние синергетического подхода на эволюцию научных ценностей. С философской точки зрения рассматриваются иерархические структуры научного мышления в синергетической парадигме, контекстуализатсия знаний и гносеолого-методологические особенности постнеклассического мышления. В исследовании также критически освещаются ограничения синергетической методологии и обосновывается наличие альтернативных парадигм в научном познании.*

Ключевые слова: *Синергетика, научные ценности, гносеология, методология, системность, глобальные проблемы, научное мышление, постнеклассическая парадигма.*

Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich,
Candidate of Philosophy, Associate Professor, Department of Humanities and Natural Sciences,
Institute of Political Science Tashkent, Uzbekistan

SYNERGETICS AND SCIENTIFIC VALUES STUDY

Annotation: *This article provides a systematic analysis of the role of synergetics within contemporary scientific thought and the system of scientific values. It explores the interaction between science and thought under the conditions of global challenges, and examines the impact of the synergetic approach on the evolution of scientific values. From a philosophical perspective, the work discusses hierarchical structures of scientific thinking within the synergetic paradigm, the contextualization of knowledge, and the epistemological-methodological characteristics of post-nonclassical thought. The study also critically addresses the limitations of synergetic methodology and substantiates the existence of alternative paradigms in scientific cognition.*

Keywords: *Synergetics, scientific values, epistemology, methodology, system approach, global challenges, scientific thinking, post-nonclassical paradigm.*

Kirish. Sinergetika, murakkab tizimlarning o‘z-o‘zidan tashkil topish va rivojlanish jarayonlarini o‘rganadigan fandir. Uning asosiy tamoyili bo‘lmish "nochiziqlilik" insoniyat tafakkuri va ilmiy bilish metodologiyasida tub burilishni yuzaga keltirdi. Ilmiy qadriyatlar evolyutsiyasida sinergetikaning tutgan o‘rni ayniqsa dolzarb, chunki u klassik ilm-fan paradigmasining deterministik, bir yoqlama rivojlanish modelini tanqid ostiga olib, dunyoni o‘zgaruvchan, ochiq tizimlar majmui sifatida talqin qilishga yo‘l ochdi

(Prigogine, 1980, 43-bet). Ilgari ilmiy qadriyatlar aniqlik, qat'iylik va universallikka asoslangan bo‘lsa, sinergetika ilmga noaniqlik, ko‘plik va alternativlik tamoyillarini olib kirdi. I. Prigogine va I. Stengers ta'kidlaganidek, "kelajakni oldindan aytish mumkin emas, faqat ehtimollarni ko‘rsatish mumkin"[1]. Bu fikr ijtimoiy falsafa kontekstida inson faoliyatining ham rejalashtirilishi, ham natijalari ehtimoliy xarakter kasb etishini anglatadi.

Sinergetika ilmiy qadriyatlar tizimiga yangi ko‘rsatkichlar - adaptivlik, o‘zgaruvchanlik va o‘z-o‘zini rivojlantirishni olib kirdi. Klassik ilm-fan "ob'ektiv haqiqat" izlashni qadriyat sifatida ko‘rsatsa, sinergetik yondashuv haqiqatni dinamik tizimlarning o‘zgaruvchan holati sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan E. Morenning "murakkab tafakkur" konsepsiyasi muhim: "bilish hech qachon to‘liq emas, u doimo qayta tuziladi"[2]. Ijtimoiy falsafiy tanqid nuqtai nazaridan, bu qarash inson ongining tarixiy va madaniy shartlanganligini chuqurroq anglashga olib keladi.

Sinergetik paradigmaning yana bir o‘ziga xos jihati - qadriyatlarning pluralizmini asoslashidadir. Endilikda yagona "mutlaq" ilmiy qadriyatlar mavjud emas; aksincha, har bir ilmiy soha o‘zining ijtimoiy-madaniy kontekstiga ko‘ra qadriyatlar tizimini shakllantiradi. V.S. Stepin bu haqda shunday yozadi: "postklassik fan o‘zining metodologik prinsiplariga aks ettirilgan holda qadriyatlarning ko‘plikligini tan oladi". Tanqidiy yondashuvda aytish mumkinki, sinergetikaning ilmiy qadriyatlarni cheksiz nisbiylashtirishga olib borishi xavfi mavjud. Agar har bir tizim o‘z "haqiqatiga" ega bo‘lsa, umumiy ilmiy muloqot va bilimlar birligi qiyinlashadi. Shu jihatdan, R. Kveynga asoslanib, "ilm-fanning birligi" zaruriyat sifatida saqlanib qolishi kerak. Ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan, bu insoniyatning umumiy madaniy taraqqiyoti va global muammolarni hal etishdagi integrativ yondashuv talablaridan kelib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sinergetikaning ilmiy qadriyatlar tadrijiga olib kirgan yana bir yangiligi - ochiqlik va dinamik muvozanat qadriyatlarining ahamiyatini oshirishdir. Murakkab tizimlar statik holatda emas, doimo rivojlanish va o‘zgarish jarayonida bo‘ladi. Shu sababli, ilmiy bilim ham doimo ochiq va qayta ko‘rib chiqiladigan bo‘lishi kerak. Bu borada G.Xaken "sinergetik tizimlarning barqarorligi faqat o‘zgarish va moslashuv qobiliyati orqali saqlanadi" deya ta'kidlaydi[3]. Sinergetika ilmiy qadriyatlar tizimini tubdan yangilab, bilimning evolyutsion, o‘zgaruvchan va ko‘p variantli mohiyatini asoslab berdi. Ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan, bu o‘zgarishlar inson va jamiyatning o‘z-o‘zini tashkil qilish qobiliyatini anglashni, global hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyat qadriyatlarini rivojlantirishni taqozo qiladi.

Globalizatsiya sharoitida insoniyat chindan ham murakkab va o‘zaro bog‘liq global muammolar girdobiga tortilgan. Fan bu murakkablikni anglash va uni engishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Sinergetika esa ilmiy bilishda yangi sifat bosqichini anglatadi, chunki u "tabiatdagi tartibsizlik va tartibning o‘zaro munosabati"ni tushunishga imkon beradi. Xususan, V.S. Stepin ta'kidlaganidek, "sinergetika kibermetikadan keyingi umumilashma metodologik makon sifatida shakllanishi mumkin". Sinergetika nafaqat murakkab tizimlar nazariyasi sifatida, balki ilmiy qadriyatlarning ham o‘zgarishini, yangi g‘oyaviy kontekstlarda shakllanishini bildiradi. Agar klassik ilmda bilish ob'ektiv haqiqatni aniq ifodalashga qaratilgan bo‘lsa, sinergetik yondashuvda "bilish faqat tashqi ob'ektiv reallikni emas, balki sub'ektning o‘zaro aloqalar orqali shakllangan faoliyatini ham o‘z ichiga oladi". Shu bilan birga, sinergetikaning universal tatbiq qobiliyatiga tanqidiy yondashish ham muhim. Uning har qanday sohaga cheksiz qo‘llanilishi haqidagi da'volar ba'zan "gnozeologik haddan oshish" deb baholanadi. Ijtimoiy falsafa kontekstida bu shuni anglatadiki, sinergetika o‘z-o‘zini tashkil etish, beqarorlik va kreativ rivojlanish tamoyillarini ijtimoiy tizimlarga qo‘llaganda, inson irodasi, ijtimoiy qadriyatlar va maqsadlar determinantligini to‘liq hisobga olmaydi. Chunki ijtimoiy tizimlarda rivojlanish faqat tabiat qonunlariga emas, balki aksariyat hollarda ma'naviy va axloqiy tanlovlarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi ilmiy tafakkur metodologik jihatdan ochiq, ierarxik va kontekstual xususiyatga ega. Sinergetika bu holatni "ko‘pvariantlik va imkoniyatlar o‘rtasida doimiy tanlov" tamoyili orqali tushuntiradi. Ammo inson faoliyati va jamiyat dinamikasi, shuningdek, global ijtimoiy tizimlar uchun faqat sinergetik modellarga asoslangan bashorat qilish etarli emas. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarni ham inobatga olish zarur. Bundan tashqari, V.S. Stepinning fikricha, sinergetika "fan va falsafaning chegaralarini buzadi va yangi g‘oyaviy sintezni talab qiladi". Bu ijobiy hodisa bo‘lishi bilan birga, shuningdek, ilmiy me'yorlarning va bilish mezonlarining nisbiylashuviga olib keladi, bu esa ilmiy bilimni ijtimoiy instrumentalizatsiya xavfiga duchor etadi. Shunday qilib, sinergetika fanning universal printsiplarini rivojlantirish va yangilashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq ijtimoiy falsafa kontekstida uni tanqidiy ruhda qabul qilish, uning imkoniyatlarini va cheklovlarini ongli ravishda anglash talab qilinadi. Chunki inson va jamiyat kabi tizimlarda ichki qadriyatlar va maqsadlar determinant rolda bo‘lib, har qanday tabiiy jarayonlarni o‘zgartirib, ularning rivojlanish vektorlarini belgilaydi.

Sinergetika va ilmiy qadriyatlar tadriji masalasi zamonaviy ilmiy tafakkurda fundamental nazariy va metodologik ahamiyat kasb etmoqda. Sinergetika, German Xaken ta’biri bilan aytganda, “murakkab tizimlar o’z-o’zini tashkil etish jarayonlarini tadqiq etadigan fan” sifatida, ilmiy bilishda noan’anaviy va dinamik yondashuvlarni rivojlantirdi. Sinergetika ilmiy qadriyatlarning tadrijini, ya’ni ularning shakllanish,

rivojlanish va transformatsiya jarayonlarini ifodalovchi universal mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ilm faoliyati tarixan ratsionalizm va ob'ektivizm asoslarida shakllangan bo'lib, klassik ilm an'anasi tabiat va jamiyatdagi tartib va qonuniyatlarni statik va muayyan holda anglashga intiladi. Ammo sinergetika bu qarashlarga zid ravishda, "xaos orqali tartib" kontseptsiyasini ilgari suradi. I. Prigojin va I. Stengers ta'kidlashicha, "xaos va tartib o'rtasidagi dialektik o'zaro ta'sir tufayli yangi, yuqori darajada tashkil topgan tizimlar yuzaga keladi0022 [6]. Bu holat, ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, insoniyat taraqqiyotini statik emas, balki dinamik va noaniq jarayon sifatida anglash zarurligini ko'rsatadi.

Sinergetika ilmiy qadriyatlarning tadrijini ierarxik va evolyutsion jarayon sifatida ko'radi. V.P. Milovanovning ta'kidlashicha, "sinergetik yondashuv fan, hayot va sivilizatsiya rivojini to'lqinsimon va bosqichma-bosqich harakatda tasvirlaydi"[7]. Shu tariqa, qadriyatlar ham qarama-qarshi tendentsiyalar o'rtasidagi muvozanat va uzluksiz o'zgarish orqali shakllanadi. Ijtimoiy-falsafiy kontekstda, sinergetikaning bu yondashuvi ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, muayyan muammolarni ham keltirib chiqaradi. Birinchidan, sinergetik qarashlarda sub'ektivlik va relyativizmga moyillik mavjud. Maturana va Varela ta'kidlaganidek, "poznanie — bu tashqi dunyodan mustaqil ravishda miya va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasidir". Bu yondashuv, ijtimoiy qadriyatlarning universal va umuminsoniy xususiyatini shakllantirishda muayyan noaniqlik va subektiv interpretatsiyalarni kuchaytiradi. Shuningdek, sinergetikaning barcha sohalarga tatbiq etilishi tendentsiyasi uning metodologik chegaralarini noaniqlashtirish xavfini tug'diradi. V.S. Styopin haqli ravishda qayd etadiki, "sinergetika kibernetika kabi universal metodologiyaga aylanish imkoniyatiga ega, ammo uning konkret tadqiqot ob'ektlari va metodlarini aniq belgilash zarur" nuqtai nazardan, ijtimoiy falsafa sinergetik yondashuvning gnoseologik va metodologik kuchli tomonlari bilan birga uning cheklovlarini ham ochib berishi lozim. Ijtimoiy qadriyatlar va fan taraqqiyoti o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilishda, sinergetika murakkab tizimlardagi o'zgarish va taraqqiyotning noan'anaviy yo'llarini tushunishda qimmatli manba bo'lsa-da, har bir ijtimoiy-madaniy kontekstda uning chegaralarini inobatga olish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, sinergetika fan va ilmiy qadriyatlar tadrijini yaxlit va dinamik jarayon sifatida anglash imkoniyatini beradi. Lekin ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan uning sub'ektivizmga moyilligi va universallashtirish tendentsiyasi tanqidiy tahlilni talab etadi. Ilm faoliyati va qadriyatlar evolyutsiyasi jarayonida sinergetikaning imkoniyatlari va chegaralari teran o'rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Prigogine I. "From Being to Becoming". San-Francisco: W.H. Freeman, 1980. - 272 b. (43-bet).
2. Prigogine I., Stengers I. "Order out of Chaos". New York: Bantam Books, 1984. - 349 b. (87-bet).
3. Moren E. "La Pensée Complexe". Paris: Seuil, 2005. - 184 b. (112-bet).
4. Haken H. "Synergetics: An Introduction". Berlin: Springer-Verlag, 1983. - 436 b. (73-bet).
5. Prigogine I., Stengers I. "Order out of Chaos", New York: Bantam Books, 1986. – 47-bet.
6. Capra F. "The Turning Point: Science, Society, and the Rising Culture", New York: Bantam Books, 1982. – 112-bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ubaydullaev Islomjon Abdullaevich
University of Business and Science "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
islomzhon.ubaydullayev.76@mail.ru 97 448 84 76

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA GEOIQTISODIY TAFAKKUR OMILI

Annotatsiya. *Muallif ushbu maqolada bugungi kundagi iqtisodiy globallashuv jarayonlarida, shuningdek mamlakatimizdagi har bir sohadagi yangilanish, ya'ni iqtisodiy o'tish davrida mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va ularning samaradorligini oshirishda mulkdorlarning geoiqtisodiy tafakkurini yuksaltirish, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan etnoiqtisodiyot va neoiqtisodiyot omillarini ham rivojlantirish masalasiga alohida to'xtalib o'tgan.*

Kalit so'zlar: *global iqtisodiyot, geoiqtisodiyot, geoiqtisodiy tafakkur, etnoiqtisodiyot, neoiqtisodiyot, mulkdor.*

Убайдуллаев Исламджон Абдуллаевич
Доцент кафедры социальных наук Университета бизнеса и науки,
Доктор философии (PhD),

ФАКТОР ГЕОЭКОНОМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В данной стате автор уделил особое внимание вопросу повышения геоэкономического мышления собственников в условиях современных протсессов экономической глобализатсии, а также обновления во вцех сферах нашей страны. Он рассмотрел экономические реформы, проводимые в нашей стране в период экономического перехода, и пути повышения их эффективности. Кроме того, автор подчеркнул важност развития связанных с этим этноэкономических и неоэкономических факторов.*

Ключевые слова: *глобалная экономика, геоэкономика, геоэкономическое мышление, этноэкономика, неоэкономика, собственник.*

Ubaydullaev Islomjon Abdullaevich
Associate Professor of the Department of "Social Sciences" of the University of Business and Science,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy,

THE FACTOR OF GEOECONOMIC THINKING IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

Abstract: *In this article, the author pays special attention to the issue of enhancing geoeconomic thinking among business owners in the context of modern economic globalization processes, as well as the renewal taking place in all spheres of our country. He examines the economic reforms being implemented in our country during the period of economic transition and ways to increase their effectiveness. Additionally, the author emphasizes the importance of developing related ethnoeconomic and neoeconomic factors.*

Keywords: *global economy, geoeconomics, geoeconomic thinking, ethnoeconomics, neoeconomics, ownership.*

Kirish

Yangi O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyot davriga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari va jahonda yuz berayotgan global iqtisodiy jarayonlar mulkdorlardan uning rivojlanib borish mantig'ini tezlikda anglab etishni va shunga qarab o'zlarining tovar ayirboshlash munosabatlarini tashkil etishni talab qiladi. Bu jarayonlarning rivojlanish mantig'ini anglab etish esa geoiqtisodiy tafakkur orqali amalga oshiriladi.

Bunda ijtimoiy borliq kishilarning amaliy faoliyatida yaratilgan, ularning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan barcha narsa, jarayon va hodisalar majmuidan iborat bo'lsa[1], ijtimoiy ong tabiiy va ijtimoiy voqelikning in'ikosi, jamiyatning muayyan davri yoki qismiga tegishli umumiy his-tuyg'ular, kayfiyatlar, qarashlar, g'oyalar, nazariyalar majmuidir[2].

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Geoiqtisodiyotga oid adabiyotlar orasida professor V. A. Dergachyovning "Geopolitika. Russkaya geopoliticheskaya ensiklopediya (2010 g.)" nomli kitobida: "Geoiqtisodiy tafakkur – ko'p o'lchamli kommunikatsion makonda geoiqtisodiy texnologiyalarni ishlab chiqish

qobiliyatidir"[3], – deya ta'rif berilgan. Ammo bu ta'rifda geoiqtisodiy tafakkurning ijtimoiy-falsafiy jihatlari o'z aksini topmay qolgan. Shuning uchun ham "geoiqtisodiyot" va "iqtisodiy tafakkur" tushunchalariga yuqorida berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda "geoiqtisodiy tafakkur" tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin. Geoiqtisodiy tafakkur – geografik o'rni, hududiy joylashuvi, suvereniteti, tarixiy xotirasi, qadriyatlari va iqtisodiy imkoniyatlariga qarab foyda ko'rish maqsadida o'zgalar bilan iqtisodiy integratsiyaga kirishayotgan barcha sub'ektlarning jahonda yuz berayotgan global iqtisodiy jarayonlarni hissiy va aqliy jihatdan in'ikos ettirish natijasida hosil bo'lgan nazariy va amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarni mujassamlashtiruvchi aqliy xatti-harakatlarning zamonaviy tizimidir.

Geoiqtisodiy tafakkurni shakllantirish jarayoni ikki jihatni o'z ichiga oladi.

Birinchi jihati bozor munosabatlariga o'tish jarayonida geoiqtisodiy tafakkurni kishilarning ongida shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, u ikki darajada – bir tomondan, odamlarning jahonda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni bevosita ko'rish, tajribadan o'tkazishga asoslangan *empirik* darajada, ikkinchi tomondan, jamiyatda kishilar tomonidan to'plangan iqtisodiy bilimlarni egallashga asoslangan *nazariy* darajalarda amalga oshiriladi.

Ikkinchi jihati geoiqtisodiy tafakkurni kishilar ongida shakllantirish ishlarini tashkil etishning usul va vositalari bilan bog'liq bo'lib, bevosita mulkdorlarning va umuman, mamlakat aholisining geoiqtisodiy dunyoqarashini shakllantirish va o'stirish ishlarini tashkil etish masalalarini qamrab oladi. Bu ikki jihat bir butunning ikki tomoni bo'lib, bir-birini to'ldirib turadi.

Natijalar

Geoiqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuchlardan biri – mulkdorlardir. Shuning uchun ham mulkdorlarning geoiqtisodiy tafakkurini shakllantirish masalasi davlatimiz oldida turgan dolzarb strategik vazifalar jumlasiga kiradi. XX asrning oxiri va XXI asr boshiga kelib sivilizatsion taraqqiyotning postindustrial modeli rivojlanishining cho'qqisi bo'lgan texnogen bosqichga kirdi. Bu bosqichga xos xususiyatlar, *birinchidan,* tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishdan katta foyda olish uchun ilm-fan, texnika va texnologiyaning eng so'nggi yutuqlaridan tinimsiz ravishda foydalanishning yo'lga qo'yilganligi; *ikkinchidan,* bunday zamonaviy tovarlarning ishlab chiqarilishi asosida tovarlar "hayot sikli" ning tezda qisqarib borishi; *uchinchidan,* tabiiy va inson resurslaridan ayovsiz foydalanishning kuchayishi va uning salbiy oqibatlari bilan qiziqmaslik holatlarining tobora ortib borishi; *to'rtinchidan,* yangi texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish strukturasini yarataman deb binoyidek ishlab turgan strukturaning faoliyatini to'xtatish holatlari ko'payib borishi, uning esa, o'z navbatida, ommaviy ishsizliklarni keltirib chiqarishi, natijada jamiyatda barqaror rivojlanishning buzilishi kabilarda ko'rina boshladi. Bunday holatlar, oxir-oqibatda jamiyatda texnologik eskirishni keltirib chiqara boshladi. Bundan qutulish uchun esa boshqaruvning demokratik, ma'muriy va totalitar usullari ishga solinmoqda. Ammo ularning istiqboli yo'qligi kundan-kun ayon bo'lib bormoqda. Xuddi shu joyda iqtisodiyotning yangi bir shakli sifatida vujudga kelayotgan neoiqtisodiyotning belgilari ham ko'zga tashlanmoqda. Geoiqtisodiy tafakkur bozor munosabatlariga o'tish jarayonida jahonda yuz berayotgan global iqtisodiy jarayonlarni falsafiy tahlildan o'tkazar ekan, sivilizatsion taraqqiyotning postindustrial modeli o'rniga kelayotgan yangi neoiqtisodiyot modelining bosh atributini (asosiy elementini) topishga harakat qiladi.

Ma'lumki, dunyoda hamma narsa, jumladan, bizning iqtisodiy tizimlar haqidagi tasavvurlarimiz ham o'zgarib boradi. Hayot dialektikasi shuni taqozo etadi. Texnogenlashgan iqtisodiy tizim umrining tugab borayotganining asosiy sababi insoniyat taqdirini xavf ostiga qo'yganligidadir. Bugun unga faqat etnoiqtisodiy tizimlargina qarshi tura olishi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Etnoiqtisodiy tizimning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini geoiqtisodiy tafakkur mezonlari asosida falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, har xil ko'rinishdagi sivilizatsion taraqqiyot modellariga qarab tortayotgan uchta iqtisodiy tortish maydoni mavjudligini ko'ramiz. *Birinchisi* – industrlashmagan tizimlarni har xil usullar bilan yamlab yutishga harakat qilayotgan postindustrial tizim, *ikkinchisi* – globallashuv jarayonida o'zligini saqlab qolishga intilayotgan, texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanayotgan etnomilliy tizim. Ularning birinchisi insonning yashash muhitini buzish va shu asosda etnomilliy ildizlarning tomirini qirqmoqda, ikkinchisi esa elat, millat yashayotgan joyga sivilizatsion borliqning kirib kelishiga qarshilik ko'rsatib, uning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Ana shunday bir vaziyatda ijtimoiy taraqqiyotning postindustrial modelidan neoiqtisodiy modeliga o'tish davrini o'zida aks ettiruvchi *uchinchi – oraliq tortish kuchi* ham maydonga kelmoqda. Bu etnoiqtisodiy tizimdir.

Etnoiqtisodiy tizimning xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi: *birinchidan,* mustaqilligini qo'lga kiritib, iqtisodiyotini modernizatsiya qilish asosida xalqning farovon turmush kechirishini ta'minlashga intilish borasida hech qachon sivilizatsion taraqqiyotning yangi modellarini inkor qilmasligi, balki undan unumli foydalanishga harakat qilishi; *ikkinchidan,* har xil oqim va siyosiy o'yinlarga berilmasdan, mustaqil tashqi iqtisodiy aloqalar olib borish asosida o'zga davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlikni yo'lga qo'yishi; *uchinchidan,* iqtisodiy taraqqiyotni ma'naviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish

asosida ish yuritishi. Shunga ko‘ra, postindustrial iqtisodiyotning o‘rniga kelayotgan neoiqtisodiyotning bosh atributini etnoiqtisodiy tizimlar tashkil qiladi.

Etnoiqtisodiyot (yunoncha ethnos – xalq va iqtisod - arab. xo‘jalik, tejab-tergash) – biron elat, millat va xalqning moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratish, taqsimlash va iste’mol qilish, har xil xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq iqtisodiy xatti-harakatlari. Shunga ko‘ra, bir nechta elat, millat, xalqlarning o‘zaro foydali iqtisodiy hamkorlik qilish yo‘lida transmilliylashuvi asosida paydo bo‘layotgan yangi iqtisodiy jarayonlar majmui etnoiqtisodiy tizim deb ataladi. Yangidan shakllanib kelayotgan etnoiqtisodiy tizimlarga Yaponiya, Tayvan, Janubiy Koreya, O‘zbekiston kabi davlatlarning etnoiqtisodiyoti misol bo‘la oladi.

Muhokama

Iqtisodiyot rivojining falsafiy tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, neoiqtisodiyot – global iqtisodiy tizimning jamiyat hayotini sifat jihatidan takror ishlab chiqarish uchun texnogen, etnomilliy, madaniy va ma’naviy-axloqiy omillarni o‘zaro uyg‘unlashtirishga qaratilgan yangi qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi sivilizatsion taraqqiyotning etnoiqtisodiyotga asoslangan yangi modeli.

Neoiqtisodiyot masalasi kelgusida iqtisodchi, faylasuf, sotsiolog, siyosatshunos olimlar tomonidan har taraflama o‘rganishni taqozo etadigan muammolar jumlasiga kiradi. Bunda shuni unutmasligimiz kerakki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar o‘tish davrida moliyaviy-iqtisodiy muammolarni oldini olish borasida qilinayotgan barcha ishlar mamlakatimiz iqtisodiyotining neoiqtisodiyot sari tashlangan qadamlaridan biridir. Bu xususda Prezident Sh. Mirziyoev: “*Dunyodagi og‘ir sharoitga qaramasdan, barqaror iqtisodiy o‘sish yo‘lida aniq natijalarga erishayapmiz. Buni Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, hamkor davlatlar rahbarlari, reyting tashkilotlari, yirik investorlar ham e’tirof etayapti. Lekin, bugun kamchiliklarni ko‘rsatib, zaxiralarni ishga solish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab olsak, foydali bo‘ladi*”[4], – degan edi.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, hozirgi kunda texnogen faoliyatga asoslangan postindustrial iqtisodiy tizim o‘z o‘rnini etnoiqtisodiyot zaminida kurtak otib kelayotgan neoiqtisodiyotga osonlikcha bo‘shatib bermaydi. Xuddi shu joyda global iqtisodiy jarayonlarning inson ongidagi in’ikosi bo‘lgan geoiqtisodiy tafakkur murosa falsafasi sifatida maydonga chiqishi mumkin.

Xulosa

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan bozor munosabatlariga o‘tish davrida neoiqtisodiy jarayonlarni bilishda geoiqtisodiy tafakkurning o‘rni quyidagilarda ko‘rinadi:

birinchidan, postindustrial iqtisodiyotdan neoiqtisodiyotga o‘ziga xos «o‘tish davri»ning mavjud bo‘lishini e’tirof etgan holda, bu davrda geoiqtisodiyot atributlari o‘rtasida mutanosibliklarga qaraganda nomutanosibliklarning ko‘proq yuz berishi sabablarini aniqlab, ularning echimini topishga xizmat qilishi;

ikkinchidan, yangidan shakllanayotgan etnoiqtisodiyot tizimiga kirib kelayotgan “milliy iqtisodiyot” modellari o‘rtasidagi o‘xshash va farq qiluvchi tomonlarni ajratish asosida ular bilan munosabatlar o‘rnatish yo‘llarini ko‘rsatib berishi;

uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan har qanday iqtisodiy tizimda asosiy harakatlanuvchi kuch bo‘lgan mulkdorlarning neoiqtisodiyot sharoitida ham ko‘proq foyda olish maqsadida raqobat qilishini ko‘rsatib, buni sog‘lom raqobatga aylantirishga xizmat qilishi;

*to‘rtinchidan,*postindustrial iqtisodiyotdan neoiqtisodiyotga o‘tish davrida milliy suveren davlatlarning iqtisodiyotiga xavf solish holatlarining, xususan ma’naviy, mafkuraviy, madaniy tahdidlarning mavjudligidan barchani ogoh qilgan holda, geoiqtisodiy, geosiyosiy, geomafkuraviy urushlarning oldini olishi, etnoiqtisodiyot mushtarakligi asosida birlashgan transmilliy hududlaridagi barqarorlikni ta’minlashda bunyodkor g‘oya va mafkuralar bilan birlashib, mulkdorlarni ma’naviy jasoratga chorlovchi kuch vazifasini o‘tashi va h.k.

Bularning bari, O‘zbekistonning neoiqtisodiyotga o‘tish yo‘llarini o‘zida aks ettiruvchi konsepsiyani ishlab chiqishni esa davr talabi deb hisoblashimizga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Falsafa: Qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004. – B. 146.

2.Falsafa asoslari / Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov. – T.: O‘zbekiston, 2005. – B. 218.

3.*Mirziyoev Sh.M.* Hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektorda so‘zlagan nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/7407 Vebsayt

4.*Dergachev V. A.* Geopolitika: Russkaya geopoliticheskaya ensiklopediya. 2010 // http: dergachev. ru/book-geoe/

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Qahharova Dilafro'z Abdug'afforovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Jahon adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

KO'NGIL TIMSOLI: TASAVVUFIY-FALSAFIY ASOSLAR VA ADABIY AN'ANA (Bobur lirikasi misolida)

Annotatsiya: *Tasavvuf ilmida ko'ngil insonning ichki dunyosini, ruhini ifodalaydi va uning ilohiy haqiqatlarga yo'l topishi uchun zarur bo'lgan markaz ekanligi ta'kidlanadi. Maqolamizda tasavvuf ilmining keng yoyilishiga hissa qo'shgan so'fiylar Mansur Halloj, shayx Adabali, Ibn Haldun, shayx Safiy Alimshohlarning ko'ngil haqidagi fikrlari insonning ichki dunyosini tozalash, yuksaltirish va Allohga yaqinlashish haqidagi qarashlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning lirikasida uchragan tasavvufiy qarashlar xususida so'z yuritilgan. Boburning tasavvufiy qarashlari uning hayoti va ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. U o'z asarlarida tasavvufiy g'oyalarni va tasavvufning asosiy tushunchalarini o'ziga xos tarzda ifodalagan.*

Kalit so'zlar: *Tasavvuf, so'fiylik, ko'ngil, shayx, pir, Mansur Halloj, Adabali, Ibn Haldun, Safiy Alimshoh, Bobur.*

Каххарова Дилафроз Абдугафоровна
Узбекский государственный университет мировых языков
Старший преподаватель кафедры мировой литературы

ОБРАЗ СЕРДЦА: ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ И ЛИТЕРАТУРНАЯ ТРАДИЦИЯ (на примере лирики Бабура)

Аннотация: *В науке тасаввуф утверждается, что сердце выражает внутренний мир человека, его душу и является центром, необходимым для того, чтобы найти путь к божественным истинам. В нашей статье анализируются взгляды суфиев Мансура Халладжа, шейха Адабали, Ибн Халдуна, шейха Сафи Алимшаха на очищение, возвышение внутреннего мира человека и приближение к Аллаху. Также обсуждаются суфийские взгляды, встречающиеся в лирике Захириддина Мухаммада Бабура. Суфийские взгляды Бабура оказали большое влияние на его жизнь и творчество. В своих произведениях он своеобразно выразил суфийские идеи и основные понятия суфизма.*

Ключевые слова: *Суфизм, суфизм, сердце, шейх, пир, Мансур Халладж, Адабали, Ибн Халдун, Сафи Алимшах, Бабур.*

Qahhorova Dilafroz Abdugaforovna
Uzbek State University of World Languages
Senior Lecturer, Department of World Literature

THE ILLUSTRATION OF THE HEART: SUSSIFICIAL-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS AND LITERARY TRADITION (on the example of Babur's lyrics)

Abstract: *In the science of Sufism, it is emphasized that the heart expresses the inner world, the soul of a person and is the center necessary for him to find the way to divine truths. In our article, the thoughts of Sufis Mansur Hallaj, Sheikh Adabali, Ibn Khaldun, Sheikh Safi Alimshah, who contributed to the widespread dissemination of the science of Sufism, about the soul, about the purification, elevation of the inner world of a person and the approach to Allah, are analyzed. It also discusses the Sufi views found in the lyrics of Zahiriddin Muhammad Babur. Babur's Sufi views had a great influence on his life and work. In his works, he expressed Sufi ideas and the basic concepts of Sufism in a unique way.*

Keywords: *Sufism, Sufism, heart, sheikh, pir, Mansur Hallaj, Adabali, Ibn Khaldun, Safi Alimshah, Babur.*

Kirish. Tasavvuf ilmida ko'ngil insonning ichki dunyosini, ruhini ifodalaydi va uning ilohiy haqiqatlarga yo'l topishi uchun zarur bo'lgan markaz ekanligi ta'kidlanadi. Tasavvufda ko'ngil insonning ilohiy haqiqatni anglash, Allohni topish va uni yurakda his qilish joyi sifatida qaraladi. Ko'ngil Allohning nurini qabul qiluvchi joy, qalb esa ma'naviy tozalash va ilohiy sevgiga erishish uchun zarur bo'lgan poydevor sifatida ishlatiladi. Ko'ngilning tozaligi ruhiy o'sishning boshlanishidir. Tasavvufda ko'ngilni tozalash, uning

zulmatidan chiqarish va ilohiy nurga yo‘l ochish asosiy maqsadlardan biridir.

Insonning ko‘ngli qanchalik toza bo‘lsa, u Allohga yaqinlashadi va haqiqiy ma’naviy bilimni anglashga muvaffaq bo‘ladi. Ishq, tasavvufda ko‘ngilning Allohga bo‘lgan muhabbati sifatida tushuniladi. Ko‘ngil, tasavvufda tafakkur va ilohiy bilimlarga erishish vositasi sifatida ham tushuniladi. Yaxshi fikrlar va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish ko‘ngilning tozaligiga va uning ma’naviy yuksalishiga bog‘liq. Tasavvufda inson o‘z ichki dunyosiga, ko‘ngliga bo‘ysunib, haqiqiy ilm va hikmatga erishadi.

Ko‘ngil timsoli tasavvuf ta’limotida chuqur ma’no va mazmunga ega. U insonning ichki dunyosini, ruhini, ma’naviyatini va uning Alloh bilan bo‘lgan aloqasini ifodalovchi asosiy timsollardan biridir. Tasavvufda ko‘ngil insonning qalbi sifatida tushuniladi. U nafaqat insonga tegishli a’zo, balki ruhiy va ma’naviy markazdir. Ko‘ngil insonning haqiqiy mavjudligi va uning ma’naviy holati bilan bog‘liqdir. Tasavvufda ko‘ngilni poklash va yuksaltirish asosiy maqsadlardan biri bo‘lib, bu jarayon Allohga yaqinlashish va haqiqatni anglashga olib boradi. Shuningdek, tasavvufda ko‘ngil, asosan, Allohning nurini qabul qilish joyi sifatida qaraladi. Allohning ilmi, nur va rahmati ko‘ngilda aks etadi. Ko‘ngilning pokligi va sof holati tasavvufdagi ma’naviy yuksalishning belgisidir. Tasavvufda ko‘ngil, asosan, sevgi va ishq timsoli sifatida tasvirlanadi. Ishq, ayniqsa, Allohga bo‘lgan muhabbat, insonning qalbida mavjud bo‘lgan eng yuksak tuyg‘udur. Ko‘ngil, ishqning manbai va aks-sadosi sifatida, tasavvufiy tafakkurda chuqur ahamiyatga ega.

Lirik turda bevosita tasavvuf ilmida arab, fors va turkiy tillarda she’rlar yozilgan. Ana shu she’riyat Sharq xalqlari orasida tasavvuf ilmining keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Tasavvuf ilmi dastlab so‘fiyona qarashlardan iborat edi. Keyinchalik u shoirlarning she’rlari uchun eng katta mavzuga aylandi. “Tasavvuf ta’limotida ko‘ngil ulug‘lanadi. Boisi, u Alloh jilvagohi. Shu ma’noda ijodkorlar ko‘ngil timsoliga murojaat qilish orqali insonning ulug‘ligiga, uni Allohning yeradagi xalifasi ekanligiga ishora qiladir”[82].

Asosiy qism. Tasavvuf ilmining keng yoyilishiga hissa qo‘shgan so‘fiylardan biri Mansur Hallojdir. Taqdiri ayanchli bo‘lgan so‘fiy hamisha o‘zini Allohga bog‘lab turadigan joy uning ko‘ngli ekanligini ta’kidlagan. “Halloj “Ba joyi adoyi haj, nazaru ziyorati Ka’bai dil kofi ast” ma’nosi “Haj ziyorati o‘rnida dil Ka’basini ziyorat qilish kifoyadir”, degani uchun Bag‘dodda g‘avg‘o qo‘zg‘algan” [83] . Uning hayoti va faoliyati ko‘plab e’tirozlar, qarama-qarshiliklar va falsafiy tafsiyalar bilan to‘la. Halloj “Anal-Haq” (men Haqman) degan iborani aytib, Alloh bilan birlashganini da’vo qilgan. Aynan shu davosi noto‘g‘ri talqin qilinib hayotining fojeaviy yakun topishiga sabab bo‘lgan. Hallojning tasavvufiy qarashlari juda ko‘p islomning rasmiy e’tiqodlari bilan qarama-qarshi kelgan va uning da’volari rad etilgan. U insonning haqiqiy mohiyatini, Allohga bo‘lgan yaqinlikni va ruhiy erkinlikni o‘rganishga qaratilgan. Mansur Hallojning merosi zamonaviy tasavvufda muhim o‘rin tutadi. Uning yo‘li va fikrlari ko‘plab so‘fiy shayxlari tomonidan o‘rganilgan va tasavvufdagi haqiqatni izlash yo‘lining o‘ziga xos ifodasi sifatida e‘tirof etilgan.

Usmoniylar saltanatini buyuk davlat bo‘lishiga hissa qo‘shgan, buyuk Usmon g‘oziyning ustozi shayx Adabali ham tasavvuf ilmida ko‘ngilning mavqe’yi haqida fikrlar bildirgan. U insonning ko‘ngli, ruhiy holati va maqsadlarini tushunishda chuqur mulohazalar yuritgan. Adabali ko‘ngilni insonning ichki olami va amallari bilan bog‘laydi. U ko‘ngilni poklik va o‘zini anglashning asosi sifatida qaraydi, shu bilan birga, ko‘ngilning o‘zgarishi, tozaligi yoki ifloslanishi, insonning ruhiy ahvolini belgilashda katta ahamiyatga ega deb biladi. Ko‘ngilning pokligini saqlash va uning ichki go‘zalligini namoyon qilishga alohida e’tibor beriladi. Shayx Adabali fikriga ko‘ra, “insonning haqiqiy baxti uning ichki holatiga, ko‘nglida poklikka va odob-axloqning yuqori darajalariga bog‘liqdir. Shu sababli, ko‘ngilni tozalash va ularni yomon, zararli fikrlar va hulqlardan himoya qilish”[84] kerakligi ta’kidlanadi. Shayx Adabali, shuningdek, ko‘ngilni o‘zgarish va o‘zini anglash jarayonida samimiy ma’rifat orqali tozalashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Uning fikrlariga ko‘ra, ko‘ngilni o‘zgartirish, shaxsiy taraqqiyot va ilohiy nurga yaqinlashish insonning ruhiy baxtiga olib keladi.

Tasavvuf ta’limotida ijod qilgan so‘fiylardan yana biri Alouddavla Simnoniy ko‘ngil haqida o‘zining asarlarida chuqur tafakkur va tasavvufiy qarashlarini ifodalagan. Uning ko‘ngil haqidagi fikrlari insonning ichki dunyosi, qalb va ruhiyatini anglashga qaratilgan edi. Simnoniy ko‘ngilni, avvalo, poklik, orzu, tuyg‘u manbayi sifatida ko‘rgan. Unga ko‘ra, ko‘ngil – insonning asliyati va haqiqiy tabiatini aks ettiruvchi muhim bir ichki dunyo. “Alouddavla Simnoniy vahdatul vujud o‘rniga vahdatush shuhud (yagona guvohlik yoki mushohada birligi) nazariyasini taqdim etgan. Bu nazariyaga ko‘ra, Mutlaq zot sifatlari jami ashyolarga emas, balki inson qalbida jilolanadi. Insonning maqsadi esa musaffolanib, Mutlaq vujud nurini qabul qilishga tayyorlanib borishdir” [85] . Simnoniy ko‘ngilni tashqi dunyo bilan bog‘lashda ham, uning butun mavjudligini shaxsning ichki holatini anglashga qaratgan. U qalbni yaxshilash, tozalash va undagi salbiy his-tuyg‘ulardan qutulish zarurligini

[82] Husanova K. Tasavvufiy timsollarning she’riyatdagi o‘rni. https://zenodo.org/ 138-b.

[83] Haqqul I. Asrori Halloj. https://kh-davron.uz/kutubxona

[84] Усмон Нурий Тўпбош. Бир кўза сув. – М., 2010, 41-b.

[85] Komilov N. Vahdatul vujud va vahdatush shuhud. https://kh-davron.uz/kutubxona/

ta’kidladi. Simnoniy fikriga ko‘ra, ko‘ngilni poklash orqali inson Alloh bilan yaqinlashishi, haqiqiy baxtni topishi mumkin. Shuningdek, u ko‘ngilni yashirin hikmatlarni anglash va ulkan maqsadlar sari intilishning asosi deb bilgan. Ko‘ngilni poklash va qalbni tarbiyalash masalalari, uning tasavvufiy g‘oyalarida muhim o‘rin tutgan.

Temuriylar davrida tasavvufiy ta’limotda ijod qilgan Ibn Haldundir. Ibn Haldunning fikricha, insonning tabiati va uning ruhiy holatlari jamiyat va uning atrof-muhitiga, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga bog‘liqdir. Agar inson tinch va barqaror jamiyatda yashasa, uning ruhiy holati tinch bo‘ladi, ammo jamiyatda nizolar va beqarorlik mavjud bo‘lsa, insonning ko‘ngli ham beqaror bo‘ladi. Ibn Haldun “nafs” va “ko‘ngil” o‘rtasidagi aloqani ham ta’kidlaydi. “Nafsning qusurlari, masalan, ortiqcha ishtaha yoki shahvat, insonning ko‘nglini ifloslantiradi va uning maqsadlariga to‘sqinlik qiladi. Aksincha, maqsadga erishish uchun ko‘ngilni to‘g‘ri yo‘naltirish va nafsni tiyish zarur” [86], deb hisoblaydi. Shunday qilib, Ibn Haldunning ko‘ngil haqidagi qarashlari, insonning ruhiy holatlarini faqat uning ichki dunyosi bilan emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy sharoitlar bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Shayxlardan yana biri shayx Safiy Alimshohdir. Shayx Safiy Alimshoh, o‘zining ma’rifiy va tasavvufiy qarashlari bilan mashhur bo‘lgan mutafakkir va shayxdir. Uning ko‘ngil haqidagi fikrlari tasavvufning chuqur g‘oyalariga asoslanadi. Alimshohning ko‘ngil haqidagi ta’limoti, insonning ichki olami va ruhiy poklikka bo‘lgan muhabbatini ta’kidlaydi. U ko‘ngilni yashirin va nozik jihatlar orqali tasvirlaydi va uning muhimligini bir necha asosiy nuqtada bayon etadi. U ko‘ngilni Allohning nurini qabul qiladigan joy sifatida ko‘radi. Pok ko‘ngil orqali inson ilohiy haqiqatni tushunadi va o‘zining haqiqiy mohiyatini anglaydi. Alimshoh, “ko‘ngilning mustahkam bo‘lishi uchun sabr va tahammulning zarurligini” [87] ta’kidlaydi. Isoning ichki tinchligi va ma’naviy o‘sishi sabr va o‘zini tahlil qilish orqali amalga oshadi. Shayx, ko‘ngilni mustahkamlash uchun insonni uning ichki holatini tushunishga va xatolarini tuzatishga chaqiradi. Shayx Safiy Alimshohning ko‘ngil haqidagi fikrlari, insonning ichki dunyosini tozalash, yuksaltirish va Allohga yaqinlashish uchun muhim bir manba sifatida tasavvufdagi amaliyotlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ko‘ngilni poklash va ruhiy yuksalishga erishish uning ma’rifatli ta’limotlarida markaziy o‘rin tutadi.

Shayx Ravim, tasavvufiy ta’limotlari va ma’rifatli fikrlari bilan tanilgan shayxlaridan biridir. Uning ko‘ngil haqidagi fikrlari tasavvufning ruhiy va ma’rifiy o‘ylari bilan chuqur bog‘liq. Shayx Ravim, ko‘ngilni insonning ichki dunyosining markazi, haqiqatni anglash va ilohiy nurni qabul qilish joyi sifatida tasvirlaydi. Uning ko‘ngil haqidagi fikrlariga quyidagilar kiradi. Ravim, “ko‘ngilni poklash va uni dunyoviy xohishlardan, o‘ylardan va yomonliklardan tozalash zarurligini ta’kidlaydi. Ko‘ngilni tozalash jarayoni, shaxsning ruhiy taraqqiyoti uchun muhimdir. Bu jarayonda tasavvufiy zikr va ibodatlar yordamida inson o‘z ichki dunyosini o‘zgartiradi va poklaydi” [88]. Shayx Ravim ko‘ngilni mustahkamlash va uning ichki tinchligini topish uchun sabr va toqatni zarur deb biladi. U sabrni ko‘ngilning mustahkamligi va haqiqiy baxtga erishish yo‘lidagi asosiy vosita sifatida ko‘radi. Sabrlilik, ko‘ngilni yengilmas va chalg‘ituvchi his-tuyg‘ulardan himoya qiladi. Shayx Ravimning fikriga ko‘ra, ko‘ngil har xil holatlarga kirishi mumkin: xursandchilik, g‘azab, qayg‘u, muhabbat va boshqalar. U, har qanday holatda ham ko‘ngilni to‘liq anglash va uning ustidan hokimiyatni qo‘lga kiritishni o‘rgatadi. Har bir holatni o‘zining ma’naviy o‘sishiga foyda keltirish uchun ishlatish zarur. Shayx Ravimning ko‘ngil haqidagi fikrlari, insonning ichki pokligi, sabr, va ilohiy muhabbat orqali ma’naviy yuksalishga erishish yo‘lini ta’kidlaydi. Uning ta’limotida ko‘ngil Allohning nuriga to‘lgan, pok va yuksalgan bir joy bo‘lib, ruhiy taraqqiyotning markaziga aylanishi kerak.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning shayxu pirlarga hurmati cheksiz bo‘lgan. Temuriylar saltanatida faoliyat olib borgan Xoja Ahror Valiyni asarlarida ko‘p marotaba tilga olgan. Buni “Boburnoma”dagi misollardan ham anglash mumkin. Bobur uni “Mullo bobo” deb ataydi. Xoja Ahror Valiyni Bobur o‘ziga ma’naviy ustoz sifatida ko‘rgan. Zahiriddin Muhammad Bobur, shuningdek, o‘zining tasavvufiy qarashlari bilan ham tanilgan. U faqat bir davlat arbobi va shoir, balki, tasavvufning sirli va chuqur jihatlarini ham o‘rgangan va o‘z asarlarida tasavvufiy fikrlarni bayon qilgan. Uning tasavvufiy qarashlari, asosan, ruhiy poklanish, ilohiy muhabbat, va insonning ichki olamini anglashga qaratilgan edi. Boburning tasavvufiy qarashlari uning hayoti va ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan. U o‘z asarlarida tasavvufiy g‘oyalarni va tasavvufning asosiy tushunchalarini o‘ziga xos tarzda ifodalagan. Bobur, o‘zining hayotidagi ko‘plab mashaqqatlar va jismoniy qiyinchiliklarga qarshi turishda tasavvufning ta’siridan foydalanishga harakat qilgan. Bobur tasavvufni nafaqat nazariy tushuncha sifatida, balki kundalik hayotda qo‘llashga intilgan. Uning she’rlarida bu g‘oyalar ko‘pincha ochiq va yashirin tarzda ifodalangan.

Bobur o‘z hayotida ko‘p marta dunyo va undagi sinovlarni o‘zaro taqqoslagan. Tasavvufda dunyo ko‘pincha vaqtinchalik, o‘tkinchi va haqiqiy yuksaklikka

[86] Djuraboyeva D. Ibn Haldunning “Muqaddima” asarida Amir Temur siymosining yoritilishi. https://wordlyknowledge.uz. 143-b.

[87] Mo‘minova Ch. Tasavvuf adabiyotida komil inson tushunchasi. Cyberleninka.ru. 310-b.

[88] Mo‘minova Ch. Tasavvuf adabiyotida komil inson tushunchasi. Cyberleninka.ru. 311-b.

erishishga to‘sqinlik qiluvchi hodisa sifatida qaraladi. Bobur ham o‘zining tajribalari orqali bu g‘oyani qabul qilgan va shu sababli u dunyo va uning zavqlari haqida ko‘proq murosaga kelishga, haqqoniy hayotga intilish kerakligini ta’kidlagan. Shoir o‘zining tasavvufiy qarashlarida, shuningdek, o‘zlikni anglash va uning yuksak ma’nosiga yetishish zaruratini ko‘rsatgan.

Tasavvufiy ta’limotning ta’sir Boburning ko‘plab she’rlarida seziladi. Uning she’rlarida tasavvufning asosiy g‘oyalari, xususan, sevgi, poklanish, o‘zlikni anglash va ma’naviy o‘sish kabi g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. Bobur tasavvufni insonning ichki dunyosini tushunish va ruhiy tozalash vositasi sifatida qaragan.

Boburning ko‘plab she’rlarida, sevgi va ishq mavzusi markaziy o‘rinda turadi. Tasavvufda sevgi – ilohiy ma’rifatga olib boradigan eng muhim yo‘l sifatida qaraladi. Boburda ishq nafaqat insoniy tuyg‘ularni ifodalovchi hissiyot sifatida, balki Allohning muhabbatini, uni anglash va uning yo‘lida sabr-toqat qilishni anglatadi. Bobur ishqni nafaqat insonlar o‘rtasidagi sevgida, balki o‘zining ilohiy maqsadlariga erishish yo‘lida bir vosita sifatida ko‘rgan. Boburning tasavvufiy qarashlarida poklanish va tavba muhim o‘rin tutadi. U o‘zining she’rlarida, asosan, insonning ruhiy holati, qalbning tozaligi va nafsni yengish haqida fikr yuritadi. Tasavvufda nafsni yengish, qalbni poklash va tavba qilish orqali ilohiy ma’rifatga erishish ta’limoti muhimdir. Bobur o‘z hayotida ham, balki ijodida ham nafs va dunyo bilan bog‘liq turli sinovlarga qarshi kurashgan va qalbini poklashni maqsad qilgan. Tasavvufda taqdir va vaqtni idrok etishning alohida o‘rni bor.

Bobur, o‘zining “Boburnoma” asarida, o‘z hayotidagi ko‘plab sinovlarni, muvaffaqiyatlar va mag‘lubiyatlarni taqdirning bir qismi sifatida qabul qilgan. Bobur dunyo va uning rohatlarini ko‘pincha vaqtinchalik va o‘tkinchi deb hisoblagan. Tasavvufda dunyo faqat sinov va tajriba maydoni sifatida qaraladi, va haqiqiy yuksalish Allohga yo‘l olishda, uning ilohiy hikmatlarini anglashda, va ma’rifatni olishda yashirin. Bobur ham o‘z hayotida dunyo rohatlaridan mahrum bo‘lgan, turli xil azoblar va sinovlarni boshidan kechirgan. Bobur, o‘zining she’rlarida, ko‘pincha “Haq” deb ilohiy haqiqatga ishora qiladi. Tasavvufda Haq – bu Allohning o‘zi, barcha mavjudotning asosiy manbai va maqsadi hisoblanadi. Bobur bu haqiqatni izlashni, uni his qilishni va bu yo‘lda yurishni maqsad qilib qo‘ygan. U “Haq”ni topish uchun qalbni poklash va nafsga qarshi kurashishni zarur deb bilgan. Boburning she’rlarida tasavvufiy elementlar ko‘p uchraydi. Ishq, muhabbat, nafs va ruhiy poklanish kabi tasavvufiy tushunchalar badiiy ifodalarda o‘z aksini topadi. Boburning tasavvufiy qarashlari uning hayotini va ijodini chuqur ma’nolar bilan boyitgan.

“Oshiq o‘lg‘ach, ko‘rdum o‘lumni o‘zumg‘a, ey rafiq,
O‘zga ko‘nglumning bu olamda harosi qoldimu?!” (201-b)

Baytda yuzaki olib qaralganda, umri davomida taqdirning barcha og‘ir zarbalariga uchragan, qismatning butun achchiq ko‘rguliklarini boshidan kechirgan odam uchun bu dunyoning qo‘rquvi qolmasligi haqida gap ketyapti, chunki bu olamdagi barcha xorlik va xo‘rlikni boshidan kechirgan lirik qahramon uchun umrining qolgan qismida duch kelishi mumkin bo‘lgan qo‘rquvlar (xiyonat, aldov, kamsitilish, nafrat) endi hech narsaga arzimaydi.

Baytga tasavvuf jihatdan nazar tashlasak, oshiq bo‘lgan solik uchun bu dunyoning barcha hoy-u havaslari, quvonch-u gam-tashvishlari, g‘oliblik va mag‘lublik bir chaqaga arzimasligi, butun qalbi-yi idroki bilan Yor vasliga – Alloh tajalliysiga yetisishga intilgan oshiq uchun bu olamda hech qanday qo‘rquv qolmasligi ta’kidlanayotganini sezish mumkin.

N.Komilov ta’kidlaganidek, “muhabbat o‘zlikdan voz kechib, dunyoviy orzu-niyatlarni yo‘qotish – mahv etishni talab qiladi. Boshqacha aytganda, dunyo muhabbatidan ko‘ngil uzmasdan Iloh muhabbatini qozonish mumkin emas. Dunyo muhabbati va Iloh muhabbati – bir-biriga zid ikki qutb: dunyoni degan kishi Iloh muhabbatidan, Ilohni degan kishi esa dunyo muhabbatidan yuz o‘girishi kerak. Ana shunday dunyo muhabbatidan yuz o‘girib, ilohiy ma’rifatni egallagan odam, dunyoviy-nafsoniy sifatlarga barham berib, ilohiy sifatlarni o‘zlashtiraverib, Zotning o‘ziga qo‘shiladi, ya’ni Zotda foniy bo‘ladi (muhabbatning xotimasi – fano)”[89]. Ko‘rinadiki, Boburning ushbu bayti uning tasavvuf ta’limoti, xususan, naqshbandiya tariqati talablari bilan ham chuqur tanishligini ko‘rsatadi. O‘z davrining falsafasi, xususan, she’riyatida mustahkam o‘rin egallagan tasavvuf talablaridan Boburning bexabar qolishi aslo mumkin emas.

Quyidagi ruboiysida esa may timsoli majoziy ma’noda qo‘llanilib kelgan.

“May tarkini qilg‘ali erurmen g‘amliq,
Bor tiyra ko‘ngulga har zamon darhamliq.
G‘am birla fasurdaliq halok etti meni,
May birla emish shodlig‘u xurramliq.” (301-b).

Bu she’rda g‘am va shodlik, ichki qarama-qarshiliklar tasvirlanadi. She’rda “may” va “g‘am” tushunchalari orqali hayotdagi ruhiy holatlar ifodalanadi. Shoir sharobni tark etish qarorini qabul qilganida ham, uning ichki olamidagi qayg‘u va g‘amlar barham topmaydi. Bu yerda sharob, ba’zan g‘amlarni unutish vositasi sifatida ko‘rsatiladi, lekin shu bilan birga, u qalbni tinchlantirishning doimiy yo‘li emasligini anglatadi. Shoir g‘am va tashvishlarning o‘zini qanday azobga solishini tasvirlaydi, shu bilan birga, sharobni ichish orqali vaqtincha shodlik va xursandchilik topganini tan oladi.

[89] Komilov N. Komil inson. https://kh-davron.uz/kutubxona/

Ruboiyda shoir o‘zining ichki kurashini aks ettiradi. Sharob, bir tomondan, xursandchilik va zavq keltirsa, boshqa tomondan, vaqtincha bo‘lsa ham, g‘am va azoblarni yengillashtiradi. Shoir bu qarama-qarshiliklarni ifodalaydi va hayotdagi muammolarni hal qilishda ichki kurashlar haqida fikr yuritadi.

“Kelgilki, dame o‘lturubon may icholing,
Dunyo g‘amu ranjidinzamone kecholing.
Chun ayshu nishot lashkari saf tuzdi,
Ey mehnatu g‘ussa xayli, sizlar sijoling!” (307-b)

Bu she’rda Bobur, may va uning keltirgan lazzatlari bilan dunyodagi g‘am va tashvishlarni unutilishi haqida so‘z yuritadi. She’rda shodlik va mayning ta’siri orqali ichki tinchlik va farovonlikka erishish istagi ta’kidlanadi. Bu yerda sharob, vaqtincha baxt va tinchlikni taqdim etadigan bir vosita sifatida tasvirlanadi. Bobur, shodlikni topish uchun vaqtincha g‘amlarni unutishni istaydi. Bu yerda shoir shodlik va rohatni tasvirlaydi va mehnat, qayg‘u va g‘amlarni ular uchun chetga surib qo‘yishni taklif qiladi. She’rda Bobur, vaqtincha baxt va shodlikni topish orqali dunyo azoblaridan qochishni tavsiya etadi. Bobur shodlikni va rohatni afzal ko‘rgan holda, g‘am va qayg‘ulardan chetlanishga chaqiradi. Biroq, bu o‘tmishdagi holatni ko‘rsatish bilan, she’rda ruhiy holatni va ichki hotirjamlikni izlashni ifodalaydi.

“Bobur tasavvufning ulkan bilimdoni. U qo‘liga qilich ushlagan shoh. Lekin bu qilich bilan nafsni yengib bo‘lmasligini teran tushunganligi uchun ham u tasavvufga kuchli qiziqish paydo qilgan. Tasavvuf – jangchining yo‘li emas, oshiqning yo‘li. Mana shuning uchun ham Bobur shoir va oshiq sifatida bu yo‘ldan yurish lozimligiga tabiiy ehtiyoj sezgan”[90].

“Gar sidq bila birovki oshiq bo‘lg‘ay,
Ma’shuq visoli anga loyiq bo‘lg‘ay.
Pir ollida topqusi murodin beshak,
Har kimki agar muridi sodiq bo‘lg‘ay.” (363-b)

Bu she’rda Bobur, tasavvufiy ma’nolarni o‘zida mujassam etgan, oshiq va ma’shuq o‘rtasidagi ruhiy aloqani tasvirlaydi. She’rda, oshiqning ma’shuqni qanday sevishi va ma’shuqning o‘ziga mos bo‘lishi haqida so‘z yuritiladi. Bu yerda shoir, sevgi va oshiq-ma’shuq munosabatlarining sidq (chin) bo‘lishini ta’kidlaydi. Shoirning fikriga ko‘ra, agar biror kishi chin yurakdan oshiq bo‘lsa, ma’shuq uning sevgisiga loyiq bo‘lishi kerak. Ya’ni, sevgi faqat samimiy bo‘lishi, ikkalasi ham bir-biriga munosib bo‘lishi zarur. Shoir, tasavvufiy qarashlarga ko‘ra, pir (ustoz) yo‘lida sodiq bo‘lishni ta’kidlaydi. Sodiqlik, ya’ni muridning o‘z ustoziga bo‘lgan sodiqligi, uni maqsadlariga yetkazadi. Shoir bu yerda muridning to‘g‘ri yo‘lda bo‘lishi va ustozining yo‘lidan borishi muhimligini aytadi. She’rda Bobur oshiq va ma’shuqning tasavvufiy talqiniga o‘xshash shaklini keltiradi. Ularning munosabati faqat tashqi ko‘rinishdan emas, balki ichki sadoqat, sevgidan iborat bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Pir va murid munosabati ham bu ma’noda tasavvufiy yo‘lda sodiqlik va sadoqatni ifodalaydi. Bobur, o‘zining ichki maqsadlariga yetish uchun ustozning (pirning) yo‘lidan borishni tavsiya etadi.

“Oludai yuz tuman ma’osiy bo‘lmoq,
Yuz ranju tuman azob xosi bo‘lmoq.
Ko‘p yaxshi ekin ahli xiradning qoshida,
Kim, og‘ritibon atoni osiy bo‘lmoq.” (301-b)

She’rdagi har bir misrada Bobur insonning maqsadga erishish yo‘lida duch keladigan qiyinchiliklar va sinovlarni, shuningdek, hayotning murakkab va ba’zan achchiq tomonlarini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Boisi inson tug‘ilib hayoti davomida qanday kunlarni yashamasin umri poyoniga yetgach qilgan ishlarining javobini berishi aniqligini ta’kidlaydi. “Yuz tuman ma’osiy” va “yuz ranju tuman azob” so‘zlari orqali hayotning qorong‘u va og‘ir tomonlarini tasvirlaydi. Bu yerda Bobur o‘zining dard va azoblariga urg‘u beradi. She’r, umumiy ma’noda, inson hayotining murakkabligini, insonlarning maqsadiga erishishda duch kelgan azoblari va kurashlarini anglatadi.

“Islom uchun ovvorai yoziy bo‘ldum,
Kufforu hunud harbsoziy bo‘ldum.
Jazm aylab edim o‘zni shahid bo‘lmoqqa,
Alminnatulillohki, g‘oziy bo‘ldum.” (319-b)

Bu to‘rtlikda Bobur o‘zining diniy e’tiqodini, Islom uchun kurashish niyatini va uning maqsadlari yo‘lida o‘tgan yo‘lini ifodalaydi. She’rda ishlatilgan so‘zlar va tasvirlar Boburning shaxsiy ishonchi, maqsadlari va diniy vazifalarini aks ettiradi. Bobur o‘zining Islom dini uchun kurashayotganini, shu yo‘lda jabr va mashaqqatlarga dosh berayotganini ta’kidlaydi. “Ovvorai yoziy bo‘ldum” so‘zlari orqali Bobur, o‘zini Islom uchun fidokorona kurashgan deb hisoblaydi. Bobur bu yerda o‘zining maqsadi uchun qilgan harakatlarini, xalqining diniy himoyasini o‘z zimmasiga olganini ifodalaydi. “Jazm aylab” degan ibora orqali u, o‘zining qat’iyatini va g‘azabini ifodalaydi. Bobur bu qat’iyat bilan Islom yo‘lida o‘z jonini qurbon qilishni istagan, lekin oxir-oqibat “g‘oziy bo‘ldum” deb, g‘azot (jang)da ishtirok etgani va maqsadiga erishganini ta’kidlaydi. Bu she’rda Bobur o‘zining diniy e’tiqodi va maqsadlariga bo‘lgan chuqur sadoqatini, ayni paytda, Islomni himoya qilish uchun qilgan kurashini ifodalagan.

“Hammomki, to maskani jonona emish,
Anda parilar husnig‘a devona emish.
Ul xud paridur, borcha mulozimlari ham,
Alqissa(ki), hammom parixona emish!” (297-b)

Bu she’riy parchada, tasavvufiy va metaforik elementlarni o‘zida jamlagan qiziqarli misollarni tashkil etadi. She’rda hammomning tasvirlanishi, uni ajoyib bir joy sifatida ko‘rsatib, buni parixona bilan solishtirishi

[90] Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами. дисс.филол. фан. д-ри. – Т.:177-бет.

orqali bir nechta chuqur ma’nolarni anglatadi. “Jonona” so‘zi, ayniqsa, sevgi va jo‘shqin tuyg‘ularni ifodalaydi, bu yerda hammom “jonona” sifatida, odatiy tozalash joyidan farqli o‘laroq, ma’naviy bir tajriba sifatida ko‘rsatiladi. “Parilar” so‘zi, ko‘pincha go‘zallik va muqaddaslikni anglatadi va Bobur bu go‘zallikni “devona” bo‘lish bilan ta’riflaydi, ya’ni uning ta’sirida inson ongsiz yoki ma’shum bo‘lishi mumkin. Bu go‘zallik, hammomning tasavvur qilingan muqaddas va osmoniy tabiatiga qarshi bir qarashni hosil qiladi. Bu qismda, hammomdagi go‘zallikni tasvirlayotgan shoir, o‘zining ma’naviy o‘zgarishlarini ifodalaydi. Bobur hammomni “parixona” deb ataydi, ya’ni u faqat jismoniy emas, balki ruhiy tozalash, go‘zallik va tasavvufiy mukammallikni anglatadi. Bobur bu yerda hammomni, haqiqiy ma’noda, xuddi jannat yoki osmoniy bir makon sifatida tasvirlamoqda. Umuman olganda, bu she’rda Bobur o‘zining tasavvufiy dunyoqarashini, go‘zallik va muqaddaslikni tasvirlashga uringan va buni oddiy hayotdagi bir voqea bilan solishtirib, chuqur ma’no kiritgan.

“Ruhum yaratib eding latofat birla,
Qilding anga tanni hamroh ofat birla.
Ruhumni chu tan uyiga kelturdung pok,
Mundin nori eltma kasofat birla.” (339-b)

Bu she’rda Bobur insonning ruhiy va jismoniy mavjudligini tasavvufiy nuqtai nazardan ifodalaydi. U ruhning va tananing o‘zaro bog‘liqligini, ularning yaratilishini va har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lganini chuqur his-tuyg‘ular bilan tasvirlaydi. Bobur o‘zining ruhini Alloh tomonidan go‘zal qilib yaratilgan deb tasvirlaydi. Ruh bu yerda yuqori, nozik va mukammal bir mavjudot sifatida ko‘rsatilgan. She’rning yakunida Bobur ruhni kasofatdan (yomonlik va ifloslikdan) xoli bo‘lishini xohlaydi. Bu she’r Boburning tasavvufiy dunyoqarashini aks ettiradi, u ruhning mukammalligi va tozaligini ta’kidlaydi. She’rda ruhning oliyjanob va mukammal bo‘lishi kerakligi, jismoniy dunyoning esa ruhning pokligini saqlashga salbiy ta’sir ko‘rsatishi haqida chuqur ma’no yashiringan.

Tasavvufda ham aynan shu jihat Allohga bo‘lgan bandaning ilohiy ishqi bayon qilingan. So‘fiylar, shayxlar, piru murshidlar qatori Bobur ijodida ham ilohiy ishq ko‘p bora tilga olingan. Buni yuqorida shoirning lirik parchalaridan keltirilgan misollar ham isbotlab turibdi. Bobur realist shoir ekanligi hech kimga sir emas. Ammo uning yurtidan olisdaligi va bu olislikning shoir ko‘ngliga sog‘inchni olib kirishi, ilohiy ishqni bayon qilishiga sabab bo‘lgan.

Ibrohim Haqqul aytganidek “tasavvufda axloq-odob kamoloti qanchalik muhim bo‘lsa, tahliya-tasavvur va taxayyul salohiyati ham nihoyatda muhimdir. Tasavvuf ilohiy zavq va surur sirlarini kashf etarkan, insonga avvalo, nafsni yengish, yomon hulq va xususiyatlardan kechish tajribalarini o‘rgatadi. Shuning uchun tasavvufning nufuzi hafaqat ilohiy ishq va faqru fanolikni ideallashtirganlar orasida, balki deyarli barcha ijtimoiy tabaqalar o‘rtasida ham yuksak bo‘lgan”[91].

Darhaqiqat tasavvuf, diniy va ma’naviy jihatdan, odob-axloq va ichki kamolotning muhimligini ta’kidlaydi. Avvalo, tasavvuf ilohiy zavq va sururni kashf etishning yo‘li sifatida nafsni yengishni, yomon sifatlardan qutulishni o‘rgatadi. Tasavvufning asosiy maqsadi insonni nafsning yomon xususiyatlaridan tozalash, uning ruhini poklashdir. Bu o‘z navbatida insonning nafsini yengish va ilohiy sevgini kashf etishda ulkan ahamiyatga ega.

Najmiddin Komilov tasavvuf ilmi haqidagi fikrlarini shunday bayon qiladi. “Tasavvuf – inson kamoloti, axloqiy poklanish haqidagi ilm dedik. Bu tushuncha komil inson konsepsiyasida aniq ko‘zga tashlanadi. Inson uchun qayg‘urish, uning ma’naviy kamolotini o‘ylash tasavvufning doimiy o‘zak masalasi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, insonning botiniy olami, ichki ziddiyatlari, ruh va jism orasidagi kurash so‘fiylarni ko‘p qiziqtirgan. Insonning hayotdagi o‘rni, jamiyat bo‘lib yashash tartiblariga ham shu mavqedan turib qaralgan chunonchi, ijtimoiy nizolar, urush-janjallar, mulkiy tengsizlikning tub mohiyati, bosh sababini ham tasavvuf inson tabiati va siyratidan qidiradi, insonning axloqini tuzatishni uning tabiatidagi salbiy, hayvoniy kuchlarni mavh etishdan boshlash kerak, deb tushuntiradi”[92].

Yuqoridagi fikrdan anglashiladiki, tasavvuf, insonning ma’naviy rivojlanishi va ichki poklanishi bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy maqsadi komil insonni yaratish, ya’ni insonni ruhiy va axloqiy jihatdan toza va mukammal qilishdir. Tasavvuf, faqat jismoniy emas, balki ruhiy kamolotga ham katta e’tibor qaratadi, chunki ichki xususiyatlar va axloqiy poklanish tashqi xulq-atvorni shakllantiradi. Bu jarayon esa, faqat ruhiy yuksalishga olib kelmay, balki jamiyatdagi adolat, tinchlik va uyg‘unlikni ham shakllantirishga yordam beradi.

Nasiba Bozorovaning fikricha “Tasavvufda qalb tarbiyasi muhim sanalgan. Shuning uchun mutasavviflar ko‘ngil holi, hayoti kamolotga erishish asrori haqida keng bahs yuritishgan. Ko‘ngilning tasavvuf she’riyatidagi o‘rni ham alohida. Bunga sabab tasavvuf she’riyatining inson e’tiborini ko‘ngilga jalb etib, qalb va ko‘ngil sirlarini ochishga ko‘p kuch sarflagan, Alloh va odam munosabatini ko‘ngil yo‘li va ko‘ngil ehtiyojlari orqali hal etishda katta natijalarga erishgan she’riyat sanalganidir. Tasavvufiy she’riyatda ko‘ngil tubdan yangi mohiyat kasb etdi. Ya’ni u haq tajalligohi Arsh Allohning taxti darajasiga ko‘tarildi.”

[91] Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами. дисс.филол. фан. д-ри. – Т.: 17-бет.

[92] Komilov N. Komil inson. https://kh-davron.uz/kutubxona/

Xulosa. Tasavvuf, nafaqat axloqiy kamolotni, balki qalb va ko‘ngilning tozaligi hamda ularning o‘zgarishini o‘rganishni muhim deb hisoblaydi. Tasavvufda qalb tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Mutasavviflar qalbni tozalash, uning ichki holatini yaxshilash va insonni ruhiy kamolotga yetkazish yo‘lidagi amallarni muhim deb bilishadi. Bu jarayon, qalbning sofligi, Alloh bilan bog‘lanish va ichki tinchlikka erishish uchun zarurdir. Shuning uchun, tasavvufda qalbni tarbiyalash va uning holatini o‘rganish juda katta ahamiyatga ega. Tasavvuf she’riyatida ko‘ngilning o‘rni alohida. Bu she’riyat ko‘ngilning sirlarini ochishga, insonning ichki dunyosiga, ruhiyatiga va ma’naviy ehtiyojlariga e’tibor qaratishga intiladi. Ko‘ngil butun bir ruhiy holatni ifodalaydi. Tasavvuf she’riyati, Alloh bilan odam o‘rtasidagi munosabatni ko‘ngil orqali hal qilishga katta e’tibor beradi. She’rlar ko‘pincha ko‘ngilning ehtiyojlari, uning iztirobi va ilohiy ishqqa bo‘lgan ehtiyoji haqida so‘zlaydi. Tasavvuf she’riyatida qalb yangi mohiyat kasb etadi. Bu, ko‘ngilning nafaqat insonning ichki holatini aks ettirishi, balki Allohning nuri va ilohiy sirlarining aks etgan joyiga aylanishi demakdir. Shunday qilib, qalb, tasavvufiy qarashlarda, Allohning taxti yoki “Arsh” darajasiga ko‘tariladi. Bu qalbning Alloh bilan bevosita aloqasini, uning ichki va tashqi dunyo bilan uyg‘unligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanova K. Tasavvufiy timsollarning she’riyatdagi o‘rni. https://zenodo.org/ 138-b.
2. Haqqul I. Asrori Halloj. https://kh-davron.uz/kutubxona
3. Усмон Нурий Тўпбош. Бир кўза сув. – М., 2010, 41-b.
4. Komilov N. Vahdatul vujud va vahdatush shuhud. https://kh-davron.uz/kutubxona/
5. Djuraboyeva D. Ibn Haldunning “Muqaddima” asarida Amir Temur siymosining yoritilishi. https://wordlyknowledge.uz. 143-b.
6. Mo‘minova Ch. Tasavvuf adabiyotida komil inson tushunchasi. Cyberleninka.ru. 310-b.
7. Komilov N. Komil inson. https://kh-davron.uz/kutubxona/
8. Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами. дисс.филол. фан. д-ри. – Т.:177-бет.
9. Bozorova N. Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi. – T.: Fan, 2009. – B. 25.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Redjabova Dilnoza Maxammadikromovna
O‘zbekiston Respublikasi IIV mas’ul xodimi

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGI VA JAMIYATDAGI O‘RNI

Annotatsiya: *Maqolada ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta’minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Shuningdek Ayollarga e’tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. Bu esa xotin-qizlarning ham ishlab chiqaruvchi kuch sifatida mavqega ega ekanligi to‘g‘risidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.*

Kalit so‘zlar: *ayollar, xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, gender, davlat, huquq, islohot, institutsional.*

Реджабова Дильноза Махаммадикромовна
Ответственный сотрудник Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ И МЕСТО ЖЕНЩИН В ОБЩЕСТВЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.

Аннотация: *В статье вопрос женщин, их участие в общественно-политических отношениях, обеспечение их прав и свобод на практике является важным показателем развития государств и демократии. Также внимание к женщинам поднялось на уровень реальной государственной политики: фундаментально усовершенствовались ее правовые и институциональные основы. Это привело к появлению идей о том, что женщины также играют роль производительной силы.*

Ключевые слова: *женщины, женщины, в общественно-политических процессах, гендер, государство, право, реформы, институциональные*

Redzhabova Dilnoza Makhammadikromovna
Responsible employee of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

SOCIAL AND POLITICAL ACTIVITY OF WOMEN AND THEIR ROLE IN SOCIETY IN NEW UZBEKISTAN

Abstrakt: *In the article, the issue of women, their participation in socio-political relations, the fact that their rights and freedoms are ensured in practice is an important index of the development of states and democracy. Also, attention to women has risen to the level of real state policy: its legal and institutional foundations have been fundamentally improved. This led to the emergence of ideas that women also have a position as a productive force.*

Keywords: *women, women, in socio-political processes, gender, state, law, reform, institutional.*

Kirish. Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta’minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o‘rni hamisha muhim mezon bo‘lib kelgan. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari mavjud bo‘lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lgan O‘zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o‘rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o‘rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g‘oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar, o‘zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta’minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug‘lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo‘‘tabar onalarimizni e’zozlash, munis opa-

singillarimizni qadrlash orqali ro‘yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Asosiy qism. Ta’kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligida Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo‘ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo‘lamiz. Ayollarning jamiyatdagi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy sohalardagi mavqei u kamol topishi intensivligi darajasining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayollarning mavqeini aks ettiradigan ma’lumotlar inson salohiyatini rivojlantirishda mamlakat erishgan real yutuqlarning, shaxsni uyg‘un kamol toptirish va uning salohiyatini kompleks ro‘yobga chiqarish maqsadida jamiyatning ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar berilgan ijtimoiy teng adolat sari borishi darajasini xolis mezoni hisoblanadi. Keyingi o‘n yillikda ham jamoatchilik, ham olimlar tomonidan xotin-qizlar masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. Bu, eng avvalo, jamiyatning imkoniyatlari va hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi vazifalari bilan belgilanadigan ayollar maqomini oshirishga qaratilgan yo‘nalish bilan izohlanadi. Mehnatga haq to‘lash, ijtimoiy ta’minot, turmushda va oilada, bolalar tarbiyasida mavqei jihatdan ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo‘lmoqda.

Bugungi kunda jahon miqyosida xotin-qizlarning o‘rni va roli tobora yuksalib bormoqda. Bu holatni ko‘plab mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotining hal qiluvchi sohalarida faoliyat yuritayotgan ayollarning soni va salmog‘i ko‘payib borayotganligida ko‘rish mumkin. Xotin-qizlar jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida jahon miqyosida taniqli siyosatchi, olima, san’atkor, sportchi, tadbirkor va boshqaruvchi sifatida o‘zlarining nimalarga qodir ekanliklarini namoyon qilmoqdalar. Ba’zi hollarda o‘zlarining faolligi, bilimliligi, uddaburonligi, kuchliligi va mas’uliyatliligi bilan erkaklardan qolishmasligini namoyon qilayotganliklarini isbotlash shart emas. Ular insoniyatning hayotiy muhim sohalarini, ya’ni sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy xizmatlar, fan, madaniyat va sport, san’at, axborot, xullas, barcha sohalarni, garchi erkaklarchalik imkoniyatlarga ega bo‘lmasalarda, zabt etmoqdalar. Siyosiy nuqtai-nazardan olib qaraganda, jahonning bir qancha mamlakatlari xotin-qizlar rahbarligida boshqarilmoqda[93].

“Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqeyini yanada mustahkamlash - islohotlarimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi. Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim.’’ [94] Zero, jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti Davlatimiz rahbari ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo‘lishlari hamda sog‘lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish davlatimiz, jamiyatimizning doimiy e'tiboridagi ustuvor vazifa ekaniga alohida e'tibor qaratmoqda.

Millatning o‘ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni va ta'siri beqiyos. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Yurtimiz xotin-qizlarining jamiyatdagi o‘rni, ularning oilaga bo‘lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g‘oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqei ham har jihatdan yuqori baholanmoqda. Jahon hamjamiyati, nufuzli xalqaro tashkilotlar e'tirofiga ko‘ra, O‘zbekiston ayollar uchun munosib muhit yaratgan mamlakatlar qatoriga kiritilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda azal-azaldan muhtarama ayollarga yuksak ehtirom ko‘rsatib kelinadi.

Qadimgi davrlarda ayol oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga tegmagan, uning vazifasi erini g‘orda kutish, odam tutgan mamontni pishirish, uyni jihozlash, bolalarni tarbiyalash edi. O‘sha paytda odamlar guruh bo‘lib yashar, ayol o‘zi uchun erkak tanlay olmas edi. Erkak oilani yaratishni boshladi va o‘zi uchun sog‘lom ayolni tanladi. Kelajakda ayollar ovda ishtirok etishni boshladilar, ularning vazifasi hayvonni toshlar bilan tuzoqqa tushirish bo‘lgan. Bu ayolning asta-sekin erkaklar bilan tengligining dastlabki ko‘rinishi edi. Antik davrda, odamlarning ongi yanada rivojlandi, ko‘plab mamlakatlarda ayollarga sig‘inish, ularni qadrlash va tinglash yuzaga keldi. Qadimgi Yunonistonda ayollarning oila va jamiyatdagi o‘rni sof davlat topshirig‘i edi. Ayolning vazifasi eriga nima qilish kerakligini va uni qanday qilib to‘g‘ri bajarishini aytib berish, unga rahbarlik qilish edi. O‘sha paytda sevgi nikohlari bo‘lmagan, barcha munosabatlar va oilalar siyosiy manfaatlarga muvofiq ravishda qurilgan. Farzandli bo‘lish ham davlat tomonidan qo‘yilgan vazifa edi. Agar ayol bolalay olmasa, demak, erkak uyiga boshqasini olib kelish huquqiga ega bo‘lgan. Albatta, erkak unga uylanmagan, uning rafiqasi bitta hisoblangan, ammo munosabatlar hamma oldida oshkor bo‘lgan. Agar bunday odatiy xotin bolalarni tug‘dirgan bo‘lsa, unda ular to‘laqonli merosxo‘rga aylanishgan. Sobiq ittifoq davrida oilaning xavfsizligi, bolalarni tarbiyalash va ularning

[93] Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси маълумотлари, 2019 йил январь

[94] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 250 b.

kelajakdagi hayoti uchun aynan ayol javobgar edi. Oilada nima bo‘lishidan qat’i nazar ayol aybdor bo‘lgan. Chunki fuqarolarining psixologiyasi shu tarzda qurilganki, barcha erkaklarning xatolari uchun ayol javobgar edi.[95]

XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma’rifatparvarlari M.Behbudiy, A. Fitrat, A. Avloniy xotin qizlarning jamiyatdagi o‘rni borasida keng fikrlar bildirdilar. Masalan, Fitrat — “Oila” asarida shunday fikrlar bor: — “Ayollarning ijtimoiy-sièsiy faolligi milliy ozodlik, erk uchun zarur: ayollar faqat uy-ro‘zg‘or, bola tarbiyasi bilan band qolmasligi kerak”, - deydi. Ayollarning huquqlari albatta, din va milliy qadriyatlar bilan ham bog‘liqdir. Islom dini kirib kelgunga qadar qizlar tug‘iliboq tiriklayin o‘ldirilgani ko‘pchilikka ma’lum. Muqaddas Islom dini hamisha aèllarni e’zozlashga buyuradi. Jannat onalar oyog‘i ostidadir, degan naql asrlar osha o‘z mavqeni yo‘qotgani yo‘q. Islom ta’limoti aèllarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiètida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi. Hadislarda ilm olish har bir muslim va muslimaga xosdir, deyilgan. Islomda oila, nikoh, meros masalalarida aèlga ko‘proq yon beriladi, nikohsiz yashashga ruxsat berilmay, shu tariqa aèlning huquqi ta’minlanadi. Nikoh shartlaridan bo‘lmish – mahr ham aynan aèllarning foydasi uchun joriy etilgan.

Darhaqiqat insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga sharqona ehtirom va e’zoz bilan o‘lchanadi. Bejiz emaski, Sharqda ayolni farishtaga qiyos qilishadi. Chunki farishtalar Olloh Taolo yaratgan eng pok begunoh zotlardir. [96] Aytish joizki, jamiyat rivojida xotin-qizlarimizning alohida o‘rni bor. Chunki ayol – kelajak va hayot davomchisi.

XX asr xotin-qizlarning o‘z huquq va erkinliklari, siyosiy imkoniyatlari va mas’uliyatlarini anglab yetishiga xizmat qilgan davr bo‘ldi. Xotin-qizlar minglab yillar davomida umuman ko‘rmagan va guvohi bo‘lmagan, orzu intilishlarining mazmun-mohiyatiga aylangan siyosiy huquqlarga aynan shu asrda erishdilar. Ushbu asrda xotin-qizlarga nisbatan qarashlarning tubdan o‘zgarganligi va endi nafaqat oilaviy hayot, balki davlat va jamiyat hayotida ayollar va erkaklarning maqomi ham tenglashganligi diqqatga sazovordir. Aytib o‘tilgan yutuqlarga ayollar osonlik bilan erishayotganlari yo‘q. Bir vaqtning o‘zida oila ishlarini saranjomlash bilan bir vaqtda, siyosiy masalalarga ham vaqt topish, nafaqat vaqt topish, balki o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni ado etish, tom ma’noda, siyosiy masalalarda o‘z maqomiga ega bo‘lish, ulardan erkaklarga nisbatan ikki barobar ko‘proq energiya sarflashni talab qilmoqda.

Haqiqatdan ham bugungi kunga kelib xotin-qizlarga nisbatan qarashlar, ularni mehnat jamoasida o`z o`rnini topishi uchun imkoniyatlar ortdi. Xususan mamlakatimizda so`ngi yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy va siyosiy yo`nalishlarda qo`llab-quvvatlash uchun juda katta va tizimli ishlar amalga oshirildi. Birgini mahalla tizimini olib qaraydigan bo`lsak u yerda faoliyat olib borayotgan beshlik tizimi hamjihatlikda mahalladagi xotin-qizlarni axborotlar bilan ta’minlash, zamonaviy kasblarga o`qitish, o`z tadbirkorlik faoliyatini yo`lga qo`yishlari uchun barcha qulayliklarni yaratmoqda. Ana shu say harakatlar evaziga bugungi kunda ayollarning har sohada faolliklari o`sdi. Endilikda ular jamiyatning teng huquqli faol a’zolariga aylanib ulgurdi. Davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ham erkaklar bilan teng huquqdagi inson sifatida o`zlarining ma’naviy, ma’rifiy, madaniy va eng asosiysi ijtimoiy siyosiy bilim va saviyalarini oshirib bormoqdalar.

Tarix darsliklari va adabiyotlarini ko`zdan kechirsak eng qadimgi davrlardan hozirgi kunga qadar qayerda insoniyat svilizatsiyasi yuksak rivojlanish pog`onasiga yetgan bo`lsa, aynan o`sha mamlakatda xotin-qizlarning qadr-qimmati, ularning jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy faolligi yuqori darajada bo`lgan. Aksincha qayerda jaholat hukmronlik qilayotgan bo`lsa o`sha yerda xotin-qizlarning shani, qadri, g`ururi toptalgan. Shu bilan bir qatorda ular ayovsiz kamsitilgan. Shunday ekan xotin-qizlarga nisbatan qilinayotgan munosabat qanday ekanligini ularning oilasida, mahallasida va eng asosiysi jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday ishtirok etayotganligidan ham bilib olsa bo`ladi.

Endi shahar va qishloqlarda yashayotgan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga va uni oshirishdagi muhim jihatlarga to`xtalib o`tsak. Avvalo ularni o`z kasb-hunarni bilish darajasi va saviyasi nuqtayi nazaridan o`ziga munosib ish bilan ta’minlash lozim. Agarda xotin-qizlar o`z ish joyiga ega bo`lsa mamlakat hayotida ham o`z o`rni va roliga ega bo`lgan bo`ldi. Shu bilan bir qatorda dunyoqarashi o`zgaradi va o`zini o`zi himoya qila oladi. Bu esa o`z navbatida jamiyat ravnaqi uchun hissa qo`shilishiga olib keladi. Aynan ayollarning mamlakat ravnaqiga qo`shayotgan hissasini anglay bilishi o`ziga nisbatan ishonch tuyg`usini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti innovatsion rivojlantirish yo‘lidan borayotgan bir vaqtda ilm-fanga alohida e’tibor qaratilib, olima ayollarimizning mamlakatimiz rivojiga munosib hissalarini qo‘shib kelayotganliklariga guvoh bo‘lmoqdamiz. Ular tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqotlar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy ma’rifiy va madaniy sohalarning rivojiga katta turtki bo‘lib, dunyo olimlari tomonidan tan

[95] Пронин, А.А. Положение женщин в современной России: общая характеристика. – М., 2000.

[96] Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. - Т.:Ўзбекистон,.1999 йил, 256 б

olinayotganligi ham diqqatga sazovordir. Buni yurtimizda ilm-fan bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlarimizning sonini kundan-kunga ko‘payib borayotganligida ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda jamiyatimizda 1000ga yaqin fan doktori, 5000 ga yaqin fan nomzodi, 10 nafardan ortiq akademik, ilm-fan va ishlab chiqarishning turli sohalarida samarali mehnat qilayotganligini alohida e’tirof etish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev — “oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e’zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi”[97],- deb ta’kidlagan. Shu o`rinda zamonaviy xotin-qizlarning portretiga qisqacha ta’rif bersak, ular – siyosiy faol fuqaro, tadbirkor, tibbiy savodxon va ma’naviyatli ona, iqtisodiy bilimlar egasi bo‘lgan rafiqa hisoblanadi. Oilada nafaqat erkak har tomonlama yetuk bilimli, savodxon hamda bir ishning boshini tutgan bo‘lishi zarur, balki uning umr yo‘ldoshi bo‘lgan ayol ham kasbu hunarli yoki biror ma’lumot egasi bo‘lishini zamonning o‘zi talab etmoqda. Chunki onalar kelajak avlodni tarbiyalaydilar.

Bugungi kunda xotin-qizlarimiz ishlab chiqarish, tadbirkorlik, hunarmandchilik, ilm-fan, san’at, sport, ichki ishlar kabi sohalarda muvaffaqiyatlarga erishmoqda, xotin-qizlar davlat va jamoat tashkilotlarida va muassasalarga rahbarlik qilmoqda. Mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 50 foizidan ortig`ini xotin-qizlar tashkil etadi. Davlat qonunlarini qabul qilinishida ishtirok etish, unda xotin qizlarlar masalasini qo‘ya bilish, ularni manfaatini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlardan aniqlanmoqdaki, xotin-qizlar masalasi o‘z-o‘zidan hal bo‘lmaydi, buning uchun izchil davlat sièsati, uning aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, eng muhimi, xotin-qizlarning faolligi zarur. Jamiyat hayotida xotin-qizlarning roli va o`rnini oshirish, avvalo, ularning bandligini ta’minlash borasida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha mamlakatimizda tub islohotlar rejasi tuzilgan.

Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilinishi ijtimoiy-siyosiy madaniyatni shakllantirish usullaridan bo‘lib, ularni hokimiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy imkoniyati va salohiyatini amalga oshirish jamiyatda demokratiyaning eng asosiy va dolzarb indikatori hisoblanadi. Shu bois, davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollarning ishtirokiga to‘sqinlik qiluvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy manfaatlarini tenglik prinsipi asosida hal qilish maqsadga muvofiq. Bu kabi vazifalar barcha xotin-qizlarning huquq va manfaatlari, salohiyat va imkoniyatini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy faol, yetuk ma’naviyatli, jamiyatning muhim tayanchi bo‘lgan xotin-qizlar sonini yanada oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- xotin-qizlarimizning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida OAVlarda siyosiy, huquqiy bilimini oshiruvchi ko‘rsatuvlarni ko‘paytirish;

- xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalash, xususan, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollarning reproduktiv salomatligini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlarni nazoratga olish;

- tug‘ish va bola parvarishi ta’tiliga chiqqan ayollarga malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslari (zamonaviy, innovatsion usullar asosida qisqa o‘quv dasturlari asosida) tashkil etish;

- kechgi maktabgacha ta’lim muassasalari, maxsus fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab va gimnaziyalar kabi ta’lim tizimlarini rivojlantirish.

- ichki ishlar tizimlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faoliyatini yanada rivojlantirish va ular uchun keng imkoniyatlar yaratib berish;

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirishda quyidagi ustuvor vazifalarni alohida sanab o‘tishimiz joiz.

Birinchidan xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shujumladan, nogironligi bo‘lgan aèllarning manzilli ro‘yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy èrdam ko‘rsatish;

Ikkinchidan xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo‘llab-quvvatlash;

Uchinchidan xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo‘lganlar bilan yakka tartibda ish olib boorish;

Umuman olganda, respublikamizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatini amalga oshirishda huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan xotin-qizlarni jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish masalalari doimiy diqqat markazlaridagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Biz qurayotgan jamiyat fuqarolik jamiyatidir. Chunki jamiyat taraqqiyoti bugungi kunda shunday yuksaklikka ko‘tarilganki, unda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida himoya qilinadi. Xoh davlat tashkiloti, xoh nodavlat tashkiloti bo‘lsin, barcha institutlar, inson

[97] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиèевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган нутқи.// http://uza.uz/oz/politics/2018, 7 март.

haq-huquqlarini ta'minlash, shuningdek, xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini yanada mustahkamlash borasida tinimsiz ish olib bormoqda. Ayolni ulug'lash oila, hayot, Vatanni ulug'lash demakdir. Xotin-qizlar huquqlari haqida gapirganda, ko'z o'ngimizda Konstitutsiyamiz namoèn bo'ladi. Unda insonning yashash, shaxsiy daxlsizlik, sha'n, qadr-qimmat, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanish, so'z, e'tiqod erkinligi, o'ziga tegishli hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish kabi huquqlari, shuningdek, jamiyat va davlatni boshqarishda bevosita yoki o'z vakili orqali qatnashish, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish, o'z huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida istalgan joyga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat etish, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, ijtimoiy ta'minot olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi huquqlari belgilab qo'yilgan. Har bir shaxsga tegishli bo'lgan yuqoridagi huquqiy me'yorlar o'ndan ortiq kodeks va yuzlab qonunlar bilan tartibga solingan. Misol uchun, Mehnat kodeksida ayrim toifadagi xodimlar tariqasida xotin-qizlarga oilaviy vazifalarni bajarish bilan bog'liq qo'shimcha kafolatlar belgilangan. Mehnat qonunchiligida ayollarga bir qancha imtièzlar ko'zda tutilganligi bois onalarimiz barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega. Jumladan, ikki yoshga to'lmagan bolasi bor xotin-qizlarni yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish ta'siridan holi bo'lgan ishga o'tkazish hamda tungi, ish vaqtidan tashqari va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilish yoki xizmat safariga yuborishning cheklanishi, shuningdek, homiladorlik yoki tug'ish va bola ikki-uch yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun ta'til hamda bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar berilishi kabi imkoniyatlarning mavjudligi xotin-qizlarimizga qonunlarimiz orqali yaratilgan imtiyozlardan dalolatdir.

Mamalakatimizda qabul qilingan qonunlar nafaqat mehnat faoliyatini olib borayotgan xotin-qizlarimiz uchun imtiyozlar beradi balkim ishlamasdan uyda o`tirgan xotin-qizlarni ham chetlab o`tmaydi. Jumladan, ishlamaydigan onalarga 2 yoshgacha bolani parvarish qilish uchun nafaqa to'lanmoqda. Bundan tashqari, mehnat shartnomalarida homiladorligi va farzand ko'rganligi tufayli ayollarga moddiy yordam ko'rsatish, 2 yoshdan 3 yoshgacha bolalari bo'lgan ayollarga haq to'lanadigan ta'til berish, 3 yoshdan kichik bo'lgan bolali aèllar ish vaqtini bir soatga qisqartirish singari imtiyozlar o'z ifodasini topgan. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etilaètgan bir sharoitda aèllar ijtimoiy va siyosiy faolligining o'sishi juda muhim omil hisoblanadi. Kundek ravshanki, O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot yillari mobaynida bu yo'lda salmoqli natijalar qo'lga kiritildi. Shubha yo'qki, ayollarga yashash, mehnat qilish va yosh avlodni tarbiyalashlari uchun yaratilgan va yaratilaètgan qulay sharoitlar bundan keyin ham mamlakatimizning yanada zalvorli muvaffaqiyatlarni zabt etishiga xizmat qilishi shubxasiz.

Bugun mamlakatimizda ayollarning jamiyatda tutgan o'rni va haq-huquqlari

haqida faxr va iftixor bilan juda ko'p misollarga, fakt va dalillarga tayangan holda uzoq gapirish mumkin. Darhaqiqat, mustaqillikka erishgan ilk yillarimizdanoq, xotin-qizlarga bo'lgan yuksak darajadagi e'tibor va e'tirof davlat sièsati darajasiga olib chiqilgani endilikda o'zining yuqori samaralarini ko'rsatmoqda. Biz mamlakatimiz taraqqiètini, jamiyatimiz rivojini xotin-qizlarsiz, ularning faol ishtirokisiz tasavvur yeta olmaymiz. Shu bois yurtimizda ayol huquqi, erkinligi, tengligi eng oliy, muqaddas qadriyat darajasiga ko'tarildi. Keyingi vaqtlarda O'zbekistonda bu borada keng ko'lamli, katta hajmdagi izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini qat'iy kafolatlovchi mustahkam qonunchilik bazasi shakllantirildi va bu jarayon tobora takomillashtirib borilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, aèlga izzat-hurmat, e'zoz-ehtirom ko'rsatish — millatga ehtirom ko'rsatishning bosh omiliga aylandi.

Binobarin, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq. Shuning uchun ham mamlakatimizda aèllarning jamiyatdagi o'rni va rolini mustakamlash, ularning bilimli, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish kabi masalalarga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Davlatchiligimizning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri shaxsning ijtimoiy va siyosiy binobarin, huquqiy faolligini ta'minlashdir. Jamiyatning ma'naviy va axloqiy yetukligi darajasi hamisha xotin-qizlarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqei, ularning davlat va jamiyat ishlarida faol ishtirok etishi bilan islohotlarning muvaffaqiyatli kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa. Har qanday tuzum va har qanday ijtimoiy muhitda xotin-qizlar ijtimoiy siyosiy faolligini oshirish orqali oila farovonligiga erishiladi. Oila farovon bo'lsa, bu, o'z navbatida, jamiyatning ravnaqiga olib keladi. Shuning uchun xotin-qizlar masalasini olib chiqish orqali jamiyat miqyosida tahsinga loyiq juda ko'p vazifalarni bajarish mumkin. Xotin-qizlarga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlar uning tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lishida namoyon bo'ladi. Xotin-qizlar ma'naviyati ijtimoiy hayotning yorqin ko'zgusidir. Chunki ayolda ham oilaviy turmush, ham iqtisodiy va siyosiy hayot o'z

aksini koʻrsatadi. Ayol maʼnaviyatining har bir qirrasi jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uzviylashadi. Xotin-qizlarning oilada mehri, pokligi, jonkuyarligi oila uchun obroʻ va baraka boʻlsa, jamiyatga nisbatan taʼsiri undan ham koʻpdir. Milliy qadriyatlarni saqlab qolish, milliy anʼanalarni davom ettirish ham bugungi kunda xotin-qizlar zimmasidadir. Bir soʻz bilan aytadigan bo`lsak jamiyat ijtimoiy-siyosiy maydonida o`z o`rni va ro`liga ega bo`lgan zamonaviy o`zbek ayoli — taʼlim olib, kasb egallayotgan, xizmat darajasi pillapoyalaridan koʻtarilib, mamlakat va jamiyat hayotida bevosita ishtirok etayotgan ijtimoiy faol shaxs. Oila va yurtimizda hukm surayotgan tinchlik osoyishtalik, yaqinlarining salomatligi, baxt-saodati xotin-qizlarning ertangi kunga ishonchini oshirib, kayfiyatiga ijobiy taʼsir koʻrsatayotgan asosiy omillardandir. Hozirgi kunda mamalakatimizda xotin-qizlarning oila va jamiyatda oʻz munosib oʻrnini topishida juda katta islohotlar amalga oshirildi. Xotin-qizlar huquqlari boʻyicha qonunchilik bazasi shakllantirildi. Xotin-qizlar masalasi yurtimizda davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Ayolga ehtirom koʻrsatish uni eʼzozlash — millatga, vatanga, ertangi kunga, kelajak avlodlarga ehtirom koʻrsatishning bosh mezoniga aylandi.

Adabiyotlar roʻyxati

1.Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси маълумотлари, 2019 йил январь

2.Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2021. – 250 b.

3.Пронин, А.А. Положение женщин в современной России: общая характеристика. – М., 2000.

4.Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. - Т.:Ўзбекистон,.1999 йил, 256 б

5.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиѐевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган нутқи.// http://uza.uz/oz/politics/2018, 7 март.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xaidarov Rahmatullo Ergashevich
Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: tillo.r@mail.ru

UO`K: 1(091):821.512.133.09

INSON KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY INSON KONSEPSIYASIGA DOIR QARASHLARINING SOSIOLOGIK TAHLILI
(“Hayrat ul-abror” dostoni asosida)

***Annotatsiya**: Maqolada Alisher Navoiyning inson konsepsiyasiga doir qarashlari “Hayrat ul-abror” dostoni asosida ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganilib, “Inson kamolotini shakllantirishda shart hisoblangan sifatlarni aniqlash” mavzusida o‘tkazilgan sosiologik so‘rov anketasi natijalari ilmiy metodologik nuqtai nazaridan komil inson modeli “O‘TMISH – BUGUN – KELAJAK” konteksti tarzida o‘rganilgan. Shuningdek, tadqiqot doirasida “Komil inson konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy” modeli metodologik tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar**: inson, kamolot, iymon, din, konsepsiya, islom, ideal, xulq.*

Хаидаров Рахматулло Эргашевич
Старший преподаватель Андижанского государственного университета

СОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И МИРОВОЗЗРЕНИЕ АЛИШЕРА НАВОИ О ЧЕЛОВЕЧЕСТВЕ
(на основе поэме «Хайрат уль-Аброр»)

***Аннотация**: В статье взгляды Алишера Навои на концепцию человека изучаются с социально-философской точки зрения на основе эпоса «Хайрат уль-Аброр», а результаты социологического опроса, проведенного на тему «Определение качеств, необходимых для формирования человеческого совершенства», изучаются в контексте «ПРОГЛАШЕЕ – НАСТОЯЩЕЕ – БУДУЩЕЕ» с научно-методологической точки зрения. Также в рамках исследования был методологически проанализирован модель «Социально-философская концепция идеального человека».*

***Ключевые слова**:* человек, зрелость, вера, религия, концепция, ислам, идеал, поведение.

Khaidarov Rakhmatullo Ergashevich
Senior Lecturer of Andijan State University

SOCIAL ANALYSIS OF THE FORMATION OF HUMAN DEVELOPMENT AND ALISHER NAVOI'S WORLDVIEW OF HUMANITY
(based on the poem "Khairat ul-Abror")

***Annotation**: In the article, Alisher Navoi's views on the concept of man are studied from a socio-philosophical point of view based on the epic "Khairat ul-Abror", and the results of a sociological survey conducted on the topic "Defining the qualities necessary for the formation of human perfection" are studied in the context of "PROCLAIMED - PRESENT - FUTURE" from a scientific and methodological point of view.*

***Key words**:man, maturity, faith, religion, concept, Islam, ideal, behavior.*

Kirish

Inson kamolotini ta’minlash har qanday tarixiy davr uchun dolzarb masalalardan hisoblanib, bu mavzuni insonshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari bo‘yicha izohlash mumkin. Ilmiy metodologik nuqtai nazaridan komil inson modelini “O‘tmish – Bugun – Kelajak” tarzida o‘rganish, nafaqat tarixiy-falsafiy, balki ijtimoiy-falsafiy jihatdan ham dolzarb sanaladi. Sababi ijtimoiy falsafa jamiyatda quyidagi funksiyalarni amalga oshirishi bilan ahamiyatlidir:

dunyoqarashlik funksiyasi (inson dunyoqarashini shakllantirish vositalari; dunyoqarashni shakllantirishda boshqa fan tarmoqlarining ishtiroki);

metodologik funksiyasi (tabiat va jamiyatda kechadigan jarayonlarni ilmiy bilish);

gumanistik funksiyasi (falsafiy bilish orqali shaxsning tarbiyasi, uni o‘ziga va atrofdagilar bilan bo‘lgan munosabatlari madaniyatini, ijtimoiy guruh va jamoalardagi munosabatlari madaniyatini. Bunda his etuvchi, tafakkur yurituvchi va yaratuvchi sub’yektga urg‘u beriladi);

umummadaniy funksiya (jamiyat hayotida mavjud jarayonlarni shu jumladan, faoliyat turlariga insonning munosabatini madaniylashtirishni ta’minlash).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, rus faylasufi S.E.Krapivenskiyning ijtimoiy falsafaning funksiyalarini belgilashda bevosita falsafiy refleksiyadan foydalanib, mavzuga ijtimoiy dinamikasini belgilash jihatidan yondashilganligi kuzatishimiz mumkin [1. B.6]. Mazkur yondashuv asosida Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasiga doir qarashlariga e’tibor qaratsak, mutafakkir ijtimoiy ideal obrazi asosida komil insonda mujassamlanishi shart bo‘lgan sifatlarni ko‘rsatib o‘tgan. Navoyining inson konsepsiyasi inson fenomeniga doir konseptlarni o‘zida mujassam etib, kamolot jarayoniga ta’sir o‘tkazuvchi omillarni “Had” va “Rasm” kotegoriyalari yordamida kamolot jarayonining mahsulini belgilab beradi, ya’ni “Had” deganda, Navoiy “sub’yekt-sub’yekt”, sub’yekt-jamoa” kabi munosabatlarda insonda dominantlik qiluvchi, aniqrog‘i, insoniylikni ta’minlovchi sifatlarni nazarda tutadi. Bu bilan mutafakkir insondagi ijtimoiy sifatlar kamol topuvchi ekanligini ko‘rsatib, ularni shakllantirish kamolot jarayonining vazifasi ekanligini belgilab beradi. “Rasm” tushunchasi asosida esa Navoiy dominant bo‘lmagan gohida ifodalandigan, gohida ifodalanmaydigan sifatlarni tushunadi. Bizningcha, “Rasm” vaziyatli holatlarda inson tomonidan namoyon etiladigan sifat sanaladi.

Adabiyotlar tahlili

Maqolada Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasiga doir qarashlari “Hayrat ul-abror” dostoni asosida ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganilgan. Navoiyning komil inson konsepsiyasi “Inson va tabiat”, “Inson va tarix (din)”, “Inson va jamoa”, “Inson va muhit” tizimi asosida shakllanib, ijtimoiy ideal obrazi asosida komil insonda mujassamlanishi shart bo‘lgan sifatlarni ko‘rsatib o‘tgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Jamiyatimiz a’zolari orasida, xususan, yoshlar dunyoqarashida inson va uning kamoloti masalalari qay darajada ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lishi yuzasidan sosiologik so‘rov o‘tkazildi. “Komil insonda shakllanishi shart hisoblangan sifatlarni aniqlash” nomli sosiologik so‘rov (anketa) tayyorlanib, ishchi xodimlar va talaba yoshlardan iborat jami 800 nafar respondent qatnashdi. 30 savoldan iborat sosiologik so‘rovda ryespondentlarning quyidagi savollarga bergan javoblari asosida olingan natijalar inson kamolotini ta’minlash borasidagi falsafiy fikrlar hamda Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi inson masalasi borasidagi qarashlari maqolada tahlil qilinadi:

“Kundalik faoliyatingizda “Inson bo‘lish kerak”, “Mana, inson-da” degan iboralarni ishlatganmisiz yoki eshitganmisiz?”;

“Insoniylik deganda nimani tushunasiz?”;

“Hayotdagi maqsadingiz nimadan iborat?”;

“Ideal inson haqida fikringiz?”;

“Siz muhim deb bilgan 10 ta insoniy fazilatlar qaysilar?”;

“Siz uchun ibratli inson kim?”;

“Hayotda o‘z idealini topmagan odamlar bormi?;

“Inson va Inson” munosabatida asosiy bog‘lovchi sifat nima deb o‘ylaysiz?”;

“Agar hayotingizni qaytadan modellashtirish imkoniyati paydo bo‘lsa, kimni ideal etib tanlardingiz?”;

“O‘z yaqinlaringiz bilan munosabatda bo‘lganda ularning qaysi sifatlariga urg‘u berasiz?”.

Tahlillar va natijalar

So‘rovnomaning dastlabki “Kundalik faoliyatingizda “Inson bo‘lish kerak”, “Mana, inson-da” degan iboralarni ishlatganmisiz yoki eshitganmisiz?”, degan savolga “Ba’zida ishlatib turaman” 40% (320 nafar) respondent, “Bu iboralarni qo‘llamayman, ammo eshitganman” 22% (176 nafar) respondent, 18% (144 nafar) respondent “Ishlatmayman, ammo ba’zida eshitib turaman” degan javoblarni keltirgan. 11% respondent (88 nafar) respondent “Saboq sifatida bu iboralardan foydalanaman”, deb javob keltirgan. “Kundalik hayotim davomida bu iboralarni qo‘llanilishi masalasiga e’tibor qaratmaganman”, deb 9% (72 nafar) respondent javob berishgan. So‘nggi ko‘rsatkich shundan dalolat beradiki, “Inson bo‘lish kerak”, “Mana, inson-da” degan iboralar a) ibratni ko‘rsatish, ibratli fazilatlarni egallanganlikni ijtimoiy baholash; b) saboq berish, nomaqbul harakatlarni salbiy baholash asosida tanbeh berishni anglatadi.

Yuqoridagi masalaga hazrat Navoiyning komil inson konsepsiyasi darajasida e’tibor qaratsak, mutafakkir inson qanday bo‘lishi kerak degan savolga, ibratli inson sifatida taqvoli xulq egasi bo‘lgan kishini namuna sifatida keltirganini ko‘rishimiz mumkin.

Navoiyning komil inson haqidagi qarashlarida taqvoli xulq ijtimoiy-falsafiy jihatdan salbiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydigan, parhezkorlikka zid bo‘lmagan ijtimoiy me’yor sifatida qabul qilingan xulq-atvor namunalarini saqlash va taqdim etishni nazarda tutadi. “Islom ensiklopediyasi”da taqvodor degan ibora “Odatda dinga juda berilgan, o‘zini harom va shubhalardan saqlab yuruvchi odam taqvodor deb atalgan” [2. B.232]ligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, o‘zini pok saqlash, turli maishiy va ijtimoiy munosabatlarda ifodalanadigan mish-mish va g‘iybatlardan yiroqda turish hamda diniy qadriyatlarga amal qilgan holda ijtimoiy-madaniy munosabatlar strategiyasini belgilab, xatti-

harakatlarni amalga oshirish taqvoli xulq namunasi tarzida ifodalanadi. Bu borada R.Egamberdiyev “Qur’on ma’rifati” nomli kitobida “Xulqi hamida” tushunchasini qo‘llab, ijtimoiy-madaniy munosabatlarda uning ifodalanishi gunoh ishlarni amalga oshirmaslikda Allohdan qo‘rqish ifodalanganligini ko‘rsatib o‘tgan [3. B.38]. Olimning bu yondashuvi islomiy munosabatlar madaniyatida qat’iyat bilan amal qilib kelinadigan “Allohga taqvo qilish Undan qo‘rqishdir” degan g‘oyani mujassam etgan. Imom Buxoriyning “Odoblar xazinasi” (Al-adab al-mufrad) kitobida ham Payg‘ambar alayhissalomning bu boradagi hadisini quyidagicha keltiradi. “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam duo qilganlarida ko‘pincha: Allohim! Men Sendan sihat-salomatlikni, iffatni, omonatni, husni xulqni va qadarga rozi bo‘lishni so‘rayman”, der edilar [9. B.3-4]. Albatta, chiroyli, yaxshi husni xulqni egallashga intilib yashash har bir odam bolasining asosiy vazifalaridan biridir.

So‘rov varaqasidagi “Insoniylik deganda nimani tushunasiz?” degan savolga 57% (456 nafar) respondent “O‘zimga ravo ko‘rganni boshqaga ham ravo ko‘rish” tarzida tushunishini ko‘rsatib o‘tgan. Antik davr faylasufi Arastu “odamni inson darajasiga ko‘tarilishida jamiyat hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etib, odamlar faqat jamiyatda inson bo‘lib shakllanadilar, axloqiy mavjudot bo‘lib tarkib topadilar”,[4. B.17] deydi. Fransuz faylasufi R.Dekart inson mohiyati masalasiga «inson fikrlovchi narsadir»,[17. B.31] deb munosabat bildirgan bo‘lsa, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarida ham bu masala, ya’ni, inson va insoniylik iymon bilan bo‘lishligini:

Kimki jahon ahlida inson erur,

Bilki, nishoni anga iymon erur”[4. B.184], deb tavsiflaydi.

Insoniylik maqomi iymon bilan qo‘lga kiritilar ekan, iymonning shartlarini bilishga ehtiyoj tug‘iladi. Alisher Navoiy shariatda iymonning olti sharti mavjudligini aytib, ularning har biriga qat’iyan e’tiqod qilish shartligini ta’kidlaydi [5. B.9].

Shuningdek, tadqiqotda qatnashgan 39% (312 nafar) respondent “Oliy qadriyat sifatida insonni idrok etish”ini ko‘rsatib o‘tishgan. Tadqiqotda qatnashgan 4% (32 nafar) respondent esa “Insoniylik ijobiy fazilatlarni egallash va ularni ifoda etish” deb javob bergan. U.Alimov mazkur masalaga diniy-falsafiy nazar bilan yondashib, biron bir xulq namunasini ifodalash uchun uning manbasi bo‘lishi shartligini ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan, “Ey bandalar, insonlarni yaratib, ularni tavhid va hidoyatga yo‘llash uchun O‘z Kitobini tushirgan, Payg‘ambari orqali butun bashar naslini haq va to‘g‘ri yo‘liga, abadiy saodatga chorlagan buyuk Parvardigoringiz har qanday nuqsonlardan, sheriklar nisbat berishdan pokdir” [6. B.122], deb Qur’oni Karimni manba ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Navoiyning ijtimoiy-falsafiy merosida bu masala uning hayot tarzining mazmunidek ifodalanib, insoniylik bu “Dunyoda g‘aribdek yoki bir yo‘lovchidek bo‘lgin!” [7. B.30] deya g‘ariblik boshqa birovning yordami va qo‘llab-quvvatlamasligi, yashashning og‘irligini, boshqa birovning himmati ila yengil kechishi ko‘rsatilib, yo‘lovchi bo‘lish esa, qayerda bo‘lishingdan qat’iy nazar atrofingda kimlar bo‘lmasin, ular abadiy emasligini anlatadi. Alisher Navoiyning shaxsiy muxrida yozilgan bu ibrat ijtimoiy rag‘bat sifatida mutafakkirni atrofdagilarga bo‘lgan munosabat tarzini belgilash uchun xizmat qilgan. “G‘arib” va “Yo‘lovchi” Navoiyning komil inson konsepsiyasidagi “Had” va “Rasm” kabi kategoriyalarni mujassam etib:

birinchidan, g‘ariblik va yo‘lovchilik insonning xis-tuyg‘ulari, kechinmalari, bilimini ifoda etadi. Ya’ni, strukturaviy jihatni mujassam etadi;

ikkinchidan, g‘ariblik va yo‘lovchilik “Had” bilan bog‘liq bo‘lib, insonning ma’naviy dunyosining mazmunini ta’minlaydi. Ya’ni, insonda rivojlanadigan ustuvor sifatlar uning mazmuniy jihatini mujassam etadi;

uchinchidan, g‘ariblik va yo‘lovchilikda dominantlik qiluvchi sifatlar insonning ideal darajaga erishish uchun madaniy tabiatini belgilaydi. Ya’ni, genetik yoki substrat jihatlarini mujassam etadi.

Insonning xulq-atvori doimiy tarzda takomillashib borishida Navoiy komil insondagi substratani belgilash uchun islomiy manbalardan keng foydalangan. Jumladan, Ikkinchi maqolatda:

Olam aro xalqni Yazdoni pok
Ahli najot ettiyu, ahli halok.
Bu birisin obidi asnom bil.
Ul birisin zumrai Islom bil,
Kufr eli yo‘l topti malomat sori.
Zumrai Islom salomat sori.
Ul biriga vayl evi bo‘ldi maqom.

Zumrai Islomg‘a dor us-salom [8. B.117], deya Islom yo‘lini tutgan mo‘minlarni xulqi bilan musulmon bo‘lmaganlarga namuna bo‘lishlikka chorlaydi.

Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Xusayinxon Yahyo Abdulmajid “Navoiydan chu topqaylar navoye” risolasida iymon sharofatidan o‘z hayotida yaxshiliklar ko‘rgan kishi o‘ziga ravo ko‘rganini boshqalarga ham ravo ko‘rishiga targ‘ib qilib, Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilingan quyidagi hadisni keltiradilar. “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Birontangiz o‘ziga ravo ko‘rgan narsani birodariga ham ravo ko‘rmaguncha mo‘min bo‘la olmaydi”, dedilar” [7. B.73].

Sosiologik so‘rovdagi “Hayotdagi maqsadingiz nimadan iborat?” degan savolga 53% (424 nafar) respondent “Yaxshi inson bo‘lish” degan javobni keltirgan bo‘lsalar, 47% (376 nafar) respondent “Imkon qadar insonlarga yaxshilik qilish” degan javobni keltirgan. Alisher Navoiy ham faoliyati davomida uzluksiz boshqalarga yordam ko‘rsatishni o‘zi uchun dasturilamal tarzida belgilab, “Had” sifatlarini mujassam etgan.

Natijada shoir va davlat arbobi sifatida jamiyatda e'tirof etilgan. Shuning uchun bo'lsa kerakki, Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Xusayinxon Yahyo Abdulmajidlar "Aslini olganda, Navoiy shaxsiyatini anglash uchun uzoqqa bormay, shoirning shaxsiy muxridagi bitiklarga boqishimizning o'zi yetarlidir" [7. B.30] deb ta'kidlaganlar. Mutafakkirning muhrida Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning "Dunyoda g'aribdek yoki yo'lovchidek bo'lgin!" degan hadisi bitilgan.

"Yaxshilar hayrati" ya'ni, "Hayrat ul-abror" dostonining Birinchi maqolatida insoniylik iymon bilan bo'lishligini ta'riflagan mutafakkir maqolat davomida Payg'ambar alayhissalomning hadisiga muvofiq iymonning sharhini tavsif qiladi:

Bas ani inson atag'il beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukru hayo.
Bo'yla buyurdi nabiyi Hoshimi,
Kim bu uch imonning erur lozimi [8. B.74].

Ya'ni "Sen shunday odamni to'g'ri, riyosiz deb bilgin, qachonki u sabr bilan, shukru hayo bilan ish ko'rsa. Hoshimiy Payg'ambarimiz (ummatlariga) shunday buyuradilarki, iymonli bo'lish uchun uch narsa lozim bo'ladi" [11. B.70-71], deb shariat mezonlari bo'yicha iymonning olti asosini keltiradi.

"Ideal inson haqida fikringiz?" degan savolga 49% (392 nafar) respondent "O'z muammolari girdobiga aylanib qolmagan inson" degan fikrni ilgari surgan hamda 35% (280 nafar) respondent "Ideal inson har jabhada o'rnak bo'ladigan zot" degan javobni keltirgan. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan bu raqamlarga e'tibor qaratsak, har ikkala raqamning ifodalanishida "Had" mushkullarni oson qiluvchi, "Rasm" esa qiyin vaziyatlarda insondagi zaif ko'rsatkichni ifodalovchi ekanligi ko'rsatilgan. Qolgan 16% (128 nafar) respondent "Xozirgi zamonda ideal inson yo'q" degan javobni keltirgan. Globallashuv sharoitida insonni aniqrog'i uning ma'naviy bunyodkorlik faoliyatining inqirozga yuz tutishi komil inson masalasi jamiyat hayotining o'tmishida ham, ya'ni, Alisher Navoiy zamonida ham, bugun ham dolzarb sanaladi. Shuning uchun bo'lsa kerakki, A.Pechchei "Inson o'zida iste'mol qilish va egallash kabi to'ymas ishtahani o'zlashtirib, o'zini mahdud qilingan doiraga kiritib qo'ydi" [10. B. 37–38], deb ko'rsatib o'tgan. Insonning inqirozga yuz tutishi XX asrning global muammosi sanalib, merkantilizm munosabatlar tizimida ustuvor o'rinni egallashi natijasida vujudga kelgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun Rim klubining faoliyatida "Bugungi ekologik inqirozdan insonlarni chiqarish global modeli"ni tayyorlash bo'yicha yetakchi olimlarning, shu jumladan, faylasuf va sosiologlarni jalb etilganligi diqqatga sazovor" [1. B. 48].

Shuningdek, so'rovnomadagi "Siz muhim deb bilgan 10 ta insoniy fazilatlar qaysilar?" degan savolga "Samimiylik, ishonchlilik, halollik, to'g'riso'zlik, hurmat-ehtirom ko'rsata bilish, izzat talab bo'lmaslik, bir so'zlilik, rahimdillik, jonkuyarlik, mas'uliyatli bo'lish" kabi fazilatlarni 49,5% (396 nafar) respondent ko'rsatib o'tgan. 39% (312 nafar) respondent "To'g'riso'zlik, sadoqatlik, sahiylik, sharm-xayoli, oriyatli, vijdonli, kechiruvchan, mehr ko'rsata biladigan, o'zini hurmat qiladigan va sadoqatli" kabilarni ko'rsatib o'tganlar. Kategoriyaviy tahlil jihatidan respondentlar insoniy fazilatlar deganda, bevosita sub'yektiv ijtimoiy munosabatlarda madaniylilikni ta'minlovchi substratani ko'rsatib o'tganday sanaladi. Bunda o'tmish uchun ham, bugun uchun ham muhim sanalgan fazilatlar ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Respondentlarning 11.5% (92 nafari) Payg'ambar Muhammad alayhissalom va u kishining sahobalarida ifodalangan sifatlarni keltirib o'tganligi esa ular uchun taqvodor xulq modeli shaxsiy hayotda ustuvor ekanligidan dalolat beradi. Bu shundan dalolatki, inson uchun muhim bo'lgan fazilatlar uning idealida ifodalanishi lozim.

Shuning uchun "Siz uchun ibratli inson kim?" degan savolga 41.5% (332 nafar) respondent "Mening dadam" degan javobni keltirgan. Bu an'anaviy o'zbekona hayot tarzini ifodalab beruvchi javob sanaladi. 40% (320 nafar) respondent "Payg'ambarimiz" degan javobni keltirgan. 10% (80 nafar) respondent esa "muvaffaqiyatli tadbirkorlar"ni ko'rsatib o'tgan. Bunga o'zbekistonlik Zafar Xoshimov, Murod Nazarov, shuningdek, Ilon Maskni qayd etganlar. 6.5% (52 nafar) respondent siyosiy yetakchilarni (Erdogan, Halima Yoqub, Angela Merkel) sanab o'tganlar. 2% (16 nafar) respondent esa badiiy asarlar qahramonlarini ko'rsatib o'tganlar. Fikrimizcha, so'nggi ko'rsatkich respondentlari hayolot olamidan o'z ideallarini qidirib, ijtimoiy vaqt nigohi bilan qaraganda real maqsadga ega emasligidan dalolat beradi. Shuning uchun "Inson hayotining mazmuni", "insoniylik fazilatlari" kabi mavzularda ommaviy axborot vositalari sahifalarida faylasuf, sosiolog va ruhshunos olimlarimizning ishtirokida ma'rifiy chiqishlarni ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sir emaski, har bir inson uchun ibratli inson (kumir) bo'lishi lozim. So'rovnomadagi "Hayotda o'z idealini topmagan odamlar bormi? (bor deb hisoblasangiz ularga qanday maslahat berasiz?)" degan savolga respondentlarning asosiy qismi ya'ni, 52,5% (420 nafari) "Yo'q, ideali bor" deb javob berganlar. 28% (224 nafar) respondent "Har bir insonda ideal bo'lishi lozim"ligini istak tariqasida ko'rsatib o'tgan. Bu javob ijtimoiy hayotda ideal insonning obrazini yaratish ijtimoiy buyurtma tarzida ifodalanayotganligini ko'rsatadi. 19,5% (156 nafar) respondent ideali bo'lmagan insonlar uchun tarixiy kitoblarni o'qishni, idealni atrofdagilardan topishni, ideal nisbiy tushuncha ekanligini ko'rsatib o'tganlar. Bunda fransuz faylasufi A.Raymonning "Ijtimoiy tafakkur apparatlari insonni tasvirlash jihatidan hamohangligini tasdiqlayman" [12.

B.52], degan fikrning o‘rinli ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

“Inson va inson” munosabatida har bir sub’yekt o‘zining ehtiyoj va manfaatlari qatori qadriyatli mazmun kasb etadigan sifatlarni ham ifoda etadi. Shu sababli, so‘rovnomada “Inson va Inson” munosabatida asosiy bog‘lovchi sifat nima deb o‘ylaysiz?” degan savolga respondentlarning 45% (360 nafar) ishonch, 32 % (256 nafar) respondent o‘zlikni anglaganlik, qolgan 23% (184 nafar) respondent chiroyli muomalani alohida ko‘rsatib o‘tgan. Ijtimoiy munosabatlarda ishonch, o‘zlikni anglaganlik va chiroyli muomala S.E.Krapivenskiyning ko‘rsatib o‘tishicha, “Insonlarga ustanovka berishda ularni o‘zlarini namoyon etishi, insoniy sifatlarni egallashni ehtiyoj tarzida ifodalanganligi, ma’naviy qobiliyatlarni tadbiq eta olish, ijtimoiy faol bo‘lish kabilarda belgilovchi sanaladi” [1. B.48] va shu tariqa har qanday inson bioijtimoiy mavjudot ekanligi sababli yashash uchun intilib, intilish uchun idealga ega bo‘lish lozimligi tushuniladi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, inson hayoti va faoliyati davomida ma’lum maqsadlar asosida harakatlar ketma-ketligini amalga oshiradi. Bunda ularni uqtirish (ustanovka berish) muhim sanalib, oilada, mahallada, ta’lim-tarbiya maskanlarida olib boriladigan ma’naviy va ma’rifiy ishlar mazmundorligi jihatidan asos hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan “Agar hayotingizni qaytadan modellashtirish imkoniyati paydo bo‘lsa, kimni ideal etib tanlardingiz?” degan savolga respondentlarning asosiy qismi (54,5% 436 nafar respondent) Muhammad Rasulullоh deb ko‘rsatgan. Foiz ko‘rsatkichi bo‘yicha, “Mening dadam” deganlar 35% (280 nafarini) tashkil etadi. Qolgan resmondentlar ya’ni, 10,5% (84 nafar) respondent badiiy film qahramonlarini, mashhur ishbilarmonlarni keltirib o‘tganlar. Bu shundan dalolat beradiki, jamiyatimizda ayniqsa, yoshlar uchun ibrat, namuna bo‘luvchi obrazlarni xoh ilmiy, xoh badiiy tavsifini tayyorlash ijtimoiy-falsafiy jihatdan dolzarb sanalishini ko‘rsatadi. Chunki ijtimoiy falsafa insonni, bevosita jamiyat hayotini ijobiy barqaror kechishini ta’minlash uchun amal qilib, J.P.Sartrning ko‘rsatib o‘tishicha, “Insonning “Men”i uning uchun javobgar sanalib, o‘zi uchun ibrat sanalgan insonni tanlash bevosita javobgarlik xissi bilan bog‘liqdir” [13. B.344]. Shu tarzda inson uzluksiz komillikka intilishi aniq maqsad asosida kechishi ta’minlanishini ko‘rsatadi. Bu asnoda Karl Yaspersning “Davrning ma’naviy vaziyati” nomli asarida “Total ommaviy tartibotni qoralab, individual ma’naviy dunyo insonning suratini mohiyat jihatidan ta’minlovchi ekanligiga urg‘u bergani diqqatga sazovor.

Tadqiqotda qatnashgan 47% (376 nafar) respondent “O‘z yaqinlaringiz bilan munosabatda bo‘lganda ularning qaysi sifatlariga urg‘u berasiz?” degan savolga “O‘zlikni anglab o‘zgalarni qadrlash” deb javob berib, ijtimoiy-madaniy munosabatlarining dinamikasini belgilovchi ekanligi ko‘rsatib o‘tganlar. 33% (264 nafar) respondent “Tashqi ko‘rinish” (surat) munosabatlar jarayonida e’tiborga olinishini ko‘rsatib o‘tganlar. Shuning uchun respondentlarning asosiy qismini “O‘zlikni anglab o‘zgalarni qadrlash” degani munosabatda ijtimoiy tenglikni saqlab, qabul qilingan me’yorlarga amal qilishni anglatadi, deyishgan. 20% (160 nafar) respondent salbiy sifatlarga ega bo‘lmaslikni, jumladan, “Gina saqlamaslik”, “Manmanlikka berilmaslik” kabilarni ko‘rsatib o‘tgan. Bu yondashuv Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasining ma’naviy jihatida ham ifodalangan bo‘lib, inson o‘z maqsadiga erishish uchun harakat qilib, turli vaziyatlarga tushishidan qat’iy nazar faqat oldinga intilishi, ya’ni “Had” sifatlarini egallab borishini nazarda tutadi. Ijtimoiy falsafa tarixida K.Yaspers, J.Sartrlar ham ma’naviyat inson xulqining sifat ko‘rsatkichini ta’minlovchi ekanligi ko‘rsatib o‘tganlar. Bunda ijtimoiy me’yor asos sanaladi. Chunki insonda ifodalanadigan sifatlar bevosita jamiyatning rivojlanish tarixi bilan bog‘liq holda “Etnik tuzilma – Demografik tuzilma – Madaniy tuzilma=Harakat” tarzida kechadi. Ko‘rinib turibdiki, inson markaziy nuqtada turib jamiyat hayotini ta’minlovchi va rivojlantiruvchisi hisoblanadi.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart.

Tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi” [14. B. 25], deb “o‘tmish-bugun-kelajak” konteksti doirasida xalqimizning tarixiy, ma’naviy-madaniy va tabiiy merosiga bo‘lgan munosabatlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Xulosa

Agarda “Inson o‘z faoliyatini takomillashuvi jihatidan baholanishini, o‘z harakatlarini natijasi bilan qiyoslab” [15. B.149] yashashini nazarda tutsak, etnik tuzilma ham, demografik tuzilma ham bevosita insonning faoliyati bilan bog‘liqdir. Faoliyatning mazmundorligi maqsadning aniq ifodalanganligi tashkil etadi. Bizning namunamizda, maqsad bu komillikka erishish sanaladi. Chunki, “Inson bo‘lish kerak”, “Mana, inson-da” degan iboralarda a) ibratni ko‘rsatish, ibratli fazilatlarni egallanganlikni ijtimoiy baholash; b) saboq berish, nomaqbul harakatlarni salbiy baholash asosida tanbeh berish ifodalangan. Ijtimoiy hayotda, tanbeh yoki ibrat harakatga keltiruchi ma’naviy kuch hisoblanadi. Bu o‘z navbatida:

birinchidan, komil inson konsepsiyasi turli konseptlar tarzida bayon etilganligidan qat’iy nazar, insonni yetuklikka, jamiyat doirasida esa munosabatlarning madaniylashuviga, har qanday faoliyatni insonning manfaatlarini himoyalashga qaratilganligi jihatidan o‘zaro bog‘liqlikda ifodalanganligini;

ikkinchidan, inson kamolotini ta'minlashda turli yondashuvlar va ilmiy maktablarning faoliyatida ma'lum qarashlar silsilasi yaratilgan bo'lib, ularning manbasi va maqsadini inobatga olgan holda: a) "Komil inson konsepsiyasining badiiy"; b) "Komil inson konsepsiyasining diniy"; v) "Komil inson konsepsiyasining ijtimoiy-biologik", g) "Komil inson konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy" kabi modellari turli tarixiy davr davomida yaratilgan bo'lib, funksiyasi va mazmundorligi bo'yicha esa "Komil inson konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy" modeli metodologik jihatdan ustuvorlikka ega ekinligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Krapivenskiy S.E.* Sosialnaya filosofiya: Uchebnik dlya studentov vuzov. – Moskva: Gumanit. Izd. Syentr VLADOS, 1998. – 416 s.

2. Islom. Ensiklopediya: A-H / Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 672 b.

3. *Egamberdiyev R.* Qur'on ma'rifati. – Toshkent: Tamaddun, 2012 – 270 b.

4. *Navoiy A.* Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – 424 b.

5. *Navoiy A.* Hayrat ul-abror (Matn, sharh, nasriy bayon, lug'at) / Ikkinchi kitob: 1–10-maqolatlar / A.Malik. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – 520 b.

6. *Alimov U.* Tavsiri irfon: Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sharq, 2012. – 379 b.

7. Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Xusayinxon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoye. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2023. – 240 b.

8. *Navoiy A.* Hayrat ul-abror/Alisher Navoiy: To'plab nashrga tayyorlovchi: Aziz Qayumov. — T.: G 'afur G 'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006 — 392 b. — (Boqiy satrlar.)

9. *Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf* Al-afrad al-mufrad. (Odoblar xazinasi). / 2-juz. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – 496 b.

10. *Pechchei A.* Chelovecheskiye kachestva. – Moskva: Progress, 1980. – 302 s.

11. *Navoiy A.* Xamsa / Hayrat ul-abror. / Nasriy tadbil Manzar Abdulhay tabdili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 240 b.

12. *Раймон А.* Этапы развития социологической мысли. – Москва: Издательская группа "Прогресс"-Политика", 1992 – 608 с.

13. *Ницше Ф., Фрейд З., Фромм Э., Камю А., Сартр.Ж.П.* Сумерки богов. – Москва: Политиздат, 1989. – 398 с.

14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 58 b.

15. *Karmin A.S., Bernaskiy G.G.* Fisolofiya. Uchebnik dlya vuzov. 2-ye izd. . – Sankt-Peterburg: *Piter, 2009. – 560 s.*

16. *A.R.Samadov.* Jamiyat va inson falsafasi fani bo'yicha uslubiy qo'llanma. Samarqand. SamDU nashri, 2013. - 152 b.

17. *Z.E.Markayev, S.I.Bekchanov, M.Yu.Aytboyev*. Falsafa. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – T.: "Yangi asr avlodi", 2019. – 190 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Umurzaqov Axmadjon Maxamadovich
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
a.umurzaqov@gmail.com

UDK 370.2

YOSHLAR E’TIQODIDA SODIR BO‘LAYOTGAN O‘ZGARISHLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimiz aholisining qariyb uchdan ikki qismini yoshlar tashkil etishi, ular eng e’tibortalab qatlam ekanligini inobatga olgan holda jamiyat taraqqiyotidagi yangilanishlar davrida yoshlar e’tiqodida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillari hususidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar e’tiqodi, fuqarolarning tashabbuskorligi, ijodiy tashabbus, qat’iy hayotiy pozisiya, dunyoqarashning o‘zgarishi, kitobxonlik madaniyati.*

Умурзаков Ахмаджон Махамадович
Базовый докторант Ферганского государственного университета

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ОСНОВЕ ИЗМЕНЕНИЙ УБЕЖДЕНИЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: *В статье излагаются размышления о социально-экономических факторах изменения убеждений молодежи в период обновления развития общества, принимая во внимание, что молодежь составляет около двух третей населения нашей страны и является наиболее уязвимая группа.*

Ключевые слова: *Молодежная вера, гражданская инициатива, творческая инициатива, твердая жизненная позиция, изменение мировоззрения, культура книгочтения.*

Umurzakov Akhmadzhan Makhamadovich
Base doctoral student of Fergana State University

SOCIOECONOMIC FACTORS UNDERLYING CHANGES IN YOUTH BELIEFS

Abstract: *This article presents thoughts on the socio-economic factors of changes in the beliefs of young people during the period of renewal in the development of society, taking into account that young people make up about two-thirds of the population of our country and are the most vulnerable group.*

Keywords: *Youth faith, citizen initiative, creative initiative, firm life position, change of worldview, culture of book reading.*

Kirish

Jamiyat taraqqiyoti uzluksiz va murakkab rivojlanish jarayonidan iborat hodisadir. Bunda yoshlarning alohida ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash lozim. Vaholanki, yoshlar har bir davlatning katta va bebaho boyligi, xalqning kelajagi va merosxo‘ri hisoblanadi. Chunki ular kundalik turmushimizda farovon hayot va barqaror taraqqiyotni ta’minlash zarur bo‘ladigan yangi g‘oyalar, ijodiy tashabbus va sa’y-harakatlarni yaratadigan hamda amalga oshiradigan beqiyos kuchdir. Zero, Respublikamiz Prezidenti tomonidan alohida ta’kidlanganidek, BMTning Yoshlar strategiyasida ham bu to‘g‘rida, yoshlar siymosida eng qimmatli va o‘ta muhim resurslar mujassam bo‘lib, unga har qancha investisiya kiritilsa, albatta, o‘zini oqlaydi, chunki yoshlarga sarflangan sarmoyalar vaqti-soati bilan bir necha barobar miqdorda foyda bo‘lib qaytadi[1], deya uqtirilgan.

Material va metodlar

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzi aholisining 12-24 yoshdagilar 1,2 milliard nafarni yoki Yer yuzi aholisining 16 foizini tashkil etadi. Bashoratlarga ko‘ra esa, 2030 yilga borib ularning soni yana 7 foizga ortib, 1,3 milliard nafarni tashkil etishi taxmin qilinmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqida yoshlarimizni “O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi” deb bejizga ta’riflashmagan edi. Agar mamlakatimizda bugungi kunda maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalar bo‘lg‘usi Uyg‘onish davrining o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan to‘rt xalqasi, desak,

bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimiz uning to‘rt tayanch ustuni deb hisoblashimiz mumkin. Davlatimiz rahbari aynan yoshlarimizni Uchinchi Renessansning ijodkorlari ekanligini nazarga tutgan holda bugungi kundagi o‘ta dolzarb vazifalardan biri “...yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari!” shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali va tizimli tashkil etish”[2] dan iboratligini uqtirishgan edi.

Natijalar va muhokama

Mamlakatimizda ham aholining tarkibida yoshlar salmoqli qismini tashkil etadi, ya’ni yurtimiz aholisining qariyb uchdan ikki qismini yoshlar tashkil etadi. Shunday ekan, ular eng e’tibortalab qatlam ekanligi e’tiborga olingan holda yurtimizda yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Bevosita davlatimiz rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan yoshlar siyosatiga bevosita daxldor bo‘lgan 40 dan ortiq Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinganligi ham aynan ana shundan dalolat beradi. Ayniqsa, Yoshlarga oid davlat siyosatidagi eng muhim yo‘nalishlar qatorida ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yigit-qizlarimizda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng targ‘ib qilishdan iborat 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilganligi yangilanishlar davrining nihoyatda dolzarb masalalariga yangicha tizim asosida yondashishning ibratli namunasi bo‘ldi, deyish mumkin.

Bugun Yangi O‘zbekiston jamiyati jahon hamjamiyati qatoridan munosib o‘rin egallash, xalqimiz uchun mehnatiga yarasha munosib turmush farovonligini barpo etish va ta’minlash yo‘lida jiddiy yangilanishlar davrini boshdan kechirmoqda. Bunda butun dunyo taraqqiyotining shiddat bilan o‘zgarayotganligi, hayotning barcha sohalarida yangilanish va rivojlanish jarayonlarining avj oldirilayotganligi Yangi O‘zbekistonni ham tezkor taraqqiyotga undamoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarimiz e’tiqodida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar bilan ham bevosita bog‘liq. Zero, ijtimoiy hayotda ro‘y beradigan har qanday o‘zgarishlar e’tiqodni ham o‘zgartirib boradi. Xuddi shu bois inson e’tiqodidagi o‘zgarishlarning eng muhim omili ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlarga borib taqaladi.

Yuqorida ham alohida ta’kidlaganimizdek, mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun jiddiy yangilanishlar zarur edi. Bu yangilanishlarning zamirida yurtdoshlarimiz, xususan, yoshlarimizning e’tiqodini o‘zgartirish masalasi ham mavjud edi.

Tarixdan ma’lumki, jiddiy yangilanishlar alohida dasturga asoslangan muayyan strategik konsepsiya ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etishni taqozo etadi. Zero, bu to‘g‘rida Birinchi Prezidentimizning o‘zi ham uqtirganidek, har qanday “...isloh qilish jarayonining boshlang‘ich nuqtasi strategiyani tanlab olishdan iboratdir. Bu – g‘oyat mas’uliyatli va murakkab jihat. Umumiy strategiyaga ega bo‘lmay, pirovard maqsadni ko‘rmay turib, iqtisodiy isloh qilishning ta’sirchan choralarini belgilab bo‘lmaydi”[3].

Kezi kelganda shuni ham ta’kidlash lozimki, ushbu o‘rinda nazarda tutilayotgan strategiya mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy-ma’naviy, madaniy hayoti bilan birga uning kelajagi bo‘lgan yoshlar e’tiqodini yangilanishlar davri talablarini to‘g‘ri anglab yetadigan, uning istiqboli yo‘lida mavjud imkoniyatlarini sarflash hamda turli yot va g‘anim niyatli kuchlarga qarshi kurash uchun tayyor bo‘lgan fazilatlarga ega etib shakllantirishni ham ko‘zda tutar edi. Shunday ekan, ana shunday o‘ta murakkab va mas’uliyatli damda zamon va makon taqozo etayotgan taraqqiyot yo‘liga tushib olishning barcha muhim yo‘nalishlari qamrab olingan strategik konsepsiya ishlab chiqish vazifasi yuzaga keldi. Bu esa, o‘sha damda ana shunday strategiyani shakllantirish uchun barcha diqqat va e’tiborni mazkur vazifa tegrasida jamlashni taqozo etdi. Pirovard oqibatda barcha yurtdoshlarimiz ongi va, ayniqsa. yoshlarimiz e’tiqodida tub o‘zgarishlarga olib kelgan o‘tish davrining ana shu ehtiyojini nozik tarzda teran anglab yetish va noyob iste’dod bilan mazkur strategiyani yaratish va shakllantirish birinchi prezidentimiz I.Karimov tomonidan amalga oshirildi va mamlakatimiz jamoatchiligiga taqdim etildi. Ushbu strategik dastur o‘zining mazmuni va mohiyati bilan jamiyat taraqqiyotiga oid masalalarni yangicha falsafiy tushunish va talqin etishning o‘ziga xos namunasi bo‘ldi, deyishimiz mumkin. Keyinchalik xalqimiz orasida “besh tamoyil” nomi bilan mashhurlik qozongan bu dastur “taraqqiyotning o‘zbek modeli”dan iborat konseptual dastur bo‘ldi. Ushbu dasturning mustaqil O‘zbekistonda yangi tipdagi jamiyat qurish borasidagi ahamiyati odamlarning jamiyat, uning mazmun-mohiyati, inson hayoti va qadr-qimmati, ertangi kuniga ishonch haqidagi e’tiqodini shakllantirish, jamiyat taraqqiyotidagi yangilanish jarayonlarini zamonaviy nuqtai nazardan qarashga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi. Bu avvalo, sobiq ittifoq tuzumi davrida keng ildiz otgan e’tiqoddagi tafakkur qulligi, muntazam ravishdagi mafkuraviy tazyiqlar ta’sirida halqimizning o‘z tili, madaniyati, ma’naviyati, tarixi kabi qadim ildizlaridan mahrum etib qo‘yilgani bilan bog‘liq holatlarga barham berish bilan uzviy bog‘liq edi. Biroq, ayni paytda, bu borada Prezidentimiz ham alohida uqtirishganidek, ushbu jarayonda e’tiqodda qandaydir qotib qolgan aqidalardan voz kechish xalqimizning o‘z tarixi va o‘tmishidan voz kechishini anglatmaydi. Balki

bunday qarash o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra bir yoqlama qarashdan iborat. Maqsad esa, aynan bir yoqlamalikdan xolis bo‘lgan keng qamrovli e’tiqodni shakllantirish asosida jamiyatimiz hayotidagi yangilanishlarni to‘g‘ri anglashdan iborat edi.

Albatta, e’tiqoddagi har qanday tub o‘zgarishlar, avvalo, iqtisodiy hayot bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki yillaridan jamiyatimiz taraqqiyotidagi yangilanishlarga keng yo‘l ochib bergan milliy modelimiz ham, birinchi navbatda, mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutgan quyidagi maqsadlarga asosiy e’tiborni qaratishi lozim edi:

Birinchidan, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich qaror toptirish, qudratli va muttasil ravishda rivojlanib boradigan, milliy boyliklarimizning ortib borishini, yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashga qodir bo‘lgan iqtisodiy tizimni barpo etish;

Ikkinchidan, ko‘p ukladga ega bo‘lgan erkin iqtisodiyotni barpo etish, insonlar uchun mulkka egalik qilish huquqlarini erkinlashtirish, fuqarolarning tashabbuskorligi va tadbirkorligini barcha choralar bilan himoya qilish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash negizida xususiy mulkning davlat tomonidan kafolatli himoya qilinishiga erishish;

Uchinchidan, korxonalar va fuqarolar faoliyatida keng erkinliklar joriy etish, ularning xo‘jalik yuritish faoliyatiga davlat tomonidan behuda aralashuvlarini imkon qadar cheklanishiga erishish, iqtisodiyotni boshqaruvda ma’muriy-buyruqbozlik usullaridan tamoman voz kechish, buning o‘rniga rag‘batlantirish usul va vositalaridan keng foydalanish;

To‘rtinchidan, iqtisodiyotda mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘ya oladigan keng qamrovli tarkibiy o‘zgarishlar qilish, bozor uchun ayovsiz kurash sharoitida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning yordamida jahon iqtisodiyoti tizimiga jadal integratsiyalashib borish;

Beshinchidan, fuqarolarda yangicha iqtisodiy fikrlash malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning dunyoqarashini tubdan o‘zgartirish, har bir insonda mehnat qilish sohasi va shakllarini o‘zi mustaqil tanlay olish imkonini yaratib berish[4].

Albatta, mazkur maqsadlarga erishish juda keng qamrovli vazifalarning ijrosini ta’minlashdan iborat bo‘lib, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan holdagi yangilanishlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladigan o‘tish davrini talab qilar edi. Shuning uchun mamlakatimiz misolida bu davr, birinchi Prezidentimiz I.Karimovning o‘zi ham alohida ta’kidlashganidek, asosan ikki bosqichdan iborat bo‘ldi: “1991 yildan 2000-yilgacha muddatni o‘z ichiga olgan birinchi bosqich – o‘tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq birinchi galdagi islohot va o‘zgarishlar davri;

iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilish, aholi turmush darajasini muntazam oshirib borishni ta’minlashda 2001-yildan 2010-yilgacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga olgan ikkinchi bosqich – mamlakatimizni faol demokratik yangilash, isloh etish va modernizatsiya qilish davri...”[5]

Ushbu o‘rinda alohida ta’kidlash o‘rinliki, mustaqillikning dastlabki yillari mobaynidagi o‘tish davrida mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar faqat jamiyat hayotining turli sohalarinigina qamrab olmasdan, balki yoshlarimiz ongi va e’tiqodi hamda butun dunyoqarashini ham keskin o‘zgartirishi lozim edi. Bunda asosiy e’tibor sobiq ittifoq tuzumi davri ta’siri ostida ijtimoiy ongdagi boqibeg‘amlik, hamma narsani davlatdan kutib yashash, o‘z kuchiga ishonmaslik singari ildiz otgan illatlar o‘rniga bozor iqtisodiyoti talablari negizida yoshlarda tashabbuskorlik, tadbirkorlik, o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonish, ijtimoiy faollik va bunyodkorlik namunalarini ko‘rsatish kabi yangicha tushuncha va tasavvurlarini qaror toptirish zarur edi. Bunda davlatning asosiy o‘rni va vazifasi yoshlarning mazkur yo‘nalishdagi faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida birinchi navbatda yoshlar o‘rtasida tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznes bilan faol shug‘ullanish, zamonaviy ta’lim olish borasida tanlash imkoniyatlarini kengaytirishning huquqiy asoslarini yaratish va mustahkamlashdan iborat edi. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlaboq mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda ana shu birlamchi maqsad va vazifalarga alohida e’tibor qaratildi, yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha aholi qatlamlari qatori yoshlarimizning ma’naviy dunyoqarashi boy, e’tiqodi mustahkam, qat’iy hayotiy pozisiyaga ega, hayotiy muammolar yuzasidan ilmiy va teran tafakkur yordamida izchil fikrlay oladigan fazilatlarini qaror toptirishga mamlakat istiqboliga bevosita daxldor masala sifatida qaraldi. Xuddi shu holatni nazarda tutgan holda prezidentimiz “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda”[6], deb yozishgan edi.

Tabiiyki, yurtboshimiz ta’kidlagan barcha o‘zgarishlar istiqlolning ilk davrlaridan boshlaboq kirishilgan islohotlarning samarasi bo‘ldi. Natijada amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar mamlakatimiz yoshlari e’tiqodida tub o‘zgarishlarni ta’minladi, ularning ma’naviy qiyofasi ijobiy ma’no va mohiyat bilan yo‘g‘rilgan o‘zgacha mohiyat tusini oldi, aqliy, ijodiy, amaliy faoliyati davr talablari bilan hamohang mazmun kasb eta boshladi.

Xulosa

Ayni paytda jamiyatning ijtimoiy sohalarida ro‘y berayotgan pozitiv o‘zgarishlar ham yoshlar e’tiqodidagi

ijobiylik tomon yetaklaganligini ham ta'kidlamaslik mumkin emas. Ayniqsa, ta'lim, tibbiyot, xizmatlar ko'rsatish borasida hukumat tomonidan amalga oshirila boshlagan bozor iqtisodiyoti infrastrukturasiga mos bo'lgan yondashuvlar ham yoshlarimiz ongi va e'tiqodida yangicha fikrlar hamda tasavvurlarni yuzaga keltira boshladi. Xususan, ta'lim tizimining milliy modeli ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, ta'lim sifati va samaradorligini ko'tarish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish maqsadidagi sa'y-harakatlar, yurtimizda fuqarolik jamiyati tuzilmalari soni va miqdorini yanada ko'paytirib borish negizida aholining ijtimoiy faolligini oshirish imkoniyatlarining kengaytirilganligi, ana shu yo'l bilan esa mamlakatimizda asta-sekin kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish taktikasining qo'llanilganligi yoshlarimiz e'tiqodida kundalik hayotda hamma narsani davlatdan kutib yashash noto'g'ri ekanligi, buning o'rniga fuqarolarning o'zlari ham, shunday deyish joiz bo'lsa, birinchi navbatda mamlakatimiz yoshlari, yetarli darajada faollik ko'rsatish zarurligi haqidagi tushunchalarni mustahkamladi, deyishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., "O'zbekiston, 2022. 256-257-betlar.

2. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., "O'zbekiston, 2022. 255-bet

3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.//Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tom 3. – T.:O'zbekiston, 1996. – 183-bet

4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.// Vatan sajdagoh kabi muqad-dasdir. Tom 3. – T.:O'zbekiston, 1996.- B.183-184.

5. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognoz-lari" statistik to'plamiga yozilgan so'zboshi.// Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqaro-lik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqiyotining asosiy mezonidir. Tom 19. – T.: O'zbekiston, 2011. – B.313-314.

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.:O'zbekiston, 2021.- B. 303

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Namozova Maftuna Shokir qizi
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktaranti
m.namozova@mail.ru

UDK 140.8

RADIKALLASHUV BOSQICHLARI VA DARAJALARI

Annotatsiya: *Maqolada radikallashuv tushunchasi, darajalari va uning bosqichlari, radikallashuvga sabab bo'luvchi omillar, shaxsiy noaniqlik tushunchasi, radikal guruhlar va ularning turlari, radikal guruhlar namoyon etadigan xususiyatlar ochib berilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *radikalizm, sezuvchanlik, guruhga a'zolik, harakat, terrorizm, eksteremizm, shaxsiy noaniqlik.*

Намозова Мафтуна Шокир кизи
Докторант Института социальных и духовных исследований Республиканского центра духовности и просветительства

ЭТАПЫ И УРОВНИ РАДИКАЛИЗАЦИИ

Аннотация: *В статье раскрываются и анализируются понятие радикализации, ее уровни и стадии, факторы, вызывающие радикализацию, понятие личностной неуверенности, радикальные группы и их виды, а также характеристика радикальных группировок.*

Ключевые слова: *радикализм, чувствительность, членство в группе, движение, терроризм, экстремизм, личная неуверенность.*

Namozova Maftuna Shokir qizi
Research assistant at the Institute of Social and Spiritual Research under the Republican Center for Spirituality and Enlightenment

STAGES AND DEGREES OF RADICALIZATION

Abstract: *The article reveals and analyzes the concept of radicalization, its levels and stages, factors that cause radicalization, the concept of personal uncertainty, radical groups and their types, the characteristics that radical groups exhibit.*

Keywords: *radicalism, sensitivity, group membership, movement, terrorism, extremism, personal uncertainty.*

Kirish

Radikalizm mafkuraviy qurol bo'lib, zamon va makon bilan moslashish, jamiyatga tez singib borish "qobiliyati"ga ega. Jamiyatdagi ma'naviy bo'shliq esa uning faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Uning faoliyati samaradorligini oshiruvchi omillardan biri – jamiyatda ma'naviy bo`shliqning mavjudligidir. Radikallashuv va radikallizmning barcha turlari aksariyat holda jamiyat va davlat uchun xatarlidir.

Adabiyotlar tahlili:

O'zbek olimlaridan Sh.Paxruddinov, A.Abduxalilov, S.Isoqov, X.Karomatov, D.Asqarov, A.Bahromov, S.Jo'rayev, M.Abdurazzoqov, Sh.I.Aripov, B.S.Alimovlar, O.Abdullajanov, N.Jo'rayev, S.Kamilova, O.Rahmatov N.O.Safarova ilmiy izlanishlarida tahdidlar, diniy radikalizm, diniy ekstremizm, terrorizmning ijtimoiy-tarixiy mohiyati, barqaror taraqqiyotga salbiy ta'siri bilan bog'liq masalalar tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy jihatdan tahlil etilgan bo'lsa, Sh.A.Yovqochev, B.M.Bobojonov, K.A.Shermuxamedov, J.A. Karimov kabi olim va bir qator tadqiqotchilar radikal guruhlarning internet orqali targ'iboti va ularning yoshlar ongiga salbiy ta'sirini o'rganganlar. Tadqiqotchi A.M.Tulepov izlanishlarida internet radikal mazmundagi axborotlarning tarqatilish vositasi sifatida yoritilgan. Tadqiqotlarda radikalizm u yoki bu sohada o'rganilgan bo'lsada ma'naviy jihatdan kompleks tahlil etilmagan va radikalizm darajalari va boshqichlari ilmiy jihatdan ochib berilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Radikallashuv va radikalizm mohiyati uning qay darajada shakllanishi va qachon harakat bosqichiga o'tib

qonli ko‘rinishda tus olishini yoritib berishda analiz va sintez usullaridan foydalanish o‘z samarasini beradi. Ma’lumki, analiz va sintez natijasida mavzuni yoritib berish, uning mohiyatini bilib olishda, xususiyatlarini aniq izchil tavsiflash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan radikallashuv darajalari va bosqichlarini tog‘ri anglash va tushunish orqali radikallashuvni oldini olishda mafkuraviy kurash asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar va natijalar

Radikallashuv bu – ma’lum bir narsaga ko‘p e’tibor qaratib yuborish, bo‘rttirish, reallikdan uzoq maqsad va manfaatlarni ko‘zlashdir. Mavjud siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni anglamaslik, qarama-qarshi munosabat bildirish, ma’naviy o‘zlikni unutish radikallashuv oqibatida yuz beradi. Aynan shu tarzda insoniyat uchun muhimroq bo‘lgan ma’naviyat tanazzulga uchrab, ikkinchi darajali moddiyat qiymat shkalasida yuqoriga chiqadi. Natijada shaxsning ongi, dunyoqarashi buziladi. Radikallashuv jarayonida shaxs o‘zining sub’yektiv qarash va hissiyotlarini bo‘rttirib yuboradi, va natijada, uning hayot tarziga nisbatan shaxsiy nafrat dunyosi hosil bo‘lib, fikrlari radikallashib boradi.

Radikal kayfiyatdagi kishilar guruhlarga birlashishga, maqsadlariga erishish yo‘lida zo‘ravonlik ishlatishga, o‘zlariga qarshi chiqqanlarni noqonuniy yo‘llar bilan bo‘lsada bartaraf etishga, g‘oyalarini yoyish uchun hech narsadan qaytmaslikka moyil bo‘ladilar. Aynan shu jihatlar jamiyat uchun ulkan xatar. Jamiyatda radikallashuvning ortishi, ayniqsa, bu jarayonlarga yosh avlodning keng jalb etilishi oxir-oqibatda kuchli inqiroz va tanazzulga olib keladi.

O‘rganilgan adabiyotlar va tahlil qilingan tadqiqotlarga ko‘ra radikallashuv uchta bosqichda amalga oshiriladi hamda bevosita terrorizm va eksteremizmga sabab bo‘ladi. Bular: 1. Sezuvchanlik, 2. Guruhga a’zolik, 3. Harakat

Bu boshqichlarda shaxslar 3 xil darajada radikallashadi. Shaxs sezuvchanlik bosqichidan o‘tgandan so‘ng guruhlarga birlashadi va bu guruhlar radikal fikrlardan radikal harakatlargacha mikro, mezo va makro darajalarni boshdan o‘tqazadi.

Sezuvchanlik bu har qanday radikal mafkuraga nisbatdan sezgirlik hisoblanadi. Guruhga a’zolik-shaxs radikal guruh a’zosiga aylanadi va harakat bosqichida shaxslar guruh nomidan harakat qilishga tayyor hisoblanadi. Bunda ular radikal g‘oyalar va mafkuralar orqali hujumni rejalashtiradi. Bunday g‘oyalar terrorizm, ektremizm kabi buzg‘unchi g‘oyalarga zinopoya vazifasini o‘taydi.

Radikallashuv darajalari va bosqichi bir biri bilan uzviy bog‘liq, 1-bosqich sezuvchanlik bosqichida mikro darajada shaxslar hissiyotlari bu jarayonga ta’sir qilishi mumkin. O‘rganilgan adabiyotlar va tahlil qilingan tadqiqotlarga asosan sezuvchanlik bosqichida ahamiyatlilikka intilish mikro darajada muhim harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Bunda ahamiyatsizlik hissi maqomni yo‘qotish, kamsitish, muvaffaqqiyatsizlik, kuchli his tuyg‘ular sabab bo‘lishi mumkin. Masalan Ishid hissiyotlarni kuchaytirish yoki tiklash ularni jumbushga keltirish uchun yaxshi rivojlangan baza va mutaxassislarga ega. Bugungi glaballashuv davrida radikallashuvning sezuvchanlik bosqichida mikro (individual) bosqichida tanlangan obyektlar mufkuraviy qobiqlarda ushlanadi bunda radikallashtirishni maqsad qilgan guruhlar ularni media tarmoqlar orqali “bo‘sh” qoldirmaydi. Masalan, Ishid media targ‘ibotlarining asosiy maqsadlaridan biri radikal g‘oyalar ta‘siriga tushgan shaxslarni ruhlantirish, ularni yakka tartibdagi terrorchilik harakatiga chorlashdan iboratdir [1]. Ishid va u kabi terrorchi guruhlar bunday usullar vositalar orqali mikro darajada ularni yuqorida ta’kidlaganimizdek qobiqqqa ushlashda harakat qiladi va mezo darajaga (guruh) tayyorlashga xizmat qiladi. Bu bosqichda “o‘lja”larga hurmat, qahramonlik, tegishlilik tuyg‘ularini, agar diniy fonda radikallashgan bo‘lsa ollohning oldidagi “maqomi” kabi tuyg‘ularni berish bilan ham ajralib turadi.

Shaxsiy noaniqlik - mikro darajadagi ikkinchi muhim harakatlantiruvchi omil bo ‘lib, odamlar ishonchsizlikni his qilganda, ular bir guruh bilan tanishishga kuchli turtki bo‘ladi deb o‘rganilgan tadqiqotlar ham tahlil qilindi. Ular o‘zlarining noaniq qoidalarini boshqalarning aniq normalari va qadriyatlari bilan to‘ldiradi. Ayniqsa radikal guruhlar oq-qora dunyo ko‘rinishi, mustahkam va jalb etuvchi taklif bilan bir qatorda aniq profilga ham egadir. Shuning uchun pravoslav va jihodiy guruhlar, shaxshiy noaniqlikka ega bo‘lgan insonlar uchun yaxshi rivojlangan xatti-harakatlar qoidalari jozibador bo‘lishi mumkin [2].

Radikallashuv ilk bosqichida xavfli ko‘rinmaydi. Ko‘rinishlari anchayin beozor, shiorlari hammabop, barchaga yoquvchan, shunchaki jamiyatdagi joriy jarayonlarga salbiy munosabatdan iborat bo‘ladi. Targ‘ibot kuchaygani sari biron-bir o‘ziga ma’qul bo‘lmagan gaplar aytilganda, qarshilik sezilganda keskinlik ortib boradi. Bu hali ikkilanish bosqichi. Bu bosqichda kishi radikal harakatlarga jur’at etmaydi, fikrlarini o‘zgartirishi, mo‘tadillikka qaytishi mumkin bo‘ladi. Kuchayganda esa u e’tiqodga aylanadi – neofashizm, neonasizm, shovinizm, diniy fanatizm va hokazolar – shular qatorida.

Mezo darajada radikallashuv ijtimoiy muhit (do‘stlar, oila va boshqa guruhlar) bilan bog‘liq jarayonda sodir bo‘lishi mumkin. Bunda muhim harakatlantiruvchi omil darajasi birodarlarning nisbiy mahrumligi, adolatsizlik hissi odamlar o‘zlari bilan tanishganda boshdan kechiradigan narsalar haqida fikr almashish, ularning guruhi de-radikalizatsiya jarayonida

da'volanganligi va boshqalarga nisbatdan adolatsizlikka uchrashgani haqidagi suhbatlar o'rin egallaydi. Masalan, musulmonlarning Yevropada uy-joy bilan ta'minlash, ta'lim jarayonlari bilan bog'liq masalalar, ish va daromat bilan bog'liq imkoniyatlar [3]. diskriminatsiyani boshdan kechirish, OAV ikki tomonlama standartidan foydalanish [4] o'ng qanot guruhlari mahalliy fuqarolarga nisbatan immigrantlarga yomon munosabatda bo'lish tajribasidir [5].

Mezo darajadagi yana bir muhim omil do'stlik va oila hisoblanadi. Odamlar ijtimoiy mavjudotlar va ular o'z yaqinlari bilan tez-tez aloqada bo'ladilar. Bu ularnining ijtimoiy ta'sirini zaif qiladi va quloqlari ko'nikishni boshlaydi. Ular yaqinlari tomonidan ishontiriladi va jalb etiladi. Tadqiqotchi Segeman mezo darajadi omillar jihodiy jangchilarga ham tegishli ekanligi haqida fikr bildiradi [6].

Mezo darajada muhim strategiyaga o'tish ya'ni zo'ravonlik qo'llashga tayyorgarlik ko'rish (ehtimollik harakatiga o'tish) shaxslarga yozish yoki videoga olingan materiallarni jo'natish ularni ruhlantirish orqali amalga oshishi ham mumkin. Tadqiqotchi A.Silke guruhga a'zolik va mezo darajada radikallashuv qadami, "ularning ortga chekinishini qiyinlashtiradi" deb izoh beradi [7]. Darhaqiqat bu bosqichda radikallashgan shaxslar harakat bosqichiga yaqin bo'lganligi va qiziqqonligi bilan ajaralib turadi va makro daraja uchun ko'prik vazifasini o'taydi.

Bu bosqich va darajada aksariyat holda radikal fikrlar e'tiqodga aylanganda kishi bemalol ma'naviy chegaralardan hatlab o'tadi. Shaxsning aqli, shuuri o'tmaslashadi. U da'vatga beriluvchan, itoatkor, manqurt qiyofasiga kirib qoladi. Bir qarashda u yaxshi maqsadlar uchun kurashayotganday ko'rinadi. Millat sha'nini tiklashga, ijtimoiy adolatni o'rnatishga urinayotganday ko'rinadi. O'z dunyoqarashiga va yo'nalishiga mos guruhlarga birlashadi. Biroq, aslida harakatlari millatning asl qadriyatlari va manfaatlariga zid. Adolat ilinjida qilinayotgan ishlari esa – adolatsizlikdir.

Makro darajada keskin qarashlar orqali harakatlar amalga oshiriladi, Bunday harakatlar keskin qonli ko'rinishda ham bo'lishi mumkin. Guruhga a'zolik bosqichi va mezo darajadan o'tgan shaxslar endi keskin fikrlar orqali harakatga o'tishadi. Bu esa davlat va jamiyat uchun xavfli bo'lgan fundamentalistik qarashlar, begonalashuv, eksteremizm, terrorizm kabi radikal guruhlarning yaratilishiga sabab bo'ladi. Makro darajadagi radikallashuv jarayoniga qisman kattaroq ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi [8]. Masalan, globallashuvni tezlashtirish va butun dunyo siyosiy, iqtisodiy va madaniy hukmronlik tufayli tahdid sifatida radikal musulmonlar G'arb uchun muhim harakatlantiruvchi omil hisoblanadi.

Stefan Malthaner tahliliga ko'ra makro darajada - ko'lami kattaroq bolgan ijtimoiy makon – davlat yoki hukumat darajasidagi siyosiy qarorlarni qabul qilish, siyosiy partiyalar, milliy darajadagi ijtimoiy harakatlarning faoliyati ham radikallashuv uchun asos bo'lishi mumkin [12]. Ayniqsa, bunday qarorlar, siyosiy munosabat va pozitsiyalar ozchilikka nisbatan yo'nalgan, keskin kayfiyatda bo'ladigan bo'lsa, norozilik kayfiyatini uyg'otish ehtimoli oshadi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, ishsizlik, adolatsizlik, kambag'allik, jamiyatdan qo'rquv kabi illatlarning borligi radikallikni keltirib chiqaradi. Yoki jamiyatlarda yuqori standartlarga yetisholmaganlarga e'tibor qaratmaslik oqibatida radikallashuv sodir bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, radikallashuv faqatgina bir omilga bog'liq emas, balki turli ichki va tashqi omillarning qorishmasi, birgalikdagi natijasi sifatida yuzaga keladi [10].

Shuningdek, radikal guruhlar turli xil ko'rinishda bo'lishi mumkin ammo ularni aksariyat holda bir xil xususiyatlar birlashtiradi. Bu sohada tadqiqot qilgan olimlar radikal guruhlarning turlari har xil elementlari umumiydir deb xulosa beradi [11].

Radikal guruhlarning quyidagi xususiyatlari mavjud:

Birinchidan, barcha radikal guruhlar jiddiylikni his qilishadi va jamiyatdagi muammolarni ko'tarib chiqishadi. Ushbu muammo va shikoyat har bir radikal guruh uchun turli xil ko'rinishda bir biridan farq qiladi.

Ikkinchidan, tadqiqotchi Mogoddam ta'kidlashicha radikal guruhlar davlat organlari, hokimiyat vakillari, siyosatchilar ularning muammolari bilan qanday shaklda shug'ullanishlari, ularga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani, shikoyatlari o'rganilmayotgani hamda ko'rib chiqilmayotganidan qattiq norozi ekanliklarini bildirishadi [9]. Bu o'z o'rnida boshqaruv va hokimiyatga nisbatdan past institutsional ishonch va idrokni yaratib, hokimiyat qonuniy emas va fuqarolar uchun ishlamaydi degan fikrni beradi.

Uchinchidan, radikal qarashli shaxshlar mezo darajada o'zi qo'shilgan guruh me'yorlari va qadriyatlari boshqa guruhlarnikidan ustun deb biladi.

To'rtinchidan, bunday guruhlarning aksariyati o'zlarining tashvishlarini hal qilish uchun zo'ravonlikni qonuniylashtiradi va bu zo'ravonlik ko'pincha tashqi guruh sifatida qaraladi. Shikoyatni yaratish uchun javobgar bo'lgan aybdor hisoblanadi va shunday mafkurani qabul qiladi. Bu eng ko'p ijtimoiy o'ziga xoslikni qo'llashda aniq ifodalangan nazariyasi bo'lgan radikallashuvga olib keladi [13].

Beshinchidan zo'ravonlikdan foydalanish samaradorligiga kuchli ishonch hisoblanadi. Chunki, radikal guruhlar ko'pincha ma'qullashga moyil bo'ladi va ularning a'zolari tomonidan sodir etilgan zo'ravonlik mafkuraviy maqsadlariga erishishning eng samarali vositalari hisoblanadi. Quyidagi jadvalda radikal guruhlar, ularning maqsadlari va misollar keltirilgan.

Xulosalar

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak radikallashuv mafkuraviy kuch bo‘lib, ko‘p qirrali hodisadir. U davlat, jamiyat, mintaqa uchun keng ko‘lamli salbiy oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Radikallashuv va radikallashtirish jarayonida insoniyat eng nozik his tuyg‘ulariga hujum qilinadi va junbushga keltiriladi. Shaxsni radikallashtirishda asosan psixologik faktorlarga tayanadi. Kishilar ongini zaharlash, shaxsni o`z maqsadlari sari yo`naltirish, ekstremistik qarashlarni shakllantirish – radikalizmning g‘oyaviy quroli hisoblanadi. Shaxsning ma’lumotni qabul qilish, uni tahlil qilish imkoniyatidan mosuvoligi va ruhiy beqarorlik holatiga tushishi mumkin.

РОЛЬ КРАУДСОРСИНГОВЫХ ПЛАТФОРМ В ПОСТРОЕНИИ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА

Аннотация. *В данной статье анализируется роль краудсорсинговых технологий в процессе построения социального государства. Автор рассматривает краудсорсинг как инструмент, который соответствует основным принципам современного управления, таким как открытость, участие и прозрачность. Исследование показало, что посредством краудсорсинговых платформ граждане активно участвуют в выявлении насущных социальных проблем, разработке предложений по их решению и принятию решений. Также в статье будут освещены практические аспекты краудсорсинга на примере эффективности внедренных в Узбекистане цифровых платформ "мое мнение", "Открытый бюджет", "открытые данные". Краудсорсинг трактуется как важный инструмент, служащий укреплению гражданского общества, повышению уровня участия в государственном управлении, усилению общественного контроля. Однако вместо заключения были даны предложения и рекомендации по усилению роли краудсорсинговых платформ на пути к созданию социального государства.*

Ключевые слова: *социальное государство, краудсорсинг, социальное сотрудничество, инициатива, народное государство, эффективность, управление, эффективность, подотчетность, социальный статус, инновации, стиль, прозрачность, модернизация.*

Ahmedov Azizkhan Mukhsinjan ugli
Researcher of the National University of Uzbekistan

THE ROLE OF CROWDSOURCING PLATFORMS IN BUILDING A SOCIAL STATE

Annotation. *This article analyzes the role of crowdsourcing technologies in the process of building a social state. The author considers crowdsourcing as a tool that matches the fundamental principles of modern management, such as openness, participation and transparency. The study showed that citizens through crowdsourcing platforms are actively involved in identifying current social problems, developing proposals to solve them, and making decisions. The article also highlights the practical aspects of crowdsourcing on the example of the effectiveness of digital platforms such as "my opinion", "Open Budget", "open data" introduced in Uzbekistan. Crowdsourcing is interpreted as an important tool that serves the strengthening of civil society, an increase in the level of participation in public administration and an increase in public control. In place of the conclusion, proposals and recommendations were made to strengthen the role of crowdsourcing platforms in the path of building a social state.*

Keywords: *social state, crowdsourcing, social cooperation, initiative, nationalistic state, efficiency, governance, productivity, accountability, social status, innovation, style, transparency, modernization.*

Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa, kraudsorsing (crowdsourcing) kabi innovatsion yondashuvlar orqali jamoatchilik fikrini yig‘ish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilishga yo‘naltirish amaliyoti tobora keng qo‘llanilmoqda. Ushbu jarayonlar ijtimoiy davlat barpo etish — ya’ni aholining farovonligini, adolatli ijtimoiy siyosat yuritilishini va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kraudsorsing — bu keng jamoatchilikning salohiyatini safarbar qilish orqali turli ijtimoiy muammolarga innovatsion yechimlar topishga qaratilgan mexanizmdir. Bu usul jamoatchilik nazoratini mustahkamlash, fuqarolarning faolligini oshirish, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash vositasi sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda “Mening fikrim”, “Open budjet”, “Fuqarolik jamiyati portali” kabi kraudsorsing tamoyillariga asoslangan raqamli platformalarning joriy etilishi, ijtimoiy davlat konsepsiyasini ro‘yobga chiqarishdagi muhim qadam sifatida e’tirof etiladi. Mazkur maqolada ijtimoiy davlat qurilishida kraudsorsing platformalarining o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi, xalqaro va milliy tajriba asosida ularning ijtimoiy faollik, ishtirokchilik va samaradorlikka ta’siri o‘rganiladi. Shu orqali jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy masalalarning hal etilishida kraudsorsingning o‘rni falsafiy jihatdan yoritiladi. Bugun rivojlangan mamlakatlarda demokratiyaning muhim belgilaridan biri - davlat idoralari faoliyatining shaffofligi va ochiqligi, ommaviy axborot vositalarining so‘z erkinligidagi mustaqilligidir. Xususan, O‘zbekistonda ham davlat va jamiyat ijtimoiy hamkorlik samaradorligini oshirishning innovatsion-zamonaviy, mexanizmlari hamda usullarini keng joriy qilishga erishilmoqda. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash maqsadida yirik tashkilot va davlat idoralarida 584 ta matbuot xizmati tashkil etildi. Jumladan, boshqaruv organlari o‘z faoliyatida kraudsorsing elementlarini - fuqarolar bilan o‘zaro munosabatning zamonaviy usulini o‘zlashtira boshlanishini “Harakatlar strategiyasi”, “Taraqqiyot strategiyasi”, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalq muhokamasiga qo‘yilgani bilan bog‘lashimiz mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida bunday vositalarni xalqaro amaliyotda qo‘llash 20 yildan ortiq tarixga ega. Dastlabki, yirik kraudsorsing loyihalardan biri 2001 yilda vujudga kelgan – InnoCentive[1] platformasidir. 1420 dan ortiq turli ijtimoiy-siyosiy masala va muammolarni hal qilishda qatnashgan, dunyoning deyarli barcha mamlakatlaridan 250 ming kishini jalb qilishga muvaffaq bo‘lgan bu platformada 500,000 ga yaqin eng yaxshi mutaxassislar mavjud. Ularning 60% dan ortig‘i magistr, doktorlik yoki boshqa ilmiy darajalarga ega. Olinadigan noyob fikrlar (feedbeck) turli sohalardagi muammolarga yechim topishga imkon bermoqda.

Metodologiya.

O‘zbekistonda fuqarolarning va ekspert jamoalarining davlat tomonidan qabul qilinayotgan qaror, farmon, farmoyish, qonun loyihalarida ishtiroki va o‘zaro ta’sir o‘tkazishning ushbu samarali uslubi Prezident Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan bog‘liq. So‘nggi vaqtlarda, davlat apparati ishiga ilg‘or-zamonvaiy axborot texnologiyalarini joriy etilishi, shuningdek, yuqori lavozimli davlat xizmatchilarining ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishi, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga turtki bo‘ldi. Ya’ni, davlat boshqaruvidagi personallarga fuqarolar to‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilishi hamda o‘z taklif yoki e’tirozlarini bildirish imkoniyati vujudga keldi.

Bugun deyarli barcha davlat tashkilotlari muntazam ravishda jurnalistlar uchun brifinglar o‘tkazib jamoatchilik oldida o‘z hisobdorligini anglagan holda faoliyatini tashkil etmoqda. Aksariyat davlat idorlari rahbarlarining virtul qabulxonalari mavjud. Albatta davlat boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligining hozirgi holati yetarli darajada emas. Taraqqiy etgan mamlakatlar boshqaruv tizimining ochiqligi va samaradorligi yo‘lida qo‘llanilayotgan uslub va mexanizmlarni o‘rganish va amaliyotga keng joriy qilish lozim. Shuningdek, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan kraudsorsing konsepsiyasini to‘liq o‘rganish, undan foydalanish prinsiplarini mutaxassislar darajasida tizimli tahlil qilish va normativ-huquqiy hujjatlarda rasmiylashtirishni taqqazo etmoqda. O‘zbekistonda kraudsorsingni davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga tizimli joriy etilishi deyarli kuzatilmadi. Garchand, ikki katta Strategiya, idoralararo loyihalar, davlat dasturlarining xalq muhokamasiga qo‘yilishida kraudsorsingni passiv amaliyotini kuzatish mumkin. Ijtimoiy davlat qurish sharoitida, elektron hukumatning barcha elementlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilar ekan, bu xalqaro tajribani tatbiq etishda dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bizning fikrimizcha, ushbu zamonaviy texnologiyadan muvaffaqiyatli foydalanish uchun

[1] https://www.innocentive.com/about-us/about/

kraudsorsing mohiyati va davlat boshqaruvini takomillashtirishdagi o‘rnini aniqlab olish kerak. Ayniqsa, davlat boshqaruvi organlarining aholi bilan o‘zaro ishonchli munosabatlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan, uning afzalliklari va kamchiliklarini baholash lozim.

Kraudsorsing - doimiy ravishda, davlat boshqaruvidagi zarur va muammoli masalalar bo‘yicha jamoatchilikka murojaat qilishning xalqaro tajribadagi muhim amaliyotlardan biridir. Dastlab, 1714 yilda Britaniya parlamenti geografik uzunlikni aniqlashning ishonchli usulini ishlab chiqish uchun mukofot ta’sis etadi (Longitude Prize of 1714). Sovrinning o‘zi dengiz xronometri yaratuvchisi Jon Xarrisonga yarim asr o‘tgach berilgan bo‘lsa-da, ushbu misol bu turdagi eng mashhur tarixiy pretseduralardan biridir. Olimpiada emblemasi uchun tanlov o‘tkazilishi, kraudsorsing yordamida hatto Islandiya Konstitutsiyasining yangi matni yaratilganligi (The New York Times, october 24, 2012) bularning barchasi aholining keng doiralarini jalb qilish uchun uzoq vaqtdan beri qo‘llanib kelinayotgan amaliyot ekanini isbotlaydi. Shakl jihatidan kraudsorsing autsorsingga o‘xshaydi, agar autsorsingda bunday faoliyat kompaniya tashqarisida professional ijrochilar tomonidan muayyan ish haqi hisobiga amalga oshirilsa, kraudsorsingda, odatda berilgan topshiriq bo‘yicha bildirilgan g‘oya, loyiha uchun ish haqi to‘lash ko‘zda tutilmaydi yoki faqat eng e’tiborli hamda o‘rinli takliflarga muayyan miqdorda mukofot berilishi mumkin. Bunda berilgan topshiriq shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda o‘zlarining bo‘sh vaqtini muayyan tadqiqot yoki ishlanmaga sarflash xohishi bo‘lgan, ish haqi olishni ko‘zlamaydigan havaskorlar va mutaxassislar tomonidan bajariladi.

Natijalar.

Innovatsion rivojlangan davlatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib ixtisoslashgan saytlarda loyihalarni amalga oshirishning kraudsorsing modellari amaliyotga tadbiq etilgan. Bu jamoatchi ekspertlarning maqsadli doirasini sezilarli darajada kengaytiradi, muammolar yechimi va ish samaradorligini oshiradi.

Davlat boshqaruvi organlari tomonidan an’anaviy ravishda o‘z xodimlari yoki tor doiradagi mutaxassislarga, takomillashtirish maqsadida topshirilgan loyihani kraudsorsing platformasi foydalanuvchilarning keng jamoatchiligiga ochiq murojaat shaklida, taklif va mulohazalar uchun joriy qilinsa bu innovatsiyalar shakliga aylanadi. Agar O‘zbekistonda ham kraudsorsing platformalari sohalar va hududlar kesimida yaratilsa ular ijtimoiy davlat qurishda muvafaqqiyatli innovatsion loyihalardan biri bo‘lishiga ishonish mumkin. Chunki, bugun respublikada 27 mlndan ortiq faol internet foydalanuvchilari ega (Xalq so‘zi - 11 yanvar 2022). Shu bilan bir qatorda, vikipediya saytida o‘zbek tilidagi 292 476 dan ortiq, 62907 ta ko‘ngillilar tomonidan yozilgan maqolalar mavjud (O‘zbekcha Vikipediya. 10 may 2025). Bu esa fuqarolarimizning ilm-fanga, jamiyat rivojiga befarq emasligini ko‘rsatadi.

Taraqqiy etgan, mamlakatlarda kraudsorsingdan foydalanishning muhim va juda ommabop yo‘nalishi bu davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan qonun loyihalari, boshqaruv qarorlarini ommaviy muhokama qilish, korrupsion holatlar bo‘yicha ma’lumotlar berish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining strategik dasturlarini takomillashtirish qo‘llaniladi. Ushbu amaliyot O‘zbekistonda qonun loyihalarini tayyorlashda qo‘llanilmoqda va internetda keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilmoqda.

Shu o‘rinda aytish joizki, jamoatchilikka murojaat qilish muammoning aniq yechimini mutloq kafolatlamasligi ham mumkin, lekin ko‘plab holatlarda muammoni yechimini topish ehtimollik darajasi ortadi.

Har qanday texnologiya singari, kraudsorsing texnologiyasining ham kamchiliklari va cheklovlari mavjud, ular hisobga olinishi lozim. Kraudsorsing loyihalarini amalga oshirish, munozarali ishtirokchilarning keng doirasini jalb qilishga asoslangan bo‘lib, ular o‘z vaqtlarini sarflashlari va jamoatchilik muhokamalarida qatnashish uchun g‘oyalar va takliflarni yaratishlari kerak. Shu munosabat bilan loyiha ishtirokchilarini rag‘batlantirish vazifasi paydo bo‘ladi. Shu o‘rinda, kraudsorsing platformalarini yaratilishi fuqarolarga ham quyidagi imkoniyatlar beradi:

- O‘rinli taklif, soha samaradorligiga hissa qo‘shgan tashabbus mualliflariga moddiy rag‘batlantirish berilishi;

- turli muammolarni hal qilishda shaxsiy qiziqish yoki uning katta ijtimoiy ahamiyati, foydalanuvchilar uchun qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati;

- Tashabbuskorning qaysidir tashkilotda ish faoliyatini boshlashda uning kreativligi (rezyumisida u qatnashgan loyihalar ko‘rsatiladi) ko‘rinadi.

Rossiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolar o‘zlarining manfaatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan qonun loyihalarini shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat apparati faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni muhokama qilishda juda faol bo‘lib, jamoaviy tashabbuslar federal okruglar, regionlar hamda tarmoq sohalar kesimida ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yilgan(https://www.roi.ru/poll/ 2021. Aprel 8).

Rivojlangan davlatlar amaliyotida, kraudsorsing loyihalarini amalga oshirish tajribasi, innovatsion loyihalar, turli tashabbuslar ishtirokchilari uchun shaxsiy turtki berishning yana bir turini ta’minlaydi: qo‘yilgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilganligi uchun olingan mukofotlarni shaxsiy rezyumega qayd etib o‘tish, yaxshi ustunliklar hamda ish beruvchilar e’tiborini jalb qilishga yordam beradi. Davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy masalalarda fuqarolar bilan muloqotiga sabab bo‘luvchi loyihalari aholi orasida juda faol muhokamalarga olib boradi, chunki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholi manfaatlariga

ta’sir ko‘rsatadi. Ayni jarayon, hokimiyat faoliyatini takomillashtirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Hokimiyat organlari va aholi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonida kelib tushayotgan takliflarni hisobga olish bo‘yicha aniq tartibga solinadigan shaffof mexanizmlarning mavjudligi elektron hukumatning yangi elementlariga bo‘lgan ishonchni va moddiy shakllarni ko‘zlamaydigan kraudsorsing platformalari ishtirokchilarining faolligini oshiradi.

2017 yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi va hududiy Xalq qabulxonalariga 6 272 804 murojaatlar kelib tushgan. Bu murojaatlar tarkibida ko‘plab takliflar ham mavjud. Ular qaysidir tuzilma faoliyati doirasida amalga oshirilishi kutilayotgan o‘zgarishlarga ham turtki bo‘lmoqda. Agar tarmoq va hududiy kraudsorsing platformalari keng joriy etilsa, mavjud byurokratiya qisqarib, Xalq qabulxonalarining ish hajmi kamayishi va optimallashtirilishi, buning natijasida shart-sharoitga yo‘naltirilgan byudjet xarajatlari qisqartirilishiga erishish mumkin.

Kraudsorsing loyihalarida qatnashishga undash, an’anaviy rag‘batlantirish bo‘lib, ayniqsa tijorat loyihalari uchun odatiy hol hisoblanadi. Jumladan, 2020 yil may oyiga qadar InnoCentive platformasida amalga oshirilgan loyihalar doirasida o‘rinli fikr-mulohazalar uchun 35 million AQSh dollari miqdorida haq to‘langan (innocentive.com 2022. May 3).

Innovatsion g‘oyalarni kraudsorsing platformasidan izlash jarayonida resurslarni taqsimlash va kraudsorsinga xos bo‘lgan muhim muammoni hal qilish usullarini aniqlash lozim ya’ni, ko‘p miqdorda kelgan taklif va mulohazalarni tahliliy qayta ekspertizasini tashkil etish zarur. Ushbu muammoni kam baholash loyihaning haqiqiy muvaffaqiyatsizligiga olib kelishi mumkin.

Kraudsorsing fuqarolar va davlat organlarining o‘zaro aloqasi uchun yaratilgan elektron platformalarda xususan, Berlin, Tokio, London, Moskva meriyasi tomonidan ishlab chiqilgan platformalarda muloqotning ommaviyligi fuqarolar yoki davlat idoralari tomonidan ko‘tarilgan masalalar va muammolar bo‘yicha tezkor, aniq choralar ko‘riladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat organlari faoliyatiga tatbiq etish darajasi bunday xizmatlarni elektron hujjat aylanishi tizimlari bilan birlashtirib, tezkor javob berish va fuqarolarning murojaatlariga javoblar ustidan aniq idoralararo nazoratni tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, ayni platformalarni shakllantirilishi byudjetni rejalashtirishda ma’sullarga ayrim ma’lum bo‘lmagan, zarur byudjet parametrlarni qayd etishga imkon beradi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari ishtirokidagi keng jamoatchilik ko‘magi mavjud rejalarni tuzatishga va muammoni tezroq hal qilishga yordam ko‘rsatadi.

Bir martalik loyihalarni amalga oshirish yoki jamoat muhokamasi uchun vositalarni joriy etishning dastlabki bosqichlarida maxsus platformalarni yaratish shart emas. Xalqaro amaliyotda kraudsorsing sohasidagi professional vositachilar – bilim brokerlariga murojaat qilish qulay va samaraliroq ekanligini ko‘rish mumkin. Vositachi kompaniyalar jamoatchilik muhokamasini tashkil etish va rag‘batlantirish, bilimlar bazasini shakllantirish, kelib tushayotgan takliflarni baholash va saralash uchun tasdiqlangan texnologiyalardan foydalanadilar. Asosan ular beriladigan gonorarning 10 foiziga egalik qilishadi.

Kraudsorsing loyihalarini ko‘p holatlarda izchillik yo‘qligi uchun tanqid qilinadi va ishonchsiz qaraladi. Bunday qarash shakllanishiga amalda uyushmagan va keraksiz ijrochilar ommasiga murojaat qilinganligi hamda takliflar bazasini soha mutaxassislari ekspertizadan o‘tkazmaganligi sabab bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarni hozirgi vaqtdagi eng dinamik axborot tizimlaridan biri deb aytish mumkin, xususan, u kraudsorsing jarayonida qator qo‘shimcha afzalliklarni beradi. Ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlarni tezroq tarqatish uchun foydali bo‘lib, ko‘plab munozara ishtirokchilarini aniqlashga va shu asosda qo‘shimcha xulosalar chiqarishga imkon beradi. Masalan, olis hududlarni rivojlantirish dasturlarini shaklantirishda, takliflarni ayni hudud vakillari bilan bir qatorda shu sohadagi mutuxassislardan olish hamda mualliflarining geografik joylashuvi asosida ayrim mintaqalarda tovar va xizmatlarga iste’molchilarning maqsadli guruhlarini aniqlash mumkin.

Xulosa.

Kraudsorsing platformalari ijtimoiy davlat barpo etish jarayonida fuqarolarning faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va qarorlar qabul qilishda ochiqlikni ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda bu boradagi dastlabki tashabbuslar — “Mening fikrim”, “Ochiq budjet” kabi loyihalar — davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kraudsorsing faqat texnologik innovatsiya emas, balki ijtimoiy-falsafiy tamoyillarga asoslangan yangi boshqaruv modeli sifatida ijtimoiy davlat konsepsiyasini amalga oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Fikrimizcha, kraudsorsing muhokamaning ochiqligini ta’minlash uchun uning ko‘lamini cheklamaslik zarur. To‘g‘ri buning natijasida keraksiz fikr-mulohazalar oqimi katta bo‘ladi, lekin shu qatorda muammoning yechimlari ham ko‘rsatib o‘tilishi tayin. Bunda, tijoriy hamda davlat sirlariga aloqador bo‘lgan, maxfiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan masalalarni istisno qilinadi. Aholi orasida elektron xizmatlarning ommabopligi va internet-saytlardagi munozara ishtirokchilarining faolligi, munozaralarda ishtirok etish qulayligi kraudsorsing platformalarining faoliyati muvafaqqiyatli amalga oshirilishiga sabab bo‘ladi. Aholini ijtimoiy foydali faoliyatga ko‘ngilli ravishda undash oson bo‘lishi uchun,

ular o‘z uyidan chiqmasdan kompyuter yoki telefon orqali qiyinchiliklarsiz takliflarini bildirishi lozim. Agar fikr-mulohaza yoki shikoyat yozish uchun murakkab protseduralardan o‘tish kerak bo‘lsa, bu holatda kraudsorsing texnolgiyalari foydali bo‘lmasligi mumkin. Bir vaqtning o‘zida bularning barchasi, internet ijtimoiy hayotning real sektoriga o‘tishini rag‘batlantiradi.

Bugungi kunda, respublikamizdagi ba’zi vazirlik va idora rahbarlari dastlab o‘z faoliyatiga kirishish bosqichida ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarga murojaat yo‘llab, ayni tizimni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar so‘rayotganiga guvoh bo‘lamiz, yana ba’zi bir yosh rahbarlar telegram messenjeri orqali ovozli chat uyushtirib jamoatchilik fikrini o‘rganmoqda, albatta bu ijobiy qabul qilinayotgan jarayon hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bu amaliyotlar davomli bo‘lishi hamda hududlar kesimida ham amalga oshirilishi lozim. Shu bilan bir qatorda, to‘laqonli aynan messenjer yoki ijtimoiy tarmoqda emas balki, ayni sohada tashkil qilingan kraudsorsing platformalarida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda aytish lozimki, jamoatchilik bilan aloqa mexanizmlarini yanada takomillashtirish, zamonaviy aloqa imkoniyatlaridan davlat boshqaruvi organlari faoliyat samaradorligini bosqichma-bosqich oshirishda foydalanish bugungi zamon ta’labi bo‘lib qolmoqda. Elektron hukumatni yangi bosqichga olib chiqish oraqali hokimiyatning barcha tarmoqlari: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini ijtimoiy faolligini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud.

O‘zbekiston va chet eldagi siyosatchilar so‘nggi yillarda dunyoda shakllangan samarali va maksimal darajada ochiq hukumatga bo‘lgan jamoatchilik talabiga javob berish zarurligini tushunib, uning axborot shaffofligini, jamoatchilik ishtiroki va hamkorligini ta’minlashni o‘zlarining ustivor vazifasi, deb bilmoqdalar. Barak Obama Oq uyga kelganida birinchi direktivalaridan biri shu mavzuga bag‘ishlangan edi (obamawhitehouse.archives.gov. 2009 dekabr 8), aynan O‘zbekistonda ham shu vazifa - "Ochiq hukumat" tizimining shakllanishini ustivor vazifa sifatida belgilab olingan. Jumladan, Jahon bankining “Davlat boshqaruvi sifati ko‘rsatkichilari”ning aholi fikrini hisobga olish va davlat organlarining hisobdorligi ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston 2019 yil yakuni bo‘yicha 6,90 ball olgan bo‘lsa, bu 2010 yilga nisbatan 5,95 ballga o‘z o‘rnini yaxshilagan (lex.uz 2021 iyun 16).

Bugun yoshlar o‘z hayotini ijtimoiy tarmoqlar va internetsiz tasavvur qila olmaydi. Ko‘plab tashabbuskor, ilmli katta potensiali mavjud avlodni turli bilim platformalariga birlashtirish, shu yo‘l bilan, barcha sohalarda jamoaviy intellektual faoliyat yurituvchi jamoalarni shakllantirish, ularni faoliyatiga qarab rag‘batlantirishning hilma-hil usullaridan foydalanish zarur. Xususan, eng qiziqarli takliflar mualliflarining tegishli idoralar rahbariyati bilan muntazam ravishda uchrashuvlarini tashkil etish va shu bilan "ijtimoiy liftlar" tizimini yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish mumkin. Taklif etilayotgan chora-tadbirlar yoshlar faolligini hokimiyat bilan konstruktiv o‘zaro aloqalariga imkon beradi.

Bugungi kunda g‘arb davlatlarida kraudsorsingni “foydalanuvchi uchun innovatsiya” deb atashmoqda. Shunday ekan O‘zbekistonda ham davlat va jamiyat ijtimoiy hamkorlik samaradorligini oshirish uchun kraudsorsing texnologiyalaridan keng foydalanish quyidagi afzalliklarini yaratadi:

- davlat kraudsorsing mexanizmlarini rasmiy ijtimoiy hamkorlik shakli sifatida tan olishi, bu platformalarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda faol ishlashiga sharoit yaratishi lozim. Bu orqali davlat–jamiyat aloqalari yanada institutsional mustahkamlanadi;

- kraudsorsing platformalari orqali kelgan takliflar va fikrlar asosida qabul qilingan yoki rad etilgan qarorlar yuzasidan rasmiy tushuntirishlar berish davlat organlarining fuqarolarga nisbatan ochiqligini va ishonchliligini oshiradi;

- NNTlar, jamoat kengashlari va mahalliy kengashlar kraudsorsing asosidagi tashabbuslarni yig‘ish, saralash va davlatga yetkazishda ko‘prik vazifasini bajara oladi. Bu davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchli muloqot kanallarini yaratadi;

- raqamli tengsizlik sharoitida barcha qatlamlarni qamrab olish uchun turli yosh guruhlari, nogironlar, ayollar, chekka hudud aholisi uchun moslashgan usullarni qo‘llab, hamkorlik doirasini kengaytirish zarur;

- budjet mablag‘larining taqsimlanishi, ijtimoiy infratuzilma qurilishi, ekologik nazorat kabi jamoatchilik manfaatini aks ettiruvchi masalalarda davlat fuqarolar bilan birgalikda qaror qabul qiladigan hamkorlik muhiti shakllantirilishi lozim;

- kraudsorsing asosida fuqarolar, davlat idoralari vakillari va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida muntazam muloqot maydonchalari (forum, vebinar, ochiq suhbatlar) tashkil etilishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. https://www.innocentive.com/about-us/about/
2. Origins of the Longitude Prize - https://longitudeprize.org/the-history/
3. Longitude found: the story of Harrison's clocks - https://www.rmg.co.uk/stories/topics/harrisons-clocks-longitude-problem

4. Crowdsourcing Iceland's Constitution - https://rendezvous.blogs.nytimes.com/2012/10/24/crowdsourcing-icelands-constitution/

5. https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-internet-fojdalanuvchilari-soni-ochiqlandi

6. Wikipedia Statistics uzbek language https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa

7. Initsiativы na golosovanii - https://www.roi.ru/

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning virtual qabulxonasi - https://pm.gov.uz/uz#/rc_app_root

9. Optimallashtirish deb ijro etuvchi hokimiyat organlari, ularning tuzilmalari va bo'linmalari harajatlarini qayta taqsimlash, shtat birliklarini qisqartirish, shu jumladan ularning funksiyalarini raqobat muhitiga o'tkazishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

10. https://www.innocentive.com/

11. Crowdsourcing and Open Data - https://open-science.berlin/

12. Japanese Crowdsourcing 2021 - https://beststartup.asia/15-top-japanese-crowdsourcing-companies-and-startups-of-2021/

13. London's Best Crowdsourcing Companies - https://www.beststartup.co.uk/londons-best-crowdsourcing-companies-to-work-for-and-buy-from/

14. Kraudsorsing proektы Pravitelstva Moskvы - https://www.crowd.mos.ru/

15. On his first day in Office, President Obama signed the Memorandum on Transparency and Open Government, ushering in a new era of open and accountable government meant to bridge the gap between the American people and their government - https://obamawhitehouse.archives.gov/open/about

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.06.2021 yildagi PF-6247-son - https://lex.uz/docs/5459107

17. Uzbekistan: Government effectiveness - https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/wb_government_effectiveness

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xonimov Sharofutdin Bahodirovich
O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati bo‘lim boshlig‘i
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
sharofiddin_2017@mail.ru

YOSHLAR HUQUQ VA MANFAATLARINI TA’MINLASH VA BU BORADA ERISHILGAN YUTUQLARINI XALQARO MAYDONDA AKS ETTIRISHNING IJTIMOIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “huquq”, “ijtimoiy”, “xalqaro” “siyosiy”, “faollik”, “yoshlar”, “huquqiy”, “nazariy” tushunchalari to‘g‘risida alohida adabiyotlarga tayangan holdagi to‘g‘ri va aniq ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur tushunchalar xususida ilmiy talqinlar misollar bilan keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar. *Yoshlar siyosati, indeks, ko‘rsatkichlar, ijtimoiy faol, siyosiy, yangi O‘zbekiston, respublika, huquq, siyosatchi, ishsizlik, tashabbuskor.*

Ханимов Шарофутдин Баходирович
Агентство по делам молодежи Республики Узбекистан Начальник отдела центрального аппарата
Доктор философии (PhD) по специальности «Философия»

СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ МОЛОДЕЖИ И ОТРАЖЕНИЕ ИХ ДОСТИЖЕНИЙ В ЭТОЙ ОБЛАСТИ НА МЕЖДУНАРОДНОМ УРОВНЕ

Аннотация. *В данной статье приведены точные и достоверные сведения о таких понятиях, как ”право”, ”социальный”, ”международный”, ”политический”, ”активность”, ”молодёжь”, ”правовой”, ”теоретический”, основанные на отдельных научных источниках. Также представлены научные интерпретации указанных понятий с примерами.*

Ключевые слова. *Молодёжная политика, индекс, показатели социально активный, политический, Новый Узбекистан, республика, права, политик, инициативный.*

Khonimov Sharofutdin Bahodirovich
Head of the Department of the Central Office of the Youth Affairs Agency of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

SOCIAL ASPECTS OF PROVIDING THE RIGHTS AND INTERESTS OF YOUTH AND REFLECTING THEIR ACHIEVEMENTS IN THIS REGARD IN THE INTERNATIONAL FIELD

Abstract. *This article provides accurate and reliable information about the concepts of “social,” “political,” “activity,” “youth,” “legal,” and “theoretical,” based on specialized literature. Scientific interpretations of these concepts are presented along with examples.*

Keywords. *Youth policy, socially active person, Political, New Uzbekistan Republic, law, politician, initiator.*

Yurtimizda yoshlar muammolarini hal qilish bo‘yicha alohida tizim yaratildi, unga ko‘ra mamlakatimizda 9453 ta mahallada 9453 nafar yoshlar yetakchilari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, yoshlarning murojaatlari va ijtimoiy-iqtisodiy muammolari bevosita mahallaning o‘zida hal qilinadigan vertikal tizim yo‘lga qo‘yildi.

Yoshlarning huquqlari, burchlari va erkinliklarining kafolati sifatida - albatta jamiyatdagi amal qilayotgan qonun va qonunosti hujjatlari bilan bevosita bog‘liq.

O‘tgan “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da yoshlar masalasiga oid 3 ta qonun, 21 ta Prezident Farmoni va qarori, 15 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilinib, yoshlar uchun 100 dan ortiq yangi imkoniyat va imtiyozlar yaratildi[98].

[98] https://yomi.uz/en/english 2024 йилги ҳисоботларидан. 12.12.2024 йил якуний ахборотлари.

Har bir imtiyoz va yengillik bu huquq degani, huquq bor ekan majburiyat va burch doimo yonma-yon yuradi.

Bilamizku bugungi kunda yoshlar bilan ishlash holatini monitoring qilish, ularning huquqlari himoyasini kafolatlash va turmush darajasini doimiy oshirib borishda amalga oshirilayotgan ishlarni baholashda “Global Youth Wellbeing Index”, “Global Youth Development Index” va “Youth Progress Index” alohida ajratiladi.

O‘rganishlar va tahlillarimizga ko‘ra, “Global Youth Wellbeing Index” dunyodagi eng yirik iqtisodiy rivojlangan “G7” mamlakatni qamrab olishi sababli O‘zbekiston ushbu indeksga kiritilmagan.

Ma’lumot uchun: indeks Xalqaro yoshlar jamg‘armasi (International Youth Foundation) tomonidan “Hilton Worldwide” kompaniyasining moliyaviy ko‘magi ostida yuritiladi. Indeks 30 mamlakatning 15-29 yoshdagi fuqarolarini qamrab olib, 7 ta indikator (35 ta subindikator) asosida hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, “Global Youth Development Index” va “Youth Progress Index” tomonidan mamlakatimizda 2024-2025 yilda yoshlar sohasida amalga oshirilgan ishlar “ancha yaxshi daraja”da baholangan.

Xususan, “Global Youth Development Index” ning 2024 yilgi hisobotida mamlakatimiz 183 ta davlat ichida 53 (0.68 ko‘rsatkich bilan) o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020 yilda “tenglik va inklyuzivlik” hamda “tinchlik va xavfsizlik” indikatorlari qo‘shilishi bilan O‘zbekistonning ushbu indeksdagi o‘rni 98 o‘ringa o‘zgardi[99].

Ma’lumot uchun: indeks “The Commonwealth” tashkiloti tomonidan 181 mamlakatning 15-29 yosh oralig‘idagi yoshlarini 6 ta indikator (27 ta subindiator) asosida o‘lchaydi.

Xususan, ko‘rsatkichlarga qaraydigan bo‘slak – bandlik va imkoniyat (145 o‘rin – 0,606), tenglik va inklyuzivlik (133/0,75), siyosiy va fuqarolik ishtiroki (95/0,276) bilan bog‘liq, shuningdek salomatlik va farovonlik (84/0,731), ta’lim (82/0,787) hamda tinchlik va xavfsizlik (55/0,811) ko‘rsatkichlarida ham ancha yuqorilashga qarab ko‘tarilgan.

“Youth Progress Index”ning o‘tgan 5 yillik hisobotiga va tahlillariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak mamlakatimiz 2020 yilda 82 o‘rin (64,8 ko‘rsatkich)ni egallab, 2016 yilga (89/60,8) nisbatan 7 pog‘onaga ko‘tarilgan[100].

Ma’lumot uchun: indeks Social Progress Imperative tashkiloti (AQSH) tomonidan 150 mamlakatning 15-29 yosh oralig‘idagi yoshlarini 12 ta indikator (58 ta subindikator) asosida o‘lchaydi.

Til bilgan el biladi, urf odat taniydi, tajriba orttiradi.

Yana bir muhim masalani tahlilini qilishmiz joiz, endi, xorijiy tillardan “S-1 darajasi”ga ega bo‘lgan yoshlar tashabbus ko‘rsatib, olis va chekka hududlarda chet tillariga ixtisoslashgan o‘quv markazlarini ochsa, ularga 120 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi.

Shuningdek, mehnat bozoriga til biladigan yoshlar kirib kelishini rag‘batlantirish uchun xususiy o‘quv markazlarida xorijiy tillarni o‘rganadigan yoshlarga xarajatlari “2+6” shaklida qoplab beriladi.

Mamlakaitimizda ushbu kabi yoshlarga ajratilayotgan imtiyoz va huquqlar har bir yosh iste’dodni kashf qilinishad muhim qadamlardan bo‘ladi albatta.Shuning natijasi o‘laroq YUNESKOning Statistika instituti ma’lumotiga ko‘ra[101], 2023 yilda xorijda tahsil olayotgan talabalar soni bo‘yicha O‘zbekiston 3-o‘rinni qayd etib, talabalar soni 150,5 ming nafarni tashkil etgan (Xitoy – 1,1 mln, Hindiston – 621,6 ming).

Globallashuv sharoitida yoshlarni shakllanishi va rivojlanishini xarakatga keltiruvchi asosiy kuch bu moddiy mahsulotni emas, informasion mahsulotni ishlab chiqarish bo‘ladi.

Albatta, jamiyatimizda yoshlarimizni har tomonlama rivojlantirish jarayonida, avvalo, mafkuraviy masalalarga alohida e’tibor qaratish juda ham dolzarb va muhim hisoblanadi. Chunki yosh avlodning ongi va tafakkurini to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni mustahkam hayotiy qarashlarga ega qilib tarbiyalash orqali, nafaqat ularning shaxsiy kamolotiga, balki jamiyatning barqaror va taraqqiy etgan kelajagiga ham asos solinadi. Mafkura va iqtisod qushning ikki qanoati hisoblanadi.

Shuning barobarida yurtimizda iqtisodiy o‘zgarishlar va yuqoriga siljishlar ham o‘zining amaliy natijalarini ko‘rsatib kelmoqda, jumladan bizda kreativ iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda. Sohada faoliyat ko‘rsayotganlarni 98 foizi yoshlar. 2025 yilda mahallalar kesimida tadbirkorlikka xohishi baland 384 ming yoshning ro‘yxati bor.

Kreativ iqtisodiyot bozori 2030 yilga borib, jahon yalpi mahsulotidagi ulushi 3 karra oshishi kutilmoqda allaqachon 12 ming nafar yoshlar ijodkorlik bilan shug‘ullanishni boshlab yuborgan.

Sohada erishilayotgan tarixiy natijalar o‘laroq bugun - O‘zbekistonning yoshlar siyosati borasidagi sa’y-harakatlari xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar – 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy oldi.

Yuqorida sanab o‘tgan Xalqaro maydondagi yoshlar siyosatining o‘rni va bugungi kundagi ahamiyati bu ko‘p yillik mehantning samarasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizning ushbu indeksdagi o‘rni va maqomini saqlab qolish va anchva

[99] “Global Youth Development Index”нинг таҳлилий ва даврий ахборотларидан.2022-2024 йиллар.

[100] “Youth Progress Index”нинг 2020 йилги таҳлилий ҳисоботларидан.15.12.2020 йил.

[101] ЮНЕСКОнинг Статистика институти маълумотлари 2024 йил.

yuqoriga ko‘tarilishini ta’minlash maqsadida biz kelgusi faoliyaimizda quyidagi yo‘nalishlarda jiddiy e’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan yo‘nalishlar bor, jumladan, – atrof-muhit sifat darajasi (yoshlarning havo ifloslanishi bilan bog‘liq holatlari shaxsiy huquqlar (siyosiy huquqlar), o‘zini namoyon etish erkinligi, yo‘l transport hodisalari natijasidagi ko‘ngilsiz holatlar bilan bog‘liq.

Shuningdek, “shaxsiy erkinlik va tanlov” (korrupsiya, yoshlarni korrupsiyaga bo‘lgan munosabati) kabi indikatorlar bilan ham yoshlar o‘rtasida samarali taribot olib borishimiz zamon talablaridan biridir.

Tahlillarga ko‘ra, yuqoridagi holatni qator tizimli muammolar mavjudligi kuzatilmoqda.

- respublikadagi yoshlar siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarni jalb qilgan holda mamlakatimizda oxirgi yillarda ushbu sohalarda amalga oshirilgan ishlar aks etgan “Milliy hisobot”ni tayyorlash hamda uning yakunlarini jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarga e’lon qilish;

- milliy mutaxassislar va xalqaro ekspertlar (BMT, YUNISEF, XMT va boshq.)dan iborat bo‘lgan maxsus loyihalarni (metodologik ko‘mak olish, metama’lumotlarni shakllantirish mexanizmlarini o‘zlashtirish yuzasidan) joriy qilish.

Ma’lumot uchun: Qozog‘iston 2014 yilda (Youth Wellbeing Index bo‘yicha) va Qirg‘iziston 2017 yilda (Youth Development Index va Youth Progress Index bo‘yicha) BMT, YUNISEF va XMT ko‘magi asosida yoshlarga oid metama’lumotlarni shakllantirish va mavjud indekslarda aks ettirish metodologiyasini qo‘llash yuzasidan tegishli muzokaralar olib borgan va maxsus dastur (loyiha)larni amalga oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasida “Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.07.2020 y., 06/20/6017/1021-son) www. lex.uz.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T: O‘zzbekiston, 2021. – 464 b.

3. Stimson J. Belief Systems: Consraint, Complexity and the 1972 Election //American Journal of Political Science. 1975. No. 19. P.393-417.

4. https://yomi.uz/en/english

5. https://www.youthprogressindex.org

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ponsotova Firuza
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TALABALARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlarning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif milliy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib beradi hamda ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali yo'llarini yoritadi. Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan madaniy-ma'rifiy faoliyatlar, ta'lim va tarbiyada qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar misolida milliy qadriyatlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'sirchanligi asoslanadi. Maqolada integrativ yondashuv, ustoz-shogird an'anasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali talabalarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, axloqiy yetuklik kabi fazilatlarni shakllantirishning samarali yo'llari ko'rsatib beriladi. Xulosa sifatida milliy qadriyatlar asosida shakllangan ma'naviy dunyoqarash barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy dunyoqarash, milliy qadriyatlar, pedagogik ahamiyat, talabalar tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, oliy ta'lim, vatanparvarlik, tarbiyaviy jarayon, milliy o'zlik, pedagogik yondashuvlar.*

Понсотова Фируза
Наманганский государственный педагогический университет независимый исследователь института

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация: *В данной статье анализируется педагогическое значение национальных ценностей в процессе формирования духовного мировоззрения у студентов. Автор раскрывает воспитательные возможности национальных ценностей и освещает эффективные пути их интеграции в образовательный процесс. На примере культурно-просветительской деятельности, осуществляемой в высших учебных заведениях, инновационных подходов, применяемых в образовании и воспитании, обосновывается влияние национальных ценностей на мировоззрение молодежи. В статье показаны эффективные пути формирования у студентов таких качеств, как национальное самосознание, патриотизм, нравственная зрелость посредством интегративного подхода, традиции наставник-ученик и современных педагогических технологий. В заключение подчеркивается, что духовное мировоззрение, сформированное на основе национальных ценностей, является важным фактором в воспитании гармонично развитого поколения.*

Ключевые слова: *духовное мировоззрение, национальные ценности, педагогическое значение, воспитание студентов, духовно-просветительское воспитание, высшее образование, патриотизм, воспитательный процесс, национальное самосознание, педагогические подходы.*

Ponsotova Firuza
Independent researcher at the Namangan State Pedagogical Institute

CURRENT PROBLEMS IN DEVELOPING STUDENTS' SPIRITUAL WORLDVIEW ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES AND WAYS TO SOLUTION THEM

Abstract: *This article analyzes the pedagogical significance of national values in the process of forming a spiritual worldview in students. The author reveals the educational potential of national values and highlights effective ways of their integration into the educational process. The influence of national values on the worldview of young people is substantiated on the example of cultural and educational activities carried out in higher educational institutions, innovative approaches used in education and upbringing. The article shows effective ways of forming such qualities as national self-awareness, patriotism, and moral maturity in students through an integrative approach, the mentor-student tradition, and modern pedagogical technologies. In conclusion, it is emphasized that a spiritual worldview formed on the basis of national values is an important factor in the upbringing of a harmoniously developed generation.*

Keywords: *spiritual worldview, national values, pedagogical significance, student education, spiritual and educational upbringing, higher education, patriotism, educational process, national identity, pedagogical approaches.*

Bugungi globallashuv sharoitida har qanday jamiyat o‘z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash va yosh avlod ongiga chuqur singdirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Zero, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi, ularning hayotga, mehnatga, Vatanga bo‘lgan munosabati bevosita o‘z xalqining tarixiy-madaniy merosiga munosabatidan kelib chiqadi. Shu ma’noda, talabalarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlar muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Ammo, bu jarayon doim ham oson kechmaydi. So‘nggi yillarda yoshlar orasida ma’naviyatsizlik, madaniyatsizlik, befarqlik kabi holatlarning kuchayishi, ayrim milliy qadriyatlarning unutilishi bu boradagi muammolarni ochiqlab bermoqda. Mazkur maqolada ana shu muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy tahlil qilinadi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, urf-odatlari, qadimiy an’analari va axloqiy me’yorlarini o‘zida mujassam etgan tushunchadir. Talabaning shaxsiyati aynan shu qadriyatlar asosida shakllanadi. Vatanparvarlik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, halollik, insof, o‘zaro hamjihatlik kabi qadriyatlar talabaning ijtimoiy faolligini oshiradi, uni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga undaydi.

Milliy qadriyatlar — xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, urf-odatlari, axloqiy me’yorlari, diniy va estetik qarashlarining ifodasidir. Ular yoshlar shaxsida quyidagi asosiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- Vatanga muhabbat va sadoqat;
- Axloqiy poklik va adolat;
- Mehnatsevarlik, sabr-toqat;
- Ota-onaga hurmat, jamiyatga foydali bo‘lish.

Ma’naviy dunyoqarash — bu insonning axloqiy, ijtimoiy, madaniy, diniy qarashlar tizimidir. Talabaning shaxs sifatida shakllanishida milliy qadriyatlar asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Bu qarashlar talaba hayotining har bir jabhasiga ta’sir ko‘rsatadi. Uni shakllantiruvchi asosiy omillar — oilaviy tarbiya, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, internet, kitobxonlik darajasi, o‘rtoqlar muhitidir. Har bir omil o‘ziga xos tarzda talabaning ma’naviyati shakllanishiga ta’sir qiladi. Masalan, ota-onaga hurmat, kattalarga izzat, do‘stlikka sadoqat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar talabaning hayotga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

Ma’naviy dunyoqarash esa shaxsning hayotga, jamiyatga, o‘ziga bo‘lgan ichki munosabatlar tizimidir. U inson tafakkuri, e’tiqodi, axloqiy qarashlari orqali shakllanadi. Milliy qadriyatlar bu jarayonda asosiy ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Misol:

Universitetda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovda talabalarning 62 foizi ota-onaga hurmat, el-yurtga sadoqat kabi qadriyatlarni muhim deb bilsa-da, amalda bu qadriyatlarni hayotida to‘liq aks ettira olmayotgani kuzatilgan. Bu esa bilim bilan bir qatorda tarbiyaning ham muhimligini ko‘rsatadi.

Milliy qadriyatlar yoshlarning shaxsiy barkamolligiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchiga va ijtimoiy mas’uliyat hissining shakllanishiga xizmat qiladi. Talabalar ushbu qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali Vatanga, xalqiga sadoqatli, ma’naviy yetuk inson bo‘lib voyaga yetadi.

Qadim zamonlardan axloqiylik har bir insondagi iymon-e’tiqodning amaliy faoliyatidagi namoyon bo‘lishi deb hisoblanib kelingan. Bunda iymon-e’tiqod tor ma’noda, shaxsning ma’naviy-ahloqiy qiyofasini belgilovchi omil deb baholangan. Shunday ekan, axloqning asosi, suyanch ustuni iymon-e’tiqod deyishga haqlimiz.

Axloq insonning butun borlig’ini, hayotining barcha jabhalarida qanday ekanligini ko‘rsatib, belgilab turadi. Bunda burch, vijdon, nomus, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi ahloqiy me’yorlarga amal qilinadi. Bu tushunchalar bir-biriga uzviy bog’liq bo‘lgan holda yana ko‘plab axloqiy sifatlarning ro‘yobga chiqishini taqoza etadi.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Buyuk allomalarimiz o‘z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, mas’uliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharafli ekanligini, yoritib, muallimning ma’naviy qiyofasiga qo‘yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan muomalasi to‘g’risida o‘z mulohazalarini bildirganlar. Uyg’onish davrining etuk namoyondalari Abu Nasr Forobiy, Shayx Sa’diy Sheroziy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Davoniy kabilarning ijodiy merosi bo‘lajak o‘qituvchilarga muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular avlodlardan avlodlarga o‘tib, o‘z qimmatini yo‘qotmagan mudarrislarni, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib, boyitib borishgan. Zero, insoniyat kelajagi va kurrai zaminning gullab yashnashi faqat ta’lim va tarbiyaga bog’liq ekanligini buyuk mutafakkirlar chuqur his qilishgan.

Ulug’ vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida mudarrisning “so‘zlari aniq

bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin... Bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini charchashni sezmasdan, osonlik bilan o‘zlashtira olsin” deydi.

Unsurul Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asarida har bir yoshni aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasida turmush tajribasi muhim ahamiyat kasb etishini aytadi. Bolalarni faqat yaxshi mudarris tarbiyani hayot bilan bog’lagan holda kamolotga etkazishi mumkin deb, uning yo‘llarini va usullarini bayon etgan. Abu Ali ibn Sino mudarrislarga o‘z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishish garovi bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo‘lishni uqtiradi.

Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” didaktik asarida yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo‘lmasligini aytib, mudarris olimlar orasidagi eng sara “malak qiyofali” kishi bo‘lishi, ya’ni sof ko‘ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va olijanob hislatlarini o‘zida aks ettiruvchi bo‘lishi kerak deydi.

Husayn Voiz Koshifiy «Axloqi Muhsiniy» asarida shunday yozadi: «Murabbiy bolaga nasihat va ta’lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor” dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo‘lishi zarur, deb hisoblaydi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Sharq va G’arb mutafakkirlari tomonidan tahlil qilingan o‘qituvchilik kasbi haqidagi ko‘pgina mulohazalar hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Demak, millati va kelib chiqishidan qat’iy nazar ajdodlar g’oyasini takomillashtirish evaziga ta’lim-tarbiyani yuksak bosqichlarga ko‘tarish mumkin.

Milliy qadriyatlarga befarqlikning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- global axborot oqimining haddan tashqari kuchayishi, g‘arbona hayot tarziga

- taqlid, ijtimoiy tarmoqlarda yetarlicha filtrlanmagan axborotlar oqimi,

- ota-onalar tomonidan yetarli tarbiyaning berilmasligi,

- ta’lim tizimidagi ayrim kamchiliklar, milliy g‘ururning susayishi. Bu omillar talabaning o‘z milliy ildizlaridan uzoqlashuviga sabab bo‘lmoqda.

Ma’naviy tanazzul — bu yoshlar orasida axloqiy qadriyatlarga loqaydlik, hayotiy maqsadlarning yo‘qolishi, yengil hayot tarzini istash, moddiy manfaatlarni ustun qo‘yish kabi holatlardir. Bunga sabab bo‘luvchi omillar orasida: ma’naviyatsiz kontentlar, oilaviy ziddiyatlar, ijtimoiy adolatsizlik, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik va madaniyatsizlik muhim o‘rin tutadi. Ta’lim tizimida nazariy bilimlar yetkazilsa-da, amaliy tarbiya ishlarining yetarli emasligi ko‘zga tashlanadi. Tarix, adabiyot, falsafa fanlarida milliy qadriyatlarni chuqur o‘rganishga yetarli e’tibor qaratilmayapti. Ko‘plab universitetlarda tarbiyaviy ishlarda faqat majburiyat sifatida qaralishi, talabalarning bu jarayonga qiziqmasligiga olib kelmoqda. Boshqa tomondan, pedagoglarning ushbu yo‘nalishda yetarli malakaga ega emasligi ham dolzarb muammo hisoblanadi.

Quyidagi muammolar talabalarning ma’naviy dunyoqarashi rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda:

- Axborot xurujlari: Ijtimoiy tarmoqlardagi begona madaniyat targ‘ibotlari milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan qarashlarni shakllantirmoqda.

- Tarbiyaviy ishlarning yetarli emasligi: Ko‘pchilik ta’lim muassasalarida faqat dars bilan cheklanilib, tarbiyaviy ishlar sust olib borilmoqda.

- Zamon talabiga javob bermaydigan metodlar: Ma’naviy tarbiyada eski, ta’sirchanligi past usullardan foydalanish.

- Oiladagi tarbiyaning zaifligi: Ayrim talabalarning oilasida yetarli ma’naviy muhit bo‘lmasligi ham bu borada muammo tug‘diradi.

Milliy qadriyatlar — talaba shaxsini ma’naviy jihatdan yetuk, sog‘lom fikrli, Vatanga sadoqatli inson qilib tarbiyalashda asosiy vosita hisoblanadi. Ammo ularni yoshlar ongiga singdirish uchun zamonaviy, ilg‘or va samarali yondashuvlar zarur.

Milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish,

- Milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi zamonaviy kontentlar yaratish,

- Talabalarni madaniy-ma’rifiy tadbirlarga faol jalb etish,

- Oila-va ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish,

- Ma’naviy yetakchi, ustoz-shogird an’analarini tiklash,

- Yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish.

Shuningdek, milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlash bugungi kun talabidir.

Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

- Zamonaviy pedagogik yondashuvlar joriy etish: Talabalarga ma’naviy qadriyatlarni singdirishda interaktiv darslar, rolli o‘yinlar, muhokamalar, mediamateriallardan foydalanish samarali bo‘ladi.

- Mahalliy qahramonlar misolida tarbiya: Tariximizdagi buyuk shaxslar – Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Islom Karimov kabi siymolar hayoti asosida ma’naviy ideal shakllantirish mumkin.

- Ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy kontent yaratish: Talabalarni milliy qadriyatlar asosida tayyorlangan kontentlar (vlog, podcast, maqola) yaratishga jalb etish.

- Ustoz-shogird an’anasini rivojlantirish: Talabani ma’naviy kamolotga yetaklaydigan ustozlar faoliyatini kuchaytirish.

- Oilaviy tarbiyani qo‘llab-quvvatlash: Ota-onalar bilan hamkorlikda ma’naviy seminar-treninglar tashkil etish.

- Har bir oliy o‘quv yurtida “Milliy qadriyatlar markazi” tashkil etilishi kerak.

- Talabalar ishtirokida “Milliy qadriyatlar elchisi” loyihasini yo‘lga qo‘yish.

- Davlat grantlari asosida ma’naviy-tarbiyaviy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

- Talabalarga yo‘naltirilgan mobil ilovalar, audio-video darsliklar orqali milliy qadriyatlarni o‘rgatish.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish orqali biz nafaqat talabaning, balki kelajak jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlaymiz. Milliy qadriyatlar talabaning shaxsiy dunyoqarashini boyitadi, uni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Shuning uchun ta’lim tizimida milliy-ma’naviy tarbiya eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim. Har bir pedagog, ota-ona, jamiyat a’zosi yoshlar ma’naviyatiga mas’ul ekanini anglab yetmog‘i zarur.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar — bu millat ma’naviy poydevoridir. Talabalarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda bu qadriyatlarni chuqur o‘rgatish, zamonaviy va ta’sirchan metodlar orqali ongiga singdirish zarur. Shundagina biz barkamol, Vatanga sadoqatli, yetuk avlodni voyaga yetkaza olamiz. Bu borada davlat, jamiyat, oila va ta’lim muassasalari hamkorlikda ishlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Jo‘rayev M. *Ma’naviyat asoslari*. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2014. – 240 b.
3. Abdullaeva N., Rasulov Q. *Milliy qadriyatlar va tarbiya muammolari*. – Toshkent: Fan, 2019. – 192 b.
4. Qodirov A. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va tarbiya*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 228 b.
5. Karimova Z. *Oliy ta’limda tarbiya jarayonining milliy asoslari*. // “Pedagogika va psixologiya” jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–50.
6. Mamajonov A. *Milliy qadriyatlar – yoshlar tarbiyasining negizi sifatida*. // “Ma’naviyat” ilmiy-amaliy jurnali. – 2021. – №2. – B. 12–17.
7. Toshpulatov B. *Talabalar ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda integratsion yondashuvlar*. // “Oliy ta’limda innovatsiyalar” jurnali. – 2023. – №1. – B. 33–38.
8. UNESCO. *Rethinking Education: Towards a global common good?* – Paris: UNESCO Publishing, 2015.
9. Dewey J. *Democracy and Education*. – New York: Macmillan, 1916.
10. Xolbekov U. *O‘zbek xalqining ma’naviy merosi*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 214 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Yakubova. G.M
rus tili o'qituvchisi, Qo'qon universiteti
gyakubova79@gmail.com

GO'ZALLIK SO'ZI BILAN BOG'LIQ SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI VA SEMANTIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqola go'zallik tushunchasi va uning ma'nolarining evolyutsiyasi o'rganildi. Go'zallik so'zi etimologiyasidan boshlab, uning tarkibidagi tarmoqlarni, ma'no jihatlarini va estetik hamda axloqiy aspektlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotning maqsadi, go'zallikning bugungi kunda o'rni va unga bo'lgan munosabatlarni yaqqol ko'rsatishdir. Maqola turli madaniy va jamiyatlarda go'zallikning ma'nosi va uning qabul qilinishini taqqoslaydi, shuningdek, go'zallikning til va madaniyatdagi ahamiyatiga diqqat qaratgan holda, uning ta'rifini birlashtirishga harakat qiladi. Xususan, go'zallik kontseptsiyasining tarixi, uning o'zgarishlari va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqligi mazmunan ilmiy tadqiqotni tashkil etadi. Bu tadqiqot oilaviy va ijtimoiy qiyosda, go'zallik haqidagi tushunchalarni haqiqiy tushunish va qiymat berish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy axborotni taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *go'zallik, evolyutsiya, etimologiya, semantika, estetika, axloq, madaniyat, jamiyat, qadriyatlar, nazariya, amaliyot.*

Якубова. Г.М
Преподаватель русского языка, Кокандский университет

ЭТИМОЛОГИЯ И СЕМАНТИКА СЛОВ, СВЯЗАННЫХ СО СЛОВОМ КРАСОТА

Аннотация. *Статья посвящена анализу выражения понятия красоты в языке и изменению его значений на протяжении времени. Основная цель исследования — выявить трансформации значения слова «красота», начиная с его этимологии, структуры и семантических аспектов, а также рассмотреть эстетические и этические характеристики, с особым вниманием к современному восприятию красоты и отношению к ней. Статья проводит сопоставление значений красоты и её восприятия в различных культурах и обществах, а также пытается объединить определения красоты, учитывая её значение в языке и культуре. В частности, исследуется история концепции красоты, её изменения и связь с универсальными ценностями, что составляет основное содержание научного исследования. Это исследование предоставляет теоретическую и практическую информацию, необходимую для настоящего понимания и оценки понятий красоты в семейном и социальном контексте.*

Ключевые слова*: красота, эволюция, этимология, семантика, эстетика, этика, культура, общество, ценности, теория, практика.*

Yakubova. G.M
Teacher of Russian, Kokand University

ETYMOLOGY AND SEMANTICS OF WORDS RELATED TO THE WORD BEAUTY

Annotation. *This article examines the expression of the concept of beauty in language and the evolution of its meanings. The aim of the research is to identify the changes in the meaning of the word "beauty," starting from its etymology, structure, semantic aspects, as well as aesthetic and ethical features, with a focus on the current place of beauty in the modern world and attitudes toward it. The article compares the meanings and perceptions of beauty across different cultures and societies, also attempting to unify definitions of beauty, considering its significance in language and culture. Specifically, it explores the history of the concept of beauty, its changes, and its connection with universal values, which forms the core of the scientific investigation. This research provides theoretical and practical information necessary for a true understanding and evaluation of the concept of beauty in familial and social contexts.*

Keywords: *beauty, evolution, etymology, semantics, aesthetics, ethics, culture, society, values, theory, practice.*

Kirish

Go‘zallik — insonni qadrlash, estetik qanoatga erishish, shoshmasdan zeb-ziyon va tabiatning chiroyli tomonlarini baholash kabi jarayonlarni o‘z ichiga olgan muhim tushunchadir. Tildagi go‘zallikka oid so‘zlar va ularning ma'nolari odamlarning dunyoqarashi, estetik va axloqiy qiymatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda go‘zallik nafaqat tabiat yoki san'at asarlari, balki insonning ichki go‘zalligi va uning axloqiy sifati bilan ham bog‘liqdir. Shunday qilib, go‘zallikning ma'nosi va baholash mezonlari ijtimoiy va madaniy kontekstga qarab o‘zgaradi.

Ushbu maqolaning maqsadi — go‘zallik bilan bog‘liq so‘zlarning etimologiyasini va ularning semantikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganishdir. Maqolada go‘zallik tushunchasi tarixan va tilda qanday shakllanib, rivojlangani, har bir madaniyatda uning mazmuni va mohiyati qanday qabul qilinganini tahlil qilinadi. Go‘zallik bilan bog‘liq so‘zlar orqali insonning estetik va axloqiy qadriyatlari, shuningdek, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini tushunish mumkin. Go‘zallikning tildagi, tarixi va o‘rnidagi o‘ziga xosliklarining tadqiqi, ushbu tushunchalarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatiga yangi nuqtai nazardan yoritishga imkon beradi.

Go‘zallik tushunchasi tilda va madaniyatda muhim o‘rin tutadi, odamlar o‘z hayotidagi ko‘p jihatlarni baholashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. "Go‘zallik" so‘zi o‘zbek tilida, arab tilidan kirgan va bu so‘znig asosiy ma'nosi chiroylilik va estetik jihatdan yoqimli bo‘lishdir. "Go‘zal" so‘zi arab tilida "jamol" va "xusn" so‘zlari bilan bog‘liq bo‘lib, bundan ko‘rinib turibdiki, go‘zallik ko‘proq tashqi ko‘rinish, simmetriya va estetika bilan bog‘liq tushuncha sifatida shakllangan. Odamlar o‘zlarining estetik his-tuyg‘ularini ifoda etish uchun go‘zallikni tilda izohlaydilar va uni davrning ijtimoiy normalariga moslashtiradilar.

I.U.To‘jiboyev o‘z tadqiqotida "Go‘zallik/xunuklik" falsafiy-estetik kategoriya sifatida va uning nazariy asoslari" nomli maqolasida "Go‘zallik tushunchasi sub'yektdagi yoqimli taassurot, xush kayfiyat va quvonch uyg‘otadigan ob'ektdagi estetik xususiyatni tavsiflashga yo‘naltirilgan ilmiy atama. Estetik xususiyat sifatida esa go‘zallik muayyan komillik va yuqori qadriyat, insonni 'erkinlikka olib boradigan yo‘ldir'".

G‘aybullaev Otabek Muhammadievich o‘zining "Estetik madaniyat" nomli monografiyasida shunday yozadi: "Go‘zallik narsalar va hodisalarning mutlaq xususiyati emas. Go‘zallik ma'lum maqsad orqali ro‘yobga chiqadi. Bu narsa vaziyatga qarab go‘zal yoki xunuk bo‘lishi mumkin. Chopishda go‘zal bo‘lgan narsa, kurashda xunuk bo‘ladi va hokazo."

Sokrat uchun go‘zallik bilan yaxshilik o‘rtasida farq yo‘q. To‘g‘ri, Heraklit ham go‘zallikning nisbiyligi haqida gapirgan, ammo u go‘zallikni turli narsa va hodisalarda ko‘rgan.

Sokratning estetik madaniyatga doir fikrlari uning axloqiylik bilan go‘zallik tushunchalarining mushtarakligini, inson ruhi va jismi uyg‘unligi zarurligini ta'kidlashda o‘z ifodasini topgan.

Go‘zallik – nafosatshunoslik kategoriya-si bo‘lib, narsa-hodisalarning nafisligi va nafosatini ijtimoiy-ma'naviy jihatdan baholovchi mezon, ijtimoiy hayotda biron bir narsa yoki kishiga xos xususiyatlarning shaklan va mazmunan uyg‘unligini anglatadigan, turli shakllarda namoyon bo‘ladigan va insonda yoqimli tuyg‘u, zavq, kuchli hayrat hissini hosil qiladigan tushuncha. Manbalarda go‘zallikka berilgan tavsiflar bu borada yaxlit yondashuv, umume'tirof etilgan ta'rif yo‘qligidan dalolat beradi. Masalan, «Huvarnosí Ahura Mazda ko‘p go‘zaldir, go‘zaldir juda» (Zardusht), «Go‘zallik – bu g‘oyalardan iborat g‘oyaning g‘oyasi» (Aflotun), «Go‘zallik – bu turli musiqalar, yaxshi xulq-atvorga to‘g‘ri keladigan, odamlar erishishga havas qiladigan narsalardir» (Abu Nasr Forobiy), «Har qanday go‘zallik, go‘zallikni anglay olgan muhabbat belgisidir» (Abu Homid Ghazoliy), «Go‘zallikka muhabbat qo‘yishning asosida ham aql, ham hissiyot yotadi» (Ibn Sino), «Go‘zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga hush keladi» (Umar Hayyom), «Go‘zallik – manfaatsiz maftunlikning, muhabbatning ob'ekti» (I. Kant), «Go‘zallik – hodisaga aylangan erkinlik» (F. Shiller), «Bizga taalluqli bo‘lmagan hamma narsa go‘zal!» (A. Shopenhauer) shular jumlasidandir. Odatda go‘zallik hushnudlik, zavq bahsh etuvchi hodisa sifatida ham talqin etiladi. Bu go‘zallikka nisbatan sodda, jön va yuzaki qarashdir. Aslida go‘zallik yoqimlilik tuyg‘usi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kishilarda estetik did, ijtimoiy-axloqiy fazilatlarning shakllanishi hamda ma'naviy ehtiyojlarning barqarorlashuviga xizmat qiladi.

Go‘zallik har bir jamiyatda turli shakllarda namoyon bo‘ladi va bu o‘zgarishlar turli tarixiy davrlarning ijtimoiy va madaniy qadriyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, bir jamiyatda jozibali va estetik deb hisoblangan narsa, boshqa jamiyatda keraksiz yoki oddiy bo‘lishi mumkin. G‘allikning ijtimoiy va madaniy jihatlari haqida gap ketganda, har bir jamiyat o‘zining estetik idealarini shakllantiradi va ular asosida turli muhit, yorqinlik va tabiiy sharoitlar yotadi. Madaniyat va tarixiy bosqichlarga qarab, g‘allik o‘z mazmunini o‘zgartirib, yangi ma’nolarga ega bo‘lgan.

Zamonaviy jamiyatda go‘zallikning qiymatlari va normalari o‘zgargan. Ma'naviy va axloqiy go‘zallik talablari jamiyatda o‘sgan va rivojlangan, shuning uchun shunchaki ko‘rsatuvchi yoki tashkiliy go‘zallik orqali baholangan narsalar zamonaviy o‘zgartirishlar bilan izohlanadi. Ushbu ijtimoiy ko‘rsatkichlar har bir odamning tarzi, yashash standarti, axloqiy qadriyatlari va bo‘sh vaqtlariga bog‘liq bo‘ladi.

Go‘zallik konsepsiyasi tarixi doimo dinamik bo‘lib, jamiyatlar va millatlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvlar va taraqqiyot bilan bog‘liq. Agar o‘tmishda go‘zallikning

boshqa normalari bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda uning aniq va birjiga kelgan ta'rifini topish qiyin. Har bir tarixiy davr, go‘zallik konsepsiyasining o‘zgarishini va yangi munosabatlarni kerak qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

G‘ozallikning etimologiyasi va semantikasiga oid tadqiqotlar turli adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Ushbu manbalar g‘ozallik tushunchasining tarixiy va madaniy rivoji, shu bilan birga, tildagi o‘zaro ta'sir va uning ma'nolarining evolyutsiyasi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni taqdim etgan.

Bu manba g‘ozallikning estetika va axloqiy ko‘rinishlarini qamrab olib, uning ijtimoiy va madaniy o‘rni bo‘yicha keng nazariy asoslar taqdim etadi. Bobojonovning tadqiqotiga ko‘ra, g‘ozallik odamlarining estetika tushunchalari jamiyatning taraqqiyotiga, madaniy merosga va ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq holda shakllanadi [1, 117].

Ismatova asarida g‘ozallikning adabiyotdagi o‘rni va uning san'at bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. U g‘ozallik kontseptsiyasini adabiy asarlardagi nafaqat tashqi, balki ichki — axloqiy va ma'naviy g‘ozallik bilan ham bog‘liqligini ta'kidlaydi [2, 125].

Qodirovning ishi g‘ozallikning tildagi evolyutsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, so‘zlar va tushunchalarning ularning tarixi va ma'nosi bilan bog‘liqlikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ushbu manbada g‘ozallik so‘zining paydo bo‘lishi va ma'nosi, shuningdek, tildagi o‘zgarishlar va uning madaniy ahamiyati xususida batafsil ma'lumot berilgan [3, 112].

Bu manba g‘ozallikning semantik o‘rganilishiga alohida e'tibor qaratgan. Abdullaevning fikricha, g‘ozallik nafaqat estetika, balki ma'naviy qadriyatlarni ham o‘zida mujassam qilgan. U g‘ozallikning ma'nosi va uning jamiyatda qabul qilinishini aniqlashda semantika va estetika orqali qarashlarning muhimligini ta'kidlaydi [4, 117].

Raxmonovning asari g‘ozallikning ma'naviy va axloqiy o‘rniga qaratilgan. Uning ta'kidlashicha, g‘ozallikning ma'naviy o‘lchamlari insonning ichki dunyosi, axloqiy holati va uning ijtimoiy mas'uliyati bilan bog‘liqdir. Buning natijasida g‘ozallik tushunchasi faqat estetika jihatlari bilan cheklanmaydi, balki uning ma'naviy tomonlari ham muhim ahamiyatga ega [5, 142].

Metodologiya

Ushbu tadqiqot metodologiyasi go‘zallik tushunchasining etimologiyasi va semantikasiga oid to‘liq va aniq ma'lumotni yig‘ish va tahlil qilishga qaratilgan. Maqsadimiz — go‘zallikning tildagi va madaniy kontekstdagi ma'nosini o‘rganish, uning tarixi va ijtimoiy rivoji, shuningdek, har bir madaniyatdagi o‘rnini tushunishdir. Bunda bir nechta ilmiy usullardan foydalanilgan.

Go‘zallik tushunchasi vaqt o‘tishi bilan o‘zgargan va rivojlangan. Shuning uchun tarixiy-evolyutsion usul ushbu tushunchalarning shakllanishini va o‘tmishdan bugungi kungacha bo‘lgan o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun qo‘llanilgan. Bu usul orqali go‘zallikning tarixi va tildagi evolyutsiyasi, uning xalq va madaniyatlar orasida qanday rivojlangani, qanday ma'noda qabul qilinganini o‘rganilgan. Ma'ruzalar, tarixiy manbalar va adabiyotlar orqali go‘zallikning ma'nolarining o‘zgarishi aniqlangan.Grekcha "kallos" (καλός) va Lotincha "pulchritudo" so‘zlari go‘zallikning tarixiy tushunchalariga misol bo‘la oladi. Greklar va Rimliklar uchun go‘zallik estetika va axloqning birlashuvi sifatida ko‘rilgan. Ularning go‘zallik tushunchasi ideal jismonan va axloqan to‘liqlik bilan bog‘liq edi. Bunday go‘zallik tushunchasi o‘tmish davrlarida estetika va axloqiy majburiyatlarning chuqur uyg‘unligi bilan ishlatilgan.

Go‘zallikning semantikasi, ya'ni tildagi ma'nosini o‘rganish muhimdir. Semantik tahlil usuli orqali so‘zning ma'nosi, uning ma'nolarining o‘zaro bog‘liqligi va ularning tildagi ifodalanish tartibi o‘rganilgan. Bu usul tilning muhim komponentlarini tahlil qilish, aniq bir so‘zning ma'nosini va ularning tarixi, jamiyatdagi umumiy tushuncha va qadriyatlar bilan bog‘liqligini aniqlashda qo‘llaniladi.

"Go‘zal" so‘zi, tilda o‘zgarmas ma'noga ega bo‘lishi mumkin. Misol uchun, "go‘zal tabiat" degan iborada "go‘zal" tabiatning estetik yoki vizual qiyofasini anglatadi, "go‘zal inson" yoki "go‘zal ichki dunyo" ma'nosini esa shaxsning axloqiy yoki ruhiy holatini tasvirlash uchun ishlatish mumkin. Bu semantik farq go‘zallikning universal va kontekstga bog‘liq tarzda o‘zgarishiga olib keladi.

Go‘zallik — har bir madaniyatda o‘z ifodasini har xil ko‘rinishda topgan. Madaniy tahlil usuli go‘zallikning madaniy kontekstdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. Bu usul orqali go‘zallikning xalqlar va jamiyatlardagi muayyan ko‘rinishlari, estetik talablar va an'analari o‘rganilgan. Shuningdek, go‘zallik tushunchasi va uning tadqiqotida jamiyatning axloqiy va estetik mezonlari, o‘ziga xos qiyofalari tahlil qilingan.

Yaponiyaning an'anaviy go‘zallik tushunchasi "wabi-sabi" bilan ifodalanadi. Bu tushuncha egalari aniq va to‘g‘ri shakllarni ko‘rsatishdan ko‘ra, xira, nomutanosiblik va yorqinlikni qadrlaydilar. Yaponiyada go‘zallik tabiiylik va aql-bodiat bilan bog‘langan chiroylar orqali namoyon bo‘ladi. E'tirof etilgan wabi-sabi — o‘tkinchi bo‘lish, vaqtning ta'siri va hayotning o‘tishini xursandchilik bilan qabul qilishdir.

Lingvistik tahlil orqali go‘zallik so‘zining tildagi qo‘llanilishi, so‘zning shakllanishi, sintaktik va morfologik xususiyatlari o‘rganilgan. Lingvistik usul go‘zallik tushunchasi va uning tildagi izhori, so‘zlar va ularning komponentlari, ularning tuzilishini o‘rganishda ishlatiladi. Bu usul orqali go‘zallikning tildagi ma'nolarini aniqlash va uning semantik tarkibini tushunish mumkin.

O‘zbek tilida "go‘zal" so‘zi sintaktik jihatdan turli

usullarda ishlatilishi mumkin. Masalan, "go‘zal qiz" (subyekt va sifat) yoki "go‘zallikning ramzi" (so‘zning sifat mavjudligini isbotlaydi). Lingvistik tahlil shuni ko‘rsatadiki, go‘zallik so‘zi faqat estetik mazmunda emas, balki madaniy va psixologik mazmunda ham o‘rganilgan.

Taqqoslash usuli tadqiqotda turli madaniyat va tillardagi go‘zallikning izhori va qabul qilinishidagi farqlar va o‘xshashliklarni aniqlash uchun qo‘llanilgan. Bu usul orqali go‘zallik tushunchasi turli jamiyatlarda qanday o‘zgarganini, ularning taraqqiyot bosqichlarida qanday ma'nolarga ega bo‘lganini tahlil qilish mumkin. Taqqoslash usuli insonlarning estetik his-tuyg‘ularini, shuningdek, ularning ijtimoiy va madaniy qiyosini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Evropa estetikasi ko‘pincha simmetriya va garmoniya asosida bo‘lsa, Arablar estetikada ko‘proq ruhiy va ma'naviy go‘zallikni qadrlashgan. Evropa madaniyatida "klassik" go‘zallik uzoq va aniq chizmalar va simmetrik shakllar bilan izohlanadi, Arab madaniyatida esa chiroylik ko‘pincha ixtiyoriylik va ruhiy xosiyatlar bilan bog‘lanadi.

Tadqiqotda adabiyotlar, tarixiy manbalar, falsafiy va estetik ishlar, shuningdek, zamonaviy lingvistik va madaniy tadqiqotlardan foydalanilgan. Bular go‘zallik tushunchasining tildagi shakllanishini, semantik o‘zgarishlarni va madaniy kontekstdagi o‘rnini aniqlashga yordam berdi. Tadqiqotlarda Aristotelning "Poetika"si va Platonning "Respublika"si, shuningdek, XX asr falsoflari (Martin Xaydegger, Immanuel Kant)ning ishlaridan va zamonaviy lingvistik tadqiqotlar (masalan, Vitaliy Preobrazhenskiyning semantik tahlili)dan foydalanilgan. Bu manbalar go‘zallik tushunchasining shakllanishini va uning tarixiy-madaniy mazmunini tushunishga yordam berdi.

Natijalar

Ushbu tadqiqotda go‘zallik tushunchasining etimologiyasi va semantikasiga oid turli o‘rganishlar va tahlillar o‘tkazildi. Go‘zallik so‘zi va uning ma'nolari tilda va madaniyatda har xil ijtimoiy va estetik kontekstlar bilan bog‘liq ravishda shakllangani aniqlandi. Bu o‘rinda go‘zallikning ta'riflari, ma'nolari va tarixiy o‘zgarishlari bo‘yicha chiqarilgan xulosalar muhim ahamiyatga ega.

Go‘zallikning so‘zining tildagi ma'nosini o‘rganish, uning qo‘llanilishi, shakllanishi va ma'nolarining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, go‘zallik so‘zi umumiy ma'noda estetik qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, har bir jamiyat va madaniyatda u yangi mazmun va ma'noga ega bo‘lgan. Mazkur tadqiqotda ta'kidlanganidek, go‘zallik — nafaqat tashqi ko‘rinish, balki ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni ham o‘zida mujassam qilgan tushuncha. Bu o‘zgarishlar va shakllanishlar jamiyatning umumiy madaniy taraqqiyoti va axloqiy mezonlariga muvofiq rivojlangan.

Go‘zallik madaniyatdagi ijtimoiy va estetik bag‘rikenglikning ramzi sifatida qabul qilinadi. Madaniyatda go‘zallikning qabul qilinishi uning ijtimoiy, ma'naviy va estetik ko‘rinishlarini aniqlashga yordam beradi. Madaniy kontekstda go‘zallik nazariyalari va san'atning rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlar natijalari, bu tushunchaning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarganini va uning har xil madaniyatlarda qanday qabul qilinganini ko‘rsatadi. Madaniy tahlil orqali go‘zallikning universal va mavjud madaniyatlarga xos muhim xususiyatlari aniqlanadi.

Go‘zallik so‘zi va uning ma'nolari tildagi evolyutsiyasida har xil etimologiya va semantik shakllar bilan bog‘liq. Go‘zallik so‘zi har bir tilda va madaniyatda o‘z o‘zgarishlariga, ma'nolarining turlichaligini aniqlashga yordam beradi. Mazkur tadqiqotda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatishga intilish, go‘zallik so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan semantik va sintaktik masalalarni tushunishga yordam berdi. Go‘zallikning semantik tahlilidan ko‘rsatilganidek, uning tildagi shakllanishi va ma'nolarining o‘zgarishi jamiyatning estetik qiymatlari va qadriyatlariga bog‘liqdir.Go‘zallik tushunchasining keyingi tadqiqotlarda yanada chuqur o‘rganilishi zarur. Zamonaviy tadqiqotlar go‘zallikni faqat estetik qadriyatlar bilan bog‘lamay, balki uning axloqiy, psixologik va ijtimoiy jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu sohadagi kelgusi tadqiqotlar uchun yana bir muhim yo‘nalish — go‘zallik tushunchasining globalizatsiya va interkultural aloqalarga ta'siri bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, go‘zallikning zamonaviy olamidagi ko‘rinishlari va inson tafakkuriga bo‘lgan ta'siri tadqiq etilsa, bu sohada yangi yangiliklar kiritiladi.

Go‘zallikning kontseptual tarkibi ham muhim bo‘lib, uning tarkibiy elementlarining semantik va estetik o‘rni aniqlanadi. Ba'zi tadqiqotchilar go‘zallik tushunchasining ahamiyati va uning ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishini tilning va madaniyatning ta'sirida ko‘rsatadi. Buning bilan birga, go‘zallikning o‘rganilishi faqat estetik va axloqiy tomonlari bilan cheklanmasdan, uning jamiyatni shakllantirishdagi o‘rni va ta'sirini ham o‘rganish talab etilmoqda.

Jamiyatda go‘zallikning qabul qilinishi va estetik qadriyatlar yana-da dinamik ravishda o‘zgarishi mumkin. Jamiyatning turli qatlamlarida go‘zallik tushunchasiga bo‘lgan munosabatlar va qiyofalar ham o‘zgarishlarga uchraydi. Ushbu tadqiqotlardan ko‘rinib turganidek, go‘zallik har bir zamon va makonda o‘zining yangi mohiyatiga ega bo‘lib, uning ijtimoiy va estetik mazmunlari faqat yangilanib bormoqda.

Muxokama

Go‘zallik haqidagi tasavvurlarning evolyutsiyasini o‘rganish ko‘p tomonlama yondashuvni talab etadi, chunki go‘zallikka nisbatan ta'riflar va tushunchalar doimo ijtimoiy, madaniy va tarixiy shartlar bilan chambarchas bog‘langan. Bu tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, go‘zallik haqidagi tasavvurlar har bir davrda o‘zgarib, yangi falsafiy va estetik kontseptsiyalarga

asoslangan. Ijtimoiy munosabatlar, madaniy oqimlar va falsafiy qarashlar go‘zallik tushunchasining shakllanishiga katta ta'sir ko‘rsatganini aniqladi.

Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, Yunon va Rim madaniyatlarida go‘zallik tushunchasi jismoniy mukammallik va simmetriya bilan bog‘liq bo‘lgan. Ushbu davrlarda go‘zallik tabiatning ideallashtirilgan ko‘rinishi sifatida o‘rganilgan. Platon va Aristotelning falsafiy qarashlarida go‘zallik ideallashtirilgan va abstrakt tushuncha sifatida yaratilgan bo‘lib, bu falsafiy muammolarga falsafiy yondashuvlar va tabiiy jarayonlar orqali javob berishni talab qilgan.

Renessans davrida go‘zallik tushunchasi aniq o‘zgardi. Gumanizmning taraqqiyoti bilan birga, insonning ichki jozibasi va ma'naviy mukammalligi go‘zallikning yangi talqiniga aylanib, go‘zallik faqat tashqi ko‘rinish emas, balki ichki dunyo va ruhiy mukammallik bilan ham bog‘landi. Bu davrda Mikelandjelo va Leonardo da Vinchi kabi atoqli san'atkorlar inson jismining mukammalligini faqat jismonan emas, balki ma'naviy jihatdan ham ko‘rsatishga intildilar. Bu esa, zamonaviy estetika uchun go‘zallikni shaxsning ichki va jismoniy mukammalligi bilan bog‘lashning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Tadqiqotdagi qiyosiy tahlil shundan dalolat beradiki, Yunon va Rim madaniyatlarida go‘zallik tushunchasi simmetriya va tabiat bilan chambarchas bog‘langan bo‘lsa, Renessans davrida go‘zallik tushunchasi yanada kengaydi va insonning ma'naviy, ichki dunyosi bilan bog‘landi. Bu davrda go‘zallik faqat tabiatning mukammalligi va simmetriyasi bilan bog‘liq bo‘lishdan tashqari, insonning ichki irodasi va qadriyatlarining oliy darajadagi ishorasi sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, modernizm va postmodernizm davrlarida go‘zallik shaxsiy tajriba va ijtimoiy munosabatlar orqali talqin qilindi.

Zamonaviy estetika doirasida go‘zallik tushunchasi ko‘pincha subyektiv bo‘lib, har bir shaxsning his-tuyg‘ularidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Modernistik va postmodernistik qarashlarda go‘zallik, uning obyektlariga nisbatan emas, balki ular qanday qabul qilinishiga bog‘liqdir. Bu evolyutsiya go‘zallik tushunchasining individuallashtirilishini va uning ijtimoiy shartlarga hamda shaxsga bog‘liqligini namoyon qiladi.

Tadqiqot natijalari go‘zallikning ijtimoiy kontekstiga e'tibor qaratishning muhimligini ko‘rsatadi. Go‘zallikni o‘rganishda kontekstual tahlil muhim rol o‘ynaydi. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlari go‘zallikning qabul qilinishini va tasavvur qilinishini shakllantiradi. Masalan, Renessans davrida insonning ichki olami va tabiatga bo‘lgan munosabati go‘zallikning muhim omillaridan biriga aylandi. Bu orqadan insonning ma'naviy qadriyatlari va jismoniy mukammallikning hamohangligiga ishora qilindi.

Shuningdek, zamonaviy jamiyatda go‘zallik ko‘pincha marketing va ommaviy madaniyat tomonidan shakllantiriladi. Yana bir muhim jihat — go‘zallikning ko‘pincha ideal tasvirlar yoki modellar orqali namoyish etilishi. Bu esa zamonaviy jamiyatda go‘zallikni aniq me'yorlar bilan cheklash va uning chegarasini belgilashga olib kelgan. Go‘zallik hamda shunga o‘xshash tushunchalarning zamonaviy yangicha tushunchalar orqali ifodalanishi, jamiyatning o‘zgaruvchan madaniy holatini va umumiy kuzatishlarini aks ettiradi.

Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, go‘zallik haqidagi falsafiy tushunchalar va kontseptsiyalar shakllanishi yoshlarning estetik dunyoqarashiga katta ta'sir ko‘rsatgan. Platon va Aristotelning falsafiy qarashlari go‘zallikni abstraksiya va idealizm bilan bog‘lagan bo‘lsa, zamonaviy falsafada go‘zallik shaxsiy tajriba va individualizmga asoslanib, uning aniq kontseptsiyalariga nisbatan yangi qarashlar o‘rnatilgan.

Sartre va Russo kabi falsafachilarning ishlari zamonaviy go‘zallikning ijtimoiy va individual ko‘rinishlarini tushunishda asosiy yo‘nalishlardan bo‘lib, ularning fikrlari go‘zallikning subyektiv tushunchalarini to‘g‘ri va ko‘plab madaniyatlar hamda tarixiy o‘tmishlarning mutanosib kuzatishlari orqali tushunishga yordam berdi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotning maqsadi go‘zallik bilan bog‘liq so‘zlarning etimologiyasi va semantikasiga aniqlik kiritish, ularning tildagi va madaniyatlardagi evolyutsiyasini o‘rganish, shuningdek, go‘zallik tushunchasining jamiyat va ijtimoiy munosabatlar kontekstidagi ahamiyatini aniqlashdan iborat edi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar bir qancha muhim xulosalarni keltirdi: Go‘zallik so‘zi va uning ma'nolari tilda aniq va jadallik bilan o‘zgargan. Go‘zallik faqat tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq emas, balki ma'naviy va axloqiy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, go‘zallik tushunchasi qo‘llangan til va madaniyatga ko‘ra o‘zgarib, o‘zining shaxsiy va jamiyatdagi qiymatlariga yordam beradi.

Go‘zallikning har bir madaniyatdagi o‘rni va ahamiyati turlicha. Go‘zallik tushunchasi jamiyatning estetik, axloqiy va ijtimoiy me'zonlari orqali shakllanadi. Madaniyatning rivojlanishi go‘zallikning ma'nolariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'sir qilishi aniqlandi, va bugungi kunga kelib, go‘zallik tushunchasi globalizatsiyaning ta'sirida yangi ko‘rinishlarga ega bo‘lmokda. Go‘zallik so‘zining lingvistik tahlili va semantik o‘zgarishlari tildagi ma'nolarning murakkabligini ko‘rsatdi. Go‘zallikning tildagi shakllanishi va ma'nolari jamiyat va ijtimoiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Semantik tahlil orqali go‘zallikning ma'nolarini aniqlash va ularning o‘zgarishini tushunish mumkin bo‘ldi.

Xozirgi zamonda go‘zallik tushunchasi globalizatsiyaning ta'sirida shakllanmoqda. Turli madaniyatlar va tillar o‘rtasidagi aloqalar go‘zallikning

ko‘rinishlariga ta'sir qilib, uning universal talablar bilan javob berishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, globalizatsiya jarayonida go‘zallikning xususiyatlari va taraqqiyoti aniq bir me'yorga muvofiq kelmagan holda yangi kontekstdan shakllanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Yunusov, A. (2010). Til va madaniyat. Toshkent: «Sharq» nashriyoti.

2.Qodirov, M. (2014). O‘zbek tilining semantikas. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

3.Abdullaev, U. (2016). Go‘zallik va estetika. Toshkent: Akademiya nashriyoti.

4.Levi-Strauss, K. (2002). Mif va go‘zallik. Moskva: Nauka.

5.Xalilova, L. (2018). Semantika va tilshunoslik. Toshkent: Fan va texnika nashriyoti.

6.Dorn, L. (2009). Slovar' estetiki. Sankt-Peterburg: Izdatel'stvo "Logos".

7.Peychinovich, M. (2011). Etimologiya va so‘zlarning ma'nosi zamonaviy tillarda. Belgrad: Institut slavistiki.

8.Savel'eva, T. (2007). Madaniyat va estetika: zamonaviy tahlillar. Moskva: Visshaya shkola.

9.Aliyev, Sh. (2012). Go‘zallik va axloq. Toshkent: Fan va texnologik nashriyat.

10. Glushkova, N. (2013). Madaniy ifoda va estetika. Moskva: Prosveshcheniye.

11. Madumarov Muhammadodil Matkomilovich (2025) READING BETWEEN THE LINES: USING LITERATURE TO BOOST ENGLISH LITERACY. Vol. 1 No. 7 (2025): MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

12. G‘ulomov, J. (2024). SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O‘XSHASHLIK VA FARQLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 202–204. https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1056

13. КОНЦЕПЦИЯ "КРАСОТА" КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ. (2024). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(12), 135-143.

14. Якубова Гўзалхон Махмудовна. (2024). ТРУДНОСТИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ. University Research Base, 333–338. Retrieved from

15. Abdukaxxorova Nargiza Rustamovna. (2024). MADANIYATLARARO NOVERBAL MULOQOTDA TEXNOLOGIYALARNING ROLI: ONLAYN PLATFORMALAR VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI. University Research Base, 37–40. Retrieved from

16. Abdukaxxorova, N. (2024). XORIJIY TILLARNI O‘RGATISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. University Research Base, 926–929. Retrieved from

17. Adkhamkhoja, A. (2024). Formation Of New Method Schools and Spiritual Renewal. Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik dan Humaniora, 4(2).

18. Мадумаров, М. (2024). ҚАҲРАМОН ҲАРАКТЕРИНИ ОЧИШДАГИ ЭКСТРАЛИНГВИСТИК ВОСИТАЛАР ВА ТАРЖИМА. Kokand University Research Base, 173-179.

19. Muhammadodil, M. (2023). TRANSLATION OF THE IMAGERY OF NATURE IN THE NOVEL “DAYS GONE BY” BY ABDULLA QADIRI. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 915-919.

20. Умурзакова, К. (2024). НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ–ИМПУЛЬС К САМОРАЗВИТИЮ СТУДЕНТОВ. YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 1-4.

21. Умурзакова, К.К. (2022). Русский язык: вчера, сегодня, завтра.

22. Умурзакова, К. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА МЕТОДА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСТОРИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. Экономика и социум , (6-2 (109)), 553-557.

23. Умурзакова, К. (2024). ТРУДНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(4), 10-18.

24. Уразкулова, А. В. (2024). ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ ЯЗЫКУ И СПОСОБАМ ЕГО ИЗУЧЕНИЯ. Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, 2(5), 14-22.

25. Якубова, Г. (2024). КОНЦЕПЦИЯ" КРАСОТА" КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(12), 135-143.

26. Makhmudovna, Y. G. (2024). METAPHORS AND IMAGERY IN THE CONCEPT OF BEAUTY. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 2(5), 138-150.

27. Arturovna, T. G. (2024). TRADITIONAL METHODS OF TEACHING RUSSIAN AS A BASIS FOR SUCCESSFUL LANGUAGE ACQUISITION. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 2(4), 759-765.

28. Шерефетдинова, З. Р. (2024). Социально-Педагогические Подходы К Внедрению Инноваций В Обучение Неродному Языку. Miasto Przyszłości, 54, 1658-1663.

29. Шерефетдинова, З. Р. (2024). Динамика Взаимодействия Языка И Культуры В Эпоху Глобализации. Miasto Przyszłości, 54, 1664-1669.

30. Yakubova, G. (2021). The effect of deprivation on pre-preschool communication skills and psychological development. Psychology and Education Journal, 58(1), 2031-2040.

31. Якубова, Г. М. (2024). ВАЖНОСТЬ РОЛИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ГЛОБАЛИЗИРОВАННОМ МИРЕ. Kokand University Research Base, 357-361.

32. Maxmudovna, Y. G. Z. (2024). THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT ASSIGNMENTS IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE LESSONS. Kokand University Research Base, 351-356.

33. Yakubova, G. M. (2024). Priorities of Educational System Technology. Kokand University Research Base, 323-327.

34. Maxmudovna, Y. G. Z. (2024). METHODS AND TECHNIQUES OF TEACHING RUSSIAN LANGUAGE IN NON-PHILOLOGICAL FIELDS. Kokand University Research Base, 339-344.

35. Maxmudovna, Y. G. Z. (2024). ISSUES OF RUSSIAN LANGUAGE TEACHING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Kokand University Research Base, 345-350.

36. Якубова, Г. М. (2024). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА–СОВРЕМЕННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ И БУДУЩИЕ НАПРАВЛЕНИЯ. Kokand University Research Base, 328-332.

37. Тевосян Г.А. (2024). РОЛЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ОБУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ. Kokand University Research Base, 262–268. Retrieved from

38. Tursunbayevich, B. A., Vitalyevna, U. A., Sadullayevich, U. S., & Vyacheslavovna, O. A. MODERNIZATION OF THE PROTEST OF TEACHING RUSSIAN AND ENGLISH IN PRIMARY EDUCATION.

39. M.M.Madumarov(2023) "Inglizcha tarjimada o‘zbekcha o‘xshatishlarni tiklash"(O‘tkan kunlar misolida). Tarjima san'ati(maqolalar to‘plami) 7-kitob-Toshkent, " Muharrir nashiryoti", 167

40. Мадумаров, М. (2024). ҚАҲРАМОН ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДАГИ ЭКСТРАЛИНГВИСТИК ВОСИТАЛАР ВА ТАРЖИМА. Kokand University Research Base, 173-179.

41. Muhammadodil, M. (2023). TRANSLATION OF THE IMAGERY OF NATURE IN THE NOVEL “DAYS GONE BY” BY ABDULLA QADIRI. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 915-919.

42. Shukurjonova, M. S. (2024). HISTORICAL AND CULTURAL SPACE AND FORMATION OF COMMUNICATION COMPETENCIES. Western European Journal of Linguistics and Education, 2(11), 73-75.

43. Shahlo, M. (2024). FUNDAMENTAL BASES OF FINE ART TERMS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 229-231.

44. Омонов, Б. (2024). Происхождение и историческое развитие гендерной терминологии. Общество и инновации, 5(6), 166-174.

45. Khabitovich, O. B. (2024). RELEVANCE OF GENDER TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 2(3), 247-257.

46. Omonov, B. (2022). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ГЕОЛОГИЯ СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Scienceweb academic papers collection.

47. Omonov, B. (2022). Ingliz va o ‘zbek tillarida geologiyaga oid terminlar o ‘zlashishi kognitiv jarayon sifatida. Scienceweb academic papers collection.

48. Islomjon o‘g, G. U. J., & Ruhshona, B. (2025, March). O ‘ZBEK MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI ERTA YOSHDAN O ‘QITISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 3, No. 3, pp. 22-25).

49. Омонов, Б. (2024). Происхождение и историческое развитие гендерной терминологии. Общество и инновации, 5(6), 166–174.

50. Умурзакова, К. (2024). ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР ВА ИДЖТИМОЙ ИННОВАЦИЯЛАР: КЕЛАДЖАК УЧУН ИМКОНИЯТЛАР. Университетская исследовательская база , 733–737.

51. Коммуна УМУРЗАКОВА. (2025). ИЗУЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ НА УРОКАХ. Hamkor Konferensiyalar, 1(11), 318–324. Retrieved from

52. Умурзакова, К. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА МЕТОДА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСТОРИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. Экономика и социум , (6-2 (109)), 553-557.

53. Умурзакова, К. (2024). ТРУДНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(4), 10-18.

54. Ergashev, O. (2025). EDUCATION AND RESEARCH IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION. EDUCATION AND RESEARCH IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION, 1(1), 723-728.

55. Тевосян Г.А. (2024). ПРОФЕССИОНАЛЬНО ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ РАЗЛИЧНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В ВУЗАХ. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 323–326.

56. Тевосян Г.А. (2024). ЯЗЫК И КУЛЬТУРА : РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ . QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 348–351.

57. Абдукахсорова, Н. (2024). ЛИНГВОКУЛЬТУРНОИЗУЧЕНИЕ ЗАГАДОК НА РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. Ижтимоий-гуманитарный фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Актуальные проблемы гуманитарных и социальных наук. , 4 (12), 374–379.

58. Абдукаххарова, Н. Р. (2022). Особенности организации самостоятельной работы и внеклассных работ на уроках русского языка. Oriental Art and Culture, 3(2), 636-639.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Parpiyeva Mavjuda Sobitjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti assistenti

BADIIY OBRAZNING XARAKTER DINAMIKASI (J.Ergashevaning “Tanazzul” qissasi misolida)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada badiiy asardagi xarakter tushunchasi haqida atroflicha fikr yuritilib, uning ilmiy va nazariy ta’riflari tahlilga tortiladi. “Xarakter”ga xos jihatlar, mezonlar asosan, Jamila Ergashevaning “Tanazzul” qissasi asosida ko‘rib chiqilib, yozuvchining xarakter yaratishdagi individual uslubiga ham e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *xarakter, xususiyat, maqsad, o‘ziga xoslik, reallik, mahorat, individual uslub, sujet, kompozitsiya, dialog, monolog, ekspozitsiya, kulminatsiya, portret, til, muallif nutqi, personaj nutqi, obyektiv, subyektiv.*

Парпиева Маджуда Собижон кизи
Андижанский государственный педагогический институт
Ассистент филологического факультета

ДИНАМИКА ХАРАКТЕРА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА (На примере рассказа Ж. Эргашевой «Таназзул»)

Абстрактный: *В статье дается всестороннее рассмотрение понятия персонажа в произведении искусства и анализируются его научные и теоретические определения. Аспекты и критерии, характерные для «характера», рассматриваются преимущественно на примере повести Джамили Эргашевой «Таназзул», а также уделяется внимание индивидуальному стилю писателя в создании характера.*

Ключевые слова: *характер, черта, цель, неповторимость, реальность, мастерство, индивидуальный стиль, сюжет, композиция, диалог, монолог, экспозиция, кульминация, портрет, язык, авторская речь, речь персонажа, объективное, субъективное.*

Parpiyeva Majvuda Sobitjon kizi
Andijan State Pedagogical Institute
Assistant of the Faculty of Philology

DYNAMICS OF THE CHARACTER OF AN ARTISTIC IMAGE (Based on the story “Tanazzul” by J. Ergasheva)

Abstract: *The article provides a comprehensive examination of the concept of character in a work of art and analyzes its scientific and theoretical definitions. Aspects and criteria characteristic of “character” are considered mainly on the example of the story “Tanazzul” by Jamila Ergasheva, and attention is also paid to the individual style of the writer in creating a character.*

Keywords: *character, trait, goal, uniqueness, reality, skill, individual style, plot, composition, dialogue, monologue, exposition, culmination, portrait, language, author’s speech, character’s speech, objective, subjective.*

Kirish

Adabiyot – bu inson qalbining cheksiz samosi, unda har bir satr yulduz misol yaltirab, hayot haqiqatini yoritadi. U asrlar bo‘yi inson dardini, umidini, armonini, quvonchini va iztirobini o‘z bag‘riga oldi. O‘zbek adabiyotining yurak urishida hamisha inson va uning taqdiri eng muhim mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, 1980-yillarning avvalida adabiyot maydoniga chiqqan yangi avlod yozuvchilari o‘z so‘zlari bilan yuraklarga yo‘l topdi, tasvir va tahlil vositalarini yangiladi. Bu davrda inson shunchaki voqealar ishtirokchisi emas, balki ruhiy olami, kechinmalari, ichki iztiroblari bilan badiiy obraz sifatida ko‘zga tashlana boshladi.

Asl kasbi insonshunoslik bo‘lgan adabiyot hamma davrlarda ham insonni e’zozlagan. O‘zbek realistik nasri bundan mustasno emas, albatta. Biroq bugungi davr adabiyoti va san’atining bosh xususiyati insonparvarlik tuyg‘usining har qachongidan chuqurroq, kengroq va yuksakroq darajalarga chiqishi bilan ifodalanadi. 80-yillarning avvalida o‘zbek hikoyachiligi va qissachiligida xuddi shunday ko‘tarilish kuzatildi. Tasvirlanayotgan qahramonga shaxs sifatida e’tibor kuchaydi, ya’ni

insonning shaxslik a'moli badiiy tadqiq obyektiga aylana boshladi. Qahramon shaxsi, ruhiy olami, shuuri tasviriga moyillikning kuchayishi hikoya va qissalarning sujet qurilishini, tasvir maromini, konfliktlar tabiatini yangiladi, inson ruhiy holatini taftish etuvchi, uning o'zligini, "men"ini kashf etishga qaratilgan modern adabiyotining ilk kurtaklari yaratila boshladi, bu kurtaklarni ayol adibalarimiz ijodida ham ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism

Bu badiiy uyg'onishning yorqin namoyandalaridan biri – Jamila Ergashevadir. Uning ijodi, xususan, "Tanazzul" qissasi – o'zbek adabiyotida inson ruhiyatini teran yoritishga bo'lgan dadil va jasoratli qadamdir. Yangicha uslubda qissalar yozgan J.Ergashevaning "Tanazzul" qissasida inson ma'naviy olamining tanazzuli, zamonaviy jamiyatning murakkabliklari va insoniylik qadriyatlarining yo'qolib borishi markaziy mavzu sifatida talqin qilingan bo'lib, qissadagi vaqt va makonning subyektiv tasviri, qahramonlar ichki dunyosi asosiy e'tiborda bo'lib, voqealar xronologik tartibda emas,balki ruhiy kechinmalar oqimi orqali beriladi. Bu qissada faqat voqealar zanjiri emas, balki hayotda charchagan yuraklarning nolasi, qulab borayotgan orzular, yo'qotilgan mehr, insoniylikdan uzoqlashgan jamiyat talqini mavjud. Har bir obraz go'yo hayot yo'llarida charchab, o'zini topolmay turgan, boshini quyi solgan, hayot savollariga javob izlayotgan inson timsolidir.

Jamila Ergasheva ijodida istiqlol davri qissa va hikoyalarida dunyoni, insonni qayta nazardan o'tkazar ekan, shaxs ehtiyojlari va manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Har qanday qadriyat shaxs manfaati nutqayi nazaridan baholanadi. Bunday hollarda insonning, shaxsning eng nozik, eng bokira kechinmalari ham tarixiy hodisa ahamiyatiga teng ko'riladi. Yozuvchining aksariyat asarlari inson va uning ko'ngil olami, ruhiy kechinmalari badiiy talqin etishga qaratilgani bilan e'tiborga sazovor bo'lib, yozuvchining adabiyot haqidagi kuzatishlari asosida o'z adabiy-estetik pozitsiya ijod labaratoriyasi va ijod psixologiyasini o'rganishda muhim manba bo'ladi. Yozuvchining ijod jarayoni, ta'sirlanish omillari, bilim saviyasi, mahorati kabi masalalar adabiyotshunoslikning azaliy muammolari jumlasidandir.

Ergasheva qalamiga mansub har bir obraz – hayotiy, yurakdan tug'ilgan. Ular sahnadagi aktyorlar emas, balki ko'ngildagi haqiqat.

Ziyodullo – "Tanazzul" qissasining bosh qahramoni, ichkilik va yolg'izlik domiga tushib, o'zini tobora yo'qotib borayotgan bir qalb egasi. Uning borligi jamiyatning befarqligi, mehrsizligi, insonni "inson" deb tan olmasligi bilan tobora parchalanadi. "U o'zini beixtiyor ulkan bir ajdarhoning og'zida tasavvur qildi, ajdarho o'lguday injiq edi, u pajmurda gavdasini goh o'ng, goh chap jag'iga olib chaynar, ora-orada jonini bo'g'ziga keltirib tikanli tillar bilan tanglayi orasiga qo'yib, shimib-shimib ham olardi. U ko'zlarini qattiq yumdi, chuqur nafas oldi, og'riq kuchaygandan kuchayib, ko'zlari yoshga to'ldi, ammo ajdarho berayotgan azobni yenga olmadi" *(Tanazzul qissasi, 13-bet).* Bu tasvir o'quvchining tasavvurida dahshatli bir metaforaga aylanadi. Bu ajdarho – jamiyat, bu ajdarho – insoniylikni unutgan atrof-muhit, bu ajdarho – ichimizda joy olgan ojizlik, irodasizlik, ruhiy tushkunlikdir. Ziyodullo esa, bu halokatli kuchlar qarshisida zaif, qanchalik kurashmasin, kuchi yetmayotgan inson timsolidir.

Asarda inson hayotidagi ma'naviy va axloqiy inqiroz tasvirlanib, jamiyatdagi adolatsizlik, moddiy manfaatlar ortidan quvish va insoniy munosabatlarning buzilishi orqali yozuvchi zamonaviy voqelikni o'ziga xos badiiy uslubda ko'rsatadi. Adibning bu qissasida to'pori qishloq odamlarining inja tuyg'ularidan tortib, tanazzulga yuz tutgan orzulari aks etgan. "Ziyodullo maktabdan qaytib beixtiyor otasini kutar, qancha sog'insa, shuncha orlanishini hech kimga ayta olmasdi, biroq "ko'chada muzlab o'lib qolgan piyonistaning o'g'li" degan tavqi la'nat uni bir umr taqib etib o'tdi". *(Tanazzul qissasi, 26-bet).* Uning hikoyalaridan farqli o'laroq qissalarida qahramonlar kechinmalari va obrazlarning o'zaro munosabatlari kengroq va teranroq ochib berilgan

Ziyodullo orzu qilgan hayot – pokiza, mehrli, adolatli hayot edi. Ammo hayot unga boshqacha yuz tutdi. Onasining ko'z yoshlarida ulg'aygan bola ulg'aygach, o'zi ham xuddi o'sha dardni davom ettirdi. Bu fojia faqat bir shaxsning emas, balki butun jamiyatdagi **ma'naviy tanazzulning** aksidir. U hayotdagi o'z o'rnini topolmay, g'ira-shira xotiralar orasida adashgan bir ko'ngil egasi. U endi o'tmish yo'llarini eslab, hatto qo'rquvlarini ham yo'qotgan, bo'shliqda yurgan bir vujuddur. "Dispanserda o'tkazgan zulmat tunlarida hayotning yechimini hech qachon topib bo'lmasligini tushundi. U ming kurashsa-da, endi kuchi yetmasdi". Bu misralarda insonning kuchsizligi, ojizligi, yashash uchun kerak bo'lgan ichki ishonchining so'nib borishi butun borlig'i bilan ifodalangan. Hayot – endi unga faqat g'am, zulmat, og'riq olib keluvchi, ko'z o'ngida doim qiyomat to'zonidek aylanib yuruvchi manzara.

Ergasheva qissasidagi ramziy tasvirlar, g'ayritabiiy sahnalar – inson ichki olamining ifodasidir. Ular zamonaviy nasrda keng o'rin olgan **modernistik estetik yondashuv** natijasidir. Ayniqsa, qissada murda yuzidan oqib chiqayotgan qurtlar manzarasi – hayotiy falsafaning chuqur, lekin og'riqli ifodasi sifatida o'quvchini larzaga soladi. "Iroda avvaliga bu oqish narsalarni murda buzila boshlaganda odam go'shtidan yuz berdigan tabiiy o'zgarish deb tushundi, tog'asiga qarab, yuragi battar ezildi, so'nggi bor jerkib-jerkib xo'shlashganini, o'sha damda tog'asining boladek jur'atsiz mo'ltirab qaraganini esladi, hayol og'ushida tog'asining yuziga termulib turar ekan, murdaning burunlaridan birin-ketin chiqib

kelayotgan oppoq qurtlarni ko‘rib, qo‘rqib ketdi. *(Tanazzul qissasi, 45-bet).*

Bu lavha hayotning oxirgi nuqtasi – o‘lim va uning ostida yotgan ruhiy tanazzulni anglatadi. Bu o‘lim nafaqat jismoniy, balki **ma’naviy halokat** timsolidir. Jamiyatga, odamlarga, o‘ziga ishonchini yo‘qotgan inson aynan mana shunday halokatli holatga yuz tutadi.

Qissalarda shakl va mazmun mutanosibligiga to‘la amal qilingan deb aytish mumkin. “U bir qo‘li bilan kitob varaqlar, ikkinchi qo‘li bilan o‘siq tirnoqlarini badaniga botirib-botirib qashlanar, ammo eti tirnoqqa qo‘shilib yulinsa-yulinar ediki, butun vujudini tishlab uzayotgan vaxshiy qichitmalar hech insofga kelmas edi. Ziyodullo xoldan toydi, kitoblarni uloqtirib, badanidagi o‘rmalab yurgan jonivorlarning harakatiga quloq tutdi, unga shunday tuyuldimi yoki butun vujudi quloqqa aylangani uchunmi harqalay aniq – tiniq eshitdi: “Vijj!....” *(Tanazzul qissasi, 45-bet).*

Ergashevaning ijodida ayol obrazlari – alohida bir dunyo. Ular hayotning og‘ir yukini ko‘tarayotgan, ammo oriyatini, vafosini, mehrini hech qachon yo‘qotmaydigan timsollardir. Gavhar – Ziyodulloning turmush o‘rtog‘i, ammo uning ko‘z yoshlari mehrning so‘nggi chaqnashlari kabi qalbni tirnaydi. Ziyodullo – bu hayot yo‘llarida adashgan odam, Gavhar – bu ishonch, Iroda – bu halokatga qarshi intilgan harakat, jamiyat esa – befarq tomoshabin.

“Ziyodulloning ko‘ziga iliqqina yoshlar tomdi, u qo‘lidan kelmasa-da, Gavharning ko‘z yoshlarini artmoqchi bo‘ldi. Ammo qandaydir kuch yelkalaridan bosib turgandek edi.”

Bu satrlar insoniy ojizlik, kechirim, afsus va armonning eng nozik pardalariga tegadi. Hayotdagi ko‘plab ayollar kabi Gavhar ham mehr berishga tayyor, ammo qabul qiladigan yurak yopiqligidan aziyat chekadi.

“Tanazzul” qissasi – bu oddiy hayot voqealari emas, bu – **jamiyatga isyon, ruhga sig‘magan qafasga qarshi norozilik**, insoniylik yo‘qolayotgan davrga badiiy harf bilan yozilgan da’vatdir. Muallif har bir obrazini ramzga aylantiradi:

Ergasheva asarlarida **muallif ovozi sustlashadi**, uning o‘rnini qahramonning ichki hayqirig‘i egallaydi. Endi muallif “nimani demoqchi?” degan savol emas, balki “qahramonning dardi nimada?” degan savol muhimroq.

“Tanazzul” – bu inson ruhining azobini, jamiyatdagi befarqlikni, hayotdagi umidsizlikni, orzularning so‘nishini o‘zida mujassam etgan ulkan jarlik. Qahramonlar his-tuyg‘ulari bo‘rttirib, jilolantirib ifodalanishi uning ta‘sir doirasini orttiradi, qalamga olinayotgan hissiyotning uzluksizligini ta’minlaydi. Jumladan, kechinma va fikrni umumlashtirishda, ifodalanayotgan fikrni aniqroq chizishga, tuyg‘u ifodalar tadrijiga ham sharoit yaratadi. Demak ko‘rinadiki, mazkur munosabat turli vositalar, rakurs va qirralarda namoyon bo‘ladi. Asarlarda qahramonning ichki monologi, uning o‘ylari, iztiroblari tasvirining mavqei misli ko‘rilmagan darajada o‘sganligi muallif nuqtayi nazari va nutqining ahamiyati pasayishiga olib keldi. Muallifning nimani nazarda tutgani emas, bitganida nimalar tasvirlangani muhim sanaladi.

Yozuvchilar har bir asarini xuddi o‘z farzandidek ko‘rishadi. Ularning ijod mahsuli ularning ruhiy kechinmalari va qaysidir ma’nolarda hayot yo‘llari bilan bog‘liq hisoblanadi. “Mehrning bag‘ri qanchalar issiq. Odamzod o‘zi bilmagan holda unga intiq bo‘lib, intilib yashaydi. Yolg‘izlik jabrida yurak-bag‘ring jizzadek qovrulib yurgan damlaringda o‘zining e’tiqod qo‘ygan bir inson mehr to‘la kaftini tutsa qo‘llaringa, bag‘rini ochsa sho‘rlik jussangga, bir nafasga bo‘lsa-da, o‘zingni yo‘qotishing tabiiy hol. Yo‘q, – rag‘bat hissi bilan to‘lib borayotgan ko‘nglini insofga chaqirdi, – yo‘q! Bunday qilishga haqqim yo‘q. Odamlarning gap-so‘zlari, beobro‘lik yolg‘izlik jabridan ming-ming marta mashaqqatliroq”. *(Tanazzul qissasi, 45-bet).*

Biografik metod orqali tahlil qilinganda, adibaning har bir asari o‘ziga xos yaratilish tarixiga ega bo‘ladi, o‘zi bilan bo‘lgan suhbatlarda uning barcha asarlaridagi ayol obrazlari xalq ichidan olinganligi va ularning barchasi hayotiy ekanligini bot-bot ta’kidlaydi. Shubhasiz, adiba asarlaridan ufurib turadigan sodiqlik, vafo kabi inja tuyg‘ularni targ‘ib qiluvchi g‘oyalari orqali adabiyot ixlosmandlari qalbidan joy egalladi. Lekin buning uchun adibadan kuchli mahorat, mehnat va samimiyat talab etiladi.

Qahramon ruhiyatida kechayotgan hayollar to‘zonini bundan boshqacha tarzda ham yetkazish mumkin edi. Biroq bosib o‘tgan yo‘lidan arzirli ma’ni topolmagan, yoshlik orzulari armonga aylangan va bundan keyin qanday yashash haqida bosh qotirayotgan, tinmay o‘zligini qidirayotgan inson iztiroblarini bundan boshqacha tarzda tasvirlash matn mazmuniga putur yetkazar edi. “Ziyodulloning ko‘ziga iliqqina ko‘z yoshlar tomdi, u bor kuchini to‘plab o‘rnidan turmoqchi, hiqillab yig‘layotgan Gavharning ko‘zlarini artib qo‘ymoqchi bo‘ldi, iloji yetmadi, qandaydir kuch yelkalaridan bosib turgandek qimirlay olmadi. Bir amallab zildek qaboqlarini ko‘tarib, g‘ira-shira tumanlik qo‘ynida Gavharning yoshli ko‘zlarini ko‘rdi:” Bir paytlar onasi shunday yig‘lar edi ustida”. Ziyodullo yoshligigida aroqdan ajalqay qo‘rqardi, u o‘ziga-o‘zi aytardi, nimadan qo‘rqsang shu narsa seni ta’qib qiladi, agarda kurashmasang u seni mardlarcha yengadi derdi, bu so‘zlar uning bolalik xotiralariga muhrlandi qoldi, otasining har kuni ichib kelishidan zerikkan onasining ko‘z yoshlari esiga tushdi, shundagina uni aroq yeb bitirayotganini sezdi, yurakdan xohladi, Gavharga bir necha marotaba va’da berdi, lekin ustidan chiqmadi. Hayot hamisha tartibsiz va beboshvoqlikda davom etdi, hayotdan o‘z o‘rnini topolmay yolg‘izlanib qolishiga olib keldi, hayot – yechimini hech qachon topib bo‘lmaydigan ziddiyatlardan iborat ekanligini

dispanserda o‘tkazgan zulmat tunlarida esladi, endi u ming marotaba kurashsa-da, kuchi yetmaydi, ichkilik uni butunlay tanazzulga yuz tuttirdi, hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatigan, unga tartib va ma’no baxsh etadigan birorta sabab ham qolmagandi.

Bu qissadagi har bir obraz muayyan talablarga bo‘ysundiradigan bunday yondashuvlarga isyon o‘laroq yuzaga kelgan modernizm turli-tuman ko‘rinishlarga ega serqatlam falsafiy-estetik qarashlar tizimidan iborat bo‘lib, bu yo‘nalishdagi izlanishlar jamiyat hayotida keskin to‘ntarishlar hamda qaltis vaziyatlar yuz bergan sharoitda, ayniqsa, kuchayadi. Negaki, inson ijtimoiy turmushidagi keskin chayqalishlar uning tuyg‘ularini qayta kashf etib, ruh erkinligiga erishishi yoxud shaytanat fitnasiga mubtalo bo‘lib, mahkumga aylanishi badiiy talqin qilinadi, muvozanatdan chiqarib, ta’sirlanish va bu ta’sirni ifodalash yo‘sinlariga tahrir kiritadi, qarashlar tizimini o‘zgartirib yuboradi.

Xulosa

Jamila Ergashevaning bu qissasida badiiy tasvirga yangicha ko‘rinish berish, bir-biriga o‘xshamaydigan odamlar ruhiyatining qaytarilmas manzarasini chizish uchun shakl, vosita, usul, uslub ustida adoqsiz ijodiy tajribalar o‘tkazishdan erinmaydi, bosh qahramonni jamiyat qarshisida gangib qolgan yoxud unga qarshi botiniy yoxud zohiriy noroziligi bor shaxs sifatida tasvirlash borasida bir-biriga yaqin pozitsiyalarda bo‘lib, shafqatsiz borliq qarshisida yolg‘iz va himoyasiz qolgan shaxsning tuyg‘ular olami uni o‘rab turgan voqelikka dosh berolmasligi oqibatida jamiyatdan begonalashib abgor bo‘lishini tasvirlaydi, insoniyat tafakkurining yuksalishi unga baxtu saodat emas, balki azobu uqubat olib kelishi ham mumkinligini konkret insoniy taqdirlar misolida ko‘rsatib beradi. Bu asarda qiyofadan mahrumlik, ismsizlik, tushkunlik holati insondagi tilsimni kashf etishga qiziqishni orttiradi, omonat umrdagi sarob g‘oyalar, tanazzul qahramonning hayot borasidagi orzularini puchga chiqaradi. Asardagi noreal lavhalar, ma’naviyatdan mahrum kimsalarni xayolot kashfiyotlari tegrasida harakatlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ergasheva J. “Ayol jodusi” Qissa va hikoyalar. T.: “O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” 2005-y.

2. Ergasheva J. “Tanazzul”qissasi. “Sharq yulduzi” jurnali, 2016.5-son.

3. Ergasheva J. “Shom shafag‘i jilvalari”qissasi 2006. T.: “O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” 2005-y.

4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda-tasvir vositalari. –Samarqand: SamDU, 1994.

5.Soliyonov У. XX asrning 80-90-yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Fil.fan.dokt.disser.avtoref. –T., 2002, 8-bet.

6. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent:

7. Boboxonov M. Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm. Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2012

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sattarova Nargiza
Andijon davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi v.b.dotsenti

ONOMASTIKADA GODONIMLAR MASALASIGA DOIR O'RGANISHLAR TAHLILI

Annotatsiya: *Maqolada bugungi kunda tilshunoslikning onomastika bo'limi tarkibiy qismi bo'lgan toponimika makroko'lami doirasida tahlilga tortilayaotgan godonimlar va ularning leksik-semantik guruhlarga ajratish masalasiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ko'cha nomlarining turlari, ularning semantik tahlili, shuningdek, bu borada ilmiy ishlar qilgan olimlarning yondashuvlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, leksik nom, onomastika, milliylik, farqlash, semiotika, manzil obyektlari, o'ziga xoslik, tuman, shahar, ko'cha, geografik nom.*

Саттарова Наргиза
Андижанский государственный педагогический институт
Кафедра узбекского языка и литературы, и.о. доцента

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ПРОБЛЕМЕ ГОДОНИМОВ В ОНОМАСТИКЕ

Абстрактный: *В статье рассматривается проблема годонимов и их деления на лексико-семантические группы, которая в настоящее время изучается в рамках макроскопического исследования топонимики, входящей в раздел языкознания ономастики. В статье также рассматриваются типы названий улиц, их семантический анализ и подходы ученых, проводивших исследования по этой теме.*

Ключевые слова: *культура, лексическое наименование, ономастика, национальность, дифференциация, семиотика, адресные объекты, идентичность, район, город, улица, географическое наименование.*

Sattarova Nargiza
Andijan State Pedagogical Institute
Department of Uzbek Language and Literature Acting Associate Professor

ANALYSIS OF STUDIES ON THE ISSUE OF HODONYMS IN ONOMASTICS

Abstract: *The article examines the problem of godonyms and their division into lexical-semantic groups, which is currently being studied within the framework of macroscopic research of toponymy, which is part of the onomastics section of linguistics. The article also examines the types of street names, their semantic analysis and the approaches of scientists who conducted research on this topic.*

Keywords: *culture, lexical name, onomastics, nationality, differentiation, semiotics, address objects, identity, district, city, street, geographical name.*

Kirish

Toponimika, ya'ni joy nomlarini o'rganish sohasida ko'cha nomlari (godonimlar) alohida o'rin tutadi. Ko'cha nomlari nafaqat joylashuvlarni bildiruvchi atamalar sifatida, balki xalqning madaniy, tarixiy va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim madaniy elementlardir. O'zbekistonda ko'cha nomlari ko'pincha tarixiy shaxslar, geografik joylar, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq bo'lib, ular o'zbek xalqining tarixini, an'analari va o'ziga xos dunyoqarashini ifodalaydi. Ko'cha nomlari orqali nafaqat joylashuvlar, balki xalqning tarixiy voqealariga, madaniy qadriyatlariga, ijtimoiy hayotiga oid muhim ma'lumotlar olish mumkin. Ko'cha nomlari o'zining semantik xususiyatlari bilan turli ijtimoiy va madaniy ma'nolarni aks ettiradi. Ularning ko'pchiligi tarixiy shaxslar, geografik joylar, madaniy qadriyatlar va jamiyatning ijtimoiy hayotini o'zida mujassam etgan.

Xalqlarga joy nomlari o'z o'tmishini anglash va madaniyat uzluksizligini o'rnatish imkonini beradi. Godonimlar milliy o'zlikni anglatuvchi ma'noli ifoda hisoblanadi. Andijon viloyatining chuqur ildiz otgan tarixi

mahalla va ko‘cha nomlarida saqlanib qolganligi bugungi va kelajak avlod uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, joy nomlanishi ayniqsa hudud dinamikasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu dinamikadagi harakatchanlik joy nomlarida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O‘zbek onomastikasi XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan sohalardan biriga aylandi, antroponimika, toponimika, etnonimika kabi bir qator yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. 1960-yillarda F. Abdullayevning “Kishi nomlarini qisqartirish usullari”, D. Abdurahmonovning “Nom qo‘yish” kabi ilmiy maqolalari o‘zbek onomastikasining ilk nashlari sifatida e’lon qilindi. Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili onomastikasining dolzarb muammolari 1969-yilda Samarqandda, 1974-yilda esa Buxoro shahrida o‘tkazilgan ilmiy anjumanlarda muhokama qilindi. Keyinchalik o‘zbek toponimikasiga oid ilk tadqiqotlar ham yuzaga keldi. H.Hasanovning “Geografik nomlar imlosi” kitobidan toponimlar tarixi va ularning imlosiga oid ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Shuningdek, E.Begmatov o‘zining ilk maqolalaridan birida *o‘zbek onomatologiyasi* terminini qo‘llagan. O‘zbek onomastikasida hozirga qadar, asosan, toponimlar, gidronimlar, oronimlar, antroponimlar, etnonimlar tadqiq qilindi. E.Begmatov, G‘.Sattorov, R.Xudoyberganov kabi olimlar tomonidan o‘zbek antroponimlari(ismlari) tadqiqi bo‘yicha to‘rtta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Shuningdek, E.Begmatovning “O‘zbek ismlari imlosi”, “Kishi nomlari imlosi”, “O‘zbek ismlari”, “O‘zbek ismlari ma’nosi”, “Ism chiroyi” kabi ilmiy kitoblari ham nashr etildi. Muallifning “O‘rta Osiyo nomlari tarixidan” nomli risolasidagi etnonim-toponimlar, gidronim, oronimlar, toponimik areallar, toponimik karta haqidagi nazariy qarashlari orqali soha rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tilshunoslik nuqtai nazaridan godonimlar bajaradigan uchta vazifa mavjud:

1.farqlash fazifasi – bir joyni boshqasidan farqlash

2.semantik fazifasi – joy haqidagi ma’lumot (xabar);

3.semiotik fazifasi – ijtimoiy ahamiyatga ega ma’nolarni aniqlash.

Birinchi vazifa asosiydek ko‘rinsa-da, zamonaviy godonimiyada oxirgi ikki vazifa ko‘proq uchraydi. Ijtimoiy madaniyatni kelajak avlodlarga o‘tkazish usullaridan biri bo‘lgan nom berish shakli hududning tirik tarixini tashkil etadi. Shunday qilib, hudud o‘tmishidagi elementlarni to‘plash va bu elementlarga yangilarini qo‘shish bilan o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy ko‘rinishni ifodalash mumkin. Bu o‘ziga xoslik makonda turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘cha nomlari, aholining manzil obyektlari (godonimlar) shulardan biridir. Bundan shuni anglash mumkinki, joy nomlarini tadqiq qilish va tekshirish bilan shug‘ullanuvchi fan o‘zining keng tadqiq doirasidan olingan ma’lumotlari bilan xalqlarning o‘tmishi va kelajagi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatadi va madaniy davomiylikni ta’minlaydi.

Tadqiqot maydonini tashkil etgan Andijon – O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi yirik viloyatlardan biridir. Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida. Andijon viloyati 1941-yil 6-martda tashkil etilgan. Maydoni 4,2 ming km². Aholi soni 2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 3 338 200 kishi, Respublikada 4-o‘rinda turadi. Andijon viloyati tarkibida 14 ta tuman, 2 ta shahar (Andijon va Xonobod shaharlari) mavjud. Markazi – Andijon shahri.

Andijonning tarkibiy – hududiy joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1893-yilgi topografik xaritada uchraydi. Unda shahar dahalari, masjidlar, mozorlar, ko‘chalar xaritaga tushirilgan. Qadimshunoslar Andijon shahrining tarixiy qismiga kiruvchi Chordona, Sarvontepa, Yakkatepa, Qo‘shtepa, Ark ichi, Shaxriston kabi nuqtalarda arxeologik tadqiqotlar olib borganlar.

XIII asrning birinchi choragida Andijon Farg‘ona viloyatining poytaxti bo‘lgan. Bobur Mirzoning yozishicha, “…Movarounnaxrda Samarqand va Kesh qo‘rg‘onidin so‘ngra, mundin ulug‘roq qo‘rg‘on yo‘qtur[1]”. Demak, Andijon O‘rta Osiyoning ilk dehqonchilik paydo bo‘lgan va shaharsozlik madaniyatining dastlabki ko‘rinishlari shakllangan o‘choqlaridan birida joylashgan. Bu hududda ilk shahar Dalvarzin (mil.avv. IX-VII asrlar) va arxaik shahar Eylaton (miloddan avvalgi VI-III asrlar) xarobalari qayd etilgan. O‘zining geopolitik joylashuviga ko‘ra Andijon Baqtriya, So‘g‘d, Choch kabi tarixiy o‘lkalarni Xitoy (Sharqiy Turkiston) bilan savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tagan.

Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda Andijon viloyatining godonimik makonida umumiy 14959 ta (9469) ta nom tahlil uchun to‘plangan. Nomlar, asosan, hududning 14 ta tuman, 2 ta shahar (Andijon, Xonobod) bo‘yicha jami, 18 ta shohko‘cha, 5838 ta ko‘cha, 5224 ta torko‘cha, 2968 ta berk, 2 ta aylanma ko‘cha nomlari aniqlandi va tahlil qilindi. O‘rganishlar natijasida birgina Andijon shahrining o‘zida 505 ta ko‘cha (518 ta torko‘cha, 29 ta berkko‘cha), 3 ta shohko‘cha (Cho‘lpon, Bobur, Alisher Navoiy), 1 ta aylanma ko‘chasi (O‘sh ko‘cha) mavjudligi aniqlandi. Albatta, ko‘cha nomlari tor va berkko‘chalarda raqamlar bilan qo‘shilib takrorlanadi. Masalan, Andijon shahri To‘qqizariq mahallasi Ulug‘bek kochasi yana 9 ta tor ko‘chani ham nomlaydi. Ulug‘bek 1-tor, Ulug‘bek 2-tor kabi. Islomobod mahallasida Toshkent ko‘chasining 7 ta tor ko‘chasi mavjud. Toshkent ko‘chasi Do‘stlik, Islomobod, Navbahor mahallalarida ham uchraydi. Al-Buhoriy mahallasining Ozodlik nomi bilan ataluvchi 4 ta berk ko‘chasi bor.

[1] Заҳириддин Муҳаммад. Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 6.

Andijon viloyatining godonimik maydoni ko‘p qirrali va xilma-xildir, chunki shahar tuzilishi, ijtimoiy va iqtisodiy ustuvorliklar ta‘sirida o‘zgarishlarga uchrab kelmoqda. Shu munosabat bilan godonimlarning tizimli tavsifi strukturaviy-semantik xususiyatlarning yaxlit ko‘rinishini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Dunyoda va mamlakatimizda joy nomlariga oid tadqiqotlar kundan-kunga ko‘paymoqda va har bir tadqiqot bilan joy nomlarining jamiyatlar uchun ahamiyati sezilarli ortib bormoqda. Odatda, ko‘chalarning tahlili va tasnifi uchun ikki xil yondashuv qo‘llanilishi kerak bo‘ladi:

1.Kelib chiqishi va shakllanishiga e’tibor berilsa, ko‘cha nomlari nimanidir eslatib turadi, ma’lumot(informatsiya) tashiydi.

2.Ko‘cha nomlari, ayniqsa, xalqning ijtimoiy, siyosiy jarayonlardagi roli va umumiy o‘ziga xoslikni yaratishga qaratilgan ta’sirini ifodalaydi.

Geografik nomlar to‘g‘risidagi eng qadimgi toponimik ma’lumotlarni Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” asarlari orqali o‘rganishimiz mumkin. Ilmiy jihatdan joy nomlarini tasniflash borasida ilk bor XIX asrda olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, V.R.Semyonov-Tyan-Shanskiy, L.L.Gumetskaya, V.Tashitskiy, H.Hasanov, R.G‘ulomovlar, Z.Do‘simov, E.M.Murzayev kabi mutaxassis olimlarning ilmiy izlanishlarida joy nomlarining turlicha tasniflanishini asoslashga doir takliflar berilgan. O‘rganilgan tasniflashlar orasida E.M.Murzayev [2] tomonidan toponimlarning obyekt nomlariga qarab (oronimlar, gidronimlar, fitonimlar, zoonimlar, oykonimlar) tasniflash usuli eng oddiy va qiyosan maqbul hisoblanadi. Har bir narsaning o‘z nomi borligi sababli, tasniflash onomastika uchun asosiy o‘rinni egallaydi. Ko‘rinib turibdiki, har bir fan sohasi uchun muhim bo‘lgan tasniflash joy nomlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Geografik nomlarni barcha uchun qulay ilmiy tasniflanishini yaratish murakkab masala. Chunki bu fan integral fan ekanligi, ya’ni geografiya, lingvistika, tarix fanlarining manfaati tutashgan joyda shakllanganligi bilan izohlash mumkin. Mazkur fanlar esa o‘z yo‘nalishida joy nomlarini ilmiy asoslay olishi bilan muhim hisoblanadi.

Keyingi yillarda H.Hasanovning “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan[3]”, S.Qorayevning “Geografik nomlar ma’nosi [4] ”, Z.Do‘simovning “Toponimlar tasnifi masalasiga doir [5] ”, T.Enazarovning “Nomshunoslik masalalari[6]”, A.Nizomovning “Toponimika[7]” kabi o‘quv qo‘llanma, darslik hamda kitoblarida joy nomlarining tasniflanishiga doir bir qator ilmiy ishlarning amalga oshirilganligi yoritilgan.

Tadqiqotchilar joy nomlarini turlicha tasniflashga harakat qilganlar. Bu tadqiqotlarning barchasi biz uchun Andijon viloyati joy nomlarini tasniflashda manba bo‘ldi. Lekin biz bu nomlar uchun ulardan biriga asoslanib tasnif qilish o‘rniga, Andijon viloyati joy nomlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida tasnif qilishga harakat qildik. Bizning tasnifimizda muhokama qilgan toifalarni kichik sarlavhalarga bo‘lish va tasnifga turli toifalarni kiritish mumkin. Biz bu joy nomlarining to‘plagan materiallarimiz nuqtai nazaridan va nomlarning xususiyatlarini ochib berishni maqsad qilganmiz.

Andijon viloyati godonimiyasi leksik-semantik jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Antropogodonimlar

2.Etnogodonimlar

3.Gidrogodonimlar

4.Fitogodonimlar

5.Kasb-hunar nomlari asosida yasalgan godonimlar

6.Teogodonimlar

7.Boshqa tushunchalar asosida shakllangan godonimlar: toponim, zoonim, oronim, mavhum tushunchalar asosida, xronogodonim.

Shahar ko‘chalarining leksik-semantik tasnifidagi eng katta guruhini taniqli shaxslar, tarix va davlat, san’atning ko‘zga ko‘ringan arboblarining ismi, familiyasi, laqablari, hayotida o‘rnak, xalq uchun buyuk ishlar qilgan va meros qoldirgan qahramonlarning ism va familiyalaridan tashkil topgan ko‘cha nomlari tashkil etadi.

Xulosa va takliflar

O‘zbek tilidagi ko‘cha nomlari, ayniqsa toponimika sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar, nafaqat geografik joylashuvlar va tarixiy shaxslarni, balki xalqning madaniy, siyosiy va ijtimoiy tarixini o‘rganishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ko‘cha nomlarini tahlil qilish orqali joylashuv, tarix va madaniyat haqidagi batafsil ma’lumotlarni olish mumkin. O‘zbekistonda ko‘cha nomlarini o‘rganish til va madaniyatning rivojlanishini, shuningdek, xalqning qadriyatlari va urf-odatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Shunday qilib, ko‘cha nomlari nafaqat geografik maqsadga xizmat qiluvchi so‘zlar, balki xalqning tarixiy-madaniy merosini aks ettiruvchi, milliy va madaniy o‘ziga xoslikni ifodalovchi mukammal toponimik elementlardir. Bu boradagi ilmiy ishlar ham bu borada muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

[2] Мурзаев Э.М. Апеллятивы в топонимах Средней Азии // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илым, 1980. – С. 77.

[3] Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 65.

[4] Қораев С. География номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б. 193.

[5] Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – № 1. – Б. 20.

[6] Эназаров Т. Номшунослик масалалари. – Тошкент, 2010. – Б. 78.

[7] Nizomov A., Raximova G., Rasulova N. Toponimika. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 193.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Заҳириддин Муҳаммад. Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 6.

2.Мурзаев Э.М. Апеллятивы в топонимах Средней Азии // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илым, 1980. – С. 77.

3. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 65.

4.Қораев С. География номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б. 193.

5.Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – № 1. – Б. 20.

6.Эназаров Т. Номшунослик масалалари. – Тошкент, 2010. – Б. 78.

7.Nizomov A., Raximova G., Rasulova N. Toponimika. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 193.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Najmiddinov Muhammadjon
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Qo'qon universiteti

TEZAURUSGA OID ILMIY ISHLARNING UMUMIY TAVSIFI VA TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tezauruslarning lingvistik va texnologik jihatlari tahlil qilinib, ularning tabiiy tilni qayta ishlash, tarjima jarayonlari va sun'iy intellekt tizimlaridagi ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot davomida tezauruslarni yaratishning nazariy asoslari, jumladan, semantik maydonlar nazariyasi, generativ semantika va prototip nazariyasi ko'rib chiqildi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan va ko'p tilli tezauruslarning rivojlanishi, ularning zamonaviy dasturiy ta'minot va lingvistik ilovalardagi o'rni tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tezauruslar nafaqat nazariy lingvistika tadqiqotlarida, balki amaliy dasturlash va sun'iy intellekt sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda tezauruslarning avtomatik yangilanishi va sun'iy intellekt bilan integratsiyasi tilshunoslik va texnologiyalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.*

Kalit so'zlar: *Tezaurus, semantik maydonlar nazariyasi, generativ semantika, prototip nazariyasi, tabiiy tilni qayta ishlash, sun'iy intellekt.*

Najmiddinov Muhammadjon
Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor
Kokand University

GENERAL DESCRIPTION AND ANALYSIS OF SCIENTIFIC WORKS ON THESAURUS

Annotation: *This article analyzes the linguistic and technological aspects of thesauri, and their importance in natural language processing, translation processes, and artificial intelligence systems. During the study, the theoretical foundations of the creation of thesauri, including the theory of semantic fields, generative semantics, and prototype theory, were considered. The development of automated and multilingual thesauri, their role in modern software and linguistic applications were also analyzed. The results showed that thesauruses are of great importance not only in theoretical linguistics research, but also in the field of applied programming and artificial intelligence. In the future, automatic updating of thesauri and their integration with artificial intelligence are expected to have a positive impact on the development of linguistics and technologies.*

Keywords: *Thesaurus, semantic field theory, generative semantics, prototype theory, natural language processing, artificial intelligence*

Наджмиддинов Мухаммаджон
Доктор философии по филологии, доцент
Кокандский университет

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ТРУДОВ ПО ТЕЗАУРУСУ

Аннотация: *В статье анализируются лингвистические и технологические аспекты тезаурусов и изучается их значение в обработке естественного языка, процессах перевода и системах искусственного интеллекта. В исследовании были рассмотрены теоретические основы создания тезауруса, включая теорию семантического поля, генеративную семантику и теорию прототипов. Также было проанализировано развитие автоматизированных и многоязычных тезаурусов и их роль в современных программных и лингвистических приложениях. Результаты показали, что тезаурусы важны не только в теоретических лингвистических исследованиях, но и в области прикладного программирования и искусственного интеллекта. В будущем ожидается, что автоматическое обновление тезаурусов и интеграция с искусственным интеллектом окажут положительное влияние на развитие лингвистики и технологий.*

Ключевые слова: *Тезаурус, теория семантического поля, генеративная семантика, теория прототипов, обработка естественного языка, искусственный интеллект.*

Kirish

Tilshunoslik sohasida tezaurus tushunchasi muhim o‘rinni egallaydi. U nafaqat so‘z boyligini o‘rganishda, balki ma’no tarmoqlarining tuzilishini tahlil qilishda ham asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Tezauruslar tabiiy tillarning semantik tuzilishini aks ettirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri bo‘lib, lingvistik tadqiqotlar doirasida turli metodologik yondashuvlarga asoslangan holda ishlab chiqilgan. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida kompyuter lingvistikasi rivojlanishi natijasida tezauruslar til texnologiyalarining ajralmas qismiga aylandi.

Ilmiy manbalarda tezauruslar turli yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflanadi: leksik-semantik tezauruslar, terminologik tezauruslar, avtomatlashtirilgan tezauruslar va boshqalar. Leksik-semantik tezauruslar muayyan tildagi so‘zlarning ma’no aloqalarini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, Roget tezaurusi ushbu yo‘nalishda ilk yetakchi asarlardan biri hisoblanadi (Roget, 1852). Terminologik tezauruslar esa ma’lum bir soha yoki fan yo‘nalishiga oid maxsus atamalar tizimini o‘z ichiga oladi. Bunday tezauruslar ilmiy-tadqiqot va texnologik rivojlanish jarayonlarida muhim o‘rin tutadi.

Tilshunoslikda tezauruslar yaratish jarayoni asosida bir necha metodologik yondashuvlar yotadi. Semantik maydonlar nazariyasi (Lehrer, 1974) bu borada muhim konsepsiya hisoblanib, so‘zlarning ma’no jihatdan guruhlanish tamoyillarini tushuntirib beradi. Bundan tashqari, generativ semantika (Lakoff, 1971) va prototip nazariyasi (Rosch, 1975) tezaurus tuzishda asosiy metodlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metodlar nafaqat lingvistik tadqiqotlarda, balki sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalarida ham keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda tezauruslarning lingvistik xususiyatlaridan tashqari, ularning kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellektdagi o‘rni ham o‘rganilmoqda. Masalan, WordNet (Miller, 1995) kabi ma’no tarmoqlari asosida yaratilgan tezauruslar hozirgi zamon lingvistik korpuslari va avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarida muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, ko‘p tilli tezauruslar ham ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, ular til o‘rganish, tarjima va terminologik tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan semantik axborotni taqdim etadi. Shunday qilib, ushbu maqolada tezauruslarga oid ilmiy ishlarga umumiy tavsif berilib, ularning tilshunoslik va texnologiya bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor tezauruslarning metodologik asoslari, ularning rivojlanish tendensiyalari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlardagi ahamiyatiga qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili

Tilshunoslikda tezauruslarning ilmiy o‘rganilishi XIX asr oxiridan boshlab rivojlangan bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalish XX asr va XXI asrda yanada chuqurlashdi. Roget (1852) tomonidan ishlab chiqilgan tezaurus hozirgi zamonaviy tezauruslarning ilmiy va amaliy asoslarini belgilab berdi. Uning yondashuvi asosida keyinchalik semantik tarmoqlarni shakllantirish metodologiyalari rivojlandi. Lehrer (1974) o‘z tadqiqotlarida semantik maydonlar nazariyasini ilgari surib, leksik birliklarning guruhlanish prinsiplarini tahlil qilgan. Bu nazariya asosida yaratilgan tezauruslar tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarida samarali qo‘llanilib kelmoqda. Lakoff (1971) esa generativ semantika doirasida so‘z va ma’no aloqalarini o‘rganib, tezauruslarning grammatik va semantik bog‘lanishlarini tushuntirishga harakat qilgan. Rosch (1975) tomonidan ishlab chiqilgan prototip nazariyasi esa so‘z ma’nolarini aniqlashda prototipik misollarga asoslangan yondashuvni taklif qiladi. Ushbu nazariya hozirgi zamon leksikografiyasi va sun’iy intellekt tadqiqotlarida keng qo‘llaniladi. Miller (1995) tomonidan ishlab chiqilgan WordNet loyihasi esa tilshunoslik va kompyuter fanlari kesishmasidagi eng muhim tadqiqotlardan biri bo‘lib, semantik tarmoqlar orqali tezaurus yaratishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy qilgan. Bugungi kunda tezauruslar nafaqat lingvistik tadqiqotlarda, balki turli texnologik platformalarda ham keng qo‘llanilmoqda. Ularning NLP (Natural Language Processing) sohasidagi roli ortib bormoqda, ayniqsa avtomatlashtirilgan tarjima, chatbotlar va sun’iy intellektga asoslangan matn tahlili tizimlarida foydalanilmoqda. Shunday qilib, tezauruslarga oid ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishning rivojlanishi lingvistik nazariyalar va texnologik yutuqlarning o‘zaro bog‘liq holda taraqqiy etishini ta’minlamoqda.

Metodlar

Ushbu maqolada tilshunoslikda tezaurus tushunchasini o‘rganish uchun sifatli (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Asosiy metod sifatida **taqriziy-analitik yondashuv** tanlandi, chunki ushbu usul tezauruslar haqidagi ilmiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish va ularning nazariy asoslarini o‘rganish imkonini beradi. Birinchi bosqichda **adabiyot tahlili** usuli qo‘llanildi. Bu usul yordamida XIX asrdan boshlab hozirgi kungacha tezaurus tushunchasining rivojlanishi, uning lingvistik va texnologik jihatlari haqida ilmiy maqolalar, monografiyalar va tadqiqot natijalari o‘rganildi. Xususan, Lehrer (1974) tomonidan ilgari surilgan semantik maydonlar nazariyasi, Lakoff (1971) ning generativ semantika yondashuvi va Rosch (1975) tomonidan ishlab chiqilgan prototip nazariyasi asosida tezauruslarning tuzilishi tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda **taqqoslash va klassifikatsiya** usuli yordamida turli turdagi tezauruslar (leksik-semantik, terminologik, avtomatlashtirilgan) o‘zaro solishtirildi va ularning lingvistik tadqiqotlardagi o‘rni aniqlab berildi. Ushbu tahlil tezauruslarning tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va sun’iy intellekt sohasidagi ahamiyatini ham ochib berishga xizmat qildi. Uchinchi

bosqichda esa **ilovaviy lingvistika va kompyuter lingvistikasi metodlari** ko‘rib chiqildi. Jumladan, WordNet (Miller, 1995) kabi zamonaviy tezaurus modellarining tabiiy tilni qayta ishlashdagi roli va ularning texnologik rivojlanish tendensiyalari baholandi. Shunday qilib, maqolada nazariy va amaliy tadqiqot metodlari uyg‘un holda qo‘llanilib, tezauruslar haqidagi ilmiy ishlarning umumiy tahlili va ularning lingvistik hamda texnologik rivojlanish jarayoniga ta’siri o‘rganildi.

Natijalar


Tezaurusga asoslangan tushunish va tasavvur qilishga bag‘ishlangan ishlar alohida e’tiborga molik[8].

“Tezaurus yondashuvli metodologiya” nomli maqolada o‘qituvchilarning ma’lum o‘quv ma’lumotlarini tanlash va tuzishga tayyor emasligi muammosi ko‘tariladi. Belgilangan o‘quv ma’lumotlarini ishlab chiqish va taqdim etish uchun model sifatida tezaurus taklif etiladi. Shaxs tezaurusi va o‘quv tezaurusi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni asoslovchi konsyeptual qoidalar taqdim etiladi, ekspert usullariga asoslangan o‘quv tezaurusini ishlab chiqish zarurati aniqlanadi, o‘quv tezaurusining tarkibiy qismlari taqdim etiladi va ta’lim elementlarini tuzilishga qo‘yiladigan talablar shakllantiriladi[9].

I.S.Tuloxonova “Tezaurus yondashuviga asoslangan ta’lim tizimini modellashtirish” nomli maqolasida ushbu jarayonlarni tizimli ravishda modellashtirish yechimi – bu ma’lum bir tarzda tuzilgan, tushunchalar va semantik ko‘rinishda taqdim etilgan fan sohasi bo‘yicha bilimlar tizimi sifatida ular orasidagi munosabatlar tezaurusdir. Maqolada yechimi taklif qilinayotgan muammoning predmet sohasini tahlil qilish natijalari, shu jumladan, o‘quv jarayonini o‘quvning tezaurusini shakllantirish va rivojlantirish sifatida o‘rganish, nazorat qilinadigan tezaurus asosida o‘quv tezaurusini shakllantirish usulini aniqlash ko‘rsatilgan. Taksonomiyadan foydalangan holda lug‘at, tezaurus yondashuviga asoslangan o‘quv tizimining modelini ishlab chiqish, universitetning fan axborot-ta’lim muhitida ta’limni boshqarish jarayonini tashkil etish masalalari yoritilgan[10].


S.A.Filichevning “Texnik universitet talabalarini ekologik o‘qitishda tezaurus yondashuvini amalga oshirish” sarlavhali maqolada ta’lim faoliyatini tashkil etish, boshqarishda yangi vositalarni ishlab chiqish va mavjud vositalarni moslashtirish doirasida texnik universitetdagi ekologik seminarda tezaurus yondashuvidan foydalanish ko‘rib chiqiladi. Har xil turdagi tezaurilarning o‘quv jarayoni strukturasidagi o‘rni baholanadi, tezaurusni tuzish, o‘zlashtirishda o‘qituvchi va talabaning samarali mehnat qilish usullari taklif etiladi[11].

S.A.Filichev “Texnik universitet talabalarini ekologik o‘qitishda tezaurus yondashuvini amalga oshirish” nomli maqolasida ekologik tezaurusni shakllantirish jarayonini quyidagicha tasvirlaydi (Qarang: 1-chizma):



1-chizma. Tezaurusni shakllantirish jarayoni S.A.Filichev yondashuvi[12]

S.A.Filichev ekologik ta’lim jarayonida talabani tayyorlashda tezaurus yondashuvi modelini ham taklif etadi. Tezaurus usulini ekologik ta’limda qo‘llash natijasida talabalarda quyidagilar shakllanadi (Qarang: 2-chizma)[13]:



2-chizma. ekologik ta’lim jarayonida talabani tayyorlashda tezaurus yondashuvi S.A.Filichev modeli

S.A.Filichevning fikriga ko‘ra, t**yezaurus usulini qo‘llash natijasida talabalar:**

1) jamoat ekologik tadbirlarida ishtirok etishga tayyor bo‘ladi;

[8] Луков Вал.А., Луков Вл.А. Методология тезаурусного подхода: стратегия понимания / Гуманитарные науки: теория и методология, 2014. № 1. – С. 18-34.; Луков Вал.А., Луков Вл.А. езаурусы: субъекная организаця гуманитарного знания. М.: Изд-во Нац. Ин-та бихзнеса. – 784 с.

[9] Мирошниченко А.А., Мирошниченко И.Л. Тезаурус как модель задаваемой учебной информации // Международный научно-исследовательский журнал. – № 12 (54). Часть 4. – С. 56-58.

[10] Тулохонова И.С. Моделирование системы обучения на основе тезаурусного подхода // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» Том 9, №4 (2017) http://naukovedenie.ru/PDF/86TVN417.pdf (доступ свободный). Загл. с
экрана. Яз. рус. англ.

[11] Филичев С.А. Реализация тезаурусного подхода в экологической подготовке студентов т ехнического вуза // International journal of applied and fundamental research. – № 2, 2016.

[12] Кўрсатилган манба

[13] Филичев С.А. Реализация тезаурусного подхода в экологической подготовке студентов т ехнического вуза // International journal of applied and fundamental research. – № 2, 2016.

2) kundalik hayot va kasbiy faoliyatda ekologik jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qiladi;

3) o‘z faoliyatida ekologik yo‘nalishlarni tanlashga moyil bo‘ladi;

4) ekologik ma’lumot(lar)ni izlash, tahlil qilish va tizimlashtirish kцnikmasi shakllanadi;

5) ekologiya sohasida dunyoqarashi kengayadi; olgan bilimini amaliyotda qo‘llashy oladi.

Demak, tezaurus usuli kelajakda muhandis va texniklarda ekologik fikrlash va ekologik muammolarni hal qilishga tayyorlikni shakllantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

O.V.Petuninga ko‘ra, t**yezaurus** ekologik tushuncha, termin va ular o‘rtasidagi munosabat/bog‘liqliklarning tizimi sifatida qaralib, talabaga o‘z bilimini tizimlashtirishga yordam beradi. **Fanlararo bilim, ko‘nikma va malakalar** turli bilim sohalari va faoliyat turlarida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan universal kompetensiyadir[14].

Ta’limda tezaurus usulini qo‘llashga oid fikrlar V.A.Lukov, Vl.A.Lukov [15], O.V.Petunin [16], M.Faal-xamedanchi [17] ning ishlarida tahlil qilinadi. N.V.Solominaning “Intertekstualnыy tezaurus sovremennoy yazыkovoy lichnosti (na materiale pismennыx tekstov SMI, KVN i intellektualnыx igr)» sarlavhali tadqiqotining maqsadi zamonaviy inson (18-30 yosh) IT-tezaurusini konstruksiyalash va uning IT kompetensiyasini tavsiflashdir [18]. Mazkur monografik ishda nutq madaniyatining har xil turlari so‘zlovchilarining matnlararo tezaurusi parchasini qayta tiklash, muloqot sharoitiga qarab matnlararo tezaurusning aktuallashtirish yo‘nalishlarini belgilash; tilning matnlararo lingvistik kompetensiyasini tahlil qilish, turli tillarda so‘zlashuvchilarga qaratilgan matnlarda intertekst belgilarining ishlash xususiyatlarini ochib berish; nutq madaniyati turlari, matnlararo belgini kodlash/dekodlashning kognitiv mexanizmlari tavsiflash masalalari tahlil qilingan [19]. N.V.Solominaning boshqa maqolalari [20] da ham intertekstual tezaurusning xususiyatlari tahlil qilingan.

Yu.S.Tyunnikovning “Metodologicheskiye voprosы formirovaniya tezaurusa proyektirovaniya soderjaniya DPO” sarlavhali maqolasida qo‘shimcha kasbiy ta’lim mazmunini loyihalash uchun konsyeptual va terminologik tezaurusni shakllantirishga yondashuv, jumladan, tyezaurusni shakllantirish metodologiyasi ikkita o‘zaro bog‘liq modelga asoslangan – DPO mazmunini loyihalash soha modeli va tezaurus modeli tahlil qilinadi[21].

V.P.Veydtning ta’limga tezaurus yondashuvning paydo bo‘lishi [22], O.V.Petuninning pedagogik tezaurus maydonini loyihalashda tezaurusning metodologik ahamiyati [23], A.A.Ribanovning masofaviy ta’limda mavzuni o‘zlashtirishdagi tezaurus yonshuvining ahamiyati [24] haqidagi ishlar ta’limda tezaurusdan foydalanish muammolariga bag‘ishlangan.

M.M.Bajutinaning “Multimediynыy tezaurus: opыt razrabotki i perspektivы ispolzovaniya v injenernom obrazovanii” nomli maqolasi texnik universitetda chet tili va muhandislik fanlarini integratsiya qilish vositasi sifatida individual multimedia ikki tilli tezaurusni yaratish va ulardan foydalanish texnologiyasiga bag‘ishlangan. Mutaxassislik bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar bilan professional ingliz tili darslarida individual tezaurusni ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish bosqichlari va avtomobilsozlik sohasidagi muhandislarni tayyorlash tavsiflangan. Muallif avtomobil dizayni bo‘yicha individual inglizcha-ruscha multimedia tezaurusini yaratish va uning asosida chet tilidagi muhandislik diskursida nutq ko‘nikmalarini shakllantirish ketma-ketligi bo‘yicha o‘z texnologiyasini taqdim etadi. Tezaurusni yaratish jarayoni integratsiyaning ikki darajasida sodir bo‘ladi: sub’yekt ichidagi (nutq

[14] Абдулмянова И.Р. Формирование профессионального тезауруса личности как цель профессионального образования. // Вестник ТГПУ. – 2010. – № 2(92). – С. 36-39.

[15] Луков В.А., Луков Вл.А. Тезаурусный подход: исходные положения // Информационный гуманитарный портал «Знание. Понимание. Умение». 2008. – № 9 – Комплексные исследования: тезаурусный анализ мировой культуры. URl: http://www.zpu-journal.ru/e-zpu/2008/9/lukovs_Thesaurus_ Approach/ (дата обращения: 14.01.2016). Луков В.А., Луков Вл.А. Тезаурусный подход: исходные положения // Информационный гуманитарный портал «Знание. Понимание. Умение». 2008. – № 9 – Комплексные исследования: тезаурусный анализ мировой культуры. URl: http://www.zpu-journal.ru/e-zpu/2008/9/lukovs_Thesaurus_ Approach/ (дата обращения: 14.01.2016).

[16] Петунин О.В. Тезаурус как методологическое основание для конструирования тезаурусного поля педагогической проблемы // Знание. Понимание. Умение. – 2008. – № 4. – С. 50-53.

[17] Фаал-хамеданчи М. Тезаурусное представление терминов нефтегазовой отрасли в русском и персидском языках: автореф. диссер. канд. филол. наук. – Москва, 2010. – 20 с.

[18] Соломина Н.В. Интертекстуальный тезаурус современной языковой личности (на материале письменных текстов СМИ, КВН и интеллектуальных игр): автореф. диссер. канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2008. – 26 с.

[19] Соломина Н.В. Интертекстуальный тезаурус современной языковой личности (на материале письменных текстов СМИ, КВН и интеллектуальных игр): автореф. диссер. канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2008. – 26 с.

[20] Соломина Н.В. Интертекстуальный тезаурус современного молодого человека (на материале публицистического дискурса) [Текст] / Н В Соломина // Омский научный вестник – 2006. – № 4 (38) – С. 188-192.; Соломина Н.В. Языковая личность и интертекстуальный тезаурус [Текст] / Н.В.Соломина // Языковые и культурные контакты различных народов сб ст междунар науч-метод, конф, Пенза, 30 июня-1 июля 2005 г. / под ред А П. Тимониной – Пенза. ПДЗ, 2005 – С. 237-240.

[21] Тюнников Ю.С. Методологические вопросы формирования тезауруса проектирования содержания ДПО // Вестник СГУТиКД. 2011. № 3 (17).

[22] Вейдт В.П. Становление понятия «тезаурус» в российской педагогической науке // Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. – 2015. Вып. 5. – С. 149-155.

[23] Петунин О.В. Тезаурус как методологическое основание для конструирования тезаурусного поля педагогической, проблемы // Знание, понимание, умение, 2008. – № 4. – С. 50-53.

[24] Рыбанов А.А. Тезаурус обучаемого как объект измерения усвоенного материала
дистанционного учебного курса // Информатизация образования и науки. – 2014
– №2 (22) – М.: Изд-во ФГУ ГНИИ ИТТ «Информика» – С. 128-140.

faoliyatining barcha turlarining aloqasi) va sub'yektlararo (til va muhandislik fanlarining didaktik sintezi)[25].

A.A.Alekseyevning Lingvistik ontologiya sanalgan RuTez tezaurusi[26], N.V.Lukashevichning tezaurusning axborot-qidiruv tizimidagi o'rni[27], Tezaurus ishlab chiqishni avtomatlashtirish[28], I.A.Tyutkovaning pedagogik tezaurus ishlab chiqish metodikasi va leksikografik asoslari[29], S.A.Jabotinskaya tezauruslar uchun ontologiyalar ishlab chiqishda lingvokognitiv yondashuv[30], D.A.Lovsov boshqaruvni axborotlashtirish sohasida tezaurus ishlab chiqish[31], V.I.Averchenkov, Ye.A.Belov ko'p tilli tezaurus uchun dasturiy ta'minotni qo'llab-quvvatlashda tabiiy til konstruksiyalarini semantik kengaytirish vazifalari[32] kabi ishlar leksikografik mahsulot sanalgan tezaurusni ishlab chiqish tamoyillari, dasturiy asoslari tahlil qiingan.

I.S.Tuloxonova tyezaurusning xususiyatlarini quyidagicha tavsiflaydi:

1) tushunchalar majmui bo'yicha predmet sohasining murakkab tarmoq strukturasini tashkil etuvchi tezaurusda umumiy munosabatlardan tashqari har qanday boshqa munosabatlar ham mavjud bo'lishi mumkinligi nuqtai nazaridan taksonomiyaning kengaytmasidir;


2) elektron formatda alohida fan sohalarini tavsiflash va bilimlarni saqlashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi;

3) tasnif tizimining mavjudligi orqali ochiladigan ba'zi minimal semantikani o'z ichiga oladi;

4) har xil atamalar o'rtasida tenglikni o'rnatish va/yoki ikki atamaning ma'no jihatdan bir xilligini tasdiqlash imkonini beruvchi ekvivalentlik munosabatidan foydalanadi;

5) atamalar (maqola muallifi leksik birliklar demoqchi – izoh dissertatsiya muallifiniki) orasidagi munosabat mavjudligini qayd qiluvchi assosiativ munosabatlariga ega, lekin bunday munosabatlarning semantikasi aniqlanmaydi[33].

Shuningdek, ta'lim oluvchi tezaurusini shakllantirish taksonomiya lug'atini quyidagicha tasvirlaydi (Qarang: 3-chizma):



3-chizma. Tezaurusni shakllantirishni sxematik tasavvur qilish

L.A.Kuznesov va boshqalar "Universalnыy metricheskiy tezaurus russkogo yazыka" nomli maqolasida so'zlar semantikasini tushuntiruvchi matnlarni tasviriy ko'rsatish va ularning yaqinligi o'lchovi sifatida so'zlar orasidagi semantik masofani miqdoriy baholash asosida tezaurusni avtomatlashtirilgan shakllantirish vositalarini ishlab chiqish varianti taklif etiladi. L.A.Kuznesov va boshqalarning fikriga ko'ra, taklif etilayotgan yechim so'zlarning yaqinligini baholashda sub'yektivlik elementini minimallashtiradigan rasmiy matematik tasvirlarga e'tibor qaratishga imkon beradi. Ular so'zlarning semantik o'xshashligini baholash va matnni qayta ishlash sohasidagi boshqa muammolarni hal qilish uchun avtomatik tizimlarni sintez qilish imkoniyatini ochadi[34].

Tezaurus yaratish metodikasi tavsiflangan adabiyotlarda tezaurusga quyidagicha ta'rif berilgan: "Axborot-qidiruv tezaurusi ma'lumotlar bazasida ma'lumotni qayta ishlash va qidirishning samarali vositasidir"[35]. "Yazыkoznaniye: informasionno-poiskovыy tezaurus" tezaurusi tarixshunoslik tamoyiliga muvofiq tilshunoslikning turli jihatlarini aks ettiruvchi 15000 ga yaqin atamani, jumladan, ikkita: alifbo, va leksik-semantik indeksni o'z ichiga oladi" deb ta'riflanadi. Tezaurus bibliografik ma'lumotlarni tarmoq va tarmoqlararo

[25] Бажутина М.М. Мультимедийный тезаурус: опыт разработки и перспективы использования в инженерном образовании // Высшее образование в России. 2021. Т. 30. № 1. – С. 73-86. DOI: 10.31992/0869-3617-2021-30-1-73-86.

[26] Алексеев А.А. Лингвистическая онтология – тезаурус РуТез // Материалы 3 международной научно-технической конференции Открытые семантические технологии проектирования интеллектуальных систем / Алексеев, А.А., Добров Б.В., Лукашевич Н.В. – 2013. – С. 153-158.

[27] Лукашевич Н.В. Тезаурусы в задачах информационного поиска. – М.: Изд- воМГУ, 2011. – 495 с.

[28] Автоматизация построения тезаурус // http://www.nsu.ru/xmlui/bitstream/handle/nsu/412/Text_BimenovaZB.pdf (Мурожаат санаси: 26.12.2024)

[29] Тютькова И.А. Педагогический тезаурус. – Москва, 2016. – 160 с.

[30] Жаботинская С.А. Онтологии для словарей тезаурусов: лингвокогнитивный подход //Філологічні трактати. 2007. – Т. 1. – № 2.

[31] Ловцов Д.А. Разработка словаря-тезауруса в области информатизации управления // http://www.tezau.ru/razr-tz.html. (Мурожаат санаси: 26.12.2024)

[32] Аверченков В.И., Белов Е.А. Программная поддержка мультиязычного тезауруса для задачи семантического расширения естественно-языковых конструкций // Информационные технологии. 2006. №7.

[33] Тулохонова И.С. Моделирование системы обучения на основе тезаурусного подхода // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» Том 9, №4 (2017) http://naukovedenie.ru/PDF/86TVN417.pdf (доступ свободный). Загл. с экрана. Яз. рус. англ.

[34] Кузнецов Л.А., Кузнецова В.Ф., Капнин А.В. Универсальный метрический тезаурус русского языка, Информ. и её примен. 2013, том 7, выпуск 3. – С. 106-113. DOI: 10.14357/19922264130312

[35] Языкознание [Электронный ресурс]: информационно-поисковый тезаурус / РАН. ИНИОН. Отдел развития ресурсного потенциала; составитель: Е.В. Магай; научный редактор: Н.Н.Трошина. – Москва: ИНИОН РАН, 2020. – 932 с. – (Информационно-поисковые тезаурусы ИНИОН по социальным и гуманитарным наукам). – URL: http://inion.ru/ru/publishing/publications/iazykoznanie-informatsionnopoiskovyi-tezaurus/

qidirishni ta’minlovchi ijtimoiy fanlar bo‘yicha katta axborot lug‘ati (BISON) bilan birlashtirilgan[36]. Bundan ko‘rinadiki, tezaurus axborot qidiruv tizimi hamda lug‘atlarning bir ko‘rinishidir.

R.A.Popovyan va boshqalarning fikriga ko‘ra, odatda, tezaurus tarmoq yoki daraxt (iyerarxik) tuzilishiga ega bo‘ladi. Bu undagi atamalarning tamoyilga muvofiq bog‘liqligi bilan ta’minlanadi: kyengroq tushuncha (termin) – torroq tushuncha (termin); tushuncha (termin) – assosiativ bog‘langan tushuncha (termin)dir. Tezaurus faqat birinchi tamoyil bilan bog‘liq bo‘lgan atamalardan iborat bo‘lsa, daraxtga o‘xshash (iyerarxik) tuzilish sodir bo‘ladi. Tyezaurus ikkala tamoyildan foydalangan holda tuzilsa, uning tuzilishi tarmoqqa o‘xshaydi, chunki ikkinchi turdagi havolalar alohida novdalar o‘rtasida yoki daraxt shoxlari ichida bog‘lanishni ta’minlaydi va shunga o‘xshash tarmoqlarni hosil qiladi[37].

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tezauruslar lingvistika va kompyuter fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo‘lib, ularning zamonaviy tilshunoslikda va tabiiy tilni qayta ishlash sohasida roli juda katta. Ushbu tahlillar shuni isbotlaydiki, tezauruslar nafaqat leksik birliklarning tizimli tasnifini shakllantirish, balki semantik tarmoqlarning tuzilishini o‘rganish uchun ham asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning amaliy qo‘llanilish sohalari ham kengayib bormoqda, chunki ular avtomatlashtirilgan tarjima, sun’iy intellekt asosida ishlovchi chatbotlar, shuningdek, til o‘rganish platformalarida samarali ishlatilmoqda.

Tezauruslar yaratishda foydalanilgan metodologik yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, semantik maydonlar nazariyasi (Lehrer, 1974), generativ semantika (Lakoff, 1971) va prototip nazariyasi (Rosch, 1975) kabi asosiy nazariyalar tezauruslarni shakllantirishda fundamental ahamiyat kasb etadi. Biroq, ushbu nazariyalar orasida ba’zi farqlar mavjud. Masalan, semantik maydonlar nazariyasi so‘zlarning ma’nosini tizim doirasida tushunish zarurligini ta’kidlaydi, generativ semantika esa sintaktik tuzilmalar va ma’no munosabatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratadi. Prototip nazariyasi esa so‘zlarning aniq va noaniq ma’no chegaralarini belgilashga yordam beradi. Ushbu metodologiyalar zamonaviy tezauruslar yaratishda o‘z o‘rniga ega bo‘lsa-da, texnologiyalar rivojlanishi bilan ularning kombinatsiyasi yanada samarali bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy lingvistika va kompyuter lingvistikasi rivojlanishi natijasida avtomatlashtirilgan va ko‘p tilli tezauruslar muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Masalan, WordNet kabi ma’no tarmoqlari asosida yaratilgan tizimlar avtomatlashtirilgan tarjima jarayonlarida va tilni qayta ishlash tizimlarida katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ko‘p tilli tezauruslar turli madaniy va lingvistik kontekstlarni o‘z ichiga olib, ularni o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. Bu esa lingvistik tadqiqotlar va tarjima jarayonlarini yanada optimallashtirishga yordam beradi.

Biroq, tezauruslardan foydalanishda ba’zi muammolar ham mavjud. Xususan, ularning tarkibi va tuzilishi dinamik bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan yangilanib borishi lozim. Zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tilshunoslik tizimlari uchun tezauruslar doimiy yangilanib turishi kerak, aks holda, ularning samaradorligi pasayishi mumkin. Shuning uchun, kelajakda tezauruslarning avtomatik ravishda yangilanishi va o‘zini-o‘zi o‘zgartira olishi muhim masalalardan biri bo‘lib qoladi. Shunday qilib, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, tezauruslar lingvistika va texnologiyaning rivojlanishida asosiy vositalardan biri bo‘lib, ularning roli va ahamiyati tobora oshib bormoqda. Ushbu tadqiqotdan kelib chiqib, kelajakda tezauruslarni yanada rivojlantirish va ularning sun’iy intellekt bilan integratsiyasini kuchaytirish muhim vazifalardan biri ekanligi ayon bo‘ldi.

Xulosa

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib aytish mumkinki, tilshunoslikda tezauruslar lingvistik birliklarni tizimlashtirish, semantik bog‘liqliklarni aniqlash va tabiiy tilni qayta ishlash jarayonlarida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot davomida tezauruslarning turli shakllari, ulardan foydalanish sohalari va ularni yaratishning metodologik asoslari batafsil o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tezauruslar nafaqat nazariy tilshunoslik tadqiqotlari, balki amaliy dasturiy ta’minotlar va sun’iy intellekt tizimlari uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tezauruslarni yaratishda qo‘llaniladigan yondashuvlarning xilma-xilligi ularning lingvistik tadqiqotlardagi o‘rnini yanada kuchaytiradi. Masalan, semantik maydonlar nazariyasi (Lehrer, 1974), generativ semantika (Lakoff, 1971) va prototip nazariyasi (Rosch, 1975) kabi metodologik yondashuvlar tezauruslarning shakllanishida asosiy ahamiyat kasb etdi. Ushbu nazariyalar so‘zlarning semantik aloqalarini chuqurroq o‘rganish va ularni tizimlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, semantik maydonlar nazariyasi so‘zlarning ma’nolarini tizimli ravishda guruhlashda, generativ semantika esa so‘zlarning sintaktik bog‘liqligini tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi.

[36] Языкознание [Электронный ресурс]: информационно-поисковый тезаурус / РАН. ИНИОН. Отдел развития ресурсного потенциала; составитель: Е.В. Магай; научный редактор: Н.Н.Трошина. – Москва: ИНИОН РАН, 2020. – 932 с. – (Информационно-поисковые тезаурусы ИНИОН по социальным и гуманитарным наукам). – URL: http://inion.ru/ru/publishing/publications/iazykoznanie-informatsionnopoiskovyi-tezaurus/

[37] Поповьян Р.А., Будкова Н.Н., Раковский А.А., Богосян М.Х. Составление тезауруса важный шаг по настройке работы информацыонной системы в любой области медицины //

Bundan tashqari, tezauruslar zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt tizimlari bilan uzviy bog'liq bo'lib bormoqda. Masalan, WordNet kabi avtomatlashtirilgan tizimlar tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik tarjima va chatbot texnologiyalarida muhim rol o'ynaydi. Ko'p tilli tezauruslar esa turli tillar o'rtasidagi semantik bog'liqlikni o'rganish va tarjima jarayonlarini yaxshilashda katta yordam beradi. Shuningdek, tezauruslarning qo'llanilish sohalari ham tobora kengayib bormoqda. Ilgari ular faqat tilshunoslik tadqiqotlarida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarda ham faol qo'llanilmoqda. Masalan, Google Translate va boshqa avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari tezauruslardan foydalanib, ma'no tahlilini amalga oshiradi. Bundan tashqari, chatbotlar, ovozli yordamchilar va boshqa sun'iy intellekt tizimlari foydalanuvchi bilan muloqot qilishda tezauruslar asosida semantik bog'liqlikni aniqlaydi. Tadqiqot davomida shuningdek, tezauruslarning kamchiliklari va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari ham aniqlab olindi. Ularning asosiy muammolaridan biri – dinamik o'zgaruvchanlikka ega bo'lmagan statik tizimlar bo'lib qolishidir. Bu esa ularning tez eskirishi va samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, kelajakda tezauruslarning avtomatik yangilanishi va sun'iy intellekt bilan integratsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, tezauruslar lingvistik tadqiqotlar va zamonaviy texnologiyalar kesishgan nuqtada joylashgan bo'lib, ularning rivojlanishi tilshunoslik va sun'iy intellekt sohalari uchun katta ahamiyatga ega. Kelajakda tezauruslarning algoritmik jihatdan takomillashtirilishi, ularning avtomatlashtirilgan tizimlar bilan uyg'unlashtirilishi va ko'p tilli tezauruslar bazasining kengaytirilishi lingvistika va texnologiyalar rivojiga katta hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Lakoff, G. (1971). On generative semantics. Foundations of Language, 7(3), 225–297.

2.Lehrer, A. (1974). Semantic fields and lexical structure. North-Holland Publishing.

3.Miller, G. A. (1995). WordNet: A lexical database for English. Communications of the ACM, 38(11), 39–41.

4.Roget, P. M. (1852). Roget's Thesaurus of English Words and Phrases. Longman.

5.Rosch, E. (1975). Cognitive representations of semantic categories. Journal of Experimental Psychology: General, 104(3), 192–233.

6.Nurmonov, A. (2008). O'zbek tilining leksik-semantik xususiyatlari. Toshkent: Fan.

7.Rasulov, R. (2010). Leksikologiya va semasiologiya masalalari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

8.Kreydlin, G. E., & Shmelev, D. N. (1996). Semantics and Pragmatics of Homonyms in Natural Language Processing. Russian Academy of Sciences.

9.Berdialiyev, A., & Safarova, R. (2015). O'zbek tilida omonimiya va uning lingvistik o'rni. Toshkent: Universitet nashriyoti.

10. Miller, G. A., & Fellbaum, C. (1998). WordNet: An Electronic Lexical Database. MIT Press.

11. Princeton University. (2020). WordNet: A Lexical Database for English. Retrieved from https://wordnet.princeton.edu

12. Ermatov, I. R. (2012). Morfem va so'z yasash satxlari terminologik tizimi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.

13. Kuzmenko, N. V. (2004). Meronymy in Modern English in the Light of Grammaticalization Theory. Moscow State University.

14. Mustafayeva, S. (2017). Mero-nomik munosabatlar o'zbek va ingliz tillari misolida. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

15. Fellbaum, C. (Ed.). (1998). WordNet: An Electronic Lexical Database. Cambridge: MIT Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi
Andijon davlat Pedagogika instituti 2-bosqich tayanch doktoranti
Email:kamola.tursunboyeva@mail.ru

PERSEPTIV QOBILIYAT VA UNING HAYOTDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: *Borliq va u haqidagi tushunchalar insonga ko‘p narsani beradi. Shulardan biri perseptiv qobiliyat. Insonda perseptiv qobiliyat bo‘lar ekan, o‘z atrofidagi, tabiat va jamiyatdagi bo‘layotgan voqea hodisalarni o‘z his tuyg‘ulari orqali sezadi. Ushbu maqolada perseptiv qobiliyat, uning turlari, hayot tarziga qanday aloqador ekanligi haqida ma’lumotlar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Perseptiv qobiliyat, perseptiv qobiliyat turlari, rivojlanish omillari, genetik omillar, his qilish.*

Камола Турсунбаева Ильхомжона кизи
Андижанский государственный педагогический институт, базовый докторант 2 ступени

СПОСОБНОСТЬ ВОСПРИЯТИЯ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В ЖИЗНИ

Аннотация: *Бытие и представления о нем дают человеку очень многое. Одним из них является способность восприятия. Поскольку люди обладают способностью восприятия, они воспринимают события, происходящие вокруг них, в природе и обществе, посредством своих чувств. В этой статье представлена информация о способности восприятия, ее типах и ее связи с образом жизни.*

Ключевые слова: *Перцептивная способность, типы перцептивной способности, факторы развития, генетические факторы, восприятие.*

Kamola Tursunbayeva Ilkhomjon kizi
Andijan State Pedagogical Institute 2nd stage basic doctoral student

PERCEPTUAL ABILITY AND ITS IMPORTANCE IN LIFE

Annotation: *Being and concepts about it give a person a lot. One of them is perceptual ability. Since a person has perceptual ability, he perceives the events happening around him, in nature and society, through his senses. This article provides information about perceptual ability, its types, and how it is related to lifestyle.*

Keywords: *Perceptual ability, types of perceptual ability, developmental factors, genetic factors, perception.*

Kirish

Insonning atrof-muhitni to‘g‘ri anglash va tahlil qilish qobiliyati uning hayot sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu jarayon perseptiv qobiliyat deb atalib, idrok qilish, tahlil qilish va ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Har bir insonning perseptiv qobiliyati turlicha bo‘lib, u tug‘ma va orttirilgan xususiyatlarga asoslanadi. Mazkur maqolada perseptiv qobiliyatning mohiyati, rivojlanish omillari, kundalik hayotdagi o‘rni va uni rivojlantirish usullari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Asosiy qism: Perseptiv qobiliyatning mohiyati va uning turlari:


Perseptiv qobiliyat — o‘quvchining ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqariluvchi qobiliyat.[38]

Perseptiv qobilivatda tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, va’ni kuzatuvchanlik muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O‘qituvchi o‘quvchining psixologiyasini, psixik holatim o‘ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.[39]

Perseptiv qobiliyat – bu insonning sezgi organlari orqali olgan ma’lumotlarini idrok etish, tahlil qilish va

[38] Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar pedagogik mahorat. -Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009. -232b
[39] Xoliqov A. Pedagogik mahurat. -Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. -60b

ularga mos javob qaytarish qobiliyatidir.[40] Ushbu qobiliyat asosan besh asosiy sezgi organlari orqali namoyon bo‘ladi:



1-rasm. Perseptiv qobiliyatning asosiy namoyon bo‘lish organlari

Ko‘rish qobiliyati – insonning atrof-muhitni rang, shakl va harakatlar orqali idrok qilishi.

Eshitish qobiliyati – tovushlarni farqlash va ularni tahlil qilish.

Hid bilish qobiliyati – atrofdagi hidlarni anglash va ularni xotirada saqlash.

Ta’m bilish qobiliyati – har xil ta’mlarni farqlash va ularni yodda saqlash.

Teri sezgilari – harorat, bosim va og‘riqni sezish orqali atrof-muhitni idrok qilish.

Bu sezgilar orqali inson o‘zining kundalik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Masalan, haydovchi mashinani boshqarayotganida atrofdagi harakatni kuzatib borishi va signal tovushlariga tez javob berishi kerak bo‘ladi.

Perseptiv qobiliyatning rivojlanish omillari:



2-rasm. Perseptiv qobiliyatni rivojlantiruvchi omillar

Perseptiv qobiliyat insonning genetikasiga, shuningdek, hayotiy tajribalariga bog‘liq bo‘lib, u quyidagi omillar ta’sirida rivojlanadi:

a) Genetik omillar

Insonning idrok qilish qobiliyati ba’zan tug‘ma bo‘lishi mumkin. Masalan, ba’zi odamlar tovushlarni yoki ranglarni boshqalarga qaraganda aniqroq farqlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar.[41]

b) Muhit ta’siri va tajriba

Atrof-muhitdagi o‘zgarishlar insonning idrok qilish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Masalan, ko‘zi ojiz insonlar odatda eshitish qobiliyatini yanada rivojlantiradilar, chunki ular sezgilarning boshqa turlariga ko‘proq tayanadilar.[42]

s) Ta’lim va mashqlar

Perseptiv qobiliyatni rivojlantirish uchun inson o‘z sezgi organlarini muntazam mashq qildirish kerak. Masalan, musiqa bilan shug‘ullanuvchi bolalar tovushlar orasidagi farqni aniqroq eshitishga o‘rganadilar.

3. Perseptiv qobiliyatning hayotdagi ahamiyati:

Perseptiv qobiliyat insonning turli sohalardagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi:

a) Ta’lim va o‘rganish jarayonida

O‘quvchilarning yangi bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishi ularning perseptiv qobiliyatiga bog‘liq. Masalan, kitob o‘qiyotgan bola harflarni va so‘zlarni aniq ajratib olishi lozim.

b) Ish faoliyatida

s) Ijtimoiy muloqotda

Ijtimoiy muloqotda yuz ifodalari, tana harakati va ovoz ohangini to‘g‘ri tushunish insonning boshqalar bilan samarali aloqa o‘rnatishiga yordam beradi. Masalan, aktyorlar sahnada obraz yaratishda o‘zlarining perseptiv qobiliyatlariga tayanadilar.

Xulosa. Perseptiv qobiliyat inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ta’lim, kasbiy faoliyat va ijtimoiy hayotda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu qobiliyat tug‘ma bo‘lishi mumkin, ammo uni mashqlar va tajribalar orqali rivojlantirish ham mumkin. Har bir inson o‘z sezgilari va idrok qilish qobiliyatini oshirib, yanada samarali va muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin.

[40] Gibson, J. J. (1966). The Senses Considered as Perceptual Systems. Boston: Houghton Mifflin.

[41] Plomin, R., & Deary, I. J. (2015). Genetics and intelligence differences: Five special findings. Molecular Psychiatry, 20(1), 98-108.

[42] Goldstone, R. L. (1998). Perceptual Learning. Annual Review of Psychology, 49, 585-612.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar pedagogik mahorat. -Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009. -232b

2.Xoliqov A. Pedagogik mahurat. -Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. -60b

3.Gibson, J. J. (1966). The Senses Considered as Perceptual Systems. Boston: Houghton Mifflin.

4.Plomin, R., & Deary, I. J. (2015). Genetics and intelligence differences: Five special findings. Molecular Psychiatry, 20(1), 98-108.

5.Goldstone, R. L. (1998). Perceptual Learning. Annual Review of Psychology, 49, 585-612.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Abdujalilova Feruza Shodiyarovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi

FRAZEOLOGIK BIRLIK VA QO‘SHIMCHALARDA VOQELIKNING AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya: *Maqolada frazeologik birlik va qo‘shimchalarda voqelik bevosita aks ettirilishi, nutqimizning boyligi va unda iboralarning tutgan o‘rni, shuningdek, iboralar, ularning nutqimizda qo‘llanishi, o‘zbek tilinish izohli lug‘atlaridagi iboralarning tasnifi va ularning turlari hamda grammatik jihatdan qanday tarzda berilishiga doir fikr va mulohazalar, u yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko‘z ilg‘amas rang-barangligi keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: nutq, *ibora,til me‘yori,analitik shakl.nutq odobi, uslubiy vosita,so‘z, iboralar tarkibi, frazeologik birlik, , gap, iboralar tuzilishi, birikma.*

Абдужалилова Феруза Шодияровна
Джизакский государственный педагогический университет
Старший преподаватель факультета узбекского языка и литературы

ОТРАЖЕНИЕ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ И ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ

Аннотация: *В статье рассматривается прямая передача действительности через фразеологические единицы и аффиксы, богатство нашей речи и роль устойчивых выражений в ней. Также приводятся рассуждения о применении фразеологизмов в речи, классификация выражений в толковых словарях узбекского языка, их типы и грамматическое оформление. Подчеркивается, что фразеологические единицы языка отражают тонкие и незаметные аспекты человеческих отношений.*

Ключевые слова: *речь, выражение, языковая норма, аналитическая форма, речевой этикет, стилистическое средство, слово, состав выражения, фразеологическая единица, предложение, структура выражения, словосочетание.*

Abdujalilova Feruza Shodiyarovna
Senior Lecturer, Faculty of Uzbek Language and Literature
Jizzakh State Pedagogical University

REFLECTION OF REALITY IN PHRASEOLOGICAL UNITS AND ADJECTIVES

Abstract: *The article explores how reality is directly reflected through phraseological units and affixes, the richness of our speech, and the role of idiomatic expressions. It presents reflections on the use of phrases in speech, the classification and types of expressions found in Uzbek explanatory dictionaries, and their grammatical presentation. The study highlights how phraseological units of a language reveal the subtle and often invisible nuances of human relationships.*

Keywords: *speech, expression, language norm, analytical form, speech etiquette, stylistic device, word, phrase composition, phraseological unit, sentence, phrase structure, word combination.*

Sh.Rahmatullayev o‘zining “Nutqimiz ko‘rki” asarida iboralarga oid munosabatini shunday bayon etgan. “Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan tuzilish jihatdan birikmaga, gapga teng, mazmunan s‘zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko‘chma, ma‘no anglatuvchi lug‘aviy birlikka *ibora* (frazeologik birlik) deyiladi. Bu o‘rinda “lug‘aviy birlik” deyish bilan iborani erkin bog‘lanmadan, “bittadan ortiq” deb ta’kidlash orqali sodda so‘zlardan “leksik negizlar” deb ta‘kidlash bilan analitik shakldan, “birikma, gapga teng” deb ta’kidlash bilan qo‘shma so‘zdan, “yaxlitligicha ko‘chma ma’no” deb ta’kidlash bilan to‘g‘ri ma’noli turg‘un birikmadan farqlaymiz”.[1]

Nutq uchun xomashyo vazifasini til boyligi o‘taydi. Nutq jarayonida biz tilning lug‘at tarkibidagi, grammatik qurilishidagi elementlardan va shularni o‘zaro biriktirish, bog‘lash qoidalaridan foydalanib, birikma va gap hosil qilamiz. Bunday elementlarga “til birliklari” deyiladi.

Tilning *lug‘at tarkibi* deganda so‘zlarni tushunish qadimdan mavjud. Hozirgi tilshunoslik lug‘at sostavida,

so‘z bilan bir qatorda, bundan yirikroq, murakkabrok hodisa - ibora - ham borligini tan oladi.

Ibora (arabcha) - biror bir tushuncha yoki gapning bir so‘z bilan ifodalanishi, ya’ni turg‘un bog‘lama. Masalan: *do‘ppisi tor keldi, qovog‘idan qor yog‘yapti, kapalagi uchdi, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib ketdi, qovun tushirdi* va hokazo. Ibora o‘zi ifodalayotgan tushuncha bilan so‘zga teng, lekin uslubiy bo‘yoqdorligi sababli bu tenglik buziladi. Ibora har doim uslubiy bo‘yoqdor bo‘ladi. Iboraning ko‘zga tashlanuvchi belgisi uning bittadan ortiq so‘zdan (negizdan) tarkib topganligidir.

Iboralar tilning eng muhim tasviriy-uslubiy vositalaridan biridir. Ular nutq uslublarida turli xil vazifalarni bajaradi. Xususan, ilmiy va rasmiy uslublarda ko‘pincha muayyan tushunchalarni nomlash uchun qo‘llanadi. Masalan, *qo‘l qo‘ymoq, xulosaga kelmoq, qarshi chiqmoq, ovoz bermoq, qo‘l ko‘tarmoq,* kabi iboralar bunga misol bo‘la oladi.

Iboralarning aksariyati obrazli tafakkur mahsuli bo‘lib, kuchli ko‘chma ma’no ifodasi bilan, yorqin emotsional-ekspressivligi bilan tilda yashaydi. Masalan: *tomdan tarasha tushganday, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, oyog‘ini qo‘liga olmoq, o‘pkasini qo‘ltiqlamoq, chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq, qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqarmoq* kabi. Badiiy va publitsistik, shuningdek, so‘zlashuv uslublarida iboralar xilma-xil tasviriy-uslubiy vazifalarni bajaradi, bunga iboralardagi mavjud rang-barang uslubiy bo‘yoq imkoniyat yaratadi. So‘zsiz gap yo‘q. Demak, gap eng kam bitta so‘zdan iborat bo‘ladi. Gapning belgi-xususyatlarini bunday so‘z nutqda kashf etadi. Gap vazifasidagina emas, biror bo‘lak vasifasida kelganida ham so‘z grammatik shakllanish nutq jarayonida sodir bo‘ladi. Ko‘rinadiki, so‘z deb to‘liq grammatik shakllangan va nutqda biror sintaktik bo‘lak vazifasida kelgan hodisani tushunar ekanmiz. Shundan kelib chiqib, so‘zni til birligi deb emas, nutq birligi deb baholash to‘g‘ri.

Nutq odobi quyidagi xususiyatlar asosida belgilanadi: 1) og‘zaki va yozma adabiy til me’yorlari (talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me’yorlashtirish (tartibga solish) muammolarini o‘rganuvchi bo‘limi. G‘arb tilshunosligida umumiy ma’noda “til madaniyati” termini ham qo‘llanadi. Birinchi ma’nodagi “Nutq madaniyati” tushunchasi adabiy tilni o‘zlashtirishdagi ikki bosqichni qamrab oladi: a) nutqning to‘griligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning to‘g‘riligi muayyan tilda so‘zlovchilar va yozuvchilar tomonidan “ideal” yoki “umum” tomonidan qabul qilingan va ananaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me’yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me’yorlarga amal qilish, balki o‘zaro mavjud bo‘lgan variantlardan mazmunan eng to‘gri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng maqbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Masalan, *ketyapti–ketvotti–ketopti,aka–oka–ako; baliq-ballug‘-balig‘* variantlaridan birining adabiy me’yor sifatida tanlanishi).

Hozirgi kunga kelib, zamonaviy lingvistikada tilshunoslikning milliy-madaniy xususiyatlari borgan sari keng o‘rganilib, dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda,chunki bu soha ham lingvistik, ham ijtimoiy qiymatga ega bo‘lganligi sababli, globallashuv jarayonida tillar va madaniyatlararo munosabatni o‘rganishga bo‘lgan talabning ortishi tabiiy holdir. Frazeologik birliklarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish o‘tgan asrning oxirgi yillaridan boshlab tilshunoslikda keng ommalashdi. Tadqiqotchilarning asosiy maqsadi esa turli tillarda uchraydigan frazeologik birliklarning milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish edi. Bunda frazeologik birliklar o‘z milliy-madaniy,ma’naviy qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan turli jamiyatlarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beruvchi fenomen sifatida olinib, ularda ma’lum bir jamiyat ijtimoiy hayotida uchraydigan, milliy-madaniy xarakterini aks ettiradigan barcha xususiyatlarni uchratish mumkin. Til inson ichki dunyosini, dunyoqarashini ifodalashda yordam beradigan yagona vositadir. Xuddi shuningdek, ma’lum bir millatning qadriyatlari, madaniyati ham o‘sha millat dunyoqarashi mahsulidir va insonlardagi kabi butun bir millatning dunyoqarashini, xarakterini aks ettirishda bizga tilimiz hamda undagi birliklar xizmat qiladi.U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko‘z ilg‘amas rang-barangligini aks ettiradi. Bu yerda ham baxt, sevgi, ajablanish, istehzo, nafrat, qiziqish, havotir; bu yerda insonning to‘g‘ri so‘zligi, iroda kuchi, halollik, olijanoblik, aql, chaqqonlik, harakatchanlik, qaysarlik, ham ahmoqlik, sergaplik, xasislik, badjahllik - ya’ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud; bu yerda o‘xshashlik va farq, boshlanish va tugash (ibtido va intiho), ko‘plik va ozlik, birlik - kelishmovchilik va kurash; tug‘ilish, qarindoshlik, yosh, o‘lim; baholash, muvaffaqiyat — muvaffaqiyatsizlik, haqiqat va yolg‘on, tartib va tartibsizlik, farovonlik va kambag‘allik, xatolar va jazo va shunga o‘xshash boshqa juda ko‘p tushunchalaming tavsif va tasvirilari mavjud[43]. Ko‘rib turibmizki, oldimizda olamning yaxlit frazeologik manzarasi ochiladi.

Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat-e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya’ni avvaldan tayyor bo‘lmagan) so‘z birikmalaridan

farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idiomafrazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) oʻrtasidagi muayyan tafovutlarga qarab koʻplab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng maʼnoda tushunadilar. Uni keng maʼnoda tushunilganda, frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlalar, baʼzi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlalari) ham kiritiladi,lekin bu masala, yaʼni frazeologiyani keng maʼnoda tushunish masalasi hanuz munozarali boʻlib qolmoqda.

Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni oʻrganish, tasniflash va lugʻatlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Frazeologiyada ishlab chiqilgan oʻziga xos, xilma xil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktursemantik, grammatik vazifaviy,uslubiy asoslarga koʻra tasnif etiladi. Struktursemantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmogʻi sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo boʻlgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Shaxmatov, A.A.Potebnya, I. I. Sreznevskiy asarlarida asos solingan boʻlsa, barqaror (turgʻun) soʻz birikmalarini alohida tilshunoslik boʻlimi — Frazeologiyada oʻrganish masalasi 20-40-yillardagi oʻquv-metodik adabiyotlardaL.A. Bulaxovskiy, S. Abakumov, Ye.D.Polivanov asarlarida koʻtarib chiqilgan. Gʻarbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida frazeologiya tilshunoslikning alohida boʻlimi sifatida ajratilmaydi. Oʻzbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar oʻtgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan oʻrganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yoʻldoshev, A. Mamatov va boshqalar), frazeologiya boʻyicha bir necha lugʻatlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70-80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus toʻplamlar chiqaruvchi markaz faoliyat koʻrsatgan.

Frazeologik iboralar tuzilishi va maʼno xususiyatiga koʻra 3 guruhga boʻlinadi: Frazeologik qoʻshimchalar. Frazeologik qoʻshimchalarning maʼnosi uning tarkibidagi soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolaridan kelib chiqadi. Masalan, *gap tashidi, gap yetakladi, gap tashlamoq, gap otmoq (gap* – oʻz maʼnosida, *tashlamoq, otmoq – k*oʻchma maʼnoda*), mehri tushdi (mehr*–oʻz maʼnosida, *tushdi* – koʻchma maʼnoda*), oyogʻi tortmadi (oyoq* oʻz maʼnosida, *tortmadi*-koʻchma maʼnoda*).*Frazeologik qoʻshilma tarkibidagi soʻzlar grammatik birikish usuli jihatidan odatdagi soʻz birikmalaridan farq qilmaydi, *s*huning uchun ham *kuli koʻkka sovurildi* iborasi tarkibidagi gap boʻlaklarini ajratish mumkindek koʻrinsa-da, ammo ibora tarkibidagi soʻzlar orasidagi sintaktik aloqa doimiy (oʻzgarmas)dir, shu sababli u *"butunlay yemirildi", "yoʻq qilindi"* maʼnosini ifodalaydi.

Frazeologik qoʻshimchalarda voqelik bevosita aks ettiriladi, shuning uchun uning tarkibidagi ayrim koʻzlar koʻchma maʼnoda ishlatilgan boʻlsa ham ibora butun holda koʻchma maʼnoda boʻlmaydi. Odatda, iboralar baʼzi bir maxsus soʻzlar guruhidir. Idiomatik maʻnosi yoki boshqa ahamiyati, masalan, "barcha huquqlar himoyalangan". Bu boʻlishi mumkin evfemizm, maqol, sobit ifoda, nutq figurasi va boshqalar.

Grammatik tahlilda, xususan, sintaksis, soʻz birikmasi - bu har qanday soʻzlar guruhi yoki baʼzan ichida alohida rol oʻynaydigan bitta soʻz grammatik tuzilishi mumkim. U hech qanday maxsus maʻno yoki ahamiyatga ega boʻlishi shart emas, hatto tahlil qilinayotgan jumlaning tashqarisida ham mavjud boʻlishi shart emas, lekin u yerda toʻliq grammatik birlik sifatida ishlashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, iboralarni izohli lugʻatlarga kiritayotganda grammatik jihatdan quyidagilarga eʼtibor qaratish lozim: ibora tarkibidagi grammatik shakllarning isteʻmolda oʻzgarishsiz koʻp qoʻllanilishiga; iboralarning nutqda aniq bir shaklda qoʻllanilishiga; iboralarning qaysi soʻz turkumiga oidligiga; ibora tarkibidagi grammatik shakllarning isteʻmolda oʻzgarishsiz koʻp qoʻllanilishiga.

Foydalanilgan adabiyotlar roʼyxati

1.Rahmatillayev Sh. Nutqimiz koʻrki// "Fan" nashriyoti, Toshkent-1970. B-56 [1]

2.Toʻychiboev, B.Hasanov, B.Oʻzbek dialektologiyasi: Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik.-T. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.-112 b.

3.Turobova M. Oʻzbek shevalari frazeologiyasi//Oʻzbek xalq shevalari leksikasi. – T.: Fan, 1991

4.Abdulhakimovna K. M. Transcription in the corpus of the uzbek national boysun dialect (on the example of Baysun district" j" dialects) //Journal of Critical Reviews. –2020. –T. 7. –No. 5. –C. 844-847.

5.Холова M.A. Boysun shevasi onlayn maʼlumotlar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari asosida)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Abdusattorova Begoyim Po'latjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti
Abdusattorovabegoyim822@gmail.com

INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA "KAYFIYAT" KONSEPTI VERBALIZATORLARINING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida "kayfiyat" konseptining verbalizatorlari lingvokulturologik jihatlari nuqtai nazaridan taqqoslanib, ingliz va o'zbek tillarida "kayfiyat"ni ifodalovchi leksik birliklar aniqlangan hamda lingvokulturologik jihatdan o'xshashliklar va farqlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *kayfiyat, konsept, verbalizator, lingvokulturologiya, leksik birlik, taqqoslash, o'xshashlik, farq.*

Абдусатторова Бегоим Пулатжон кизи
Докторант Андижанского государственного института иностранных языков

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ВЕРБАЛИЗАТОРОВ КОНЦЕПТА «НАСТРОЕНИЕ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.

Аннотация: *В данной статье проводится сопоставление вербализаторов концепта «настроение» в английском и узбекском языках с лингвокультурологической точки зрения, определяются лексические единицы, выражающие «настроение» в английском и узбекском языках, а также анализируются сходства и различия с лингвокультурологической точки зрения.*

Ключевые слова: *настроение, концепт, вербализатор, лингвокультурология, лексическая единица, сопоставление, сходство, различие.*

Abdusattorova Begoyim Pulatjon kizi
Doctoral student of Andijan State Institute of Foreign Languages

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE LINGUOCULTUROLOGICAL ASPECTS OF THE VERBALIZERS OF THE "MOOD" CONCEPT IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation: *In this article, the verbalizers of the concept of "mood" in English and Uzbek are compared from a linguistic and cultural perspective. The lexical units expressing "mood" in English and Uzbek are identified, and the similarities and differences are analyzed from a linguocultural point of view.*

Key words: *mood, concept, verbalizer, linguoculturology, lexical unit, comparison, similarity, difference.*

Kirish

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya (lingua – til +. cultura – ishlov berish + logos – ta'limot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, mazkur soha XX asrning so'nggi choragida shakllandi, "lingvokulturologiya" termini esa

V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist,

L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o‘zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi.Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo‘lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo‘lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Ingliz tilida «kayfiyat» –xursandlikni ifodalovchi so‘zlardan biri bo‘lgan joy leksemasini misol sifatida oladigan bo‘lsak, uning izohli lug‘atdagi quyidagi ma’nolarini keltirishimiz mumkin: a glad feeling, glad behaviour, strong feeling, of pleasure, happiness: On with dance. Let joy be unconfined (Byron).

«Kayfiyat» –xursandchilik haqida gapirilganda, ingliz tilidagi yana bir so‘z glad leksemasini ham misol tariqasida keltirish mumkin:

feeling joy, pleasure or satisfaction, happy, pleased, cheerful, marry, bringing joy, pleasant, bright, gay, willing, ready.When Albeon’s listening stories could grieve or glad mine eye (Byron).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘zbek tilida «kayfiyat» –xursandlikni ifodalovchi so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qilib, ular og‘zaki va yozma nutqda keng tarqalgan. Misol sifatida, xursand, shod, quvonch, baxt kabi so‘zlarni sanab o‘tish kifoya. Shunday so‘zlardan biri, shodlik so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’riflanadi: biror narsadan mamnun bo‘lish, xursandchilik, sevinch, quvonch.«Kayfiyat» –xursandlikni ifodalovchi so‘zlardan yana biri bo‘lgan xursand so‘zi izohli lug‘atda quyidagicha izohlanadi:

1.hayotdan juda mamnun, «kayfiyat»i juda yaxshi, shod, xurram, xushchaqchaq.

2. biror narsadan qanoat hosil qilgan, mamnun, rozi, minnatdor. Bu yerda suvchi etib tayinlangach, u hamqishloqlarini xursand qildi (SH.Rashidov “Bo‘rondan kuchli”).O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘atida «kayfiyat» so‘zi xursand, xushvaqt, shod, xurram, xushnud, masrur, sarafroz kabilar bilan keladi. Sevinch, quvonch holatida, kayfi chog‘.

Yuqorida keltirib o‘tilgan va ularga o‘xshash so‘zlarning definitsion tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida «kayfiyat» –xursandlik deyilganda, ko‘proq xush»kayfiyat», vaqtichog‘lik, rohatlanish, ho‘zur-halovat, omad va baxt, iqbol tushunilsa, o‘zbek tilida xushchaqchaqlik, mamnuniyat, bearmonlik, qanoat, minnatdorlik kabi holatlar ham tushuniladi. Bundan tashqari, har ikkala tilda olib borilgan tahlillarda xursandlik vaqtincha yoki abadiy, kutilmagan, tasodifiy yoki kutilgan, cheksiz, behad va hokazo bo‘lishi mumkinligi ko‘zatiladi. Ushbu tillarda «kayfiyat» –xursandlikni ifodalovchi frazeologik birliklarda bir-biridan farqlanish holatlari yaqqolroq namoyon bo‘lishi ko‘zatiladi. Bu holat esa frazeologik birliklar millat madaniyati, xalq mentalitetini o‘zida aks ettirishi bilan izohlanadi. Misol sifatida ingliz tilidagi when one’s ship comes home –omad kulib boqqanda.Cakes and ale – beg‘am va betashvish hayot, Grin like a Cheshire cat – og‘zi qulog‘iga yetmoqO‘zbek tilidagi boshi ko‘kda, do‘ppisi osmonda, bir gapirib, o‘n kulmoq, terisiga sig‘may ketmoq, qo‘yi mingga yetdi kabi frazeologizmlarni keltirishimiz mumkin.Demak, ingliz va o‘zbek tillaridagi «kayfiyat» –xursandlikni ifodalovchi frazeologik birliklarni tahlil qilishda, ular orasidagi farqlovchi xususiyatlarni aniqlashda, so‘zlardan ko‘ra frazeologik birliklardan foydalanish alohida ahamiyatga ega ekan.Ingliz tilidagi “kayfiyat”ni ifodalovchi frazeologik birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolariIshda o‘zbek tilidagi “kayfiyat”ni bildiruvchi frazeologik birliklarlarning semantik-ufrazeologik birliklarubiy xususiyatlarini quyidagicha ajratib tahlil qilishni lozim topdik:

1.Xursandchilik holatini ifodalovchi frazeologik birliklar kishi ruhiyatidagi davriy yoki oniy lahzalarni, muayyan bir harakat yoki holatdan mamnunlikni turli shakllarda aks ettiradi. Bunday sifatlarning barchasi semantik jihatdan bir nuqtaga, bir frazeologik birliklarga birlashadi: xursand, mamnun, xushxol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq, masrur kabi.

2.Xafalik holatini ifodalovchi frazeologik birliklar ham tilimizda keng tarqalgan: g‘amgin, dilgir, xafa, xomush, ma’yus, giryon, xunibiyron, diltang kabilar. Bu tarkibga kiruvchi leksemalarning qo‘llanishida farqli holatlar ham ko‘zga tashlanadi.jumladan, xafa, g‘amgin, xomush, dilgir kabi frazeologik birliklarning belgini ifodalash darajasi bir xil bo‘lsa, xafa, g‘amgin, xomush so‘zlari kishining yuz-ko‘zidan ifodalanib turadigan g‘amginlik holatini bildirishga xizmat qiladi, g‘ash leksemasi esa insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari bilan bog‘liq holatni aks ettiradi.

3.G‘azabli holatni ifodalovchi frazeologik birliklar qatoriga g‘azabnok, kinli, darg‘azab, g‘azabli kabilar kiradi. Ular orqali insonning tevarak atrofdagi voqea-hodisalar, predmetlar, odamlar xatti-harakatidan norozilig tufayli yuzaga kelgan kuchli ruhiy holatni ifodalaydi: Ba’zan yog‘ayotgan o‘qlar bamisol / Dudoqlaridan kinli so‘zlar uchgan on. Keltirilgan misoldagi kin (kinli) so‘zi

norozilik, gina ma’nolaridan tashqari, matnga bog‘liq holda g‘azab ma’no semasini ham bildirishi mumkin[3.90].

N.Z.Pardayev o‘zbek tilidagi sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlarini tadqiq etgan, holat sifatlari semantikasini yoritgan. U ruhiy holat sifatlarini to‘rt leksik-semantik guruhga ajratadi.

1. Quvnoqlik holatini ifodalovchi sifatlar: xursand, xushnud, xushhol.

2. Xafalik holatini ifodalovchi sifatlar: g‘amgin, xomush, xafa.

3. G‘azabli holatni ifodalovchi sifatlar: darg‘azab, g‘azabli.

4. Mudroq holatni ifodalovchi sifatlar: lol, loqayd .

Ularga shod, xursand, mamnun, xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, xushchaqchaq, hushyor, qo‘rqmas, dovyurak, sheryurak, botir, masrur, tetik kabi leksemalar kiradi. “Xursand” quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Mamnun, hayotdan qanoatlangan;

2. Shod, quvnoq, kayfiyati juda yaxshi, xurram, xushchaqchaq.

3. Biror narsadan yoki kimsadan qanoat hosil qilgan, mamnun, rozi, minnatdor.

Natija va muhokama

“Quvonch” semasini anglatuvchi “xursand” so‘zi umumiy madaniy semaga ega bo‘lib, personajlarning xush kayfiyatini ifodalaydi. “Quvonch” semasini anglatuvchi “xursand” so‘zi umumiy madaniy semaga ega bo‘lib, personajlarning xush kayfiyatini ifodalaydi. O‘zbek tilidagi “g‘am” semasini ifodalovchi leksemalar: g‘amgin, dilgir, xafa, xomush, xayolchan, ma’yus, giryon, xunibiyron, diltang, qayg‘uli, loqayd, lohas, aybdor. Shaxsning ruhiy holati bir qator Shaxsning ruhiy holati bir qator somatizmlar – ko‘z, qosh, peshona, yuz kabilar orqali ifodalanishi mumkin. Bu ifoda tegishli atributiv mazmunga ega lingvokulturemalar yordamida reallashadi. Quyidagi misolda “ko‘z” yordamida, ko‘zning ma’yusligi - Qorong‘u osmondagi yolg‘iz yulduz misoli, uning ko‘zlari mungga to‘la edi kabi misolda aks etgan bo‘lsa ingliz tilida His eyes, like a fading sunset, were drenched in melancholy.Ba’zi hollarda shaxs ruhiy holatini bildiruvchi leksemalar tashxis san’ati asosida narsa-buyum, jonzotlarga ko‘chadi. Masalan, bulut “jahldor”, yulduz “xafa” birliklari orqali sifatlanadi. Kayfiyatni ifodalovchi leksemalar taqqoslanayotganda kontrast semali ko‘rinishda ishlatiladi. Masalan, o‘zbek tilida: xursand – xomush; xushchaqchaq – g‘amgin; quvnoq – ma’yus; tetik – horg‘in, dadil – ikkilanuvchi, teran –mavhum, loqayd – xayrixoh, sergak – mudroq, darg‘azab – xushnud; ingliz tilida esa joyful-melancholic; elated- somber; enthusiastic-eerie; optimistic-pessimistic;content- anxious kabilar. Shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi leksemalar lingvokulturema vazifasida mazmunni ta’sirchan ifodalashga, emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan, mental tuzilma – konseptosfera tilda va inson nutqida o‘z ifodasini topib, alohida konseptlar konseptosferaning tuzilishini tashkil etuvchi elementlar hisoblanadi. So‘zlar, so‘z birikmalari, gaplar yoki butun matnlar ba’zan butun konseptni, ko‘pincha esa ushbu mental tuzilmaning muayyan tomonini yoki ma’lum bir konseptual belgilarini ifodalaydi. Shu sababli, til birliklarining ma’nolarini tahlil qilish va ularning nutqda qanday ishlatilishini o‘rganish orqali alohida kayfiyat konseptlarining mazmuni va tuzilishi hamda kayfiyat konseptosferasining umumiy tashkil etilish tamoyillari haqida xulosa chiqarish mumkin[1.78].

Xulosa

Demak, til hodisalarining konseptual tahlili inson ongidagi hissiyotlarni aks ettiruvchi mental tuzilmalarni o‘rganish va tavsiflash usuli bo‘lib xizmat qiladi.Bunga misol sifatida ingliz tilidagi konseptlarni va ingliz tilida so‘zlashuvchi madaniyat konseptosferasini tahlil qilish natijalarini keltirish mumkin. Oksford lug‘ati maqolalariga asoslanilganda, 113 ta kayfiyat konseptlarining yadro mazmuni aniqlanib, ular uchta asosiy toifaga ajratildi: kayfiyatning 2 turga ajratilishi (ijobiy yoki salbiy bo‘lishi), uning paydo bo‘lishiga asosiy sabab va uning intensivligidir. Tadqiqot natijasida 12 ta konseptual guruh yoki mental maydon aniqlandi, har birining markazida asosiy konsept joylashgan.Ingliz tilida so‘zlashuvchi madaniyatning kayfiyat konseptosferasini tuzilish jihatidan tashkil etuvchi asosiy konseptlar quyidagilardir: **satisfaction, approval, shock, wanting, fear, disapproval, guilt, dissatisfaction, indifference, disdain, suffering, uncertainty.** Ushbu asosiy konseptlar kayfiyatning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi 12 ta asosiy omilni ko‘rsatadi:

1.Subyektning umidlari va istaklari amalga oshishi – **SATISFACTION.**

2.Atrof-muhit subyektning qadriyatlar tizimiga mos kelishi – **APPROVAL.**

3.Kutilmagan hodisaning yuz berishi – **SHOCK.**

4.Subyekt muhitdagi nimadandir mahrum bo‘lgani va uni olishga ehtiyoj sezishi – **WANTING.**

5.Xavf-xatar, og‘riq yoki ruhiy zarar tahdidi – **FEAR.**

6.Ob’ekt subyektning qadriyat tizimiga mos kelmasligi – **DISAPPROVAL.**

7.Subyekt o‘z xatosini yoki bajarilmagan va’dasini anglab yetishi – **GUILT.**

8.Umid va istaklarning amalga oshmasligi – **DISSATISFACTION.**

9.Qiziqish yoki boshqa hissiyotlarning yo‘qligi – **INDIFFERENCE.**

10. Biror ob’ekt yoki hodisaning ijobiy baholashga noloyiq bo‘lishi – **DISDAIN.**

11. Og‘riqli yoki zararli ta’sirga duchor bo‘lish – **SUFFERING.**

12. Natija yoki muammoning mavjudligi haqida to‘liq ma’lumotning yo‘qligi – **UNCERTAINTY.**

O‘zbek tilida izoghli lug‘atlarda kayfiyat ifodalanishi

1. Kishida ichki kechinma, intilish va shu kabilar bilan bog‘liq, uning ta’sirida yuzaga keluvchi holat, ruhiy holat.

Xushnud kayfiyat. Kayfiyati buzuq. Kayfiyati o‘zgarmoq.

Inson kayfiyati, uning ish natijasi mehnat sharoitiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Gazetadan

2. Muayyan bir ichki intilish, kechinma, ruhiy holat va shu kabilar ifodalovchi, aks ettiruvchi holat.

3. Yaxshi, yoqimli vaziyat, holat.

Ularning kayfiyatiga kayfiyat qo‘sholgan bo‘lsak, o‘zimizni baxtiyor hisoblaymiz.

Ingliz tilida kayfiyatni ifodalanishi

MOOD

1. a temporary state of mind or temper

a cheerful mood

2. a sullen or gloomy state of mind, esp when temporary

she's in a mood

3. a prevailing atmosphere or feeling

How far they can go and what is the mood like at home?

THE GUARDIAN (2018)

It just put them in a good mood.

TIMES, SUNDAY TIMES (2016)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Mamatov.A.E Zamonaviy lingvistika:o‘quv qo‘llanma-Toshkent:”Tafakkur avlodi”,2020.-168 b.

2.A.Sodiqov, A.Abduazizov, M.Irisqulov “Tilshunoslikka kirish” Toshkent «O`qtuvchi», 1981

3.A.E.Mamatov, “Zamonaviy lingvistika” Toshkent, “Noshir” 2019.

4.A.Primov, X.Qodirova “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” Urganch 2019

5.Safarov Sh. **Tilshunoslikka kirish.** – Toshkent: Fan, 2008.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Babaeva Salima
PhD, Associate Professor of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
salimahon71@gmail.com

УДК820(73)-93+894.375.09-93.09

THE IMAGE OF ORPHAN IN AMERCAN LITERATURE

Abstract: *The image of the orphan holds a special place in American literature, often serving as a subject through which to explore themes of identity, individualism, social dislocation, and moral development. The orphan is a literary symbol of a character who exists outside of traditional family and social structures. This article discusses the image of the orphan in American literature.*

Keywords: *individualism, alienation, American dream, dislocation, symbolism, social critique, gothic literature, trauma, freedom, metaphor, independence.*

Babaeva Salima
Mirzo Ulugbek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

AMERIKA ADABIYOTIDA YETIM BOLA OBRAZI

Annotatsiya: *Amerika adabiyotida yetim obrazi alohida o‘rin tutadi, ko‘pincha o‘ziga xoslik, individualizm, ijtimoiy tartibsizlik va axloqiy rivojlanish mavzularini o‘rganadigan obyekt vazifasini bajaradi. Yetim-bu an’anaviy oilaviy va ijtimoiy tuzilmalardan tashqarida mavjud bo‘lgan xarakterning adabiy ramzidir. Mazkur maqolada Amerika adabiyotida yetim obrazi talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *individualizm, begonalashish, Amerika orzusi, dislokatsiya, ramziylik, ijtimoiy tanqid, gotika adabiyoti, travma, erkinlik, metafora, mustaqillik.*

Бабаева Салима
PhD, Доцент, Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ОБРАЗ СИРОТ В АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: *Образ сироты занимает особое место в американской литературе, часто выступая в качестве призмы, через которую исследуются темы идентичности, индивидуализма, социальной неустроенности и нравственного развития. Сирота - литературный символ персонажа, который существует вне традиционных семейных и социальных структур. В статье рассматривается образ сироты в американской литературе.*

Ключевые слова: *индивидуализм, отчуждение, человек, американская мечта, дислокация, символизм, социальная критика, готическая литература, травма, свобода, метафора, независимость.*

Introduction

The image of the orphan holds a central and enduring place in American literature. More than just a character without parents, the orphan often symbolizes deeper themes of identity, freedom, alienation, and the search for belonging. In a society built on ideals of self-reliance and reinvention, orphan characters embody the challenges and possibilities of navigating the world alone. From the adventurous Huck Finn to the emotionally lost Holden Caulfield, American authors have used the orphan as a literary device to critique social norms, explore moral growth, and reflect the nation's values and contradictions. This article examines how orphan figures function across various genres and historical periods, highlighting their role in shaping the American literary tradition.

Literature Review

Scholars have long examined the role of the orphan in American literature as a reflection of both individual and cultural anxieties. According to Nina Baym, the orphan figure serves as a "narrative engine" that enables plots of self-discovery, especially in a society

built on ideals of autonomy and personal freedom. She argues that the absence of parental authority allows authors to explore alternative forms of identity and morality [1].

Harold Bloom highlights the orphan's symbolic function in the American canon, describing it as a metaphor for the nation's desire to detach from European tradition and forge a unique cultural identity [2]. In his analysis of *Huckleberry Finn*, Bloom emphasizes how Huck's disconnection from family and society enables his moral transformation, particularly in his relationship with Jim. Other critics, like Leslie Fiedler, discuss how orphanhood in American literature often coincides with themes of frontier freedom, rebellion, and moral ambiguity. Fiedler identifies this pattern in both *The Adventures of Tom Sawyer* and *The Catcher in the Rye*, where the young protagonists are estranged not only from family but from the broader adult world [3].

Feminist literary scholars such as Sandra M. Gilbert and Susan Gubar have examined the gendered aspects of orphanhood, especially in female characters [10]. They note that orphaned girls in literature such as in *The Wide, Wide World* or *Jane Eyre* (influential though British) often face social constraints that complicate their paths to agency and selfhood, differing significantly from their male counterparts.

More recent studies, including those by Toni Morrison and Bell Hooks, view the orphan as a powerful figure in African American literature, representing the historical trauma of slavery, familial separation, and the erasure of ancestral ties. In works like *Beloved*, the absence of family is both literal and metaphorical, symbolizing the violence of systemic oppression [5].

Overall, literary critics agree that the orphan functions as more than a plot device; it is a symbol of moral, psychological, and cultural exploration. The orphan's marginal position allows writers to challenge conventions and highlight the emotional and social consequences of abandonment, isolation, and reinvention.

Research methodology

This research adopts a qualitative and interpretive literary analysis approach to examine the image of the orphan in American literature. The study focuses on selected literary texts in which orphan figures are central to the narrative, character development, or thematic structure.

1. Textual Analysis. The primary method used is close reading, allowing for detailed analysis of language, symbolism, characterization, and narrative structure. Particular attention is given to how orphan characters function within their social and historical contexts and how their presence reflects broader American cultural values. Example texts include: The Adventures of Huckleberry Finn by Mark Twain [8], The Catcher in the Rye by J.D. Salinger [7], The Great Gatsby by F. Scott Fitzgerald [4], Beloved by Toni Morrison [5]. These texts are selected for their critical acclaim, cultural influence, and the significant role that orphan figures play within them.

2. Thematic Analysis. Themes such as identity formation, alienation, freedom, moral independence, and social critique are identified and traced across the texts. This comparative approach highlights both the common motifs and the unique literary strategies used by different authors.

3. Historical and Cultural Context. The study incorporates a historicist lens to understand how different time periods such as the post-Civil War era, the Jazz Age, or post-World War II America influence the portrayal of orphans. Socio-cultural factors, including race, class, and gender, are considered essential in interpreting these literary depictions.

4. Secondary Sources. The research also engages with existing literary criticism and academic scholarship, including the works of Harold Bloom, Nina Baym, Leslie Fiedler, and Toni Morrison. These sources help contextualize the primary texts within larger critical conversations about American literature and identity.

The Adventures of Huckleberry Finn by Mark Twain [8], functionally orphaned mother is dead, father is abusive and absent. Themes: Freedom, moral development, race, rejection of society.

Huck escapes societal expectations and journeys down the Mississippi River with Jim, an escaped slave. His orphan status allows him to see the hypocrisy of adult society and make his own moral choices, even when they contradict the laws of the time.

The Catcher in the Rye by J.D. Salinger [7], he is emotionally orphaned – disconnected from parents, grieving his brother's death. Themes: Alienation, identity crisis, trauma, youth rebellion. Although Holden's parents are alive, he feels emotionally abandoned and disconnected. His inner struggle and isolation represent the psychological orphan, navigating a society he finds "phony."

The Great Gatsby by F. Scott Fitzgerald [4], he is self-orphaned -rejects poor parents to reinvent him. Gatsby cuts ties with his past and creates a new identity in pursuit of wealth and love. His orphanhood is symbolic—he's an outsider trying to belong to an elite society that ultimately rejects him.

Beloved by Toni Morrison [5], Denver is a child growing up in isolation. Denver grows up emotionally orphaned, isolated from her community due to the legacy of slavery and her mother's past. Sethe, haunted by the ghost of her dead child, is herself a product of generational loss.

Anne of Green Gables by L.M. Montgomery [6] is popular in U.S. curricula. Anne's vivid imagination and desire for love and acceptance reflect the classic orphan's

journey toward selfhood and community, especially from a female perspective.

Analyses and results

The analysis of selected American literary texts reveals that the orphan figure functions as a powerful symbol of both personal struggle and national identity. Across different time periods and genres, the orphan is consistently used to explore themes such as freedom, alienation, moral development, social critique, and reinvention. The findings are grouped into several key thematic patterns:

Characters like Huckleberry Finn and Jay Gatsby represent the classic American value of self-reliance. Huck escapes the constraints of a corrupt society and chooses his own path, while Gatsby literally reinvents himself by rejecting his past. In both cases, orphanhood enables a break from tradition and familial expectations, aligning with the American ideal of the *self-made individual*.

In result orphanhood provides literary characters the narrative space to explore identity outside of social norms.

Characters such as Holden Caulfield and Denver in *Beloved* represent emotional or symbolic orphans. Though not always without living parents, they are psychologically detached, reflecting trauma, grief, or emotional neglect.

In result orphanhood in literature often extends beyond the literal to include characters that are emotionally disconnected from their families or communities—suggesting a broader societal alienation.

Huck Finn's journey represents more than just physical adventure—it is a moral Bildungsroman, where he questions societal norms and chooses compassion over legality in helping Jim escape slavery. Similarly, Katniss Everdeen becomes a reluctant hero whose orphan-like independence allows her to see through the manipulations of authoritarian control. So, orphans in literature are often placed in ethically complex situations where they must rely on personal conscience rather than external guidance.

In all texts analyzed, the orphan figure serves as a critical lens on flawed institutions family, church, state, or capitalism. Sethe in *Beloved* exposes the destruction of familial bonds under slavery, while Holden critiques the superficiality of postwar American society. The orphan is a recurring vehicle for social critique, offering authors a way to question and expose the failure of systems to nurture or protect.

The analysis also shows that female orphans—such as Anne Shirley and Denver often face different narrative paths. While male orphans are typically allowed adventurous freedom, female orphans are more closely tied to themes of domesticity, morality, and emotional growth. However, characters like Katniss challenge this pattern by occupying traditionally masculine roles of protector and rebel.

Gender plays a crucial role in shaping the orphan's literary experience, with increasing complexity in modern representations. From 19th-century adventure novels to 21st-century dystopias, the orphan figure has evolved. Early texts like *Huck Finn* focused on individual liberty, while modern works like *Beloved* and *The Hunger Games* highlight collective trauma and systemic oppression. The orphan archetype has adapted over time, reflecting the changing cultural and historical concerns of American society.

Conclusion

The image of the orphan in American literature is more than a narrative element is a multi-dimensional symbol that reflects the nation's evolving values, anxieties, and ideals. Through the close analysis of texts from different periods such as *The Adventures of Huckleberry Finn*, *The Great Gatsby*, *The Catcher in the Rye*, *Beloved*, and *The Hunger Games*—this study has demonstrated that the orphan figure serves as a literary mirror for themes of individualism, alienation, freedom, trauma, and moral awakening. Whether presented as a literal orphan (Huck, Gatsby, Katniss) or a symbolic, emotional one (Holden, Denver), these characters consistently embody a search for identity in a world that offers little guidance. Often positioned outside of traditional family and social structures, they are free to critique or challenge the norms of their societies. In doing so, the orphan becomes a powerful literary device that allows authors to explore personal and collective transformation.

Used literature

1.Baym, N. Woman's fiction: A guide to novels by and about women in America, University of Illinois Press. 1992. 1820–70.

2.Bloom, H. Mark Twain's Adventures of Huckleberry Finn. Chelsea House. 2004.

3.Fiedler, L. Love and death in the American novel. Dalkey Archive Press. 1966.

4.Fitzgerald, F. S. The Great Gatsby. Charles Scribner's Sons. 1925.

5.Morrison, T. Beloved. Alfred A. Knopf. 1987.

6.Montgomery, L. M. Anne of Green Gables. L. C. Page & Co. 1908.

7.Salinger, J. D. The Catcher in the Rye. Little, Brown and Company. 1951.

8.Twain, M. The Adventures of Huckleberry Finn. Charles L. Webster and Company. 1884.

9.Hooks, B. All about love: New visions. William Morrow. 2000.

10.Gilbert, S. M., & Gubar, S. The madwoman in the attic: The woman writer and the nineteenth-century literary imagination. Yale University Press. 1979.
11.Collins, S. The Hunger Games. Scholastic Press. 2008.
12.Tatar, M. The classic fairy tales. W. W. Norton & Company. (For comparative orphan tropes) 1999.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Bekmurodova Ruxshona Eldor qizi
Samarqand davlat universitetining
Kattaqo'rg'on filiali talabasi
Abdumannatova N.A.
Samarqand davlat universitetining
Kattaqo'rg'on filiali (PhD)

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA HISSIYOTLAR IFODASI

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada Halima Xudoyberdiyeva lirikasining mavzu mundarijasi, mazmun va mohiyat ko'lami, ayol obrazi, isyonsiz hijronning she'rlarda madh etilishi tadqiq qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** mavzu mundarijasi, ayol obrasi, hislar ifodasi, hurfikrlik, Vatan muhabbati, o'ziga xos lirika.*

Бекмуродова Рухшона Элдор кызы
Самаркандский государственный университет
Студентка Каттакурганского филиала
Абдуманнатова Н.А.
Самаркандский государственный университет
Каттакурганский филиал (доктор философии)

ВЫРАЖЕНИЕ ЭМОЦИЙ В ПОЭЗИИ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ

***Аннотация:** В статье рассматриваются тематическое содержание, смысловой объем и сущность, образ женщины, а также прославление немятежного переселения в лирике Халимы Худойбердиевой.*

***Ключевые слова:** Тематическое содержание, женский образ, выражение чувств, индивидуализм, любовь к родине, уникальная лирика.*

Bekmurodova Rukhshona Eldor qizi
Student of the
Kattakurgan branch of Samarkand State University
Abdumannatova N.A.
Samarkand State University
Kattakurgan branch (PhD)

EXPRESSION OF EMOTIONS IN THE POETRY OF HALIMA KHUDOYBERDIYEVA

***Abstract:** This article examines the thematic content, scope of meaning and essence, the image of women, and the glorification of non-rebellious migration in Halima Khudoyberdiyeva's lyrics.*

***Keywords:** Thematic content, female character, expression of feelings, individualism, love of the homeland, unique lyrics.*

Adabiyot insondagi hislar gulshanining gurkirashiga zamin yaratuvchi zilol chashmadir. Abdulla Qahhor ta'kidlaganidek: "Adabiyot - ko'ngil ishi samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi – meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'nglida meva tugadi". [5; 96] Darhaqiqat, xoh shoir, xoh yozuvchi bo'lsin yaratayotgan "kashfiyot"ining ichida yashamasa, uni qalb qo'ri bilan his qilmasa, o'zgalarni ham junbushga keltira olmaydi. Natijada esa yozilgan asar shunchaki oq varaqqa tushirilgan qora harflar bo'lib qolib ketaveradi.

Men shunchaki o'ylagim kelmas,
Xayol sharob misol qilsin sarxush, mast.
Men shunchaki kuylagim kelmas,
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.
Shunchaki yozmoq-chi, ko'ngil to'lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.
Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi,
Shunchaki yozmoq, bu -shoirga o'lim! [2;75]

Halima Xudoyberdiyevaning bu misralari orqali yuqoridagi fikrlar naqadar to‘g‘ri va o‘rinli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shoira aytganidek, shunchaki yozmoqlik ham shoirga, ham yozuvchiga ham olimga o‘limdir! Bu haqida “O‘zbek shoiralari” kitobini nashr ettirgan To‘xtasin Jalolov Halima Xudoyberdiyevaning she’rlari xususida “Tuyg‘ular tug‘yoni” sarlavhali maqolasida keng fikrlar berib o‘tgan.

Ba’zan atrofdagi qaysidir holatlardan ta’sirlanib qalam tebratmoqni xohlaydi kishi. Ammo bu ta’sir qachonki ko‘ngilning nozik qafasiga kirib bora olsa, dilning har bir torini mayin cherta olsa-yu ko‘zyosh deb atalmish anhor to‘g‘onini buzishga kuchi yetsagina u haqiqiy she’r bo‘lib bodrab chiqadi. Halima Xudoyberdiyeva ham yuqoridagi misralarda ufurib turgan buyuk va shaxdam shijoat ila adabiyotga kirib keldi. Uning yana bir she’rida shoirlik qanchalik qiyinligi va talab tog‘ining qanchalik mustahkam ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Nafaqat
Zar, zo‘rlarni,
Uzsang to‘sin, to‘rlarni,
Chayqaltirsang go‘rlarni,
Go‘rdayam hayqirolsang,
Demakki, sen shoirsan! [2; 24]

Shoiraning hech bir she’ri boshqalarnikiga o‘xshamaydi, hattoki she‘rlarining birortasi bir-birini takrorlamaydi. Har biri o‘zicha bir yangi olam – tuyg‘ular olami. She’riyatining mavzu ko‘lami ham juda keng. Vatan muhabbati, hurfikrlik, sadoqat, adolat, erk, farzand, ayniqsa, ayol timsoli yetakchi o‘rinda turadi. Uning she‘rlarida tasvirlangan ayol obrazi matonatli, sabrli va dovyurak, haqiqiy o‘zbek qizidir. Halima Xudoyberdiyeva juda ko‘p hijron haqida so‘zlaydi. Ammo hech qachon isyon ruhi sezilmaydi. U jimgina g‘amga botadi, jimgina azoblanadi va bir kun emas bir kun baxt oftobi issiq nurlar sochib chiqishiga yurak-yurakdan ishonadi.

… Sening asov otday
Uchqur o‘ylaring tizginini
Qo‘lga ola olaman.
Men sening g‘azabda she’rligingga aminman,
Qodirsan dunyo yukin ko‘tarmoqqa yelkada.
Qancha botir bo‘lsang ham
Men jismonan zaifaning qoshida ojizsan sen.
Goho qarshimda mag‘rur ko‘zingda yosh qalqadi.
Dunyoda ayol borki, go‘zallik, nazokat bor.
Sen mendan hayiqasan! [1; 107]

“Men jismonan zaifaning qoshida ojizsan sen” – deya butun ayollar nomidan so‘zlaydi shoira. Erkak zoti qanchalik kuchli va mag‘rur bo‘lmasin, ba’zan ayolning yonida ko‘zlarida yosh qalqiydi. Uning tog‘larni talqon qiladigan, butun yer yuzini ag‘dar-to‘ntar qiladigan jasorati bo‘lsa-da, birgina ojiza ayolning muhabbati oldida taslimdir. Shoira faqatgina o‘zi bo‘lib yashamadi, o‘zi bo‘lib she’rlar bitmadi. U To‘maris bo‘ldi, u Nodira bo‘ldi, u Uvaysiy bo‘ldi, hattoki, Navoiyning, Mashrabning, Yassaviyning qiyofasiga kira oldi, ular kabi qalam tebrata oldi. She’rlarida hurfikrlik ila tasavvufiy, falsafiy g‘oyalar ham ufurib turdi. “U barobarida, hayotda bir ruhoniy iqlim ham yarata olgan ijodkordir. Biz ulug‘vor she’rlarining mavzusi saflana-saflana, tovlana-tovlana, dam laylivash, dam majnunvash, dam yassaviyona, dam Mashrabdek sollanib hayot, ijod hamda nafosat mintaqalarini adl-dov egallagan asarlari timsolida “Halima Ruhiyati” degan fasona maydonga chiqdi, deb aytolamiz”. [4; 36]

Qaro kundan dilim tongan, nurdir, tozadir bu ishq,
Ko‘zlarimda o‘tday yongan yerdir, fazodir bu ishq.
Bilmam, uning qo‘li abad silarmikan sochimni
Balki peshonamga bitgan balo-qazodir bu ishq.

Har bir misrada tashbeh va istioralar shunday mahorat bilan zich joylashtiriladiki, har o‘qilganda yangi ma’no, yangi tuyg‘u kasb etadigandek bo‘laveradi. Bu shoiraning qanchalik kuchli hissiyotlar to‘foniga ega ekanligidan dalolatdir.

Turayotgan qushga o‘xshayman juda,
Qushlarga o‘xshayman uyg‘onayotgan.
Ba’zi tomirlarim hali uyquda,
Ba’zi tomirlarda qonlarim qotgan.
Xas-xashaklar bilan sudralib yurib,
O‘zlik orzusida ketib borar yoy.
O‘zimcha nelardir g‘udranib yurib,
Guldayin umrimni bermoqdaman boy.

Shoira mudrayotgan hislar girdobida yashar ekan o‘zini endigina uyg‘onayotgan qushga qiyoslaydi. Ba’zan shirin tuyg‘ular qarida jizg‘anak bo‘lsa, ba’zan usiz sovuqqotganidan hattoki tomirlarda qonlar qotgandek. Go‘yoki yoy o‘zini topmoq uchun fitratidan qochayotgandek, men ham nimadirlarni topmoq uchun guldek umrimni xazonga bermoqdaman.

Uning she’riy so‘zida istioralar, majozlar ichida ko‘ngilning oniy kechinmalari – tebranishlar, titroqlar namoyon bo‘ladi:

Istamam, hayotni men chindan
Kitobda yo‘qolsa imi-jim.
Sarg‘aymay varaqlar ichinda
Kitobdan chiqadi hayotim.
Men seni kitobga yozdim-u…

deydi Halima Xudoyberdiyeva. Bu shunchaki so‘z o‘yini emas. Yoki, shoir

qismatiga aytilgan chiroyli, obrazli ta’rif emas. Bu asl shoirning peshonasiga

bitilgan yozuq, uni shoirlik martabasiga ko‘targan shaxslik qismati. [2; 23]

Halima Xudoyberdiyeva dillar toqiga o‘zining imzosini qo‘ygan ijodkordir. Yillar o‘tsin, asrlar o‘tsin necha-necha ming ijodga havasmand yoshlar uning

satrlarini o‘qir ekan asl o‘zbek shoirasining timsolini ko‘z oldida gavdalantiradi. Shoiraning erkka, hurlikka tashna ruhiyati she’rlari orqali abadiy barhayot qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Halima Xudoyberdiyeva Ilk muhabbat. She’rlar. Toshkent: 1968. – 267 b.

2.Halima Xudoyberdiyeva Chaman. She’rlar. Toshkent: 1990. – 336 b.

3. Kurbanbayeva N. Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida ayol ruhiyatini ifodalashda lirik kechinmaning o‘rni // Innovative Academy RSC, 2021. – Б. 72.

4. G‘ofurov I. Halima ruhoniyati // Xalq so‘zi, 2019. 22-fevral. № 3. – Б. 114.

5.A.Qahhor “Yoshlar bilan suhbat”- Toshkent.1968. – 140 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Abduxalilova Dilobar
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti Toshkent, O‘zbekiston

BADIIY TARJIMADA EKVIVALENTLIKNING MATN MUVOFIQLIGI TURI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda tarjimashunoslik dolzarb muammolaridan biri badiiy tarjimada uchraydigan ekvivalentlik muammolari, uning turlari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Olimlarning mavzu yuzasidan bildirgan fikrlari o‘rganilib, nemis, o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi misollar orqali tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *tarjimashunoslik, mutarjim, ekvivalentning, asliyat tili, tarjima tili, matn muvofiqligi ekvivalentligi, nol ekvivalentlik.*

Abdukhalilova Dilobar
Uzbek State University of World Languages PhD student
Tashkent, Uzbekistan

EQUIVALENCE IN LITERARY TRANSLATION

Annotation: *This article discusses one of the current problems of translation studies today, the problems of equivalence in literary translation, and its types. The opinions of scholars on the subject are studied and analyzed using examples in German, Uzbek, English and Russian.*

Keywords: *translation studies, translator, equivalent, source language, target language, textual equivalence, zero equivalence.*

Абдухалилова Дилобар
Узбекский государственный университет мировых языков базовый докторант Ташкент, Узбекистан

ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация: *В статье рассматривается одна из актуальных проблем современного перевод ведения — проблемы эквивалентности в художественном переводе и ее виды. Мнения ученых по данной теме изучаются и анализируются на примерах на немецком, узбекском, английском и русском языках.*

Ключевые слова: *перевод ведение, переводчик, эквивалент, исходный язык, целевой язык, текстовая эквивалентность, нулевая эквивалентность.*

Kirish

Tarjima ekvivalentligini, bir tomondan, asliyat tili (ИЯ) va tarjima tili (ПЯ) matnlarini solishtirishda kashf etilgan empirik fenomen sifatida ajratish kerak; boshqa tomondan, tarjima ekvivalentligi uchun zaruriy shartlar yoki asoslar bilan bog‘liq. Bizni qiziqtirayotgan narsa — tarjima ekvivalentligi, aynan empirik fenomen sifatida. Qolaversa, tekstual ekvivalentlik (textual equivalence) va formal muvofiqlik (formal correspondence) o‘rtasidagi farqni ajratish kerak. Taktik ekvivalent — bu har qanday tarjima tilidagi matnni yoki uning bir qismi, ma'lum bir holatda quyida tavsiflangan usullar yordamida asliyat matnining yoki uning bir qismining ekvivalenti sifatida belgilanadi. Formal muvofiqlik esa, tarjima tilidagi har qanday toifa (birlik, sinf, tuzilma va h.k.) bo‘lib, u asliyat tilidagi ma'lum bir birliklarga mos kelishi mumkin. Har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lgani sababli, uning toifalari faqat til ichidagi munosabatlar nuqtai nazaridan aniqlanadi — shuning uchun formal muvofiqliklar deyarli har doim taxminiy bo‘ladi. Matn ekvivalentligi esa asliyatning har qanday vazifasi (matn yoki matn qismi) sifatida tarjima tilining ma’lum bir vazifasiga ekvivalent sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari

Matn ekvivalentligi tarjimonning tajribasiga asoslanib aniqlanadi. Misol uchun, tadqiq qilinayotgan tildagi, nemis tilidagi, "Mein Grossvater ist sechsundsiebzig Jahre alt" (Mening bobom yetmish olti yoshda) iborasining xuddi shu tildagi ekvivalenti "Mein Opa ist sechsundsiebzig Jahre alt" deb aytiladi. Ushbu

ibora "Mein Grossvater ist sechsundsiebzig Jahre alt" iborasining matnga asoslangan ekvivalenti hisoblanadi. Biz bu jarayonni har qanday matnning qismiga takrorlashimiz mumkin, masalan, "Mein Grossvater ist sechsundsiebzig Jahre alt " iborasining nemischa ekvivalentini so‘ralganda, mutarjimlar tomonidan " Mein Opa ist sechsundsiebzig Jahre alt " deb javob berishi tabiiy holat hisoblanadi.

O‘rganishning boshqa usuli, ekvivalentlar haqida so‘rash o‘rniga, yanada rasmiyroq bir jarayonni qo‘llash — bu kommutatsiya (commutation) va kommutatsiya variantlarini kuzatishdir. Boshqacha qilib aytganda, biz matnni aslizat tilida tizimli ravishda o‘zgartirib, bu o‘zgarishlarning tarjima tilida qanday ta'sir ko‘rsatishini kuzatishimiz mumkin. Shunda aytish mumkin: matnning asliyat tilidagi qismini o‘zgartirganda va faqatgina o‘sha qismini o‘zini o‘zgartirishda tarjima tilidagi matnda ham o‘zgaradigan qismlar — bu ekvivalentlar hisoblanadi. Bizning misolimizda, inglizcha "*Mein Grossvater ist sechsundsiebzig Jahre alt*" matnini o‘zbek tiliga tarjima qilganimizda, "*Mening bobom 76 yoshda*" tarzida tarjima qilinadi. Vaholanki o‘zbek tilida ham ***bobo*** so‘ziga bir qancha ekvivalentlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir: *bobo – buva, kattaota* kabi so‘zlar bilan ekvivalent bo‘ladi. Bunday holatlarda, ko‘pincha ikkita tilni bilish asosida ish ko‘riladi. Ushbu holat, faqat yozma yoki og‘zaki matn mavjud bo‘lsa, qo‘llaniladigan yagona usuldir. Bunday holatda tadqiqotchi o‘zi ma'lumot manbai bo‘lib, "intuitiv" tarzda, ya'ni o‘z tajribasiga asoslanib, matnni aniq kommutatsiya jarayoniga solmasdan ekvivalentlarni topadi. Shunday bo‘lsa-da, kommutatsiya — matn ekvivalentligini tekshirishning eng ishonchli usuli bo‘lib, turli darajadagi va turli bo‘yoqdorlikdagi birliklar o‘rtasida ekvivalentlikni aniqlashda juda muhim hisoblanadi. Masalan, agar biz nemis tilidagi "*Die Frau ist aus dem Haus gekommen*" matnini va uning o‘zbek tilidagi ekvivalenti bo‘lgan "*Ayol uydan chiqib ketdi*"ni olaylik, bizga nemis tilidagi aniq artiklning o‘zbek tilidagi ekvivalentini aniqlash kerak bo‘lishi mumkin. Kommutatsiya quyidagi natijani beradi:

Asliyat matni 1. *Die Frau ist aus dem Haus herausgekommen.*

Tarjima matni 1. *Ayol uydan chiqib ketdi*

Asliyat matni 2. *Eine Frau ist aus dem Haus herausgekommen.*

Tarjima matni 2. *Uydan bir ayol chiqib ketdi*

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ushbu aniq holatda, ushbu matnda nemischadagi aniq artiklning noaniq artikl bilan almashtirilishi o‘zbekcha jumla tarkibidagi elementlarga bir sonining qo‘shilishi hamda so‘zlarning o‘rnini almashtirish bilan bog‘liq. Matn ekvivalentligini quyidagicha shakllantirishimiz mumkin:

Nem: Die (ot tarkibida) (ega o‘rnida) = o‘zbek tilida (ega+ hol + kesim)

Nem: Eine (ot tarkibida) (ega o‘rnida) = o‘zbek tilida (hol +ega + kesim)

Bu yozuvni quyidagicha tushunish mumkin: “nemis tilidagi aniq artikl (die) jumla tarkibida ega tizimida tarjima ekvivalenti sifatida o‘zbekcha jumla tarkibida ko‘rsatilgan ketma-ketlikka ega (ega, kesim, ikkinchi darajali bo‘laklar, va hokazo.)

Natijalar va munozara

Koller matn muvofiqligi ekvivalentligini "ma'lum matnlarga tegishli bo‘lgan matn va til normalariga (foydalanish normalariga)" yoki "matn janriga xos xususiyatlarga" bog‘liq ekvivalentlik sifatida tushuntiradi [Koller 1992: 216]. Shuning uchun ham matn muvofiqligi ekvivalentligini ta'minlash, tarjima tilining matn turidagi an'analarga rioya qilishni anglatadi. Matn turining shartlari nafaqat til vositalarini tanlashni boshqaradi, balki matn tuzilishini ham belgilaydi [Koller 1992: 247]. Tildan foydalanish, tavsiflash va ularni bog‘lash, kelajakdagi tarjima fanining asosiy vazifalaridan biridir, chunki yaxshi shakllangan matn faqat yaxshi shakllangan jumlalar yig‘indisi emas.

Koller tarjimashunoslikka matn muvofiqligi ekvivalentligi terminini kiritishi bilan, amaliy va didaktik tarjima fanida bu mavzu haqiqatan ham ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Biroq, aynan matn janriga oid tadqiqotlar oddiy ekvivalentlik munosabatlari bilan bu masalani hal qilish qiyin ekanligini ko‘rsatadi. Matn janri qanchalik an'anaviy bo‘lsa, shunchalik belgilangan va madaniyatga xos matn janri an'analari ham bo‘ladi. Bu, xususan, huquqiy matnlarda, masalan, Koller keltirgan misol nemis va italiyan huquqiy tizimlaridagi sud qarorlari kabi, o‘zining makro tuzilishidagi farqlar orqali aniq ko‘rinadi.

Tarjima ekvivalenti sifatida o‘zbekcha jumlaning tuzilishida elementlarning teskari ketma-ketligiga ega. Ba'zi hollarda, asliyat tilida ma'lum bir birlik tarjima tilida uchramagani uchun tarjima ekvivalenti mavjud emas deyish mumkin, hamda uni kommutatsiya yordamida ham ko‘rsatish mumkin. Bunday hollarda, bu yerda hech qanday tarjima ekvivalenti yo‘qligini ta'kidlash kifoya qiladi. Tarjima tilining tizimini bunday holatlar uchun (agar mavjud bo‘lsa) nol atama bilan qoldiradi. Shunday qilib, masalan, nemis tilidagi quyidagi matnni chet tili sifatida rus va o‘zbek tillaridagi matnlarni taqqoslab, biz yo‘q va nol tushunchalari qanday farq qilishini ko‘ramiz.

Asliyat tili, nemis: Mein Vater war ein Arzt.

Tarjima tili, ingliz: My father was a doctor.

Tarjima tili, o‘zbek: Otam shifokor bo‘lgan.

Nemis va ingliz tillaridagi so‘zlar tizimini, jumladan, nol artiklni o‘z ichiga olgan tizim sifatida ta'riflash mumkin. Keyin bizning misolimizda aytishimiz mumkinki, o‘zbek tilida nemischa noaniq artiklning tarjima ekvivalenti nol artikldir. Biroq, ingliz tilida so‘zlar tizimida bu holat mavjud emas. Shuning uchun o‘zbek tilidagi matnda nemis tilidagi noaniq artiklning

ekvivalenti yo‘q. Keyin nemischa ***ein***ning inglizcha ekvivalenti ***a/an*** ekanligini aytib o‘tishimiz lozim. Ushbu misolda ekvivalentlik faqat yuqori darajada – yoki yuqori guruh darajasida o‘rnatilishi mumkin. Nemis tilidagi Arzt iborasi o‘zbek tilidagi “shifokor” ot iborasi ma’nosiga to‘g‘ri keladi.

Turli xil miqdorlarga ega matnlarda asliyat tilidagi ba'zi birliklar deyarli bir necha marta paydo bo‘ladi. Har safar ular o‘zlarining tarjima ekvivalentlariga ega bo‘ladilar. Matn muvofiqligi ekvivalentligining har bir xususiyatlari aniq holatini qayd etib, biz chet tilining har bir birligi uchun mumkin bo‘lgan matn ekvivalentlari haqida umumiy xulosa chiqarishimiz mumkinligini bildiradi. Shu jumladan, ushbu umumlashtirishda matnda yuqoridagi birliklardan foydalanishning barcha holatlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Chet tilining ayrim birliklari har doim bir xil matn muvofiqligi ekvivalentligiga ega bo‘lishi mumkin. Bu holda umumlashtirilgan matn muvofiqligi ekvivalenti sifat jihatidan ushbu birlikning matnli ekvivalentligining har bir alohida holati bilan bir xil bo‘ladi. Ammo farq shundaki, bu yerda miqdoriy tafovutlar uchrashi mumkin.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, agar tahlil qilinayotgan matn yetarlicha uzun bo‘lsa, tarjima ekvivalentlarining ehtimollik xarakteristikalarini umumlashtirish va boshqa matnlarga, ehtimol, "butun tilga" yoki, aniqrog‘i, ushbu tilning bir xildagi barcha matnlarga (bitta dialekt, registr va boshqalar) tegishli bo‘lgan "tarjima qoidalari"ni shakllantirish mumkin. Tarjima qoidasi matn tarjimasi ekvivalentlarining ehtimollik xususiyatlarini ekstrapolyatsiya qilishdir. Bunday qoida eng yuqori shartsiz ehtimolga ega ekvivalentni va aniqlovchi omillarni ko‘rsatgan holda eng yuqori shartli ehtimolga ega ekvivalentlarni belgilaydi. Tarjimonlar (mashinalar emas, odamlar) uchun qoidalar kontekstual ma’noga bog‘liq holda tuzilishi mumkin. Mashina tarjimasi maqsadlari uchun tarjima qoidalari mashina lug‘atida ma'lum diakritik belgilar bilan belgilangan birliklarni matnli qidirish bo‘yicha tezkor ko‘rsatmalar sifatida, har bir alohida holatda u yoki bu shartli ekvivalentni chop etish bo‘yicha ko‘rsatmalar sifatida shakllantirilishi mumkin. Yuqori ehtimollik bilan bajarilishi "to‘g‘ri natija"ni ta'minlaydigan bunday operatsion ko‘rsatmalar algoritmlar deb ataladi.

Kitobxon uchun anchayin erkin va matn kontekstiga asoslangan ko‘rsatmalar jamlanmasi "tarjima qoidalari" deb ataladi. Mashina tarjimasi uchun yanada qattiqroq, matnga asoslangan ko‘rsatmalar, qat'iy aytganda, "tarjima algoritmlari". samarali bo‘lishi uchun ishonchligiga asoslanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Arifova, U.A., (2023) Ekvivalenti bo‘lmagan grammatik birliklarning tilshunoslilkda o‘rganilishi xususiyatlari. “Uzbekistan-China: development of historical, cultural, scientific and economic relations”. https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-16-21

2. Fatxutdinova, I.A., (2021). Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 140-149.

3. Fedorov, A.V., (1968) *Osnovi obshey teorii perevoda*. - M.: Visshaya shkola.

4. Koller, W., (2001) *Einführung in die Übersetzungswissenschaft*. Wiebelsheim: Quellen und Meyer.

5. Musayev, Q., (2005) *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent, Fan nashriyoti.

6. Nelyubin, L., (2003) *Tolkoviy slovari po perevodovedeniyu*. – M.: Flinta.

7. Ochilov, E., (2022) *Tarjimashunoslikning nazariy masalalari*. Innovatsion ziyo, Toshkent.

8. Salomov, G‘., (1983) *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent, O‘qituvchi.

9. Vinogradov, V.S., (2001) *Vvedenie v perevodovedinie* - M.: IOSO RAO. S – 18.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Egamnazarova Durdona Shuhratillaevna
Qo`qon universiteti dotsenti
durdonajuraeva@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MORFOLOGIK DEVIATSIYA LISONIY ME‘YORNING NISBIYLIK SATHIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqoladai ingliz va o‘zbek tillarida morfologik deviatsiya hodisasi tahlilga tortilib, so‘z yasash jarayonining murakkabligi hamda uning fonetik, grammatik va sintaktik sathlar bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi. So‘z yasashning an’anaviy usullari (affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya, konversiya) bilan bir qatorda noodatiy shakllari (kontaminatsiya, tmesis, backronym) ham misollar asosida tahlil qilinadi. Neologizmlarning vujudga kelishi, affiksal va kompozitsion birliklarning innovatsion shakllari, ingliz tilida so‘z qisqarishining samaradorligi va o‘zbek tilida suffiksal jarayonlarning mavqei qiyosiy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Morfologik deviatsiyaning til innovatsiyasidagi o‘rni aniqlanadi va har ikki tildagi lingvistik ijodkorlik hamda tizimiy cheklovlarning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi..*

Kalit so‘zlar: *morfologik deviatsiya, so‘z yasash, affiksatsiya, kompozitsiya, neologizm, kontaminatsiya, tmesis, lingvistik innovatsiya, konversiya, abbreviatsiya.*

Эгамназарова Дурдона Шухратиллаевна
Доцент Кокандского университета
durdonajuraeva@gmail.com

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОТКЛОНЕНИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКАХ НА ОТНОСИТЕЛЬНОМ УРОВНЕ ЯЗЫКОВОЙ НОРМЫ

Аннотация: *В данной статье анализируется явление морфологической девиации в английском и узбекском языках, раскрывается сложность процесса словообразования и его тесная взаимосвязь с фонетическим, грамматическим и синтаксическим уровнями. Наряду с традиционными способами словообразования (аффиксация, композиция, аббревиация, конверсия), рассматриваются также нестандартные формы (контаминация, тмезис, бэкроним), проанализированные на основе примеров. В статье в сравнительном аспекте исследуются появление неологизмов, инновационные формы аффиксальных и композиционных единиц, эффективность сокращения слов в английском языке и значение суффиксальных процессов в узбекском языке. Определяется роль морфологической девиации в языковых инновациях, освещаются особенности лингвистического креативизма и системных ограничений в обоих языках.*

Ключевые слова: *морфологическая девиация, словообразование, аффиксация, композиция, неологизм, контаминация, тмезис, лингвистическая инновация, конверсия, аббревиация.*

Egamnazarova Durdona Shuhratillaevna
Associate Professor, Kokand University
durdonajuraeva@gmail.com

MORPHOLOGICAL DEVIATION IN ENGLISH AND UZBEKISTAN AT THE RELATIVE LEVEL OF THE LINGUISTIC NORM

Abstract: *This article analyzes the phenomenon of morphological deviation in English and Uzbek, revealing the complexity of word formation and its close relationship with phonetic, grammatical, and syntactic levels. Alongside traditional word formation methods (affixation, composition, abbreviation, conversion), unconventional forms such as contamination, tmesis, and backronyms are examined through examples. The emergence of neologisms, innovative forms of affixal and compositional units, the effectiveness of word shortening in English, and the role of suffixal processes in Uzbek are explored through a comparative approach. The study identifies the role of morphological deviation in linguistic innovation and highlights the unique features of linguistic creativity and systemic constraints in both languages.*

Keywords: *morphological deviation, word formation, affixation, composition, neologism, contamination, tmesis, linguistic innovation, conversion, abbreviation.*

Kirish

So‘z yasash tizimi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning naqadar jilvakorligini dalillovchi bir qator lingvistik omillar mavjud. Birinchidan, so‘z yasash tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida qaralsa-da, u fonetika, grammatika va sintaksis kabi boshqa til sathlari bilan uzviy bog‘langan [1, 11-12]. So‘z shakllanishining fonetik xususiyatlari, grammatik tuzilmalarga bog‘liqligi va sintaktik birliklar bilan aloqadorligi uning integral xarakterini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, so‘z yasash bilan so‘z o‘zgartirish jarayonlarini aniq chegaralash qiyin bo‘lib, bu ularning o‘zaro bog‘liqligi va til tizimidagi dinamik xarakteri bilan izohlanadi. Morfologik o‘zgarishlar doimiy harakatda bo‘lib, yangi til birliklarini shakllantirishda aktiv rol o‘ynaydi. Shuningdek, paradigmatik va sintagmatik munosabatlar asosida so‘z yasash jarayonlari til tizimining izchil rivojlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, sinxron va diaxron yondashuvlar nuqtai nazaridan so‘z yasashning tahlili murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu ikki yondashuvni aniq chegaralash qiyin bo‘lib, ularning o‘zaro aloqadorligi lingvistik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir jihati shuki, so‘z yasashning kommunikativ ahamiyati katta bo‘lib, u lingvistik innovatsiyalarni shakllantirish, nutq boyligini oshirish va yangi tushunchalarni ifodalash jarayonlarida markaziy o‘rin tutadi.

Asosiy qism

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham yangi so‘z yasalishining xilma-xil usullari borligi ma’lum. Lekin bu usullarning miqdori va turlarini belgilashda, shuningdek, ularni nomlash masalasida hanuz yagona bir fikrga kelingan emas. O‘zbek tiliga, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda so‘z yasalishining ikkidan to yettigacha bo‘lgan turi ko‘rsatiladi. So‘z yasalishining asosiy usullari deb ko‘pchilik tomonidan tan olinayotgan va lingvistik adabiyotlarda qayd etilayotgan usullar quyidagilardir: 1) semantik (yoki leksik-semantik) usul, 2) fonetik usul, 3) sintaktik - leksik usul, 4) affiksatsiya usuli, 5) kompozitsiya usuli, 6) abbreviatsiya [2,27]. Demak, lisoniy deviatsiyalarni qaysi til sathlarida namoyon bo‘lishiga qarab aniq ajratish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotimiz yondashuvi nuqtai-nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, morfologik deviant birliklar – novatsiyalar - tabiatiga ko‘ra avvalambor neologizmlardir. Tilda paydo bo‘lgan har bir yangi so‘z avvalambor morfologik me'yorlar nuqtai nazaridan yangilik sanaladi. Neologizmlar ma’lum bir vaqt davomida keng jamoat tomonidan qabul qilinmagan, yangi paydo bo‘lgan so‘zlar bo‘lib, ular bir muddat sinov davrini o‘taydi [3,23]. So‘z lug‘atlarda rasman qayd etilib, ommaga singib ketganidagina u to‘liq qabul qilingan neologizmga aylanadi. Neologizmlarning katta qismi jamiyatdagi madaniyat va texnologiyadagi o‘zgarishlar ta’sirida paydo bo‘ladi – yangi realiyalar, tushunchalar uchun tilda yangi nomlar kerak bo‘ladi va natijada yangi so‘z yasaladi [4, 114].

Yangi so‘zlar yaratilishining morfologik modellari turlichadir. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tilshunoslikda so‘z yasalishning an'anaviy usullari asosida novatorcha, noodatiy usullar ham faoliyat yuritadi.

Affiksatsiyada o‘zakka affikslar qo‘shish orqali yasama so‘zlar hosil qilinadi va tillarda eng produktiv so‘z yasalishi usulig kiradi. [5,4] Masalan, o‘zbek tilida "ilm"ga "-don" qo‘shimchasini qo‘shib "ilmdon", ingliz tilida "digital" asosiga "-ize" qo‘shimchasini qo‘shib "digitalize" singari. Neologizmlarning ko‘pchiligi aynan shu usul – yangi qo‘shimchalar orqali yuzaga keladi. Tilda ba’zan butunlay yangi qo‘shimchalar ham paydo bo‘lishi mumkin – masalan, zamonaviy internet-shevalarda "-core" suffiksi - "cottagecore" (qishloqcha estetika) so‘zidan boshlab turli estetik yo‘nalishlarni ifodalash uchun yangidan kashf qilingan.[6, 86]

Zamonaviy ingliz tilida so‘nggi yillarda paydo bo‘lgan affiksal morfem tarkibli deviant birliklarga quyidagilarni misol qilish mumkin: -able sifat yasovchi suffiksal morfema (bajarilishi yoki amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan holatni bildiradi). Masalan: *googlable* – qidiruv tizimlarida topish mumkin bo‘lgan narsa; microwaveable – mikroto‘lqinli pechda tayyorlashga yaroqli; -ize fe’l yasovchi suffiksal morfema (biror narsani ma’lum bir holatga keltirish yoki jarayonga aylantirish ma’nosini bildiradi): exponentialize – sonni eksponensial shaklga keltirish; enemize – biror narsani yoki kishini dushmanga aylantirish; -ism ot yasovchi suffiksal morfema (muayyan g‘oya, falsafa yoki ijtimoiy hodisani bildiradi): schismaticism – jamiyat yoki guruh ichida bo‘linishga moyillik yoki unga rag‘bat berish; ageism – yosh bo‘yicha diskriminatsiya; lookism – inson tashqi ko‘rinishiga asoslangan kamsitish yoki tarafkashlik; -ic sifat yasovchi suffiksal morfema (narsa yoki hodisaning qanday xususiyatga egaligini bildiradi): pesticidic – pestitsidlar bilan to‘yingan yoki qoplangan; villagistic – qishloq yoki qishloq hayotiga oid; -ship ot yasovchi suffiksal morfema (holat, jarayon yoki ijtimoiy munosabatni bildiradi): whatevership – ilgari aniq belgilanmagan munosabat turi; cyber- prefiksal universal morfemasi (raqamli texnologiyalar va internet bilan bog‘liq hodisalarni bildiradi): cybercafe – internet-kafe; cybercrime – kiberjinoyat; cyberfraud – onlayn firibgarlik; de- fe’l yasovchiprefiksal morfemasi (jarayonni qaytarish yoki yo‘q qilish ma’nosini bildiradi): to deconflict –

mojarolarni oldini olish; to defriend – ijtimoiy tarmoqlardagi do‘stlar ro‘yxatidan o‘chirish; mis- fe‘l yasovchi prefiksal morfema (noto‘g‘ri yoki xatolik bilan bog‘liq hodisani bildiradi): mismessage – noto‘g‘ri qabul qiluvchi shaxsga xabar yuborish; un- prefiksi (inkor qilish yoki aksincha harakatni bildiradi): unfollow – ijtimoiy tarmoqlarda obunani bekor qilish; anti- prefiksi (qarshilik yoki ma’lum odatlarga zid bo‘lishni bildiradi): anti-habit – inson yoqimsiz natija yoki jarayondan qochish uchun tark etadigan odat; re- prefiksi (qayta bajarish yoki takrorlashni bildiradi): recommerce – ishlatilgan buyumlarni (elektronika, kiyim-kechak va h.k.) internet orqali sotish va sotib olish bilan bog‘liq biznes turi - ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida an’anaviy so‘z yasalish modeli bo‘lmish affiksatsiya yangidan-yangi so‘zlarning eksperimental qolipi uchun asos bo‘lmoqda.

O‘zbek tilida neologizmlar hosil qilish jarayonida morfologik deviatsiya (ya’ni, yangi affiksal shakllar orqali so‘z yasash) tez rivojlanmoqda. Asosan, *-chi, -zor, -lik, -vachcha, -ona* kabi an’anaviy affikslar yangi kontekstlarda ishlatilmoqda. Shuningdek, *anti-, cyber-, re-, de-, un-* kabi o‘zlashma prefikslar o‘zbek tiliga moslashib, transliteratsiya asosida yangi so‘zlarning faollashib borishida muxim rol o‘ynamoqda. Bu jarayon til tizimidagi innovatsiyalarni aks ettirib, internet, texnologiya, biznes va ijtimoiy hayot bilan bog‘liq yangi tushunchalarni ifodalash imkonini bermoqda. Masalan: -chi ot yasovchi suffiksal morfema (shaxs yoki faoliyat egasini bildiradi [7,145], lekin yangi kontekstlarda ishlatilmoqda): *blogerchi* – blog yurituvchi yoki bloglar haqidagi munozaralarda qatnashuvchi; *trollchi* – internetda provokatsion fikrlar bildiruvchi foydalanuvchi; *-lik* suffiksal morfemasi (holat, jarayon yoki atribut sifatida yangicha qo‘llanilishi): *xeyterlik* – kimnidir yoki nimanidir doimiy tanqid qilish holati; influenserlik – internetda ommaviy ta’sir kuchiga ega bo‘lish; -vachcha ot yasovchi erkalov-kichraytiruv suffiksal morfemasi (kichraytirish yoki tanqidiy ma’noda yangi ishlatilishi): *blogervachcha* – o‘zini bloger deb atayotgan, lekin unchalik mashhur bo‘lmagan shaxs; anti- prefiksi (zamonaviy tendensiyalarga nisbatan qarama-qarshilikni bildiradi): *antitrend* – zamonaviy trendlarga zid keluvchi hodisa yoki mahsulot; kiber prefiksal morfemasi: kibermuloqot, kiberlug‘at; *re-* prefiksi (qayta bajariluvchi yoki takrorlanadigan hodisalarni bildiradi): *repostlash* – ijtimoiy tarmoqlarda qayta ulashish; *recontent* – mavjud kontentni qayta ishlash yoki unga yangi yondashuv berish.

Aytib o‘tish joizki, o‘zbek tili agglyutinativ morfologik tuzilmaga ega til sifatida prefiksatsiya usuli orqali so‘z yasalishiga moyil emas; mavjud prefiksal morfemali leksemalar esa boshqa tillrdan o‘zlashmalardir [8, 205].

Shu o‘rinda affiksal morfemalarga xos bo‘lgan qiziq bir fenomen, ya’ni affiksal morfemalar leksikalizatsiyasi xususida so‘z yuritishni lozim topdik. Ushbu hodisa, so‘nggi yillarda til tizimiga kirib kelgan bo‘lib, avval so‘z yasash vositasi sifatida xizmat qilgan affikslarning vaqt o‘tishi bilan mustaqil leksik birlikka aylanishi jarayoni bo‘lib, uning natijasida dastlabki so‘z yasovchi unsur yangi mustaqil lug‘aviy ma’no kasb etadi va so‘z shakllantirish funksiyasini yo‘qotadi[9,45]. Ingliz tili suffiksal leksikalizatsiyaga boy bo‘lib, quyidagi misollar bilan sharhlanishi mumkin: *-ism*: dastlab, *-ism* suffiksi nazariy yo‘nalishlar, e’tiqodlar yoki harakatlarga ishora qiluvchi so‘zlar yasash uchun xizmat qilgan: *capitalism, socialism, realism; k*eyinchalik u mustaqil so‘zga aylangan: *This whole thing is just an ism.* (Ya’ni, qandaydir e’tiqod yoki nazariya); -ist: kasb yoki e’tiqod bilan bog‘liq shaxslarni anglatuvchi so‘zlarni hosil qilgan: *artist, scientist, journalist*; keyinchalik u leksikalizatsiya jarayoni maxsuli sifatida, mustaqil so‘z bo‘lib qo‘llanila boshlagan: *He is not into politics, but he is quite an ist in his way.* (Ya’ni, qandaydir tarafdor yoki g‘oyaviy yo‘nalishga moyil shaxs); -ette: dastlab, kichikroq yoki ayollarga xos bo‘lgan narsalarni ifodalovchi qo‘shimcha edi: *cigarette, kitchenette, majorette; b*ugungi kunda esa mustaqil so‘z sifatida ham ishlatilishi mumkin: *She prefers a little ette rather than a large portion.* (Ya’ni, kichikroq narsa yoki variant.) Albatta, mazkur misollar suffiksal morfemalarning boy va serqirra tabiatidan darak beradi, biroq tadqiqotimiz davomida o‘zbek tilida bunday unsurlarga duch kelmadik; bu ham bo‘lsa, til tashuvchilarining nisbatan konservativ nuqtai nazaridan dalolat beradi.

So‘nggi o‘n yilliklarda ingliz tilining lug‘aviy tarkibini sezilarli darajada boyitgan qisqartma so‘zlar-neologizmlarning yaratilishi ushbu so‘z yasash turining yuqori samaradorligini hamda til egalarining lingvistik resurslardan tejamkor foydalanishini namoyon qiladi. Bugungi kunda abbreviaturalarning yagona lingvistik tasnifi hali mavjud emas; har bir tadqiqotchi abbreviatsiyaning tasnifini turli mezonlarga asoslangan holda yoritishga harakat qiladi. Ammo tarkibiy (strukturaviy) tasnif nuqtayi nazaridan, Randolf Kvirk [10,358]abbreviaturalarning uch asosiy turini ajratib ko‘rsatadi: *klipping (clipping); blending (blending); akronimlar (acronyms).* Ushbu turkum orasida blending so`z yasalish usuli morfologik innovatsiyalar orasida dominant xarakterga ega bo`lib, morfologiya va so‘z yasalishi bo‘yicha lingvistik adabiyotlarda hanuzgacha ushbu so‘z yasalish modeli borasida yagona fikr mavjud emas. Tadqiqotchilar turli terminlarga ustunlik berishadi, ularning aksariyati kontaminatsiya bilan sinonim, ba’zilari unga yaqin tushunchalar (*portmone-so‘zlar*), boshqalari esa uning xususiy turlaridan biri (*teleskopiya, tmezis*) sifatida talqin qiladilar. Kontaminatsiya natijasida hosil bo‘lgan derivativ birliklar (gibrid birliklar) ham turli nomlar bilan yuritiladi. Kontaminant atamasi bilan bir qatorda, *gibrid, ”sakvoyaj-so‘z”, ”kentavr-so‘z”* kabi atamalar ham uchraydi. Bunday bog‘lanishlar ingliz tilida turlicha bo‘lishi mumkin: ma’nosi o‘xshash so‘zlar (*needcessity* (*need* +

necessity)); *preet* (*pretty* + *sweet*); ma’nosi qarama-qarshi so‘zlar (*contract* (*concrete* + *abstract*)); bitta tushuncha yoki hodisa turkumiga kiruvchi so‘zlar: *Octembre* (*October* + *November*); *Eurasia* (*Europe* + *Asia*); ma’nosi o‘xshash bo‘lmasa ham, nutqda almashtirib ishlatilishi mumkin bo‘lgan grammatik teng so‘zlar (*baskart* (*basket* + *cart*).

Shunday qilib, kontaminatsiya jarayonida semantik bog‘liqlik turli darajada namoyon bo‘lishi mumkin, ba’zan esa so‘zlarning fonetik uyg‘unligi yoki konnotatsiyasi asosiy omil bo‘ladi[11,88].

Kontaminatsiyaning yana bir turi so‘z ichiga boshqa so‘zning joylashtirilishi (tmezis) hisoblanadi. Tmezis (yunoncha *temnein* – “bo‘lish, kesish” ma’nosida) bir so‘z ichiga boshqa so‘zni kiritish orqali uni bo‘lish jarayonidir [12, 93]. N. A. Nikolina bu usulni "kiritmali teleskopiya" deb ataydi va shunday izoh beradi: "Kiritmali teleskopiya ham mavjud, lekin u juda kam uchraydi. Tmesisning klassik misoli – *“un-freaking-believable”* so‘zi bo‘lib, odatda *“unbelievable”* (ishonib bo‘lmas) so‘zi ichiga emotiv kuch beruvchi *“freaking”* (yoki boshqa so‘kinish) so‘zining kiritilishi orqali hosil qilingan. Xuddi shunday, *“abso-blooming-lutely”* (butunlay, mutlaqo) iborasida *“absolutely”* so‘zi ichiga *“blooming”* so‘zi joylangan misolda ham tmesis kuchaytirish vazifasini o‘tayotgani ko‘rinadi [13]. Demak, tmesisda bir so‘z “ikkiga bo‘linib”, o‘rtasiga yangi qismlar kiritiladi va natijada asl so‘zning ma’nosi kuchayadi yoki emotsional tus oladi. Ingliz tilida tmesis ko‘proq so‘zlashuv nutqida uchraydi; bunday kiritmalarning keng tarqalgan unsurlari mavjud (*bloody, freaking* singari): *“legi-bloody-slature”* (legislature) kabi.

O‘zbek tilida sof tmesis hodisasi amalda kuzatilmaydi. Sababi o‘zbek tilining agglutinativ tuzilishida so‘zlar osonlikcha bo‘linmaydi va ularning ichiga boshqa mustaqil so‘z kiritish grammatik jihatdan mumkin emas. O‘zbek tilida ekvivalent uslubiy effekt odatda boshqa yo‘l bilan erishiladi – masalan, alohida so‘zlarni gap ichida takrorlash yoki intonatsiya vositasida. Shunga qaramay, tarjimada yoki ba’zi eksperimental she’riy urinishlarda tmesisga o‘xshash uslub ko‘rinishi mumkin, lekin bu til tizimi me’yori emas.

Xulosa

Yuqoridagi barcha jarayonlar ingliz va o‘zbek tillarida turli darajada namoyon bo‘lsada, umumiy manzara shuni ko‘rsatadiki: ingliz tilida morfologik deviatsiya ko‘proq xilma-xil usullar orqali yuzaga keladi, chunki unda so‘z yasashning turli modellari (prefiks, suffiks, o‘rin almashish, qisqartma, aralashtirish va hokazo) mavjud va norasmiy qatlamda ular bilan tajriba qilish kuchli. O‘zbek tili esa tizimli jihatdan suffiksatsiyaga tayangani uchun, morfologik deviatsiya asosan qo‘shimchalarning noodatiy qo‘llanilishi yoki juft so‘z shaklida ko‘rinadi. Prefiksatsiya va gibrid so`z yasash jarayonlari o‘zbek tilida cheklangan, shu bois unda morfologik deviatsiya nisbatan kamroq ko‘zga tashlanadi va asosan poetik-uslubiy vositalar doirasidagina uchraydi.

Qisqacha aytganda, morfologik deviatsiya tildagi *ijodiy jarayon* bo‘lib, u orqali yangi ifodalar va shakllar yaratiladi yoki mavjud shakllar o‘zgacha ko‘rinishda qo‘llanadi. Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki til ham o‘ziga xos morfologik deviatsiya turlariga ega va tildagi progressiv jarayonlarda uning roli beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1.Леденев Ю. И. Системность и синергетика как факторы устойчивости языка // Язык. Текст. Дискурс. – 2007. – № 5. – С. 11–22.

2.Xo‘jayev A. O‘zbek tilida so‘z yasalishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – 109 b.

3.Антюфеева Ю. Н. Английские новообразования в развитии: потенциальное слово, окказионализм, неологизм: дис. ... канд. филол. наук. – Белгород: Белгородский гос. ун-т, 2004. – С. 23–28.

4.Грацкова И. Ю. Неологизмы в современном английском языке // Science Time. – 2015. – № 5 (17). – С. 114–118.

5.Подоляк Ж. И., Костромина П. С. Аффиксация как способ словообразования в современном английском языке на материале дополнений к Большому Оксфордскому словарю // Universum: филология и искусствоведение. – 2015. – № 8 (21). – С. 4.

6.Jabeen S. S., Nawaz H. I. Morphological innovations in gen z language and their impact on English language usage // Journal of Applied Linguistics and TESOL (JALT). – 2025. – T. 8. – № 1. – C. 86–107.

7.Amolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.

8.Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1973. – 340 b.

9.Гончарова В. А. Сопоставительный структурно-семантический анализ новообразований с элементом анти-/anti- в русском и английском языках (на материале современных масс-медиа): дис. ... канд. филол. наук. – 2007. – С. 45.

10. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Grammar of Contemporary English. – London: Longman, 1972. – P. 358–374.

11. Лаврова Н. А. Контаминация в современном английском языке: структура, семантика, прагматика // Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – № 8. – С. 88–93. – URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/kontaminatsiya-v-sovremennom-angliyskom-yazyke-struktura-semantika-pragmatika (дата обращения: 03.05.2024).

12. Isakova A. A., Filina K. V. Tmesis in the context of expressive occasional word formation in the English language // Язык и мировая культура: взгляд молодых исследователей. Сб. материалов XV Всерос. науч.-практ. конф. – 2016. – С. 93–96.

13. Tmesis: Explanation and Examples [Электронный ресурс] // Grammar Monster. – URL: https://www.grammar-monster.com/glossary/tmesis.htm (дата обращения: 11.04.2024).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ergasheva Ziyoda Abdurasulovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
PhD katta o‘qituvchisi

MURAKKAB PREDLOGLARDA SINTAKTIK XODISA NAMOYON BO‘LISHI

Anotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilidagi predloglarning leksik-grammatik xususiyatlari, ularning sintaktik vazifalari va ma’no turlari tahlil qilinadi. Predloglarning obyekt, makon, vaqt, sabab va boshqa sintaktik munosabatlarni ifodalashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, sinonimik va polisemantik xususiyatlari misollar bilan asoslanadi. Maqolada predloglarning lingvistik maqomi va boshqa so‘z turkumlari bilan aloqadorligi bo‘yicha turli yondashuvlar muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *predlog, sintaktik munosabatlar, leksik ma’no, polisemantiklik, sinonimiya, ingliz tili grammatikasi.*

Ergasheva Ziyoda Abdurasulovna
Samarkand State Institute of Foreign Languages
PhD Senior Lecturer

REFRESHMENT OF SYNTACTIC PHENOMENON IN COMPLEX PREPOSITIONS

Annotation: *This article analyzes the lexical and grammatical features of prepositions in the English language, their syntactic functions, and meaning types. The role of prepositions in expressing object, place, time, cause, and other syntactic relations is examined. Additionally, their synonymic and polysemantic properties are supported with examples. The article discusses various approaches to the linguistic status of prepositions and their connection with other parts of speech.*

Keywords: *preposition, syntactic relations, lexical meaning, polysemy, synonymy, English grammar.*

Эргашева Зиеда Абдурасуловна
Самаркандский государственный институт иностранных языков
Кандидат наук, старший преподаватель

СИНТАКСИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ В СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОГАХ

Аннотация: *В данной статье анализируются лексико-грамматические особенности предлогов в английском языке, их синтаксические функции и виды значений. Рассматривается роль предлогов в выражении объектных, пространственных, временных, причинных и других синтаксических отношений. Также приводятся примеры синонимии и полисемии предлогов. В статье обсуждаются различные подходы к лингвистическому статусу предлогов и их связь с другими частями речи.*

Ключевые слова: *предлог, синтаксические отношения, лексическое значение, полисемия, синонимия, грамматика английского языка.*

Predloglar alohida leksik-grammatik kategoriya sifatida ingliz tili grammatik tizimining muhim qismini tashkil qiladi hamda ot bilan birikkan holda turli semantik-sintaktik vazifalarni bajaradi. Ingliz tilidagi “*preposition*” termini lotin tilidagi praepositio (*prae* – “old” va *positus* “o‘rni, joylashuvi”) so‘zidan olingan bo‘lib, substantiv unsurdan oldin turadigan yordamchi so‘zni nomlaydi. Ushbu yordamchi so‘z vositasida ot gap tarkibida boshqa biron bir ot yoki fe’l, sifat va ravish bilan bog‘lanadi. Tilshunoslar predloglarni ot turkumidagi so‘zlarni boshqa turkumdagi so‘zlarga tobeligini ko‘rsatuvchi vosita sifatida alohida funksional birliklar guruhiga kiritadilar.

Predlogning umumiy grammatik va leksik ma’nosini farqlash lozimligi tadqiqotchilar tomonidan o‘z paytida ta’kidlanib, buning uchun asosiy lug‘aviy ma’no bilan bir qatorda yordamchi so‘zlarning leksik-grammatik ma’nosini farqlash kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan edi [8,226].

Predloglarning ma’no xususiyatlari va bajaradigan vazifalarini batafsil yoritgan Ye.A.Reyman ushbu turdagi so‘zlarni leksik ma’nodan judo qilishga hech qanday asos yo‘q, deb hisoblaydi. Zero, til birliklari bir-xilda xususiyat va munosabatni ifodalovchi belgi vazifasini o‘tashi

mumkin. Obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalash predloglar zimmasiga tushadi va shu ko‘rinishdagi aloqa – munosabatlar predlogning lug‘aviy ma’nosini hosil qiladi [12,7].

Tabiiyki, predloglar alohida leksik-semantik guruhlarni tashkil qilmaydi. Ammo bu A.M.Muxin o‘ylaganidek, ularni leksik ma’nodan xoli deb qarashga asos bo‘lolmaydi. Zotan, predloglar nutqiy tuzilmalar tarkibida yordamchi unsur sifatida ishtirok etadi va ular vositasida o‘zaro birikadi. Jumladan, *to bargain for a job, to angle for trout* kabi birikmalarda for predlogi o‘timli fe’l va to‘ldiruvchi o‘rtasidagi leksik aloqani voqelantiradi. Shunday ekan, predloglarning til tizimining lug‘at sathiga tegishli ekanligini hech ham inkor etib bo‘lmaydi va buning isbotini ularning lug‘atlarda alohida birlik sifatida qayd etilishida ham ko‘rish mumkin.

Predlogni so‘z o‘zgaruvchi qo‘shimcha bilan leksik jihatdan qiyoslash qiyin. Chunki flektiv qo‘shimchalarning ma’nosi ularning ma’lum paradigma doirasidagi o‘zaro munosabati asosida aniqlansa, predloglar esa mantiqiy mundarijaga ega va bu ularning tashqi ko‘rinishi, fonetik shaklida namoyon bo‘ladi.

Qiyoslang:

That is book in the shelf, under the shelf, out of the shelf.

Albatta, predloglarning leksik xususiyatlari har doim ham bir-xilda aniq namoyon bo‘lavermaydi. Makonga ishora ma’nosi yaqqol va mustaqil ko‘rinishga egaligi ma’lum, chunki bunda predlog to‘g‘ridan-to‘g‘ri tildan tashqari turadigan voqelik bilan bog‘lanadi [10,124]. Bunda predloglarning munosabatlar belgisi ekanligi aniq ko‘rinadi va ular bir paytning o‘zida ma’lum bir mohiyatni atash bilan birgalikda, ko‘rsatkich vazifasini ham bajaradi [11,168]. Biroq, predloglar turli leksik qurshovda turlicha ma’no ifodalashi mumkinligini unutmaslik kerak. Bunda predlog so‘z birikmasining qaysi bo‘lagiga nisbatan tanlanishini aniqlash muhimdir.

Predlogning lingvistik maqomi haqida bildirib kelinayotgan fikrlarning oxiri yo‘qdek ko‘rinadi. Bir qator tilshunoslar predlogning so‘z birikmasi bilan birikishi turli ko‘rinishda bo‘lishini isbotlash yo‘llarini qidirishga harakat qilib kelishmoqda. Dastlabki nazarda, predlogning tobe element bilan bog‘liqligi haqiqatdek tuyuladi. Buni, masalan, predlog va ot birikuvidan hosil bo‘lgan tuzilma gap tarkibida yaxlit holda faollashuvida kuzatish mumkin. Bu, albatta predlogning fe’ldan ko‘ra ko‘proq substantiv unsur bilan aloqadorligidan xabar beradi. Boshqacha aytganda, predlog yetakchi so‘zni tanlamaydi va yagona bir predlogli birikma turli fe’l kesimlar tomonidan boshqarilishi mumkin. Masalan: *to lost after gain; to thirst after gain; to strive after gain; to tear after gain, etc..*

Predloglarning qayd etilgan sintaktik imkoniyatlari tadqiqotchilarga ularning polisemantik, sinonimik va hatto antonimik xususiyatlarga egaligini qayd etishga imkon beradi [4,29]. Jumladan, quyidagi misollarda “*from*” predlogining turli ma’nolarni ifodalashga qodirligini kuzatish mumkin [6,165]:

1) *A truly loyal employee does not merely refrain from dialoyal actions (This is America, 132);*

2) The telephone has been ringing and the doorbell going from early morning (Austin Coats. The Road, 77);

3) Only, I just got back from New York with the fencing team (D.Salingir. Nine Stories, 33);

4) I am in the position of a biologist who from a single boney must reconstruct not only the appearance of an extinct animal, but its habits (S.Maungham. The Moon and Sixpence, 180);

5) One of the horses lied from the thistles (This is America, 284).

Keltirilgan gaplarning birinchisida *from* predlogi obyekt, ikkinchisida temporal, uchinchisida makon, to‘rtinchisida instrument – vosita, nihoyat, oxirgisida sabab munosabatlarini ifodalayotganining guvohi bo‘lamiz.

Predloglar orasida sinonimik aloqalar mavjudligi ularning variantlashuvi yoki o‘zaro o‘rin almashinuvida kuzatiladi. Buning isbotini, masalan, *under* predlogining sabab ma’nosini ifodalashda *because of* predlogi bilan variantlashuvida ko‘ramiz:

1) The sash in the window on the north wall of the room would rattle under the wind (Cooper F. The Spy, 38) → The sash in the window on the north of wall of the room would rattle because of window;

2) He crumbled up under the shocking news (London J. The call of wild, 29) → He crumbled because of the shocking news.

Mazkur gaplarda *under* va *because of* elementlari bir xilda sabab ma’nosini ifodalamoqda.

Qizig‘i, *under* predlogi ushbu ma’noni ifodalashda *in, with, at, by* kabi predloglar bilan ham variantlashuvi mumkin:

1) The windows were rattling in the wind (Hornby A., 523);

2) This tree was blown down in the gala (Гальперин И.Р., 566);

3) The bookshelf groaned with books (Гальперин И.Р., 611).

Predloglarning kategorial ma’nosi obyektni nomlash sharoitida namoyon bo‘lishini qayd etgan A.Sayfullayev ularning leksik ma’nosi o‘zlari bog‘lanayotgan mustaqil so‘zlarning umumiy yoki qisman ma’nolari bilan bog‘liq bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi. Uning ta’kidicha, “barcha predloglarga xos bo‘lgan umumiy leksik ma’no bir-xil funksional mazmuniy va sintaktik guruhlarini hosil qiluvchi (makon, zamon, komparativ, sabab, maqsad va h.k.) munosabatlarni ifodalovchi predloglar orqali o‘z ifodasini topadi” [1,56]. Ayni paytda o‘zbek tilshunosi, ingliz tili grammatikasining nazariy kursi mualliflari fikriga qo‘shilgan holda predloglarga xususiy leksik ma’no ham

xosligini inkor etmaydi. Uning fikricha, predlogning individual ma'nosi uning funksional - semantik guruhga kiruvchi boshqa predloglardan farqlash uchun xizmat qiladi (O'sha yerda).

Ma'lumki, yordamchi yoki o'zgarmas so'z turkumlari boshqa turkumdagi so'zlardan farqli ravishda morfologiya bilan unchalik darajada bog'liq emas [2,117]. Darhaqiqat, o'zgarmas turkumlarni (shu jumladan, predloglarni) ajratishda sintaktik qurilmalar inobatga olib kelinmoqda [3,24]. Shu bois, tilshunoslar ko'pdan buyon predloglarning faqat biron bir sintaktik birlik bilan bog'lanishida ma'no ifodalashini qayd etib keladilar.

Predloglarning morfologik maqomi eng avvalo ularning an'anaga binoan grammatik qo'llanmalarning morfologiya qismida ot, sifat, olmosh, fe'l, son, ravish kabi so'z turkumlari bilan bir qatorda o'rganilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri, predloglar tarkibida mustaqil so'z turkumlarini tashkil qiluvchi birliklar kabi flektiv va derivatsion morfemalar mavjud emas. Ammo, predloglar bevosita morfologik xususiyatlarga ega bo'lmasa-da, lekin ularning ko'pchiligi turli morfologik unsurlardan tarkib topgan. Masalan, *on account of, thanks to, due to, owing to* kabi murakkab predloglar tarkibida ot, sifat va sifatdoshlar ishtirok etayotganini kuzatish oson.

Yuqorida qayd etilganidek, predloglar sintaksis sathida ham boshqa so'zlardan farq qiladi, ya'ni ular mustaqil ravishda sintaktik aloqaga kirishish qobiliyatiga ega emas. Ular faqat ot, olmosh yoki boshqa mustaqil so'zlar bilan birikkan holda ma'lum bir sintaksemani ifodalay oladi. Buning isbotini, masalan, alohida bir sintaksema variantlarining turli predloglar ishtirokida shakllanishida ko'rish mumkin. Jumladan, *at+s, for+s, through+s, on+s* birikmalari temporal sintaksemaning turli variantlarini ifodalaydi. Qiyoslang:

1) On the way out Alan stopped (Harley);

2) I'd known her for years (Salinger);

3) Though he was obviously in poor health through out 1866, he accepted an offer (Priestly);

4) All through the afternoon she thought of what Charlie had said about Walter (Maugham);

Keltirilgan gaplarda predloglar roli temporal sintaksema variantlarini shakllantirishdan iborat, ushbu variantlardagi ot bo'laklari esa turlicha. Shu bois, A.M.Muxin sintaksemalar shakllanishida predlogni "doimiy birlik", ot qismini esa "o'zgaruvchan", deb ataydi [7,134].

Aytish joizki, u yoki bu sintaksema variantlarini shakllantirayotgan predloglar ushbu sintaktik birlikka ma'lum darajadagi konnotativ-stilistik mazmun bag'ishlaydi. Buni, masalan, *on, over, under, near* kabi predloglar ishtirokida hosil bo'lgan lokativ sintaksemalar misolida kuzatamiz.

5) The creaky wooden loom on which the rug was done (Dreiser).

6) The singing heat lay over the desert country (Steinbeck).

7) I lived near Victoria Station (Maugham).

8) His velvet trousers were tied under the knees (Kipling).

Demak, predloglar lingvistik maqomini aniqlashda sintaksis va leksik sathlarda ifoda topadigan semantik xususiyatlarga e'tibor qaratish lozim. Leksik va sintaktik semantika bir xilda lisoniy birliklarning birikish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Predloglarning distributiv xususiyatlari boshqa so'z turkumlarinikidan farq qilishi muqarrar. Zotan, predloglar, xuddi boshqa yordamchi unsurlar sifatida mustaqil lug'at birliklar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash bilan chegaralanib qolmasdan, o'z ma'nosi vositasida mazkur munosabatlar mazmunini oydinlashtiradigan, boyitadigan birliklardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Sayfullayev A. Predloglarni kodifikatsiyalashning konseptual asoslari.. – T.: Fan, 2004. – B.56.

2.Binkert P. Generative Grammar without Transformations. – Berlin etc.: Mouton, 1994. – p. 117-118.

3.Hockett Ch. A course in modern linguistics. – New York: Ann Arbor: University of Michigan Press, 2001. p.24.

4.Pittman G. Activating the use of prepositions. – London, 1966. – 182 p.;

5.Дворяникова Г.С. Предложно-падежная система в русском и английском языках. Автореф.дисс….канд.филол.наук.-М.,1978.-29 с.

6.Петрова Г.С., Сафаров Ш. Синтаксико-семантическое содержание предложно-именного элемента from N в структуре английского предложения // Иностранная филология.-Алма-Ата, 1976. – С.164-181.

7.Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблема уровней языка. – Л.: Наука, 1980. – С.134.

8.Ярцева В.Н. Проблемы аналитического строя и формы анализа // Аналитические конструкции в языках различных типов. – М.-Л.: Наука, 1965. – С. 66;

9.Кунин А.В. К вопросу о классификации основных лексических значений слова // Вопросы описания лексико - семантической системы языка. –М., 1971.ч.I. – С. 226.

10. Кобзарева Т.Ю. Лахути А.Г. О структуре денотативного значения предлогов // Семантическая структура слова. – М.: Наука, 1971. – С. 124-139.

11. Хоккет Ч.Ф. Проблема языковых универсалий // Новое в лингвистике: Вып.5. М.: Прогресс, 1970. - С.68.

12. Рейман Е.А. Английские предлоги. Значения и функции. – Л.: Наука, 1982. – С.7.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Isakova Guzalxon Ne'matovna
filologiya fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute
E-mail: isakova-guzal@mail.ru
UDK: 811.133.1

QANOTLI IBORALARNING OKKAZIONAL QO'LLANILISHI

Annotatsiya. *Qanotli iboralarning stilistik xususiyatlarini tadqiq qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Jumladan, qanotli iboralarning badiiy matnda okkazional qo'llanilishi fransuz tilida alohida o'rin tutadi. Mualliflar ma'lum stilistik effektga erishish maqsadida individual-muallifga xos transformatsiyaning ham semantik, ham struktur-semantik usullarini keng qo'llashadi. Mazkur maqolada qanotli iboralarning okkazional qo'llanilishi badiiy matnlardan olingan misollar yordamida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *fransuz tili, qanotli ibora, okkazional qo'llanilish, stilistik effekt, transformatsiya, usul, tahlil.*

Исакова Гузалхон Нематовна
доктор филологических наук, доцент
Государственный институт искусств и культуры Узбекистана
E-mail: isakova-guzal@mail.ru

ОККАЗИОНАЛЬНОЕ УПОТРЕБЛЕНИЕ КРЫЛАТЫХ ВЫРАЖЕНИЙ

Аннотация. *Изучение стилистических особенностей крылатых выражений является одной из самых актуальных проблем на сегоднешний день. Во французском языке в художественных текстах окказиональное употребление крылатых выражений занимает особое место. Для достижения определенного стилистического эффекта авторы широко используют как семантические, так и структурно-семантические приемы индивидуально-авторской трансформации. В данной статье окказиональное употребление крылатых выражений анализируется с помощью примеров, взятых из художественных текстов.*

Ключевые слова: *французский язык, крылатое выражение, окказиональное употребление, стилистический эффект, трансформация, метод, анализ.*

Isakova Guzalkhon Ne'matovna
Doctor of Sciences Philology, docent
Uzbekistan state Institute of Arts and Culture
E-mail: isakova-guzal@mail.ru

OCCASIONAL USE OF WINGED EXPRESSIONS

Abstract. *The study of the stylistic features of winged expressions is one of the most pressing problems today. In particular, the occasional use of winged expressions in literary texts has a special place in the French language. Authors widely use both semantic and structural-semantic methods of individual-author transformation in order to achieve a certain stylistic effect. In this article, the occasional use of winged expressions is analyzed with the help of examples taken from literary texts.*

Key words: *French language, winged expression, occasional use, stylistic effect, transformation, method, analysis.*

Kirish

Jahon tilshunosligida til birliklari va ularning qo'llanilishi bilan bog'liq masalalar muhim o'rin tutadi. Qanotli iboralarning keng ko'lamda o'rganilishi ularni stilistik jihatdan qo'llanilish masalalarini keng yoritish imkonini beradi. Xususan, qanotli iboralarning badiiy matnda turli stilistik usullarda qo'llanilishi yetarlicha ilmiy asoslab berilmaganligi ularni tizimli tadqiq etishni taqozo etmoqda. So'nggi yillarda turg'un birliklarning tahlili va tadqiqi, ularning qo'llanilishi hamda tillararo munosabatini ochib berish masalalari yanada dolzarblashib, kelgusidagi tadqiqotlar istiqbolini belgilab

bermoqda. Jumladan, nutqning ta'sirchanligini, shiraliligini oshirishga xizmat qiladigan va obrazli sitata sifatida foydalanilayotgan aniq iboralar, ya'ni *qanotli iboralar* tadqiqi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Frazeologik birliklarning transformatsiyasiga doir muammolar va ularning matndagi funksiyasi bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Shunga ko'ra, frazeologik birliklarning muallif tomonidan o'zgartirilishini anglatadigan: individual-muallifga xos o'zgartirish, okkazional o'zgartirish, frazeologik birliklarning transformatsiyasi, nutqiy okkazionalizm, muallif innovatsiyasi, frazeologik hosila (derivat) va boshqa ko'plab tushunchalar maydonga kelgan.

Tilshunoslikda A.M.Babkin, A.V.Kunin, V.N.Vakurov, I.V.Abramets, Ye.I.Seliverstova, V.M.Mokiyenko, A.M.Melerovich, A.G.Nazaryan, N.L.Shadrin, A.E.Mamatov kabi yirik olimlar frazeologik birliklar transformatsiyasiga oid muammolarga qo'l urishgan va o'z qarashlarini bayon etganlar. Ko'plab olimlar frazeologik birliklar transformatsiyasini ikki turga ajratib ko'rsatganlar: semantik o'zgartirish va struktur-semantik o'zgartirish.

Qanotli iboralarning semantik va struktur o'zgarishlari bilan qo'llanish masalalari O.V.Berkova tadqiqotida ko'tarilgan. Ushbu tadqiqotda muallif qanotli iboralarning publitsistik matnlardagi funksiyasi masalalarini ko'rib chiqqan. Qanotli iboralarning sitatalik xususiyatini tasvirlash bilan birga tadqiqotchi "ataylab o'zgartilgan sitatalar"ning qo'llanilish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. [4]

Tadqiqot metodologiyasi

Frazeologik birliklar va qanotli iboralarning okkazional qo'llanilish masalalariga bag'ishlangan mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish va to'plangan materiallar tahlillari asosida aytish mumkinki, qanotli iboralarning individual muallifga xos o'zgartirish usuli to'liq frazeologik birliklarning transformatsiya usuliga o'xshaydi, lekin qanotli iboralarning ma'no xususiyatlaridan va ularning struktur tarkibidan kelib chiqadigan ma'lum farqli jihatlar mavjud. Shuning uchun qanotli iboralarga ham frazeologizmlarga tadbiq etilgan "transformatsiya" (individual-muallifga xos qo'llash yoki okkazional qo'llash) terminini ishlatish o'rinli. Anglanadiki, semantik o'zgartirish usulida strukturasiga ta'sir qilmagan holda muallif tomonidan semantik o'zgartirish kiritiladi. Struktur-semantik usulda bo'lsa, qanotli so'z semantikasida leksik yoki grammatik struktur o'zgartirish orqali transformatsiya kuzatiladi.

Tahlil va natijalar

Qanotli iboralarining badiiy matnda okkazional qo'llanilishi tarkibini kengaytirish, ellipsis, aktuallashtirish, komponentlarni almashtirish, kontaminatsiya, distributsiya singari stilistik usullarda kuzatiladi.

Qanotli iboralarning tarkibini kengaytirish usuli, fransuz tilida unga so'z, so'z birikmasi yoki to'liq iborani kiritish orqali amalga oshiriladi. Tilshunoslikda kiritmalarning oddiy va murakkab turlari mavjud. Oddiy kiritmada qanotli ibora tarkibiga so'z turkumlaridan birortasining kiritilishi tushuniladi. Kiritilgan so'z ibora ma'nosini konkretlashtiradi, emotsional ekspressivligini oshiradi va ma'lum stilistik vazifani bajaradi. Bunda muallifning so'z tanlash, uni o'rinli qo'llash mahorati muhim rol o'ynaydi: *Les Gaulois, pour la plupart, étaient fiers maintenent de porte la toge et de parler la langue* ***des fils magnanimes de Rémus.*** (France) Qiyos.: des fils de Rémus – des fils magnanimes de Rémus.

Murakkab kiritmada qanotli iboraning struktur tarkibiga ma'no yaxlitligi buzilmagan holda, so'z birikmalari yoki turli murakkab konstruksiyalar kiritilishi tushuniladi. Qanotli iboralarning murakkab kiritmalar bilan qo'llanishi natijasida ularda ma'no kuchayishi, konkretlashish va emotsional ekspressivlikning oshishi namoyon bo'ladi: *C'est une* ***fille d'Eve pur sang****, qui me parait avoir un appétit capable de croquer toutes les pommes du monde, les pépins avec.* (Marger) Qiyos.: fille d'Eve – fille d'Eve pur sang.

Ellipsis usuli. Izohli lug'atlarda ellipsis "nutq elementining tushib qolishi", deb izohlangan. [12; 13] Sh.Balli ellipsisni frazeologik shakllanishning usullaridan biri sifatida baholagan. [3]

Fransuz tili badiiy matlarini kuzatganimizda qanotli iboralarning ellipsisga uchrashi turlicha namoyon bo'lishi aniqlandi. Bunda ko'p hollarda qanotli iboralardagi fe'l, ot, son komponentlar yoki so'z birikmasining tushirib qoldirilishi kuzatiladi: *–Vous avez à me parler plus confidentiellement; ne craignez rien, nous sommes bien seuls. Je ne crains jamais rien,* ***sous l'égide de*** *ma conscience et sous la protection de mon roi, sire.* (Dumas) Qiyos.: être sous l'égide de qn. – sous l'égide de qn.

Ba'zi hollarda iboradagi so'z birikmasi yoki iboraning bir qismi tushib qolishi mumkin: *Ces soldats perdus étaient les autres Libanais d'un autre Liban qu'ils avaient apporté – en Côte d'Ivoire, au Togo, au Sénégal etc. –* ***à la semelle de leur souliers.*** (Bernard Gensane) Qiyos.: Est-ce qu'on emporte la patrie à la semelle de ses souliers? – à la semelle de leur souliers.

Ko'rinadiki, mualliflar ellipsisni matnga moslashtirish, ixchamlashtirish, iboralarning yangi shakllarini yaratish yoki o'quvchi diqqatini tortish va munozaraga chorlash hamda stilistik mahsuldorlikka erishish maqsadida qo'llashadi. Qanotli iboralarda ellipsis orqali yangi variantlarning hosil qilinishi obrazlar yo'qolishiga olib kelmaydi, chunki ular biror voqea yoki hodisa bilan assotsiatsiyalanuvchi birliklar sanaladi. Ularda biror komponent yoki birlikning bir qismi tushib qolganda ham o'zining asl ma'nosini ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Aktuallashtirish usuli

Ushbu usul boshqa usullar orasida satirik va komik mahsuldorligi bilan farqlanib turadi. Bu borada I.V.Abramets tadqiqotida hamkorlikka va aynanlikka ko‘chirish [1] singari ikki semantik jarayonga asoslanishni olg‘a suradi. A.V.Kuninning ta’rificha, aktuallashtirish ikki xil tushunishga asoslangan – frazeologik birlikni ko‘chma hamda asl ma’nosida yoki ibora tarkibidagi bir yoki bir nechta komponentni asl ma’nosida qo‘llash orqali amalga oshiriladi. [8]

Demak, aktuallashtirish stilistik usul bo‘lib, unda ma’no ikki xil tarzda, ya’ni ibora shaklidagi ma’nosi hamda erkin birikma tarzida qabul qilish tushuniladi. Ushbu usulda qo‘llanilayotgan birlikda ham semantik, ham struktur jihatdan o‘zgarish yuzaga keladi.

Tilshunos A.E.Mamatov fransuz tilidagi frazeologik iboralarni tadqiq qilar ekan, aktuallashtirish usulining to‘rt xil ko‘rinishini tahlillar asosida izohlagan va izchil fikrlar bildirgan. [9] Shuningdek, A.Mamatov hamda B.Boltayevalarning frazeologik birliklar tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyasida o‘zbek tilidagi frazemalarni aktuallashtirishning bir necha turlari ko‘rsatilgan. [10]

Aktuallashtirish usulining qanotli iboralarda qay darajada voqelanishi borasida tahlillar o‘tkazdik va ularda ham frazelogik birliklarda bo‘lgani kabi bir matn doirasida birikmadan ham ibora, ham erkin birikma tarzida foydalanish kuzatildi: ***La foi qui transporte (soulève) les montagnes*** *lui donnait des ailes.* (J.L.Curtis, Les jeunes hommes)

La foi qui transporte les montagnes qanotli iborasining ikki xil ma’no kasb etishini jumlaning ikkinchi qismi (*lui donnait des ailes*) ta’minlamoqda va aktuallashtirish iboraning to‘liq shaklida yuz bermoqda.

Qanotli iboralar tarkibidagi komponetlaridan bir yoki bir nechtasini aktuallashtirish orqali ushbu usulni amalga oshirish keng tus olgan: .... *remettre en question les problèmes du monde que la force a tranchés,* ***Passer le Rubicon*** *… non, rester sur le bord … Passerons-nous ou non?* (R.Rolland)

Ushbu o‘rinda mazkur qanotli iboraning erkin birikma ma’nosida ham anglanishini *passer* komponentining asl ma’nosida qo‘llash asosida hosil qilinmoqda: *(...) Rubikondan o‘tish ... yo‘q, qirg‘oqda qolish ... O‘tamizmi yoki yo‘qmi?* Natijada aktuallashtirish hodisasi namoyon bo‘lmoqda.

Ko‘p hollarda qanotli ibora komponentlaridan birining asl ma’noda kelishi uchun aniqlovchi kiritilishi orqali ham aktuallashtirishga erishiladi: *Mais* ***revenons à nos blonds moutons.*** (Groult)

Qanotli ibora tarkibiga qo‘shilayotgan murakkab kiritmalar aktuallashtirishga turtki bo‘layotganligini ko‘rish mumkin: ***La foi de notre père n’était pas celle qui soulève les montagnes****, mais elle était lourde et encombrante comme le Mont Blanc.* (H.Bazin)

Qanotli iboraning ma’nosi boshqa bir qanotli ibora yoki erkin so‘z birikmasini kontekstga kiritish yo‘li bilan ham aktuallashtirilishi mumkin: *L’homme ne dira plus “****Le maître l’a dit****”. L’homme est émancipé de l’homme. L’homme dira: “La verité dit, la science dit”.* (Leroux)

Shuningdek, aktuallashtirish hodisasi iboradagi mavjud komponentning antonim shaklini qo‘llash orqali ham amalga oshiriladi: *Lancelot, elle alouette, volait en chantant, et ses longs cheveux au vent semblaient dire:* ***Ralliez-vous à mon panache noir.*** (Cesbron)

Ko‘rinadiki, qanotli iboralarda aktuallashtirish usuli turlicha namoyon bo‘lmoqda. Bunda, avvalo, qanotli iboraning ham ko‘chma, ham asl ma’nosida anglanishini ta’minlaydigan kontekst muhim rol o‘ynaydi. Qanotli ibora tarkibidagi bir yoki bir nechta komponentlarning asl ma’nosida kelishi yoki olmoshlar yordamida takrorlanishi, komponentlarni aniqlovchi kiritmalar yordamida konkretlashtirilishi, shuningdek, qanotli ibora tarkibidagi komponentni antonim varianti bilan almashtirish ham aktuallashtirishni yuzaga keltiradi. Shu o‘rinda qanotli iboralarni aktuallashtirish ko‘p hollarda transformatsiyaning boshqa usullari bilan birga ro‘y berayotganligini aytish lozim.

Komponentlarni almashtirish usuli

Frazeologik iboralarning komponentlarini almashtirish mualliflar tomonidan ma’lum maqsadlarda amalga oshiriladi. Bu holatni V.N.Vakurov: “Frazeologik birlikni aniq bir holatga moslashtirish, frazeologik obrazni jonlantirish va ko‘rinishini o‘zgartirish, komik effekt yaratish, tasvirlangan holatga muallif munosabatini bildirish”, deb izohlagan. [5]

Frazeologik birliklarning stilistik tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda komponentlarni almashtirishning turlicha namoyon bo‘lishi A.A.Altibayev, Ye.I.Seliverstovalarning [2] tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Qanotli iboralarga muvofiq individual muallifga xos o‘zgartirishning struktur-semantik usulini qo‘llash O.V.Berkova va S.G.Shulejkovalarning izlanishlarida, [4] hamda gazeta tilidagi iboralarning funksiyasi borasidagi ko‘plab maqolalarda berilgan. [6]

Biroq, qanotli iboralar tarkibida yuz beradigan leksik o‘zgartirish usullarini to‘liq o‘z yechimini topgan deyish qiyin. Shunga qaramay ba’zi tilshunoslar tomonidan qanotli iboralarning umumiy ma’nosidan stilistik jihatdan keskin farq qiladigan so‘z bilan almashtirish masalalari ko‘tarilgan. Masalan, S.G.Shulejkova “Bir yoki ikki tayanch komponentni mutlaq kutilmagan leksema bilan almashtirish bir qarashda absurd bo‘lib ko‘rinadi”, deb fikr bildirgan. [11]

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan qanotli iboralarda komponentlarni almashtirish usuli qay tarzda namoyon bo‘lishini badiiy matnlar asosida kuzatdik va ularda ham frazeologik birliklarda bo‘lgani kabi turlicha leksik almashtirish usullarining qo‘llanilishiga guvoh bo‘ldik.

Masalan, qanotli iboralardagi komponentlarning antonim variantlari bilan almashtirish alohida effekt beradi: *La nouvelle politique doit répudier la devise barbare de l'ancienne:* ***Si vis pacem, para bellum****, et inscrire sur son étendard la devise chrétienne:* ***St vis pacem, para pacem****.* (Toussenel)

Si vis pacem, para bellum qanotli iborasi tinchlikni saqlash ishonchli mudofaaga bog'liqligiga ishora qiladi. Bu o'rinda muallif *bellum* (*urush*) o'rnida *pacem* (*tinchlik)* so'zini qo'llagan. Qadimgi davrdagi shiorni hozirgi kunda qo'llash o'rinsiz ekanligi va tinchlikni faqat tinch yo'l bilan saqlash lozimligini obrazli tarzda, antonim so'z kiritish orqali izohlamoqda.

Tahlillarimiz davomida qanotli iboralar komponentini ma'no jihatdan mos so'z bilan almashtirish holati ko'p kuzatildi: *Paris bientôt sauvé par des secours nombreux, Et* ***la manne du ciel*** *prête à tomber pour eux.* (Voltaire*)* Qiyos.: manne céleste – manne du ciel.

Tematik jihatdan yaqin bo'lgan so'z bilan almashtirish holatlariga ham duch keldik. Masalan, *Vous* ***secouerez*** *sur elles* ***la poussière de vos souliers****, répondit Rolland en souriant, et vous irez plus loin*. (Cesbron) Qiyos.: secouer la poussière de ses pieds – secouer la poussière de ses souliers.

Qanotli iboralar komponentini ma'no jihatdan mos bo'lmagan, butunlay o'zgacha ma'no kasb etuvchi so'z bilan almashtirish holati sermahsul natijalar ko'rsatganligini aytish lozim. Masalan, ***Amicus Palais-Royal, sed magis amica veritas****: nous sommes obligé de le déclarer, on nous avait un peu surfait le succès de la pièce de M.M.Barrière et Sardou, les Gens nerveux.* (E. de Biéville)

Qiyos.: Amicus Plato, sed magis amica veritas – Amicus Palais-Royal, sed magis amica veritas.

Shu o'rinda faylasuf R.Dekartning *Je pense, donc je suis*, ya'ni *Fikrlayapman, demak, hayotman* qanotli iborasi doirasidagi komponent almashtirishga e'tibor qaratamiz. Bunda ushbu qanotli iboraning model sifatida olinganligi va undan muallifga xos turlicha yangi iboralar hosil qilinganligi ko'rinadi: K.Buasiyer, yozuvchi, faylasuf: *J'aime, donc je suis – Sevyapman, demak, hayotman*; J.Ruksel, animator: *Je pompe donc je suis – Qimirlayapman, demak, hayotman*; K.Filds, aktyor, komik: *Je bois donc je suis – Ichyapman, demak, hayotman*; I.Gonsalves: *Je ressens donc je suis – His qilyapman, demak, hayotman*; J.Shtenberg, fantastik yozuvchi: *J'oublie tout, donc je suis – Hammasini unutdim, demak, hayotman*; J.Sesbron, yozuvchi: *J'aime, donc je suis. Dès que je cesse d'aimer, je cesse d'être - Sevyapman, demak, hayotman; Sevishdan to'xtashim bilan, hayotim ham to'xtaydi;* V.Enri, musiqachi: *Je peux donc je suis. Mais qui suis-je? Être et avoir, drôle de binôme – Uddalayapman, demak, hayotman; Lekin men kimman? Bo'lmoq va ega bo'lmoq, kulgili juftlik;* D.Kunapt, futbolchi: *Je pense donc je suis, mais quand je ne pense pas alors? – Fikrlayapman, demak, hayotman*; *Lekin fikrlamaganimdachi?* [14]

Misollardan ko'rinadiki, badiiy asarlarda mualliflar komponentlarni almashtirish usulidan faol foydalanadilar. Bunday holat ularga ma'lum stilistik natijaga erishish, obrazni yanada jonlantirish, qanotli ibora yoki butun kontekstning ma'nosini kuchaytirish, komik effekt hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu usul muallifga xos yangi iboralar hosil qilish va nutqni boyitish jihatlari bilan xarakterlanadi.

Kontaminatsiya hodisasi turg'un birliklarning o'zgarishida va shu asosda yangi birliklarning shakllanishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida kontaminatsiya (lot. contaminatio – tutashtirish, aralashtirish) terminiga biror munosabat, tasavvurga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lgan ikki so'z yoki iborani birlashtirish yo'li bilan yangi so'z yoki iboraning hocil bo'lishidir, deb ta'rif berilgan. [12]

Demak, kontaminatsiya usuliga ko'ra mualliflar ikki frazeologik birlikni yoki ularning qismlarini birlashtirgan holda bir kontekst doirasida qo'llaydilar. Bunda ikki ibora yoki uning qismlarini birlashtirilib ishlatilishi asosida transformatsiyaga uchragan iboralar butunlay yangi alohida ma'no kasb etmaydi, balki iboraning ma'nosi kuchayadi, emotsional-ekspressivligi oshadi, ularning stilistik imkoniyatlari yanada yuqori bo'ladi.

Tilshunos A.E.Mamatov frazeologik iboralarning kontaminatsiyasi bo'yicha: "Frazeologik iboralarga ishlov berishning original stilistik usuli kontaminatsiyadir, ya'ni ikkita frazeologik birlik qismlari yoki bitta frazeologik birlikning bir qismi va butun frazeologik birlikning bir kontekstda birikishi hisoblanadi", [9] deb fikr bildiradi. Muallif ushbu hodisaning iboralarni yangilash va transformatsiyalash bo'yicha eng keng tarqalgan usullaridan biri sifatida baholaydi.

Ishimizda kontaminatsiya hodisasini qanotli iboralar doirasida tahlil qilishga harakat qildik. Ko'p hollarda ikki sinonimik qanotli iboralarning bir kontekstda birlashuvini ko'rish mumkin: *Quant à* ***la corne d'abondance d'Amalthée,*** *[…] nous tenons pour sûr qu'elle se comprend comme la médecine philosophique d'or, ...* (M.Maier*)*

Ushbu o'rinda *Corne d'Amalthée* va uning sinonimi *Corne d'abondance* qanotli iboralari qo'llangan. Ushbu iboralar struktur jihatidan ot+ot qolipidagi iboralar, ularning har ikkisi ham "mo'l-ko'lchilik, seroblik" ma'nolarini anglatadi. Bu kabi sinonimik qatorni tashkil etuvchi qanotli iboralarning bir kontekstda qo'llanilishi natijasida ma'noning kuchayishi, ta'sirchanlikning oshishi kuzatiladi. Ushbu qanotli iboralarning kontaminatsiyasi natijasida *La corne d'abondance d'Amalthée (Amalfeyaning mo'l-ko'lchilik shoxi)* qanotli iborasi vujudga kelganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, *Corne d'Amalthée* iborasi allyuziyaga yuz tutgan va shu tufayli kontekstda ikki

uslubning birga qo‘llanilishi, ya’ni konvergensiya hodisasi ham yuz bermoqda.

Ma’nodosh bo‘lmagan qanotli iboralarning birlashuvi ham keng qo‘llanuvchan hisoblanadi. Masalan, ***Liberté, égalité, fraternité! Paroles vaines***, *funestes même, depuis qu’elles sont devenues politiques; car la politique en a fait trois mensonges.* (L.Veuillot)

Struktur jihatdan turlicha bo‘lgan ushbu ikki qanotli iboraning bir kontekstda kelishi orqali kontaminatsiya hodisasi yuzaga kelgan va natijada *Ozodlik, Tenglik, Birodarlik! Quruq gapdir* ibora shakli vujudga kelgan.

Qanotli iboralarning kontaminatsiya usulida ma’no jihatdan bir-birini to‘ldirib kelish holatlari ham faol kuzatiladi: *Cet homme-la! Méfiez-vous, il est comme* ***la mule de Pape****, qui garde sept ans son …* ***coup de pied****.* (Daudet)

Mule de Pape iborasi “kek saqlaydigan shaxs”ga nisbatan qo‘llanadi, *Coup de pied de l’Ane* iborasi esa “tuban qasos” ma’nosini bildiradi. Anglanadiki, qasos olish kekchi shaxsga xos xususiyatdir yoki kekchi shaxs doimo qasos olish payida bo‘ladi va shuning bilan har ikki qanotli ibora bir-birini ma’no jihatdan to‘ldirib kela oladi.

Demak, qanotli iboralar kontaminatsiyasida: 1) sinonimik, struktur jihatdan bir xil bo‘lgan ikki qanotli iboraning birlashuvi; 2) ma’no jihatdan yaqin bo‘lmagan va struktur jihatdan turlicha bo‘lgan qanotli iboralarning birlashuvi; 3) ma’no jihatdan bir-birini to‘ldirib keladigan qanotli iboralarning birlashuvi faol kuzatilmoqda. Qanotli iboralarning kontaminatsiyasi natijasida kontekst ma’nosining kuchayishi, tasviriylikning oshishi hamda stilistik planda emotsional ekspressivlikning kuchayishi, uslubiy mahsuldorlikning boyiganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, kontaminatsiya jarayonida boshqa uslubning qo‘llanilishi ham kuzatilmoqda va bu orqali kontekst ta’sirchanligini yanada oshirishga erishilmoqda.

Qanotli iboralarni matn doirasida voqelanishini tahlil qilar ekanmiz, ularning boshqa til birliklari qurshovida qo‘llanishlariga ham duch keldik. Bunda kontekstga kiritilgan qanotli ibora tasvirlanayotgan obyektga nisbatan xarakterli bo‘lmaydi, ya’ni stilistik qurshovi buziladi va qanotli ibora **distributsiya hodisasiga** yuz tutadi. Bu albatta, o‘z-o‘zidan emas, balki muallif biror bir maqsadga yoki ma’lum darajadagi stilistik natijaga erishish uchun ushbu hodisani amalga oshiradi.

Mais, c’est à cet aspect, à cette face que notre génération se montre le plus sensible, qui a comme et connait encore un ***âge d’or des crimes.*** (Bory)

Kontekstda Gesiodga mansub “baxtiyor va tashvishsiz davr” ma’nosini anglatuvchi *Âge d’or* qanotli iborasi jinoyatga nisbatan qo‘llangan (.... *jinoyatlarning oltin davri*). Qanotli iboraning ma’nosi “jinoyat” tushunchasiga xos xususiyat emas, ya’ni obyektga nisbatan xarakterli emas. Ushbu o‘rinda mazkur qanotli iboraning strukturasi o‘zgarishsiz qo‘llangan, faqat uning stilistik qurshovi buzilgan, buning natijasida distributsiya hodisasi yuzaga kelgan.

Yoki: [...] *C’était* ***l’âge d’or de la tyrannie.*** *(Eugène Pelletan)*

Bu o‘rinda *Âge d’or* qanotli iborasining zulmga nisbatan qo‘llanishi distributsiya hodisasini yuzaga keltirmoqda.

Bu kabi stilistik distributsiya yunon mifologiyasiga oid qanotli iboralarda ham kuzatiladi. Masalan, *Nous eûmes longtemps neuf* ***Muses****;* ***la sainte critique est la dixième****, qui est venue bien tard;….* (Voltaire)

Parchada qo‘llangan *Dixième muse* qanotli iborasi ko‘chma ma’noda “ilhom parisi” ma’nosini anglatadi. Ushbu o‘rinda iboraning tanqidga nisbatan qo‘llanilishi (*la sainte critique est la dixième*) uning distributsiya hodisasiga uchraganligini ko‘rsatadi.

Misollardan ko‘rinadiki, qanotli iboralarda stilistik distributsiya hodisasi faol kuzatilmoqda. Ular matn doirasida tasvirlanayotgan obyektga nisbatan xarakterli bo‘lmagan holda qo‘llanib, ma’lum stilistik natijaga olib kelmoqda.

Xulosa

Fransuz tili qanotli iboralarining badiiy matnda okkazional qo‘llanilishi faol kuzatiladi va bu jarayonda ma’lum stilistik effektga erishish maqsadida individual-muallifga xos transformatsiyaning ham semantik, ham struktur-semantik usullari, ya’ni *tarkibini kengaytirish va qisqartirish, aktuallashtirish, komponentlarni almashtirish, kontaminatsiya hamda distributsiya usullari* keng qo‘llanadi. Buning natijasida qanotli iborani matnga moslashtirish, ixchamlashtirish, stilistik mahsuldorlikka erishish yoki obrazni yanada jonlantirish, kontekst ma’nosini kuchaytirish, komik effekt hosil qilish, muallifga xos yangi iboralar yaratish, nutqni boyitish va asarning badiiyligini, ta’sirchanligini oshishiga erishish mumkin. Ta’kidlash lozimki, ushbu usullarning amalga oshishida muallifning mahorati alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Абрамец И.В. Семантические основы некоторых приемов преобразования фразеологических единиц (на материале русских сатирических журналов 80-х годов 19 в.). Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Самарканд, 1969. – 19 с.

2. Алтыбаев А.А. Трансформация фразеологизмов как стилистический приём в произведениях Д.Н.Мамина-Сибиряка. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1977. – 21 с.; Селиверстова Е.И. Проблемы перевода на чешский язык фразеологии произведений Н.С.Лескова. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ленинград, 1983. – 23 с.

3. Bally Ch. Précis de stylistique: esquisse d'une méthode fondée sur l'étude du français moderne. – Genève: Eggimann, 1905. – 183 p.

4. Беркова О.В. Крылатые слова и проблемы их лексикографирования. Дисс… канд. филол. наук. – Ленинград, 1991. – С. 70.

5. Вакуров В.Н. Основы стилистики фразеологических единиц: (На материалах сов. фельетона) – Москва: Изд-во МГУ, 1983. – С. 127.

6. Земская Е.А. Цитация и виды ее трансформации в заголовках современных газет // Поэтика. Стилистика. Язык и культура. – Москва: Наука, 1996, – С. 157-168; Николаева Е.К. Фразеологический подвох газетного заголовка // Функционирование фразеологии в тексте в переводы кризиса идеологии и культуры. – Оломоуц, 1995, – С. 51-52; Бетехтина Е.Н. Библейские фразеологизмы с ономастическим компонентом в современной публицистике // Функционирование фразеологии в тексте в переводы кризиса идеологии и культуры. – Оломоуц, 1995, – С. 11-12.

7. Isakova G.N. Fransuz tili qanotli so'zlarining semantik va stilistik xususiyatlari. Filol. fan. dok… diss. –Toshkent, 2023. – 237 b.

8. Кунин А.В. Двойная актуализация как понятие фразеологической стилистики // ИЯШ. – Москва, 1974. № 6. – С. 13-17.

9. Маматов А.Э. Очерки по французской фразеологической стилистике. – Ташкент: Укитувчи, 1989. – С. 82-88.

10. Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Наврўз, 2019.

11. Шулежкова С.Г. Крылатые выражения русского языка, их источники и развитие. Дисс... док. филол. наук. – Ленинград, 1995. – С. 197.

12. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: "ЎзМЭ" Давлат илмий иашриёти. – Б. 133. www.ziyouz.com kutubxonasi. – Б. 52.

13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. "ЎзМЭ" Давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2008. – Б. 34.

14. https://citation-celebre.leparisien.fr.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Karimova Dilorom Shavkatovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: karimovadilorom15@gmail.com

TURLI MADANIYATLARDA "HAYOT" VA "O'LIM" MUAMMOSIGA MUNOSABATLAR

Annotatsiya: *Lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Maqoalda o'limga bo'lgan munosabatlar e'tiqodlari, madaniyatlararo shakllanadi. Turli millatlar va madaniyatlararo "o'lim" va "hayot" ning talqini va ta'rifi yoritib berilgan. Islom dini hamda millatlarning dinlari, xalqi, hayot tarzi talqini dalillangan.*

Kalit so'zlar: *Lingvokulturologiya, stereotip, xristian, islom, buddizm, dozsizm, sintoizm.*

Каримова Дилором Шавкатовна
Андижанский государственный педагогический институт
Доктор философии (PhD) по филологии
электронная почта: karimovadilorom15@gmail.com

ОТНОШЕНИЕ К ПРОБЛЕМЕ «ЖИЗНИ» И «СМЕРТИ» В РАЗНЫХ КУЛЬТУРАХ

Аннотация: *Лингвокультурология изучает языковые единицы, несущие культурную информацию. В статье рассматриваются убеждения относительно отношения к смерти и то, как они формируются в разных культурах. Особое внимание уделяется толкованию и определению понятий «смерть» и «жизнь» в разных странах и культурах. Обосновывается трактовка религии ислама, религий, людей и образа жизни народов.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, стереотип, христианство, ислам, буддизм, досизм, синтоизм.*

Karimova Dilorom Shavkatovna
Andijan State Pedagogical Institute
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
e-mail: karimovadilorom15@gmail.com

ATTITUDES TO THE PROBLEM OF "LIFE" AND "DEATH" IN DIFFERENT CULTURES

Annotation: *Linguoculturology studies language units that carry cultural information. The article examines the formation of beliefs and intercultural relationships to death. The interpretation and definition of "death" and "life" in different nations and cultures are highlighted. The interpretation of the religion of Islam and the religions, people, and lifestyle of nations is substantiated.*

Keywords: *Linguoculturology, stereotype, Christian, Islam, Buddhism, Dosicism, Shintoism.*

Kirish

Lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash Lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. O'limga bo'lgan munosabat e'tiqodlari, madaniyati va yoshi bilan shakllanadi. Qadimgi Yunonistonda faylasuflar o'lim haqida turlicha fikrlarga ega bo'lgan bo'lsa, islom tafakkurida qadimgi yunon tafakkuridagi kabi keskin alohida g'oyalar mavjud emas. O'lim ko'pincha hayotning oxiri yoki abadiy hayotning boshlanishi sifatida ko'riladi. Madaniy tafovutlar o'lim kontseptsiyasida mavjud, jumladan o'lim shartlari, mavjudlikning boshqa shakllariga o'tish, ko'p o'lim va qayta tug'ilish yoki o'limdan keyin hech narsa sodir bo'lmagan yakuniy yakun. O'lim tushunchasiga

dunyoqarash ta'sir koʻrsatadi va muayyan jamoaning madaniy va diniy kelib chiqishi bilan shartlanadi.

1. Hech qachon odamni eslashga loyiq boʻlmagan vaqt oʻlgandir. 2. Biz insonni aralash urugʻdan yaraldik; biz uni oʻzgarishlarga duchor qilamiz va keyin uni eshitamiz va koʻramiz. 3. Bizga shukr qiladimi yoki yoʻqmi, uni toʻgʻri yoʻlga boshlaymiz. 4. Biz kufr keltirganlar uchun zanjirlar, yoqalar va doʻzax olovini tayyorlab qoʻyganmiz. 5. Allohning bandalari ichadigan buloqning namligidan, uni ariqlarga oqib qoʻyadilar; 6. Oʻz qasamlarini sodiq bajaruvchilar; yovuzlik hamma joyda tarqaladigan kundan qoʻrqing; 7. "Biz sizlarni Alloh uchun ovqatlantiramiz. Biz sizdan hech qanday toʻlov yoki minnatdorchilik talab qilmaymiz. 8. Biz Parvardigorimizdan dahshatli va qayguli kunda qoʻrqamiz". Ular kumush bilakuzuklar bilan ziynatlanurlar va Robbilari ularga pokiza ichimlik berur, deb qaralgan maʼlumotlarni musulmon dini Olloh Taolo tomonidan bandalaringa hayot va oʻlimni eslab turishlari uchun berilgan inʼom deb eʼtirof etadilar. [1; 76]

Zamonaviy islom va musulmonlarga, shuningdek, biz koʻrib chiqayotgan hayot va oʻlim muammosini idrok etishi va tushunishiga boʻlgan bunday munosabat toʻgʻri. Xristianlik va islomning moʻtadil qismi oʻrtasida hayot va oʻlim muammosiga munosabatda ma'lum bir umumiylik mavjud. Bunda gʻalati narsa yoʻq, chunki dunyodagi uchta eng mashhur monoteistik dinlar - nasroniylik, islom va iudaizm bir xil ma'naviy va tarixiy ildizlarga ega. Hatto Qur'onda ham Xudo birin-ketin paygʻambarlarni yuborgani, ular orasida Odam Ato, Xanoʻx, Matushelaning otasi, Ibrohim, Yoqub, Dovud, Muso, Iso (Masih), Yahyo choʻmdiruvchi va Muhammad borligi yozilgan. Shuningdek, Xudoning vahiylari faqat Qur'on bilan chegaralanib qolmasligi, balki boshqa kitoblarda ham topilishi mumkinligi aytiladi: bu erda biz yoʻqolgan "Ibrohimning qogʻozlari", Tavrot - Bibliyaning birinchi besh kitobi, Islomda "deb ataladi" haqida gapiramiz.

Shu bilan birga, biz sodir boʻlayotgan hamma narsaga ikkinchi darajali ahamiyat berish tendentsiyasini kuzatamiz. Shu bilan birga, Islom qonunlarini oʻrganar ekanmiz, oʻz joniga qasd qilish jinoyatchi tomonidan sodir etilgan boʻlsa ham rad etilishini kuzatishimiz mumkin. Umr Alloh tomonidan berilgan va uni olib qoʻyish Uning kuchidadir. Musulmon me'yorlariga koʻra, choʻkayotgan odamni qutqarib boʻlmaydi, chunki u Xudoning qudratidadir." [2; 158] Xudo doimo hayot haqiqatiga kiradi, Usiz hech narsa sodir boʻlmaydi, U doimo va doimiy ravishda haqiqatga ta'sir qiladi.

G. Morev oʻzining maqolalaridan birida, masalan, Qurʼonni va ayniqsa, uning hayot va oʻlim muammosiga bagʻishlangan qismlarini oʻrganishda musulmonlar dunyoqarashiga oid quyidagi xulosalar chiqaradi: [3; 2002]

"1. Alloh insonga hayot beradi. 2. U har qanday vaqtda, shaxsning xohish-istaklaridan qat'i nazar, uni olib ketishga haqli. 3. Inson oʻz xohishiga koʻra oʻz hayotini tugatishga haqli emas, lekin u buni oʻz dushmaniga sharaf, urushda ham jasorat deb hisoblashi mumkin. 4. Jannatga kirish uchun hayotni munosib yashash kerak. 5. Oxirat cheksizdir va u avval yashaganlarning va hozir yashayotganlarning asosiy maqsadidir. 8. Bu dunyoda hamma narsa Allohning irodasi bilan boʻladi" [3; 2002]

Tahlil va natijalar:

Hindistonda hayot va oʻlim muammosiga munosabat.

Hindiston insoniyatning eng muhim va noyob madaniyatlaridan biri boʻlib, uning juda qadimiy tarixi boʻlib, toʻrt ming yildan koʻproq vaqtni oʻlchaydi. Uning madaniy dunyosi nihoyatda barqaror. Hindiston dunyosi din va falsafaning mavjudligi va rivojlanishi bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan dunyo boʻlib, bu ma'naviy va madaniy hodisalar hindlarning ommaviy psixologiyasiga ham ta'sir koʻrsatdi va oʻzlari tomonidan belgilandi. Hindistonning ma'naviy dunyosi, yuqorida aytib oʻtilganidek, diniy va falsafiy xilma-xillik bilan ifodalanadi. Hindiston hududida braxmanizm, hinduizm, buddizm, jaynizm, sikxizm va boshqalar kabi dinlar, Lokayata, sankxya, yoga, nyaya, vaisheshika va boshqalar kabi falsafiy maktablar vujudga keldi va rivojlandi. Hinduizm - bu odamlar butun tabiat taqdirini, ya'ni tugʻilish, hayot, oʻlim, keyin yana Yerda qayta tugʻilish, keyin tsikl qayta-qayta takrorlanishini ta'kidlaydigan dindir. Buddistlarning hayotga munosabati uning xayoliy tabiatini anglashdan iborat boʻlib, ma'lum ma'noda nigilistikdir; quvonch, dunyoviy lazzatlar, dunyoviy baxt - bularning barchasi tenglashtirilgan. Oʻlim unga toʻliq e'tiborsizlik bilan qabul qilinadi. Hindiston, uning madaniyati, doimiy rivojlanishda davom etayotgan diniy-falsafiy merosi, tushunish juda qiyin boʻlgan ancha murakkab hodisa, madaniyatning ma'naviy hodisasini ifodalaydi. Oʻlim muammosi Hindistonda haqiqatan ham dolzarb masala emas - undan aniq qoʻrquv yoʻqligi ma'nosida, asosan (boshqa madaniyatlar bilan solishtirganda, albatta) toʻgʻri deb qabul qilinadi va nisbatan xotirjam tushuniladi va bu shunday boʻldi. Hindiston tarixining soʻnggi ming yilliklaridagi holat. Oʻlim muammosi ham yuqorida yozganimizdek islomda ifodalanmagan, lekin islomda oʻlim qoʻrquviga qarshi kurash yoʻli boshqacha: u yerda u maʼlum dogmalarga, ularga soʻzsiz ishonishga asoslanadi. [4; 147-154]

Hayot va oʻlim muammosi Xitoy madaniyati va uning psixologiyasida quyidagicha ifodalangan.

In English linguistics, Charles Bally, A.V. Kunin, J.R. Firth, Michael Halliday, Fernanda Cintra, Aida Korjonen, Peter Newmark; in Russian linguistics, V.V. Vinogradov, N.M. Shansky, I.I. Chernyshev, E.A. Zemskaya, A.A. Potebnya, I.A. Smirnitsky, N.F. Alefirenko, N.N. Semenenko, V.N. Telia; and in Uzbek and Karakalpak linguistics, T.I. Khasanov, N.M. Karimov, Sh.A. Rakhmatullaev, Z.A. Abduazizov, G.H. Kayumov, J. Eshbaev, Q. Pakhratdinov, Q. Bekniyazov, B.T. Yusupova, A.Q. Pirniyazova have conducted in-depth research on phraseology. Furthermore, G.K. Kidirbaeva studies the "Man" concept, G.A. Usenova studies the "Mother" concept, and A.N. Sadullaeva studies the "Love" concept within a phraseological context, while A.A. Khudaybergenov has studied phraseological units reflecting human character.

N.F.Alefirenko and N.N. Semenenko, discussing whether phraseologisms can be synchronic or contemporary, and diachronic or historical, express the following view on what they encompass: The subject of studying phraseology is also called phraseologisms, phraseological units, and phrasemes. Therefore, it is better to call all phraseology in a given language phraseology, because in this case uniformity arises.

According to A.A. Khudaybergenov, phraseological units in language, as carriers of national culture, endure across centuries. They traditionally reflect the people's historical experience, life observations, distinctive evaluations of events, attitudes towards individuals, aspirations, dreams, emotional-expressive worldview, cognitive understanding of the world, and, as a linguistic sign, the speaker's and listener's connotative sympathy or antipathy.

Regarding the study of these culture-carrying tools, Russian scholar V.N. Teliya stated: The "language of culture" is embodied in various semiotic systems. In natural language, its artistry and relevance are not only concentrated in the content of names for cultural "things" and concepts but also find expression in folk wisdom, precepts, proverbs, sayings, various linguistic patterns, standards, symbols, as well as well-known phrases, maxims, and other elements in precedent texts. Thus, the "soul" concept can also reveal patterns, standards, and symbols connected with the historical experience and life observations of people within the phraseological realm of a given culture.

Methods

Componential analysis, also known as feature analysis or semantic decomposition, is a method used in linguistics to break down the meaning of words or phrases into their minimal, contrastive semantic features or components (Nida, 1975). This approach seeks to identify the fundamental building blocks of meaning and understand how they combine to create more complex concepts. In the context of phraseological and paremiological units, componential analysis offers a valuable tool for exploring the conceptualizations of abstract notions, such as "Soul/Ruwx," across different languages and cultures.

Results

This study identified a significant number of phraseological units reflecting the concepts of "Soul" in English and "Ruwx" in Karakalpak. Specifically, analysis of "Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi" and "Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmler sózligi" revealed 11 phraseological units directly related to the lexeme "Ruwx" and an additional 37 units related to the closely associated term "Jan," resulting in a total of 48 relevant phraseological units in Karakalpak. English equivalents were identified for each of these units.

Initial analysis focused on the componential structure of selected illustrative examples. For instance, the following phraseological units were examined:

- break free (English) - 2 components
- hold on (English) - 2 components

- júrek sızlaw (Karakalpak - жүрек сызлаў) - 2 components
- jandı qurbanlıqqa beriw (Karakalpak - жанды қурбанлыққа бериў) - 3 components

The lexical composition of these units revealed a range of components: break, free, hold, on, júrek, sızlar, jan, qurbanlıq, and beriw.

Structural analysis categorized these components according to their word class: break, hold, sızlaw, qurbanlıqqa beriw as verbs; free as an adjective; on as a particle; and jan as a noun. The observed structural patterns included:

1. Verb + Adjective (e.g., break free)
2. Verb + Particle (e.g., hold on)
3. Noun + Verb (e.g., júrek sızlaw)
4. Noun + Verb (e.g., jandı qurbanlıqqa beriw)

Semantic analysis revealed the core meanings associated with these units:

- break free: to resist restrictions
- hold on: to be patient and enduring
- júrek sızlaw: to experience sorrow and suffering
- jandı qurbanlıqqa beriw: to dedicate oneself wholeheartedly

All components have a lexical category of verb.

These examples demonstrate the multifaceted nature of phraseological units, encompassing emotional-expressive, stylistic, grammatical, and national-cultural properties. B. Yusupova's definition underscores the key characteristic of phraseological units: their meaning extends beyond the sum of their individual components: "...units consisting of a stable sequence of two or more words, expressing a meaning distinct from the meanings of their constituent components, and distinguished by their fixed composition and structure, are referred to as phraseological units in language."

Lakoff & Johnson's Conceptual Metaphor Theory (Condensed Explanation):

George Lakoff and Mark Johnson, in their book "Metaphors We Live By," argue that metaphors are not just rhetorical devices, but fundamental to how we think and understand the world. They propose that abstract concepts are often understood in terms of more concrete, physical experiences. This mapping of concrete domains onto abstract domains is called a conceptual metaphor. These metaphors are often unconscious and shape our reasoning. We understand the abstract target domain through the lens of a more concrete source domain.

- Ontological Metaphors: A type of conceptual metaphor where abstract concepts are understood as entities, substances, containers, or other physical objects.

The table analyzes Karakalpak and English expressions related to "Soul/Ruwx" to identify the conceptual metaphors at play. Here's a breakdown of the categories:

- Қарақалпақ/инглис (Karakalpak/English): The phrase in Karakalpak and its English translation.
- Компонентли қурам (Component Structure): Grammatical analysis of the phrase (e.g., adjective + noun = noun phrase).
- Метафоралық курам (Metaphorical Structure): Identifying the metaphorical mapping (e.g., "Soul lifts" implies "Soul is a Burden that can be lifted").
- Онтологиялық қурам (Ontological Structure): Identifying the type of entity the "Soul" is being conceptualized as (e.g., a burden, an object, a container).

№	Karakalpak/English	Componential structure	Metaphorical structure	Ontological structure
1	Ruwxы сөнды/ Lost spirit	Атлық (ат.) + фейил (ф.) = фейил/adjective + noun = noun phrase (ph.)	Ruwx сөнеди	жулдыз/ табылма
2	Ruwxы бәлент/бийик/ High spirits	Атлық + келбетлик (к.) =келбетлик/adjective + noun = adjective ph.	Ruwx көтериледи	Бәлентлик/ Бийиклик
3	Ruwxын көтериў/ Lift someone's spirits	Атлық + фейил = фейил/verb+pronoun + noun = verb ph.	Ruwx көтериледи	Жүк/лифт
4	Ruwxы көтерилиў/ Be uplifted	Атлық + фейил = фейил/verb + past participle =verb ph.	Ruwx көтериледи (пассив)	Жүк/лифт
5	Ruwxын сындырыў / Break someone's spirit	Атлық + фейил = фейил/verb + pronoun + noun + verb ph.	Ruwx сынады	Шийше/ шийше
6	Ruwxы түсиў/ Low spirits	Атлық + фейил = фейил/verb + noun verb ph.	Ruwx төменге түседи	Пәске ушықан қус/ Пәске ушықан қус
7	Ruwx бериў/ Give someone a boost	Атлық + фейил = фейил/verb + pronoun + noun = verb phrase	Ruwx илҳәмланады	Саўға/кеңлик
8	Ruwxый күш/ Spiritual strength	Келбетлик + атлық = атлық/ adjective +	Ruwx, бул – куш	Йош/ сыйқыр

		noun = noun phrase		
9	Ruwхый әлем/Spiritual world	Келбетлик + атлық = атлық/ adjective + noun = noun phrase	Ruwx, бул – әлем	Йош/ сыйқыр
10	Ruwхый ағартыў/ Spiritual enlightenment	Келбетлик + фейил = фейил/ adjective + noun = noun phrase	Ruwx оянады	Суў/көз
11	Ruwхый азық/ Food for the soul	Келбетлик + атлық = атлық/ noun + prepositional phrase = noun phrase	Ruwx азық болады	Аўқат/аўқат
12	Жаны түршигиў /денеси түршигиў / Send shivers down one’s spine/shake like a leaf	Атлық + фейил = фейил/verb + noun phrase = verb ph., verb + adv.ph. = verb ph.	Жан түршигеди	Муз/ муз, омыртқа, жапырақ
13	Жан алыў/ Take a life, end a life, cause death	Атлық + фейил = фейил/verb + noun ph. =verb phrase	Жан асығады	Қылыш/ ноқат
14	Жан(ын) алмаў/ Save a life, spare someone’s life	Атлық + фейил = фейил/verb + noun = verb ph.	Жан өледи	Қылыш/ қалқан, бос ура
15	Жан ашыр/ A shoulder to cry on, wear one’s heart on one’s sleeve	Атлық + фейил = атлық/noun + verb ph. = noun ph., verb + noun ph. =verb ph.	Жан ғамхоршы болады	Қатық/желке, жүрек, жең
16	Жаны ашыў/ Have a heart of gold, feel for someone	Атлық + фейил = фейил/verb + noun ph. = verb ph., verb + prep.ph.= verb ph.	Жан ғамхор болады	Сүт/жүрек, алтын
17	Жаны ашымаў/	Атлық + фейил =	Жан тасбаўыр	Көз /жүрек,
	Have a heart of stone, to turn a blind eye	фейил/ verb + noun ph. = verb ph.	болады	тас, соқыр көз
18	Жан бериў/жан тапсырыў /жан тәслим етиў/ Pass away, kick the bucket, breath one’s last	Атлық + фейил = фейил/ verb= verb ph., vebr + noun = verb ph.	Жан кетеди	Дем/буйым/шелек/ дем
19	Жаны кириў/ Back on one’s feet, get a new lease on life	Атлық + фейил = фейил/noun + adverbial ph. = adverbial ph., verb + noun ph. = verb ph.	Жан келеди	Үй/табан, ижара үй
20	Жаны кирмеў/ Run out of steam, fade away	Атлық + фейил = фейил/verb ph. + noun = verb ph., verb + adverb =verb phrase	Жан жоғалады, ғайып болады	Жабық есик/жоқ пуў, сая
21	Жаны енбеў/ Ants in one’s pants, walk on eggshells, have the jitters	Атлық + фейил = фейил/ noun + adv.ph = noun ph., verb + prep. ph. = verb ph., verb + noun = verb ph.	Жан сылбырайды	Түс/қумырысқа, шалбар, мәйек қабық, нерв
22	Жан ийманы қалмаў/ Jump out of one’s skin, shake like a leaf, heart skips a beat	Атлық + фейил = фейил/ verb + prep.ph. =verb ph., verb + adv. Ph.=verb ph., noun + verb ph + verb ph.	Жан қорқады	Контейнердиң түби қориниў / тери, жапырақ, жүрек
23	Жан ийнине от түсиў/ Someone’s heart sink	Атлық + атлық + фейил = фейил/ noun ph + verb = verb ph.	Жан күйгелекленеди	От/ жүрек ҳәм суў
24	Жан сақлаў/ Save one’s life, sit on one’s hands,	Атлық + фейил = фейил/verb + noun ph = verb ph., verb + noun ph =	Жан қашады, сумлық ойлайды	Қалқан/қол ҳәм отырғыш

	take it easy	verb ph.		
25	Жан саўдасына түсиў/ Fight for one’s life	Атлық + атлық + фейил = фейил/ verb + prep. ph = verb ph.	Жан гүреседи	Аяқ адымы/қылыш, қалқан
26	Жан – тәни менен ислеў/ Soul and body work as one	Атлық + дәнекер + фейил = фейил/verb + adverbial ph = verb ph.	Жан машақатты сүйеди	Қурал/дене
27	Жаны жай табыў/ Find peace, achieve inner peace	Атлық + атлық + фейил = фейил/verb + noun = verb ph., verb + noun ph. = verb ph.	Жан тынышланады	Орын/бос қуты
28	Жаны жай таппаў/ Not find peace, not achieve inner peace	Атлық + атлық + фейил = фейил/ negative verb + noun = verb ph., negative verb + noun ph. = verb ph.	Жан тынышсызланады	Түнек/толы қуты
29	Жаны жайына түсиў/ Find rest, settle down	Атлық + атлық + фейил = фейил/verb + noun = verb ph., verb ph.	Жан тыным табады	Алынған затты орнына қойыў/түнги барлық
30	Жаны көзине көриниў/ Freeze in fear, get cold feet	Атлық + атлық + фейил = фейил/verb + prep. ph = verb ph., verb + noun ph = verb ph.	Жан ҳаўлығады	Көз/музлаған аяқ
31	Жанын көзине көрсетиў/ Bring someone to the brink of death, scare the life out of someone	Атлық + атлық + фейил = фейил/verb + noun ph. = verb ph.= verb ph.	Жан қорқытады, жүрек жарады	Көз/қылыш тақаў
32	Жаны тас төбесине шығыў/ To be	Атлық + атлық + атлық + фейил = фейил/verb +	Жан қатты қорқады	Тас төбе, бас/ муз
	frozen with fear, panic sets in	adjective ph = verb ph., noun + verb = verb ph.		
33	Жан-ийманы қалмаў/ Lose all hope or composure, lose heart	Атлық + атлық + фейил/ verb + noun ph.=verb ph., verb + noun = verb ph	Жан үмитсизленеди	Контейнер босаў/шырасы өшиў
34	Жаны төзбеў/ Can’t take it anymore, reach breaking point, can’t stand it any longer	Атлық + фейил = фейил/negative modal verb + verb ph = verb ph., verb + noun = verb ph., negative modal verb + verb ph = verb ph	Жан шыдамсызболады	Тат баспаў/автобуста қалып кетиў
35	Жаны шығыў/ Soul leave, pass away, give up the ghost	Атлық + фейил = фейил/noun + verb = verb ph., verb = verb ph., verb + noun ph = verb ph	Жан ушады	Суўдың пуўланыўы/қус, күнниң батыўы, жел тоқтаў
36	Жаны шықпаў/ Pull through, cheat death	Атлық + фейил = фейил/verb ph., verb + noun = verb ph.	Жан қонақ болады, қонады	Шыраның пырпыраўы/ тамырлаған ағаш, айқасқан әскер
37	Жанын алыў/ Kick the bucket, take someone’s life	Атлық + фейил = фейил/verb + noun ph = verb ph.	Жан аямайды	Жапырақтың түсиўи/ шелекке тийген аяқ, гүлдиң үзилиўи
38	Жанын алмаў/ Save one’s life, rescue from death, keep someone alive	Атлық + фейил = фейил/verb + noun ph=verb ph., verb + prep. ph. =verb ph., verb + noun ph = verb ph.	Жан қутқарады	Өширилмеген шам/қулаған адам, жансыз гүлге суў қуйыў
39	Жанын келиге қамаў/ To bottle up one’s	Атлық + атлық + фейил = фейил/verb + noun phrase	Жан безилдейди	Өзенниң тығыны/ жабық шийше, қыялықк

	emotions, to have a hard time, to feel discomfort	=verb ph.		а шығыў, гедир жолда сапар
40	Жанын қоярға жер таппаў/ To keep one’s feelings locked, to bury one’s feelings	Атлық + фейил + атлық +фейил = фейил/verb + noun ph = verb ph.	Жан жүгиреди	Қумдағы из/ жабық үй, суўға батыў
41	Жанып жүриў/ To be full of life, to be passionate about or to be wracked with pain, to burn inside,	Фейил + фейил = фейил/verb + adjective ph. = verb ph., to burn inside – verb + adverbial ph = verb ph.	Жан жанады	Оты бар шам/қус пәрўазы, қайнаўшы булақ, от ҳәм май, күйген ағаш
42	Жанына батыў/ To hurt someone’s feelings, to cut someone to the quick, to leave a bad taste in someone’s mouth	Атлық + фейил = фейил/verb + noun ph =vebr ph.	Жан қыйналады	Таяқ/пышақ, ашшы аўқат, аўыз
43	Жанына батпаў/ To not take something to heart, to not hurt someone’s feelings	Атлық + фейил = фейил/verb + noun ph = verb ph.	Жан қыйналмайды	Қалың тери/
44	Жарым жан/ Half-dead, weekened	Келбетлик + атлық/ adjective = adjective ph.	Жан екиге бөлинеди	Нан/инсан денеси
45	Ишерге-жемеге жанын қоймаў/ To not give someone a break, to nag someone incessantly	Фейил + атлық + фейил = фейил/verb + noun ph = verb ph., verb +pronoun + adverb = verb ph.	Жан ишип жемейди	Сааттың тықылдаўы/жел ҳәм терек,
46	Жансыз/ Like a dead fish or a fly on the wall	Келбетлик = келбетлик/preposition + noun ph =prep. ph.	Жан қыймылдамайды, жан тыңлайды	Геўик ағаш/өли балық, шыбын
47	Жан таласыў/ To struggle for survival, to be at the death’s door	Атлық + фейил = фейил/verb + prep ph = verb ph.,	Жан гүреседи	Шөлде суў излеў/толқынға қврсы турыў, шығыў есиги
48	Жан сүйер/ Soulmate, kindred soul	Атлық + фейил = келбетлик/ noun = noun ph., adjective + noun = noun ph.	Жан сүйеди, жақсы көреди	Жуп жылдыз/ күн менен ай, бир дәрья еки арна

Conclusion

As scholar A.A. Khudaybergenov says, these phrases stick around for centuries because they carry a culture's story – what people have seen and learned, what they believe, how they feel, and even what they dream about. They're a code to understanding how a group of people sees the world.

As Russian researcher V.N. Teliya points out, culture speaks to us through all sorts of symbols, and language is a big one. It's not just about naming things; it's about how folk wisdom, like proverbs, uses language to share deeper cultural meanings. So, when we explore idioms and sayings that talk about the "soul" – or "Ruwx" in Karakalpak – we're actually uncovering hidden pieces of that culture's history and how they understand life.

We used a method called "componential analysis." Imagine taking apart a toy to see what all the little pieces are and how they fit together. That's what we did with phrases. We broke down the meaning of each phrase into its simplest parts to understand how it paints a picture of the "Soul/Ruwx."

We discovered a bunch of idioms and sayings related to the idea of "Soul" in English and "Ruwx" in Karakalpak. Specifically, we looked at Karakalpak dictionaries of sayings and found 11 phrases directly using the word "Ruwx" and another 37 using the related word "Jan", giving us a total of 48 relevant expressions. Then, we found English phrases that were similar in meaning. We started by carefully looking at the components of meaning within specific examples."

Used literature

1.Алефиренко Н.Ф. Фразеология и паремиология: Учебное пособие для бакалаврского уровня филологического образования / – М.: Флинта: Наука, 2009, – С.15.

2.Кдырбаева Г.К. Лингвокультурологические и лингвокогнитивные особенности единиц концептосфры «man» и «адам» (на примере английского и каракалпакского языков): Афтореф.дис. д-ра. филол. наук. – Т., 2017. – 45 с.

3.Sadullaeva A.N. «Love/Muhabbat» konseptining lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida): Filol.fan. Fals. (PhD)..d-ri. dis. avtorefer. – Nukus, 2024.

4.Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С.238.

5.Усенова Г.А. «Mother/Ана» концепти идентификаторларининг лисоний-маданий хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. Фалс. (PhD) ..д-ри дис. автореф. – Нукус, 2020. – 54 с.

6.Худайбергенов А.А. Маданиятлараро мулоқотда инсон характерини ифодаловчи фразеологик бирликларнинг ўзига хос хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Автореф. дис. …филол. наук. Нукус, 2022. – 26 б.

7.Худайбергенов А.А. Маданиятлараро мулоқотда инсон характерини ифодаловчи фразеологик бирликларнинг ўзига хос хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Автореф. дис. …филол. наук. Нукус, 2022. – 26 б.

8.Nida, E. A. Componential analysis of meaning: An introduction to semantic structures. The Hague: Mouton. 1975. – 280 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Narmuratov Zayniddin Radjabovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi
E-mail: zayniddin.tersu@mail.ru
UDK: 821.109.05-42

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BA’ZI TEACHER/O‘QITUVCHI KONSEPTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada frazeologizmlarning shakllanishi, etimologiyasi, semantik-strukturasi, tarjima muammolari, ularning lingvomadaniy xususiyatlariga oid tadqiqotlar nazariy jihatdan o‘rganilib chiqilgan va ularga konseptual munosabat bildirilgan. Chog‘ishtirilayotgan tillarda* ***teacher/o‘qituvchi*** *konseptli frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari amaliy misollar bilan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: frazeologizm, teacher/o‘qituvchi, ekvivalent, maqol, frazema.*

Нармуратов Зайниддин Раджабович
Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса
E-mail: zayniddin.tersu@mail.ru

ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ПОНЯТИЕМ УЧИТЕЛЬ/ПРЕПОДАВАТЕЛЬ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье анализируются теоретические исследования формирования, этимологии, семантической структуры, проблем перевода и исследования их лингвокультурных особенностей фразеологизмов и представлен концептуальный подход к ним. Специфические особенности фразеологических единиц с концептом учитель в сопоставляемых языках иллюстрируются практическими примерами.*

Ключевые слова: *фразеология, учитель, эквивалент, пословица, фразеология.*

Narmuratov Zayniddin Radzhabovich
Lecturer at Termez University of Economics and Service

FEATURES OF SOME PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE CONCEPT OF TEACHER/O‘QITUVCHI IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. *This article analysis of theoretically studies the formation, etymology, semantic structure, translation problems, and research on their linguistic and cultural characteristics of phraseologisms and presents a conceptual approach to them. The specific features of phraseological units with the concept of teacher in the languages being compared are illustrated with practical examples.*

Keywords: *phraseology, teacher, equivalent, proverb, phraseology.*

Kirish

Jahon tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida til tizimining turli sathlariga tegishli leksik birliklarning shakllanishi va semantik ifodasi tadqiqotchilar e’tiborini jalb qilib kelmoqda. Mazkur jarayonda frazeologik birliklar alohida semantik guruh sifatida ifodalanishi, ularning kommunikativ-pragmatik jihatdan nutqda voqelanishiga xos xususiyatlarni, frazemalarni ifodalovchi leksik birliklarning kelib chiqishi, semantik, struktur, pragmatik, lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash hamisha ustuvor vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Xususan, bunday leksik birliklarning, ya’ni frazemalarni ijtimoiy hayotga, ayniqsa bugungi zamonaviy ta’limga bog‘lab o‘rganish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

O‘qituvchi konseptining ekvivalenti hisoblangan muallim so‘zi ilohiy kitoblardan tortib, payg‘ambarimizning hadisi shariflarida ham, shuningdek bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Qur’oni karimda muallim so‘zining o‘zakdoshi hisoblangan ilm so‘zi 812 marta qo‘llanilgani fikrimizga dalildir [1]. Mahalliy tadqiqotchilardan biri

Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” nomli kitobda o‘qituvchi konsepti qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilingan [4]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa o‘qituvchi konseptining etimologiyasi, lingvistik xususiyatlari chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtai nazaridan yoritib berilgan [3].

xos xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, mavzuni yoritib berishda lingvistik, kulturologik, pragmatik tahlil, germenevtika metodlaridan samarali foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Bizga ma’lumki, o‘qituvchi, muallim – turli yo‘nalishdagi o‘rta umumiy ta’lim maktablari, akademik litseylarida o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. Oliy ta’limda “domla” deb yuritiladi, ular “professor o‘qituvchi” tarzida umumlashma nom bilan ham ataladi. Shuningdek, o‘qituvchilarga nisbatan “muallim” yoki “pedagog” atamasi ham qo‘llaniladi. Ilmiy manbalarda berilishicha, o‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta’lim-tarbiya tufayli hayotini davom ettira oladi va rivojlantiradi. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiy o‘choqlarida topilgan tarixiy-madaniy obidalar bu o‘lkalarda o‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar o‘qituvchilik bilan shug‘ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo‘lishgan. Yunonistonda faqat ozod kishilargina o‘qituvchilik qilishga haqli hisoblangan. Rim imperiyasida o‘qituvchi imperator nomidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. O‘rta asrlarga kelib, G‘arb mamlakatlarida o‘qituvchilik bilan, asosan, cherkov xizmatchilari shug‘ullanishgan. Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o‘lkasida ham o‘qituvchi eng qadimiy va obro‘li kasb hisoblanib, “ustoz” deb e’zozlangan. O‘lkaga islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid va deyarli har bir masjid qoshida maktab tashkil etildi. Bu maktablarning o‘qituvchilari domla deb ataldi [2].

Shuni aytish kerakki, o‘qituvchi alohida ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat a’zolarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgani uchun ham uning shaxslik sifatlari kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi kuni qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o‘qituvchining professional jihatdangina yetuk bo‘lishi kifoya qilmaydi. Uning ma’naviy olami o‘quvchilarga singdirilishi ko‘zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to‘yingan bo‘lishi kerak. O‘qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta’sir ko‘rsata oladi. Istiqlol davri o‘qituvchilarida ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish mamlakat taraqqiyotini ta’minlash omilidir [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi teacher/o‘qituvchi konseptli frazeologik birliklarning o‘ziga

Ingliz tilida *teacher* leksemasi o‘zbek tilidagi *o‘qituvchi* va *muallim* so‘zlariga ekvivalent bo‘ladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga ko‘ra, o‘qituvchi fan tarbiya asoslaridan birini o‘qitadigan dars beradigan kishi; muallim [3] so‘zlari bilan izohlanadi. O‘qituvchilik, muallimlik – buyuk maqom, chunki payg‘ambarlar ham qaysidir ma’noda muallim bo‘lganlar. Muallim so‘zining ma’nosi ilm beruvchi, ta’lim beruvchi, o‘rgatuvchi demakdir. Payg‘ambarlar insoniyatga ezgulikni o‘rgatganlar. Ana shuning o‘ziyoq ustozlik qay darajada buyuk maqom ekanini ko‘rsatadi.

Inglizcha ***teacher’s pet*** (Disney’s Teacher’s Pet) iborasi *The idiom teacher’s pet was first seen in print around 1890, though it’s safe to assume that it was an epithet hurled around the schoolyard for many years before entering mainstream English* [ushbu idioma dastlab 1890-yillarda turli xil nashrlarda paydo bo‘lgan bo‘lsada, u maktablarda bundan oldinroq qo‘llanila boshlangan]. Ingliz tilida ushbu idioma o‘qituvchining suyukli o‘quvchisi mazmunida qo‘llaniladi. Ushbu mazmunni quyidagi misollarda ham kuzatishimiz mumkin: Misol uchun,

1. *You are a teacher’s pet alL right and your only aim is to stay in his/her good books.* [Siz o‘qituvchining suyukli o‘quvchisisiz va sizning yagona maqsadingiz uning eng suyukli o‘quvchisi bo‘lib qolish.] – (The Hindu).

2. *“I loved school,” said Renee, a self-described teacher’s pet*. [Men maktabni yaxshi ko‘rardim”, dedi o‘zini o‘qituvchining suyukli o‘quvchisi deb atagan Rene] – (The Buffalo News) [4].

3. *Leaders vie with each other to be teacher’s pet* [Rahbarlar o‘qituvchining suyukli o‘quvchilari bo‘lish uchun bir-biri bilan kurashadilar] – (The Sydney Morning Herald).

Ingliz lingvomadaniyatida ***teacher’s pet*** *iborasi* o‘qituvchini erkatoyi degan ma’no-mazmunni ifodalab kelishini yuqorida ta’kidlab o‘tganimizday keltirilgan misollarda ham o‘z ifodasini topganini bilib olishimiz mumkin. *Pet* ingliz tilida uy hayvoni ma’nosini bildiradi. *Pet* leksemasini izohli lug‘atda berilgan ma’nolarini ko‘rib chiqamiz. Ingliz tilining mashhur “Oxford Advanced Learner’s Dictionary” online lug‘atiga ko‘ra, 1. *an animal, a bird, etc. that you have at home for pleasure, rather than one that is kept for work or food*:

O‘zbek tilida esa ***o‘qituvchining erkatoyi*** frazeologik birligi ingliz tilida berilgan *teacher’s pet* idiomasiga mazmun-mohiyati bilan hamogang bo‘ladi. Yuqorida tahlilga tortilgan ikki til iborasida qo‘llanilgan so‘zlar tubdan farq qilyapti. Inglizcha frazemada maorif sohasiga oid so‘z o‘qituvchi leksemasi foydalanilgan,

o‘zbek tilida ham ushbu sohaga oid leksika foydalanilgan. Biroq, frazeologik birlikni ma’nosini shakllantirishda hizmat qiluvchi ikkinchi leksemalar bir-biridan farq qilib turibdi. Ingliz tilida *pet* leksikasi ishlatilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida esa *erkatoy* so‘zi faol qo‘llanilgan. Bu holatda xalq o‘zining leksik fondidan va madaniyatidan kelib chiqib so‘z qo‘llagan [4].

Ingliz lingvomadaniyatida ***teacher’s pet*** idiomasi o‘qituvchining o‘quvchiga alohida mehr ko‘rsatib, unga g‘amho‘rlik qilish, uni boshqalardan ko‘proq suyish kabi omillar asosida shakllangan ibora hisoblansa, o‘zbek lingvomadaniyatida ham *o‘qituvchining erkatoyi* frazemasida o‘qituvchining o‘quvchiga alohida mehr ko‘rsatganligi uni boshqalardan ko‘proq erkalashi kabi ma’nolari anglashiladi.

Tahlildan ma’lumki, o‘rganilayotgan lingvomadaniyatlar masofa jihatdan bir-biridan uzoq uzoq bo‘lsada, ushbu tematik guruhga kiruvchi frazemalarning ko‘pchiligi bir-biri bilan mazmun jihatidan to‘g‘ri keladi, chunki turli xalqlar hayoti va tarixi, turmush tarzida o‘xshashlik va umumiyliklar mavjud. Shunga qaramasdan, ushbu guruhga kiruvchi paremalarning o‘ziga yarasha milliy madaniy xususiyatlari ham bor.

A teacher is better than two books iborasi o‘qituvchining yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, tajribasi va shaxsiy muloqoti o‘rganish jarayonidagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu ibora o‘qituvchining ta’siri va bilimi ko‘proq narsani o‘rgatishi mumkinligini anglatadi.

Barcha madaniyatlarda o‘qituvchining roli juda hurmat qilinadi va qadrlanadi. Shuning uchun ham dunyoning turli madaniyatlarida o‘xshash his-tuyg‘ular ko‘pincha frazeologik birliklar orqali ifodalanadi, ular o‘qituvchining o‘rnini hech narsa va hech kim bosolmasligini ta’kidlaydi. Masalan, Xitoy madaniyatida shunday bir so‘z birikmasi bor: «师傅领进门，修行在个人» (Ustoz ilm yo‘liga olib kiradi, lekin mashq qilish shaxsning o‘ziga bog‘liq), bu ham o‘qituvchining dastlabki o‘rganish yo‘lidagi muhimligini ta’kidlaydi [2].

Ingliz lingvomadaniyatida esa ushbu ibora ta’limda o‘qituvchilarning muhim rolini ta’kidlaydi. Unda insoniy muloqot, murabbiylik va dinamik ta’lim jarayonining ahamiyatiga bo‘gan ishonchni aks ettiradi va o‘qituvchilarning o‘qitish jarayoniga kiritadigan beqiyos qiymatini tan olinadi.

Yuqorida tahlilga tortilgan ***A teacher is better than two books*** paremasiga ***Bir sinalgan tajriba yetti kitobdan afzal*** frazeologik birligi ekvivalent sifatida gavdalanadi. ***Bir sinalgan tajriba yetti kitobdan afzal*** frazemasida qo‘llanilgan ***yetti*** raqami ko‘plab madaniyatlarda bo‘lgani kabi o‘zbek madaniyatida ham, ramziy ma’no kasb etadi va mukammallik yoki katta miqdorni anglatadi [4].

O‘zbek madaniyatida, boshqa ko‘plab madaniyatlar singari, tajriba qadrli hisoblanadi. Ushbu ibora qo‘l mehnati va o‘z tajribasi orqali bilim olishga katta ahamiyat berilgan jamiyatlarda ko‘rinadigan qadriyatlarni aks ettiradi. Amaliy tajribaning nazariy bilimdan ustun ekanligini ta’kidlaydi.

Inglizcha ***lord and master*** frazemasi o‘zbek tilida ***xonadon sohibi, oila boshlig‘i*** degan mazmunni ifodalab kelib, antroponimik leksemalar ingliz tili madaniyatida erkak har doim liderlikka, rahbarlikka, boshchilikka, hukmronlikka intilishi bilan tavsiflanadi. O‘zbek tilida esa *oilaning ustuni erkak, uning tirgagi ayol* frazeologik birligi ingliz tilidagi *lord and master* frazemasiga mazmun va ma’nosi bilan ekvivalent bo‘ladi.

Chog‘ishtirilayotgan tillar frazeologiyasi mavzuviy jihatdan tubdan farq qiladi. Ingliz tilida qo‘llangan *lord and master* iborasida *master* (ustoz) leksemasi ishtirok etgan bo‘lsa, o‘zbek tili frazemasida erkak va ayol leksikalari ishtirok etganini kuzatishimiz mumkin. Bu o‘rinda har bir til vakillari o‘z leksik fondidan kelib chiqib so‘z qo‘llashi bilan birga ularning madaniyati ham frazeologik birliklarni shakllanishida o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan chetda qolmagan. Bu esa ikki etnos madaniyati farq qilishidan dalolat beradi. Mazkur madaniyatdagi tafovutlar esa tilda aks etmasdan qolmaydi. Shu boisdan ingliz lingvomadaniyatida *lord and master* idiomasida patriarxal tasavvurlarga ko‘ra, erkak – oila boshlig‘i, oilaga tegishli barcha qarorlarni qabul qilish uning vakolatida degan qarashlar yotadi.

O‘zbek tilidagi *oilaning ustuni erkak, uning tirgagi ayol* frazemasida *oila, erkak, ayol* leksemalari qo‘llanganidan ham o‘zbek xalqi uchun oila muqaddas ekanligini anglash mumkin. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, o‘zbek lingvomadaniyatida oila muqaddas hisoblanadi. Oilada er-xotin uning zanjiri sanaladi. Bu haqda dinimiz Islom ta’limotida oilaviy hayot muqaddas narsa hisoblanadi. Chunki, oila jamiyat binosining g‘ishti, bir bo‘lagidir. Agar binoning g‘ishtlari sog‘lom bo‘lsa, bino ham mustahkam bo‘ladi, aks holda bunday bino yemirilish va qulash xavfi ostida qoladi. Shu bilan birga, islomda nikoh orqali inson va oilani ulug‘lashga, erkak va ayolning huquqlariga, ularning sha’niga va oilada tinchlikni saqlashga katta e’tibor qaratilgan: “Ayollar (uchun belgilangan huquqlar) o‘z me’yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir”. – deb qayd etilgan [5].

Xulosa

Yuqorida tahlil etilgan misol orqali ikki xalq lingvomadaniyatida farq kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu farqlar ikki xalqning dini, qarashlari, urf-odatlari, milliy mentaliteti kabi madaniy birliklar bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-standart, 2019. – 624 b.

2.Narmuratov Zayniddin Radjabovich. "Ta'lim" va "ilm" mazmunli frazemalarning semantik-struktur, lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida). Filol fanlari doktori(DSc) dissertatsiyasi. – Buxoro. 2024. – 246 b.

3.O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 678 b.

4.Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 380.

5.O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. – Toshkent: «Sharq», 2005. – 253 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nazarova Lobar Maxmataminovna
Surxandaryo viloyati Angor tumani 6- maktab bo‘qituvchisi
hamzayevasamina@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARDAGI SINLEKSIK BIRLIKLARNING BADIY MATNDA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Anotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi sinleksik birliklarning badiiy matnlardagi funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Sinleksik birliklarning tarjimada tutgan o‘rni, ularning semantik va stilistik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning taqqosiy tahlili o‘tkazilib, ularning tarjima jarayonidagi muammolari hamda madaniy kontekstga ta’siri yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala til o‘ziga xos lingvistik va madaniy jihatlarni aks ettiruvchi sinleksik birliklarga ega bo‘lib, ularning tarjimasi jarayonida ekvivalent tanlash muhim rol o‘ynaydi.*

Kalit so‘zlar: *sinleksik birliklar, frazeologik birliklar, badiiy matn, tarjima muammolari, madaniy kontekst.*

Назарова Лобар Махаматаминовна.
Учитель школы №6, Ангорского района, Сурхандарьинской области
hamzayevasamina@gmail.com

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ СВОЙСТВА СИНЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: *В данной статье анализируются функциональные особенности синлексических единиц в художественных текстах английского и узбекского языков. Рассмотрена роль синлексических единиц в переводе, их семантические и стилистические особенности. В исследовании проведён сравнительный анализ фразеологических единиц английского и узбекского языков, выявлены проблемы их перевода и влияние культурного контекста. Результаты показывают, что оба языка обладают уникальными синлексическими единицами, отражающими лингвистические и культурные особенности, а выбор эквивалентов играет важную роль в процессе перевода.*

Ключевые слова: *синлексические единицы, фразеологические единицы, художественный текст, проблемы перевода, культурный контекст.*

Nazarova Lobar Makhmataminovna
Teacher of school No. 6, Angor district, Surkhandarya region
hamzayevasamina@gmail.com

FUNCTIONAL PROPERTIES OF SYNLEXIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN IN ARTISTIC TEXT

Abstract: *This article analyzes the functional characteristics of synlexic units in literary texts in English and Uzbek. The role of synlexic units in translation, their semantic and stylistic features are examined. A comparative analysis of phraseological units in English and Uzbek has been conducted, identifying translation challenges and their impact on cultural context. The findings show that both languages possess unique synlexic units reflecting linguistic and cultural characteristics, and selecting appropriate equivalents plays a crucial role in the translation process.*

Keywords: *synlexic units, phraseological units, literary text, translation challenges, cultural context.*

Kirish

Til inson tafakkuri va madaniyatining asosiy vositasi bo‘lib, u orqali biz fikrlarimizni ifodalaymiz va boshqalar bilan muloqot qilamiz. Har bir til o‘ziga xos leksik va grammatik tizimga ega bo‘lib, badiiy adabiyotda bu birliklar muhim rol o‘ynaydi. Ingliz va o‘zbek tillari sinleksik birliklar jihatidan boy bo‘lib, ular badiiy matnda xarakterlar, hissiyotlar va muhitni aniq ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi sinleksik birliklarning badiiy matnlardagi funksional xususiyatlari, ularning tarjimada tutgan o‘rni va ta’siri batafsil o‘rganiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida ham milliy til, uning o‘ziga

xos xususiyatlari va jamiyatdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Prezident o‘z nutqlarida: *“Til – bu millatning yuragi, uning ma’naviyati va g‘ururidir”* deb ta’kidlaydi. Ushbu fikr sinleksik birliklarning milliy madaniyatdagi o‘rnini yanada teran tushunishga yordam beradi. Shuningdek, davlat rahbari o‘z nutqlarida frazeologik birliklardan, xalq maqollari va iboralaridan keng foydalanib, ularni davlat siyosati va islohotlar jarayonida ta’sirchanlik vositasi sifatida qo‘llaydi.

Adabiyotlar tahlili

Sinleksik birliklar tilshunoslikda muhim mavzulardan biri bo‘lib, ular turli tillarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu birliklar turli ilmiy maktablarda turlicha tadqiq etilgan. Ingliz tilshunosi Crystalning fikriga ko‘ra, bunday birliklar frazeologik birikmalar, idiomalar va barqaror iboralar sifatida tasniflanadi. Shuningdek, Jalolov takidlaydiki, o‘zbek tilida esa ular ko‘pincha xalq maqollari, iboralar va tarixiy nutqiy birliklar shaklida namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslarning ta’kidlashicha, badiiy matnlarda sinleksik birliklarning to‘g‘ri ishlatilishi matnning estetik jihatini oshiradi. Masalan, ingliz adabiyotida bu birliklar metaforalar va analogiyalar orqali chuqur ma’no ifodalasa, o‘zbek adabiyotida xalqona tasviriy ifodalarga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Xususan, V. Vinogradov frazeologik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilib, ularning uch asosiy turini ajratib ko‘rsatadi: frazeologik birikmalar, frazeologik birliklar va frazeologik butunliklar.

Shuningdek, N. N. Amosova o‘z tadqiqotlarida frazeologik birliklarning kontekstual qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratib, ularni kontekstual bog‘liq va mustaqil frazemalar sifatida tasniflaydi. Unga ko‘ra, ayrim frazeologizmlar kontekstsiz qo‘llanilganda o‘z semantik yaxlitligini yo‘qotishi mumkin, shu bois ularning matn ichida to‘g‘ri joylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida esa, G‘. Rahimov o‘z tadqiqotlarida frazeologik birliklarning xalq og‘zaki ijodidagi o‘rnini ta’kidlab, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlarini tahlil qilgan. Unga ko‘ra, o‘zbek tilidagi frazeologizmlar tarixiy va madaniy kontekstni aks ettirish bilan birga, xalq tafakkurining in’ikosidir:

“Har bir ibora va maqol xalqning ming yillik tajribasi, o‘tmish bilimdonlarining hayotiy falsafasini o‘zida jamlagan bo‘lib, bu jihatdan ularning tahlili lingvomadaniy tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi.”

Shuningdek, tilshunos olim M. Mamatov [44] o‘z asarlarida frazeologik birliklarning tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatiga e’tibor qaratib, ularning qo‘llanilishi inson tafakkurining o‘sishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi:

“Frazeologik birliklar nafaqat nutqni boyitadi, balki ularni ishlatish orqali xalqning ma’naviy dunyosini, tarixiy tafakkurini anglash mumkin. Bu borada xalq maqollari va iboralar eng yorqin namunalardandir.”

Umuman olganda, sinleksik birliklarning qo‘llanilishi badiiy matnlarning estetik qimmatini oshirib, uni yanada ta’sirchan qiladi. Ingliz adabiyotida bu birliklar metaforik va analogik shaklda ishlatilsa, o‘zbek adabiyotida xalqona obrazlar va turg‘un iboralar orqali ifodalanadi. Bu borada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir til o‘ziga xos frazeologik xazinasiga ega bo‘lib, bu birliklarning tadqiq etilishi nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Taqqoslash usuli

Taqqoslash usuli ikki yoki undan ortiq tilni o‘zaro solishtirib, ular orasidagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Bu metod tilning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda juda samarali hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi sinleksik birliklar bilan o‘zbek tilidagi sinleksik birliklarni solishtirib, ularning qanday o‘xshashligi va farqlari borligini aniqlash mumkin.

Misol: Ingliz tilidagi *“break the ice”* (boshqa odamlarga qulaylik yaratish, birinchi marta muloqot qilish) iborasi o‘zbek tilida “*yurakni eritmoq”* (kishini iliq, ochiq qilish) tarzida ifodalanadi. Bu yerda ikkala ibora ham bir-biriga o‘xshash ma’noni bildiradi, lekin har bir tilning o‘ziga xos tasviriy ifodasi mavjud.

Korpora tahlili

Korpora tahlili tilshunoslikda ma’lum bir tilning yozma va og‘zaki nutqidagi so‘zlar va iboralar to‘plamini o‘rganish usulidir. Badiiy matnlarda ishlatiladigan sinleksik birliklarni tahlil qilishda, masalan, ingliz yoki o‘zbek adabiyotidagi matnlar yordamida bu birliklarning qanday ishlatilishini ko‘rish mumkin. **Misol**: Ingliz adabiyotida “*to kill two birds with one stone”* (bir vaqtning o‘zida ikki ishni hal qilish) iborasi keng qo‘llaniladi. Bu ibora badiiy matnlarda, asosan, qisqa va ta’sirchan ifodalar sifatida ishlatiladi. O‘zbek adabiyotida esa bu kabi ma’nolar “*ikki qushni bir o‘q bilan urmoq”* tarzida aks etadi.

Tarjima tahlili tilshunoslikda bitta tilning iboralarini yoki frazeologik birliklarini boshqa tilga o‘girishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni o‘rganishga asoslanadi. Sinleksik birliklarning tarjimasi, ularning aniq ekvivalentlarini topish muammolarini keltirib chiqarishi mumkin, chunki har bir tilning o‘ziga xos iboralari va madaniy konteksi mavjud. **Misol**: Ingliz tilidagi “ *raining cats and dogs”* (kuchli yomg‘ir yog‘moqda) iborasi o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, ma’no yo‘qolishi mumkin. O‘zbek tilida bu holat “*kuchli yomg‘ir yog‘moqda”* tarzida ifodalanadi, chunki o‘zbek tilida bunday maxsus ibora yo‘q.

[44] **Mamatov, M.** (2015). *Frazeologizmlar va ularning badiiy matnlardagi o‘rni.* Samarqand: SamDU nashriyoti.

Ushbu metodologiyalar yordamida ingliz va o‘zbek tillaridagi sinleksik birliklarning badiiy matnlarda qanday ishlatilishini va tarjima jarayonida qanday qiyinchiliklar yuzaga kelishini o‘rganish mumkin. Bu metodlar tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi, chunki ular tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda va tarjima jarayonini tushunishda yordam beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi sinleksik birliklarning badiiy matndagi roli juda muhim. Masalan, ingliz tilidagi idiomatik iboralar ko‘proq abstrakt tushunchalarni ifodalashga xizmat qilsa, o‘zbek tilida xalqona tasviriy ifodalar keng qo‘llaniladi:

“Hit the nail on the head”(masalaning mohiyatini aniq tushuntirish) iborasi o‘zbek tilida *“Mixning boshiga urmoq”* shaklida ifodalanadi.

“Spill the beans” (yashirin ma’lumotni oshkor qilish) iborasi o‘zbek tilida *“Og‘zidan gul to‘kildi”* kabi tarzida tarjima qilinadi.

Tarjimada sinleksik birliklarning bevosita tarjima qilinishi har doim ham samarali bo‘lmaydi. Masalan, ingliz adabiyotining mashhur asarlaridan biri *To Kill a Mockingbird* (Harper Lee) romanida *“It’s a sin to kill a mockingbird”* (sofdil va begunoh kishini ezish gunoh) iborasi ishlatiladi. Uni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilish mantiqiy jihatdan muammo tug‘diradi, shuning uchun badiiy ekvivalent sifatida *“Begunoh odamni tahqirlash katta gunoh”* shaklida tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi sinleksik birliklarning badiiy matndagi funksional xususiyatlari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- Har ikkala til o‘ziga xos sinleksik birliklarga ega bo‘lib, ularning badiiy matnlarda ishlatilishi turlicha bo‘ladi.
- Ingliz tilida frazeologik birliklar ko‘proq metafora va mantiqiy bog‘liqlikka asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tilida xalqona iboralar va ta’sirli tasvirlar keng uchraydi.
- Tarjimada sinleksik birliklarning aniq ekvivalentlarini topish muhim bo‘lib, bunda kontekst va madaniy tafovutlarni hisobga olish lozim.

Kelgusida badiiy tarjima va sinleksik birliklarning psixolingvistik ta’siri bo‘yicha yanada keng tadqiqotlar olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 489 p.
2. Jalolov, J. O‘zbek tilining frazeologik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 256 b.
3. Newmark, P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
4. Lee, H. To Kill a Mockingbird. – Philadelphia: J.B. Lippincott & Co., 1960. – 281 p.
5. Vinogradov, V. V. Stylistics of the Russian Language. – Moscow: Nauka, 1977. – 310 p.
6. Vinogradov, V. V. Ob osnovnyx tipax frazeologicheskix edinic v russkom yazyke. – Moscow: Izdatel’stvo AN SSSR, 1947. – 172 p.
7. Amosova, N. N. Osnovy angliyskoy frazeologii. – Leningrad: Leningrad State University Press, 1963. – 198 p.
8. Jalolov, J. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012. – 230 b.
9. Rahimov, G‘. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili. – Toshkent: O‘zFA Tilshunoslik instituti, 2010. – 278 b.
10. Mamatov, M. Frazeologizmlar va ularning badiiy matnlardagi o‘rni. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015. – 260 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xolmirzayev Bahtiyor Mirzamaxmudovich
Namangan davlat texnika universiteti,
"Xorijiy tillar" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
e-mail: bahtiyorxolmirzayev1@gmail.com

TARJIMADA TA'SIRCHANLIK VA IFODALILIKNI AKS ETTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy-siyosiy sohada yozilgan asarlar tarjimasi tahlili haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Darhaqiqat, tarjimashunoslikda ijtimoiy-siyosiy tarjima o'ziga xos qonuniyatlariga ega bo'lib, badiiy asarlar tarjimasidan farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasining o'ziga xos jihatlari haqida bildirilgan fikarlar misollar yordamida dalillangan.*

Tayanch iboralar: *Ijtimoiy-siyosiy, til vositalari, nutq ta'sirchanligi, frazeologik birliklar, uslub, tasvir vositalari, tarjima, asliyat matni,asar muallifi.*

Холмирзаев Бахтиёр Мирзамахмудович
дотцент Наманганский государственный технический университет, кандидат филологичекий наук.
электронная почта: bahtiyorxolmirzaev1@gmail.com

ПРОБЛЕМЫ ОТРАЖЕНИЯ ЭФФЕКТИВТОСТИ И ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация: *В данной статье представлены размышления и анализ перевода произведений, написанных в социально-политической сфере. Действительно, в переводоведении социально-политический перевод обладает своими особыми закономерностями и отличается от художественного перевода. Мнения о специфике перевода социально-политических произведений подтверждаются с помощью примеров.*

Ключевые слова: *социально-политический, языковые средства, выразительность речи, фразеологические единицы, стиль, изобразительно-выразительные средства, перевод, оригинальный текст, автор произведения.*

Xolmirzayev Bakhtiyor Mirzamahmudovich
Namangan State Technical University, associate professor, PhD.
e-mail: bahtiyorxolmirzayev1@gmail.com

PROBLEMS OF REFLECTING EFFECTIVENESS AND EXPRESSIVENESS IN TRANSLATION

Annotation: *this article presents reflections on the analysis of translations of works written in the socio-political works. Indeed, socio-political translation in the field of translation studies has its own distinctive principles and differs from the translation of literary works. The specific features of translating socio-political texts are discussed and supported with examples.*

Key words: *socio-political, linguistic means, speech effectiveness, phraseological units, style, figurative language, translation, source text, author of the work.*

Kirish

Bizga ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy asarlarda aniqlik, lo'ndalik birinchi o'rinda turadi. Bu borada ijtimoiy-siyosiy asar muallifi o'z fikrlarini bayon etishda ko'plab frazeologik birliklardan foydalanadi. Til vositalarining nutqda ishlatilish yo'llari, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari tilshunoslik fanining uslubiyat bo'limida o'rganiladi. Uslub orqali so'zlovchi shaxs-kimsa, narsa-buyumlarga, atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiradi.

Albatta, frazeologik birliklar asarning jonli, ta'sirchan va obrazli qilib tasvirlab berishga xizmat qulivchi vositalardan xisoblanadi. Yozuvchining dunyoqarashi va u yaratgan asarlarning mazmuniga aloqador asosiy g'oyalar, muallif ko'proq tasvirlagan syujet va xarakterlar silsilasi, san'atkor ijodida tez-tez uchrab turadigan tasvir vositalari, o'ziga xos tili uning individual uslubini tashkil etadi.

Xususan, V. V. Vinogradov tildagi bu masalaga alohida e'tibor qaratgan. Undan tashqari, F. F. Fortunatov, A. A. Shaxmatov, A. M. Peshkovskiy, A. A. Potebnyalar alohida tadqiqotlar olib borishgan. O'zbek

tilshunoslaridan Sh. Rahmatullaev, A. Hojiev, I. Qo‘chqortoev, A. Mamatov va boshqalar ham ilmiy ishlar yaratishgan. Sh. Rahmatullaev va K. Hakimovlarning bir qator tadqiqotlari aynan ushbu masalaga bag‘ishlangan.

Natijalar va muhokama

Darhaqiqat, har bir frazeologik birlik o‘z o‘rnida qo‘llanilar ekan, u muallif niyatini amalga oshirishda, ya’ni ta’sirchanlik va ifodalilikka erishishga xizmat qiladi. Xavfsizligimizga tahdid solib turgan ekologik inqiroz insoniyat oldida turgan katta muammolardan biri xisoblanadi. Asar muallifi buning naqadar xavfli ekanini his etgan holda atrofdagilarni bu masalaga to‘g‘ri baho berishga va uni oqilona hal etishga chaqiradi. Jumladan: “Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, **qo‘l qovushtirib o‘tirish** – o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir” [45] . Darhaqiqat, ekologik muammo faqat biz yashab turgan mintaqaninggina emas, balki butun insoniyatning muammosiga aylanib ulgurdi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Yuqorida keltirilgan matnda **“qo‘l qovushtirib o‘tirmoq”** iborasidan foydalanilgan. Bu frazeologik birlik “jim turish, muammo oldida tomoshabin bo‘lmoqlik” kabi ma’nolarni obrazli qilib ifodalashga xizmat qilgan. So‘z birikmasi asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida quyidagicha aks ettirilgan:

“At the meeting point of two centuries mankind, the population of our country face a global ecological threat. **To stand idle** by, to be impartial means to be condemned to extinction”[46].

“Qo‘l qovushtirib o‘tirmoq” iborasi ingliz tiliga “t**o stand idle”** tarzida o‘girilgan. Uni o‘zbekchada ifodalasak, “hech narsa qilmasdan vaqtni bekorga sarf qilish” ma’nosini anglatadi[47].

Ingliz tilidagi “t**o stand idle**” iborasining ob’ekti “**idle**” so‘zi bo‘lib, u o‘zbek tilida “band bo‘lmagan”, “ishlamaydigan”, “bo‘sh”, “yalqov”, “erinchoq”, “ishsiz yurmoq”, “vaqtni bekorga o‘tkazmoq” kabi ma’nolarni anglatadi[48]. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, asar tarjimonlari asliyatdagi “qo‘l qovushtirib o‘tirmoq” iborasini ingliz tilidagi muqobil varianti yordamida o‘girganlar.

Tildagi frazeologik birliklar, asosan, voqea-hodisani jonli va obrazli qilib ifodalash bilan bir qatorda, ma’noni kuchaytirib, hissiy-emotsionallik hosil bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu yerda “qo‘l qovushtirib o‘tirmoq” iborasi orqali ma’no ko‘chishi hodisasi ro‘y beryapti. Aslida “qo‘l qovushtirmoq” birikmasi “qo‘lni, besh panjani birin-ustun kesishtirgan holda tutmoq” ma’nosini ifodalasa, ko‘chma ma’noda, “ish qilmasdan kekkayib, qaqqayib qarab turmoq” ma’nosini anglatadi[49].

Asar muallifi ham insoniyat oldida tahdid solib turgan ekologik muammoning naqadar muhimligi, uning oldini olish, kerak bo‘lsa har bir inson bu muammo qarshisida loqayd bo‘lmasligi kerakligini timsoliy va ta’sirchan qilib ifodalab bergan. Aslida, bu ibora orqali anglashilgan ma’noni oddiy qilib **“ekologik muammo oldida har bir inson jim turmasdan harakat qilishi kerak”**, deb ifodalash ham mumkin edi. Lekin bunday bayon tarzi ana shu muammo yechimi o‘ta muhim ekanini ta’sirchan ifodalay olmasligi mumkin edi. Bu yerda muallif, o‘z fikrini bayon qilish bilan bir qatorda, har bir odamni ekologik muammoni hal etish uchun kurashga da’vat eta olgan. Ingliz tilidagi “**to stand idle”** iborasi asliyatda berilgan iboraga teng ma’no anglatib, tarjimada muallif uslubini ham saqlab qolishga xizmat qilgan.

Ushbu frazeologik birlik rus tilida quyidagicha berilgan:

“Na rubeje vekov chelovechestvo, naseleniye nashey stranы okazalos pered litsom globalnoy ekologicheskoy ugrozы. Ne zamechat etogo, **bezdeystvovat** – znachit obrech sebya na vыmiraniye”[50].

Asliyat matnidagi **“qo‘l qovushtirib o‘tirmoq”** iborasi rus tiliga **“bezdeystvovat”** deb berilgan. Rus tilidagi ushbu so‘z o‘zbek tilida “faoliyatsizlik, harakatsizlik” ma’nolarini anglatadi[51]. Demak, asliyatda qo‘llanilgan frazelogik birlik ifodalagan ma’no rus tilida ham, aynan muqobil.

O‘tmishda ota-bobolarimiz tomonidan e’zozlab kelingan qadriyatlarimiz bugungi kunda yana o‘z qadr-qimmatini topmoqda. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turli xalqlarni o‘zida jamlagan holda tinchlik markazi bo‘lib kelgan. Hatto, g‘arazli niyat bilan bostirib kelgan har qanday bosqinchi ham bu madaniyatlar, urf-odatlar, an’analarni inkor eta olmagan. Bu borada asar muallifi quyidagi fikrlarni bayon etadi:

“Hatto, bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida **bosh egib**gina qolmay, uning eng qimmatbaho an’analarini, shu hududda mavjud bo‘lgan davlatchilik an’analarini avaylab qabul qilganlar”[52].

Muallif ana shu xalqlarning madaniyatlarini, qimmatbaho an’analarini qadrlab, ularga nisbatan hurmat bilan qaragan, qisqa qilib aytganda, ta’zim qilganliklarini ifodali tarzda ta’sirchan qilib birgina **“bosh egib”** degan frazeologik birlik bilan ifodalab bergan. Ushbu ibora

[45]O’sha asar, -b.112.
[46]K a r i m o v I. Uzbekistan on the Threshold ..., -T.: “Uzbekistan”, 1997, -P. 95.
[47]Active Study Dictionary of English, “Русский язык», -M.: 1988, -Б. 303.
[48] Butayev Z. Inlizcha-o’zbekcha o’zbekcha-inglizcha lug’at. “O’qituvchi”, -T.: 2007, -b. 155.
[49]O’zbek tilining izohli lug’ati, -M.: “Rus tili” nashriyoti, 1981 y. , 2- tom, -b. 592.
[50]O’sha asar, -b. 108.
[51]Usmonov O. Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug’ati, “Fan”,-T.: 1976, -b.24.
[52]O’sha asar, -b.142.

orqali asar muallifi ming yillar oldin ham Markaziy Osiyo xalqlari o‘zgalar havas qiladigan darajada yuksak madaniyatga, bebaho qadriyatlarga, o‘z milliy an’analariga ega ekanini tasvirlash bilan bir qatorda, o‘zgalarning ana shu qadriyatlarga qanchalik hurmat bildirganliklarini aks ettirgan. O‘zbek tilidagi “bosh egmoq” iborasi “bo‘ysunmoq, itoat qilmoq, tiz cho‘kmoq; sajda qilmoq” ma’nolarini anglatadi[53]. Ushbu ifoda usuli, frazeologik birlikning ta’sirchan ma’nosi asarning inglizcha tarjimasida quyidagicha o‘z ifodasini topgan:

“Even those who conquered this territory not only **admired** the culture of Central Asian nations, but carefully adopted the traditions and elements of state system that existed on this territory”[54].

Asarda keltirilgan “bosh egib” iborasi ingliz tiliga “admired” tarzida o‘girilgan. O‘zbek tilidagi “bosh egib” iborasi “sajda qilmoq” ma’nosini ifodalar ekan, buning zamirida “hurmat qilish, ta’zim qilish” (albatta, qo‘rqqanidan emas) kabi ma’nolar ham yotadi. Bu borada asar muallifi, hatto, bosqinchilar ham bu yerdagi xalqlarning madaniyatini qo‘rqqanlaridan emas, o‘sha madaniyatning yuksakligidan havas bilan qaraganliklarini ta’kidlaydi.

Ingliz tilidagi “admire” fe’li o‘zbek tiliga “hurmat qilmoq, yaxshi fikrda bo‘lmoq, ta’zim qilmoq (qo‘rqqanidan emas)” ma’nolarini bildiradi[55].

Demak, tarjimonlar asliyat matnida berilgan frazeologik birlikning ma’nosini ingliz tilidagi oddiygina bir so‘z orqali ifodalab bergan. Shu bilan ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida muhim xususiyat bo‘lgan ma’no ustuvorligiga erishilgan, lekin muallifning uslubi, iboraning ta’sirchanligi va timsoliyligi o‘z ifodasini topmagan.

Asliyat matnida qo‘llangan ushbu ibora rus tilida quyidagicha berilgan:

«Daje te, kto zavoyevыval eti territorii, ne tolko **preklonyalis** pered kulturoy narodov Sentralnoy Azii, no i berejno perenimali traditsii, elementы suщestvovavshey na etoy territorii gosudarstvennosti»[56].

Asarda berilgan “bosh egib” iborasi asarning rus tilidagi nashrida “**preklonyalis**” tarzida berilgan. «Preklonyalis» so‘zi o‘zbek tilida “bosh egishardi, tiz cho‘kishardi, sajda qilishardi” kabi ma’nolarni ifodalaydi[57].

So‘zlardan anglashiladigan ma’nolarga va ularning ishlatilish o‘rinlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asliyat matnidagi “bosh egib” iborasining ma’nosi rus tilida “preklonyalis” so‘zi orqali ifodalangan.

Asliyatda mavjud iborani shunga teng bo‘lgan boshqa bir muqobil ibora bilan o‘girish ham tarjima tamoyillaridan sanaladi. Albatta, buni amalga oshirish uchun asar tarjima qilinayotgan tilda so‘zlashuvchi xalqlar lisoniy imkoniyati va milliy urf-odatlaridan kelib chiqish kerak.

Xulosa.

Boshqa tillardagidek, o‘zbek tilida ham nutqni, biror bir xabar yoki yozma axborotni bayon qilishda tilda mavjud bo‘lgan hissiy-ekspressivlikni hosil qiluvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda ham frazeologik birliklardan foydalanish har tomonlama nutq ta’sirchanligini oshirish, asarning ommabop uslubini shakllantirishda zarur ahamiyatga ega. Shuning uchun tarjima jarayonida tildagi xissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarni qayta yaratish tarjimon oldidagi muhim vazifalar sirasiga kiradi. Ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida asliyatdan anglashilgan ma’noni tarjima tilida aks ettirish bilan birgalikda muallif uslubini saqlab qolish asosiy shartlardan xisoblanadi. Demak, ijtimoiy-siyosiy asar uslubini tarjima tilida aks ettirish tarjima ishini mukammal bo‘lishi va asliyatga bir qadar yaqinlashish garovidir. Asar muallifi o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan fikr-muloxazalarni imkon qadar o‘z o‘quvchisiga tushunarli tilda yozishga harakat qilar ekan, bu borada o‘z uslubiga ko‘ra tilning ifoda vositalaridan ham foydalanadi.

[53]O’zbek tilining izohli lug’ati, -M.: “Rus tili” nashriyoti, 1981 y. , 2- tom, -b.138.
[54]K a r i m o v I. A. Uzbekistan on the Threshold ..., -T.: “Uzbekistan”, 1997, -P. 121.
[55]Active Study Dictionary of English, “Russkiy yazik», -M.: 1988, -b.8.
[56]O’sha asar, -b. 136.
[57]Usmonov O., -b. 217.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.

2. Hamroyev M. O'zbek tili, Toshkent: 2007.

3. Salomov G'. "Yearjima tashvishlari", G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, - T.: 1983.

4. Rahmatullaev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari, -T.: "Fan", 1955.

5. Meliyev S. Tarjima va falsafiy ma'no. Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami, 5-kitob, -T.: 1980.

6. Qurbonov T. «Publitsisticheskiye stil sovremennogo uzbekskogo yazыka», diss. na soiskaniye uchenыy stepeni kan. fil. nauk. Sam, 1987.

7. Abdullayev M., Abdullayeva M va boshqalar, Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at, to'ldirilgan uchinchi nashri, -T.: Sharq, 2006.

8. Ne'matova D. "Cho'lpon publitsistik asarlarining lingvistik tahlili", filologiya fanlari nomzodi uchun dissertatsiya, -T: 2004.

9. Karimov I. Uzbekistan na poroge XXI veka: ugrozы bezopasnosti, usloviya i garantii progressa. –Moskva: Drofa, 1997.

10. Karimov I. Uzbekistan is on the Threshold of the Twenty-First Century: Threats to Security, Conditions of Stability and Guarantees for Progress, -T.: "Uzbekistan", 1997.

11. Ma'murov Z. M. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: Rus tili, 1981.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Otaxonova Gulshirinoy Kanaxatovna
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi,
Ijtimoiy -iqtisodiy fanlar va tillarni o‘qitish metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILIDA QO‘SHMA GAPLARNING PROPOZITIV MAZMUNINI ANIQLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning propozitiv mazmunini aniqlash masalasi ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Propozitsiya tushunchasining lingvistik va mantiqiy jihatlari, qo‘shma gap turlarida axborot birliklarining shakllanishi, ularning semantik va sintaktik tahlili ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bog‘lovchisiz va bog‘lovchili qo‘shma gaplarda propozitsiyalarning mantiqiy tartibi, ular o‘rtasidagi semantik munosabatlar, zamon va modal belgilar orqali propozitsion mazmunning aniqlanish usullari tahlil qilinadi. Maqolada nutq konteksti, pragmatik vositalar, ellipsis holatlari, shuningdek, zamonaviy kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida propozitsion tahlilni avtomatlashtirish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilida murakkab gaplar mazmunini chuqur tahlil qilish, ularni o‘qitish, tarjima qilish va til texnologiyalarida qo‘llash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *propozitsiya, propozitiv mazmun, qo‘shma gap, semantika, sintaksis, pragmatika, bog‘lovchili gap, bog‘lovchisiz gap, nutq konteksti, sun’iy intellekt, kompyuter lingvistikasi.*

Отахонова Гульшириной Канахатовна
Наманганский областной центр педагогического мастерства,
Методика преподавания социально-экономических дисциплин и языков
преподаватель кафедры

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРОПОЗИТИВНОГО СОДЕРЖАНИЯ СЛОЖНОПОДЧИНЕННЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКЕ

Абстрактный. *В данной статье рассматривается вопрос определения пропозиционального содержания сложных предложений в узбекском языке на научно-теоретической основе. Рассматриваются лингвистические и логические аспекты понятия предложения, образование информационных единиц в сложноподчиненных предложениях, их семантико-синтаксический анализ. Также анализируется логический порядок предложений в союзах с союзами и без союзов, семантические связи между ними, а также способы определения пропозиционального содержания с помощью временных и модальных показателей. В статье также рассматриваются возможности автоматизации пропозиционального анализа на основе контекста дискурса, прагматических инструментов, случаев эллипсиса, а также современных технологий компьютерной лингвистики и искусственного интеллекта. Результаты исследования служат методологической основой для углубленного анализа содержания сложных предложений в узбекском языке, их преподавания, перевода и применения в языковых технологиях.*

Ключевые слова: *суждение, пропозициональное содержание, сложноподчиненное предложение, семантика, синтаксис, прагматика, соединительное предложение, несогласованное предложение, дискурсивный контекст, искусственный интеллект, компьютерная лингвистика.*

Otakhonova Gulshirinoy Kanakhatovna
Namangan Regional Pedagogical Skills Center,
Department of Teaching Methods of
Socio-Economic Sciences and Languages

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF DETERMINING THE PROPOSITIVE CONTENT OF COMPOUND SENTENCES IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Abstract. *This article discusses the issue of determining the propositional content of compound sentences in the Uzbek language on a scientific-theoretical basis. The linguistic and logical aspects of the concept of a proposition, the formation of information units in compound sentence types, their semantic and syntactic analysis are considered. Also, the logical order of propositions in compound sentences without a conjunction and with a conjunction, the semantic relations between them, and the methods of determining the propositional content through tense and modal signs are analyzed. The article also considers the possibilities of automating propositional analysis based on modern computational linguistics and artificial intelligence technologies. The results of the research serve as a methodological basis for a deep analysis of the content of complex sentences in the Uzbek language, their teaching, translation and use in language technologies.*

Keywords: *proposition, propositional content, compound sentence, semantics, syntax, pragmatics, connective sentence, connective sentence, discourse context, artificial intelligence, computational linguistics.*

Kirish

O‘zbek tilshunosligida gapning mazmuniy tuzilmasini o‘rganish, ayniqsa qo‘shma gaplar doirasida, so‘zlovchi tomonidan yetkazilayotgan axborotni aniqlash va uni izohlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Gapning propozitiv mazmuni — bu uning mantiqiy-informatsion yadrosi bo‘lib, voqelik haqidagi hukmni, faktni yoki holatni bildiradi. Ushbu mazmunni aniqlash esa gap tuzilmasi, mazmuniy bog‘lanishlar, grammatika va pragmatik omillarni chuqur tahlil qilishni talab etadi.[1]

Adabiyotlar sharxi

Propozitsiya tushunchasi ilk bor mantiq va falsafa fanlari doirasida shakllangan bo‘lib, tilshunoslikka semantik va pragmatik yondashuvlar orqali kirib kelgan. L. Tesniyer, Z. Harris, Noam Xomskiy kabi lingvistlar til birliklarining chuqur strukturaviy va semantik qatlamlarini o‘rganar ekanlar, propozitsiya – ya’ni gapda ifodalangan mantiqiy hukm yoki faktni aniqlash masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Noam Xomskiy sintaktik tuzilmalarni aniqlash orqali mazmuniy yadroni aniqlashga uringan bo‘lsa, J. Serl va P. Grays kabi pragmatik yondashuv vakillari esa nutq vazifasi va kontekstdagi ma’no hosil bo‘lish mexanizmlarini tahlil qilgan.[2] O‘zbek tilshunosligida esa qo‘shma gaplarning strukturaviy va semantik tahlili M. Qoriyev, G‘. Rahimov, A. Jo‘rayev, G‘. G‘ulomov, S. Nurmonov, N. Mahmudovlar tomonidan olib borilgan. Jumladan, S. Nurmonov qo‘shma gaplarning sintaktik turlari va ulardagi bog‘lovchilarning funksional xususiyatlarini o‘rganar ekan, ularning mazmuniy yukini aniqlash mezonlarini ham ishlab chiqqan. G. G‘ulomov esa o‘zbek tilidagi ergash gaplarning semantik strukturasi va konnektiv vositalarning mazmun hosil qilishdagi roliga e’tibor qaratgan. Ammo mazkur sohada to‘g‘ridan-to‘g‘ri propozitiv tahlilga bag‘ishlangan ishlar hozircha kam uchraydi. Propozitsiya tushunchasini o‘zbek tilidagi qo‘shma gaplar misolida aniq va tizimli ravishda tahlil qilish, ularning mantiqiy tuzilmasini aniqlash, zamon, modal va kontekstual omillarni hisobga olib, har bir gap bo‘lagi ichidagi axborot yadrosini ajratish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Shuningdek, zamonaviy kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt yo‘nalishida olib borilayotgan tadqiqotlar, xususan, K. Jurafsky va D. Martinlarning "Speech and Language Processing"[3] asari, propozitsiyalarni avtomatik aniqlash va tahlil qilish metodlarini ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa tilshunoslikdagi nazariy yondashuvlarni texnologik platformalarga tatbiq etish imkonini bermoqda.[4]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning propozitiv mazmunini aniqlash jarayonini kompleks yondashuv asosida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi metodik asoslarda olib boriladi: Deskriptiv-lingvistik tahlil, Formal-semantik yondashuv, Korpus tahlili (empirik material bilan ishlash), Pragmatik tahlil, Kompyuter lingvistikasi elementlari. Tadqiqotda propozitsiyalarni avtomatik aniqlash bo‘yicha tajriba sifatida ba’zi NLP (Natural Language Processing) vositalari (sintaktik analizator, segmentator) yordamida tahlil amalga oshiriladi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarini kelgusida amaliyotda, jumladan avtomatik tarjima va matn tahlil tizimlarida qo‘llash imkonini beradi.[5]

Natijalar va ularning tahlili

Propozitsiya tushunchasi asosan mantiqiy va semantik tahlilga mansub bo‘lib, u gapda ifodalanayotgan asosiy axborot birliklarini o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikda bu tushuncha gapning semantik yadrosi sifatida qaraladi. Masalan, “U uyga qaytdi va dam oldi” qo‘shma gapida ikkita propozitsiya mavjud:

P_1: U uyga qaytdi.

P_2: U dam oldi.

Gapdagi qo‘shimcha modal, hissiy, nutqiy vositalardan qat’i nazar, aynan ushbu propozitsiyalar gapning asosiy mazmunini tashkil etadi. Propozitsiya ko‘pincha sub’ekt (kishi, narsa) va predikat (harakat, holat) bilan ifodalanadi. Uning aniqlanishi orqali gapdagi voqealar zanjiri, ularning bir-biriga munosabati va mantiqiy izchilligi tahlil qilinadi.[6]

Qo‘shma gaplarning turlari va propozitiv tuzilma. O‘zbek tilida qo‘shma gaplar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi: Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar: bog‘lovchi ishlatilmasdan, faqat intonatsiya yoki vergul yordamida bog‘langan mustaqil gaplar.

Masalan: “Dars tugadi, bolalar ko‘chaga chiqdi.”

Bu yerda har bir bo‘lak o‘z propozitsiyasiga ega.

Bog‘lovchili qo‘shma gaplar: va, lekin, ammo, chunki, agar, shuning uchun kabi bog‘lovchilar orqali bir-biriga bog‘langan gaplar.

Masalan: “U keldi, lekin biz uni ko‘rmadik.”

Bu gapda qarama-qarshi munosabatdagi ikki propozitsiya mavjud: P_1 (U keldi), P_2 (Biz uni ko‘rmadik). Qo‘shma gaplarda propozitsiyalar o‘zaro semantik va mantiqiy bog‘lanishda bo‘ladi: sababli, shartli, natijaviy, tanlovli, qarama-qarshi va hokazo. Har bir bog‘lovchi yoki kontekstual signal gaplar orasidagi semantik munosabatni belgilaydi.

Propozitiv mazmunni aniqlashda semantik va sintaktik yondashuvlar. Propozitsiyalarni aniqlash jarayonida bir necha asosiy yondashuvlar qo‘llaniladi:

Formal-semantik yondashuv: Gapdagi semantik birliklar mantiqiy ifodalar orqali tahlil qilinadi (masalan, $P(x) \rightarrow Q(y)$ kabi). Bu usul propozitsiyalar o‘rtasidagi sabab-oqibat, shart-sharoit, zamon munosabatlarini aniqlashda samarali. Struktural-sintaktik yondashuv: Gapdagi mustaqil va ergash gaplarni aniqlash, ularning qanday bog‘langanini aniqlash orqali propozitsiyalar ajratiladi. Pragmatik yondashuv: Gapni konkret nutq vaziyatida tahlil qilish, gaplovchi niyatini hisobga olish orqali propozitsiyalar aniqlanadi. Chunki ba’zi hollarda propozitsiyalar bevosita aytilmagan bo‘lishi mumkin, lekin kontekst orqali tushuniladi.[7]

Modal va zamon parametrlarining roli. Qo‘shma gaplarda propozitsiyalarning shakllanishi va ularning talqini ko‘pincha zamon va modal belgilar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, kerak, mumkin, lozim, edi, bo‘lsa kabi modal vositalar gapning ehtimollik, zarurat yoki shartlilik kabi ko‘rinishlarini belgilab, propozitsiya sifatida tan olinadigan segmentni aniqlashga yordam beradi. Masalan: “U vaqtida kelganida, biz kutmas edik.”

Bu gapda shartli munosabat mavjud bo‘lib, propozitsiyalarning mazmuni taxminiy va ehtimoliy xarakterda ifodalangan.[8]

Propozitsiyalarning lingvopragmatik tahlili. Ko‘p hollarda qo‘shma gaplardagi propozitsiyalar faqat grammatik tuzilma orqali emas, balki nutq vaziyatiga ko‘ra tushuniladi. Ayniqsa, og‘zaki nutqda ko‘pincha qisqartmalar, ellipsis (ba’zi so‘zlarning tushirib qoldirilishi), mimika va intonatsiya orqali propozitsiya tarkibi aniqlanadi.

Misol: “U dedi – bo‘ldi.” Bu yerda “bo‘ldi” propozitsiyasi aniq ifodalanmagan voqeaga ishora qiladi, ammo kontekst orqali tushuniladi.

Kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt vositalari asosida propozitiv tahlil. Zamonaviy tilshunoslikda korpus lingvistikasi va sun’iy intellekt vositalari yordamida propozitsion tahlil avtomatlashtirilmoqda. O‘zbek tilidagi matnlar asosida propozitsiyalarni aniqlash uchun NLP (natural language processing) texnologiyalari, masalan:

- ✓ sintaktik parserlar (gap tuzilmasini aniqlash),
- ✓ semantik tahlil modullari (mazmuniy birliklarni ajratish),
- ✓ konnektor (bog‘lovchi) tahlillari (gaplararo munosabatni belgilash), kabi tizimlar ishlatilmoqda.

Bu esa o‘z navbatida o‘zbek tilidagi avtomatik tarjima, so‘zlashuv tizimlari, matn tahlili dasturlarini yaratishda katta imkoniyatlar yaratadi.[9]

Propozitiv mazmunni aniqlashdagi qiyinchiliklar. Quyidagi holatlar propozitsiyalarni aniqlashda murakkablik tug‘diradi:

- ➢ Ko‘p ma’nolilik (polisemiya): Bir gap bir nechta ma’noda tushunilishi mumkin.
- ➢ Elliptik gaplar: Ayniqsa og‘zaki nutqda ba’zi qismlar tushib qoladi.
- ➢ Nutq ohangi va mimika: Ayniqsa dialoglarda propozitsiyani anglash uchun kontekstga tayaniladi.
- ➢ So‘z tartibining erkinligi: O‘zbek tilida so‘z tartibining nisbatan erkinligi gapdagi mazmuniy yadroni aniqlashda murakkablik tug‘diradi.

Xulosa. O‘zbek tilida qo‘shma gaplarning propozitiv mazmunini aniqlash murakkab, lekin muhim tilshunoslik masalalaridandir. Bu jarayon sintaktik, semantik, pragmatik va kognitiv yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda olib boriladi. Ayniqsa sun’iy intellekt va kompyuter lingvistikasi vositalari yordamida bu tahlillarni yanada chuqurlashtirish, kengaytirish va avtomatlashtirish mumkin. Qo‘shma gaplarning propozitsional tahlili nafaqat til strukturasi va funksiyasini tushunishga, balki uni o‘qitish, tarjima qilish va til texnologiyalarini rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1.Rahmatov M. O ‘zbek tili sintaksisi rivojida chun bog ‘lovchisining o ‘rni //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2020. – T. 3. – №. 3.

2.Ashirboev S., Azimov I. O’ZBEK TILINING TARIXIY GRAMMATIKASI //Tosh-2012. – 2007.

3.D.Jurafsky, J.H.Martin. Speech and language processing. Stanford university. Copyright ©2024. All rights reserved.

4.Dehqonboyeva M. S. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINTAKSIS VA QO‘SHMA GAPLAR NAZARIYASI //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 12-15.

5.qizi Mirzaxonova Z. M. BOG ‘LANGAN QO ‘SHMA GAPLAR //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 188-191.

6.SULEYMANOVA N. PREDIKATIVLIK VA PROPOZITIV NOMINATSIYA HODISALARI MUNOSABATI //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.9. – C. 311-313.

7.Iminjonova H. Z. JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISONIY BIRLIKLAR SHAKL VA MAZMUN DIALEKTIKASI TADQIQI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – T. 4. – №. 5. – C. 251-257.

8.Xamroyeva S., Hamroqulova M. MATN BIRLIKLARINI SEMANTIK TEGLASHNING AHAMIYATI //COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS. – 2024. – T. 1. – №. 1.

9.Qirgi'izov I. M. et al. KOMPYUTER LINGVISTIKASINING RIVOJLANISHI //FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. – 2025. – T. 3. – №. 36. – C. 27-30.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Omonova Kamola
Intern Lecturer at Jizzakh State Pedagogical University

THE POWER OF SOCIAL MEDIA IN LANGUAGE LEARNING: HOW PLATFORMS LIKE TWITTER, INSTAGRAM AND TELEGRAM CAN BOOST YOUR SKILLS

Annotation: *This article explores how social media platforms—specifically Twitter, Instagram, and Telegram—foster language acquisition by offering immediate interactions, authentic content, and communal support. Drawing from both quantitative and qualitative data, the study highlights each platform's unique contributions to vocabulary expansion, grammar proficiency, and communicative confidence, while also examining potential challenges such as misinformation and privacy concerns.*

Keywords: *Social media, language learning, Twitter, Instagram, Telegram, vocabulary, grammar, communicative competence.*

Omonova Kamola
Jizzax davlat pedagogika universitetida stajyor o'qituvchi

TIL O'RGANISHDA IJTIMOIY MAVOLARNING KUCHI: TWITTER, INSTAGRAM VA TELEGRAM kabi PLATFORMALAR SIZNING MAKORIYATINGIZNI QANDAY OSHARTIRADI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar, xususan Twitter, Instagram va Telegram til o'rganish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil etiladi. Ma'lumotlar asosida har bir platformaning lug'at boyitish, grammatik mahoratni rivojlantirish hamda muloqotdagi ishonchni mustahkamlashdagi o'ziga xos xususiyatlari bayon qilinadi va shu bilan birga noto'g'ri ma'lumotlar hamda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy tarmoqlar, til o'rganish, Twitter, Instagram, Telegram, lug'at, grammatika, muloqot kompetensiyasi.*

Омонова Камола
Стажер-преподаватель Джизакского государственного педагогического университета

СИЛА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА: КАК ПЛАТФОРМЫ, ТАКИЕ КАК TWITTER, INSTAGRAM И TELEGRAM, МОГУТ ПОВЫСИТЬ ВАШИ НАВЫКИ

Аннотация: *В статье рассматривается, каким образом социальные сети—в частности, Twitter, Instagram и Telegram—способствуют освоению иностранных языков за счёт интерактивного взаимодействия, аутентичного контента и поддержки сообщества. На основе количественных и качественных данных показан вклад каждой платформы в расширение словарного запаса, совершенствование грамматики и укрепление уверенности в коммуникации, а также обозначены потенциальные риски, связанные с недостоверной информацией и вопросами конфиденциальности.*

Ключевые слова: *социальные сети, изучение языка, Twitter, Instagram, Telegram, лексика, грамматика, коммуникативная компетентность.*

Introduction

The rise of social media platforms has transformed many aspects of daily life, including how individuals communicate, share information, and acquire new skills. In the realm of language education, these platforms have shifted the traditional learning model by enabling real-time interaction, immediate feedback, and an immersive environment that fosters authentic language use. While conventional classroom-based instruction remains important for many learners, there is an ever-increasing appreciation for supplemental digital resources. Platforms such as Twitter, Instagram, and Telegram provide not only opportunities for language practice but also a chance to engage with native speakers, cultural artifacts, and communities of learners. Learners across the globe can harness these tools to reinforce vocabulary, sharpen grammar skills, and enhance conversational fluency, making language acquisition more accessible than ever before.

Over the past decade, educators and researchers have become more aware of the potential benefits that social media offers to language learners. Traditional study methods, such as reading textbooks and completing exercises, provide only limited interaction, often lacking

the spontaneity and engagement that real-life communication demands. By contrast, social media platforms are inherently dynamic, featuring evolving trends, hashtags, and diverse user-generated content, all of which can serve as rich sources of language input. Moreover, online communities often offer emotional support, cultural insights, and interactive activities, vital elements for sustained language learning motivation. The synergy of social presence, authentic context, and interactive methods explains why many teachers and learners are turning toward social media to supplement or even replace more conventional approaches.

Despite these promising developments, a clear understanding of how precisely social media fosters language learning remains essential. Some critics argue that online platforms may contain unverified or grammatically questionable content, while others worry that the casual nature of social media might not always be appropriate for formal language study. In addition, each platform presents unique features. Twitter, for instance, has character limits, which can both constrain and stimulate concise expression. Instagram, with its visual focus, may encourage creative communication and cultural exposure. Telegram offers group channels and chatbots, often used for structured exercises and community discussions. These differing structures point to the importance of thoroughly examining how users interact with content on each platform, as well as how these interactions contribute to linguistic development. Consequently, this study aims to explore the ways in which Twitter, Instagram, and Telegram influence language learning, focusing on how learners utilize these platforms, what types of language tasks or interactions they engage in, and how these activities translate into language skill development.

Methods

This investigation was carried out in two phases and involved a total of 120 language learners from diverse backgrounds, including both English-as-a-Second-Language (ESL) and foreign language learners. Participants were recruited through online educational forums and social media groups dedicated to language exchange. In the first phase, a baseline survey collected demographic information, self-reported language proficiency levels, preferred social media platforms, and patterns of social media usage. This survey also explored participants' motivations for language learning, including whether they aimed to improve writing, speaking, or overall fluency. Demographic factors such as age, native language, and learning context (e.g., academic vs. professional) were also noted to identify potential correlations with social media usage.

During the second phase, participants were asked to engage with Twitter, Instagram, and Telegram specifically for language learning over a period of eight weeks. They were free to determine how they would use each platform, but guidance was provided in the form of weekly prompts. For example, they were asked to follow language teaching accounts, participate in hashtags related to language learning, comment on posts, join chat groups, and produce their own user-generated content. A mixed-methods approach was adopted to analyze data. Quantitative metrics included frequency of engagement, number of posts, and time spent on each platform, collected through a custom digital tracking system. Qualitative data were gathered through weekly reflective journals and in-depth interviews at the conclusion of the study. These reflections centered on participants' experiences, challenges, and perceived improvements in language ability. At the end of the eight weeks, participants completed a follow-up assessment, which measured progress in vocabulary range, grammatical accuracy, and overall communicative competence, using standardized language tests and teacher evaluations. These varied data points were subsequently triangulated to provide a comprehensive overview of how each platform contributed to language development.

Results

Analysis of quantitative data revealed that Twitter was used with the highest frequency, averaging around 4.5 hours per week. Instagram followed at an average of 3.8 hours, while Telegram usage varied widely, from less than an hour to more than six hours per week, depending on participants' preferences for group chats or specific channels. Despite spending slightly less time on Instagram, participants reported a higher volume of interactive exchanges on that platform, including direct messages and comments under posts. Telegram, which offers structured group channels and chatbots for quizzes, facilitated more formal exercises, especially for grammar and vocabulary drills. Some participants stated that they used Telegram groups specifically for accountability, creating small learning circles that gave them regular challenges to complete.

In terms of linguistic improvement, standardized test scores revealed an average 10% increase in vocabulary breadth and a 15% improvement in reading comprehension across all participants, suggesting that exposure to and interaction with social media content in the target language positively impacted these domains. Listening comprehension also improved modestly in participants who used Instagram's video features or Telegram's audio messaging. Notably, participants who spent significant time engaging in Twitter chats and real-time discussions on Telegram channels demonstrated better gains in writing fluency and grammatical accuracy. Many participants also credited the immediate and authentic feedback they received from native speakers or fellow learners, who quickly corrected errors in grammar or usage during exchanges on Twitter or Telegram. This

real-time corrective feedback was cited as a major factor contributing to their sense of continuous progress.

Qualitative analysis of weekly journals underscored that social media facilitated more than mere linguistic improvement. Numerous participants reported increased confidence, reduced anxiety about making mistakes, and the development of a stronger sense of community. They described Twitter as a platform that rewarded succinct expression, prompting them to sharpen their writing skills to capture attention in just a few sentences. Instagram's visual nature allowed them to connect language to images and cultural contexts, enhancing retention and contextual understanding. Telegram's group environment gave them structure and accountability, as they felt both encouraged and obliged to participate regularly, thereby practicing the target language more consistently than they might have otherwise. Although variations in platform preference existed, most participants agreed that each platform offered complementary benefits for language acquisition.

Discussion

The findings suggest that social media platforms hold considerable promise for language learning, particularly when used deliberately and with clear objectives. By offering immediate access to native speakers and authentic materials, Twitter supports rapid vocabulary expansion and improved writing skills. Its defining feature of character limitations forces concise expression, which may encourage lexical precision and syntactic brevity. At the same time, learners who prefer more extensive discourse can engage in Twitter "threads" or direct messages, enabling longer, more nuanced communication. These diverse communication modes transform Twitter into a multifaceted environment, well-suited for building reading comprehension and writing fluency in a condensed but interactive format.

Instagram, by contrast, leverages visual media as a primary tool for engagement. Participants' journals indicated that language learners benefited from associating images and videos with the new vocabulary or grammatical structures they encountered. This dual-coding of linguistic input not only aids memorization but also offers a richer cultural context, allowing learners to see how language is used in real-life scenarios, such as cooking tutorials, travel vlogs, or everyday lifestyle posts. While Instagram may not offer the same immediate textual feedback available on platforms designed for microblogging, it compensates by providing a strong motivational component. Visual content tends to be more compelling and can encourage more frequent interaction, leading to repeated exposure to the target language. This repeated exposure, combined with an opportunity for creative self-expression through images and captions, fosters a sense of ownership in the learning process.

Telegram emerges as a valuable tool for more structured tasks, bridging the gap between casual social media interaction and formal educational approaches. Through its various channels and chatbots, Telegram can provide daily grammar quizzes, flashcard exercises, and reading passages. These features allow learners to receive immediate scoring and review correct answers, blending the best elements of traditional study materials with the convenience and connectivity of social media. Additionally, group chats on Telegram emulate a live classroom dynamic, where learners can discuss topics in real time, share resources, and provide mutual support. Such high-level interactivity mirrors the collaborative spirit of online forums, yet with the immediacy of instant messaging. Participants in this study who integrated Telegram into their study routines often reported that the platform helped them adhere to consistent practice schedules, thus reinforcing newly acquired linguistic features.

Despite these positive outcomes, there are important considerations and limitations to address. Social media platforms can present challenges such as inaccurate language use, excessive colloquialisms, or even explicit content that may not be suitable for all learners. Without careful guidance, novices might reinforce incorrect grammar and non-standard expressions if they predominantly interact with informal or slang-heavy content. There is also a digital literacy aspect to consider: learners who are less technologically savvy may find the user interfaces intimidating, hampering their ability to make full use of the platforms. This highlights the need for appropriate training, either from teachers or through self-guided tutorials, ensuring that learners can navigate platforms efficiently and discern reliable sources from less credible ones.

Moreover, some participants encountered motivational fluctuations, particularly when faced with the vast amount of content on social media. While platforms can energize learning with diverse stimuli, they can also become overwhelming distractions. This underscores the importance of setting clear goals, such as following only specific language-learning accounts, scheduling daily time blocks for practice, or using productivity apps that limit social media browsing outside of educational purposes. Effective scaffolding from educators or peer mentors can help learners maintain focus, ensuring that time spent on these platforms is used efficiently for skill development.

An additional consideration relates to privacy and ethical usage. Telegram and other messaging apps allow for the creation of semi-private or closed groups, making them relatively secure for educational discussions. However, open platforms like Twitter and Instagram might expose learners to online harassment, unsolicited messaging, or content that is not age-appropriate. Educational institutions or group organizers need to develop guidelines and best practices to mitigate these

risks. Privacy controls, content filters, and etiquette guidelines serve as valuable safeguards, though personal responsibility remains a key factor. Learners should be encouraged to manage their profiles responsibly, limiting the personal information they disclose and remaining mindful of the social and cultural norms implicit in global online communities.

Conclusion

The results of this study highlight the potential of social media platforms—particularly Twitter, Instagram, and Telegram—to significantly enhance language learning experiences. With carefully chosen strategies, learners can tap into Twitter's immediacy and conciseness to refine vocabulary and writing skills, utilize Instagram's visual narrative to ground linguistic input in cultural and contextual settings, and leverage Telegram's structured environment for methodical practice. The blend of these distinct yet complementary features can lead to a well-rounded, engaging approach that sustains motivation, encourages interaction with native speakers, and provides both authentic and semi-formal forms of language exposure. Nevertheless, to capitalize on these benefits, learners must manage potential pitfalls, including the possibility of misinformation, distraction, and privacy concerns. By pairing thoughtful planning with robust digital literacy, language learners and educators can embrace social media as an invaluable supplement to conventional instructional methods, ultimately driving improved communicative competence, increased confidence, and stronger connections between language learners worldwide.

Used literature

1.Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – London: Prentice-Hall International, 1987. – 202 p.

2.Warschauer M. Computer-mediated collaborative learning: Theory and practice // The Modern Language Journal. – 1997. – Vol. 81, No. 4. – P. 470–481.

3.Chun D.M. Using computer networking to facilitate the acquisition of interactive competence // System. – 1994. – Vol. 22, No. 1. – P. 17–31.

4.Lamy M.-N., Zourou K. (Eds.) Social Networking for Language Education. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2013. – 264 p.

5.Kessler G. Teaching ESL/EFL in a world of social media, Mash-Ups, and hyper-collaboration // TESOL Journal. – 2013. – Vol. 4, No. 4. – P. 615–632.

6.Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – 4th ed. – White Plains, NY: Pearson Education, 2015. – 448 p.

7.Hootsuite & We Are Social. Digital 2023 Global Overview Report. – [Electronic resource]. – URL: https://datareportal.com/reports/digital-2023-global-overview-report (Date of access: 02.05.2025).

8.Instagram. About Instagram: Our story. – [Electronic resource]. – URL: https://about.instagram.com (Date of access: 02.05.2025).

9.Twitter. Company: Twitter usage and trends. – [Electronic resource]. – URL: https://about.twitter.com (Date of access: 02.05.2025).

10. Telegram Messenger LLP. Telegram FAQ and Features. – [Electronic resource]. – URL: https://telegram.org/faq (Date of access: 02.05.2025).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Quvanov Azamat Ziyadulla o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy University Jizzax filiali, ingliz tili o‘qituvchisi
quvanovazamat@mail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ZOOMORFIK METAFORALARNING TARJIMASI

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi zoomorfik metaforalar tahlil qilinadi hamda ularning har ikki til va madaniyatdagi o‘ziga xos qadriyatlar va dunyoqarashlarni qanday aks ettirishi ochib beriladi. Qiyosiy tahlil orqali hayvon obrazlari orqali ifodalangan metaforalar faqat til birliklari emas, balki jamiyatning ijtimoiy-axloqiy qarashlarini ham ifoda etishi ko‘rsatib beriladi. Metaforik ma’nolardagi farqlar tarjima jarayonida madaniy kontekstning muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu nozikliklarni anglash madaniyatlararo muloqotni samarali olib borishga xizmat qiladi. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, til jamiyatning kollektiv ongini aks ettiruvchi vosita bo‘lib, zoomorfik metaforalar milliy va madaniy ongni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.*

Kalit so‘zlar: *zoomorfik metaforalar, madaniy tavovutlar, til va madaniyat, tarjima qiyinchiliklari, o‘zbek tili, ingliz tili, hayvon obrazlari, lingvokulturologiya, antropotsentrizm.*

Kuvanov Azamat Ziyadulla oglu
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, English teacher

TRANSLATE OF ZOOMORPHIC METAPHORS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN

ABSTRACT: *This article explores zoomorphic metaphors in Uzbek and English, highlighting how they reflect distinct cultural perceptions and values. Through comparative analysis, the study reveals that animal metaphors convey not only linguistic imagery but also deeper societal ideologies, beliefs, and worldviews. Differences in metaphorical meanings across the two languages emphasize the importance of cultural context in translation. Understanding these nuances can improve intercultural communication and prevent misinterpretation. The findings suggest that language is a powerful carrier of collective identity, and zoomorphic metaphors serve as key tools in expressing national and cultural consciousness.*

Keywords: *zoomorphic metaphors, cultural differences, language and culture, translation challenges, Uzbek language, English language, animal imaginary, phraseology, linguoculturology, anthropocentrism.*

Куванов Азамата Зиядуллы угли
Преподаватель английского языка, Джизакский филиал
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ПЕРЕВОД ЗООМОРФНЫХ МЕТАФОР НА АНГЛИЙСКИЙ И УЗБЕКИСТАНСКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация: *Данная статья исследует зооморфные метафоры в узбекском и английском языках, подчеркивая, как они отражают различные культурные восприятия и ценности. Посредством сравнительного анализа исследование показывает, что метафоры с участием животных передают не только языковые образы, но и более глубокие общественные идеологии, убеждения и мировоззрения. Различия в метафорическом значении между двумя языками подчеркивают важность культурного контекста при переводе. Понимание этих нюансов может улучшить межкультурную коммуникацию и предотвратить недопонимание. Полученные результаты свидетельствуют о том, что язык является мощным носителем коллективной идентичности, а зооморфные метафоры служат важным инструментом выражения национального и культурного сознания.*

Ключевые слова: *зооморфные метафоры, культурные различия, язык и культура, трудности перевода, узбекский язык, английский язык, образ животных, фразеология, лингвокультурология, антропоцентризм.*

Kirish

Zoomorfik metaforalar, ya’ni inson xatti-harakatlari, hissiyotlari yoki ijtimoiy holatlarni hayvonlarga xos xususiyatlar orqali ifodalash, o‘zbek va ingliz tillarida keng qo‘llaniladi. Ushbu metaforalar nafaqat tilning boyituvchisi, balki madaniyatlararo anglashuvda muhim ko‘prik vazifasini ham bajaradi. Hayvon obrazlari madaniy ongda chuqur ildiz otgan bo‘lib, ular orqali murakkab tushunchalar soddalashtirilib, umumiy

madaniy tafakkur orqali ifodalanadi. Hayvon obrazlari xalq ogʻzaki ijodida, maqol va matallarda, adabiyotda keng qoʻllanilib, murakkab tushunchalarni sodda, ammo chuqur mazmun bilan yetkazish imkonini beradi. Zoomorfik metaforalar orqali inson xatti-harakatlariga baho beriladi, axloqiy me'yorlar belgilab beriladi va jamiyatdagi oʻzaro munosabatlarga yoʻnaltiruvchi signal sifatida xizmat qiladi. Mazkur maqolada ingliz va oʻzbek tillaridagi zoomorfik metaforalar oʻrganilib, ularning lingvistik va madaniy konnotatsiyalari, tarjima muammolari hamda ularning transmadaniy muloqotdagi roli tahlil qilinadi.

Oʻzbek tilida “boʻri” (boʻri sifatida ayyorlik yoki sadoqatga xiyonat qilgan odam) kabi metaforalar koʻplab xalq maqollari va afsonaviy hikoyalar asosida shakllangan. Safarova (2024) ta’kidlaganidek, hayvon obrazlarining til birliklari tarkibida qoʻllanilishi ijtimoiy axloq, odob va qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi. Ingliz tilida esa “eagle eyes” (burgutdek oʻtkir nigoh) yoki “wise as an owl” (boyoʻgʻliday dono) kabi ifodalar orqali ijobiy insoniy sifatlar tasvirlanadi. Bu metaforalar inglizcha tafakkurda tarixiy, adabiy va ijtimoiy kontekstlarga bogʻlangan holda shakllangan boʻlib, individual yutuq va shaxsiy xususiyatlarni oldinga suradi.

Adabiyotlar sharhi va nazariy asoslar

Zoomorfik metaforalarni oʻrganishda ularning semantik va madaniy qatlamlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlar koʻrsatadiki, hayvonlar obrazlari orqali ifodalangan metaforalar inson tafakkurining muhim kognitiv shakllaridan biridir (Kolesnikova va Polat, 2021). Tilshunoslikda bu kabi metaforalar nafaqat tildagi obrazlilikni ta’minlaydi, balki xalqning qadriyatlari, ijtimoiy normativlari va tarixiy tajribasi bilan bevosita bogʻliq. Khalibekova (2021) oʻz tadqiqotida ingliz va oʻzbek tillarida qoʻllaniladigan zoomorfik metaforalarning umumiylik va farqli jihatlarini tahlil qilib, ular oʻzaro tarjimada qanday semantik siljishlarga olib kelishini koʻrsatadi. Masalan, ingliz tilidagi “sly as a fox” iborasi va oʻzbek tilidagi “tulki kabi ayyor” ifodasi har ikki tilda ham salbiy-neytral tusdagi aql-zakovatga ishora qiladi. Bu esa hayvon obrazlarining kross-madaniy umumiyliklariga dalil boʻla oladi.

Bundan tashqari, Keldiyorovna va Yakubovna (2019) hayvonlarga beriladigan aksiologik (qadriy) baholarning metaforadagi rolini oʻrganib, ularning madaniyatlararo tafovutlarni aniqlashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Ularning fikriga koʻra, bir madaniyatda kuch-qudratni ifodalovchi hayvon — masalan, sher — boshqa madaniyatda xavf, tahdid yoki zoʻravonlik timsoli boʻlishi mumkin. Bu esa tarjima jarayonida konnotatsiyalarning notoʻgʻri uzatilish xavfini tugʻdiradi. Abdullaeva va boshqalar (2024) adabiy tarjimada metafora va badiiy taqqoslashlarning semantik ogʻishlariga e’tibor qaratib, zoomorfik metaforalarni ingliz tiliga toʻgʻri tarjima qilishdagi asosiy muammolarni ochib beradi. Ularning tahliliga koʻra, ba’zi metaforalar soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, asosiy estetik va madaniy yuklamani yoʻqotadi. Mazkur adabiy manbalar zoomorfik metaforalarning chuqur kognitiv va madaniy ildizlarga ega ekanligini, ularni izchil oʻrganish esa nafaqat tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik va antropologiya sohalarida ham muhim ekani bilan ahamiyatlidir.

Zoomorfik metaforalar turli tillarda madaniy jihatdan shakllangan boʻlsa-da, ayrim hollarda ular oʻrtasida semantik yaqinlik va parallelizm kuzatiladi. Bu holat hayvon obrazlari orqali ifodalangan insoniy sifatlarning universal tusga ega ekanligini koʻrsatadi. Har ikki tilda ham hayvonlarga xos xatti-harakatlar orqali inson xususiyatlari, ijtimoiy holatlar va axloqiy mezonlar tasvirlanadi. Masalan, ingliz tilidagi “as brave as a lion” iborasi oʻzbek tilidagi “sherday jasur” yoki “sher yurak” metaforalari bilan mos keladi. Bu holatda sher obrazi ikkala tilda ham jasorat, kuch va rahbarlik timsoli sifatida aks etadi. Bunday umumiyliklar insoniyat tafakkurida hayvonlar asosidagi obrazlar orqali baholash tendensiyasi borligini koʻrsatadi (Safarova, 2024). Shuningdek, “as sly as a fox” (tulki kabi ayyor) yoki “as stubborn as a donkey” (eshakdek qaysar) kabi iboralar ingliz va oʻzbek tillarida bir xil obraz orqali ifodalanib, oʻzaro oʻxshash konnotatsiyani beradi. Bunda tulki — makkorlik, eshak — qaysarlik va inatkashlik timsoli sifatida ishlatiladi. Bu esa ba’zi hayvonlarga beriladigan metaforik yuklamalarning madaniyatdan qat’i nazar, bir-biriga yaqinligini bildiradi (Khalibekova, 2021). Ayni vaqtda, bunday umumiyliklar tarjima jarayonini osonlashtiradi, chunki hayvon obrazi orqali berilgan metafora boshqa tilda ham oʻxshash ma’noga ega boʻlgan ifoda bilan almashtirilishi mumkin. Bu esa tilshunoslikda ekvivalentlik masalasining muhim jihati boʻlib, tarjimada ma’no yoʻqotilmasligi uchun muhim omil hisoblanadi (Kolesnikova va Polat, 2021). Rayeva va Eker (2024) tadqiqotida ta’kidlanishicha, turkiy tillarda, xususan, oʻzbek tilida ham ayrim hayvon obrazlari (masalan, boʻri, burgut, qulon) orqali ifodalangan xususiyatlar ingliz tilidagi metaforalar bilan mos keladi. Burgut — baland parvoz, erkinlik, nazokat; boʻri — jasorat, oʻzini himoya qila olish, shijoat; tulki — ayyorlik va aql-zakovat ramzi sifatida qoʻllaniladi. Bu esa til va madaniyatlararo tafakkurda ayrim arxetiplar mavjudligini koʻrsatadi. Shunday qilib, ingliz va oʻzbek tillarida zoomorf metaforalarning koʻplab oʻxshashliklari mavjud boʻlib, ular umumiy insoniy tajriba, kuzatuv va tafakkur natijasida shakllangan. Bu jihatlar madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, til oʻrganishda madaniy kompetensiyani oshirish hamda tarjima jarayonlarida toʻgʻri kontekstni aniqlashda muhim rol oʻynaydi.

Keldiyorovna va Yakubovna (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, har bir madaniyatda hayvonlarga

nisbatan “aksiyologik baholash” farqli bo‘lishi ta’kidlanadi. Masalan, sher ingliz tilida odatda jasorat va qahramonlik timsoli sifatida qo‘llanilsa, o‘zbek tilida u rahbarlik, hukmronlik va adolatni anglatadi. Shunday qilib, bir xil hayvon tasvirining turlicha semantik yuklamasi tarjima vaqtida aniqlikni pasaytirishi mumkin. Sobirjon va boshqalar (2024) esa “ayyor tulki” iborasini tahlil qilib, bu metaforaning ingliz tilida ko‘proq salbiy, lekin aqliy ustunlik bilan bog‘liq ma’noga ega ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa bu obraz ko‘pincha neytralroq tusda, vaziyatga mos tarzda baholanadi. Shu bois, metaforalarning to‘g‘ri tarjimasi uchun tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniy kontekstni chuqur tushunishga ham ega bo‘lishi zarur. Zoomorfik metaforalarning tarjimasida asosiy muammo — faqat leksik ekvivalentni emas, balki uning ortida yotgan madaniy, tarixiy va hissiy ma’nolarni ham yetkazish ehtiyojidadir. Bu holatda tarjimon kontekstual o‘xshashlik asosida yangi metafora yaratishi yoki tushuntiruvchi izoh kiritishi kerak bo‘ladi. Aks holda, asl matnda ko‘zda tutilgan badiiylik, obrazlilik va mazmuniy chuqurlik sezilarli darajada kamayadi.

Zoomorfik metaforalar har bir xalqning tarixiy tajribasi, atrof-muhitga munosabati va jamiyatda shakllangan qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Hayvon obrazlari orqali insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy rollar ifodalanadi. Bu obrazlar faqatgina badiiy ifoda vositasi emas, balki jamiyat tafakkuri, falsafasi va ruhiy holatini aks ettiruvchi semantik ramzlardir. Ingliz tilida “lionheart” — ya’ni “sher yurak” iborasi shaxsiy jasorat, kuchli iroda va qahramonlikni ifodalaydi. Bu metafora g‘arb madaniyatidagi individuallik, shaxsiy muvaffaqiyat va liderlik g‘oyalarini yoritadi. “As sly as a fox” (tulkidek ayyor) iborasi esa donolik va hiyla-nayrangni birlashtirib, shaxsiy manfaatga erishishda aqlni birinchi o‘ringa qo‘yish tendensiyasini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi zoomorfik metaforalar esa ko‘proq jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, hamjihatlik va tabiiy muvozanatni ifodalaydi. Masalan, “tinchlik ramzi bo‘lgan kabutar” yoki “donolik timsoli bo‘lgan bo‘ri” kabi iboralar jamiyatdagi tartib, sabr, donolik va ehtiyotkorlik kabi kollektiv qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Bu esa o‘zbek madaniyatida jamoatchilikka moslashuvchanlik, ijtimoiy mas’uliyat va tabiat bilan uyg‘un yashash g‘oyalarining ustun ekanligini ko‘rsatadi. Zoomorfik metaforalarning adabiyotdagi aks etishi ham bu madaniy tafovutlarni yaqqol namoyon qiladi. Andreeva (2024) o‘z tadqiqotida Sharq va G‘arb adabiyotlarida hayvonlar obrazining qanday tasvirlanishini solishtirib, quyidagicha xulosaga keladi: o‘zbek adabiyotida hayvon obrazlari ko‘pincha xalqona donishmandlik, nasihat va falsafiy mushohadani ifodalaydi. Jumladan, Alisher Navoiy asarlarida qushlar yoki sherlar orqali ma’naviy yetuklik va ruhiy kamolot g‘oyalari ilgari suriladi.

G‘arb adabiyotida esa hayvon obrazlari ko‘proq individual kurashlar, o‘zlikni anglash va qahramonlik motivlariga xizmat qiladi. Masalan, Ernest Hemingwayning asarlarida sher obrazlari mustaqillik va kuchni ifodalasa, George Orwellning “Hayvonlar fermasi” asarida esa hayvonlar orqali jamiyatdagi siyosiy ziddiyatlar va ijtimoiy adolatsizliklar ko‘rsatib beriladi. Demak, har bir madaniyatda Zoomorfik metaforalar o‘zining ma’naviy-falsafiy ildizlariga ega bo‘lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy struktura aks ettiriladi. Ushbu metaforalarni to‘g‘ri talqin qilish va tarjima jarayonida ularning ma’no qatlamlarini saqlab qolish esa madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Zoomorfik metaforalarni ingliz va o‘zbek tillari doirasida qiyosiy tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, bu turdagi ifoda vositalari nafaqat tilning badiiy boyligini, balki madaniyatlararo tafovut va o‘xshashliklarni ham ochib beradi. Hayvon obrazlari orqali ifodalangan metaforalar har bir til va madaniyatda o‘ziga xos semantik va aksiologik yuklamaga ega bo‘lib, ular milliy tafakkur, axloqiy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan bo‘ri, burgut, kabutar kabi hayvon obrazlari xalqning tarixiy-madaniy xotirasi va jamoaviy dunyoqarashini ifodalasa, ingliz tilidagi lion, fox, donkey kabi obrazlar ko‘proq shaxsiy fazilatlar va individual xarakterlarni aks ettiradi. Bu esa har ikki madaniyatda jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarga oid turlicha yondashuvlarni ko‘rsatadi. Tarjimada bu metaforalarning bevosita so‘zma-so‘z talqini ko‘pincha ularning asl ma'no qatlamlarini to‘liq ochib berolmaydi.

Ilmiy tavsiyalar

1. Tarjima amaliyotida zoomorf metaforalarni kontekstual va madaniy asosda qayta talqin qilish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Bu holatda ekvivalentlikka emas, balki ekvivalent ta’sirga e’tibor qaratilishi zarur.

2. O‘quv dasturlarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarga alohida e’tibor berilishi, zoomorfik metaforalar asosida tillararo solishtirma tahlillar amalga oshirilishi taklif etiladi.

3. Ilmiy tadqiqotlarda hayvon obrazlariga asoslangan metaforalarning madaniyatlararo tahliliga kengroq yondashuv zarur. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi va zamonaviy adabiyotlarda bu obrazlarning qanday o‘zgarib borayotgani chuqur o‘rganilishi lozim.

4. Tarjimonlar uchun madaniy komponentlarni inobatga olgan holda tuzilgan lug‘at va tavsifiy qo‘llanmalar ishlab chiqilishi zarur.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, til oddiy aloqa vositasi emas — u milliy tafakkur, madaniy xotira va ijtimoiy o‘zlikni aks ettiruvchi ko‘zgudir. Zoomorfik

metaforalar esa bu oynaning eng yorqin va sermazmun akslaridan biridir. Shu bois, ularni o‘rganish va to‘g‘ri tarjima qilish madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtiradi, o‘zaro anglashuvni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Andreeva, P. Fantastic Fauna from China to Crimea. Edinburgh University Press, 2024.

2.Keldiyorovna, B. D., and A. S. Yakubovna. “Axiological Evaluation as the Base of Knowledge and Cultural Research of Spanish and Uzbek Languages.” International Journal of Recent Technology and Engineering, vol. 8, no. 2, 2019, pp. 3755–3759.

3.Khalibekova, O. K. “Figurativeness of Zoonyms in English and Uzbek Languages.” Scientific Reports of Bukhara State University, vol. 4, no. 6, 2021, pp. 119–126.

4.Kolesnikova, G. I., and S. Polat. “Zoomorphic Metaphor Characterizing a Man in a Literary Text: Difficulties of Translation in Languages with Different Structures (The Case of Russian and Turkish).” EntreLínguas, vol. 7, no. 8, 2021, p. 19.

5.Rayeva, A., and S. Eker. “Linguoculturalogical Semantic Aspects of Zoo-Phraseological Units in Turkic Languages.” Вестник КазНУ. Серия филологическая, vol. 195, no. 3, 2024.

6.Rysbergen, K., N. Uali, A. Fazylzhanova, and K. Kuderinova. “Linguistic Explication of Rational and Irrational Knowledge Types in the Content of Toponyms (on the Material of the Linguocultural Dictionary).” Open Linguistics, vol. 10, no. 1, 2024, article 20240031.

7.Safarova, D. “Analysis of Metaphorical Meanings Expressed by Animal Names in English and Uzbeki.” Современные подходы и новые исследования в современной науке, vol. 3, no. 15, 2024, pp. 35–40.

8.Sobirjon, S., P. N. Muhammadqasimovna, K. M. Abdumutalibovich, and S. Boburjon. “Phytonym Metaphors: A Comparative Analysis in English and Uzbek.”

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Radjapova Intizor Egamberganovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
radjapovaintizor70389@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-0579-4088?lang=en

TARJIMADA PERSONAJLAR NUTQINING O'ZIGA XOSLIGINI SAQLASH MUAMMOLARI:" JEYN EYR" TARJIMASI MISOLIDA

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy asarlar tarjimasi jarayonida personajlar nutqining o'ziga xos xususiyatlarini saqlash muammolari Sharlotte Brontening "Jeyn Eyr" romani misolida tadqiq etiladi. Tadqiqotda personajlar idiolekti, dialektal nutqi, ijtimoiy-madaniy markerlar va emotsional-ekspressiv vositalarni tarjima jarayonida qayta yaratish usullari qiyosiy-chog'ishtirma tahlil asosida o'rganiladi. Romanda personajlar nutqining differensiatsiyasi, ularning ijtimoiy mavqei, ta'lim darajasi va psixologik holati bilan bog'liq lingvistik markerlarni o'zbek tiliga transformatsiya qilish strategiyalari aniqlangan. Tahlil natijasida "Jeyn Eyr" romani personajlari nutqidagi o'ziga xoslikni saqlash uchun kompensatsiya, transformatsiya va funktional ekvivalentlik usullarining samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, personaj nutqi, idiolekt, dialekt, ijtimoiy-madaniy markerlar, transformatsiya, diskurs, Sharlotte Bronte, "Jeyn Eyr".*

Раджапова Интизор Эгамбергановна
Преподаватель Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ РЕЧИ ПЕРСОНАЖА ПРИ ПЕРЕВОДЕ: НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВОДА «ДЖЕЙН ЭЙР»

Аннотация: *В статье рассматриваются проблемы сохранения особенностей речи персонажей при переводе художественных произведений на примере романа Шарлотты Бронте «Джейн Эйр». В статье изучаются приемы воссоздания идиолекта персонажей, диалектной речи, социокультурных маркеров и эмоционально-экспрессивных средств в процессе перевода на основе сопоставительного анализа. В романе выявлены стратегии трансформации языковых маркеров, связанных с дифференциацией речи персонажей, их социальным статусом, уровнем образования и психологическим состоянием, на узбекский язык. В ходе анализа обосновывается эффективность методов компенсации, трансформации и функциональной эквивалентности в сохранении своеобразия речи персонажей романа "Джейн Эйр".*

Ключевые слова: *художественный перевод, речь персонажей, идиолект, диалект, социокультурные маркеры, трансформация, дискурс, Шарлотта Бронте, "Джейн Эйр".*

Radjapova Intizor Egamberganovna
Teacher of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

PROBLEMS OF PRESERVING THE CHARACTER'S SPEECH IN TRANSLATION: ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION OF "JANE EYRE"

Annotation: *This article examines the problems of preserving the specific features of characters' speech in the process of translating literary works using the example of Charlotte Bronte's novel "Jane Eyre". The study studies the methods of recreating characters' idiolect, dialectal speech, socio-cultural markers and emotional-expressive means in the translation process based on comparative analysis. Strategies for transforming linguistic markers related to the differentiation of characters' speech in the novel, their social status, level of education and psychological state into the Uzbek language are identified. As a result of the analysis, the effectiveness of compensation, transformation and functional equivalence methods for preserving the originality of the characters' speech in the novel "Jane Eyre" is substantiated.*

Keywords: *literary translation, character speech, idiolect, dialect, sociocultural markers, transformation, discourse, Charlotte Bronte, "Jane Eyre".*

1. Kirish

Badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida muallif individual uslubining o‘ziga xosligini, personajlar nutqining differensiyatsiyalangan xususiyatlarini saqlash tarjimashunoslikning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XIX asr ingliz adabiyoti namunalarini boshqa tillarga tarjima qilishda personajlar nutqining ijtimoiy-madaniy, dialektal va psixologik xususiyatlarini saqlash alohida qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu muammolar tarjima jarayonida ikki til tizimidagi tafovutlar, madaniy-tarixiy kontekst, ijtimoiy tabaqalanish markerlarining har xil tillarda turlicha ifodalanishi bilan bog‘liq.

Sharlotte Brontening “Jeyn Eyr” romani personajlar nutqining yaqqol differensiatsiyalanganligi, har bir personaj nutqining o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi, dialektal va ijtimoiy markerlarning keng qo‘llanilganligi bilan tarjimashunoslik nuqtai nazaridan alohida qiziqish uyg‘otadi. Asarda personajlar nutqi orqali nafaqat ularning individual xususiyatlari, balki Viktorian davri Angliyaning ijtimoiy tabaqalashgan jamiyatidagi o‘rni, ta'lim darajasi va dunyoqarashi ham aniq ifodalangan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi “Jeyn Eyr” romani personajlari nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini tarjima jarayonida saqlash muammolarini aniqlash va ularni hal etish usullarini tahlil qilishdan iborat.

2. Adabiyotlar sharhi

Personajlar nutqining o‘ziga xosligini tarjima qilish muammolari M.M. Baxtin (1979), V.N. Komissarov (1990), P. Nyumark (1988), G‘. Salomov (1983), Q. Musayev (2005), N. Komilov (2006), L. Venuti (2008), G. Toury (2012), J. Hous (2015) kabi olimlarning ishlarida o‘rganilgan. M.M. Baxtin badiiy diskursning dialogik tabiatini tadqiq etib, personajlar nutqining ko‘p ovozlilik xususiyatini alohida ta'kidlagan. V.N. Komissarov personajlar nutqining pragmatik aspektlarini saqlash muammolari va yechimlarini tadqiq etgan. P. Nyumark esa personajlar nutqidagi ijtimoiy-madaniy markerlarni tarjima qilish strategiyalarini ishlab chiqqan.

O‘zbek tarjimashunosligida G‘. Salomov, Q. Musayev, N. Komilov kabi olimlar badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotida personajlar nutqining o‘ziga xosligini saqlash muammolarini tadqiq etishgan. Xususan, G‘. Salomov “Tarjima nazariyasi asoslari” asarida personajlar nutqidagi milliy-madaniy o‘ziga xoslikni saqlash masalalarini yoritib bergan.

Zamonaviy tarjimashunoslikda L.Venuti “domestication”(mahalliylashtirish) va “foreignization” (chetlashtirish) strategiyalarini taklif etib, personajlar nutqidagi o‘ziga xoslikni saqlashda ushbu yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatib bergan. G. Touri esa deskriptiv tarjima nazariyasida personajlar nutqini tarjima qilishda maqsadli til madaniyatining normalariga moslashish tendensiyasini aniqlagan.

“Jeyn Eyr” romanini tarjima nuqtai nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan S. Beyker (2010) va L. Kamenova (2017) tadqiqotlarida romanning turli tillardagi tarjimalarida personajlar nutqidagi ijtimoiy-madaniy markerlarni saqlash muammolari tahlil qilingan.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-chog‘ishtirma, lingvostilistik va diskurs tahlil metodlari qo‘llanilgan. Tadqiqot materiali sifatida Sharlotte Brontening “Jeyn Eyr” (Jane Eyre, 1847) romanining ingliz tilidagi asl nusxasi hamda o‘zbek tilidagi tarjimalari tanlangan.

Tadqiqot jarayonida romanidagi Jeyn Eyr, Edward Rochester, Broklyorst janob, Rid xonim, Adel, Greys Pul, Hanna kabi personajlar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning o‘zbek tilidagi tarjimalari tahlil qilingan. Personajlar nutqining differensiatsiyalanish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholangan:

Ijtimoiy-madaniy markerlar (ijtimoiy mavqe, ta'lim darajasi bilan bog‘liq lingvistik belgilar)

Dialektal xususiyatlar (Yorkshire dialekti elementlari, fonetik o‘zgarishlar)

Emotsional-ekspressiv vositalar (emotsional bo‘yoqdor leksika, intonatsiya)

Stilistik xususiyatlar (metafora, o‘xshatish, epitet kabi troplar)

Tarjima jarayonida qo‘llanilgan transformatsiyalar V.N. Komissarov taklif etgan transformatsion model asosida tasniflanib, personajlar nutqi tarjimasining adekvatligi baholangan.

4. Natijalar va muhokama

4.1. “Jeyn Eyr” romanida personajlar nutqining lingvistik differensiatsiyasi

Charlotte Bronte “Jeyn Eyr” romanida personajlar nutqini differensiatsiyalash uchun turli lingvistik vositalardan foydalangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, romandagi personajlar nutqi quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

Edward Rochester nutqida yuqori ijtimoiy tabaqaga xos aristokratik leksika, murakkab sintaktik konstruksiyalar, klassik adabiy sitatalar hamda fransuz tilidagi iboralar keng qo‘llanilgan: *“You have rather the look of another world”, ”I ought to be at liberty to attend to my own pleasure”*.

Jeyn Eyr nutqida o‘rta sinfga mansub, yaxshi ta'lim olgan shaxsga xos adabiy til normalariga muvofiq to‘g‘ri shakllangan nutq, ma'lum darajada murakkab leksika, ammo chet tillaridan elementlar kamroq qo‘llanilgan: *”I am not talking to you now through the medium of custom, conventionalities, nor even of mortal flesh: it is my spirit that addresses your spirit”*.

Broklyorst janob nutqida diniy ritorika, Injilga havola qilish elementlari, murakkab sintaktik konstruksiyalar ustunlik qiladi: *”My plan in bringing up these girls is, not to accustom them to habits of luxury and indulgence, but to render them hardy, patient, self-denying”*.

Xizmatkor Greys Pul *va* ***Hanna*** nutqida Yorkshire dialekti elementlari, grammatik xatolar, soddalashtirilgan sintaktik konstruksiyalar keng qo'llanilgan: *"It's time for ye to get up, them's the master's orders"*, *"Ye'll happen do better for him nor ony other body"*.

Adel nutqida ingliz va fransuz tillarining aralashmasi, bu uning fransuz kelib chiqishini ta'kidlaydi: *"Mais oui, mademoiselle: voilà cinq ou six heures que nous n'avons pas mangé"*.

Bunday lingvistik differensiatsiya personajlar xarakterini ochib berish, ularning ijtimoiy mavqei, ta'lim darajasi va dunyoqarashini ifodalash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

4.2. Personajlar nutqidagi ijtimoiy-madaniy markerlarni tarjima qilish muammolari

"Jeyn Eyr" romanidagi personajlar nutqida ijtimoiy-madaniy markerlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Rochester nutqidagi yuqori ijtimoiy tabaqaga xos leksika va sintaktik konstruksiyalar, Broklyorst janob nutqidagi diniy ritorika, Jeyn Eyr nutqidagi o'rta sinfga xos adabiy til normalariga muvofiq nutq va xizmatkorlar nutqidagi dialektal, so'zlashuv uslubidagi elementlar personajlarning ijtimoiy mavqei va ta'lim darajasini aks ettiradi.

Jadval 1. Personajlar nutqidagi ijtimoiy-madaniy markerlar va ularning tarjimasi

Personaj	Asl matn	O'zbek tilidagi tarjima	Tarjima strategiyasi
Rochester	"You have rather the look of another world."	"Sizda go'yo boshqa olam tarovatidan asar mavjud."	Funktional ekvivalent
Greys Pul	"I'm not in the habit of calling a servant by their first names."	"Men xizmatkorlarni ismlarini aytib chaqirish odatim yo'q."	Grammatik xatoni saqlash
Hanna	"Ye'll happen do better for him nor ony other body."	"Siz unga boshqa odamlardan ko'ra yaxshiroq qaraysiz-ov."	So'zlashuv uslubini saqlash
Rochester	"Madam, I should like some tea"	"Muhtarama, men choy ichishni xohlar edim."	Ijtimoiy markerlarni saqlash

Tarjima jarayonida ijtimoiy-madaniy markerlarni saqlash uchun quyidagi strategiyalar qo'llanilgan:

Dialektal nutqni tarjima qilishda ekvivalentlik muammosi.

4.3. Personajlar nutqidagi dialektal xususiyatlarni tarjima qilish

"Jeyn Eyr" romanidagi Yorkshaya dialektida so'zlashuvchi personajlar nutqini tarjima qilish eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Dialektal nutq personajlarning ijtimoiy kelib chiqishi, ta'lim darajasi va geografik hududga mansubligini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Jadval 2. Dialektal nutq va uning tarjimasi

Asl matn	O'zbek tilidagi tarjima	Tarjima strategiyasi
"T' maister was almost lost in t' bog."	"Xo'jayin botqoqlikda qolvorgan edi."	Fonetik o'zgarishni kompensatsiya
"Ech, there's no need to be feared."	"E-e, qo'rqishga hojat yo'q-da."	Undov so'zni saqlash, so'zlashuv uslubini qo'llash
"Ye're noan so far fro' Thornfield."	"Siz Tornfildan uncha uzoq emas ekansiz-da."	So'zlashuv uslubini saqlash

Yorkshaya dialektiga xos bo'lgan "t' ", "ech", "ye're noan" kabi shakllar o'zbek tiliga tarjima qilishda bevosita dialektal ekvivalentlar emas, balki so'zlashuv uslubiga xos "qolvorgan", "yo'q-da", "ekansiz-da" kabi grammatik va fonetik vositalar orqali kompensatsiya qilingan.

Dialektal nutqni tarjima qilishda samarali strategiyalar:

Kompensatsiya usuli - dialektal nutqni maqsadli tildagi so'zlashuv uslubi orqali qayta yaratish;

Fonetik o'zgarishlarni aks ettirish - dialektal so'zlarni o'zbek tilidagi fonetik o'zgarishlarga uchragan so'zlar bilan almashtirish;

Grammatik xatolarni saqlash - dialektal nutqda uchraydigan grammatik xatolarni maqsadli tilda ham saqlab qolish.

4.4. Personajlar nutqining emotsional-ekspressiv va stilistik xususiyatlarini tarjima qilish

Personajlar nutqining emotsional-ekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlash ularning xarakteri, ruhiy holati va munosabatlarini to'liq ochib berish uchun muhim ahamiyatga ega.

5. Xulosa va tavsiyalar

"Jeyn Eyr" romani personajlari nutqining o'ziga xosligini tarjima qilish muammolarining tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

Personajlar nutqidagi ijtimoiy-madaniy markerlarni tarjima qilishda asl matnning tarixiy-madaniy kontekstini hisobga olish va maqsadli til madaniyatiga mos ekvivalentlarni tanlash zarur. Yuqori ijtimoiy tabaqaga xos nutq markerlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'tarinki uslub elementlari, arab-fors o'zlashmalari va

murakkab sintaktik konstruksiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Dialektal nutqni tarjima qilishda to‘liq ekvivalentlikka erishish imkonsiz bo‘lgani uchun kompensatsiya usulidan foydalanish, ya'ni dialektal xususiyatlarni o‘zbek tilidagi so‘zlashuv uslubi, fonetik o‘zgarishlar va grammatik xususiyatlar orqali qayta yaratish samarali hisoblanadi. Personajlar nutqidagi emotsional-ekspressiv xususiyatlarni tarjima qilishda leksik, sintaktik va stilistik transformatsiyalardan kompleks foydalanish, emotsional bo‘yoqdor leksikani saqlash va intonatsion xususiyatlarni kompensatsiya qilish zarur. Stilistik vositalarni tarjima qilishda personajlar dunyoqarashi va ruhiy holati bilan bog‘liq obrazli ifodalarni saqlash muhim. Bu vazifani hal etishda bevosita tarjima, transformatsiya va kompensatsiya usullarini birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Badiiy tarjima amaliyotida personajlar nutqining o‘ziga xosligini saqlash uchun kompleks yondashuv zarur, bu yondashuv lingvistik va ekstralingvistik omillarni birlashtirishi kerak. Personajlar nutqidagi ijtimoiy-madaniy markerlarni tarjima qilishda maqsadli til madaniyatidagi o‘xshash ijtimoiy tabaqalanish markerlaridan foydalanish lozim. Dialektal nutqni tarjima qilishda tarjimon o‘zbek tilidagi ma'lum dialektal xususiyatlarni emas, balki so‘zlashuv uslubining universal xususiyatlarini qo‘llashi maqsadga muvofiq. Personajlar nutqidagi emotsional-ekspressiv vositalarni tarjima qilishda tarjimon personaj xarakterini, uning nutq vaziyatini va o‘ziga xosligini to‘liq anglagan holda ekvivalent emotsional-ekspressiv vositalar tanlashi lozim. Ushbu tadqiqot badiiy tarjima nazariyasida personajlar nutqining o‘ziga xosligini saqlash muammosini o‘rganishga muayyan hissa qo‘shadi va kelgusidagi tadqiqotlar uchun nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Baxtin, M.M. (1979). Estetika slovesnogo tvorchestva. Moskva: Iskusstvo.

2.Beyker, S. (2010). Jane Eyre and Translations: Contemporary Perspectives. Journal of Translation Studies, 15(2), 78-96.

3.Brontë, Ch. (1847). Jane Eyre. London: Smith, Elder & Co.

4.House, J. (2015). Translation Quality Assessment: Past and Present. London: Routledge.

5.Kamenova, L. (2017). Translating the Voices in Charlotte Bronte's Novels. London: Palgrave Macmillan.

6.Komilov, N. (2006). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Tafakkur.

7.Komissarov, V.N. (1990). Teoriya perevoda (lingvisticheskiye aspekti). Moskva: Visshaya shkola.

8.Musayev, Q. (2005). Badiiy tarjima va nutq madaniyati. Toshkent: Fan.

9.Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.

10. Salomov, G‘. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.

11. Toury, G. (2012). Descriptive Translation Studies – and beyond. Amsterdam: John Benjamins.

12. Venuti, L. (2008). The Translator's Invisibility: A History of Translation. London: Routledge.

13. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.

14. Hatim, B., & Mason, I. (2014). Discourse and the Translator. London: Routledge.

15. Munday, J. (2016). Introducing Translation Studies: Theories and Applications. London: Routledge.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Raimov Lazizjon Alisherovich
Teacher, Termez University of Economics and Service
E-mail: – lazizjon_raimov@tues.uz
UDC: 811.82.42.132

SPECIFIC FEATURES OF ADVERTISING TEXTS

Annotation: *This article examines the textual features of advertising texts, focusing on their linguistic, stylistic, and structural characteristics. It explores how persuasive language and structural elements contribute to the effectiveness of advertising messages. Special attention is given to digital advertising, where personalization, interactivity, and urgency play a crucial role in engaging online audiences. The study also discusses the impact of headlines, slogans, calls to action, and storytelling in both traditional and digital advertising contexts. By analyzing the key textual strategies used in advertisements, this research provides insights into how brands craft compelling messages to influence consumer behavior.*

Keywords: *Advertising texts, linguistic features, persuasive language, digital advertising, rhetorical strategies, textual analysis, marketing communication, consumer engagement, call to action, branding.*

Раимов Лазизжон Алишерович
Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация: *В статье рассматриваются текстовые особенности рекламных текстов, особое внимание уделяется их языковым, стилистическим и структурным характеристикам. В нем рассматривается, как убедительный язык и структурные элементы способствуют эффективности рекламных сообщений. Особое внимание уделяется цифровой рекламе, где персонализация, интерактивность и срочность играют решающую роль в привлечении интернет-аудитории. В исследовании также обсуждается влияние заголовков, лозунгов, призывов к действию и повествования как в традиционном, так и в цифровом рекламном контексте. Анализируя ключевые текстовые стратегии, используемые в рекламе, это исследование дает представление о том, как бренды создают убедительные сообщения, чтобы влиять на поведение потребителей.*

Ключевые слова: *Рекламные тексты, лингвистические особенности, убедительный язык, цифровая реклама, риторические стратегии, текстовый анализ, маркетинговая коммуникация, вовлечение потребителей, призыв к действию, брендинг.*

Raimov Lazizjon Alisherovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

REKLAMA MATNLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada reklama matnlarining lingvistik, stilistik va strukturaviy xususiyatlariga e’tibor qaratilib, ularning matn xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola ishonarli til va tizimli elementlarning reklama xabarlarining samaradorligiga qanday hissa qo‘shishini o‘rganadi. Shaxsiylashtirish, interaktivlik va tezkorlik onlayn auditoriyani jalb qilishda asosiy rol o‘ynaydigan raqamli reklamaga alohida e’tibor beriladi. Tadqiqot shuningdek, an’anaviy va raqamli reklama kontekstlarida sarlavhalar, shiorlar, harakatga chaqiruvlar va hikoyalar ta’sirini muhokama qiladi. Reklamalarda qo‘llaniladigan asosiy matn strategiyalarini tahlil qilib, ushbu tadqiqot brendlar iste’molchilarning xatti-harakatlariga ta’sir qilish uchun jozibali xabarlarni qanday yaratishi haqida tushuncha beradi.*

Kalit so‘zlar: *Reklama matnlari, lingvistik xususiyatlar, ishontiruvchi til, raqamli reklama, ritorik strategiyalar, matn tahlili, marketing aloqasi, iste’molchilarni jalb qilish, harakatga chaqirish, brending.*

Introduction

With the rise of digital marketing, advertising texts have evolved to fit online platforms such as social media, search engines, and e-commerce websites. Digital ads require concise, engaging, and interactive language to capture short attention spans and drive immediate action.

This section explores the textual features specific to digital advertising. Advertising is a powerful communication tool used to persuade, inform, and influence audiences. It combines linguistic, visual, and rhetorical strategies to create compelling messages that appeal to emotions, logic, or credibility. The textual features of advertising texts play a crucial role in shaping consumer perception and driving engagement. This article explores the key textual characteristics of advertising texts, including their linguistic, stylistic, and structural elements. Language in advertising is carefully crafted to maximize impact and memorability.

Literature review

Several scholars have studied the specific characteristics of advertising texts, analyzing their linguistic, rhetorical, and psychological features. For example, G.Cook studied the specific characteristics of advertising texts in his book "The Discourse of Advertising". In this work, he analyzes advertising as a form of discourse, considering both linguistic and non-linguistic elements such as images, music, and layout [2]. Also, G.N.Leech studied the specific characteristics of advertising texts in his book "English in Advertising: A Linguistic Study of Advertising in Great Britain" [5]. His work is one of the earliest linguistic studies of advertising, analyzing the structure, style, and persuasive techniques used in ads. Leech's study remains foundational in understanding how language is strategically used in advertising.

Research methodology

This article is devoted to the specific characteristics of advertising texts, using linguistic, culturological, and pragmatic analysis methods.

Discussion and results

Advertising texts often use emotionally charged words to evoke feelings such as happiness, excitement, or trust. Words like "exclusive," "amazing", "guaranteed", and "best" create a sense of urgency and desirability. Imperative sentences like "Buy now!" or "Try it today!" create a direct and urgent call to action, compelling consumers to act immediately.

Repetition reinforces brand messages and ensures memorability. Slogans like "Just Do It" (Nike) or "Because You're Worth It" (L'Oréal) are short, impactful, and easy to recall. Exaggerated claims such as "the world's best coffee" or "unbeatable prices" enhance the appeal of a product, even when taken figuratively. Questions like "Looking for the best deal?" engage the audience by prompting them to think about their needs and desires [1].

Advertising texts serve as a powerful tool to persuade, inform, and influence consumers. Whether in traditional print media or digital platforms, advertising language is designed to be engaging, memorable, and action-driven. This article examines the textual features of advertising texts through linguistic, stylistic, and structural perspectives. Additionally, it explores how digital advertising has transformed text-based marketing, making use of personalization, interactivity, and optimized engagement strategies [3].

Advertising texts aim to evoke emotions that drive consumer actions. Emotional appeals can be classified into several types:

Happiness and Excitement: «Enjoy life with our refreshing new drink!»

Fear and Urgency: «Don't miss out—offer ends soon!»

Trust and Credibility: «Recommended by 9 out of 10 experts!»

Marketers use these strategies to connect with the audience's psychological needs, creating an emotional bond with the product or brand [6].

Imperative verbs such as "Buy," "Try," "Discover," and "Get" encourage immediate action. Advertisements often use the second-person pronoun "you" to create a personal connection:

"You deserve luxury. Try our premium skincare today!"

This direct approach fosters engagement and makes the message feel more relevant to the consumer.

Repetition reinforces brand messages and increases recall. Many brands use repetitive words or slogans for memorability:

"Have a break, have a Kit Kat."

"The best a man can get." (Gillette).

Through constant exposure, consumers develop an association between the phrase and the brand. Questions provoke thought and subtly lead consumers toward the intended message:

"Looking for a healthier snack?"

"Why settle for less?" [5]

Advertising texts utilize linguistic, stylistic, and structural features to capture consumer interest and influence purchasing decisions. Persuasive language, emotional appeal, repetition, and rhetorical questions enhance engagement, while strategic use of headlines, slogans, and CTAs ensures clarity and actionability. With the rise of digital advertising, textual strategies have evolved to include personalized content, interactive engagement, and search engine optimization. Brands must continuously adapt their messaging to align with shifting consumer behaviors and technological advancements. Understanding the textual features of advertising is essential for marketers seeking to create compelling campaigns that resonate with their target audience. By mastering linguistic creativity and digital integration, advertisers can craft powerful messages that leave a lasting impact [2].

Conclusion

Advertising texts are carefully crafted to persuade, engage, and influence consumer behavior through specific

linguistic, stylistic, and structural features. Traditional advertising relies on persuasive language, rhetorical devices, and emotionally charged messaging, while digital advertising integrates interactivity, personalization, and urgency to capture audience attention in online environments.

The use of headlines, slogans, and calls to action ensures that advertising messages are concise and impactful. Digital platforms, such as social media and search engines, require optimization techniques, including hashtags, keywords, and A/B testing, to enhance engagement and conversion rates. Additionally, storytelling, informal tones, and the strategic use of repetition help brands establish strong connections with their target audiences.

As advertising continues to evolve with technological advancements, the effectiveness of advertising texts will depend on how well they adapt to consumer preferences and digital trends. Understanding the textual features of advertising is essential for marketers and advertisers to create compelling and successful campaigns.Digital advertising texts differ from traditional ads by incorporating personalization, interactivity, and a casual tone to engage online audiences. The use of emojis, hashtags, FOMO tactics, and optimized CTAs helps improve click-through rates and conversions. As digital marketing evolves, brands must continuously adapt their textual strategies to stay relevant. Advertising texts are designed to persuade and engage audiences through specific linguistic, stylistic, and structural techniques. The strategic use of persuasive language, compelling headlines, and concise messaging ensures that advertisements are effective in influencing consumer behavior. Understanding these textual features helps marketers create impactful ads that resonate with their target audience.

Used literature

1.Bhatia V.K. Worlds of Written Discourse: A Genre-Based View. Bloomsbury. 2004. – 103 p.
2.Cook G. The Discourse of Advertising. Routledge. 2001. – 132 p.
3.Goddard A. The Language of Advertising: Written Texts. Routledge. 2018. – 129 p.
4.Kotler P., Keller K.L., Brady M., Goodman M., Hansen T. Marketing Management. Pearson. 2019. – 319 p.
5.Leech G.N. English in Advertising: A Linguistic Study of Advertising in Great Britain. Longman. 1966. – 192 p.
6.Myers G. Words in Ads. Routledge. 1994. – 78 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Rakhmanova Dildora Abdinabiyevna
Researcher in Basic Doctoral Studies
National University of Uzbekistan

AN ANALYSIS OF FIGURATIVE EXPRESSIONS IN GERMAN FOLK TALES

Abstract: *This article examines the challenges of translating figurative expressions from German folk tales into Uzbek. It analyzes methods used by translators to maintain the semantic and stylistic coherence of texts. The study evaluates the difficulties in translating culturally bound metaphors, idioms, and similes, and assesses the effectiveness of various translation strategies. Findings highlight the importance of balancing linguistic fidelity and cultural adaptation to achieve high-quality translations.*

Keywords: *Translation, literary studies, folklore, fairy tales, figurative expressions, metaphor, synecdoche, metonymy, idioms.*

Raxmanova Dildora Abdinabiyevna
Asosiy doktorantura bo‘yicha tadqiqotchi
O‘zbekiston Milliy universiteti

NEMIS XALQ ERTAKLARIDAGI OBRAZLI VOSITALAR TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqola nemis xalq ertaklaridagi ko‘chma ma’noli ifodalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni o‘rganadi. Unda matnning semantik va uslubiy yaxlitligini saqlab qolish uchun tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan usullar tahlil qilinadi. Madaniyatga xos metafora, frazeologizm va o‘xshatishlarni tarjima qilishdagi murakkabliklar baholanadi hamda turli tarjima strategiyalarining samaradorligi o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari yuqori sifatli tarjimalarga erishishda tilga sodiqlik va madaniy moslashtirish o‘rtasida muvozanatni saqlash muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, adabiyotshunoslik, folklor, ertaklar, ko‘chma ma’noli ifodalar, metafora, sinekdoxa, metonimiya, frazeologizmlar.*

Рахманова Дилдора Абдинабиевна
Научный сотрудник базовой докторантуры
Национальный университет Узбекистана

АНАЛИЗ ОБРАЗНЫХ СРЕДСТВ В НЕМЕЦКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация: *В статье рассматриваются трудности перевода образных выражений из немецких народных сказок на узбекский язык. Анализируются методы, используемые переводчиками для сохранения семантической и стилистической целостности текста. Оцениваются сложности перевода культурно обусловленных метафор, идиом и сравнений, а также эффективность различных переводческих стратегий. Результаты исследования подчеркивают важность соблюдения баланса между языковой точностью и культурной адаптацией для достижения качественного перевода.*

Ключевые слова: *перевод, литературоведение, фольклор, сказки, образные выражения, метафора, синекдоха, метонимия, идиомы.*

Introduction

German folk tales are a rich source of cultural and linguistic heritage, with their figurative language holding particular significance. These tales have been translated into various languages, including Uzbek, and the process of translation poses unique challenges due to cultural and linguistic differences. This article explores how figurative expressions from German folk tales have been recreated in Uzbek, analyzing the methods employed to preserve their aesthetic and semantic qualities. Inspired by the fieldwork documented in Gabriele Keller and Khurram Rakhimov’s “Märchen aus Samarkand: Feldforschung an der Seidenstraße in Zentralasien”[1:47], this study emphasizes the importance of preserving cultural and linguistic diversity in the study and adaptation of folk tales. By analyzing tales collected along the Silk Road, it demonstrates how traditional narratives reflect the interplay of local and foreign

influences. These insights align with the challenges of translating German folk tales into Uzbek. This research contributes to the field of translation studies by providing insights into the recreation of culturally bound linguistic elements and underscores the significance of understanding both source and target cultures to retain the essence of folk narratives in translation. In the scientific commentaries given to the type of fairy tales developed by G. Keller in collaboration with Kh. Rakhimov, the artistic or hypothetical origins of the sources of the tales are indicated. References and allusions to ancient sources demonstrate the long oral transmission process. In this, Zoroastrian, shamanistic, and Islamic themes are noticeable. The socio-cultural interpretative notes were developed by Kh. Rakhimov and originally intended for a German-speaking audience (readership). These notes highlight Islamic traditions and inherited customs, proverbs, sayings, as well as information about names and surnames related to the relevant fairy tales and their types that have survived to this day. Only local researchers can offer alternative interpretations and opinions about these matters. In this catalog, through the analysis of over a thousand Uzbek magic (wonder) tales, Gabriele Keller and Khurram Rakhimov developed 145 tale classification types. These were described with specific socio-cultural commentaries based on Uzbek regional studies, ethnography, and the science of international folklore. As a result, a typological classification and description of the treasure of Uzbek oral folk heritage existing up until the first half of the 20th century but gradually disappearing under the influence of growing technological advancement—was presented.

Methods

The study employs a comparative qualitative methodology, analyzing selected German folk tales and their Uzbek translations. Grimm brothers' "Kinder- und Hausmärchen"[2:360] and their Uzbek translations served as primary data sources. Figurative expressions such as metaphors, idioms, and similes were identified and categorized. Translation strategies were then analyzed based on Newmark's (1988)[3:87] taxonomy, which includes literal translation, transference, adaptation, and equivalence. Additionally, interviews with translators provided further insights into their decision-making processes.

Results

The analysis reveals that Uzbek translators primarily use adaptation and equivalence techniques to recreate figurative expressions, ensuring that the translations align with Uzbek cultural norms. However, certain idiomatic expressions rooted in German cultural contexts were simplified or omitted due to the lack of equivalent expressions in Uzbek. For example, the German idiom "Die Katze im Sack kaufen" (to buy a pig in a poke) was adapted using a culturally relevant Uzbek proverb with a similar meaning but different imagery. The study also found that preserving rhyme and rhythm in translated texts required creative alterations, which sometimes led to semantic shifts. Walter Scherf's analysis of Bechstein's tales identifies similarities between his stories and those of the Grimm brothers.[4:74] For instance, Bechstein's "Der Mann ohne Herz" (The Man Without a Heart) is comparable to Grimm's "Die Kristallkugel" (The Crystal Ball) and "Die drei Schwestern" (The Three Sisters), sharing common motifs and narrative structures, such as protagonists overcoming challenges with the help of animals or magical forces. Grimm's and Bechstein's tales exhibit distinct moral and stylistic differences, which can be analyzed using Max Lüthi's framework on the interplay of moral teachings in folklore and literary analysis.[5:29] Grimm's tales are characterized by concise and straightforward dialogues that prioritize clarity in form and purpose. The Grimms' language is simple and easily comprehensible, ensuring that the moral lessons are accessible to a younger audience.

Conversely, Bechstein's tales incorporate artistic embellishments and additional narrative elements. For example, in Bechstein's retelling, phrases such as "haarige große Hände" (hairy large hands) and "lange Zähne" (long teeth) vividly enhance the wolf's menacing appearance and intentions. These details enrich the narrative's dramatic effect, drawing the reader's attention to the visual and emotional dimensions of the story.

Bechstein's works often include religious and artistic allusions, as well as satirical commentary and nuanced descriptions absent in the Grimms' tales. Two notable examples of this divergence can be observed in the respective versions of "Rupert der Bärenhäuter" by the Grimms and "Der Bärenhäuter" by Bechstein. Both versions explore the transformation of Rupert into a wild and disheveled figure wearing a bearskin, yet they differ significantly in stylistic and artistic execution.

Grimms' version („Rupert der Bärenhäuter"): *„Dann hing er die Bärenhaut um, ging in die Welt, war guter Laune und unterließ nichts, was ihm wohl und dem Gelde wehe tat. Im ersten Jahr ging es noch leidlich, aber in dem zweiten sah er schon aus wie ein Ungeheuer. Das Haar bedeckte ihm fast das ganze Gesicht, sein Bart glich einem Stück groben Filzhut, seine Finger hatten Krallen, und sein Gesicht war so mit Schmutz bedeckt, daß, wenn man Kresse hineingesät hätte, sie aufgegangen wäre."*

Bechstein's version ("Der Bärenhäuter"): *„...ließ seinen Bart stattlich wachsen, daß er ganz wahlfähig in irgendeinem deutschen oder polnischen Reichstag erschien, denn die Kraft steckt im Haar, das lehrt bereits die Geschichte Simsons, und brachte es dahin, daß er schon im zweiten Jahr aussah, wie ein Schubut und Waldsschrat, zumal auch seine Fingernägel aristokratisch vornehm noch, über das chinesische Maß hinausgewachsen waren."*

The Grimms' depiction of Rupert emphasizes his descent into savagery through straightforward imagery. Descriptions such as "Das Haar bedeckte ihm fast das ganze Gesicht" (Hair almost covered his entire face) and "seine Finger hatten Krallen" (his fingers had turned into claws) focus on physical transformation, reflecting his loss of societal identity and human dignity.

In contrast, Bechstein's version employs elaborate and nuanced descriptions to emphasize Rupert's wild state. Phrases like "ließ seinen Bart stattlich wachsen" (let his beard grow majestically) and "über das chinesische Maß hinausgewachsen" (grown beyond the Chinese measure) reflect Bechstein's preference for aesthetic and dramatic expression. Furthermore, Bechstein integrates satirical remarks, such as "daß er ganz wahlfähig in irgendeinem deutschen oder polnischen Reichstag erschien" (that he could easily be elected in some German or Polish parliament), subtly critiquing contemporary society. One of the most deeply studied genres of folklore is fairy tale, which is the oldest and most widespread in the oral creation of all peoples. For example, let's take a look at the history of the creation of the fairy tale "Red Riding Hood", which is at the top of the list of fairy tales "repertoire" of grandmothers and parents around the world.[7:65]

These comparisons underscore the contrasting narrative and thematic approaches of Grimm and Bechstein. While the Grimms prioritize moral clarity and accessibility through a minimalist style, Bechstein enriches his narratives with artistic flourishes, satirical commentary, and vivid imagery, reflecting a more complex and layered storytelling approach.

Discussion

The findings highlight the delicate balance translators must strike between linguistic fidelity and cultural adaptation. While adaptation ensures that translations are accessible to Uzbek readers, excessive alterations risk distorting the original message. The study emphasizes the importance of translators' deep understanding of both source and target cultures to enhance the effectiveness of translations. Furthermore, preserving aesthetic features such as rhythm and imagery is identified as a key aspect of literary translation. In folk tales we can meet all the issues of social, economic and everyday life of mankind, and in most cases it is not difficult to find fairy tales of the same content in the works of different peoples. Based on this, of course, the analysis of the research of folklorists, linguists, ethnographers and psychologists shows that the general way of life of people living in all regions of the world is close, human qualities such as kindness, courage, honesty are glorified in every nation and bad habits are condemned.[8:67]

Conclusion

Translating figurative expressions from German folk tales into Uzbek involves complex linguistic and cultural negotiations. Translators employ various strategies to balance source text fidelity and cultural relevance. This study contributes to translation studies by shedding light on the challenges and strategies involved in translating culturally rich texts. Future research could explore the reception of these translations among Uzbek readers to gain a deeper understanding of their impact and effectiveness.

Used literature

1.Keller, G., & Rachimov, Ch. (2000). Märchen aus Samarkand: Feldforschung an der Seidenstraße in Zentralasien. München: Ergon Verlag.

2.Grimm, J., & Grimm, W. (1812). Kinder- und Hausmärchen. Reclam.

3. Lüthi, Max. (1949). Die Märchen der Brüder Grimm. Bern: Francke Verlag.

4. Scherf, W. (1982). Das Märchenlexikon: Ein enzyklopädisches Handbuch zur Typologie und Erzählforschung. München: Beck.

5. Jurčáková, A. (2006). Ludwig Bechstein und seine Märchensammlungen. Ostravská univerzita. Retrieved from https://dokumenty.osu.cz/Jurcakova.

6. Schmidt-Knaebel, S. Ludwig Bechstein als Märchenautor. Die vier Anthologien im Überblick. *Z Literaturwiss Linguistik* 33, 137–161 (2003).

7. Karimova, D. H. "On the history of the creation of grimm brothers'fairy tales and their translations into uzbek." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 3. No. 1. 2021.

8. Каримова, *Д*. "The Problem of Variability in Translation: Analysis of Grimm's Fairy Tales." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz) 30 (2023): 30.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Rasuleva Nigina Alisherovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Ph.D.
E-mail: nigina1114@gmail.com

XITOY YANGI DAVR ILMIY FANTAST YOZUVCHISI-王晋康 WANG JINKANG IJODIDAGI ESTETIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yangi davr xitoy adabiyotida yangi yo‘nalish va tendensiyalardan biri bo‘lgan “ilmiy fantastika” janrining hozirgi kundagi taraqqiyot holati va xalqaro miqyosdagi o‘rni haqida hikoya qilingan. Yangi davr ilmiy fantast yozuvchisi hamda kitobxonlar orasida sokinlik va g‘amginlik timsoli sifatida gavdalangan 王晋康 Wang Jinkang misolida zamonaviy yozuvchilarning ilmiy fantastikadagi yozuv uslubi, xususan, ularning asarlarida estetik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi davr xitoy adabiyoti; ilmiy fantastika janri; ilmiy fantast yozuvchilar; yozuvchi 王晋康 Wang Jinkang; estetik xususiyatlar.*

Расулева Нигина Алишеровна
Ташкентский университет Давлат Шаркшунослик
Ситойшунослик олий мактаби доценты, филология фанлари бойича фалсафа доктора, к.т.н.

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСТВА КИТАЙСКОГО ПИСАТЕЛЯ-ФАНТАСТА НОВОГО ВРЕМЕНИ 王晋康 ВАН ЦЗИНЬКАНА

Аннотация: *В статье рассматривается современное состояние развития и международная роль жанра «научная фантастика» — одного из новых направлений и течений в китайской литературе новой эпохи. В статье на примере Ван Цзиньканa, современного писателя-фантаста, символа спокойствия и меланхолии среди читателей, рассматривается стиль письма современных писателей-фантастов, в частности проявление эстетических особенностей в их произведениях.*

Ключевые слова: *Современная китайская литература; жанр научной фантастики; писатели-фантасты; писатель Ван Цзинькан; эстетические свойства.*

Rasuleva Nigina Alisherovna
Tashkent State University of Oriental Studies
Associate Professor of the Higher School of Chinese Studies, Doctor of Philosophy in Philology, Ph.D.

AESTHETIC FEATURES IN THE WORK OF CHINESE NEW AGE SCIENCE FICTION WRITER - 王晋康 WANG JINKANG

Annotation: *This article discusses the current state of development and international role of the “science fiction” genre, one of the new directions and trends in Chinese literature of the new era. Using the example of Wang Jinkang, a modern-day science fiction writer and a symbol of calm and melancholy among readers, the article discusses the writing style of modern writers in science fiction, in particular the manifestation of aesthetic characteristics in their works.*

Keywords: *New era chinese literature; science fiction genre; science fiction writers; writer Wang Jinkang; aesthetic characteristics.*

Kirish

So‘nggi yillarda Xitoyda ilmiy fantastika janri sezilarli darajada rivojlanib, keng yoritilmoqda va targ‘ib qilinmoqda. 2018-2020-yillar oralig‘ida ushbu janr bo‘yicha bir qator muhim yutuqlarga erishildi: yangi tadqiqot muassasalari va nashriyot platformalari tashkil etildi, akademik nashrlar va ilmiy maqolalar yaratildi, hamda xalqaro mukofotlar qo‘lga kiritildi. Bu davrda, ayniqsa, zamonaviy ilmiy fantast yozuvchilar asarlari atrofidagi tadqiqotlar, sun’iy intellekt mavzusidagi

izlanishlar va COVID-19 pandemiyasiga akademik yondashuvlar diqqatga sazovor bo‘ldi.

Xitoyning ilmiy fantastika asarlari xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. Masalan, 刘慈欣 Liu Cixin、王晋康 Wang Jinkang、韩松 Han Song kabi yangi davr ilmiy fantast yozuvchilarining asarlari ingliz tiliga tarjima qilinib, jahon miqyosida mashhurlikka erishdi. Bu tarjimalar orqali xorijiy kitobxonlar Xitoy adabiyotining yangi yo‘nalishlari va xitoy xalqining qadriyatlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘lmoqdalar. [5]

Xitoyda ilmiy fantastika janrining yuksalishi davlat tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ilmiy fantastika bolalarni hayotdan uzoqlashtiradi deb hisoblangan davrlar o‘tmishda qolib, hozirda bu janrning rivojlanishi uchun maxsus dasturlar tuzilib, alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada, bugungi kunda Xitoylik fantast yozuvchilarning asarlari xalqaro bozorda katta muvaffaqiyatlarga erishib, xorijlik kitobxonlarning ham ko‘nglidan joy olmoqda.

王晋康 Wang Jinkang- zamonaviy xitoylik ilmiy fantastika yozuvchisi bo‘lib, uning asarlari Xitoy ilmiy fantastika adabiyotining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Uning ijodi insoniyatning kelajagi, texnologik taraqqiyot va jamiyatning murakkab muammolarini o‘rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Mazkur maqolani yozish jarayonida bir necha ilmiy fantast yozuvchilarning ijodi, yozuv uslubi, roman va hikoyalaridagi voqealar rivoji tadqiq etildi, hozirgi zamonaviy yozuvchilardan biri bo‘lgan 王晋**康** Wang Jinkang ning qalamoga mansub adabiyotlar tahlil qilindi va maqola yozish jarayonida foydalanildi.

Yangi avlod yozuvchisi 王晋**康** Wang Jinkang 1948-yilda tug‘ilgan, uning so‘zlariga ko‘ra, “Madaniy inqilob” uning hayotga qarashini butunlay o‘zgartirdi va asarlaridagi sovuqqonlik ham uning o‘z hayot tajribasi bilan bog‘liqdir. Xuddi shu tarzda “madaniy inqilob” ni tasvirlashda, 刘慈欣 Liu丨Cixinning “madaniy inqilob” ni tasvirlagani o‘tgan voqea sifatida taqdim etiladi. Uning “madaniy inqilob” ni yoritishdagi maqsadi, tarixiy munosabatlarning murakkabligini tiklash emas, balki tarixdan chiqib, koinotning chuqurliklariga kirishdir. [2] Boshqa tomondan, 王晋**康** Wang Jinkangning tasvirlagan “madaniy inqilobi” hozirgi zamonda davom etayotgan bir jarayon sifatida ko‘rsatiladi. “Madaniy inqilob” o‘tgan voqea emas, balki aynan hozirda, haqiqatan ham sodir bo‘layotgan hodisa sifatida taqdim etiladi. Uning “madaniy inqilob” ni tasvirlash va axloqiy muhokamalarni olib borish uslubi o‘rtasida o‘zaro bog‘liq bir munosabat mavjud. 刘慈欣 Liu Cixinning koinotga bo‘lgan qiziqishidan farqli o‘laroq, 王晋**康** Wang Jinkang insonning ichki olamiga e’tibor qaratadi, ayniqsa katta o‘zgarishlar davrida insonlarning ichki dunyosiga diqqatini jalb etadi. [4] Hozirgi zamonda, ilm-fan va texnologiya hayot tarziga aylangan, ammo texnologiyaning keltirgan yangi axloqiy muammolari hali ham mavjud. Texnologiyaning rivojlanishi bilan yuzaga kelgan katta o‘zgarishlar insoniyatning umumiy xavotir va bezovtalik kayfiyatini keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitda, 王晋**康** Wang Jinkang ilmiy fantastika usulida insoniyat axloqini o‘ylab ko‘radi va uning asarlaridagi qahramonlar doimo axloqiy tanlovlar va ikki o‘rtada qolish holatiga tushib qoladilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada zamonaviy xitoy adabiyotining yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ilmiy fantastika janri, uning hozirgi xalqaro darajadagi o‘rni va takomillashuvi haqida hikoya qilinadi.

王晋康 Wang Jinkangning yozuv uslubi chuqur ilmiy tahlil va falsafiy mushohadalar bilan ajralib turadi. Uning asarlarida texnologik yutuqlar va insoniy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, inson tabiati va jamiyatning kelajagi haqida o‘ylar aks etadi. Yozuvchi o‘z hikoyalarida murakkab ilmiy tushunchalarni oddiy va tushunarli tarzda ifodalaydi, bu esa uning asarlarini keng kitobxonlar ommasi uchun qiziqarli qiladi.

Tahlillar va natijalar

“Xoch” 《十字》 asarida 梅茵 Mei Yin faqat laboratoriyada saqlanayotgan chechak virusini o‘g‘irlab, uni past toksiklikka ega bo‘lgan shaklda o‘zgartirib, odamlar orasida tarqatadi. 梅茵 Mei Yinning xatti-harakati jamiyatga bo‘lgan nafratdan emas, balki chechak vakumi paydo bo‘lishining oldini olish uchun edi, lekin uning xatti-harakati baribir ma’lum qurbonlarga sabab bo‘ldi. Shubhasiz, 梅茵 Mei Yinning tanlovi juda munozarali yo‘ldir: u insoniyatning umumiy manfaatlari uchun ayrim odamlarning manfaatlarini qurbon qilishga majbur bo‘ldi. [7]

“Saraton odam” 《癌人》asarida “saraton-odam” ning mavjudligi insoniyatning o‘ziga tahdid soladi va inson qadr-qimmatini shubha ostiga qo‘yadi, ammo boshqa tomondan, tirik mavjudot sifatida odamlar boshqa turlarga nisbatan axloqiy hukm chiqarishga haqlimi? [4]

“Chumolilar hayoti” 《蚁生》 asarida Madaniy inqilobning fonida inson tabiatining “salbiy” tomonlari ko‘rsatiladi, bu esa yozuvchining insoniyatning salbiy jihatlariga bo‘lgan mulohazalarini aks ettiradi. Biroq, yozuvchi shu bilan birga, sof yaxshilikka nisbatan shubha bilan qaraydi. Kamida evolyutsiya nuqtai nazaridan, insoniyatning yomonligi hayot kechirish istagi bilan bog‘liq bo‘lib, uning mavjudligi insonning evolyutsiyasi jarayonida tabiiy ravishda saqlanib qolgan bir qismdir. [2]

王晋**康** Wang Jinkang asaridagi qahramonlarning ikki o‘rtada qolgan vaziyatlarini to‘g‘ri tushunadi. U shunday deydi: “Mening romanlarimdagi qahramonlar odatda torroq tasvirlanadi; ular ko‘pincha axloqan oliyjanob, intellektual jihatdan ajoyib, ilm-fanga chuqur e’tiqod qilgan, ammo ilm-fanning deformatsiyalashgan

ta’siridan xavotirda bo‘lgan shaxslar. Shuning uchun, ular o‘z ichki dunyosida xiralik va fojiali holatlar bilan yuzlashadilar.”

“Xoch” 《十字》 asaridagi 梅茵 Mei Yin, *“Chumolilar hayoti”* 《蚁**生**》 asaridagi 郭秋**云** Guo Qiuyun, *“Saraton odam”* 《癌**人**》asaridagi Pol Reins va Suma Robertson kabi qahramonlar an’anaviy axloq va ularning ichki ilmiy e’tiqodlariga bo‘lgan katta bo‘shliqda yashaydilar. Bu katta ichki qarama-qarshilikda, qahramonlarning ichki dunyosida xiralik va chuqur fojiali tuyg‘ular yuzaga keladi.

王晋**康** Wang Jinkang uchun ilmiy fantastika nafaqat texnologiya, balki insoniyat axloqi va uning qarorlarini chuqur o‘ylash, qayta ko‘rib chiqish jarayonidir. Axloqiy dilemma muallifning ezgulik va yomonlik tushunchasini ham ko‘rsatadi: “oq va qora” dualizmining inkor etilishi “yaxshilik va yovuzlikning birga yashashi” tushunchasini yanada oydinlashtiradi.

Diniy his-tuyg‘ular diniy shakllarda ifodalangan emas, balki bu yozuvchining asarida ko‘zga tashlanadigan bir turdagi yuqoridan qarash, noma’lum narsalarga bo‘lgan hurmat va insoniyatning mavjudligiga nisbatan qarsakchilik, rahm-shafqat his-tuyg‘usidir. Bu, insoniyatning chuqur savollariga va uning axloqiy holatiga nisbatan hayotiy bir tashvishdir.

王晋**康** Wang Jinkangning o‘z so‘zlariga ko‘ra, u hech qanday dinga e’tiqod qilmaydi, lekin “ba’zan insoniyat o‘z taqdirini belgilay olmaydi, shuning uchun diniy hurmat hissi paydo bo‘ladi. Bu ilm-fanga asoslangan diniy ongdir. Men juda muhim bir fikrni ta’kidlayman, ya’ni barcha narsalar muvozanatda, bu “faqat qora yoki faqat oq” degan ikki o‘lchamli qarash emas.” [3]

王晋**康** Wang Jinkang har doim noma’lum narsalarga hurmat bilan qaragan va keng koinotda insoniyat yaxshilikni saqlashi, “osmon yo‘lini” hurmat qilishi kerak deb hisoblaydi. 王晋**康** Wang Jinkangning “osmon yo‘li” deganda, u koinot, tabiat va jamiyatning uzoq vaqt davomida tabiiy rivojlanish jarayonida shakllangan dinamik muvozanat holatini nazarda tutadi. *“Tug‘ilish va o‘limning muvozanati”* 《生死平**衡**》 va *“Xoch”* 《十字》asarlari 王晋**康** Wang Jinkang “past intensivlikdagi yong‘in” nazariyasini chuqur tahlil qiladi. “Past intensivlikdagi yong‘in” — bu tabiatda ma’lum bir bo‘shliq yoki inqirozning oldini olish uchun qo‘llaniladigan oldini olish usuli hisoblanadi. Bu, aslida, tabiatning dinamik muvozanatini saqlashga qaratilgan, tabiiy jarayonlarga rioya qilishning bir shaklidir. Zamonaviy texnologiyalar yordamida, ilg‘or tibbiy usullar insoniyatning tabiiy immunitetini almashtirdi, bu esa inson immunitetining zaiflashishiga olib keldi. Biroq, tabiiy holatda viruslarning o‘zgarishi juda tez va xavfli bo‘lishi mumkin va agar o‘zgarishlar yuzaga kelgan virus insonlar orasida tarqalib ketadigan bo‘lsa, uning oqibatlari juda jiddiy bo‘lishi mumkin.

王晋**康** Wang Jinkang *“Xoch”* 《十字》asarida o‘zining keng tasavvurini taqdim etadi: texnologiya ko‘magida tabiiy dinamik muvozanatga erishish uchun past toksik viruslar nazorat qilinadigan diapazonda tarqalishi mumkin. 王晋**康** Wang Jinkang har doim muqaddas narsalarga hurmat bilan qaragan va texnologiyaning bexosdan o‘z chegarrasini buzishiga qarshi bulgan yozuvchidir. *“Xoch”* 《十字》 asarida “Xoch” tashkilotining axloqi asosan “tabiatga hurmat” degan asosiy tushunchaga quriladi. Bu tashkilotning maqsadi tabiiy tartib va muvozanatni saqlash, texnologiyaning tabiat bilan uyg‘unligini ta’minlashdir. “Xoch” tashkilotining yetakchisi Uolter Dikson o‘zining donoligiga Afrikaning beg‘ubor kengliklarida erishadi. Odamlarning kam aralashuvi izlari sezilgan va tabiiyligi saqlanib qolgan Afrika uning koinot va tabiatga nisbatan chuqur hurmat va ehtirom tuyg‘ularini shakllantirgan. “Insoniyat ilm-fan quroli yordamida tabiatni o‘zgartirish bilan birga, tabiiy tartibotga hurmatni ham saqlashi kerak” degan tushuncha uning falsafasining asosidir. 王晋**康** Wang Jinkang insoniyat texnologiyasining rivojlanishiga nisbatan doimiy o‘z-o‘zini tahlil qilish va ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Texnologiya hech qachon “osmon yo‘li”dan yuqori bo‘lishi yoki uni buzishi kerak emas. Insoniyat koinotga nisbatan har doim diniy hurmat va ehtirom tuyg‘usini saqlashi lozim. Bu yondashuv texnologiya va tabiat o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlashni talab qiladi.

王晋**康** Wang Jinkang “Inson tabiatining kuzatuvchisi” sifatida tanilgan. Uning yozuvlari doimo inson axloqi va uning zaif tomonlari atrofida aylanadi. Biroq, insoniyatdagi noxush yoki yovuzlikka moyil bo‘lgan jihatlarga nisbatan u doim mehribon va bag‘rikeng munosabatda bo‘ladi. *“Mening bilan birga”* 《与吾同**在**》 asarida 王晋**康** Wang Jinkang insoniyat uchun murakkab his-tuyg‘ularni boshdan kechiradigan chet ellik bir “xudo” obrazini yaratadi. [7] Bu begona “xudo” insoniyatning yer yuzidagi sayohatiga guvoh bo‘ladi, ularning yovvoyilikdan sivilizatsiyaga o‘tish jarayonini kuzatadi va ular bilan birga yashaydi. Bir tomondan u insondagi yomonlikdan nihoyatda jirkansa, ikkinchi tomondan inson tabiatidagi yomonlikka bag‘rikenglik va rahm-shafqat bilan yondashadi. U yomonlikni qoralaydi, lekin tabiiy evolyutsiya nuqtayi nazaridan uni bir zaruriyat sifatida tushunadi va qabul qiladi. Bu qarama-qarshilik uning insoniyatga nisbatan mehr-muhabbati va o‘tkir tanqidi o‘rtasidagi murakkab hissiy aloqasini aks ettiradi.

“G‘arb qoidalari murakkab bir tuzoqni tashkil etadi. G‘arb ijtimoiy elitalarining g‘oyalari bilan solishtirganda, men xitoylik fermerlarning oddiy va eskirgan dunyoqarashiga ishonishni afzal ko‘raman.” *“Osmon nomi bilan adolat o‘rnatamiz”* 《替天行道》 asarining so‘ng so‘zida 王晋**康** Wang Jinkang o‘zining sodda va tabiiy

koinotga bo‘lgan qarashlarini shu tarzda ifoda etadi. Bu fikr, uning ilmiy fantastika orqali texnologiya va insoniyatning tabiiy tartibni buzmasligi haqidagi falsafasini yanada chuqurroq ochib beradi.

Xulosalar

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, 王晋康 Wang Jinkangning ijodi Xitoy ilmiy fantastikasining boyligi va xilma-xilligini namoyish etadi. Uning asarlari nafaqat o‘z mamlakatida, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan bo‘lib, bu uning yozuvchilik mahorati va ijodiy salohiyatining yuksakligini ko‘rsatadi.

王晋康 Wang Jinkang asarlarida insoniyatning kelajagi, axloqiy tanlovlar va ilm-fan taraqqiyoti natijasida yuzaga keladigan muammolar chuqur yoritiladi. U ko‘pincha ilmiy texnologiyalarning jamiyatga va inson tabiatiga ta’sirini o‘rganadi, shu orqali o‘quvchilarni yaxshilik, mas’uliyat va axloqiy qadriyatlar haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi.

Shuningdek, uning ba’zi asarlarida inson va sun’iy intellekt, genetik muhandislik yoki transhumanizm mavzulari yoritiladi. Bu mavzular orqali u nafaqat texnologiyaning ijobiy tomonlarini, balki noto‘g‘ri yo‘nalishda rivojlanish ehtimoliy oqibatlarini ham ochib beradi. Shu sababli, uning hikoyalari ko‘pincha ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lsa-da, ularda umid, yaxshilik va ma’naviy o‘sishga da’vat sezilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.孔庆东・中国科幻小说概说[J]・涪陵师范学院学报，2003.
2.吴岩・科幻文学的中国阐释[J]・南方文坛，2010.
3.李钰.乌托邦哲学背景下的中国新生代科幻文学研究[D].山东大学，2014.
4.王晋康.十字[M].重庆:重庆出版社，2009.
5.王晋康.与吾同在[M].重庆：重庆出版社，2011.
6.王晋康.蚁生[M].福州:福建人民出版社，2012.
7.王晋康.天父地母[M].成都:四川科学技术出版社，2016.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Samatova Zulxumor Qudratilla qizi
ADCHTI 2-kurs doktoranti
zulhumorqosimov@gmail.com

ALOGIZM TAMOYILIGA ASOSLANGAN TROPLAR VA STILISTIK FIGURALARNI AJRATISH ME'ZONLARI

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada alogizm tamoyiliga asoslangan troplar va figuralarning adabiy matndagi badiiy-estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu badiiy usullarni boshqa poetik vositalardan ajratish mezonlari, ya'ni mantiqiy zidlik, estetik maqsadga yo'naltirilgan mantiqsizlik, semantik beqarorlik va ko'p darajali talqin imkoniyati ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *alogizm, trop, figura, oksimoron, paradoks, kataxreza, poetika, semantika, stilistika, lingvistik tahlil.*

Саматова Зулхумор Кудратилла кызы
Докторант 2-го года обучения в АДХТИ
zulhumorqosimov@gmail.com

КРИТЕРИИ РАЗЛИЧИЯ ТРОПОВ И СТИЛИСТИЧЕСКИХ ФИГУР НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПА АЛОГИЗМА

Аннотация: *В данной научной статье анализируются художественно-эстетические функции тропов и фигур, основанных на принципе алогизма, в литературном тексте. Также в статье научно обосновываются критерии различения этих художественных приёмов от других поэтических средств, включая логическое несоответствие, направленную на эстетическую цель нелогичность, семантическую нестабильность и возможность многослойной интерпретации.*

Ключевые слова: *алогизм, троп, фигура, оксюморон, парадокс, катахреза, поэтика, семантика, стилистика, лингвистический анализ.*

Samatova Zulhumor Kudratilla qizi
2nd year doctoral student of the State Institute of Linguistics
zulhumorqosimov@gmail.com

CRITERIA FOR DISTINGUISHING TROPES AND STYLISTIC FIGURES BASED ON THE PRINCIPLE OF ALOGISM

Annotation: *This scientific article analyzes the artistic and aesthetic functions of tropes and figures based on the principle of alogism in literary texts. The article also provides a scholarly explanation of the criteria used to distinguish these artistic techniques from other poetic tools, including logical contradiction, aesthetically motivated illogicality, semantic instability, and the potential for multilayered interpretation.*

Keywords: *alogism, trope, figure, oxymoron, paradox, catachresis, poetics, semantics, stylistics, linguistic analysis*

Stilistik vositalar badiiy va nutqiy ifodaning estetik asosini tashkil etib, ular tilni nafaqat axborot uzatuvchi vosita, balki san'at darajasiga ko'tarilgan ifoda vositasiga aylantiradi. Shuning uchun stilistik tahlil — bu til birliklarini faqat grammatik emas, balki ma'no, emotsiya, kontekst va kommunikativ niyatlar nuqtayi nazaridan ham o'rganishni talab etadi. Uslubiy vositalar adabiy, publitsistik, rasmiy, ilmiy yoki og'zaki nutq uslublarida nutqning maqsad va mazmuniga muvofiq holda tanlanadi va qo'llaniladi. Stilistik vositalar tilda mavjud bo'lgan leksik, frazeologik, grammatik, fonetik, semantik va pragmatik darajalar bilan bevosita bog'liqdir.

Leksik-stilistik vositalar ***bu*** so'zlarning emotsional, ekspressiv, stilistik zaminlarda qo'llanishidir, *m*asalan sinonimlar va antonimlar (ekspressiv qarama-qarshilik yaratadi), metafora, metonimiya, synekdoxa kabi troplar, frazeologik birliklar (idiomalar).

Fonetik-stilistik vositalar nutqning tovush darajasida estetik ohangdorlik va urg'u yaratishga xizmat qiladi: alliteratsiya (bir xil undoshlarning takrori),

assonans (bir xil unli tovushlar takrori), onomatopoeia (tovushlarni taqlid qilish) kabi stilistik vositalarini misol qilib keltirish mumkin.

Grammatik-stilistik vositalar esa gap qurilishi, so‘z tartibi, zamon va shaxs shakllarining stilistik imkoniyatlaridan foydalanish demakdir, jumladan inversiya (odatiy so‘z tartibini buzish), parallel konstruksiyalar, ellipsis (gapning ayrim bo‘laklarini tushirib qoldirish).

Sintaktik-stilistik vositalar deb gaplar yoki matnning umumiy tuzilishida emotsional va mantiqiy urg‘u berish imkonini yaratuvchi vositalarga aytiladi aytaylik bularga ritorik savollar,gradatsiya (bosqichma-bosqich kuchaytirish yoki kamaytirish) va antiteza (qarama-qarshi g‘oyalarning yonma-yon keltirilishi) namuna bo‘la oladi.

I.R. Galperinning fikriga ko‘ra: “Ko‘chma ma’no bu ikki turdagi leksik ma’nolar: lug‘at ma’nosi va kontekstual ma’no o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikdir. Kontekstual ma'no har doim lug‘at (mantiqiy) ma'nosiga bog‘liq bo‘ladi. Lekin, agar og‘ish juda katta bo‘lib, hatto mantiqiy ma'noda kutilmagan burilish hosil qilsa, biz bu holatni stilistik vosita sifatida qayd etamiz”. [1.135]

Uslubiy vositatalar 2 xil, troplar va figuralar ko‘rinishda bo‘lib ularni o‘rganish antik davrdan boshlab ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan. Antik davrda turli trop va figuralarning mohiyati va funksiyalari ta'riflari paydo bo‘lgan.

Qadimgi yunon faylasufi Gorgiy (miloddan avvalgi V asr) o‘z nutqlarida ritorik figuralarni innovatsion ishlatgani bilan shon-shuhrat qozondi va ular uzoq vaqt davomida "gorgian figuralari" deb nom oldi. [2]

Ayrim figuralarni Aristotel (miloddan avvalgi IV asr) ko‘rib chiqqan va uning izdoshlari batafsilroq ishlab chiqargan; masalan, Demetriy Faleriy (miloddan avvalgi IV-III asrlar) "nutq figuralari" va "fikr figuralari"ga ajratishni kiritgan.

Stilistik vositalarni o‘rganish ahamiyatini inkor etish mumkin emas, ammo shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda stilistikada elokutivlarning to‘liq tizimli xarakteristikasi mavjud emas. Ifodaviylik kuchaytiruvchilarining tizimlashtirilishi muammosiga murojaat qilgan

I.V. Pekarskaya trop va figuralarni tashkil etish tamoyilini hisobga olishni taklif qiladi. [3.248] Shuningdek, ushbu muallif stilistik vositalarni ko‘p aspektli o‘rganish natijalarini maydon nazariyasi doirasida taqdim etishni maqsadga muvofiq deb biladi.

Trop yunoncha “tropos” so‘zidan olingan bo‘lib, “burilish, ko‘chma obraz” degan ma’noni anglatadi shuning uchun A.A. Potebnya tropni “bezatilgan, ko‘chma nutq" sifatida tushinilishi kerak deydi. [4.344]

Stilistik figuralar deb nutq ta’sirchanligini kuchaytirish, tasviriylikni oshirishga xizmat qiluvchi maxsus sintaktik qurilish, nutq ko‘rinishiga aytiladi. [5. 40]

N.M. Karachentseva troplar va ritorik figuralar ifodaviylik va tasviriylikni kuchaytirishning funksional belgisi bo‘yicha mos keladi deb hisoblaydi va ritorika terminologik tizimida "tropa" tushunchasi har doim "figura" tushunchasini o‘z ichiga oladi deb ta’kidlaydi. [6.265]

Biroq, bu tushunchalar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Troplar va ritorik figuralarni ajratish muammosi hal qilinmagan. Ba'zi olimlar jumladan Yu. Lotman ularni yagona ajralmas butun deb hisoblaydi. [7. 98] Boshqalari "figura" "tropa" tushunchasini o‘z ichiga oladi, uchinchilar tropa va figura "birlik va birlik emaslik xususiyatlariga ega" degan xulosaga kelishadi deya ta’riflaydi V.I.Korolkov. [8.60]

V.P. Moskvinninig ta’rifiiga ko‘ra “trop” tushunchasining ikki talqini mavjud — keng va tor. Tor tushunchada “trop” — bu “badiiy nutqning dekorativ vositalari sifatida ishlatiladigan semantik jihatdan ikkiyoqlama nomlar”. Keng tushunchada “trop” 3 variantda qo‘llaniladi: 1) figuralarning bir turi sifatida (qayta talqin figuralari); 2) ularning dekorativ-estetik funksiyasidan qat’i nazar, har qanday semantik ikkiyoqlama vositalar; 3) barcha til vositalari, ular “dekorativ funksiyani bajaradi (epitet) yoki bunday funksiyani bajarishi mumkin (metafora, metonimiya, perifraza, taqqoslash)”. [9.376]

Shunday qilib, trop — bu “so‘zning majoziy ma’noda qo‘llanishi” deya izohlaydi V.D. Chernets, yoki so‘zning asosiy ma’nosini o‘zgartirish usullari deb ta’riflaydi V. B. Tomashevskiy. [10.194]

A. Gornfeld izohiga ko‘ra nutqda ishlatiladigan figuralar ko‘pincha “harakat shakllari bilan — raqsdagi figuralar deb ataladigan” yoki V.N. Toporovning fikricha “geometrik figuralarga o‘xshash turdagi shakllarni hosil qiluvchi fazoviy shakllar bilan” taqqoslanadi. [11.335]

Alogizm tamoyiliga asoslangan uslubiy vositalarni trop va figuraga ajratish uchun mantiqiy nomuvofiqlik, obrazlilik, noodatiy sintaktik va semantik bog‘lanishlar va mantiqiy nomuvofiqlikni qanchalik kuchli ifodalayotganiga qarab ajratiladi.

Tadqiqotchilar odatda mantiqsizlik uslubiy vositalarini har xil ro‘yxat shaklida keltiradilar. Masalan, V.P. Moskvin mantiqiy nomuvofiqlik qonunining ataylab buzilishi asosida tuzilgan figuralar qatoriga *paralipsis, proslepsis, katafasis, apofaziya, apodozis, gisteroproteron, katakosmesisni* kiritadi. [12.285]

O.S. Kojovnikova “mantiqiy qarama-qarshilik bir qator stilistik usullar uchun xosdir: *oksimoron, antifrasa, asteizm, paralipsis, apofaziya va sinesiosis*” deb ta'kidlaydi. [13.117]

B.T. Ganeevning allofroniya hodisasi sifatida ko‘p stilistik usullarni ko‘rib chiqqan va ushbu keng ro‘yxatni keltirgan: *amfiboliya, antanagoga, antiteza, so‘z o‘yini (kalam-*

bur), oksimoron, paradoks, sinoykioza, anafora, alogizm, anakronizm, antimetabola, antistrefon, gisteron proteron, metalipsis, metateza, xiazma, kontaminatsiya, apofaziya, antipofora, litota, salbiy taqqoslash, antifrasa, jumboq, istehzo, katakreza, metalogiya, metafora, metonimiya, jonlantirish, kinoya (sar-kazm), sinekdoxa, apostrofa, perifraza, ritorik savol, gip-erbola, grotesk, antanaklaz, begonalashtirish, anakoluf, antimeriya, gendiadis, zevgma, sillipsis, sinkriza va enallaga. [14.214]

Xulosa o‘rnida aytish joizki alogizm tamoyiliga asoslangan uslubiy vositalar sirasi rang barangdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Galperin I.R. Stylistics, Higher school 1977 p.135

2.https://ru.wikipedia.org/wiki/

3.Пекарская, И. В. Контаминация в контексте проблемы системности стилистических ресурсов русского языка. Часть 1 / И. В. Пекар ская. – Абакан: Изд-во ХГУ им. Н. Ф. Катанова, 2000. – 248 с.

4.Потебня А.А. П64 Теоретическая поэтика / Сост., вступ. ст., коммент. А.Б. Муратова. — М.: Высш. шк., 1990. — 344 с. — (Клас сика литературной науки).

5.Lapasov J. “Badiiy matn va lisoniy tahlil” Toshkent <O‘qituvchi> 1995

6.Караченцева, Н. М. К истории русской филологической терминологии: тропы и фигуры [Текст] : дис. ... канд. филол. наук : 10.02.01 / Н. М. Караченцева. - Ростов-н/Д, 1999. - 336 с. (с.265)

7.Лотман, Ю. М. Риторика [Текст] / Ю. М. Лотман // Риторика. - 1995. - №2.-С . 98-108

8.Корольков, В. И. К теории фигур [Текст] / В. И. Корольков // Сборник научных трудов. Вып. № 78. - М. : МГПИИЯ, 1973. - С. 60-93.

9.Москвин, В. П. Выразительные средства современной русской речи: Тропы и фигуры. Общая и частная классификация. Терминологический словарь [Текст] / В. П. Москвин. - М. : URSS, 2006. - 376 с (с.3-6)

10. Чернец, Л. В. К теории поэтических тропов [Текст] / Л. В. Чернец // Вестник Московского университета. Серия 9. Филология. — 2001а. - № 2. - С. 7-18. (с.7) // Томашевский, Б. В. Стилистика [Текст] / Б. В. Томашевский. — Л.: Ленинградский государственный университет, 1983. — 288 с. (с. 194)

11. Горнфельд, А. Фигура в поэтике и риторике [Текст] / А. Горнфельд // Вопросы теории и психологии творчества. — Харьков: [б. и.], 1911. - С. 335-339. (с.335) // Топоров, В. Н. Фигуры речи [Текст] / В. Н. Топоров // ЛЭС / Гл. ред. В. Н. Ярцева. - М.: Советская энциклопедия, 1990а. - С. 542-543 (с.543)

12. Москвин В. П. Стилистика русского языка. Теоретический курс. Изд-е 4-е, перераб. и доп. Ростов н/Д: Феникс, 2006. 630 с. (с.285-286)

13. Кожевникова О. С. Риторический прием парадокса и его отношение к норме (на материале текстов русской постмодернистской литературы) // Речевое общение: специализированный вестник. Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2011. Вып. 12 (20). С. 117-124

14. Ганеев Б. Т. Противоречия в языке и речи: монография. Уфа: Изд-во БГПУ, 2004. 472 с (С. 214-232)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sidiqov Qosim Abilovich
Namangan Davlat Universiteti
Filologiya fanlari nomzodi, professor
E-mail: qosimjon1977@mail.ru

METAFORA FRAZEOLOGIK BIRLIK SIFATIDA VA UNING TARJIMA MUAMMOLARI
(“Qutadg‘u bilig”ning xorijiy tarjimalari misolida)

Annotatsiya: *Ushbu maqola metaforalarni frazeologik birliklarning bir qismi sifatida tarjima qilish masalalariga bag‘ishlangan. Asliyatdagi ba’zi metaforalar izohlanib, ularning tarjimada berilishi ilmiy tahlil qilingan. Frazeologik birliklar tarjimasiga oid maqolalar yuzasidan ham ayrim tanqidiy fikrlar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazeologizm, metafora, badiiy tasvir vositalari, qo‘chma ma’no, so‘z san’ati, she’riyat, poetik mahorat, polisemiya, idioma, maqol va matallar, simvolik ma’no, frazeologik birikma.*

Сидиков Косим Абилович
Наманганский Государственный Университет
Кандидат филологических наук, профессор

МЕТАФОРА КАК ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ ЕДИНИЦА И ЕЁ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА
(на примере зарубежных переводов «Кутадгу билиг»)

Аннотация: *Данная статья посвящена вопросам перевода метафор как части фразеологических единиц. В ней рассматриваются отдельные метафоры, встречающиеся в оригинальном тексте, и проводится научный анализ их передачи в переводе. Также высказываются критические замечания по ряду статей, касающихся перевода фразеологических единиц.*

Ключевые слова: *фразеология, фразеологизм, метафора, художественно-выразительные средства, переносное значение, словесное искусство, поэзия, поэтическое мастерство, полисемия, идиома, пословицы и поговорки, символическое значение, фразеологическое сочетание.*

Sidiqov Qosim Abilovich
Namangan State University
Candidate of Philological Sciences, professor

METAPHOR AS A PHRASEOLOGICAL UNIT AND ITS TRANSLATION ISSUES
(based on foreign translations of “Qutadgu bilig”)

Annotation: *This article is devoted to the issues of translating metaphors as part of phraseological units. Some metaphors in the original are explained and their presentation in translation is scientifically analyzed. Some critical opinions are also expressed regarding articles on the translation of phraseological units.*

Keywords: *phraseology, phraseologism, metaphor, artistic expressive means, figurative meaning, verbal art, poetry, poetic mastery, polysemy, idiom, proverbs and sayings, symbolic meaning, phraseological unit.*

Kirish

Ma’lumki frazeologiya tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holati va tarixiy taraqqiyotini tekshiruvchi bo‘limdir. [9, 56]

Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Rus tilshunos olimi Koonin frazeologik birliklarni leksik tizimning muhim komponenti deb biladi. U frazeologik birliklarni “kompleks, doimiy, shakllangan va stilistik ahamiyatga ega bo‘lgan ifodalar” deb ta’riflaydi. Kooninning fikricha, frazeologik birliklar tilning semantik va sintaktik

jihatlariga asoslanadi va ular ma'lum bir til va madaniyatning xususiyatlarini aks ettiradi.[11, 68] Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farklab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Yana bir rus tilshunos olimi Vinogradov frazeologik birliklarni tilning asosiy elementlaridan biri sifatida ko'rgan va ularning semantik tizimini o'rganishga katta e'tibor bergan. U frazeologik birliklarni quyidagicha tasniflagan: sillabik frazeologik birliklar (soddaroq va oddiy ifodalar), polisemitik frazeologik birliklar (bir nechta ma'noga ega bo'lgan ifodalar), metaforal frazeologik birliklar (ma'naviy ko'chirishlar asosida shakllangan birliklar).[10, 123] Idiomafrazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar Frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, Frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlalar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni Frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Bilamizki, metafora – so'z yoki iborani o'xshashlik yoki o'xshatishga asoslangan ko'chma ma'noda ishlatish va shunday ma'noda ishlatilgan so'z yoki ibora; istiora, majoz bo'lib frazeologiyaning bir qismidir. Ingliz tilshunos olimi Mark Jonson ta'kidlaydiki, metaforalarni inson tafakkuri va tilining asosiy tarkibiy qismi, metaforatik frazeologik birliklar insonning dunyoqarashi va tushunchalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. [9, 10]

Badiiy adabiyotda metofora keng va tor ma'nolarga ega. U keng ma'noda qo'llanilganda o'xshatish va sifatlashga asoslangan badiiy tasvir vositalari bo'lmish metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a va boshqa bir qator badiiy san'atlarni ham o'z ichiga oladi. Ingliz tilidagi metofora tushunchasi bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki narsa yoki voqelikning ma'lum xususiyatlarini biridan boshqasiga ko'chishidir. O'zbek adabiyoti, xususan, she'riyatida ham metoforaning o'rni beqiyos. She'riy asarlarda barcha majozlar kabi metafora ham narsa-hodisalarni aniq-ravshan, ta'sirchan, ohorli tasvirlashga qaratiladi Ilk turkiy yozma obidalardan sanalmish "Qutadg'u bilig" o'zining nafis poetikasi va chuqur falsafiy ma'nosi bilan alohida ahamiyatga ega. Asarning badiiy tili muallifning nozik did, yuksak badiiy mahorat va chuqur bilim egasi ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumki, tildagi polisemiya (ko'pma'nolilik) hodisasi so'z san'atkorlari uchun katta imkoniyat yaratadi. Zero, shoir va yozuvchilar nozik his-hayajon va kechinmalarni tasvirlashda rang-barang so'zlar va ularning turli-tuman majoziy ma'nolaridan foydalanadilar. Buning natijasida uslub g'alizliklariga barham berilib tasvirlanayotgan manzaraning aniqligi, mazmuning teranligiga ыаror topadi. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"da mohirlik bilan qo'llagan badiiy tasvir vositalari orasida metoforaning o'rni katta. Metofora yaratish uchun mos voqelik va predmetni tanlay olish shoirning poetik mahoratini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

"Qutadg'u bilig"dagi metaforalar tadqiqida professor B.To'xliyevning xizmatlari alohida e'tiborga loyiq. [3, 496] Tarjimashunos Z.Sodiqov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida "Qutadg'u bilig" metaforalarini nemis tilida qayta yaratish masalasini ilmiy tahlildan o'tkazdi.[8, 230] Asarning birinchi inglizcha tarjimasi muallifi R.Denkoff "Qutadg'u bilig" tarjimasida o'ziga xos muvofaqqiyatga erishdi. [6, 265] Uning ikkinchi inglizcha tarjimasini amalga oshirgan angliyalik shoir-tarjimon Uolter Mey "Qutadg'u bilig"ni to'laligicha she'riy qayta yarata oldi. [7, 365]

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"da qo'llagan metaforalarni tarjimada aks etishini tahlil qilishdan maqsad u yoki bu tarjimon xatolarini topish yoki ularni tanqid qilish emas, balki ushbu tasvir vositalari ingliz tilida qanday ifoda topganini va qaysi mutarjim asliyatga yaqinroq kelganini aniqlash va ularning tarjima tamoyillari tayin qilish, kezi kelganda bo'lajak nashrlar uchun muqobil variantlar tavsiya etishdir.

Tahlillar va natijalar

"Qutadg'u bilig"dagi metaforalar orasida inson tana a'zolariga asoslangan metaforalarning salmoqli o'rni bor. Muallif bunday metaforalarni *bash*-bosh, *ko'z*-ko'z, *juz*-yuz, *til*-til, *bayir*-jigar (bag'ir), *bo'yun*-bo'yin , *adaq*-oyoq va boshqa tana a'zolari nomlari vositasida yaratgan. Bu ularning inson hayotida bajaradigan vazifalardan kelib chiqadi. Mazkur so'zlarning ko'pchiligi hozirda ham badiiy tasvir vositalari uchun kerakli unsur hisoblanadi.

Tarjimashunoslikning bir qancha muhim masalalari qatori, maqol, matal, idiomalar, so'z o'yinlari, metaforalar va obrazli iboralarni tarjima qilish masalasi katta ahamiyatga ega. Bu borada atoqli tarjimashunos olim A.V.Fedorov: "Frazeologiya masalalari va turli tillarda so'zlarning har xil birikishiga oid umumiy muammo, tarjima amaliyoti bilan birga tarjima nazariyasi uchun ham g'oyat muhimdir. Chunki turli tillarda moddiy ma'nosi bir xil bo'lgan so'zlarning ma'no va uslub vazifalari bir-biridan farq qilishi tarjimon uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi"- degan xulosaga kelgan. [1, 216]

Shoir tilning foydasi va zarari to'g'risida fikr yuritar ekan, uni arslonga qiyoslaydi:

160. Til arslan turur ko'r eshikda yatur
Aya evlug er saq bashinni yeyir
Til hovlida (ya'ni qafasda) yotgan arslon kabidir,
Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi.

Mazkur baytda ikkita metafora qo‘llanilgan. *Til arslan turur* va *bashinni yeyir*. Q. Karimov tabdilida baytdagi birinchi metafora o‘zbek tiliga metafora emas, balki “arslon kabidir”- o‘xshatish va ikkinchisi esa “boshingni yeydi”- metafora shaklida o‘tgan. [8, 365]

Ushbu baytning R.Denkoff tarjimasi:

The tongue is a lion crouching on the threshold—householder, take care, or it will bite off your head.

(Til hovlida yotgan sherdir- ey qo‘riqchi, xushyor bo‘l, bo‘lmasa, u seni boshingni tishlab uzadi)

U. Mey tarjimasi:

164. A language is like a wild lion at the gate –

You make just one slip, and you are torn down by fate.

(*Til darvozada yotgan sher kabidir-*

Bitta behuda qadam tashlasang, taqdir seni majaqlar)

Ko‘rinadiki, R.Denkoff har ikki metaforani ham ajoyib usulda-metaforik shaklda kitobxonga yetkazgan. U.Mey talqinida asliyatdagi metaforalar yo‘qolib ketgan. Baytning ikkinchi misrasidagi “Agar tilingga ehtiyot bo‘lmasang, tiling boshingni yeydi” “Bitta behuda qadam tashlasang, taqdir seni majaqlar”ga o‘zgarib ketgan va bayt mazmuni lat yegan. Muallif ochib bergan ma’no o‘z kuchini yo‘qotgan. Asliyat muallifi tilning zararini ifodolovchi go‘zal metaforasi boshqa ma’nodagi jo‘n gapga aylanib qolgan.

Asliyatda	Q.Karimovda	R. Denkoffda	U.Meyda
til arslan turur	*til arslon kabidir*	*the tongue is a lion*	*A language is like a wild lion*
bashinni yeyir	*boshingni yoydi*	*it will bite off your head*	*yo u are torn down by fate*

Tarjimada muallif uslubini bera olish uchun badiiy tasvir vositalari, jumladan metaforalarni tanlab ola bilish va ularni maromiga yetkazib tarjima qilish muhim ahamiyatga ega. Metafora yoki metaforik birikmalarni o‘zgartirib o‘girish asar tilini zaiflashtiradi va uning badiiy qimmatiga salbiy ta’sir etadi. “Qutadg‘u bilig”ning “O‘zg‘urmish O‘gdulmishga pand berishini aytadi” bobida O‘zg‘urmish o‘limi oldidan qarindoshi O‘gdulmishga bu dunyo ishlari to‘g‘risida pand-nasihatlar qilib, bu dunyo havaslariga berilmay hushyor bo‘lishlikka undaydi. Muallif ushbu satrlarni mana bunday ifodalaydi:

6035. Hava bas uqush birle nafs boyni si,

Bu-ul er nishani uqush belgusi.

Havasni bos, zakovat (kuchi) bilan nafs bo‘ynini sindir,

Mardning nishoni, zakovat belgisi shudir.

Denkoff tarjimasi:

Overcome desire by means of intellect, and break the neck of your carnal soul. This is a sign of s true man, the mark of true intellect.

(Zakovat yordamida havaslaringdan ustun kel, va nafsing bo‘ynini sindir. Shudir xaqiqiy erlik belgisi, xaqiqiy zakovat nishoni)

U. Meyda:

6162. Calm down your passions and vices likewise:

A man can have, surely, no better advice.

(Xis-hayajon va , badxulqlikdan tiyil,

Kishiga bundan yaxshiroq maslahat bo‘lmaydi.)

Asliyatda *“boyni si”* (bo‘ynini sindir) metaforasi qo‘llanilgan bo‘lib, nafsni jilovlash, unga qul bo‘lmaslik masalasi *nafs bo‘ynini sindirish*ga ko‘chirilmoqda. Bo‘yin sindirish bu o‘ldirishdir. Chunki bo‘yni singan jonzot bir daqiqa ham yashamaydi. Shunday kuchli ko‘chim-metforik ibora R.Denkoff tarjimasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, fikrning o‘quvchiga ta’sir kuchi tarjimada ham susaymagan. Biroq U.Mey talqinida garchi bayt mazmunining “bir uchi” ko‘ringan bo‘lsa-da, muallifning uslubi, voqelikka bo‘lgan munosabati, fikrning ta’sir kuchi umuman pasayib ketgan. Misralardagi *havas*, *zakovat*, *nafs*, *mardlik*, *erlik* kabi so‘zlardan hech biri U.Mey tarjimasida o‘z aksini topmagan. Baytning ikkinchi misrasi mazmuni tarjimada qo‘pol ravishda buzilib, umuman boshqa mavzuga burib yuborilgan. Buning sababi nimada? Shunday olamshumul asarni tarjima qilishga bel bog‘lagan U.Mey nima uchun bunday yo‘ldan bordi? Balki buning sababi mutarjimning asarni vositachi til (podsrochnik) orqali o‘girganligimi? Bu farazlarimizni qiyosiy tahlil natijalari to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi. U.Mey asarni S.N. Ivanovning ruscha tarjimasidan o‘girgan. Vositachi til orqali tarjima masalasida professor G‘. Salomov shunday deydi: “Afsuski, o‘zbek tilidan boshka tillarga vositachi til orqali qilinayotgan ko‘p tarjimalar hozirgi talabga javob bermaydi. Badiiy asarlarning katta leksik, frazeologik va uslub boyligi, yozuvchilarnnng badiiy mahorati, so‘z san’ati, individual uslub jilosi va ular qo‘llagan turli-tuman badiiy vositalarning rang-barangligi bu tarjimalarda yetarli darajada o‘z aksini topmagan. Kitobxonni hayajonga soladigan va unga katta estetik zavq beradigan eng nozik nuqtalar ularda so‘nib qolgan.” [4, 364] Buning yaqqol misolini yuqoridagi baytning ruscha tarjimasida ko‘rish mumkin.

S.N Ivanov tarjimasi:

6162. Смири свои страсти, сломи им хребет,

У мужа нет более верных примет

Bizningcha, mutarjim U.Mey tarjima jarayonida “Qutadg‘u bilig”ning boshqa tillardagi tarjimalari va ular bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarga murojaat qilganda bunday g‘alizliklar kelib chiqmas edi. U.Mey she’riy tarjimasi o‘zida asliyatning vazni va qofiyalanishini ya’ni baytning she’riy ohangini aks ettira oladi. Lekin ushbu bayt

Calm down your passions and vices which is

Sign of real man and intellect of course
(Xis-hayajond va, badxulqlikdan tiyil, shudir shubhasiz xaqiqiy erlik va zakovat belgisi) tarzida berilsa maqsadaga muvofiq bo‘lardi va mazmunga shikast yetmagan bo‘lardi.

Oyto‘ldi O‘gdulmishga nasihat qilar ekan, doimo oqil, dono, yuksak hayot tajribasiga ega kishilarning maslahatlariga amal qilish xayrli ish ekanligini ta’kidlaydi. Quyidagi baytda shoir o‘sha dono kishilarning aqlu zakovatiga ta’rif berib o‘tadi:

1321. Neku ter eshitgil sinamish kishi
Sinamish kishiler bilir ish bashi
Sinagan kishi nima deydi, eshitgin,
Sinagan kishilar ishning boshini (ko‘zini) biladi.

Muallif “sinamish kishi” deganda hayot sinovlaridan o‘tgan, oqu qorani tanigan dono bir kishini nazarda tutadi va uni ish “boshini biluvchi”, ya’ni nima harakat to‘g‘ri-yu nimasi noto‘g‘ri amalligini ajrata oluvchi kishi obrazini gavdalantiradi. Ushbu bayt R. Denkoff tarjimasida quyidagicha ifodalanadi:

One with much experience in these matters put in this way.
(*Tajribali kishi buni mana bunday ifodalaydi)*

Ayni bayt U.Mey tarjimasida quyidagicha jaranglaydi:

1336. A wise man once said, very skilled and mature,
And seeing the root of all matters, what’s more.
(Juda tajribali va yetuk kishi va barcha narsaning ildizini (asosini) ko‘ruvchi kishi aytgan ekan)

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bayt mazmunini imkon qadar asliyatga yaqin holda ochishda U.Meyning tarjimasi asliyatga yaqinroq. Asardagi “bilir ish bashi” metaforasi “seeing the root of all matters- barcha narsaning ildizini (asosini) ko‘ruvchi” tarzida muqobil variant bilan o‘girilgan va bayt mazmuni kitobxonga to‘laqonli yetib borgan. Ushbu bayt R.Denkoff tarjimasida bir qadar o‘zining badiiy jilosi va mazmunini yo‘qotgan. Qirg‘iz olimasi A.Kasiyeva ushbu baytning S.Ivanov va U.Mey tomonidan amalga oshirilgan ruscha hamda inglizcha tarjimasini tahlil etar ekan, mazkur variantda metafora o‘z ma’nosini yo‘qotgan va mazmun susayganini aytadi.[2, 119] Ammo tadqiqodchi mutarjimning tarjima jarayonida qaysi tarjima tamoyilidan foydalanganligiga e’tibor qaratmaydi va natijada tarjimani “yaroqsiz” deb baholaydi. Fikrimizcha, U.Mey so‘zma-so‘z tarjimadan qochib, muqobil variant berish orqali baytning mazmunini to‘laqonli ochib bera olgan. *Bilir ish bashi* metaforasi *-seeing the root of all matters- barcha narsaning ildizini (asosini) ko‘ruvchi* tarzida o‘girilgan. A. Kasiyeva U.Meyni ushbu metaforani *The head of procession-jarayon boshi* tarzida o‘girmaganlikda ayblaydi. Vaholanki, *seeing the root of all matters- barcha narsaning ildizini (asosini) ko‘ruvchi* iborasi yuqoridagi fikrni to‘la o‘zida mujassamlashtirgan-ku!

Tarjima o‘ta murakkab jarayon va mutarjimning xatosini topish oson ish, Lekin tarjima tamoyillari bo‘yicha fikr mag‘zini chaqish asosiy vazifa bo‘lishi lozim. Shuning uchun metaforalarni ayni asliyatga mos holda muqobil variant bilan o‘girar ekan, buning uchun tarjimonni ayblayverish adolatdan emas. Boshqa bir baytga e’tibor qilamiz.

3244. Yashuq yandы yerke yakurdы bashын,
Yaruq dunya mengzi kizardi ishin.
Quyosh qaytdi, boshini yerga yaqinlashtirdi,
Yorug‘ jahon yuzi zulmat pardasi bilan qoraydi.

R.Denkoffda:

Sol came back to earth and the World, her bright complexion now blackened with soot
(Quyosh yerga qaytdi va dunyoning yorug‘ yuzi qora kuya bilan qoraydi)

U. Meyda:

3283 The sun in the west also went to its rest,
With reddening rays, did the whole world invest?
(G‘arbda quyosh ham dam olishga ketdi
Qizil nurlari bilan butun dunyoni bo‘yadi.)

Baytda *“yirke yakurdi bashin- boshini yerga yaqinlashtirdi* metaforasi har ikkala tarjimada ham tushib qolgan. Asliyatdagi quyoshning botish vaqtidagi tabiat tasviri xar ikkala tarjimada mavhumlashgan. R.Denkoff va U.Meyning quyoshi Yusuf Bolasog‘uniyning quyoshidan ancha xira va jo‘n botgan. Zero *boshini yerga yaqinlashtirdi* iborasi Ingliz tilida *laid his head on the earth-boshini yerga qo‘ydi* tarzida ham berilishi mumkin edi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Yusuf Xos Hojib qo‘llagan metaforalarning o‘ziyoq uning mahoratli so‘z san’atkori ekanligini isbotlaydi. “Qutadg‘u bilig” metaforalarini boshqa tillarga o‘girish tarjimonlardan katta mas’uliyat va qobiliyat talab qiladi. Yuqorida ko‘rilganidek, metaforalar tarjimasida goh U.Mey, goh R.Denkoff asliyatga yaqin kelganlar. Ko‘p hollarda bu nozik badiiy tasvir vositasining jilosi tarjimada xiralashgan. Tarjima tahlilida doim ham so‘zma-so‘zlikni da’vo qilmaslik lozim Aksincha tarjima sifatini asliyat mohiyatini qanchalik ochib berilganiga qarab baholash kerak. Bu aslo tasvir vositalaridan voz kechish degani emas. Tabiiyki, doimo metaforani metafora bilan tarjima qilishni imkoni yo‘q. Bunga tarjima qilinayotgan tilda ayni ekvavalent mavjud emasligi sabab bo‘ladi. Tarjimadan maqsad matn yaratish emas, balki bir tildagi asar ichida yashiringan chamanzorni “toptamay”, ikkinchi til kitobxoniga ko‘rsatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.А.В. Федоров. Введение в теорию перевода Москва 1958. 216 стр.

2.А.Касыева. Антропоморфная метафора в поэме «Кутадгу билиг» и собенности перевода ее на английский язык. Sosial bilimler Dergisi. Халқаро конференция материаллари. Бишкек 2006. 119-б.

3.Б.Тўхлиев “Қутадғу билиг”нинг поэтикаси масалалари // Ўлмас обидалар. Фан нашриёти. Тошкент. 496-б.

4.Ғ. Саломов. Тил ва таржима. Тошкент. Фан 1966. 364-б.

5.З.Содиқов. Ю.Х.Ҳожиб “Қутадғу билиг” асарининг олмонча илмий –адабий талқини.Фил.фан. номз. илмий даражаси олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент 1994. 86-б.

6.“Wisdom of Royal Glory” Translation with an Introduction and notes by Robert Dankoff. The University of Chicago Press, Chicago.

7.Yusuf Balasaguni. Beneficent knowledge / Translated into English by Walter May. – M., 1998.

8.Юсуф Хос Ҳожиб Қутадғу-билиг. Транскрипция ва хозирги ўзбек тилида тавсиф Қ. Каримовники. Т.: Фан 1971.

9.Mark Johnson. “Metaphors We Live By”. - University of Chicago Press, 1980, - 1–10p

10. В.В. Виноградов. “Основы фразеологии русского языка”, 1947, - С.123

11. А.В. Конин. “Русская фразеология”, 1966, - С.68

12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologiya

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Akbarov Zukhriddin
Teacher, English Philology Department
University of Business and Science.
Email: zuhriddinakbarov1993@gmail.com

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF SOUND: EXAMINING LABOV`S CONTRIBUTIONS TO SOCIOLINGUISTICS, THE ROLE OF GEOGRAPHY, OCCUPATION AND ETHNICITY IN SOCIOLINGUISTICS

Annotation. *This work explores two seminal studies by William Labov: his investigation into diphthong shifts on Martha's Vineyard and his research on the pronunciation of /r/ in New York City. The introduction provides a brief overview of Labov's contributions to sociolinguistics, emphasizing his focus on the social dimensions of language. The "Researches" section delves into the methodologies and findings of each study, highlighting the influence of social factors such as age, occupation, ethnicity, and socioeconomic class on language use. The conclusion summarizes the key findings and discusses the broader implications of Labov's work for sociolinguistics, emphasizing the dynamic relationship between language, society, and identity. The work concludes with a brief bibliography.*

Keywords: *Language Variation, Social Stratification, Diphthong Shifts, Pronunciation, /r/ Pronunciation, Social Class, Linguistic Change, Social Identity.*

Akbarov Zuhriddin
University of Business and Science
Filologiya kafedrasi xorijiy til fani o'qituvchisi

TOVUSHNINGNING IJTIMOIY AHAMIYATI: LABOVNING IJTIMOIY LINGVISTIKAGA QO'SHGAN HISSASINI, GEOGRAFIYA, KASB VA ETNIK MANSUBLIKNING SOTSIOLINGVISTIKADAGI O'RNI

Annotatsiya*. Bu ish Uilyam Labovning ikkita muhim tadqiqotini o'rganadi: Uning Marta uzumzor dalasidagi diftong siljishlari va Nyu-York shahrida /r/ talaffuzi bo'yicha tadqiqoti. Muqaddimada Labovning sotsiolingvistikaga qo'shgan hissasi haqida qisqacha ma'lumot berilgan, uning tilning ijtimoiy jihatlariga e'tibor qaratilishi ta'kidlangan. "Tadqiqotlar" bo'limi har bir tadqiqotning metodologiyasi va xulosalariga chuqurroq kirib, yosh, kasb-hunar, millat va ijtimoiy-iqtisodiy sinf kabi ijtimoiy omillarning tildan foydalanishga ta'sirini yoritadi. Xulosa asosiy topilmalarni umumlashtiradi va Labov ishining sotsiolingvistika uchun kengroq oqibatlarini muhokama qiladi, til, jamiyat va o'ziga xoslik o'rtasidagi dinamik aloqani ta'kidlaydi. Tadqiqot qisqacha bibliografiya bilan yakunlanadi.*

Kalit so'zlar: *Til o'zgarishi, ijtimoiy tabaqalanish, diftong siljishi, talaffuz, /r/ talaffuz, ijtimoiy sinf, til o'zgarishi, ijtimoiy o'ziga xoslik.*

Акбаров Зухриддин
Преподаватель кафедры английской филологии

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЗВУКА: ИЗУЧЕНИЕ ВКЛАДОВ ЛАБОВА В СОЦИОЛИНГВИСТИКУ, РОЛИ ГЕОГРАФИИ, ПРОФЕССИИ И ЭТНИЧЕСКОЙ ПРИНАДЛЕЖНОСТИ В СОЦИОЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация*. В этой работе рассматриваются два основополагающих исследования Уильяма Лабова: его исследование дифтонговых сдвигов на острове Мартас-Винъярд и его исследование произношения /r/ в Нью-Йорке. Во введении дается краткий обзор вклада Лабова в социолингвистику, подчеркивая его внимание к социальным измерениям языка. Раздел «Исследования» углубляется в методологии и результаты каждого исследования, подчеркивая влияние социальных факторов, таких как возраст, род занятий, этническая принадлежность и социально-экономический класс, на использование языка. В заключении суммируются основные результаты и обсуждаются более широкие последствия работы Лабова для социолингвистики, подчеркивая динамические отношения между языком, обществом и идентичностью. Работа завершается краткой библиографией.*

Ключевые слова: *языковая вариация, социальная стратификация, дифтонговые сдвиги, произношение, произношение /r/, социальный класс, лингвистические изменения, социальная идентичность.*

Introduction

William Labov's pioneering work in sociolinguistics revolutionized our understanding of language as a social phenomenon. By meticulously observing how language use varies across different social groups, he demonstrated that seemingly minor linguistic features are deeply intertwined with social factors like class, ethnicity, and age. This introduction will briefly explore two of Labov's seminal studies: his investigation into diphthong shifts on Martha's Vineyard and his research on the pronunciation of /r/ in New York City. Labov's study on Martha's Vineyard examined how the pronunciation of the diphthongs /ai/ and /au/ varied across different segments of the island's population. He found that these sound changes were not random but rather influenced by social factors such as age, occupation, and ethnicity. For instance, the study revealed that the centralization of these diphthongs was more prevalent among certain age groups, particularly those aged 31-45, while older generations demonstrated less frequent use of this feature. By analyzing these variations, Labov demonstrated how linguistic change can be driven by social dynamics and cultural attitudes. In his New York City study, Labov focused on the pronunciation of the /r/ sound across different social classes. He observed that individuals from higher socioeconomic backgrounds were more likely to pronounce /r/ consistently, while those from lower socioeconomic backgrounds exhibited greater variation in their pronunciation. This research highlighted the significant impact of social class on language use, demonstrating how subtle linguistic features can serve as social markers and contribute to the construction of social identities.

Research project

The initial study of Labov took place on The island of Martha`s Vineyard analyzing the phonetic use of /ai/ and /au/diphthongs. The children, adults, and people from different occupations were the subjects of research who lived on the island and spoke the local dialect. The research aimed to clarify the sound change across different segments of the island's population. The research on Martha's Vineyard aimed to identify social factors that might influence the sound change in the diphthongs /ai/ and /au/ regarding age to see how different age groups including younger and older people pronounce the sounds. Another social factor was the professions to analyze how people from different occupations produce the /ai/ and /au/ diphthongs. The following one was ethnicity. For example, the cultural background of the people can affect the pronunciation of the sounds. Labov (1963) stated that "if we study the detailed configuration of this sound change against the social forces which affect the life of the island most deeply" (p. 294).[58] Centralization of the /ai/ and /au/ diphthongs was one of the main points of the research. It was mostly common among people aged between 31-45. While the older generation aged 75 used it less than any other age group. Others were variations of pronouncing /ai/ and /au/ concerning geographical, occupational, and ethnic group factors.

The second study took place in the New York City department and mostly focused on how people from different social classes pronounce the /r/. Labov conducted his research in three different stores, and interviewed customers, salespeople, and other staff members in the stores, and classified the ways of pronouncing /r/. The people who belong to higher social classes pronounced the /r/ consistently compared to people from lower social classes. Labov (1972) mentioned that "we have to notice how people produce language in content if there is not any specific monitoring by seeing how they use it in daily life rather than in interview situations" (p. 85).[59] The study showed how the minor sound /r/ can be influenced by social factors. How people produce different kinds of variations of one sound according to their social class.

Geography's Role in Sociolinguistics

Geography plays a significant role in sociolinguistics, as it shapes the way languages are used and evolve. Geographical isolation can lead to the development of distinct dialects, while close proximity between language communities can result in language contact and bilingualism. Geographical barriers, such as mountains or rivers, can limit contact between language communities, preserving linguistic diversity. Cornips and de Rooij (2019) mentioned that "The notions of place and belonging that figure in the title of this volume have been at the core of sociolinguistics from its early beginnings" (p. 2).[60] The geographical distribution of languages also influences language planning and policy decisions, such as determining official languages and promoting language education. Additionally, the linguistic landscape, or the visual display of language in public spaces, reflects the geographical distribution and social significance of languages. The study of language contact and language change across geographical space is a central concern of historical and comparative linguistics, which provides valuable insights into the complex interplay between geography and language. Additionally, geography can

[58] Labov, W. (1963). The social motivation of a sound change. WORD, 19(3), 273–309.

[59] Labov, W. (1972). The Social Stratification of (r) in New York City Department Stores. In Sociolinguistic Patterns (pp. 43-54). Philadelphia, PA: University of Pennsylvania Press.

[60] Cornips, L., & de Rooij, V. A. (2018). Introduction: Belonging through linguistic place-making in center-periphery constellations

influence language attitudes and ideologies, with certain dialects or languages associated with specific regions and social groups.

Occupation's Role in Sociolinguistics

Occupation plays a significant role in sociolinguistics by influencing the way individuals use language. Different professions often have their own specialized vocabulary, jargon, and communication styles. Wardhaugh and Fuller (2014) mentioned that "In order to talk about how speakers use language, we must talk about both individuals and groups, together with the relationships between people within and across groups" (p. 7).[61] For example, doctors use medical terminology, lawyers employ legal jargon, and software engineers utilize technical terms. These occupational dialects not only facilitate efficient communication within a particular field but also serve as markers of professional identity and expertise. Additionally, the social interactions within a workplace environment can shape language use. Factors such as power dynamics, hierarchy, and collaborative relationships can influence how individuals communicate with colleagues, superiors, and subordinates. By analyzing occupational language, sociolinguists can gain valuable insights into the social organization of work, the construction of professional identities, and the power relations within different occupational settings.

Ethnicity's Role in Sociolinguistics

Ethnicity plays a significant role in sociolinguistics, as language is often intertwined with ethnic identity. Language can serve as a marker of ethnic group membership, with certain linguistic features associated with specific ethnic groups. This can include distinct pronunciations, vocabulary, and grammatical structures. Additionally, language can be used to express and negotiate ethnic identity, as individuals may choose to emphasize or downplay their ethnic affiliation through their language use. However, the relationship between language and ethnicity is complex and multifaceted, influenced by historical, social, and political factors. Fought (2011) stated that "Recent sociolinguistic research has revealed the amazing power that linguistic practices have to shape and even transform ethnicity" (p. 239).[62] It is important to recognize that language is not solely determined by ethnicity and that individuals may exhibit linguistic variation within and across ethnic groups. Language distinct features are directly related to our social background, identity, and character as well. The way we speak, including our accent, vocabulary, grammar, and even the topics we discuss, is often a strong indicator of our social background, including our character, socioeconomic status, ethnicity, age, and gender.

Results

Labov's research on Martha's Vineyard investigated how the pronunciation of the diphthongs /ai/ and /au/ varied across different segments of the island's population. He examined factors like age, occupation, and ethnicity to understand the social influences on sound change. Initially, centralization of these diphthongs was found to be most common among people aged 31-45, while older individuals (75+) exhibited less centralization. The study also revealed variations in pronunciation linked to geography, occupation, and ethnicity. In his subsequent research in New York City, Labov focused on the pronunciation of the /r/ sound across different social classes. Following this, He observed that individuals from higher social classes pronounced /r/ more consistently than those from lower social classes. This research highlighted the significant impact of social factors on subtle linguistic variations, emphasizing the importance of observing everyday language use to understand how people produce language in natural contexts.

Conclusion

William Labov's pioneering research on the social dimensions of language has profoundly impacted our understanding of how language functions within human societies. Through his meticulous observations of language use in natural settings, Labov demonstrated that seemingly minor linguistic features are intricately linked to social factors such as class, ethnicity, and age. This conclusion will summarize the key findings of his studies on Martha's Vineyard and in New York City, and discuss their broader implications for sociolinguistics. The Martha's Vineyard study revealed that the pronunciation of diphthongs was not a random occurrence but rather a socially conditioned phenomenon. The centralization of /ai/ and /au/ was found to be more prevalent among certain age groups, particularly those aged 31-45, suggesting that these sound changes were influenced by social pressures and cultural attitudes. This research demonstrated that language change is not a purely internal linguistic process but rather a dynamic interaction between linguistic and social forces. Similarly, Labov's study in New York City revealed significant social stratification in the pronunciation of the /r/ sound. Individuals from higher socioeconomic backgrounds were more likely to pronounce /r/ consistently, while those from lower socioeconomic backgrounds exhibited greater variation. This finding underscored the crucial role of social class in shaping language use and highlighted how subtle linguistic features can serve as social markers, contributing to the construction of social identities. Labov's research methodology, which emphasized the importance of observing language in natural contexts, has revolutionized sociolinguistics. By

[61] Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. (2014). An introduction to sociolinguistics. John Wiley & Sons, Inc.

[62] Fought, C. (2011). Language and ethnicity. In R. Mesthrie & W. Wolfram (Eds.), The Cambridge handbook of sociolinguistics (pp. 238–257). Cambridge University Press.

moving beyond traditional, often artificial, linguistic analyses, he demonstrated the crucial role of social interaction and cultural context in shaping language use. His work has not only provided valuable insights into the social dimensions of language but also paved the way for further research on the complex interplay between language, society, and identity. Finally, William Labov's groundbreaking research has significantly advanced our understanding of language as a social phenomenon. His studies have demonstrated that language is not merely a system of abstract rules but rather a dynamic and multifaceted tool that reflects and reinforces social structures. By meticulously observing how language use varies across different social groups, Labov has provided invaluable insights into the complex relationship between language, society, and identity.

Used literature

1. Cornips, L., & de Rooij, V. A. (2018). Introduction: Belonging through linguistic place-making in center-periphery constellations.

2. Fought, C. (2011). Language and ethnicity. In R. Mesthrie & W. Wolfram (Eds.), The Cambridge Handbook of Sociolinguistics (pp. 238–257). Cambridge University Press.

3. Labov, W. (1963). The social motivation of a sound change. WORD, 19(3), 273–309.

4. Labov, W. (1972). The Social Stratification of (r) in New York City Department Stores. In Sociolinguistic Patterns (pp. 43-54). Philadelphia, PA: University of Pennsylvania Press.

5. Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. (2014). An introduction to sociolinguistics. John Wiley & Sons, Inc.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sulaymonov Mo‘minjon Yusubjonovich
filologiya fanlari nomzodi, Namangan davlat universiteti dotsenti
Xoldorova Gulnoza Husniddin qizi
FarDU tayanch doktoranti

UL OY O‘TLUG‘ YUZIN OCHSA

Annotatsiya. *Mazkur maqola mumtoz adabiyotimizda Alisher Navoiygacha bo‘lgan davrda turkiy tilda ijod qilgan sohibi devon shoir Hofiz Xorazmiy she’riyatining lingvomadaniy tadqiqiga bag‘ishlangan. Shoir asarlarida milliy kolorit va an’analarimizga xos bo‘lgan qadriyatlar, xususan isiriq kulti bilan bog‘liq she’riy parchalar Alisher Navoiy she’riyatidagi shu motiv bilan qiyosiy tahlil qilingan. Ispand, sipand atamalarining ma’nosi madaniy qadriyatlar fonida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, lingvomadaniyat, hazor asp band, ispand, sipand, isiriq, Sultonmurod Olimov.*

Сулаймонов Моминжон Юсубжонович
Кандидат филологических наук, доцент Наманганского государственного университета
Холдорова Гульноза Хусниддин кызы
Базовый докторант Ферганского государственного университета

ЕСЛИ ВОЗЛЮБЛЕННАЯ, СИЯЮЩАЯ КАК ЛУНА, ОТКРОЕТ СВОЁ ЛИЦО…

Аннотация. *Статья посвящена лингвокультурологическому исследованию поэзии поэта Хафиза Хорезми, который был владельцем Дивана на тюркском языке в нашей классической литературе до Алишера Навои. Анализируется национальный колорит и присущие нашим традициям ценности в творчестве поэта, в частности, поэтические фрагменты, связанные с культом исирика, в сравнении с этим мотивом в поэзии Алишера Навои. Раскрывается значение терминов испанд, сипанд на фоне культурных ценностей.*

Ключевые слова: *Хафиз Хорезми, Алишер Навои, языковая культура, хазор аср банд, испанд, сипанд, исирик, Султанмурод Олимов.*

Sulaymonov Mominjon Yusubjonovich,
Candidate of Philology, Associate Professor of Namangan State University
Holdorova Gulnoza Husniddin qizi
Fergana State University basic doctoral student

IF THE BELOVED, SHINING LIKE THE MOON, OPENS HER FACE…

Annotation*. This article is devoted to the linguistic and cultural study of the poetry of the poet Hafiz Khorezmii, who was the owner of the Divan in the Turkic language in our classical literature before Alisher Navoi. The national color and values inherent in our traditions in the poet’s works, in particular, the poetic fragments related to the cult of isiriq, are analyzed comparatively with this motif in the poetry of Alisher Navoi. The meaning of the terms ispand, sipand is revealed against the background of cultural values.*

Keywords: *Hafiz Khorezmii, Alisher Navoi, linguistic culture, hazor asp band, ispand, sipand, isiriq, Sultanmurod Olimov.*

Ona tilimizning tarixiy takomili, adabiyotimiz rivoji, xalqimiz tarixi, madaniyatini o‘rganishda mumtoz shoirlarimizning ijodiy merosi juda katta manbadir. Hofiz Xorazmiy ijodining ayrim xususiyatlarini tatqiq etganimizda ham bunga amin bo‘lamiz. Tilga antroposentrik nazariyaning olib kirilishi tilni insonda, insonni tilda tadqiq etish mumkinligini ko‘rsatdi. Insonning miyasida, ongida mavjud bo‘lgan lison uning ma’naviyatini, shu bilan birga o‘zi mansub bo‘lgan millatga doir ma’naviy qadriyatlarni, milliy ruhni ham aks ettiradi. SHuning uchun ham tilning qay tarzda amal qilishini til egasi bo‘lgan shaxs omili bilan birga ko‘rib chiqish zaruratga aylandi.

Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir.[63] Har bir asar yaratilgan

[63] Usmonova. Sh. Lingvokulturologiya . – Toshkent: “Universitet”. 2014, – B. 16.

davrning til xususiyatlarini, shu bilan birga madaniyatini ham yaqqol aks ettiruvchi oynadir. Hofiz Xorazmiy g‘azallarida ham bu jihatni sezish mumkin. Adib asarlarining til xususiyatlari u yashagan davrning ma’naviy qiyofasi haqida ham ma’lumot bera oladi. G‘azallarni tadqiq etish orqali Hofiz Xorazmiy davridagi o‘zbek tilining tarixiy takomilini, xususiyatlarini, o‘ziga xosligini va naqadar boyligini ham ko‘ramiz. Shu o‘rinda yana bir muhim jihat ko‘zga tashlanadi: g‘azallarda o‘z davri milliy odatlari ham namoyon bo‘lganligini ham e’tirof etamiz.

Hofiz Xorazmiy Navoiygacha bo‘lgan davrda eng mukammal devon tartib qilgan adiblardan biri bo‘lsa-da, Alisher Navoiy bu adib haqida, ijodi to‘g‘risida hech qanday qaydlar qoldirmagan. Hofizi Xorazmiyning Xorazmda tug‘ilib, SHerozda ijod qilganligi uning taqdir bitigi bo‘lganidek, Devonining ham Hindistondan topilishi, garchi Atoyi, Gadoiy kabi adiblar bilan bir davrda yashagan bo‘lsa-da, o‘z davrining nodir manbalari – “Funun ul-balog‘a”, “Majolis-un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat” da qayd etilmasligi yana-da sirlidir. Bu sirlilik, albatta, yangi tadqiqotlar uchun manba bo‘lishiga ishonamiz.

Hofiz Xorazmiy ijodini o‘rganish muhim ilmiy-estetik va nazariy ahamiyatga ega, chunki uning adabiy merosi 14-asrning oxiri 15-asrning boshlaridagi o‘zbek adabiyoti darajasini, mavqeyini belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Hofiz Xorazmiy lirikasini o‘rganish katta amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, bularsiz o‘sha davr adabiyotini to‘la va yaxlit tasavvur qilish mumkin emas.

Asli Xorazm zamini farzandi bo‘lsa-da, o‘zini mashhur fors-tojik shoiri Hofiz Sheroziyning shogirdi deb hisoblagan va shu sababdan Hofiz taxallusini tanlagan bu so‘z san’atkori hozirgacha bizga ma’lum bo‘lgan va o‘zbek tilida Alisher Navoiyga qadar mukammal devon tartib qilgan shoirlardan biridir[64].

Hofiz Xorazmiy g‘azaliyotida turkiy adabiyotda mavjud va umumiy bo‘lgan bir necha an’anaviy obrazlarga shoirning shaxsiy dunyoqarashi bilan yondashilganligi, badiiy jihatdan boyitilganini ham ko‘ramiz. Hofiz devonida mavjud 1052 g‘azal shoirning naqadar kuchli badiiy did sohibi ekanligidan darak beradi. Bu esa Navoiyga qadar ham turkiy adabiyotning aslida gullab-yashnaganini, alohida badiiy-estetik hodisa ekanligini dalillovchi jihatdir. Alisher Navoiy ijodi fors adabiyotiga ergashib yoki taqlidan vujudga kelgan hodisa emas, balki Hofiz Xorazmiy kabi buyuk ijodkorlarning ma’naviy chashmalari bilan aloqadorligi haqiqatga ancha yaqin [65] . Bu ikki adib dunyoqarashidagi ayrim o‘xshashliklar, she’riy san’atlarni qo‘llashdagi umumiylik, obrazlarga yondashuvdagi o‘zaro aloqadorlik bizni shu xulosalarimiz sari yetaklab borishi, shubhasiz.

Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida uchraydigan isiriq solish urf-odati bilan bog‘liq baytlar tahliliga kirishar ekanmiz, yana ikki adib qarashlarida qandaydir uzviylik borligini anglab etamiz. Garchi biror bir asarida Navoiy Hofiz nomini qayd etmagan bo‘lsa-da, bir masalaga bir xil munosbat shakli ular orasidagi mazmuniy aloqadorlik kasb etuvchi o‘xshatishlar, badiiy topilmalar Navoiy Hofiz baytlaridan qaysidir shaklda boxabar bo‘lganiga ishora qiladi. Bu borada ayrim taxminlarimiz bor: balki, Navoiy qo‘shiqlar yoki aytimlar orqali Hofiz qo‘llagan poetik tasvirlardan ta’sirlangandir. Bu masalaga faqatgina tarix guvoh. Biz bu borada o‘z qarashlarimizni ayrim baytlar izohi bilan dalillashga urindik.

Isiriq solish – odamlar va turli narsalarga go‘yo ko‘z tegishini va har xil ofatlarni qaytarish maqsadida isiriq o‘simligining qurigan shox barglarini tutatish. Ilgari isiriq solish irim qatoridagi odat bo‘lgan. Isiriq xokandoz yoki sopol tovoqda cho‘g‘ ustiga qo‘yib tutatiladi, uy ichi, odamlar, isiriq solishga mo‘ljallangan narsalar tutun bilan dudlanadi. Avvallari isiriqda ilohiy bir quvvat bor, deb e’tiqod qilishgan, isiriq tabarruk o‘simlik hisoblangan. Aslida esa isiriq tutunida har xil mikrob va viruslarni zararsizlantiradigan moddalar bor.[66]

Hofiz va Navoiy baytlarini o‘qir ekanmiz, bu odat XV asrda ham mavjud ekanligiga guvoh bo‘ldik. Hofiz Xorazmiy devonidagi yettita g‘azalda isiriq bilan bog‘liq qo‘llangan baytlarni uchratdik. Shoir isiriq so‘zining sipand, ispand shakllarida ishlatgan. Ispand, sipand, bu tojikcha so‘z bo‘lib, filologiya fanlari doktori Sultonmurod Olimning ta’kidlashicha, kelib chiqishi "hazor asp band", ya’ni ming otni (ot – ko‘chma, dev, nafs ma’nosida) bog‘laydi, shuning uchun o‘tga solinar ekan[67]. Vaqt o‘tib, “hazor asp band” birikmasi o‘zgarishga uchragan va hazor so‘zi tushib qolgan, asp band esa ispand, sipand bo‘lib qolgan. Avvalo, bu maqolamizda isiriqning ko‘z tegishdan asrovchi vosita ekanligiga e’tibor qaratganmiz. Isiriqning ko‘chma ma’noda “nafsni bog‘lashi” bilan bog‘liq ma’nosi tahlilga tortayotgan baytlarimizni tasavvufiy jihatdan ham tahlil qilish mumkinligini ko‘rsatdi. Bu haqida, albatta, keyingi maqolalarimizda to‘xtalib o‘tamiz.

Yoshlar orasida “xit” darajasiga ko‘tarilgan, ijtimoiy tarmoqlarni tom ma’noda “portlatib” yuborgan mashhur

[64] Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеъриятининг ривожи: Филол. фан. ном.дисс... автореф. – Тошкент: 1996. – Б. 26.

[65]Сулаймонов.М. Темурийлар даври Шерозда туркий шеърият (инглизча). НамДУ Илмий ахборотномаси, 2021, 3- сон, 337-341-бет. Яна: Сулаймонов.М.. Развитие доброй традиции. Звезда Востока. 2021.№ 1. Стр. 60-62. Яна: Сулаймонов.М. Ҳофиз Шерозий ва Ҳофиз Хоразмий: адабий алоқалар талқини.// Содружтво языков – содружество культур. Международный сборник научных статей. Совместный проект Наманганского государственного университета и Российского государственного педагогоческого университета им. А.И. Герцина. Выпуск седмой. – Наманган: 2021. Стр. 251-256

[66] Wikipedia.uz

[67] Bu ma’lumotni ustoz Sultonmurod Olimov biz bilan bo`lgan suhbatda aytib bergan edilar.

bir qo‘shiq matni Hofiz Xorazmiy qalamiga mansub bo‘lib, aynan sipand shaklini qo‘llangani kuzatiladi.

Qadi sarvi uza zulfi kamande,
Chu soldi, bo‘ldi jong‘a poybande.
Yetishmas xoki posig‘a aning sarv,
Agarchi chakdi bas qaddi balande.
Yuzi ustindagi ul donayi xol,
Yonar o‘t uzra erur chun sipande.
Shakar guftorlar bordur va lekin,
Aningtak yo‘qdurur bir no‘shxande.
So‘ziyu ko‘ziyu shirin tudoqi,
Erur shakar taqi bodomu qande.
G‘arib ermas pisand etmasa meni,
CHun andog‘ yo‘q jahonda xudpisande.
Eshiginda bu Hofiztak ko‘rinmas,
G‘aribe xasta miskin dardmande..[68]

Hofiz g‘azallarida spand alohida poetik tasvir sifatida qo‘llanganligini va darajama-daraja quyuqlashtirilib, badiiy joziba yaratganini ham alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Ko‘z tegmasun ul oy bikin yuzina tey-u,
O‘t ustida xol sipahi bo‘ldi ***sipandi.***[69]

Ya’ni ul oy yuzlining yuziga ko‘z tegmasin deb, olov ustida xol lashkarlari isiriq soldi shaklidagi poetik tasvir chindan ham juda esda qolarli chiqqan.

Yuzi ustindagi ul donayi xolin savadur,
Otashi ishqi bila kuygali jonim chu ***sipand****.*[70]

Mazkur baytlarda ham xol, otash, isiriq tasvirlari yonma-yon qo‘llanib badiiy joziba hosil qilgan.

Tegmasun bir yomon ko‘zi yuzina tey-u, Hofizo,
Hasrat o‘ting‘a jon bila ko‘ngul o‘zin ***sipand*** *etar.*[71]

Ko‘z tegmaslik uchun isiriq solish haqidagi tasvir mazkur baytda yana-da quyuqroq ifoda etilgan. Avvalgi baytlardagi ma’no tadrijan kuchaytirilgandek fikr tug‘diradi kitobxonda. Misol sifatida keltirilgan birinchi baytda xol sipahi spand bo‘lgan edi. Keyingi baytda esa ishq otashi bilan kuyish uchun jon spand sifatida tasvirlandi. Uchinchi baytda esa ishq otashi tasviri yana-da kuchaytirilib, Hasrat o‘ti uchun jon va ko‘ngil o‘zini spand etar tarzida ifodalanmoqda.

“Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da ispand so‘zi “Ispand – isirig‘” deya izohlangan va misol tariqasida “Saddi Iskandariy” dostonidagi

“Ne soat ki yuzlansa, komu murod,
Sochib o‘tqa ispand, o‘qung “in yakod” [72] bayti keltirilgan.

Navoiy ijodining haqiqiy ixlosmandlaridan biri filologiya fanlari doktori professor Sultonmurod Olimning tabdilicha, “Biron murod-maqsadingizga yetsangiz, ko‘z tegmasin uchun “in yakod” duosini o‘qing”. In yakod – ko‘z tegmasligi uchun o‘qiladigan duoning boshlanishi.

Alisher Navoiyning yana bir mashhur g‘azalida sipand so‘zi bilan bog‘liq tasvirni uchratamiz.

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas.
Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
CHu ulkim, bahrayi andin tilarmen bahramand etmas.
Netay huru pari bazminki qatlim, yo hayotimg‘a
Ayon ul zahri chashm aylab, nihon bu no‘shxand etmas.
Kerakmas oy ila kun shaklikim, husnu malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.
Kerak o‘z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga erda javloni samand etmas.
Ko‘ngul uz charxi zolidin firibin emakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o‘zga bo‘ynungg‘a kamand etmas.
Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy tegmasun, deb ko‘z
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.[73]

Aslida, bu baytda bir necha istioralarning ketma-ket qo‘llanganini kuzatishimiz mumkin: «oy», «muhabbat tuxmi», «o‘t» so‘zlari shu vazifani bajarib kelgan. Oy – yuzi oyga o‘xshaydigan yor timsoli. Faqat o‘xshatish qo‘shimchalari bo‘lmagani uchun u dabdurustdan tushunilmasligi mumkin. Ammo «oy»ning osmon jismi emas, balki insonni, alohida shaxsni anglatib kelayotgani sezilib turibdi. Shuning uchun adabiyotshunoslar istiorani qisqartirilgan o‘xshatish deb ham aytishadi. «Muhabbat tuxmi» «muhabbat» degan abstrakt ot bilan «tuxum» («urug‘ donasi») konkret otining birikuvidan hosil bo‘lgan. U insondagi nozik va qadrli bir tuyg‘uni anglatib turibdi. Ammo shu holatida u «ishq» yoki «muhabbat» so‘zlariga qaraganda yoqimliroq va go‘zalroqdir. «O‘t» bu yerda «olov» so‘zi bilan sinonim tarzda qo‘llanmoqda. Uning asosiy vazifasi ma’shuqa yuzidagi rangni ko‘rsatishdan iborat. Bu «olov rangi»dir. Yuzdagi qizillikning mana shu tarzdagi ifodasi go‘zallikning ham o‘ziga xos ifodasi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Mazkur baytda ham Hofiz Xorazmiy baytlari bilan mazmuniy aloqadorlik bor. Hofiz g‘azalida ham oy yuzli go‘zal tasviri mavjud, Navoiy esa uni yana-da takomillashtirib yuz timsoliga o‘tlug‘ sifatini ham qo‘shadiki, biz buni Hofiz baytlarida alohida-alohida g‘azallar tarkibida uchratdik.

E’tiborlisi, Hofiz Xorazmiy ijodida ham, Alisher Navoiy ijodida ham xalq udumlariga bir xil munosabat aks etganligi va shu davr ijodkorlarining qarashlarida bu holatning aks etmaganligidadir.

Alisher Navoiygacha turkiy tilda ijod qilgan shoirlar: mavlono Atoyi, mavlono Gadoyi, mavlono Lutfiy va boshqa ijodkorlarning lirik merosida sipand yoki ispand so‘zining qo‘llanganligi va isiriq solish bilan bog‘liq odat haqidagi baytlarni, shuningdek, bunga ishoralarni ham uchratmadik. Aynan, mana shu holat,

[68] Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. – Б. 172.
[69] Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. – Б. 243.
[70] Ҳофиз Хоразмий. Девон. 1-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. – Б. 87.
[71] Ҳофиз Хоразмий. Девон. 1-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. – Б.145.
[72] Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 52.
[73] www.ziyouz.com kutubxonasi

oldingi maqollarimizda ta'kidlaganimizdek, Navoiy hazratlari bilvosita bo'lmasa ham bevosita Hofiz Xorazmiy ijodidan xabardor bo'lganlar, degan taxminlarimizni tasdiqlovchi dalilday taassurot qoldirdi.

Yuqorida ko'rib o'tganlarimiz asnosida shunday xulosani aytish maqsadga muvofiqki, Hazrat Navoiy ham Hofiz Xorazmiy ham o'z asarlarida tarbiyaviy ahamiyatni, ta'sirchanlikni va badiiylikni ta'minlash maqsadida xalq mulkidan mahorat bilan foydalangan va baytlarning badiiy barkamolligiga erishgan. Bu esa bu ikki adibning badiiy adabiyotni odob, ma'rifat ulashuvchi vosita deb tushunishlaridan, adabiyotga munosabatlari umumiyligidan, deb baholash o'rinli. Chunki haqiqiy so'z san'ati insoniyatga faqat ezgulik ulashishdan, muqaddas qadriyatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1983. 52-бет.

2.Сулаймонов.М. Алишер Навоий ва Ҳофиз Хоразмий. // Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни. Халқаро илмий конференция материаллари. Навоий. 2017. 117-120-бетлар.

3.Сулаймонов М. Барҳаёт анъаналар ва издошлик. // Ўзбек тили ва адабиёти. Жур. 2017. 1-сон. 54-57-бетлар.

4.Сулаймонов М. Темурийлар даври Шерозда туркий шеърият (инглизча). НамДУ Илмий ахборотномаси, 2021, 3- сон. 337-341-бет.

5. Сулаймонов М. Развитие доброй традиции. Звезда Востока. 2021. № 1. Стр. 60-62.

6.Усмонова. Ш. Лингвокултурология . – Тошкент: Университет, 2014. 16-бет.

7.Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 томлик. 1-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. – 304 б.

8.Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 томлик. 2-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. –312 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nasrullayeva Umida
Namangan davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi
umidanasrullayeva.@mail.ru

УДК820(73)-93+894.375.09-93.09

ARTUR AFSONALARINING O‘ZGARUVCHAN YUZI: MIFOLOGIYA, TARIX VA ADABIYOT

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qirol Artur afsonasining mifologik, tarixiy va adabiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Artur obrazi dastlab “madaniy qahramon” sifatida shakllangan va vaqt o‘tishi bilan turli davrlar va ideologiyalarga mos holda qayta talqin qilingan. Maqolada afsonaning mifologik asoslari, tarixiy kontekstdagi o‘zgarishlari va adabiyotdagi aks etishi o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qirol Artur, mifologiya, afsona, tarix, madaniy qahramon, adabiyot, interpretatsiya.*

Nasrullayeva Umida
Teacher of Namangan State Institute of Foreign Languages

THE CHANGING FACE OF THE ARTHUR LEGENDS: MYTHOLOGY, HISTORY, AND LITERATURE

Abstract: *This article analyzes the mythological, historical, and literary stages of the evolution of the legend of King Arthur. Initially portrayed as a “cultural hero,” the image of Arthur has been reinterpreted throughout different historical periods and ideological contexts. The paper explores the mythological foundations of the legend, its transformations within historical narratives, and its representation in literature.*

Keywords: *King Arthur, mythology, legend, history, cultural hero, literature, interpretation.*

Насруллаева Умида
Преподаватель Наманганского государственного института иностранных языков

ИЗМЕНЯЮЩИЙСЯ ОБЛИК ЛЕГЕНД ОБ АРТУРЕ: МИФОЛОГИЯ, ИСТОРИЯ И ЛИТЕРАТУРА

Аннотация: *В данной статье анализируются мифологические, исторические и литературные этапы эволюции легенды о короле Артуре. Изначально представленный как «культурный герой», образ Артура с течением времени многократно переосмыслялся в различных исторических и идеологических контекстах. В статье рассматриваются мифологические истоки легенды, её изменения в рамках исторического повествования, а также её отражение в литературе.*

Ключевые слова: *Король Артур, мифология, легенда, история, культурный герой, литература, интерпретация.*

Kirish

Qirol Artur afsonalari G‘arbiy Yevropa madaniyatining eng barqaror va boy mifologik meroslaridan biri hisoblanadi. Bu afsona asrlar davomida turli davrlarda, turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstlarda qayta-qayta talqin qilinib, har safar yangi ma’no va shakllar bilan boyib borgan. Dastlab og‘zaki xalq ijodida vujudga kelgan Artur obrazi keyinchalik yozma tarix, ritsarlik adabiyoti va hatto zamonaviy ommaviy madaniyatda muhim ramzga aylangan. Bu afsonaning davomiyligi va moslashuvchanligi uning nafaqat badiiy, balki ijtimoiy va mafkuraviy funksiyalariga ham bog‘liqdir. Artur obrazining tarixiy shaxsga daxldorlik darajasi hanuzgacha muhokama mavzusi bo‘lib qolmoqda, ammo u qanday kelib chiqmasin, bu afsona tarixiy haqiqatdan ko‘ra ko‘proq madaniy xotira va ideallarning ifodasiga aylangan.

Qirol Artur afsonalari asrlar davomida g‘ayrioddiy mashhurligi bilan ajralib turadi. Artur afsonalarining evolyutsiyasi, bir tomondan, mifologiyadan adabiyotgacha bo‘lgan murakkab yo‘lni, ikkinchi tomondan esa, afsonaning bosh qahramonlarini tasvirlashdagi asosiy e’tiborning o‘sha davr talabi va idealiga mos ravishda o‘zgarib borishini aks ettiradi.

Adabiyotlar tahlili

Ma’lumki, muayyan adabiy obraz yoki motivning talqini hamisha tarixiy, ijtimoiy va adabiy sabablar bilan bog‘liqki, biz qirol Artur obrazi va Artur afsonasining idrok etilishi va talqini tarixini aynan shu nuqtai nazardan qisqacha ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Qirol Artur

afsonaviy shaxs bo‘lib, u haqida tarixiy ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Aksariyat xalq ertaklari va qadimiy yilnomalarda Arturning tug‘ilgan kuni 470-yilda ko‘rsatilgan bo‘lib, adabiyotda qirol Artur to‘g‘risida birinchi eslatma rohib Gildasning “De Excidio at Conquestu Britanniae” (“Britaniyadagi harbiy yurishlar natijasi”, taxminan 540-yil) nomli yilnomasidir. Yilnomada keltlarning sardori haqida batafsil ma’lumot beriladiki, R. Lomis (Loomis R.S., 1963), Yu. Vinaver (Vinaver Ye., 1971), A.D. Mixaylov (Mihailov A.D. Art193) kabi bir qator tadqiqotchilarning ishlarida ana shu sardor qirol Artur degan qarashlarni olg‘a suriladi. Keltlar sardori saks bosqinchilarining hujumlarini qaytaruvchi va nasl-nasabi rimliklarga borib taqaladigan harbiy rahbar sifatida tasvirlangan. Keltlar qo‘shini Badon tog‘idagi jangda sakslarni mag‘lub etgani haqida xabar berilgan. Tarixiy nuqtai nazardan, bu jang nima uchun Gildas tomonidan yaratilgan afsonaning markaziy planida ekanligi aniq. Zero, bu jang keltlarning eng yorqin g‘alabalaridan biri edi.

Afsona paydo bo‘lishining dastlabki bosqichlarida qirol Artur obrazi dunyoni tartibga soluvchi va unda tartib o‘rnatuvchi mifologik “madaniy qahramoni”ning[74] ba’zi xususiyatlariga ega [2]. Uelslik bard Aneyrinning “Gododdin” she’rida u yirtqich hayvonlarni mag‘lub etuvchi otryad boshlig‘i sifatida tasvirlangan. “Kilux va Olven”, “Metouni o‘g‘li Met” kabi ko‘plab kelt afsonalarida Artur nomi er osti – o‘lim dunyosi bilan bog‘liq tarzda tasvirlanadi. Artur va Mordred o‘rtasidagi kurash esa yorug‘lik va zulmat o‘rtasidagi kurash sifatida tushunilgan. Zero, Mordred keltlar tomonidan yer osti xudosi – Medru-Midir sifatida qabul qilingan. Sehrgar Morgana obrazi tasviri esa keltlarning urush va o‘lim ma’budasi Morrigan bilan bog‘liq edi.

Shu bilan birga, afsonaning qadimgi versiyalarida Artur obrazi ertak folklor qahramonlariga yaqin etib tasvirlangan. Keltlarning ko‘plab ertaklarida Artur butun qo‘shinni boqishga qodir qozon, ko‘rinmas yopinchiq, Kaliburn nomli engilmas qilich va yaralarni davolovchi hanjar qini kabi sehrli narsalarning egasi sifatida tasvirlangan. Arturning Kamelot qal’asi kurrai zaminning afsonaviy markazi sifatida tasvirlangan. Afsonalarning keyingi talqinlarida esa Arturning jangchilik va sarkardalik xususiyatlari birinchi o‘ringa chiqa boshlaydi. Mashhur sarkarda rolida biz Arturni rohib Nenniusning "Britaniya tarixi" (9-asr boshi) yilnomasida uchratamiz. Bu asarda u britaniyaliklarning qudratli sarkardasi, anglo-sakson bosqinchilari va piktlarning bosqinchilik yurishlariiga qarshilik ko‘rsatishga qodir Britaniya orollari tub aholisining himoyachisi sifatida tasvirlanadi. Qirol qiyofasining bunday talqini, albatta, tarixiy sababga ega. Aynan o‘sha paytda inglizlarni o‘z ichiga olgan kelt qabilalari anglo-sakslarning shimolga yurishiga qarshi faol kurash olib borgan. Biroq Nennius asarida ham Artur hanuz g‘aroyib xususiyatlarga ega sifatida tasvirlangan ediki, balki bu rohibning qadimgi mifologiya bilan tanishishi natijasida paydo bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin. 12 marta qahramonlik qilgan Gerkules singari, Nenniusning Arturi anglo-sakslar va piktlar ustidan 12 marta g‘alaba qozonadi.

Artur afsonalari tarixidagi keyingi bosqich Arturning buyuk monarx sifatida tasvirlanishidir. Bunday tasvir birinchi bo‘lib Monmutlik Galfrining "Britaniya qirollari tarixi" (1139) nomli asarida uchraydi. Uning Arturi Yevropa xalqlarini, jumladan, fransuz va rimliklarni zabt etadi. Uning shavkatli yurishlari Buyuk Karl va Aleksandr Makedonskiyning yurishlariga qiyoslanadi. Shu daqiqadan boshlab buyuk shoh va sarkarda Artur obrazi nafaqat adabiyot, balki siyosatning ham ob’yektiga aylanadi. Asrlar davomida Artur obrazi Plantagenetlar, Yorklar, Tyudorlar, Gannoverlar kabi ingliz monarxlari tomonidan o‘z kuchlarini mustahkamlash uchun ishlatilgan. Hamma yoki deyarli barcha hukmron ingliz sulolalari shunday qiladi.

Tahlillar va natijalar

Monmutlik Galfrining mazkur asari Plantagenetlar sulolasi tomonidan Britaniyada Normandlar hukmronligi o‘rnatilgan davrda yozilgan. Ular Galfrining bu asarini ma’qullashadi, chunki u genetik jihatdan Rim imperatorlarining naslidan kelib chiqqan Britaniyaning saksonlargacha bo‘lgan hukmdorlari haqida hikoya qiladi. Afsonaviy hukmdor bilan aloqasini ta’kidlash uchun Genrix II nabiralaridan biriga Artur ismini qo‘yadi.

O‘zining afsonaviy Artur bilan genetik aloqalari haqidagi afsonani Eduard I Plantagenet (1272-1307) faol qo‘llab-quvvatlaydi. Zamondoshlarining so‘zlariga ko‘ra, u "Dumaloq stol risarlari ruhida" beshta ziyofat o‘tkazgan. Bundan tashqari, Eduard Shotlandiyaga nisbatan hukmronlik da’volarini Shotlandiya bir vaqtlar Artur qirolligining bir qismi bo‘lganligi bilan bog‘laydi [1]. Eduard I afsonaviy Artur risarlik birodarligi sharafiga Garter ordenini ta’sis qiladi. 1296 yilda Eduard Shotlandiya qiroli Aleksandr III ning merosxo‘ri bo‘lmagani va o‘limidan foydalanib, o‘z qo‘shinlari bilan Shotlandiyaga bostirib kiradi va Shotlandiyani qirol Artur nomi bilan Angliyaga qo‘shib olganligini e’lon qiladi.

Qirol Artur obrazidan siyosiy maqsadlarda foydalanish keyingi davrlarda ham sodir bo‘ladi. Atirgullar urushi (1455-1485) natijasida taxtni egallagan

[74] Madaniy qahramon mifologiyadagi personaj bo‘lib, uning vazifalari insoniyat madaniyatining turli obyektlarini (olov, madaniy o'simliklar, asboblar) qazib olish yoki yaratish, odamlarga ovchilik, hunarmandchilik, san'atni o‘rgatish, ijtimoiy tuzilish, nikoh qoidalari, sehrli reseptlar, marosimlar va bayramlarni o‘rgatishdir. Arxaik ongda tabiat va madaniyat haqidagi g‘oyalar bir-biridan ajratilmagan, shuning uchun madaniy qahramonga mifologik kosmosning tuzilishini tashkil qilish roli ham berilgan. U ibtidoiy okeandan yerni tutib oladi, samoviy jismlarni o‘rnatadi, kun va tun, fasllar, suv toshqini o‘zgarishini tartibga soladi, birinchi odamlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va tarbiyasida ishtirok etadi va hokazo. Umumiy maqsad - dunyoning dastlabki tartibsiz holatini, dunyo va madaniyatning ongsiz yoki ongli ravishda tartibga solinishi. Madaniy qahramonning asosiy vazifalaridan yana biri allaqachon o‘rnatilgan tartibni saqlash, insoniyat dunyosini yirtqich hayvonlar va yovuz jinlardan himoya qilishdir.

Genrix VII (hukmronligi 1485-1509) yangi sulola — Tyudorlar sulolasiga asos soladi. O‘z hokimiyatining qonuniyligini mustahkamlash uchun Genrix VII Eduard IV ning to‘ng‘ich qizi Yelizaveta Plantagenetga uylanadi, lekin taxtga o‘z huquqini isbotlashning boshqa usullarini ham qidiradi. Ko‘p o‘tmay u Eduard I singari o‘zini qirol Arturning avlodi deb e’lon qiladi. Yangi dvoryan va zodagonlarni o‘z harakatlarining qonuniyligiga ishontirish uchun Genrix VII qizil ajdaho (Arturning otasi Uter Pendragonning qudrati ramzi) tasvirlangan bayroq bilan jangga kiradi. Genrix VII ning to‘ng‘ich o‘g‘li tug‘ilganida esa unga go‘yoki buyuk bobokalonlari nomi bo‘lmish Artur ismni qo‘yishadi. Natijada, Artur afsonasi yosh Tyudorlar sulolasiga Genrix VII ning mamlakatni milliy-davlatni yanada birlashtirish istagini qo‘llab-quvvatlagan yangi ijtimoiy kuchlarga tayanishga yordam berdi.

Genrix VII ning nabirasi qirolicha Yelizaveta (1558-1603 yillarda hukmronlik qilgan) ham qirol Artur afsonasidan foydalanishdan qochmadi. Davlat rahbari hali ham qirol Arturning vorisi sifatida qabul qilinganligi sababli, 1575 yilda Kenilvortda malika uchun Artur afsonalari ruhidagi tantanali ziyofat tashkil etiladi. Qirol qal’asiga kiraverishda turgan darvozabonlar o‘rta asr risarlari kiyimida edilar; ayvon va ustunlar maxsus material bilan qoplangan, bu ularni vizual ravishda odam bo‘yidan balandroq ko‘rsatgan; hamma joyda ulkan haykallar o‘rnatilgan; xonalarga ulkan va og‘ir tayoq-to‘qmoqlar qo‘yilgan edi. Gap shundaki, afsonaga ko‘ra, ilk Artur davrida er yuzida ulkan odamlar yashagan. Ziyofat boshlanishi bilan malika ko‘l bo‘ylab ko‘prikdan o‘ta boshlaydi va Yelizavetani nimfa ko‘rinishida kiyingan qizcha kutib oladi, u o‘zini Ko‘l xonimi deb tanishtiradi va malikani sevishga va himoya qilishga, shuningdek, bir vaqtlar qirol Arturga qilgani kabi malikaga ham homiylik qilishga va’da beradi. Shundan so‘ng Monmutlik Galfri asari asosida Artur haqidagi teatrlashtirilgan tomosha bo‘lib o‘tadi.

Yelizavetta saroyida doktor Jon Di ismli tarixchi, olim, matematik, ma’naviyatshunos va bashoratchi yashagan. “Jon Di Yelizaveta va Artur o‘rtasidagi genetik aloqadorlikning haqiqiyligiga ishonchi komil edi va shuning uchun o‘zini sehrgar Merlin avlodidan deb tanishtiradi. Jon Di qirolichani, afsonaga ko‘ra, bir vaqtlar qirol Arturga tegishli bo‘lgan erlarni zo‘rlik bilan bosib olishi kerakligiga ishontirishga harakat qilgan” [3]. Rim imperatorlarining avlodi va kuchli davlat yaratuvchisi qirol Arturning qiyofasi Yelizaveta hokimiyati mutlaq kuchayib, Britaniya imperiyasi yaratilishi va mustahkamlanishi bilan uyg‘un bo‘lib chiqdi.

Artur obrazini “siyosiylashtirish” bilan bir qatorda uning saroy ruhida talqin qilinishi afsona tarixida katta o‘rin egallaydi. Bu talqinlar XII asrda, risarlik romantikasi gullab-yashnagan davrda, Robert Vasning “Brut haqida roman” (1157) va Layamonning “Brut” (XII asrning 2-yarmi) asarlari bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan. Bu mualliflar “Dumaloq stol” motivini ishlab chiqdilar, keyinchalik bu afsonaning ajralmas qismiga aylandi. Robert Vasning so‘zlariga ko‘ra, “Dumaloq stol” ideallashtirilgan Artur sudining eng muhim elementi bo‘lib, har qanday fantastik sarguzashtlar uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Layamonning so‘zlariga ko‘ra, “Dumaloq stol” risarlar o‘rtasida ovqat paytida kelib chiqqan qonli to‘qnashuvdan so‘ng vujudga kelgan. Ana shunday qarama-qarshiliklarga chek qo‘yish maqsadida tenglik va mustaqillik ramzi bo‘lgan “dumaloq stol” tashkil etildi. “Dumaloq stol” g‘oyasi mohiyatan qahramonlik davridan boshlangan va feodalizm o‘tmishidan meros bo‘lib qolgan va butun feodal jamiyati uchun mustahkamlovchi kuch bo‘lgan vassalning o‘z hukmdoriga shaxsiy sodiqlik an’anasini o‘zida mujassam etgan" [4].

Breton siklidagi saroy romanining yaratuvchisi fransuz shoiri Kreten de Trua edi 1160 yildan 1190 yilgacha bo‘lgan davrda Artur mavzusida “Erek va Enida” (taxminan 1170), “Kliges” (taxminan 1176), “Lancelot yoki arava risar” (taxminan 1177), “Gaveyn” (taxminan 1177) va “Perseval” (taxminan 1191) deb nomlanuvchi beshta yirik romanlarini yaratdi.

Kreten de Trua Artur haqida emas, balki uning risarlari Erek, Iven, Lancelot, Gaveyn, Perceval haqida yozgan. Aynan u Breton sarguzasht ertaklarida bu qahramonlarning prototiplarini topdi va ularni risarlik romanlari qahramonlariga aylantirdi. Kretendan oldin bu obrazlar Artur afsonalarida uchramas edi. Aynan shu davrda ingliz mualliflari yordamchi qahramon sifatida yaratgan Merlin obrazi katta ahamiyatga ega bo‘la boshladi. Yelizaveta Jenkinsning ta’kidlashicha, “Kreten de Truaning dumaloq stoli haqiqiy risarlikning utopik dunyosini o‘zida mujassam etgan. Biroq shuni ta’kidlash lozimki, Arturning o‘zi sevgi, jasorat va sharaf masalalarida asosiy hakam bo‘lsa-da, bu davr saroy romanlarida muhim rol o‘ynamaydi" [3]. Ko‘rinib turibdiki, saroy davrida yaratilgan asarlar mualliflari rasarlarning shaxsiy fazilatlari, go‘zallik va davogarlik masalalarini hal qilishga intilishadi.

Xulosa

Qirol Artur afsonalari qadimiy Britaniya tarixidan boshlab ruhiy va madaniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan, eng ko‘p o‘rganilgan mifologik qahramonlardan biridir. U ko‘plab yangi avlodlar va mualliflar tomonidan talqin etilgan, o‘z rivojlanishida tanqidiy va zamonaviy yondashuvlar bilan o‘zgarib borgan. Artur afsoning kelib chiqishi, oldingi tarixi shaxslarga bog‘liq bo‘lib, tarix va mifologiya orasidagi chegaralarni yanada yumshatadi. Uning jamoasi – Yuyt, Lanselot va Gvenerang afsonadagi roli, asar davomida barqaror va o‘zgaruvchan sifatida saqlanib qoladi. Ushbu qahramonlar o‘zaro aloqalari orqali Artur afsonasining asosini tashkil etadi. Afsonaning evolyutsiyasi jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy

o‘zgarishlariga javob bo‘lib, zamonaviy adabiyot va san’atda yangicha talqinlar orqali aks etadi. Bugungi kunda Qiroli Artur mifining zamonaviy ko‘rinishlari, uning tarbiyaviy va madaniy ahamiyatini yanada oshirib, asrlar davomida davom etgan qiziqishni qondiradi. Xulosa qilib aytganda, Qiroli Artur afsonasi zamon o‘tgani bilan o‘zgarib borsa-da, uning mohiyati va ahamiyati muhim bir o‘rin tutadi. U, nafaqat qahramon, balki insoniyatni tushunishga yordam beruvchi va turli qadriyatlarni birlashtiruvchi timsoldir. Artur afsonalari davomida ko‘plab darslar va insoniy o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, ularning mohiyati oxirgi kunga kelib ham ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Мелетинский Е. М. О литературных архетипах / Российский государственный гуманитарный университет. — М., 1994. – 136.

2.Королев К. Энциклопедия "Мифология Британских островов" / К. Королев. - М.: Изд-во Эксмо, СПб.: Terra Fantastica, 2003. - 101с.

3.Jenkins E. The Mystery of King Arthur / E. Jenkins. - London: Joseph, 1975. – 159 p.

4.Мортон А.Л. Артуровский цикл и развитие феодального общества / А. Л. Мортон // Мэлори Томас. Смерть Артура. - М.: Наука, 1993. - С. 776

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xamzayev Sobir Amirovich
sobir.khamzaev@yahoo.com
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

GLOBALLASHUV JARAYONINING O'ZBEK TILI RIVOJI VA UNING LUG'AT TARKIBIGA BO'LAYOTGAN TA'SIRI MASALASI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada globallashuv jarayoni, uning tillar mavjudligiga, xususan o'zbek tiliga ham ta'siri, bu jarayondan omon chiqish yo'llari, o'zbek adabiy tilida o'tgan asr boshidan buyon yuz bergan o'zgarishlar va uning lug'at tarkibi boyitilishiga bo'lgan ta'siri kabi masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek maqolada o'zbek tili lug'at tarkibiga ta'sir ko'rsatgan omillar, jumladan boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar va so'nggi vaqtlarda til lug'at tarkibiga so'zlar o'zlashishining asosiy usullari kabi masalalari ham ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, adabiy til, sheva, til lug'at tarkibi, o'zlashgan so'zlar, tilning grammatik qurilishi, tilning fonetik xususiyatlari.*

Khamzaev Sobir Amirovich
Doctor of Philosophy in Philology
(PhD), Associate Professor,
Uzbekistan State World Languages University

ON THE QUESTION OF THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE GLOBALIZATION PROCESS AND ITS INFLUENCE ON ITS WORD STOCK

Annotation: *Issues such as the process of globalization, its impact on the existence of languages, in particular of the Uzbek language, ways to survive this process, changes in the Uzbek literary language since the beginning of the last century and its impact on the enrichment of dictionary content are studied in this article. The article also addresses issues such as factors affecting the word stock of the Uzbek language, including words borrowed from other languages, and, more recently, basic ways in which the language borrowes words into the vocabulary.*

Keywords: *globalization, literary language, dialect, word stock, acquired words, grammatical construction of the language, phonetic features of the language.*

Хамзаев Собир Амирович
Доктор философии по филологическим наукам
(PhD), доцент, Узбекский государственный университет мировых языков

К ВОПРОСУ О РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ВЛИЯНИЕ ЭТОГО ПРОЦЕССА НА СЛОВАРНЫЙ СОСТАВ ЯЗЫКА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются такие вопросы, как процесс глобализации, его влияние на существование языков, в частности узбекского языка, способы выживания в этом процессе, изменения в узбекском литературном языке с начала прошлого века и его влияние на обогащение словарного состава. В статье также рассматриваются такие вопросы, как факторы, влияющие на словарный запас узбекского языка, включая слова, заимствованные из других языков, и, основные способы, с помощью которых язык заимствует слова в свой словарный запас за последнее время существования узбекского языка.*

Ключевые слова: *глобализация, литературный язык, диалект, словарный запас, усвоенные слова, грамматическая конструкция языка, фонетические особенности языка.*

Globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladigan xarakterga ega bo‘lgani uchun mazkur jarayon ko‘plab fanlarning tadqiqot obyekti sifatida xizmat qilishi tabiiydir. Shunisi ham e’tiborga loyiqki, bu fanlarning har qaysisi muammoning o‘ziga tegishli qismini o‘rganish bilan cheklanmay, shu fanga tegishli tushunchalar tizimidan ham foydalanadi. Shuning uchun ham hozirga qadar “globallashuv” tushunchasining hamma tomondan e’tirof qilingan yagona ta’rifi ishlab chiqilgani yo‘q [To‘rayev, 2003].

Globallashuv umumbashariy madaniyatning qaror topishi uchun imkon yaratadi. Bu nafaqat mushtarak e’tiqod, qadriyatlar, va tamoyillari taqozo qiladi, balki saqlanib qolayotgan mahalliy madaniyatlarga g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lishini keskin o‘stirishni ham talab qiladi.

Ayrim o‘rinlarda tillarning o‘lishini shu tilda so‘zlovchshar ham tezlashtirishadi. Bu hodisa “lingvistik o‘z joniga qasd qilish” deyiladi. Tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan globallashuv ham yuzaki qarashda ko‘ringanidek unchalik ham beozor hodisa emas. Ingliz tilining gegemonligi bugunning o‘zidayok Yevropada bir xil tarzda qabul qilinayotgani yo‘q.

Mutaxassislar BMTning rasmiy tillari sifatida qabul qilingan fransuz, nemis va boshqa ayrim tillarning tarqalish makonlari torayib borayotganini xavotirlik bilan ta’kidlamokdalar. Bu jarayonlarning rivojlanib borishi, ayniqsa kichik tillarning tiklanishida, tub aholining asosiy ommasining ehtiyojlariga muvofik o‘tkaziladigan ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlarga g‘oyatda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Hozir jahonda Valliy, Bask, Katalan, Shotland, Gael tilida so‘zlovchi xalqlar o‘z tillarining taraqqiyotini istab kurash olib bormokda [Shveyser, 1991].

Oxirgi 10 yillikda Pokistonning o‘zida Baluj, Gujarat, Domaaki, Kalasha, Pxamura kabi tillarning o‘lib ketishi kuzatilmoqda [Times, 2005].

Reg Xindali 1990 yil “Irland tilining o‘limi” nomli kitobni e’lon qildi. Irlandiya 1922 yil Britaniyadan mustaqillikka erishgan va hukumat irland tilini ta’lim tili qilib belgilagan bo‘lsa ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bu harakatlarning zoye ketishiga sabab bo‘ldi. Hozirga kelib irland tilida so‘zlashuvchilar soni 10 ming kishini tashkil qiladi xolos. Ingliz tili Irlandiyada iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan gullab yashnash vositasi, uning zaruriy shartlaridan biriga aylanib qoldi. Hozirda irland tili zamondan orqada qolganlik, savodsizlikning belgisi bo‘lib qoldi [Shveyser, 1991].

Biz O‘zbekistonliklarni birinchi navbatda o‘zbek tilining taqdiri qiziqtirishi tabiiy, chunki globallashuv jarayoni o‘zbek tilini chetlab o‘tmasligi tayin. O‘zbek tilining ulkan jarayondan omon qolishi, o‘z mavqeini yo‘qotmasligi va aksincha funksional jihatdan rivojlana borishi faqatgina shu tilda so‘zlovchilarga va mamlakatimizda til bo‘yicha davlat siyosatini belgilovchi ma’sul shaxslarga bog‘liq.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili asrlar davomida qo‘llanib kelgan yagona o‘zbek tili taraqqiyotining yuqori shakli, milliy tilning ishlangan shaklidir. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili davlat va ijtimoiy tashkilot, fan va maktab, matbuot va badiiy adabiyot, xullas, o‘zbek millatining ilmiy-madaniy tilidir.

O‘zbek xalqining hozirgi birlashgan adabiy tili millatning jonli so‘zlashuv tili asosida vujudga kelgan bo‘lib, shu xalqning yagona yozuv tizimida va talaffuzida o‘z in’ikosini topdi, o‘sdi va rivojlandi. O‘zbek xalqining millat bo‘lib shakllanishi va rivojlanishi, ayni zamonda, milliy adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishi demakdir. Hozirgi zamon o‘zbek tili, shu jumladan o‘zbek adabiy tili, o‘zbek millatining yagona umummillat tilidir. O‘zbek milliy tili umumxalq tilining yuqori va takomillashgan bosqichidir.

XX asrda o‘zbek xalqining yagona milliy tili har tomonlama o‘sdi va yuksaldi, uning fonetik tizimiga ma’lum darajada o‘zgarishlar kiritildi – unlilar tarkibi ixchamlandi, undoshlar tarkibiga ba’zi bir yangi fonemalar kelib qo‘shildi, tilning lug‘at tarkibi yangi so‘z va iboralar hisobiga boyidi, so‘z ma’nolari kengaydi, eskirib qolgan so‘zlar iste’moldan chiqib ketdi, o‘zbek tilining grammatik qurilishi takomillashdi. O‘zbek milliy adabiy tili turli oqimlarga qarshi prinsipial kurash natijasida o‘sdi, mustahkamlandi va voyaga yetdi.

Ayrim reaksion ruhda fikrlovchi shaxslar hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilini uning to‘g‘ri va ravon rivojlanishi yo‘lidan chetga burishga qattiq urinib ko‘rdilar. O‘zbek adabiy tilining shakllanishiga, uning mazmuni va formasiga o‘zlarining noilmiy va vulgar g‘oyalarini kiritishga tirishdilar.

XX asrning boshlarida ayrim arboblar hozirgi zamon o‘zbek milliy adabiy tilini eski kitob tili asosida qurishni tavsiya qilib, til taraqqiyotini orqaga surishga intildilar. Bu reaksion qarashning namoyondalari xalq ommasi tomonidan qabul qilingan va turmushda singib borayotgan so‘z va atamalarni va ba’zi bir grammatik formalarni XI-XV asr yozma yodgorliklarida qo‘llanilgan va eskirib iste’moldan chiqib qolgan so‘z va formalar bilan almashtirishga urindilar [Borovkov, 1937]. Bu xil “nazariya” 1917-1922 yillarda o‘sha arboblar orasida ancha keng tarqalgan edi. Bu “nazariya” fosh qilinganidan keyin, ular o‘z taktikasini o‘zgartirishga majbur bo‘ldilar va boshqa yo‘lga o‘tib oldilar. Ulardan bir guruhi “chig‘atoy tili” deb atalgan eski o‘zbek adabiy tilining asosiy xususiyatlarini saqlab qolgani holda, unga ba’zi bir o‘zgarishlar kiritishni, ikkinchi guruhi esa adabiy tilni go‘yo jonli so‘zlashuv tiliga yakinlashtirish niqobi ostida uni “reforma” qilish fikrini oldinga suradilar. “Reformistlar” qipchoq yoki “j”lovchilar shevasi deb yuritilgan mahalliy o‘zbek yagona umummillat tiliga asos qilib olishni va shu sheva zaminida birlashgan talaffuzni vujudga keltirishni da’vo qildilar.

Ular hozirda mavjud har bir o‘zbek shevasiga mustaqillik berib, har bir mahalliy sheva negizida alohida-alohida adabiy til tuzishni, mahalliy shevalar zaminida vujudga kelgan adabiy tillarda alohida gazeta, jurnallar chiqarish va kitoblar nashr etishni, shu yo‘l bilan “shevalar avtonomiyasiga” keng yo‘l ochib berishni da’vo qildilar [Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1980]. Hozirgi zamon o‘zbek milliy tilining shakllanishi va rivojlanishi masalalariga bu xilda turli-tuman qarashlar, ayniksa 1922-1929 yillarda, o‘zbek “tilshunos” olimlar guruhlari orasida avj olib ketgan edi.

O‘zbek yozuvini arab alifbosidan lotinlashtirilgan alifboga ko‘chirilgan paytlarda, ya’ni 1929-1933 yillarda, shuningdek bu alifboda unlilar shaklining sonini kamaytirib uni beshtaga keltirilgan vaqtda, ya’ni 1934-1937 yillarda, o‘zbek adabiy tilini qandaydir noma’lum va noaniq “sheva” asosida qurmokchi bo‘ldilar.

Ammo bu “tadqiqotchi”lar qanchalik urinib ko‘rishmasin, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi xalq baxtiga ular o‘zlari o‘ylagan niyatlariga yeta olmadilar va muvaffaqiyat qozona olmadilar. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili o‘zining asosiy taraqqiyot izidan og‘ishmay borib, yagona milliy madaniyatning umumiy oqimi va yuksalishi yo‘lida o‘zining barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, rivojlanib ketdi.

Yer yuzidagi ko‘pgina millatlarning, shu jumladan o‘zbek millatining, tili va yozuvining rivojiga XX asrda rus tili katta ta’sir ko‘rsatgan. Rus tilining ta’siri natijasida o‘zbek millatining yagona milliy tili qurilishida, uning fonetik tizimida yangi hodisalar yuz berdi, lug‘at tarkibi bevosita rus tilidan olingan yoki rus tili orqali kirib kelgan so‘z va terminlar bilan boyidi, o‘zbek tilining grammatik qurilishida baynalminal so‘zlarning morfologik tarkibiga mos ravishda ba’zi bir grammatik shakllar – so‘z yasovchi yangi affikslar, so‘z birikmalari, gapda so‘zlarning erkin tartibda qo‘llanishi va gap qurilishining ba’zi bir yangi tiplari vujudga keldi.

Shu bilan birga o‘zbeklar yurti, madaniyati, urf-odati, kiyim-kechagi, va turmush tarzi hakidagi turli tushuncha, so‘z va atamalar jahon tillariga rus tili orkali keng tarqaldi. O‘zbek so‘zlari rus talaffuzi orqali ingliz, nemis, fransuz tillariga va ulardan jahonning boshqa tillariga yoyildi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi o‘ta murakkab va tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Turli millat vakillari bilan yaqin aloqalar o‘rnatdi, o‘zining lug‘aviy qatlamini boyitdi [Xamzayev, 2025].

O‘zbek xalqi yagona umum millat o‘zbek tili tufayli va shu til vositasi bilan o‘zining barcha sohadagi faoliyatida, ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlar sohasida, siyosat va madaniyat sohasida, ijtimoiy hayot va turmush sohasida misli ko‘rilmagan muvafaqqiyatlarga erishdi. Bularning hammasi o‘z navbatida o‘zbek milliy tili taraqqiyotiga kuchli ta’sir qildi.

Hozirgi zamon o‘zbek milliy adabiy tili milliy madaniyatning rivoji yo‘lida o‘sdi va o‘z taraqqiyotining yukori pog‘onasiga erishdi. O‘zbekiston olimlari, shoir va adiblari, tarjimon va matbuot xodimlari hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining rivojiga zo‘r hissa qo‘shishdi; xususan, respublikaning markaziy matbuoti adabiy til taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Hozirgi zamon o‘zbek milliy adabiy tili tufayli yagona adabiy talaffuz normalari, yagona ilmiy-texnik terminlar, barcha mahalliy o‘zbek shevalarining ba’zi bir grammatik shakllarini birlashtiruvchi va umumlashtiruvchi asoslar vujudga keldi.

Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining rivojlanish yo‘li: 1) uning yagona umummillat tili va mahalliy shevalarga munosabati, 2) tayanch va yetakchi o‘zbek shevalarining fonetik tizimi, 3) umumxalq tili lug‘at tarkibining son va sifati, doirasi hamda mazmuni, 4) grammatik qoidalarning hajmi va mohiyati, nihoyat, 5) turli stilistik priyomlarga ko‘ra belgilanadi.

Markaziy shahar shevalari yagona milliy o‘zbek tili va uning adabiy shakli uchun asos bo‘ladigan ko‘pgina umumiy xarakterga va birlashgan adabiy til uchun zamin bo‘ladigan umumiy xususiyatlarga egadir. Bu umumiy xususiyatini o‘z ichiga olgan o‘zbek milliy adabiy tili boshka shevalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi natijasida markaziy shahar shevalarining umumiy fonetik belgilari bilan ayrim shevalarga singib bormoqda.

Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining xususiyati uning tovush tizimida voqe bulgan yangiliklarning o‘zlari bilangina cheklanmaydi. Milliy adabiy til O‘zbekiston Respublikasining iktisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o‘sishi natijasida o‘zbek tilining asosiy lug‘at fondi negizida yasalgan so‘z va iboralar hamda rus tilidan olingan va rus tili orqali kelib kirgan so‘z va terminlar hisobiga shu qadar boyib ketdiki, tilda yangidan paydo bo‘lgan so‘zlar iste’moldan chiqib ketgan so‘zlarga qaraganda juda ko‘p mikdorni tashkil etdi.

Mustaqil O‘zbekiston xalq xo‘jaligining hamma sohalarida o‘zbek xalqining erishgan yutuqlariga bog‘liq holda o‘zbek tilining lug‘at tarkibi boyidi. Tilda sanoatning rivoji, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, iste’mol mollarini ishlab chiqarish, sanoat mahsulotlari, sanoatning eng muhim va asosiy tarmoqlari bo‘lmish qora metallurgiya, rangli metallar ishlab chiqarish, samolyotsozlik, avtomobilsozlik, kon ishlari, elektrlashtirish, neft sanoati, gaz sanoati, ko‘mir sanoati, kimyo sanoati, o‘rmon sanoati va boshqalar bilan bog‘liq holda bo‘lgan so‘z va iboralar; qishloq xo‘jaligining yuksalishi, barcha turdagi qishloq xo‘jalik ekinlarini va chorvachilikni rivojlantirish va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va iboralar; ayirboshlash, transport va aloqa sohasidagi ishlarning rivojlanishi, savdo va transport ishlari, transportning muhim turlari – temir yo‘l va avtomobil transporti daryo va dengiz floti, havo floti, aloqa vositalari biznes, eksport-import operatsiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va iboralar; xalqning

moddiy farovonligi sog‘likni saqlash va xalqning madaniy-ma’naviy saviyasini yanada oshirish ishlari, maktab va maorif, ilm va fan, adabiyot va san’at, kompyuter texnologiyalari, zamonaviy axborot va ta’lim texnologiyalarni yanada rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va iboralar paydo bo‘ldi.

Hozirgi zamon o‘zbek milliy adabiy tilida so‘z o‘zgartiruvchi affikslar, masalan egalik va kelishik affikslari, shuningdek tuslovchilar, asosan bir xil shaklga kelib qoldi. Bu jihatdan yagona milliy adabiy til mahalliy shevadan, xususan unlilar tarkibi to‘kkizta va undan ham ortiq fonemaga ega bo‘lgan shevalardan, shuningdek boshqa turkiy tillardan farq qiladi. Bu fakt adabiy tilning ayrim grammatik formalar nuqtayi nazaridan ixchamlashganligini bildiradi. Shu munosabat bilan grammatik va orfografik qoidalarda ham ixchamlik va aniklik, silliqlik va ravonlik vujudga kelgan.

Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida so‘zlarning ma’no xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bu xildagi ko‘pgina faktlar umumxalq o‘zbek tili leksikasining o‘sish yo‘llarini ko‘rsatadi. O‘zbek milliy adabiy tilining o‘sish yo‘lini xarakterlovchi yana bir fakt shundan iboratki, umumxalq o‘zbek tili o‘zining asrlar davomida yashab kelgan grammatik qurilishini saqlab qolgani holda, uni silliqlashtirdi, takomillashtirdi hamda yangi qonun va qoidalar bilan boyitdi.

O‘zbek tilining grammatik qurilishida XX asrning 90-chi yillaridan boshlangan ulkan jarayon, ya’ni uning soddalikdan murakkablikka, quyi holatdan yuqori holatga qarab asta-sekin rivojlanish jarayoni natijasida yuz bergan ba’zi bir o‘zgarish va yangiliklar davrida paydo bo‘lgan, yangi davrning talabiga muvofiq milliy adabiy tilning strukturasiga mos keladigan o‘zgarishlardandir.

Hozirgi zamon o‘zbek milliy tili grammatik qurilishining takomillashganini, uning yangi grammatik qoidalar va turli nutqiy oborotlar bilan boyib borganini adabiy tilning uslubiy xususiyatlari yoki turli janrlari ham yaqqol ko‘rsatib beradi. Yozma monolog, dialog shakllarining tobora yuksalishi; shaxslar o‘rtasida turli yozishmalarning rivoji; gazeta va jurnal maqolalari, darslik va qo‘llanmalarda ilmning turli tarmoqlariga doir atamalarni o‘z ichiga olgani holda ba’zi bir yangi nutq oborotlarining vujudga kelganligi; shior va chaqiriqlarning yangi shakllari; faks, modemnoma, farmoyish, telegramma, ijtimoiy tarmoqlar, buyruq, farmon, yo‘riqnoma, biznes qog‘ozlari va boshqa hujjatlarning tuzilishi; telefon va mikrofon orqali gapirish; diktor va artistlar, lektor va ma’ruzachilar, so‘z ustalari va notiqlar nutqining takomili, og‘zaki va yozma shakldagi turli shakllarining ishlanishi va boshqalar o‘zbek adabiy tilining uslub jihatidan anchagina o‘sganligidan guvohlik beradi.

Bu esa o‘zbek milliy tili strukturasiga tobora yangi sifat elementlarining kirib borishidan va uning borgan sayin asta-sekin to‘planib borishidan darak beradi, Ammo tilning bir sifatdan ikkinchi sifatga o‘tishi eski sifatni birdaniga yo‘q qilib, yangi sifatni to‘satdan bunyodga keltirish yo‘li bilan emas, balki yangi sifat elementlari, til yangi strukturasining asta-sekin va uzoq vaqt davomida to‘planib borishi yo‘li bilan, eski sifat elementlarining asta-sekin o‘lib borishi yo‘li bilan voqe bo‘ldi.

Globallashuv jarayonining bevosita o‘zbek tili lug‘at tarkibiga ta’siri masalasini tahlil qilganimizda endilikda o‘zbek tili qaysidir til orqali emas, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqa tillardan so‘zlarni o‘zlashtirayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu jihat ayniqsa axborot texnologiyalari va boshqa ijtimoiy hayotga aloqador sohalarda jadal tarzda davom etmoqda. Jumladan, smartfon (smartphone), planshet (planshet), gadjet (gadjet), keshbek (cashback), kovorking (coworking) va hokazo. Bu masalada P.Nazarovning quyidagi xulosasi e’tiborga molikdir:

1) har qanday til alohida olingan til sifatida taraqqiy eta olmaydi;

2) ma’lum bir til lug‘at boyligi obyektiv va subyektiv omillar asosida kengayib boradi;

3) o‘zbek tilining lug‘at tarkibi oshib borishida olinma so‘zlar munosib o‘rin tutadi [Nazarov, 2019].

Alohida ta’kidlash lozimki, so‘nggi vaqtlarda o‘zbek tiliga so‘zlar ma’lum bir davrda bo‘lgani kabi “ko‘prik til” orqali yemas, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirilmoqda. Bu o‘rinda, boshqa tillarda bo‘lgani kabi so‘zlar o‘zbek tilining lisoniy qoidalariga to‘liq yoki qisman moslashtirilmoqda, shuningdek, ayrim o‘rinlarda hech qanday o‘zgartirishlarsiz ham so‘zlar o‘zlashtirilmoqda [Xamzayev, 2024]. Umuman olganda esa “Tillar lug‘at tarkibining boyishida bir qancha omillar qatori globallashuv jarayoni ham muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, mazkur jarayonda ijtmoiy-siyosiy, madaniy omillar va mashhur kishilar, jumladan shoir va yozuvchilar, siyosiy arboblar nutqi ham ahamiyatga ega” [Khamzaev, 2024].

Ma’lumki, hozirda o‘zbek tili rivojlangan tillar bajaradigan 10 ta ijtimoiy vazifadan (ya’ni: 1) BMTning rasmiy ishchi tili; 2) hududiy til; 3) davlat tili; 4) davlatning ma’lum bir qismining rasmiy tili; 5) ilm-fan tili; 6) badiiy adabiyot va OAV tili; 7) ta’lim olib boriladigan til; 8) yaqin hududlarda ham qo‘llaniladigan til; 9) oilada muloqot olib boriladigan til; 10) din va diniy marosimlar tili) [Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar, 1990] 7 tasini bajaradi va 3 tasi (ya’ni, 1, 2, va 10 vazifalar) o‘zbek tili tomonidan bajarilmaydi. Birinchi va o‘ninchi vazifalarni bir chetga qo‘yib biz 2-vazifa hakida gapirishimiz kerak. Chunki 1-va 10-vazifalarni bajarish hakida umuman o‘ylab o‘tirmasak ham bo‘ladi, chunki agar birinchisi hakida hamma narsa tushunarli bo‘lsa, 10-vazifani bajarish uchun o‘zbek tiliga mana 5-10 asrdan beri imkon berilmay kelinmoqda.

Demak, yagona imkoniyat 2-vazifa, ya'ni o'zbek tilini Markaziy Osiyoda regional aloqa tili darajasiga olib chiqishdir. Vaholanki o'zbek tili bu vazifani 1917 yilgi voqealargacha bajarib kelgan va 1924 yilgi milliy davlat chegaralanish barcha millatlarni o'z "uylariga" haydab o'zbek tilida muloqot qilishga bo'lgan ehtiyojni minimal darajaga tushirdi [Karimov, 2005].

Hozirgi paytda o'zbek tilini yana eski mavqeini qaytarish katta tashkiliy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohada katta, salmoqli ishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Chunki bu juda nozik qadam bo'lib Markaziy Osiyodagi o'z davlat tuzumiga ega bo'lgan boshqa xalqlar tomonidan noto'g'ri tushunilishi, ya'ni "ulug'-o'zbek shovinizmi" tarzida qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun bu sohadagi davlat strategiyasini ishlab chiqishda hozirgi zamon sotsiolingvistika fani erishgan eng oxirgi yutuqlardan foydalanish va hamma uchun bir xil darajada to'g'ri keladigan, harakat strategiyasi ishlab chiqilishi lozim.

Buning uchun bizningcha quyidagi vazifalar izchillik bilan amalga oshirilishi kerak.

1. O'zbek tilida olib borilayotgan ilmiy-tadkikot ishlarini ko'paytirish va ularning jahondagi boshqa rivojlangan tillarda bor ishlarning takrori bo'lib qolmasligiga erishish kerak. Chunki faqat original tadqiqotlargina xorijdagi olim va mutaxassislarning e'tiborini tortishi mumkin.

2. O'zbek tilining O'zbekistondan tashqari davlatlarda o'qitilishi va o'rganilishini davlat tomonidan yordam berish, qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va bu ishning davlatlararo ta'lim-tarbiya va madaniy-ma'rifiy aloqalarning ajralmas qismiga aylantirish kerak.

3. O'zbek tilini o'rganish yoki O'zbekiston OTMlarida ta'lim olish istagini bildirgan xorijlik fuqarolarga ta'lim berish imkonini yanada kengaytirish, OTMlarni shu murakkab vazifaga atroflicha tayyorlash kerak.

4. O'zbekistonning o'zida o'zbek tilini o'qitishni yanada yaxshilash, mavjud DTS (davlat ta'lim standarti), dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarni zamonaviylashtirish zarur.

5. OAVlarda va kino, teatr, reklama nashrlarida o'zbek adabiy tili so'zlashuv variantining til normalariga mosligini nazorat qilish va til normasini buzishga yo'l qo'ymaslik sohasida doimiy ishlovchi nazorat komissiyasi tuzish va o'zbek tilining sofligi uchun kurash olib borish kerak, chunki o'zbek tilini o'zbeklarning o'zi pisand qilmasa boshqalardan nima kutish mumkin.

6. Internet tizimida o'zbek tilidagi ma'lumotlar miqdorini ko'paytirish O'zbekiston va o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishni oshirishga olib keladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagilarni umumiy xulosa tarzida aytish mumkin.

1) Globallashuv jarayonining o'zbek tiliga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sir va oqibatlarini avvaldan chuqur o'rganib shunga mos til siyosatining tamoyillari ishlab chiqilishi va aniq bir strategiya belgilanishi kerak.

2) Globallashuv jarayonida har qanday tilning omon qolishini belgilovchi asosiy omil bu tilning funksional ko'lamini kengaytirishdir, chunki til har qanday til mexanizm kabi ishlashi kerak, agar ishlamasa u yaroqsiz holga keladi. Aniqroq qilib aytganda agar odamlar o'zbek tilida gaplashmasa, badiiy asar yaratmasa, ilmiy asar yozmasa, davlat hujjatlari chop etilmasa, maktabda ta'lim olib borilmasa o'zbek tili biz yuqorida eslatib o'tgan baluj tili, gujarat tili, damaaki tili, kalasha tili va boshqa tillar kabi sekin-asta o'lik tilga aylanishi hech gap emas.

3) Globallashuvning asosiy atributlaridan bo'lgan turmush tarzi, kiyinish madaniyati, musiqa-san'at, fan-texnika yutuqlari, tanovvul kilinadigan narsalarning birligi, o'xshashligini rivojlangan mamlakatlardan o'zlashtirsa bo'ladi, ammo lekin milliy-ma'naviyat va tilni qurbon qilishga shoshilmaslik kerak. Chunki globallashuv sharoitida til millatning o'zligini saqlab qoluvchi yagona atributga aylanib qoladi.

4) Xorijiy tillarni o'rganish kerak, mayli, har bir fukaro 3-4ta chet tilini bilsin, jahon kezganda ulardan ravon, qiyinchiliksiz foydalansin, xorijliklarda ijobiy taassurot qoldirsin, lekin o'zbek tiliga bo'lgan munosabat o'zgarmasin, uni mensimay, buzib, turli varvarizmlar va sheva unsurlari bilan gapirishga hech kimning haqqi yo'q.

5) Globallashuvning barcha ijobiy momentlaridan to'la foydalanish, va ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotining bu bosqichida oddiy xalqqa mos keluvchi va to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning til madaniyatini, muloqot madaniyatini oshirish, jahon tillari va ularning taraqqiyoti haqida obyektiv ma'lumotlar berish ularning lingvistik savodini oshirish sohasida o'zbek filolog olimlari va tillar o'kituvchilari o'z oldiga qo'yilgan mas'uliyatning naqadar ulkan ekanligini tushunishlari va mos ravishda shu yo'lda olib borayotgan ishlarini jahon andozalariga muvofiq ravishda ijro etmoqlari kerak. Aslida globallashuv jarayonining asosiy talabi ham shu.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Khamzaev S.A. (2024) Patterns of interaction of categories generalizing External factors of vocabulary development. Foreign Linguistics and Linguodidactics. Issue – 2 № 2. – Pp. 164-178.

2. Karimov I.A. (2005) O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston. – 446 b.

3. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar (1990). Glavniy redaktor V.N. Yarseva. – Moskva.: «Sovetskaya ensiklopediya». – 688 str.

4. Nazarov P.J. (2019) O‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar xususida. Xorijiy filologiya №4. – Samarqand. 54-58 bb.
5. To‘rayev V.A. (2003) Insoniyatga globallashuv tahdidlari. //–Toshkent: “Jahon adabiyoti”, 12-son.
6. Xamzayev S.A. (2024) Borrowed words from foreign languages and their influence on the formation and development of the vocabulary of the Uzbek language. O‘zMu xabarlari axborotnomasi. Toshkent. 1/10/1. – B.333-335.
7. Xamzayev S.A. (2025) O‘zbek tili hududiy shevalarining uning leksik qatlamining shakllanishi va rivojlanishiga ta’siri. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 2025-3/4. – Xiva. – 324-328 bb.
8. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism (1980). –Toshkent: O‘qituvchi. – 447 b.
9. Shveyser A.D. (1991) Modeli yazikovoy variativnosti / A.D. Shveyser // Yaziki mira: problemi yazikovoy variativnosti. Moskva. - S. 63-73.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xoldorova Shohista Aazamjon qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
o'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

INTERNET MULOQOT MATNLARIDA NUTQIY STRATEGIYA VA TAKTIKANING QO'LLANISHI

Annotatsiya. *Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaga nutqiy ta'sir ko'rsatishda adresant tomonidan to'g'ri tanlangan kommunikativ strategiya va taktika muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham tarmoq muloqotlarida kommunikativ maqsadga erishish yo'llarini tadqiq qilish va diskursiv yondashuv masalaning dolzarbligini oshiradi.*

Kalit so'zlar: *kommunikant, strategiya, taktika, assertiv, direktiv, komissiv, deklarativ, ekspressiv aktlar, yaqinlik taktikasi, ijobiy taqdimot taktikasi.*

Холдорова Шахиста Аазамжон кизи
Джизакский государственный педагогический университет
Преподаватель кафедры методики преподавания узбекского языка

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СТРАТЕГИЙ И ТАКТИКИ ДИСКУРСА В ТЕКСТАХ ИНТЕРНЕТ-КОММУНИКАЦИИ

Аннотация: *В настоящее время при речевом воздействии на аудиторию через социальные сети важно правильно выбрать коммуникативные стратегии и тактики. Поэтому исследование способов достижения коммуникативной цели в сетевом общении и дискурсивный подход подчеркивают актуальность данной проблемы.*

Ключевые слова: *коммуникант, стратегия, тактика, ассертивные, директивные, комиссивные, декларативные, экспрессивные акты, тактика сближения, тактика позитивной презентации.*

Kholdorova Shohista Aazamjon qizi
Jizzakh State Pedagogical University
Teacher of the Department of Uzbek Language Teaching Methods

THE USE OF SPEECH STRATEGY AND TACTICS IN INTERNET COMMUNICATION TEXTS

Abstract: *Today, in influencing the public through social networks, the appropriate selection of communicative strategies and tactics by the addresser plays a crucial role. Therefore, researching methods of achieving communicative goals in network communication and applying a discursive approach highlights the relevance of this issue.*

Keywords: *communicant, strategy, tactic, assertive, directive, commissive, declarative, expressive acts, proximity tactic, positive self-presentation tactic.*

Muloqot muhitida har bir kommunikant o'zining suhbatdan ko'zlangan maqsadiga erishish uchun turli usullarni tanlaydi. Bu usullar to'g'ri tanlangan kommunikativ strategiya va taktika orqali amalga oshib, bular kommunikatsiya jarayonini samarali davom ettirish hamda tinglovchiga nutqiy ta'sir o'tkazishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. So'zlovchi bu jarayonda til vositalaridan muloqotning konteksi, sharoiti, tinglovchining ijtimoiy, ruhiy holatlarini hisobga olgan holda foydalanadi. Muloqot strategiyasini tanlashda so'zlovchi, avvalo, o'zining kommunikativ intensiyasini (ya'ni maqsadini) aniq belgilab, shu maqsadga erishish uchun qanday resurslar va imkoniyatlar mavjudligini tushunishi kerak.

Internet tarmog'ining keng yoyilishi va u orqali muloqot muhitining yaratilishi natijasida ko'plab sohalarning tadqiqot manbayiga aylanib ulgurdi. Internet muloqot matnlarini lingvistik jihatdan o'rganishda rus tilshunosligi peshqadamlik qiladi. Jumladan A.V. Poloyan, U. Baoyan, Y. V. Afanasevoy, L.K.Graudina, E.N.Shiryaev, T. M. Germasheva, M. A.Фёдорова, A. L. Xolod, M.S Rijkov kabi tadqiqotchilarning ishlarida ushbu muammoning mohiyati, turli diskurslarda qo'llanish o'rni va ahamiyati ochib berildi. O'zbek tilshunosligida M.Sobirova o'zining ilmiy tadqiqotining bir faslida gazeta matnlarida strategiya va taktiklarning tanlanishiga to'xtalib o'tgan. Hamda siyosiy matnlarda kommunikativ strategiya va taktikalarning qo'llanilishi

S. Barliboyeva tomonidan PhD dissertatsiya ishi sifatida tadqiq etilgan.

Pragmalingvistik tadqiqotlarda starategiyalar qo‘llanilish obyektiga ko‘ra turli xil guruhlarga ajratilgan. Xususan, L.K.Graudina va E.N.Shiryaev strategiyaning ikki turini: *hamkorlik va qarama-qarshilik* strategiyalarini ajratib ko‘rsatishadi. Nutq strategiyalarining tasnifi kommunikatorlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir turiga asoslanishi mumkin. Agar kommunikativ maqsadga erishilgan bo‘lsa va shu bilan birga muloqot ishtirokchilari munosabatlarda ma'lum bir muvozanatni saqlab qolgan bo‘lsa, demak, ularning o‘zaro ta'siri hamkorlik strategiyalariga asoslangan edi. Agar kommunikativ vazifa bajarilmasa va muloqot qiluvchilar o‘rtasidagi munosabatlarda nomutanosiblik mavjud bo‘lsa, unda bu holda muloqotning asosini qarama-qarshilik strategiyalari tashkil qiladi, deb aytishimiz mumkin.[9] Kommunikantlar internet-muloqot jarayonida qo‘llaydigan nutq strategiya va taktikalari janrga bog‘liqligini ta'kidlash kerak. Xususan, forum va ijtimoiy tarmoqlarda aynan hamkorlik hamda qarama-qarshilik strategiyalari qo‘llanadi.

Internet kundaliklarida amalga oshuvchi muloqot matnlarida qo‘llangan strategiyalar va taktikalarni o‘rgangan rus tilshunosi U. Baoyan ularni 3 ta turini ta’kidlab o‘tadi.

– **Men-strategiya** (o‘zini taqdim etish, virtual qiyofani shakllantirish strategiyasi);

– **Sen-strategiya** (maqsad, muloqotga yo‘naltirilganlik, interaktivlik strategiyasi);

– **Biz-strategiya** (integratsiya, do‘stona hamjamiyatni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish strategiyasi). [3. 96-97]

Internet kundaliklarida blog yurituvchi o‘z sahifasining **mazmuni va uslubiga** qarab ushbu strategiyalardan birini yoki ularning kombinatsiyasini tanlaydi. **Shaxsiy bloglarda** “Men-strategiya” qo‘llanib, muallif o‘z fikrlarini ochiq bildiradi hamda hayot tajribasi yoki bilimlarini ulashadi. Ko‘rgan-kechirganlari yoki shaxsiy mulohazalarini sahifasida namoyish etib boradi. Bu strategiyada auditoriya bilan bog‘lanish darajasi passiv shaklda kechadi. Muloqot axborot berish ruknida bo‘ladi. **“**Sen-strategiya” strategiyasida esa o‘quvchi bilan o‘zaro muloqot qilish, savollarga javob berish muhim. Agar u **“Sen-strategiya”ni** tanlasa, **muhokama va bahs-munozara** rivojlanadi, lekin muallifning shaxsiy qiyofasi unchalik oldinga chiqmasligi mumkin. Agar **“Biz-strategiya”** ustuvor bo‘lsa, unda muallif atrofida **faol hamjamiyat shakllanadi**, lekin blogning asosiy mazmuni biroz ikkinchi planga tushib qolishi mumkin. Lekin har doim blog mualliflari bitta strategiyaga qaram bo‘lib qolmaydi, ba’zan bir jarayonni o‘zida bir necha strategiyalar amalda qo‘llanilishi kuzatiladi.

U. Baoyanning izlanishlarini davom ettirgan **T. M. Germasheva** kommunikativ strategiyalarni quyidagi yo‘nalishlarga ajratadi:

1.Aloqa doirasini kengaytirish strategiyasi;

2.Idealizatsiya qilingan o‘zini namoyon qilish strategiyasi;

3.O‘z mutaxassisligini namoyish etish strategiyasi;

4.Iqtibos va boshqa ma’lumotlardan foydalanish strategiyasi;

5.Psixoterapevtik strategiya;

6.O‘zini targ‘ib qilish strategiyasi . [7.9].

Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqish mumkinki, pragmalingvistikada kommunikativ strategiya va taktikaning turlarini belgilashda tadqiqotchilar tomonidan turfa yondashuvlar uchraydi. Har bir kommunikant o‘z muloqotini samarali bo‘lishi uchun nutqiy vaziyatga xos strategiya va taktikalarni tanlaydi, bu ularning shaxsiy qobiliyati va uslubiga bog‘liqdir. Nutqiy strategiya va taktika atamasini lingvistik jihatdan asoslagan O. S. Issers ham bu borada hozirgi vaqtda yagona nutqiy strategiyalar tasnifi mavjud emasligi, olimlar ularni turli parametrlar asosida ajratishiga ishora qilgan. Biz ishimizda elektron muloqot matnlarini tahlil qilish asnosida quyidagi strategiyalar va taktikalar mavjudligini aniqladik:

O‘zini namoyish qilish strategiyasi. Ushbu strategiya internet muloqotining turli janrlarida kuzatilishi mumkin. Bunda adresant o‘z qiyofasini boshqalarga ma’lum bir tarzda ko‘rsatishga urinadi. Bundan tashqari “o‘zini namoyish qilish” strategiyasini Y.A.Antonova ommaviy axborot vositalarida, O.N.Parshina esa siyosiy sohaga doir matnlarda keng qo‘llanishini ta’kidlagan.

Internet tarmoqlarida ushbu strategiya eng faol usul bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Instagram, Facebook, TikTok ijtimoiy tarmoqlarida, YouTube sahifalarida telegram messenjeri kabilarda keng qo‘llanadi. Har bir tarmoqda blog yurituvchi shaxs keng ommaga tanilishni, qaysi soha bo‘yicha faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, uni targ‘ib qilishi, hamda mashhurlikka intilish istagi bilan *“o‘zini namoyish qilish”* strategiyasini qo‘llaydi. Chunki, virtual olamda auditoriyani kengaytirishning dastlabki omili – bu o‘zini tanitish, tinglovchida o‘zining shaxsiy, kasbiy faoliyati haqida taassurot uyg‘ota olishdir. Hozirgi vaqtda internet tarmog‘i insonning intellektual, kasbiy, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda eng tezkor vosita vazifasini bajarmoqda. Buning ortidan mashhurlikka intilish, o‘z brendini namoyish etish va moddiy daromad olish ehtiyoji ham yotadi.

O‘zini namoyish strategiyasi shaxsning maqsadlari, auditoriya bilan munosabati va o‘zini qanday ko‘rsatishiga bog‘liq ravishda bir necha taktikalar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan,

***Ijobiy taqdimot taktikasi*.**

Ushbu taktikada adresant adresatlarda yaxshi taassurot qoldirishi uchun o‘zini shaxsiyati va ijobiy

yutuqlarini taqdimot shaklida hikoya qiladi. Quyidagi misolga e'tibor qaratamiz: Telegram messenjerida *Shohida Ibragimova* nomi bilan kanal yurituvchi muallif o'z obunachilari oldida o'zini tanitish uchun ushbu matnni joylaydi.

Meni tanimagan obunachilarimiz uchun Shohida Ibragimova kim?

Moliya fanlari bo'yicha falsafaa doktori.

13 yillik tajribali moliya sohasi bo'yicha top ekspert.

Moliyaviy savodxonlik yo'nalishida O'zbekiston infobiznesidagi birinchi ekspert.

34 yoshida 1 milyon dollor daromadga ega

500+ o'quvchini oyiga 500 dollor daromadga olib chiqqan ustoz

100 000+ insonlarga moliyaviy savodxonlik bo'yicha dars bergan

12+ passiv daromad egasi

17 yillik kelin

5 farzandning onasi.

Muallif joylagan ushbu matnli postda shaxsiy va hayotiy faoliyati bilan bog'liq axborotlar bilan adresatlarni xabardor qiladi. Bundan ko'zlagan maqsad o'zini namoyish qilish bo'lib, bunda ijobiy taqdimot taktikasidan foydalanadi. Ma'lumki, kanalni kuzatuvchi obunachilar doimiylikka ega bo'lmaydi. Ularning ichida uzoq muddatdan buyon kuzatuvchilar yoki endigina hamjamiyatga qo'shilgan obunachilar ham bo'lishi mumkin. Shu sababli ham adresat ushbu avtobiografik matnni havola qilmoqda. Bu esa natijada Shohida Ibragimova shaxsiyatining mashhurlashishi va uning kurslariga qiziquvchilar soni ham ortib borishiga sabab bo'ladi. Shuningdek adresat matnga nafaqat ish tajribasi, balki kelin va ona ijtimoiy maqomlarini bildirgan so'zlarni ham kiritib o'tishi bejizga emas. Bu axborotni qabul qiluvchilar orasida yana ham ijobiy taassurot uyg'otishiga sabab bo'ladi. Ko'plab tarmoq va messenjer sahifalarida o'zini namoyish qilish strategiyasi, aynan ijobiy taqdimoq taktikasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu taktikada asosan, hayotiy tajribalar, kasbiy yutuqlar va foydali tavsiyalar aks etishi mumkin bo'ladi.

Kanal matnlarini tahlil qilish asnosida "O'zini namoyish qilish" strategiyasini yuzaga chiqishida ***"Yaqinlik taktikasi"*** ham foydalanilishi aniqlandi. Bu taktikada adresat o'zini adresantlar bilan judayam yaqindek, ancha vaqtdan buyon tanishdek his qiladi. (garchi kanalga yangi kirgan obunachilar bo'lsa ham)

Masalan, yuqorida keltirilgan ekspert Shohida Ibragimova o'z kanalida adresatga doimiy holatda " milliarderlarim" deya murojaat qiladi.

*Assalomu aleykum **Milliarderlarim**😊. Vanihoyat Vatanimga qaytvomman, judda ham sogindim O'zbekistonimni , oilamni va hammelani ♡.*

Yoki

*Hayrli kech **Milliarderlarim**♡. Men Qoraqalpog'istonda shuncha mehr borligini bilmagan ekanman) Hammasi uchun minnatdorman😎 Xavas qilganga shunday qadr va e'zozda bo'lish nasib qilsin!*

Ushbu misollarimizdagi murojaat birligi bo'lib kelgan "milliarder" so'zi undalma vazifasida qo'llanilgan. Adresant o'z obunachilariga har doim shu so'z orqali murojaat qiladi. Uning tarkibidagi egalik qo'shimchasining qo'llanilishida ham pragmatik maqsad mavjud. Chunki adresant adresatlar bilan virtual olamdagina bog'lanib, asli notanish bo'lsa ham, xuddi ular bilan ancha vaqtdan buyon tanish insonlardek o'ziga yaqin olib aynan "milliarderlarim" degan so'zni qo'llaydi. Bu esa kuzatuvchilarda ham ijobiy taassurot uyg'otadi.

Shuningdek, internet olamida blog yurituvchi insonlar, boshqalardan ajralib turishi uchun o'ziga xos va jozibador, o'zining nutqiy brendiga aylangan so'z va iboralardan foydalanishadi. Bunday nutqiy qolib birikmalardan foydalanish ham ma'lum ma'noda mashhurlikka sabab bo'la oladi. Aynan yuqoridagi kanal yurituvchimizning "milliarderlarim" so'zlari ham ana shunday mashhur jumlalar sirasiga kirib ulgurgan.

Yoki, barcha internet tarmoqlarida o'z shaxsiy blogini yurituvchi "***Shokhida Yusupova's blog***" (@Sh_Yusupova_manager) profil egasi ham muntazam ravishda o'z kuzatuvchilariga "**mani aqlli, o'qimishli auditoriyam**" deya murojaat qiladi. Buning sababi ushbu kanalning ko'p sonli kuzatuvchilari xorijiy til o'rganish istagidagi insonlar bo'lganligi uchundir. Kanal admini virtual olamda ***O'zini namoyish etish strategiyas***ini amalga oshirishda ushbu murojaat shakli orqali ***yaqinlik taktikas***idan foydalanadi. Bu yaqinlik munosabatini jumlalardagi qarashlilik, egalikni ta'minlovchi *men* olmoshi va *–im* egalik affiksi ta'minlagan.

Masalan, *Assalomu alaykuuum, **mani aqlli, o'qimishli auditoriyam**, bayramingiz muborak, sizga dunyodagi jamiyki yaxshiliklarni va orzularingiz ro'yobini, chinakam baxtlarni tilayman.*

Internet tarmoqlari ayni vaqtda reklama tarqatishning eng muhim manbayi vazifasini bajarmoqda. Sir emaski, tarmoqlarda sahifasini yurituvchi blogerlarning asosiy daromad manbayi reklama ortidan kelmoqda. Ular kommunikatsiya jarayonida auditoriyani muayyan fikr yoki harakatga undash uchun **"Ishontirish"** starategiyasidan qo'llashadi. Kanal egalari reklama qilayotgan mahsuloti yoki kurslar sotuvini kengaytirish uchun auditoriyani ishontirishga harakat qilishadi. Buning uchun jozibador nutqiy vositalardan foydalanadi. Ushbu starategiya bevosita nutqiy aktlar bilan birgalikda kechadi. Yuqorida nutqiy aktlarning 3 turi mavjudligini keltirib o'tdik. Tilshunos olim J.Syorl esa nutqiy aktlarni 5 guruhga ajratadi:

1. Assertivlar (dallilar keltirish orqali ishontirish)

2. Direktivlar (buyruq, iltimos kabi maqsadlarni ko‘zlab, tinglovchini ma’lum harakatni bajarishga undaydi)

3. Kommissivlar (va’da berish).

4. Deklarativlar: (e’lon mazmunidagi nutqiy aktlar).

5. Espressivlar (kishining hissiyotlarini yorqin ifodalaydigan tabriklash, maqtash, ta’ziya bildirish kabilar)[2]. Ushbu nutq aktlari ichida “Ishontirish” strategiyasi asosan **assertiv**, **direktiv** va **komissiv aktlar** orqali amalga oshiriladi.

Ushbu misolimiz https://t.me/dostonjonsoyibov telegram profil egasining sahifasidan olindi.

1 soat qoldi. Bu afsonaviy bo‘ladi. Kirib oxirigacha o‘tirganlar biznesni 99% bozordagi raqobatchilaldan ko‘proq tushunadigan bo‘lib chiqadi. Mini-kurs ham sovg‘a qilaman

Bu matnda adresant *“afsonaviy bo‘lmoq, raqobatchilardan ko‘proq tushunmoq”* kabi jumlalar qo‘llab, adresatlarni ishontirishga harakat qilgan. Ushbu kanal yurituvchisi biznes sohasi bo‘yicha ekspert hisoblanib, aynan ko‘p sonli o‘quvchi jalb qilish va ularni ishonchini qozonish maqsadida bir vaqtning o‘zida direktiv va kommisiv nutq aktlaridan foydalangan. Ya’ni, onlayn vebinar boshlanishiga yaqin qolganligi, unda qatnashish uchun tayyorgarlik qilib olish uchun adresatlarni da’vat etmoqda. Adresat vebinar muloqot muhiti avvalidan uning natija ko‘lamini prognoz qilgan holda, adresatni ishontirish maqsadida 99 % ga natija ko‘rsata olishlariga hamda sovg‘a taqdim qilishga va’da berish orqali kommissiv nutq aktini qo‘llagan.

Yana bir kanaldan olingan matnimizda (https://t.me/maqolachopetish18) adminning ishontirish strategiyasidan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. ***SUPER CHEGIRMALAR FAQAT SIZ AZIZLAR UCHUN*** *USAMERIKA (WASHINGTON) xalqaro ilmiy-onlayn konferensiyasi 65% chegirma narxlarda! GOOGLE SCHOLAR tizimida TEZ indexlanuvchi xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya! IQTIBOS VA H-INDEX NI OSHIRISH UCHUN JUDA YAXSHI IMKONIYAT! Maqola chop qilish 160.000 emas 69000 so‘m*

Ushbu holatda axborotni tarqatuvchi, uni qabul qiluvchilarni ma’lum bir harakatga undash maqsadida *“super chegirma, faqat sizlar uchun”* direktiv nutqiy akti orqali o‘zaro ishonch munosabatini o‘rnatmoqda. “Super chegirma” jumlasi adresatni tezroq ulgurib qolishga, imkoniyatni yo‘qotmaslikka undaydi. Bundan tashqari *“ faqat”* ayiruv yuklamasi ushbu imkoniyat hamma uchun emasligi, *“siz azizlar”* uchun ekanligiga ishora qilib, adresatda ijobiy hissiyot uyg‘otadi. Hamda matnda ***“Inkor etish”*** taktikasidan foydalanilgan. Bunda maqola chop etish noreal narxdan real narxga tomon o‘zgarmoqda. Bunda 69 ming 169 ming miqdorini inkor etadi. Aynan eski narxning inkor belgisi bilan qo‘llanilib ketishi, 65% lik chegirmani ko‘rsatib berishda xizmat qilgan.

Internet muloqot matnlarida kommunikantlarning samarali munosabat o‘rnatishida to‘g‘ri tanlangan strategiya va taktikalar muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ maqsadning belgilanishi va uni amalga oshishi aniq ishlab chiqilgan strategiya va taktikalar bilan belgilanadi. Shu jihatdan ham nutqiy ta’sir ko‘rsatishda ushbu vositalarning to‘g‘ri tanlanishi muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun elektron muloqot matnlarida kommunikativ strategiya va taktika masalasini pragmalingvistik aspektda o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Афанасьевой Юлии Викторовны. Речевые стратегии и тактики интернет-коммуникации. (на материале жанров форума и социальной сети)**.** Саратов 2016

2.J.Syorl “Maining, kommunikation and representation”. Okford university press. 1986

3.Баоянь У. Коммуникативные стратегии и тактики и языковые средства их реализации в русскоязычной неформальной межличностной дискуссии (на материале Интернет-дневников):дис. ... канд. филол. наук. М., 2008. С. 96-97 **(**на материале жанров форума и социальной сети) **.** Саратов 2016

4.S. Barliboyeva. O‘zbek tilidagi siyosiy matnlarda kommunikativ strategiya va taktika: lingvopragmatik yondashuv. Fil. fan. nomz. …diss. – Toshkent, 2024.

5.Sh. Xoldorova. Muloqot jarayonida kommunikativ strategiya va taktika. // Filologiya fanlarini o‘qitishning dolzarb masalalari. Qo‘qon 2024.

6.А.В. Полоян Прагмалингвистисҳеские особенности жанра интернет-коммента к неполитисҳеским новостним статям и откликам на них. Ростов-на-Дону –

7.Гермашева Т. М. Языковая личность субъекта блог-дискурса: лингвокогнитивный аспект: автореф.дис. ... канд. филол. наук. Нальчик, 2011. С.9

8.М.Собирова узбек медиаматнларининг прагмалингвистик тадкики (Газета матнлари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2021.

9.*Рыжков, М.С.* Речевые стратегии участников синхронного интернет-дискурса на материале русско- и англоязычных чатов [Текст]: дис. … канд. филол. наук / М.С. Рыжков. – Елец, 2010. – 273 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Tillarni o‘qitish kafedrasi mudiri
E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmal.com

UO‘K: 82.0(575)

TEMURIYLAR DAVRI ADABIYOTI XXI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLIGI TALQINIDA: ALISHER NAVOIY IJODI MISOLIDA

Annotatsiya: *Maqolada Temuriylar davri adabiy merosining fransuz sharqshunosligi tomonidan o‘rganilishi Alisher Navoiy ijodi misolida tahlil qilinadi. Remi Dor, Aleksandr Papas va Mark Toutant kabi fransuz sharqshunoslari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, ularning ilmiy yondashuvlari, uslubiy xususiyatlari va original qarashlari atroflicha ochib beriladi. Fransuz sharqshunosligidagi metodologik jihatlar, ayniqsa Navoiy ijodiga tasavvufiy, adabiy va madaniy yondashuvlarning o‘ziga xosligi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Temuriylar davri, Alisher Navoiy, fransuz sharqshunosligi, Remi Dor, Aleksandr Papas, Mark Toutant, muammo janri, tasavvuf, adabiy meros, turkiy til, madaniyatlararo tadqiqot.*

Насирдинова Ёркиной Абдумухтаровна
Кокандский университет, Андижанский филиал
заведующая кафедрой преподавания языков

ЛИТЕРАТУРА ЭПОХИ ТИМУРИДОВ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ФРАНЦУЗСКОГО ВОСТОКОВЕДЕНИЯ XXI ВЕКА: НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация: *В статье анализируется изучение литературного наследия эпохи Тимуридов во французском востоковедении на примере творчества Алишера Навои. Рассматриваются исследования таких французских востоковедов, как Реми Дор, Александр Папас и Марк Тутан, с выявлением их научных подходов, методологических особенностей и оригинальных взглядов. Особое внимание уделено своеобразию суфийского, литературного и культурологического подходов к творчеству Навои во французском востоковедении.*

Ключевые слова: *эпоха Тимуридов, Алишер Навои, французское востоковедение, Реми Дор, Александр Папас, Марк Тутан, жанр муамма, суфизм, литературное наследие, тюркский язык, межкультурные исследования.*

Nasirdinova Yorkinoy Abdumukhtarovna
Kokand University, Andijan Branch
Head of the Department of Language Teaching

TIMURID-ERA LITERATURE IN THE INTERPRETATION OF 21st CENTURY FRENCH ORIENTAL STUDIES: THE CASE OF ALISHER NAVOI'S WORKS

Abstract: *This article examines the study of Timurid-era literary heritage in French Oriental studies, using the works of Alisher Navoi as a case study. It thoroughly analyzes research by French orientalists such as Remi Dor, Alexandre Papas, and Marc Toutant, highlighting their scholarly approaches, methodological characteristics, and original perspectives. Particular attention is paid to the distinctive aspects of mystical (Sufism), literary, and cultural approaches employed by French orientalists in exploring Navoi’s literary legacy.*

Keywords: *Timurid era, Alisher Navoi, French Oriental studies, Remi Dor, Alexandre Papas, Marc Toutant, muamma genre, Sufism, literary heritage, Turkic language, intercultural research.*

Kirish

Temuriylar davri (XIV-XVI asrlar) Markaziy Osiyo va Eron hududlarida madaniy va adabiy yuksalishning yorqin davrlaridan biri sifatida tarixda o‘z o‘rnini egallaydi. Ushbu davrda nafaqat siyosiy va harbiy yutuqlar, balki ilm-fan, san'at va adabiyot sohalarida ham

jadal rivojlanish yuz berdi. Amir Temur va uning vorislari madaniyat va san'at homiylari sifatida ilmiy, adabiy va me'moriy faoliyatlarni rag‘batlantirgan holda, Samarqand va Hirot kabi shaharlarni o‘z davrining yirik madaniy markazlariga aylantirdilar.

Temuriylar davrida adabiyot, ayniqsa fors va turkiy tillarda mislsiz rivojlandi. Ulug‘bek, Shohruh Mirzo, Husayn Boyqaro kabi hukmdorlar ilm va san'at sohiblarini o‘z atrofida jamlab, ularga ko‘plab imkoniyatlar yaratib berdilar. Natijada, mazkur davrda adabiyotning ko‘plab janrlari, ayniqsa, dostonnavislik, g‘azalnavislik, nasr va tarixnavislik misli ko‘rilmagan darajada gullab-yashnadi.

Ushbu adabiy-madaniy yuksalish davrining eng yorqin vakillaridan biri Alisher Navoiydir (1441-1501). Uning ijodi Temuriylar davrida shakllangan madaniy muhitning betakror namunasi sifatida e'tirof etiladi. Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi, san'at homiysi va madaniy-ma'rifiy islohotchi sifatida tarixda qolgan. U turkiy tilning adabiy imkoniyatlarini ochib berishda, fors tilining hukmronligi ostidagi adabiy muhitda turkiy tilning nufuzini oshirishda muhim rol o‘ynagan.

Adabiyotlar tahlili

Alisher Navoiy adabiy merosi tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy nashrlar Sharqda, ayniqsa, O‘zbekiston va Turkiyada salmoqli o‘rinni egallaydi. Shuningdek, G‘arbda ham shoir haqidagi ma’lumotlar XVII asrdan keyingi davrdagi manbalarda yetarlicha uchraydi. Mazkur masalani yoritishga o‘zbek adabiyotshunosligida qator olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar. Jumladan, XVII asrdan XX asrning 80-yillariga qadar rivojlan o‘zbek-fransuz adabiy aloqalari professor M.Xolbekovning doktorlik dissertatsiyasida [1] atroflicha o‘rganilgan bo‘lsa, navoyishunos A.Erkinov tomonidan XIX asrda Fransiyada yashab, ijod qilqan olim Fransua Alfons Belenning Navoiy shaxsiyati va asarlariga bag‘ishlangan ilmiy risolalarini [2] tarjima ishlari bilan shug‘ullangan [3].

XXI asr fransuz sharqshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar keng ko‘lamliligi va originalligi bilan ajralib turadi. Olimlarning Yevropa tillari bilan bir qatorda eski turkiy til, fors, arab va boshqa sharq tillarini ham bilishlari ularning ilmiy ishlarini origalligini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, fransuz sharqshunoslari ma’lum bir mavzuni o‘rganishda uning O‘zbekiston, Turkiya, Fransiya, Amerika va boshqa davlatlar kutubxonalarida saqlanayotgan barcha qo‘lyozma nusxalarini qiyosiy tadqiq etdilar. Uchinchidan, nafaqat qo‘lyozmalar, balki mazkur mavzuga bag‘ishlangan barcha manbalarning chuqur tanqidiy tahlili, ularning bir biridan farqli va ustun jihatlarini ro‘yu rost ochib berilganligi bilan qimmatlidir. Remi Dor, Aleksandr Papas, Marc Toutant kabi olimlar Navoiyni nafaqat mumtoz badiiy mahorat egasi, eski turkiy til asoschisi sifatida, balki o‘z shaxsiyatida adolatli davlat arbobi va tasavvufiy irfon sohibi kabi sifatlarni mujassamlashtirgan barkamol inson sifatida tadqiq etdilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola XX–XXI asrlar fransuz sharqshunosligi doirasida Alisher Navoiy ijodining talqiniga oid ilmiy yondashuvlarni aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Tarixiy-komparativ tahlil metodi – fransuz sharqshunoslari (Remi Dor, Aleksandr Papas, Mark Toutant) tomonidan ishlatilgan yondashuvlar, avvalgi G‘arbiy tadqiqotlar bilan qiyoslab o‘rganildi;
- Manbashunoslik yondashuvi – maqolada fransuz olimlari foydalangan qo‘lyozma, tarjima, monografiya va maqolalarning bevosita analizi asosida ularning ilmiy qiymati aniqlab berildi;
- Lingvokulturologik metod – tasavvufiy til, muammo janri, madaniy kodlar kabi elementlarning talqini orqali G‘arbda Navoiyning qanday qabul qilinishi o‘rganildi;
- Strukturaviy-tahliliy yondashuv – “Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Xamsa” asarlarining fransuz tadqiqotchilari tomonidan tahlil qilinishidagi ichki struktura, simvol va ruhiy g‘oyalar kontekstdan kelib chiqib sharhlab berildi.

Natijalar va ularning tahlili

Markaziy Osiyo xalqlari madaniy merosi muxlisi bo‘lgan Remi Dor etnograf, folklorshunos olim bo‘lish bilan birga, ilmiy va badiiy tarjima ustasi hamdir. “Nurali” o‘zbek xalq dostonini fransuz tiliga tarjima qilar ekan, uning so‘z boshi qismi quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Rêver un impossible rêve,
Porter le chagrin des dêparts,
Brûler d’une possible fièvre,
Partir où personne ne part

Jacque Brel “Quête”[4]

(Tarjimasi: Mayli orzuimga yetmasam ham,
Safar mashaqqatin cheksam ham, mayli
Isitmada yonib, mayli, kuysam ham,
Yursam, deyman, hanuz hech kim yurmagan yo‘ldan)

Demak, etnograf, hali hech kim yurmagan yo‘llardan yurib, hali hech kim o‘rganmagan mavzularni taqqiq qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Ilmiy faoliyati davomida turkiy xalqlar og‘zaki ijodi namunalarini tadqiq qilish bilan birga, o‘zbek mumtoz adabiyotining yetuk vakillari Navoiy va Boburga ham murojaat qildi. O‘zidan avvalgi sharqshunoslar o‘rganmagan mavzularni ochib berishga harakat qiladi. Ulardan biri Navoiyning muammo janri masalalariga bag‘ishlangan “Mufradot” risolasi tarjimasidir.

«L‘enigme du nom propre” [4] deb nomlangan Remi Dorning tarjima to‘plamida muammo janri va uning yechimlariga doir fikrlar bilan birga 99 ta o‘zbek ismlariga tuzilgan muammolarining ilmiy tarjimasi keltirilgan. To‘plam muqaddimasida muammo san’atining dunyo adabiyotida tutgan o‘rni, rivojlanish tarixi, Navoiy hayoti va ijodi, muammo janri masalalariga bag‘ishlangan asarlar haqida ma’lumot berilgan.

Remi Dor Navoiy haqida yozar ekan, ba’zi vatandoshlarining shoirni tarjimon va taqlidchi degan yanglish fikrlarini to‘la inkor etdi. «XV asrdan XVII asrgacha o‘zbek mumtoz adabiyotida rivojlangan adabiy san’at turi bo‘lgan muammo janri Navoiy tufayli gullab yashnadi. Barcha san’at turlari – she’riyat, musiqa, rassomchilik, me’morchilik – barchasiga bo‘lgan iste’dodi tufayli mukammal yaratilgan shoir asarlari Markaziy Osiyo madaniyatini keng ko‘lamli yangilanishiga olib keldi”, - deb yozadi sharqshunos risolaning kirish qismida [4;8].

Mir Alisherga buyuk shoir, ulug‘vor badiiy uslub, mukammal asarlar, ijtimoiy hayotda barkamol tarbiya sohibi kabi sifatlar berib, fransuz sharqshunosligidagi tanqidiy farazlarga nuqta qo‘ydi. Eng asosiysi, uning insonparvar shaxs sifatidagi g‘oyalari toabad Markaziy Osiyo xalqlarini ma’naviy tarbiyalab turishligini ta’kidlaydi.

Remi Dor Navoiyning tarjimai holiga to‘xtalar ekan, uning nasl nasabi ham temuriylar saroyidan bo‘lganligini, saltanat gullab yashnagan davrda, Hirotda tug‘ilganligi va shu yerda vafot etganligini e’tirof etadi. Yoshligidan birga o‘sgan do‘sti – sulton Husayn Bayqaroning samimiy do‘stligi va homiyligi haqida yozdi. Samarqanddagi o‘qishi, muhrdorlik, vazirlar amiri va nihoyat Astrobod hukmdori kabi siyosiy faoliyatini yoritadi.

Navoiyga tilshunos va adabiyotshunos sifatidagi berilgan haqqoniy ta’riflar fransuz sharqshunosligida u haqida mavjud bo‘lgan ijobiy fikrlarni to‘ldiradi: «Navoiy chig‘atoy turkiysi, fors, arab tillari hamda barcha adabiy janrlar – nazm, nasr, mantiq, falsafa ustasi edi. U o‘zida butun musulmon madaniyatini jamlagan shaxs. Uning fikrlari chig‘atoy turkiysidek qudrat sohibi, forsiydek noziklik, arabiydek aniqlikka ega edi. U yaratgan 30 jildli adabiy meros Markaziy Osiyodan Usmoniy turklar imperiyasigacha bo‘lgan mintaqada keng tarqalgan. U tufayli, chig‘atoy turkiysi XIX asrning oxiriga qadar Markaziy Osiyoda madaniyat tili darajasiga ko‘tarildi” [4;9].

Remi Dor ijtimoiy hayotda Navoiyni irfoniy san’at kishilari homiysi, XV asrning ikkinchi yarmida Hirotning madaniy-ma’rifiy hamda adabiy markazga aylanishining sababchisi deb ko‘rsatadi. Shoirning Hurosonda san’atkorlik kasbini yuqori baholagan, masjid, madrasa, xonaqoh, hammom, kasalxonalar qurdirgan xalqparvar vazirlik davri ham tarjimon qaydlaridan chetda qolmagan.

Buyuk mutaffakkirning komil insonlik jihatlari esa naqshbandiya tariqatini mahkam tutganligi, doimo mazlumlar tarafdori bo‘lganligi, hatto oila ham qurmaganligi bilan izohlangan. «Shuning uchun shoir turkiy halqlar afsona va ertaklarida Mirali ismli qahramon sifatida mangu yashaydi”, - deb yakunlaydi Remi Dor muallif haqidagi fikrlarini.

Mumtoz badiiy ijod turlaridan bo‘lgan “muammo” janri namunalarini fransuz tiliga o‘girish jarayonida Remi Dor uchun asosiy manba Garsin de Tassining “Rhétorique et prosodie des langues de l‘Orient musulman” [5] nomli qo‘lyozmasi hamda L. Zoxidovning “Alisher Navoiy ijodida muammo janri” kitobi bo‘ldi. [6] Mazkur janr namunalari esa Navoiyning «Devoni Foniy”, «Risola-i Mufradot”, «Navodir ush-shabob” asarlaridan olingan. Bu uch asarda keltirilgan muammolar soni 500dan ortiq bo‘lib, 127 tasi «Risola-i Mufradot” da qayd etigan.

Kitobda nafaqat muammolar tarjimasi, balki ushbu janr haqida mukammal ma’lumot, uning boshqa adabiyotlarda uchrashi, har bir muammo qaysi amal yordamida tuzilganligi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Agar muammo fors tilida bitilgan bo‘lsa, uning asliyati, o‘zbek va fransuz tillaridagi tarjimasi ham berilgan. Ismlarning geneologiyasi haqidagi izohlar asarning ilmiy qimmatini yanada oshirgan.

Navoiyning fransuz muhlislaridan yana biri Aleksandr Papas Sharq tasavvuf falsafasi bo‘yicha mutaxassis. Irfoniy manbalar ishqibozi bo‘lgan olim, tariqat ahkomlari, shayh maqomining mas’uliyati, so‘fiy vazifalari kabi masalalarni yoritar ekan, forsiy va turkiy adabiyotda tasavvifiy g‘oyalarning ifodalanishi haqida ham ilmiy ishlar olib bordi. Mashrab hayoti va ijodi yoritilgan “Islomda tasavvuf va devonalik: uch qalandar so‘fiyning portreti” [7] nomli monografiya, Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asari tahliliga bag‘ishlangan “Alisher Navoiyning mahfiy ilmi: naqshbandiya irfoniy tili loyihasi)” [8] nomli yirik hajmli maqolalari shular jumlasidan.

Navoiy asariga bag‘ishlangan maqolada Papas shoirning ijodiga boshqa olimlardan ko‘ra o‘zgacharoq yondashadi. “… Navoiyning, asosan she’riy bo‘lgan ko‘p sonli asarlarining ichida eng ko‘p o‘rganilgan, eng uzoq tarixga ega va eng voqealarga boy asari, to‘g‘risini aytganda, she’riy matn emas”ligini ta’kidlaydi. “Ikki til muhokamasi” asarini tadqiq etar ekan uning, Markaziy Osiyo adabiy janrlariga, hoh u turkiy-mo‘g‘ul bo‘lsin, yoki arab-fors bo‘lsin, hech bir an’analariga mos kelmaydigan g‘alati tabiati haqida fikr bildiradi. Qolaversa, o‘quvchi lingvistik turdagi asoslar va aniq mulohazarni kutayotgan bir pallada, hamma joyda avtobiografik xotiralar, tarbiyaviy hikoyalar, ilohiy xamdu sanolar uchraydi. Ularning har biri muntazam ravishda Naqshbandiya tariqati mavzusiga ishoralar bilan aralashib ketgan, biroq shayhul-islomning ismi asarning hech qayerida uchramaydi. Muxtasar qilib aytganda,

“Muhakamat al-Lugatayn” o‘quvchini kodlangan tildagi baxsga olib kiradi. Faqat tavakkalga asoslangan germenevtikagina bu g‘ayrioddiy jarayonni asl masalalarini ochib berishi mumkin.

Papas, boshqa tadqiqotchilar e’tibor bermagan bir jihatni ta’kidlaydi. Yani, “Muhokama ..”ni tushunishni ikki nomutanasoblik yoki ziddiyat qiyinlashtiradi. Bir tarafdan, tillar haqidagi bahs va fors tiliga oid qator tanqidiy mulohazalar berilganligi bo‘lsa, boshqa tarafdan, butun paragraflar, kitobning chetlariga naqsh qilingan yozuvlar, qolaversa, nazm va tasavvuf sohalariga bag‘ishlangan bir necha o‘rinlardagi fors tilini himoya qiluvchi mulohazalarning mavjudligi edi. Bunday ikkiyoqlamalikni e’tiborsiz qoldirish, tadqiqotchining fikriga ko‘ra, “Muhakamatul lug‘atayn”ning har qanday izchil talqinini rad etadi.

Mana shu murakkablikni anglash maqsadida, olim o‘zidan avvalgi tilshunoslar tadqiqotlarini chuqur tahlil qiladi. Navoiy risolasining ko‘plab nashrlari orasidan, to‘rttasini saralab oldi, chunki ularning har biri uzoq muqaddima bilan boshlanib, aniq va muammoli sharhlarni taklif etadi. Papas, Orif Usman, İşak Refet Işıtman, Robert Devereux va F. Sema Barutçu Özönder [9] kabi olimlar tomonidan taqdim etilgan nashrlarni tahlil qiladi, ularning mulohazalariga o‘z fikrini bildiradi.

Barcha izohlarda asar haqida bir xil fikr keltirilgan, yani: a) turkiy tilning fors tilidan ustun ekanligi haqidagi da’vo; b) Navoiy buni o‘zining turkiy adabiy asari misolida tasdiqlaydi. Barcha faktlar ikki nuqtaga asoslanadi: turkiy leksika fors tilidan muhimroqdir; turkiy tilda so‘zlashuvchilar soni fors tilida so‘zlashuvchilardan ko‘ra ko‘proqdir. Biroq, bu Navoiy nuqtai nazarida keskin ziddiyatga olib keladi, chunki u turkiy bo‘lmagan so‘zlarni, asosan, arab va fors tillaridan foydalanishni davom etadi. Papas bu to‘rt tavsifning katta nuqsoni, ular Navoiy matnini ma’lum bir dalillarga asoslanib muhokama qilmaganliklarida ekanligini dalillab ko‘rsatadi. Tasavvufshunos olim butun “Muhakamatul lugatayn” risolasini ketma-ket ikkita katta bo‘limga taqsimlangan dalillar vositasida asoslab beradi:

“Adabiy va ma’naviy til” haqidagi risola sifatida:

1.1. Tilning ilohiy kelib chiqishi.

1.2. Arab, hind, fors va turkiy tillarning kelib chiqishi haqidagi afsonaviy hikoya.

1.3. Turk tilining adabiy xususiyatlariga oid yetti formulalar turkumi, leksik ro‘yxatlar, fors tiliga oid sharhlar.

“Irfoniy she’riyat haqida”gi risola:

2.1. Zamonaviy turkiy shoirlar tanqidi.

2.2. Adabiy va tashabbuskor avtobiografik asar.

2.3. Navoiy bibliografiyasi.

2.4. Buyuk fors so‘fiy shoirlar panegirik she’riyati (ilohiy hamdu sanolari)

2.5. Ba’zi turkiy shoirlar haqida.

2.6. Risolaning irfoniy asoslari.

Maqolaning davomida, Papas Navoiyning Naqshbandiya tariqatiga munosabatini tahlil qiluvchi mulohazalar keltirgan. Naqshbandiya tariqati nomini hech bir yerda tilga olmay, “Muhokama …”ning markaziy qismida buyuk so‘fiy fors shoiri Abdurrahmon Jomiy shaxsiyatiga ta’rif berishda mazkur tariqatda ishora qiladi: “Yana bu, faqirning piri va ustozi, tariqat ahlining sohibi irshodi, jami’ ahlullohning muqtado va shayxul-islomi Hazrati Maxdumiy Nur-ul-millati vad-dini Mavlono Abdurrahmon Jomiyning ruhparvar-latoyifi va ruhgustar zaroyifikim, andin har g‘azal «kal-vahyil-munzal” va har risola «kal-ahodisin-nabiyi mursal” oliy shon va raf’e makondurkim, alardin har lafz qiymatda durri zamindin obdorroq va hirqatda la’li otashindin barqkirdorroq” [10] .

Fransuz sharqshunosi yuqoridagi reja asosida Navoiy risolasini mukammal tarzda tahlil qiladi. Navoiyning, til nafaqat muloqot uchun, balki yaratganga hamdu sano aytish uchun ham yaratilganligi, haqidagi g‘oyalarini fransuz kitobxoniga tushunarli tarzda yetkazadi. Tasavvufda so‘fiy Olloh bilan singib, yo‘q bo‘lib ketgani kabi, til ham she’riyatga singgib yo‘qlikka aylanishi haqidagi farazlarni keltiradi.

Tasavvufshunos “badiiy qiyoslash va ma’naviy xususiyat o‘rtasida tebranuvchi” bir nechta elementlarni ta’kidlab o‘tishni lozim ko‘radi. Jumladan, *le derviche*, risoladagi *faqîr* Navoiydan boshqa kishi emas va shu orqali u Jomiy bilan birodarlik yo‘lida ekanligini yoki umumiy ma’nodagi so‘fiy darajida ekanligini, bu holat butun risola davomida uchrashini talqin qilgan. O‘z vaqtida shoir Naqshbandiy-shayh Jomiyning muridi bo‘lganligini (816/1414-897/1492) va uning iltimosiga ko‘ra Hirotda bo‘lganligi (1476-77) ham eslab o‘tgan. Boshqa tomondan, Navoiy *les significations subtiles*, yani *nozik ma’nolar* (ruhparvar lato‘if)ni zikr qilishni, matnlarning mahfiy ma’nolarini tushunish orqali tasavvufga kirishishni ustozidan meros qilib oladi. *La Voie* – yo‘l (tarîqa), bu yerda yuqorida aytib o‘tilgan Naqshbandiyani izohlagan. Navoiyning unga a’zoligi ham uning tarjimai holidan ma’lum bo‘lgan faktdir. Bu yerda, o‘zining so‘nggi asarida shoir kodlangan tilning birinchi namunasini keltirgan, biroq bu risola davomida takrorlanuvchi tasavvufiy murojaatning namunasi hamdir. Bu murojaatda birinchi navbatda Jomiy siymosiga e’tibor qaratilgan.

Hofiz Sheroziy va Amir Xusrav Dehlaviy kabi ikki mashhur shoirning g‘ayritabiiy misralariga, *la Saveur* (châshnî) – lazzat, *le Destin* (nasîb) – Taqdir, *l’Amour essentiel* (öz ‘ishq) – asl ishq, *ses Perfections* (kamâlâtï) – uning mukammalliklari (kamolatï), *l’aboutissement de ses États mystiques* (nihâyat-ï hâlâtï) kabi g‘ayrioddiy so‘fiyona tushunchalarni qo‘shgan. [8;8] Tasavvufshunos ularning har birini va qayta-qayta o‘qib chiqqan va o‘rgangan.

Naqshbandiya tariqatidagi mahfiy kodlangan konseptlarni talqinidan so‘ng Aleksandr Papas risolada keltirilgan shaxsiyatlarga e’tibor qaratgan. Bir nechta

sultonlar, qator turkiy va forsiy shoirlar haqidagi yozilgan qaydlarni fransuz tilida talqin qilgan hamda munosabat bildirgan. Maqolaning uchinchi qismida Navoiyning Naqshbandiya tariqatiga kirish sabablari, vaqti va bu yo‘ldagi manaviy o‘sishi haqidagi satrlarni tadqiq qilgan. Uchinchi qism risolada keltirilgan turkiy va forsiy tillar qiyosiga bag‘ishlangan qaydlarni o‘z ichiga oladi. Va nihoyat, maqolaning so‘nggi qismda Papas o‘z maqsadiga ko‘chadi.

“Navoiy o‘zini darvesh, Jomiyning shogirdi, Naqshbandiyaga kirgan, faqat so‘fiylik she'riyati bilan band, forsiy ustozlarining buyuk bilimdoni, tasavvufiy vahiyga erishgan qilib ko‘rsatib, Muhokamat ul-lug‘ataynning tasavvufiy jihatini doimo eslatib turadi. Va nihoyat turkiy tilga kelsak, shoir o‘zini maxfiy ilm muallifi va tasavvuf tilining yaratuvchisi sifatida tanishtiradi. Ammo risola hech qachon bunday deb e’lon qilinmagan, tasavvufning texnik atamasi ishlatilmagan yoki deyarli qo‘llanilmagan, yozuv she’riy, elliptik, maxfiydir” [8;23].

Til rasmiyatchilik ortiga yashirinadi va shu sababdan Navoiy Mahfiy ilm haqida gapiradi, chunki she’r niqobi ostida she’riyat asari yaratganda, , aslida, u o‘zini o‘zi inkor etadi, naqshbandiyaning inkor etish, o‘zini juda past tutish qoidasiga mos ravishda har qanday ontologik urinishlar, shu jumladan til ham o‘zini inkor qilish ta’sirida bo‘ladi. Tilning mahfiy qoidalari tilni inkor qilishni sir saqlaydi va nutq paytida sukunatni tiklaydi. O‘quvchi ko‘ziga goh lingvistik, gohida esa badiiy asar bo‘lib ko‘ringan *Muxakamat ul-lug‘atayn* esa, bu tilda bo‘lgani kabi boshqa tilda yozilishi mumkin emas edi. Chunki bu tilda hech narsa deyarli hamma narsa haqida gapiradi. [8;29] Tariqat pog‘onalaridan ilgarilayotgan so‘fiy ham Haqiqatga erishgach yo‘qlikka singgib ketadi.

Navoiyning irfoniy ijodi yana bir fransuz olimini o‘ziga rom etdi. Hozirda Fransiya milliy ilmiy tadqiqotlar markazida ilmiy xodim bo‘lib ishlayotgan Mark Toutant, Parijdagi Sharq tillari va sivilizatsiyalari institutini turkiy va forsiy tillar yo‘nalishini tamomlagan. Navoiy ijodini asliyatdan o‘rganish maqsadida olti yil davomida Toshkentda yashadi, fransuz tili o‘qituvchisi bo‘lib maktabda ishladi, shu bilan birga o‘zbek tilidagi qo‘lyozmalarni o‘qishni o‘rgandi. 2013 yili Parijda Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha fransuz tilida “So‘nggi temuriylar madaniyati: Alisher Navoiy (1441-1501) “Xamsa”si misolida nazirago‘ylik amaliyoti tadqiqi” nomli fransuz tilidagi dissertatsiyasini himoya qildi. 2016 yili Mark Toutant o‘z dissertatsiyasidagi qarashlarini to‘ldirib, “So‘z imperiyasi: so‘nggi temuriylar davri qudrati, madaniyati va tasavvuf Alisher Navoiy “Xamsa”si in’ikosida” [11] nomli monografiyani chop etdi. Mazkur kitob Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha G‘arbda chop etilgan yagona monografiya bo‘lib qolmoqda.

Monografiyaning kirish qismida tadqiqot uchun foydalanilgan qo‘lyozma va tarjima asarlar haqida ma’lumot berilgan. Eng asosiy manba sifatida shu kungacha birorta ham tadqiqot ob’ekti bo‘lmagan, xattot Abd as-Salom ibn Abdul-Samad al-Marg‘inoniy al-Qoshg‘ariy tomonidan ko‘chirilgan “Xamsa” asari nusxasi olingan. Qo‘lyozmaning 530-betida uning Hirotda 1485-yil 29-iyulda yakunlanganligi haqidagi ma’lumot berilgan. Manba Amerikaning Michigan universiteti kutubxonasida (Special Collections Library) 450-raqam bilan saqlanmoqda. Asarda 350 dan ko‘proq varaq bo‘lib, ularning sahifalari 1 dan 654 gacha raqamlangan. Bu nusxa shunisi bilan muhimki, uning ko‘chirilishi yakunlangan sana va joyi muallif asliyatini tugatgan joy va yiliga mos keladi. Yana bir o‘ziga xos xususiyati borki, besh masnaviy tartiblanishi Nizomiy pentalogiyasi modelidan farqli joylashtirilgan. Yani, doston kompozitsiyasini tartibiga rioya qiluvchi boshqa qo‘lyozmalardan farqli o‘laroq, Iskandar dostoni “Sab’ayi Sayyor”dan avvalgi o‘rinda joylashgan.

“Xamsa”ning Michigan 450 nusxasida ba’zi kamchiliklar ham mavjud ekanligi olim tomonidan e’tirof etiladi. Ulardan biri 271-betdagi Layli va Majnun muqaddimasida bo‘lib, bir nechta satrlar ko‘chirilmay qolib ketgan. Masalani ochiqlash uchun tadqiqotchi “Xamsa”ning “Kullyot-i Navoiy”ga kiritilgan boshqa nusxasiga murojaat etdi. Fransiyaning Milliy kutubxonasida “Turc 316” saqlanayotgan 2 tomli mazkur Kulliyot, Edgar Blochening qaydlariga ko‘ra, 1526–1527 yillari Hirotda Ali Hijroniy tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, biri 469 bet ikkinchisi 406 betdan iborat.

Mazkur qo‘lyozma “Xamsa”ning Michigan 450 nusxasi bilan qiyosiy o‘rganildi, undagi bir nechta bo‘shliqlarni to‘ldirishga imkon berdi. Shuni ta’kidlash kerakki, ikki qo‘lyozma qiyoslanganda farqli jihatlar juda kam uchraydi. “Turc 316” matni ham Fransiya Milliy kutubxona veb-saytida joylashganligi bilan qulaylik tug‘dirdi.

Aleksandr Papas monografiyaga so‘z boshi yozar ekan, Navoiy shaxsiyati haqida shunday deydi: “Buyuk mutafakkir, davlat arbobi, turkiy adabiyot yulduzi Alisher Navoiy ijodi, so‘nggi yillarda G‘arb olimlari tomonidan juda ko‘p e’tirof etib kelinmoqda. Uning asarlarini doimiy o‘qiymiz, o‘rganamiz, ularni qayta-qayta nashr etamiz, tavallud kunlarini nishonlaymiz, ko‘chalar va shaharlarni uning ismi bilan nomlaymiz. U haqida go‘yo hamma narsa aytilgan, hamma narsa yozilgandek tuyuladi. Biroq, Sharq adabiyotining bir nechta ixlosmandlarini hisobga olmaganda, Navoiy G‘arbda kam tanilgan, ko‘pchilik uning ijodini taqlidiy, konformistik, ko‘pincha zerikarli deb biladi. Mark Toutant bu buyuk shoirga cheksiz hurmat bildirdi va uni kengroq auditoriyaga tanishtirishga bel bog‘ladi”.[11;23] Uzoq yillar davom etgan mashaqqatli mehnatlar samarasi bo‘lgan bu nodir asar, 701 betga tartiblangan uch bobni tashkil etadi.

Monografiyaning birinchi bobi Sharq va G‘arb navoiyshunosligida olib borilgan tadqiqotlar tahliliga bag‘ishlangan. Albatta, Navoiy ijodini o‘rganish,

tadqiqotchidan juda ko‘p mashaqqat talab etadi. Uning asarlari turkiy va forsiy mumtoz adabiy an’analarini o‘zida jamlagan bo‘lib, hozirgi kunda tili eskirgan va ularni tushunishda biroz qiyinchilik keltirib chiqaradi. Qolaversa, o‘z davrining yetuk arbobi, madaniyat va tasavvuf timsoli bo‘lgan mumtoz shoir bilan maydonga tushmoq, uning panjasiga panja urmoq oson emas edi. Navoiyning mumtoz fors va chig‘atoy turkiy tillarida, o‘ta murakkab uslubda yozilgan asarlarini tadqiq etish uchun, shoirga bag‘ishlangan ikkilamchi tadqiqotlarning asosiy tillari bo‘lgan rus, o‘zbek va turk tillarini tushunish uchun tadqiqotchi alohida iqtidorga, poliyemik qobiliytga ega bo‘lish kerak edi.

Mark Toutant, nafaqat Navoiy bilan ijodiy maydonga tushdi, balki G‘arb navoiyshunosligidagi ba’zi noto‘g‘ri qarashlarga nuqta qo‘ydi. Mutaffakirning har qanday o‘ziga xosligini inkor etib, taqlidchi deb berilgan ta’riflardan, ikkinchi tomondan esa sovet mafkurasi davridagi ba’zi rus tadqiqotchilaridan farqli ravishda, Toutant Navoiyning asosiy adabiy asari “Xamsa” yoki Pentalogiyasini, nazira amaliyoti bilan tavsiflangan o‘z davri va madaniyatining in’ikosi sifatida to‘liq qayta o‘qib chiqdi.

O‘z ilmiy qarashlarini yanada mustahkamlash uchun fransuz navoiyshunosi asarining ikkinchi bobida so‘nggi Temuriyla davri estetik muhitini tahlil qiladi. Toutant Islom tsivilizatsiyasidagi, xususan, Markaziy Osiyo madaniyati tarixidagi so‘nggi yutuqlarni nazarda tutib, XV asrda Hirotdagi estetik homiylikning asosiy maqsadi Amir Temur saltanati davrida shakllangan madaniy yuksalishlarga intilish ekanligini juda ishonchli tarzda ko‘rsatadi. Bu an’analarni davom ettirish, ayniqsa me’morchilik va miniatyura san’atida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu nazirago‘ylik qonunlarini me’yorlashtirish natijasida rassom va boshqa san’at vakillari rivojlanishi uchun yangi mavzularni yaratdi. Bu davrda, musulmon tasavvuf olamining misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishi tufayli temuriylar madaniyati o‘z ma’naviyatini barcha san’at turlarida mujassamtirdi. Shaharlarda qurilishlar ko‘paydi, binolarni islom dunyosini aks ettiruvchi miniatyuralar bezadi. Madaniy meros an’anasini davom ettirish, estetik me’yorlashtirish va tasavvuf falsafasi – bu uch hususiyat turkiy adabiyotda, ayniqsa Navoiyning besh dostonida o‘z aksini topgan.

Monografiyaning asl hususiyati uchinchi bobda namoyon bo‘ladi Birinchi bobni gnoseologik rivojlantirgan, ikkinchisini tarixshunoslik ta’limotini nazirago‘ylik san’ati bilan uyg‘un holda tadqiq etgan Mark Toutant “Xamsa” ga beshta uzun doston, jumladan, turli hikoyat – davr yodgorligi va tasviri sifatida yondashadi. chig‘atoy turkiysidagi misralarni forscha “naqsh”lari bilan qiyoslab transliteratsiya qildi, tarjima qildi, tahlil qildi va yuqorida aytib o‘tilgan uch xususiyatga oydinlik kiritdi. Nazira boshqa bir shoirga qullarcha taqlid emas, balki nozik o‘zgartirish san’ati ekanligi, mazkur o‘zgarishlar ma’lum bir me’yorga asoslanganligi, uning g‘oyasi she’riyat va tilni qayta ko‘rib chiqish bilan cheklanganligi, va nihoyat, Navoiy ijodida yorqin aksini topgan, hatto ibratli bo‘lib qolgan tasavvuf masalalarini keng yoritib berdi.

Toutant “Xamsa” dostonlariga boshqa safdoshlaridan farqli tarzda, yangi nuqtai nazar bilan qaradi, “Besh doston” endi madaniyat tadqiqotchisi uchun asosiy manbaga aylandi. Asarda Hirot saroyidagi so‘nggi temuriylarning madaniy ishlari – boshqa joylarda, viloyat shaharlaridagi qiyoslashni talab etuvchi amallar ham go‘zal tasvirlangan – bu esa tanazzulga yuz tutgan saltanatni nazm va so‘z bilan fath etishdagi ramziy quroldir.[11;13] Shuning uchun, fransuz navoiyshunosi, mutasavvuf shoir tomonidan Hirot sultoni Xusayn Boyqaroga sovg‘a qilingan ushbu uzun dostonni shahzodalar ko‘zgusiga mengzashi bejiz emas. Mazkur ko‘zgu podsholarni, majoziy ma’noda dunyodan voz kechishni buyrayotgan Tangri buyruqlariga bo‘y sunishga chaqiradi. Yani, umrini kayfu safo bilan o‘tkazish emas, balki xalq xizmatida bo‘lishga chaqiradi.

Aleksandr Papas Marc Toutant monografiyasi haqida ma’lumot berar ekan, Navoiyga bag‘ishlangan boshqa ilmiy manbalarga ham to‘xtalib o‘tadi. Fransiyada Navoiyga bag‘izlangan ilk qo‘lyozma, ya’ni uning ijodi asosida yaratilgan chig‘atoy turkiy tilining lug‘atini [12] hech qanday holatda fors tiliga aloqadorligi yo‘qligi va usmonli turk tiliga sal kam begona bo‘lib qolgan hozirgi Markaziy Osiyo lisoniy olami haqidagi dastlabki tasavvur deb qarash mumkin. Pavet de Courteillening “Dictionnaire turk oriental” lug‘ati mumtoz Markaziy Osiyoning kichik entsiklopediyasi bo‘lib, muallif uni quyidagi fikrlar bilan boshlaydi: “Markaziy Osiyo xaritasiga nazar tashlab, tog‘lar, daryolar, ko‘llar, cho‘llar nomlaridan, xalqlar, mintaqaning bepoyon kengliklari va uning ko‘p sonli shevalarini kuzatish asosida bu yerlarda turkiy tilva uning shevalari hukmron ekanligiga, shubhasis ishonch hosil qilish mumkin. Garchi fanning hozirgi holatida Turon tillarini muntazam va qat’iy tasniflashni amalga oshirishga hali erta bo‘lsa-da, ularning ba’zilari bo‘yicha bizda qimmatli asarlar borligi ko‘p jihatdan rus va nemis olimlarining mehnatsevarligi va faolligi tufaylidir”.[12;3]

Mark Toutant chig‘atoy turkiy tilidagi masnaviylarni forsiy modellari bilan taqqoslash natijasida bir qator jiddiy farqlarni aniqladi, ularning mantiqiy xususiyatlari mavjudligini ta’kidladi. Kuzatishlar jarayonida olim, Navoiy ko‘zlagan niyatini va ushbu niyatni amalga oshirishda forsiy an’analarga sodiq qolgan holda o‘z hikoyasini davrning badiiy maydoniga qanday kiritganligini tushuntiradi. “Aniq ramziy qahramon bilan ta’minlangan, asar retseptsiyasidagi havotirlar bilan bog‘liq matniy tejamkorlikka asoslan va asosiy tasavvufiy masalalarni yoritgan Navoiy “Xamsa”si shoirning

xamsanavislik an’anasiga ko‘shmoqchi bo‘lgan kuchli intilishlarini ochib beradi”.[11;596]

Naziraning turkiy tilda yozilganligining o‘ziyoq, bu intilishlarga keskin radikal sifat beradi. Chunki, o‘sha davrda xamsanavislik an’anasi uchun begona bo‘lgan turkiy tilga murojaat qilish, Navoiy uchun eng avvalo, o‘z masnaviysining debochasida aytib o‘tgandek, mumtoz she’riyatning buyuk vakillari bilan bellashuvga ishorani anglatadi. Bu bellashuvning mohiyati shunda ediki, fors tili hukmron bo‘lgan adabiy makonda turkiy yozuvining ramziy qayta zabt etilishi alohida bir jasoratni talab qilar edi.

Xulosa

Fransuz sharqshunosligining XXI asrdagi rivoji Alisher Navoiy ijodiga yondashishda chuqur, kompleks va ko‘p qirrali metodologik yondashuvlarni yuzaga chiqardi. Remi Dor, Aleksandr Papas va Mark Toutant kabi olimlar Navoiy asarlarini faqat adabiy meros sifatida emas, balki madaniy, ruhiy va ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida talqin qildilar.

Fransuz olimlarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki:

1. Navoiy ijodi tasavvuf, tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida turgan noyob fenomen bo‘lib, G‘arbda ham chuqur ilmiy tahlilga loyiq deb topilgan;

2. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari kodlangan, ramziy va tasavvufiy ma’nolar bilan boyitilgan matn sifatida o‘rganilgan;

3. “Xamsa” asari tahlili orqali so‘nggi Temuriylar davri madaniy estetik va nazira an’analarining yangi talqini berilgan;

4. Navoiy timsolida faqat o‘z davrining shoiri emas, balki xalqparvar mutasavvif, madaniyat peshvosi sifatidagi universal obraz shakllangan.

Xulosa qilib aytganda, fransuz sharqshunosligidagi zamonaviy yondashuvlar Alisher Navoiy ijodining yangi qirralarini ochishda muhim hissa bo‘lib xizmat qilmoqda va uning asarlari xalqaro ilmiy maydonda o‘zbek madaniyatining muhim merosi sifatida qadrlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Холбеков М.Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Дис.док.филол.наук. Ташкент, 1991.– 424 с.

2. Belin F.A. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d’extraits tirés des œuvres du même auteur // Journal Asiatique. No 17. 1861.; Belin F.A. Moralistes orientaux. Caractères, maximes et pensées de Mir Ali Chir Névâii //Journal asiatique. No 7, 1866. P. 523-552; Journal asiatique. No 8, 1866.

3.François Belin. Notes On the Life and Creativity of Mir Ali-Shir Nava’i. Journal of Central Asian Renaissance. 2021, Special Issue 1, pp.7-32

4.Dor Rémy L'Enigme du Nom Propre. Langes Mondes. – IFEAC, 2006. P. 9

5.Garcin de Tacci, Rhétorique et prosodie des langues de l‘Orient musulman. – Paris, 1873. – P.165

6.Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри. – Тошкент, 1986. – 66б.

7.Papas, Alexandre. Mystiques et vagabonds en islam portraits de trois soufis qalandar. Patrimoines /Visages de l’islam. Paris, 2010. – 339p.

8.Papas, Alexandre. La makhfî ‘ilm ou science secrète de ‘Alî Shîr Nawâ’î: le projet d’une langue mystique naqshbandî. Journal of the History of Sufism, (eds. Th. Zarcone, E. Işın, A. Buehler), Paris, J. Maisonneuve, 3, 2001, 1-22.

9.Arif Usman, Älisher Navaij. Muhakamatul Lughatajn, Tashkent, 1940.; şak Refet Işıtman, Ali Şir Nevâi’i Muhâkamat ül-Lûgateyn. Büyük Şairin Beş Yüzüncü Doğum Yıldönümü Dolayısiyle. (À l’occasion du 500e anniversaire de la naissance du grand poète), Ankara, 1941. ; Robert Devereux, Mîr c Alî Shîr. Muhâkamat al-Lughatain, Leiden, 1966.; F. Sema Barutçu Özönder, c Alī Şīr Nevāyī. Muhākemetü’l-Luġateyn. İki Dilin Muhakemesi, Ankara, 1996.

10. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-muhokamat-ul-lugatayn.html

11. Toutant Marc. Un empire de mots: pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mīr 'Alī Shīr Nawā'ī. – Peeters, 2016 - 701p.

12. Pavet de Courteille. Dictionnaire_turk_oriental: destiné principalement à faciliter la lecture des ouvrages de Baber, d'Aboul-gazi et de Mir-Ali-Chir-Nevâï. – Paris, 1870. – 562p.

13. Belin F.A. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d’extraits tirés des œuvres du même auteur // Journal Asiatique. No 17. 1861.

14. Belin F.A. Moralistes orientaux. Caractères, maximes et pensées de Mir Ali Chir Névâii //Journal asiatique. No 7, 1866. P. 523-552; Journal asiatique. No 8, 1866.

15. Erkinov A.. Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV-XX asr manbalari. Filologiya fanlari doktori... dissertatsiyasi. – T.: 1998. – 282 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Абдукаххорова Наргиза Рустамовна
Преподаватель кафедры «Социальные науки»
Кокандский университет
nargizaabdukahhorova@gmail.com

КУЛЬТУРНО-ЯЗЫКОВОЙ АНАЛИЗ ЗАГАДОК НА РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: *Статья посвящена лингвокультурологическому анализу загадок в русском и узбекском языках. Рассматриваются тематические, лексико-семантические и стилистические особенности, выявляются сходства и различия, обусловленные культурными, религиозными и историческими факторами. Исследование показывает, как загадки отражают менталитет народа, служат средством воспитания и передачи знаний, а также раскрывают особенности фольклорной эстетики.*

Ключевые слова: *загадки, лингвокультурология, образность, сравнение, народное творчество. Вот перевод на английский язык.*

Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna
Lecturer, Department of Social Sciences
Kokand University

CULTURAL AND LINGUISTIC ANALYSIS OF RIDDLES IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Abstract: *The article is devoted to the linguocultural analysis of riddles in Russian and Uzbek languages. It explores thematic, lexical-semantic, and stylistic features, revealing both similarities and differences shaped by cultural, religious, and historical factors. The study demonstrates how riddles reflect the worldview and mentality of a people, serve as a means of education and knowledge transmission, and highlight distinctive features of folk aesthetics.*

Keywords: *riddles, linguoculturology, imagery, comparison, folklore.*

Abduqahhorova Nargiza Rustamovna
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o‘qituvchisi
Qo‘qon universiteti

RUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQNING MADANIY-TILSIY TAHLILI

Annotatsiya:*Ushbu maqola rus va o‘zbek tillaridagi topishmoqlarning lingvokulturologik tahliliga bag‘ishlangan. Unda mavzu, leksik-semantik va uslubiy xususiyatlar ko‘rib chiqilgan hamda madaniy, diniy va tarixiy omillar ta’sirida shakllangan o‘xshashlik va farqlar aniqlangan. Tadqiqot topishmoqlarning xalq tafakkuri va dunyoqarashini qanday aks ettirishini, bilim berish va tarbiyaviy vazifa bajarishini hamda xalq og‘zaki ijodining estetik jihatlarini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *topishmoq, lingvokulturologiya, obrazlilik, taqqoslash, xalq og‘zaki ijodi.*

Введение

Язык и культура — это два взаимосвязанных явления, которые на протяжении истории человечества неизменно привлекали внимание исследователей. Одним из ценных источников для анализа их взаимодействия выступают загадки — жанр народного творчества, отражающий мировоззрение, образ жизни и ментальные особенности народа. Загадки обладают высокой культурной и лингвистической значимостью, они помогают глубже понять национальные особенности мышления и восприятия мира.

Анализ лингвокультурологических характеристик русских и узбекских загадок позволяет выявить как уникальные черты, присущие каждой культуре, так и точки соприкосновения. Эти тексты представляют интерес не только с художественной точки зрения, но и с позиций лингвистики и культурологии. Например, в исследовании С.Абдужабборовой рассматриваются лексические единицы, входящие в состав загадок, и их смысловые и

формальные связи. Учёная акцентирует внимание на функциях этих единиц в устном народном творчестве [1; 381–383]. В свою очередь, Н.Усмонова анализирует поэтику загадок, акцентируя внимание на взаимодействии образов и стилевых приёмов [2; 303–309].

Загадки в лингвистике рассматриваются как своеобразное эстетическое явление, тесно связанное с культурной идентичностью народа. Их содержание отражает бытовые реалии, ценности и мировоззрение, что делает лингвокультурологический анализ эффективным инструментом для изучения национального менталитета. Помимо языковых особенностей, загадки представляют интерес с точки зрения историко-культурного контекста. Настоящая статья посвящена сравнительному лингвокультурологическому исследованию русских и узбекских загадок. В рамках анализа были изучены их структура, семантика и культурный подтекст, выявлены как сходства, так и различия. Особое внимание уделено отражению в загадках образа жизни, религиозных представлений и национальной специфики. Это позволяет глубже осмыслить культурные связи и общее наследие двух народов.

Анализ литературы

Загадки как уникальная форма устного народного творчества всегда вызывали интерес у исследователей. В работе С.Абдужабборовой акцент делается на анализе лексических компонентов загадок, их формальных и семантических связей. Автор исследует функции этих элементов в структуре фольклорного текста, а также сравнивает семантическое и синтаксическое устройство английских и узбекских загадок, что позволяет выявить как лингвистические, так и культурные различия [1; 381–383].

Н.Усмонова в своём исследовании сосредотачивается на поэтике загадок и системе образов, раскрывая эстетическое восприятие народа через использование поэтических средств. По её мнению, художественные особенности загадок тесно связаны с образом жизни и историческими условиями формирования национальной культуры [2; 303–309].

С.Худоев классифицирует узбекские загадки по времени их создания, анализируя их происхождение и этапы развития. Это исследование вносит вклад в изучение исторической эволюции фольклора, раскрывая новые аспекты семантической и прагматической природы загадок [3].

О.С.Орлова рассматривает русские загадки с позиции лингвокультурологии, изучая их семантическую структуру и особенности интерпретации в лингвистике. В центре её внимания — эстетические и культурные характеристики жанра, которые позволяют глубже понять коллективную культурную память и межкультурные различия [6; 104–114].

Сравнительное исследование русских и узбекских загадок важно не только для лингвистики, но и для культурологии и истории. Проанализированные труды служат надёжной методологической основой для дальнейшего изучения лингвокультурных особенностей загадок.

Методы

Для лингвокультурного анализа русских и узбекских загадок в исследовании использованы сравнительно-аналитический и контекстуальный подходы. Сравнительный метод позволил выявить различия и сходства в лексических, семантических и прагматических аспектах загадок двух языков. Контекстуальный анализ, в свою очередь, был направлен на интерпретацию загадок с учётом культурно-исторических реалий, в которых они были созданы.

Материалом послужили более 200 загадок на русском и узбекском языках. Особое внимание уделено тематической классификации: загадки были распределены по категориям — природа, повседневная жизнь, человек и его деятельность, а также религиозно-мифологическая тематика. При помощи статистических методов была определена частота появления тех или иных тем и выявлены культурные особенности в их отражении.

Результаты

Исследование показало, что русские и узбекские загадки демонстрируют как общие, так и уникальные культурные черты.

По тематике и содержанию: в обеих культурах популярны загадки, связанные с природными явлениями, повседневной жизнью и деятельностью человека.

Например:

— Узбекская загадка: «Сидит у воды, блестит как золото» (ответ: рыба).

— Русская: «Ни рыба, ни мясо, но живёт в воде» (ответ: лягушка).

Культурная специфика: в узбекских загадках чаще встречаются образы, связанные с земледелием и скотоводством, тогда как в русских — природа и животный мир.

Языковые и стилистические особенности: русские загадки, как правило, краткие и ритмичные, тогда как узбекские обладают большей образностью и метафоричностью.

Символика: в обеих культурах символические образы — солнце, луна, земля — играют роль универсальных метафор жизни и света.

Прагматическая функция: загадки выполняют воспитательную и обучающую функцию, развивая у детей образное мышление и логику. Узбекские загадки

чаще прибегают к аллегориям, в то время как русские делают упор на логическое построение.

Обсуждение

Сравнительный анализ позволил сделать вывод, что загадки в обеих культурах являются отражением менталитета, традиций и религиозных убеждений народа. Тематическое сходство объясняется общими бытовыми и природными реалиями, тогда как различия в стиле и образности раскрывают уникальность эстетического восприятия.

Русские загадки отличаются лаконизмом, логичностью и отвлечённым содержанием. В то же время, узбекские полны образных сравнений, что свидетельствует о богатстве фольклорной традиции. Религиозные мотивы также варьируются: ислам оказывает влияние на содержание узбекских загадок, а в русских чаще прослеживаются православные символы.

Обе традиции используют загадки как инструмент воспитания и передачи жизненных знаний, что подтверждает их значимость в формировании культурной идентичности и межпоколенческого взаимодействия.

Заключение

Загадки в русском и узбекском языках представляют собой важный пласт лингвокультурного наследия, отражающий национальные ценности, исторические условия и мировоззрение. Их анализ позволяет выявить как универсальные элементы, так и особенности, характерные для каждой культуры.

Сходство тематик (природа, быт, мифология) свидетельствует о пересечении культурных кодов, тогда как различия в образности и стиле подчёркивают уникальность фольклорной эстетики. Загадки продолжают выполнять значимую роль в обучении, развитии мышления и передаче традиций.

Дальнейшие исследования могут быть направлены на функциональный анализ загадок, их адаптацию в современных образовательных контекстах и сравнение с аналогичными жанрами других народов. Это позволит углубить понимание универсальных и уникальных черт устного народного творчества.

Использованная литература

1.Abdujabborova, S. (2024). INGLIZ VA O‘ZBEK TOPISHMOQLARINING LEKSIK (SHAKL VA MA’NO MUNOSABATI) XUSUSIYATLARIGA KO ‘RA TURLARI. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 381-383.

2.Usmonova, N. (2023). TOPISHMOQ POETIKASI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 303-309.

3.Xudoyev. S. (2023). O‘zbek topishmoqlarining yaratilish davriga ko‘ra tasniflanishi. " Germany" modern scientific research: achievements, innovations and development prospects, 9(1).

4.Бочкарёва, Н. В., & Бахтина, Е. В. (2015). Разгадывание иероглифических загадок как один из продуктивных методов изучения китайской письменности. Известия восточного института, (2 (26)), 100-105.

5.Латипов, О. Ж. (2022). Интерпретация ихтиологической лексики в русском и узбекском языках. In Сборник научных трудов Международной научнопрактической конференции. Ташкент-Екатеринбург (pp. 65-67).

6.Abdukaxxorova N.R. “ Особенности организации самостоятельной работы и внеклассных работ на уроках русского языка » "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022 https://drive.google.com/drive/folders/1QeB74KXXonJHOpQcEppZicfTShB9C20w?usp=sharing

7.Abdukaxxorova N.R. The Conditions for Implementation of Innovative Actvity of The Teacher. Journal of Multidisciplinary Innovations. www.peerianjournai.com editor@peerianjournai.com ISS(e): 2788-0389 2023

8.Abdukaxxorova N.R. Use of Modern Technologies inForeign Language Teaching in Uzbekistan / Использование современных технологий в обучении иностранным языкам в Узбекистане. Spanish Journal of Innovation and Integrity. 2022. http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/319

9.Абдукаххорова,Н.(2024). ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЗАГАДОК НА РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. Ижтимоий-гуманитарный фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Актуальные проблемы гуманитарных и социальных наук., 4 (12), 374–379. https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N58

10. Уразкулова, А. (2024). РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ В ПРОЦЕССЕ ЯЗЫКОВОЙ АДАПТАЦИИ: МЕТОДЫ И ПОДХОДЫ ДЛЯ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЮЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 275-277.

11. Уразкулова, А. В. (2024). ПОНИМАНИЕ РЕЧИ. University Research Base, 296-300.

12. Tursunbayevich, B. A., Vitalyevna, U. A., Sadullayevich, U. S., & Vyacheslavovna, O. A. MODERNIZATION OF THE PROTEST OF TEACHING RUSSIAN AND ENGLISH IN PRIMARY EDUCATION.

13. Yakubova, G. (2021). The effect of deprivation on pre-preschool communication skills and psychological development. Psychology and Education Journal, 58(1), 2031-2040.

14. Якубова, Г. М. (2024). ВАЖНОСТЬ РОЛИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ГЛОБАЛИЗИРОВАННОМ МИРЕ. Kokand University Research Base, 357-361.

15. Abdukaxxorova Nargiza Rustamovna. (2024). YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TARJIMA VA TARJUMANLARNING KENGAYISHI VA RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI. *University Research Base*, 371–375. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/347

16. Abdukaxxorova, N. (2024). XORIJIY TILLARNI O‘RGATISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *University Research Base*, 926–929. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/755

17. Рустемовна, Ш. З. . (2024). Динамика Взаимодействия Языка И Культуры В Эпоху Глобализации. Miasto Przyszłości, 54, 1664–1669. Retrieved from http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/5506

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Latipjonova Malikakhon. O.
PhD student of Andijan State University,
Email address: latifjonova96@mail.ru

ZOOMORPHIC PEJORATIVES IN UZBEK AND ENGLISH: A CROSS-CULTURAL AND GENDERED LINGUISTIC ANALYSIS

Annotation: *This study examines zoomorphic pejoratives in Uzbek and English, focusing on their linguistic functions and cultural significance. Derived from animal names, these expressions evaluate human traits and behaviors, often carrying strong negative connotations. The research explores their metaphorical and cognitive aspects, reflecting societal perceptions and cultural stereotypes. By analyzing their usage in different contexts, the study highlights how these expressions shape social attitudes and reinforce traditional views on human behavior. It also addresses their role in gender discourse, where specific animal-related terms are applied differently to men and women. The findings emphasize that zoomorphic pejoratives function not only as linguistic tools but also as markers of cultural identity, deepening our understanding of language, cognition, and society.*

Key words*: cross-linguistic analysis, gendered language, zoomorphic pejoratives.*

Latipjonova Malikaxon. O.
Andijon Davlat Universiteti tayanch dokoranti,
E-mail: latifjonova96@mail.ru

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ZOOMORF PEYORATIVLAR: MADANIYATLARARO VA GENDERGA OID TILSHUNOSLIK TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot o‘zbek va ingliz tillaridagi zoomorfik pejorativlarni lingvistik funksiyalari va madaniy ahamiyati nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Hayvon nomlaridan olingan bu ifodalar inson xatti-harakatlari va fazilatlarini baholaydi hamda ko‘pincha kuchli salbiy ma’noga ega bo‘ladi. Tadqiqot ularning metaforik va kognitiv jihatlarini ochib beradi hamda ijtimoiy tasavvurlar va madaniy stereotiplarni aks ettirishini ko‘rsatadi. Ushbu ifodalarning turli kontekstlardagi qo‘llanilishi tahlil qilinib, ularning ijtimoiy munosabatlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi va inson xulq-atvori haqidagi an’anaviy qarashlarni qanday mustahkamlashi yoritiladi. Tadqiqot, shuningdek, ularning genderlik diskursidagi o‘rnini ham ko‘rib chiqadi — ayrim hayvonlarga oid atamalar erkaklar va ayollarga nisbatan turlicha ishlatiladi. Xulosalarda zoomorfik pejorativlar nafaqat til vositasi, balki madaniy identifikatsiya belgisi sifatida ham xizmat qilishi ta’kidlanadi, bu esa til, tafakkur va jamiyatni chuqurroq tushunishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *tillararo tahlil, genderga oid til, zoomorfik pejorativlar.*

Латипжонова Маликахон. О.
Аспирантка Андижанского государственного университета
Электронная почта: latifjonova96@mail.ru

ЗООМОРФНЫЕ ПЕЙОРАТИВЫ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В МЕЖКУЛЬТУРНОМ И ГЕНДЕРНОМ АСПЕКТАХ

Аннотация: *Данное исследование посвящено зооморфным пейоративам в узбекском и английском языках, с акцентом на их лингвистические функции и культурное значение. Эти выражения, происходящие от названий животных, используются для оценки черт характера и поведения человека и часто несут ярко выраженную негативную окраску. В работе рассматриваются их метафорические и когнитивные аспекты, отражающие общественные представления и культурные стереотипы. Анализируется употребление таких выражений в различных контекстах, что позволяет выявить их влияние на социальные установки и закрепление традиционных взглядов на поведение человека. Особое внимание уделяется роли зооморфных пейоративов в гендерном дискурсе, где некоторые термины, связанные с животными, применяются по-разному в отношении мужчин и женщин. Выводы подчеркивают, что зооморфные пейораты функционируют не только как лингвистические инструменты, но и как маркеры культурной идентичности, углубляя понимание языка, мышления и общества.*

Ключевые слова: *сопоставительный анализ, гендерно маркированный язык, зооморфные пейоративы.*

Introduction

Zoomorphic pejoratives—insults using animal names—play a significant role in language, revealing how cultures perceive negative traits. They serve as metaphorical tools that reflect cognitive patterns and societal norms, making them a valuable focus for linguistic research.

Methods

Using qualitative and comparative analysis, this study examines Uzbek and English zoomorphic pejoratives through the lenses of Cognitive Linguistics and Critical Discourse Analysis. Data was drawn from dictionaries, corpora, literature, folklore, and media. While English benefits from digital corpora like BNC and COCA, Uzbek data was manually collected. The study aims to identify and compare expressions, and explore their cultural and gender implications.

Results

Zoomorphic pejoratives in both languages share some metaphors (e.g., pig for filth or obesity, fox for cunning), but differ in usage and connotation. Uzbek relies more on proverbs and oral traditions, while English uses a broader range, especially in media. These expressions fall into three categories:

1. Physical appearance – Pig, giraffe, toad used for body or looks.
2. Character traits – Fox (cunning), sheep (naivety), snake (deceit).
3. Moral judgments – Goat, stallion, donkey linked to stubbornness or promiscuity.

DISCUSSION

A gender imbalance was observed:

- Men are insulted for aggression or stupidity (e.g., donkey, bull).
- Women face insults tied to appearance or sexuality (e.g., pig, snake, fox).

English shows higher use of zoomorphic insults in pop culture, while Uzbek retains them in oral discourse. Media and digital platforms amplify these expressions, especially in political contexts. The perceived offensiveness also differs: “bitch” and “pig” are highly offensive in English, while “ilon” and “cho‘chqa” carry stronger weight in Uzbek due to religious and cultural values.

Conclusion

Ishaqkhan Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages 2nd stage basic doctoral student
sevarabaxodirqizi1@gmail.com
ORCID:0009-0000-0013-5341

UDC 81`42+81-13

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND LITERARY FEATURES OF SOCIO-POLITICAL WORKS OF STATESMEN

Annotation. *This article analyzes the linguistic and stylistic features of political and social texts written by statesmen. The focus is placed on lexical units, grammatical structures, stylistic tools, and rhetorical devices used in such texts. The article also highlights the artistic and emotional impact techniques applied in political discourse. Based on the works of prominent figures like Lee Kuan Yew and Theodore Roosevelt, the study reveals translation challenges and stylistic differences that emerge during the translation process.*

Key words: *socio-political vocabulary, statesmen, artistic features, rhetorical devices, translation, stylistic analysis, emotional impact.*

Якубжанова Севара Баходир кизи
Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исхакхана Ибрата, базовый докторант 2 ступени

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ДЕЯТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвистические и стилистические особенности произведений государственных деятелей, написанных в социально-политическом духе. Основное внимание уделяется лексическим единицам, грамматическим конструкциям, стилевым средствам и риторическим приёмам, используемым в таких текстах. Также рассматриваются художественные и эмоционально-воздействующие аспекты политических текстов. На основе произведений таких известных деятелей, как Ли Куан Ю и Теодор Рузвелт, показаны лингвистические проблемы и стилистические различия, возникающие в процессе перевода.*

Ключевые слова: *социально-политическая лексика, государственный деятель, художественные особенности, риторические средства, перевод, стилистический анализ.*

Yoqubjanova Sevara Baxodir qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti 2-bosqich tayanch doktoranti

DAVLAT ARBOBLARI IJTIMOIY-SIYOSIY ASARLARINING ILMIY-NAZARIY VA BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlat arboblarining ijtimoiy-siyosiy ruhda yozilgan asarlarining lingvistik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor bunday matnlarda ishlatiladigan leksik birliklar, Grammatik konstruksiyalar, uslubiy vositalar va ritorik usullarga qaratilgan. Shuningdek siyosiy matnlarning badiiy va emotsional ta'sir kuchini oshiruvchi omillar ham yoritiladi. Tarjima jarayonidagi lingvistik muammolar va stilistik farqlar Li Kuan Yuning "Singapur tarixi" va Teodor Ruzveltning "Liderlik qonunlari" asarlaridan olingan namunalar tahlili orqali ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-siyosiy leksika, davlat arbobi, badiiy xususiyat, ritorik vosita, tarjima, stilistik tahlil, emotsional ta'sir.*

Kirish.

Ijtimoiy-siyosiy leksika atamasi tilshunoslikda XX asrda shakllangan va keng qo'llana boshlangan. Ushbu tushunchaa tilshunoslik va siyosatshunoslik kesishgan joyda paydo bo'lib, jamiyat va davlat boshqaruvi bilan bog'liq so'zlar va iboralarni o'rganishga qaratilgan. Bu atama, ayniqsa, sovet tilshunosligida keng muhokama qilingan bo'lib, ijtimoiy tuzilma, siyosiy g'oyalar, boshqaruv tizimi va davlat institutlari bilan bog'liq so'zlar va iboralarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil

qilish uchun ishlatilgan. Bugungu kunda esa ijtimoiy-siyosiy leksika global siyosiy jarayonlar, ommaviy axborot vositalari va xalqaro aloqalar nuqtayi nazaridan ham keng o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Maqolani tayyorlashda ijtimoiy-siyosiy asarlar tadqiqi bilan shug‘ullangan o‘zbek olimlari: B.Nazarov, M.Qosimov, S.Eshbo‘tayev; rus olimlaridan: O.Issers; yevropa olimlaridan: N.Faircloughning ilmiy ishlari o‘rganildi. Davlat arboblari asarlarining tarjima xususiyatlarini tahlil qilishda G‘.Salomov va Z.Sadiqovlarning ishlaridan foydalanildi. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va siyosatshunoslik sohasi kesishmasida davlat arboblari asarlarining lingvistik, uslubiy va stilistik xususiyatlari o‘rganilgan. Maqolada komparativ tahlilga asoslanib, deskriptiv-tahliliy va statistik korpus metodlaridan foydalangan holda, Li Kuan Yu va Teodor Ruzvelt asarlarining inglizcha-o‘zbekcha tarjimalari solishtirilib, leksik va Grammatik o‘ziga xosliklar aniqlangan.

Muhokama va natijalar.

Davlat arboblarining ijtimoiy-siyosiy ruhda yozgan asarlari ko‘pincha publitsistik, ba’zan esa ilmiy-analitik uslubda yoziladi. Biroq ko‘plab holatlarda badiiy vositalar – metafora, obraz, ritorik savol va dialoglar ham ishlatiladi. Bu esa matnga hissiyot, kuchli ifoda va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Davlat arboblari asarlarining badiiy xususiyatlari – adabiyotshunoslik, tilshunoslik va siyosatshunoslik sohalarining kesishgan nuqtasida vujudga kelgan jihat bo‘lib, bunday asarlar odatda publitsistik uslubga yaqin bo‘lsa-da, ularda badiiylikning ham muhim unsurlari kuzatiladi. Bu kabi asarlarda tilning badiiy xususiyatlari emotsionallik – hissiy rezonans tushunchalar, ritorika – nutq san’atining boy vositalari (epitet, parallelizm, antiteza, anafora), sitata va tarixiy dalillarni qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Davlat arbobi o‘z xalqiga murojaat qilar ekan, milliy obrazlar, tarixiy shaxslar va ramziy ifodalardan ham unumli foydalanadi. Uslubda salobat, jiddiylik va da’vat ohangi kuchli seziladi. Bu esa badiiy-estetik ta’sir kuchini oshiradi. Davlat arboblarining ijtimoiy-siyosiy asarlari odatda muallifning siyosiy qarashlari, strategik rejalari va milliy taraqqiyotga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi.[4] Bunda milliy g‘urur, tarixiy xotira, xalq birligi, mustaqillik va yuksalish kabi g‘oyalar ustuvor bo‘ladi. Davlat arboblari ko‘pincha o‘z hayoti, siyosiy faoliyati, qarorlar qabul qilish jarayonlari haqida yozadi. Bu esa asarlarni biografik, hujjatli va badiiy xotira janriga yaqinlashtiradi. Bunday asarlarda o‘quvchini ilhomlantirish, uni vatan uchun xizmat qilishga da’vat etish, ma’naviy tarbiya berish funksiyasi kuchli bo‘lgani bois, matnlar asosan notiqona ohangda bo‘ladi. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda til o‘ziga xos strategik vosita sifatida ishlatiladi.[2] U nafaqat axborot yetkazish, balki auditoriyani ishontirish, motivatsiya berish va boshqarish uchun ham xizmat qiladi.[5] Aynan mana shu jihat – asarning til jihatdan o‘ziga xos tomonlari ijtimoiy-siyosiy asarlarning lingvistik xususiyatlarini namoyon etadi. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Leksik xususiyatlar (ushbu matnlarda ishlatiladigan so‘z va iboralar, ularning ma’no doirasi, stilistik va funksional xususiyatlari tushuniladi. Bu asarlar odatda davlat boshqaruvi, jamiyat hayoti, mafkuraviy g‘oyalar, siyosiy hodisalar bilan bog‘liq bo‘lib, ularda maxsus leksik birliklar qo‘lanadi.):

- Siyosiy terminlar (demokratiya, suverenitet, ideologiya) – davlat arboblari asarlarida foydalanilgan turli siyosiy terminlar o‘quvchidan ma’lum darajadagi bilimni talab qilsa-da, bunday leksik birliklar asarning ilmiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi: “Backbencher” (a bench in a British legislature (such as House of Commons) occupied by rank-and-file members) – “Quyi palata a’zosi”(Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan), “Authority” – “Vakolat – qonuniy yoki axloqiy boshqaruv huquqi” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan);

- Ijtimoiy-siyosiy leksika (davlat boshqaruvi, hukumat, saylov tizimi bilan bog‘liq so‘zlar) – bu birliklar yozuvchining nafaqat yaxshi siyosiy yetakchi ekanligini, balki uning til imkoniyatlaridan qanchalik ustalik bilan foydalana olishini ham namoyon etadi: “Desparate collection of immigrants” – “Tarqoq ko‘chmanchilar jamlanmasi” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan), “Freedom of speech” – “So‘z erkinligi” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan). Quyida Teodor Ruzveltning “Man in the Arena” iqtiboslari va siyosiy nutqlari jamlangan “Liderlik qonunlari” asarida ko‘p uchraydigan asosiy leksik birliklar (15 000 so‘zli) asosida statistic korpus tahlil keltirilgan:

Leksik birliklar	Takrorlanish soni	Mazmuniy vazifasi
Strength (kuch)	34	Yetakchilikda jismoniy va manaviy kuch zarurligi
Honesty (halollik)	28	Etik qadriyatlar asosiy liderlik mezoni sifatida
People/nation(xalq)	40	Davlat va lider o‘rtsidagi aloqani ko‘rsatishda
Duty (majburiyat)	22	Liderning asosiy burchi sifatida
Courage (jasorat)	36	Ruzvelt falsafasining markaziy tushunchasi
Action (harakat)	31	Passivlikdan ko‘ra amaliyotning muhimligi

- Propaganda va tashviqotga oid so‘z va iboralar – bunday targ‘ibot leksikasi sifatida shior va sloganlar: “This is not a game of cards! This is your life and mine!” – “Bu karta o‘yini emas! Bu siz va mening hayotim!” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan), “We fight not for power, but for principle!” – “Biz hokimiyat uchun emas, prinsiplar uchun kurashamiz!” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan);

- Emotsional va baholovchi so‘zlarning ko‘p ishlatilishi(qaramlik, fidoyilik, zulm) – ekspressiv leksika o‘quvchining muallifni tushunishida, his qilishida muhim ahamiyat kasb etadi[1] va bunday til vositalari o‘quvchining intim sezgilariga kata ta’sir o‘tkazadi: “Failure is not an option.” – “Muvaffaqiyatsizlik – bu tanlov emas.” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan)

2. Grammatik xususiyatlar:

- Murakkab gaplarning ko‘p ishlatilishi – siyosiy matnlar odatda rasmiy uslubda bo‘lib, bunday murakkab konstruksiyalar muallifning falsafasi va jamiyatga bo‘lgan qarashlarini chuqurroq anglashga yordam beradi: “And I say without the slightest remorse, that we wouldn’t be here, we wouldn’t have made economic progress, if we had not intervened on very personal matters – who your neighbor is, how you live, the noise you make, how you spit, or what language you use[3].” – “Va men hech qanday pushaymonliksiz aytaman-ki, agar biz juda shaxsiy masalalarga – qo‘shningiz kimligi, qanday yashaysiz, siz qilyotgan shovqin, qanday tuflashingiz yoki qaysi tilda gapirishingiz – aralashmaganimizda, biz bu yerda bo‘lmagan bo‘lardik, biz iqtisodiy taraqqiyotga erishmagan bo‘lardik.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan), “It is not the critic who counts; not the man who points out how the strong man stumbles, or where the doer of deeds could have done them better. The credit belongs to the man who is actually in the arena, whose face is marred by dust and sweat and blood; who strives valiantly; who errors, who comes short again and again, because there is no effort without error and shortcoming…”[6] – “Muallif emas, tanqid qiluvchi emas, kuchli odamning qayerda yiqilganini ko‘rsatgan yoki ishni qanday qilib yaxshi bajarish mumkinligini aytgan emas – asl baho maydonning o‘zida turgan, yuzi chang, ter va qon bilan qoplangan insonnikidir; u mardlarcha kurashadi, xato qiladi, qayta-qayta yiqiladi chunki hech qanday harakat xato va kamchiliksiz bo‘lmaydi...” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan);

- Modal fe’llar va kishilik olmoshlaridan foydalanish (masalan, “biz” shaklida xalq nomidan gapirish) – davalt arboblari asarlarida buyruq, da’vat, ishonch va majburiyatni ifodalashda keng qo‘llaniladi. Ular orqali muallif o‘quvchini harakatga undaydi: “You should lead by example.” – “Siz o‘rnak bo‘lib boshqarishingiz kerak.” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan) Kishilik olmoshlari orqali muallif ishtiroki kuchaytiriladi, birlik yoki umumiylik ta’kidlanadi va bevosita yoki bilvosita murojaat yaratiladi: “We are responsible for the future of our nation.” – “biz o‘z xalqimiz kelajagi uchun mas’ulmiz.” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan);

- Buyruq, iltimos, murojaat shakllarining qo‘llanilishi – kuchli buyruq shakllari rahbar sifatidagi qat’iyatni ifodalashda, murojaat shakli esa asosan yosh avlodga, xalqqa, ayrim hollarda xalqaro auditoriyaga qaratilib, ishonch uyg‘otish, ruhlantirish yoki ogohlikka chaqirish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda qo‘llaniladigan iltimos shakli “polite request” – bu diplomatik til, u ham iltimos, ham samimiy murojaat sifatida ishlatiladi.[2]

3. Uslubiy xususiyatlar:

- Rasmiy uslubda yozilishi – asosan siyosiy matnlar rasmiy nutq yoki hujjatlar sifatida tuziladi va ko‘pincha tarixiy voqealarga asoslanadi yoki mavjud siyosiy vaziyatni badiiy tarzda ifodalaydi. Ayni shu jihat bunday asarlarni hujjatli adabiyotga yaqinlashtiradi.

- Takrorlash va parallel konstruksiyalar – matnning ta’sirchanligini oshiradi, asosiy fikrlarni urg‘ulaydi va o‘quvchida hissiy rezonans uyg‘otadi.[1] Masalan: “We needed a government that was clean, a government that was efficient, a government that was honest.” – “Bizga sof hukumat kerak edi, samarali hukumat kerak edi, halol hukumat kerak edi.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). Bunday birliklar mazmunning xotirada yaxshi saqlanishi uchun asos yaratadi.

4. Pragmatic xususiyatlar;

- Auditoriyaga ta’sir qilish (siyosiy nutq yoki asar muayyan guruhga qaratilgan bo‘lib, ularni harakatga undashi mumkin);

- Manipulyativ til usullari – muayyan g‘oyalarni targ‘ib qilish uchun so‘z va iboralarni ongli ravishda tanlash: “Only strong leadership can save us from chaos.” – “Faqat kuchli liderlik bizni parokandalikdan qutqara oladi.” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan);

- Maqsadli axborot taqdimoti (ayrim ma’lumotlarning ta’kidlanishi yoki yashirilishi)

Ijtimoiy-siyosiy asarlarning stilistik xususiyatlari deganda, ularning ta’sirchanligi, maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilishi va o‘ziga xos til uslublari tushuniladi. Bunday asarlar odatda ommaga murojaat qilgani uchun ularning stilistik jihatlari aniq va ta’sirchan bo‘lishi kerak. Quyida asosiy stilistik xususiyatlar keltirilgan:

1.Funktsional uslub:

- Rasmiy-publitsistik uslub – nutqlar, manifestlar, maqolalar, saylovoldi dasturlari kabi matnlarga xos.

- Ilmiy-analitik uslub – siyosiy nazariyalar, tahliliy maqolalar va ilmiy tadqiqotlarda qo‘llaniladi.

2.Emotsionallik va baholash (hissiy ta’sir kuchini oshirish uchun turli usullar ishlatiladi):

- Ekspressiv so‘zlar – hissiy boy, kuchli ta’sirli ma’noga ega so‘z va iboralar bo‘lib, muallifning hissiy munosabatini ifodalaydi: “We were a miserable, small, poor, dirty port.” – “Biz achinarli, kichkina, kambag‘al, iflos bir port edik.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan).

- Baholovchi so‘zlar – muallifning ijobiy yoki salbiy munosabatini bildiruvchi leksik birliklar[8] bo‘lib, ular orqali muallif o‘z fikrlariga baho beradi, hodisalarni yoki shaxslarni maqtaydi yoki tanqid qiladi: ijobiy baholovchi: “We had to build a clean, efficient and honest government.” – “Biz pok, samarali va halol hukumat qurishga majbur edik.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan).; salbiy baholovchi: “We inherited a corrupt and inefficient civil service.” – “Biz poraxo‘r va samarasiz davlat xizmatini meros qilib oldik.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan).

- Metaforalar va obrazli ifodalar – fikrlarni yanada jonli, esda qolarli va ta’sichan qiluvchi leksik birliklar: “We were fighting tooth and nail to survive.” – “Biz omon qolish uchun tish-tirnog‘imiz bilan kurashardik.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). “Tooth and nail” – obrazli ibora bo‘lib, hech narsani ayamasdan, barcha kuch bilan kurashish ma’nosini anglatadi. “Singapore was a political time bomb.” – “Singapur siyosiy bomba edi.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). Bu metafora bilan muallif mamlakatdagi siyosiy beqarorlikni, portlab ketishi mumkin bo‘lgan vaziyatni ta’riflagan.

3. Ritorik usullar:

- Ritorik savollar – javob kutmaydigan, balki fikrni kuchaytirish uchun beriladigan savol: “Could we build a nation out of so many different races and religions?” – “Biz turli millat va din vakillaridan iborat jamiyatdan chinakam xalq qura olarmidik?” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). Muallif bu savolni berib, jamiyatdagi muaamolar murakkabligini ko‘rsatadi. Bu javobdan ko‘ra, ogohlikka chaqiruvchi uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi.

- Takrorlash (muayyan g‘oya yoki shiorni mustahkamlash uchun): “We built schools, we built roads, we built homes, we built a nation.” – “Biz maktablar qurdik, yo‘llar qurdik, uylar qurdik, bir xalqni qurdik.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). Har bir gap “we built” bilan boshlangan va bu takrorni hosil qilgan.

- Parallelism (o‘xshash gap tuzilmalari orqali ta’sir kuchini oshirish): “We built schools, we built roads, we built homes, we built a nation.” – “Biz maktablar qurdik, yo‘llar qurdik, uylar qurdik, bir xalqni qurdik.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). “We built” dan so‘ng kelgan har bir obyekt sintaktik jihatdan bir xil – parallel konstruksiyadan qurilgan.

4.Manipulyativ usullar (auditoriyani ishontirish yoki yo‘naltirish uchun foydalaniladigan vositalar):

- Antiteza – qarama-qarshi tushunchalarni qo‘llash orqali kuchli ta’sir va contrast hosil qilish: “To be dependent is to be weak; to be independent is to be strong.” “Qaram bo‘lish – zaiflik; mustaqillik – kuch.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). “You are either with the people, or against them.” – “Siz xalq bilan birgasiz yoki ularga qarshi.” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan)

- Eufemizmlar – negativ ma’noli so‘zlarni yumshatish yoki salbiy va noqulay ma’noli so‘z va fikrlarni madaniyatli, diplomatic ifodalar bilan almashtirish usuli: “qattiq choralar” o‘rniga “zarur islohotlar”, “We had to let some people go.” – “Ba’zi odamlarga ketishiga ruxsat berishimizga to‘g‘ri keldi.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). Aslida “let somebody go” – “ishdan bo‘shatmoq” birikmasining yumshatilgan shakli.

- Demagogik iboralar – asoslanmagan, lekin ta’sirchan da’volar bo‘lib, haqiqatdan ko‘ra odamlarni ruhlantirsh yoki ishontirishga yo‘naltirilgan, populistic, manipulative gaplar: “We will never allow Singapore to fall into the hands of those who would destroy it.” – “Singapurning uni barbod qilmoqchi bo‘lganlarning qo‘liga tushishiga hech qachon yo‘l qo‘ymaymiz.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). Bu jumla kuchli emotsiyaga ega bo‘lib, “biz – yaxshi, ular – yomon” degan oddiy oppozitsiyani yaratadi. Real xavf konkret ko‘rsatilmagan, lekin qo‘rquv hissini uyg‘otadi.

- Slogan va shiorlar (qisqa va esda qolarli): “Our duty is to protect freedom and justice!” – “Burchimiz – ozodlik va adolatni himoya qilish!” yoki “History will remember the brave!” – “Tarix mardlarni unutmaydi!” (Teodor Ruzveltning “Liderlik qonunlari” asaridan).

5.Dialektika va argumentatsiya – ilmiy siyosiy asarlarda mantiqiy asoslangan dalillar, statistik ma’lumotlar va tarixiy faktlar orqali auditoriyani ishontirishga harakat qilinadi. Dialektika – bu qarama-qarshi fikrlar, g‘oyalar yoki voqealarni tahlil qilish, solishtirish, muhokama qilish va haqiqatni aniqlashga harakat qilish usuli[7]: “We needed Western capital and technology, but we couldn’t afford Western-style liberal democracy.” – “Bizga G‘arb kapitali va texnologiyasi kerak edi, lekin G‘arbcha liberal demokratiyani qabul qilishga yo‘l qo‘yolmasdik.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). Bu yerda G‘arbning ijobiy tomoni (capital, texnologiya) bilan salbiy jihati (erkin demokratiya xavfi) qarama-qarshi qo‘yilib, har ikki pozitsiyaning tanlovi asosida muallif o‘z yo‘lini asoslaydi. Argumentatsiya – fikrni (mantiqiy) asoslash, statistika va dalillar bilan tasdiqlash va o‘quvchini ishontirish jarayoni: “Multiracialism was not a choise but a necessity. With so many ethnic groups, not pursuing equality would have led to chaos.” – “Ko‘p millatlilik bizning tanlovimiz emas, zarurat edi. Bu qadar ko‘p etnik guruhlar bilan tenglikni ta’minlamaslik – tartibsizlikka olib kelgan bo‘lardi.” (Li Kuan Yu: “Singapur Tarixi” asaridan). Bu jumlada – multiratsional tenglik muhim, aks holda ijtimoiy

beqarorlik yuzaga keladi – degan fikrni ilgari surilib, muqobil natija orqali isbotlash usuli qo‘llanilgan.

Quyida davlat arboblarining ijtimoiy-siyosiy ruhdagi asarlarining stilistik xususiyatlarini yanada batafsil yoritish uchunLi Kuan Yuning “Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga: Singapur tarixi” asari va uning o‘zbek tilidagi tarjimasi asosida (20 000 so‘zli) stilistik vositalarning son jihatdan korpus tahlili keltirilgan:

Stilistik vosita	Takrorlanish soni
Ritorik savollar	11
Takrorlashlar	18
Emotsional so‘zlar	40+
Metaforalar	17
Antitezalar	9

Davlat arboblari tomonidan yozilgan ijtimoiy-siyosiy asarlar o‘ziga xos stilistik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular auditoriyaga kuchli ta’sir ko‘rsatish, siyosiy g‘oyalarni targ‘ib qilish va milliy ongni shakllantirishda muhimvosita sifatida xizmat qiladi. Yuqoridagi misollarda rasmiy-publitsistik uslub bilan birgalikda emotsional va ritorik vositalarning uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Takrorlash, parallelism, ritorik savollar, metaforalar, antitezalar, eufimizmlar orqali matn ta’sirchanligi oshiriladi. Muallif o‘z fikrlarini o‘quvchiga chuqur yetkazish uchun manipulyativ va argumentative strategiyalarni ham faol qo‘llaydi.

Xulosa.

Davlat arboblari yozgan ijtimoiy- siyosiy asarlar rasmiy-publitsistik uslub bilan birga, emotsional va badiiy ifodalar bilan boyitilgan bo‘lib, ular orqali xalqni ruhlantirish, vatanparvarlik ruhini singdirish, mafkuraviy g‘oyalarni targ‘ib qilish kabi funksiyalar bajariladi. Bu matnlarning lingvistik jihatdan o‘ziga xosligi – siyosiy terminologiya, ritorik usullar, emotsional baholovchi birliklar va murakkab grammatik qurilmalarda namoyon bo‘ladi. Tarjima jarayonida ushbu xususiyatlarni saqlab qolish muhim bo‘lib, tarjimon siyosiy kontekstni, madaniy fonni va stilistik rang-baranglikni hisobga olishi lozim. Xulosa qilib aytganda, davlat arboblari ijtimoiy-siyosiy asarlarida qo‘llanilgan uslubiy boylik bu turdagi asarlarni oddiy siyosiy hujjatdan ko‘ra, badiiy-estetik jihatdan kuchli adabiy ahamiyatga ega matnga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Fairclough, N. (2020). *Language and Power* (3rd ed.). Routledge.
2. Issers, O. S. (2021). *Kommunikativ strategiyalar va diskurs tahlili*. Moskva: URSS.
3. Lee Kuan Yew. (2020). *From Third World to First: The Singapore Story*. HarperCollins.
4. Nazarov, B. (2022). *Siyosiy nutq va lingvistik uslubiyat: O‘zbek adabiyoti tahlilida*. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
5. Qosimov, M. (2023). *O‘zbek publitsistikasi va ijtimoiy-siyosiy matnlar stilistikasi*. Samarqand: Registon nashriyoti.
6. Roosevelt, T. (2021). *The Laws of Leadership*. (O‘zbek tiliga tarjima qilingan: “Liderlik qonunlari”). New York: Leadership Press.
7. Salomov, G‘. (2020). *Tarjima nazariyasi va amaliyoti: ijtimoiy-siyosiy matnlar tahlili*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
8. Sodiqov, Z. (2021). *Siyosiy matnlar tarjimasi: lingvostilistik yondashuv*. Namangan: Ilm Ziyo.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Najmiddinov Jobir Zokirovich
Namangan davlat universiteti, O‘qituvchi

JEK LONDON ASARLARIDAGI VOQEALIKNI TASVIRLASH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola o‘zbek tilshunoslarning Jek London asarlaridagi voqealikni tasvirlash xususiyatlari haqida o‘z fikrlarini bergan. Jek london o‘z asrlarida turli xil ifoda vositalari yordamida voqealikni tasvirlashgan.*

Kalit so‘zlar: yagona maqsad, maxsus ifodalar, suzuvchi orol , *nutqiy hodisa,ijodkor tarjima.*

Нажмиддинов Джабирхан Закирович
Наманганский государственный университет, Учитель

ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ИСПОЛЬЗОВНИЯХ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЖЕК ЛОНДОНА

Аннотация. *В данном статье говориться о произведениях Жек Лондона в которых даны особенности перевода с помощи средств художественного языка.*

Ключевые слова. *художественного язык, специальные выражения, плавающий остров, речи, креативная перевод.*

Najmiddinov Jobir Zakirovich
Namangan state university, Teacher

Annotation. *This article is talks about the works of London’s Jack in which are given the peculiarities of translation with the help of means of artistic language.*

Key words: *artistic language, special expressions, floating island, speeches, creative interpretation.*

Badiiy asar har xil uslubda, turlicha maromda yozilgan bo‘lishi mumkin. Bunda ko‘p narsa asarda tasvirlanayotgan davr, tanlangan mavzu, voqealarning xarakteriga bogliq. Asliyatni qanday lisoniy uslub bilan tarjima qilish bu tarjimonning uslubiga bog‘liq narsa Agar tarjima qilish uchun tanlangan asarning bunday belgilari aniqlanmagan boisa, uning ruhiga mos kalit topib bo‘lmaydi, natijada garchand asar boshqa tilga ko‘chirilsa-da, u yangi kitobxonga o‘z tilsimotini ochmaydi. Shu tariqa tarjima qilishdan ko‘zlangan maqsad amalga oshmaydi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, tarjimon asarni tarjima qilishdan avval muallifning uslubini aniqlashi kerak. Aks xolda, muallif uslubining kaliti topilmas ekan, ayni bir asari eng iste'dodli ijodkor tarjima qilgani bilan ham chinakam san'at asari bunyod etilmay qolaveradi. Ikki ijodkor: yozuvchi va tarjimon bir-birlarini tushungan taqdirda esa yuksak so‘z san'ati namunasidan yana bir san'at asari tug‘iladi.

Badiiy asar tilining yuqorida qayd etilgan xususiyatlari unda ko‘pgina til vositalariming ishlatilishi natijasida yuzaga keladi. Tarjimon ana shu vositalarni o‘rganadi va ularni mukammallashtiradi, ayrim hollarda yangi til vositalarini kashf etib, xalq tilini boyitadi.

Yozuvchi xalq tilining boy xazinasidan istaganicha material oladi. Asarning badiiy to‘qimasida yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, turli -rb'oralar, gaplar, qochirimlar, so‘z o‘yinlari tovlanadi. Ana shular tilni jonli, obrazli bir tilga aylantiradi. Badiiy asar tilini jonli va obrazli qiladigan vositalar badiiy til vositalari deb ataladi. Ba'zan muallif voqeani bamaylixotir, jiddiy holda hikoya qiladi-yu, ammo so‘zlarning asl ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo‘llab, biror kishi yoki hodisa ustidan kesatiq bilan, masxaromuz yashirin kuladi.

Jek London ijodida kapitalistik jamiyatdagi, o‘sha davr turmushidagi salbiy voqea-hodisalar va salbiy harakterlarga qarshi kurashda ironiya va sarkazmlardan keng foydalanadi. Haqiqatan ham, ironiya shunday usulki, yuzaki qaraganda, so‘zlivchi jiddiy gapirayotganga o‘xshaydi, ammo uning tagida haqiqiy ma'noga qarshi bo‘lgan yashirin kulgi yotadi. Masalan, "Isyonchi" hikoyasidan keltirilgan quyidagi parchalarni ko‘rib chiqaylik:

”Lekin Jonnining hayotida yangiliklar ham bo‘lih turardi: bu boshqa ishga o‘tganida yoki kasal bo‘lganidayuz berar edi.” (J.London Hikoyalar. "Isyonchi".)

Yoki bechora bolaning quvonchi haqida London shunday ta'rif beradi:

"Uning hayotida bir necha muhim hodisa ro'y bergan edi: bir marta onasi Kaliforniya olxo'risi olib keldi. Ikkinchi marta onasi qaynatma krem qilib berdi. Bular uning hayotidagi chinakam ajoyib hodisalar edi. Bularni u juda mamnuniyat bilan eslardi. O'sha vaqtlarda onasi unga nodir bir ovqat tayyorlab berishni va'da qilgandi. Onasi bu ovqatni "suzuvchi orol" deb atardi. Bu ovqat qaynatma kremdan ham shirinroq narsa degan edi onasi. O'sha kunni Jonni ko'p yillar kutdi.

Bu umidi ham ko'p boshqa shir in xayollar singari puchga chiqqunchq, Jonni "suzuvchi orol" qo'yilgan dasturxonga o'tirishni uzoq yillar kutib yurdi." (J.London Hikoyalar. "Isyonchi".)

Xuddi shu hikoyadan yana bir misol keltiramiz:

Jonnining yashi o 'n to 'rtga kirganda kraxmal sexiga ishga o 'tdi. Bu juda quvonchli hodisa edi. Bu shunday katta hodisa ediki, uni bir kechada, hatto bir haftada ham unutib bo 'Imasdi. Uning hayotida yangi davr boshlandi. Bu davr jonni uchun bir olimpiadadek gap edi, yangi earning boshlanishi edi. Endi Jonnining og'zidan: "Kraxmal sexiga o'tganimda", yoki "Kraxmal sexida ishlay bosh.laganim.dan keyin" yo "oldin" degan so'zlar tushmay qoldi." (J.London Hikoyalar. "Isyonchi".)

Bu kabi til vositalaridan unumli foydalanar ekan, London o'zi yashayotgan jamiyatning asl basharasini ochib beradi va ana shu jamiyatning qonun-qoidalari, turmush tartiblari, hayot tarzi ustidan achchiq kuladi.

Jek London badiiy ijodi jarayonida turli xil ifoda vositalaridan foydalanar ekan, yagona maqsad voqelikni kitobxon ko'z o'ngida real gavdalantirish, kishilik jamiyatining dolzarb muammolarini yoritib berishdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, har bir yozuvchining o'z badiiy uslubi boiib, bu yozuvchining individual uslubi sanaladi. Voqelikni ifodali, espressiv, jonli va jozibali ifodalash uchun Jek London ham turli xil badiiy til vositalaridan foydalanadiki, bu vositalar asar tilining o'ziga xos bo'lishini ta'minlaydi.

O'xshatish Abdulla Qahhor fikricha, "o'quvchiga oz maium bo'lgan yoki mutlaqo maium boimagan narsa unga juda ham maium boigan narsaga o'xshatilishi kerak." O'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki maium predmet biror boshqa predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o'rinda ikkinchi narsaga o'xshatilishi mumkin.

Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qilinadigan doimiy o'xshatishlar borki, ular ham emosionallik, ham baholash qiymatini yo'qotgan. Bu tipdagi o'xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak. O'xshatish to'rt asosiy qismdan tarkib topadi:

Bolardagi qip-qizil lola
Bo'lib go'yo yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan qochadi uyqu. (H.O.)

Keltirilgan misolda o'xshatilgan predmet (1) lola, o'xshatiladigan predmet (2) piyola, asos (3) yoqut va o'xshatish vositasi - go'yo.

Jek London hikoyalarini tarjima qilar ekan Fattoh Abdullaev ko'plab turdagi o'xshatish strukturalaridan foydalangan. Masalan, o'xshatish oborotlarini olaylik. Bu o'xshatishning ko'p tarqalgan formasidan biri hisoblanib, ba'zan o'xshatish ergash gaplarga o'xshab ketadi. Ammo ularni aralashtirmaslik kerak: "O'xshatish oborotlari, sostavlari qancha keng bo'lsa ham, tarkiblarida ega va kesimlari bo'lmagani uchun ergash gap boia olmaydilar". Masalan:

"Uning qadam tashlashi odamning qadam tashlashiga o'xshamas, umuman o'zi ham odamga o'xshamasdi, u odamning kulgili bir tasviri, holdan toygan, abjaq bo'lgan bir maxluqqa o'xshardi. Xuddi kasal maymundek qo'llari ikki yoniga osilgan, bukchaygan, ko'krak qafasi tor, dahshatli bir vujud gandiraklab borardi". (J. London. Hikoyalar. "Isyonchi". 98-bet)

London Hikoyaiari tarjimalarida birdan ortiq vosita ishtirok etgan o'xshatish formalarini ham uchratish mumkin. Masalan:

"Dovonning faqat bir tomonida xuddi kuchli shamoldan qiyshayib ketgan kema palubasidek qoyalar yonboshlab pastga qarab tushgan". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi". 18-bet).

Umuman, Jek London asarlarida tropning har bi turidn unumli va maqsadli foydalanilganining guvohi boiamiz. Ma'lumki, mubolag'a ham ko'chma ma'noga asoslanadi. Lekin tropning boshqa turlaridagi ko'chma ma'no asosida qandaydir o'xshatilish, yoki boshqa biror predmet va voqea-hodisa tushunilsa, haddan tashqari kuchaytirish-mubolag'a to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab qiladi.

References:

1. Akobirov S. Language and terminology - Tashkent: 1969.
2. Hotamov N. From the history of the development of literary terms. -T: 1969.
3. Musaev Q. Literary translation and speech culture. -Tashkent: Teacher, 1976, -B. 160.
4. Salomov G', Azamov S. Basics of translation // textbook - Tashkent: literature and art publishing house, 1976. - P. 88.
5. Ashurov Sh. Case typology in English and Uzbek languages. -Tashkent: 2007.
6. Salomov G'. Translation concerns. -Tashkent: Literature and Art, 1983. -B.16.
7. Isomiddinov Z. N. Non-Turkish and translation issues. - Tashkent: University, 1995. -B. 118.

8.Karimovna, S. M. (2023). K 30 428 THE PROBLEMS OF TEACHING ENGLISH IN NON PHILOLOGICAL INSTITUTION: K 30 428 THE PROBLEMS OF TEACHING ENGLISH IN NON PHILOLOGICAL INSTITUTION.

9.Najmiddinov, J., & Bahodirov, A. (2020). Transitive and intransitive verbs in English, Uzbek and Russian languages. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(1), 187-192.

10.Ahmadjonovich, A. A., Muhammadjonovna, K. N., & Zokirovich, N. J. (2021). A descriptive approach of translating idioms and phraseological units into two different languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(3), 2210-2214.

11.Najmiddinov, J. (2019). THE PROBLEM OF PRESERVATION THE PROCESS ARTISTIC AND AESTHETIC FEATURE OF THE ORIGINAL. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(2), 204-208.

12.Najmiddinov, J., & Bahodirov, A. (2019). PECULIARITIES OF DESCRIBING DEVELOPMENT IN THE WORK OF JACK LONDON. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(12), 179-182.

13.Нишанова, Т. А. (2017). Учёт психологических особенностей учащихся в обучении иностранному языку. *NovaInfo. Ru*, *5*(58), 349-352.

14.Shahrizoda, M. (2023). TECHNIQUE FOR TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN PRESCHOOL INSTITUTION. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(4), 455-458.

15.Abdurakhmonova, D., & Abduvohidova, H. (2023). Challenges in Listening to Second Language Learners. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *4*(3), 74-77.

16.Competence of the Humanitarian and Natural Directions Students. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 6, 8-10.

17.Munira, S. (2023). The Importance of Personal Orientation in the Professional Formation of the Future Teacher. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(11), 498-500.

18.Nishanova T. A. About country knowledge in the work of erich kestner “Small border traffic” (Der Kleine Grenzverkehr)t // International scientific journal "Internauka". — 2020. — №6. https://doi.org/10.25313/2520-2057-2020-6-5836

19.Najmiddinov, J., & Bahodirov, A. (2020). Transitive and intransitive verbs in English, Uzbek and Russian languages. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(1), 187-192.

20.Saydaliyeva, M. A., Atamirzayeva, E. B., & Dadaboyeva, F. X. (2019). Methodological recommendations for using the method of work in small groups. International Journal on Integrated Education, 2(6), 87-89.

21.Sultonova, D. (2023). “ALVIDO... BOLALIK” BY TAKHIR MALIK AS ONE OF THE BEST WORKS OF CRIME FICTION IN UZBEK LITERATURE. In ПЕДАГОГИКА В ТЕОРИИ И НА ПРАКТИКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ (pp. 21-23).

22.Нурматова, Н. (2023). ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙК ПАТРИОТИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ МОЛОДЕЖИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/1), 164-173.

23.Abdurakhmonova, D. (2023). PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE TRANSLATIONS OF BOBURNAMA.

24.Azamov, S. M. (2022). SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS ON TERMINOLOGY LINGUISTICS. Gospodarka i Innowacje., 24, 633-635.

25.Ботирова, П. Х. (2023). Подход к описанию связной речи. Строительство и образование, 3(5), 49-61.

26.Inomiddinova, D. I. (2020). MODERN PROBLEMS OF LINGUISTICS AND METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE. Теория и практика современной науки, (3 (57)), 6-8.

27..Abdugafurovich, R. B. (2023). THE PROBLEM OF TEACHING ENGLISH IN ESP CLASSES. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(4), 160-162.

28..Muxayyo, R. (2023). CHET TILI TA’LIMINI OLIY TA’LIMDA MUTAHASSISLIKKA BOG‘LAB O‘TISH MAQSADLARI: CHET TILI TA’LIMINI OLIY TA’LIMDA MUTAHASSISLIKKA BOG‘LAB O‘TISH MAQSADLARI.

29.Qodirovich, K. K. (2023). DISTANCE LEARNING ISSUES FOR NON-LINGUISTIC UNIVERSITIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES.

30.Amandjanovna, I. D. (2022). Ingliz Tili Fanini O ‘Qitishda Zamonaviy Usul Va Vositalarni Qo‘llash Metodikasi. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(6), 11-15.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Неъматжонова Азизахон Нодирбековна
студентка I курса магистратуры НамГИИЯ имени И.Ибрата
azizakhonnematjonova@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ШУКШИНА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ В СРЕДНИХ КЛАССАХ.

Аннотация : *Статья посвящена изучению общечеловеческих ценностей в произведениях Василия Шукшина на уроках литературы в средних классах. В работе рассматривается, как творчество писателя отражает важнейшие аспекты человеческой жизни, такие как любовь, дружба, сострадание и справедливость. Автор анализирует конкретные произведения Шукшина, выявляя, как они способствуют формированию нравственных ориентиров у подростков. Также обсуждаются методические подходы к проведению уроков, направленные на активизацию обсуждений и развитие критического мышления учащихся. В заключение подчеркивается важность литературного наследия Шукшина для воспитания гуманистических ценностей в подрастающем поколении.*

Ключевые слова : *Шукшин, общечеловеческие ценности, литература, средние классы, нравственные ориентиры, воспитание , методические подходы , обсуждение , критическое мышление , гуманизм.*

Ne`matjonova Azizaxon Nodirbekovna
I.Ibrat nomidagi NamDChTI I-kurs magistratura talabasi

O‘RTA SINFLARDA SHUKSHIN ASARLARIDA INSONIY QADRIYATLARNI ORGANISH.

Annotatsiya*: Ushbu maqola, orta sinflarda Vasiliy Shukshin asarlarida umumiy insoniy qadriyatlarni organishga bagishlangan. Ishda yozuvchining ijodi inson hayotining eng muhim jihatlarini, masalan, sevgi, dostlik, rahm-shafqat va adolatni qanday aks ettirishi korib chiqiladi. Muallif, Shukshin asarlarini tahlil qilgan holda, ularning osmirlar ongida axloqiy me’yorlarning shakllanishiga qanday hissa qoshishini aniqlaydi. Shuningdek, oquvchilarni muhokama qilishga va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yonaltirilgan darslarni otkazishning metodik yondoshuvlar ham muhokama qilinadi. Yakuniy xulosada, Shukshinning adabiy merosining yosh avlodda gumanistik qadriyatlarni tarbiyalashdagi ahamiyati ta’kidlanadi.*

Kalit sozlar: *Shukshin, insoniy qadriyatlar, adabiyot, orta sinflar, axloqiy me’yorlar, tarbiya, metodik yondoshuvlar, muhokama, tanqidiy fikrlash, gumanizm.*

Ne`matjonova Azizaxon Nodirbekovna
a first-year graduate student at the NamSIFL

THE STUDY OF UNIVERSAL HUMAN VALUES IN THE WORKS OF SHUKSHIN IN LITERATURE LESSONS FOR MIDDLE SCHOOL STUDENTS.

Abstract: *The article is devoted to the study of universal human values in the works of Vasily Shukshin in literature lessons for middle school students. The paper examines how the writer’s creativity reflects the most important aspects of human life, such as love, friendship, compassion, and justice. The author analyzes specific works of Shukshin, identifying how they contribute to the formation of moral guidelines in adolescents. The article also discusses methodological approaches to conducting lessons aimed at activating discussions and developing students’ critical thinking. In conclusion, the importance of Shukshin’s literary heritage for fostering humanistic values in the younger generation is emphasized.*

Keywords: *Shukshin, universal human values, literature, middle school, moral guidelines, education, methodological approaches, discussion, critical thinking, humanism.*

Введение

Василий Шукшин — значимая фигура в русской литературе, чьи произведения проникнуты глубокими общечеловеческими ценностями, такими как любовь, дружба, сострадание и справедливость [1, С. 15]. Эти темы особенно важны для подростков, находящихся в стадии формирования своей личности и мировоззрения. Изучение произведений Шукшина в

школе помогает учащимся осознать значимость этих ценностей в их жизни и обществе.

Актуальность темы изучения общечеловеческих ценностей в произведениях Василия Шукшина обусловлена несколькими факторами. Во-первых, в современном мире, где преобладают индивидуализм и потребительский подход, важно возвращаться к основам человеческой морали и нравственности. Произведения Шукшина, насыщенные темами любви, дружбы и сострадания, помогают подросткам понять, что именно эти ценности создают основу здоровых человеческих отношений.

Во-вторых, подростковый возраст — это период, когда молодые люди активно формируют свои убеждения и мировосприятие. Изучение творчества Шукшина на уроках литературы способствует осознанию значимости нравственных ориентиров, что помогает учащимся принимать правильные решения в сложных жизненных ситуациях.

Кроме того, в условиях глобализации и культурного разнообразия важность общечеловеческих ценностей становится более актуальной, поскольку они способны объединять людей, независимо от их происхождения и взглядов. Таким образом, исследование и обсуждение произведений Шукшина не только enriches литературное образование, но и способствует воспитанию гармоничной личности, способной к сопереживанию и взаимопомощи.

Произведения Василия Шукшина занимают важное место в отечественной литературе, особенно в школьном преподавании [2, С. 56]. Тематика общечеловеческих ценностей в его произведениях отражает глубокие вопросы нравственности, духовности, человеческих взаимоотношений и поисков смысла жизни. Для средних классов школы это важный момент, так как именно в этот период ученики начинают осознавать нравственные и философские аспекты жизни. Шукшин, с его яркими, выразительными произведениями, даёт богатую почву для размышлений о ценностях, которые объединяют людей, несмотря на время и место действия. Рассмотрим, как его работы могут быть использованы для изучения общечеловеческих ценностей на уроках литературы.

Основные темы и ценности:

1.Человечность и духовные поиски.

В произведениях Шукшина часто затрагиваются вопросы внутреннего состояния человека. Герои его рассказов, как правило, простые люди, столкнувшиеся с трудностями и экзистенциальными вопросами. Эти персонажи пытаются понять, что такое добро и зло, что важно в жизни, как найти своё место в мире [6, С. 45].

2 . Любовь и человеческие отношения.

В произведениях Шукшина любовь часто представлена как центральная тема. Например, в рассказе "Калина красная" главные герои сталкиваются с трудностями, но их любовь помогает преодолеть препятствия. Уроки могут включать обсуждение, как любовь меняет людей и их действия, что позволяет учащимся увидеть, как эта сила может влиять на жизни персонажей и их окружение.

3 . Дружба и взаимопомощь.

Дружба в творчестве Шукшина изображается как важная опора в жизни. В рассказе "Спи, моя радость" автор демонстрирует, как друзья помогают друг другу [1, С. 89] преодолевать испытания. На уроках можно предложить учащимся поделиться собственными примерами дружбы, проанализировав, как поддержка друзей может изменить ситуацию.

4 . Сострадание и милосердие.

Сострадание — одна из ключевых тем в произведениях Шукшина. В "Я пришёл дать вам волю" показаны сложности, с которыми сталкиваются герои, но они не теряют человечности. Уроки могут включать обсуждение, как важно быть чутким к страданиям других, и как это качество может проявляться в повседневной жизни.

5 . Поиск справедливости.

Справедливость — еще одна важная ценность, поднимаемая Шукшиным. Его произведения часто затрагивают вопросы морали и справедливости в обществе [7, С.78]. Обсуждение таких тем помогает учащимся понять, как важно отстаивать свои убеждения и защищать права других.

6. Мораль и нравственность.

В произведениях Шукшина сильна тема выбора. Герои сталкиваются с моральными дилеммами, в которых важен не только социальный контекст, но и личный выбор каждого. Многие из них приходят к осознанию собственной ответственности за свои поступки, что подчеркивает важность нравственных ориентиров.

7. Тема родины и близких отношений.

Шукшин часто пишет о простых, но глубоких отношениях между людьми: о семье, о братстве, о товариществе. Тема родины также занимает важное место, показывая, как привязанность к родной земле и людям влияет на личные ценности героев.

Общечеловеческие ценности в контексте произведений Шукшина:

1. Честность и искренность.

Шукшин создал множество персонажей, которые не могут жить во лжи. Они часто ошибаются, но всегда стараются быть честными в своих поступках, даже если это связано с болью или жертвами. Это очень важно для молодежной аудитории, так как воспитывает честность и открытость в общении.

2. Сострадание и взаимопомощь.

В произведениях Шукшина также показана сила человеческой доброты. Даже если герой не способен изменить весь мир, он может проявить милосердие и помощь ближнему. В рассказах, например, часто встречаются сцены, где герои проявляют заботу о других, независимо от того, являются ли они родственниками или совершенно незнакомыми людьми.

3.Любовь и семья.

Тема любви к близким и преданности семье также часто появляется в произведениях Шукшина. Его герои преданы своей семье, и это чувство зачастую становится основой их существования. Важность поддержания родственных связей и готовность отдать всё ради любви и близких - это важные уроки, которые можно донести до школьников.

4. Саморазвитие и поиск смысла жизни.

Множество героев Шукшина находятся в поиске смысла своей жизни. Они задаются вопросами о цели существования, о своих ошибках и о том, как стать лучше. Это является мощным уроком для подростков, которым предстоит сталкиваться с вопросами о собственном будущем.

Как изучать общечеловеческие ценности через произведения Шукшина на уроках литературы?

1. Анализ текстов.

На уроках можно организовать глубокий анализ произведений Шукшина, чтобы выявить, как автор через образ героя, его мысли и поступки передает общечеловеческие ценности. Например, рассматривать, как герои решают моральные дилеммы, что для них важнее – личные интересы или интересы окружающих.

2.Обсуждение морали и нравственности.

Важно не только читать произведение, но и обсуждать его мораль. Ученикам можно предложить представить себя на месте героев, обсудить их выбор, размышлять о том, что значит быть честным, верным, добрым.

3. Письменные работы.

Написание сочинений, в которых учащиеся должны будут рассуждать на темы, затронутые в произведениях Шукшина, поможет им глубже понять ценности, о которых идет речь. Например, сочинение на тему "Что значит быть честным?" или "Почему важна помощь ближнему?" может стать отличной практикой для формирования правильных жизненных ориентиров.

3.Сравнительный анализ.

Очень полезно провести сравнение произведений Шукшина с произведениями других авторов, чтобы выявить, как общечеловеческие ценности раскрываются в разных контекстах. Например, можно провести сравнение героев Шукшина с персонажами произведений Толстого, Чехова или Гоголя.

Методические подходы к изучению

1. Дискуссии и дебаты:

Стимулирование активного обсуждения актуальных вопросов, связанных с произведениями, помогает учащимся развивать критическое мышление [5, С. 134]. Темы для дебатов могут включать вопросы морали и этики, например, "Что важнее: личные интересы или общественное благо?"

2. Ролевые игры:

Проведение ролевых игр, основанных на сюжетах произведений Шукшина, позволяет учащимся лучше понять мотивацию героев и их внутренние конфликты. Это помогает развивать эмпатию и умение ставить себя на место других.

3. Творческие проекты:

Учащиеся могут создавать проекты, основанные на темах произведений, например, писать эссе, стихи или создавать художественные работы. Это не только развивает творческие способности, но и углубляет понимание текста.

4. Анализ текстов:

Глубокий анализ текстов позволяет учащимся выявить ключевые темы и ценности [6, С. 60]. Учителя могут использовать вопросы открытого типа, чтобы стимулировать размышления о значении тех или иных эпизодов.

Заключение

Изучение общечеловеческих ценностей в произведениях Василия Шукшина на уроках литературы в средних классах играет ключевую роль в воспитании подрастающего поколения. Творчество Шукшина помогает учащимся осознать важность любви, дружбы, сострадания и справедливости, формируя их личные и нравственные ориентиры [2, С. 201]. Это не только обогащает литературное образование, но и способствует гармоничному развитию личности, что особенно актуально в современном обществе.

Список использованной литературы:

1. Шукшин, В. М. Собрание сочинений в пяти томах. М.: Художественная литература, 1974.
2. Григорьева, Н. А. Литературное наследие В. Шукшина. М.: Наука, 1990.
3. Щербаков, А. В. Шукшин и его время. Санкт-Петербург: Издательство «Книга», 2005.
4. Петрова, Е. И. Общечеловеческие ценности в литературе. М.: Просвещение, 2012.
5. Ковалев, П. С. Методика преподавания литературы в школе. М.: Учебник, 2018.

6. Левитан, А. С. Творчество В. Шукшина: анализ и интерпретация. Новосибирск: Сибирское университетское издательство, 2016.

7. Самойлов, И. В. Дружба и любовь в литературе Шукшина. М.: ФЛИНТА, 2014.

8. Мищенко И. И. В. М. Шукшин: Творчество и личность. — М.: Советский писатель, 1984.

9.Литературная энциклопедия: В 11-ти томах. — М.: Советская энциклопедия, 1960—1978.

10. Шукшин В. М. Краткая литературная энциклопедия. — М.: Советская энциклопедия, 1960—1978.

11. Камалова, К. (2023). Методика профессионально-ориентированного обучения русскому языку. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *2*(13), 76-84.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Собиров Азизбек Баходир угли
Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исхокхона Ибрата
email: sobirov0807@mail.ru

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ ОТГРАНИЧЕНИЯ МЕТАФОРИЧЕСКОГО ЭПИТЕТА ОТ СМЕЖНЫХ ЯВЛЕНИЙ

Аннотация: *Статья посвящена анализу лингвистических критериев, которые помогают точно разграничить метафорический эпитет от смежных языковых явлений, таких как метафора, метонимия, синекдоха, гипербола и литота. В работе рассматриваются три основных критерия: семантический, структурный и функциональный.*

Ключевые слова: *Метафорический эпитет, лингвистические критерии, тропы, семантический критерий, функциональный критерий, образность, стилистика языка, языковые средства выражения, литературный стиль.*

Sobirov Azizbek Baxodir o‘g‘li
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

MAJOZIY SIFATLASHNI EGIZ HODISALARDAN FARQLASHNING LINGVISTIK MEZONLARI

Annotatsiya: *Maqolada majoziy sifatlashni metafora, metonimiya, sinekdoxa, giperbola va litota kabi qo‘shni lingvistik hodisalardan aniq ajratishga yordam beradigan lingvistik mezonlarni tahliliga qaratilgan. Maqolada semantik, tarkibiy va funktsional- uchta asosiy mezon ko‘rib chiqiladi*

Kalit so‘zlar*: Metaforik epitet, lingvistik mezonlar, yo‘llar, semantik mezon, funktsional mezon, obrazlilik, til uslubi, lingvistik ifoda vositalari, adabiy uslub.*

Sobirov Azizbek Bakhodir ugli
Namangan State Institute of foreign languages named after is'hoq Khan Ibrat

LINGUISTIC CRITERIA FOR DISTINGUISHING FIGURATIVE ADJECTIVES FROM OBLIQUE PHENOMENA

Annotation: *the article focuses on the analysis of linguistic criteria that help to clearly distinguish figurative adjectives from neighboring linguistic phenomena such as metaphor, metonymy, synecdoche, Hyperbola and lithota. The article considers three main criteria - semantic, structural and functional*

Keywords: *metaphorical epithet, linguistic criteria, paths, semantic criterion, functional criterion, figurativeness, language style, linguistic means of expression, literary style.*

Язык — это живой организм, отражающий мышление, культуру и эмоциональное восприятие мира человеком. Одним из выразительных средств языка является метафорический эпитет — художественный прием, придающий речи образность, глубину и эмоциональную насыщенность. Изучение метафорических эпитетов актуально, поскольку они играют ключевую роль в формировании индивидуального стиля автора, способствуют созданию ярких образов, а также обогащают лексику и семантику языка. В условиях постоянного развития коммуникации и расширения границ культурных взаимодействий исследование особенностей употребления метафорических эпитетов позволяет глубже понять механизмы образного мышления, выявить тенденции в развитии современного языка и литературы. Кроме того, интерес к этой теме обусловлен возросшим вниманием к вопросам межкультурной коммуникации и перевода, где точная передача метафорических эпитетов становится важной задачей.

Метафорический эпитет обладает рядом характерных особенностей, определяющих его важную роль в языке и художественном тексте. Метафорический эпитет способствует созданию ярких, наглядных образов, оживляя описание и делая его более выразительным и запоминающимся. Через неожиданные сопоставления он раскрывает новые

грани предметов и явлений. Использование метафорического эпитета отражает индивидуальное восприятие автора, его отношение к изображаемому[3,67]. Эпитет позволяет передать оценочные суждения, окрашенные личными эмоциями и ассоциациями. Благодаря метафорическому эпитету текст приобретает особую эмоциональную насыщенность. Он усиливает впечатление от сказанного, помогает автору передать тончайшие оттенки чувств, тем самым усиливая воздействие на читателя.

Метафорический и прямой (неметафорический) эпитеты различаются по способу создания художественного образа и характеру описания: **Прямой эпитет** — это определение, прямо указывающее на очевидное, реальное свойство предмета. Оно не требует дополнительного толкования и воспринимается буквально. Например: *зелёная трава*, *тёплый ветер*, *высокая гора*. **Метафорический эпитет** — это определение, основанное на переносе значения по сходству, метафорическом переосмыслении признака. Он не описывает реальное свойство напрямую, а создаёт образное, ассоциативное восприятие. Например: *огненный взгляд*, *бархатная ночь*, *золотые руки[4,116]*.

Таким образом, **главное отличие** заключается в том, что прямой эпитет фиксирует объективную характеристику, а метафорический — субъективную, образную, требующую расшифровки ассоциативных связей. Метафорический эпитет близок к метафоре, поскольку в основе обоих тропов лежит перенос значения. Однако между ними есть важные различия:

• **Метафорический эпитет** — это переносное определение, связанное с существительным (например, *лунная тишина*).

• **Метафора** — самостоятельная тропическая единица, чаще всего представляющая собой скрытое сравнение без союза (*река звёзд* вместо *река, похожая на звёзды*). Иными словами, метафорический эпитет всегда служит уточнением, характеристикой предмета, тогда как метафора может строить целый образ или концепцию.

Отличие от метонимии и синекдохи. **Метонимия** основана на переносе по смежности понятий (например, *читать Пушкина* вместо *читать произведения Пушкина*). **Синекдоха** — частный случай метонимии, основанный на переносе по количественному признаку (часть вместо целого или наоборот: *сто голов скота*). Метафорический эпитет отличается тем, что он не опирается на реальные логические связи между предметами, а строится на ассоциативной, образной связи по аналогии или подобию[1,247].

Сопоставление с гиперболой и литотой. Гипербола — намеренное преувеличение признака (например, *море слёз*). **Литота** — намеренное преуменьшение (например, *мальчик с пальчик*). Метафорический эпитет также может использовать элементы преувеличения или преуменьшения, но его основная функция — создание образности через переносный смысл, а не количественная или качественная трансформация признака.

Эпитет и атрибутивные сочетания без тропеичности. Атрибутивные сочетания без тропеичности выражают реальное качество предмета без образного переосмысления. Например: Атрибутивное сочетание: *красная роза* (буквальный цвет). Метафорический эпитет: *пламенная роза* (переносный, образный смысл).

Таким образом, метафорический эпитет отличается от простого атрибутивного сочетания наличием образной основы и необходимостью интерпретации.

Для точного выделения метафорического эпитета из ряда других языковых явлений используются следующие критерии:

Семантический критерий. Метафорический эпитет характеризуется переносным значением определяющего слова. В отличие от прямого эпитета, он не фиксирует реальный, объективный признак предмета, а выражает образное, ассоциативное качество. Перенос происходит по аналогии, подобию, основанному на эмоционально-образной интерпретации.

Пример: *свинцовые тучи* — тучи не сделаны из свинца, а ассоциируются с тяжестью и мрачностью.

Структурный критерий. Метафорические эпитеты проявляют определённую устойчивость в языке. Часто возникают устойчивые сочетания, закреплённые в культуре, литературе или фольклоре (*золотое сердце*, *огненная страсть*). Однако метафорический эпитет может также быть авторским, индивидуальным, сочетая в себе неожиданные компоненты. Важно, что компоненты эпитета обладают внутренней семантической связностью на уровне образного мышления, а не буквальной логики.

Функциональный критерий. Главная функция метафорического эпитета — усиление образности и эмоциональной выразительности текста. Эпитет не просто уточняет предмет, а создаёт определённое настроение, окрашивает изображение в определённые эмоциональные тона, воздействует на воображение читателя[5,95].

Выделение метафорических эпитетов позволяет раскрыть авторские приёмы создания образности, установить связи между элементами текста и понять, как формируется его эстетическое воздействие. Метафорические эпитеты являются важными маркерами стиля[2,179]. Их количество, характер, оригинальность или принадлежность к устойчивым

сочетаниям помогают анализировать специфику авторского мышления и творчества. Через анализ метафорических эпитетов можно определить ключевые образы и мотивы текста, выявить доминирующие концепты произведения и проследить их развитие.

Понимание переносного характера метафорического эпитета позволяет избежать прямолинейной трактовки текста и способствует более глубокому, многослойному прочтению художественного произведения. Системное изучение метафорических эпитетов обогащает знания о закономерностях развития образной речи, о механизмах метафоризации и эмоционализации языка.

Таким образом, разграничение метафорического эпитета — не просто теоретическая задача, но и важный инструмент для более точного и многопланового анализа литературного текста.

Использованная литература.

1. Виноградов, В. В. О языке художественной литературы / В. В. Виноградов. — 4-е изд. — М. : Высшая школа, 2003. — 502 с.

2. Лотман, Ю. М. Анализ поэтического текста : структура стиха / Ю.

3. М. Лотман. — Л. : Просвещение, 2002. — 304 с. Потебня, А. А. Мысль и язык / А. А. Потебня. — М. : Лабиринт, 1999. — 384 с.

4. Жирмунский, В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика / В. М. Жирмунский. — Л. : Наука, 1977. — 464 с.

5. Турбина, Л. В. Стилистика русского языка : учеб. пособие для вузов / Л. В. Турбина. — М. : Флинта : Наука, 2002. — 288 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sayfiddinova Ozodaxon Zuhriddin qizi
Namangan davlat universiteti magistranti
sayfiddinovaozodichka@gmail.com

UDK: 1751

O‘ZBEK TILIDAGI BOSH VA QO‘L SOMATIK IBORALARI TAHLILI VA ULARNING BADIIY ASARLARDAGI QAMROVI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bosh va qo‘l somatik iboralari o‘zbek adabiyotidagi badiiy asarlarda qanday ishlatilishi va ularning ma’nosidagi o‘zgarishlari tahlil qilindi. Ishda “bosh” va “qo‘l” komponentlarni o‘z ichiga olgan somatik iboralar misollar orqali o‘rganilib, badiiy asarlardagi o‘rni, mazmuni haqida ma’lumotlar berildi. Badiiy asarlarda qo‘llangan iboralar yordamida somatik iboralarning badiiy ifoda vositasi sifatida qanday ishlatilganligi, ularning ma’nolari ko‘rib chiqildi. Somatik iboralarning o‘zbek tilidagi badiiy yuksaklikda qanday teran va boy ma’nolarni anglatishini yoritishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar. *frazeologiya, frazema, frazeologik birlik, maqol, somatizm, tasviriy ifoda, hikmatli so‘z.*

Сайфиддинова Озодахана Зухриддиновна
Наманганский государственный университет аспирант

АНАЛИЗ СОМАТИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ "ГОЛОВА" И "РУКА" В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ РОЛЬ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В данной статье анализируется использование соматических выражений "голова" и "рука" в художественных произведениях узбекской литературы, а также изменения их значений. Статья рассматривает примеры выражений, включающих "голову" и "руку", и описывает их роль в художественных произведениях. На основе примеров из различных произведений узбекской литературы исследуется, как соматические выражения используются как художественные средства и как изменяются их значения. Статья направлена на освещение глубоких и богатых значений этих выражений в узбекском языке на уровне художественного стиля.*

Ключевые слова. *фразеология, фразема, фразеологическое единство, пословица, соматизм, образное выражение, мудрое слово.*

Sayfiddinova Ozodakhon Zuhriddin qizi
Master's student at Namangan State University

ANALYSIS OF SOMATIC EXPRESSIONS “HEAD” AND “HAND” IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR ROLE IN LITERARY WORKS

Annotation. *This article analyzes the usage of somatic expressions related to "head" and "hand" in literary works of Uzbek literature and examines the changes in their meanings. The paper explores examples that include the somatic expressions "head" and "hand," providing insights into their role in literary works. By analyzing examples from various works of Uzbek literature, the article discusses how somatic expressions are used as artistic devices and the meanings they convey. The article aims to highlight how these expressions, in the context of Uzbek language, express deep and rich meanings in artistic literature.*

Keywords: *phraseology, phraseeme, phraseological unit, proverb, somatism, figurative expression, wise word.*

Kirish

Somatik frazeologizmlar insonning bizga har doim ko‘rinib turadigan tashqi tana a’zolarining nomlari natijasida yuzaga chiqadi. “Somatizm” atamasi tilshunoslikka ilk bor F.Vakk tomonidan kiritilgan. U inson tanasining a’zolarini ifodalovchi til birliklarini o‘rganishda, ayniqsa, fin-ugor tillari oilasining, xususan, eston tilidagi somatik iboralarni tahlil qilishda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. U, shuningdek, bu til birliklaridagi tana a’zolari nomlarini “somatizm” deb atagan. Bu esa somatizmni badiiy nutq va adabiyotda qanday ishlatilishini yanada chuqurroq o‘rganish

zarurligini ko‘rsatadi[75]. Bosh haqidagi frazeologizmlar inson aqliy qobilyatining yaxshi yoki yomonligiga baho beradi.

Adabiyotlar tahlili

Jahon tilshunosligidagi frazeologizmlarni olimlardan A.G.Nazaryan, A.V.Kunin, V.V.Vinogradov va boshqa olimlarning izlanishlarida frazeologik shakllanish to‘g‘risida so‘z boradi. O‘zbek tilshunosigida bu masalani dastlab A.Mamatov o‘rgangan. Somatizm va somatik frazeologizm atamalari ilk bor E.M.Mordkovich va F.Vakklar asarlarida qo‘llangan va tadqiq etilgan. Somatik iboralar va ularning tabiati, xususiyatlari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tadqiq qilina boshlangan va ikki-uch til doirasida qiyoslab tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi "bosh" va "qo‘l" so‘zlari bilan bog‘liq somatik iboralar tahlil qilinadi. Ularning ma’nosidagi o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Badiiy asarlarda ularning qo‘llanish o’rni, qamrovi, holati, mazmuni haqida so‘z boradi. Badiiy asarlarda qo‘llangan iboralar yordamida somatik iboralarning badiiy ifoda vositasi sifatida qanday ishlatilganligi, ularning ma’nolari ko‘rib chiqildi.

Natijalar va ularning tahlili

Bosh so‘z umumturkiy so‘z bo‘lib, unga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Tananing bo‘yindan yuqori qismi, kalla” deb ta’rif beriladi. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “bosh” so‘zi bilan bog‘liq bir qancha somatik iboralar keltiriladi: *bosh egmoq, bosh qotirmoq, bosh suqmoq, bosh og‘rig‘i, boshi aylanmoq, boshi bilan sho‘ng‘ib ketmoq, boshi chiqmoq, boshi ikkita bo‘lmoq, boshi ko‘kka yetmoq, boshi shishmoq, boshi oqqan tomon, boshi osmonda, boshini bukmoq, boshini yemoq,* kabi iboralar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi iboralarni birma-bir tahlil qiladigan bo‘lsak, bu “bosh” komponentli iboralarning ayrimlarining bir necha variantlari, sinonimlari, zid ma’nolilari ham mavjud. Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da “boshi aylandi” iborasini “behud bo‘ldi, muvozanatini yo‘qotdi” deb izohlanadi. Bunda go‘yo atrofdagi hamma narsa aylanib ketayotgandek tuyiladi. Masalan, *Ikkovining ham **boshi aylanib**, o‘rtada mastga o‘xshab chayqalib-chayqalib arang turishardi (Said Ahmad “Jimjitlik”, 230-bet)*, “Boshini yemoq” iborasi “yo‘q qilmoq, halok qilmoq” ma’nolarida qo‘llanadi. Masalan, *Biroq, Mirvali bilan til topib ketarmikan? Ne-ne raykom sekretarlarining **boshini yegan** bu johil sal bo‘lsa ham unga yon berarmikan? (Said Ahmad “ Jimjitlik”, 161-bet)*

“Boshini xam qilmoq” iborasi “uyat-nomusdan bosh ko‘tarolmaydigan holatga tushirmoq” kabi ma’noda qo‘llanadi. Masalan, *Agar shunday qilsam avji kuchga to‘lsam, ko‘ziga dunyo jilva qilib turgan, g‘oliblik nash’asini surayotgan bir navqironning **boshini xam** qilib qo‘yardim. (Said Ahmad “Ufq”73-bet)*


“Boshi oqqan tomon” iborasi esa “duch kelgan tomon, duch kelgan taraf “ga ketish ma’nolarida qo‘llanadi. Masalan, *Kampir enasiga, bir aylanib kelay, deb uydan chiqdi-da, **boshi oqqan** tomonga keta boshladi.(Said Ahmad “Jimjitlik”, 109-bet)*

“Boshi yostiqqa yetganda” iborasi “kasal bo‘lib qolganda” degan ma’noni ifodalaydi. Masalan, *Qarib **boshi yostiqqa** yetganda xotin kishi har yerga sig‘ib ketaveradi. Mana, men sig‘yapman-ku (Said Ahmad “Jimjitlik”,60-bet)*

“Boshi ko‘kka yetmoq” iborasi “nihoyatda hursand” degan ma’noda qo‘llanadi. Ushbu iboraning sinonimi sifatida “og‘zi qulog‘ida, boshi osmonda” iboralarini frazeologik lug‘atda keltiriladi. Masalan, *Mirvalining **boshi ko‘kka** yetdi. (Said Ahmad “Jimjitlik”, 90-bet)*

“Bosh og‘rig‘i” iborasi “ortiqcha tashvish, dahmaza” degan ma’noni anglatadi. Masalan, *Hali ham o‘ziga kelmagan, **bosh og‘rig‘i** qilishdan o‘zini tiyib o‘tirgan Mirvali gandiraklab borib, telefonga javob qildi. (Said Ahmad “Jimjitlik”, 212-bet)*

Frazeologik izohli lug‘atda “bosh” somatizmi qatnashgan ayrim iboralarning birdan ortiq ma’nolari ham berilib, barchasi izohlanib o‘tilgan. Quyida (“1-rasmda.”) ulardan biri “bosh ko‘tarmoq” iborasining ma’nolarini ko‘rishimiz mumkin.



1.Qaramoq. Masalan, *Kunduzgi ishdan charchab asta uyquga tolgan erkak erinibgina **bosh ko‘tarib**, yo‘lovchining*

[75] Вакк Ф.О. О соматической фразеологии эстонского языка // Вопросы фразеологии и составления фразеологических словарей. – Баку, 1968. – 23 с.

o‘z yo‘liga ketayotganini ko‘rib: – Kim bular edi, – dedi.(Sadriddin Ayniy “Qullar”, 162-bet)

2.Qilib turgan ishini to‘xtatmoq. Masalan, *O‘g‘li o‘ziga o‘xshab kitobdan **bosh ko‘tarmaydigan**, biron jumboqni yechmaguncha, tagiga yetmaguncha, bilib olmaguncha tinchimaydigan bola edi.(Said Ahmad“Jimjitlik”, 104-bet)*

3.Qo‘zg‘almoq, harakatga kelmoq. Masalan, *Cho‘qqilar ustida burgut sokin suzardi. Tog‘ orqasida **bosh ko‘targan** quyosh uning qanotlarida chaqnaydi.(Said Ahmad “Jimjitlik”, 53-bet)*

4.Kurashga chog‘lanmoq. Masalan, *Shu to‘g‘rida gap ochgan sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘ini Mirvali qayirib tashlagan edi. Mana, dukatliklar yana **bosh ko‘tarib qolishdi**. (Said Ahmad “Jimjitlik”, 72-bet)*

5.Unib chiqmoq. Masalan**,** *Qir bo‘ylab **bosh ko‘targan** nimjon o‘t izg‘irindan yashirinmoqchiday goh u, goh bu tomonga engashadi, yer bag‘irlab to‘lg‘anadi. (Sami Abduqaxxor “Hayotning boshlanishi”, 23-bet)*

Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da “qo‘l” somatizmi bilan ifodalangan iboralar izohi bilan berib o‘tilgan. Quyida ayrimlarini ko‘rishimiz mumkin. *Qo‘l bermoq, qo‘l ko‘tarmoq, qo‘l kelmoq, qo‘l siltamoq, qo‘l urmoq, qo‘ldan bermoq, qo‘ldan chiqmoq, qo‘ldan ketmoq, qo‘lga qo‘li uzun, qo‘li ochiq, qo‘lidan kelmoq, qo‘lidan kelgancha, qo‘lini bigiz qilmoq* kabi.

“Qo‘lga kirmoq” iborasi “ixtiyoriga o‘tmoq, egallamoq” ma’nosida qo‘llanadi. Iboraning varianti sifatida “qo‘lga kiritilmoq, qo‘lga kirgizilmoq, qo‘liga kirgizmoq” kabi birliklarni olish mumkin. Masalan, *Shon-shavkatlar, davri-davronlar, qancha kurashlarda **qo‘lga kiritgan** boyliklar, oltinlar, javohirlar, sanab tugatib, bo‘lmaydigan pullar...bari qolib ketadi. (Said Ahmad “Jimjitlik”, 272-bet)*

“Qo‘li baland” iborasi esa “raqobatda, musobaqada ustun” ma’nosida qo‘llanadi. Masalan, *Ho‘jabekovning shoxini, qolaversa, o‘zining ham shoxini sindirib, Sherbekning **qo‘lini baland** qilib ketgan edi. (Sunnatilla Anorboyev “Oqsoy”, 28-bet)*

“Qo‘li kalta iborasi “cheklangan imkoniyatga ega” ma’nosini ifodalaydi. “qo‘li qisqa” birligini variant sifatida, “qo‘li uzun” birligini esa antonimi sifatida frazeologik lug‘atda ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, *Shukur, kolxozchiman, **qo‘lim kalta** emas. (Oybek “Oltin vodiydan shabadalar”, 33-bet)*

“Qo‘lini bigiz qilmoq” iborasi “niqtab ko‘rsatmoq” ma’nosida keladi. Varianti qilib “barmog‘ini bigiz qilmoq” iborasi berilgan. Masalan, *Boshqarma endi o‘z xatosi uchun javobgarlikdan qo‘rqib, bizga **qo‘lini bigiz** qilmoqda.(Asqad Muxtor “Tug‘ilish”,66-bet)*

Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” dan foydalanib, quyida «1-jadval» “bosh, qo‘l” somatizmlaridangina iborat bo‘lgan iboralarning bir-biriga sinonim va antonimlari keltirilgan.

№	Ibora	Ibora	Turlari
1	Boshiga yetmoq	Boshini yemoq	sinonim
2	Boshini bukmoq	Boshini ham qilmoq	sinonim
3	Boshi shishdi	Boshi qotdi	sinonim
4	Bosh suqmoq	Bosh qo‘shmoq	sinonim
5	Qo‘lga kirmoq	Bo‘ldan ketmoq	antonim
6	Qo‘lga kirmoq	Qo‘ldan chiqmoq	antonim
7	Qo‘ldan chiqmoq	Qo‘ldan ketmoq	sinonim
8	Qo‘li kalta	Qo‘li uzun	antonim

Xulosa

Shubhasiz, o‘zbek tili o‘zining so‘z va iboralarga boyligi bilan ajralib turadi. Umuman olib qaraganda, o‘zbek tilida “bosh”, “qo‘l” komponeneti qatnashgan iboralar ko‘p emas. Ma’lumki, leksik birliklar va frazeologik birliklar har bir tilning lug‘at boyligini tashkil etuvchi til birligi sanaladi. Ular til birligi sifatida nutqqa cha tayyor holatda bo‘ladi. Shuningdek, har bir tilda leksik birliklar o‘ziga xos lingvistik xususiyatga ega. Ammo barcha tillarda leksik hamda frazeologik birliklar til boyligi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tursunov U. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. 126-141-betlar.

2. Madaliyev A. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent: 2023

3. Xojiyev A, Begmatov E., “Hozirgi o‘zbek adabiy tili va uni o‘rganishning aktual masalalari” O‘zbek tili va adabiyoti 1992.

4. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent 2010-yil.

5. Iskandarova Sh. M. O‘zbek tili leksikasining mazmuniy maydon sifatida o‘rganish. Filologiya fanlari doktori diss. Avtoref. Toshkent, 2013.

6. Ne’matova G.X. “O‘zbek tilida o‘simlik nomlari leksemalari: tuzilishi va badiiy qo‘llanish: Filologiya fanlari nomzodi diss. Avtoref, 2012.

7. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xasanboyev Ilhomjon Abdubanno o‘g‘li
University of Business and Science, o‘qituvchi
G’ulomjonova Gulhayo Ikromjon qizi
University of Business and Science, o‘qituvchi
ilhomjonxasanboyev66@mail.ru

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA DISKURS TUSHUNCHASI VA UNING MATNDAN FARQLI JIHATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasi va uning o‘rganilish tarixi masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotda diskursning matndan farqli jihatlari ham asosiy mavzu sifatida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Diskurs, matn, zamonaviy tilshunoslik, lingvistik tahlil, o‘rganilish tarixi, semantik tahlil, kontekstual tahlil.*

Xasanboyev Ilhomjon Abdubanno o‘gli
University of Business and Science, teacher
G’ulomjonova Gulhayo Ikromjon qizi
University of Business and Science, teacher

THE CONCEPT OF DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS AND ITS DIFFERENT ASPECTS FROM TEXT

Abstract: *This article analyzes the concept of discourse in modern linguistics and the issues of its history of study. The main topic of the study is also the aspects of discourse that are different from text.*

Keywords: *Discourse, text, modern linguistics, linguistic analysis, history of study, semantic analysis, contextual analysis.*

Хасанбоев Илхомжон Абдубанно угли
Университет бизнеса и науки, преподаватель
Гулхомжонова Гулхайо Икромжон кызы
Университет бизнеса и науки, преподаватель

КОНЦЕПЦИЯ ДИСКУРСА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО ОТЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ОТ ТЕКСТА

Аннотация: *В данной статье анализируется понятие дискурса и история его изучения в современной лингвистике. Также в качестве основной темы в исследовании выделены отличающиеся от текста аспекты дискурса.*

Ключевые слова: *Дискурс, текст, современная лингвистика, лингвистический анализ, история обучения, семантический анализ, контекстуальный анализ.*

Kirish

Til dunyoni bilishning birlamchi vositasi sanalar ekan, diskurs ham ayni shu ma’noda e’tibortalab masala hisoblanadi. Shu bois, diskurs tushunchasiga e’tibor qaratish va uning mohiyatini anglab yetish lozim bo‘ladi. Bir qator manbalarda ta’kidlanishicha, bugungi zamonaviy tilshunoslik sohasida diskurs tushunchasi juda keng qo‘llanilmoqda. Bu tushuncha nafaqat tilshunoslikda shuningdek psixalogiya, sotsialogiya, semantika va pragmatika kabi sohalarda ham o‘rganiloyatganiga ko‘rishimiz mumkin. Ushbu sohalarning har biri diskurs tushunchasini o‘ziga xos tarzda o‘rganadi va yoritib berishga harakat qiladi. Dunyo tilshunosligida matn muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda diskurs termini juda ham ko‘p qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu termin zamonaviy tilshunoslikda keng ishlatilib kelinayotgan bo‘lsa-da, aniq e’tirof etilgan talqini yoki ma’nosi mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida diskurs atamasi shunchaki tilning amaliy ifodasi sifatida talqin qilinsa [13], boshqa holatlarda esa u lingvistika obyekti, gapda kengroq ma’noga ega til hodisasi sifatida talqin qilinadi [12]. Yuqorida aytilganidek diskurs talqinida tilshunoslikda xilma-xil qarashlar mavjud. Ayrim tilshunoslar diskurs atamasi (fransuzcha “ discourse”, inglizcha “ discourse”, lotincha “discursus” – fikr almashish, muhokama qilish, suhbat, so‘zlashish) kabi ma’nolarda tushuntirishga harakat qilishadi. Diskurs atamasi tilshunoslikda ilk bor o‘tgan

asrning 50-yillarida birinchi marta tilshunos Z.Xarrisning 1952-yilda nashr etilgan " Diskurs tahlili" deb nomlangan maqolasida tilga olingan. Uning fikriga ko'ra diskurs o'g'izaki nutqda bir birimiz bilan muloqot qilishimizdir. Biz shuningdek diskurs termini bilan birgalikda matn terminini ham ko'rishimiz mumkin. Dastlab "matn" va "diskurs" terminlari ayni bir tushuncha sifatida qo'llanilgan bo'lsada, keyinroq "matn" yozma kommunikatsiyaga nisbatan, "diskurs" esa og'izaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Bir nechta manbalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak matn asosan yozma shaklda bo'lishini va o'zgarmas statik birlik ekanligini, diskurs esa dinamik birlik bo'lib jonli muloqot davomida shakllanishi va kontekstga qarab o'zgarishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada qo'llanilgan tadqiqot metodologiyasi dikurs tushunchasi, uning o'rganilish tarixi va matn bilan farqli jihatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tarixiy taqqoslash va qiyosiy-lingvistik metodlar uyg'unlashtirilgan.

Muhokama va natijalar.

O'tgan o'n yilliklar mobaynida "diskurs" terminiga terminiga juda ham ko'p murojat qilindi va bu yuzasidan xilma-xil munosabatlar bildirildi. Tilshunoslar diskursni turlicha talqin etishadi. Diskurs termini birinchi marta o'tgan asrning 50 –yillarida amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952- yilda nashr etilgan " Diskurs tahlili" deb nomlangan maqolasida uchratish mumkin [10].

Undan so'ng 1960-yillar boshida antropolog Dell Hymes ham birinchilardan bo'lib diskurs tushunchasi va uning tilshunoslikdagi ahamiyati bilan qiziqadi. Olim diskurs terminini lingvistik atama sifatida tilshunoslikka olib kiradi. Uning fikriga ko'ra, diskurs og'zaki nutq jarayonida bir-birimiz bilan muloqot qilish shaklidir. U shuningdek, diskursni nafaqat muloqot sifatida ko'radi, balki uni matn bilan birgalikda sodir bo'ladigan va o'zaro bog'liq bo'lgan holat sifatida ta'riflaydi. [4]

Kubsryakovning fikriga ko'ra, " Tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida diskursning umumiy qabul qilingan birorta ta'rifi mavjud emas" [5]. U shuningdek, mazkur termin dastlab bog'lanma matn tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik suhbat, dialog tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshlanganligini takidlab o'tadi.

Pragmatik talqinga ko'ra diskurs atamasi sakkiz xil ma'noda ko'rish mumkin [3]: a) so'z muqobili; b) frazalardan o'lchami bo'yicha ortadigan birlik; c) nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda fikrning adresatga ta'siri; d) suhbat; e) nutqda so'zovchi pozitsiyasi; f) lisoniy birliklardan foydalanish; g) fikrning ijtimoiy va fakuraviy cheklangan turi; h) matn joriy qilishga mo'ljallangan nazariy qurilmalar.

M. Stabbs diskurs va matn muammolari yuzasidan olib brogan tadqiqotlarida diskurs terminiga 3 xil tarif beradi [8]: 1) til va jamiyat o'rtasidagi aloqa; 2) kundalik muloqotdagi dialogik yoki o'zaro nutq xossasi; 3) ma'lum bir maqsadda ishlatiladigan nutq vositasi. Ushbu ta'rifga e'tibor beradigan bo'lsak, olim diskursni aloqadorlik xususiyatiga ega bo'lgan jarayon deya takidlaganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Demak, diskurs bir jihatdan til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib, tadqiq qilinayotgan til hodisalariga bevosita aloqadorligi bilan e'tiborni o'ziga tortadi.

Tilshunos olim A.Pardayev talqiniga ko'ra, diskurs bu so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda nutq jarayonida amaliy foydalanish jarayoni hisoblanadi [7].

Yana bir golland tilshunosi Teun van Deyk diskurs terminiga shunday ta'rif beradi: " Diskurs – bu nuqt oqimi. U doimiy harakatdagi til, tarixiy davrning barcha xilma-xilligini, individual va ijtimoiy xususiyatlarini o'ziga singdirgan nutqning tabiiy ijtimoiy shaklidir". E'tibor beradigan bo'lsak olim bu fikri orqali diskursda adresant yoki adresantlarning nutqi muloqot jarayonida shakllanishini ta'kidlab o'tgan [9].

Lug'atshunos olim T.M. Nikolayevning "Qisqacha tilshunoslik atamalari lug'ati" da diskurs atamasiga keng va tor ma'noda ko'rib chiqilgan. U keng ma'noda murakkab kommunikativ voqea, tor manoda esa yozma yoki og'izaki nutqiy mahsulot sifatida qaralishi lozimligini ta'kidlaydi. U shuningdek, diskurs va matn o'rtasidagi farq haqida ham quyidagi fikrni bildirgan: diskurs – bu haqiqiy aytilgan matn, ya'ni faol nutqiy jarayon, matn esa til tizimiga yoki lingvistik bilimlarga tegishli mavhum grammatik tuzilishidir [6].

Shuningdek, tilshunoslikda matn va diskurs tushunchalari bir-biridan farqli tushunchalar ifodasi uchun qo'llash ham keng tarqalganini kuzatishimiz mumkin.

A.V.Zelenshikov matn hamda diskurs haqidagi fikr-mulohazalarini quyidagicha umumlashtiradi [11]:

a) matn til materiali sifatida moddiy ko'rinish oladi;

b) matn nisbiy tugallikka ega bo'ladi;

v) matn umumiylik xususiyatlarini o'zida namoyon etadi;

g) matn statistik xususiyatlarga ega bo'ladi.

Diskursning matndan farqli jihatlari quyidagilar:

a) diskurs nutqiy faollik kasb etadi;

b) diskurs aktual makon va zamonga tegishli bo'ladi;

v) diskurs nutqiy jarayon mahsuli hisoblanadi;

g) diskurs xususiylikka ega bo'ladi;

d) diskurs dinamiklik xususiyatiga ega bo'ladi.

Matn hamda diskurs orasidagi aloqadorlik esa quyidagicha:

a) har ikkalasi ham kommunikativlik xususiyatiga ega bo'ladi;

b) har ikkalasi ham pragmatiklik xususiyatiga ega bo‘ladi;

v) har ikkalasi ham informativlik, ya’ni axborot tashuvchilik xususiyatiga ega bo‘ladi;

g) har ikkalasi ham maqsadli jarayonning mahsuli hisoblanadi;

d) har ikkalasi ham antroposentriklik xususiyatini namoyon qiladi;

e) har ikkalasi ham yaratuvchilik faoliyatining natijasi hisoblanadi.

V.Z.Demyankov o‘zining “ Diskurs va matn terminlarining farqlanishi” nomli maqolasida diskurs va matn terminlari yuzasidan quyidagi fikrlarini bildirib o‘tadi: “ Diskurs” ma’no jihatdan “Matn” ga yaqin, ammo, diskurs lingvistik muloqotning dinamik, vaqt bo‘yicha yuzaga kelish xarakterini namoyon qiladi. Matn esa diskursdan farqli ravishda, eng avvalo statik obyekt, lingvistik faoliyat natijasi sifatida tasavvur qilinadi [1].

Erving Goffman diskursni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida ko‘rgan. Goffmanning fikricha, diskurs dinamik va interaktiv jarayondir, ya’ni u o‘z ma’nosini muloqot davomida rivojlantiradi va o‘zgartiradi. Bu diskursning asosiy o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Matn esa Goffman uchun statik birlik bo‘lib, u o‘z-o‘zidan o‘zgarmaydi va faqatgina yozilgan yoki aytilgan paytdagi ma’noni o‘zida aks ettiradi. Bunda muloqot konteksti va auditoriyaning roli hisobga olinmaydi. Diskurs esa bu cheklovlardan xoli bo‘lib, kontekst va muloqot ishtirokchilarining o‘zaro ta’siriga bog‘liq ravishda ma’noni kengaytiradi yoki o‘zgartiradi [2].

Shunday qilib diskurs atamsi fanlararo o‘rganiluvchi murakkab tushunchadir. Shuningdek, yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, diskurs atamasi shunchaki matn bilan sinonim sifatida qo‘llaniladigan atama emas, balki lingvistik nuqtayi nazardan olam va uning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi oyna vazifasini bajaradi.

Xulosalar

Diskurs, bu – murakkab kommunikativ jarayon hisoblanib, u so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro fikr almashishi, bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi, nutq jarayonida lingvistik vositalarning turli ko‘rinishlarini amalda qo‘llash sohasi ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Maqolada bayon qilinganidek, diskurs (nutq) o‘zining dinamik, ko‘p qirrali xususiyatlari va turli lingvistik hamda fanlararo kontekstlardagi rivojlanayotgan roli bilan ajralib turadi. Dastlab “matn” tushunchasi bilan tenglashtirilgan nutq bugungi kunda mustaqil lingvistik hodisa sifatida o‘zini namoyon qilib, o‘zining dinamikligi, kontekstga bog‘liqligi va interaktiv xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tarixiy va taqqoslash uslubidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nutq faqat statik lingvistik tuzilmalar emas, balki ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillar shakllantirgan dinamik kommunikatsiya oqimidir. Matn va diskurs o‘rtasidagi farqlar alohida ahamiyatga ega: matn statik, yozma va kontekstdan mustaqil bo‘lsa, diskurs dinamik, interaktiv va real vaqt rejimidagi muloqotga asoslangan. Bu xususiyatlar nutqning moslashuvchanligini hamda uning kontekst, auditoriya va maqsadning nozik tomonlariga javob berish qobiliyatini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, diskurs – bu ko‘p qirrali murakkab fenomen va uni aynan bir ta’rif bilan tavsiflash imkoni mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Demyankov, V.Z. (2001). *Discourse Structure and Its Functions*. Moscow: Nauka.

2.Goffman, E. (1959). *The Presentation of Self in Everyday Life*. Doubleday.

3.Grishaeva, L.I. (2006). *Discourse, Discursive Event, and Text*. In *Nomination and Discourse: Materials of Reports*. Mejunaar. Scientific conf.; Minsk. State linguist. No. - Minsk, 2006. - S. 11–13.

4.Hymes, D. (1972). *Toward Ethnography of Communication*. Holt, Rinehart & Winston.

5.Kubsryak, S. (1986). *Discursive Competence in Communication*. Moscow: Nauka.

6.Nikolayev, T.M. (1984). *Cognitive and Communicative Aspects of Discourse*. Leningrad: Leningrad State University Press.

7.Pardayev, A. (1995). *Text and Discourse in Linguistic Studies*. Tashkent: Fan.

8.Stabbs, M. (1990). *Understanding Discourse and Culture*. Cambridge: Cambridge University Press.

9.Van Dijk, T.A. (2009). *Discourse and Power*. SAGE Publications.

10.Xarrisning, Z. (1990). *Cognitive Processes in Language and Discourse*. Tashkent: Universitet Press.

11.Zelenshikov, A.V. (1993). *Text and Context in Discourse Analysis*. Moscow: University of Moscow Press.

12.Slishkin, G.G. (2000a). Discourse and Concept (About the Linguocultural Approach to the Study of Discourse). In Linguistic Personality: Institutional and Personal Discourse: Sat. scientific tr. - Volgograd, 2000a. - S. 38–45.

13. Taggart, G.L., S.J. Phifer, J.A. Nixon, and M. Wood. (1998).Rubrics: A handbook for construction and use. Lancaster, PA: Technomic Publishing Company

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Otaxanova Shoxista Shuxratjon qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti

KOUCHING YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XXI asrda ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va kouching yondashuvi ta'lim jarayonida kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Kouching metodining mohiyati, uning o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik jarayonidagi roli hamda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida kouchingning samaradorligini tasdiqlovchi tadqiqotlar va olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinadi. Maqolada kouchingning pedagogik konsalting bilan bog'liq jihatlari va uning ta'lim jarayonida individuallashtirilgan yondashuvni shakllantirishdagi roli muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, kouching, pedagogik yondashuv, metodik tayyorgarlik, fasilitator, hamkorlik, akademik madaniyat, pedagogik konsalting.*

Отаханова Шохиста Шухратжон кызы
Докторант Наманганского государственного университета

РАЗВИТИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ КОУЧИНГОВОГО ПОДХОДА

Аннотация: *В данной статье анализируются изменения, происходящие в сфере образования в XXI веке, инновационные педагогические технологии и коучинговый подход как средство развития компетенций в образовательном процессе. Рассматривается сущность метода коучинга, его роль в процессе сотрудничества между преподавателем и студентом, а также его значение в развитии методической подготовки будущих учителей английского языка. Также анализируются исследования и научные работы ученых, подтверждающие эффективность коучинга в современной системе образования. В статье обсуждаются аспекты коучинга, связанные с педагогическим консалтингом, и его роль в формировании индивидуализированного подхода в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *образование, компетенция, инновационные технологии, коучинг, педагогический подход, методическая подготовка, фасилитатор, сотрудничество, академическая культура, педагогический консалтинг.*

Otakhanova Shokhista Shukhratjon qizi
PhD student at Namangan State University

DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE ENGLISH TEACHERS BASED ON THE COACHING APPROACH

Abstract: *This article analyzes the changes taking place in the field of education in the 21st century, innovative pedagogical technologies, and the coaching approach as a means of developing competencies in the educational process. The essence of the coaching method, its role in the process of cooperation between the teacher and the student, and its significance in the development of methodological training of future English language teachers are considered. Also, research and scientific works of scientists confirming the effectiveness of coaching in the modern education system are analyzed. The article discusses the aspects of coaching related to pedagogical consulting and its role in shaping an individualized approach to the educational process.*

Keywords: *education, competence, innovative technologies, coaching, pedagogical approach, methodological training, facilitator, cooperation, academic culture, pedagogical consulting.*

Kirish

XXI asr chuqur o'zgarishlar davrini belgilaydi. Bu davr yangi madaniyatning shakllanishi, ongning takomillashuvi va insonlarni yangi imkoniyatlarni anglash hamda qabul qilishga undovchi innovatsion texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Jamiyatdagi bu o'zgaruvchan sharoitlar, avvalo,

ijtimoiylashuvning eng muhim instituti bo‘lgan ta’lim sohasiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy jamiyat kadrlarining asosiy xususiyatlari mustaqillik, ochiqlik, hamkorlik qobiliyati, doimiy o‘rganishga intilish, hamda muhim ma’lumotlarni mustaqil ravishda olish va ulardan foydalana olish qobiliyati bilan belgilanadi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabalarning shunchaki xabardorligiga emas, balki amaliy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal etishga e’tibor qaratadi. Turli xil faoliyat usullarini egallash ham muhim ahamiyatga ega. Kompetentlikka muammolarni mustaqil ravishda shakllantirish, shuningdek, ularni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni tadqiqot orqali izlash va aniqlash natijasida erishiladi. Ushbu muhim kompetensiyalarning rivojlanishi talaba tomonidan bajarilgan maxsus tashkil etilgan faoliyatlar orqali ta’minlanadi.

Bu ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, dars mavzulari va tuzilishini qayta shakllantirish hamda o‘quv jarayonini tashkil qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu o‘zgarishning muhim jihati o‘qituvchining ta’lim tizimidagi rolining rivojlanishidir. O‘qituvchi tobora ko‘proq bilim manbai yoki uni to‘g‘ri tushunishni nazorat qiluvchi emas, balki hamkor vazifasini bajarmoqda. U talabaning ta’lim olish yo‘lidagi yordamchisi va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi ustoz sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ijodkorlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatib bo‘lmaydi. Shunga qaramay, pedagogik kouching deb nomlanuvchi innovatsion ta’lim yondashuvi ijodiy o‘rganishni rivojlantirish va muvaffaqiyatga erishishni osonlashtirish imkoniyatiga ega.

Zamonaviy yondashuv sifatida qaraladigan kouching o‘ziga ishonch, mustaqillik, qat’iyat va ijobiy dunyoqarashga ega bo‘lgan yosh mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirishga yordam beradi. Bu ularga shaxsiy qadriyatlariga muvofiq ravishda yashash va ishlash imkonini yaratadi. Kouching asoschisi Jon Uitmor ta’kidlaganidek, bu shaxslarga o‘zlarining shaxsiy va kasbiy maqsadlarini aniqlash hamda ularga erishishda ko‘rsatiladigan professional qo‘llab-quvvatlashdir.

Kouchingning asosiy maqsadi har bir insonning o‘ziga xos ijodiy qobiliyatga ega ekanligini va shaxsiy hamda kasbiy sohalarda katta yutuqlar ga erishish salohiyatini tan olishdir. Biroq, atrof-muhit, ish joyi va turmush sharoitlari ta’sirida shakllangan cheklovchi e’tiqodlar va vaziyatlar shaxsning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishiga hamda uning kelajakdagi rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan resurslardan foydalanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishda kouching texnologiyalari samarali vosita sifatida qaraladi. Zamonaviy kouching pedagogik konsaltingning muhim yo‘nalishi bo‘lib, o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini shakllantirish, dars jarayonida etakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim muhitida yuzaga keladigan muammolarni samarali hal etish, jamoaviy hamkorlik va akademik madaniyatni mustahkamlash hamda ta’lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari innovatsion pedagogik strategiyalarni amaliyotga joriy etish, muammolarni analitik tahlil qilish va talabalarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim berish malakalarini rivojlantiradi.

Muhokama va natijalar

Zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida tan olingan kouching talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Bu tushuncha ukrainalik va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida chuqur o‘rganilgan. Kouchingning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, uning elementlarini oliy ta’lim muassasalarining ta’lim tizimiga joriy etish imkoniyatlari T. Borova, N. Goruk, S. Jitskaya, O. Yefimova, L. Kudrik, S. Romanova, G. Poberezskaya, Y. Surmak, O. Shevchuk kabi hamdo‘stlik mamlakatlari tadqiqotchilari hamda D. Drukman singari xorijiy olimlarning asarlarida batafsil tahlil qilingan.

Kouchingni joriy etishning asosiy ishtirokchilaridan biri N.M. Zyryanova ushbu tushunchani keng va tor ma’noda tahlil qiladi. Keng ma’noda kouching shaxsning ichki salohiyatini o‘z vaqtida faollashtiruvchi, zarur ko‘nikmalarni takomillashtiruvchi va yangi kompetensiyalarni rivojlantiruvchi, shuningdek, maqsadlarga erishishda yordam beruvchi maslahat ko‘rinishidagi muhim jarayon sifatida tavsiflanadi. Tor ma’noda esa, kouching shaxsning maqsadlarini aniqlash va ularga erishish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish jarayoni sifatida ta’riflanadi. Ta’limda kouching haqidagi zamonaviy muhokamalarda "kouching yondashuvi" atamasi ko‘proq qo‘llaniladi. Ta’lim muhitidagi kouchingning o‘ziga xos xususiyati "o‘qituvchi-fasilitator" va "talaba" o‘rtasidagi yuqori darajada shaxsiylashtirilgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Bu munosabat har bir talabaga moslashtirilgan bo‘lib, sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi-fasilitator oddiy maslahatchi emas, balki talabalarga ta’lim muammolarini yechishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, ularning ijodiy salohiyatini ochib beruvchi va ijobiy natijalarga erishishda qo‘llab-quvvatlovchi professional motivator vazifasini bajaradi. Shu sababli, ta’lim jarayonida kouching yondashuvini qo‘llash rivojlanish va o‘qitish jarayonlarini individuallashtirishni sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

Ta’lim yondashuvi sifatida kouching teng hamkorlik munosabatlariga asoslangan birgalikdagi faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bu usul talabalarning salohiyatini yuzaga chiqarishga ko‘maklashadi, shu bilan birga ularning mas’uliyat tuyg‘usini, motivatsiyasini va umumiy samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchilardan nafaqat akademik bilimlarni yetkazib berishni, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, kouching metodlari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. UNESCO (2019) ma’lumotlariga ko‘ra, ta’lim jarayonida o‘qituvchilarni kouching yondashuvi asosida tayyorlash ularning kasbiy rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kouchingning ta’lim jarayonida samaradorligini tasdiqlovchi tadqiqotlar orasida Joyce & Showers (2002) tomonidan olib borilgan izlanishlar alohida ajralib turadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning an’anaviy malaka oshirish kurslaridan so‘ng o‘rgangan bilimlarini amaliyotga joriy etish darajasi atigi 10% ni tashkil qilgan bo‘lsa, kouching asosida olib borilgan metodik qo‘llab-quvvatlash jarayonidan so‘ng bu ko‘rsatkich 95% gacha oshgan.

1. Metodik kompetensiyani rivojlantirish – Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun samarali dars rejasini ishlab chiqish, interaktiv yondashuvlardan foydalanish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos metodlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Cambridge University Press (2020) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kouching asosida tayyorlangan o‘qituvchilar dars jarayonida ko‘proq reflektiv yondashuvdan foydalanib, o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini 30-40% ga oshiradi.

2. Etakchilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish – Ingliz tili o‘qituvchilari sinf muhitini boshqaruvchi va o‘quvchilarni motivatsiya qiluvchi lider sifatida shakllanishi kerak. John Whitmore (2009) tomonidan ilgari surilgan kouching nazariyasi bo‘yicha, samarali o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan ochiq muloqot o‘rnatish, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va mustaqil fikrlashga yo‘naltirish orqali yanada yuqori natijalarga erishadi.

3. Refleksiya va o‘zini o‘zi rivojlantirish – Kouching texnologiyalari orqali o‘qituvchilar o‘z metodik faoliyatlarini chuqur tahlil qilish, dars jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Guskey (2002) ta’kidlaganidek, kouching asosidagi o‘qituvchilar o‘z faoliyatining natijalarini chuqur tahlil qilish orqali uzluksiz rivojlanish sari intiladi va pedagogik samaradorligini 20-25% ga oshiradi.

4. Innovatsion ta’lim yondashuvlarini tatbiq etish – Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or pedagogik usullardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. OECD (2021) tomonidan ta’kidlanganidek, ta’lim jarayoniga kouching yondashuvini qo‘shgan davlatlarda (masalan, Finlyandiya va Kanada) o‘qituvchilarning malaka darajasi va o‘quvchilarning yutuqlari an’anaviy ta’lim tizimidan foydalanuvchi davlatlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan.

5. Korporativ madaniyat va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish – Kouchingning yana bir muhim jihati – o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish va tajriba almashish jarayonlarini yo‘lga qo‘yishdir. European Commission (2020) tomonidan e’lon qilingan hisobotda keltirilishicha, pedagogik kouching orqali o‘qituvchilar jamoaviy hamkorlik va innovatsion loyihalarda ishtirok etish orqali ta’lim sifati va samaradorligini 35-40% ga oshirishi mumkin.

Xulosa

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishda kouching texnologiyalari muhim innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bu uslub ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida interaktiv va individualizatsiyalashgan o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, muammolarni hal qilish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda o‘quv jarayonining sifatini yaxshilashga yordam beradi. Kouching yondashuvi talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashib, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Ushbu yondashuv, ayniqsa, XXI asrda raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim muhitida kouching yondashuvini joriy etish orqali o‘qituvchilar nafaqat o‘z kasbiy kompetensiyalarini oshirish, balki ta’lim jarayonining sifatini ham yuqori darajaga ko‘tarish imkoniga ega bo‘ladilar. Shu sababli, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligida kouching texnologiyalaridan foydalanish hozirgi kunda dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1.Brzeziński, Ł. (2014). Coaching – możliwość wykorzystania w edukacji [Coaching – the possibility of using it in education]. Pedagogical Review, 2, 166–175 (pol).

2.Kaczmarek, M. (2013). Tutoring, coaching, mentoring w pracyakademickiej. Folia Pomeranae Universitatis Technologiae Stetinensis. Oeconomica, 303 (72), 73–82 (pol).

3.Munro, C. (2016). Coaching in education: an introduction. Management strategies for school leaders. Retrieved from http://www.growthcoaching.com.au

4.Borova, T. A. (2010). Kouching – novitnya tehnologiya profesijnogo rozvitku naukovo-pedagogichnih pracivnikiv vishogo navchalnogo zakladu [Coaching is the newest technology of professional development of scientific and pedagogical workers of a higher educational institution]. Nauka i osvita, 7, 33–37. Retrieved from http://scienceandeducation.pdpu.edu.ua/doc /2010/ 7_ 2010/ 9.pdf (ukr).

5.Goruk, N. (2015). Kouchyng yak efektyvna texnologiya formuvannya samoosvitnoyi kompetentnosti studentiv. Problemy pidgotovky suchasnogo vchytelya [Coaching as an effective technology for the formation of selfeducational competence of students]. Problemi pidgotovki suchasnogo vchitelya, 11 (1), 99–104 (ukr).

6.Efimova, O. M., Zhitska, S. A. (2017). Kouchyng yak skladova osobystisno-oriyentovanogo navchannya u profesijnij pidgotovci studentiv vyshhykh navchalnykh zakladiv [Coaching as a component of person-oriented learning in the professional training of students of higher educational institutions]. Naukovij oglyad, 4 (36), 103–112 (ukr).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mirsaidov Ibroximbek Tolib o‘g‘li
Professional ta’limni rivojlantirish institute
Tayanch doktoranti

INTELLAS METODI VA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB, KASBIY TA’LIM O‘QUVCHILARINING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Kognitiv komponent. Iqtisodiy kompetentsiyaning muhim tarkibiy qismi iqtisodiy bilim va iqtisodiy ko‘nikmalardir. Iqtisodiy bilimlar iqtisodiy kategoriyalar va iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini bilish jarayoni, ularning inson ongida tushuncha, g`oya, mulohazalar va xulosalar tarzida adekvat aks etishi natijasidir. Talabalar asosiy iqtisodiy tushunchalarni bilishlari kerak: iqtisodiyot, ishlab chiqarish omillari, talab, taklif, tovar va boshqalar.

Davlat ta’lim standarti oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining iqtisod bo‘yicha tayyorgarligining minimal mazmuni va darajasiga qo‘yiladigan davlat talablarini belgilaydi. Oliy ta’limda noiqtisodiy yo‘nalishlarda iqtisodiy fanlarni ushbu standart bo‘yicha o‘rganishning asosiy maqsadlaridan biri talabalarga iqtisodiy bilim berishdir . Iqtisodiy kompetentsiya o‘z tarkibida iqtisodiy tafakkur va ongni, iqtisodiy xulq-atvor va faoliyatni mujassamlashtirgan iqtisodiy ta’lim (iqtisodiy ta’lim va tarbiya) asosida shakllanadi.

Iqtisodiy ta'limning maqsadi uning asosiy vazifalarini belgilaydi: ta'lim sohasida - o‘quvchilar tomonidan zamonaviy iqtisodiyot, uning faoliyati va

rivojlanishi prinsiplari va qonuniyatlari haqida bilimlarni o‘zlashtirish; o‘z-o‘zini anglash sohasida - shaxsiy iqtisodiy salohiyatni tushunish, ongli fuqarolik iqtisodiy xulq-atvorini shakllantirish; motivatsiya sohasida - iqtisodiyot muammolariga qiziqishni rivojlantirish, iqtisodiy bilimga doimiy ehtiyoj, sivilizatsiyalashgan tadbirkorlikka intilish, bu esa ijtimoiy himoya vositasi bo‘lishi, bitiruvchilarning bandlik muammosini hal qilishini osonlashtirishi va zamonaviy iqtisodiyotga moslashishiga yordam berishi kerak.

Shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiy ta’limning mazmuni jamiyatdagi iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda o‘zgarib bormoqda.

Yoshlar uchun tizimlashtirilgan iqtisodiy ta’lim g‘oyasi tobora ko‘proq shakllanmoqda. Buning sababi shundaki, iqtisodiy ta’lim yoshlarning dunyoqarashini, iqtisodiy kompetentsiyasini shakllantirishning eng samarali elementlaridan biri bo‘lib, tevarak-atrofdagi voqelik haqida adekvat g‘oyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy bilimlar iqtisodiy qarashlarning asosiy elementi bo‘lib, “... to‘plangan bilimlardan kundalik faoliyatda faol foydalanish kerak”, deb yozadi V.K. Rozov. Shuning uchun biz iqtisodiy kompetentsiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy ongdir, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlarni tahlil qilish iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Birinchisi, iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirish insonning dunyoqarashi va tafakkurini kengaytiradi, masalalarga milliy nuqtai nazardan yondashishga o‘rgatadi, ishlab chiqarish samaradorligi zahiralarini aniqlaydi va harakatga keltiradi, ommaning ijodiy faolligini rag‘batlantiradi. Ikkinchi yo‘nalish inson ongi va tafakkuri, avvalo, uning amaliy faoliyati mahsuli ekanligiga asoslanadi. K.A.Ulibin ta’kidlaganidek, amaliy faoliyatda inson har safar yangi vazifalar, qiyinchiliklar va muammolarga duch keladi. Ularni hal qilish orqali inson nafaqat moddiy boyliklar ishlab chiqaradi, balki ayni paytda o‘zini aqliy, ma’naviy va axloqiy jihatdan boyitadi. Yangi iqtisodiy tafakkurning iqtisodiy fikrlash tarzining uchinchi ajralmas tarkibiy qismi bu mutafakkirning predmet pozitsiyasi: uning munosabatlar tizimi, uning iqtisodiy qiymat yo‘nalishlari.

Iqtisodiy tafakkurning shakllanishi iqtisodiy ong bilan chambarchas bog‘liq. Iqtisodiy ongni shakllantirishni tadqiqotchilar iqtisodiy tarbiyaning vazifalaridan biri deb biladilar. Iqtisodiy ong insonning iqtisodiy hayotdagi ijodiy faoliyatining aksi vazifasini bajaradi. L.N. Ponomarev , V.D. Popov, iqtisodiy ong tarkibida ikki komponentni - ratsional (bilim) va hissiy (hissiyot)ni ajratadi. Iqtisodiy ongning murakkab hodisasi butun umr davomida rivojlanib, barqaror shakllanishni ifodalaydi.

Binobarin, iqtisodiy ong iqtisodiy bilimlar, g‘oyalar, qarashlar, mulohazalar, manfaatlar yig‘indisidir. Bu kontseptsiya talabalar uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslarning iqtisodiy qarashlarini o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy ongdagi o‘zgarishlarni faqat xo‘jalik faoliyati jarayonida kuzatish mumkin. P.Ya. Galperina, A.V. Zaporojets, A.N. Leontyeva, D.B. Elkonin asarlarida shuni ko‘rsatadiki, har qanday faol faoliyat, shu jumladan iqtisodiy tafakkur rivojlanishiga yordam beradi.

Qiymat-motivatsion komponent. Iqtisodiy kompetentsiyaning tarkibiy qismlaridan biri bu shaxsning iqtisodiy yo‘nalishi bilan belgilanadigan va o‘zaro ta’sir qiluvchi iqtisodiy ehtiyojlar, manfaatlar, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning turli tomonlarini o‘z ichiga olgan shaxs hayoti uchun motivlar tizimi. Bu tizim o‘qitish mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan motivlar majmuini (kognitiv motivlar) o‘z ichiga oladi; iqtisodiy kompetentsiyani shakllantirishga ta’sir qiluvchi muhim shaxs fazilatlarini shakllantirish bilan bog‘liq motivlar; hayotdagi shaxsiy muhim maqsadlarni maksimal darajada amalga oshirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan motivlar (o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiy o‘zini o‘zi amalga oshirish zarurati). Har qanday faoliyatning motivlari mavjud bo‘lib, ular faoliyatning tabiati va shaxsning qadriyat yo‘nalishlari bilan belgilanadi.

Oliy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari olingan bilimlarning asosan amaliyotga yo‘naltirilganligini, motivatsion komponentning rivojlanishini ta’minlaydi. Talabalarning o‘quv va kognitiv faoliyatida qadriyat yo‘nalishlari uning butun davomiyligi davomida - mashg‘ulot boshlanishidan amaliy faoliyatgacha bo‘lgan faoliyat uchun motiv bo‘lib xizmat qiladi. Oliy ta’limning o‘quv jarayoni talabalarni ishlab chiqarish va amaliy faoliyatga faol jalb qilish bilan tavsiflanadi.

Faoliyat komponenti. Iqtisodiy faoliyat jarayonida shaxs iqtisodiy manfaatlarni amalga oshiradi va shaxsiy ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydi. Aynan maqsadli iqtisodiy faoliyatni talab qiladigan manfaatlar va ehtiyojlardir. O‘z navbatida, iqtisodiy faoliyatning mazmuni ma’lum iqtisodiy tayyorgarlikni talab qiladi, bu jamiyat a’zolarida iqtisodiy faoliyat samaradorligiga qiziqish uyg‘otishni nazarda tutadi.

Iqtisodiy kompetentsiya shaxsning iqtisodiy faoliyat jarayonida shakllanadigan va amalga oshiriladigan ma’lum ko‘nikma, qobiliyat va tajribaga ega bo‘lishini nazarda tutadi. V.D.Popovning so‘zlariga ko‘ra, “mahorat – insonning tez-tez takrorlash natijasida tez, aniq, avtomatik tarzda bajariladigan harakatlaridir”. Binobarin, agar shaxs iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etsa, iqtisodiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Iqtisodiy ko‘nikmalar faoliyat ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq, chunki aynan ular (ko‘nikmalar) shaxsning ko‘nikmalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini amalga oshiradi. Ammo bu ko‘nikmalar, iqtisodiy bilim va ko‘nikmalar kabi, agar

talabalar uyushgan faoliyatga jalb qilinmasa va ma'lum iqtisodiy tajribani to'plamasa, o'lik kapitalga aylanishi mumkin. Binobarin, ko'nikma, malaka va tajribani amalda qo'llash shaxsning iqtisodiy kompetensiyasini shakllantirishning muhim bo'g'inlaridan biri va yakuniy bosqichidir.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'limda talabalarning xo'jalik faoliyatini tashkil etish uchun sharoit yaratilgan. O'quv davrida talabalar ishlab chiqarish va amaliy faoliyatga jalb qilinadi. Iqtisodiy kompetentsiyani rivojlantirishning eng samarali usuli, bizning fikrimizcha, davlat va tijorat tashkilotlari, korxonalar, aktsiyadorlik jamiyatlari, korporatsiyalar, ilmiy -tadqiqot institutlarida ishlab chiqarish amaliyoti asosida iqtisodiy faoliyatni tashkil etishdir.

Talabalarning kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalarni e'tiborga olish zarur:

1. Oliy ta'lim bitiruvchisini ishlab chiqarish munosabatlari tizimiga jalb qilish imkonini beradigan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish.

2. Zamonaviy tadbirkorlik faoliyatida qabul qilingan me'yoriy, axloqiy qoidalar va me'yorlar asosida individual xatti-harakatlar mexanizmlarini ishlab chiqish.

3. O'z-o'zini tartibga solish mexanizmlarini rivojlantirish , o'zini ifoda etish qobiliyati.

Xulosa. Pedagogik hodisa sifatida talabaning iqtisodiy kompetentsiyasining yaxlitligi va izchilligi biz tomonidan kognitiv, qiymat-motivatsiya va faoliyat komponentlarining kombinatsiyasi sifatida ifodalanadi. Talabalarning iqtisodiy kompetentsiyasining mohiyatiga kirib borish, shaxsning iqtisodiy kompetensiyasi turli fanlar tadqiqotchilari, xususan, pedagogika uchun shubhasiz qiziqish uyg'otadi, deb aytishga imkon beradi. Bu talabaning iqtisodiy kompetentsiyasining shakllanish darajasi uning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy rivojlanishini, uning harakatchanligi va oqilona iqtisodiy faoliyatga tayyorligini belgilab berishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.РОЗОВ В.К. Воспитательная деятельность как фактор профессионального становления личности студента колледжа / В.К. Розов. - Автор.дисс. канд.пед.наук. - Магнитогорск, 1999.- 188 с.

2.Улыбин К. А. Современное экономическое мышление / К.А.Улыбин. — М.: Политиздат, 1996. - 239 с.

3.Arkhipov, A.Yu. Iqtisodiy tafakkur: mazmuni va shakllanish yo'llari / A.Yu.Arxipov . - M .: Luch, 2004. - 122 b.

4.Alimov A.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shaxs yo'naltirilgan texnologiyalar asosida innovasion faoliyatga tayyorlash p.f.f.d. (PhD) dis. avtoref. -T.:2018. 50 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Dexkonova Guljaxon Ahmadjanovna
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: guljahondehkonova90@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING DIDAKTIK VOSITALAR ORQALI O'QITUVCHI FAOLIYATINI RIVOJLANGAN XORIJ DAVLATLARI TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Bu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda didaktik vositalardan samarali foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy ta'lim jarayoniga moslashtirishga bag'ishlangan. Tadqiqotda rivojlangan xorij davlatlarida qo'llaniladigan innovatsion didaktik vositalar, ularning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'siri va o'qituvchilarning professional faoliyatini takomillashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda, o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amaliy yechimlar taklif etiladi. Natijada, didaktik vositalardan foydalanish orqali o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlarini qo'llash hamda milliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan istiqbolli yo'nalishlar belgilangan. Didaktik vositalar dars jarayonida juda muhim bu orqali lug'at boyligini oshiradi.*

Kalit so'zlar: *didaktik vositalar, boshlang'ich ta'lim, innovatsion o'qitish usullari, chet el tajribalari, mahalliy moslashuv, o'rganish jarayonlari.*

Dexkonova Guljaxon Ahmadjanovna
a lecturer at Namangan State Pedagogical Institute

IMPROVING THE ACTIVITIES OF TEACHERS FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH *DIDACTIC TOOLS BASED ON THE EXPERIENCE OF DEVELOPED FOREIGN COUNTRIES*

Annotation: *This article is dedicated to exploring the effective use of didactic tools in teaching primary school students by examining foreign experiences and adapting them to the local education system. The research analyzes innovative didactic tools used in developed countries, their impact on students' learning processes, and their significance in enhancing teachers' professional activities. Additionally, methodological recommendations have been developed to make the educational process more engaging, interactive, and effective. The article takes into account the age and psychological characteristics of primary school students and proposes practical solutions to improve teachers' activities. As a result, the application of modern approaches to organizing the educational process through the use of didactic tools is outlined, contributing to the improvement of national education quality and defining promising directions for its advancement.*

Key words*: Didactic tools, primary education, innovative teaching methods, foreign experiences, local adaptation, learning processes.*

Дехконова Гульжахон Ахмаджановна
Преподаватель Намаганского государственного педагогического института

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Аннотация: *Данное исследование посвящено изучению эффективного использования дидактических средств в обучении учащихся начальных классов на основе изучения зарубежного опыта и его адаптации к местной образовательной системе. В работе анализируются инновационные дидактические средства, используемые в развитых странах, их влияние на учебный процесс учащихся, а также их значение в совершенствовании профессиональной деятельности учителей. Кроме того, разработаны методические рекомендации, направленные на то, чтобы сделать образовательный процесс более увлекательным, интерактивным и эффективным. Исследование учитывает возрастные и психологические особенности учащихся начальных классов и предлагает практические решения для улучшения деятельности учителей. В*

результате определяются перспективные направления по улучшению качества национального образования через применение современных подходов к организации учебного процесса с использованием дидактических средств.

***Ключевое слово**: дидактические инструменты, начальное образование инновационные, методы обучения,зарубежный опыт, локальная адаптация,процессы обучения.*

Kirish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda didaktik vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganib chiqish va davlatning ta’lim jarayoniga moslashtirish va ularni turli metodlar orqali jipslashtirish hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda har bir davlatning ta’lim tizimida asosiy bosqich hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda bilim olish ko‘nikmalari, mantiqiy fikrlash, dunyo qarashi kengligi, keng fikrlay olishi va shuningdek ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Didaktik vositalardan samarali foydalanish ushbu maqsadlarga erishishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot rivojlangan xorijiy mamlakatlarning boshlang‘ich ta’limida didaktik vositalardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish masalasiga chuqur e’tibor beradi.

Mavzuga oid mataeriallar va tadqiqot metodologiyasi.

Didaktika (qadimgi yunoncha , *didaktikos* — „o‘rgatuvchi“, „ta’lim beruvchi“) — pedagogikaning tarmog‘i. Ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadi. „Didaktika“ atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o‘qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amon Kamenskiy o‘zining „Buyuk didaktika“ asarida (1657) bolalar va o‘smirlarni ma’lumotli qilish va ularga ta’lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o‘zining „Nemis o‘qituvchilarini o‘qitish uchun yo‘riqnoma“ (1834—35) asarida didaktikaning pedagogikada ta’lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta’kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta’lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. 19-yuzyillikning so‘ngi va 20-yuzyillikning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta’lim va ma’rifat berish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o‘qitishning eng samarador usul va yo‘llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – xorijiy tajribani o‘rganish davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda didaktik vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi usullarni ishlab chiqishdan iboratdir. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bularga quydagilarni misol qilishimiz mumkin. Xorijiy mamlakatlarning boshlang‘ich ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan zamonaviy didaktik vositalarni o‘rganishni ham olsak bo‘ladi. Mahalliy ta’lim tizimining imkoniyatlarini va mavjud sharoitlarini tahlil qilishni ham olsak bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos bo‘lgan didaktik vositalarni aniqlab va ularni o‘quv jarayoniga moslashtirish zarur. Ingliz tili fani o‘qituvchilari didaktik vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratiladi.

Chet el davlatlarida qo‘llaniladigan innovatsion didaktik vositalarga quydagilarni misol qilib ularga izohlar berishimiz mumkin.

1.Interaktiv texnologiyalarni misol qilib olsak bo‘ladi. Bunga rivojlangan davlatlar, masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya, va Finlyandiyada interaktiv texnologiyalar keng qo‘llaniladi. Bunga quyidagilar misol qila olamiz: ***Elektron taxtalar***: O‘qituvchilar ayniqsa Ingliz tili fani ustozlari darsda multimediya materiallardan (rasmlar, videolar, animatsiyalar) foydalanib, mavzuni tushuntirishni qiziqarli qiladi. Masalan, ingliz tili darsida hafta kunlarini, tana azolari hamda ingliz tili zamonlarini (*days of the week, parts of the body, english tenses*) o‘rgatish uchun mavzusini tushuntirish uchun o‘yin orqali yozuvlarni doskada magnitli rasmlardan foydalanish orqali bolalarning mantiqiy fikrlashi rivojlantiriladi. ***Mobil ilovalar va platformalar***: Moodle, Duolinguo, Klassdojo, Seesaw kabi platformalar o‘quvchilarni darsga faol jalb qilish uchun ishlatiladi. Bu ilovalar orqali o‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, darhol natijani ko‘rishi mumkin va qiyin savollarni qayta ko‘rib chiqib mavzuni mustahkamlashi ham mumkin. ***O‘quv o‘yinlari**:* Yaponiya maktablarini misol qilib oladigan bo‘lsak, ingliz til va boshqa chet tili fanlarini o‘rgatishda “Gamification” (o‘yinlashtirish) usuli qo‘llanilib, o‘quvchilar o‘yin jarayonida bilim olishga undaydi va samarali ham sezilarli darajada.

2. STEM o‘quv materiallari hamda ko‘rgazmali vositalardan samarali foydalanish. Bu yo‘nalishni biz matematikaga ingliz tilini bilish orqali bog‘lash mumkin. Barcha amallarni ingliz tilida olib boradi. Finlyandiya va Janubiy Koreyada STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) usullari asosida ko‘rgazmali materiallar keng qo‘llaniladi:

***Konstruktorlar**:* LEGO Education to‘plamlari orqali o‘quvchilar muhandislik asoslarini o‘rganadilar. Masalan, 1-sinf o‘quvchilari oddiy ko‘prik yoki transport vositalarini shakli, rangini ajratib yig‘ish orqali jismoniy

qonuniyatlarni tushunadilar. Real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali o‘quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo‘llash ham yaxshi samara beradi.

Laboratoriya jihozlari: Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar nafaqat o‘z tili balki boshqa fanlarni ham ya'ni biologiya yoki kimyo darslarida tajribalar uchun moslashtirilgan jihozlar yordamida bolalar o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar. Masalan, Germaniyada maktab o‘quvchilari suv aylanishini mini laboratoriya orqali kuzatishlarini ham aytish mumkin.

3. Individuallashtirilgan o‘qitish vositalari ham misol olsak maqsadga muvofiq. Janubiy Koreya va Singapurda har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari inobatga olinib, didaktik vositalar tanlanadi:

Elektron kitoblar va darsliklar: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar turli darajadagi topshiriqlarni bajarishi uchun elektron resurslardan foydalanadilar.

Differensial kartochkalar: Har bir o‘quvchining qobiliyat va qiziqishlariga mos keladigan didaktik materiallarni tanlash. Bu usul o‘quvchilarning barcha fanlarni o‘zlashtirishga va topshiriqlarni har bir o‘quvchining bilim darajasiga moslashtirishga yordam beradi.

Va qolaversa biz bu ta'lim berishni biz o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olishimiz zarur va shart. Mahalliy boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib quyidagi jihatlar muhim deb hisoblayman.

1.Qiziqarli vizual vositalar: Rasmlar, rang-barang kartochkalar va bolalar o‘yinlariga asoslangan didaktik materiallar ularning e’tiborini jalb qilishga yordam beradi.

2.Amaliy faoliyatni kuchaytirish: Bolalar ko‘proq harakat orqali o‘rganishni afzal ko‘radilar. Shuning uchun o‘yin va tajribaviy o‘qitishni joriy etish zarur.

3.Oddiy interfeysli texnologiyalar: Elektron vositalar bolalarga murakkablik tug‘dirmasligi kerak, ularning ishlatilishi oson va qulay bo‘lishi lozim.

Tahlil va natijalar.

O‘qituvchilarning professional faoliyatini takomillashtirishda innovatsion vositalarni qo‘llashni o‘rgatish. Treninglar tashkil qilish va o‘qituvchilarni didaktik texnologiyalardan foydalanishda o‘rgatadigan maxsus kurslar tashkil qilinsa bu o‘qituvchilarni bir biridan metodlar o‘rqatish va ushbu metodlar va qiziqarli o‘yinlar orqali darsini mazmunli qilib berishi mumkin. O‘qituvchilar uchun didaktik vositalardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar ishlab chiqish ham quyidagi maqsadlarga qaratiladi. Elektron taqdimotlar, interaktiv platformalar, video darsliklar, virtual laboratoriyalar kabi vositalar haqida batafsil tushuntirish. O‘quv jarayonida vositalardan foydalanish bo‘yicha aniq qadamlar va strategiyalarni o‘z ichiga olgan metodik materiallar. Har bir vositaning ta’lim jarayoniga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqida nazariy va amaliy bilimlar taqdim etiladi.

Va bizga eng zarur va muhimi resurs markazlarini yaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.Barcha maktablarda didaktik vositalar bilan ta’minlangan resurs xonalarini tashkil etilsa ham sezilarli natija bo‘lishi aniq. Yosh bolalar ko‘rib o‘rgansa ko‘proq natija beradi va albatta harakatli o‘yinlari bilan bunda tana harakatlari, yuz ifodalari (body language, facial expressions) juda muhim.

Eksperiment tarzida ayrim sinflarda innovatsion didaktik vositalarni sinab ko‘rish kerak bunda biz bolalar fanni qay darajada o‘zlashtirganini bilib olishimiz mumkin va natijalarni baholashimiz ham mumkin. Bu bizga bolalarni baxolashni ham oson yo‘li bo‘lishi mumkin. Bu vositalar nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otib, ularning ta’lim jarayonidagi faolligini ta’minlaydi va kelajakda yaxshi natiijalar yaratishiga zamin yaratib beradi. Shu bilan birgalikda O‘zbekistonning ta’lim tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, xorijiy tajribalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish emas, balki ularni mahalliy sharoitga moslashtirish ham yaxshi natija beradi. Shu nuqtai nazardan quyidagi masalalar muhim deb olish mumkin. Didaktik vositalarni mahalliy o‘quv dasturlari va darsliklarga integratsiya qilish. Elektron va bosma vositalar o‘rtasida muvozanatni saqlash. Resurslarning mavjudligi va o‘qituvchilarning ularni samarali qo‘llash bo‘yicha tayyorgarligini oshirish.

Ushbu mavzu ta'lim jarayonlarini takomillashtirish va zamonaviy didaktik vositalardan foydalanishni rivojlantirishga qaratilgan. Quyida har bir yo‘nalish bo‘yicha batafsil tushuntirish beriladi: Yangi vositalarni sinab ko‘rish orqali ularning samaradorligini aniqlash jarayonini tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Pilot sinflarni tanlash: Ayrim sinflar yoki maktablarda innovatsion vositalarni sinovdan o‘tkazish. Bu sinov turini aynan tumanlarda 3 ta maktab tanlab olinib u maktablarda 10-sinfdan boshlab ingliz tilini haftasiga 5 soatdan chuqurlashtirib o‘tilib o‘quvchilarni bilim saviyasini har oy diagnostik testlar va yozma ishlar orqali olinib bilimlarini tekshirilib kelinmoqda va ayni damda ijobiy natijani qayt etmoqda

Ko‘rsatkichlarni aniqlash esa quydagi usullar orqali amalga oshadi.: Bu usul ham aynan Pilot sinflarga xos aynan oldin o‘quvchilarni qiziqishini hisobga oladi yani oan tili yoki ingliz tilini tanlashi orqali aniq bo‘ladi va pilot sinflarga oliy toifali o‘qituvchilarni biriktirib beriladi va sinflar bo‘linmay dars davom etadi. Samaradorlikni o‘lchash uchun aniq mezonlar (masalan, o‘quvchilarning bilim darajasi, darsga qiziqishi) ishlab chiqiladi. Har oy test va yozma ish orqali tekshirib boriladi. Yangi vositalardan foydalanish natijalari kuzatilib, ular tahlil qilinadi.

Bu yo‘nalishlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va samaradorlikni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy vositalar yordamida o‘quv jarayonlari innovatsion, qiziqarli va natijador bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda xorij tajribalaridan foydalanish O‘zbekistondagi ta’lim tizimining sifatini oshirish uchun katta imkoniyat yaratib berib kelmoqda. Innovatsion didaktik vositalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini nafaqat qiziqarli va interaktiv, balki samarali ham qiladi. Jahonda ta’lim tizimi uchun xorijiy tajribalarni moslashtirish va amaliyotga joriy qilish orqali kelajak avlodning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin. Bu usullar oqali yosh avlodni ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin va kelajakda yetuk kadrlar tayyorlash va o‘z kasbini sevishiga imkon yaratadi chunki qachonki o‘z kasbini sevib ishlasa natijada fanini ustasi bo‘lishi aniq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda didaktik vositalardan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirish va bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali milliy ta’lim tizimini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqot va amaliy ishlar kelajak avlodning bilimli va malakali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2 -nashri. -Toshkent: Talaba, 2012. -432 b.

2.Jalolov J.J, Maxkamova G.T, Ashurov Sh.S. English language teaching methodology. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2015. – 338b.

3.Saydaliyev S.S. Chet til o‘qitish metodikasidan ocherklar. –Namangan: NamDU, 2000. –210 b.

4.G‘ulomov A, Qodirov M,Ernazarova M va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi.- Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. – 216 b.

5.Hoshimov O‘.H., Yoqubov I.Y. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Sharq, 2003. – 301 b.

6.Sobirova M. (2023). *O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi* [Methodology of Teaching Uzbek Language and Literature]. Recommended as a textbook by the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation. Namangan: Arjumand Media.

7. Dehqanova G. A. (2024). Improving the scientific and methodological aspects of preparing students for effective communication techniques and innovative technologies in teaching foreign languages. *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(3), 81-88.

8.Dehqanova G. A. (2024). The importance and role of lexical competence in teaching foreign languages to students. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(05), 16–23. Retrieved from https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451

9.Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturasi (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida) – Farg‘ona.: Classic, 2022. – 176 b.

10. Shokirova Kh. The object of pragmatics – the basic of progmatical approach. TJSS Thematics journal of Social Sciences.Vol-7-Issue-5 2021. – P.41-47. SJIF- 7.20 № 23.

11. Shokirova Kh. Personal dexterity options. Academicia. An international Multidisciplinary Research Journal.Vol.11, Issue 5 may 2021. –P.789-797. SJIF-7.492 № 23.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Fozilova Odina Nabiyevna
FarDU, Filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdusamadiy Gulnoza Abiljon qizi
E-mail: abdusamadiyg@gmail.com
FarDU, Ta'lim va tarbiya na'zariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi, 1-kurs magistranti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ADABIYOT ORQALI ESTETIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Annatatsiya:*Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik kompetensiyani shakllantirish – bu ruh va tafakkur sayqallanishining dastlabki qadami, ulug'vor hayot yo'lida birinchi o'chib-yonuvchi yulduzcha. Ushbu ilmiy ishda badiiy adabiyotning – ertak, she'r, hikoya kabi shakllari orqali bolalarda estetik didni, go'zallikni ko'ra bilish va qadrlash qobiliyatini rivojlantirish metodikasi tahlil etilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida, maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy-estetik dunyoqarashini boyitish, ularni san'at va hayot go'zalligi bilan uyg'unlashtirish yo'llari ochib berilgan. Tadqiqot kelajakdagi madaniyatli avlodni tarbiyalash uchun mustahkam ilmiy-metodik asos yaratishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar:*Maktabgacha ta'lim, estetik kompetensiya, badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti, ertak terapiyasi, estetik tarbiya, emotsional rivojlanish, badiiy idrok, zamonaviy pedagogika.*

Фозилова Одина Набиевна
ФарГУ, доктор филологических наук, доцент
Абдусамади Гульноза Абилжон кызы
ФарГУ, магистрант 1 курса, специальность:
Теория и методика обучения и воспитания (дошкольное образование)

ФОРМИРОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА СРЕДСТВАМИ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация: *Формирование эстетической компетентности у детей дошкольного возраста – это первый шаг к совершенствованию души и мышления, первая мерцающая звезда на пути к прекрасной жизни. В данной научной работе анализируется методика развития эстетического вкуса, умения видеть и ценить прекрасное у детей через формы художественной литературы — сказки, стихотворения, рассказы. На основе современных педагогических подходов раскрываются пути обогащения эмоционально-эстетического мировоззрения дошкольников, приобщения их к красоте искусства и жизни. Исследование направлено на создание прочной научно-методической основы для воспитания цивилизованного будущего поколения.*

Ключевые слова: *Дошкольное образование, эстетическая компетентность, художественная литература, детская литература, сказкотерапия, эстетическое воспитание, эмоциональное развитие, художественное восприятие, современная педагогика.*

Fozilova Odina Nabiyevna
FarSU, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Abdusamadiy Gulnoza Abiljon qizi
FarSU, Theory and Methodology of Education and Training (Preschool Education), 1st year master's student

FORMATION OF AESTHETIC COMPETENCE OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH FICTION

Abstract*: The formation of aesthetic competence in preschool children is the first step in the refinement of the soul and thinking, the first twinkling star on the path to a glorious life. This scientific work analyzes the methodology for developing aesthetic taste, the ability to see and appreciate beauty in children through such forms of fiction as fairy tales, poems, stories. Based on modern pedagogical approaches, ways of enriching the emotional and aesthetic outlook of preschool children, harmonizing them with the*

beauty of art and life are revealed. The study serves to create a solid scientific and methodological basis for educating the future cultured generation.

Keywords: *Preschool education, aesthetic competence, fiction, children's literature, fairy tale therapy, aesthetic education, emotional development, artistic perception, modern pedagogy.*

Kirish

Bolalik – bu yorqin orzularning charaqlovchi ertagi, san'at va hayot go'zalligi bilan ilk tanishuv sahnasi. Insonning estetik idroki va didi ana shu nozik bolalik davrida, ayniqsa, badiiy adabiyot orqali shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar – ruhiy sezgirlik, emotsional idrok va tasavvur kuchi eng faol rivojlanadigan murakkab davr vakillari. Bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamonda estetik kompetensiyaga ega shaxs tarbiyalash – jamiyat uchun nafaqat estetik zavq, balki barkamol fikrlash, nozik his qilish va ijtimoiy madaniyat asoslarini mustahkamlashdir. Badiiy adabiyot esa – bola ruhini tarannum etuvchi, uni mehr, yaxshilik va go'zallikka oshno etuvchi eng kuchli vositalardan biridir.

Mazkur ishda maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot vositasida estetik kompetensiyaga yo'naltirish metodikasi, nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar yoritiladi. Aslida, ertaklar, hikoyalar, she'rlar – bu faqat so'zlar majmui emas, balki bolaga dunyoni sevish, uni anglash va unga ta'sir qilish imkonini beruvchi sehrli kalitdir. Biz ushbu kalit bilan bolalarning kelajak sari ochiladigan qalb eshiklarini ohangdor tarzda ochishga harakat qilamiz.

Vygotskiy L.S. — "Bolalarning tasavvur va ijodi":Vygotskiy bolalar tasavvuri va badiiy ijodini ijtimoiy muhit va madaniy tajriba orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, ertaklar va badiiy matnlar bolaning emotsional-estetik idrokini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Vygotskiyning qarashlari bizga badiiy adabiyotning bola ruhiy dunyosiga bevosita va teran ta'sir etishini ilmiy asosda tushuntiradi.

Shatskiy S.T. — "Bolalar estetik tarbiyasi":Shatskiy estetik tarbiyani tarbiya tizimining ajralmas qismi sifatida ko'radi. Uning fikricha, badiiy adabiyot – bu bola uchun jamiyatning estetik qadriyatlarini yetkazuvchi tirik organizmdir. Shatskiy maktabgacha yoshdagi bolalarda go'zallikka muhabbatni shakllantirishda adabiy matnlarning obrazliligi va ifodaviyligiga alohida urg'u beradi.

Mamatqulova Z. — "Bolalar adabiyotining estetik imkoniyatlari": Mamatqulova asarida bolalar adabiyoti nafaqat axloqiy tarbiya, balki estetik zavqni shakllantirish qudratiga ham ega ekani ilmiy asosda tahlil qilingan. Muallif bolalar adabiyotida obraz va syujetlarning tasviriy-estetik vosita sifatidagi o'rni haqida fikr yuritadi.

Dewey J. — "Tajriba va ta'lim":Dewey badiiy tajribalarni bolaning umumiy tajriba sohasining ajralmas qismi sifatida ko'rib, estetik tarbiya va adabiyot o'rtasidagi uzviy aloqani ilmiy asoslab beradi. Uning pragmatik yondashuvi orqali adabiy o'qishning bolalar ongini shakllantirishdagi roli keng ko'lamda yoritilgan.

Gippenreiter Y.B. — "Bolalar va o'qish: psixologik nuqtayi nazar":Gippenreiter bolaning badiiy matn bilan ishlash jarayonida nafaqat estetik idroki, balki o'z-o'zini anglash va emotsional tafakkuri ham rivojlanishini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlari bola va matn o'rtasidagi nozik, lekin kuchli ichki aloqalarni ilmiy asosda tahlil qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyot — bu bola ruhiy dunyosining eng nozik torlarini ohangdor tarzda titratadigan, estetik tafakkurini uyg'otadigan, unga dunyoni go'zallik orqali ko'rishni va his etishni o'rgatadigan vositadir. Ilmiy yondashuvlarning har biri (psixologik, pedagogik, estetik) bolani maktabgacha yoshdayoq san'at, go'zallik va hayot haqidagi ongli idrok bilan qurollantirish zarurligini isbotlaydi.Bu – kelajak uchun sarmoya: axloqiy poklik, hissiy uyg'unlik va ijodiy tafakkur bilan bezalgan insonlar avlodi uchun.

Madaniy-tarixiy yondashuv (L.S. Vygotskiy) – bolaning estetik rivojlanishi madaniyat va ijtimoiy tajriba orqali shakllanishini asoslaydi;

Faoliyat yondashuvi (A.N. Leontyev) – estetik kompetensiya bola faoliyatining faol natijasi sifatida ko'riladi;

Estetik tarbiya nazariyasi (S.T. Shatskiy, J. Dewey) – badiiy adabiyot orqali bolaning hissiy, estetik va axloqiy qiyofasi shakllanishini ta'kidlaydi;

Integrativ pedagogika – badiiy adabiyot boshqa fanlar va faoliyatlar (san'at, musiqa, dramatizatsiya) bilan integratsiyalangan holda qo'llanishining pedagogik asoslari.

Tahlil va sintez – badiiy adabiyot namunalarining estetik tarbiyadagi o'rni ilmiy tahlil qilindi;

Pedagogik kuzatuv – maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy matnlarni qabul qilish va estetik reaksiya ko'rsatish holatlari o'rganildi;

Eksperimental metod – bolalar guruhlarida badiiy adabiyot asosida estetik tarbiya dasturlari sinovdan o'tkazildi;

So'rovnoma va suhbat – maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari va ota-onalar bilan bolalarning badiiy idroki haqidagi mulohazalar to'plandi;

Komparativ tahlil – turli mamlakatlarda badiiy adabiyot vositasida estetik tarbiya tajribalari solishtirildi.

Didaktik tamoyil – badiiy adabiyot bolaning yosh xususiyatlariga mos tanlanadi va tarbiyaviy, estetik vazifalarni bajarishga yo‘naltiriladi;

Sistemalilik va ketma-ketlik – badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish tartib-qoidalari va bosqichlari aniqlangan;

Individuallashtirish – har bir bolaning estetik idrok va emotsional rivojlanish darajasiga mos tarzda badiiy material tanlanadi;

Faollashtirish tamoyili – bolani faqat tinglovchi emas, balki faol his qiluvchi, tafakkur qiluvchi va ijod qiluvchi subyektga aylantirish.

Nazariy ahamiyati: maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik kompetensiyani shakllantirish jarayonining nazariy asoslari ishlab chiqildi, estetik kompetensiya tushunchasi pedagogik kontekstda chuqurroq sharhlandi.

Amaliy ahamiyati: maktabgacha ta’lim muassasalari uchun badiiy adabiyot asosida estetik tarbiya metodikasi ishlab chiqildi va taklif qilindi. Ushbu tavsiyalar yordamida bolalarda go‘zallikka, hayotdagi nozikliklarga, san’at va adabiyotning sehrli olamiga muhabbat uyg‘otish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Vygotskiy LS "**Bolalar tasavvuri va ijodi**" . — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2.Shatskiy ST "**Bolalarda estetik tarbiya asoslari**" . - Moskva: Pedagogika, 2017.
3.Abduqayumov A. "**Maktabgacha ta'lim metodikasi**" . — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4.D'yakonova O.V. "**Bolalarda hissiyot va adabiyot**" . - Sankt-Peterburg: Piter, 2019.
5.Montessori M. "**Bolaning siri**" . — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
6.Davletshin MR "**Pedagogik estetika**" . - Moskva: Akademiya, 2016.
7.Dyui J. "**Tajriba va ta'lim**" . — Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2022.
8.Gippenreiter YB "**Bolalar va kitob: tibbiy tizim**" . - Moskva: AST, 2018 yil.
9.Mamatqulova Z. "**Bolalar adabiyotining estetik kuchi**" . — Toshkent: Ilm ziyo, 2023.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Karimov Olimjon Maxamadaliyevich
Namangan davlat universiteti tyutori
Email: Karimovolimjon707@gmail.com

OILA VA YOSHLAR, MILLIY QADRIYATLARIMIZNING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqola oila va milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. Oila yoshlarni jamiyatga mos, ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishda birinchi va asosiy muhit hisoblanadi. Milliy qadriyatlar esa yoshlarga milliy o‘zlikni, madaniyat va tarixni hurmat qilishni singdiradi. Mavzu doirasida oila va milliy qadriyatlarning yoshlarning tarbiyalanishidagi o‘rni, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi hamda zamonaviy jamiyatda ushbu tushunchalarning ahamiyati ta’kidlanadi. Shu bilan birga, yoshlarni milliy madaniyat asosida tarbiyalashda oilaning va jamiyatning roli haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oila, yoshlar, milliy qadriyatlar, tarbiya, ma’naviyat, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, madaniyat, an’analar, ota-ona, qanot, ma’rifat, milliy o‘zlik, tarix, axloqiy qadriyatlar, jamiyat, o‘zaro munosabatlar, o‘rganish, maktab, o‘quv jarayoni, kelajak, mas’uliyat.*

Каримов Олимжон Махамадалиевич
Преподаватель в Наманганском государственном университете

СЕМЬЯ И МОЛОДЕЖЬ. РОЛЬ НАШИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: *Целью данной статьи является изучение значения семейных и национальных ценностей в воспитании молодежи. Семья является первой и основной средой формирования молодых людей как социально компетентных и духовно зрелых личностей. С другой стороны, национальные ценности прививают молодым людям уважение к национальной идентичности, культуре и истории. В теме анализируется роль семейных и национальных ценностей в воспитании молодежи, их влияние на ее личностное и социальное развитие, подчеркивается значимость этих понятий в современном обществе. В то же время дается информация о роли семьи и общества в воспитании молодежи на основе национальной культуры.*

Ключевые слова: *Семья, молодежь, национальные ценности, воспитание, духовность, развитие личности, социальное развитие, культура, традиции, родители, крыло, просвещение, национальная идентичность, история, нравственные ценности, общество, отношения, образование, школа, образовательный процесс, будущее, ответственность.*

Karimov Olimjon Makhamadaliyevich
Tutor at Namangan State University

FAMILY AND YOUTH. THE ROLE OF OUR NATIONAL CAPACITIES IN THE EDUCATION OF YOUTH.

Abstract: *This article is aimed at studying the importance of family and national values in the upbringing of youth. The family is the first and main environment in the formation of young people as socially competent, spiritually mature individuals. National values, in turn, instill in young people respect for national identity, culture and history. The topic analyzes the role of family and national values in the upbringing of young people, their impact on their personal and social development, and emphasizes the importance of these concepts in modern society. At the same time, information is provided about the role of family and society in educating young people on the basis of national culture.*

Keywords: *Family, youth, national values, upbringing, spirituality, personal development, social development, culture, traditions, parents, wing, enlightenment, national identity, history, moral values, society, relationships, learning, school, educational process, future, responsibility.*

Bugun buyuk kelajagimiz bo‘lmish yoshlar bo‘lgan e’tibor davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan alohida urg‘u berilmoqda ekan, bu sohada loqaydlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Tasavvur qilaylik yana besh o‘n

yildan keyin bugun oliygohni tamomlayotgan talaba jamiyatni qaysidir bo‘g‘inida faoliyat olib boradi va bu soha bo‘yicha jamiyat rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi. Yana bir narsani aytib o‘tishimiz kerak. Bugungi kun talabasi qiziquvchan, intiluvchan, iqtidorli va bilimdon, ammo uni bu xususiyatini ushlab qolib davom ettirish muhim jarayon. Mana bu jarayonda asosiy nazorat ota-onalar zimmasiga tushishi kerak deb bilaman, sababi farzand qachon qaerda nima bilan band bo‘lishini kunlik nazorati bo‘lishi lozim. Ammo ming afsuski biz keying paytda farzandimizga ishonib qolishimiz sababmi nazoratsiz qoldiryapmiz. Yaqinda bir ayanchli faktga ko‘zim tushib qoldi. Bugungi kunda ota-onalar farzand tarbiyasi uchun bor yo‘g‘i bir kunda 8 daqiqa vaqt ajratar ekan. Lekin bu qanchalik to‘g‘ri noto‘g‘riligida emas asosiysi farzand tarbiyasi uchun ko‘proq vaqt ajratish zarur.

Keyingi yana bir dolzarb masala bu ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish, to‘g‘ri zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Buning foydali tomonlari ko‘p albatta lekin bugun aksariyat yoshlar bundan qanday foydalanmoqda. Bilib bilmay taqiqlangan saytlarga kirib qolish, ularni tarqatish, har xil g‘arb madaniyati va urf-odatlarini targ‘ib etuvchi materiallarni ko‘rish va taqlid qilish kabi salbiy holat kuzatilmoqda.

Yana bir salbiy holat yoshlar orasida giyohvand moddalar girdobiga kirib qolish holatlari ham tez-tez kuzatilmoqda. Buning oqibati qanday yakun topishi barchamizga ma’lum. Yuqorida qayd etilgan bunday salbiy illatlarga qashi kurashishga barchamiz mas’ul bo‘lishimiz kerak.Bu borada ota-onalarning roli cheksiz. Chunki farzandim oliy ta’lim muassasasida o‘qiydi, u o‘qishga ketdi, farzandim o‘qishdan keldi deb hotirjam bo‘lib, kun bo‘yi nima bilan band bo‘lganini, necha soat dars o‘tgani, darsdan so‘ng qayerda bo‘lgani, nima ish qilgani, telefonida nima narsalar borligi bilan bugungi kunda aksariyat biz ota-onalar deyarlik qiziqmay qo‘ydik.

Oliy ta’lim muassasalarida bugungi kunda tyutor lavozimi tashkil etilgan bo‘lib, Bu lavozimda ish olib borayotgan hodim talabaning o‘qishi darslarga ishtiroki , o‘zlashtirishi, darsdan keying bo‘sh vaqti, talabalar turar joyidagi ahvoli, ijara honadondagi yashash sharoiti, turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga jalb etish va hokazo jarayonlar bo‘yicha talabaga ko‘makdosh, maslahatchi va murabbiy vazifasini bajaradi. Mana bu jarayonda albatta ota-onalarning o‘rni juda katta bo‘lib, doimiy kunlik nazoratda ushlashi alohida o‘rin tutadi.

Yoshlar ta’lim-tarbiyasi har qanday jamiyat taraqqiyotida, kelajak avlodlar ongi va qadriyatlarini shakllantirishda tamal toshi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni katta. Milliy qadriyatlarimiz yoshlarning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga yo‘l ko‘rsatuvchi, ularda o‘zlikni anglash, o‘z jamiyati va merosiga daxldorlik, mas’uliyat tuyg‘ularini singdiruvchi kompas bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularga yetkazish yoshlarni zamonaviy dunyo murakkabliklarida o‘z madaniy o‘ziga xosligining mohiyatiga asoslanib borish uchun zarur vositalar bilan jihozlashda muhim ahamiyatga ega. Bu qadriyatlarni ta’lim-tarbiya tizimiga singdirish orqali biz nafaqat ajdodlarimizning an’analarini e’zozlash, balki yoshlarni jamiyatimiz kelajagini shakllantirishning faol ishtirokchisi bo‘lishga tayyorlaymiz. Birlik, hurmat,bag‘rikenglik va yaxlitlik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan milliy qadriyatlarimiz yoshlarning o‘z fe’l-atvorini shakllantirish, ular duch kelishi mumkin bo‘lgan axloqiy ikkilanishlarni yengish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz asosini tashkil etuvchi e’tiqod, urf-odat va ideallarni o‘zida mujassam etgan. Ushbu qadriyatlarni ta’lim tizimiga kiritish orqali biz yosh avlodda ularning ildizlari, tarixi va jamoaviy o‘ziga xosligini chuqur qadrlash tuyg‘usini singdiramiz. Milliy qadriyatlarni o‘rganish va singdirish orqali yoshlarda milliy o‘zlikni anglash va umumiy maqsadni ko‘zda tutuvchi mustahkam tuyg‘ularni uyg‘otuvchi, o‘ziga tegishlilik, birdamlik va madaniy davomiylik tuyg‘ulari shakllanadi. Qolaversa, milliy qadriyatlarimiz yoshlarga zamonaviy hayot murakkabliklarida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi ma’naviy kompas vazifasini o‘taydi. Yoshlar tarbiyasini halollik, hurmat va rahm-shafqat tamoyillariga asoslash orqali biz bag‘rikenglik asosida qurilgan ahil va barkamol jamiyatni tarbiyalaymiz. Milliy qadriyatlar axloqiy qarorlar qabul qilish uchun asos yaratadi, yosh shaxslarni umumiy manfaatlarini himoya qiluvchi va ijtimoiy hamjihatlikni rag‘batlantiradigan yo‘llar bilan harakat qilishga undaydi. Milliy qadriyatlarimizni ta’lim dasturlariga singdirish orqali biz yoshlarni madaniy merosimizni asrab-avaylash va targ‘ib etishda faol ishtirokchi bo‘lib yetishish imkonini bermoqdamiz. Tarixiy yutuqlar, urf-odatlar va madaniy tajribalarni o‘rganish orqali yoshlar o‘z jamiyatining gullab-yashnashiga mazmunli hissa qo‘shishdan ilhomlanadi,

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kelajak avlodning xulq-atvori, o‘zligi va ma’naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarimizning yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni beqiyosdir. Madaniy merosimizga nisbatan g‘urur, hurmat va mas’uliyat tuyg‘ularini singdirish orqali biz yoshlarni o‘z an’analariga asoslangan holda zamonaviy dunyoning murakkabliklarida harakat qilish uchun zarur vositalar bilan jihozlaymiz. Milliy qadriyatlarning ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi, yoshlarda davomiylik va daxldorlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Madaniy meroslarimizni o‘rganish va qadrlash orqali yoshlarda o‘zligini chuqur anglash, jamiyatimizni boyitib turuvchi xilma-xillikka hurmat tuyg‘usi shakllanadi. Qolaversa, birdamlik, bag‘rikenglik

va fuqarolik faolligi kabi qadriyatlarni ta'kidlab, biz o'z jamiyatiga ijobiy hissa qo'shadigan, adolat va tenglik tamoyillarini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy ongli va axloqiy jihatdan mas'uliyatli fuqarolar avlodini tarbiyalaymiz. Biz kelajakka nazar tashlar ekanmiz, yoshlar tarbiyasi yo'nalishini shakllantirishda milliy qadriyatlar muhim rol o'ynashini tan olishimiz zarur. Madaniy merosimizni yetkazish va asrab-avaylashga ustuvor ahamiyat berish orqali biz kelajak avlod dunyo muammolariga halollik, mehr-oqibat va kuchli maqsad tuyg'usi bilan qarshi turishga tayyor bo'lishini ta'minlaymiz. Milliy qadriyatlarimiz yanada barkamol, inklyuziv va madaniy boy jamiyat sari yo'lni yoritib, yo'l ko'rsatuvchi nur bo'lib xizmat qiladi. Yoshlar qalbi va ongida ana shu qadriyatlarni mustahkamlashga sodiqlik bilan biz kelajak avlodlar uchun yanada porloq va istiqbolli kelajakka yo'l ochamiz. Eng asosiy yoshlarimiz tarbiyasiga befarq bo'lmaylik, zero ular boy tariximiz bilan buyuk kelajagimizni barpo etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom Karimov – Milliy istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, 1998
2. Milliy ensiklopediya – Oila va yoshlar bo'limi. Toshkent, 2015.
3. Saidov, R. – Oila va jamiyatda ma'naviyat. Toshkent, 2017
4. Alimova N. – Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent, 2018
5. Nasriddinov, J. – Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning roli Sam. 2019
6. Eshqulov S. – Oila tarbiyasining yoshlarga ta'siri Toshkent, 2020
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunlari – Oila haqida qonun. 2021
8. Mavlonov, B. – Ma'naviy tarbiya va jamiyat. Toshkent, 2021

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qambarov Muxriddin Zuxridinovich
Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali
Registrator ofisi boshlig‘i
E-mail: muxriddin_1990@umail.uz

BO‘LAJAK MUHANDISLARDA TADBIRKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarda tadbirkorlik kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati, zamonaviy dunyoda muhandislik va tadbirkorlikning o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, ushbu kompetentsiyani rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari statistik ma’lumotlar, grafiklar va misollar bilan muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *muhandislik, tadbirkorlik, kompetetntlik, kompetensiya, tijoratlashtirish, tadbirkorlik subyektlari, muhandislik pedagogikasi, tadbirkorlik kompetensiyasi.*

Камбаров Мухриддин Зухриддинович
Кокандский филиал Ташкентского государственного технического университета
Начальник офиса регистратора

Аннотация: *В статье рассматривается важность развития предпринимательской компетентности у будущих инженеров, взаимосвязь инженерии и предпринимательства в современном мире, а также научно-методические основы развития данной компетентности с использованием статистических данных, графиков и примеров.*

Ключевые слова: *инжиниринг, предпринимательство, компетентность, компетентность, коммерциализация, предпринимательские субъекты, инженерная педагогика, предпринимательская компетентность.*

Kambarov Mukhriddin Zuhriddinovich
Kokand Branch of Tashkent State Technical University
Head of the Registrar's Office

Annotation: *The article discusses the importance of developing entrepreneurial competence in future engineers, the relationship between engineering and entrepreneurship in the modern world, as well as the scientific and methodological foundations for developing this competence using statistical data, graphs and examples.*

Key words: *engineering, entrepreneurship, competence, competency, commercialization, entrepreneurial entities, engineering pedagogy, entrepreneurial competence.*

Kirish

Zamonaviy dunyoda texnologiyalar tez rivojlanmoqda va iqtisodiyot yangicha shakllarni qabul qilmoqda. Muhandislik sohasi ham ushbu o‘zgarishlardan chetda qolmay, yangi talablar va imkoniyatlar bilan to‘lib ketmoqda. Bugungi kunda muhandislar nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, balki tadbirkorlik kompetentsiyalariga ham ega bo‘lishi talab etiladi. Tadbirkorlik kompetentsiyasi muhandislarni innovatsion yechimlar topish, loyihalarni samarali boshqarish va bozor talablariga moslashish imkoniyatini beradi.

Oliy ta’limni rivojlantirishning muhim pedagogik muammolaridan biri bo‘lajak muhandis kadrlarni tadbirkorlik kompetetntligini rivojlantirish hisoblanadi.

Pedagogi jihatdan muhandis kadrlarni tayyorlashning o‘z qonunlari, qonuniyatlari, tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Muhandislik sohalari dunyoning turli mamlakatlarida tezlik bilan rivojlanmoqda. Bu o‘z navbatida muhandislik pedagogikasiga ham yangiliklar olib kirdi.

Bo‘lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetentligini tizimli, kasbiy faoliyatga asoslangan yondashuvlar asosida shakllantirishda dual ta’lim sharoitida uzluksiz pedagogik jarayonni ta’minlash g‘oya

va tamoyillari muhim hisoblanadi. Bo‘lajak muhandislarning tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish tamoyillari turli omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarish korxonalari tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining rahbar va xodimlari tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida ma’lum bir o‘rnatilgan tamoyillari, usullar va uslublarni o‘zlashtirganligi va sohaqa qo‘llay olish malakasi tadbirkorlik kompetetntligi deyiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishni tashkil etish jarayoni quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin:

1. Muhandislik bilimini o‘sishi orqali yuqori sifatli texnologiyalar joriy qilinishi dolzarb iqtisodiy muammolarga yechim topishi mumkin.

2. Muhandislikni rivojlanishi tibbiyot, arxitektura, kompyuter grafikasi, ta'lim, fan va ishlab chiqarishga texnika hamda suniy intelekt yordamida iqtisodiy manfaatlar olib kelishi mumkin.

Umumiy ilmiy nuqtai nazardan qaralsa muhandislik pedagogikasini asoslash imkonini beruvchi mantiqiy nazariya ta’limning ajralmas uchligidan kelib chiqadi.

Muhandislik pedagogikasida “tadbirkorlik kompetetntligi”ni rivojlantirish uchun fan, metadologiya va ishlab chiqarish uchligi muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. [1]

Shundan hulosa qilish mumkinki, bo‘lajak muhandis o‘z mutaxassisligi bo‘yicha nafaqat bilimli kadr balki, o‘z mulkidan daromad olish maqsadida sarflashdan va tavakkal qilishdan qo‘rqmaydigan, tashabbuskor bo‘lishi talab qilinadi.

Tadbirkor ishlab chiqarishning boshqa asosiy omillari – yer (tabiiy resurslar), kapital (ishlab chiqarish vositalari) va mehnat resurslarini o‘zaro biriktirib, ularning bir-biriga muvofiq harakatini ta’minlab, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishni amalga oshiradi. [2]

O‘z navbatida muhandis ham maxsulot ishlab chiqarish bilan shug‘illanadi. Muhandis hususiy sektorda tadbirkorga aylanadi.

Tadbirkor – tadbirkorlik layoqatiga, ya’ni qandaydir turdagi tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil eta olish borasida bilim, ko‘nikma va tajribaga ega shaxs. [2]

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil eta oladigan bilim, ko‘nikma va tajribaga ega kadrni texnika universitetlari tayyorlaydi va ular “muhandis” deb yuritiladi. Hulosa qiladigan bo‘lsak, muhandislik va tadbirkorlik bir-biriga juda yaqin soha hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni xohlagan barcha fuqarolar tadbirkor bo‘lishi mumkin. Biroq buning uchun fuqaro muomala layoqatiga ega bo‘lishi lozim.

Shu bilan birga, ayrim sabablarga ko‘ra tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lmagan shaxslar yoki guruhlar mavjud. Bularga:

– davlat organlari;

– davlat organlarining mansabdor shaxslari;

– tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslarni kiritish mumkin.

Tadbirkorlik har bir insonni muayyan daromad bilan ta’minlab, uning o‘z ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, turmush darajasini oshirishga imkon yaratadi. Agar jamiyatda tadbirkor insonlar ko‘p bo‘lsa, unda tinchlik va osoyishtalik, barqarorlikka intilish shunchalik kuchli bo‘ladi. Tadbirkorlik yaxshi rivojlangan jamiyatda yaratuvchanlik, ilm-ma’rifat va saxovat yetakchi o‘rin tutadi. Tadbirkorlik o‘z faoliyatidan to‘lanadigan soliq va ajratmalar orqali davlat budjeti daromadlarini ham ta’minlaydi. Budjet mablag‘lari qanchalik ko‘p bo‘lsa, jamiyat a’zolariga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar (uy-joylar, yo‘llar, tibbiyot muassasalari, o‘quv maskanlari va boshqalar)ni yanada yaxshilash imkoni paydo bo‘ladi. Demak, tadbirkorlikning ahamiyati uning har bir shaxs, jamiyat va davlatning imkoniyatlarini kengaytirishi orqali namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan muhofaza qilinadi va qo‘llab-quvvatlanadi. [2]

2021 yilda dunyo bo‘yicha 100 milliondan ortiq startaplar faoliyat yuritgan, ulardan 30% texnologik sohaga tegishli. [5] 2020 yilda 60 dan ortiq mamlakatda muhandislik ta’limi dasturlariga tadbirkorlik fanlari qo‘shilgan. [8]

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda tadbirkorlik kompetentsiyasining muhandislar faoliyatidagi ahamiyati va uni rivojlantirish usullari tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagi 3 bosqichda amalga oshirildi:

1. Statistik ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish: Global Entrepreneurship Monitor (GEM), OECD va World Economic Forum kabi manbalardan foydalanildi.

2. Misol va holatlarni o‘rganish: Tesla, Apple va Google kabi kompaniyalarning tajribalari tahlil qilindi.

3. O‘zbekiston kontekstida tadqiqot: O‘zbekistonda bo‘lajak muhandislarga qo‘yiladigan tadbirkorlik kompetentsiyasi talablari ko‘rib chiqildi.

Natijalar

Tadbirkorlik kompetentsiyasi muhandislarning faoliyatida bir qator jihatlar bilan ahamiyatga ega bo‘lib, ularga innovatsion yondashuv, resurslarni samarali

boshqarish va bozor talablarini tahlil qilishni misol qilishimiz mumkin. Innovatsion yondashuv orqali muhandislar yangi texnologiyalar va yechimlarni ishlab chiqishda tadbirkorlik qobiliyatlaridan foydalanib, loyihalarni amaliyotga tatbiq etishda muvaffaqiyat qozonishlari mumkin. Resurslarni samarali boshqarish yordamida tadbirkorlik kompetentsiyasi muhandislarga loyihalarni moliyalashtirish, vaqt va mehnat resurslarini optimallashtirish imkoniyatini beradi. Muhandislar bozor talablarini to‘g‘ri tahlil qilish orqali o‘z mahsulotlari va xizmatlarini rivojlantirishlari mumkin.

Bo‘lajak muhandislarda tadbirkorlik kompetentsiyasini rivojlantirishning ta’lim dasturlarini takomillashtirish, amaliy loyihalar va stajirovkalar hamda startaplar va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash usullarini misol qilishimiz mumkin.

Muhandislik yo‘nalishlarida tadbirkorlikka oid fanlarni joriy etish ta’lim dasturlarini takomillashtiradi. Amaliy loyihalar va stajirovkalar orqali talabalar real loyihalarda ishtirok etishi mumkin. Startaplar va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash yordamida talabalar tomonidan ishlab chiqilgan g‘oyalarni moliyaviy va texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlay oladi.

Muhokama

Tadbirkorlik kompetentsiyasini rivojlantirish bo‘lajak muhandislar uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu kompetentsiya muhandislarni nafaqat texnik jihatdan, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham rivojlanishiga yordam beradi. O‘zbekistonda bo‘lajak muhandislarga innovatsion yondashuv, bozor talablarini tahlil qilish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash kabi kompetentsiyalarni rivojlantirish talablari qo‘yilmoqda. Ta’lim tizimida tadbirkorlikka oid fanlarni joriy etish, amaliy loyihalar va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali bo‘lajak muhandislarni dunyoviy talablarga moslashtirish mumkin.

Xulosa

Bo‘lajak muhandislarda tadbirkorlik kompetentsiyasini rivojlantirish zamonaviy dunyoning asosiy talablaridan biridir. Ushbu kompetentsiya muhandislarni nafaqat texnik jihatdan, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham rivojlanishiga yordam beradi. O‘zbekistonda bo‘lajak muhandislarga innovatsion yondashuv, bozor talablarini tahlil qilish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash kabi kompetentsiyalarni rivojlantirish talablari qo‘yilmoqda. Tadbirkorlik kompetentsiyasini rivojlantirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki butun jamiyat va iqtisodiyot uchun ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi O‘RQ-328-sonli yangi tahrirdagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni, 3-moddasi, https://lex.uz/docs/-2006789

2.Tadbirkorlik asoslari [Matn]: umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun darslik / U. G‘afurov, Q. Sharipov. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2018. – 144 b.

3.S.T.Toshaliyeva, M.B.Normurodova. Tadbirkorlikni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari. “JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 1, ISSUE 3, 2023. JULY

4.Drucker, Peter F. *Innovation and Entrepreneurship*. Routledge, 2014.

5.Global Entrepreneurship Monitor (GEM). *2021 Global Report*. GEM, 2021.

6.Hisrich, Robert D., va Michael P. Peters. *Entrepreneurship*. McGraw-Hill, 2002.

7.Kuratko, Donald F. *Entrepreneurship: Theory, Process, Practice*. Cengage Learning, 2016.

8.OECD. *Entrepreneurship in Higher Education*. OECD Publishing, 2020.

9.Project Management Institute (PMI). *2020 Annual Report*. PMI, 2020.

10. World Economic Forum. *The Global Competitiveness Report 2021*. WEF, 2021.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qurbonova Kamola Abdurahmonovna
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich
PhD, dotsent

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA “SSENARIY” TERMINI TALQINLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik sohasida faol qo‘llanuvchi “ssenariy” terminining kelib chiqishi, yurtimizda va jahonda bu bo‘yicha qilingan ishlar, “ssenariy”ning turlari va tarkibiy qismlari haqida batafsil ma’lumot berilgan hamda namunalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv tilshunoslik, ssenariy, xotira, madaniy ssenariy, kommunikativ ssenariy, kognitiv ssenariy, slotlar, semantik rol.*

Qurbonova Kamola Abdurahmonovna
1st year student of the Faculty of Philology, Namangan State University
Research supervisor: Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich
PhD, associate professor

INTERPRETATIONS OF THE TERM "SCENARIO" IN COGNITIVE LINGUISTICS

Annotation: *This article provides detailed information on the origin of the term “scenario”, which is actively used in cognitive linguistics, as well as research conducted in this field both in our country and worldwide. It also discusses the types and structural components of scenarios, along with relevant examples.*

Key words: *cognitive linguistics, scenario, memory, cultural scenario, communicative scenario, cognitive scenario, slots, semantic role.*

Қурбонова Камола Абдураҳмоновна
студентка 1 курса Наманганского государственного университета, филологический факультет
Научный руководитель: Қўзиев Умиджон Яндашалиевич
PhD, доцент

ТОЛКОВАНИЯ ТЕРМИНА «СЦЕНАРИЙ» В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация: *В данной статье представлена подробная информация о происхождении термина «сценарий», активно используемого в когнитивной лингвистике, о проделанных исследованиях в этой области как в нашей стране, так и за рубежом, а также о видах и структурных компонентах сценариев. Кроме того, приведены примеры.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, сценарий, память, культурный сценарий, коммуникативный сценарий, когнитивный сценарий, слоты, семантическая роль.*

Kirish

Inson bilish faoliyatida faqatgina yangi ma’lumotlarni qabul qilib qolmay, avvalgi bilimlarini ham xotirasida saqlaydi. Ongdagi barcha bilimlar tizimli va tartibli holda inson xotirasidan o‘rin oladi. Doimiy takrorlanuvchi kundalik ish-harakatlar uchun esa inson ongida qoliplar yuzaga keladi. Shunday tartibli sxemalar kognitiv tilshunoslik sohasida keng o‘rganiladi va “ssenariy” deb nomlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

“Ssenariy” tushunchasini birinchi bo‘lib ijtimoiy psixolog F.Bartlett qo‘llagan bo‘lib, u xotira ustida o‘tkazgan tajribalaridan xotira asl ma’lumotlarning nusxasi emas, balki ularni qayta qurish jarayoni ekanligini aniqlagan. Minskiy esa “ssenariy”larni “freym” deb atagan va ularni standartlashtirilgan vaziyatlarni aks ettiruvchi aqliy tuzilmalar sifatida tasvirlagan. [1] Kognitologiya sohasiga “ssenariy” tushunchasini sun’iy intellekt bo‘yicha mutaxassislar R.Shenk va R.Abelsonlar kiritishgan. Ular ushbu tushuncha voqealar ketma-ketligini, ularning o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatish uchun

[1] Hoyle A.R. Scenarios, Discourse and Translation. – SIL International, 2008. – P.7

zarur deb bilishgan.[2] Muvofiqlik (Relevance) nazariyasi asoschilari bo‘lgan D.Sperber va D.Uilsonlar o‘zlarining “Relevance: Communication and cognition” (1986) asarida samarali kommunikatsiya faqat til orqali emas, balki til va o‘zaro kognitiv muhit orqali yuzaga kelishini ta’kidlaydilar. Kognitiv muhitning asosiy qismi aynan shaxs xotirasida “ssenariy”lar shaklida saqlanadigan tizimlashtirilgan bilimlardan iborat. G.Hovard “ssenariy” uchun “sxema” atamasidan foydalangan holda insonning mental “ssenariy”lari uning tajribasiga asoslanganligini va ular tasniflash hamda xulosa chiqarishda ishtatilishini ta’kidlaydi.[3]

O‘zbek tilshunosligida ham “ssenariy” tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Sh.Safarovning “Kognitiv tilshunoslik” asarida ushbu termin haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, D.Xudoyberganovaning “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” asarida ham ushbu termin haqida fikr yuritilgan. R.Abdullayevaning “O‘zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi” monografiyasida insonning idrok jarayonida “ssenariy”larning paydo bo‘lishi va uning ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Natijalar

“Ssenariy” inson ongida mavjud ma’lumotlar va tajribalarning ketma-ketlikda qo‘llanish tartibi bilan bog‘liq kognitiv tuzilmadir. Inson xotirasida avvaldan o‘rin olgan bilimlarning kundalik hayotda davomiy foydalanilishi natijasida “ssenariy” hosil bo‘ladi. “Ssenariy”ni ba’zi holatlarda “freym” termini o‘rnida qo‘llash holatlari kuzatiladi. Ammo ular alohida tushunchalar bo‘lib, inson ongidagi “freym”larning kundalik turmush tarzida qayta-qayta takrorlanishi “ssenariy”ni hosil qiladi. R.Shenk “ssenariy”ni “stereotipik epizodlar ketma-ketligini aks ettiruvchi ma’lumotlar tuzilmasi” deb talqin qilgan.[4] Sanford va Garrod insonlar “ssenariy”lar asosida turli xil xulosalar chiqarishini qayd etadilar. Ular leksik, makon va zamon bo‘yicha yoki baholovchi xulosalar bo‘lishi mumkin.[5] Bular orqali inson ongida yangi ma’lumotlar qabul qilinadi va ularda subyektiv munosabat aks etadi. “Ssenariy”larning quyidagi turlari mavjud[6]:

1.Kognitiv “ssenariy”
2.Madaniy “ssenariy”
3.Kommunikativ “ssenariy”

Kognitiv “ssenariy” inson idroki orqali shakllangan bilimlar, fikr va qarashlarni qo‘llash jarayonidir. Bu “ssenariy”lar orqali ongda baholovchi xulosalar shakllanadi. Madaniy “ssenariy”lar jamiyatda mavjud bilimlar, odat va qadriyatlar orqali hosil bo‘ladi. Ular ma’lum bir millat uchun umumiy madaniy “ssenariy”lar yoki yakka shaxsga tegishli individual madaniy “ssenariy”lar bo‘lishi mumkin. Kommunikativ “ssenariy”lar insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida shakllanadi. Madaniy “ssenariy”lar sirasiga millatimizda shakllangan “nikoh to‘yi”, “kelinsalom marosimi” kabi “ssenariy”lar namuna bo‘la oladi. Ular faqat o‘zbek millatiga xos, butun bir jamiyat tomonidan foydalaniladi va boshqa millat vakillari tomonidan tushunilmaydi. Kommunikativ “ssenariy”lar qatoriga “salomlashish”, “xayrlashish” kabi “ssenariy”larni misol qilish mumkin. Ular kommunikatsiya jarayonining qulayligi uchun foyda beradi. Kognitiv tilshunoslik sohasi uchun kognitiv “ssenariy”lar muhim ahamiyatlidir. Ular ongda har bir insonda alohida shakllanadi va inson umri davomida doimo ulardan foydalanadi.

Muhokama

“Ssenariy”lar tarkibi slotlardan tashkil topadi. Buni anglash uchun “oziq-ovqat do‘koni” “ssenariy”sini namuna sifatida olish mumkin.[7] Ushbu “ssenariy”da xaridor, sotuvchi, xazinachi rollari mavjud va “ssenariy” do‘konga kirish, mahsulotlarni ko‘zdan kechirish, narxlari bilan tanishish, sotuvchi bilan maslahatlashish, kerakli mahsulotlarni ajratib olish, ularni aravachaga solish, xazinachi tomon yurish, pulini to‘lash, chekni olish va do‘kondan chiqib ketish slotlaridan tashkil topadi. Ushbu “ssenariy” har bir inson hayoti davomida uzluksiz foydalaniladi va bir tekis jarayon sifatida qabul qilinadi. “Ssenariy”lar turli insonlarda turlicha shakllanadi. Masalan, yuqoridagi “ssenariy” markazida mijoz bo‘lsa, sotuvchi va xazinachi markazda turuvchi “ssenariy”lar ham bo‘lishi mumkin. Sotuvchi uchun ushbu “ssenariy” mijozga xizmat ko‘rsatish, uni e’tiborsiz qoldirmaslik, unga maslahat berish, mahsulotlar ta’rifini mijozga yetkazish kabi slotlardan tashkil topadi. Xazinachi uchun esa mijozni iliq kutib olish, aravachadagi mahsulotlarni olish, ularni nazoratdan o‘tkazish, qiymatini mijozga bildirish, pulni qabul qilib olish, mahsulotlarni o‘ramlarga solish, mijozga berish va uni kuzatish kabi slotlardan tashkil topadi. “Ssenariy”lar uchun jarayon sodir bo‘layotgan makon ham muhimdir. Ushbu makondan chetdagi holatlar “ssenariy” tarkibiga kirmaydi va u sodir bo‘luvchi makon va zamon chegaralanadi. Masalan, yuqoridagi “ssenariy”da do‘kondagi boshqa mijozlarning holati va faoliyati “ssenariy” tarkibiga kiritilmaydi. “Ssenariy”ning yana bir namunasi sifatida “dars mashg‘uloti” “ssenariy”sini ham ko‘rish mumkin. Unda o‘qituvchi va bir nechta o‘quvchilar asosiy rolda bo‘ladi.

[2] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – Б.35
[3] Hoyle A.R. Scenarios, Discourse and Translation. – SIL International, 2008. – P.11
[4] Schank R. *Dynamic Memory: A Theory of Learning in Computers and People*. New York: Cambridge University Press, 1982.
[5] Hoyle A.R. Scenarios, Discourse and Translation. – SIL International, 2008. – P.9
[6] Вэньцзя В. Понятие ”сценарий” в когнитивном и лингвокультурологическом освещении//Когнитивные и лингвокультурологические аспекты исследования. – С.22
[7] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – Б.35

Ushbu “ssenariy” o‘quvchilarni dars xonasida kutib olish, ularni joylashtirish, vazifalarini tekshirish, savollariga javob berish, yangi mavzuni tushuntirish, o‘quvchilarning bu borada o‘zlashtirishini tekshirish va ularni baholash, bu bo‘yicha uyga vazifalar berish, xayrlashish va ularni kuzatish kabi slotlardan tashkil topadi. Shuningdek, har bir “ssenariy” semantik rollardan tashkil topadi. J.Fillmorning qayd etishicha, semantik rollar (semantic roles) kechayotgan voqea “ssenariy”sining xotirada aks etgan strukturasidir. U harakat subyekti (actor), harakatni qabul qiluvchi (recipient), vosita (instrument), harakat obyekti (object), sabab (reason), maqsad (aim), makon (place), zamon (time) kabi 8 turdagi semantik rolni farqlashni taklif qiladi. Yuqoridagi “ssenariy” harakat subyekti – o‘qituvchi, harakatni qabul qiluvchi – o‘quvchilar, vosita – darsliklar, harakat obyekti – fan, sabab – ta’lim majburiyati, maqsad – bilim olish, makon – dars xonasi, zamon – ma’lum bir vaqt oralig‘i kabi semantik rollardan tarkib topgan.

“Ssenariy”ni anglash va uning ahamiyatini tushunish orqali har qanday faoliyatni osonlik bilan bajarish mumkin. Odatda, nutq paytida so‘zlovchining asosiy maqsadi o‘z fikrini tinglovchiga yetkazishdan iborat bo‘ladi va u tinglovchining holati va bilim doirasiga muvofiq “ssenariy”lardan foydalanadi. Natijada bildirilgan fikr tinglovchida begonalik hissini uyg‘otmay oson tushuniladi. “Ssenariy”lardan foydalanishda qabul qiluvchilarning bilimi va tajribasi asosiy o‘rinni egallaydi. Inson xotirasida barcha ma’lumotlarni alohida o‘zgachalik bilan saqlab qolsa, ularda aralashish sodir bo‘ladi va eslash jarayonida noqulaylik tug‘diradi. Shuning uchun, odatda, inson ongida ma’lum bir doimiy takrorlanuvchi kundalik holat uchun qoliplar shakllanib, “ssenariy” hosil bo‘ladi va har safar takroran o‘sha holat sodir bo‘lsa, “ssenariy”lardan foydalaniladi. So‘zlovchi va tinglovchiga ma’lum ma’lumotlardan foydalanib, “ssenariy”larni qo‘llash turli holatlarga tezkor moslashuvchanlikni ta’minlaydi. “Ssenariy”ni qo‘llash jarayonida biror bir o‘zgarish kuzatilsa, u e’tiborsiz qoldirilib, doimgi ongda mavjud shaklga muvofiq tushuniladi. Masalan, nutq paytida so‘zlardagi tovushlar o‘rni almashishi yoki gap tarkibidagi tartib o‘zgarishi inson ongida odatiy hol sifatida qabul qilinadi va ularning o‘rni ongdagi shaklga muvofiq avtomatik joylashtiriladi va qabul qilinadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “ssenariy” terminini tushunish va uni qo‘llash malakasini oshirish orqali yangi ma’lumotlarni qabul qilish osonlashadi. Ushbu termin tadqiqi asnosida til va ong o‘rtasidagi munosabat yaqqol seziladi. “Ssenariy”lar sabab til orqali sodir bo‘luvchi holatlar ongda tizimli va tartibli ravishda shakllanadi va doimiy inson xotirasida saqlanib, insonning shaxsiy tajribasiga aylanadi. Yangi ma’lumotlarni qabul qilishda ham inson ongi o‘sha tajribalar asosida faoliyat yuritadi. Shuning uchun ushbu termin kognitiv tilshunoslik sohasida muhim e’tiborga olinadi va tadqiq etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Fillmore Ch.J. The case for the case. In: Back N. and Horms R.T.(eds). Universals in linguistic theory. – New York, 1968.

2.Hoyle A.R. Scenarios, Discourse and Translation. – SIL International, 2008. 835p

3.Schank R. *Dynamic Memory: A Theory of Learning in Computers and People*. New York: Cambridge University Press, 1982.

4.Вэньцзя В. Понятие ”сценарий” в когнитивном и лингвокультурологическом освещении//Когнитивные и лингвокультурологические аспекты исследования. 21-28с

5.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. 92б

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Saydaliyev Ismoiljon Nurmamatovich
Andijon davlat texnika instituti,dotsent
ismoiljonsaydaliyevmail.ru
Rustamova Nigora Ixtiyorovna
Andijon davlat texnika institute doktoranti
rustamovan033@gmail.com

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AVTOMOBILLARNING ELEKTR TIZIMLARI FANINI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI.

Annotatsiya: *Sanoatning jadal rivojlanishi va zamonaviy texnologiyalarning murakkablashuvi natijasida muhandislik ta'limiga yangi talablar qo'yilmoqda. Ayniqsa, avtomobillarning elektr tizimlari sohasida nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada texnik oliy ta'lim muassasalarida avtomobillarning elektr tizimlari fanini o'qitishning dolzarb masalalari, mavjud muammolar va ularni hal qilish bo'yicha takliflar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish, zamonaviy laboratoriya jihozlari va diagnostika texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari muhandislik ta'limining sifatini oshirish va sanoat ehtiyojlariga mos keluvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Avtomobillarning elektr tizimlari, muhandislik ta'limi, innovatsion pedagogika, avtomatlashtirish, sanoat ehtiyojlari, diagnostika texnologiyalari, laboratoriya tajribalari, ta'lim modernizatsiyasi.*

Сайдалиев Исмоилжон Нематуллаевич
Андижанский государственный технический институт, доцент
Рустамова Нигора Ихтиёровна
Андижанский государственный технический институт, докторант

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ "ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ АВТОМОБИЛЕЙ" В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: *Быстрое развитие промышленности и усложнение современных технологий предъявляют новые требования к инженерному образованию. Особенно важным является не только теоретическое знание, но и практические навыки в области электрических систем автомобилей. В статье рассматриваются актуальные вопросы преподавания дисциплины "Электрические системы автомобилей" в технических высших учебных заведениях, существующие проблемы и предложения по их решению. Также анализируется использование инновационных методов обучения, внедрение современного лабораторного оборудования и диагностических технологий в образовательный процесс. Результаты исследования способствуют повышению качества инженерного образования и подготовке высококвалифицированных специалистов, соответствующих требованиям промышленности.*

Ключевые слова: *Электрические системы автомобилей, инженерное образование, инновационная педагогика, автоматизация, потребности промышленности, диагностические технологии, лабораторные эксперименты, модернизация образования.*

Saydaliyev Ismoiljon Nematullaevich
Andijan State Technical University, Associate Professor
Rustamova Nigora Ixtiyorovna
Andijan State Technical University, PhD student

CURRENT STATE OF TEACHING THE DISCIPLINE "AUTOMOTIVE ELECTRICAL SYSTEMS" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: *The rapid development of industry and the increasing complexity of modern technologies are placing new demands on engineering education. Particularly important are not only theoretical knowledge but also practical skills in the field of automotive*

electrical systems. This article addresses the current issues of teaching the discipline "Automotive Electrical Systems" in technical higher education institutions, existing problems, and proposals for their solutions. It also analyzes the use of innovative teaching methods, the introduction of modern laboratory equipment, and diagnostic technologies into the educational process. The results of the study contribute to improving the quality of engineering education and preparing highly qualified specialists who meet the needs of industry.

Keywords: *Automotive electrical systems, engineering education, innovative pedagogy, automation, industrial needs, diagnostic technologies, laboratory experiments, education modernization.*

Kirish.

Sanoatning jadal rivojlanishi va texnologiyalarning murakkablashuvi muhandislik ta'limiga yangi talablar qo'ymoqda. Hozirgi kunda elektr tizimlari sohasida ishlaydigan mutaxassislar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari kerak. Zamonaviy sanoat robototexnika, IoT (Internet of Things), avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va sun'iy intellekt bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu esa elektr tizimlari fanini o'qitishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi.Avtomobillarning elektr tizimlari fani texnik oliy ta'lim muassasalarida muhandislik ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, muhandislik talabalariga elektr tizimlarining ishlash tamoyillari, qurilmalari va boshqaruv mexanizmlarini o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, bu fan zamonaviy sanoat tarmoqlari, jumladan, energetika, avtomatlashtirish, transport va elektronika sohalarida ishlash uchun muhim nazariy va amaliy bilimlarni taqdim etadi.

Avtomobillarning elektr tizimlari fanini o'qitishda hozirgi mavjud muammolar avvalombor amaliyot yetishmovchiligi, o'quv laboratoriyalarining yetarlicha rivojlanmaganligi sababli talabalar ko'pincha nazariy bilimlar bilan cheklanib qoladi, elektron boshqaruv tizimlari (ECU, CAN-Bus) bilan ishlash imkoniyatlari cheklangan, z**amonaviy avtomobil elektr tizimlariga mos o'quv dasturlarining yetishmovchiligi,** hozirgi darslik va o'quv qo'llanmalarida asosan **ichki yonuv dvigatelli avtomobillar elektr tizimlari** qamrab olingan, biroq gibrid va elektr transport vositalari yetarli darajada o'rgatilmaydi, aqlli avtomobil tizimlari, elektromobillar va zamonaviy xavfsizlik tizimlari bo'yicha darsliklar kam (1).

Adabiyotlar tahlili

Avtomobillarning elektr tizimlari fani texnik oliy ta'lim muassasalarida muhandislik ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, muhandislik talabalariga elektr tizimlarining ishlash tamoyillari, qurilmalari va boshqaruv mexanizmlarini o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, bu fan zamonaviy sanoat tarmoqlari, jumladan, energetika, avtomatlashtirish, transport va elektronika sohalarida ishlash uchun muhim nazariy va amaliy bilimlarni taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda maqsad — texnik oliy ta'lim muassasalarida avtomobillarning elektr tizimlari fanini o'qitishning mavjud metodlarini tahlil qilish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishning samaradorligini baholashdir. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili, mavjud o'quv dasturlarini tahlil qilish va o'quv jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarni tahlil qilish usullari qo'llanilgan.

Natijalar va ularning tahlili

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda ta'lim mazmunini integratsiyalash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning avtomobilsozlik yo'nalishida ta'lim beruvchi muassasalarida Avtomobillarning elektr tizimlari fani muhandislik ta'limining muhim qismi hisoblanadi. Mazkur fan avtomobillar elektr tizimlarini tushunish, diagnostika qilish, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha bilim berishga yo'naltirilgan. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida quyidagi fanlar elektr tizimlari bilan bog'liq: **Avtomobil elektr va elektron tizimlari, Avtomobil elektrotexnikasi va elektronika asoslari, Avtomobillarning elektr ta'minoti va starter tizimlari, Avtomobillarning boshqaruv va xavfsizlik tizimlari, Avtomobil diagnostikasi va nosozliklarni bartaraf etish va Elektromobillar va gibrid transport vositalarining elektr tizimlari.** Ushbu fanlar orqali talabalar avtomobillarda elektr energiyasining tarqalishi, boshqarilishi va ishlatilishini, shuningdek, zamonaviy elektr tizimlarini loyihalash va texnik xizmat ko'rsatish tamoyillarini o'rganadilar (2)

Elektr tizimlari bo'yicha yetarli va mukammal bilimga ega bo'lish texnik mutaxassislarga zamonaviy energetika tizimlarini loyihalash, optimallashtirish va samarali ish olib borish imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda sanoatda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish jarayonlarining keng qo'llanilishi sababli, talabalar nafaqat klassik elektr tizimlarini, balki

aqlli tarmoqlar (Smart Grid), qayta tiklanadigan energiya manbalari va zamonaviy boshqaruv tizimlari bilan ishlashni ham o‘rganishlari zarur

Muhandislik ta’limi sanoat ehtiyojlariga mos kelishi uchun quyidagi omillar hisobga olinishi lozim: avvalombor o‘quv dasturlarining real sanoat jarayonlari va ilg‘or texnologiyalar bilan uyg‘unligi hisobga olib, qayta ko‘rib chiqilishi yana talabalarning nazariy bilimlarini laboratoriya tajribalari va loyiha asosida o‘qitish orqali mustahkamlash kerak. Shuningdek talabalarni sanoat muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan loyiha va tadqiqot ishlari bilan shug‘ullantirish hamda elektr tizimlarini raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash, shuningdek ularni amaliy dasturiy vositalar bilan modellashtirish ham juda muhim hisoblanadi (3,4).

Bugungi kunda xalqaro me’yorlarga javob beradigan muhandislarni tayyorlash uchun o‘quv dasturlari doimiy ravishda yangilanib borishi lozim. Ayniqsa, energiya samaradorligi va ekologik toza texnologiy alarni rivojlantirish bo‘yicha yangi yo‘nalishlar ta’lim tizimiga tatbiq etilishi zarur. Elektr tizimlari fanining o‘qitish usullarini takomillashtirish hozirgi muhandislik ta’limining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida an’anaviy dars metodlari bilan birga innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish talab etiladi. Xususan, virtual laboratoriyalar, muhandislik simulyatsiya dasturlari, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari va interfaol o‘qitish usullari orqali talabalar bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish mumkin (5)

Takidlash joizki o‘**qituvchilar malakasini oshirish zarurati ham mavjud ya’ni hozirgi vaqtda y**angi texnologiyalar (IoT, aqlli avtomobil tizimlari, sensor tarmoqlari) bo‘yicha o‘qituvchilar yetarli malakaga ega emas va halqaro tajriba almashish imkoniyatlari cheklanganligi ta’lim jarayonida qatnashayotgan ustozlarni avvalo o‘zlari bir qator ilmiy ko‘nikmalarini oshirishlari kerakligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari talabalar real avtomobil diagnostika dasturlarini chuqur o‘rganish imkoniga ega emasliklari va **MATLAB/Simulink, AutoCAD Electrical, ETAS Inca** kabi dasturlarni o‘qitish yo‘lga qo‘yilmaganligi **diagnostika va dasturiy ta’minot yetishmovchiligidan dalolat beradi.**

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – texnik oliy ta’lim muassasalarida elektr tizimlari fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va uni yanada samarali qilish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot quyidagi masalalarni qamrab oladi. Birinchi o‘rinda avtomobillarning elektr tizimlari fanini o‘qitishda mavjud metodlarning tahlili va samaradorligini baholash, birin ketin innovatsion texnologiyalar va ilg‘or ta’lim metodlarini qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish hamda zamonaviy sanoat talablari asosida o‘quv dasturlarini moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.Tadqiqot natijalari texnik oliy ta’lim muassasalarida muhandislik ta’limining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tadqiqot muhandislik ta’limida nazariy va amaliy o‘qitish o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga yordam beradi (6).

Hozirgi kunda respublikamizda kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini respublikamiz ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari asosida rivojlantirish borasidagi islohotlar bo‘lajak transport muhandislarining ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish orqali ularning kreativ fikrlash ko‘nikmalari, innovatsion rivojlanishni ta’minlovchi kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirishning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish kabi istiqbolli yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirda ta’lim muassasalarida Avtomobillarning elektr tizimlari fanini o‘qitishda **an’anaviy va innovatsion ta’lim metodlari** qo‘llanilmoqda. Quyida hozirgi vaqtda avtomobilsozlik oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan asosiy metodlarini ko‘rishimiz mumkin.

Ma’ruza mashg‘ulotlari – elektr tizimlarining asosiy tamoyillari, sxemalar va ishlash prinsiplari tushuntiriladi. O‘qituvchi tomonidan mavzuga oid nazariy ma'lumotlar taqdim etiladi. Bu jarayonda fanning slaydlari, chizmalar va boshqa vizual materiallardan foydalaniladi.

Interfaol darslar – Talabalar kichik gruppalarga bo‘linib, jamoaviy ish borishadi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari – avtomobil generatori, akkumulyator, starter tizimi, relelar va sensorlar ustida tajribalar o‘tkaziladi. Yoki labaratoriya mashgulotlari video ko‘rgazmalar hamda yozma olib boriladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti – talabalar yirik avtomobil kompaniyalari, shu jumladan "**UzAuto Motors**", "**SamAuto**", "**JV MAN Auto Uzbekistan**" korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etadilar.

Kompyuter diagnostikasi – Bosch, Delphi, Autel, Launch X431, OBD-II skanerlar yordamida avtomobil elektr tizimlarini tekshirish va tahlil qilish o‘rgatiladi.

Xulosalar

Avtomobillarning elektr tizimlari fanini o‘qitishda innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash va o‘quv laboratoriyalarini yangilash muhandislik ta’limining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va sanoat ehtiyojlariga moslashtirish zarurati mavjud. Talabalar uchun zamonaviy dasturlar, simulyatsiya vositalari va amaliy tajriba dasturlarini joriy etish muhandislik ta’limini yangi bosqichga olib chiqadi. **Avtomobillarning elektr tizimlari fanini o‘qitishda hozirgi mavjud muammolar avvalombor amaliyot yetishmovchiligi, o‘**quv laboratoriyalarining yetarlicha rivojlanmaganligi

sababli talabalar ko‘pincha nazariy bilimlar bilan cheklanib qoladi, elektron boshqaruv tizimlari (ECU, CAN-Bus) bilan ishlash imkoniyatlari cheklangan, z**amonaviy avtomobil elektr tizimlariga mos o‘quv dasturlarining yetishmovchiligi,** hozirgi darslik va o‘quv qo‘llanmalarida asosan **ichki yonuv dvigatelli avtomobillar elektr tizimlari** qamrab olingan, biroq gibrid va elektr transport vositalari yetarli darajada o‘rgatilmaydi, aqlli avtomobil tizimlari, elektromobillar va zamonaviy xavfsizlik tizimlari bo‘yicha darsliklar kam.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Saydaliyev I.N., Hamidov J.A., Abduqodirov A.A., Yuldashev U.Yu. - Oliy ta’limda innovatsion texnologiyalar.
2. Mamatov D.N., Hamidov J.A., To‘raqulov O.H. - Raqamli ta’lim platformalari va ularning samaradorligi.
3. Kuzmina N.F., Tatur G.Yu. - Muhandislik ta’limida zamonaviy pedagogik yondashuvlar.
4. Dudkin Yu.A., Polikarpova T.V. - Axborot texnologiyalari asosida o‘qitish usullari.
5. Ugryumov Ye.P., Averchenkov O.Ye. - Muhandislarni tayyorlashda simulyatsion texnologiyalarning o‘rni.
6. Kol B., Miyakawa H. - Avtomobil elektr tizimlarining texnologik asoslari.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdunabiyeva Maftuna Solijon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

UDK: 539.215.4

NANOZARRALAR FANI VA TEXNOLOGIYASINI O‘RTA MAKTAB FIZIKASI DASTURIGA KIRITISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.

Annotatsiya: *Ushbu maqola nanozarralar fani va texnologiyasini o‘rta maktab fizikasi dasturiga kiritish bo‘yicha xorijiy tajribalarni tahlil qiladi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalashning ahamiyati ortib borayotgan bir paytda, nanozarralarni o‘rganish o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni kelajakdagi ilmiy kashfiyotlarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada turli mamlakatlardagi o‘quv dasturlari va o‘qitish metodlari ko‘rib chiqiladi hamda o‘zbekistonlik o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar*: nanozarralar, nanotexnologiya, fizika, o‘rta maktab, o‘quv dasturi, xorijiy tajriba, o‘qitish metodlari, integratsiya, ilm-fan.*

Абдунабиева Мафтуна Салижон кызы
Преподаватель Андижанского государственного педагогического института

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ НАНОЧАСТИЦ В ПРОГРАММУ ФИЗИКИ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ.

Аннотация*: В данной статье анализируется зарубежный опыт интеграции науки и технологии наночастиц в программу обучения физике в средней школе. В условиях возрастающей важности интеграции достижений современной науки в образовательный процесс, изучение наночастиц играет важную роль в повышении интереса учащихся к физике и подготовке их к будущим научным открытиям. В статье рассматриваются учебные программы и методы обучения в различных странах, а также предлагаются практические рекомендации для учителей Узбекистана.*

Ключевые слова*: наночастицы, нанотехнология, физика, средняя школа, учебная программа, зарубежный опыт, методы обучения, интеграция, наука.*

Abdunabiyeva Maftuna Solijon kizi
Teacher, Andijan State Pedagogical Institute

FOREIGN EXPERIENCES ON INTRODUCING NANOPARTICLE SCIENCE AND TECHNOLOGY INTO THE HIGH SCHOOL PHYSICS CURRICULUM.

Abstract: *This article analyzes international experiences in integrating nanoscience and nanotechnology into secondary school physics curricula. With the growing importance of integrating modern scientific advancements into the educational process, the study of nanoparticles plays a crucial role in enhancing students' interest in physics and preparing them for future scientific discoveries. The article examines curricula and teaching methods from various countries and offers practical recommendations for teachers in Uzbekistan.*

Keywords*: nanoparticles, nanotechnology, physics, secondary school, curriculum, international experience, teaching methods, integration, science.*

Kirish.

Ta’lim tarbiya jarayonida maktabda beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning bugungi kun talabiga to‘liq javob bera olishi uchun o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish juda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi dolzarbdir. Zamonaviy maktabning muhim vazifasi o‘quvchilar uchun eng yuqori darajadagi psixologik qulaylikni ta’minlaydigan va ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda intensiv rivojlanish imkoniyatini ta’minlaydigan o‘quv sharoitlarini yaratishdir. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid juda ko‘p pedagogik tajriba-sinov

ishlari o‘tkazilgan bo‘lib, aksariyat tadqiqotlarda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashga oid metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotda sinovdan o‘tkazilgan. Biroq fan va texnikaning, zamonaviy texnologiyalarning so‘nggi yangiliklarini fanni o‘qitish jarayoniga doimiy ravishda kiritib borish bo‘yicha yetarlicha kamchiliklar va muammolar mavjud. Xususan, maktab fizika kursida nanotexnologiya sohasidagi olamshumul yangiliklar, nanofizikadagi yangi fizik jarayonlar, effektlar, ularni o‘rganish asbobuskunalari va usullari bo‘yicha materiallar yetarli emas. Shu nuqtai nazardan ushbu taqdim etilgan maqolada nanofizik tasavvurlarni o‘quvchilarda hosil qilish va bu orqali ularning ilmiy-ijodkorlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlariga oid ba’zi metodik taklif va tavsiyalarni taqdim etamiz.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.

Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan boshqa olimlar. Ma’lumki, 10-11-sinflar uchun Yu.N.Zubkov va boshqalar bilan hamkorlikda yozilgan “Nanotexnologiyaga kirish” darsligida[1] maktab fizikasi kursida nanotexnologiya va nanofizika haqidagi tasavvurlarga oid ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, yangi texnologiyalarning yutuqlari bilan tanishish hattoki boshlang‘ich maktablarda kichik maktab o‘quvchilari uchun hikoyalar, o‘yinlar, fotosuratlar, videolar, ekskursiyalar, shuningdek mehnat faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkinligi keltirib o‘tilgan. Shuningdek, umumta’lim maktablari 10-11-sinflari uchun mo‘ljallangan V.V.Svetuxin, I.O.Yavtushenko “Nanotexnologiya asoslari” darsligida2 nanotexnologiyaning asosiy tushunchalariga oid materiallar keltirilgan. Bundan tashqari, maktab ta’limida nanotexnologiya elementlarini o‘qitishga oid ilmiy-metodik ishlanmalar M. F Grebkin va L. P. Lobovalarning ilmiy ishlarida1 keltirilgan. Xorijiy olimlar Dimitris Stavrou, Emili Mixaylidi, Jannis Sgouros va Kiriaki Dimitriadi2 tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar nanotexnologiyalar sohasida kelajak avlodlarning ilmiy savodxonligini oshirishga bag‘ishlangan. Olimlar o‘rta maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan nanotexnologiya bo‘yicha ilmiy materiallarni o‘rganish ketma-ketligini ishlab chiqdilar. Ular asosan quyidagi omillarga e’tibor qaratadilar: nano o‘lchamlar va nano o‘lchamlar, nanotools va nanoqurilmalar, o‘lchamga bog‘liq xususiyatlar va ilmiy va texnik shartlar.

So‘nggi o‘n yillikda zamonaviy fan va texnologiya mavzularini o‘rta maktab fan ta’limiga kiritishga urinishlar kuchaydi [1]. Nanozarralar fani o‘zining fanlararo tabiati va ko‘plab o‘quv dasturlari mavzulariga aloqadorligi sababli [2], maktab faniga integratsiya qilish uchun zamonaviy mavzu sifatida yaxshi nomzod hisoblanadi. Nanozarralar fani va texnologiyasi nano darajadagi atom va molekulyar harakatlar bilan boshqariladigan barcha tabiiy va tirik tizimlarga tegishli [3]. Zamonaviy fanning konsepsiyalari, qo‘llanilishi va g‘oyalarini an’anaviy o‘rta maktab fan dasturiga kiritish har ikkala sohani ham chuqur tushunishni talab qiladigan jarayondir. Ushbu tadqiqot Saxnini va Blonder tomonidan olib borilgan, o‘rta ta’lim uchun nanozarralar fani va texnologiyasining nanozarralar fizikasi va texnologiyasi muhim konsepsiyalarini aniqlashga qaratilgan.

Asosiy qism.

Tadqiqotda ikki xil guruh vakillari ishtirok etdi: nanozarralar fizikasi va texnologiyasi sohasidagi mutaxassis olimlar va turli fan sohalaridagi tajribali o‘qituvchilar. Delphi tadqiqot metodologiyasidan foydalanib [5], guruhlar o‘rta maktab fanida o‘qitish tavsiya etiladigan 7 ta muhim nanozarralar fizikasi va texnologiyasi konsepsiyasi bo‘yicha kelishib oldilar. Ushbu ish nanozarralar fizikasi va texnologiyasini fizika bilan birgalikda o‘rta ta’limga integratsiyalashga qaratilgan bo‘lib, bu qiyin vazifa ekanligi isbotlangan. Avvalgi urinishda [8], 11 nafar o‘rta va yuqori sinf fan o‘qituvchilaridan 4 ta asosiy fandan iborat o‘rta maktab umumiy fan dasturida (kimyo, fizika (energiya), hayot fanlari, texnologiya tizimlari va mahsulotlar (muhandislik)) Nanozarralar fizikasi va texnologiyasining muhim konsepsiyalari uchun qo‘shish nuqtalarini aniqlash so‘ralgan. Isroilda ko‘pincha o‘rta maktabda barcha bu fanlarni bitta o‘qituvchi o‘qitadi. Bu darajada kimyo va fizika mutaxassisligi bo‘yicha o‘qituvchilar kam uchraydiganligi sababli, bu o‘qituvchilarning biologiya bo‘yicha akademik darajaga ega ekanliklari odatiy holdir. Fizika o‘quv dasturi ierarxik xususiyatga ega [10], bunda o‘quv dasturi uzoq o‘tmishdagi asosiy fizikaga urg‘u beradi. Ushbu ish uchun o‘rganilgan barcha o‘rta maktab fizika o‘quv dasturlarida nanozarralar fizikasi va texnologiyasi o‘quvchilarga ta’limning biron bir bosqichida rasman taqdim etilmagan. Talabalar bu fan bilan birinchi marta faqat oliy o‘quv yurtlarida bakalavriatning yuqori kurslariga yetganda tanishadilar. Agar biz o‘quvchilarimizga zamonaviy fizikani o‘rta ta’limda nanozarralar fizikasi va texnologiyasi kontekstidan foydalangan holda tanishtirmoqchi bo‘lsak, biz mos mazmunni topib, uni o‘rta maktab fizika o‘quv dasturiga kiritishimiz kerak. Fizika maktab o‘quv dasturi va nanozarralar fizikasi va texnologiyasining muhim konsepsiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarur. O‘qituvchilar va o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar uchun nanozarralar fizikasi va texnologiyasi o‘rta maktab fizikasi bilan bog‘liq holda zamonaviy mavzularni o‘quv dasturiga kiritish uchun boy kontekstni taqdim etadi.

Biz bu ishda ikkita qat’iy element: fizika o‘rta maktab o‘quv dasturi va NFTning muhim konsepsiyalari mezonlariga asoslangan pozitivistik paradigmani qo‘lladik. Bu nuqtai nazar nanozarralar fizikasi va texnologiyasini o‘rta maktab fizika ta’limiga kiritish borasida mutaxassislarning yondashuvi va qarashlari

haqidagi ikkita savolga javob berish uchun ishlab chiqilgan. Bu savollar nanozarralar fizikasi va texnologiyasi sohasidagi fizika mutaxassislarining fikriga ko‘ra, o‘quv dasturining tuzilishi va sinfda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan NFTga oid maxsus misollarga tegishli:

1.O‘rta maktab fizika o‘quv dasturida nanozarralar fizikasi va texnologiyasi konsepsiyalarini kiritish uchun tavsiya etilgan nuqtalar qaysilar?


2.Nanozarralar fizikasi va texnologiyasi konsepsiyalarini, misollarini va zamonaviy tadqiqotlarni qanday taqdim etishimiz va ularni o‘rta maktab fizika o‘quv dasturi kontekstiga integratsiyalashimiz mumkin?

Biz maktab fanlari mavzulari va zamonaviy fan mavzulari o‘rtasidagi mumkin bo‘lgan bog‘liqlikni aniqlamoqchimiz. Bizning maqsadimiz bu bilimlarni zamonaviy fan mavzularini kiritish nuqtalari xaritasi sifatida taqdim etish, bu nuqtalarni o‘quv dasturi mavzulariga kiritish va ularning kontekstiga misollar keltirishdir.

Maktab fizika kursida atom va molekula o‘lchamidagi zarralar va ulardagi fizik jarayonlarga oid yetarlicha fundamental va amaliy tushunchalar mavjud. Fizikada atomlarning o‘lchamlari 10^{-10} m va massasi 10^{-27} kg atrofida bo‘lishi ma’lum. Shuningdek atom bo‘linib elektron va protonlardan tashkil etishiga oid tushunchalar ham keltirilgan. Elektron kashf etilgandan bir oz vaqt o‘tgandan keyin, 1903-yilda ingliz fizigi Jozef Jon Tomson diametri taxminan 10^{-10} m, ichiga elektronlar „Sochilgan“, hajmi bo‘yicha musbat zaryadlangan sfera shaklidagi atom modelini taklif etdi. Elektronlarning sfera markaziga nisbatan tebranganda, atom yorug‘lik nurlantiradi. Tomson tomonidan aytilgan elektronlar sfera markazi atrofida qatlam bo‘lib guruhlanadi, deb hisoblanishi haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirgan o‘quvchida atom haqida yetarlicha tasavvur hosil bo‘ladi.

Ya’ni o‘quvchi oddiy vodorod atomi nazariyasini bemalol tushuntirib bera oladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar odamlarning nafas oladigan kislorod gazining molekulasi ikkita bir xil kislorod atomidan iborat ekanligi, nafas chiqarganda chiqadigan bonat angidrid gazi esa bitta uglerod va ikkita kislorod atomidan tashkil topganlgini hamda har bir atom va molekulani o‘ziga xos harflar va raqamli harf bilan belgilanishini tushuntirib, bu jarayonlarni tasavvur qila oladilar. Masalan, kislorod atomini – O harfi bilan, molekulasi ikkita atomdan tashkil topganligi uchun O_2 shaklida belgilanishi, karbonat angidrid molekulasi – CO_2 , suvniki – H_2O ko‘rinishda belgilanishini egallagan bilimlari asosida mustaqil tushuntirib bera oladilar. Bundan tashqari yuqorida keltirilgan fizik tushunchalarga ega bo‘lgan o‘quvchilar oddiy fizik masalalarni yechimlarini mustaqil topa oladilar. Masalan, suv molekulasining diametri taxminan $d \approx 3 \cdot 10^{-10}$ m bo‘lganligidan, bitta suv molekulasining hajmini taqriban topish mumkin: $V_m \approx d^3 \approx (3 \cdot 10^{-10}\ m)^3 = 27 \cdot 10^{-30}\ m^3 = 2{,}7 \cdot 10^{-29}\ m^3$. Yoki, suv molekulasining massasini hisoblash uchun suvning zichligi 1000 kg/m^3 , ya’ni 1 m^3 suvning massasi 1000 kg ga teng. 1 m^3 suvda $3{,}7 \cdot 10^{28}$ ta molekula borligi ma’lum. U holda suvdagi 1 ta molekulaning massasini taqriban hisoblash mumkin: m = ≈ $2{,}7 \cdot 10^{-26}$ kg. Demak maktab fizika kursida o‘quvchilar klassik fizika qonunlariga oid zarur nazariy bilimlarga ega bo‘lishlari moddalarning atom va molekula holatiga bo‘ladigan fizik hodisa yoki jarayonni tushunishlariga va mustaqil ijodiy fikrlay olishlariga imkon beradi. Endi nanofizik tushunchalarga keladigan bo‘lsak, o‘quvchilarning klassik fizikadagi egallagan bilim va ko‘nikmalari yetarli bo‘lmaydi. Ya’ni atrofdagi tabiiy hodisa va jarayonlarni nanoo‘lchamdagi zarralar misolida o‘rganilganda mutlaqo yangi, avvaldan uchratmagan fizikaviy effektlar va jarayonlar namoyon bo‘ladi (1-rasm). Rasmdan ko‘rinadiki, yorug‘lik elektromagnit nurlanishi metall yuzasiga tushganda, elektronlar chiqariladi. Bunda metall sirtidagi nanoo‘lchamdagi zarralarning fizik tabiatini o‘quvchi tushunishi uchun ichki va tashqi fotoeffekt qonunlariga oid nazariy bilimlarni puxta egallagan bo‘lishlari kerak. Bunda metall sirtidan chiqayotgan ushbu elektronlar fotoelektronlar deb ataladi va bu hodisa fotoelektrik effekt hodisasi deb ataladi. Kvant fizikasidan ma’lumki, fotoelektrik effekt - yorug‘lik kabi elektromagnit nurlanish materialga urilganda elektronlarning chiqishi sodir bo‘ladi. Shu tarzda chiqariladigan elektronlar fotoelektronlar deb ataladi. Bu hodisa atomlar, molekulalar va qattiq jismlarning xossalari haqida xulosa chiqarish uchun kondensatsiyalangan moddalar fizikasi, qattiq holat va kvant kimyosida o‘rganiladi. Nanoo‘lcham holatida o‘rganilishi ushbu effekt yorug‘likni aniqlash va aniq vaqtli elektron emissiya uchun ixtisoslashgan elektron qurilmalarda qo‘llanilishiga imkon yaratdi. Fizikada ushbu materiallarni yetkazishda nanozarra, nanomaterial, nanotuzilma va ularni hosil qilishning metod va usullari, ularni kuzatish, boshqarish va nazorat qiluvchi asbob-uskunalar to‘g‘rida dastlab ma’lumotlar berilishi maqsadga muvofiq [8].


1-rasm. Fotoelektrik effekt hodisasiningmodda sirtidagi (a) va modda ichidagi (b) jarayonlari



Shuningdek, “Nanonaycha” – bu milliondan ortiq uglerod atomlaridan iborat molekula bo‘lib, u diametri 1 nanometrga yaqin va uzunligi bir necha o‘n mikron bo‘lgan naycha ko‘rinishidadir. Naycha devorlari uglerod atomlari to‘g‘ri oltiburchaklarning uchida joylashgan.

Nanonaychalar tuzilishini quyidagicha ko‘z oldimizga keltirish mumkin – grafit tekislik olamiz, qog‘oz, uni uzun qilib kesamiz va tsilindrga yopishtiramiz. Bu juda oddiydek tuyiladi, biroq buni nanonaychalar tajribalar natijasida yaratilguncha hech bir nazariyachi oldindan aytib bera olmagan. Quyidagi 2-rasmda fulleren molekulasi strukturalari va 3-rasmda nanonaychaning tuzulishi keltirilgan. Fulleren atamasi mashhur arxitektor Bakministr Fuller sharafiga qo‘yilgan bo‘lib, u bunday strukturalarni arxitekturada foydalanish uchun yaratgan. Fulleren futbol koptokchasiga juda o‘xshash, 5-6 burchak shaklli “Yamoqlar” dan tuzilgan karkas tuzilishiga ega. Bu ko‘pyoqlar uchida uglerod atomlari joylashgan deb tasavvur qilsak, unda biz eng barqaror bo‘lgan C_{60} fullerenini olamiz. C_{60} molekulasida oltiburchaklarining soni 20 ga teng. Bunda har bir beshburchak faqat oltiburchakli bilan chegaralashgan, har bir oltiburchak oltiburchaklilar bilan 3 ta umumiy tomonga va 3 ta beshburchaklar bilan umumiy tomonga ega. Nanonaychalarning ajoyibligi shundan iboratki, nanonaychalar odam sochi tolasidan 100 ming marta ingichka bo‘lishiga qaramasdan juda ham mustahkam material bo‘lib chiqdi. Nanonaychalar po‘latdan 50-100 marta mustahkamroq va 6 marta kichik zichlikka ega. Yung moduli –materialning deformatsiyaga qarshilik darajasi–bu nanonaychalarda oddiy uglerod tolalariga nisbatan ikki barobar yuqori ekanligi aniqlangan [9]. Naychalar nafaqat mustahkam, balki o‘ta qattiq mustahkam rezina naychalarga o‘xshaydi

2-rasm. Nanonaychaning tuzulishi.



Xulosa.

Nanozarralar fani va texnologiyasini o‘rta maktab fizikasi dasturiga kiritish bo‘yicha xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu soha o‘quvchilarning zamonaviy ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni kelajakdagi martaba uchun tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Turli mamlakatlar tajribasi nanozarralar mavzusini fizika dasturiga kiritishning turli yondashuvlarini namoyish etadi.

Ba’zi mamlakatlarda nanozarralar alohida modul sifatida o‘qitiladi, boshqalarida esa mavzu mavjud fizika mavzulariga integratsiya qilinadi. Masalan, materiallar xossalari, optika, elektr va magnetizm kabi mavzular nanozarralar misollari bilan boyitilishi mumkin. O‘qitishda amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, kompyuter modellashtirish va boshqa interfaol usullar keng qo‘llaniladi.

Xorijiy tajribani o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Nanozarralarni o‘rganish o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni tanqidiy fikrlashga undaydi.
- Interfaol o‘qitish usullari nanozarralar haqidagi bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.
- O‘quvchilarni ilmiy loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Nanozarralarni o‘rganish o‘quvchilarni kelajakdagi nanotexnologiya sohasidagi martaba uchun tayyorlaydi.

O‘zbekistonda nanozarralar fanini o‘rta maktab fizikasi dasturiga kiritishda xorijiy tajribani inobatga olish va uni milliy ta’lim tizimining xususiyatlariga moslashtirish lozim. Bu jarayonda o‘qituvchilarni yangi o‘qitish metodlari bo‘yicha o‘qitish va ularni zarur resurslar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] L.A. Bryan, A.J. Magana, and D. Sederberg, Published research on pre-college students’ and teachers’ nanoscale science, engineering, and technology learning, Nanotech. Rev. 4, 7 (2015).

[2] M.G.Jones, R. Blonder, G.E. Gardner, V. Albe, M. Falvo, and J. Chevrier, Nanotechnology and nanoscale science: Educational challenges, Int. J. Sci. Educ. 35, 1490 (2013).

[3] M.C.Roco, From vision to the implementation of the U.S. national nanotechnology initiative, J. Nanopart. Res. 3,5 (2001).

[4] S. Sakhnini and R. Blonder, Essential concepts of nanoscale science and technology for high school students based on a Delphi study by the expert community, Int. J. Sci. Educ. 37, 1699 (2015).

[5] J.W. Murry, Jr. and J.O. Hammons, Delphi: A versatile methodology for conducting qualitative research, Rev. High. Educ. 18, 423 (1995).

[6] R. Blonder and S. Sakhnini, The making of nanotechnology: exposing high-school students to behind-the-scenes of nanotechnology by inviting them to a nanotechnology conference, Nanotech. Rev. 4, 103 (2015).

[7] A.L. Kähkönen, A. Laherto, A. Lindell, and S. Tala, Interdisciplinary nature of nanoscience: Implications for education, Global Perspectives of Nanoscience and Engineering Education (Springer, Cham, 2016), pp. 35–81.

[8] S. Sakhnini and R. Blonder, Insertion points of the essential nanoscale science and technology (NST) concepts in the Israeli middle school science and technology curriculum, Nanotech. Rev. 7, 373 (2018).

[9] S. Kapon, U. Ganiel, and B.S. Eylon, Explaining the unexplainable: Translated scientific explanations (TSE) in public physics lectures, Int. J. Sci. Educ. 32, 245 (2010).

[10] S.Kapon,U.Ganiel, and B.Eylon,Scientific argumentation in public physics lectures: bringing contemporary physics into high-school teaching, Phys. Educ. 44,33(2009).

[11] Ministry of education cite, Israel (n.d.). Retrieved April 01, 2017, from http://meyda.education.gov.il/files/Mazkirut_ Pedagogit/MadaTechnologya/tochnit_phizika.pdf.

[12] R. Blonder and S. Sakhnini, Finding the connections between a high-school chemistry curriculum and nano-scale science and technology, Chem. Educ. Res. Pract. 18, 903 (2017).

[13] A. Shkedy, The Meaning behind the Words: Methodologies of Qualitative Research: Theory and Practice (The Hebrew University of Jerusalem, Jerusalem, 2012).

[14] S. McDonald, K. Daniels, and C. Harris, Cognitive mapping in organizational research, Essential Guide to Qualitative Methods in Organizational Research (2004), pp. 73–85.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Arabboev Qahramon Tohirjonovich
Qo‘qon davlat universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsent

JISMONIY MADANIYAT YO‘NALISHI TALABALARIDA O‘QUV VA SPORT FAOLIYATI INTEGATSIYASI ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarida o‘quv va sport faoliyati integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy madaniyat, sport faoliyati, integratsiya, kompetentlik.*

Араббоев Кахрамон Тахиржонович
Кокандский государственный университет
Доцент кафедры физической культуры

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ УЧЕБНОЙ И СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация: *В данной статье изложены предложения и рекомендации по развитию профессиональной компетентности студентов направления физической культуры на основе интеграции учебной и спортивной деятельности.*

Ключевые слова: *физическая культура, спортивная деятельность, интеграция, компетентность.*

Qahramon Tohirjonovich Arabboev
Kokand State University
Associate Professor, Department of Physical Education

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION THROUGH THE INTEGRATION OF EDUCATIONAL AND SPORTS ACTIVITIES

Abstract: *This article presents proposals and recommendations for the development of professional competence of students in the field of physical education through the integration of educational and sports activities.*

Key words: *physical education, sports activities, integration, competence.*

Kirish

Jahonda jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, jismoniy ta’limda o‘quv faoliyati va jismoniy tarbiya va sport faoliyati integratsiyasini amalga oshirish asosida pedagogik jarayonlarpni tashkil etish va shu asosda bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxasislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar avlodini tayyorlash tizimini isloh etish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun esa jismoniy ta’limda o‘quv va sport faolimyati intiegarutsiyasini amalga oshirish va integratsion ta’lim imkoniyatlaridan jismoniy madaniyat yo‘anlishi talabalarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirishda foydalanish, kasbiy tayyorgarligini oshirishga innovatsion yondashuvlarni olib kirish zarurati yuzaga chiqmoqda. SHu bois jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalaroining o‘quv va sport faolligini oshirish asosida kasbiy mahorati va raqobatbardoshligiga qo‘yilgan yuqori talablar ularning o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta’minlashni taqozo etadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham bo‘lajak kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ularning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatda kreativ bo‘lish, yuksak aqliy salohiyatga ega shaxs sifatida gavdalanish, kreativ ijodkor sifatida faoliyat yuritishlariga erishishga qaratilgan yangicha yondashuvlarni olib kirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Bu orqali “mamlakatimizda yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta’limni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, iqtidorli

sportchilarni tanlab olish jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish" zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining o'quv va sport faoliyati integratsiyasi asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimini modernizatsiyalash, integrativ yondashuv asosida zamonaviylashtirish vazifalarini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3- iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-oktyabrdagi "O'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 864-son Qarori, O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"ti PF-5368-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 apreldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 542-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 noyabrdagi PQ4877-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

O'zbekistonda jismoniy ta'limni rivojlantirish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularda kasbiy kompetentlikni, shuningdek, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish masalarini F.A.Karimov, Sh.Xonkeldiev, A.Abdullaev, D.Sharipovava, N.A.Muslimov, M.Isakov, R.Yusupov, N.Sayidahmedov, X.Ro'ziev, T.S.To'ychiyev, Yo.R.Rahmanova, G.X.Tillaeva, B.X.Xodjaev kabi pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida o'quv va sport faoliyati integatsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodik tizimi mazmuni, modeli va ta'lim texnologiyasi tahlil qilingan. Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida o'quv va sport faoliyati integatsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodik tizimi metodik imkoniyatlarni hissobga olish va integratsion ta'lim imkoniyatlaridan unumli foydalanish asosida malga oshiriladi.

Tadqiqotning maqsadi: jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida o'quv va sport faoliyati integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat..

Tadqiqotning vazifalari:

jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ning psixologik-pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida o'quv va sport faoliyati integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida o'quv va sport faoliyati integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni takomillashtirish;

Tadqiqotning tashkil etilishi va samaradorligi

Zamonaviy jismoniy madaniyat ta'limi ma'lum ma'noda jamiyatning yuqori malakali jismoniy tarbiya mutaxassislariga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji va bitiruvchilarning amaliy-kasbiy tayyorgarliklari o'rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar bilan bog'liq muammoli vaziyat bilan ifodalanadi.

1-jadval

Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida o'quv va sport faoliyati integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasining tasnifiy belgilari

№	Qo'llanilish darajasi	Umumpedagogik	Mikrotexnologiya
1.	Pedagogik asosi	Kasbiy kompetentlikni insonparvarlik, tashabbuskorlik, mehnarsevarlik va fidoiylikka yo'naltirilganligi	Turli xil konseptsiyalar
2.	Metodologik yondashuv	Tizimli-tuzilmaviy, shaxsga yo'naltirilganlik va individuallik	SHaxs-faoliyatli, integrativ va yondashuv
3.	Rivojlanishning yetakchi omillari	Psixogen	Psixogen, Art va event texnologiyalari

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish joizki, jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida o'quv va sport faoliyati integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni va mohiyati amalda yangi tasavvur, g'oya, qarashlar hamda ularda ilg'or texnologiyalar haqidagi bilimlarning mahsuli bo'lib, uning natijasi innovatsion fikrlash ko'nikmasi sifatida yuzaga kelgan ixtironi – loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida o'quv va sport faoliyati integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik jarayonni

ijodiy tashkil etish juda muhim bo‘lib, quyidagi tavsiyalarga amal qilish talab etiladi.

Birinchidan, jismoniy ta’limda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar davrida talabalarni ko‘proq sport faoliyatiga doir jumboqli topshiriqlar bilan shug‘ullantirish lozim va bu ularning kasbiy ko‘nikmalari va jsimoniy imkoniyatlarini o‘stiradi.

Ikkinchidan, sport ustalari, jahon chempionlari, dunyo rekordini yangilagan sportchilar va boshqa insonlarni talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirish, ularning yutuqlari, muvafaqiyatlaridan ilxomlanish, ularga intilish va o‘z kreativligini rivojlantirish mumkin.

Uchinchidan, jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari uchun qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy steriotiplar asosida pedagogik jarayonni tashkil etishdan ko‘ra, integrativlik asosida darsni tashkil etish samaradorligiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

“Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarida o‘quv va sport faoliyati integratsiyasi asosida kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi” tadqiqi doirasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Jismoniy ta’limda o‘quv va sport faoliyati integratsiyasini yaratish asosida jismongiy madaniyat talabalarining kasbiy kampetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish jismoniy ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

2. Kasbiy kompetentlik – kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishiga nisbatan ishlatilishi va u alohida bilim, malakalarning egallanishinigina emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini anglatishi kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov F.Q, Yaxshieva M.Sh. Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlar jismoniy madaniyatini yanada takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari // Science and Education Scientific Journal Volume 1 Issue 1. – 408 b. www.openscience.uz

2. Виленский М.Я. Профессиональное мышление в теории и практике педагогической деятельности преподавателя физического воспитания высшей школы // Теория и методика физической культуры. 2004. № 7. 19-21.

3. Виленский М.Я. Формирование индивидуального опыта творческой деятельности учителя физической культуры как условие его современной профессиональной подготовки / Виленский М.Я., Зайцева С.Н. // Теория и практика физ. культуры. 2011. № 7. 10-12.

4. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "The role of physical culture and sports in student activity and lifestyle." international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.

5. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "Sportda bashorat qilish muammolari." international journal of science and technology (2024): 39-43.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Gafforov Alisher Xolmurodovich
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
alishergafforov78@gmail.com

UDK: 377:004

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARINING YAGONA RAQAMLI TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Maqolada professional ta'lim muassasalarining yagona raqamli ta'lim muhitini yaratish va undan samarali foydalanish masalalari bayon etilgan. Bunday zamonaviy ta'lim muhitini yaratish prinsiplari, talablari va o'quv jarayoni sub'ektlarining vazifalari belgilab berilgan.*

Tayanch iboralar: *raqamli ta'lim muhiti, yagona raqamli ta'lim tizimi, tamoyil, masofaviy ta'lim, internet texnologiyalari, axborotlashgan jamiyat, elektron kutubxona.*

Гаффоров Алишер Холмуродович
Бухарский инженерно-технологический институт, кандидат педагогических наук, доцент

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. *В статье рассмотрены вопросы создания и использования единой цифровой образовательной среды профессиональных образовательных учреждений. Обозначены принципы создания, требования и задачи субъектов учебного процесса в современной образовательной среде.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, единая цифровая образовательная среда, дистанционное обучение, интернет технологий, информационное общество, электронная библиотека.*

Gafforov Alisher Kholmurodovich
Bukhara Institute of Engineering and Technology, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

ISSUES OF FORMATION OF THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. *The article discusses the issues of creating and using a unified digital educational environment of professional educational institutions. The principles of creation, requirements and tasks of subjects of the educational process in the modern educational environment are outlined.*

Keywords: *digital educational environment, unified digital educational environment, distance learning, Internet technologies, information society, electronic library.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi F-6079 - son "Raqamli O'zbekiston-2030" va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida axborot texnologiyalari sohasida masofaviy texnologiyalarni rivojlantirish, onlayn-kurslar uchun platformalarni ishlab chiqish, o'quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanishlari darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlarida o'zgartirishlar kiritish vazifalari belgilab berilgan [1].

Farmonda belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizning professional ta'lim muassasalarining raqamli ta'lim muhitini yaratish va rivojlantirib borish, eng avvalo ta'lim sifati darajasini oshirish bilan birga, dasturiy-metodik materiallar bilan o'zaro almashishni ta'minlash, ta'lim tizimidagi sub'ektlarning kasbiy kompetentligini oshirish, ta'lim oluvchilarning ijodiy ishlarini faollashtirish va mustaqil bilim olish imkoniyatlarini keskin oshiradi.

Raqamli ta'lim muhiti (RTM) – innovatsion tamoyil bo'lib, o'qitishda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashga yo'naltiradi. RTM har bir ta'lim

oluvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda egiluvchan va adaptiv ta'lim muhitini yaratish imkoniyatini beradi. RTMning asosiy maqsadi zamonaviy axborot texnologiyalari hisobidan ta'lim sifatini oshirishdir [2,3].

Professional ta'lim muassasalarida RTM quyidagilarni ta'minlashi kerak:

– axborotlarni yaratish, qidirish, yig'ish, tahlil etish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etishning zamonaviy protseduralaridan foydalanish;

– ta'lim jarayoni barcha ishtirokchilarining masofaviy hamkorligi, shu jumladan masofaviy ta'lim doirasida;

– ta'lim muassasining boshqa ijtimoiy soha tashkilotlari bilan masofaviy hamkorligi;

– ta'lim muassasalari pedagoglarining axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)-kompetentsiyasini shakllantirish darajasini oshirish;

– barcha o'quv fanlarini o'qitish amaliyotida axborot texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari;

– ta'lim muassasini zaruriy jihozlar bilan ta'minllash;

– kompyuter texnikasi va boshqa raqamli vositalarni amaliy joriy etish uchun sharoitlarni yaratish;

– Internet global axborot kanallariga ochiq ruxsat berish imkoniyatlari.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Shuni ta'kidlash joizki, professional ta'lim muassasalarida mintaqa va Respublikamiz miqyosida raqamli ta'lim muhitini (RTM) shakllantirish va uni doimiy rivojlantirib borish zaruriyatini tushunish, uning amaliy ahamiyatini anglab yetish lozim.

Ta'lim muassasalarining RTMni ishlab chiqish va uni o'quv jarayonida joriy etish bo'yicha tadqiqotlar U.SH.Begemqulov, I.V.Robert, A.Yu.Uvarov, V.A.Krasil'nikova, A.G.Abrosimovlar tomonlaridan olib borilgan.

V.A.Krasilnikovaning fikriga ko'ra, RTM ta'lim faoliyatini uzluksiz rivojlantirib borish bilan birga, uni modernizatsiyalash, shuningdek uzluksiz ravishda mustaqil bilim olishning yangi shakllarini joriy etish imkoniyatlarini beradi [2].

RTMni yaratish va undan foydalanish bo'yicha dolzarb masalalarning mohiyatidan kelib chiqqan holda, biz viloyatimizning professional ta'lim muassasalarida amaliy pedagogik faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar oldida turgan ayrim muammolarni, shuningdek mavjud vaziyatni o'rganib va tahlil etgan holda quyidagalarni aniqladik:

– pedagoglarning, ayniqsa gumanitar fanlardan dars beradigan o'qituvchilarning kompyuter savodxonligi yetarli darajada yuqori emas;

– AKT asosida o'quv-metodik materiallarni o'quv jarayonida joriy etish darajasini oshirish talab etiladi;

– kompyuter texnologiyalari asosida mashg'ulotlarni tashkil etish darajasini yanada oshirish talab etiladi;

– o'quvchilarning AKT asosida mustaqil ishlarining o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirish va undan foydalanishning didaktik asoslarini yaratish va joriy etish lozim;

– o'quvchilar mustaqil ishlarining shakl va formalarini kengaytirish (AKT, masofaviy ta'lim, Internet texnologiyalari va h.k.), ular asosida mustaqil bilim olish va ijodkorlik faoliyatini shakllantirish kerak.

Maqolani tayyorlashda quyidagi materiallardan va metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlar tahlili, pedagogik tajriba, qiyosiy tahlil, xorij tajribasi, ekspertli baholash metodi.

Maqolani tayyorlash jarayonida tadqiqot muammosi bo'yicha adabiyotlar tahlili o'tkazildi. Natijada muallif tomonidan professional ta'lim muassasalarida RTMni ta'lim jarayonida integratsiyalash zarurliyati mavjudligi haqidagi xulosaga kelindi. RTMni rivojlantish asosida yagona raqamli ta'lim muhitini yaratish printsiplari va talablari belgilab berildi.

Natija va muhokama

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, quyida biz axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonida keng joriy etish, o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish maqsadida Respublikamiz professional ta'lim muassasalarining RTMni rivojlantirish va undan samarali foydalanish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim muassasalarining raqamli ta'lim muhitini shartli ravishda ikki turga bo'lgan holda tashkil etish maqsadga muvoffiqdir [2,4].

Birinchisi yopiq RTM bo'lib, u ta'lim muassasalari strukturasi tarkibida dasturiy-metodik ishlatmalar va raqamli ta'lim resurslar asosida tashkil etilishi mumkin. RTMning yopiq modelini yaratishda o'quv fanlariga tegishli o'quv dasturlar asosida ishlab chiqilgan metodik ta'minot hamda ularni o'quv jarayonida qo'lash aloqadorligi asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Albatta, ushbu aloqadorlikda biz o'qitish texnologiyasini, subyektlarning aloqadorligini hamda o'qituvchilarning pedagogik faoliyati komponentalarini inobatga olishimiz kerak.

RTMning yopiq modeli o'quvchilarga ta'lim muassasida ishlab chiqilgan raqamli o'quv majmualardan, elektron kutubxona fondidan, shuningdek boshqa turli didaktik materiallardan jamoaviy foydalanish imkonini beradi.

Raqamli ta'lim muhitining yopiq modelini loyihalashda ta'lim muassasalarining pedagog-xodimlari faol ishtirok etishlari kerak. Chunki, bunday muhit "talaba-o'qitish muhiti-o'qituvchi" tizimida uch tomonlama interfaol muloqot asosida faoliyat olib boradi

va unda o‘qituvchi tyutor vazifasini bajarish bilan birga, ta’lim muhitini doimiy loyihalovchisi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu modelning asosiy kamchiligi shundaki, ta’lim oluvchilar faqat ichki resurslardan foydalanish bilan chegaralanib qoladilar.

Lekin, hozirgi jahon hamjamiyatidagi dinamik o‘zgarishlar, fan-texnika va texnologiyalarning AKTdan foydalanish bo‘yicha yutuqlari - ta’lim muhitini tashkil etishning zamonaviy yondoshuvini taqozo etadi. Bu eng avvalo jahon axborot infrastrukturasi bozoridan samarali foydalanishni, insoniyat tomonidan doimiy yig‘ilib borilayotgan bilimlar va ma’lumotlar bankidan, internet tarmogining ta’lim resurslaridan jamoa bo‘lib foydalanishni hamda ochiq ta’lim tizimini joriy etishni nazarda tutadi.

Respublikamizda fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha yutuqlari - ta’lim muhitini tashkil etishning ikkinchi turini zamonaviy yondoshuv asosida tashkil etish imkonini beradi. Bu eng avvalo Respublikamizdagi mavjud ta’lim muassasalarining raqamli ta’lim resurslaridan, bilimlar va ma’lumotlar bankidan jamoa bo‘lib foydalanishni tashkil etish maqsadida ochiq ta’lim tizimini yoki boshqacha qilib aytganda yagona raqamli ta’lim tizimini joriy etishni nazarda tutadi.

Axborot-kommunikatsiya tenologiyalarining keyingi 25-30 yil ichida keskin o‘zgarishi, shu jumladan mamlakatimizda zamonaviy fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, shuningdek AKTni iqtisodiyotning turli sohalarida joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan harakatlar - ta’lim muhitini tashkil etishning ikkinchi turini (modelini) zamonaviy yondoshuv asosida tashkil etish imkonini beradi. Ushbu modelning asosiy printsipial farqli xususiyati – professional ta’lim muassasi, mintaqa va Respublikamizning boshqa texnikumlarining raqamli ta’lim resurslarini integratsiyalashdir. Bunday modelni yaratish va uni joriy etish, eng avvalo o‘quv jarayonini boshqarishni raqamlashtirishdan boshlanishi kerak. O‘quv jarayonini boshqarishni raqamlashtirish quyidagilarga yo‘naltiriladi:

– Respublikamizdagi barcha axborot tizimlari bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan va lokal kompyuter tarmoqlari bazasidagi ichki axborot tizimlarini yaratish va rivojlantirish;

– o‘quv jarayonini boshqarish masalalarini hal etilishini ta’minlovchi bilimlar va ma’lumotlarning taqsimlangan tizimini generatsiyalash va tarqatish;

– o‘quv jarayonining funksional va samarali faoliyatining modelini ishlab chiqish.

Ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim uchun o‘quv jarayonini raqamlashtirishda dasturiy-metodik majmualarni, bilimlar va ma’lumotlar bazasini yaratish zarur. Shuningdek, o‘quv jarayonini raqamlashtirish doirasida instrumental dasturiy-didaktik vositalar hamda raqamli resurslar yaratilishi va ular integrallashgan yagona RTMda o‘zlari integrallashgan holda foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Har qanday o‘quv muassasining ta’lim muhiti o‘zining xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu modelga o‘xshash bo‘lishi mumkin. Agar ta’lim muassasi raqamli muhitining yopiq modeli va raqamli ta’lim muhitining ochiq modellarini o‘zaro integrallashtirsak va ularning o‘zaro aloqadorligini ta’minlay olsak, unda yagona raqamli ta’lim muhitini (YARTM) yaratish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Yagona raqamli ta’lim muhitida subyektlarning asosiy vazifasi – axborot-metodik materiallarni ishlab chiqish va ta’lim muassasalari mini portallarida joylashtirish va har qanday ta’lim sub’yektiga undan foydalanish imkoniyatlarini yaratishdir.

Ta’lim jarayonidagi subyektlarga YARTMda ishlashi nima berishi mumkin, degan haqli savol tug‘iladi? Bu savolga batafsil va atroflicha javob berish uchun, eng avvalo YARTMni yaratish va undan foydalanish bo‘yicha asosiy vazifalar va yo‘nalishlarni belgilab olamiz [5]:

1. Zamonaviy ta’lim modelining asosi sifatida o‘qitishning tarmoq texnologiyalarini joriy etish va uni amaliy pedagogik faoliyatda aprobatsiya qilish;

2. Individual o‘qitish sharoitlarini yaratish va induvidni rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy raqamli va ta’lim texnologiyalari asosida ta’lim olishning turli shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish;

3. Quyidagi zamonaviy kompyuterli o‘qitish vositalarini ishlab chiqish uchun turli darajadagi va yo‘nalishdagi ta’lim muassasalarining pedagogik korpusini hamkorlikdagi faoliyatini faollashtirish va quyidagilarni ta’minlash:

a) raqamli gipermurojaatli darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar;

b) mul’timediali demonstrativ va modellashtiruvchi o‘quv-uslubiy va boshqa materiallar;

v) turli yo‘nalishdagi tayyorgarlik bo‘yicha interfaol kompyuterli o‘qitish vositalari;

g) boshqa turdagi ta’lim vositalari.

4. Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha sharoitlarni yaratish, o‘quv-metodik materiallar va kompyuterli o‘qitish vositalari bilan ta’minlash;

5. Axborot va tarmoq texnologiyalari bilan ishlovchi ta’lim muassasalari pedagoglarini uzluksiz malakasini oshirilishini ta’minlashtirilishiga erishish;

6. Ta’lim jarayonidagi barcha subyektlarning ijodiy potentsialini rivojlantirish, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, talabalarning ilmiy-amaliy anjumanlarini o‘tkazish;

7. Videoanjuman va Internet-translyatsiya rejimlarida tomonlarni qiziqtiradigan masalalar bo‘yicha seminarlar va kengashlar o‘tkazish.

Yuqoridagi masalalar professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning mustaqil bilim olishi uchun YARTMni yaratish zaruriyatini belgilaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, axborotlashgan jamiyatda zamonaviy YARTMni yaratish printsiplari va talablari muhim masalalardan biri bo‘lib, ular kompleks yondoshuvni talab etadi. Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, YARTMni yaratish printsiplari va talablariga quyidagilarni omalga oshirishni belgilab olish maqsadga muvofiqdir [6]:

1. YARTMni Respublikamizning professional ta’lim muassasalari miqiyosida yaratishning tamoyilini ishlab chiqish (“Raqamli O‘zbekiston-2030” to‘g‘risidagi farmon asosida);

2. Respublika korporotiv tarmog‘ini yaratish va rivojlantirish hamda unga barcha professional ta’lim muassasalarini ulash;

3. Ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va pedagogik xodimlarini ijodiy kuchini birlashtirish;

4. Ta’lim muassasalarining barcha ishtirokchilarini teng huquqlikda qatnashishini quyidagicha taqdim etish:

a) integrallashgan RTMni tashkil etish va rivojlantirish;

b) jamoatchilik asosida ishlab chiqilgan va o‘quv jarayonini modernizatsiyalashga yo‘naltirilgan dasturiy va metodik mahsulolarni ishlab chiqish, muhokama qilish hamda qo‘llash;

v) pedagogik faoliyat olib borish muammolari bo‘yicha turli darajadagi seminarlar tashkil etish;

g) Respublikamiz miqiyosida yagona ilmiy-metodik kengash tashkil etish va uning samarali ishlashini ta’minlash;

d) har qanday ta’lim muassasining pedagogik faoliyatiga doir qarorlar qabul qilish;

e) ta’lim muassasi ilmiy va pedagogik faoliyatining turli qirralariga oid ixtiyoriy axborotni olishni ta’minlash.

5. YARTMni yaratgan qatnashuvchilarga har qanday ijobiy turdagi ishlarni olib borishiga ruxsat berish va uning ochiqligini ta’minlash;

6. YARTMni yaratishga bevosita va bilvosita qatnashgan sub’ektlarga dasturiy va metodik xarakterdagi ishlatmalarni hech qanday cheklovsiz o‘zaro almashish;

7. YARTMning sub’ektlari ishini attestatsiyasining yagona talablarini ishlab chiqish;

8. YARTMni rivojlantirish bo‘yicha ishlar natijalarini ochiq va konstruktiv muhokama qilish.

YARTMni yaratish uchun nima qilish kerak? Albatta, bu borada katta hajmdagi ishlarni bajarish lozimligini tushunish zarur. Lekin, dastavval biz hozirgi vaqtda nimaga ega ekanligimizni tahlil etishimiz kerak. Quyida biz YARTMni yaratish bo‘yicha tayyorgarlik ishlarini bajarish ketma-ketligini, ya’ni uning algoritmini tavsiya etamiz. Aniqlik uchun Respublikamiz professional ta’lim muassasalari muhitini ko‘rib chiqamiz. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, YARTM yaratish uchun quyidagilar zarur:

1. Quyida keltirilgan pozitsiyalar bo‘yicha ta’lim muhiti subyektlarida ATM holati qanday ekanligining chuqur tahlilini o‘tkazish:

a) ta’lim muassasalarining kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya aloqa vositalari bilan ta’minlanganligini aniqlash (lokal, mintaqaviy, global tarmoqqa chiqishi);

b) Respublikamiz miqiyosida ta’lim muassasalarini axborotlashtirish dasturining mavjudligi;

v) har bir ta’lim muassasidagi RTR va innovatsion texnologiyalarning mavjudligi va ulardan foydalanish darajasi;

g) Respublikamiz ta’lim muassasalarining har birini pedagogik faoliyati xususiyatlarini aniqlash;

d) axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ta’lim muassasalarining tayyorgarlik darajasi;

e) har bir muassasa ta’lim saytinining arxitekturasini ishlab chiqishi;

j) ta’lim muassasalarining o‘zaro elektron kutubxonasi rolini aniqlash, uning mintaqaviy ta’lim portalini yaratish va rivojlantirishdagi o‘rnini belgilash.

2. Mintaqadagi ta’lim muassasalari ta’lim saytlari tizimi asosida ta’lim portalining strukturasini va dasturiy majmuasini ishlab chiqish;

3. Belgilangan ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha mintaqaviy resurs markazini tashkil etish;

4. Ta’lim va boshqa axborot resurslariga bemalol kirish uchun kompyuter sinflarini tashkil etish bo‘yicha va ularning faoliyat ko‘rsatishini ta’minlovchi talablar majmuasini ishlab chiqish;

5. Mintaqaviy ta’lim portallari, ta’lim muassasalari saytlari va tarmoq axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan mintaqaviy YARTM modelini ishlab chiqish;

6. YARTMning rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish, uning fan, madaniyat, sog‘liqni saqlash va h.k. bo‘yicha axborot resurslari hamda tarmoqlari bilan aloqadorligini ta’minlash yo‘llarini ishlab chiqish.

Xulosa

Demak, yuqorida belgilangan vazifalarni amaliy jihatdan ishlab chiqish va rivojlantirib borish natijasida biz Respublikamiz miqiyosida professional ta’lim muassasalarining YARTMni yaratishga hamda undan ta’lim samaradorligini oshirish borasida bilimlar va ma’lumotlar bazasidan jamoa bo‘lib foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Bunday imkoniyatlardan samarali foydalanish o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar oldida ma’lum talablar qo‘yadi.

Bunday talablar eng avvalo ta’lim jarayonidagi subyektlarning axborot madaniyatining shakllanganligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ulardan axborot jarayonlari, uning modellari va texnologiyalari xususida yetarli bilimga ega bo‘lishini, o‘z faoliyatida axborotlarni qayta

ishlash va tahlil etish usul hamda vositalarini joriy etish malakalariga ega bo‘lishini, shuningdek zamonaviy axborot texnologiyalarini kasbiy (ta’lim) faoliyatida foydalanish qobiliyatining shakllanganligini talab etadi.

Bundan tashqari, bunday yangi ta’lim muhiti ta’lim jarayoni ishtirokchilarining zamonaviy muloqot rolini va xarakterini ham o‘zgartiradi. O‘quv jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro aloqadorlik xarakteri hamkorlik pedagogikasi printsiplariga akslanadi. Ularga teng huquqlik, an’anaviy o‘zaro aloqadorlik printsipidan voz kechish, alternativlik, maqsadlarni aniq belgilash va o‘zaro hurmat kabi hamkorlikda ishlash printsiplari kiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan RTMda tashkil etiladigan o‘quv jarayoni an’anaviy o‘qitish sharoitidan farqli ravishda quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

– ta’lim sohalarini o‘zlashtirish bo‘yicha vositalarni, o‘qish formalarini hamda o‘quv materiallarni o‘zlashtirish tempini tanlash imkoniyatining oshishi;

– elektron kutubxonadan turli axborotlarga ega bo‘lish, ta’limning virtual muloqotlarida faol ishtirok etishni ta’minlashi;

– ko‘rgazmalilik, o‘quv materiallarni interfaol formada taqdim etilishi hisobidan o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishining oshishi;

– mustaqil bilim olish motivatsiyasining oshishi, tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishi;

– jamoaviy o‘qish metodlarini faol joriy etish va undan foydalanishni (forumlarda muammoli vaziyatlarni jamoaviy muhakama etish);

– umr mobaynida uzluksiz ta’lim olish ko‘rsatmalarining shakllanishi.

Demak, ta’lim muassasalarining YARTMni yaratish va uni o‘quv jarayonida joriy etish - zamonaviy ta’limning didaktik, axborot, metodik va texnologik imkoniyatlarini oshirish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Belgilangan vazifalar ta’lim sifatini oshirish uchun YARTMni yaratishning dolzarbligini va undan subyektlar samarali foydalanishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni belgilab beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi F-6079 - son “Raqamli O‘zbekiston -2030” va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi Farmoni. www.lex.uz

2. Красильникова В.А. Информационные и коммуникационные технологии в образовании: учебное пособие. – М.: ООО «Дом педагогики», 2012 – 231 с.

3. Трудности и перспективы цифровой трансформации образования / А.Ю. Уваров [и др.]. М.: Высшая школа экономики, 2019. 343 с.

4. Исмагилов Н.А. Современные технологии цифровой образовательной среды / Н.А.Исмагилов, И.Р.Хабибуллин, О.В.Азовцева. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 12 (459). — С. 155-158. — URL: https://moluch.ru/archive/459/101021/ (дата обращения: 15.11.2024).

5. Каракозов С.Д., Уваров А.Ю. Успешная информатизация – трансформация учебного процесса в цифровой образовательной среде // Проблемы современного образования. 2016. № 2 С. 7–19.

6. Абросимов А.Г. Теоретические и практические основы создания информационно-образовательной среды вуза. Самара: Изд-во Самар. гос. экон. акад., 2003. 204 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Z.S.Artiqov
RTUp.f.b.f.d. (PhD), professor

KURASH TURLARIDA TEXNIK USULLARNI O‘RGATISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada belbog‘li kurash bo‘yicha musobaqalarda yuqori tezkorlik bilan bajariladigan texnik usullardan foydalanish samaradorligi va uning natijaviylikka ta’siri tahlili yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *belbog‘li kurash, musobaqa, kiftlash, texnik usullar, malakali belbog‘li kurashchilar.*

З.С. Артиков
RTUp.f.b.f.d. (д.м.н.), профессор

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИЧЕСКИМ ПРИЕМАМ В ВИДАХ БОРЬБЫ

Аннотация. *В статье рассматривается эффективность использования скоростных технических приемов в соревнованиях по борьбе на поясах и их влияние на результативность.*

Ключевые слова: *борьба на поясах, соревнования, борьба, технические приемы, искусные борцы на поясах.*

Z.S.Artikov
RTU p.f.b.f.d. (PhD), professor

METHODOLOGY OF TEACHING TECHNICAL METHODS IN KINDS OF WRESTLING

Annotation. *This article discusses the effectiveness of using high-speed technical techniques in belt wrestling competitions and its impact on performance.*

Keywords: *belt wrestling, competition, wrestling, technical methods, skilled belt wrestlers.*

Tadqiqotning dolzarbligi.

Bugungi kunda belbog‘li kurash Jahonning turli davlatlari, ularda yashovchi aholi, ayniqsa bolalar o‘rtasida o‘ta jozibali, o‘ziga rom qiluvchi sport turi sifatida tan olinmoqda. Belbog‘li kurash sport turini millatimizning qadimiy qadriyati o‘rnida uning salohiyatini yanada ko‘tarish, ushbu sport turini yurtimiz va jahon xamjamiyatida yanada ommaviylashayotgan sport turlaridan biri ma’lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ko‘plab sport turlari qatori milliy kurashimiz bo‘lgan belbog‘li kurash ham jadal rivojlanib kelmoqda. Bunga asosiy sabab yurtimizda yurtimizda milliy kurash turlariga karatilayotgan katta etibordir. Chunki avvallari faqatgina vodiyda Toshkent va Toshkent viloyatlarida belbog‘li kurash bilan shug‘ullanib kelishar edi. Hozirgi kunga kelib voha viloyatlaridan ham ko‘plab Respublika, Osiyo, Jahon chempionlari yetishib chiqmoqda. I, II hamda III belbog‘li kurash bo‘yicha o‘tkazilgan Jahon chempionatlarida milliy terma ja’moa a’zolari yuqori natijalarga erishib kelgan. Keyingi yillarda chet davlatlar murabbiylari O‘zbekiston tajribasini o‘rganib turli musobaqalarda munosib qarshilik ko‘rsata boshlashdi.

Ular bizdan avvalombor kiftlash, qo‘lni yetrazib ushlash va ayrim texnik usullarni o‘rganishdi. Biz bu borada to‘xtab qolmadik, masalan belbog‘li kurashda belbog‘ni to‘g‘ri ushlash raqib ustidan ellik foiz g‘alabani bildiradi. Keyingi yillarda ko‘plab ilmiy izlanishlar natijasida boshqacha, yani teskari ushlash amalini kurashchilarimizga o‘rgatdik va bu borada ko‘plab yuqori natijalarga erishdik.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

F.A.Kerimovning (2020) fikriga asoslanib, srort turlarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda asosiy tarkibiy qismlarini shakllantirish yuzasidan kerakli ma’lumotlarni, srortshilarni tayyorlashining zarurati nufuzli musobaqalarda qatnashish ushun (masalan, Yevrora yoki Jahon shemrionatlarida, Olimriya o‘yinlarida); individual moslashuvshan imkoniyatlar srortshilarning, jismoniy tayyorgarligining tuzilishi, avvalgi mashg‘ulotlarning mazmuni bir yillik o‘qitishning zamonaviy tizimi XX asrning 20-yillaridan boshlab o‘nlab yillar davomida shakllangan va jadal rivojlanish asosida hozirgi vaqtda takomillashtirilgan fan yutuqlari hisoblanadi. Asosan bir yillik mashg‘ulotlar xususiyati bu nisbatan mustaqil tarkibiy qismlar asosida qurilgan deb, barsha yelementlar

jumladan umumiy redagogik vazifa bu – srortshining yeng yuqori tayyorgarlik holatiga yerishish hisoblanib, muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlash asosiy musobaqalarda qo‘llay olishi tushuniladi [2; 79 b].

N.A. Tastanov (2015) yuqoridagi bergan ma’lumotlardan bilinib turibdiki, aynan hozirgi kunda vaqtlar o‘tishi bilan kengaytirish va raqobatbardosh amaliyotni faollashtirish bugungi kun zarurati yillik mashg‘ulotlarni davrlashtirish nazariyasini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda, shaxsning individual nazariy qoidalarni qayta ko‘rib shiqish, istiqbolli rejalarni ishlab shiqishda judayam ishonshli ilmiy bilimlarga asoslangan texnologik rejalarni tuzishda srortshilarni yillik tayyorlashning bir qator talablarini o‘z ishiga oladi. Biroq bu juda mantiqiy yuqori darajadagin srortshilarning bir yillik jismoniy tayyorgarligini qurishda yanada yangi yondashuvni shakllantirishga urinish bilan bir qatorda mutaxassislar fikrlari o‘rganildi, uning davriylashtirilishini rad yetish notog‘ri, yilning ko‘r qismida o‘tkaziladigan ko‘rlab nufuzli musobaqalarda qatnashish va qisqa muddatli maxsus tayyorgarlik bilan almashtirish orqaligina mahoratli srortshilarni tayyorlashni ta’minlashga qaratilgan siklik rejalarni ishlab shiqish talabi qo‘yilmoqda.[7; 76-277 b].

T.S. Toychiyevning olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, muvaffaqiyatli tayyorlikning bir yoki ikkita sho‘qqisi tez o‘zgaruvshan yehtiyojlarni qondirishni yesa srort mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi. Srort federatsiyalarining, yeng yirik musobaqalarning asosini tashkiliy qo‘mitalari olimlarning srort musobaqalari tizimini organik ravishda bog‘lash bilan birga zarurligiga shaqiruvini ye’tiborsiz qoldirdilar, srort mahoratini shakllantirishning, tamoyillari srort mashg‘ulotlarini tuzush yeng asosiy vazifa bo‘lib qoladi. Srort turlari musobaqalari federatsiyalarning tijorat manfaatlari, musobaqalarning tashkiliy qo‘mitalari, televideniye, homiylar va srortshilarning o‘zlari mukofotlarga qiziqishmoqda, srort turlari bo‘yisha mas’uliyatli musobaqalar sonini keskin oshdi va ba’zi srort turlarida bir yilda ush to‘rt martani tashkil qilmoqda bu srortshilar tayyorlashga yuqori talablarni qo‘ymoqda[8;122-b].

Tadqiqotning maqsadi. Belbog‘li kurashda zamonaviy texnik usullarni tezkorlikda bajarish bo‘yicha metodika ishlab chiqishdan iborat.

Natijalari va muxokamasi.

Yurtimizda azal azaldan belbog‘li kurash usullari ko‘tarish bilan bajarilgan, masalan o‘nga va chapga ko‘tarib tashlash, qaytarma usulida tashlash, ko‘tarib to‘sib tashlashlar ko‘proq xalq orasida yoki kurashchilar orasida keng tarqalgan. Muqaddam bizning mamlakat terma jamoa a’zolari B. To‘xtasinov, E. Sotvoldiyev, Z. Artiqov, B.Odilov, R.Umarov va boshqalar jahon chempionatlarida ishtirok etib kelgan davrda ushbu sportchilarimiz Yevropa kurashchilarining ko‘krakdan oshirib tashlash usuliga qarshilik ko‘rsata olishmas edi.

1-rasm

Belbog‘li kurash usulini o‘rgatish metodikasi



Biz Yevropalik kurashchilarning aynan shu usulini o‘rgandik va biz murabbiylar bilan bu usulga qarshi himoya ishlab chiqdik. Belbog‘li kurash bo‘yicha oxirgi yillarda bo‘lib o‘tayotgan halqaro musobaqalarda yurtimiz sportchilari eng chiroyli usullarni bajarish orqali hammani lol qoldirish orqali boshqa mamlakatlarga namuna bo‘shilmoqda.

X-femizmlarning ko‘pligi uchun o‘ziga xos turtki bo‘lib xizmat qiladi. 2.4.4. Evfemizm va disfemizm o‘rtasidagi munosabat: Evfemizmlar ko‘pincha disfemizmlar bilan bog‘lanadi, chunki ba’zi evfemizmlarning mavjudligi disfemizmlarning mavjudligiga asoslanadi. Evfemizmlar noo‘rin iboralar o‘rniga ishlatiladigan yumshoqroq atamalarni ifodalaydi. Evfemizmlar va disfemizmlar o‘rtasidagi munosabat qarama-qarshidir. Allan (1991) disfemizmni tinglovchilarni yoki ko‘rsatilgan mavzuni haqorat qilishi mumkin bo‘lgan ifoda sifatida belgilaydi va shuning uchun disfemizmlar engilroq evfemistik iboralar bilan almashtiriladi. Evfemizmlarning asosiy vazifasi noto‘g‘ri disfemistik assotsiatsiyalarni yo‘q qilishdir va shuning uchun disfemizmlar va evfemizmlar o‘zaro bog‘liqdir, masalan, qisqacha evfemistik ibora “vertikal shubhali” va “mitti” disfemistikdir. Allan, shuningdek, so‘zlovchining maqsadi to‘g‘ridan-to‘g‘ri disfemistik lokatsiyani yoki evfemistik almashtirishni tanlashini ta’kidlaydi. U evfemistik disfemizmlar atamasidan disfemizmlarning evfemistik qayta modellanishi bo‘lgan iboralarni kiritish uchun foydalanadi. Masalan, Xudo so‘zi uning ismini to‘g‘ridan-to‘g‘ri zikr qilish uchun disfemiyadir. Spiker disfemiyadan qochishi va Gosh, Gum yoki Jorj kabi evfemistik o‘zgarishlardan foydalanishi mumkin. Burridge (Burridge, 2004) fikriga ko‘ra, ingliz tilida ko‘plab disfemizmlar mavjud, ammo ular evfemizmlar kabi ishlatilmaydi. Disfemizmlar kontekstga ko‘ra evfemizm sifatida baholanadi, masalan, siz keksa harom degan ibora ikki do‘st o‘rtasida hazil sifatida ishlatilishi mumkin, lekin siz juda ahmoqsiz! Qasam ichadi. Disfemistik til tabu, so‘kinish, haqoratomuz so‘z, shakkoklik yoki haqoratli so‘zlarni o‘z ichiga oladi, ular keyingi kichik bo‘limlarda ko‘rsatiladi.

2.5. Asosiy nazariy taxminlar: 2.5.1. Face-Work nazariyasi: Goffman (Hudson, 1998, 113-betda keltirilganidek) yuz bilan ishlash nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariya “yuzni yo‘qotish” va “yuzni saqlab qolish” iboralaridagi yuz atamalariga asoslanadi, bu o‘z-o‘zini hurmat qilish yoki qadr-qimmatni anglatish yoki oddiyroq qilib aytganda, o‘zi yoki boshqalar haqidagi tasavvurni anglatadi. Goffman (1959, s. 208-12) yuzni “shaxsning ma’lum bir aloqa paytida boshqalar qabul qilgan chiziq bo‘yicha o‘zi uchun samarali da’vo qiladigan ijobiy ijtimoiy qadriyati” deb ta’riflaydi. Yuz - bu ma’qullangan ijtimoiy nuqtai nazardan ajratilgan o‘zini o‘zi tasviridir. atributlar. Fayzli ish nazariyasining asosiy g‘oyasi shundaki, jamiyatda yashovchi odamlar o‘z yuzlarini saqlab qolish va uni yo‘qotmaslik uchun qo‘llaridan kelganini qiladilar. Shuni ta’kidlash kerakki, yuz boshqalar tomonidan osonlikcha shikastlanadigan juda nozik elementdir. Shuning uchun, odamlar bir-biri bilan muloqot qilganda, barcha ishtirokchilar nafaqat o‘zlarining, balki boshqa odamlarning ham yuzlarini saqlashga mas'uldirlar. Braun va Levinson (1978, 66-bet) Goffman tomonidan kiritilgan yuz tushunchasini toraytiradi. Ularning fikriga ko‘ra, yuz “hissiy jihatdan investitsiya qilingan va yo‘qolishi, saqlanishi yoki yaxshilanishi mumkin bo‘lgan narsadir va o‘zaro munosabatlarda doimo ishtirok etishi kerak”. Ularning fikricha, yuz ikki toifaga bo‘linadi: ijobiy yuz va salbiy yuz. Peccei (1999, 64-bet) ta’kidlaganidek, salbiy bu holatda yomon degani emasligini, albatta, ta’kidlash joiz; bu yerda ijobiyga qarama-qarshi sifatida ishlatiladi. A.Ijobiy yuz: Braun va Levinson (1987, 13-bet) ga asoslanib, ijobiy yuz - bu “ma’qullash istagi (ba’zi jihatdan)”. Shu munosabat bilan Peccei (1999, 64-bet) ijobiy yuz insonning jamiyatdagi boshqa odamlar tomonidan tasdiqlanishi va yoqilishiga bo‘lgan ehtiyojini anglatadi, deb hisoblaydi. Bu, shuningdek , insonning o‘z ijtimoiy guruhi umumiy maqsadlarga ega ekanligini his qilish ehtiyojini anglatadi. Braun va Attardo (2005, 83-bet) ijobiy yuzni quyidagicha ta’riflaydi: Bu “birovning egosini, yoqtirish istagini qurishdir”. Misol tariqasida , ular iltifot va hurmat ko‘rsatish bu yuzning ba’zi jihatlari ekanligini aytishadi, chunki odamlar o‘zlarini yoqtirishni va o‘zlarini muhim his qilishni xohlashadi (83-bet). B. Salbiy yuz: Braun va Levinson (1978, 13-bet) tomonidan tushuntirilganidek, salbiy yuz - bu “o‘z harakatlarida to‘siqsiz bo‘lish istagi”. Braun va Attardo (2005, 83-bet) ham shunday ta’kidlaydilar: “salbiy yuz - bu yolg‘iz qolish, majburlanmaslik va biz xohlagancha harakat qila olish istagi”. Ularning fikricha, kechirim so‘rash va hurmat qilish salbiy yuzning tomonlari. C. Xushmuomalalik bilan bog‘liq bo‘lgan suhbatdoshning g‘urur, nafsoniyatiga tegmaslik bilan og‘liqishlash nazariyasi: Braun va Levinson (Braun va Attardo, 2005, 83-betda keltirilgan) yuzni xushmuomalalik deb nomlangan nazariyaning bir qismi ekanligini ta’kidlaydilar. Shu munosabat bilan ular “ko‘p darajada xushmuomalalikni gapiruvchi uchun ham, tinglovchi uchun ham yuzni saqlash vositasi sifatida ko‘rish mumkin” deb ta’kidlaydilar. Yule (1996, 134-bet) ham ta’kidlaganidek, “lingvistik xushmuomalalikni o‘rganishda eng o‘rinli tushuncha yuzdir” va “odoblilik boshqa odamning yuzidan xabardor bo‘lishdir”. Fasold (1990, 161-bet) kommunikatorlar o‘zlarining va boshqalarning ijobiy va salbiy qiyofasini saqlab qolish uchun nima qilsalar, xushmuomalalikni oshiradi, deb hisoblaydi. 2.5. 2. Yuzga tahdid soluvchi harakatlar: so‘zlovchining ham, tinglovchining ham ijobiy va salbiy yuziga tahdid soladigan barcha tahdidlar Face-threatening Acts (FTAs) deb ataladi. Braun va Levinson (1987 [1978]) ga ko‘ra, yuzga tahdid soladigan harakatlar so‘zlovchining yuziga yoki tinglovchining yuziga tahdid solishi mumkin va ular ijobiy yoki salbiy yuzga tahdid solishi mumkin. Ushbu FTAlarning darajasi o‘xshash emas; ularning ba’zilari jiddiy FTA bo‘lishi mumkin va ba’zilari engil bo‘lishi mumkin. Yaqinlik yoki kuch kabi omillar FTAlarning jiddiyligini aniqlashi mumkin. 2.5 3. Xushmuomalalik

nazariyasi: xushmuomalalik yoki yuzni saqlash nazariyasi Braun va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan. Aslida, ular Goffmanning yuz nazariyasini kengaytiradilar. Mills (2003, 6-bet) muhokama qilganidek, xushmuomalalik - bu ma'ruzachining FTAning boshqasiga nisbatan tahdidlarini kamaytirish niyatidir. Asosan, tinglovchining salbiy yuzini minimallashtirish va ularning ijobiy yuzini maksimal darajada oshirish xushmuomalalikning asosiy qoidalaridir. Braun va Levinson (1987, 1-bet) xushmuomalalik ijtimoiy jihatdan asosiy rolga ega, deb hisoblaydilar: u kommunikatorlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni nazorat qila oladi. Ularning ta'kidlashicha, ularning nazariyasi barcha tillarning universal xususiyatidir. Biroq, nutqning xushmuomalaligi madaniyatga bog'liq bo'lgan va madaniyatdan madaniyatga o'zgarib turadigan me'yorlar va qadriyatlar bilan baholanadi, ya'ni qaysi xatti-harakatlar tahdid "yuqtiradi" yoki qaysi kontekstda qanday xushmuomalalik strategiyasi turli madaniyatlarda farqlanadi. Meyerhoff (2006, 84-bet) xushmuomalalik nazariyasi jamiyatda xushmuomalalikdan foydalanish uslubida madaniyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ajratish mezonini beradi, deb ta'kidlaydi. Braun va Levinson xushmuomalalikning ikki turini ajratib ko'rsatishadi: ijobiy va salbiy. A. Ijobiy xushmuomalalik: Ijobiy xushmuomalalik boshqalarning ijobiy yuzini saqlashga xizmat qiladi. Peccei (1999, 64-bet) ta'kidlaydi: "Biz ijobiy xushmuomalalikni qo'llaganimizda, biz tinglovchi bilan birdamligimizni ta'kidlaydigan nutq strategiyalaridan foydalanamiz, masalan, norasmiy talaffuz, umumiy dialekt yoki jarangli iboralar, taxalluslar, so'zlovchi va tinglovchiga tez-tez murojaat qilish kabi. biz va kamroq bilvosita bo'lgan so'rovlar." Xulosa qilib aytganda, ijobiy xushmuomalalik odamlarning jamiyatning tasdiqlangan va yoqtirilgan a'zosi sifatidagi o'zini-o'zi imidjini saqlab qolishni xohlaydi (66-bet). B.Salbiy xushmuomalalik: Salbiy xushmuomalalik odamlarning salbiy yuzini saqlab qolishdir. Peccei (1999, s. 64-5) fikriga ko'ra , quyidagi strategiyalardan foydalanish boshqa odamlarning salbiy qiyofasini saqlab qolishga olib keladi: taxalluslar, jargon va norasmiy talaffuzdan qochish. Ko'proq bilvosita va shaxsiy bo'lmagan so'rovlardan foydalanish, masalan, siz... yoki sizdan so'rasam bo'ladimi... Ikkinchi shaxs o'rniga uchinchi shaxsda tinglovchiga murojaat qilish (masalan, talabalar o'z insholarini xodimlar xonasiga qo'ymasliklari so'raladi). Zarbani kamaytirish uchun ishlatiladigan yumshatuvchi vositalardan tez-tez foydalanish, masalan, iltimos, ehtimol, kechirasiz, lekin... 2.5.4. Evfemizm, xushmuomalalik va yuz o'rtasidagi munosabat: Yuqoridagi nazariyalarga asoslanib, evfemizm, xushmuomalalik va yuz o'rtasidagi munosabatlar chuqur ildiz otgan deb taxmin qilish mumkin. Crespo (2005: 78) "evfemizm, yuz va 50 xushmuomalalik umumiy maqsadni ko'zlaydigan o'zaro bog'liq hodisalardir: muloqotda ijtimoiy uyg'unlik". Crespo (2005) ma'lum ziddiyatli nutq harakatlarining tahdididan qochish uchun evfemizm ikki turdagi motivatsiyaga javob beradi, deb hisoblaydi. Krespo motivatsiyaning birinchi turi ijtimoiy nutqda xushmuomalalikni kuchaytirishdan iborat deb hisoblaydi; ikkinchisi esa so'zlovchining o'z yuzi bilan bir qatorda adresatning ham yuzini saqlab qolishdir. O'zaro ta'sir haqida gapirganda, kommunikatorlar bir-birining yuzini saqlab qolishlari kerak. Boshqacha qilib aytganda, ular bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki xil qoidalarga e'tibor berishlari kerak: o'z-o'zini hurmat qilish qoidasi va e'tiborlilik qoidasi. Birinchisi qoidalar yig'indisi bo'lib, ular orqali ishtirokchi o'zining yuzini saqlaydi, ikkinchisi esa interaktiv boshqalarning yuzini saqlaydigan qoidalar to'plamidir. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra, Qing (2005) "Yuz tahdidini kamaytirish yoki yuzni saqlash nafaqat bir tomonlama, ya'ni boshqa yo'naltirilgan, balki ba'zi bir o'ziga xos sharoitlarda ikki tomonlama yoki hatto "o'ziga" yo'naltirilgan .... Bundan tashqari, "boshqalar" nafaqat tinglovchini, balki barcha ishtirokchilarni ko'rsatadi." Ba'zi fikrlar yoki faktlarni to'g'ridan-to'g'ri ifodalash har doim ham qulay emas. Evfemistik iboralarda noaniq tushunchalardan foydalanib, odamlar FTAlarni minimallashtirishga harakat qilishadi. So'zlovchilar, ma'ruzachilar nutq vaziyatida suhbatdoshini sharmanda qilish yoki qabul qiluvchini noqulay his qilishdan qochishga harakat qilishadi. Shunday qilib, tinglovchining obro'-e'tiborini saqlab qolish uchun xushmuomalalik strategiyalari qo'llaniladi. Bundan tashqari, ma'ruzachilar o'z g'ururiga zarar yetkazishni istamaganligi sababli, ma'ruzachilar suhbatdoshning yuzidan ko'ra ko'proq o'zlarining obro'lari haqida qayg'uradilar. Binobarin, evfemizmlarni qo'llash orqali so'zlovchining ham, tinglovchining ham yuziga tahdidlar minimallashtiriladi. Xushmuomalalik nazariyasi ijtimoiy tuzumning murakkabligiga mos keladigan so'z va iboralarni tanlashni shakllantirishni ko'rib chiqadi . Shu nuqtai nazardan shuni ta'kidlash kerakki, evfemizm so'z yoki iboraning 51 tanlovi turidir. Yaxshi tanlangan noaniq yoki yoqimli so'z va iboralarni qo'llash orqali odamlar FTAlarni kamaytirishga harakat qilishadi. Evfemizmlar bilvosita yoki noaniq bo'lish usuli bo'lgan va bilvosita bayonotni talqin qilishni tinglovchilarga qoldiradigan rekorddan tashqari strategiya bilan bog'liq ko'rinadi. Levinson va Braun (1978, 211-bet) tomonidan muhokama qilinganidek, "kommunikativ harakat, agar u harakatga faqat bitta aniq kommunikativ niyatni bog'lash mumkin bo'lmagan tarzda amalga oshirilsa, hisobdan tashqari bajariladi". Yuqoridagi fikrlarni sinchiklab kuzatish natijasida evfemizmning xushmuomalalik va yuz-ish nazariyalari bilan aloqasi yaqqol namoyon bo'ladi. Xulosa: Sog'lom ijtimoiy munosabatlarga ega bo'lish uchun mustahkam kommunikativ kompetentsiyaga ega bo'lish kerak. Bunga erishishning bir yo'li - evfemizm yordamida bir-birining yuzini qanday saqlashni bilishdir.

Evfemizmni xushmuomalalik uchun ishlatish kommunikativ qobiliyatsizlik ehtimolini kamaytiradi. Biroq, odobga yaqin bo‘lgan mutlaq xushmuomalalik va evfemizmni farqlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, nutqni xushmuomala qilish, qo‘pol so‘zlardan qochib, ularning o‘rnini nozik ma’noli so‘zlarga almashtirishda evfemizmning ahamiyati katta hisoblanadi. Haqorat so‘zlardan uzoq, xushmuomalalikni yuzaga keltiruvchi nutq shakllarini qo‘llash nutq buzilishining oldini oladi. Shu sababli odamlar nozik va haqorat mazmuni bo‘lmagan turli xil nutq shakllarinilarni afzal ko‘radilar. Yuqoridagi fikrlar orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, odamlar xushmuomalalikni madaniyatini oshirish uchun o‘zaro munosabatlarda evfemizmni ishlatishga moyildirlar.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Ismatullayev N. Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar // ToshDPI ilmiy asarlari. – T., 1963. 1-kitob. T.42. – B. 8, 19-28, 3-59;

2.Ismatullayev N. Evfemizmlarning lug‘at sostavini va so‘z ma’nolarini boyitishdagi ahamiyati // ToshDPI ilmiy asarlari. – T., 1964. 2- kitob. – B. 3-12. 3.O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 582 b.

4.Omonturdiyev A. Bir so‘z lug‘ati. – Termiz: Jayxun, 1996. – 45 b. 5.Omonturdiyev A.J. Evfemik vositalarning funksional xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi... diss. – T., 1997. – 176 b.

6. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi (Chorvadorlar nutqi misolida): Filol. fanlari d-ri… diss. avtoref. – T., 2009.

7. Бойко Т.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008.

8. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс… канд. филол. наук. — Т., 1963.

9. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Дисс... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008.

10. Симакова С.И. Реферат как самостоятельной учебной деятельности (методика написания).//Челябинский гуманитарий. №10 – 2010,

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jobborov Baxrom Turg'unovich
O'zbekiston Milliy universiteti Biologiya va ekologiya fakulteti Ekologiya kafedrasi b.f.d. professor v.b.
Norova Nafisa Farxodovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi tadqiqotchisi

UDK: 378.014.2:37

TALABALARNING NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASHDA MALAKA AMALIYOTINI ROLI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun malaka amaliyotinig roli va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, amaliyotlar talabalarning kasbiy tayyorgarliklarini chuqurlashtirish, pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish va amaliyotda qo'llash uchun zaruriy imkoniyatlarni taqdim etadi. Mazkur maqolada amaliyotning maqsad va vazifalari, uni tashkil etish bo'yicha mavjud normativ hujjatlar, talabalar va o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning amaliyotga tayyorlanish jarayoni va uning sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *malaka amaliyoti, talaba, nazariy bilimlar, kasbiy ko'nikmalar, o'qituvchi, pedagogik malaka.*

Jobborov Baxrom Turg'unovich
Доктор биологических наук, и.о. профессора кафедры экологии факультета биологии и экологии Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Норова Нафиса Фарходовна
Научный сотрудник кафедры педагогики Шахрисабзского государственного педагогического института

РОЛЬ КВАЛИФИКАЦИОННОЙ ПРАКТИКИ В ЗАКРЕПЛЕНИИ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация: *В статье рассматривается роль и значение стажировок для студентов, обучающихся в высших учебных заведениях. Стажировки также предоставляют студентам необходимые возможности для углубления профессиональной подготовки, развития и применения педагогических навыков на практике. В статье анализируются цели и задачи практик, существующие нормативные документы по их организации, а также задачи, решаемые студентами и преподавателями. Также будет обсуждаться процесс подготовки студентов к стажировкам и меры, направленные на повышение его качества.*

Ключевые слова: *Профессиональная практика, студент, теоретические знания, профессиональные умения, преподаватель, педагогическая квалификация.*

Jobborov Baxrom Turg'unovich
Doctor of Biological Sciences, Professor, Department of Ecology, Faculty of Biology and Ecology, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Norova Nafisa Farxodovna
Researcher, Department of Pedagogy, Shahrisabz State Pedagogical Institute

THE ROLE OF QUALIFICATION PRACTICE IN CONSOLIDATING STUDENTS' THEORETICAL KNOWLEDGE

Annotation: *This article discusses the role and importance of internships for students studying in higher education institutions. In addition, internships provide the necessary opportunities for students to deepen their professional training, develop pedagogical skills and apply them in practice. This article analyzes the goals and objectives of internships, existing regulatory documents on their organization, and the tasks performed by students and teachers. The process of preparing students for internships and measures to improve their quality are also discussed.*

Keywords: *professional practice, student, theoretical knowledge, professional skills, teacher, pedagogical qualifications.*

Kirish.

Bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Talabalarning amaliyotini sifatli tashkil etish bo'yicha bir nechta tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar tomonidan talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazilgan amaliyotlardan qoniqish darajasi ularning oliy ta'lim muassasasida olib boriladigan ta'lim sifatini, mutaxassislikka bo'lgan munosabatini va kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlarini baholashda muhim omil hisoblanadi [1]. Amaliyot har bir sohada nazariy ta'limni qo'llab-quvvatlaydigan amaliy o'qitish usuli ekanligi xammamizga ma'lum. Nazariy ta'limga hissa qo'shish bilan birga, stajirovkada ishtirok etgan talabalarga mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, kasbiy aloqa va ko'nikmalarni rivojlantirish, kasbni o'rganish, korporativ madaniyat tushunchasi bilan tanishish kabi masalalarda ijtimoiy mas'uliyatni o'zining burchi deb hisoblash imkonini beradi. Ishlab chiqarish amaliyotini o'tash uchun joy tanlash masalasida talabalar turli xil xulq-atvorni namoyish qilishi mumkin, bu esa ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda muhim ahamiyatga ega [2].

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan so'rovnomalar o'tkazilgan bo'lib, bunda bir nechta savollardan iborat savolnoma tuzilgan. Ushbu so'rovnoma asosida quyidagi natijalarga erishilgan. Jumladan, "Oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining qaysi turi siz uchun yanada samarali?" degan savolga 67.1% qatnashchilar "talabalar amaliyoti" deb javob bergan, 37.1% esa "korxona mutaxassislari darslarga jalb qilinishi"ni ta'kidlashgan, 28.6% ishtirokchilar esa "laboratoriya jihozlaridan foydalanish" haqida fikr bildirishgan. "Talabalar amaliyotini o'quv yilining qaysi davrida o'tkazish kerak deb hisoblaysiz?" degan savolga 75.7% ishtirokchilar "o'quv yili davomida" deb javob bergan, 17.1% "o'quv yili semestrlari orasida", 12.9% esa "o'quv yili yakunida" degan fikrni bildirishgan. "Bitiruvchilar mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqarish muhitiga qanday holatda tezroq moslashadi?" degan savolga 62.9% ishtirokchilar "talabalar amaliyoti va amaliy mashg'ulotlarni ko'proq ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazish kerak", 55.7% esa "kafedra filiallari, tayanch kafedralari, o'quv markazlarida o'tish kerak", 34.3% ishtirokchilar esa "ishlab chiqarish muhitiga mos virtual laboratoriya va dasturlarda o'tish kerak" degan javoblarni berishgan [3]. Ishlab chiqarish amaliyoti davomida talabalarning olingan bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq: talabaning asosiy kasbiy tushunchalar to'plamini aniqlash va ularning mazmunini tushuntirish qobiliyati, belgilangan me'yorlar va qoidalarga muvofiq ishlash, amaliyot jarayonida faol ishtirok etish. Amaliyot rahbarlarining ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish qobiliyatlarini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin. Tarbiya ishlarini olib borish qobiliyati ularning yuqori aloqa qobiliyatiga, ma'naviy saviyasiga va ideologiyaviy qarashlariga bog'liq. Talabalarda dunyoviy fikrlashni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya berish, shuningdek, ularning ongida milliy istiqlol g'oyalarini singdirish jarayoni ularning kasbiy ko'nikmalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [4]. Oliy ta'limda pedagogik amaliyot talabalarning nazariy bilimlarni amaliy holda qo'llashga va o'qituvchi faoliyatini takrorlashga yo'naltirilgan. Amaliyot davomida har bir talaba shaxsini individual rivojlantirish, unda ijodiy fikrlash, yangilikka intilish va yaratuvchanlikni rivojlantirish masalalarini muvaffaqiyatli hal qilish talab etiladi. Bundan tashqari, kasbiy rivojlanishning yangi shakllarini tatbiq etish borasidagi ziddiyatlar kuzatadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta'lim muassasida tahsil olayotgan talabalarga malaka amaliyotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni[8], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori[9], O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida 35-2021-son buyrug'i[10] hamda Oliy ta'lim muassasalarining malaka amaliyotini o'tash tartibini takomillashtirish to'g'risidagi 2022-yil 13-iyundagi 202-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi to'g'risida"gi Namunaviy nizom asosida tashkil etiladi.

Tahlil va natijalar. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni nazariy olgan bilimlarini yanada chuqurroq mustahkamlash uchun malaka amaliyotlari tashkil etilib kelinmoqda. Talabalar amaliyotlari ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxasisiliklarining o'quv rejasida belgilangan malaka amaliyotlariga yuboriladi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi

[8] https://lex.uz/docs/-4545884?otherlang=1
[9] https://lex.uz/uz/docs/-5193564
[10] https://www.lex.uz/en/docs/6581469

Prezidentining 2022-yil 21 - iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ - 289 -sonli qarorining 2-bandiga ko‘ra pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2 - 4-bosqich talabalari uchun haftalik o’quv mashg’ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o’rta ta’lim muassasalarida amaliyot o’tash tartibida olib borilishini bo‘yicha amaliyotlar tashkil etilmoqda. Ushbu amaliyotaning maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat.

Amaliyotning maqsadi – talabalar universitetda ijtimoiy-siyosiy, psixologik-pedagogik, ixtisoslik fanlari bo‘yicha pedagogik ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Amaliyotning vazifalari.

Amaliyotning asosiy vazifalari qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi;

- talabalar tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va kengaytirish;
- talabalarda kasbiy-amaliy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, kasbiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish va hal etish usullari, uslublari va texnologiyalari bilan tanishish va egallash;
- fan va texnika yutuqlarining joriy etilish darajasi bilan tanishish va o‘rganish;
- maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining ilg‘or ish tajribalari, boshqaruv tizimi, marketing faoliyati bilan tanishish;
- kasbiy faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik, pedagogik, gigienik va h.k. tomonlarini o‘rganish;
- amaliyot davomida talabada ta’lim-tarbiya jarayonlarining sifatini yaxshilashga qaratilgan pedagogik ko‘nikmalarni hosil qilish;
- tanlangan kasbiy qiziqishlari bo‘yicha amaliyotdan keyin o‘tiladigan fanlarni o‘zlashtirishga ongli ravishda yondashishlariga erishish;
- ta’lim jarayonni sifatli boshqarish, o‘quvchilar jamoasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rahbarlik qilish, sinfdan tashqari ishlarni uyushtira olish, ota-onalar va jamoatchilikni tarbiya ishlariga jalb etish va ular bilan yaqin hamqorlik o‘rnata olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish.

Bundan tashqari ushbu amaliyot muddatlari o‘quv yili davomida haftasiga 2 kun etib belgilanadi. O‘quv yili mobaynida talabalar 2 kun amaliyot o‘tash uchun amaliyot o‘bektida 4 kun esa oliy ta’lim muasasida nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun tahsil oladi.

Amaliyot davrida talabalarga qo‘yiladigan talablar.

Amaliyot davrida talabalar;

- amaliyotiga muntazam ravishda qatnashishlari;
- amaliyot davrida texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilishlari;
- amaliyot o‘tovchi muassasaning ichki tartib qoidalariga amal qilishi;
- amaliyotning maqsad va vazifalarida keltirilgan bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishi;
- amaliyot hisobotlarini belgilangan muddatda topshirishlari lozim.

Universitet tomonidan amaliyotga biriktirilgan professor-o‘qituvchilarga qo‘yilgan talablar.

- amaliyotga yuborilayotgan talabalarni amaliyot dasturi bilan tanishtirish;
- talabalarni amaliyotga kunlik muntazam qatnashishlarini nazorat qilish;
- uzurli sabablarsiz amaliyotga qatnashmagan talabalar to‘g‘risida kafedra mudiri va dekanatni bildirishnoma asosida ogohlantirish;
- talabalarning amaliyot bo‘yicha qo‘shimcha savollariga va javob berish;
- har oyning oxirgi ish kunida amaliyot hisobotlarini qabul qilish hamda fakultet kengashida hisobot berish.


Amaliyotga maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalaridan biriktirilgan o‘qituvchi, tarbiyachilarga qo‘yilgan talablar.

- amaliyot o‘tash uchun biriktirilgan talabalarga pedagogik mahoratidan kelib chiqqan holda dars mashg‘ulotlariga kirish shuningdek ota-onalar bilan ishlash tatriblari to‘g‘risida tanishtirish;
- ta’lim tashkilotida o‘quv meyyoriy xujjatlar bilan ishlash uslublarini o‘rgatish;
- talabalarni amaliyotga kunlik muntazam qatnashishlarini nazorat qilish;
- uzurli sabablarsiz amaliyotga qatnashmagan talabalar to‘g‘risida universitetdan biriktirilgan amaliyot rahbariga ma’lumot berish.

Ushbu amaliyot davrida talaba bajariladigan ishlar mavzusi bo‘yicha har ikki haftaning ohirgi ish kuni universitetdan biriktirilgan amaliyot rahbariga hisobot topshiradi. Bu esa ma’lum miqdorda talabalarni kunlik ma’lumot o‘rganshga va uning mustaqish ishlashiga majbur qiladigan yondashuv hisoblanadi. Bundan tashqari umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida xamkorlik shartnomalari aosida amaliyot o‘tayotgan talabalar olmiy ta’lim muassasidan biriktirilgan mas’ul professor-o‘qituvchilar va tegishli fakultet dekanlari tomonidan nazorat qilinishi shart deb belgilanadi. Amaliyotga yuborilgan talabalarning aksariyati korxona tashkilotlarning bo‘sh ish o‘rinlariga ishga qabul qilingan holatlarni ko‘paytirish orqali talabalar bandligini ta’minlash zarur. Talabalarning malaka amaliyotiga tayyorgarlik va amaliyot hisobotlari hamda malaka amaliyotlarini sifatli tashkil etish masalalari

universitetning O‘quv-uslubiy Kengashi yig‘ilishida muntazam ravishda muhokama qilib borish ma’lum miqdorda amaliyot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida 35-2021-sonli buyrug‘iga ko‘ra Oliy ta’lim muassasalarida bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o‘tkazilishi belgilangan (1-jadval).



o‘quv (tanishuv) amaliyoti - iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo‘yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot - kasb ta’limi yo‘nalishlari uchun qo‘llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma’lumot to‘plash va tizimlashtirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo‘llanilishi mumkin deb belgilangan.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim tizimida malaka amaliyotlari nafaqat talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini yaratadi, balki ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim bir qismi sifatida qaraladi. Shuningdek, malaka amaliyoti talabalar uchun o‘z kasbiy ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirish, pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish, va ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalar bilan tanishish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, talabalar uchun malaka amaliyotlari nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning amaldagi ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli moslashishlarini ta’minlab, yuqori malakali mutaxassislar sifatida shakllanishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бегматов Б.Я. Техника олий таълим муассасаларида талаба амалиёти тадқиқи // Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804, - Б. 42-48.

2. Бегматов Б. Техника олий таълим муассасалари талабаларининг касбий мослашиш жараёнини амалиётнинг аҳамияти // Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723, Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89, - Б. 932-938,

3. Сайдалиев И.Н. Бўлажак муҳандисларни тайёрлашда синергетик интеграциянинг муҳим йўналишлари // Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot // Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan National University of Uzbekistan 128 www.ares.uz – Б. 128-130.

4. Байметов М. М. Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларининг ишлаб чиқариш амалиёти самарадорлигини ошириш йўллари // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 8 | 2022. https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal, - Б. 160-165.

5. Юнусова Д.И. Бўлажак математика ўқитувчисини инновацион фаолиятга тайёрлаш назарияси ва амалиёти // Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Б. 1-47.

6. https://lex.uz/docs/-4545884?otherlang=1

7. https://lex.uz/uz/docs/-5193564

8. https://www.lex.uz/en/docs/6581469

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Boyturayeva Gulbaxor Kamoliddin qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti
gulbaxorboyturayeva@gmail.com

UO‘K: 53.371-373.1/372.853

MAKTAB FIZIKA KURSIDA ELEKTR TOKIGA DOIR MAVZULARNI O‘QITISHDA FANLARARO ALOQALAR VA UNI QO‘LLASH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fanlarni fanlararo o‘qitish, uning maqsadi va vazifalari, maktab fizika kursining elektr toki qonunlariga doir mavzularini o‘qitishda ahamiyati bayon etilgan. Fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirishni umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi fizika kursida elektr tokiga oid mavzularini biologiya va tibbiyotga oid materiallar asosida fanlararo bog‘lanishlar olib borish ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *fanlararo o‘qitish, fizika kursi, elektr toki, fizika fani vazifalari, fizik olimlar, o‘qitish jarayoni, biologiya va tibbiyot, elektr toki qonunlari, ko‘nikmalarning shakllanishi.*

Бойтураева Гульбахор Камолиддин кызы
Докторант Наманганского государственного университета

МЕЖПРЕДМЕТНЫЕ СВЯЗИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМАМ ОБ ЭЛЕКТРИЧЕСКОМ ТОКЕ В ШКОЛЬНОМ КУРСЕ ФИЗИКИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются межпредметное обучение, его цели и задачи, а также значение его применения при изучении тем, связанных с законами электрического тока в школьном курсе физики. Показано, как можно осуществлять межпредметные связи на уроках физики в 7 классе общеобразовательной школы, используя материалы из биологии и медицины при изучении тем по электрическому току.*

Ключевые слова: *межпредметное обучение, курс физики, электрический ток, задачи физики, физики-учёные, учебный процесс, биология и медицина, законы электрического тока, формирование навыков.*

Boyturayeva Gulbaxor Kamoliddin qizi
PhD student, Namangan State University

INTERDISCIPLINARY APPROACHES IN TEACHING TOPICS ON ELECTRIC CURRENT IN THE SCHOOL PHYSICS COURSE

Abstract. *This article discusses interdisciplinary teaching, its goals and objectives, and the importance of applying it in teaching topics related to the laws of electric current in the school physics course. It highlights how interdisciplinary connections can be implemented in the 7th-grade physics curriculum of general secondary schools using materials from biology and medicine when studying topics related to electric current.*

Keywords: *interdisciplinary teaching, physics course, electric current, tasks of physics as a science, physicists, teaching process, biology and medicine, laws of electric current, skill development.*

Kirish

Juda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda fanlarni fanlararo o‘qitish, unga aloqador fanlarni (fanga tegishli mavzularni) zamonaviy ta’lim metodlaridan samarali foydalanishni asosiy masalalardan biri sifatida qaragan holda ko‘plab pedagogik tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqdalar va uni ta’lim jarayonida qo‘llab ijobiy natijalarga erish orqali ta’lim samaradorligini oshirmoqdalar. Jumladan fizika kursini fanlararo o‘qitishda o‘quvchilar dunyoqarashini rivojlantirish, bir biriga aloqador bilimlarni fanning maqsad vazifalaridan kelib chiqqah holda berish yo‘llari, uning didaktik ta’minotini shakllantirish va rivojlantirish orqali fanlararo o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda o‘quvchilarning maktabda o‘qigangan bilimlari va uni amaliyotda qo‘llay bilishlari nechog‘li ahamiyatliligi hammamizga ma’lum. Shu nuqtai nazardan ham barcha fanlar kabi fizika fani va uni

o‘qitishdagi materiallar o‘qitish maqsadidan kelib cniqqan holda bog‘lanishlarni amalga oshirish usul va metodlarini rivojlantirish zaruriyatini qo‘yadi.

Fanlararo o‘qitishda o‘quv rejasi soatlariga hech qanday o‘zgartirishlar kiritilmaydi, balki darsda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, mavzu maqsadi nuqtai nazaridan u yoki bu fanga “tegishli” bilimlarni singdirib borish, shuningdek sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda, mustaqil ta’limni tashkil etishda va uy vazifalarini berishda e’tibor qaratilishi yaxshi samara beradi. Turli fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish o‘quvchilarning bilimlarini takrorlash, chuqurlashtirish va vaqtni ma’lum darajada tejashga olib keladi. Umumiy o‘rta ta’limda o‘qitiladigan tabiat haqidagi fanlar – matematika, fizika, kimyo va boshqalarning o‘zaro aloqadorlik masalalarini hal etish asosida o‘quvchilarga tabiat hodisalari haqida chuqur bilim berish ularda olgan bilimlarini amalda qo‘llay bilish ko‘nikmalarini va malakalarini hosil qilish hozirgi zamon dialektikasining asosiy masalasidir.

Fizika fanining taraqqiyoti, tabiat hodisalarining asl mohiyatini o‘rganish, fizika predmetini tabiiy shaklda boshqa fanlarga bog‘lab o‘qitishni ta’minlaydi. Ammo o‘quv jarayonida fanlararo bog‘lanish o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Bu masala ko‘p qirrali bo‘lib, uni faqat ma’lum maqsadga qaratilgan yo‘nalishlardagina amalga oshirish mumkin [1].

Ta’lim samaradorligini ta’lim tizimini mazmunining maqsadi va vazifalariga moslash uning ilmiy jihati asoslanganligi shu bilan birga o‘quvchilarga mos metodlar va vazifalarning tanlanishi bilan asoslanadi.

Metodlar

Maktab fizika kursi darsligining elektr toki qonunlariga doir mavzularini o‘qitishda bugungi kunda ishlab chiqarish vositalarining rivojlanayotganligini hisobga olib maktab fizika kursini o‘qitishda ishlab chiqarish vositalarini to‘g‘ri boshqarish va sarflangan elektr energiyasidan samarali foydalanish to‘g‘risidagi bilimlarni berishda fizika fani o‘qituvchisiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

o‘quvchilar maktab fizika kursining elektrga oid bo‘limini tamomlagandan so‘ng elektr toki qonunlariga doir nazariy bilimlarga tayanib elektr zanjirlarini to‘g‘ri tuzish bilimi va ko‘nikmasiga;

o‘quvchilar elektr zanjirlariga o‘zgarmas tok qonunlarini qo‘llab laboratoriya ishining aniq hisobini amalga oshiradigan bilimga;

o‘quvchilar o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok qonunlariga doir masalalar yecha oladigan va amaliyotga qo‘llash malaka hamda ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Maktab fizika kursi darsligining elektr toki qonunlari bo‘limini fanlararo o‘qitish orqali maktab, kasb-hunar va texnikumlar o‘quvchilarining fizika fanidan bilimlarini shakllantirish va rivojlantirishni hamda innovatsion g‘oyalarini amalda qo‘llaydigan darajada tayyorlash zarur. Shu maqsadga quyidagilarga erishish mumkin: maktab fizika kursining “Elektr zaryadi. Elektr maydon” mavzusiga doir materiallarni o‘qitishda “elektr nima” degan savolga javob berish orqali o‘quvchilarda elektr tokidan qo‘rqish o‘rniga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi, elektrning salbiy va ijobiy ta’sirini tushintirish orqali o‘quvchilarda yangi takomillashgan ishlab chiqarish texnologiyalariga qiziqishini uyg‘otish lozim, so‘ng ushbu texnologiyalarni yaxshi saqlash uchun fizik olimlarning yashin qaytargichlarini yaratishi, hamda o‘rnatishi va undan unumli foydalanish, yashin qaytargichlardan aholi yashaydigan, hamda ishlab chiqarish texnologiyalariga, o‘zi yurar mashinalarga o‘rnatish qoidalari haqida bilimlarni shakllantirish va ularni yashin qaytargichlarning yangi turlarini yaratishga yo‘naltirish kerak. Fizika kursining “Elektr qarshiligi” mavzusini fanlararo interfaol o‘qitishda ishlab chiqarish texnologiyalarining elektr tarmog‘ini tortishda o‘tkazgichning qarshiligini hisoblash, bir xil o‘lchamdagi o‘tkazgichlarning elektr o‘tkazuvchanligi moddasining turiga bog‘liq bo‘lgan solishtirma qarshiligiga bog‘liq ekanligini tushuntirish orqali o‘quvchilarda ishlab chiqarish texnologiyasining energiya ist’emolini hisoblashda aniq dasturlardan foydalanib hisoblash innovatsion g‘oyasini shakllantiradi va rivojlantiradi, hamda mustahkamlaydi [2-3].

Natijalar

O‘qituvchi fizika kursidan o‘quvchilarga sifatli bilim berishi maqsadida o‘quv jarayonini tashkil qila olishi uchun faqatgina fizika kursi nazariyasini yaxshi bilishi va amaliyotga qo‘llay olishi, o‘zidagi bilimlarni o‘quvchilar ongiga singdirishi uchun fizika o‘qitish metodikasidan ham yaxshi bilimlarga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarda o‘qitish jarayonini va fizik bilimlarni o‘zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatib innovatsion g‘oyalar yaratishga yo‘naltirishi shart. Shuningdek fan o‘qituvchisi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanishidagi individual farqlarni, o‘quvchining yo‘nalishi bo‘yicha qiziqishlarini doimo hisobga olishi kerak.

Maktab o‘quvchilaridan test olib va fizik olimlarning yaratgan yangiliklari asosida savol-javob, hamda suhbatlar o‘tkazib o‘quvchilarning fizika kursiga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlashtirish, ularda fizika kursini fanlararo, yangi takomillashgan ishlab chiqarish texnologiyalariga bog‘lab o‘qitish va o‘quvchilar ongida yangi texnologiyalar yaratish g‘oyalarini shakllantirish va uni rivojlantirish kerak bo‘ladi.

Fizika fanining taraqqiyoti, tabiat hodisalarining asl mohiyatini o‘rganish, fizika predmetini tabiiy yo‘nalishda boshqa fanlarga bog‘lab o‘qitishni ta’minlaydi. Ammo o‘quv jarayonida fanlararo bog‘lanish o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Bu masala ko‘p qirrali bo‘lib, uni faqat ma’lum

maqsadga qaratilgan yo‘nalishlardagina amalga oshirish mumkin.

Hozirgi kunlarda yangi takomillashgan texnologiyalarning barchasi elektr energiyasi hisobiga ishlagani sababli, ularni boshqarish va qanday ishlashini tushunish uchun elektr toki qonunlarini o‘quvchilarga fanlararo o‘rgatish zarur deb hisoblaymiz hamda misol tariqasida quyidagi fizika kursining [4-7] elektr tokiga oid mavzularining fanlararo bog‘lanishlarini amalga oshirishda tibbiyotga oid materiallarni (1-ladvalga qarang) e’tiborga olish lozim:

Maktab fizika kursida elektr toki qonunlarini tibbiyot bilan o‘zaro bog‘lanishlari

№	Fizika fani mavzulari	Tibbiyotga oid materiallar
1.	Elektr toki. Tok manbalari. Elektr kuchlanish va uni o‘lchash (7-sinf)	Klinik o‘lim sodir bo‘lganda, jonlantirish maqsadida defibrillator (katta miqdorda elektr impuls berish) bilan inson tanasiga ta’sir etish.
2.	Gazlarda elektr toki (8-sinf)	Elektr razryadi ta’sirida azon gazi hosil qiladigan qurilma yordamida zararli viruslardan tozalash.
3.	Metall o‘tkazgichlar qarshiligining temperaturaga bog‘liqligi (10-sinf)	Odamning qon aylanishini elektr zonti bilan kuchsiz elektrlash yordamida oyog‘ining ostiga elektr gilamcha qo‘yib davolash va boshqalar.
4.	Tranzistorli elektromagnit tebranishlar generatori (11-sinf)	Odam tanasini yuqori chastotali elektromagnit tebranishlari orqali tekshirish. Elektro-kardiogramma orqali yurak urish chastotasi va pulsni aniqlash.

Muhokama

Fizika kursini fanlararo o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish va fizika ta’limi jarayoniga tatbiq qilish, o‘quvchilarning fizika fanidan bilimlar dunyoqarashini rivojlantirish yo‘llari va uning didaktik ta’minotini shakllantirish hamda rivojlantirish orqali fanlararo o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Fizika kursining elektr toki qonunlarini fanlararo interfaol o‘qitish mashg‘ulotlari - ta’lim oluvchilarda, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining muammolarini yechishga o‘rgatish va energiya tejamkorligini amalga oshirish, raqobatbardosh texnologiyalarni yaratish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Maktab fizika kursining elektr tokiga oid mavzularini fanlararo aloqadorlikda o‘qitishda samarali natijalarga erishish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarimiz asosida yondashish mumkin:

o‘quvchilarni loyiha va o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etishning innovatsion g‘oyalarini yaratish va rivojlantirishsh;

ta’lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish;

fizika fanini umumta’lim fanlari bilan o‘zaro aloqadorligi va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish;

o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda fizika fani bo‘yicha sinfdan va maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

fizika bo‘yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo‘naltirish;

o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

o‘quv-tarbiya jarayoni samaradoriligini va natijaviyligini ta’minlashda fizika ta’limi jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalar vosita va dasturlarini hamda o‘qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish;

davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini joriy etish.

Maktab fizika kursining elektr toki qonunlariga doir mavzularini fanlararo o‘qitish maqsadida yaratilgan uslubiy yangiliklar [8-13] amaliyotga qo‘llanib olingan natijalarga asosan quyidagi **xulosa**larga kelindi:

uzliksiz ta’lim tizimida maktab fizika kursida elektr toki qonunlarini o‘qitish umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari va o‘qituvchilari ishtirokida ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, maktab o‘quvchilari yangi takomillashgan texnologiyalarni boshqarish va uni rivojlantirish uchun elektr toki qonunlarini kengroq fanlararo o‘rganishini talab etadi;

fizika kursida elektr toki qonunlarini o‘qitish va uni amaliyotda qo‘llash o‘quvchilarni yangi takomillashgan texnologiyalar yaratishga yo‘naltiradi hamda ishlab chiqarishini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan yaratuvchi muhandislar yetishib chiqishiga xizmat qiladi;

fanlararo aloqadorlikda eletr toki qonularini o‘rgangan o‘quvchida zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalaridan samarali foydalanish va boshqarish kompetensiyalari shakllanadi va yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanadi;

maktab fizika kursida elektr toki qonunlarini o‘qitishning pedagogik-psixologik, ilmiy-fizik va metodik tahlil qilinishi o‘quvchilarning individual

xususiyatlarini hisobga olib soddadan murakkab yo‘nalishida fanlararo o‘qitilishi shartligi asoslandi;

o‘quvchilarda elektr toki qonunlarini o‘qitishda elektr konturidagi parametrlarni hisobga olgan holda o‘lchov asboblarini tanlash hamda elektr zanjiriga bexato ulash, nazariy olingan natijalarni amaliyotga to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalari shakllantirildi.

Umuman olganda fanlararo bog‘lanishlar fizik tushunchalarni o‘rganishda o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, fanlardan olgan bilimlarini solishtirish, turli faktlarni tahlil qilish, xulosa va yakunlar chiqarish kabi qobilyatlarini shakllantirishga, mustaqil faoliyatlarida esa muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзахмедов Б. ва бошқалар. Физика ўқитиш методикаси. –Т.: ТДПУ,2007.220 б.
2. Zohidov I. O., Karimova R. K., Umarov A. O. Elektr zaryadi, elektr maydoni" bobini o‘qitish 8-sinf, fizika kursi //Namangan davlat universiteti ilmiy xabarnomasi.-2019.-1-jild.-Yo‘q. – T. 12. – C. 298-302.
3. Умаров А. О. и др. 8-синф физика курсининг “электр қаршилиги” мавзусига “c++” дастурини қўллаб ўқитиш //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1129-1134.
4. Suyarov K. va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Respublika ta’lim markazi. –T.: 2022.-192 b.
5. Habibullayev P. va boshqalar Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun Fizika fani darsligi. Toshkent, O‘qituvchi 2019, 178 b.
6. Turdiyev N. Sh. va boshq. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun Fizika fani darsligi. “Niso Poligraf” nashriyoti (original-maket), 2017, 176 b.
7. N. Sh.Turdiyev va boshq. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun Fizika fani darsligi. “Niso Poligraf” nashriyoti (original-maket), 2018, 193 b.
8. Alizhanov D. A., Zokhidov I. O. Teaching in Physics “Electrical Instruments in the House”. Saving Electricity //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). – 2021. – Т. 12. – №. 9. – С. 6107-6112.
9. Alijanov D., Zaxidov I. Таълимда фанлараро боғланишларнинг функциялари //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – С. 1406-1411.
10. Алижанов Д. А. Ў., Захидов И. О. Фанлараро алоқаларнинг тарихий ривожланиш босқичлари //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B4. – С. 22-29.
11. Zaxidov I. et al. Developing the ability of scientific knowledge of pupils when teaching the laws of electricity at school //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 1013-1016.
12. Zaxidov I., Abdullajonov B., Bekmirzaev S. Мактабда электр токи қонунларини ўқитишда ўқувчиларнинг илмий билиш қобилиятларини ривожлантириш //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1013-1016.
13. Gulbahor B. O‘quvchilarni fizika o‘qitish orqali energiya tejamkorligiga o‘rgatish //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 1. – С. 122-124.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Расулова Турсуной Пазилджановна
PhD докторант 3 -го курса
Андижанского Государственного технического института

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ, АНАЛИЗ МЕТОДОВ.

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические основы проектного обучения, его роль в современной образовательной среде и ключевые методические подходы. Проведен анализ различных методов проектного обучения, их эффективность и применение в образовательной практике. Особое внимание уделяется преимуществам и возможным трудностям реализации проектного метода в учебном процессе. Представлены рекомендации по интеграции проектного обучения в образовательные программы, обеспечивающие развитие профессиональных и личностных компетенций учащихся.*

Ключевые слова: *проектное обучение, педагогические технологии, активные методы обучения, образовательные проекты, развитие компетенций.*

Rasulova Tursunoy Pazildjanovna
PhD doktoranti 3-kurs
Andijon davlat texnika instituti

LOYIHALARGA TA’LIM OLISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI, USULLARNING TAHLILI.

Annotatsiya. *Maqolada loyihaviy ta’limning pedagogik asoslari, uning zamonaviy ta’lim muhitidagi o‘rni hamda asosiy metodik yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Loyihaviy ta’limning turli usullari, ularning samaradorligi va amaliyotda qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Loyihaviy metodni o‘quv jarayoniga joriy etishning afzalliklari va mumkin bo‘lgan qiyinchiliklariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta’lim dasturlariga loyihaviy yondashuvni integratsiyalash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *loyihaviy ta’lim, pedagogik texnologiyalar, faol o‘qitish usullari, ta’lim loyihalari, kompetensiyani rivojlantirish.*

asoslangan ta’limni yoki ularni davolash bilan bog‘liq shaxsiy yoki ijtimoiy muammolarni aniq o‘z ichiga olgan boshqa holatlarga asoslangan o‘rganish strategiyalarini o‘z ichiga olgan yondoshuvlarga tayandik.

Hozirgi xalqaro ta’lim talablari oliy tibbiy ta’lim sohasidagi mutaxassislar maqsad-malakali, malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlash, psixologik va ijtimoiy vakolatli shifokorlar va hamshiralarni tayyorlashga qaratilishi lozim.

Demak kompetensiyaga asoslangan yondashuv – bu yondashuv, ta’lim natijasiga va sifatiga e’tibor qaratish natija o‘rganilgan ma’lumotlarning yig‘indisi sifatida emas, balki o‘rganish natijasida ko‘rib chiqadi. Sog‘liqni saqlash mutaxassisining turli xil sharoitlarda harakat qilish qobiliyati, muammoli vaziyatlar, uning vakolatlari va vazifalarni bajarishga tayyorligi hayot va professional funksiyalarning to‘liq doirasi va erkin gumanistik yo‘naltirilgan tanlovni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shularni inobatga olib talabalarning mustaqil ishlariga qo‘yiladigan zamonaviy g‘oyalar, mustaqil ish shakllari, turlari va turlarining o‘ziga xos mazmunida mujassamlangan o‘quv va kognitiv vazifalarning xususiyatlari bilan belgilanadigan o‘ziga xos pedagogik qurilish sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Mustaqil ishni bilimlarni oqilona o‘zlashtirish va chuqurlashtirish, asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish va talabalarni faollashtirish vositasi sifatida ham talqin qilish mumkin.

Yangi ta’lim standartlarida majburiy deb e’lon qilingan va ma’lum miqdordagi o‘quv yuki bilan ta’minlangan talabalarning mustaqil ishi bugungi kunda pedagogik yordam va uslubiy yordamga muhtoj. Shu munosabat bilan talabalarning ushbu ish turi o‘qituvchining tashkiliy roli bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, bu talabaning mustaqil faoliyati jarayonini doimiy monitoringini nazarda tutadi. To‘g‘ri tashkil etilgan mustaqil ish, albatta, ortib borayotgan murakkablik va mehnat zichligi bilan birga keladi, bu uning rivojlanayotgan tabiatini ta’minlaydi.

Talabalar uchun mustaqil ishni qanchalik zarurligi va samaradorligini aniqlash uchun hamda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini turli jabhalarini rivojlantirish uchun biz talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik.

Oliy ma’lumotli xamshiralar fakultetida ta’lim olayotgan talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra mustaqil ish shakllarini tanlashda quyidagi imtiyozlar iyerarxiyasi aniqlandi: vizual materiallar bilan ishlash — 72,9%; ishlab chiqarish amaliyoti — 60,2%; bemorlar bilan bevosita muloqot — 49,5%.

Talabalar konsepsiyasida mustaqil ish uch xil bo‘lishi mumkin: o‘qituvchining ishtirokisiz bajariladi, lekin uning vazifasiga ko‘ra — 40%, mustaqil ravishda o‘qituvchi nazorati ostida – 31% yoki o‘qituvchining maslahatisiz mustaqil ta’lim faoliyati shakli sifatida – 29%.

Talabalarning fikriga ko‘ra, taklif etilayotgan tadbirlarning har biri maqbuldir, ammo ularning aksariyati (66,4%) o‘zlariga aniq yuklangan vazifalarni mustaqil ravishda bajarishni xohlashadi.

Talabalarning samarali mustaqil ishi eng muhim rag‘batlantiruvchi omillardan biri sifatida o‘qituvchi nazoratini talab qiladi – bu respondentlarning 38% fikri.

Ma’ruzalar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning tasdiqlangan usullarida amalga oshiriladigan muvaffaqiyatli ta’lim faoliyatini tashkil etishga o‘rnatilgan an’anaviy yondashuv hamshiralarni tayyorlash darajasiga qo‘yiladigan talablarga javob beradi. Biroq, ba’zi talabalar (24%) samarali mustaqil ishlarni tashkil etishni o‘quv jarayoni sifatini oshirish uchun muhim zaxira deb bilishadi.

Respondentlarning aksariyati (54%) fikriga ko‘ra, o‘qitish shakllari va usullarini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish kerak — 31%.

Mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun talabalarning 88,2% o‘quv va uslubiy materiallar bilan yetarli darajada ta’minlanganligiga to‘xtalib o‘tdi.

Mustaqil ishlarni bajarishda talabalar ma’ruza materiallari - 69,5%, tavsiya etilgan darsliklar - 72% va o‘qituvchilarning uslubiy ishlanmalari – 47,8% kabi an’anaviy bilim manbalaridan foydalanishni afzal ko‘rishadi.

Talabalarning fikriga ko‘ra, mustaqil ish samaradorligini oshirish uchun quyidagilar zarur:

-o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini – 64,2%;

-mustaqil ish uchun qo‘shimcha ajratish va unga amal qilishni oshirish - 40,1%;

-o‘z-o‘zini o‘qitish jarayonida undan samarali foydalana olish – 41,8%.

Shuni ta’kidlash kerakki, so‘rovnomada ishtirok etgan talabalarning aksariyati (88,7%) mustaqil ish uchun ajratilgan vaqtdan oqilona foydalangan holda o‘z bilimlarini doimiy ravishda oshirishni xohlashadi.

Mustaqil ishdagi qiyinchiliklarni yengish uchun talabalar o‘zlarining sa’y - harakatlari va qat’iyatliligiga – 70% va o‘qituvchilarning yordamiga – 51% katta ahamiyat berishadi.

Mustaqil ish natijasida tibbiy xodim kasbiy muhim fazilatlarini shakllantirish mumkinligiga 83% talabalar ishonadi, shuningdek, ularning keyingi ilmiy va amaliy faoliyati sohasini maqsadli ravishda aniqlaydi.

So‘rov natijalari talabalarning mustaqil ishlarini o‘tkazish va oqilona rejalashtirishning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqishda muhim asosni tashkil etish mumkin.

Agar biz talabalarning mustaqil ishlarini kengroq ko‘rib chiqsak - ta’limning didaktik shakli sifatida, talabalarning o‘quv faoliyatini o‘z-o‘zini boshqarishni ta’minlaydigan keng pedagogik sharoitlarni tashkil etish tizimini yarata olamiz.

Sog‘liqni saqlashni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasida "Hamshiralik ishi" mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma’lumotli hamshiralar tayyorlash tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Oliy hamshiralik ishi fakulteti mutaxasiss hamshiralarni tayyorlash bilan birgalikda har qanday darajadagi hamshiralik xizmatiga rahbarlik qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy vazifasiga ega, shuningdek tibbiyot texnikumlari va kollejlarida mustaqil ravishda o‘quv ishlarini olib boradigan mutaxassislarni tayyorlash muxim vazifalaridan birdir. Bu uning bitiruvchilariga chuqur klinik tayyorgarlikdan o‘tishni ta’minlash lozimligini bildiradi.

Asosiy klinik fanlar bo‘yicha oliy ma’lumotli hamshira diplomiga ega bo‘lgan hamshiralar uchun amaldagi namunaviy o‘quv dasturlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular o‘rta maxsus ma’lumotli hamshiralar uchun o‘quv dasturlarining mazmunini ko‘p jihatdan takrorlaydi va faqat asosiy kasalliklar va jarohatlarni tashxislash va davolashda sindromli yondashuv bilan cheklanadi. Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda, biz Farg‘ona, Andijon va Toshkent shahar tibbiyot Oliy hamshiralik ishi fakultetlari o‘qituvchilari xodimlarining uzoq yillik tajribasi asosida o‘qitish mazmunining yangi konsepsiyasini va Oliy hamshiralik ishi ta’limiga ega hamshiralarni klinik tayyorlash uchun o‘quv dasturini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Nozologik yondashuv asosida klinik fanlarni o‘qitishning taklif etilayotgan konsepsiyasi kelajakdagi hamshiralik bakalavrlariga bemorni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tekshirishning barcha usullarini va klinik fikrlashning dastlabki ko‘nikmalarini to‘liqroq o‘zlashtirishga, qo‘shimcha tadqiqotlar natijalarini malakali baholashga va etiologiya, patogenez, klinikasini bilish bilan birgalikda bemorlarga hamshiralik jarayoni asosida bemorlarga hamshiralik tashxisini qo‘ya olishni va yangi innovasion yondashuvlar asosida parvarishlash ishlarini olib borishlari uchun imkon beradi.

Mavjud oliy tibbiy ta’lim tizimining muammolaridan biri shundaki, ushbu tizimda hanuzgacha axborot paradigmasi ustunlik qilmoqda, uning vazifalari asosan talabalarga ma’lumot va bilimlarni oddiy uzatishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri ko‘pincha jamiyat uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonining malakali ishtirokchisini tayyorlashdir. Shaxsning boshqa barcha potensial qobiliyatlari, shu jumladan ijodiy qobiliyatlari talab qilinmaydi. Natijada, yetarli darajada rivojlanmagan ijodiy fikrlashga ega bo‘lgan bitiruvchi keyinchalik doimiy ravishda murakkablashib borayotgan ma’lumotlarni idrok etishda, nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi va odatdagidan bir oz farq qiladigan tushunchalar va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglay olmaydi.

Shuning uchun ta’lim muassasalariga ma’lumotni o‘zlashtirishga asoslangan o‘quvchilarning ijodiy va standart bo‘lmagan tafakkurini rivojlantirish murakkab va dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Ijodkorlikni shaxsiy va nafaqat xulq-atvor mulki sifatida shakllantirish uchun maxsus tashkil etilgan ta’lim muhiti talab qilinadi. Ijodkorlikni rivojlantirishning "mahalliy" usullari (masalan, nostandart vazifalarni hal qilish), albatta, foydali, ammo ularni qo‘llash natijasida talabalar shunchaki hal qilishning yangi usullarini yodlaydilar va keyinchalik o‘rganilgan harakatlarni takrorlaydilar. Shuning uchun ijodkorlikni shaxsiy mulk sifatida shakllantirish talabalarga ko‘p qirrali tizimli ta’sir ko‘rsatadigan maxsus muhitni talab qiladi.

Xulosa.

Olib borilgan izlanishlarga asosan quyidagi xulosaga keldik. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talaba shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Burxanova G.T., Varga V. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent., 2014, 320 b.

2.Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. / B.Yu.Xodiyev tahriri ostida. – Toshkent.: «Iqtisodiyot», 2009, 45 b.

3.Основы личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. – Москва: «Бином. Лаборатория знаний», 2011, 238 с.

4.Диканская Н.Н. Оценочная деятельность как основа управления качеством образования // Стандарт и Мониторинг в образовании. 2003. – № 3. – с. 38–42.

5.Методические рекомендации по проектированию оценочных средств для реализации многоуровневых образовательных программ ВПО при компетентностном подходе / В.А. Богословский, Е.В. Караваева, Е.Н. Ковтун, О.П. Мелехова, С.Е. Родионова, В.А.Тарлыков, А.А. Шехонин. – Москва.: Изд-во МГУ, 2007. – 148 с.

6.Коломиец О.М. Технология развития педагогической деятельности в образовательном учреждении / Вестник МГГУ им. М.А. Шолохова. –2011. –Вып. 4, серия «Педагогика и психология». – с.15–9.

7.Коломиец О.М., Фокина М.А., Бутыльченко О.В. Модель методической подготовки преподавателя высшей медицинской школы в системе дополнительного профессионального образования. Электронный научно-образовательный Вестник «Здоровье и образование в XXI веке». –№ 1, 2013. –Т. 15. – с.14–8.

8.Формирование системного мышления в обучении / Под ред. З.А. Решетовой. – Москва., 2002. – 39 с.

9.Михайловский М.Н. Особенности социально-психологических компетенций/Актуальные вопросы современной психологии и педагогики: Сборник докладов XII-й Международной научной конференции (Липецк, 28 декабря 2012 г.).

10. Горленко О.А., Мирошников В.В., Кукареко А.Н. Формирование профессиональных стандартов в области качества на основе компетентностных моделей // вести. БгТУ. — 2010. — № 3(27). — с.91-98.

11. Пьяных А.В., Бурковская Ю.В. Профессиональные и образовательные стандарты: взаимодействие, перспективы и развитие на примере программ для бакалавров сестринского дела // Стандартизация в здравоохранении. 2013. — № 7-8. — с.3-7.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ochilova Vazira
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, (PhD), dotsent
v.ochilova@gmail.com

INTERMADANIY KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING MAZMUNI, TARKIBI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada intermadaniy kompetensiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, tarkibiy qismlari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Globallashuv va xalqaro integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi davrda intermadaniy kompetensiya muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada intermadaniy kompetensiyaning tarixiy rivojlanishi, uning nazariy asoslari va amaliyotdagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot doirasida oliy ta’lim muassasalarida talabalarning intermadaniy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili, empirik tadqiqot natijalarining tahlili va xulosa qismlaridan iborat. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, intermadaniy kompetensiya rivojlanishining to‘rt asosiy bosqichi aniqlangan bo‘lib, ular bilan bog‘liq pedagogik va amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *intermadaniy kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, globallashuv, ko‘p madaniyatlilik, xalqaro ta’lim, madaniy intellekt.*

Ochilova Vazira
Uzbekistan State University of world languages, (PhD), associate professor

CONTENT, COMPOSITION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE CONCEPT OF INTERCULTURAL COMPETENCE

Annotation: *This article analyzes the concept of intercultural competence, its content, components and stages of development. In today’s period of increasing globalization and international integration processes, intercultural competence is becoming more important. The article examines the historical development of intercultural competence, its theoretical foundations and significance in practice. Also, within the framework of the study, recommendations were developed for the development of intercultural competence of students in higher educational institutions. The article consists of a literature analysis on the topic, an analysis of the results of an empirical study and parts of a conclusion. According to the results of the study, four main stages of the development of intercultural competence have been identified, with pedagogical and practical recommendations related to them.*

Keywords: *intercultural competence, intercultural dialogue, globalization, multiculturalism, international education, cultural intelligence.*

Очилова Вазира
Узбекский государственный университет мировых языков, (PhD), доцент

СОДЕРЖАНИЕ, СОСТАВ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КОНЦЕПЦИИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация: *В данной статье анализируется понятие межкультурной компетентности, ее содержание, компоненты и этапы развития. В современный период усиливающейся глобализации и международных интеграционных процессов межкультурная компетентность приобретает все большее значение. В статье рассматривается историческое развитие межкультурной компетенции, ее теоретические основы и значение на практике. Также в рамках исследования были разработаны рекомендации по развитию межкультурной компетенции студентов высших учебных заведений. Статья состоит из анализа литературы по теме, анализа результатов эмпирического исследования и части заключения. По результатам исследования были выделены четыре основных этапа развития межкультурной компетенции, с соответствующими педагогическими и практическими рекомендациями.*

Ключевые слова: *межкультурная компетентность, межкультурный диалог, глобализация, мультикультурализм, международное образование, культурный интеллект.*

Kirish

Bugungi globallashuv va xalqaro integratsiya jarayonlari kuchaygan sharoitda, turli madaniyat vakillari oʻrtasida samarali muloqot qilish qobiliyati zamonaviy mutaxassisning muhim kompetensiyalaridan biriga aylandi. Intermadaniy kompetensiya – bu shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot oʻrnatish va hamkorlik qilish qobiliyatidir. Bu tushuncha pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar kesishmasida joylashgan koʻp qirrali mazmunga ega.

Ta'lim tizimida, xususan oliy ta'limda intermadaniy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu, birinchidan, xalqaro ta'lim aloqalarining kengayishi, ikkinchidan, koʻp madaniyatli jamiyatlarda yashovchi fuqarolarning madaniy xilma-xillikka nisbatan tolerant munosabatini shakllantirish zarurati bilan bogʻliq.

Tadqiqotning maqsadi intermadaniy kompetensiya tushunchasining mazmunini, tarkibiy qismlarini va rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda ushbu kompetensiyani rivojlantirish boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Intermadaniy kompetensiya tushunchasi 1960-1970-yillarda AQShda madaniyatlararo muloqot nazariyasi rivojlana boshlagan davrda paydo boʻlgan. Dastlab, bu tushuncha koʻproq xorijga yuborilayotgan diplomatlar va biznes vakillari uchun boshqa madaniy muhitda moslashish qobiliyati sifatida tushunilgan.

1980-1990-yillarda intermadaniy kompetensiya tushunchasi yanada keng ma'no kasb etib, koʻp madaniyatli ta'lim nazariyalari bilan bogʻlanib ketdi. Ushbu davrda M.Bennett (1993) tomonidan taklif etilgan (Developmental Model of Intercultural Sensitivity) katta ahamiyat kasb etdi. Bu model intermadaniy kompetensiya rivojlanishining olti bosqichini – etnosentrizm bosqichidan (inkor qilish, himoya qilish, minimallashtrish) etnorelyativizmgacha (qabul qilish, moslashish, integratsiya) taklif etdi.

2000-yillardan boshlab intermadaniy kompetensiya tushunchasi yanada chuqurroq oʻrganila boshlandi. D.Deardorff (2006) tomonidan ishlab chiqilgan piramidal model intermadaniy kompetensiyaning tarkibiy qismlari va ularning oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatib berdi. Bu model bugungi kunda eng koʻp qoʻllaniladigan modellardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda (2010-2024) intermadaniy kompetensiya tushunchasi yanada kengayib, raqamli muhitdagi madaniyatlararo muloqot, virtual jamiyatlardagi madaniy xilma-xillik masalalarini ham qamrab olmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda intermadaniy kompetensiya tushunchasi global fuqarolik, madaniy intellekt (cultural intelligence) kabi tushunchalar bilan bogʻliq holda oʻrganilmoqda.

Turli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan modellarni tahlil qilish natijasida, intermadaniy kompetensiyaning quyidagi asosiy tarkibiy qismlari aniqlandi:

Kognitiv komponent:

- Boshqa madaniyatlar haqidagi bilimlar
- Oʻz madaniyati haqidagi bilimlar
- Madaniyatlararo muloqot printsiplari haqidagi bilimlar
- Madaniy farqlarni anglash qobiliyati

Affektiv komponent:

- Boshqa madaniyatlarga hurmat
- Madaniy farqlarga nisbatan ochiqlik
- Noaniqlikka tolerantlik
- Empatiya qobiliyati

Xulq-atvor komponenti:

- Madaniyatlararo muloqot koʻnikmalari
- Adaptatsiya qobiliyati
- Madaniy muhitga moslashish koʻnikmalari
- Konfliktlarni bartaraf etish koʻnikmalari

Meta-madaniy komponent:

- Oʻz madaniy pozitsiyasini tanqidiy baholash qobiliyati
- Refleksiya qobiliyati
- Madaniy oʻz-oʻzini anglash
- Kulturologik bilishning strategiyalarini egallash

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalariga koʻra, intermadaniy kompetensiya rivojlanishining quyidagi toʻrt asosiy bosqichi aniqlandi:

1-bosqich: Madaniy xabardorlik (Cultural awareness)

- Oʻz madaniyati va boshqa madaniyatlar oʻrtasidagi farqlarni anglash
- Turli madaniyatlar haqida asosiy bilimlarni egallash
- Madaniy stereotiplarni anglash
- Madaniy farqlarni qiziqish bilan qabul qilish

2-bosqich: Madaniy sezgirlik (Cultural sensitivity)

- Boshqa madaniyat vakillarining qadriyatlari va xulq-atvorini hurmat qilish
- Madaniy xilma-xillikka nisbatan ijobiy munosabat
- Madaniy farqlarni qabul qilish va hurmat qilish
- Empatiya rivojlanishi

3-bosqich: Madaniy moslashuvchanlik (Cultural adaptability)

- Turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish qobiliyati
- Muloqot uslubini madaniy xususiyatlarga moslashtirishga qodirligi
- Madaniy konfliktlar va tushunmovchiliklarni bartaraf eta olish
- Noan'anaviy vaziyatlarda toʻgʻri qaror qabul qilish qobiliyati

4-bosqich: Madaniy integratsiya (Cultural integration)

• Turli madaniyat elementlarini o‘z shaxsiyatida uyg‘unlashtirish

• Madaniyatlararo vositachilik qobiliyati

• Ikki yoki undan ortiq madaniy kontekstlarda bir vaqtning o‘zida samarali faoliyat ko‘rsatish

• Madaniy paradokslarga tolerantlik

4. Oliy ta’limda intermadaniy kompetensiyani rivojlantirish

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning intermadaniy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1.**O‘quv rejasiga madaniyatlararo muloqotga oid fanlarni kiritish**. Bu fanlar nafaqat chet tillari fakultetlarida, balki barcha yo‘nalishlarda o‘qitiladigan talabalarga ham taklif etilishi maqsadga muvofiq.

2.**Xalqaro almashinuv dasturlarini kengaytirish**. Talabalarning boshqa mamlakatlar universitetlarida tahsil olishi, xalqaro akademik mobilligi ularning intermadaniy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

3.**Virtual xalqaro hamkorlik loyihalarini joriy etish**. Raqamli texnologiyalar yordamida turli mamlakatlar talabalari o‘rtasida hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirish intermadaniy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4.**Madaniy xilma-xillikni ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida integratsiyalash**. Turli fanlarni o‘qitishda madaniy kontekstni hisobga olish, turli madaniyatlardagi qarashlar va yondashuvlarni tahlil qilish muhimdir.

5.**Refleksiv amaliyotni joriy etish**. Talabalarni o‘z madaniy qarashlari va tajribalarini tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatish, refleksiv kundaliklar yuritish orqali o‘z madaniy rivojlanishini kuzatish amaliyotini joriy etish.

Intervyu natijalarida mutaxassislar tomonidan ta’kidlanishicha, xususan, ko‘p madaniyatli jamoalarda faoliyat ko‘rsatuvchi rahbar kadrlarni tayyorlashda intermadaniy kompetensiyani rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun magistratura dasturlarida madaniyatlararo boshqaruv (intercultural management) bo‘yicha maxsus kurslarni joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

1.Intermadaniy kompetensiya – bu shaxsning turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot o‘rnatish va hamkorlik qilish qobiliyati bo‘lib, u kognitiv, affektiv, xulq-atvor va meta-madaniy komponentlardan tashkil topgan. Bu tushuncha tarixiy rivojlanish jarayonida oddiy madaniy moslashish tushunchasidan ko‘p qirrali kompetensiyaga qadar rivojlangan.

2.Intermadaniy kompetensiya rivojlanishining to‘rt asosiy bosqichi mavjud: madaniy xabardorlik, madaniy sezgirlik, madaniy moslashuvchanlik va madaniy integratsiya. Bu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ketma-ket rivojlanish jarayonini o‘z ichiga oladi.

3.Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning intermadaniy kompetensiyasini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki amaliy tajriba orttirish imkoniyatlarini ham ta’minlashi lozim.

4.Zamonaviy globallashuv sharoitlarida intermadaniy kompetensiya nafaqat xalqaro faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, balki har bir zamonaviy shaxs uchun zarur kompetensiyaga aylanmoqda. Shuning uchun bu kompetensiyani rivojlantirish uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

5.Raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida virtual madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari ham intermadaniy kompetensiyaning muhim qismiga aylanmoqda. Bu esa intermadaniy kompetensiya tushunchasini yanada kengaytirish va rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Bennett, M. J. (1993). Towards ethnorelativism: A developmental model of intercultural sensitivity. In R. M. Paige (Ed.), *Education for the intercultural experience* (pp. 21-71). Yarmouth, ME: Intercultural Press.

2.Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Clevedon: Multilingual Matters.

3.Deardorff, D. K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. *Journal of Studies in International Education*, 10(3), 241-266.

4.Fantini, A. E. (2020). *Exploring intercultural communicative competence: Concepts, components and assessment*. Journal of International Students, 10(4), 874-891.

5.Kim, Y. Y. (2015). *Finding a "home" beyond culture: The emergence of intercultural personhood in the globalizing world*. International Journal of Intercultural Relations, 46, 3-12.

6.Leung, K., Ang, S., & Tan, M. L. (2014). Intercultural competence. *Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior*, 1(1), 489-519.

7.Liddicoat, A. J., & Scarino, A. (2013). *Intercultural language teaching and learning*. Chichester: Wiley-Blackwell.

8.Matsumoto, D., & Hwang, H. C. (2013). Assessing cross-cultural competence: A review of available tests. *Journal of Cross-Cultural Psychology*, 44(6), 849-873.

9.Spitzberg, B. H., & Changnon, G. (2009). Conceptualizing intercultural competence. In D. K. Deardorff (Ed.), *The SAGE handbook of intercultural competence* (pp. 2-52). Thousand Oaks, CA: Sage.

10. Ting-Toomey, S., & Dorjee, T. (2019). *Communicating across cultures*. New York: The Guilford Press.

11. Yeke, S., & Semercioöz, F. (2016). Relationships between personality traits, cultural intelligence and intercultural communication competence. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 235, 313-319.

12. Zhang, X., & Zhou, M. (2019). Interventions to promote learners' intercultural competence: A meta-analysis. *International Journal of Intercultural Relations*, 71, 31-47.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Begov Fayzullo Raxmatulloyevich
National Research University "TIIAME" , Associate professor
fayzullo.begov@mail.ru

UDK 81-13

FORMATION OF COMMUNICATIVE ABILITIES OF STUDENTS BY TEACHING THE LANGUAGE OF COMMUNICATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation: *This article discusses the issue of developing students ' communication skills through teaching a foreign language in higher education as well as the impact of teaching a language of communication on students, modern methods of developing and teaching communication skills, and the importance of teaching students.*

Keywords: *communicative ability, communicative language, competence, modern methodology, pedagogical skill.*

Begov Fayzullo Raxmatulloyevich
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti, dotsent

OLIY O'QUV YURTLARIDA MULOQOT TILINI O'RGATISH ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'limda xorijiy tilni o'qitish orqali talabalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi shuningdek, muloqot tili o'qitishning talabalarga ta'siri, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va o'qitishning zamonaviy usullari va talabalarga o'qitishning ahamiyati muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ qobiliyat, kommunikativ til, kompetensiya, zamonaviy metodologiya, pedagogik mahorat.*

Бегов Файзулло Рахматуллоевич
Национальный исследовательский университет «ТИИИМСХ», доцент

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ ОБЩЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: *В этой статье рассматривается вопрос о развитии коммуникативных навыков студентов посредством преподавания иностранного языка в высшем образовании а также обсуждается влияние преподавания языка общения на студентов, современные методы развития и обучения коммуникативным навыкам и важность обучения студентов.*

Ключевые слова: *коммуникативные способности, коммуникативный язык, компетентность, современная методика, педагогическое мастерство.*

Introduction.

In today's world, where communication plays a key role in success, the formation of students' communication skills is an integral part of the educational process. Teaching the language of communication in higher education institutions plays a crucial role in developing these abilities, allowing students to effectively interact with the world around them, both in their professional and personal lives.

Currently, several concepts and theories have been developed that address the problems of intercultural interaction. According to some scientists, globalization entails cultural homogenization. In this case, stronger cultures contribute to the formation of a homogeneous world or global culture. Consequently, the development of intercultural communication skills and the formation of a tolerant attitude towards foreign languages and cultures is becoming an integral part of university education in the era of globalization.

Literature review.

Intercultural communication is a complex phenomenon that attracts the attention of specialists in various fields of scientific knowledge: sociologists, cultural scientists, psychologists, anthropologists and philologists. The culture of any country is in constant interaction with the cultural achievements of other

nations. Recently, interest in the study of intercultural communication has increased significantly due to the expansion of opportunities for cultural interaction and the development of processes of international integration and global globalization.

The relevance of our research is dictated primarily by the need to meet the high demands that modern society places on the training of specialists and higher education in general. The creativity of the teacher is the mechanism that helps the teacher to adapt to the ongoing social changes.

Creativity is defined as the need to generate and test new things, to interest students, to inspire and inspire, and therefore, a kind of evolution is necessary for a professional person to meet the requirements of modernity. In addition, given the paradigm of modern education, a university graduate professional himself should be able to independently develop algorithms for solving new problems [1]. This is what the innovative development of universities is based on, namely: the constant process of developing and updating the knowledge and skills of both teachers and trainees.

Accordingly, universities, in addition to providing high-quality professional education, should promote the comprehensive and harmonious development of personality, the formation of humanistic values and tolerance. In addition, modern communication-oriented learning should contribute to the formation of the ability to use a foreign language in real life, both in professional and personal communication with representatives of other traditions and cultures. In this regard, the teacher has a need to create such learning conditions in which students will strive to develop their skills and activate creative abilities in order to obtain new results of their work.

The use of an interactive approach in teaching makes it possible to optimize the process of mastering foreign language communication skills and make it more effective. According to a number of researchers, the creation of an innovative educational environment based on advanced technologies is an integral part of the development of the higher education system. In this regard, interactive teaching methods are increasingly used in the educational process as part of the implementation of professional educational programs [2].

In recent years, the issue of using interactive teaching methods in the educational process has increasingly attracted the attention of scientists, various ways to use them more effectively have been proposed, educational goals have been reviewed, and new educational technologies have been developed [3].

The main purpose of interactive learning is to involve students in the cognitive process and provide them with the opportunity to reflect on what they know and think. In the course of joint activities, students exchange their knowledge and ideas [4]. In order for the learning process to be more effective, it is important for the teacher to create conditions under which the student can feel successful and self-confident, which will help to remove the language barrier when learning a foreign language. According to the American linguist Stephen Krashen, a person experiencing negative emotions (fear, irritation, anger), language abilities deteriorate. It is much more difficult for a person who is in a state of nervous excitement to formulate his thoughts in a foreign language. The scientist focuses on the fact that for the most effective and successful learning, a calm, relaxed environment is necessary [5].

Students should develop the skills of introspection and reflection. This skill allows researchers to identify their strengths and weaknesses through analysis and argumentation, objectively interpret the data obtained, identify possible errors in projects, as well as take measures to correct them, and be aware of their assumptions that may affect the results of the project.

Research methodology.

For the purpose of successful professional training, it is important to teach students how to make annotations to texts, articles, make plans of various kinds; work with texts in the specialty, scientific literature, write reports, essays, reviews, reviews of articles, periodicals; compose scientific texts in special disciplines, prepare presentations for speeches, participate in conferences. The study used scientific methods of cognition such as analysis and synthesis, complex approach, systematic-functional approach, content analysis, comparative analysis.

Results and Discussion.

Currently, the issue of using various technologies in the educational process is complicated by the need to choose one or another method of teaching. In the context of this work, interactive teaching methods are understood as forms of activity in which students interact widely with both the teacher and each other in a comfortable environment, which leads to an increase in the effectiveness of the learning process.

Let's identify the following main tasks of using interactive teaching methods: students' independent search for ways to solve a given educational task; stimulating students' interest in work; developing life and professional skills; effective assimilation of educational material; developing teamwork skills; forming students' own point of view. In these conditions, the role of the teacher ceases to be central. Now he only organizes the process by preparing the necessary tasks, advises, and also controls the order of the task.

Thus, the following features of interactive learning can be identified:

-independent search for a solution to the problem;

-activation of the student's creative and cognitive activity;

-the dialogical nature of interactive methods;

-stimulating interest in learning; the most effective assimilation of educational material;

- the formation of life and professional skills;

-the formation of students' own opinions on the problem.

The use of interactive teaching methods in the educational process contributes to the development of students' creative activity, increased motivation to study the subject, the development of communication skills and the formation of an active lifestyle [6]. Among the interactive methods used in teaching a foreign language, there are: discussion, game, reflexive and methods of organizing collective thought activities.

Discussion methods give students the opportunity to formulate their point of view on the problem, contribute to the formation of a respectful attitude towards the opinion of opponents. Due to the use of various discussion methods in the educational process (debates, round tables, discussions), students develop the ability to formulate questions, argue their statements, and increase motivation to learn a foreign language.

Game techniques (role-playing and business games, simulations, intellectual games) help to create mental tension in the student, overcome shyness and reduce anxiety. Using business games in the classroom makes it possible to bring the learning process as close as possible to practical activities, teaches you to make decisions in conflict situations, and develop team feelings among the participants in the game.

Reflexive methods are associated with the transformation of one's own mental and practical activities through psychological mechanisms of reflection. The use of reflective techniques ensures the stabilization and harmonization of the student's emotional world.

Methods of organizing collective research activities are aimed at developing the skill of independent search for solutions, developing the ability to work in a group and speak publicly, as well as preparing students for subsequent scientific activities.

The use of interactive methods in teaching a foreign language contributes to the formation of students' abilities to express and defend their opinions, enter into an argument, receive necessary information, work in a team, develop leadership skills, and also helps to form communication skills[7].

Conclusion.

The global experience of using digital communication tools proves that it is capable of convincing, informing, inspiring communicants to engage in speech activity through educational platforms, mass media, and social networks. Embracing all forms of discourse, digital reality is changing perceptions of specialist competence within the emerging "new literacy." Flexibility, the ability to collaborate and work in a team, critical thinking, creativity, originality and the development of strategies necessary in a modern knowledge society are also important skills. Teaching the language of communication in higher education institutions plays a crucial role in shaping students' communication skills. It allows students to master language skills, acquire practical communication skills, and enhance their professional and personal potential.

References:

1. Раицкая Л.К. Самостоятельная учебно-познавательная деятельность в информационно-образовательной среде Интернет: дидактическая концепция: Монография / Под науч. ред. А.В. Гагарина. -М.: МГОУ, 2012. -С.268.

2. Ефимов П.П., Ефимова И.О. Интерактивные методы обучения – основа инновационных педагогических технологий // Инновационные педагогические технологии: материалы Междунар. науч. конф. – Казань: Бук, 2014. – С. 286-290.

3. Farxodjonova N. F., Abdurahimov V. A. Modern technologies of students training in higher education. nauka i tehnika. Mirovye issledovanija. – 2020.

4. Hedberg J., Harper B. Interactive educational technologies: Effective design and application in the classroom //3rd International Interactive Multimedia Symposium. – 1996. – С. 160-168.

5. Krashen S. D. The power of reading: Insights from the research. – Bloomsbury Publishing USA, 2004.

6. Rahmatullayevich B. F. The significance of foreign languages in the education system //Prospects of teaching English for professional purposes in non–philological higher education institutions: problems and solutions. – 2025. – С. 31-37.

7. Rakhmatullayevich B. F. The role of communicative competence in the language learning sphere //Theory and analytical aspects of recent research. – 2024. – Т. 3. – №. 26. – С. 128-130.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdullayev Safibullo Xabibullayevich
Namangan davlat pedagogika instituti professori
E-mail: safibullo.abdullaev@gmail.com
Uluxanov Ibroxim Tuxtaxo'jayevich
Namangan davlat pedagogika instituti professori
E-mail: ibrohimuluhanov@gmail.com
Ubaydullayev Solijon Qodirovich
Andijon davlat pedagogika instituti dotsent v.b.
E-mail: ubaysolijon79@gmail.com

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqola texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol o'qitish metodlari, 3D modellashtirish, robototexnika va boshqa innovatsion yondashuvlarning texnologiya darslariga integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Innovatsiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashi, amaliy ko'nikmalari va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *inovatsion texnologiyalar, mustaqil fikr, usullar, texnologiya fani, o'quv-tarbiya jarayon, o'qituvchi, o'quvchilar, animatsiya.*

Абдуллаев Сафибулло Хабибуллаевич
Наманганский государственный педагогический институт профессор
Удуханов Иброхим Тухтахўжайевич
Наманганский государственный педагогический институт профессор
Убайдуллаев Солижон Қодирович
Андижанский государственный педагогический институт в.и.о.доцента

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАТSIОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотатsiя*: Данная статья посвящена вопросам развития системы образования посредством эффективного использования инноватsiонных технологий на уроках технологии. В статье анализируется интегратsiя современных информатsiонно-коммуникатsiонных технологий, интерактивных методов обучения, 3D-моделирования, робототехники и других инноватsiонных подходов в уроки технологии. Рассматриваются возможности развития креативного мышления, практических навыков и самостоятельной работы учащихся посредством применения инноватsiй. Также подчеркивается необходимость повышения цифровой грамотности учителей и обеспечения их современными педагогическими технологиями для повышения эффективности обучения.*

Ключевые слова*: инноватsiонные технологии, самостоятельное мышление, методы, предмет технология, учебно-воспитательный процесс, учитель, аниматsiя.*

Abdullaev Safibullo Khabibullaevich
Namangan State Pedagogical Institute professor
Ulukhanov Ibrokhim Tukhtakhuzhaevich
Namangan State Pedagogical Institute professor
Ubaydullaev Solizhon Kodirovich
Andijan State Pedagogical Institute acting associate professor

DEVELOPING THE EDUCATION SYSTEM THROUGH THE EFFECTIVE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TECHNOLOGY LESSONS

Abstract: *This article is devoted to the development of the education system through the effective use of innovative technologies in technology lessons. The article analyzes the integration of modern information and communication technologies, interactive teaching methods, 3D modeling, robotics, and other innovative approaches into technology lessons. The possibilities of developing students' creative thinking, practical skills, and independent work through the application of innovations are considered. The necessity of increasing teachers' digital literacy and providing them with modern pedagogical technologies to improve the effectiveness of education is also emphasized.*

Keywords: *innovative technologies, independent thinking, methods, technology subject, educational process, teacher, students, animation.*

Kirish

Innovatsion texnologiyalar har bir o'qituvchining erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi va o'quvchilarda o'qituvchi yordamida mustaqil bilim olish, ishlash ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. O'quvchilar yangi bilimlarini ilmiy izlash, tadqiq qilish asosida o'zlashtiriladilar. Bu jarayonning amalga oshishi ba'zan yakka, ba'zan kichik va katta guruhlarda ishlash orqali amalga oshadi. Guruhlarda ishlash jarayonida o'qituvchi tomonidan har bir o'quvchining faoliyati kuzatib, tahlil qilib borilishi, berilayotgan bilim va malakalarning mustahkamlanishi uchun zamindir.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tkazilgan har bir mashg'ulot o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z nuqtai nazarini bayon qilishga imkon yaratadi. XXI asr – axborot texnologiyalari asri. Jamiyatimiz rivoji, barqarorligini ta'minlashda, eng avvalo, olingan axborotlarni mustaqil tahlil eta oladigan, erkin fikrlaydigan yoshlar zarur. Shuning uchun ham o'quv-tarbiya jarayonida innovatsion usullar, texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyos. Pedagogik texnologiyalarni ta'limda qo'llash o'quvchilarning bilimli va etuk malakali bo'lishlarini ta'minlaydi. "Innovatsiya" inglizcha so'z bo'lib, "yangilik kiritish", "yangilik" degan ma'nolarni anglatadi.

Adabiyotlar tahlili

Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etishdan ko'zlanadigan asosiy maqsadlarni quyidagicha tasniflash mumkin: birinchidan, "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da ko'rsatilgandek intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan foydalanish; ikkinchidan, bugungi transformatsiya sharoitlarida har qanday axborotlarni o'quvchilarga etkazishda vaqtdan unumli foydalanish; uchinchidan, bilim berishni yanga sifat bosqichiga ko'tarish va o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish; to'rtinchidan, mustaqillik, erkin fikr, o'zaro hamkorlik aloqalarini keng yo'lga qo'yish[1-2].

Ta'lim jarayonini boshqarish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Bu jarayonda interfaol usullardan foydalanish ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun zamin bo'ladi. Interfaol usullar zamirida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi yotadi[5-6]. Innovatsion texnologiyalar orqali ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik va o'zgartirish kiritiladi va bu jarayon interfaol usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotchi I.Rajabova ta'kidlashicha, "Pedagogik texnologiya, metodlardan to'g'ri foydalanilganda, bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi[3-4]. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma'lum va keng qo'llanadigan usullardan "Aqliy hujum", "Klaster", "VENN diagrammasi", "BBB", "FSMU" kabilar dars jarayonida o'zlanining samarali natijalarini ko'rsatib kelmoqda. "Qiyoslash metodi", "Davra metodi", 6x6x6 kabi metodlarning dars samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rni bor[6-7]. Shuningdek, ushbu jarayonda o'qituvchi o'zining boshqaruvchilik vazifasiga ijodkorlik bilan yondashib, qaysi o'quvchi kim bilan hamkorlikda yaxshi ishlashini ham aniqlab borishi hamda har bir guruhda yaxshi o'qiydigan o'quvchilarning passiv o'quvchilar bilan hamkorligini ta'minlab borishi darkor [7-8].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish ***muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi.*** Innovatsion pedagogik muammolar echimini izlash ta'lim sohasida innovatsion jarayonning xususiyati, mazmuni, tarkibini tasniflash va tekshirish natijalarini tahlil qilish, pedagogik hamkorlik jarayonining o'ziga xos xususiyati, o'quvchining dars jarayoniga loqaydligi, nofaolligining oldi olish va mustaqil fikrlash, ijod qilish, izlanishga jalb qilish, o'quv jarayoniga, fanga bo'lgan qiziqishlarining doimiyligi ta'minlash ***tahlili qilindi va i***nnovatsion texnologiyalar orqali ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini ***rivojlantirish bo'yicha yondashuvlar o'rganildi.***

Natijalar va ularning tahlili

Pedagogik texnologiyaning maqsadi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta'minlashdir. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishi mumkin. O'quv

jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o‘zlari xulosa qila olsa, ko‘zlangan maqsad amalga oshadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi, o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim sifati va samaradorligini oshirib, ta’lim jarayoning markaziga o‘quvchi-talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini qo‘yadi, ta’lim jarayonining yaxlitligini ta’minlaydi. O‘quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko‘rsatkichi, o‘quv-biluv faoliyatini o‘zi tashkil etishi, iroda va faoliyatning o‘quvchi ongining predmetiga aylanishidir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, avvalo, ta’lim beruvchi maqsadga eltuvchi usullarni tanlay bilishi, o‘quvtarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta’minlashi lozim.

Jumladan, texnologiya fani darslarida interfaol usullar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga qaratiladi. Bunda kichik guruhlarga bo‘lingan holda o‘quvchilar hamkorligining yo‘lga qo‘yilishi hatto bilimi bo‘sh, nutqi sayoz o‘quvchilarni ham o‘rtoqlari ko‘magida nimanidir gapirib berishga intilishiga, o‘quvchini o‘zi oldida turgan “tushunaman, ammo gapira olmayman" degan nutqiy to‘siqni engib o‘tishiga va o‘zidagi ichki imkoniyatni yuzaga chiqara olishiga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi metodlarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish pedagoglar oldida turgan masalalardan hisoblanadi.

Ma’lumki, bilim berish, o‘qitish - “ta’lim jarayoni” deb, ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi, ta’lim maqsadiga erishish yo‘llari, usullari esa “metod” deb yuritiladi. O‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari ta’lim usuli bo‘lib, u o‘quv materialini nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish yo‘llarini anglatadi. O‘quv faoliyati mazmunining to‘laqonli yoritilishida ta’lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta bo‘lib, o‘qitish metodlari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday kechishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. Ta’lim shakli, vositalari, metodlari sinfdan-sinfga, bosqichdan bosqichga o‘tgan sari oddiydan-murakkabga qarab o‘stirib borilgan holda qo‘llanilishi, dars jarayonida ham bir emas, bir necha metodlardan foydalanish mumkin. Dars samaradorligi bevosita ushbu metodlarning to‘g‘ri qo‘llanishiga bog‘liq bo‘ladi. Turli xil pedagogik vaziyatlarda o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati fikrlarining o‘zgarib, almashinib turishi, albatta, dars metodlarining o‘zgarishiga ham sabab bo‘ladi. Bu pirovard natijada har bir darsning boshqalariga o‘xshamagan shaklda, o‘ziga xos tarzda tashkil etilishiga yordam beradi va o‘quvchi-talabalarda ushbu fanga qiziqish, yangiliklarni ilg‘ab olishga intilish hissini uyg‘otishga olib keladi.

Bugungi kun o‘qituvchisi har bir mashgulotga kirar ekan, har doim uning oldida «Darsni qanday tashkil etish kerak?», «Qaysi didaktik materialdan qay tarzda foydalanish kerak?», «Ushbu mavzuni o‘tishda qaysi metodlardan foydalanish samarali bo‘ladi?» degan savol turadi. Darsda ko‘zda tutilgan ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlarga erishishda o‘qituvchining o‘z mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilimi, intellektual salohiyatining o‘zi etarli emas. O‘qituvchi o‘zidagi bilimlarni o‘quvchilarga to‘liq singdira olishi hamda ularda egallangan bilimlarini amalda qo‘llay olishga qaratilgan ko‘nikma va malakalarni shakllantira olishi kerak. Shu bois har bir fan o‘qituvchisi, xoh u maktab o‘qituvchisi, xoh u oliy ta’lim o‘qituvchisi bo‘lsin, nafaqat o‘z tajribasi, balki o‘zgalar tajribasiga ham suyangan holda dars o‘tish metodlari ustida jiddiy bosh qotirishi zarur.

Pedagogik texnologiya, metodlar ta’lim jarayoni ishtirokchilarining birgalikda, ya’ni o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat yuritishiga asoslanadi. Bunda o‘quvchilar an’anaviy ta’limdagi kabi faqat tayyor bilimlarni eshitib qabul qiluvchi passiv ob’yektdan ta’lim jarayonida bevosita ishtirok etuvchi, mustaqil fikrlovchi faol sub’yektga aylanadilar. Bu jarayonda o‘qituvchining o‘rni nihoyatda katta, chunki, u muayyan fan o‘quv dasturi asosida rejalashtirilgan, darslik, qo‘llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzuga xos xususiyatlar, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o‘quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishidan kelib chiqib, ta’lim metodlari va dars shakllarini tanlaydi. Ushbu jarayonda, albatta, o‘qituvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholay olishi hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumki, ta’lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchi ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi, ta’lim maqsadlarining to‘g‘ri amalga oshirilishi va ta’lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ta’lim jarayoni o‘quvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirishlariga oid mexanizmgina bo‘lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmaslik lozim. Hozirgi davr talabi o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik munosabatini yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va ularni faollashtirishdir. Interfaol ta’lim jarayonini quyidagi ikki qismga bo‘lish mumkin:

-o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligi;

-o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning hamkorligi o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatadigan yordamidan boshlandi. U asta-sekin faollashib, o‘qituvchi bilan

o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik pozitsiyasiga o‘sib o‘tadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamkorlik qilishi katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning fanga qay darajada ixlos qo‘yishi o‘qituvchining mana shu hamkorlik jarayonini yo‘lga qo‘yish mahoratiga, ya’ni pedagogik ijodkorligiga bog‘liq.

Interfaol usullarni qo‘llash jarayonida hamkorlik munosabatini o‘rnatishga ijodkorlik bilan yondashish va o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligi bilan bir vaqtda o‘quvchilarning bir-birlari bilan hamkorligini tashkil etish ham juda muhim.

Xususan, o‘quvchilarning juftliklarga bo‘linib ishlashlari jarayonida faol o‘quvchi bilan nofaol o‘quvchining doimiy hamkorligini ta’minlash orqali faol o‘quvchilarni o‘qituvchining yordamchisiga aylantirishga erishish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning dars jarayonida ham, uyda ham o‘z ustlarida muttasil va mustaqil ishlashlarini ta’minlaydi va nihoyatda samarali natijalarga: o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga ishonchning paydo bo‘lishiga, fanga muhabbat paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, hamkorlik munosabatlariga ijodkorlik bilan yondashish vositasida o‘quvchilarni o‘rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o‘qish-o‘qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishning asosiy sharti bo‘libgina qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim sharti hisoblanadi. Rivojlanib borayotgan bu davrning o‘qituvchilari ta’lim berishning zamonaviy usullarini dars jarayonlariga tadbiq qilishlari, darsning sifatli va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Bunda xorijiy tajribalardan foydalanish, rivojlanib borayotgan davlatlarning ta’lim daturlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b.

2.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi halq talimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish koncepciyasini tasdiqlash to'g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni// Halq so'zi. - Toshkent, 2019 yil 30 aprel . № 88 (7318).

4.Umumiy o'rta va o'rta mahsus, kasb-hunar talimining davlat talim standartini tasdiqlash to'g‘risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. - Toshkent: 2017 yil 14 (774)-son, 230-modda. - 233 b.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi qonuni. O‘RQ-630, 24.07.2020 y.

6.Abdullaev S. X. O‘qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2021. – №. 9 (106). – S. 28-36.

7.Abdullayev S.X. Ergonomik yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisi ergonomik kompetentligini takomillashtirish metodikasi //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 842-846. 24.

8.Tokhtakhojaevich, U. I. (2023). Formation of mathematical expression of automatic control systems in students. *World Bulletin of Social Sciences*, *26*, 67-71.

9.Khabibullayevich, A. S., Tokhtakhojaevich, U. I., Ogli, A. D. A., & Zafarzhan, Q. Z. (2023). Spiritual Education of Students in Teaching Drawing Geometry and Computer Graphics. *Global Scientific Review*, *16*, 1-4.

10.Tokhtakhojaevich, U. I., Abdurasulovna, K. G., & Kadyrovich, U. S. (2022). Pedagogical technologies in the formation of creative competence in the educational process. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *5*, 22-28.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Turaxujayev Anvarxuja Abbasxuja o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali
Registrator ofisi xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i
atoraxojayev@gmail.com

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA FIZIKA FANINI O‘QITISHNING INTEGRATIV YONDASHUN ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida fizika fanini o‘qitishda integrativ yondashuvning ahamiyati va uning metodik jihatlari tadqiq qilinadi. Interfanlararo bog‘liqlik, axborot texnologiyalari va faol o‘quv usullarini qo‘llash orqali talabalarning fizikaviy tafakkurini, mustaqil izlanish qobiliyatini va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda integrativ yondashuvning nazariy asoslari, joriy tajribalar tahlili va amaliy takliflar keltirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, integrativ metodika talabalarning akademik natijadorligini oshirish bilan birga ularning fanlararo kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *integrativ yondashuv, fizika o‘qitish, oliy ta’lim, metodika, interfanlararo bog‘liqlik, ta’limda texnologiyalar.*

Turaxujayev Anvarxuja Abbasxuja ugli
Head of the Service Department, Registrar's Office
Kokand Branch of Tashkent State Technical University

METHODOLOGY FOR IMPROVING TEACHING PHYSICS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Annotation: *This article examines the importance of an integrative approach to teaching physics in the modern educational process and its methodological aspects. The issues of forming students’ physical thinking, independent research skills, and innovative solutions through the use of interdisciplinary connections, information technologies, and active learning methods are discussed. The study presents the theoretical foundations of the integrative approach, an analysis of current experiences, and practical suggestions. The results show that integrative methodology serves to improve students’ academic performance and develop their interdisciplinary competencies.*

Keywords: *integrative approach, physics teaching, higher education, methodology, interdisciplinary connection, technologies in education.*

Турахужаев Анвархужа Аббасхужаевич
Филиал Ташкентского государственного технического университета в Коканде
Руководитель отдела обслуживания регистратора

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация: *В статье рассматривается значение интегративного подхода к преподаванию физики в современном образовании и его методические аспекты. Освещены вопросы формирования у студентов двигательного мышления, навыков самостоятельной исследовательской работы, а также навыков разработки инновационных решений посредством использования межпредметных связей, информационных технологий и активных методов обучения. В исследовании представлены теоретические основы интегративного подхода, анализ современной практики и практические предложения. Результаты показывают, что интегративная методология помогает повысить успеваемость студентов, а также развить их междисциплинарные компетенции.*

Ключевые слова: *интегративный подход, преподавание физики, высшее образование, методика, межпредметные связи, технологии в образовании.*

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda fan va texnologiyalarning tez rivojlanishi oliy ta'lim muassasalariga yangi talablar qo'ymoqda. Fizika, tabiiy fanlarning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida, talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy hayotda qo'llash, murakkab muammolarni interdisiplinar yondashuv bilan hal qilish qobiliyatini ham shakllantirishi kerak. Biroq, an'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha fanlarni izolyatsiya qilingan holda o'rgatishga qaratilgan bo'lib, bu talabalarning bilimlarini birlashtirish va ularni innovatsion fikrlashga undashda cheklovchi omil hisoblanadi.

Integrativ yondashuv – bu turli fanlar, texnologiyalar va o'quv usullarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik strategiya. Ushbu maqolaning maqsadi integrativ yondashuv asosida fizika o'qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy jihatlarini aniqlash va ularning samaradorligini eksperimental yo'l bilan tasdiqlashdan iborat.

Zamonaviy dunyoda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal sur'atlari talabchanlikni faqatgina iqtisodiyot va texnologiyalarga emas, balki ta'lim tizimiga ham qo'yadi. Fizika fanining ahamiyati uning tabiat qonuniyatlarini anglash, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va global muammolarga (iqlim o'zgarishi, energiya tanqisligi) yechim topishda asosiy vositachi bo'lishidadir. Biroq, oliy ta'lim muassasalarida fizika o'qitishning an'anaviy usullari ko'pincha quyidagi kamchiliklarni saqlab qolmoqda:

Fanlarning izolyatsiyasi – fizika, matematika, informatika kabi fanlar bir-biri bilan bog'lanmasdan o'qitiladi.

Passiv o'qitish – ma'ruzalar va nazariy hisoblar ustunlik qiladi, talabalarning kreativligi cheklanadi.

Texnologiyalarning yetishmasligi – virtual laboratoriyalar, simulyatsiya dasturlari kabi zamonaviy vositalar kam qo'llaniladi.

Integrativ yondashuv shu kamchiliklarni bartaraf etish uchun pedagogik yechim sifatida taklif etiladi. Uning mohiyati fanlar, texnologiyalar va o'quv usullarini uyg'unlashtirishga asoslangan bo'lib, talabalarga nafaqat bilimlarni, balki ularni amaliyotda sinab ko'rish, interdisiplinar loyihalarda ishlash imkoniyatini beradi. Masalan, klassik mexanika mavzularini dasturlash (Python, MATLAB) bilan birlashtirish orqali talabalar fizik jarayonlarni modellashtirish qobiliyatini oshirishlari mumkin.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonning yangi ta'lim standartlari (2021–2030) fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishni ustuvor vazifa qilib qo'ygan. Shuning uchun, integrativ metodikani amaliy jihatdan tadbiq qilish orqali fizika o'qituvchilariga zamonaviy ta'lim resurslarini samaraliroq qo'llashga yordam berish maqsad qilingan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Integrativ ta'limning pedagogik asoslari 20-asrning boshlarida J. Dewey tomonidan ishlab chiqilgan "Tajriba va ta'lim" nazariyasiga borib taqaladi. Dewey ta'limning mazmuni fanlararo bog'liqlik va hayotiy muammolarga qaratilishi kerakligini ta'kidlagan. Keyinchalik, L. Vygotskiy "Ijtimoiy madaniy nazariya"da o'quvchilarning kognitiv rivojlanishida hamkorlikdagi faoliyatning rolini urg'u bilan aytib o'tgan.

Zamonaviyda integratsiyaning ahamiyati STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta'limi kontekstida ko'proq o'rganilmoqda. Bybee (2018) STEMning 4C tamoyilini (Critical thinking, Creativity, Collaboration, Communication) ta'limga tatbiq etish orqali talabalarning kompleks ko'nikmalarini shakllantirish mumkinligini isbotlagan. OECD (2022) hisobotida Finlandiya, Singapur kabi mamlakatlarda integratsiyalashgan dasturlar orqali talabalarning PISA baholari oshganligi qayd etilgan.

Fizika o'qitishda integratsiyaga oid amaliy tadqiqotlar:

Kozhevnikov va boshqalar (2020) virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish kvant fizikasi mavzularini tushunishni 40% ga yaxshilashini ko'rsatdi.

Hazari (2019) loyihalar asosida o'qitish (masalan, quyosh energiyasi qurilmalarini yaratish) talabalarning motivatsiyasini oshirishini aniqladi.

O'zbekiston kontekstida Abdullayev va Qurbonov (2021) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda oliy ta'limda fanlararo aloqalar yetarli darajada qo'llanilmasligi, dasturiy ta'minotning eskirganligi haqida xulosalar keltirilgan. Shunday qilib, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati mavjud.

Abdullayev R., Qurbonov S. (2021) "Oliy Ta'limda Fanlararo Bog'lanishlarni Takomillashtirish" asarida O'zbekiston universitetlarida fizika, matematika va informatika fanlari o'rtasidagi integratsiya darajasi pastligi, dasturiy ta'minotning eskirganligi, o'qituvchilarning yangi pedagogik usullarga tayyorgarliksizligi haqida tanqidiy fikrlar bildirilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, fanlararo loyihalar faqat 15% dars soatlarida qo'llaniladi, qolgan 85% an'anaviy usulda o'tiladi.

Usmonov J. (2022) "Zamonaviy Fizika Ta'limida Raqamli Texnologiyalar" monografiyasida virtual laboratoriyalar (masalan, OpenPhysics platformasi) va sun'iy intellekt asosidaki adaptiv o'quv tizimlarini joriy etish orqali talabalarning mavzularni tushunish darajasi 30-40% ga oshirilishi mumkinligi eksperimental ravishda isbotlangan.

Karimova N. (2020) "Texnika Universitetlarida Integrativ Yondashuv" maqolasida Toshkent Davlat Texnika Universitetida joriy qilingan "Fizika + Dasturlash" kursi tajribasi tahlil qilingan. Loyiha doirasida talabalar MATLAB yordamida mexanik

sistemalarni modellashtirishni o‘rgangan, natijada ularning fizik masalalarni algoritmik hal qilish ko‘nikmalari 2 baravar oshgan.

Toshpulatova M. (2023) “Fizika va Ekologiya: Interdisiplinar Kurslar” tadqiqotida qayta tiklanadigan energiya manbalari mavzusida qo‘llanilgan loyihaviy usullar (quyosh panellarini yaratish, shamol generatorlarini hisoblash) talabalarning ekologik ongini oshirish bilan birga fizika faniga qiziqishini 65% ga oshirganligi qayd etilgan. Rahimov O. (2021) “O‘zbekistonda Ta’limni Rag‘batlantirish Strategiyalari” asarida fizika darslarida integratsiyani amalga oshirish uchun quyidagi takliflar kiritilgan:

Fanlararo darslar uchun o‘quv dasturlarini qayta ishlash;

O‘qituvchilarni AI va VR texnologiyalari bo‘yicha qayta tayyorlash;

Universitetlararo hamkorlikda innovatsion resurslar bazasini yaratish.

Xolmirzayev B. (2022) “Fizika O‘qitishda Motivatsion Omillar” maqolasida O‘zbekiston talabalari orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari keltirilgan: 70% talabalar fizikani “qiyin va zerikarli” deb hisoblashi, ularning faqat 25%i bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega ekanligi aniqlangan. Muallifning fikricha, muammo darslarning haddan tashqari nazariylashganligidadir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Vazirligi (2022) tomonidan e’lon qilingan “2021–2030-yillardagi Ta’limni Rivojlantirish Kontseptsiyasi”da fanlararo integratsiya, loyihaviy ta’lim va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Hujjatda xorijiy tajribalarni mahalliylashtirish zarurati ta’kidlangan (masalan, Finlandiyaning “Phenomenon-Based Learning” uslubi).

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti (2023) tomonidan o‘tkazilgan pilot loyihada 50 ta fizika o‘qituvchisi integrativ usullar (masalan, fizika + astronomiya + tarix) bo‘yicha malaka oshirgan. Natijada, ularning 80%i darslarda talabalar faolligining oshganini qayd qilgan.

Tadqiqot va muhokama.

Integrativ yondashuv asosida fizika o‘qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Integrativ Ta’limning Pedagogik Nazariyalari- Integrativ yondashuv quyidagi pedagogik nazariyalar asosida shakllangan:

Konstruktivizm (Piaget, Vygotskiy): Talabalar yangi bilimni o‘z tajribalari va muhit bilan o‘zaro ta’sir orqali qurishadi. Integratsiya ularga fanlararo bog‘lanishlarni mustaqil kashf etish imkoniyatini beradi.

Sinergetik Nazariya (Haken): Turli fanlarning o‘zaro ta’siri bilimlarning sinergetik effektini yaratadi. Masalan, fizika va matematik modeldashuvni birlashtirish talabalarga murakkab tizimlarni tahlil qilish ko‘nikmasini kuchaytiradi.

O‘zbekiston Kontekstida Tadqiqotlar:

Abdullayev (2021) ta’kidlashicha, O‘zbekistonda konstruktiv yondashuvni joriy etish uchun darsliklarni fanlararo misollar bilan boyitish zarur.

Usmonov (2022) virtual laboratoriyalar orqali tajriba va nazariyani birlashtirish konstruktiv ta’limni samaraliroq qilishini isbotlagan.

Interdisiplinar va transdisiplinar tondashuv:

Interdisiplinar Model: Fanlar alohida saqlanadi, lekin muammolar ularning kesishgan joylarida hal qilinadi (masalan, fizika + ekologiya = energiya samaradorligi loyihalari).

Transdisiplinar Model: Fanlar chegaralari butunlay yo‘qoladi, talabalar real dunyo muammolariga integral yechim izlaydi (masalan, iqlim o‘zgarishi tadqiqoti uchun fizika, siyosat, iqtisodni birlashtirish).

STEM Integratsiyasi:

STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) fizika o‘qitishda quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Ilmiy Tadqiqot - Fizik qonunlarni eksperimental tekshirish.

Texnologik Innovatsiya - Dasturlash yordamida modellashtirish (MATLAB, Python).

Muhandislik Yechimlari - Qurilmalarni loyihalashtirish (masalan, quyosh panellarini optimallashtirish). Fizika Darsida STEM elementlarining uyg‘unlashtirilishin quydagi jadvalda ko’rishimiz mukin

Fizika Mavzusi	**Texnologiya**	**Muhandislik**	**Matematika**
Elektr Zanjirlari	Arduino Platformasi	Energiya Manbalari	Differensial Tenglamalar


Integrativ baholash usullari:

Portfel Baholash: Talabalarning loyihalar, hisobotlar va refleksiyalari asosida baholash.

Kompetensiyaga Asoslangan Testlar: Masalan, fizik muammoni dasturlash orqali hal qilishni talab qiluvchi vazifalar.

Jamoaviy Baholash: STEM loyihalarida guruhdosh baholash (peer assessment) usuli.

Diagramma 1: Integrativ Ta’limda Baholash Tizimi



Integrativ yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslangan holda o’rganishimiz mukin.

Fanlararo Sinergetika: Fizika, matematika, dasturlash va muhandislikni birlashtirish (masalan, Nyuton qonunlarini kompyuter modellashtirish orqali o‘rganish).

Faol O‘quv Usullari: Loyihaviy ta’lim (masalan, quyosh panellarini loyihalashtirish), Diskussiyalar va eksperimentlar.

Raqamli Innovatsiyalar: Virtual laboratoriyalar (PhET), sun’iy intellekt (AI) asosidagi o‘quv platformalari.

An’anaviy va Integrativ usullarning taqqoslovchi tahlil sifatida quydagi jadvalda ko’rishimiz mumkin, ushbu jadvalda O‘qituvchi, bilim manbalari, texnologiya, va baholash jarayonlari an’aviy usul va integrativ usul orqali taqqoslab ko’rishimiz mumkin.

Parametr	An’anaviy Usul	Integrativ Usul
O‘quvchi roli	Passiv tinglovchi	Faol ishtirokchi, tadqiqotchi
Bilim manbalari	Darsliklar	Ilmiy maqolalar, onlayn resurslar
Texnologiya	Minimal (proyektor, doska)	VR, AI, simulyatsiya dasturlari
Baholash	Testlar va imtihonlar	Portfel, loyiha hisobotlari

Tahlil va natijalar

Toshkent Davlat Texnika Universiteti Qo’qon filialida 2024-2025 o‘quv yilida talaba ishtirokida o‘tkazilgan eksperimentda quyidagi natijalar qayd etildi:

Integrativ usul qo‘llangan guruhda o‘rtacha baho 4.7 ballga oshdi (an’anaviy usulda 3.9).

Ko‘rsatkich	An’anaviy Usul	Integrativ Usul
Mavzuni tushunish	60 %	95 %
Amaliy qo‘llash qobiliyati	40 %	85 %
Fanlararo bilim	35 %	85%
Baholash	3,9	4,7

Xulosa.

Integrativ yondashuv asosida fizika o‘qitishni takomillashtirish zamonaviy ta’limning global talablariga mos keladigan innovatsion pedagogik strategiyadir. Ushbu metodikaning muvaffaqiyati nafaqat akademik natijalarni oshirishda, balki talabalarni real hayot muammolariga tayyorlashda ham namoyon bo’ladi. Integrativ yondashuv fizika ta’limini qayta qurishning yagona usuli emas, lekin u global raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston uchun bu yo‘lda muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagilar zarur:

Birlashgan Harakat: Hukumat, universitetlar, xususiy sektor va xalqaro hamkorlarning uyg‘unligi.

Izchillik: Qisqa muddatli loyihalar emas, balki uzoq muddatli strategiyalar asosida ishlash.

Talabalar Markaziyyati: Har bir talabaning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan individual yondashuv, Fizika fanini yangi avlod uchun qiziqarli va samarali qilish uchun integratsiya nafaqat darsliklar, balki butun ta’lim falsafasini o‘zgartirishga intilishi kerak. Bu yo‘lda har bir qadam – kelajakka qilingan sarmoya hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bransford, J., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (2020). *How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School*. National Academies Press.

2. Bybee, R. W. (2018). *STEM Education: Challenges and Opportunities*. NSTA Press.

3. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. Macmillan.

4. Hattie, J. (2018). *Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning*. Routledge.

5.Kozhevnikov, M. (2020). "Virtual Reality in Physics Education: A Meta-Analysis". *Journal of Science Education and Technology*, 29(3), 431–442.

6.OECD (2019). *PISA 2021: Innovative Teaching Methods*. OECD Publishing.

7.Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2017). *Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness*. Guilford Press.

8. Abdullayev, R., & Qurbonov, S. (2021). *Oliy Ta’limda Fanlararo Bog‘lanishlarni Takomillashtirish*. Toshkent: “O‘zbekiston” Nashriyoti.

9. Karimova, N. (2020). “Texnika Universitetlarida Integrativ Yondashuv”. *Fan va Ta’lim* Ilmiy Jurnali, 12-son, 45–58.

10. Rahimov, O. (2021). *O‘zbekistonda Ta’limni Rag‘batlantirish Strategiyalari*. Toshkent: TDPU Nashriyoti.

11. Toshpulatova, M. (2023). “Fizika va Ekologiya: Interdisiplinar Kurslar”. *Pedagogika Innovatsiyalari*, 5(2), 112–125.

12. Usmonov, J. (2022). *Zamonaviy Fizika Ta’limida Raqamli Texnologiyalar*. Toshkent: ToshDTU Ilmiy Axborotnomasi.

13. Xolmirzayev, B. (2022). “Fizika O‘qitishda Motivatsion Omillar”. *Ta’lim va Innovatsiya*, 4(1), 33–47.

14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Vazirligi (2022). *2021–2030-yillardagi Ta’limni Rivojlantirish Kontseptsiyasi*. Onlayn manba.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yulchieva Saylibarxon Tojiboevna
Cenrtal Asian Medical University

TIBBIY TA'LIMDA TALABALARNI KASBIY KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASINI O'RNI

Annotatsiya. *Oxirgi yillarda yuzaga kelgan globallashuv jarayonlari ta'lim sohasiga ham jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda, axborot ma'lumotlarining ko'pligi, innovatsion texnologiyalarning o'z navbatida ta'lim mazmunida o'zgarishlar kiritilishini taqozo qilmoqda. Mazkur maqolada tibbiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan, jumladan oliy ma'lumotli hamshiralar yo'nalishi, talabalarni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim moxiyati va imkoniyatlari ochib berilgan. Jumladan, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tibbiyot kadrlarni tayyorlash uchun qo'llash imkoniyatlari hamda ijobiy ta'monlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *kadrlarni tayyorlash, ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

Юльчиева Сайлибархон Тажибоевна
Центрально-Азиатский Медицинский Университет

РОЛЬ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *Процессы глобализации, произошедшие в последние годы, стремительно входят в сферу образования, обилие информационных и инновационных технологий, в свою очередь, требуют изменений в содержании образования. В данной статье раскрываются сущность и возможности персонализированного обучения в обучении студентов медицинских специальностей, в том числе медицинских сестер высшего образования. В частности, раскрыты возможности и положительные стороны использования личностно-ориентированного образования для подготовки медицинских кадров.*

Ключевые слова: *подготовка кадров, образование, личностно-ориентированное образование.*

Yulchieva Saylibarkhon Tojiboevna
Central Asian Medical University

THE PLACE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN FORMING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE IN MEDICAL EDUCATION

Annotation. *The globalization processes that have occurred in recent years are rapidly entering the field of education, and the abundance of information data and innovative technologies, in turn, require changes in the content of education. This article reveals the essence and possibilities of person-oriented education in the education of students studying in the medical field, including the field of nurses with higher education. In particular, the possibilities and positive effects of using person-oriented education for the training of medical personnel are revealed.*

Keywords: *personnel training, education, person-oriented education.*

Kirish. Jahon ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan kreativ ta'lim texnologiyalari o'quv jarayoniga tatbiq etilgan. Janubiy Koreyada o'tkazilgan Xalqaro ta'lim forumida 2030 yilgacha qabul qilingan dasturi «Incheon declaration»[11]da «ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» deb e'tirof etilgan. Shuningdek, fan yutuqlarini o'quv jarayoniga singdirib borish, yirik loyihalarni ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning dolzarbligini fan, madaniyat va ma'rifat masalalari bo'yicha BMT tarkibidagi nufuzli bo'lim - YUNESKO tomonidan ham tan olingan va bu tashkilot komissiyasi tomonidan ishlab

[11] Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015. Incheon, Republic of Korea). – 48 p.

chiqilgan «XXI asr ta’lim konsepsiyasi»ning asosida ham shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim prinsiplari bayon etilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Dunyoning xalqaro ilmiy markazlarida jahon andozalariga mos kompetentli mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, mazkur tadqiqotlar asosida ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari ta’lim sifati va samaradorligining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentliligini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida chuqur bilim berish va o‘rgatish, talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish hamda Hamshiralik ishi mutaxasisslarini muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlovchi, ijodiy faoliyat yurita oladigan, ijodkor mutaxassislarni kreativlik asosida tayyorlashning ahamiyati dolzarb hisoblanadi. Bu esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan o‘quv jarayonida samarali foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu xorijiy tajribalar asosida yuqori samarali pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim va kadrlar tayyorlash sifatini yuqori darajaga ko‘tarishdir. Oliy tibbiy ta’lim jarayoniga kredit modul tizimini joriy etishning asosiy talablaridan biri talaba (shaxs)ga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishdir. Bu ta’lim tizimi talabalarda mustaqil fikrlash, o‘z bilimini boshqalar bilan ulashish, o‘zi uchun qaror qabul qila olish saloxiyatlarini shakillantirishga yo‘naltiriladi.

Respublikada ishlab chiqilgan oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy – axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta’lim tizimiga bosqichma–bosqich o‘tish” [12] kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar yechimi sifatida oliy ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari borasida talabalarning kasbiy kompetentliligini shakllantirish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunga qadar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosi sifatida ham mahalliy, ham xorijiy olimlar keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, uni aynan tibbiy ta’limda qo‘llash, o‘zlashtirish va o‘qitishning pedagogik shartlari, texnologiyalarini takomillashtirish xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiq etish e’tibordan chetda qolmoqda. Aynan tibbiy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodik-didaktik asos va texnologiyalarini tadqiq etish, uni takomillashtirish zarurati mavzuni dolzarbligini belgilab berdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, olib borilgan tadqiqot ishlari shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish, talabalarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga oid bo‘lib, ularda tibbiy ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida talabalar kasbiy kompetentliligini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari o‘quv jaraèniga tatbiq etish muammolariga e’tibor qaratilmagan. Bu kompetentli mutaxassis tayyorlash tizimida Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalar kasbiy kompetentliligini shakllantirish va rivojlantirish muammolarini atroflicha tadqiq etishni taqozo etadi.

Bir qator tadqiqotchilar tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasini samadadorligi va monitoringi doirilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, ushbu ta’lim texnologiyalarining mukammalashib borishi sharoitida mazkur yo‘nalishning tibbiy ta’limda metodik ta’minotini takomillashtirish texnologiyasi masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili. Respublika va xorijiy, MDX mamlakatlarda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim tizimini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. I.S.Yakimanskayalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Xorijiy mamlakat olimlari W.Dalton, Bech Ivan, Bezugla Marina, Nash Robert J., Roof, Wade Clark, V.Lappo, V.Dal, V.Frankllarning ilmiy ishlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosi yoritib berilgan. K. Rodjers, J.Raven, V. Klarin, A. Maslou, D.Bruno, Z.Freyd, A.Rean kabi olimlar tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning mazmun-mohiyati hamda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati yoritib berilgan. S.Anderson, B.Blum, N.Gronlud, L.Hoffmann, L.Kronbach, R.Linn, R.Stigtins, H.Yulekva boshqalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning imkoniyatlari va samaradorligi to‘g‘risida o‘z fikrini bildirgan.

O‘quvchi yoshlarda ma’naviy madaniyatni shakllantirishning falsafiy, ijtimoiy-antropologik masalalari J.Bazarbaev, A.Begmatov, M.Kaxxarova, A.Mavrulov, J.Tulenov, G.Tulenova, E.Yusupov, O.G‘aybullaevlar tomonidan tadqiq etilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari N.Azizxodjaeva,

[12].Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонФармони.

N.S.Sayidaxmedov, N.N.Indiaminov, R.Ishmuhamedov, R.Mavlonovalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida texnologik yondashuv, pedagogik texnologiya tushunchasi bo‘yicha N.E.Erganova,N.V.Matyash, M.N.Guslova, Yu.V.Atemaskina, L.G.Bogosloves, D.A.Beluxin, A.A.Faktorovich, D.V.Chernilevskiylar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari V.V.Davьidov, A.A.Pligin, I.M.Maksimenko, I.S.Yakimanskayalar, S.Bagaeva, A.Baxmutskiy, I.Belevseva, Ye.V.Bondarevskaya, I.Galmukova, S.V.Kulnevich, A.Makarov, A.Mayorov, S.Xoxlova, F.T.Fomenko, I.S.Yakimanskaya shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning imkoniyatlari va samaradorligi to‘g‘risida, S.Bonderovskaya, I.Zimnyaya, A.Xutorskoy, V.Serikov, N.Alekseevlar tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida kompetentlilikni shakllantirish muammolari borasida, V.Klarin, N.Unt, V.Kukushkin kabi olimlarning tadqiqot ishlarida yangi materiallarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv jarayoniga tadbiq etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Mamlakatimiz pedagog olimlaridan B.R.Adizov, B.Ma’murov, S.Nishanova, R.F.Safarova, E.A.Seytxalilov, K.Hoshimov, F.R.Yuzlikaev, E.Yuzlikaeva va boshqalar tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishni tashkil etish monitoringini amalga oshirish yuzasidan, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida talabalarni kasbiy kompetentligini metodik takomillashtirish bo‘yicha M.R.Kadirova, Sh.P.Ergashevalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu bilan bir qatorda S. Boltaboev, R.Ishmuhammedov, M.Yuldoshevlar mustaqil ish bo‘yicha, M.Tojiev, N.Muslimov, O‘.Tolipov, M.Usmonboevalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammolari o‘z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu turdagi ta’lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta’limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba, imkon qadar, individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi1 hamda o‘zaro hamkorlikda bilim olish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston sharoitida o‘rta ma’lumotli hamshiralarni tayyorlash mezonlari tahlil qilindi va oliy ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha turli yondashuvlar o‘rganildi.

Tahlillar va natijalar. Zamonaviy sharoitda talabalarning o‘qitish sifatini oshirish maqsadida innovatsion ta’lim shakllaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ta’limlardan biri bo‘lgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabaning iqtidorini ochib berishda muhim ahamiyatga kasb etmoqda.

An’anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli o‘laroq, shaxs yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining markazida har xil vaziyatlarda qarorlarni mustaqil, nostandart fiklash fazilatlarga ega talaba shaxsi turadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim quyidagi xususiyatlarga ega:

– talabalarning mustaqilligini ta’minlaydi;

– talabalarning mavjud bilim hamda salohiyatlariga, tajribalariga ishonch bildiradi;

– talabalarning ijtimoiy xususiyatlari va turmush tarzini hisobga olgan holda o‘zligini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratadi va rag‘batlantiradi;

– talabalarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini hisobga olgan holda, o‘quv ko‘nikmalarini maqsadli shakllantirish imkonini yaratadi.

O‘tkazilgan izlanishlar natijalari asosida shaxsga, jumladan, bemorga yo‘naltirilgan tibbiy ta’lim – bemorni o‘quv jarayonining markaziga qo‘yadigan va talabalarni ta’limning barcha jabhalarida bemorni hisobga olishni talab qiladigan tibbiy ta’limga sifatida yoritishga harakat qildik. O‘quv rejasiga kiritilgan mavzular bemorlarga eng zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va munosabatlarni, jumladan, shifokor va bemor muloqoti kabi sohalarni, axloq va kasbiy xulq-atvor va bemor xavfsizligini o‘z ichiga olgan.

Bemorga yo‘naltirilgan tibbiy ta’limni rag‘batlantiradigan usullar sifatida muammoga asoslangan ta’limni yoki ularni davolash bilan bog‘liq shaxsiy yoki ijtimoiy muammolarni aniq o‘z ichiga olgan boshqa holatlarga asoslangan o‘rganish strategiyalarini o‘z ichiga olgan yondashuvlarga tayandik.

Hozirgi xalqaro ta’lim talablari oliy tibbiy ta’lim sohasidagi mutaxassislar maqsad–malakali, malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlash, psixologik va ijtimoiy vakolatli shifokorlar va hamshiralarni tayyorlashga qaratilishi lozim.

Demak, kompetensiyaga asoslangan yondashuv – bu yondashuv, ta’lim natijasiga va sifatiga e’tibor qaratish, natija o‘rganilgan ma’lumotlarning yig‘indisi sifatida emas, balki o‘rganish natijasida ko‘rib chiqadi. Sog‘liqni saqlash mutaxassisining turli xil sharoitlarda harakat qilish qobiliyati, muammoli vaziyatlar, uning vakolatlari va vazifalarni bajarishga tayyorligi hayot va professional funksiyalarning to‘liq doirasi va erkin gumanistik yo‘naltirilgan tanlovni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shularni inobatga olib, talabalarning mustaqil ishlariga qo‘yiladigan zamonaviy g‘oyalar, mustaqil ish shakllari, turlari va turlarining o‘ziga xos mazmunida mujassamlangan o‘quv va kognitiv vazifalarning xususiyatlari bilan belgilanadigan o‘ziga xos pedagogik qurilish sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Mustaqil ishni bilimlarni oqilona o‘zlashtirish va chuqurlashtirish, asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish va talabalarni faollashtirish vositasi sifatida ham talqin qilish mumkin.

Yangi ta’lim standartlarida majburiy deb e’lon qilingan va ma’lum miqdordagi o‘quv yuki bilan ta’minlangan talabalarning mustaqil ishi bugungi kunda pedagogik yordam va uslubiy yordamga muhtoj.

Shu munosabat bilan, talabalarning ushbu ish turi o‘qituvchining tashkiliy roli bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, bu talabaning mustaqil faoliyati jarayonini doimiy monitoringini nazarda tutadi. To‘g‘ri tashkil etilgan mustaqil ish, albatta, ortib borayotgan murakkablik va mehnat zichligi bilan birga keladi, bu uning rivojlanayotgan tabiatini ta’minlaydi.

Talabalar uchun mustaqil ishni qanchalik zarurligi va samaradorligini aniqlash uchun hamda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini turli jabhalarini rivojlantirish uchun biz talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik.

Oliy ma’lumotli hamshiralar fakultetida ta’lim olayotgan talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, mustaqil ish shakllarini tanlashda quyidagi imtiyozlar iyerarxiyasi aniqlandi: vizual materiallar bilan ishlash – 72,9%, ishlab chiqarish amaliyoti –60,2%, bemorlar bilan bevosita muloqot–49,5%.

Talabalar konsepsiyasida mustaqil ish uch xil bo‘lishi mumkin: o‘qituvchining ishtirokisiz bajariladi, lekin uning vazifasiga ko‘ra, 40%, mustaqil ravishda o‘qituvchi nazorati ostida – 31% yoki o‘qituvchining maslahatisiz mustaqil ta’lim faoliyati shakli sifatida – 29%.

Talabalarning fikriga ko‘ra, taklif etilayotgan tadbirlarning har biri maqbuldir, ammo ularning aksariyati (66,4%) o‘zlariga aniq yuklangan vazifalarni mustaqil ravishda bajarishni xohlashadi. Talabalarning samarali mustaqil ishi eng muhim rag‘batlantiruvchi omillardan biri sifatida o‘qituvchi nazoratini talab qiladi – bu respondentlarning 38% fikri.

Ma’ruzalar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning tasdiqlangan usullarida amalga oshiriladigan muvaffaqiyatli ta’lim faoliyatini tashkil etishga o‘rnatilgan an’anaviy yondashuv hamshiralarni tayyorlash darajasiga qo‘yiladigan talablarga javob beradi. Biroq ba’zi talabalar (24%) samarali mustaqil ishlarni tashkil etishni o‘quv jarayoni sifatini oshirish uchun muhim zaxira deb bilishadi.

Respondentlarning aksariyati (54%) fikriga ko‘ra, o‘qitish shakllari va usullarini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish kerak – 31%.

Mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun talabalarning 88,2% o‘quv va uslubiy materiallar bilan yetarli darajada ta’minlanganligiga to‘xtalib o‘tdi. Mustaqil ishlarni bajarishda talabalar ma’ruza materiallari – 69,5%, tavsiya etilgan darsliklar – 72% va o‘qituvchilarning uslubiy ishlanmalari – 47,8% kabi an’anaviy bilim manbalaridan foydalanishni afzal ko‘rishadi.

Talabalarning fikriga ko‘ra, mustaqil ish samaradorligini oshirish uchun quyidagilar zarur:

–o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini – 64,2%;

–mustaqil ish uchun qo‘shimcha ajratish va unga amal qilishni oshirish – 40,1%;

–o‘z-o‘zini o‘qitish jarayonida undan samarali foydalana olish – 41,8%.

Shuni ta’kidlash kerakki, so‘rovnomada ishtirok etgan talabalarning aksariyati (88,7%) mustaqil ish uchun ajratilgan vaqtdan oqilona foydalangan holda, o‘z bilimlarini doimiy ravishda oshirishni xohlashadi.

Mustaqil ishdagi qiyinchiliklarni engish uchun talabalar o‘zlarining sa’y-harakatlari va qat’iyatliligiga 70% va o‘qituvchilarning yordamiga 51% katta ahamiyat berishadi. Mustaqil ish natijasida tibbiy xodim kasbiy muhim fazilatlarini shakllantirish mumkinligiga 83% talabalar ishonadi, shuningdek, ularning keyingi ilmiy va amaliy faoliyati sohasini maqsadli ravishda aniqlaydi.

So‘rov natijalari talabalarning mustaqil ishlarini o‘tkazish va oqilona rejalashtirishning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqishda muhim asosni tashkil etish mumkin.

Agar biz talabalarning mustaqil ishlarini kengroq ko‘rib chiqsak, ta’limning didaktik shakli sifatida, talabalarning o‘quv faoliyatini o‘z-o‘zini boshqarishni ta’minlaydigan keng pedagogik sharoitlarni tashkil etish tizimini yarata olamiz.

Sog‘liqni saqlashni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasida “Hamshiralik ishi” mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma’lumotli hamshiralar tayyorlash tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Oliy hamshiralik ishi fakulteti mutaxasiss hamshiralarni tayyorlash bilan birgalikda, har qanday darajadagi hamshiralik xizmatiga rahbarlik qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy vazifasiga ega, shuningdek, tibbiyot texnikumlari va kollejlarida mustaqil ravishda o‘quv ishlarini olib boradigan mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalaridan birdir. Bu uning bitiruvchilariga chuqur klinik tayyorgarlikdan o‘tishni ta’minlash lozimligini bildiradi.

Asosiy klinik fanlar bo‘yicha oliy ma’lumotli hamshira diplomiga ega bo‘lgan hamshiralar uchun amaldagi namunaviy o‘quv dasturlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular o‘rta maxsus ma’lumotli hamshiralar uchun o‘quv dasturlarining mazmunini ko‘p jihatdan takrorlaydi va faqat asosiy kasalliklar va jarohatlarni tashxislash va davolashda sindromli yondashuv bilan cheklanadi. Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda, biz Farg‘ona, Andijon va Toshkent shahar tibbiyot Oliy hamshiralik ishi fakultetlari o‘qituvchilari 93 xodimlarining uzoq yillik tajribasi asosida o‘qitish mazmunining yangi konsepsiyasini va oliy hamshiralik ishi ta’limiga ega hamshiralarni klinik tayyorlash uchun o‘quv dasturini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Nozologik yondashuv asosida klinik fanlarni o‘qitishning taklif etilayotgan konsepsiyasi kelajakdagi hamshiralik bakalavrlariga bemorni to‘g‘ridan to‘g‘ri tekshirishning barcha usullarini va klinik fikrlashning dastlabki ko‘nikmalarini to‘liqroq o‘zlashtirishga, qo‘shimcha tadqiqotlar natijalarini malakali baholashga va etiologiya, patogenez, klinikasini bilish bilan birgalikda, bemorlarga hamshiralik jarayoni asosida bemorlarga hamshiralik tashxisini qo‘ya olishni va yangi innovatsion yondashuvlar asosida parvarishlash ishlarini olib borishlari uchun imkon beradi.

Mavjud oliy tibbiy ta’lim tizimining muammolaridan biri shundaki, ushbu tizimda hanuzgacha axborot paradigmasi ustunlik qilmoqda, uning vazifalari, asosan, talabalarga ma’lumot va bilimlarni oddiy uzatishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri, ko‘pincha, jamiyat uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonining malakali ishtirokchisini tayyorlashdir. Shaxsning boshqa barcha potensial qobiliyatlari, shu jumladan, ijodiy qobiliyatlari talab qilinmaydi. Natijada etarli darajada rivojlanmagan ijodiy fikrlashga ega bo‘lgan bitiruvchi, keyinchalik, doimiy ravishda murakkablashib borayotgan ma’lumotlarni idrok etishda, nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi va odatdagidan bir oz farq qiladigan tushunchalar va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglay olmaydi.

Shuning uchun ta’lim muassasalariga ma’lumotni o‘zlashtirishga asoslangan o‘quvchilarning ijodiy va standart bo‘lmagan tafakkurini rivojlantirish murakkab va dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Ijodkorlikni shaxsiy va nafaqat xulq-atvor mulki sifatida shakllantirish uchun maxsus tashkil etilgan ta’lim muhiti talab qilinadi. Ijodkorlikni rivojlantirishning “mahalliy” usullari (masalan, nostandart vazifalarni hal qilish), albatta, foydali, ammo ularni qo‘llash natijasida talabalar shunchaki hal qilishning yangi usullarini yodlaydilar va keyinchalik o‘rganilgan harakatlarni takrorlaydilar. Shuning uchun ijodkorlikni shaxsiy mulk sifatida shakllantirish talabalarga ko‘p qirrali tizimli ta’sir ko‘rsatadigan maxsus muhitni talab qiladi. Nihoyat, talabalarni baholash va o‘quv dasturini baholash o‘quv dasturi asosida bemorga yo‘naltirilgan o‘quv maqsadlari bilan bog‘liq natijalarni muntazam ravishda ko‘rib chiqib quyidagilarni taklif qildik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish mazmunini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari asosida shaxsga yo‘naltirilgan omillarni (shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish va shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya) o‘quv amaliyotiga joriy etish yo‘llari ishlab chiqilgan;

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya (shaxsiy insonparvarlik, loyihalash, muammoli o‘qitish, evristik)lar va zamonaviy usullar (erkin fikrlash, tanqidiy tafakkur, ijodiy izlanish, muloqot, dialog)ni qo‘llashning nazariy-amaliy asoslari, hozirgi holati tahlillari asosida, ulardan foydalanishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va metodlari, o‘ziga xos xususiyatlari (talabaning individualligini oshirish, shaxs sifatida rivojlanishi, o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi) aniqlanib, takomillashtirilgan;

-shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va zamonaviy usullar asosida Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda talabalar o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga motivatsiya beruvchi shaxsga yo‘naltirilgan darslarni loyihalash bo‘yicha ishlanmalar, umum o‘quv ko‘nikma va malakalar (o‘quv-tashkiliy, o‘quv-axborot, o‘quv-intellektual)ni oshirishga imkon beruvchi didaktik muammoli topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

-talabalarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida “shaxs faoliyatiga yo‘naltirilgan (faoliyat maqsadi, mazmuni va uni o‘zlashtirish usullari, faoliyat xususiyatlari va funksiyalari, shaxs tajribasi va sifatlari, egallanadigan kompetentsiya komponentlari hamda faoliyat natijalari o‘z aksini topgan) model” ishlab chiqilgan.

-tibbiy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan tizimli model ta’lim texnologiyalari Hamkorlikda o‘qitish, Guruhda munozara, Kub, O‘tmish , bugun, kelajak metodi, qiyosiy taxlil, rolli o‘yinlar kabi innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirilgan;

Xulosa.Olib borilgan izlanishlarga asosan quyidagi xulosaga keldik. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talaba shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar

1. Burxanova G.T., Varga V. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent., 2014, 320 b.

2. Haydarova B.A. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llash imkoniyatlari. “Ilm sarchashmalari”, №9-2023, 94 b.

3. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. / B.Yu.Xodiev tahriri ostida. – Toshkent.: «Iqtisodiyot»,2009, 45 b.

4.Основы личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. – Москва: «Бином. Лаборатория знаний», 2011, 238 с.

5.Диканская Н.Н. Оценочная деятельность как основа управления качеством образования // Стандарт и Мониторинг в образовании.2003. – № 3. – с. 38–42.

6.Методические рекомендации по проектированию оценочных средств для реализации многоуровневых образовательных программ ВПО при компетентностном подходе / В.А. Богословский, Е.В. Караваева, Е.Н. Ковтун, О.П. Мелехова, С.Е. Родионова, В.А.Тарлыков, А.А. Шехонин. – Москва.: Изд-во МГУ, 2007. –148 с.

7.Коломиец О.М. Технология развития педагогической деятельности в образовательном учреждении / Вестник МГГУ им. М.А. Шолохова. –2011. –Вып. 4, серия «Педагогика и психология». – с.15–9.

8.Коломиец О.М., Фокина М.А., Бутыльченко О.В. Модель методической подготовки преподавателя высшей медицинской школы в системе дополнительного профессионального образования. Электронный научно-образовательный Вестник «Здоровье и образование в XXI веке». –№ 1, 2013. –Т. 15. – с.14–8.

9.Формирование системного мышления в обучении/Под ред. З.А. Решетовой. –Москва., 2002. –39 с.

10.Михайловский М.Н. Особенности социально-психологических компетенций/Актуальные вопросы современной психологии и педагогики: Сборник докладов XII-й Международной научной конференции (Липецк, 28 декабря 2012 г.).

11. Горленко О.А., Мирошников В.В., Кукареко А.Н. Формирование профессиональных стандартов в области качества на основе компетентностных моделей//вести. БгТУ.—2010.—№3(27).—с.91-98.

12.Пьяных А.В., Бурковская Ю.В. Профессиональныеи образовательные стандарты: взаимодействие, перспективыи развитие напримере программ для бакалавров сестринского дела // Стандартизация в здравоохранении. 2013. — №7-8— с.3-7.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jumanova Shaxnoza Baxromjanovna
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA JAMOADA ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosi bu – jamoaning shakllanish bosqichlari hisoblanishi, jamoaning bosqichlari chegara yoki oraliqqa ega emasligi, shu sababli ham pedagogik nuqtai nazardan jamoaning shakllanish bosqichlariga ajratish juda muhimligi xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kollaboratsiya, hamkorlik, jamoaning shakllanish bosqichlari, mas’uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, rejalashtirish, tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik.*

Жуманова Шахноза Бахромьяновна
Исследователь Наманганского государственного университета

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ УМЕНИЙ РАБОТАТЬ В КОМАНДЕ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос о том, что основой развития навыков работы в коллективе у учащихся является – расчет этапов формирования коллектива, этапы формирования коллектива не имеют границ или интервалов, поэтому с педагогической точки зрения очень важно выделять этапы формирования коллектива.*

Ключевые слова: *сотрудничество, сотрудничество, этапы формирования команды, ответственность, подотчетность, единство деятельности, планирование, подготовка к проведению мероприятий.*

Jumanova Shakhnoza Bakhromjanovna
Namangan State University research fellow

STAGES OF DEVELOPMENT OF TEAMWORK SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: *This article reflects on the fact that the basis for the development of skills for working in a team in students is the calculation of the stages of the formation of a team, that the stages of the team do not have a border or range, and therefore, from a pedagogical point of view, it is very important to allocate them to the stages of*

Keywords: *collaboration, cooperation, stages of team formation, responsibility, responsibility, unit of activity, planning, preparation for holding events.*

Kirish.

Jamoa – (lotincha ”kollektivus” so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi yig‘ilish, birlashma, guruh) bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar jamoasi ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha elementar jihatlari o‘z ifodasini topadi. Zero, ta’limda jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo‘lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o‘zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchi jamoaviy ish shakllarini to‘g‘ri tashkil etishi, o‘quvchilarni ushbu ish shakllariga faol jalb qilishi, jamoani tashkil etish bosqichlarini to‘g‘ri amalga oshirishi muhim sanaladi. Chunki, birinchi navbatda o‘quvchilar jamoasini shakllantirish, keyinchalik o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda aqliy mehnat faoliyatini samarali tashkil etishlariga xizmat qiladi[1].

Adabiyotlar tahlili.

Kollaboratsiya – bu dasturiy ta’minotni ishlab chiqish loyihasining manfaatdor tomonlari qaysi vaqt hududida yoki mintaqada bo‘lishidan qat’i nazar, loyiha

[1] Raxmonov Y. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning aqliy mehnat faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari: Ped. fan. nom. ... disc. Toshkent, 2004. – 136 b.

natijalarini muhokama qilish, hujjatlashtirish va ishlab chiqarish uchun birgalikda ishlashi mumkin bo‘lgan onlayn uchrashuv maydonidir. Ushbu atamani 2002-yilda Gredi Buch va Alan U.Braun tomonidan kiritilgan[2].

Kollaboratsiya ya’ni hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi turli mamlakat olimlari, jumladan, Amerika J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin[3], Minnesot universiteti professori – R.Jonson[4], D.Jonson, Kaliforniya universiteti professori –Sh.Sharon tomonidan ishlab chiqilgan. O‘tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o‘qitishda natijalarni oldindan ko‘ra bilish, amaliy faoliyatni tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi. Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo‘lgan va Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta’lim muassasalarida keng qo‘llanila boshlagan.

Hamkorlik – bu berilgan loyihani tugatish asnosida umumiy g‘oyani ishlab chiqish yoki topshiriqni bajarish kabi faoliyatni bajarish turli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan bir yoki bir nechta odamlar bilan ishlash harakati tushuniladi. nechta odamlar bilan ishlash harakati tushuniladi. Ta’lim jarayonidagi hamkorlik, maqsadni amalga oshirish yoki natijalarni ishlab chiqarish uchun umumiy maqsadda birgalikda faoliyat olib boradigan turli xil tajribalarga ega o‘quvchilarning umumiy faoliyatidir.

O‘zbekistonlik olimlardan N.Azizxodjayeva [5] , J.Yo‘ldoshev, R.Safarova, B.Xodjayev, Sh.Abdullayeva, N.Dilova singari olimlar tomonidan jamoada o‘qitish metodikasi, o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish strategiyalari yoritib berilgan.

N.Dilovaning fikricha, hamkorlikka asoslangan pedagogika o‘qituvchi hamda o‘quvchilar birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim bo‘lib, bu jarayonda jamoaning ijodiy quvvatlari va faoliyat samaradorligi namoyon bo‘ladi. Yangi maqsadlarni ro‘yobga chiqarish imkoniyati ta’minlanadi. Bu maqsad – o‘quvchilar jamoasining ularning kuchlari yordamida qo‘shimcha ijodiy natijani qo‘lga kiritishga o‘rgatishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda kuzatish, qiyosiy tahlil, diagnostik (anketa, suhbat, so’rov), loyihalash, modellashtirish va umumlashtirish metodlaridan tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Pedagogik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, jamoaning vujudga kelish uchun to‘rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o‘qituvchi butun guruhga talab qo‘yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e’tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a’zolari oldiga ma’lum talablarni qo‘yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a’zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So‘nggi (to‘rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a’zosi o‘z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo‘yish layoqatiga ega bo‘ladi.

O‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosi bu – jamoaning shakllanish bosqichlari hisoblanib, uni belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoaning bosqichlari chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay, pedagogik nuqtai nazardan jamoaning shakllanish bosqichlariga ajratish juda muhimdir.

O‘quvchilar jamoasi rivojlanishning ***birinchi bosqichi***. Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo‘yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang‘ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo‘lmay, balki tashkil etuvchi birlik (sinf, guruh)dir. O‘quvchilar talablarning qo‘yilishiga e’tiborsiz qaraydilar. Jamoa a’zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqali jamoa qaror topadi. O‘quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinadigan ishlarni rejalashtirish jamoa a’zolarida mas’uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo‘lishiga o‘quvchilardan jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishning paydo bo‘lishiga olib keladi. O‘quvchilarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribalarga ega emasliklari bois, mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a’zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo‘ladi.

Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi qat’iyligi, izchilligi, murosasizligi va jamoaning barcha a’zolariga talabni birday qo‘ya olishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o‘qituvchining “hukmdorlik” davri uzoq davom etishi mumkin emasligini, aks holda bir qarashdan intizomning vujudga kelganligi ma’lum bo‘lsa-da, guruh a’zolarining faolliklarini rivojlantirish uchun sharoitning mavjud emasligini hisobga olish zarur. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo‘lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a’zolaridandirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar va pedagog faoliyati va talablariga nisbatan hayrixohlik bilan

[2] Booch, G.; Brown, A. W. (2003). “Colaborative Development Environments”. In Zelkowitz, M. (ed.). Advances in Computers. Vol. 59. San Diego, CA: Academic Press. pp. 1 29. doi:10.1016/S0065-2458(03)59001-5. ISBN 0-12-012159-X.

[3] Slavin, R. E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice (3rd ed.). Pearson. 2015

[4] Johnson, D.W., & Johnson, F.P. Joining Together: Group Theory and Group Skills (11th ed.). Pearson Education. 2009

[5] Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.

munosabatda bo‘ladilar. Faollar pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ***ikkinchi bosqichi***. Ushbu bosqich jamoa faollarining pedagog talablarini qo‘llab-quvvatlashi hamda o‘z navbatida uning o‘zi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qo‘yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda pedagogik jamoada paydo bo‘lgan va u bilan bog‘liq bo‘lgan muammo, masalalarni yolg‘iz o‘zlari hal qilmaydilar. Jamoa faollari bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga ularni jalb etadi. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya’ni jamoa o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tadi.

O‘quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o‘quvchilar tomonidan muttasil rejalashtirishi, tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik, uni o‘tkazish hamda faoliyat natijalarni muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatini ko‘rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a’zolarida faoliyat motivlari (rag‘batlari)ning paydo bo‘lishi, ijodiy hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlarining tez sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a’zolari orasida hurmat qozona olishi, namuna bo‘lishi, o‘z burchini aniq va puxta bajarishi hamda o‘z mavqyelarini suiste’mol qilmasliklari juda muhimdir. Bu o‘rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan “Jamoa vijdoni” deya bergan ta’rifini eslab o‘tish joizdir. Jamoa faollari bir muncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo‘lsa-da, ayni paytda uning o‘ziga oshirilgan talablarning qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to‘xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko‘rsatayotgan kuch jamoaning bir qismi xolos. Bordi-yu jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to‘xtatib qolinsa, jamoa faollari guruhning boshqa a’zolari bilan qarama-qarshi qo‘yish xavfi tug‘ilishi mumkin. Mazkur bosqichda jamoa moddiy va ma’naviy imkoniyatlarini to‘plab, mustahkamlanib va boyib borar ekan, shaxsning har tomonlama ulg‘ayishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni sekin-asta yaratib beradi.

Bu esa ikkinchi bosqichni – jamoa shaxsni har tomonlama kamolga yetkazishni obyektiv shakli asosida boshlashini taqozo etadi. Bunda boshlang‘ich davr bekor ketmaydi, faqat salbiy jo‘shqinlikka emas, balki ijobiy jo‘shqinlikka ham ega bo‘ladi. Bir tomondan, u qiyinchiliklarga tayyorlanish imkonini beradi, bolada o‘z-o‘zini anglash va o‘zini idora qilishga intilishni tarbiyalaydi. Ikkinchi tomondan, bu bosqichni amalga oshirish kishini har tomonlama ulg‘ayishi uchun zarur bo‘lgan amaliy va ma’naviy munosabatlar tizimi vujudga keladi.

Jamoa rivojlanishining ***uchinchi bosqichi*** jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashicha, bu davrda butun jamoa “ayrim o‘zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs”larga talab qo‘ya boshlaydi.

Jamoaga endilikda faqat faollargina emas, balki uning butun a’zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo‘nalishdagi ishni maqsadga muvofiq va izchil olib borgan sharoitda ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini jamoaning birgalikdagi faoliyati yakuni, uning a’zolari tomonidan jamoa bo‘lib muhokama qilinadi: turli mavzularda suhbatlar va ma’ruzalar uyushtiriladi, o‘quvchilar o‘rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy, g‘oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va boshqa bilimlar targ‘iboti tashkil etiladi. Pedagog jamoa a’zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a’zolarini ijobiy tajribaga qo‘shish imkonini beradigan, o‘zaro munosabatlarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi. Jamoa o‘zining har bir a’zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirib borish, jamoa a’zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarni tarkib toptirishga yordam beradi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlarining yuzaga kelishining sababi, uning a’zolarini yuksak axloqiy mazmunga ega bo‘lgan ishlarni tashkil qilishda faol ishtirok etishlarini samarasidir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichida ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda faqat jamoa faoliyatini emas, balki jamoaning har bir a’zosi bir-birlariga axloqiy mazmundagi talablarni qo‘ya boshlaydi.

Jamoa rivojlanishining ***to‘rtinchi bosqichi***. Bu bosqich uchinchi bosqichning bevosita davomi bo‘lib, uning barcha a’zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o‘z-o‘zlariga talablar qo‘ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa a’zolarining o‘ziga muayyan talablar qo‘yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo‘yilgan har bir talab o‘ziga xos yo‘nalishi (masalan, o‘yinda umuminsoniyat baxti uchun kurashishga intilish o‘rtasidagi farq) bilan ajralib turadi. Xuddi shu jihatdan to‘rtinchi bosqich jamoa a’zolarining o‘ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo‘ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a’zolarining har biri uchun shaxsiy extiyojlariga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga o‘sib o‘tadi. Biroq, u ayrim shaxsning yanada rivojlanishida jamoaning tutgan o‘rnini pasaytirmaydi. To‘rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas’uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldidagi istiqboli, yuksak va murakkab talablar qo‘yish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko‘rsatadi:

– doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi;

– o‘z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g‘ururlanish asosida o‘z qadr-qimmatini anglash;

– jamoa a’zolari o‘rtasidagi do‘stona birlik;

– jamoaning har bir a’zosidagi do‘stono munosabat;

– tartibli, ishchan harakatga yo‘llovchi faollik;

– o‘z hissiyot va so‘zlarini boshqara olish ko‘nikmasi.

Pedagogik nuqtai nazardan istiqbol deganda, o‘quvchilar jamoasini, umuman jamoani rivojlantirishning ichki ehtiyojlariga javob beruvchi, uning a’zolarini rivojlanish darajasiga, ularning yosh va individual xususiyatlariga hamda jamiyatimiz vazifalariga mos keladigan vazifalar, maqsadlar, ishlari tushuniladi.

Topshiriqlarni jamoaning barcha a’zolari o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlash bolalarni qiziqarli ishlarni bajarishga jalb qilishning asosiy yo‘lidir. Bolalarning aql-idroki emas, balki ularning xis-tuyg‘ulariga ham ta’sir ko‘rsatish uchun har qanday ish aniq tashkil etilishi, chiroyli jihozlanishi kerak. Ayniqsa, bayramlarni chiroyli va tantanali qilib tashkil etmoq kerak. Bu bayramlarda ota-onalar va mehmonlar ishtirok etsa, bayram davomida o‘quvchilar mukofotlansa, musobaqa yakunlari e’lon qilinsa, yaxshi bo‘ladi. O‘quvchilarning tayyorgarlikda jamoa maqsadiga erishish jarayoniga jalb qilishning tarbiyaviy ahamiyati shu jihatdan kattaki, bu yo‘l bilan o‘quvchilarni maqsadga qaratilgan jamoa axloqiy xulq-atvorini egallashga mashq qildirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Jamoani shakllantirishda jamoa a’zolari va ularning faoliyatlariga qo‘yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o‘quvchilarning dars jarayonidagi tanaffus, jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi. Puxta o‘ylab qo‘yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi o‘quv muassasasida muayyan tartibning o‘rnatilishini ta’minlaydi.

O‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1) Qo‘yilayotgan talablar o‘quvchi shaxsini hurmat qilish bilan qo‘shilishi kerak;

2) Qo‘yilayotgan talablar muayyan o‘quv muassasasidagi mavjud sharoitni hisobga ogan holda qo‘yilishi lozim;

3) Qo‘yilayotgan talablar aniq bo‘lishi kerak;

4) O‘quvchi-yoshlarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar ularda ma’naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Xulosalar.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi boshqarishi bu o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan jamoaviy ishlarni uyushtirish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashdir. O‘zini-o‘zi boshqarish shakllari orasida jamoa a’zolarining yig‘ilishi, tadbirlari va muhokamalari muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdug‘aniyev M. Jamoaviy o‘qitish usullari va sinf muhitini optimallashtirish. Samarqand: Milliy Pedagogika Akademiyasi nashri. 2018

2. Xolmatov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoaviy faoliyatni tashkil etish: metodologik jihatlar. Toshkent.: 2017 y.

3. Raxmonov Y. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning aqliy mehnat faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari: Ped. fan. nom. ... disc. Toshkent, 2004. – 136 b.

4. Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.

5. Adizov B. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent, 2003. – 276 b.

6. Jabborova O. Boshlang‘ich ta’lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2023

7. Booch, G.; Brown, A. W. (2003). “Colaborative Development Environments”. In Zelkowitz, M. (ed.). Advances in Computers. Vol. 59. San Diego, CA: Academic Press. pp. 1 29. doi:10.1016/S0065-2458(03)59001-5. ISBN 0-12-012159-X.

8. Slavin, R. E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice (3rd ed.). Pearson. 2015

9. Johnson, D.W., & Johnson, F.P. Joining Together: Group Theory and Group Skills (11th ed.). Pearson Education. 2009

10. Scholters Peter R. The Team Handbook. How to use Teams to Improve Quality. Copyright 1988 by Joiner Associates Inc.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xolmaxmatov Azim Hazratkulovich
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
great-king@inbox.ru

YOSHLAR BILAN ISHLASHGA MAS’UL MUTAXASSISLARNING YETAKCHILIK IMIDJINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yoshlar oid davlat siyosati sohasida kadrlar salohiyatini oshirishning ahamiyati, bu borada ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va uni amaliyotda joriy etish masalalari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kadr, kadrlar xizmati, davlat xizmati, yetakchi, imidj, qadriyat, innovatsiya, salohiyat.*

Холмахматов Азим Хазраткулович
Независимый исследователь Национального университета Узбекистана

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИДЕРСКОГО ИМИДЖА СПЕЦИАЛИСТОВ, ОТВЕТСТВЕННЫХ ЗА РАБОТУ С МОЛОДЕЖЬЮ

Аннотация. *В данной статье подчеркивается важность повышения потенциала кадров в сфере государственной молодежной политики, изучения передового зарубежного опыта и его внедрения на практике.*

Ключевые слова: *персонал, кадровая служба, государственная служба, лидер, имидж, ценность, инновации, потенциал.*

Kholmakhmatov Azim Hazratkulovich
Independent researcher of the National University of Uzbekistan

ISSUES OF FORMING THE LEADERSHIP IMAGE OF SPECIALISTS RESPONSIBLE FOR WORKING WITH YOUNG PEOPLE

Abstract. *This article highlights the importance of increasing the capacity of personnel in the field of state youth policy, the study of advanced foreign experience and its implementation in practice.*

Key words: *personnel, personnel service, public service, leader, image, value, innovation, potential.*

Kirish (Introduction).

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko‘plab talablarni qo‘ymoqda.

Hozirgi vaqtda davlat va hokimiyat idoralarida ko‘p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish, ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo‘lga qo‘yilmagani sezilmoqda.

Eng yomoni, bu holat ishimizga xalaqit bermoqda. Bir idorani qarasangiz, yuzlab odam nomiga ishlab o‘tiribdi. Boshqa idorani qarasangiz, ish ko‘p, vazifa ko‘p, lekin ishlaydigan odam, kadr yetishmaydi.

Bunday noto‘g‘ri ish taqsimotiga mutlaqo chek qo‘yishning vaqti yetdi. Har bir davlat xizmatchisi o‘zining burchi va majburiyatini aniq-ravshan bilishi, sodda qilib aytganda, o‘z aravasini o‘zi tortishi lozim[1].

Bugungi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda asosiy ish jarayonlarini texnikalar bajarayotganligi sababli xodimlarga tobora murakkab va intellektual muammolarni hal qilish vazifasi qo‘yilgan. Shundan bilish mumkinki, xodim nafaqat o‘ziga yuklangan vazifalarni sifatli bajarishi, shu bilan birga o‘z ish usullarini doimiy ravishda takomillashtirishi, samaradorligini oshirishi va innovatsion (ratsionalizatsiya) takliflarni kiritib borishi kerak.

Shuning bilan birga, mamlakat barqaror rivojlanishida yoshlar siyosati sohasida kadrlar salohiyatini oshirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga oid davlat siyosatining zamonaviy modeli davlatning yoshlar bilan yaqindan ishlashi, o‘zaro hamkorlik qilishi hamda davlat boshqaruviga yoshlarni keng jalb etilishini nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan mamlakat taraqqiyoti yo‘lida yoshlarning iqtidori va imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun yoshlar siyosati sohasida kadrlar salohiyatini oqilona shakllantirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi.

O‘zbekistonda Yoshlar bilan ishlashga mas’ul mutaxassislarning yetakchilik imidjini shakllantirish masalalarini tadqiq qilishga bir qator siyosatshunos olimlarning ilmiy ishlanmalarida yaxlit tarzda emas, balki alohida sohalar kesimida ochib beriladi. Jumladan, Muhammadjonova L. [2], Mirboboev B. [3], Husanov O. [4], Begmatov A. [5] Xojiev E.T. [6] larning monografiya, risola va maqolalarida mazkur masala chuqur tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, ob’ektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, kauzal, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions).

Davlat va jamiyat oldida turgan masalalarni samarali hal qilish rahbardan chuqur, atroflicha bilimni, chinakam kasbiy mahoratni talab qiladi. Ammo fuqarolarning rahbarlarga bo‘lgan munosabati, unda chinakam yo‘lboshchini ko‘rishi ko‘p jihatdan uning odamlar orasida shakllangan imidjiga bog‘liq. “Imidj” atamasi ingliz tilidagi “image” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida qiyofa, siymo, timsol, chiroy, mashhur, kelishgan, savlatli, obro‘li, nufuzli kabi ma’nolarni bildiradi.

Imidj “odamlar ongida muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy ob’ektga nisbatan yuzaga keladigan, idrok etilayotgan ob’ekt haqidagi axborotni o‘zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy xulq-atvorga da’vat etadigan muayyan sintetik obraz[7]” sifatida ta’riflangan. Adabiyotlarda“imidj” atamasiga bir qator ta’riflar mavjud bo‘lib, u tadqiqot mualliflari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Turli ta’rif va tavsiflardan kelib chiqqan holda, bizningcha, imidjni quyidagicha ta’riflash maqsadga muvofiq: imidj axborot kommunikatsiya (televidenie, radio, internet va boshqalar) vositalari, ijtimoiy guruhlar yoki shaxsning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va harakatlari orqali o‘zini jamiyatga taqdim qilish usuli bo‘lib, yetakchining mavqeyini baholash va jamiyatdagi maqomini belgilash maqsadida yaratilgan individual qiyofadir.

Ko‘pincha iste’dodli va mehnatsevar, katta imkoniyatga ega odamlar kerakli, zaruriy imidjlari yo‘qligi bois mansab pillapoyalaridan yuqoriga ko‘tarila olishmaydi. Bunday omadsizlik asosan, o‘z imkoniyati, kuchqudratiga yetarli baho bera olmaslikdan, o‘ziga ishonmaslikdan kelib chiqadi[8].

O‘zbekistonda bu tushunchaning ishlatila boshlanganiga u qadar ko‘p bo‘lgani yo‘q. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida televidenieda, xususiy davriy matbuot sahifalarida bu so‘z tilga olina boshlandi. Bugungi kunda ko‘plab siyosatchi, san’atkor, sportchi, tadbirkor, ziyoli, talaba va boshqa soha vakillari “imidj” tushunchasi haqida yetarli ma’lumotga ega. Buning asosiy sababi siyosiy tizimning o‘zgarishi, so‘z erkinligi, ommaviy axborot vositalarining erkinlashuvi natijasida ijtimoiy-siyosiy sohalar turli partiya va guruhlar o‘rtasidagi raqobat maydoniga aylanganligidir. Shuning uchun odamlarning ishonchini qozonish tashkilot yetakchilari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Aksariyat tashkilotlarda rahbar hodimlarda yetakchilik imidjini shakllantirishda an’aviy usullarning amaldaligi xodimlar rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda.

Jamoani boshqarishning **an’anaviy usullariga asoslangan kompaniyalar** juda sekin o‘zgaradi va shuning uchun tez o‘zgaruvchan biznes muhiti talablariga moslasha olmaydi. Mazkur korxonalar uchun quyidagi jihatlar xos:

– samarali marketing bo‘limlari va mijozlar bilan ishlashning o‘rnatilgan tizimi yo‘qligi;

– sifatni boshqarish tizimining zamonaviy talablarga javob bermasligi;

– xarajatlar auditi mavjud emasligi, ular barcha sohalarga tarqalib ketganligi;

– kam miqdordagi daromad olinishi;

– innovatsion faoliyatning pastligi;

– “Favqulodda”gi ish, qisqa fursatda bajarilgan ishning sifatga ta’siri;

– qisqa muddatli vazifalarning uzoq muddatli (strategik) vazifalardan ustuvorligi.

Kadrlar bilan ishlashda **yangi texnologiyalardan foydalanish** an’anaviy yondashuvga asoslangan xizmatlardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

Yiliga kamida bir marta shaxsiy tarkibni tekshirish;

Kadrlar xizmati xodimlari “psixolog”, “sotsiolog”, “huquqshunos” va “iqtisodchi” mutaxassisliklari bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikka egaligi;

Tashkilot o‘z qadriyatlari va axloq kodeksiga ega bo‘lishi;

Tashkilotda o‘z lavozimiga mos kelmaydigan xodimlar ishlashiga yo‘l qo‘yilmasligi yoki bunday mutaxassislarning umumiy soni 10% dan oshmasligi;

Kadrlar xizmati tomonidan doimiy ravishda mehnat bozorini o‘rganib borishi;

Kadrlar xizmati xodimlarning kasbiy o‘sishiga ko‘maklashish va nazorat qilishi;

Kadrlar xizmati mehnat intizomini boshqarishning yangi usullari (rag‘batlantirish, imtiyozlar berish)dan foydalanadi;

Kadrlar xizmati xodimlarning reytingi (KPI) yuritadi;

Kadrlar xizmati tashkilot xodimlarining daromadlarini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqib, kiritadi;

Kadrlar xizmati xodimlarning sog‘liqni saqlash masalasida dasturlarni amalga oshiradi;

Kadrlar xizmati – kadrlarni tanlashda yo‘l qo‘yilgan xato uchun javobgar hisoblanadi;

Kadrlar xizmati doimiy ravishda menejerlar, bo‘lim boshliqlari, hududiy boshqarma va davlat organlari bilan sifatli kadrlar zaxirasini shakllantirish bo‘yicha hamkorlik qiladi;

Bugungi kunda tashkilotlarda xodimlar bilan ishlashni samarali tashkil etish, puxta o‘ylangan strategiya va taktikalarni qo‘lashni talab etadi. Davlat xizmati sohasida davlat xizmatchilarini **rag‘batlantirish** alohida o‘rinni egallaydi.

Bugungi kun yoshlarining ijtimoiy-demografik qatlam sifatida o‘z hohish-irodasini erkin namoyon etishi, bilimi, aqliy salohiyati, hayotiy tajribasi, huquqiy savodxonligi va huquqlarini muhofaza qilish ularning jamiyatdagi mavqeini belgilaydi. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida murakkab, ziddiyatli holatlar hamda ularning oqibatlarining yoshlar mavqei va jamiyatdagi o‘rniga o‘z tasirini o‘tkazmay qolmaydi. Har qanday davlat shunday murakkab jarayonlarda o‘z yoshlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular imkoniyatlarining yorqin namoyon bo‘lishi uchun zarur sharoit yaratish choralarini ko‘radi. Natijada yoshlar islohotlarning faol ishtirokchisiga demokratik jarayonlarni rivojlantiruvchi kuchga aylanadi. Zero yurtimizda amalga oshirilib kelinayotgan demokratik islohotlardan asosiy maqsad yoshlarning yuksak madaniyat va bilimga erishuvini taminlashdir. Barkamol avlodni tarbiyalab borish, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz ruhi va shuurida jam bo‘lgan avlodni voyaga yetkazish asosiy maqsaddir.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning samarasi avvalo zamon talabiga javob bera oladigan kuchli bilim va malakaga ega bo‘lgan malakali, ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lgan kadrlarga bog‘liqligi xammamizga ayon albatta. Shuning uchun ham yoshlarni ham jismonan ham ruhiy jihatdan yetuk qilib voyaga yetkazish bugunning dolzarb vazifalaridan biriga aylangan.

Yoshlarimizning mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan malakali kadrlar bo‘lib yetishishlari uchun davlatimiz rahbari tomonidan qator farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilindiki ular yoshlar faolligi oshirishga zamin yaratishga xizmat qilmoqda. Xususan, Respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi global iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichidagi obyektiv qonuniyatlardan birini aks ettiradi, bu ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda “yoshlar omili” rolining doimiy ravishda kuchayishi bilan bog‘liq.

Har bir davlatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda, uni dunyo miqyosida yuksaltirishda asosiy poydevor - inson omili, uning intellektual salohiyati, bilim va tajribasi bilan uzviy bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, mamlakat aholisining katta qismi zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega yoshlardan iborat ekanligi, mazkur qatlam ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalardagi manfaatlarini himoya qilish va kuzatilayotgan dolzarb masalalarning nazariy va amaliy jihatdan yechimini topish kun tartibidagi muhim vazifadir.

O‘tgan davr mobaynida bu borada qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular yoshlarning siyosiy jarayonlarda faol bo‘lishlari, ularning intilish va iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish, extiyoj va muammolar echimiga, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan mustahkam tizim ishlab chiqildi.

Xususan, 5 ta tashabbusni amalga oshirish doirasida o‘tgan davr mobaynida yoshlarni madaniyat va san’atga jalb etish, ijtimoiy soha obektini yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulash, har bir hududga badiiy, tarixiy, ilmiy, ommabop mavzulardagi kitoblar yetkazish hamda axborot kutubxona markazlarini rekonstruktsiya qilish va kapital ta’mirlash, tadbibirkorlar tomonidan xalq kutubxonalari ochish, har bir tumanda yengil konstruktsiyali tikuv-trikotaj korxonalari qurish va ayollarni band etish kabi vazifalar belgilab olindi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi va 26 dan ortiq davlat orgonlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan shuningdek, 10 dan ortiq xorijiy davlat yoshlar tashkilotlari bilan o‘zaro tizimli xamkorlikni rivojlantirish maqsadida davlat orgonlari va tashkilotlar bilan hamkorlik bitimlari imzolandi. Shunga qaramasdan, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida bugungi yoshlar talab va extiyojlarini o‘rganib borish, amalda aprobatsiyadan o‘tgan xalqaro tajribaning mahalliy sharoitda yangicha mehanizm va yondoshuvlar asosida amaliyotga joriy etishda qator ishlarni amalga oshirish vazifasi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Davlat rahbari boshchiligida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlari, turli jabhalardagi yangilanishlar samarasi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi o‘zgarishlarni butun dunyo hamjamiyati e’tirof etmoqda, O‘zbekistonning xalqaro darajadagi nufuzli yangi bosqichga ko‘tarilib, bu holat ko‘plab siyosiy liderlar tomonidan mamlakatimiz bilan diplomatik munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishiga undamoqda. Bu kabi jarayonlar davlat boshqaruvi sohasida ham yangicha yondoshuvlar va munosabatni taqazo etmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz kelajagi hisoblanmish yoshlar orasidan munosib rahbarlarni tanlash, ularning bu boradigi kompetentsiyasi va salohiyatini oshirish qayta tayyorlash ishlari oldimizda turgan ustuvor vazifalardandir. Shu maqsadda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyundagi Yoshlar bilan uchrashuvida “O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi davlat va jamiyat uchun rahbar kadrlarni tayyorlab beradigan o‘ziga hos markaz bo‘lishi, zamonaviy tilda aytadigan bo‘lsak, yoshlar uchun “sotsial lift vazifasini bajarish kerak” degan vazifani qo‘yib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi

akademiyasi qoshida “Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti”ni tashkil etish yuzasidan topshiriq bergan edi.

Bugungi kunga kelib, mazkur Institut tomonidan yosh istiqbolli kadrlarni tanlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularga nafaqat Institut balki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Boshqaruvi Akademiyasining professor-o‘qituvchilari ta’lim berib kelmoqda.

Barchaga ma’lumki, har qanday mamlakatning kelajagi so‘zsiz yosh avlodning tarbiyasi va taraqqiyoti bilan bog‘liq. Shuni anglash kerakki, zamonaviy bozor munosabatlari va global tendensiyalar yosh avlodning hatiy fadriyatlariga va axloqiy qoidalariga ta’sir ko‘rsatadi. Ammo ular hamisha ham ijobiy va yaratuvchilikka olib kelmaydi. Bu esa tashvishlanarli holdir. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiya qabul qilish zarurligi borasida bildirgan tashabbusi, davlatlarning yoshlarning taqdiri va kelajagi borasida mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishga chaqiriq bilan chiqqan edi. Aynan mana shuning uchun, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining davomiyligini ta’minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda namoyon bo‘ladi. Bugun O‘zbekistonda yoshlarning hayotiy maqsadlarini hayotga tadbiq etishlari uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda.

Davlat xizmatchilarini rag‘batlantirish deganda – ular tomonidan xizmat vazifalarini bajarishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga va natijada davlat xizmatining samaradorligini oshirishga qaratilgan hamda davlat tomonidan qonun hujjatlari bilan belgilangan choralarning qo‘llanilishi orqali davlat xizmatchilari faoliyatining yuqori baholanishi tushuniladi[9].

Rus olimi D.M.Ovsyankoning fikricha, rag‘batlantirish davlat xizmatchilari tomonidan o‘z mansab majburiyatlarini vijdonan va muvaffaqiyatli bajarishi, uzoq muddatli xizmati, muhim va alohida muhim vazifalarni bajargani uchun qo‘llaniladi. Rag‘batlantirish – davlat xizmatchilarini tarbiyalashning hamda xizmat intizomini mustahkamlashning asosiy vositalaridan biridir[10].

Islohotlar davrida davlat xizmatchilarini tanlash, joy-joyiga qo‘yish va attestatsiyadan o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda xodimlarning kasbiy mahoratga ega ekanligi, intellektual salohiyati darajasi, kirishimlilik singari sifatlari davlat xizmati lavozimini egallash uchun kifoya qilmaydi. Mamlakatda islohotlarga uning munosabati va shu islohotlarni chuqurlashtirishda bevosita ishtirok etishga tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi[11].

Yosh kadrlar faoliyatini attestatsiyadan o‘tkazish:

Tashkilot rahbarining tegishli qaroriga asosan, Ishchi guruhi tomonidan hududiy (mahalliy) boshqarma va bo‘linmalar faoliyati o‘rganilib, **uslubiy yordam** beriladi;

Tashkilot tizimidagi mas’ul xodimlarning ish yuritishi va vakolatlari doirasida ishni tashkil etishi borasidagi **faoliyati tahlil etiladi** hamda yakunida egallab turgan **lavozimida qolish-qolmaslik masalasi** belgilangan tartibda muhokama qilinib borish;

Tashkilot tizimlarida faoliyat yuritayotgan **rahbar va mas’ul xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish** ishlab chiqilgan tegishli Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Attestatsiyani kiritishdan birlamchi maqsad, xizmatchining bilim va malakasi darajasini belgilash bo‘lib, ular xizmatchiga biron-bir unvon yoki toifa va h.k. belgilashda asosiy shartlardan hisoblanadi[12].

O‘zbekistonda oxirgi uch yilda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar uzining ko‘lami, shiddati va keng qamrovi bilan nafaqat mamlakatimiz balki xorijdagi rivojlangan davlatlarda istiqomat qilayotgan o‘zining zamonaviy bilim hayotiy tajribasiga ega bo‘lgan yurtdoshlarimiz hamda xorijiy mamlakatlar siyosatchilarini yuksak darajadagi e’tiroflariga sazovor bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga mos turli soha va tarmoqlar bo‘yicha zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, fidoyi va izlanuvchan mutaxassis kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Shu o‘rinda Avstraliya, Yaponiya, AQSh, Singapur kabi rivojlangan davlatlardagi kadrlar siyosati haqida to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir.

Avstraliya davlatida boshqa davlatlardan farqli ravishda davlat xizmatchilarining ishga qabul qilinishi va boshqa lavozimlarga o‘tkazilishi batafsilroq ishlab chiqilgan.

Kadrlarni boshqarish bilan bog‘liq barcha masalalar bilan **Avstraliya davlat xizmati komissiyasi** shug‘ullanadi. Ushbu komissiya 1999 yildagi Davlat xizmati to‘g‘risidagi Aktga asosan faoliyat olib boradi.

Komissiya doirasida faoliyat yuritayotgan davlat xizmatchilarini tekshirish va ularni lavozimlarini oshirish bilan shug‘ullanadigan **Xizmatda o‘sish va qo‘llab-quvvatlash markazi** tuzilgan.

Markaz agentliklar va ularning kadrlar xizmatiga kadrlarni tanlashning to‘g‘ri yoki noo‘rinligini baholashga, kadrlarni qayta tayyorlash yoxud kadrlarni qayta baholashga yordam ko‘rsatadi.

Avstraliya kadrlar zaxirasini shakllantirish va ular bilan ishlash bo‘yicha eng shaffof tizimlardan biriga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Nomzodlar va davlat xizmatchilari lavozimi oshishiga da’vogar nomzodlar va xizmatchilar bilan ishlash Markazi faoliyatini baholashlari mumkin.

Jahon miqyosida olganda muvaffaqiyatli kadrlar siyosatini shakllantirgan shtat sifatida Avstraliyaning

Yangi Janubiy Uels (“New South Wales”, “NSW”) mahalliy hukumatini koʻrsatish mumkin.

Yangi Janubiy Uels mahalliy hukumati 2014 yildan buyon Avstraliya davlat xizmati komissiyasi bilan birgalikda davlat xizmatchilari uchun qadriyatlarni shakllantirish ustida ish olib bormoqda. Buning uchun rahbar kadr qadriyati sifatida quyidagi 6 ta band asos qilib olingan:

1. Mintaqa rivoji uchun hissa qoʻsha olish imkoniyati;

2. Turfa xillik tan olinadigan va qadrlanadigan strukturaning bir qismi boʻla olish;

3. Oʻz salohiyatini namoyon eta olish;

4. Biror bir katta narsaning (tizimning) bir qismi boʻlish;

5. Mansab pogʻonalaridan oʻsib borish;

6. Haqiqatda muhim boʻlgan narsaga vaqtini sarflash.

Yaponiyada davlat xizmatiga tayinlash tanlov imtihonlari asosida oʻtkaziladi. Yapon Konstitutsiyasi davlat xizmatiga fuqarolar kirishi uchun teng huquqqa ega ekanligi tamoyilini mustahkamlagan. Davlat xizmatchilari toʻgʻrisidagi qonun (33-modda) davlat xizmatiga tanlash nomzodning shaxsiy koʻrsatgan xizmatlari, uning kasbiy tayyorgarligi va ishchanlik sifatlariga mos ravishda amalga oshirilishini, bu jihatlar tanlov imtihonlari orqali aniqlanishi lozimligini koʻrsatadi[13].

Yaponiya davlatida kadrlar salohiyati bu kompaniya yuzi hisoblanadi. Shuning uchun eng yirik kompaniyalar aksariyati **“Xodim tafakkuri – kompaniya tafakkuri”** (*razum sotrudnika – razumu kompaniya*) tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tamoyil **4 bosqich**da amalga oshiriladi.

1. Xodimlar oʻrtasida tajriba almashish;

2. Kompaniya xodimlarining doimiy ruhini koʻtarish;

3. Xodimlar oʻrtasidagi ichki muhitni tubdan yaxshilash;

4. Doimiy ravishda oʻqitish seminar va treninglar olib borish.

Amerika Qoʻshma Shtatlarining eng yirik kompaniyalari **90 foizi** xodimlarni muntazam oʻqitish va malakasini oshirish orqali katta natijaga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Ular yirik va nufuzli oʻquv markazlarida katta mablagʻlar sarflab xodimlarini muntazam oʻqitib borishadi. Ma’lumotlarga koʻra, birgina **“General Electric”** oʻquv markazida yiliga **30-40** mingdan ziyod xodim tahsil oladi.

AQShda keng ma’noda mehnati uchun federatsiya, shtat yoki hukumat mahalliy organi budjetidan maosh oladigan har bir shaxs “davlat xizmatchisi” (“government employee”) yoki “ijtimoiy sektor xizmatchisi” (“public employee”) hisoblanadi. Binobarin, amerika adabiyotida keng qoʻllaniladigan “fuqarolik xizmati” (“civil service”), “ommaviy xizmat” (“public service”), “hukumat xizmati” (“government service”) atamalari koʻpincha sinonim sifatida ishlatiladi[14].

Soʻnggi vaqtlarda davlat apparati a’zolarini qisqartirish bilan bir qatorda ijroiya hokimiyat organlarida ishlash obroʻsini koʻtarish, davlat xizmati imidjini yaxshilash borasida koʻp ishlar qilinmoqda. Masalan, 1995 yilda xizmatchilarning Amerika jamiyati ijtimoiy rivojiga qoʻshgan hissasini koʻrsatish maqsadida Davlat xizmatchisi haftasi oʻtkazildi.

Singapurdagi davlat xizmati rasman 1955 yilda tashkil etilgan, ammo aslida uning tarixi 1819 yilda inglizlar tomonidan Singapurga asos solinganidan boshlangan.

Davlat xizmati oʻz ichiga: prezident, bosh vazir, 14 vazirlik va 26 doimiy qoʻmitalar xizmatlarini oladi. 15 vazirlikda (agar bosh vazir idorasi qoʻshib hisoblansa) ishlovchi xizmatchilarning soni 65 000 kishini, qoʻmitalardagilar soni esa 49 000 kishini tashkil etadi. Davlat vazirliklarining yuridik imtiyozlari ularga tegishli emas, biroq ular katta mustaqillik va moslashuvchanlikka ega. Bular davlat xizmatining oʻtmishi boʻlganligi bois mazkur qoʻmitalarga ishga qabul qilish va xodimlarni ilgari surish bilan Davlat xizmati komissiyasi shugʻullanmaydi, ammo ularda xizmat muddati va shartlari boshqachadir. Ularning hisobotlari Singapur Bosh auditori tomonidan tekshiriladi. Doimiy qoʻmitalar davlat xizmati ishi hajmini kamaytirishga yordam berdi.

Singapur davlat xizmati faoliyati asosida 10 tamoyil qaror topgandir. Singapur davlat xizmatining muvaffaqiyati va mukammalligi shundan iboratki, ushbu tamoyillar va amaliy harakatlar yagona majmuaga birlashtirilgan hamda bular tegishli zaxiralar, puxta oʻylangan rejalashtirish, qat’iy intizom va har tomonlama koʻrsatmalar bilan qoʻllab-quvvatlanadi. Oʻzaro aloqalar va izchil ijro Singapur tizimining muhim unsurlaridandir.

Singapur davlat xizmatchilariga ish haqini hisoblab chiqishda bozor usullari qoʻllaniladigan mamlakatlardan biridir. Shuning uchun ish haqining hajmi ham anchagina katta. 1985 yili apparatni ta’minlash xarajatlarini oqlash toʻgʻrisida parlament oldida hisob bergan bosh vazir “Men eng yuqori maosh toʻlanadigan, va ehtimol, uchinchi dunyo mamlakatlari bosh vazirlarining eng qashshoqlaridan biri boʻlsam kerak. Bu masalani hal qilishning turlicha yoʻllari mavjud. Men halol, oshkora, oʻzini oqlaydigan hamda amalga oshirilishi mumkin boʻlgan bozor iqtisodiyoti doiralaridagi oʻz yoʻlimizni taklif etaman. Agar siz bu yoʻldan koʻra riyokorlikni afzal koʻrsangiz, ikkiyuzlamachilik va korrupsiyaga duch kelasiz. Qaysi birini tanlash sizning ishingiz” degan edi[15]. Bu dasturning taklif etilishi oqibatida davlat xizmatchilarining maoshi keskin koʻtarildi, bu esa ushbu davlatda korrupsiya darajasining pasayishiga erishilgan.

Bir qator Yevropa mamlakatlarida, pora bilan qoʻlga tushgan amaldor nafaqat oʻz lavozimidan, balki pensiyasidan ham mahrum etiladi. Korrupsiya bilan kurashning eng ta’sirchan hollarini Skandinaviya mamlakatlari, bir qator Yevropa (Luksemburg,

Niderlandiya, Shveysariya, Avstriya va boshqa) hamda Osiyo (Singapur, Gonkong) davlatlari misolida ko‘rishimiz mumkin[16].

Hozirgi kunda Singapur davlatida yuqori lavozimdagi davlat xizmatchilarining ish haqi tadbirkorlikdagi o‘rtacha ish haqiga bog‘liq holda hisoblab chiqiladi va ularning 1 oylik ish xaqlari 20 000–25 000 dollarni tashkil etadi.

Ko‘rsatib o‘tilgan xorijiy mamlakatlarda davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish va ular bilan ishlash uchun mas’ul bo‘lgan xizmatlar, agentliklar, komissiyalar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Ilg‘or xorijiy tajriba asosida xodimlarning yetakchilik imidjini rivojlantirish orqali kadrlar siyosatini yuritish bilan birgalikda **xodimning ijtimoiy ta’minoti**, **mehnat motivatsiyasi**, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish holati, **kasbiy kompitentligi** va boshqa jihatlarini doimiy o‘rganib borishni taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida xodimlarni samarali boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishga, malakali kadrlar zaxirasini raqobat asosida shakllantirishga hamda ular tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlari o‘z vaqtida egallanishiga olib keladi.

Ma’lumotlar tahliliga tayanib tayyorlagan butun mamlakat bo‘yicha yoshlar ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoshlar bilan ishlovchi xodimlar faoliyati samaradorligini oshirish baholashning muhim tarkibiy elementi bo‘lib hisoblanadi. Mazkur ma’lumotlar bu borada amalga oshirilgan siyosat to‘g‘risidagi yoshlarning umuman jamiyatning munosabatini aks ettirib turadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish bilan bog‘liq sohalar hamda ularda qo‘llanilayotgan mexanizm va texnologiyalarning natijadorlik darajasi aniqlanib kelgusi yilda qoloq sohalarni rivojlantirish hamda ularda qo‘llanilgan mexanizm va texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq qilinishi lozim.

Bunday amaliyoning yana bir afzal jihati shundaki, yoshlar bilan ishlovchi mas’ul xodimlarning faolligini oshirish ularning samarali faoliyat yuritishining yillar kesimidagi dinamikasini ishlab chiqib shunga ko‘ra kelgusi yillardagi istiqbolli strategiyasini aniq belgilab olish imkoniyati yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. Toshkent – “O‘zbekiston” NMIU – 2016 y.

2. Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –T.: G‘.G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

3. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma – T.: Universitet, 2017.

4. Mirboboev B., Husanov O., Begmatov A. O‘zbekistonda davlat xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy masalalari. “Akademiya” nashriyoti, Toshkent, 2005 yil.

5. Administrativnoe pravo. Uchebnik pod.red. Yu.M.Kozlova, L.L.Popova. Moskva, Yurist, 2010.

6. Xojiev E.T. Davlat xizmati : o‘quv qo‘llanma / E.Xojiev, G.S.Ismailova, M.A.Raximova. – Toshkent: Baktria press, 2015.

7. Adamovich A.S. Gosudarstvennaya slujba. Ensiklopedicheskiy slovar. M.: Izd-vo RAGS, 2018.

8. Zakon o gosudarstvennыx publichnыx doljnostnыx litsax (№ 120 - 1947 g.) // Gosudarstvennaya slujba v stranax osnovnыx pravovыx sistem mira. Normativnыe ak-tы / Pod red. A.A. Demina. – M., 2021.

9. Osipova M. Singapur v intersetyax finansovыx rынkov// Aziya i Afrika segodnya. - 2002.

10. O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etishning huquqiy asoslari : davra suhbati materiallari. - Toshkent : Baktria press, 2015.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Замилова Римма Рамильевна
доктор педагогических наук, профессор
Турдалиева Гулхаё Музаффаровна
магистрант Наманганского
государственного педагогического института
gulhayo1907@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: *В условиях цифровизации образования в Узбекистане дистанционное обучение становится значимой формой преподавания, в том числе русского языка как неродного. Актуальность темы обусловлена необходимостью адаптации методики к новым условиям: с одной стороны, дистанционный формат предоставляет гибкость и доступность, с другой – выявляет проблемы снижения мотивации и недостатка живого общения. Особенно важно изучение потенциала онлайн-платформ в развитии речевой и языковой компетенции учащихся.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gender stereotiplar tushunchasi, ijtimoiy ongda shakllanishi, manbalari, xususiyatlari, ijtimoiy vazifalari, bayon qilingan. Gender stereotiplarni bartaraf etish, gender tenglikka ko'maklashish, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishdek dolzarb vazifalarni amalga oshirish, eskirgan qarashlarni bartaraf etish, gender tenglik va adolat, bag'rikenglikni tarbiyalash, gender tafakkurni shakllantirish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifa ekanligi yoritilgan.*

Jamiyatda moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil va hamkorlikda ishlashga, gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanganligi bois oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va barqarorlashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish kerakligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Erkak, ayol, ijtimoiy ong, tafakkur, ko'nikma, stereotiplar, gender, tenglik, adolat, bag'rikenglik, xulq-atvor modellari, maskulinlik, feminlik, ijtimoiy rollar, xos kasblar, me'yoriy qoliplar, shaxsiy fazilat, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot, mustaqillik, hamkorlik, gender kompetentlik, ta'limda gender yondashuv, samarali mexanizmlar.*

Yuldasheva Totikhon Yakubovna
Assistant of the Institute of Agriculture and agrotechnologies of Andijan
Turgunova Gulxumar Bakhtiyar kizi
Assistant of the Institute of agricultural and agrotechnologies of Andijan, d.p.a.s

OVERCOMING GENDER STEREOTYPES

Annotation: *this article describes the concept of gender stereotypes, their formation in social consciousness, sources, characteristics, social functions. The implementation of urgent tasks such as overcoming Gender stereotypes, promoting gender equality, expanding the rights and opportunities of women, eliminating outdated views, gender equality and justice, fostering tolerance, the formation of gender thinking is an urgent task facing the educational system.*

It is stated that it is very important to develop flexibility, interpersonal communication skills in society, to work independently and cooperatively, to form gender competence, so it is necessary to develop effective mechanisms for applying and stabilizing a gender approach to the higher education system.

Keywords: *male, female, social consciousness, thinking, skills, stereotypes, gender, equality, justice, tolerance, behavior models, masculinity, femininity, social roles, specific professions, normative molds, personal virtue, socio-psychological characteristics, flexibility, interpersonal communication, independence, cooperation, gender competence, approach in education, effective mechanisms.*

Юлдашева Тутихон Якубовна
Доцент Андижанского института хозяйства и агротехнологий
Тургунова Гюльхумор Бахтиер кизи
Доцент Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологий. д.с.н

ПРЕОДОЛЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ

Аннотация: *В данной статье изложено понятие гендерных стереотипов, их формирование в общественном сознании, источники, особенности, социальные функции. Освещаются актуальные задачи, стоящие перед системой образования: устранение гендерных стереотипов, содействие гендерному равенству, расширение прав и возможностей женщин, искоренение устаревших взглядов, воспитание гендерного равенства и справедливости, толерантности, формирование гендерного мышления.*

В связи с тем, что развитие гибкости, навыков межличностного общения, самостоятельной и совместной работы, формирование гендерной компетентности в обществе считается очень важным, необходимо разработать эффективные механизмы внедрения и стабилизации гендерного подхода к системе высшего образования.

Ключевые слова: *мужчина, женщина, социальное сознание, мышление, навыки, стереотипы, пол, равенство, справедливость, толерантность, модели поведения, маскулинность, феминизм, социальные роли, конкретные профессии, нормативные модели, личностные качества, социально-психологические характеристики, гибкость, межличностное общение, независимость, сотрудничество, гендер компетентность, гендерный подход в образовании, эффективные механизмы.*

Kirish.

Dunyo hamjamiyati tomonidan bajarilishi majburiy hisoblangan inson huquqlariga doir asosiy tamoyillaridan biri gender tengligi tamoyili bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi, tinchlik va totuvlikni ta’minlash, inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Jinslararo tenglik tamoyili barcha zamonaviy davlatlar tomonidan tan olinib, o‘z konstitutsiyalarida jinslararo tenglikni ta’minlash, gender asosidagi kamsitishlarni barcha turlarini taqiqlashning huquqiy asosini yaratganlar. Shunday bo‘lsada, bu tamoil turli ijtimoiy omillar tufayli jamiyat xayotiga barqaror o‘rin toppishi qiyin kecmoqda. Dunyo halqlarining gender tengsizligiga olib keladigan mentolitetiga xos stereotip va noto‘g‘ri qarashlari bu jarayonning sust kechishiga olib kelayotgani soha muamolarini organuvchi olimlar tomonidan etirof etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Stereotip - ma’lumotni qabul qilish va baholashga asoslangan ma’lum bir andoza – klishe bolib, unga ko‘ra muayyan bir voqea, hodisa, predmet, sub’ekt haqida umumlashtirilgan tushuncha hosil kilinadi. Ushbu andoza yordamida inson avtomatik ravishda muayyan bir voqea, hodisa, predmet yoki sub’ektga baho beradi va vaziyatga mos va xos ravishda harakatlanadi.

Tadqiqotchilar gender stereotiplari tushaunchasiga turlicha ta’rif beradilar. I. Klesina “Gender stereotiplar bu mazkur jamiyat uchun aynan shu tarixiy davrdagi erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqliklar to‘g‘risidagi tasavvurlar” [1], deb ta’rif bersa, “Gender stereotiplari deganda, “erkaklarga xos” va “ayollarga xos" tushunchalarga mos keluvchi xulq-atvor modellari va xarakter xususiyatlari to‘g‘risidagi andozalashtirilgan tasavvurlar tushuniladi”, deb ta’rif beradi E. Aronson [2]. L.Kim tadqiqotlari natijasida gender stereotiplar “idrok etish xususiyati, mazkur madaniyatda qabul qilingan muayyan jins vakili turmushi va faoliyatidagi me’yor va qoidalarni hisobga olgan holda inson xulq-atvorining dasturiy anglashilishidir”, degan xulosaga keladi [3].

O‘rganilgan manbalarga asoslanib “gender stereotiplari”ni quyidagicha guruhlash mumkin:

- ikki jinsni ifodalovchi odatiy xususiyat va ta‘riflar;
- ularda an’anaviy ravishda mavjud xos me’yoriy xulq-atvor namunalari;
- o‘zaro farqlovchi jihatlari to‘g‘risidagi odamlarning umumlashtirilgan fikr, mulohaza, tushunchalari;
- ijtimoiy-madaniy muhit - gender stereotiplar manbasi sifatida.

Ijtimoiy stereotip insonning tevarak-atrofni baholashdagi umumlashtirgan qobiliyati, uning fikr-mulohazalari, notanqidiy yani boricha, xaqiqat deb qabul qilingan xulosalariga asoslanadi. Bu borada “Stereotip asosida fikrlash guruh a‘zolari o‘rtasidagi real farqliklarga e’tiborsiz qarash, barcha insonlarga bir xil tasnif berishdir”, deb ta’riflaydi E.Aronson [2]. Stereotiplash - alohida individual shahslarga berilgan tasniflarni umumlashtirilib, insonlar va hodisalar guruhiga qo‘llanishiga aytiladi. Ushbu stereotip - andozalar yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarga tezkor munosabat bildirishga, anglash jarayonini jadallashtirishga xizmat qilsada, umumlashma fikr-mulohazalar hamisha reallikni ob’ektiv aks ettira olmaganligi bois, ijtimoiy jarayonlarda noto‘g‘ri bilim va tasavvurlarni shakllanishiga, natijada ijtimoiy munosabatlarda salbiy oqibatlarni yuzaga kelishiga olib keladi.

Xayotda inson, guruh, millat, halqlarga nisbatan “umumiy”, xos xususiyat va fazilatlarga ko‘ra ifodalangan tushuncha va munosabatlarga duch kelamiz. Milliy xarakterni tavsiflovchi etnik irqiy, shuningdek, ijtimoiy qatlam, kasbiy guruh vakilllariga nisbatan stereotiplar umumlashma andozalarni ko‘p qo‘llaymiz. Jamiyatda mavjud jinslarga xos xususiyat, fazilatlar hamda farqlarga doir umumlashtirilgan fikr-mulohazalar gender stereotiplar deb aytiladi.

Genderga doir tadqiqotlari natijasiga ko‘ra stereotiplarni muayyan guruhlarga ajratib ta’riflanaladi:

1.*Maskulinlik (mardlik) va feminlik (latofatlik) stereotiplari.* I.S.Konning «maskulinlik» atamasini tahliliga asoslanib, ushbu tushunchalari quyidagicha ifoda etiladi: maskulinlik va feminlik tushunchalari erkaklarda – maskulinlik, ayollarda – feminlik har biriga «xolisona xos bo‘lgan» ruhiy va xulq-atvoriy xususiyatlarni aks etiradi [4]. Jamiyatda mavjud va mustahkamlangan erkak va ayol tushunchalarini bayon qilishda an’anaviy ravishda ikki jinsning har biriga beriladigan ta’rif, ularda bo‘lishi shart bo‘lgan fazilat va hususiyatlar majmuasidir.

Jamiyatda mavjud turli ijtimoiy tasavvurlar, fikrlardan kelib chiqib ikki jins vakillariga xos va mos

xususiyatlar aniqlanadi. Maskulinlik va feminlik tushunchasi “ideal erkak” va “ideal ayol” me’yoriy qoliplarini muayyan o‘ziga xos shaxsiy fazilat, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega erkak yoki ayolga nisbatan umumiy erkaklar va ayollarni tasniflovchi tushunchalar kabi qabul qilinishidir. Bu erkaklarga xos deb belgilangan ijtimoiy faollik, mustaqillik, kompetentlik, jahldordik, qattiqo‘llik kabi xususiyatlar bo‘sa, ayollardagi emotsionallik, mayinlilik, ijtimoiy passivlik, bog‘liqlik xususiyatlarini barcha ayollarga xos tushuncha – stereotip deb qabul qilinishidir. Boshqacha qilib aytganda, insonning o‘zigagina xos jihatlari, fazilatlariga, individual jijatlarini e’tibordan chettda qoldirish, barchaga bir hil qolip – model, kleshe, tushunchalarni qo‘llashdir.

Buning tasdig‘i sifatida N.A.Nechaevaning o‘z tadqiqotlari natijasida “Ayolning an’anaviy ideali vafodorlik, sodiqlik, kamtarlik, nazokat, latofat, itoatkorlik kabi fazilatlarni o‘z ichiga oladi”, deb bayon etgan ta’kidini keltirishimiz mumkin [5].

2. Jamiyatdagi ijtimoiy rollarni mustahkamlash bilan bog‘liq gender stereotiplar. Bu guruh stereotiplarda asosiy rollar sifatida erkaklarga professional rollar ayollarga esa oilaviy rollar (mehribon ona, oqila uy bekasi, vafodor yor) belgilanadi. I.S.Klesina ta‘kidlaganidek “erkaklar o‘z kasbiy faoliyatida erishgan yutuqlariga qarab, ayollar esa oilasi va farzandlari qarab baholanadi” [6]. Barcha davlat, millat, jamiyatda ikki jinsga taqaladigan kasblar haqidagi qat’iy tushunchalar mavjud bo‘lib, bu tendensiya insonni ijtimoiylashuvi, qiziqishlari, orzulari, kasb tanlashlarida namoyon bo‘ladi. Insonni iqtidori, orzularidan qat’iy nazar ushbu steritiplarga ergashishiga, o‘zini orzularidan voz kechishga olib keladi. Cteriatiplarga qarshi borish shaxsning jamiyatning boshqa vakillari tomonidan muhokama ob’ekti bo‘lib qolish havfini yuzaga keltiradi.

3. *Mehnatning muayyan turlari bilan shug‘ullanish jarayonida o‘z ifodasini topgan gender stereotiplar.* Bunda asosan, erkaklarga ijodiy va yaratuvchanlik xususiyatidagi kasblar xos deb, ayollarga esa bajaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi xususiyatidagi sohalar xos deb hisoblanishudir. Yuqoridagilarga tayangan xolda har bir jamiyatda “erkaklarga xos” va “ayollarga xos”, kasblar to‘g‘risidagi qarashlar mavjudligini eslatish kifiya. Bu holat YUNESKO keltirgan ma’lumotlarida ham o‘z aksini topgan, unga ko‘ra, erkaklarga xos andozaviy kasblar ro‘yxatiga mexanik, haydovchi, arxitektor, muhandis, tadqiqotchi kabi kasblar, ayollarga xos kasblar guruhiga tarbiyachi, o‘qituvchi, kutubxonachi, aloqa xodimi, kotiba kabilar kiradi. Ushbu taqsimlanishning “gorizontal” shakli bo‘lib, rahbar - erkak, ijrochi – ayoll shaklidagi “vertical” shakli ham kuzatiladi. Ushu steriotip jamiyat rivojiga salbiy ta’siri yuqori bo‘lgan, adolat, har kimni mehnati va salohiyatiga yarasha movqega ega bolishiga doir prinsiplarga qarama qarshi bo‘lib hisoblanadi.

Gender stereotiplarning jamiyatda muayyan vazifa va funksiyalari mavjud:

- tushuntirish funksiyasi,
- tartibga solish funksiyasi,
- farqlovchi funksiyasi,
- retranslyatsiya funksiyasi,
- himoyalovchi yoki o‘zini oqlovchi funksiyasi.

Tushuntirish funksiyasi ikki jins sifatlariga doir gender stereotiplari yordamida erkaklar yoki ayollarning xulq-atvoridagi xos xususiyatlarini ko‘rsatishda qo‘llaniladi.

Regulyativ funksiya jinslararo xulq-atvoriy farqlar bilan bog‘liq. Olimlar tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, turli jinsga mansub kishilar yo‘lda qizil chiroqni kesib o‘tishlarida o‘zlarini har xil tutishar ekan. Ayollar yo‘lda o‘zlari bo‘lganlarida yo‘l qoidalarini kamroq, lekin boshqa qoidabuzarlar ta’sirida qoidalarni ko‘proq buzganlar. Bu holat odatda ayollar ”tartibli yo‘lovchi” hisoblanishlari va yo‘l harakati qoidalarini kamroq buzishlari bilan izohlangan. Ularning guruh tomonidan ko‘rsatiladigan tazyiqqa moyil-konformliroq bo‘lganliklari tufayli ular boshqalarga ergashgan hollarda qoidalarni buzishar ekan. Konform - akslantirish (lot. conformis — o‘xshash) — bir sohani ikkinchi sohaga shunday o‘zaro bir qiymatli akslantirishi bo‘lib, bu jarayonda ayollarga xos xususiyatlar (tartiblilik va konformlik) stereotiplari ularning xulq-atvorining o‘ziga xos regulyatori vazifasini bajaradi. ba’zan steriotiplar o‘zining regulyativ vazifalari, fuksiyalarini bajarishda ijobiy natijalarga ham olib keladi.

Farqlovchi funksiya. Uning yordamida bir guruh a’zolari o‘rtasidagi farqliklar kamaytirish, yoki aksincha, farqliklar maksimal darajada oshirish mumkin. Jamiyatdagi mavqei jihatidan ko‘rib chiqilsa ikki ijtimoiy guruhdan odatda erkaklar ayollardan yuqori mavqega guruh sifatida ta’riflanib, bunda ikki guruh o‘rtasidagi farqliklar ortadi. Erkaklarga bilimdonlik, tadbirkorlik, muvaffaqiyatlilik, ayollarga mehribonlik, hamdardlik, insoniylik kabi fazilatlar bog‘lanadi. G‘arblik mualliflarning fikricha, “ayollarga xos stereotiplarning ijobiy jihatlari (bag‘rikenglik, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, ko‘ngilchanlik kabilar) kuch bilan erisha olmagan yutuqlarning o‘rnini bosish - kompensasiyalashdan boshqa narsa emas”. Steriotiplar ushbu funksiyani bajarilish natijasida muayyan bir jinsga xos xususiyatlarning boshqasidan keskin farqlanishiga olib keladi (erkaklarning kuchliligi va ayollarning zaifligi). [7] Gender stereotiplarning farqlovchi funksiyasi xalq ijodiyotining erkaklar va ayollar to‘g‘risidagi hangomalar, hazilar, askiyalarida ifodalanib, qarama-qarshi jins vakillaridagi salbiy jihatlarni bo‘rttirish orqali muayyan jinsga mansub guruhlarning ichki birdamligini vujudga keltiradi.

Retranslyatsiya funksiya. Bu funksiya ijtimoiylashuv institut va agentliklar (oila, maktab, tengdoshlar, adabiyot, san’at, ommaviy axborot vositalari)ning jinsiy-rolli stereotiplarni shakllantirish, namoyish etish, tarqatish va mustahkamlashdagi rolida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi ijtimoiy institutlar insonga o‘z jinsiga oid andozalar -

tasavvurlarga mos bo‘lish vazifalar yuklaydi. Ushbu (qanday qilish va nimalarni qilish borasida) yo‘l-yo‘riq va vazifalar yordamida insonning “jinsiy shakllantirish” amalga oshiriladi.

Himoyalovchi yoki o‘zini oqlovchi funksiya. Bir qator G‘arb tadqiqotchilarning fikricha, ushbu funksiya “har bir narsaning mavjud holatini, shu jumladan, jinslar o‘rtasida amaldagi tengsizlikni oqlash va himoya qilish” borasidagi urinishlari bo‘lib, uning yordamida erkaklar va ayollarning oila va jamiyatdagi tengsizlik holatini izohlash mumkin. Ayollarni “uyda mehnat qilishga biologik nuqtai nazardan ko‘proq moyilligi bor, erkaklarning o‘rni ustun bo‘lgan jamiyat ayollarni kelgusida ham changyutgichga bog‘lab qo‘yishini istaydi” degan tushunchaga rioya etish nihoyatda qulay deb ta’kidlaydi E.Aronson [2]. Bu erkaklar va ayollarning “tabiiy xususiyatlari” to‘g‘risidagi o‘rnashib qolgan stereotiplar yordamida oilaviy zo‘ravonlik, turli jins vakillariga nisbatan ikki xil standartlarning qo‘llanishini izohlash yoki oqlash mumkin. Demak, gender stereotiplari jinslararo farqlarni izohlash, oqlash zaruriyati bilan bog‘liq funksiyalarni bajaradi.

Gender stereotiplar umumlashtirish orqali erkaklar va ayollarning xulq-atvoriga nisbatan jamiyat tomonidan kutilayotgan xatti-harakatlarni shakllantiradi. Ba’zi oilalardagi muhit gender kamsitishni keltirib chiqaruvchi gender stereotiplarning yoshlar ongida mustahkamlanishiga olib keladi. Aksariyat oilalarda bugungi kundagi otaning yuqori movqei farzandlarda «otam onamdan ustun» yoki «otamning fikri onamnikidan muhim» degan tushuncha paydo bo‘lib, ularning ongiga singan gender stereotiplar hayotida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ayolning haqsizligini ko‘rib, ko‘nib ulg‘aygan farzand oilaviy tengsizlik va adolatsizliklarga qarshilik ko‘rsatishga ojizligi bois kelib chiqadigan ziddiyatlarni adolatli hal eta olmaydi. Xotin-qizlar ta’lim va tarbiyasiga o‘zgacha yondashilgan, ayollar ma’lum muvaffaqiyatga erishgan, ziyoli, ma’rifatli oila vakillari xotin-qizlarni oilaning to‘laqonli teng huquqli a’zosi, deb qabul qiladilar, e’zozlaydilar, fikrlariga xurmat bilan qaraydilar [8].

Zamonaviy dunyoda ayollar va erkaklar ijtimoiy rollari, hayot rejalari, g‘oyalari va ustuvorliklari o‘zgarib borsada, yangi ijobiy xatti-harakatlar modellari jamiyat ongiga etarli darajada singiganicha yoq. Bu holatni ijobiy ma’noda o‘zgartirish gender ta’sirchanlikni, jamoatchilik ongini shakllantirish zarur.

Gender stereotiplarni bartaraf etish bu gender tenglikka ko‘maklashish, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bolib, mamlakat oldida turgan eng dolzarb vazifalarni amalga oshirish samaradorligiga hizmat qiladi. Jamiyatda eskirgan qarashlarni bartaraf etish, gender tenglik va adolat, bag‘rikenglikni tarbiyalash, gender tafakkurni shakllantirish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Gender ta’limisiz gender tengligiga erishish mumkin emas. Jamiyat ongida gender sezgirligini rivojlantirish o‘zbek jamiyatidagi gender stereotiplarining barqarorligi bilan bog‘liq, jamiyatda avloddan avlodga o‘tadigan ijtimoiy rollar, ijtimoiy qadriyatlar va me’yorlar to‘g‘risidagi g‘oyalarini ozgartirish mutassil olib boriladigan ta’lim tarbiya jarayonidir [8].

Xulosa.

Ta’limda gender tenglikni amalga oshirish uzluksiz jarayon bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko‘nikmalari bilan birgalikda, muhim hayotiy ko‘nikmalar, shu jumladan tahliliy va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil va hamkorlikda ishlashga, gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta’lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va barqarorlashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Usbu jarayonda institutsional va pedagogik hamkorlik sohasida o‘quv materialini tanlashga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda yangi o‘quv materiallari, tahliliy topshiriqlarni tanlanish va yaxlit tizimga solinish maqsadga muvofiqdir. Gender mansublik bilan belgilangan holda pedagogik jarayonda hamkorlik mexanizmlarini qo‘llash uning mavjudligini tahminlaydigan nazorat mexanizmlarini belgilash imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida talabalarni erkak yoki ayol sifatidagi o‘ziga xos jismoniy, ruhiy, potentsial imkoniyatlari va xususiyatlari hisobga olinib, talabaning jins belgisiga ko‘ra mansublik kategoriyasiga kiritilishi mansublik mezonlari asosida amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonda bunday bo‘linish ijtimoiy-ta’limiy jihatdan belgilangan identifikatsiya ko‘rinishlari asosida farqlanishi va qo‘llab-quvvatlanishi, shuningdek talabani jinsiga qarab topshiriqlarni bajarishda uning imkoniyatlari inobatga olinishi talab etiladi.

Adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Yuridik puvlish, 2023 г.
2. Устав Организатции Объединенных Натций (Принят в г. Сан-Франциско 26.06.1945) // Действующее международное право. Т. 1. – М.: Московский независимый институт международного права, 1996. – С. 7 - 33.
3. “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” (BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan) [Elektron resurs]. URL: http://www.consultant.ru/
4. Клесина И. Гендерний подход в системе психологического образования. https://a-z.ru/ women/texts/kletzir-e.htm

5. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социалную психологи. /пер. с английского. Аспект Пресс.-М., 1999.-С. 307.

6. Ким Л. Исследователский проект “Влияние социалних факторов на понимание гендерних ролей». Программа централно-Азиатские Инициативы Исследований, Будапешт, Ташкент, 2002.

7. Кон И.С. Мужские исследования: меняюшиеся мужчини в изменяюшемся мире. Введение в гендерние исследования. Ч.1: Учебное пособие. Под ред. И.А. Жеребкиной-Харков: ХСГИ, 2001; СПб.: Алетейя, 2002. С.571-572.

8. Нечаева Н.А. Идеал женщини в структуре гендерних картин мира гендерние тетради. Випуск второй; СПб филиал Института социологии РАН. СПб., 1999, с.10.

9. Клесина И.С. Гендерная социализация. Учебное пособие. с. 19

10. Великоселская И. Е. Международные механизмы обеспечения гендерного равенства. // Право и политика. – 2009. – № 8. – С. 1635–1642.

11. Алиева К.Р. Ўзбекистонда гендер тенглигини таъминлашнинг ҳуқуқий масалалари. // Монография //, ”LESSON PRESS” МЧЖ нашриёти, 2015 йил.

12. Юлдашева Т. Я. Современный подход к вопросам гендерного равенства // Экономика и социум. 2024. №10-2 (125). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennyy-podhod-k-voprosam-gendernogo-ravenstva (дата обращения: 26.03.2025).

13. Юлдашева, Т. Я., & Исомиддинов, С. (2024). Ўзбекистон Республикаси Конституцияда ёшлар ҳуқуқ ва эркинликлари кафолати. Science and innovation, 3 (Special Issue 20), 311-313.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ro‘ziqulov Bunyodbek Baxtiyor o‘g‘li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)
bunyod_2020@mail.ru

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA YENGIL ATLETIKA TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISH METODIKASINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida yengil atletika to‘garaklarini tashkil etish jarayonlari, ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi, talabalarning jismoniy va funksional rivojlanish xususiyatlarini inobatga olib, qo‘llaniladigan vosita va usullarni to‘g‘ri tanlash xalqaro miqyosda kuchli raqobatga kirisha oladigan sportchilarni tayyorlash tizimining ijobiy tomonlari keltirilgan. Bu esa zahira sportchilarni saralash va ular bilan ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida samarali o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etish yuzasidan yangi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini belgilab beradi. Yengil atletika mashg‘ulotlarida talabalarni mashg‘ulot jarayonini tuzish uchun avvalo ularning jismoniy rivojlanish darajasiga e’tibor qaratish talab etiladi.*

Kalit so‘zlar: *talabalar, jismoniy rivojlanish, yengil atletika, sport to‘garaklari, metod, metodika, mashg‘ulot sikllari, jismoniy tarbiya, mashg‘ulot jarayoni.*

Рўзиқулов Бунёдбек Бахтиёр ўғли
Университет экономики и педагогики Доцент кафедры физической культуры и спорта, (PhD)

ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДИКИ ОРГАНИЗАЦИИ ЛЕГКОАТЛЕТИЧЕСКИХ КРУЖКОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются процессы организации легкоатлетических кружков в высших учебных заведениях, эффективность разработанной методики, правильный выбор средств и методов, применяемых с учетом особенностей физического и функционального развития учащихся. Это обусловливает необходимость проведения новых научно-исследовательских работ по отбору спортсменов-резервистов и организации с ними эффективных учебно-тренировочных процессов на этапах многолетней подготовки. На занятиях по легкой атлетике для структурирования тренировочного процесса учащихся требуется в первую очередь ориентироваться на уровень их физического развития.*

Ключевые слова: *студенты, физическое развитие, легкая атлетика, спортивные кружки, метод, методика, циклы занятий, физкультура, тренировочный процесс.*

Ruzikulov Bunyodbek Bakhtiyor ugli
University of Economics and Pedagogy Associate Professor of the Department of Physical Culture and Sports, (PhD)

EFFECTIVENESS OF METHODS OF ORGANIZING ATHLETICS CLUBS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: *This article examines the processes of organizing athletics clubs in higher education institutions, the effectiveness of the developed methodology, the correct choice of tools and methods used taking into account the characteristics of physical and functional development of students. This makes it necessary to carry out new research work on the selection of reserve athletes and the organization of effective training processes with them at the stages of long-term training. In athletics classes, in order to structure the training process of students, it is necessary first of all to focus on the level of their physical development.*

Keywords: *students, physical development, athletics, sports clubs, method, methodology, cycles of classes, physical education, training process.*

Kirish.

Jahon miqyosida yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi talabalarning faoliyatida harakat samaradorligini o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari o‘tkazilgan bo‘lib, ularning mashg‘ulot yuklamalarini me’yorlash, jismoniy tayyorgarligini oshirish va yengil atletika mashg‘ulotlarida vositalarni optimallashtirish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining yengil atletika to‘garaklariga qamrab olish orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tayyorgarligini oshirish, mashg‘ulot vositalari va usullarini doimiy ravishda optimallashtirib boorish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Talabalarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarda jismoniy tayyorgarligini doimiy nazorat qilish va muammoli vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar yetarlicha ishlab chiqilmaganligi yengil atletika to‘garaklarida zaxira sportchilarni tayyorlash zaruratini taqozo etmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Respublikamizda yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning darsdan tashqari sport to‘garaklarini tashkil etish, talabalarni jismoniy tarbiya darslarida shug‘ullantirish va fundamental jismoniy sifatlarini tarbiyalash bo‘yicha F.A.Kerimov, R.D.Xalmuxammedov, T.S.Usmonxodjaev, O.V.Goncharovalar bir qator tadqiqotlar olib borishgan. Yengil atletikachilarni tayyorlash, turli yoshdagi yengil atletikachilar jismoniy tayyorgarligining o‘ziga xos xususiyatlari va yosh yengil atletikachilarni tayyorgarlik turlari bo‘yicha R.Qudratov, K.T.Shakirjanova, X.Rafiyev, M.S.Olimov, N.T.To‘xtaboyev, M.J.Abdullayev, D.N.Raxmatova, L.V.Smurigina, I.R.Soliyev, U.I.Sultonov, K.F.Ruzamuxamedov, R.A.Burnashev, G‘.S.Xo‘jamkeldiyev va A.M.Baratov kabi olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bugungi kunda yengil atletika sport turining ommaviyligidan kelib chiqib, sportga hamnafas shug‘ullanuvchi yoshlarni jismoniy, texnik-taktik va funksional tayyorlash soha mutaxassis va olimlari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

MDH olimlaridan maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish, talabalarni jismoniy yuklamalarini meyorlash, oliy ta’lim muassasalarida darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha V.I.Lyax, L.Ye.Lyubomirskiy, V.K.Balsevich, L.I.Lubisheva kabilar, yosh yengil atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha A.A.Gujalovskiy, A.A.Kuznesov, M.A.Godik kabi olimlar bir qator tadqiqotlarni olib borishgan. V.A.Zaporajanov, V.I.Lyax kabi bir qator olimlarning fikricha, harakat tayyorgarligi talabalar sog‘ligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, uni yaxshilash esa maktabdagi jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq va samarali tashkil qilish uchun o‘quvchilarning har bir ta’lim bosqichidagi jismoniy tayyorgarligi to‘g‘ri tashkil etilishi lozim. Ushbu ma’lumotlarning bo‘lishi, ayniqsa, harakat funksiyalarining shakllanish bosqichida katta amaliy ahamiyatga ega. Berilayotgan yuklamalarning miqdori o‘sib kelayotgan yosh organizmning holatiga mos ravishda shakllantirilishi zarur.

Bugungi kunda chet el mamlakatlarida oliy ta’lim muassasalari bilan olib borilgan tadqiqotlarda B.Ekblom, Dj.X.Atterxog, D.A.Beyli, K.Karri, N.Dyuran, T.Yaakkola, X.Xalvari kabi olimlar jismoniy tarbiya darslarida berilayotgan yuklamalar yetarli emas deya hisoblamoqdalar. Shu sababli bir tomondan o‘quvchilarning salomatlik darajasini yaxshilash bo‘yicha, ikkinchi tomondan asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi, ya’ni talaba yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar mavjud. Oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan fan to‘garaklarida qatnashish majburiy bo‘lmagani kabi, o‘quvchilarning qaysi sport turiga qatnashishi ham ixtiyoriydir. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qatnashish talabalarni yanada sog‘lom qilishi manbalarda o‘z isbotini topgan. Ushbu sanab o‘tilgan sabablar oliy ta’lim muassasalarida yengil atletika to‘garaklariga jalb qilish dolzarbligini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini yengil atletika to‘garaklariga jalb qilish va ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda va uni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Talabalarni yengil atletika to‘garaklarida mashg‘ulot yuklamasining meyorini belgilash, mashg‘ulotlar jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvni qo‘llash orqali talabalarning salomatligini saqlash va mustahkamlashni qay tarzda amalga oshirish yo‘llari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirishni taqozo etadi.

Tahlillar va natijalar.

Sport to‘garaklari talabalar uchun me’yorni to‘g‘ri taqsimlash, sport bilan har kuni shug‘ullanish, iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda esa kuniga ikki marta shug‘ullanish imkoniyatini beradi. O‘quv-tarbiyaviy va mashg‘ulot uslublarini ishlab chiqish va tashkil qilish bo‘yicha biz tomonimizdan o‘tkazilgan dastlabki tadqiqotlar yengil atletika to‘garaklarida shug‘ullanuvchi talabalarning mutaxassislik fanlari dasturi bo‘yicha davomati ortganligini, salomatlik holati yaxshilanagnligini ko‘rsatdi. Jismoniy tayyorgarlikning alohida ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalarning tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonarli darajada farqlanishi aniqlandi, jumladan, pedagogik tajriba yakunida tajriba guruhida tezlik, tezkor-kuch va kuch sifatlarining nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lganligi qayd qilindi.

Quyida Oliy ta’lim muassasasi talabalarining jismoniy tayyorgarligining tahliliy ma’lumotlari keltirilgan,

talabalarning yengil atletika to‘garagi mashg‘ulotlariga bo‘lgan motivatsiyasi ko‘rsatkichlarini testlar orqali aniqlanib jadvallarda taqdim etilgan.

Jismoniy tayyorgarlik darajalarining rivojlanganlik ko‘rsatkichlari yuqori talabalarning jismoniy tarbiya darslarida hamda yengil atletika to‘garaklarida qay darajada shakllanib kelayotganligini aniqlash uchun mazkur tadqiqot amaliyotimiz joriy etildi. Ushbu tadqiqot davomida talabalarning jismoniy tayyorgarligi va jismoniy sifat ko‘rsatkichlari, jumladan chidamlilik sifatining rivojlanish ko‘rsatkichlari aniqlandi va bu amaliyotni bajarish uchun 18-19 yoshli talabalar tanlab olindi. Talabalarning chidamlilik sifatlarini rivojlantirish uchun dars mashg‘ulotlari dasturidan kelib chiqqan holda o‘quvchilar sport mahoratini oshirishni tadqiq qilishga harakat qildik. O‘tkazilgan tadqiqotda muntazam ravishda dars jarayonlariga qatnashadigan va jismoniy holatida nuqsoni bo‘lmagan talabalar ishtirok etishdi va nazorat sinovimiz 6 daqiqa davomida yugurishdan iborat bo‘ldi.

Amalga oshirilgan tadqiqot ishimiz boshida 18 yoshli talabalar (1-kurs) orasida chidamlilik jismoniy sifati ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun 6 daqiqa davomida yugurish nazorat sinovi belgilandi va o‘g‘il bolalar orasida necha metr masofani bosib o‘tishlari aniqlanib, baholash shkalasiga binoan “2”, “3”, “4” va “5” ballar bilan qayd etib borildi. Olingan natijalar quyidagicha: 18 yoshli o‘g‘il bolalar orasida chidamlilik jismoniy sifati ko‘rsatkichlari 34,80% da “qoniqarsiz” past darajada ekanligi aniqlandi va baholash shkalasiga ko‘ra “2” ball bilan belgilandi.

Tadqiqot davomida shug‘ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishini aniqlashdan asosiy maqsad ularga tadqiqot davomida berilgan yuklamalarning salbiy ta’siri bo‘lmaganligini aniqlashdir. Biz tomonimizdan olib borilgan mashg‘ulotlarda berilgan jismoniy yuklamalar ko‘plab olimlar tomonidan aynan shu yoshdagi bolalar uchun tavsiya qilingan mashqlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning bolalar organizmiga salbiy ta’sir qilmaganini aniqlash maqsadida jismoniy rivojlanishni baholovchi keng tarqalgan usuldan foydalandik, ya’ni bolalarning tana uzunligi (bo‘yi), tana og‘irligi va ko‘krak qafasi aylanasi (somotometrik belgilar) o‘lchandi. Natijalarning o‘zgarishini bilish maqsadida tadqiqotdan oldingi va keyingi natijalar solishtirildi (1-jadval).

Biz tadqiqot olib borgan tajriba guruhida shug‘ullanuvchi bolalarning jismoniy rivojlanishi nazorat guruhinikiga qaraganda 1,2% ga, yoki umumiy tadqiqot davomida 4,6% ga yaxshilangani kuzatildi. Bu esa tadqiqot davomida shug‘ullanuvchilarga berilgan jismoniy yuklamalar ular organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaganini, aksincha tajriba guruhi shug‘ullanuvchilari nazorat guruhida shug‘ullangan bolalarga nisbatan yaxshi jismoniy rivojlanganini ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiya bo‘yicha davlat standartlari asosida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi aniqlandi.


1-jadval

Nazorat va tajriba guruhlari sinaluvchilarining jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini pedagogik tajriba davomida o‘zgarish dinamikasi (n=60)

№	Jismoniy ko‘rsatkichlar	Tadqiqot boshida			Tadqiqot oxirida			t	P
		$\overline{X}$	σ	V, %	$\overline{X}$	σ	V, %		
Nazorat guruhi									
1	Tana uzunligi, sm	165,44	10,54	7,56	168,93	10,21	7,14	2,26	<0,05
2	Tana og‘irligi, kg	63,48	3,54	10,57	64,38	3,49	10,15	1,72	>0,05
3	Ko‘krak qafasi aylanasi, sm	74,76	7,49	11,57	77,12	7,48	11,14	2,12	<0,05
4	O‘ng qo‘l panja kuchi, kg	18,24	2,29	12,55	18,94	2,29	12,09	2,05	<0,05
5	Chap qo‘l panja kuchi, kg	16,27	2,21	13,58	16,97	2,22	13,11	2,12	<0,05
Tajriba guruhi									
1	Tana uzunligi, sm	166,19	11,07	7,84	172,69	10,44	7,12	3,43	<0,001
2	Tana og‘irligi, kg	63,71	3,70	10,98	66,47	3,59	10,12	3,24	<0,01
3	Ko‘krak qafasi aylanasi, sm	75,49	7,81	11,93	80,21	7,82	11,14	4,05	<0,001

4	O‘ng qo‘l panja kuchi, kg	18,62	2,41	12,94	20,08	2,44	12,15	4,04	<0,001
5	Chap qo‘l panja kuchi, kg	16,19	2,26	13,96	17,56	2,31	13,14	4,02	<0,001

Nazorat va tajriba guruhlari o‘quvchilarining jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini pedagogik tajriba davomida o‘zgarish dinamikasi quyidagicha kuzatildi. Nazorat guruhida tana uzunligi tadqiqot boshida 165,44 sm, tadqiqot oxirida 168,93 sm.ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 166,19 sm kuzatilgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin 172,69 sm kuzatildi. Tana og‘irligi nazorat guruhida 63,48 kg natija ko‘rsatilgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin 64,38 kg natija qayd etildi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha tajriba guruhida 63,71 kg va tadqiqot so‘ngida 66,47 kg.ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘krak qafasi aylanasi nazorat guruhida 74,76 sm kuzatilgan bo‘lsa, tadqiqot so‘ngida 77,12 sm.ni tashkil etdi. Tajriba guruhida tadqiqot oldi 75,49 sm tashkil etdi va tadqiqot so‘ngida 80,21 sm.ga o‘sdi.




1-rasm. Nazorat va tajriba guruhlari sinaluvchilarining jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini pedagogik tajriba davomida o‘zgarish dinamikasining diagramma ko‘rinishi

Biz tadqiqot oldi va tadqiqot oxirida pedagogik test sinovlarini o‘tkazdik. Unga ko‘ra tadqiqot oldi olingan natijalarga asoslanib biz tomonimizdan o‘tgan oy davomida kuzgi mavsumida mashg‘ulot mikrosikli ishlab chiqildi shu mikrosikil yordamida biz tomonimizdan to‘garagimiz shug‘ulanuvchilarni bilan mashg‘ulot olib borildi. Tadqiqot so‘ngida ishlab chiqilgan tayyorgarlik mikrosiklini samaradorligini aniqlashga e’tibor qaratdik. Olingan tadqiqot natijalarini quyidagi jadvalda berilgan.

2-jadval

Tajriba va nazorat tadqiqot guruhlari o‘quvchilarini tadqiqot yakunida jismoniy tayyorgarligining dinamikasi (n=60)

Testlar	Guruh	Tadqiqotdan oldin		Tadqiqotdan keyin		t	P
		$X \pm \sigma$	V%	$X \pm \sigma$	V%		
60 m, s	TG	9,49±1,52	15,99	8,65±1,31	15,14	3,99	<0,001
	NG	9,64±1,50	15,59	9,19±1,39	15,13	2,09	<0,05
100 m, s	TG	15,79±2,68	16,97	14,55±2,35	16,15	3,30	<0,01
	NG	15,87±2,64	16,60	15,21±2,45	16,11	1,74	>0,05
400 m, s	TG	73,81±11,06	14,98	67,63±9,54	14,11	4,01	<0,001
	NG	74,37±10,85	14,59	71,17±10,05	14,12	2,05	<0,05
1000 m, s	TG	227,96±36,45	15,99	209,53±30,88	14,74	3,66	<0,001
	NG	226,73±35,31	15,57	217,98±32,94	15,11	1,72	>0,05
Joydan turib uzunlikka sakrash, sm	TG	170,89±29,02	16,98	188,81±30,43	16,12	4,04	<0,001
	NG	172,60±28,63	16,59	181,36±29,26	16,13	2,03	<0,05



2-rasm. Tajriba va nazorat tadqiqot guruhlari o'quvchilarini tadqiqot yakunida jismoniy tayyorgarligining dinamikasining diagramma ko'rinishi.

Tadqiqotdan so'ng yuqoridagi ko'rsatkichlar bo'yicha tajriba guruhi 60 m masofada 8,65±1,31 soniyaga yaxshilanganini, nazorat guruhida esa 9,19±1,39 soniyaga o'zgarganini, 100 m masofaga esa tajriba guruhida 14,55±2,35 soniyaga nazorat guruhi sinaluvchilari esa 15,21±2,45 soniyaga, 400 m masofaga esa tajriba guruhi yuguruvchilari 67,63±9,54 soniyaga yaxshilangan bo'lsa, nazorat guruhi sportchilarida 71,17±10,05 soniyaga o'sganligni ko'rishimiz mumkin. 1000 m masofaga yugurish bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilari ko'rsatgan natija 209,53±30,88 soniyaga yaxshilangan bo'lsa, 217,98±32,94 soniyaga yetganligini ko'ramiz. Joydan turib sakrash testi bo'yicha tajriba guruhida 188,81±30,43 sm natijaga yaxshilangan bo'lsa, nazorat guruhida esa 181,36±29,26 sm.ni tashkil etdi. Ushbu jismoniy tayyorgarligi va rivojlanganligi bo'yicha olingan natijalardan ko'rishimiz mumkinki, nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi sinaluvchilarining natijalari farqli o'sganligi aniqlandi.

Xulosa.

Oliy ta'lim muassasalari yengil atletika to'graklarida shug'ullanuvchi talabalarning tayyorgarligi turli tomonlarining rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi. Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishning ishlab chiqilgan uslubiyati samaradorligi har yillik ishonchli katta o'sish ko'rsatkichlari va tajriba guruhlari o'quvchilarida harakat sifatlari rivojlanishining yuqori darajadagi yakuniy ko'rsatkichlari bilan tasdiqlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

2. Baratov A.M. To'siqlar osha yuguruvchi sportchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi. Chirchiq, 2023. – 138 b.

3. Ekblom, B. Physical training in normal boys in adolescence / B. Ekblom // ActaPaediatr. - 1970.-V. 217.-Pg. 6071.

4. Qudratov R.Q. Yengil atletika / darslik. Noshir nashriyoti. -T.: 2012. -367 b

5. Rafiyev H.T. Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi / o'quv qo'llanma. T.: 2014. - 432 b.

6. Абдуллаев М. Ж. Таълим тизимида енгил атлетика бўйича тўгарак машғулотларини ташкил қилишнинг илмий – педагогик асослари (умумтаълим мактаблари мисолида). DSc фан докторлик диссертацияси. Ch.:2023. – 244 б.

7. Олимов М.С. Югуриш турларида енгил атлетикачи талабаларни тайёрлашнинг илмий-педагогик асослари // DSc фан докторлик диссертацияси. Ch.:2023. – 265 б.

8. Рузамухамедов К.Ф. Юқори малакали баландликка сакровчилар жисмоний тайёргарлигини такомиллаштириш. PhD диссертацияси. Ч.: 2022. – 103 с.

9. Саломов Р.С. Спорт машғулотининг назарий асослари. /Ўқув қўлланма /Т: - 2005. - 261 б.

10. Солиев И.Р. Қисқа масофага югурувчиларни йиллик тайёргарлик машғулотларини режалаштириш. PhD диссертацияси. Чирчиқ, 2020. – Б. 148 б.

11. Сухарева С.М. Формирование физической активности школьников с учетом типовых особенностей ее структуры средствами легкоатлетических упражнений. Дисс.канд. пед. наук. Санкт-Петербург, 2015.26 с.

12. Тўхтабоев Н.Т. Кўп йиллик тайёргарлик босқичларида баландликка сакровчи қизларнинг ўқув-машғулот жараёнларини бошқариш // DSc фан докторлик диссертацияси. Ch.:2023. – 261 б.

13. Усмонходжаев Т. С., Умаров Д. Х. Спорт педагогик маҳоратни ошириш. ИТА-ПРЕСС нашриёти. Т.: 2018. - 270 b.

14. Шакиржанова К.Т. Жисмоний тарбия жисмоний мослашиши спортчиларнинг машқланганлик даражасининг мезони сифатида / услубий қўлланма. Т.: 2007. - 36 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mahkamov Maxammadjon Dadajonovich
Andijon davlat pedagogika instituti

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI MUSTAQIL TA'LIM SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya: *Maqola oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'limi va uning tashkil etilishidagi muhim jihatlarga bag'ishlangan. Mustaqil ta'limning asosiy vazifalari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va o'qituvchining roli haqida so'z yuritiladi. Mustaqil ta'lim talabalarning axborot-resurs markazlari va boshqa manbalar yordamida ta'lim olishiga ko'maklashadi, bu esa o'quv jarayonini yanada samarali va foydali qiladi. O'qituvchining yordam berishi, talabalarni motivatsiya qilish va mustaqil ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishining ahamiyati ta'kidlanadi. Maqola shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unligi va uning ta'limda yangi istiqbollarni yaratishdagi roli haqida ham to'xtalib o'tadi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishi, o'qituvchining roli, axborot-resurs markazlari, motivatsiya, o'qitish metodikasi, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim jarayoni, ta'limda innovatsiyalar, oliy ta'lim.*

Makhkamov Makhammadjan Dadajonovich
Andijan State Pedagogical Institute

MODERN DIRECTIONS FOR IMPROVING INDEPENDENT FORMS OF EDUCATION THROUGH THE INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation: *the article is devoted to the Independent Education of students in the higher education system and important aspects in its organization. The main tasks of Independent Education, its role in the educational process and the role of the teacher are discussed. Independent Education promotes the education of students with the help of information resource centers and other resources, which makes the learning process more efficient and useful. The importance of the teacher's assistance, motivation of students and active participation in the organization of independent work is emphasized. The article also talks about the harmony of the independent educational process with modern technologies and its role in creating new perspectives in education.*

Keywords: *Independent Education, Student Self-Development, teacher's role, Information Resource Centers, motivation, teaching methodology, modern technologies, educational process, innovation in Education, Higher Education.*

Махкамов Махаммаджон Дададжонович
Андижанский государственный педагогический институт

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФОРМ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ЗА СЧЕТ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: *статья посвящена самостоятельному обучению студентов в системе высшего образования и важным аспектам его организации. Речь идет об основных задачах самостоятельного обучения, его роли в образовательном процессе и роли педагога. Самостоятельное обучение способствует обучению студентов с помощью информационно-ресурсных центров и других ресурсов, что делает процесс обучения более эффективным и полезным. Подчеркивается важность оказания педагогом помощи, мотивации учащихся и активного участия в организации самостоятельной работы. В статье также будет рассказано о сочетании самостоятельного образовательного процесса с современными технологиями и его роли в создании новых перспектив в образовании.*

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, саморазвитие учащихся, роль учителя, информационно-ресурсные центры, мотивация, методика обучения, современные технологии, образовательный процесс, инновации в образовании, высшее образование.*

Zamonaviy ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan texnologiyalar va o'zgargan talablar sharoitida yangi yondashuvlar, metodlar va shakllarni qamrab olishni talab qilmoqda. Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'limi katta ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchilar uchun pedagogik vazifalarni samarali bajarishga, talabalarga esa

o‘z bilimlarini chuqurroq egallash va mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Mustaqil ta'limda raqamli resurslardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali va ko‘p imkoniyatlarga ega qilishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar talabalar uchun turli xil o‘quv materiallari va vositalarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalarni samarali foydalanishning ba'zi muammolari va cheklovlari ham mavjud. Ushbu bo‘limda mustaqil ta'limda raqamli resurslardan foydalanishning asosiy imkoniyatlari va ularning cheklovlari haqida so‘z yuritamiz. Birinchidan, raqamli resurslar talabalarga turli xil materiallarni bir joyda to‘plab, ulardan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Masalan, onlayn ma'ruzalar, elektron kitoblar, ilmiy maqolalar, videodarslar va interaktiv o‘quv dasturlari orqali talabalar o‘zlarini qiziqtirgan yoki o‘rgatish zarur bo‘lgan mavzularda bilim olishlari mumkin. Bunday resurslar talabalar uchun mustaqil ta'limni yengillashtiradi, chunki ular o‘qish materiallarini faqatgina darsliklarga bog‘lanmasdan, turli platformalardan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ikkinchidan, raqamli resurslar talabalar uchun o‘z ta'lim jarayonini boshqarish va o‘z vaqtida o‘qish imkoniyatini yaratadi. Onlayn platformalar yordamida talabalar o‘z vaqtlarini rejalashtirish, mavzularni o‘rganish va mashqlarni bajarish orqali o‘z ta'lim jarayonini optimallashtirishi mumkin. Bu o‘quvchilarni faqatgina o‘qituvchining vaqt belgilagan cheklovlari bilan cheklamasdan, o‘z vaqtida va o‘z ritmida o‘qish imkoniyatini yaratadi. Raqamli resurslardan foydalanishda ba'zi cheklovlar ham mavjud. Birinchi navbatda, raqamli platformalarga kirish imkoniyati barcha talabalarga bir xil darajada mavjud emas. Ba'zi talabalar internetga ulanishda yoki zarur kompyuter uskunalariga ega bo‘lishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bu turli ijtimoiy guruhlar va mintaqalar orasidagi ta'limda tenglikni ta'minlashda muammolarni keltirib chiqaradi. Natijada, ayrim talabalar uchun mustaqil ta'lim jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanishning cheklovlari yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi talabalarda raqamli resurslardan foydalanish bilan bog‘liq texnik ko‘nikmalar yetishmaydi. Raqamli vositalarni muvaffaqiyatli foydalanish uchun talabalar ma'lum darajadagi texnik savodxonlikka ega bo‘lishlari kerak. Agar talaba texnik vositalardan foydalanishda qiynalsa, u holda raqamli resurslardan foydalangan holda samarali mustaqil ta'lim olish qiyinlashishi mumkin. O‘qituvchilar talabalarga raqamli resurslardan qanday foydalanishni ko‘rsatib berishlari, kerakli vositalar va platformalarga kirishni osonlashtirishlari zarur. Masalan, o‘qituvchi talabalarni onlayn kutubxonalarga, interaktiv ta'lim platformalariga yoki ilmiy jurnallarga qanday kirishni o‘rgatishi va ularni tegishli manbalar bilan ta'minlashi mumkin. Bu o‘z-o‘zini o‘rgatishni yanada samarali va engillashtiradi.

Shuningdek, raqamli resurslarning samarali ishlatilishi uchun talabalar o‘zlariga motivatsiya yaratishlari va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Mustaqil ta'limda o‘qish davomida talabalar ko‘pincha hech kimdan yordam olmadi, o‘zlarining izlanishlariga asoslanib o‘rganishlari kerak. Bu holatda, talabalar faqatgina texnik vositalardan foydalanishni o‘rganish emas, balki o‘z vaqtlarini samarali boshqarish va o‘quv materiallariga nisbatan qat'iy yondashishlari ham kerak. Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'limda raqamli resurslardan foydalanish talabalarga keng imkoniyatlar yaratadi, lekin bu jarayonda ba'zi cheklovlar va qiyinchiliklar ham mavjud. O‘qituvchilar va ta'lim muassasalarining vazifasi talabalarni raqamli resurslardan samarali foydalanishga o‘rgatish, bu vositalarning imkoniyatlarini kengaytirish va ular uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Bu orqali talabalar o‘z ta'lim jarayonini yaxshilash va mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda katta yutuqlarga erishishlari mumkin.

Mustaqil ta'lim jarayonida o‘qituvchining roli muhim va alohida ahamiyatga ega. Garchi talabalar mustaqil ravishda ta'lim olishsa-da, o‘qituvchining yordam va qo‘llab-quvvatlashi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarurdir. O‘qituvchi mustaqil ta'limda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni yetkazib beruvchi shaxs, balki talabalarga motivatsiya beruvchi, ularni qo‘llab-quvvatlovchi va o‘quv faoliyatida yo‘naltiruvchi rahbar sifatida ham faoliyat yuritadi. Ushbu bo‘limda mustaqil ta'limda o‘qituvchining roli va uning talabalarga bo‘lgan ta'siri haqida so‘z yuritamiz.

Birinchidan, o‘qituvchi talabalar uchun mustaqil ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etishda ko‘rsatmalar va yordamlar berishi kerak. Talabalar, ayniqsa yangi o‘quv dasturlari va yangi mavzularni o‘rganishda yo‘naltirish va tushuntirishga muhtoj bo‘lishadi. O‘qituvchi talabalarga ma'lum bir mavzuni qanday o‘rganish, qaysi resurslardan foydalanish va qanday tartibda ishlash kerakligi bo‘yicha aniq yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatishi lozim. Bu talabalar uchun mavzuni chuqurroq va to‘liq o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi talabalarni mavjud o‘quv materiallaridan eng samarali foydalanishga o‘rgatishi kerak.

Ikkinchidan, o‘qituvchining motivatsiya yaratishdagi roli juda muhim. Mustaqil ta'limda talabalar ko‘pincha o‘zlarini yakka o‘zi his qilishadi va motivatsiya yo‘qligi ularni o‘qishga nisbatan qiziqishdan mahrum qilishi mumkin. O‘qituvchining roli talabalarni davom etishga undash, ularga ilhom berish va o‘qishga qiziqishini oshirishda ifodalanadi. Motivatsiya talabalarni faollikka undaydi, o‘zlariga nisbatan ishonch hosil qilishlariga yordam beradi va o‘z ta'lim jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishlarini ta'minlaydi. O‘qituvchi talabalar uchun turli xil baholash tizimlarini ishlab chiqib, o‘zlarining ishlarini yaxshilashga undash imkoniyatlarini yaratishi kerak.

Shuningdek, o‘qituvchining mustaqil ta'limda yordam berishi uchun turli xil texnik va metodik yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin. Masalan, onlayn platformalarda talabalar bilan muntazam aloqada bo‘lish, o‘z-o‘zini baholash va sinovlardan o‘tish uchun vositalar taqdim etish, hamda seminarlar, ishlanmalar va boshqalar orqali amaliy yordam ko‘rsatish talabalar uchun juda foydali bo‘ladi. Bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samarali muloqotni ta'minlab, talabalar mustaqil ravishda bilim olish jarayonini yanada yaxshilaydi.

Bundan tashqari, o‘qituvchi talabalarga individual yondashish orqali ularning ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim jarayonini tashkil etishi kerak. Ba'zi talabalar o‘z vaqtida materiallarni o‘zlashtirishi mumkin, boshqalari esa qo‘shimcha yordamga ehtiyoj sezishadi. O‘qituvchining vazifasi har bir talabaga uning imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos tarzda yondashishdir. Shu bilan birga, o‘qituvchilar o‘z talabalari uchun individual rejalashtirilgan qo‘llanmalar va tavsiyalarni taqdim etishlari kerak. Bunday shaxsiy yondashuv talabalarni yanada muvaffaqiyatliroq o‘qishga yordam beradi.

Mustaqil ta'limda o‘qituvchining roli faqatgina bilim berishdan iborat emas, balki talabalarni o‘z o‘rganishlariga va ijodiy fikrlashga undash, ularga motivatsiya berish va muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy ko‘nikmalarni o‘rgatishda ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchining mustaqil ta'limda faolligi talabalar uchun ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va ularni muvaffaqiyatga erishishga ilhomlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'limda o‘qituvchining roli nafaqat yo‘naltirish va tushuntirish, balki motivatsiya berish, yordam ko‘rsatish va talabalar bilan doimiy aloqada bo‘lish orqali samarali ta'limni tashkil etishga qaratilgan. O‘qituvchining aktiv roli mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga, ta'limni o‘zlashtirishiga va o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.A.Qo‘ysinov, N.A.Muslimov. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. — T.: “Fan”, 2009. — 92 b.

2. O.A.Qo‘ysinov. Kasb ta’limi yo‘nalishi bakalavr o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. — T.: TDPU, 2008. — 160 b.

3. Sh.I.Yo‘ldashev. Talabalarning mustaqil ta’limining zamonaviy o‘quv jarayonida ahamiyati va o‘rni // Uslubiy qo‘llanma. — T.: O‘zMU, 2022. — 41 b. 4. D.R.Karimova. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim // Uslubiy qo‘llanma. — Toshkent: OOO “Complex Print”, 2021. 126 bet.

4. N.O.Jo‘rayeva. Ta’lim jarayonida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ayrim ko‘rsatmalar//Ta’lim va innovasion tadqiqotlar. 2021.№3. — 172 b.

5. G.M.Musaxanova. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2020. №6. — 222-224 b.

6. R.R.Xusainov. Oliy ta’limda fanlarni o‘qitish sifatini oshirishda mustaqil ta’limning roli // Zamonaviy ta’lim. 2016. №4. — 25-32 b.

7. G.N.Ibragimova. Oliy ta’lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish // Zamonaviy ta’lim. 2017.№4. — B. 30-35.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Shirinova Dilshoda Ortiq qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
d.shirinova@cspi.uz

FIZIK VA KIYOVIY HODISALAR MAVZUSINI O‘QITISHDA BARQAROR TARAQQIYOT TA’LIMI HAMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: *quyida keltirilgan maqolada o‘quvchilarga fizik va kimyoviy hodisalar mavzusini o‘qitishda barqaror taraqqiyot ta’limi hamda interfaol metodlardan foydalangan holatda darsning jimjimadorligini yanada oshirish haqida fikr yuritganmiz.*

Kalit so‘zlar: *fizik hodisalar, agregat holatlar, tarkibning o‘zgarishi, kimyoviy hodisalar, fizik xossalari, kimyoviy xossalari.*

Shirinova Dilshoda Ortik kizi
Teacher of Chirchik State Pedagogical University
d.shirinova@cspi.uz

SUSTAINABLE DEVELOPMENT EDUCATION AND THE USE OF INTERACTIVE TECHNIQUES IN TEACHING THE TOPIC OF PHYSICAL AND VISUAL PHENOMENA

Abstract: *in the article presented below, we thought about the education of sustainable development in the teaching of physical and chemical phenomena to students, as well as the use of interactive methods to further increase the silence of the lesson.*

Key words*: physical phenomena, aggregate states, composition changes, chemical phenomena, physical properties, chemical properties.*

Ширинова ДилшодаОртик кизи
Преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета
d.shirinova@cspi.uz

ОБРАЗОВАНИЕ В ОБЛАСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ ТЕМАМ ФИЗИЧЕСКИХ И ПОВЕДЕНЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ

Аннотация: *в представленной ниже статье мы задумались об образовании устойчивого развития при преподавании учащимся физических и химических явлений, а также использовании интерактивных методов для дальнейшего повышения тишины урока.*

Ключевые слова: *физические явления, агрегатные состояния, изменение состава, химические явления, физические свойства, химические свойства.*

Kirish.

2025 – yilni yurtboshimiz “Atrof - muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot” yili deb e`lon qilindi. Bugun nafaqat O‘zbekiston, balki dunyodagi ko‘plab mamlakatlar iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilayapti. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq erroziyasi, cho‘llanish, qazilma yoqilg‘ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog‘lig‘iga zarar yetkazmoqda. Bularni oldini olishda barqaror ta’limning o‘rni muhi ahamiyatga ega. Shularni inobatga olib quyida ta’limda baraqaror taraqqiyot tushunchalarini ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Odatda faqat moddalarning agregat holati o‘zgarishi bilan boradigan hodisalarga fizik hodisalar deyiladi. Berilgan moddalardan yangi moddalar hosil bo‘ladigan hodisalar kimyoviy hodisalar deyiladi. Kimyoviy hodisalarning belgilari: gaz ajralishi, cho‘kma tushishi, rang o‘zgarishi; hid ajralishi, issiqlik ajralishi, issiqlik yutilishi.

Moddalar turli o‘zgarishlarga uchraydi: temir zanglaydi, suv qaynaydi, bug‘lanadi, gaz yonadi, sut achib qatiqqa aylanadi. Fanda bu o‘zgarishlar fizik va kimyoviy hodisalarga ajratiladi.

Tabiat doimo o‘zgarishda bo‘lib, har bir o‘zgarish bu hodisadir. Yerning harakati, insonning harakatlanishi, muzning erishi, suvning qaynashi va bug‘lanishi,

gugurtning yonishi, qandning suvda erishi, metallning kislotada erishi – bular hodisalar. Muz qizdirilsa, suvga aylanadi. Suv qizdirilsa, bug‘ga aylanadi. Bug‘ sovitilsa suvga, suv sovitilsa muzga aylanadi. Bular fizik hodisalardir. Muz, suv, bug‘ – bular har xil moddalar emas, balki bir modda – suvning turli agregat holatlaridir. Bu hodisalarda suvning agregat holati o‘zgaradi, lekin suv modda sifatida o‘zgarishga uchramaydi.

Agar doskaga yozayotgan bo‘r bo‘lagi kukunga aylantirilsa, jism shakli o‘zgaradi, lekin bo‘r modda sifatida o‘zgarmaydi. Bu ham yog‘ochning sinishi yoki arralanishi kabi fizik hodisadir. Fizik hodisalarda modda yoki jismlarning alohida xossalari: moddaning agregat holati, shakli, hajmi, joylashish holati o‘zgaradi. Fizik hodisalarda yangi moddalar hosil bo‘lmaydi.

Qoshiqchada quruq qandni qizdiramiz. Qand – oq rangli, qattiq, hidsiz, shirin ta’mli modda. Dastlab qand suyuqlanadi. Bu fizik hodisa. So‘ngra rangini o‘zgartiradi. Yoqimsiz kuyindi hidi paydo bo‘ladi. Qanddan qora rangli qoldiq – yangi modda hosil bo‘ladi. Bu modda hidsiz, ta’msiz, qizdirilganda qandga o‘xshab suyuqlanmaydigan ko‘mirdir. Endi qand yo‘q, uning o‘rniga yangi xossalarga ega bo‘lgan yangi modda hosil bo‘ldi. Bu kimyoviy o‘zgarish – kimyoviy hodisa ro‘y berganidan darak beradi.

Siz tabiatda yoki kundalik hayotingizda ko‘rgan, ya’ni metallarning zanglashi, sutning achishi, qatiqning ivishi, bijg‘ish jarayonlari ham kimyoviy hodisalardir. Bir moddaning boshqa modda yoki moddalarga aylanish hodisa - si – kimyo viy o‘zgarishlar yoki kimyoviy hodisa deb ataladi. Kimyoviy hodisalarni kimyoviy reaksiyalar deb ataymiz. Magniy yonganda issiqlik, nur chiqadi va oq rangli qattiq kukun yangi modda hosil bo‘ladi. Oltingugurt yonganda issiqlik, nur chiqadi va yoqimsiz hidli gaz – yangi modda hosil bo‘ladi. Bular kimyoviy hodi - salarga misol bo‘ladi.

Kimyoviy hodisalarni ko‘pincha quyidagi o‘zgarishlardan bilib olish mumkin: 1) moddaning rangi, hidi o‘zgarishi; 2) suvda erimaydigan cho‘kma hosil bo‘lishi; 3) gaz hosil bo‘lishi; 4) Issiqlik chiqishi yoki yutilishi. Moddaning boshqa modda bilan o‘zaro ta’sirlashuvi uning kimyoviy xossasi deb ataladi. Moddani tavsiflovchi kimyoviy va fizik xossalari birgalikda modda sifatini tashkil etadi. Kimyoviy o‘zgarishlarda modda sifati o‘zgaradi, yangi moddalar hosil bo‘ladi.

Muhokama.

Kimyo darsining jozibadorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu mavzuga **“beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, …) ortiqcha” metodidan foydalanib o‘tishni tavsiya qilgan bo‘lardim.** O‘quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llash quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

— o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

— hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan 4 ta (5 ta, 6 ta, …) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

— o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

— o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘likni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidasigi mantiqiy bog‘likni ko‘rsata va asoslash olish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Fizik –kimyoviy hodisalar mavzusini o‘tishda quyidagichga foydalanish mumkin.

1.Sutning achishi, sho‘rvaning pishishi, mis simning qorayishi, shamning erishi

2.Bo‘rning maydalanishi, shamning yonishi, shakarning suvda erishi, suvning muzlashi

3.Temirning zanglanishi, suvning qaynashi, xamirning achishi, kartoshkaning pishishi

4.Shamning erishi, shamning yonishi, suvning muzlashi, suvning qaynash

Natija.

Kimyoviy reaktsiyalarni o‘rgatishda o‘quvchilarga zararli chiqindilar, chiqindilardan foydalanish, xavfli moddalarning atrof-muhitga ta'siri va ularni boshqarish haqida ma'lumotlar beriladi. Masalan, **plastmassaning parchalanishi**, **katta ishlab chiqarish jarayonlarida chiqadigan kimyoviy chiqindilar** haqida gapirish orqali o‘quvchilarda ekologik ongni rivojlantirish mumkin. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarda barqaror iste'mol va ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlashga qiziqish uyg‘otadi.

Xulosa.

Kimyo fanida **fizik va kimyoviy hodisalar** mavzusini o‘qitish, nafaqat ilmiy bilimlarni berish, balki o‘quvchilarda barqaror taraqqiyotning ahamiyatini tushuntirish uchun juda yaxshi imkoniyatdir. O‘quvchilarni ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqishga, resurslarni tejashga va atrof-muhitni himoya qilishga o‘rgatish, ularda mas'uliyatli yondashuvni shakllantiradi va barqaror rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shirinova, D. O. Q., & Eshchanov, R. A. (2021). Osmos va teskari osmos hodisalarini maktabda o ‘qitishda klaster metodi. *Academic research in educational sciences*, *2*(12), 986-991.

2. Shirinova, D. O. Q. (2021). Kimyoni o ‘qitishda talabalaning ekologik intellektual qobiliyatini shakllantirish. *Academic research in educational sciences*, *2*(9), 571-574.

3. Shirinova, D. O. (2022). Davriy jadval mavzusini oqitishda barqaror ta ‘limtushunchasini tadbiq qilishning klaster usuli (yordamchi dasturli vositalardan foydalanish). *Netherlands intellectual education technological solutions and innovative digital tools*, *5*(4), 402-406.

4. Eshchanov, R. A., Shirinova, D. O. (2022). Kimyo darslarida mineral o‘g‘itlar mavzusini o‘qitishda barqaror taraqqiyot ta’limi tushunchalarini rivojlantirish. Pedagogik mahorat, 2(2), 244-248.

5. Eshchanov, R. A., & Shirinova, D. O. (2022). Uglerod mavzusini oqitishda ekologik muommolar va barqaror taraqqiyot ta’limi. *Konferensiya*, *1*(2), 464-468.

6. Shirinova, D. O. (2022). Kimyo fanidan suv mavzusini oqitishda barqaror taraqqiyot ta’limi tushunchalarining tatbiqi. *Образование и наука в XXI веке*, *2*(25), 666-670.

7. Shirinova, D. (2024). KIMYOVIY ELEMENT. KIMYOVIY BELGI MAVZUSINI OQITISHDA BARQAROR TARAQQIYOT TUSHUNCHALARI. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ*, (56-3).

8. Shirinova, D., & Gulmurodova, N. (2022). BARQAROR TARAQQIYOT UCHUN TA’LIMDA BIOGAZ MAVZUSI. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(6), 153-157.

9. Shirinova, D. O. Q. (2022). BARQAROR TARAQQIYOT VA BARQAROR TA’LIMDA KIMYO FANIDAN MASALALAR YECHISH AHAMIYATI VA ROLI. *Academic research in educational sciences*, *3*(11), 520-525.

10. Shirinova, D. O. (2022). Kremniy mavzusini oqitishda barqaror taraqqiyot ta’limining ahamiyati. *Energetika sohasini rivojlantirish*, *2*(4), 53-56.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna
FarDU o‘qituvchisi, f.f.d (DSc), dotsent
Abdusamadiy Gulnoza Abiljon qizi
FarDU maktabgacha ta’lim mutaxassisligi
1-kurs magistranti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ADABIYOT ORQALI ESTETIK VA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy adabiyot orqali estetik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim o‘rni, kompetensiyani oshirish bo‘yicha tavsiyalar va bolalar uchun samaradorligi yoritilgan. Pedagogik jarayonda badiiy asarlardan foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolaning tasavvuri, tafakkuri, estetik didi va nutqi qanday rivojlanishi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yosh, badiiy adabiyot, nutqiy rivojlanish, ijodiy tafakkur, estetika, kompetensiya, dramatizatsiya.*

Yuldasheva Dilafruz Makhamadaliyevna
FarSU teacher, f.f.d (DSc), associate professor
Abdusamadi Gulnoza Abiljan kizi
FarSU Pre-School Specialty
1st year graduate

WAYS TO INCREASE AESTHETIC AND SPEECH COMPETENCIES OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH FICTION

Annotation: *the article covers an important role in the formation of aesthetic and speech competencies of preschool children through fiction, recommendations for increasing competence and effectiveness for children. Through the use of works of art in the pedagogical process, it is thought about how the imagination, thinking, aesthetic taste and speech of a preschool child develop.*

Keywords: *preschool age, fiction, colloquial development, creative thinking, aesthetics, competence, dramatization.*

Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна
Учитель ФарГУ, д.ф.н (DSc), доцент
Абдусамади Гюльноза Абилджан кизи
Специальность дошкольного образования ФарГУ
Магистрант 1 курса

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация: *В статье освещена важная роль формирования эстетических и речевых компетенций дошкольников через художественную литературу, даны рекомендации по повышению компетентности и ее эффективности для детей. Посредством использования художественных произведений в педагогическом процессе осуществляется размышление о том, как развивается воображение, мышление, эстетический вкус и речь дошкольника.*

Ключевые слова: *дошкольный возраст, художественная литература, речевое развитие, творческое мышление, эстетика, компетентность, драматизация.*

Hozirgi kunda zamonaviy ta’lim jarayoni insonning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorining 3-bobida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarining birida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish

uchun sharoitlar yaratish kabi vazifalar ham belgilab berilgan.

Darhaqiqat, nozik didli bo‘lish, go‘zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy va nutqiy madaniyat, so‘zlarni chiroyli qo‘llay olish kabi fazilatlarni rivojlantirishda badiiy adabiyot asosiy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Badiiy adabiyot bolaning dunyoqarashini kengaytirish, uni axloqiy-me’yorlar bilan tanishtirish, tasavvurini, tafakkurini boyitishda va rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar badiiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida turli hil holatlar kuzatilishi mumkun. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy asarni o‘qish jarayonida qahramonlarga qayg‘urish va ularga hamdard bo‘lish, shu tufayli bevosita tashqi ifodalangan emotsiyaning kamayishi;

badiiy asar bolaning shaxsiy hayoti emas, balki ko‘proq ertakka o‘xshash bo‘lgani uchun ham uni o‘zgartirishga urunishi;

badiiy asarlar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni aniqlashi;

asar qahramoniga xos xislatlarni muhokama qilib, uning yaxshi va yomon jihatlarini tahlil qila olish kabilardir.

Badiiy adabiyot bevosita badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarni yaxshi yozish uchun badiiy uslubga yaxshi e’tibor berish kerak. Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” da tilni “ko‘ngil xazinasining qulfi” , deya ta’riflaydi. Buyuk shoir kishilarni qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan so‘zlashga chaqiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy asarlar qiziqarli, o‘ziga jalb etuvchi, ravon tilda va albatta mazmundor bo‘lishi muhimdir. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar bolalarning nutqiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi, so‘z boyligini oshiradi. Shuningdek, badiiy asarlar bolaning estetik kompetensiyalarini shakllantirib, keyingi o‘qish va shaxsiy rivojlanishiga tayyorgarligini ta’minlaydigan madaniyatning tarkibiy qismidir. Shu jumladan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy fazilatlar to‘plamini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega kelajakdagi hayot faoliyatidir.

Shuningdek, badiiy adabiyot bolalarning estetik kompetensiyasini shakllantirishda ham muhim vazifani bajaradi. Bola she’rni yod olganda, u ohangni, ritmni va tovushlar uyg‘unligini sezadi, bu esa bolaning estetik didini shakllantiradi.

Estetikaga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Estetika” atamasini birinchi bo‘lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten ilmiy muomilaga kiritgan. Baumgarten estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib qaradi. Gegel esa o‘z ma’ruzalarining birida quyidagicha yozgan edi : *“Estetika” degan nom muvaffaqiyatsiz chiqdi va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo‘llashga urunishlar bo‘ldi. So‘zning o‘z-o‘zicha bizni qiziqtirmasligini nazarda tutib, biz “estetika” nomini saqlab qolishga tayyormiz, buning ustiga, u odatiy nutqqa singishib ketgan…*

Ko‘rinib turibdiki estetika go‘zallikni tushunish, ijodiy rivojlanish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bola ijodiy jarayonlarning barchasida o‘z estetik didini shakllantirib boradi.

-tasviriy san’at bilan bog‘lash: o‘qilgan badiiy asarga rasm chizish orqali bolaning estetik idroki kuchayadi.

-rolli o‘yinlar va dramatizatsiya: ertak yoki hikoyani rollarga bo‘lib ijro etish ham bolalarning tasavvurini va obrazli fikrlashini rivojlantiradi.

Bola rivojlanib borar ekan, ular o‘zlarini aniq va ishonchli ifoda eta olishlari uchun ularning nutq, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish muhim. Shu o‘rinda bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar kitoblari she’riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg‘ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Badiiy so‘z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi, ona nutqining go‘zalligini anglashga yordam beradi.

Badiiy adabiyot orqali nutqiy kompetensiyalarni oshirish usullarini bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni keltiramiz.

- og‘zaki muloqot(hikoyalarni aytib berish va nutq so‘zlash):

bu intonatsiyalar va tembrlarni o‘z ichiga olgan so‘zlarni bir-biri bilan almashish jarayonidir. Bu jarayonda ota-onalar bolalariga uyqudan avval hikoyalar, ertaklar aytib berish yoki nutq so‘zlashda yuzaga chiqadi. Bunda bolalar so‘z boyligi oshadi va to‘g‘ri talaffuz qilish shakllanadi.

- she’rlarni yod olish va ularni harakatlar bilan ifodalash:

ertak qahramonlarining nutqini dramatizatsiya qilish orqali ularni jonlantirish

- savol javob usuli:

asardan keyin savol berish bolaning fikrlash va ifoda qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

- matnni qayta hikoya qilish:

bola eshitgan asarni o‘z tili bilan qayta hikoya qilib berish orqali og‘zaki nutqini mashq qiladi.

so‘z boyligini oshirish: badiiy matnlarda, asarlarda uchraydigan yangi so‘zlar bilan tanishish va ularni nutqda qo‘llash orqali lug‘at boyiydi.

Bundan tashqari “Ertakni davom ettir” o‘yinida bolaning ijodiy fikrlashi rivojlanadi, tasavvuri kengayadi. ”Qahramon tanlash” esa bolaning estetik tanlov qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik kompetentsiyasini rivojlantirishning nazariy va uslubiy apparati yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va pedagogik tajribani umumlashtirish asosida biz quyidagi yondashuvlarni tanladik va birlashtirdik:

umumiy ilmiy darajada - ko‘p madaniyatli yondashuv; xususan- ilmiy darajada - poliartistik yondashuv; uslubiy va texnologik daraja – ishtirokchi yondashuv. Ko‘p madaniyatli yondashuv J.Banks, K.Grant, O.V.Gukalenko, N.V.Kuzmina, I.L.Suprunova, P.Yang va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning asosiy vositasi bo‘lib, u ular nutqiy va estetik kompetensiyalarini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo‘shadi. Badiiy adabiyot orqali bola go‘zallikni anglashi, so‘z boyligini oshirishi, fikrni ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni dastlab badiiy adabiyot bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda amalga oshirish zarurdir. Shunday ekan, pedagoglar bolalarga tarbiyaviy va didaktik vosita sifatida badiiy adabiyotdan keng foydalanib, faol qo‘llashlari lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori.

2. Mamasoli Jumaboyev, O‘zbek va chet el bolalar adabiyoti. 2002.

3. Шишова, О.А. Художественное воспитание детей в учреждениях дополнительного образования (на материале школқ искусств): автореф. дис.… канд. пед. наук / О.А. Шишова. - М.: Моск. гос. открқтқй пед. ун-т, 2000. – 239с.

4. Georg Vilgelm Fridrix Gegel, “ Estetika bo‘yicha ma’ruzalar”

5. F.R.Qodirova. R.M. Qodirova. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi” .Toshkent., “Istiqlol”. 2006

6. G.A. Abdusamadiy. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ADABIYOT ORQALI ESTETIK KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALASI. *PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3(12)* https://mudarrisziyo.uz/index.php/pedagogika/article/view/1848

7. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” .Toshkent. 2018

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

O.Mirzayev
Andijon davlat pedagogika instituti v.b dotsenti
M.Qosimova
stajyor-o‘qituvchi
N.Qodirova
stajyor-o‘qituvchi

ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA ERTAKTERAPIYADAN FOYDALANISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiya olishi va kamol topishi,rivojlanishi, jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlari uchun kerak bo‘lgan masalalar, muammolar va ularning yechimi hamda yurtimizda bu borada olib borilayotgan islohotlar, pedagogika sohasida ertakterapiyadan foydalanish, korreksion pedagogika, inklyuziv ta’lim kabi sohalar haqida ma’lumotlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Inkyuziv ta’lim, korreksiya, anomal, differensial ta’lim, deffektologiya, integratsiyalashgan ta’lim, konvensiya, pedagogika, rivojlanish,eksperimental, ertakterapiya.*

О.Мирзаев
Андижанский государственный педагогический институт им. В.В доцент
М.Касимова
стажер-преподаватель
N.Кадырова
стажер-преподаватель

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СКАЗКОТЕРАПИИ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Аннотация: *В данной статье освещаются вопросы, проблемы и их решение, а также проводимые в нашей стране реформы в сфере образования, такие как использование сказкотерапии в педагогике, коррекционная педагогика, инклюзивное образование.*

Ключевые слова: *инклюзивное обучение, коррекция, аномальное, дифференцированное обучение, дефектология, интегрированное обучение, условность, педагогика, развивающая,экспериментальная, сказкотерапия.*

O.Mirzayev
Andijan State Pedagogical Institute v.Associate Professor b
M.Kasimova
trainee-teacher
N.Kadyrova
trainee-teacher

THE USE OF ERTACTERAPY IN THE EDUCATION OF CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS

Annotation: *this article covers the issues,problems and solutions needed by children with special educational needs for their education and Development, their place in society, as well as the reforms carried out in this regard in our country, the use of ertacterapy in the field of pedagogy, Correctional pedagogy, inclusive education.*

Keywords: *inclusive education, correction, anomalous, differential education, deffectology, integrated education, convention, pedagogy,Development, Experimental, ertacterapy.*

Kirish.

Har bir jamiyat kelajakka bo‘lgan ongli orzu va rejalarining ro‘yobida,avvalo, o‘z farzandlarining bilimi, kuchi va salohiyatiga tayanadi. Bu farzandlarning ana shunday yetuk va barkamol bo‘lib yetishishlarida ta’lim va tarbiyaning o‘rni katta. Lekin shunday bolalar ham borki, ularga ta’lim tarbiya berish, ularni to‘g‘ri sohaga yo‘naltirish o‘ziga xoslikni talab etadi. Aynan shunday nutqida, sezish a`zolarida, aqliy va jismoniy salohiyatida muammosi bor bolalarning ta’lim olishlari, ijtimoiylashishlari hamda ulardagi kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish muammolari bilan shugullanish korreksion pedagogikaning vazifalaridandir. “Bolaning begonasi bo‘lmaydi” shiori ostida O‘zbekistonda va yana boshqa davlatlarda korreksion pedagogika fani tobora yuksalib bormoqda. Ushbu fan Deffektologiya nomi bilan XIX asrning 20-yillaridan boshlab rivojlana boshlagan. “korreksion” so‘zi lotincha “tuzatish”, “bartaraf etish “pedagogika” so‘zi esa “bola yetaklovchi”, to‘g‘ri yolga olib boruvchi kabi ma’nolarni bildiradi.

Adabiyotlar tahlili.

Demak bu fan keng ma’noda alohida yordamga muhtoj, jismoniy yoki ruhiyati bilan bog‘liq kamchiliklari mavjud bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi oziga xos xususiyatlarini organadigan, ularning ta’lim olishlari, jamiyatga tolaqonli aralashuvlarini tashkil etishlarida muayyan korreksion vazifalarni bajaruvchi fandir. L.S.Vigotskiy aytganidek “Sukunat, karlik, ko‘rlik, bu faqat jismoniy cheklovlar xolos. Bolaning ongi esa instiktiv ravishda ularni yengishga harakat qiladi. Bunda ularga shifokorlar, o‘qituvchilar, va ota-onalari birdek ko‘mak berishlari. qollab quvvatlashlari, ta’lim olishlari uchun yetarli imkoniyatlarni yaratib berishlari darkor”. L.S.Vigotskiy yana aqli zaif bolalarning ijtimoiylashuvi eng qiyin muammolardan biriligini aytib o‘tadi. Olim umrining va ilmiy faoliyatining eng ko‘p qismini imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limiga hamda ularning ijtimoiylashuviga bagishlagan. U 1925- yilda Moskvada ilk bor tashkil etilgan Eksperimental deffektologiya institutini muvaffaqiyatli boshqargan va tom ma’noda deffektologiya fanining asoschisiga aylangan. Olim o‘zining “Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari” kitobida anomal bolaga nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlarini o‘rganib,aniqlab. Shularga tayangan holda va potensial imkoniyatlarini inobatga olib turib,ta’lim tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. Yurtimizning buyuk alloma, shoir va mutafakkirlari, xususan Ibn Sino, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Amir Temur va boshqalar defektologiyani izchil va atroflicha muayyan yo‘nalishda o‘rganmagan bo‘lsalar ham, o‘z asarlarida defektologik holatlarning aks etishi, namoyon bo‘lishi, rivojlanishi, o‘zgarishlari to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildirishgan. O‘zbekistonda defektologiyaning ilmiy-nazariy, metodik va amaliy tadqiqotlari bilan G.Sh.Aytmetova, Ye.D.Gordiyenko, L.R.Mo‘minova, R.Shomaxmudova, G‘.Shoumarov va b. shug‘ullangan. Afsuski dunyoning barcha joylarida ham bolalar huquqlari ayniqsa anomal bolalarga e’tibor qoniqarli emas, ya`ni ularning hamma qatori imkoniyatlardan foydalanishlari, ta’lim olishlari, jamiyat ravnaqiga birdek hissa qo‘shishlari uchun yetarli sharoitlar yaratilmagan. Maktabga qabul qilingan ayrim bolalar uni toliq bitira olmayaptilar, jismoniy va ruhiy muammolari bor bolalar uyda o‘tiribdi, ta’lim olishdan, kasb o‘rganishdan mahrum yoki chegaralangan. 1993-yil 1-dekabrda 153ta mamlakat bola huquqlari haqidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish yo‘li bilan o‘zlarining bolalar kelajagini muhofaza qilishga tayyorliklarini korsatdilar. Bu konvensiya butun jahon bolalariga xos bolalar huquqlari to‘g‘risidagi BMTning shartnomasidir. Bu yo‘nalishda Yangi O‘zbekistonda ham amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘lami ancha keng. Xususan 2020-yil 13-oktabdagi o‘zbekiston respublikasi prezidentining PQ-4860 sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari tog‘risida’’gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doir bir qator normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqladi.

Taxlillar va natijalar.

2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekistonda inklyuziv talimni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga talim tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi:

1.Alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalar o‘qiydigan ta’lim muassasalari binolariga qoyiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

2.Ushbu ta’lim muassasalarini kerakli adabiyotlar, oquv qurollari, turli kasblar bo‘yicha o‘qitish uchun moddiy texnik baza va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirish.

3.Inklyuziv ta’lim tizimi tashkil etish ta’lim muassasalarini maxsus asbob uskunalar bilan (yuk ko‘tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqa)shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta’minlash(maxsus o‘qituvchilar, bolalarning psixologik pedagogik nazorat qilish bo‘yicha mutaxassislar).

Qaror bilan umumiy ta’lim muassasalarida alohida ta’limga muhtoj bolalarning inklyuziv o‘qitish to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. U quyidagilarni nazarda tutadi 2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

I bosqich. Normativ bazani takomillashtirish; malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va muassasalarni maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur

adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlash; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish; aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; inklyuziv ta’lim tizimini tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish.

II bosqich. Inklyuziv ta’lim tizimini bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; o‘qitish usullarini takomillashtirish hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish; o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘rish; o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari sonini optimallashtirish kabi choralar belgilangan.

Jismoniy, aqliy, hissiy yoki ruhiy nuqsonli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari sanatoriya – kurort tipidagi ixtisoslashtirilgan ta’lim davlat muassasalari Jismoniy, aqliy, sezgi yoki ruhiy nuqsonli bolalar, shuningdek, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun yakka tartibda uyda ta’lim olish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Shuningdek, qarorda alohida ta’limga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim davlat muassasalarida kasbiy tayyorgarlik kurslarini tashkil etish chora tadbirlari belgilangan. Ushbu qarorlar va islohotlarda ko‘zlangan maqsadlar va g‘oyalar inson shaxsiga xurmat, insonparvarlik aqidalarining mustahkamlanishi, har bir insonning qay holatda ekanligidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat`iy nazar ilmu tafakkur bulog‘idan atrofidagilari bilan barobar tarzda qonib suv ichishlari uchun yetarli barcha imkoniyat va sharoitni yaratishdan iborat. Jismonan nosog‘lomlik bu ayb emas, asosiysi qalbdagi buyuk manaviyatga zarar yetmasin. Manaviy boylikni o‘zlashtirishga va ularni yosh avlodga singdirishga bo‘lgan say harakatlar hozirgi kungidek shiddatli bo‘lsa, rivojlanish va yuksalish ham o‘z shiddatli tarzda davom etadi. Yurtimizdagi sog‘lom bolalar kabi alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalar ham ta’lim olib jamiyatga qo‘shilib, davlatimiz rivojiga xissa qo‘shishiga ishonamiz.

Bugungi kunda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiyasi jamiyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday bolalarning psixologik, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ko‘maklashish uchun noan’anaviy, samarali metodlardan foydalanish zarur. Ulardan biri — ertakterapiya, ya’ni ertaklar orqali davolash va rivojlantirish usulidir.

Ertakterapiya — bu psixologik va pedagogik metod bo‘lib, bolalarning hissiy holatini barqarorlashtirish, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, o‘zini ifoda etish va muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantirishda ertaklar vositasida ishlanadi. U bolalar bilan muloqotda bo‘lish, ularni tinglash, muammolarini tushunish va ularga yordam berishning samarali vositasi hisoblanadi.

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiyasida ertakterepiyadan foydalanishning aosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish;
- xatti-harakatlaridagi muammolarni bartaraf etish;
- tasavvur va tafakkurni rivojlantirish;
- nutq faoliyatini faollashtirish;
- o‘zini anglash va qadrlashga o‘rgatish.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ertakterapiyaning o‘rni bo‘lgan bolalarda quyidagi muammolar kuzatiladi:

- jtimoiy-emosional rivojlanishdagi orqada qolish;
- nutq buzilishlari;
- o‘z-o‘zini boshqarishdagi qiyinchiliklar;
- diqqat va xotiraning sustligi.

Ertakterapiya bu muammolarni oson, bolaga tushunarli, obrazli shaklda yengib o‘tishga yordam beradi. Ertak tinglash orqali ertak mazmunini tushuntirib, asosiy qahramonning harakati muhokama qilinadi. Bola o‘z hayotidagi muammolar asosida ertak to‘qiydi, ertak qahramonlarining rollarini ijro etish orqali emotsional tajriba orttiriladi.

Ertakterapiya orqali alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi:

- O‘ziga bo‘lgan ishonch oshadi;
- Ijtimoiy faollik kuchayadi;
- Til va nutq rivojlanadi;
- Muloqotga kirishish osonlashadi.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali va ta’sirchan metodlardan biridir. Bu usul pedagog va psixologlarga bolaning ichki dunyosiga kirib borish va uni rivojlantirish imkonini beradi.

Ertakterapiyaning maxsus ehtiyojli bolalar uchun afzalliklari

- Sog‘liqni saqlash kompetensiyasini shakllantirish;
- Ertakterapiya bolalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga yordam beradi;
- Kognitiv va emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash;
- Ertaklar bolalarning fikrlash va his-tuyg‘ularini rivojlantirishga yordam beradi;
- Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni oshirish;
- Ertaklar bolalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ertakterapiya — bu maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta’lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali metodlardan biridir. U bolalarning psixologik va emotsional holatini yaxshilash, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘zini anglashni oshirishga yordam beradi. O‘zbekistonlik ilmiy manbalar ushbu metodning samaradorligini tasdiqlaydi va uning ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bolalar bilan birgalikda ertaklarni o‘qish va ularni tahlil qilish orqali ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu usul bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini anglash va ifoda etishda yordam beradi.

Ertaklardagi voqealarni rasm chizish yoki qo‘llanmalar yaratish orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu usul bolalarga o‘z fikrlarini vizual tarzda ifoda etishda yordam beradi.

Ertaklardagi voqealarni dramatizatsiya qilish yoki rolli o‘yinlar orqali bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu usul bolalarga turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilishni o‘rgatadi.

Qog‘ozdan turli shakllar yasash orqali bolalarning motorik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu mashg‘ulot bolalarga ijodiy fikrlashni o‘rgatadi.

Darsdan tashqari vaqtda badiiy adabiyotdan foydalanishga turli yosh o‘quvchilari uchun tashkil etilgan kitob burchagida ishlash, bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy asarlarni sahnalashtirish, ya’ni qo‘g‘irchoq teatri, soya teatri (ko‘lanka), stol teatri, diafilmlar namoyish etish, radio va teleeshittirishlar tashkil etish kiradi. O‘qituvchi darsdan tashqari qulay vaqtda bolalarni kitob burchagidagi kitoblar bilan tanishtiradi, kitobdagi rasmlarni ko‘rsatib, u haqda suhbat o‘tkazadi, asarlarni o‘qib yoki hikoya qilib beradi, mualliflar bilan tanishtiradi, bolalarga oldingi darslarda tanish bo‘lgan, shuningdek, dasturga kiritilmagan asarlarni takror o‘qib berish mumkin. Darsdan tashqari vaqtda tabiat haqidagi asarlarni, lirik she’rlarni, matal va qochirimlar, topishmoqlar, sanamalar va hokazolarni aytib berish bolalarning his-tuyg‘ulariga katta ta’sir etadi. Darsdan tashqari vaqtda (kechki soatlarda) o‘rta guruhdan boshlab o‘qib berilgan kitob haqida, yozuvchi va shoirlar haqida suhbatlar o‘tkaziladi. Kutubxonaga, kitob do‘koniga sayohatlar tashkil etiladi. Yilning turli fasllarida tabiat qo‘yniga sayohatlar uyushtirish jarayonida bahor, yoz, kuz, qish haqidagi she’rlar aytib beriladi, hikoyalar, ertaklar o‘qib beriladi. Shuningdek, mashg‘ulotdan tashqari vaqtda bolalar uchun tarbiya vositasi bo‘lgan materiallardan, topishmoqlardan keng foydalaniladi. Bolalarning tanish asarlar haqidagi bilimlarini tarbiyachi tomonidan tashkil etilgan o‘yinlarda (“Maktab-maktab”, “Qo‘g‘irchoq teatri” va h.k.) mustahkamlash mumkin.

Masalan, o‘qituvchi qo‘g‘irchoqlar uchun ertalik tashkil qilishni bolalarga taklif etadi. Bu ertalikda bolalar tanish ertaklarni qo‘g‘irchoqlarga so‘zlab berishadi. Shuningdek, tarbiyachi “Radio”, “Televizor”, “Diafilm” o‘yinlaridan keng fovdalanib, ertak va hikoyalarni aytib berishni taklif etadi. O‘rta guruhdan boshlab dramalashtirilgan o‘yinlardan foydalaniladi. Bu bolalarda badiiy asar namunalarini aytib berishga, kitobga qiziqishga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, bir jamoa bo‘lib o‘ynashga yordam beradi.

Xulosalar.

Sinflarda kitob burchagida mashg‘ulotdan tashqari vaqtda badiiy asarlar bilan tanishish maqsadida mavzular bo‘yicha kitob ko‘rgazmasi tashkil etiladi. Masalan: “Bizning tabiat to‘g‘risidagi kitoblarimiz”, “Bizning bayramlar” va h.k. Bunday ko‘rgazmalar sevimli kitoblar bo‘yicha suhbat o‘tkazishda yordam beradi. Ko‘rgazmada bir qancha yozuvchi va shoirlarning portretlari ham qo‘yilishi kerak. Shuningdek, bir sinfda ba’zi bayramlar uchun (“Ertaklar olamida”, “Mehrjon bayrami”, “Gullar bayrami”, “Qushlar bayrami”, “Qovun sayli” va h.k.lar) turli janrdagi asarlarni, masalan, she’rlar, topishmoqlar, hikoyalar, ertaklardan olingan parchalar, maqol, matallarni tanlash tavsiya etiladi.

Adabiy viktorinalar o‘tkazish

Adabiy viktorinalar o‘tkazishdan asosiy maqsad, bolalarning badiiy asarlarga bo‘lgan qiziqishlarini mustahkamlash, ilgaridan tanish bo‘lgan badiiy asar janrlarini eslashga yordamlashish, emotsional his-tuyg‘ularini, xotirasini rivojlantirishdir.

Adabiy viktorinalar turli sinflarda har bir faslda bir marta tashkil etiladi. Viktorinani musobaqa tarzida bir guruhni ikkita komandaga ajratish yoki ikkita bir xil guruhlar bilan (musobaqa uyushtirish) o‘tkazish mumkin.

Maqsadimiz bolalarga turli usullar yordamida bir faslda o‘qib va hikoya qilib berilgan ertaklar, hikoyalarning nomini eslashga yordamlashish. Ertaklardan parchalar o‘qib berish orqali bolalar xotirasini rivojlantirish. Ulardagi ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishdan iborat. Shuningdek sog‘lom bolalar kabi jamiyatimiz rivojiga xissa qo‘shadigan shaxs qilib kamol topishishiga yordam berish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Axmedov N., Qodirova M. *Defektologiya asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
2. Karimova R. *Maxsus pedagogika: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Yo‘ldosheva Z.A. *Inklyuziv ta’lim asoslari*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
4. Nartayeva M. *Pedagogik texnologiyalar va inklyuziv ta’lim*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
5. Qo‘chqarova, O.U. qizi (2022). "Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni davolash va rivojlantirishda ertak terapiyasining ahamiyati". Cite turn0search0

6. Ravshanova, S.B. va Saydumarova, D. F. (2022). "Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ertakterapiya usuli sifatida".

7. Hikmatullayeva, G.A., & Tashxodjayeva, Z. A. (2023. Ertakterapiya psixoterapevtik va diagnostika ishlarining maxsus usuli sifatida. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARH.

8. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. -T.: TDPU, 2017.

9. Oila pedagogikasi. Prof. O.Xasanboyeva umumiy tahriri ostida. – T.: Aloqachi, 2007. – 384 b.

10. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti (majmua). -T., 1996.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Do‘sbekov Aliakbar Alisadi o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Email: aliakbardosbekov@gmail.com

MEDIAKOMPETENTLIK: OLIY TA’LIMDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish orqali axborot madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Mediakompetentlik - bu talabalarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va samarali uzatish qobiliyatidir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida talabalar nafaqat axborot iste’molchilari, balki uning faol yaratuvchiliga aylanishmoqda. Shu sababli, mediakompetentlikni rivojlantirish axborot madaniyatining ajralmas qismiga aylanadi. Maqolada mediakompetentlikning asosiy komponentlari, uni shakllantirishning pedagogik yondashuvlari, shuningdek, oliy ta’limda axborot madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *mediakompetentlik, axborot madaniyati, Oliy ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, pedagogik yondashuvlar, raqamli kompetensiyalar.*

Дусбеков - сын Алиакбара Алисади
Джизакский государственный педагогический университет
Преподаватель кафедры «Дистанционное обучение естественным и точным наукам»

МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТЬ: ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы формирования информационной культуры посредством развития медиакомпетентности студентов высших учебных заведений. Медиакомпетентность — это способность студентов критически анализировать, оценивать, создавать и эффективно передавать информацию. В условиях современных информационно-коммуникационных технологий студенты становятся не только потребителями информации, но и ее активными создателями. Поэтому развитие медиакомпетентности становится неотъемлемой частью информационной культуры. В статье анализируются основные компоненты медиакомпетентности, педагогические подходы к ее формированию, а также ее роль в развитии информационной культуры в высшей школе.*

Ключевые слова: *медиакомпетентность, информационная культура, высшее образование, информационно-коммуникационные технологии, критическое мышление, медиаграмотность, педагогические подходы, цифровые компетенции.*

Dusbekov Aliakbar Alisadi oglu
Jizzakh State Pedagogical University
Teacher of the Department of “Distance Education
in Natural and Exact Sciences”

MEDIA COMPETENCE: A TOOL FOR FORMING INFORMATION CULTURE IN HIGHER EDUCATION

Abstract: *This article discusses the issues of forming information culture through the development of media competence of students of higher education institutions. Media competence is the ability of students to critically analyze, evaluate, create and effectively transmit information. In the conditions of modern information and communication technologies, students are becoming not only consumers of information, but also its active creators. Therefore, the development of media competence becomes an integral part of information culture. The article analyzes the main components of media competence, pedagogical approaches to its formation, as well as its role in the development of information culture in higher education.*

Keywords: *media competence, information culture, Higher education, information and communication technologies, critical thinking, media literacy, pedagogical approaches, digital competencies.*

Kirish.

Bizga ma'lumki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli axborot oqimining ortib borishi sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Shunday ekan, o'z-o'zidan savol tug'iladi: Mediokomponentlik o'zi nima? Nima uchun bizga u kerak? va h.z. ***Mediakompetentlik*** - bu talabalarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va samarali uzatish qobiliyatidir. Ushbu kompetentlik axborot madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, talabalarni axborotga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Adabiyotlar tahlili.

Masalan, Indiana universiteti kutubxonasi tomonidan ishlab chiqilgan media savodxonlik dasturlari talabalarga ishonchli manbalarni aniqlash, onlayn postlar ortidagi maqsadlarni tushunish va algoritmlarning axborot oqimiga ta'sirini anglashga yordam beradi

Shuningdek, Penn GSE tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda talabalar ishonchli manbalarni aniqlash, onlayn postlar ortidagi maqsadlarni tushunish va algoritmlarning axborot oqimiga ta'sirini anglash kabi ko'nikmalarni egallash orqali axborot madaniyatini shakllantirishda mediakompetentlikning muhimligini ko'rsatadi .

Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida mediakompetentlikni rivojlantirish orqali talabalar nafaqat axborotni tanqidiy baholash, balki uni yaratish va tarqatishda ham mas'uliyatli yondashuvni shakllantiradilar. Bu esa ularning axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar.

Endi, mediakompetentlikni rivojlantirish yo'llarini birma-bir ko'rib chiqamiz. Bunda:

- ***O'quv dasturlariga integratsiya deganda,*** Indiana universiteti kutubxonasi tomonidan ishlab chiqilgan media savodxonlik dasturlari talabalar uchun ishonchli manbalarni aniqlash, onlayn postlar ortidagi maqsadlarni tushunish va algoritmlarning axborot oqimiga ta'sirini anglashga yordam beradi.
- ***Amaliy mashg'ulotlar va seminarlar deganda,*** talabalar uchun raqamli tadqiqot usullari, iqtibos keltirish amaliyoti va onlayn xavfsizlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish mediakompetentlikni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.
- ***Raqamli resurslar yaratish deganda,*** talabalar mediakompetentligini oshirish uchun raqamli resurslar yaratish va birinchi kurs seminarlariga mediakompetentlik bo'yicha treninglarni kiritish oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Demak, shunda ekan bu borada talabalarning mediakomponentligini oshirish maqsadida bir qataor adabiyotlarni tavsiya qilishimiz mumkin bo'ladi, ya'ni:

1. ***"Talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida"*** - ushbu asarda pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish muammosi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.
Cultural and institutional attitudes also present obstacles. Survey and focus group responses indicate a lack of awareness and preparedness among faculty and staff to accommodate diverse learners. As noted by Ismailova (2021), the lingering influence of post-Soviet educational systems has often prioritized standardized approaches over individualized learning strategies. This rigidity creates systemic resistance to implementing inclusive policies and practices, particularly in institutions with limited exposure to global inclusivity frameworks.

Opportunities for Progress

Despite these challenges, the study identifies significant opportunities for fostering inclusivity. Central Asian HEIs possess a strong foundation of commitment to educational equity, as evidenced by national policies aligning with international frameworks such as the Sustainable Development Goals (SDG 4). Institutions that have invested in professional development for faculty and staff have reported notable improvements in inclusivity, as reflected in the thematic analysis of interviews. Faculty members who participated in workshops on Universal Design for Learning (UDL) demonstrated greater competence and confidence in addressing diverse student needs.

The observational audits also highlight positive examples of digital accessibility advancements in some institutions, particularly in urban areas. These include the adoption of assistive technologies like screen readers and captioning tools, which enhance the learning experiences of students with visual and auditory impairments. These best practices can serve as models for other institutions in the region.

Recommendations for Inclusive Education Management

Based on the findings, several actionable recommendations emerge to improve the management of inclusive education in HEIs:

1.**Infrastructure Development:** Institutions must prioritize investments in physical accessibility, particularly in rural areas. Governmental and non-governmental organizations should collaborate to secure funding for infrastructure upgrades that include ramps, elevators, and accessible restrooms.

2.**Faculty and Staff Training:** The study underscores the importance of professional development programs that equip faculty and staff with the skills to address diverse learner needs. Workshops on inclusive teaching practices, such as UDL, should be scaled across institutions to build capacity.

3.**Digital Accessibility:** HEIs should adopt and expand digital accessibility tools and ensure their compliance with global standards, such as the Web Content Accessibility Guidelines (W3C, 2018). A focus on integrating assistive technologies into e-learning platforms will bridge gaps for students with disabilities.

4.**Policy Implementation and Monitoring:** Institutions need to establish mechanisms for regularly evaluating the effectiveness of inclusive education policies. This includes gathering continuous feedback from students, faculty, and staff and using these insights to refine strategies.

5.**Cultural Change Initiatives:** Promoting awareness of the value of diversity and inclusivity among all stakeholders is essential. Campaigns, student forums, and leadership advocacy can shift institutional cultures toward more inclusive values.

Contribution to the Central Asian Context

The findings and recommendations of this study contribute to the broader understanding of inclusive education in Central Asia, where historical and socio-cultural contexts uniquely shape institutional practices. By contextualizing global best practices to regional realities, this research offers a framework for bridging gaps in inclusivity while respecting local traditions and constraints. Institutions can draw on these insights to not only meet international benchmarks but also develop solutions tailored to their specific challenges.

Future Directions

This study opens avenues for future research in inclusive education management. Longitudinal studies tracking the implementation of these recommendations can provide deeper insights into their effectiveness. Additionally, comparative studies between Central Asian institutions and those in other regions can identify innovative practices and foster cross-regional learning.

Conclusion.

This study underscores the critical importance of managing inclusive education effectively in higher education institutions (HEIs), particularly in the context of Central Asia. By employing a mixed-methods approach, the research has provided a comprehensive understanding of the policies, practices, and perceptions surrounding inclusivity in HEIs. The findings reveal persistent challenges, such as inadequate infrastructure, limited faculty preparedness, and cultural resistance to change, which continue to impede progress toward equitable education.

Despite these obstacles, the study identifies significant opportunities for improvement. The presence of national commitments to inclusivity, coupled with isolated examples of successful practices in digital accessibility and professional development, demonstrate the potential for

transformative change. The integration of physical, digital, and academic accessibility improvements, coupled with the development of inclusive teaching practices and policy monitoring mechanisms, can serve as a foundation for fostering equity and diversity in HEIs.

The study also emphasizes the need for tailored strategies that address the unique socio-cultural and institutional landscapes of Central Asia. By contextualizing global best practices, HEIs can create solutions that are not only effective but also culturally and regionally relevant. The development of an evaluation framework as part of this research provides institutions with a practical tool for continuous improvement in inclusivity management.

Ultimately, this research contributes to the global discourse on inclusive education by offering actionable recommendations and a replicable model for continuous evaluation and growth. It highlights the vital role of leadership, collaboration, and commitment in driving systemic change, ensuring that all students, regardless of their backgrounds or abilities, have equal opportunities to participate and succeed in higher education.

Further research is encouraged to track the long-term impacts of these recommendations, explore cross-regional comparisons, and identify emerging trends in inclusivity management. By continuing to prioritize inclusive education, HEIs can strengthen their role as catalysts for social equity and institutional excellence.

References.

1. Bryman, A. (2016). *Social research methods.* Oxford University Press.
2. Creswell, J. W., & Plano Clark, V. L. (2017). *Designing and conducting mixed methods research.* Sage Publications.
3. Field, A. (2018). *Discovering statistics using IBM SPSS statistics.* Sage Publications.
4. Ismailova, S. (2021). Challenges in post-Soviet accessibility standards. *Central Asian Review of Education.*
5. Kadirov, M. (2020). Infrastructure challenges in Central Asian universities. *Journal of Central Asian Education Studies.*
6. Mukhamedzhanova, A., & Abdirakhmanova, B. (2019). Inclusive education in Central Asia: A comparative study. *Asian Journal of Education Research.*
7. Niyazova, R., et al. (2021). Accessibility audits in Central Asia. *Regional Accessibility Reports.*
8. Patton, M. Q. (2015). *Qualitative research & evaluation methods.* Sage Publications.
9. Rakhimov, A. (2018). Multilingual education and representation in Uzbekistan. *Journal of Language Policy Studies.*
10. Stringer, E. T. (2014). *Action research.* Sage Publications.
11. W3C. (2018). *Web content accessibility guidelines (WCAG) 2.1.* Retrieved from https://www.w3.org/WAI/standards-guidelines/wcag/.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Parmonov Akmal Abdupattoyevich
Qo‘qon davlat unversiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchisi

JISMONIY TARBIYA METODLARINING TUZILISH ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya jarayonida turlicha metodlar qo‘llaniladi. Ular bilvosita yoki bevosita, hissiy qabul etish so‘z orqali yoki ko‘rgazmalilik yoki amaliy harakat faoliyatidan foydalanishga asoslangandir. Jismoniy tarbiya metodlariga asosan amaliy harakat faoliyati kiradi, lekin birorta ta’lim tarbiyani so‘z va ko‘rgazmalilik metodlarga asoslanmasdan turib olib borib bo‘lmaydi. Bu esa jismoniy tarbiya metodlari bilan bir qatorda shu jarayonga kiruvchi boshqa hamma metodlarni aks ettiradi.*

Kalit so‘zlar. *Jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, metod, tarbiya, ta’lim, so‘z metodi, ko‘rgazmali metod, o‘yin metodi, dars, mashg‘ulot.*

Пармонов Акмаль Абдупаттоевич
Старший преподаватель кафедры физической культуры
Кокандского государственного университета

СТРУКТУРНЫЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В этом состоянии в процессе физического воспитания используются разные методы. Они бывают косвенными или прямыми и основаны на использовании чувственного восприятия посредством слов, демонстрации или практических действий. Методы физического воспитания и базовой подготовки включают практическую работу с двигателем, ни одно обучение не обходится без поддержки вербальных и наблюдательных методов. Это отражает методы физической подготовки, а также все другие методы, включенные в этот процесс.*

Ключевые слова: *Физическое воспитание, физическая культура, метод, обучение, воспитание, словесный метод, демонстрационный метод, игровой метод, занятие, тренировка.*

Parmonov Akmal Abdupattoyevich
Senior Lecturer, Department of Physical Culture, Kokand State University

STRUCTURAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION METHODS

Abstract.*This article discusses various methods used in the process of physical education. They are based on indirect or direct, emotional perception through words or on the use of demonstration or practical movement activities. Physical education methods mainly include practical movement activities, but no education can be carried out without being based on verbal and demonstration methods. This reflects all other methods included in this process, along with physical education methods.*

Keywords: *Physical education, physical culture, method, upbringing, education, verbal method, demonstration method, game method, lesson, exercise.*

Kirish.

So‘z metodi. Jismoniy tarbiya jarayonida o‘qituvchining asosiy faoliyati so‘z bilan amalga oshiriladi: so‘z yordamida bilimlar beriladi, tushunishni faollashtiradi va chuqurlashtiriladi, vazifalar beriladi, ularning bajarilishi boshqariladi, natijalar taxlil qilinadi va baholanadi, bolalarni intizomi boshqariladi. So‘z shug‘ullanuvchilar faoliyatini tushunishda, baholashda va o‘zicha boshqarishda kerakli vazifani hal etadi. Shu bilan bir qatorda so‘z o‘zining qo‘llanilishiga ko‘ra u yoki bu dediktiv hikoya, suhbat, muhokama va va hokozolardan iborat.

So‘z metodiga: 1) instruktsiya berish; 2) qo‘shimcha tushuntirish; 3) ko‘rsatma va buyruqlar; 4) og‘zaki baholash; 5) o‘z-o‘ziga gaprish va o‘z-o‘ziga buyruq berish; 6) rag‘batlantirish, 7) so‘z orqali jabrlash; 8) umumiy buyruq; 9) tahlil qilish; 10) so‘z orqali o‘zaro munosabat va h.k.

Instruktsiya berish - texnikani o‘rganish faoliyatini vazifalarni yoki mashqlarni bajarish qoidalarini so‘z

orqali konkret va aniq tushunarli shug‘ullanuvchilarga yetkazish.

Qo‘shimcha tushuntirish - ayrim harakatlar, yoki bajarish usulini sifatini yaxshilash maqsadida chuqurroq bilim berish maqsadida turli ko‘rgazmalar orqali izohlash, tushuntirish.

Ko‘rsatma va buyruqlar - bu maxsus so‘z shaklida o‘quvchilar faoliyatini boshqarish. Ko‘rsatma va buyruq orqali dastlabki ko‘rsatish vazifalarni aniqlash maqsadida qo‘llaniladi hamda samarador usullardan biridir.

Og‘zaki baholash - bu so‘z orqali o‘quvchilar faolitini maqullash yoki aksincha (yaxshi, yomon va h.k.).

O‘z-o‘ziga gapirish va buyruq berish - o‘z-o‘ziga gapirib mashqni bajarish usullari, o‘z faoliyatini bayon etadi. Masalan: o‘yin taktikasini, yo‘nalishini, uni bajarish usullarini fikran rejalashtiradi. Bu usulning asosi - bu so‘zning harakat bilan bog‘likligidir va shu kabidir.

Ko‘rgazmalilik metodi. Jismoniy tarbiyada ko‘rgazmalilik metodi keng qo‘llaniladi, ya’ni hamma sezgi organlariga ta’sir etib bor narsalar bilan aloqa o‘rnatiladi. Bunda ko‘rish, harakat, va boshqa sezgilardan foydalaniladi. Keng ma’nodagi ko‘rgazmalikni amalga oshirishda mashqlarning xarakteristikasi, bajarish sharoitlariga asoslangan metodlar majmuasidan foydalanib bu metodlar quyidagi guruhchalarga bo‘linadi. Ular bavosita namoyish qilishni o‘qituvchi tomonidan yoki bir o‘quvchi yordamida metodik ko‘rsatishidan iborat. Mashqlarni bajarilishini harakat ta’sirining, qoidalari haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish uchun namoyishning yordamchi vositalaridan ya’ni bevosita ko‘rgazmali metodidan keng foydalaniladi. Bunday bevosita namoyish metodlari quyidagilarga bo‘linadi:

* Rasm, sxema, fotosur’at va shu kabi ko‘rgazma qurollarini namoyish etish;
* Buyum modellar va maketlarni namoyish etish;
* Kino va videorolikli namoyish;
* Tanlab olingan - apparatlar yordamida masalan: mikrofon, radioapparatura, yorug‘lik elektrosignallari;
* Yo‘naltirilgan sezish harakat metodlari ;
* Mo‘ljal olish (orientirovka) metodlari (osilgan to‘plar, bayroqchalar, zal va maydonchalardagi belgilar va h.k).
* Lider va kundalik sensor rejalashtirilgan metodlar;
* Tez informatsiya metodi.

O‘yin metodi. O‘yin azaldan pedogogik vazifani ado etib kelgan hamda tarbiyaning asosiy vositasi va metodlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Tarbiya sohasida o‘yin metodi degan tushuncha o‘yinning metodik xususiyatlarini, ya’ni tarbiyaning boshqa metodlaridan (shug‘ullanuvchilar faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish kabi xususiyatlari jihatdan) farq qiladigan tomonlarini ifoda etadi.

Jismoniy tarbiyaning o‘yin metodi uchun quyidagi belgilar xarakterlidir:

1. Faoliyatni obrazli yoki shartli syujet (o‘yin maqsadi, rejasi) asosida tashkil etish, bunda vaziyatning doimiy va ko‘proq darajada behosdan o‘zgarishi bilan muayyan maqsadga erishish nazarda tutiladi.

2. Maqsadga erishish xilma-xilligi va faoliyatning majmua harakterdagi bo‘lishi (masalan, yugurish, sakrash, irg‘itish).

3. Shug‘ullanuvchilarning bemalol mustaqil harakat qilishi, ularni tashabbus va chaqqonlik ko‘rsatishlariga, topqir bo‘lishlariga, harakat faoliyatlariga yuksak talablar qo‘yish.

4. Sнug‘ullanuvchilar harakatining bir-biriga bog‘liqligi, yorqin emotsionalligi.

5.Jismoniy yuklamaning me’yori (dozirovkasi) cheklangan imkoniyati.

Musobaqa metodi. Jismoniy tarbiya jarayonida musobaqa metodi mashg‘ulot o‘tkazish davomida (mazkur mashg‘ulotga kiritilgan alohida mashq bilan birgalikda) mustaqil o‘yin shaklida (mo‘ljal, nazorat va sport musobaqalari) qo‘llaniladi.

Musobaqa metodi birmuncha ravshan xarakterlovchi xususiy birinchilik yoki yuqori natijaga erishish uchun kurashda kuchlarni sinashdir. Musobaqa jarayonida, shuningdek ularni tashkil qilish va o‘tkazish sharoitlarida (g‘oliblarni aniqlash, yutuqlarga erishganlarni rag‘batlantirish va h.k.) rahbarlik qilish omili muhim fiziologik va emotsional kayfiyat yaratadi, bu hol jismoniy imkoniyatlarini maksimal ishga solishga yordam beradi.

Musobaqa vaqtida, asosan sport musobaqalarida raqiblarning o‘zaro to‘qnashuvlari o‘yindagiga qaraganda ancha ko‘proq namoyon bo‘ladi. Tashabbuskorlik qa’tiylik sabotlilik dadillik jasurlik oliy janoblik o‘rtoqlik kabi irodaviy hamda ahloqiy hislatlarni tarbiyalashda musobaqa metodining ahamiyati g‘oyat kattadir. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, birinchilik uchun raqobat qilish, kurashish salbiy xususiyatlarning (hudbinlik o‘ziga o‘ta bino qo‘yish, dag‘allik va h.k.) tarkib topishiga ham imkon berishi mumkin. Shu sababli musobaqa metodiga mohirona pedogogik rahbarlik qilingan taqdirdagina u ma’naviy tarbiya sohasidagi o‘z rolini oqlay oladi.

Qat’iy tartiblashtirilgan mashqlar metodi. Bu metodda shug‘ullanuvchilar faoliyati qat’iy tartiblashtirilgan holda tashkil etilib quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- Qat’iy belgilangan harakat rejasi (harakat tarkibi ularning o‘zgarishi, takrorlanish va bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi).

- Jismoniy yuklanishni qat’iy normallashtirish, mashq jarayonida uning dinamikasini to‘la boshqarish, shuningdek dam olish intervalini qat’iy tartibga solish

va ularning belgilangan tartibda jismoniy yuklama bilan almashtirish

Harakatlarga o‘rgatish jarayonida qo‘llaniladigan mashq metodlari 2 xil bo‘lib ular quyidagilardan iboratdir: bo‘lingan - konstruktiv mashq metodi (mashqlarni qismlarga bo‘lib o‘rgatish va keyinchalik butunlay bajarishga erishish); butunlay mashq metodi (vaqtincha ayrim detallarini chiqarib tashlash).

Bo‘lingan konstruktiv mashq metodiga masalan: suvda suzishni o‘rgatishni, akrobatik mashqlarni qismlarga bo‘lib o‘rgatish kiradi. Hammamizga ma’lumki mashqlar musobaqa sharoitida butunligicha bajariladi.

Butunlay mashq metodi shug‘ullanuvchilarga o‘rgatish lozim bo‘lgan mashqlar butunligicha o‘rgatilib, lekin ayrim detallari vaqtincha chiqarib tashlanadi.

Ikkala metodlarning ijobiy va salbiy xususiyatlari mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat: bo‘lingan konstruktiv mashq metodining ijobiy xususiyati o‘rgatilishi lozim bo‘lgan mashqlar oz vaqt ichida shug‘ullanuvchilarga o‘rgatish mumkin.

Salbiy xususiyatlari - qismlab o‘rgatilgan mashqlarni butunligicha bajarishga erishish uchun qo‘shimcha vaqt sarf qilinadi yoki bo‘lmasa ayrim akrobatik mashqlarni butunlay bajarilishiga erishishda qismlar orasida pauza bo‘lishi mumkin.

Butunlay mashq metodining ijobiy xususiyati o‘rgatishi lozim bo‘lgan mashqlar oldingi metodga nisbatan ko‘p vaqt talab qilinadi.

Qismlarga bo‘lingan mashq metodidan harakat (yoki harakatlar yig‘indisi) uncha buzilmay nisbatan mustaqil elementlarga bo‘linishi mumkin bo‘lgandagina foydalaniladi.

Masalan: erkin usulida suzish texnikasini o‘rganishda bo‘lib-bo‘lib tashlash va keyin elementlarni yaxlit qilib birlashtirish quyidagicha sodir bo‘lishi mumkin:

1. Suv ustida sirpanish;
2. Basseyn qirg‘og‘ida oyoq harakatlarini o‘rganish;
3. Sirpanish bilan oyoq harakatlarini qo‘shib bajarish;
4. Sayoz joyda tik turib qo‘l harakatlarini o‘rganish;
5. Shuning o‘zini nafas olish bilan qo‘shib bajarish;

Barcha elementlarni birgalikda bajarish.

Yaxlit mashq tuzilishi, oldin odatda ayrim detallarini chiqarib tashlash hisobiga soddalashadi, bu detallar keyin o‘rganilayotgan mashqning asosiy mexanizmi bilan asta sekin birlashadi va uni yaxlit bajarish fondi takomillashadi.

Masalan: yugurib kelib qaychi usulida uzunlikka sakrash texnikasi quyidagi tartibda o‘rgatiladi:

1) qisqa joydan qadamlab sakrash

2) shuning o‘zi, lekin eng baland nuqtaga chiqqan oyoqni qaychisimon qilib, harakat qildirib sakrash;

3) sakrashga yordamlashadigan taxta yoki tramplindan foydalanish. Ko‘tarilish fazasida diqqatni qo‘l va oyoqlarning birgalikda harakat qilishiga qaratilgan holda sakrash;

4) o‘rtacha tezlikda yugurib kelib to‘la koordinatsiya bilan sakrash;

5) yerga tushishga tayyorlanish harakatlariga e’tibor bergan holda sakrash (oyoqni oshirib tashlash, qo‘llarni orqaga qilish va h.k.);

6) tez yugurib kelib sakrash.

X**ulosa qilib aytganda** harakatga o‘rgatishda asosiy metodlar bilan birga bir qator yordamchi metodik usullar (orientirlar, tashqi sharoitni yengillashtiruvchi usullar va h.k.)dan foydalaniladi.

Qoida bo‘yicha agar murakkab harakat butunligicha o‘rgatilayotgan bo‘lsa yaqinlashtirish deb atalgan mashqlar keng qo‘llanilib ular asosiy harakatni o‘zlashtirishga ularni butunlay imitatsiya yoki soddalashtirilgan shaklda o‘rgatish yo‘lidan foydalaniladi.

Harakat faoliyatlarini mukammallashtirish bosqichlarida ularning sifatlarini o‘ziga xos shakllarini bir paytda yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Bunda asosiy rolni jismoniy sifatlar harakat tarkibini o‘zgartirmasdan bajariluvchi harakatlar bilan xarakterlanuvchi metodlarning ahamiyati katta.

Foydanalingan adabiyotlar.

1.The role of the acmeologist approach in the development of acmeological motivation in future physical education teachers. Parmonov Akmal Abdupattayevich https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR.2023 y.

2. Improving the system of training teachers of future physical education and introducing innovative-motivational approaches to it. Parmonov Akmal Abdupattoyevich. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR.2023 y

3. Abdupattayevich, P. A. (2022). Specific methods and tasks for the physical development of primary school students with the help of games. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277 -3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 331-333.

4. Abdupattaevich P. A. Technology of formation of akmeological position in future teachers //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – T. 5. – C. 112-115**. https://www.scholarexpress.net**

5. Талипджанов.А.А., Нурматов.Б.Б., Пармонов.А.А. Учебно-тренировочный процесс по футболу //International conference: problems and scientific solutions. – 2022. **https://doi.org/10.5281/zenodo.7332922**

6. Improving the effectiveness of the training process of students. Parmonov Akmal Abdupattayevich. ISSN 2277-3630 (online), Published by International journal of Social Sciences & September-2023 **https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR**

7. Methodological doctrine of the organization of the process of physical education through national traditions. Vol 10 Issue 06, June 2021. Nurmatov Bakhrom Bektemirovich Parmonov Akmal Abdupattoevich. https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-6

8. Improvement of akmeological motivation of future physical education teacher. Vol. 2 No. 12, December 2021. ISSN: 2660-5570. **https://www.scholarzest.com**

9. Specific methods and tasks for the physical development of primary school students with the help of games. ijssir, Vol. 11, No. 10. October 2022. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR

10. Model for the development of acmeological motivation in future physical education teachers on the basis of an axiological approach. nternational scientific conference " innovative trends in science, practice and education" 2023 Munchen, (Germany)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abatov Ruslan Kuatbayevich,
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA XORIJIY TIL O‘RGANUVCHI TALABALARNING INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYALARINI LOYIHALASHDA UZLUKSIZ DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida xorijiy til o‘rganuvchi talabalarning individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash jarayonida uzluksiz diagnostikaning tutgan o‘rni yoritilgan. Talabalarni chuqur o‘rganish, ularning ehtiyoj va qobiliyatlarini aniqlash orqali samarali ta’lim yo‘llarini tanlash muhimligi asoslab berilgan. Shuningdek, diagnostikaning nazariy asoslari, uning turli texnologiyalari, individual yondashuv prinsiplari va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish usullari tahlil qilingan. Maqola xorijiy til o‘rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatlarini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Kredit-modul tizimi, individual ta’lim trayektoriyasi, diagnostika, xorijiy til o‘rganish, pedagogik yondashuv, talaba faoliyati, baholash tizimi.*

Абатов Руслан Куатбаевич,
докторант Нукуского государственного педагогического института

ЗНАЧЕНИЕ НЕПРЕРЫВНОЙ ДИАГНОСТИКИ В ПРОЕКТИРОВАНИИ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТРАЕКТОРИЙ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЮЩИХ ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль непрерывной диагностики в процессе проектирования индивидуальных образовательных траекторий студентов, изучающих иностранные языки в условиях кредитно-модульной системы. Обоснована необходимость учета индивидуальных особенностей, потребностей и способностей учащихся для эффективного построения обучения. Анализируются теоретические основы диагностики, современные диагностические технологии и методы, а также принципы индивидуального подхода в педагогике. Статья демонстрирует возможности применения инновационных методов в преподавании иностранных языков.*

Ключевые слова: *Кредитно-модульная система, индивидуальная образовательная траектория, диагностика, изучение иностранного языка, педагогический подход, учебная деятельность студентов, система оценки.*

Abatov Ruslan Kuatbayevich,
PhD Candidate at Nukus State Pedagogical Institute

THE IMPORTANCE OF CONTINUOUS DIAGNOSTICS IN DESIGNING INDIVIDUAL EDUCATIONAL TRAJECTORIES OF FOREIGN LANGUAGE LEARNERS IN THE CONTEXT OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Annotation. *This article discusses the role of continuous diagnostics in designing individual educational trajectories for students learning foreign languages within the credit-module system. It emphasizes the need to identify students' needs and abilities to ensure effective and personalized learning paths. The paper analyzes theoretical foundations of diagnostics, various diagnostic technologies and methods, and the principles of individualized approaches in pedagogy. It highlights opportunities for implementing innovative strategies in foreign language education and improving academic outcomes through tailored instruction.*

Key words: *Credit-module system, individual educational trajectory, diagnostics, foreign language learning, pedagogical approach, student activity, assessment system.*

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnikaviy sohalarda o‘rnatilayotgan hamkorlik xorijiy tillarni mukammal o‘rganishni talab qilmoqda. Bu esa, ayniqsa, yosh avlod uchun ona tilini mukammal o‘zlashtirib, ingliz tili kabi boshqa tillarni chuqur o‘rganish, ularni erkin muloqotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning professional darajasini oshirish zarurligini ta'kidlamoqda. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalari nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish, balki ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga qodir bo‘lgan raqobatbardosh mutaxassislarni

tayyorlashga yo‘naltirilgan. Kelajak mutaxassislarini tayyorlashning asosiy maqsadi – talabaning o‘zini rivojlantirish, takomillashtirish va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish jarayonida faol ishtirok etishiga erishishdir. Shuningdek, talaba ta’lim jarayonida faqat bilim oluvchi emas, balki o‘zining shaxsiy rivojlanishi va o‘zini anglashga yo‘naltirilgan subyekt sifatida namoyon bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ta’lim jarayonini liberallashtirishdir. Bu jarayon individual ta’lim shakllarini kuchaytirish, har bir talaba uchun o‘ziga mos ta’lim dasturlarini va maxsus kurslarni tanlash imkoniyatini yaratish bilan chambarchas bog‘liqdir [3].

Mitinaning ta’kidlashisha, talabalarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga yo‘naltirilgan ta’lim ularni hayotning faol subyekti sifatida his qilishiga yordam beradi, ta’lim jarayonida mustaqillikni oshiradi hamda o‘zining ta’lim dasturini loyihalashni rag‘batlantiradi. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarlik natijalari, umumiy madaniy va shaxsiy rivojlanishi uchun javobgarligini oshiradi. Uning fikriga ko‘ra, har bir shaxs individual va shaxsiy (subyektiv) tajribaga ega bo‘lib, eng avvalo, tabiatan berilgan salohiyatini ochishga intiladi. Ta’lim jarayonida esa unga faqat tegishli sharoitlarni yaratib, bu imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda yordam berish lozim [5; 35].

Albatta, ta’lim jarayoninini individuallashtirishda talabalarning o‘zlarida tabiiy tarzda paydo bo‘ladigan hislar, ya’niy o‘z harakatlarini rejalashtirishi, o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan harakatlari hamda o‘z-o‘zini anglash tuyg‘ulari bo‘lmas ekan yetuk darajadagi ta’lim mumkun emas. Ta’lim jarayonida talabalarga o‘z qiziqishlariga ko‘ra ma’lum bir tanlov imkoniyatlarining taqdim etilishi talabalarga ko‘proq mustaqillik, ta’lim natijalari bo‘yicha ma’suliyatni oshirish, muntazam o‘z ustida ishlash va kasbiy jihatdan rivojlanishga jiddiy e’tibor qaratish vazifasini yuklaydi.

Ta’lim jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limda ta’limni individuallashtirish tushunchasi hali ham pedagoglar va talabalar faoliyatida yetarlicha aks etmagan. Tadqiqotchilar E.P. Belozertsev, N.M. Boritko va boshqalarning ta’kidlashicha, o‘liy ta’limdagi ta’lim jarayonining individual yo‘naltirilganligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim oluvchining konstruktiv o‘zini rivojlantirish, o‘zini anglash va o‘zini namoyon qilish jarayonida shaxsiy ta’lim ehtiyojlari va ma’nolarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratishga qaratilgan bo‘lishi lozim [6].

Shu bilan birga, o‘z-o‘zini o‘qitish faoliyati shaxsiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, mutaxassis sifatida shakllanish jarayonida yetakchi vosita va shart sifatida ko‘riladi. Ushbu yondashuv ta’lim oluvchilarning turli xil ta’lim ehtiyojlari va qobiliyatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi, natijada esa individual ta’lim dasturlarini loyihalashda usul va vositalarning xilma-xilligi ta’minlanadi. Universitet ta’lim tizimida esa asosiy shakllantiruvchi omil talabalar tomonidan doimiy, tizimli va individual ta’lim faoliyatini olib borish hisoblanadi [7].

Oliy ta’lim tizimida ta’limni individuallashtirish tamoyili hali ham to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, uning ahamiyati va zarurati tobora ortib bormoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonini shaxsiy ehtiyojlar va qiziqishlarga moslashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini anglash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirishga, o‘z ta’lim dasturlarini loyihalashda erkinlik berishga hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi.

O‘z-o‘zini o‘qitish faoliyati mutaxassis sifatida shakllanish jarayonida muhim o‘rin tutadi, chunki u shaxsiy rivojlanishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu esa o‘liy ta’lim tizimida doimiy, tizimli va individual ta’lim faoliyatini olib borishni talab qiladi. Natijada, ta’lim oluvchilarning ehtiyojlariga ko‘ra ta’lim jarayonini moslashtirish, o‘qitish usullarini diversifikatsiya qilish va talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Individuallashtirilgan ta’lim yondashuvi ta’lim jarayonining moslashuvchanligini ta’minlab, talabalarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, nafaqat akademik bilimlarni egallashga, balki kasbiy jihatdan mustaqil shakllanishga ham yordam beradi. Shu sababli, ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini talabalarning shaxsiy ehtiyoj va qobiliyatlariga mos holda takomillashtirish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim trayektoriyasini loyihlash ta'lim jarayonining muhim qismidir. Bu jarayon talabaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga moslashtirilgan o‘quv yo‘lini yaratishning asosi hisoblanadi. Talabaning ta'lim trayektoriyasini to‘g‘ri loyihalash uning o‘quv jarayoniga yanada samarali tarzda qo‘shilishiga, muvaffaqiyatli o‘qishiga va kelajakdagi professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Birinchidan, talabalarning ta'lim trayektoriyalarini loyihlashni to‘g‘ri tashkil etish o‘quv jarayonida individual yondashuvni ta'minlash imkonini yaratadi. Har bir talaba o‘zining o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlariga ega bo‘lganligi sababli, o‘quv jarayoni faqat umumiy darsliklarga asoslanishi kerak emas. O‘qituvchilar va akademik maslahat beruvchilar talabaning qiziqishlari va bilim darajasiga qarab, ta’lim yo‘nalishlarini moslashtirishi zarur. Bu esa talabaning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, ta'lim trayektoriyasini to‘g‘ri loyihalash tizimdagi muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida har bir talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlari inobatga olingan holda ta'lim resurslari

taqsimlanadi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning barcha turdagi imkoniyatlardan teng foydalanishini ta'minlaydi. Masalan, ayrim talabalarda akademik qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin, lekin ular o‘zining qiziqishi va individual yondashuv yordamida muvaffaqiyatga erishishlari mumkin.

Shuningdek, ta'lim trayektoriyasini loyihalash, zamonaviy o‘quv tizimlarining, masalan, kredit-modul tizimining muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Kredit-modul tizimi, o‘quv dasturlarini moslashtirish, kurslarni tanlash va individual izlanishlarni rag‘batlantirish imkonini beradi. Bu tizimning asosiy maqsadi har bir talabaning ta'lim jarayonini optimallashtirish va ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam berishdir. Ta'lim trayektoriyalarini loyihalashni to‘g‘ri tashkil etish talabalarga o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida nafaqat talabaning akademik muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularning kelajakdagi professional faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan ta'lim trayektoriyasi o‘quv tizimini yanada samarali qiladi va talabalarning barcha ehtiyojlariga mos keladigan, individual yondashuvni ta'minlaydi.

Ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirish faqatgina xalqaro standartlarga mos darslik va metodik qo‘llanmalarni joriy etish bilan cheklanmaydi, balki davlat ta’lim standartlari asosida ishlab chiqilgan va sifatli yo‘lga qo‘yilgan tizim ham muhim omil hisoblanadi. Agar ta’lim trayektoriyalarini loyihalash bilan bog‘liq amalga oshirilgan ishlar zamonaviy pedagogik talablarga javob bermasa, ta’lim tizimidagi islohotlar kutilgan natijalarni bermasligi mumkin. Shu sababli, talabalarning uzluksiz intellektual va professional rivojlanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib, bu jarayonda innovatsion metodlarni qo‘llash, interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va xalqaro tajriba almashinuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning doimiy o‘z ustida ishlashi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi va ta’lim olishning samarali usullarini qo‘llashi ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli, talabalarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim.

Xorijiy til talabalarining **individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash** jarayonida diagnostika o‘tkazishning asosiy maqsadi – ularning shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlarini, bilim darajalarini, til bilish darajalarini aniqlash va belgilangan trayektoriya asosida ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishdir. So‘nggi yillarda, ta’lim tizimidagi islohotlar doirasida individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish va rivojlantirish zarurati kuchayib bormoqda. Chunki mavjud muammolar, jumladan, ta’lim jarayonida individual ehtiyojlarning yetarlicha inobatga olinmasligi, ta’limning faqat an’anaviy reja asosida olib borilishi, shaxsiy o‘sish va rivojlanishga yo‘naltirilgan tizimli yondashuvning yetishmasligi hamda o‘qituvchilar uchun motivatsion va huquqiy asoslarning yetarli emasligi, ushbu yo‘nalishda chuqur o‘zgarishlar zarurligini ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash mexanizmlarini joriy etish, ularni qo‘llab-quvvatlash va doimiy ravishda takomillashtirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, o‘tkazilgan so‘rovnomalarda bu jarayonda hali ham bir qator muammolar va to‘siqlar mavjudligi aniqlandi. Quyida ushbu yo‘nalishdagi asosiy muammolarni tahlil qilganmiz:

Normativ-huquqiy bazaning to‘liq shakllanmagani: Oliy ta’lim tizimida individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash bo‘yicha umumiy konseptual yondashuv mavjud bo‘lsa-da, uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan aniq metodik ko‘rsatmalar va me’yoriy hujjatlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ravishda ta’lim yo‘nalishlarini tanlashini ta’minlovchi huquqiy mexanizmlar hali to‘liq shakllanmagan.

O‘qituvchilarning yangi tizimga tayyorgarligi yetarli emas: Ta’lim muassasalarida individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish va ularni amalga oshirish bo‘yicha o‘qituvchilarning bilim va malakasi yetarli emas. O‘qituvchilarning aksariyati an’anaviy ta’lim usullariga tayanib, talabalar uchun individual yondashuvni joriy etish borasida tajribaga ega emas. Shuningdek, ushbu jarayonda murabbiylik (tyutorlik) tizimi rivojlanmagani sababli, talabalar o‘z ta’lim yo‘nalishini to‘g‘ri tanlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Amalda, asosan tyutorlar talabalarning tarbiya ishlari bilan shug‘ullanmoqda.

Individual yondashuvni amalga oshirish uchun yetarli infratuzilmaning mavjud emasligi: Aksariyat oliy ta’lim muassasalarida ta’limni individuallashtirishni qo‘llab-quvvatlaydigan zamonaviy texnologik platformalar va elektron resurslar yetarli emas. Talabalarning shaxsiy o‘quv dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish tizimlari hali to‘liq joriy etilmagan. Shu sababli, ta’lim jarayonini moslashuvchan tarzda tashkil etish qiyinchilik tug‘dirmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida elektron boshqaruv va nazoratni kuchaytirish maqsadida joriy etilgan **HEMIS (Higher Education Management Information System)** platformasi ta’lim jarayonini raqamlashtirish va talabalarning ta’lim traektoriyalarini shakllantirishga qaratilgan muhim tizimlardan biri hisoblanadi. Ushbu platforma orqali talabalar baholari, dars jadvali, fanlarga yozilish jarayonlari va kredit-modul tizimi monitoringi amalga oshiriladi. Biroq, amaliyotda HEMIS tizimining samarali ishlashi bo‘yicha muayyan muammolar mavjud. HEMIS tizimi asosan ta’lim jarayonining tashkiliy

boshqaruvi va hisobotlarini yuritish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirishda hali yetarlicha moslashuvchanlikni ta’minlamayapti. Talabalar uchun individual yondashuv asosida kurslarni tanlash, o‘ziga mos ta’lim dasturlarini ishlab chiqish yoki o‘quv jarayonini o‘z sharoitlariga mos ravishda rejalashtirish imkoniyatlari cheklangan. Mazkur tizimda talabaning kasbiy yo‘nalishi, qiziqishlari va ehtiyojlari asosida o‘qitish imkoniyatlari yetarlicha joriy etilmagan. HEMIS platformasi O‘zbekistonda oliy ta’lim jarayonini raqamlashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘lsa-da, uni individual ta’lim traektoriyalarini loyihalash va moslashuvchan ta’lim jarayonini shakllantirish uchun takomillashtirish zarur. Xususan, tizimni kredit-modul tizimi bilan uzviy bog‘lash, individual ta’lim traektoriyalarini loyihalash imkoniyatlarini kengaytirish, texnik muammolarni bartaraf etish va foydalanuvchilar uchun qulay interfeys yaratish talab etiladi. Aks holda, HEMIS faqatgina rasmiy nazorat tizimi sifatida qolib, talabalarning shaxsiy o‘quv jarayonlarini moslashuvchan boshqarish imkoniyatlarini cheklab qo‘yishi mumkin.

Kredit-modul tizimining to‘liq tatbiq etilmagani: Ayrim OTMlarda kredit-modul tizimi shakllangan bo‘lsa-da, uning individual ta’lim trayektoriyalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha imkoniyatlari cheklangan. Talabalar kurslarni erkin tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak bo‘lsa-da, ko‘plab hollarda universitetlar mavjud fanlarni belgilangan tartibda taqdim etib, moslashuvchanlikni cheklab qo‘ymoqda.

Talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha motivatsiyasining sustligi: Talabalarning o‘z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishi yetarli darajada shakllanmagan. O‘quv jarayoni asosan o‘qituvchi tashabbusiga asoslangan holda olib boriladi va talabalar mustaqil bilim olishga to‘liq tayyor emas. Bu esa individual ta’lim trayektoriyalarining samarali joriy etilishiga to‘sqinlik qiladi.

Respublikamizda individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash bo‘yicha muayyan islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, uni amaliyotga to‘liq tatbiq etish yo‘lida hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Bu borada, avvalo, normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, o‘qituvchilarni yangi tizimga tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish va talabalar uchun motivatsion mexanizmlarni yaratish zarur. Shu bilan birga, individual ta’lim trayektoriyalarini samarali baholash tizimini ishlab chiqish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ko‘rsatib o‘tilgan muammolar yechimi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi farmonin keltirishimiz mumkin. Ushbu farmonda individual ta’lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv rejalarni ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Ushbu farmon oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga mos ta’lim dasturlarini shakllantirish nazarda tutilgan [1].

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ta’lim sifatini oshirish va sohani ilg‘or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini amaliyotga kiritish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan[2].

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi OTMlarida individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha dastlabki qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, bu jarayonni yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun tizimli yondashuv hamda barcha ta’lim ishtirokchilarining faol hamkorligi zarur. Ushbu islohotlar aynan talabaning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash jarayonida uning hozirgi bilim va ko‘nikmalar darajasini diagnostika qilish hamda ushbu natijalar asosida moslashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda talabaga o‘zining ehtiyojlari va kasbiy maqsadlariga mos keluvchi ta’lim modullarini tanlash imkoniyati berilib, ularning zamonaviy mehnat bozoriga mos keladigan darajada shakllanishiga erishish maqsad qilib qo‘yilgan.

Talabalarning individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash va samarali shakllantirishda uzluksiz diagnostika jarayoni muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon orqali har bir talabaning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati, mustaqil fikrlash darajasi, shaxsiy qiziqish doirasi hamda kelajakdagi kasbiy yo‘nalishga bo‘lgan intilishlari aniqlanadi. Natijada talaba uchun eng maqbul, uning ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.

Uzliksiz diagnostika — bu ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida tizimli ravishda olib boriladigan kuzatuv, tahlil va baholash faoliyatidir. Mazkur yondashuv o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni faollashtiradi, talabaning o‘zini o‘zi anglash, o‘zini baholash hamda ta’lim jarayoniga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, uzluksiz diagnostika orqali o‘qituvchi har bir talabaning rivojlanish dinamikasini doimiy kuzatib boradi, zaruratga ko‘ra ta’lim mazmuni va metodikasiga o‘zgartirishlar kiritadi.

Xulosa qilib aytganda, individual yondashuv asosida tashkil etilgan bunday monitoring tizimi, ayniqsa

kredit-modul tizimida, ta’lim sifatini oshirish, talabalarning faolligini kuchaytirish hamda ularning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Bu esa o‘z navbatida, zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi O‘liy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni.

3. Abdullina, O. (1996). Democratization of education and training of specialists: problems and searches. Higher Education in Russia, 1.

4. Kuatbayevich, A. R. (2024). INDIVIDUAL TA’LIM TRAEKTORIYASI ORQALI TALABALARGA XORIJIY TILLARNI O ‘RGATISH JARAYONINING SAMARADORLIGINI TA’MINLOVCHI ASOSIY NAZARIY TAMOYILLAR. *Eurasian Journal of Academic Research*, *4*(12), 223-228.

5. Mitina, l. M. (1991). Individual approach and schematic typification of students. Questions of Psychology, 35, 28-35.

6. Сергеев Н.К. Воспитательная деятельность в вузе: концепция, технологии, организация: учеб.-метод. пособие / Н. К. Сергеев, Н. М. Борытко, Е. П. Белозерцев и др.; Федер. агенстство по образованию, гос. образов. Учреждение высш. проф. Образования «Волгогр. гос. пед. унт»; науч. ред. Н. К. Сергеев. – Волгоград: Перемена, 2006. – 174 с.

7. Smantser, A.P. (2012). Formation of a citizen and a professional in the conditions of university education. Collection of scientific papers. Eks-Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Гафарова Л.С.
доцент, заведующий кафедрой русского языка и литературы
Наманганского государственного института иностранных языков имени И.Ибрата
Мирзакбарова С.В.
студентка 2 курса магистратуры Наманганского государственного
института иностранных языков имени И.Ибрата
г .Наманга Узбекистан mail: mirzakbarova.sevda@inbox.ru

СПЕКТР ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ОБУЧЕНИИ РКИ

Аннотация. *В статье рассматривается спектр цифровых образовательных ресурсов (ЦОР), используемых при обучении русскому языку как иностранному (РКИ). Описываются различные виды цифровых материалов и платформ, которые влияют на процесс обучения РКИ, включая интерактивные учебники, онлайн-курсы, образовательные приложения, видеолекции и мультимедийные средства. Особое внимание уделяется преимуществам использования ЦОР для создания персонализированных учебных траекторий и повышения доступности образования для студентов независимо от их географического положения.*

Ключевые слова: *цифровые образовательные ресурсы, обучение РКИ, онлайн-курсы, интерактивные материалы, мультимедийные технологии, персонализация.*

Gafarova L.S.
I.Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti
rus tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, rus tili va adabiyoti kafedrasi mudiri
Mirzakbarova S.V.
I.Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti 2-kurs magistranti

RUS TILINI O‘QITISHDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARI SPEKTRIMI

Annotatsiya. *Maqolada rus tilini chet tili (RFL) sifatida o‘qitishda foydalaniladigan raqamli ta’lim resurslari (DER) ko‘rib chiqiladi. Maqolada RFLni o‘qitish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan turli xil raqamli materiallar va platformalar, jumladan interaktiv darsliklar, onlayn kurslar, o‘quv dasturlari, video ma’ruzalar va multimedia vositalari tasvirlangan. Shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘llarini yaratish va geografik joylashuvidan qat’i nazar, talabalar uchun ta’lim olish imkoniyatini oshirish uchun raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning afzalliklariga alohida e’tibor qaratilmoqda.*

Kalit so‘zlar*: raqamli ta’lim resurslari, rus tilini chet tili sifatida o‘qitish, onlayn kurslar, interaktiv materiallar, multimedia texnologiyalari, shaxsiylashtirish.*

Gafarova L.S.
associate Professor, Head of the Department of Russian Language and Literature
Namangan State Institute of Foreign Languages named after I. Ibrat
Mirzakbarova S.V.
2nd year master's student at Namangan State Institute of Foreign Languages named after I. Ibrat

SPECTRUM OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE

Abstract. *The article examines the range of digital educational resources (DER) used in teaching Russian as a foreign language (RFL). It describes various types of digital materials and platforms that influence the process of teaching RFL, including interactive textbooks, online courses, educational applications, video lectures, and multimedia tools. Particular attention is paid to the benefits of using DER to create personalized learning paths and increase the accessibility of education for students regardless of their geographic location.*

Key words: *digital educational resources, teaching RFL, online courses, interactive materials, multimedia technologies, personalization.*

Введение.

Ни для кого не секрет, что информационные технологии заполонили мир, в связи с эти мы можем заметить изменения в области образование. В настоящее время наблюдается тенденция использования цифровых образовательных ресурсов в преподавание русского языка как иностранного (РКИ). Цифровизация – магистральное направление технологического развития образования во всех странах мира, в том числе и в Узбекистане. Основой для перехода от бумажного школьного документооборота к электронному является Указ Президента Узбекистана от 29 апреля 2019 года № УП-5712 «Об утверждении концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» [5, С.54]. В рамках другого Указа Президента от 06.11.2020 г. № УП-6108 О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана.

Цифровизация образования открывает новые возможности для преподавателей и студентов, предоставляя вариативность инструментов для цифровой образовательной платформы Kundalik (ныне eMaktab) началось в ноябре 2018 года в школе №235 Юнусабадского района города Ташкента и уже сегодня к системе eMaktab подключены 10 157 школ по всему Узбекистану эффективного развития языковых навыков[4, С.68].

Цифровые образовательные ресурсы представляют собой различные виды контента и платформ, такие как интерактивные учебники, онлайн-курсы, образовательные приложения, видео уроки и тесты, которые помогают разнообразить традиционные методы обучения, что делает процесс обучения более гибким и эффективным. В обучении русскому как иностранному языку эти ресурсы имеют особое значение, поскольку позволяют создать комфортные условия для изучения языка, такие как: самоконтроль, доступность материалов в любое время и в любом месте, а также возможность активного вовлечения студентов в учебный процесс.

Несмотря на широкие возможности, использование цифровых образовательных ресурсов в обучении РКИ также сопряжено с определенными трудностями. Это связано с необходимостью подготовки преподавателей к эффективному использованию технологий, а также с вопросами доступности и качества цифровых материалов, особенно в условиях ограниченного доступа к интернету в некоторых регионах.

Цель данной статьи — рассмотреть спектр цифровых образовательных ресурсов, используемых при обучении русскому языку как иностранному, проанализировать их роль и влияние на процесс освоения языка, а также выявить преимущества и недостатки применения цифровых технологий в обучении. В статье также подчеркивается важность интеграции ЦОР в образовательную практику для формирования у студентов не только языковых, но и цифровых компетенций.

Основная часть.

Понятие информационно-коммуникационных технологий и их роль в образовании рассматривают многие ученные. В ряде работ фиксируется внимание на носителе информации: компьютерная среда обучения (Г. Е. Кедрова, А. М. Егоров), электронная образовательная среда (А. Л. Архангельская, О. В. Жигунова), онлайн-среда обучения (П. Л. Габдрахманова, Е. Н. Богатова, Л. Р. Мустафина), мультимедийная интерактивная обучающая среда (О. И. Руденко-Моргун, М. А. Бовтенко), цифровая среда обучения (А. А. Акишина, А. В. Тряпельников) [3, С.25]. В других исследованиях делается акцент на циркуляции информационных потоков, организованных в учебных целях: информационно-образовательная среда (А. Д. Гарцов), информационно-обучающая среда (Д. В. Смолин, Б. Л. Агранович, Е. М. Зайцева), информационноучебная среда (О. В. Константинова); либо подчеркивается ее принципиально новая природа: виртуальная образовательная среда (И. В. Нефедов), виртуальная языковая среда обучения (А. Н. Богомолов, А. А. Пылкова), виртуальная социокультурная среда (М. Н. Кожевникова, Е. А. Хамраева, В. В. Кытина) [1,с.50]; интеграция ее компонентов – полная либо частичная: дидактическая интегрированная среда (О. П. Крюкова, М. А. Бовтенко, Л. А. Дунаева). Долгое время вопрос о способах интеграции компонентов и элементов компьютерной образовательной среды в лингводидактических целях оставался наиболее дискуссионным[6, С.30]. По мнению Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) охватывают широкий спектр цифровых инструментов и методов, предназначенных для обработки, хранения, передачи и распространения информации с использованием компьютеров, сетевых технологий и мультимедийных средств. В образовании ИКТ включают как программные и аппаратные средства, так и разнообразные онлайн-платформы, которые становятся неотъемлемой частью учебного процесса. ИКТ в образовании позволяют не только повысить качество обучения, но и значительно расширить доступ к образовательным ресурсам [1, С.23], создавая новые возможности для учеников и преподавателей.

Одним из наиболее значимых аспектов внедрения ИКТ является повышение доступности информации. Использование интернет-ресурсов и цифровых платформ позволяет учащимся и преподавателям получать доступ к учебным

материалам, исследованиям, онлайн-курсам и другим образовательным ресурсам без привязки к месту или времени . Это особенно важно для дистанционного обучения, когда учебный процесс организован с помощью информационно-коммуникационных технологий и доступ к материалам и заданиям осуществляется через Интернет.

Формы и методы использования ИКТ в обучении

2020 год разделил историю на «до» и «после». До пандемии был старый привычный мир. «Цифра» уже активно входила в нашу действительность, инновационные технологии проникали во все сферы жизни общества, но еще чувствовался барьер между цифровым и аналоговым мирами. После 2020-го люди поняли, что живут в новой реальности, и возникла необходимость быстрой перестройки.

Цифровая образовательная платформа Kundalik уже на тот момент обладала всеми необходимыми функциями для организации дистанционного обучения в школах Узбекистана. Это позволило не прерывать учебный процесс, находясь дома, самостоятельно изучать предметы, дистанционно общаться с преподавателем.

ИКТ позволяют внедрять инновационные формы обучения, такие как дистанционное и смешанное обучение, которые становятся всё более популярными в современном образовательном процессе. Дистанционное обучение, которое широко используется в университетах и школьных системах по всему миру, позволяет обучать студентов без необходимости их физического присутствия на занятиях. Для этого используются платформы для видеоконференций, системы управления обучением (Learning Management Systems, LMS), электронные библиотеки и онлайн-курсы [3, С.67] . Одним из практических результатов этой деятельности стало создание мультимедийных средств полной интеграцией – лингвистической, дидактической и аппаратной, как, например, в учебной интернет-среде «В эфире Россия» А. Н. Богомолова [1, С.45] и других аналогичных ресурсах.

Смешанное обучение, как комбинированная форма, объединяет традиционные методы преподавания с цифровыми инструментами. Такой подход позволяет использовать интернет-ресурсы и мультимедийные материалы для теоретической части обучения, в то время как практическая работа и обсуждения могут проходить в классе. Такие методы способствуют развитию у студентов навыков самостоятельного поиска информации, а также более глубокому вовлечению в учебный процесс.

Не имея возможности представить в одной статье всю палитру цифровых ресурсов, разрабатываемых вузовским сообществом, остановимся на ЦОС РКИ двух организаций высшего образования, которые можно отнести к числу пионеров цифровизации сферы преподавания РКИ – Государственного института русского языка им. А. С. Пушкина (ГосИРЯ) и Института русского языка и культуры Московского государственного университета имени М. В. Ломоносова (ИРЯиК)

ИКТ также открывают новые возможности для индивидуализации обучения, что особенно важно для студентов с разным уровнем подготовки. Например, адаптивные образовательные системы, которые анализируют успехи студентов и на основе этого корректируют сложность заданий и учебных материалов, становятся всё более популярными в образовательных учреждениях. Это позволяет каждому студенту работать в своём собственном темпе, что повышает эффективность обучения.

Не имея возможности представить в одной статье всю палитру цифровых ресурсов, разрабатываемых вузовским сообществом, остановимся на ЦОС РКИ двух организаций высшего образования, которые можно отнести к ГосИРЯ имеет сообщества в мессенджере Telegram и социальных сетях «В Контакте» и «Одноклассники», а также на YouTube-канале «Институт Пушкина». ИРЯиК ведет активную работу в социальной сети «В Контакте», в мессенджерах Telegram и WeChat, на платформе «Яндекс.Дзен». Потребность в создании мотивационного контента порождает новые жанры цифровых ресурсов. В качестве примера можно привести рекламно-просветительский проект ИРЯиК «Приходи ко мне учиться!», включающий видеопрезентации преподавателей института и разделы «На уроках не скучно» с фрагментами интересных занятий по русскому языку и возможностью сразу перейти к выбору программы обучения, «После уроков интересно» с переходом на ленту новостей студенческой жизни, «Вас зовет Россия!» с видеоэкскурсиями по городам России, каждая из которых в мотивационных целях снабжена занимательными заданиями на понимание.

Преимущества использования ИКТ в образовательном процессе.

Одним из основных преимуществ ИКТ является повышение доступности образования. С помощью онлайн-курсов и цифровых учебников студенты могут учиться в любое время и в любом месте, что особенно актуально для людей, которые не могут посещать традиционные учебные заведения. В свою очередь, преподаватели получают возможность создавать более гибкие и адаптивные учебные планы, которые могут учитывать различные потребности студентов .

Развитие цифровых компетенций. Современное образование не может существовать без формирования у студентов цифровых навыков, таких как умение

работать с интернет-ресурсами, обрабатывать данные и использовать различные цифровые платформы. Внедрение ИКТ в образовательный процесс способствует подготовке студентов к жизни и работе в условиях цифрового общества [6, С.78].

Снижение затрат. Использование цифровых материалов вместо традиционных учебников и пособий может существенно снизить затраты на печатные издания и организацию учебного процесса. Это особенно важно для образовательных учреждений с ограниченным бюджетом, а также в условиях, когда необходимо предоставить доступ к образовательным ресурсам большому количеству студентов. Проблемы и вызовы внедрения ИКТ в образование.

В рамках данного компонента ведущими специалистами ГосИРЯ разрабатываются интерактивные авторские курсы по обучению чтению художественной литературы, аудированию, русскому речевому этикету, лексике, пониманию художественных фильмов и музыкальных клипов; лингвострановедческий словарь «Россия»; лингвокультурологические проекты «Встречи с Россией», «Путешествуйте по России и изучайте русский язык», «Смотрите, оценивайте и комментируйте видео об изучении русского языка и не только»; специалистами ИРЯиК – лингвокультурологические проекты «Пространство русских сказок и былин», «Русские промыслы», «Музыкально Цифровая средняя шкатулка», «Вас зовет Россия!», а также два масштабных культурно-просветительских онлайн-проекта «Русские субботы» и «Россия многоликая».

Несмотря на значительные преимущества, внедрение ИКТ в образовательный процесс сопряжено с рядом вызовов и проблем. Одной из наиболее актуальных проблем является неравномерный доступ к технологиям, особенно в отдалённых и сельских регионах. В некоторых странах и регионах мира многие студенты не имеют стабильного доступа к интернету или необходимым устройствам, что ограничивает возможности использования цифровых технологий в обучении .

Другим важным вызовом является подготовка преподавателей. Не все учителя обладают необходимой квалификацией для работы с ИКТ, что может привести к неэффективному использованию технологий. Программы повышения квалификации преподавателей и разработка учебных курсов, ориентированных на работу с цифровыми инструментами, становятся важной частью образовательных реформ.

Кроме того, использование ИКТ в образовании порождает вопросы, связанные с безопасностью данных. С увеличением объёма персональной и учебной информации, хранящейся в цифровом формате, возрастает угроза кибератак и утечек данных. Поэтому необходима разработка эффективных систем защиты информации и обеспечения конфиденциальности данных студентов и преподавателей.

Перспективы развития ИКТ в образовании. Будущее образовательных технологий связано с развитием искусственного интеллекта (ИИ), машинного обучения и блокчейн-технологий, которые способны значительно изменить способы преподавания и организации учебного процесса. ИИ и машинное обучение позволяют разрабатывать системы, которые автоматически адаптируют учебные материалы под потребности каждого студента, а также могут выполнять функции оценки и контроля учебного процесса. Блокчейн, в свою очередь, может обеспечить безопасное хранение и обмен данными, а также упростить процесс сертификации и верификации дипломов и сертификатов.

Заключение.

Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) играют ключевую роль в трансформации современного образовательного процесса, создавая новые возможности для повышения доступности, качества и гибкости обучения. Внедрение ИКТ позволяет существенно расширить границы традиционного образования, интегрируя цифровые инструменты, такие как онлайн-курсы, виртуальные классы, мультимедийные средства и системы управления обучением, что способствует более эффективному усвоению материала и развитию у студентов навыков самостоятельной работы.

Состав инструментальных средств ГосИРЯ включает образовательные платформы для разработки учебного контента и очного и дистанционного обучения иностранных учащихся: Canvas, Moodle, Blue Big Button. Инструменты и сервисы, используемые в ИРЯиК при разработке электронных учебных ресурсов и при организации учебного взаимодействия участников учебного процесса: платформа Moodle с функционалом создания личных страниц студента и преподавателя; вебинарные платформы Zoom и Voovmeeting; сетевые конструкторы для создания веб-упражнений LearningApps, World Wall; мобильные коммуникационные системы 13 irlc.msu.ru для передачи текстовых и голосовых сообщений WhatsApp, WeChat и др.

Основные преимущества применения ИКТ в обучении включают повышение доступности образовательных ресурсов, индивидуализацию учебного процесса, повышение мотивации студентов, а также развитие цифровых компетенций, которые становятся важнейшими навыками для будущих специалистов в условиях цифровой экономики. Технологии позволяют создавать гибкие и

персонализированные образовательные траектории, что значительно повышает качество обучения и способствует лучшему усвоению знаний.

Тем не менее, внедрение ИКТ сопряжено с рядом проблем, таких как неравномерный доступ к технологиям, проблемы с подготовкой преподавателей и безопасностью данных. Эти барьеры требуют комплексных решений на уровне образовательных учреждений, а также государственной и корпоративной политики, направленной на перспективы развития ИКТ в образовании. В Узбекистане на сегодняшний день насчитывается 10 163 общеобразовательные школы, что на 59 больше, чем в прошлом учебном году. 1440 (14%) из них находится в городах, 981 (10 %) – районных центрах, 7128 (70%) – сельской местности, 614 (6%) – отдаленных труднодоступных местах. Число учащихся, по сравнению с прошлым учебным годом, увеличилось на 139 158 человек и составляет 6 476 000 детей.

С внедрением системы электронных журналов и дневников школы Узбекистана, по инициативе МДШО, начали более активно оснащаться высокоскоростным интернетом, компьютерными классами. Связаны с дальнейшим внедрением инновационных технологий, таких как искусственный интеллект, виртуальная реальность и адаптивные системы обучения, которые могут дополнительно изменить образовательный процесс и предоставить новые возможности для эффективного и инклюзивного обучения.

Контролировать активность школ помогает Дашборд – инструмент для органов управления образования, внедренный в систему eMaktab. Он содержит данные по активности всех государственных школ в Узбекистане, подключённых к платформе, информация на ней обновляется еженедельно.

Пять лет назад платформе пророчили недолгое существование, но как видим, система не только прижилась, но и масштабировала возможности, дополнительные услуги, развивая при этом отрасль EdTech в Узбекистане. Мобильное приложение для учителя позволяет работать с журналом даже без подключения к сети Интернет, приложение для родителей и учеников позволяет отслеживать местонахождение детей, рейтинги по предметам, классам. Олимпиады, промежуточные экзамены теперь можно проводить в цифровом формате, быстро и максимально прозрачно. В Telegram-боте, в котором можно задать вопрос службе поддержки, теперь появилась возможность узнавать оценки детей, не заходя в приложение или веб-версию платформы.

Таким образом, информационно-коммуникационные технологии являются важным инструментом в эволюции образования, который не только способствует оптимизации существующих методов, но и открывает новые горизонты для учебного процесса, подготавливая студентов к вызовам цифрового будущего.

Литература.

1. Богомолов А.Н. Виртуальная среда обучения русскому языку как иностранному: лингвокультурологический аспект. М., 2008.

2. Козлова Л.С. Disciplines in the specialty as a means of developing the professional competence of future teachers of the Russian language //Educational Research in Universal Sciences. - 2023, 474-481.

3. Информационные технологии в обучении русскому языку как иностранному: история, современное состояние, перспективы: коллективная монография /Под ред. О.И. Руденко-Моргун, В.Б. Куриленко. - М., 2019.

4. Мирзакбарова С.В. Актуальные цифровые ресурсы для изучения русского языка как иностранного. // Научный вестник Наманганского государственного университета 4-е изд., 2024. 687- 691с.

5. Паспорт стратегии «Цифровая трансформация образования». docs.edu.gov.ru/document/267a55edc9394c4fd7db31026f68f2dd.

6. Шевченко, В.В. Цифровые компетенции студентов в условиях современного образования. — Рязань: РГУ, 2021.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abduqahhorova Mahliyo Farhodjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

INGLIZ TILIDA O‘QUVCHILARNING YOZUV MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDAGI QIYINCHILIKLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilini yozuv malakasining rivojlantirishni talabalarga o‘rgatishning ahamiyati haqida so‘z boradi. Mamlakatimizda Ingliz tilini o‘qitish uchun yaratilayotgan darsliklar, o‘quv dasturlari va Ingliz tilini qanday qilib tez va samarali o‘rgatish usullari, til o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘quv qollanmalari, dasturlar, tezkor o‘rganish, ko‘nikmalar, amaliy, motivatsiya, interaktiv o‘qitish.*

Абдукаххорова Махлия Фарходжон кызы
Базовый докторант Наманганского государственного университета

ИСТОРИЯ И ТЕОРИЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: *В данной статье обсуждается важность обучения студентов навыкам письма на английском языке. Представлены учебники и программы, создаваемые для преподавания английского языка в нашей стране, а также методики быстрого и эффективного обучения английскому языку и рекомендации по развитию навыков изучения языка.*

Ключевые слова: *учебники, программы, быстрое обучение, навыки, практические, мотивация, интерактивное обучение.*

Abduqahhorova Mahliyo Farhodjan kizi
Namangan State University Foundation doctoral student

HISTORY AND THEORY OF THE DEVELOPMENT OF WRITING SKILLS IN ENGLISH

Annotation: *This article discusses the importance of teaching students to develop writing skills in English. Textbooks, curricula, and methods for teaching English quickly and effectively in our country are presented, as well as recommendations for developing language learning skills.*

Keywords: *textbooks, programs, rapid learning, skills, practical, motivation, interactive learning.*

Kirish.

Yozish qobiliyatlari bugungi dunyoda juda yuqori kasbiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Axborot almashinuvi hajmi va sur’atlarining jadal o‘sishi, xalqaro professional aloqalarning asosiy vositasiga aylangan kompyuter aloqasining jadal rivojlanishi ustuvorliklarning o‘zgarishiga yordam berdi, kasbiy faoliyat sohasida yozma muloqotni birinchi o‘ringa olib chiqdi. Shu munosabat bilan xorijiy tillarni yozish sohasidagi ko‘nikmalar bugungi kunda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqomini oldi.

Pedagogikaning rivojlangan tajribalari hamda ta’limda erishilgan yutuqlarni amaliyotga olib kirish bugungi kunning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirda o‘qituvchi o‘z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo‘lgan ulkan tajribalar bazasi shakllangan va u kundan-kunga yanada boyib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, o‘qituvchilar va bo‘lg‘usi kasb egalari tomonidan ana shu tajribalarni o‘zlashtirib olishlari birmuncha mushkullik bilan amalga oshmoqda. Pedagogning mavqeyi ilg‘or tajribalarni vujudga keltirishda va ularni kasbdoshlari o‘rtasida ommalashtirishda, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ta’lim beruvchi yangi ilg‘or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etishda uning qimmati hamda qay darajada samarali ekanligiga e’tibor berishi kerak. O‘qituvchi amaliy faoliyatining innovatsiyaga yo‘nalganligi nazariy pedagogik tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatini beradi. Aynan mana shunday tadqiqotlar natijalarini ommalashtirish uchun ularni keng jamoatchilikka tanishtirish talab etiladi.

Ingliz tili dunyoda eng keng tarqalgan tillardan biri bo‘lib, uning yozuvi millionlab odamlar tomonidan o‘rganiladi. Biroq, ingliz tilining yozuvi ko‘pgina o‘rganuvchilar uchun jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi. Quyida ingliz tili yozuvini o‘rganishdagi asosiy qiyinchiliklarni ko‘rib chiqsak. Bugungi globallashgan dunyoda ingliz tili xalqaro aloqa, biznes, ilm-fan va texnologiya sohalarida eng muhim tillardan biri

hisoblanadi. Shu sababli ko‘plab insonlar ushbu tilni o‘rganishga intiladi. Biroq ingliz tilini o‘zlashtirish, ayniqsa, yozuv ko‘nik va mamalakalarni rivojlantirish jarayonida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bu qiyinchiliklar fonetik va orfografik tafovutlardan tortib, grammatik murakkabliklar, imloviy istisnolar va matnni to‘g‘ri shakllantirish bilan bog‘liq muammolargacha bo‘lishi mumkin. Ingliz tili boshqa ko‘plab tillardan farqli ravishda fonetik jihatdan murakkab tizimga ega bo‘lib, so‘zlarning talaffuzi va yozilishi o‘rtasida katta farqlar mavjud. Masalan, bir xil tovush turli xil yozilishi yoki bir xil yozilgan so‘zlar turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Bu esa yozuvni o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi. Bundan tashqari, ingliz tilining grammatik qoidalari ham ko‘plab istisnolarga ega bo‘lib, yangi o‘rganuvchilar uchun ularni eslab qolish qiyin bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ingliz tilidagi tovush va harflar mos kelmasligi ham til o‘rganuvchilarga bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi. Ingliz tilida so‘z talaffuzi va uning yozuvi ko‘pincha bir-biriga mos kelmaydi. Masalan, “through”, “though” va “tough” so‘zlari bir xil ko‘rinishga ega bo‘lsa ham, ularning talaffuzi butunlay farq qiladi. Bu esa yangi til o‘rganuvchilar uchun katta qiyinchilik tug‘diradi. Ingliz tili turli tillardan so‘zlarni qabul qilib olganligi sababli yozuv tizimi notekis rivojlangan. O‘tmishda yozuv isloh qilinmaganligi sababli eski talaffuz qoidalari sa Ingliz tilida qat’iy yozuv qoidalari mavjud bo‘lsa-da, ularda juda ko‘p istisnolar bor. Bunga sabab Ingliz tili turli manbalardan kelib chiqqan so‘zlarni o‘z ichiga olgani sababli yagona orfografik tizim yo‘q. Tarixiy jihatdan so‘zlarning yozilishi o‘zgarmay saqlanib qolgan. Muntazam ravishda orfografik mashqlar bajarish, orfografiya o‘rganishga yordam beradigan ilovalardan foydalanish (Grammarly, Hemingway App) yaxshi natijalar beradi. Yozma nutqni rivojlantirish jarayonida so‘z boyligini kengaytirish, tinish belgilaridan to‘g‘ri foydalanish va matn tuzilishini tushunish ham muhim hisoblanadi. Ko‘pchilik o‘quvchilar fikrlarini yozma ravishda aniq va mantiqiy ifodalashda qiynaladi. Bu esa nafaqat grammatik bilimlarni talab qiladi, balki matn tuzish, uslubni tanlash va yozma matnni tushunish kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantirishni taqozo etadi. Shuningdek, rasmiy va norasmiy yozuv uslublari farqlanishi, akademik va kasbiy yozuv talablariga moslashish zarurati ham o‘quvchilar uchun muhim bo‘lib qolgan.

Tahlil va natijalar.

Ingliz tilida ba’zi so‘zlarning imlosi juda uzun va murakkab. Ba’zi so‘zlar lotin va yunon tillaridan olingan. Ilmiy va texnik terminologiyada uzun so‘zlar ko‘p uchraydi. Bunday murakkab so‘zlarni bo‘laklarga ajratib o‘rganish, ko‘p ishlatiladigan uzun so‘zlarni yodlash va mashq qilish yaxshi natijalar beradi. Qisqartmalar va informal yozuv muammosi. Ingliz tilida juda ko‘p qisqartmalar va norasmiy yozuv shakllari mavjud. Masalan, “gonna” (going to), “wanna” (want to), “lol” (laugh out loud). Ushbu norasmiy shakllar rasmiy yozuv bilan aralashganda o‘rganuvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Ingliz tili doimiy ravishda o‘zgarib boradigan til, Internet va ijtimoiy tarmoqlar informal yozuv shakllarining keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Buning uchun rasmiy va norasmiy yozuv uslublarini farqlashni o‘rganish, qisqartmalar va norasmiy iboralarni matn tarkibida o‘rganish yaxshi natijalar beradi. Ingliz tili yozuvini o‘rganish ko‘pchilik uchun murakkab jarayon bo‘lishi mumkin, chunki u talaffuz va yozuv o‘rtasidagi farqlar, murakkab orfografik qoidalar, homofon va homograflar, uzun so‘zlar hamda informal yozuv shakllarini o‘z ichiga oladi. Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun muntazam ravishda mashq qilish, ilg‘or texnologiyalardan foydalanish va to‘g‘ri o‘quv strategiyalarini tanlash muhimdir.

Muhokamalar.

Yozish ko‘nikmasi haqida ko‘p bahslar yuritilishiga qaramay, ko‘p kitoblarda uni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Til o‘rganishga mo‘ljallangan darsliklarda asosan eshitib tushunish hamda gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarga juda katta e’tibor, o‘rin ajratiladi asosan nofilologik ta’lim muassasalari talabalari uchun. O‘tgan asrning 90-yillariga qadar chet tili darslarida yozish ko‘nikmasiga bo‘lgan e’tibor juda sust bo‘lib, rasmiy xatlar, formulyarlar va hokazolarni yozish tilda o‘z o‘rniga ega emas edi. Ammo internetning rivojlanishi bilan yozish ko‘nikmasini rivojlanishiga turtki bola boshladi.

Chet tili darslarida yozish ko‘nikmasini rivojlantirishni filologik ta’lim muassasalari talabalari uchun ikki bosqichdan iborat deb ko‘rsatiladi: 1-bosqich mashqlarni taqsimlash, tayyorlash, boshqarish, boshqa ko‘nikmalar (eshitib tushunish, o‘qib tushunish, gapirish, grammatika, so‘z boyligi, talaffuz)ni baholash. Ikkinchi bosqich esa aynan faqat yozuv ko‘nikmasini shakllantirish bosqichi hisoblanadi. Yozish ko‘nikmasini shakllantirish uchun bir necha mashqlar tipologiyasini keltirish mumkin. Unga oid eng yaxshi ma’lumotlarni E.V.Musnitskayava N.I. Gezning “The development of written speech skills of students of non-language institutes of higher education (in nonlanguage specialties)” nomli asarida o‘qish mumkin. Unga ko‘ra: Tayyorlovchi mashqlar – bunday mashqlar aynan yozish ko‘nikmasi uchun maxsus mo‘ljallanmagan bo‘lib, kelgusida yozish ko‘nikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan: So‘z boyligini ustida ishlash, uni kengaytirish, mustahkamlash, mavjud bilimlarni faollashtirish, iboralarni mustahkamlash, to‘g‘ri yozish mashqlarini amalga oshirish kabi. Bunday mashqlar o‘yin sifatida ham amalga oshirilishi mumkin. Nofilologik ta’lim muassasalari talabalari uchun asosan so‘z zanjiri o‘yini mashhur bo‘lib, ko‘plab chet tili o‘qituvchilari undan unumli foydalanib kelishadi. Bunday o‘yinlarda ham

plenumda, ham guruhlarda o‘tkazish mumkin. Musobaqa tarzida tashkillash ham juda yaxshi samara beradi. O‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi.

Ingliz tilida yozuv (writing) mahoratini oshirish uchun ko‘plab muhim mashq va uslublar mavjud. Quyida yozuv ko‘nikmasini rivojlantirishga doir asosiy muammolar (mushkullar) va ularni yengib o‘tish yo‘llari keltirilgan:

Asosiy muammolar:

1. So‘z boyligi (vocabulary) yetishmasligi

Yozishda bir xil so‘zlardan foydalanish yoki fikrni to‘liq ifoda etmaslik odatiy muammo.

2. Grammatik xatolar

Zamonlar, fe’l shakllari, artikllar yoki predloglardan noto‘g‘ri foydalanish.

3. Matn tuzilmasini bilmaslik (structure)

Kirish, asosiy qism va xulosa kabi bo‘limlarni noto‘g‘ri yoki chalkash yozish.

4. Fikrni ifoda qilishda qiynalish

O‘z fikrini mantiqiy va tushunarli tarzda bayon qila olmaslik.

5. Imlo (spelling) va punktuatsiya xatolari

So‘zlarni noto‘g‘ri yozish va nuqta, vergul kabi belgilarni to‘g‘ri qo‘llay olmaslik.

Yozuv mahoratini oshirish bo‘yicha mashqlar:

1. Har kuni qisqa esse yozish

Masalan: My favorite food, A place I want to visit, The importance of education.

2. Yaxshi matnlarni o‘qib, tahlil qilish

Inglizcha maqolalar, bloglar yoki hikoyalarni o‘qib, ularning tuzilmasini o‘rganish.

3. Yangi so‘zlarni o‘rganib, jumla tuzish

Har kuni 5–10 ta yangi so‘z o‘rganing va ularni jumlada ishlatishga harakat qiling.

Xulosa.

Yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o‘z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog o‘qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta’lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishlari lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilining dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni va nufuzi ortib borar ekan, uni bizning vatanimizda ham zamon talabida o‘rganilishini yo‘lga qo‘yish kerak. Bunda ingliz tilini o‘rganishda asosiy o‘rin egallaydigan to‘rt malakaning har birini to‘laqonli o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu malakalar tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish (TGO‘Yo)lardir va tilni samarali o‘zlashtirish ularning barchasini rivojlantirish talab qilinadi. Til ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonini bir tizimga solib loyihalashtirish va rejalashtirish, buning uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Artemov V.A. Pcixologiya obucheniya inoctrannomu yazыku. – M.: “Pedagogika”, 1989.– S.103.

2. Bim I. L. Nekotorыe aktualnыe problemы covremennogo obucheniya inoctrannым yazыkam.- YAISH. 2001, № 4.– S.39

3. Yoralieva U.Q. Maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishning o‘ziga xosxususiyatlari va unda interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari. Zamonaviy ta’lim jurnali. –T., 2014, 9-son.–27 b.

4. Мансуров, Н., & Жалилова, В. (2021). МЕТОДИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ-НАУЧНАЯ ОТРАСЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ. Збірник наукових праць SCIENTIA. https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/scientia/issue/view/26.03.2021/487

5. Valiev, A. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. Збірник науко вихпраць SCIENTIA. Вилучено із https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/scientia/article/view/10540

6. BULATOV, S., & JABBAROV, R. (2016). № 2 National traditional basis of symbol of Khumo. Central Asian Journal of Education, 1.

7. Жаббаров Рустам Равшанович (2016) Ўзликни англашнинг психологик асослари. The organization of innovative activities of the teachers: Problems and solutions. pp-444-445.

8. BULATOV, S., & JABBAROV, R. (2016). № 2 National traditional basis of symbol of Khumo. Central Asian Journal of Education, 1.

9. Cook, V. (2004). The English Writing System. Routledge.

10. Yule, G. (2016). The Study of Language. Cambridge University Press.

11. Nation, I. S. P. (2009). Teaching ESL/EFL Reading and Writing. Routledge.

12.Swan, M. (2016). Practical English Usage. Oxford University Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Akimov Qurbaniyaz Jumaniyazovich
QDU stajyor o‘qituvchisi

14-16 YOSHLI GANDBOLCHILARNING KUCH SIFATINI MAXSUS MASHQLAR MODELI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqola, 14-16 yoshli sportchilarning kuch sifatini rivojlantirishda samarali bo‘lgan maxsus mashqlarni ishlab chiqish va qo‘llashni ko‘rib chiqadi. Maqolada, 14-16 yoshli gandbolchilarning muskul kuchini oshirish, ularning chidamliligi, tezligi va reaksiya tezligini yaxshilash uchun moslashtirilgan mashqlar tizimi taqdim etiladi. Ushbu model, sportchilarning individual xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda, har bir sportchi uchun maxsus yondashuvni talab qiladi. Maqolada kuch sifatining turli ko‘rinishlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish texnikasi, ularning to‘g‘ri bajarilishi va bunda yuzaga keladigan ehtimoliy jarohatlar xavfini kamaytirish masalalari ham muhokama qilinadi. Maxsus mashqlar yordamida 14-16 yoshli gandbolchilarning kuchi rivojlantirilishi natijasida, ularning o‘yin davomida ko‘rsatgan natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi. Ushbu model, yosh sportchilarni raqobatbardosh qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Yosh gandbolchilar, Jismoniy tayyorgarlik, Kuch sifatini rivojlantirish, Maxsus mashqlar, Sportchilarning kuchi, Muskul kuchi, Tayyorlov dasturi, Chidamlilik, Reaksiya tezligi, Mashq texnikasi, Sport jarohatlari, Sport natijalari, Raqobatbardoshlik.*

Акимов Курбанийяз Джуманиязович
Стажер-преподаватель КГУ

РАЗВИТИЕ СИЛОВЫХ КАЧЕСТВ ГАНДБОЛИСТОВ 14-16 ЛЕТ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация: *В данной статье рассматривается разработка и применение специальных упражнений, эффективных для развития силовых качеств спортсменов 14-16 лет. В статье представлена система упражнений, адаптированная для наращивания мышечной силы гандболистов 14-16 лет, улучшения их выносливости, скорости и быстроты реакции. Данная модель требует особого подхода к каждому спортсмену с учетом индивидуальных особенностей и уровня подготовки спортсменов. В статье также будут рассмотрены техники выполнения упражнений, направленных на развитие различных проявлений силовых качеств, их правильное выполнение и снижение риска возможных травм, возникающих при этом. В результате развития силы гандболистов 14-16 лет с помощью специальных упражнений значительно улучшаются результаты, которые они показывают в ходе игры. Эта модель делает молодых спортсменов более конкурентоспособными.*

Ключевые слова: *юные гандболисты, физическая подготовка, развитие силовых качеств, специальные упражнения, сила спортсменов, мышечная сила, программа тренировок, выносливость, скорость реакции, техника упражнений, спортивные травмы, спортивные результаты, конкурентоспособность.*

Akimov Qurbaniyaz Jumaniyazovich
Intern Lecturer at QDU

DEVELOPMENT OF STRENGTH QUALITIES IN 14-16-YEAR-OLD HANDBALL PLAYERS BASED ON A MODEL OF SPECIALIZED EXERCISES

Abstract: *This article discusses the development and application of special exercises effective for the development of strength qualities of athletes aged 14-16 years. The article presents an exercise system adapted to build the muscle strength of handball players aged 14-16 years, improve their endurance, speed and reaction speed. This model requires a special approach to each athlete, taking into account the individual characteristics and level of training of athletes. The article will also consider techniques for performing exercises aimed at developing various manifestations of strength qualities, their correct implementation and reducing the risk of possible injuries that occur during this process. As a result of the strength development of handball players aged 14-16, the results they show during the game are significantly improved with the help of special exercises. This model makes young athletes more competitive.*

Keywords: *young handball players, physical fitness, strength development, special exercises, athletes' strength, muscle strength, training program, endurance, reaction speed, exercise technique, sports injuries, athletic performance, competitiveness.*

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratib, ushbu yo‘nalishda muhim qaror va farmonlarni qabul qilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.11.2021 yildagi PQ-5279-son “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari sport turlarini ommalashtirish, yosh sportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu huquqiy hujjatlar asosida sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro musobaqalarda raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash hamda innovatsion mashg‘ulot usullarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Gandbol sport turi ham mamlakatimizda rivojlantirilayotgan muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, yosh sportchilarning kuch sifatlarini maxsus mashqlar modeli asosida shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki jismoniy sifatlarning, ayniqsa, kuch ko‘rsatkichlarining yetarli darajada rivojlanganligi 14-16 yoshli gandbolchilarning umumiy harakat faolligi va sport natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, maxsus mashqlar modeli asosida yosh gandbolchilarning kuch sifatlarini rivojlantirish masalasini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganish mamlakat sport tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili.

Masalan, xorijiy olimlardan, Раткинов Анатолий Александрович “Дифференцированный подход к скоростно силовой подготовке гандболистов 14-16 лет” Turli ampluadagi gandbolchi qizlarning tezkor-kuch tayyorgarligi uchun vosita va usullarni tanlashda; yosh gandbolchi qizlarning tezkor-kuch tayyorgarligi darajasini kompleks nazorat qilish tizimi ishlab chiqilgan;

Котов Юрий Николаевич “Контроль эффективности техники броска в прыжке гандболисток разной квалификации” Tashlash texnikasini nazorat qilish va takomillashtirish jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish yuqori malakali gandbolchi qizlarning ham texnik tayyorgarligini oshirishga samarali ta’sir ko‘rsatishi mumkin degan fikirga kelgan. Ishda gandbolchi qizlarning sakrashda uloqtirish texnikasini takomillashtirish uchun amaliy ishlar uchun vosita va uslubiy usullarni tanlash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Hotamov Mumin Axmadovich va Ergasheva Madina Baxriddin qizi tomonidan olib borilgan tadqiqotda 10-12 yoshli gandbolchilar uchun maxsus mashqlar dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dastur tezkorlik sifatlarini ixtisoslashtirilgan mashqlar yordamida shakllantirish samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maxsus mashqlarni qo‘llash yosh gandbolchilarning tezkorlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Mahalliy olimlardan, Kuralbayev Azizbek Kuralbayevich tomonidan “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida yosh gandbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish uslibiyati” mavzusida shundaki, bolalar-o‘smirlar sport maktablarining boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi gandbol sport turi bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirish uslubiyatini to‘ldiradi hamda 7-12 yoshli gandbolchilar uchun “Mini-gandbol” mashg‘uloti va u asosda ishlab chiqilgan uch bosqichli modul hamda kaskad usuli yordamida o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirilgan.

Ushbu tadqiqotlar yosh gandbolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirishda maxsus mashqlar va nazorat usullarining samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xorijiy ilmiy manbalarda ham yosh sportchilarning kuch sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha turli usullar va yondashuvlar o‘rganilgan. Masalan, kuch-quvvat mashqlari, plyometrik mashqlar va funksional tayyorgarlik dasturlari yosh gandbolchilarning kuch ko‘rsatkichlarini oshirishda samarali ekanligi aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda, yosh gandbolchilarning kuch sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar maxsus mashqlar va nazorat usullarining samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan dasturlar yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar va tahlillar.

Yosh gandbolchilarning kuch sifatini maxsus mashqlar modeli asosida rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini tashkil qilish zarurati bor. Shu jihatdan Yosh gandbolchilarning kuch sifatini maxsus mashqlar modeli asosida rivojlantirib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Metodikasi 14-16 yoshli gandbolchilarning sport natijalarini yaxshilashda kuch sifatlarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Kuch jismoniy tayyorgarlikning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, gandbolchilarning sakrash, tezkorlik, chidamlilik va portlovchi kuch kabi qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maxsus mashqlar yordamida sportchilarning nafaqat umumiy jismoniy salohiyati, balki muskul tolalari faolligi va energiya ta’minoti tizimlari ham rivojlanadi. Ushbu uslubiyat 14-16 yoshli gandbolchilarning kuch sifatlarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar modelini ishlab

chiqishga, ularning harakat koordinatsiyasini yaxshilashga va jarohatlarga chidamliligini oshirishga qaratilgan. (1-jadval)

Gandbolchilarning kuch sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, plyometrik mashqlar va portlovchi kuchni rivojlantirish usullari sportchilarning natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [Bompa & Haff, 2009].

Rossiyalik olimlar Platonov [2015] va Verkhoshansky [2018] o‘z tadqiqotlarida maxsus kuch mashqlari yordamida sportchilarning umumiy chidamliligi va muvozanatini oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar. Shuningdek, Yevropa va AQShda o‘tkazilgan tadqiqotlarda [Newton & Kraemer, 2013] qarshilik bilan bajariladigan mashqlar gandbolchilarning kuch sifatlarini sezilarli darajada oshirishga yordam berishi aniqlangan.

Ushbu metodikaning asosiy maqsadi 14-16 yoshli gandbolchilarning kuch sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar modelini ishlab chiqish va ularning jismoniy tayyorgarligini oshirishdir. (1-rasm)

14-16 yoshli gandbolchilar uchun mashg‘ulotlarning muhim jihati mushaklarni mustahkamlash, chidamlilik, tezlik va koordinatsiyani yaxshilash orqali umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish va ularni o‘yin talablariga moslashtirishdir. Biroq, bu yoshda mushaklar va bo‘g‘imlar hali rivojlanish bosqichida ekanligini unutmaslik lozim. Shu sababli, mashg‘ulotlar xavfsiz va yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi kerak.

1-jadval

O‘quv-mashq mashg‘ulot turlari


Vazifasi: kuch sifatlarini tarbiyalash.

Metodlar: Doiraviy mashg‘uloti.

Vositalar: kuch yo‘nalishidagi mashqlar.

Inventar: Yugurish to‘siqlar; medbol 1kg, TRX snaryadi, Ispander va rezinalar, Zinapoyalar,

T/r	***Mashg‘ulot nomi***	***Yuklamalar xajmi***	***Tashkiliy uslubiy ko‘rsatmalar***
1.	*Umumiy rivojlantirish mashqlar*	10-daqiqa	Shu jumladan yugurish mashqlari va egiluvchanlik mashqlari
2.	*30 metrga yugirish (soniyada)*	3 marta takrorlash	Maksimal tezlikda
3.	*Qarshilikda zik-zak holatda yugirish (15 m bo‘rib qaytish) (soniyada)*	3-marta	Maksimal qarshilikda
4.	*Beshta barerda ekki ayoqda sakrash (50-60 sm) (soniyada)*	6-marta	Maksimal tempda
5.	*Espanderlar yoki pulsatsion snaryadlar yordamida qarshilikka qarshi yugurish (20-metr) (soniyada)*	3-marta	Maksimal tempda
6.	*O‘tirip turish*	15-marta	Qollar oldinga chozilgan holda o‘tirib turish
7.	*Dam*	2-3 daqiqa	Hordiq chiqarish mashqlari
8.	*Qo‘lga tayangan holda uni bukib yozish mashqi (otjimaniya)*	15-marta	Qo‘lga tayangan holda uni bukib yozish mashqi
9.	*Sakrash uchun zinapoyali pliometriya mashqi (15-Zinapoyadan sakrab o‘tish) (soniyada)*	3-marta	Maksimal tempda
10.	*Medbol 1 kg ekki qolda zarba berish (*marta)	Xar qo‘lda 2 daqiqa	Qollar to‘liq chozilgan holda maksimal tezlikda
11.	*Kuch sheykeri (Rezina tasma bilan mashq) (marta)*	3-daqiqa	Maksimal tempda
12.	*Funksional trenajyorlar (TRX, halqalar) dan foydalangan holda mashq qilish (marta)*	15-daqiqa qo‘l va oyaqda ishlash	Koordinatsiyani ushlagan holda maksimal tempda
13.	*Dam*	2-3 daqiqa	Hordiq chiqarish mashqlari
Doiraviy mashg‘ulotning to‘liq sikli 3 marta takrorlanadi			
14.	*Qayta tiklash mashqlari*	5-daqiqa	*Nafas mashqlari, yurish*
15.	*Stretching (cho‘zilishlar*)	10-daqiqa	Mustaqil ravishda



1-rasm Kuch sifatlarini rivojlantirish model sxemasi.

Yil davomida ushbu metodika bo‘yicha, kuch sifatlari bo‘yicha 4 ta test sinovlari o‘tkazildi.

Pedagogik tajriba-sinov yakunida sinovdan o‘tgan sinaluvchilarning kuch sifati tayyorgarligini baholash natijalari 2-jadvalda keltirilgan. 3-rasmda yosh gandbolchilarning tajribadan keyingi tezkor-kuch tayyorgarligi ko‘rsatkichlari nisbati keltirilgan.

14-16 Gadbolchilarning tajribadan keyingi kuch tayyorgarligi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqlarning ishonchliligi n=36

Guruhlar / Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi n=18	Nazorat guruhi n=18
30 metrga yugirish		
X	*4,9*	*5,03*
m	*0,046*	*0,028*
t	*-2,407*	
P	*0,039*	*p<0.05*
Uzunlikga sakrash (sm)		
X	*208,4*	*199*
m	*2,962*	*1,167*
t	*2.505*	
P	*0,033*	p>0.5
Uch hatlab sakrash (sm)		
X	*628,8*	*602,6*
m	*9,126*	*1,627*
t	*2,335*	
P	*0,044*	*p>0.5*
Qo‘lga tayangan holda uni bukib yozish mashqi 15 soniya (otjimaniya)		
X	*17*	*14,5*
m	*0,6*	*0,62*
t	*2,865*	
P	*0,018*	*p<0.05*
Medbol uloqtirish 1 kg (m)		
X	*17.25*	*14,9*
m	*0.633*	*0,519*
t	*3,019*	
P	*0.014*	*p<0.05*
O‘tirgan holda 1 kg medbol uloqtirish (m)		
X	*5,85*	*5,7*
m	*0,212*	*0,145*
t	*0.514*	

P	*0,619*	*p<0.05*
O'tirgan holda 3 kg medbol uloqtirish (m)		
X	*7,65*	*6,4*
m	*0,332*	*0,197*
t	*2.908*	
P	*0,017*	*p<0.05*
3 kg medbolni orqaga o'tirib uloqtirish (m)		
X	*8,*	*7,05*
m	*0,325*	*0,193*
t	*3,049*	
P	*0,013*	*p<0.05*
Qo'lsiz uzunlikka sakrash (sm)		
X	*171,4*	*162,4*
m	*1.972*	*1,298*
t	*3,914*	
P	*0.003*	*p>0.5*
Tezlikga yugirish 6 (m)		
X	*1.285*	*1,34*
m	*0,016*	*0,008*
t	*-3,555*	
P	*0,006*	*p>0.5*

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 30 metrga yugurish sinovida tajriba guruhining o'yinchilari yuqori natijani qayd etdi. Ularning ko'rsatkichlari nazorat guruhi o'yinchilarinikidan sezilarli darajada farq qiladi ($p < 0,05$).

Turgan joydan uzunlikka sakrash sinovida ham yaxshi natijani yana tajriba guruhining o'yinchilari, eng pastini esa nazorat guruhining o'yinchilari qayd etdi. Tajriba guruhining o'yinchilarining ko'rsatkichi nazorat guruhining o'yinchilaridan sezilarli darajada yuqori ($p < 0,05$).

Uch hatlab sakrash sinovida tajriyba guruhi ko'rsatkichi nazorat guruhi o'yinchilaridan ishonchli tarzda ($p < 0,05$) yuqori bo'ldi.

15 soniya davomida qo'llarni bukib-yozish testi bo'yicha tajriba guruhining o'yinchilari eng yaxshi natijani ko'rsatdi. Ularning ko'rsatkichi nazorat guruhining o'yinchilariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ($p<0,05$) bo'ldi.

1 kg li to'ldirma to'pni uzoqqa uloqtirish ko'rsatkichi bo'yicha tajriba guruhining o'yinchilari eng yaxshi natijani qayd etdi. Ularning ko'rsatkichlari nazorat guruhi o'yinchilariga nisbatan ishonchli tarzda ($p<0,05$) yuqori bo'ldi.

Tajriba guruhi o'yinchilarining ko'rsatkichlari nazorat guruhi o'yinchilarining 1 kg li to'ldirma to'pni ikki qo'llab o'tirib uzoqqa uloqtirish testi bo'yicha ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada ($p<0.01$) yuqori bo'ldi.

3 kg li to'ldirma to'pni ikki qo'llab orqaga o'tirgan holda eng uzoqqa uloqtirish tajriba guruhi o'yinchilari tomonidan amalga oshirildi. Ularning natijalari nazorat guruhi o'yinchilarining ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada ($r<0,05$) farq qiladi.

Testda qo'llar yordamisiz uzunlikka sakrash tajriba guruhining o'yinchilarida eng yaxshi natija ko'rsatdi. Ularning ko'rsatkichi nazorat guruhining o'yinchilariga nisbatan ishonchli yuqori bo'ldi ($p<0.05$)

6 metr tezlanish testi bo'yicha tajriba guruhining o'yinchilari eng yaxshi natijani ko'rsatdi. Ularning natijasi nazorat guruhi o'yinchilarining natijasidan ishonchli yuqori bo'ldi ($p<0.01$)

O'yinchilarning tajribadan keyin olingan test ma'lumotlarini tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, gandbolchilarning kuch sifati tayyorgarligi turli testlarda tajribadan oldin o'tkazilgan test ko'rsatkichlari bilan solishtirganda katta farqlarga ega. Uloqtirish va qo'llarni bukib-yozish testlarida tajriba guruhining o'yinchilari boshqa sinaluvchilardan, shu jumladan, nazorat guruhining o'yinchilaridan sezilarli darajada ustunlik qildi ($p < 0.05$), 1 kg to'ldirma to'pni ikki qo'llab o'tirib uloqtirishda eng katta farqlar kuzatildi ($p < 0.01$), Shu bilan birga, tajriba guruhining o'yinchilari yugurish va sakrash testlarida boshqa sinaluvchilarga nisbatan yuqori natijalarni ko'rsatdi ($p < 0.05$),

Bundan kelib chiqadiki, tabaqalashtirilgan yondashuvda o'quv-mashg'ulot jarayonida bajariladigan kuch sifati yo'nalishidagi ish o'yinchilarida muvaffaqiyatli musobaqa faoliyatini olib borishi uchun eng zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni oshirishga yordam beradi.

Xulosa.

1. Gandbol jismoniy qobiliyatlarning murakkab namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi, ular orasida kuch sifatlarini rivojlantirish asosiy o'rinni egallaydi. 14-16 yoshli gandbolchilarning maqsadli kuch tayyorgarligi samarali sport texnikasini o'zlashtirish uchun qulay sharoitlarni yaratish, gandbolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik poydevorini ta'minlash imkonini beradi. Bunda chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv bosqichida turli o'yin yo'nalishidagi sportchilarning kuch sifatlarini rivojlantirishda "tabaqalashtirilgan yondashuv" zarur bo'ladi.

2. 14-16 yoshli gandbolchilar bilan ishlaydigan murabbiylar orasida o'tkazilgan so'rovnoma yillik siklda kuch tayyorgarligi tizimini tuzish va mazmuniga oid mavjud yondashuvlar majmuasini aniqlash imkonini berdi. Xususan, musobaqa faoliyatida o'yinchilar tomonidan bajariladigan kuch yo'nalishidagi yuklamalar hisobga olingan. Sport maktablaridagi mashg'ulotlarda kuch tayyorgarligiga umumiy jismoniy tayyorgarlik hajmining 28-29% vaqti ajratiladi.

3. Maxsus mashqlarni muntazam ravishda amalga oshirish yosh sportchilarda kuch sifatini rivojlantirishga turtki beradi. O'zgaruvchan yuklama va turli darajadagi mashqlar, sportchilarning moslashuvchanlik qobiliyatini oshiradi, bu esa o'yin samaradorligini yaxshilaydi.

Yosh gandbolchilarning kuch sifatini rivojlantirishda psixologik holat ham muhim rol o'ynaydi. Mashqlarni davom ettirish va motivatsiyani saqlash, sportchilarning

mushak kuchi va chidamliligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Psixologik barqarorlik va qat'iyatlilik muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi.

3. 14-16 yoshli gandbolchilarda SM da an'anaviy qo'llaniladigan kuch yo'nalishidagi yuklamalarning tuzilishi, yo'nalishi, tayyorgarlik mazmuni va asosiy ko'rsatkichlari aniqlandi. Bu quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Gandbol o'yinchilari musobaqa faoliyatida kuch xususiyatiga ega turli vazifalarni bajaradilar;

o'quv-mashg'ulot jarayonida o'yinchilari UJT bo'yicha mashg'ulotlarda kuch sifatlarini rivojlantirishda bir xil ishni bajaradilar;

Sport maktablarida an'anaviy mahg'ulotlarda kuch yo'nalishidagi yuklamalar ko'pincha umumiy jismoniy tayyorgarlikka asoslangan bo'lib, unda mushak kuchi va chidamlilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda, asosan, klassik kuch mashqlari (turli xil qiyinchilikka ega mashqlar, ko'tarishlar, tormozlash va boshqalar) amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv ko'plab sportchilarni umumiy fizik tayyorgarlikni oshirishda samarali bo'lishi mumkin, ammo ayni paytda sportning aniq turi bo'yicha maxsus moslashuvni ta'minlamaydi.

Maxsus model mashg'ulotlari 14-16 yoshli gandbolchilarning sportga xos ehtiyojlarini inobatga olib, yuklamalarni maqsadli ravishda tuzishga imkon beradi. Bunday mashqlar yordamida sportchilarning kuchi faqat umumiy kuchni rivojlantirishga qaratilmay, balki gandbol o'yinidagi turli vaziyatlarga mos ravishda, masalan, tezkor eksploziv kuch, statik kuch, chidamlilik va tezlikni oshirishga ham yo'naltiriladi.

Maxsus model mashg'ulotlarining asosiy afzalligi shundaki, ular sportchilarning muskul guruhlarini aniq maqsadli tarzda tayyorlashga imkon beradi va shu bilan birga ularning mushak tizimini o'yin sharoitlariga moslashtiradi. Bu esa sportchilarning o'yin samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tayyorgarlik mazmuni va asosiy ko'rsatkichlar:

Maxsus model mashg'ulotlarida tayyorgarlik mazmuni sportchilarning aniq ehtiyojlariga qarab tuziladi. Bunda, kuchning eksploziv, maksimal va izchil shakllarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Asosiy ko'rsatkichlar sifatida kuchning yuqori intensivlikda bajarilishi, shuningdek, sportchilarning harakatlar tezligi va o'yin vaqtida kuchni to'g'ri taqsimlash ko'rib chiqiladi. Mashqlarni maxsus modelga asoslangan holda o'tkazish, yosh sportchilarning tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshiradi va o'yinlarda yuqori natijalar ko'rsatishga imkon beradi.

Maxsus model mashg'ulotlari bilan taqqoslaganda an'anaviy yondashuvlarning kamchiliklari:

An'anaviy mashqlar ko'proq umumiy jismoniy tayyorgarlikka qaratilgan bo'lib, ba'zan sportchilarning o'ziga xos ehtiyojlariga javob bermaydi. Misol uchun, an'anaviy yuklamalar ko'pincha sportchilarning ko'pchiligiga mos keladigan va bir xil turdagi mashqlardan iborat bo'ladi, ammo bu barcha sportchilarning o'yiniga to'liq mos kelmaydi. Maxsus model mashg'ulotlarida esa sportchilarning individual xususiyatlari, o'yin davomida yuzaga keladigan vaziyatlar va maqsadlar inobatga olinadi.

Umuman olganda 14-16 yoshli gandbolchilarning kuch sifatini rivojlantirishda an'anaviy yondashuvlar samarali bo'lishi mumkin, ammo maxsus model mashg'ulotlarining afzalliklari aniq va maqsadli tayyorgarlikni ta'minlaydi. Bu esa sportchilarning kuch sifatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi, o'yinlarda muvaffaqiyatga erishishda muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2018 yildagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, PF-5368-son Farmoni. lex.uz

2. 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son Farmoni, lex.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.11.2021 yildagi Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5279-son qarori, lex.uz

4. Абалян А.Г., Ратников А.А. Скоростно-силовая подготовка гандболисток различной игровой специализации на основе дифференцированного подхода// Проблемы физической культуры населения, проживающего в условиях неблагоприятных факторов окружающей среды: Сборник научных статей VI Международной научно-практической конференции: Гомель, 2005 год.- С.89-90.

5. Ратников А.А. Особенности скоростно-силовой подготовки гандболисток на этапе углублённой тренировки// Проблемы физической культуры населения, проживающего в условиях неблагоприятных факторов окружающей среды: Сборник научных статей VI Международной научно-практической конференции: Гомель, 2005 год. С. 150-151.

6. Ратников А.А. Скоростно-силовые упражнения юных гандболисток //Человек, здоровье, физическая культура и спорт в изменяющемся мире: Материалы XVI международной практической конференции. Коломна, 2006. С. 237-239

7. Ратников А.А. Результаты анкетного опроса тренеров по проблемам скоростно-силовой подготовки юных гандболистов // Совершенствование подготовки кадров в области физической культуры и спорта в условиях модернизации профессионального образования: тезисы докладов IV Всероссийской конференции. М.: 2006. - С. 139-142

8. Bazarbayev P.A. 14-16 yoshli gandbolchilarda qo‘l panja kuchining antropometrik o‘zgaruvchanligi. “O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari” ilmiy amaliy jurnali Toshkent 2023.-B.-65-67. [13.00.00. №15].

9. Базарбаев П.А. 13-14 ёшли гандболчиларнинг мусобақалашув даражасига нисбатан антропометрик ўзгаришлар ва мушаклар кучидаги фарқлар нисбатини аниқлаш “Fan-sportga” илмий назарий журнал,Чирчиқ 2023/4.-С.56-58 [13.00.00. №16].

10. Абдурахманов Ф.А., Кариева Р.Р., Оптимизация нагрузок различной направленности в межигровых циклах соревновательного периода гандболистов высокой квалификации. Фан-спортга илмий назарий журнал. 2019. № 2. – Б. 47-53.

11. Абдурахманов Ф.А., Павлов Ш.К., Кариева Р.Р. Исследование эффективности защитных гандболистов различного возраста и квалификации в условиях соревнавательной деятельности: Фан-спортга илмий-назарий журнал. 2007. № 4. – С. 17-20.

12. Борисов Э.Л., Романов А.В. и др. Характер соревновательной деятельности и надѐжность действий игроков, выполняющих семиметровый штрафной бросок в гандболе: сборник статей Международной научно-практической конференции. Уфа: 2020. - С. 175-178.

13. Игнатьева В.Я. Гандбол: учебник для ИФК / В:Я. Игнатьева: - М.: Физическая культура, 2008. – 375 с.

14. Набиев Т.Э., Абдурахманов А.А. Структура построения процесса подготовки гандболистов: Фан-спортга илмий-назарий журнал. 2011. №1. - С. 40-45.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Amirqulov Otabek Ismoilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: o.amirqulov72@gmail.com

YOSH FUTBOLCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONLARINIREJALASHTIRISHNING YANGICHA YONDASHUVLARI

Annotatsiya: *Maqolada yosh futbolchilar bilan olib boriladigan sport tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida qurilmaviy, blokli-modulli rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlari aniqlashtirilgan. Trenirovka jarayonlarini tashkil etish bo'limlarga bo'lib tayyorlov jarayonlarini tashkillashtirish, blook-modulli orqali yillik siklni rejalashtirish va shunga asosan jismoniy sifatlarni takomilashtirib jarayoni davom ettirish ko'zda tutilgan. Blokli-modulli rejalashtirish jarayoni yosh futbolchilar yoshiga qarab jismoniy sifatlarni rivojlantirish va texnik taktik harakatlarga o'rgatishni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.*

Kalit so'zlar*: sport tayyorgarlik, trenirovka jarayoni, funksional tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, trenirovka jarayoni bosqichlari, trenirovka jarayonlarining siklli qurilmasi, tayrgarlik davri, musobaqa davri, o'tish davri.*

Амиркулов Отабек Исмоилович
Старший преподаватель кафедры «Физическая культура и спорт» Экономико-педагогического университета

НОВЫЕ ПОДХОДЫ К ПЛАНИРОВАНИЮ ТРЕНИРОВОЧНЫХ ПРОЦЕССОВ ДЛЯ МОЛОДЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация: *В статье описаны современные подходы к планированию и управлению процессами спортивной подготовки юных футболистов, структурное, блочно-модульное планирование на многолетних этапах подготовки. Планируется организация тренировочных процессов путем разделения тренировочных процессов на секции, планирования годичного цикла через блок-модули и, исходя из этого, продолжения процесса за счѐт совершенствования физических качеств. Процесс блочномодульного планирования предназначен для развития физических качеств юных игроков и обучения их технико-тактическим действиям в зависимости от возраста.*

Ключевые слова: *спортивная подготовка, тренировочный процесс, физическая подготовка, этаны тренировочного процесса, цикличность тренировочного процесса, подготовительный период, соревновательный период, переходной период.*

Amirkulov Otabek Ismoilovich
Senior teacher of the Department of "Physical Culture and Sports" of the University of Economics and Pedagogy

NEW APPROACHES TO PLANNING TRAINING PROCESSES FOR YOUNG FOOTBALL PLAYERS

Annotation: *The article describes the modern approaches of planning and management of sports preparation processes with young football players, structural, block-module planning in multi-year training stages. It is planned to organize the training processes by dividing the training processes into sections, planning the annual cycle through blook-modules and, based on this, continuing the process by improving physical qualities. The block-module planning process is intended to develop the physical qualities of young players and train them in technical and tactical actions, depending on their age.*

Keywords: *sports training, training process, functional training, physical training, stages of training process, cycle device of training processes, training period, competition period, transition period.*

Kirish.

O'zbekistonda iste'dodli va salohiyatli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatli sport zahirasini shakllantirish, zamonaviy yondashuvlar asosida trenirovka jarayonlarini rejalashtirish va tashkillash ishlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, O'zbekistonda yoshlar futboli va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash,

sportchilarning yangi avlodini tayyorlash, mamlakat futbolining xalqaro obro‗sini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.12.2019 yil — O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida", dagi PF-5887-sonli Farmoni qabul qilgan bo‗lib, yoshlar terma jamoalarini, oliy liga jamoalarining tarkiblarini to‘ldirishga qodir bo‘lgan yosh futbolchilarni tayyorlash, takomillashtirish bo‘yicha zaruriy shart-sharoitlar va ilmiy-metodik ishlanmalarni yaratish kabi muhim vazifalarga ustuvorlik berilgan [1]. Yosh futbolchilar bilan olib boriladigan trenirovka jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish, tayyorgarlikning zamonaviy qurilmaviy, blokli-modulli rejalashtirish xususiyatlarini aniqlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili.

Maxsus adabiyotlar tahliliga ko‘ra, sport tayyorgarlik jarayonida turli xil trenirovka vositalari va usullaridan foydalanish orqali sportchi organizmining funksional tizimlarini ma‘lum moslashtirilgan qayta qurishga erishish, musobaqa faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ma‘lum bir tayyorgarlik darajasiga erishishni ta‘minlashga qaratilgan [7] bo‘lsa-da, yosh futbolchilar bilan olib boriladigan trenirovka jarayonlarini rejalashtirish va ilmiy boshqarish masalalari to‘liq o‘z yechimini topmagan. Bu muhim masalalarni hal qilish aspektida yosh futbolchilarni tayyorlash tizimini ishlab chiqish muammosining holatini tavsiflash yetarlicha o‘rganilmagan ilmiy-metodik vazifalarni aniqlashtirish zarurati mavjud.

Alohida ishlarda (Orlov A.V., 2022 y.) yosh futbolchilarda mashg‘ulot yuklamasini loyihalash algoritm-uslulida haftalik mashg‗ulot sikllari modeli ishlab chiqilgan, trenirovkalarning maxsus tayyorgarlik bosqichida organizmning funksional holati ko‘rsatkichlari dinamikasi, hamda haftalik mashg‘ulot sikllaridagi tayyorgarlikning umumiy hajm samaradorligi o‘rganilgan ilg‘or yondashuvlar ham mavjud [7]. Yosh futbolchilar misolida turlicha shart-sharoitlarni taqozo etuvchi ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirish, yosh hamda malaka bo‘yicha har xil sportchilar bilan, ko‘pincha xususiy masalalarni hal qilish bilan cheklangan holda hech qanday tizimlilik va o‘zaro bog‘lanishlarsiz bajarilgan yondashuvlarni kuzatish mumkin [2,3,5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Sport nazariyasi va amaliyotida ko‘p yillik trenirovka jarayoni bir nechta bosqichlarda tashkil topgan bo‘lib, ular ma‘lum darajali bog‘liqlik va ketma-ketlikka ega [10]:

- dastlabki sport tayyorgarligi;
- dastlabki ixtisoslashuv;
- chuqurlashtirilgan tayyorgarlik;
- sport takomillashuvi.

Agarda, tayyorgarlikning barcha bosqichlariga qisqa tavsif berilsa, unda, birinchi bosqichda tayyorgarlik vositalarini mashqlar va o‘yinlarning eng keng doirasini qamrab olishi kerakligini aytish lozim. Tayyorgarlik ko‘p sonli zaruriy sifatlar (maxsus tayyorgarlik)ning bittasiga spesifik ta‘sir qilishni istisno qiladi.

O‘rgatishning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida futbolga taalluqli qobiliyatlarni va futbol potensialini alohida texnik elementlar va usullarni o‘rganish, mustahkamlash bilan rivojlantirish sodir bo‘ladi. Futbolchi o‘yindagi texnik va harakat vazifalarini hal qilishi uchun mustahkam ko‘nikmalarni egallashi va barqarorlashtirishi zarur.

To‘rtinchi - takomillashtirish bosqichning vazifalari: texnik va taktik ko‘nikmalar bazasida o‘zlashtirilgan jismoniy potensialni ta‘minlashdan iborat. Oldingi bosqichlarda erishilgan barcha sifatlarni takomillashtirish hamda futbolchilarni o‘yin paytida individual imkoniyatlarini amalga oshirish hisoblanadi [3].

Tahlil va natijalar.

Futbolchilarning ko‘p yillik trenirovkalarini jarayonlari yoshga oid chegaralar bilan aniqlanadi. Agarda, yuqorida keltirilgan chegaralar yoshi bo‘yicha shartli ravishda belgilansa, unda taxminan quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

- dastlabki sport tayyorgarlik – 8-12 yosh;
- dastlabki ixtisoslashuv – 13-14;
- chuqurlashtirilgan tayyorgarlik – 15-16 yosh;
- sportda takomillashuv – 17-18 yosh.

Tasniflagich birmuncha shartli va tayyorgarlikning har xil bosqichlarida rejalashtirish paytida farqni ancha aniq ko‘rish uchun zarur. Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv tayyorgarlikning bosqichma-bosqich va yillik bosqichlarida prinsipial farqni ko‘rish uchun zarur. Eng asosiysi – ko‘p yillik rejalashtirishda strategik jihatdan to‘g‘ri orientir olish uchun maqsadlarni sifatli farqini ko‘rishdan iborat bo‘lsa kerak.

Ko‘p yilik trenirovkalarni rejalashtirish, ushbu jarayonni boshqarishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Rejalashtirishdan maqsad futbolchi organizmini ko‘p yillik rejalashtirishda zo‘riqtirmasdan rivojlanishini ta‘minlashdan iborat.

Ko‘p yilik trenirovkalarni rejalashtirish quyidagilarga asoslanib amalga oshiriladi:

- yillik siklda qo‘yilgan vazifalar bilan;
- sport formasini shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlari bilan;
- davriylashtirish bilan;
- sport musobaqalari taqvimi bilan.

Yosh futbolchilar bilan trenirovkalar yil davomida o‘tkaziladi, mikro, mezo va makro sikllardan tashkil topadi. Makro-sikl uchta davrdan iborat: tayyorgarlik, musobaqa, o‘tish.

Har xil malakali futbolchilarning o‘quv-trenirovka jarayonini tahlil qilish, trenirovkaning yillik sikl bosqichlari vaqt bo‘yicha har xil davomiylikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayrim sikllarning davomiyligi yoshga, tayyorgarlik

darajasiga va musobaqalar taqvimiga bog‘liq holda kamayadi yoki ortadi [3,6.10].

Tayyorgarlik bosqichi – bunda, yosh futbolchilarning texnik va taktik ko‘nikmalari, jismoniy va irodaviy tayyorgarligi tiklanadi va takomillashtiriladi. Ushbu bosqich, musobaqa bosqichiga nisbatan trenirovkalarni katta hajmdaligi bilan xarakterlidir. Katta hajmdagi yuklama organizmning barcha tizimlarida va harakat ko‘nikmalarida siljishlar bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Tayyorgarlik bosqichi umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik etaplariga bo‘linadi. Umumiy tayyorgarlik bosqichida asosiy e‘tibor yosh futbolchilarning funksional imkoniyatlarini oshirishga, har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarligiga qaratiladi. Texnik va taktik tayyorgarlik harakat ko‘nikmalarini va taktik malakalarni tiklashga, ularni takomillashtirishga va yangilarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan [9]. Boshidanoq, katta hajm chidamlilikni, kuchni, epchillikni, egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlarga va kam darajada tezkorlikni rivojlantiruvchi mashqlarga va tezkor-kuch xarakteridagi mashqlarga ajratiladi. Boshlanishida o‘rtoqlik uchrashuvlarini o‘tkazish tavsiya qilinmaydi, chunki yosh futbolchilarning organizmi bellashuvlardagi katta kuchlanishlarga hali tayyor bo‘lmaydi. O‘rtoqlik uchrashuvlarini bosqichning yakunida o‘tkazish tavsiya qilinadi. Umumiy chidamlilikni (aerob imkoniyatlarni) rivojlantirish uchun bosqichning boshida mashg‘ulotlarni har kuni o‘tkazish samaralidir. Buning uchun, ikkinchi trenirovkaning oxirida (har qanday yo‘nalganlikdagi) 10-15 minut davomida kross yugurish tavsiya qilinadi (YuQCh – 150 zarba/min).

Bunday mashqlarni uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash, organizmning aerob mahsuldorligini oshiradi. Undan tashqari, aerob yuklama trenirovkaning oxirida oldingi yuklamaning ta‘siri ostida qonda to‘plangan sut kislotasini oksidlanishini kuchaytiradi. Bosqichning o‘rtasidan boshlab, umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun bitta mashg‘ulot o‘tkazish mumkin va u, qo‘llab-quvvatlash uchun yetarlidir. Buning uchun har xil sharoitlardagi, har xil darajadagi jadallikdagi YuQCh rejimi 140-160 zarba/min bo‘lgan davomiy yugurish qo‘llaniladi. Bu, asosan, ishning uzluksiz turi (bir maromdagi, o‘zgaruvchan).

Bu vaqtda, maxsus jismoniy tayyorgarlikka ham, avvalam bor, tezkor-kuch tayyorgarlikka e‘tibor qaratiladi. O‘yin texnikasi va taktika mashqlari to‘liq hajmda bajariladi, tezkorlikni va uning tarkibiy qismlarini barchasini rivojlantiruvchi mashqlar, maxsus chidamlilikni rivojlantirish mashqlari kengroq qo‘llaniladi.

Aerob-anaerob yo‘nalgan yuklamalar rejalashtiriladi. YuQCh 150-175 zarba/min chegarasida. Buning uchun, nospesifik hamda spesifik mashqlar qo‘llaniladi. Mashqlarning koordinatsion murakkabligi sekin-asta ortadi.

Maxsus tayyorgarlik bosqichida musobaqalarga bevosita tayyorgarlik amalga oshiriladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik va xususan, tezkor-kuch tayyorgarlik, maxsus chidamlilik ustida ishlash mashg‘ulotlarda yetakchi o‘rin egallaydi. Harakat ko‘nikmalarini murakkablashtirilgan o‘yin sharoitlariga adaptatsiya qilishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Ushbu bosqichda, harakat apparatini tuproq sharoitlariga qayta qurishga va bir vaqtning o‘zida trenirovka yuklamalarini jadalligini oshirishga tayyorgarlikka katta e‘tibor qaratish zarur. Ishning hajmi birmuncha qisqaradi, lekin jadalligi ortadi. Trenirovka usullari ham o‘zgaradi: birmaromdagi va o‘zgaruvchandan takroriy va intervallikka qarab. O‘yinning texnik elementlari va variantlarini qayta o‘zlashtirish keng olib boriladi.

Musobaqa bosqichi – uning davomiyligi (5-6 oy) vazifalarni maqsadga yo‘naltirilgan taqsimlanishini talab qiladi, chunki mavsum davomida ortib boradigan toliqishni faqatgina to‘g‘ri balanslashtirilgan rejalashtirish bilan bartaraf qilish mumkin. Ushbu bosqichdagi trenirovka umumiy va maxsus tayyorgarlikni qo‘llab turishga yo‘naltiriladi.

O‘yin texnikasi va taktikasidagi mashqlar texnik va taktik harakatlarni mustahkamligini va variativligini oshirishga ustivor yo‘naltirilgan. Musobaqa bosqichida, asosan, aerob-anaerob va anaerob imkoniyatlarni rivojlantirishga ustivor yo‘naltirilgan trenirovka yuklamalari rejalashtiriladi. Agarda, yosh futbolchilarda ushbu bosqichda aerob imkoniyatlarini pasayishi sodir bo‘lsa, maxsus jismoniy tayyorgarlikni qo‘llab turish bo‘yicha trenirovka ishini olib borish qiyin bo‘ladi. Bunday holatda, umumiy chidamlilikni oshirishga yo‘naltirilgan trenirovka yuklamalari rejalashtiriladi.

O‘tish bosqichi – bu bosqich, musobaqa bosqichida to‘plangan toliqishni bartaraf qilish, organizmning funksional va adaptatsion imkoniyatlarini tiklash uchun zarur. Lekin jismoniy mashqlar bilan faol shug‘ullanish to‘xtatilmaydi, bu, sport formasini keskin pasayishini oldini olishga imkoniyat yaratadi. Yuklamaning hajmi kamayadi. Sportning boshqa turlari (tennis, suzish, sport va harakatli o‘yinlar va b.) bilan shug‘ullanish jismoniy ishchanlik qobiliyatini saqlashga ko‘maklashadi, bunda, harakat apparati, uning passiv qismlari ishtirok etadigan har xil harakatlarni bajarishga majbur bo‘ladi, spesifik musobaqa turi bilan band bo‘lgan qismlari dam oladi.

Bu davrda bir xil tipdagi, monoton (bir xil, o‘zgarmas) yuklamalarni bermagan ma‘qul. Yosh futbolchilar tayyorgarligini har xil yoshga oid bosqichlari uchun trenirovka komponentlari hajmini taqsimlash quyidagi tarzda amalga oshirish tavsiya etiladi:

- 8 dan to 12 yoshgacha (dastlabki tayyorgarlik bosqichi). Jismoniy tayyorgarlikka amaliy mashg‘ulotlar materialini umumiy hajmidan 40-45% ajratiladi. Texnik-taktik tayyorgarlikka – 55-60% ajratiladi;

- 13 dan to 14 yoshgacha (dastlabki sportda ixtisoslashish bosqichi). Jismoniy tayyorgarlikka – 35-40%, texnik-taktik tayyorgarlikka – 60-65% ajratiladi.

Mashg‘ulotlarning 20-25% dan kam bo‘lmagan qismini o‘quvchilarni tayyorlashni individual yo‘nalganligi bilan tashkil etiladi;

- 15 dan to 16 yoshgacha (chuqurlashtirilgan trenirovka bosqichi). Jismoniy tayyorgarlikka – 35-35%, texnik-taktik tayyorgarlikka – 60-70% ajratiladi. Mashg‘ulotlarning 30-40% dan kam bo‘lmagan qismini tayyorgarlikning individual yo‘nalganligi bilan o‘tkazish maqsadga muvofiq;

- 17 dan to 18 yoshgacha (sportda takomillashuv bosqichi). Jismoniy tayyorgarlikka – 20-25%, texnik-taktik tayyorgarlikka – 75-80% ajratiladi. Mashg‘ulotlarning 40-45% dan kam bo‘lmagan qismini futbolchilarni tayyorlashni individual yo‘nalganligi bilan o‘tkaziladi.

Kuniga ikki martalik trenirovka mashg‘ulotlari tizimida tiklanish vositalarini yo‘nalganligi sezlarli darajadagi ahamiyatga ega. Shuning uchun, to‘liq tiklanish uchun mos ravishdagi pedagogik va tibbiy-biologik vositatlar yordamida tiklanishni ta‘minlaydigan sxema kerak.

Kichik sikllar doirasida yuklamalar va dam olishni rejalashtirish trenerlarning ishida markaziy o‘rin egallaydi. Mikrosikllarda ishni rejalashtirish paytida turadagan vazifalarning xilma-xilligi ichida ikkita asosiysini ajratish tavsiya etiladi:

- alohida trenirovka mashg‘ulotlarini maqsadga mos kattaligini va yo‘nalganligini aniqlash;

- ushbu mashg‘ulotlarni sikl doirasida ratsional taqsimlash;

Hozirga qadar ushbu vazifalarni hal qilishning metodologik yondashuvlari tajribaviy asoslangan [9]:

- alohida trenirovka mashg‘ulotlarining yuklamalari va ularning yaxlit ta‘siri ostida kechuvchi toliqish va tiklanish jarayonlarining o‘tish xususiyatlariga;

- mazkur mikrosikl bosqichining umumiy qurilmaviy ahamiyatiga;

- futbolchilarni tayyorgarlik darajasiga;

- musobaqalar taqvimiga.

Jismoniy tayyorgarlik jarayonining ratsional qurilmaviy fiziologik asosida sportchining funksional zahiraviy imkoniyatlarini musobaqa faoliyatida optimal to‘liq namoyon etish maqsadida qayta taqsimlash fazasi hisobga olinadi. Futbolchilarning yetakchi jismoniy sifatlarini aniqlash paytida maxsus jismoniy tayyorgarlik strukturasini o‘rganish bo‘yicha amaliy tajribalarni umumlashtirish natijalari asosida chidamlilikni har xil turlariga 48%, start, masofa va portlovchi kuchlanishga 24,5% to‘g‘ri kelishi aniqlangan [8].

Shunday qilib, chidamlilikka birinchi darajali e‘tibor qaratiladi. Ikki tomonlama o‘yinda futbolchilar tezkor harakatlanishlarni, texnik usullarni ko‘p marta takrorlashadi, shuning uchun, harakat amallarini o‘yin davomida samaradorligini pasaytirmasdan bajarish chidamlilik darajasiga bog‘liq, ya‘ni ortib borayotgan toliqishga tezkor-kuch tayyorgarlikni yetarlicha yuqori roli paytida qarshilik ko‘rsata olishga bog‘liq. Tezkorlik va kuch sifatlarini namoyon qilishda futbolchilarning kuch imkoniyatlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

O‘yin paytida futbolchilar ko‘p martalik tezlanishlarni, to‘xtashlarni, yo‘nalishni o‘zgartirgan holda yugurishni bajarishadi, shuning uchun ushbu holatlarni hisobga olgan holda, harakat ko‘nikmalarini izdan chiqaruvchi beqaror omillarga alohida e‘tibor qaratiladi [8].

O‘tkazilgan kuzatuv natijalari bilan bog‘iq bo‘lgan tajriba ma‘lumotlari o‘quv-trenirovka siklida qattiq strukturaviy birliklar majmuasining o‘rniga har xil egiluvchan qayta qurishlar va variant ko‘rinishlarga yo‘l qo‘yadigan blokli-modulli strukturalar asosida sportchining tayyorgarlik jarayoniga polimorfizm‖ hodisasini qo‘llash ratsionalligi to‘g‘risida dastlabki xulosalarga olib keladi. Sport nazariyasining diagnostik test ishonchligini aniqlash amallari misolida polimorfizm‖ bir tayyorgarlik guruhi doirasi (individ ichra)da xususiyatlari bilan o‘zaro farq qiladigan bir necha individlar bo‘lishi [5].

Blok-modulli ta‘lim jismoniy tarbiya va sport sohasida tobora ommalashib bormoqda. Modul va bloklarga bo‘lingan dastur, tayyorlov, musobaqa va o‘tish davrlarida rejalashtirilgan trenirovka vazifalarini shug‘ullanuvchilar uchun oson va tushunarli qiladi. Nimadan boshlash va trenirovka jarayonini qanday qurish kerakligini aniqlashga hojat yo‘q. Dastur bloklarini berilgan tartibda kuzatib borish kifoya (https://dzen.ru/a/YcLcluRTuUYfqbis).

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asosan yoshlar futbolida sport tayyorgarlik jarayonining qurilmaviy xususiyatlari aniqlashtirilgan:

1. Etap – mantiqan yakunlangan, futbolchilarni vaqt jihatidan uzoq davom etadigan tayyorgarligi bosqichi, kumulyativ trenirovka samarasini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, uning hisobiga sport formasini cho‘qqisiga chiqish bilan ham va uni optimal darajagacha pasaytirish bilan ham bog‘liq bo‘lgan va birinchi navbatda, musobaqalar taqvimi va asosiy musobaqalar muddatlari bilan belgilanadigan o‘quv-trenirovka jarayonini masshtabli vazifalari hal qilinadi. Etapning davomiyligi 1 oydan 3 oygacha bo‘lishi mumkin.

2. Blok – etap bilan taqqoslanganda ancha qisqa, trenirovka jarayonini mazmuni bo‘yicha nisbatan butun qismi, jamoani joriy musobaqalarda ishtiroki bilan bog‘liq vazifalarni hal qiladi. Bloklar, hal qiladigan vazifalarning xarakteriga bog‘liq holda, rivojlantiruvchi (organizmning alohida funksional tizimlarini imkoniyatlarini oshirish, o‘yinchining texnik-taktik tayyorgarligi komponentlarini va jamoaning taktik tayyorgarligini, atletik tayyorgarligini – o‘yinchining tezkor-kuch plyus koordinatsion qobiliyatlarini takomillashtirish), sintezlovchi (alohida sportchilar va jamoa tomonidan oldingi bloklarda erishilgan imkoniyatlarini birligi), qo‘llab turuvchi, pasaytiruvchi va hokazolar bo‘lishi mumkin. Blokning davomiyligi – 2 haftadan to 3 haftagacha.

3. Modul – trenirovka kunlari seriyasi bo‘lib, trenirovka jarayonining biron-bir xususiy (oraliq) vazifasini hal qilishga yo‘naltirilgan va toliqish va tiklanish jarayonlarini yuklamalarni navbatda qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘lgan o‘zaro harakati bilan belgilanadi. Modulning davomiyligi 3-7 kunni tashkil qiladi.

4. Jarayon – modulda rejalashtirilgan vazifalarni hal qilish, zarurati bo‘lganda korreksiya (tuzatish kiritish) imkonini beradigan bir nechta trenirovka mashg‘ulotlari, ayrim paytlarda kunlar. Modulni korreksiya qilish jarayoni qo‘shimcha trenirovka kunlarini yoki mashg‘ulotlarini kiritilishi bilan, trenirovka mashg‘ulotlarini ketma-ketligini o‘zgartirish yoki ularni bekor qilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (bunday holatda, fragmentlar korreksiya qiluvchi va aniqlashtiruvchi deb ataladi). Dam olish kuni yoki bir nechta dam olish kunlari trenirovka jarayonini alohida fragmentini tashkil qilishi mumkin.

5. Ish kuni – kuniga 2-3 ta – trenirovka, trenirovka-musobaqa, majmuaviy, tematik, individual-guruhli, futbolchining ekspress-tashhisi bilan uyg‘unlikdagi individual mashg‘ulotda o‘yinchining holatini boshqarishning variabel, nisbatan mustaqil richagi sifatida talqin qilinadi. Variabel ingliz va fransuz tilida —o‘zgaruvchanlik hodisasi‖ni aks etadi va sohaga aloqador trenirovka jarayonini boshqarish, shakl variantlari, o‘zgaruvchanligi, yoki beqarorligi e‘tiborga olinadi. Hodisalardagi o‘zgarishning o‘zi variatsiya, o‘zgarish natijasi ko‘pincha variatsiya yoki variant deb ham ataladi (https://kartaslov.ru).

Xulosa.

Futboldagi faoliyat shunchalik ko‘p qirralikki, bunda, ayrim kamchiliklar, masalan jismoniy tayyorgarlik - yuqori texnik-taktik mahorat bilan, psixik barqarorlik va hokazolar bilan qoplanishi ehtimoli mavjud. Yuksak sport mahorati maktablarining vazifasi - har tomonlama: texnik-taktik, funksional, psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish bilan yosh futbolchilarni tarbiyalashdan iborat. Yuksak sport mahorati maktablaridan kelgusida haqiqiy iqtidorli futbolchilar o‘sib chiqadi va namoyon bo‘ladi, ularda maxsus jismoniy sifatlarning aniq ustivorligida ham boshqa sifatlari yetarlicha rivojlanish imkoniga ega bo‘ladi.

Zamonaviy sport nazariyasi va amaliyotida yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonini dasturlashtirishga, tashkillashtirishga va boshqarishga tomon yondashuvlar o‘zgarmoqda. Bir tomondan, sport fani tomonidan to‘plangan daliliy material trenirovka jarayonini optimal variantda tuzish imkonini beradi, boshqa tomondan – trenirovka dasturining tarkibiy qurilmasi va shakl ko‘rinishi birmuncha o‘zgacha tus olmoqda. Har bir mashg‘ulot, har bir trenirovka mashqi oldindan trenirovka shartlarini, ayniqsa, shug‘ullanuvchilarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olmagan holda tayyorlangan darsbay dasturlarning vaqti o‘tdi. Bunday dasturlarda yuklamalarning hajmi va jadalligi, trenirovkaning vositalari va usullari qotib qolgan holda berilgan va trener bunday dastur doirasidan chiqib keta olmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining — O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖ 04.12.2019-yildagi PF-5887-son Farmoni, https://lex.uz/docs/4631208

2. Abdullaev M.J. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. P. 115-122 [13.00.00№3]

3. Akramov R., Tixonov V., Nurimov R. Planirovaniye i organizatsiya uchebno-trenirovochnogo protsessa visoko kvalifitsirovannix futbolistov. Metod., rekomendatsii., - T .: 1997, 54 s.

4. Kadirov R.X. Diagnostics and correction of athlete‘s training / European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJaYEA) Available Online at: https://www.scholarzest.com Vol. 2 No. 9,

5. Зациорский В.М. Физические качества спортсмена: Основы теории и методики воспитания /2-е изд. - М.: Физкультура и спорт, 1970. – 200с.

6. Матвеев Л.П. Модельно-целевой подход к построению спортивной подготовки (статья первая и статья вторая) //Теория и практика физической культуры. - М., 2000. - №3. - С. 26-29.

7. Платонов А.В. Программированная физическая подготовка юных баскетболистов. автореф. дис. … канд. пед. наук. – М., 1998. – 26 с.

8. Романов А.А. Комплексная методика формирования спортивно-технического мастерства юных баскетболистов 10-12 лет. автореф. дис. … канд. пед. наук. – М., 2009. – 21 с.

9. Филин В.П. Теория и методика юношеского спорта: Учеб. пособие для ин-тов и техникумов физ. культуры. М.:Физкультура и спорт, 1987.-128 с.; Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М.:Физкультура и спорт, 2000. – 331 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Atajanov Muzaffar Ulug‘bek o‘g‘li
Andijon davlat universiteti “Sport faoliyati turlari nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

MILLIY KURASH MASHG‘ULOTLARINING SPORTCHILARDA JISMONIY VA PSIXOLOGIK SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy kurash mashg‘ulotlarining yosh sportchilarning jismoniy va psixologik sifatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari maxsus ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar dasturining sportchilarning kuch, tezlik, epchillik, muvozanat kabi jismoniy ko‘rsatkichlarini va tashvishlanish, ruhiy bardoshlilik hamda motivatsiya kabi psixologik sifatlarini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatdi. Milliy kurash orqali yosh sportchilarni kompleks rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *milliy kurash, jismoniy sifatlar, psixologik sifatlar, pedagogik kuzatuv, sport motivatsiyasi.*

Атаджанов Музаффар Улугбекович
Преподаватель кафедры «Теория и методика видов спортивной деятельности»,
Андижанский государственный университет

РОЛЬ ТРЕНИРОВОК ПО НАЦИОНАЛЬНОЙ БОРЬБЕ В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация. *В статье анализируется эффективность тренировок по национальной борьбе в развитии физических и психологических качеств молодых спортсменов. Результаты исследования подтвердили, что специально разработанная тренировочная программа значительно улучшает такие физические показатели, как сила, скорость, ловкость и равновесие, а также психологические характеристики – тревожность, психическую устойчивость и мотивацию. Обоснованы возможности комплексного развития молодых спортсменов посредством национальной борьбы.*

Ключевые слова: *национальная борьба, физические качества, психологические качества, педагогическое наблюдение, спортивная мотивация.*

Atajanov Muzaffar Ulugbekovich
Lecturer at the Department of "Theory and Methodology of Sports Activity Types",
Andijan State University

THE ROLE OF NATIONAL WRESTLING TRAINING IN DEVELOPING PHYSICAL AND PSYCHOLOGICAL QUALITIES OF ATHLETES

Annotation. *This article analyzes the effectiveness of national wrestling training in developing physical and psychological qualities of young athletes. The study results confirmed that a specially designed training program significantly improves physical indicators such as strength, speed, agility, and balance, as well as psychological characteristics including anxiety, mental resilience, and motivation. Opportunities for comprehensive development of young athletes through national wrestling are scientifically substantiated.*

Keywords: *national wrestling, physical qualities, psychological qualities, pedagogical observation, sports motivation.*

Kirish.

Milliy sport turlari har bir xalqning tarixiy va madaniy merosini aks ettiruvchi muhim qadriyatlardan biridir. Ayniqsa, o‘zbek xalqining an’anaviy sport turlaridan biri bo‘lgan milliy kurash asrlar davomida jismoniy tayyorgarlik, iroda mustahkamligi va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish vositasi sifatida keng qo‘llanib kelinmoqda. Bugungi kunda ushbu qadimiy sport turi xalqaro miqyosda ham keng tarqalib, uni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Shu nuqtai nazardan, yosh avlodning jismoniy va psixologik sifatlarini shakllantirishda milliy kurash mashg‘ulotlarining samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish va uning ta’sirini kompleks ravishda baholash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Milliy kurash nafaqat jismoniy kuch-quvvat, epchillik va muvozanat kabi sifatlarni rivojlantiradi, balki sportchilarda qat'iyatlilik, ruhiy chidamlilik, stressga bardoshlilik kabi psixologik jihatlarni ham mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy sport musobaqalari sharoitida kurashchilarning psixologik tayyorgarligi ularning muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, mashg'ulot jarayonida jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik jihatlarga e'tibor qaratish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

Mazkur maqolada milliy kurash mashg'ulotlarining sportchilarda jismoniy va psixologik sifatlarni rivojlantirishdagi o'rni, uning o'ziga xos xususiyatlari va samaradorligini oshirish usullari ilmiy asoslangan holda ochib beriladi. Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat milliy kurashni yanada ommalashtirishga, balki yosh avlodni har tomonlama yetuk inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Milliy kurash sport turining yosh avlodning jismoniy va psixologik sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, sport mashg'ulotlarining jismoniy sifatlarni shakllantirishdagi rolini Filin va Fomin (2000) hamda Sergiyenko (2013) kabi olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Ularning izlanishlarida maxsus ishlab chiqilgan mashqlar dasturi orqali kuch, tezlik, epchillik va muvozanat kabi sifatlarni yaxshilash mumkinligi isbotlangan.

Psixologik jihatlarga ta'sir masalasi ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, tashvishlanish darajasini baholashda "Spilberger–Xanin" so'rovnomasining samaradorligini ko'plab tadqiqotchilar e'tirof etgan (Spilberger va Xanin, 1976). Ruhiy bardoshlilikni aniqlash va baholashda esa "Eysenck" testi ko'plab tadqiqotlarda qo'llanilgan bo'lib, sportchilarning musobaqa sharoitidagi psixologik barqarorligini aniqlashda samarali ekanligi qayd etilgan (Eysenck, 1991).

Shuningdek, sportchilar motivatsiyasining jismoniy mashg'ulotlarga ta'siri va uning ahamiyati haqida olib borilgan tadqiqotlarda motivatsiya darajasining sport natijalariga bevosita ta'sir qilishi qayd etilgan. Motivatsiya darajasi yuqori bo'lgan sportchilarning mashg'ulot samaradorligi va musobaqa natijalari ham yuqori bo'lishi ilmiy jihatdan tasdiqlangan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili asosida aytish mumkinki, jismoniy va psixologik tayyorgarlikning bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Milliy kurash kabi an'anaviy sport turlari orqali ushbu jihatlarni kompleks rivojlantirish mumkinligi mavjud ilmiy ishlarda ko'rsatib berilgan. Shunday qilib, ushbu tadqiqot ham milliy kurash mashg'ulotlarining yosh sportchilarning kompleks rivojlanishiga ta'sirini chuqurroq o'rganishga qaratilgan

Metodlar.

Ushbu tadqiqotda pedagogik kuzatuv, test sinovlari, psixologik diagnostika, eksperiment va statistik tahlil metodlari qo'llanildi. Sportchilarning jismoniy va psixologik sifatlaridagi o'zgarishlar kuzatuv orqali doimiy ravishda qayd qilindi. Jismoniy sifatlarni baholash uchun maxsus testlar tadqiqot boshida va oxirida amalga oshirildi. Psixologik jihatlar "Spilberger–Xanin", "Eysenck" testlari va motivatsiyani aniqlovchi so'rovnomalar orqali baholandi. Eksperimentda ikki guruh tashkil qilinib, tajriba guruhida 12 hafta davomida maxsus ishlab chiqilgan milliy kurash dasturi qo'llandi. Statistik tahlil SPSS dasturi yordamida amalga oshirilib, natijalar ishonchlilik darajalari bilan baholandi. Tadqiqot 16–19 yosh oralig'idagi 40 nafar yosh sportchi ishtirokida olib borildi, barcha jarayonlar axloqiy tamoyillarga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama.

Olib borilgan tadqiqot natijalari milliy kurash mashg'ulotlarining sportchilarning jismoniy va psixologik sifatlarini rivojlantirishda sezilarli darajada samaradorligini ko'rsatdi.

Jismoniy tayyorgarlik natijalari:

Olib borilgan 12 haftalik maxsus mashg'ulot dasturi natijasida tajriba guruhi sportchilarida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Kuch ko'rsatkichlari o'rtacha 12% ga, tezlik ko'rsatkichlari 10% ga, epchillik va muvozanat qobiliyatlari esa mos ravishda 15% va 18% ga oshdi. Bu natijalar statistik tahlil orqali ishonchli deb topildi ($P<0,05$). Ayniqsa, muvozanat qobiliyatidagi o'sish sportchilarning kurash davomida turli vaziyatlarda barqaror holatda qolish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaganini ko'rsatadi.

Psixologik tayyorgarlik natijalari:

Tajriba davomida psixologik ko'rsatkichlar ham jiddiy yaxshilanganligi qayd etildi. "Spilberger–Xanin" so'rovnomasi natijalariga ko'ra, mashg'ulotlardan keyin sportchilarning tashvishlanish darajasi sezilarli ravishda 21% ga kamaydi ($P<0,01$). Bu esa sportchilarning musobaqalarga tayyorgarlik vaqtida va musobaqalar davomida xotirjamlikni saqlash imkoniyatini oshirdi. "Eysenck" testi orqali aniqlangan ruhiy bardoshlilik ko'rsatkichlari esa 17% ga o'sdi ($P<0,05$). Motivatsion so'rovnomalar orqali sportchilar orasida sport bilan shug'ullanish istagi va motivatsiyasining 23% ga oshgani aniqlandi, bu esa sportchilar mashg'ulot jarayonlariga yanada ishtiyoq bilan kirishishini ta'minladi.

Nazorat guruhi bilan solishtirma tahlil:

Nazorat guruhi sportchilarida 12 haftalik davr mobaynida sezilarli jismoniy va psixologik o'zgarishlar qayd etilmadi ($P>0,05$). Bu natijalar eksperimental mashg'ulot dasturining samaradorligini yanada yorqinroq tasdiqlab beradi. Shunday qilib, an'anaviy mashg'ulot dasturi bilan solishtirilganda, maxsus ishlab chiqilgan milliy kurash mashg'ulotlari dasturi sportchilar uchun yanada samarali ekanligi isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari milliy kurash mashg‘ulotlari dasturining yosh sportchilarda jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik sifatlarni ham rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur natijalar nafaqat yosh sportchilarning kompleks rivojlanishini ta’minlash, balki kelajakda yuqori sport natijalariga erishish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari milliy kurash mashg‘ulotlarining yosh sportchilarda jismoniy va psixologik sifatlarni rivojlantirishda yuqori samaradorligini tasdiqladi. Ayniqsa, kuch, tezlik, epchillik va muvozanat kabi asosiy jismoniy ko‘rsatkichlarning sezilarli darajada yaxshilanishi kurash sportida musobaqa natijalariga bevosita ta’sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari boshqa olimlarning xulosalari bilan ham uyg‘unlik kasb etdi. Jumladan, avvalgi tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, maxsus tayyorlangan mashqlar dasturi orqali sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlarini oshirish mumkinligi (Filin va Fomin, 2000; Sergiyenko, 2013) bizning tadqiqotimiz natijalari bilan ham tasdiqlandi. Bundan tashqari, mazkur tadqiqotda kuzatilgan muvozanat qobiliyatining 18% ga oshishi milliy kurash mashqlarining aynan barqarorlik va harakat koordinatsiyasiga ta’sir qilishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Psixologik ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi, ayniqsa tashvishlanish darajasining kamayishi va ruhiy bardoshlilikning ortishi, sportchilar musobaqalarda yanada yuqori natijalarga erishishlari uchun qulay psixologik muhit yaratishga yordam beradi. Ushbu natijalar boshqa tadqiqotchilarning (Spilberger va Xanin, 1976; Eysenck, 1991) xulosalari bilan ham muvofiqdir. Ayniqsa, motivatsiyaning oshishi sportchilarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan munosabatini yaxshilab, ularning uzoq muddatli mashg‘ulotlarga sadoqatini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, nazorat guruhidagi sportchilarda jiddiy o‘zgarishlar qayd etilmaganligi, an’anaviy mashg‘ulot dasturlari samaradorligini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa tajriba davomida qo‘llangan maxsus ishlab chiqilgan dasturlarni kengroq joriy qilishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari milliy kurash mashg‘ulotlarining yosh sportchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan jismoniy va psixologik sifatlarni yaxshilashdagi ahamiyatini yana bir bor ilmiy asosda isbotladi. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu dasturlarning uzoq muddatli ta’siri va musobaqa sharoitidagi samaradorligini yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilishi lozim.

Xulosa.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalar chiqarildi:

Maxsus ishlab chiqilgan milliy kurash mashg‘ulotlari dasturi yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda sezilarli darajada samarador ekanligi aniqlandi. Kuch, tezlik, epchillik va muvozanat kabi ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi sportchilarning musobaqalarda muvaffaqiyatga erishishi uchun muhim asos bo‘ladi. Milliy kurash mashg‘ulotlari sportchilarning psixologik jihatlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi tasdiqlandi. Xususan, tashvishlanish darajasining pasayishi, ruhiy bardoshlilik va sportga bo‘lgan motivatsiyaning oshishi kuzatildi. Nazorat guruhi bilan solishtirganda, eksperimental mashg‘ulot dasturining yuqori samaradorligi aniqlandi. Bu esa milliy kurash mashqlarini mashg‘ulot jarayonlariga kengroq joriy qilish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari boshqa olimlarning tadqiqotlari bilan mos kelib, milliy kurash mashg‘ulotlarining yosh avlodni kompleks tayyorlashdagi ahamiyatini ilmiy asosda yana bir bor tasdiqladi.

Shunday qilib, milliy kurash mashg‘ulotlarini qo‘llash orqali yosh sportchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularning jismoniy va psixologik jihatdan musobaqa sharoitlariga tayyorligini oshirish mumkin. Kelgusida bu yo‘nalishda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish va ushbu dasturlarning amaliy qo‘llanilishini kengaytirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Филин, В. П., Фомин, Н. А. Основы юношеского спорта: Учебное пособие. – М.: Физкультура и спорт, 2000. – 240 с.
2. Сергиенко, Л. П. Спортивный отбор: теория и практика [монография]. – М.: Советский спорт, 2013. – 1056 с.
3. Спилбергер, Ч. Д., Ханин, Ю. Л. Исследование тревожности в спорте. – М.: Физкультура и спорт, 1976. – 104 с.
4. Айзенк, Г. Ю. Проверьте свои способности: психология индивидуальных различий. – М.: Знание, 1991. – 215 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Axmedova Anorxon Nasivali qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori v.b. dotsenti

YOZMA TARJIMONNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yozma tarjimonning kasbiy kompetensiyasi haqida batafsil ma’lumot berilgan bo‘lib, uning lingvistik, madaniy, texnologik va muloqotga oid bilim va ko‘nikmalarining ahamiyati yoritilgan. Tarjimonning lingvistik bilimlari, jumladan, fonetik, leksik, grammatik, semantik, stilistik va pragmatik bilimlarning tarjima jarayonidagi roli alohida tahlil qilingan. Shuningdek, madaniy kompetensiya orqali madaniy kontekstni tushunish, idiomatik iboralar bilan ishlash va madaniy moslashuv jarayoni muhokama qilingan. Texnologik bilimlarning zamonaviy tarjimon uchun ahamiyati, CAT dasturlaridan foydalanish, avtomatik tarjima vositalaridan unumli foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tahrir va korrektura kompetensiyalari, tarjimashunoslik nazariyasi va metodologiyasining tarjima jarayonidagi o‘rni ham batafsil bayon etilgan. Ushbu maqola tarjimonning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan amaliy va nazariy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *yozma tarjima, lingvistik kompetensiya, madaniy kompetensiya, texnologik bilimlar, tahrir va korrektura, tarjimashunoslik nazariyasi, terminologik tahlil, stilistik moslashuv, madaniy moslashuv, ekvivalentlik.*

Ахмедова Анорхон Насивали кизи
Университет мировых языков Узбекистана, доктор философии по филологическим наукам, доцент

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПИСЬМЕННОГО ПЕРЕВОДЧИКА

Аннотация: *В данной статье подробно рассмотрены вопросы профессиональной компетенции письменного переводчика, а также значение его лингвистических, культурных, технологических и коммуникативных знаний и навыков. Особое внимание уделено роли лингвистических знаний переводчика, включая фонетические, лексические, грамматические, семантические, стилистические и прагматические аспекты в процессе перевода. Также обсуждаются вопросы культурной компетенции, такие как понимание культурного контекста, работа с идиоматическими выражениями и процесс культурной адаптации. Значение технологических знаний для современного переводчика, использование CAT-программ и эффективное применение инструментов машинного перевода также рассмотрены в статье. Подробно освещены редакторские и корректурные компетенции, а также роль теории и методологии переводоведения в процессе перевода. Статья включает практические и теоретические рекомендации, направленные на повышение профессионального мастерства переводчиков.*

Ключевые слова: *письменный перевод, лингвистическая компетенция, культурная компетенция, технологические знания, редактура и корректура, теория переводоведения, терминологический анализ, стилистическая адаптация, культурная адаптация, эквивалентность.*

Axmedova Anorkhon Nasivali kizi
Uzbekistan State World Languages University, PhD in Philological Sciences, Acting Associate Professor

FORMATION AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF WRITTEN TRANSLATORS

Abstract: *This article provides a detailed analysis of the professional competence of written translators, highlighting the significance of their linguistic, cultural, technological, and communicative knowledge and skills. Particular attention is given to the role of linguistic knowledge – such as phonetic, lexical, grammatical, semantic, stylistic, and pragmatic aspects – in the translation process. Furthermore, cultural competence is discussed in terms of understanding cultural context, working with idiomatic expressions, and navigating cultural adaptation processes. The importance of technological expertise for modern translators is also examined, including the use of CAT tools and the efficient application of machine translation technologies. Editorial and proofreading competencies, as well as the role of translation studies theory and methodology in the translation process, are comprehensively explored. This article offers both practical and theoretical recommendations aimed at enhancing the professional skills of translators.*

Keywords: *written translation, linguistic competence, cultural competence, technological knowledge, editing and proofreading, translation studies theory, terminological analysis, stylistic adaptation, cultural adaptation, equivalence.*

Yozma tarjimonning kasbiy kompetensiyasi – bu tarjimonning lingvistik, madaniy, texnologik va muloqotga oid bilim va ko‘nikmalarining mukammal darajada rivojlanishini talab qiluvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimonlik faoliyatining samaradorligini oshirish uchun quyidagi asosiy omillarga e’tibor qaratish zarur:

Yozma tarjimonning ***lingvistik kompetensiyasi*** – bu tarjima jarayonida tilshunoslik bo‘yicha bilimlar, ko‘nikmalar va tajribani samarali qo‘llash qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya tarjimashunoslik nazariyasida asosiy omil hisoblanadi va tarjimonning boshqa kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Yozma tarjimon bilishi kerak bo‘lgan lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Fonetik va fonologik bilimlar. Yozma tarjima matnda talaffuz o‘ziga xosligini aks ettirmasa-da, tilning fonetik va fonologik tuzilishini bilish muhim:

Talaffuzga asoslangan so‘zlarning yozuvi: ismlar, joy nomlari, va boshqa o‘ziga xos so‘zlarni to‘g‘ri yozish. Bunda tarjimon transliteratsiya va transkripsiya texnikalarini

O‘zbek tilidagi va tarjima qilinayotgan til (masalan, ingliz yoki rus) fonologik tizimlari farqini tushunishi tarjimonga atoqli otlarni to‘g‘ri tarjiam qilishida katta qo‘llanma vazifasini bajaradi.

2. Leksik bilimlar. So‘z boyligi va uning mazmunini tushunish yozma tarjimonning muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi:

1) Sinonim va antonimlarni bilish: har xil leksik mosliklarni tanlash.

2) So‘z ma’nosining kontekstga bog‘liqligini farqlay olishi kerak, ya’ni bir so‘z turli kontekstlarda har xil ma’no berishi mumkin (polisemik so‘zlar).

3) Murakkab iboralar va idiomalar: Idiomatik ifodalarni tarjima qilishda ularning ma’nosini to‘g‘ri tushunish va o‘xshash ekvivalentni topish.

3. Grammatik bilimlar. Tarjimonning grammatik kompetensiyasi matn tuzilishini to‘g‘ri ifodalash uchun zarur:

1) Sintaktik qoidalarni bilish, ya’ni gap tarkibi va tuzilishini to‘g‘ri moslashtirish.

2) Morfologik qoidalarni bilish, ya’ni so‘z shakllarini tanlash va to‘g‘ri ishlatish.

3) Zamonda moslikni ta’minlay olishi, tildagi fe’l shakllarini to‘g‘ri tarjima qilish.

4. Semantik bilimlar. Semantika, ya’ni so‘z va iboralarning ma’nosini tahlil qilish va tushunish lingvistik kompetensiyaning markaziy qismidir. Ular quyidagilardan iborat:

1) Ma’no tahlili: So‘zlar va iboralar ma’nosini aniq tushunish va tarjimada saqlab qolish.

2) Konnotativ ma’no: Matnning emotsional va uslubiy rang-barangligini o‘z tilida aks ettirish.

5. Stilistik bilimlar. Matn janri va uslubiga mos ravishda tarjima qilish uchun stilistik bilimlarni egallashi lozim. Ular quyidagilarda o‘z aksini topadi:

1) Janr xususiyatlari: Ilmiy, badiiy, jurnalistik va rasmiy matnlarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish.

2) Uslubni moslashtirish: Asliyat matnining til uslubini tarjimada saqlay olishi kerak.

6. Pragmatik bilimlar. Matnning kommunikativ maqsadini anglash va uni tarjimada mos ravishda aks ettirish tarjimonning pragmatik ko‘nikmalarini talab qiladi:

1) Kontextni tushunish: Matnning qayerda va kim uchun ishlatilishini bilish lozim.

2) Madaniy moslashuv: Madaniy jihatdan mos ifodalarni tanlay olishi kerak.

3) Lingvistik kompetensiyaning ahamiyatini bilishi.

4) Mazmunni aniq yetkazish: yozma tarjimada tilning leksik va grammatik jihatlarini to‘g‘ri qo‘llash orqali mazmunni buzmasdan yetkazish mumkin.

5) Janr va uslubga moslik: har xil matnlar (ilmiy, badiiy, jurnalistik) uslubiy jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, tarjimonning lingvistik bilimiga asoslangan yondashuvni talab qiladi.

6) Til o‘rtasidagi farqlarni yengib o‘tish: Lingvistik kompetensiya tarjima jarayonida tilning strukturaviy va semantik farqlarini to‘g‘ri boshqarishga imkon beradi.

7) Matnning global maqsadini saqlash: tarjimon matnning asosiy maqsadini va uni o‘quvchiga qanday yetkazishni to‘g‘ri tushunishi lozim.

Lingvistik kompetensiyani rivojlantirish usullari quyidagilardan iborat:

– Til korpuslari bilan ishlash: parallel matnlar va tarjimalarni tahlil qilish orqali tarjima strategiyalarini takomillashtirish.

– Ko‘p tilli leksik resurslardan foydalanish: lug‘atlar, glosariylar va avtomatik tarjima vositalaridan foydalangan holda lingvistik bilimlarni boyitish.

– Maxsus matn tahlillari: ilmiy va badiiy matnlar ustida ishlash orqali grammatik, leksik va semantik bilimlarni kengaytirish.

– Mutaxassis bo‘lmagan matnlarni tahlil qilish: har xil darajadagi matnlarni o‘rganish orqali murakkab leksik va grammatik strukturalarni tushunish.

Amaliy mashqlarning ahamiyati:

– Terminologik tahlil, kontekstual tarjima va stilistik moslashuv bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Yozma tarjimonning lingvistik kompetensiyasi tarjima faoliyatining poydevorini tashkil etadi. Bu bilim va

ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali tarjimon nafaqat matn mazmunini aniq yetkazadi, balki uslubiy va semantik moslikni ham ta’minlaydi. Tarjimon ushbu kompetensiyani zamonaviy texnologiyalar va nazariy bilimlar bilan boyitgan holda, har xil murakkablikdagi matnlarni sifatli tarjima qilishga erishadi.

2. Madaniy kompetensiya. Yozma tarjimonning madaniy kompetensiyasi – bu ikki yoki undan ortiq madaniyatni chuqur tushunish va tarjima jarayonida ushbu bilimlarni amaliy qo‘llash qobiliyati. Madaniy kompetensiya tarjima jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, matnning semantik va pragmatik mazmunini boshqa til va madaniyatga mos ravishda o‘tkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu kompetensiyaning ahamiyati, ayniqsa, madaniyatga xos hodisalar, idiomatik iboralar va uslubiy nuanslarni tarjima qilishda namoyon bo‘ladi.

Madaniy kompetensiyaning tarkibiy qismlari

1. Madaniy kontekstni tushunish. Har bir til ma’lum bir madaniy kontekstda shakllanadi. Tarjimon quyidagi jihatlarni hisobga olishi kerak:

1) Tarixiy va madaniy hodisalar: Tarjima matnida aks etgan tarixiy voqealar va madaniy konnotatsiyalarni anglash.

2) Ijtimoiy urf-odatlar: Matnda aks etgan milliy yoki regional odatlar va an’analar.

3) Ma’no to‘qimalari: So‘zlar va iboralarning madaniyatga xos yashirin ma’nolarini ochib berish.

2. Idiomatik va frazeologik birliklarni tushunish.

1) Mahalliy ifodalar: Idioma va frazeologik birikmalarni boshqa madaniyat kontekstida qanday talqin qilishni bilish.

2) Ekvivalent izlash: Asliyat madaniyatidagi ifodalarning tarjima tilidagi mos yoki yaqin ekvivalentlarini topish.

3. Madaniy moslashuv (Cultural Adaptation).

Madaniy jihatdan farqli bo‘lgan elementlarni boshqa madaniyatga moslashtirish:

1) Globallashgan tushunchalar: Universal tushunchalarni saqlab qolish.

2) Mahalliy realiyalar: Asliyat madaniyatiga xos bo‘lgan narsalarni tarjima tilida mos usulda bayon qilish.

4. Usul va uslubni madaniy moslashuv bilan bog‘lash

Matn janri va uslubiga mos keladigan ifoda vositalarini tanlash: Rasmiy, badiiy yoki ilmiy matnning madaniyatga xos stilistik xususiyatlarini tarjima tilida aks ettirish.

Pragmatik uyg‘unlik: Asliyat matnidagi axborotning maqsadga muvofiqligini saqlash.

3. Texnologik kompetensiya. Zamonaviy tarjimonlarning samaradorligini oshirishda texnologik bilimlar muhim o‘rin tutadi:

– Kompyuterga asoslangan tarjima vositalari (CAT): Trados, MemoQ kabi dasturlardan foydalanishni bilish.

– Til korpuslari va ma’lumot bazalari: Lingvistik ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish uchun korpus vositalaridan foydalanish.

– Avtomatik tarjima vositalari: Google Translate, DeepL MemoQ, SDL Trados Studio, Wordfast kabi vositalardan yordamchi sifatida foydalanish, tarjima xotiralarini yaratish lekin natijani tahlil va tahrir qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

Yozma tarjimonning texnologik kompetensiyasi zamonaviy tarjimonning kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Bu kompetensiya zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatini, tarjima jarayonlarini optimallashtirishni va natijaning sifatini oshirishni o‘z ichiga oladi. Texnologik kompetensiya tarjimonning samaradorligi va professional darajasini belgilovchi omillardan biri bo‘lib, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishni talab qiladi.

Yozma tarjimonning texnologik kompetensiyasi zamonaviy tarjimashunoslikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, samaradorlik, sifat va global maydondagi raqobatbardoshlikni oshiradi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish tarjimonni yangi imkoniyatlar bilan ta’minlaydi va uni bozor talablariga moslashtiradi. Tarjima sohasidagi raqamli transformatsiya sharoitida texnologik kompetensiyaga ega bo‘lgan tarjimon yuqori professional yutuqlarga erishishi mumkin.

4. Tahrir va korrektura kompetensiyasi.

Tarjimon har bir matnni yuqori sifatli, stilistik va grammatika jihatidan mukammal darajada tahrir qilishi lozim. Matnning mazmuni va uslubiy uyg‘unligini tekshirish, tarjima sifatini baholash, tahrir qilish usullari, matnni ma’no va grammatik aniqlik jihatidan qayta ko‘rib chiqish kabi masalalar yozma tarjimonning oldidagi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yozma tarjima jarayonida tahrir (redaktsiya) va korrektura (lektorlik tahriri) bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning vazifasi va maqsadi jihatidan farqlanadi. Har biri tarjima sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lsa-da, ularning qamrovi, tahlil darajasi va bajariladigan ish turlari bilan ajralib turadi.

Tahrir jarayonida tarjima matni keng ko‘lamda, chuqur tahlil qilinadi. Bu jarayon tarjimon tomonidan yoki professional muharrir tomonidan amalga oshiriladi. Tahrirning asosiy maqsadi matnni lingvistik, stilistik, va mazmun jihatidan takomillashtirishdir.

Tarjima jarayonida taxrirning vazifalari:

- Tarjima matnining asl matnga mosligi, uning mantiqiy izchilligi va uzviyligi tekshiriladi.
- Matnning tarjima qilinayotgan tilga mosligi, grammatik va stilistik jihatdan to‘g‘riligini ta’minlash.
- Terminologiya izchilligi tarjimada ishlatilgan terminlarning bir xil va to‘g‘ri qo‘llanganini tekshirish.
- Madaniy moslik: Tarjima maqsad tilida madaniy va kontekstual jihatdan mos kelishini nazorat qilish.

Tahrir jarayoni yakunida tarjima matni nafaqat texnik jihatdan to‘g‘ri, balki o‘quvchiga qulay, tushunarli va muloqot uchun moslashgan bo‘ladi.

Korrektura tarjima matnini yakuniy ko‘rinishda tayyorlash bosqichi bo‘lib, asosan matnning yuzaki jihatlarini ko‘zdan kechirish bilan shug‘ullanadi. Bu jarayon matndagi kichik xatolarni, jumladan, orfografiya, punktuatsiya va texnik kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan.

Tarjima jarayonida karrekturaning vazifalari:

- Imlo xatolarini tuzatish: So‘zlarning to‘g‘ri yozilishi tekshiriladi.
- Punktuatsiyani tekshirish: Vergul, nuqta, so‘zlar o‘rtasidagi bo‘shliq va boshqa tinish belgilarining to‘g‘ri qo‘llanganini nazorat qilish.
- Formatlash va dizayn: Matnning formatlash talablari, sahifa tartibi, shrift, sarlavhalar va boshqa texnik elementlar tekshiriladi.

Korrekturaning natijasi:

Matn oxirgi ko‘rinishga keltiriladi va texnik jihatdan mukammal holatga yetkaziladi.

Tahrir va korrekturaning farqlovchi jihatlari

5. Tarjimashunoslik nazariyasi va metodologiyasi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun tarjimashunoslik nazariyasi va metodologiyasini yaxshi bilish lozim. Yozma tarjimonning tarjimashunoslik nazariyasi va metodologiyasi kompetensiyasi

Yozma tarjimonning kasbiy muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarjimashunoslik nazariyasi va metodologiyasi bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga bog‘liq. Ushbu kompetensiya tarjimonning nazariy tushunchalarni chuqur bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va har bir tarjima jarayonida asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatini anglatadi. Bu, o‘z navbatida, tarjimaning sifatini oshiradi va uning madaniy, lingvistik, va uslubiy jihatdan yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi.

Tarjimashunoslik nazariyasini tushunish har bir tarjimon uchun zarurdir, chunki u tarjima jarayonining mantiqiy va tizimli yondashuvini shakllantiradi. Tarjima tamoyillari va yondashuvlari tarjima jarayonida ekvivalentlik, adekvatlik, dinamik va statik usullarning qo‘llanishi.

Mazmun va shakl uzviyligi matnning lingvistik va ma’noviy strukturasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni saqlash.

Madaniy aspektlarni hisobga olish: Asl matnning madaniy kontekstini aniq ifodalash va maqsad tilining o‘quvchilari uchun moslashtirish.

Tarjimada ekvivalentlikka erishish muhim vazifalardan biri bo‘lib, bu asl matn va tarjima matni o‘rtasidagi semantik, stilistik va funksional moslikni ta’minlashni anglatadi. Bu jarayonda tarjimon quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

Tarjimashunoslik nazariyasi madaniyatlararo kommunikatsiya tamoyillarini tushunishni talab qiladi. Tarjimon madaniy jihatdan sezgir bo‘lishi va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni mohirlik bilan ifodalashi kerak. Bu, ayniqsa, adabiy, reklama yoki ommaviy axborot vositalari matnlarini tarjima qilishda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Axmedova A. Some problems in the translation of simile from English Uzbek // Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети Ахборотномаси (№1/38). 2018. – P. 91-94.

2. Axmedova A. Semantic Problems of Simile in in Lexical Transformations (on the example of English, Uzbek and Russian) // International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) (4/10). 2020. – P. 177-180.

3. Akhmedova A. Stages of creating parallel corpus of english-uzbek similes // Philology matters. – Toshkent. (Vol. 38 №3). 2021. – P. 60-75.

4. Baker M. Corpora in Translation Studies: An Overview and Some Suggestions for Future Research // Target. – Vol. 7, No. 2. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – P. 223–243.

5. Bowker L. Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction. – Ottawa: University of Ottawa Press, 2002.

6. Zanettin F. Corpora in Translator Education. – London: Routledge, 2012.

7. Sinclair J. Trust the Text: Language, Corpus and Discourse. – London: Routledge, 2004.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti
E-mail: baxodirazamxonov@gmail.com

QURILISH MUHANDISLIGI YO‘NALISHI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI VA TARKIBIY QISMLARI

Annotatsiya. *Maqolada qurilish muhandisligi yo‘nalishi talabalarining axborot kompetentligini takomillashtirishning nazariy tushunchalari, amalga oshirish mexanizmlari va ularning tarkibiy qismlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot, axborot kompetentligi, axborotlarni modellashtirish, raqamli texnologiyalar, mexanizmlar, kasbiy faoliyat, o‘quv faoliyat.*

Azamkhanov Bakhodir Sayitkamolkhonovich
Fergana State Technical University

MECHANISMS AND COMPONENTS OF IMPROVING INFORMATION COMPETENCE OF STUDENTS OF THE CIVIL ENGINEERING DIRECTION

Annotation. *The article examines the theoretical concepts, implementation mechanisms and their components for improving the information competence of students in the field of construction engineering.*

Keywords: *information, information competence, information modeling, digital technologies, mechanisms, professional activity, educational activity.*

Азамханов Бахадыр Сайткамолханович
Ферганский государственный технический университет

МЕХАНИЗМЫ И КОМПОНЕНТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ГРАЖДАНСКОГО СТРОИТЕЛЬСТВА

Аннотация. *В статье рассмотрены теоретические концепции, механизмы реализации и их составляющие совершенствования информационной компетентности студентов направления строительная инженерия.*

Ключевые слова: *информация, информационная компетентность, информационное моделирование, цифровые технологии, механизмы, профессиональная деятелность, образовательная деятельность.*

Kirish.

Talabalarning axborot kompetentligi tushunchasini o‘quv va kasbiy faoliyatga tegishli vazifalarni bajarishda samarali va to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotlarning xususiyatlarini aniqlash, uni qayta ishlash usullari va vositalari haqidagi bilimlar, katta ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalari (tahlil qilish, taqqoslash, baholash, o‘zgartirish, qo‘llash), raqamli texnologiyalar yordamida axborotlarni modellashtirish, axborotlarga asoslangan optimal yechimni aniqlash va uni muammoli sharoitlarga qo‘llash qobiliyatlari sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Bugungi kunda oliy ta’lim o‘quv jarayoniga oid axborotlarni raqamli texnologiyalar, kompyuter dasturlari orqali qayta ishlash ko‘nikmalarini talabalarda shakllantirish asosiy dolzarb vazifalardan hisoblanadi [1].

Adabiyotlar tahlili.

Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishlardagi bir qator olimlarni ilmiy -tadqiqot ishlarini keltirib o‘tish mumkin, jumladan ta’limga raqamli texnologiyalarning tadbig‘i va ta’lim axborot platformalaridan foydalanishni rivojlantirish muammolari bo‘yicha mamlakatimiz olimlaridan A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, O.X.To‘raqulov, N.Taylaqov, M.R.Fayzieva, U.Yu.Yuldashev, J.A.Hamidov, R.X. Xamdamov, S.S.Beknazarova, O.S.Abdullaeva va boshqalarning tadqiqotlarida axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasb-hunar ta’limi, o‘rta maktab o‘quvchilari va oliy ta’lim talabalariga axborotlarni qayta ishlash usul va shakllari ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.


Texnik oliy ta’lim talabalarining axborot kompetentligini takomillashtirish masalasi va

mexanizmlari murakkab, noaniqlik va axborotlar yetarli bo‘lmagan sharoitlar uchun mo‘ljallangan o‘quv-amaliy jarayonlarni loyihalash va tashkillashga qaratilgan bo‘lishi zarur[2,3].

Talablarning axborot bilan ishlash kompetentligini takomillashtirish mexanizmlari professor-o‘qituvchining muammoli masalani yechishga yo‘naltiruvchi sifatida va shu asosida talabalarni muammoli vazifa yechimi bo‘yicha o‘z bilimlarini qo‘llashga qaratilgan hamkorlikdagi o‘quv faoliyatini ifodalab beradi.

Talabalarning axborot kompetentligi ko‘nikmalariga nisbatan vazifalarni hal etish nuqtai nazardan bir nechta fikrlarni bildirish mumkin. Birinchidan bu muhim zaruriy kompetensiyalardan biri bo‘lib, muammoni aniqlash, zaruriy axbortni qidirish, tahlil qilish, ajratish, taqqoslash, baholash va qo‘yilgan muammo vazifalarini hal etish uchun qo‘llash ko‘nikmalarini bildiradi. Ikkinchidan axborot kompetentligi ilmiy-tadqiqotchilik, ijodiy faoliyatning asosiy elementi sifatida qaraladi. Shunday ekan bu tushuncha nafaqat axborotlarni qidirish, tahlil qilish va qo‘llash qobiliyatini, balki biror sohaga oid muammoni aniqlash, muammo xususiyatlarini tizimli tahlil etish, muammoga yechim topish uchun g‘oyalarni ilgari surish, qonuniyatlarni aniqlash, xulosalar berish, ularni mantiqiy asoslash va tekshirilgan axborotlar asosida keyingi qadamlar to‘g‘risida qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi[3,4].

Talabalarni axborot kompetentligini takomillashtirish mexanizmini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratib ko‘rsatish mumkin (**1-rasmga qarang**).



1-rasm. Talabalarning axborot kompetentligini takomillashtirish mexanizmi

O‘quv jarayonida interaktiv faol usullardan foydalanilganda talabalar tayyor yoki ishlab chiqilgan bilimlarni o‘zlashtirmaydi, balki kasbiy faoliyatga oid muammoli vaziyatlar uchun zaruriy axborot va bilimlarni qidirib topishga yo‘naltiriladi. Hozirgi ta’lim jarayoning asosiy maqsadi tayyor bilimlarni berish emas aksincha talabalarni ijodiy, kreativ va ilmiy nuqtai nazardan fikrlashga o‘rgatishdir. Bu holatda talabalarning kasbga oid muammoli vaziyatlarni hal etish tajribalarini oshirib borish imkoniyatini paydo qiladi.

Kasbiy faoliyatga oid bilimlar shakllanayotganda axborot kompetentligining tarkibiy qismlari ya’ni, axborotni izlash, tahlil qilish, jamlash, taqqoslash, o‘zgartirish, taqdim etish, uzatish va saqlash, undan muammolarni hal qilishda foydalanish kabi ko‘nikmalar asosiy muhim bilimlar hisoblanadi.

Mazmuniy tarkibiy qismni amalga oshirishda maxsus tanlangan kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlar (masalan, arxitektura va loyihalashga oid qonunchilikdagi yangiliklarni nima sababdan internet

platformasidan qidirish maqsadga muvofiqligini tushuntiring) yoki loyihalash tarkibiga mazmuniy tarkibiy qismni kiritish (texnik loyihalash jarayoni uchun kerakli axborot manbalarini tushuntiring va asoslang) orqali amalga oshiriladi.

Texnologik tarkibiy qism har xil axborot manbalari bilan ishlash, zaruriy axborotni qidirish, axborotlarni tahlil

Umumiy ravishda talabalarning axborot kompetentligini takomillashganligini quyidagi darajalar bo‘yicha ajratib ko‘rib chiqish mumkin[4,5]:

- boshlang‘ich;
- o‘rta;
- samarali.

Boshlang‘ich darajada talabalarda axborot kommunikatsiya-texnologiyalariga oid dastlabki bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan motivatsiya va qiziqishning yetarli emasligi, ushbu sohada bilimlarni o‘zlashtirish va shakllantirishga bo‘lgan talab hamda tayyorgarlikning mavjud emasligi bilan ifodalanadi hamda bilimlar nazariy, fikrlar tarqoq va tizimsiz bo‘ladi.

O‘rta darajada talabalarning axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiya va qiziqishlarining paydo bo‘lishi, o‘quv jarayonini tashkil etish jarayonida foydalaniladigan axborotlarni qayta ishlashning kompyuter dasturiy vositalari va raqamli ta’lim resurslariga oid bilimlarning mavjudligi, axborot bazalari bilan ishlash ko‘nikmalari, ijtimoiy yo‘nalishdagi fanlarni ham o‘zlashtirish bo‘yicha bilimlarni olishga bo‘lgan talab va tayyorgarliklarning mavjudligi bilan ifodalanadi.

Qurilish muhandisligi yo‘nalishi talabalarining axborot kompetentligini takomillashtirishning samarali darajalariga erishish uchun quyidagi didaktik sharoitlarni shakllantirish muhim vaziflardan hisoblanadi[3-5]:

- talabalarning fanga oid bilimlarini shakllantirish uchun pedagogik muhit yaratish, mustaqil ta’lim olish jarayonida o‘quv fanlariga oid topshiriqlarni bajarish va o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyani uyg‘otish;

- talabalarning axborot kompetentligini takomillashtirishda tizimli, pedagogik va texnologik yondashuvlarni qo‘llash;

- talabalarning o‘quv jarayonini tashkil etish va rejalashtirishda fanga oid o‘quv-dasturiy vositalarning an’anaviy va raqamli komponentlarini tizimli yondashuv asosida qo‘llash;

- talabalarning axborot kompetentligini takomillashtirish jarayonining barcha bosqichlarida o‘quv jarayoni faoliyatini pedagogik texnologiya va vositalar bilan tashkillash natijasida uning samaradorlik monitoringini kuzatish orqali maqsadli boshqarib borish;

- fanga tegishli o‘quv-dasturiy vositalarning an’anaviy va raqamli komponentlarining didaktik vazifalarini amalga oshirish imkonini beruvchi texnik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasining (elektron axborot bazalari va internet qilish va tizimlashtirish, muammoli topshiriqning qisqacha mazmunini yoritish, muammoli vazifa bo‘yicha tanqidiy fikrlar yozish, tezislar, mustaqil ishlanmalar tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Asosiysi ushbu jarayonlar asosida talabalarning mustaqil ishlay ko‘nikmalarini takomillashtirishdan iborat bo‘ladi.

resurslari; kompyuter tizimlari; o‘quv jarayoniga texnik xizmat ko‘rsatish qurilmalari, multimediya vositalari) mavjudligi;

- talabalarning axborot kompetentligini takomillashganlik darajalarini baholab borishda ishlab chiqilgan mezonlarning ilmiy asoslanganligi;

- fanga tegishli o‘quv-dasturiy vositalarning raqamli komponentlarini yaratish va tizimli qo‘llashning ilmiy-uslubiy jihatlarini hisobga olgan holda axborotlarni modellashtirish bo‘yicha talabalarning mustaqil o‘quv jarayoni faoliyatini rag‘batlantirish;

- muammoli masalalarni yechishda tayyor sun’iy intellektning yechim variantlariga tayanmasdan, balki talabalarning fikrlash, tahlil qilish va aqliy qobiliyatlariga asoslangan yechimni aniqlash vosita hamda usullarni qo‘llash.

Axborot kompetensiyasi tushunchasi kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko‘riladi. Texnik yo‘nalish talabalarining axborot kompetentligini takomillashtirish jarayoni esa o‘ziga xos xususiyatlardan tashkil topadi. Texnik yo‘nalish talabalari o‘quv jarayonini tashkillashda individual imkoniyatlar va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, turli xil texnik jarayon va tizimlarning xususiyatlaridan kelib chiqib mavzuga oid axborotlarni aniqlash va uni aniq topshiriq yechimlariga qo‘llash qobiliyatini nazarda tutadi.

Yuqorida umumiy ravishda talabalarning axborot kompetentligini takomillashganlik darajalari mezonlarini ko‘rib chiqdik. Bu yerda esa texnik yo‘nalish talabalarining axborot kompetentligini takomillashtirishning uchta darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin[2-5]:

- *boshlang‘ich bazaviy* – muammoli topshiriq uchun yangi axborotlarni to‘plash, zaruriy axborotlarni ajratish, tajriba o‘tqazish usullari asosida ularni taqqoslash, muqobil variantlar ichidan optimal yechimni tanlab olish, berilgan algoritm asosida topshiriqlarni bajarish qobiliyati;

- *ilmiy-tadqiqotchilik* – tizimli tahlil yondashuvlari asosida muammo atrofidagi axborotlarni shakllantirish, murakkab masalalarni qismlarga ajratish, zaruriy axborotlarni tizimlashtirish, masala yechimi uchun bir nechta variantlarni taqqoslab chiqish, tahlil qilish, axborotlarni baholash, qonuniyatlarni qo‘llash orqali tekshirib ko‘rish va olingan axborotlar asosida keyingi jarayonlar bo‘yicha qaror qabul qilish hamda mustaqil tanlovni amalga oshirish qobiliyatlari;

- *kasbiy faoliyat* – raqamli texnologiyalar yordamida aniq bir texnik jarayon muammosi yuzasidan zaruriy axborotlarni tezkor qidirish, ularni texnik va dasturiy

vositalar yordamida qayta ishlash va muammo yechimiga qo‘llash hamda natijalarni tekshirib baholash qobiliyati.

Qurilish muhandisligi yo‘nalishi talabalari axborot kompetentligining tarkibiy qismi sifatida yana quyidagi komponentalarni ham ajratib ko‘rsatish mumkin:

- kognitiv – tizimga kirayotgan axborotlarni tezkor qayta ishlash bilan bog‘liq jarayonlar, ya’ni axborotni tahlil qilish, taqqoslash, saqlash, tartiblash;

- shaxsiy – axborotni qayta ishlash va qo‘llashga ta’sir qiluvchi shaxsning alohida bilim, g‘oya, dunyoqarashlarining xususiyatlari;

- amaliy – muammoga tegishli axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalari;

- refleksiv – kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z bilimlarni tahlil qilib borish va baholash bilan bog‘liq jarayonlar.

Axborot kompetentligini takomillashtirishda uning har bir tarkibiy elementlarini rivojlantirish muhim masala hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, barcha darajalarda talabalarning axborot kompetentligini takomillashtirib borish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biri raqamli texnologiyalar yordamida axborotlarni qayta ishlash qobiliyatlaridir. Axborot kompetentligini takomillashganligini samarali darajasida fanga tegishli topshiriqlarga oid zaruriy axborotlarni shakllantirish va tizimlashtirish, zaruriy axborotlarni taqqoslash va baholash, shu asosida topshiriq yechimini rejalashtirish, fanga tegishli bilimlarni o‘zlashtirishning samarali axborot manbalarini aniqlash, o‘quv jarayonida raqamli ta’lim vositalarini qo‘llash va o‘quv amaliyotiga tegishli vazifalarini hal qilish uchun kreativ fikrlarga asoslangan amalga oshirish usullarini topa oladigan ko‘nikmalar bilan belgilanadi.

Adabiyotlar.

1. N.Tayloqov, R.Hamdamov, U.Begimqulov. Ta’limda axborot texnologiyalari. Toshkent: 2010. – 120 b.

2. Зеер Э.Ф. Ключевые квалификации и компетенции в личностно ориентированном профессиональном образовании // Образование и наука. Изв. Урал. отд. РАО, 2000. № 3 (5). С. 13-21.

3. Гнатышина Е. А. Компетентностно-ориентированное управление подготовкой педагогов профессионального обучения: монография / Е. А. Гнатышина. Санкт-Петербург: Книжный Дом, 2008. 424 с.

4. Дидактические основы подготовки инженеров-педагогов: учебное пособие / Н. М. Жукова [и др.]; под ред. П. Ф. Кубрушко, В. П. Косырева. Екатеринбург, 1997. 200 с.

5. Витковская, Н.Г. Информационная компетентность студента вуза : теория и практика формирования / Н.Г. Витковская. – Тольятти : Изд-во Волжского унта, 2005. – 135 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Boymuradov Ismatilla Xasanovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi mudiri p.f.n., dotsent
e-mail: i_boymurodov77@gmail.com

UDK 796/799

KURASH TURLARI VA UNI O'QITISH METODIKASI FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini yakka kurash vositalari asosida oshirishning ilmiy-uslubiy yondashish orqali ularning xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishishlarini ta'minlash va mashg'ulotlar jarayonida kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish uslublarining samaradorligini oshirish yuzasidan nazariy ma'lumotlari keltirib o'tilgan.*

Tayanch so'zlar: *kurash, kasbiy ko'nikmalar, jismoniy sifatlar, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, integratsiya.*

Боймурадов Исматилла Хасанович
Университет экономики и педагогики «Физическая культура» и спорта» заведующий кафедрой к.п.н., доцент
e-mail: i_boymurodov77@gmail.com

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА ВИДЫ БОРЬБЫ И МЕТОДИКА ЕГО ПРЕПОДАВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье представлены теоретические сведения по улучшению физической подготовленности борцов на основе международного борцовского инструмента, обеспечению их высоких результатов на международных соревнованиях и повышению эффективности методов повышения технико-тактической подготовленности борцов в процессе тренировок.*

Ключевые слова: *борьба, профессиональные навыки, физические качества, физическая подготовка, техническая подготовка, тактическая подготовка, интеграция.*

Boymuradov Ismatilla Xasanovich
University of Economics and Pedagogy "Physical culture and sports" head of the department PhD., associate professor
e-mail: i_boymurodov77@gmail.com

EDUCATIONAL TECHNOLOGIES USED IN TEACHING THE SUBJECT OF TYPES OF WRESTLING AND ITS TEACHING METHODOLOGY

Annotation: *In this article, the theoretical information on improving the physical fitness of wrestlers on the basis of international wrestling tools, ensuring their high results in international competitions and improving the effectiveness of methods of improving the technical and tactical fitness of wrestlers during training, is presented.*

Key words: *struggle, professional skills, physical qualities, physical training, technical training, tactical training, integration.*

Kirish.

Hozirgi davrning turli ilmiy-nazariy va o'quv-metodik manbalarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, qayta takrorlanadigan, o'quvchi (talaba)ning o'qish-bilish faolligini to'liq ta'minlaydigan, ta'lim shakllarini qulaylashtiradigan, o'qitishda inson salohiyati va texnik vositalarning o'zaro ta'sirini tashkil etadigan, bilim o'zlashtirishda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzata oladigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlash" [1] vaqti yetib kelganligi qayd etiladi. Chunki ta'lim texnologiyalari o'zlashtirish

natijalarini kafolatlaydigan, jamiyat talablariga koʻra oldindan shaxs shakllanishini kafolatlovchi, ta'lim shakllarini qulaylashtiruvchi oʻqitishning metod va vositalarining yigʻindisidan iboratdir.

"Kurash turlari va uni oʻqitish metodikasi" oʻquv fanini oʻqitishda ta'lim jarayoning yoʻnalishini muayyan izchillik va yaxlitlikda qurish, oʻquvchi (talaba)larning oʻquv-biluv faoliyatini aniqlashtirilgan maqsadni amalga oshiruvchi ta'limning shakl metod va vositalarini tanlash lozimligini taqozo etadi. Buning uchun didaktikaning muayyan qonuniyatlari, qoidalari va oʻziga xos jihatlarini e'tibordan chiqarmaslik lozim. Chunki ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, oʻqitish texnologiyasi (natija sifatida) - didaktik jarayonning ilmiy loyihasi modeli boʻlib, faoliyat davomida pedagogik harakatalar muvaffaqiyatini ta'minlaydi".

Xoʻsh, oʻqitish texnologiyalari mazmunida nimalar mujassamlashgan:

1. Ta'lim standartlari asosida oʻqitish jarayonini loyihalash.

2. Kutilayotgan natijani kafolatlash va kafolatlangan natijaga toʻliq erishish.

3. Kafolatlangan natijani qoʻlga kiritishda maqsadni aniq belgilash, ya'ni ta'limning umumiy maqsadi va oʻquv mavzusining maqsadini hamda oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan oʻquv ma'lumotlarinining maqsadini aniqlashtirish.

4. Oʻqitishning didaktik vositalarini aniq tanlash va ulardan maksimal (optimal) foydalanish.

5. Oʻqitishning uzluksizlik, tadrijiylik, ilmiylik, tushunarlilik, koʻrgazmalilik, amaliylik, tamoyillariga asoslanish.

6. Oʻquv mashgʻulotlarining xaritasini oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan BKM (bilim, koʻnikma, malakalar) va pedagogik harakatlar (oʻqituvchi-talaba faoliyati) asosida ishlab chiqish va rejalarni tuzish.

7. Ta'lim oluvchilarning mustaqilligi, faolligi, ijodiy kamolotining ta'minlanishiga qaratilgan boʻlganligi.

8. Ta'lim jarayonining motivatsiya, ta'lim oluvchining oʻqish-bilish faoliyati, oʻquvchi faoliyati boshqarilishi komponentlaridan iborat boʻlishi va amalga oshishi [5].

Qolaversa, "Kurash turlari va oʻqitish metodikasi" fanini oʻqitishda, fan mazmunini talabalarning oʻzlashtirishlari uchun ta'limning ilgʻor va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi innovatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish, ma'ruza, amaliy mashgʻulotlardan ilgʻor innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligi qayd qilingan. Shuni inobatga olib biz mazkur fanni oʻqitishda foydalanishi mumkin boʻlgan ta'lim texnologiyalari xususida fikr yuritamiz.

Adabiyotlar tahlili.

Hozirgi kunda ta'lim maqsadini amalga oshirish ta'lim funksiyalari, muammoli-modulli xususiyatlari, oʻqitish vositalari va ta'lim mazmunini amalga oshirish darajalari, ta'limni jadallashtirish va shaxsga yoʻnaltirilgan - umumiy pedagogik, xususiy pedagogik, lokal (modul)li ta'lim kabi oʻqitishning xususiyatlaridan kelib chiqib, A.Y.Savelev, S.A.Smirnov, M.A.Chashanov, V.P.Bespalko, V.M.Shatalov, E.N.Shiyanov, M.I.Maxmutov, L.A.Yutsyavichene, D.V.Chernilevskiy va boshqalar tomonidan ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan. Respublikamiz ta'lim muassasalarida esa oʻqitishning muammoli, shaxsga yoʻnaltirilgan, mujassamlashtirilgan, modulli, rivojlantiruvchi, dasturlashtirilgan, differenlashtirilgan, faol, oʻyin kabi texnologiyalari N.Avliyoqulov, N.Sayidaxmedov, B.Farberman, Oʻ.Tolipov, M.Usmonboyeva, B.Xoʻjayev, Sh.Olimov tomonidan ilmiy nazariy jihatdan asoslanib amalda qoʻllanilmoqda.

Xullas, mazkur texnologiyalar mustaqil fikr yuritish, faol oʻzlashtirish, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, kafolatli natijaga erishishni yoʻlga qoʻyishga yordam beradi. Zero, bunda bilish, tushunish, anglash, ajrata olish, oʻz-oʻzini nazorat qilish, aniqlashtirish oʻz faoliyatini baholash kabi amallar doimiy harakatda boʻladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi.

Muammoli oʻqitish texnologiyasi – bu muayyan oʻquv fanining muhim tomonlarini ijodiy oʻzlashtirishga oʻquvchilarni muntazam jalb qilishni nazarda tutadigan texnologiyadir. Muammoli oʻqitish texnologiyasining oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, u ta'lim oluvchilarga ma'lumot, axborotlarni tayyor holda emas, balki muammoli vaziyatlarni yaratish hamda ularni yechishga oʻquvchilarni jalb etish orqali bilim oʻzlashtirish, koʻnikma malaka hosil qilishga yoʻllashni nazarda tutadi. Shuning uchun mazkur texnologiya ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, e'tiqodni tarbiyalaydi.

Darhaqiqat, "Muammoli oʻqitish, oʻqitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi oʻzida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi" [2]. Zero, muammoli vaziyat – ta'lim oluvchilar fikrlash jarayonining dastlabki bosqichi boʻlib, unda biror narsani tushunish, anglash mantigʻi yotadi va u talabani muammoni yechishga yoʻnaltiradi, yechimni izlashni tashkillashtiradi. Bunda oʻqituvchi oʻquvchi-talabalarga bilim, ma'lumot, axborotlarni tayyor holda taqdim etmaydi, u bilim oluvchilar oldiga muammoli topshiriqlarni qoʻyib, ularning yechimini topishga oʻquvchi-talabalarning oʻzlarini yoʻnaltiradi.

Muammoli topshiriqlar, bilishga yoʻllovchi, tadqiqiy topshiriqlar hisoblanib, ularning natijalari ta'lim oluvchiga noma'lum boʻlib, ularni yechish yoʻllari, vositalarini ularning oʻzlari oʻz tayyorgarlik darajalariga tayanib mustaqil hal etishga intiladilar.

Muammoli oʻqitish texnologiyasi oʻquvchi-talabalarning bilish faolligi va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Natijada oʻquvchilar bilimlarni oʻz tayyorgarlik darajalariga tayanib mustaqil oʻrganishga

odatlanadilar, muammo va topshiriqlarni yechishning yo‘l va vositalarini izlab topishga intiladilar.

Tahlil va natijalar.

“Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyasi bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga kurashchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarliklarini inobatga olib, vaziyatdan kelib chiqib, texnik, taktik mahoratini namoyish qilishda mustaqil qaror qabul qilish yo‘llari hamda vositalari haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, kurashchilarga hujum harakatlarini mustaqil tanlash, qo‘llash texnikasi bilan tanishtiradi. Bu esa o‘z navbatida, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va mashqlarini tashkil etish va o‘tkazishga texnologik yondashish uchun amaliy yordam ko‘rsatadi. Bunda muammoli vaziyatni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat yaratishda:

a) texnik-taktik tayyorgalikda ziddiyatlarni vujudga keltirish va uning yechimini topishga kurashchining o‘ziga taklif etish;

b) aynan bir xildagi texnik-taktik tayyorgarlikni turli xil yechimini topish;

d) kurashchilarga holatga turlicha yondashishni o‘rgatish;

e) amalga oshirilgan texnik-taktik holatni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga undashga olib keladi va ularni qo‘llash ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham “Milliy kurash turlari va uni o‘qitish texnologiyalari” o‘quv fanini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyasining roli katta.

Dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi - o‘quvchi-talabalarning maxsus ishlab chiqilgan o‘quv materiallari ustida mustaqil ishlashlarini yo‘lga qo‘yish texnologiyasi hisoblanadi. Bunda milliy kurash bo‘yicha sport kurashining paydo bo‘lishi, ularning turlari, usullari, tamoyillari, kurashning texnik-taktik mahorat tamoyillari, jismoniy tayyorgarligi, ruhiy tayyorgarligi, texnik hamda taktik tayyorgarligi va boshqa o‘quv ma’lumotlarini dozalarga bo‘lib, ularni ketma-ketlikda, izchillikda bayon etish bilan tavsiflanadi. Chunki bu ta’limda o‘quv ma’lumotlarini muayyan dozalarga ajratish, o‘qish tempini indivuduallashtirishi va asta-sekin aniqdan-noaniqqa, oddiydan-murakkabga qoidasiga ko‘ra amalga oshirish, o‘quv materialini o‘rganish nazoratini izchillik bilan o‘tkazish, o‘tilgan mavzuni kichik ulushlarga bo‘lib, ularni to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlagandan so‘ng o‘quv materialining keyingi ulushini taqdim etishga o‘tishni ta’minlash kabi didaktik talablar yotadi.

Bu talabning o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, talaba fan o‘quv materialining oldingisini mukammal o‘zlashtirmasa, keyingisini o‘zlashtira olmaydi. Aniq va to‘g‘ri tashkil etilgan individual xarakterdagi talabaning mustaqil ishi o‘quv ma’lumotlarini to‘liq o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Yaxshi tashkil etilgan talabaning o‘quv-biluv faoliyati, uning ustidan o‘rnatilgan doimiy nazorat, talaba bilim olishi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Modulli ta’lim texnologiyasi. O‘qitishning yangi texnologiyalarini izlab topish borasida olib borilgan tadqiqotlar, ta’lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limda modulli o‘qitish texnologiyasining yaratilishiga olib keldi. Modulli o‘qitish texnologiyasi aniq ta’lim oluvchiga mos keluvchi o‘qitish usulini tanlashni, o‘quv ma’lumotlarini o‘quvchi-talabaning tayyorgarligi, o‘quv-biluv ehtiyojiga muvofiqlashtirish, o‘quv fani bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ishlashlari asosida modullar bo‘yicha tizimlashtirishni nazarda tutadi.

Professor N.H.Avliyoqulov va pedagogika fanlari nomzodi N.N.Musayevalar ta’kidlaganlaridek:

- modulli o‘qitish didaktik tizimning har bir tizilmasini (komponentini) so‘zsiz ishlanishini ta’minlaydi va ularni modulli dasturda va modullarda ko‘rgazmali taqdim etadi;

- modulli o‘qitish, o‘qitish mazmunini aniq tarkiblash, nazariy materialni ketma-ket bayon etish, o‘quv jarayonini uslubiy material bilan ta’minlash, o‘qitish jarayoniga tuzatishlar kiritishga imkon beruvchi o‘zlashtirilgan bilimlarni baholash va nazorat tizimini toqazo etadi;

- modulli o‘qitish o‘qitishni o‘zgaruvchanligini, o‘quv jarayonini o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va talablariga moslashni nazarda tutadi [3].

Modulli ta’lim texnologiyasining mazkur o‘ziga xos xususiyatlari milliy kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi o‘quv fanini o‘qitishda:

- milliy kurash turlarini tartiblashtirish;

- “Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi”ni modulli dastur shaklida o‘quv ma’lumotlari modullarga (makro, mikromoddullar tarzida) ketma-ketlikda o‘zlashtirishni rejalashtirish;

- tashkiliy shakllarda mustaqil bilim olish asosida olib borishni yo‘lga qo‘yish kabi masalalarni yechish amalga oshiriladi.

Shunday qilib, modulli o‘qitish texnologiyasi fan ma’ruzalarini modullarga ajratishni, o‘qitish, o‘zlashtirishni nazorat qilish va baholashni yuqori texnologik jarayon asosida olib boruvchi texnologiya deb xulosa chiqarish mumkin.

Differensiallashgan ta’lim texnologiyasi - bu ta’lim oluvchilarning individual (ruhiy va jismoniy) xususiyatlarini inobatga olib tashkil etilgan ta’lim texnologiyasi hisoblanadi. Ma’lumki, didaktika fani ta’lim oluvchilarni bilim darajasi, fikrlashi, xotirasi, qobiliyatini inobatga olib, ularni a’lo, yaxshi, o‘rta va bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga ajratib o‘qitish maktab amaliyotida keng qo‘llaniladi. Bunday mashg‘ulotlar mashqlarni tashkil etish odatda differensial ta’lim deb yuritiladi.

Sport kurashida esa kurashchilarning jismoniy, ruhiy, texnik, taktik tayyogarliklarini inobatga olgan holda

ularni guruhlarga ajratib tashkil etiladigan mashg‘ulotlarni differensial ta’lim deb aytish mumkin. Bunday yondashish sportchida taktik-texnik tayyorgarlikning oshishida, jismoniy va ruhiy holatini yaxshilashida muhim o‘rin tutadi. Bunday ta’limda sportchi faollashadi, o‘zining jismoniy, ruhiy, texnik va taktik tayyorgarligi ustida muntazam shug‘ullanadi. Buning uchun jismoniy tarbiya o‘qituvchisi yoki murabbiy milliy kurash turlari, milliy kurash mashg‘ulotining maqsadi, vazifalari, vositalari, usullari, tamoyillari, kurashchining jismoniy, ruhiy, texnik va taktik tayyorgarligi to‘g‘risida ham ilmiy-nazariy ham amaliy-usuliy ma’lumotlarni mukammal egallashi talab etiladi.

Shunday qilib, “Kurash turlari va uni o‘qitish texnologiyalari” fanini o‘qitishda differensial ta’lim texnologiyasidan foydalanish ta’lim oluvchilar yoki bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari hamda murabbiylarni past o‘zlashtiruvchidan qoniqarli o‘zlashtiruvchi darajasiga, qoniqarli o‘zlashtiruvchilarni yaxshi o‘zlashtiruvchilar darajasiga, yaxshi o‘zlashtiruvchilarni a’lo o‘zlashtiruvchilar darajasiga ko‘tarish mumkinligi amalda tasdiqlangan. Demak, “Milliy sport kurashi va uni o‘qitish texnologiyalari” fani mavzularini o‘qitishda differensial ta’lim texnologiyasini qo‘llash yaxshi samara beradi.

Mujassamlashtirilgan ta’lim texnologiyasi - ta’lim oluvchilarning his qilish xususiyatlarini, idrok etish faoliyatlarini inobatga olgan mashg‘ulotlarni bloklarga biriktirib, egallangan bilimlar samarradorligini oshirish hamda ularni idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlarini orttirishga qaratilgan ta’lim texnologiyasidir. “Milliy kurash turlari va uni o‘qitish texnologiyalari” fanini mujassamlashgan ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish sport turkumidagi o‘quv fanlarining o‘qitishni mujassamlashgan holda o‘qitishni nazarda tutadi. Bunda kurashga tayyorgarlik jarayonidagi harakatlar, kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, vaziyatni to‘g‘ri tushunish va unga qarab kuchini taqsimlash to‘g‘ri ta’minlanadi. Zero, inson ongi, sezgisi, ruhiy faoliyati o‘zaro mujassamlashgan birliklardan tashkil topgan. “Milliy kurash turlari va uni o‘qitish texnologiyalari” fani mazmunidagi mavzularni mujassamlashtirilgan ta’lim asosida o‘rganish kurashchilarning bilimdonlik darajasi va jismoniy, ruhiy, texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantiradi, mavzularni hayotiy lavhalar bilan bog‘lashni ta’minlaydi. Shuningdek, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va murabbiylarning bilish faoliyatini mazmunan boyitadi hamda quyidagilarning namoyon bo‘lishini ta’minlaydi:

a) o‘rganilayotgan fan g‘oyalarini chuqurlashtiradi va zukkolik, faollikni oshiradi;

b) kuchlilik, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, mustaqillikni tarbiyalaydi;

d) har bir mashg‘ulot doirasida faoliyat turlarini almashtirishga yordam beradi;

e) mashg‘ulotlarni ko‘rgazmali, illyustrativ, axborotli tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi;

f) mustaqil, ijodiy fikrlash va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishni yo‘lga qo‘yadi.

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi - ta’lim oluvchilarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlari asosida uning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va muammoni mustaqil yecha oladigan, fan mazmunini anglash uchun kerakli bilimni qidirib topa olish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi ta’limdir. Bu ta’lim texnologiyasi jahon standarti talabiga javob beradigan, o‘ziga, boshqalarga, jamiyatga, davlatga, tabiatga, mehnatga, o‘zining shaxsiy faoliyatiga to‘g‘ri munosabatni bildira oladigan, ijodkor, tadbirkor kadrlarni tayyorlash va o‘z-o‘zini takomillashtiradigan shaxsni tarbilashga qaratilgan ta’lim texnologiyasidir. Mazkur ta’lim texnologiyasi ta’lim jarayoni ishtirokchilari (subyektlar)ning harakatlarini faollashtiradi hamda o‘zaro faoliyatni jadallashtiradi, interfaollikni vujudga keltiradi. Bu esa faqatgina axborotlarni shunchaki qabul qilishni emas, balki o‘rganilayotgan obyektlar yoki jarayonlarning o‘zaro harakatlarni tezlashtiradi, ma’lumotlar, axborotlar xususiyatlarini faol tadqiq qilish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Demak, rivojlantiruvchi ta’lim o‘qitish jarayonini jadallashtirish, bilim oluvchilar faoliyatini faollashtirish, birgalikdagi harakatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan ta’lim hisoblanib, ta’lim va tarbiya vazifalarini oqilona hal qilishga katta imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa.

Shunday qilib, nazariy jihatdan ishlab chiqilib, amaliy faoliyatda qo‘llanilayotgan o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari o‘zida o‘qitishning tashkiliy shakllar tizimi, ta’lim metodlari, majmuasi, vositalari, maqsad, vazifa, ta’lim o‘rgatuvchi va ta’lim o‘rganuvchining birgalikda, hamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil qiluvchi, o‘quv ma’lumotlarini o‘zlashtirishda imkoniyatlardan to‘liq foydalanuvchi texnologiyadir. Shuning uchun ham u produktiv hisoblanadi.

Hozirgi zamon ta’lim nazariyasi (didaktikasi)da o‘qitishning mazmunini to‘ldiruvchi o‘qitishning interfaol metodlari mavjud. Bu metodlar o‘qitishning samaradorligini oshiradi, o‘quvchi-talabalarning ijodiy, mustaqil, tanqidiy fikrlashlarini shakllantiradi va qobiliyatini rivojlantiradi, raqobatbardosh yetuk mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: “O‘zbekiston”, 1999. 37-38-betlar.
2. Avliyoqulov N.H., Namozova N.J. Muammoli o‘qitish texnologiyalari. -T., 2004. 12-bet.

3. Avliyoqulov N.H., Musayeva N.N. Modulli o‘qitish texnologiyalari. -T.: “Fan va texnologiyalar”, 2007. 27-bet.
4. Arslonov Q.P. Milliy kurash turlari va uni o‘qitish texnologiyalari. –Buxoro, 2014-yil.
5. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari. 28- bet

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Каримов.М.А
Наманганский государственный технический университет,
ст.преподаватель, Наманган, Узбекистан,
e-mail: mamur-02@mail.ru

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ ЭЛЕКТРОННЫХ СЛОВАРЕЙ

Аннотация. *Развитие профессионально-языковой компетенции студентов национальных групп в технических вузах способствует профессиональному и всестороннему развитию и конкурентоспособности будущего специалиста в профессиональной сфере. В статье рассматривается сущность профессионально-ориентированного обучения и значение использования электронных словарей в развитии профессионально-языковой компетенции у студентов национальных групп технических вузов на занятиях по русскому языку. Одним из эффективных средств в изучении профессиональных терминов, является электронные словари, которые существенно способствуют усвоению, переводу и интерпретации терминов.*

Ключевые слова: *профессионально - языковая компетенция, эффективность, профессиональные термины, электронные словари, формирование, развитие, перевод, традиционный, значение слов, деятельность, профессиональная мобильность, интерпретация.*

Karimov.M.A.
Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish – Pedagogik etika va uning shakllanish bosqichlariga doir mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar, kitoblar va boshqa ilmiy ishlanmalar chuqur tahlil qilinadi. Ushbu metod yordamida kasbiy etikaning rivojlanish jarayoni va uning ta’lim tizimiga ta’siri haqida mavjud nazariyalar va fikrlar umumlashtiriladi.

Intervyu o‘tkazish – Tadqiqotda o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari bilan intervyular o‘tkaziladi. Intervyu davomida, o‘qituvchilarning kasbiy etika bilan bog‘liq tajribalari, kasbiy mas’uliyat va etikaning shakllanishiga doir qarashlari o‘rganiladi. Bu metod o‘qituvchilarning kasbiy etika haqidagi tushunchalarini va uning pedagogik faoliyatdagi amaliyotga ta’sirini o‘rganishga yordam beradi.

Anketalar va so‘rovnomalar – O‘qituvchilar va ta’lim muassasalarining boshqa xodimlari o‘rtasida anketalar va so‘rovnomalar tarqatiladi. Ushbu usul yordamida o‘qituvchilarning kasbiy etika haqidagi fikrlarini va ularning pedagogik faoliyatda axloqiy qoidalar va tamoyillarga qanchalik rioya qilayotganini aniqlash mumkin. So‘rovnomalar kasbiy etikaning ta’lim jarayonidagi amaliy qo‘llanilishini va shakllanish bosqichlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kuzatuv usuli – Tadqiqotda pedagogik faoliyatni kuzatish usuli ham qo‘llaniladi. Bu usul yordamida o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlari, o‘quvchilar bilan ishlashdagi etikaning roli va axloqiy me’yorlarga rioya qilish darajasi kuzatiladi. Kuzatuvlar, o‘qituvchining kasbiy etikasining amaliy qo‘llanilishi va uning pedagogik samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish imkonini beradi.

Kasbiy etika va pedagogik faoliyatni baholash – Tadqiqotda o‘qituvchilarning kasbiy etikasini va pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini baholash uchun maxsus ko‘rsatkichlar ishlab chiqiladi. Bu ko‘rsatkichlar, o‘qituvchining axloqiy mas’uliyatini, o‘quvchilar bilan ishlashdagi ehtiyotkorlikni, shuningdek, ta’lim jarayonida etik tamoyillarga rioya qilishni baholashga imkon beradi.

Ushbu metodlar yordamida pedagogik etikaning shakllanishi, uning o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga ta’siri va ta’lim jarayonidagi o‘rniga doir keng ko‘lamli tahlil olib boriladi. Tadqiqotda har bir metodning alohida ahamiyati bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va kasbiy etikaning pedagogik faoliyatdagi o‘rni va ta’sirini chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar tahlili (sharhi).

Pedagogik etika va uning shakllanishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar turli nazariyalar va amaliyotlar asosida keng tahlil qilinadi. Ushbu tahlil, pedagogik etikaning asosiy tamoyillari, uning shakllanish bosqichlari, va ta’lim tizimiga ta’siri haqida mavjud ilmiy adabiyotlardan olingan bilimlarni o‘z ichiga oladi. Adabiyotlar tahlili quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

Pedagogik etikaning shakllanishi jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. R. Stevenson[4; 91] tomonidan olib borilgan tadqiqotda, o‘qituvchilarning kasbiy etikasini shakllantirishda uchta asosiy bosqichni ta’kidlanadi: boshlang‘ich bosqich, rivojlanish bosqichi va mukammallikka erishish bosqichi. Dastlab, o‘qituvchi o‘zining kasbiy mas’uliyatini anglashni boshlaydi va ta’lim jarayonida etika asoslarini qo‘llashga harakat qiladi. Keyinchalik, o‘qituvchi o‘zining axloqiy qarashlarini mustahkamlash va amaliyotda tadbiq etishga kirishadi. So‘ngra, etika nafaqat o‘qituvchi, balki o‘quvchilar bilan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon pedagogik etikaning jamiyatda axloqiy tamoyillarga bo‘lgan e’tiborning oshishiga olib keladi.

Pedagogik etika, o‘qituvchining o‘z faoliyatida axloqiy me’yorlarga amal qilishini ta’minlash orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. C. Harris tomonidan olib borilgan tadqiqotda, pedagogik etikaning ta’lim tizimiga ta’siri haqida so‘z boradi[2; 59]. Tadqiqotga ko‘ra, etika nafaqat o‘qituvchining ish samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini ham mustahkamlaydi. Etik qoidalarni saqlash orqali o‘qituvchilar o‘z faoliyatining sifatini oshiradi va ta’lim jarayonida yanada adolatli va teng huquqli muhitni yaratadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi va o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Kasbiy etika o‘qituvchining nafaqat professional faoliyatiga, balki uning shaxsiy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘zining kasbiy etikasini rivojlantirish orqali nafaqat o‘zining shaxsiy qadriyatlarini belgilaydi, balki o‘quvchilarga va jamiyatga nisbatan ham mas’uliyatni his qiladi. O‘qituvchining kasbiy etikasini shakllantirish jarayoni uning professional ishonchini oshiradi va o‘z ishiga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Pedagogik etikaning o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishiga ta’siri, o‘quvchilarga ta’sir etuvchi ijobiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik etikaning amaliy qo‘llanilishi o‘qituvchining kunlik faoliyatida doimiy ravishda aks etadi. O‘qituvchilar o‘zlarining axloqiy qarashlarini va etika tamoyillarini ta’lim jarayonida qanday amalga oshirayotganlarini ko‘rsatish orqali, ta’lim tizimining ijtimoiy mas’uliyatini oshiradilar. Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, ta’limda ham etikaning amaliy qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. T. Green[1; 115] tomonidan olib borilgan tadqiqotda pedagogik etikaning amaliyotdagi ahamiyati va uning ta’lim jarayoniga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Tadqiqotga ko‘ra, o‘qituvchilar etikaning amaliy qo‘llanilishi orqali nafaqat o‘quvchilarni bilim bilan ta’minlashadi, balki ularning ma’naviy rivojlanishiga ham yordam beradi. Pedagogik etikaning shakllanishi va ta’lim tizimiga ta’siri bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, uning ta’lim jarayonidagi muhim o‘rni va ahamiyatini tasdiqlaydi. Kasbiy etika o‘qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishiga, shuningdek, ta’limning umumiy sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu adabiyotlar tahlili pedagogik etikaning o‘qituvchining pedagogik faoliyatida qanday shakllanishi va uning amaliyotda qanday qo‘llanilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Muhokama.

Pedagogik etika va uning shakllanish bosqichlari haqida olib borilgan tadqiqotlar, kasbiy etikaning ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynashini va uning o‘qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishiga ta’sirini ko‘rsatadi. Tadqiqotda ko‘rib chiqilgan ilmiy adabiyotlar, kasbiy etikaning nafaqat o‘qituvchining axloqiy pozitsiyasini belgilashda, balki ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. O‘qituvchining kasbiy etikasining shakllanishi va rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichda, o‘qituvchining axloqiy mas’uliyatini anglash va o‘zining pedagogik faoliyatida etikaning asosiy tamoyillarini qo‘llashni boshlash zarurati yuzaga keladi. Shundan so‘ng, kasbiy etika rivojlanishining bosqichlarida o‘qituvchining o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati va pedagogik pozitsiyasi yanada takomillashadi. Bu jarayonning o‘zi o‘qituvchining shaxsiy axloqiy pozitsiyasini aniq belgilashiga va uning pedagogik faoliyatining yuqori sifatini ta’minlashga yordam beradi.

Muhokama davomida, pedagogik etikaning ta’lim tizimiga ta’siri va o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatdagi o‘zgarishlar alohida e’tiborga loyiqdir. Etikaning ta’lim tizimidagi ahamiyatini o‘rganish orqali, o‘qituvchining o‘quvchilarga nisbatan hurmat, adolat va tenglik tamoyillariga amal qilishining ta’lim samaradorligini oshirishi mumkinligi aniqlandi. O‘qituvchining kasbiy etikasining shakllanishi nafaqat ta’lim jarayonida, balki o‘quvchilarning ma’naviy rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarga nisbatan mas’uliyatli va hurmatga asoslangan munosabat o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan

ishonchini oshiradi va ta'lim jarayonining samarali o'tishini ta'minlaydi.


Shuningdek, pedagogik etikaning o'qituvchining professional rivojlanishiga ta'siri muhim masala sifatida ko'riladi. Tadqiqotda, o'qituvchining kasbiy etikasini rivojlantirish, uning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi va pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Kasbiy etikaning yuqori darajada shakllanishi, o'qituvchining o'z shaxsiy va professional o'sishiga, shu bilan birga, ta'lim tizimining yaxshilanishiga yordam beradi. Bu jarayon, shuningdek, o'quvchilarga axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda ham asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda ko'rib chiqilgan 2023 va 2024 yillardagi ilmiy ishlar, kasbiy etikaning ta'lim tizimiga ta'siri haqida keng qamrovli tasavvur beradi. 2023 yilda C. Harris tomonidan olib borilgan tadqiqotda, pedagogik etikaning o'qituvchining ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishga qanday ta'sir qilishi tahlil qilingan. Harrisning fikriga ko'ra[2; 45-59], etika o'qituvchining faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ta'lim samaradorligini oshiradi. 2024 yilda R. Stevenson[4; 91] tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa, pedagogik etikaning shakllanish bosqichlari va uning o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga ta'siri batafsil o'rganilgan. Tadqiqotda, o'qituvchining kasbiy etikasini shakllantirishda uchta bosqichni ajratish mumkinligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, pedagogik etikaning amaliy qo'llanilishida bir qator muammolar ham mavjud. Ba'zi o'qituvchilar etikaning asosiy tamoyillarini to'liq tushunmasdan, faqat nazariy darajada amalda qo'llashlari mumkin. Shuningdek, ta'lim tizimida etikaning yetarlicha rivojlanmaganligi yoki o'qituvchilarning etika masalalariga e'tibor bermasligi, ta'lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda, o'qituvchilarga kasbiy etikaning ahamiyatini tushuntirish va bu masalada ularni yanada faolroq jalb etish zarur.

Bundan tashqari, pedagogik etikaning shakllanishida ta'lim tizimidagi boshqaruv xodimlarining roli ham katta. Ta'lim muassasalarida o'qituvchilarga kasbiy etika bo'yicha treninglar o'tkazish, ularning etik tamoyillarni amalda qo'llashga yordam berishi mumkin. Pedagogik etikaning rivojlanishi, nafaqat o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, balki umumiy ta'lim muhitining ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lishini talab qiladi.

Shunday qilib, kasbiy etika pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi mas'uliyatini oshiradi va ta'lim tizimining umumiy sifatini yaxshilaydi. Pedagogik etikaning shakllanish bosqichlari va uning ta'lim tizimiga ta'siri haqidagi ilmiy tadqiqotlar, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirish uchun muhim ma'lumotlar beradi.

1-diagramma. Pedagogik etikaning shakllanish bosqichlari.



Ushbu diagramma pedagogik etikaning shakllanish bosqichlarining samaradorlik va o'qituvchining rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatadi. Diagrammada har bir bosqich uchun kasbiy etikaning ta'lim samaradorligiga va o'qituvchining professional rivojlanishiga ta'siri 1 dan 10 gacha baholanadi.

Boshlang'ich bosqich: O'qituvchi kasbiy etikaning asosiy tamoyillarini o'z faoliyatiga tatbiq qilishni boshlaydi. Bu bosqichda etikaning ta'siri nisbatan pastroq (samaradorlik va rivojlanish uchun 3 va 4).

Rivojlanish bosqichi: O'qituvchi axloqiy mas'uliyatni kuchaytiradi va pedagogik faoliyatda axloqiy qoidalarni yanada faolroq qo'llaydi. Bu bosqichda etikaning ta'siri sezilarli darajada oshadi (samaradorlik va rivojlanish uchun 5 va 6).

Mukammallik bosqichi: O'qituvchi o'zining kasbiy etikasini mukammal darajada rivojlantiradi va bu ta'lim jarayonining sifatini yanada yaxshilashga olib keladi. Bu bosqichda etikaning ta'siri yuqori darajada bo'ladi (samaradorlik va rivojlanish uchun 7 va 8). Shu tarzda, pedagogik etikaning shakllanish bosqichlari o'qituvchining samaradorligini va professional rivojlanishini to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi, bu esa ta'lim tizimining umumiy sifatini oshirishga yordam beradi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot pedagogik etikaning shakllanish bosqichlarini va uning ta'lim jarayoniga ta'sirini chuqur o'rganishga qaratilgan. Kasbiy etika nafaqat o'qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishiga, balki ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik etikaning shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: boshlang'ich bosqichda o'qituvchi axloqiy mas'uliyatni anglab, o'zining kasbiy pozitsiyasini belgilaydi; rivojlanish bosqichida o'qituvchining etika tamoyillariga nisbatan munosabati mustahkamlanadi; va nihoyat, mukammallik bosqichida o'qituvchi o'zining kasbiy etikasini mukammal darajada amalga oshiradi.

Bundan tashqari, pedagogik etika o'qituvchining nafaqat kasbiy muvaffaqiyatiga, balki o'quvchilarga nisbatan munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Etikaning o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hurmat va ishonchni

mustahkamlashdagi roli ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqotda 2023 va 2024 yillarda olib borilgan ilmiy ishlar, pedagogik etikaning shakllanishi va uning o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga ta’sirini tasdiqlaydi. Shuningdek, kasbiy etikaning amaliy qo‘llanilishi o‘qituvchilarning ta’limdagi rolini yaxshilashga yordam beradi va ta’lim tizimining sifatini oshiradi.

Shu tariqa, pedagogik etikaning shakllanishi nafaqat o‘qituvchilarning professional rivojlanishi, balki ta’lim tizimining ijtimoiy mas’uliyatini oshirishga ham turtki beradi. Kasbiy etikaning amaliyotda qo‘llanilishi ta’lim jarayonining yuqori sifatini ta’minlashga, o‘quvchilarning ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yhati.

1. Green T. Practical Application of Pedagogical Ethics and Its Contribution to the Educational Process // Education and Ethics Journal. – 2023. – Vol. 10, No. 4. – P. 102–115.

2. Harris C. The Role of Professional Ethics in Education and Its Influence on Social Relationships Between Teachers and Students // Journal of Educational Ethics. – 2023. – Vol. 12, No. 3. – P. 45–59.

3. Paschal, M. J. (2023). Ethics in the teaching profession: A practical approach to teachers’ professionalism. *International Journal of Social Sciences & Educational Studies*, *10*(3), 82-94.

4. Stevenson R. Stages in the Formation of Professional Ethics and Its Impact on Teacher Development // International Review of Pedagogical Studies. – 2024. – Vol. 18, No. 2. – P. 78–91.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Usmonova Gulhumor Qoldashboy qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
gulhumorusmonova822@gmail.com

INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING O’QISH MALAKALARINI GEYMIFIKATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI (5–7-SINFLAR MISOLIDA)

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot 5-7-sinf o‘quvchilarining ingliz tili darslarida o‘qish malakalarini geymifikatsiya orqali rivojlantirish metodikasini o‘rganadi. Geymifikatsiya elementlari, masalan, ballar, nishonlar va reytinglar, o‘quvchilarning motivatsiyasi va ishtirokini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari geymifikatsiya o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatini va darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *geymifikatsiya, o‘qish malakasi, ingliz tili o‘qitish, motivatsiya, 5-7-sinflar.*

Gulhumor Qoldashboy qizi Usmonova
PhD Researcher at Namangan State University

A METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ READING SKILLS THROUGH GAMIFICATION IN ENGLISH LESSONS (A CASE STUDY OF 5TH–7TH GRADES)

Abstract: *This study explores the methodology of enhancing reading skills in 5th to 7th-grade students during English lessons through gamification. Elements of gamification, such as points, badges, and leaderboards, contribute to increased student motivation and engagement. The findings indicate that gamification significantly improves students’ reading abilities and interest in lessons.*

Keywords: *gamification, reading skills, English language teaching, motivation, 5th-7th grades.*

Усмонова Гулхумор Калдашбаевна
докторант (PhD) Наманганского государственного университета

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕЙМИФИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ 5–7 КЛАССОВ)

Аннотация: *В данном исследовании рассматривается методика развития навыков чтения у учащихся 5-7 классов на уроках английского языка посредством геймификации. Элементы геймификации, такие как баллы, значки и рейтинги, способствуют повышению мотивации и вовлеченности учащихся. Результаты исследования показывают, что геймификация значительно улучшает способности учащихся к чтению и их интерес к урокам.*

Ключевые слова: *геймификация, навыки чтения, преподавание английского языка, мотивация, 5-7 классы.*

Kirish.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan munosabatini shakllantirish va ularni faol o‘quvchilarga aylantirish muhim masalalardan biridir. Ayniqsa, o‘quvchilarning o‘qish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish ingliz tilini o‘rgatishda asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. O‘qish orqali o‘quvchilar yangi so‘z boyligini egallaydi, grammatik strukturalarni anglaydi hamda umumiy til tushunchalarini mustahkamlaydi. Biroq an’anaviy o‘qitish usullari har doim ham o‘quvchilarda yetarli darajadagi motivatsiyani shakllantira olmaydi. Ayniqsa, 5-7-sinf o‘quvchilari kabi yosh toifasida bu jarayon ko‘proq interaktiv, qiziqarli va rag‘batlantiruvchi shakllarda olib borilishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, ta’limda geymifikatsiya (gamification) yondashuvi katta e’tiborni tortmoqda. Geymifikatsiya – bu o‘yin mexanizmlarini noto‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘yin bo‘lmagan sohalarga, xususan, ta’lim jarayoniga qo‘llash orqali motivatsiya, e’tibor va ishtirokni oshirishga xizmat qiladigan metodik yondashuvdir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda raqobat muhitini yaratadi, ularda maqsad sari intilish, muvaffaqiyat uchun harakat qilish kabi ijobiy jihatlarni rivojlantiradi. Ballar, reyting tizimlari, mukofotlar, bosqichlar kabi elementlar o‘quv jarayoniga integratsiya qilinishi orqali o‘quvchilarning faolligi, ijtimoiylashuvi va mustaqil o‘rganishga bo‘lgan intilishi oshadi.

Ushbu maqolada 5-7-sinf o‘quvchilari misolida ingliz tili darslarida o‘qish malakalarini shakllantirishda geymifikatsiya yondashuvi qanday tatbiq etilishi, uning samaradorligi, afzalliklari va yuzaga keladigan muammolar ilmiy-tadqiqot asosida yoritib beriladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u ingliz tili o‘qitishda innovatsion metodlarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqola umumta’lim maktablarida ushbu yondashuvni tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ham beradi.

Adabiyotlar tahlili.

So‘nggi yillarda ta’limda innovatsion metodlar, xususan geymifikatsiya (gamification) yondashuvining roli sezilarli darajada ortdi. Tadqiqotchilar bu yondashuvni motivatsiyani oshirish, faollikni kuchaytirish va chuqur o‘zlashtirishga erishish vositasi sifatida baholamoqda.

Zichermann va Cunningham o‘z tadqiqotlarida geymifikatsiyani inson psixologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan mexanizm sifatida tavsiflab, ta’lim jarayonida “ballar, reytinglar, darajalar” kabi elementlarning o‘quvchilar ishtirokini kuchaytirishini ta’kidlaydi. Bu fikrlar o‘qitish jarayonida rag‘batlantirish mexanizmlarining muhimligini ko‘rsatadi [3,4].

Kapp esa geymifikatsiya asosida qurilgan darslar nafaqat motivatsiyani, balki o‘quvchilarning analitik fikrlash, qaror qabul qilish va ijodkorlik ko‘nikmalarini ham rivojlantirishini aytadi. Unga ko‘ra, o‘yin elementlari darsni “passiv tinglash”dan “faol ishtirok”ga aylantiradi [9].

Gee tomonidan o‘yin va o‘rganish o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘yinlar o‘z ichiga qiyinchilik, sinov, natija va mukofot kabilarni oladi - bularning barchasi bilim olish jarayonida qo‘llansa, chuqur o‘zlashtirishga olib keladi. Gee o‘yinlarni “o‘rganishga tabiiy rag‘batlantiruvchi muhit” deb ataydi [1].

Ingliz tilida o‘qish malakalarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham bu yo‘nalishning dolzarbligini tasdiqlaydi. Grabe va Stoller o‘qish - bu nafaqat ko‘z bilan yozuvni qabul qilish, balki semantik anglash, tahlil qilish va tushunchalarni bog‘lash jarayoni ekanligini ta’kidlaydi. Aynan shu murakkablikni engillashtirish uchun interaktiv va o‘yin asosli metodlar muhim ahamiyatga ega [2].

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham bu borada bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. X. Xolmatova o‘z maqolasida geymifikatsiya elementlarining boshlang‘ich sinflarda o‘qish kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rnini tahlil qilib, bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatgan. Shuningdek, M. A’zamova zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan interaktiv metodikalar yordamida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkinligini misollar bilan keltiradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, geymifikatsiya har doim ham o‘z-o‘zidan yuqori natija bermaydi. Uni ta’lim maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish, yosh xususiyatlarini hisobga olish va o‘yinlar mazmunini puxta tanlash zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda 5-7-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi. Darslar davomida geymifikatsiya elementlari, jumladan, ballar, nishonlar va reyting tizimlari qo‘llanildi. O‘quvchilarning o‘qish malakalari va darslarga bo‘lgan qiziqishi oldindan va keyin baholandi.

Tahlil va natijalar.

Tajriba davomida o‘quvchilarning faoliyatini baholash uchun turli metodikalar va o‘yinlar qo‘llanildi. O‘quvchilarni o‘yin elementlariga jalb qilishda quyidagi omillar muhim rol o‘ynadi:

- Vaqtni boshqarish va tezlik: Geymifikatsiya orqali o‘quvchilar vaqtni yanada samarali boshqarishga o‘rgandilar. Misol uchun, “Tez o‘qish” bo‘yicha o‘tkazilgan o‘yinlar o‘quvchilarga o‘qish tezligini oshirishga yordam berdi. O‘quvchilarning o‘qish tezligi o‘rtacha 17% ga oshdi, bu ularning o‘z o‘qish faoliyatini boshqarishda yaxshilanishini ko‘rsatadi.
- Motivatsiya: O‘quvchilarning 85% dan ortig‘i geymifikatsiya elementlaridan keyin darsga yuqori qiziqish bilan qarashdi. Ayniqsa, mukofotlash tizimi (ball, reyting, mukofotlar) motivatsiyaning oshishiga yordam berdi. O‘yinlarni o‘ynash orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini amalda qo‘llashga, yanada ko‘proq mashq qilishga intildilar.

Geymifikatsiyaning o‘quvchilarga ta’siri

Tadqiqot davomida geymifikatsiya yordamida o‘qish malakalaridagi o‘zgarishlar aniq kuzatildi:

- Yuqori motivatsiya bilan o‘qish: O‘quvchilar o‘quv materiallarini yanada faol o‘qishga, har bir topshiriqqa jiddiy yondashishga intilishdi. Bu, o‘z navbatida, o‘qishdagi muvaffaqiyatni oshirdi. Testlarda o‘quvchilarning o‘rtacha ballari 18% gacha oshdi.
- Sinovlardan o‘tish va natijalar: Geymifikatsiya tizimi bilan ishlovchi guruhda test natijalarida 24% gacha yaxshilanishlar kuzatildi. Bu esa o‘quvchilarning ko‘nikmalarini yodlashdan tashqari, o‘quv faoliyatini mustahkamlashga ham yordam berganini ko‘rsatadi.

O‘qish jarayonidagi ijtimoiy ta’sirlar

O‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlaridagi o‘zgarishlar ham muhim rol o‘ynadi. Guruhli ishlar va jamoaviy musobaqalar orqali:

- O‘quvchilar o‘zaro fikr almashish, yangi bilimlarni bir-birlariga tushuntirish orqali tushunishni mustahkamladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning ko‘nikmalarini o‘zaro yordam bilan rivojlantirishga yordam berdi.
- O‘quvchilar o‘rtasida o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ijobiy munosabatlar yaxshilandi. Guruhlarda ishlash, bir-biriga yordam berish orqali o‘quvchilar o‘zlarining faolliklarini oshirishdi.

Uslublar va metodlarning samaradorligi

Tajriba davomida bir nechta uslub va metodlar sinovdan o‘tkazildi:

• Interaktiv darslar: O‘quvchilarga geÿmifikatsiya asosidagi topshiriqlar va viktorinalar (masalan, Kahoot) yordamida matnni yaxshiroq tushunish va ularga ko‘proq e’tibor qaratish imkoniyatlari yaratildi. Natijada, darsda qatnashish darajasi 72% dan 94% gacha oshdi.

• Aqliy rag‘batlantirish: Geymifikatsiya o‘yinlari orqali o‘quvchilarning aqliy salohiyati oshdi. O‘yinlar yordamida, xususan, Qiziqarli sinovlar, o‘quvchilarning ijodkorlik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

Fikrlar va tahlil

• Geymifikatsiyaning ta’limga ta’siri: Geymifikatsiyaning ta’lim jarayoniga ta’siri nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni motivatsiya qiladi, o‘qish jarayoniga bo‘lgan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Natijada, o‘quvchilarda o‘qishning chuqur tushunilishi va mustahkamlashtirilgan bilimlar shakllanadi.

• O‘qituvchilar uchun yondashuv: O‘qituvchilar geymifikatsiya asosidagi metodlarni to‘g‘ri qo‘llash orqali o‘quvchilarning faolligini oshirishi mumkin. Bunda o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvlari va texnologik bilimlari muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, geymifikatsiya qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlari va darslarga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitining yaratilishi ularning faol ishtirokini ta’minladi.

Geymifikatsiya elementlarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘qish malakalarini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Biroq, ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning mos tayyorgarligi va dars rejalarining puxta ishlab chiqilishi zarur.

Tadqiqot doirasida 5–7-sinf o‘quvchilari ishtirokida geymifikatsiya elementlari asosida tashkil etilgan ingliz tili o‘qish darslari kuzatildi. Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda - an’anaviy darslar, ikkinchi bosqichda - geymifikatsiya asosida o‘tkazilgan darslar. Har bir bosqichda o‘quvchilarning o‘qish malakalari, faolligi, mustaqil ishlashi va darsga bo‘lgan munosabati baholandi.

O‘quvchilarning motivatsiyasi va faolligi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, geÿmifikatsiya elementlari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 25-30% ga oshdi. Darslarda faol qatnashgan o‘quvchilar soni sezilarli darajada ko‘paydi. O‘quvchilar “ball to‘plash”, “mukofot olish”, “guruhlar o‘rtasida musobaqa” kabi topshiriqlarda faol qatnashdi. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan yaratilgan “Reading Quest” nomli o‘yinli topshiriqlar orqali har bir paragraf uchun ball yig‘ish tizimi qo‘llandi. Bu esa darsni qiziqarli muhitga aylantirib, ishtirokchilar orasida sog‘lom raqobatni shakllantirdi.

O‘quvchilarning o‘qish malakalaridagi o‘zgarishlar

Geymifikatsiyadan oldingi va keyingi testlar natijalari quyidagicha bo‘ldi:

Sinf	O‘rtacha ball (avval)	O‘rtacha ball (keyin)	O‘sish foizi
5-sinf	56%	76%	+20%
6-sinf	60%	82%	+22%
7-sinf	63%	85%	+22%

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar matnni tushunish, asosiy fikrni ajratish, savollarga to‘g‘ri javob berish kabi malakalarda aniq yuksalishga erishgan.

Ijtimoiy faollik va guruhda ishlash malakasi

Gamifikatsiya asosidagi topshiriqlar guruhlar shaklida bajarilganligi sababli, o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalar - hamkorlikda ishlash, o‘z fikrini himoya qilish, boshqalarni eshitish kabi ijobiy jihatlar shakllandi. O‘quvchilar o‘z guruhlarining muvaffaqiyati uchun javobgarlikni his qilgan holda, o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajardilar.

O‘quvchilarning fikrlari (so‘rovnoma natijalari)

Tadqiqot davomida o‘quvchilarga geÿmifikatsiyalangan darslar haqida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. Quyidagi natijalar olindi:

• 92% o‘quvchi darslar yanada qiziqarli bo‘lganini aytdi.

• 88% o‘quvchi o‘yin elementlari ularning darsda faol ishtirok etishiga sabab bo‘lganini bildirdi.

• 85% o‘quvchi ingliz tilidagi matnlarni o‘qishga bo‘lgan ishonchi oshganini bildirdi.

O‘qituvchilar uchun kuzatishlar

O‘qituvchilar tomonidan berilgan mulohazalarga ko‘ra, geÿmifikatsiya orqali o‘quvchilarda:

• Konsentratsiya va e’tibor yuqori bo‘lgan,

• Passiv o‘quvchilar ham darsga jalb etilgan,

• O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv ko‘nikmalari oshgan.

Xulosa.

Ushbu maqolada 5-7-sinf o‘quvchilari misolida ingliz tili darslarida o‘qish malakalarini rivojlantirishda gemmifikatsiya yondashuvi samaradorligi ilmiy asosda o‘rganildi. Tadqiqot davomida kuzatuvlar, test natijalari, so‘rovnomalar va ilmiy manbalar tahlili asosida bir qator muhim xulosalar chiqarildi.

Birinchidan, geymifikatsiya ta’limning an’anaviy shakliga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega ekanligi isbotlandi. O‘yin elementlari (ballar, darajalar, mukofotlar, jamoaviy musobaqalar va interaktiv vazifalar) orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning diqqatini jamlashga, bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirishga va dars jarayoniga faol ishtirok etishga sabab bo‘ldi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 90% dan ortig‘i

geymifikatsiyalangan darslarda ishtirok etishdan mamnun bo‘lganini bildirdi. Bu esa geўmifikatsiyaning ta’limdagi ijobiy psixologik ta’sirini ko‘rsatadi [8].

Ikkinchidan, o‘quvchilarning o‘qish malakalaridagi yuksalishlar aniq raqamlar bilan isbotlandi. Tadqiqot ishtirokchilari - 5, 6 va 7-sinf o‘quvchilari orasida geymifikatsiyadan oldingi va keyingi test natijalari tahlil qilinganda, o‘rtacha 20–25% o‘sish kuzatildi. Ayniqsa, matnni tushunish, asosiy g‘oyani aniqlash, savollarga mantiqiy javob berish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari ancha rivojlangani aniqlangan. Bu natijalar Grabe va Stoller, Gee va Zichermann kabi olimlarning nazariy qarashlarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [1,3].

Uchinchidan, geymifikatsiya yordamida ijtimoiy ko‘nikmalar ham rivojlanadi. Guruhli topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qilish, fikr almashish, jamoada ishlash kabi yumshoq ko‘nikmalarni egallaydilar. Tadqiqot davomida o‘quvchilar orasida mas’uliyat hissi, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, o‘z fikrini erkin ifoda etish kabi ko‘nikmalar shakllangani kuzatildi.

To‘rtinchidan, bu metodika o‘qituvchilar uchun ham foydali. Darsni rejalashtirishda o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘qituvchi o‘quv jarayonini interaktiv, samarali va innovatsion tarzda tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, bu yondashuv o‘qituvchidan yuqori darajada kreativlik, metodik savodxonlik va texnologik bilim talab qiladi. Geymifikatsiya elementlarini noto‘g‘ri tanlash yoki haddan tashqari ko‘paytirish dars maqsadidan chalg‘itishi mumkin. Shuning uchun metodika mo‘‘tadil va muvozanatli bo‘lishi lozim [4].

Beshinchidan, adabiyotlar tahlili ham shuni ko‘rsatdiki, geymifikatsiya zamonaviy ta’lim tizimida universal yondashuvlardan biri bo‘lib, u nafaqat chet tillarini o‘rganishda, balki boshqa fanlarda ham qo‘llanilishi mumkin. Xorijiy tadqiqotchilar bu metodikaning zamonaviy o‘quvchilarning psixologiyasi va o‘rganish uslublariga mos kelishini alohida ta’kidlaydi. Mahalliy tadqiqotlar ham bu yondashuvni joriy etish zaruriyati ortib borayotganini tasdiqlaydi [6,9].

Umumiy tavsiyalar:

1. Ingliz tili o‘qituvchilari geymifikatsiyalangan topshiriqlarni dars rejasiga integratsiya qilishlari lozim: matn asosida kvestlar, bosqichli topshiriqlar, savol-javob o‘yinlari.

2. O‘quvchilar uchun mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiruvchi ilovalar va platformalar (Kahoot, Quizizz, Wordwall va h.k.) faol qo‘llanilishi kerak.

3. Maktab rahbariyati o‘qituvchilar uchun innovatsion metodika bo‘yicha treninglar tashkil qilishi, dars jarayonini texnik vositalar bilan ta’minlashi kerak.

4. Ilmiy doiralar mazkur yondashuvni turli yosh toifalari va boshqa kompetensiyalar (yozish, eshitish, so‘zlash) bo‘yicha ham o‘rganib, natijalarni umumlashtirib borishlari muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Computers in Entertainment (CIE), 1(1), 20–20.

2. Grabe, W., & Stoller, F. L. (2011). Teaching and Researching Reading. Pearson Education.

3. Zichermann, G., & Cunningham, C. (2011). Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps. O’Reilly Media.

4. Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. Journal of Personality and Social Psychology, 78(4), 772.

5. Caponetto, S., & Nenzi, A. (2015). Educational gaming and the development of learning strategies in digital environments. European Journal of Education, 50(1), 80–93.

6. Briedis, S., & Harper, B. (2018). Gamification and education: a systematic review. Journal of Educational Technology Development and Exchange, 11(1), 9-25.

7. Liu, M., & McKelroy, S. (2018). The Role of Gamification in Promoting Motivation and Learning in Language Education: A Systematic Review. Journal of Educational Computing Research, 56(1), 3-32.

8. Miller, M. D. (2014). Gamification and the Flipped Classroom: Learning Motivation and Achievement in Secondary Education. Educational Technology, 54(4), 7–18.

9. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. Pfeiffer.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Gapporov Zayniddin Abdusalom o'g'li
Independent researcher at the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute,
E-mail: zayniddin_gapparov@mail.ru

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' DISCOURSE COMPETENCE BASED ON CORPUS TECHNOLOGIES

Annotation*: A key component of the teacher's successful job and the assurance that learning objectives are met is the integration of informational technology into the contemporary educational process. One of the contemporary resources for creating language learning tasks for students is the corpus. The corpus stands out for its visibility and representativeness, and it provides the English language teacher with a multitude of search possibilities that allow for the development of many models for the development of the student's fundamental skills. This article aims to experimentally validate and conceptually support the effectiveness of a system for enhancing students' discourse (speaking) competence through the use of corpus technologies. And we present breakdown of a methodology to develop students' discourse (speaking) competence with the help of corpus technologies.*

Keywords: *Concordance, CBI (corpus based instruction), corpus technology, development of discourse competence, foreign language.*

Gapporov Zayniddin Abdusalom o'g'li
O'zbekiston-Finlyandiya Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi,

KORPUS TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING NUTQ KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: *O'qituvchining muvaffaqiyatli ishining asosiy tarkibiy qismi va o'quv maqsadlari bajarilishini ta'minlash axborot texnologiyalarini zamonaviy o'quv jarayoniga integratsiyalashuvidir. Talabalar uchun til o'rganish vazifalarini yaratish uchun zamonaviy manbalardan biri bu korpusdir. Korpus o'zining ko'rinishi va vakilligi bilan ajralib turadi va ingliz tili o'qituvchisiga talabaning fundamental ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ko'plab modellarni ishlab chiqishga imkon beradigan ko'plab qidiruv imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu maqola korpus texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarning nutq vakolatlarini oshirish tizimining samaradorligini eksperimental ravishda tasdiqlash va kontseptual qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Va biz korpus texnologiyalari yordamida talabalarning nutq kompetentsiyasini rivojlantirish uchun metodologiyaning taqsimotini taqdim etamiz.*

Kalit so'zlar: *kelishuv, CBI (corpus based instruction), corpus texnologiyasi, nutq kompetentsiyasini rivojlantirish, chet tili.*

Гаппоров Зайниддин Абдусаломович
Независимый исследователь Узбекско-Финского педагогического института,

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ДИСКУРСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КОРПУСНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: *Ключевым компонентом успешной работы преподавателя и гарантией достижения целей обучения является интеграция информационных технологий в современный образовательный процесс. Одним из современных ресурсов для создания заданий по изучению языка для студентов является corpus. Корпус отличается своей наглядностью и репрезентативностью, а также предоставляет преподавателю английского языка множество возможностей для поиска, которые позволяют разработать множество моделей для развития фундаментальных навыков учащихся. Целью данной статьи является экспериментальное подтверждение и концептуальная поддержка эффективности системы повышения дискурсивной (разговорной) компетенции студентов с помощью корпусных технологий. И мы представляем обзор методики развития дискурсивной (разговорной) компетенции студентов с помощью корпусных технологий.*

Ключевые слова: *Конкордантность, CBI (corpus based instruction), корпусная технология, развитие дискурсивной компетенции, иностранный язык.*

The four fundamental English language abilities are speaking, reading, writing, and listening. But of the four abilities, "speaking" is the most difficult and can easily make students feel afraid. In order to build their vocabulary, students must have a solid basis in both internal knowledge and original thought. Even if the majority of students possess a vast vocabulary and a thorough understanding of grammar, they nonetheless struggle to communicate in a way that is equivalent to their linguistic and cognitive capacities. The following are some potential contributing factors: poor speaking instruction, learners' insufficient vocabulary growth, poor speaking abilities, and so on.

Using text corpora and corpus technologies in English language instruction is one of the current ways to improve teaching strategies. One recognized area for describing and studying languages is corpus linguistics. Nonetheless, there has been a noticeable shift in the use of digital text corpora over the last ten years from purely linguistic research to a more "applied" corpus linguistic approach that places some emphasis on the learner. Large-scale corpora such as Brown and LOB were formerly used for linguistic pattern analysis, but the results of these two corpora have gradually begun to permeate other aspects of language teaching[[1].

A high-frequency, fixed shape, or stable language structure, has been discovered in natural language by corpus linguistics investigations. This structure is now known as the "block". Blocks are the best language unit since they include grammar, semantics, and context. In light of this, lexical pedagogy maintains that "language is a grammaticalized vocabulary, not a lexical grammar." In other words, teaching English should emphasize fixed or semi-fixed lexical structures, such as lexical blocks, as a teaching unit. It will undoubtedly increase language learning effectiveness and improve language expressive correctness, fluency, and authenticity.

Currently, the majority of discourse education research is theoretical in nature, with relatively little empirical study. An ideal speaking training mode for English speaking can be created using the corpus-based discourse teaching platform. In addition to assisting teachers in developing students' lexical awareness and speaking cognition skills, this technique can help students reach their full potential and strengthen their capacity for self-learning. With the help of the corpus platform, students can use retrieval and context co-occurrence to extract the most commonly used phrases from the large corpus, achieve the "i+1" effect on language input, and activate the mechanism for second language acquisition that allows students to learn in a comfortable and joyful setting, which increases motivation and enthusiasm for learning and facilitates language acquisition.

According to Kogan M, Yaroshevich A, corpora have become more and more popular in language learning and instruction. We call this method "data-driven learning" (DDL). A vast array of free corpora, including as parallel corpora, comparative corpora, learner corpora, very large general corpora, and domain-specific corpora, are now available to language instructors and students over the internet. The widespread use of corpora in language instruction and the long-awaited revolutionary shift in teaching approach have finally begun, as seen by the numerous articles on DDL and corpus-related tools. The quantity of teaching and support provided, together with the students' proficiency in English, frequently affects their enthusiasm for corpus work.

A variety of scientific approaches are investigated and generalized in relation to Corpus-based Instruction (CBI), a unique approach in English language instruction. Content-based teaching is language instruction that incorporates the academic and linguistic needs of English language learners. Meaning is prioritized above word form in communicative English as a foreign language instruction. This suggests that the content presented in this manner ought to be appropriate for both teachers and learners.

Through retrieval and context co-occurrence, students can identify the most often used lexical chunks from extensive corpora in the discourse (spoken) teaching mode from the standpoint of corpus linguistics. Classifying, sorting, and counting them will help you understand their basic usage and gain a deeper understanding of

these lexical collocations. This will help you improve your English speaking skills by giving learners complete and detailed examples and triggering the new speaking teaching mode, training. The teaching of English speaking has also been significantly impacted by students' capacity for autonomous learning.

With the development of corpus linguistics, using lexical teaching to improve English speaking ability is a new way and a new breakthrough. The integration of semantic, grammar, and context can be used as a unit of language teaching and help to cultivate the speaking ability. In the field of foreign language speaking teaching, the use of the word blocks itself is an important reflection of the speaking ability and speaking standard. However, teaching speaking is often confined to the fixed word collocation and discrimination, the actual use of the word block lack of specific, vivid cases, only focus on mechanical, inculcating teaching methods.

Through the use of corpus lexical resources in English speaking, we can further find out the regularity of the use of language structure in the process of speaking so that they can learn happily during self-exploration and acquire discourse competence in practical application.

In the perspective of corpus linguistics, the platform of lexical pedagogy is based on the theory of “second language acquisition and cognitive psychology,” learners’

autonomous learning is the main feature, and teaching staffs are also actively involved. Through this platform, learners have access to a wealth of useful information and learning resources, as well as getting help from their teachers at any time, as shown in Figure 1.




Figure 1. The platform of developing discourse competence.

As can be seen from the chart, the English speaking platform contains a total of five functional modules. The discourse teaching method from the perspective of corpus linguistics establishes the corresponding lexical training library by using the existing data resources in the corpus of textbooks and lexical teaching with the help of the English speaking platform. It stimulates learners to extract lexical chunks actively through corpus retrieval and context co-occurrence function from the teaching conception and technical level, to use lexical chunks and consolidate lexical chunks to cultivate lexical awareness of learners and to develop the potential of learners' language learning, which enhances the enthusiasm of learners in self-regulated learning. This teaching mode accords with the learners' cognition and the law of language development, enriches the second language acquisition theory put forward by Krashen, and realizes the cognitive psychology theory.

In conclusion, based on the theories of "input hypothesis" and "affective filter hypothesis" and cognitive psychology in second language acquisition theory, this article expounds the use of corpus linguistics in developing students' discourse competence. The lexical pedagogy from the perspective of corpus linguistics makes up for the inadequacies of the previous speaking teaching from the technical level and teaching philosophy. It not only promotes communication between teachers and students and strengthens the unity of life and life but also fundamentally reforms teaching methods and changes teaching concepts, To achieve the training of learners' organizational ability and autonomous learning ability, the fluency and accuracy of language output are accelerated,

and the speaking ability and level of English are effectively improved. With the deepening development of corpus linguistics, with the change of teaching concepts and cognitive styles, giving full play to the advantages of corpus linguistics block lexism, strengthening discourse teaching research, and applying them in English speaking is not negligible of potential advantages and broad prospects.

References.

1. Bakirova H, "Development of lexical competence based on content-based approach in ESP teaching," Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, vol. 2021, no. 5,pp. 204–214, 2021.

2. Galskova N., Gez N (2009). "Theory and Methods of Teaching Foreign Languages: Lingvodidactics and Methods: Textbook for students of lingu. universities and foreign language faculty of higher pedagogical educational institutions", 6th ed., stereotyped, Moscow, Publishing Center "Academy", 336 p.

3. Jahan K., Mahmood M. A., and W. Azhar, "Lexical analysis of intermediate English course books: a corpus based study," International Journal of Educational Sciences, vol. 24, no. 1-3,pp. 13–22, 2019.

4. Kogan M, Yaroshevich A, and O. Ni, Corpus-based teaching of German compound nouns and lexical bundles for improving academic writing skills, Lidil. Revue de linguistique et de didactique des langues, 2018

5. Kupietz M., N. Diewald, B. Trawiński et al., "Recent developments in the European reference corpus EuReCo. In translating and comparing languages: corpus-based insights," in Selected Proceedings of the Fifth Using Corpora in Contrastive and Translation Studies Conference. Louvain-la-Neuve: Presses universitaires de Louvain, pp. 257–273, Leuven, 2020.

6. Rogers J., A. Müller, F. E. Daulton et al., "The creation and application of a large-scale corpus-based academic multi word unit list," English for Specific Purposes, vol. 62, pp. 142–157, 2021.

7. SCOTT, M & TRIBBLE, C (2006). "Textual Patterns: key words and corpus analysis in language education: Studies in Corpus Linguistics", Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, p.200.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Hafizov Akmal Rustamovich
Buxoro energetika, neft va gaz sanoati texnikumi
o‘quv ishlar bo‘yicha director o‘rinbosari
Email: aznavur-uz@mail.ru

PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARI MAXSUS FAN O‘QITUVCHILARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: *O‘zbekiston ta’lim tizimida globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Maxsus fan o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va o‘quvchilarga axborotni samarali ishlatishni o‘rgatish zarur. Mediakompetentlik faqat texnologik bilimlar bilan cheklanmay, axborotni tanqidiy baholash va ongli ravishda foydalanish madaniyatini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada o‘qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirish uchun zarur metodik yondashuvlar va o‘quvchilarga bo‘lgan ta’sirlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: Mediakompetentlik, maxsus fan o‘qituvchilari, raqamli ta’lim, pedagogik texnologiyalar, axborotni baholash, interaktiv o‘qitish, o‘quvchilar.*

Хафизов Акмал Рустамович
Бухарский энергетический, нефтегазовый промышленный техникум Заместитель директора по учебной части

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация: *В системе образования Узбекистана глобализация и цифровая трансформация играют важную роль в повышении качества образования. Развитие медиаграмотности преподавателей специальных дисциплин становится ключевым элементом в освоении современных педагогических технологий и обучении студентов эффективному использованию информации. Медиаграмотность включает в себя не только технологические знания, но и культуру критического восприятия и осознанного использования информационных ресурсов. В статье рассматриваются методические подходы к развитию медиаграмотности и их влияние на студентов.*

Ключевые слова*: Медиаграмотность, преподаватели специальных дисциплин, цифровое образование, педагогические технологии, оценка информации, интерактивное обучение.*

Khafizov Akmal Rustamovich
Bukhara Energy, Oil and Gas Industrial College Deputy Director for Academic Affairs

METHOD OF FORMING MEDIA COMPETENCE OF TEACHERS OF SPECIAL SUBJECTS OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: *In Uzbekistan’s education system, globalization and digital transformation play a key role in enhancing educational quality. Developing media literacy among special subject teachers is vital for mastering modern pedagogical technologies and teaching students how to effectively use information. Media literacy involves not only technological knowledge but also a culture of critical evaluation and conscious use of information resources. This article examines the methodological approaches for developing media literacy and their impact on students.*

Keywords*: Media literacy, special subject teachers, digital education, pedagogical technologies, information evaluation, interactive teaching.*

Bugungi kunda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari O‘zbekistonda ham barcha sohalarga, xususan, ta’lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli vositalarning keng tatbiqi professional ta’lim muassasalaridan ham yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning mediakompetentligini

oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mediakompetentlik — bu nafaqat texnologik bilimlar majmui, balki axborotni tanqidiy tahlil qilish, uni qayta ishlash, yangi formatda yaratish va media makonda xavfsiz hamda samarali faoliyat yuritish qobiliyatidir.

O‘zbekistonda professional ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi o‘qituvchilarning raqamli va media ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruratini yanada oshirmoqda. Maxsus fan o‘qituvchilari, zamonaviy texnologiyalarni faol qo‘llagan holda, nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarning raqamli savodxonligini shakllantiruvchi, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi shaxslarni tarbiyalovchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Ularning mediakompetentligi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, interaktiv metodlarni joriy etish, talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsiya yaratish va ularni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash kabi muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda raqamli ta’lim infratuzilmasi rivojlanib borayotgan bir paytda, o‘qituvchilarning mediakompetentlik darajasi turlicha ekani ham kuzatilmoqda. Bu esa tizimli metodik yondashuvlar va uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarini tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi sharoitda professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilari zamonaviy ta’lim texnologiyalarini samarali o‘zlashtirib, o‘z faoliyatida media vositalardan ongli va innovatsion tarzda foydalanishga tayyor bo‘lishi zarur. Zero, mediakompetentlik nafaqat shaxsiy kasbiy muvaffaqiyatning, balki butun ta’lim tizimi samaradorligining muhim ko‘rsatkichiga aylanmoqda.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida mediakompetentlik o‘qituvchilarning zamonaviy kasbiy malakasining ajralmas qismiga aylangan. Mediakompetentlik – bu shaxsning axborotni qabul qilish, tahlil qilish, qayta ishlash, yangi shaklda yaratish va media muhitda samarali va xavfsiz faoliyat olib borish qobiliyatidir. Bu faqatgina texnologik bilimlar emas, balki tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va media vositalardan ongli ravishda foydalanish madaniyatini ham o‘z ichiga oladi.

Maxsus fan o‘qituvchilari uchun mediakompetentlikning rivojlanishi o‘ta muhim ahamiyatga ega, chunki ular nafaqat bilim beradilar, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mediakompetent o‘qituvchi raqamli resurslardan unumli foydalanadi, axborotni filtrlaydi, multimediya materiallari tayyorlaydi va talabalarning raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Media ta'lim ko‘nikmalarini shakllantirish til-kommunikativ, tahliliy-izohli va axborot-texnologik ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli modelni o‘z ichiga oladi. Ushbu model o‘qituvchilarga turli janrlar bo‘yicha media matnlarini tanqidiy o‘qish, tahlil qilish va yaratishga imkon berish uchun mo‘ljallangan.Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu ko‘nikmalarni tuzilgan o‘qitish o‘qituvchilarning media kontent bilan samarali shug‘ullanish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbekistonda professional ta’lim muassasalarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, mehnat bozori talablarining ortishi va axborot texnologiyalari sohasidagi jadal o‘zgarishlar fonida maxsus fan o‘qituvchilarning mediakompetentligini oshirish dolzarb vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Chunki talabalarning malakali va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining mediakompetentligiga bevosita bog‘liq.

Mediakompetentlik professional ta’lim muassasalarida quyidagi asosiy jihatlar bo‘yicha o‘z ifodasini topadi:

- **Ta'lim samaradorligini oshirish.** Mediavositadan foydalanish, raqamli platformalarda topshiriqlar berish va o‘zaro onlayn muloqotni tashkil qilish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘qituvchi nafaqat an'anaviy darslarni o‘qitadi, balki talabalarni mustaqil tahlil qilish va ijodiy ishlashga undaydi.
- **Talabalarning mustaqil o‘rganish motivatsiyasini kuchaytirish.** Interaktiv onlayn materiallar, o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun onlayn testlar, virtual laboratoriyalar va simulyatorlar orqali talabalar bilim olishda ko‘proq mustaqillik va qiziqish hissini sezadilar. Bu esa ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va natijada ta'lim samaradorligini mustahkamlaydi.
- **Interaktiv va innovatsion metodlardan foydalangan holda dars o‘tish imkoniyatlarini kengaytirish.** Mediakompetent o‘qituvchilar an’anaviy ma'ruza va amaliy mashg‘ulotlarga qo‘shimcha ravishda interaktiv darslar, vebinarlar, podkastlar, videodarslar va gamifikatsiya elementlarini qo‘llay oladilar. Masalan, raqamli loyihalar, guruhiy onlayn ishlanmalar yoki forum muhokamalari orqali talabalarning faol ishtirokini ta'minlash mumkin.
- **Talabalarga zamonaviy mehnat bozoriga mos malakalarni shakllantirish.** Bugungi mehnat bozori vakillaridan nafaqat soha bilimlari, balki raqamli savodxonlik, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari, onlayn platformalarda ishlash malakasi talab etiladi. Mediakompetent o‘qituvchilar aynan shunday ko‘nikmalarni shakllantiradigan o‘quv metodlarini tatbiq etadilar va talabalarning zamonaviy ishbilarmonlik qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Shu sababli, professional ta’lim tizimida mediakompetentlik nafaqat o‘qituvchi shaxsiy

malakasining ko‘rsatkichidir, balki umuman o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlaridan biri sifatida ko‘rilishi lozim. Ayniqsa, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli ta’lim siyosati va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida professional ta’lim o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish nafaqat zamon talabi, balki milliy taraqqiyot strategiyasining ham ajralmas qismi hisoblanadi. Kasb-hunar ta'limi muassasalaridan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, hamkorlikda o‘rganish nafaqat media ko‘nikmalarini yaxshilaydi, balki umumiy ta'lim natijalarini oshiradi.

O‘zbekistonda raqamli ta'lim infratuzilmasi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Professional ta'lim tizimida ham multimedia laboratoriyalari, virtual trening platformalari, onlayn ta'lim resurslari yaratilyapti. Biroq o‘qituvchilarning mediakompetentlik darajasi turlicha:

- Ayrim o‘qituvchilar raqamli vositalarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa,
- Ba'zilari hali ham an'anaviy usullardan foydalanmoqda va media texnologiyalarni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Bu esa metodik yondashuvlar, tizimli tayyorgarlik va uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlariga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Professional ta’lim muassasalari maxsus fan o‘qituvchilari zamonaviy ta’lim muhitining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bugungi raqamli jamiyat sharoitida ulardan nafaqat o‘z faniga oid chuqur bilimga ega bo‘lish, balki o‘z faoliyatida zamonaviy media vositalaridan samarali foydalanish ham talab qilinmoqda. Kuchli raqamli kompetensiyalarga ega o‘qituvchilar innovatsion ta'lim imkoniyatlarini yaratishi mumkin, bu esa talabalar uchun ta'lim natijalarini yaxshilashga olib keladi. Mediakompetentlikni rivojlantirish uchun metodik yondashuvlarni tizimli va maqsadli tashkil etish zarur. Quyida bu borada samarali deb topilgan metodik yondashuvlar bayon etiladi.

Birinchi navbatda, **modulli o‘quv dasturlarini joriy etish** muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar uchun maxsus media va raqamli pedagogika modullarini qamrab olgan qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish zarur. Bunday kurslar quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi: axborot manbalarini tahlil qilish va baholash, raqamli vositalardan foydalanib o‘quv materiallari yaratish, multimediali taqdimotlar va videodarslar tayyorlash hamda onlayn ta’lim platformalarini samarali qo‘llash. Bu jarayon o‘qituvchilarning amaliy faoliyatida media vositalardan ongli va maqsadga muvofiq foydalanish madaniyatini shakllantiradi. Modulli o‘quv dasturlari yordamida o‘qituvchilar zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan tanishib, ulardan o‘z dars amaliyotida mustaqil foydalanishga tayyor bo‘ladilar. O‘qituvchilar texnologik yutuqlarga hamohang turish uchun umrbod ta'lim bilan shug‘ullanishlari, ularning malakalari dolzarb va raqobatbardosh bo‘lib qolishini ta'minlashlari kerak.

Ta'limda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi o‘qitish metodikasini oshirish va yangi ta'lim muhitiga moslashish uchun doimiy kasbiy rivojlanishni talab qiladi.

Ikkinchi muhim metod - **amaliy mashg‘ulotlar va treninglarni** muntazam o‘tkazishdir. Nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamasdan turib haqiqiy mediakompetentlikka erishish mushkul. Shu bois, professional ta’lim muassasalarida doimiy ravishda seminarlar, vebinarlar, "master-klass"lar tashkil etish zarur. Bunda o‘qituvchilar Google Forms va Moodle kabi platformalarda onlayn test tizimlari yaratishni, Genially va Canva vositalari yordamida interaktiv dars materiallarini tayyorlashni, Clipchamp va Filmora dasturlaridan foydalanib video darslar montaj qilishni amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘zlashtiradilar. Bunday yondashuv o‘qituvchilarda raqamli texnologiyalar bilan ishlashga nisbatan ishonch va qiziqishni kuchaytiradi.

Uchinchi metodik yondashuv sifatida **mentorlik va hamkorlik asosida o‘qitish** tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Tajribali va mediakompetent o‘qituvchilarning tajribasidan samarali foydalanish yangi boshlovchi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini tezlashtiradi. Mentorlik jarayonida ish faoliyati davomida o‘rgatish, individual konsultatsiyalar o‘tkazish va yaxshi amaliyotlar almashish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi. Bu esa o‘qituvchilar o‘rtasida kasbiy birdamlik va o‘zaro tajriba almashinuvini kuchaytiradi.

To‘rtinchi metodik yondashuv — axborot-multimedia loyihalarini amalga oshirish. O‘qituvchilar kichik media loyihalar, ya'ni o‘quv videolari, podkastlar, bloglar va infografikalar yaratish orqali nafaqat mediakompetentliklarini rivojlantiradilar, balki o‘z ijodiy salohiyatlarini ham oshiradilar. Bunday loyihalar raqamli vositalardan foydalanish malakasini amaliyotda sinovdan o‘tkazish imkonini beradi va o‘qituvchilarni yangi texnologiyalarga moslashuvchanlik bilan yondashishga o‘rgatadi. Shuningdek, o‘zaro media loyihalar almashinuvi orqali o‘qituvchilar tarmog‘i shakllanadi va tajriba almashish muhitini yaratadi.

Virtual haqiqat va 3D bosib chiqarish kabi ilg‘or texnologiyalarni kasb-hunarga o‘qitishga kiritish juda muhim ahamiyatga ega. Bu vositalar tajribali o‘rganishni osonlashtirib, o‘qituvchilarga nazariy bilimlarni amaliy sozlamalarda qo‘llash imkonini beradi.

Beshinchi va nihoyat, **raqamli savodxonlikni baholash tizimini joriy etish** zarur. O‘qituvchilarning mediakompetentligini tizimli baholash uchun o‘zini baholash anketalari, amaliy topshiriqlar va elektron portfoliolar asosida ko‘rsatkichlarni aniqlash usullaridan foydalanish lozim. Elektron portfoliolar o‘qituvchilarning o‘z faoliyati davomida yaratilgan multimediali materiallar, onlayn darslar va boshqa raqamli ishlanmalarini namoyish etish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchilarning rivojlanish dinamikasini aniq ko‘rsatib, keyingi o‘quv va rivojlanish ehtiyojlarini belgilash imkonini yaratadi.

Raqamli kompetensiya o‘qituvchining umumiy kasbiy mahoratining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, raqamli vositalar va texnologiyalar bilan samarali o‘zaro hamkorlikni ta'minlaydi.Raqamli kompetensiya bu ta'lim jarayonida moslashuvchanlikni ta'minlaydi, bu esa shaxsiylashtirilgan o‘quv tajribalariga va ta'lim resurslaridan foydalanishni yaxshilashga imkon beradi.Raqamli vositalardan samarali foydalanish qobiliyati ta'limning umumiy sifatiga yordam beradi, uni yanada jozibali va qulay qilishadi.

Professional ta’lim muassasalari maxsus fan o‘qituvchilari mediakompetentligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

№	Yo‘nalish	Mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Modulli o‘quv dasturlarini joriy etish	Media va raqamli pedagogika asoslari bo‘yicha qisqa kurslar tashkil etish	O‘qituvchilarning raqamli vositalarni ongli va samarali qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi
2	Amaliy mashg‘ulotlar va treninglar o‘tkazish	Google Forms, Moodle, Canva, Genially, Clipchamp kabi vositalardan amalda foydalanishni o‘rgatish	O‘qituvchilarning amaliy mediako‘nikmalari va ishonchi oshadi
3	Mentorlik va hamkorlik tizimini joriy etish	Tajribali mediakompetent o‘qituvchilarning yangi o‘qituvchilarni tayyorlashdagi ishtiroki	Kasbiy birdamlik kuchayadi, tajriba almashinuvi tezlashadi
4	Axborot-multimedia loyihalari yaratish	O‘quv videolari, podkastlar, bloglar, infografikalar tayyorlash	O‘qituvchilarning ijodiy va texnologik salohiyati oshadi
		va almashish	
5	Raqamli savodxonlikni baholash tizimini yaratish	Elektron portfoliolar, o‘zini baholash anketalari va amaliy topshiriqlar asosida monitoring	Rivojlanish dinamikasi aniqlanadi, kasbiy rivojlanish yo‘nalishlari belgilanadi
6	Innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish	Virtual haqiqat (VR), 3D bosib chiqarish kabi ilg‘or texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish	Talabalarning amaliy bilim va ko‘nikmalari kuchayadi, ta’lim sifati oshadi

Xulosa qilib aytganda, bugungi raqamli transformatsiya davrida professional ta’lim muassasalari maxsus fan o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mediakompetent o‘qituvchi zamonaviy ta’limning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, nafaqat an’anaviy bilimlarni yetkazadi, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati va raqamli savodxonligini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda raqamli ta’lim infratuzilmasining rivojlanishi, mehnat bozorining yangi talablariga mos mutaxassislar tayyorlash ehtiyoji va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi islohotlar mediakompetentlikni o‘qituvchilarning zaruriy kasbiy sifatiga aylantirmoqda. Shundan kelib chiqib, maxsus fan o‘qituvchilari uchun modulli o‘quv dasturlarini joriy etish, amaliy mashg‘ulotlar va treninglar o‘tkazish, mentorlik va hamkorlik asosidagi o‘qitish tizimini rivojlantirish, shuningdek, axborot-multimedia loyihalari yaratishni faol qo‘llab-quvvatlash zarur.

Mediakompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish o‘qituvchilarga ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish imkoniyatini beradi, talabalarning raqamli muhitda faoliyat yuritish malakasini oshiradi va, nihoyat, o‘zbek professional ta’lim tizimining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimizda sifatli, zamonaviy va global mehnat bozoriga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Semenog, O., Semenichina, O., Oleshko, P., Prima, R., Varava, O., & Pykaliuk, R. (2020). Formation of Media Educational Skills of a Future Teacher in the Professional Training. *Revista Romaneasca Pentru Educatie Multidimensionala*, *12*(3), 219–245. https://doi.org/10.18662/RREM/12.3/319

2. Pigozne, T., & Pigoznis, A. (2015). *Improvement of Media Competence within Cooperative Learning Process in a Vocational Education Institution*. *2*, 411–424. https://doi.org/10.17770/SIE2015VOL2.424

3. Kirilova, K., & Kazakova, M. (2024). The professional training of teachers through the prism of digital competence for acquiring professional qualification 'teacher.' *Obrazovanie i Tehnologii*, *15*(1), 111–115. https://doi.org/10.26883/2010.241.5916

4. Borden Lanza, Y. H., Lores Gómez, B., & Usart, M. (2024). An Examination of Methodological Approaches in Applied Technology Classrooms: A Reflective Perspective from Vocational and Training Educators. *Revista Interuniversitaria de Investigación En Tecnología Educativa*, 65–82. https://doi.org/10.6018/riite.639631

5. Vasylykiv, I., & Kovalchuk, V. (2024). Formation of digital competence of a future primary school teacher. *Naukovij Žurnal Hortic'koï Nacìonal'noï Akademìï*, *2024–11*, 80–88. https://doi.org/10.51706/2707-3076-2024-11-10

6. Арбузова, Е. Н., Alisultanova, I. A., & ГАЙРБЕКОВА, Р. С. (2023). Development of digital competence of teachers of special disciplines in the conditions of digitalization of education. *Экономика и Предпринимательство*, *9(158)*, 1152–1156. https://doi.org/10.34925/eip.2023.158.09.223

7. Fanreza, R. (2018). *The Quality of Teachers in Digital Era*. 461–463. https://doi.org/10.2991/AMCA-18.2018.128

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Hazratqulova Ozoda Abdug'aniyevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Email: ohazratqulova36@gmail.com

FILOLOGIK TA'LIMDA SAVOL-O'QUV TOPSHIRIG'INING TASNIFIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *O'zbek tilining ona tili va davlat tili sifatida o'qitilishi bo'yicha yanada keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu sohada o'quv topshiriqlaridan foydalanish masalasida muayyan oqsoqliklar bor, jumladan, o'quv topshiriqlari mazmuni maxsus o'rganishni talab qiladi. Jahon til o'qitish metodikasida asosiy e'tibor o'quv topshiriqlarning sifatiga qaratiladi. Talabada nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish yoki shakllantirish bir bosqichli oddiy jarayon emas, shu sababli topshiriq yoki savollar ham bir xil bo'lmaydi. Faoliyatni tashkil etish bosqichi qancha bo'lsa, natijagacha bo'lgan jarayonda mashq, topshiriq va savollarning vazifasi ham shunchalik rang-barang bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *o'quv topshirig'i, o'quv materiallari, zamonaviy o'qitish metodikasi, zamonaviy baholash.*

Хазраткулова Озода Абдуганиевна
Университет экономики и сервиса Термеза

КЛАССИФИКАТSIОННАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОПРОСНО-ИЗУЧЕСТВЕННЫХ ЗАДАЧ В ФИЛОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *Ведутся обширные исследования по преподаванию узбекского языка как родного и государственного. Особенно в этой области имеются определенные недостатки в использовании учебных задач, в том числе в содержании учебных задач, требующих специального обучения. В методике преподавания мировых языков основное внимание уделяется качеству учебных задач. Развитие или развитие разговорных навыков учащегося — это не простой одноэтапный процесс, поэтому задания и вопросы не будут одинаковыми. Чем больше этап организatsii деятельности, тем разнообразнее задача упражнений, задач и вопросов в процессе, приводящих к результату.*

Ключевые слова: *учебная задача, учебные материалы, современная методика обучения, современное оценивание.*

Hazratqulova Ozoda Abduganiyevna
Termez University of Economics and service

CLASSIFICATION CHARACTERISTICS OF QUESTION-STUDY TASKS IN PHILOLOGICAL EDUCATION

Abstract. *Extensive research is being conducted on the teaching of the Uzbek language as a mother tongue and state language. Especially in this field, there are certain weaknesses in the use of educational tasks, including the content of educational tasks that require special learning. In the methodology of world language teaching, the main attention is paid to the quality of educational tasks. Developing or building a student's speaking skills is not a simple one-step process, so the assignments and questions will not be the same. The more the stage of organizing the activity, the more varied the task of exercises, tasks and questions in the process leading to the result.*

Key words: *educational task, educational materials, modern teaching methodology, modern assessment.*

Kirish.

Jahon til o'qitish metodikasida asosiy e'tibor o'quv topshiriqlarning sifatiga qaratiladi. Talabada nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish yoki shakllantirish bir bosqichli oddiy jarayon emas, shu sababli topshiriq yoki savollar ham bir xil bo'lmaydi. Faoliyatni tashkil etish bosqichi qancha bo'lsa, natijagacha bo'lgan jarayonda mashq, topshiriq va savollarning vazifasi ham shunchalik rang-barang bo'ladi. Dunyo til o'qitish tajribasida nutqiy ko'nikmalar to'rtta. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalari bo'lib ularni shakllantirish bo'yicha beriladigan savol va topshiriqlar baholashga juda qulay tarzda ishlab chiqilgan. Ta'limda baholashning qulay, samarali yo'lini ishlab chiqilsagina uning foydasi bo'ladi. Bilim ko'nikma va malakani baholay olmadimi, demak, u topshiriq sifatsizdir. Shuning uchun ham savol va topshiriqlar ishlab chiqishda quyidagicha yondashish lozim:

1. O‘quv dasturlarida dars, mashg‘ulot mavzusini mantiqan to‘g‘ri qayd etish.

2. Ish rejalaridagi mavzularni ko‘zda tutilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantira olish imkoniyatini hisobga olib tanlash.

3. Mavzuga doir o‘quv topshiriqlarni foydalilik darajasi bo‘yicha saralab olish.

4. Bugungi mavzuda, asosan, qanday o‘quv topshirig‘idan faol foydalanish mumkinligiga to‘g‘ri tashxis qo‘yib olish.

5. Mashqlardan takrorlashni talab qiluvchi o‘qish, yozish, gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishda foydalanish.

Savol ham o‘quv topshirig‘i hisoblanib, ona tili ta’limida hali alohida tadqiq etilmagan. Uning ona tili o‘qitish metodikasida qanday ahamiyat kasb etishi, vazifasi, turlari, tasnifi, qo‘llanilish o‘rinlari va tarkibi o‘rganilmagan. Mezonlari ishlab chiqilmagan. Metodik qo‘llanmalarda, darsliklarda topshiriqlar bilan birga qo‘llaniladi, ko‘pincha, topshiriq bilan almashtiriladi, topshiriqning tarkibiga kiritib yuboriladi. Aslida metodikada savolning o‘z o‘rni va vazifasi bor. U topshiriqdan aniq farq qiladi. Ba’zan topshiriq bilan bir xil vazifalarni bajarishi mumkin, ammo bu bir narsa degani emas. Amaldagi darsliklarda ba’zan “Savol va topshiriqlar” rukni ostida faqat savollar beriladi. Bu – mazkur tushunchaning mazmun mohiyatini yondosh tushunchalarga nisbatan farqlab olish zarurligini ko‘rsatadi. Savolning turlari tasnif qilinmaydi.

Savol masalasida ham shunday tasniflar qilinishi, ularning qo‘llanilish o‘rinlari belgilab olinishi zarur. Zero, ijtimoiy hayotda ham savol muhim ahamiyatga egadir. Javob savolning qanday berilganiga bog‘liq. Demak, talabalarga to‘g‘ri, o‘rinli va maqsadli savol bera olsak, ularning bergan javobi jamiyat taraqqiyoti uchun qaysidir ma’noda foydali bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili.

Metodist olim V. I. Shlyaxovning o‘quv adabiyotlarda nutqiy va leksik-grammatik materiallarni o‘zaro muvofiqlashtirish muammolari haqidagi quyidagi fikrlari fikrimizni asoslaydi: “O‘quv materiallarini tuzishdagi qiyinchiliklardan biri nutqiy va leksik-grammatik materiallarni o‘zaro muvofiqlashtirishdir. ...Agar mashg‘ulotlarda grammatika etakchilik qilsa va grammatik tizim mantiqiy izchillikda o‘rganilsa, bunda talabalarning nutqiy ehtiyojlari va ushbu nutqiy ehtiyojlarni ta’minlash uchun zarur bo‘ladigan til materiallari o‘rtasida uzilish paydo bo‘ladi”.

Jumladan, X.Asalov talabalar nutqini o‘stirishda savol-javobdan foydalanishni quyidagi tarzda izchil rivojlantirib borishni tavsiya etgan edi: rasmga qarab savol berish, biror buyumni tasvirlash yuzasidan o‘tkaziladigan dialoglar, o‘rganilgan matn yuzasidan o‘tkaziladigan dialog, o‘qituvchi tomonidan belgilangan mavzu yuzasidan o‘tkaziladigan dialog, inssenirovka tipidagi dialog va h. k.

Metod.

Zamonaviy o‘qitish metodikasi talabalarda, talabalarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qilar ekan, demak, o‘quv topshiriqlari ham zudlik bilan shu talabga moslashishi kerak. O‘zbek tilining ona tili va davlat tili, shuningdek, ikkinchi til sifatida o‘qitilishida o‘quv topshiriqlari namunaga qarab ishlab chiqilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Aslida har bir savol, har bir topshiriq puxta o‘ylangan, belgilangan mezonlar asosida ishlab chiqilishi lozim. Mavjud o‘quv topshiriqlarining eng noqulay juhati bu – zamonaviy baholash tizimiga mos kelmasligidir. Har bir mashg‘ulot muayyan ko‘nikma yoki malakani hosil qilish uchun taqdim qilinadi. Savollardan foydalanish masalasida ham natijalar ijobiy emas, zero, savollar qanday vazifalarni bajara olishi haqida mulohaza qilib ko‘rish kerak bo‘ladi. Mashg‘ulot jarayonida savoldan, avvalo, o‘zlashtirilgan bilimning ko‘lami, sifati, yoki ma’lumotga munosabati, tafakkur tarzini bilishda foydalanilish samarali bo‘ladi. Zamonaviy ta’limda o‘quv vositalarini birgina vazifani bajarishga mo‘ljallash vaqtni isrof qilish bilan teng. Bugun o‘quv topshirig‘i, xususan, savol va topshiriqlar bir paytning o‘zida bir nechta ko‘nikma yoki malakani rivojlantira olishi kerak.

Til o‘qitishda mashqning bajaradigan vazifalarini, qo‘llanilish o‘rinlarini aniqlab olish lozim. Asariyat mamlakatlar ta’lim tizimida lingvistik topshiriqlar, nutqiy topshiriqlarga nisbatan ancha kam. O‘zbek tili ta’limida lingvistik topshiriqlar keragidan ortiq qo‘llaniladi. Agar topshiriqlar orqali lingvistik ma’lumotlar ham nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga bo‘ysundirilsa, tezroq nutqiy kompetensiyaga erishish mumkin.

Muloqot davomida odatda savollarga to‘g‘ri javob bergani uchun talabalarga rag‘bat yoki noto‘g‘ri javob bergan taqdirda ularga dashnom beriladi. Darsda talabani savol berishga undash mumkinmi, ko‘p hollarda bunga e’tibor berilmaydi, imkoniyat yaratilmaydi. Talabalar tomonidan o‘qituvchiga savol berilsa, aksariyat holatda rag‘batlantirilmaydi. Ona tili mashg‘ulotlarida va boshqa fanlarda ham talabalar, asosan, javob beruvchidir. Aslida talabaga ko‘proq savol berishni o‘rgatish lozim. Muloqot jarayonida javob savolning qanday berilganiga bog‘liq bo‘ladi. Fikrlash qobiliyati faqat savollarga javob berish qobiliyati bilan emas, balki ularni so‘rash qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Talabalarda to‘g‘ri va mantiqli savol bera olish ko‘nikmasini hosil qilish zarur. Bu kelajakda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan fikrlovchi kishilarni tarbiyalash uchun juda muhimdir. Bu borada g‘arb pedagogikasi mo‘tadillik, amaliylik va erishuvchanlik tamoyillariga tayanadi.

Ravshanxo‘ja Rasulov ham o‘z navbatida o‘quv topshiriqlariga tayangan holda o‘quv jarayonini tashkil qiladi. U yaratgan darslikda o‘quv topshiriqlaridan faqat

savolga murojaatni kuzatish mumkin. Mashq va topshiriqlar berilmagan:

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Abu Nasr Forobiy kim va uning kaysi asarida lisoniy muammolar tadkik kilinadi?

2. Abu Rayxon Beruniy kim va uning lisoniy karashlari kaysi asarda aks etgan?

3. Abu Ali Ibn Sino kim va uning kaysi asarida tovush xakida fikr yuritiladi?

4. Maxmud Koshgariy kim va uning "Devonu lugatit turk" asari nimaga bagishlangan?

5. Maxmud Zamaxshariy kim va uning tilshunoslikka oid kanday asarlarini bilasiz?

6. Alisher Navoiy "Muxokamat ul - lugatayn" asarida kaysi tillarga kiyosiy baxo beradi?

7. Mirzo Mexdixon kim va uning leksikografiya ga oid kanday asari mavjud?

Hayotda ham pedagogikada ham savolning vazifasi biri-ikkinchisidan unchalik uzoq emas. Biroq ona tili o'qitish metodikasi ta'limning boshqa sohalariga qaraganda muhimroq ahamiyat kasb etadi. Uning bu boradagi pedagogik yuki talaba shaxsini fikrlashga o'rgatish, bilimlarini sinash, ko'nikmasini tekshirish kabilar bilan belgilanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili darsliklarida amalda talabalarga beriladigan savollarning mazmuni umuman quyidagicha:

1.Tilshunoslikning qanday bo'limlari bor?

2.Gap bo'laklari soni nechta?

3.To'ldiruvchi necha turga bo'linadi?

4.So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

5.Lab undoshlari nechta?

6.Til undoshlari qanday turlarga bo'linadi?

Mazkur savollar talabada grammatikaga doir muayyan tushunchalarni beradi, biroq buning amaliy ahamiyati sezilmaydi. Bunda mashg'ulot natijasida talabalar til hodisalarini lingvistik jihatdan farqlash ko'nikmasiga ega bo'lishi mumkin.

"Tilshunoslikka kirish" darsliklarida ham savollardan deyarli shu maqsadda foydalaniladi:

1.Olmosh deb nimaga aytiladi?

2.Olmoshlar qaysi so'z turkumlari o'rnida keladi?

3.Olmoshlar qanday so'roqqa javob bo'ladi?

4.Olmoshlar necha turli bo'ladi?

5.Miqdor bildiruvchi so'zlar o'rnida qaysi olmoshlar qo'llanilishi mumkin?

Ta'limda, xususan, ona tili o'qitishda savollardan turli maqsadlarda foydalanish mumkin:

A) talaba bilimini aniqlashga doir;

B) talaba qobiliyatini aniqlashga doir;

S) talabaning fikrlash ko'nikmasini aniqlashga doir;

D) talabaning xotirasini tekshirib ko'rishga doir.

O'qituvchi guruhga savollar bilan murojaat qiladigan juda ko'p maqsadlar mavjud. Asosiylarini ko'rib chiqamiz. Demak, o'qituvchi quyidagi maqsadda savollar berishi mumkin:

– o'quv materialini bilish va tushunish darajasini yoki shakllantirilgan vazifalarning shart-sharoitlarini tushunish darajasini aniqlash;

– talabalarning ehtiyojlarini aniqlash va motivasiyalarini shakllantirish;

– talabalarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, savollar asosida topshiriq berish va olingan natijalarni o'rganish;

– faoliyatda qaror qabul qilish va o'z-o'zini baholashiga imkon berish, masalan, o'qituvchi talabaga biror masalani o'zi hal qilishi, gipotezani shakllantirish va kerakli xulosalar chiqarishga yordam berish uchun savollar beradi.

O'qituvchi talabaga qanday savollar berishi kerak?

O'qituvchining talabalarga qaratilgan savollarini maqsadga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

– to'g'ridan-to'g'ri savol – bilim masalasi; odatda aniq javob bor;

– tushunish savoli – bilimlarni yodlash yoki tushunish orqali egallanganligini aniqlashga qaratilgan savollar;

– etakchi savol – talabaga qiyin vaziyatda qaror qabul qilishga yordam beradigan savol;

– tushuntirish savol – talabaning o'z javobini to'ldirish maqsadida o'qituvchi bergan savol;

– ochiq savol – o'quv vaziyatini tahlil qilish, baholash yoki aks ettirish uchun savol, shuningdek, ijodiy savol (masalan, shartlilik, taxmin yoki prognoz elementlari bo'lgan savol).

Xulosa.

Talabalar bilan samarali muloqot qilish uchun o'qituvchi barcha turdagi savollar bo'yicha malakaga ega bo'lishi kerak. Bu borada etakchi va ochiq savollar, nihoyatda muhimdir, chunki ular talabalarni fikrlashga o'rgatadi.

Yana bir muhim masala. Agar o'qituvchi savolga javobni bilmasa, savol o'quv materialiga tegishli bo'lsa, o'qituvchi qattiq ishlashi va unga javob berishi kerak. Ba'zan savollar darslik doirasidan tashqariga chiqishi mumkin. Savolning javobini bilmasligini tan olishi va keyingi darsda javob berishga harakat qilishi mumkin. Bilmaslik ayb emas, bilishni istamaslik aybdir.

Ta'kidlash lozimki, talabalarning o'zlari savol beradigan va ularga javob izlaydigan mashg'ulot – zamonaviy va samarali darsdir. Talabalarni savol bera olishga o'rgatish, o'qituvchi bergan savollarning hayotiy masalalar echimiga aloqadorligi ona tili ta'limida ham juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Шляхов В.И. Речевой сценарий и обучение русской речи ситуативный и сценарный подходы // Живая методика (для преподавателей русского языка как иностранного). – Москва: Русский язык, 2005. – С. 23–24.

2. Асалов Х. Саккиз йиллик рус мактабларининг 5–8-синфларида ўзбек тили дарсларида феълни ўрганиш: Пед. фан. ном. ... дис. –Тошкент: 1970.

3. Расулов Р. Умумий Тилшунослик Республика олий ўқув юртлари ўзбек филологияси факулыпети бакалаврлари учун дарслик Тошкент-2010 323 б.

4. Khazratqulova O.A. //Linguistic foundations of philological education reform.// JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH. I SSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4/2023, SJIF(2023)-3,778. 27.12.2023 P.870-874.

5. Hazratqulova O.A. //Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlash bilan bog'liq muammolar // O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/11/1] ISSN 2181-7324. B.259-261.

6.Ҳамроев F. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг илмий-методик таъминотини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фал.дри.(PhD) дисс. -Самарқанд. 2019. 147 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Hilola Qurbanova Maqsadbek qizi
ISFT InstituteLecturer,
Department of Philology and Language Teaching
qurbanovahilola20@gmail.com

UDK 6. 071.2

PLAGIARISM STUDY METHODOLOGY

Abstract: *The purpose of writing a summative assessment is to create a ready material to the students relied on specific topics such as plagiarism prevention and the types of citation and how to use them in a sentence. In addition, it provides with information about reporting verbs and the meaning of the stance and voice theory. Finally, reflection informs what a student learned from the course and effective ways of teaching as well as how to avoid the mistakes students do and helping them in their learning process.*

Key words: *L1 Influence/Transfer, Individual Differences (IDs), Longitudinal Study, Written and Oral Proficiency, Cognitive Processing, L2 Aptitude, Variance Explained, Predictive Validity, Spanish Instruction.*

Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi
ISFT instituti ilologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi

PLAGIATNI O‘RGANISH METODIKASI

Abstrakt: *Yakuniy baholashni yozishdan maqsad o‘quvchilarga plagiatning oldini olish, iqtibos turlari va ularni gapda qo‘llash kabi aniq mavzular bo‘yicha tayyor material yaratishdan iborat. Bundan tashqari, u hisobot fe’llari va pozitsiya va ovoz nazariyasining ma’nosi haqida ma’lumot beradi. Va nihoyat, mulohaza talaba kursdan nimani o‘rganganligi va o‘qitishning samarali usullari, shuningdek, talabalarning xatolaridan qanday qochish va ularga o‘quv jarayonida yordam berish haqida ma’lumot beradi.*

Kalit so‘zlar: *L1 Ta’sir/Transfer, Individual farqlar (ID), Uzunlik bo‘yicha o‘rganish, Yozma va og‘zaki malaka, Kognitiv ishlov berish, L2 Qobiliyat, Tushuntirilgan farqlar, Bashoratli haqiqiylik, Ispan tilidagi ko‘rsatmalar.*

Курбанова Хилола Максадбек кизи
Институт ISFT Преподаватель кафедры филологии и языковой педагогики


МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПЛАГИАТА

Аннотация: *Целью написания итоговой оценки является создание готового материала для студентов, опирающегося на конкретные темы, такие как предотвращение плагиата и типы цитирования и как их использовать в предложении. Кроме того, он предоставляет информацию о глаголах сообщения и значении позиции и теории залога. Наконец, рефлексия информирует о том, что студент узнал из курса и эффективных способах обучения, а также о том, как избежать ошибок студентов, и помогает им в процессе обучения.*

Ключевые слова: *влияние/перенос L1, индивидуальные различия (ID), длительность обучения, письменная и устная речь, когнитивная обработка, владение L2, объясненные различия, прогностическая валидность, инструкции по испанскому языку.*

Introduction: Summary is a text that is written in person’s own words. It should contain only the ideas of the original text. An article or a text is read carefully to fully understand it. In order to remember key points and taking notes is one of the best ways of supporting ideas that is thought that it should be included in the summary.

Plagiarism is using another person’s idea or a part of their work and pretend that it is your own work. There are different types of Plagiarism such as “Clone” Plagiarism, “Remix” Plagiarism, “Ctrl+C” Plagiarism: Hybrid” Plagiarism, “Find-Replace” Plagiarism and “Mashup” Plagiarism.



Ctrl plagiarism. The Journal entitled "The modern Language Journal" showed the changes on people's first Language (L1) to second language (L2). Although majority of young learners learn to communicate in their first language (L1), there is typical and anticipated variety in their rate of acquisition across all components of the language system. Up to now, most second language acquisition and second language (L2) scholars have researched that individual differences (IDs) in L1 acquisition are small and irrelevant to IDs in L2 acquisition. However, there is found strong connection between L1 attainment and ultimate L2 success. In this longitudinal study, US secondary students were administered measures of L1 written and oral achievement, L1 cognitive processing, and L2 aptitude, then followed over 3 years of Spanish instruction and administered standardized measures of L2 literacy and oral proficiency at the end of each year. Hierarchical regressions followed by regression commonality analysis showed that IDs in L1 achievement alone (reading, writing, vocabulary, and print exposure) accounted for substantial unique variance in L2 reading, writing, listening comprehension, and oral proficiency, while L2 aptitude accounted for additional unique variance at the end of each year. A last finding appeared that the change accounted for by L1 skills developed from to begin with to moment to third year. Coming about loan extra back to the decision of solidL1–L2 relationships between IDs in L1 attainment and IDs in L2 achievement. More recently, Kidd et al. (2018) reviewed a large body of evidence from psycholinguistics and made a similar argument for focusing on IDs in language improvement.

"Find-replace "Plagiarism- copying a text with the alteration of the key words and phrases but remaining the main parts of the information.

Finding -replace. The colleagues of Sparks himself compared L1 to L2 and they found high achieving L2 learners indicated noticiable strong results on L1 speaking and written language skills, particularly in L1 literacy, average-and low-achieving L2 learners. The study on this field considers that early L1 abilities, particularly those related to L1 education, are solid indicators of L2 accomplishment. Factor analysis studies have revealed that L2 aptitude is componential; the language skills measured by the MLAT load with similar L1 skills (e.g., phonetic coding on the MLAT and L1 phonetic word decoding), and L1 skills combined with the MLAT explain 67%–76% of the variance in overall L2 achievement. There's presently a significant body of investigate prove that there are IDs in L1procurement and fulfillment in ordinarily creating children that can be recognized earlier to and after school passage. In addition, these contrasts are prescient of IDs in L2 fitness and L2 accomplishment, and IDs in L2 fitness are too a solid indicator of L2 accomplishment. These differences are predictive of IDs in L2 aptitude and L2 achievement, and IDs in L2 aptitude are also a strong predictor of L2 achievement. There has been little direct examination of the relation between L1-based prediction and L2 aptitude-based prediction, specifically the question of the extent to which they are the same or cumulative. Advance, L2 accomplishment has by and large been inspected at one instructive level as it were, in spite of the probability of formative alter. Nowadays, uniquely longitudinal study of US high school L2 Spanish learners, the authors administered a large battery of L1 achievement (reading, writing, vocabulary, and oral language), L1 cognitive preparing memory, phonological working memory, and metalinguistic information), and L1 reading-related measures (print introduction and perusing demeanors), in conjunction with an L2 inclination degree (the MLAT), and after that taken after understudies through up to 3 a long time of L2 courses.

Initial conclusion: Inherently, when students learn to communicate in their first language, it is common situation to see changes in their rate of accusition over the language system. There is a connection between individual differences in L1 requirement and L2 achievement. The improvement of oral language skills in IDs showed the proof and much attention on commonalities among children. The research indicated there are two regularities in the language process and first one happens when children are young and essential variations among them that means, language process started to develop when they

are too young. It is found that the former children's vocabularies size develops at 24 months. Further information showed 297 words are the median vocabulary size. When researchers learned IDs the similarities, they any not have accepted the changes in the development of the child language. Instead, the ponder of variety and IDs has been dispatched to uncommon teachers and the discore pathologists who managed to agree extent with dialect variations from the norm. One researcher described findings that major changes in the development happens in word comprehension combinations of the first word and the first stages grammar of normal children. The purpose of the study was providing with information that there are IDs in L1 acquisition in typically growing children that can be found before and after school entry. In addition, the differences can be predictive of IDs in L2 aptitude and L2 achievement and L2 aptitude is more powerful that L2 achievement. Testing instruments of L1 skills divided into 9 categories including word decoding, reading comprehension, vocabulary, language analysis, memory, writing, metalinguistic knowledge and reading attitudes, print exposure.

Integral and Non-Integral Citation

There are 2 types of citations integral citation and Non-integral citation. In the integral citation, the author(s)' name(s) is an integral part of the sentences and should be at the beginning of the paragraph. For example: Sparks (2012) emphasized when L2 is being learned it should be compared with humans' L1 and it helps to use the language accurately and fast. In the Non-integral citation that includes all of the citation elements are placed within brackets namely, authors' family names, page numbers and the year of the publication. For example: Studies have indicated that "air pollution is bad for a person's health" (Smith,2012, p. 12.)

Summative of two Articles

The previous chosen article titled "Individual differences in L1 attainment and language aptitude predict L2 achievement in instructed language learners" (Richard L. Sparks, 2023) and the second chosen article named "Implications for Developmental Changes in Second Language Word Recognition Processes" (Virginia M. Scott, 2009) discussed the variations and similarities between learners' L1 and L2. Current interest of the differences between people's L1 and L2 and changes in the field urged the scholars search out on this topic. In my latter article Virginia (2009) mentioned that when teachers are in the class, both teachers and students should use L2. Because atmosphere may affect to the students positively or negatively. Using L2 language while learning helps individuals to come in to the language and speak fluently while the authors of my former article consider that the linguistic coding differences hypothesis (LCDH) for L2 learning, which postulates a connection between IDs in L1 skills and L2 aptitude and achievement, challenges the notion that IDs in L1 attainment are irrelevant when studying IDs in L2 attainment. It is impossible to learn L2 without the help of L1. Sparks (2023) said "Admittedly it may be challenging to compare everything L1 to L2 but L1 is the fundamental part while learning any L2" said. In the second article it was a problem of L2 learners' use of the L1 during consciousness-raising and form-focused tasks is distinct from the issue of individual differences in L1 attainment and language aptitude predicting L2 achievement in instructed language learners namely, the problem focuses on the specific issue of L2 learners relying on their L1 while engaging in language learning tasks. (Virginia M. Scott, 2009) . On the other hand, the second issue addresses the broader concept of individual differences among L2 learners and how these differences can predict their overall achievement in the L2. It suggests that factors such as the level of proficiency in the L1 and language aptitude can influence L2 learning outcomes.

The method of my first article began with 307 Spanish participants at high school district in the Midwest near a metropolitan US city. All participants were monolingual who have not known English. Different methods were conducted with them such as word decoding, reading comprehension and vocabulary, language analysis. The score of participants L1 and their L2 aptitude were average. The differences between minimum and maximum scores showed in L1 memory 3.87 standard deviations through 4.13 standard deviations in word decoding and 4.33 standard deviations in L1 vocabulary, to 4.8 standard deviations in L1 reading comprehension. In my second article there was a method which research questions, procedures, data collection and data analysis procedures were included. There were 24 participants whose L1 was English and L2 was French. The results of the study on participants showed that even when learners appear to be using the L2 solely, they are actually using the L1. According to the students' reflections from the stimulated recall sessions, they talk to themselves in the L1 as they translate the text, review the task, recall grammar rules, and plan what to say in the L2 when they are required to do so during a collaborative consciousness-raising, form-focused task.

Examples of the citations in articles: In the former article only one type of citation is used in order to express the author' belief. "Admittedly it may be challenging to compare everything L1 to L2 but L1 is the fundamental part while learning any L2" said Sparks (2023). In the latter article both types of citation can be seen, in my latter article Virginia (2009) mentioned that when teachers are in the class, both teachers and students should use L2. In the second article it was a problem of L2 learners' use of the L1 during consciousness-raising and form-focused tasks is distinct from the issue of individual differences in L1 attainment and language aptitude predicting L2 achievement in instructed language learners namely, the

problem focuses on the specific issue of L2 learners relying on their L1 while engaging in language learning tasks. (Virginia M. Scott, 2009)

References.

1. Sparks, R. (2023). Individual differences in learning a foreign (second) language: A cognitive approach. In D. Martin (Ed.), Researching dyslexia in multilingual settings: Diverse perspectives (pp. 36–54). Multilingual Matters.

2. Virginia M. Scott and Mar´ıa Jos´e de la Fuente (2009): Second language acquisition and language pedagogy. Clevedon, UK: Multilingual Matters.

3. Yusupovich, A. M. (2025). An in-depth analysis of zamakshariy's "al-kashshof" commentary. modern problems in education and their scientific solutions, 1(4), 165-167.

4. Yusupovich, A. M. (2025). Mavjudlik mohiyati: Az-Zamaxshariyning ontologik nazorati. zamonaviy ta'lim tizimi va innovatsion o'qitish yechimlari, 1 (5), 83-85.

5. Aytbayev, M. (2024). Mahmud Zamaxshariyning borliq haqidagi qarashlari. O'zMU yangiliklari, 1 (1,9), 44-46.

6. Aytbayev, M. (2024). Mahmud Zamaxshariyning "Atvoq uz-zahab" asarida falsafiy-axloqiy masalalar yechimi. Tamaddun Nuri jurnali, 7(58), 198-202.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ruzimatov Islomjon Erkuziyevich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrasi
katta-o‘qituvchisi p.f.b.f.d (PhD)
e-mail: ruzimatov_islamjon@gmail.com

YENGIL ATLETIKADA ULOQTIRUVCHI SPORTCHILARNI TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ULOQTIRUVCHI JIXOJLARDAN FAYDALANISHNI SAMARALI JIHATLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ulotiruvchilarning musobaqa faoliyatini ilmiy o‘rganishning zarurati va ahamiyati, mashg‘ulot jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan ustuvor ko‘rsatkichlar hamda uloqtiruvchilar musobaqa faoliyatini modellashtirish muammolariga katta ahamiyat qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Uloqtirish, texnika, taktika, mashg‘ulot, jsmoniy mashq, tezlik, kuch, chidamlilik, takomillashuv.*

Рузиматов Исламджон Эркузиевич
Кафедра физической культуры Кокандского государственного педагогического института старший преподаватель п.ф.б.ф.д (PhD)
e-mail: ruzimatov_islamjon@gmail.com

ЭФФЕКТИВНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЕДИНИТЕЛЬНОГО ОБОРУДОВАНИЯ В РАЗВИТИИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТЕХНИКИ СПОРТСМЕНОВ В ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКЕ

Аннотация. *В данной статье большое внимание уделяется необходимости и значению научного изучения соревновательной деятельности метателей, приоритетным показателям, которые можно применять в тренировочном процессе, а также проблемам моделирования соревновательной деятельности метателей.*

Ключевые слова: *Бросок, техника, тактика, тренировка, физические упражнения, скорость, сила, выносливость, совершенствование.*

Ruzimatov Islamjon Erkuziyevich
Kokand State Pedagogical Institute Department of Physical Culture
senior lecturer p.f.b.f.d (PhD)
e-mail: ruzimatov_islamjon@gmail.com

EFFECTIVE ASPECTS OF USING CONNECTING EQUIPMENT IN DEVELOPING THE TECHNIQUE OF ATHLETES AND IMPROVING THEIR TECHNIQUE IN ATHLETICS

Annotation. *This article focuses on the necessity and importance of scientifically studying the competitive activity of throwers, priority indicators that can be applied in the training process, and the problems of modeling the competitive activity of throwers.*

Keywords: *Throwing, technique, tactics, training, physical exercise, speed, strength, endurance, improvement.*

Dolzarbligi.

Uloqtirish texnikasini takomillashtirish bo‘yicha ixtisoslashgan mashqlarni qo‘llashning maqbul tartibini ishlab chiqish, bosqon uloqtiruvchilarning jismoniy tayyorgarlik holatini doimiy ushlab turishi uchun o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlarda yuklamalar hajmini maqsadga muvofiq rejalashtirish, qo‘llaniladigan vosita-usullarning nisbatlari oid ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Shunday qilib, o‘rganilgan maxsus adabiyotlarda uloqtirish bo‘yicha mashg‘ulot jarayonlarini rejalashtirish va bosqon uloqtirishga o‘rgatish bosqichlari, o‘quv-mashg‘ulotlarining tarkibi va mazmuni, uloqtirish ko‘nikmalarini shakllantirish va mashg‘ulotlar vaqtini tayyorgarlik davrlari bo‘yicha taqsimlash, uloqtirish texnikasini shakllantirishning samarali vositalari va usullarini tanlash, uloqtiruvchilarning texnik va jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar yetarli emasligi tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi sport takomillashuv bosqichidagi uloqtiruvchilarning yillik tayyorgarlik siklida uloqtirish texnikasini oshirishga qaratilgan “Uloqtirish UQ” elektron uskunasi samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi sport takomillashuv va quyi bosqichidagi uloqtiruvchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish uchun yakuniy kuch berish harakat texnikasini takomillashtirishga qaratilgan maxsus “Uloqtirish UQ” uskunasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg‘ona viloyati Dang‘ara sport maktabi uloqtiruvchilarning o‘quv-mashg‘ulotlari jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini uloqtirishda sport natijalarini oshirish uchun uloqtiruvchi sportchilar mushaklar kuchini rivojlantirish maqsadida majmuaviy tanlangan vositalarni saralab olish hamda qo‘llashdan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Olingan natijalarni ishonchliligi nazariy metodologik baza, ilmiy tadqiqot apparatinig tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti va vazifalariga mosligi, zamonaviy metodlardan to‘g‘ri foydalanilganligi, tasdiqlovchi va shakllantiruvchi natijalarning maqsadli amalga oshirilganligi, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar, matematik-statistika metodlaridan to‘g‘ri foydalanganlik ko‘rsatkichlari, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Hozirda zamonaviy sportda sportchilar tayyorlash tizimi murakkab, ko‘p omilli hodisa bo‘lib, maqsad, vazifalar, vositalar, metodlar tashkiliy shakllar, moddiy texnik shart sharoitlarni va hakozolarni o‘z ichiga oladi. Sportchilar tayyorlashning tashkiliy–pedagogik jarayonini hamda eng yuqori sport natijalariga erishishni ta’minlaydi. Sport mashg‘ulotlarining eng muhim vazifasi va ajralib turuvchi xususiyati–bu insonning harakat qobiliyatlarini oshirish va takomillashtirishdan iborat. Jismoniy mashqlar sportda takomillashning asosiy vositasi hisoblanadi. Sport mashg‘ulotlarida jismoniy mashqning bajarilishi mushak faoliyati bilan bog‘liq va shu tariqa fiziologik funksiyalarning qayta tuzilishiga, ishchi organda neorfologik va biokimyoviy o‘zgarishlarga olib keladi. Bu o‘zgarishlar turli xil va ko‘p qamrovli bo‘lib, biroq ularning ichida umumiy moslashish tamoyillari yotadi.

Shunga qaramay sport amaliyotning ko‘rsatishicha tayyorgarlikning turli tomonlari umuman xilma–xil uyg‘unlashtirilganda rekord natijaga erishish mumkin. Bitta maqsadning o‘ziga har xil yo‘llar bilan va turli xil vositalar yordamida erishish mumkin. Boshqacha aytganda sportchi individual xususiyatlari bilan aniqlanadi. Shu bilan birga tayyorgarlikning individual o‘zgaruvchanligi sport takomillashuvi jarayonini tuzishning umumiy qonuniyatlari chegarasidan chiqishi mumkin emas. Hozirgi paytda yengil atletikaning uloqtirish turlarida sport mashg‘uloti ma’lum bir standartlashtirilgan harakat amalining shakllantirilishi, ya‘ni avtomatlashtirilgan malakalarini hosil qilish bilan chegaralanadi. Shu sababli bu jarayon samaradorligini oshirish muammosini hal qilishda birinchi navbatda uloqtiruvchilarning harakat tayyorgarligini takomillashtirish masalalarini qamrab olishi zarur. U o‘z navbatida harakat qobiliyatlari va sport mahoratini hamda morfofunksional ixtisoslashuvining shakllanishi jarayoniga xos bo‘lgan qonuniyatlar bo‘yicha ularni rivojlantirish orqali ochib beriladi.

Texnik tayyorgarlik jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan aniqlanadi, ular orasida kuch, tezkorlik, chaqqonlik ustuvor ahamiyatga ega. Bu sifatlarning maxsus harakat malakasida ro‘yobga chiqarilishi texnik tayyorgarlik bilan ta’minlanadi. Sportchilar tayyorlash metodikasi o‘zgaruvchanligi bilan ifodalanadi. U sport mashg‘uloti tamoyillariga muvofiq doimo takomillashib boradi. Uning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini ajratish mumkin. Birinchi galda bu mashg‘ulot ishi umumiy hajmlarini keskin o‘sishi bilan ifodalanadi. Shu bilan birga mashg‘ulot yuklamalarini hajmlarini oddiygina oshirib borish ularning mashqlantirish uchun turli yo‘nalishdagi mashg‘ulot ishining samarali nisbatlarini izlab topish, shuningdek mashg‘ulotni tashkil qilishning yangi shakllarini o‘ylab topish zarur.

Yengil aletikaning uloqtirish turlarida boshlang‘ich sport ixtisolashuvi bosqichi 13 yoshdan boshlanadi. Bu bosqichda asosiy vazifalar salomatlikni mustahkamlash o‘smirlarning har tomonlama jismoniy rivojlantirish yengil atletika mashqlari texnikasi asoslarini egallash hisoblanadi. Bu bosqichda bo‘lajak yutuqlar poydevori quriladi. Funktsional imkoniyatlar darajasi oshiriladi, turli xil ko‘nikma va malakalarini boy zaxirasi yaratiladi. Ko‘pkurash tayyorgarligini o‘tkazish asosida tanlangan sport turida ixtisoslashgan asta–sekin o‘tishi uchun shart–sharoitlar yaratiladi, sport mahorati asoslari shakllantiriladi. Chuqurlashtirilgan mashg‘ulot bosqichi 16-17 yoshda ya’ni katta maktab yoshida boshlanadi. Ushbu tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulot jarayoni tanlangan yengil atletika turida chuqurlashtirilgan ixtisoslashuvi bilan yorqin tus oladi. Maxsus (jismoniy texnik, psixologik) tayyorgarlikning ulushi ancha ortadi. Oldingi bosqichga qaraganda asosiy mashg‘ulot vositalari hajmi va shiddati ancha oshadi. Bu umumiy jismoniy tayyorgarlikdan ko‘ra ko‘proq maxsus tayyorgarlik va musobaqa mashqlari soni ortishi hisobiga yuz beradi. Tanlangan yengil atletika turida musobaqa amaliyoti muhim darajada ko‘payadi va uning mashg‘ulot mazmuni hamda tuzilmasiga ta’siri ko‘rsatadi. har qanday vaziyatda u yoki bu malakaviy guruhga xos bo‘lgan ko‘rsatchiklar chegarasida sportchining individual imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish vazifasi muhim ahamiyatini saqlab qoladi.

Umumiy va maxsus tayyorgarlikning birligi to‘g‘risidagi fundamental qoidalardan biri yoshlar sportida birinchi navbatda ko‘p yillik tayyorgarlikning har bir

bosqichlarida ular proporsiyasining (nisbatining) zarur darajasiga rioya etishda o‘z aksini topadi.

Texnikani rivojlanishida asosiy jismoniy sifatlarning bir – biriga mos ravishda rivojlantirilishi, ya‘ni uni ko‘p yillik mashg‘ulotning har bir bosqichida yosh sportchilarda jismoniy sifatlar rivojlanishining optimal nisbatlarini ta’minlashbi taqazo etadi. Sportchining jismoniy tayyorgarligi natijasida texnik tayyorgarlik takomillshadi. Bir tomondan o‘rgatish va ikkinchi tomondan jismoniy sifatlarni rivojlantirish orasida yaqindan uzviy bog‘liqlik bor. Ko‘pgina yillar davomida uloqtirishlar texnikasi trenerlar va sportchilarning katta tajribasi asosida takomillashib boradi. Ayniqsa sport natijalarida katta o‘sish yuzaga kelganda ilmiy –tadqiqotlarga bo‘lgan zarurat oshdi. Shu boisdan uloqtiruvchilarni texnik tayyorgarlik darjasjini oshirish va takomillashtirish maqsadida U.Uloqtiruvchi qurilmadan foydalanish ijobiy natija beradi.

Qo‘llaniladigan mashg‘ulot vositalari orasida ma’lum bir bog‘liqlik bor. U sport natijalarining o‘sishiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Qo‘llaniladigan vositalarni optimal uyg‘unlashtirish muammosining hal etilishi kuchli bosqon uloqtiruvchilarni sport mahoratini yanada oshirish ishida katta zahira hisoblanadi.

Bosqon uloqtirishda portlovchi kuch qisqa vaqt ichida sodir bo‘ladigan qobiliyatidir. Uloqtirishda harakatlar koordinatsiyasining o‘ziga xos elementlaridan tashkil topgan. Shuning uchun uloqtirishda portlovchan kuchni maqsadli rivojlantirish, birinchi navbatda kuch qobiliyatlari va ulardan musobaqa mashqida foydalana olish ko‘nikmasini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Uloqtiruvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini olib borilgan dastlabki tadqiqot natijalari quyidagi xolatda berib o‘tldi.

Uloqtiruvchilarda dastlabki o‘tkazilgan tadqiqot natijalar

1-jadval

T/r	Sportchilarning F.I.Sh	30 m ga yugurish natijasi. (sek.)	Turgan joydan uzunlikka sakrash. (m.)	Uch hatlab sakrash. (m.)	Ikkala qo‘lda oldinga yadroni uloqtirish. (5 kg), (m.)	Ikkala qo‘lda bosh ortidan orqaga yadroni uloqtirish. (5 kg.), (m.)	Shtangani dast ko‘tarishda. (kg.)
1	D-ov H	4,6	177	11,35	11,14	9,15	58
2	S-ov B	4,2	185	12,25	11,09	8,25	55
3	A-ov J	5,1	172	9,15	8,96	7,38	45
4	R-ov I	4,2	179	11,65	10,71	7,42	59
5	V-ov O	4,4	186	12,11	11,94	7,31	64
6	M-ov X	4,7	229	11,91	10,54	7,83	58
7	D-ov N	4,6	174	12,17	10,96	6,13	44
8	G-ov S	5,8	244	9,64	8,96	6,02	43
9	X-ov Z	4,6	241	9,13	8,76	6,11	48
10	B-ov-X	5,6	171	9,65	10,36	7,36	59
11	N-ov S	5,7	217	9,28	8,95	6,04	56
12	A-ov V	5,9	209	9,12	8,68	6,07	44
X		4,95	198,67	10,62	10,09	7,09	52,75
Σ		0,64	27,80	1,59	1,31	1,06	7,36
V, %		12,91	13,99	14,98	12,99	14,95	13,96

Uloqtiruvchilarda texnik tayyorgarlik darajasini darajasini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar va uloqtiruvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari–jismoniy sifatlar, harakat ko‘nikmalari va organizmning funksional imkoniyatlarini bosqon uloqtirish yoki boshqa tanlangan sport turi bo‘yicha yutuqlarni o‘stirishga yo‘naltirib takomillashtirish va yanada rivojlantirish demakdir. Maxsus tayyorlovchi mashqlarni ikki katta guruhga bo‘lish mumkin: maxsus jismoniy sifatlar tezkorlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar; texnikaga o‘rgatish va texnik mahoratni rivojlantirishga yordam beradigan yaqinlashtiruvchi mashqlardan iborat. Bularni mashg‘ulot jarayonida qo‘llash ijbiy natija beradi. Bu mashqlar quyidagilardan iborat:

1.Shtangani ikki qo‘llab ushlash, o‘ng oyoq oldinda. Chap oyoq bilan oldinga bir qadam tashlab, shtanga yuqoriga-orqaga tez ko‘tariladi. Boshning oldinga harakatlanishi va umurtqaning ko‘krak qismida orqaga egilishini kuzatib borish kerak. Shtangani ko‘krakka tushirib, chap oyoq bilan orqaga qadam tashlanadi.

2. Shtangani yelkaga olgan holatdan o‘tirib turish.

3.Shtangani ko‘tarish. Oyoqlar yelka kengligida, shtanga rostlangan qo‘llarda pastga tushirilgan. Oyoqlar, gavda va rostlangan qo‘llar harakati bilan shtanga bosh uzra ko‘tariladi.

4.Cho‘nqayib o‘tirmasdan, shtangani ko‘krakka ko‘tarish.

5.Chap oyoq oldinga chiqarilgan holatdan shtangani ko‘tarish.

6.Panja bilan tennis koptogi, rezina halqa va shu kabilarni siqish.

7.Og‘irlashtirilgan jihozni qo‘l panjasi bilan oldinga orqaga aylantirish.

8.Bolta bilan “o‘tin yorish”. Uloqtiruvchilar, yuqorida sanab o‘tilgan mashqlardan mashg‘ulot jarayonida foydalanishdi.

Yengil atletikaning uloqtirish mashqlari texnikasiga oid asosiy harakat malaka va ko‘nikmalarini hamda maxsus tayyorgarlik mashqlari texnikasini egallash. Shug‘ullanuvchilarning ko‘nikmalarni mustahkam o‘zlashtirish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish va musobaqada natijaga erishishdan iborat.

Mashg‘ulot jarayonida uloqtiruvcilar texnikasini rivojlantirish va takomillashtirish muhim hisoblanib, sport mashg‘uloti va musobaqalarida muhim asosiy o‘rinni egallaydi. Shu maqsadda, biz bosqon uloqtiruvchi sportchilar texnikasini takomillashtirish uchun maxsus uloqtiruvchi trenajor ishlab chiqdik va amaliyotda foydalandik. Bu trenajorning asosiy vazifasi uloqtirish mashg‘ulotida sportchilarni yakuniy kuch berish texnikasini, bosqonni uchish burchagini, dam olish vaqtini tejaydi. Shu birga mashgulotni zichligini oshiradi. Sportchilar bo‘sh

vaqtini kamaytiradi va uloqtirish texnikasini takomillashtiradi. Uloqtiruchilar tross arqondagi maxsus o‘tkazilgan halqa orqali uloqtirish mashg‘ulotida turli og‘irlikdagi va turli toifadagi sportchilar uloqtirish texnikasi takomillashtirishda foydalanishdi. Qurilmadan maxsus halqaga 4 kg. dan tortib 7.260 kg bosqonni va yadroni mahkamlab, uloqtirish mashg‘ulotida foydalanishdi.

Uloqtirish uchun “Uloqtirish UQ”ning afzalligi.

1. O‘tkaziladigan uloqtirish mashg‘uloti uchun xafsiz.

2. Mashg‘ulot jarayonida bosqonni uloqtirish uchun ketadigan vaqti qisqaradi va mashg‘ulot samaradorligi oshadi.

3. Mashg‘ulot jarayonida uloqtiruvchi sportchilarni barchasi vazifa bilan band bo‘ladi. (odatdagidan Motor zichligi ortadi)

4. Sportchi jismoniy holatiga qarab o‘zi hoxlagan kg.dagi bosqon bilan mashg‘ulot olib boradi.

5. Sportchi o‘quvchi trenajyordan o‘ziga mos va qulay holda texnikani takomillashtirishda foydalanadi.

6. Mashg‘ulot jarayonida uliqtirishlar soni ko‘payadi.

7. Uloqtirish sektorida takrorlash soni ko‘payish natijasida murabbiy texnik kamchiliklarni ko‘rish va to‘g‘rlash imkoniyati ortadi.

8. Bir vaqtning o‘zida chap tomonlama va o‘ng tomonlama uloqtiruvchi sportchilar mashg‘ulot olib borishlari mumkin.

9. Bosqonni uchib chiqish tezligi uchish burchagi takomillashtiriladi.

10.Yakuniy kuch berish mashqlari uloqtiruvchida qanday holatda bajarilishini tahlil qilish imkoniyati ortadi.

11. Bosqonni uloqtirish vaqtida oyoq, yelka va qo‘lning dastlabki xolati nazorat qilinadi.

12. Aylana yoki zanjir shaklidagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun yaxshi imkoniyat paydo bo‘ladi.

Uloqtiruvchi qurilmadan bosqon uloqtiruvchilar mashg‘ulot jarayonida foydalanish usulini jadvali.

2-jadval

T/n	Mashg‘ulotni tayyorlov qismida	Xafta	Kun	Snaryad og‘irligi	Foydalanish vaqti	Takrorlash soni	Dam olish
1	Oktabr	2x4 =8 marta	2 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa.	5x2marta =10 marta	1min.
2	Noyabr	2 x 4 =8 marta	2 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa	5x2marta =10 marta	1min.
3	Dekabr	3x4 =12 marta	3 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa	5x2marta =10 marta	1min.
4	Yanvar	3x4 =12 marta	3 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa.	6x2marta =8 marta	1min.
5	Fevral	3x4 =12 marta	3 kun	3-4-7.250 gr	40-50 daqiqa	6x2marta =12 marta	1min.
6	Mart	2x4 =8 marta	2 kun	3-4-7.250 gr	30-40 daqiqa	5x2marta =10 marta	1min.
7	Aprel	2x4 =8 marta	2 kun	3-4-7.250 gr	30-40 daqiqa	5x2marta =10 marta	1min.

Uloqtiruvchi qurulmadan sport takomillashuv guruxidagi va quyi bosqichdagi guruh sportchilari esa bu qurulmadan texnikani o‘zlashtirishiga qarb mashg‘ulotni turli qismlarida murabbiy nazoratida foydalanishdi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha amaliy uloqitirish harakat texnikalari uloqtirish texnikasini rivojlantirda va takomillashtirdi. Bu esa sportchilar da mashg‘ulotda va musobaqada uloqtirish imkoniyatini oshirdi.

Uloqtiruvchilarning texnikasini takomillshtirishda yelka va bel, oyoq mushaklari maxsus kuch tayyorgarligini bo‘g‘inlariga va bo‘g‘inlararo tuzilmasi, uloqtirishda ularning oqilona va samarali o‘zaro harakatlarni aks ettira turib, sport natijasi o‘sishining muhim omili hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, sport natijasi oyoqlarni bukuvchi va yozuvchi mushaklarning faqat umumiy kuch imkoniyatlari rivojlandi.

Uloqtirucvhi sportchilarining tadqiqot boshi va tadqiqot oxiridagi jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

3-jadval

T/r	Sportchilarning F.I.Sh	30 m ga yugurish natijasi, s		Turgan joydan uzunlikka sakrash, m		Uch hatlab sakrash, m		Ikkala qo‘lda oldinga yadroni uloqtirish (5 kg), m		Ikkala qo‘lda bosh ortidan orqaga yadroni uloqtirish (5 kg), m		Shtangani dast ko‘tarishda, kg	
		TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO
1	D-ov H	4,6	3,9	177	225	11,3	14,1	11,1	13,1	9,15	10,97	58	68
2	S-ov B	4,2	3,5	185	286	12,2	14,9	11,1	12,9	8,25	10,13	55	65
3	A-ov J	5,1	4,3	172	219	9,1	12,9	8,9	11,3	7,38	9,14	45	56
4	R-ov I	4,2	3,5	179	225	11,6	14,7	10,7	12,8	7,42	9,37	59	69
5	V-ov O	4,4	3,7	186	239	12,1	14,8	11,9	13,9	7,31	9,16	64	74
6	M-ov X	4,7	3,9	229	294	11,9	14,9	10,5	12,7	7,83	9,73	58	68
7	D-ov N	4,6	3,8	174	223	12,1	14,7	10,9	13,3	6,13	7,98	44	55
8	G-ov S	5,8	4,6	244	298	9,6	12,3	8,96	11,3	6,02	7,84	43	54
9	X-ov Z	4,6	3,9	241	292	9,13	11,6	8,76	11,7	6,11	8,09	48	58
10	B-ov-X	5,6	4,3	171	222	9,65	12,6	10,3	12,8	7,36	9,17	59	69
11	N-ov S	5,7	5,1	217	286	9,28	11,8	8,95	11,5	6,04	7,86	56	66
12	A-ov V	5,9	4,6	209	277	9,12	11,7	8,68	11,2	6,07	8,15	44	55
$\overline{X}$		4,95	4,09	198,6	257,17	10,6	13,5	10,1	12,4	7,09	8,97	52,7	63,1
σ		0,64	0,49	27,80	33,78	1,59	1,90	1,31	1,50	1,06	1,27	7,36	8,29
V, %		12,91	12,04	13,99	13,14	14,98	14,12	12,99	12,11	14,95	14,11	13,96	13,14

Xulosa.

O‘tkazilgan pedagogik tajriba asosida olingan natijalardan quyidagi xulosaga kelish mumkin. Birinchidan uloqtiruvchilar mashg‘ulotida maxsus kuch tayyorgarligini rivojlantirish uchun tadqiqotlarimiz davomida ishlab chiqilgan, majmuaviy tanlangan vositalarning maqsadli qo‘llanilishi bukuvchi va yozuvchi mushaklarning maqsadli kuch ko‘rsatkichlarining yuqori o‘sishini son va boldir va kaft biodinamik bo‘g‘inlari darajasida ularning oqilona nisbatlarini ta’minlaydi.

Ikkinchidan ko‘p yillik siklning boshlang‘ich bosqichida yosh uloqtiruvchilar mashg‘ulotda majmuaviy tanlangan mashqlarning qo‘llanilishi o‘zini oqladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va tajriba sinovdan o‘tkazilgan yosh bosqon uloqtiruvchilarda majmuaviy-tanlangan mashqlarni tabaqalashtirgan holda qo‘llashga asoslangan innovatsion metodika oyoqlarning bo‘g‘inlariga va bo‘g‘inlarlararo darajasida bukuvchi hamda yozuvchi mushaklarning maxsus kuchi maqsadli rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quv mashg‘ulot jarayoni mazmuni va uni tashkil etishning yangi yaxlit hamda yanada samaraliroq shakli hisoblanadi.

Bu ixtisoslashtirilgan mashqda sport natijasining yanada tezroq o‘sishini ta’minlaydi. Bu esa musobaqa jarayonida yuqori natijalrni ko‘rsatishga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-114-sonli “Ma’muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

4. Abdullayev M.J., Olimov M.S., To‘xtaboyev N.T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi / darslik. Barkamol

fayz media nashriyoti. T: 2017. – 628 b.

5. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., To‘xtaboyev N.T., Rafiyev H.T., Kolobov V.A. va boshqalar. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari “Yengil atletika” // Darslik. T.: 2018. - 376 b.

6. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., To‘xtaboyev N.T., Rafiyev H.T., Smurigina L.V., Kolobov V.A. va boshqalar. Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati // Darslik. T.: 2018. - 872 b.

7. Olimov M.S., Soliyev I.R., Xaydarov B.Sh. “Sport pedagogik mahoratini oshirish”.–T.: 2017. - 320 b.

8. Qudratov R.Q. Yengil atletika // darslik. Noshir nashriyoti. – T.: 2012. -367 b.

9. Qudratov R.Q., G‘aniboyev I.D., Soliyev I.R., Baratov A.M. Yengil atletikachilarning maxsus mashqlari / uslubiy qo‘llanma. O‘zDJTI nashriyoti. T.: 2011. - 64 b.

10. Qurbonov N., Abdiyev Sh., Ruzamuxamedov K.F., G‘aniboyev I.D. Yengil atletika. o‘quv qo‘llanma. ITA-Press. – T.: 2017. - 140 b.

11. Rafiyev H.T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. o‘quv qo‘llanma. T.: 2014. - 432 b.

12. I.E.Ruzimatov. “Sport takomillashuv bosqichida bosqon uloqtiruvchilarni texnik tayyorgarlik samaradorligini oshirish” Dissertasiya. Chirchiq 2024 y.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Isakulova Nilufar Janikulovna
O‘zDJTU professori, pedagogika fanlari doktori, professor

INKLYUZIYADA TA’LIMNING UNIVERSAL DIZAYNINING ASOSIY TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziyada ta’limning universal dizaynining asosiy tamoyillaridan foydalanishi yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning farqliliklarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini kengaytirish, o‘qish va o‘rganish imkoniyatlarini barcha uchun teng taqdim etishga yordam berishi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, ta’limning universal dizayni, ta’limning universal dizayni tamoyili, o‘quvchilarni rag‘batlantirish tamoyili, ma’lumotlarni taqdim etishning turli usullari, o‘quvchilarni o‘rganishga moslashtirish tamoyili.*

Исакулова Лилия Яникуловна,
Профессор УзГУМЯ,
доктор педагогических наук, профессор

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ УНИВЕРСАЛЬНОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИИ

Аннотация: *В данной статье раскрывается использование основных принципов универсального дизайна обучения в инклюзивном образовании. Также подчёркивается значение расширения учебного процесса с учётом различий между учащимися и обеспечения равных возможностей для обучения и познания для всех.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, универсальный дизайн обучения, принципы универсального дизайна, принцип поощрения учащихся, различные способы представления информации, принцип адаптации учащихся к обучению.*

Isakulova Nilufar Janikulovna,
UzSUWL professor,
doctor of Pedagogical Sciences, professor

BASIC PRINCIPLES OF UNIVERSAL DESIGN OF EDUCATION IN INCLUSION

Abstract: *This article highlights the use of the main principles of Universal Design for Learning (UDL) in inclusive education. It emphasizes the importance of expanding the learning process by considering student diversity and ensuring equal opportunities for learning and engagement for all learners.*

Keywords: *inclusive education, universal design for learning, principles of universal design, principle of student engagement, multiple means of representation, principle of learner adaptability.*

Kirish.

Ta'limning universal dizayni (Universal Design for Learning, UDL) – bu ta'limni barcha o‘quvchilarga, shu jumladan, turli ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘rganish uslublariga ega bo‘lgan bolalarga moslashtirishga qaratilgan yondashuvdir. U o‘quvchilarning farqliliklarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini kengaytirish, o‘qish va o‘rganish imkoniyatlarini barcha uchun teng taqdim etishga yordam beradi.

Tadqiqot usullari.

Ta'limning universal dizayni uchta asosiy tamoyilga asoslanadi. Bu tamoyillar o‘quvchilarning o‘rganish ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlar va metodlarni taqdim etadi:

O‘quvchilarni rag‘batlantirish (Providing Multiple Means of Engagement). Bu tamoyil o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilarni o‘qish va o‘rganishga jalb qilish uchun turli xil metodlar, resurslar va faoliyatlardan foydalanish kerak. Misol uchun:

o‘quvchilarning qiziqishlarini, ehtiyojlarini va maqsadlarini inobatga olgan holda ta'lim materiallarini moslashtirish;

o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish uchun turli xil o‘yinlar, guruh ishlari yoki kreativ faoliyatlardan foydalanish;

stress va noaniqlikdan saqlanish uchun o‘quvchilarga erkinlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash taqdim etish.

Ma'lumotlarni taqdim etishning turli usullari (Providing Multiple Means of Representation). Bu tamoyil o‘quvchilarga ma'lumotlarni turli shakllarda taqdim etish orqali ularning tushunishini osonlashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar har xil uslubda o‘rganadilar, shuning uchun ma'lumotlarni bir necha turdagi shakllarda taqdim etish zarur. Misollar:

matn, tasvirlar, grafikalar, videolar va audiolar orqali ma'lumotlarni taqdim etish;

o‘quvchilarga interaktiv materiallar yoki elektron vositalar yordamida o‘qish va izlanish imkoniyatlarini berish;

ma'lumotlarning turli xil kontekstlarda, misollarda va amaliy misollarda taqdim etilishi.

O‘quvchilarni o‘rganishga moslashtirish (Providing Multiple Means of Action and Expression). Bu tamoyil o‘quvchilarga o‘z o‘rganishlarini qanday ifodalashlarini tanlash imkoniyatini beradi. O‘quvchilarni o‘zlarini ifodalash uslublarini tanlashga rag‘batlantirish, shuningdek, ularni rivojlantirishga yordam berish uchun qo‘llab-quvvatlash kerak. Misollar:

o‘quvchilarga o‘z bilimlarini turli shakllarda (masalan, yozma, og‘zaki, vizual) ifodalash imkoniyatini berish;

o‘quvchilarga texnologiyalar yordamida o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatini yaratish, masalan, interaktiv dasturlar yoki audio va video yozuvlari;

o‘quvchilarga o‘zlarining o‘rganish jarayonini boshqarish, vaqtni rejalashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini berish.

Tadqiqot natijalari.

Ta'limning universal dizaynining afzalliklari quyidagilardan iborat:

Barchaga moslashuvchan ta'lim. UDL tizimi barcha o‘quvchilarni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini rejalashtirishga imkon beradi. Bu, o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim resurslarini ishlab chiqishni ta'minlaydi.

1. ***O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish.*** O‘quvchilarni rag‘batlantirish uchun qiziqarli va turli xil faoliyatlar, vazifalar va metodlar taqdim etiladi. Bu o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

2. ***Individual yondashuv.*** UDL tizimi o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘rganish uslublariga moslashishga yordam beradi. Bu ta'limni har bir o‘quvchiga moslashtirishga imkon beradi va har bir o‘quvchining muvaffaqiyatga erishishini ta'minlaydi.

3. ***Tezkor baholash va qo‘llab-quvvatlash.*** O‘quvchilarga o‘z o‘qishlarini qanday amalga oshirishlari va ifodalashlarini tanlash imkoniyati beriladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarini oshiradi va samarali baholashni ta'minlaydi.

4. ***Yuqori darajadagi ijtimoiy va madaniy moslashuv.*** UDL o‘quvchilarga bir-birlarini tushunish, turli ijtimoiy va madaniy jihatlarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim jarayonida farqliliklarni hurmat qilish va ijtimoiy o‘zaro aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'limning universal dizaynining amaliy qo‘llanilishi quyidagicha bo‘ladi:

1. ***Resurslarni moslashtirish.*** UDLning birinchi qadamlaridan biri – bu o‘quv materiallarini va resurslarini moslashtirishdir. Masalan, ba'zi o‘quvchilarga audiovizual materiallar, boshqalarga esa matnli yoki interaktiv materiallar taqdim etiladi.

2. ***Baholashning moslashuvi.*** O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda UDL turli xil baholash metodlarini qo‘llaydi. Bu o‘quvchining yondashuviga qarab, testlar, og‘zaki imtihonlar, loyihalar yoki amaliy ishlar bo‘lishi mumkin.

3. ***Texnologiyalardan foydalanish.*** Ta'limning universal dizayni texnologiyalardan keng foydalanishni o‘z ichiga oladi. Masalan, maxsus ehtiyojlarga ega o‘quvchilar uchun dasturiy ta'minot, o‘quvchilarni o‘rganishga rag‘batlantirish uchun mobil ilovalar va interaktiv materiallardan foydalanish mumkin.

4. ***Moslashtirilgan o‘quv muhitlari yaratish.*** O‘qituvchilar o‘quv muhitini o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish uchun dizayn va o‘quv jarayonini sozlashadi. Bu o‘quvchilarning diqqatini saqlashga, o‘quv jarayonini samarali o‘tkazishga yordam beradi.

Ta'limning universal dizayni (UDL) – bu o‘quvchilarning har xil ehtiyojlarini va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'limni barcha uchun moslashtirishga qaratilgan yondashuvdir. U ta'limni optimallashtirish va barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida turli xil metodlarni va resurslarni birlashtiradi. Bu tizim o‘quvchilarning individual farqlarini hurmat qiladi va ularning o‘qish va o‘rganish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim, ya’ni umumta’lim maktablarida sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikdagi ta’limi ta’minlansa xalqaro inson huquqlari me’yorlariga mos bo‘ladi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limga bosqichma-bosqich o'tishga tayyorgarlik ko'rish maqsadida UNICEF ekspertlari ishtirokida ta’limning universal dizaynini yaratish, uning asosiy tamoyillarini tushuntirish, TUD – ta’limning universal dizaynini differensial ta’limdan farqlay olish maqsadida fanlar kesimida seminar-treninglar o‘tkazildi.

Xo‘sh, ta’limning universal dizayni o‘zi nima? UNICEF bu haqida qanday yangi ma’lumotlar berdi? TUD – har xil o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan, barcha o‘quvchilarga moslashuvchan yondashuvlar, ta’limdan kutilayotgan natijalar va ularga

erishish vositalarini farqlash orqali ta’lim olish uchun teng imkoniyatlarini beradigan, puxta o‘ylangan o‘quv tizimi

TUD faqatgina "o'rtacha" yoki "qoloq" o'quvchilar uchun emas, har bir o'quvchi uchun mo'ljallangan, maqsadli va rejalashtirilgan. O'quvchilar orasida xilma-xillilik kutiladigan va avvaldan unga tayyorgarlik ko'riladigan, o'quv dasturlari yoki darslarni tuzishda ularning ehtiyojlari hisobga olinadigan ta'lim shaklidir. Bu faoliyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi [2] (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Ta’limning universal dizayni

O‘quvchilar	Natijalar	Faoliyat	Baholash
Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilar mavzu haqida nimalarni bilishlari kerakligini aniqlashi; O‘quvchilarning motivatsiyasi, rivojlanishi, kognitiv va jismoniy qobiliyatlari to‘g‘risida xabardor bo‘lishlari kerak	Dars oxirida o‘quvchilar qanday bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerakligini aniq belgilash; Kutilayotgan natijalarni: bilim, ko‘nikmalarni ifodalovchi oddiy va aniq harakat fe’llarini qo‘llash; O‘lchanadigan ta’limiy natijalarini qayd etish zarur	Barcha o‘quvchilarga tanlash imkoniyatini beradigan tadbirlarni ishlab chiqish; Barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun bolaga yo‘naltirilgan ta’limdan foydalanish kerak	Baholashning alternativ usullarini ko‘rib chiqish; O‘quvchilar o‘rganganlarini turli yo‘llar bilan ifoda etib berganlarida ularni rag‘batlantirish; Ular o‘zlari uchun qulay bo‘lgan va tushunganlarini yaxshiroq ifoda etishlariga imkon beruvchi muhitni yaratish shart

Ta’limning universal dizayni quyidagilarni ta'minlaydi:

o'quvchilarga o'quv materiallarini taqdim etishning ko'plab va xilma-xil shakllari;

talabalar tomonidan o'rganilgan materialni taqdim etishning ko'p va xilma-xil shakllari;

o'quvchilarni qiziqishlarini, vazifalarning murakkabligi darajasini va motivatsiya usullarini hisobga olgan holda o'quv jarayoniga jalb qilishning ko'plab va xilma-xil shakllari.

Shuningdek, ta’limning universal dizaynining asosiy tamoyillari quyidagilarda o`z ifodasini topgan [2] (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Ta’limning universal dizaynining asosiy tamoyillari

Asosiy tamoyillar	Asosiy tamoyillar mazmuni	Tamoyil xususiyatlari
Idrok variantlarini ishlab chiqish tamoyili	O'rganishdagi to'siqlarni kamaytirish uchun asosiy ma'lumotlar barcha talabalar tomonidan bir xil tarzda qabul qilinishini ta'minlash muhimdir	axborot displeyini sozlashning muqobil usullari eshitish ma'lumotlari uchun muqobil takliflar vizual ma'lumot uchun muqobil takliflar
Til taqdimoti, matematik iboralar va belgilarning ravshanligini ta'minlash tamoyili	Muhim o'quv strategiyasi muqobil vakolatxonalar nafaqat kirish uchun, balki barcha talabalar uchun aniqlik va tushunarli bo'lishini ta'minlashdir	ishlatilgan belgilar, belgilar va so'zlarni tushuntirish; sintaksis va tuzilmani takomillashtirish; matematik yozuvlar va belgilarni tushunishni ta'minlash; turli tillarda tushunishni ta'minlash; multmedia orqali rasm
Tushunish uchun variantlarni taqdim etish tamoyili	Ma'lumotlarning to'g‘ri dizayni va taqdimoti – har qanday o'quv rejasi yoki o'qitish metodologiyasining javobgarligi - barcha o'quvchilarning bilimga ega bo'lishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan bazani ta'minlashi mumkin	asosiy bilimlarni faollashtirish yoki taqdim etish; naqshlarni, barcha asosiy fikrlarni va ularning o'zaro bog‘liqligini ta'kidlash; axborotni qayta ishlash, manipulyatsiya va vizualizatsiya qilish; bilimlarni umumlashtirish va turli vaziyatlarga o'tkazish
Jismoniy harakatlar variantlarini ishlab chiqish tamoyili	To'g‘ri ishlab chiqilgan o'quv materiallari umumiy yordamchi texnologiyalar bilan uzluksiz interfeysni ta'minlaydi, bu orqali harakat buzilishi bo'lgan odamlar navigatsiya qilish va bilganlarini ifoda etishlari mumkin –	javob berish va navigatsiya qilishning turli usullaridan foydalaning; asboblar va yordamchi texnologiyalarga kirishni optimallashtirish

	ovozli faollashtirilgan kalitlar, kengaytirilgan klaviaturalar va boshqalar orqali navigatsiya yoki bitta kalit bilan o'zaro aloqa qilish imkonini beradi	
Ifoda va aloqa imkoniyatlarini taqdim etish tamoyili	Talabalarning o'yin maydonchasi darajasi uchun ham, o'quvchi ta'lim muhitida bilim, g‘oya va tushunchalarni (yoki osonlik bilan) ifodalashi uchun ham muqobil ifoda usullarini taqdim etish muhimdir	aloqa uchun mediadan foydalaning; qurilish va kompozitsiya uchun bir nechta vositalardan foydalaning; amaliyot va ishlashni bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash bilan to'yinganlikni yarating
Ijro funktsiyalari uchun variantlarni taqdim etish tamoyili	UDL doirasi odatda ijro etuvchi salohiyatni ikki yo'l bilan kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni o'z ichiga oladi: quyi darajadagi ko'nikmalarni yaratish orqali ular kamroq ijro etuvchi ishlov berishni talab qiladi; ijro mahorati va strategiyasini yanada samarali va rivojlangan holda yuqori darajaga ko'tarish orqali	maqsadli maqsadlarni aniqlash; rejalashtirish va strategiyani ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash; axborot va resurslarni boshqarishni rivojlantirish; taraqqiyotni kuzatish imkoniyatlarini kengaytirish
Manfaatlarni aniqlash uchun variantlarni ishlab chiqish tamoyili	Shu sababli, o'quvchilarning qiziqishini jalb qilishning muqobil usullari, o'quvchilar o'rtasidagi muhim va ichki - individual farqlarni aks ettiruvchi usullarga ega bo'lish muhimdir	shaxsiy tanlov va avtonomiyani ta'minlash; har qanday stimulni minimallashtirish; talabalarga olingan bilimlarning asosliligi va qiymati to'g‘risida tushuncha berish
Harakat va qat'iyatlilikni saqlash variantlarini ishlab chiqish tamoyili	Shu bilan birga, tashqi muhit boshlang‘ich motivatsiyasi, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatlari va boshqalar bilan ajralib turadigan talabalarni qo'llab-quvvatlash orqali mavjudlikni tenglashtiradigan variantlarni taqdim etishi kerak.	maqsadlar va allaqachon bajarilgan vazifalarni ta'kidlash; ularni amalga oshirish uchun turli xil talablar va resurslarni taqdim etish; hamkorlik va muloqotni rivojlantirish; hunarmandchilikka e'tiborni oshiring
O'z-o'zini boshqarish variantlarini ishlab chiqish tamoyili	Muvaffaqiyatli yondashuv o'z ishtirokini samarali boshqarish va ta'sir o'tkazish uchun juda xilma-xil qobiliyat va tajribaga ega talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun etarli alternativalarni taqdim etishni talab qiladi	motivatsiyani optimallashtiradi-gan tahminlar va e'tiqodlarni targ‘ib qilish; shaxsiy engish qobiliyatlari va strategiyalarini targ‘ib qilish; o'z-o'zini baholash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqish

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziyada ta’limning universal dizaynining asosiy tamoyillaridan foydalanish o‘quvchilarning farqliliklarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini kengaytirish, o‘qish va o‘rganish imkoniyatlarini barcha uchun teng taqdim etishga yordam berishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Tabaqalashtirilgan ta’lim. Elektron resourse: Tabaqalashtirilgan ta’lim - Vikipediya (wikipedia.org)
2. Ta’limning universal dizayni nima? Inklyuziv ta'limga o‘tish shartlari. Elektron resourse: Ta’limning universal dizayni nima? Inklyuziv ta'limga o‘tish shartlari – Telegraph.
3. Основные понятия технологии дифференцированного обучения, его принципы и приемы. основные понятия технологии дифференцированного обучения, его принципы и приемы. | Материал: | Образовательная социальная сеть (nsportal.ru)
4. Пальтова А.Е. Сравнение возможностей дифференцированного и инклюзивного образования на примере обучения слабовидящих. СРАВНЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО И ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ПРИМЕРЕ (present5.com).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ishankulova Komila Kurbanovna
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

TALABALARDA TABIIY RESURSLARIGA E’TIBORLI MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning ekologik madaniyati qanday shakllanishi va tabiiy resurslarga hurmat haqida so‘z boradi. Talabalar orasida ekologik madaniyatni rivojlantirish maqsadida xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda, Evropa mamlakatlari olimlarining ilmiy tadqiqotlari tahlili taqdim etildi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik ta’lim, shaxsning gumanistik yo‘nalishi, ob’ektiv va sub’ektiv.*

Ишанкулова Комила Курбановна
Старший преподаватель Гулистанского государственного университета

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ БЕРЕЖНОГО ОТНОШЕНИЯ УЧАЩИХСЯ К СВОИМ ПРИРОДНЫМ РЕСУРСАМ

Аннотация: *В данной статье рассматривается формирование экологической культуры у студентов и уважительное отношение к природным ресурсам. В целях развития экологической культуры среди студентов представлены научные исследования зарубежных учёных, а также анализ научных трудов учёных европейских стран.*

Ключевые слова: *экологическое образование, гуманистическая направленность личности, объективное и субъективное.*

Ishankulova Komila Kurbanovna
Gulistan State University senior lecturer

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF A ATTENTIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THEIR NATURAL RESOURCES

Abstract: *This article discusses the formation of students’ environmental culture and their respectful attitude toward natural resources. To promote environmental awareness among students, the paper presents scientific research conducted by foreign scholars as well as an analysis of studies by European researchers.*

Keywords: *environmental education, humanistic orientation of personality, objective and subjective.*

Kirish.

Inson va tabiiy dunyo o‘rtasidagi munosabatlar deyarli har qanday adabiy asarda u yoki bu shaklda aks etadi. Shu bilan birga, adabiy asarni badiiy va estetik tahlil qilish jarayonida talabalar rivojlanishining ekologik tomoniga asossiz ravishda kam e’tibor qaratilmoqda.

Inson va tabiat bir-biridan ajralmas va o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Chunki tabiat har bir odam va butun jamiyat uchun zaruriy hayot muhiti va moddiy resurslarniig yakkayu-yagona manbaidir. Tabiat va tabiiy resurslar kishilik jamiyati vujudga keladigan va rivojlanadigan asos, kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondiradigan birinchi manbadir. Tabiat va jamiyat, bir-biri bilan bog‘liq holda bir butunlikni tashkil etadi. Shu sababli, kishilik jamiyatining o‘zi ham, ma’lum ma’noda tabiatning bir qismi bo‘lib, atrofini o‘rab turuvchi tabiiy muhit bilan modda almashinishida muhim rol o‘ynaydi. Odam, ayni vaqtda, ham biologik, ham ijtimoiy hodisadir. Tabiat insonga boshqa tirik organizmlar qatori ta’sir o‘tkazadi. Biroq, insonning tabiatga bo‘lgan ta’siri esa, ongli ta’sir bo‘lib, ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Tabiatdan foydalanishdagi omillar – tabiat boyliklaridan foydalanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan omillar (abiotik, biotik va antropogen) hamdir. Omillar quyidagi uch guruhga bo‘linadi:

tabiat boyliklariga ta’sir ko‘rsatadigan;

ishlab chiqarishga ta’sir (muhit ifloslanishi) ko‘rsatadigan;

tabiatdan foydalanuvchi insonga ta’sir ko‘rsatadigan;.

Ekologik omil – tirik organizmlarni turli joylarda moslashishi amalga oshuvchi muhitning jami tabiiy va

sun'iy sharoitlaridir. Ekologik omillar kelib chiqishi (genezis) bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: koinot, abiotik, biotik, antropogen, biologik va boshqalar.

Insoniyatning ehtiyojlari o'sib, tabiiy resurslardan foydalanish kuchayganidan keyin, tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslarni muhofaza qilish va ulardan to'g'ri foydalanish bosqichi vujudga kelgan. XIX asrning o'rtalaridan boshlab tabiiy resurslar bilan bir qatorda, tabiiy hududiy komplekslar – alohida noyob hududlarni muhofaza qilish bosqichi ajratildi.

Atrof-muhitni hozirgi zamon ekologik muhofazasi bosqichi, insonning tabiatga ta'siri umumsayyoraviy masshtabga yetgan XX asr o'rtalaridan boshlangan.

Tabiiy fanlar (biologiya, kimyo, geografiya, geologiya, fizika, astronomiya, matematika va boshqalar) ekologiya, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bevosita bog'liqdir. Bunga qator misollar keltirish mumkin. Masalan: tabiiy muhit – qator tabiiy fanlarning ilmiy-tadqiqot predmeti hisoblanadi. Barcha ilmiy va ilmiy-texnologik ishlab chiqarishlar tabiiy fanlarning ilmiy, amaliy xulosalariga tayanish kerak [1].

Tabiiy resurslar ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishda asosiy omillardan hisoblanadi. Tabiiy resurslar tushunchasini ta'riflashdan oldin, bu tushunchaning ko'pchilik mualliflar tomonidan turlicha talqin qilishgan. Akademik I.P.Gerasimov bilan professor D.A.Armond tabiiy resurslarga eng to'liq ta'rif berishgan: "Tabiiy resurslar kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo'lgan xilma-xil vositalardir" [2].

Tabiiy resurslar — insonlarning yashash vositasi bo'lib, inson ularni tabiatdan oladi va ularsiz ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshira olmaydi. Tabiiy resurslar insonga oziq-ovqat, kiyim-kechak, yoqilg'i va energetika xom ashyolari berishi sababli, yashash va ishlab chiqarish faoliyatining zaruriy shartidir. Tabiiy resurslarning turi juda xilma-xil bo'lib, ular ijtimoiy ishlab chiqarish moddiy-texnika bazasining tarkibiy qismidir. Tabiiy resurslar kompleksi mineral resurslar, iqlim, suv, yer-tuproq, o'simlik, hayvon resurslari, shuningdek, atom resurslari va planetar hamda kosmik resurslarni o'z ichiga oladi [3].

Resurslar (fransuzcha: *ressource* — yordamchi vosita) — pul mablag'lari, boylik, zaxira, imkoniyatlar;

davlat budjetida daromad manbalari, tabiiy, iqtisodiy, mehnat, valyuta va boshqa resurslar bo'lishi mumkin.

Keng ma'noda — jamiyat hayotida ishlab chiqarishni ta'minlashning vositalari, manbalarini ifodalaydigan iqtisodiy resurslar muqim o'rinda turadi.

Tabiiy resurslarni foydalanish shakllari va yo'nalishlariga qarab, A.A.Mins iqtisodiy jihatdan klassifikatsiyalashni, ya'ni tasnif qilishni ilgari surgan. Bu tasnifga ko'ra tabiiy resurslar moddiy ishlab chiqarishning asosiy soxalarida va ishlab chiqarishdan tashqarida foydalanishiga qarab ikki guruhlarga ajratdi. Ya'ni unga ko'ra tabiiy resruslar:

1. Moddiy ishlab chiqarish resurslari: sanoatda yoqilg'i, metallar, suvlar, yog'och-taxta va qishloq xo'jaligida - suv (sug'orish uchun), baliqlar, ovlanadigan hayvonlar;

2. Ishlab chiqarishdan tashqari soha resurslari: ichimlik suvi, daraxtzorlar, kishilarni davolash uchun iqlim resurslari;

Tabiatdan foydalanish – tabiat va tabiiy resurslar imkoniyatini hisobga olgan holda, ulardan to'g'ri foydalanishining turli shakllari, jamiyatning moddiy va madaniy talablarini qondirish uchun tabiatdan va uning resurslaridan to'g'ri foydalanish kerak.

Tabiiy resurslar insonning ta'sir etish xarakteriga qarab, ikki turga bo'linadi: *tugaydigan* va *tugamaydigan resurslar*.

Tugaydigan resurslar, o'z navbatida, qaytadan tiklanmaydigan va qaytadan tiklanadigan resurslarga bo'linadi.

*Qaytadan tiklanmaydigan tabiiy resurslar*ga yer osti boyliklari (neft, toshko'mir, rudalar va boshqalar) kiradi.

Tiklanmaydigan tabiiy resurslarni muhofaza qilishning asosiy yo'llari - ulardan rejali va ilmiy asosda unumli foydalanish va takror ishlab chiqarishni amalga oshirishdan iborat bo'ladi.

Tiklanadigan tabiiy resurslarga - tuproqlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, ko'llar va dengiz lagunalari tagiga cho'kadigan ba'zi bir mineral tuzlar kiradi. Bu resurslar foydalanish davomida tiklanadi.

Tiklanadigan ba'zi tabiiy resurslar inson ta'siri ostida tiklanmaydigan bo'lib qolishi mumkin. Bunga butunlay yo'q qilib yuborilgan hayvon va o'simlik turlari, eroziya natijasida batamom buzilib ketgan tuproqlar va boshqalar misol bo'la oladi.

Tiklanadigan tabiiy resurslarni muhofaza qilishda eng muhimi ularning tiklanishiga doimiy imkoniyat yaratishdir, mana shundagina bu resurslar insonga amalda cheksiz xizmat qilishi mumkin [4].

Tugamaydigan resurslarga - suv, iqlim va kosmik resurslar kiradi

Suv resurslari. Yer sharida suv uch holatda (suyuq, qattiq, bug' holatida) bo'lib, uning umumiy zahirasi bitmas-tuganmasdir. Afsus-ki, insonning xilma-xil xo'jalik faoliyati tufayli, chuchuk suvning miqdori va sifati Yer sharining turli joylarida har xildir. Daryo va ko'llarning sayozlanishi, shuningdek, ko'pgina joylarda suvning ifloslanishi natijasida, chuchuk suvning yetishmasligi, allaqachon keskin tus olgan. Shuning uchun chuchuk suvlarning sarflanishi va tozaligi ustidan nazorat o'rnatish nihoyatda zarur tadbir xisoblanadi [4].

Iqlim resurslari — atmosfera havosi, shamol energiyasi va yog'inlardan iborat bo'lib, bitmas-tuganmasdir. Biroq atmosferaning tarkibi va u bilan bog'liq bo'lgan sifati mexanik aralashmalar, sanoat va transport gazlari hamda radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi

natijasida keskin o‘zgarishi mumkin. Havo tozaligi uchun kurash resursni muhofaza qilishning eng muhim vazifalaridan biridir [10].

Kosmik resurslari — quyosh radiatsiyasi hamda dengiz suvlarining ko‘tarilish va pasayishi (qalqishi) energiyasi kirib, ular ham amalda bitmas-tuganmasdir. Lekin, ular insonning faol xo‘jalik faoliyati ta’siri ostida o‘zgarishi mumkin. Masalan, katta sanoat shaharlarida atmosfera tarkibining o‘zgarishi, ya’ni ifloslanishi, quyosh radiatsiyasi miqdoriga ta’sir qiladi [4].

Tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy jihati shundan iboratki, tabiat qo‘ynida bo‘lish kishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatib, uni xushfe’lroq, muloyimroq, olijanob qiladi, unda yaxshi hislar uyg‘otadi.

Tabiatning yoshlarni yuksak estetik ruhda tarbiyalashdagi roli katta. Tabiat bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish yoshlar ongini har tomonlama rivojlantirib, ularda kuzatuvchanlikni o‘stiradi, xarakterining yaxshi tomonlarini shakllantiradi, yuksak vatanparvarlik hissiyotini va tabiatga nisbatan ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lish istagini ro‘yobga chiqaradi. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy jihati juda muhim ahamiyatga ega [4].

Tabiatni muhofaza qilishning estetik jihati. Tabiat insonning ma’naviy boyligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tabiat kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida san’atning ilhomchisi, buyuk ijodning manbai bo‘lib kelgan. Yozuvchilar, rassomlar va bastakorlarning eng yaxshi asarlarida tabiatning go‘zal manzaralari tasvirlangan. Tabiat go‘zalligi ijodiy kayfiyat yaratadi, ijodkorga ko‘tarinki ruh beradi, odamda ijobiy his-hayajon uyg‘otadi, did, his va tuyg‘ularni tarbiyalaydi.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishda tabiatda ro‘y beradigan asosiy jarayonlarning rivojlanishi va o‘zaro ta’siri qonuniyatlari haqidagi bilim katta ahamiyatga ega. Busiz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni hisobga olish, tabiatga ko‘rsatilgan har qanday ta’sirning kelajakdagi oqibatini bilish mumkin emas. Insonning tabiat bilan o‘zaro ta’siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari mukammalasha borgan sari jadallashadi va uning samaradorligi oshib boradi [4].

Tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy jihati shundan iboratki, tabiat qo‘ynida bo‘lish kishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatib, uni xushfe’lroq, muloyimroq, olijanob qiladi, unda yaxshi hislar uyg‘otadi. Tabiatning yoshlarni yuksak estetik ruhda tarbiyalashdagi roli katta. Tabiat bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish yoshlar ongini har tomonlama rivojlantirib, ularda kuzatuvchanlikni o‘stiradi, xarakterining yaxshi tomonlarini shakllantiradi, yuksak vatanparvarlik hissiyotini va tabiatga nisbatan ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lish istagini ro‘yobga chiqaradi. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy jihati juda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda texnologiyaning rivojlanishi va aholining eksponensial o‘sishi bilan resurslarni iste’mol qilish va ifloslantiruvchi moddalar chiqindilari darajasi yer sayyorasining imkoniyatlaridan sezilarli darajada oshib ketdi va global nomutanosibliklarni keltirib chiqardi. Bu boshqa ta’sirlar qatorida iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning sezilarli darajada yo‘qolishi va okeanning ifloslanishida namoyon bo‘ladi. So‘nggi o‘n yilliklarda insoniyat ushbu ekologik nomutanosibliklarning jiddiyligini tan oldi va kelgusi o‘n yilliklarga mo‘ljallangan halokatli yo‘nalishni o‘zgartira olmasligimiz sababli ba’zi ijtimoiy va siyosiy tashvishlar mavjud. Biroq, ekologik inqirozni yumshatish uchun taklif etilayotgan echimlar asosan toza va samaraliroq texnologiyalarni ishlab chiqishga e’tibor qaratishni talab qiladi va muammoning asl ildizi bo‘lgan ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga sarmoya kiritishga katta qarshilik mavjud. Ushbu muammoni hal qilishda texnologiya biz uchun juda foydali bo‘lishi mumkin, ammo shuni unutmasligimiz kerakki, ular har doim bizning madaniy irodamiz asosida yer resurslaridan intensiv foydalanishga imkon beradigan vosita bo‘lib kelgan.

Texnologiyani faqat tabiiy muvozanatning foydasi yoki zarari uchun foydalanish bizning irodamizga, axloqimizga, madaniyatimizga bog‘liq bo‘lgan vosita sifatida ko‘rish mumkin. Shunday qilib, birinchi navbatda, biz hozirgi ekologik inqirozga qarshi turish uchun madaniy o‘zgarishga muhtojmiz va bu o‘zgarish faqat ta’lim orqali amalga oshirish mumkin.

Shunday qilib, nafaqat ekologik savodxonlikni, balki ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan yangi maqsadlar va strategiyalar bilan ekologik ta’limga yangi yondashuv takliflar kiritish tavsiya etiladi.

Madaniyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar paradoksni ochib beradi, bu ularning o‘zaro bog‘liqligi va boshqa tomondan, ular bir-biridan alohida mavjud degan antropotsentrik tushuncha o‘rtasidagi ziddiyatdir. So‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida madaniyatlar va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish “Tabiat madaniyati” tushunchasini ochib berdi, bu biz tabiiy deb hisoblagan narsa, unga beradigan qadriyat va uni qanday tushunishimiz madaniyatga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Har bir madaniyatda tabiatni qanday tushunishimiz muhim masaladir, chunki bu bizning u bilan bo‘lgan munosabatlarimizni va atrof-muhitga ta’sirimizni aniqlash orqali jamoalarimizda qanday yashashimizni belgilaydi. “Tabiat madaniyati” tushunchasi bizga zamonaviy G‘arb madaniyatlarida hukmronlik qiladigan tabiat va jamiyat o‘rtasidagi to‘siqlarni buzishga va inson va g‘ayriinsoniy dunyo o‘rtasidagi munosabatlarni ta’kidlashga yordam beradi [5; 57-71-b, 6]

Ushbu kontseptsiya odamlar va g‘ayriinsoniy tirik organizmlar yoki jonsiz materiya o‘rtasidagi munosabatlar asosida tarixiy va geografik jihatdan joylashtirilgan e’tiqodlar, amaliyotlar va taxminlar to‘plami sifatida tavsiflanadi.

Ekologik ta’limning asosiy maqsadi atrof-muhit sifatini yaxshilash uchun muhim vazifa bo‘lgan ekologik savodxonlikni oshirishdir [7; 15-27-b]

Atrof-muhit savodxonligi kontseptsiyasi turli xil jihatlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni:

ekologik tushunchalar, muammolar va syujetlarni bilish va tushunish;

kognitiv va hissiy munosabat to‘plami, shuningdek, bir qator kognitiv ko‘nikmalar va vakolatlar;

samaradorlik va dolzarblikni ta’minlash maqsadida ushbu bilim va tushunishni amalga oshirish uchun tegishli xulq-atvor strategiyalari;

turli xil ekologik kontekstdagi echimlar [8, 9; 437-452-b, 10; 8-21-b, 11; 73-107-b, 12].

Oddiy qilib aytganda, biz bilim, munosabat va xatti-harakatlar ekologik savodxonlikning eng muhim jihatlarini aks ettiradi deb aytishimiz mumkin, ammo buning uchun, ushbu kontseptsiyaning murakkabligi va fanlararo aloqalarini, shuningdek, uni ilgari surishdagi qiyinchiliklarni yaxshiroq ochib berish uchun uni chuqurlashtirishga arziydi. Boshqa narsalar qatorida, bilimlar jismoniy, ekologik, ijtimoiy, madaniy va siyosiy tizimlarni hamda xarakterlardan sezgirlik, munosabat, shaxsiy javobgarlik, motivatsiyani o‘z ichiga olishi kerak.

Ko‘nikmalar atrof-muhit muammolarini aniqlash, tahlil qilish, o‘rganish, baholash va hal qilish qobiliyatini o‘z ichiga olishi kerak. Ekologik mas’uliyatli xatti-harakatlar atrof-muhitni boshqarish usullarini, e’tiqodlarni, iste’molchilar harakatlarining ta’sirini iqtisodiyot, siyosiy harakatlar va huquqiy harakatlar o‘z ichiga oladi. Biroq, butun dunyo bo‘ylab ekologik ta’lim uchun qilingan katta sa’y-harakatlarga qaramay, ekologik inqiroz yanada kuchaymoqda, bu esa ba’zi mualliflarni qo‘llaniladigan strategiyalarning samaradorligiga shubha ostiga qo‘yadi [13; 14]. Shunday qilib, insoniyat va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni tiklaydigan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga endi vaqtimiz yo‘qligini hisobga olsak, biz so‘nggi o‘n yilliklarda kuzatganimizdan ko‘ra samaraliroq yo‘llarni izlashimiz kerakligi aniq.

Ekologik ta’limning hozirgi ekologik inqirozni engishga qo‘shgan hissasi nuqtai nazaridan samaradorligi katta tashvish tug‘diradi. Uning fuqarolarning ekologik savodxonligini rivojlantirishdagi maqsadi bizning “tabiiy madaniyati”ni, ya’ni tabiatni qanday ko‘rishimiz va u bilan o‘zaro munosabatimizni o‘zgartirish usuli sifatida qaralishi kerak. Bizning “tabiiy madaniyatimiz” umumiy madaniyatimizga qo‘shilganligi inkor etilmasligi sababli Styuard (1955) va Gvattari (1992) ma’lumotlariga ko‘ra, ekologik ta’lim ijtimoiy o‘zgarishlarni individual o‘zgarishlarga qaraganda ko‘proq hisobga olishi kerak. “Tabiiy madaniyatimiz” muvaffaqiyatli bo‘lish uchun uni faqat jismoniy hamda tashkiliy o‘zgarishlar qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bu shuni anglatadiki, ekologik ta’lim maktab va oliy ta’limdan tashqariga chiqib, jamiyatning bir qismiga aylanishi kerak. Biz tushunganimizdek, so‘nggi o‘n yilliklarda shaxsning o‘zgarishi jamiyatning o‘zgarishiga olib keladi degan ishonch tufayli ekologik ta’lim suiste’mol qilingan [15].

“Ekologik madaniyat” tushunchasi Sharq tadqiqotchilari tomonidan keng qo‘llaniladi, ammo G‘arb nashrlarida juda kam uchraydi. Uning ingliz tilidagi bibliografiyada eng mashhur ishlatilishi avstraliyalik faylasuf va ekofeminist Val Plumvud (2002) kitobining nomi edi [16].

U “Ekologik madaniyat” ta’rifi haqida batafsil ma’lumot bermaydi, lekin kontseptsiyani insoniyat ishtirok etgan ekologik inqirozni engishning yagona mumkin bo‘lgan usuli degan fikr bilan uyg‘unlashtiradigan muhim asoslarni qoldiradi. Ushbu tushuncha rus tilidagi adabiyotlarda keng qo‘llanilishiga qaramay, u ko‘pincha ekologik savodxonlik sifatida talqin etiladi, chunki u individual darajadagi o‘zgarishlarga qaratilgan [17; 929-931-b, 18; 83-85].

Shunga qaramay, Rossiyadan, shuningdek, sobiq sovet respublikalari va Osiyo mamlakatlaridan bir nechta boshqa mualliflar bizga butun jamiyatning o‘zgarishi haqida to‘liqroq ma’lumot berishadi [19].

N. Ridey, Y. Rybalko, Y. Kicherenko, S. Palamarchuk, D. Shofolovlar tomonidan jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning barqaror rivojlanishining ko‘rsatkichi sifatida ekologik madaniyatning roli va ekologik madaniyatni ta’lim oluvchilar ongiga singdirish kerakligi tushuntirib berilgan [20; 14-23-b].

M.S. Sabrekov tomonidan ekologik ta’lim jarayonida maktabning yashil madaniyatining manbai sifatida ta’limda tadbiq etish, maktab o‘quvchilarni ekologik madaniyatini atrof muhitga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, atrofimizdagi o‘simliklarga bo‘lgan qiziqishlarini o‘simliklarni biologik vazifalarni o‘rgatish orqali shakllantirishda lozimligini o‘z tadqiqotlarida yoritib bergan [21]. Shu bilan birga Sabrekov so‘nggi ellik yil ichida ekologik ta’lim bilan nima sodir bo‘lganligi haqida aniq tasavvur berdi. “Ekologik madaniyat” tushunchasi 1970-yillarda madaniyat tadqiqotchisi Lev Koganning ishi tufayli paydo bo‘lganligini hisobga olib, Sabrekov 1980-yillarda sanoat jamiyati paydo bo‘lishi bilan ekologiyani bo‘zilishi rivojlanganligidan afsuslanadi, chunki “Ekologik madaniyat” tushunchasi jamiyatning ajralmas qismi sifatida ekologik ta’lim tomonidan almashtiriladi [22].

Keyinchalik ekologik ta’lim fanga yo‘naltirilgan bo‘lib, ekologik madaniyat faqat ilmiy bilimlarga asoslana boshladi. Biroq, Sabrekovning fikricha, hozirgi vaqtda jahon ilmiy hamjamiyatiga ekologik inqirozni faqat texnik vositalar yordamida hal qilish mumkin emasligi aniq bo‘ldi, bu esa ekologik ta’limga yondashuvni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Sabrekovning bu bayonoti nima uchun hatto Sharqiy mamlakatlarda ham ekologik ta’lim amaliyotining aniq buzilishi sodir bo‘lganligini tushuntirish mumkin [23]. Bu esa uni 1970-yillarda asos solingan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, uni

individual va texnologik sohalarga moslashtiradi. Shunday qilib, insoniyat hozirgi ekologik inqiroz bilan bog‘liq bo‘lgan ulkan muammoni hisobga olgan holda, biz ekologik ta’limning maqsadini qayta ko‘rib chiqishimiz kerak, uni zarur ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ekologik madaniyatga qaratishimiz lozim. Ushbu yondashuvni qo‘llashni boshlash uchun biz amal qiladigan ekologik madaniyatni aniq belgilash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Голуб А.А., Струкова Е.Б. Экономика природных ресурсов. – М.: Аспект-Пресс, 1998.
2. Герасимов И.П. Эволюция и дифференциатция природы Земли: Избранные труды. М.: Наука, 1990. 312 с.
3. Арманд *Д. Л.* Географическая среда и рациональное использование природных ресурсов / Отв. ред. д.г.н. Э. М. Мурзаев; АН СССР, *Ин-т* географии. — М.: Наука, 1983. — 240 с. — 2400 экз.
4. Хаустов А.П., Редина М.М. Экономика природопользования: диагностика и отчётность предпрятий: Учеб. пособие. – М .: *Изд.* РУДН, 2002.
5. Daniel Ares-López. Cultures of nature in mid-twentieth-century Galicia. Journal Rerouting Galician Studies: Multidisciplinary Interventions. 2017. -p. 57-71
6. Ares-López, D. Cultures of Nature in Mid-Twentieth-Century Galicia. In: Sampedro Vizcaya, B., Losada Montero, J. (eds) Rerouting Galician Studies. Palgrave Macmillan, Cham. 2017. https://doi.org/10.1007/978-3-319-65729-5_4)
7. Albright, T.L. and Roth, H.P. (1992) The Measurement of Quality Costs: An Alternative Paradigm. Accounting Horizons, 6, 15-27.
8. Simmons, D. Developing a Framework for National Environmental Education Standards. In Papers on the Development of Environmental Education Standards (pp. 10-58). 1995. Troy, OH: NAAEE.
9. Education for strategic environmental behaviour. Environmental Education Research, 13(4), 437-452
10. Hungerford, H. & Volk, T. Changing learner behavior through environmental education, Journal of Environmental Education. 1990. 21(3), 8-21.
11. Cook S., & Berrenberg J. L. Approaches to Encouraging Conservation Behavior: A Review and Conceptual Framework. Journal of Social. 1981. Issues, 37, 73-107.https://doi.org/10.1111/j.1540-4560.1981.tb02627.
12. Stern P. Toward a Coherent Theory of Environmentally Significant Behavior. The Journal of Social. 2000. Issues, 56, 407-424. https://doi.org/10.1111/0022-4537.00175)
13. Charles Saylan and Daniel Blumstein. The Failure of Environmental Education (And How We Can Fix It). Language: English. Published/Copyright: 2011. P. 354
14. Daniel T Blumstein, Charlie Saylan. The failure of environmental education (and how we can fix it). PLoS Biol. 2007 May; 5(5): e120. doi: 10.1371/journal.pbio.0050120.
15. Julian H. Steward. Theory of culture change the methodology of multilinear evolution. (1995). 15 декабря 2009 г. Pages. 244
16. Val Plumwood. Environmental Culture The Ecological Crisis of Reason. Copyright 2002. ISBN 9780415178785. 300 Pages. Published December 20, 2001 by Routledge.
17. Стукаленко Н.М.Развитие экологической культуры как фактор общественного прогресса в целях устойчив ого развития. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований № 12, 2015. - P. 929-931.
18. Варникова О.В., Симонова И.Н. Формирование информационно-экологической образовательной среды технического вуза с помощью средств информационно-коммуникационных технологий. Вестник магистратуры. 2015. № 3(42). ISSN 2223-4047. С. 83-85
19. Hélder Spínola. Environmental Culture and Education: A New Conceptual Framework. Research and Development Centre in Education, University of Madeira, Funchal, Portugal. Creative Education. Vol.12 No.5, May 2021. DOI: 10.4236/ce.2021.125072
20. Трегубов О.Г. Методологические подходы, закономерности и принципы формирования зеленой культуры подростков // Современные проблемы науки и образования. 2012. № 4.
21. Ridei N., Rybalko Y., Kycherenko Y., Palamarchuk S., Shofolov D. The Role of Ecological Culture as an Indicator of Sustainable Development of Relations between Society and Nature. European Scientific Journal. 9, 2014. 14-15-b
22. Sabrekov M. S. Education Situation as the Source of the Green Culture of the School in the Process Ecostino-Ecestic Education. Contemporary Problems of Science and Education, No. 3. 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Islamova Fotima Shamsiddinovna
Xalqaro Nordik Universiteti, Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi
Kaala2006@mail.ru
Xalikova Zahro Mirshadmanovna
Xalqaro Nordik Universiteti, Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘G‘IL BOLALARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHDA TARBIYAVIY JARAYONLAR MAZMUNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘g‘il bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash jarayonida tarbiyaviy ishlarning mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mehnat, axloqiy, ijtimoiy-madaniy va texnologik savodxonlik kabi yo‘nalishlar muhim ekani asoslab beriladi. Shuningdek, tarbiyaviy metodlar va yondashuvlar, jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, amaliy mashg‘ulotlar hamda o‘yin orqali ta’lim berish usullari muhokama qilinadi. Mazkur maqola tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy asoslarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *kichik maktab yoshi, mustaqil hayotga tayyorgarlik, tarbiya, psixologik xususiyatlar, pedagogik yondashuv, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, ijtimoiy-madaniy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, texnologik savodxonlik, tarbiyaviy metodlar.*

Исламова Фатима Шамсиддиновна
Международный скандинавский университет,
старший преподаватель кафедры педагогики
Kaala2006@mail.ru
Халикова Захро Миршадмановна
Международный скандинавский университет,
старший преподаватель кафедры педагогики

СОДЕРЖАНИЕ ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ПОДГОТОВКЕ МАЛЬЧИКОВ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация: *В данной статье анализируется содержание и значение воспитательной работы в процессе подготовки мальчиков младшего школьного возраста к самостоятельной жизни. Обосновывается важность таких направлений, как трудовое, нравственное, социально-культурное и технологическое просвещение. Также рассматриваются воспитательные методы и подходы, включая личностно-ориентированный подход, практические занятия и обучение через игру. Статья охватывает научно-теоретические основы, направленные на совершенствование воспитательного процесса.*

Ключевые слова: *младший школьный возраст, подготовка к самостоятельной жизни, воспитание, психологические особенности, педагогический подход, трудовое воспитание, нравственное воспитание, социально-культурное воспитание, экономическое воспитание, технологическая грамотность, воспитательные методы.*

Islamova Fatima Shamsiddinovna
Senior Lecturer, Department of Pedagogy, International Nordic University
Kaala2006@mail.ru
Halikova Zahro Mirshadmanovna
Senior Lecturer, Department of Pedagogy, International Nordic University

CONTENT OF EDUCATIONAL PROCESSES IN THE PREPARATION OF YOUNG SCHOOL-AGE BOYS FOR INDEPENDENT LIFE

Abstract: *This article analyzes the content and significance of educational activities in the process of preparing young school-aged boys for independent life. It substantiates the importance of areas such as labor, moral, socio-cultural, and technological literacy. The article also discusses educational methods and approaches, including a learner-centered approach, practical training, and teaching through play. It presents scientific and theoretical foundations aimed at improving the educational process.*

Keywords: *primary school age, preparation for independent life, upbringing, education, psychological characteristics, pedagogical approach, labor education, work upbringing, moral education, socio-cultural education, economic education, technological literacy, educational methods.*

Kirish.

Dunyoning nufuzli tadqiqot muassasalari yoshlarni ta’lim jarayonida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash hamda muvaffaqiyatli yashash kompetensiyasini shakllantirish bilan bog‘liq tarbiyaviy ta’lim muhitini yaratish borasida ahamiyatli tajribalarni ilgari surmoqda. Bular qatoriga oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’sirining ijtimoiy xususiyatlari ham kiradi. Mazkur tadqiqotlarda oilaviy ta’limga oid empirik ma’lumotlarning jadal ko‘payishi uni yaxlit ko‘p qirrali tarzda taqdim etishga yordam beradigan sifat jihatidan yangi metodologiyani qo‘llash, ta’lim tizimida o‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy omillarning o‘zaro aloqasini sinergetik yondashuv asosida tadqiq etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda ta’lim siyosatining mazmun–mohiyatida “Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab–quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish” muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz maktablarida “mavjud fanlar va darsdan tashqari mashg‘ulotlarida maxsus ijtimoiy–emotsional o‘quv soatlari (Social Emotional Learning – SEL) yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchi–yoshlarning o‘zini o‘zi boshqarish, murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib o‘tish ko‘nikmalarini shakllantirish” ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada, o‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari kengaymoqda.

Kichik maktab yoshi (7-11 yosh) bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning asosiy hayotiy ko‘nikmalari, mustaqil fikrlashi, mehnatga bo‘lgan munosabati shakllanadi. Ushbu jarayonda tarbiyaviy ishlarning mazmuni va usullari bolaning kelajakdagi hayotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o‘g‘il bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash jarayonida tarbiyaviy faoliyatning ahamiyati va metodlari tahlil qilinadi.

Bu yoshdagi bolalar qiziquvchan, harakatchan bo‘lib, kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishni yoqtiradilar. Shu sababli tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda bolalarning psixologik xususiyatlari e’tiborga olinishi zarur. Ular mustaqil harakat qilishni o‘rganish bilan birga, kattalarning yo‘riqlariga muhtoj bo‘ladilar. O‘g‘il bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish, ularga maqsad sari intilishni o‘rgatish, mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yoshdagi o‘g‘il bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash tarbiyaviy jarayonning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Kichik maktab yoshida bolalarda shaxsiy mas'uliyat, mustaqil fikrlash va o‘zini boshqarish kabi ko‘nikmalar shakllana boshlaydi. Shu sababli, maktab va oilada berilayotgan tarbiyaviy ta’sirlarning mazmuni va samaradorligi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga, kasbiy yo‘nalish olishiga va oilaviy hayotga tayyorgarligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi natijasida yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash jarayonlarida mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va moslashuvchanlik kabi fazilatlarni tarkib toptirish talab etilmoqda. Ota-onalar tomonidan berilayotgan tarbiyaning mazmuni bolalarning shaxsiy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Ta’lim muassasalarida berilayotgan bilim va tarbiyaviy jarayonlar o‘quvchilarning kelajakdagi hayotga tayyorligiga xizmat qilishi lozim. Kichik maktab yoshidagi bolalar tez ta’sirchan, taqlidga moyil va faol o‘rganishga intiluvchi bo‘lishadi. Shu bois, ularga to‘g‘ri tarbiya berish katta ahamiyatga ega.

Bolalarni ma’naviy–axloqiy tarbiyalash, ularning soglom turmush tarzi va oilaviy hayotga tayyorlash boʻyicha M.Inomova, O.Musurmonova, A.Q.Munavvarov, Sh.S.Shodmonova, M.Quronov; oila tarbiyasida milliy va ma’naviy qadriyatlar, oʻquvchilarn oilaviy hayotga tayyorlashning falsafiy jihatlari O.R.Jamoliddinova, S.Nishonova, M.Xalmatov, oilaviy hayotga tayyorlash muammosining psixologik jihatlari M.G.Davletshin, V.M.Karimova, B.M.Umarov, G‘.B.Shoumarov, M.X. Fayziyeva va N.A.Sogʻinovlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan G.N.Volkov, I.V.Grebennikov, A.E. Izmaylova, E.A.Pevsova, V.A.Slastenin, B.A.Mirenskiylar yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy–pedagogik xususiyatlarini, bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashni tashkil etishning integrativ texnologiyalarini tadqiq etganlar.

Xorijlik olimlardan A.Kraft, I.S.Kon, L.B.Schneider, E.G.Eidemiller, T.Shelyag kabilarning ilmiy izlanishlarida oilada ma’naviy muhitni shakllantirishning refleksiv texnologiyalarining mazmun - mohiyati ochib berilgan.

Kichik maktab yoshidagi o‘g‘il bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashda tarbiyaviy jarayonlar mazmuni tarbiyaviy jarayonlarning ahamiyatini o‘rganish va ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kichik maktab yoshidagi bolalarda mustaqil hayotga tayyorlanish uchun zarur bo‘lgan tarbiyaviy jarayonlarni aniqlash, ushbu jarayonda pedagogik usullar va vositalarni tahlil qilish, mustaqil hayotga tayyorlanishda o‘g‘il bolalar uchun zarur bo‘lgan sifatlar va ko‘nikmalarni belgilash lozim. Tadqiqotning

nazariy asosi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va tarbiyaviy jarayonlar nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariya:

– bolalar psixologiyasi va ularning rivojlanish xususiyatlari;

– tarbiyaviy jarayonning asosiy prinsiplari, ya'ni faoliyat, o‘zaro ta'sir, o‘qitish va o‘rgatish usullari;

– mustaqil hayotga tayyorlanishning psixologik va pedagogik jihatlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot obyekti sifatida kichik maktab yoshidagi o‘g‘il bolalar va ularning o‘ziga xos psixologik va pedagogik xususiyatlari hamda ularga mos pedagogik usullar va strategiyalar o‘rganildi.

Tadqiqotda ilmiy-pedgogik va matematik-statistik metodlar qo‘llanildi. Kichik maktab yoshidagi bolalar, ularning ota-onalari va o‘qituvchilari bilan so‘rovnomalar o‘tkaziladi. Bu orqali tarbiyaviy jarayonlarning samaradorligi, bolaning mustaqil hayotga tayyorlanish darajasi o‘rganildi. Bolalar bilan bog‘liq tarbiyaviy faoliyatlarni kuzatish orqali ularning rivojlanish jarayonlari va mustaqil hayotga tayyorlanish darajasi tahlil qilindi. Shunigdek, pedagogik metodlarni sinovdan o‘tkazish va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida tajribaviy sinovlar o‘tkazildi. O‘qituvchilar, pedagoglar va ota-onalar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, tarbiyaviy jarayonlar haqida fikr almashildi.

Tadqiqotda asosan o‘qitishning faol usullari, jamoaviy va individual o‘qish metodlari, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar qo‘llanildi. Pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va individual yondashuvlar asosida bolalarning mustaqil hayotga tayyorlanishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar rivojlantirildi.

Natijalarini tahlil qilishda statistika usullari va sifatli tahlil qo‘llaniladi. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholash uchun testlar va vazifalar yordamida o‘quvchilarning o‘zgarishi o‘lchandi. Shuningdek, sifatli tahlil usuli orqali intervyu va kuzatuvlar natijalari yoritildi.

Mustaqil hayotga tayyorlashda tarbiyaviy jarayonlarning asosiy yo‘nalishlaridan mehnat, axloqiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy tarbiyasi bo‘lib, ular bolaning oddiy mehnat faoliyatlarida qatnashishi uning mustaqilligini, masalan o‘z kiyimlarini tartibga keltirish, o‘quv qurollarini tayyorlash, uy yumushlarida ishtirok etish orqali ular mas’uliyatni his qilishni o‘rgandilar. Axloqiy tarbiya yo‘nalishi esa bolalarga hurmat, odob, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarni singdirish ularning mustaqil hayotga tayyorlanishiga yordam berdi. Ijtimoiy-madaniy tarbiya yo‘nalishida jamiyatda o‘zini qanday tutish kerakligi, o‘rtoqlik va hamkorlik muhim ekanligini tushuntirish orqali bolalar mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgandilar. Iqtisodiy savodxonlik kichik yoshdan bolalarga pulning qadri, tejash va harajat qilishni o‘rgatish ularning kelajakda mustaqil hayot kechirishlariga tayyorgarlik bo‘lishi tushuntirildi.

Kichik maktab yoshidagi o‘g‘il bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash murakkab, lekin juda zarur jarayon sanaladi. Bu jarayonda mehnat, axloqiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy tarbiya kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur. Tarbiyaviy ishlar shaxsga yo‘naltirilgan va amaliy metodlar asosida tashkil etilganda, bolalar kelajakda jamiyatga foydali, mas’uliyatli va mustaqil shaxslar bo‘lib shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Inomova M., Musurmonova O., Munavvarov A.Q., Shodmonova Sh.S., Quronov M. "Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari", Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

2. Jamoliddinova O.R., Nishonova S., Xalmatov M. "Oilaviy hayotga tayyorlashda ma’naviy qadriyatlar roli", Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

3. Davletshin M.G., Karimova V.M., Umarov B.M., Shoumarov G‘.B., Fayziyeva M.X., Sog‘inov N.A. "Oilaviy tarbiyaning psixologik asoslari", Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

4. Volkov G.N., Grebennikov I.V., Izmaylova A.E., Pevsova E.A., Slastenin V.A., Mirenskiy B.A. "Pedagogika". O‘quv qo‘llanma, Moskva: Akademiya, 2015.

5. Kraft A., Kon I.S., Schneider L.B., Eidemiller E.G., Shelyag T. "Психология семьи и семейной жизни", Moskva: Prosveshchenie, 2012.

6. Islamova, F. (2024). Amaliy san’at orqali o ‘spirin yoshdagi o‘g‘il bolalalarni mustaqil hayotga tayyorlash–kelajak taraqqiyoti sifatida. Nordic_Press, 3(0003).

7. Исламова, Ф. Ш. (2022). Ёшларни мустақил ҳаётга тайёрлашда соғлом турмуш тарзи–оила фаровонлиги омили сифатида. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(5), 41-46.

8. Sh, I. F., & Vaniyan, S. B. (2021). The role of parents in forming spiritual education on the basis of creative approaches. *current research journal of pedagogics*, *2*(12), 162-165.

9. Mirshadmanovna, X. Z., & Qizi, Q. M. M. (2023). Boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilariga predmetlararo integratsiya vositasida metapredmet tushunchalarini o ‘rgatish. *Science and innovation*, *2*(Special Issue 14), 658-663.

10. Vokhidova, N. K., & Khalikova, Z. M. (2016). Development of the education system in the Republic of Uzbekistan. *Europaische Fachhochschule*, *4*, 23-24.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ismatov Pulatjon Abdumannobovich
ADU Sport va sa'nat fakulteti
Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti
E-mail: pulatjoni@gmail.com

JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sportning jamiyat rivojlanishidagi ijtimoiy-pedagogik ahamiyati yoritilgan. Muallif sport musobaqalarining mahalliy va xalqaro darajada tashkil qilinishi insonlar va davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, tinchlik, hamjihatlik va do'stlik kabi qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Respublika va xorij tajribasi asosida jismoniy tarbiya va ommaviy sport tizimining samaradorligini oshirish, sport ta'lim muassasalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda aholining, ayniqsa, yosh avlodning sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari ilmiy asosda tahlil qilinib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, ommaviy sport, sport musobaqalari, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy qadriyatlar, sport tashkilotlari.*

Исматов Пулатжон Абдуманабович
АГУ Факультет спорта и искусства Доцент межфакультетской кафедры физического воспитания и спорта

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И МАССОВОГО СПОРТА

Аннотация. *В статье раскрывается социально-педагогическое значение физической культуры и спорта в развитии общества. Автор отмечает, что организация спортивных соревнований на местном и международном уровнях играет важную роль в формировании таких ценностей, как сотрудничество, мир, единство и дружба между людьми и государствами. На основе анализа отечественного и зарубежного опыта рассматриваются вопросы повышения эффективности системы физической культуры и массового спорта, совершенствования механизмов управления спортивными образовательными учреждениями, формирования здорового образа жизни населения, особенно молодого поколения, и представлены соответствующие предложения и рекомендации.*

Ключевые слова: *физическая культура, массовый спорт, спортивные соревнования, здоровый образ жизни, социальные ценности, спортивные организации.*

Ismatov Pulatjon Abdumannabovich
ASU Faculty of Sports and ArtAssociate professor of interfaculty physical education and sports department

SOCIO-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING PHYSICAL EDUCATION AND MASS SPORTS

Annotation. *This article highlights the socio-pedagogical significance of physical education and sports in societal development. The author emphasizes the role of organizing sports competitions at local and international levels in fostering values such as cooperation, peace, unity, and friendship among individuals and nations. Based on the analysis of local and international experiences, the article discusses issues of improving the effectiveness of physical education and mass sports systems, enhancing management mechanisms of sports educational institutions, promoting a healthy lifestyle among the population, especially youth, and presents relevant proposals and recommendations.*

Keywords: *physical education, mass sports, sports competitions, healthy lifestyle, social values, sports organizations.*

Kirish.

Jahonda davlatlar va insonlar o'rtasidagi munosabatlarning tobora rivojlanib borishi o'zaro hamkorlikni yanada rivojlanishiga olib keladi. Bunday munosabatlarning rivojlanishi insonlarni bir-birini yaqinlashtirish bilan birga ular o'rtasida tinchlik, do'stlik kabi qadriyatlarni shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qadriyatlarning rivojlanishida esa

jismoniy tarbiya va sport muhim ijtimoiy institut sifatida asosiy vazifalarni bajaradi.

Sport musobaqalarning ma'lum bir davlat miqyosida tashkil etishilishi shu davlat xalqari o'rtasida totuvlikni, o'zaro hurmatni, bir birini qadrlashni rivojlantiradi. Ya'ni, musobaqlarning tuman miqyosida tashkil qilinishi shu tuman aholisini, viloyat miqyosida tashkil qilinishi viloyat aholisini, respublika miqyosida tashkil qilinishi viloyatlar aholisini birlashtirib, ular o'rtasidagi hamkorlikni, o'zaro hurmatni rivojlantirib, birdamlikni, hamjihatlikni rivojlantiradi. Bu esa bugungi taraqqiyotning asosiy o'zagi bo'lib hisoblanadi. Musobaqalarnng xalqaro miqyosda tashkil qilinishi esa davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Chunki sportni boshqa sohalardan ajratib turuvchi xususiyati bellashuvlar, kurashlar, musobaqalar bo'lib, bular tabiatda faqat sportning o'zigagina xos hodisalardir.

Adabiyotlar tahlili.

Respublikamiz hamda xorijda jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, olimlarimizdan T.Usmanxodjaev, R.Xalmuxamedov, R.Salamov, Sh.Xankeldiev, F.Kerimov, A.Abdiev, M.S.Axmatovlar sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport muassasalarini rivojlantirib borish muhim deb hisoblashgan.

Xorijlik L.P.Matveev, Yu.V.Verxoshanskiy, M.A.Godik, V.N.Platonovlar jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari doirasida sport zaxiralarini shakllantiirb borish zururligini ta'kidlashgan bo'lsa, G.Meyzinskaya, V.I.Noviskaya, O.A.Barabash, A.M.Lebedinskiylar jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'lim samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Natijalar va muhokama.

Sport ming yillar davomida kishilarni faqat jismonan barkamollikka etaklovchi hodisa bo'lib qolmasdan, ularda yuksak axloqiy qadriyatlar: poklik, halollik, mardlik, or-nomus, do'stlik hamda vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalash vositasi vazifasini ham bajarib kelmoqda [1]. Sport o'z tabiati va mohiyati bilan xalqaro munosabatlarni mustahkamlash, hamkorlik va do'stlik o'rnatish vositasidir. Ommaviy sport millionlab kishilarda o'zlarining jismoniy sifatlari va harakat imkoniyatlarini takomilashtirishga, sog'liqlarini mustahkamlashga hamda ijodiy umrboqiylikni uzaytirishga, zamonaviy ishlab chiqarish va kundalik hayot sharoitlarining organizmga salbiy ta'siriga qarshilik ko'rsata olishga imkon beradi. Ommaviy sportning har xil turlari bilan shug'ullanish maqsadi sog'liqni mustahkamlash, jismoniy rivojlanishni, tayyorgarlikni yaxshilash va faol dam olishdir. Bu qator xususiy vazifalarni jumladan, ayrim tizimlarning funksional imkoniyatlarini oshirishi, umumiy va kasbiy ish faoliyatini oshirishi, hayotiy zarur ko'nikma va malakalarni egallashi, bo'sh vaqtni maroqli va foydali o'tkazishi, jismoniy kamolotga erishishi kabi jihatlarni hal etish bilan bog'liq. Yurtimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish xamda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlarni tashkil qilib borish iqtidorli yoshlarni tarbiyalashning muxim omili bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur qadriyatlarni rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sportni ijtimoiy institut sifatidagi rolini mustahkamlash hamda jamiyatdagi tuzilmalarni yanada rivojlantirish, imkoniyatlar yaratish, shart-sharoitlar yaratib berish zarur hisobalandi [2].

O'zbekiston Respublikasi hududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"da PQ 3031-sonli Qarori [3] qabul qilindi. Qaror asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish Dasturining asosiy yo'nalishlaridan "jismoniy tarbiya va sport sohasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport komplekslarini qurish, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash, mazkur sohada xususiy sektorni rivojlantirish" hamda "jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash" masalalari kiritilganligi sohani rivojlantirish yo'lida bir qator ishlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Jumladan, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish;

hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirib borish;

jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari faoliyati yanada rivojlantirish, ularning nufuzi oshirish,

boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim muassasalari muammolarini o'rganib borish tizimini ishlab chiqish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish.

Ushbu muammolarni o'rganib borish bilan birga jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash, bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda rivojlantirishga hissa qo'shganlarni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etib borish lozim. Bunda asosan quyidagi omillarga e'tibor qaratish kerak:

- birinchidan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari samaradorligi aniqlash;
- ikkinchidan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- uchinchidan, samaradorlikni rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- to'rtinchidan, samaradorlik rivojiga hissa qo'shgan xodimlarni rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

1-jadval

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlaridagi muammolarni o'rganish yo'nalishlari

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlaridagi muammolarni o'rganish			
Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari samaradorligi aniqlash	Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash	Samaradorlikni rivojlantirish ga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish	Samaradorlik rivojiga hissa qo'shgan xodimlarni rag'batlantirish mexanizmlarini

Mazkur jarayonda jismoniy tarbiya va sport tizimidagi tashkilotlarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirib borish jarayonlarini tadqiq etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tizimidagi tashkilotlarni rivojlantirish bo'yicha ishlarni rivojlantirish mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish ishlarining natijaviyligini oshirishga xizmat qiladi. Ommaviy sportning rivojlanishi aholi salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etish bilan birga, terma jamoalar uchun zaxirani shakllantiradi. Bu esa mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning barqaror rivojlanishini ta'minlab beradi. Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari ta'limini boshqarishda reyting tizimining maqsadi – ushbu muassasalardagi ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha ishlarning samaradorligini baholash hisoblanadi. Odatiy ta'lim muassasalari reytingini tuzishda quyidagi asosiy vazifalarga e'tibor qaratiladi:

- o'qituvchilar malakasining darajasini baholash;
- ishdagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni aniqlash;
- ta'lim faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishganlarni aniqlash;
- ma'lumotlar bazasini yaratish;
- natijalar o'zgarishi dinamikasini o'rganish;
- faoliyat natijalari to'g'risida to'liq ob'ektiv ma'lumot olish.

Yuqoridagi vazifalar xususiyatlaridan kelib chiqib aytsak, reyting tizimining asosiy konseptual asoslari quyidagilardir:

- har bir ta'lim muassasasi faoliyatidagi o'zgarishlar dinamikasini o'rganish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir.

Reyting tizimida sifat bevosita ta'lim samaradorligi bilan bog'liq. Mutaxassislar ta'lim muassasalari samaradorligini tahlil qilishda ikki jihatni hisobga olishadi:

- ta'lim (o'quvchi-talabalarning tayyorgarligi sifati);
- ijtimoiy munosabatlar (jamiyat tomonidan ilgari surilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish).

Ushbu tizimni yaratishda ta'limning haqiqiy holatini ob'ektiv baholashga va baholashni amalga oshirishga imkon beradigan mezon va ko'rsatkichlarni tanlash kerak. Reyting to'g'risidagi nizomda maqsadlar, vazifalar va ma'lumotlar to'plash tartibi va ballar to'plami yordamida ularni baholash tartibi aniqlandi.

Jahon ta'limi taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti shu jarayonda joriy etilgan ta'lim tizimining rivoji va takomillashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar uning mazmunini, tuzilishini, usullarini qayta ko'rib chiqish, mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Oliy ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan modul tizimi, reyting asosida baholash, yangi pedagogik texnologiyalar, test sinovlari shular jumlasidandir [4, 5].

Bugungi kunda talabaning dunyoqarashi keng, erkin fikrlovchi, voqelikka adekvat-to'g'ri baho bera oluvchi, o'tkir zehnli, mustahkam irodali, qisqa qilib aytganda, yuksak iitelluktual kuchga ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun esa ta'lim tizimiga yangi innovatsiyalarni joriy etish zarur va shartdir. Talaba passiv tinglovchi ob'ekt bo'lmay, ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi-sub'ektiga aylanishi zarur bo'ladi. Xo'sh, ushbu jarayonda integratsiyalarning roli qanday? Avvalo, integratsiya tushunchasining mohiyatni ko'rib chiqaylik. Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, integratsiya ijtimoiy-psixologik jihat bo'lib, biror-bir yangilikni ijtimoiy sohaga tezkorlik bilan tadbiq etishda ta'lim jarayonini jadallashtirish demakdir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta'lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechildi. Yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an'analarimizga, ilg'or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash,

uzoq va davomli maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ta’lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratildi. Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish va bu borada qabul qilingan me’yoriy - huquqiy hujjatlar mohiyatining keng jamoatchilik tomonidan chuqur anglab olinishiga har tomonlama sharoit yaratish - davlat boshqaruvi idoralari, ta’lim-tarbiya muassasalari xodimlarining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Назаров Н.Н. Спорт ва соғлом ҳаёт фалсафаси. Монография.-Т.: Замон полиграф, 2020. – 234 б.
2. Шопулатов А.Н. Жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларида маънавий қадриятларни шакллантириш механизмларини такомиллаштириш. Педагогика. фан. (PhD)...дисс. – Чирчиқ. 2019. – 147 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш тўғрисида”ги ПҚ-3031-сонли қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сонли қарори.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jamalova Nargiza Ulug'bek qizi
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: gulamovadilafruz@mail.ru

VITAGEN TA'LIM VOSITALARI VA YONDASHUVLARINING INTERFAOL METODLAR BILAN INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Vitagen texnologiyalari ta'lim jarayonini shaxsiy, amaliy va interaktiv qilib, talabalarni bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga faol jalb qiladi. Bu texnologiyaning asosiy vositalari loyiha asosida o'qitish, simulyatsiyalar va hayotiy tadqiqotlardan iborat bo'lib, ular orqali yoshlarda ijodiy, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalari rivojlanishi tahlil etilgan. Ta'limning raqamlashtirilishi, axborot texnologiyalari bilan integratsiyasi, gumanitar fanlarning umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, milliy madaniy merosni saqlash va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Vitagen, Vitagen texnologiyalari, Vitagen ta'lim vositalari, Vitagen yondashuvlari, globallashuv, ta'lim, gumanitar fanlar, raqamlashtirish, innovatsiya, milliy madaniy meros, umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, integratsiya.*

Джамалова Наргиза Улугбек кизи
научный сотрудник Национального университета Узбекистана

ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ И ПОДХОДОВ VITAGEN С ИНТЕРАКТИВНЫМИ МЕТОДАМИ

Абстрактный. *В данной статье технологии Vitagen делают процесс обучения персональным, практичным и интерактивным, активно вовлекая учащихся в процесс обучения. Основными инструментами этой технологии являются проектное обучение, моделирование и исследование жизни, с помощью которых анализируется развитие навыков творческого, критического мышления и социальной ответственности у молодых людей. Освещены вопросы цифровизации образования, его интеграции с информационными технологиями, роль гуманитарных наук в формировании общечеловеческих ценностей, сохранении национального культурного наследия, развитии социальной ответственности.*

Ключевые слова: *Vitagen, технологии Vitagen, образовательные инструменты Vitagen, подходы Vitagen, глобализация, образование, гуманитарные науки, цифровизация, инновации, национальное культурное наследие, общечеловеческие ценности, социальная ответственность, интеграция.*

Jamalova Nargiza Ulugbek kizi
Researcher at the National University of Uzbekistan

INTEGRATION OF VITAGEN EDUCATIONAL TOOLS AND APPROACHES WITH INTERACTIVE METHODS

Abstract. *In this article, Vitagen technologies make the educational process personal, practical and interactive, actively involving students in the process of acquiring knowledge. The main tools of this technology are project-based learning, simulations and life research, through which the development of creative, critical thinking and social responsibility skills in young people is analyzed. The digitization of education, its integration with information technologies, the role of the humanities in the formation of universal human values, the preservation of national cultural heritage and the development of social responsibility are highlighted.*

Keywords: *Vitagen, Vitagen technologies, Vitagen educational tools, Vitagen approaches, globalization, education, humanities, digitization, innovation, national cultural heritage, universal human values, social responsibility, integration.*

Kirish.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish ma'lum bir muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Jumladan, hozirgi kunda ta'lim tizimida mavjud bo'lgan didaktik tizimlar, ko'pchilik holatda dars jarayonida ma'ruza qilish, namoyish etish, eshitish va yozib olish kabi o'qitish paradigmasiga asoslangan.

Vitagen ta'lim texnologiyasining mohiyati. Vitagen - vita (lot) - hayot, genesis (lot.) - tug'ilmoq (hosil bo'lish), ya'ni hayotdan tug'ilgan.

Vitagen ta’lim - shaxs (talaba)ning hayotiy tajribasini aktuallashtirish (talab), uning aqliy (intellektual) va psixologik salohiyatidan o‘quv maqsadlarida foydalanish asosida o‘qitish.

Adabiyotlar tahlili.

Vitagenga yo‘naltirilgan ta’limning maqsadi shaxsning intellektual va psixologik potensialini namoyon qilishdan iborat. Bunda shaxsning hayot tajribasini hayotiy tajribaga o‘zgartirishni nazarda tutadi [1].

Vitagen ta’lim prinsiplari: O‘qituvchining hayotiy tajribasiga tayanish-bilimlami qadriyatga aylantirishning asosiy yo‘li.

- Hayotiy tajriba shaxsga ta’lim jarayonida potensial qobiliyatlami ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

- Hayot tajribalaridan ko‘p o‘lchovli foydalanish kerak.

- Talabaning aqliy(intellektual) salohiyatini faollashtirish shaxsni hurmat qilishga asoslangan bo‘lishi kerak. Vitagen ta’limni amalga oshirish yo‘llari:

- Vizualizatsiya yordamida vitagen tajribasining tarkibini aniqlash.

- Turli so‘rovlar orqali vitagen tajribasini aniqlash

- Vitagen tajribasini o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan tasdiqlash orqali aniqlash.

- Vitagen tajribasini tahlil qilish. Uning tabiati va hajmini ochib berish, ular o‘rtasidagi aloqani o‘m atish.

- Vitagen tajribasini tasniflash uchun asosni aniqlash, uni tasniflash. Turli xil bilimlar sohasidagi vitagenga xos bo‘lgan ma’lumotlami birlashtirish [2].

Tadqiqot metodologiyasi.

Interfaol metodlar vitagen yondashuv bilan uyg‘unlashtirilganda ta’lim jarayoni yanada mazmunli va hayotiy bo‘ladi. Vitagen yondashuv ta’limni shaxsiy tajribalarga bog‘lashga qaratilgani sababli, interfaol metodlar yordamida bu jarayon yanada boyiydi.

1.**Guruhli muhokamalar va vitagen yondashuv.** Guruhli muhokamalarda talabalar o‘z shaxsiy hayotiy tajribalarini muhokama qilinayotgan mavzular bilan bog‘laydilar. Masalan, tarix fanini o‘rganishda talabalar o‘z oilalaridagi tarixiy voqealar haqida hikoya qilib, ularni umumiy tarixiy jarayonlar bilan solishtiradilar. Bu ularda tarixiy bilimlarni chuqurroq anglashni ta’minlaydi.

2.**Rolli o‘yinlar va vitagen yondashuv.** Rolli o‘yinlar talabalarga o‘zlarini muayyan vaziyatlarda tasavvur qilish imkonini beradi. Masalan, adabiyot fanini o‘qitishda talabalar o‘zlarini qahramonlar o‘rnida tasavvur qilib, ularning qarorlarini tahlil qiladilar va bu qarorlarni o‘z hayotlaridagi vaziyatlar bilan bog‘laydilar. Bu usul ularning axloqiy va ijtimoiy ongini rivojlantiradi.

3.**Interaktiv simulyatsiyalar va vitagen yondashuv.** Simulyatsiyalar ta’lim jarayonida hayotiy voqealarni qayta yaratish imkonini beradi. Masalan, tarixdagi siyosiy yoki ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish talabalarga o‘sha jarayonlarni chuqurroq tushunish va o‘sha holatlarda qaror qabul qilishni o‘rganish imkonini beradi. Vitagen yondashuv bilan bog‘lab, talabalar simulyatsiyadagi holatlarni o‘z hayotlari bilan bog‘laydilar. [3]

Tahlil va natijalar.

Amaliy misollar.

1.**Adabiyotda**: Talabalar ma’lum bir asarni o‘qishdan so‘ng, qahramonlarning qarorlari va ularning oqibatlarini muhokama qiladilar. Ular bu qarorlarni o‘z hayotlari bilan bog‘lab, turli nuqtai nazarlarni muhokama qiladilar.

2.**Tarixda**: Talabalar o‘z oilalari tarixidan ma’lumotlar olib, ularni katta tarixiy voqealar bilan bog‘laydilar. Masalan, mahalliy hududning Ipak yo‘lidagi ahamiyati yoki milliy ozodlik harakatlaridagi ishtiroki muhokama qilinadi.

3.**Madaniyatshunoslikda**: Talabalar mahalliy madaniy voqealarni tadqiq qilib, ularni xalqaro madaniy jarayonlar bilan taqqoslaydilar. Masalan, mahalliy festivallarni jahon madaniyatining bir qismi sifatida o‘rganish.

Umuman, interfaol metodlar va vitagen yondashuvning integratsiyasi ta’lim jarayonini faol, shaxsiy va amaliy qiladi. Bu yondashuv talabalarni nafaqat bilim oluvchi, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Guruhli muhokamalar, rolli o‘yinlar va interaktiv simulyatsiyalar yordamida vitagen yondashuv amaliy ahamiyat kasb etib, yoshlarda ijodiy fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat va tanqidiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu usullar ta’lim sifatini yanada oshirishga va yosh avlodni zamonaviy talablarga javob beradigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi[4].

Vitagen ta’lim vositalari: loyihalar, simulyatsiyalar va hayotiy tadqiqotlar. Vitagen texnologiyalari ta’lim jarayonini shaxsiy, amaliy va interaktiv qilib, talabalarni bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga faol jalb qiladi. Bu texnologiyaning asosiy vositalari loyiha asosida o‘qitish, simulyatsiyalar va hayotiy tadqiqotlardan iborat bo‘lib, ular orqali yoshlarda ijodiy, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalari rivojlanadi.

1. Loyiha asosida o‘qitish. Loyiha asosida o‘qitish vitagen texnologiyasining muhim qismi hisoblanib, talabalarning amaliy bilim olishi va ularni hayotiy faoliyatga tatbiq etishini ta’minlaydi. Bu vosita gumanitar fanlarda shaxsiy tajribaga asoslangan vazifalarni bajarish orqali chuqur bilim va mulohaza qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Adabiyotda. Adabiyot fanini o‘qitishda loyiha asosida o‘qitish shaxsiy esseler yozish va ijtimoiy hodisalarni muhokama qilish kabi usullarni qamrab oladi. Masalan, talabalarga tarixiy yoki adabiy qahramonlar hayotidan kelib chiqqan holda esse yozish vazifasi topshiriladi. Ular qahramonlarning tanlovlari va ularning oqibatlarini o‘z hayotlari bilan bog‘lab tahlil qiladilar. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asari asosida talabalar o‘z hayotlaridagi adolat konsepsiyasini tadqiq

qilib, qahramon Bahromning jamiyatdagi roliga baho berishi mumkin.

Tarixda. Tarix fanini o‘qitishda mahalliy yodgorliklarni tadqiq qilish loyihalari o‘tkaziladi. Talabalar o‘z hududidagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganib, ularning tarixiy ahamiyatini yoritadilar. Masalan, ipak yo‘lidagi shaharlarning iqtisodiy va madaniy ahamiyati haqida tadqiqot o‘tkazib, talabalar o‘z mahalliy yodgorliklari misolida uning global savdo aloqalariga ta’sirini tahlil qiladi.

2. Simulyatsiyalar. Simulyatsiyalar ta’lim jarayonida turli voqea va jarayonlarni modellashtirish orqali ta’limni jonli va amaliy qilishga qaratilgan. Bu metod talabalarning voqealarni chuqurroq tushunishi va ularda qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Tarixda. Tarixiy jarayonlarni simulyatsiya qilish orqali talabalar o‘sha davrning ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy vaziyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, talabalarga Amir Temur davridagi siyosiy qarorlarni modellashtirish topshiriladi. Bu jarayonda ular siyosiy, harbiy va diplomatik masalalarni o‘rganadilar. Masalan, talabalar o‘rta asrlardagi diplomatik muzokaralarni simulyatsiya qilish jarayonida turli siyosiy kuchlarning manfaatlarini anglaydilar va bu jarayonlarda qanday qarorlar qabul qilish kerakligini muhokama qiladilar. [5]

Adabiyotda. Simulyatsiya jarayonida talabalar qahramonlarning holatlarini "jonli" tasavvur qilib, ularning tanlovlari va oqibatlari haqida mulohaza yuritadilar. Masalan, asardagi qahramonning qarama-qarshi tomonlarning nuqtai nazarini tushunishga harakat qilish jarayoni simulyatsiya qilinadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarini o‘rganishda talabalar Otabekning qarorlari va ularning jamiyatga ta’sirini modellashtiradilar.

3. Hayotiy tadqiqotlar. Hayotiy tadqiqotlar vitagen texnologiyasining eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarga o‘z mahalliy jamiyatidagi voqea va jarayonlarni o‘rganish imkonini beradi. Bu jarayon yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat va milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantiradi.

Gumanitar fanlarda. Gumanitar fanlarda hayotiy tadqiqotlar talabalarning o‘z mahalliy jamiyatidagi ijtimoiy va madaniy jarayonlarni o‘rganishini qamrab oladi. Bu ularga o‘z bilimlarini nazariy asoslar bilan bog‘lash imkoniyatini yaratadi. Masalan, madaniyatshunoslik fanini o‘qitishda talabalar mahalliy festivallar, san’at ko‘rgazmalari yoki tarixiy meros haqida tadqiqot o‘tkazadilar va ularni jahon madaniyati bilan taqqoslaydilar.

Madaniyatshunoslikda. Talabalar mahalliy madaniy voqealarni tadqiq qilib, ularning milliy va global madaniyatdagi ahamiyatini o‘rganadilar. **Masalan, t**alabalar o‘z hududlaridagi folklor an’analarini o‘rganib, ularni boshqa mintaqalarning folklor an’analari bilan taqqoslaydilar. Bu jarayonda talabalar milliy qadriyatlarni anglash va ularni saqlash muhimligini chuqurroq tushunadilar.

Vitagen texnologiyalari gumanitar fanlarda ta’lim jarayonini jonli, amaliy va shaxsiy qilib, talabalarni o‘z bilim va tajribalarini boyitishga undaydi. Loyiha asosida o‘qitish, simulyatsiyalar va hayotiy tadqiqotlar kabi vitagen vositalar yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishda katta samara beradi. Ushbu texnologiya talabalarni ta’lim jarayonining markaziy ishtirokchisiga aylantirib, bilimlarni nazariyadan amaliyotga yaqinlashtiradi. [6]

Vitagen texnologiyalari gumanitar fanlarda ta’lim jarayonini faol, amaliy va shaxsiy qilish imkoniyatini yaratadi. Bu yondashuv bilimlarni shaxsiy hayotiy tajribalarga bog‘lash orqali talabalarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishini va ijtimoiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq, vitagen texnologiyalaridan samarali foydalanishda ayrim cheklovlar va kamchiliklar ham mavjud.

Vitagen ta’lim usullarining afzalliklari va cheklovlari.

Afzalliklari:

1. **Shaxsiylashtirilgan ta’lim**: Vitagen texnologiyalari ta’lim jarayonini shaxsiy tajribaga asoslangan holda tashkil qilib, har bir o‘quvchining o‘ziga xosligini hisobga oladi.

2. **Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish**: Vitagen yondashuv talabalardan voqealarni tahlil qilish va ularni hayotiy misollar bilan bog‘lashni talab qiladi, bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

3. **Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim**: Ta’lim jarayonida nazariya amaliyot bilan uyg‘unlashtiriladi, bu esa talabalarni mutaxassis sifatida rivojlantiradi.

4. **Ijodiy yondashuvni qo‘llab-quvvatlash**: Loyiha, simulyatsiya va tadqiqotlar yordamida talabalarning ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Cheklovlari:

1. **Shaxsiy tajriba cheklanganligi**: Barcha talabalarda ham yetarli hayotiy tajriba bo‘lmasligi mumkin, bu esa vitagen texnologiyalarining samaradorligini pasaytiradi.

2. **Pedagoglarning tayyorligi**: Vitagen texnologiyalarini joriy qilish uchun pedagoglardan yangi metodlarni o‘zlashtirish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash talab etiladi.

3. **Vaqt va resurslar tanqisligi**: Loyiha va simulyatsiya kabi vitagen vositalarni tatbiq etish ko‘p vaqt va moddiy resurslarni talab qiladi [7].

Talabalarning hayotiy tajribalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari:

1. **Shaxsiy esseler va mulohazalar.** Talabalardan o‘quv materiallarini o‘z hayotidagi misollar bilan bog‘lash va shaxsiy esse yozish talab etiladi. Masalan, adabiyotda qahramonlarning qarorlarini o‘z shaxsiy hayotidagi holatlar bilan taqqoslab tahlil qilish ularning bilimni o‘zlashtirish jarayonini chuqurlashtiradi.

2. **Guruhli muhokamalarda tajriba almashish.** Talabalar o‘z shaxsiy tajribalarini guruhda muhokama qilib, boshqa talabalarning qarashlari bilan bog‘laydilar. Bu interfaol usul ta’lim jarayonini boyitadi va ularning ijtimoiy aloqalarini rivojlantiradi.

3. **Loyihalar va hayotiy tadqiqotlar.** Talabalar o‘z mahalliy jamiyatidagi ijtimoiy yoki madaniy jarayonlarni o‘rganish va ularni ta’lim mavzulari bilan bog‘lash imkoniga ega bo‘ladilar. Masalan, mahalliy festivallarni tadqiq qilish yoki o‘ziga xos tarixiy voqealarni yoritish ularning bilimlarini yanada chuqurlashtiradi.

Vitagen yondashuvni yanada samarali qilish uchun takliflar:

1. **Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash.** Virtual simulyatsiyalar, raqamli arxivlar va onlayn platformalar orqali vitagen texnologiyalarini keng joriy qilish lozim. Bu usul ta’lim jarayonini dinamik va qiziqarli qiladi.

2. **Pedagoglarni tayyorlash.** Pedagoglarni vitagen yondashuvni qo‘llash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish muhim. Bu ularning yangi metodlarni o‘zlashtirish qobiliyatini oshiradi va ta’lim jarayonini sifatli tashkil qilish imkonini beradi.

3. **Talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlash.** Vitagen texnologiyalari orqali talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun turli interaktiv vazifalar, debatlar va loyihalarni tashkil qilish tavsiya etiladi.

4. **Shaxsiy tajribani kengaytirish imkoniyatlari.** Talabalarni ko‘proq hayotiy vaziyatlarga jalb etish, jumladan, stajirovkalar, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish yoki madaniy tadbirlarda qatnashishga rag‘batlantirish kerak. [8]

Umuman, gumanitar fanlarda vitagen texnologiyalari ta’lim jarayonini yanada shaxsiy va amaliy qilib, yoshlarni ijodiy, ijtimoiy mas’uliyatli va tanqidiy fikrlaydigan shaxslar sifatida rivojlantiradi. Bu texnologiyaning afzalliklari ko‘p bo‘lsa-da, undan samarali foydalanish uchun pedagoglarni tayyorlash, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va ta’lim jarayonini moddiy-texnik qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Shu orqali vitagen texnologiyalari gumanitar fanlarning yanada samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

Vitagen texnologiyalari gumanitar fanlarning rivojida yangi bosqich sifatida. Vitagen texnologiyalari ta’lim jarayonini yanada samarali, shaxsiy va amaliy qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, gumanitar fanlarda vitagen yondashuv o‘quv jarayonini hayotiy tajribalar bilan boyitish orqali talabalarning ma’naviy va intellektual rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Bu texnologiya yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli, tanqidiy fikrlovchi va ijodiy yondashuvga ega shaxslar sifatida shakllantirish uchun qulay asos yaratadi.

Gumanitar fanlarda vitagen texnologiyalarni rivojlantirishning istiqbollari. Gumanitar fanlarda vitagen texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Innovatsion metodlarni joriy qilish**: Loyihalar, simulyatsiyalar va hayotiy tadqiqotlarni ta’lim jarayoniga keng jalb qilish fanlarni o‘qitish samaradorligini oshiradi.

2. **Fanlararo yondashuv**: Gumanitar fanlar STEM yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirilib, vitagen yondashuv orqali kengroq imkoniyatlarni yaratadi.

3. **Raqamli texnologiyalardan foydalanish**: Virtual muzeylar, raqamli arxivlar va interaktiv platforma vositasida ta’lim jarayonini yanada zamonaviy qilish mumkin.

Bu istiqbollar gumanitar fanlarning jahon miqyosidagi o‘rnini mustahkamlashga, yoshlarni globallashuv sharoitida ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi.

Ta’lim jarayonini hayotiy tajribalar bilan boyitishning ijtimoiy va madaniy ahamiyati. Vitagen texnologiyalari ta’lim jarayonini hayotiy voqealar va shaxsiy tajribalar bilan boyitishga qaratilgani sababli, ular ijtimoiy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega.

1. **Ijtimoiy ahamiyat**: Vitagen yondashuv talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, jamoaviy hamjihatlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, talabalar o‘z mahalliy jamiyatidagi ijtimoiy muammolarni tadqiq qilib, ularga yechim taklif etishlari mumkin.

2. **Madaniy ahamiyat**: Vitagen texnologiyalari orqali talabalar milliy madaniyat va tarixga chuqurroq hurmat bilan yondashadilar. Ular o‘z madaniy merosini global miqyosda tushunib, uni dunyo madaniyatiga uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Vitagen yondashuvni gumanitar fanlar orqali yoshlarni ma’naviy-axloqiy rivojlantirishda qo‘llash. Gumanitar fanlar ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Vitagen texnologiyalari bu jarayonda o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va amaliy qilish orqali yoshlarning ma’naviy rivojlanishiga qo‘shimcha turtki beradi. [9]

- **Adabiyotda**: Qahramonlarning axloqiy tanlovlari haqida muhokamalar yoshlarda axloqiy prinsiplarni shakllantiradi.
- **Tarixda**: Milliy va tarixiy xotirani o‘rganish yoshlarda vatanparvarlik va jamiyatga sodiqlik tuyg‘usini rivojlantiradi.

• **San’at va madaniyatshunoslikda**: Milliy madaniyatni chuqurroq o‘rganish yoshlarda estetik hissiyot va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Vitagen yondashuv yoshlarni axloqiy jihatdan yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli va jamiyatda o‘z o‘rniga ega shaxs sifatida tarbiyalash uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. [10]

Xulosa.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, vitagen texnologiyalarining ta’lim jarayonida loyiha asosida o‘qitish, simulyatsiyalar va hayotiy tadqiqotlar kabi vositalarni qo‘llash yoshlarning ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishga, shuningdek, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu usullar orqali ta’lim nafaqat nazariy bilim berish, balki yoshlarni o‘z hayotiy tajribalarini bilimga aylantirishga yo‘naltiradi. Vitagen texnologiyalarini samarali tatbiq qilish ta’lim jarayonini yanada boyitishga imkon beradi.

Vitagen texnologiyalari gumanitar fanlar uchun yangi bosqichni ochib, ta’lim jarayonini shaxsiy, amaliy va ijtimoiy jihatdan boyitish imkonini yaratadi. Ular yoshlarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda katta samara beradi. Bu texnologiyaning rivoji ta’lim sifatini oshirish va jamiyatning ma’naviy-axloqiy barqarorligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Брунер Ж. The Process of Education. – Harvard University Press, 1960.
2. Hobsbawm E. Nations and Nationalism since 1780. – Cambridge University Press, 1992.
3. Нуссбаум М. Not for Profit: Why Democracy Needs the Humanities. – Princeton University Press, 2010.
4. Laurillard D. Rethinking University Teaching. – Routledge, 2013.
5. Каримов Э. Адабиёт ва маънавият. – Тошкент: Фан, 1978.
6. Абдураҳмонов Қ. Миллий маданият ва таълимда инновацияларнинг ўрни. – Тошкент, 2019.
7. Абдураҳмонов Қ. Ўзбекистон таълимида миллий қадриятларнинг аҳамияти. – Тошкент, 2018.
8. Юлдошев А. Замонавий таълимда гуманитар фанларнинг роли. – Тошкент, 2020.
9. Мамадалиев Ш. Таълим ва маънавият уйғунлигида янги йўналишлар. – Тошкент, 2019.
10. Nussbaum M. Not for Profit: Why Democracy Needs the Humanities. – Princeton University Press, 2010.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yakubbayev Maqsud Marufovich
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING IJTIMOIY-SHAXSIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIDA

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamlashtirish sharoitida talabalarning ijtimoiy-shaxsiy kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy axborot texnologiyalari, masofaviy ta’lim vositalari va multimediali resurslarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi hamda bu jarayonning talabalarning shaxsiy va kommunikativ kompetensiyalariga ta’siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikning ijtimoiy, faoliyat va kommunikativ komponentlari, shuningdek, mediasavodxonlik va raqamli madaniyatni rivojlantirish metodologiyasi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-shaxsiy kompetentlik, raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, mediasavodxonlik, raqamli madaniyat, kommunikativ kompetensiya, virtual ta’lim muhiti, madaniyatlararo dialog.*

Якуббаев Максуд Маруфович
Преподаватель Наманганского государственного педагогического института

ОБ ОСОБЕННОСТЯХ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ЛИЧНОСТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация: *В статье анализируются вопросы развития социально-личностной компетентности студентов в условиях цифровизации. В исследовании научно обосновывается интеграция современных информационных технологий, средств дистанционного обучения и мультимедийных ресурсов в образовательный процесс, а также влияние этого процесса на личностные и коммуникативные компетенции студентов. Исследованы социальный, деятельностный и коммуникативный компоненты социально-личностной компетентности, а также методология развития медиаграмотности и цифровой культуры.*

Ключевые слова: *социально-личностная компетентность, цифровизация, информационные технологии, медиаграмотность, цифровая культура, коммуникативная компетенция, виртуальная образовательная среда, межкультурный диалог.*

Yakubbayev Maksud Marufovich
Teacher at Namangan State Pedagogical Institute

ON THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SOCIAL-PERSONAL COMPETENCE IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION

Abstract: *This article analyzes issues related to the development of students’ social-personal competence in the context of digitalization. The study provides scientific substantiation for the integration of modern information technologies, distance learning tools, and multimedia resources into the educational process, as well as the impact of this process on students’ personal and communicative competencies. The social, activity, and communicative components of social-personal competence are investigated, along with the methodology for developing media literacy and digital culture.*

Keywords: *social-personal competence, digitalization, information technologies, media literacy, digital culture, communicative competence, virtual learning environment, intercultural dialogue.*

Jamiyatning axborotlashuvi sharoitida kompyuter texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalari insonning ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy yosh insonning kundalik hayoti ijtimoiy tarmoqlar, internet texnologiyalari, turli media resurslar va videoblogglar, tezkor xabar almashish tizimlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Hozirgi vaqtda talabalarning ijtimoiy-shaxsiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb bo‘lib bormoqda. Ye.A.Proxorova ijtimoiy-shaxsiy kompetentligini “talabaning ijtimoiy-kasbiy

kompetentligining tarkibiy qismi bo‘lgan integrativ shaxsiy rivojlanish” deb ta’riflaydi, u “talabaning hayot faoliyatining barcha jabhalarida qadriyatlarni amalga oshiruvchi kompetensiyalar tizimini o‘z ichiga oladi, xususan, o‘zini raqobatbardosh mutaxassis va Rossiya fuqarosi sifatida anglash, shuningdek, ijtimoiy-kasbiy rivojlanish va o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarini” [18, 203 b.]. Ushbu kompetensiyalar umummadaniy, universal va ko‘p funksiyali xarakterga ega bo‘lib, keng ko‘lamli kasbiy vazifalarni samarali bajarishni belgilaydi.

I.A.Zimnyayaning tasnifiga ko‘ra quyidagi kompetensiyalar mavjud:

– “shaxs sifatida o‘ziga nisbatan bo‘lgan kompetensiyalar“;

– “insonning boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatiga oid kompetensiyalar”;

– “inson faoliyatiga oid, uning barcha turlari va rivojlarida namoyon bo‘ladigan kompetensiyalar” [9, 16-31.].

Ushbu tasnifga asoslanib, bo‘lajak mutaxassis shaxsining quyidagi komponentlarini ajratish mumkin:

- ijtimoiy komponent (axborotni qabul qilish madaniyati, axborot madaniyati);
- faoliyat komponenti (loyiha va tarmoq faoliyati madaniyati);
- kommunikativ komponent (muloqot madaniyati, madaniyatlararo dialog).

Ijtimoiy komponent (axborotni qabul qilish madaniyati, axborot madaniyati):

Axborot madaniyati tushunchasi zamonaviy jamiyatda shaxsning ma’lumotlar bilan o‘zaro aloqasi va ularni qayta ishlash tizimini ifodalovchi ko‘p qirrali fenomen sifatida qaraladi. N.I.Gendina [6] ta’kidlashicha, “axborot madaniyati - bu shaxsning axborotni izlash, tanqidiy baholash va undan axloqiy jihatdan foydalanish qobiliyati bo‘lib, u ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismidir“.

Axborotni qabul qilish madaniyati“kognitivli filtratsiya,, va “informatsion immunitet,, tushunchalari bilan bog‘liqdir. M.Castellsning [2] fikricha, “tarmoq jamiyatida axborotni qabul qilish madaniyati - bu nafaqat ma’lumotni idrok etish, balki uning legitimligini tekshirish, kontekstlashtirish va ijtimoiy ma’nolarini anglash jarayonidir,,.

O.V.Zimnina [8] ta’kidlashicha, “zamonaviy axborot madaniyati paradigmasi shaxsning ijtimoiy-kommunikativ maydondagi pozitsiyasi va identifikatsiyasini belgilovchi kognitivli mexanizmlar majmuini o‘z ichiga oladi,,. Bu nuqtai nazardan, axborot madaniyatining ijtimoiy komponenti individning axborot oqimlari bilan o‘zaro aloqasi natijasida rivojlangan “ijtimoiy-kognitivli konstruktlar,, tizimini ifodalaydi.

L.G.Burchinal [1] axborot madaniyatining “ijtimoiy-refleksiv,, modelini taklif etadi: “Axborot madaniyati - bu individning ma’lumotlar bilan o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy tajriba va kognitivli stsenariylar to‘plamidir”.

T.A.Kolesnikova [14] erishgan natijalar asosida axborot madaniyatining "multimodal transdistsiplinar xarakterga ega ekanligi va u informatsion ekosistemaning barcha darajalarida namoyon bo‘lishi" haqidagi kontseptsiyani rivojlantirdi.

Faoliyat komponenti (loyiha va tarmoq faoliyati madaniyati):

Zamonaviy axborot madaniyatining faoliyat komponenti – bu shaxsning raqamli muhitda samarali loyiha va tarmoq faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. I.V.Karpenko [11] ta’kidlashicha, "tarmoq faoliyati madaniyati – bu shaxsning virtual maydonda hamkorlik qilish, loyihalashtirish va kommunikativ amallarni amalga oshirish jarayonida rivojlangan sinergetik tizimdir".

Tarmoq faoliyati madaniyati “kollaborativ intellekt“ va “tarmoqli kognitiologiya“ tushunchalari bilan bevosita bog‘liqdir. H.Rheingoldning [3] tadqiqotlariga ko‘ra, “tarmoqli madaniyat paradigmasida individ nafaqat axborot iste'molchisi, balki kontentni yaratuvchi sifatida namoyon bo‘ladi,,.

Loyiha faoliyati madaniyati haqida so‘z yuritganda, M.G.Leontiyev [16] “raqamli loyihalashtirish kompetensiyalari tizimi – bu shaxsning virtual loyiha maydonlarida maqsadli transformativ ta’sir ko‘rsatish, ma’lumotlarni strukturalashtirish va modellashtirish qobiliyatlari majmuidir“ degan xulosaga keladi.

A.S.Gubanova [7: 45-59] tarmoq faoliyati madaniyatining multidimensional modelini taklif etadi: "Bu model vertikal (shaxsning virtual tadqiqot va ijodiy amallar tizimi) va gorizontal (tarmoqli kommunikativ jarayonlar) vektorlarni o‘z ichiga olgan holda, 'kiberkompetensiya taksonomiyasi'ni ifodalaydi".

Zamonaviy olimlar fikricha, faoliyat komponenti "mediapraktika", "proyektiv refleksiya" va "giperadaptatsiya" imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. N.L.Sokolova [21] ta’kidlashicha, "loyiha va tarmoq faoliyati madaniyati – bu zamonaviy shaxsning kognitiv va instrumental-praktik ko‘nikmalarini sintezlash natijasida vujudga kelgan 'informatsion-dinamik konstanta’dir".

E.V.Batuyeva [4] o‘z tadqiqotlarida "raqamli interfaolllik", "kiberloyihalashtirish" va "virtual faoliyat metodologiyasi" tushunchalarini faoliyat komponentining muhim kategorial apparati sifatida tahlil qilgan va "tarmoqli amallar madaniyatining transdistsiplinar xususiyatlarini" aniqlagan.

Kommunikativ komponent (muloqot madaniyati, madaniyatlararo dialog):

Zamonaviy axborot jamiyatida kommunikativ komponent axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. A.V.Sokolov [20:12-27] ta’kidlashicha, "kommunikativ madaniyat – bu individning turli axborot kanallari va platformalari orqali samarali, kontekstual va

etik asoslangan muloqot o‘rnatish qobiliyatini ifodalovchi integratisional tushunchadir".

Madaniyatlararo dialog kontekstida, O.V.Porshnev [17] "transkultural kommunikatsiya" tushunchasini rivojlantiradi va uni "zamonaviy raqamli jamiyatda etnik, ijtimoiy va madaniy chegaralardan o‘tadigan universal semiotik kodlar tizimi" sifatida ta’riflaydi. Uning fikriga ko‘ra, "virtual kommunikativ makonda madaniyatlararo dialogning yangi paradigmasi rivojlanmoqda, bu esa 'geterogen semantik maydon' va 'transkultural mediatsiya’ singari yangi fenomenlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda".

L.V.Kulikova [15] kommunikativ komponentning tuzilishini o‘rganib, "diskursiv kompetensiya", "sotsiopragmatik sensitivlik" va "semiotik universallik" tushunchalarini ajratib ko‘rsatadi. Olima shunday yozadi: "Raqamli muhitda muloqot madaniyati transformatsiyaga uchraydi va 'gibrid kommunikativ strategiyalar' hamda 'multikodli kommunikativ amallar' tizimini rivojlantiradi".

N.Z.Umarovaning [24] tadqiqotlarida "madaniyatlararo dialog jamiyatning axborotlashuvi sharoitida 'transkodifikatsiya’ va 'kognitiv adaptatsiya’ jarayonlari orqali amalga oshirilishi" qayd etiladi. Shu bilan birga, "virtual kommunikativ maydonda madaniyatlararo muloqot yangi 'diskursiv konfiguratsiyalar' va 'integrativ semantik konstruksiyalar' orqali ifodalanadi".

V.A.Zolotuxin [10:87-103] kommunikativ komponentning evolyutsiyasini o‘rganib, "postfigurativ kommunikativ madaniyat" tushunchasini taklif etadi va "zamonaviy axborot jamiyatida muloqot madaniyati ko‘p qatlamli, polimodal va transsemantik xarakterga ega bo‘lib, 'kommunikativ tranzitivlik' va 'diskursiv mobil'nost' uning asosiy xususiyatlari hisoblanadi" degan xulosaga keladi.

R.U.Galimova [5] axborot madaniyatining kommunikativ komponentini "dialogik intellekt" nazariyasi doirasida tahlil qilib, "raqamli kommunikativ fazoda madaniyatlararo dialog shaxsning 'sotsiosemiotik kompetensiyasi' va 'metakommunikativ refleksiyasi' orqali amalga oshiriladi" degan tezisni ilgari suradi.

«Ijtimoiy-madaniy faoliyat» tushunchasiga murojaat qilamiz. Bu tushuncha «jamiyat va uning ijtimoiy institutlari tomonidan boshqariladigan insonni madaniyatga jalb qilish va insonning bu jarayonga faol ishtirokini ta’minlovchi jarayon» deb izohlanadi [23:25-39]. Ushbu tushunchaning mohiyatini ochib berishda O.V. Tuguzbayevaning [22: 800-802] til va madaniyat o‘zaro munosabatini o‘rgangan tadqiqotiga e’tibor qaratamiz. Ona tili xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini, xalqning ma’naviy madaniyati bilan bog‘liqligini aks ettiradi va madaniy-tarixiy ma’lumotlarni uzatadi. Har bir xalqning tili orqali uning dunyoqarashi — madaniyati, xulq-atvor normalari, tilning milliy xususiyatlari aks etadi.

Lingvistikada madaniyatlararo muloqot an’anaviy tarzda quyidagicha ta’riflanadi: «turli tillarda so‘zlashuvchi va turli madaniyatlarga mansub kishilar o‘rtasidagi muloqot kontekstlarini, ya’ni har xil diskursiv amaliyotlarning vaqt davomida yuzaga kelgan bevosita va bilvosita rivojlarini ifodalovchi usullar majmuasi» [13:292]. Axborot jamiyati sharoitida nutq va madaniyat qadriyatlari, xususan, audiovizual media (televideniye, kino, raqamli san’at) orqali uzatilmoqda. Bunday vositalarning asosiy xususiyatlari ommaviylik va kirish imkoniyatining yuqoriligidir. Tadqiqotchilar izohlaganidek, «bu holat ekranning hozirda madaniy mahsulotlarning asosiy uzatuvchisi sifatida rivojlanganligi, bu mahsulotlar esa shaxsning identitetini, qadriyatlarini va ma’nolarini turli kommunikatsiya vositalari orqali rivojlantirayotgani bilan bog‘liq» [13:292]. N.B. Kirillova media vositalarni «madaniy kodlar ishlab chiqariladigan, estetik jihatdan qayta ishlanadigan va uzatiladigan muhit» deb tavsiflaydi [12:496].

Shu asosda quyidagi ijtimoiy-madaniy faoliyat turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

— ilmiy-amaliy konferensiyalar, munozaralar va seminarlar uchun ma’ruzalar, tezislar va axborotlar tayyorlash, shu jumladan sinkron interaktiv videokonferensiya rivojida; bu jarayon kognitivli artikulyatsiya, kommunikativ reprezentatsiya va diskursiv modellashtirish orqali amalga oshadi;

— ilmiy-izlanish va axborotga oid mediaproektlarda ishtirok etish; bu kolloborativ epistemik faoliyat, transdistsiplinar kooperatsiya va sotsio-intellektual sinergiya mexanizmlarining integratsiyasini talab etuvchi semistrukturlashgan kognitivli jarayondir;

— elektron o‘quv resurslari, pedagogik dasturiy vositalar bilan mustaqil ishlash; bu faoliyat avtonomli kognitiologiya, individual konstruktivistik o‘zlashtirish paradigmasi va multimodal interfaollik strategiyalarini o‘z ichiga oladi, hamda kiberpedagogik kompetensiyalar rivojlanishiga olib keladi;

— ta’lim muhitida madaniyatlararo muloqotga kirishish; bu jarayon transkultural intelligentlik, sotsiosemiotik transduksiya va intersubyektiv kommunikativ maydonda dialogik refleksivlik asosida amalga oshadi, bu esa akseleratisional akkultiratsiya va geterogen kommunikativ amallar integratsiyasini ta’minlaydi.

Bu ijtimoiy-madaniy faoliyat turlari multikomponentli informatisional metakompetensiyalar rivojlanishiga, shuningdek, transkomunikativ savodxonlik va sotsioinformatsion refleksiv ko‘nikmalar rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida bu faoliyatlar polidiskursiv kognitivli diversifikatsiya va integratsional madaniy polifoniya jarayonlarini tezlashtiradi.

Zamonaviy axborot jamiyati ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining shaxsga ko‘rsatadigan ta’sirini anglamoqda. Shu sababli, A.V.Sharikov tomonidan ilgari surilgan media ta’limning sotsiomadaniy kontsepsiyasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu

kontsepsiyaning asosiy qoidalaridan kelib chiqib, ijtimoiy-madaniy faoliyat turlariga ayrim media ta'lim faoliyat turlarini ham qo'shish zarur, deb hisoblaymiz. Massoviy kommunikatsiya jarayonlarini tushunish, shaxsning media madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi faoliyat turlariga e'tibor qaratish lozim: masalan, «turli ko'rinish va janrdagi mediamatnlarni tanqidiy tahlil qilish va muhokama etish».

«O'zining mediamatnlarini yaratish va tarqatish» [25:616] ya'ni mediaijodkorlik. Biz o'z tadqiqotimizda media ta'lim va shaxsning mediakompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy ishlarga tayandik.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyatning talabalarning individual ehtiyojlariga bog'liqligini alohida ta'kidlash lozim. Shu munosabat bilan, E.M. Sartakova [19:35] tomonidan belgilangan ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish tamoyillarini muhim deb hisoblaymiz: «talabaning shaxsini uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish, talabaning mustaqil faoliyati, ijtimoiy-kasbiy yo'nalish va fanlararo integratsiya, o'quv dasturlarining modulligi, hamkorlik» Bizningcha, aynan hamkorlik jarayonida talabada o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini anglash va o'zini namoyon qilish imkoniyati yuzaga keladi, kelajakdagi mutaxassisning shaxsiy pozitsiyasi faollashadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatni samarali amalga oshirishning innovatsion metodologiyalari va texnologik yondashuvlari sifatida quyidagi tizimli strukturalarni alohida ta'kidlash mumkin: virtual kommunikativ maydonlarda multimodal interaktiv munozaralar, "dumaloq stol" formatidagi intellektual diskussiyalar, pedagogik salonlarni tashkil etish va boshqarish strategiyalarining raqamli transformatsiyasi; zamonaviy mediaresurslardan integral foydalanishga asoslangan kollaborativ loyihalashtirish metodologiyasi; mediamatnlarning semiotik, struktural va kontekstual analitikasi, diskursiv tahlil va kognitiv interpretatsiya texnologiyalari.

Bizning ilmiy-pedagogik konsepsiyamizga ko'ra, talabalarning orijinal mediamatnlarni generatsiya qilish va ularning funksional-semantik maydonini rivojlantirish jarayoni yuqori darajali didaktik potensialga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarning lingvistik, kommunikativ va semiotiik kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda o'quv-bilish faoliyatiga bo'lgan motivatsion mexanizmlarini kuchaytiradi, chunki bu jarayon ularning individual kognitivli strategiyalari va kreativ ustanovkalarini to'liq aktuallashtirishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, zamonaviy mutaxassisning ijtimoiy-shaxsiy kompetensiya spektrini formatsiyalash jarayoni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyalashgan sistemasi orqali ijtimoiy-madaniy aktivlikning turli sohalarida amalga oshiriladi. Empirik kuzatishlar va nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, global raqamli tarmoq infrastrukturasi, multimedia applikatsiyalari va telekommunikativ videokonferensiya servislaridan foydalanish ta'lim muhitidagi didaktik munosabatlar arxitekturasini sezilarli darajada transformatsiyalaydi va pedagogik jarayonda o'qituvchi-talaba dyada sistemasidagi kommunikativ vertikal va horizontal aloqalarni qayta konfiguratsiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Burchinal L.G. (2016). "The Communications Revolution: America's Third Century Challenge". College Park: University of Maryland Press.
2. Castells M. "The Rise of the Network Socivety". Oxford: Wiley-Blackwell. 2010.
3. Rheingold H. "Net Smart: How to Thrive Online". Cambridge: MIT Press. 2012.
4. Батуева Э.В. "Методология сетевой деятельности в контексте трансформации образовательной парадигмы". 2023, Новосибирск: НГУ.
5. Галимова Р.У. "Диалогические практики в современном информационном пространстве". 2023, Самарканд: СамГУ.
6. Гендина Н.И. "Информационная культура личности: диагностика, технология формирования". 2009, Москва: МГУКИ.
7. Губанова А.С. "Формирование сетевой культуры в информационном обществе". Вестник РГГУ: Серия Информатика, 2019, 4(12), 45-59.
8. Зимнина О.В. "Социокультурное аспекты информационной культуры в современной образовательной среде". 2014, Вестник РУДН, 3, 76-84.
9. Зимняя И.А. Компетенция и компетентность в контексте компетентностного подхода в образовании // Ученые записки национального общества прикладной лингвистики. 2013. № 4(4). С. 16-31.
10. Золотухин В.А. "Эволюция коммуникативной культуры в контексте цифровизации". Культурологический журнал, 2022, 2(44), 87-103.
11. Карпенко, И.В. "Сетевая культура и проектная деятельность в информационном пространстве". 2017, Москва: МСУ.
12. Кириллова Н.Б. Медиакультура: теория, история, практика: учебное пособие. М.: Академический Проект; Культура, 2008. 496 с.

13. Кириллова Н.Б., Зубанова Л.Б., Синицкий С.Б. [и др.]. Информационная эпоха: новые парадигмы культуры и образования / Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2019. 292 с.

14. Колесникова Т.А. "Информационная культура в современном обществе: когнитивные и социальные аспекты". 2018, Санкт-Петербург: СПбГУ.

15. Куликова Л.В. "Дискурсивные аспекты коммуникативной культуры в информационном обществе". 2017, Красноярск: СФУ.

16. Леонтиев М.Г. "Проектная культура в цифровую эпоху: методологические основания". 2016, Санкт-Петербург: ИТМО.

17. Поршнев О.В. "Межкультурный диалог в цифровую эпоху: трансформация коммуникативных практик". 2018, Москва: РГГУ.

18. Прохорова Е.А. Формирование социально-личностной компетентности студентов в процессе культурно-досуговой деятельности: дисс… … канд. пед. наук: 13.00.05. Казань, 2016. 203 с.

19. Сартакова Е.М., Шахматова О.Н. Формирование и развитие социально-личностных компетенций студентов экономических специальностей: монография. Челябинск: Изд-во ЮУрГУ, 2009. 79 с., 35-б.

20. Соколов А.В. "Коммуникативная культура в структуре информационной культуры личности". Вестник СПБГУ Культуры, 2015, 3(24), 12-27.

21. Соколова Н.Л. "Цифровая активность и проектная культура: интегративный подход". 2021, Москва: Инфра-М.

22. Тугузбаева О.В. Отражение национально-культурных особенностей народов Республики Башкортостан в гидронимах Бирского района // Вестник Башкирского университета. 2011. Т. 16. № 3. С. 800-802.

23. Туев В.В. Социально-культурная деятельность как понятие (включение в дискуссию) // Ученые записки / Под науч. ред. Т.Г. Киселевой, В.И. Черниченко, Н.Н. Ярошенко. М.: МГУКИ, 2001. Вып. 23. С. 25-39. 39-б.

24. Умарова Н.З. "Межкультурное взаимодействие в условиях информатизации: социокультурный анализ". 2020, Ташкент: УЗНУ.

25. Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. М.: Изд-во МОО ВПП ЮНЕСКО «Информация для всех», 2007. 616 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jamolov Anvar Kuchkorovich
Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi
jamolov_anvar@mail.ru

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IMKONIYATLARINING TIBBIY TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, xususan interfaol vositalarning joriy etilishi va ularning ta'lim sifati hamda baholash jarayonlariga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli o'quv platformalari, simulyasion markazlar, avtomatlashtirilgan test tizimlari va chuqur o'quv algoritmlarining amaliy qo'llanilishi orqali talabalar bilimini chuqur egallashi, baholashning xolisligi va tibbiy ko'nikmalarning mustahkamlanishi ta'minlanmoqda. Shuningdek, texnik infratuzilma, raqamli savodxonlik va pedagog kadrlar malakasi bilan bog'liq muammolar ham yoritilib, ularni hal etish bo'yicha takliflar bildiriladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, interfaollik, tibbiy ta'lim, baholash tizimi, simulyasiya, avtomatlashtirish, raqamli kompetensiya.*

Жамолова Анвара Кучкаровича
независимого исследователя
Института развития профессионального образования

ВЛИЯНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ВЫСОКОТЕХНОЛОГИЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *В статье рассматривается влияние цифровых технологий, особенно интерактивных инструментов, на качество медицинского образования в Узбекистане. Анализируется внедрение цифровых платформ, симуляционных центров и автоматизированных систем оценки, а также их роль в развитии профессиональных навыков студентов. Подчеркивается значение цифровой грамотности преподавателей и технической инфраструктуры. Также приводятся предложения по преодолению существующих проблем и повышению эффективности цифровой интеграции в медицинское образование.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, интерактивность, медицинское образование, система оценки, симуляция, автоматизация, цифровая компетентность.*

Jamolov Anwar Kuchkarovich
independent researcher of the
Institute for the development of professional education

INFLUENCE OF THE CAPABILITIES OF HIGH-TECHNOLOGY TECHNOLOGIES ON THE QUALITY OF EDUCATION

Abstract: *This article examines the impact of digital technologies, particularly interactive tools, on the quality of medical education in Uzbekistan. It analyzes the implementation of digital learning platforms, simulation centers, and automated assessment systems, emphasizing their role in enhancing students' knowledge acquisition, objective evaluation, and clinical skill development. The study also highlights challenges such as technical infrastructure limitations, low digital literacy, and the need for teacher training, offering practical solutions to improve digital integration in medical education.*

Keywords: *digital technologies, interactivity, medical education, assessment system, simulation, automation, digital competence.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda sog'liqni saqlash va tibbiy ta'lim tizimini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" doirasida tibbiyot texnikumlari va oliy tibbiy ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, tibbiy simulyasion markazlar tashkil etish va raqamli o'quv platformalarini amaliyotga keng tatbiq etish

rejalashtirilgan. Bugungi kunda “Medlink.uz”, “ZiyoNET”, shuningdek, elektron darsliklar, interaktiv testlar va simulyasion dasturlar orqali tibbiy bilim va ko‘nikmalarni uzatish amaliyoti joriy etilmoqda. Ushbu jarayonlar fonida raqamli texnologiyalarning, ayniqsa interfaol imkoniyatlarga ega vositalarning tibbiy ta’lim sifatiga ta’siri dolzarb ilmiy-tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Interfaol elektron resurslar, avtomatlashtirilgan test tizimlari va chuqur o‘quv algoritmlarining baholashdagi qo‘llanilishi, talabalarning tahliliy fikrlashini rivojlantirishga va kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, texnik infratuzilmani takomillashtirish va baholashning ob’ektivligini ta’minlash muhim vazifalar qatoriga kiradi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tibbiy ta’lim tizimida raqamli yondashuvlarning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda tibbiyot sohasining raqamlashuvi nafaqat tibbiy xizmat ko‘rsatishda, balki kadrlar tayyorlash jarayonida ham innovasion yondashuvlarni talab etmoqda. Bu jarayon tibbiy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni samarali joriy etishni, IT-kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi[1]. Tibbiy muassasalarda IT mutaxassislarining ishtiroki raqamli savodxonlikni tibbiy ta'limga integrasiya qilishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu talabalarni zamonaviy tibbiyotning texnologik talablariga tayyorlashda muhimdir.

Tibbiy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish bir qator ustunliklarni taqdim etadi:

- Interaktiv o‘quv materiallari, elektron kitoblar, testlar va multimedia resurslar orqali bilimlarni chuqur o‘zlashtirish ta'minlanadi. Elektron kitoblar va multimedia resurslar turli o‘quv uslublariga moslashuvchan va interaktiv o‘quv muhitini yaratadi. Ular talabalarga materiallarni o‘z templarida o‘rganish imkonini beradi, bu ayniqsa tibbiy ta'lim kabi murakkab fanlar uchun juda foydali. Vizual ko‘rsatmalar va interaktiv kontentdan foydalanish ma'lumotlarni tushunish va eslab qolishni yaxshilashda katta ahamiyatga ega [2].
- Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari talabalar bilimlarini aniq, tez va xolis baholash imkonini yaratadi. Tibbiyot texnikumlari uchun avtomatlashtirilgan test tizimlari talabalarning bilim darajasini aniq baholash imkonini beradi [3]. Onlayn baholash, ayniqsa ko‘p tanlovli savollar (MCQ), akademik natijalarni prognoz qilishda samarali ekanligi ko‘rsatilgan. Ular an'anaviy usullarga nisbatan ko‘proq moslashuvchanlik va qulaylikni ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan testlar yig‘ish (ATA) yondashuvlari bu baholashlarning samaradorligi va aniqligini oshiradi, statistik va mazmun standartlariga muvofiqlikni ta'minlaydi.[4] Ayniqsa, MCQ turdagi testlar va ATA yondashuvlari ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.
- Ovozni matnga aylantirish texnologiyasi va Excel orqali avtomat-lashtirilgan ko‘p tanlovli savollarni baholash tizimlari baholash vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va aniqlikni ta'minlaydi. Bu katta guruhlar bilan ishlashda resurs cheklovlarini kamaytiradi [5]. Shuningdek, qisqa javobli savollarni baholashda inson omilidan ko‘ra ob'ektiv va barqaror natijalarni ta'minlaydigan chuqur o‘quv (DL) texnikasidan foydalaniladi. Ovozni matnga aylantirish, Excel asosida avtomatlashtirilgan tahlil, va chuqur o‘quv (Deep Learning) usullari baholashda inson omilini kamaytiradi hamda xolislikni ta'minlaydi [6].
- Baholashni boshqarish tizimlari ta'lim jarayonini kuzatish va baholashni birlashtirib, shaffoflik va ishonchlilikni oshiradi [7].

Interaktiv materiallar va ob'ektiv baholash tizimlari tibbiy ta'limda ko‘plab afzalliklarni taklif etsa-da, ularni amaliyotga samarali joriy qilishda ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, talabalar texnologiyalar bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishi yoki onlayn baholashning an'anaviy formatlar bilan taqqoslanganda xolisligiga shubha qilishlari mumkin. Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlarni rivojlantirish tibbiy ta'lim baholash jarayonining murakkabligini samarali hal qilish uchun doimiy tadqiqot va rivojlantirishni talab etadi.

Interaktiv materiallar va ob'ektiv baholash tizimlari tibbiy ta'limning sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilib, baholash jarayonining xolisligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Biroq, texnologiyalarni an'anaviy ta'lim qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirish orqali ta'limning sifati va yaxlitligini saqlash juda muhim. Bu tibbiy ta'limda barqaror rivojlanish va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

Tibbiy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni samarali joriy etishda bir qator muammolar mavjud:

- Texnik va moliyaviy muammolar. Simulyasiya laboratoriyalari uchun yuqori xarajat, til to‘siqlari, raqamli savodxonlik etishmasligi.
- Pedagoglarni tayyorlash. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha malaka etishmasligi.

Ushbu muammolarni davlat-xususiy hamkorlik, xalqaro grantlar, o‘qituvchilar uchun qayta tayyorlash kurslari, texnik infratuzilmani yaxshilash orqali echish mumkin.

Tibbiy ta'limda raqamli texnologiyalar bo‘yicha asosiy jihatlar

Kategoriya	Tafsilotlar	Misollar/ Manbalar

Texnik, moliyaviy va joriy etish muammolari	Tibbiyot texnikumlarida zamonaviy raqamli texnologiyalar cheklangan, virtual laboratoriyalar yuqori xarajat talab qiladi, til to‘siqlari va raqamli savodxonlik etishmasligi mavjud. Echimlar: Davlat-xususiy hamkorlik, xalqaro grantlar, resurslardan umumiy foydalanish markazlarini tashkil etish.	Qishloq tibbiyot texnikumlarida davlat-xususiy tashabbuslar, xalqaro grantlar.
O‘qituvchilar tayyorgarligi va kasbiy kompetensiya-lar	Raqamli vositalardan foydalanish va jamoaviy ish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus o‘quv kurslari zarur. Echimlar: Seminar va treninglar o‘tkazish, metodik qo‘llanmalar tayyorlash.	Raqamli ta'lim vositalari bo‘yicha o‘qituvchilarga seminarlar, jamoaviy ish mashg‘ulotlari.
Raqamli texnologiya-larning afzalliklari	Tanqidiy fikrlash, texnik ko‘nikmalar va moslashuvchanlikni rivojlantirish. Raqamlashgan tibbiyot muhitiga tayyorgarlikni ta'minlaydi.	Raqamli ta'lim dasturlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.
Interaktiv materiallar	Elektron kitoblar, multimedia resurslar va onlayn baholashlar interaktiv muhit yaratadi. Masalan: Google Classroom, Zoom.	Google Classroom va Coursera kabi interaktiv platformalar.
Virtual laboratoriyalar	Haqiqiy tibbiy jarayonlarni simulyasiya qilib, xavfsiz muhitda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.	In'eksiyalarni amalga oshirish uchun simulyasiya modellari.

Mazkur jadval tibbiy ta'limda raqamli texnologiyalarning joriy etilishidagi asosiy jihatlarni yo‘nalishlarga bo‘lib yoritadi. Bunda raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim jihatlarni aniqlashtirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar tibbiyot texnikumlari talabalarining bilim va ko‘nikmalarini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi shubhasiz. Ular to‘g‘ri tatbiq etilganda ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Tibbiyot kollejlarida raqamli texnologiyalarning integrasiya qilinishi innovasion kasbiy faoliyatni rivojlantirishda katta imkoniyatlarni ochadi. Biroq, bu jarayon samarali bo‘lishi uchun pedagogik, metodik va xavfsizlik jihatlariga etarli e'tibor berish zarur. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni tibbiy ta'limga integrasiya qilish talabalarning kasbiy tayyorgarligini yangi darajaga olib chiqish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Har qanday vaziyatda texnik infratuzilmani rivojlantirish, pedagoglarni tayyorlash va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kabi masalalar hal etilishi lozim. Shuningdek, raqamli vositalardan samarali foydalanish talabalarning innovasion bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga yordam beradi. Ushbu yondashuv, an'anaviy ta'lim bilan uyg‘un holda qo‘llanilganda, yuqori sifatli va samarali ta'lim jarayonini ta'minlashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri tatbiq etish orqali tibbiyot sohasida etuk va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

Tibbiyot texnikumlari talabalarini innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish zarur. Buning uchun:

1.Zamonaviy raqamli platformalar va simulyasion texnologiyalarni keng joriy etishga e'tibor qaratish lozim.

2.Texnikumlarda pedagoglarning raqamli ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar yaratilishi zarur.

3.Barcha tibbiyot texnikumlarida texnik infratuzilmani takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar, xususan interfaol o‘quv vositalari, elektron baholash tizimlari va simulyasion platformalar tibbiy ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu vositalar yordamida talabalarning mustaqil ta’lim olishi, amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz muhitda rivojlantirishi, bilimlarning aniqligi va ob’ektiv baholanishi ta’minlanadi. Shu bilan birga, baholashda inson omilining kamayishi, raqamli resurslarga erkin kirish imkoniyati va tanqidiy fikrlashning rivojlanishi tibbiyot texnikumlari o‘quv jarayonini modernizatsiyalashga yordam bermoqda.

Biroq, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi va o‘qituvchilarning malaka yetishmovchiligi mavjud muammolar sirasiga kiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun davlat-xususiy hamkorlik asosida texnik bazani mustahkamlash, xalqaro grantlardan foydalanish, o‘qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Kelgusida tibbiy ta’limda sun’iy intellekt, moslashtirilgan o‘quv yo‘llari va ilg‘or analitika vositalarini joriy etish orqali yanada yuqori sifatli va samarali ta’lim tizimini shakllantirish mumkin. Shu tariqa, raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va tizimli tatbiq etish orqali O‘zbekistonda raqobatbardosh, innovatsion tibbiy kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aksenova, E., Medvedeva, E., & Kroshilin, S. (2024). Use of digital technologies in the activity of medical institutions. *Zdravookhranenie Rossiĭskoĭ Federatsii*. https://doi.org/10.47470/0044-197x-2024-68-5-356-363

2. Korol, N. I., Kut, M. M., Lendel, V. G., Slivka, M., Onysko, M., Kryvovyaz, A., Rusyn, I., & Faryniuk, Yu. I. (2023). Influence of assessment methods on intermediate results of medical students. *Naukovij Vìsnik Užgorods’kogo Unìversitetu*. https://doi.org/10.24144/2414-0260.2023.1.45-49

3. Mohanraj, P. S., Das, A., Rajendran, V., Gopal, N., Saravanan, K., & Balan, Y. (2024). Evaluating the Effectiveness of Online Assessments and Their Parameters as Predictors of Academic Performance in Undergraduate Medical Education. *Cureus*. https://doi.org/10.7759/cureus.62129

4. Xu, L., Jiang, Z., Cai, F., Ouyang, J., Liu, H., & Cai, T. (2024). Optimizing a national examination for medical undergraduates via modern automated test assembly approaches. *BMC Medical Education*, *24*(1). https://doi.org/10.1186/s12909-024-05905-1

5. Sharma, H. B., & Nidhi, T. (2024). *Enhancing Efficiency in MCQ Evaluation: Integrating Voice-to-Text and Excel Automation in Medical Education*. https://doi.org/10.21203/rs.3.rs-5298168/v1

6. Pugh, C., Zerner, T., Tan, Y., Carneiro, G., van den Hengel, A., Symonds, I., Duggan, P., & Bacchi, S. (2023). Deep learning in the marking of medical student short answer question examinations: Student perceptions and pilot accuracy assessment. *Focus on Health Professional Education : A Multi-Disciplinary Journal*, 38–48. https://doi.org/10.11157/fohpe.v24i1.531

7. Majernik, J. (2018). e-Assessment Management System for Comprehensive Assessment of Medical Students Knowledge. *Federated Conference on Computer Science and Information Systems*, *15*, 795–799. https://doi.org/10.15439/2018F138

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jamolov Shahboz Jamil o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti “Oziq-ovqat muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: shahbozjamolov94@gmail.com

BO‘LAJAK MUHANDIS TEXNOLOGLARNING AXBOROT-TAHLILIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “professor-o‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish oliy ta’lim muassasalarida shaffoflik, xolislik va obektivlikni ta ‘minlash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish; oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo‘shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o‘qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta’lim tizimiga jalb etish bo‘yicha takliflar tayyorlash; oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ularni respublika oliy ta’lim muassasalari sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*. Ta’lim, qonun, kadrlar tayyorlash, milliy dasturi, uzluksiz ta‘lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dinamik o‘zgarishlar, web dasturlash, ratsionalistik dunyoqarash.*

Джамалов Шахбаз Джамиль оглы
Каршинский государственный технический университет ”пищевая инженерия"
старший преподаватель кафедры

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ-ТЕХНОЛОГОВ

Аннотация. *В данной статье представлены рекомендации по повышению качества высшего образования путем проведения опросов среди профессорско-преподавательского состава и студентов, изучения мнения общественности и работодателей, а также анализа передового зарубежного опыта; обеспечению прозрачности, беспристрастности и объективности в высших учебных заведениях, разработке и реализации комплексных мер, направленных на устранение факторов, создающих условия для коррупции; подготовке кадров в системе высшего образования, анализу результативности международных связей, оценке эффективности совместных программ, развитию новых форм сотрудничества, привлечению зарубежных профессоров и преподавателей, а также соотечественников из-за рубежа в систему высшего образования; изучению передового зарубежного опыта по оценке и совершенствованию эффективности деятельности высших учебных заведений и применению его в условиях высших учебных заведений республики.*

Ключевые слова: *образование, закон, подготовка кадров, национальная программа, непрерывное образование, информационно-коммуникационные технологии, динамические изменения, веб-программирование, рационалистическое мировоззрение. Образование, закон, подготовка кадров, национальная программа, непрерывное образование, информационно-коммуникационные технологии, динамические изменения, веб-программирование, рационалистическое мировоззрение.*

Jamolov Shahboz Jamil ugli
Qarshi State Technical University “Food Engineering” senior lecturer at the Department

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND ANALYTICAL COMPETENCE OF FUTURE ENGINEER TECHNOLOGISTS

Annotation. *This article provides recommendations on improving the quality of higher education through conducting surveys among professors and students, studying opinions of the public and employers, and analyzing advanced foreign practices. It aims to ensure transparency, impartiality, and objectivity in higher education institutions, and develop and implement comprehensive measures to eliminate factors contributing to corruption. The article also suggests analyzing the effectiveness of personnel training and international relations in the higher education system, evaluating the efficiency of joint programs, developing new forms of cooperation,*

and preparing proposals to involve foreign professors and compatriots abroad in the higher education system. Additionally, it offers recommendations on studying advanced foreign practices for evaluating and improving the effectiveness of higher education institutions ' activities and applying them in the context of the republic 's higher education institutions.

Keywords: *Education, law, personnel training, national program, continuous education, information and communication technologies, dynamic changes, web programming, rationalistic worldview. Education, law, personnel training, national program, lifelong learning, information and communication technologies, dynamik changes, web programming, rationalistic worldview.*

Kirish.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining xilma-xilligi axborot jamiyati faoliyatining samarali asosini tashkil etadi. Bu esa mavjud raqamli ta'lim resurslaridan barcha foydalanuvchilarga sifat jihatidan yangi talablarni istisnosiz yuklaydi. Shu sababli, hozirgi kunda, ijtimoiylashtirish jarayonining normal imkoniyati va ta'lim jarayonlari, ularning axborot-kommunikatsiya sohasidagi bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini o'z vaqtida va yuqori sifatli shakllantirish bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida, bo'lajak muhandis-texnologlarni kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtirish fundamental (tub) o'zgarishlarni nazarda tutadi. Ularning ishlab chiqarishdagi kasbiy mavqeining o'ziga xosligi texnik-muhandislik jarayonini nafaqat butun jamoaning kompyuter ta 'minoti bilan yetarli darajada axborot-kommunikatsiya integratsiyasiga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Undan tashqari ushbu jarayonda yangi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini doimiy targ'ib qilish ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak muhandis-texnologlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalarining murakkabligi va xilma-xilligidan, birinchi navbatda, malakaviy amaliyotda optimal tadbiq etiladigan pedagogik zarur raqamli texnologiyalari maqomiga javob beradigan kasbiy qobiliyatga ega bo'lishlari talab etiladi.

Bo'lajak muhandis-texnologlarni kasbiy tayyorgarligini yuqori sifati axborotlashgan jamiyatning intensiv hamda dinamik o'zgarishlari bilan bog'liq deb taxmin qilinadi.

Haqiqatdan ham, bo'lajak muhandis-texnologlarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mobaynida yangi, zamonaviy axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi nafaqat ekstensiv, balki intensiv omillarga ham bog'liq emas. Ular orasida hisoblash tizimlari va tarmoqlarining apparat va dasturiy ta 'minotining bir necha avlodini uzluksiz ravishda o'zgartirish omili dastlabki o'rinda turadi. Shunga asosan, bo'lajak muhandis-texnologlarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun faqat muayyan ta'lim standarti bilan belgilangan asosiy bilim va ko'nikmalarni egallashi yetarli emas degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili.

Qator yetakchi mualliflar va mutaxassislar fikriga ko'ra, sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishiga o'tish uchun mavjud halokatlarni yengish, iste 'molchilik va ekspluatatsiyaga asoslangan yashash yo'lidan voz kechish, texnik va gumanitar madaniyatning birligi va uyg'unligini ta 'minlash muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatda texnogen sivilizatsiyadan antropogen sivilizatsiyaga o'tish zarurligi tushunilishi tobora kuchaymoqda, buni amalga oshirmasdan insoniyatning omon qolishi va rivojlanishi mumkin emas.

Insonning loyihaviy faoliyati, texnogen sohaning tobora ko'proq hayot sohalariga kirib borishi, texnik faoliyatning global salbiy oqibatlari, jamiyatning rivojlanish maqsadlari va vositalarini tanlashdagi ziddiyatlar muhandislik faoliyatining gumanitar maqsadga muvofiqligi masalasini jiddiylashtirmoqda.

Ma'lumki, muhandislik faoliyati har doim texnik taraqqiyot va butun texnosferaning rivojlanishida ilg'or o'rinda turib kelgan va unda jamiyatning eng iste 'dodli va intellektual kuchlari ishtirok etgan. Hozirgi vaqtda texnika OTMlari ilgari bo'lgani kabi, kelajakda jamiyatning intellektual elitasini tashkil qiladigan iste 'dodli yoshlarni o'ziga jalb qilmoqda. Jamiyatning bu qismidagi onglilik qanchalik darajada hayotiy muammolarga mos kelishiga qarab, jamiyatning kelajagi ko'p jihatdan belgilanadi.

Bugungi kunda muhandisning kasbiy kompetentligi tushunchasi formatini qayta ko'rib chiqish zarur, unda muhandis texnik faoliyat subyekti emas, balki to'laqonli madaniyat subyekti sifatida ko'rilishi lozim.

Sir emaski, moddiy boyliklar, shu jumladan texnik vositalar yaratilishida maxsus rol aynan muhandis-texnolog xodimlarga tegishli. Barcha bu boyliklar, aslida, muhandislik tafakkurining in 'ikosi hisoblanadi. Aynan muhandis biror narsaning yaratishda keyingi qadam bo'ladigan g'oyaga yakuniy shakl beradi, bu esa oxir-oqibat moddiy boylikni yuzaga keltiradi. Mazkur narsa inson uchun mo'ljallangan, demak, muhandislik fikri ham inson uchun mo'ljallangan. Shu ma 'noda, muhandislik faoliyati odatda ilmiy faoliyatdan farq qiladi, chunki ilmiy faoliyat ilmiy haqiqatni olishni maqsad qilib qo'yadi, bu haqiqat esa inson manfaatlariga bog'liq bo'lmaydi. Muhandislik g'oyasi va uni shakllantirish faoliyati esa har doim inson manfaatlarini, ehtiyojlarini hisobga olishi lozim, chunki yaratilayotgan narsa bu ehtiyojlarni qondirishi kerak.

Shunday qilib, malakali muhandis-texnologlarni tayyorlashning boshlang'ich nuqtasi uning texnika dunyosiga ijodiy va yaratuvchan maqsadlar yo'lida qaratilgan madaniyat sub 'yekti sifatidagi tavsifiga asoslanishi kerak. Bunday qadriyatli yondashuv

muhandislik mehnatining tabiatidan kelib chiqadi, bunda yaratuvchan, ijodiy va madaniy omillar asosiy o‘rinni egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shu munosabat bilan, bo‘lajak muhandisning professionalligi va kompetentligi uning texnik vositalarni yaratish va qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalariga asoslanadi, bu jamiyatning barqaror rivojlanishini ta ‘minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda bo‘lajak muhandisning kasbiy kompetentligini tushunishda muhandis-texnologik faoliyatining mohiyati va maqsadi insonlarning hayotiy manfaatlariga javob beradigan madaniy qadriyatlarni yaratishdir. Bu tushuncha muhandislik mehnatining ijtimoiy-madaniy determinantlariga chuqurroq e ‘tibor qaratishni talab qiladi.

“Muhandis” so‘zining etimologiyasi birinchi marta XVII asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan va lotincha “ingenium” — “ixtirochilik”, “aql”, “iste’dod”, “qobiliyat”, “bilim” degan ma‘noni anglatadi. Qadimgi dunyoda “muhandis” tushunchasi nafaqat mashinalarni (asosan harbiy) boshqarish, balki ularni ixtiro qilish bilan bog‘liq maxsus kasblarni anglatgan. Zamonaviy adabiyotda muhandis “moddiy vositalar asosida iqtisodiy jihatdan samarali va hayotga yaroqli ob‘yektlar, turli mahsulotlar, loyihalar yaratadigan mutaxassis” sifatida qaraladi. Muhandis, avvalo, “texnika va texnologiyalarni ilmiy asosda loyihalash, konstruksiyalash, ishlash, amaliy qo‘llash masalalarini hal qiladigan mutaxassisdir”.

Ma’lumki, muhandislikning ob’yekti texnika va texnik vositalar bo‘lib, ular zamonaviy insonning yashash muhitini belgilaydi. Texnika fenomenini tushunishga oid shakllangan yondashuvlarga murojaat qilish mavjud adabiyotda uchta asosiy pozitsiya atrofida yig‘ilganligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, tabiiy fanlar an ‘anasi doirasida texnika, eng avvalo, amaliy fan bo‘lib, texnika orqali tabiat qonunlari inson faoliyatining qonunlariga aylanadi.

Ikkinchidan, antropologik yondashuvda texnika inson tanasi organlarining avval to‘g‘ridan-to‘g‘ri, keyinchalik bilvosita rivojlanishi sifatida qaraladi. Inson omon qolishi va o‘z atrofidagi dunyoga bo‘lgan ta ‘sir doirasini kengaytirishi kerak edi. Ushbu ekspansiyaning natijasi sifatida inson o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishiga imkon beradigan madaniyat paydo bo‘ldi.

Uchinchidan, ijtimoiy tasavvurlar nuqtai nazaridan texnikaga jamiyatni shakllantiruvchi kuch sifatida qaraladi, bu odamlarni jamiyatga birlashtirishga undaydi. Shu bilan birga, texnika odamlarning samarali faoliyatining natijasi, maqsadi va vositasi sifatida paydo bo‘lgan.

Bugungi kunda muhandisning faoliyatidagi axloqiy jihat uning professionalligi va mehnatning maqsadga muvofiqligini tushunishda birinchi o‘ringa chiqmoqda. Shu munosabat bilan, muhandisning kompetentligi haqida tushuncha uning mas ‘uliyat doirasi, imkoniyatlar chegaralari va texnik faoliyatning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda gumanitar o‘lchovga muhtoj.

Texnik taraqqiyot va iqtisodiy qudratning tabiatni cheksiz ekspluatatsiya qilish orqali erishilgan hozirgi holati texnika va texnologiya faoliyatini madaniyat va inson shaxsiyatini rivojlantirish maqsadlariga bo‘ysundiradigan holatga o‘zgartirilmasa, bu qarama-qarshilik hal qilinmaydi. Tasodif emas, K.Skolimovskiy shunday xulosaga keladi: “Texnika inson imperativiga bo‘ysundirilishi kerak, inson esa texnikaga emas”.

Ma ‘lumki, muhandislik faoliyatining maqsadi texnik vositalarni yaratishdir, ya’ni insonning ishlab chiqarish funksiyalarini almashtiradigan va uning mehnatini yengillashtiradigan yoki uning samaradorligini oshiradigan moddiy ob ‘ektlarni yaratish. Biroq, tarix ko‘rsatadiki, muhandislik faoliyati paydo bo‘lishi bilan ratsionalizm va texnokratizm qopqoniga tushib qolgan.

Tarixiy tadqiqotlarda ta ‘kidlanganidek, texnik faoliyat har doim mavjud bo‘lgan, ammo ommaviy muhandislik texnikani takomillashtirish faqat an ‘analarga, qo‘l mahorati va zukkolikka asoslanishi mumkin bo‘lmagan paytda paydo bo‘lgan. Yangi davrda o‘sib borayotgan sivilizatsiya tabiiy fanlarga e ‘tibor qaratishni, ya ‘ni ilmiy bilimlar va metodlarni yangi texnika va texnologiyalarda mujassamlantirishni talab qilgan. Bunda muhandislik mehnatining gumanitar komponenti “ratsionalistik dunyoqarash” manfaatlari uchun “ishlab chiqarish” faoliyatidan chalg‘ituvchi, keraksiz narsa sifatida chetga surib qo‘yilgan.

Ma’lumki, kasbiy tafakkur — bu muayyan kasb doirasidagi muammolarni hal qilishga moslashtirilgan aqliy faoliyat shaklidir. Mavjud tadqiqotlarda kasbiy tafakkurning to‘rtta turi ajratib ko‘rsatiladi: konseptual (mantiq va matematik tafakkur), badiiy (shoir va rassom tafakkuri), ijtimoiy (siyosatchi tafakkuri) va ishlab chiqarish-texnologik (ishchi va muhandis tafakkuri). Muhandislik tafakkuri jamiyatning texnika va texnologiyaga, ularning ijtimoiy oqibatlariga bo‘lgan qarashlarini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli sifatida qaraladi. Muhandislik tafakkuri inson-mashina tuzilmalarini yaratish va ishlatish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni hosil qiluvchi muhandislik faoliyatining mahsulidir. Umumiy madaniyatdan ajralib, insonparvarlik qadriyatlaridan uzoq bo‘lgan muhandislik faoliyati texnokratizmga, inson tafakkurining ortiqcha algoritmizatsiyasi, formallashuvi va insoniy qadriyatlarga beparvolikka olib keladi. Biroq tafakkur madaniyati, xuddi madaniyatning o‘zi kabi, ijtimoiy muhitda, shu jumladan OTMda shakllanadi va avvalgi avlodlar, muhandislar, ilm-fan va texnika ijodkorlarining tajribasini o‘zlashtirish orqali rivojlanadi.

Oliy ta’lim tizimini gumanistik qayta qurishning asosiy maqsadi muhandislik ta ‘limini insoniy maqsadlar, gumanistik qadriyatlar bilan bog‘lash, faqat ilmiy-texnik taraqqiyot maqsadlari bilan emas. Oxir-oqibat, bu inson va

ta’lim tizimidagi inqirozni yengishga yordam berishi kerak. Ko‘plab mualliflar ta ‘limning qayta yo‘naltirilishini pedagogikaning gumanizatsiyasida ko‘radilar, bu esa uzoq vaqt davomida ta ‘limning asosiy qadriyati sifatida faqat fanni ko‘rgan. An ‘anaviy pedagogika sientistik tavsifga ega bo‘lib, pozitivistik ruh bilan to‘yingan. Biroq, ilm-fan inson dunyosini o‘zlashtirishning muhim usuli bo‘lsa-da, bu yagona usul emas. XX asr odamini ma ‘naviy izlanishlari yangi turdagi ratsionallikka olib keldi, bu esa fan bilan bir qatorda san ‘at, axloq, falsafa va boshqa ma ‘naviy madaniyat shakllarini ham o‘z ichiga oladi. Yangi pedagogika nafaqat dunyoni bilishning ratsional usuli bo‘lgan fanga, balki butun madaniyatga yo‘naltirilishi kerak va didaktika va madaniyatning sinteziga qaratilgan yangi ta’lim paradigmalarining mohiyati shunda ko‘rinadi.

Yangi ta’lim paradigmasida olimlar va pedagoglar ta ‘limda kuzatuvchan yondashuvni ijodiy faoliyat bilan almashtirish zarurligini, ta ‘limning asosiy maqsadi shaxsni rivojlantirish bo‘lishi kerakligini ta ‘kidlaydilar.

Shunday qilib, yangi ta’lim modeli, ya ‘ni ta ‘limiy faoliyat nazariyasi va amaliyoti sifatida pedagogika modeli sub ‘ektiv-gumanistik bo‘lib, u ham ijtimoiy ishlab chiqarish manfaatlarini, ham shaxsning ruhiy jihatlarini o‘zida uyg‘unlashtiradi. Biroq, yangi ta ‘limni amaliyotga joriy qilish yo‘llari haqida kelishmovchiliklar mavjud.

Ko‘plab pedagoglarning ta’kidlashicha, talabani ta’limiy ma’lumotlarni qabul qiluvchi emas, balki shaxsiy rivojlanish sub’ektiga aylantirish umidlari ta’lim jarayonini fundamentallastirish va individuallashtirish, o‘quv fanlarini tizimli tashkil etish, kasbiy va gumanitar tayyorgarlikning birligini o‘rnatish, monologik muloqotdan dialogik muloqotga o‘tish va ta’lim hamda tarbiya o‘rtasidagi uzilishni yengish bilan bog‘liqdir.

Muhandislik mehnati va kasbiy ta’limning ijtimoiy-madaniy o‘lchovlari muammosini qisqacha yoritishda shuni ta’kidlash lozimki, zamonaviy jamiyat vazifalariga javob beradigan muhandislarni tayyorlashda uning to‘liq shaxsini shakllantirishning yagona asosiy omili sifatida umuminsoniy madaniyatga yo‘naltirilgan yo‘l zarurdir.

Yangi ta’lim paradigmasi ta’limning utilitar-pragmatik maqsadlaridan, ya’ni ishlab chiqarish faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasidan gumanistik maqsadga, shaxsning rivojlanishiga o‘tishni ko‘zda tutadi. Bunday inqilobiy o‘zgarishlar bilan amaliy-pragmatik maqsadlar vositaga aylanadi va yangi maqsad belgilanadi. Bu ta’lim maqsadining qayta shakllantirilishini anglatadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish esa boshqa mexanizmlarni nazarda tutadi — insoniyatning ijtimoiy-madaniy tajribasini o‘zlashtirish (bu ham juda muhim), balki shaxsning o‘zini shakllantirish jarayoni, uning tajribani (bilimlarni) yaratish orqali o‘zini amalga oshirishi, ya’ni shaxsiy va ijtimoiy-madaniy tajribaning ikki qirraliligi.

Bunday yangilanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar: ijodiy yo‘naltirilgan (kreativ) pedagogikani yaratish; talabani faqat ma ‘lumotlar qabul qiluvchi sifatida ko‘radigan sientistik modeldan voz kechish; ta ‘limdagi formallikni yo‘qotish; ta ‘limni faqat ilm-fanga emas, butun madaniyatga yo‘naltirish; ta’lim maqsadini shaxsiy-madaniy o‘sish kategoriyalarida o‘zgartirish.

Foyadalanilgan adabiyotlar.

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta ‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.

2. Sh.Q.Farmonov, R.M.Turgunbayev, L.D.Sharipova, N.T.Parpiyeva “Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika”. darslik., Toshkent, 2007 – 200. b.

3. Abduqodirov A.A. N.D.Mamatov va boshqalar. “Axborot texnologiyalari”. – T.: O‘qituvchi, 2002. – 133 b.

4. U.Yuldashev, R.R. Boqiyev, F.M.Zokirova “INFORMATIKA” Toshkent. 2002 yil.

5. Xodjamqulov U.N. “Pedagogik ta’lim klasteri ilmiy pedagogik muammo sifatida (Pedagogik ta ‘limni klasterlashtirish zarurati)” Zamonaviy ta’lim 2019 yil.

6. Hamrayev J.H. Reasons Why it (Information Technology) Is Essential in Education. Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022 ISSN: 2795-7365. Page 181-184.JIF:8.325

7. Hamrayev J.H. Ахборот технологиялари фанини ўқитиш асосида талабаларнинг амалий фаолиятини ривожлантириш (Матлаб дастури мисолида) // Scientife Bullettin of NamSU - Научный вестник - NamDU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil_3-сон. Б. 573-578. Hamrayev J.H. Таълимда замонавий ахборот технологиялари – янги имкониятлар // Ўзбекистон миллий университети хабарлари, 2022, [1/4] ISSN 2181-7324 Б. 190-192.

8. Hamrayev J.H. Телекоммуникация технологияларида замонавий ахборот технологияларни қўллаш. 2022-жылушын // «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» Илмий методик журнал №2/1. Б. 77-80. (13.00.00-Pedagogika fanlari)

9. Махматқулов,Ғ. САВДО КОРХОНАЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАШТИРИШ. Iqtisodiyot Va ta’lim,24(6),33–38.Retrievedfrom(2023). https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1350

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jarilkasinova Gulnaz Xojabayevna
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: jarilkasinovagulnoza@gmail.com

UDK: 37.013 (22.116)

HARBIY BILIM YURTI KURSANTLARIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada kursantlarida ingliz tilini o‘qitish metodlari yordamida kompyuterdan foydalanish va kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish va tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek ingliz tilini o‘qitishda amaliy dars jarayonida tinglab tushunish ko‘nikmasi vositasida kasbiy hamda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriq va vazifalar xususida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy texnologiya, metodika, grafika, kompyuter, kommunikativ kompetentsiya, kompyuter funksiyalari, grammatik material, til strukturasi.*

Жарылкасынова Гулназ Хожабаевна
научный соискатель университета общественной безопасности Республики Узбекистан
Э-почта: jarilkasinovagulnoza@gmail.com

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ У КУРСАНТОВ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Аннотация. *В данной научной статье основное внимание уделяется методам изучения английского языка у курсантов, использованию компьютеров и формированию коммуникативной компетентности и развитию навыков понимания на слух. Также в ходе практического занятия по изучению английского языка основное внимание уделялось задачам, который направленным на развитие профессионально-коммуникативной компетентности посредством навыков понимания на слух.*

Ключевые слова: *современные технологии, методика, графика, компьютер, коммуникативная компетентность, функции компьютера, грамматический материал, языковая структура.*

Jarilkasinova Gulnaz Khojabayevna
scientific researcher of the university
of Public Safety of Republic of Uzbekistan
E-mail: jarilkasinovagulnoza@gmail.com

DEVELOPING LISTENING SKILLS IN ENGLISH LESSONS IN CADETS OF THE MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTION

Annotation. *This scientific article focuses on the methods of learning the English language among cadets, the use of computers, the formation of communicative competence and the development of listening comprehension skills. Also, during the course of the practical textbook in learning English, it was focused on tasks which aimed at developing professional and communicative competence by means of listening comprehension skills.*

Key words: *modern technology, methods, graphic, computer, communicative competence, computer functions, grammar materials, language structure.*

Kirish.

Hozirgi kunda ilg‘or o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Jumladan, ingliz tili amaliy darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili darslarida komyuter texnologiyalaridan foydalanish xususida so‘z borar ekan, zamonaviy pedagogikada kompyuter yordamida dars berish (KYDB – CAI (Computer-Aided Instruction)) tushunchasini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. KYDB (CAI)

o‘quv dasturlarini ishlab chiqarish texnologiyasi va tarmoq texnologiyasidan foydalanish ingliz tilini o‘qitishda og‘zaki ingliz tilini standartlashtirishga imkon beradi va birlashtirilgan va standartlashtirilgan o‘qitishning ta’siri sezilarli darajada yaxshilanadi. Agar ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitishning an’anaviy va eskirgan til o‘qitish usullaridan foydalanishda davom etilar ekan, hozirgi tez yangilanadigan bilim va ma’lumot muhitiga moslashish qiyin bo‘ladi va bu sohadagi qimmatli ma’lumotlar va yangi nazariyalarni yarashtirish deyarli imkonsiz bo‘ladi. Amaliy ingliz tili darslarida kompyuterdan foydalanishning quyidagi afzalliklarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

KYTO‘ o‘quvchilarning qobiliyatlariga moslashtirilishi mumkin.

KYTO‘ o‘quvchilarning kognitiv va ta’lim uslublariga moslasha oladi.

KYTO‘ o‘quvchiga mustaqil ta’lim olish imkoniyatini berish bilan bir qatorda, sekin-asta boshlang‘ich bosqichdagi o‘rganuvchilar uchun xatolarini to‘g‘irlash hamda xorijiy til materialini tez o‘zlashtiruvchilar uchun o‘rganishni tezlashtiruvchi vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin.

KYTO‘ individual va shaxsiy ta’lim olish imkoniyatini beradi.

Kompyuter yordamida chet tillarini o‘rganish tarmoqlanish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘rganish uchun turli tanlov va yo‘llarni taqdim etishi, bu esa o‘quvchilarga mustaqil ishlash imkonini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Dars jarayonida qo‘llaniluvchi kompyuterlar orqali til o‘rganuvchilar o‘z o‘quv jarayoni va taraqqiyotini nazorat qilish imkoniga ega bo‘lishlari mumkin.

Bundan tashqari, kompyuter yordamida ingliz tilini o‘rganish ta’lim muassasasi talabalari, tinglovchi va kursantlarida chet tilini o‘rganish uchun kuchli motivatsiya berishini alohida ta’kidlash lozim. Talabalar ko‘pincha darslik yoki qog‘oz-qalamda bajarishni istamagan narsalarni kompyuterda bajonidil bajaradilar. Grafika, tovushlar, animatsiya, video, audio kabi ba’zi kompyuter funksiyalari ko‘plab o‘quvchilar uchun qiziqarli va rag‘batlantiruvchi vosita bo‘lishi mumkin. Boz ustiga kompyuterdan foydalanish o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan munosabatini yaxshilashi ham mumkin. Xorijiy til, xususan ingliz tilini o‘rganishda kompyuterdan foydalanish, ayniqsa internet talabalarni til sinfidan tashqarida tildan foydalanishga undaydigan haqiqiy muloqotni ta’minlash imkonini beradi. Kompetentlikni rivojlantirish uchun turli o‘qitish metodlaridan foydalaniladi.

Adabiyotlar tahlili.

Amaliy ingliz tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasi yordamida kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish uchun ko‘plab chet til o‘qitish usullari taklif etilgan bo‘lsa-da, eng birinchi metod XIX asrning oxirlarida M.Berlits nomi bilan bog‘lanadi va mazkur metod tabiiy metod hamda muallif nomi bilan Berlits metodi deb ham ataladi. Keyinchalik mazkur metod audilingual va audiovizual metodlarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. M.Berlits metodining asosiy xususiyatlari shundan iboratki, bu yerda darslar to‘liq o‘rganilayotgan tilda o‘tiladi, kundalik hayotda kerak bo‘lgan so‘zlar o‘rganiladi, gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalari birga o‘rgatiladi, grammatika induktiv ravishda taqdim etilib, yangi so‘zlar bevosita ona tiliga tarjima qilinmasdan tushuntiriladi, guruhdagi o‘quvchilar soni cheklangan bo‘lib, darslar kuniga 3-4 soat davomida olib boriladi.

Ch.Freyz va R.Ladolar tomonidan ishlab chiqilgan, keyinchalik esa amerikalik metodist N.Bruk tomonidan “audiolingval metod” deb nomlagan metodning asosiy mohiyati til strukturalarini o‘rganishdan iborat bo‘lib, ushbu metod konsepsiyasi og‘zaki nutqni yozma nutqdan ustun turishi (ya’ni darslar tinglash-gapirish-o‘qish-yozish ketma-ketligida tashkillashtiriladi), darslar “drill” (ma’lum namunalarni ko‘p marta takrorlash) tipidagi mashqlar bajarish natijasida nutqiy malakalarni shakllantirishga qaratish, mamlakatlar haqidagi ma’lumotlarga alohida e’tibor qaratish singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. Til strukturalarini o‘zlashtirish jarayoni quyidagi to‘rtta bosqichda amalga oshiriladi:

taqlid qilish orqali yodlash;

ilgari o‘zlashtirilgan materialga yangi materialni ongli ravishda tanlash;

o‘rganilgan modelni amalda mashq qilish;

o‘zlashtirilgan modelni erkin qo‘llash.

Xorijiy tillarni o‘qitishda, xususan tinglab tushunish ko‘nikmasida qo‘llaniladigan eng samarali usullardan biri audiovizual metod bo‘lib, u o‘tgan asrning 50-yillarida Fransiyada P. Gberina, P. Revenk, J. Gugeneym, R. Renar singari fransuz va yugoslav tilshunoslarining hamkorlikdagi tadqiqotlari natijasida paydo bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola harbiy bilim yurti kursantlarida ingliz tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, mavzuni yoritib berishda lingvistik, kulturologik, pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Harbiy bilim yurti kursantlarida ingliz tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda audiovizual metodlar yaxshi samara beradi. Kommunikativ yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda audiovizual metod ko‘plab afzalliklarga ega:

Kommunikativ yondashuv autentik muhitga asoslangan bo‘lib, u til o‘rganuvchilarda chet tilni o‘rganish motivasiyasini oshiradi:

vaziyatga asoslanganligi;

amaliyotda turli drill, mashqlar va vazifalar qo‘llanilishi;

til o‘rganuvchilar o‘rganilayotgan xorijiy til sohiblari nutqini bevosita tinglash orqali tilning talaffuz qismi

bo‘lgan fonetik qatlamini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

til o‘rganuvchilar vositalar yordamida muloqot uchun muhim bo‘lgan verbal va noverbal jihatlarini o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar;

dars jarayoni faqat o‘rganilayotgan til yordamida olib borilib, ona tilidan foydalanilmaydi.

Ma’lumki, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan mashq va vazifalar odatda 3 bosqich **– Pre-listening, While-listening, Post-listening** kabilardan iborat bo‘lib, har bir bosqich o‘zining alohida jihati bilan farqlanib, bir-birini to‘ldiradi. Mashqning dastlabki **(pre-listening**) bosqichi til o‘rganuvchilar uchun asosiy mashqda bajariladigan vazifaga tayyorlanishni shakllantirish uchun xizmat qiladi va 2-3 daqiqa vaqtni oladi. Mashq bajarilishining mazkur qismida asoson turli ko‘rgazmali materiallar yoki juda ko‘p hollarda aqliy hujum (brainstorming) texnikasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Aytaylik, darslikda berilgan tinglab tushunish mashqi qobiliyatlar haqida bo‘lsa, avvalo, darslikda berilganidek til o‘rganuvchilardan shunchaki qaysi sport turidan yaxshi ekanligidan tashqari umuman sport hamda qobiliyatlarni muhokama qilish ancha samarali bo‘ladi. Dastlabki bosqichning 2-qismida esa tinglab tushunish vositasidan foydalanib, tinglash orqali bo‘sh kataklarni to‘ldirish so‘raladi. Biz esa biroz o‘zgartirish qilib materialni tinglashdan oldin, kursantlardan grammatik jihatdan mazkur bo‘shliqqa qaysi so‘z turkumiga oid so‘z to‘g‘ri kelishi mumkinligini bashorat qilishni so‘raymiz, bu esa tinglovchilardan til materiali bo‘lgan grammatikaga doir bilimni talab etadi. Shuningdek, qaysi so‘z turkumi ekanligi aniqlangandan keyin taxminan qaysi so‘z bo‘lishi mumkinligi ham muhokama qilinishi mumkin.

Mashq bajarilishining ikkinchi – **while-listening** bosqichida darslikda so‘ralganidek, bo‘shliqlar to‘ldiriladi. Bu yerda, vazifa odatdagidan ko‘ra osonroq va samaraliroq bajarilishi mumkin. Bunga sabab sifatida esa biz avvalgi bosqichda bashorat qilish – qaysi so‘z turkumiga oid so‘z bo‘sh joylarga mos kelishi va taxminan qaysi so‘z qo‘yilishini muhokama qilganimiz ko‘rsatilishi mumkin. Tinglab tushunish mashqi til o‘rganuvchilarda turli til ko‘nimalarni va kommunikativ kompetensiyani bir vaqtning o‘zida taraqqiy etishiga xizmat qilishini alohida e’tirof etish lozim.

Tinglab tushunish mashqining 3-**post-listening** bosqichi harbiy bilim yurti kursantlarida harbiy kasbiy hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerda ham darslikda berilgan topshiriqdan tashqariga chiqqan holda ayrim kommunikativ vazifa va topshiriqlar bilan darsimizni boyitishga harakat qilamiz. Bevosita darslikdan foydalangan holda kursantlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga harakat qilamiz. Tingab tushunish mashqining mazkur qismini ham 2 qismga ajratamiz. 1-qismda cheklangan vaqt mobaynida kursantlar juftliklarga ajratilib, ulardan dialogni darslikda berilganidek og‘zaki ravishda bajarishni so‘raymiz. Bu shubhasiz, kursantlarda tinglab tushunish bilan bir qatorda gapirish ko‘nikmasining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Mazkur bosqichning 2-qismida esa berilgan suhbatdan foydalangan holda improvizatsiya qilish orqali rolli mashq (Role play) bajariladi. Bu yerda, mashqda keltirilgan dialog shunchaki namuna bo‘lib qoladi hamda kursantlardan sport va qobiliyatlar mavzusida juftlik yoki kichik guruhlar shaklida 1-2 daqiqa vaqt mobaynida kichik sahna ko‘rinishini tayyorlab ijro etish so‘raladi. Bu esa kommunikativ yondashuvning asosiy shartlaridan biri hisoblangan darsda muloqot jarayonini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, kursantlarda til ko‘nikmalari integrativ ravishda shakllantirilishi hamda til ko‘nikmalari bilan bir qator kasbiy hamda kommunikativ kompetensiyalar rivojlantirib borilishi mumkin.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda harbiy bilim yurti kursantlarida kasbiy hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hamda rivojlantirish uchun tinglab tushunish ko‘nikmasidan boshqa til ko‘nikmalari bilan integrativ tarzda foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerda chet tillari o‘qitishning an’anaviy usuli sanalgan audiolinval metoddan turli zamonaviy til o‘qitish vositalari yordamida foydalanish ancha samarali sanaladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, harbiy bilim yurti kursantlarining kasbiy hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun turli xil dialoglar, ayniqsa autentik materiallardan kundalik hayot va kasbiy faoliyat bilan aloqador bo‘lgan turli xil vazifa va topshiriqlar (jumladan, suhbatni takroran aytish, undagi so‘z va iboralarni o‘ziga moslashtirgan holda sahna ko‘rinishi sifatida rolli ijro etish) orqali amaliy jihatdan foydalanish ingliz tili darslarida ta’lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1.Варданян Ю.В. Строение и развитие профессиональной компетентности специалиста с висшим образованием (на материале подготовки педагога и психолога): Автореф. дис. … док. пед. наук. – Москва, МГУ, 1998. – 48 с.

2.Зимняя И.А. Ключевие компетенции – новая парадигма результата современного образования – Москва. 2008. – С.132-138.

3.Карабаева А. Технология формирования межкультурной компетенции педагогов на основе игровой учебной деятелности (на примере освоения дисциплин язиков цикла): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Шимкент, ЮКГУ, 2009. – 26 с.

4.Кузмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 1990. – 119 с.

5.Машбис Е.И. Психолого-педагогические проблемы компютеризации обучения. – Москва: Педагогика, 1981. – 236 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jurabayeva Zarnigor Zoxidjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi stajyor-o'qituvchisi
Payzibayeva Ruxshana Okiljonovna
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SINF RAHBARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirishda maktab va sinf rahbarining o'rni hamda sinf rahbarining tarbiyaviy faolligi haqida ma'lumot berilgan. O'quvchilarni psixologiyasini o'rganish, xulqi, fanlarni o'zlashtirishi sinf rahbarining vazifasiga yuklatilgan. O'quvchilarni o'rganish natijalari bilan barcha o'qituvchilarni tanishtirib borish zarur.*

Kalit so'zlar: *maktab, sinf rahbari, ta'lim-tarbiya, faollik, tashkilotchilik, monitoring, xulq, qobiliyat, psixologik rivojlanish.*

Джурабаева Зарнигор Зохиджон кизи
Стажер-преподаватель кафедры начального образования
Наманганского государственного педагогического института
Пайзибаева Рухшана Окильжоновна
Студентка Наманганского государственного педагогического института

ЗНАЧЕНИЕ КЛАССНОГО РУКОВОДИТЕЛЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: *В статье представлена информация о роли школы и классного руководителя в повышении успеваемости учащихся начальной школы, а также о воспитательной деятельности классного руководителя. Классный руководитель отвечает за изучение психологии, поведения и обучения учащихся. Необходимо ознакомить всех преподавателей с результатами обучения студентов.*

Ключевые слова: *школа, классный руководитель, воспитание, деятельность, организация, контроль, поведение, способности, психологическое развитие.*

Jurabayeva Zarnigor Zokhidjan kizi
Trainee-teacher of the Department of Primary Education,
Namangan State Pedagogical Institute
Payzibayeva Rukhshana Okiljonovna
Student of Namangan State Pedagogical Institute

THE ROLE OF THE CLASS TEACHER IN IMPROVING THE COGNITIVE EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: *This article provides information about the role of the school and class teacher in improving the cognitive efficiency of primary school students, as well as the educational activity of the class teacher. The class teacher is responsible for studying the psychology, behavior, and mastery of subjects of students. It is necessary to familiarize all teachers with the results of studying students.*

Keywords: *school, class teacher, education, activity, organization, monitoring, behavior, abilities, psychological development.*

Введение.

В школьной жизни классный руководитель играет уникальную и незаменимую роль в управлении образовательным процессом. Он очень важная и ответственная фигура в школе. Большая часть работы классного руководителя связана с образовательным процессом. С этой точки зрения его можно назвать главным воспитателем и наставником класса. Он организует, организовывает и обучает свой классный коллектив, учителей, детские организации, родителей

поддерживает тесный контакт с общественностью и руководит общим образовательным процессом в классе. Для повышения эффективности воспитательной деятельности классного руководителя ему необходимо решать следующие задачи:

1. Общее изучение учащихся своего класса.

2. Создание команды одноклассников и воспитание детей через команду.

3. Оказывать практическую педагогическую помощь студенческим общественным организациям, организовывать их деятельность, изучать их.

4. Углубленное изучение детей с трудным воспитанием и специальное обучение с ними.

5. Выявление одаренных детей в классе и организация специальной работы с ними.

6. Организация мероприятий совместно с родителями учащихся и общественностью (соседский комитет) и т. д.

Анализ литературы.

Общеобразовательные задачи в содержании работы классного руководителя определяется. Формирует у студентов научное мировоззрение и активную жизненную позицию во взаимодействии с общественными организациями; воспитывает у учащихся стремление к знаниям и труду, учит их осознанно определять свою судьбу; развивает у учащихся способность ответственно подходить к обучению и заниматься самостоятельно; развивает эстетические интересы и художественный вкус детей. В частности, посредством мероприятий, концертов, различных вечеринок, встреч, конкурсов и других игр осуществляется обучение и подготовка учащихся дано. Классный руководитель совместно с администрацией школы и во взаимодействии с общественностью и родителями осуществляет воспитательную работу. Администрация школы должна всегда поддерживать классного руководителя и его работу. Потому что классный руководитель хорошо знает своих учеников и учитывает, что необходимо для их обучения. Ответственным за духовно-просветительскую работу является классный руководитель, то есть организатор и заместитель директора. Известно, что образование относится к социально детерминированным процессам. Выбор целей, принципов, содержания и методов организации образовательного процесса оказывает существенное влияние на политическую, экономическую и социально-культурную ситуацию в развитии государства и общества.

Изменения в государственной и общественной жизни Узбекистана сказываются на изменениях в практике воспитания детей. За последние годы существенно актуализировалась образовательная деятельность классных руководителей. Работа классного руководителя в первую очередь направлена на работу с учащимися своего класса. Одной из важнейших задач классного руководителя является систематическая работа с коллективом класса. Его работа направлена на формирование и проявление индивидуальности, «лица» классовой общности. В то же время классный руководитель заботится о месте класса в школьном сообществе, что способствует взаимодействию. В своей работе классный руководитель в первую очередь взаимодействует с учителями-предметниками: он устанавливает общие педагогические требования и подходы к детям в образовательной и воспитательной деятельности, исходя из целей школы они работают вместе. Классный руководитель совместно с психологом изучает индивидуальность учащихся, их адаптацию и интеграцию на микро- и макроуровнях. Классный руководитель координирует общение педагога-психолога с родителями и их консультативную поддержку.

Классный руководитель с помощью педагога-психолога организует коллектив класса анализирует развитие учащихся, выявляет их знания, творческие способности и способности. Большое значение в работе классного руководителя имеет сотрудничество с внешкольными учреждениями.

Результаты.

Классный руководитель помогает школьникам стать членами различных творческих объединений, действующих в школе и в детских учреждениях дополнительного образования. Классный руководитель активно сотрудничает с учителем-организатором в организации внеклассной и внеурочной деятельности классного коллектива, а также досуговых и каникулярных мероприятий сотрудничает. Классный руководитель с помощью учителя-организатора.

Привлекает представителей культуры, спорта и общественности к организации мероприятий. Классный руководитель должен тесно сотрудничать с социальным педагогом, который призван выступать посредником между личностью ребенка и разрешением личностных кризисов учащихся между всеми социальными институтами.

В школах распространены различные детские социальные объединения, которые помогают вовлекать детей в новые социальные отношения. Классный руководитель совместно с библиотекарем (информационно-ресурсный центр) расширяет круг чтения учащихся, способствует формированию у них культуры чтения, отношения к нравственным идеям, этическим нормам. В своей работе классный руководитель постоянно заботится о здоровье своих учеников, используя информацию, полученную от медицинского персонала школы. Семья является одним из важнейших социальных институтов. Работа классного руководителя с родителями направлена на

сотрудничество с семьей на благо ребенка. Классный руководитель обучает родителей в школе привлекает к участию в процессе, создавая благоприятную образовательную среду в семье способствует психологическому и эмоциональному благополучию ребенка в школе и за ее пределами. Классный руководитель также организует родительские собрания и совместные мероприятия по повышению педагогической и психологической культуры родителей. Особое место в работе классного руководителя занимает моделирование и реализация системы классного обучения. Что такое система обучения в классе? Система обучения в классе представляет собой совокупность взаимодействующих компонентов, взаимодействие и интеграция которых происходит в классе.

Обсуждение.

Это включает в себя взаимодействие между учителями и классными руководителями. Очень важно соблюдать правила. Необходимо ознакомить всех преподавателей с результатами обучения студентов. При этом важно учитывать то, что они знают о каждом ученике. Это помогает гарантировать равное отношение ко всем учащимся и предоставление им одинакового уровня образования. Обучение студентов требует индивидуального подхода к ним. Необходимо изучать студентов с целью достижения индивидуального подхода к каждому студенту в процессе его обучения и воспитания. Студенты должны проявлять интерес и интерес к своему собственному характеру. Это не одно и то же. В зависимости от их психологического развития их можно классифицировать как пассивных или активных и сонных.

Некоторые из них смелые и амбициозные, а другие застенчивые и робкие. Некоторые студенты отличаются организованностью и целеустремленностью, а у других эти характеристики отсутствуют. Исследования показали, что класс — это группа детей, которые не похожи друг на друга и имеют разные характеристики. Так же, как в классе нет детей, похожих друг на друга внешне, нет и детей, похожих друг на друга по своим внутренним качествам. Их характеры, интересы, настроения и желания, причины их поведения, навыки и умения обычно различны. У каждого ученика есть свои уникальные особенности, которые отличают его от других.

Заключение.

В заключение можно сказать, что классный руководитель спрашивает учеников всегда следует помнить, что если ученик плохо учится, классный руководитель должен в первую очередь провести индивидуальную беседу с родителем, чтобы немедленно решить проблему. Классному руководителю следует обратить внимание родителей на то, что им следует всегда оставаться на связи и получать информацию через Kundalik.com. Родители должны держать своих детей под контролем, постоянно наблюдая за ними и будучи осведомленными о Kundalik.com и Мониторинге.

Список литературы | references.

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № УФ-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года». – Законодательная информация национальная база данных, № 06/19/5712/3034, 29.04.2019.

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № УФ-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года». https://lex.uz/docs/4312785

3. Акрамов Ф.А. Начальное образование в формировании личности ребенка психологическое воздействие учителя. Современное образование/ СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ.2015 - № 3-5 стр.

4. Джуракулова А.Х. Д.Ш. Джураева на уроках математики в начальной школе Решение нестандартных задач с использованием методов рассуждения. Современное образование/ СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2016. 9. –7 с.

5. Иброимов Ш.И, Тойчибекова А.А. В работе учителя начальных классов Методы формирования культуры и психологии общения (естественные науки пример). АКАДЕМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ НАУК ТОМ 2 СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК 1. 2021. –17 стр.

6. Мухаммадиева Х.К. Исматуллаев Ф.Р. на уроках родного языка в начальной школе Использование текста художественного произведения для обучения учащихся языковым явлениям. Современное образование/ СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2017. 9. –6 с.

7. Мавлонова.Р, Нормуродова.Б, Рахмонкулова.Н Воспитательная работа Методология Ташкент-2010.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Karimov Bekzod Boyqobilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi dotsenti
e-mail: b_karimov@gmail.com

TALABALARNING KASBIY PEDAGOGIK MADANIYATINI TARBIYALASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (JISMONIY MADANIYAT TA’LIM YO‘NALISHI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Universitetda o‘qishga moslashish juda murakkab jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyatiga ko‘plab omillar ta’sir qiladi: psixologik, ijtimoiy, fiziologik. Sport nafaqat jismoniy salomatlik va tana go‘zalligini saqlash usuli, balki miyani rivojlantirish va mustahkamlash uchun ajoyib vositadir. Muntazam jismoniy faoliyat miya faoliyatining turli jihatlariga - xotira, diqqat, kayfiyat, o‘rganish, ijodkorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi kurs talabalarining yurak-qon tomir tizimi jismoniy yoki ruhiy stressga g‘ayrioddiy munosabatda bo‘lishni boshlaydi, bu ayniqsa, gormonal darajadagi o‘zgarishlar zo‘ravon reaksiyalar bilan kechadigan qizlarda seziladi. Taklif etilayotgan uslubiy tavsiyalar mazmuni quyidagi fundamental tushunchalarni o‘z ichiga oladi: jismoniy madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida, uning o‘rni, turlari, ijtimoiy mohiyati va vazifalari; jismoniy mashqlar jismoniy qobiliyatlarni, organlar va tizimlarni rivojlantirish, harakat qobiliyatlarini shakllantirish va takomillashtirish uchun foydalaniladigan jismoniy madaniyatning asosiy o‘ziga xos vositasi sifatida; vosita harakatlarini o‘rganish uchun asos sifatida ko‘nikma va ko‘nikmalarni shakllantirish naqshlari; vosita qobiliyatlari insonning vosita faoliyatining namoyon bo‘lish imkoniyatini belgilaydigan tananing morfo-funksional xususiyatlari majmuasi sifatida; jismoniy faoliyat va dam olish vosita qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asos bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *sport, moslashuv, jismoniy faollik, morfologiya, shaxs, sportchi, rivojlanish va mustahkamlash, tana go‘zalligi, salomatlik.*

Каримов Бекзод Бойкобилович
Университет экономики и педагогики "Физическая культура"
и спорта» доцент кафедры

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВОСПИТАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ)

Аннотация: *Адаптация к обучению в вузе – очень сложный процесс, на его успешность влияет множество факторов: психологических, социальных, физиологических. Спорт – это не только способ сохранить физическое здоровье и красоту тела, но и отличный инструмент для развития и укрепления мозга. Регулярная физическая активность положительно влияет на различные аспекты деятельности мозга – память, внимание, настроение, обучение, творческие способности. Сердечно-сосудистая система первокурсников начинает необычно реагировать на физическую или умственную нагрузку, что особенно заметно у девушек, у которых гормональные изменения сопровождаются бурными реакциями. В содержание предлагаемых методических рекомендаций входят следующие основополагающие понятия: физическая культура как компонент общечеловеческой культуры, еѐ роль, виды, социальная природа и задачи; физические упражнения как основное специфическое средство физической культуры, используемое для развития физических способностей, органов и систем, формирования и совершенствования двигательных способностей; формирование навыков и закономерностей формирования навыков как основы обучения двигательным движениям; двигательные способности как совокупность морфофункциональных особенностей организма, определяющих возможность проявления двигательной активности человека; физическая активность и отдых являются основой развития моторики.*

Ключевые слова: *спорт, адаптация, физическая активность, морфология, личность, спортсмен, развитие и укрепление, красота тела, здоровье.*

Karimov Bekzod Boykobilovich
Associate Professor of the Department of "Physical Culture
and Sports" of the University of Economics and Pedagogy

IMPROVEMENT OF MECHANISMS FOR EDUCATING STUDENTS' PROFESSIONAL PEDAGOGICAL CULTURE (IN THE EXAMPLE OF PHYSICAL EDUCATION)

Keywords: *educational process, practical training, optimization, pedagogical factors, sports education, infrastructure, Olympic sports, Paralympic sports, coach training, teaching methodology.*

Kirish.

Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish uchun sportchilarni tizimli va ilmiy asoslangan tarzda tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Xususan, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida o'quv va amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon sportchilarning jismoniy, psixologik va texnik

tayyorgarligini optimal darajada shakllantirishni talab qiladi.

Sport mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagogik, ilmiy-uslubiy, psixologik, fiziologik, tashkiliy-texnik hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Mazkur omillarni chuqur tahlil qilish va ularni sport mashg‘ulotlarining tarkibiy qismiga aylantirish orqali mashg‘ulot jarayonlarining samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, sport markazlarining infratuzilmasi, mashg‘ulot jarayonlarining sifati va sportchilarni tayyorlash tizimining xalqaro standartlarga mosligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining faoliyati tahlil qilinib, ularning infratuzilmasini rivojlantirish, mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirish va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi. Sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida sportchilar, murabbiylar va mutaxassislarning fikr-mulohazalari inobatga olinib, mashg‘ulot jarayonini optimallashtirishning samarali usullari aniqlanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari Olimpiya va Paralimpiya sport turlarida yuqori natijalarga erishish, sportchilarni xalqaro musobaqalarga sifatli tayyorlash va sport tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar va tahlillar.

O‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni optimallashtirish turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning har biri o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillar pedagogik, ilmiy-uslubiy, psixologik, fiziologik, tashkiliy-texnik hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarga bo‘linadi.

Birinchi navbatda, pedagogik omillar ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol usullarni joriy etish hamda individual yondashuvga e’tibor qaratish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilaydi. Shu bilan birga, murabbiy va pedagoglarning malakasi ham katta ahamiyatga ega. Ularning yangiliklarni qabul qilish qobiliyati, zamonaviy ta’lim metodikalaridan foydalanish ko‘nikmalari va shaxsiy tajribasi o‘quv jarayonining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ta’lim dasturlarining zamon talablariga mos ravishda shakllantirilishi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning muvozanatli tashkil etilishi ham o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Ilmiy-uslubiy omillar esa o‘quv jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bilan bog‘liq. Sport pedagogikasi va mashg‘ulot jarayonlariga oid ilmiy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish, trening jarayonlarini ilmiy yondashuv asosida tashkil qilish muhim sanaladi. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, sportchilarning tayyorgarlik jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mashg‘ulot yuklamalarining mikro va makrotsikllar asosida rejalashtirilishi sportchilarning jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda mashg‘ulotlarni tashkil etish imkonini beradi.

Mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishda psixologik omillar ham katta ahamiyatga ega. Sportchilarning motivatsiyasi va intizomi, ularning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish istagi hamda ichki ishonchi mashg‘ulot jarayonining natijadorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, sportchilarning stress va ruhiy barqarorligi, psixologik tayyorgarligi ham ularning mashg‘ulotlar davomida maksimal natijalarga erishishiga yordam beradi. Har bir sportchining shaxsiy psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuv asosida mashg‘ulotlar olib borish esa ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, fiziologik omillar ham sportchilar uchun muhim sanaladi. Mashg‘ulot jarayonining samaradorligi sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, ularning yoshi, sog‘lig‘i va umumiy jismoniy holatiga bog‘liq. Mashg‘ulotlardan keyingi dam olish, qayta tiklanish jarayoni va to‘g‘ri ovqatlanish tartibi sportchilarning holatini optimallashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, yuklamalar balansining to‘g‘ri taqsimlanishi ham juda muhimdir. Haddan tashqari yuklamalar sportchilarning charchab qolishiga va jarohatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun mashg‘ulotlarni optimal darajada tashkil qilish zarur.

O‘quv va amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishda tashkiliy-texnik omillar ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan sport zallari, stadionlar, trenajyorlar sifati va mavjudligi sportchilarning tayyorgarligiga ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy jihoz va inventarlarning yetarli darajada bo‘lishi ham sportchilarning mashg‘ulot jarayonini yaxshilaydi. Shuningdek, o‘quv jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash uchun yetarli darajada moliyaviy resurslar va mablag‘ ajratilishi ham ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham mashg‘ulotlarni optimallashtirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sportchi va talabalar uchun ijtimoiy muhitning qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi, ularning oilasi va jamiyat tomonidan rag‘batlantirilishi ularning natijalariga sezilarli ta’sir qiladi. Sport va ta’lim muassasalarining iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lishi, homiylik va moliyaviy yordamning mavjudligi ham o‘quv jarayonlarini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, sportchilarning ish bilan bandligi va ta’lim jarayonining ularning kasbiy faoliyati bilan uyg‘unligi ham muhim ahamiyatga ega.

Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni optimallashtirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish maqsadida sotsiologik tadqiqot o‘tkazdik.

Sport infratuzilmasi sportchilarning tayyorgarlik jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari uchun zamonaviy infratuzilma mavjudligi yuqori natijalarga erishishning asosiy omillaridan biridir. Ushbu markazlarning jihozlanish darajasi, sport maydonlari va trenajyor zallari sifati, tibbiy va reabilitatsiya xizmatlari, yashash sharoitlari hamda texnologik ta’minoti sportchilarning samarali tayyorgarlik olib borishiga bevosita ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga “Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari infratuzilmasiga qanday baho berasiz?” degan savolni berdik. Yoshlarning 12 foizi “a’lo” deb javob berishgan bo‘lsa, 48 foizi “yaxshi”, 30 foizi “o‘rta” va 10 foizi “qoniqarsiz” deb javob berishgan. Bu natijalar ayrim markazlarda yetarli infratuzilma, texnik jihozlanish, reabilitatsiya xizmatlari yoki zamonaviy sport inshootlariga bo‘lgan ehtiyojni ifoda etishi mumkin. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Olimpiya va Paralimpiya sport markazlari infratuzilmasi yetarli darajada rivojlangan, biroq uni yanada takomillashtirish, barcha sportchilarga teng sharoit yaratish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Bu borada zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, sportchilar uchun qulay sharoit yaratish va markazlarni zamonaviy talablar asosida jihozlash ustida izchil ish olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari dunyo miqyosidagi eng yirik sport musobaqalari bo‘lib, unda turli davlatlarning eng iqtidorli sportchilari ishtirok etadi. Har bir mamlakat ushbu o‘yinlarda muvaffaqiyat qozonish va imkon qadar ko‘proq sport turlarida ishtirok etish uchun intiladi. Biroq, ayrim Olimpiya va Paralimpiya sport turlari mamlakatimizda hali rivojlanmagan bo‘lib, ularga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Bu esa ushbu turlarda xalqaro miqyosda raqobatbardosh sportchilar yetishtirish imkoniyatini cheklaydi. Mazkur sport turlarini rivojlantirish uchun bir qator muhim omillarga e’tibor qaratish lozim. Ushbu omillar sportchilarning xalqaro maydonda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan respondentlarga “Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga kiritilgan, ammo mamlakatimiz sportchilari qatnashmagan sport turlarini rivojlantirish uchun eng avvalo nimalarga e’tibor qaratish kerak?” degan savol bilan yuzlandik. Ularning 19 foizi “bizda rivojlanmagan Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha infratuzilmalarini yaratish”ni ma’qul deb hisoblashgan bo‘lsa, 40 foizi “bizda rivojlanmagan Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha klublar, federatsiyalarni tashkil etish”ni, 33 foizi “bizda rivojlanmagan Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassis trenerlarni tayyorlash”ni, 8 foizi esa “bizda rivojlanmagan Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish va iqtidorli sportchilarni tanlab olish”ni tanlashdi. Umuman olganda, ushbu so‘rov natijalari mamlakatimizda rivojlanmagan Olimpiya va Paralimpiya sport turlarini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatmoqda. Dastlab federatsiyalar va klublarni tashkil etish, malakali trenerlarni tayyorlash hamda infratuzilmani rivojlantirish asosiy yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, musobaqalar tashkil etish va yosh iste’dodlarni aniqlash jarayonini ham tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish lozim. Mazkur omillar uyg‘un holda amalga oshirilganda, mamlakatimiz ushbu sport turlarida ham munosib ishtirok etib, xalqaro maydonda yuqori natijalarga erishishi mumkin.

Olimpiya va Paralimpiya sport turlarining rivojlanishi nafaqat sportchilarni tayyorlash, balki yuqori malakali trenerlar mavjudligiga ham bevosita bog‘liq. Rivojlanmagan sport turlari bo‘yicha mutaxassis trenerlar yetishmovchiligi ushbu yo‘nalishlarning ommalashishiga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun, bu sohaga ixtisoslashgan trenerlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim masalalardan biridir. Trener tayyorlash jarayonida qaysi usul samaraliroq ekanini aniqlash uchun turli strategiyalarni ko‘rib chiqish lozim. Xususan, trenerlar jarayoni tashkil etish yuzasidan “Bizda rivojlanmagan Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassis trenerlarni tayyorlashda quyidagilardan eng muhimi qaysi ekanini ko‘rsating?” degan savolga yoshlardan javob berishini so‘radik. Ularning 16 foizi “oliy ma’lumotli sportchilarni ushbu sport sohalari rivojlangan mamlakatlarda malaka oshirish va qayta tayyorlashga jalb etish” javobini tanlagan bo‘lsa, 25 foizi “Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida uni bu sport turlarini o‘qitadigan yo‘nalishlarni ochish” javobini, 19 foizi “sport Oliy ta’lim muassasalarida ushbu sport turlariga o‘qitadigan yo‘nalishlarni ochish” javobini, 40 foizi “sportchilarmi ushbu yo‘nalishlar mavjud bo‘lgan xorijiy davlatlarda o‘qitish” javoblarini tanlashgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha rivojlanmagan yo‘nalishlarda mutaxassis murabbiylar tayyorlashda xalqaro tajribadan foydalanish va mahalliy sport ta’lim tizimini rivojlantirish o‘zaro uyg‘un holda olib borilishi lozim. Mamlakatimiz sportchilari va trenerlarini ilg‘or sport davlatlarida o‘qitish va malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish ularga eng zamonaviy metodikalarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga ixtisoslashgan yo‘nalishlarni oliy ta’lim muassasalarida va maxsus sport tayyorlash markazlarida ochish uzoq muddatda mamlakat ichida sifatli trenerlar yetishtirishga xizmat qiladi. Natijada, xorijiy ta’lim va mahalliy infratuzilma rivojlanishi birgalikda olib borilsa, kam rivojlangan sport turlarida yuqori malakali murabbiylar tayyorlash imkoniyati ortadi.

Har bir sport turi rivojlanishi uchun uning o‘qitilishi va mutaxassislar tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga

kiritilgan, ammo mamlakatimizda hali yetarlicha rivojlanmagan yo‘nalishlarni ommalashtirish va ularga qiziqishni oshirish uchun ta’lim tizimining qaysi bosqichida o‘qitish maqsadga muvofiqligini aniqlash zarur. Shu sababli, bu sport turlarini sport maktablarida, maxsus tayyorlov markazlarida, sport oliy ta’lim muassasalarida yoki klublar va federatsiyalar tarkibida mustaqil ta’lim sifatida o‘qitish bo‘yicha eng samarali yondashuvni aniqlash muhimdir. Shu jihatdan yoshlarga so‘rovnomaning navbatdagi “Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga kiritilgan, ammo mamlakatimizda rivojlanmagan sport yo‘nalishlarini qaysi ta’lim bosqichida o‘qitish maqsadga muvofiq deb o‘ylaysiz?” degan savolni berdik. Respondentlarning 29 foizi “sport maktablarida”, 18 foizi “Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida”, 12 foizi “sport Oliy ta’lim muassasalarida” va 13 foizi “mustaqil ta’limda klublar va federatsiyalar tarkibida” degan fikrlarni ma’qul deb topishdi. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda rivojlanmagan Olimpiya va Paralimpiya sport turlarini rivojlantirishda har bir ta’lim bosqichining o‘z o‘rni bor. Sport maktablarida o‘qitish ushbu yo‘nalishlarni ommalashtirish va yosh sportchilarni shakllantirishga xizmat qilsa, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida ularni professional darajada rivojlantirish muhim. Oliy ta’lim muassasalari esa ilmiy-uslubiy tayyorgarlik va mutaxassis trenerlarni yetishtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, mustaqil ta’lim shaklida federatsiyalar va sport klublarining ishtiroki ham mazkur sport turlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Shunday qilib, rivojlanmagan sport yo‘nalishlarini ommalashtirish va rivojlantirish uchun integratsiyalashgan yondashuv, ya’ni ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu sport turlarini yo‘lga qo‘yish eng samarali yo‘l bo‘lishi mumkin.

Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga kiritilgan, ammo mamlakatimizda hali yetarlicha rivojlanmagan sport yo‘nalishlarini o‘qitish jarayoni sport ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bunday sport turlarini rivojlantirish mamlakatimiz sportchilarining xalqaro maydondagi ishtirokini kengaytirish, yangi avlod sportchilarini tayyorlash va sport sohasidagi innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish uchun zarurdir. Ushbu jarayonda zamonaviy ta’lim metodikalarini qo‘llash, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish, mamlakatimizda ushbu sport turlarining tarixini o‘rganish hamda yangi sport to‘garaklarini ochish kabi chora-tadbirlar ham ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, yoshlarga Ushbu savolga berilgan javoblarni tahlil qilgan holda, mamlakatimizda Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga kiritilgan, ammo hali rivojlanmagan sport yo‘nalishlarini o‘qitishda eng asosiy omillarga e’tibor qaratish zarurligi ko‘rinib turibdi. Respondentlarning 51 foizi xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi va o‘quv rejalari asosida mamlakatimiz sport ta’lim tizimini modernizatsiya qilish kerakligini ta’kidlagan. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, yoshlar xalqaro tajribadan o‘rganish va uni mahalliy sport ta’limiga moslashtirish eng samarali yo‘l ekanligini tushunishadi. Jahon miqyosida rivojlangan davlatlar sport ta’limida innovatsion yondashuvlardan, ilg‘or texnologiyalardan va ilmiy asoslangan metodikalardan foydalanib kelmoqda, bu esa mamlakatimiz sport sohasining global maydonda raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiladi. 33 foizi respondent o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish va optimallashtirish muhimligini ta’kidlagan. Bu esa sportchilar tayyorgarlik jarayonida sifatli va samarali mashg‘ulotlar o‘tkazish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda ilmiy yondashuvlarga asoslangan trening dasturlarini ishlab chiqish zarurligini anglatadi. 12 foizi respondentning mamlakatimizda rivojlanmagan sport yo‘nalishlari tarixini o‘rganish javobini tanlagani esa sportning ushbu turlari bo‘yicha chuqur bilim va tarixiy ildizlarni tushunish sport ta’limini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Sport turlarining rivojlanish yo‘nalishlarini chuqur o‘rganish va tahlil qilish kelajakda ushbu sport yo‘nalishlarini keng joriy etish va ommalashtirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Faqatgina 4 foizi respondent mamlakatimizda rivojlanmagan sport yo‘nalishlari bo‘yicha sport to‘garaklari ochish kerakligini bildirgan. Bu natija shuni anglatadiki, hozircha bu yo‘nalishlarda infratuzilma va resurs yetishmovchiligi mavjud bo‘lib, sport turlarini joriy etishdan oldin ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda hali rivojlanmagan Olimpiya va Paralimpiya sport yo‘nalishlarini o‘qitishda, avvalo, xorijiy tajribadan o‘rganish va ta’lim tizimini modernizatsiya qilish hamda o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish eng muhim omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, sport turlarining tarixiy rivojlanishini o‘rganish va infratuzilmani rivojlantirish ham sport ta’limini yanada takomillashtirish uchun muhim yo‘nalishlardir.

Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish sportchilarning jismoniy, psixologik va taktik tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu markazlarda ta’lim va mashg‘ulot jarayonlari turli yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, an’anaviy usullar, ilg‘or pedagogik metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali yanada takomillashtirilmoqda. Sportchilarni tayyorlash tizimi xalqaro talablar asosida shakllantirilishi lozim, chunki bu jarayon nafaqat jismoniy tayyorgarlikka, balki sportchilarni musobaqalarga tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslariga ham tayanadi. Shu nuqtai nazardan, “Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga

tayyorlash markazlarida o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni olib borish darajasini ko‘rsating.” degan savolni o‘quvchi-sportchilarga berishni lozim topdik. Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarning sifati haqida o‘quvchi-sportchilar bildirgan fikrlar tahlil qilinar ekan, ularning aksariyati zamonaviy va ilg‘or metodlarni qo‘llash muhimligini ta’kidlaganini ko‘rish mumkin. Jumladan, respondentlarning 43 foizi ilg‘or pedagogik metodlarga asoslangan mashg‘ulotlar olib borilayotganini qayd etgan bo‘lsa, 17 foizi zamonaviy texnik vositalardan foydalanilayotganini ta’kidlagan. Bu esa sport ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar joriy etilayotganini va ularga bo‘lgan talab ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning 21 foizi tayyorgarlik darajasi rivojlangan davlatlar standart talablariga mos kelishini bildirgan. Bu ko‘rsatkich hali ham sport ta’lim tizimida xalqaro mezonlarga to‘liq moslashish zaruriyatini ko‘rsatmoqda. Boshqa tomondan, 8 foiz respondentning mashg‘ulotlar an’anaviy usulda olib borilishini qayd etishi, ba’zi sohalarda eskirgan yondashuvlar hali ham mavjud ekanini anglatadi. Umuman olganda, tahlil shuni ko‘rsatadiki, sport ta’lim tizimi innovatsion taraqqiyot yo‘liga kirgan bo‘lsa-da, yanada yuqori natijalarga erishish uchun texnologik va metodik yondashuvlarni doimiy ravishda takomillashtirish zarur.

Sport ta’limida o‘quv rejalari va dasturlarining sifati sportchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ba’zi sportchi-talabalar o‘quv dasturlaridan to‘liq qoniqmay, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning muvozanati, mutaxassislikka oid bo‘lmagan fanlarning salmog‘i kabi masalalarda e’tiroz bildirmoqda. Shu sababli, “O‘quv rejalari va dasturlari sizni qoniqtiradimi?” degan savol bo‘yicha sportchi-o‘quvchilarning fikrlari tahlil qilinib, mavjud tizimning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanadi. Respondentlarning 13 foizi “ha, qoniqtiradi” deb javo bergan bo‘lsa, 8 foizi “yo‘q, mutaxassisligimizga oid bo‘lmagan fanlarni salmog‘i ko‘p”, 67 foizi “nazariy mashg‘ulot soatlarini qisqartirib, amaliy mashg‘ulot soatlarini ko‘paytirish kerak”, 6 foizi “nazariy va amaliy mashg‘ulotlar bir-birini to‘ldirmaydi” degan javoblarni tanlashgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, sportchi-o‘quvchilarning aksariyati amaliy mashg‘ulot soatlarining ko‘paytirilishini ma’qul ko‘rib, nazariy mashg‘ulotlarning kamaytirilishini taklif qilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonining amaliyotga yo‘naltirilishi lozimligini ko‘rsatadi. Ozchilik respondentlar esa o‘quv dasturlarida mutaxassisliklariga tegishli bo‘lmagan fanlarning ulushi yuqoriligidan norozi ekanliklarini bildirgan. Bundan tashqari, sportchi-o‘quvchilar nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning o‘zaro uyg‘un emasligini ta’kidlagan, bu esa o‘quv rejalari va dasturlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Faqatgina 13% respondentlar mavjud tizimdan qoniqish hosil qilgan.mUmuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sport ta’limi tizimida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar orasidagi muvozanatni ta’minlash, mutaxassislikka mos bo‘lmagan fanlarning hajmini optimallashtirish hamda ta’lim jarayonini sportchi-o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirish zarur.

Ta’lim jarayonida nazariy mashg‘ulotlarning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning o‘zlashtirish usullariga bog‘liq. Har bir o‘quvchi ma’lumotni turli usullar orqali qabul qiladi va unga bo‘lgan yondashuvi ham har xil bo‘lishi mumkin. Xususan, sport ta’lim muassasalarida nazariy mashg‘ulotlarning sifati va samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilarning qaysi usullarga ko‘proq e’tibor qaratishini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, “Nazariy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar ko‘proq qanday usullarga e’tibor qaratishadi?” degan savol bilan yoshlarga yuzlandik. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, nazariy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar eng ko‘p ya’ni 43 foizi ko‘rgazmali qurollar va misollarga e’tibor qaratishadi. Bu esa vizual va amaliy yondashuvlarning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. 35 foiz respondentlar o‘zaro muloqat va izlanish orqali bilim olishni afzal bilgan, bu esa interaktiv va muhokamaga asoslangan o‘qitish usullari samarali ekanini ko‘rsatadi. Ma’ruzani bayon qilishga e’tibor qaratgan o‘quvchilar ulushi 16 foiz bo‘lib, an’anaviy ma’ruza shakli ustuvor yondashuv emasligini anglatadi. Faqatgina 10 foiz o‘quvchilar ma’ruza matnini yozib olishni afzal ko‘rgan, bu esa passiv yondashuvga talab nisbatan past ekanini bildiradi. Umuman olganda, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun vizual materiallardan keng foydalanish, interaktiv muhokamalarni rivojlantirish va izlanish imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu usullar o‘quvchilarning faolligini oshirishga, mavzularni chuqurroq tushunishiga va ta’lim jarayonining qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida trenerlarning e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan omillar sportchilar tayyorgarligining sifati va samaradorligini belgilaydi. Har bir sport turi uchun muhim bo‘lgan jihatlar farq qilishi mumkin bo‘lsa-da, umumiy holda kuch, usul va texnikaning uyg‘unligi yuqori natijalarga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, trenerlar qaysi omillarga ko‘proq urg‘u berishini aniqlash sport mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mazkur “Amaliy mashg‘ulotlarda trenirlar qanday omillarga ko‘proq etibor qaratadilar?” savoli orqali o‘quvchi-yoshlarning fikrini bilish muhim. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, amaliy mashg‘ulotlarda trenerlarning e’tibor qaratadigan asosiy jihatlari turlicha baholanmoqda. Eng ko‘p respondentlar ya’ni foiztexnikaga urg‘u berilishini ta’kidlashgan, bu esa sportchilarning harakatlarini mukammallashtirish va texnik mahoratini oshirish muhimligini ko‘rsatadi. 26 foiz respondentlar kuch mashg‘ulotlariga ustuvor ahamiyat berilishini qayd etgan

bo‘lsa, 24 foiz o‘quvchilar usulning muhimligini ta’kidlagan. Shuningdek, 19 foiz respondentlar trenerlar barcha omillarga teng e’tibor qaratishini qayd etgan, bu esa kompleks yondashuvning mavjudligini bildiradi. Umuman olganda, amaliy mashg‘ulotlarda texnikani shakllantirish eng ko‘p e’tibor qaratiladigan jihat bo‘lib, kuch va usulga ham alohida ahamiyat berilishi zarur. Shu bilan birga, optimal natijalarga erishish uchun trenerlarning mashg‘ulot jarayonida barcha omillarni uyg‘un ravishda qo‘llashi muhim. Bu yondashuv sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini yaxshilashga, ularning natijalarini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda insonlarning ruhiy holati va psixologik barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sportchilar, talabalar va turli soha vakillari uchun psixologik yordamga ehtiyoj sezish tabiiy holat hisoblanadi. Ba’zi insonlar psixolog maslahatlaridan muntazam foydalanib, ijobiy natijalarga erishgan bo‘lsa, boshqalar bu xizmatga ehtiyoj sezmagan yoki undan kutilgan natijani olmagan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, “Psixolog yordamidan foydalanganmisiz?” degan savol orqali respondentlarning bu boradagi fikrlarini o‘rganish muhim. O‘tkazilgan tahlil natijalari respondentlarning psixologik yordamga bo‘lgan munosabati turlicha ekanini ko‘rsatadi. Ularning aksariyati, 45 foizi psixologik xizmatlardan foydalangan va ularning samaradorligini e’tirof etgan, bu esa bunday yondashuvning ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, 26 foiz respondentlar ushbu xizmatga ehtiyoj sezmagan bo‘lsa-da, undan foydalangan, bu esa profilaktik yondashuvning mavjudligi va psixologik maslahatlarning umuman olganda qiziqish uyg‘otishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 19 foiz yoshlar psixolog yordamini umuman zarur deb hisoblamagan, 10 foiz esa undan foydalanganiga qaramay, kutilgan natijani olmaganini bildirgan, bu esa psixologik xizmatlarning individuallashtirilishi va sifatining yanada takomillashtirilishini talab qiladi. Umuman olganda, psixologik yordamdan foydalanish madaniyati shakllanib borayotgan bo‘lsa-da, uning har bir shaxs uchun samaradorligi turlicha bo‘lishi mumkin. Shu boisdan, ushbu xizmatlarning sifatini oshirish, har bir insonning ehtiyoj va sharoitlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish uchun turli pedagogik texnologiyalar qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. An’anaviy tushuntirish va suhbat usullaridan tortib, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR) kabi innovatsion yondashuvlargacha turli xil metodlar qo‘llaniladi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyalarni tanlash va qo‘llash o‘quvchilarning ehtiyojlari, fanning xususiyatlari hamda zamonaviy ta’lim tamoyillariga mos kelishi muhimdir. Shuning uchun o‘qitish jarayonida tushuntirish, muammo asosida o‘qitish, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda mobil ta’lim kabi yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Quyidagi savol orqali o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar tahlil qilish maqsadida ushbu navbatdagi “O‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitishda qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni ko‘rsating.” savolini o‘quvchi-yoshlarga berishni lozim topdik. Yoshlarning 46 foizi “tushuntirish, suhbat va savol-javob, ko‘rgazmali usul, kitob bilan ishlash”, 34 foizi “interaktiv usullar, muammo asosida o‘qitish”, 14 foizi “axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, integratsiyalashgan ta’lim” va 6 foizi “mobil ta’lim, differensial o‘qitish, VR va AR texnologiyalari” deb javob bergan. Natijalarga ko‘ra, an’anaviy usullar – tushuntirish, suhbat, savol-javob va ko‘rgazmali usullar – eng ko‘p qo‘llanilayotgan va afzal ko‘rilayotgan metodlar hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilar hanuzgacha klassik yondashuvlarni samarali deb bilishadi va ularga tayanishadi. Shu bilan birga, interaktiv usullar va muammo asosida o‘qitish ham sezilarli darajada mashhur bo‘lib, bu zamonaviy pedagogikaning o‘sib borayotgan yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Biroq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va integratsiyalashgan ta’lim atigi 14 foiz o‘quvchilar tomonidan afzal ko‘rilgan, bu esa ushbu texnologiyalarning hali keng tatbiq etilmaganini yoki o‘quvchilar tomonidan to‘liq qabul qilinmaganini anglatishi mumkin. Shu bilan birga, mobil ta’lim, differensial yondashuv, VR va AR texnologiyalari atigi 6 foiz o‘quvchilar tomonidan tanlangan bo‘lib, bu innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kirib kelayotganini, ammo hali ommaviylashmaganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, ta’lim jarayonida an’anaviy va interaktiv usullar ustunlik qilayotgan bo‘lsa-da, zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Kelajakda innovatsion ta’lim yondashuvlarini kengroq joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilish, ularning mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini oshirish mumkin. Bu esa o‘qitish jarayonini yanada mukammal va natijador qilishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni optimallashtirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, pedagogik, ilmiy-uslubiy, psixologik, fiziologik, tashkiliy-texnik hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Har bir omilning o‘ziga xos

xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va ularni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim jarayoni va sport mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yhati.

1. Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонун. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси, 2021. – 25 б.
2. Олий спорт маҳорати институти фаолиятини ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий олимпия қўмитаси, 2023. – 15 б.
3. Ярашев К.Д. Жисмоний тарбия ва спорт менежменти. – Т.: «Фан ва технология», 2020. – 240 б.
4. Турдиев У.А., Хайдаров Ж.Р. Спортчиларни тайёрлаш тизимида илмий-услубий ёндашувлар. – Т.: «Ўзбекистон спорт», 2019. – 180 б.
5. Кенжаев Ш.Т. Олимпия ва Паралимпия спорт турларини ривожлантиришда ижтимоий-иқтисодий омиллар. // Спорт ва жисмоний тарбия журнали. – 2022. – №4. – Б. 45-52.
6. Хасанов Б.А. Жисмоний тарбия ва спорт психологияси. – Т.: «Илм-фан», 2018. – 210 б.
7. Сидоров В.П., Александров И.И. Подготовка спортсменов по международным стандартам. – М.: Спорт, 2020. – 320 с.
8. ФИФА, МОК. Международные стандарты подготовки спортсменов. – Лозанна, 2021. – 98 с.
9. Olympic Solidarity Program. Training and Development of Athletes. – Lausanne: IOC, 2022. – 150 p.
10. World Paralympic Committee. High-Performance Training Methods for Paralympic Athletes. – London: WPC Press, 2023. – 175 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdiolimova Iqbolaxon Hasanboy qizi
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: iqbolaxonabdiolimova@gmail.com

BADMINTON SPORTINING INSON SALOMATLIGI VA RUHIY HOLATI UCHUN FOYDALARI

Annotatsiya: *Mazkur maqola badmintonning inson tanasi va ongiga ijobiy ta’sirlarini batafsil tahlil qiladi. Unda sportning yurak-qon tomir tizimiga foydalari, mushaklar rivojlanishi, stressni kamaytirish va ijtimoiy muloqotni kuchaytirish kabi jihatlari yoritilgan. Badmintonni yangi boshlovchilar va professionallar uchun ham mos sport turi sifatida tavsiya etadi.*

Kalit so‘zlar: *Badminton, jismoniy sog‘liq, ruhiy sog‘liq, stressni kamaytirish, sportning foydalari, moslashuvchanlik, reflekslar, ijtimoiy muloqot.*

Абдиолимова Икболахан Хасанбаевна
преподаватель Ферганского государственного университета
Польза бадминтона для здоровья и психического здоровья человека

ПОЛЬЗА БАДМИНТОНА ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ И ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: *В этой статье подробно анализируется положительное влияние бадминтона на организм и разум человека. В нем освещаются такие аспекты спорта, как польза для сердечно-сосудистой системы, развитие мышц, снижение стресса и улучшение социального взаимодействия. Он рекомендует бадминтон как подходящий вид спорта как для новичков, так и для профессионалов.*

Ключевые слова: *Бадминтон, физическое здоровье, психическое здоровье, снижение стресса, преимущества спорта, гибкость, рефлексы, социальное взаимодействие.*

Abdiolimova Iqbolahan Hasanboy kizi
is a teacher at Fergana State University
The benefits of Badminton for human health and mental state

BENEFITS OF BADMINTON FOR HUMAN HEALTH AND MENTAL STATE

Annotation: *this article analyzes in detail the positive effects of badminton on the human body and mind. It highlights aspects of sports such as benefits to the cardiovascular system, muscle development, stress reduction, and enhanced social communication. Badminton is also recommended as a suitable sport for beginners and professionals.*

Keywords: *Badminton, physical health, mental health, stress reduction, benefits of sports, flexibility, reflexes, social communication.*

Kirish.

Badminton - bu nafaqat qiziqarli sport turi, balki sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashning ajoyib usuli hamdir. Ushbu sport turi inson tanasi va ongiga kompleks ta'sir ko‘rsatib, sog‘liqni yaxshilash va stressni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida badmintonning jismoniy va ruhiy salomatlik uchun asosiy foydalari keltirilgan.

Yoshi va jismoniy tayyorgarligidan qat’i nazar, badminton bilan shug‘ullanish oson. Ushbu sport turi yangi boshlovchilar va professional o‘yinchilar uchun birdek foydali. Bundan tashqari, badmintonni yopiq kortda yoki ochiq havoda o‘ynash imkoniyati uni yanada ommabop qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Badminton sporti inson salomatligi va ruhiy holati uchun katta foyda keltirishi ilmiy manbalarda keng yoritilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida quyidagi asosiy yo‘nalishlar o‘rganildi:

Jismoniy salomatlikka ta’siri:

1.Badminton o‘yinining yurak-qon tomir tizimiga foydasi haqida tadqiqotlar (“European Journal of Applied Physiology”, 2018 yil).

2.Skelet-muskul tizimini rivojlantirishga yordam beruvchi omillar (“Journal of Sports Science and Medicine”, 2020 yil).

Jismoniy sog‘liq uchun foydalari

1.**Yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash:** Badminton o‘ynash yurak urishini oshiradi, qon aylanishini yaxshilaydi va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi. Doimiy harakatlar yurakni mustahkamlab, uning samaradorligini oshiradi. Badminton o‘ynash muntazam ravishda yurak tezligini oshirish va qon aylanishini yaxshilash, yurak xastaligi xavfini kamaytirish orqali yurak sog‘lig‘ini yaxshilaydi.

2.**Vaznni nazorat qilish:** Badminton o‘yini intensiv jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oladi, bu esa yog‘larning yo‘qolishiga va sog‘lom vaznni saqlashga yordam beradi. Soatiga o‘rtacha 400-500 kaloriyani yoqish mumkin.

3.**Muskullarni mustahkamlash va moslashuvchanlikni oshirish:** Badminton turli mushak guruhlarini ishlatadi, xususan oyoq, qo‘l va bel mushaklarini rivojlantiradi. Shuningdek, tana moslashuvchanligini oshirib, jarohatlardan himoya qiladi.

4.**Reflekslarni rivojlantirish:** Tezkor harakatlar va volanga javob berish reflekslarni va koordinatsiyani yaxshilaydi. Bu kundalik hayotda muvozanat va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

5.**Suyak zichligining oshishi.** Badmintonda sakrash va yugurishning ta'siri suyak o‘sishini rag‘batlantiradi va suyak zichligini oshiradi, osteoporoz xavfini kamaytiradi.

6.**Metabolizmni kuchaytiradi.** Yuqori energiyali harakatlar metabolizm tezligini oshiradi, bu esa umumiy energiya darajasini va kaloriyalarni yoqish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

7. **Kengaytirilgan muvofiqlashtirish va reflekslar.** Badminton o‘ynash o‘yinning tez sur’ati tufayli qo‘l-ko‘zni muvofiqlashtiradi, chaqqonlik va reflekslarni keskinlashtiradi.

8.**Ijtimoiy hamkorlik**. Badmintonni yakkalik yoki juftlikda o‘ynash mumkin, bu ijtimoiy muloqotni, jamoaviy ishni va do‘stlikni rag‘batlantiradi.

9. **Shikastlanish xavfi past.** Yuqori kontaktli sport turlari bilan taqqoslaganda, badminton og‘ir jarohatlar xavfini kamaytiradi, bu esa har xil mahorat darajasidagi odamlar uchun xavfsizroq bo‘ladi.

10. **O‘pka funksiyasi yaxshilanadi.** O‘yinning aerobik tabiati vaqt o‘tishi bilan o‘pka sig‘imi va nafas olish samaradorligini oshiradi. Badmintonni muntazam ravishda, hatto haftada bir necha marta o‘ynash, faol bo‘lishning qiziqarli usulini ta'minlab, sog‘lig‘ingizni sezilarli darajada yaxshilashga olib kelishi mumkin.

Ruhiy salomatlikka ta’siri:

1.Stressni kamaytirish va depressiya belgilarini yengillashtirish (“Psychology of Sport and Exercise”, 2019 yil).

2.Ijtimoiy muloqot va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish (“International Journal of Behavioral Medicine”, 2021 yil).

Ruhiy sog‘liq uchun foydalari

1.**Stress va tashvishni kamaytirish:** Badminton o‘ynash davomida tanada "endorfin" gormonlari ishlab chiqiladi, bu esa kayfiyatni ko‘taradi va stressni kamaytiradi. Jismoniy faollik ruhiy zo‘riqishni yengillashtirishga yordam beradi.

2.**Diqqatni jamlashni yaxshilash:** O‘yin davomida tez qaror qabul qilish va strategik fikrlash talab qilinadi, bu diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi va kognitiv funksiyalarni yaxshilaydi.

3.**Ijtimoiy bog‘lanish:** Badmintonni juftlik yoki guruh bo‘lib o‘ynash insonlar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi va do‘stlik munosabatlarini mustahkamlaydi.

4.**O‘z-o‘ziga ishonchni oshirish:** Sportdagi muvaffaqiyatlar o‘z-o‘zini qadrlashni oshiradi va insonni yanada maqsadli bo‘lishga undaydi. Bu esa kundalik hayotda ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Metodologiya.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

1.Ma’lumotlarni yig‘ish:

Ilmiy maqolalar va tadqiqotlar "PubMed", "Google Scholar" kabi ma’lumotlar bazalaridan izlindi. So‘nggi 5 yil davomida chop etilgan maqolalarga asosiy e’tibor qaratildi.

2.Tadqiqot dizayni:

Deskriptiv va eksperimental tadqiqot usullari qo‘llanildi. Badminton o‘yinining salomatlikka ta’sirini o‘rganish uchun kvantitativ va sifatli ma’lumotlar tahlil qilindi.

3.Ishtirokchilar tanlovi:

Tadqiqotga 18 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan, sog‘lom hayot tarzi olib boradigan erkak va ayollar jalb qilindi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlash usuli orqali guruhlarga bo‘lindi.

4.Tadqiqot vositalari:

Jismoniy salomatlikni baholash uchun yurak urish tezligi, o‘pkani ventilatsiya qilish hajmi va tana massasi indeksi (TMI) ko‘rsatkichlari o‘lchandi.

Ruhiy holatni aniqlash uchun anketalar va psixologik testlar (masalan, Depression Anxiety Stress Scales – DASS-21) ishlatildi.

5.Ma’lumotlarni tahlil qilish:

Kvantitativ ma’lumotlar statistik dasturiy ta’minot yordamida tahlil qilindi (SPSS, R). Korrelatsiya va regressiya tahlillari yordamida bog‘liqlik darajasi aniqlandi. Sifatli ma’lumotlar tematik tahlil orqali baholandi. Mazkur metodologiya badminton sportining inson salomatligi va ruhiy holatiga ta’sirini chuqur o‘rganish va aniq xulosalar chiqarishga yordam berdi.

Muhokama va natijalar.

Muhokama. Tadqiqot natijalari badminton sportining inson salomatligi va ruhiy holatiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Asosiy kuzatishlar quyidagilardan iborat:

Jismoniy salomatlikka ijobiy ta’sirlar:

Yurak-qon tomir tizimi faoliyatining yaxshilanishi kuzatildi. Ishtirokchilarning yurak urish tezligi va qon bosimi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi.

Badminton o‘yinida faol harakat qilish natijasida tana massasi indeksi (TMI) normal holatga qaytgan ishtirokchilar ulushi oshdi.

Ruhiy salomatlik va hissiy farovonlik:

O‘yin davomida stress darajasi pasayishi va kayfiyat ko‘tarilishi aniqlandi. Bu sport davomida endorfinlar ishlab chiqarilishi bilan bog‘liq.

Ijtimoiy hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarining yaxshilanishi, ayniqsa guruh mashg‘ulotlarida faol ishtirok etganlar orasida sezildi.

Hayot sifati:

Uyqu sifatining oshishi va energiya darajasining yuqoriligi ishtirokchilar tomonidan qayd etildi. Badmintonni muntazam o‘ynash natijasida umumiy hayotdan qoniqish darajasi oshgan.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, badminton inson salomatligi va ruhiy holati uchun foydali bo‘lgan samarali sport turlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilaydi, balki ruhiy farovonlikni ham ta’minlaydi.

Quyidagi natijalar xulosa sifatida keltirilishi mumkin:

- Yurak-qon tomir tizimi faoliyati yaxshilanadi.
- Tana massasi indeksi normallashtiriladi.
- Stress va depressiya belgilarini kamaytiradi.
- Ijtimoiy muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Uyqu sifati va umumiy hayot sifatini oshiradi.

Ushbu natijalar badmintonni sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun samarali vosita sifatida tavsiya qilishga asos bo‘ladi.

Xulosa.

Badminton sport turi inson salomatligi uchun keng ko‘lamli foyda keltiradi. U nafaqat jismoniy sog‘liqni yaxshilaydi, balki ruhiy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Agar siz yangi sport turi bilan shug‘ullanishni boshlashni xohlasangiz, badminton sog‘lom va quvnoq hayot kechirish uchun mukammal tanlovdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. European Journal of Applied Physiology, "Cardiovascular Benefits of Badminton," 2018.
2. Journal of Sports Science and Medicine, "Musculoskeletal Development through Badminton," 2020.
3. Psychology of Sport and Exercise, "Stress Reduction via Sports," 2019.
4. International Journal of Behavioral Medicine, "Social Interaction in Group Sports," 2021.
5. Endocrinology Today, "Endorphin Release during Physical Activity," 2020.
6. Sleep Medicine Reviews, "Physical Activity and Sleep Quality," 2021.
7. Depression Anxiety Stress Scales (DASS-21) Manual, "Psychological Assessment Tools," 2019.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Inamova Maxliyo Ayubjonovna
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
Guliston shahar 8-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
E-mail: Ikromovjasur40@gmail.com

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING ASOSI PEDAGOG-TARBIYACHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *Kun kelib eng buyuk shaxslar qatoridan joy oluvchi pedagog-tarbiyachi butun olamni bolaning qalbiga singdirishdek mas'uliyatli hamda buyuk, sharafli kasbning egasidir. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining yosh avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani bajarish davomida uning faoliyatining murakkabligi, qiziqarliligi, yutuq va kamchiliklari, mashaqqatlari umuman olganda oziga xosligi haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *Tarbiyachi, bolalar psixologiyasi, Ilk qadam o'quv dasturi, bolaning rivojlanish xaritasi, bolaning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari, axloq qoidalari, ko'nikma, malaka, genofond.*

Инамова Махлиё Аюбжоновна
Аспирант Гулистанского государственного педагогического института
Воспитатель Государственной организации дошкольного образования №8 города Гулистан

ОСНОВА ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ–ПРИНЦИПАЛЬНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Аннотация. *Педагог-воспитатель, который когда-нибудь войдет в число величайших людей, является обладателем ответственной, великой и почетной профессии – вселить весь мир в сердце ребенка. В данной статье говорится о сложности, интересности, достижениях и недостатках, трудностях педагога дошкольной образовательной организации при выполнении важной задачи воспитания подрастающего поколения.*

Ключевые слова: *Педагог, детская психология, учебная программа «Первый шаг», карта развития ребенка, государственные требования к развитию ребенка, этический кодекс, навыки, квалификация.*

Inamova Makhliyo Ayubjonovna
Graduate student of Gulistan State Pedagogical Institute
Educator of State Preschool Education Organization No. 8 of Gulistan city

THE BASIS OF THE ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION IS THE PRINCIPALITY OF THE TEACHER'S ACTIVITY

Annotation. *The pedagogue-educator, who will one day be among the greatest people, is the owner of the responsible and great and honorable profession of instilling the whole world into the heart of a child. This article talks about the complexity, interestingness, achievements and shortcomings, difficulties of the teacher of the preschool education organization during the performance of the important task of educating the young generation.*

Key words: *Educator, child psychology, First Step curriculum, child development map, State requirements for child development, code of ethics, skills, qualifications.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son "Maktabgacha ta'limni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-sonli "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan.[1]

O'tgan davr mobaynida sog'lom va har tomonlama rivojlangan o'sib kelayotgan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratigan samarali maktabgacha ta'lim

tizimini tashkil qilish bo‘yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Prezident qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha ko‘pgina maktabgacha ta’lim tashkilotlari moddiy texnik bazasi yaxshilanadi.[1]

Tarbiyachi yosh avlodni tarbiyalashdek ezgu, mas’uliyatli hamda sharafli vazifani bajaradi. Tarbiyachi maktabgacha ta’lim tashkilotining asosi, eng muhim shaxsi bo‘lib hisoblanadi. Bugungi tarbiyachi har tomonlama yetuk, bilimli, ijodkor, kreativdir.

Respublikamiz rahbariyati bugungi kunga kelib pedagoglar faoliyatini yuqori baholamoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotining mudirasi nomini maktabgacha ta’lim tashloti direktori, 2025-yil 1-yanvardan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-metodist lavozimi negizida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor o‘rinbosari lavozimlari joriy etilishi buning yaqqol misolidir. Pedagog xodimlarning lavozim maoshlari yildan yilga oshirilib, yashash sharoitlari yaxshilanib kelinmoqda. Pedagog tarbiyachilarning mavqeyini maktab o‘qituvchilarining maqomiga tenglashtirilishi bugungi tarbiyachining shijoatiga yana kuch qo‘shib kelmoqda. Ayniqsa turli ko‘rik tanlovlarning ta’sis etilishi “Xalq ta’limi – a’lochisi’’, “Yil tarbiyachisi” kabi ko‘rik tanlovlarning tashkil etilib sovrindorlarning munosib taqdirlanishi bugungi kun pedagog tarbiyachisi uchun ulkan sharaf hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma’lum bir kasbga yo‘naltirish og‘ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta’lim va tarbiyaning mahsulidir. Mamlakatimizning kelajagi mustaqil O‘zbekistonning istiqbolli kelajagi ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi- o‘qituvchiga uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta’lim tarbiya berish, barkamol inson darajasida tarbiyalab voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq. Ma’lumki ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy jarayon bevosita tarbiyachi tomonidan tashkil etiladi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim tarbiyadan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish, bolalarning dars mashg‘ulotlari va mashg‘ulotlardan tashqari xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli qilib, vatanparvar, barkamol inson qilib o‘stirish o‘z kasbiga yo‘naltirish tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan.[2]

Tarbiya tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik jarayon bo‘lib tarbiyalanuvchini ma’lum bir maqsadga muvofiq yo‘naltirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir etish, jamiyatning ijtimoiy -tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo‘naltirilgan qizg‘in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchilarning ongi shakllanadi, ma’naviy boyligi va his-tuyg‘ulari rivojlanadi. O‘zida va ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish zarur bo‘lgan kishilar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo‘ladi.[2]

Muhokama va natijalar.

Tarbiya xususida taniqli o‘zbek adibi Abdulla Avloniyning “Al-hosil, tarbiya biz uchun yo hayot, yo momot, yo najot yo falokat, yo saodat yo razolat masalasidur” degan fikrlari barcha millat vakillariga mos keladigan haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.[3]

Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi. Bu so‘zlar muhtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning nutqidan.[2] Demak o‘z faoliyatini endigina boshlayotgan o‘qituvchilar, tarbiyachilar va doimiy izlanishda bo‘layotgan o‘qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

-har qanday pedagogik vaziyatlarda tarbiyalanuvchining ichki va tashqi dunyosini to‘g‘ri tushunish malakasi

-pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;

-tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;

-tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish;

-xilma-xil pedagogik taktlardan o‘zi uchun eng muhimini ajrata olish qobilyati;

-ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan o‘zi to‘g‘ri qaror qabul qilish;

-tarbiyaga ta’sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobilyati;

-fikr va mulohazalarni so‘z bilan mimika va pantomimik harakatlar bilan tarbiyalanuvchi ongiga yetkazib berish;

-dars va darsdan tashqari holatda tarbiyalanuvchilar bilan kommunikativ aloqa o‘rnata olish qobilyati;

-tarbiyalanuvchilar ongida erkinlik, va tashabbuskorlik, o‘z fikr mulohazalarini qo‘rqmasdan bayon eta olish qobilyatlarini, ko‘nikmalarini tarbiyalash;

-qiyin holatlarga tarbiyalanuvchilarga yordam bera olish;

-tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishda tarbiyalanuvchilar jamoasi bilan doimo maslihatlashish;

-o ‘z o‘zini boshqarishning turli shakllaridan foydalanish;

-har bir tarbiyalanuvchining yashirin ijobiy fazilatlarini ko‘ra olish va takomillashtirish;

-tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifaga ajratmaslik bir xil munosabatda bo‘lish.[2]

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobilyatlarning mavjudligiga ham bog‘liq. Pedagogik qobilyat-pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobilyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik,

pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash tashkilotchilik qobilyati va pedagogik muomila kiradi. Pedagogik qobilyatlar pedagogik faoliyatlar jarayonida, shuningdek, uni shu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat bu yosh avlodga ta'lim tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishta takomillashtirib borish san'atidir.[5]

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida ma'lumot beradi. Ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, haqiqatgo'ylik, jasurlik, mardlik, aqllilik, kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, kichiklarni ehtiyot qilishni, tabiatga qiziqish, hayvonlar va o'simliklarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnatini asrab avaylash kabi axloqiy fazilatlar tarbiyalaydi.

Tarbiyachi musiqa, tasviriy san'at, adabiyot, xalq san'ati, ashula, matematika, tabiat haqida tushuncha, raqs san'ati, joiz kelganda kuchli tadbirkor bo'lishi kerak. Pedagog malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillikda egallab borsagina bolalarni tarbiyalashda va ularga bilim berishda yuqori natijalarga erishadi. Tarbiyachi kuchli mutaxasisga aylanishi uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishi kerakdir.

Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz pedagog uchun emas balki ongli ravishta har bir fuqarodan o'zlashtirish talab qilinadiga insoniy fazilatlardan biri hisoblanadi. Pedagog mahoratida nutq uning dunyoqarashini, bilim, tafakkur, fikr-mushohada yuritishini,b elgilovchi me'yordir. Nutq madaniyati birdaniga yaxshilanadigan jarayon emas. Ko'p yillar davomida pedagogik mahorat bilan birgalikda, kasbiy faoliyati davomida, ustozlarning ibratli o'gitlari yordamida asta sekin takomillashib sayqallanib boraveradi. Uni shakllantirish faqatgina har bir pedagogning shijoatiga bog'liqdir.[3]

Pedagog- tarbiyachi unutmasligi kerak bo'lgan qonun qoidalar mavjud.

1.Nutq millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko'rsatuvchi, o'z ona tilimizga e'tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.

2. Nutq madaniyati o'qituvchilarni ma'naviy va madaniy saviyasi bilan hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma'lum ma'noda ajralib turadi.[3]

3. Nutq madaniyati pirovard maqsadi bo'lgan erkin fikr egasi bo'lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar ma'naviy jihatdan tarbiyalash

4. Nutq madaniyati-bu avvalo pedagoklarda nutqiy malaka, nutqiy ko'nikma hosil qiladi. Bu ko'nikma pedagogik faoliyatlarda takomillashib boradi va maxsus mehnat va mashqlar yordamida malaka oshiriladi va erishilgan muvaffaqiyat tufayli qobilyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o'zbek tilini mukammal egallash yordamida erishiladi. Buning uchun pedagog badiiy asarlarni o'qib borishi, she'r yodlashi, kitoblarni ifodali tarzda muntazam o'qib borishi, radio va televideniyadagi ko'rsatuvlarni kuzatib borishi kerak bo'ladi.

6. Nutq madaniyatini shakllantirishning yana bir muhim ko'rinishi nutqiy sifatlari o'zidan yaxshiroq bo'lgan ustoz-murabbiylarga havas bilan qarashi va ularga taqlid qilishidir.[1]

Tarbiya jarayonida tarbiyachi tomonidan qo'llaniladigan metodlar muhim ahamiyatga egadir.

Pedagog metodlarni qanchalik tog'ri tanlasa ta'lim tarbiya jarayoni shunchalik yengil va yuksak darajada tashkil etiladi. Mavjud metodlar asosan quyidagilar:[2]

1. Adabiyotlarni o'rganish metodi
2. Kuzatish metodi
3. Suhbat metodi
4. Bolalarni ijodini o'rganish metodi
5. MTT hujjatlarini tahlil qilish metodi
6. Eksperiment, tajriba-sinov metodi
7. Tahlil qilish metodi va boshqa metodlardan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish borasidagi Davlat talablariga muvofiq "ILK QADAM" davlat dasturi ishlab chiqildi. O'quv dasturi me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o'quv- tarbiyaviy jarayonining asosiy g'oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdagi asosiy kompotensiyalarni belgilab beradi. Dastur O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan har qanday maktabgacha ta'lim tashkilotlari (davlat, nodavlat, maxsus va b.) ning asosiy manbaidir. O'quv dastur VII bobdan iborat bo'lib V sohani o'z ichiga oladi. Dasturning boblarida quyidagilar keltirilgan:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv dasturini qo'llash va maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari keltirilgan.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayoninig maqsad va tamoyillari

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompitensiyaviy yondashuv deb nomlanib, majburiy 5ta ta'lim sohasini o'z ichiga oladi.

a) "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish"sohasi kompetensiyalari

b) "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish''sohasi kompetensiyalari

c) "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari'' sohasi kompetensiyalari

d) "Bilish jarayonining rivojlanishi "sohasi kompetensiyalari

e) "Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari

4.O‘quv tarbiyaviy faoliyat bobida O‘zbekiston Respublikasi barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan o‘quv faoliyati jarayonlari aks ettirilgan.

5.Bolalarning rivojlanish sohalari bo‘yicha yutuqlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglar tomonidan yoritilishi.

6.Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish

7.Ilovalar.

Mashg‘ulot- tashkilotda bolalarga bilim berishning asosiy shakli hisoblanadi. Tarbiyachi o‘quv dastur asosida mashg‘ulotlarni 3 turda olib boradi. Frontal, guruh bo‘lib va albatta yakka tartibdadir. Har bir usul bolalar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Har bir jarayonga tarbiyachi rahbarlik qiladi va bolalarga yangi bilim beradi. Faoliyatlar davomida bolalarda barqaror diqqat, diqqatni jalb qilish, mas’uliyat hissi, tasavvur dunyosining ortishi, nutq, muloqot, o‘z fikrini ko‘pchilik orasida ayta olish, mustaqillik kabi muhim qobilyatlari shakllanib boradi.

Pedagog-tarbiyachi o‘quv yili davomida bolalar bilan birgalikda yuqorida ta’kidlaganimdek psixolog, musiqachi, do‘st bo‘lgan holatda ma’lum bir sharoitga tayanib dastur asosida o‘quv- tarbiyaviy jarayonni tashkil etadi. Bola shaxsining har tomonlama yetuk inson bo‘lishi tarbiyachidan ma’lum bir javobgarlik taqozo etadi.

Yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar bilan ta’lim tarbiyaviy ishlarni olib borish, ularning hayoti va salomatligini hisobga olgan holda muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomaning talablariga qat’iy rioya etgan bolalarni ehtiyotkorlik bilan nazorat qilish, tashkilotning binolarida va bolalar maydonchalarida sanitariya qoidalari va yong‘inga qarshi xavfsizlik qoidalarini saqlash ;[4]

Rivojlanish xaritasiga muvofiq barcha ma’lumotlarni aks ettirgan holda har bir bolaning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish ;

O‘z-o‘ziga xizmat qilish hayot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha bolalarning ko‘nikmalarini shakllantirish;

Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha joriy va uzoq muddatni rejalashtirish, ish rejasiga muvofiq mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish, vizual va didaktik materiallarni tanlash;

Guruhlarda davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan ta’lim-tarbiya dasturlaridan bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali foydalanish;

Bolalar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish;

Ota-onalar (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) bilan bola tarbiyasiga oid dolzarb masalalarda yig‘ilishlar o‘tkazish (har chorakda bir marta) ularga bag‘ishlangan mavzuli stendlar mazmunini muntazam yangilash ;

Bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashda ta’lim-tarbiyaning zamonaviy shakl va usullarini qo‘llay olish, intellektual, axloqiy, estetik, va jismoniy rivojlantirishga ijtimoiy kommunikativ hamda muomila ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan turli xildagi tadbirlarni tashkil etish ;

Bola shaxsiga alohida yondashuvni, guruh va individual mashg‘ulot, o‘yin, sahnalashtirish, tabiatga ekskursiyalar tashkil qilish, individual xususiyatlari, qiziqish va qobilyatlarini o‘rganish;

Ta’lim va tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompitensiyalar va rivojlanish sohalari kompitensiyalarini shakllantirish;

Guruhlarda ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogika va axborot texnologiyalarni joriy etilishini ta’minlash;

Xorijiy ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish;

Guruhdagi bolalar bilan ochiq mashg‘ulotlar, semenarlar, ko‘rik tanlovlar tashkil etishi lozim;

Tashkilot ijtimoiy hayotida faol qatnashishi kerak bo‘ladi.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, maktabgacha ta’lim tarbiyachi kasbi insondan har tomonlama mukammal bo‘lishni talab etadi. Tarbiyachi - pedagog amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish bilan birgalikda pedagogika, defektologiya asoslari, tabiat va tevarak atrof, matematikadan xabardor bo‘lishi, tasviriy faoliyat, musiqa, jismoniy tarbiyadan ko‘nikma hosil qilgan bo‘lishi, birinchi tibbiy yordam ko‘rsata olishi, juda ham ijodkorlik tabiatiga ega bo‘lishni talab etadi. Tom ma’noda intiluvchan, har doim zamon bilan hamnafas, innovatsion g‘oyalar egasi bo‘lmog‘i kerak . Eng muhimi ko‘ngli toza bolalarni sitqi dildan sevuvchi, asrab avaylovchi shaxs egasidir. Butun olam ajoyibotlarini bolaning ongiga singdirishdek muhim va juda mas’uliyatli vazifani bajaradi. Belgilangan talablar va undan tashqari mas’uliyatli vazifalarni bajaruvchisi toza qalbli, vijdonli, sadoqatli, mard va izlanuvchi bo‘lishga bel bog‘lagan o‘z kasbining fidoyisi bo‘lgan shaxsdir.

Pedagog-tarbiyachining har tomonlama yetuk bo‘lishi undan o‘z o‘rnida ma’lum bir harakatlarni talab etadi. O‘z ustida ishlash, zamon bilan hamnafas yashashi, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Miromonovich ta’kidlaganlaridek raqobatbardosh kadr bo‘lishi uning birinchi vazifalaridan bo‘lishi kerakdir. Buning uchun esa albatta izlanish doimo harakatda bo‘lish kerak bo‘lsa ‘‘burch’’ sifatida qabul qilish kerakdir. Chunki sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash har bir fuqaroning burchi hisoblanadi. Zero, millat genofondini sog‘lom muhitda tarbiyalash avvalo maktabgacha ta’limga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining Qarori, 9-sentyabr 2017 yildagi PQ-3261-son; 30- sentyabr 2024 PF-152-sonli farmoni

2. D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazaryasi va metodikasi (Darslik)-T “Barkamol fayz media’’ 2018

3. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Berdaliyeva G. Maktabgacha ta’limda badiiy matn bilan ishlash metodikasi . Toshkent. “ Innovatsiya-Ziyo” 2020

4. Qodirova.F.R., SH.Q.Toshpo‘latova. N.M.Qayumova, M.N.A’zamova Maktabgacha Pedagogika-Toshkent: Tafakkur nashriyoti 2019.

5. Mustafayeva Z. Jizzax davlat pedagogika instituti kafedrasi o‘qituvchisi maqolasi. DOI:10.24412/2181-1385-2021-10-912-916

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti doktoranti
dilshodaxonmaxkamova@gmail.com

RAQAMLI KOMPETENSIYA – ZAMONAVIY TA’LIMNING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli kompetensiyaning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli kompetensiya tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari hamda xalqaro kompetensiya modellari asosida yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Maqola raqamli ta’lim, pedagogik texnologiyalar va raqamli savodxonlik yo‘nalishlarida izlanish olib borayotgan mutaxassislar uchun foydalidir.*

Kalit so‘zlar: *raqamli kompetensiya, zamonaviy ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, raqamli savodxonlik, interaktiv metodlar, oliy ta’lim, DigCompEdu, raqamli resurslar.*

Makhkamova Dilshodakhan Khabibjan kizi
Doctoral student, Kokand State University

DIGITAL COMPETENCE-AS AN IMPORTANT COMPONENT OF MODERN EDUCATION

Abstract*: This article analyzes the role and importance of digital competence in the modern education system. The content of the concept of digital competence, its structural components, and approaches based on international competency models are considered. The article is useful for specialists conducting research in the areas of digital education, pedagogical technologies, and digital literacy.*

Keywords: *digital competence, modern education, information and communication technologies, pedagogical technologies, digital literacy, interactive methods, higher education, DigCompEdu, digital resources.*

Махкамова Дилшодахан Хабибжон кызы
Докторант Кокандского государственного университета

ЦИФРОВАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ КОМПОНЕНТ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация*: В статье анализируется роль и значение цифровой компетентности в современной системе образования. Рассмотрено содержание понятия цифровой компетентности, ее структурные компоненты, подходы, основанные на международных моделях компетентности. Статья полезна специалистам, проводящим исследования в области цифрового образования, педагогических технологий и цифровой грамотности.*

Ключевые слова*: цифровая компетентность, современное образование, информационно-коммуникационные технологии, педагогические технологии, цифровая грамотность, интерактивные методы, высшее образование, DigCompEdu, цифровые ресурсы.*

Kirish.

XXI asrda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish – pedagogik faoliyatning ajralmas qismiga aylangan. Raqamli kompetensiya tushunchasi nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish, balki ularni o‘quv jarayoniga integratsiyalash, tahlil qilish, yaratish va baholash kompetensiyalarini ham o‘z ichiga oladi. YUNESKO, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar zamonaviy o‘qituvchilarning asosiy kompetensiyalari qatorida raqamli kompetensiyani ham alohida ta’kidlamoqda. Ushbu maqolada raqamli kompetensiyaning zamonaviy ta’limdagi o‘rni, uni shakllantirish metodlari va ta’lim sifatiga ta’siri tahlil qilinadi.

Zamonaviy sharoitda pedagoglar o‘z kasbiy faoliyatlarida tez-tez o‘zgarib turadigan talablarga moslashishlari zarur bo‘lmoqda. Bu esa ulardan yanada kengroq va murakkabroq kompetensiyalar to‘plamini egallashni talab qiladi. Shu jumladan, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, ya’ni **raqamli kompetentlik** zamonaviy ta’lim jarayonida muhim tushunchalardan biriga aylanmoqda.

“Raqamli” atamasi kelib chiqishiga ko‘ra lotin va ingliz tillariga taalluqli bo‘lib “digital“ so‘zidan olingan va “raqamlardagi ma’lumotlar, signal”, “qadam-baqadam”[1]

ma’nolarida ketma-ketlikni bildiruvchi sifat darajasini anglatadi. O‘tkan asrning to‘qsoninchi yillarida o‘zbek muloqot tiliga kirib kelgan ushbu so‘z eng avvalo “raqamli iqtisodiyot” so‘z birikmasi ko‘rinishida paydo bo‘ldi va hozirda ham “iqtisodiyot” sohasidan ajralmagan holda o‘z ma’no doirasini kengaytirib, jamlovchi ma’noviy bo‘yoqda boshqa sohalarga ham kirib keldi va axborot texnologiyalari sohasining muhim atamalaridan biriga aylandi. Ushbu so‘z qo‘llanilishiga ko‘ra shu darajada keng ko‘lamlilik va sermahsullik darajasiga yetdiki, endilikda u atama sifatida emas, mubolag‘asiz ravishda o‘zbek tilining umumiste’mol so‘ziga aylandi.[2]

So‘nggi yillarda ushbu sohada “AKT savodxonligi”, “axborot kompetentligi”, “axborot savodxonligi”, “raqamli savodxonlik” va “raqamli ko‘nikmalar” kabi atamalar qo‘llanilib, ular raqamli texnologiyalardan foydalanishning turli jihatlarini tavsiflab kelmoqda. Mazkur atamalar ko‘pincha “raqamli kompetentlik” va “raqamli savodxonlik” tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq.

Raqamli savodxonlik tushunchasi ilk bor qo‘llanila boshlangan bo‘lib, u insonning raqamli muhitda mavjud masalalarni samarali hal qilish qobiliyatini anglatadi. Bu esa raqamli vositalardan oqilona foydalanish, ma’lumotlarni tahlil qilish, yangi texnologiyalarga moslashish va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, raqamli kompetentlik nafaqat texnik bilimlar, balki ushbu bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini ham o‘zida jamlaydi.

2017-yilgi G20 sammiti doirasida raqamli savodxonlikning muhim ahamiyatini hisobga olgan holda[3], ushbu sohani yanada samarali rivojlantirish uchun beshta asosiy komponent taklif etilgan:

1.**Raqamli kontent bilan ishlash**: Ma’lumotlarni yaratish, topish, tahlil qilish, ularni birlashtirish va samarali boshqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu malaka raqamli resurslardan oqilona foydalanish uchun zarurdir.

2.**Kompyuter texnikasi bilan ishlash**: Kompyuter va dasturiy ta’minotning tuzilishini tushunish, texnik amallarni bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lish. Bu qobiliyat raqamli qurilmalarning asosiy ishlash prinsiplari bilan tanishishni talab qiladi.

3.**Ommaviy axborot vositalari bilan ishlash**: Matnlar, tovushlar, rasmlar va videolar kabi ommaviy axborot vositalarini tahlil qilish va baholash qobiliyatiga ega bo‘lish, shuningdek, media kontentini mustaqil yaratish imkoniyatini shakllantirish.

4.**Kommunikatsiya**: Raqamli makonda va ijtimoiy tarmoqlarda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu qobiliyat onlayn muhitda xabarlashuv va fikr almashuvda muhim rol o‘ynaydi.

5.**Texnologik innovatsiyalar**: Hayotning turli sohalarida zamonaviy texnologiyalar va qurilmalardan foydalanish, shuningdek, raqamli makonda ishlash uchun zarur bo‘lgan vositalar (gadjetlar, ilovalar va boshqalar)ni o‘zlashtirish ko‘nikmasini anglatadi.[4]

Ushbu komponentlar raqamli savodxonlikni rivojlantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi va zamonaviy raqamli muhitda faol ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Evropa Ittifoqi Ta’lim qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan **pedagoglarning raqamli kompetensiyasi profili** (Digital Competence of Educators) zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun muhim yo‘nalishlarni belgilaydi. O‘qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha 22 ta kompetensiyani olti yo‘nalishda tasniflaydi: [5]

- **Professional pedagogik muhitda raqamli texnologiyalardan foydalanish:** Pedagoglarning raqamli vositalardan kasbiy faoliyatni rejalashtirish, tashkil qilish va o‘zaro hamkorlikni ta’minlashda foydalanish qobiliyatlari.
- **Raqamli ta’lim resurslarini izlash, yaratish va almashish bo‘yicha ko‘nikmalar:** Innovatsion raqamli materiallarni yaratish, mavjud resurslarni aniqlash va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash.
- **Ta’lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalar:** Darslarni interaktiv va samarali qilish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘zlashtirish.
- **O‘quv natijalarini baholash uchun raqamli vositalardan foydalanish:** O‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish va baholash uchun raqamli baholash usullaridan foydalanish qobiliyatlari.
- **Ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish:** Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’limni moslashtirish va yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratish.
- **Ta’lim oluvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash:** O‘quvchilarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularni yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu yo‘nalishlar pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, ta’lim samaradorligini oshirish va raqamli muhitda yangi avlod o‘quvchilarini yetishtirishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi tasvirda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini **DigCompEdu ((Digital Competence of Educators) modeli** modeli tasvirlangan.



1-rasm. Pedagoglarning raqamli kompetensiyalari

Quyida pedagogik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir qancha modellarning tavsiflari jadval shaklida taqdim etilgan. Har bir modelning asosiy maqsadi, komponentlari va qo‘llanilish sohalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan model va standartlar tasnifi

Model nomi	Maqsadi	Asosiy komponentlari	Qo‘llanilish sohasi
TPACK modeli[6]	Fan mazmuni, pedagogika va texnologiyalarni integratsiyalashuvini tushuntirish	1) Fan mazmuni bilimi; 2) Pedagogik bilimlar; 3) Texnologik bilimlar; 4) Integratsiya (Pedagogik-Texnologik, Mazmun-Texnologik)	Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish.
SAMR modeli[7]	Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi ta’sirini tavsiflash va darajalarini belgilash	1) Substitution; 2) Augmentation; 3) Modification; 4) Redefinition	Ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish.
ISTE standarti[8]	Pedagoglarning raqamli muhitda ta’lim jarayonini tashkil qilish bo‘yicha zarur kompetensiyalarini aniqlash	1) Ijodkorlik va innovatsiya; 2) Hamkorlik va aloqa; 3) Axborot kompetensiyasi; 4) Tanqidiy fikrlash; 5) Raqamli fuqarolik	Pedagoglarning raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.
YuNESKO modeli[9]	Pedagoglarning AKTdan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish	1) AKT roli; 2) O‘quv rejasi va baholash; 3) Pedagogik amaliyot; 4) Texnologiyalar bilan ishlash; 5) Ta’limni boshqarish	AKT integratsiyasi orqali ta’lim samaradorligini oshirish.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetensiyaning ta’limdagi roli nihoyatda muhim bo‘lib, uni shakllantirish uchun tizimli yondashuv zarur. Ko‘pchilik o‘qituvchilar texnik vositalardan foydalanishni o‘rganishgan bo‘lsa-da, ulardan samarali pedagogik maqsadlarda foydalanishda muammolar mavjud. Xalqaro amaliyotda pedagoglar uchun mo‘ljallangan raqamli kompetensiya modellari mavjud bo‘lib, ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiyalash maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi ham muhim omil sifatida baholanmoqda. Shuning uchun o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi va kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan doimiy kurslar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Duden.Das Fremdwörterbuch. Mannheim. 1997. - 191 б
2. Ibraimov Xolboy Ibragimovich “Bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamlib kompetensiyalarni rivojlantirish –xxi asrning dolzarb muammosi sifatida “raqamli ta’limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 25-oktabr 2023-yil https://doi.org/10.5281/zenodo.10036586
3. G20 Germany 2017. (2017). *Shaping an Interconnected World – G20 Leaders’ Declaration*. Hamburg: G20. https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/STATEMENT_17_1960
4. Adashboyev Shavqiddin Mixriddinovich Raximov Q.- t.f.f.d., (PhD) “PEDAGOGIK FAOLIYATDA RAQAMLI KOMPETENSIYALAR” MODULI BO‘YICHA O‘QUV –USLUBIY MAJMUA 2024 Farg‘ona
5. Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu) 2017 https://joint-research-centre.ec.europa.eu/digcompedu_en?utm_source=chatgpt.com
6. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record, 108*(6), 1017–1054.

7. Puentedura, R. R. (2006). SAMR Model: Transformation, Technology, and Education 31 p

8. International Society for Technology in Education (ISTE). (2016). ISTE Standards for Students, Teachers, and Leaders. 42 p

9. UNESCO. (2011). Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). 192 p Wilson, Carolyn

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich
Andijon davlat universiteti Sport faoliyati turlari nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti

SPORT TRENERI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK TAYYORGARLIKNING ILMIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sport trenerining kasbiy faoliyatida psixologik va pedagogik tayyorgarlikning o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Muallif zamonaviy trener shaxsining shakllanishida asosiy rol o‘ynovchi psixologik komponentlar, stress holatlari, muloqot uslublari, motivatsiya va ehtiyojlar tizimi, shuningdek, trener-sportchi munosabatlarining xususiyatlarini tahlil qiladi. Mavjud nazariy yondashuvlar asosida trener faoliyatining samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *sport treneri, kasbiy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, motivatsiya, trener-sportchi munosabatlari, pedagogik kompetensiya, trenerlik faoliyati, stress omillari, shaxsiy sifatlar, sport psixologiyasi.*

Мирзакаримов Юлдашбой Абдинабиевич
Доцент кафедры теории и методики видов спортивной деятельности
Андижанского государственного университета

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПОРТИВНОГО ТРЕНЕРА

Аннотация. *В данной статье подробно освещается роль и значение психологической и педагогической подготовки в профессиональной деятельности спортивного тренера. Автор анализирует психологические компоненты, играющие ключевую роль в формировании личности современного тренера, стрессовые состояния, особенности общения, мотивацию и систему потребностей, а также специфику взаимоотношений между тренером и спортсменом.*

Ключевые слова: *спортивный тренер, профессиональная подготовка, психологическая подготовка, мотивация, отношения тренер–спортсмен, педагогическая компетентность, тренерская деятельность, стрессовые факторы, личностные качества, спортивная психология.*

Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich
Associate Professor, Department of Theory and Methodology of Sports Activities,
Andijan State University

SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PREPARATION IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A SPORTS COACH

Abstract. *This article thoroughly explores the role and significance of psychological and pedagogical preparation in the professional activities of a sports coach. The author analyses key psychological components that play a central role in the formation of a modern coach’s personality, including stress conditions, communication styles, motivation, and the system of needs, as well as the specific nature of coach-athlete relationships.*

Keywords: *sports coach, professional preparation, psychological preparation, motivation, coach-athlete relationship, pedagogical competence, coaching activity, stress factors, personal qualities, sport psychology.*

Kirish.

Dunyodagi ko‘pgina jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muassasalarda trenerlik faoliyati darajasini takomillashtirish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, yuksak malakali trenerlarni tayyorlashda shaxsiy va kasbiy sifatlari, pedagogik hamda psixologik modeli, shaxsga xos didaktik, kommunikativlik, boshqaruvchanlik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, trener faoliyatining individual uslubi, boshqaruv tiplari sportda pedagogik mahorati hamda uning sport texnikasi, o‘qitish usullari bo‘yicha malakaga ega bo‘lishi, o‘quv jarayonini va tanlovlarni nazorat qila olishi hamda oldindan jarayonni baholashni to‘g‘ri tashkil etish qobiliyati ilmiy-uslubiy asoslari, bo‘lg‘usi sport treneri kasbiy tayyorgarligini

takomillashtirish masalalari olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Respublikamizda trenerlar kasbiy tayyorgarligiga nazariy, amaliy, metodik yondashish hamda kasbiy tayyorlashning tuzilishi va uning metodikalarini takomillashtirish, trenerlik faoliyatida zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni aniqlash masalalari tadqiq etilgan. “Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga” yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishda kasbiy masalalarga alohida vazifalar belgilangan. Trenerlik faoliyatining ijodiy komponentlari, uning insoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlik holati, kasbiy faoliyatdagi ma’naviy va axloqiy munosabatlar, inson qobiliyatlari va maxsus qobiliyatlarning kasbiy faoliyatning samaradorligiga ta’siri, shaxslararo munosabatlarning trenerlik faoliyatidagi ahamiyati, trener va sportchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni kabi masalalar qisman yoritib o‘tilgan. Trenerlik faoliyatining ijtimoiy mazmunini, ularni kasbiy pedagogik jihatdan tayyorlashning metodikalarini tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili.

Mamlakatimizda bir qator tadqiqotchi va olimlar tomonidan trenerlik faoliyati, sport trenerlarining kasbiy tayyorgarligi, kasbiy kompetentligi, trenerlarga xos kasbiy fazilatlar, trenerlarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish borasida e’tiborga molik izlanishlar olib borilgan. Bunda asosan trenerlik faoliyatida sportchilarni tayyorlashning pedagogik va psixologik masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotchi olimlardan E.G‘.G‘oziyev, Z.G.Gapparov, M.M.Mamatov, Y.N.Masharipovlar muammoning sof psixologik jihatlariga va musobaqa muhiti omillari orqali yoritishga keng e’tibor qaratishgan2. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlarini takomillashtirish ishlari R.D.Xalmuxamedov, F.A.Kerimov jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni va sifatiga davlat talablarini takomillashtirishning T.S.Usmanxodjayev, A.N.Abdiyev tashkiliy-metodik jismoniy tarbiya jihatlari va sport mutaxassislarining kasb mahoratini rivojlantirishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari N.T.To‘xtaboyev tomonidan pedagogik jihatdan yetarlicha tadqiq etilgan.

Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, faoliyat muammosining e’tiborga molik tadqiqotlari A.G.Asmolov, Ye.A.Klimov, A.A.Krilov, A.N.Leontev, G.S.Nikiforov, G.V.Suxodolskiy, V.D.Shadrikovlarning ilmiy konpsepsiyalari mazmunida, shaxs tushunchasi tahlili bilan bog‘liq tadqiqotlar B.G.Ananev, V.L.Mariиuk, B.C.Merlin, Yu.P.Platonov, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin ilmiy izlanishlarida, yoshlar sportida trener faoliyatining psixologik jihatlari S.I.Volkov, V.M.Proxorova, I.N.Resheten, R.N.Terexinalar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Natijalar va ularning tahlili.

Trenerning professional faoliyati qator pedagogik funksiyalar va psixologik bilimlar majmuidan iborat bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq kechadi. Asosiy maqsad esa, mashg‘ulot va raqobatbardosh faoliyatni boshqarishdir. Shuningdek, trener sog‘liqni saqlash, ta’lim, gigiena, ayrim ijtimoiy masalalar, sport va raqobatbardosh maqsadlar bilan bog‘liq qator dolzarb vazifalarni hal qilishi kerak. Pedagogik vazifalar o‘z mazmunida ta’lim berish va madaniy-ma’rifiy ishlar turkumini qamrab oladi. Trener faoliyatida, sportchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish, sport uskunalari va motor harakatlarni namoyish qilish, muvaffaqiyat bilan sport jamoasini boshqarish, ularda shaxsiy psixologik fazilatlarni shakllantirish va musobaqalarni o‘tkazish kabilar ajratiladi.

Tadqiqotchi Ye.V.Melnik trenerning professional faoliyatidagi psixologik va pedagogik xususiyatlarni tavsiflab, mashg‘ulot jarayonida sportchining jismoniy sifatini rivojlantirishning asosiy qonunlari bilan birga motorik qobiliyatlarning shakllanish qonunlari o‘rtasidagi munosabatni alohida e’tiborga oladi [1]. Trenerga quyidagilar kerak bo‘ladi:

– sportchida ruhiyatning namoyon bo‘lishi va undagi ruhiy holatning xususiyatlarini bilishi va uni boshqara olishi;

– sportchining qobiliyat darajasiga qarab muayyan usul harakatlarni amalga oshirish vazifasini aniq belgilab olish, jismoniy mashqlar qilish usullarini tushuntira bilish.

Bularning barchasi trenerdan pedagogika, psixologiya, fiziologiya, biomexanika va boshqa fanlar yutuqlariga doimo murojaat qilishini talab qiladi.

Yu.D Jeleznyakning aytishicha, trener faoliyatining muhim jihati shundan iboratki, u jismoniy va texnik jihatdan sog‘lomlashtirishga katta e’tibor berishi, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bilan bir qatorda sportchilarning shaxs sifatida shakllanishlariga katta hissa qo‘shishi kerak [2].

Trenerning faoliyatining quyidagi psixologik xususiyatlari mavjud:

– kasb stressi, ayniqsa, musobaqa jarayonidagi kuchli zo‘riqish;

– kasbiy xavf va ijtimoiy rolning barqaror emasligi;

– muntazam muloqot ya’ni sportchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan;

– tartibsiz faoliyat, oiladan ajralib chiqish;

– taqdimot faoliyati va hokazo.

Yuqoridagi tasniflardan kelib chiqib, trener faoliyatidagi qator psixologik xususiyatlar, mashqlantirish jarayoni bilan uzviy tahlil etilishi maqsadga muvofiq sanaladi. V.F. Kostyuchenkoga ko‘ra, trener faoliyatida yuqori darajali stress holati ham kuzatilib, uning sabablari quyidagilar bilan izohlanadi [3]:

– vaqt kam bo‘lgan paytda tezkor qarorlar qabul qilish holatida;

– sportchilarning hayoti va sog‘ligi uchun qayg‘urish, chunki ayrim jismoniy mashqlar juda xavfliligi bilan ajralib turadi;

– mashg‘ulot xonasida yuqori shovqinning mavjudligi, bu shaxsda aqliy charchoqlikni yuzaga keltiradi;

– mashg‘ulot xonasi yoki stadionning katta qismini nazorat qilish holatida;

– nutq apparatidagi zo‘riqishlar va hokazolar.

Sport trenerlaridagi jismoniy zo‘riqish holati sportchilarga jismoniy mashqlar va texnik va taktik harakatlarni o‘rgatish jarayonida, harakatlarni birgalikda amalga oshirish jarayonida yuzaga keladi. Bundan tashqari, tashqi muhit omillarining ham trener faoliyatida ijobiy va salbiy tomonlari bor, ya’ni bu holat xonalarning gigienik holati shuningdek, ob-havo va iqlim sharoiti kabilar bilan belgilanadi.

Trener faoliyatini o‘rganish borasidagi yondashuvlaridan biri bu mehnatning psixologik xususiyatlari haqidagi ta’limotdir. Tadqiqotchi A.A.Lalayan trener faoliyatining psixologik jihatlarini o‘rganish orqali mashg‘ulot va bellashuv jarayonidagi trenerning sportchilar bilan kechadigan muloqot faoliyatini quyidagicha asoslaydi [4]:

– kontakt - trener sportchi bilan bevosita aloqada bo‘ladi ya’ni boks, kurash, qilichbozlik va sport o‘yinlari turlarida;

– distant - trener bevosita aloqa qilmaydi ya’ni og‘ir atletika, suzish, ot sporti turlarida;

– aralash - uzoq masofadan aloqa qilish yoki turli ishoralar bilan muloqot qilishdir ya’ni gimnastikachilar bilan.

– qisqa aloqa - tanaffuslar vaqtidagi muloqot ya’ni boks, basketbol sportida;

– shartli aloqa - an’anaviy belgilar, signallar orqali trener bilan aloqa qilish ya’ni yengil atletika, gimnastika sportida;

– ajralish - musoboqa jarayonida trener bilan aloqaning yo‘qligi ya’ni suv sportida va boshqa.

Shuningdek, ikki tomonlama aloqani amalga oshirish, asosan, sport turining o‘ziga xosligi, trenerning kasbiy tayyorgarligi darajasi va sportni takomillashtirish jarayonidagi munosabatlarining sifatiga bog‘liqdir.

Tadqiqotchi G.Tumanyan yuqoridagi tavsiflardan farqli o‘laroq, trenerlar shaxsini o‘ziga xos tasniflashni taklif etadi [5]:

– o‘z o‘quvchilarini oddiy sportchidan to nomdor sportchilar darajasiga olib chiqadigan trenerlar;

– uzoq vaqt davomida o‘z maktabi va milliy terma jamoalar uchun ―yarim tayyor‖ iqtidorli sportchilarni chiqaradigan trenerlar;

– taniqli sportchilarni tayyorlovchi trenerlar. bunday trenerlar shogirtlari odatda, ta’limning to‘liq “mahsuloti” hisoblanadi va shuning uchun bunday mutaxassislar milliy terma jamoalar uchun asosiy sportchilarni yetkazib beruvchilar sanaladi;

– bolalar, o‘smirlar, yoshlar va o‘smir qizlar bilan ishlaydigan trenerlar. ular erta bosqichda sportchilarni tayyorlab, keyin tajribali va mashhur hamkasblariga o‘tkazadilar;

– zargar trenerlar, bu toifadagi trenerlar boshqa toifalardan ancha ustun bo‘lib, sportchilarni obro‘li natija va unvonlarga olib chiqadilar.

Markazlashgan yig‘ilishlarda va muhim voqealarda ularni ko‘proq jalb qilish ahamiyatli sanaladi. Ular mustaqil trenerlar va terma jamoa trenerlari o‘rtasidagi “turtki ko‘prik” hisoblanadi.

Bosh trenerlar, ko‘p hollarda, ular o‘quv jarayonining tashkilotchilari sanalib, umumiy jalb qilinadigan trenerlarning ishlarini, shuningdek, quyida keltirilgan ikkita toifadagi trenerlar ishini nazorat qiladi. Mazkur nazoratning murakkabligi shundaki, o‘q otish, figurali uchish, yengil atletikalar yig‘ilishlarini bir joyda o‘tkazish va hokazo.

Milliy terma jamoa a’zolarining individual guruhlari trenerlar. Ya’ni bir-biriga sport bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlar balandlikka va uzoqlikka sakrash, bosqon uloqtirish va shunga o‘xshash mashg‘ulotlar olib boradigan katta trenerlar hamdir.

Sportchilar uchun texnik, taktik, jismoniy, nazariy va boshqa mashg‘ulotlar olib boradigan “tor” mutaxassislar. Ushbu toifadagi trenerlarni turli sport turlari bo‘yicha milliy terma jamoalarini tayyorlash amaliyotiga jalb qilish doimo shart emas, lekin ayrim holatlarda ular taklifga ko‘ra mashg‘ulot jarayonida ishtirok etadilar masalan, figurali uchish, akrobatika va gimnastika va hokazolarda.

Ye.P. Ilin o‘zining “Jismoniy tarbiya psixologiyasi” nomli monografiyasida, trener faoliyatini motivason jihatlarini o‘rganishga harakat qiladi. Va asosiy masala sifatida, trener faoliyatining motivatsion va ehtiyojlar komponentini hamda ularning davogarlik darajasini o‘rganishga qaratildi [6].

Bizningcha, har qanday faoliyatning muvaffaqiyati, oxir-oqibatda, motivlar majmuasi bilan belgilanadi, chunki ishning maqsadi ishni tanlash uchun sabablarni yuzaga keltiradi. Trenerlik kasbini tanlashdagi eng asosiy sabab - bu sportga va unga bog‘liq bo‘lgan istiqbollarga bog‘liqdir. “Zarurat” uchun trenerlik kasbini tanlash xatodir, chunki trenerlik juda qiyin kasblardan biridir. Trenerlik kasbi insonning shaxsiy sifatlari va ehtiyojlari bilan belgilanadigan kasb hisoblanadi. Trener bo‘lish uchun ahamiyatli bo‘lgan quyidagi omillar ajratiladi: qiziqib harakat qilish, orzu va sportchilarni tarbiyalash uchun, kasbiy e’tibor uchun, oilaviy an’analarni davom ettirish uchun va hokazo.

Bo‘lajak trenerlar shaxsini psixologik jihatdan tadqiq etishda qator metodik usullar mavjud bo‘lib, ularga shaxs so‘rovnomalari, intervyu usuli, sportchilarning ota-onalari

bilan suhbat, ekspert baholash usuli, psixodiagnostik usullar kiradi. Trener o‘z ishining muvaffaqiyatini turli mezonlarga, jumladan psixologik jihatlarga qarab baholashi mumkin.

N.B.Stambulova sportchi tomonidan trener faoliyatini baholashda uchta komponentni ajratadi [7]:

– gnostik - trenerning professional salohiyatini izohlaydi;

– hissiy - trenerning emotsional jozibadorligi bilan bog‘liqj

– xatti-harakatlar - trenerning ozuqaviy ta’siri bo‘lgan xatti harakati, aloqasi va samarador faoliyatini nazarda tutadi.

Tadqiqotchi G.N. Savenkov fikricha, trener faoliyatining samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlar ajratiladi [8]:

– sportchilarning yutuqlari;

– to‘liq vaqtda o‘qitishning sifati, uning samaradorligi;

– mashg‘ulotlarga qatnash munosabati;

– tutiladigan xujjatlar va uning sifati;

– sportchilarning oqilona javoblari;

– jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlim;

– sportchi shaxsini shakllantirish;

– trenerning ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashishi;

– sport menejerlari, professor-o‘qituvchilar, sportchilar va ota onalarning trenerlar faoliyati haqidagi izohlari;

– sportchilarning bo‘lajak trener bo‘lish istaklariga oid tahlil natijalari.

G.D.Gorbunovning ta’kidicha, trenerlar shuni unutmaslik kerakki, sportchining biror sport turini boshlashidan oldin uning sport bilan shug‘ullanish motivlariga, sportchining shaxsiy fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisob olishi, sportda muvaffaqiyat qozonish sirlari, trener va sportchilar o‘rtasidagi mavjud munosabatlarning mazmuni, jamoadagi jipslik va yetakchilik uslubi kabilar haqida yaxshi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmog‘i lozim [9]. Ammo, bu trenerlarning oldida turgan vazifalarning to‘liq hammasi emas. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, psixolog ham trener bilan birga qator jiddiy psixologik muammolarni hal qilishi kerak. Shuningdek, sport faoliyatiga oid anjumanlarda trenerlar ko‘pincha zaif ruhiy holatlarning paydo bo‘lishi, uni tartibga solish haqidagi masalalarni ilmiy muhokama qilishlari kerak, chunki haddan ziyod zo‘riqish bilan shug‘ullanish sportchi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Musobaqalar oldida trener nafaqat sportchilarga psixologik ta’sir ko‘rsatishi, o‘ziga ishonchni oshirishi va ularda g‘alabaga erishish uchun o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish imkoniyatini shakllantirishi kerak. Bu jarayonda sport psixologi trenerga psixologik treningni tashkil qilish uchun yordam beradi.

Trenerning kasbiy faoliyatidagi psixologik tayyorgarligi bu- uning faoliyatga shaxsiy tayyorgarligi va pedagogik vazifalarni hal qilish qobiliyati hamda inson sifatlarining shu aloqador faoliyatga oid barcha qonuniyatlaridan habardorligi kabilardir.

Xulosa.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, bo‘lajak trenerlarda ijtimoiy munosabatlar uchun ham malaka shart sanaladi. U shaxsga sport uchun zarur bo‘lgan kuch, tezlik, epchillik, egiluvchanlik, chidamchilik, sharoitiga tez moslashish kabi sifatlar yetiladi. Shuningdek, musobaqa jarayonida psixik jarayonlarning sifati, reaksiya tezligi oshib, sportchida mo‘ljal olish yaxshilanadi, tafakkur tez va sifatli ishlaydi. Sportchi o‘z harakatini erkin nazorat qila oladi. Sportda trenerlik murakkab kasb, u shunchaki tanlov emas, balki shaxsda mavjud bo‘lgan qator psixologik sifatlar majmui bilan bog‘liq. Agar bo‘lajak sport trenerlarining psixologik tayyorgarligi borasidagi masalalar kengroq tadqiq etilsa, u holda sportda fidokorona mehnat olib boradigan trenerlar sonining yanada ortishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мельник, Е.В. Психология личности и деятельности тренера: учебно методическое пособие / Е. В. Мельник, Ж. К. Шемет, Е. В. Силич; под ред. Е. В. Мельник. – Минск : БГУФК, 2014. – 240 с.

2. Железняк Ю.Д., Воробьева Е.Л. Инновационные аспекты профессионального физкультурного образования в педагогических учебных заведениях //Профессиональная подготовка педагогов-специалистов в области физической культуры и спорта: Всероссийской межвузовской конференции. -М.: Малаховка, 1999.– С.312.

3. Костюченко, В.Ф. Профессионализм в сфере физич. культуры. /В.Ф. Костюченко// Уч. метод, пос .СПб.: Изд. СПбГАФК, 2003. – 220 с.

4. Лалаян А.А. О типологии тренеров в связи с особенностями их деятельности.Теория и практика физ. культуры. – 1981. – № 6. – С.12

5. Туманян Г.С.Стратегия подготовки чемпионов: (настольная книга Тренера М.: Советский спорт, 2006. – 494 с.

6. Ильин Е.П. Дифференциальная психофизиология. СПб.: Питер, 2001. – 464 с.

7. Стамбулова Н.Б. Психология спортивной карьеры: учеб. пособие – СПб.: Центр карьеры, 1999. – 368 с.

8. Савенков Г.Н. Психологическая характеристика профессиональной деятель-ности спортивного тренера: метод. Разработка. – М.: ГЦОЛИФК, 2007. 2-изд.– 240 с.

9. Горбунов, Г.Д. Психопедагогика спорта. – 2-е изд. – М.: Советский спорт, 2006. – С. 98 –107.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Miraliyeva Dilafruz
Nordik Xalqaro universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti
Yuldasheva Sharofat
Toshkent davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta`lim" kafedrasi dotsenti

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda: matn yaratishga o'rgatishda qo'llanadigan interfaol texnologiyalar haqida bayon qilinadi. O'quvchilarni matn yaratishga o'rgatishda amaldagi 1-4-sinf darsliklarida berilgan mashq va topshiriqlarni to'ldirishga yordam beradigan: so'z ma'nolari ustida ishlash va ulardan nutqda to'g'ri foydalanish, matn tuzilishi ustida ishlash, monlogik matn tuzishga o'rgatuvchi texnologiyar haqida metodik ko'rsatmalar beriladi.*

Kalit so'zlar*. Matn, 4K modeli, tamoyil, nutq, so'z ma'nosi, lug'at, uslub, monologik nutq, POPS formulasi.*

Миралиева Дилафруз
Доцент кафедры педагогики нордического Международного университета
Юлдашева Шарафат
Доцент кафедры "начальное образование"
Ташкентского государственного педагогического университета

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация*. В данной статье рассказывается об интерактивных техно-логиях, применяемых в формировании коммуникативных компетенций у учащихся начальных классов: обучении созданию текста. Даны методические указания, которые помогут дополнить упражнения и задания, приведенные в действующих учебниках 1-4 класса: работа над значениями слов и их правильное использование в речи, работа над структурой текста, обучение составлению монологического текста.*

Ключевые слова*. Текст, модель 4К, принцип, речь, значение слова, словарный запас, стиль, монологическая речь, формула POPS.*

Miraliyeva Dilafruz
Associate Professor, Department of Pedagogy,
Nordic International University
Yuldasheva Sharafat
Associate professor of the Department of "Primary Education",
Tashkent State Pedagogical University

THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. *In this article, we will talk about interactive technologies used in the formation of communicative competencies in primary school students: learning to create text. When teaching students to create text, technical instructions are given to help fill in the exercises and tasks presented in the textbooks of grade 1-4: work on the meanings of words and use them correctly in speech, work on the structure of the text, learn how to prepare a monological text.*

Keywords*. Text, 4K model, principle, speech, word meaning, vocabulary, style, monologue, POPS formula.*

Respublikamizda ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda bu borada hukumatimiz tomonidan qator chora - tadbirlar belgilanib, ular muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Chunonchi, xalq ta'limi tizimini

2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining ishlab chiqilishi ta'limni rivojlantirishdagi asosiy hujjatlardan biri bo'ldi. Mazkur konsepsiyasida darsliklarning yangi avlodini yaratish, o'qitish metodlarini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Belgilangan vazifalarni bajarish jarayonida ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribalari o'rganildi. Qilingan ishlar samarasi o'laroq 2023-2024-o'quv yilida boshlang'ich sinflar uchun 4K modeli asosida zamon talabiga javob beradigan darsliklar tayyorlandi va tajriba-sinov maqsaida amaliyotga joriy qilindi.

4K modelini tashkil etuvchi asosiy tamoyillardan biri kommunikativlikdir. Bu tamoyilning maqsadi o'quvchilarni o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suh-batdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rgatishdir.

Zamonaviy ta'lim matnga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanadi, boshqacha aytganda matn o'rganish birligi, o'quv mazmuni va nazorat birligidir. Darsda matn bilan ishlash qiziqarli mashg'ulotlardan biri bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi. M.M. Baxtin (20-asrning mashhur mutafakkiri) shunday degan edi: "Matn bo'lmagan joyda tadqiqot va tafakkur obyekti ham bo'lmaydi". Matnlar zamonaviy odamni hamma joyda o'rab oladi: bu ko'zni qamashtiruvchi reklama, turli hisobot, gazeta yoki Internet saytidagi maqola, SMS xabar, turli mazmundagi arizalar, maktab inshosi va boshqalar.

Matnni tushunish va yaratish qobiliyati, birinchi navbatda, ona tili darslarida shakllanadi. Zero ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini sharoitga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Matnning ona tili ta'limida tutgan o'rni, matn ustida ishlash va uni yaratishga o'rgatish metodikasi rus olimlari T.A. Ladijenskaya, M.R. Lvov, T.G.Ramzaevalar, o'zbek olimlari S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev, T.Ziyodo-va, H.Bakiyevalarning ishlarida o'z tadqiqot obyektlari nutai nazardan yoritilgan.

Matn bilan ishlashning maqsadi – uning qurilishini tushunish, ona tilining uslubiy, fonetik, morfologik, sintaktik va imloviy me'yorlarini o'zlashtirishdir. Bu maqsadga quyidagi ish turlaridan foydalanish orqali erishiladi:

- mavzuga mos so'zlarni tanlay bilish;
- matndagi gaplar chegarasini aniqlash ;
- matnni qismlarga bo'lish;
- deformatsiyalangan matnni tiklash;
- mavzu, asosiy g'oyani aniqlash;
- mavzuga mos sarlavha topish;
- matnni davom ettirish;
- har xil uslubdagi matnlarni yaratish;

Matn yaratishga o'rgatishdagi dastlabki qadam bu so'z tanlay bilish hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga, nutqda ulardan to'g'ri foydalana olishga o'rgatuvchi mashq va topshiriqlardan foydalanishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Bu sinflarda so'z ustida ishlashda quyidagilar nazarda tutiladi:

- o'quvchilarni yangi so'zlar va atamalar bilan tanishtirish, ma'nosi tushunarsiz so'zlarning ma'nosini aniqlash;

- so'zlarni kontekstda kuzatish va ma'nosi ma'lum bo'lgan so'zlarning yangi ma'nolarini izohlash (so'zning ko'p ma'noliligi);

- sinonim va antonimlarni tanlash va hokazo.

Kuzatishlarimiz maktablarda so'z ustida ishlashda yuqorida qayd etilgan ish turlaridan o'qituvchilar u yoki bu darajada foydalanayotganliklarini ko'rsatdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, matn yaratishda so'z ma'nolarini bilish, uni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llay bilish asosiy o'rinni egallaydi. Ammo boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni lug'atlar bilan ishlashga o'rgatishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Buning o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bor. Chunonchi, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun lug'atlarning yaratilmaganlig'i va h.k.

Lug'atlar bilan ishlash.

Lug'atlar inson bilimlarini alifbo tartibida joylashtirilgan tushunchalar shaklida to'playdi. Faoliyatning bu turi mustaqillik darajasini oshiradi, o'quvchilarni yuqori sifatli til materiali bilan ta'minlaydi. Lug'atdan foydalanish qobiliyati katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu ko'nikma o'quvchilarga butun umri davomida til haqidagi bilimlarini to'ldirish, muloqot qilish, kitob o'qish, shuningdek, audiomatnlarni tinglash va teleko'rsatuvlarni tomosha qilishda leksik qiyinchiliklarni yengish imkoniyatini beradi. Lug'atlar bilan ishlashda quyidagi kabi topshiriqlar beriladi.

1. So'zning to'g'ri yozilishini aniqlang (imlo lug'ati)
2. So'zning kelib chiqishi, qo'lanishini izohlang (izohli lug'at)
3. So'z qismlarini aniqlang (so'z yasash lug'ati)
4. So'zning sinonimlari, antonimlarini toping (sinonim va antonimlar lug'ati)

Masalan sayohatchi so 'zi misolida yuqoridagi topshiriqlarni 2-, 3-sinflarda

AKT vositalaridan foydalangan holda bajarish imkoni bor.

3-sinfda o'quvchilari birinchi marta ona tilining morfologiya bo'limi bilan tanishadilar. Bu bo'lim o'rganilayotganda so'z ma'nolari va qo'llanishiga oid quyidagi kabi mashq turlaridan foydalanilanish maqsadga muvofiqdir.

Ajratib ko'rsatilgan so'zini mos va aniqroq so'zlar bilan almashtiring.

Bola maydonchada **o'ynayapti**.

Mushukcha to'p bilan **o'ynayapti.**

Qiz zavqlanib **o'ynayapti.**

Quyosh yomg‘ir tomchilarida **o‘ynaydi**.

Ushbu mashqni bajarish orqali o‘quvchilar kontekstga qarab so‘zning turli ma’nolarda qo‘llanishini o‘zlashtiradilar.

So‘z ustida ishlash masqlari sinflar kesimida mavzular xususiyatiga qarab murakkablashtirib boriladi. Quyida 4-sinfda "Apelsin" so‘zi ustida ishlash namunasini keltiramiz.

O‘qituvchi apelsin mevasining rasmini yoki o‘zini ko‘rsatadi va quyidagi topshiriqlarni beradi.

Belgilariga ko‘ra tavsiflash: yumaloq, shirin, nordon, pishgan, katta.

Birikmalar tuzish: apelsin daraxti, apelsin murabbo, apelsin sharbati.

So‘zni kontektga kiritish: Men yangi apelsin hidini yaxshi ko‘raman. Turkiyada apelsin yetishtiriladigan katta-katta bog‘lar bor.

Topishmoqlar tuzish. Apelsin mevasining belgilari, xususiyayatlari asosida topishmoq tuzishni topshiradi. (Dumaloq, xushbo‘y, daraxtda o‘sadi. Kattalar va bolalar nafaqat meni, balki sharbatimni ham yaxshi ko‘radilar).

Mikromatn tuzish. O‘qituvchining savollariga o‘z fikrlarini bildiradilar. Masalan, Nega odamlar shunday deyishadi. - Apelsinlar osmonda o‘smaydi.

Boshlang‘ich sinflarda so‘z ustida ishlash bevosita matn bilan bog‘lab olib boriladi. Bu borada quyidagi kabi ish turlaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Matnni o‘qing, yetishmayotgan so‘zlarni qo‘yib matnni to‘ldiring. Matndagi xatolarni toping va ularni tuzating.

Salom, men o‘zga sayyoralikman va mening ismim Jodu. Men Mars sayyorasida yashayman. O‘zingiz haqingizda gapirib bering.

Men _____ sayyorasida, _____ mamlakatida yashayman. _____shaharda _____ ko‘chada _____ va mening ismim _____. Mening sevimli mashg‘ulotim _____.

Darsda matn yaratishdagi eng samarali usullardan biri nutqiy vaziyatlarni yaratishdir. O‘qituvchi nutqiy vaziyatlarni yaratishda darslikda taklif qilingan vazifalardan foydalanishi yoki o‘zi mustaqil ravishda modellashtirishi mumkin. Masalan, o‘qituvchi nutqiy vaziyatni yatishda shunday yo‘llanma beradi. "Siz gidsiz, sinfdoshlaringiz uchun ekskursiyani boshqarasiz. Narsa, voqea, hodisalarni shunday ta’riflashga harakat qilingki, u yorqin, majoziy va tushunarli bo‘lsin. Nima va nima uchun sizga ayniqsa yoqqanini tushuntiring, chunki siz tomoshabinlarda qiziqish uyg‘otmoqchisiz. Bu ish turini yakka holda yoki jamoaa bo‘lib bajarish mumkin. O‘qituvchi va o‘quvchilar barcha gidlarning tavsiflarini tinglaydilar, eng yaxshi gidning hikoyasini yozib oladilar.

O‘quvchilarning matn qurilishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash va kengay-tirishda "Bo‘lmachalar" usulidan foydalanish taklif qilinadi. Bu mashqlarni 3-4-sinflarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mashq guruhlarda tashkil qilinadi.

O‘quvchilarga tuzilishga ko‘ra semantik qismlarga bo‘lingan matn va har bir guruhga vazifa beriladi:

1- guruhga. Matnning kirish qismini aniqlang, qismni ajratishda nimalarga asoslan-ganligingizni izohlang. Shu qismga nom qo‘ying.

2-guruhga. Matnning asosiy qismini aniqlang, qanday aniqlaganingizni izohlang. Shu qimga nom qo‘ying.

3-guruhga. Matnning yakuniy qismini (tugashini) aniqlang, qanday aniqlaganingizni izohlang. Shu qimga nom qo‘ying.

Kuzatishlar davomida o‘qituvchilar o‘z ish amaliyotida "O‘quv kompleks matn tahlili" dan foydalanayotganliklarini ko‘rsatdi. Bu ish turi monologik nutq tuzishga o‘rgatishda samarali natija beradi.

O‘quvchilarga matn beriladi. (Har bir guruhning o‘ziga xos xususiyatlari bor).

Topshiriq. Ma’lumotnomadan foydalanib topshiriqni bajaring.

1. Oldingizda nima borligini aniqlang: so‘zlar, jumlalar, matn.

2. Bu matn ekanligini isbotlang.

3. Bu matn nutqning qaysi turi? (hikoya, she’r,) Buni isbotlang.

4. Matn uslubini aniqlang. Javobingizni asoslang.

5. Matn mavzusi va asosiy g‘oyasini aniqlang.

6. Matn sarlavhasi nimani bildiradi?

Ma’lumot materiali:

1. So‘z nutq birligidir.

2. Gap — ma’no va grammatik jihatdan bog‘langan so‘zlar turkumi.

3. Matn – ma’no va grammatik jihatdan bog‘langan gaplardir.

4. Matnning asosiy g‘oyasi - muallifning nimaga chaqirayotgani, nimani o‘rgatgani, bu matnni qanday maqsadda yozganligidir.

5. Matn - nutqning ajralmas semantik birligi bo‘lib, u mustaqil to‘liq xabarni o‘z ichiga oladi.

6. She’r, hikoya, ilmiy maqola, gazetadagi maqola, maktab inshosi, yakshanba kungi rejalar haqida do‘st bilan suhbat - bularning barchasi matn turlari.

7. Matnning xususiyatlari: gaplar guruhidan iborat bo‘lib, gaplar ma’no jihatdan va turli grammatik vositalar yordamida bog‘langan; sarlavhaga ega, gaplar umumiy mavzu, yagona fikr bilan birlashtirilgan.

8. Mavzu – matnda nima yoki kim haqida gap ketmoqda. Ko‘pincha mavzu sarlav-hada aks etadi.

Matn tuzishga o‘rgatishda ishlashning yana bir qiziqarli usuli - POPS formulasi.

Uning mohiyati nimada? O‘quvchilardan POPS formulasining quyidagi to‘rt nuqtasini aks ettiruvchi to‘rtta jumla yozish so‘raladi:

P - pozitsiya

O - tushuntirish (yoki asoslash)

P - misol

S - natija (yoki hukm)

Jumlalarning birinchisi (pozitsiya) quyidagi so‘zlar bilan boshlanishi kerak:

"Men shunday hisoblaymanki…".

Ikkinchi jumla (tushuntirish, o‘z pozitsiyasini asoslash) so‘zlar bilan boshlanadi:

"Chunki ...".

Uchinchi jumla (o‘z pozitsiyasining to‘g‘riligini amalda isbotlash qobiliyatiga qaratilgan) so‘zlar bilan boshlanadi:

"Men buni bir misol bilan isbotlashim mumkin ...".

Va nihoyat, to‘rtinchi jumla (natija, hukm, xulosalar) so‘zlar bilan boshlanadi:

"Bundan kelib chiqib, men shunday xulosaga keldim ...".

Boshlang‘ich ta’lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davrda o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishlariga, ayniqsa, kommunikativ kompetensiyalarini shakllanishiga e’tibor qaratish talab etiladi. Bu borada mashqlar tizimiga rioya qilish, lug‘atlardan, innovatsion ish turlaridan, AKT vositalaridan foydalanish, o‘quvchilarni qiziqtiradigan, ayni vaqtda o‘ylashga, analiz-sintez qilishga, xulosa chiqarishga yo‘llaydigan mashqlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Foydalangan adabiyotlar.

1.“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘grisida”gi PF-5847-son -T.: 2019

2.Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi, — T.: “NOSHIR“ 2009.

3.Jo’rayeva M.I. Boshlang‘ich sinf ona tili darslariga kompetensiyaviy yondashuv, “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842

4. Pedagogika, 1-qism, — T.: 2010

5.Ona tili, 1-sinf uchun darslik, “Novda” nashriyoti –T.: 2023

6. Ona tili, 2-sinf uchun darslik, “Novda” nashriyoti –T.: 2023

7. Ona tili, 3-sinf uchun darslik, “Novda” nashriyoti –T.: 2023

8. Ona tili, 4-sinf uchun darslik, “Novda” nashriyoti –T.: 2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mustafayeva Nilufar Ulashovna
Termiz davlat universiteti, doktorant DSc

PRAGMATIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA BLUM TAKSONOMIYASINI INTEGRATSIYA QILISHDA TA'LIM MAZMUNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pragmatic (amaliy) kompetentlikni shakllantirishda Blum taksonomiyasini ta'lim mazmuniga integratsiya qilishning ahamiyati tahlil etiladi. Muallif pragmatic kompetentlikni rivojlantirish uchun bilish (xotirlash), tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlaridan bosqichma-bosqich foydalanish usullarini ko'rsatadi. Dars jarayonida real kommunikativ vaziyatlarni model qilish, turli interfaol mashqlarni qo'llash hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini rag'batlantirish pragmatic kompetentlikni yuksaltirishda ijobiy samara berishi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *pragmatic kompetentlik, Blum taksonomiyasi, ta'lim mazmuni, interfaol mashqlar, kommunikativ vaziyat.*

Мустафаева Нилуфар Улашовна
Термезский государственный университет, докторант DSc

ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ СОДЕРЖАНИЕ В ИНТЕГРАЦИИ ТАКСОНОМИИ БЛЮМА В УЛУЧШЕНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация. *В статье рассматривается важность интеграции таксономии Блума в содержание обучения для формирования прагматической компетентности. Автор демонстрирует поэтапное применение уровней знания (память), понимания, применения, анализа, синтеза и оценки, направленное на развитие умений адекватно использовать язык в реальных коммуникативных ситуациях. Особое внимание уделяется моделированию практических заданий и стимулированию самостоятельной мыслительной деятельности учащихся, что способствует повышению их прагматической компетентности.*

Ключевые слова: *прагматическая компетентность, таксономия Блума, содержание обучения, интерактивные задания, коммуникативная ситуация.*

Mustafayeva Nilufar Ulashovna
Termez State University, doctoral student DSc

EDUCATIONAL CONTENT IN THE INTEGRATION OF BLUM TAXONOMY IN THE IMPROVEMENT OF PRAGMATIC COMPETENCE

Annotation. *This article examines the importance of integrating Bloom's taxonomy into educational content to enhance pragmatic competence. The author demonstrates how step-by-step use of the knowledge (remembering), understanding, application, analysis, synthesis, and evaluation levels can cultivate students' ability to use language effectively in real communicative contexts. Emphasis is placed on modeling practical tasks, employing interactive methods, and encouraging independent thinking, all of which contribute to strengthening learners' pragmatic competence.*

Keywords: *pragmatic competence, Bloom's taxonomy, educational content, interactive tasks, communicative context.*

Kirish.

Zamonaviy ta'lim jarayonida pragmatic (amaliy) kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xorijiy tillarni yoki ona tilini o'rgatishda o'quvchilarning nutqni maqsadli, aniq vaziyatga muvofiq holda qo'llay bilishlari, nutqiy strategiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Bunda pragmatic kompetentlik tushunchasi o'quvchilarning nafaqat lug'aviy va grammatik bilimlarga, balki bu bilimlarni real kommunikativ vaziyatlarda moslashuvchan qo'llash malakalariga egaligini anglatadi. Ana shu jihatdan, umumiy yoki xorijiy til darslarida pragmatic kompetentlikni takomillashtirish uchun turli metodik yondashuvlar joriy qilinmoqda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va nazariyalar bilan boyitish muhimligi ham e'tibor

markazidadir. Mazkur maqolada pragmatik kompetentlikni mustahkamlashda ta'lim mazmuniga Blum taksonomiyasini integratsiya qilish masalasi tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar, tajriba-sinov ishlari va kuzatuvlarga tayangan holda, ta'lim jarayoniga turli darajadagi o'quv maqsadlarini kiritish pragmatic kompetentlikni shakllantirishga qanday yordam berishi yoritiladi.

Tadqiqot olib borish jarayonida dastlab pragmatik kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari, uning lingvistik va sotsiolingvistik ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi o'rganildi. Metodologik manbalarda pragmatic kompetentlikka o'quvchilarning tildan foydalanishda kontekstni, ro'y berayotgan voqea-hodisalarning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini, shuningdek, nutqiy munosabat qoidalarini inobatga olib so'zlasha olish qobiliyati sifatida izoh beriladi. O'quvchilar turli vaziyatlarda mos ifoda shakllarini tanlashi, savollarga mos tarzda javob bera olishi, muloyimlik (politeness) tamoyillariga rioya qilishi yoki mulohaza yuritishda intonatsiyaviy vositalardan unumli foydalanishi pragmatic kompetentlik darajasidan dalolat beradi. Bunda verbal hamda noverbal (emotsional ifoda, imo-ishora va b.) omillar ham muhim o'rin tutadi. Shunday ekan, pragmatic kompetentlikni faqat "qaysi so'zlar ishlatiladi", "qanday grammatik strukturalar qo'llanadi" kabi masalalar doirasida cheklab bo'lmaydi, balki o'quvchilarning interaktiv muloqot madaniyatini egallashi ham bunda ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

Keyingi bosqichda Blum taksonomiyasi nazariyasi va uning ta'lim maqsadlarini shakllantirishdagi o'rni chuqur o'rganildi. Ma'lumki, Blum taksonomiyasi dastlab uchta asosiy doiraga ajratiladi: bilish (cognitive), hissiy (affective) va psixomotor (psychomotor). Ammo eng keng qo'llaniladigan yo'nalish bilish sohasiga taalluqli bo'lib, unda o'quv maqsadlari oltita darajada izohlanadi: bilish (knowledge), tushunish (comprehension), qo'llash (application), tahlil (analysis), sintez (synthesis) va baholash (evaluation). Ba'zan qayta ko'rib chiqilgan (revised) taksonomiya shaklida bilish bosqichi "xotirlash" (remembering), tushunish bosqichi esa "anglash" (understanding) deb yuritiladi. Ushbu darajalar orqali o'quv materialini o'zlashtirish jarayonining yuksalishiga erishish mumkin. Qaysi darajada bo'lishidan qat'i nazar, Blum taksonomiyasi o'quv maqsadlarini puxta rejalashtirish va bosqichma-bosqich rivojlantirib borish imkonini beradi. Biroq bu yondashuvni pragmatik kompetentlikni shakllantirishda qanday qo'llash mumkinligi masalasi tadqiqotimizning diqqat markazida bo'ldi.

Amaliy tajriba ishlarini o'tkazishdan avval, guruh sifatida tanlangan o'quvchilar (12-13 yosh oralig'ida bo'lgan 80 nafar) bilan dastlabki suhbatlar o'tkazildi. Bu suhbatlarda ularning amaliy nutqiy xatti-harakatlari, ya'ni muloqotda nutqni situatsiyaga moslashtirish, xushmuomalalik ko'rsatish, intonatsiyadan joyida foydalanish, xorijiy til misolida esa talaffuz yoki kulturolojik xabardorlik kabi qirralarini baholashga e'tibor berildi. Shuningdek, o'quvchilarning ilgari olgan nazariy bilimlari va qaysi metod orqali o'qitilgani haqida ma'lumotlar yig'ildi. Natijada ko'p hollarda o'quvchilar grammatik amallarni to'g'ri bajarish yoki lug'at boyligiga ega bo'lishgani holda, haqiqiy muloqot jarayonida o'rinli va samarali so'zlay bilish ko'nikmalarida qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi. Bu esa aynan pragmatic kompetentlikni rivojlantirish zarurligi haqida xulosa chiqarishga sabab bo'ldi.

Tadqiqot mobaynida o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirishda Blum taksonomiyasining bilish sohasiga oid bosqichlari asosida ta'lim maqsadlarini belgilashga harakat qilindi. Jumladan, "bilish" (xotirlash) va "tushunish" bosqichlari doirasida o'quvchilarda turli nutqiy ifodalar, so'z birikmalari, nutq etietiga oid qoidalar, madaniy-fuqarolik sohasiga taalluqli formulalar bo'yicha dastlabki bilimlar shakllantirildi. Misol uchun, "Uzr so'rash", "Minnatdorchilik bildirish", "Tanishish paytida qo'llaniladigan ifodalar" kabi mavzularda tayyor materiallar bilan tanishish va ular ma'nosini izohlash vazifasi berildi. So'ngra o'quvchilar o'qilgan matnlar (muloqot namunasi) asosida o'z fikrlarini umumiy tarzda ifoda etish, situatsiyani idrok qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdi. Ta'lim mazmuniga shu bosqichda oddiy, tez tushuniladigan pragmatik vaziyatlarni kiritish, bolalarni real hayotda uchraydigan sodda muomalalar bilan tanishtirish juda foydali ekani kuzatildi.

Keyingi "qo'llash" bosqichida o'quvchilar olingan bilimlarni mavhum nazariya sifatida saqlab qolmasdan, oddiy rolli o'yinlar, dialog mashqlari, juftlikda yoki kichik guruhlarda amalga oshiriladigan interfaol usullar orqali real nutq amaliyotiga kiritdilar. Masalan, "Do'stlar uchrashuvi", "Savdo do'konida suhbat", "Avtobusda yonma-yon o'tirgan notanish odam bilan suhbat" kabi vaziyatlar birmuncha soddalashtirilgan shaklda berildi. O'quvchilarga topshiriqni bajarishdan avval o'z nutqiy strategiyalarini belgilab olish tavsiya etildi, bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi savollar bilan ko'maklashdi. Natijada o'quvchilar bilib olgan so'z va iboralarni amaliy qo'llash, vaziyatga mos so'zlash, intonatsiya, ohang, jest va mimikadan to'g'ri foydalanish orqali pragmatic kompetentlikni mustahkamlashga erishdilar.

Mashg'ulotlarning "tahlil" bosqichiga o'tilganda, o'quvchilardan avvalgi bosqichlarda o'rganilgan ifodalarni turli ijtimoiy-kulturaviy kontekstlarda sinchiklab o'rganish, ularning qaysi birlari rasmiy muhitda, qaysi birlari norasmiy muhitda, kim bilan muloqot qilayotganiga qarab qay darajada mos yoki nomunosib bo'lishi mumkinligi haqida fikr yuritish so'raldi. Masalan, do'stona suhbat va rasmiy ish muhokamasi kontekstlari solishtirildi, bunda o'qituvchi xalqaro tajribaga oid misollar ham keltirdi. O'quvchilar boshqa madaniyatlarda odob-axloq normalari va nutqiy xulq-atvor qanday ekaniga e'tibor

qaratib, o‘zgacha vaziyatlarda moslashishni o‘rganishdi. Shu tarzda pragmatic kompetentlikning asosini tashkil etadigan moslashuvchanlik va kontekstual tafovutni tushunish kabi qirralar rivojlandi.

“Sintez” bosqichida o‘quvchilarga o‘zlari mustaqil ravishda pragmatik aspektlarni o‘z ichiga olgan matnlar, dialog ssenariylari yoki videoroliklar yaratish vazifasi topshirildi. Ular kichik loyihalar shaklida taqdimotlar tayyorlab, turli vaziyatlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan ifodalar jamlanmasini tuzdilar, muayyan madaniyatga xos bo‘lgan rasm-rusumlarga oid “qoidalarga” e’tibor qaratdilar. Ayrim guruhlar xorijiy til darsida o‘zlari yaratuvchi roliklarni tasvirga olishdi: unda “rasmiy uchrashuv” va “oila davrasidagi suhbat” kabi ikki holat solishtirildi, o‘zlarining xulosa va tavsiyalarini ham berishdi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini oshirish barobarida pragmatic kompetentlikni chuqurlashtirdi. Chunki ular nafaqat tayyor ko‘rsatmaga rioya etdilar, balki nutqiy jarayonni boshidanoq o‘zlari loyihalashtirib, turli kontekstlarga mos sharoit yaratishni ham o‘rgandilar.

“Baholash” bosqichiga kelib, o‘quvchilar tomonidan yaratilgan loyihalar, yozilgan matnlar, rolli o‘yinlardagi ishtirok sifat jihatdan o‘rganildi. O‘qituvchi, boshqa sinfdoshlar va hatto tashqi kuzatuvchilar (metodist yoki boshqa sinf o‘qituvchilari) birgalikda baholash mezonlarini belgiladi: vaziyatga mos ifoda shakllari, xushmuomalalik, madaniy jihatlarga rioya qilish, grammatik aniqlik, talaffuz va ijodiy yondashuv kabilar. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Blum taksonomiyasi bosqichlarini qadamma-qadam integratsiya qilish, ayniqsa, sintezdaviy va baholash bosqichlarida o‘quvchilarning pragmatic kompetentliklari sezilarli darajada yuksaldi. O‘quvchilar oldin kim bilandir gaplashishda ikkilanib, qo‘pol yoki noto‘g‘ri ifoda ishlatib qo‘yishdan cho‘chishgan bo‘lsa, endi o‘z so‘zlari uchun yanada mas’uliyat bilan yondashish, kerak bo‘lsa, muqobil iboralarni izlashga intilishlari aniq kuzatildi. Bunda nazariy bilimlarning amaliy qo‘llanilishi o‘quvchilar fikrida mustahkam o‘rin egallaganini ko‘rish mumkin bo‘ldi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, Blum taksonomiyasi orqali tuzilgan dars rejalarida pragmatik omillarga e’tibor qaratish quyidagi afzalliklarni keltirib chiqardi. Avvalo, bilish va tushunish bosqichlarida o‘quvchilar nutqiy mavzuni asosiy omillarini idrok etish, situatsion ifodalar bilan tanishish orqali dastlabki tayyorgarlikni puxta olishdi. So‘ngra qo‘llash bosqichida ular o‘sha bilimlarni mashq jarayonida amalda sinab ko‘rdilar, bu orqali xatolardan xulosa chiqarish, me’yoriy ifodalarni to‘g‘ri o‘zlashtirish kabi ko‘nikmalar shakllandi. Tahlil darajasida esa turli kontekstlarda ifodalar ahamiyati va farqlari o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o‘rganilib, chuqur anglab yetildi. Natijada sintez bosqichida ular ilg‘or ijodiy g‘oyalar orqali real muhitga yaqin bo‘lgan vaziyatlarni to‘liq modellashtirib, tilni pragmatik jihatdan boy shaklda ishlatishga erishdilar. Yakuniy baholash bosqichida bularning barchasini xulosa qilib, baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali kamchilik va yutuqlarga aniq baho berish imkoniyati vujudga keldi.

Qayd etish lozimki, pragmatic kompetentlikni rivojlantirishda bunday integratsiya qilingan yondashuv doimiy kuzatuv, izchil metodik ko‘mak va refleksiyani talab qiladi. O‘qituvchilarning professional mahorati, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalana olishi, baholash mezonlarini to‘g‘ri belgilashi bu jarayonni samarali qilishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shuningdek, har bir bosqichda o‘quvchilarning xatolarini konstruktiv tahlil qilish, ularni mustaqil xulosa chiqarishga undash, sinfdoshlarning o‘zaro fikr-mulohazalarini ham e’tiborga olish kabi jihatlar pragmatic kompetentlikni chuqurlashtirishga hissa qo‘shadi. Bunday yondashuvda rag‘batlantirish omili ham muhim sanaladi: o‘quvchilarning turli loyihalar, rolli o‘yinlar yoki ijodiy ishlar uchun olgan ijobiy bahosi, qiziqarli taqdimotlari sinfda ijobiy muhit yaratib, ularni doimiy takomilga undaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pragmatic kompetentlikni rivojlantirishda Blum taksonomiyasini ta’lim mazmuniga integratsiya qilish yaxshi samara beradi. Bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash kabi bosqichlar o‘quvchilarni bir maromda, bosqichma-bosqich yuqoriroq darajadagi faoliyatga undaydi, shu bilan birga, o‘quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarga moslasha olish, ijodiy fikrlay olish, mos nutqiy ifodalarni tanlash kabi amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ta’lim jarayonida bu bosqichlarni izchil qo‘llash orqali o‘quvchilarning pragmatic kompetentligini sezilarli darajada yuksaltirish, ularni hayotda, jamiyatda ham aniq, tushunarli, samimiy va madaniy muloqot qila oladigan yetuk shaxslarga aylantirish imkoni paydo bo‘ladi. Albatta, bu jarayonda o‘quv dasturlari, o‘qituvchilarning metodik mahorati hamda mashg‘ulotlarni rejalashtirishga alohida e’tibor berilishi lozim. Blum taksonomiyasiga asoslangan ta’limiy yondashuv pragmatic kompetentlikni mustahkamlashda nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, madaniy va hissiy rivojlanish omillarini ham qamrab olishi bilan alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik jarayonlarda pragmatic kompetentlikka erishish uchun innovatsion strategiyalardan foydalanish, xususan, Blum taksonomiyasi singari nazariyalarni metodik jihatdan pishiq integratsiya etish, eng maqbul yondashuvlardan biri sifatida qadrlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bloom B.S., Engelhart M.D., Furst E.J., Hill W.H., Krathwohl D.R. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: David McKay Company, 1956. – 207 p.

2. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (Eds.) A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.

3. Bardovi-Harlig K. Evaluating the empirical evidence: Grounds for instruction in pragmatics? // Pragmatics in Language Teaching / Ed. by K. Rose, G. Kasper. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 13–32.

4. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – 110 p.

5. Solnyshkina M.I., Solovova E.N. Bloom's Taxonomy as a Basis for Competency-Based Approach to Teaching Foreign Languages // Modern Journal of Language Teaching Methods. – 2016. – Vol. 6, No. 2. – P. 445–454.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Musurmanov Adxam
Xalqaro Nordik universiteti 2-kurs magistranti

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK-XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari, tamoyillari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, ta'lim sifati tushunchasining mazmuni, uni shakllantiruvchi omillar, pedagogik boshqaruvning metodologik asoslari va oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar o'rganilgan. Maqolada boshqaruv subyektlari – o'qituvchi, talabalar, rahbarlar o'rtasidagi hamkorlik, ta'lim jarayonini rejalashtirish, monitoring va baholash mexanizmlari muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, maqolada ta'lim sifati boshqaruvida pedagogik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar va sifat menejmenti tizimlarining roli yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, pedagogik boshqaruv, oliy ta'lim, ta'lim monitoringi, innovatsion texnologiyalar.*

Мусурманов Адхам
Магистрант 2 курса Международного скандинавского университета

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *В данной статье анализируются современные педагогические подходы, принципы и практические аспекты управления качеством образования в системе высшего образования. В частности, рассматривается содержание понятия качества образования, факторы, формирующие его, методологические основы педагогического управления и передовой опыт, применяемый в высших учебных заведениях. Особое внимание уделено взаимодействию между субъектами управления — преподавателями, студентами и руководителями, вопросам планирования учебного процесса, механизмам мониторинга и оценки. Также раскрывается роль педагогической компетентности, инновационных технологий и систем менеджмента качества в управлении качеством образования.*

Ключевые слова: *качество образования, педагогическое управление, высшее образование, мониторинг образования, инновационные технологии.*

Musurmanov Adham
2nd year graduate of the International Nordic University

PEDAGOGICAL-FEATURES OF MANAGING THE QUALITY OF EDUCATION IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Abstract: *This article analyzes modern pedagogical approaches, principles, and practical aspects of quality management in higher education. It explores the concept of educational quality, the factors that shape it, the methodological foundations of pedagogical management, and best practices used in higher education institutions. The article emphasizes collaboration among key stakeholders — teachers, students, and administrators—as well as the importance of planning, monitoring, and assessment mechanisms in the educational process. It also highlights the role of pedagogical competence, innovative technologies, and quality management systems in managing educational quality.*

Keywords: *quality of education, pedagogical management, higher education, educational monitoring, innovative technologies.*

Kirish.

Globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti, innovatsion iqtisodiyot va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonining muvaffaqiyati bevosita ta'lim tizimining sifatiga bog'liqdir. Ayniqsa, oliy ta'lim sohasi har qanday mamlakatda intellektual resurslarni shakllantiruvchi strategik institut sifatida maydonga chiqadi. Shu boisdan, oliy ta'lim tizimining samaradorligi, uning tarkibiy tuzilmalari, boshqaruv mexanizmlari va, eng asosiysi, ta'lim sifati masalasi bugungi kunda ilmiy, siyosiy va amaliy muhokamalar markazida turibdi.

Oliy ta'lim tizimi har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ilmiy-texnik salohiyati va intellektual rivojining poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda oliy

ta’limning mazmuni va sifatini oshirish masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqobatbardosh, ijodkor, mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashda ta’lim sifatini samarali boshqarish masalasi markaziy o‘ringa chiqmoqda. Shu munosabat bilan, ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, unga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarish bo‘yicha huquqiy asoslari mustahkamlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni bilan oliy ta’limdagi sifat nazorati va uni boshqarish masalalari tizimli tartibga solinmoqda. Shuningdek, har bir ta’lim muassasasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, boshqa me’yoriy hujjatlar hamda o‘zining boshqaruv kengashi orqali ham nazorat qilinadi va faoliyatini tartibga soladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, oliy ta’limda sifatni ta’minlashda yagona yondashuv emas, balki kontekstga moslashuvchan, ko‘p komponentli boshqaruv tizimi zarur. Bu jarayonda o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini muntazam oshirish, talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini rag‘batlantirish, shaffof va samarali baholash tizimini joriy etish asosiy vazifa etib belgilanmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va masofaviy ta’lim platformalarining integratsiyasi pedagogik boshqaruvda yangi bosqichni boshlab berdi. Raqamli savodxonlik, tahliliy fikrlash va innovatsion yondashuvlar bugungi kunda sifat boshqaruvining ajralmas tarkibiy qismlariga aylangan.

Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini boshqarishning pedagogik xususiyatlari, uning asosiy tamoyillari, tarkibiy jihatlari, zamonaviy yondashuvlari hamda ilg‘or tajribalarga asoslangan nazariy va amaliy qarashlar yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi va metod.

Ta’lim sifati tushunchasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarning yetkazilishi bilan, balki talabaning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi, jamiyatda faol ishtirok etish qobiliyatining shakllanishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli, ta’lim sifatini boshqarish faqat ma’muriy boshqaruv doirasida emas, balki pedagogik boshqaruv tamoyillari asosida amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonda ta’lim jarayonining ishtirokchilari - o‘qituvchi, talaba, rahbar va tashqi ekspertlar o‘rtasidagi hamkorlik, doimiy tahlil, monitoring, baholash va teskari aloqa tizimining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim tizimidagi sifatni boshqarish masalasi turli yondashuv va nazariy qarashlar asosida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan yoritib kelinmoqda. Ushbu bo‘limda mavzuga bevosita daxldor bo‘lgan bir nechta muhim ilmiy manbalar sharhlanadi. Tadqiqotchi R. Shamuratov tomonidan yozilgan **“Oliy ta’lim tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqaruv jarayoni texnologiyalarini takomillashtirish”** nomli maqolada oliy ta’lim tizimida boshqaruv texnologiyalarini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan. Muallif oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni ta’minlashda samarali boshqaruv strategiyalari, ilmiy asoslangan metodlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning o‘rni haqida atroflicha to‘xtaladi. Ushbu maqola pedagogik boshqaruvning texnologik jihatlarini chuqur yoritib, mavzuga dolzarb ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. J.X. Qambarov va M.M. Turdalievaning **“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari”** nomli maqolasida esa ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish tizimlarining samaradorligi tahlil qilingan. Mualliflar ta’lim natijalari ustidan tizimli nazorat olib borishning pedagogik va boshqaruv salohiyatiga e’tibor qaratib, ushbu jarayonlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish takliflarini ilgari suradi.

Psixologik va sotsiologik asoslarda **K.A. Abdullhanovaning** tadqiqotida asarida insonning hayotiy strategiyasi, faoliyatga munosabati va ijtimoiy muhitga ko‘nikish jarayonlari o‘rganilgan. Ushbu qarashlar ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar – motivatsiya, o‘zini anglash va pedagogik munosabatlar tahliliga zamin yaratadi. Pedagogik muloqot va didaktik tamoyillarni chuqur o‘rganishda **T.M. Adizova** tomonidan yozilgan **“Boshqaruv muloqati”** asari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unda ta’lim jarayonidagi muloqotning samaradorligi, rahbar va o‘qituvchi o‘rtasidagi axborot almashinuvi, hamkorlik va ijtimoiy boshqaruv madaniyati tahlil etilgan. Shuningdek, N.N. Azizxo‘jaevaning **“O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi”** asari pedagogik jarayon ishtirokchilari tayyorligining sifati, kasbiy yondashuv, shaxsiy salohiyat va innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik darajasini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu adabiyotlar ta’lim sifati boshqaruvining pedagogik, huquqiy, psixologik va sotsiologik jihatlarini yoritadi va maqolaning nazariy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Muhokama va natijalar.

Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini boshqarish masalasi murakkab, ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘liq omillar tizimidan iborat bo‘lib, uni samarali tashkil etish uchun nafaqat tashkiliy-huquqiy, balki chuqur pedagogik yondashuv ham talab etiladi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, ta’lim sifati faqatgina o‘qituvchi va talabaning o‘zaro munosabati yoki dars sifati bilan emas, balki ta’lim muassasasining umumiy boshqaruv madaniyati, strategik rejalashtirish darajasi, o‘quv dasturlari va resurslar tizimi bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

O‘rganilgan manbalar, jumladan, R. Shamuratov va J.X. Qambarov, M.M. Turdaliyeva asarlarida ta’lim sifatini

boshqarishning tashkiliy va texnologik omillari tahlil qilingan bo‘lsa, ushbu maqolada ularning pedagogik jihatlariga chuqurroq yondashuv amalga oshirildi. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida sifatni ta’minlashning asosi sifatida quyidagi pedagogik komponentlar ilgari surilmoqda:

1.Ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi. Ta’lim sifatini boshqarishda individual yondashuv, talabaning ehtiyojlarini, qiziqishlarini, bilim olish uslublarini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etish zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu holat pedagogik boshqaruvda faollashtiruvchi metodlar, interaktiv uslublar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositalarining doimiy qo‘llanilishini talab etadi.

2.O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi va innovatsion salohiyati. Ta’lim sifati ko‘p hollarda o‘qituvchining bilim darajasi, uslubiy tayyorgarligi, darslarni tashkil etish madaniyati, raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalari va talabalar bilan samarali pedagogik muloqot qurish qobiliyatiga bog‘liq. Shuning uchun boshqaruv tizimida o‘qituvchilarning muntazam kasbiy rivojlanishi muhim ahamiyatga ega.

3.Sifat monitoringi va baholash tizimi. Ta’lim sifatining boshqaruvi samarali teskari aloqani tashkil etish, aniq mezonlar asosida ichki va tashqi baholash tizimlarini yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi. Bunda nafaqat yakuniy natijalar, balki o‘quv jarayonining har bir bosqichida amalga oshiriladigan monitoring ma’lumotlari muhim axborot manbai hisoblanadi.

4.Motivatsion omillar va ijtimoiy-psixologik muhit. Talabaning ta’limga bo‘lgan munosabati, tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi va faol ishtirok etish salohiyatini shakllantirishda psixologik omillar - ishonch, rag‘batlantirish, muloqot sifati va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vositalari alohida o‘rin tutadi.

Yuqoridagi omillar ta’lim sifatini faqat yakuniy bilimlar asosida emas, balki o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan tizimli, uzluksiz va kompleks yondashuv orqali boshqarish zaruriyatini ko‘rsatadi. Boshqaruvda inson omili, ya’ni pedagog va talaba shaxsining rivoji, faoliyatga munosabati, o‘zini anglash darajasi, ijtimoiy va professional motivlari doimo e’tiborda bo‘lishi lozim.

Ta’lim tizimi boshqaruvini takomillashtirish jarayonini o‘rganishda strategik yondashuvdan foydalanish, bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, nafaqat mavjud rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, balki ular orasida eng muhim va ustuvorlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Strategik boshqaruv paradigmasi L.S. Vygotskiy, V.V. Davydov, E.V. Ilyenkov, A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn, G.P. Shchedrovitskiy kabi olimlarning faoliyatga oid umumiy nazariy qarashlariga tayanadi. Ushbu doirada biz mintaqadagi ta’lim boshqaruvi tizimining shakllanishiga mos keluvchi “topshiriq asosida boshqaruv” deb ataluvchi modelni ajratib ko‘rsatdik.

Bu yerda “topshiriq” tushunchasi ostida maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan shartlar, resurslardan foydalanish usullari, amalga oshirish mexanizmlari va yakuniy natijani baholash mezonlari nazarda tutiladi. Shu asosda, “topshiriq”ni ba’zan “strategiya” bilan tenglashtirish mumkin. Biror ehtiyoj qondirilmaguncha yoki muqobil yo‘lga o‘tish zarurati yuzaga kelmaguncha strategik topshiriq o‘z kuchida qoladi. Topshiriq shakllanib bo‘lganidan so‘ng, strategiyani real hayotda tatbiq qilish bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda tanlangan vositalar va uslublardan amaliy foydalanishga o‘tiladi.

Muhokama jarayonida aniqlangan muhim tendensiyalar oliy ta’limda sifatni boshqarish bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlarni yanada chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan, birinchi navbatda, oliy ta’limdagi sifatni boshqarish jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishning ijobiy samarasini qayd etish lozim. So‘nggi yillarda raqamli tizimlar orqali ta’lim jarayonini monitoring qilish, talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini avtomatik tarzda kuzatib borish, shuningdek, dars sifatini onlayn platformalar orqali baholash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Bu esa boshqaruv jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va tezkor qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchi tendensiya sifatida ta’lim sifatini oshirishda ichki audit va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarining yetarli darajada joriy qilinmagani muammosi ta’kidlanadi. Bu borada oliy ta’lim muassasalarida sifatni nazorat qilishning tizimli yondashuvlari hali to‘liq shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Ko‘pgina ta’lim muassasalarida ichki audit jarayonlari formal tusga ega bo‘lib, mavjud holatni aks ettira olmayapti. O‘z-o‘zini baholash jarayoni esa faqat yillik hisobotlar darajasida cheklanib, strategik rivojlanish rejalariga asoslanmagan. Natijada, ayrim muassasalarda sifat ko‘rsatkichlari sust saqlanmoqda, bu esa oliy ta’limdagi umumiy raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Uchinchi jihat pedagogik boshqaruvda talabalar fikrini inobatga olish darajasining pastligi bilan bog‘liq. Talabalarni faol subyekt sifatida o‘quv jarayoniga jalb etish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Afsuski, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida talaba fikri va takliflari boshqaruv qarorlarida yetarli darajada aks etmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarda motivatsiyaning pasayishiga va ta’lim jarayonidan uzoqlashishiga olib keladi. Yuqoridagi tendensiyalar oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, sifat monitoringi mexanizmlarini kuchaytirish va talabalarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish zarurligini taqozo etadi.

Xulosa.

Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini boshqarish masalasi nafaqat ta’lim sohasining, balki jamiyat taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida

e'tirof etiladi. Mazkur maqolada olib borilgan nazariy tahlillar va amaliy mulohazalar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi: *Birinchidan*, ta'lim sifatini boshqarish zamonaviy oliy ta'lim tizimida kompleks va ko'p darajali yondashuvni talab qiladi. Sifatni ta'minlash jarayoni faqatgina yakuniy natijalar bilan emas, balki o'quv jarayonining barcha bosqichlarida uzluksiz monitoring, samarali teskari aloqa va diagnostik baholash asosida tashkil etilishi lozim. Boshqaruv jarayonida inson omiliga asoslangan yondashuvlar - ya'ni talabalar, pedagoglar, rahbarlar va boshqa ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. *Ikkinchidan*, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati pedagogik boshqaruv madaniyatiga, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, ta'lim mazmunining zamonaviyligi, o'qitish texnologiyalarining innovatsionligiga, ta'lim muhitining erkin va motivatsion bo'lishiga bevosita bog'liq. Shu sababli, pedagogik boshqaruv faqat ma'muriy nazorat bilan cheklanmasligi, balki ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi, mustaqil ta'limga yo'naltirilgan metodlar bilan boyitilishi kerak. *Uchinchidan*, davlat tomonidan ta'lim sifatini nazorat qilish tizimining institutsional asoslari mustahkamlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va hukumat qarorlari asosida faoliyat yuritayotgan Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ta'lim muassasalarining sifat jihatidan o'zini oqlashi va jahon standartlariga moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan. *To'rtinchidan*, pedagogik boshqaruv tizimi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'qituvchi va talaba o'rtasidagi kommunikatsiya ochiq, madaniyatli va konstruktiv bo'lishi zarur.

Yuqoridagi barcha xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, oliy ta'limda ta'lim sifatini boshqarish jarayoni pedagogik, psixologik, ijtimoiy va texnologik omillarning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Bu esa, ta'lim muassasalarini yangilash, global ta'lim muhitiga moslashtirish va zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi kadrlarni tayyorlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagi 515-son qarori.
2. Shamuratov R. Oliy ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqaruv jarayoni texnologiyalarini takomillashtirish., Namangan davlat universiteti ilmiy xabarnomasi: 1-son.: 8-son, 70.2019-modda. https: //uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss8/70.
3. Qambarov J.X., Turdalieva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2014 yil. 7-son. -B. 19.
4. Абдулханова К.А., Стратегия жизни. М.: Мысль, 1991. 299 с.
5. Adizova T.M. Boshqaruv muloqati. Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2000.
6. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. Toshkent.: Nizomiy nomli TDPU 2000.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oporovna
Andijon davlat universiteti Sport faoliyati turlari nazariyasi va metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA VOLEYBOL FANINI O'QITISHNING METODIK XUSUSIYATLARI VA DOLZARBLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada voleybol fanini oliy ta'lim tizimida samarali o'qitishning ilmiy-metodik jihatlari tahlil qilindi. Jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash jarayonida voleybolning ahamiyati va pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Olib borilgan tahlillar asosida voleybol fanini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *Voleybol, jismoniy tarbiya, metodika, oliy ta'lim, pedagogik ko'nikmalar.*

Мухторова Хуснидахон Абдугапоровна
Преподаватель кафедры теории и методики видов спортивной деятельности Андижанского государственного университета

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И АКТУАЛЬНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ВОЛЕЙБОЛА В ВЫСШЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются научно-методические аспекты эффективного преподавания волейбола в системе высшего образования. Анализируется роль волейбола в процессе подготовки специалистов по физической культуре и возможности формирования педагогических навыков. На основе проведенных исследований разработаны методические рекомендации по повышению эффективности преподавания волейбола.*

Ключевые слова: *Волейбол, физическая культура, методика, высшее образование, педагогические навыки.*

Mukhtorova Khusnidakhon Abdugoporovna
Lecturer at the Department of Theory and Methodology of Sports Activities, Andijan State University

METHODOLOGICAL FEATURES AND RELEVANCE OF TEACHING VOLLEYBALL IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION

Abstract. *This article examines the scientific and methodological aspects of effective volleyball instruction in higher education. It analyzes the importance of volleyball in the preparation of physical education specialists and the potential for developing pedagogical skills. Based on the conducted analyses, methodological recommendations aimed at enhancing the effectiveness of volleyball teaching have been developed.*

Keywords: *Volleyball, physical education, methodology, higher education, pedagogical skills.*

Kirish.

Bugungi kunda jamiyat ongida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar insonlar ongida sog'liqni saqlash, sog'lom turmush tarzi hamda faol dam olish shakllarining ahamiyatini oshirmoqda. Ushbu tendensiya oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash jarayonlariga yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, voleybol fanini o'qitish, sport mahoratini oshirish va professional-pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish borasida sifat jihatidan yangicha yondashuvlarni joriy etish zarurati dolzarblashmoqda. Shuning uchun ushbu tadqiqotda voleybol fanini oliy ta'lim tizimida samarali o'qitishning ilmiy-metodik jihatlari o'rganilib, kasbiy pedagogik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi. "Jismoniy tarbiya" mutaxassisligi bo'yicha oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartida talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Ushbu tadqiqotda ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oluvchi kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar, oliy

ta’lim hujjatlari va o‘quv dasturlarining kontent-tahlili asosida voleybol fanini o‘qitishning milliy va xalqaro tajribalari qiyosiy tahlil qilindi. Andijon davlat universitetida olib borilgan pedagogik kuzatuvlar orqali talabalar texnik-taktik va pedagogik ko‘nikmalari baholandi. Ekspert baholash usuli yordamida qo‘llanilgan metodlarning samaradorligi aniqlanib, voleybol fanini oliy ta’limda samarali o‘qitish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama.

“Sport mahoratini oshirish (SMO)” o‘quv fani jismoniy madaniyat fakulteti bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligini ta’minlashning tizim hosil qiluvchi omillardan biri bo‘lib hizmat qiladi. U boshqa fan tayyorgarligi, birinchi galda jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati (JTNU) fani bilan birgalikda talabalarda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassisning kasbiy faoliyati to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurni shakllantirish kabi muhim vazifani hal etishga qaratilgan [1]. SMO fanini o‘rgatish bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, ular bu fanni o‘quv rejadagi boshqa fanlardan ajratib beradi.

Fanning ajralib turuvchi o‘ziga xos xususiyati shundaki, u bir tomondan jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati fani bilan, ikkinchi tomondan, asosiy jismoniy va sport turlari bilan chambarchas bog‘liq, chunki bu turdagi fan asosida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-uslubiy va amaliy masalalari hal etiladi.

SMO fani bo‘yicha olib boriladigan ishlar talabalarga jismoniy tarbiya o‘qituvchisi (sport murabbiyi) dastur materialini o‘qitishning turli bosqichlarida, sport mashg‘ulotlarini o‘tkazishda musobaqalarni ommaviy jimoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport tadbirlarini tayyorlash hamda o‘tkazishda nima qilish kerakligini o‘rgatishga qaratilgan. Bunda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi (murabbiy) ning yuqori darajadagi professional tashkilotchi, o‘quvchilar, talabalar, sportchilar jamoasi faoliyatiga rahbar sifatidagi ish mazmunini talabalarga ochib berilishiga alohida urg‘u beriladi. So‘ngra shunga asoslanib, tahsil olayotgan o‘quvchi (talaba, sportchi) harakat amallari, sport texnikasi va taktikasini muvaffaqiyatli egallab olish uchun, mustaqil mashg‘ulotlarga kirishish uchun nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish zarur [2]. Bo‘lajak pedagog (murabbiy) shu tariqa yuqori kasbiy ko‘nikma darajasida har xil toifadagi sport bilan shug‘ullanuvchilarni jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligini amalga oshirish vazifalarini hal etish jarayonida shaxsiy pedagogik faoliyati tuzilmasi hamda o‘ziga xos xususiyatlarni bilishi zarur. Undan tashqari, o‘qituvchi yuqorida aytib o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha har xil yoshdagi va jinsdagi o‘quvchi yoshlarning faoliyat mazmuni va hususiyatlarini juda yaxshi bilishi kerak. Shundan o‘qitish va mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchilar bilan birgalikdagi faoliyati asosida faol o‘qitish uslublarini izlab topish va qo‘llash zarurati paydo bo‘ladi.

Sport tayyorgarligi asosan pedagogik jarayon bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport o‘qituvchisining kasbiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun yaxshi sinov maydonchasi bo‘lib xizmat qiladi [3].

Oliy o‘quv yurtlarida voleybolning o‘quv fani, sport turi va jismoniy tarbiya vositasi sifatidagi xususiyatlari.

Sport o‘yinlarining har tomonlama rivojlantiruvchi o‘ziga xos xususiyatlari harbiy demokratiyaning paydo bo‘lish davrida (ibtidoiy tuzumning parchalanish davrida) e’tiborga olindi va qo‘llanila boshlandi. O‘yinlar inson imkoniyat va qobiliyatlarining deyarli barcha sohalariga foydali ta’siri bilan boshqa jismoniy mashqlardan ijobiy farq qilishi yaqqol ko‘zga tashlandi.

Sport o‘yinlari qatorida voleybol alohida o‘rinni egallaydi. Buning sababi quyidagilardan iborat: voleybolning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, shug‘ullanuvchilar organizmi va ruhiyatiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi, ushbu sport turi amaliy va yuqori samarali tarbiyaviy ahamiyatga ega kasbiy ko‘nikmalar va shaxsiy sifatlarni shakllantirishda alohida o‘rin egallaydi [4].

Ta’lim muassasalarida voleybolni ommalashtirishning asosiy shakllari maqsad va vazifalariga muvofiq voleybolni sport ixtisoslashuvi turi (sport turi); qo‘shimcha o‘quv faniga (barcha sport mutaxassisliklari uchun voleybolning umumiy kursi) ajratish mumkin.

Sportchilarni tayyorlashning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilanadi: voleybolni jismoniy tarbiyaning vositalaridan biri sifatida to‘g‘ri asoslash; voleybolni puxta biladigan va bu bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri yetkaza oladigan o‘qituvchilarni tayyorlash [5].

Dastur materialida sport turining tarbiyaviy ahamiyati, yoshlarning g‘oyaviy va vatanparvarlik tarbiyasidagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Malakali voleybolchilar bilan ishlash masalalari, har birining individual xususiyatlarini hisobga olishning ayrim uslubiy usullari ochib beriladi. Amaliy tajriba asosida mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun zarur bo‘lgan sport anjomlari va jihozlarini saralab olish, soni va sifatiga bo‘lgan talablar keltiriladi.

Jismoniy tarbiya universitetlarining sport o‘yinlari fakultetlari uchun tuzilgan keyingi o‘quv-dasturiy hujjatlarda trenerlar maktabi uchun dasturlar, [6] malakali va yuqori malakali sportchilar bilan ishlashda o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga yondashuvni namoyon qilgan holda amalga oshiriladigan o‘quv-mashg‘ulot jarayonining mazmuni aniqlashtiriladi [7].

Yuqori malakali voleybolchilarni yirik voleybol turnirlariga tayyorlashning xususiyatlari: maqsadi – maksimal sport yutuqlariga erishishga intilish; vazifalar – voleybolchilar tayyorgarligini individuallashtirish; sport mashg‘ulot jarayonini kuchaytirish; mashg‘ulotni

ixtisoslashtirish va boshqalar. Dasturlarda taklif etilayotgan mazmun ham shunga o‘xshash, lekin uning kimga mo‘ljallanganligi haqidagi savolga javob yo‘q, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotining yetakchi tamoyillaridan biri – individuallashtirish tamoyiliga tayanishga yetarlicha ahamiyat qaratilmagan.

Ushbu kursning vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi: voleybol texnikasini o‘rganish; voleybolda o‘qitish va mashg‘ulot usulini egallash; o‘quv va sport mashg‘ulotlarini tuzish va o‘tkazishning tashkiliy uslubiy tamoyillarini o‘zlashtirish.

Mashg‘ulotlar, shakliga ko‘ra, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarga ajratildi. Nazariy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga voleybol nazariyasi va uslubiyati, uning texnik va takt asoslari, musobaqa qoidalari, voleybol jihozlari va inventarlari haqida ma’lumotlar berildi.

Pedagogik amaliyot mashg‘ulotlari shug‘ullanuvchilarni o‘rgatish va mashg‘ulot qildirish jarayoniga bag‘ishlandi, bu jarayon ikki davrga ajratildi: birinchi 3 oy (o‘quv va boshlang‘ich tayyorgarlik davri) va ikkinchi 3 oy (o‘rganilganlarni mustahkamlash).

1956 yilda voleybolning umumiy kursi jismoniy tarbiyaning shaxsiy usullari bo‘limiga majburiy fan sifatida kiritilgan. Bunga matbuotda jismoniy tarbiya institutlari o‘quv rejalarida sport ixtisosliklarini “toraytirish” amaliyoti tanqid qilingan bir qator chiqishlar turtki bo‘ldi:

“Misol uchun, badiy gimnastika, akrobatika va boshqalar bo‘yicha juda tor ixtisoslashuv holatlari kuzatilgan. Bunday “mutaxassislar” institutni bitirgach, ular badiy gimnastika bo‘yicha mutaxassis ekanligini, shu sababli faqat badiiy gimnastika bo‘yicha ish olib borishi kerakligini bildirib, boshqa sport turlari bo‘yicha ishlashdan bosh tortishgan ”.

“Voleybol ikkinchi kursda 60 soat hajmida o‘rganiladi, bunda 12 soat nazariya, 38 soat voleybolning texnika va taktikasi va 10 soat o‘quv amaliyotini o‘rganishga ajratiladi ”.

O‘sha vaqtda qo‘lyozma shaklida tayyorlanadigan xususiy dasturlarning kirish qismiga umumqabul qilingan, ammo “yuksak tarbiyaviy kuch” vositasi sifatida voleybolning amaliy va samaradorlik mohiyati yetarlicha aniq aks ettirilgan: “Voleybol - mardonavor va qiziqarli sport turi bo‘lib, yoshlarni har tomonlama jismoniy tarbiyalashning eng muhim vositalaridan biri sifatida mamlakatimizda yildan-yilga tobora keng ommalashib bormoqda”.

Voleybolning majburiy o‘quv fanlari ro‘yxatiga kiritilishi o‘sha davrning hayotiy muhim vazifalari bilan bog‘liq bo‘lgan deb hisoblashga asos bor. Bu voleybolning ko‘p qirrali jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida ahamiyatini yana bir bor ta’kidlaydi.

Mamlakatimizning jismoniy tarbiya OO‘Yularida qabul qilingan dastur hujjatlari va o‘quv rejalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, voleybol ko‘p vaqt davomida kunduzgi, kechki va sirtqi bo‘lim talabalari uchun majburiy fanlar qatorida bo‘lgan. Tabiyki, bunda kursning mazmuni, soatlar hajmi va boshqalarda turli o‘zgarishlar bo‘lgan.

Xulosa.

Jamiyatning ta’limga va uning mazmuniga bo‘lgan talablari doimo aniq ijtimoiy-tarixiy vaziyat bilan belgilanadi. Ta’limning tavsifi va vazifalari haqidagi jamiyatda ustunlik qiluvchi tasavvurlar, individum (shaxs) jamiyat talablari qarshisida to‘la qurollangan (tayyor) holda bo‘lishi uchun uning insonparvarlik vazifasi birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Jamiyatning voleybol va sport o‘yinlarining boshqa turlariga bo‘lgan talabi hayotimizning haqiqati bo‘lib bormoqda. Bu esa pedagogika oliy ta’lim muassasalarida voleybolni majburiy o‘quv fanlari qatoriga kiritish to‘g‘risidagi masalani qayta ko‘rib chiqish zarurligini dolzarb qilib qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Коковкин А. В. Организация учебной деятельности студентов по педагогическому физкультурно-спортивному совершенствованию на факультетах физической культуры. Авторф. … дисс. канд. пед.наук. –М, 2006. -24с.

2. Педагогическое физкультурно-спортивное совершенствование: Учебное пособие для студ. высш. пед. уч. заведени / Под ред. Ю.Д.Железняка. - М. - Изд. Центр «Академия», 2002. – 384с.

3. Железняк Ю.Д. Педагогическое физкультурно-спортивное совершенствование: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – 2-е изд., испр. – Москва: Академия, 2005. – 384 с.

4. Ахмеров Э.К., Л.И. Акулич., В.Н. Вертелко. Волейбол: многолетняя тренировка: практическое пособие для тренеров. - Минск: МГПТК полиграфии, 2010. - 292 с.

5. Айрапетьянц Л.Р, Волейбол: Учебник для высших учебных заведений. – Ташкент, 2006 – 239 с.

6. Пулатов А.А., Ашуркова С.Ф. Спорт педагогик маҳоратини ошириш (Волейбол). Фан дастури.УзДЖТСУ. – Чирчик, 2019. -8с.

7. Железняк Ю.Д., Чачин А.В., Сыромятников Ю.П. Волейбол: пример прогр. спортив. подгот. для детско-юнош.школ олимп.резерва: доп.федер.агенство по физ.культуре и спорту. – М.: Сов.спорт, 2007. – 110 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

N.K.Abduraxmonov
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Chirchiq shahri

MALAKALI OG‘IR ATLETIKACHILAR MASHG‘ULOTIDA HAFTALIK MIKROTSIKLLARNI QO‘LLASH TARTIBI

Annotatsiya: *maqolada malakali og‘ir atletikachilar mashg‘ulotida haftalik mikrotsikllarni qo‘llash tartibi orqali sport pedagogik mahoratini oshirish mashg‘ulotlarida musobaqa mashqlarini bajarish samaradorligini oshirishni ilmiy asoslandi. Asta - sekinlik bilan mashg‘ulotlarda reja asosida mikrotsikllarni oshirib borish yuqori natijalarga erishishning samarali usuli sifatida tanlab olindi.*

Kalit so‘zlar: *mikrotsikllar, tortuvchi mikrotsikl, zarbdor mikrotsikl, tiklovchi mikrotsikl.*

Н.К.Абдурахманов
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
город Чирчик

ПОРЯДОК ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НЕДЕЛЬНЫХ МИКРОЦИКЛОВ В ТРЕНИРОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТЯЖЕЛОАТЛЕТОВ

Аннотация: *в статье научно обосновано повышение эффективности выполнения соревновательных упражнений на занятиях по совершенствованию спортивно-педагогического мастерства путем применения недельных микроциклов в тренировках квалифицированных тяжелоатлетов. Постепенное увеличение микроциклов на основе плана в тренировках было выбрано в качестве эффективного метода достижения высоких результатов.*

Ключевые слова: *микроциклы, тянущий микроцикл, ударный микроцикл, восстановительный микроцикл.*

N.K. Abdurakhmonov
Uzbek State University of Physical Education and Sports
Chirchik city

PROCEDURE FOR USING WEEKLY MICROCYCLES IN THE TRAINING OF QUALIFIED WEIGHTLIFTERS

Annotation: *The article scientifically substantiates the increase in effectiveness of performing competitive exercises during training sessions to improve sports pedagogical skills through the application of weekly microcycles in the training of qualified weightlifters. Gradually increasing the number of microcycles according to the plan in training sessions was selected as an effective method to achieve high results.*

Keywords: *microcycles, traction microcycles, percussion microcycles, restorative microcycles.*

Kirish.

Jamiyat oldida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholi keng qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb etish, ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy salomatlikning asosi ekanini targ‘ibot qilish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5924-sonli Farmonida yuqoridagi fikrlar bo‘yicha bir qator vazifalarni amalga oshirish lozimligi ijro sifatida belgilangan. Jumladan, 2020 yildan boshlab sport sohasida aholining barcha qatlamlari o‘rtasida «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» sinovlarini o‘tkazishni joriy etish; – sport turlari bo‘yicha terma jamoalar sportchilari uchun ilmiy-kompleks laboratoriyalar tashkil etish, tayyorgarlik jarayoniga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish; – aholining keng qatlamlari, jumladan professional va oliy ta’lim muassasalari o‘quvchi va talabalari o‘rtasida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, ular orasida iqtidorlilarini aniqlash maqsadida «Jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa» ko‘rik-tanlovini bosqichma-bosqich

o‘tkazish tizimini ishlab chiqish va jismoniy tayyorgarlik darajasi rivojlangan eng yaxshi professional va oliy ta’lim muassasasi nominatsiyasini joriy etish vazifalari qo‘yilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Sport sohasidagi Oliy ta’lim tizimi talabalarida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik sifatlarning shakllanishida mutaxassislik mashg‘ulotlarini va sport ixtisosligining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Talabalarda sportchiga xos xarakter, xislatlar jismoniy tarbiya va sport faoliyatida, mashg‘ulotlar asta-sekin shakllanib borib, keyinchalik bu xislatlar uning doimiy sifatiga aylanadi. Jismoniy tayyorgargarligi yaxshi shakllangan sportchi-talaba hayotiy faoliyatda ham qati’yatli va irodali xarakterga ega bo‘ladi. Turli tayyorgarlik darajasiga ega og‘ir atletikachilarni tayyorlash sohasida ularning texnik tayyorgarlik darajasini oshirish bo‘yicha qator yo‘nalishlarda, jumladan, og‘ir atletikachilarning texnik mahoratini oshirishda mashg‘ulotlar yuklamalarini taqsimlash va rejalashtirish, musobaqa va maxsus mashqlarini bajarish harakatini boshqarish va uni biomexanik tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlarda A.V. Pakov, V.S. Avanesov, V.A. Nijegorodov, V.V. Novikov, V.F. Drozdov, N.Ya. Petrov.

Ammo sportchi-talabalarni Sport pedagogik mahoratini oshirish mashg‘ulotlarida mikrotsikllarni qo‘llash orqali klassik mashqlarni bajarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ma’lumotlar to‘liq yoritib berilmagan. SHu maqsadda, aynan jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’lim olayotgan og‘ir atletika ixtisosligi talabalarining mashg‘ulotida mikrotsikllarnioqilona qo‘llash klassik mashqlarni bajarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi.

Xaftalik mikrotsikllardasturini qo‘llash orqali sport pedagogik mahoratini oshirish mashg‘ulotlarida musobaqa mashqlarini bajarish samaradorligini oshirishni ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– sportchi-talabalarningmashg‘ulotlarda foydalanayotgan mikrotsikl turlarinitahlil qilish;

– sportchi-talabalarni sport pedagogik mahoratini oshirish mashg‘ulotlarida ishlab chiqilgan xaftalik mikrotsikllardasturini qo‘llash orqali musobaqa mashqlarini bajarish samaradorligini oshirish.

Tadqiqotni tashkil etish uslublari: ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik tahlil, pedagogik tajriba.

Tadqiqotni tashkil etish va muhokamasi.

Mikrotsikllarning tuzilishi sport turining o‘ziga xos xususiyatlari, sportchining uzoq muddatli tayyorgarligi bosqichi, mikrotsikl davri, mikrotsiklning turi, sportchining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu omillar mikrotsikllarda qo‘llaniladigan yuklamaning umumiy qiymatiga, mashg‘ulotlarning asosiy vazifalariga, vositalar va usullarning tuzilishiga, yuklamaning kattaligiga va individual mashg‘ulotlarning kombinatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlariga asosiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqori malakali sportchilar mashg‘ulotini doimiy ravishda zarbdor mikrotsikllar asosida olib borish mashg‘ulotlarda yanada takomillashuvni va natijalarni yanada oshishini ta’minlamaydi, mashg‘ulotning umumiy yukini sezilarli darajada oshirish kerak. Asta- sekinlik bilan mashg‘ulotlarda reja asosida mikrotsikllarni oshirib borish yuqori natijalarga erishishning samarali usuli hisoblanadi.

Zarbdor mikrotsikllar bilan bir qatorda, tortuvchi va kamayib boruvchi mikrotsikllari ham mashg‘ulotlarda keng rejalashtiriladi. Kata va sezilarli yuklamalar bilan mashg‘ulotlar soni kamayadi. Tiklovchi mikrotsikllarda mashg‘ulotlarda mashqlarni sportchi to‘liq his qilgan holda bajarishiga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Mashg‘ulotlarda mikrotsikllar qurilishining xususiyatlari

Bir kun ichida bir nechta mashg‘ulotlarni rejalashtirayotganda bir qator muammolarni ijobiy hal qilib olish lozim:

Birinchidan, mashg‘ulotlarning optimal vaqtini belgilash kerak;

Ikkinchidan, yuklamayo‘nalishi, hajmi va shiddatini qanchalikaniq ekanligini bilish kerak;

Uchinchidan, kun davomida turli yo‘nalishga ega bo‘lgan mashg‘ulotlarini qanday o‘zgartirish mumkinligini bilish kerak.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazishvaqtikundalik dam olish tartibini hisobga olgan holda muntazamlik tamoyili asosida rejalashtiriladi. CHunki mashg‘ulotlar rejimining buzilishi sportchilarning ish qobiliyatini pasayishi, mashg‘ulotjarayonining sportchi organizmig aberilayotgan yuklamadan keyin tiklanish jarayonlarini zaiflashishi bilan birga xarakterlanadi. Vaqtzonasi (mas’uliyatli musobaqadan oldin mikrottsikllarni rejalashtirishda) farqini xisobga olish zarur faqat mas’ul musobaqalar arafasida o‘zgarishi mumkin.

Odatda ikkita bir martalik mashg‘ulotlar asosiy, ikkinchisi esa qo‘shimchadir. Ba’zi hollarda kun davomida ikkita asosiy yoki ikkita qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazilishi mumkin. Ikki asosiy mashg‘ulotdan foydalanish, ya’ni maksimal yokikatta yuk bilan malakali sportchilarni tayyorlash, funktsional imkoniyatlarni yanada oshirish uchun qo‘llaniladi. Mikrotsikl turlari bo‘yicha mashqlarningfoizlarda qo‘llanishi

1-jadval

Kun	**Mikrotsikl turlari**		
	Tortuvchi	***Zarbdor***	***Tiklovchi***

	Mashqlar	*Yuklama (%)*	*Mashqlar*	*Yuklama (%)*	*Mashqlar*	*Yuklama (%)*
1	Shtangani tizzadan osiltirgan holatda dast ko‘tarish (rvok svisa)	85%	2. Dast ko‘tarish kengligida shtangani belgacha ko‘tarish (tyaga rvkovыy)	90%	Vazifalarni izchillik bilan kompleks xal qilish	50%
2	Shtangani ustundan olgan holda siltab ko‘tarish (tolchok so stoya)	80%	2. Yelkada shtanga bilan o‘tirib turish (presidaniya na plecha)	85%	Oyoq mushaklarining portlash kuchini oshirish	60%
3	Yarim o‘tirgan holatda dast ko‘tarish (rvok stoya) Ko‘krakda shtanga bilan o‘tirib turish (presidaniya na grud)	70% 85%	Klassik siltab ko‘tarish (tolchok klassik) Siltab ko‘tarish kengligida shtangani belgacha ko‘tarish (tyaga tolchkovy)	85% 100%	Tezkor-kuch imkoniyatlari ni oshirish	50%
4	Shvung usulida shtangani siqib ko‘tarish (shvung jim)	70%	Shtanga bilan o‘tirib turish (presidaniya)	100%	Bel mushak kuchini oshirish uchun mashq (naklon)	50%
5	Klassik dast ko‘tarish (Rvok)	80%	Klassik dast ko‘tarish (Tolchok)	90%	Bel mushak kuchini oshirish uchun mashq (naklon)	50%
6	Qo‘ygichdan shtangani dast ko‘tarish (rvok s plint)	60%	Ko‘krakda shtanga bilan o‘tirib turish (presidaniya na grud)	105%	Shtangani ko‘krakdan ko‘tarish (na grud protyajka)	70%
7	Dam olish	Passiv	Dam olish	Aktiv	Dam olish	Passiv

Xulosa.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazish vaqtini kundalik dam olish tartibini hisobga olgan holda muntazamlik tamoyili asosida rejalashtirish mashg‘ulotlar rejimining buzilishini oldini oladi hamda sportchi organizmiga berilayotgan yuklamadan keyin tiklanish jarayonlarini bir me’yorda o‘tishini ta’minlaydi. Bir martalik asosiy mashg‘ulotdan foydalanish, ya’ni maksimal yoki submaksimal yuk bilan malakali sportchilarni tayyorlash, funktsional imkoniyatlarni yanada oshirishga imkon beradi. Asosiy mashg‘ulotda mashqlarni tortuvchi, zarbdor hamda tiklovchi mikrotsikllar bo‘yicha foizlar: tortuvchi – 65-80%; zarbdor - 85-100%; tiklovchi – 40-60%da rejalashtirish sportchi organizmida mashg‘ulot yukining samarali ta’sirini oshiradi.

Adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924-сонли Фармони, – 2 бет.

2. Matkarimov R.M. Og‘ir atletika nazariyasi va uslubiyati -O‘zbekiston., NMIU, 2015-98 b.

3. Ходжаев А.З. Малакали оғир атлетикачиларда даст кўтариш техникасини такомиллаштириш: пед.ф.б.ф.д. дис. Тошкент-2019. 5 бет.

4. Паков А.В., Аванесов В.С., Нижегородов В.А., Новиков В.В. Оптимизация тренировочной нагрузки в тяжелой атлетике Ташкент «Медицина» УзССР 1985 г. – 105 с.

5. Л.С.Дворкин. Тяжёлая атлетика. Том1. 2017 г. 272 в.

6. Дроздов В.Ф., Петров Н.Я. Физическое развитие и состояние здоровья студентов, занимающихся тяжелой атлетикой. ТЯЖЕЛАЯ АТЛЕТИКА-Ежегодник., Москва «Физкультура и спорт» 1981 г. – 37-40 с. 6. Баязитов К.Ф. Повышение спотивно педагогического мастерство в тяжелой атлетике. Учеб пособ. – Т., 2011, 133

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ergashbaev Shohbozbek
Namangan davlat pedagogika instituti doktarandi
Elektron pochta: ergashbayevshohbozbek2@gmail.com

UZLUKSIZ TA'LIMNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

Anotatsiya: *Uzluksiz ta'lim yoshlarning ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. Maqolada uzluksiz ta'lim tizimining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida milliy va umumbashariy qadriyatlarni singdirish, innovatsion yondashuvlar va tarbiya metodlarining samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yoshlarning ma'naviy yetukligini oshirishda ta'limning uzluksizligi va tizimlilik tamoyillarining ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Uzluksiz ta'lim, ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, ta'lim tizimi, innovatsion yondashuv, milliy qadriyatlar, ma'naviy kamolot.*

Эргашбаэв Шоҳбозбек
Докторант Наманганского Государственного Педагогического Института.

ВЛИЯНИЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: *Непрерывное образование играет важную роль в духовном становлении молодежи. В статье анализируется влияние системы непрерывного образования на духовность молодежи. Рассматриваются внедрение национальных и общечеловеческих ценностей в образовательный процесс, эффективность инновационных подходов и методов воспитания. Также освещается значимость принципов непрерывности и системности образования в повышении духовной зрелости молодежи.*

Ключевые слова: *непрерывное образование, духовность, воспитание молодежи, система образования, инновационный подход, национальные ценности, духовное становление.*

Ergashbaev Shohbozbek
Doctoral student of Namangan State Pedagogical Institute.

THE IMPACT OF CONTINUOUS EDUCATION ON THE SPIRITUALITY OF YOUTH

Annotation: *Continuous education plays a crucial role in the spiritual development of young people. This article analyzes the impact of the continuous education system on youth spirituality. It examines the integration of national and universal values into the educational process, the effectiveness of innovative approaches and educational methods. Additionally, the importance of continuity and systematic principles in enhancing the spiritual maturity of young people is highlighted.*

Keywords: *Continuous education, spirituality, youth upbringing, education system, innovative approach, national values, spiritual development.*

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimi yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonlari o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina, yuksak ma'naviyatli, bilimdon va vatanparvar yoshlarni yetishtirish mumkin. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 3-maydagi PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31- dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga hos tarixiy voqelik bo'ldi[1]. Mazkur konsepsiya 8 ta bob va ma'naviy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tadbirlar rejasidan iborat bo'lib, uning amalga oshirilishi 4 bosqichdan iborat bo'ladi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy,

Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning ma’naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi o‘zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta’kidlandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, Xitoyning yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o‘rganilgan. Konsepsiyada O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiytexnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tariladi[2].

Uzluksiz ta'lim tizimi yoshlarning nafaqat bilim darajasini oshirishga, balki ularning ma'naviy kamolotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida milliy va umumbashariy qadriyatlarni singdirish orqali yoshlarimizning ma'naviy yetukligini ta'minlash mumkin. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar va tarbiya metodlarining samaradorligi ham bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Kelgusida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish orqali yoshlarimizning ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishga erishish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Uzluksiz ta'limning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri masalasi bo'yicha dunyo miqyosida ko'plab olimlar izlanishlar olib bormoqda. Ularning tadqiqotlari asosan ta'lim jarayonida yoshlarning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga qaratilgan. Ushbu izlanishlar asosan ta’lim jarayonining ijtimoiy ehtiyojlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, AQSH olimlaridan P. C. Scales “Relation of spiritual development to youth health and well-being: Evidence from a global study” maqolasida Amerika Qo‘shma Shtatlarida uzluksiz ta’lim orqali o‘quvchilarni ma’naviyatini yuksaltirish masalariga urg’u bergan[3]. Rus olimi M. I. Drobjev o’zining “Duxovnost lichnosti-kak glavnaya sostavlyayushaya sistemi neprerivnogo obrazovaniya” nomli maqolasida uzluksiz ta’limni yoshlarning psixologiyasiga ta’siri haqida to’htalib o’tgan va xulosalar bergan[4]. Bundan tashqari ingliz olimi K. M. Yust o’zining “Adolescent spirituality and education” nomli maqolasida o’z ilmiy qarashlari orqali Anglya ta’lim sifatini yahshilash va kafolatlat uchun uzluksiz ta’limni shakllantirishni asoslab bergan[5]. O'zbekistonda ham uzluksiz ta'lim orqali yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ulardan N. Z. Hakimovna “Barkamol avlodni shakllantirishda oila va uzluksiz ta’lim hamkorligi” nomli maqolasida komil insoni shaklantirishda uzluksiz ta’limning ahamiyati haqida o’z fikrlarini ilgari surgan[6]. O’zbekiston ijod qilayotgan fan arboblaridan biri Ulug’bek Inoyatov o’zining “Yangi O’zbekistonda uzliksiz ta’lim” nomli kitobida “Ijtimoiy iqtisodiy va texnologik jihatdan olamshumul yutuqlarga erishgan davlatlarning rivojlanish bosqichini tahlil qilib, ular tarraqiyotining asosida ta’lim-tarbiyaga e’tibor yotganiga qayta-qayta ishonch xosil qilamiz” deya kifr yuritgan[7]. Ushbu tadqiqotlar va tashabbuslar uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayonida milliy va umumbashariy qadriyatlarni singdirish orqali yoshlarimizning ma'naviy yetukligini oshirishga xizmat qiladi.

Metodologik qism.

Maqolada uzluksiz ta'limning yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Xususan, uzluksiz ta’limning yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini aniqlash maqsadida nazariy tahlil, empirik tadqiqot, statistik tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar va davlat hujjatlari o‘rganilib, yoshlar o‘rtasida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, so‘rovnomada qatnashganlarning 75% uzluksiz ta’lim dasturlari ularning ma’naviy qadriyatlarini mustahkamlashga yordam berganini bildirgan. Shuningdek, ushbu dasturlarda ishtirok etgan yoshlarning 68% ijtimoiy faolligi oshgani kuzatildi. Xalqaro tajribalar, jumladan, Yaponiyaning ta’lim tizimi misolida uzluksiz ta’limning yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari uzluksiz ta’lim yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatib, ushbu yo‘nalishda yanada chuqur tadqiqotlar olib borish zaruriyatini tasdiqlaydi.

Natijalar.

Uzluksiz ta'lim tizimi yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim va tarbiya jarayonlari o'zaro uyg'unlikda olib borilganda, yuksak ma'naviyatli, bilimdon va vatanparvar yoshlarni yetishtirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyaning ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Mazkur qarorda ta'lim va tarbiya jarayonlarini uzluksiz asosda tashkil etish orqali yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi belgilangan.

Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning ma'naviy kamolotiga erishish uchun oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlarida ma'naviy tarbiya jarayonlari izchil amalga oshirilishi lozim. Ushbu konsepsiya asosida o‘quv dasturlariga ma’naviy tarbiya elementlari kiritilib, bolalar bog‘chasidan boshlab oliy ta’lim bosqichigacha bo‘lgan jarayon qamrab olingan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020-2023-yillar davomida ta’lim muassasalarida amalga oshirilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar natijasida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik darajasi 35 foizga oshgan, ularning ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish ko‘rsatkichi esa 42 foizga yetgan[8]. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlarning ilmiy, madaniy va kasbiy rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar natijasida ma’naviyat darajasi sezilarli darajada oshgan. Xususan, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy faollik ko‘rsatkichi 20% ga oshgan, oliy ta’lim muassasalariga kirish darajasi 2016 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrda 9% dan 38% gacha o‘sgan. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimining rivojlanishi va yoshlarning ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganining dalilidir. Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim va tarbiya jarayonlarining uzviyligi va izchilligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa yoshlarning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz ta’lim tizimi yoshlarning ma’naviyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, YUNESKO tadqiqotlariga ko‘ra, ta’lim jarayonida ma’naviy tarbiya masalalariga e’tibor berilgan mamlakatlarda yoshlarning ijtimoiy ong darajasi yuqori bo‘lib, ularning axloqiy qadriyatlarga hurmati 27 foizga oshadi. Shuningdek, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda ta’limning turli bosqichlarida ijtimoiy va ma’naviy tarbiya dasturlari joriy qilingan bo‘lib, bu yoshlarning ijtimoiy faolligi oshishiga hamda jinoyatchilik darajasining 15-20 foizga pasayishiga olib kelgan. O‘zbekistonda ham bu borada qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan ma’naviyat va ma’rifat markazlari yoshlarning dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim omil bo‘lmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida ma’naviy tarbiyani uzluksiz yo‘lga qo‘yish jamiyatdagi ma’naviy muhitni yaxshilashga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ma’naviy tarbiya tizimli tashkil etilgan davlatlarda yoshlar orasida ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo‘lib, ularning madaniy va axloqiy qadriyatlarga hurmati sezilarli darajada oshadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar davrida ma’naviy tarbiyaning ta’siri yanada oshmoqda. Masalan, interaktiv ta’lim platformalari orqali yoshlarning ma’naviy qadriyatlari shakllantirilishi ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini 30 foizga oshirganligi kuzatilgan. Shu sababli, uzluksiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy etish ma’naviy tarbiyaning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy tarbiyasini rivojlantirish ularning hayotga tayyorgarligini oshirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish va jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi[9].

Muhokama.

Uzluksiz ta’lim tizimining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri har tomonlama tahlil qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, milliy qadriyatlarni saqlagan holda global ta’lim tendensiyalariga moslashish jarayonlari bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta’limning asosiy vazifalaridan biri yosh avlodning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashdan iboratdir. Ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ham xizmat qilishi zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifati va tarbiya tizimi uyg‘un holda olib borilganda yoshlarning ma’naviy kamolot darajasi sezilarli darajada ortadi. O‘zbekiston aholisining 60 foizdan ortig‘i yoshlar hisoblanadi. Bu esa ta’lim tizimining ularning ma’naviyatiga ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganishni talab qiladi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, ma’naviy tarbiya berish jarayonida integratsiyalashgan yondashuvlar qo‘llanilganda, yoshlarning ijtimoiy faolligi va madaniy saviyasi 30-40 foizga oshadi. Shuningdek, xorijiy tajribalarni tahlil qilar ekanmiz, Yevropa va Osiyo davlatlarida uzluksiz ta’lim modeli orqali yoshlar ongiga milliy qadriyatlar singdirilayotgani, shu bilan birga, global rivojlanish tendensiyalaridan orqada qolmaslik choralari ko‘rilayotgani kuzatiladi. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimida ma’naviyat va axloqiy tarbiya bo‘yicha integratsiyalashgan dasturlarni amalga oshirish natijasida yoshlarning ijtimoiy mas’uliyati va ongli fuqarolik hissi 45 foizga oshgani aniqlangan. O‘zbekistonda esa 2018-yilda qabul qilingan "Ma’naviyat va ma’rifat markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi qaror asosida ta’lim jarayonida ma’naviyatga oid fanlarni rivojlantirish va yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash bo‘yicha muhim qadamlar tashlangan. Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimida talabalar uchun ijtimoiy-ma’naviy fanlarni chuqur o‘rganish majburiyligi belgilangan bo‘lib, bu jarayon kelajakda yanada rivojlanishi kutilmoqda[10]. Uzluksiz ta’lim tizimining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish uchun ta’lim sifati, tarbiya va innovatsion yondashuvlar uyg‘unlashtirilishi kerak. Ta’lim muassasalari, oilalar va jamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlari orqali yoshlarning ma’naviy yetukligi va ijtimoiy faolligi yanada yuksalishiga erishish mumkin.

Xulosa.

Uzluksiz ta’limning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri bevosita ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy omillar bilan bog‘liq

bo‘lib, uning samaradorligi tizimli yondashuv va ilg‘or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz ta’lim jarayonining rivojlanishi yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Samad o‘g‘li E. H. MAMLAKATIMIZDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETILISHI VA UZLUKSIZ TA’LIM TIZMI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – Т. 7. – №. 1. – С. 192-197.
2. Samad o‘g‘li E. H. MAMLAKATIMIZDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETILISHI VA UZLUKSIZ TA’LIM TIZMI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – Т. 7. – №. 1. – С. 192-197.
3. Scales P. C. et al. Relation of spiritual development to youth health and well-being: Eviden]ce from a global study //Handbook of child well-being. – 2014. – С. 1101-1135.
4. Дробжев М. И. Духовность личности-как главная составляющая системы непрерывнЗого образования //Гаудеамус. – 2004. – №. 1 (5). – С. 71-78.
5. Yust K. M. Adolescent spirituality and education //Spirituality across Disciplines: Research and Practice:. – 2016. – С. 81-93.
6. Hakimovna N. Z. BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA UZLUKSIZ TA’LIM HAMKORLIGI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 39. – №. 3. – С. 107-108.
7. Ulug’bek Inoyatov. Yangi O’zbekistonda uzluksiz ta’lim//Yangi asravlodi.-2024.-176 bet
8. Yaxshiyev D. “UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASI” ASOSIDA MAXSUS MAKTAB-INTERNAT OQUVCHILARINI MA’NAVIY TARBIYALASH //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 4 Part 2. – С. 14-19.
9. Shohbozbek E. RENEWAL OF THE SOCIAL SPHERE AND STABLE SOCIETY SYSTEM IN THE PROCESS OF REFORMS //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – Т. 4. – №. 09. – С. 16-20.
10. Расулов Р. YANGI O ‘ZBEKISTONDA YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMIDA ULARNING IJTIMOIY FAOLLIGI VA MA’NAVIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O ‘ZIGA XOS MEXANIZMLARI //НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ “MA'MUN SCIENCE”. – 2023. – Т. 1. – №. 1.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Dilorom Kamalova Olimjon qizi
Toshkent Farmatsevtika instituti katta o‘qituvchisi
E-mail:dilorom.kamalova.92@bk.ru

UDK: 371.126

ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI O‘RGANISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya. *Pedagoglar oldida jamiyatni yuksaltirishdek katta bir ma’suliyat bor, ushbu ma’suliyatni qabul qilgan pedagog o‘zini tarbiyaviy, ta’limiy rivojlantiradi va samarali natijaga erishadi. Zamonaviy o‘qituvchi - bu talabalar va hamkasblar, turli darajadagi menejerlar bilan kasbiy o‘zaro munosabatlar jarayonida rivojlanadigan va tenglik, o‘zaro huquqlar va o‘zaro javobgarlik asosida qurilgan turli xil huquqiy munosabatlarning sub’ektidir.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, madaniyat, ta‘lim, tarbiya, o‘quv jarayoni, pedagogik madaniyat, yuqori daraja, faoliyat, maqsad, shakllantirish, yuqori darajada, o‘zlashtirish, ob’ekt, standart, bunyodkor, didaktik vositalar, fikrlash, aniqlash, mulohaza yuritish, ilmiy izlanish, o‘quv intizomi, o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiylashuv, uslubiy, shaxsiy fazilat, pedagogik o‘zini o‘zi boshqarish, aql-zakovat.*

Камалова Дилором Алимджоновна
Старший преподаватель Ташкентского фармацевтического института

АКТУАЛЬНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ

Аннотация. *Перед педагогами стоит большая ответственность по улучшению общества, педагог, взявший на себя эту ответственность, развивает себя педагогически, воспитательно и достигает эффективного результата. Современный педагог - это человек, который развивается в процессе профессионального взаимодействия со студентами и коллегами, менеджерами разного уровня и строится на основе равенства, взаимных прав и взаимной ответственности*

Ключевые слова: *учитель, культура, обучение, воспитание, учебный процесс, педагогическая высокая степень, деятелност, цель, формирование, высокая степен, успеваемост, объект, стандартный, творческий, дидактические инструменты, мышление, определение, рассуждение, научное исследование, учебная дисциплина, самосознание, социализация, методологическое, личная добродетель, педагогическое самоконтроль, интеллект.*

Dilorom Kamalova Olimjon qizi
Senior lecturer at Tashkent Pharmaceutical Institute

RELEVANCE OF STUDYING PEDAGOGICAL CULTURE IN THE KASBIY ACTIVITIES OF A MODERN TEACHER

Abstract. *Teachers have a great responsibility to improve society, a teacher who has taken on this responsibility develops himself pedagogically, educationally and achieves an effective result. A modern teacher is a person who develops in the process of kasbiy interaction with students and colleagues, managers of different levels and is built on the basis of equality, mutual rights and mutual responsibility*

Key words: *teacher culture, educational, studying process, educational process, upper level, activity, goal, pedagogical culture, form, upper level, activity, studying activity, object, standard, creative, didactic tools, thinking, identification, reflection, scientific research, academic discipline, self-awareness, socialization, methodological, personal virtue, pedagogical self-management, intelligence.*

Kirish/Введение/Abstract.

Bugun juda tez, shiddatli zamonda zamonaviy pedagogik madaniyatga ega o‘qituvchilarga juda ham ehtiyoj katta. Sababi, ta’lim oluvchilar o‘ta zamonaviy fikr yurituvchi ba’zan esa tezkorlik bilan ma’lum bir shaxsga nisbatan o‘zining ijobiy yoki salbiy qarashlarini jazm qilib aytayotganliklariga guvohi bo‘lib turibmiz. Ana shunday erkin, zamonaviy fikrlaydigan yoshlarga o‘tgan asrdagi yoshlar kabi dars o‘tish yoki sub’ektni ob’ekt sifatida qabul qilib, munosabatda bo‘lish kabi standart, ma’lum bir

qolipga solingan o‘quv mashg‘ulotini dogmatik tafakkur yurituvchi o‘qituvchi sifatida tashkil eta olamizmi? Yo‘q albatta, ya’na bir savol tug‘iladi-ki, ta’lim va tarbiya kabi nozik, mas’uliyatli, ahamiyatli ishni dunyoqarashi cheklangan, hissiy tajriba qashshoqligi, yomon odatlari bor insonga ishonib topshirish mumkinmi? Hech qachon kutilgan yuqori darajaga erisha olmaymiz, o‘quvchilar vaqtini o‘g‘irlaymiz halos va ta’limni samarali yuqori natijaviy tashkil eta olmaymiz. Ushbu masalani hal qilish yo‘llaridan biri bugungi kun ta’lim oluvchilarini identifikatsiya eta olishimiz, so‘ngra pedagog sifatida o‘zimizni refleksiya qila olishimiz muhimdir.

Ta’lim muassasalarida olib borilishi kerak bo‘lgan zamonaviy ta’lim masalasi har qachongidan bugun muhim bo‘lib, uni amalga oshiruvchilar zamonaviy mutahassislar, pedagoglar jamoasidir. Zamonaviy o‘qituvchining o‘ta muhim fazilati shaxsiy ichki tuzilmasida pedagogik madaniyatni rivojlantirganidadir.

Zamonaviy pedagog - bu o‘quvchilarni tarbiyalash va o‘qitishda kasbiy kompetensiyasi shakllangan, ta’lim olishga e’tibori susaygan o‘quvchilarni qiziqishini oshirish, ko‘p vazifali, o‘zgarishlar sharoitida o‘z vaqtida ta’lim jarayonini tashkil etish uchun tayyor pedagogik jamoaning muvaffaqiyatli va samarali xodimidir, ya’ni u pedagogik madaniyat vakili, pedagogik bilim sohasida an'anaviy va yangi yondashuvlarni biladigan, o‘z kasbiy faoliyatining fundamental tushunchalari bilan yaxshi tanish o‘qituvchidir.

O‘qituvchining kasbiy madaniyati shunchaki yaratilmaydi; u umuminsoniy qadriyatlar, kasbiy qadriyat yo‘nalishlari va shaxsiy fazilatlari, universal bilish usullari va pedagogik faoliyat texnologiyalari majmuini ifodalovchi murakkab tizimli shakllanish sifatida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning eng yuqori darajasi sifatida namoyon bo‘lib, zamonaviy fikrlarga ko‘ra o‘qituvchining kasbiy madaniyati o‘qituvchi ta'limining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlaridan biri sifatida, uning ma'naviy va moddiy qadriyatlarining umumiyligini, ijodiy o‘zini o‘zi bilishi va aktuallashtirish darajasini aks ettiradi[1].

Ta'lim faoliyati samaradorligining eng muhim xarakteristikasi va zaruriy sharti o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik madaniyatidir. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga hissa qo‘shishdir. Madaniyati bilan barchaga na’muna bo‘la olish hususiyatini o‘zida rivojlantirgan ya’ni pedagogik soha vakillarida ma'lum pedagogik fazilatlar, keng dunyoqarash, xarakter va ijodiy salohiyatga ega o‘ziga xos shaxs bo‘lganligi sababli, bu fazilatlar individuallikka aylanganligi orqali o‘quvchilarga ijobiy ta'sir ko‘rsatish uchun qo‘shimcha turtki berishi mumkin. Shaxsan meni ham ilmiy tadqiqotchilik ishimni boshlashga va uni davom ettirishga menga o‘zinining qarashlari, motivatsiya beruvchi so‘zlari orqali turtki bo‘lgan ustozlarimning o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunda yosh mutahassis kadrlarni ta’lim jarayoniga sho‘ng‘ib o‘qituvchilik kasbini qalban qabul qilishda unga yordam qo‘lini cho‘zuvchi tajribali, bag‘rikeng, pedagogik madaniyatga ega ustozlarning o‘rni kattadir

Yosh pedagoglar o‘quv jarayoniga kirishib olishlari uchun dastlab nimalarga e’tibor berishlari kerak, ya’ni ular jamoa tomonidan ishlab chiqilgan barcha narsalarni diqqat bilan o‘rganib, munosabatlar uslubini va umumiy masalalarni muhokamalarni bor sinchikovlik bilan ko‘rib chiqishi kerak. Yoshlarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish uchun avval dastlabki umumiy madaniyat fazilati bo‘lishi zarur bo‘lib, bunda indivudual etik va estetik normalarini egallaganligi, keyingi o‘rinda pedagogik kuzatuv va o‘rganish holatida rivojlanishi mumkin. Yosh o‘qituvchilar quydagilarga ahamiyatli bo‘lishlari zarur;

-Har bir o‘qituvchining darslarda qatnashish va har biri bilan suhbatlashish orqali mahoratini o‘rganish, mashg‘ulotlar, konsultatsiyalar o‘tkazish, uslubiy ishlarni bajarish, o‘quv yukining kerakli ulushini o‘z zimmasiga olish va tajribali o‘qituvchilar bilan maslahatlashishda barcha imkoniyatlarni ishga solish;

-Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuzatish, ilmiy rahbardan topshiriq olish va tez orada dissertatsiya tadqiqoti mavzusi haqida o‘ylashni boshlash;

-Ish paytida ham, bo‘sh vaqtlarida ham o‘tkaziladigan barcha umumiy tadbirlarda faollik bilan qatnashish.

O‘qituvchi o‘z jamoaviy ishining hujjatlari va didaktik vositalaridan (dasturlar, tematik rejalar, uslubiy ishlanmalar, fond ma'ruzalari, ko‘rgazmali qurollar, jamoaviy qarorlar va boshqalar) foydalanadi va bu jamoaning ishiga ta'sir qiladi. Yosh o‘qituvchilar boshqa professor-pedagoglar qatorida ilmiy, pedagogik va uslubiy ishlanmalari jamoa fondini boyitadi, yosh mutahassisni tajribasi boshqa o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi mumkin. Yangi yosh o‘qituvchi va u mansub bo‘lgan pedagoglar jamoasining muvaffaqiyatlari bir-biri bilan zanjir kabi chambarchas bog‘liqdir.

Jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarning roli sezilarli darajada ortib borishi, zamonaviy ta’limning madaniyat yaratuvchi vazifasi faollashishi munosabati bilan o‘qituvchiga madaniy an’analar tashuvchisi, kasbiy pedagogik ijodkori sifatida nazar solinmoqda. U nafaqat tayyor bilimlarni uzatishi, balki har bir o‘quvchida individuallikni rivojlantirishga qodirligini ham ta'minlashi kerak. Zamonaviy o‘qituvchi keng bilimli, yuksak axloqiy va insonparvarlikka yo‘naltirilgan qarashlari bo‘lishi muhimdir, sababi hozirgi davrda o‘quvchilarining talab va istaklari o‘qituvchiga nisbatan juda kattadir. Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun albatta

o‘quvchilarning psixologik va pedagogik holatidan kelib ya’ni diagnostika qilib ta’limni tashkillashtirish mumkin. Aynan dars jarayonini effektiv texnologiyalardan foydalangan holda 80% dan kam bo‘lmagan o‘quvchilar bilimini rivojlantirishda o‘qituvchining pedagogik madaniyati birlamchi o‘rinda turadi.

Pedagogik madaniyat o‘qituvchilarda eng avvalo bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyaga ega bo‘lish bilan birgalikda o‘zligini anglash va o‘quvchilarni kelajak bunyodkori ekanligini tushunish va ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga ko‘maklashuvchi fazilatidir. Qachonki bir qancha muammolar bartaraf bo‘ladi, qachonki uni yechishga tayyor bo‘lgan ma’suliyatli shaxslar tarbiyalansa. Pedagoglar oldida jamiyatni yuksaltirishdek katta bir ma’suliyat bor, ushbu ma’suliyatni qabul qilgan pedagog o‘z ustida doim ish olib boradi va samarali natijaga erishadi. Ammo har bir kasbda bo‘lganidek ushbu kasbda ham hali hamon kasbiy ma’suliyatni anglamagan yoki o‘quvchilar uchun ajratilgan qadrli vaqtni qandaydir nomunosib usullar bilan chalg‘ituvchi ustozlar ham uchrab turadi. Aynan pedagogik madaniyatni yosh talabalarda shakllantirish va kelgusida ushbu muhim fazilat rivojlanishida munosib pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘ta muhim masala bo‘lib jamiyatda o‘qituvchilarga ishonch hamda ularning obro‘si ularning talabalik davrlarida olgan bilimlariga borib taqaladi. Bo‘lg‘usi o‘qituvchida pedagogik madaniyatni rivojlantirishda uning metadologik asoslari haqida bilim, ko‘nikmani o‘zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday madaniyatni o‘zlashtirish ilg‘or harakatni, ichki ma'naviy resurslarni safarbar qilishni va birinchi navbatda, umumiy ijodiy qobiliyat va ko‘nikmalarni - intellektual, badiiy, texnik, ijtimoiy (tashkiliy, boshqaruv) va boshqalarni nazarda tutadi. Ma'lumki, o‘quvchining sub'ektiv pozitsiyasisiz ta'lim bo‘lmaganidek, ishtiyoqsiz o‘rganish ham bo‘lmaydi. Bolalar va kattalarni qiziqarli va foydali mashg‘ulotlar bilan o‘ziga jalb qilish uchun o‘qituvchi yorqin shaxs sifatida bo‘lishi va hayotning turli sohalarida o‘z iste'dodi va qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak[2].

Muhokama(Обсуждение/Discussion).

Pedagogik madaniyat haqida turlicha fikrlar mavjud bo‘lib, “Pedagogik madaniyat” atamasi birinchi marta 1940 yilda L. E. Raskin nashrida kuzatildi. Bu atama ilgari qo‘llanilmagan edi, chunki ijtimoiy pedagogika instituti faqat 1990-yillarning boshida qayta tiklangan edi[3]. “O‘qituvchining kasbiy madaniyati” tushunchasining mohiyatini aniqlash uchun “kasbiy madaniyat” va “pedagogik madaniyat” kabi tushunchalarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy faoliyat ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida maqsadlar, vazifalar, mavzu, vositalar, usullar, natijalarni o‘z ichiga olgan o‘ziga hos tuzilishga ega. Mutaxassisning yuqori kasbiy madaniyat kasb doirasidagi muammolarni hal qilishga oid taktikasi, ya'ni rivojlangan kasbiy fikrlash va ong bilan tavsiflanadi. Kasbiy madaniyat - bu insonning kasbiy muammolarni hal qilish usullari va texnologiyalarini o‘zlashtirishining yuqori darajasi. Pedagogik madaniyat muammosi S.I.Arxangelskiy, A.V.Barabanshchikov, E.V. Bondarevskaya, V.A. Slastenin kabi tadqiqotchilarning ishlarida pedagogik faoliyat xususiyatlarini analiz qilish, pedagogik qobiliyatlarni, pedagogik o‘qituvchi mahoratini o‘rganish bilan bog‘liqlikda shakllangan deya fikr bildirilgan. Pedagogik madaniyat esa - bu umuminsoniy madaniyatning zarur qismi bo‘lib, bunda ma'naviy va moddiy qadriyatlar, shuningdek, insoniyatning avlodlar almashinuvi va ijtimoiylashuvi (o‘sib borishi, shakllanishi) tarixiy jarayoniga xizmat qilishida zarur bo‘lgan odamlarning ijodiy pedagogik faoliyati usullari majmuidir.

Kasbiy pedagogik madaniyatning mohiyatini tushunish uchun umumiy va kasbiy madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni va uning o‘ziga xos tomonlarini ochib beruvchi quyidagi qoidalarga alohida e’tibor berilishi zarur:

-kasbiy pedagogik madaniyat - mavjudlikning turli shakllarida ko‘rinadigan pedagogik voqelikning umuminsoniy xususiyatidir;

-kasbiy pedagogik madaniyat ichki umumiy madaniyat bo‘lib, umumiy madaniyatning pedagogik faoliyat sohasida o‘z funksiyasini bajaradi;

-kasbiy pedagogik madaniyat – bir qator tarkibiy va funksional komponentlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, alohida qismlarning xossalariga kamaymaydigan yaxlitlikning integral xususiyatiga ega bo‘lgan tizimli ta’limdir;

-kasbiy pedagogik madaniyatni tahlil qilish birligi ijodiy xarakterga ega bo‘lgan pedagogik faoliyatdir;

-o‘qituvchining kasbiy pedagogik madaniyatini amalga oshirish va shakllantirish xususiyatlari individual ijodiy, psixofiziologik va yosh xususiyatlari, shaxsning belgilangan ijtimoiy-pedagogik tajribasi bilan belgilanadi[4].

Pedagogik madaniyat o‘qituvchining kasbiy fazilatlari va kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarida ko‘rinadigan umumiy madaniyatni o‘zlashtirib, o‘qituvchi shaxsining integral sifati, samarali pedagogik faoliyatning shartlari, o‘qituvchining kasbiy malakasining umumlashtirilgan ko‘rsatkichi va kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirishga qaratilgan yuqori darajadagi maqsadidir[5].

Zamonaviy o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish darajasini aniqlash yuzasidagi tadqiqotlar psixologiya va pedagogikaning fundamental yoki amaliy sohalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu masalaning yechimini hal qilishda, uning ahamiyatini ham amaliyot, ham fan nuqtai nazaridan tavsiflash mumkin. Amaliy soha tomonidan zamonaviy optimal yechimga ega ma’lumotlarni, usullarni izlash zarurdir. Ular mavjud amaliy muammolarni hal qilish hamda ta’lim sifatini va uni ishtirokchilarini aktivlashtirishda, mavjud dasturlarni boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tomonidan

esa zamonaviy o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish darajasini aniqlashni o‘rganish uchun ma'lum bilim va usullarning yetishmasligi tufayli aniq ilmiy muammolarni hal qilish zaruratini aniqlaydi[6].

Zamonaviy o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini quydagi muhim jihatlar orqali o‘rganiladi; ya’ni, ushbu hodisaning tavsifi; zamonaviy o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlanish darajasiga ta'sir etuvchi omillarni o‘rganish; zamonaviy o‘qituvchilarda kasbiy madaniyatni rivojlantirish dinamikasini o‘rganish; ayrim ma’lumotlarni umumlashtirish, tasniflash, tipologiyasiga ahamiyat berish.

Umumlashtirilgan faktik material mezonlar va ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lish darajasiga qarab, kasbiy pedagogik madaniyatni rivojlantirishning to‘rtta darajasini tavsiflash imkonini berdi: kasbiy pedagogik madaniyatning moslashuv darajasi, reproduktiv daraja, evristik daraja, ijodiy darajalardan iboratdir.

-Xulosa(Заключение/Conclusion).

Zamonaviy pedagog kadrlar kelajakdagi intellektuallik, farovonlikni ta'minlashga qodir bo‘lgan yosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga chaqirilgan ijtimoiy shaxsdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy pedagogik madaniyatni rivojlantirishda rejalashtirish madaniyati va bo‘sh vaqtga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lish; fan, amaliyot va ijtimoiy hayotdagi yangiliklarni doimiy monitoring qilish; axborot, o‘quv va ilmiy materiallarni to‘plash, saqlash va tizimlashtirish bo‘yicha uzluksiz ish olib borish; nashrlarni tayyorlash; aqliy mehnat gigiyenasi kabi kasbning muhim tomonlarini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi uzluksiz o‘rganish, o‘z ustida hamisha ishlash orqali sayqallanadi va bu esa mashaqqatni talab qiladi. Qattiq, tinimsiz, mashaqqatli mehnat va bo‘sh vaqtingizda o‘z-o‘zini takomillashtirish orqaligina yoshlarning chinakam ustozi, haqiqiy ustoz bo‘la olashingizni kafolatlaydigan holatdir. Aristotelning, afsonsiga ko‘ra, Makedoniyalik Iskandarga aytilgan so‘zlari bu yerda juda mos keladi: "Ilm-fanda qirollik yo‘li yo‘q". Sizga mashaqqatli shaxsiy mehnat kerak, buni hech kim o‘qituvchi uchun bajara olmaydi. Har bir individual darsning muvaffaqiyati 80% bo‘sh vaqtdagi shaxsiy mehnat madaniyatiga va atigi 20% dars arafasida darhol tayyorgarlikka bog‘liq. O‘qituvchi qayta-qayta sinovdan o‘tgan va amaliyotda tasdiqlangan qadimiy haqiqatlarni doimo yodda tutishi kerak: iqtidorli o‘quvchi iqtidorli o‘qituvchidan boshlanadi, sizda yo‘q narsani o‘rgata olmaysiz, o‘z kamchiliklaringizdan kelib chiqib yaxshi insonni tarbiyalab bo‘lmasligini tushuntirib o‘tgan. Kasbiy pedagogik madaniyatning epistemologik, gumanistik, kommunikativ, axborot, normativ, ta'lim, tarbiyalash kabi funksiyalarini o‘z ichiga oladi. Bu funksiyalarning barchasidan foydalanib, o‘qituvchi uslubiy, innovatsion, tadqiqot, didaktik va boshqa pedagogik muammolarni hal qila oladi. Bundan kelib chiqadiki, funksiyalar madaniyatning protsessual tomonini ochib beradi. Pedagogik madaniyatning o‘qitish funksiyasi o‘qituvchining o‘quvchi tomonidan ma`lum bilim, qobiliyat, malaka, ijtimoiy tajriba tizimini o‘zlashtirishga, uning aql-zakovati va qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatida amalga oshiriladi. O‘qitish funksiyasining umumiy sxemasi quyidagi muammolar majmuasi metodini qo‘llash bilan tavsiflanadi: "Bilish muammosi", "Qodir bo‘lish muammosi", "Muvaffaqiyatga erishish muammosi", "Baholash" muammosi kabilardir. Ushbu muammolar ro‘yxati aniqroq savollarga javob izlashni o‘z ichiga oladi: "Nima o‘rgatish kerak?", "Qanday o‘rgatish kerak?", "Kimga va qanday o‘rgatish kerak?". Ushbu savollarga javob topishga tayyorlik yanada aniqlik asosida faoliyat olib borish, uzluksiz ta’lim o‘qituvchilarining texnologik va uslubiy madaniyatining asosini tashkil qiladi. Pedagogik madaniyatning aniqlangan va asoslantirilgan tarkibiy va funksional tarkibiy qismlari va turlari o‘zaro yaqin aloqada bo‘lib, zamonaviy o‘qituvchining kasbiy madaniyatining yaxlit dinamik tizimini tashkil qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olmiz-ki, zamonaviy pedagogik madaniyatli o‘qituvchi quydagi sifatlarga ega bo‘lishi zarur: aqlli, bilimdon, ilmiy va zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorligi, ijtimoiy munosabatlarga ochiq bo‘lishi, har bir o‘quvchiga induvidual yondashishi va ularda o‘ziga hos qobiliytni aniqlashi va uni rivojlantira olishi, o‘qitish metodikasi jihatidan zamonaviyligi, ta’lim oluvchilarni material ustida mustaqil ishlashga va yangi bilimlarni izlashni o‘rgatishi natijasida o‘quvchilarning ochilmagan qirralari ochiladi va eng asosiysi ularda ilm manbai boyib ko‘nikma va malaka shakllanadi.

Qolaversa, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishda ularni sog‘lom raqobatbardoshligini oshirish muhim bo‘lib, bunda ularni turli pedagogik musobaqalarga biriktirish, pedagogik video-roliklar tayyorlash, pedagogik-psixologik treninglar, meditatsiyalar o‘tkazish, salohiyatli, malakali pedagoglar bilan uchrashuvlar tashkil etish va ular orasidan eng iqtidorli talabalarni aniqlab munosib rag‘batlantirish kabi tadbirlarni yo‘lga qo‘yish orqali ijobiy yuqori natijalarga erishishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ю.В.Сорокопуд, С.А.Сиротина. «Профессиональная культура педагога как фактор повышения качества образования» // Мир науки, образования. - М., 2020. - №1, (80), 187-ст .

2. М.Ю.Айбазова, Ф.М.Айбазова. «Основы педагогической и научно-исследовательской деятельности: учебное пособие»/.–Черкесск: БИЦ СКГА. – 2021. – 108с. 33 – ст

3. Rasulov X.R. Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy madaniyati: ... Kurs ishi. – ГКОУ РД Кикуникутанская ООШ Гергебилского раёна, 2020. 3 – b.

4. Сластенин В.А. и др. Педагогика «Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. Заведений» / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина. - М.: Издательский центр "Академия", 2002. -576

5. В.Д. Симоненко, М.В. Ретивых. Общая и профессиональная педагогика: «Профессиональное обучение»: Учебное пособие для студентов, обучающихся по специальности В 2-х книгах / Под ред. Брянск: Изд-во Брянского государственного университета, 2003. Кн.1.

6. Rasulov X.R. Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy madaniyati: ... Kurs ishi. – ГКОУ РД Кикуникутанская ООШ Гергебилского раёна, 2020. 28 – b

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yusupova Kamola Nuriddinovna
University of Business and Science "Ijtimoiy-gumanitar va tillar" kafedrasi dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Q.Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning samaradorligi va ularni baholashning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarasi haqida fikr yuritilgan va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga yangicha yondashish borasida takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Zamonaviy metod, metod, ta'lim oluvchilar, faoliyat, interfaol metod, dars.*

Юсупова Камола Нуриддиновна
и.о., доцент кафедры социально-гуманитарных наук и языков Университета бизнеса и науки
доктор философии педагогических наук (PhD)
исследователь Национального института
педагогики воспитания им. Кари Ниязи

ПРИНЦИПИАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация: *В данной статье рассказывается об эффективности педагогических технологий и значении их оценки в современном образовательном процессе. Также в статье рассматривается эффективность использования инновационных педагогических технологий в образовательном процессе и предлагаются предложения по новому подходу к образовательному процессу в высшей школе.*

Ключевые слова: *современный метод, метод, обучаемые, деятельность, интерактивный метод, урок.*

Yusupova Kamola Nuriddinovna
Associate Professor of the Department of Social Sciences and Humanities and Languages at the University of Business and Science Doctor of Philosophy of Pedagogical Sciences (PhD)
researcher at the National Institute of Educational Pedagogy. Kari Niyazi

THE PRINCIPLE OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. *This article describes the effectiveness of pedagogical technologies and the importance of their assessment in the modern educational process. The article also discusses the effectiveness of the use of innovative pedagogical technologies in the educational process and offers suggestions for a new approach to the educational process in higher education.*

Keywords: *modern method, method, learners, activity, interactive method, lesson.*

Kirish.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda sohalar chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Ta'lim tizimini chuqur modernizatsiya qilish jarayonida davlat bosh islohotchi sifatida bir qator konseptual asoslarni ishlab chiqib joriy etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari «Yoshlarga oid Davlat dasturi», yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi «Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu - «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi

bo‘ldi. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi. [1],[2],[3]

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta’lim tizimini isloh qilish, sifatli ta’lim tuzilmasini yaratish, uzluksiz ta’limni yangi samarali jarayonga aylantirish masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Yuqorida qayd etib o‘tilgan hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo‘lgan e’tibor kuchayib bormoqda. Shu tufayli ta’lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondoshuvlarni tadbiq etish talab etilmoqda. Bu yondoshuvlar o‘z navbatida, o‘quv jarayonining turli tashkiliy qismlarida ijobiy o‘zgarishlarni sodir etadi. Xo‘sh bu qanday o‘zgarishlar? Bu o‘zgarishlar pedagogik texnologiyalar bilan bog‘liq o‘zgarishlardir.

Mavzuning o‘rganilganligi.

Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘qituvchilar va o‘quvchilarga kerakli natijaga erishishda yordam beradigan turli xil o‘qitish usullari, yondashuvlari va vositalarini ifodalaydi. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash ularning samaradorligini va kelajakda ulardan foydalanishni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta’sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi. Binobarin, har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo‘lishi talab etiladi.[6]

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning rivojlanish sabablaridan biri shuki, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi, talabalarni faqat tayyor, bir qolipdagi bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

O‘qituvchi bunday jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchlik vazifasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalar asosiy figuraga aylanadi. Bu esa muammoli, interfaol ta’lim texnologiyalari bilan dars jarayonini yanada qiziqarli bo‘lishiga katta yordam beradi.

Tadqiqot uslublari.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar - bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedogogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega, va ular quyidagilar:

a) o‘quvchi-talabaning mashg‘ulotlar davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

b) o‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy bo‘lishini ta’minlashi;

d) o‘quvchi-talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

e) pedogog va o‘quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O‘qituvchi tomonidan o‘zi o‘qiyotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzilgan yuqoridagi xususiyatlarga ega texnologik karta unga fani, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondashishga, tushunishiga, yaxlit o‘quv jarayonining boshlanishi, erishiladigan natijasini ko‘ra olishiga yordam beradi. [6]

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi.

O‘quv jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va axloqiy rivojlanishining zaruriy shartidir.

Zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq holda, o‘qituvchilar tomonidan ulardan foydalanish samaradorligini baholash zarurati tug‘iladi. Interfaol ta’lim texnologiyalari va zamonaviy pedagogik xususan muammoli ta’lim texnologiyalari mvjud muammolarni aniqlash va ularga yechim topish uchun asos yaratadi, baholashning muhimligi yuz berayotgan o‘zgarishlarni monitoring qilish, ta`lim tizimining hamda ta’lim ishtirokchilarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun hamda ushbu tizimning samarali (samarasiz) amal qilishini, sabablari bilan birga, tavsiflash uchun xizmat qiladigan vositadir.[5]

O‘qitish jarayonida o‘quvchi, talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma’suliyatni sezish, ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish, tahlil qilish ilmiy adabiyotlardan unimli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedagogga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarni kuchaytiradi. Pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta’lim manzarasini o‘zgartirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lib, shaxsiy o‘rganish, hamkorlik va innovatsiyalar uchun yangi yo‘llarni taklif etadi.

Ushbu texnologiyalarning samaradorligini doimiy ravishda takomillashtirish va baholash orqali o‘qituvchilar talabalar uchun qiziqarli, inklyuziv va ta’sirchan o‘quv

tajribalarini yaratish uchun o‘zlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Ta’limdagi integratsiya, baholash va takomillashtirish orqali pedagogik texnologiyalar raqamli asrda ta’limni rivojlantirish va umrbod o‘rganish uchun kuchli katalizator bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari shaxsga yo‘naltirilganligi bilan ham axamiyatlidir. Dars jarayonida o‘qituvchi xar bir o‘quvchisi bilan yakka ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi bu esa o‘quvchilar bilimini, o‘zlashtirish samarasini monitoring qilib borish imkoniyatini yaratadi. Uning yana bir xususiyati shundaki, ilmiy asoslangan, yaxshi loyihalangan pedagogik texnologiya pedagog mahoratidan qat’iy nazar ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydi, o‘quvchi ta’lim-tarbiyaning yakunida egallagan bilimlarni faol amalga oshiruvchisiga aylanadi.[5]

Xulosa.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya ilmiy konsepsiyaga asoslangan, maqsadni belgilash va unga erishishda ijtimoiy, didaktik, ruhiy-pedagogik, falsafiy nazariyaga suyangan, vazifa, faoliyat, natija yaxlitligi. Muvaffaqiyatni ta’minlaydigan, ta’lim-tarbiyaning loyihalangan jarayoni tamoyillari, prinsiplari, metodlari, vositalarining o‘zaro hamkorligidagi birligidir. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish, birinchi navbatda, ta’limning paradigmasini o‘zgartiradi. Agar ta’lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, hozirgi kunda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o‘qishga va o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shu sababdan ta’limning o‘qituvchi-darslik-o‘quvchi paradigmasi o‘quvchi-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashmoqda.

O‘qituvchi endilikda yangi statusga ega bo‘ladi, endi uning vazifasi o‘quvchilarda mustaqil bilim olish imkoniyatlarini yaratish va ijodiy faoliyatlarini tashkil etish, bilimlarni mustaqil egallash va ularni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatishdan iborat. O‘qituvchi bunday maqsadlarda o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, u o‘quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallash, o‘zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va avvalgi egallangan bilimlardan yangilarini olishda foydalanish imkoniyatini yaratishi kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish – bu o‘quvchining yosh va shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o‘qitishdir. Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishda o‘qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi.[6]

Zamonaviy jamiyatda ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bunda uchta asosiy vazifaga e‘tibor qaratiladi:

1. Ta‘lim tizimini isloh etish.

2. Mustaqil faoliyat tamoyilini ta‘lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e‘tirof etish.

3. Ta‘lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarini joriy etish.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarning bosh maqsadi zamonaviy shaxsni shakllantirish. Xar tamonlama yetuk, barkamol shaxsni shakllantirish jarayoni faqat bog‘cha, umumta‘lim maktablari, akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlari, oliy ta‘lim muassasalari bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta‘lim olishi zarur, ya‘ni ta‘lim uzluksiz bo‘lishi kerak. Demak, uzluksiz ta‘lim – davr talabidir. Demak, bu muammo zamonaviy pedagogik texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirish shubhasiz.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida" gi PF-6108 son farmoni.

2. ‘‘O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’’ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637 son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

5. Z.F.Sharopova ‘‘Ta’lim texnologiyalari’’ Toshkent-2019. 14-bet.

6. R.J.Ishmuxamedov ‘‘Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim oshirish yo‘llari’’. Toshkent-2004.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Axrorova Umida Xamidullayevna
University of Business and Science nodavlat
oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: axrorova.umida@mail.ru

PEDAGOGIK JARAYONLARDA TIZIMLI TAHLIL YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik jarayonlarda tizimli yondashuv, pedagogik tizimning xossalari, pedagogik jarayon, pedagogikada tizim strukturasi, pedagogik faoliyat xususida so'z yuritilgan. Qolaversa, maqolada pedagogik tizimli tahlil muammolariga doir ayrim mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Konstruktiv komponent, tashkiliy komponent, kommunikativ komponent, pedagogik funksiya, ta'lim jarayoni, tarbiyalash funksiyasi.*

Ахророва Умида Хамидуллаевна
University of Business and Science негосударственный
преподаватель высшего учебного заведения
Доктор философии (PhD)по педагогическим наукам

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОДХОДОВ СИСТЕМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ

Абстрактный. *В данной статье говорится о системном подходе к педагогическим процессам, особенностях педагогической системы, педагогическом процессе, структуре системы в педагогике и педагогической деятельности. Кроме того, в статье представлены некоторые комментарии по проблемам педагогического системного анализа.*

Ключевые слова: *Конструктивный компонент, организационный компонент, коммуникативный компонент, педагогическая функция, образовательный процесс, воспитательная функция.*

Akhrorova Umida Khamidullayevna
University of Business and Science non-governmental
teacher of a higher education institution
Doctor of Philosophy (PhD)in Pedagogical Sciences

THEORETICAL BASIS OF THE USE OF SYSTEMATIC ANALYSIS APPROACHES IN PEDAGOGICAL PROCESSES

Abstract. *This article discusses the systematic approach to pedagogical processes, the properties of the pedagogical system, the pedagogical process, the structure of the system in pedagogy, and pedagogical activity. In addition, the article presents some considerations on the problems of pedagogical systematic analysis.*

Keywords: *Constructive component, organizational component, communicative component, pedagogical function, educational process, educational function.*

Kirish.

Pedagogik jarayonlarda tizimli tahlilning pedagogik yondashuvlardan fotdalanish talabalarning fikriy faoliyatning, ayniqsa fandagi yangiliklarni taklif qilishda, fan-texnika va ishlab chiqarish sohasidagi yutuqlarni ta'minlashda samarali uslublardan biri hisoblanadi. Eng muhim ko'rsatgichlardan biri shundaki tizimli yondashuv dars jarayonlarida talabalar faoliyatini tartibga solishda, maqsad, rejalarni belgilashda, faoliyat samaradorligini oshirishda, manfaatlarni ifoda etishda, ijodiy imkoniyatlarning oqilona taqsimlashda, zamonaviy pedagogik texnalogiyalar qatorida muhum yondashuv sifatida natija berib kelmoqda. Bunda talabalar dars jarayonlarida, ilim oluvchi holatidan o'z taqdirining

egasiga, yaratuvchilik va bunyodkorlik qudratiga ega fazilatlar bilan qurollanmoqda. Shunday ekan, pedagogik faoliyatda tizimli tahlil asoslarini joriy etish bilan mazkur yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlari kyengayadi deb hisoblaymiz. Shuningdek, pedagogika fani tushunchalari bilan pedagogik tizimli tahlil uslublari boshqa-boshqa sohalar ekanligini aloxida takidlashimiz kerak.

Adabiyotlar tahlili.

Tizimli yondashuv pedagogik jarayonlar metodologiyani shakllantirishda pedagogik voqeylik va jarayonlarning xususiyatlarini aniqlash bilan tadqiqot tizimini vujudga keltiradi. Buning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri pedagogik tizimning ijtimoiy xolatidir. Pedagogik tizimning o‘ziga xos xususiyatini izlash asosiy holatni aniqlash orqali pedagogik obyektning sifatli va xususiyatlarini belgilash mumkin bo‘ladi. Bu borada M.A.Danilovning pedagogik jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch bu ziddiyatli vaziyatlardir. Ziddiyatli jarayonlar tinglovchiga qo‘yilayotgan talablar va uni bajarish imkoniyatlari o‘rtasida mavjud bo‘ladi. Ikkinchidan, ta’lim olish va amaliy vazifalar qo‘yilayotgan talablar bilim darajasining mavjudligi, tajriba va mahorat, aqliy daraja rivoji o‘rtasidagi ziddiyatlar pedagogik tadqiqot obyektini belgilaydi. Eng muhimi shuki, u jarayonni harakatga keltiruvchi kuch bo‘lib, ta’limning mazmundorligi bilan belgilanadi. Ziddiyatli vaziyatlarni yechuvchi kuch muammo muhim ekanligini anglash va zaruriyatini his qilish pedagogik yondashuvning asosini tashkil etadi.

Pedogogik tajriba shundan dalolat beradiki, pedogogik tizim yondashuvi mazkur tizimni ajratish, alohida chuqur o‘rganish, ziddiyatlarini tahlil etish va bir-biriga qiyosiy taqqoslash asosida yaxlit strukturasini tashkil etishdan iborat bo‘ladi. Tizimli yondashuvlar asosida pedagogika fanini o‘rganish bu ikkita metodlardan, ya’ni sintez va analiz metodlaridan foydalanishni talab qiladi. Sintez – bu har bir obyekt tashkil etuvi komponentlarni qismlarga ajratib alohida o‘rganish bo‘lsa, analiz metodi komponentlarni qiyoslash va bir-biriga yaqin bo‘lgan elementlarni yagona tizimga birlashtirish demakdir.

Umuman olgan barcha zamonaviy fanlar tizimli tamoyillar asosida tashkil etilgan tizimli yondashuvning muhim jihatlari bilishning yangi, samarali, yagona nazariy metodologik tamoyillarni ishlab chiqishga qaratiladi. Bunda asosiy bosh masala ta’lim pedagogning o‘quvchi bilan yaxlit va bir butunlikdagi o‘zaro aloqadorligi jarayonlari masalasiga ahamiyat qaratiladi. Bu aloqadorlikda pedagog ta’lim oluvchini rag‘batlantiruvchi, yo‘naltiruvchi bo‘g‘in sifatida faollikka undaydi. Ammo bu pedagogik jarayonlarning dastlabki, sub’yekt va obyekt munosabatlari bosqichlarini tashkil etadi. Tizim yaxlitligi ta’lim va tarbiyaning bir butunligida, biri albatta ikkinchisisiz mavjud bo‘lmasligida. Tizimli tahlilning yondashuvlari pedagogik tizimni pedagogning mehnati va faoliyati orqali tahlil etish imkoniyatini beradi. Jumladan, tabiyaviy tushuncha “shaxs”, “munosabat”, “struktura”, “aloqadorlik” tushunalari bilan bog‘liqdir. Bu bog‘liqlik ta’lim-tarbiya pedagogik tizimninng muhim va murakkab tarkibiy elementlardan tashkil topganligini ifoda etadi. Pedagogika – shaxsni jamiyat hayotiga tayyorlash, ularni ijodiy va faol shaxs sifatida tarbiyalash maqsadiga yo‘naltirilgan, o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi tizim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shu ma’noda falsafa pedagogik g‘oyalarning ishlab chiqilishida maqsad obyektini belgilovchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Aynan ushbu fan pedagogik xodisalarning bilish metodini ko‘rsatadi, yo‘naltiradi va umumiy yondashuvlarni belgilaydi. Pedagogik tizim yondashuvlari bir tomondan pedagog olimlar va ikkinchi tarafdan faylasuflar aniq fanlarda emas, jamiyat, tabiat, tafakkur qilish bilan bog‘liq qarashlari rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib pedagogik faoliyatda tizimli tahlil uch yo‘nalishdagi yondashuvlar vujudga keladi.

-tizimli yondashuv metodologiyasini maxsus pedagogika sohasida ishlab chiqish;

-pedagogik fanda mustaqil metodologiya sifatida foydalanish;

-tizimli yondashuvni aniq pedagogik tadqiqotlarda qo‘llash [1].

Pedagogik tizimli tahlil ta’lim tizimida amaliy-yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Zero, bunday yondashuv tizim obyektini bilish amaliyotini har tomonlama qamrab oladi. Pedagogik tizimda sodir bo‘ladigan pedagogik jarayon elementlarning funksiyalariga muvoffiq qanday holatda o‘zgarish sodir bo‘lishi aniqlanganda ularga baho berish imkoniyati vujudga keladi. Bu tizim odamlar tomonidan tashkil etiladi va ulardan alohida mavjud bo‘lmaydi. Shunday ekan, pedagogik obyektlarning yaxlitligi tizimli yondashuvlarning tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogikada tizimli yondashuv tushunchasi quyidagi maqsad-vazifalarni qamrab oladi:

- pedagogik tizimda pedagogik jarayonlarning dinamikli mohiyatini aniqlash va asosiy xususiyatlarini berish;

- pedagogik jarayonning asosi - yaxlitlik tamoyilini belgilash;

- pedagogik jarayonning yaxlit strukturasini ochish.

Pedagogik jarayonlar pedagogik ob’yektlarning real pedagogik voqeligida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan ular jamiyatda ta’lim muassalari bor ekan, o‘quv jarayonlarining maqsadi ma’lum qonuniyatlar asosida rivojlanishini ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, pedagogik jarayonning yaxlitligini ta’minlovchi rivojlantirish funksiyasi ta’lim-tarbiyani uyg‘unligini ifoda etadi.

Pedagogik yondashuv strukturaviy va funksional model qurilishini talab qiladi. Pedagogik yondashuvning aniq ifodasi “pedagogik tizim”, “pedagogik jarayon”,

“peadgogik faoliyat”, “metodlar, shakllar, vositalar tizimi”, “pedagogik model tizimi”, “didaktek tizim”, “tarbiya tizimi”, “ta’limni boshqarish tizimi” kabi kategoriyalarda namoyon bo‘ladi. Pedagogik yondashuv mohiyati: ta’limning maqsadi, pedagogik jarayonlar sub’yekti, pedagok va o‘quvchi, ta’limning mazmuni, metodi, shakli, vositasi, pedagogik jarayonlar kiradi. O‘qituvchining vazifasi komponetlarni hisobga olishdan iborat. Mazkur ta’limotning asoschilaridan biri sifatida E.G. Yudinning «tizim tamoyillari va tashkilot vositalari, nazariy qurilishi, amaliy faoliyati» belgilab bergan metodologik tavsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yondashuvlar kategoriyalaridan biri bu pedagogik jarayonlardir. Pedagogik jarayon ta’lim-tarbiya mazmunini hisobga olgan holda tashkil etilgan o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ifoda etadi. Pedagogik jarayon shaxsni kamol toptirishda jamiyat ehtiyojlarini qondirishda turli pedagogik vositalardan foydalangan holda pedagogik vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat turi.

Tahlil va natijalar.

Shunday qilib, pedagogik yondashuv tizim elementlarini alohida o‘rganish va ajratish imkoniyatini beradi. Yagona yaxlit strukturaga birlashtirish asnosida ularni bir-biri bilan taqqoslaydi va tahlil etadi.

Ta’limda tizimli yondashuv o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U o‘quvchilarga o‘quv materiali mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko‘rsatadi. Ko‘rib turganimizdek, pedagogik tizim ta’limning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati, ya’ni, o‘qituvchining o‘rgatish hamda o‘quvchining o‘rganishga yo‘naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to‘g‘ridan to‘g‘ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi.

Pedagok yondashuv zamonaviy fanda shunday yangi bir metodologik yo‘nalishni ochib berdiki, fan olamidagi turg‘unlik va inqiroziy vaziyat yechimilarini hal etishga xizmat qildi. Zero, yaxlitlik va qism mutanosibligi, elementlarning iyerarxik munosabati falsafada qadim davrlardan o‘rganilib kelinatgan bo‘lsada, yangi davrning murakkablashgan turli-tuman tizimlar olami yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Zamonaviy bosqichda mazkur yondashuvning mohiyati ixtisoslashtirilgan vazifalarni aniqlash orqali ochiladi. Ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi va ko‘ptamonlamalik xususiyati tadqiq etiladigan obyektning yaxlit ifodasi, uning ixtisoslashgan xarakterini ochishga qaratilgan ilmiy vositalarni izlashga yo‘naltiriladi. Shunga ko‘ra, tizimni har tomonlama rivojlantirish maqsadida birinchi navbatda uning ichki qurilishini aniqlash lozim, ya’ni tizim qanday komponentlardan tashkil topgan, uning strukturasi va funksiyasi nimalardan iborat, shuningdek, yaxlitligini va nisbatan mustaqilligini ta’minlovchi omillarni aniqlashdan iborat.

Ikkinchi tarafdan real mavjudligining dinamik holatini kuzatish lozim. Tizim dinamikasi o‘z navbatida ikki xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, tizim harakati uning funksional faoliyatini bildirsa: ikkinchidan, tizim harakati rivojlanish, shakllanish, evolyusiyasi, yemirilishi, qayta tashkil etilishida namoyon bo‘ladi. Shunga muvoffiq tizimning murakkab dinamikasi predmetli, funksional va tarixiylik yondashuvlarni talab qiladi.

Pedagogik tizimli yondashuv “bilim, mahorat, tushuncha”formulasini uyg‘unlashtira oladigan ta’lim tizimini talab qiladi. Bu formula nafaqat bilishga, bilganini anglashga, anglaganini amalga oshirishga qaratiladi. Hozirgi xolatda esa faqat fan predmeti atrofida takrorlash bilan cheklanmoqdamiz. Shu sababdan fanning mohiyatini o‘rganamiz, maqsad - vazifasini esa anglab yetmaymiz. Natijada fan yutuqlarini amalda qo‘llash mahoratini egallay olmaymiz. Shu sababdan fan rivojlanmaydi va bilimlarimiz ham yuzaki bo‘lib qolmoqda. O‘quv darsliklarida aniq metodik uslublar turli qarashlar, yondashuv talqinlaridan ko‘ra fan tarixi haqidagi bayonchilik uslublari ustuvorlik qiladi. Oqibatda talabada ijodiy tafakkur qilish salohiyati rivojlanmaydi va maqsad mavhum bo‘lib qoladi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi ta’lim tizimning asosiy kamchiligi bu avvalo nazariy fanlarning amaliyot bilan bog‘lanmaganligi. Talabalarda bu yoki bu fan nimaga o‘qitiladi va uni qanday qo‘llash mumkin degan savol har doim ham javobini topmaydi. Undan tashqari fanlar va soatlarning ortib ketishi sifatli o‘zlashtirishda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Natijada maxsus – ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari ochiladi. Fizikani chuqurroq o‘rganish hisobiga boshqa fanlarni yuzaki o‘zlashtirish shakllandi. Ammo, talabalarni “fiziklar” va “liriklarga” ajratish ta’limning yaxlitligiga putur yetkazdi. Bu jarayon bugun integrasion metodlar asosida fanlar uyg‘unligini ta’minlashga erishishga qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Сурмин Ю. П., Туленков Н. В. Методология и методы социоло-гических исследований: Учеб. пособ. — К.: МАУП, 2000
2. Pedagogika: Ucheb. posobiye dlya stud. ped. vuzov / Pod red. Yu. K. Babayevskogo. M., 2001.
3. Pedagogika: Uchebnoye posobiye dlya studentov pedagogicheskix vuzov i kolledjey / Pod red. P. I. Pidkasistogo. - M., 2005.

4. Pedagogika: Uchebnoye posobiye dlya studentov pedagogicheskix uchebnых zavedeniy / V.A. Slastenin, I.F. Isayev, A.I. Mіщyenko, Ye.N. Shiyanov. M., 2000.

5. Vulfov, B.Z. Osnovы pedagogiki v leksiyax, situatsiyax, pervoistochnikax / B.Z. Vulfov, V.D. Ivanov.- M., 1997.- Tema 7.

6. Kapterev P. F. Pedagogicheskiy prosess // Izbr. ped. soch. / Pod red. A.M.Arsenyeva. - M., 1989.

7. Bordovskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika: Ucheb. dlya vuzov. - S-Pb.: Piter, 2000.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Akbarov Odiljon Ergashevich
Namangan davlat universiteti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e.mail: shahinabonu16@gmail.com

PEDAGOGLARNING KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kreativlik, pedagoglarni ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlari, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl hamda vositalari, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish, xususan, mustaqil ta’limning noan’anaviy metodlari haqidagi fikrlar yoritilgan.*

Tayanch so‘zlar: *kreativ, ta’lim, tarbiya, usul, texnologiya, rivojlanish, bilim, zamonaviy, vosita, sifat.*

Акбаров Одилжон Эргашевич
Наманганский государственный университет
доктор философских наук (PhD) по педагогическим наукам, доцент

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВО ПЕДАГОГИ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются творчество, новые подходы педагогов к образовательному процессу, современные методы, формы и инструменты обучения для повышения качества и эффективности образования, игровые технологии, проблемное обучение, в частности, нетрадиционное самостоятельное обучение. выделены идеи о методах.*

Ключевые слова: *креатив, образование, обучение, метод, технология, развитие, знания, современный, инструмент, качество.*

Akbarov Odiljon Ergashevich
Namangan State University
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

STAGES OF DEVELOPMENT OF CREATIVE QUALITIES OF TEACHERS

Annotation: *This article discusses creativity, new approaches of teachers to the educational process, modern methods, forms and tools of teaching to improve the quality and effectiveness of education, gaming technologies, problem-based learning, in particular, non-traditional independent learning. ideas about methods are highlighted.*

Keywords: *creativity, education, training, method, technology, development, knowledge, modern, tool, quality.*

Asosiy qism.

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida ta’lim xizmatlari sifatini oshirish hamda jamiyatni rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Xususan, prezidentimiz mamlakat salohiyati bilim va tafakkurda ekanligiga urg‘u berib, *“Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘li”* ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl hamda vositalari, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish, xususan, mustaqil ta’limning noan’anaviy metodlari ham muhim o‘rin egallaydi.

Kreativlik “turli vaziyatlarda ta’lim va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo‘lib, u pedagogning ijodiy faolligini tavsiflaydi”. Mohiyatiga ko‘ra OTM pedagoglarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish ular tomonidan pedagogik, psixologik hamda mutaxassislik fanlari asoslaridan to‘la xabardor bo‘lish, ular tomonian o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda faol qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hisobiga kechadi. Har qanday shaxsda bo‘lgani kabi pedagoglarda ham ijodiy-kasbiy xarakterdagi sifatlardan biri sifatida kreativlik muayyan bosqichlarda rivojlanadi. Ta’lim amaliyotini kuzatish, talabalar va malaka oshirish kursi tinglovchilarining faoliyatini o‘rganish, tashxislovchi metodlarni qo‘llash natijasida mu'lum bo‘ldiki,

pedagoglarda kreativlik quyidagi to‘rt bosqichda shakllanadi va rivojlanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Bosqichlar	Mazmuni
1-bosqich	Pedagogik, psixologiya, falsafa, estetika kabi fanlar (turkum fanlar)ning nazariy-metodologik asoslarini o‘zlashtirish
2- bosqich	O‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzluksiz pedagogik amaliyot davrida, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar va ustaqil ta’lim jarayonida amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish
3- bosqich	Mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish
4- bosqich	Mavjud nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga tayangan holda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlanish

Talabalarga kreativlik sifatlarining o‘zlashtirilishiga erishish yo‘lida pedagogik faoliyatni tashkil etishda yuqorida qayd etib o‘tilgan barcha bosqichlar birdek ahamiyatli sanaladi.

Pedagoglarning kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan vosita va texnologiyalar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon sanaladi. Ta’lim jarayonini kuzatish, bevosita pedagogik jarayonni tashkil etish jarayonida quyidagi metodlar talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilan birga pedagoglarda kasbiy faoliyatni tashkil etishda namoyon bo‘luvchi ijodiy malakalarni mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Quyida mazkur metodlarni qo‘llash imkoniyati “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanining negizidan joy olgan “Pedagogika tarixi” bo‘limi bo‘yicha misollarni keltirish orqali ochib berilgan (keltirilgan misollar o‘z mohiyatiga ko‘ra shaxs kreativligini rivojlantirishga yordam beradi:

Guruhlashtirish. Metodni qo‘llashda talabalar o‘quv materialini mazmunan yoki unda faol qo‘llanilayotgan tayanch tushunchalar asosida guruhlarga ajratib oladilar. Bu usul o‘quv materialining kichik bo‘lagida ilgari surilgan g‘oyalarni puxta o‘zlashtirib olish asosida navbatdagi bo‘lak matni bilan ishlashga asoslanadi. Guruhlashtirishda dastlabki bo‘lak o‘quv materiali mohiyatini chuqur anglamay turib, keyingi bo‘lak matni bilan ishlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Zaruriyat bo‘lsa, har bir bo‘lak materiali talabalar tomonidan qayta- qayta o‘rganiladi. Guruhlashtirish reja tuzish usuli uchun dastlabki asos bo‘la oladi.

Ta’lim jarayonida talabalarda guruhlashtirish metodini qo‘llash ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha guruhlar shakllantiriladi.

Misol uchun: Mahmud Qoshg‘ariyning pedagogik qarashlarini o‘rganishda yaxlit o‘quv materialini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

a) Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asari va uning ommalashish tarixi;

b) asarda bilim olishning ijtimoiy ahamiyati va bilimli kishilarning shaxsi haqidagi qarashlarning yoritilishi;

v) insoniylik fazilatlari to‘g‘risidagi fikrlar asar mohiyatini ochib beruvchi jihatlardan biri ekanligi;

g) mehmon va uning ijtimoiy mavqeini asarda aks ettirilishi;

d) asarda mol-mulk va unga munosabat masalalarining bayon etilishi;

j) xalq maqollarining asar mohiyatini ochib berishdagi o‘rni

Reja tuzish. Talabalarni o‘zlashtirilayotgan mavzu bo‘yicha reja tuzishga undash va dastlabki ko‘nikmalarni hosil qilish ular tomonidan o‘quv materiali mohiyatini chuqur anglanishiga zamin yaratadi. Binobarin, bu holatda tinglanayotgan (o‘qituvchi hikoyasi) yoki o‘qilayotgan (darslik, qo‘llanma, yordamchi adabiyotlar, Internet materiallar va boshqalar) o‘quv materialini mantiqiy ravishda guruhlarga ajratish va har bir guruhga kiritilgan materialning tub mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi iboralarni ajratish talabadan barqaror diqqat, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Tayanch tushunchalarni aniqlash. Ushbu metodni qo‘llashda talabalar ularning e'tiborlariga havola etilayotgan o‘quv materialida ilgari surilayotgan fikrlar mohiyatini anglatuvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko‘rsata olishlari lozim.

Talabalarning tayanch tushunchalarni aniqlay olishlari ularni o‘quv materiali mohiyatini yetarli darajada anglay yoki o‘zlashtira olganliklaridan dalolat beradi. Ta’lim jarayonida talabalarda tayanch tushunchalarni aniqlash ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha tayanch tushunchalar ajratildi.

Mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish. O‘qituvchi talabalar e'tiborini o‘rganilayotgan o‘quv materialini mazmuniga ko‘ra mustaqil kichik mavzularga ajratishga qaratadi. Bu usulni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad – talabalarda berilayotgan o‘quv axborotlar orasidan eng muhim fikrlar yoki qarashlarni ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ta’lim jarayonida talabalarda mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha mavzu ichida kichik mavzular hosil qilindi.Binobarin, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarga eng muhim axborotlarni uzata

olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur. Bu holat o‘quvchilarni jismonan toliqishdan saqlaydi.

Turkumlashtirish. Pedagogik bilimlarni muayyan yo‘nalishlar, jihatlar yoki muhim belgilariga muvofiq turkumlashtirish ularning talabalar tomonidan ma'lum tizim asosida o‘zlashtirilishiga imkon beradi.

Ta’lim jarayonida talabalarda pedagogik bilimlarni turkumlashtirish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha pedagogik bilimlar turkumlashtirildi.

Sxemalashtirish. Talabalar o‘rganilgan o‘quv materiali bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvirlar asosida namoyish etadilar.

Ta’lim jarayonida talabalarda sxemalashtirish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha sxemalar yaratildi. Shuningdek, rasm, shakl va tasvirlarning yaratirilishiga ham erishiladi.

Qayta bayon etish. O‘rganilgan mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch so‘zlar yordamida o‘quv materiali mazmunini o‘z fikrlari bilan qayta bayon etish. Misol uchun Yan Amos Komenskiyning pedagogik qarashlarini o‘rganish jarayonida quyidagi tayanch tushunchalar talabalar tomonidan o‘rganilgan mavzu mazmunini qayta bayon etilishiga imkon beradi.

Mavjud tushunchalarni boyitish. Mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan tushunchalarni mazmunan ularga yaqin bo‘lgan pedagogik yoki psixologik terminlar bilan boyitish materialining mohiyatini quyidagi tushunchalar yordamida yetarli darajada anglash mumkin.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash ikki tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, ular o‘zlaridagi mavjud kreativlik sifatlari, ularning darajasi borasida aniq tasavvurga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, ular tomonidan tashkil etilayotgan ta’lim jarayoning sifati hamda samaradorligi xususida bir to‘xtamga kelish mumkin. Shuningdek, kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash orqali pedagoglarning bu boradagi faoliyatlari yo‘nalishlarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish muayyan bosqichlarda kechadi. Mazkur bosqichlarning har birida kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarining maqsadli, izchil qo‘llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish o‘qitish sifatining yaxshilanishi, samaradorligining oshishi uchun qo‘lay sharoitni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”.- T.: O‘zbekiston, 2017. (1-jild).
2. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.:O‘zbekiston, 2017.–48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. –T.: O‘zbekiston, 2017.– 102b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

M.U.Davronova
Namangan davlat texnika universiteti katta o‘qituvchi
e-mail: muhayyodavronova71@gmail.com

TALABALARDA “INNOWEB-KVEST” TA’LIM PLATFORMASI ORQALI LOYIHALASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TROEKTORIYASI

Annotatsiya: *Ushbu maqola talabalarning mustaqil tarbiyaviy ishi-bu o‘qituvchining bevosita yordamisiz amalga oshiriladigan bilim manbalarini amalga oshirish vositalarini va kognitiv faoliyat natijalarini izlashni o‘z ichiga olgan InnoWeb-kvest ta’lim platformasidan foydalanish hamda texnika oliy ta’lim muassasalarida intellektual salohiyatli xamda loyihalash kompetentsiyaga ega mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv jarayonida turli darajadagi turli xil o‘quv fanlariga internetning integratsiyasini maksimal darajada oshirish uchun foydalanish to‘g‘risida*

Kalit so‘zlar: *masofaviy ta’lim, faol loyiha, mustaqil ishlar, web-kvestlar, kognitiv faoliyat, integratsiya, axborot resurslari.*

М.У.Давронова
Наманганский государственный технический университет старший преподаватель

ТРАЕКТОРИЯ РАЗВИТИЯ ПРОЕКТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ ПЛАТФОРМУ ”INNOWEB-КВЕСТ”

Аннотация: *В данной статье речь идет об использовании образовательной платформы InnoWeb-kvest, включающей в себя средства реализации источников знаний и поиска результатов познавательной деятельности, представляющих собой самостоятельную учебную работу студентов без непосредственной помощи преподавателя, а также об использовании сети Интернет для максимальной интеграции Интернета в различные учебные предметы на различных уровнях образовательного процесса при подготовке специалистов, обладающих интеллектуальным потенциалом и проектной компетенцией в технических вузах.*

Ключевые слова: *дистанционное образование, активный проект, самостоятельная работа, веб-квесты, познавательная деятельность, интеграция, информационные ресурсы.*

M.U.Davronova
Namangan State Technical University senior lecturer

TRAJECTORY OF DEVELOPMENT OF DESIGN COMPETENCIES IN STUDENTS THROUGH THE EDUCATIONAL PLATFORM “INNOWEB-QUEST”

Abstract: *This article deals with the use of the InnoWeb-quest educational platform, which includes tools for implementing knowledge sources and searching for cognitive results, which are independent educational work of students without the direct help of a teacher, as well as using the Internet to maximize the integration of the Internet into various academic subjects at various levels of the educational process in preparation for specialists with intellectual potential and project competence in technical universities.*

Keywords*: distance education, active project, independent work, web quests, cognitive activity, integration, information resources.*

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2024yil 20-iyun kuni “Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari” yuzasidan videoselektor yig‘ilishida shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda maqsadida texnika oliy ta’lim muassasalarida intellektual salohiyatli xamda loyihalash kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlashda eng muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbekistonning texnik oliy ta’lim muassasalarida va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik har yili yangi marralarga erishib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Texnika oliy ta’lim talabalari nafaqat o‘z sohasida professional bilim va malakalarga ega bo‘lishi, balki loyiha faoliyatida professional malakaga ega bo‘lishi, ya’ni kasbiy faoliyatlarida paydo bo‘ladigan muammolarni hal qilishda bilim, ko‘nikma, malaka va loyihalash usullarini qo‘llay olishi kerak. Ularga bo‘lgan munosabat ko‘p jihatdan amaliy ishlarining xarakteri bilan belgilanadi, bunda talabalar o‘zlarining kasbiy faoliyatlarida muayyan tarzda modellashtirishlari lozim. Ilmiy-texnika taraqqiyoti mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishning samarali vositalarini ishlab chiqishni talab etadi.

Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari respublikamiz olimlari Q.M.Abdullayeva, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, O.A.Quysinov va boshqalar, xorijiy mamlakatlarda A.A.Verbitskiy, N.A.Grishina, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, A.I.Kuleshova, Ya.A.Komenskiy, A.K.Markova, V.A.Skakun, A.V.Xutorskiy, R.Boyasis, K.Kameron, A.V.Keyler, V.Krisko, G.Meskon, M.Dj.Raven, S.Uiddet, S.Xolliford tomonidan tadqiq etilgan. Bugungi kunda masofaviy ta’lim optimallashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Evropa universitetlarining meyorlaridan biri talabaning asosiy ta’limni auditoriyada emas, ma’ruza va seminarlarda ham emas, balki mustaqil ish jarayonida, tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘rganish va insholar, tezislar, kurs ishlari va boshqalarni yozishda olishiga bo‘lgan munosabatdir. Masofaviy o‘qitish texnologiyalarining shakllaridan biri sifatida hamda tadqiqotimiz natijasida “InnoWeb-kvest” ta’lim platformasi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish uchun ishlab chiqildi. Talabalarning mustaqil tarbiyaviy ishi-bu o‘qituvchining bevosita yordamisiz amalga oshiriladigan bilim manbalarini, amalga oshirish vositalarini va kognitiv faoliyat natijalarini izlashni o‘z ichiga olgan faoliyat turidir. “InnoWeb-kvest” texnologiyasi - berilgan mavzu bo‘yicha Internetda ma’lumot qidirish. Ta’lim “InnoWeb-kvest” - bu talabalar ma’lum bir ta’lim vazifasini bajarayotganda ishlaydigan internet-sayt. Ta’limda “InnoWeb-kvest” texnologiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, talabalarning mustaqil yoki guruhli ishlashi uchun ma’lumotlarning bir qismi yoki barchasi turli Web-saytlarda joylashgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Pedagogikada Web-so‘rov-bu internetning axborot resurslaridan foydalaniladigan rolli o‘yin elementlari bilan muammoli vazifadir. Bu internetda ma’lumot qidirishga asoslangan mini-loyiha bo‘ladi. “InnoWeb-kvest” texnologiyasi talaba oldiga qo‘yilgan maqsadlarga qarab o‘qituvchi yoki talaba tomonidan tuzilishi mumkin. O‘quv jarayonida “InnoWeb-kvest”texnologiyasidan foydalanish uchun juda ko‘p sabablar bor, keling ulardan ba’zilarini sanab o‘tamiz. Bu maxsus texnik bilimlarni talab qilmasdan, internetni o‘quv jarayoniga qo‘shishning oson usulidir. Kvestni individual ravishda bajarish mumkin, ammo“InnoWeb-kvest” texnologiyasini hal qilishda guruh ishi afzalroqdir. Shu bilan birga, ikkita o‘quv maqsadiga erishiladi – aloqa va axborot almashinuvi demakdir. “InnoWeb-kvest” texnologiyasi tanqidiy fikrlashni, shuningdek taqqoslash, tahlil qilish, tasniflash va mavhum fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalarning motivatsiyasi oshadi, bu esa o‘quv samaradorligini oshirishga olib keladi.

“InnoWeb-kvest” texnologiyasidan foydalanish katta afzalliklarga ega.

1.Bu talabalar mustaqil ravishda harakat qilishni o‘rganadigan etarli axborot muhitini yaratish orqali bitiruvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga yordam beradi.[2]

2.Tadqiqot mavzularining dolzarbligi, keng auditoriyani o‘z izlanishlari natijalari bilan jonli, vizual tarzda tanishtirish qobiliyati ta'lim jarayonini uning barcha bosqichlarida faollikka asoslangan yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydigan tashkil etishga imkon beradi.

3.Talabalar tadqiqot texnologiyasini o‘zlashtiradilar, bu quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- tadqiqot muammosini aniqlash;
- maqsad va vazifalarni belgilash;
- tadqiqot gipotezalarini shakllantirish;
- ma'lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash usullarini aniqlash;
- qo‘shimcha ma'lumot qidirish;
- yangi faktlarni tahlil qilish;
- umumlashtirish;
- tadqiqot natijalarini ro‘yxatga olish;
- olingan natijalarni muhokama qilish va tarjima qilish.

4. Tadqiqot muammosini tanlash va guruh ichida muayyan muammoni hal qilishda talabalar o‘zlarining qiziqishlari va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqadilar:

- Konsensusga erishish-o‘tkir muammoning echimini ishlab chiqish**.**
- Baholash-ma’lum bir nuqtai nazarni asoslash.
- Jurnalistik tergov - axborotni ob’ektiv taqdim etish (fikr va faktlarni ajratish).
- Ishontirish – bu raqiblarni yoki betaraf fikrlovchi shaxslarni o‘z tomoniga ishontirishdir
- Ilmiy tadqiqotlar-noyob onlayn manbalar asosida turli hodisalar, kashfiyotlar, faktlarni o‘rganish.

Tahlil va natijalar.

Web-kvest ravishda quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Birinch bosqichda *kirish* (mavzu va loyihaning qiymatini asoslash). Ushbu bosqich asosiy ma’lumotlarni taqdim etadi, asosiy tushunchalarni kiritadi, shuningdek talabalar aks ettiradigan savolni o‘z ichiga oladi;

Ikkinchi bosqichda *vazifa* (maqsad, shartlar, muammo,topshiriqlar va uni hal qilish yo‘llari). Bu web-kvestning eng muhim qismidir. Vazifa talabalarni

muammoni hal qilish uchun bir qator aniq harakatlarga yo‘naltiradi;

Uchunchi bosqichda *jarayo*n (ishning borishini bosqichma-bosqich tavsiflash, rollarni taqsimlash, har bir ishtirokchining majburiyatlari, Internet resurslariga havolalar, yakuniy mahsulot). Ushbu bo‘limda talabalar vazifani qanday bajarishlari haqida ko‘rsatmalar mavjud (ma’lumotlarni to‘ldirish va saralash tartibi);

To‘rtinchi bosqichda *Baholash* (o‘z-o‘zini baholash shkalasi va o‘qituvchilarni baholash mezonlari). Bo‘limda bajarilgan vazifani ma’lum standartlarga muvofiq baholash mezonlari mavjud;

Beshinchi bosqichda *xulosa* (natijalarni umumlashtirish, natijalarni umumlashtirish (nimani o‘rgandingiz, qanday ko‘nikmalarga ega bo‘ldingiz; ritorik savollar yoki mavzuni keyingi tadqiq qilishga undaydigan savollar mumkin). Bu muammoni aks ettirish va keyingi tadqiqotlarni umumlashtiradi va rag‘batlantiradi;

Oltinchi bosqichda O‘qituvchi sahifalari (ixtiyoriy): ularda veb-kvestdan foydalanadigan boshqa o‘qituvchilarga yordam berish uchun ma’lumotlar mavjud. Web-Kvestda ishlash bosqichlariga quyidagilar kiradi:

***Dastlabki bosqich (jamoa*).** Talabalar tanlangan mavzuning asosiy tushunchalari, shunga o‘xshash loyihalar materiallari bilan tanishadilar. Jamoadagi rollar taqsimlanadi: 1 ta rolga 4tadan 1 kishi. Jamoaning barcha a’zolari bir-biriga yordam berishlari va bir-birlariga kompyuter dasturlari bilan ishlashni o‘rgatishlari kerak.

Rol bosqichi. Umumiy natija uchun individual jamoaviy ish. Ishtirokchilar bir vaqtning o‘zida tanlangan rollariga muvofiq vazifalarni bajaradilar. Ishning maqsadi raqobatbardosh bo‘lmaganligi sababli, veb-kvest ustida ishlash jarayonida jamoa a’zolari kompyuter dasturlari va Internet bilan ishlash ko‘nikmalariga o‘zaro o‘rgatiladi. Jamoa har bir topshiriqning natijalarini birgalikda umumlashtiradi va ishtirokchilar umumiy maqsadga erishish - veb-sayt yaratish uchun materiallar almashadilar.

Ushbu bosqichning vazifalari:

- muayyan mavzu bo‘yicha ma’lumot qidirish;
- sayt tuzilishini ishlab chiqish;
- sayt uchun materiallar yaratish;
- sayt uchun materiallarni qayta ko‘rib chiqish.


***Yakuniy bosqich*.** Jamoa o‘qituvchi rahbarligida birgalikda ishlaydi va Internetda e’lon qilingan tadqiqot natijalari uchun javobgarlikni his qiladi.

Xulosalar.

Xulosa va takliflar muammoni o‘rganish natijalari asosida shakllantiriladi. Tugallangan ishlar tanlovi o‘tkaziladi, unda vazifani tushunish, foydalanilgan ma’lumotlarning ishonchliligi, uning berilgan mavzuga aloqasi, tanqidiy tahlil, mantiq, ma’lumotlarning tuzilishi, pozitsiyalarning aniqligi, muammoni hal qilish yondashuvlari, individuallik, taqdimotning professionalligi baholanadi.[4]

Ushbu platformada korxona ishchilarini ham o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha nazariy bilimlarni olish imkoni borligini *On the job Training* (OJT – ish joyida o‘qitish) metodi orqali yoritib beriladi. Bu bo‘lajak muhandislarda haqiqiy yoki haqiqatga yaqinroq bo‘lgan ish muhitida kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan yangi malaka va ko‘nikmalarni egallashga amaliy yordam beradigan metoddir. U ko‘pincha ish amaliyotida joriy qilingan yoki mashg‘ulot muhitida muayyan asboblar yoki jihozlardan qanday foydalanishni o‘rganish uchun ishlatiladi. Ko‘pincha bu metod talabalarni nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida talabalarga o‘qish paytida o‘z ishlarini o‘rganish hamda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida “INNOWEB KVEST” mavzusi bo‘yicha platforma yaratildi. Bu platforma qo‘yidagi funksiyalardan iborat (1-rasm). Nazariy mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar to‘plami (ta’riflar, tayanch tushunchalar, qoidalar, qonunlar, tamoyillar, mezonlar va hokazo).Oliy ta’lim professor-o‘qituvchi mavzuni tushuntirayotganda ushbu nazariy ma’lumotlarni yoritib borishida qolgan bo‘lim materiallari bilan bog‘lanib, ulardan foydalanishi mumkin.

Amaliy – mavzuning amaliyotga qo‘llanilayotgan holatlari, shuningdek har bir mavzu uchun alohida topshiriqlar, amaliy mashg‘ulotlar va ularni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar berilgan. Bu bo‘limda ham nazariy, ma’lumot, stend, internet, test bo‘limi materiallaridan foydalanish, ular bilan bog‘lanish imkoni mavjud.



1- rasm. Talabalarda "INNOWEB-KVEST" platformasi orqali loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish troektoriyasi

Ushbu platformada mavzu bo'yicha o'quv qo'llanmalari, amaliy va mustaqil topshiriqlar,mavzu bo'yicha testlar, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar, foydalanish bo'yicha adabiyotlar, konstruktiv chizmalar, videolar, KOMPAS-3D, AVTOKAD, SOLIDVORKIS zamonaviy dasturlari batafsil dizaynda mavjud. Stend-mavzu bo'yicha vizual ma'lumotlarni, dastgohlarni, to'sarlarni, moslamalarni va jihozlarni o'z ichiga oladi (dastgohlarda ish oqimlarini bajarish uchun test topshiriqlari, ishlov beriladigan qismlarni qayta ishlash usullari, namunalar).

Test-talabalarning mavzuni o'zlashtirishini nazorat qilish uchun savollar to'plami va natijalar ko'rsatkichini o'z ichiga oladi. Sinov oxirida talaba javob bera olmagan test savolining mavzularini ko'rsatadi.Mavzuni yana o'zlashtirib, test yana hal qiladi. Ushbu dasturlash tizimida talaba o'zlashtira olmagan mavzularni qayta ko'rib chiqishi va mustaqil ravishda o'rganishi mumkin. Sinov har bir mavzudan keyin yoki bob oxirida amalga oshiriladi. O'quv jarayoniga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv asosida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning dasturiy tizimini joriy etish samarali natijalarga erishishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2024yil 20-iyun kuni “Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari” yuzasidan videoselektor yig‘ilishi.

2. M.U.Usubjonovna. Bo‘lajak mutaxassislani loyihalash kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИР Илимий-методикалық jurnali Нөкис 2024 2/1-сан, 178-185bet, ISSN 2181-7138

3. Usubjanovna, D. M., & Sharifjanovna, Q. M. (2023). The effectiveness of using morphological study method in teaching specialized subjects. *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *17*(01), 22-27.

4. Usubjanovna, D. M. (2022). ASPECTS OF METHODS AND FORMS OF TEACHING TECHNICAL SUBJECTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(2), 743-747.

5. Нажмиддинова, Ё., Абдуллаева, Н., & Давронова, М. (2016). Перспективы адаптации выпускников профессиональных колледжей на производственных предприятиях. *European research*, (3 (14)), 71-75.

6. Usubjanova, D. M. Methods of Development of Design Competents in Future Specialists. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, *3*(3), 331-335.

7. Davronova M.U. “Texnik ijodkorlik va dizayn” O‘quv qo‘llanma. (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 07.05.2024 yildagi №149 sonli buyrug‘i, № 344188 Guvohnoma) 225 bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Zaxidov Ibroximjon Obidjonovich
Namangan davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
ibrohimjonzokhidov@gmail.com
Boyturayeva Gulbaxor Kamoliddin qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
gulbaxorboyturayeva@gmail.com

UO'K: 53.371-373.1/372.853

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKA O'QITISH ORQALI KASBGA YO'NALTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim asosida o'zlashtirilgan bilimlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga imkon beruvchi maxsus ta'lim olish uchun asos bo'lishi, muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish yo'llari bayon etilgan. Shuningdek, kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy vazifalari, tahlillar, kasb tanlashga yo'llashdagi imkoniyatlar, fizika faniga bo'lgan qiziqishini oshirish va fizika o'qitish orqali o'quvchilar mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini hosil qilish orqali kasb tanlashga qiziqtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning dolzarbligi, ularning qiziqish va iqtidori asosida yo'nalish tanlashlariga ko'maklashish masalalari hamda fizika fanini o'qitishda mashgulotlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarga yangi kasbiy ko'nikmalar berish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'quvchilar, kasbiy ma'lumotlar, tashxis, kasbga yo'naltirish, kelajak kasblari, maktab fizika kursi, fizikani fanlararo o'qitish, ko'nikmani shakllantirishda fanlararo ta'lim, o'quvchi qiziqishi, zamonaviy kasblar, kasbiy maslahat, mehnat bozori, innovatsion kasblar, texnologik rivojlanish.*

Захидов Иброхимжон Обиджонович
Доцент Наманганского государственного университета, кандидат педагогических наук
Бойтураева Гульбахор Камолиддин кизи
Докторант (PhD) Наманганского государственного университета

ПРОФОРИЕНТАЦИЯ ЧЕРЕЗ ПРЕПОДАВАНИЕ ФИЗИКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. *В данной статье изложены пути передачи теоретических знаний, позволяющих обеспечить профессиональную подготовку личности и создать основу для дальнейшего специализированного обучения на базе общего среднего образования. Также рассмотрены основные задачи профориентации, анализируются возможности направленного выбора профессии, повышение интереса к физике, а также развитие у учащихся навыков самостоятельной работы и формирование профессиональных компетенций через обучение физике. В статье подчеркивается актуальность профориентации в современном образовательном процессе, необходимость содействия учащимся в выборе направления на основе их интересов и способностей, а также демонстрируются возможности внедрения современных технологий в преподавание физики для формирования новых профессиональных навыков у школьников.*

Ключевые слова: *учащиеся, профессиональная информация, диагностика, профориентация, профессии будущего, школьный курс физики, междисциплинарное преподавание физики, междисциплинарное обучение в формировании навыков, интерес учащихся, современные профессии, профессиональная консультация, рынок труда, инновационные профессии, технологическое развитие.*

Ibrokhimjon Obidjonovich Zakhidov
Associate Professor at Namangan State University, Candidate of Pedagogical Sciences
Gulbaxor Kamoliddin qizi Boyturayeva
PhD Student of Namangan State University

VOCATIONAL GUIDANCE THROUGH PHYSICS EDUCATION IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Annotation *This article explores the methods of providing theoretical knowledge that enable students to utilize the knowledge acquired in general secondary education as a foundation for future professional training and specialized education. It discusses the main objectives of vocational orientation, analytical approaches, opportunities for career guidance, and strategies for increasing students' interest in physics. Additionally, it examines how teaching physics fosters independent learning skills and competencies, ultimately encouraging students to make informed career choices. The article also highlights the significance of vocational orientation in modern education, emphasizing the need to assist students in selecting career paths based on their interests and abilities. Furthermore, it presents opportunities for integrating modern technologies into physics lessons to equip students with new professional skills.*

Keywords: *students, professional information, diagnosis, vocational orientation, future professions, school physics curriculum, interdisciplinary physics teaching, interdisciplinary education in skill formation, student interest, modern professions, career counseling, labor market, innovative professions, technological development.*

Kirish.

Hozirgi kunda o‘quvchilarni ularning iqtidori va qiziqishlariga mos kasb-hunarga yo‘naltirish, zamonaviy kasblar bilan yaqindan tanishtirish va kasb to‘garaklariga, kasbga qiziqishi bo‘lgan 7-11-sinf o‘quvchilari jalb etilishi [1] dolzarb bo‘lib turibdi.

Ta‘lim o‘z mohiyatiga ko‘ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy o‘rta ta‘lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni berishga yo‘naltiriladi. Umumiy ta‘lim asosida o‘zlashtirilgan bilimlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta‘minlashga imkon beruvchi maxsus ta‘lim olishi uchun asos bo‘ladi. Maxsus ta‘lim - o‘zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi [2]. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika kursi 7-sinfdan o‘qitilganligi, kasbga yo‘naltirish ishlari ham shu yoshdan olib borilganligi uchun o‘tilayotgan darslar o‘quvchilarning kasb tanlashlariga bo‘lgan moyilliklarini belgilaydi.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Kasbiy ma’lumotlar berish: o‘quvchilarga zamonaviy ishlab chiqarishning turlari, mehnat bozori haqida tushunchalar berish hamda kasblarning odamlarga qo‘yadigan talablari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish; kasb-hunar ta’limi muassasalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minlashning asoslarini yaratish.

Kasbiy maslahatlar berish: o‘quvchi-yoshlarni qiziqishlari, moyilligi, tug‘ma layoqati, qobiliyati, ko‘nikmalari, oilaviy muhit, xududiy shart-sharoitlar, o‘quvchi va ota-onalarning istak va xoxishlari, kasbga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib, malakali kasbiy maslahatlar berishni tashkil etish asoslarini ishlab chiqish.

Kasbiy tashxis: shaxsning individual psixologik va fiziologik xususiyatlari, yoshi, bilim darajasi, ko‘nikma va malakalarini hisobga olgan holda yakuniy tashxis qo‘yish (tashxis materiallari maxfiy hisoblanib, u faqat o‘quvchi va uning ota-onasi bilan muhokama etiladi), o‘quvchining kasbiy moyilligini aniqlash, shaxsning yo‘nalganlik darajasini baholashdir.

Kasbga yo‘naltirish: psixologik, psixo-fiziologik va tibbiy tashxis natijalari asosida shaxsning psixologik, psixo-fiziologik va fiziologik xususiyatlariga mos keladigan tadbirlari tizimidir.

Adabiyotlar tahlili.

Psixolog olim Howard Gardnerning [3] fanlararo aloqada o‘qitish va kasbga yo‘naltirish bo‘yicha qarashlariga ko‘ra, “… insonning o‘rganish qobiliyatlari turlicha bo‘lib, ta’lim tizimi bitta standart metod bilan cheklanib qolmasligi kerak. U kasbga yo‘naltirishda fanlararo ta’limni qo‘llashni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quvchilar o‘z qiziqish va qobiliyatlariga mos keladigan yo‘nalishda rivojlanishlari uchun ularga turli fanlar bilan tajriba qilish imkoniyatini yaratish kerak. Bu esa kelajak kasblariga moslashuvchan va innovatsion mutaxassislar yetishtirishga yordam beradi”- deb o‘zining bu nazariyasini to‘la qonli asoslab bergan.

“Interdisciplinary research process and theory“ kitobida quyidagi faraz keltirilgan [4]. Integrativ tadqiqotlar va fanlararolik bir xil chegaralarga ega bo‘lmasa-da, ular bir-biriga mos keladigan muhim nuqtalarni baham ko‘radi. Integratsiya, ehtimol fanlarao tadqiqot jarayonidagi eng muhim qadam, hayotimizning barcha jabhalarida talab qilinadi. Fanlararo o‘quvchilar o‘zlashtiradigan integratsiya ko‘nikmalari hayotda ko‘proq foydalidir. O‘quvchilar hayotdagi balki bugungi kundagi murakkab muammolarni hal qilish o‘z jamiyati a’zolari sifatida ishtirok etishga ham yaxshiroq tayyorlanishlari ta’kidlab o‘tilgan.

Metodlar.

Kasb tanlashda o‘quvchi ota-ona tomonidan beriladigan maslahatlarni to‘g‘ri tanlashlari uchun ham fanlar bo‘yicha keng bilimga ega bo‘lgan bo‘lishi kerak. Bu esa fanlararo aloqalarni o‘tkazish samarasiga bog‘liq bo‘ladi. Demak maktab fizika o‘qituvchisi dars jarayonida o‘quv materialining fanlararo aloqadorlik asosida bog‘lanishiga e’tibor bergan holda ishlab chiqarish istiqbolli taraqqiyotini xarakterlovchi ma’lumotlardan foydalanishi kerak. Umuman olganda hozirgi kunda yangi zamonaviy: “Dasturchi fizik”, “Tibbiy fizika muhandisi”, “Hisoblash fizikasi bo‘yicha mutaxassis”, “Energiya

tizimlari muhandisi", "Fizikada ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha mutaxassis" kabi kasblar borki ularga kasb sirlarini fanlar aloqasisiz o'qitib ham bo'lmay qoldi.

Jamiyat ishlab chiqarishi va kishilik faoliyatining barcha sohalarida keng qo'llanilishi imkoniyatiga ega bo'lgan asosiy fizikaviy tushuncha, hodisa va qonunlarni mantiqiy holda sistemali tanlash - o'qituvchilarning faqatgina o'z o'quv predmetlarining nazariy mazmunini chuqur bilishlarini talab qilish bilan birga, uning amaliy xarakterini, o'quvchi yoshlarning bo'lajak mehnat faoliyatlarida uchraydigan amaliy ishlar mazmunini sistemali ravishda yoritib borish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ham taqozo qiladi.

Shuning uchun fanlararo bog'lanishdan samarali foydalanib, fizikaviy hodisa va qonunlarni amalda qo'llanilishini o'rganish, lozim bo'lganda, unga ijodiy yondashish imkoniyatini tanlash kerak bo'ladi. O'quvchilarda mustaqil ishlashda malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, o'quvchilarni kasb tanlashiga erkin qiziqib, ongli yondashish imkoniyatini olib keladi. Bu hol har qanday murakkab vaziyatlarda mantiqiy ishlashga sharoit yaratib beradi.

Maktab o'quvchilarini kasb tanlashga yo'llashda katta imkoniyatlarga ega, faqat ular ma'lum sistema asosida ish olib borishlari kerak. Masalan, o'quvchilarning fizika faniga qiziqishini oshirish, ularning ishlab chiqarishning u yoki bu sohalariga bo'lgan munosabatlarini belgilash lozim. Bunda darsning barcha turlaridan unumli va sistemali foydalanish kerak bo'ladi.

Natijalar.

Ana shunday darslardan biri fanlararo aloqadorlik asosida tashki etilgan mashg'ulotlardir. O'quvchilar fanlarni o'zaro aloqada o'rganishda bitta o'quv fani bo'yicha olgan bilimlariga nisbatan chuqur va atroflicha bilimga ega bo'ladilar. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda o'quvchilarga turmush va texnika haqida o'rgangan bilimlari, axborot kommunikatsiyalari internet texnologiyalari tarmog'laridan olgan ma'lumotlari, kuzatgan tabiat hodisalari va jarayonlari, tabiiy fanlar, matematika, axborot texnologiyalari va informatika kabi fanlardan o'zlashtirgan bilimlar asosida dars mashg'ulotlarini rejalashtirish, ya'ni fanlararo o'qitishni tashkil etish yuqori ta'lim sifatiga erishish omili hisoblanadi. Fizikani fanlararo o'qitishni amalga oshirish turdosh fanlarga oid materiallarni o'zaro bog'lanishini soddalashtiradi, o'quvchilarda tizimli va mustahkam bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi, yangi texnologiyalar yaratish g'oyalari rivojlanadi.

Maktab fizika kursida o'quvchilarning fizika fanini o'rganishga qiziqishlarini oshirish, olgan bilimlarini ishlab chiqarish texnologiyalariga qo'llay bilish haqidagi tassavvurlarni o'quvchilar ongida shakllantirish, bilish qobiliyati, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va kelgusida kasb tanlashlarida muhim omil hisoblanadi.

Shuning uchun fizik bilimlarni fanlararo aloqadorlikda o'qitish orqali o'quvchilarning olgan bilimlari kasb tanlashida yordam berishini tushuntirish, fizikaviy hodisa va qonunlarni amalda qo'llanilishini o'rganish, lozim bo'lganda, unga ijodiy yondashish imkoniyatini tanlash kerak bo'ladi [5-10]. O'quvchilarda mustaqil ishlashda malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, o'quvchilarni kasb tanlashiga erkin qiziqib, ongli yondashish imkoniyatini olib keladi.

Munozaralar.

Mamlakatimizda o'quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo'yayotgan eng muhim talablardan biri ularda mehnat qilish extiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mehnat qilishga bo'lgan ehtiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mehnatdagina o'zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi. Umumiy ta'lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirilishi qanday rol o'ynashiga alohida e'tibor berilgan.

Yildan yilga fan-texnika rivojlangan sari yangidan-yangi kasblar vujudga kelmoqda. Binda nafaqat fanlararo aloqadorlikda o'rganilgan bilimlar balki kelgusida ham kasblarning o'zaro aloqalari bo'lishini va rivojlanishini zamonning o'zi talab qilib turibdi. Misol uchun IT va fizika o'rtasidagi fanlararo kasblar ko'plab martaba va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taklif etadi. Ular sizga murakkab muammolarni hal qilish, innovatsion yechimlarni yaratish va fan va texnologiyalarni rivojlantirishga hissa qo'shish imkonini beradi. Kelajakda ushbu sohadagi mutaxassislarga bo'lgan talabning yanada o'sishini kutish mumkin, bu esa turli fanlardan bilim va ko'nikmalarni birlashtirishga tayyor bo'lganlar uchun yangi istiqbollarni ochib beradi.

Iqlim o'zgarishi, energiya inqirozi va tibbiy texnologiyalarning rivojlanishi kabi zamonaviy muammolar fanlararo yondashuvni va turli sohalardagi bilimlarni birlashtirishni talab qiladi. IT va fizika bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar ushbu muammolarni hal qilishda va kelajakni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Maktablarda fizika kursi 7-sinfdan o'qitilganligi, kasbga yo'naltirish ishlari ham shu yoshdan olib borilganligi uchun o'tilayotgan darslar o'quvchilarning kasb tanlashlariga bo'lgan moyilliklarini belgilaydi. Misol uchun "Mexanik harakat" mavzusini o'qitishda mavzu materiallariga asoslangan holda avtomobil muhandisi, uchuvchi, mashinasoz kasblariga yo'naltirish mumkin. Chunki transport vositalari harakatlanishi uchun mexanik harakat qonunlari ishlaydi ya'ni samolyotlar va avtomobillarning tezligi va yo'l bosishi hisoblab chiqiladi.

“Yorug‘likning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishi“ mavzusida dizayner, suratkash, astronom kabi kasblarga yo‘naltirish mumkin chunki dizayner va suratkash yorug‘likning tushishini nazorat qilishi, astronom teleskop orqali yulduzlarni kuzatishda shu qonunlarga asoslananishini bilishi kerak va boshqalar.

Xulosa.

Aytish kerakki, maktab o‘quvchilari kasb tanlash borasidagi o‘z qarorlarini, ko‘pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko‘pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. O‘qituvchilar faqat o‘z o‘quv predmetlarining nazariy mazmunini chuqur bilish bilan chegaralanmasdan, balki uning amaliy harakterini o‘quvchi yoshlarning bo‘lajak mehnat faoliyatlarida uchraydigan amaliy masalalar mazmunini sistemali ravishda yoritib berish kerak. O‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish mazmuni, ulardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatida jamiyatda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko‘nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. O‘rta yoshdagi o‘quvchilar uchun hayotdagi o‘z o‘rnini belgilash va tayyorlashda turtki, o‘z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo‘ladi. Bu yoshdagi o‘quvchilarda ijtimoiy-psixologik layoqatlar, o‘zi ulg‘ayotganligi, yangi bir pozitsiyada o‘ziga e’tibori, atrofga va olamga munosabatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 11-fevraldagi “O‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va tadbirkorlik subyektlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risida”gi 78-son qarori.

2. Bekchanova K.R., Ismoilova A.R. Yoshlarni kasbga yoʻnaltirishning psixologik xususiyatlari. Academic Research In Educational Sciences jurnali 2-soni 2021-yil, 1117-1123 betlar https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarni-kasbga-yonaltirishning-psixologik-xususiyatlari

3. https://en.wikipedia.org/wiki/Howard_Gardner

4. Dehqanova O.Q. Maktab fizika ta‘limida fanlar integratsiyasini takomillashtirish” mavzusidagi PhD dissertatsiya avtoreferati, Farg‘ona-2023

5. Boyturayeva G. K., Zakhidov I. O. Ways of implementing interdisciplinary connections in teaching the topics of" electric charge" and" electric resistance" in the 7th grade //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. A10. – С. 246-250.

6. Захидов И. О. Таълимда фанлараро боғланишларнинг функциялари Алижанов Дилмурод Аъзамжон ўғли.

7. Zaxidov I., Abdullajonov B., Bekmirzaev S. Мактабда электр токи қонунларини ўқитишда ўқувчиларнинг илмий билиш қобилиятларини ривожлантириш //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1013-1016.

8. Umarov A., Zakhidov I., Boyturayeva G. Interdisciplinary relationships and its application in teaching the topics of electricity in a school physics course //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. B1. – С. 166-170.

9. Boyturayeva G. Fizika kursida fanlararo aloqadorlik asosida o‘qitishning ahamiyati //Fergana state university conference. – 2023. – С. 154-154.

10. Boyto‘raeva G. Фанлараро алоқадорлик ва унинг яримўтказгичлар физикасини ўқитишдаги ўрни //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B4. – С. 533-537.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Muxlisa Jumayeva
Qarshi xalqaro universiteti o‘qituvchisi
E-mail:jumayevamuxlisa40@gmail.com

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Kreativ va tanqidiy fikrlash har bir insonning hayotiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Bu qobiliyat jamiyatdagi turli g‘oya va fikrlar bilan muomala qilish, ularni tahlil qilish va baholashda zarur bo‘lib, shuningdek, o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqola kreativ va tanqidiy fikrlashning tamoyillari, metodlari va usullarini, shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlashda bu qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik imkoniyatlarni ko‘rib chiqadi.*

Kalit so‘zlar: *kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, didaktik imkoniyatlar, o‘qituvchilar, innovatsion texnologiyalar, muammoli ta’lim, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, intellektual salohiyat, pedagogik yondashuvlar.*

Мухлиса Джумаева
Преподаватель Международного университета Карши

ОСНОВНЫЕ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Креативное и критическое мышление играет важную роль в жизни каждого человека. Эта способность необходима для взаимодействия с различными идеями и мнениями, их анализа и оценки, а также для развития интеллектуального и творческого потенциала учащихся. В статье рассматриваются принципы, методы и подходы к креативному и критическому мышлению, а также дидактические возможности для развития этих навыков у учителей.*

Ключевые слова*: креативное мышление, критическое мышление, дидактические возможности, учителя, инновационные технологии, проблемное обучение, учителя начальных классов.*

Mukhlisa Jumayeva
Qarshi International University lecturer

MAIN DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING CREATIVE AND CRITICAL THINKING IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation: *Creative and critical thinking play a vital role in the life of every individual. This ability is essential for engaging with various ideas and perspectives, analyzing and evaluating them, and also for enhancing students' intellectual and creative potential. This article explores the principles, methods, and approaches to creative and critical thinking, as well as the didactic opportunities for developing these skills in teachers.*

Key words: *creative thinking, critical thinking, didactic opportunities, teachers, innovative technologies, problem-based learning, primary school teachers, intellectual potential, pedagogical approaches.*

Kirish.

Bugungi kunda har bir shaxs dunyoni anglashi, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etishi, yer yuzidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashi, g‘oyasi, maslak-muddaolarini bilish uchun ham kreativ va tanqidiy fikr yurita olishi davr talabi bo‘lmoqda. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan bahsga kirishishi uchun har bir inson kreativ va tanqidiy fikrlay olishi zarur.

“Kreativ va tanqidiy fikrlash” atamasi pedagogika, ijtimoiy va kundalik hayotda yetarlicha keng qo‘llaniladi. Tanqid insonning eng muhim qobiliyatlaridan biri bo‘lib, uni yanglishish va xatolar oqibatlaridan himoya qiladi. kreativ va tanqidiy fikrlash - bu insonning u yoki bu masala bo‘yicha o‘z nuqati nazarini anglash qobiliyati, yangi g‘oyalarni topa olish, voqealarni tahlil qila olish va ularni baholay olish, qaysidir-bir hukm yoki harakatlar bo‘yicha puxta o‘ylangan, chamalangan qarorlarni qo‘llay olish qobiliyatidir.Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bu

ma'lum yosh davrida o'rgatish tugallanishi va unutilishi mumkin bo'lgan masala ham emas. Kreativ va tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo'llar yo'q. Biroq o'qitish shartlarining muayyan to'plami borki, uning yordamida kreativ va tanqidiy fikrlovchilarni tabiyalash mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashning zaruriyati ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kreativ fikrlash o'qituvchilarga yangi va innovatsion pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish, o'quvchilarning qiziqishlarini uyg'otish va ularning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Asosiy qism.

Meyers I.C. fikricha, kreativ va tanqidiy fikrlashning elementlari quyidagilardan iborat: kreativ va tanqidiy fikrlash;bu mustaqil fikrlashdir; axborot kreativ va tanqidiy fikrlashning boshlanishidir; kreativ va tanqidiy fikrlash savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshladi; kreativ va tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi; kreativ va tanqidiy fikrlash-ijtimoiy fikrlashdir. Birinchidan, kreativ va tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlashdir. Mashg'ulot kreativ va tanqidiy fikrlash tamoyillari bo'yicha yaratilar ekan, har bir ishtirokchi boshqalarnikidan mustasno holda o'zining g'oyasi, baholashi va ishonchiga ega bo'ladi. Biz faqat o'zimiz uchungina bunday fikrlay olamiz. Demak, fikrlash yakka tartibli xarakterga ega bo'lgandagina, uni kreativ va tanqidiy fikrlash deb atash mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'z aqli, fikrlashi va eng murakkab savollarga ham o'zlari javob topa olish erkinligiga ega bo'lishi kerak. Qanday fikrlash zarurligini har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi o'zi uchun o'zi hal qiladi. Shunday qilib, mustaqillik kreativ va tanqidiy fikrlashning eng muhim jihatlaridan biridir. Ikkinchidan, axborot kreativ va tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim odamni kreativ va tanqidiy fikrlashga undovchi motiv bo'lib hisoblanadi. Ba'zan «bo'sh kalla bilan fikrlash qiyin», deb ham aytishadi. Murakkab fikrni yaratish uchun anchagina «xom ashyo»-dalillar, g'oyalar, matnlar, nazariyalar, ma'lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur. Har qanday yoshda ham kreativ va tanqidiy fikrlash mumkin: faqat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilaridagina emas, balki hatto birinchi sinf o'quvchilarida ham hayotiy tajriba va bilimlar mavjud bo'ladi. Bolalarning fikrlash qobiliyatlari o'qitish natijasida yanada takomillashib boradi. Hatto juda yosh bolalar ham kreativ va tanqidiy fikrlash va butunlay mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega. Aynan kreativ va tanqidiy fikrlash tufayli odatdagi bilish jarayoni alohidalik va anglashuvchanlik, uzviylik va samaradorlik kasb etadi. Uchinchidan, kreativ va tanqidiy fikrlash, savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o'z tabiatiga ko'ra qiziquvchandir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qiziquvchanlik har qanday tirik mavjudotning ajralmas xususiyatidir.

XXI asrda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni mustaqil, kreativ va tanqidiy fikrlaydigan shaxslarga aylantirishdir. Bu esa o'qituvchining o'zida kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosati ham ushbu jarayonga alohida e'tibor qaratib, o'qituvchilarni zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida tayyorlashni maqsad qilgan. Didaktika – bu o'qitish jarayonining ilmiy asoslari va tamoyillarini o'rganadigan fan Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish didaktik imkoniyatlarga bog'liq bo'lib, bunda metodlar, shakllar va vositalarning ahamiyati katta. **Didaktik imkoniyatlar** – bu o'qitish jarayonida mavjud metodik, texnologik va pedagogik resurslardan foydalanish orqali o'quvchilar yoki o'qituvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan shart-sharoitlar majmuasi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida quyidagi didaktik imkoniyatlar mavjud:

-**Muammoli ta'lim** – o'qituvchilarni nostandart vaziyatlarni hal qilishga o'rgatish.

-**Innovatsion pedagogik texnologiyalar** – kreativ va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish uchun zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish.

-**Faol va interfaol ta'lim usullari** – o'qitish jarayonida muhokama, bahs va guruhiy ishlarni qo'llash orqali fikrlashni rivojlantirish.

-Didaktik o'yinlar va rolli o'yinlar – kreativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. - **Kritik tafakkurni rivojlantirish dasturlari** – o'qituvchilarni mustaqil mantiqiy tahlil qilishga yo'naltiradi.

Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi didaktik tamoyillar muhim hisoblanadi:

- **Faollik va mustaqillik tamoyili**.O'qituvchilarni ta'lim jarayonida faollikka undash va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish. Misol: O'qituvchilikka tayyorlanayotgan talabalarga "Maktab dars jadvalida kreativ fanlar qanday kiritilishi kerak?" mavzusida mustaqil loyiha yaratish topshirig'i berilishi mumkin.

- **Refleksiv yondashuv tamoyili.** O'z fikrlarini tahlil qilish va baholashga o'rgatish. Misol: O'qituvchilar dars jarayoni tugagandan so'ng o'z pedagogik strategiyalarini baholashlari va ularning samaradorligini aniqlashlari mumkin.

- **Muammoli ta'lim tamoyili.** Muammoli vaziyatlar asosida ta'lim olishni tashkil etish.Misol: O'qituvchi bo'lishga tayyorlanayotgan talabalar "Agar maktabda an'anaviy baholash bekor qilinsa, qanday alternativ tizim joriy etish mumkin?" mavzusida ilmiy asoslangan muhokama yuritishi lozim.

- **Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash tamoyili.** Raqamli texnologiyalar va yangi o‘qitish usullaridan foydalanish.

Amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyuining aytishicha, agar ta’lim oluvchilar muayyan muammo bilan shug‘ullana boshlasalargina, ularda kreativ va tanqidiy fikrlash paydo bo‘ladi. «O‘quv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo‘lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir». Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o‘zining shaxsiy yo‘lini izlagandagina, haqiqatan ham fikrlaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, o‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rar ekan, o‘quvchilar to‘qnashishi mumkin bo‘lgan muammolar doirasini aniqlashi, so‘ngra esa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni bu muammolarni o‘zlari mustaqil ravishda shakllantirishlariga tayyorlashi zarur. Kreativ va tanqidiy fikrlash tufayli o‘qish eski «maktab» ishidan aniq maqsadga yo‘nalgan, mazmunli faoliyatga aylanadi hamda bu faoliyat davomida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar haqiqiy aqliy ish bajarib, haqiqiy hayotiy muammolarni hal qiladilar. Ular dalillar to‘plab, matnlarni tahlil qilib, teng kuchli nuqtai-nazarlarni taqqoslab hamda jamoa imkoniyatlaridan foydalanib, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlaydilar va uni topadilar. To‘rtinchidan, kreativ va tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Kreativ va tanqidiy fikrlovchi kishi muammoning o‘z shaxsiy yechimini topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. U boshqa qarorlar bo‘lishi mumkinligini ham tan oladi, lekin o‘zi tanlagan qaror boshqalarga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Har qanday ishonchli dalil uch asosiy qismdan iborat bo‘ladi. Tasdiqlash- dalil markazi, uning mazmuni bo‘lib hisoblanadi (ba’zan u tezis, asosiy g‘oya yoki qoida deb yuritiladi). Tasdiqlash bir necha dalillar bilan mustahkamlanadi. Dalillarning har biri o‘z navbatida isbotlar bilan mustahkamlanadi. Statistik ma’lumotlar, matn parchasi, shaxsiy tajriba, umuman olganda, ushbu ishonchli dalillarni isbotlashga yordam beruvchi va muhokamaning boshqa ishtirokchilari tomonidan tan olinishi mumkin bo‘lgan barcha g‘oyalardan isbotlovchi sifatida foydalanish mumkin. Ishonchli dalillarning yuqorida qayd qilingan barcha qismari tasdiq, dalil va isbotlash negizida, uning to‘rtinchi qismi bo‘lgan asos turadi. Asos- bu qandaydir yo‘naltiruvchi hisobning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, u notiq uchun ham, yoki yozuvchi va uning muxlislari uchun ham umumy bo‘ladi va u barcha ishonchli dalillar uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Ishonchli dalillar, unga qarama-qarshi dalillarni mavjud bo‘lishi, ularni yo oshirib ko‘rsatilishi, yoki qabul qilinigshi mumkinligini ham hisobga olgandagina yutadi. Boshqacha nuqtai-nazarlarning tan olinishi ishonchli dalillarning ta’sir kuchini yanada oshiradi. O‘ta ta’sirchan dalillar bilan qurollangan kreativ va tanqidiy fikrlovchi kishi, hatto katta obro‘ga ega bo‘lgan fikrga ham qarshi tura oladi, amaliyotda bunday kishining fikrini o‘zgatirish mumkin emas. Beshinchidan, kreativ va tanqidiy fikrlash- ijtimoiy bo‘lib ham hisoblanadi (har bir inson ijtimoiy organizmdir).Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o‘rtoqlashilgandagina o‘tkirlashadi yoki faylasuf Xanna Arendt yozganidek: «kimningdir huzurimda bo‘lishi, meni barkamollikka erishtiradi».

Quyidagi fikrlarni kreativ va tanqidiy fikrlashni tasdig‘i sifatida keltirish mumkin: Yangi vaziyatlar uchun qo‘llanilayotgan samarali uzluksiz ta’lim biz uchun axborot va g‘oyalarning tushunarli bo‘lishi muammosini tashkil qiladi. bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar axborot va g‘oyalarni faollik bilan o‘zlashtirgandagina, eng yuqori natijaga erishishi mumkin; fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli strategiya (shakl)lari qo‘llanilgandagina, o‘qish jarayoni muvaffaqiyatliroq bo‘ladi. Bunday strategiyalar o‘quv jarayonining ongliroq bo‘lishini ta’minlaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar o‘z bilimlarini muayyan masalalarni yechishda tatbiq eta olsalargina, ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi; Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning oldin egallagan bilimlariga va tajribalariga asoslangan o‘qish mustahkam bo‘ladi. Bularning hammasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchiga yangi axborotni bilganlari bilan bog‘lash imkoniyatini beradi; O‘qituvchilar g‘oyalar va tajribalarning turli-tumanligini to‘g‘ri tushunsalargina, kreativ va tanqidiy fikrlash va o‘qish yaxshi natija beradi. Agar «yagona bitta javob» ruhi ustuvorlik qilsa, unda kreativ va tanqidiy fikrlashga imkon bo‘lmaydi.

Kreativ va tanqidiy fikrlashining ijodiy manbalari qadim zamonlarga borib taqaladi. Faolligining yaxshi xotiralashga imkon yaratishi, narsalar, jarayonlar va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishiga yordam berishi ko‘hna zamonlardayoq ma’lum bo‘lgan. Yaqin va O‘rta Sharqda yashab ijod etgan o‘rta asr mutafakkirlari tabiiy-ilmiy asarlarida ilmning turli tomonlari, uning prinsiplari, tuzilishi, mezonlari, ilmning inson aqliy rivoji va ta’limi bilan bog‘liqligiga jiddiy qiziqish borligini kuzatamiz. Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino va ularning safdoshlari va izdoshlari gnoseologik qarashlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, inson ongida predmet timsoli (obrazi)ni mavhumlashtirish jarayoni ular e’tiborini doimo jalb etgan, buning natijasida mazkur predmet mohiyati va o‘ziga xosligi tushunchasi ishlab chiqilgan va shakllangan. Predmet va manbalari qanaqa, jarayoni qanday bosqichlardan iborat, va amaliy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlar qanday - o‘rta asrlik qariyb barcha buyuk Sharq mutafakkirlari e’tiborini jalb etgan masalalarining to‘liq bo‘lmagan tartibi mana shulardan iborat. Xorazmiy bu nazariyaning rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi. U tajriba - kuzatish va eksperimental metodini samoviy jismlar harakati, shuningdek, yer

sathidagi punktlarni jadval ko‘rinishida ilk bor ilmiy asosladi, induksiya va deduksiya jihatidan yagona, alohida va umumiyning birligi prinsipini aniqlashtirdi: xususiy holdan alohida holdagi tenglamaga (olti tenglama) o‘tdi, lekin umumiy (qonuniy) turgacha yetmadi, hozirgi paytda va amallarda hamma e’tirof etgan umumilmiy metod bo‘lgan matematik masalalarni hal etishning algoritmik metodini ishlab chiqdi.

Farobiy asarlarida didaktika masalalari, ta’limning nazariy muammolari, bilimlarni egallashning falsafiy, fiziologik va psixologik asoslari keng ko‘rib chiqilgan. Uning uchun obyekt va subektning o‘zaro aloqasi, kishi shaxsining murakkab fiziologik-psixik jarayonlari va boy ma’naviy olami muhimdir. Jumladan, olimning fikricha inson ma’naviyatining oliy pog‘onasi ruh, aql va tafakkur bo‘lib, ular inson kreativ va tanqidiy fikrlashiga xos bo‘lgan o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Forobiy kreativ va tanqidiy fikrlashini tashkil etish masalalari bo‘yicha bir qator muhim tavsiyalarni ishlab chiqdi.

Xulosa.

Kreativ va tanqidiy fikrlash bugungi ta'lim jarayonining eng muhim jihatlaridan biri sifatida ko‘riladi. Har bir shaxsning dunyoni anglashi, hayot va jamiyat qonuniyatlarini idrok etishi, shuningdek, turli xalqlar va millatlar dunyoqarashlarini bilish uchun kreativ va tanqidiy fikr yurita olish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Bu jarayonni rivojlantirish faqat boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun emas, balki barcha yoshdagi o‘quvchilar uchun ham muhimdir, chunki ularning fikrlash qobiliyatlari o‘qitish jarayonida yanada takomillashadi.

Pedagogikada kreativ va tanqidiy fikrlashning rivojlanishi, o‘qituvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi o‘quvchilarni mustaqil va mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi, shuningdek, ularni amaliy hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda didaktik imkoniyatlar, jumladan, muammoli ta’lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, faol va interfaol ta’lim usullari, didaktik o‘yinlar va rolli o‘yinlar, shuningdek, kritik tafakkurni rivojlantirish dasturlari muhim ahamiyatga ega.

Kreativ va tanqidiy fikrlashning asosiy elementlari - mustaqil fikrlash, axborotga asoslangan fikrlarni ishlab chiqish, savollarni to‘g‘ri qo‘yish va muammoning yechimini izlashdir. Shuningdek, bu jarayon ishonchli dalillarga intilish, boshqa nuqtai-nazarlarga hurmat bilan qarash va ijtimoiy fikr almashish orqali o‘zgaradi. O‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish uchun faollik, mustaqillik, refleksiya, muammoli ta’lim va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash kabi tamoyillar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosati, o‘qituvchilarni zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida tayyorlashni maqsad qilib, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Bu o‘qituvchilarga o‘quvchilarga zamonaviy pedagogik metodlarni taqdim etish va ularni o‘qish jarayonida mustaqil, kreativ va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Meyers I.C. (2015). *Kreativ va tanqidiy fikrlashning asosiy elementlari.* O‘qituvchilarni tayyorlashdagi metodik yondashuvlar. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Dyu, J. (1997). *Ta’lim va kreativ fikrlash.* Boston: Houghton Mifflin Company.
3. Xorazmiy, M. (2009). *Ilm-fan va tafakkur: matematika va tabiatshunoslik asoslari.* Tashkent: Fan.
4. Farobiy, A. (2012). *Ta’lim va bilim olishning nazariy asoslari.* Toshkent: O‘qituvchi.
5. Beruniy, A. (1980). *Astronomiya va tabiatshunoslik.* Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi.
6. Ibn Sino, A. (2010). *Falsafa va tibbiyot asoslari.* Toshkent: Sharq.
7. Arendt, X. (2005). *Ijtimoiy fikrlash va tafakkur.* Nyu-York: Routledge.
8. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi (2020). *Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashdagi kreativ va tanqidiy fikrlash metodlari.* Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nematjonova Sarvinoz Nodirbek qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING TARJIMA MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING LINGVISTIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilaridan nafaqat tilni bilishlari, balki yuqori tarjima malakalariga ega bo‘lishlari ham talab etiladi. Tarjimaga oid lingvistik muammolar bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining tarjima malakalarini shakllantirish-rivojlantirish jarayonida asosiy to‘siqlardandir. Mazkur maqolada tarjimaga oid lingvistik tafovutlar, asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinadi va ularni yengib o‘tish strategiyalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *lingvistik muammolar, gramatik muammolar, morfologik farqlar,pragmatik tafovutlar.*

Nematjonova Sarvinoz Nodirbek kizi
Namangan State University Foundation doctoral student

LINGUISTIC ISSUES IN IMPROVING TRANSLATION SKILLS OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Annotation. *Future foreign language teachers are required not only to have a good command of the language but also to possess strong translation skills. Linguistic issues related to translation are among the main obstacles in developing and enhancing translation competencies of future language teachers. This article analyzes linguistic differences and key difficulties in translation and explores strategies for overcoming them.*

Keywords: *linguistic problems, grammatical issues, morphological differences, pragmatic differences.*

Нематжонова Сарвиноз Нодирбековна
Базовый докторант Наманганского государственного университета

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. *От будущих преподавателей иностранных языков требуется не только хорошее знание языка, но и высокие навыки перевода. Лингвистические проблемы, связанные с переводом, являются одним из основных препятствий в процессе формирования и развития переводческих компетенций будущих учителей. В данной статье анализируются лингвистические различия, основные трудности перевода и рассматриваются стратегии их преодоления.*

Ключевые слова: *лингвистические проблемы, грамматические трудности, морфологические различия, прагматические различия.*

Kirish.

Chet tili o‘qituvchilari nafaqat til bilishlari, balki tarjima malakalariga ham ega bo‘lishlari zarur. “Ikki tilning, ya`ni xorijiy til va ona tili xususiyatlarini bilish yaxshi amaliy bilim hisoblanadi, biroq bu tarjima qilish uchun yetarli emas. Til xususiyatlarini bilishdan tashqari tarjimon tarjima nazariyasida ishlab chiqilgan bir qator prinsiplarni yaxshi bilishi bilan birga yaxshi ishonchli malakaga ham ega bo‘lishi lozim.Tarjima nazariyasidagi prinsiplar lingvistik hamda ekstralingvistik omillarga asoslanadi”. [1.128] Tarjima – bu ikki til va madaniyat o‘rtasidagi vositachilik jarayoni bo‘lib, o‘qituvchilarning lingvistik bilimlari, madaniy tafakkuri va kommunikativ ko‘nikmalariga asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Chet tilini o‘itishda tarjima malakalarini hosil qilishning ahamiyati katta ekanligi o‘tgan asrning 90-yillaridayoq dunyodagi yetakchi olimlarning diqqatini tortgan. Ular bu sohada ko‘p izlanishlar olib borishgan va tarjima ko‘nikmalari til o‘rganish jarayonining ajralmas muhim qismi ekanligini aytishgan. Dunyo olimlaridan Peter Newmark – tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha tadqiqotlari bilan tanilgan. O‘zining “A textbook of translation” kitobida tarjima jarayonida duch kelinadigan pedagogik muammolarni yoritib bergan. Lawrence Venuti

esa tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarning madaniy va axloqiy tomonlarini tadqiq etgan.Tarjimani o‘qitish sohasining rivojiga O‘zbekistonlik olimlar I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov, Q.Musayevlar tarjima nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan va oliy ta`lim muassasalari uchun o‘quv darsliklari yaratishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda taqqoslash, lingvistik tahlil va eksperimental metodlar qo‘llanildi. Tadqiqot doirasida chet tili o‘qituvchilari tayyorlanayotgan oliy ta’lim muassasalarida talabalar orasida so‘rovnomalar o‘tkazildi va tarjima jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar aniqlab chiqildi.

Natijalar va ularning tahlili.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarning tarjima malakalariga ta’sir etuvchi asosiy lingvistik muammolar quyidagilardan iborat:

Grammatik tafovutlar – ikki til o‘rtasidagi grammatik tuzilmalarning farqliligi tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Leksik noaniqliklar – sinonimiya, omonimiya va ko‘p ma’nolilik tarjima jarayonida qiyinchilik tug‘diradi. Pragmatik tafovutlar – madaniy va mantiqiy kontekstdagi farqlar tarjima sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Idiomatik ifodalar – har bir tilda mavjud bo‘lgan idiomatik birliklarning bevosita tarjima qilib bo‘lmasligi muammosi mavjud.

“Tarjimaning asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan bir sharti tarjimonning o‘z tilida asliymonand lisoniy vositalar tanlab iste`foda etishidadir”. [2.68]

Tarjima malakalarini rivojlantirishda lingvistik muammolar mavjud bo‘lib, ularni G‘ofurov.I, Mo‘minov.O, Qambarov. N lar quyidagicha tasniflashgan:

- Tarjimaning leksik muammolari
- Tarjimaning grammatik muammolari
- Tarjimaning frazeologik muammolari

Tarjimadagi leksik tafovutlar. Har bir til o‘ziga xos lug‘at boyligiga ega. Sinonimiya, antonimiya va polisemiyaning tarjima jarayoniga ta’siri katta bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilar ba’zan ma’no nozikliklarini to‘g‘ri anglashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalan, ingliz tilida "spring" so‘zi ham yil mavsumi , ham quduq ma’nosida ishlatilishi mumkin. Shunday nozik tafovutlarni to‘g‘ri anglash tarjima sifatiga ta’sir qiladi. Leksik muammolarni hal etishda ikki tilli lug‘atlarning ahamiyati katta. Biroq lug‘atlar qanchalik mukammal tuzilgan bo‘lmasin, ularda so‘zlarning barcha ma`no noziklarini qamrab olishning imkoni yo‘q. Ularda so‘zlarning faqatgina birqancha muqobillari ifodalanadi xolos. Shuning uchun tarjima jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar ko‘p ma`noli so‘zlarning qaysi ma`nosi qo‘llanilganini kontekst asosida o‘zlari aniqlashlari kerak bo‘ladi.

Grammatik farqlar. Ingliz va o‘zbek tillari tipologik va genetik jihatdan turli xil til oilalaridan kelib chiqqan va shu boisdan ular orasida grammatik va morfologik jihatdan katta tafovutlar mavjud. Har bir tilning grammatik tizimi o‘ziga xosdir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi zamonlar, gap tuzilishi va kelishik qo‘shimchalari farqlanadi. Ingliz tilida jumla tuzilishi qat’iy bo‘lsa, o‘zbek tilida so‘zlarning joylashuvi nisbatan erkin. Bundan tashqari, o‘zbek tilida tushib qoluvchi (elliptik) konstruksiyalar ko‘p uchraydi, bu esa tarjima jarayonida qo‘shimcha izohlashni talab qiladi. Tillarning grammatik jihatdan o‘zaro muvofiqliklari 3 turga bo‘linadi: 1. To‘liq, 2. Qisman, 3. Nomuvofiqlik.

Tillar o‘rtasida bir xil grammatik kategoriyalarning mavjudligi (zamon, son, nisbat)-to‘liq muvofiqlikka misol bo‘ladi. Qisman morfologik muvofiqlikni esa tillardagi grammatik kategoriyalar bir-biriga mos kelmaganida (o‘zbek tilida 6 ta kelishik turlari mavjud. Ingliz tilida esa 2 ta.) kuzatishimiz mumkin. Grammatik kategoriyalardagi tafovutlar odatda tildagi boshqa vositalar yordamida ifodalanadi. Bir tildagi garmmatik kategoriyalarning boshqa tilda uchramasligi –morfologik nomuvofiqlikdir. O‘zbek tillida egalik shakli qoshimchalar orqali ifodalanadi ammo ingliz va rus tillarida egalikning bunday grammatik kategoriyasi mavjud emas. Ya`ni egalik shakli ingliz tilida ham, rus tilida ham olmoshlar orqali ifodalanadi. Masalan: O‘zbek tilida (kitobim,kitobing,kitobi). Ingliz tilida (my book,your book, his book). Rus tilida (моя книга, твоя книга, его книга).

Frazeologizmlar va idiomalar. Odatda erkin birikmalarni tarjima qilish qiyinchiliklarsiz kechadi. Ammo birikmadagi so‘zlar ko‘chma ma`no ifodalasa uni tarjima qilish murakkablashadi. Har bir tilning o‘ziga xos frazeologik birliklari mavjud bo‘lib, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish mumkin emas. Ularni tarjima qilishda bir necha xil yondashuvlar talab qilinadi. Masalan, “break the ice” inglizcha idiomasi o‘zbek tiliga “muloqotni osonlashtirish” deb tarjima qilinadi. Iboralarni tarjima qilishda avvalo asosiy e`tibor birikmadagi otni aniqlab olishga qaratilishi kerak bo‘ladi. Chunki qanday aniqlovchi qo‘llanilmasin, hammasi otni aniqlab keladi. Frazeologik birikmalarni tarjima qilish ancha mashaqqatli jarayon. “Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda shunday holatlar yuzaga keladiki, turli ekstralingvistik omillar ta`sirida tarkibida fe`lli ibora mavjud gaplar va ularning sintaktik tuzilishi butunlay o‘zgarib ketadi” [1.151]. Masalan: “He had “I don`t understand expression” on his face. – “Uning yuzi uni hech narsa tushunmaganligini ifodalardi”. Tarjima qilish jarayonida madaniy konnotatsiyalarni hisobga olgan holda tarjima qilish talab etiladi.

Madaniy tafovutlar. Tarjima jarayonida lingvistik omillardan tashqari, madaniy tafovutlar ham muhim rol o‘ynaydi. “Madaniyat” tushunchasiga turlicha ta`riflar berish mumkin. Masalan: P.Newmark unga quyidagicha ta`rif beradi. “Madaniyat bu-ma`lum bir tildan ifoda vositasi sifatida foydalanadigan ma`lum bir jamiyatning

hayot tarzi va koʻrinishlaridir. Turli xalqlarning anʼanalari, mentaliteti va dunyoqarashi tarjima sifati va toʻgʻriligiga taʼsir qiladi. Masalan, Gʻarb mamlakatlarida "personal space" tushunchasi muhim boʻlsa, Sharq madaniyatida bu unchalik dolzarb emas. Shuning uchun, tarjimonlar madaniy jihatlarni ham hisobga olishlari lozim. Soʻzlar ifoda etayotgan ma`nolariga koʻra universal va madaniy ma`nolar kasb etadi: yulduz, yugurmoq,inson kabi soʻzlar unibersal ma`noga ega.Ularni Tarjima qilishda muammolar boʻlmaydi. Ammo chopon (oʻzbek milliy kiyimi), anorak (shamol oʻtkazmaydigan kurtka), sake (yapon guruchli ichimligi), honeysuckle (yalpizgulli buta) kabi madaniyatga xos soʻzlarni tarjima qilishda agarda asliy til va tarjima tili oʻrtasida madaniy oʻzaro bogʻliqlik boʻlmasa muammolar paydo boʻladi.

Tilshunoslik va tarjima strategiyalari oʻrtasidagi tafovutlar. Baʼzi tillar tahliliy, baʼzilari esa sintetik tuzilishga ega boʻlgani uchun tarjima jarayonida tilda mavjud boʻlmagan grammatika va sintaksis oʻziga xosliklarini qayta yaratish muammosi yuzaga keladi. Tarjima strategiyalari oʻrtasidagi tafovutlarlarni yengish uchun bir nechta usullar mavjud: Soʻzma-soʻz tarjima (literal translation) – grammatik va leksik jihatdan yaqin boʻlgan tillarda ishlatiladi. Moslashtirish (adaptation) – madaniy farqlarga qarab maʼlumotni qayta tuzish. Ekvalentni izlash (equivalence) – muqobil ibora yoki ifodani topish. Transpozitsiya (transposition) – grammatik shaklni oʻzgartirish orqali maʼno saqlanadi. Annotatsiyalash (annotation) – murakkab yoki tushunarsiz joylarga izoh berish. Generalizatsiya / Spetsifikatsiya – umumiylik darajasini oʻzgartirish orqali mos tarjimani yaratish.

Tarjima malakalarini rivojlantirish yoʻllari

Lingvistik tahlil qilish koʻnikmasini shakllantirish. Oʻqituvchilar leksik, grammatik va stilistik tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishlari zarur. Xususan, matnning sintaktik va semantik jihatlarini tahlil qilish, tarjima nazariyasi va amaliyoti boʻyicha maxsus mashgʻulotlarni tashkil qilish muhimdir.

Matnli tarjima mashqlari bajarish. Turli janrlardagi matnlarni tarjima qilish orqali oʻquvchilar amaliy tajribaga ega boʻladilar. Xususan, ilmiy, badiiy, texnik va publitsistik matnlarni tarjima qilish tajriba orttirishga yordam beradi.

Korpus lingvistikasi va tarjima texnologiyalaridan foydalanish Zamonaviy tarjima vositalari, masalan, Google Translate, DeepL va tarjima korpuslaridan foydalanish tarjimonlik koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu vositalardan toʻgʻri foydalanish boʻyicha maxsus kurslar tashkil etish lozim.

Ikki tilli lugʻatlar va qoʻllanmalardan foydalanish, oʻquvchilar keng qamrovli lugʻatlardan foydalanib, tarjima malakalarini oshirishlari mumkin. Xususan, umumiy va ixtisoslashtirilgan lugʻatlar, kollokatsion lugʻatlar va tarjima qoʻllanmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa.

Tarjima jarayonidagi asosiy muammolar tillarning oʻziga xos grammatik, morfologik, sintaktik xususiyatlari sababli paydo boʻladi. Bir matnni ikkinchi bir tilga tarjima qilishda soʻzma –soʻz aniq ekvivalentlarni topish imkonsizdir. Shuning uchun aksariyat hollarda tarjimon asl matnning ma`nosini chuqurroq anglab yetishga soʻngra anglashilgan mazmunni uni tarjima qilinayotgan tilda batafsilroq ifodalashga harakat qiladi. Tarjima jarayonida amal qilinishi kerak boʻlgan eng muhim prinsiplardan biri-tarjima tili normalarini unutmaslikdir. Tarjima bu faqat tilni emas, balki madaniyatni, mantiqni va kontekstni chuqur tushunishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Tilshunoslikdagi tafovutlarni aniqlab, toʻgʻri strategiyani tanlash tarjimaning sifatiga bevosita ta`sir koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Gʻofurov.I, Moʻminov.O, Qambarov.N “Tarjima nazariyasi” –Tafakkur boʻstoni. Toshkent-2012
2. Q.Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari.Darslik. “Fan” nashriyoti
3. P.Newmark.A textbook of translation.1987.
4. H.Ghazala. Translation as problems and solutions. Qoʻllanma.2008.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nishonova Muattarxon Alisherovna
Andijon davlat pedagogika instituti

RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARI ASOSIDA MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli ta'lim platformalari orqali talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Mustaqil ta'limni samarali yo'lga qo'yishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni, virtual muhitda o'quv materiallarini yaratish, baholash va o'zlashtirishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, platformalardan foydalanish orqali o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga, mas'uliyatga va tanqidiy fikrlashga o'rgatish metodlari tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, raqamli platformalar, o'quv faoliyati, metodika, ta'lim texnologiyalari, o'zini o'zi boshqarish.*

Нишанова Муаттархан Алишеровна
Андижанский государственный педагогический институт

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ

Аннотация: *В статье рассматривается методика организации и развития самостоятельной учебной деятельности студентов на основе цифровых образовательных платформ. Анализируется роль современных технологий в обеспечении эффективности самостоятельного обучения, влияние виртуальной среды на усвоение учебного материала и оценивание знаний. Также описываются методы формирования самоуправления, ответственности и критического мышления у обучающихся через использование платформ.*

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, цифровые платформы, учебная деятельность, методика, образовательные технологии, самоуправление.*

Nishanova Muattarkhan Alisherovna
Andijan State Pedagogical Institute

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES ON THE BASIS OF DIGITAL EDUCATIONAL PLATFORMS

Annotation: *This article explores the methodology for organizing and enhancing students' independent learning activities through digital educational platforms. It analyzes the role of modern technologies in ensuring the effectiveness of self-directed learning, the impact of virtual environments on content acquisition and assessment, and methods of fostering self-management, responsibility, and critical thinking through platform-based learning.*

Keywords: *independent learning, digital platforms, educational activity, methodology, educational technologies, self-management.*

Kirish.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi natijasida ta'lim tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy auditoriya asosidagi o'qitish shakllaridan bosqichma-bosqich raqamli va aralash formatdagi ta'limga o'tish jarayoni kechmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil o'qish, o'zlashtirish, izlanish va o'z-o'zini rivojlantirish faoliyati kundan-kunga muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida, o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni, xususan, raqamli ta'lim platformalaridan samarali foydalanishni talab etmoqda.

Mustaqil ta'lim – bu talabaning o'qituvchi rahbarligisiz yoki minimal pedagogik ko'mak bilan o'zlashtirish faoliyatini amalga oshirishi bo'lib, u shaxsiy mas'uliyat, vaqtni boshqarish, tanqidiy fikrlash va o'zini o'zi baholash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Raqamli platformalar esa bu jarayon uchun qulay virtual muhit yaratadi. Ularda resurslar, topshiriqlar, baholash vositalari, tahliliy dasturlar va interaktiv vositalar jamlangan.

Mazkur maqolada raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish orqali mustaqil ta’limni samarali tashkil etish va talabalarning universal o‘quv faoliyatini shakllantirish metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik asoslarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “mustaqil ta’limni raqamli vositalar yordamida yo‘lga qo‘yish nafaqat texnik, balki pedagogik-metodik yondashuvlarni ham o‘z ichiga oladi” [1].

Pedagog olimlardan A.A.Sharipov o‘z tadqiqotida raqamli ta’lim vositalarining o‘quvchida motivatsiyani shakllantirishdagi rolini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, “interaktiv dasturlar, videodarslar va test modullaridan foydalanish mustaqil ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi” [2-3].

Xalqaro tajribada esa Garrison, Anderson va Archer tomonidan taklif etilgan "ko‘rgazmali, kognitiv va ijtimoiy mavjudlik" (Community of Inquiry) modeli o‘zini oqlagan. Bu model raqamli platformalarda samarali ta’lim muhitini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, mustaqil o‘rganish uchun zarur bo‘lgan mulohazali fikrlash, ijtimoiy muloqot va o‘zini namoyon qilish komponentlari aynan shu model doirasida tahlil etiladi [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF–60-son farmonida ham raqamli ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish orqali o‘quv sifatini oshirish chora-tadbirlari belgilangan. Bu esa milliy ta’lim tizimida raqamli platformalarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko‘rsatadi.

R.T.Sa’dullayeva esa o‘z tadqiqotida talabalarning raqamli savodxonligi va ularning mustaqil ta’limga tayyorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, ta’lim platformalaridan foydalanish uchun metodik yondashuvlar tizimini taklif etadi.


Muhokama va natijalar.

Zamonaviy raqamli ta’lim platformalarining rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangi sifat darajasini olib kirayotgan bo‘lsa, ularning amaliyotda samarali joriy etilishi esa metodik yondashuvlarning puxtaligiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, https://mi-mt.uz platformasi mustaqil ta’limni samarali tashkil etish va baholashga qaratilgan mahalliy tajriba sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu platforma aynan matematika va informatika yo‘nalishidagi talabalar uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, interaktiv topshiriqlar, testlar, virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar va o‘z-o‘zini baholash vositalarini o‘z ichiga olgan.

Ta’lim tizimidagi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mustaqil ta’limga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, talabalar mustaqil bilim olishga tayyor, raqamli axborot manbalarini to‘g‘ri tanlab, ularni tahlil qila oladigan, tanqidiy fikrlaydigan va o‘z o‘qishini boshqara oladigan subyektga aylanishi kerak. Bunday o‘quv jarayonini tashkil etishda esa zamonaviy platformalarning, xususan, https://mi-mt.uz kabi maxsus yo‘naltirilgan ta’limiy tizimlarning ahamiyati beqiyosdir.


https://mi-mt.uz platformasi doirasida olib borilgan tajribaviy ishlar:

ADPI matematika va informatika kafedrasida https://mi-mt.uz platformasidan foydalanish bo‘yicha sinov dasturlari amalga oshirilmoqda. Hozirda ushbu tajriba jarayoni yakuniy bosqichga yetmagan bo‘lsa-da, dastlabki natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalar mustaqil topshiriqlarni bajarishda yuqori faollik va qiziqish bilan qatnashmoqdalar. Talabalar orasida raqamli platforma orqali vaqtni mustaqil rejalashtirish, o‘z-o‘zini baholash, interaktiv savol-javoblardan foydalanish kabi ko‘nikmalar shakllanmoqda.



1-rasm[1]

CHDPUda matematika va informatika yo‘nalishi talabalari doirasida https://mi-mt.uz platformasidan foydalanish amaliyoti fakultet miqyosida keng joriy etildi va ommalashtirildi. Bu esa platformaning turli kurs va fanlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilayotganidan dalolat beradi. CHDPU tajribasida asosiy urg‘u talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni amaliy qo‘llashga berilgan. Pedagoglar fikricha, ushbu platforma orqali talabalar an’anaviy ta’limga nisbatan ancha mustaqil va tashabbuskor bo‘lib qolmoqda.



2-rasm[2]

https://mi-mt.uz platformasi bo‘yicha olib borilgan ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish nafaqat o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi, balki shaxsiy mas’uliyat, raqamli savodxonlik, analitik fikrlash kabi universal kompetensiyalarni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Platformaning interfeysi, funksionalligi va didaktik imkoniyatlari uni turli fanlar kesimida keng qo‘llash imkonini beradi. Shu sababli, uni pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bosqichma-bosqich keng joriy etish tavsiya etiladi.

https://mi-mt.uz platformasining afzalliklari va mustaqil ta’limga yo‘naltirilganligi

Maxsus metodik asosga qurilgan mustaqil o‘rganish muhiti.

https://mi-mt.uz platformasi o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil ravishda mavzularni o‘zlashtirishlariga xizmat qiluvchi tartibda loyihalashtirilgan. Har bir modul bosqichma-bosqichlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, avval o‘quv materiallarini o‘qish, keyin amaliy topshiriqlar, so‘ng esa o‘z-o‘zini baholash bosqichlari mavjud. Bu esa talabani izchil, mustaqil va faollik asosida o‘rganishga undaydi.

Platformada interaktiv testlar, mashqlar, onlayn forumlar va muhokama maydonchalari mavjud. Bu esa nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki o‘rganilgan mavzularni chuqur tahlil qilishga, o‘z fikrini ifodalashga va boshqa foydalanuvchilar bilan fikr almashishga xizmat qiladi. Talaba o‘rgangan bilimni qayta ishlash (refleksiya) orqali mustahkamlaydi.

Platforma orqali o‘quvchi o‘z o‘rganish rejasini tuzishi, faoliyatini monitoring qilishi va natijalarini baholashi mumkin. Bu esa mustaqil ta’limning asosiy komponenti – avtonomiya (mustaqillik) ni shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir o‘quvchi o‘z tezligida, o‘z uslubida va o‘z imkoniyatlariga mos ravishda ta’lim oladi.

Mustaqil ta’lim doirasida o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki izlanadi, ma’lumotlar yig‘adi, solishtiradi va natija chiqaradi. MI-https://mi-mt.uz platformasidagi topshiriqlar ham ana shu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, har bir mavzu bo‘yicha mini-tadqiqot yoki amaliy yechimni talab etuvchi topshiriqlar mavjud.

https://mi-mt.uz platformasi nafaqat texnologik imkoniyatlar, balki metodik yondashuvlar orqali ham mustaqil ta’limni samarali yo‘lga qo‘yish imkonini bermoqda. Bu esa raqamli ta’lim muhitida o‘zini boshqaruvchi, mas’uliyatli va faol o‘quvchi shaxsini

[1] https://mi-mt.uz
[2] https://mi-mt.uz

shakllantirishda strategik rol o‘ynaydi. Platformaning kengaytirilgan qo‘llanilishi, ayniqsa, pedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun dolzarb bo‘lib, uni boshqa fanlarga ham integratsiya qilish istiqbollidir.

Xulosa.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayoni oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri – o‘quvchilar va talabalar shaxsida mustaqil, tanqidiy fikrlovchi, axborotni izlaydigan va undan samarali foydalana oladigan, o‘z ta’limini boshqara oladigan faol subyektni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda raqamli ta’lim platformalari muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli platformalar – xususan, https://mi-mt.uz singari mahalliy tizimlar – mustaqil o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ular talabalarga mavzularni mustaqil o‘zlashtirish, amaliy topshiriqlarni bajarayotganda tanqidiy yondashish, o‘z-o‘zini baholash, shuningdek, raqamli vositalardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.[4-5]

Shunday qilib, raqamli ta’lim platformalariga asoslangan mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish metodikasi nafaqat zamonaviy ta’limning talablariga javob beradi, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kelgusida ushbu platformalarni fanlararo integratsiyada, masofaviy ta’lim shakllarida va innovatsion o‘quv texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirib kengroq qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abduqodirov A.A., Xasanboyeva N.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 224 b.
2. Soliyev A., Toshxo‘jayev B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 198 b.
3. Axmedov M., Ergashev J. Raqamli ta’lim muhitini tashkil etishning nazariy asoslari // “Ta’lim va rivojlanish” ilmiy-amaliy jurnali. – 2021. – №3. – B. 45–49.
4. Rasulov I., Shamsiyeva M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘qitishda qo‘llash usullari. – Toshkent: TDPU, 2022. – 156 b.
5. Bahodirov A.B. Zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalari // “Pedagogik mahorat” jurnali. – 2022. – №4. – B. 72–76.
6. Azizxo‘jayev A.A. Pedagogika: umumiy, yosh va ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 456 b.
7. Mustaqil ta’limni tashkil etish va baholashga mo‘ljallangan raqamli platforma. https://mi-mt.uz
8. Garrison D.R., Anderson T., Archer W. E-Learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice. – London: Routledge, 2017.
9. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2019.
10. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2, No. 1. – pp. 3–10.
11. UNESCO. Digital learning and transformation of education systems. – Paris: UNESCO, 2021. https://unesdoc.unesco.org

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Norqulov Usmon Elomonovich
Qarshi davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi

TEXNIKA IXTISOSLIKLARIDA TA’LIM OLAYOTGAN TALABALARNING KASBIY MADANIYATNING SHAKLLANGANLIK DARAJASI

Annotatsiya. *Tadqiqotlar va amaliy tajriba shuni ko‘rsatdiki, muhandisning kasbiy faoliyati sifati uning kasbiy madaniyatining shakllanganlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, hal qilinayotgan kasbiy vazifalar tizimi unga ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada talabalarning kasbiy tayyorgarligini integrativ natijasini yaxshilash maqsadida kasbiy madaniyatning shakllanganlik darajasini takomillashtirish keltirib o‘tilgan.*

Tayanch so‘zlar: *Aksiologik, texnologik, shaxsiy-ijodiy, differensiatsiya, tafakkur, kommunikativ, predmet-manipulyativ, idrok, huquqiy va axloqiy.*

Норкулов Усман Эломонович
Старший преподаватель Каршинского государственного технического университета

СТЕПЕНЬ СФОРМИРОВАННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ КАК ИНТЕГРАТИВНЫЙ РЕЗУЛЬТАТ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация: *Исследования и практический опыт показали, что качество профессиональной деятельности инженера зависит от уровня сформированности его профессиональной культуры, на которую влияет система решаемых профессиональных задач. В этом контексте в статье рассматривается вопрос повышения уровня сформированности профессиональной культуры в целях улучшения интегративного результата профессиональной подготовки студентов.*

Ключевые слова: *Аксиологический, технологический, личностно-творческий, дифференциационный, мыслительный, коммуникативный, предметно-манипулятивный, восприятие, правовой и этический.*

Norqulov Usman Elomonovich
Senior lecturer at Qarshi State Technical University

THE DEGREE OF FORMATION OF PROFESSIONAL CULTURE AS AN INTEGRATIVE RESULT OF PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS STUDENTS IN TECHNICAL SPECIALTIES

Annotation: *Research and practical experience have shown that the quality of an engineer’s professional activity depends on the level of formation of his professional culture, which is influenced by the system of professional tasks being solved. In this regard, this article discusses the improvement of the level of formation of professional culture in order to improve the integrative outcome of students’ professional training.*

Key words: *Axiological, technological, personal-creative, differentiation, thinking, communicative, subject-manipulative, perception, legal and ethical.*

Kirish.

Texnika ixtisosliklarida ta’lim olayotgan talabalarning kasbiy madaniyatini – kelgusidagi kasbiy faoliyatining kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar va o‘ziga xos xususiyatlari tizimida namoyon bo‘ladigan umumiy madaniyatning komponenti sifatida ko‘rib chiqamiz. Kasbiy madaniyatni yanada aniqlashtirish maqsadida uning tuzilmasi va mazmunini ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Pedagogning kasbiy madaniyatini uchta komponenti ajratib ko‘rsatilgan: aksiologik, texnologik va shaxsiy-ijodiy [1]. “Ushbu komponentlarni birlashtirgan va ularning o‘zaro aloqasini va o‘zaro shartlanishini ta’minlagan umumiy jihatni mutaxassis kasbiy madaniyatining axborot-texnologik komponenti deb ataymiz” [3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, texnika ixtisosliklari talabalarida kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ham ob’ektiv, ham sub’ektiv omillar ta’sir qiladi. Kasbiy faoliyat va ular boradigan

sharoitlar shaxsning kasbiy rivojlanishi jarayonlariga ta’sir qiladi.

Tadqiqot natijalari muhandis kasbiy madaniyatining shakllanganlik darajasini ob’ektiv baholash uchun asos sifatida mutaxassisning kasbiy fikrlash, bilim va ko‘nikmalarini, kasbiy fazilatlarini aks ettiruvchi bir qator xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi. “Kasbiy tafakkur” tushunchasini aniqlash uchun fikrlashning rivojlanish jarayonini ko‘rib chiqish kerak. “Tafakkurning rivojlanishi muayyan, umumiy rasmiy qoidalarga amal qiladi...” [2]. Ushbu qoidalar mohiyatan har qanday rivojlanish jarayonini tizim qismlarining differensiatsiyasining bosqichma-bosqich o‘sishi va ularning keyinchalik butun bir yaxlitlik ichida integratsiyasidan iboratligini belgilaydi. Eski tuzilmalar yangi, yanada murakkab tuzilmalarning paydo bo‘lishiga tayyorlab, o‘ziga xosligini yo‘qotmaydi, balki yangi yaxlitlik doirasida mustaqil mavjudlikni davom ettiradi. Shunday qilib, tafakkur ba’zi tartibsiz holatlardan ko‘proq farqlangan va integratsiyalashgan shakllarga o‘tadi, ya’ni spiral shaklida rivojlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Texnika ixtisosliklarida ta’lim olayotgan talabalarni ishlab chiqarishga tayyorlash sharoitida ularning kasbiy tafakkurini rivojlantirish jarayonini tahlil qilib, biz J. Piaje tomonidan aniqlangan tafakkurning tarixiy rivojlanish bosqichlari (ko‘rgazmalidan qiyofaliga, so‘ngra tushunchaviy tafakkurga) bilan shaxsning aqliy rivojlanish bosqichlari xususiyatlariga tayanamiz. Mazkur konsepsiyasiga ko‘ra: har qanday axborot to‘rt bosqichdan o‘tib idrok qilinadi: hissiy-motorik - sezgili idrok, belgili - axborotni belgiga aylantirish, mantiqiy - axborotni anglash va lingvistik - dastlabki uch bosqich asosida axborotni ongda so‘z-tasvir orqali akkomodatsiyasi [4], jumladan keyingi bosqichlar avvalgilarini o‘z ichiga oladi. Agar kamida bitta bosqich chiqarib tashlansa, ma’lumot umuman o‘zlashtirilmaydi yoki buzilgan holda o‘zlashtiriladi. Shunday qilib, agar tayyorgarlik jarayoni belgilangan bosqichlarni hisobga olgan holda qurilsa, o‘quv materialini idrok etish yaxshilanadi, o‘quv jarayonida esa axborotni qayta ishlash uchun kamroq vaqt va kuch sarflanadi. Axborotni idrok etish bosqichlari 1.1-rasmda keltirilgan.

Zamonaviy tadqiqotlar [4] tafakkurning quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o‘tishini ko‘rsatadi:

anglanmagan rivojlanish;

og‘zakigacha bo‘lgan anglanmaydigan shakl (ko‘rgazmali-harakatli tafakkur);

og‘zaki-ma’noviy shakl (belgili);

anglangan shakl;

nazariy-refleksiv shakl.

1.Hissiy-motorik bosqich. Sezgili idrok

2.Belgili bosiqich. Axborotni belgiga aylantirish

4. Lingvistik bosqich. So‘z-obraz orqali axborotlarni tasavvur etish.

1.1-rasm. Axborotlarni idrok etish bosqichlari

Dastlabki ikki bosqichda tafakkur bolaning o‘yin, kommunikativ, predmet-manipulyativ faoliyati jarayonida shakllanadi. Ijtimoiy muhit ta’sirida va nutqning rivojlanishida ijtimoiy-biologikdan tashqari tabiatga ega bo‘lgan belgili tasvirlar bilan ishlash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi, bu esa uchinchi bosqichga o‘tishni anglatadi. Belgilar va ramzlardan foydalanish qobiliyati olimlar tomonidan yuqori baholanadi, xususan, yetakchi tilshunos E. Benvinist ta’kidlaganidek: “Belgidan foydalanish ma’lum bir ob’ektning xarakterli tuzilmasini qayd etish va keyin uni turli xil ob’ektlar to‘plamida aniqlay olish demakdir. Aynan shu qobiliyat insonga xos bo‘lib, uni aqlli mavjudotga aylantiradi. ... U bir vaqtning o‘zida ham mavhumlik tamoyili, ham ijodiy fantaziyaning asosi bo‘lib hisoblanadi” [4].

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Shunday qilib, tafakkurdagi birinchi sifatli sakrashning mohiyati shundan iboratki, shaxs hayotining birinchi yillarida tashqi muhitning qarshiligini yengib o‘tish keyinchalik individual faoliyatning tashqi madaniy muhit mantig‘i ta’sirida o‘zgarishiga o‘tadi. Uchinchi bosqichda aqliy faoliyatni algoritmlash jarayoni sodir bo‘ladi, ya’ni tafakkurning mantiqiy amallari va toifa tuzilmalarini o‘zlashtirish sodir bo‘ladi, bunda asosiy shart bajariladi, ya’ni shaxs jamiyatda ishlab chiqarish, ijtimoiy, kognitiv va boshqa funksiyalarni bajaradi.

Tafakkur rivojlanishining to‘rtinchi bosqichi sof anglanganlik shakliga ega bo‘lib, u maktab va oliy ta’lim muassasasi ta’limi bilan bog‘liqdir. Ushbu bosqich tizimli va maqsadli o‘rganish bilan tavsiflanadi. Bu yerda o‘z-o‘zini anglash paydo bo‘ladi, ya’ni inson takrorlash orqali oldingi o‘zlashtirilganlarni qayta takrorlaydi, bu esa unga o‘zining “Men”ni tashqi dunyodan ajratishga imkon beradi.

Beshinchi bosqichda inson o‘zining ongini va tashqi olamni idrok etish shakllarini refleksiya predmetiga aylantiradi. Dunyoning yaxlit tasviri shakllanadi. Tarixiy voqealar, huquqiy va axloqiy qarashlar, ilmiy g‘oya va tushunchalarni o‘zlashtirib, inson shaxsga aylanadi. Tafakkur rivojlanish bosqichlari 1.2-rasmda keltirilgan.

Tafakkurni rivojlanish bosqichlari	Tafakkur qilish shakllari
Birinchi bosqich	Anglanmaganlik: o‘yin, predmetli-monipulyativ faoliyat.
Ikkinchi bosqich	Verbalgacha – anglamaganlik: ko‘rgazmali-harakatli

Uchinchi bosqich	Verballi-ma'noli (belgili): tafakkurning mantiqiy amallari hamda tushunchaviy tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish.
To'rtinchi bosqich	Anglanganlik. Tizimli va maqsadli ta'lim; o'zlikni anglashning namoyon bo'lishi; tashqi dunyodan o'z "Men"ligini ajratish (maktabda, oliy ta'limda).
Beshinchi bosqich	Nazariy-refleksivlik. Ong va olamni bilish shakllari – refleksiya predmeti; tarixiy voqelikni, xuquqiy va etikaga oid qarashlar, ilmiy g'oyalar hamda konsepsiyalarni o'zlashtirish natijasida inson shaxsga aylanadi.

1.2-rasm. Tafakkurning rivojlanish bosqichlari

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Texnika ixtisosliklari talabalarini kasbiy tayyorlash nuqtai nazaridan uchinchi va to'rtinchi bosqichlarni ko'rib chiqish masalasi tadqiqotimiz kontekstida alohida ahamiyatga ega, chunki ular aynan texnika ixtisosliklari talabalari kiradigan yosh toifasiga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, tafakkurning rivojlanish anglanganlik bosqichidan o'tib, talaba kasbiy tayyorgarlik jarayonida ta'lim faoliyatini kelajakdagi ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'lash qobiliyatini rivojlantiradi, uning tafakkurida kasbiy muhit, uning xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati haqida yaxlit fikr shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Исаев И. Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по пед. спес. / И.Ф. Исаев. - 2-э изд., стер. - Москва: Академия, 2004 (ГУП Сарат. полигр. комб.). - 206 с.

2. Иванов А.В. Сознание и мышление/А.В. Иванов - М.: Изд-во МГУ, 1994.130с.

3. Молоткова Н.В. Методика формирования информасионно-технологической составляющей профессионалной культуры учителя: Авто- реф. дис...канд. пед. наук/ Н.В. Молоткова. - Тамбов, 2000.- 24с.

4. Драгунова Э.А. Проектирование и реализасия теоретического обеспечения многоуровневой подготовки спесиалистов в вузе: Дис...канд. пед. наук: 13.00.08/ Э.В. Драгунова.- Толяти, 2000.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nosirov Sardor
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktoranti
O‘zbekiston, Chirchiq shahri
E-mail: nosirovsardor@gmail.com

SUZISH IXTISOSLIGIDAGI TALABALARNI SUVDA VA QURIKLIKDA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USLUBIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada suzish ixtisosligidagi talabalarning suvda va quruqlikda mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uslubi yoritiladi. Suvda mashg‘ulot o‘tkazish texnikasi, jismoniy tayyorgarlik mashqlari hamda quruqlikdagi umumiy va maxsus tayyorgarlik usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va pedagogik metodlar haqida so‘z yuritiladi. Maqola suzish bo‘yicha ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Suv sporti turlari, suzuvchilarni funksional holati, suzish ixtisosligi talabalari uchun nafas olish mashqlari.*

Носиров Сардор
базовый докторант Узбекского государственного университета физической культуры и спорта
Узбекистан, город Чирчик

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ СТУДЕНТОВ ПЛОВАНИЯ НА ВОДЕ И НА СУШЕ

Аннотация. *В данной статье освещается методика эффективной организации занятий на воде и суше для студентов-плавателей. Анализируются техника проведения занятий на воде, упражнения по физической подготовке, а также методы общей и специальной подготовки на суше. Также будут обсуждаться инновационные подходы и педагогические методы, направленные на повышение эффективности обучения. В статье содержатся научно-практические рекомендации, направленные на совершенствование процесса обучения плаванию.*

Ключевые слова: *Виды водных видов спорта, функциональное состояние пловцов, дыхательные упражнения для студентов-пловцов.*

Sardor Nosirov
is a basic doctoral student at the Uzbek State University of Physical Culture and Sports Chirchik, Uzbekistan

METHODS OF ORGANIZING CLASSES FOR STUDENTS OF SWIMMING ON WATER AND ON LAND

Annotation. *This article will highlight the style of effective organization of classes of students in the swimming specialty in water and on land. Water training techniques, physical training exercises and general and special methods of training on land are analyzed. Also mentioned are innovative approaches and pedagogical methods aimed at improving the effectiveness of training. The article includes scientific and practical recommendations aimed at improving the educational process of swimming.*

Keywords: *water sports, functional status of swimmers, breathing exercises for swimming specialty students.*

Kirish.

Dunyoda yoshlarning suv sporti turlariga bo‘lgan qiziqishi hamda suv sporti turlari ommaviyligini oshirish, bu orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash, saralash (seleksiya) va maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda. Suv sporti turlari bo‘yicha yuqori mahoratli sportchilar qamrovini kengaytirish, professional trenerlar, sport tibbiyoti xodimlari hamda boshqa mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Suv sporti turlarini sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi va yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashga xizmat qiladigan sport turi sifatida targ‘ib qilib borilmoqda.

Dolzarbligi.

Sport sohasini shunchaki o‘yin va musobaqalar emas, millat genofondi, mamlakatning qudrati va obro‘-e’tiborini butun dunyoga tarannum etadigan eng ta’sirchan vosita, eng ustuvor vazifasi sifatida qaralmoqda. Shu boisdan,

suzuvchilarni funksional holatini yaxshilashga qaratilgan zamanoviy usullarni boshqarish mexanizmini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Tadqiqot maqsadi.

Suzish ixtisosligidagi talabalarni suvda va quriklikda mashg‘ulotlarini tashkil etish uslubiyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

1. Mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbaalarni tahlil etish va umumlashtirish.

2. Suzish ixtisosligidagi talabalarni quruqlikda bajariladigan nafas olish mashqlarini ishlab chiqish.

3. Suzish ixtisosligidagi talabalarni suvda bajariladigan nafas olish mashqlarini ishlab chiqish.

4. Ishlab chiqilgan metodikalarni pedagogik tajribada samaradorligini asoslash.

Adabiyotlar tahlili.

Suvda va quriklikda suzish ixtisosligi bo‘yicha talabalarni mashg‘ulotlarining tashkil etish uslubi haqida adabiyotlar tahlili quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. **Suvda va quriklikda mashg‘ulotlar tashkiloti.**

Suvda va quriklikda suzish mashg‘ulotlarini tashkil etish ixtisoslashgan sport turlari uchun alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, murabbiylar va talabalar uchun aniq metodologiya va dasturlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Buning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

- **Suvdagi mashg‘ulotlar:**
  - Suzishning turli usullari bo‘yicha texnik mashqlarni bajarish.
  - Jismoniy tayyorgarlikni oshirish: suzish orqali murakkab jismoniy ko‘nikmalarni rivojlantirish (ko‘krak va orqa mushaklari, nafas olish va dam olish).
  - Maxsus qo‘llanmalar yordamida to‘g‘ri suzish texnikasini o‘rgatish.
- **Qurilishdagi mashg‘ulotlar:**
  - Jismoniy tayyorgarlik: suzuvchining kuch va chidamliligini rivojlantirish uchun quriklikda maxsus mashqlar.
  - Ko‘krak mushaklarini kuchaytirish va mushaklar sistemasi bilan bog‘liq maxsus texnikalarni o‘rgatish.
  - Aerobik va anaerobik tayyorgarlik: kuchni va chidamlilikni rivojlantirish.

2. **Adabiyotlar Tahlili**

2.1 ***Suvdagi mashg‘ulotlarni tashkil etish***

- **“Suzishning asosiy texnikasi”** (2020) kitobida S.A. Ubaydullayev suzish texnikasini mashg‘ulotlar jarayonida qanday samarali tarzda o‘rgatish mumkinligini tahlil qilgan. Kitobda mashg‘ulotlar uchun tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvning ahamiyati ko‘rsatilgan. Muallif nazariy va amaliy jihatlardan to‘liq qamrovli yondashuvni taklif etadi, ya’ni suzishning har bir usuli uchun maxsus mashqlar tizimi, nafas olish usullari va psixologik tayyorgarlik hamda qayta tiklanish rejimlarini ishlab chiqish zaruriyati haqida so‘z yuritadi.

2.2 ***Qurilishdagi mashg‘ulotlar***

- **“Jismoniy tayyorgarlik va sportchi mushak tizimi”** (2021) nomli ilmiy maqolada V.V. Karpov suzish ixtisosligi bo‘yicha talabalar uchun qurikdagi mashg‘ulotlarni muvofiqlashtirishga oid ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqqan. Muallif bu turdagi mashg‘ulotlar orqali aerobik va anaerobik tizimlarning samarali rivojlanishini ko‘rsatadi va suzish texnikasini takomillashtirishda qurikdagi maxsus mashqlarni alohida ta’kidlaydi.

2.3 ***Psixologik yondashuvlar***

- **“Sportchilarni ruhiy tayyorlash”** (2019) kitobida A.G. Petrov sportchilarning psixologik tayyorgarlik jarayonini va mashg‘ulotlarga bo‘lgan ruhiy tayyorgarlikning samarali tashkil etilishining ahamiyatini o‘rganadi. Kitobda sportchilarning stressni boshqarish, raqobatbardoshlikni oshirish va musobaqa davrida psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish bo‘yicha uslublar yoritilgan. Suvda mashg‘ulotlar ham sportchining psixologik holatini inobatga olib, maxsus strategiyalar asosida olib borilishi kerak.

3. **Metodologiya va yondashuvlar**

Mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida **bosqichma-bosqich yondashuv** muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuvga quyidagi elementlar kiradi:

- **Texnik yondashuv**: Suvda suzish texnikasini mukammallashtirish, har bir suzish usuli uchun maxsus mashqlarni bajarish.
- **Jismoniy yondashuv**: Qurikdagi mashg‘ulotlar orqali suzuvchilarning kuch, chidamlilik, koordinatsiya va moslashuvchanligini rivojlantirish.
- **Psixologik yondashuv**: Sportchining ruhiy holatini nazorat qilish, stressni kamaytirish va musobaqa oldidan yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni ta’minlash.

4. **Amaliy takliflar**

1. Suvda va qurikdagi mashg‘ulotlar o‘rtasidagi balansni saqlash: Suvda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar faqat texnik yondashuvni rivojlantirsa, qurikdagi mashqlar sportchining jismoniy holatini va kuchini oshirishga qaratiladi. Shuning uchun, har ikkala turdagi mashg‘ulotlarni ham samarali muvofiqlashtirish zarur.

2. Motivatsiya va psixologik tayyorgarlik: Suzishning psixologik jihatlariga alohida e’tibor qaratish, sportchining ishonch hosil qilishini ta’minlash va psixologik stressni kamaytirishga yordam beradi.

3. Individual yondashuv: Har bir talabaning jismoniy va ruhiy xususiyatlari turlicha bo‘lganligi sababli, mashg‘ulotlarni individual tarzda tashkil etish zarur.

Suvda va qurikdagi suzish mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar, texnik, jismoniy, psixologik va motivatsion tayyorgarlikning uyg‘unlashtirilgan tizimi kerak. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir sportchining individual

xususiyatlarini hisobga olib, kompleks va tizimli yondashuv orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Ta'lim jarayonida suzishning har bir jihati bo'yicha maxsus mashqlarni ishlab chiqish va sportchining psixologik holatini inobatga olish juda muhimdir.

Natija va muhokama.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Nafas olish suzuvchilar uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Suzish vaqtida shug'ullanuvchilarni to'g'ri nafas olish texnikasini mukammal egallash, o'pkaning tiriklik sig'imini oshirish, suv ostida nafasni ushlash va kislorod almashinuvini yaxshilash sportchilarning natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Biz tomonimizdan taqdiqot davomida suzish ixtisosligi talabalarini nafas olish tizimini yaxshilash maqsadida suvda va quruqlikda bajariladigan tabaqalashtirilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqildi. Ushbu mashqlar majmuasi suzuvchilarning nafas olish tizimini rivojlantirish, chidamliligini oshirish va suvda optimal nafas olish texnikasini shakllantirishga qaratilgan. Majmuada quruqlikda va suvda bajariladigan mashqlar alohida ko'rsatilgan bo'lib, ular nafas olish jarayonini yaxshilash va suzish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Suzish ixtisosligi talabalari uchun nafas olish mashqlari majmuasi ikkita yo'nalishda mashg'ulotlar jarayonida qo'llanildi. Jumladan, eng samarali quruqlikda va suvda bajariladigan mashqlar saralandi. Har ikkala yo'nalishdagi vositalar ham o'pkaning tiriklik sig'imini oshirish, nafas olish chuqurligini yaxshilash, suv ostida nafasni ushlash qobiliyatini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Biz tomonimizdan suzish ixtisosligi talabalarining nafas olish, suvda nafas ushlab turish qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan quruqlikda bajariladigan mashqlar majmuasi ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Quruqlikda bajariladigan nafas olish mashqlari

Tr	Mashq mazmuni	Takrorlash soni	Seriyalar soni	YUQS zar/daq.	Dam olish oraliği
1.	Diafragmatik nafas olish – Nafas olayotganda qorin bo'shlig'ini kengaytirish, chiqarishda yengil siqish.	10–12 marta	2–3	90-110	30 soniya
2.	Ko'krak qafasini kengaytirish – Qo'llarni yon tomonlarga ochib, burun bilan chuqur nafas olish, chiqarishda qo'llarni oldinga birlashtirish.	8–10 marta	2	90-100	30 soniya
3.	Nafasni sekin chiqarish – Burun bilan nafas olib, og'iz orqali juda sekin chiqarish (5–7 soniya davomida).	10–12 marta	2	50–60	30 soniya
4.	"Qisqa va tez nafas olish" usuli – 1 soniyada tez nafas olib, 3 soniyada chiqarish.	10–12 marta	2–3	100-120	30 soniya
5.	Nafasni ushlab turish – Chuqur nafas olib, 20–30 soniya ushlab turish, keyin asta chiqarish.	4–6 marta	2	100-115	30 soniya
6.	Burun bilan chuqur nafas olib, og'iz orqali tez chiqarish	12–15 marta	2	100-115	30 soniya
7.	Nafas chiqarishda tanani pastga egish – Chuqur nafas olib, oldinga egilish va asta nafas chiqarish.	8–10 marta	2	90-100	30 soniya
8.	Nafas olishni o'zgartirib bajarish ("3-5-7" usuli) – 3, 5 va 7 soniyadan keyin nafas olish.	8–10 marta	2–3	100-115	30 soniya

Suv sporti bilan shug'ullanuvchi talabalarda nafas olish ular organizmining eng muhim fiziologik jarayonlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, jismoniy va psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Suzish sporti mashg'ulotlari va reabilitatsiya jarayonlarida to'g'ri nafas olish texnikasi organizmning kislorod bilan ta'minlanishini yaxshilaydi. Bundan tashqari suzuvchi talabalarni yurak-qon tomir tizimining faoliyatini me'yorini yaxshilaydi hamda umumiy jismoniy holatni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu majmuada quruqlikda bajariladigan nafas olish mashqlari saralandi hamda qo'llash samaradorligi tahlil qilindi. Majmuaga saralangan nafas olish mashqlari orqali suzuvchi talabalarni organizmiga fiziologik ta'siri, yurak urish chastotasi (YUQS), takrorlash soni va seriyalar soni me'yorlari ishlab chiqildi.

Diafragmatik nafas olish mashqlarining suzish ixtisosligi talabalariga ta'siri nafas olish jarayonida qorin bo'shlig'ining kengayishi tufayli diafragmaning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu harakatni bajarish davomida YUQS 90-110 zarba/daq. Me'yor etib belgilandi. Ushbu harakatlarni muntazam bajarish orqali diafragma mushaklarini mustahkamlash, o'pka ventilyatsiyasini yaxshilash hamda stressni kamaytirishga erishiladi. Ushbu majmuada ko'krak qafasini kengaytirishga qaratilgan vositalar me'yori ham ishlab chiqildi. Bunda ko'krak qafasi hajmini oshirish va nafas yo'llarining ochilishini yaxshilashga yordam beradi. Ushbu mashqni YuQS: 90-100 zarba/daq. da bajarish suzuvchi organizmini charchoqini oldini olishda muhim hisoblanadi. Harakatni muntazam bajarish orqali suzuvchilarda o'pkani kislorod bilan

to‘ldirish, yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilashga erishiladi. Suzish ixtissosligi talabalarida quruqlikda nafasni sekin chiqarish mashqlarni bajarish uslubiyati ham ishlab chiqildi. Nafas chiqarish jarayonida asab tizimini tinchlantirish va kisloroddan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi. YuQS 50-60 zarba/daqda bajarilsa qon bosimini pasaytirish, yurak ritmini barqarorlashtirishga erishiladi. “Qisqa va tez nafas olish” usulidan foydalanish orqali o‘pkaning triklik sig‘imini oshirish va nafas olish mushaklarini mustahkamlashga erishiladi. Bunda YuQS: 100-120 zarba/daq. da bajarish me’yor qilib belgilandi. Ushbu harakatlarni bajarish orqali suzuvchilar o‘pka hajmini oshirish, aerob sig‘imni yaxshilashga erishiladi. Quruqlikda bajariladigan nafas mashqlar majumasiga nafasni ushlab turish mashqi ham saralandi. Ushbu harakatlar suzuvchilar o‘pka sig‘imi va nafas olish nazoratini yaxshilash imkonini beradi. Ushbu mashqni YuQS: 100-115 zarba/daq. me’yor etib belgilandi. Bu mashqni muntazam bajarish orqali suzish ixtisosligi talabalar o‘pkasini maksimal hajmda ishlashga moslashtirish, nafas olish ritmini nazorat qilishga erishiladi. Burun bilan chuqur nafas olib, og‘iz orqali tez chiqarish mashqlari me’yori ham ishlab chiqildi. Ushbu mashqni muntazam bajarish orqali nafas olish tezligini boshqarish va kislorod almashinuvini yaxshilashga erishiladi. YuQS: 100-115 zarba/daq. eng optimal hisoblanad. Nafas olish tizimi barqarorligini ta’minlashga erishiladi. Ushbu mashqlar majmuasiga nafas chiqarishda tanani pastga egish kabi mashqlar ham saralandi. Bu mashqni suzish ixtisosligi talabalar organizmiga ta’siri nafas chiqarish jarayonini samarali qilish va nafas yo‘llarini ochishga yordam beradi. Eng optimal YuQS: 90-100 zarba/daq.hisoblanadi. Ushbu mashqni bajarishda orqa va qorin mushaklarini faollashtirishga yordam beradi. Navbatdagi mashq esa “3-5-7” usulidan foydalanildi bunda suzish ixtisosligi talabalarni nafas olish ritmini o‘zgartirib mushaklar va asab tizimiga ijobiy ta’sir qilishga erishiladi. Eng optimal YuQS: 100-115 zarba/daq. etib belgilandi. Ushbu usullarni suzish mashg‘ulotlarida foydalanish orqali konsentratsiyani oshirish va nafas olish moslashuvchanligini rivojlantirishga erishiladi. Suzish ixtisosligi talabalarni nafas olish tizimini yaxshilashga qaratilgan quruqlikda bajariladigan mashqlar majmuasidan foydalanildi. Yuqorida keltirilgan quruqlikdagi nafas olish mashqlari o‘pka ventilyatsiyasini yaxshilash, yurak-qon tomir tizimini barqarorlashtirish va umumiy jismoniy chidamlilikni oshirish imkonini berdi. Har bir mashq o‘ziga xos fiziologik ta’sirga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri qo‘llash suzuvchilarning jismoniy holatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mashqlar muntazam bajarilganda nafas olish samaradorligi oshib, organizmning umumiy chidamliligi kuchayishiga erishiladi. Tadqiqotimizda, quruqlikda bajariladigan nafas olish mashqlari o‘pka hajmini oshirish, kislorod almashinuvini yaxshilash hamda umumiy fiziologik holatni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga ushbu usullar suzuvchilar, nafas olishini yaxshilash va kundalik stressni kamaytirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari tadqiqotimiz davomida suzish ixtisosligi talabalar uchun suvda nafas olish mashqlar saralandi hamda majmua ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Suvda bajariladigan nafas olish mashqlari

Tr	Mashq mazmuni	Takrorlash soni	Seriyalar soni	YUQS (%)	Dam olish oraliği
1.	Suv ostida nafasni ushlab turish – 3–5 metr masofani nafas ushlab suzish.	4–6 marta	2 seriya	120-140	40 soniya
2.	“3-5-7-9” nafas olish sxemasi – Har 3, 5, 7 va 9 turtkidan keyin nafas olish.	25–50 metr	3–4 seriya	130-150	45 soniya
3.	Nafasni chiqarib, suvda yotish – Suvda yotib, nafasni chiqarish va suzmasdan qolish.	8–10 marta	2 seriya	100-110	30 soniya
4.	Nafas chiqarishda suzish – 10–15 metr masofani nafas chiqargan holda bosib o‘tish.	3–5 marta	2 seriya	130-145	40 soniya
5.	Har xil nafas olish usullari bilan suzish – Har 2, 3, 5 va 7 harakatdan keyin nafas olish.	50–100 metr	3 seriya	130-150	45 soniya
6.	Nafas olishni faqat burun orqali bajarish – Burun bilan nafas olib, og‘iz orqali chiqarish.	10–12 marta	2 seriya	110-125	30 soniya
7.	Nafas chiqarishda suv ostida harakat qilish – Nafas chiqarib, 5–10 metr masofani oyoq harakati bilan bosib o‘tish.	4–6 marta	2 seriya	125-140	40 soniya
8.	Delfin uslubida nafas olish – Har 3 yoki 5 harakatdan keyin nafas olish.	25–50 metr	3 seriya	130-145	45 soniya

Biz tomonimizdan tadqiqotimiz davomida suzish ixtisosligi talabalari uchun suvda va quruqlikda nafas mashqlar majmuasi ishlab chiqildi. Suzish ixtisosligi mashg‘ulotlari quruqlikda va suvdagi nafas olish mashqlar

me’yori ishlab chiqildi. Bunda quruqlikda va suvda bajariladigan nafas olish mashqlari suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, nafas olish tizimini rivojlantirish hamda suzish jarayonida kislorod yetkazib berish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu majmua o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldirib boradi. Jismoniy yuklamalar va yurak urish chastotasi bo‘yicha farqlar tahlil qilib borildi. Quruqlikdagi mashqlar nisbatan past intensivlikka ega bo‘lib, 90–120 zar/daq. oralig‘ida yurak urishiga olib keladi. Bu vositalar suzish ixtisosligi talabalari mushaklarini tayyorlash hamda suzishga moslashish bosqichi sifatida xizmat qiladi. Suvdagi mashqlar esa 100–150 zar/daq. oralig‘ida yurak urishini oshib bordi, chunki suvda bajariladigan harakatlar nafas olishni qiyinlashtiradi va qo‘shimcha qarshilikni yengish talab etishi tadqiqotlarimiz davomida aniqlandi. Ushbu majmualar nafas olish texnikasiga ta’siri ham ijobiydir. Bunda quruqlikdagi mashqlar suzuvchilarning diafragma va ritmik nafas olishini rivojlantirishga qaratilgan. Mashg‘ulotlar jarayonida burun va og‘iz orqali nafas olishni nazorat qilish, nafas chiqarish tezligini boshqarish imkonini beradi. Bundan tashqari suvdagi mashqlar esa suv ostida uzoqroq nafas ushlab turish, harakat bilan sinxron nafas olish hamda muhit sharoitiga moslashish qobiliyatini shakllantirishga erishildi. Suv sport turlari bilan shug‘ullanuvchilarda suzish davomida kislorod yetkazib berish samaradorligi juda muhimligini inobatga olib uni me’yorini oshirishga qaratilgan vositalarni ham tizimli qo‘llashga e’tibor qaratdik. Bunda quruqlikda suzuvchi talabalar mushaklar kislorodga bo‘lgan ehtiyojni oldindan tayyorlaydi. Bu esa suzish paytida nafasni yanada samarali ushlash imkonini bergani tadqiqotimizda aniqlandi. Suzish talabalarini suvdagi harakatlarini muntazam bajarish orqali, jumladan suvda kislorod tanqisligi sharoitida harakat qilish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bu esa suzuvchi uchun chidamlilik hamda ishchanlik qobiliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Suvda va quruqlikda bajariladigan nafas mashqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikga ham e’tibor qaratildi.

Xulosa.

Suzish ixtisosligi talabalarining quruqlikdagi mashqlar tayyorgarlik bosqichi bo‘lsa, suvdagi mashqlar amaliy bosqich etib belgilandi. Bunda suzish ixtisosligi talabalariga dastavval quruqlikda to‘g‘ri nafas olishga o‘rgatish, suvda to‘g‘ri nafas olish imkonini beradi. Shu sababli, mashqlar majmuasi bosqichma-bosqich o‘tish orqali mukammal natijalarga erishishga yordam beradi.

Suzish ixtisosligi talabalari mashg‘luotlarida quruqlikda bajariladigan mashqlar suzuvchilarning o‘pka hajmini kengaytirish, diafragmani mustahkamlash va nafas olish tizimini yaxshilash imkonini beradi. Suvdagi mashqlar suzish paytidagi real sharoitlarga moslashish, kislorod tanqisligida harakat qilish hamda suv ostida uzoqroq nafas ushlab turish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Quruqlikda va suvda bajariladigan mashqlar majmuasining o‘zaro uyg‘un bajarilishi suzuvchilarning umumiy chidamliligini oshirish hamda sport natijalarini yaxshilashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Alistair Brownlee and Jonatan Brownlee with Tom Fordyce, Swim, Bike, Run, Penguin books. London 2013. – 264p

2. Ишимов Б. А. “Спорт педагогик маҳоратини ошириш”// Ўқўв қўлланма 2021 йил 23 ноябрь, рўйхатга олиш рақами 500-181. Toshkent “O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi” 2022. –130-б.

3. Яковлев, Б.П. Мотивация и эмоции в спортивной деятельности [Электронный ресурс]: учебное пособие / Б.П. Яковлев. -Электрон. дан. Москва : Советский спорт, 2014. - 312 с.

4. Нечунаев И.А. Книга-тренер. – М.: Советский спорт, 2013. – С.55–58.

5. Турчанинов С. Ю. Плавание - жизненно важный навык. 13.00.04 -теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки, оздоровительной и адаптивной физической культуры. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Ярославль, 2005. – 124 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nizomov Akmaljon Akramjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport fakulteti
"Sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi" o'qituvchisi
E-mail:nizomovakmaljon1995@gmail.com

GANDOLCHILARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada gandbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi, uning sportchi faoliyatidagi o'rni va jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikalari tahlil qilinadi. Sportchilarning yuksak natijalarga erishishida umumiy jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati, zamonaviy yondashuvlar va mashg'ulot jarayonidagi asosiy tamoyillar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *gandbol, jismoniy tayyorgarlik, chidamlilik, tezkorlik, kuch, koordinatsiya.*

Низомов Акмалжон Акрамжон угли
Факультет физической культуры и спорта Ферганского государственного университета
Преподаватель "кафедры теории и методики спортивных игр"

ОБЩАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА ГАНДБОЛИСТОВ

Аннотация: *В данной статье анализируется общая физическая подготовка гандболиста, ее роль в деятельности спортсмена и методики развития физических качеств. Освещается значение общей физической подготовки в достижении спортсменами высоких результатов, современные подходы и основные принципы тренировочного процесса.*

Ключевые слова: *гандбол, физическая подготовка, выносливость, скорость, сила, координация.*

Nizamov Akmaljan Akramjan ugli
Fergana State University Faculty of Physical Education and sports
Teacher of the "Department of theory and methodology of sports games"

GENERAL PHYSICAL FITNESS OF GANDOLISTS

Annotation: *This article analyzes the general physical training of handball players, its role in the activity of an athlete and methodologies for the development of physical qualities. The importance of general physical fitness, modern approaches and basic principles in the training process are highlighted in the high performance of athletes.*

Key words: *handball, physical fitness, endurance, agility, strength, coordination.*

Kirish.

Gandbol - bu yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni talab qiluvchi jamoaviy sport turi bo'lib, unda sportchilarning texnikasi, taktikasi bilan bir qatorda ularning jismoniy holati ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi (UJT) - bu ularning barcha harakat faoliyatiga tayyorgarlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Aynan shu omil asosida sportchilar keyingi maxsus tayyorgarlik bosqichlariga muvaffaqiyatli o'tishadi.

Adabiyotlar tahlili.

Gandol sporti murakkab texnik harakatlarga asoslangan, yuqori darajada kuch, chidamlilik va koordinatsiya talab qiluvchi sport turi hisoblanadi. Tadqiqotchilar umumiy jismoniy tayyorgarlikning gandolchilarning sport natijalariga bevosita ta'siri borligini ko'p bor ta'kidlab o'tganlar.

Masalan, **Smith va boshq. (2017)** o'z tadqiqotlarida gandolchilarning yurak-qon tomir tizimi faolligini oshirish, kislorod iste'molini yaxshilash orqali ularning chidamlilik ko'rsatkichlari yaxshilanishini aniqlagan. Shu bilan birga, umumiy kuch mashqlari — ayniqsa, oyoq va bel mushaklarini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar — eshkak tortish harakatlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi (**Rodriguez et al., 2015**).

Petrov (2014) o'zining rus tilidagi ishida umumiy jismoniy tayyorgarlikni sportchining "energetik bazasi" deb atagan va gandolchilar uchun bu tayyorgarlik darajasining yuqoriligi maksimal yuklamalarni bajara olish qobiliyatini oshirishini qayd etgan. Shu asosda, UJT

mashqlari sportchilarning sportga maxsus tayyorgarliklarini ham tezlashtiradi.

Shuningdek, **Uzbekistondagi sport institutlarida olib borilgan tadqiqotlar**da ham gandolchilarning tayyorgarlik jarayonida umumiy jismoniy mashqlar (yugurish, suzish, og‘irlik bilan mashqlar, aerobik yuklamalar) asosiy element sifatida qo‘llanilishi, va bu mashg‘ulotlar sportchilarni jarohatlardan himoya qilishi ham ta’kidlangan (**Toshmatov, 2019**).

Asosiy qism.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi

Umumiy jismoniy tayyorgarlik — bu sportchining asosiy jismoniy sifatlarini (kuch, chidamlilik, chaqqonlik, tezkorlik, koordinatsiya va boshqalar) rivojlantirishga yo‘naltirilgan tayyorgarlik jarayonidir. Gandbolchilar uchun bu tayyorgarlik sportchi organizmining umumiy holatini yaxshilaydi, jarohatlar xavfini kamaytiradi va tiklanish jarayonini tezlashtiradi.

Gandbolchilarda rivojlantiriladigan asosiy jismoniy sifatlar

1.**Chidamlilik** – gandbolchilar o‘yinning butun davomida yuqori tempda harakatlanishlari, hujum va himoya o‘rtasida tez almashishlari zarur.

2.**Tezkorlik va chaqqonlik** – to‘satdan yo‘nalishni o‘zgartirish, qaror qabul qilish tezligi va raqib ustidan ustunlik uchun muhim.

3.**Kuch** – ayniqsa, yuqori tananing kuchi zarba berish, to‘p otish va raqib bilan to‘qnashuvlarda muhim ahamiyatga ega.

4.**Koordinatsiya** – murakkab texnik harakatlarni aniq va tez bajarish uchun zarur.

Tayyorlov mashg‘ulotlari va ularning metodikasi

Gandbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi quyidagi mashg‘ulotlar orqali shakllantiriladi:

- Yugurish (uzoq va qisqa masofalarda)
- Tezlik va reaksiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar
- Aylanuvchi mashg‘ulotlar (kuchga yo‘naltirilgan)
- Plyometrik mashqlar
- Trenerliklar ostida olib boriladigan individual dasturlar

Mashg‘ulotlar davriylik, yuklama intensivligi va tiklanish vaqtlarini hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

Gandolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi (UJT) ularning sportdagi muvaffaqiyati uchun asosiy omillardan biridir. UJT nafaqat kuch va chidamlilikni oshiradi, balki texnikani mukammallashtirish, jarohatlardan saqlanish va musobaqa davomida barqaror natijalarni ta'minlashga yordam beradi .

Umumiy jismoniy tayyorgarlikning asosiy yo‘nalishlari

1.**Kuch va quvvatni rivojlantirish.** Gandolchilar uchun maksimal kuch va kuch-quvvat muhim ahamiyatga ega. Kuch mashqlari, masalan, og‘irlik ko‘tarish, umumiy kuchni oshirishga yordam beradi .

2.**Chidamlilik va yurak-qon tomir salomatligi.** Uzun masofalarga eshkak eshish uchun yurak-qon tomir tizimi mustahkam bo‘lishi zarur. Aerobik mashg‘ulotlar, masalan, yugurish yoki suzish, umumiy chidamlilikni oshiradi.

3.**Moslashuvchanlik va harakatchanlik.** Bo‘g‘imlarning harakatchanligi va mushaklarning moslashuvchanligi texnikani to‘g‘ri bajarish va jarohatlardan saqlanish uchun muhimdir. Stretching va yoga kabi mashqlar bu borada foydali .

4.**Muvozanat va koordinatsiya.** Gandol eshkak eshish jarayonida tananing muvozanatini saqlash va harakatlarni muvofiqlashtirish zarur. Muvozanat mashqlari va koordinatsiyani rivojlantiruvchi faoliyatlar bu yo‘nalishda yordam beradi.

Natijalar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, UJT darajasining oshishi gandbolchilarning texnik va taktik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, 11–12 yoshli sportchilar bilan olib borilgan pedagogik tajriba mashg‘ulotlari ularning chaqqonlik va tezkorlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilagan .

Yosh gandbolchilarni tayyorlashda bosqichma-bosqich yondashuv samarali bo‘lib, dastlabki tayyorgarlik davrida (7–9 yosh) sportga qiziqishni oshirish va jismoniy asoslarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi .

Munozaralar.

UJTning samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq. Murabbiylar tomonidan mashg‘ulotlar individual yondashuv asosida tashkil etilishi, yosh va jismoniy imkoniyatlar hisobga olinishi zarur. Shuningdek, UJT va maxsus jismoniy tayyorgarlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir, chunki faqat umumiy tayyorgarlik texnik mahoratni to‘liq rivojlantirish uchun yetarli emas .

Bundan tashqari, UJT dasturlarining samaradorligini baholashda ilmiy yondashuv va statistik tahlil usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu, mashg‘ulotlar natijalarini aniq o‘lchash va tahlil qilish imkonini beradi .

Xulosa.

Gandbolchilarning yuqori sport natijalariga erishishida umumiy jismoniy tayyorgarlik muhim rol o‘ynaydi. U sportchilarni maxsus tayyorgarlik va musobaqalarga tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun tayyorlov jarayonida individual yondashuv, sportchi yoshiga va salohiyatiga mos yuklamalar tanlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатни миллат қилишига хизмат қилсин. Т., Ўзбекистон, 1998.

2. Petrov, I. V. (2014). *Obshchaya fizicheskaya podgotovka sportsmenov na etape nachal'noy spetsializatsii*. Moskva: Fizkultura i sport.

3. Rodriguez, F. A., Maderuelo, J. A., Iglesias, X., & Chaverri, D. (2015). Effects of strength training on rowing performance in elite athletes. *International Journal of Sports Physiology and Performance*, 10(3), 357–362. https://doi.org/10.1123/ijspp.2014-0256

4. Smith, T. B., Hopkins, W. G., & Spratford, W. (2017). Training loads and performance in rowing: A review of current evidence. *Journal of Sports Sciences*, 35(11), 1047–1056. https://doi.org/10.1080/02640414.2016.1215496

5. Toshmatov, A. (2019). *Gandbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish usullari*. Toshkent: O'zDJTI nashriyoti.

6. Nizomov, A. (2024). Yosh qo 'l to 'pichilarni tanlab olish. *Research and Implementation*, 337-340.

7. Nizomov, A. (2024). Gandbol o 'yini tehnikasi va taktikasini rivojlantirishning umumiy tasnifi. *Research and Implementation*, 429-432.

8. Solijonovich, S. J. (2025). VOLEYBOL MASHG'ULOTLARIDA O'YIN CHIDAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN DASTLABKI O'RGATISH TEXNIKASI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 64(4), 198-205.

9. Solijonovich, S. J. (2025, January). 15-16 YOSHLI VOLEYBOLCHILARNI SPORT SEKSIYASI MASHG'ULOTLARI ORQALI UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH. In *International Conference on Economics, Finance, Banking and Management* (pp. 10-22).

10. Solijonovich, S. J. (2025, January). VOLEYBOL SEKSIYASINING TUZILISHI, MAQSADI VA VAZIFALARI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 6-17).

11. Sulaymonov, J. S. (2024). Maktab va professional ta'lim tizimida ta'lim tizimidagi innovatsion pedagogik texnologiyalar. Экономика и социум, (2 (117)-1), 673-676.

12. Solijonovich, S. J. (2023). ZAMONAVIY VOLEYBOLDA TO 'PNI O 'YINGA KIRITISH TEXNIKASI. IMRAS, 6(6), 366-373.

13. Abduraxmonov,S.(2023). Gandbolchilarning sport tayyorgarligi tizimi. Евразийский журнал академических исследований, 3(10), 195-197.

14. Abduraxmonov, S.(2023). Gandbol sport turini rivojlantirishning dolzarb masalalari. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(25),95-98.

15. Nizomov, A. (2024). Gandbolda darvozabon o 'yinining tehnikasi. *Research and Implementation*, 440-444.

16. Nizomov, A. (2024). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida gandbolni o 'rgatish hususiyatlari. *Research and Implementation*, 433-436.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xoldorov Ulug'bek Aropatalievich
Chirchiq Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

OLIMPIYA VA PARALIMPIYA SPORT TURLARIGA TAYYORLASH MARKAZLARIDAGI O'QUV VA AMALIY MASHG'ULOTLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekistonda Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining faoliyati, ularning sport sohasidagi o'rni va rivojlantirish yo'nalishlari yoritilgan. Markazlarning sportchilarni jismoniy, psixologik va texnik jihatdan tayyorlashdagi roli hamda xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarga erishishda tutgan o'rni tahlil qilingan. Imkoniyati cheklangan sportchilar uchun sharoitlarni yaxshilash, innovatsion metodikalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni o'rganish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Ushbu maqola O'zbekistonda sport-ta'lim tizimini takomillashtirishga oid dolzarb masalalarni yoritadi va rivojlanish uchun tavsiyalar beradi.*

Kalit so'zlar: *Olimpiya sport turlari, paralimpiya sport turlari, sport-ta'lim muassasalari, jismoniy va psixologik tayyorgarlik, innovatsion trening usullari, imkoniyati cheklangan sportchilar, sport infratuzilmasi, sportni moliyalashtirish.*

Ulug'bek Aropatalievich Kholdorov
Deputy Director for Educational Affairs,
Chirchik Olympic and Paralympic Sports Training Center

OLYMPIC AND PARALYMPIC SPORTS TRAINING CENTERS: EDUCATIONAL AND PRACTICAL ACTIVITIES

Abstract. *This article explores the activities of Olympic and Paralympic sports training centers in Uzbekistan, their role in the sports sector, and development directions. The study analyzes the role of these centers in preparing athletes physically, psychologically, and technically, as well as their contribution to achieving success in international competitions. Proposals for improving conditions for athletes with disabilities, implementing innovative methods, and learning from international experience are presented. This article addresses urgent issues related to improving the sports education system in Uzbekistan and provides recommendations for further development.*

Keywords: *Olympic sports, Paralympic sports, sports education institutions, physical and psychological training, innovative training methods, athletes with disabilities, sports infrastructure, sports funding.*

Холдоров Улугбек Аропаталиевич
Заместитель директора по учебной работе,
Чирчикский центр подготовки по олимпийским и паралимпийским видам спорта

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ЗАНЯТИЯ В ЦЕНТРАХ ПОДГОТОВКИ ПО ОЛИМПИЙСКИМ И ПАРАЛИМПИЙСКИМ ВИДАМ СПОРТА

Аннотация. *В данной статье рассматривается деятельность центров подготовки по олимпийским и паралимпийским видам спорта в Узбекистане, их роль в спортивной сфере и направления развития. Анализируется роль этих центров в физической, психологической и технической подготовке спортсменов, а также их вклад в достижение успехов на международных соревнованиях. Представлены предложения по улучшению условий для спортсменов с ограниченными возможностями, внедрению инновационных методов и изучению международного опыта. Статья освещает актуальные вопросы совершенствования системы спортивного образования в Узбекистане и дает рекомендации для дальнейшего развития.*

Ключевые слова: *олимпийские виды спорта, паралимпийские виды спорта, образовательные учреждения в спорте, физическая и психологическая подготовка, инновационные методы тренировки, спортсмены с ограниченными возможностями, спортивная инфраструктура, финансирование спорта.*

Kirish.

O‘zbekistonda so‘ngi yillarda sport sohasida amalga oshirilgan islohotlar sportni davlat siyosati darajasiga ko‘tardi. 2024 yil 25-noyabr kuni O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining Bosh assambleyasi yig‘ilishda Milliy olimpiya qo‘mitasi raisi lavozimiga O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomzodi ilgari surildi va bir ovozdan saylandi. Shuningdek, Bosh assambleya MOQ raisining birinchi o‘rinbosari lavozimiga Otabek Umarovni, rais o‘rinbosari lavozimiga Sherzod Tashmatovni, qo‘mita bosh kotibi lavozimiga Oybek Qosimovni sayladi[1]. Bu olimpiya va paralimpiya sport turlariga e’tibor yanada ortishidan dalolat beradi. Olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish bilan bog‘liq yangidan-yangi talablarni qo‘yadi hamda sport ta’lim muassasalarida o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga chiqaradi. Shuningdek, sportni davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ham sport sohasidagi o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar nufuzini orttiradi. Sport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi olimpiya va paralimpiya sport musobaqalarida erishilgan yutuqlarda ko‘rinadi. Olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha musobaqalarda yuqori yutuqlarni qo‘lga kiritishning eng muhim omillaridan biri sifatida olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlaridagi o‘quv va amaliy mashg‘ulot jarayonlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Sport sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash zarurati o‘quv jarayonlarini takomillashtirishni talab etadi, chunki sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirish, zamonaviy trening usullari va texnologiyalarini o‘zlashtirish sifatli o‘quv va amaliy jarayonlarni tashkil etishni taqozo etadi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarning sport ta’lim tizimlari tajribasini o‘rganib, innovatsion metodikalarni mahalliy sharoitga moslashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Optimallashtirilgan mashg‘ulot tizimi nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning sport yutuqlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Globallashuv sharoitida xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatga erishish uchun ta’lim muassasalarida zamonaviy va raqobatbardosh tayyorgarlik tizimini yaratish ham muhimdir. Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida o‘quv jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, sportchilarni samarali tayyorlash va ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Natijalar va tahlillar.

Sportning barcha turlari va tarkibiy qismlarini rivojlantirish, nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek yuqori darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashish[2] jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan qilib belgilanganligi ham olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni optimallashtirish orqali samarali ta’lim jarayonini tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda. Sport-ta’lim muassasalari faoliyati rivojlanishining o‘rta va uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, ularda olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan ularni boshqarish va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, moddiy-texnik va resurs imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.11.2021 yildagi PQ-5280-son “Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi” [3] to‘g‘risidagi qarori ijrosini ta’minlash ham mavzuning dolzarb jihatlaridan biri sanaladi. “Davlat sport-ta’lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezidentning qarorida sportchilarning Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o‘yinlarida, boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etishi hamda yuqori natijalarga erishishini ta’minlash[4] masalasi nazarda tutilganligi ham mavzuning yanada dolzabrligini oshiradi. Sport turlari bo‘yicha terma jamoalarni shakllantirish uchun sport zaxirasini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[5] qarori ham olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlariga e’tibor yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, professional sportchilarni tayyorlash hamda ularning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini oshirish uchun muhim rol o‘ynaydi. Bu markazlarning asosiy maqsadi yuqori malakali sportchilarni xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlash bo‘lib, jismoniy, psixologik va texnik ko‘nikmalarni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, sportchilarni xalqaro musobaqalar, jumladan, Olimpiya va Paralimpiyada ishtirok etishga tayyorlash hamda mamlakatning nufuzini oshirish ham ushbu markazlarning ustuvor vazifalaridandir. Tayyorlov jarayonida zamonaviy texnologiyalar, innovatsion usullar va ilmiy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish orqali sportchilarning natijalarini optimallashtirish maqsad qilingan. Bu orqali ta’lim jarayonining uzluksizligi va sifatini ta’minlashga erishiladi.

O‘zbekistonda olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.12.2022 yildagi 731-son qarori[6] bilan tartibga solinadi. Bugungi kumda O‘zbekistonda 15 ta Olimpiya va

paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyat yuritmoqda.

Olimpiya va paralimpiya o‘yinlari dasturidan o‘rin olgan sport turlari bo‘yicha terma jamoalarni shakllantirish uchun sport zaxirasini tayyorlash Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining Nizomi[7] bilan tartibga solinadi. Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari sportchilarni eng yuqori darajadagi musobaqalarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining o‘quvchi-sportchilari soni 600 nafarni, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi olimpiya va paralimpiya markazlarining o‘quvchi-sportchilari soni 450 nafarni tashkil etadi va olimpiya va paralimpiya markazlarining Olimpiya va Paralimpiya kollejlari paralimpiya bo‘limlariga umumiy o‘quvchi-sportchilar soniga nisbatan O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi tavsiyasiga asosan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan o‘quvchi-sportchilar uchun 10 foizgacha qo‘shimcha kvotalar belgilanadi. O‘zbekiston olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarda o‘qish jarayoni 2 ta bosqichda: 1-bosqich 5 — 11-sinflar uchun Olimpiya maktablarida, 2-bosqich 1-2-kurslar uchun Olimpiya va Paralimpiya kollejlarida amalga oshiriladi. Ushbu markazlar sportchilarning jismoniy, ruhiy va texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mukammallik maskani hisoblanadi.

Olimpiya sport turlari – bu har to‘rt yilda o‘tkaziladigan Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etadigan sportlar bo‘lib, 2024-yil Parij Olimpiadasida ishtirok etadigan sport turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: suv sporti (suzish, sho‘ng‘ish, ochiq suvda suzish, suv polosi, badiiy suzish), kamondan otish, yengil atletika (yugurish va maydon musobaqalari), badminton, basketbol (shu jumladan, 3x3 basketbol), boks, breaking (2024-yilda ilk bor kiritilgan yangi sport turi), kanoe/kayak (slalom va sprint, yangi kayak kross yo‘nalishi bilan), velosport (yo‘l, trek, tog‘ velosporti, BMX poygasi va freestyle), ot sporti (dressaj, uch kurash va sakrash), qilichbozlik, futbol (soccer), golf, gimnastika (badiiy, ritmik va trampolin), gandbol, xokkey (maydon xokkeyi), dzyudo, zamonaviy beshkurash, akademik eshkak eshish, ragbi-7, yelkan sporti, o‘q otish, skateboarding, sport toqqa chiqish, serfing, stol tennisi, taekvondo, tennis, triatlon, voleybol (zaldagi va plyaj voleyboli), og‘ir atletika, kurash (erkin va yunon-rum usullari). Ushbu ro‘yxat an’anaviy va zamonaviy sport turlari uyg‘unligini ko‘rsatadi, jumladan, "breaking" ilk bor olimpiyaga kiritilib, urban madaniyatni aks ettirmoqda, shuningdek, kayak va toqqa chiqish kabi sport turlari ommalashib bormoqda[8]. Har bir sport turi o‘ziga xos qoidalarga ega bo‘lib, ishtirokchilarga jismoniy va ruhiy salohiyatlarini eng yuqori darajada namoyish etish imkonini beradi. Olimpiya o‘yinlari nafaqat sport yutuqlarini ko‘rsatish, balki turli xalqlarni birlashtirish, do‘stlik va hamjihatlikni targ‘ib qilishga ham katta ahamiyat beradi. Olimpiya sport turlari global sport madaniyatining ajralmas qismiga aylangan va har bir o‘yinlar yanada yangi sport turlari bilan boyitilib borilmoqda.

Paralimpiya sport turlari – bu jismoniy imkoniyatlari cheklangan sportchilar uchun tashkil etilgan o‘yinlar bo‘lib, Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasi (IPC) Boshqaruv kengashi Los-Anjeles – 2028 yozgi Paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish uchun 22 ta : Para badminton, Bochcha, Ko‘zi ojizlar futboli, Golbol, Para dzyudo, Para kanoe, Para ot sporti, Para stol tennisi, Aravachada tennis, Aravachada qilichbozlik, Aravachada basketbol, Para kamondan otish, Para yengil atletika, Para pauerlifting, Para voleybol, Para suzish, Para akademik eshkak eshish, Para o‘q otish, Para taekvondo, Para triatlon, Aravachada regbi, Para velospor sport turini tasdiqladi . Har bir sport turi sportchilarga o‘z imkoniyatlarini namoyish etishga, jamiyatda inklyuzivlikni ta’minlashga yordam beradi, shuningdek, imkoniyatlarni tenglashtiradi. Paralimpiya o‘yinlari nafaqat jismoniy imkoniyatlarning chegarasizligini, balki qatnashchilarning iroda va ruhiy kuchini ham sinovdan o‘tkazadi.

Olimpiya va paralimpiya sport tayyorgarlik markazlarining mamlakat sportini yuksaltirishga qo‘shgan ahamiyatiga qaramay, ular bir qator muammolarga duch kelmoqda:

Olimpiya va paralimpiya sport tayyorgarlik markazlarining muammolari juda murakkab va ko‘p qirrali masalalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu markazlarda moliyaviy tanqislik, resurslarning notekis taqsimlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda sport tayyorgarlik markazlariga yillik investitsiyalar o‘rtacha 50-100 million dollar atrofida bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatgich 5-10 million dollarga tushadi. Masalan, G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida bir sportchiga yillik xarajat 200-300 ming dollar bo‘lishi mumkin, lekin ko‘plab Afrika va Osiyo mamlakalarida bu atigi 10-20 ming dollargacha kamayadi[9]. Moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi muammoni yanada og‘irlashtiradi. Davlat byudjetidan sport infratuzilmasiga ajratilgan mablag‘lar juda kam, xususiy investorlarning sport sohasiga qiziqishi past darajada. Sponsorlik daromadlari asosan mashhur va yuqori natijali sportga yo‘naltiriladi. Olimpiya va paralimpiya sportchilari orasidagi resurs taqsimotida ham jiddiy farqlar mavjud. Ko‘pgina mamlakatlarda olimpiya sportchilari uchun ajratilgan moliyaviy resurslar 80-85% ni tashkil etsa, paralimpiya sportchilari uchun atigi 15-20% moliyaviy yordam beriladi[10]. Ayrim mamlakatlarda paralimpiya sportchilari uchun infratuzilma va jihozlar umuman yo‘q deyarli. Sport turlarining rivojlanishida ham notekislik kuzatiladi. Mashhur sport turlariga (futbol, tennis, basketbol) ko‘proq e’tibor beriladi, kamroq ommalashgan sport turlariga yordam juda cheklangan.

Infratuzilma muammolari ham sport tayyorgarlik markazlarining samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab markazlar 20-30 yil oldin qurilgan bo‘lib, ularning jihozlari 70-80% holatlarda eskirgan va zamonaviy talablarga javob bermaydi.

2022 — 2025-yillarda olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlashning asosiy parametrlarida[11] jami 52 ta obyekt, shundan 32 ta yangi va 20 tasini rekonstruksiya qilish belgilangan. Shningdek ushbu qarorda jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan sportchilarga ko‘rsatiladigan sport xizmatlari sifatini yaxshilash ham nazarda tutilgan. Shunga qaramay aytish mumkinki, imkoniyati cheklangan sportchilar uchun moslashtirilgan infratuzilmalarni yetarli deb bo‘lmaydi. Bularning barchasi Olimpiya va paralimpiya sport tayyorgarlik markazlarining o‘quv va amaliy mashg‘ulotlari sifatiga ta’sir qiladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sport sohasiga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada oshdi. Bu davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Sportni rivojlantirish va bu boradagi islohotlar nafaqat jismoniy tarbiya va sportning ommabopligini oshirishga, balki xalqaro maydondagi yutuqlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari bu yo‘nalishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu markazlar sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirish, ularni yuqori saviyadagi xalqaro musobaqalarga tayyorlash, shuningdek, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, bu markazlar moliyaviy va infratuzilma muammolariga duch kelmoqda. Moliyalashtirish yetishmovchiligi, zamonaviy sport inshootlarining yetarli emasligi va resurslarning notekis taqsimlanishi dolzarb masalalardan biridir. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda sport markazlariga ajratiladigan mablag‘lar miqdori yildan-yilga oshib borayotgan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu borada sezilarli farq mavjud. Ayniqsa, Paralimpik sportchilar uchun infratuzilma va resurslar yetarli emasligi ularning to‘liq imkoniyatlarini namoyish etishlariga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, sportni rivojlantirish yo‘lida qabul qilingan Prezident qarorlari va hukumat dasturlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining samaradorligini oshirish uchun bir qator tavsiyalarni hayotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda, moliyaviy ta’minotni yaxshilash va xususiy sektor ishtirokini faollashtirish zarur. Bu, ayniqsa, kam ommalashgan sport turlari va imkoniyati cheklangan sportchilarni qo‘llab-quvvatlashda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy talablarga javob beradigan sport inshootlarini qurish va eskirganlarini ta’mirlash ishlarini tezlashtirish lozim.

Yana bir muhim yo‘nalish – innovatsion texnologiyalarni joriy etishdir. Sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishda ilmiy tadqiqotlar natijalaridan keng foydalanish, zamonaviy trening usullarini qo‘llash orqali sportchilarni samarali tayyorlashga erishish mumkin. Nogiron va jismoniy imkoniyatlari cheklangan sportchilar uchun maxsus moslashtirilgan infratuzilma va jihozlarni rivojlantirish ham dolzarb masalalardan biridir. Bu ularga teng sharoitlar yaratish va jamiyatda inklyuzivlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning sport-ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhimdir. Bu orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bunga qo‘shimcha ravishda, murabbiylar va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy metodikalar bilan qurollantirish talab etiladi. Ushbu choralar sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, sport-ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlarni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, sport sohasiga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish va bu boradagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash O‘zbekistonning xalqaro sport hamjamiyatidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://daryo.uz/2024/11/25/
2. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Toshkent sh., 2015-yil 4-sentabr, O‘RQ-394-son, 4-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 05.11.2021 yildagi PQ-5280-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.06.2022 yildagi PQ-268-son
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.12.2022 yildagi 731-son
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-dekabrdagi 731-son, “Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-dekabrdagi 731-son, “Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror.
8. https://olympics.com/en/paris-2024

9. European Scientific Journal (2021): ESJ Research.
10. Dr. Karen Smith, Pathways to Paralympic Success: Resource Allocation and Performance Analysis (2019)
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-son, “Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga 4-ILOVA

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Абдуллаева Гульшана Шухратовна
Преподаватель кафедры русского языка
и литературы НамГУ

ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *Учитель начальных классов — это педагог, который работает с детьми младшего школьного возраста (6–11 лет). Он помогает адаптироваться к школе, занимается обучением, воспитанием и развитием учеников. Также взаимодействует с родителями и коллегами. Узнаем больше о профессии и карьерных перспективах.*

Ключевые слова: *навыки организации, инновационные образовательные методы, учебно-воспитательный процесс.*

Abdullayeva Gulshana Shukhratovna
Lecturer of the Department of Russian Language
and Literature at NamSU

FEATURES OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS

Abstract: *A primary school teacher is a teacher who works with children of primary school age (6-11 years old). He helps to adapt to school, is engaged in the education, upbringing and development of students. He also interacts with parents and colleagues. Learn more about your profession and career prospects.*

Keywords: *organizational skills, innovative educational methods, educational process.*

Abdullayeva Gulshana Shuhratovna
NamDU Rus tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA'LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi-bu boshlang‘ich maktab yoshidagi (6-11 yosh) bolalar bilan ishlaydigan o‘qituvchi. Bu maktabga moslashishga yordam beradi, o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, ota-onalar va hamkasblar bilan muloqot qiladi. Kasb va martaba istiqbollari haqida ko‘proq bilib oling.*

Kalit so‘zlar: *tashkilot ko‘nikmalari, innovatsion ta’lim usullari, o‘quv jarayoni.*

В настоящее время в Республике Узбекистан формируется новая система образования, направленная на выход в мировой экономический и образовательный мир. Этот процесс реализуется наряду со значительными изменениями в науке и практике педагогики. При этом требования к современному специалисту меняются. Механизмы совершенствования учебно-воспитательного процесса применяются в образовательном процессе в педагогических вузах мира. Навыки организации учебно-воспитательного процесса будущих учителей реализуются в соответствии с требованиями времени, с использованием инновационных образовательных методов[3,11].

В условиях реализации идей развивающего обучения перед учителем начальных классов стоит задача коренной трансформации подходов к организации учебной деятельности. Отход от традиционно репродуктивной модели обучения требует переосмысления целей, средств и способов педагогического взаимодействия. Особую значимость в этом контексте приобретает умение учителя конструировать образовательные ситуации, стимулирующие активную познавательную деятельность учащихся, формирующие их учебную инициативу, умения планировать, анализировать и оценивать собственную деятельность. Организация учебной деятельности учащихся - основная и наиболее сложная задача, с которой сталкивается учитель, осуществляющий развивающее обучение. Ее значение определяется тем обстоятельством, что только в рамках этой деятельности могут быть реализованы идеи

развития. Более того, попытки «внедрить» развивающее обучение, игнорируя задачу организации учебной деятельности, могут привести к весьма нежелательным результатам, поскольку обеспечить качественное усвоение младшими школьниками достаточно сложной системы научных понятий, опираясь на учебную активность репродуктивного характера, заведомо невозможно[1,24]. При решении поставленной задачи учитель в очень малой степени может опираться на ту совокупность методов и форм организации учебного процесса, которая сложилась в рамках традиционного обучения в соответствии с его целями и условиями.

Одной из ключевых составляющих такой деятельности является организация контроля и оценки учебных достижений школьников. В системе развивающего обучения контроль перестаёт быть лишь инструментом проверки знаний и превращается в средство диагностики, самопознания и развития. Он направлен не столько на фиксацию ошибок, сколько на понимание логики рассуждений ученика, выявление уровня сформированности его мыслительных операций, способности к обобщению, сравнению, анализу и синтезу. В современном обществе, когда происходит переход от знаниевой парадигмы образования к личностно ориентированной, этот компонент деятельности педагога приобретает особое значение. В значительной степени это актуально для начальной школы. Проверка и оценка достижений младших школьников - весьма существенная составляющая процесса обучения и одна из важных задач педагогической деятельности учителя, которая наряду с другими компонентами учебно-воспитательного процесса должна соответствовать современным достижениям педагогической науки, социальным требованиям и приоритетам образования в первом звене школы[2,43].

Оценочная деятельность учителя начальных классов в современных условиях выходит за рамки формальной фиксации результатов обучения и приобретает характер педагогического инструмента, способствующего развитию личности ученика. В условиях реализации компетентностного подхода акцент смещается с простой проверки знаний на выявление степени сформированности универсальных учебных действий, способностей к самооценке, рефлексии и мотивации к обучению.

Эффективное осуществление контроля и оценки требует от будущего педагога овладения целым комплексом профессиональных умений, таких как выбор адекватных методов и форм оценки, анализ и интерпретация результатов, организация обратной связи с обучающимися. Особенно важно, чтобы эти умения были направлены не только на диагностирование уровня усвоения учебного материала, но и на создание условий для поддержки и развития каждого ребенка с учётом его индивидуальных особенностей.

В процессе профессиональной подготовки студентов — будущих учителей начальных классов — необходимо уделять особое внимание формированию у них понимания роли оценки как средства педагогического воздействия, направленного на становление учебной самостоятельности, внутренней мотивации и ответственности младшего школьника. Таким образом, оценочная компетентность становится неотъемлемой частью педагогической культуры современного учителя и ключевым элементом его готовности к профессиональной деятельности в начальной школе.

Для будущего учителя овладение технологиями контрольно-оценочной деятельности в условиях развивающего обучения требует не только теоретической подготовки, но и формирования соответствующих практико-ориентированных умений. Это включает в себя освоение приёмов формирующего оценивания, развитие умений работать с индивидуальными маршрутами учебного прогресса, а также способность к рефлексии собственной педагогической позиции и принятия роли наставника, а не только контролёра.

Таким образом, профессиональная подготовка будущего учителя начальных классов должна строиться на основе интеграции теоретических основ развивающего обучения с практико-ориентированными задачами, среди которых организация учебной деятельности и грамотное оценивание выступают в качестве базовых компетентностных ориентиров. Основная цель педагогической деятельности в начальном звене — это привить интерес к учебе, сформировать самостоятельность и ответственность за свои успехи. Точный перечень обязанностей формируется каждым учебным заведением самостоятельно, и закрепляется в должностной инструкции. Основная задачи учителей включает разработку учебных планов и программ, подготовку методических материалов, организацию и проведение уроков с учетом возрастных особенностей и индивидуальных способностей учеников. Их миссия – продемонстрировать новые организационные и содержательные подходы в первую очередь к системе повышения квалификации педагогических работников и оценке уровня их компетенции.

Список использованной литературы.

1. Будаева Л.Н. Подготовка будущих учителей начальной школы к реализации развивающего обучения Аавтореферат диссертации.-2004. -С. 25.

2. Иващенко Е.В. Профессиональная подготовка будущего учителя начальных классов к оценке учебных достижений школьников. Автореферат диссертаци. -2009. -С.54.

3. Бердийева Ф., Г.О.Уралова. Содержание подготовки науки «образование» будущих учителей начальных классов. Журнал. université de montréal. -С.1-3.

4. Абдуллаева Н.И. Современные подходы к подготовке будущих педагогов начальных классов // Ilm-fan va ta’lim. – 2022. – №6. – С. 42–46.

Angliyalik olim A. Chepmyen tanqidiy tarixiy tafakkurni “tarix o‘qituvchisining eng muhim kompetensiyasi” deb hisoblab, “zamonaviy tarix o‘qituvchisi nafaqat o‘zi tanqidiy fikrlashi, balki o‘quvchilarga tarixiy manbalarni tanqidiy baholashni o‘rgatishi zarur” deb ta’kidlaydi.

Aksiologik komponent tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentligida markaziy o‘rin egallaydi, chunki tarix fani nafaqat o‘tmish haqidagi bilimlarni, balki qadriyatlar tizimini ham shakllantiradi.

Nemis faylasufi va pedagogi Y.Ryuzen “tarixiy ong aksiologik komponentsiz shakllanmaydi" deb ta’kidlab, “tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarda nafaqat tarixiy bilimlarni, balki tarixiy o‘tmishga va milliy qadriyatlarga nisbatan munosabatni ham shakllantiradi” deb yozadi.

O‘zbekistonlik olim R.X.Murtazayeva ta’kidlaganidek, “tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish orqali tarixiy xotira va milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish vazifasini bajaradi”.

Tarix o‘qituvchisi inson huquqlari, tolerantlik, tenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilarga yetkazishi muhim. Shvyeysariyalik tadqiqotchi P. Gauchi “tarix darslari umuminsoniy qadriyatlarni tarqatish uchun eng yaxshi platformadir” deb hisoblaydi.

Tarix o‘qituvchisi tarixiy voqealarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish va xolis tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Buyuk Britaniyadan olim R. Fillips tarix o‘qituvchisining vazifasi “turli nuqtai nazarlarni taqdim etish orqali o‘quvchilarni mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatishdir” deb ta’kidlaydi.

Zamonaviy tarix o‘qituvchisi, nafaqat tarixiy bilimlarni o‘rgatishda, balki o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ham hissa qo‘shadi. Tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi — bu uning kasbiy faoliyatida foydalanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plami bo‘lib, u o‘qituvchining samarali ishlashiga yordam beradi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, zamonaviy tarix o‘qituvchisi o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi mumkin. U o‘z faoliyatida bilim va ko‘nikmalarni zamonaviy texnologiyalar va metodlarni integratsiya qilish orqali rivojlantirishi kerak. Tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarga faqat tarixiy faktlarni emas, balki tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va vatanparvarlik kabi muhim qadriyatlarni ham o‘rgatadi. Shunday qilib, zamonaviy tarix o‘qituvchisi har tomonlama yetuk shaxs bo‘lishi kerak, bu esa ta’limning sifatini yaxshilashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati.

1. https://zamin.uz/uz/jamiyat/60265-shavkat-mirzieev-uzbekiston-uqituvchi-va-murabbiylariga-tabrik-yulladi.html

2. Ochilova G., Akbarova S. Kasbiy kompetentlik. Darslik. – Toshkent, 2022.
3. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/1746769/
4. Хуторской А.В. Педагогическая компетентность: теоретические основы и практические подходы. Москва, 2007.
5. https://www.jstor.org/stable/42728157.
6. Sam Wineburg. Historical Thinking and Other Unnatural Acts. – London, 2001.
7. A.S. Sagdullayev. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent, 2019.
8. Chapman, A. (2011). Understanding historical knowing: Evidence and accounts. In L. Perikleou & D. Shemilt (Eds.), The future of the past: Why history education matters (pp. 169–216).
9. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent: Fan. 2006.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi
Alfraganus University Maxsus pedagogika:
Logopediya yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Utbasarova Umida Mehmanovna
Alfraganus University Pedagogika va psixologiya kafedrasi v.b. dotsenti (PhD)

DUDUQLANISHNI BIRGALIKDA YENGAMIZ

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktab yoshida duduqlanuvchi o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish jarayoni uchun mo'ljallangan bo'lib o'quvchilarda duduqlanishni fonetik ritmlash yordamida nutq sur'ati va ohangini yaxshilanishiga olib keladi. Duduqlanishni bartaraf etish nutq faoliyatini, o'quvchilarni shaxsiy va xulq-atvorini o'rganish natijalarini, klinik, psixofiziologik, nutq xususiyatlarini, psixologik va psixolingvistik jihatlarini o'z ichiga oladi. Berilgan uslub orqali duduqlanishni korreksiyalash va shaxsni tarbiyalash usullarini ishlab chiqish duduqlanishdan aziyat chekayotgan o'quvchilarni duduqlanishdan xalos qilishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *duduqlanish, logonevroz, klonik, tonik tortishishlar, logofobiya, nutqiy nafas, mustaqil nutq, nevropatiya, korreksiya, taxilaliya.*

Сайдалиева Ходжия Абдужалил кизи
Альфраганский университет специальной педагогики: Курс логопедии студент 2 курса
Утбасарова Умида Мехмановна
Кафедра педагогики и психологии Университета альфраганус и.о. доцент (PhD)

ВМЕСТЕ ПРЕОДОЛЕЕМ ЗАИКАНИЕ

Аннотация: *Статья предназначена для коррекционной работы с заикающимися учащимися школьного возраста, которая приводит к улучшению темпа и интонации речи у учащихся с использованием фонетической ритмизации заикания. Устранение заикания включает в себя результаты изучения речевой деятельности, личностных и поведенческих особенностей учащихся, клинических, психофизиологических, речевых особенностей, психологических и психолингвистических аспектов. Разработка методов коррекции заикания и обучение личности с помощью данного метода поможет учащимся, страдающим заиканием, избавиться от заикания.*

Ключевые слова: *заикание, логоневроз, клонические, тонические судороги, логофобия, речевое дыхание, самостоятельная речь, невропатия, коррекция, тахилалия.*

Saidalieva Khojiya Abdujalil qizi
Alfraganus University Special pedagogy: Speech therapy direction 2-Stage Student
Utbasarova Umida Mehmanovna
Department of pedagogy and psychology of Alfraganus University, Associate Professor (PhD)

WE OVERCOME STUTTERING TOGETHER

Abstract: *This article is intended for the correctional work process with stuttering students of school age, which leads to an improvement in the pace and intonation of speech in students using phonetic rhythmization of stuttering. The elimination of stuttering includes the results of studying speech activity, personal and behavioral characteristics of students, clinical, psychophysiological, speech characteristics, psychological and psycholinguistic aspects. The development of methods for correcting stuttering and educating the personality through the given method serves to relieve stuttering students from stuttering.*

Keywords: *stuttering, logoneurosis, clonic, tonic convulsions, logophobia, speech breathing, independent speech, neuropathy, correction, tachylalia.*

Kirish.

Duduqlanish - nutq buzilishlarining murakkab va ko‘p uchraydigan turlaridan biridir. Bu nutq kamchiligida nutq a’zolari muskullarining tortishishi natijasida nutqning sur’at va ohangi buziladi, kommunikativ aloqa vositasi izdan chiqadi. Duduqlanishga nutq a’zolari muskullarining ravon ishlay olmasligi, paylarni, muskul tolalarining tortishib qolishi sabab bo‘ladi. Tibbiyotda duduqlanishni logonevroz atamasi bilan ifodalanadi.

Duduqlanish belgilari. Hozirgi davrda duduqlanish belgilari bir biriga bog‘liq bo‘lgan 2 ta guruhga ya’ni fiziologik va psixik guruhga ajratiladi. Fiziologik belgilarga: nutqning hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi a’zolarning tortishishi, markaziy nerv sistemasi va jismoniy salomatlikning bo‘shligi, zaifligi, umumiy gavda va nutq harakatlarining buzilishi kiradi. Psixik belgilarga: nutqda tutilish, his hayajon buzilishi, logofobiyalar, hayajonlanish, vahima, alamzadalik, umumiy zo‘riqish, uyquda cho‘chib ketish, yuzaki uyqu yuz beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Nutq hosil bo‘lishida mushak tortishishi duduqlanishning tashqi belgisi hisoblanadi. Mushak tortishishiga ko‘ra duduqlanish 3 xil bo‘ladi: klonik, tonik va aralash. Klonik mushak tortishish vaqtida tovush, bo‘g‘in yoki so‘z bir necha marotaba takrorlanadi (a-a-asal , qa-qa-qa-qalam, tosh-tosh-tosh). Tonik mushak tortishish vaqtida esa so‘z boshida to‘xtalish ro‘y beradi va tutilib gapiruvchi bir tovushdan, bo‘g‘indan va so‘zdan ikkinchi tovushga, bo‘g‘inga va so‘zga o‘tolmaydi, uzoq to‘xtalib qoladi (….a....sal, q….alam, ….t….osh). Uchinchi turi aralash (klono-tonik) yoki (tono-klonik) mushak tortishishi kuzatiladi. Tortishish nutqning u yoki bu organlari: nafas olish, ovoz paychalari yoki artikulyatsion apparatda ro‘y beradi.

Duduqlanuvchi o‘quvchi harf va bo‘g‘inlarni tutilib-tutilib yoki bir necha bor takrorlab talaffuz qiladi. Ayrim hollarda uning qo‘li yoki oyog‘i beixtiyor qimirlab, yuz mushaklari uchib turadi. Shuningdek, o‘quvchida ichki duduqlanish ham ko‘zga tashlanadi. Bunday holatlarda u nima deyish kerakligini biladi-yu, ammo ayta olmaydi. Bu holat sirtdan qaraganda sezilmaydi.

Duduqlanuvchi o‘quvchida artikulyatsion apparatdagi tortishish o‘rni lab, til, yumshoq tanglayda bo‘lishi mumkin. Duduqlanish ko‘pincha portlovchi undosh tovushlar(k,q,p,b,t,d,g,g‘)ni talaffuz qilishda yaqqol seziladi. Tovushning fonetik xususiyati, grammatik qurilishning xususiyati, grammatik qurilishning buzilishi ham tortishishga sabab bo‘ladi. Tortishishga kayfiyat, atrofdagi muhitning ham ta’siri katta. O‘quvchi o‘ziga tanish bo‘lgan she’rni aytishda, tanigan odamlari orasida kamroq tutiladi. Duduqlanadigan o‘quvchilarning hayajonli nutqida fonetik - fonematik va leksik grammatik buzilishlar ko‘zga tashlanadi. Nutq asoslanmagan pauzalar, qaytariqlar bilan uzilib - uzilib chiqadi, jarangdorlik, talaffuz sur’ati, tovush balandligi duduqlanuvchining emotsional holati bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, o‘z nuqsoniga bo‘lgan e’tibori nuqsonni kuchaytirishda omil bo‘lishi ham mumkin.

Nutqdagi qiyinchiliklarni niqoblashga bo‘lgan urinishlar duduqlanadigan kishilarda turli xil hiylalar (qo‘l, oyoq, tana , bosh bilan harakat qilish, til uchi , pastki labni tishlash, chapillatish, tovushlarni ovoz chiqarmay artikulyatsiyalash)ni qo‘llash bilan namoyon bo‘ladi.

Duduqlanuvchi o‘quvchilarni erta tashxis qilish va to‘g‘ri tashkil qilingan korreksion jarayon o‘quvchidagi ikkilamchi ruhiy va motor kamchiliklarni oldini olishga sabab bo‘ladi. O‘quvchi bilan yakka tartibda olib boriladigan korreksion ishlar rejasini tuzish uchun o‘quvchini to‘liq psixologik, pedagogik va logopedik tekshiruvdan o‘tkazish kerak.

Duduqlanuvchi o‘quvchilarni tekshirish. Logopedik nuqtai nazaridan xulosa chiqarish jarayonida duduqlanish shakli, tortishish turlari, duduqlanish darajasi, nutq sur’ati (sekinlashgan, jadallashgan, tez gapirish, taxilaliyaning borligi), duduqlanish bilan birga keladigan dislaliya, dizartriyaning yengil shakli, nutqning umumiy rivojlanmay qolishi, duduqlanish ruhiy alomatlarining bor-yo‘qligi va ifodaliligi, nutqdan cho‘chish (logofobiya), harakatlantiruvchi kuch va nutqdagi xiylalar bor-yo‘qligi, duduqlanish jarayonidagi hayajonlanishning bor-yo‘qligi, o‘quv faoliyatiga munosabati, duduqlanishni keltirib chiqaradigan vaziyatlar doirasi albatta hisobga olinadi.

Duduqlanishni bartaraf etish. Duduqlanishni bartaraf qilish ko‘pgina shart-sharoitlarga, atroflicha ta’sir ko‘rsatishning boshlanish muddati va undan to‘liq qo‘llanilishiga, yosh xususiyati va hokazolarga bog‘liqdir. Yosh qanchalik kichik bo‘lsa, umumiy xatti-harakat qanchalik faol va dadil bo‘lsa, nutq a’zolari, bo‘limlaridagi tortishishlar, yo‘q yoki zaif bo‘lsa, ruhiy buzilishlar qanchalik kam bo‘lsa duduqlanishni bartaraf etish oson kechadi. Tug‘ma xastalik yoki neyropatiya oqibatida rivojlanadigan, shuningdek tashqi ta’sirlarsiz paydo bo‘lgan duduqlanishni bartaraf etish har doim ham ijobiy samara beravermaydi. Bu yerda aksariyat hollarda qaytalanish bo‘ladi. Tovush tortishishlaridan ko‘ra nafas olishdagi tortishishlar tezroq, tonik shaklga nisbatan klonik shakl yengil bartaraf bo‘ladi. Chunki klonik tortishishlar miya qobig‘ini qo‘zg‘atish uchun xosdir.

Duduqlanishni bartaraf etish ma’lum miqdorda o‘quvchining shaxsiga, logopedning shaxsi va uning mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

Duduqlanishni bartaraf etish 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich - tayyorlov bosqichi

Bu bosqichda logoped eng avvalo o‘quvchini logopedik mashg‘ulotlarga tayyorlab boradi. Ota-ona bilan

hamkorlik ishlarini tashkil etadi. Ya'ni ota-onalarga quyidagi tavsiyalar beriladi:

1.Kun tartibiga qat'iy rioya qilish;

2.Aniq bir vaqtda uxlash va uyg'onishini nazorat qilish;

3.Tayyorgarlik o'yinlarini bajartirib borish;

4.Ertalab shukrona bilan uyg'onishni o'rgatish;

5.Yig'lamasdan uyg'onish;

6.Oilada tinch muhit yaratish;

7.2-3 yil ichida shovqinli, gavjum joylarga olib bormaslik;

8.parxezga amal qilishini nazorat qilish (gazli ichimliklar, chips, tez tayyor bo'ladigan maxsulotlar mumkin emas).

Bu bosqichda duduqlanuvchi o'quvchiga quyidagilar o'rgatiladi:

- nafas mashqlarini bajartirish;
- "sabr"ga o'rgatish (hayajonli vaziyatlarda o'zini hotirjam tutishga o'rgatish);
- sukut saqlash (ya'ni faqat "Ha" – "Yo'q" imo-ishorasidan foydalanish);
- ovoz qo'shmasdan ichda gapirish;
- shukr qilish (tongda va oqshomda o'zini taftish qilish).

2-bosqich - nutqiy nafas ustida ishlash

Bu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-relaksatsiya holatiga o'rgatish (qo'l tizzada, barmoqlar musht, avval yelkalarni keyin yuzni tarang tortish va bo'shashtirish, qorinni shishirish va bo'shashtirish);

-yotgan holatda qorindan nafas olish;

-nafas ustida ishlash (sekin nafas olib, sekin chiqazish; sekin nafas olib tez chiqazish; tez nafas olib sekin chiqazish; nafas olib, ushlab turib, so'ngra chiqazish; aralash nafas; nafas olib qisqa chiqazish).

3-bosqich - Mustaqil nutqni tarbiyalash

Duduqlanuvchilarda mustaqil nutqni tarbiyalashda to'g'ri nutq shakllarining zaruriy uzluksizligiga rioya qilinadi. Dastlab unli tovushlarni cho'zish o'rgatiladi. Keyin bo'g'inlar, so'zlar, so'z birikmalari, sodda va murakkab gaplar, maqollar, topishmoqlar, she'rlar, qisqa matnlar bilan bosqichma-bosqich ishlanadi.

Mustaqil nutqni tarbiyalashda matnini bir-biriga bog'liq holda qaytarish orqali o'qish jarayonida yengil ritmik nutq tarbiyalanadi. Keyin qiyin holatlarda logoped yordamida mustaqil o'qish, so'z oralatib yoki matnni ayrim bo'laklarga bo'lib, kimningdir yordamida, bir xil ohangda o'qish; dialogli matnni o'qish; tinish belgilarini hisobga olib, shartli uzunlikka amal qilib to'xtash orqali o'qish; o'rganilgan she'rni talaffuz etish tavsiya qilinadi. Mustaqil nutqni tarbiyalashga nutqning boshqa shakllariga nisbatan ko'p vaqt ajratiladi. Mustaqil nutq oldindan tayyorlangan (she'r, qayta hikoya qilish, mashg'ulot mazmunini bayon qilish, ko'rgan-kechirganlari haqida hikoya qilish) va oldindan tayyorlanmagan (kutilmagan savollarga javoblar qaytarishni iltimos qilish, berilgan mavzu xususida gapirish) bo'lishi mumkin. Nutqning birinchi ko'rinishi duduqlanuvchi uchun juda yengil bo'lgani sababli ikkinchisidan oldin takrorlanadi. Mustaqil nutqni tarbiyalash uchun namuna sifatidagi ayrim mashqlar: berilgan savolga javob; duduqlanuvchi boshlangan jumlani yakunlaydi; uning o'zi savol beradi; berilgan so'z asosida jumla tuzadi; jumlani qaytadan tuzadi; logoped yoki o'rtog'i bilan suhbat; sahnalashtirilgan tomoshalarda ishtirok etish; bayon qilingan voqeani, dramatik matnni so'zlab berish rasm bo'yicha, tomosha qilingan teatr, kino haqida, shaxsiy kuzatishlar haqida, hodisalar to'g'risida so'zlash; telefon orqali suhbatlashish; ma'ruza, bahsda ishtirok etish va hokazo.

Duduqlanishni korreksiyalash jarayonida ota-onalarga quyidagi tavsiyalar beriladi.

Tahlil va natijalar.

Duduqlanish bu ruhiy va nutqiy buzilish bo'lib ko'p hollarda ota ona tomonidan o'quvchiga nisbatan noto'g'ri muomalada bo'lish tufayli yuzaga keladi.

O'z diqqatingiz va o'zgalar diqqatini o'quvchida yuzaga kelgan nuqsonga aslo qaratmang. Shifokor ko'rigidan so'ng o'quvchini tashqariga chiqarib shifokor bilan alohida maslaxatlashing. O'quvchi bilan uni nutq kamchiligi haqida gaplashishni yoqtiradigan odamlardan uzoqroq bo'ling.

Oilaviy suxbatlarda o'quvchining yonida duduqlanish haqida umuman gapirmang. O'zingizni lug'atingizdan duduqlanish so'zini olib tashlang.

O'quvchida nevrotik tutilishlar vaqtida unga yordam berish maqsadida tushundingmi, sekinroq gapir, deb uni to'g'irlashga harakat qilmang.

O'quvchingizni eshitishga o'rganing-u gapirganida uni ko'zlariga qarab diqqat bilan tinglashga va o'quvchi gapirib bo'lgandan so'ng uni gapini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini baholashingiz mumkin

O'quvchi bilan bo'lgan suxbatda gapni o'rtasida qaytadan savol bermang qanday? kim? nima?

O'quvchida o'zini boshqa o'quvchilarga o'xshamaslik xissiyoti uyg'onmasligi uchun o'quvchiga uni xulqidagi harakatlar haqida gapirmang.

Agar bolda tovushlar talaffuzida buzilish bo'lsa darxol logoped ko'rigiga olib boring, erta tovush kamchiliklarini bartaraf qilish duduqlanishni nomoyon bo'lishini kamaytiradi. Oiladagi nutq o'quvchi uchun aniq, tushunarli, tarbiyaviy bo'lishi kerak. Sizni lug'atingizdagi yomon so'zlar o'quvchini nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oiladagi sog'lom muhit o'quvchidigi muammoni hal qilish garovidir. Agar duduqlanish saqlanib qolsa ham u voyaga yetganda o'zini to'laqonli jamiyat a'zosi sifatida ko'radi.

Agar sizning farzandingiz maxsus maktabgacha ta'lim muassasiga bormasa yodda tuting bu nuqson taqlid

asosida ham yuzaga keladi. Taqlid asosida yuzaga keluvchi duduqlanishni bartaraf qilish bir qancha qiyinchiliklarni tug‘diradi. Siz faqat o‘z farzandingizni emas balki boshqa oila farzandlarini ham o‘ylashingiz kerak.

Farzandingizni telefon va kampyuter o‘yinlarni cheklab qo‘ying. Duduqlanuvchi o‘quvchilar uchun barmoqlar harakati bilan o‘ynaladigan kampyuter va telefon o‘yinlari katta zarar keltiradi chunki bu o‘yinlarda muvofaqiyatsizliklar o‘quvchilarda kuchli agressiyani yuzaga keltiradi.

Oshxonadan televizorni olib tashlang chunki o‘quvchi miyasi faqat bir faoliyatni bajarishga o‘rganishi kerak. Ovqat yeb televizor, telefon tamosha qilish va o‘zaro dasturxon atrofidagi tortishuvlar o‘quvchida duduqlanishni kuchayishiga olib keladi.

Oilada faqat bitta televizor bo‘lishi kerak. O‘quvchi ota onaning ruxsatisiz o‘z xohishiga ko‘ra televizorni yoqib tamosha qilishiga yo‘l qo‘ymang. Nevrotik o‘quvchi uchun tele dasturlar ota onalar tomonidan tanlangan xolda ma’lum bir vaqt tomosha qilish uchun beriladi. O‘quvchilar umuman agressiyani kuchaytiruvchi qo‘rqinchli film va ko‘rsatuvlarni tamosha qilmasligi kerak.

Oilada taomlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida qabul qilish tartibini tashkil qiling.

O‘quvchi qila oladigan narsalarni hammasini o‘ziga qo‘yib bering. Tuxumni chaqish, bankani ochish, shokolad va chips paketlarni ochib berishdan o‘zingizni tiying bu vazifani o‘quvchini o‘ziga qo‘yib bering.

O‘quvchingizni aloxida uxlashga o‘rgating, o‘quvchi o‘zi mustaqil yotib uxlashga o‘rganishi kerak. O‘quvchingizga o‘zingizni mehribon ko‘rsatib uni o‘rtangizda olib yotmang. O‘quvchini uxlash vaqti 22.00 dan kech bo‘lmasligi kerak.

O‘quvchini turli foydali faoliyat turlariga jalb qiling. Agar o‘quvchingizga musiqa yoqsa musiqa asboblaridan saksafonni tanlang chunki saksafon nafasni tarbiyalaydi. Bundan tashqari suv ham o‘quvchini davolaydi. Suzish o‘quvchini mushaklarni bo‘shashishiga yordam beradi.

Oilada o‘quvchi uchun mos vazifalarni yuklating va uni oxirigacha bajarilishini nazorat qiling. Berilgan vazifalarni hajmi asta sekinlik bilan ko‘paytirib boriladi.

O‘quvchiga o‘z mehringizni hech qanday sababsiz turli o‘yinchoqlar xarid qilish bilan ko‘rsatmang. O‘quvchi uchun olib berilgan o‘yinchoq faqatgina uzoq kutilgan yoki qandaydir mehnat evaziga olinganida qadrini topadi. O‘quvchini xonasida 15 tadan ko‘p o‘yinchoq bo‘lmasligi kerak.

O‘quvchini juda aqlli bo‘lishini xohlab turli iqtidorli o‘quvchilar uchun to‘garaklarga jalb qilmang. Bunday to‘garaklar o‘quvchi uchun ko‘p vazifalarni bajarishga undaydi. Nevrotik o‘quvchida bilish jarayonlaridagi buzilish tufayli bu vazifalarni o‘zlashtirishga qiynaladi. O‘quvchi uchun boshlang‘ich ta’lim haftalik 20 soatdan oshmasligi kerak. Bu soatlardan tashqari qo‘shimcha shug‘ullanish o‘quvchini sog‘ligi uchun zararlidir.

Kichik yoshidan boshlab o‘quvchi o‘z tengqurlari bilan birgalikda o‘ynashi va doimiy muloqotda bo‘lishini ta’minlang.

Duduqlanuvchi o‘quvchining kiyimi unga noqulaylik tug‘dirmasligi kerak. U doimiy ravishda shimini ko‘tarishi yoki yechilib ketadigan belbog‘ini bog‘lashiga yo‘l qo‘ymang. O‘quvchini soch turmagi ham o‘quvchiga xalaqit bermasligi kerak.

O‘quvchi bilan turli gipermarketlar, shovqinli o‘yingoxlar va qo‘rqinchli atraktsionlarga bormang. O‘quvchiga yangi yilda salyut, paqildoq va turli baland ovoz chiqaradigan o‘yinchoqlar olib bermang.

Quyida keltirilgan maslaxatlarni agar nazorat qila olmasangiz unutmang duduqlanish faqatgina to‘g‘ri tarbiya va yaxshi olib borilgan korrektsion ish asosida davolanadi. Yodda tuting hammasi sizni qo‘lingizda.

Xulosa.

Yo‘qolib ketgan duduqlanishlar ko‘pincha yashirin holda saqlanadi va noxush shart-sharoitlarning yuzaga kelish vaqtida qaytalanishga tayyor turadi. O‘quvchi endi maktabga borgan paytda, fasllar almashganda yoki kuchli psixik holatlarda duduqlanish yana qaytalanishi mumkin. Shuning uchun duduqlanish bartaraf etilgan o‘quvchi bilan maktabda o‘qish yillarida ham duduqlanishning qaytalanishini oldini olish choralarini ko‘rish zarur. O‘quvchilarni to‘satdan chaqirmaslik va ularni tezda javob qaytarishga majbur qilmaslik; sinfda, duduqlanuvchi atrofida yaxshi muhitni tashkil etish; ota-onalar, o‘qituvchilar va boshqalarga logopedik bilimlar berish tavsiya etiladi. O‘smirning asab-ruhiy holatidagi turli xil chetga chiqishlar, asab faoliyatidagi, hissiy-irodaviy sohada zo‘riqish, o‘ziga noto‘g‘ri baho berish, shaxsda salbiy xususiyatlarning ko‘payib ketishi duduqlanish qayta paydo bo‘lishi sabab bo‘lishi mumkin. Ana shu sabablardan kelib chiqib, duduqlanishning qaytalanishini oldini olishga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Duduqlanuvchi o‘quvchi logoped bilan bog‘lanib qolmasligi kerak. Eng uzog‘i 2-3 yillik ishdan so‘ng o‘zi mustaqil bo‘lishi kerak. Duduqlanish qaytarilmagan taqdirda ham logoped nazoratida bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Аюпова.М.Ю. Преодоление фонетико фонематической недостаточности у детей ўзбеков старшего дошкольного возраста : автореферат дис. кандидата педагогических наук : 13.00.03 / Моск. пед. гос. ун-т. - Москва, 1992. - 16 с. (4,25,31)

2. Барабанов Р.Е. Основы логопедии: афазия, заикание, ринолалия Учебное пособие для студентов / R.: VDM Publishing, 2019. – 69 с. ISBN 978-620-2-32094-8 (18)

3. Беглова.О.А. Коммуникативно-речевые технологии в системе устранения заикания у подростков и взрослых МИР специальной педагогики и психологии. Научно-практический альманах. Выпуск 7 - М.: ЛОГОМАГ, 2017 стр5 (15)

4. Беглова.О.А. Коррекция психофизических проявлений в структуре заикания подростков и взрослых средствами танцевально-двигательных техник 13.00.03-коррекционная педогогика. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педогогических наук. 2009. (15)

5. Борисова.Е.А. Педогогическая технология коррекции заикания у старших дошкольников с обўим недорозвитием речи специальност 13.00.03-коррекционная педогогика (логопедия) Диссертация на соискание ученой степени кандидата педогогических наук. 2010. (16)

6. Борисова.Е.А. Новый подход к устранению заикания у дошкольников имеющих общее недоразвития речи. Образавания и наука. №4.2011год. С 108-118. (13,24)

7. Бойков, Д. И. Общение детей с проблемами в развитии: коммуникативная дифференциация личности Текст. : учебно-методическое пособие / Д. И. Бойков СПб.: КАРО, 2005. - 288 с (18)

8. Блохина.С.И, Старшинова.А.В Раннее вмешательство в системе медикосоциальной реабилитации детей с тяжолами нарушениями здоровья: Базовая модель. Вестник Уральской медицинской академической науки Учредители: Институт иммунологии и физиологии УрО РАН, Уральский государственный медицинский университет ISSN: 2073-9125eISSN: 2500-0918 Год: 2010 С.24-27.(10)

9. Вансовская Л.И. Исследование электровозбудимости круговой мышцы рта при заикании у взрослых // Речевые и нервно-психические нарушения у дети с особенностями психофизического развития детей и взрослых: Межвўзовский сборник научных трудов / Отв. ред. Г.А. Волкова. - Л.: ЛГПИ им. А.И. Герцена, 1987. - 160 с. - С. 116 (17)

10. Вансовская Л.И. Развитие общения при заикании. Учебно методическое пособие. Изд.С-Петербург. 2002 год. (17)

11. Визель.Т.Г. Москва, Россия “О природе заикания и его коррекции” Специальное образование. 2018. № 1 (16)

12. Виноградова, М. А. Специфика проведения функциональных тренировок в преодолении заикания у дошкольников Текст. / М. А. Виноградова // Логопед в детском саду. 2007. — № 3(18). - С. 28-33. (44)

13. Abidova N.Z., Utbasarova U.M., Saydaliyeva X.A. Duduqlanishni birgalikda yengamiz. T.: Toshkent. 2025.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Isabekov Shuhratjon Muhammadjonvich
Namangan davlat universiteti sport faoliyat va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsent
muhammadjonovibrohim1@gmail.com

TALABALARNING PEDAGOGIK TADQIQOT BOSHIDAGI JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY TAYYORGARLIGI BO'YICHA KO'RSATKICHLARINING TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning pedagogik tadqiqot boshidagi jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatkich va usul o'ziga xos xussiyatlari maxsus jismoniy tayyorgarligini tahlili o'smirlarni jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari shakllantirishda pedagogik texnologiya va uning uslublari keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *mashg'ulotlariga, funktsional, tayyorgarligini, xos xussiyatlari, maxsus, jismoniy, tayyorgarligini, tahlili, o'smir, shakllantirishda, pedagogik texnologiya uslub.*

Исабеков Шухратжон Мухаммаджонвич
Наманганский государственный университет
кафедра спортивной деятельности и физической культуры, доцент

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОВ НА НАЧАЛЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. *В статье подробно освещены характеристика показателей и методов педагогического исследования физического развития и физической подготовленности студентов на начальном этапе педагогического исследования, анализ специальной физической подготовленности, формирование показателей физического развития подростков, педагогическая технология и ее методы.*

Ключевые слова: *тренировка, функциональная, подготовка, специфические особенности, специальная, физическая, подготовка, анализ, подросток, формирование, педагогическая технология, метод.*

Isabekov Shuhratjon Muhammadjonvich
Namangan State University, Department of Sports Activity and Physical Culture, Associate Professor

ANALYSIS OF INDICATORS OF STUDENTS' PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL READINESS AT THE BEGINNING OF PEDAGOGICAL RESEARCH

Annotation. *The article extensively covers the characteristics of the indicators and methods of pedagogical research on the physical development and physical fitness of students at the beginning of the pedagogical research, the analysis of special physical fitness, the formation of indicators of the physical development of adolescents, pedagogical technology and its methods.*

Key words: *training, functional, preparation, specific characteristics, special, physical, preparation, analysis, adolescent, formation, pedagogical technology method.*

Ishning dolzarbligi.

Respublikamizda so'nggi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "2025 yilga kelib mamlakat aholisining salomatlik darajasini yaxshilashga erishish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning, o'quvchi va talabalarning umumiy sonini oshirish, sport sohasida boshqa zamonaviy usullar va yo'nalishlarni joriy etish" kontseptsiya asosiy yo'nalishlari etib belgilangan. Biroq talabalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirish borasida keng qamrovli ishlar qilinayotgan bo'lsa-da, talabalarning jismoniy tarbiyasi bo'yicha qo'shimcha harakatlar va aniq dasturlarni joriy etishni talab qiladigan masalalar va muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu ishning yuqori darajadagi dolzarbligini belgilaydigan asosiy ziddiyat bu jamiyatimizning salomatligi mustahkam mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji va buning aynan oliy ta'lim muassasalar o'quv jarayoni doirasida past darajada

ekanligi sababli yangi mashg‘ulot va musobaqa turlarining turli shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrdagi PQ-4063-son “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, hamda shu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

F.A.Kerimovning (2020) fikriga asoslanib, sog‘lom turmush tarzining zamonaviy kontseptsiyalari ekologik jihatni ham hisobga oladi. Ular atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilishning muhimligini va atrof-muhit omillarining inson salomatligiga ta’sirini tan oladilar. Bu barqaror va sog‘lom yashash odatlarini targ‘ib qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi [2; 79-b].

S.Mirzaevning (2024) “sog‘lom turmush tarzining zamonaviy kontseptsiyalari va ta’riflari salomatlik tushunchasining o‘zgarayotganini aks ettiradi, uning har tomonlama mohiyatini va oldini olishning muhimligini ta’kidlaydi” [5; 85-89-b]. Ushbu kontseptlar yashash sifatini yaxshilash va kasallanishni kamaytirish yo‘llarini topish uchun muhim asos bo‘lib, sog‘liqni saqlash amaliyotida tadqiqot va joriy etishning muhim ob‘ektiga aylantiradi.

T.S. To‘ychiyevning (2024) yil olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, sog‘lom yashash odatlariga ta’sir etuvchi omillar - bu insonning jismoniy va ruhiy farovonligini qanday tushunishi, saqlashi va rivojlanishiga ta’sir qiladigan turli xil ichki va tashqi jihatlardir. Ushbu omillarni tushunish zamonaviy jamiyatda sog‘lom yashash odatlarini targ‘ib qilish strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhimdir [6; 142-b].

Ishning maqsadi.

Talabalar sog‘lom turmush tarzini shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi vosita sifatida tayyorgarligini rejalashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab shiqishdan iborat.

Natija va muhokama.

“Jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida oliygoh talabalarining sog‘lom hayot tarzini takomillashtirishga va jismoniy faolligini oshirishga yordam beradigan metodikaning samaradorligi tekshiruvdan o‘tkazildi” .

“Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib Namangan Davlat Universiteti Sport faoliyat va Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 2 va 3 bosqich talabalari o‘rtasida sog‘lom hayot tarzini takomillashtirish va jismoniy faolligini oshirishga ko‘maklashadigan metodikaning samaradorligini asoslash uchun pedagogik tajriba o‘tkazildi”. Pedagogik tajriba 2024 yilning yanvar oyidan 2025 yilning iyun oyiga qadar olib borildi. Pedagogik tadqiqotda jami 139 nafar talaba (69 talaba tajriba guruhiga – “TG”, 70 talaba nazorat guruhiga – “NG”) qatnashdi. Tadqiqotning barcha qatnashchilari tajriba va nazorat guruhlariga bo‘lindi: 203, 204, (yigitlar) 206 (qizlar) guruh talabalari “TG” va 201, 202, (yigitlar) 205 (qizlar) guruh talabalari “NG”.

“NG” da jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari an’anaviy tarzda, namunaviy fan dasturlari asosida o‘tkazildi. “TG” da esa biz tomonimizdan ishlab chiqilib, yuqorida batafsil tushuntirib o‘tilgan va o‘quv jarayoniga joriy etilgan “Sog‘lom turmush tarzining noan’anaviy usullari” nomli tanlov fan asosida, qo‘shimcha tarzda olib borildi.

Tavsiya etilayotgan dasturning o‘ziga xosliklari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– “ilmiy va metodik manbalarga tayangan holda, talabalar sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotiga joriy qilishi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan (mehnat, dam olish rejimi, uyqu, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlarga qarshi kurashish bo‘yicha)” .

– “talabalarning sog‘lom hayor tarziga nisbatan ijobiy motivatsiyasini shakllantirish maqsadida noan’anaviy metodlardan foydalanish uslubiyati keng yoritilgan (hayot mazmunini shakllantirish, kaydzen tamoyillari, taym–menedjment, raqamli minimalizm” , zararli odatlardan xalos bo‘lish amallari va h.k);

– “sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan mashqlar soni ko‘paytirilib, jismoniy sifatlarni tarbiyalashda workout, Jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlaridagi mashqlar kompleksi, stretching, kaydzen va tabata” kabi vositalar va usullar kombinatsiyasidan iborat metodika ishlab chiqilgan.

Talabalar jismoniy tayyorgarligini har tomonlama baholash uchun quyidagi nazorat mashqlaridan foydalandik: 100 m.ga yugurish, 3000 m.ga yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash, turnikda tortilish (yigitlar), polga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish (qizlar), 4x10 m.ga mokkisimon yugurish. Pedagogik tadqiqotdan oldin nazorat va tajriba guruhi talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan statistik taqqoslashlarning avvalgi holati o‘rganilayotgan parametrlar bo‘yicha ishonchli farqlar yo‘qligini ko‘rsatdi. (1–jadvalga qarang). Ko‘rinib turganidek, talabalar jismoniy tayyorgarligining avvalgi holati deyarli bir xil. NG dagi yigitlarning 100 metrga yugurish bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi 13,64±1,87 sek, TG dagi yigitlarning natijasi 13,32 ± 1,86 sek, ishonchlilik (ρ>0,1) , NG dagi qizlarda 16,17 ± 1,68 sek, TG dagi qizlarning natijasi 15,58±1,69 sek, ishonchlilik (ρ>0,05).

3000 metrga yugurishda NG dagi yigitlarning natijalari 14,09±1,62 daq/sek, TG da esa 13,79±1,54 daq, ishonchlilik (ρ>0,2). NG dagi qizlarda shu nazorat turi


bo‘yicha natija 17,52 ± 2,39 daq, TG dagi qizlarda esa 17,19±2,31 daq, ishonchlilik (ρ>0,4).

NG dagi talabalarning turgan joyidan uzunlikka sakrash bo‘yicha nazorat me’yorlarida ko‘rsatgan natijalari ko‘rsatkichi 239,64 ± 34,66 sm, TG dagi talabalarniki esa 247,88±34,88 sm, ishonchlilik (ρ>0,1). NG dagi qizlarda 206,93 ± 30,44 sm, NG dagi qizlarda 213,83 ± 30,58 sm, ishonchlilik (ρ>0,2).

Talabalarning kuch qobiliyatini tekshirish uchun yigitlarda turnikda tortilish, qizlarda esa polga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish mashqlari bajartirildi. Turnikda tortilish nazorat testida quyidagi natijalar olindi. NG dagi talabalarda 14,63±1,68 marta, TG dagi yigitlarda esa 15,04±1,77 marta, ishonchlilik (ρ>0,1). Qizlarda polga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish mashqida deyarli bir xil natija qayd etildi, NG da 23,18 ± 2,69 marta, TG da 23,76±2,74 marta va ishonchlilik (ρ>0,2).

4x10 metrga mokkisimon yugurish bo‘yicha NG dagi yigitlarning o‘rtacha ko‘rsatkichi 10,14±1,27 sek, TG dagi talabalarda ham 9,94±1,28 sek, ishonchlilik (ρ>0,2). NG dagi qizlarda 10,96 ± 1,37 sek, TG dagi qizlarda esa deyarli bir xil 10,58±1,37 sek, ishonchlilik (ρ>0,1).

Pedagogik kuzatuvlar o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha olingan natijalar talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasida nisbatan kichik farqlar borligini ko‘rsatayotgan bo‘lsada, statistik tahlillarga ko‘ra, tadqiqot olib borilayotgan guruhlarning talaba yigitlari va qizlari o‘rtasida katta farq ko‘zga tashlanmaydi, ishonchlilik (ρ>0,05)



1–rasm. Talabalarning pedagogik tadqiqot boshidagi jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha ko‘rsatkichlarining nisbiy farqi

1–jadval

TALABALARNING PEDAGOGIK TADQIQOT BOSHIDAGI JISMONIY TAYYORGARLIGI BO‘YICHA KO‘RSATKICHLARINING TAHLILI (N=139) (YIGITLAR 88 NAFAR, QIZLAR 51 NAFAR)

t/r	Sinov turlari (Yigitlar)	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			farqi		t	p
		$\overline{X}$	σ	V, %	$\overline{X}$	σ	V, %	absolyut	nisbiy %		
1	100 m.ga yugurish, sek (tezkorlik qobiliyati)	13,64	1,87	13,71	13,32	1,86	13,96	0,32	2,35	1,14	>0,1
2	3000 m.ga yugurish, sek (chidamlilik)	845,4	1,62	11,50	827,4	1,54	11,17	0,3	2,13	1,26	>0,2
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm (tezkor–kuch qobiliyati)	239,64	34,66	14,46	247,88	34,88	14,07	8,24	3,44	1,57	>0,1
4	Turnikda tortilish soni (kuch qobiliyati)	14,63	1,68	11,48	15,04	1,77	11,77	0,41	2,80	1,58	>0,1

5	4x10 metrga mokkisimon yugurish, sek (tezkorlik va chaqqonlik)	10,14	1,27	12,52	9,94	1,28	12,88	0,2	1,97	1,04	>0,2
t/r	**Sinov turlari (Qizlar)**	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			farqi		t	p
		$\overline{X}$	σ	V, %	$\overline{X}$	σ	V, %	absolyut	nisbiy %		
1	100 m.ga yugurish, sek (tezkorlik qobiliyati)	16,17	1,68	10,39	15,58	1,69	10,85	0,59	3,65	1,77	>0,05
2	3000 m.ga yugurish, sek (chidamlilik)	1051,2	2,39	13,64	1031,4	2,31	13,44	0,33	1,88	0,71	>0,4
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm (tezkor–kuch qobiliyati)	206,93	30,44	14,71	213,83	30,58	14,30	6,9	3,33	1,14	>0,2
4	Polga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish soni (kuch qobiliyati)	23,18	2,69	11,60	23,76	2,74	11,53	0,58	2,50	1,08	>0,2
5	4x10 metrga mokkisimon yugurish, sek (tezkorlik va chaqqonlik)	10,96	1,37	12,50	10,58	1,37	12,95	0,38	3,47	1,40	>0,1

Xulosa.

Jismoniy tarbiya jarayonida talabalarning sog‘lom turmush tarzini takomillashtirishga qaratilgan eksperimental dastur taqdim etilgan. Shuningdek, talabalarning sog‘lom turmush tarzini takomillashtirish bo‘yicha takliflar o‘rganildi. So‘rov natijalarini tahlil qilish o‘quvchilarning jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarziga munosabatini aniqlashga yordam berdi. Aksariyat talabalar jismoniy faollikga ijobiy munosabatda bo‘lishdi va sog‘lom turmush tarzi muhimligini tan olishdi. Bu talabalarning sog‘lom turmush tarzini takomillashtirish dasturida ishtirok etishga bo‘lgan potentsial tayyorligini ko‘rsatadi. Dastur doirasida “Sog‘lom turmush tarzining noan’anaviy usullari” tanlov fanining mazmuni va mohiyati haqida ma’lumot berildi. Ushbu tanlov fan talabalarga sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning noan’anaviy yondashuvlari va usullarini taklif qiladi. Bunday fanning o‘quv rejasiga kiritilishi talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirishga hissa qo‘shadigan qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish” chora-tadbirlari to‘g‘risida pf-5924-son farmoni/WWW. Lex.uz.

2. Kerimov F.A. Yakka kurash elementlariga ega bo‘lgan xarakatli o‘yinlar. T.: Ilmiy texnika axborroti-press nashriyoti, 2020.-79 b.

3. Salomov R. S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (Darslik). T., 2014 y.-297 b.

4. Tajibaev S.S. Usmir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarligida xarakatli o‘yinlarni qo‘llash metodikasini ilmiy pedagogik asoslash des. 2020.-53 b.

5. Mirzayev S. Tugarak mashg‘ulotlariga saralashda bolalar va o‘smir funktsional holatni o‘ziga xos xussiyatlari. T., 2020, II qism, B. 85-89.

6. To‘yshiyev T.S. Yuqori malakali belbog‘li kurashshilarning vazn toifasini inobatga olgan holda musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirish. Ch.: 2024. …diss, B. 142.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI STANDARTLASHTIRISH SHAROITIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan ishlash metodikasidagi o'zgarishlar tizimiga muvofiqlashtirish me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida yoritib berilgan. MTTlarida ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatishning yangi, zamonaviy usullari taklif qilingan. MTT va oila ijtimoiy-pedagogik hamkorligining asosiy tamoyillari tavsiflangan.*

Kalit so'zlar: *Davlat ta'lim standarti, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy hamkorlik, ota-onalar, insonparvarlik, pedagogik jarayon, individual yondoshuv.*

Шарипова Гулрухсор Нуркабиловна
Директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций
доцент Института переподготовки и повышения квалификации им.(PhD)

ОРГАНИЗАЦИЯ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В УСЛОВИЯХ СТАНДАРТИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье изложена система изменений в методике работы с семьей в дошкольных образовательных organizatsiях на основе нормативных правовых документов. Предложены новые, современные методы organizatsiu взаимодействия с родителями в дошкольных образовательных organizatsiях. Описаны основные принципы социально-педагогического взаимодействия ДОО и семьи.*

Ключевые слова: *Государственный образовательный стандарт, дошкольное образование, социальное сотрудничество, родитиели, гуманизм, педагогический процесс, индивидуальный подход.*

Sharipova Gulrukhsor Nurkabilovna
Preschool educational organizations provide directors and specialists with
associate professor of the Institute for retraining and their professional development, (PhD)

ORGANIZATION OF SOCIO-PEDAGOGICAL COOPERATION IN THE CONDITIONS OF STANDARDIZATION OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

Annotation. *The article presents a system of changes in the methodology of working with families in preschool educational organizations based on regulatory legal dokuments. New, modern methods of organizing interaction with parents in preschool educational organizations are proposed. The main principles of social and pedagogical interaction between preschool educational organizations and families are described.*

Key words: *State educational standard, preschool education, social cooperation, parents, humanism, pedagogical process, individual approach.*

Maktabgacha ta'limda ijtimoiy hamkorlikka bo'lgan ehtiyojlar zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va madaniy rangbaranglikni oshish jarayonlari bilan bog'liq. Maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishning asosiy maqsadi ta'lim sohasida turli xil manfaatlarga, turlicha qarashlarga ega bo'lgan turli ijtimoiy guruhlarni bir maqsad – bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida birlashtirishdir. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son qarori kabi huquqiy hujjatlar maktabgacha ta'lim sohasidagi ijtimoiy sheriklikning qonuniy asosini tashkil qiladi. Ijtimoiy hamkorlik (fransuzcha Partenaire-hamkorlikdagi harakatlar ishtirokchisi) – manfaatdor tomonlarning umumiy maqsadlarga erishishda kuchlarni birlashtirish, o'zaro manfaatli ijtimoiy g'oyalar, axborotlar va resurslar

almashinuvini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarining zamonaviy shakli degan ma'noni bildiradi [7].

V.M.Genkinning fikriga koʻra – "Hamkorlik mafkuradir", ijtimoiy guruhlarning konstruktiv oʻzaro ta'sirini ta'minlash uchun manfaatlarini muvofiqlashtirish shakllari va usullarini oʻz ichiga oluvchi manfaatdor tomonlarning konstruktiv oʻzaro hamkorligidir.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi ijtimoiy hamkorlik "MTT va ta'lim jarayoni ishtirokchilari, davlat va mahaliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari bilan ushbu jarayon ishtirokchilarining manfaatlarini muvofiqlashtirish va amalga oshirishga qaratilgan oʻzaro munosabatlarining alohida turi" sifatida qaraladi [7].

Ta'lim sohasidagi ijtimoiy hamkorlik – bu ijtimoiy hayotning alohida sohasi sifatida ta'lim tizimi tashabbusi bilan boshlangan, demokratik jamiyat shakllanishiga xizmat qiladigan faoliyat. Hamkorlikning bunday koʻrinishi ta'lim tizimini ijimoiy hayotning alohida boʻgʻini sifatida yangi ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarini oʻzgartirish, loyihalashtirish, tadqiq qilish va oʻzgartirish imkonini beradi. Davlat talablarida MTTning ota-onalar bilan hamkorligini tashkil etish, ota-onalar bilan oʻzaro hamkorlik shakllari va tamoyillari belgilab berilgan [2]. Hamkorlik bolalar rivojlanishi, ularning katta odamlar, atrof muhit bilan munosabatga kirishishi, bolalarni oila, jamiyat va davlatning ijtimoiy-madaniy me'yorlari, qadriyatlari bilan tanishtirish jarayonida namoyon boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya toʻgʻrisida"gi Qonunida MTTlarining jamoat tashkilotlari, fuqarolar, fuqarolarning oʻz-oʻzini boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi tadbirlarda ishtirok etishi hamda oʻzaro munosabatlarini tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [1]. Maktabgacha ta'limni standartini maktabgacha ta'limga tatbiq etish jarayonida MTTlarining jamoa tashkilotlari bilan oʻzaro hamkorligi tarbiyalanuvchilarning samarali bilim olishi, zamon bilan hamnafas boʻlib ulgʻayishi, jamiyatda kechayotgan jarayonlarga moslashuvchan boʻlib tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda MTTlarining oldida turgan katta vazifalardan biri bu – ta'lim tizimidagi muammolarni hal qilishda boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik, ochiqlik, yaqin va teng huquqli hamkorlikni yoʻlga qoʻyishdir. Zamonaviy hayotda MTT asta-sekin ochiq ta'lim tizimiga aylanib borayapti: bir tomondan MTTda ta'lim jarayoni pedagoglar tomonidan ancha erkin, moslashuvchan, tabaqalashtirilgan hamda insonparvarilikka yoʻnaltirilayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan pedagoglar, ota-onalar va davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikka katta ahamiyat berilayapti. Shu tarzda ijtimoiy hamkorlik asosida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshirilayotgan islohatlarda ijtimoiy muammolarni hal etish, ijtimoiy munosabatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va hayot sifatini oshirishga qaratilgan, jamiyatning turli boʻgʻinlari oʻrtasidagi oʻzaro manfaatli hamkorlik tashkil etiladi. Zamonaviy hayotda MTT asta sekin ochiq, shaffof ta'lim tizimiga aylanib borayapti: birinchidan MTT pedagogik jarayoni ancha erkin, moslashuvchan, tabaqalashtirilgan va insonparvarlikka yoʻnaltirilayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan pedagoglarning oila va ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda ishlashga e'tibor qaratayotganligidadir.

"Ijtimoiy hamkorlik" tushunchasining mohiyati manfaatdor tomonlarning konstruktiv oʻzaro hamkorligi hisoblanadi. "Hamkorlik faoliyatida har ikkala tomon, hamkorining qiziqish va manfaatlari hisobga olinmasa uning ham maqsadlari amalga oshmasligini tushunishi lozim" [4].Bu xulosa "Pedagogik oʻzaro ta'sir" tushunchasi uchun ham tegishli.

Maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy hamkorlik – bu MTTlarining hamkorlari davlat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari va tashabbuskor guruhlar bilan hamkorlik jarayonining barcha ishtirokchilari manfaatlarini amalga oshirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan birgalikdagi oʻziga xos faoliyatidir [7]. Ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish usuli – tarbiyalanuvchilarni Davlat talablari asosida rivojlantirish, tarbiyalash boʻyicha oʻzaro manfaatli masalalar yuzasidan kelishuvga erishish maqsadida tashkil etiladigan ijtimoiy muloqotdir. Hozirgi kunda ijtimoiy hamkorlik maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli ta'lim olishi, sogʻlom rivojlanishi maqsadida barcha manfaatdor tomonlarning sub'ektlararo munosabatlarining asosi sifatida ijtimoiy hayotning yangi koʻrinishini ifodalaydi. Hamkorlik inson faoliyatining koʻplab sohalarida oʻrganish predmeti va yordamchi vosita boʻlsa, maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy pedagogik hamkorlik muayyan bir tarbiyalanuvchining yoshi, rivojlanish darajasi, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, qulay ta'lim-tarbiya muhitini shakllantirish maqsadida ta'limiy faoliyatning barcha ishtirokchilari oʻrtasidagi pedagogik oʻzaro ta'sir jarayoni sifatida qaraladi. Shu sababli, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik tizimida MTT va oila oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikni oʻrnatish davlat ta'lim standartlarini amaliyotga tatbiq etish sharoitida MTTning ota-onalar bilan hamkorlik qilish mazmunini yangilash va takomillashtirishni talab etadi. Chunki aynan oila MTTning eng muhim va asosiy yaqin hamkori hisoblanadi.

Jamiyatimizda MTTning oila bilan hamkorlik faoliyatini tashkil etish me'yoriy-huquqiy baza bilan himoyalanadi. Hamkorlik munosabatlari ijtimoiy-pedagogik sohadagi barcha oʻzgarishlarni tartibga soladi, bu esa ota-ona maqomi va MTT pedagogi faoliyatiga nisbatan yangicha qarashlarning shakllanishiga olib keladi. MTT va oila hamkorligi doirasida ota-onalarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikka jalb etish quyidagi yoʻnalishlarda olib boriladi:

- Ota-onalarda pedagogik kompetentlikni shakllantirish;
- Ota-onalar jamoatchiligi mobilligini rivojlantirish;
- Ota-onalar jamoatchiligi nufuzini oshirish.

Shunday qilib, milliy kurash musobaqalarini pedagogik-uslubiy jihatdan ilmiy asoslangan holda tashkil etish yosh sportchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi va kelajakda bu sohada amalga oshiriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ташмухамедов С.Р. Миллий кураш машғулотларининг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти: ўқув қўлланма / С.Р. Ташмухамедов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 144 б.

2. Холмуродов Н.Х. Миллий курашчиларни техник-тактик жиҳатдан тайёрлаш услубиятини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатсия автореферати / Н.Х. Холмуродов. – Тошкент, 2014. – 28 б.

3. Ахмедов А.Б. Спортчиларнинг мусобақаларга психологик тайёргарлигини такомиллаштириш: услубий қўлланма / А.Б. Ахмедов. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – 120 б.

4. Атажанов М.М. Миллий кураш мусобақаларини ташкил этишда инновацион педагогик технологияларнинг роли // Халқаро спорт фанлари журнали. – 2021. – № 3(17). – Б. 56–62.

5. Каримов И.А. Миллий кураш бўйича халқаро мусобақаларни ташкил этишнинг хорижий тажрибаси ва уни маҳаллий амалиётга татбиқ этиш масалалари // Ўзбекистон жисмоний тарбия ва спорт журнали. – 2019. – № 5. – Б. 48–52.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Sagatov Ibrohim Raufovich
Toshkent farmatsevtika instituti p.f.b.f.d. (PhD), v.b dotsent
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'riy ishlar bo'yicha birinchi prorektori
pedagogika fanlari nomzodi, dosent N.F.Abdunazarova taqrizi asosida
e-mail: ibrokhimsagatov@gmailcom

UDK 371:(378)1

PROFESSIONAL TA'LIMDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada professional ta'limda maxsus fanlarni o'qitishning didaktik tamoyillari hamda hozirgi zamon professional ta'limida zamonaviy didaktik vositalari tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Professional ta'limda tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ta'limning mazmuni – bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, dunyoqarashi va xulq-atvor xususiyatlari tizimi sifatida belgilanadi.*

Kalit so'zlar*: professional ta'lim, maxsus fanlar, o'qitishning didaktik tamoyillari, fan – ta'lim, kadrlar tayyorlash, yoshlar, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, maxsus fanlarning vazifalari, transformatsiya, elektron o'quv metodik-majmua.*

Sagatov Ibrahim Raufovich
Tashkent Pharmaceutical Institute (PhD), Associate Professor
First vice-rector for Youth Affairs and spiritual and spiritual affairs
candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor N.F.Abdunazarova review

DIDACTIC PRINCIPLES OF TEACHING SPECIAL SUBJECTS IN VOCATIONAL EDUCATION

Annotation: *This article discusses the didactic principles of teaching special subjects in vocational education, as well as modern didactic tools that are gaining increasing importance in modern professional education The content of education, which is an important component of professional training, is characterized by knowledge, skills and abilities, creative and personal qualities, worldview and human qualities*

Keywords: *professional education, special subjects, didactic principles of teaching, science - education, personnel training, youth, methodology of teaching special subjects, tasks of special subjects, education, transformation, electronic learning methodological complex.*

Сагатов Ибрагим Рауфович
Ташкентский фармацевтический институт (PhD), и.о. доцент
Первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе
кандидат педагогических наук, доцент Н.Ф.Абдуназаровой по отзыву

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПРЕПОДАВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются дидактические принципы преподавания специальных предметов в профессиональном образовании, а также современные дидактические средства, которые приобретают все большее значение в современном профессиональном образовании Содержание образования, являющееся важным компонентом профессиональной подготовки, характеризуется знаниями, умениями и навыками, творческими и личностными качествами, мировоззрением и человеческими качествами*

Ключевые слова: *профессиональное образование, специальные предметы, дидактические принципы преподавания, наука - образование, подготовка кадров, молодежь, методика преподавания специальных предметов, задачи специальных предметов, образование, трансформация, электронный учебно-методический комплекс.*

Kirish (Introduction).

Bugungi kunda OTM larida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashni zamonaviy didaktik vositalari xususan, elektron darsliklar, elektron o‘quv qo‘llanma, elektron masalalar to‘plami, elektron trenajyorlar, elektron praktikumlar, elektron ma’lumotnomalar, elektron ensiklopediyalar, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, elektron o‘quv metodik-majmua (EO‘MM), mabil ilovalar va shu kabi boshqa ko‘plab zamonaviy didaktik vositalarisiz tasavvur etish qiyin. Shu bois, hozirgi zamon professional ta’limida zamonaviy didaktik vositalari tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Professional ta’limda tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan ta’limning mazmuni – bilim, ko‘nikma va malakalar, ijodiy shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, dunyoqarashi va xulq-atvor xususiyatlari tizimi sifatida belgilanadi Professional ta’lim tarkibi ishning mazmuni va xususiyatini, mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan talablarni, fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish va pedagogika fani yutuqlarining hozirgi rivojlanish darajasini aks ettiradi. Shu sababli tarkibni aniqlash uchun ilmiy ma’lumotlarni tanlash tizimini ishlab chiqishda muhim rol ijtimoiy, ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik-pedagogik omillarni tahlil qilish, integrasiyalashgan kasblar guruhini tashkil qilishning didaktik asoslari, bilim, ko‘nikma va malakalarni tizimlashtirish ilmiy asoslarining o‘rni beqiyosdir.

Zamonaviy didaktik vositalarining professional ta’limda faol qo‘llanilishi ikkinchi va uchinchi bosqichlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu shu bilan belgilanadiki, zamonaviy didaktik vositalar an’anaviy o‘quv-metodik vositalarga nisbatan yangi imkoniyatlarni ta’minlaydi, ko‘pgina mavjud funksiyalar yanada yuqori sifat bilan amalga oshiriladi. Professional ta’lim mazmunini loyihalashning umumiy qoidalari, tarkibni loyihalashning didaktik tamoyillari NM Aleksandrova, S Ya Batisheva, AP Belyaeva, NI Dumchenko, MA Petuxova, L D Fedotova, VV Shapkina, AE Shilnikova, NG Yaroshenko va boshqalarning ishlarida bayon etilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili, professional ta’lim uchun maxsus fanlarni loyihalashda maqsadli va malakali tarkibni tanlash kelajakda mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lgan ishchilar va mutaxassislarni tayyorlash muvaffaqiyatining garovi ekanligi to‘g‘risidagi xulosaga kelishimizga imkon berdi.

Professional ta’lim mazmunining o‘ziga xos xususiyati – o‘z maqsad va vazifalarida turlicha bo‘lgan (umumiy ta’lim, umumiy texnik, maxsus) ta’lim fanlarining mavjudligidir. Shu bilan birga, maxsus fanlar etakchi ahamiyatga ega bo‘lib, ularning tarkibi texnika va ishlab chiqarish haqidagi fanlarining poydevorlari majmuasi bo‘lib, kasbning nazariy asosini tashkil etadi.

Akademik AP Belyaeva kasb ta’limi tizimidagi maxsus fanlarning roli va o‘rnini belgilab berdi, ularning vazifalari belgilab olindi, maxsus fanlar tarkibini tanlashning umumiy didaktik tamoyillarini aniqladi.

Maxsus fanlar tarkibini loyihalashtirish texnologiyasini ishlab chiqish va asoslashda eng muhimlaridan biri sifatida quyidagi qoidalar ta’kidlangan:

1. Maxsus fanlar ta’lim oluvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatini ilmiy asosini tashkil etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, texnologik, psixofiziologik va boshqa bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishida konstruktiv funksiyaga ega Shu munosabat bilan maxsus fanlarning tarkibi har doim xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari uchun integrallashgan kasblar guruhlarida mutaxassislarni tayyorlashni hisobga olgan holda fan va texnikaning yutuqlariga mos kelishi kerak.

2. Maxsus o‘quv fanlari integrasion yo‘nalishga ega, bir tomondan, ular umumta’lim fanlarida olingan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanadilar, boshqa tomondan ular ijtimoiy ishlab chiqarishning integrasiyalashuv jarayonlariga, kasbiy faoliyat mazmuniga, akademik liseyda boshlang‘ich kasb ta’limi jarayonida kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishga mos ravishda umumiy hamda maxsus qismlarga ega. Xalq xo‘jaligining yaxlit tarmoqlarini, alohida tarmoqlarni birlashtirish munosabati bilan maxsus predmetlarning integrasion roli ortadi; shuning uchun maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida politexnika, umumiy kasbiy yo‘nalishni mustahkamlash, fanlararo va sikllararo kompleks aloqalarni o‘rnatish zarurati paydo bo‘ladi.

3. Maxsus o‘quv fanlari umumiy ta’lim sikllari va kasb ta’limi fanlari o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi Ushbu pozisiya nazariy va kasb ta’limi jarayonida ishlatiladigan shakl va usullarni oqilona uyg‘unlashtirishga didaktik talablar qo‘yadi. Ilmiy-texnika yutuqlari ularning mazmunidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarning rolini oshirayotganligini hisobga olib, ta’lim jarayonini tashkil etishning yangi shakllaridan yanada kengroq foydalanish kerak: dars-ishbilarmonlik o‘yini, dars-musobaqa, professional faoliyatni modellashtirish, ta’lim oluvchilarga kasbiy muammolarni hal qilishda mustaqillikni rivojlantirish, bajarib bo‘lmaydigan ishlarga ijodiy yondashish, faoliyat predmetini o‘rganishda bilimlarni amaliy qo‘llash, kelajakdagi kasbiy faoliyatni ustalik bilan bajarishga yordam beradigan o‘zgacha holatlarga moslashishni ta’minlaydigan tahliliy fikrlashni rivojlantirish.

4. Maxsus fanlarning tarkibini tanlash tizimlilik va maqbullik tamoyillarini, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni, o‘qishni samarali mehnat bilan birlashtirishni, politexnizmni, ta’lim va tarbiyaning birligini, umumiy ta’lim va kasb ta’limi o‘rtasidagi munosabatlarni, fanlararo bog‘liqlikni tatbiq etishni talab qiladi. Maxsus fanlar tarkibini tanlashda kasbiy faoliyatning dunyoqarash va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular ta’lim berish va tarbiya berish natijalarini hamda ta’lim oluvchilarning mehnatlari samaradorligi natijalarini tavsiflaydi.

Didaktik tamoyillar boshlang‘ich nuqta sifatida hodisalar o‘rtasidagi ob’ektiv, qonuniy bog‘liqlikni ochib beradi; ularning natijasi sifatida pedagogik voqelikning

ob'ektlari va hodisalarini o'rganish uchun umumiy va maxsus talablar yuzaga keladi.

Maxsus fanlar mazmunini loyihalash zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishga imkon beradigan asosiy didaktik tamoyillarga rioya qilishni talab qiladi.

Maxsus fanlar tarkibini tanlash va tuzishning ilmiy asosini didaktik tamoyillar, xususan: insoniylashtirish, izchillik, integrasiya, tabaqalashtirish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik, ilmiy tabiat, kompyuterlashtirish, umumiy, politexnika va kasbiy ta'limning birligi va o'zaro bog'liqligi; professional harakatchanlik, professiologik shartlilik tashkil etadi.

Insonparvarlik tamoyili insondan uning o'zini hayot faoliyati, muloqot va mehnat sub'ekti sifatida; madaniy taraqqiyot sub'ekti sifatida, uning mavjudligini ta'minlovchi kasbning tashuvchisi sifatida; o'zini ma'lum bir maqomga ega bo'lgan shaxs sifatida tasdiqlash; dunyo bilan munosabatlar tizimining sub'ekti sifatida anglashni talab qiladi. Insonparvarliktamoyili inson va dunyo o'rtasidagi munosabatlarning yangi quyi tizimi sifatida yangi integrasiyalashgan bilim sohalarini yaratish va asoslashda namoyon bo'ladi.

Professional ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashning pedagogik va kasbiy vazifalarini hal qilishning asosiy omillari quyidagilar: inson omilini faollashtirish; o'z faoliyatida ijodiy tashabbus, kelajakdagi kasbiy faoliyatda o'zlarining qobiliyatlari va imkoniyatlarini amalga oshirish, o'zini yuqori malakali mutaxassis sifatida anglashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili. (Literature review).

Bo'lajak mutaxassisga qo'yiladigan zamonaviy talablar shaxsiy manfaatlarning kollektiv manfaatlar va umuman korxonaning manfaatlari bilan uyg'un birikishiga yo'naltirilgan axloqiy qadriyatlarni, o'z kasbini rivojlantirish istiqbollari, uning ijtimoiy mehnatdagi, shuningdek, umuman, korxonaning muayyan ishlab chiqarish jarayoni doirasida o'rni va rolini bilishni talab qiladi.

Shaxs madaniyati va mehnat unumdorligi bevosita bog'liqdir, zero, yetarli darajadagi madaniyat bilan, mehnat faoliyati jarayonida mehnatga va ijodga faol va ongli munosabat namoyon bo'ladi; shaxs madaniyati mutaxassisning ijodiy, ijtimoiy ahamiyatli ishlarda, kasbiy faoliyatda o'zini o'zi tasdiqlashda, o'zini takomillashtirishda (o'zini o'zi anglash, mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish), muloqotda shaxs ehtiyojlariga uyg'unlikni ta'minlaydi. Shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy va kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish uchun barcha madaniy ehtiyojlari umumiy, ijtimoiy, ekologik, texnik, iqtisodiy madaniyat jihatidan ta'minlanishi kerak.

Professional ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlar mazmunini tanlashda insonparvarlik tamoyilining amalga oshirilishi ularning gumanitar yo'nalishini kuchaytirishdan iboratdir. Masalan, texnika asoslarini ularning hozirgi zamon bilan aloqasi va rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish uchun o'quv materialining tarkibiga farmasevtikaga oid bilimlar tarixi haqidagi materiallar kiritiladi; inson va texnika o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rnatish uchun o'qitish tarkibiga zamonaviy aloqa vositalari va ularning imkoniyatlarini rivojlantirish sohasidagi yangi yutuqlar va kashfiyotlar haqidagi materiallar kiritiladi.

Didaktik tamoyil ma'nosidagi integrasiya biz tomonimizdan ta'lim tarkibiy qismlarini loyihalashning sifat jihatidan yangi darajasi sifatida ko'rib chiqiladi, bu butun tarkibni tanlash, tuzish va o'zlashtirish tizimiga ta'sir qiladi.

Integrasiya uslubiy va didaktik tamoyil sifatida ta'lim jarayonining barcha qismlariga ta'sir qiladi va tarkibni loyihalashning barcha darajalarida: umumiy tarkib modeli, o'quv rejasi, o'quv mavzusi va o'quv materiallari darajasida amalga oshiriladi. Integrasiya tamoyilini amalga oshirish integrallashgan kasb bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj va mutaxassislarni tayyorlashda ustuvor serpredmetlilik o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bu ta'lim oluvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati to'g'risida yaxlit tasavvurni yaratmaydi va olingan bilimlarni amalda qo'llashni qiyinlashtiradi.

Integrasiyalash tamoyilini maxsus fanlarning tarkibini loyihalashning barcha bosqichlarida amalga oshirish quyidagilarni amalga oshirishga imkon berdi:

a) ular umumiyligining ustunlik xususiyatini o'rnatish asosida kasbiy ko'nikma va malakalarning ierarxik guruhini yaratish;

b) fanlararo integrasiya bosqichida – kasbiy faoliyatning mazmunli parametrlari atrofida o'zlashtirishning har xil darajalarida taqdim etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni birlashtiruvchi komplekslarni asoslash va ishlab chiqish;

v) o'qitishning mazmuni va tashkil etilishini integrasiyalash bosqichida ichki sikllar va sikllararo aloqalarni amalga oshirishni ta'minlaydigan nazariy va kasb ta'limi darslarining tuzilishini ishlab chiqish

Farqlash tamoyili Maxsus fanlarning mazmunini farqlashning didaktik tamoyilini mavjudligi faqat integrasiya tamoyili bilan birgalikda mumkin bo'ladi. Jamiyatning zamonaviy rivojlanish darajasi professional ta'lim muassasalarida kasb bo'yicha mutaxassislar oldiga ijodiy va tashabbuskor kasbiy faoliyatga, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashishga, turli vazifalarni bajarishga va ularni tezkor hal qilishga bo'lgan ehtiyojni, bir nechta turli ishlarni parallel ravishda boshqarish, turli xil aloqalar olib borish zaruratini qo'yadi.

Mutaxassislar mehnatining tabiati va tarkibi laboratoriya (ustaxona, muassasa, firma va boshqalar) faoliyati profilini, mehnatni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini va ish turlarini hisobga olgan holda o'zgaradi.

Aytib o‘tilganlar bilan bog‘liq holda farqlash tamoyilini amalga oshirishda quyidagi omillarning ta’sirini hisobga olish kerak, deb taxmin qilish mumkin:

a) ish funksiyalarini bajarish uchun preparatlar, jihozlarning turlari, moddalarning farqlari;

b) texnologik jarayon turlari;

v) bo‘lajak mutaxassislarning mehnat faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy, ruhiy-fiziologik omillari

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqotda belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish jarayonida ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish va tahlil qilish, sotsiologik so‘rovnomalar, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik usullaridan foydalanilgan. Ilmiy faktlarning ishonchliligi va ularning ilmiy asoslanganligi fan g‘oyalari, qonunlar, tushunchalar, faktlar, tamoyillar, nazariyalarni aniqlaydigan ta’limning o‘ziga xos manbai bo‘lib xizmat qilishi kerakligi haqidagi tezisni tasdiqlashdan iborat bo‘lgan ilmiy tamoyildir. Ko‘pgina fan sohalari texnologik jarayonga, yangi uskunalar va ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatmoqda Ilmiylik tamoyilini amalga oshirish natijasida ta’lim oluvchilar o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyatini tushunishni o‘o‘zlashtirishlari kerak.

Professional ta’lim muassasalari kasb ta’limi jarayonida ilmiy xarakter tamoyili quyidagicha namoyon bo‘ladi.

a) turli fanlarning ijtimoiy, tabiiy, texnik asoslarini uyg‘unlashishi va ularning o‘zaro munosabatida;

b) ushbu fanlar asoslarining ishlab chiqarish bilan o‘zaro ta’siri jarayonida;

v) tabiat qonunlaridan inson amaliyoti va ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanishda;

d) ilmiy va ishlab chiqarish xususiyatidagi ba’zi vazifalarni hal etishga asoslangan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda

Maxsus fanlar mazmunini loyihalashda maqsadlarni belgilash tamoyili loyihalash maqsadini belgilashdan boshlab, uni amalda bajarishgacha bo‘lgan davrda, loyihaning barcha davrlari va bosqichlarida aks etadi.

Professional ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash uchun maxsus fanlar mazmunini loyihalashda maqsadlarni belgilash tamoyilini amalga oshirish uchun biz maqsadlarni turkumlash usulidan foydalandik, bu esa pirovard maqsadni bosqichma-bosqich taqsimlab, keyinchalik detallashtirish va yo‘naltirilgan prognoz grafigi (maqsad daraxti) ni tuzishni anglatadi.

Integrasiyalashgan fan bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus fanlar mazmunini loyihalashda maqsadlarni belgilash tamoyili maqsadlar ierarxiyasini ishlab chiqishga imkon berdi, bu yerda asosiy maqsad mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashdir.

Maqsadlarni belgilash tamoyili yakuniy (yoki oraliq) natijani bashorat qilish bilan chambarchas bog‘liq va loyihaning har bir bosqichida erishilgan yutuqlarni ob’ektiv baholashga xizmat qiladi.

Integrasiyalashgan kasb bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus fanlar mazmunini loyihalashda bashorat qilish tamoyili integral turdagi mutaxassislarning kasb ta’limi tarkibidagi “ideal” (bashoratli) modelni modellashtirishni talab qiladi, unga nisbatan modelning natijalariga erishishning haqiqiy darajasi taqqoslanadi va ta’lim tarkibi o‘zgartirilib, tuzatiladi.

Maxsus fanlar mazmunini loyihalashda bashoratli tamoyilni amalga oshirish integrativ turdagi mutaxassisning innovasion kompleks tasavvurini aks ettiruvchi va uni o‘qitish uchun mazmunga talablar tizimini belgilaydigan integrasiyalashgan kasb bo‘yicha mutaxassis faoliyatining ishlab chiqilgan professiologik modeliga asoslanadi.

Texnologiyalik tamoyili tafakkur jarayonlarining ma’lum bir kasbiy faoliyat tuzulmasida mohoratli shaxsni shakllantirish mantig‘i bilan bog‘liqligini belgilaydi va kasb ta’limi tarkibini alohida bosqichlar, operasiyalar va taomillarga ajratish, ularning belgilangan ketma-ketligini taqdim etishning modul tizimiga asosan dasturiy amalga oshirishni loyihalashtirish jarayonini dekompozisiya qilishni talab etadi.

Texnologiyalik tamoyili kasb ta’limi tarkibini tanlash va tuzishning ishlab chiqarish jarayonlari qonuniyatlari va mantiqlari bo‘yicha o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi. Uni amalga oshirish o‘quv materialining joylashuvi shaxsni rivojlantirish va kasbiy faoliyatni shakllantirish maqsadlariga mos keladigan tarkibiy muvofiqlikni, mehnat taqsimotining samarali shakllariga yo‘naltirilgan o‘quv, tafakkur va o‘quv-ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning maqbul shakllarini tanlashni, kasbiy mahoratni shakllantirish mantig‘ini yetarli darajada aks ettiradigan nazariy va kasb ta’limi jarayonlarini oqilona qurish va ularning o‘zaro bog‘liqligini talab qiladi.

Maxsus fanlar tarkibini loyihalashtirish texnologiyasini ishlab chiqishda va asoslashda, texnologiyalik tamoyili kasb ta’limi tarkibidagi tarixiy shakllangan va zamonaviy faoliyat turlari tizimida aks ettirilgan ijtimoiy tajriba elementlariga mos kelishini; kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar tizimining integrasiyalashgan kasb mutaxassislari uchun xarakterli va muhim bo‘lgan asosiy faoliyat turlari va ishlab chiqarish funksiyalariga muvofiqligini; uni o‘zlashtirishning qabul qilingan psixologik-pedagogik konsepsiyasi mazmunining tarkibiy muvofiqligini ta’minlaydi.

Pedagogik loyihalashtirishning eng muhim tamoyillaridan biri – kasb ta’limining standartlashtirilishi jarayonlari, uning mazmuniga bo‘lgan me’yorlar va talablarni belgilash, shuningdek, kasbni o‘zlashtirishning har bir bosqichida ta’lim jarayonini tashkil etishda bevosita aloqani ta’minlaydigan me’yoriy tartibga solish tamoyilidir.

Normativ tartibga solish tamoyilining amalga oshirilishi tarkibni (me'yoriy tartibga solish ob'ekti bo'lgan harakat sifatida), xususiyatni (har qanday harakatga ruxsat beradigan yoki taqiqlaydigan majburiy me'yor sifatida) qo'llash shartlarini (harakatlar bajarilishi kerak yoki qilinmasligi kerak bo'lgan holatlar sifatida); sub'ektni (me'yor, me'yoriy talab yo'naltirilgan shaxs yoki shaxslar guruhi sifatida) tanlash munosabatlarini aks ettiradi.

Maxsus fanlar tarkibini ishlab chiqishda ta'lim standartiga ishlab chiqarish jarayoni texnologiyalari qonuniyatlarini o'rganish doirasida umumiy ilmiy, umumiy kasbiy va maxsus tayyorgarlik ko'lamini belgilashga qo'yiladigan talablar va cheklovlar to'plami; ishlab chiqarish funksiyalarini bajarish jarayonida hal qilinadigan professional vazifalarning tabiati; mutaxassisning kelajakdagi barcha kasbiy faoliyatini qamrab oladigan kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorligini ta'minlaydigan odatiy, diagnostik va evristik vazifalarning nisbati; uzluksiz ko'p bosqichli kasbiy ta'lim tizimidagi ta'lim bosqichlari sifatida qaraladi.

Professional ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash uchun maxsus fanlar mazmunini loyihalashda ushbu tamoyilning amalga oshirilishi, birinchi navbatda, o'rganilayotgan sohada mutaxassis faoliyatining professional modeliga asoslanadi. Bu kasbiy faoliyat mazmunining mantiqiy tuzilishini ochib beradigan va mutaxassislar shaxsining professional ahamiyatli fazilatlariga qo'yiladigan talablarni aks ettirishi bilan bog'liq.

Normativ tartibga solish tamoyili ta'lim jarayonini qurishni ham nazarda tutadi, bunda ta'lim oluvchilar kasbni belgilangan o'zlashtirish darajalariga munosib ravishda egallaydilar.

Professional ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash uchun maxsus fanlar tarkibini loyihalashda me'yoriy tartibga solish tamoyili alohida ahamiyatga ega, chunki u kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarida o'z aksini topib, uni amalga oshirish uchun me'yoriy va tartibga soluvchi ko'rsatmalarning majburiy bajarilishi bilan tavsiflanadi.

Normativ tartibga solish tamoyili maxsus predmetlar tarkibiga mehnat mahsuli sifatining talablari bilan belgilanadigan faoliyat turlarini bajarish sifatiga qo'yiladigan me'yoriy talablarning majburiy kiritilishini nazarda tutadi.

Tarkibni loyihalash texnologiyasining me'yoriy-tartibga soluvchi tomoni quyidagilarning: me'yoriy-huquqiy hujjatlar; o'rganilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, me'yor va qadriyatlar; kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi qoidalar va shartlar; shaxsning ishlab chiqarish va intellektual funksiyalarni bajarish sifatiga va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlariga qo'yiladigan talablar; professional faoliyatni amalga oshirish ustidan nazorat va o'zini o'zi nazorat qilishning umumiyligini aks ettiradi.

Maxsus fanlar mazmunini loyihalashda ochiqlik tamoyili: iste'molchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari tahliliga qarab kasb ta'limi tarkibini diversifikasiya qilish; kasbiy ta'limning mehnat bozori va ta'lim xizmatlari kon'yunkturasiga nisbatan tezkorligi va munosib darajada javob berishi; mijozlarni bilim, ko'nikma va malakalar sifati va integrasiyalashgan kasbga kiritilgan kasblar ko'lamidan qoniqtirish kasb ta'limining innovasion sezgirligini aks ettiradi.

Professional ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash uchun maxsus fanlar tarkibini loyihalashda ochiqlik tamoyilining amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va texnologik, ruhiy-pedagogik omillar va ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilar talablariga ta'sir etuvchi ta'lim tarkibidagi o'zgarishlarning jarayonlari va natijalarini; foydalanilayotgan dasturlar tarkibiga alohida fanlar bo'yicha ham, integrasiyalashgan kurslarda ham o'z-o'zini o'qitish faoliyatini kiritish imkoniyatini aks ettiradi.

Funksional to'liqlik tamoyili kasbiy faoliyatning barcha tarkibiy elementlari, uni tashkil etish usullari va amalga oshirish ketma-ketligini tartibga solish to'g'risida ta'limiy ma'lumotlarni taqdim etish zarurligini aks ettiradi.

Maxsus fanlar tarkibini loyihalashda funksional to'liqlik tamoyili mutaxassislar faoliyati professional modelining me'yoriy tarkibi; bo'lajak mohir mutaxassislarning bilimlari, qobiliyatlari, ko'nikmalari, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni qayd etish bilan ta'minlanadi.

Professional ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus fanlar tarkibini loyihalashda funksional to'liqlik tamoyilini amalga oshirish, loyihalash texnologiyasi o'z tarkibiga ega bo'lishi zarurligini, ya'ni asosiy elementlarni (g'oyalar, tushunchalar, qonuniyatlar, tamoyillar va talablar) o'z ichiga olishi lozimligini; ziddiyatsiz va ortga qaytuvchan bo'lishini; bashorat qilinadigan bo'lishi kerakligini ko'zda tutadi.

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, o'zaro shartlilik, shuningdek, ko'rib chiqiladigan tamoyillarning professional modelga mos keladigan maxsus fanlar mazmunini loyihalashga nisbatan yo'naltirilishi, ularni yagona didaktik tizimga birlashtirish va maxsus fanlar mazmuni bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni tizimlashtirish, faoliyatning barcha turlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish funksiyalarini va ishlab chiqarish tarkibiy elementlarini tavsiflovchi birlashtirilgan kasbiy bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning komplekslarini asoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati (References).

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'PQ-637-sonli Qonuni // wwwlexuz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-1761-sonli qarori // wwwlexuz

3. Hamidov J A Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi // Monografiya-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti 2017- B 160

4. Авлиякулов НХ Практические основы модульной системы обучения и педагогической технологии – Бухара, 2001 99 с

5. Avliyakulov NX, Musaeva NN Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida maxsus fanlarning modulli o‘qitish texnologiyalari – T: Yangi asr avlodi, 2003 88 b

6. Ажикин ГИ Самостоятельная работа учащихся профтехучилищ в процессе производственного обучения – М: Высшшк, 1987 176 с

7. Алметов НШ Дидактические условия формирование профессиональных навыков и умений учащихся СПТУ // Автореф дис канд пед наук – Т, 1991 9 б

8. Батышев СЛ Производственная педагогика – М: Педагогика, 1984 340

9. Анденко МА Актуальные проблемы взаимодействия специальных кафедр высшей школы при модульном обучении – Новосибирск, 1993 78 с

10. Андреев ВИ Педагогика // Учебный курс для творческого саморазвития – Казань: Центр инновационных технологий, 2000 С 124

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tashmatova Kamola Abdurashidovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
kamola.tashmatova@gmailcom.

TALABALARGA NOMODDIY MADANIY MEROS MUHOFAZASI BILAN BOG‘LIQ NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI O‘RGATISHDA QO‘LLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nomoddiy madaniy meros fanini Oliy ta’lim talabalariga o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan texnologiyalardan namunalar keltirilgan. Shuningdek ushbu texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar. *Nomoddiy madaniy meros, tushuncha, texnologiya, tavsiya, Davlat dasturi, muhofaza, talaba, YUNESCO, tadqiqot, ilmiy tadqiqot, vazifa, maqsad.*

Ташматова Камола Абдурашидовна
Узбекский государственный институт искусств и культуры
Доктор философии (PhD)по педагогическим наукам

ТЕХНОЛОГИИ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫМ АКТАМ, СВЯЗАННЫМ С ОХРАНОЙ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

Аннотация. *В данной статье приведены примеры технологий, которые могут быть использованы при обучении студентов высших учебных заведений предмету нематериального культурного наследия. Также были разработаны рекомендации, связанные с применением этих технологий.*

Ключевые слова. *Нематериальное культурное наследие, понятие, технология, рекомендация, Государственная программа, охрана, студент, ЮНЕСКО, исследование, научное исследование, задача, цель.*

Tashmatova Kamola Abdurashidovna
Uzbekistan State Institute of Arts and culture Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

TECHNOLOGIES USED TO TEACH STUDENTS REGULATORY LEGAL DOCUMENTS RELATED TO THE PROTECTION OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE

Abstract. *This article provides examples of technologies that can be used in teaching students of higher educational institutions the subject of intangible cultural heritage. Recommendations related to the application of these technologies have also been developed.*

Keywords. *Intangible cultural heritage, concept, technology, recommendation, State program, protection, student, UNESCO, research, scientific research, task, goal.*

Jahon miqyosida nomoddiy madaniy merosni ta’lim tizimiga tadbiq etish, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazish bo‘yicha ko‘plab amaliy ishlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu sababli ta’lim tizimida, xususan Oliy ta’lim tizimida “O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi” fanining o‘qitilishi va talabalarning ushbu fan bo‘yicha yetarlicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishida dars jarayonini samarali tashkil etish va zamonaviy metodlar asosida turli ta’lim trendlaridan foydalanishni taqazo qilmoqda.

Biz tadqiqotimiz doirasida “O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi” fanini O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Folklor va etnografiya” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan soatlar taqsimoti bilan boyitdik.

1-jadval.

Fanga ajratilgan o‘quv soatlarining o‘quv turlari bo‘yicha taqsimoti

T/r	Fan mavzularining nomi	Jami	Maruza	Amaliy mashg‘ulot	Mustaqil ta’lim
5-semestr					
1	Nomoddiy madaniy meros muhofazasini	**4**	**2**	**2**	

	ng zarurati, uning mohiyati va sohalari				
2	YuNESCO va uning madaniyat va meros bo‘yicha Konvensiyalari. Nomoddiy madaniy meros Konvensiyasi mazmuni	**2**		**2**	
3	Nomoddiy madaniy meros Konvensiyasining ikki ro‘yxati va Muhofaza bo‘yicha ilg‘or tajribalar reyestri	**2**		**2**	
4	O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish jarayonining bosqichlari	**2**		**2**	
5	Nomoddiy madaniy merosni muhofazasi bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlar	**2**		**2**	
6	Nomoddiy madaniy merosning ro‘yxatlari	**2**		**2**	
7	Xalq og‘zaki ijodi va uning janrlari	**10**	**2**	**8**	
8	Mif, afsona, ertak, rivoyatlarning millat tarbiyasidagi o‘rni	**4**		**4**	
	Jami	**30**	**4**	**26**	

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan mavzular asosida darslar xususan, amaliy mashg‘ulotlar tashkil etishda quyidagi texnologiyalarni tavsiya etamiz.

1-topshiriq

Yangicha tahlil

O‘qitishda foydalaniladigan ushbu texnologiya yangi normativ-huquqiy hujjatni o‘rganish jarayonida qo‘l keladi. Tahlilga tortilgan hujjat chuqur o‘rganiladi va qismlarga ajratiladi. Har bir qism to‘liq o‘rganilgach ushbu hujjat qismlari chalkashirib yuboriladi va belgilangan vaqt ichida hujjatni to‘liq, ketma-ketlik asosida yig‘ishi talab qilinadi. Bu texnologiya orqali har qanday huquqiy hujjatni tez va onson o‘rganish mumkin.

1-Guruhga - «2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi» hujjati taqdim etiladi.

2-guruhga - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 405-sonli Qarori taqdim etiladi.

Guruhlarga hujjatni o‘rganish va tanishish vazifasi avvaldan berilganligi hisobga olinib, qayta ko‘rib chiqish uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan muddat tugaganidan so‘ng hujjat turli qismlarga ajratiladi va 5 minut ichida hujjatni to‘liq qayta tiklash topshirig‘i beriladi.

2-topshiriq

Izlab top

“Izlab top” texnologiyasi muammoli ta’lim texnologiyalariga tayanadi. Ushbu mavzuni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash uchun mos keladi. Tahlilga tortilgan hujjatning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Amaliy mashg‘ulotda nomoddiy madaniy meros bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish vazifasi qo‘yilgan. Bu texnologiyani amalga oshirishda har bir guruh uchun alohida ish qog‘ozi zarur bo‘ladi.

1-guruh uchun topshiriq - Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish[6] ilovasini to‘liq tahlil qiling.

2-guruh uchun topshiriq - Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari[7] ilovasini izohlang.


[6] https://www.lex.uz/uz/docs/-6713096

[7] https://www.lex.uz/uz/docs/-6713096

3-guruh uchun topshiriq - YUNESKOning xalqaro ro‘yxatlariga taqdim etish uchun nomzodnoma hujjatlari tayyorlanadigan nomoddiy madaniy meros namunalari[8].

Qolgan guruhlarga ham huddi shu tartibda topshiriqlar beriladi. Har bir guruh belgilangan vaqt mobaynida 405-son PQning tegishi ilovalarini izlab topib topshiriqni bajarishadi.

Guruhlar uchun ish qog‘ozidan namuna



1-rasm. Ish qog‘ozi.

Izoh: ish qog‘ozi to‘ldirilayotgan jarayonda guruhning barcha a’zolari faol ishtirok etishi talab qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Davlat dasturi talablarining yurtimizda bajarilishi yuzasidan oxirgi yillardagi ishlarni taxlil qiling.

2. Jahon miqyosida o‘tkaziladigan festivallarga misollar keltiring va ulardan biriga taqdimot yoki video rolik tayyorlang.

Nomoddiy madaniy merosga oid bilim, ko‘nikma va malakarni rivojlantirishda yuqoridagi kabi texnologiyalrning o‘rni juda katta. Ushbu texnologiyalar talabalarni mustaqil ishlashga, o‘z fikrini erkin bayon etishga va mavzuga oid bilimlarni chiqir egallashga yordam beradi.

Adabiyotlar.

1. Sayfullayev B., Yo‘ldosheva S., Eshonqulov J., Ashirov A., Toshmatov O‘. Nomoddiy madaniy meros – folklor ijro san’ati an’analari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.: Navro‘z, 2017. – 216-b.

2. O‘zbek milliy folklor san’ati va etnomadaniy qadriyatlar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.: Navro‘z, 2014.

3. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi. YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, 2017. – 255-b.

4. Toshmatov O‘., Isakulova N. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asosalari. – Toshkent.: Fan, 2014.

[8] https://www.lex.uz/uz/docs/-6713096

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

To‘xtayev Juma Jo‘rayevich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi dotsenti
e-mail: j_toxtayev@gmail.com

YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNING JISMONIY VA RUHIY TAYYORGARLIGI KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harakatli o‘yinlarni qo‘llash orqali boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi yosh yengil atletikachilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligining o‘zaro korrelatsion bog‘liqligi va uni rivojlantirish metodikasi ilmiy jihatdan takomillashtirilgan va asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi, kuch, tezkor-chidamlilik, chidamlilik, chaqqonlik, jismoniy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, muloqotga kirisha olish qobiliyati.*

Тухтаев Джума Джораевич
Университет экономики и педагогики “Физическая культура” и спорта» доцент кафедры

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ И ПСИХИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ МОЛОДЫХ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация: *В данной статье научно обоснована корреляционная зависимость физической и психологической подготовленности юных легкоатлетов, занимающихся на этапе начальной подготовки с использованием подвижных игр, и методика ее развития.*

Ключевые слова: *начальный подготовительный этап, сила, сообразительность-выносливость, выносливость, ловкость, физическая подготовка, психологическая подготовленность, умение вступать в общение.*

Tukhtayev Juma Jurayevich
Associate Professor of the Department of "Physical Culture and Sports" of the University of Economics and Pedagogy

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE PHYSICAL AND MENTAL READINESS INDICATORS OF YOUNG ATHLETES

Annotation: *In this article, the correlation between physical and psychological training of young athletes engaged in the initial preparation phase through the use of moving games and the methods of its development are scientifically improved and based.*

Key words: *initial preparatory stage, strength, quick-endurance, endurance, agility, physical preparation, psychological preparation, ability to enter into communication.*

Kirish.

Hozirgi davrda kun sayin ortib borayotgan ruhiy va ma’lumotlar tig‘izligi bosimi ostida o‘zgarib borayotgan ijtimoiy va ekologik sharoitlar ta’sirida inson rivojlanishi va moslashishining qulay yo‘l va vositalarini izlashi zaruriyati tug‘ilgani barchaga ayonlashib qoldi.

Ijtimoiy madaniyat va inson shaxsi kamol topishida muhim o‘rin tutuvchi, sport nafaqat sog‘liqni mustahkamlash va jismoniy mahoratni oshirish vositasi, balki ruhiy-ma’naviy rivojlanish ijtimoiy moslashish, kasbiy layoqatga erishish, yuqori mahorat darajasini egallash singari dolzarb maqsadlarga erishishda insonning sodiq ko‘makchisiga aylanib ulgurdi.

Mamlakatimiz Prezdenti va hukumatimiz tomonidan aholi salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, xalqimizning sport bilan yanada ko‘proq va izchilroq shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarini qoniqtirish yo‘lida qabul qilinayotgan ko‘plab qaror va qonunlarning chiqarilayotganligi, o‘zgarib borayotgan ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsiy xususiyatlarni e’tiborga olib, bolalar va yoshlarni sport bilan shug‘ullantirishga yanada ko‘proq jalb qilish, ularni har tomonlama kamolga yetgan jismoniy, psixologik va aqliy sifatlari yuksak darajada rivojlantirilgan fuqarolar sifatida tarbiyalashdek oliy maqsadlarga erishish yo‘lida qo‘yilayotgan qadamlardir.

Tanlangan sport turi bo‘yicha iqtidorli bolalarni sportga jalb etish, ularning sport mahoratini o‘stirishda jismoniy, texnik-taktik, psixofiziologik, intellektual tayyorgarlikning o‘rni beqiyosdir. Sport turlarining shiddatli rivojlanishi mazkur sohada zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalariga tayangan holda o‘quv-mashg‘ulotlarini ilmiy asosda tashkil qilish bugungi kunda bolalar va o‘smirlar sportini rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Yurtimizda boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi yosh yengil atletikachilarning mashg‘ulotlari jarayonida sport turi xususiyatlarini inobatga olgan holda harakatli o‘yinlarni saralash, o‘yinlarni jismoniy (kuch, chaqqonlik, chidamlilik, tezlik, tezkor-kuch) va psixologik (muloqotga kirisha olish, o‘z tengdoshini tushuna olish, bajarilishi belgilangan faoliyatning vazifalarini anglash, o‘z tengdoshlariga munosabatlarini ifodalash to‘g‘risidagi tasavvurlari, kattalar bilan munosabatlarini qurish haqidagi tasavvurlari va boshqalar) tayyorgarlikni rivojlantirishda qo‘llash metodikasini takomillashtirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Shuningdek bolalar va o‘smirlar sporti nazariyasi va uslubiyati sohasida o‘smir sportchilarni tayyorlash tizimining zamon talablariga moslashtirish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazilgan.

V.I.Lyax, A.N.Normurodov, E.R.Andris, V.G.Nikitushkin, T.S.Usmonxodjayev, K.T.Shakirjanova, S.S.Tajibayev va boshqalarning ta’kidlashicha, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ulllanuvchi o‘smir yoshdagi sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini maqsadli tashkillashtirish kelajakda yetuk sportchilarni tayyorlashning garovi hisoblanar ekan.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida yosh yengil atletikachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va psixologik tayyorgarligini ilmiy-metodik ta’minlash ishlari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatmoqda.

Turli yoshdagi yengil atletikachilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligining o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi tahlil qilish. Yengil atletikachilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligining yoshga xos dinamikasini o‘rganib, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklarni aniqlash; yosh yengil atletikachilarda jismoniy tayyorgarlik darajasining psixologik tayyorgarlikka ta’sirini aniqlash sifatida yosh yengil atletikachilarning o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoni olingan. Yosh yengil atletikachilarning o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda harakatli o‘yinlardan foydalanish**.**

Tadqiqot metodologiyasi.

Biz o‘tkazgan ishda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, instrumental metod, psixologik testlash, pedagogik tajriba va matematik statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Sport ta’lim muassasalarida yosh shug‘ullanuvchilar shaxsiyatning shakllanishi asosini ular jalb qilinuvchi faoliyat turi tashkil qiladi. Ushbu nuqtai nazardan yosh yengil atletikachilarning faolligi tizimi tarkibida sezilarli darajada ahamiyatga ega hisoblangan harakatlarga oid faoliyat imkoniyatlariga e’tibor qaratish bolalarning har tomonlama uyg‘unlikda va barkamol rivojlanishlari uchun zaruriy holat sifatida qayd qilinadi. Odamga ta’sir ko‘rsatish shiddati bo‘yicha jismoniy tarbiya o‘zining alohida o‘rniga ega hisoblanadi. Odamning ruhiy holati, fikrlash tarzi, sezgilari va harakatlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikning mavjudligi so‘zsiz ravishda tasdiqlangan fakt hisoblanadi.

Sport ta’lim muassasalarida yosh shug‘ullanuvchilar shaxsiyatning shakllanishi asosini ular jalb qilinuvchi faoliyat turi tashkil qiladi. Ushbu nuqtai nazardan yosh yengil atletikachilarning faolligi tizimi tarkibida sezilarli darajada ahamiyatga ega hisoblangan harakatlarga oid faoliyat imkoniyatlariga e’tibor qaratish bolalarning har tomonlama uyg‘unlikda va barkamol rivojlanishlari uchun zaruriy holat sifatida qayd qilinadi. Odamga ta’sir ko‘rsatish shiddati bo‘yicha jismoniy tarbiya o‘zining alohida o‘rniga ega hisoblanadi. Odamning ruhiy holati, fikrlash tarzi, sezgilari va harakatlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikning mavjudligi so‘zsiz ravishda tasdiqlangan fakt hisoblanadi.

Yosh yengil atletikachilarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu salomatlik, jismoniy va asabiy-ruhiy tizim nuqtai nazaridan rivojlanishning o‘zaro chambarchas aloqadorligi hisoblanadi. Ma’lumki, jismoniy jihatdan sog‘lom va baquvvat bolalar nafaqat turli xil kasalliklarga kam chalinadilar, ular ruhiy tomondan ham boshqalarga nisbatan yaxshi rivojlanishi kuzatiladi, shunday qilib jismoniy tarbiya sog‘lomlashtiruvchi ta’sirga ega bo‘lish bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Bolalik davrida diqqat-e’tibor va kuzatuvchanlik, iroda sifatlari rivojlanadi, umuman odamning shaxsiy xususiyatlari qaror topadi.

Tahlil va natijalar.

Harakatli o‘yinlarda ishtirok etish yosh yengil atletikachilarda o‘zaro bir-biri bilan munosabatlarga kirisha olish qobiliyatini optimallashtiruvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi,shuningdek, bunda yosh yengil atletikachilar jamoalarida o‘zaro bir-birini tushuna olish, do‘stona hamkorlik tavsifidagi munosabatlarning shakllanishi uchun zamin yaratiladi. Ushbu tahlil qilinayotgan doirada o‘zaro muloqot va munosabatlar zaruriy va sezilarli darajada ta’sirga ega bo‘lgan omil sifatida ahamiyatli bo‘lib, nafaqat harakatlarga oid faollik, balki axborotlar almashinuvi va bitta jamoa tarkibida o‘yinda ishtirok etayotgan bolalarda emotsional holatlarning o‘zaro almashinuvlari kabi funksiyalar nuqtai nazaridan vositachi omil sifatida o‘rin tutadi. Bu ko‘rinishdagi o‘zaro ta’sirlashishlar natijasida yosh yengil

atletikachilarda o‘zaro bir-birini tushuna olish va hamkorlik qilishga moyillik rivojlanadi. Ya’ni bunda harakatlarga oid faollik va shaxsning rivojlanishi o‘rtasida bevosita va bilvosita o‘zaro bog‘liqlik mavjud hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan holatlarni hisobga olib, biz tadqiqotlarda muloqotga kirisha olish qobiliyati namoyon bo‘lishining harakat tayyorgarligi darajasiga bog‘liqlik xususiyatlarini o‘rganish yo‘nalishida tajribalar olib borishni rejalashtirdik. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi 10 yoshli yengil atletikachilardagi jismoniy tayyorgarlik darajasining muloqotga kirisha olish qobiliyati rivojlanishiga ta’sirini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadi.

Shunday qilib, jismoniy tayyorgarlik darajasi “past” deb baholangan bolalarda 84% holatlarda muloqotga kirisha olish qobiliyatining darajasi ham “past” bo‘lishi, shuningdek, tadqiqotlarda sinovdan o‘tkazilgan bolalarning 13% qismini tashkil qiluvchi jismoniy tayyorgarlik darajasi “past” hisoblangan bolalarda ham muloqotga kirisha olish qobiliyatining “o‘rtacha” darajada bo‘lishi, jismoniy tayyorgarlik darajasi “past” hisoblangan bolalarning faqat 3% qismidagina muloqotga kirisha olish qobiliyatining yetarli darajada yuqori emasligi kuzatildi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi “o‘rtacha” deb baholangan 11 yoshli yengil atletikachilarning 58 % qismida muloqotga kirisha olish qobiliyatining ham darajasi “past” bo‘lishi, 20 % jismoniy tayyorgarlik darajasi “o‘rtacha” bo‘lgan yengil atletikachilarda, muloqotga kirisha olish qobiliyatining “o‘rtacha” ekanligi, jismoniy tayyorgarlik darajasi “o‘rtacha” bo‘lgan yosh yengil atletikachilarning faqat 22 % qismidagina muloqotga kirisha olish qobiliyatining yetarli darajada yuqori emasligi aniqlandi (2-jadvalga qarang).

Bunda bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi ortishi bilan muloqotga kirisha olish qobiliyatining ham rivojlanib borishi ma’lum bo‘ldi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi “yuqori” deb baholangan 18,2 % yengil atletikachilarda muloqotga kirisha olish qobiliyatining darajasi “past” bo‘lishi, shuningdek, tadqiqotlarda sinovdan o‘tkazilgan yengil atletikachilarning 17,8 % qismini tashkil qiluvchi, jismoniy tayyorgarlik darajasi “yuqori” hisoblangan shug‘ullanuvchilarda muloqotga kirisha olish qobiliyatining “o‘rtacha” darajada bo‘lishi va jismoniy tayyorgarlik darajasi “yuqori” hisoblangan bolalarda faqat 64 % qismidagina muloqotga kirisha olish qobiliyatining yetarli darajada yuqori emasligi kuzatildi (3-jadvalga qarang).

Shubhasiz, jismoniy tayyorgarlik darajasining yuqori bo‘lishi muloqotga kirisha olish qobiliyatining nisbatan tezkorlik shakllanishini belgilab beruvchi, bunga turtki beruvchi omil sifatida o‘rin tutishi mumkin.

Darajalar bo‘yicha korrelyatsion tahlil natijalari bolalarda muloqotga kirisha olish qobiliyatining tashqi namoyon bo‘lishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va jismoniy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘rtasida turli xil darajada ifodalangan o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Jismoniy tayyorgarlikning alohida ko‘rsatkichlari va muloqotga kirisha olishning tashqi namoyon bo‘lishi ko‘rsatkichlarini ifodalab beruvchi koeffitsiyentlar o‘rtasida turli xil darajadagi bog‘liqliklarning mavjudligi qiz bolalar va, shuningdek, o‘g‘il bolalar guruhlarida ham aniqlandi.

Tezlik, tezlik-kuch va koordinatsion qobiliyatlarning namoyon bo‘lish darajasini belgilab beruvchi testlar ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik qiz bolalarda bevosita chambarchas korrelyatsion bog‘liqlik darajasi chegarasida (r=0,78–0,88) bo‘lishi aniqlandi.

O‘g‘il bolalar guruhlarida muloqotga kirisha olish qobiliyatining rivojlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va jismoniy rivojlanish darajasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi chambarchas korrelyatsion bog‘liqlik holatlari - tezlik, tezlik-kuch, kuch va koordinatsion qobiliyatlarni ifodalovchi testlar ko‘rsatkichlarida qayd qilindi (r=0,821–0,873).

10 yoshli qiz bolalarda 66% va o‘g‘il bolalarda 68% holatlarda jismoniy tayyorgarlik darajasining muloqotga kirishish qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandigan bo‘lsa (1-rasmga qarang), 11 yoshlilarda jismoniy tayyorgarlik darajasining muloqotga kirishish qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatishi qiz bolalarda 66% va o‘g‘il bolalarda 69% natija qayd etildi. Shuningdek, 12 yoshli qiz bolalarda 67% va o‘g‘il bolalarda 66% holatlarda jismoniy tayyorgarlik darajasining muloqotga kirishish qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. 10-12 yoshdagi bolalarda o‘ynashga moyillik yuqori bo‘lib, bunda harakatli o‘yinlar jamoa bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlarda ishtirok etishda o‘yin qoidalariga muvofiq, o‘yinchilarning o‘zaro belgilangan tartibda o‘zaro munosabatga kirishishlari qilinadi. Bunda bolalardan o‘yinni olib boruvchi yetakchining topshiriqlari bilan kelishish, o‘yin qoidalariga amal qilish va o‘yin davomida yuzaga keluvchi ziddiyatli vaziyatlarga yechim topish talab qilinadi. O‘z navbatida, o‘yin davomida bahs-munozaralarga sabab bo‘luvchi vaziyatlar qanchalik kam bo‘lsa, demak, harakatlarga oid faoliyatni amalga oshirish samaradorligi ham shunchalik darajada yuqori bo‘lishi qayd qilinadi.

Xulosa.

Shunday qilib, harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat yosh bolalarda ta’lim olish va tarbiyalanish jarayoni davomida muloqotga kirishish tajribasini kengaytirish uchun qulay shart–sharoitlarni yuzaga keltiradi. Bu tajribalardan o‘z vaqtida maqsadga muvofiq qarorlarni qabul qilish, o‘zaro birgalikda faoliyat olib borishda kelishib ishlash, yuzaga kelish ehtimoli mavjud

bo‘lgan o‘zaro ziddiyatli vaziyatlarning oldini olishda foydalaniladi. Shu sababli pedagogik jarayon tarkibida yengil atletika mashg‘ulotlarini tuzib chiqishda harakatli o‘yinlardan foydalanish shug‘ullanuvchilarda muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan vazifalarni hal qilishga yordam beradi va ularning jismoniy rivojlanishini ta’minlash bilan bir vaqtda shaxs sifatida har tomonlama barkamol rivojlanishi imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абдуллаев М.Ж. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ўсмир енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкент, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00№16].

2. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 7-10.

3. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 10-14.

4. Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 14-18.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Toshmurodov Nuriddin Pardaqulovich
O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti assistenti
nuriddintoshmurodov94@mail.ru

MOLEKULYAR FIZIKA BO‘LIMIGA OID LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA BAJARISH AFZALLIKLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada molekulyar fizika laboratoriya ishlarini virtual tarzda bajarishning afzalliklari har tomonlama tahlil qilingan. Virtual laboratoriyalarning an’anaviy laboratoriya ishlariga nisbatan ustunliklari, jumladan, xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik va moslashuvchanlik kabi jihatlar batafsil yoritilgan. Virtual tajribalar o‘quvchilarga fizik qonuniyatlarni interaktiv usulda tushunish imkoniyatini yaratishi, ularning nazariy bilimlarini amaliy mashg‘ulotlar bilan mustahkamlashga xizmat qilishi ta’kidlangan.*

Shuningdek, maqolada virtual laboratoriyalarning ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, eksperiment o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirish va ilmiy-tadqiqot ishlariga bo‘lgan qiziqishini oshirishdagi o‘rni muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: *virtual laboratoriya, e-fizika, simmulyatsiya, molekula, izobara, bosim, temperatura, ideal gaz, Kelvin, Selsiy.*

Toshmurodov Nuriddin Pardakulovich
Assistant of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

ADVANTAGES OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN MOLECULAR PHYSICS LABORATORY EXPERIMENTS

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the advantages of conducting molecular physics laboratory work in a virtual environment. The superiority of virtual laboratories over traditional laboratory experiments, including aspects such as safety, economic efficiency, and flexibility, is discussed in detail. It is emphasized that virtual experiments enable students to understand physical laws interactively and help reinforce their theoretical knowledge through practical exercises.*

Furthermore, the article examines the impact of virtual laboratories on the educational process, highlighting their role in developing students’ logical thinking skills, fostering experimental competencies, and increasing interest in scientific research.

Key words: *virtual laboratory, e-physics, simulation, molecule, isobar, pressure, temperature, ideal gas, Kelvin, Celsius.*

Тошмуродов Нуриддин Пардакулович
Ассистент Узбекско-Финского педагогического института

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЛАБОРАТОРНЫХ РАБОТАХ ПО МОЛЕКУЛЯРНОЙ ФИЗИКЕ: ПРЕИМУЩЕСТВА

Аннотация. *В данной статье проводится всесторонний анализ преимуществ выполнения лабораторных работ по молекулярной физике в виртуальной среде. Подробно рассматриваются преимущества виртуальных лабораторий перед традиционными лабораторными экспериментами, включая такие аспекты, как безопасность, экономическая эффективность и гибкость. Подчеркивается, что виртуальные эксперименты позволяют студентам в интерактивной форме понять физические законы и способствуют укреплению их теоретических знаний через практические упражнения.*

Кроме того, в статье анализируется влияние виртуальных лабораторий на образовательный процесс, рассматривается их роль в развитии логического мышления студентов, формировании навыков проведения экспериментов и повышении интереса к научно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова: *виртуальная лаборатория, электронная физика, моделирование, молекула, изобара, давление, температура, идеальный газ, Кельвин, Цельсий.*

Kirish.

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar jadal rivojlanib, an’anaviy o‘qitish uslublariga muqobil yangi yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni, jumladan, fizikani o‘qitishda virtual laboratoriyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ushbu yo‘nalishda ko‘plab laboratoriya tajribalarini amalga oshirish real sharoitda qimmatbaho uskunalar, maxsus shart-sharoit va yuqori xavfsizlik choralarini talab etadi.

Virtual laboratoriyalar ushbu muammolarga samarali yechim bo‘lib, molekulyar fizikadagi murakkab jarayonlarni simulyatsiya qilish, vizualizatsiya yordamida tushunarli qilish va talabalar uchun qulay ta’lim muhitini yaratish imkonini beradi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar gaz va suyuqlik molekulalarining harakati, issiqlik almashinuvi, bosim va temperatura o‘zgarishlari kabi jarayonlarni xavfsiz va interaktiv tarzda o‘rganishlari mumkin.

Shu bilan birga, maqolada an’anaviy va virtual laboratoriya ishlarining ta’lim jarayonida bir-birini to‘ldirish tamoyili ham ko‘rib chiqilib, ularning integratsiyalashuvi orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish masalalari muhokama etiladi. Virtual laboratoriyalar yordamida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish, muammolarni hal qilish va mustaqil ishlash qobiliyatlari rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida fikr yuritiladi.

Mazkur maqola virtual laboratoriya ishlarining imkoniyatlarini kengroq o‘rganish va ularni ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tavsiyalarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya.

Molekulyar fizika laboratoriya ishlarini virtual tarzda bajarish sohasida so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar virtual laboratoriyalarning afzalliklari, ularning an’anaviy laboratoriya ishlariga nisbatan ustunliklari va ta’lim jarayoniga ta’siri kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Oliy o‘quv yurtlarida fizika fanidan virtual laboratoriya ishlarini amalga oshirishning afzalliklari va kamchiliklari [1] da ko‘rib chiqilgan. Muallif virtual laboratoriyalar an’anaviy laboratoriya amaliyotiga nisbatan qanday ustunliklarga ega ekanligini tahlil qilgan. Fizika laboratoriya ishlarini individual kompyuter simulyatsiyalari orqali amalga oshirish tajribasi [2] da tasvirlagan. Virtual laboratoriyalarni qo‘llash, o‘qitish samaradorligini oshirishga, o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlashga va resurslarni tejashga yordam beradi. Shu bilan birga, ular murakkab tajribalarning virtual versiyalarini yaratish orqali real laboratoriyalarni qurishdagi moliyaviy va vaqt resurslarini qisqartirishga xizmat qiladi. Ularning istiqbolli rivojlanishi, yangi texnologiyalar va interaktiv platformalar yordamida bilim olish jarayonini yanada samarali va qulay qilishga imkon beradi [3]. Fizika fanini o‘qitishda dasturiy vositalar va virtual laboratoriyalar haqida fikr-mulohazalar, fizika ta’limida axborot va kompyuter texnologiyasini qo‘llanishning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bu fizikaviy jarayonlarni va tajribalarni kompyuterda modellashtirish hisoblanadi [4]. Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish afzalliklari va ularning tutgan o‘rni [5] da yoritilgan. Oliy ta’lim muassasalarida fizikadan real va virtual tajribalarini bajarishga kompleks yondashuvning uslubiy asoslari [6] da tavsiflangan. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarning rolini hamda laboratoriya ishlarini bajarishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati [7] da muhokama qilingan. COVID-19 pandemiyasi ta’lim jarayoni va uning tashkil etilishida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Ushbu davrda darslar odatda onlayn shaklda o‘tkazilgan bo‘lib, bunda Google Classroom, MS Teams va boshqa aloqa platformalaridan foydalanilgan [8,9,10,11,12,13]. Jismlarning suyuqlikda suzishi yoki cho‘kishi shartlarini o‘rganish uchun virtual tajriba taqdim etilgan. Talabalar jismlarning massasi, hajmi va suyuqlikning zichligini o‘zgartirib, suzish shartlarini tahlil qiladilar. Bundan tashqari molekulyar fizikaga oid virtual laboratoriya ishlarini bajarish va metodik qo‘llanmalar [14] da keltirilgan.

Ushbu tadqiqotda virtual laboratoriyalar ta’lim jarayonidagi o‘rnini o‘rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

Ushbu tadqiqot eksperimental va taqqoslash tahlili asosida olib borildi. Tadqiqotda an’anaviy laboratoriya ishlarini bajarish va virtual laboratoriya ishlarining ta’lim jarayoniga ta’siri solishtirildi. Virtual laboratoriyalarning samaradorligini o‘rganish uchun aralash tadqiqot metodologiyasi (miqdoriy va sifat jihatdan baholash) qo‘llanildi.

- Tadqiqot ob’ekti: Molekulyar fizika bo‘limidagi laboratoriya ishlarini o‘qitish jarayoni.
- Tadqiqot predmeti: Virtual laboratoriyalarning ta’lim jarayonidagi samaradorligi, ularning an’anaviy laboratoriyalar bilan solishtirilishi va talabalar bilimiga ta’siri.

Tahlil va natijalar.

Molekulyar fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamli texnologiyalar yordamida bajarish an’anaviy usullarga qaraganda ko‘plab afzalliklarga ega. Xususan, Gey-Lyussak qonuni asosida gazlarning bosim va temperatura o‘zgarishini o‘rganishda zamonaviy sensorlar, mikroprotsessorlar va dasturiy vositalardan foydalanish tajribalarni aniqroq va samaraliroq bajarishga imkon beradi. Bu maqolada gaz qonunlarini o‘rganish (Gey-Lyussak qonuni) virtual tarzda http://efizika.ru/html5/18/index.html bajarilib natijalarni tahlil qilamiz.

Gaz qonunlari o‘rganish (Gey-lyussak qonuni)

Ishning maqsadi: Doimiy bosimda havo ustunini hajmining temperaturga bog‘liqligini o‘rganish, Gey-Lyussak qonunini tajribada tekshirish.

Virtual laboratoriya: “Gazlarda izobarik jarayonni o‘rganish” – http://efizika.ru/html5/18/index.html.

Ushbu virtual laboratoriya “Gey-Lyussak qonunini tekshirish” laboratoriya ishining modelini aks ettiradi.


Nazariy qism

Gey-Lyussak qonuni. Berilgan massadagi ideal gazning bosimi doimiy bo‘lgan hol uchun *(P=const)* Klapeyron tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\frac{V}{T}=\frac{m}{\mu}\frac{R}{P}=const \quad (1)$$

Bu formuladan ko‘rinadiki, berilgan massadagi gazning bosimini doimiy qoldirib, temperaturasini necha marta oshirsak, uning hajmi shuncha marta ortadi va aksincha. Bu qonunga Gey-Lyussak qonuni deyiladi [15].

Berilgan massadagi ideal gazning bosimi doimiy bo‘lgan jarayonga **izobarik jarayon** deyiladi. Izobarik jarayondagi gaz hajmining temperaturaga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Izobara chiziqlari

Molekulyar-kinetik nazariya bo‘yicha ideal gaz quyidagi xususiyatlarga ega:

- Gaz molekulalarining umumiy hajmi idish hajmiga nisbatan juda kichik.
- Molekulalar orasidagi tortish kuchlari juda kichik va ular e’tiborga olinmaydi.
- Molekulalar faqat elastik to‘qnashuvlarda o‘zaro ta’sirlashadi.
- To‘qnashuv vaqti to‘qnashuvlar orasidagi o‘rtacha vaqtga nisbatan juda kichik.

Shisha idishda ma’lum gaz saqlanadi va bu idish uzun shisha naychaga ulangan. Naychadagi gaz simob tomchisi bilan yopib qo‘yilgan. Naychaning gorizontal joylashganligi sababli, idishdagi bosim doimiy bo‘lib, atmosferaga teng bo‘lib qoladi. Gazning temperaturasi 0°C dan 100°C gacha oshiriladi. Hajm o‘zgarishini shisha naycha bo‘ylab harakatlanayotgan simob tomchisi orqali kuzatish mumkin [14].

Gey-Lyussak gazning temperatura oralig‘idagi hajmini o‘lchab, quyidagi hajmning temperatura bo‘yicha kengayish koeffitsiyentlarini aniqlagan:

1-jadval

Hajmning temperatura bo‘yicha kengayish koeffitsiyenti

Gaz	Hajmning temperatura bo‘yicha kengayish koeffitsiyenti, 1/°C
Havo	0,003671
Vodorod	0,003661
Azot oksidi	0,003720
CO_2	0,003710
CO	0,003669
SO_2	0,003903

Gey-Lyussak qonuni asosida chiqarilgan xulosalar:

a) Barcha gazlar va bug‘lar temperatura bir xil oshirilganda bir xil darajada kengayadi.

b) Barcha gazlarning hajmi muzning erish temperaturasi va suvning qaynash temperaturasi oralig‘ida boshlang‘ich hajmining 100/26666 qismiga oshadi [14].

Ma’lum massadagi gazning hajmidagi nisbiy o‘zgarish, doimiy bosimda, temperaturaning o‘zgarishiga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi.

$$\frac{V-V_0}{V_0}=\alpha t \quad (2)$$

Bu yerda α – temperaturaviy kengayish koeffitsienti, u gazning temperaturasi 1°C ga oshganda hajmning nisbiy o‘zgarishini bildiradi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, kam zichlikda barcha gazlarning temperaturaviy kengayish koeffitsienti bir xil, ya’ni:

$$\alpha=\frac{1}{273}\frac{1}{^0C}$$

Bu esa ideal gaz modeli uchun umumiy xususiyat hisoblanadi.

Molekulyar-kinetik nazariyaga ko‘ra, gaz molekulalari orasidagi masofa katta bo‘lgani sababli, ular orasidagi o‘zaro ta’sir kuchlari gazning umumiy xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

$$V=V_0(1+\alpha t) \quad (3)$$

Bu shuni anglatadiki, doimiy bosimda gazning hajmi haroratga chiziqli bog‘liq [15].

Agar izobara past temperaturalarga uzaytirilsa, u $V=0$ bo‘ladigan temperatura nuqtasini kesib o‘tadi. Bu gaz hajmi haqiqatan ham nolga teng bo‘ladi, degani emas, chunki har qanday gaz ma’lum sovitish temperaturasida suyuqlikka aylanadi. Shu sababli real gazlar Gey-Lyussak qonuniga faqat ma’lum oraliqlarda bo‘ysunadi.

Uilyam Kelvin mutlaq temperatura shkalasini taklif qilgan.

Kelvin shkalasida nolinchi nuqta absolyut nol temperatura deb olinadi, shuningdek, temperatura birliklari Selsiy shkalasi bilan bir xil:

$$T = t + 273$$

Mutlaq nol temperaturada molekulalar harakatlanmaydi (termodinamik muvozanat holati).

Gey-Lyussak qonuni Kelvin shkalasida quyidagi ko‘rinishga ega:


$$V = V_0 \frac{T}{T_0} \qquad (4)$$

Ishning bajarilish tartibi

1. Virtual laboratoriyani ishga tushirish: http://efizika.ru/html5/18/index.html

2.Gazning **bosimi** (P_0) **, harorati** (t_0) **va hajmi** (V_0) boshlang‘ich parametrlarini o‘rnatish.

3.Tadqiq qilinadigan gazni tanlash (havo, atsetilen, metan, argon yoki karbonat angidrid).



2-rasm. Virtual qurulmaning ko‘rinishi

4.Gazni qizdirishni boshlash (“Start” tugmachasini bosish).

5.Ma’lum harorat qiymatlarida $(T_1, T_2, \ldots)$ **to‘xtatib, hajm o‘lchovlarini qayd etish**.

6. $\left(\frac{V_i}{T_i}\right)$ **nisbatlarini hisoblash** va ularning **Gey-Lyussak qonuniga mosligini tekshirish**.

7.Olingan natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish.

8.Natijalarni quydagi jadvalga yozing.

2-jadval

№	gaz	M, kg/mol	m, kg	Dastlabki qiymatlar				
				P_0, kPa	V_0, m³, (10^{-3})	t_0, °C	T_0, K	V_0/T_0, m³/K
1	Havo	0,029	0,001	100	0,869	30	303,15	0,002866

Yakuniy qiymatlar					V_i/T_i, m³/K	V_i/T_i, (o‘rtacha)	$\Delta(V/T)$, m³/K	$\Delta(V/T)$, (o‘rtacha)	$\varepsilon_{(V/T)}$, %
№	P_i, kPa	V_i, m³ 10^{-3})	t_i, °C	T_i, K					
1	100	0,956	60,3	333,45	0,00286	0,002864	0,000004	0,000003	0,1
2	100	1,077	102,5	375,65	0,002867		0,000003		
3	100	1,246	161,6	434,75	0,002866		0,000002		

Nazorat savollari

1.Ushbu tajribani o‘tkazish uchun **kerakli asbob-uskunalarni** yozing?

2.**Gey-Lyussak qonunini matematik ifodasini yozing?**

3.**Izobarik jarayon** boshqa izojarayonlardan qanday farq qiladi?

4.**Ideal gaz modeli** qanday talablarni qondiradi?

5.**Kelvin shkalasini kim joriy qilgan va u Selsiy shkalasidan qanday farq qiladi?**

Tadqiqot natijalari quyidagicha umumlashtirildi:

1.**Tajribalarning xavfsizligi oshadi:** An’anaviy laboratoriyalarda tajriba o‘tkazishda xavfli holatlar yuzaga kelishi mumkin, virtual laboratoriyalar esa bu muammolarni bartaraf etadi.

2.**Resurs tejamkorligi:** Virtual tajribalar uchun maxsus laboratoriya asbob-uskunalariga ehtiyoj kamayadi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

3.**Moslashuvchanlik va qulaylik:** Talabalar istalgan vaqtda, istalgan joyda virtual laboratoriyalar yordamida tajribalarni bajara oladi.

4.**Ko‘rgazmalilik:** Virtual muhitda atom va molekulalarning o‘zaro ta’siri aniq va ravshan tarzda tasvirlanishi mumkin, bu esa nazariy tushunchalarni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

5.**Natijalar takroran tekshirilishi mumkin:** An’anaviy laboratoriyalarda ba’zan tajribalarni qayta bajarish imkoniyati bo‘lmasa, virtual laboratoriyada natijalarni istalgancha tahlil qilish va xatolarni tuzatish mumkin.

Muhokama.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, virtual laboratoriyalar an’anaviy laboratoriyalarni to‘liq qamrab olmasa ham, ularni samarali to‘ldiradi. Ayniqsa, molekulyar darajadagi jarayonlarni vizuallashtirish imkoniyati virtual laboratoriyalarning eng katta afzalliklaridan biri hisoblanadi. Biroq, an’anaviy laboratoriyalardan to‘liq voz kechish ham mumkin emas, chunki real tajribalar talabalar uchun muhim amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, virtual laboratoriyalarning samaradorligi ko‘pincha dasturiy ta’minot sifati va uning foydalanuvchi uchun qulayligi bilan bog‘liq. Yuqori sifatli simulyatsiyalar ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ammo kamchiliklari ham mavjud. Masalan, ba’zi talabalar uchun fizik tajriba qilish hissi muhim bo‘lib, virtual laboratoriyalar bu jihatdan yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Molekulyar fizika bo‘yicha laboratoriya ishlarini virtual bajarish bir qator muhim afzalliklarga ega: xavfsizlikning oshishi, iqtisodiy tejamkorlik, moslashuvchanlik va ko‘rgazmalilik. Biroq, to‘liq virtual laboratoriyalarga o‘tish o‘rniga, ularni an’anaviy laboratoriya ishlariga qo‘shimcha sifatida ishlatish eng optimal yondashuv hisoblanadi.

Virtual laboratoriyalarning kelajakdagi istiqbollari

Kelajakda virtual laboratoriyalarni yanada rivojlantirish va ularni sun’iy intellekt bilan integratsiya qilish talabalar uchun yanada samarali ta’lim muhitini yaratishi mumkin. Sun’iy intellekt yordamida talabalar natijalarini avtomatik tahlil qilish va ularning xatolarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.Virtual laboratoriyalar talabaga individual maslahatlar beradigan tizimlarga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Turakulov B. Fizika fanida virtual laboratoriya ishlanmalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari //Физико-технологического образование. – 2021. – Т. 6. – №. 6.

2. Zaikin A., Suhanov I. The physics laboratory works-individualized computer simulations //arXiv preprint arXiv:2108.06051. – 2021.

3. Rustamov, S. Virtual laboratoriya mashg‘ulotlaridan foydalanish istiqbollari / S. Rustamov, N. Mutalibova. – Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – № 8. – P. 61-65.

4. Mamatkulov B. X. Et al. Fizikani o‘qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati //JizDPU xabarnomasi. – 2024. – т. 1. – №. 1. – с. 651-653.

5. Aslanov X. S. O. G. L. Virtual laboratoriyalarni tashkil etishda dasturlash tillarini tutgan o‘rni //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 615-619.

6. To‘raxonov F.B., Omonqulova U.H. Fizika fanini real va virtual namoyish tajribalar asosida o‘qitish //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 13. – С. 110-117.

7. Shavkat K. et al. Methodology for organizing and conducting laboratory sessions in physics with the help of digital technologies //theory of scientific researches of whole worldt. – 2024. – т. 1. – №. 1. – с. 240-243.

8. Saranya A.K. A Critical Study on the Efficiency of Microsoft Teams in Online Education. In: Gayathri R, editor. Efficacy of Microsoft Teams during COVID-19. A SurveyPublisher: Bonfring Publication; 2020. ISBN: 9789389515282.

9. Sudarsana IK, Made Anggara Putra IB, Temon Astawa IN, Lali Yogantara IW. The use of Google classroom in the learning process. 1st Int Conf Advance Sci Innov (ICASI). IOP Conf Series, J Phys: Conf Series 1175;2019. DOI: 10.1088/1742-6596/1175/1/012160.

10. Dhawan S. Online learning: A Panacea in the time of COVID-19 crisis. J Educational Technol Systems. 2020;49(1):5-22. DOI: 10.1177/0047239520934018.

11. Handke J, Schäfer AM. E-Learning, E-Teaching und E-Assessment in der Hochschullehre. Eine Anleitung. Oldenbourg, München; 2012. ISBN: 9783486708004.

12. Swan K. Virtual interactivity: design factors affecting student satisfaction and perceived learning in asynchronous online courses. Distance Educ. 2001;22(2):306-31. DOI: 10.1080/0158791010220208.

13. Saritepeci M, Cakir H. The effect of blended learning environments on student motivation and student engagement: A study on social studies course. In: Education and Science. 2015. DOI: 10.15390/EB.2015.2592.

14. https://efizika.ru/course/view.php?id=49

15. А.К.Кикоин., И.К.Кикоин “Молекуляр физика”. – “Ўқитувчи” нашриёти Тошкент – 1978 510 (33-36) б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Turdieva Shohsanam Mahamadali qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIMIY MASHQ BAJARISH JARAYONIDA BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHNING BA’ZI YO‘LLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ta’limiy mashq bajarish jarayonida bilish faolligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy usullari yoritiladi. Mualliflar o‘yin texnologiyalari, interfaol metodlar va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar yordamida bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish masalasini tadqiq etadilar. Tajriba-sinov jarayonlarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari va darsga bo‘lgan qiziqishi aniq mezonlar asosida baholanadi. Xulosa o‘rnida esa zamonaviy yondashuv va metodikalarni qo‘llash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida bilish faolligini samarali oshirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinflar, bilish faolligi, ta’limiy mashqlar, interfaol metodlar, ijodiy fikrlash, o‘yin texnologiyalari.*

Турдиева Шахсанам Махамадали кизи
Студент Андижанского государственного педагогического института

ВОТ НЕСКОЛЬКО СПОСОБОВ ПОВЫСИТЬ КОГНИТИВНУЮ АКТИВНОСТЬ В ПРОЦЕССЕ ВЫПОЛНЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УПРАЖНЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Annotatsiya. *В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы и практические методы повышения познавательной активности учащихся начальных классов в процессе выполнения учебных заданий. Авторы исследуют вопрос развития когнитивных способностей детей с помощью игровых технологий, интерактивных методов и заданий, стимулирующих самостоятельное мышление. В ходе опытно-экспериментальной работы оцениваются творческое мышление учеников, их навыки принятия самостоятельных решений и интерес к учебе на основе конкретных критериев. В заключении предлагаются пути эффективного повышения познавательной активности учащихся начальных классов за счет применения современных подходов и методик.*

Ключевые слова: *начальные классы, познавательная активность, учебные задания, интерактивные методы, творческое мышление, игровые технологии.*

Turdieva Shahsanam Mahamadali kizi
Student of Andijan State Pedagogical Institute

SOME WAYS TO INCREASE COGNITIVE ACTIVITY IN THE PROCESS OF PERFORMING AN EDUCATIONAL EXERCISE IN ELEMENTARY GRADES

Annotation. *This article explores the theoretical foundations and practical methods of enhancing cognitive activity among primary school students through the process of completing educational exercises. The authors investigate the development of children’s cognitive abilities using game-based technologies, interactive methods, and assignments that foster independent thinking. During the experimental phase, students’ creative thinking, decision-making skills, and interest in the classroom are evaluated using clear criteria. The conclusion highlights effective ways to increase cognitive engagement in early grades by implementing modern approaches and teaching techniques.*

Keywords: *primary school, cognitive activity, educational exercises, interactive methods, creative thinking, game-based technologies.*

Kirish.

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonining samaradorligi va o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish masalasi hozirgi kunda zamonaviy pedagogika tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil ravishda bilish faoliyatiga jalb qilish, ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodkorlikni kuchaytirish va mustahkam bilim berish bo‘yicha har xil usullar ishlab chiqilmoqda. Chunki aksar o‘qituvchilar o‘quvchilarni

o‘qitish jarayonida faqat tayyor bilimlarni berish bilan cheklanmasdan, balki ularni mustaqil o‘ylash, turli savollarga javob izlash va o‘ziga xos fikrlarni ifoda etishlariga imkon yaratishlari zarur. Aynan shu jarayonda ta’limiy mashqlarni to‘g‘ri tanlash va ularni yaxshi tashkil etish o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga hissa qo‘shadi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ta’limiy mashq bajarish jarayonini takomillashtirish orqali bilish faolligini kuchaytirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritiladi, tajriba tadqiqotlari natijalariga tayangan holda uslubiy tavsiyalar keltiriladi.

Mazkur izlanishda sifat va miqdor tahlili usullaridan foydalanildi. Boshlang‘ich sinflarda dars beruvchi o‘qituvchilar, metodistlar va ilmiy tadqiqotchilar bilan suhbatlar o‘tkazilib, ulardan yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, tegishli bosqichlarda ta’limiy mashqlarni tashkil etish usullari, turli innovatsion dasturlar, o‘yin texnologiyalari va bilish faolligini oshirishga qaratilgan interfaol metodlar kuzatildi. Shu bilan birga, 6-7 yoshli bolalar bilan ishlovchi o‘qituvchilarning o‘z dars jarayonida qo‘llaydigan mashq turlari va bu mashqlarda o‘quvchilarning faolligi, ijodkorligi, mustaqil fikrlash darajasi, ikki yoki undan ortiq yo‘ldan yakuniy maqsadga erishishning o‘qitishdagi samaradorligi singari indikatorlar baholandi. Maqsadli guruh sifatida 1-4-sinfda ta’lim olayotgan 100 nafarga yaqin o‘quvchi tanlab olindi. Jarayon davomida avvalo mazkur o‘quvchilar bilan suhbatlar o‘tkazildi, ularning mashqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqishlari va bilish faolligi darajasi dastlabki bosqichda aniqlab chiqildi. Bu bosqichda bolalarning e’tiborini jalb qilish, ularni darsdagi faollikka undash maqsadida kichik test topshiriqlari, savol-javoblar va o‘yin usullaridan foydalanildi. Keyin esa olingan ko‘rsatkichlar asosida ta’limiy mashqlarni tashkil qilishning yangicha usullari joriy qilindi hamda natijalar birlamchi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslab tahlil etildi.

O‘tkazilgan kuzatuvlar va tahlillar natijalariga ko‘ra, ta’limiy mashq bajarish jarayonida bilish faolligini oshirishga qaratilgan usullardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash va intellektual rivojlanish darajasining yaxshilanishiga sabab bo‘ldi. Dastlabki bosqichda o‘quvchilarning ko‘pchiligi berilgan mashqlarni bajarishda sustlik yoki faqat bitta to‘g‘ri javobni topishga intilish kabi cheklangan qiziqish bilan qatnashgan bo‘lsa, ilg‘or metodlar joriy etilganidan so‘ng ularning fikrlash doirasi kengaygani, muammoli savollarga mustaqil tarzda javob topishga harakat qilgani kuzatildi. Xususan, o‘yin texnologiyalari asosida yaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarga aniq ma’lumotni yodlab olish emas, balki uni chuqur idrok etish hamda real hayot bilan bog‘lash imkonini berdi. Bundan tashqari, interfaol metodlardan foydalanilganda, guruhlarda muhokama, rolli o‘yinlar yoki fikrlar almashinuvi orqali o‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashib, mustaqil xulosa chiqara boshladilar. Mashq bajarish jarayonida tanlov elementlarini kiritish, masalan, topshiriqlarni turli darajadagi murakkablik bilan taqdim etish va o‘quvchilarga o‘zi xohlagan variantni bajarish imkonini berish ular orasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirdi. Bunday sharoitda har bir bola o‘z imkoniyatlari va qiziqishlariga mos mashqni tanlab, yanada faollik bilan ishlashga intildi. Tajriba oxirida o‘tkazilgan test va suhbatlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotda qatnashgan bolalarning bilish faolligi, darsdagi ishtiroki hamda ijodiy yondashuvi sezilarli darajada oshgan. O‘quvchilar nafaqat mashqlarni to‘g‘ri bajara oladigan, balki bitta topshiriqni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish, alternativ yechimlar topish yoki o‘qituvchining savollariga dadil javob berish, hatto qarshi savollar bilan murojaat qilish kabi ijobiy o‘zgarishlarni namoyon etdilar.

Mazkur kuzatuvlar tahlillari natijasida bilish faolligini oshirishga oid bir qator omillar aniqlandi. Avvalo, boshlang‘ich sinflar uchun mashqlarni tanlashda bolalarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va ilgari egallagan bilim-ko‘nikmalari inobatga olinishi zarur ekani ma’lum bo‘ldi. Ushbu sinf o‘quvchilari o‘yin orqali, rang-barang didaktik materiallar bilan ishlash orqali o‘qitish jarayonida faolroq qatnashishadi. Shu bois o‘yinvari topshiriqlar, ko‘rgazmali qurollar, suhbat hamda bahs-munozaralar hamda bolalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bilish faoliyatiga jalb etadigan turli interfaol metodlardan foydalanish kattaroq samara beradi. Ikkinchidan, mashqlarni bajarish davomida mustaqillik hissini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi vazifasi sezilarli bo‘ladi. O‘quvchi uchun shunday muhit yaratish kerakki, u berilgan topshiriqni ijro etish jarayonida erkin fikrlash, xulosa chiqarish, ma’lum darajada yangilik kashf qilish imkoniyatiga ega bo‘lsin. Uchinchi bir jihat – baholash jarayonida keng qamrovli mezonlardan foydalanish lozimligi. Ya’ni o‘quvchi faqat to‘g‘ri javobni topish uchun emas, balki o‘z fikrini izohlash, dalillar keltirish, ijodkorlik namoyish qilish uchun ham rag‘batlantirilishi kerak. Shunda bolalar birdaniga “xato qilib qo‘ysam, baho yomon bo‘lib qoladi” degan xavotirdan voz kechib, yangicha qarashlar, alternativ javoblar taklif qilishdan cho‘chimaydi.

Mazkur tadqiqot natijalariga asoslangan holda aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda ta’limiy mashqlarni tanlash va ularni samarali tashkil etish o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishning asosiy kalitidir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlar imkon qadar qiziqarli, turli darajada murakkablikka ega, hayotiy misollar bilan boyitilgan bo‘lsa, bu bolalarning motivatsiyasi va shu bilan birga darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, metodik yondashuvda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy va pedagogik muhit, uning bilim olish jarayonidagi mavqei e’tiborga olinishi zarur. Har bir mashqda gugurt pichog‘i bilan kesiladigan aniq

shakllangan “bitta to‘g‘ri yechim”ni emas, balki muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish, har xil yondashuvlarni sinab ko‘rish, eng maqbul yechimni topishga erishish kabi tamoyillar bo‘lishi bolalardagi bilish faolligini rivojlantirishda juda foydali bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, kelajak avlodning ijodiy fikrlaydigan va amaliy ko‘nikmalarga ega shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bolalar mustaqil izlanish orqali qo‘lga kiritgan bilimlari va ko‘nikmalarini nafaqat dars jarayonida, balki real hayotda ham tadbiq eta boshlashlari, ya’ni o‘qishdan tashqari faoliyatlarida ham bilish faolligini saqlab qolishlari ta’minlanadi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinflarda ta’limiy mashq bajarish jarayonini puxta rejalashtirish va uni metodik jihatdan asoslab olib borish, ayniqsa, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari hamda mustaqil izlanishga rag‘batlantiruvchi topshiriqlardan samarali foydalanish bolalar tafakkuri va intellekti rivoji uchun muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi dalillar, kuzatuvlar va tajriba natijalari shuni tasdiqlaydiki, boshlang‘ich sinflarda ta’limiy mashqlarni bajarish jarayonida bilish faolligini oshirish metodikaga ijodkorlik bilan yondashish, guruhiy va individual o‘qitish uslublarini uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarga mustaqil qaror qabul qilish va o‘z fikrini erkin ifoda etish imkonini beradigan sharoit yaratish orqali amalga oshishi mumkin. Bu jarayonda o‘qituvchining rahbarlik roli o‘ta muhim bo‘lib, u nafaqat bilim manbai, balki o‘quvchining intellektual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, ishonch va rag‘bat uyg‘otuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shuningdek, ta’limiy mashqlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, zamonaviy elektron resurslar, multimedia materiallari va masofaviy o‘qitish dasturlari bilan hamohang bo‘lish, bolalarning bilish faolligini yanada kuchaytiradi. Natijada o‘quvchilarda mustaqil hayotiy malaka va ko‘nikmalar shakllanib, ularning yetuk shaxs sifatida kamol topishlari, intellektual salohiyatining yanada yuksalishi ta’minlanadi. Shu tariqa, boshlang‘ich sinflarda ta’limiy mashqlarni to‘g‘ri tashkil etish va ulardan muvofiq darajada foydalanish, bilish faolligini oshirishga zamin yaratish orqali keyingi sinflarda ham o‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonini faollik va ijodkorlik bilan davom ettirishlari uchun qulay poydevor tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 23-sentabr 2020-yil, O‘RQ–637-son. – [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/5013007 (Murojaat qilingan sana: 01.05.2025).
2. https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-innovatsiya-va-marifat
3. Dewey J. Democracy and Education. – New York: The Macmillan Company, 2000. – 434 p.
4. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986. – 287 p.
5. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO, 2017. – 62 p. – [Elektron resurs]. – URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247444 (Murojaat qilingan sana: 01.05.2025).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Umarov Djamshid Xasanovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasi professori
E-mail: jamshid-0505@mail.ru

16-17 YOSHLI FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI TAHLIL NATIJALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. *Maqolada 16-17 yoshdagi futbolchilarning texnik va taktik harakatlarining hajmi va samaradorligi ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqilgan. Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbol jamoalarining musobaqalarda texnik va taktik harakatlarini o‘rganish orqali, texnik va taktik tayyorgarliklari qanday darajada ekanligi aniqlandi va texnik va taktik tayyorgarliklarini takomillashtirish bo‘yicha kerakli tavsiyalar berildi.*

Kalit so‘zlar: *16-17 yoshli futbolchilar, texnik-taktik harakatlar, musobaqa, nazoratlar, takomillashtirish.*

Умаров Джамшид Хасанович
Узбекистан государственный университет физической культуры и спорта

РЕЗУЛЬТАТЫ АНАЛИЗА ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДВИЖЕНИЙ ФУТБОЛИСТОВ 16-17 ЛЕТ И ПУТИ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация. *В статье рассматривается объем и эффективность технико-тактических действий футболистов 16-17 лет. Изучая технико-тактические действия футбольных команд «Сергели», «Бунёдкор» и «Пашкакор» на соревнованиях, был определен уровень их технико-тактической подготовки и даны необходимые рекомендации по улучшению их технико-тактической подготовки.*

Ключевые слова: *Игроки 16-17 лет, технико-тактические действия, конкуренция, контроль, совершенствование.*

Umarov Jamshid Khasanovich
Uzbek State University of Physical Education and Sport

RESULTS OF ANALYSIS OF TECHNICAL-TACTICAL MOVEMENT OF 16-17 YEAR OLD FOOTBALL PLAYERS AND WAYS TO IMPROVE THEM

Annotation. *The article examines the volume and effectiveness of technical and tactical actions of football players aged 16-17. By studying the technical and tactical actions of the Sergeli, Bunyodkor and Pashkakor football teams in competitions, the level of their technical and tactical preparation was determined and the necessary recommendations were made to improve their technical and tactical preparation.*

Key words: *16-17 year old players, technical-tactical moves, competition, controls, improvement.*

Kirish.

Sport mashg‘ulotlarida tayyorgarlik turlari ko‘p. Lekin, ular ichida texnik va taktik tayyorgarliklar alohida o‘rinda turadi. Bu tayyorgarliklar tanlangan sport turini yaxshi o‘zlashtirish va g‘alaba qozonishning asosi hisoblanadi. Texnik va taktik jihatdan yaxshi tayyorgarlikka ega yosh futbolchilarning yetishmasligi milliy sport zaxirasining rivojlanish darajasiga salbiy ta’sir qiladi.

Futbolda sport yutuqlarining hozirgi bosqichida yuqori sport natijalariga erishish uchun hamma turdagi tayyorgarliklar muhimdir. Ayrim ekspertlarning fikricha, jamoa muvaffaqiyatining hal qiluvchi omillaridan biri sportchilarning yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarligi edi. Ayrim olimlar tadqiqotlariga ko‘ra futbolda natijalarni hal qiluvchi omil texnik va taktik tayyorgarlik darajasini ta’kidlaganlar.

Shu bois sportda uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish va futbolchilarning musoboqalashuv faoliyatining turli ko‘rsatkichlarini yaxshilash katta ahamiyatga ega. Bu borada 16-17 yoshli futbolchilarning musobaqa faoliyatining turli ko‘rsatkichlarini tahlil qiluvchi va umumlashtiruvchi, ular

asosida o‘quv-mashq jarayoni rejalashtirilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

Futboldagi yakkama-yakka kurashlar sonining ko‘payishi, ko‘plab o‘yinlar shiddat bilan o‘tayotganini hisobga olsak, musobaqalardan olingan harakatlarining hajmini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamon futbolchilarga yuqori darajadagi tayyorgarlik talablarni qo‘yadi.

So‘ngi yillardagi Jahon, Yevropa va Osiyo chempionatlari milliy futbol terma jamoalari o‘rtasidagi jahon miqyosidagi musobaqalar har tomonlama o‘rganishni, chuqur tahlil etish va zamonaviy talablarga javob beradigan futbolchilarni tayyorlash tizimini yaratishni va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab qilishini ko‘rsatdi.

Oxirgi 10-15 yil davomida qayd etilgan mahalliy futbolchilarning o‘yin ko‘rsatkichlari bo‘yicha yetakchi xorijiy futbolchilardan ortda qolishi odatiy holat bo‘lib qolmoqda, shu sababli texnik tayyorgarlik va taktik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Milliy futbolchilarning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini kamaytirayotgan sabablar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shulardan kelib chiqib, yuqori malakali futbolchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini o‘rganish, hozirgi davrda dolzarb muammo bo‘lib, ularni hal etish uchun amaliy yechimlar zarurdir.

Adabiyotlar tahlili.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan futbolchilarining mashg‘ulotlarini tashkil qilish, futbolchilarini texnik va taktik tayyorgarliklar va asosiy jismoniy sifatlarini tarbiyalash bo‘yicha B.Ismoilov va R. Nabievlar bir qator tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini aniqlash, ularning harakat tayyorgarligini oshirish masalalari bo‘yicha V.V. Lobanovskiy va V.A. Zelentsov, V.I. Kuznetsov, N.A. Rogozhin kabi olimlar futbolchilarini harakatlarga o‘rgatish va jismoniy tayyorgarligini oshirish muammolarini o‘rganganlar.

Tadqiqotning maqsadi.

16-17 yoshli futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarliklarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo‘llarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari.

16-17 yoshli futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini tahlil qilish;

16-17 yoshli futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish.

Tadqiqotning tashkil qilish uslublari.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, anketa so‘rovi, pedagogik testlash, pulsametriya, matematik statistika usullaridan foydalaniladi.

Futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarliklarini tahlil qilish uchun 16-17 yoshli futbolchilarning musobaqadagi o‘yinlarini pedagogik kuzatib borildi. Bunda o‘yin ko‘rsatkichlarining hajmi va shiddati qayd etildi. Texnik va taktik harakatlarning tahlillari 2022-yilda 16-17 yoshli futbolchilarning musobaqalaridagi o‘yinlarida o‘tkazildi. Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbol jamoalarining o‘yinlari tahlil qilindi.

Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbol jamoalarining musobaqada bajargan texnik va taktik harakatlarning ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqamiz.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi.

Futboldagi texnik harakatlariga juda ko‘p harakatlar kiradi.

Futboldagi texnika - bu futbolchining to‘p bilan ishlashdagi mahorati, harakatlarni aniq, tez va samarali bajarish qobiliyatidir. Texnik harakatlar futbol o‘yini sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Futboldagi asosiy texnik harakatlar:

1. To‘pni qabul qilish (qabul qilish texnikasi). Oyoq bilan, son bilan, ko‘krak bilan qabul qilishlar. Harakatda va joyida to‘xtatishlardir.

2. To‘p uzatish (pas berish). Yer orqali (past) uzatishlar, havoda (yuqoridan) uzatishlar, qisqa va uzoq masofali paslar kiradi.


3. To‘p bilan yurish (dribbling). Raqibni aldab o‘tishlar, tezlikda to‘pni boshqarishlar shular jumlasidandir.

4. Zarba berish. Oyoqning ichki, tashqi va tovon qismi bilan zarba berishlar, havodan zarbalar, bosh bilan zarbalardan iborat.

5. Himoyalanish texnikasi. To‘pni olib qo‘yishlar, raqibni to‘g‘ri yoppasiga to‘xtatishlar kiradi.

6. Darvozabon texnikasi. To‘pni ushlashlar, qaytarishlar, to‘pni qo‘l bilan uzatishlar, sakrashlarni o‘z ichiga oladi.

Futbolchilarning o‘yindagi texnik va taktik harakatlarning informatsion ko‘rsatkichlaridan biri bu “to‘p oshirishlar” soni va aniqligi bo‘lib, barcha turdagi uzatmalar orasida biz o‘yinchi to‘pni qabul qilganda, foydali deb ataladigan qulay vaziyatda “to‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish”ni ajratib oldik. Sherikdan, raqib tamoniga qarab harakat qilishda davom etadi. Raqibning yarim maydonda amalga oshirilgan bunday uzatmalarning hajmi futbolchilarning texnik va taktik qobiliyatining ishonchli ko‘rsatkichlaridir. Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbol jamoalarining o‘yinchilarini texnik va taktik harakatlari ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqamiz (1-rasm).



	To‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish (marta)	Jarima maydoniga to‘p oshirishlar (marta)	Maydon bo‘ylab to‘p oshirishlar (marta)	Pastda to‘p uchun yakkakurashishlar (marta)	Havoda to‘p uchun yakkakurashishlar (marta)	Erkin to‘pga egalik qilish (marta)
Sergeli	83	26	10	80	26	42
Bunyodkor	58	18	6	47	14	29
Paxtakor	75	23	7	65	18	37

1-rasm. Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbol jamoalari o‘yinchilarining TTH hajmi va samaradorligi ko‘rsatkichlari 2022 yilgi musobaqa o‘yinlarining tahlili (n=3).

Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbol jamoalarini o‘yindagi texnik va taktik harakatlarini baholashda to‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish, jarima maydoniga to‘p oshirishlar, maydon bo‘ylab to‘p oshirishlar, pastda to‘p uchun yakkakurashishlar, havoda to‘p uchun yakkakurashishlar, erkin to‘pga egalik qilish nazoratlarni o‘tkazildi.

Sergeli futbol jamoasi o‘yinchilari to‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish nazoratida 83 marta harakat aniqlandi. Jarima maydoniga to‘p oshirishlar soni 26 tani tashkil etdi. Maydon bo‘ylab to‘p oshirishlar soni 10 tani tashkil etdi. Pastda to‘p uchun yakkakurashishlarda o‘yinchilar 80 marta harakat qayt etishdi. Havoda to‘p uchun yakkakurashishlarda esa 26 marta harakat hisoblandi. Erkin to‘pga egalik qilish kuzatishlarida futbolchilar 42 marta harakat qilishgani aniqlandi.

Bunyodkor futbol jamoasi o‘yinchilari to‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish nazoratida 58 marta harakat aniqlandi. Jarima maydoniga to‘p oshirishlar soni 18 tani tashkil etdi. Maydon bo‘ylab to‘p oshirishlar soni 6 tani tashkil etdi. Pastda to‘p uchun yakkakurashishlarda o‘yinchilar 47 marta harakat qayt etishdi. Havoda to‘p uchun yakkakurashishlarda esa 14 marta harakat hisoblandi. Erkin to‘pga egalik qilish kuzatishlarida futbolchilar 29 marta harakat qilishgani aniqlandi.

Paxtakor futbol jamoasi o‘yinchilari to‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish nazoratida 75 marta harakat aniqlandi. Jarima maydoniga to‘p oshirishlar soni 23 tani tashkil etdi. Maydon bo‘ylab to‘p oshirishlar soni 7 tani tashkil etdi. Pastda to‘p uchun yakkakurashishlarda o‘yinchilar 65 marta harakat qayt etishdi. Havoda to‘p uchun yakkakurashishlarda esa 18 marta harakat hisoblandi. Erkin to‘pga egalik qilish kuzatishlarida futbolchilar 37 marta harakat qilishgani aniqlandi.

Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbol jamoalarining o‘yinchilarini texnik va taktik harakatlarini aniqligi foizlarda hisoblab chiqildi. Foiz ko‘rsatkichlar 1-jadvalda berib o‘tildi.

1-jadval

Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbol jamoalari o‘yinchilarining TTH hajmi va samaradorligi ko‘rsatkichlari 2022 yilgi musobaqa o‘yinlarining tahlili (n=3).

T/r	TTH Ko‘rsatqichlar	Jamoalar		
		Sergeli	Bunyodkor	Paxtakor
		% aniq	% aniq	% aniq
1	To‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish	76	69	67
2	Jarima maydoniga to‘p oshirishlar	54	35	40
3	Maydon bo‘ylab to‘p oshirishlar	38	20	24

4	Pastda to‘p uchun yakkakurashishlar	62	44	53
5	Havoda to‘p uchun yakkakurashishlar	54	58	36
6	Erkin to‘pga egalik qilish	48	46	44

Sergeli futbol jamoasi o‘yinchilari to‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish nazoratida 76% aniq harakat aniqlandi. Jarima maydoniga to‘p oshirishlar 54% aniq harakat hisoblandi. Maydon bo‘ylab to‘p oshirishlarda 38% aniq harakatni tashkil etdi. Pastda to‘p uchun yakkakurashishlarda o‘yinchilar 62% aniqlik bilan harakat qilishgan. Havoda to‘p uchun yakkakurashishlarda esa 54% aniq harakatlar aniqlandi. Erkin to‘pga egalik qilish kuzatishlarida futbolchilar 48% samarali harakat qilishgani aniqlandi.

Bunyodkor futbol jamoasi o‘yinchilari to‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish nazoratida 69% aniq harakat aniqlandi. Jarima maydoniga to‘p oshirishlar 35% aniq harakat hisoblandi. Maydon bo‘ylab to‘p oshirishlarda 20% aniq harakatni tashkil etdi. Pastda to‘p uchun yakkakurashishlarda o‘yinchilar 44% aniqlik bilan harakat qilishgan. Havoda to‘p uchun yakkakurashishlarda esa 58% aniq harakatlar aniqlandi. Erkin to‘pga egalik qilish kuzatishlarida futbolchilar 46% samarali harakat qilishgani aniqlandi.

Paxtakor futbol jamoasi o‘yinchilari to‘pni harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish nazoratida 67% aniq harakat aniqlandi. Jarima maydoniga to‘p oshirishlar 40% aniq harakat hisoblandi. Maydon bo‘ylab to‘p oshirishlarda 24% aniq harakatni tashkil etdi. Pastda to‘p uchun yakkakurashishlarda o‘yinchilar 53% aniqlik bilan harakat qilishgan. Havoda to‘p uchun yakkakurashishlarda esa 36% aniq harakatlar aniqlandi. Erkin to‘pga egalik qilish kuzatishlarida futbolchilar 44% samarali harakat qilishgani aniqlandi.

Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbol jamoalari futbolchilarining texnik-taktik harakatlari bir-biridan farqli jihatlari mavjud.

Xulosa va takliflar. Sergeli, bunyodkor va paxtakor futbolchilarning musobaqalardagi texnik-taktik harakatlari samaradorligi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 16-17 yoshli Sergeli futbol jamoasi futbolchilarining texnik-taktik tayyorgarligi darajasi qolgan jamoalardan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Sergeli futbol jamoasi futbolchilarining mashg‘ulotlarida texnik-taktik tayyorgarliklariga alohida e’tibor berishlari musobaqalarda aniqlandi. Qolgan bunyodkor va paxtakor futbol jamoasi futbolchilarining musobaqalardagi o‘yinlaridan shuni ko‘rish mumkinki, texnik va taktik tayyorgarliklari Sergeli futbol jamoasi futbolchilarining tayyorgarliklaridan past darajada ekanligi kuzatildi. Bu jamoa futbolchilarining texnik-taktik harakatlari zamon talablariga javob beradigan darajada emas. Asosiy o‘yin ko‘rsatkichlari bo‘yicha bunyodkor va paxtakor futbolchilalari Sergeli sportchilari bilan teng bo‘lsada baribir ancha sustligi o‘rganishlar davrida aniqlandi.

Birinchi navbatda, o‘yin texnikasi qaror qabul qilish uchun vaqt yetishmasligi bilan bajarilishi kerak bo‘lgan raqib bosimi ostida o‘yin texnikasini bajarish ishonchliligi bo‘yicha;

ikkinchidan maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasida va natijada o‘yin jarayonida harakat faoliyatlarining shiddatida;

Uchinchidan o‘yin davomida charchoqning kuchayishi va konsentratsiyaning pasayishi natijasida yuzaga keladigan ko‘plab noto‘g‘ri texnik va taktik harakatlarda bu jamoalarni kamchilik jihatlari kuzatildi.

Bunyodkor va paxtakor futbol jamoalarining 16-17 yoshli futbolchilari hozircha yangi shakllangan jamoalarga munosib raqobat ko‘rsata olayotganligini ko‘rish mumkin, ammo zamonaviy tayyorgarlik talab etadigan musobaqalarda kerakli natijalar ko‘rsata olmayapti.

Futbolchilarning katta qismida sport mahoratining yetarli darajada yuqori emasligi ko‘p jihatdan bir qancha omillarga bog‘liq: futbollar uchun uzoq muddatli tayyorgarlik dasturining yo‘qligi, infratuzilmani rivojlantirishning past darajasi sport mashg‘ulotlari inshootlari va stadionlar yetishmasligi, futbolchilar bilan ishlaydigan malakali murabbiylar shtabi va jihozlarining yetishmasligidir.

16-17 yoshli futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini optimal tashkil etish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin. Bu yosh davrida futbolchilar jismoniy va psixologik jihatdan shakllanayotgan bo‘lishi sababli, mashg‘ulotlar puxta rejalashtirilgan, yosh xususiyatlariga mos va individual yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Texnik tayyorgarlik bo‘yicha tavsiyalar: Har kuni to‘p bilan mashg‘ulotlar olib borish, har ikki oyoq bilan pas, zarba va dribling ko‘nikmalarini rivojlantirish, harakat tezligi va texnikani o‘yin orqali o‘rgatish, oddiy drillardan boshlab, real o‘yin vaziyatlariga o‘xshash mashg‘ulotlar o‘tkazish kerak.

Taktik tayyorgarlik bo‘yicha tavsiyalar: Futbolchilarga o‘z joyida harakat qilish, to‘g‘ri pozitsiya tanlashni o‘rgatish, video tahlillar, muhokamalar, "Nima qilsang bo‘lardi?" kabi interaktiv metodlar, har bir futbolchiga pozitsiyasiga mos rol va harakatlar haqida tushuncha berish, 2x1, 3x2, 4x3 kabi vaziyatlarni mashq qilish orqali tez va aniq qaror qabul qilishni rivojlantirish yaxshi natijalar beradi.

Mashg‘ulotlarni tashkil qilishda umumiy yondashuvlar: Har bir futbolchining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olish, ortiqcha zo‘riqish yoki jismoniy

toliqishning oldini olish, nazariyani iloji boricha amaliy o‘yinlar orqali tushuntirish, ijobiy muhit yaratish, o‘ziga ishonchni oshirish, jamoaviy ruhni mustahkamlash 16-17 yoshli futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini yuqori darajaga olib chiqishga ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nodavlat sport-ta’lim muassasalarida olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilarni tayyorlash va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 22.08.2022 yil 466-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16-iyundagi PQ-5148-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan yosh toifalari bo‘yicha “Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlarining turlari va mezonlari.

4. Utashev K. N. Theoretical analysis of motor activity in assessing the mass sports movement of schoolchildren //Eurasian Journal of Sport Science. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 1-4.

5. Umarov D. K. EFFICIENCY OF USING THE STRATEGIC COMPLEX CONTROL ALGORITHM FOR PLANNING THE TRAINING PROCESS OF GYMNASTS AT THE PHASE OF SPORTS DEVELOPMENT //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2021. – T. 2021. – №. 06. – C. 311-323.

6. Raxmatova D.N. “Bolalar va o‘smirlar sport maktabining boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida chidamlilikni tarbiyalash” Dissertatsiya, Toshkent – 2010.

7. Khasanov, D. (2024). INTEGRATING PHYSICAL EDUCATION PROGRAMS TO FOSTER HEALTHY LIFESTYLES IN PRIMARY SCHOOL PUPILS. *American Journal of Science on Integration and Human Development*, *2*(3), 229-237.

8. Dilmurod K. DEVELOPMENT OF ENDURANCE ABILITY OF 6TH CLASS PUPILS THROUGH TRACK AND FIELD EXERCISES AS AN AFTER-SCHOOL ACTIVITY //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 305-313.

9. Khasanov, D. (2025). THE IMPORTANCE OF USING THE CIRCUIT METHOD IN DEVELOPING THE ENDURANCE OF MIDDLE SCHOOL STUDENTS. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, *3*(2), 334-344.

10. Tojiev M.A., Jiyanov O.M. “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh qo‘l jangichilar uchun o‘quv-mashg‘ulot” dasturi Toshkent-2023, 75-bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mashrabxon Umarova
Toshkent amaliy fanlar universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti v.b

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA JAHON ADABIYOTI NAMUNALARINI O‘QITISH USULLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqola boshlang‘ich sinflarda jahon adabiyoti namunalarini o‘rganish haqida bahs yuritilgan. Jumladan, Hans Kristian Andersen, aka- uka Grimlar, Faxri Erdinch, Chingiz Aytmatov va Jonatan Saiftning asarlarini o‘rganishda qo‘llanadigan metodlar bayon qilingan.*

Tayanch so‘zlar: *Bolalar adabiyoti, jahon adabiyoti, adabiy meros, ertak, hikoya, kitobxonlik.*

Машрабхон Умарова
Исполняющая обязанности доцента кафедры начального образования
Ташкентского университета прикладных наук

МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ОБРАЗЦОВ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ГРАМОТНОСТИ

Аннотатсия: *В данной статье обсуждается изучение образцов мировой литературы в начальных классах. В том числе, раскрыли методы изучения произведений Ганса Крестиана Андерсена, братьев Гриммов, Фахри Эрдинча, Чингиза Айтматова и Джонатана Свифта.*

Ключевые слова: *детская литература, мировая литература, литературные наследия, сказка, рассаз.*

Mashrabkhon Umarova
Acting Associate Professor, Department of Primary Education, Tashkent University of Applied Sciences

METHODS OF TEACHING SAMPLES OF WORLD LITERATURE IN MOTHER TONGUE AND LITERACY CLASSES

Anotation: *In this articte there autlined some ways of teaching the samples of world literature, including Hans Chiristian Anderson, Brother Grimms, Turkish writer Fahri Erdinch, Chingiz Aytmatov, Jonathan Swiftis masterpieces and famaus works and used techniques and approaches in teaching them.*

Key words: *The literature of the world, childrens literature, fairy tales, stories, literary heritage.*

Kirish.

Hozirgi kunlarda yurtimizda kitob o‘qishga munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi, desak, mubolag‘a emas. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar fikrimizning dalilidir.

Adabiyotlar tahlili.

Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish” darsliklarida jahon adabiyoti namunalarini o‘rgatish ham rejalashtirilgan. Jumladan, amaldagi 4-sinflar “O‘qish” kitobining 8-bo‘limida dunyoga mashhur adiblarning asarlaridan namunalar joy olgan. Mashhur daniyalik bolalar yozuvchisi Hans Kristian Andersenning “Bolalar gurungi”, nemis bolalar adabiyotining asoschilari aka-uka Grimlarning “Bir xumcha shavla”, turk adibi Faxri Erdinchning “Rustam”, atoqli qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Jimjiloq”, mashhur ingliz adibi Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” asaridan parchalarni o‘rganish nazarda tutilgan. Bulardan ko‘rinib turibdiki, jahonning eng mashhur adiblari ijodini o‘rgatish mo‘ljallangan. Mazkur mavzularni o‘rgatish o‘qituvchidan juda jiddiy tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Birinchidan, shuni ta’kidlash kerakki, darsga tayyorlanayotgan har qanday muallim jahon adabiyotini boyitishga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shgan mashhur adiblar hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi ma’lumotlarni puxta o‘rganib, o‘zlashtirib olgan bo‘lishlari zarur. Ikkinchidan,

yozuvchilarning ijodidan darslikda berilgan namunalardan tashqari boshqa asarlaridan ham xabardor bo‘lish foydadan xoli emas. Uchinchidan, mazkur mavzularga tayyorgarlik ko‘rish vaqtida fanlararo aloqaga urg‘u berish, ya’ni jug‘rofiya, tarix fanlariga murojaat qilish zarur. Masalan, “Dunyoning siyosiy xaritasi”dan unumli foydalanish shart. O‘quvchilarga ushbu yozuvchilar aynan qaysi mamlakatda tug‘ilagnini xaritadan ko‘rsatish bolalarning qiziqishlarini oshirishi tabiiydir. Aksariyat adiblarning Yevropa qit’asidagi mamlaktlardan yashab, ijod qilganliklarini hisobga olganda, alohida izoh berish dars samaradorligini oshirishga omil bo‘ladi. To‘rtinchidan, muallim tarix, ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari bilan maslahatlashib ish olib borishi kutilgan natijalarga erishishning ma’qul vositasidir.

Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bu mavzularni o‘rgatish o‘qituvchidan ulkan salohiyat, keng bilim va malaka talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Hans Kristian Andersenning “Bolalar gurungi” hikoyasini o‘rganishni boshlashdan oldin jahon bolalar adabiyotining maydonga kelishi haqida qisqagina ma’lumot berish, jumladan, o‘quvchilarga quyi sinflarda o‘rgangan o‘zbek bolalar adabiyotidan namunalarni esga olish maqsadga muvofiqdir. Aynan Andersen Yevropada bolalar adabiyotining yuzaga kelishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shganligini aytib, hozir butun dunyoda kitobxonlar uning asarlarini sevib o‘qishini alohida ta’kidlash zarur. Chunki adibning ertaklari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Aslida bolalar Andersen ertaklaridan ma’lum ma’noda xabardor bo‘lib o‘lgurishgan ham. Ya’ni uning asarlari multfilm sifatida ekranlashtirilgani uchun yosh tomoshabinlar orasida ommalashganligi tabiiy. Yuqori sinflarda ham adib asarlarini o‘rganish davom etishini ta’kidlab o‘tish mumkin.

Yozuvchining “Bolalar gurungi” hikoyasi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligini hisobga olgan holda hayotga bog‘lash lozim. Aynan boshlang‘ich sinflarda bolalarda mohiyatini tushunib-tushunmay ota-onalari mavqeidan g‘ururlanish hisslari paydo bo‘ladi. Shu salbiy xislatning shakllanmay turib oldini olishda mazkur hikoyaning tahlili muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar.

Nemis adiblari aka-uka Grimlarning “Bir xumcha shavla” asarini o‘zbek o‘quvchilarga ma’lum bo‘lgan mashhur “Ur, to‘qmoq” ertagida Laylakvoyning cholga bergan ikkinchi hadyasi – “Qaynar xumcha”ga qiyoslab o‘rganish ko‘zlangan maqsadga erishishda eng to‘g‘ri omil vazifasini bajaradi. Turli xalqlar ertaklarining syujetidagi yaqinlikni tushuntirish o‘quvchilar uchun qiziqarli yangilik bo‘lishi aniq.

Turk adibi Faxri Erdinchning “Rustam” hikoyasi bolalarni bee’tibor qoldirmaydi, chunki deyarli tengqurlari bo‘lgan asar qahramoni Rustamning hayoti bilan vatanimiz yoshlarining turmush tarzini taqqoslash juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar to‘qqiz yoshli bolaning tirikchilik o‘tkazish va qamoqdagi otasidan xabar olish maqsadida odamlarning yuklarini tashib ishlashi, albatta, achinarli. Bu yoshlarni tinch va farovon hayot qadriga etishga, undan unumli foydalanishga da’vat qiladi. Chunki bu asar nafaqat bir bola hayotining og‘ir haqiqatini tasvirlaydi, balki o‘quvchilar qalbida rahm-shafqat, hamdardlik va hayotga nisbatan minnatdorlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Rustamning bolaligiga to‘g‘ri kelgan mashaqqatlar, uning erta ulg‘ayishga majbur bo‘lgani yosh kitobxonlarga katta ta’sir o‘tkazadi. Ayniqsa, bu asarni tinch, farovon muhitda voyaga etayotgan o‘zbek o‘quvchilari o‘qir ekan, hayotlari, imkoniyatlari va ota-onalarining g‘amxo‘rligi qadri haqida chuqurroq o‘ylashadi. Men bu hikoyani yosh avlod tarbiyasida juda foydali deb bilaman, chunki u ularni hayotga mas’uliyatli qarashga, mavjud ne’matlardan oqilona foydalanishga va insoniylik fazilatlarini qadrlashga chorlaydi. Shu jihatdan “Rustam” hikoyasi nafaqat adabiy, balki kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega asar sifatida baholanishi lozim.

Atoqli qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Jimjiloq” ertagi ham o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi “No‘xatvoy”, “Boshmaldoqvoy” kabi ertaklarning syujetiga o‘xshashi bilan xarakterlidir. Qardosh xalqlar folklorining mushtarak jihatlari borligini tushuntirish qo‘shni yurtlar bilan do‘stlikni mustahkamlashga, ularning badiiy adabiyotiga qiziqishning o‘sishiga xizmat qiladi, deyish mumkin. Asarning yumoristik yo‘nalishdaligi ham qiziqib o‘qilishiga sababchi bo‘ladi. Yozuvchining “Jimjiloq” ertagini o‘qir ekanman, undagi syujet, xarakterlar va yumoristik ruh menga o‘zbek xalq ertaklari — ayniqsa “No‘xatvoy” va “Boshmaldoqvoy” kabi asarlarni eslatadi. Bu o‘xshashlik bejiz emas, balki qardosh xalqlarning tarixiy, madaniy va ma’naviy mushtarakligining mahsulidir, deb hisoblayman. Tadqiqotchi sifatida men bunday o‘xshashliklar xalq og‘zaki ijodining ildizlari bir joydan suv ichganini, madaniy almashinuvlarning tabiiy va qadimiyligini ko‘rsatadi, degan xulosaga kelaman. Ayniqsa, ertakning yumoristik yo‘nalishda yozilgani bolalar adabiyotining ko‘ngilochar va tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu jihatdan “Jimjiloq” nafaqat qiziqarli o‘qiladi, balki xalqlar o‘rtasidagi madaniy yaqinlikni his etishga undaydi. Bu esa, albatta, qo‘shni yurtlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashda muhim vositaga aylangan.

Mashhur ingliz adibi Jonatan Sivftning “Gulliverning sayohatlari” asaridan bexabar o‘quvchini uchratish amri mahol, chunki bu asar dunyodagi ko‘plab tillarga o‘girilganligi, bir necha marta ekranlashtirilganligi tufayli juda mashhur bo‘lib ketgan. “Gulliverning sayohatlari” asari o‘zbek tiliga tarjima qiligan va bir necha marta nashr qilingan. Asarning bolalar uchun mo‘ljallangan nashrlari ham ko‘p ming nusxalarda chop etilgan. Ushbu mavzuga oid mashg‘ulotda, albatta, asar

nashrlarini namoyish qilish dars samaradorligini oshiradi. Jonatan Sivft ushbu asar orqali sarguzashtlar vositasida chuqur ijtimoiy-siyosiy mazmunni yoritishga erishgan. Soddalik ortida yashiringan tanqidiy ruhni o‘quvchilar ongida shakllantirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, asarning bolalar uchun mo‘ljallangan soddalashtirilgan variantlarining ko‘plab nashr qilinishi yosh avlodni badiiy adabiyotga qiziqtirish, ularning tasavvur doirasini kengaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida asar nashrlarini darsda namoyish etish o‘quvchilarda badiiy tafakkurni rivojlantiradi, darsni jonlantiradi va mavzuga bo‘lgan munosabatni mustahkamlaydi. Shu boisdan bunday yondashuvni o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi zaruriy usullardan biri sifatida baholanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, ushbu darsda dunyo xaritasidan foydalanish ko‘zlangan maqsadga erishishning muhim omilidir. Gulliverning ko‘plab yurtlarga kemalarda sayohat qilishining sababi adibning vatani Angliya har tomondan suv bilan o‘ralgan hudud ekanligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan o‘quvchilardan ma’lum tasavvur hosil qiladi.

Bunday mashg‘ulotlarni bir so‘z bilan aytganda, “Adabiy sayohat” darslari deb nomlash to‘g‘ri bo‘ladi. Shunday nom bilan tashkil etilsa, o‘quvchilarning dunyo mamlakatlari, xalqlari, ularning adabiyoti haqidagi bilim va ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘quvchilarda jahon bolalar adabiyotining mashhur vakillari asarlariga nisbatan mehr-muhabbatini shakllantirish muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirzyoev tomonidan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish sohasida olib borilayotgan xayrli ishlarga qo‘shiladigan munosib hissa bo‘ladi.

Shu o‘rinda o‘quv reja va darslikka kiritilmagan bo‘lsa ham buyuk sharq mutafakkirlarining asarlaridan sinfdan tashqari o‘qish darslarida foydalanish maqsadga molikdir. Masalan, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari eski maktablarda asosiy darslik vazifasini o‘taganligi tarixiy manbalardan yaxshi ma’lum.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jahon adabiyoti namunalarini o‘rganishga oid mashg‘ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va ularda noan’anaviy dars usullaridan foydalanib, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi muqarrar. Shunday usullar yosh o‘quvchilarning badiiy kitoblarni, jumladan, jahon adabiyoti namunalarini o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirishda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.“Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 15.09.2017.

2.Matchonov S. va boshqalar. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinflari uchun darslik, – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017.

3.Svift, Jonatan. Gulliverning sayohatlari. – Toshkent: Vektor-Press, 2009.

4.Aytmatov, Chingiz. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2016. – 656 b.

5.“Buyuk qozoq shoir va mutafakkiri Abay Qo‘qonboev ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 16.03.2018.

6.“Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. // O‘zvekiston adabiyoti va san’ati, 06.04. 2018.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Umarova Muqaddas Muxtarovna
Associate Professor at Kokand State University, (PhD)

THE IMPROVED FIRST STEP STATE PROGRAM – THE CORE CURRICULUM FOR PRESCHOOL EDUCATION

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'limning tayanch dasturi sifatida takomillashtirilgan "Ilk Qadam" davlat dasturining mazmuni, ahamiyati va amaliy qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi. Maqolada o'yinlarga asoslangan hamda bola markazida tashkil etiladigan ta'lim usullari, ota-onalar va keng jamoatchilik bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, dasturga kiritilgan yangiliklarning bolalar kognitiv, ijtimoiy, emotsional va jismoniy rivojlanishiga ta'siri kuzatiladi. Tekshirish natijalari takomillashtirilgan dasturning o'qituvchilar malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy vositalar bilan jihozlash hamda ota-onalar ishtirokini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Takomillashtirilgan Ilk Qadam, maktabgacha ta'lim, bolalar rivojlanishi, o'yin texnologiyalari, ota-ona ishtiroki.*

Умарова Мукаддас Мухтаровна
Доцент Кокандского государственного университета, (PhD)

УСОВЕРШЕНСТВОВАННАЯ ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРОГРАММА "ПЕРВЫЙ ШАГ" – ОСНОВНАЯ УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается обновленная государственная программа «Ilk Qadam» как базовая программа дошкольного образования. Особое внимание уделяется значимости игры и ориентированных на ребенка методах обучения, а также возможностям сотрудничества с родителями и широкой общественностью. Анализируются нововведения и их влияние на когнитивное, социальное, эмоциональное и физическое развитие детей. Результаты исследования подчеркивают необходимость повышения квалификации педагогов, оснащения дошкольных учреждений современными ресурсами и усиления родительского участия.*

Ключевые слова: *усовершенствованная программа Ilk Qadam, дошкольное образование, развитие детей, игровые технологии, участие родителей.*

Umarova Muqaddas Muxtarovna
Qo'qon davlat universiteti dotsenti, (PhD)

TAKOMILLASHTIRILGAN BIRINCHI QADAM DAVLAT DASTURI-MAKTABGACHA TA'LIM UCHUN ASOSIY O'QUV DASTURI

Annotation. *This article focuses on the refined "Ilk Qadam" state program as the foundational framework for preschool education. Emphasis is placed on play-based and child-centered instructional methods, as well as collaboration with parents and the wider community. The article analyzes how new components of the program influence children's cognitive, social, emotional, and physical development. Findings highlight the importance of teacher professional development, modernizing preschool facilities, and enhancing parental involvement to ensure the program's success.*

Keywords: *Refined Ilk Qadam program, preschool education, child development, play-based methods, parental involvement.*

The importance of a well-structured preschool curriculum has increasingly become evident in the sphere of early childhood education. In Uzbekistan, the "Takomillashtirilgan Ilk Qadam Davlat Dasturi" represents a significant stride in advancing the foundational program for preschool education. By refining the previous approaches under the Ilk Qadam initiative, this improved state program seeks to align pedagogical methods with international standards, while simultaneously preserving core national values and cultural identity. It is designed to prepare young learners for formal schooling by promoting holistic growth in cognitive, social, emotional, and physical domains. At the same time, it encourages active family engagement and community participation, as an integrated approach is believed to be the most effective way of

shaping children's readiness for later academic success and lifelong learning.

In exploring how this refined program influences preschool education, consideration was given to both qualitative and quantitative data from a variety of stakeholders, including preschool administrators, teachers, parents, and education specialists. The revised curriculum under "Takomillashtirilgan Ilk Qadam Davlat Dasturi" was compared with the older version to gauge where and how the new program brings added value. Documentation reviews, classroom observations, interviews, and focus groups were employed to gather data that could shed light on how effectively the updated program has been implemented, the level of training and competence among teachers, and the ways in which parents and the wider community engage with this new approach. Triangulating these methods enhanced the reliability of the findings, enabling a deeper understanding of the program's impact and facilitating more nuanced conclusions.

A key feature identified during the data collection process was the program's comprehensive content that integrates subjects such as language development, mathematical thinking, environmental awareness, and socio-emotional skills into a unified framework. Rather than treating each subject in isolation, the refined curriculum promotes thematic units that encourage children to explore connections across disciplines. For instance, a classroom unit on "seasons" might simultaneously focus on vocabulary acquisition (words associated with weather changes), basic numerical skills (counting days or comparing temperature readings), and science exploration (observing nature as seasons shift). Teachers reported that this thematic approach fosters curiosity and facilitates better retention of knowledge because children can see the relevance of each concept in a broader context.

Additionally, the data highlighted the program's greater emphasis on play-based and child-centered methods, moving away from passive, teacher-led instruction. Observations and interviews with teachers revealed an increasing use of interactive games, storytelling, songs, and creative arts projects. These methods were particularly effective in developing children's social and communication skills, as they required cooperation and active participation from every child. Teachers described children becoming more engaged, displaying longer attention spans, and developing stronger bonds within the group. Parents, in their focus groups, consistently praised these changes, noting how their children spoke more enthusiastically about their day at preschool and sometimes even practiced these new activities at home with siblings or friends. Such family-centered participation was seen as critical to reinforcing learning concepts outside the classroom environment.

In terms of measurable outcomes, standardized observation rubrics were used to evaluate children's developmental progress in areas such as language, early numeracy, and socio-emotional maturity. The data suggested that children exposed to the refined curriculum for at least one full school ear performed better on vocabulary tests, demonstrated improved problem-solving capabilities, and showed a heightened ability to collaborate with peers. Informal teacher assessments further revealed that children often expressed themselves more confidently during group activities and were more willing to experiment with new tasks without fear of making mistakes. These indicators suggest that "Takomillashtirilgan Ilk Qadam Davlat Dasturi" fosters a more positive, supportive climate where trial and error is viewed not as a shortcoming but as an opportunity for learning and growth.

Nonetheless, the process of implementing this improved curriculum is not without its challenges. Some teachers acknowledged that they were initially uncertain about how to shift from a more traditional, didactic style of teaching to a child-centered and play-based approach. While government-led teacher training programs aimed at addressing this gap have been conducted, the effectiveness of such training varied across different regions and institutions. Rural preschools, in particular, reported difficulties in accessing up-to-date training modules or having a sufficient supply of teaching materials. Infrastructure constraints, like limited classroom space and outdated facilities, also impeded the full integration of certain interactive or group-based activities. Teachers at these schools often had to innovate by reusing local, low-cost materials to create learning aids, or by conducting some of the activities outdoors, whenever weather permitted.

Parent involvement is also crucial to the success of the improved state program, but it presents another layer of complexity. Although the revised curriculum officially encourages active parent participation—ranging from simple at-home exercises to periodic meetings with teachers—actual engagement levels depend greatly on factors such as parents' work schedules, their own educational backgrounds, and cultural norms about the role of parents in early education. Some parents expressed hesitancy in contributing to preschool projects, citing a belief that such responsibilities belong solely to teachers. Others, by contrast, described a willingness to volunteer and share resources, but were unsure about how to do so effectively. To address this issue, some preschools began organizing open-door days and special training sessions for parents, explaining key principles of the new curriculum and demonstrating how families can extend learning at home. Over time, it was observed that the parents who attended these sessions became more actively involved, reading to their children more often, engaging

them in simple household math tasks, or discussing moral lessons to reinforce socio-emotional learning.

By examining the experiences of various stakeholders, it becomes apparent that the success of the refined program depends on continuous professional development for teachers, adequate institutional support, and sustained efforts to engage families. Teachers emphasized that practical workshops and collegial mentoring sessions were more beneficial for them than one-time theoretical lectures because they allowed for hands-on demonstration of the new methods. Furthermore, collaborative platforms—whether in-person or virtual—where educators could share best practices and provide feedback on lesson plans proved instrumental in helping teachers adapt to the new curriculum. These channels also foster a sense of community among teachers, many of whom work in geographically isolated regions.

While it may still be too early to draw definitive, long-term conclusions about the refined program's impact on children's academic trajectories, initial indicators of success are promising. Improved levels of engagement, greater child autonomy, and better communication skills suggest that children may be more prepared to transition into formal schooling. In turn, these developments could lead to enhanced performance in reading, writing, mathematics, and critical thinking in the early primary grades. As policymakers continue to review and refine state education programs, the "Takomillashtirilgan Ilk Qadam Davlat Dasturi" stands as an example of how updating content, teaching methodologies, and stakeholder engagement strategies can collectively elevate the quality of preschool education.

Future initiatives will likely focus on strengthening teacher training, ensuring equitable resource distribution, and enhancing parental awareness. If these elements are continually optimized and integrated, they can create a virtuous cycle of improvement, in which each succeeding cohort of children receives more comprehensive, effective, and engaging preschool education. The ultimate objective of this program is to lay a solid foundation for lifelong learning, producing individuals who are not only academically prepared but also socially and emotionally well-rounded. By aligning national educational objectives with widely recognized best practices, Uzbekistan's improved preschool program paves the way for a generation that values both local traditions and innovative, globalized perspectives in education.

References.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – 23-sentabr 2020-yil, O'RQ–637-son. – [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/5013007 (Murojaat qilingan sana: 02.05.2025).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4387-son qarori. – [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/4396162 (Murojaat qilingan sana: 02.05.2025).

3. Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk Qadam" davlat dasturi / Mas'ul muharrir: U. Rahimova. – Toshkent: Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2020. – 180 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik mezoni bo'lishi kerak: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 56 b.

5. Ministry of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan. Concept Note on the Development of Preschool Education Sector, 2021–2025. – Toshkent: Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2021. – 48 b.

6. Vygotsky L.S. Myshlenie i rech'. – Moskva: Labirint, 1999. – 352 s.

7. Piaget J. Izbrannye psihologicheskie trudy. – Moskva: Prosveshchenie, 1982. – 412 s.

8. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.

9. UNESCO. Early Childhood Care and Education: Building the Wealth of Nations. – Paris: UNESCO, 2010. – 110 p. – [Elektron resurs]. – URL: https://unesdoc.unesco.org

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Usmanova Nilufar Ilhom qizi
Alfraganus Universiteti Maxsus Pedagogika: Logopediya 2-bosqich talabasi

AUTIZM BOLALAR XULQ-ATVORINI KORREKSIYALASHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Autizm sindromiga chalingan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish metodikalari va ularning batafsil tahlili o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Autizm sindromi, korreksiya, metodika, sensor integratsiya, ABA metodikasi, TEACH metodikasi, predmetoterapiya.*

Усманова Нилуфар Ильхам кизи
Университет Альфраганус Специальная Педагогика: Логопедия Студент 2-го курса

МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ДЛЯ КОРРЕКЦИИ ПОВЕДЕНИЯ ДЕТЕЙ С АУТИЗМОМ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методики коррекционной работы с детьми, страдающими синдромом аутизма, а также проводится подробный анализ этих методов.*

Ключевые слова: *синдром аутизма, коррекция, методика, сенсорная интеграция, метод ABA, метод TEACCH, предметотерапия.*

Usmanova Nilufar Ilkhom kizi
Alfraganus University Special Pedagogy: Speech Therapy Stage 2 student

AUTISM METHODS USED IN THE CORRECTION OF CHILDREN'S BEHAVIOR

Abstract: *This article explores the methodologies of corrective work with children diagnosed with autism spectrum disorder, providing a detailed analysis of these methods.*

Keywords: *autism spectrum disorder, correction, methodology, sensory integration, ABA method, TEACCH method, object therapy.*

Kirish.

Amaliyotda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga, ayniqsa autizm sindromiga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan korreksion metodikalar ko'p emas. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan" bolaga nisbatan birlamchi yondashuvdan, shuningdek, falsafasiga ko'ra hamda pedagogik-uslubiy jihatdan farqlanuvchi 4 asosiy metodika mavjud. Bular TEACCH; ABA; Son-Rise;

Predmetoterapiya (sensor integratsiya va rag'bat).

Quyida bu metodikalarga ta'rif beramiz va ularning kuchli hamda kuchsiz tomonlari nimalardan iborat ekanligini ko'rib chiqamiz.

TEACCH (Teaching children with Autism to Mind-Read) - Autistik belgilariga ega bo'lgan va rivojlanishda orqada qoluvchi bolalarni qo'llab-quvvatlashning asoslari (TEACCH) 1970-yillarda doktor Eric Schopler tomonidan ishlab chiqilgan edi. Dastlab mazkur metodika mutaxassislar va rivojlanishida shunday xususiyatlari mavjud bo'lgan bolalarning ota-onalari uchun mashg'ulotlar va tavsiyalar to'plamidan iborat edi. Ushbu metodika AQShning Shimoliy Karolina Universitetida faol rivojlanib, bugungi kunda undan Belgiya, Daniya va AQShning ba'zi shtatlarida autistik belgilar mavjud bo'lgan bolalarni o'qitishning davlat dasturi sifatida keng foydalanilmoqda. Bu metodika o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligini, korrektsion pedagogning oila hamda bolani nazorat qilib borayotgan shifokor bilan hamkorligini talab qiladi. Mazkur metodikaning zamonaviy ko'rinishi rivojlanishida umumiy buzilishlar bo'lgan turli bolalarga, ayniqsa, autizm, aqli zaiflik, shuningdek, nutqiy rivojlanishda orqada qolishga olib keluvchi kasalliklarga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan. Ko'p yillar mobaynida TEACCH metodikasi doirasida maxsus tadqiqotchilik uslublari va bolalar rivojlanishning individual dasturlarini yaratishning maxsus tamoyillari ishlab chiqildi. Bu yerda so'z quyidagi uch asosiy tamoyillar haqida ketmoqda: Psixologik rivojlanishga mo'ljallangan tadqiqotlar bola rivojlanishining turli funksional sohalaridagi kamchiliklari va qobiliyatlarini qamrab oladi. Mazkur tadqiqot bola

rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqish uchun asos sifatida xizmat qilib, bolaning korreksiyalashning qisqa hamda uzoq muddatli maqsadlariga erishish imkoniyatini ta'minlaydi. Har bir bolaga maxsus moslashtirilgan, mashq qilishga asoslangan topshiriqlardan iborat bo‘lgan rivojlanishning individual rivojlantiruvchi dasturlari u bilan ishlashning asosiy yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Metodikaning maqsadi: rivojlanishida buzilishlar bo‘lgan bolalarda quyidagi sohalar bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish:

Imitatsiya;
Idrok;
Yirik motorika;
Mayda motorika;
Qo‘llar va ko‘z koordinatsiyasi;
Elementar bilish faoliyati;
Nutq;
O‘z-o‘ziga xizmat qilish;
Ijtimoiy munosabatlar.

Umuman olganda, mazkur metodikaga binoan bolaning individual rivojlanish dasturi 3 qismga: emotsiyalar va ularning sabablarini tushunish,ma'lumotlarni olish mexanizmlarini tushunish hamda o‘yinga bo‘linadi. Dastur har bir qismi mashg‘ulotlar va stimulyativ materiallar to‘plamidan iborat bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Emotsiyalarni va ularning yuzaga kelishi sabablarini tushunish ko‘nikmasining shakllanishi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich — tayyorlov bosqichi bo‘lib, bunda bola rasm va piktogrammalardagi asosiy emotsiyalarni (quvonch, g‘am, ...). Qo‘rquv, jahllanish kabi emotsiyalarni farqlab ayta olishni o‘rganishi lozim;

Keyingi bosqichda bolalarga ularda turli emotsiyalarni uyg‘otuvchi sxematik tarzda ifodalangan hayotiy voqealar taklif etiladi. Bola u yoki bu vaziyat qanday emotsiyalarni uyg‘otishi mumkinligini o‘zlashtirishi kerak;

Uchinchi bosqich — o‘z istak va xohishi bilan shartlangan emotsiyalarni tushuna olish ko‘nikmasining shakllanishi;

So‘nggi bosqich — emotsiyalarni tushunish. Mashg‘ulotlarni bajarish uchun odatda har doim uyda va maktabda bo‘lishi mumkin bo‘lgan predmetlardan foydalaniladi.

Bunday materiallar to‘plami orqali bir yo‘la ikki maqsadga erishiladi. Egallangan ko‘nikmalarning yangi sharoitga ko‘chirilishi (maktabdan uyga yoki aksincha); qo‘llaniladigan materialning arzonligi. Korreksion mashg‘ulotlar o‘z ichiga bolaning uzoq muddat davomida moslashuvini va pedagog bilan aloqa o‘rnatilishini talab etadi. Aloqa o‘rnatilishining birlamchi yo‘llarini izlash uchun bir oydan ikki yilgacha vaqt ketishi mumkin. Buning uchun pedagog dastlab imkon qadar o‘yin tarzidagi va sensor qo‘zg‘atuvchilardan foydalanadi. Mashg‘ulotlar qum, arqonchalar bilan, ikki tomoni ochiq uzun yo‘lakcha.

ABA (xulq-atvorni modifikatsiyalash metodikasi). Doktor Ivar Lovaas va uning Kaliforniya universitetidagi shogirdlari 1963-yildan boshlab bolalar bilan xulq-atvorga asoslangan metodikalarni qo‘llaydilar. Mazkur usulning vazifasi ikkita: Bolada o‘qish istagini uyg‘otish Unda ta’lim olish imkoniyatiga ega ekanligi tushunchasini shakllantirishga yordam berishdan iborat. “Stimul – reaksiya – natija” klassik modeli bolada u yoki bu ko‘nikmani o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kichik-kichik bosqichlarga bo‘lib shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu bosqichlardan har biri bola tomonidan to‘liq o‘zlashtirib olingach, keyingi bosqichga o‘tiladi. Kutilgan xulq-atvorga erishish uchun qo‘shimcha eslatmalardan, ham ijobiy, ham salbiy mazmundagi rag‘batlardan (maqtov, dakki, hayfsan va hokazo) foydalanish mumkin. Mazkur metodika har bir xulq-atvordan so‘ng biror-bir oqibat sodir bo‘ladi degan g‘oyaga asoslangan bo‘lib, agar bola natijani yoqtirsa — uni takrorlaydi, aks holda — takrorlamaydi. Ushbu yondashuvda barcha murakkab harakatlar — nutq, ijodiy o‘yin, ko‘zga qarashni o‘rganish va boshqa shu kabi ko‘nikmalar mayda qismlarga — harakatlarga bo‘lib bajariladi. Har bir bola uchun bosqichma-bosqich rivojlanishining individual rejasi tuziladi. Bola bir vaqtning o‘zida bir-biriga aloqador bo‘lmagan 2-3 ta ko‘nikmani o‘zlashtirishi mumkin, biroq pedagog tomonidan yangi ko‘nikmalarning murakkablashtirilgan va bosqichma-bosqich o‘zlashtiriladigan tizimi o‘rnatib boriladi.

ABAning yakuniy maqsadi — bolani atrof-muhitni mustaqil ravishda o‘zlashtirish imkonini beruvchi vosita bilan qurollantirishdan iborat. Agar bola bilan bir hafta mobaynida 30-40 soat davomida ushbu metodika asosida shug‘ullanib borilsa, ko‘proq natijaga erishish mumkin (ta’kidlash joizki, xuddi shuncha vaqt davomida bola bilan ushbu metodika asosida shug‘ullanilmasa, bu qadar natijaga erishilmasligi tajribada isbotlangan). Bundan tashqari, ideal variantda mazkur mashg‘ulotlarni bola 6 yoshga to‘lguniga qadar boshlash maqsadga muvofiqdir

ABA metodikasi yoshi kattaroq bolalar bilan qo‘llanilganda ham natija beradi, lekin qancha erta boshlansa, shuncha yuqoriroq natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Ota-onalar, odatda, kuch va imkoniyati bo‘lganda ham, bola bilan yillar mobaynida har hafta 4 soat davomida muntazam shug‘ullana olmaydilar.

Odatda ABAning uy sharoitida amalga oshiriladigan dasturi ota-onalar kuch va imkoniyati bilan tashkil etiladi, shuningdek, mazkur metodikadan foydalanish bo‘yicha mutaxassislikka ega bo‘lgan defektolog bilan albatta mashg‘ulotlar ham olib borilishi lozim.

Chet mamlakatlarda ABA tizimi bo‘yicha mashg‘ulotlar quyidagicha amalga oshiriladi: turlicha yo‘nalishdagi bir necha mutaxassislar: xulq-atvor ko‘nikmalarini korreksiya qilish malakasiga ega bo‘lgan

defektolog, musiqa terapevti, art-terapevt va boshqa shu kabi mutaxassislar ishlaydi, nazoratni esa supervizor — metodika bo‘yicha mutaxassis amalga oshiradi.

Mutaxassislar ketma-ketlikda 2–3 soat davomida bola bilan ishlaydilar (bu vaqt davomida 5–6 ta dastur amalga oshiriladi), kun davomida esa bola bilan ketma-ket ikki-uch nafar mutaxassis shug‘ullanishi mumkin, shu tariqa bola bir kun davomida 5–6 soat mashg‘ul bo‘ladi.

ABA tizimi doirasida ishning deyarli barcha usullarini — o‘qishdan tortib Zaytsev tizimi, qo‘g‘irchoq terapiyasidan tortib Montessorining stimulyator materiallarigacha faol qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Shunga alohida e’tibor qaratish lozimki, ABA metodikasi istalgan yo‘l bilan, bolaning imkoniyati darajasida muloqot o‘rnatilishiga erishilishini talab etadi. ABA metodikasi maqtov va jazoning qo‘llanishida aniqlikka rioya etilishini talab qiladi. Bunda jazolar biroz jiddiy, hattoki jismoniy jazoning qo‘llanilishi bilan ham kechishi mumkin. Masalan, agar bola pedagogga nisbatan tajovuzkor munosabatda bo‘layotgan bo‘lsa, pedagog bolani urib qo‘yishining oldini olish uchun qo‘lini ushlab qolishi kerak. Ota-onalar bilan o‘zaro kelishilgan holda jazoning hamda jismoniy ta’sirning turli usullarini qo‘llash ham mumkin.

ABA metodikasining kuchli tomonlari:

Metodika tezlikda va yaqqol ifodalangan natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Bunda bola natijani istalgan vaziyatda har qanday insonlar oldida ham ko‘rsata olishi mumkin. Asoschisi I. Lovaasning natijalarga ko‘ra, ABA metodikasi bo‘yicha korrektsion mashg‘ulotlarda ishtirok etgan bolalarning deyarli yarimi umumta’lim maktabida ta’lim olishi mumkin. ABA metodikasi bo‘yicha korrektsion muolajalarni olgan 90% bolalar o‘z holatlarini yaxshilashlari mumkin.

ABA metodikasining zaif tomonlari:

Agar bola boshqa insonlardan qo‘rqadigan bo‘lsa, mazkur metodika korreksion mashg‘ulotlarning dastlabki bosqichlarida yaxshi natija bermasligi mumkin. Biroq bola o‘z oilasiga nisbatan hissiy bog‘langan bo‘ladi. Agar u ijtimoiy moslashishi mumkin bo‘lib, bolalar bilan oson va erkin munosabatga kirisha oladigan bo‘lsa, mazkur jiddiy talablar bilan metodikani cheklangan holda (masalan, faqat nutqni rivojlantirish uchun) qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu metodika bolaning qandaydir yaqin qarindoshi bilan to‘liq kelishib, munosabat o‘rnatishini talab etadi. Metodika nisbatan qattiq intizom, rag‘bat va jazo tizimini nazarda tutgani sababli, ba’zi holatlarda ota-onalar bu jarayonni "dressirovka" deb qarashlari mumkin. Holding-terapiya: Oila psixoterapiyasi, odatda, bir vaqtning o‘zida oilaning barcha a’zolariga psixologik yordam ko‘rsatilishini, oila munosabatlarini tartibga solishni talab etadi. Bunday yordamni, ayniqsa, bolada dizontogenezning og‘ir shakli, bolalik autizmi kabi tashxislar bo‘lsa, amalga oshirish juda murakkab bo‘ladi. Mazkur holatlarda nafaqat oila munosabatlarini tartibga solish, balki bolaning ruhiy rivojlanishiga erishish imkonini beruvchi maxsus usullardan foydalanish talab qilinadi. Ana shunday maqsadlar uchun amerikalik psixiatr M. Velch (M. Welch, 1988) tomonidan ishlab chiqilgan va jahon psixologiyasi amaliyotida moslashtirilgan (P. Elmhirst, 1986; I. Prekopp, 1983; M. Zappella, 1983; J. Richer, 1992; M.M. Libling, 2000) holding-terapiya metodikasi qo‘llaniladi. Holding jarayoni davomida ota-ona bolaning qarshiligiga qaramay, uni qattiq ushlab turadi — bola to‘liq bo‘shashib, ijobiy emosional muloqot ehtimoli yuzaga kelguniga qadar. Ota-ona bola bilan o‘z his-tuyg‘ularini bo‘lishib, yechilishi kerak bo‘lgan muammoni tushuntiradi va undan qarshilik qilmasligini so‘raydi. Ular bolaga ota-onasi bilan hamjihat bo‘lishning uning o‘zi uchun qancha muhim ekanini anglatishga harakat qiladilar. Shuning uchun holdingning mohiyati – bolaning nafaqat jismonan, balki emotsional ravishda ushlab turishdan iborat. Olingan natijalarga ko‘ra, holding-terapiya davomida autik bolaning, xuddi me’yordagi ontogenezdagi go‘daklik va ilk rivojlanish bosqichlaridagidek, onasiga nisbatan hissiy bog‘lanishiga erishiladi.

Son-Rise metodikasi (yoki “Son-Rise dasturi”) autizmga ega bo‘lgan bolalarga yordam berishga mo‘ljallangan. Ushbu dastur 30 yil avval er-xotin Barri va Samariya Kaufman tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning farzandi ham autizm tashxisiga ega bo‘lgan.

O‘ta qo‘rqoq va sezgir bolalar uchun aynan ushbu metodika kattalarning asta-sekin va ehtiyotkorlik bilan bola hayotiga qo‘shilishi hisobiga pedagog bilan munosabat o‘rnatish imkonini beradi. Chunki muloqot o‘rnatish qobiliyati har qanday ta’lim jarayonining asosi hisoblanadi.

Son-Rise metodikasining asosiy tamoyili – bolaga nisbatan hurmat va chuqur g‘amxo‘rlik ko‘rsatish orqali unda ta’lim olishga ichki motivatsiyani uyg‘otishdir. Shu sababli, ta’limning dastlabki bosqichlaridanoq pedagog bolani qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishi, unga muhabbatini namoyon qilishi lozim. Bu har qanday ta’limiy mashg‘ulotning ajralmas qismidir.

Metodikaning kuchli tomonlari:

Bolaning avtostimulyativ harakatlarini (masalan, predmetlarni bir qatorda terib chiqish kabi) inkor qilmasdan, aynan shu harakatlar orqali unga yetib borish;

Ko‘z aloqasi, ijtimoiy rivojlanishni kuchaytirish va boshqalarni bola o‘yiniga qo‘shish imkoniyatini oshirish;

Bolaning shaxsiy motivatsiyasiga tayanib ta’lim samaradorligini oshirish.

Ushbu metodikaning yana bir muhim jihati — ijtimoiy yo‘naltirilganligi. U nafaqat pedagogni, balki bolaning yaqinlari va maxsus o‘qitilgan mutaxassislarni ham faol muloqotga jalb etishni nazarda tutadi. Bu jarayonda bola hattoki bir soniyaga ham nazoratdan chetda qolmasligi kerak. Kattalar doimiy ravishda uning faoliyatiga jalb etib borishlari zarur:

Metodikaning ojiz tomonlari:

Bola uchun ijtimoiy muhitni yaratish lozim. Unda yangi koʻnikmaga qiziqish uygʻotish uchun tanlash imkoniyati qolmaydi — uning koʻz oldida faqatgina rivojlantirilishi lozim boʻlgan koʻnikma uchun zarur boʻlgan predmet (stimulus materiali)gina turishi lozim. Biroq, ta'lim muhitida xalal beruvchi ta'sirlarning mavjud emasligi koʻnikmani shakllantirish jarayonini murakkablashtiradi.

Mazkur metodika muloqotga qanday kirishish lozimligi boʻyicha notoʻgʻri xulq namunalarini berib, uning ijtimoiylashuvini kechiktiradi. Bola har doim muloqotning ikkinchi ishtirokchisi tomonidan tashabbus kutadi.

Sensor integratsiya va ragʻbatlantirish (SIR) metodikasi - (yoki: Predmetli terapiya): Sensor integratsiya va ragʻbatlantirish metodikasi Kaliforniya universitetining mehnat terapiyasi boʻyicha mutaxassisi Jean Ayres tomonidan ishlab chiqilgan. U nevrologik buzilishlarga ega boʻlgan bolalar va katta yoshlilar bilan ishlagan. Rossiyada esa bu metodika nimagadir "predmetoterapiya" deb ataladi.

Mazkur metodika asosidagi ragʻbatlantiruvchi mashgʻulotlar kuniga 2-3 marta oʻtkaziladi, ularning mazmuni esa 3-4 oyda bir marta qayta koʻrib chiqiladi. Mashqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilib, yangi turdagi qoʻzgʻatuvchilar kiritilib boriladi. Ma'lum muvaffaqiyatlarga erishilganda esa kognitiv trening elementlari qoʻshiladi.

Bu metodika quyidagi holatlardagi bolalar bilan ishlashda samarali:

Daun sindromi;

Nutqiy rivojlanishda orqada qolganlar (NROK);

Bola serebral falaji (BCF);

Autizm sindromi.

Autizmga ega boʻlgan bolalar odatda juda sezgir yoki e'tiborsiz boʻlishadi, shuningdek, oʻz tuygʻularini integratsiya qila olmaydilar.

Metodikaning kuchli tomonlari:

Metodika tarafdorlarining fikricha, bola sekin-asta sensor ta'sirlarni tushunishni oʻrganadi va har safar yangi bosqichlarga moslashishga odatlanadi. Faqatgina ushbu metodika eng ogʻir va koʻp sonli psixik muammolarga ega, aqliy rivojlanishdan ogʻir orqada qolgan bolalar bilan ishlashda ham foydali hisoblanadi.

…lariga chalingan, bosh miyadan ogʻir jarohatlangan bolalar bilan korreksion ishlarning dastlabki bosqichlarida qulaydir.

Metodikaning ojiz tomonlari:

Sensor interpretatsiya sohasi, birinchidan, bu mehnat terapevtlari tomonidan qoʻllaniladigan davolash usulidir. Shu sababli, ota-onalar mazkur metodikani faqat maxsus tahsil olganlaridan soʻng hamda metodikani qoʻllash boʻyicha mutaxassisning NAZORATI OSTIDAGINA uni farzandlariga nisbatan qoʻllashlariga ruxsat berilishi mumkin.

Rossiya defektologiyasi sohasida bolalik davri autizmini tuzatish boʻyicha toʻliq nazariy va amaliy yondashuv ishlab chiqilgan (K.S. Lebedinskaya, O.S. Nikol'skaya, 1991; O.S. Nikol'skaya, Ye.R. Bayenskaya, M.M. Libling, 1997). Autizmli bola va uning oila a'zolariga psixologik korrektsion yordam berish tizimining asosi — sindromning umumiy strukturasida affektiv soha rivojlanishining birlamchi buzilishi gʻoyasiga asoslanadi (O.S. Nikol'skaya, 1985, 1999). EBA bolalar bilan K.S. Lebedinskaya yondashuvi (usuli) asosida korrektsion ish olib boriladi.

Xulosa.

Rivojlanishida turli kamchiliklari boʻlgan, jumladan, autizm va kompleks kamchiliklarga ega bolalarning soni tobora ortib bormoqda. Bu holat bolalarni nafaqat maktabgacha davrda, balki butun ta'lim-tarbiya jarayonida ham kuzatib borish zaruratini keltirib chiqaradi hamda har bir alohida holat uchun korrektsion ta'sir koʻrsatish mikro-dasturini belgilashni talab qiladi. Shunday qilib, dunyoda autizmni tuzatishning koʻpgina usullari mavjud. Har bir metodikani qoʻllashdan avval bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda metodika amalda qoʻllanadi va har bir metodikaning avzalliklari kamchiliklari koʻrib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Актуальные проблемы диагностики задержки психического развития детей. - Москва: Педагогика, 1991
2. Autizm sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari – Moʻminova L.R. Toshkent 2015.
3. Актуальные проблемы нейропсихологии детского возраста. Учебное пособие. / Под. ред. Л.С. Цветковой. - Москва: Издательство НПО «МОДЭК», 2001.
4. Атлас для экспериментальных исследований отклонений в психической деятельности человека. / Под. ред. проф. Полищука Н.А. и доц. Видренко А.Е. 1980.
5. Блейхер В.М., Крук И.В., Боков С.Н. Практическая патопсихология.
6. Руководство для врачей и медицинских психологов. - Ростов-на-Дону: Феникс, 1996.
7. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. -М.: Речь, 2000.
8. Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словарь-справочник по психологической диагностике. - СПБ.: Питер, 2004.
9. Бурлачук Л. Психодиагностика - СПБ.: Питер, 2002.
10. Возрастно-психологическое консультирование. Проблемы психического развития детей. - М.: Издательство МГУ, 1990.

11. Возрастно-психологический подход в консультировании детей и подростков. / Под. ред. Г.В. Бурменская, Е.И. Захарова. - М.: Академия, 2002.
12. Выготский Л.С. Проблемы развития психики. - Москва: Педагогика, 1983.
13. Забрамная С.Д. Наглядный материал для психолого-педагогического обследования детей в медико-психологических комиссиях. - Киев. Радянська школа, 1988.
14. Кравцова Е.Е. Психологические проблемы готовности детей к обучению в школе. - Москва: Педагогика, 1991.
15. Лаак Я. Психодиагностика: проблемы содержания и методов. - Москва: Институт практической психологии, 1996.
16. Мамайчук И.И. Психологическая помощь детям с проблемами в развитии. - СПБ.: Речь, 2001.
17. Никольская О.Н., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребёнок: пути помощи. - М.: Теревинф, 2000.
18. Новые исследования в психологии и возрастной физиологии. — Москва: Педагогика, 1982.
19. Ньюкомб Нора. Развитие личности ребенка. - СПБ.: Питер, 2003.
20. Основы специальной психологии. Учебное пособие. / Под. ред. Л.В.Кузнецовой. - Москва: Академия, 2002.
21. Поваляева М.А. Коррекционная педагогика. Взаимодействие специалистов. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2002.
22. Практикум по патопсихологии. / Под. редакцией Зейгарник Б.В. — Москва: Издательство МГУ, 1987.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xolida Zahir Sadat
Xalqaro Nordik universiteti magistranti

FINLANDIYA BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI BOSHQARUV SOHASINI O'RGANISH VA UNI MILLIY TA'LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Finlyandiya boshlang'ich ta'lim tizimining boshqaruv sohasini o'rganish va uning milliy ta'lim jarayoniga tadbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Finlyandiya ta'lim modeli dunyoda eng samarali tizimlardan biri sifatida e'tirof etilib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'qituvchilarga erkinlik berish va ta'lim sifatini doimiy ravishda oshirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Maqolada ushbu tizimning boshqaruv tamoyillari, pedagogik yondashuvlari va ularning O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi muhokama qilinadi. Shuningdek, Finlyandiya tajribasidan samarali foydalanish usullari, shu jumladan, ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va baholash tizimini takomillashtirish kabi jihatlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim siyosatini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, milliy ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim tizimi, boshlang'ich ta'lim, ta'limni boshqarish, Finlandiya ta'limi, innovatsion ta'lim, pedagogika, o'qituvchi tayyorgarligi, baholash tizimi, milliy ta'lim tizimi, ta'lim islohoti, qiyosiy tahlil, kvalitatif metodlar.*

Холида Захир Садат
Магистрант международного скандинавского университета

ФИНСКАЯ СИСТЕМА НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ-ЭТО ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИЗУЧЕНИЯ ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ И ЕЕ ПРИМЕНЕНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности управления системой начального образования Финляндии и возможности её адаптации к национальному образовательному процессу. Финская модель образования признана одной из самых эффективных в мире благодаря акценту на развитие самостоятельного мышления учащихся, предоставлению свободы учителям и постоянному повышению качества образования. В статье обсуждаются принципы управления, педагогические подходы и их интеграция в систему образования Узбекистана. Также освещаются такие аспекты, как индивидуализация образовательного процесса, поддержка профессионального развития учителей и совершенствование системы оценки. Результаты исследования представляют практическую ценность для формирования образовательной политики и могут способствовать повышению качества национальной системы образования.*

Ключевые слова: *система образования, начальное образование, управление образованием, финское образование, инновационное обучение, педагогика, подготовка учителей, система оценки, национальная система образования, образовательная реформа, сравнительный анализ, качественные методы.*

Khalida Zahir Sadat
Master of international Nordic University

FINNISH PRIMARY EDUCATION SYSTEM EFFECTIVE WAYS TO STUDY THE FIELD OF MANAGEMENT AND IMPLEMENT IT IN THE NATIONAL EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: *This article analyzes the management aspects of Finland's primary education system and examines the possibilities of applying its principles to the national educational process. Recognized as one of the most effective systems globally, the Finnish education model is distinguished by its focus on developing students' independent thinking, granting autonomy to teachers, and continuously improving educational quality. The paper discusses the management principles, pedagogical approaches, and their integration into Uzbekistan's education system. It also highlights effective practices from Finland, such as individualizing the learning process, supporting teachers' professional development, and improving assessment systems. The study's findings have practical implications for shaping education policy and enhancing the quality of the national education system.*

Keywords: *education system, primary education, education management, Finnish education, innovative learning, pedagogy, teacher training, assessment system, national education system, education reform, comparative analysis, qualitative methods.*

Kirish.

Jahonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ta’lim sifatiga bevosita bog‘liq. Dunyoning ta’limda yetakchi mamlakatlari orasida Finlandiya ta’lim tizimi o‘zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu tizimning muvaffaqiyat kaliti sifatida ta’limni markazlashmagan boshqaruv modeli, yuqori malakali pedagogik kadrlar va o‘quvchilarga individual yondashuv ko‘rsatib o‘tiladi. Finlandiya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va uni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Finlandiya boshlang‘ich ta’lim tizimi butun dunyo bo‘ylab yuqori natijalarga erishgani, innovatsion yondashuvlari va samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqola Finlandiya boshlang‘ich ta’lim tizimini boshqarish tamoyillarini o‘rganish va uni milliy ta’lim jarayoniga tatbiq etish usullarini aniqlashga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston ta’lim tizimi ham zamonaviy talablar asosida rivojlanib borayotgan bir sharoitda, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Finlandiya modeli o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, o‘quvchilarga individual yondashuvni joriy etish, baholash tizimini insonparvarlik tamoyillari asosida qayta ko‘rib chiqish va ta’limni boshqarish tizimini yanada rivojlantirish kabi jihatlari bilan e’tiborga loyiq.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u Finlandiya tajribasining asosiy jihatlarini tahlil qilib, milliy ta’lim tizimining sifatini oshirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqola ta’lim boshqaruvi, pedagoglar tayyorgarligi va baholash tizimini isloh qilish bo‘yicha aniq takliflarni ilgari surib, milliy ta’limni yanada rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Fin tajribasini o‘rganish hozirgi dolzarb muammolardan biridir. Ilkka Taypale Finlandiyaning ijtimoiy innovatsiyalari va ularning ta'lim tizimidagi ahamiyatini o‘rgangan olim. U o‘zining "Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi" nomli ilmiy tahliliy asarida ta'limdagi innovatsiyalar va ijtimoiy o‘zgarishlarning ta'lim tizimiga qanday ta'sir ko‘rsatishini batafsil tahlil qilgan.Taypale ta'limda faqat akademik yutuqlar emas, balki ijtimoiy integratsiya, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyatning ham ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, Finlandiyada ta'lim tizimi faqat o‘quvchilarni yuksak bilim olishga qaratilmay, balki ularni jamiyatga faol va mas'uliyatli shaxs sifatida tayyorlashga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Taypale o‘z asarida ijtimoiy innovatsiyalarni va ta'lim sohasidagi ilg‘or yondoshuvlarni o‘rganadi, ya'ni nafaqat o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlarini, balki ularning jamiyatdagi o‘rni va roli qanday shakllanishini ham tahlil qilgan. U mazkur asarida nafaqat nazariy yondoshuvlarni, balki Finlandiyadagi mavjud tizimni amaliyotga tatbiq etishni ham ko‘rsatadi. U o‘quvchilarni shaxsiy rivojlanishlari va jamiyatga moslashishlari uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatadi.

Rossiyalik yozuvchi, muallif va ta'lim tizimi bo‘yicha ekspert Grigoriy Petrov ham o‘zining "Oq nilufarlar yurtida" asarida Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatini va bu tizimning jamiyatdagi rolini o‘rganish ta’limdagi islohatlar uchun muhim zaruriyat ekanligini ko‘rsatadi. Petrov Finlandiyadagi ta'lim tizimini millatning uyg‘onishi va rivojlanishining asosiy omili sifatida deb hisoblaydi. U o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, ta'limning ijtimoiy jihatlari hamda madaniyatning ta'limga ta'sirini alohida ta'kidlaydi.

Xelsinkidagi maktablarning birida ikki yil davomida pedagogik faoliyatda bo‘lgan va ishlagan amerikalik o‘qituvchi Timoti Uoker Finlandiya maktablarining muvaffaqiyatini o‘zining "Fin maktablari haqidagi tajribalar" nomli asari orqali keng ommaga tanishtiradi va o‘z tajribalarini ham mazkur kitob orqali bo‘lishadi. Uokerning fikriga ko‘ra, Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati o‘quvchilarni quvonch bilan o‘qitish va hayot bilan bog‘liq amaliyotlarga asoslangan. U, qisqa o‘quv kuni, yengil uy vazifalari va kam standartlashtirilgan testlarni ta'lim tizimining samarali tarkibiy qismlari deb hisoblaydi.

Uokerning asosiy yondoshuvi amaliyotga asoslangan va o‘quvchilarning hayotga tayyorlanishini ta'minlaydi. U o‘quvchilarga ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga urg‘u beradi. U Finlandiya maktablarida ishlash orqali, o‘z tajribasini nafaqat metodologik nuqtai nazardan, balki o‘quvchilar bilan aniq maqsadga qaratilgan munosabatlarni o‘rganish orqali yoritadi. Bu tajribalar unga o‘quvchilarga ixtiyoriy erkinlik berish va ularning mustaqilligini rivojlantirishda qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

Xelsinkidagi maktabda ikki yil ishlagan amerikalik o‘qituvchi Timoti Uoker fin maktablaridagi muvaffaqiyatning zamirida juda oddiy tamoyil – o‘quv jarayonlarida quvonch mavjudligini taʼkidlaydi. Qisqa o‘quv kuni, yengil uy vazifalari va kam standartlashtirilgan testlar – bu faqat samarali taʼlim tizimining tashqi jihatlari, xolos. Uoker o‘z kitobida fin taʼlim tizimi qanday tashkil etilgani, nima uchun o‘quvchilar bilan ularning baholarini muhokama qilish kerakligi, bolalarga ixtiyor erkinligini berish va ular bilan birgalikda kunni rejalashtirish o‘g‘il-qizning mustaqil bo‘lishiga qanday yordam berishi, devorlardagi ko‘rgazmali materiallarning haddan ziyod ko‘pligi o‘zlashtirishning pasayishiga olib kelishi, nega tanaffus chog‘ida o‘qituvchi bolalar bilan birga o‘ynashi muhimligi kabi masalalar haqida hikoya qiladi. Ushbu

kitobda muallif o‘zbek maktablarida ham qo‘llasa bo‘ladigan 33 ta strategiyani taklif etadi.

O‘rganilgan ma'lumotlar asosida: Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati bir necha asosiy tamoyillar bilan bog‘liqdir. Ular: o‘quvchilarga erkinlik berish, hayotga tayyorlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy integratsiya va jamiyatga moslashish. Bu tamoyillar, nafaqat o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi, balki ularni jamiyatning faol va to‘laqonli shaxslariga aylantiradi. Petrov, Taypale va Uokerning asarlari Finlandiya ta'lim tizimini o‘rganish orqali, nafaqat pedagogik metodlarni, balki ularning jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy rolini ham tahlil qiladi. Ularning tajribalari, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishda, ta'limni haqiqiy hayot bilan bog‘lashda va ijtimoiy mas'uliyatni o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Ilkka Taypale, Grigoriy Petrov va Timoti Uokerning o‘rganish darajasi va ulardan olingan bilimlar, Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek maktablarida ham quvonch bilan o‘qitish, hayotga tayyorlash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish kabi metodlar muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, ularning fikrlarini amaliyotga tatbiq etish o‘quvchilarga yuqori darajadagi mustaqillik va ijtimoiy mas'uliyatni o‘rgatishning samarali yo‘llaridan biri bo‘lishi mumkin.

Dunyo bo‘ylab ta'lim tizimlarining muvaffaqiyatlarini va xatoliklarini o‘rgangan Pasi Sahlberg Finlandiya ta'lim tizimi asosidagi o‘rganish jarayonini o‘ziga xos yondoshuvlar orqali Finlandiya ta'lim tizimining tarixiy rivojlanishini tahlil qilgan. U Finlandiyaning ta'lim tizimini rivojlantirish uchun amalga oshirilgan islohotlarida o‘qituvchilarni tanlash va ularning malakalarini oshirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratadi. Chunki muvaffaqiyatli ta’lim tizimi asosan o‘quvchilarni undaydigan o‘qituvchiga bog‘liq.

Sahlberg, boshqa mamlakatlar tajribasidan ham foydalanadi. Masalan, Shvetsiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari va ular o‘rtasidagi farqlarni solishtiradi. Asosan testlardan ko‘ra mustahkam asosga ega, o‘quvchilarga erkinlik va hamkorlikni rag‘batlantiradigan metodlarni tavsiya etadi. Finlandiya ta'limining asosiy prinsiplaridan biri – bu tenglikka asoslanishdir. Sahlberg adabiyotlar orqali bu prinsipning qanday amalga oshirilishini va uning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini tahlil qiladi.

Sahlberg o‘zining tadqiqotlarida, asosan, kvalitatif metodlardan foydalangan. Bu usul yordamida u o‘qituvchilarning tajribalarini, o‘quvchilarning shaxsiy o‘sishlarini va jamiyatdagi ta'limga bo‘lgan yondoshuvlarni chuqur tahlil qilgan. Kvalitatif metodlarni qo‘llash orqali u o‘quvchilarning rivojlanishiga ta'sir qiladigan omillarni aniqlashga harakat qiladi.

Kasbiy malakalar va tajriba almashish borasida esa u Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatini o‘qituvchilarni doimiy ravishda kasbiy rivojlantirishga, ularning malakalarini oshirishga bog‘laydi. Metodologik yondoshuv sifatida, o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashish va hamkorlikda ishlashlarini ko‘rsatadi.

Sahlberg, ko‘plab davlatlar ta'lim tizimlarida sinovlar va testlar asosiy e'tiborni jalb qilayotganini tanqid qiladi. Finlandiya ta'limi esa o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini boshqarishga, ularni stressdan holi qilishga asoslangan.

Pasi Sahlberg o‘quvchilarning ijtimoiy jihatdan teng va adolatli ta'lim olishlari uchun qanday qilib metodik o‘zgarishlar amalga oshirilganini misollar bilan ko‘rsatadi. Bu ta'lim tizimining har bir tarkibiy qismini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Pasi Sahlbergning "Finlandiya Ta'lim Mo‘jizasi" kitobi ta'lim sohasida keng qamrovli va chuqur ilmiy tahlilni o‘z ichiga oladi. Kitobda ta'lim tizimini o‘rganish uchun qo‘llanilgan zamonaviy yondoshuvlar, o‘rganilgan tajribalar va o‘rganilganlik darajasi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Finlandiya ta'lim tizimining asosiy jihatlari asosan ta'lim tizimining tengligi va inklyuzivligiga bog‘liq. Finlandiyada ta'lim tizimi barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratishga asoslangan. Maktablar bir xil sifatni taqdim etadi va davlat tomonidan boshqariladi. O‘quvchilarga maxsus ehtiyojlari bo‘lsa ham, barcha shart-sharoitlar taqdim etiladi.

O‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish borasida Finlandiya ta'lim tizimi juda qat'iy talablar belgilagan. O‘qituvchi bo‘lish uchun magistratura darajasi talab qilinadi va o‘qituvchilarni malaka oshirishlari doimiy ravishda davom etishi kerak. Shuningdek, o‘qituvchilarga katta ishonch qo‘yiladi, ular o‘z darslarini o‘zgartirish va yangi usullarni joriy qilishda erkinlikka ega.

Finlandiyada sinflar odatda kichikroq va darslar ko‘proq individual yondoshuvni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarga o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil ishlash imkoniyati beriladi. O‘qituvchilar ham o‘z metodlarini va dars materiallarini yaratishda katta erkinlikka ega.

Finlandiya ta'limi o‘quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Ta'lim jarayonida nafaqat chuqur bilimlar, balki shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalar ham rivojlantiriladi.

Sinovlarning kamligi va o‘qish jarayonining stresssizligi Finlandiya maktablarining muhim yutuqlaridan biri. Standartlashtirilgan testlar juda kam qo‘llaniladi. O‘quvchilarga bilimlarini rivojlantirish uchun ko‘p imkoniyatlar beriladi va bu jarayon o‘quvchilarni stressdan yiroq qiladi.

O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikda kuchli aloqalar mavjud. O‘qituvchilar o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasini diqqat bilan kuzatib boradilar va ta'lim jarayoniga jiddiy yondoshuvni ta'minlaydilar.

Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati va uning samarali boshqaruvi sohasida dunyo bo‘ylab juda ko‘p olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Pasi Sahlberg Finlandiya ta'lim tizimi bo‘yicha eng mashhur tadqiqotchilardan biri. Uning asarlari "Finnish

Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?" Finlandiya ta'lim tizimining asosiy jihatlari va uning muvaffaqiyatiga olib kelgan omillarni tahlil qiladi. Uning asosiy g‘oyalarida Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatini xalqaro ta'lim tizimlariga tatbiq etish mumkinligi ta'kidlanadi. Uning fikriga ko‘ra, ta'lim tizimi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi kerak.


Leena Helavaara ta'limni boshqarish va o‘qituvchilarning malaka oshirishiga oid tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlarida o‘qituvchilarning malakasi va bilimlarini boshqarishning ta'lim jarayonidagi o‘rni ko‘rsatilgan. Helavaara o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirishga undaydi, shuningdek, o‘qituvchilarni boshqarishda zamonaviy ma'lumotlarga asoslangan yondoshuvni qo‘llash zarurligini ta'kidlaydi.

Jari Lavonen Finlandiya ta'lim tizimining metodologik yondoshuvlarini o‘rganish va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Uning asosiy g‘oyasida ta'limni boshqarishda o‘quvchilarga amaliy bilimlar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga katta e'tibor berish zarurligi ta'kidlanadi.

Ta'limni boshqarish va o‘quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish metodlari bo‘yicha Tadqiqotchi Kari Uusikyla ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari, o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish va ularga moslashtirilgan ta'lim tizimini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Uusikyla o‘quvchilarga moslashtirilgan ta'lim tizimini yaratishda o‘qituvchilarga erkinlik berish va shaxsiylashtirilgan yondoshuvlarni qo‘llashni ta'kidlaydi.

Shuningdek boshqa ko‘plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida ham ta'lim boshqaruvi va ta'lim tizimining samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Ularning tadqiqotlari, o‘qituvchilarning o‘z ishlaridagi erkinliklari va ta'lim tizimining ochiqligi haqida bo‘lib, asosiy g‘oyalarida Finlandiya ta'lim tizimini nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy va madaniy integratsiya tizimi sifatida ko‘rsatiladi.

Finlandiya ta’limi tizimini milliy ta'lim tizimiga tadbiq etish yo‘llari



Finlandiya boshlang‘ich ta’lim tizimi, ta'limni boshqarishning markazlashmagan modeli, o‘qituvchilarning yuksak malakasi va innovatsion baholash tizimi bilan ajralib turadi. Bularning barchasi o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish, ularni ijtimoiy va shaxsiy mas'uliyatlarga tayyorlashga qaratilgan. O‘zbekistonda Finlandiya ta'lim tizimi tamoyillarini tatbiq etish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin. Tadqiqotlar asosida, o‘qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish, baholash tizimini yumshatish va ta'lim infratuzilmasini yaxshilash kerakligi ta'kidlanadi. Shuningdek, o‘quvchilarga mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatni o‘rgatish va sinflarda individual yondashuvni joriy etish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.



Natijalar.

Finlandiya ta’lim tizimining o‘ziga xos yondashuvlari milliy ta’lim jarayoniga tadbiq etilganda quyidagi ijobiy natijalar kuzatiladi:

- O‘quvchilarning faolligi ortadi. Kichik guruhlarda o‘qitish orqali har bir o‘quvchiga individual yondashuv ta’minlanadi. Bu esa ularning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ishtirokini kuchaytiradi.

- Stress darajasi kamayadi. Standartlashtirilgan sinovlarning kamaytirilishi o‘quvchilarda stressni pasaytiradi. Buning o‘rniga baholashning yumshoq va o‘quvchiga yo‘naltirilgan shakllari qo‘llaniladi.

- Mustaqil fikrlash rivojlanadi. O‘quvchilarga erkinlik berilishi ularning o‘z-o‘zini boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- Shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyat ortadi.Ta’limda ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalarga alohida e’tibor qaratilishi natijasida o‘quvchilarda ijtimoiy faoliyatga tayyorlik, hamkorlikda ishlash va mas’uliyat hissi shakllanadi.

- O‘qituvchilar ijodkorligi kuchayadi. O‘qituvchilarga ishonch bildirilishi va metodik erkinlik berilishi ularning dars jarayonida ijodiy yondashuvini rag‘batlantiradi, bu esa ta’lim sifati oshishiga olib keladi.

- Ota-onalar bilan hamkorlik yaxshilanadi. Finlandiya tajribasi asosida ota-onalar bilan uzviy aloqalar yo‘lga qo‘yilganda, o‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy holati yanada mustahkamlanadi.

- Ta’lim muhiti yanada qulaylashadi. Maktabda qulay va do‘stona muhit yaratish orqali o‘quvchilarda maktabga ijobiy munosabat paydo bo‘ladi, darslarga qatnashish faolligi ortadi.

Finlandiya ta'lim tizimining asosiy tamoyillari va ularning tavsifi

1-jadval

1	**Bepul va teng ta’lim**	Barcha bolalar uchun bepul ta’lim va teng imkoniyatlar yaratilgan.
2	**O‘qituvchilarning yuqori malakasi**	O‘qituvchilar magistr darajasiga ega va doimiy malaka oshiradilar.
3	**Kam test, ko‘proq ishonch**	O‘quvchilarga kamroq standart testlar, ko‘proq nazorat va ishonch asosida baholash.
4	**Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv**	Har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos individual ta’lim.
5	**Mustaqillik va kreativlikni qo‘llab-quvvatlash**	O‘quvchilarga mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlantiriladi.
6	**O‘qituvchiga ishonch**	Maktablar va o‘qituvchilarga katta erkinlik va ishonch beriladi.
7	**Stresssiz o‘rganish muhiti**	Darslar bosimi past, bolalar o‘qishni yoqtirib boradilar.
8	**Kichik sinflar va kam yuklama**	O‘quvchilar soni oz, darslar soni me’yorida bo‘lib, ortiqcha bosim yo‘q.

Finlandiya ta’lim tizimidagi muhim metodlar

METOD NOMI	ASOSIY XUSUSIYATI	KUTILGAN NATIJA
Kichik guruhlarda ta’lim	Sinfdagi o‘quvchilar soni kam, shaxsiy yondashuvga e’tibor beriladi	Har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos yondashuv, yuqori ishtirok darajasi
O‘quvchilar erkinligi	Dars jarayonida o‘quvchilarga qaror qabul qilish va tanlash imkoniyati beriladi	Mustaqil fikrlovchi, o‘zini boshqara oladigan shaxslar shakllanadi
Baholash (jarayonli)	Doimiy kuzatuv va izohli fikrlar asosida baholanadi	Zo‘riqish, bosim, qat’iy talab, stress yo‘q, rivojlantiruvchi baholash tizimi
O‘qituvchiga ishonch	O‘qituvchilar o‘z metodikasini mustaqil tanlaydi, ularga katta ishonch bildiriladi	Kasbiy motivatsiya oshadi, ijodiy yondashuvlar rivojlanadi
Fanlararo integratsiya	Turli fanlar o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatiladi	Har tomonlama fikrlash, hayotga yaqin yondashuv hosil bo‘ladi
Hissiy-irodaviy o‘rganish	O‘quvchilarning hissiyotlari, o‘zini anglash va boshqalar bilan munosabatiga e’tibor	Ruhan sog‘lom, ijtimoiy jihatdan faol o‘quvchilar yetishib chiqadi
Ota-onalar bilan yaqin hamkorlik	Maktab va uy muhitini uzviy bog‘lash	O‘quvchining o‘sishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatish
Qulay va zamonaviy ta’lim muhiti	Darslar ochiq, o‘quvchilarga qulay muhitda tashkil etiladi	O‘quvchilarda maktabga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo‘ladi

Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati, uning markazlashtirilmagan boshqaruvi, o‘qituvchilarni tanlash va tayyorlash jarayonlarining sifatiga, o‘qituvchilarga erkinlik va ishonch berishiga bog‘liq. Ushbu tamoyillar O‘zbekistonda ham qo‘llanilishi mumkin va bu ta'lim sifatini yanada oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning malakasini oshirish, baholash tizimini yumshatish va ta'lim infratuzilmasini yaxshilash zarur. Shuningdek, o‘quvchilarga mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatni o‘rgatish va sinflarda individual yondashuvni joriy etish, o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Muhokama.

Finlandiya ta'lim tizimi dunyo bo‘ylab o‘zining yuqori sifatli boshqaruvi va innovatsion yondoshuvlari bilan ajralib turadi. Uning muvaffaqiyati ko‘plab omillarga, jumladan, ta'limning markazlashmagan boshqaruvi, o‘qituvchilarni tanlash va tayyorlash jarayonlarining sifatiga, shuningdek, o‘qituvchilarga yuqori ishonch va erkinlik berilishiga bog‘liq. Finlandiya ta'lim tizimi, o‘zining eng yaxshi tajribalarini boshqa mamlakatlarga o‘rgatish imkoniyatlarini yaratib, global ta'lim tizimining rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Finlandiyada o‘qituvchilarni tayyorlashning yuqori darajasi ta'lim tizimining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. O‘qituvchilarga ta'lim sohasida magistratura darajasi talab qilinadi, bu esa o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilarning muntazam ravishda malaka oshirishi, ular uchun professional o‘sish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa o‘z

navbatida o‘quvchilarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarga ta'lim jarayonida mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyati beriladi, bu esa ta'limning sifatini oshiradi.

Finlandiya ta'lim tizimining yana bir muhim jihati – tenglikni ta'minlashdir. Barcha o‘quvchilarga bir xil ta'lim sifatini taqdim etishga harakat qilinadi. Bu yondoshuv ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biridir, chunki ta'limda tenglik, o‘quvchilarning ijtimoiy yoki iqtisodiy holatiga qaramay, har biriga bir xil imkoniyatlar yaratish orqali ta'minlanadi. O‘qituvchilar va ta'lim tashkilotlari o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olib, har biriga individual yondoshuvni amalga oshirishadi, bu esa o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshiradi.

Finlandiya ta'lim tizimida sinovlar va baholash tizimi kamroq standartlashtirilgan testlarga asoslanadi. Bu yondoshuv o‘quvchilarga yuksak stressni kamaytirish va o‘qish jarayonidan zavq olish imkoniyatini yaratadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘zaro baholashlari va doimiy ravishda nazorat qilishlari orqali ularning bilimlarini to‘g‘ri baholaydilar. Bu ta'limning sifatini oshiradi, chunki baholash faqatgina yakuniy sinovlarga emas, balki o‘quvchilarning kundalik faoliyatlari va rivojlanishiga ham e'tibor qaratiladi.

Finlandiya ta'lim tizimida innovatsion ta'lim yondoshuvlarining ahamiyati katta. O‘qituvchilar o‘quvchilarga nafaqat akademik bilimlar, balki hayotga tayyorlovchi ko‘nikmalarni ham o‘rgatadilar. O‘quvchilarga ijtimoiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini oshirish muhim hisoblanadi. Bu yondoshuv, o‘quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatlarini, balki ularning hayotga tayyorligini ham oshiradi.

Finlandiya ta'lim tizimida sinflar kichik bo‘lib, o‘qituvchilarga har bir o‘quvchiga individual e'tibor berish imkonini beradi. Bu metod sinfdagi har bir o‘quvchining ehtiyojlariga javob berishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqishadi. Shuningdek, bu metod o‘quvchilarning jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Finlandiya ta'lim tizimida ijtimoiy mas'uliyat va integratsiya ta'limning muhim jihatlari sifatida qaraladi. O‘quvchilarni jamiyatga moslashtirish va ularni mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalash uchun turli xil dasturlar mavjud. Bu o‘quvchilarning nafaqat bilim olishlarini, balki jamiyatda faol va mas'uliyatli ro‘l o‘ynashlarini ta'minlaydi. Ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish va jamiyatga integratsiya qilish orqali ta'lim tizimi o‘quvchilarga keng qamrovli bilimlarni beradi.Finlandiya ta'lim tizimining samarali boshqaruvi va innovatsion yondoshuvlari ta'lim tizimining muvaffaqiyatli bo‘lishiga katta hissa qo‘shmoqda. O‘qituvchilarni tayyorlash, ta'limda tenglik, innovatsion yondoshuvlar va individual yondashuv kabi omillar bu tizimning asosiy tarkibiy qismlaridir. Bu yondoshuvlar nafaqat o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishga, balki ularni hayotga tayyorlashga yordam beradi. Finlandiya ta'lim tizimining tajribasini o‘rganish va unga asoslanib o‘z ta'lim tizimini rivojlantirish mamlakatlar uchun muhimdir.Finlandiya ta'lim tizimida ijtimoiy mas'uliyat va integratsiya ta'limning muhim jihatlari sifatida qaraladi. O‘quvchilarni jamiyatga moslashtirish va ularni mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalash uchun turli xil dasturlar mavjud. Bu o‘quvchilarning nafaqat bilim olishlarini, balki jamiyatda faol va mas'uliyatli ro‘l o‘ynashlarini ta'minlaydi. Ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish va jamiyatga integratsiya qilish orqali ta'lim tizimi o‘quvchilarga keng qamrovli bilimlarni beradi. Finlandiya ta'lim tizimining samarali boshqaruvi va innovatsion yondoshuvlari ta'lim tizimining muvaffaqiyatli bo‘lishiga katta hissa qo‘shmoqda. O‘qituvchilarni tayyorlash, ta'limda tenglik, innovatsion yondoshuvlar va individual yondashuv kabi omillar bu tizimning asosiy tarkibiy qismlaridir. Bu yondoshuvlar nafaqat o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishga, balki ularni hayotga tayyorlashga yordam beradi. Finlandiya ta'lim tizimining tajribasini o‘rganish va unga asoslanib o‘z ta'lim tizimini rivojlantirish mamlakatlar uchun muhimdir.

Finlandiya ta'lim tizimi, o‘zining yuqori sifatli boshqaruvi va innovatsion yondoshuvlari bilan boshqa mamlakatlarga namuna bo‘lib, o‘z tajribasini dunyo bo‘ylab tarqatish imkoniyatlarini yaratmoqda. O‘qituvchilarni tayyorlash va kasbiy malakasini oshirish, ta'limda tenglik va inkluzivlikni ta'minlash, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tanqidiy yondoshuvini rivojlantirish - bu muvaffaqiyatli ta'lim tizimining asosiy elementlaridir.

Xulosa.

Finlyandiya boshlang‘ich ta’lim tizimi boshqaruv sohasini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifati, o‘qituvchilarning yuqori malakasi, ishonchga asoslangan boshqaruv va o‘quvchilarning individual rivojiga qaratilgan yondashuv bu tizimning asosiy ustunliklaridandir. Ushbu modelda markazlashtirilmagan boshqaruv, pedagogik erkinlik va maktablararo tenglikka alohida e’tibor qaratilishi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu ilg‘or tajribalarni milliy o‘ziga xoslikni inobatga olgan holda moslashtirish, xususan, o‘qituvchilarni doimiy rivojlantirish, maktab mustaqilligini kuchaytirish, ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlikni kengaytirish orqali boshlang‘ich ta’lim sifatini yanada yaxshilash mumkin. Finlyandiya tajribasining zamonaviy va innovatsion yondashuvlarini tadbiq etish orqali O‘zbekistonning milliy ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga zamin yaratish mumkin. Bu borada olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi takliv va tavsiyalar beriladi:

1. Finlyandiya tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham boshlang‘ich ta’lim muassasalari boshqaruvini markaziylashtirishni yumshatish, mahalliy darajadagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali maktab mustaqilligini kuchaytirish zarur.

2. O‘qituvchilar malakasini oshirishning innovatsion va zamonaviy shakllarini (onlayn platformalar, xalqaro tajriba almashinuvi, amaliy seminarlar) joriy etish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish kerak.

3. Dars jarayonida o‘qituvchilarga o‘quv dasturlarini moslashuvchan qo‘llash, kreativ metodlardan foydalanish imkonini berish, ularning mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini oshirish tavsiya etiladi.

4. Ta’lim jarayonida ota-onalar, mahalliy jamoa va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish zarur.

5. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos rivojlanish darajasi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlarini keng joriy etish tavsiya etiladi.

6. Maktablar o‘rtasida infratuzilma, texnologiyalar va kadrlar taqsimotida tenglikni ta’minlash orqali barcha o‘quvchilarga sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Taypale, I. (2015). *Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi*. Finlandiyaning ta'lim tizimi va ijtimoiy o‘zgarishlarga oid tahlil.

2. Petrov, G. (2017). *Oq nilufarlar yurtida*. Rossiyalik yozuvchi va ta'lim tizimi bo‘yicha ekspert, Finlandiya ta'lim tizimini o‘rganish.

3. Uoker, T. (2018). *Fin maktablari haqidagi tajribalar*. Xelsinkidagi maktabda o‘qituvchilik tajribasi asosida Finlandiya ta'lim tizimi haqidagi tahlil.

4. Sahlberg, P. (2011). *Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?*. Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatini tahlil etish.

5. Helavaara, L. (2019). *O‘qituvchilarning malaka oshirishiga oid tadqiqotlar*. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirish jarayonlari.

6. Lavonen, J. (2017). *Finlandiya ta’lim tizimi metodologiyasining rivojlanishi*. Ta'lim metodologiyasining ijtimoiy va shaxsiy o‘sishga ta'siri.

7. Uusikylä, K. (2016). *O‘quvchilarga moslashtirilgan ta’lim tizimi*. Individual ta'lim yondoshuvlarining muvaffaqiyati.

8. Sahlberg, S. (2020). *Ta’lim boshqaruvi va ochiqlik*. Finlandiya ta'lim tizimining shaffofligi va o‘qituvchilarning o‘z ishlaridagi erkinligi.

9. Rivojlangan ta’lim tizimi: finlandiya tajribasining dunyo ta’lim sifati uchun namunaviy jihatlarI. (2024). *TAMADDUN NURI JURNALI*, *5*(56), https://doi.org/10.69691/86fpsj68.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xurramov Abdulvosit Ibrohimovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail: abdulvosidhurramov@gmail.com

KO‘RISHDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING O‘QISH KO‘NIKMASINI TBLT TEXNOLOGIYASI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini Task-Based Language Teaching (TBLT) texnologiyasi orqali rivojlantirish masalasi o‘rganiladi. Tadqiqotda TBLT texnologiyasi ko‘rishda cheklovlarga ega o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilib, ularning mustaqil fikrlashi, faol ishtiroki va til o‘rganish motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi yoritilgan. TBLT asosida tayyorlangan topshiriqlar tinglov, taktil va raqamli resurslarga tayangan holda tashkil etiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, moslashtirilgan TBLT yondashuvi ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda o‘qish tezligi, tushunishi va mustaqilligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu izlanish inklyuziv ta’lim doirasida samarali uslub sifatida TBLTdan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi hamda maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun ta’lim materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *TBLT, ko‘rishda nuqson, o‘qish ko‘nikmasi, inklyuziv ta’lim, til o‘rganish, maxsus ehtiyoj, moslashtirilgan topshiriq, interaktiv metod.*

Хуррамов Абдулвосит Ибрагимович
Базовый докторант Узбекского государственного университета мировых языков

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ТЕХНОЛОГИИ TBLT

Аннотация. *В данном исследовании рассматривается вопрос развития навыков чтения учащихся с нарушениями зрения посредством технологии Task-Based Language Teaching (TBLT). В исследовании освещается, как технология TBLT, адаптированная к потребностям учащихся с ограничениями зрения, способствует развитию их самостоятельного мышления, активному участию и повышению мотивации к изучению языка. Задания, разработанные на основе TBLT, организуются с опорой на аудирование, тактильные и цифровые ресурсы. Результаты показывают, что адаптированный подход TBLT значительно повышает скорость чтения, понимание и самостоятельность учащихся с нарушениями зрения. Данное исследование раскрывает возможности использования TBLT в качестве эффективного метода в рамках инклюзивного образования и предлагает практические рекомендации по разработке учебных материалов для учащихся с особыми образовательными потребностями.*

Ключевые слова: *TBLT, нарушение зрения, навыки чтения, инклюзивное образование, изучение языка, особые потребности, адаптированное задание, интерактивный метод.*

Khurramov Abdulvosit Ibrahimovich
Base doctoral student of Uzbekistan State University of world languages

DEVELOPMENT OF READING SKILLS OF STUDENTS WITH VISUAL IMPAIRMENTS THROUGH TBLT TECHNOLOGY

Abstract. *This study examines the development of reading skills in visually impaired students using Task-Based Language Teaching (TBLT) technology. The research highlights how TBLT technology is adapted to meet the needs of students with visual impairments, serving to enhance their independent thinking, active participation, and motivation for language learning. Tasks prepared based on TBLT are organized using auditory, tactile, and digital resources. Results indicate that the adapted TBLT approach significantly improves reading speed, comprehension, and independence in students with visual impairments. This study reveals the potential of TBLT as an effective method within inclusive education and offers practical recommendations for developing educational materials for students with special needs.*

Keywords: *TBLT, visual impairment, reading skills, inclusive education, language learning, special needs, adapted task, interactive method.*

Kirish.

Bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, ayniqsa, nogironligi bo'lgan o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim texnologiyalarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini shakllantirishda yangicha yondashuvlar talab etilmoqda [1]. Ushbu kontekstda topshiriqqa asoslangan til o'rgatish texnologiyasi (Task-Based Language Teaching – TBLT) pedagogik jarayonda alohida e'tiborni jalb qilmoqda. TBLT modeli o'quvchini faol subyekt sifatida ko'radi va amaliy topshiriqlar orqali bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda an'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha yetarli samara bermaydi [2]. Shu sababli, didaktik vositalar va kommunikativ yondashuvlarni uyg'unlashtirgan metodologik yondashuvlar zarur bo'ladi. TBLT texnologiyasining afzalligi – o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, eshitish, tasavvur qilish va anglash faoliyatini faollashtirishi, bu esa aynan ko'rishda cheklovlarga ega o'quvchilarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Maqolada TBLT texnologiyasi asosida ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun o'qish mashqlarini tashkil etish, ularning o'zlashtirish dinamikasini baholash va samaradorlikni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi [7]. Mazkur tadqiqot orqali nafaqat maxsus pedagogik ehtiyojlarga javob beruvchi metodlar taklif etiladi, balki zamonaviy ta'limda inklyuzivlik tamoyillarini yanada mustahkamlashga hissa qo'shiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirish masalasi O'zbekistonda maxsus pedagogika sohasi olimlari tomonidan doimiy ilmiy izlanishlar markazida turibdi. Jumladan, Ne'matova Shirinoy Nizomiddinovna o'zining "Ko'rishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiyaning roli" [5] nomli maqolasida eshitish, harakat va tasavvur orqali o'zlashtirish jarayonining o'qish ko'nikmasiga bevosita ta'sirini yoritadi. Shu bilan birga, Mamatqulova Shaxnoza To'xtasinovna tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi bolalarning lingvistik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda sensor vositalar va ovozli darsliklardan foydalanish metodikasi asoslab berilgan [4].

Raxmatova Zilola Sobirovnaning "Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik ishlar samaradorligi" [6] mavzuidagi maqolasida o'quvchilarning tovushlarni eshitib farqlash, kontekst asosida o'qish va tushunishni rivojlantirish bo'yicha amaliy metodlar keltirilgan. TBLT texnologiyasi esa, X. Xoshimova va D. Daminovaning ta'kidlashicha, til o'rganishda topshiriqqa asoslangan yondashuv orqali o'quvchining nutqiy faoliyatini faollashtirib, eshitish va o'qish ko'nikmalarini mustahkamlaydi [3]. Shojalilova Gulnoraning "Maxsus pedagogikada innovatsion yondashuvlar" [9] nomli maqolasida esa TBLT va CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyalarini nogironligi bo'lgan bolalarga moslashtirish imkoniyatlari keng yoritilgan. Shu bilan birga, Toshkent davlat pedagogika universiteti professori T. X. Sattorova o'zining "Inklyuziv ta'limda o'qituvchining tayyorgarligi" [8] asarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ishlovchi pedagoglarning kompetensiyasi va metodik yondashuvlari haqida chuqur ilmiy tahlil beradi. Ushbu adabiyotlar mazkur mavzuning dolzarbligini ochib berish barobarida, TBLT texnologiyasining amaliy va nazariy asoslarini mustahkamlab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.


Ushbu tadqiqotda ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini shakllantirishda topshiriqqa asoslangan til o'qitish (TBLT) texnologiyasining samaradorligini o'rganish asosiy metodologik yo'nalish bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot yondashuvi sifatida aralash metod (mixed method) – ya'ni sifat (qualitative) va miqdor (quantitative) uslublar uyg'unligiga asoslanildi. Sifat tahlili doirasida kuzatuv, suhbat, dars jarayonini videotasvirlash, shuningdek, o'quvchilarning ovozli o'qishlari tahlil qilindi. Miqdoriy metod sifatida esa oldin va keyin sinov usuli (pre-test/post-test) qo'llanildi, bunda o'quvchilarning o'qish tezligi, aniqligi va matnni tushunish darajasi raqamli ko'rsatkichlar asosida baholandi [10]. Tadqiqot Toshkent viloyatidagi maxsus ta'lim maktab-internatlarining 3–4-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi.

Eksperimental guruh TBLT asosida ishlab chiqilgan topshiriqlarni bajardi, nazorat guruhi esa an'anaviy uslubda mashg'ulotlar olib bordi. Eksperiment davomida topshiriqlar uch bosqichda: oldingi tayyorgarlik, asosiy topshiriq va natijaviy mulohaza (feedback) asosida tashkil qilindi. Tahlil natijalari ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun TBLT texnologiyasi o'qish strategiyalarini ongli shakllantirish, fonetik birliklarni to'g'ri talaffuz qilish va matnni kontekstda tushunish qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ma'lumotlar Microsoft Excel dasturi va SPSS statistik platformasi yordamida qayta ishlanib, variatsion tahlil uslublari (masalan, t-testi) orqali yakuniy xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar.

The study begins with a **systematic literature review** to analyze existing policies, practices, and outcomes related to inclusive education. This includes reviewing national and institutional policy documents, research articles, case studies on best practices, and reports from organizations advocating for equity and accessibility in education. Special attention is given to regional studies by Central Asian scholars, including the works of Mukhamedzhanova and Abdirakhmanova (2019), who have highlighted inclusive education challenges in Uzbekistan, Kazakhstan, and Kyrgyzstan, as well as S. Ismailova's (2021) analysis of accessibility in post-Soviet educational systems.

To collect primary data, **surveys** will be distributed to key stakeholders, including students, faculty, administrative staff, and diversity officers. These surveys feature both Likert-scale and open-ended questions to evaluate perceptions of inclusivity, challenges, and the effectiveness of current practices (Creswell & Plano Clark, 2017). Additionally, **semi-structured interviews** and **focus groups** provide in-depth qualitative insights from diverse participants, such as marginalized students, faculty, and institutional leaders (Patton, 2015).

The study will also include **observational studies** to assess the accessibility of physical, digital, and academic environments. Observations will be conducted in classrooms, counseling centers, and other key areas to identify barriers and areas for improvement (Stringer, 2014). Regional observations will be contextualized using studies like those of Kadirov (2020), which examine Central Asian universities' infrastructure limitations.

Discussion

The findings of this study provide valuable insights into the management of inclusive education in higher education institutions (HEIs), particularly within the Central Asian context. The integration of systematic literature reviews, surveys, interviews, focus groups, and observational studies has allowed for a comprehensive understanding of inclusivity across policies, practices, and perceptions. This discussion synthesizes key observations, highlighting challenges, opportunities, and recommendations for fostering a more inclusive environment in HEIs.

Addressing Challenges in Inclusive Education

The study highlights several persistent challenges in implementing inclusive education in Central Asia. Regional disparities in infrastructure, cultural norms, and resource allocation remain significant barriers. Mukhamedzhanova and Abdirakhmanova's (2019)

observations of infrastructure limitations in rural institutions align with the findings from observational audits, which revealed insufficient physical accessibility features, such as ramps, elevators, and accessible restrooms. These barriers prevent full participation by students with physical disabilities, underscoring the need for targeted investments in infrastructure.

Cultural and institutional attitudes also present obstacles. Survey and focus group responses indicate a lack of awareness and preparedness among faculty and staff to accommodate diverse learners. As noted by Ismailova (2021), the lingering influence of post-Soviet educational systems has often prioritized standardized approaches over individualized learning strategies. This rigidity creates systemic resistance to implementing inclusive policies and practices, particularly in institutions with limited exposure to global inclusivity frameworks.

Opportunities for Progress

Despite these challenges, the study identifies significant opportunities for fostering inclusivity. Central Asian HEIs possess a strong foundation of commitment to educational equity, as evidenced by national policies aligning with international frameworks such as the Sustainable Development Goals (SDG 4). Institutions that have invested in professional development for faculty and staff have reported notable improvements in inclusivity, as reflected in the thematic analysis of interviews. Faculty members who participated in workshops on Universal Design for Learning (UDL) demonstrated greater competence and confidence in addressing diverse student needs.

The observational audits also highlight positive examples of digital accessibility advancements in some institutions, particularly in urban areas. These include the adoption of assistive technologies like screen readers and captioning tools, which enhance the learning experiences of students with visual and auditory impairments. These best practices can serve as models for other institutions in the region.

Recommendations for Inclusive Education Management

Based on the findings, several actionable recommendations emerge to improve the management of inclusive education in HEIs:

1.**Infrastructure Development:** Institutions must prioritize investments in physical accessibility, particularly in rural areas. Governmental and non-governmental organizations should collaborate to secure funding for infrastructure upgrades that include ramps, elevators, and accessible restrooms.

2.**Faculty and Staff Training:** The study underscores the importance of professional development programs that equip faculty and staff with the skills to address diverse learner needs. Workshops on inclusive teaching practices, such as UDL, should be scaled across institutions to build capacity.

3.**Digital Accessibility:** HEIs should adopt and expand digital accessibility tools and ensure their compliance with global standards, such as the Web Content Accessibility Guidelines (W3C, 2018). A focus on integrating assistive technologies into e-learning platforms will bridge gaps for students with disabilities.

4.**Policy Implementation and Monitoring:** Institutions need to establish mechanisms for regularly evaluating the effectiveness of inclusive education policies. This includes gathering continuous feedback from students, faculty, and staff and using these insights to refine strategies.

5.**Cultural Change Initiatives:** Promoting awareness of the value of diversity and inclusivity among all stakeholders is essential. Campaigns, student forums, and leadership advocacy can shift institutional cultures toward more inclusive values.

Contribution to the Central Asian Context

The findings and recommendations of this study contribute to the broader understanding of inclusive education in Central Asia, where historical and socio-cultural contexts uniquely shape institutional practices. By contextualizing global best practices to regional realities, this research offers a framework for bridging gaps in inclusivity while respecting local traditions and constraints. Institutions can draw on these insights to not only meet international benchmarks but also develop solutions tailored to their specific challenges.

Future Directions

This study opens avenues for future research in inclusive education management. Longitudinal studies tracking the implementation of these recommendations can provide deeper insights into their effectiveness. Additionally, comparative studies between Central Asian institutions and those in other regions can identify innovative practices and foster cross-regional learning.

Conclusion

This study underscores the critical importance of managing inclusive education effectively in higher education institutions (HEIs), particularly in the context of Central Asia. By employing a mixed-methods approach, the research has provided a comprehensive understanding of the policies, practices, and perceptions surrounding inclusivity in HEIs. The findings reveal persistent challenges, such as inadequate infrastructure, limited faculty preparedness, and cultural resistance to change, which continue to impede progress toward equitable education.

Despite these obstacles, the study identifies significant opportunities for improvement. The presence of national commitments to inclusivity, coupled with isolated examples of successful practices in digital accessibility and professional development, demonstrate the potential for

transformative change. The integration of physical, digital, and academic accessibility improvements, coupled with the development of inclusive teaching practices and policy monitoring mechanisms, can serve as a foundation for fostering equity and diversity in HEIs.

The study also emphasizes the need for tailored strategies that address the unique socio-cultural and institutional landscapes of Central Asia. By contextualizing global best practices, HEIs can create solutions that are not only effective but also culturally and regionally relevant. The development of an evaluation framework as part of this research provides institutions with a practical tool for continuous improvement in inclusivity management.

Ultimately, this research contributes to the global discourse on inclusive education by offering actionable recommendations and a replicable model for continuous evaluation and growth. It highlights the vital role of leadership, collaboration, and commitment in driving systemic change, ensuring that all students, regardless of their backgrounds or abilities, have equal opportunities to participate and succeed in higher education.

Further research is encouraged to track the long-term impacts of these recommendations, explore cross-regional comparisons, and identify emerging trends in inclusivity management. By continuing to prioritize inclusive education, HEIs can strengthen their role as catalysts for social equity and institutional excellence.

References

1. **Bryman, A. (2016).** *Social research methods.* Oxford University Press.
2. **Creswell, J. W., & Plano Clark, V. L. (2017).** *Designing and conducting mixed methods research.* Sage Publications.
3. **Field, A. (2018).** *Discovering statistics using IBM SPSS statistics.* Sage Publications.
4. **Ismailova, S. (2021).** Challenges in post-Soviet accessibility standards. *Central Asian Review of Education.*
5. **Kadirov, M. (2020).** Infrastructure challenges in Central Asian universities. *Journal of Central Asian Education Studies.*
6. **Mukhamedzhanova, A., & Abdirakhmanova, B. (2019).** Inclusive education in Central Asia: A comparative study. *Asian Journal of Education Research.*
7. **Niyazova, R., et al. (2021).** Accessibility audits in Central Asia. *Regional Accessibility Reports.*
8. **Patton, M. Q. (2015).** *Qualitative research & evaluation methods.* Sage Publications.
9. **Rakhimov, A. (2018).** Multilingual education and representation in Uzbekistan. *Journal of Language Policy Studies.*
10. **Stringer, E. T. (2014).** *Action research.* Sage Publications.
11. **W3C. (2018).** *Web content accessibility guidelines (WCAG) 2.1.* Retrieved from https://www.w3.org/WAI/standards-guidelines/wcag/.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qambarov Musoxon Muxtorjanovich
NamDU, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning mazmun-mohiyati, ularning kasbiy faoliyatga tayyorlanish jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, talabalarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada pedagogik bilimlar negizida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetentlik sifatlari, pedagogik kompetentlik, o'z-o'zini baholash, kompetentlik, yondashuv, kompetentsiya, burch, mas'uliyat, metod, vosita.*

Камбаров Мусохон Мухторжанович, доктора
Философии, по педагогическим наук доцент НамГУ

УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются сущность формирования профессиональной компетентности у будущих учителей, её значение и роль в подготовке к профессиональной деятельности. Проанализированы механизмы развития профессионально-педагогической компетентности студентов посредством формирования необходимых знаний, умений и навыков по общепрофессиональным и специальным дисциплинам. Особое внимание уделяется обеспечению готовности будущих педагогов к практической деятельности на основе педагогических знаний.*

***Ключевые слова:** компетентность, профессиональная компетентность, качества компетентности, педагогическая компетентность, самооценка, компетентностный подход, компетенция, долг, ответственность, метод, средство.*

Qambarov Musoxon Mukhtorjanovich
NamSU, Doctor of Philosophy(PhD) in Pedagogy, dotsent

CONDITIONS FOR DEVELOPING PEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF PEDAGOGY

***Abstract:** This article explores the essence of developing professional competence in future teachers, highlighting its significance and role in preparing them for professional activities. It analyzes mechanisms for developing students' professional-pedagogical competence through the acquisition of necessary knowledge, skills, and abilities in general and specialized subjects. Special attention is given to ensuring students' readiness for practical pedagogical activities based on pedagogical knowledge.*

***Keywords:** competence, professional competence, competence qualities, pedagogical competence, self-assessment, competence-based approach, competency, duty, responsibility, method, means.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lining tanlab olinishi, shuningdek, "Ta'lim to'g'risidagi qonun" talablari asosida jahon ta'limi standartlariga muvofiq keluvchi uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Bugungi kunda har bir sohada bo'lgani kabi pedagogik sohada ham kvalametrik daraja muhim

ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglar sohaga oid chuqur bilimlarga ega bo'lish va ularni amalda samarali qo'llay olishlari bilan belgilanadi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlangan mutaxassislar faqat kasbiy tayyorgarlik va ilmiy dunyoqarashga ega bo'libgina qolmasdan, balki olgan bilimlarini uzluksiz takomillashtirib, amaliyotda oqilona qo'llay bilish ko'nikmalarini ham egallashlari lozim. Malakali pedagoglarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari talabalarini pedagogik bilimlarni oshirish, ularni yosh avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayoniga kasbiy nuqtayi nazardan yo'naltirish katta mas'uliyatni taqozo etadi. Bu jarayonda umumiy va mutaxassislik, jumladan, pedagogika fanlarini zamonaviy talablarga muvofiq samarali o'qitish talab etiladi.

Ma'lumki, o'qituvchilarda pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish kasbiy kompetentsiyalarini rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli, ushbu kompetentsiyani samarali rivojlantirish uchun eng qulay pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash kerak. Ta'lim jarayonida bevosita yaratilgan sharoitlar eng muvaffaqiyatli pedagogik shartlar bo'lib, ular ilgari surilgan g'oyalar va qulay pedagogik faoliyatning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Pedagogika fanida "pedagogik shart-sharoitlar" ta'rifi asosida maxsus yaratilgan muhitni ko'rib chiqish odat tusiga kiradi, unda psixologik-pedagogik omillarning kombinatsiyasi ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli o'tishiga qaratilgan.

Zamonaviy o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, kasbiy mahorat sirlarini puxta o'zlashtirishdan tashqari, bir tomondan, o'quvchilarning bilimdonligi va intellektual rivojlanishini ta'minlashi kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda sog'lom dunyoqarash, mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishi lozimdir. Shu tufayli o'qituvchi-mutaxassislarni tayyorlashda ularning kasbiy sifatlari bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikhi qaror toptirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili (Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili).

Uyg'onish davrining yetuk namoyondalari Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Al-Kindiy, Nasriddin Tusiy, Xusayn Voiz al-koshifiy kabilarning ilmiy meroslarida o'qituvchi o'quvchilarning aql-zakovatiga ta'sir ko'rsatishi, mustaqil fikrlashga o'rgatishi, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining yuksak darajada bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodologiyasi, pedagogik-psixologik jihatlari, tamoyillari va texnologiyalari hamda yondashuvning shaxs faoliyati va kasbiy kamolotidagi o'rni, shuningdek, kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirishning kontseptual masalalari yuzasidan MDH mamlakatlarining quyidagi olimlari: T.Bazarov [1], A.Derkach [2], I.Zimnyaya [3], E.Zeer [4], N.Kuzmina [5], Ye.Kudryavtseva [6], A.Markova [7] va boshqalarning tadqiqot ishlarida ko'rilgan va ta'lim muhitiga ta'siri bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining kasbiy pedagogik bilimdonligi uning kasbiy tayyorgarligini muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, o'z navbatida bilimdonlik – o'qituvchi uchun muhim bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni, ya'ni innovatsion tayyorgarlikni talab etadi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, pedagog, psixolog olimlarning ushbu mavzuda olib borgan izlanishlari, olimlar va soha vakillarining yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish amalga oshirildi.

Natijalar va ularning tahlili

Kompetentlik alohida jihatlariga ko'ra tadqiq qilinsa ham, umuman olganda, fundamental pedagogik muammo sifatida hali nafaqat yechimi topilmagan, balki, muammo sifatida ham yetarlicha shakllantirilmagan. Xususan, kompetentlik yondoshuvini tizimli tahlil etishga, uni umuman ta'lim tizimida ham, kasbiy ta'limda ham qo'llashning nazariy-metodologik va didaktik asoslarini aniqlashga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Kompetentlik muayyan sohaga oid bilim va tajribalarning yig'indisi yoki aniq ish joyi yoki bajarilayotgan ishning o'zgarib turadigan talablariga mos ta'sir qilishga imkon beradigan umumiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi

Kasbiy kompetentlikning turlari:

1. Maxsus kompetentlik.
2. Metodik kompetentlik.
3. Psixologik-pedagogik kompetentlik.
4. Differentsial-psixologik kompetentlik.
5. Autopsixologik kompetentlik[6]

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi[6].

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalari kasbiy kompetentlik ko‘nikmalarini muayyan bir intellektual tuzilma sifatida tasavvur etilsa, uning quyidagi tarkibiy qismlari borligini ko‘rish mumkin bo‘ladi:

- kasbiy bilimlar (kasbiy faoliyat ob’ektini o‘rganish va bilish, kasbiy

vazifalarni hal etishda fikrning operativ sxemalaridan foydalanish);

- ijtimoiy bilimlar (jamiyatda qabul qilingan qadriyat va me’yorlarga

muvofiq qadriyatlar tizimiga ega bo‘lish);

- nazariyada olgan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega

bo‘lish[7].

Pedagogika oliy ta’lim muassasasida kasbiy tayyorgarlik xususiyatlarini hisobga olib, kasbiy kompetentlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodlarini o‘qish-bilish va amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishning integral xarakteristikasi asosida tasniflash mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaga mos ravishda tayyorlash muammosining qiyosiy tahlili bu borada quyidagi ziddiyatlar mavjudligini ko‘rsatdi:

Oliy pedagogik ta’lim muassasalari oldida turgan nazariy va amaliy masalalar, yosh pedagog va talabalarni tayyorlashning mavjud mazmuniga maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari tomonidan qo‘yilayotgan yangi talablar bilan bo‘lajak pedagoglarga kasbiy ta’lim berishning nazariy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida;

fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga qo‘yadigan talablari bilan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tizimi o‘quvchilarining tayanch bilimlari darajasi o‘rtasida;

pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ishlashini tashkil qilishga qo‘yilgan talablarning kuchaytirilishi bilan mustaqil o‘rganish faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ularda bilim va malakalar yetishmasligi o‘rtasida;

mavjud pedagogik ta’lim tizimining ko‘p jihatdan reproduktiv xususiyatga ega ekanligi va oliy pedagogik ta’lim muassasasi bitiruvchisi – bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik moslashuvchanligini shakllantirishga individual-ijodiy yondashish zarurligi o‘rtasida;

o‘qitish jarayoniga mavjud qarashlar bilan jamiyatning kasbiy ta’lim rivojlanishiga qo‘yadigan zamonaviy ijtimoiy talablari o‘rtasida;

o‘qituvchilik kasbining ommaviylik xususiyati bilan maktab hamda akademik litsey va profesional ta’limda ijodiy fikrlovchi, yuksak kasbiy, pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchiga ehtiyoji o‘rtasida;

pedagogik texnologiyalarning ta’lim amaliyotiga nisbatan keng tatbiq etilishi hamda ularning yakuniy natijalari kafolatlanganligi muammosining hal etilmaganligi o‘rtasida;

o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari sifatiga qo‘yiladigan talablar o‘sganligi bilan ularni loyihalashtirishdagi an’anaviy yondashuvlar o‘rtasida;

pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarni o‘qitish mahoratini shakllantirish zarur bo‘lgani holda shu vazifani bajarish uchun yetarli didaktik ta’minotning yo‘qligi o‘rtasida;

eng yaxshi o‘qituvchilar faoliyati natijasida paydo bo‘lgan o‘qitish texnologiyasining sifat ko‘rsatkichi va ularni baholashdagi eski metodlar o‘rtasida.

Ko‘rsatib o‘tilgan ziddiyatlarni bartaraf etish, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, kasbiy faoliyat yaxlit manzara hosil qilishi uchun ta’lim jarayoni maqsadlari, mazmuni, shartlari, vositalari, natijalari o‘rtasidagi mustahkam aloqani ta’minlovchi mutaxassis tayyorlash modelini takomillashtirish talab etiladi [8].

O‘z navbatida, kompetent yondashuv ta’lim texnologiyasida muhim o‘zgarishlarni talab qiladi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalari oldida bugun maxsus texnologiyalar va ularni ta’lim jarayonida amalga oshirish usullarini ishlab chiqish vazifasi turadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, zikr etilgan kompetentsiyalarni shakllantirish inson hayotining barcha bosqichlarida sodir bo‘ladigan murakkab va uzoq jarayondir: o‘rta ta’limdan tortib to kasbiy faoliyatgacha. Oliy ta’lim tizimi o‘quv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentsiyasini shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari esa ushbu kompetentsiyalardan ularning kasbiy faoliyatlarida uzluksiz foydalanish ko‘nikmalarini shakillantirishga yo‘naltirilgan uslubiy ta’minotda namoyon bo‘ladi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi[8].

Kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini o‘zi anglash, o‘z

kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiradi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o‘ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to‘liq izohlanishiga imkon beradi.

«Kompetentli» yondoshuvga asoslangan ta’lim tizimida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining roli ham o‘zgaradi. Chunki, «bilimli» yondoshuvda ta’lim beruvchi faol va asosiy ishtirokchi bo‘lsa, ta’lim oluvchi esa, sust qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. «Kompetentli» yondoshuvda ta’lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta’lim olish faoliyati ko‘proq mustaqil individual topshiriqlarni bajarish va uning natijasini himoya qilishga, kreativ amaliy mashg‘ulotlarda doimiy ravishda savollarga javob berish va individual tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo‘ladi.

Oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtiriladigan barcha mutaxassislik fanlari o‘zida asosan faqat ma’lumot beruvchi, o‘rgatuvchilik funktsiyasi bilan chegaralanib qolmasdan talabalarni mustaqil kreativ fikrni rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi funktsiyalari orqali bakalavrlarning kompetentligini shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir fan o‘qituvchisiga ta’lim oluvchilarni nafaqat shu fan tuzilmasida mavjud bo‘lgan ilmiy ma’lumotlar bilan qurollantirish, balki ular egallagan ilmiy tushunchalarni rivojlantirish va boshqa tushunchalar bilan integrallashuvini ta’minlash hamda ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vazifalari ham qo‘yilgan. Shuning uchun ham har bir o‘qituvchi navbatdagi o‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rishida o‘quv materialini yuqorida sanab o‘tilgan talablar va tamoyillarga rioya qilgan holda tanlashi va uni ta’lim oluvchilarning e’tiboriga havola qilishida tegishli tushunchalardan unumli foydalanishi orqali ulardagi kasbiy kompetentligini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘rinda Davlat ta’lim standartidagi majburiy minimum talablar va qoidalar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Mazkur maqolada taqdim etilgan ilmiy materiallar tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Kompetentlikning o‘rnini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili mazkur pedagogik kompetentlikning asosiy funktsiyalariga oliy ta’lim muassasasi o‘quv-tarbiya, pedagogik-psixologik fanlarni o‘rganish jarayonida qisman aks etganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Базаров Т.Ю., Ермина Б.Э. Управление персоналом. - М.: ЮНИТИ, 2002. 430 с.

2. Деркач А., Зазыкин В. Акмеология. - СПб.: “Питер”, 2003. - 256 с.

3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования. // “Эксперимент и инновации в школе” журнали. 2009. №2.

4. Зеер Э.Ф. Психолого-дидактические конструк качество а профессионального образования. // “Образование и наука” журнали. 2002. №2 (14).

5. Кузьмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. - М.: 2001.

6. Кудрявцева Е.И. Компетенция и менежмент: компетенции в менеджменте, компетенции менеджеров, менеджмент компетенции. - Санкт-Петербург: 2012. - 340 с.

7. Маркова А. Психология профессионализма. - М.: 1996.

8. Qambarov M.M. Talabalar mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish. Monografiya - Namangan: Arjumandmediya. 2021-y.

9. Qambarov M.M. Pedagogika tarixi. Toshkent: Uzkitobsavdoserviz. 2023-y.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Raximjonov Doston Rasuljon o`g`li
Farg‘ona davlat universiteti Sport faoliyati fakultetining Yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o‘qituvchisi

MUSOBAQALARGA TAYYORLASH JARAYONIDA MALAKALI KURASHCHILARNI TEZKOR-KUCH JISMONIY SIFATLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musobaqalarga tayyorgarlik jarayonida malakali jurashchilarning tezkor-kuch jismoniy sifatlarini oshirishning uslubiy asoslari va samarali mashg‘ulot usullari tahlil qilinadi. Tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar, mashg‘ulot dasturlari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida qo‘llaniladigan metodlar yoritiladi. Maqolada jismoniy mashqlarning turlari, ularning tizimli ravishda qo‘llanishi va natijalar monitoringini amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, jurashchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Ushbu maqola trenerlar, sport mutaxassislari va sportchilar uchun muhim ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *jurash, tezkor-kuch, jismoniy sifatlar, mashg‘ulot usullari, musobaqaga tayyorgarlik, individual yondashuv, monitoring.*

Рахимджонов Достон Расулджон оглы
Борьба, Факультет спортивной деятельности, Ферганский государственный университет
Преподаватель кафедры теории и методики спорта

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СКОРОСТНО-СИЛОВЫХ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БОРЦОВ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ К СОРЕВНОВАНИЯМ

Абстрактный: *В данной статье анализируются методические основы и эффективные тренировочные методы совершенствования быстросиловых физических качеств квалифицированных борцов в процессе подготовки к соревнованиям. Освещены специальные упражнения, программы тренировок, а также методы, используемые на основе современных технологий. В статье даны рекомендации по видам физических упражнений, их систематическому использованию и контролю результатов. При этом подчеркивается, что необходимо учитывать индивидуальные особенности борцов. Данная статья служит важным источником информации для тренеров, спортивных специалистов и спортсменов.*

Ключевые слова: *борьба, быстросила, физические качества, методы тренировки, подготовка к соревнованиям, индивидуальный подход, мониторинг.*

Rakhimjonov Doston Rasuljon oglu
Teacher of the Department of Theory and Methodology of Martial Arts, Faculty of Sports Activities, Fergana State University

IMPROVEMENT OF THE METHOD OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SPEED-POWER PHYSICAL QUALITIES OF QUALIFIED WRESTLEMEN IN THE PROCESS OF PREPARING FOR COMPETITIONS

Abstract: *This article analyzes the methodological foundations and effective training methods for improving the speed-strength physical qualities of qualified wrestlers in the process of preparing for competitions. Special exercises, training programs aimed at developing speed-strength qualities, as well as methods used based on modern technologies are highlighted. The article provides recommendations on the types of physical exercises, their systematic use and monitoring of results. At the same time, the need to take into account the individual characteristics of wrestlers is emphasized. This article serves as an important source of information for trainers, sports specialists and athletes.*

Key words: *wrestling, speed-strength, physical qualities, training methods, preparation for competitions, individual approach, monitoring.*

Kirish

Jurash sport turi jismoniy va psixologik tayyorgarlikning yuqori darajasini talab qiladi. Ayniqsa, musobaqalarda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchilarning tezkor-kuch jismoniy sifatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Ushbu sifatlar nafaqat raqibga qarshi muvaffaqiyatli harakat qilish, balki musobaqa davomida yuqori chidamlilikni saqlash uchun ham muhimdir.

Tezkor-kuch sifatlari kuch, tezlik va chidamlilikning uyg‘unlashgan shakli bo‘lib, ular jurashchilarning texnik va taktik qobiliyatlarini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada malakali jurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini oshirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar va uslubiyat tahlil qilinadi.

Tezkor-kuch jismoniy sifatlarining ahamiyati

Tezkor-kuch sifatlari jurash sportida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular sportchilarning raqibga qarshi harakatlardagi tezkorlik va kuch talab qiladigan vaziyatlarda ustunlikka ega bo‘lishiga yordam beradi. Tezkor harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kuch va tezlik uyg‘unligi sportchining natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Bundan tashqari, musobaqa davomida bir xil kuch va tezlikni ushlab turish imkoniyati chidamlilikni oshiradi va yuqori texnik samaradorlikni ta’minlaydi.

Tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi va musobaqalarda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshiradi. Ushbu sifatlar sportchilarning texnika va taktika borasidagi yutuqlarini ta’minlaydi.

Tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uslubiyatlari

Malakali jurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun turli xil uslubiyatlardan foydalaniladi. Ushbu uslubiyatlar murakkablik darajasi, sportchining tayyorgarlik darajasi va mashg‘ulotning maqsadlariga qarab farqlanadi.

Maxsus mashqlar jurashchilarning mushaklarini kuchaytirish va harakat tezligini oshirishga yo‘naltirilgan. Plioemetrik mashqlar sakrashlar va tezkor harakatlar orqali mushaklarning portlovchi kuchini oshirishga xizmat qiladi. Og‘ir atletika mashqlari esa shtanga va gantellar bilan bajariladigan mashqlar bo‘lib, ularda asosiy e’tibor mushaklarning kuchini rivojlantirishga qaratilgan. Portlovchi kuch mashqlari sportchilarning qisqa vaqt ichida maksimal kuch hosil qilish qobiliyatini yaxshilashga mo‘ljallangan.

Mashg‘ulotlarning tizimli rejasi sportchilarni tayyorlash jarayonida asosiy ahamiyatga ega. Tayyorlov jarayonida boshlang‘ich bosqichda umumiy jismoniy faollikni oshirishga e’tibor qaratiladi. Asosiy bosqichda esa mashqlar sportchining individual ehtiyojlariga moslashtiriladi va ular orqali tezkor-kuch sifatlari rivojlantiriladi. Yakuniy bosqichda sportchilar musobaqalarga tayyorlanadi va tiklanish jarayonlari amalga oshiriladi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tezkor-kuch tayyorlovini samarali tashkil etish imkonini beradi. Biosensorlar sportchilarning holatini monitoring qilishga xizmat qiladi, video tahlil texnik harakatlarni tahlil qilish va kamchiliklarni aniqlashda yordam beradi. Virtual trenajyorlar esa texnikani takomillashtirish va harakatlarni takrorlash uchun zamonaviy uskunalar sifatida qo‘llaniladi.

Individual yondashuvning zarurligi

Har bir jurashchining jismoniy va psixologik imkoniyatlari turlicha bo‘lganligi sababli, mashg‘ulot dasturlarini individual tarzda ishlab chiqish muhimdir. Bunday yondashuv sportchining kuch, tezlik va chidamlilik darajasini to‘g‘ri baholashni talab qiladi. Yosh va tajribasi turlicha bo‘lgan sportchilarga mos dasturlar ishlab chiqish orqali ularning individual ehtiyojlari qondiriladi. Psixologik tayyorgarlik esa sportchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va musobaqa davomida stressga bardosh berish qobiliyatini kuchaytiradi.

Natijalar monitoringi

Mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalarni baholash uchun muntazam monitoring o‘tkazilishi lozim. Bu sportchilarning kuch, tezlik va chidamlilik darajasidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Jismoniy holatni tahlil qilish, mashqlar samaradorligini baholash va musobaqa natijalarini tahlil qilish orqali mashg‘ulot jarayonining sifati oshiriladi va sportchilarning muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Xulosa

Musobaqalarga tayyorgarlik jarayonida malakali jurashchilarning tezkor-kuch jismoniy sifatlarini rivojlantirish sportchilarning natijalarini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi. Maxsus mashqlar, tizimli rejalar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ushbu sifatlarni rivojlantirishga erishish mumkin. Individual yondashuv va muntazam monitoring esa tayyorlov jarayonining asosiy qismidir. Ushbu maqolada keltirilgan uslubiyat trenerlar va sport mutaxassislari uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Mashg‘ulotlarning sifati va samaradorligini oshirish orqali sportchilar musobaqalarda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Majidov, R. R., Boqiyev, F. H., Raximov, D. R., Saydaxmadov, A. V., Soliyev, I. S., & Abduqodirov, D. S. (2023). JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI DARS MASHG ‘ULOTLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 28-32.

2. Raximjonov, D. (2024). MILLIY KURASHNING AHOLI JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDAGI O ‘RNI. Research and implementation, 2(6), 26-29.

3. Dostonbek, R. (2024). DZYUDOCHILARNING PSIXOLOGIYA TAYYORGARLIK TO’G’RISIDA TUSHUNCHA VA UNI TAKOMILASHTIRISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(4), 212-217.

4. Asanov, A. T., & Raximjonov, D. R. (2023). SPORT O‘YINLARI BO‘YICHA MASHG‘ULOTLARNI TASHKILLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 1382-1387.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mahmudov Bekzod Nazirjon o'g'li
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti magistranti
E-mail: bekzodmaxmudov43@gmail.com

SPORTCHILARNI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI ANIQLASHDA ZAMANONAVIY LABARATORIYA JIXOZIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI (OG'IR ATLETIKA MSOLIDA)

Annotatsiya. *Maqolada og'ir atletika bilan shug'ulanuvchi sportchilarni funksional tayyorgarligi bo'yicha tana vazni indekisi, o'pka tirklik sig'imi tahlili, o'smir 14–15 yoshli og'ir atletikachilarning funksional tayyorgarlik darajasi spirometriya usuli orqali baholandi va jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Spirometr, og'ir atletika, o'pka tiriklik sig'imi, millilitr, tana vazn indekisi, funksional.*

Махмудов Бекзод
Магистрант Института физического воспитания и спорта

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННОГО ЛАБОРАТОРНОГО ОБОРУДОВАНИЯ ПРИ ОПРЕДЕЛЕНИИ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СПОРТСМЕНОВ (НА ПРИМЕРЕ ТЯЖЕЛОЙ АТЛЕТИКИ)

Аннотация: *В статье представлены анализ индекса массы тела и жизненной ёмкости лёгких у спортсменов, занимающихся тяжёлой атлетикой, а также оценка функциональной подготовленности тяжелоатлетов-подростков 14–15 лет с использованием метода спирометрии. Кроме того, подробно освещены показатели их физического развития.*

Ключевые слова: *Спирометр, тяжелая атлетика, живучесть легких, миллилитры, индекс массы тела, функциональный.*

Mahmudov Bekzod Nazirjon
Master's student of the Scientific Research Institute of Physical Education and Sports

EFFECTIVENESS OF USING MODERN LABORATORY EQUIPMENT IN DETERMINING THE FUNCTIONAL READINESS OF ATHLETES (IN THE EXAMPLE OF WEIGHTLIFTING)

Annotation: *The article presents an analysis of body mass index and vital lung capacity in athletes engaged in weightlifting. The functional fitness level of 14–15-year-old adolescent weightlifters was assessed using the spirometry method, and indicators of their physical development are thoroughly described.*

Key words: *Spirometer, weightlifting, vital capacity, milliliters, body mass index, functional.*

Ishining dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirish, xar bir sohada ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va olingan ilmiy natijalarni amaliyotga joriy qilish borasida, bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida qaralmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmonida, ko'rsatilgan vazifalarni turliyo'nalishlar kesimida ijrosini ta'minlash va monitoring qilishga qaratilgan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-martdagi 122-son "Sport turlari bo'yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2021-yil 5-noyabrdagi "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5279-sonli, 2022-yil 6-iyundagi "Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-268-sonli qarorlari, 2024-yil 3-martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining og'ir atletika sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-137-son qarorlari, Mamlakatimizda og'ir atletika sport turini yanada ommalashtirish, yoshlar orasidan sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, ushbu sport turi bo'yicha zamonaviy sport infratuzilmasini yaratish hamda

milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta'minlash qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar:

Iqtidorli sportchilarni saralash hamda raqobatbardosh og'ir atletikachilarni tayyorlash, ayniqsa sportchilarni nafas olish jarayonini va o'pka tiriklik sig'imini nazorat qilish orqali mashg'ulotlar davomida nafas olish bilan bog'liq bo'lgan turli xil kassalliklarni oldini olish hamda eng yaxshi natijalarga erishish uchun hozirgi kunga kelib zamonaviy jixozlardan foydalanish samarasini yuzaga keltirmoqda.

Bu borada xorijiy va O'zbekistonlik olimlar ish olib borganlar xususan Kaminsky funksional sinov kitobida asosan o'pka funksiyasini tekshirish usullari**,** spirometriya**,** pletysmografiya**,** diffuziya testlari **va** o'pka ventilyatsiyasi kabi testlar haqida batafsil so'z yuritadi.**Dubrovskiy V.I. (2005)** o'zining "Sportivnaya fiziologiya" asarida sportchilarda nafas olish tizimining tuzilishi, jismoniy yuklamalarga fiziologik moslashuvi, o'pka ventilyatsiyasi, gaz almashinuvi va maksimal kislorod iste'moli kabi ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilgan.Muallif spirometrik ko'rsatkichlar va ularning sportchilar ish qobiliyatiga ta'sirini amaliy misollar bilan yoritgan. **A.M Ubaydullayev, (2008)** "Nafas organlari kasalliklari" asarida o'pka va nafas yo'llari kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilar, diagnostika va davolash usullarini yoritgan. Asarda ayniqsa, o'pka tiriklik sig'imi, spirometrik tekshiruvlar va ularning ahamiyati batafsil bayon etilgan bo'lib, bu ma'lumotlar sportchilarda o'pka faoliyatini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin Bugungi kunga kelib zamonaviy (Spirometriya) jixozlardan foydalanish samarasi va Spirometr haqida batafsil ma'lumot yetarli bo'lmaganligi sababli tadqitotimiz oldiga qo'yilgan muammo dolzarbligini aniqlab beradi.

Tadqiqot ishining maqsadi: sportchilarni funksional tayyorgarligini aniqlashda zamanonaviy labaratoriya jixozidan foydalanish samaradorligini ohirish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: O'pkaning tiriklik sig'imi haqida umumiy ma'lumot:

O'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS) — bu o'pkadagi to'liq havo chiqarilgandan so'ng o'pkaga kirishi mumkin bo'lgan maksimal havo hajmi. Bu ko'rsatkich spirometr yordamida o'lchanadi va nafas olish tizimining qanchalik samarali ishlashini ko'rsatadi. Spirometrik o'lchovlar sportchilarda nafas olish tizimining holatini tahlil qilish va kerakli treninglar orqali uni yaxshilash imkonini beradi. O'pkaning tiriklik sig'imi nafaqat odamning umumiy sog'lig'ini, balki uning sportdagi samaradorligini ham aniqlaydi.Sportchilarda o'pka sig'imi (vital kapasite) organizmning oksigen olish qobiliyatini va jismoniy faollikni qanday qabul qilishini belgilovchi muhim indikator hisoblanadi. Spirometr qurilmasi orqali o'pkaning tiriklik sig'imini o'lchash imkoniyati, sportchilarda maksimal ishlash imkoniyatlarini aniqlash va ular uchun samarali treninglar tuzishda yordam beradi. Spirometrik o'lchovlar nafaqat nafas olish tizimining holatini aniqlashga, balki umumiy sog'liqni saqlashga ham yordam beradi. Sportchilarda o'pka sig'imi va uning muvozanatini o'rganish, sportdagi chidamlilikni oshirish va zararli yuklamalardan saqlanish uchun muhim.

O'pkaning tiriklik sig'imi (Vital Capacity, VC) — bu o'pkaning maksimal havo hajmini anglatadi, ya'ni odam nafas olish va chiqarishda o'pka orqali harakatlanadigan havo miqdori. Odatda bu ko'rsatkich litrlarda (L) ifodalanadi.

O'pkaning tiriklik sig'imi uchta asosiy ko'rsatkichdan iborat bo'ladi:

Nafas olish hajmi (500 ml) — tinch holatda, normal nafas olishda havo hajmi.

Qo'shimcha havo (1500 ml) — odam nafas olayotganda, normal 500 ml nafas havosining ustiga qo'shimcha havo olish imkoniyatiga ega.

Zaxira havo (1500 ml) — tinch holatda, 500 ml nafas chiqarilgandan so'ng, qo'shimcha 1500 ml havo chiqarish mumkin.

Kattalarda o'pkaning tiriklik sig'imi taxminan 3500 ml ni tashkil qiladi. Sportchilar uchun bu ko'rsatkich 1000-1500 ml ko'proq bo'lishi mumkin, suzuvchilarda esa 6200 ml gacha yetadi. O'pkaning tiriklik sig'imi qancha katta bo'lsa, o'pka shuncha yaxshi ventilyatsiya qilinadi va tana ko'proq kislorod oladi.

Millilitr (ml) haqida umumiy tushincha:

500 "ml" degan belgi millilitr so'zining qisqartmasi bo'lib, bu hajm birligini bildiradi. Millilitr metrik tizimdagi o'lchov birligidir va 1 litr = 1000 millilitrga tengdir. Shu bilan birga: ml — yarim litrga teng, 300 ml — 0.3 litrga teng. Bu o'lchov birligi ko'pincha ichimliklar, dori vositalari, suyuq mahsulotlar va boshqa shu kabi narsalarning hajmini ko'rsatishda ishlatiladi.

Masalan:**500 ml suv** — yarim litr suv. **300 ml sharbat** — uchdan bir litrga yaqin sharbat.

Bu tushuncha, spirometriya jarayonida o'lchangan havo hajmlarini aniqlashda ham ishlatiladi. Spirometriya natijalarida o'lchangan havo hajmlari (masalan, 500 ml nafas olish hajmi yoki 1500 ml qo'shimcha havo) ham millilitrda ifodalanadi.

